- boshqaruv va tartibga solish (huquqiy baza, davlat makroiqtisodiy va innovatsiya siyosati, davlat-xususiy sherikchiligi, klaster boshqaruvi, bozor mexanizmlari va b.).

Mazkur sohalarning korxona va tashkilotlari, uning quyi tizimlari, bo‘g‘inlari va ularning o‘zaro aloqalari, ya’ni milliy innovatsion tizim tuzilmasini tashkil etgan holda, innovatsionlik va kreativlik darajasiga bog‘liq ravishda to‘liq yoki qisman MIT tarkibiga kiritiladi.



1-rasm: Agrosanoat majmuyini rivojlantirish omillari[6]

5 O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot. – T.: Konsaditin form-nashr. 2006. – 173 b.

6 Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich tomonidan “Mlliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish (Samarqand viloyati agrosanoat ishlab chiqarish korxonalari misolida)” mavzusida iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori doktori (phd) ilmiy darajasiniolish uchun tayyorlangan dissertatsiya, 2021-yil.

Mamlakatimiz fermer va dehqon xo‘jaliklarining asosiy muammolari birinchi navbatda moddiy va texnikaviy ta’minotda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar: mahalliy ishlab chiqaruvchilar fermer va dehqon xo‘jaliklari ehtiyojlariga javob beradigan kichik va o‘rta o‘lchamli uskunalarni yetarli darajada ishlab chiqarmaydilar, mavjud lizingkompaniyalari va mashinasozlik-traktor parklari ham to‘liq ehtiyojni qondira olmayaptilar.

Ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi fermer xo‘jaliklari yetarli darajada o‘z moliyaviy salohiyatlariga ega emaslar va kredit olish imkoniyatlari cheklangan. Buning sababi, xo‘jalik yuritish subyektlari kredit berish shartlariga yoki tegishli banklarning kredit resurslaridan samarali foydalanishga tayyor emaslar.

Uchinchidan, axborot va marketing xizmatlarining darajasi talabga javob bermaydi: ishlab chiqaruvchilarga nou-xau, muhandislik, texnologiya va umuman qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorlaridagi ma’lumotlar yetarlicha emas, soliq, bojxona, kredit tizimlarida bo‘layotgan o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar o‘z vaqtida amalga oshirilmaydi.

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun innovatsiya xizmatlar infratuzilmasi, shu jumladan, kam rivojlangan texnologiyalar transferi markazlari, innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo‘yicha trening, konsalting, sug‘urta va boshqa xizmat turlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Bunday sharoitda agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tartibga solishda davlatning roli muqarrar bo‘lib qolmoqda. Jahon tajribasi va amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, agrosanoat majmuyida barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish uchun uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita boshqarish orqali davlatning innovatsion jarayonda rolini faollashtirish lozim[7].

Muxtasar aytganda, innovatsion jarayonlar uchun yaratilgan imtiyozlar ta’siri ostida agrar ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi, o‘z navbatida, ayrim hududlarning iqtisodiy rivojlanish holati va istiqboliga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyat agrosanoat majmuasi va mintaqaviy rivojlanishning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday samarali natija iqtisodiy munosabatlarning yangi mexanizmlarini yanada institutsional tadqiq etish, mintaqaviy va xalqaro integratsiyalashuvni jadallashtirishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni.
2. Сепик Д. Индикаторы конкурентоспособности регионов: европейский подход // Регион: экономика и социология. - 2005.
3. Кофнер Ю. Ю. Становление новой экономики в России-зарубежный опыт и национальная стратегия. Патент-Евразия № 2(3), 2012.
4. Сепик Д. Индикаторы конкурентоспособности регионов: европейский подход // Регион: экономика и социология. - 2005.
5. Кофнер Ю. Ю. Становление новой экономики в России-зарубежный опыт и национальная стратегия. Патент-Евразия № 2(3), 2012.
7. Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich tomonidan “Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish (Samarqand viloyati agrosanoat ishlab chiqarish korxonalari misolida)” mavzusida iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori doktori (phd) ilmiy darajasiniolish uchun tayyorlangan dissertatsiya, 2021-yil.

7 Кофнер Ю. Ю. Становление новой экономики в России-зарубежный опыт и национальная стратегия. Патент-Евразия № 2(3), 2012.

O‘ZBEKISTON-TURKIYA DO‘STLIGI AZALIY QADRYATLARIMIZ ZAMINIDA YASHAB KELMOQDA



O‘sman Mesten
Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya-O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari

Maqolamni usmonlilarning ilk poytaxti, tarixiy sivilizatsiya va ma’naviyat shahri, avliyolar va sultonlar shahri Bursadan barcha mushtariylar hamda o‘zbek qardoshlarimga hurmat-ehtirom bilan salom yo‘llashdan boshlamoqchiman.

Muqaddas qadamjolari bilan Bursa Buxoroi Sharifning Anadoludagi davomi kabi kishiga ma’naviy oziqa beradi. Bursaning jahonda mashhur shaharga aylanishida Sayyid Amir Shamsiddin Buxoriy va sharif shahardan Bursaga kelib abadiy qo‘nim topgan, ilmiy faoliyat olib borgan ko‘plab aziz zotlarlarning hissasi katta.

Taxminan 700 yil avval ota-bobolari Toshkent va Buxoradan kelib, Anadoluda umrguzaronlik qilgan turk sifatida, ota yurt bilan aloqalarning yangidan tiklanishi meni juda quvontirmoqda. Bundan 5 yil avval Turkiya Oliy Majlisida Bursa shahri vakili sifatida faoliyat olib borayotganimda O‘zbekiston-Turkiya Do‘stlik guruhi rahbari vazifasi ham menga topshirilishi qalbimda juda katta hayajon uyg‘otgan yedi. Onasi asli buxorolik bo‘lgan, bizning milliy madhiyamizni yozgan shoir Mehmet Akif Ersoy:

“Bir vaqtlar biz ham millat, buyuk xalq bo‘lgan ekanmizki, Dunyoga madaniyat nima ekanligini o‘rgatgan ekanmiz”, – deya ta’kidlab o‘tganidek, men bu ulug‘ millatning bir vakili bo‘lish sharafiga muyassar bo‘lgan edim.

O‘z millatimning vakillik burchini ado etar ekanman, xizmatim mobaynida bu buyuk tarix va madaniyat ildizlari bilan aloqa o‘rnatish men uchun alohida g‘urur baxsh etar edi. Buning uchun Allohga qancha shukur aytsam ham oz.

2018-yil 27-sentyabrda Samarqand va Buxoro shaharlariga ilk tashrifimda o‘zimni vaqt mashinasiga tushib qolgandek his qilganman. Sababi, men shu choqqacha saqlanib muhofazaga olingan, yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan tarixiy obidalar orasida, xuddi ilk qurilgan zamonlardagi kabi, Buxoro bozorlarida savdolashayotgan savdogar, madrasada o‘qiyotgan talaba, dargohdagi murshiddan dars olayotgan darveshdek edim.

Mangulikka ochilgan eshiklardan oralab,
Kezdim, O‘zbekistonni hayotbaxsh suvdek ichib,
Bir shamol olib meni yaproqdek sovurardi,
Vujud ichida ruhim ko‘klarda som’e turardi.
Bilsangiz, do‘stlar, qanday qutlug‘ chog‘daman,
O‘ylaysizki, Yetti Pir degan qadamjodaman.
Afandidan hangoma, Navoiydan she’r tinglang,
Boshdan oxir hikmat yurti – Movarounahr.

Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Imom Marg‘iloniy, Imom Saraxsiy, Zamaxshariy, Taftazoniy kabi faqih, mufassir va muhaddislar, Bahouddin Naqshbandiy kabi buyuk zotlar, Alisher Navoiy kabi buyuk shoirlar, Xorazmiy, Beruniy, Farg‘oniy, Ibn Sino, Farobiy va Mirzo Ulug‘bek kabi diniy va dunyoviy ilmlarda daho bo‘lgan benazir allomalar tug‘ilib o‘sgan, ilm olgan va dafn etilgan bu o‘lka, haqiqatan meni o‘ziga rom qilib qo‘ygan edi.

O‘zimni xuddi vaqt va makon qa’riga sho‘ng‘ib ketgandek his qilar edim. Go‘yoki ota-bobolarimning tanasida Anadoluga kelgan men emasdek, abadiy o‘z ruhimni bu yerda qarshilagandek edim.

Keyingi tashriflarim chog‘ida O‘zbekiston Hukumati va ziyolilarining o‘z tarixi va madaniyatini yangidan tiklash yo‘lida astoydil harakat qilayotganliklariga guvoh bo‘ldim. Xalq esa o‘z urf-odatlari, an’analari, milliy madaniyatini qanday bo‘lsa shunday davom ettirayotganliklarini, bundan tashqari, ularning urf-odatlari va milliy madaniyatlari (qadriyatlari) bizniki bilan bir xil ekanligini ko‘rdim. Sobiq ittifoq zulmi va asirlik qariyb 130 yil davom etgan bo‘lsa ham, o‘zbeklarning milliy qadriyatlari, madaniyatlarini saqlab qolganliklarining guvohi bo‘ldim, bu meni juda quvontirdi.

O‘zbekiston ko‘zni qamashtiradigan go‘zalliklari, tarixiy va madaniy yodgorliklari bilan nafaqat Markaziy Osiyoning, balki dunyoning porlagan yulduzidir.

Muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun astoydil harakat qilmoqdalar.

Ulkan islohotlar samarasida mamlakat infratuzilma va ustki tuzilma kamchiliklarini tezda bartaraf etib, qishloq xo‘jaligi, sanoat, turizm, savdo-sotiq va barcha sohalarda jadallik bilan dunyoga keng quchoq ochmoqda. Dunyoga ochilayotgan O‘zbekiston, dunyodagi noaniq mafkuralar xuruji sharoitida o‘z milliy madaniy-moddiy merosini, qadriyatlarini saqlab, himoya qilib kelayotganining o‘zi sharafli ishdir.

O‘zbekiston faqatgina o‘z chegaralaridan iborat bir davlat emas. Chunki bu yurtda turkiy dunyo va keng Islom dunyosining yuragi uradi. Bu zamin, mamlakat jahon tarixida iz qoldirgan buyuk qahramonlar, olim va sanatkorlari tarafidan qurilgan, Turk-Islom madaniyatining tamal toshi qo‘yilgan diyordir. Bu buyuk madaniyatni qayta tiklash va barpo etish uchun O‘zbekistonni yangidan tiklash va barpo etish o‘ilida ulakan islohotlar olib borilayotgaiga guvohmiz.

Alloh Taologa hamdlar bo‘lsinki, Yangi O‘zbekiston bu ulug‘ yo‘lda ilg‘or qadam tashlab kelmoqda, provardida ko‘zlangan yuksak maqsadlariga etajagiga ishonamiz, ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Tarjimon: **Dildora Mo‘minova**

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH



Akkulov Abdulaziz Uralboyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari bayon etilgan. Maqolada turizm sohasini mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, bugungi kungacha bo‘lgan davrdagi jarayoni tahlil qilingan. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili bilan birgalikda muallifning innovatsion fikr-mulohazalari, xulosa va istiqbolli takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, xalqaro turizm, turizm infratuzilmasi, turoperator, turagent, xizmatlar iqtisodiyoti

Abstract: This article describes the mechanism of improvement of state support of tourism development in the Republic of Uzbekistan. The article analyzes the state of the tourism sphere of the republic from the first days of independence to the present day. In addition to the literature review on the subject, the author’s conclusions and suggestions are given in the article.

Key words: tourism, international tourism, tourism infrastructure, tour operator, travel agent, economy of services

Аннотация: В данной статье описан механизм совершенствования государственной поддержки развития туризма в Республике Узбекистан. В статье анализируется состояние туристической сферы республики начиная с первых дней независимости до сегодняшнего дня. Помимо литературного обзора по теме, в статье даны выводы и предложения автора.

Ключевые слова: туризм, международный туризм, инфраструктура туризма, туроператор, турагент, экономика услуг

KIRISH

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda turizm sohasini jadal rivojlantirish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 35-moddasida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda Respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan[1].

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida turizm ham boshqa xizmat ko‘rsatish sohalari kabi mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish vositasi sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, 2016-yildan boshlab mamlakatimizda turizm sohasiga iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish choralari ko‘rila boshlandi. Turizm sohasi iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida jahon turizm bozorini o‘rganish natijalariga asoslangan raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqishga, turizm xizmatlari, sohada strategik menejment va marketingni o‘z ichiga olgan boshqaruvning kreativ usullariga katta ehtiyoj sezmoqda. Shularni e’tiborga olgan holda, globallashuv jarayonida turizm sohasini barqaror rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati, vositalari va usullari, turizm tashkilotlari faoliyatini tartibga solish, tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, turizm sohasidagi davlat siyo-

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Lex.uz

satining asosiy yo‘nalishlari, turizm sohasini tartibga solishning asosiy vositalari va yo‘nalishlari bilan bog‘liq muammolarning ilmiy asoslari Eshtayev A. A., Demchenko D. N., Pardayev M. Q., Ramadonova M. M., Makarchenko M. A., Maxmudova M. R., Novichkov V. I., Polozkov M. Yu., Lebedov K. A., Xarris G., Kats K. M., Tuxliyev I. S.,Hayitboyev R., Safarov B. Sh., Tursunova G. R. asarlarida tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga suyangan holda, turizm sohasining rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish, turizm infratuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik borasida yechimini topmagan masalalarga doir izlanishlar amalga oshirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot tomonidan qo‘llanilgan metodologiya mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganish va ularni tahlil qilishga asoslandi. Tadqiqot davomida turizm sohasini rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, yakunlangan va hozirda olib borilayotgan tadqiqotlar o‘rganildi. Ushbu sohani o‘rganishga bag‘ishlangan ma’ruzalar, konferensiya materiallari, internet nashrlari va jurnallar, shuningdek, mavzu bo‘yicha yangi adabiyotlar va istiqbolli loyiha ma’lumotlari o‘rganilib, tahlil, sintez, tanqidiy fikrlash, umumlashtirish kabi usullar qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida turizm sohasining markazlashgan ma’muriy boshqaruv tizimi XX asrning oxiriga to‘g‘ri keldi. Bu davrda salbiy oqibatlar ham ko‘zga tashlana boshladi. Qurilmay qolgan turistik–rekreatsion maqsaddagi obyektlar soni ko‘paydi, mavjudlarida esa mijozlarga ko‘rsatilgan xizmatlarning sifati bo‘yicha ko‘plab e’tirozlar paydo bo‘la boshladi. Ijtimoiy tadqiqotlarga ko‘ra, mehmonxonalar, turizm bazalari, dam olish uylari hamda pansionatlar tomonidan taklif qilinadigan 50 foizgacha bo‘lgan barcha xizmatlar fuqarolarning noroziligini keltirib chiqargan. Joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari bilan birga, hordiq chiqarish va tibbiy xizmat ko‘rsatish talab darajasida bo‘lmagan. Turizm xizmati turlari va hajmi sezilarsiz hamda sifatsiz bo‘lgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, turizm sohasidagi rivojlanishini shartli ravishda beshta bosqichga ajratsak bo‘ladi.

Birinchi bosqich. 1991-yildan keyin milliy turizm xizmatlar bozori shakllana boshladi. Aynan shu davrda respublika o‘zining iqtisodiy mustaqilligini va mustaqil ravishda tashqi dunyo bozorlariga chiqishini e’lon qildi. Shu davrda qabul qilingan “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun turizm xizmatlarini sotuvchi tashkilotlarga yangi imkoniyat yaratdi. Natijada sohada yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, turizm biznesini yuritishga yordamlashadigan qo‘shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatlarda turizm sohasining mintaqaviy bo‘linmalarini tuzish, xalqaro miqyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiylashtirilgan turizm tashkilotlarini litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e’tibor berildi. Mustaqillikdan keyin turizm sohasida bir vaqtning o‘zida uchta muhim jarayon amalga oshirildi:

- turizm xizmatlariga taklifni shakllantirish tamoyillari erkin bozor iqtisodiyoti mezonlariga moslasha boshlagach markazlashgan tizimdagi ekskursiya va sayohat byurolari faoliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruriyati yuzaga keldi;
- turizm faoliyatini yurituvchi (turoperator va turagent sifatida) xususiy korxonalar tuzila boshladi;
- turizm mahsulotlarini taqdim etishdagi ta’minot zanjiri uzilgach, iste’molchilar uchun yangi “o‘yinchilar” xizmatlarini taqdim etishda yangi tizimga o‘tish davri boshlandi.

1992-yilda mavjud tizim tashkilotlari negizida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tashkil etilib, turizm sohasida barcha tashkiliy, boshqaruv va muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshira boshladi. 1993-yilda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Butunjahon Turizm Tashkilotiga (BTT) haqiqiy a’zo bo‘lib kirdi. 1994-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda O‘zbekiston Hukumatining tashabbusi bilan Samarqand shahrida Buyuk Ipak yo‘lidagi shaharlarda xalqaro turizmni rivojlantirish bo‘yicha Samarqand Deklaratsiyasi qabul qilindi.

1994-yilda ishlab chiqilgan “Turistik korxonalarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi” chuqur tizimli-institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994–1995-yillar mobaynida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasining 87,8 foiz turizm obyektlari xususiylashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarildi.

Amalga oshirilgan o‘zgarishlar turistlarni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-iyunda qabul qilingan “Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–1162-sonli Farmoni[2] Buyuk Ipak yo‘lida turizm mahsulotlarini tiklash borasida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonning turizm sohasidagi islohotlarining ikkinchi bosqichini

2 https://lex.uz/uz/docs/–182051

boshlab berdi. Natijada, Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan shaharlar va turizm manzillari ro‘yxatga olindi, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Moturidiy, Mahdumi A’zam, Hakim at-Termiziy, Hazrati Imom, Shayx Shamsiddin Kulol, Burxoniddin Marg‘iloniy kabi allomalarimizning maqbaralari ta’mirlandi va ziyoratgoh majmualarga aylantirildi. 1998-yildan boshlab, Toshkent shahrida muntazam ravishda Xalqaro turizm yarmarkasi tashkil etila boshlandi, mehmonxonalardagi xalqaro talablarga javob beruvchi o‘rinlar soni 4,8 barobarga ko‘paytirildi. Bu bosqichda turizm sohasida quyidagi muhim masalalar amalga oshirildi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni amalga oshirildi va yangi xorijiy investorlar jalb qilindi;
- tashqi bozorlarga chiqishning yangi yo‘llari izlandi, xususan, xalqaro ko‘rgazmalarda tizimli ishtirok etish yo‘lga qo‘yildi (Berlin, London, Madrid, Moskva);
- turizm tashkilotlari va sayyohlarning manfaatlarini ifodalovchi nodavlat tashkilotlar vujudga keldi;
- turizm yo‘nalishlarining jozibadorligini ta’minlash, mahsulotning ekologik talablarini kuchaytirish, yangi hududlarda turizm uchun diqqatga sazovor joylar tashkil etish yo‘lga qo‘yildi;
- O‘zbekiston mehmonxonalarini boshqarishda xorijiy menejment qo‘llanila boshladi;
- kichik xususiy mehmonxonalar tarmog‘i kengaytirildi;
- o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichida mehmondo‘stlik va turizm sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash yo‘lga qo‘yildi;
- xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda ilmiy loyihalarni tayyorlashga e’tibor qaratildi;

Butunjahon turizm tashkilotining tadqiqot guruhini O‘zbekistonga tashrifi va “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunni tayyorlash borasida ishlar amalga oshirildi;

Turizm bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning “Ustoz”, “Meros”, “Ekosan” kabi nodavlat va korporativ tashkilotlar bilan aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

Turizm sohasidagi islohotlarning uchinchi bosqichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 15 apreldagi “2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–2286-sonli Farmoni e’lon qilindi. 1999-yilning 20-avgustida esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ilk bor “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo‘lga qo‘yildi hamda xalqaro bozorda raqobatbardosh turizm mahsulotlari yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo‘yildi. Ko‘pchilik turizm obyektlari o‘zlarini mustaqil ravishda boshqara boshladi, xizmatlar bozorida raqobatlasha olmaydigan tashkilotlar yopilib, ularning o‘rniga samarali ishlovchi yangi turizm tashkilotlari tashkil etildi.

Turizm sohasidagi islohotlarning to‘rtinchi bosqichi 2005-yildan boshlangan bo‘lib, bu davrda soha bir qadar turg‘unlik davrini boshidan kechirdi, bir vaqtning o‘zida ham boshqaruv organi ham tijoriy tizimlarga egalik qiluvchi davlat kompaniyasi maqomidagi “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasining boshqaruvida inqiroz davri yuzaga keldi, tashkiilotni moliyalashtirishdagi muammolar, xodimlar sonining tobora qisqarib borishi, sayyohlar harakatlanishining qiyinlashishi O‘zbekistonning turizm bozoridagi ahamiyatining pasayishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4861-sonli Farmoni tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, turizm sohasini iqtisodiyotda ilk bor strategik sektorga aylantirish choralari ko‘rildi, natijada O‘zbekistonda turizmning xorijiy hamda ichki turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi yondosh sohalari va tarmoqlarining rivojlanishini ta’minlashda milliy turizm sohasining yangi beshinchi bosqichi boshlandi.

O‘zbekistonda turizm sohasining strategik tarmoqqa aylantirish choralari ko‘rilishi bilan ushbu sohani jadal rivojlantirishda uni yetakchi kuchga aylantirishga, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishga, ish bilan bandlikni ta’minlashga, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga e’tibor qaratildi.

Natijada O‘zbekistonda 2016–2023-yillarda turizm sohasida juda ko‘p yangiliklar kuzatildi: turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan farmon va qarorlar, xalqaro va mahalliy tadbirlar, yangi ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, turistlar oqimining oshishi, yangi turizm mahsulotlari, yangi yo‘nalishlarni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirishga oid sa’yi-harakatlar, xorijiy investorlarni jalb qilish, OAV vakillarining tashriflari hamda O‘zbekistonning ko‘plab xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashi shular jumlasidandir.

Sohani jadallik bilan rivojlantirishga qaratilgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 10 ta bob, 45 ta moddadan iborat “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari va bir qator qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur sohani rivojlantirishga tegishlidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida berilgan ma'lumotlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni muntazam amalga oshirib borish lozim:

- sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida asosiy e'tiborni sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirishga hamda sayyohlar oqimini rag'batlantirishga oid choralar ustuvor bo'lishini ta'minlash;
- turizm sohasidagi vakolatli boshqaruv idorasining vazifa va funksiyalarini aniq belgilash orqali davlat va biznes orasidagi munosabatlarda shaffoflikni ta'minlash, davlat aralashuvini minimallashtirish;
- turizm sohasidagi vakolatli boshqaruv idorasining turizmning istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirish choralarini ko'rish va shu orqali mavsumiylik muammosini bartaraf etish asosida turizm biznesidagi barqarorlikni ta'minlashga intilish;
- davlat boshqaruvi idoralari va turizm biznesi orasidagi munosabatlarni raqamlashtirish orqali sayohatlarni tashkil etishdagi byurokratik to'siqlarni minimallashtirish;
- sohada jamoat tashkilotlari rolini oshirish orqali turistlar va turizm biznesi orasidagi "ko'prik"ni yaratish asosida doimiy sifatni oshirish choralarini ko'rish;
- jahon turizm bozoridagi tendensiyalarni kuzatib borish, tahlil qilish orqali biznesni kelgusidagi risklardan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan imkoniyatlardan xabardor qilib borish.

Xulosa qilib aytganda, davlatning turizm sohasini tartibga solish vazifasini xorijiy tajriba, amaldagi ish jarayoni tahlili asosida sohani yanada rivojlantirishga ko'maklashish jihatidan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirib borish, turizm infratuzilmasini shakllantirishga ustuvorlik berish, turizm biznesida davlat aralashuvini cheklash, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari ko'magida davlatning ijobiy qiyofasini yuksaltirib borish, turistlar xavfsizligini ta'minlash, xalqaro, tan olingan reytinglar mezonlarini bajarishni ta'minlash orqali sohani barqaror rivojlanishini ta'minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–4861-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PQ–3514-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 5-yanvardagi PF–5611-son Farmoni.
4. Alisher, Eshtaev. "Innovative marketing strategy for tourism development." World Scientific News 88.2 (2017): 58–68.
5. Eshtayev, Alisher Abdug'aniyevich. "Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida)". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand (2019).
6. Abdurakhmanov, Kalandar Khodzhaevich, and Alisher Eshtaev. Management & Marketing of Tourism: Tutorial. UCSI Publishing House, 2013.
7. Eshtayev, Alisher. "O'zbekiston respublikasida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari." Ekonomika i innovatsionnye texnologii 4 (2021): 391–397.
8. Eshtayev, Alisher Abdug'aniyevich. "Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida)." Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand (2019).
9. Pardayev M. D., Ataboev R. Turizm asoslari. – SamISI. – Samarkand, 2006.
10. Рамадонова, Мадина Мамадазимовна, and Марина Арнольдовна Макарченко. Государственное регулирование туристической деятельности. // Альманах научных работ молодых ученых университета ИТМО. 2016.
11. Тухлиев, И. С., Д. З. Норкулова, and С. А. Абдухамидов. "Возможности эффективного применения геоинформационной системы в развитии регионального туризма". Индустрия туризма: возможности, приоритеты, проблемы и перспективы 13.S (2018): 138–143.
12. Rustamovich, Dehganov Burkhan. "Financing Domestic Tourists and Export of Tourism Services." Fan, Ta'lim, Madaniyat Va Innovatsiya 2.3 (2023): 35–37.
13. Qudratov, G'. X., and I. S. Tuxliyev. "Turizm iqtisodiyoti". SamISI., S (2007).
14. Тухлиев, И. С. Структура стратегического планирования регионального туризма в условиях цифровой экономики. // Проблемы устойчивости развития социально-экономических систем. 2022.
15. Асланова, Д. Х., Б. Ш. Сафаров, and А. Хайруллаев. "Роль инноваций, и их значение в инвестициях на рынке туристских услуг в Узбекистане". Экономика и бизнес: теория и практика 3 (2016): 18–22.
16. Xolmatov, B. T., G. R. Karayev, and B. A. Tursunov. Jizzax viloyatida ekoturizni rivojlantirish istiqbollari. // Uchenыy XXI veka 3–3 (16) (2016): 57–60.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH ISTIQBOLLARI. MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



Mirzayev Bexruz Abdulla o‘g‘li
I. Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti doktoranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonni “yashil” iqtisodiyotga o‘tish istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Respublikaning hozirgi iqtisodi tahlil qilinib unda yuzaga kelayotgan muammolar o‘zagi aniqlangnan hamda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha muallif tomonidan sohalar kesimida aniq takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: “Yashil” texnologiya, “yashil” iqtisodiyot,“yashil” o‘sish, barqaror rivojlanish, “yashil” moliyalashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejamkor, energiya samaradorlik, “yashil” energiya.

Abstract: The article examines the prospects for the transition of Uzbekistan to a “green” economy.The current economy of the Republic has been analyzed and the problems facing it have been identified in the core and the author has made specific proposals in the cross section of the areas to eliminate these problems by moving to a “green” economy.


Key words: The key words. “Green” technologies, “green” economy, “green” growth, sustainable development, “green” financing, renewable energy sources, energy efficiency, energy conservation, “green” energy.

Аннотация: В статье рассматриваются перспективы перехода Узбекистана к “зеленой” экономике. Была проанализирована текущая экономика республики, выявлены основные проблемы, с которыми она сталкивается, и автор внес конкретные предложения в разрезе областей по устранению этих проблем путем перехода к “зеленой” экономике.

Ключевые слова: “Зеленые” технологии, “зеленая” экономика, “зеленый” рост, устойчивое развитие, “зеленое” финансирование, возобновляемые источники энергии, энергоэффективность, энергосбережение, “зеленая” энергия.

KIRISH

XXI asrda dunyo hamjamiyati oldida jahon iqtisodiyotini rivojlanishi bo‘yicha bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Jahon iqtisodiyotining shiddat bilan rivojlanish davrida insonlarni yaxshiroq sharoitga intilishi sababli kundan kunga mahsulotlar va xizmatlarga talab ortib bormoqda. Ortib borayotgan talabni qoniqtirish maqsadida ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida doimiy ravishda o‘sish kuzatilyapti. Ammo hozirgi jahon iqtisodining shakliga qaraydigan bo‘lsak, u asosan qazilma yoqilg‘ilarga asoslangan bo‘lib, bu faoliyat natijasida atrof-muhit katta zarar ko‘rmoqda. Shuningdek, yoqilg‘ilarning samarasiz ishlatilishi natijasida qazilma yoqilg‘ilar qazib chiqarish hajmi yildan yilga kamayib borayotgan bo‘lsa-da, ularga bo‘lgan talab haligacha yuqori bo‘lib turibdi. Shu sababli dunyo bozorida qazilma yoqilg‘ilar narxi kun sayin o‘sishi kuzatilmoqda. Albatta hozirgi zamonda barcha ishlab chiqarish korxonalari qazilma yoqilg‘ilar hisobidan ishlashlari sababli ularning narxi ko‘tarilishi mahsulot tan narxiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Bundan tashqari, insonlarning hozirgi qazilma yoqilg‘ilarga asoslangan iqtisodiyotdagi faoliyati natijasida atmosferaga doimiy ravishda katta miqdorda issiqxona gazlari (IG) tashlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, iqlim o‘zgarishi sabab bo‘ladi va uning oqibatida qurg‘oqchilik, yer degradatsiyasi, ko‘chatlarning nobud bo‘lishi, ekin yerlarining qisqarib qurishi va shuningdek, boshqa ijtimoiy muammolarni keltirib chiqmoqda. Yuqoridagi muammolar sababli mavjud jahon iqtisodiyot modeli barqaror emasligi ma’lum bo‘ldi va rivojlanish maqsadlarini qaytadan qo‘rib chiqish zarurati tug‘ildi va tez orada eng yaxshi yo‘l “yashil” iqtisodiyotga o‘tish ekanligi ma’lum bo‘ldi.



1-rasm: Barqaror rivojlanish Konsepsiyasi

Avvalambor dunyo hamjamiyati tomonidan barqaror rivojlanish masalasi ko‘tarildi. Birinchi marta 1987-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti komissiyasi tomonidan barqaror rivojlanishning aniqroq ta’rif berildi: “Barqaror rivojlanish – bu kelajak avlodlarning hayotiga xavf tug‘dirmasdan zamonaviy avlod ehtiyojlarini qondiradigan rivojlanishdir”, “Yashil” iqtisodiyot tushunchasi birinchi marta 1989-yil faoliyatga kiritilgan bo‘lib, Barqaror rivojlanish asosiy uch yo‘nalishni o‘z ichiga oladi, bular iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalardir. Barqaror rivojlanish uchun bu yo‘nalishlarning har biriga katta e’tibor berish lozim.1992-yilda Rio-Dejaneyroda BMTning “Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiya”sida “XXI asr kun tartibi” qabul qilindi. Ushbu Hujjatda Barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida “yashil” iqtisodiy siyosat choralari e’lon qilindi. “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi tamoyillari asosida iqtisodiy o‘sishga qaratilgan e’tibor “yashil” o‘sish tushunchasini dunyoga keltirdi. “Yashil” o‘sish konsepsiyasi birinchi marta 2005-yilda taklif qilingan. 2009-yildagi BMTning atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan butun jahon krizisidan chiqish maqsadida taklif etilgan “Global “yashil” yangi yo‘nalish” konsepsiyasida o‘rin olgan. Shundan so‘ng 2012-yil Rio+20 konferensiyasida hukumatlar “yashil” iqtisodiyotni barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqishga kelishib oldilar, uning o‘ziga xos xususiyati inklyuziv tabiati va iqtisodiy o‘sish, bandlik va kambag‘allikni tugatishga qilishga ko‘maklashish qobiliyatlari sayyoramiz ekotizimlarining normal ishlashini ta’minlaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uning natijasida iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash dunyo hamjamiyati oldidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Keling endi dunyo adabiyotlarida “yashil” iqtisodiyotga berilgan ta’riflarni ko‘rib ularni tahlil qilib chiqsak.

TADQIQOT METODIKASI

Mavzuga oid adabiyotlarni ko‘rib chiqish, respublikaning hozirgi holatini tahlil qilish natijasida sohalar kesimida muammolarni aniqlab olish, muammolarning kelib chiqish sababini aniqlab olgan holda sohalar kesimida aniq takliflar berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Yashil” iqtisodiyotning juda ham ko‘p ta’riflari mavjud bo‘lib, biroq asosiy ta’riflar BMTning atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan berilgan uning “Yashil” iqtisodiyot sari” hukumat tuzilmalari vakillari uchun qisqacha hisobotida shunday deyilgan: “Yashil” iqtisodiyotni odamlarning farovonligini yaxshilaydigan va ijtimoiy adolatni ta’minlaydigan iqtisodiyot sifatida belgilaydi, shu bilan birga, atrof-muhit va kambag‘allik uchun xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi”. Shuningdek, UNEP boshqa ma’ruzasida “Yashil” iqtisodiyot – kam uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiyot, deb ta’riflagan [1]. UNEPning 2009-yildagi yillik hisobotida

aytilishicha, “yashil” iqtisodiyot – tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq iqtisodiy chora-tadbirlar tizimi bo‘lib, kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavf-xatarlarga yoki atrof-muhit tanqisligiga duchor qilmasdan, uzoq muddatda inson farovonligining oshirishga xizmat qiladi [2]. Bir guruh nodavlat tashkilotlar tomonidan yaratilgan “Yashil” iqtisodiyot koalitsiyasi quyidagi ta’rifni beradi “yashil” iqtisodiyot bu sayyoramizning ekologik cheklovlari ostida hayotning yuqori sifatini ta’minlaydigan moslashuvchan iqtisodiyot [3]. BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasining “Rio+20 ga yo‘l” maqolalari to‘plamida “yashil” iqtisodiyot iqtisodiy o‘sish va ekologik mas’uliyat, bir-birini o‘zaro mustahkamlaydigan, shu bilan birga, taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlaydigan iqtisodiyot sifatida tasvirlangan ijtimoiy rivojlanish, deyiladi [4].

2011-yil 7–8-mart kunlari bo‘lib o‘tgan BMTning “Barqaror rivojlanish” bo‘yicha konferensiyaga tayyorgarlik qo‘mitasining Ikkinchi sessiyasida “yashil” iqtisodiyot bir vaqtning o‘zida iqtisodiy va ekologik maqsadlarga erishish uchun kerakli vaqtdan foydalanishga qaratilganligi ta’kidlandi [5]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan berilgan ta’rifda “yashil” iqtisodiyotning moliyaviy va tarmoq konteksti ta’kidlangan: “Yashil” iqtisodiyot – bu barqaror rivojlanish va kambag‘allikni yo‘q qilishga hissa qo‘shadigan ekologik ahamiyatga ega sohalarga investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini birlashtirgan tushuncha ta’riflanadi [6].


UNEPning 2011-yildagi “Yashil” iqtisodiyot sari nomli hisobotida “yashil” iqtisodiyot – bu inson farovonligining yaxshilanishiga va tengsizlikning kamayishiga olib keladigan, shu bilan birga, kelajak-avlodlarni muhim ekologik xavf va ekologik tanqislikka duchor qilmaydigan iqtisodiyot. Bunday iqtisodiyot ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan qisqa muddatli chora-tadbirlar natijasida uzoq muddatli ijtimoiy nafaqalarni olishga qaratilgan. “Yashil” iqtisodiyot barqaror rivojlanish maqsadiga erishishga yordam beradi deyilgan [7]. Rossiyaning Butunjahon yovvoyi tabiat fondi esa “yashil” iqtisodiyotni quyidagicha ta’riflaydi: bu ijtimoiy farovonlik va adolat ta’minlanadigan iqtisodiyot, shu bilan birga, atrof-muhit uchun xavflar va ekologik tanqislikni minimallashtiradi. Bunday iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish va uglevodorodlardan minimal darajada foydalanish bilan imkon qadar qamrab olinadi. “Yashil” iqtisodiyotda bandlik va daromadlarning o‘sishi CO_2 chiqindilarini kamaytirishga, resurslar va energiya samaradorligini oshirishga, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarini yanada pasayishining oldini olishga yo‘naltirilgan investitsiyalar orqali ta’minlanishi kerak [11].

Yuqorida keltirib o‘tilgan ta’riflardan shu narsani xulosa qilamizki “yashil” iqtisodiyot – bu kelajak avlod hayotini xavf ostiga qo‘ymasdan hamda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda tabiiy resurslardan samarali foydalanib uzoq muddatli barqaror rivojlanish demakdir. “Yashil” iqtisodiyot tabiiy resurslardan foydalanishdan kechishni emas ulardan samarali foydalanishga ko‘proq urg‘u beradi. Energetika sohasida esa qazilma yoqilg‘ilar o‘rniga ko‘proq qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga va energiya samaradorlikni oshirishga chaqiradi. Bunday iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sish atrof-muhitga zarar yetishi evaziga bo‘lmasligi lozim. Sanoat va energetika sohalarida IGning atmosferaga tashlanishi minimal darajada bo‘lishi kerakligi va chiqarilayotgan IG miqdori daraxtlar va gazlarni yutuvchi o‘simliklar bilan tenglashtirilishi lozim. Bunday iqtisodiy model O‘zbekiston uchun juda mos hisoblanadi. Sababi O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi oqibatidan eng ko‘p aziyat chekayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Energetika sohasining asosiy qismi qazilma yoqilg‘ilarga asoslangan va sanoatda energiya samaradorligi juda past. Shuningdek iqlim o‘zgarishi suv tanqisligi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda bu esa o‘z navbatida ekin maydonlarini kamayishiga, yerlarning degradatsiyaga uchrashiga va mahalliy aholi hayot tarzida qiyinchiliklarga uchrashiga olib kelmoqda. Keling endi O‘zbekistonning hozirgi holatini tahlil qilib ko‘ramiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga juda ham ta’sirchan davlatlar qatoriga kiradi. Shu sababli iqlim o‘zgarishi natijalarini yumshatish chora-tadbirlari ko‘rilmasa respublika suv tanqisligi ortishi, qurg‘oqchilik, cho‘llanish darajasi oshishi, yer degradatsiyasi kabi muammolarga duch kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida ekinzorlar kamayishi, daraxt va o‘simliklar qurishi ko‘payishi, dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan aholi qatlami orasida ishsizlik ortishi, meva va sabzavotlar yetishtirish kamayib ketishi va boshqa yangi muammolarga olib keladi. Bundan tashqari Orol dengizining qurishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun juda katta falokat bo‘ldi.

“Yashil” iqtisodiyotning asosiy maqsadlaridan biri iqlim o‘zgarishini oldini olish va iqlim o‘zgarishi natijasini iqtisodiyot tarmoqlariga ta’sirini kamaytirish hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishini asosiy sababi atmosferaga IGni haddan ziyod tashlanishi bo‘lgani sababli ularni qisqartirish iqlim o‘zgarishini oldini olish. Shu sababli iqtisodiyot tarmoqlarini dekarbonizatsiya qilish “yashil” iqtisodiyotning yana bir asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekistondagi holatni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak Gidrometeorologiya agentligining 2021-yildagi hisobotida 2017-yilda respublikada umumiy hisobda 189,2 mln. tonna CO_2 ekv. teng IG atmosferaga tashlangan bo‘lib shuning 76.3 foizi energetika sohasiga to‘g‘ri kelgan [9]. Ikkinchi o‘rinni 17,8 foiz bilan qishloq xo‘jaligi 4,5 foiz bilan sanoat egallamoqda. Ko‘rib turganingizdek IGning asosiy manbasi bu energetika sohasi hisoblanadi.




2-rasm: 2017-yilda O'zbekistonda IGning atmasferaga tashlanish holati

Energetika sohasiga keladigan bo'lsak respublikada 2022-yilda 76 mln. kVs. elektr energiya ishlab chiqarilgan bo'lsa uning 80 foiz qismi issiqlik elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan. O'zbekistondagi issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg'i sifatida asosan tabiiy gaz ishlatiladi va juda ham kichik qismi ko'mir va neft mahsulotlarini ishlatish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli issiqlik elektr stansiyalari faoliyati davomida atmosferaga juda katta hajmida IG tashlanadi. IG atmosferaga tashlanishining 63 foizini tashkil qiladigan asosiy 5 ta yo'nalishlar aynan energetika sohasiga to'g'ri keladi. Bular:

- neft va gaz sanoatidagi gaz tizimlaridan chiquvchi metan chiqindilari (22,7%);
- elektr ishlab chiqarishda yoqilg'i yonishidan SO_2 chiqindilari va issiqlik energiyasi (13,3%);
- sanoat tarmoqlarida yoqilg'i yonishidan SO_2 chiqindilari va qurilish (10,0%);
- chorvachilikning ichak fermentatsiyasidan metan chiqindilari (9,4%);
- turar-joy sektorida yoqilg'i yonishidan SO_2 chiqindilari (8,4%) [9].

Bundan tashqari ushbu stansiyalarning katta qismi Sovet ittifoqi davrida qurilgan bo'lib energiya samaradorligi juda ham past. Elektr energiya taqsimotida ham ayni shu muammolar mavjud bo'lib taqsimlovchi tarmoqlar, taqsimlovchi stansiya va podstansiyalar hamda transformatorlarning katta qismining ekspluatatsiya davri 30 yildan yuqori. Shu sababli tizimda elektr bilan ta'minlashda juda katta yo'qotishlar mavjud. Bu muammolarni barini bartaraf qilish esa juda katta investitsiyalarni jalb qilishni talab etadi. Elektr energiyasi narxlari erkinlashtirilmaganligi sababli narxlar pastligi seziladi va buning oqibatida respublikada elektr energiyasini tejashga bo'lgan motivatsiya deyarli yo'q. Shu sababli har yili elektr energiyasini subsidiyalash zarurati mavjudligi sababli sohaga qo'shimcha investitsiyalar kiritish imkoniyati juda past.



3-rasm: Elektr tarmoqlarining holati (2019-y.) [88]

Isitish tizimida ham muammolar yetarli ayniqsa 2023-yilning boshida bo'lgan qahraton qish muammolarni yanada ochiqladi. Bu holatdan shu narsa ma'lum bo'ldiki katta shaharlarda tizim anchayin samarasiz. Sababi markazlashgan isitish tizimi eski va isitilgan suv stansiyadan to xonadonlarga yetib kelguncha issiqlik yo'qo-

tishlar ko‘pligi sababli kerakli haroratda kirib kelmaydi. Shuningdek ko‘p qavatli uylar va xonadonlarning energiya samaradorligi pastligi sababli issiqlikni ushlab turish imkoni yo‘q. Buning natijasida aholi tomonidan qo‘shimcha isitish moslamalari tarmoqqa ulanganligi sababli yuklanish ortdi va tarmoqqa yuklanish ortgani sababli avariya holatlari yuzaga keldi. Yakka tartibdagi xonadonlarning ham 90 foizi tabiiy gaz orqali isitiladi va ularning ham energiya samaradorligi juda pastligi sababli qish mavsumida tabiiy gazga bo‘lgan talab bir necha barobarga oshadi natijada unga bo‘lgan talab taklifdan oshib ketgani sababli avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari yopildi.

Shuningdek iqlim o‘zgarishi oqibatida qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligi katta zarar ko‘rishi mumkin. Suv hajmining qisqarishi natijasida suv yetishmovchiligi yanada oshishi prognoz qilinmoqda. Prognozlarga ko‘ra suv tanqisligi 2005 yilda 2 mlrd. m^3 ni tashkil qilgan bo‘lsa 2030-yilda defitsit 7 mlrd. m^3 ni, 2050-yilda 13 mlrd. m^3 ni tashkil qilishi kutilmoqda. Buning natijasida qishloq xo‘jaligi katta zarar ko‘radi va respublikaning asosiy eksport mahsulotlaridan biri bo‘lgan paxta mahsuloti ishlab chiqari 10–13 foizga tushib ketadi. Shuningdek ekin yerlari kamayishi natijasida oziq-ovqat mahsuloti yetishmovchiligi yuzaga keladi bug‘doy yetishtirish 10–13 foizga tushib ketishi kutilmoqda [10]. Suv tariflari past ekanligi va suvni ishlatishda hech qanday norma va cheklovlar mavjud bo‘lmaganligi sababli aholi va dehqonlanr hamda sanoat korxonalarida suv ishlatishda isrofgarchilik holati yuqori. Suv xo‘jaligi vazirligining ma’lum qilishicha suvni tejash uchun tomchilab sug‘oruvchi tizimlarni keng joriy qilish maqsadida respublikadagi fermerlarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat byudjeti hisobidan yiliga 1 trln. so‘mgacha subsidiya mablag‘lari ajratilgan. Ammo suv resurslariga fermerlar uchun hech qanaqa cheklov mavjud emasligi sababli bu tizimlar keng joriy etilmagan.

Qurilish va urbanizatsiya sohalari ham maqtansa bo‘ladigan darajada emas. O‘zbekistonda hozirda mavjud ko‘p qavatli uylar va yakka turdagi xonadonlarning energiya samaradorligi past. Yangi uylarni qurishda qonunchilik tomondan “yashil” mezonlar inobatga olinmaganligi bu yo‘nalishda hech qanday o‘zgarishlar kuzatilmayapti. Faqat gina sanoqli yangi qurilgan uylan isitish qoplamalari bilan qoplanmoqda. Yangi qurilayotgan shaharlarda yashillik darajasi juda pas bo‘lib mavjud shaharlarning ham yashillik darajasi yildan yilga tushib ketmoqda. Shaharlarni yoritish tizimi uchun juda ko‘p elektr energiya sarflanadi. Transport sohasini oladigan bo‘lsak mamlakatdagi yengil aftomobillarning 98 foizi neft mahsulotlari yoki tabiiy gazda harakatlanadi. Shuningdek ularning katta qismi yoqilg‘i sarflash darajasi yuqori. Eng katta muammo shundaki aholi jamoat transportidan foydalanishdan ko‘ra ko‘proq shaxsiy aftomobillaridan foydalanishni afzal ko‘rishadi. Faqatgina shaxsiy aftomobilga ega bo‘lmagan aholi qatlami jamoat transportidan foydalanadi. Jamoat transportining ham katta qismi neft mahsulotlari va tabiiy gazda harakatlanadi faqatgina katta shaharlarda kam miqdorda elektrobuslar mavjud. Temir yo‘llar orqali yuk tashish tizimi rivojlanmaganligi sababli yuk tashish sohasida yuq mashinalari peshqadam hisoblanadi.

Yana bir muammoli sohalardan biri bu chiqindilar hisoblanadi. Qonunchilik palatasi deputati Baxitbay Aldamuratovning ma’lum qilishicha O‘zbekistonda bir yilda 14–14,5 mln. tonna qattiq maishiy chiqindilar hosil bo‘ladi [12]. Aholi o‘rtacha 1,5 foizga ko‘payish sur’atini hisobga olganda, ushbu ko‘rsatkich 2028-yilga kelib 16–16,7 mln. tonnaga yetishi mumkin. Ammo respublikada ushbu chiqindilarning faqatgina 40 foizigacha bo‘lgan qismi qayta ishlanadi va qolgan qismi poligonlarga tashlanadi.

O‘zbekistonni iqtisodiyot o‘sishiga to‘xtaladigan bo‘lsak Statistika agentligi saytidagi ma’lumotlarga ko‘ra o‘rtacha yillik o‘sish 5,5 foizni, 2023-yilda esa prognoz bo‘yicha 5,6 tashkil qilmoqda. Bunda sanoat 105,6, qishloq xo‘jaligi 103,8, investitsiyalar 107,9, qurilish 104,8, xizmatlar 112,3 foizni tashkil qilishi kutilmoqda [13]. Biroq O‘zbekiston iqtisodiyoti qazilma resurslarga asoslanganligi sababli yaqin kelajakda bu borada qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. So‘nggi yillarni O‘zbekistonda tabiiy gaz qazib olish hajmi qisqargan bo‘lib, qazib olinayotgan tabiiy gaz hajmi talabdan past holatda. Shu sababli respublika 2023 yildan boshlab Rossiya federatsiyasidan gaz importini yo‘lga qo‘ymoqda. Agar joriy yilda qabul qilingan “O‘zbekiston 2030” strategiyasidagi maqsadlarga qaraydigan bo‘lsak 2030-yilda YaIMni 160 mlrd.dollarga chiqarish belgilangan. Buning natijasida respublikada gaz iste’moli 80 mlrd.m3ni tashkil etishi kutilmoqda [14]. Bu raqam esa respublikada qazib chiqariladigan tabiiy gaz ko‘rsatgichidan ancha yuqori. Shu sababli hozirgi respublikadagi iqtisodiy o‘sishni inobatga oladigan bo‘lsak mamlakat yaqin kelajakda tabiiy gaz masalasi bo‘yicha boshqa davlatlarga qaram bo‘lib qolishi mumkin.

TAKLIFLAR

Iqlim o‘zgarishini oldini olish va sanoatni dekarbonizatsiya qilish: Issiqxona gazlari chiqarilishini cheklovchi qonun hujjatini qabul qilish, atmosferaga belgilangan normadan ortiq chiqarilgan IG uchun kompensatsiya tariflarini oshirish, mamlakatda jahon standartlariga mos Monitoring, hisobot va tekshiruv MRV tizimini keng joriy qilish, mahalliy va xalqaro miqyosida IG emissiyasi savdosini Carbon trade tizimini yo‘lga qo‘yish. IG emissiyasi savdosi tartiblari va mexanizmlarini ishlab chiqish, uglerod kvotalari kadastri, reestrini joriy qilish.

Iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish: Aholini barcha qatlami uchun iqlim o‘zgarishi haqidagi ma’lumotlarni ochiqlash va ularni xabardorligini oshirish, xavfli hodisalar to‘g‘risida erta ogohlantirish tizimini joriy qilish va iqlim xavflarini nazorat qilish, iqlim o‘zgarishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklarni paydo bo‘lishi va kuchayishini oldini olish, iqlim o‘zgarishiga yuqori ta’sirchan aholi qatlamini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Energetika sohasini takomillashtirish: Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish, aholini kambag‘al qatlamini inobatga olgan holda elektr energiya narxlarini erkinlashtirish, aholi tomonida elektr energiyadan foydalanishi uchun ijtimoiy normalar ishlab chiqish, elektr energiya ishlab chiqarishda shamol, quyosh, gidro, geotermal elektr stansiyalar sonini oshirish, aholi tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash, isitish tizimida quyosh kollektorlaridan foydalangan holda individual isitish tizimiga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash, “Yashil” energiya sertifikatlari tizimini joriy qilish, mahalliy va xorijiy darajada “yashil” energiya sertifikatlari savdosini yo‘lga qo‘yish, aholi va tadbirkorlarga o‘z kichik stansiyalarini qurib ishlab chiqarilgan elektr energiyasini bozor narxida sotish imkoniyatini yaratish, ishlab chiqarish korxonasida yetarli quvvatda quyosh panellari qurish imkoniyati yo‘q tadbirkorlarga boshqa bo‘sh yerlarda quyosh panellarini qo‘rib o‘zlari ishlatgan elektr energiyani kompensatsiya qilish uchun ularni tarmoqqa uzatish imkoniyatini yaratish, ko‘p qavatli uylar isitish va elektr tizimi tizimini takomillashtirish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda energiya ishlab chiqarish va xonadonlarga sotish imkoniyatini mahalliy uy xo‘jaligi shirkatlariga berish.

“Yashil” moliyalash, monitar va fiskal siyosat: Loyihalarni yashilligi bo‘yicha tasniflovchi hujjat O‘zbekiston milliy “yashil” taksanomiyasini joriy qilish, “yashil” loyihalarni kreditlashni ustuvor vazifa sifatida maqsad qilib olish, “yashil” loyihalar bo‘yicha kredit foizlarni minimallashtirish, “yashil” kreditlarning bir qismini qoplab berishni nazarda tutuvchi subsidiyalash tizimini joriy qilish, aholi tomonidan “yashil” texnologiyalar uchun olingan kreditlarni bir qismini qoplab berish, yashillik darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarga soliq imtiyozlarini joriy qilish, “yashil” bondlar va obligatsiyalar ishlab chiqarishni keng joriy qilish, “yashil” loyihalar uchun kam foizli kreditlar ajratish.

Suv xo‘jaligida: Suv tariflari narxlarini erkinlashtirish, fermer xo‘jaliklari uchun tarif normalarini joriy qilish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, tomchilab sug‘orish tizimlarini keng joriy qilish, gidrotexnika inshootlari, nasos stansiyalari va suv omborlarini qurish, rekonstruksiya qilish, suv xo‘jaligi tuzilmalarini modernizatsiyalash va avtomatlashtirish, suv xo‘jaligi sohasida innovatsiyalarni joriy qilish, kanallar va ariqlarni beton qoplamalari bilan qoplash.

Qishloq xo‘jaligi: Iqlim o‘zgarishiga moslashtirilgan qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishni targ‘ib qilish va jadallashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga investitsiyalarni jalb qilish, kam suv talab qiluvchi va ko‘p hosil beruvchi hamda qurg‘oqchilikka bardoshli ekin turlarini ko‘paytirish va ekish, qishloq xo‘jaligida suvni ifloslanishini oldini olish, organik dehqonchilik usullarini joriy qilish, chorvachilikdan chiqadigan organik chiqindilarni to‘g‘ri saqlash va qayta ishlash, degradatsiyaga uchrayotgan yaylovlarni qayta tiklash va yaylovlarni boshqarish mexanizmlarini joriy qilish.

Qurilish: Ko‘p qavatli uylarni qurish va topshirishda “yashil” mezonlarni inobatga olishni nazarda tutadigan qaror loyihasini qabul qilish, energiya samarador qurilish materiallarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, ko‘p qavati uylarni qurishda ko‘proq energiya samarador materiallardan foydalanish, uylarni issiqlikni ushlab turuvchi qoplamalar bilan qoplash, uylar qurilishida energiya tejamkor oyna va romlardan foydalanish, yangi qurilgan uylarni topshirishda energiya samaradorligi mezonlari bo‘yicha tekshiruvdan o‘tkazish, avtomobil yo‘llari, tratuvarlar va boshqa kichik yo‘llar qurilishida chiqindilardan foydalangan holda yo‘llar qurish, binolarni yoritish tizimida tabiiy yoritish usullaridan ko‘proq foydalanish, podezlar, yo‘laklar va zinalarni yoritish tizimida harakatni aniqlovchi qurilmalardan foydalanish.

Transport sohasida: Elektromobillardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash, aholini ko‘proq jamoat transportidan foydalanishini rag‘batlantirish, jamoat transportlarini to‘liq toza yoqilg‘iga o‘tkazish, temir yo‘llarini to‘liq elektrlashtirish, yuq tashish sohasida temir yo‘llardan foydalanishni rag‘batlantirish, elektromobillarni rivojlanishi bo‘yicha infrastrukturani qo‘llab-quvvatlash, avtomobillarni zaryadlovchi stansiyalarni ko‘paytirish.

Urbanizatsiya va chiqindilar sohasida: Shaharlarni master rejalarini “yashil” mezonlarni inobatga olgan holda qaytadan ko‘rib chiqish, shaharlardagi yashil maydonlarni ko‘paytirish, kengaytirish va ularni muhofaza qilish, piyodalar uchun infratuzilmani yaxshilash, yoritish tizimida quyosh energiyasidan keng foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 90 foizga yetkazish, chiqindi poligonlar sonini qisqartirish, aylanma sirkulyar iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish, qayta ishlangan chiqindilardan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, uzoq muddat chirimaydigan mahsulotlar o‘rniga tez chiriydigan mahsulotlar ishlab chiqarishni keng joriy qilish.

XULOSA

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib shuni ayta olamizki respublika iqtisodiyotining hozirgi holati yetarli darajada barqaror emas. Kelib chiqayotgan muammolarning asil o‘zagidan biri bu mamlakat iqtisodiyotining katta qismi qazib olinadigan yoqilg‘i manbalariga asoslanganligi. Shuningdek, O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga juda ta’sirchan davlat bo‘lganligi sababli havo haroratining isib ketishi unga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga mamlakat iqtisodiyotini katta qismini tashkil qiluvchi qishloq xo‘jaligi suv tanqisligi yuzaga kelishi natijasida katta talofat ko‘rishi prognoz qilinmoqda. Bundan tashqari Afg‘oniston tomondan Qo‘shtepa kanalining ishga tushirilishi Amudaryo suvi 30 foizga kamayishiga olib kelishi aytilmoqda. Buning natijasida respublikada qishloq xo‘jaligi zarar ko‘rishi hamda ayni sohada xizmat qiluvchi aholi qatlamini orasida ishsizlik ortishiga olib keladi. Bundan tashqari mamlakatning tabiiy gaz konlaridagi gaz zaxirasi yildan yilga kamayib bormoqda va tez orada O‘zbekiston gaz eksporti bilan shug‘ullanadigan davlatlar qatorida gaz import qiladigan davlatlar qatoriga qo‘shiladi degani. Shu sababli O‘zbekistonni “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zarurati juda yuqori hisoblanadi. Bunday iqtisodiyot modeli suv havzalari va tabiiy gaz zaxiralari kamayishini oldini olmasada ammo ulardan samarali foydalanish natijasida tanqislikni kamayishiga yordam beradi. Hozirgi kunda energiya resurslari va suv tanqisligining asosiy sabablaridan biri bu ularning noratsional ishlatilish hisoblanadi. “Yashil” o‘sish modeli esa barcha tabiiy resurslarda ratsional foydalanishga asoslangan. “Yashil” energiya sertifikatlarini joriy qilish esa mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlanishini turtki bo‘ladi hamda odatiy energiyadan foydalanishga odatlanib qolgan korxona va tashkilotlarni “yashil” energiyadan foydalanishga rag‘batlantiradi. Mamlakatda uglerod bozorini (Carbon tradeng) rivojlantirish esa Respublikani kam uglerodni rivojlanish bo‘yicha o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun rag‘bat vazifasini o‘taydi. “Yashil” moliyalash sohasidagi islohotlar esa aholi va tadbirkorlar tomonidan ko‘proq “yashil” loyihalarni amaliyotga joriy qilishini rag‘batlantiradi hamda respublika tijorat banklarida “yashil” kredit liniyalarining paydo bo‘lishi banklarning investitsion jozibadorligini oshiradi. Oilprice nashrining yozishicha Blomberg agentligining xabarlariga ko‘ra 2022-yil yakunlari bo‘yicha dunyoda “yashil” loyihalarga investitsiya kiritish neft mahsulotlariga kiritilgan investitsiyadan oshib ketgan. Bunda 2022-yilda neft mahsulotlariga 530 mlrd. AQSh dollar miqdorida investitsiya kiritilgan bo‘lsa bu ko‘rsatgich “yashil” loyihalar uchun 580 mlrd. AQSh dollarni tashkil qilgan [15]. Ushbu ma’lumotlarga tayanib shuni aniq ayta olamizki kelajak avlodlarga yaxshi imkoniyatlar va shart-sharoitlar qoldirishni istagach biz bugundan “yashil” iqtisodiyotga o‘tishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навстречу “зеленой” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности – обобщающий доклад для представителей властных структур /Программа ООН по окружающей среде. – (дата обращения: 17.11.2015).
2. Глобальный “зеленый” новый курс : доклад UNEP / UNEP. – 2009. – март. – 42 с – URL: http://www.uncclearn.org/sites/www.uncclearn.org/files/inventory/ UNEP90_RUS. pdf (дата обращения: 30.01.2014).
3. The Green Economy Pocketbook: The case for action. – London : Green Economy Coalition, 2012. – 58 p.
4. The Road to Rio+20: For a Developmentled Green Economy. Second issue / ed. C. M. Simpson. – New York, Geneva: United Nation, 2011.– 98 p.
5. High-Level Symposium on the United Nations Conference on Sustainable Development // UNCSD. – 2011.
6. Green Growth and Developing Countries: A Summary for Policy Makers / OECD. – 2012. – URL: http://www.oecd.org/dac/50526354.pdf.
7. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication / R. Ayres [et al.]. – Nairobi : United Nations Environment Programme, 2011. – 44 p.
8. М. В. Бабенко, С. И. Бик, А. И. Постнова – Москва: Всемирный фонд дикой природы (WWF), 2018. – 36 с.
9. Yangilangan milliy darajada aniqlanadigan hissa. O‘zbekiston Respublikasi. Gidrometeorologiya agentligi. 2021-y.10 v.
10. Суттон, У. Р., в соавт. 2013. Снижение уязвимости сельскохозяйственных систем Узбекистана к изменению климата: Оценка воздействия и варианты адаптации. Исследование Всемирного банка. Всемирный банк:Вашингтон, округ Колумбия.
11. Energetika vazirligi. O‘zbekistonni 2020–2030-yillar elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi. 21 v. 2019 y
12. Kun uz axborot manbasi https://kun.uz/news/2022/08/19/ozbekistonda-bir-yilda–14-mln-tonna-qattiq-maishiy-chiqindi-hosil-bolishi-malum-qilindi.
13. Statistika agentligi rasmiy sayti. https://stat.uz/uz.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmoni.
15. Blomberg. Oilprice. https://www.spot.uz/ru/2023/01/06/banks-green-loans.



MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA “YASHIL” IQTISODIYOTNING O‘RNI

Sevara Yaxshimuratova Rustam qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, assistent-o‘qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada an’anaviy iqtisodiyotdan farqli ravishda “yashil” iqtisodiyotning paydo bo‘lishi ko‘rsatilgan, uning konsepsiyasi berilgan va ushbu yashil iqtisodiyotga o‘tishning real imkoniyatlari to‘g‘risida xulosalar chiqarilgan. Hamda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda “yashil” iqtisodiyotning o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: “Yashil” iqtisodiyot, ekologiya, investitsiya, tabiiy resurs, barqaror rivojlanish, yashil obligatsiya

Abstract: This article shows the emergence of a “green” economy in contrast to the traditional economy, gives its concept, and draws conclusions about the real possibilities of transition to this green economy. At the same time, the role of “green” economy in ensuring the sustainable development of the country will be revealed.

Key words: Green economy, ecology, investment, natural resource, sustainable development, green bond

Аннотация: В данной статье показано возникновение “зеленой” экономики в отличие от традиционной экономики, дано ее понятие, а также сделаны выводы о реальных возможностях перехода к этой зеленой экономике. При этом будет раскрыта роль “зеленой” экономики в обеспечении устойчивого развития страны.

Ключевые слова: Зеленая экономика, экология, инвестиции, природный ресурс, устойчивое развитие, зеленая облигация

KIRISH

“Yashil” iqtisodiyot – bu 20-asr oxirida shakllangan iqtisodiyotning yangi yo‘nalishi bo‘lib, u insonning iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish zarurligini bildiradi va u har qanday holatda ham iqtisodiy o‘sishga emas, balki iqtisodiy barqarorlikka qaratilgan, atrof-muhit uchun minimal xavf bilan kurashishga chaqiruvchi yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari, iqtisodiyot o‘zi mavjud bo‘lgan va uning bir qismi bo‘lgan tabiiy muhitning bog‘liq tarkibiy qismi deb hisoblashadilar.

Yashil iqtisodiyot yashil texnologiyalar va loyihalarga asoslanadi. Ularning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan muhim moliyaviy oqimlarni jalb qilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ekologik tashabbuslarni moliyalashtirishning eng istiqbolli usullaridan biri ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalardir. Atrof-muhitga bo‘lgan zararlarni kamaytirish uchun sezilarli salohiyatga ega bo‘lgan uning asosiy mexanizmi “yashil” investitsiyalar kiritishdir va bu investitsiyalarni jalb qilishda “yashil” iqtisodiyotning ahamiyati katta hisoblanadi.

Darhaqiqat, “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishga investitsiyalarni jalb qilish masalasi ancha murakkab ammo juda samarali yo‘llardan biridir. “Yashil” iqtisodiyot – bu resurslarni tejovchi va ekologik toza iqtisodiyot bo‘lib, samaradorligi yuqoriligi bilan iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqa mehanizmlaridan yaqqol ajralib turadi.

Biz “Yashil” iqtisodiyot deganda, ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotni tushunamiz. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin ko‘proq siyosiy jihatdan qo‘llaniladigan yo‘nalishga ega. “Yashil” iqtisodiyot bo‘lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo‘lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o‘lchovlarini tan olishni, xususan, atrof-muhit iqtisodiyotiga adolatli o‘tishni ta’minlashni nazarda tutadi va tabiiy resurslardan tejamkor va samarali foydalanishga undaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

"Yashil" iqtisodiyot – bu odamlar farovonligini oshirishga olib keladigan iqtisodiyot va xavflarni sezilarli darajada kamaytirish bilan birga ijtimoiy tenglikni mustahkamlash, atrof-muhit va ekologik resurslarning tanqisligi oldini oluvchi siyosat hisoblanadi[1].

UNEP (va Buyuk Britaniya kabi milliy hukumatlar) tomonidan tabiiy kapital g'oyalari va "Yashil" iqtisodiyot shiori ostida to'liq xarajatlarni hisobga olish g'oyalariga tobora ortib borayotgan majburiyatlar o'rtasidagi farqlarni yo'q qilishi va ularning barchasini "Yashil" iqtisodiyot ning o'zgarishlari sifatida qayta belgilashi mumkin. 2010-yildan boshlab Bretton-Vuds institutlari (xususan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi) biologik xilma-xillikni baholash va yanada rasmiy va universal biologik xilma-xillikka o'tish niyatini bildirishdi. Bularni e'tiborga olgan holda emissiya va chiqindilarni kam emas, balki tubdan nolga tushirish nol emissiya tadqiqotlari va tashabbuslari tomonidan ilgari suriladi.

Yashil iqtisodiyot bu tugab borayotgan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali odamlarning hayot sifati va farovonligini oshirishga qaratilgan yaxlit dasturdir. U iqtisodiyotni tubdan yangisini shakllantirishni o'z ichiga oladi, foyda keltiradigan ishlab chiqarish va iste'mol shakllari va atrof-muhitga minimal salbiy ta'sir ko'rsatadigan aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar hisoblanadi. "Yashil" iqtisodiyot ideal tarzda insoniyatni tabiat bilan muvozanat holatiga keltirishi kerak, bunda inson tabiatga undan olganicha qaytadi[2].

Ijtimoiy mas'uliyatli investitsiya vositalaridan foydalanish qayta tiklanadigan energiya manbalari, "yashil" qurilish, barqaror suv ta'minoti, chiqindilarni "yashil"boshqarish amaliyoti va boshqalar sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda o'z samaradorligini ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda ekologik moliyaviy vositalar katta "yashil" loyihalarni amalga oshirish uchun moddiy resurslarning asosiy manbayi bo'lib, ko'pincha "Yashil" iqtisodiyot tendensiyasining evolyutsiyasini belgilaydi.

Tadqiqotchilar B. N. Porfiriyev, M. V. Sigova, I. K. Klyuchnikov, A. M. Malinin, e'tiborni "Yashil" iqtisodiyotni shakllantirishning strategik, institutsional va investitsiya yo'nalishlariga va "yashil" investitsiyalarni iqtisodiy rivojlanishga kiritish xususiyatlariga, ekologik va an'anaviy iqtisodiyot o'rtasidagi munosabatlarning eng muhim jihatlariga qaratadi. Yuqorida aytilganlarning barchasi "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini barqaror va xavfsiz amalga oshirish jarayonlaridagi qonuniyatlarni aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqlim o'zgarishi, suv resurslaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini keskinlashtirib, aholi salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga tahdid solayotgani butun dunyoni tashvishga solmoqda. Bu xalqaro, mintaqaviy va milliy hamkorlik darajasini oshirishni talab qiluvchi murakkab vazifalardir. Ular, shuningdek, ushbu muammolarni keltirib chiqaradigan bevosita va uzoq muddatli tahdidlarni hal qiluvchi strategiya va rejalarni ishlab chiqishga intilayotgan siyosatchilarga katta qiyinchiliklar tug'diradi. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari ushbu masalalarni turli darajalarda hal qilib kelmoqdalar va Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo yangi hamkorlik strategiyasi doirasida atrof-muhit, suv va iqlim o'zgarishi masalalari hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi, degan xulosaga kelishdi.

So'nggi yigirma yil ichida dunyo iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, energiya, oziq-ovqat, suv va yaqinda global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bilan bog'liq bir nechta parallel inqirozlarni ko'rdi. UNEP bu hodisalarni kapitalning noto'g'ri taqsimlanishi bilan izohladi, bu esa atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy tarmoqlarni kuchaytiradi va tabiiy kapitalni qo'llab-quvvatlovchi barcha narsalarni zaiflashtiradi. Barqaror rivojlanish uchun bir qancha xalqaro tashkilotlar "Yashil" iqtisodiyot (GE) va Yashil o'sish (GG) kontsepsiyalarini yanada barqaror iqtisodiyotga o'tish uchun harakatga yo'naltirilgan yondashuvlar yoki "transport vositalari" sifatida ishlab chiqdilar.

Operatsion darajada "Yashil" iqtisodiyot emissiya va ifloslanish, resurslar samaradorligi, biologik xilma-xillikni saqlash va ekotizim xizmatlari bilan bog'liq faoliyatning uchta asosiy yo'nalishiga sarmoya kiritish orqali daromad va bandlikni oshirish manbalaridan biri sifatida qaraladi.

Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat – bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to'liq xarajatlarni hisobga olish rejimi sanaladi. Aktivga zarar etkazgan yoki e'tiborsiz qoldiradigan tashkilotga ishonchli tarzda qaytariladi va uning majburiyatlari sifatida hisobga olinadi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning strategik vazifalaridan birini – mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb qilishni hal qilish zarurati bilan belgilanadi. "Yashil" iqtisodiyot sohasida ushbu muammoni hal qilish "yashil" investitsiyalarning yangi amaliyotlarini shakllantirishni, muntazam ravishda baholashni taqozo etadi.

1 UNEP (2011), "Yashil" iqtisodiyot sari: Barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish yo'llari (http://www.unep.org/greeneconomy).

2 Коданева С. И. От "коричневой" экономики к "зеленой". Российский и зарубежный опыт // Россия и современный мир. 2020. № 1. С. 46–66.

"Yashil" obligatsiyalarni standartlashtirishning boshlanishi Climate Bond Initiative (CBI) xalqaro notijorat tashkiloti tomonidan 2011-yil oxirida birinchi iqlim obligatsiyalari standartining (shamol energiyasini ishlab chiqarish sohasida) nashr etilishi, deb hisoblanishi mumkin[3].

Harakatga yo'naltirilgan yondashuv va "Yashil" iqtisodiyot va yashil o'sish tamoyillarini milliy darajada qo'llash muayyan siyosat va investitsiyalarni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi, ular mamlakat sharoitlariga (masalan, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga) moslashtirilishi kerak va milliy rivojlanish ustuvorliklari hisoblanadi. Shu munosabat bilan UNEP yashil siyosatning quyidagi ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatadi, xususan;

- mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish uchinchi shaxslarga va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatsa, buning natijasida tashqi muhitni va bozordagi mavjud nosozliklarni hisobga olgan holda. bozor narxlarida to'liq aks ettirilgan.
- tabiiy kapitalni kamaytiruvchi ishlab chiqarishga davlat xarajatlarini cheklash, masalan, barqaror bo'lmagan ishlab chiqarishni rag'batlantiradigan subsidiyalar, natijada tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish.
- "Yashil" iqtisodiyot rivojlantiruvchi ishlab chiqarishga, ya'ni (a) yashil bozorlar uchun muhim bo'lgan yangi texnologiyalar va xatti-harakatlarda innovatsiyalarni rag'batlantiradigan sohalarga sarmoya va xarajatlarni rag'batlantirish; (b) muayyan yashil innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish; va (c) yashil sanoatning paydo bo'lishini rag'batlantirish.

XULOSA

Bizning fikrimizcha, "yashil investitsiyalar" – bu "yashil" kredit, "yashil" obligatsiyalar, "yashil" sug'urta va boshqalar kabi moliyaviy vositalar, shu jumladan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan moliyaviy vositalar, korxonalarning energiya samaradorligini oshirish, resurslarni iste'mol qilish hajmini kamaytirish, shuningdek, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish uchun moliyaviy resurslar va kapital oqimini yo'naltirish imkonini beradi. Ko'pgina mamlakatlar ekologik muammolardan jiddiy tashvishda bo'lib, salbiy antropogen ta'sirga qarshi kurashish uchun iqtisodiy chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqdilar. Ushbu sohada kashshoflar G'arbiy Yevropa davlatlari, Janubiy Koreya, AQSh va Xitoydir. Rossiyada "Yashil" iqtisodiyot ham rivojlangan mamlakatlardan ortda qolsa-da, barqaror rivojlanmoqda.

Bugungi kunda yangi iqtisodiy modelga o'tish zarurati shubhasizdir. Ammo buni ehtiyotkorlik bilan qilish kerak. Aks holda, dunyo ekologik halokatdan tashqari, katta moliyaviy yo'qotishlarga, ijtimoiy-siyosiy muammolarga duchor bo'ladi. O'tishning asosiy bosqichlarini Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan ekologik tashabbuslar misolida ko'rish mumkin. Atrof-muhitga zarar etkazadigan ishlab chiqarishga investitsiyalarni kamaytirish kerak. Masalan, Yevropa investitsiya banki (imtiyozli kreditlar beruvchi davlat banki) 2022-yildan boshlab gaz loyihalarini kreditlashni to'xtatadi. Mutaxassislarning fikricha, kelajakda bu sanoatni imtiyozli davlat kreditlaridan mahrum qilibgina qolmay, xususiy investorlar uchun jozibadorligini ham kamaytiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. UNEP (2011), "Yashil" iqtisodiyot sari: Barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish yo'llari (http://www.unep.org/greeneconomy).
2. Коданева С. И. От "коричневой" экономики к "зеленой". Российский и зарубежный опыт // Россия и современный мир. 2020. № 1. С. 46–66.
3. Standards / Climate Bonds Initiative (http://www.climatebonds.net/standards/about).
4. Ботавина Р. Н. Экологические аспекты "зеленой экономики" в системе экономического роста России. МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2016;7(4(28)):142–147
5. Родионова И. А., Липина С. А. Зеленая экономика в России: модель и прогнозы развития. // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2–24. – С.

3 Standards / Climate Bonds Initiative (http://www.climatebonds.net/standards/about).

SANOAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA YASHIL ENERGETIKANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Kadirov Abdumalik Matkarimovich,
I.f.d.(DSc), F.P.I. Menejment kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy barqarorlikni oshirish, “Yashil” iqtisodiyot tamoyillarini keng qo‘llash asosida barqaror rivojlanish muammolarini hal qilish hamda “yashil loyihalar”ga jalb etilayotgan davlat va xususiy investitsiyalar bo‘yicha tahlillar qilingan. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning muhim vazifalari sifatida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish bilan bog‘liq masalalar keltirilgan. Belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizasiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishish mumkinligi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, investitsiya, yashil loyihalar, yashil energetika, yashil obligatsiyalar, moliyalashtirish, suveren jamg‘armalar, energiya samaradorligi, energiya tejamkorligi, muqobil energiya manbalari.

Abstract: This article provides an analysis of increasing economic sustainability, solving the problem of sustainable development based on the widespread application of the principles of the “green economy”, attracting public and private investment in “green projects”. Issues related to increasing the energy efficiency of the economy and rational consumption of natural resources are listed as important tasks of the transition to a “green” economy. It is explained that the set targets can be achieved through the modernization of technologies and the development of financial mechanisms.

Key words: sustainability, sustainable development, green economy, investments, green projects, green energy, green bonds, financing, sovereign wealth funds, energy efficiency, energy saving, alternative energy sources

Аннотация: В данной статье проведен анализ повышения экономической устойчивости, решения проблемы устойчивого развития на основе широкого применения принципов “зеленой экономики”, привлечения государственных и частных инвестиций в “зеленые проекты”. В качестве важных задач перехода к “зеленой” экономике перечислены вопросы, связанные с повышением энергоэффективности экономики и рациональным потреблением природных ресурсов. Объясняется, что поставленные целевые показатели могут быть достигнуты за счет модернизации технологий и развития финансовых механизмов.

Ключевые слова: устойчивость, устойчивое развитие, зеленая экономика, инвестиции, зеленые проекты, зеленая энергетика, зеленые облигации, финансирование, суверенные фонды благосостояния, энергоэффективность, энергосбережение, альтернативные источники энергии

KIRISH

Ma’lumki, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash – har qanday davlatning, qolaversa har bir korxonaning strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Xususan, sanoat tarmog‘i turli sohalar uchun zarur bo‘lgan mahsulot, shu jumladan ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan talabni yaratadi. Ishlab chiqaruvchi subyektlarning ushbu mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish sanoat tarmog‘ining real holatiga chambarchas bog‘liq. O‘zbekistonni jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashib borishi, davom etayotgan jahon iqtisodiyotidagi inqiroz va jahon bozorlardagi beqaror konyunktura sharoitida korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish ahamiyati va dolzarbligi yanada oshib bormoqda.

Iqtisodiy barqarorlik tushunchasiga bo‘lgan yondashuvlarda o‘ziga xos tafovutlar bo‘lishiga qaramasdan, iqtisodchi-olimlar tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichlarning me’yoriy miqdorini aniqlab olish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Modomiki, me’yoriy miqdorning o‘zgarishi, ya’ni belgilangan chegaradan chiqib ketishi iqtisodiy barqarorlik darajasining pasayishini anglatadi. Amaliyotda doimiy foydalaniladigan usullar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- korxona faoliyatining maksimal va minimal qiymatlari asosida chegaralarni belgilash;
- o‘tgan davr ma’lumotlarini baholash va tahlil qilish asosida korxonaning barqaror holati chegarasini belgilash.

O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag‘al guruhlariga maqsadli yordam ko‘rsatish kabi yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta’siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog‘liq yangi g‘oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ma’lumki, iqtisodiy barqarorlik, barqarorlikni baholashni ham statik (hisobot davri uchun) ham dinamik ko‘rsatkichlar (o‘sish sur’ati, absolyut o‘sish va boshqalar) asosida amalga oshirish mumkin. Shu o‘rinda, korxona iqtisodiy barqarorligining u yoki bu jihatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni taklif etgan M. N. Kozin [4], S. Y. Pleshkov [5], G. R. Yarullina [9] ilmiy ishlariga nazar solish maqsadga muvofiq. Shu o‘rinda, o‘zbek olimlari [13], [14] sanoat barqarorligini ta’minlashda asosiy urg‘uni moliya jihatlariga qaratishgan.

Korxonalarning iqtisodiy barqarorligini dinamik me’yorlar asosida hisob-kitob qilish va baholash usullari birinchilardan bo‘lib, iqtisodchi-olim I. M. Siroejin tomonidan amalga oshirilgan keyinchalik R. L. Jambekova, N. A. Savinskaya ilmiy tadqiqotlari va boshqalarda takomillashtirilgan. Har qanday faoliyatning ma’lum bir iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi bilan aks ettirish imkoni bor, bunda o‘zaro uyg‘unlik va bog‘liqlik korxonaning bir holatdan boshqasiga o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Barcha ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi “ish tartibi” tushunchasi bilan tavsiflanadi. Korxonaning har bir ish tartibi belgilangan ko‘rsatkichlar tizimini izohlaydi, ularni o‘sish sur’ati bo‘yicha tasniflansa korxonaning me’yoriy ish tartibi, boshqacha qilib aytganda ko‘rsatkichlarning me’yoriy tizimi (dinamik me’yor) yuzaga keladi. O‘zoq vaqt davomida bunday dinamik (qatorni) o‘sishni ushlab turish korxonaning optimal tartibda ishlashiga imkon beradi. Korxonani baholash korxonaning haqiqiy dinamik qatorini me’yoriy qator bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

Bunday yondashuvning ahamiyatli jihati, bizning fikrimizcha, me’yoriy qiymatni haqiqiy ifoda orqali berish zarurati yo‘qligi hisoblanadi. Dinamik me’yor ishlab chiqarish jarayonlari qo‘llab-quvvatlash va samaradorlikni oshirishga imkon beruvchi o‘sish sur’atlarini belgilovchi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni ifodalab, bu har qanday sanoat korxonalari maqsadlari bilan mos keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yashil energiya kontsepsiyasi so‘nggi o‘ttiz yillikdan beri butun dunyo uchun strategik barqaror energiyaning shakllanishi jarayoni sifatida dalzarb masalaga aylangan hamda butun dunyo mamlakatlarining birinchi darajali barqaror iqtisodiy rivojlanish tizimiga o‘tish uchun katta qiziqish uyg‘otdi. Atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, Yashil energiyaning iqtisodiyotdagi ahamiyati nuqtayi nazaridan, barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha tadqiqotchilar ushbu sohada ko‘plab barqaror rivojlanish muammolarining ko‘p o‘lchovlarini tushuntirish uchun tobora ko‘proq foydalanilmoqda hamda iqtisodiy rivojlanishning yangi mexanizmlariga aniqlik kiritilmoqda. Sanoat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishni ta’minlash butun dunyo mamlakatlari rivojlanishining asosiy strategiyalaridan biri hisoblanadi. Bu mexanizmlar barqarorlikka erishish uchun katta miqdorda energiya sarfini talab qiladigan jarayondir. Shunga qaramay, bunday tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda hamda va havoda zaharli gazlar konsentratsiyasini oshirish hisobiga inson salomatligiga va ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyatni qayta ko‘rib chiqish va qayta loyihalash jarayonida eski jarayonlarni ayblash yoki voz kechish shart emas – ular katta taraqqiyotni, o‘sha paytdagi katta o‘zgarishlarni, jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘z faoliyatini olib borgan. Bugungi kunda barqaror rivojlanish mexanizmini to‘g‘ri tanlanganligi juda muhimdir, chunki tadqiqot metodologiyasi har qanday tadqiqotda doimo asosiy o‘rinni egallaydi. Noto‘g‘ri tanlangan tadqiqot metodologiyasi butun ishga zarar etkazishi va tadqiqot jarayonini sekinlashtirishi mumkin. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish “yashil loyihalar”ga hayotiylik sikli davomida qo‘shimcha investitsiyalar jalb etishni talab etadi. Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari “yashil loyihalar”ni davlat tomonidan moliyalashtirish amaliyotidan sohaga xususiy investorlarni faol jalb etish amaliyotiga o‘tishga harakat qilishmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda energiya bilan bog‘liq ikkita muammo barqaror rivojlanish darajasiga bevosita bog‘ligini ko‘rish mumkin. Birinchisi, atrof-muhitga ta’siri past va emissiya quvvati past bo‘lgan energiya ta’minotini barqaror tarzda qanday ta’minlash bo‘lsa, ikkinchisi – barqaror energiya rivojlanishiga to‘siqlarning yuqoriligi va bunday to‘siqlarni hal qilishning eng samarali usulini aniqlashdir. Barqaror rivojlanish darajasini ortirish yuzasidan barqarorlik maqsadlari va qadriyatlariga mos kelishi kerak bo‘lgan tarzda qayta qurish rejasi ishlab chiqilmoqda.

Iqtisodiy adabiyotda ayrim tadqiqotchilar “yashil loyihalar”ni moliyalashtirishda suveren jamg‘armalarning xususiy investorlarga nisbatan kapital bazasining juda kattaligi, uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatlari, kreditlardan foydalanish ehtiyojining yo‘qligi kabi raqobat afzalliklari mavjud, deb hisoblashadi [14].

Yashil investitsiyalarni moliyalashtirishning an’anaviy va noan’anaviy manbalari. “Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish dastaklarining keng tarqalgan turlaridan biri “yashil obligasiyalar” hisoblanadi. “Yashil obligasiyalar” ilk marta Yevropa investitsiya banki tomonidan emissiya qilingan bo‘lib, ular bu vaqtda “iqlimni muhofaza qilish obligasiyalari”, keyinchalik “iqlim obligasiyalari” va hozirgi vaqtda esa umumlashtiruvchi nom bilan “yashil obligasiyalar” deb atala boshlandi. Qarz oluvchi obligasiyani muddati davomida foizlari bilan so‘ndiradi. “Yashil obligasiyalar”ning boshqa obligasiyalardan farqli jihati shundaki, jalb etilgan mablag‘lar tiklanadigan energiya, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza transport yoki issiqxona gazlarini chiqarish hajmini qisqartirish bilan bog‘liq loyihalarga sarflanadi. Dastlab turli mamlakatlarda ekologik loyihalar uchun mablag‘lar jalb etish uchun qimmatbaho qog‘ozlar emissiya qilingan bo‘lsa-da, moliyaviy resurslarni xarajat qilish yo‘nalishlari muayyan turdagi obligasiyalar chiqarish bilan bog‘lanmagan. 2008-yilda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki shu turdagi qimmatbaho qog‘ozlarni “yashil obligasiyalar” nomi bilan chiqardi. Bank mutaxassislari chiqarilgan qimmatbaho qog‘ozlarni joylashtirishdan tushgan mablag‘larni yo‘naltirish lozim bo‘lgan loyihalarni ekologik mezonlarga qanchalik javob berishini aniqlash maqsadida norvegiyalik ekolog mutaxassislarni taklif etishdi. “Yashil loyihalar” barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda quyidagi yo‘nalishlar va obyektlar bo‘yicha guruhlarga ajratiladi (1-jadval).

1-jadval: “Yashil loyihalar”ni investitsiyalash yo‘nalishlari

Investitsiyalash sohasi	Investitsiyalash obyektlari	Investitsiyalash maqsadi
Yadro energiyasi	Elektrenergiya va isitish	Past uglerodli, energiya samaradorligi yuqori energiya manbalaridan foydalanish
Gidroenergetika		
Shamol energiyasi		
Geotermal energiya		
Bioenergetika		
Atmosfera	“Aqlli” filtrlar	Atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar miqdori va xavfini kamaytirish
	Past uglerodli obyektlar	
Suv resurslari	“Aqlli” tozalash inshootlari	Suvga chiqarilayotgan chiqindilar miqdori va xavfini kamaytirish
	Chiqindilarni biokimyoviy usullar bilan yo‘qotish	
Issiqxona samarasi	Ishlab chiqarishning past uglerodli usullari	Issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish
	Tozalash inshootlari	
	Ozon qatlami kengayishining oldini olish	
Elektrenergiya iste’moli	Tejamkor energiya resurslari	Energiya iste’moli miqdorini kamaytirish
Suv iste’moli	Suv resurslarini tejab iste’mol qiluvchi obyektlar	Suv iste’moli miqdorini kamaytirish
Quruqlik obyektlaridan foydalanish	Yer resurslaridan oqilona foydalanish	Yer, o‘rmon va tog‘ resurslari iste’molini qisqartirish
	O‘rmon resurslaridan oqilona foydalanish	
	Tog‘-kon faoliyatining salbiy oqibatlarini kamaytirish	
Transport va tashish	Transport uchun past uglerodli xom ashyo ishlab chiqarish	Logistikadan foydalanish koeffitsiyentini oshirish va atmosferaga chiqindilar chiqarishni kamaytirish
	Ekologik optimal logistika zanjiri	
	Yoqilg‘i resurslaridan oqilona foydalanish	
IT va telekommunikasiya	Sovutish tizimini takomillashtirish	Axborot xizmatlari va uskunalarining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish
	Energiya iste’molini qisqartirish	
Sanoat infratuzilmasi	Infratuzilma obyektlarini zamonaviy ekologik talablarga moslashtirish	Infratuzilma obyektlarining ekologik samaradorligini oshirish
	Infratuzilma obyektlarida resurslardan foydalanishni optimallashtirish	

Mutaxassislar fikricha, “yashil loyihalar”ga jalb etilayotgan davlat va xususiy investitsiyalar nisbati 1:5 nisbatda bo‘lishi zarur. Xitoyda esa ichki “yashil loyihalar”ni moliyalashtirishda 10–15% davlat budjeti mablag‘lari va 85–90% xususiy mablag‘lardan foydalanish qoidasiga amal qilinadi. Shuning uchun xususiy investitsiyalarni “yashil loyihalar”ga jalb etishdagi risklarni an’anaviy loyihalarni moliyalashtirishda duch kelinadigan risklar darajasiga qadar minimallashtirish maqsadga muvofiq. Dunyo amaliyotida xususiy investitsiyalarni “yashil loyihalar”ga jalb etishni rag‘batlantirishning turli usullari va dastaklaridan keng foydalaniladi (2-jadval).

2-jadval: “Yashil loyihalar”ni moliyalashtirish maqsadida xususiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash dastaklari va usullari

Qo‘llab-quvvatlash choralari	“Yashil loyihalar”ni moliyalashtirish dastaklari va usullari	
Davlat tomonidan tartibga solish	Dastaklari	Soliq imtiyozlari
		Standartlarni joriy etish
		Atrof-muhitga zarar keltiruvchi kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlashdan voz kechish
	Usullari	Imtiyozli tariflar
		Tiklanadigan energiya uchun kvotalar
Davlat tomonidan moliyalashtirish	Dastaklari	Grantlar
		Subsidiyalar
		Ekologik dasturlar
Kreditlash	Dastaklari	Loyihaviy moliyalashtirish
		Qarz fondlari
		“Yashil” obligasiyalar
	Usullari	Imtiyozli kredit stavkalari
Risklarni pasaytirish	Dastaklari	Kredit kafilligi va kafolatlar
		Sug‘urtalash
		Ayirboshlash kursi va foiz stavkasining volatilligidan himoyalash

“Yashil loyihalar”ni investitsiyalashda soliq imtiyozlarini joriy etish emitentlar va investorlar uchun iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan jozibador hisoblanadi. Amaliyotda emitentlar va investorlar uchun qo‘llaniladigan soliq imtiyozlarining quyidagi turlari mavjud:

- soliqqa tortiladigan kreditli obligasiyalar. Obligasiyalarning ushbu turi investorlar foiz to‘lovlari o‘rniga soliqqa tortiladigan kredit olishlarini, shu sababdan emitentlar obligasiyalar bo‘yicha foiz to‘lamasliklarini bildiradi.
- bevosita subsidiyalanadigan obligasiyalar. Emitentlar o‘z sof foiz to‘lovlarini subsidiyalash uchun hukumatdan pulli chegirmalar olishadi;
- soliqqa tortilmaydigan obligasiyalar. Investorlar “yashil obligasiyalar”dan olinadigan foizlardan daromad solig‘i to‘lashmaydi.

Misol uchun, Braziliyada shamol energiyasi bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish soliqlardan ozod qilingan;

- davlat tomonidan talabni rag‘batlantirish orqali “yashil obligasiyalar” bozorini rivojlantirish;
- davlat ijtimoiy jamg‘armalarida “yashil loyihalar”ga investitsiya sarflashga kvota ajratish. Davlat pensiya va ijtimoiy ta’minot jamg‘armalari mablag‘larining muayyan qismini qayd etib qo‘yilgan daromadga ega “yashil obligasiyalar”ga yo‘naltirishga ruxsat beradi;
- banklar tomonidan “yashil loyihalar”ni investitsiyalashga mablag‘lar ajratishni kvotalash.

Suveren jamg‘armalar “yashil loyihalar”ni investitsiyalashni moliyalashtirishning istiqbolli manbalaridan biriga aylanishi mumkin.

UNEP mutaxassislari fikricha, “yashil loyihalar”ni moliyalashtirish va investitsiyalashni rag‘batlantirish hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda suveren jamg‘armalarning potensial imkoniyatlari yuqori bo‘lsa-da, ular hali kam o‘rganilgan” [3].

Tadqiqotlarni ko‘rsatishicha, suveren jamg‘armalarning “yashil loyihalar”ni moliyalashtirish jarayonida faol ishtirok etmayotganliklarining qator sabablari mavjud:

- suveren investitsiya jamg‘armalari ustavida ko‘rsatilgan vazifalar – milliy boylikni saqlash va ko‘paytirish. Kapital qo‘yilmalarning miqdori va sarflash yo‘nalishlari to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda atrof-muhit muhofazasi muammolari nomoliyaviy, ya’ni ikkinchi darajali omillar sifatida qaraladi;
- “yashil loyihalar”ning samaradorligi borasidagi shubhalar. Ayrim “yashil” ko‘rsatkichlar dinamikasining beqarorligi va neft-gaz aktivlaridan chiqib ketish holatida joriy daromadlarni yo‘qotib qo‘yish mumkinligi;
- barqaror rivojlanish loyihalarining davlat tomonidan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmayotganligi va milliy iqtisodiyotda “yashil loyihalar”ga talabning yuqori emasligi;
- mavjud aktivlar portfelida “uglerod komponenti”ning miqdorini aniqlash bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar.

Xalqaro moliya instituti odatdagidek, o‘z portfeli va investitsiya strategiyasida “yashil obligasiyalar”dan faol foydalanayotgan xususiy investorlar va emitentlar uchun katalizator vazifasini o‘tadi. Qimmatbaho qog‘ozni emissiya qilishdan olingan moliyaviy resurslardan foydalanish yo‘nalishi ularni “yashil obligasiyalar” sirasiga kiritishdagi asosiy mezon hisoblanadi. Ushbu mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- energetika resurslari (energiya samaradorligi, energiya tejamkorligi, muqobil energiya manbalari);
- atrof muhit tozaligini saqlash (sanoat va maishiy chiqindilarni yo‘q qilish samaradorligini oshirish);
- bio xilma-xillikni oshirish, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi samaradorligini oshirish);
- ekologik sof transport;
- suv resurslari.

Jahon moliya bozorida “yashil obligasiyalar”ning asosiy investorlari sifatida institutsional investorlar, jumladan, xususiy pensiya va sug‘urta jamg‘armalari, “uzun pullar” va riski past moliyaviy dastaklarga qiziquvchi investitsiya kompaniyalari maydonga chiqishadi. Jahon amaliyotida “yashil obligasiyalar”ning standart, loyihaviy, sekyuritizasiyalashgan va daromad bilan ta’minlangan turlari keng tarqalgan.

“Yashil obligasiyalar” shakllanish mexanizmi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. “Yashil obligasiyalar” turining xilma-xilligi esa investorlarga o‘z “yashil” loyihalari bilan bir qatorda loyihalarini moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladigan obligasiyalarni ham chiqarishlari mumkin.

Emitentlar uchun “yashil obligasiyalar” ekologik samarali loyihalarga qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni jalb etish imkonini beradi. “Yashil obligasiyalar” investorlarga uzoq muddatli davrda miqdori belgilab qo‘yilgan daromad olish, “yashil loyihalar”da qatnashayotgani uchun o‘z obro‘sini oshirish imkoniyatini yaratadi.

“Yashil obligasiyalar” boshqa moliyaviy dastaklarga nisbatan qator afzalliklarga ega:

- investitsion reytingining yuqoriligi (A va undan yuqori);
- emitentlarning yuqori maqomga egaligi (emitentlar tarkibida xalqaro moliyaviy institutlarning ko‘pligi);
- davlat tomonidan muntazam qo‘llab-quvvatlanishi.

Xalqaro “yashil obligasiyalar” bozoriga xos xususiyatlar:

- investorlar talabining yuqoriligi – “yashil obligasiyalar”ga xalqaro moliya bozorining yangi dastagi sifatidagi qiziqish ortib bormoqda;
- joylashtirish tezligining yuqoriligi – talab yuqoriligi tufayli “yashil obligasiyalar” birlamchi bozorga joylashtirilgandan keyin 1 soat ichida sotilib ketadi;
- istiqbolli kelajak yetakchi institutsional investorlar “yashil obligasiyalar”ga bo‘lgan talabning ortib borayotganligini namoyish qilishmoqda;
- ixtisoslashuv – “yashil obligasiyalar” bilan ixtisoslashgan, “Yashil fondlar” deb ataluvchi investitsiya kompaniyalari shug‘ullana boshlashdi.

Xalqaro yashil moliyalashtirish bozorining yetakchi segmentlari sifatida banklarning yashil kreditlari, “iqlim” va “yashil obligasiyalar”ini keltirish mumkin

Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, an’anaviy moliyalashtirish turlaridan tashqari “yashil obligasiyalar”, PPA (Power purchase agreement – energiya xaridi kelishuvi), kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar, turli

jamg‘armalar va institutsional investorlarning mablag‘lari ham “yashil investitsiyalar” manbayi sifatida xizmat qilmoqda. Tiklanadigan energiya manbalariga investitsiya sarflashning PPA manbasi “yashil energiya”ni yirik korxonalar tomonidan avvaldan xarid qilishlarini nazarda tutadi. Ekologik jihatdan toza elektrenergiyani sotib olishni xohlagan kompaniyalar oldida turli tanlov yo‘llari mavjud.

Jumladan, o‘z binolari tomlariga quyosh panellarini o‘rnatishlari yoki tiklanadigan energiya manbalariga sertifikatlar sotib olishlari mumkin. Biroq bu turdagi investitsion loyihalarga faqatgina Google, Microsoft va Amazon kabi axborot texnologiyalari sohasidagi yirik korporasiyalargina qiziqish bildirmoqda. Bloomberg tadqiqotlariga ko‘ra, 2020-yilning 1-choragida Yevropada qirg‘oq bo‘ylariga o‘rnatilgan generatorlardan olinadigan shamol energiyasining eng past PPA narxi Shvesiyada 1 MVt-s/30,5 yevro, quyosh energiyasi eng arzon narxi esa Ispaniyada qayd etilgan bo‘lib, 1 MVt-s/30,5 yevroni tashkil etdi [5].

“Yashil” iqtisodiyotning energiya sohasiga sarflanayotgan investitsiyalar manbalarining yana biri kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi kompaniyalar hisoblanadi. Hozirda kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi aksariyat yirik kompaniyalar an’anaviy energiya manbalari bilan bir qatorda tiklanadigan energiya manbalaridan ham faol foydalanishmoqda.

Bu holatni shamol va quyosh energetikasining samaradorligini boshqa energiya manbalariga nisbatan yuqoriligi hamda ekspluatasiya xarajatlarining arzonligi bilan izohlash mumkin. Jahonda quyosh energiyasiga investitsiyalash ulushining yuqori bo‘lishiga qaramasdan rivojlangan mamlakatlarda “yashil investitsiya”lar ko‘proq shamol energiyasiga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa quyosh energiyasiga (Xitoydan tashqari) yo‘naltirilgan. Mazkur holatni ushbu mamlakatlarning geografik va iqlimiy sharoitlari bilan bog‘liq omillar orqali tavsiflash mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qayd etilganlardan kelib chiqqan holda jahonda tiklanadigan energiya manbalariga investitsiya sarflash miqdorining ortib borish sabablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, quyosh va shamol energiyasi narxining arzonlashib borayotganligi. Uzoq yillar davomida shamol va quyoshdan olinadigan energiya texnologik jihatdan olib qaralganda an’anaviy energiya manbalaridan qimmat hisoblanar edi. So‘nggi yillarda erishilgan fan-texnika yutuqlari yordamida “yashil energiya” ishlab chiqarish tannarxi yanada arzonlashmoqda. Bloomberg agentligi prognozlariga ko‘ra, 2050-yilgacha quyosh panellarini o‘rnatish qiymati 63%ga arzonlashib, 1 MVt-soati 25 dollarni tashkil etadi. Quyosh texnologiyalarining qiymati 2018-yilda 2010-yilga nisbatan 89%ga arzonlashgan bo‘lsa, ularning narxi 2030-yilgacha yana 34% gacha pasayishi kutilmoqda. Shamol turbinalari qiymati 2010–2018-yillarda 40%ga pasaygan, shamol energiyasi narxi 2030-yilgacha 36%ga, 2050-yilga qadar esa 48%ga arzonlashib 1 MVt-soati 30 dollar bo‘lishi kutilmoqda.

Ikkinchidan, tiklanadigan energiya manbalariga nisbatan global munosabat o‘zgarmoqda. Avvallari tiklanadigan energiya manbalariga investitsiya sarflash past daromadli soha hisoblanib, davlat sohaga investitsiya jalb etishda investorlar uchun turli imtiyozlar va preferensiyalar berishga harakat qilar edi. Hozirda jahon hamjamiyatining tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, umuman, “Yashil” iqtisodiyotga investitsiya sarflash borasidagi fikrlari tubdan o‘zgardi. Quyosh va shamol energiyasiga investitsiya sarflash moliyaviy jihatdan serdaromad sohaga aylanib borayotganligi mazkur tarmoqqa investitsiyalar oqimining ortishi, moliyaviy omiliga aylandi.

Uchinchidan, quyosh va shamol energiyasi kelajak energiyasiga aylanib bormoqda. Bloomberg agentligi 2020-yilga kelib 600 GVt elektr energiyasi quyosh batareyalari hisobidan olinganligi, 2030 yilga kelib esa mazkur ko‘rsatkich 1900 GVt ga yetishini bashorat qilmoqda. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida muqobil energiyaga o‘tish jarayonlarining jadallashuvi sohada yangi eraning boshlanishi sifatida baholanmoqda.

To‘rtinchidan, jahonda neft narxining arzonlashishi. So‘nggi yillarda jahon energiya bozorida neft bahosining pasayishi kuzatilmoqda. Tabiiyki, ushbu holat “yashil energiya” korxonalari raqobatbardoshligini pasaytirib, investitsiya muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq “yashil energiya” tarafdorlari o‘z optimistik qarashlarida qolishmoqda, neft narxining pasayishi keyingi geologik qidirish ishlarini olib borishga bo‘lgan rag‘batning kamayishiga, natijada, neft ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib kelishi ta’kidlanmoqda. Agar mazkur holat kuzatilsa “yashil energiya”ning ahamiyati yanada ortadi.

Beshinchidan, ushbu sohani yangi soha sifatida yanada chuqurroq o‘rganish zaruriyatining mavjudligi. Tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish sohasi yangi soha bo‘lgani bois kelajakda uning samaradorligini oshirish, ekologik jihatdan xavfsizligini ta’minlash uchun katta miqdorda sarf-xarajatlar sarflash, chuqur ilmiy izlanishlar olib borish talab etiladi. Misol uchun, tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishdagi muammolardan biri olingan energiyani saqlash va uzatish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda tiklanadigan energiya manbalaridan olinadigan energiya akkumulyatorlarda saqlanadi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchiga uzatiladi. Akkumulyatorlarning avtonomlik koeffitsiyenti esa past darajada, shu bois “yashil energetika”ni rivojlantirish va investitsiyalashda yuqori texnologiyali innovasiyalarga tayanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477-son qarori.
2. Financing Sustainable Development: The Role of Sovereign Wealth Funds for Green Investment. Geneva, UNEP, 2017. p. 4.
3. Financing Sustainable Development: The Role of Sovereign Wealth Funds for Green Investment. Geneva, UNEP, 2017. p. 4
4. Козин М. Н. Динамическая модель оценки производственно-экономической устойчивости оборонного предприятия / М. Н. Козин // Аудит и финансовый анализ. – Москва, 2017. - №4. – с. 24–31.
5. Плешков С. Ю. Разработка механизма повышения уровня экономической устойчивости деятельности строительного предприятия / С. Ю. Плешков.: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. - Екатеринбург, 2018. – с. 18.
6. Global Trends in Renewable Energy Investment 2020, Frankfurt School-UNEP Centre/BNEF. 2020
7. Climate Bond Initiative ma’lumotlari asosida tayyorlangan
8. Adams JS, Victurine R (2011) Permanent conservation trusts: a study of the long-term benefits of conservation endowments. Conservation Trust Funds, Avato P, Coony J (2008) Accelerating clean energy technology research, development, and deployment. World Bank, Washington, DC,
9. Яруллина, Г. Р. Динамическая модель мониторинга устойчивого экономического развития промышленного предприятия / Г. Р. Яруллина // Аудит и финансовый анализ. - 2018. - № 6. – с.195–202.
10. Bell LA, Freeman RB (2001) The incentive for working hard: explaining hours worked: differences in the US and Germany. Labour Econ 8:181–202,
11. Brown LR (2011) The new geopolitics of food. Foreign policy. The FP Group, Washington, DC,
12. Costanza R, Farley J (2010) What should be done with the revenues from a carbon cap and auction systems? Solutions 1:33, Coy P (2012) The other U. S. energy crisis: lack of R&D: R&D neglect is holding back innovative energy technologies. Bloomberg Businessweek. New York: Bloomberg L. P, Daly HE (2008)
13. Vaxabov A. V., Fayzullayev J. N. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha xalqaro va milliy dasturlar // “Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar” ilmiy-metodologik va ilmiy-uslubiy jurnal, 2019 № 3 (iyul-sentabr) 39–50 bet,
14. Xamrayeva S. N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. Monografiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2017. – 256 b,
15. Чебанов С. “Зеленая” экономика: роль суверенных фондов. // Мировая экономика и международные отношения, № 3, 2019. С. 11
16. https://about.bnef.com/blog/sweden-spain-the-cheapest-european-markets-for-wind-and-solar-corporate-ppasbnef-survey-finds

REPUBLIKAMIZDA “YASHIL IQTISODIYOT”NI SHAKLLANTIRISHDA AGROXIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YUNALISHLARI





Mirzayev Q. J.
SamISI, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor

Jonuzokov M. K.
TDIU, “Iqtisodiyot va biznes” kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya: Respublikada “Yashil” iqtisodiyotni jadal rivojlantirishning muhim asoslaridan biri sifatida agroxizmatni taraqqiy ettirish imkoniyatlari ochib berilgan va tadqiqot natijalaridan kelib chiqib uning asosiy yo‘nalishlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: “Yashil” iqtisodiyot, “ekologik toza” mahsulot, agroxizmat, modernizatsiya, diversifikatsiya, “yashil agroservis”.

Abstract: The possibilities for the development of agricultural services have been identified as one of the important foundations for the development of a “green economy” in the republic, and based on the research results, its main directions have been scientifically substantiated.

Key words: “green economy”, “environmentally friendly” products, agricultural services, modernization, diversification, “green agricultural services”.

Аннотация: В качестве одной из важных основ развития “зеленой экономики” в республике определены возможности развития агросервиса, а по результатам исследований научно обоснованы его основные направления.

Ключевые слова: “зеленая экономика”, “экологический чистый” продукция, агросервис, модернизация, диверсификация, “зеленый агросервис”.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning muhim asoslaridan biri “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish hisoblanadi. Mamlakatimizda “Yashil” iqtisodiyotni tizimli faoliyatini yo‘lga qo‘yish qishloq xujaligi tarmogi rivojiga, ayniqsa agroxizmat taraqqiyotiga bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Barcha viloyatlarda... “yagona darcha” tamoyili asosida 100 dan ortiq agroxizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yiladi”[1]. Shu bilan birga “... ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish”[2] vazifasi qo‘yilgan.

Agroxizmat korxonalari o‘zlarining aksariyat xizmatlari bilan agrar sohada mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi va bevosita mahsulot ishlab chiqarish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu Respublikamizda “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil yanvar
2 “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” 2022-yil yanvar / https://president.uz/uz/pages/view/strategy

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyot sohasida ko‘pgina iqtisodchi olimlar o‘z qarashlarini bayon etgan. Unga ko‘ra iqtisodiyot, bir tomondan alohida olingan iqtisodiy kategoriya sifatida ifoda etilsa, boshqa tomondan sohalardagi iqtisodiyot, jumladan “Innovatsion iqtisodiyot”[3], “Raqamli iqtisodiyot”[4], “Yashil” iqtisodiyot shaklida bayon etiladi. Malumki, “iqtisodiy kategoriyalar-... iqtisodiy jarayonlar va maqbul hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy nazariy tushunchadir”[5], deb etirof etiladi. Shunday ekan “Yashil” iqtisodiyot alohida iqtisodiy kategoriya va soha iqtisodiyoti sifatida chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini bajarish davomida ilmiy bilishning analiz, sintez induksiya, deduksiya, shuningdek abstrakt mantiqiy yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda agroservis subyektlari tomonidan ko‘rsatiladigan har xil turdagi xizmatlar, agrar soha xo‘jaliklarida “Yashil” iqtisodiyotni tashkil etish, uni barqaror rivojlantirish va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham agroservis agrosanoat majmuyidagi ishlab chiqarish infratuzilmasining asosini tashkil etib, uning yana bir muhim jihati “yashil iktisodiyot”ni shakllantirishdagi rolini oshirish bo‘lib hisoblanadi.

Respublikada “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish tizimida agroxizmatlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan tashqari, yetishtirilgan mahsulotni tayyorlash, quritish, saqlash va joylashtirish, tashish hamda boshqa shu kabi jarayonlarda ekologik toza mahsulotlarni shakllantirishga kursatiladigan xizmatlar majmuasidan iborat.

Bugungi kunda “Yashil” iqtisodiyot ni shakllantirishda agroxizmatni rivojlantirish zaruriyati quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- “Ekologik toza” qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun “Yashil” iqtisodiyot talabiga mos fermer va dehqon xo‘jaliklari vak ularga mos biriktirilgan yer maydonlarining mavjudligi;
- “Ekologik toza” mahsulotlarni yetishtiruvchi fermer va dehqon xo‘jaliklarida yetarli moliyaviy resurslari bilan taminlanganlik darajasi;
- “Yashil” iqtisodiyot talablariga mos agrar soha tarmoqlari va korxonalarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashganlik darajasi;
- Sifatli va o‘z vaqtida agroservis xizmatlarini ko‘rsatish orqali “ekologik toza” qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatlarining mavjudligi;
- Jahon tajribasidan kelib chiqib “Yashil” iqtisodiyotni shakllantiruvchi yuqori sifatli va kamxarj agroxizmatlarning yo‘lga qo‘yishning taraqqiyot strategiyasining belgilanganligi bilan xarakterlanadi.

Shunday ekan, Uzbekistonda “Yashil” iqtisodiyotda agroxizmat tizimiga agrar sohada “ekologik toza” mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq moddiy-texnika ta’minoti, transport xizmatlari, aloqa xizmati, urug‘lik bilan ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydigan obyektlar, agrokimyo xizmati, melioratsiya xizmati, veterinariya va naslchilik xizmati, yem-xashak ta’minoti xizmatlari va boshqalar kiradi.

“Yashil” iqtisodiyotda agroxizmat – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida agrar soha tizimida “ekologik toza” mahsulot ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, shu jarayonda zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan holda iste’molchilar talab va takliflarini o‘zaro uyg‘unlikda shakllantiruvchi hamda uni amalga oshirish davrida daromad keltirishga yo‘naltirilgan maqsadga muvofiq faoliyatlar majmuyidir.

Bozor munosabatlari sharoitida “Yashil” iqtisodiyot agroxizmatlari iqtisodiy kategoriya sifatida o‘zining bir qator xususiyatlariga ega va ular, bizningcha, quyidagilardan iborat:

- agrar sohadagi qishloq xo‘jalik korxonalarida agroxizmatlardan foydalanib “ekologik toza” mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi;
- agroxizmat subyektlari bevosita moddiy ne’matlar yaratmasada, ammo ular faoliyatini rivojlantirishga mablag‘ sarflagan subyektlarga ham, ular xizmatidan foydalangan xo‘jaliklariga ham “ekologik toza” mahsulotlar ishlab chiqarishdan qo‘shimcha daromad olish imkonini yaratadi;
- agrar soha tizimi fermer va dehqon xo‘jaliklarida “Yashil” iqtisodiyot tizimi yo‘lga qo‘yilib natijada mehnat unumdorligi oshadi, mehnat taqsimoti maqbullashtirilib, qishloq aholisini ish bilan bandlik muammosini hal etishga yordam beradi.

3 Mirzayev Q. J., Shavqiyev E. Sh., Janzakov B. K. Innovatsion iqtisodiyot.. O‘quv qo‘llanma – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – 298 bet.

4 Mirzayev Q. J., Boboqulov S. B., Janzakov B. Q. Raqamli iqtisodiyot,/ O‘quv qo‘llanma/ Samarqand.: SamISI, “STAP-SEL” MChJ. Nashriyot matbaa bo‘limi, –2022 y. 288 bet

5 Shodmonov Sh. Sh., Alimov R. X., Jo‘rayev T. T. Iqtisodiyot nazariyasi. T. “Moliya” nashriyoti 2002, 416-bet

O‘zbekistonda “Yashil” iqtisodiyotni tizimli taraqqiy ettirishda agroxizmatni modernizatsiyalash muhim ahamiyatga ega hisoblanib, u quyidagi xarakterli jihatlari bilan ifodalanadi:


- Agrar sohani “Yashil” iqtisodiyot talablari asosida bugungi va kelajakdagi intensiv rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish;
- Qishloq xo‘jaligida raqamli va innovatsion texnologiyalar asosida “Yashil” iqtisodiyot ga mos modernizatsiyalash bo‘yicha chora-tadbirlar va yo‘l xaritalarini ishlab chiqish;
- Agroxizmat ko‘rsatuvchi korxonalarini faoliyatini modernizatsiyalash natijasida agroxizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirish hamda uni “Yashil” iqtisodiyotga qaratilgan milliy tizimini shakllantirish;
- Agroxizmatni sifatli amalga oshirishda asosiy va aylanma vositalardan foydalanish, boshqarish jarayoni va moliyaviy munosabatlarni “Yashil” iqtisodiyot ga mos modernizatsiyalash tizimini amalga oshirish va boshqalardan iborat.

“Yashil iktisodiyot”ni shakllantirish tizimida agroservis xizmatlar sohasida diversifikatsiyalashning asosiy motivlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- “ekologik toza” mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beruvchi agroxizmat ko‘rsatishning yangi turlarini ko‘paytirish va agroxizmatlar hajmini oshirib borish.
- “ekologik toza” mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida agroxizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlari uchun o‘zaro aloqa va munosabatlar integratsiyasini ko‘chaytirish.
- “ekologik toza” mahsulotlar ishlab chiqaruvchi agroxizmat korxona xarajatlarini kamaytirish va yuqori daromad olishga erishish.

Agroxizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish va xizmatlar samaradorligini oshirish uchun resurstejamkor texnologiyalar va intensiv omillardan samarali foydalanish.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan jadal taraqqiyot Respublikamizda shakllantirishda “yashil agroxizmat” tizimini yo‘lga qo‘yishni taqozo etmoqda. “Yashil agroxizmat” bu- “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish imkoniyatini yaratuvchi barcha agroxizmatlar majmuasidan iborat. Shunday ekan, tadqiqot natijalariga ko‘ra ushbu tizimni rivojlantirishning mexanizmlari ilmiy asoslanildi. Unga kura “yashil agroxizmat” tizimining tashkiliy-huquqiy hamda iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarining tarkibi taklif etildi (1-rasm).



1-rasm: “Yashil agroxizmat”ni rivojlantirish mexanizmlarining asosiy yo‘nalishlari

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistonda “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirishda agroxizmatni rivojlantirishning asosiy konseptual yunalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Respublikada “Yashil” iqtisodiyot talabiga mos va uning taraqqiyotini taminlaydigan “yashil agroxizmat” tizimidan keng foydalanish;

Ikkinchidan, “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy natijasi sifatida “ekologik toza” qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga erishish;

Uchinchidan, “Yashil” iqtisodiyotshakllantirishning muhim asosi bulgan agroxizmatni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash tizimini yulga quyish;

To‘rtinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda “yashil agroxizmat” tizimi asosida “Yashil” iqtisodiyotni respublikamizda jahon talablari asosida rivojlantirish va raqamli agroxizmatni shakllantirish;

Beshinchidan, O‘zbekistonda “Yashil” iqtisodiyotning talabiga mos “yashil agroxizmat”ni rivojlantirishning 2030-yilga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini shakllantirish va boshqa shu kabilardan iborat.

Umuman, Respublikamiz iqtisodiyotini taraqqiyotning yangi bosqichi hisoblangan “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirishda agroiqtisodiyotning asosiy richagi hisoblangan agroxizmatni rivojlantirish va bunda sohada yangi tuzilma “yashil agroxizmat” tizimini shakllantirish muhim iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil yanvar “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” 2022-yil yanvar / https://president.uz/uz/pages/view/strategy.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4699-son qarori, https://lex.uz/docs/4800657.
3. Mirzayev Q. J., Shavqiyev E. Sh., Janzakov B. K. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – 298 bet.
4. Mirzayev Q. J., Boboqulov S. B., Janzakov B. Q. Raqamli iqtisodiyot / O‘quv qo‘llanma/ Samarqand.: SamISI, “STAP-SEL” MChJ. Nashriyot matbaa bo‘limi, 2022-y. – 288 bet.
5. Mirzaev Kulmamat Djanzakovich and Janzakov Bekzot Kulmamat Ogli. “The analysis of impact of factors influencing leadership abilities” 湖南大学学报 (自然科学版) 49.09 (2022).
6. Mirzaev K. et al. Approaches and issues for developing livestock services in Uzbekistan //Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB. – 2011. – T. 8. – №. 2. – S. 23–25.



“YASHIL” OBLIGATSIYALARNI MUOMALAGA CHIQARISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

E. I. Nosirov
Toshkent moliya instituti “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasi mudiri, i.f.n., dots.

Annotatsiya: Maqolada “yashil” obligatsiyalarning mazmun-mohiyati, “yashil” obligatsiyalarga qo‘yiladigan talablar va ularni muomalaga chiqarish tartibi, “yashil” moliyalashtirishga o‘tishning milliy va jahon iqtisodiyotiga ta’siri, “yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarish amaliyoti tahlili, shuningdek, mamlakatimiz xo‘jalik yurituvchi sub’yektlari tomonidan “yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” obligatsiyalar, “yashil” moliyalashtirish, “yashil” loyihalar, emitent, qimmatli qog‘ozlar, fond birjasi, kapital bozori, investor.

Abstract: The article describes the essence and significance of “green” bonds, requirements for “green” bonds, the procedure for their issuance, the impact on the national and global economy of the transition to “green” financing, an analysis of the practice of issuing “green” bonds, and also provides suggestions and recommendations for issuance of “green” bonds by economic entities of the country.

Key words: “green” bonds, “green” financing, “green” projects, issuer, securities, stock exchange, capital market, investor.

Аннотация: В статье описаны сущность и значение “зелёных” облигаций, требования к “зелёным” облигациям, порядок их выпуска, влияние на национальную и мировую экономику перехода к “зелёному” финансированию, анализ практики выпуска “зелёных” облигаций, а также даны предложения и рекомендации по выпуску “зелёных” облигаций экономическими субъектами страны.

Ключевые слова: “зелёные” облигации, “зелёное” финансирование, “зелёные” проекты, эмитент, ценные бумаги, фондовая биржа, рынок капитала, инвестор.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashabbusi bilan 1992-yilda Braziliyaning Rio-De-Janeyro shahrida Atrof-muhit va taraqqiyotga bag‘ishlangan Konferensiya bo‘lib o‘tgandan buyon barqaror rivojlanish masalasi xalqaro hamjamiyatning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Dunyoning ko‘plab davlatlari hukumatlari tomonidan barqaror rivojlanish bo‘yicha milliy strategiyalarni amalga oshirish bo‘yicha sa’y-harakatlariga, shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan hukumatlarni qo‘llab-quvvatlashlariga qaramay, ko‘pchilik mamlakatlarda global iqtisodiy va ekologik rivojlanish bilan bog‘liq havotirlar saqlanib qolmoqda.

So‘nggi yillarda yuz bergan va hozirgacha davom etayotgan global inqirozlar – energetika, oziq-ovqat xavfsizligi, ayrim davlatlar o‘rtasidagi siyosiy mojorolar va moliyaviy inqirozlar ta’sirida barqaror rivojlanishga erishish masalasi yanada dolarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Dunyo olimlari insonlarning ongli yoki ongsiz ravishda tabiy atrof-muhitga ta’siri sayyoramizning ekologik chegaralaridan oshib ketayotgani va bu holat insonlar uchun yaxshi natijalarni olib kelmasligi haqida “bong” urmoqda.

Bugungi kunda ko‘pchilik davlatlar hukumatlari sayyoramizda resurslar cheklanganligini hisobga olib, o‘z mamlakatlari uchun tabiiy resurslar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishning samarali usullarini qidirar ekan, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni milliy siyosat va xalqaro hamkorlikni rivojlantiruvchi “katalizator” sifatida qaramoqda hamda barqaror rivojlanishga yordam beruvchi eng maqbul bo‘lgan vosita sifatida e’tirof etmoqda.

Shu boisdan ham, 2012-yilda BMT tashabbusi bilan Braziliyaning Rio-De-Janeyro shahrida o‘tkazilgan “Rio+20” konferensiyasida qatnashgan hukumat rahbarlari va vakillari yakdillik bilan “yashil” iqtisodiyotni barqaror rivojlanishga erishishning muhim dastagi sifatida qarab, barqaror rivojlanishning asosiy xususiyati sifatida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, bandlikni ta’minlash, qashshoqlikka barham berish va sayyoramiz ekotizimlarining yaxshi ishlashini ta’minlashga xizmat qilishini qayd etib o‘tishdi.

Shuni qayd etish joizki, Afrika, Lotin Amerikasi, Osiyo-Tinch okeani va Yevropa mintaqalariga taalluqli bo‘lgan aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyalari ishlab chiqilgan va ular amalga oshirilish jarayonida. Ushbu rivojlanayotgan amaliyot va xalqaro tajriba “yashil” iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyot siyosati yo‘nalishlari, ularning turli soha va milliy ustuvorliklar bo‘yicha qamrab olinishi hamda bu boradagi institusional to‘siqlar, xavf-xatarlar va bunday tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganish imkonini beradi. Shu bilan birga bunday tajribani o‘rganish “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini milliy ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklar va maqsadlar bilan samarali bog‘lash orqali kutilayotgan xavf-xatarlarni bartaraf etishga yordam beradi. O‘z navbatida, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish katta kapital xarajatlarni talab etadi. Bu borada mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishda “yashil” moliyalashtirish vositalari, xususan “yashil” obligatsiyalardan foydalanishning xorij amaliyoti va tajribasini chuqur tahlil qilish asosida zarur taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish mavzusi makroiqtisodiyotda ko‘p talqin qilinadigan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi dastlabki izlanishlar T. Maltus va D. Rikardolarning ilmiy izlanishlarida aks etadi. “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish g‘oyasi ilgari surilganga qadar bo‘lgan davrdagi izlanishlar asosan chyeklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni ishlatish, atrof-muhitning ifloslanishi va zaharlanishi, shuningdek, tabiiy biologik jarayonlar buzilishi bilan bog‘liq muammolarning ortib borayotganligiga qaratilgan. Atrof-muhit ifolslanishining oldini olish maqsadida 1980–2000-yillarda “yashil” iqtisodiyot va “yashil” moliyalashtirish terminlari paydo bo‘ldi. R. Solou va V. Leontyevning ilmiy ishlarida barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘sish g‘oyalari ilgari surilib, matematik va iqtisodiy modellashtirish faol qo‘llanildi [1].

Ingliz iqtisodchisi E. F. Shumaxer o‘z tadqiqotlarida talabni qondirish va uni o‘stirishga asoslangan iqtisodiy tizimni qoralaydi va talabning haddan tashqari o‘sishi yangi iqtisodiy inqirozlarni yuzaga chiqarishini ta’kidlaydi. E. F. Shumaxer “Iste’mol – bu maqsad emas, minimal iste’mol qilish orqali maksimal yaxshi turmush tarziga erishishning vositasi bo‘lishi kerak”, – degan g‘oyani ilgari surib, “Taraqqiyot – atrof-muhit va suvni ifloslantirishga hamda o‘rmonlarni yo‘q qilishga olib keladi”, – degan xulosaga keladi [2].

Yuqorida qayd etib o‘tilgan fikrlarga asoslangan holda dunyo miqyosida cheklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni tejab ishlatish, atrof-muhitning ifloslanishi va zaharlanishing oldini olish, shuningdek, tabiiy biologik jarayonlar buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida global miqyosda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish zarurati yuzaga kelganligini qayd etish mumkin.

Oxirgi paytlarda korporativ moliya sohasidagi rivojlanish yo‘nalishlaridan biri sifatida korporativ “yashil” obligatsiyalar e’tirof etilmoqda. Bunday obligatsiyalarni chiqarishdan tushgan mablag‘lar qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish, “yashil” binolar qurish va resurslarni tejash kabi atrof-muhit va iqlimga mos loyihalarni moliyalashtirish uchun sarflanadi. Misol uchun, 2014-yil mart oyida “Unilever” komaniyasi o‘ziga tegishli mavjud zavodlardan chiqindi, suvdan foydalanish va issiqxona gazlari chiqindilarini ikki baravar kamaytirish uchun 250 mln. funt sterlinglik “yashil” obligatsiya chiqardi. Shunga o‘xshash tarzda, 2017-yil iyun oyida “Apple” qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ta’minot zanjirida energiya samaradorligini oshirishni moliyalashtirish uchun 1,0 mlrd. dollarlik yashil obligatsiyalar chiqardi [3].

Dunyoda global majburiyatlar ortib borayotgan bir paytda 2015-yilda bo‘lib o‘tgan Parij iqlim kelishuvi doirasida keng doiradagi mamlakatlar iqlim bo‘yicha barqaror iqtisodiyotga o‘tish majburiyatini o‘z zimmalariga olgan. Shu asnosda, “yashil” obligatsiyalar bozoriga turli emitentlar va keng toifadagi sarmoyadorlar, xususan, investitsiya fondlari, pensiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari, kichik va o‘rta biznes sub’yektlarining qiziqishlari ortishi hisobiga kelajakda mazkur bozorning yanada rivojlanishi kutilmoqda. Shuning uchun ham, Italiya, Lyuksemburg, Meksika davlatlaridagi hamda Oslo, London, Shanxay va Shenchjen shaharlaridagi fond birjalari “yashil” obligatsiyalar bozori rivojlanishini rag‘batlantirish maqsadida fond birjasi tarkibida “yashil” obligatsiyalar bozori segmentini yaratishdi. Shubhasiz, ushbu bozor segmentlari “yashil” obligatsiyalarning likvidligini oshirishga, shaffofligini ta’minlashga va obro‘sini ko‘tarishga yordam beradi va global iqtisodiyotni yashillashtirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni ko‘paytirishga xizmat qiladi. [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI, TAHLIL VA NATIJALAR

“Yashil” obligatsiyalar xususiy tashkilotlar, davlat tashkilotlari timsolida milliy hukumat, mahalliy hukumat yoki davlat organlari hamda xalqaro moliya institutlari masalan, Jahon banki, Yevropa investitsiya banki va boshqalar tomonidan chiqarilishi mumkin. “Yashil” obligatsiyalar asosan AQSH dollari va yevroda chiqariladi (emissiyaning 80% ga yaqini), ularning o‘rtacha muomalada bo‘lish muddati 5–10 yilni tashkil etadi. “Yashil” obligatsiyalar nafaqat atrof-muhitga e’tiborli investorlar orasida, balki iqlim o‘zgarishlarining korxonalar va davlat siyosatiga sezilarli ta’sir qilishidan xabardor bo‘lgan investorlar o‘rtasida ham tobora ommalashib barqaror investitsiya vositasiga aylanib bormoqda.

“Yashil” obligatsiyalar oddiy obligatsiyalar bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunday obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lar ekologik toza loyihalarni amalga oshirish, birinchi navbatda iqlim o‘zgarishini yumshatish bilan bog‘liq ishlarga ishlatiladi [5].

Jahon amaliyotida “yashil” obligatsiyalarni xalqaro kapital bozoriga chiqarish va xalqaro reyestrga kiritish uchun Kapital bozorlari xalqaro Assosiatsiyasi (ICMA-The International Capital Market Association) va Iqlim obligatsiyalari tashabbusi (CBI – Climate Bond Initiative) talablariga javob berishi kerak.

Muomalaga chiqarilayotgan obligatsiyalar “yashil” obligatsiyalar sifatida tan olinishi uchun yuqorida qayd etib o‘tilgan tashkilotlar tomonidan e’tirof etilgan asosiy tamoyillarga mos kelishi kerak. Asosiy tamoyillar belgilangan yo‘nalish va qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan, barcha ishtirokchilar uchun bir xil bo‘lgan ixtiyoriy qoidalar to‘plamidir. Asosiy tamoyillar global qarz kapitali bozorlarining taraqqiyotni moliyalashtirishdagi rolini oshirish orqali ekologik va ijtimoiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi.


Asosiy tamoyillarga “yashil” obligatsiyalarni chiqarishning maqbul amaliyotlari hamda global boshqaruv tamoyillari va tavsiyalari singdirilgan. Tamoyillar ma’lumotlarni ochiqlash va shaffoflikni ta’minlash orqali ijtimoiy va ekologik maqsadlarga erishishni nazarda tutadi va shu asosda bozor yaxlitligi saqlab qolinadi. “Yashil” obligatsiyalarning asosiy tamoyillari moliya bozori ishtirokchilarini ekologik va ijtimoiy o‘zgarishlarning salbiy ta’siri to‘g‘risida ko‘proq xabardor qilish asnosida barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun katta hajmdagi kapitalni jalb qilishga qaratilgan.

“Yashil” obligatsiyalar tamoyillari emitentlarni ekologik xavsiz va barqaror rivojlanish loyihalarini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadi sari yetaklab, buning natijasida atrof-muhitni muhofaza qilish va zararli chiqindilar emissiyasi nolga teng bo‘lgan iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Yashil” obligatsiyalar tamoyillari ixtiyoriy qo‘llaniladigan tavsiyalardir. Bunday tavsiyalar ma’lumotlar shaffofligi va oshkor etilishi to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga oladi hamda “yashil” obligatsiyalar bozori rivojlanishida yaxlitlikni ta’minlash orqali bunday turdagi obligatsiyalarni chiqarishda aniq yondashuvga ega bo‘lishni ta’minlaydi.

“Yashil” obligatsiyalar tamoyillari emitentlarga ma’lumotlarni ochiqlash jarayonlariga to‘liq amal qilishni tavsiya qiladi. Sababi bunday ma’lumotlar investorlar, tijorat banklari, anderayterlar, bitim tashkilotchilari, sug‘urta kompaniyalari va bozorning boshqa ishtirokchilari uchun yangi muomalaga chiqarilayotgan “yashil” obligatsiyalarning xususiyatlarini aniqlab olishlari uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

“Yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarish quyidagi 4 ta asosiy tamoyillarga mos bo‘lishi kerak:



1-rasm: “Yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarish tamoyillari[1]

1. **Mablag‘larning ishlatilishi**

“Yashil” obligatsiya tamoyillarining eng muhim tarkibiy qismi bu obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lardan foydalanish masalasi bo‘ladi. Bunday qimmatli qog‘ozlarni sotishdan tushgan mablag‘lar faqat “yashil” loyihalarni amalga oshirish uchun ishlatilishi zarur va qimmatli qog‘ozlarni chiqarish uchun tayyorlangan hujjatlarda “yashil” loyihalarga sarflanishi aniq aks etishi kerak. Shuningdek, barcha amalga oshirilishi rejalashtirilgan “yashil” loyihalar emitent tomonidan baholangan va miqdor jihatdan qayd etish mumkin bo‘lgan ekologik naf keltirishi zarur.

Agarda obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lar to‘liq yoki ularning bir qismi qayta moliyalashtirish uchun ishlatiladigan bo‘lsa, emitentlar tomonidan tushgan mablag‘larning qancha qismi “yashil” loyihalarni moliyalashtirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatilishi, qancha qismi qayta moliyalashtirish uchun ishlatilishi to‘g‘risidagi qiyosiy ma’lumotlar loyiha portfellariga investitsiya kiritish ulushlarini ko‘rsatilgan holda batafsil axborot taqdim etadilar.

“Yashil” obligatsiya tamoyillari “yashil” loyihalarni amalga oshirish orqali iqlim o‘zgarishlari ta’sirini yumshatish, iqlim o‘zgarishlariga moslashish, tabiiy resurslarni saqlab qolish, bio xilma-xillikni ta’minlash, shuningdek, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va nazorat qilish borasidagi ekologik maqsadlarga erishishga hissa qo‘shadi.

1 Green-Bond-Principles-June–2021–140621.pdf (icmagroup.org) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

“Yashil” obligatsiyalar bozorida qo‘llab-quvvatlanadigan “yashil” loyiha toifalari va turlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

- Qayta tiklanadigan energiya manbalari (shu jumladan, ishlab chiqarish, yetkazib berish, asbob-uskunalar va mahsulotlarni o‘z ichiga olgan holda);
- Energiya samaradorlik (masalan, yangi va ta’mirlangan bino va inshootlarda energiya samaradorligini ta’minlash, markaziy issiqxonalarda energiyani saqlash, aqlli tarmoqlar, asbob-uskunalar va mahsulotlar);
- Ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish (shu jumladan, atmosferaga zararli gazlar chiqishini kamaytirish, issiqxona gazlarini nazorat qilish, ekin maydonlari (tuproqlar)ni tiklash, ifloslanishning oldini olish va kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash, chiqindilarni qayta ishlash orqali elektr energiyasini yaratish);
- Jonli tabbiy resurslar va yerdan foydalanish jarayonida ekologik jihatdan barqaror boshqarish (shu jumladan, barqaror qishloq xo‘jaligi, ekologik jihatdan barqaror chorvachilik, iqlimga mos qishloq xo‘jaligi texnologiyalari, masalan, biologik ekinlarni himoya qilish yoki tomchilab sug‘orish, ekologik barqaror baliq ovlash, barqaror o‘rmon xo‘jaligi, o‘rmonzorlarni yaratish va qayta tiklash, tabiiy landshaftlarni saqlash va tiklash);
- Quruqlik va suvda biologik xilma-xillikni saqlash (shu jumladan, qirg‘oqdagi, dengiz va suv havzasidagi muhitni himoya qilish);
- Ekologik toza transport (elektr, gibrid, jamoat, temir yo‘l, ichki yonuv dvigatelsiz multimodal transport, ekologik toza transport vositalari uchun infratuzilma, va zararli chiqindilarni kamaytirish);
- Suv va oqava suvlarni barqaror boshqarish (shu jumladan, toza va (yoki) ichimlik suvi uchun barqaror infratuzilma, oqava suvlarni tozalash, barqaror shahar drenaj tizimlari, daryo qirg‘oqlarini tartibga keltirish va suv toshqini bilan kurashishning boshqa usullari);
- Iqlim o‘zgarishlariga moslashish (shu jumladan, iqlimni kuzatish va erta ogohlantirish tizimlari orqali taqdim etiladigan axborotlarni qo‘llab-quvvatlash);
- Ekologik jihatdan samarali va (yoki) chiqindisiz iqtisodiyotga moslashgan mahsulotlar, ishlab chiqarish texnologiyalari va jarayonlar (ekologik barqaror mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etish, ekoyorliqlash yoki ekosertifikatlash, tejamkor qadoqlash va tarqatish kabilar);
- Milliy, mintaqaviy yoki xalqaro miqyosda tan olingan standartlar yoki sertifikatlarga javob beradigan yashil binolar.

2. **Loyihalarni baholash va tanlab olish jarayoni**

“Yashil” obligatsiyalar emitenti investorlar e’tiboriga quyidagilarni aniq va tushunarli tarzda yetkazishi kerak bo‘ladi:

- ekologik barqarorlik bilan bog‘liq maqsadlar;
- emitent tomonidan “yashil” loyihalar uchun qo‘yiladigan loyiha toifalari va talablariga muvofiqligining asoslanishi;
- tegishli malaka mezonlari, shu jumladan, qo‘llash mumkin bo‘lgan hollarda istisno mezonlari hamda loyiha bilan bog‘liq bo‘lgan muhim ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash va boshqarish imkonini beruvchi jarayonlar;
- “Yashil” obligatsiyalar emitentlari yuqorida qayd etilgan loyiha ma’lumotlarini ekologik barqarorlik bilan bog‘liq o‘zlarining ustuvor maqsadlari, strategiyalari, siyosati va jarayoni sifatida qayd etishlari zarur bo‘ladi.

3. **Mablag‘larni boshqarish**

“Yashil” obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lar alohida hisob raqamga tushishi va emitent tomonidan mazkur mablag‘larning hisobi yuritilishi zarur. Emitent obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘larni “yashil” loyihalarga kreditlash va investitsiyalash bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini yuritish yuzasidan alohida ichki tartib-qoidani belgilab olishi kerak.

“Yashil” obligatsiyalar muomalada bo‘lgan davrda obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘larni emitent tomonidan “yashil” loyihalarni amalga oshirish maqsadlariga mos ravishda investitsiya kiritilishini vaqti-vaqti bilan naorat qilib borish zarur. Bu borada emitent obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘larning foydalanilmay turgan qismini qanday vositalarga vaqtinchalik joylashtirmoqchi ekanligi to‘g‘risida ma’lumot berishi kerak.


“Yashil” obligatsiyalar yuqori darajadagi shaffoflikni rag‘batlantiradi. Shuning uchun “yashil” obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lar tushumini boshqarish va maqsadli ishlatilishini nazorat qilib borish uchun tashqi auditor yoki boshqa uchinchi shaxs jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. **Hisobot berish**

Emitentlar “yashil” obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lar sarflanishi bo‘yicha ma’lumotlarni doimiy yig‘ib borishi va muhim ma’lumotlarni o‘rnatilgan tartibda har yili e’lon qilib borishi kerak. Yillik hisobotda obligatsiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lar hisobiga moliyalashtirilgan loyihalar ro‘yxati, mazkur loyihalarning qisqacha tavsifi, loyihalarga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi va loyihalarni amalga oshirishdan kutilayotgan o‘zgar-

ishlar o‘z aksini topishi kerak.


Agar raqobat yoki ko‘p sonli loyihalar bilan bog‘liqligi tufayli shartnoma shartlari ochiqanmaydigan bo‘lsa, loyihaning faqat cheklangan tafsilotlari taqdim etilishi mumkin. Obligatsiyalarni chiqarish tamoyillariga ko‘ra ma’lumotlar yig‘ma shaklda yoki umumiy portfel asosida taqdim etilishi kerak. Masalan, ma’lum bir kategoriyalarga taalluqli loyihalar bo‘yicha umumiy tushum hajmiga nisbatan foiz hisobida ifodalash orqali. Loyihaning atrof-muhitga ko‘rsatgan va (yoki) kutilayotgan ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishda shaffoflikning ta’minlanishi muhim va alohida ahamiyatga egadir. Obligatsiyalarni chiqarish tamoyillari samaradorlikni aniqlashda sifat ko‘rsatkichlardan, shuningdek, agar aniqlash imkoni bo‘ladigan bo‘lsa, miqdor ko‘rsatkichlardan foydalanishni tavsiya qiladi. Shu bilan birgalikda bu jarayonda foydalanilgan metodologiyani izohlab ketish zarur bo‘ladi. “Yashil” obligatsiyalar yoki “yashil” obligatsiyalar dasturlarining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi qisqa xulosadan foydalanish, shuningdek, ularning “yashil” obligatsiyalar tamoyillari sifatida e’tirof etilgan to‘rtta elementiga mos kelishining asoslanishi bu borada bozor ishtirokchilarini xabardor qilish jarayonini osonlashtiradi.



2-rasm: Dunyo miqyosida 2014–2022 yillarda muomalaga chiqarilgan “yashil” obligatsiyalar qiymati (mlrd. AQSH dollarida)[2]

2-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, oxirgi yillarda dunyo bo‘ylab muomalaga chiqarilgan “yashil” obligatsiyalar qiymati keskin oshib bormoqda. Agar 2014-yilda dunyo bo‘yicha muomalaga chiqarilgan “yashil” obligatsiyalar qiymati 36,7 mlrd. AQSH dollariga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib, “yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarish bo‘yicha rekord darajadagi qiymat, ya’ni 582,4 mlrd. AQSH dollariga teng bo‘lgan natija qayd etildi. 2022-yilda esa, 2021-yildagiga qaraganda biroz kamroq, ya’ni 487,1 mlrd. AQSH dollari qiymatidagi “yashil” obligatsiyalar muomalaga chiqarildi.

3-rasmda keltirilgan ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2022-yilda dunyo miqyosida jami 5166 ta “yashil” obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilgan. Agar obligatsiyalar emissiyasini iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, 2022-yilda eng ko‘p, ya’ni 1696 ta “yashil” obligatsiyalar emissiyasi energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan binolar qurilishi bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirish maqsadlarida chiqarilgan. Suv va oqava suvlarni barqaror boshqarish hamda toza ichimlik suvi uchun barqaror infratuzilmani yaratish maqsadlariga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun 1092 ta “yashil” obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilgan.



2 https://www.statista.com/statistics/1289406/green-bonds-issued-worldwide/

3-rasm: Dunyo miqyosida 2022 yilda muomalaga chiqarilgan “yashil” obligatsiyalar emissiyasi soni[3]

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirish uchun 1023 ta “yashil” obligatsiyalar emissiyasi qayd qilingan. Ekologik toza transport tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida 718 ta, chiqindilarni qayta ishlashga qaratilgan 236 ta, yerdan foydalanishda ekologik jihatdan barqaror boshqarish maqsadlari yo‘lida 182 ta, sanoat miqyosida ekologik barqaror mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadlarida 37 ta, AKT sohasida 30 ta va iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida 152 ta “yashil” obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Bunday xarajatlarni faqat davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirishning imkoni yo‘q va bunga mablag‘ ham yetmaydi. Bu masalaga yechim sifatida kam uglerodli texnologiyalardan foydalanishga xususiy sektorni faol jalb qilish lozim.
2. Ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasiga tayangan holda mamlakatimizda “yashil” moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash va bu jarayonga xususiy investorlarni faol jalb qilish maqsadida “Toshkent” respublika fond birjasida “yashil” obligatsiyalar bilan savdo-sotiq qiluvchi alohida bo‘limni tashkil etish maqsadga muvofiq, – deb hisoblaymiz. Buning uchun avvalo, tegishli qonun va qonun osti hujjatlariga “yashil” obligatsiyalar tushunchasi, uning turlari va tamoyillariga aniqlik kiritish, so‘ngra fond birjasida “yashil” obligatsiyalar bilan savdo-sotiq uchun zarur ekotizimni yaratish zarur.
3. “Yashil” obligatsiyalarni xalqaro kapital bozoriga chiqarish va xalqaro reyestrga kiritish uchun Kapital bozorlari xalqaro Assosiatsiyasi (ICMA) va Iqlim obligatsiyalari tashabbusi (CBI) talablariga talablariga javob berishi kerak. Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Xitoy va boshqa ko‘plab davlatlar “yashil” loyihalar taksonomiyasi (barqaror rivojlanish va “yashil” loyihalarning aniq yo‘nalishlari va mezonlari)ni ishlab chiqqan bo‘lib, taksonomiya ICMA va CBI talablariga mos keladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ham “yashil” loyihalar taksonomiyasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.
4. Korporativ tuzilmalar tomonidan xalqaro kapital bozorlarida “yashil” obligatsiyalarning muomalaga chiqarilishi hisobiga atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, tabiatga zararli chiqindilarning chiqarilishini kamaytirish va barqaror rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish orqali mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘z navbatida, iqtisodiyot sub’yektlari tomonidan “yashil” obligatsiyalarni chiqarish hisobiga “yashil” loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamining ortishi bu borada davlat byudjetidan qilinadigan xarajatlarni qisqarishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalari birinchilar qatorida “yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali xalqaro kapital bozoridan mablag‘lar jalb qilish hisobiga innovasion texnologiyalarga asoslangan chiqindisiz iqtisodiyotga moslashgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Архипова В. В. “Зелёные” финансы как средство для решения глобалных проблем. Экономический журнал ВШЕ. 2017. Т. 21., №2, С. 314.
2. Шумахер Э. Ф. Маленкое – это прекрасно: изучение экономики, как будто люди имеют значение* (новые переводы). Журнал Экономическая сосиология. Т. 13., №1. Январ 2012. www.ecsoc.hse.ru;
3. Caroline Flammer, Corporate green bonds, Journal of Financial Economics, Volume 142, Issue 2, 2021, Pages 499–516, ISSN 0304–405X, https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0304405X21000337
4. Juan C. Reboredo, Green bond and financial markets: Co-movement, diversification and price spillover effects, Energy Economics, Volume 74, 2018, Pages 38–50, ISSN 0140–9883, https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0140988318302032
5. Коданева С. И. “Зеленые инвестисии” в Росии и зарубежом: проблемы, механизмы, перспективы. Россия и мир в XXI веке. – с. 68–88. DOI: 10.31249/rsm/2020.03.05.
6. https://www.statista.com/statistics/1289406/green-bonds-issued-worldwide

3 https://www.statista.com/statistics/1289406/green-bonds-issued-worldwide/



TURIZM SOHASIDAGI LOYIHALARNI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Matkabulova Dilorom Xalilullayevna
PhD, katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada dunyo turizm industriyasidagi so‘nggi yillardagi o‘zgarishlar, unga va O‘zbekistonda turizmning rivojlanishiga COVID–19 pandemiyasining ta’siri oqibatlari, shuningdek, O‘zbekistonda koronainqirozidan chiqish jarayonidagi islohotlar tahlil qilingan hamda turizm xizmatlari eksportini yanada oshirish orqali mamlakat eksportini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, turizm industriyasi, eksport, turistik xizmat, COVID–19 pandemiyasi, inqiroz, imtiyoz, turist.

Abstract: The article analyzes the changes in the global tourism industry in recent years, the impact on it of the COVID–19 pandemic and on the development of tourism in Uzbekistan, as well as reforms in Uzbekistan in the process of overcoming the coronavirus crisis and developed practical recommendations for the development of countries’ exports by further increasing the volume of exports tourist services.

Key words: Tourism, tourism industry, export, travel services, COVID–19 pandemic, crisis, privilege, tourist.

Аннотация: В статье анализируются изменения в мировой туристической индустрии за последние годы, влияние на нее пандемии COVID–19 и на развитие туризма в Узбекистане, а также реформы в Узбекистане в процессе преодоления коронакризиса и разработана практические рекомендации по развитию экспорта странқ путем дальнейшего увеличения объёма экспорта туристических услуг.

Ключевые слова: Туризм, индустрия туризма, экспорт, туристические услуги, пандемия COVID–19, кризис, привилегия, турист.

KIRISH

Turizm sohasi subyektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotiga ta’sir etayotgan omillar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra respublikamizda turizm sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator dolzarb muammolarning mavjudligini ko‘rsatdi. Bu boradagi ana shunday dolzarb muammolardan biri bo‘lib, moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi hisoblanadi.

Respublikamizda qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasining past ekanligi, turizm sohasidagi investitsiyalarning tashabbuskorlarida pul oqimining zaif ekanligi moliyalashtirish manbalari yetishmasligi muammosini chuqurlashishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasining past ekanligi qimmatli qog‘ozlarni sotish yo‘li bilan olingan pul mablag‘lari hisobidan investitsiyalarni moliyalashtirish hajmini oshirish imkonini bermaydi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aylanmaning yillik hajmini hozirgi 200 million AQSh dollaridan keyingi besh yilda 7 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Buning uchun davlat korxonalarini xususiylashtirish, davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish vazifasi qo‘yilgan.

Yuqorida qayd etilgan holatlar, pirovard natijada, kapital bozorini rivojlantirishga va banklararo raqobat muhitini yaxshilanishiga olib kelishi kerak. Bu esa, investitsiya loyihalarining moliyaviy resurs ta’minotini yaxshilanishiga olib keladi.

Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimini zaifligi pul mablag‘larining joriy aktivlar hajmidagi salmog‘ini kichik ekanligi bilan izohlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu subyektlarda pul mablag‘lari kirimi bilan chiqimi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlanmaganligi bilan izohlanadi.

Korporativ moliyada kapitalning real bahosi mablag‘larni jalb qilish uchun sarf qilinadigan vaqt va risk omillarini ham o‘z ichiga oladi[1].

Shu bilan birga, e’tibor qaratish talab etiladigan darajada murakkabliklar, aniqlik darajasini pasaytiruvchi obyektiv va subyektiv omillar mavjudligiga qaramasdan kapital yoki uning alohida komponentlari bahosini aniqlash, hech bo‘lmaganda taxminiy bahosini belgilash muhimdir.

Turizm sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolardan yana biri – bu investitsiya loyihalari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni boshqarish amaliyotini takomillashmaganligidir.

Investitsiya loyihalari to‘la quvvatda ishlamasligi ularning texnik-iqtisodiy asosnomasida ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlar bilan haqiqatdagi ko‘rsatkichlar o‘rtasida jiddiy farqlanishlarni yuzaga kelishiga olib keladi. Bunday holatning yuzaga kelishining asosiy sabab bo‘lib, marketing tadqiqotlarini sifatli olib borilmaganligi hisoblanadi.

Texnologik risklarni yuzaga kelish sabablari bo‘lib, texnologik uskunani noto‘g‘ri tanlash, texnologik qarorlarni qabul qilishdagi xatoliklar, innovatsion loyihani ekspertizasidagi xatoliklar hisoblanadi.

Texnologik risklar to‘liq inson omili bilan bog‘liq bo‘lib, investitsiya loyihasining samaradorligiga favqulodda kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Texnologik risklar ta’sirida butun boshli bir obyekt yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Dunyo amaliyotida, shu jumladan, O‘zbekiston amaliyotida texnologik risklar tufayli yuzaga kelgan yo‘qotishlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Sardoba suv omborining o‘pirilib ketishi texnologik riskka yorqin misol bo‘la oladi.

Milliy valyutaning keskin qadrsizlanishi natijasida benefitsiarning milliy valyutadagi mablag‘lari xorijdan import qilinadigan uskunalarning to‘lovini amalga oshirish uchun yetarli bo‘lmay qoladi. Ayniqsa, milliy valyutasi uzoq yillardan buyon qadrsizlanib kelayotgan O‘zbekiston uchun moliyaviy risklar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOTNING MAQSADI

Tadqiqotning asosiy maqadi O‘zbekiston eksportini rivojlantirishda turizm industriyasi hissasini oshirish va uni qo‘llab-quvvatlashning metodologik asoslarini aniqlashdan iboratdir.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Mazkur tadqiqotning asosiy manbalari Jahon sayyohlik tashkiloti, Butunjahon turizm va sayohatlar kengashi, jahonning Internet-manbalari, O‘zbekiston Respublikasining rasmiy statistik va huquqiy axborotlari manbalari hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan tadqiqotlarni olib borishda iqtisodiy hodisa va voqeliklarni o‘rganishning ilmiy usullari – taqqoslash, tahlil va sintez baholash, guruhlash, umumlashtirish, kuzatuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullari qo‘llanildi.

OLINGAN NATIJALAR

Dunyo turizm industriyasida ro‘y berayotgan o‘zgarish va rivojlaishlarga hamohang ravishda hamda mavjud imkoniyat va salohiyatlar asosida O‘zbekistonda eksport hajmini oshirishda turizm industriyasining ishtirokini oshirishga doir chora-tabirlarni tahlil qilish natijalari quyidagi imkoniyatlarni taqdim etdi:

- “2020-yilda xalqaro turistik oqim o‘tgan yilga nisbatan 1 mlrd. kishiga yoki 73 %ga kamayib ketdi, buning oqibatida 1,3 trln. AQSh dollariga teng turizm xizmatlari eksportidan daromad hamda 120 mln.gacha bo‘lgan ish o‘rinlari yo‘qotilishiga olib keldi. Turizm eksportidan ko‘rilgan zarar 2009-yildagi global iqtisodiy inqirozdan 11 marta yuqori bo‘ldi. Bularning barchasi 2020-yilni butun kuzatuv tarixidagi xalqaro turizm uchun eng yomon yil deb atashga imkon beradi”, – deyiladi UNWTO bayonotida[2].
- UNWTOning ta’kidlashicha, sayohat cheklovlari, ayniqsa, og‘ir bo‘lgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasida pandemiya turizmga eng katta zarar yetkazdi. Bu yerga kelganlar soni 2020-yilda 300 mln.ga yoki 84 %ga kamaydi. Yaqin Sharq va Afrikada pasayish 74%, Yevropada 70%ga kamaydi. Shu bilan birga, sayohatlar sonining 2019-yil bilan taqqoslaganda eng katta pasayishi Yevropa qit’asida qayd etilgan – 500 mln. kishi. Amerikada chet ellik sayyohlar kelishining kamayishi 69%ni tashkil etdi[3];
- jahonda 2019-yilda yuqori rivojlanish cho‘qqisida bo‘lgan turizm sektori bo‘yicha xarajatlarning taqsimoti 28,7 %i xalqaro va 1,3 %i ichki turizm xarajatlarini, 21,4 %i biznes maqsadlaridagi, 78,6 %ini dam olish maqsadlaridagi turizm xarajatlarini tashkil etgan[4];


1 Modigliani F., Miller M. The Cost of Capital, Corporate Finance, and the Theory of Investment // American Economic Review, v. 48. (1958).
2 chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/viewer.html?pd
3 chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/viewer.html?pd
4 https://www.tohology.com/hospitality/industry/economic-impact-of-travel-tourism/

- O‘zbekistonda 2020-yilda eksport hajmi 15,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 2,4 mlrd. AQSh dollariga kamaydi. 2021-yilning olti oy davrida esa eksport hajmi 7,1 mlrd. AQSh dollariga teng bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,8 mlrd. AQSh dollariga oshdi. Biroq, shu davrda turizm xizmatlari eksporti 44,7 mln. AQSh dollariga kamayib, 158,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi[5];
- Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT – OECD, Organisation for Economic Co-operation and Development) ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yil yozida ichki turizm 2019-yilgacha bo‘lgan darajada tiklanishi mumkin, lekin xalqaro turizm emas[6]. Sababi, tashqi turizmni tiklanishi va rivojlanishi ko‘pgina omillarga bog‘liq;
- O‘zbekistonda koronavirus pandemiyasi boshlangan davrdan buyon barcha sohalar kabi turizm sohasini ham tiklash va rivojlantirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Buning amaliy natijalari sohaga oid huquqiy asoslarning takomillashtirilishi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga doir ko‘plab imtiyoz va preferensiyalarning taqdim etilayotganligi, qulay infratuzilma yaratish va investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha maqsadli dasturlarning amalga oshirilayotganligi, xususan, “2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi”ning qabul qilinib, samarali ijrosi ustidan qat’iy nazorat ta’minlanganligi yaqin istiqbolda turizm industriyasining yanada yangi qirralar bilan rivoj topishi hamda turizm xizmatlari eksportining sezilarli darajada o‘sib borishiga xizmat qiladi.

TAHLILLAR VA ULARNI MUHOKAMA QILISH

Respublikamiz tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmida uzoq muddatli depozitlarning kichik salmoqqa ega ekanligi kuzatilmoqda. Masalan, respublikamizning yirki tijorat banklarida (TIF Milliy banki, Sanoatqurilishbank, Asakabank va Ipotekabank) 2021-yilning 31-dekabr holatiga, bir yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i esa, atigi 21,4 foizni tashkil etdi.

Ta’kidlash joizki, davlat dasturlari doirasida berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik miqdori katta bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ–3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Moliya vaziriga davlat dasturlari doirasida berilgan va qaytmagan kreditlarni tijorat banklariga qaytarish vazifasining yuklanganligi banklarning likvidliligini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.



3.1-rasm: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning salmog‘i

3.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy hajmida muammoli kreditlarning salmog‘i o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning ustiga, 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkichning amaldagi darajasi uning umume’tirof etilgan darajasidan (3,0%) sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Ushbu holatlar tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan kuchli salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi.

2021-yil 1-yanvar holatiga muammoli kreditlarning tarkibida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida sanoatning ulushi 28 foizni, savdo va umumiy ovqatlanish 13 foizni, qishloq xo‘jaligi 11 foizni, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish 8 foizni, qurilish 5 foizni, transport va kommunikatsiya, moddiy va texnik ta’minotni rivojlantirish 1 foizni hamda boshqa sohalarning ulushi 32 foizni tashkil etdi.

5 O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari. // www.stat.uz
6 https://www.fdiintelligence.com/article/80019?

Quyidagi jadval ma’lumotlari orqali tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasi darajasiga baho beramiz.

3.1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy monetar indikatorlar (foizda)

Monetar indikatorlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Inflyatsiyaning yillik darajasi	14,3	15,1	11,1	10,0
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	16,0	16,0	14,0	14,0
Tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o‘rtacha yillik foiz stavkasi	20,5	24,2	22,3	20,8

3.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamizda 2018–2021-yillarda inflyatsiya yillik darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, milliy pul tizimining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolini oshirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

3.1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 2018–2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi pasayish sur’atiga ega bo‘lgan. Bu esa, mazkur davr mobaynida inflyatsiya darajasining pasayish tendensiyasiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi.

3.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamizda 2019–2021-yillarda tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o‘rtacha yillik foiz stavkasini pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, ushbu davr mobaynida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini pasayish sur’atiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklari depozitlarining yetarliligi ta’minlangan bo‘lib, talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i, odatda, 30 foizdan oshmaydi. Buning ustiga, mazkur banklarning joriy likvidliligi, asosan Hukumatning qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalar hisobidan ta’minlanadi. Masalan, 2021-yilning 1-yanvar holatiga, Benk of Amerika aktivlarining umumiy hajmida hukumatning qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalarning salmog‘i 11,1 foizni tashkil etdi[7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi dolzarb muammolar aniqlandi:

- moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi;
- turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimini zaifligi;
- investitsiya loyihalari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni boshqarish amaliyotini takomillashmaganligi;
- turizm sohasi subyektlarining tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish darajasining past ekanligi (tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi;
- banklarda muddati o‘tgan kreditlar miqdorining katta ekanligi;
- kreditlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligi; turizm sohasi subyektlarining kredit to‘loviga layoqatlilik darajasining past ekanligi).
- turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyatini rivojlanmaganligi.

Turizm sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Turizm sohasidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonidagi asosiy risklarni (moliyaviy risklar, loyiha tashabbuskorlari bilan bog‘liq risklar va loyihani amalga oshirish risklari) boshqarishni takomillashtirish va turizm xizmatlari eksportining infratuzilmasini yaxshilash yo‘li bilan turizmni eksportdagi ulushini oshirish lozim.
2. Investitsiyalarni moliyalashtirishning innovatsion shakllari va usullarini (hissali ishtirok shaklidagi moliyalashtirish, venchurli moliyalashtirish, qoplanmagan va chaqirib olinmaydigan hujjatlashtirilgan akkreditivlardan foydalanish, kreditlarni bonifikatsiya qilish) turizm sohasidagi iinfratuzilma loyihalarini moliyalashtirish amaliyotiga qo‘llash orqali infratuzilma obyektlarini moliyalashtirish hajmini oshirish zarur.
3. Turizm sohasidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash amaliyotining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni moliyalashtirish, innovatsion investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan subyektlarga moliyaviy imtiyozlar berish, turizmni rivojlantirishga qaratilgan fundamental va amaliy tadqiqotlarni moliyalashtirish maqsadiga beriladigan davlat grantlari miqdorini ko‘paytirish lozim.
4. Turizm sohasidagi investitsiya loyihalarini kreditlash hajmini oshirish maqsadida kreditlashning mavjud shakllaridan (kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash, sinditsiyali kreditlash, alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabali kreditlash) kompleks foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak.

7 Bank of America. Annual Report. 2021. www.bankofamerica.com.

5. Moliyaviy resurslar taqchilligi sharoitida turizm sohasidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ijtimoiy (yangi ish o‘rinlari, hudud infrastrukturasi), iqtisodiy (moliyaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlar), byudjet (soliq va boshqa majburiy to‘lovlar) samaradorligini yagona algoritmik yondashuv orqali kompleks baholash orqali tashkil qilishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu jarayonlarni raqamlashtirish, umumiy hamma uchun shaffof bo‘lgan omillarni belgilab olish, loyihalarni hududiy, byudjet, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi nuqtayi nazaridan aniq ko‘rsatkichlarni belgilab olish hamda bunda innovatsion ishlanmalardan ham samarali foydalanish joiz.
6. Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish yo‘li bilan uzoq muddatli moliyaviy resurlar jalb qilish amaliyotini takomillashtirish maqsadida, birinchidan, inflyatsiyaning mo‘tadil darajasiga erishish (yillik 3%) va milliy valyutaning devalvatsiyasiga barham berish yo‘li bilan korxonalar tomonidan chiqariladigan qimmatli qog‘ozlarning investitsion jozibadorligini ta’minlashga ko‘maklashish lozim; ikkinchidan, investorlarning korxonalarning uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlaridan olinadigan daromadlari soliqqa tortilmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bakhromov, A., Juraeva, N., Nurfayzieva, M., Oppokkhonov, N., & Egamnazarov, K. (2023). Sun’iy intellektning turizm sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishdagi o‘rni.
2. Egamnazarov Kh., Bakhromov A., Nurfayzieva M., & Oppokkhonov N. (2023). Tourism Potential Of The Republic Of Karakalpakstan: An Exploration Of Cultural Heritage And Natural Beauty // Экономика и социум, (7 (110)), 104–110.
3. Egamnazarov, K. (2023). The Role of the Cities of the Great Silk Road of Uzbekistan in the Tourism of Uzbekistan. European Journal of Life Safety and Stability (2660–9630).
4. Khalilullayevna, D. M. (2023). Current Problems in Improving the Practice of Financing Investments in the Field of Tourism // European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 3(6), 147–152.
5. Matkabulova, D. (2022). The Relationship Between Investment And Tourism: Insights From The Literature. Theoretical & Applied Science // Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (3), 871–878.
6. Raximova,D. (2023). O‘zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishining hozirgi tendensiyalari // Engineering problems and innovations.
7. Рахимова, Д. М. (2022). Диверсификация туристических услуг, MICE туризм // Архив научных исследований, 2(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1017
8. Рахимова, Д. М. (2022). Туристско-ресурсный потенциал Узбекистана, как объекта караванинга // Архив научных исследований, 2(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/964
9. qizi Sa’dullayeva, G. S. (2019). Ta’lim xizmatlari bozorini marketing strategiyasini rejalashtirish // Turizm ilmiy-amaliy elektron jurnali, 1(1), 18–25.
10. Rustamovich, Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan.” Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28–33.
11. Rustamovich, Dehganov Burkhan. Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services. // Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya 2.3 (2023): 35–37.
12. Sa’dullayeva, G. (2020). Turizm xizmatlari bozorida ta’lim turizmi tushunchasi mohiyati va uni rivojlantirishning xorij tajribalari. Innovatsion texnologiyalar, (2 (38)), 98–100.
13. Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna. (2023). Turizm tarmog‘ida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari. // Journal Of Economy, Tourism And Service, 2(7), 107–112. Retrieved from http://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/75
14. Xushnazarova, M. G. (2020). “Upravleniya znaniyami” v industrii turizma. Ekonomika i sotsium, (12–2 (79)), 390–394.
15. Махзуна, Х. Г. (2023). Strategy For Increasing The Attractiveness Of National Tourism Products (In A Basis Of Craftsmanship): Стратегия повышения привлекательности национальных туристических продуктов (на основе ремесленничества). Молодой специалист, 2(14), 24–27.
16. Gulamjanovna, M. K. (2023). Current Issues Of Tourism Potential Of Uzbekistan And Its Development. Scientific Aspects And Trends In The Field Of Scientific Research, 1(10), 342–346.
17. Хушназарова, М. (2022). Туристское образования и проведение научных исследований за рубежом. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1224
18. Хушназарова М. Г. и др. Краткий обзор истории Азиатского города Самарканд //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 835–842.
19. Очилова Х. Ф. Перспективы этнопарков в Узбекистане //Туризм и гостеприимство. – 2020. – №. 1. – С. 69–75.
20. Очилова Х. Ф., Умирова Д. С. Гастрономический туризм: теория и практика. – ООО ДиректМедиа, 2021.
21. Очилова Х. Ф. Восстановление туризма в Узбекистане после пандемии //Туризм и гостеприимство. – 2020. – №. 2. – С. 70–75.
22. Makarova, Elena, and Hilola Ochilova. “International research activities and harmonious development of student’s personality.” E3S Web of Conferences. Vol. 291. EDP Sciences, 2021.

KOREYA RESPUBLIKASIDA YASHIL (EKO) TURIZMNING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI VA MUAMMOLLARI



Islomova Dilrabo Salomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Turizm” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Janubiy Koreya Respublikasida yashil (eko) turizmning taraqqiyotining joriy holati, muammolari va istiqbolda mamlakat ekologik muhitini saqlab qolgan holda turizmni rivojlantirish istiqbollari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yashil (eko) turizm, barqaror ekoturizm, agroturizm, ekologik markaz, mavsumiy turizm.

Abstract: This scientific article presents the current state of development of green (eco) tourism in the Republic of Korea, its problems, and prospects for developing tourism while preserving the country’s ecological environment in the future.

Key words: green (eco) tourism, sustainable ecotourism, agrotourism, ecological center, seasonal tourism.

Аннотация: В данной научной статье представлено современное состояние развития зеленого (эко) туризма в Республике Корея, его проблемы и перспективы развития туризма при сохранении экологической среды страны в будущем.

Ключевые слова: зеленый (эко) туризм, устойчивый экотуризм, агротуризм, экологический центр, сезонный туризм.

KIRISH

Yuqori texnologiyalar, tarixiy binolar, urf-odatlar va jonli shaharlar mamlakati Janubiy Koreya yashil turizmni sevuvchilar uchun asosiy tanlovlardan biri hisoblanadi. Kichik hududiga qaramay, Koreya landshaftlarining ko‘p qirraliligi bilan hayratda qoldiradi. Koreyadagi yashil turizm nafaqat tabiat qo‘ynida dam olish imkoniyatini taqdim etadi, balki sizni ushbu noyob mamlakatning boy tarixi va madaniyatiga singdiradi.

So‘nggi yillarda Koreya hukumati yangi tabiat bog‘lari, yo‘lakchalari va ekologik markazlarni yaratish orqali ekoturizmni rivojlantirishni faol qo‘llab-quvvatlamoqda. Buning yordamida sayyohlar hududning o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘rganish, piyoda sayr va velosipedda mashq qilish, shuningdek, turli xil ekologik dasturlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega.

Ushbu maqola Koreyadagi yashil turizmning asosiy yo‘nalishlari, muammolari haqida tahlil olib borilib, maqolaning maqsadi Koreya Respublikasida yashil turizmni rivojlantirish tajribasini tadqiq etishdan iborat..

MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Choi, A. va Kim, J. (2018). “Janubiy Koreyada ekoturizmning evolyutsiyasi” maqolasida 1990-yillardan boshlab Koreyada ekoturizm rivojlanishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishining asosiy bosqichlari tahlil etilgan [1].

Li, H. va Park, J. (2017). “Ekoturizmning qishloq jamoalariga ta’siri” nomli maqolasida ekoturizm bir qator qishloq joylarida yashash sharoitlarining yaxshilanishiga olib kelishini, lekin ayni paytda ba’zi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni ham olib kelishi mumkinligi, ta’kidlangan [2].

Park, S. va Kim, T. (2019) ning “Koreyada barqaror ekoturizmni targ‘ib qilishdagi muammolar” maqolasida sayyohlik obyektlarining haddan tashqari ko‘pligi va mahalliy hamjamiyat bilan nizolar kabi bir qator muammolar keltirilgan [3].

Choy, B. va Yoon, H. (2020)ning “Ekoturizmni rivojlantirishda sertifikatlashtirishning o‘rni” tadqiqotida ekoturizmni barqaror rivojlantirish uchun aniq standartlar va sertifikatlashtirish muhimligi ta’kidlangan [4].

Kim, L. va Xan, M. (2016) tomonidan “Janubiy Koreyadagi mashhur ekoturizm saytlari: tendensiyalar va imkoniyatlar” ilmiy maqolasida mashhur ekoturizm yo‘nalishlari tahlil qilinadi va ko‘proq sayyohlarni jalb qilish choralari tavsiya etiladi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Janubiy Koreya ekoturizmni faol rivojlantirmoqda, sayohatchilarga atrof-muhitga zarar yetkazmasdan mamlakatning tabiiy va madaniy muhitiga sho‘ng‘ish imkoniyatini taqdim etmoqda. Koreyadagi ekoturizmning asosiy yo‘nalishlarini quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

Milliy va viloyat bog‘lari: Koreya o‘zining milliy bog‘lari bilan faxrlanadi. Bunday bog‘larga Seoraksan, Jirisan va Hallasan misol bo‘la oladi. Ular piyoda yurish yo‘llari, qushlarni tomosha qilish joylari va ajoyib manzaralarni taklif qilishadi.

Ekologik tematik yo‘llar: Chunchxondagi Xantangang daryosidagi Skayvalk va Jeju orolidagi Jeju Olle traili – go‘zal tabiiy hududlardan o‘tadigan mashhur piyoda yurish yo‘llaridan iborat.

Agroturizm: Koreyaning qishloq joylarida sayyohlar ekinlarni yig‘ib olish, an’anaviy taomlarni tayyorlash va qishloq uylarida qolish kabi qishloq xo‘jaligi faoliyatida ishtirok etishlari mumkin.

Dengiz ekoturizmi: Koreya qirg‘oqlari va Jeju kabi orollar dengiz bilan bog‘liq turli xil tadbirlarni taklif qiladi, jumladan sho‘ng‘ish, kayak va dengiz hayotini kuzatish.

Madaniy-atrof-muhit dasturlari: Bu dasturlar madaniy tashriflar va ekologik tadbirlarni birlashtirib, sayyohlarga Koreyaning an’analari va tabiati haqida ko‘proq ma’lumot olish imkonini beradi.


O‘rmon dam olish: Koreya o‘rmonlari, masalan, Jejudagi Sareoni o‘rmon yo‘li, o‘rmon muhitida meditatsiya, dam olish va davolanish uchun joylarni taklif qiladi.

Ekologik loyihalarda ishtirok etish: Ko‘proq sayyohlar tabiatni muhofaza qilishga hissa qo‘shish uchun daraxtlar ekish yoki plyajlarni tozalash kabi mahalliy ekologik loyihalarga qo‘shilishmoqda.

Ta’lim sayohatlari: Jejudagi Ecoland kabi ko‘plab ekologik markazlar va muzeylar bolalar va kattalar uchun ta’lim dasturlari va ekskursiyalarni taklif qiladi.

Koreya o‘zining tabiiy va madaniy merosini saqlab qolish vositasi sifatida ekoturizmni faol ravishda targ‘ib qilmoqda. Bu sayohatchilarga barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish bilan birga mamlakat go‘zalligidan bahramand bo‘lish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi.

Shu sababdan ham, Koreyaga tashrif buyurgan sayyohlarning 69,9 foizi tabiat turizmi va dam olish maskanlariga tashrif buyurishni, 54,6 foizi gastronomik sayohatlarni, 28,8 foizi tarixiy obidalarni ziyorat qilishni, 28,7 foizi xarid qilish, 27,6 foizi shahar ekskursiyalarini, 14,4 foizi mahalliy madaniyat (shu jumladan, mintaqaviy turizm) bilan tanishishni afzal ko‘radi (1-rasm).



1-rasm: Sayyohlarning tanlov yo‘nalishlari [6]

Janubiy Koreya ekologik toza bo‘lmasa-da, mamlakat yashil hayotga ko‘proq harakat qilmoqda. Endi shaharlarda chiqindilarni qayta ishlash tizimi to‘liq ishlaydi (shaharliklar axlatni saralashlari shart).

Munitsipalitet va milliy hukumat Janubiy Koreyani ekologik jihatdan yanada jozibador qilish maqsadida bir qancha sa’y-harakatlarni boshladi. Upon-Eup, Junam va Suncheon-man kabi joylarda suv-botqoq yerlarini saqlash kabi dasturlar ko‘chib yuruvchi qushlar uchun qo‘riqxona, shuningdek, boshqa yovvoyi tabiat uchun qulay tabiiy muhitni ta’minlaydi.

Janubiy Koreyaning yaxshi tomoni bu mamlakatning milliy bog‘lar tizimidir. Hukumat tomonidan boshqariladigan tashkilot o‘zining orollari va qirg‘oqbo‘yi joylarining go‘zal tog‘lari va nozik muhitini saqlab turadi.

Seul va boshqa shaharlarda hukumat velosiped dasturini ishga tushirdi, ko‘proq yo‘llar qurdi va standartlashtirilgan velosiped ijarasi dasturini taqdim etdi.

Koreyaliklar sinab ko‘rayotgan ekoturizmning yana bir ko‘rinishi amaliy tajribalar va butun mamlakat bo‘ylab organik fermalarga sayohatlardir.

Janubiy Koreyada delfinlar yoki kitlarni kuzatish imkoniyati yo‘q bo‘lsa-da, yarim orol qirg‘oqlarida bu dengiz sutemizuvchilarning 41 xil turini topish mumkin.

Shuningdek, Janubiy Koreyaning ekologiya markazi sifatida tanilgan janubi-g‘arbiy shahar Suncheon 2023-yil 10 million sayyohni jalb qilishni maqsad qilgan “Suncheon yiliga tashrif” kompaniyasini olib bormoqda.

2023-yilning birinchi yarmida Seuldan taxminan 415 kilometr janubda joylashgan Suncheonga 4,47 million kishi tashrif buyurgan bo‘lsa, Koreyadagi birinchi va eng yirik sun’iy bog‘ bo‘lgan Suncheon Bay milliy bog‘iga joriy yilning 3-iyuliga qadar 3 millionga yaqin kishi tashrif buyurgan [7].

Janubiy Jeolla viloyatida joylashgan Suncheon Suncheon ko‘rfazi suv-botqoq qo‘riqxonasi va boshqa boy ekologik qo‘riqxonalar va an’anaviy madaniy boyliklar, jumladan Seonam ibodatxonasi bilan mashhur.

Suncheon 2006 yilda keng suv toshqini, qamishzorlar, sho‘r botqoqlar va ko‘chmanchi qushlar yashash joylariga ega bo‘lgan qirg‘oq bo‘yidagi botqoq yerlari Ramsar qo‘riqlanadigan botqoq yerlar ro‘yxatiga kiritilgan birinchi Koreya qirg‘oq botqoqli hududiga aylanganida xalqaro shuhrat qozondi.

2018-yilda butun shahar, jumladan Suncheon ko‘rfazi va Suncheon ko‘rfazi ekologik bog‘i YuNESKO tomonidan biosfera rezervati sifatida belgilangan.

Ko‘rfaz 1993-yilda xususiy ishlab chiqaruvchining dengiz agregatlarini qazib olish loyihasi ma’lum bo‘lgach, jamoatchilik e’tiborini tortdi.

Ko‘rfazning qamishzorlarini saqlab qolish istagida bo‘lgan fuqarolar va atrof-muhit faollarining e’tirozlari tufayli loyiha to‘xtatildi. 1996-yilda o‘tkazilgan ekologik tadqiqotdan so‘ng, Dengizchilik va baliqchilik vazirligi 2003-yilda Suncheon ko‘rfazini suv-botqoq qo‘riqxonasi sifatida belgiladi.

Suncheon ko‘rfazi ekoturizm yo‘nalishi sifatida mashhur bo‘lib borayotgani sababli, sayyohlar soni ortib bormoqda.

Ko‘pgina mamlakatlarda bo‘lgani kabi Koreyada ham ekoturizmning rivojlanishi qator muammo va qiyinchiliklarga duch keldi. Iqtisodiy va ekologik foyda keltirishi mumkinligiga qaramay, e’tiborga olish kerak bo‘lgan bir nechta masalalar mavjud.

Turistik joylarning haddan tashqari gavjumligi: Ommabop ekologik yo‘nalishlar tabiiy resurslarning tanazzulga uchrashiga olib kelishi mumkin bo‘lgan haddan tashqari zichlik muammosiga duch kelishi mumkin. Ko‘p sayyohlar ekotizimning tabiiy muvozanatini buzishi mumkin.

Infratuzilmaning yetishmasligi: Ba’zi hududlarda, ayniqsa olis hududlarda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish uchun yetarli infratuzilma mavjud emas, masalan, ekologik toza hojatxonalar, yo‘llar va tozalash stansiyalari.

Talabning nomuvofiqligi: Ekoturizm mavsumiy bo‘lishi mumkin, bu esa barqaror daromad izlayotgan investorlar va mahalliy korxonalar uchun unchalik jozibador emas.

Mahalliy aholi bilan nizolar: Ba’zida ekoturizmni rivojlantirish mahalliy aholi bilan yer yoki resurslardan foydalanish bo‘yicha nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Noto‘g‘ri ta’lim va tayyorgarlik: barcha gidlar va turizm xodimlari sifatli va barqaror ekoturizmni ta’minlash uchun yetarli ta’lim yoki tayyorgarlikka ega bo‘lmasligi emas.

Reklama va marketing: Ekoturistlarni jalb qilish uchun samarali marketing strategiyalarining yo‘qligi tashrif buyuruvchilar oqimini yangi yoki unchalik taniqli bo‘lmagan yo‘nalishlarga cheklashi mumkin.

Hayvonlarga ta’siri: Hayvonlarni kuzatish kabi ba’zi ekoturizm faoliyati ularning tabiiy yashash joylari yoki xatti-harakatlarini buzish xavfini o‘z ichiga olishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Koreyada ekoturizmni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Quyida ushbu sektorning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ba’zi tavsiyalar keltirilgan.

Yaxshilangan infratuzilma: Tabiat yo‘llari, tashrif buyuruvchilar markazlari, ekologik toza turar joy va transport vositalari kabi infratuzilmani yaratish va modernizatsiya qilish sayyohlar uchun atrof-muhitga zarar yetkazmasdan qulay tajriba yaratishga yordam beradi.

Ta’lim dasturlari: sayyohlarga ekologiya va barqarorlikning ahamiyati haqida ma’lumot beruvchi dasturlarni targ‘ib qilish. Sifatli ma’lumotlar bilan ta’minlash uchun gidlar va xodimlarni tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik: ekoturizmni rejalashtirish va boshqarish jarayonida mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtiroki va jalb etilishi ularning ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olishga yordam beradi.

Standartlarni o‘rnatish: Ekoturizm korxonalari uchun standartlar va sertifikatlashni joriy etish ularning ma’lum ekologik va ijtimoiy mezonlarga javob berishini ta’minlaydi.

Marketing va reklama: Atrof-muhitdan xabardor sayyohlarni jalb qilish uchun kompaniyalarni ishlab chiqish tashrif buyuruvchilar oqimini oshirishga va ekoturizmni yanada jozibador qilishga yordam beradi.

Monitoring va baholash: Turistik joylarning muntazam monitoringi va baholanishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlashga va o‘z vaqtida tuzatish choralarini ko‘rishga yordam beradi.

Tashrif buyuruvchilar sonini cheklash: Ba'zi nozik hududlarda odamlarning haddan tashqari ko'payishini oldini olish va ekotizim buzilishining oldini olish uchun tashrif buyuruvchilar soniga cheklovlar qo'yish tavsiya qilinadi.

Muqobil turistik yo'nalishlarni rivojlantirish: kamroq ma'lum bo'lgan ekoturizm yo'nalishlarini rivojlantirishni rag'batlantirish sayyohlik oqimlarini taqsimlash va mashhur yo'nalishlarga bosimni kamaytirishga yordam beradi.

Hamkorlik: Xalqaro ekologik tashkilotlar, olimlar va tadqiqotchilar bilan hamkorlik ekoturizmni rivojlantirish uchun yangi bilim va resurslar olib kelishi mumkin.

Mahalliy biznesni qo'llab-quvvatlash: Mahalliy ekoturizm tashabbuslari va bizneslarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi va mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilashi mumkin.

Ushbu chora-tadbirlar orqali Koreya ekoturizmning barqaror rivojlanishini ta'minlay oladi, bu esa ham iqtisodiy vosita, ham mamlakatning tabiiy va madaniy merosini asrab-avaylash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choe, Ja & Kim, Seongseop. (2018). Effects of tourists' local food consumption value on attitude, food destination image, and behavioral intention. International Journal of Hospitality Management. 71. 1–10. 10.1016/j.ijhm.2017.11.007.
2. Kim H, Kim E, Lee I, Bae B, Park M, Nam H. Artificial Intelligence in Drug Discovery: A Comprehensive Review of Data-driven and Machine Learning Approaches. Biotechnol Bioprocess Eng. 2020;25(6):895–930. doi: 10.1007/s12257–020–0049-y. Epub 2021 Jan 7. PMID: 33437151; PMCID: PMC7790479.
3. Rustamovich, Dehkonov Burhon. "Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan." Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28–33.
4. Rustamovich, Dehganov Burkhan. Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services // Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya 2.3 (2023): 35–37.
5. Park, Do-Hyung & Lee, Jumin. (2008). eWOM overload and its effect on consumer behavioral intention depending on consumer involvement. Electronic Commerce Research and Applications. 7. 386–398. 10.1016/j.elerap.2007.11.004.
6. Mondal, Sanjana & Samaddar, Kaushik. (2021). Responsible tourism towards sustainable development: literature review and research agenda. Asia Pacific Business Review. 27. 1–38. 10.1080/13602381.2021.1857963.
7. Lee, J. H., Iwasa, Y. Ecotourism development and the heterogeneity of tourists. Theor Ecol 13, 371–383 (2020). https://doi.org/10.1007/s12080–020–00458–7
8. Анализ рынка туристических услуг Южной Кореи. Москва–2021.
9. https://myexport.exportcenter.ru/marketingresearch/Turizm_IUzhnaya_Koreya_1510.pdf
10. Suncheon, Korea's ecological capital, aims to draw 10 million tourists this year. https://en.yna.co.kr/view/AEN20190709006700315

MOLIYAVIY MENEJMENT TIZIMINI TRANSFORMATSIYALASHDA RAQAMLI MARKETING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI



Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich
PhD, Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlari faoliyatida moliyaviy menejment tizimini transformatsiyalash jarayonlarida samarali raqamli marketing imkoniyatlarining qanchalik to‘g‘ri baholanishi va undan foydalanishga oid olimlarning nazariy qarashlari to‘g‘risidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy menejment, raqamli marketing, marketing imkoniyatlari, marketing texnologiyalari, samaradorlikni baholash, raqamli transformallashuv, sun’iy intellekt, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.

Abstract: This article presents the theoretical views of scientists regarding the correct evaluation of the possibilities of effective digital marketing in the process of transforming the financial management system in the activities of business entities and its use.

Key words: financial management, digital marketing, marketing opportunities, marketing technologies, performance evaluation, digital transformation, artificial intelligence, small business and private entrepreneurship.

Аннотация: В данной статье представлены теоретические взгляды ученых относительно правильной оценки возможностей эффективного цифрового маркетинга в процессе преобразования системы финансового управления в деятельности субъектов предпринимательства и его использования.

Ключевые слова: финансовый менеджмент, цифровой маркетинг, маркетинговые возможности, маркетинговые технологии, оценка эффективности, цифровая трансформация, искусственный интеллект, малый бизнес и частное предпринимательство.

KIRISH

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun raqobatbardosh muhitni shakllantirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshliligini ta’minlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini boshqarishni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi“ [1] deb ta’kidlashlari ham bejizga emas.

“Raqamli O‘zbekiston–2030” milliy dasturi doirasida moliya-bank tizimini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha ustuvor loyihalarni amalga oshirish asosiy vazifa sifatida ko‘rilmoqda [2].

Bu esa o‘z navbatida 2025-yilga kelib dunyoda 30 ga yaqin aqlli shaharlar paydo bo‘lishi, ularning 5 foizi Shimoliy Amerika va Yevropada joylashishi mumkinligining kutilayotganligi ham raqamli marketingning istiqbolidan dalolatdir. Raqamli marketing faoliyati katta biznesga aylana borib, 2022-yildagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, marketing budjetlari kompaniyalar daromadlarining o‘rtacha 11,2 foizini tashkil etadi. AQShda bu yillik sanoat xarajatlarining 196 mlrd AQSh dollari miqdoridan ko‘proqqa teng. Buyuk Britaniyada 24,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etmoqda [3].

Mazkur dalillarning isboti sifatida birgina g‘arbda raqamli imkoniyatlarga mos ravishda shakllanayotgan va ularni kengroq targ‘ib etayotgan kompaniyalar samarali faoliyat yuritayotgan biznes vakillariga aylanib borayot-

ganligini ko‘rish mumkin (masalan: Apple, Microsoft, Facebook, Alphabet, AT&T, Amazon, Verizon Communications, Google kabilar) [4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy menejment tizimini transformatsiyalashda raqamli marketing samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Xususan, rus tadqiqotchilaridan M. V. Zaharova, M. A. Kurasova, T. V. Deynekin, V. M. Komarov, S. A. Mixalev va S. G. Pesikovlar raqamli marketing samaradorligini baholashni raqamli marketing kommunikatsiyalari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy va amaliy o‘rganish, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez kabi uslublar va yondashuvlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda moliyaviy menejment tizimini transformatsiyalashda raqamli marketing samaradorligini baholash borasidagi nazariy va amaliy ishlanmalarda masalaning barcha jihatlari to‘liq bayon etilmaganligi boisidan ham, bu borada xorijiy olimlarning tadqiqot ishlariga murojaat qilgan holda, ushbu masala yuzasidan mulohaza yuritishni o‘rinli deb hisoblaymiz.

T. V. Deynekin, internet-reklamaning samaradorligini hisobga olgan holda, samaradorlikni baholash usullarining aksariyati texnik vositalar (tashqi hisoblagichlar va tahliliy tizimlar, jurnal fayllari va reklama joylashtirish tizimlari) tomonidan yaratilgan internet-saytlarga tashrif buyurish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilishga asoslanganligini ta’kidlaydi. Raqamli marketingning kommunikatsiya aspektidagi farqi veb-saytdagi foydalanuvchi faolligini ular bajaradigan xatti-harakatlar nuqtayi nazaridan baholashdir: sahifaga o‘tish, ro‘yxatga olish, arizalar, buyurtmalar, sotuvlar va boshqalar [5]. Shunday qilib, T. V. Deynekin internetdagi reklama faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvini ko‘rib chiqadi, internet-marketingda reklama beruvchi va internet foydalanuvchilari o‘rtasidagi kommunikatsiya jarayonining to‘rtta asosiy bosqichini ta’kidlaydi (1-jadval).

1-jadval: Reklama beruvchilar va internet foydalanuvchilari o‘rtasidagi kommunikatsiya jarayoni bosqichlarida samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi

Bosqich	Samaradorlik ko‘rsatkichlari	
	Kommunikativ	Iqtisodiy
Reklama xabarini ko‘rsatish	Namoyishlar soni, noyob namoyishlar soni, auditoriyalarning bir-biriga mos kelishi, ko‘rsatish chastotasi	Reklama joylashtirish narxi, ming martalik namoyish uchun narx, ming martalik noyob namoyish uchun narx
Manfaatdorlik	Qayd etish ko‘rsatkichlari, eslab qolish ko‘rsatkichlari, tanib olish ko‘rsatkichlari, bosishlar, noyob bosishlar, javoblar (klik soniga namoyishlar soni)	Bir marta bosish narxi, noyob bosish narxi
Veb-saytga tashrif	Noyob foydalanuvchilar soni, tashriflar soni, tashriflar chastotasi, yangi foydalanuvchilar soni, foydalanuvchilarning geografik taqsimoti, sahifa namoyishlar soni, namoyishlar chuqurligi, veb-sayt yo‘llari, tashrif davomiyligi	Noyob foydalanuvchining narxi, tashrif narxi
Harakat	Harakatlar soni	Buyurtmalar soni, mijozlar soni, sotuvlar soni, sotish hajmi, o‘rtacha xarid miqdori, har bir mijozga o‘rtacha sotish soni, har bir harakat uchun xarajat, buyurtma qiymati, sotish narxi, mijoz qiymati, buyurtma chastotasi

T. V. Deynekin ko‘rsatkichlarning maksimal mumkin bo‘lgan sonini taqdim etadi. Hozirgi vaqtda har bir bepul tahliliy tizimlar (Yandeks.Metrika”, Google Analytics va boshqalar) taqdim etilgan va boshqa ko‘plab ma’lumotlarni ushlab qoladi. Ammo ushbu tadqiqotning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kichik korxonalar tashrif buyuruvchilar soni va narxi, landing sahifalari (saytlar)dagi harakatlar, maqsadli so‘rovlar (arizalar), buyurtmalar, savdo va boshqalar kabi bir qator asosiy ko‘rsatkichlarni kuzatib boradi.

Tadqiqotda ma'lum bo'lishicha, raqamli marketing texnologiyalari "maqsadli auditoriya bilan o'zaro ta'sir jarayonlarini o'zgartirish" sifatida qaraladi va kichik tashkilotlar ushbu o'zaro ta'sirning faqat yuqori qismini natijalar (tender takliflari, buyurtmalar va savdolar) nuqtayi nazaridan tahlil qiladilar. Kichik korxonalar raqamli marketing va klassik marketing faoliyati o'rtasidagi kommunikatsiyani o'rnatish usuli sifatida "potensial mijozlarning maqsadli so'rovlari (arizalari)" ko'rsatkichidan foydalanadilar. Bizning fikrimizcha, kichik biznes korxonalari maqsadli auditoriya sifatiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar guruhlari yoki klasterlarini haqiqiy xaridorga konversiya qilish qobiliyatiga muvofiqlashtirish va yo'naltirish imkonini beradigan mexanizmlarga muhtoj.

Shuni ta'kidlash kerakki, raqamli marketing samaradorligini reklama materiallariga bosish ko'rinishidagi harakatlar narxiga kamaytirish har doim ham maqsadli auditoriyaga murojaat qilishni kafolatlamaydi, ya'ni foydalanuvchi havolani bosishi mumkin, lekin bu reklama qilingan mahsulotning maqsadli bozoriga tegishli bo'lmasligi mumkin.

Internetda reklama kompaniyasining samaradorligini baholash g'oyalari M. V. Zaharovaning ishida ishlab chiqilgan bo'lib, unda reklama kompaniyasini baholash uchun narx modellari ko'rib chiqiladi. Narx modellarini tahlil qilish asosida muallif reklama kompaniyasi ikki bosqichli xususiyatga ega ekanligini aniqladi: ular raqamli marketingning turli usullari (bannerlar, matn bloklari, qidiruv tizimlarida reklama, kataloglar va boshqalar) va internet-marketing kommunikatsiyalaridan axborot oqimini bozor natijasiga aylantiradigan, raqamli marketing samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarining narx modellari yordamida o'lchanadigan kompaniya veb-saytidir.

Raqamli marketing usullaridan foydalanish natijasida hosil bo'lgan axborot oqimini baholash g'oyalarini ishlab chiqish M. A. Kurasova va S. G. Pesikov asarlarida o'z aksini topgan bo'lib, M. A. Kurasova raqamli marketing samaradorligini baholashning uzluksizligiga ishora qiladi va tahliliy tizimda foydalanuvchi yo'llarini tuzatish zarurligini ta'kidlab, har bir foydalanuvchi yo'lini saytga kirgan paytdan boshlab chiqish paytigacha kuzatib borish kerak, deb hisoblaydi [6]. Shu bilan birga, ko'rib chiqilayotgan ko'rsatkichlar axborot oqimini internet-marketing kommunikatsiyalaridan tashrif buyuruvchilarning landing sahifalaridagi harakatlariga konversiya qilish jarayonini batafsil ko'rsatmaydi, bu faqat internet-marketingda reklamaning umumiy samaradorligini aks ettiradi.

Korxonaning samaradorligi kontekstida onlayn reklama samaradorligini baholashga o'tish S. G. Pesikov ishida o'z aksini topgan. Muallif internet-reklama samaradorligini ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy ta'sirlarni o'z ichiga olgan ko'p omilli tushuncha sifatida ko'rib chiqadi va foydalanuvchi bilan bog'lanish narxlari smetasi cheklanganligini ta'kidlaydi. Kommunikatsiyalarda e'tibor, afzal ko'rish va foydalanuvchining manbaga kirish imkoniyatining doimiyligi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

S. G. Pesikov tomonidan taqdim etilgan internet-reklama samaradorligini baholashga yondashuv iqtisodiy va kommunikativ samaradorlik ko'rsatkichlarining o'zaro ta'sirini aks ettiradi, bu adolatli, chunki internet-marketingdagi har bir kommunikativ effekt oqilona iqtisodiy umumlashtirishga ega. Ammo faqat asosiy va tegishli ehtiyojlarni hisobga olish biroz sun'iy ko'rinadi.

Fikrimizcha, Internet-marketingdagi ma'lumotlar oqimi foydalanuvchi ehtiyojlarini qondirish uchun (yoki reklamalarga javob berishdan va saytga tashrif buyurishdan bosh tortish orqali oqimdan chiqish) kerak bo'lganda, maxsus landing sahifalariga yo'naltirilgan internet-marketing kommunikatsiyalari asosida o'zgartirilishi kerak.

Keyingi mulohazalarga e'tibor qaratar ekanmiz, marketingda "Internet-trafik" va "axborot oqimi" tushunchalari o'rtasidagi munosabat haqida to'xtalib o'tishni o'rinli deb hisoblaymiz. Axborot oqimi deganda yo'nalishi, intensivligi, zichligi va foydaliligi bilan tavsiflangan axborotning tartibli harakati tushuniladi [7].

Shunday qilib, marketingda internet-trafik – bu korxonaning maqsadli auditoriyasi birliklarini o'z ichiga olgan axborot oqimining bir turi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ammo, "trafik" tushunchasiga nazariy yondashuvlarning aniq rivojlanmaganligini va ushbu konsepsiyaning korxona oqimlarining boshqa turlari bilan aloqasidagi cheklovlarni hisobga olgan holda, ushbu maqolada internet-trafikning marketing konsepsiyasi "internet-marketing axborot oqimi" tushunchasining internetdagi maqsadli auditoriya bilan o'zaro aloqa jarayonlarini o'zgartirish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarning harakati sifatida aniqlanishi mumkin bo'lgan sinonimi sifatida ko'rib chiqiladi, raqamli marketingning axborot oqimining xususiyatlarini ko'rib chiqishning haqiqiyligi nuqtayi nazaridan muallif marketing oqimlarining tegishli tadqiqotlariga tayanadi [8].

Axborot oqimini ko'rib chiqishga o'tish raqamli marketing texnologiyalarining asosiy muhim xususiyati bilan bog'liq. Ular axborot oqimlaridan hosil bo'lgan xususiyatlarni o'zgartirish orqali o'zgartiriladigan uch turdagi jarayonlar (kommunikatsiya, konversiya va monetizatsiya jarayonlari) nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Raqamli marketingning axborot oqimini shakllantirish uchun asos onlayn va oflayn muhitga ta'sir qiluvchi internet-marketing kommunikatsiyalarini o'zgartirishning turli shakllarida (omnichannel marketing xususiyatlari) tuziladi [9]. Raqamli marketing kommunikatsiyalari korxonalarning tovarlari, ishlari va xizmatlari uchun arizalar (so'rovlar)ga aylantiriladi, ular o'z navbatida, korxonalarning savdo va moliyaviy oqimiga aylanadi.

Internet-marketingning axborot oqimining xususiyatlari reklama tizimlarida, qidiruv natijalarida, ijtimoiy chiqishda va internet-marketingning boshqa kommunikatsiya kanallarida taqdim etiladi. Internet saytlarining

landing sahifalarining xususiyatlari axborot oqimi yo‘naltirilgan axborot maydoni bilan belgilanadi (matn va multimedia kontentida taqdim etilgan tashkilotning savdo taklifining sifati, fikr-mulohaza turlari, tavsifning to‘liqligi va landing sahifalarining boshqa xususiyatlari).

Ushbu tadqiqotda ilgari aniqlangan “potensial mijozlarning maqsadli so‘rovlari (arizalari) va internet-marketing texnologiyalarining shakllangan tasnifi ko‘rsatkichini hisobga olgan holda, aloqalarni potensial mijozlarning maqsadli so‘rovlariga (arizalariga) va keyinchalik sotishga konversiya qilishni raqamli marketing jarayonlari ta’sirida bo‘lgan va raqamli marketing texnologiyalarini shakllantiradigan axborot oqimlarining o‘zgarishi nuqtayi nazaridan tavsiflash mumkin. Bunday holda, raqamli marketingning ikki xil axborot oqimlarining o‘zaro ta’siri mavjud:

- Raqamli marketing faoliyati (kliklar soni, namoyishlar soni, qamrov) haqidagi kommunikatsiya ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan raqamli marketingning axborot-kommunikatsiya oqimi (IKP);
- Raqamli marketingning axborot va moliyaviy oqimi (IFP), shu jumladan raqamli marketing faoliyati to‘g‘risidagi moliyaviy ma’lumotlar (maqsadli harakat narxi, dastur narxi, buyurtma narxi, sotish narxi). Axborot oqimlariga murojaat qilish raqamli marketingning axborot-kommunikatsiya va axborot-moliyaviy oqimlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash nuqtayi nazaridan M. I. Ukolov tomonidan taqdim etilgan tashqi va ichki konversiyaning funksional xususiyatlarini to‘ldirishga imkon beradi.

Agar M. I. Ukolovning yondashuviga ko‘ra, tashqi konversiya sayt auditoriyasining ulushi sifatida qaralsa, uni mijozlarga konversiya qilishi mumkin bo‘lgan standart marketing ta’siri, keyin tashqi konversiya nafaqat sayt auditoriyasini o‘zgartirishni, balki reklama tizimlarida sodir bo‘ladigan aloqa jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi.

Binobarin, raqamli marketingning axborot-kommunikatsiya oqimi internet-sayt auditoriyasi va internet-marketing kommunikatsiyalari reklama tizimlarida taqdim etilgan ma’lumotlarning o‘zgarishida shakllanadi. Keyin tashqi konversiyaning asosiy vazifasi axborot va kommunikatsiya oqimini maqsadli auditoriya (reklamalarni bosish) bilan kommunikatsiyalarga konversiya qilishdan iborat bo‘lib, ular keyinchalik maqsadli harakatlarga (sahifalarga o‘tish, ro‘yxatdan o‘tish, fikr-mulohaza shakllari orqali xabarlar va boshqalar) aylanadi.

Axborot va kommunikatsiya oqimi maqsadli harakatlarga aylantirilgandan keyin nima sodir bo‘lishi asosiy qiziqish uyg‘otadi. Raqamli marketingda maqsadli harakat (CPA) e’tiborni ko‘rsatgan, ammo kompaniya mahsulotlariga qiziqish bildirmagan tashrif buyuruvchilarni ajratib turadi. Keyin tashrif buyuruvchi uchun ikkita mumkin bo‘lgan xatti-harakatlar mavjud:

- tashrif buyuruvchi mahsulot ehtiyojlariga (yoki boshqa sabablarga ko‘ra) javob bermasligini aniqlab, internet-saytning landing sahifasini tark etadi. Bunday tashrifchi savdo munosabatlarini vaqtincha tark etadi (qayta yo‘naltirish usullaridan foydalangan holda maxsus reklama aksiyalari bilan qaytarilishi mumkin) yoki doimiy ravishda ushbu tashkilot uchun maqsadli bo‘lmagan auditoriya birligiga aylanadi;
- tashrif buyuruvchi kompaniya bilan hamkorlikni davom ettirish va savdo munosabatlarining keyingi bosqichiga o‘tish istagini bildiradi. Tashrifchining bunday xatti-harakati maqsadli harakatni maqsadli so‘rovga (arizaga) konversiya qilish sifatida tavsiflanadi. Saytning landing sahifasiga tashrif buyuruvchi kompaniyaning tovarlari, ishlari va xizmatlari uchun maqsadli so‘rov (ariza) yuboradi.

Bundan tashqari, M. I. Ukolovning so‘zlariga ko‘ra, ichki konversion jarayonida potensial mijozlarning maqsadli so‘rovlari (arizalari) xaridorlarga (va individual veb-saytga tashrif buyuruvchilarga emas) aylantiriladi. Potensial mijozning so‘rovi xaridga aylanishi jarayoni, internet-saytda taqdim etilgan tashkilotning xususiyatlariga (sayt aloqani arizaga konversiya qilish orqali o‘z vazifasini bajargan) emas, balki tashkilotning konversiya qilish jarayonida ma’lumot va real mijozlarga potensial mijozlarning maqsadli so‘rovlari (arizalari) va sotish miqdori va sifati bilan ifodalangan pul oqimi (internet-marketingni monetizatsiya qilish texnologiyalari), ya’ni moliyaviy oqim bilan o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lishni boshlaydi. Tadqiqotning avvalida ta’kidlanganimizdek, monetizatsiya raqamli marketing texnologiyalarini tashkil etuvchi internet-marketingning alohida jarayoni sifatida kommunikatsiya va konversiya bilan bir qatorda ko‘rib chiqiladi.

Binobarin, raqamli marketingning axborot va moliyaviy oqimi internet-sayt auditoriyasining potensial mijozlarning maqsadli so‘rovlari (arizalari) va internet-marketingning iqtisodiy samaradorligini baholash jarayonlarida taqdim etilgan ma’lumotlar ko‘rinishida o‘zgarishi natijasida shakllanadi (monetizatsiya).

Raqamli marketing texnologiyalarini tashkil etuvchi axborot oqimlarini o‘zgartirish jarayonlarini ko‘rib chiqish, tashqi va ichki konversiyaning ta’siri natijasida axborot oqimi shaklining o‘zgarishi internet saytlarining landing sahifalarida sodir bo‘lishiga qaratilgan. Bu nafaqat kommunikativ va iqtisodiy samaradorlikni (T. V. Deynekin, A. Y. Muzika, V. M. Komarov va boshqalar) ko‘rib chiqishga, balki internet saytining landing sahifasining samaradorligini – konversiya samaradorligini aniqlashga olib keladi.

Raqamli marketing axborot oqimlarining konversion jarayoni ta'sirida o'zgarishini ko'rib chiqayotganda, E. P. Mixaleva va S. A. Fedotovning ishlari diqqatga sazovordir [10]. Mualliflar internet-marketingdagi konversiyani maqsadli auditoriya – internet sahifalariga tashrif buyuruvchilar joylashgan darajalar bilan bog'liq holda ko'rib chiqadilar va ishlash ko'rsatkichlarini hisoblash potensial maqsadli auditoriya tashkilot veb-sayti bilan o'zaro ta'sirda bo'lganda sodir bo'lishini aniqlaydilar.

Internet saytlarini konversiya qilishni ko'rib chiqishga bosqichli yondashuv axborot oqimining o'zgarishining asosiy bosqichlarini aniqlash imkonini beradi. Bularning barchasi internet-sayt sahifalari, maqsadli auditoriyaning manba saytlari sahifalari, internet-reklama tadbirlari, reklama beruvchilar internet-saytlari sahifalarini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, ko'plab tadqiqotchilar raqamli marketing samaradorligini baholash uchun ko'rsatkichlarning har xil turlarini ko'rib chiqadilar. Asosiy muammo shundaki, zamonaviy raqamli marketing bizga yuzdan ortiq turli ko'rsatkichlar va ko'rsatkichlarni tahlil qilish imkonini beradi. Kichik biznes korxonalarining raqamli marketing faoliyati ko'rsatkichlarining o'ziga xos xususiyatlarini nazariy o'rganish asosida saytga tashrif buyuruvchilarnining xatti-harakatlarini baholashning asosiy xarakteristikasi harakatlarning davomiyligiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Shunday qilib, agar tashrif buyuruvchi nafaqat reklamaga qiziqib, saytga kirsa, balki kompaniya menejerlari bilan bog'lansa, narxlar ro'yxatini so'rasa, savol bersa va kommunikatsiya ma'lumotlarini qoldirsa, ijtimoiy tarmoqdagi guruhga qo'shilsa va boshqa harakatlarni amalga oshirgandan so'ng, u faol degan xulosaga kelishimiz mumkin. Agar tashrif buyuruvchi uning xarid qilish niyatini tavsiflovchi ariza yubormagan bo'lsa ham, uning faoliyati ko'rsatkichlari bunday tashrifchining xaridga olib kelish istiqbollari va kichik biznes uchun maqsadli auditoriyaning tanlangan segmentining istiqbollari to'g'risida qaror chiqarishga imkon beradi.

Dissertatsiya ishida raqamli marketing samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tashkilot internet-saytida foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat va harakatlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiquvchi tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilindi. Shunday qilib, T. V. Deynekin [11], L. M. Kapustina va I. D. Mosunov [12], A. Y. Muzika, shuningdek, xorijiy raqamli marketing amaliyotchilari J. R. Saura, P. P. Sanches va L. M. Serda-Suarez [13] quyidagi samaradorlik o'lchovlarini ko'rib chiqadilar. (2-jadvalga qarang)

2-jadval: Internet-saytida foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat va harakatlar samaradorlik o'lchovi

№	O'lchovlar	Tavsifi
1	Namoyishlar soni	reklama kommunikatsiyalarining umumiy soni. Har safar reklama ko'rsatilganda reklama kommunikatsiyasi o'rnatiladi. Ma'lumotlar manbayi har bir standartlashtirilgan internet-marketing reklama tizimi (Yandeks.Direkt, Google.Adwords, Facebook.Ads, Target.Mail va boshqalar) tomonidan belgilanadi;
2	Tashrif buyuruvchilar soni (reklama orqali o'tish, yoki bosish)	reklama ta'siri natijasida tashkilot veb-saytiga tashrif buyurgan noyob foydalanuvchilar (namoyishlar ko'rinishidagi reklama kontaktlari);
3	CTR (click-touch-rate)	bosish tezligi, reklamalarni bosish sonining namoyishlarning umumiy soniga nisbati. Bizning fikrimizcha, bu axborot oqimini konversiya qilishning birinchi ko'rsatkichidir, chunki u reklamani bosish orqali foydalanuvchilar e'tiborining qiziqishga o'tishini aks ettiradi;
4	Sahifadagi maqsadli harakatlar (actions)	sahifadagi maqsadli harakatlar soni (teskari aloqa shakllarida talabnoma, onlayn maslahatchi bilan bog'lanish, o'zining kontakt ma'lumotlarini yuborish va h.k.);
5	Sahifadagi maqsadli so'rovlar (arizalar) (leads)	maqsadli auditoriya birkliklarining tranzaksiya (tovar, ish yoki xizmatlarni sotib olish) qilish niyati maqsadi haqida bildirilgan tayyorlik, xabar;
6	Sotish (sotuv)	maqsadli auditoriya (veb-saytlarga tashrif buyuruvchilar) tomonidan korxonalarning tovarlari, ishlari va xizmatlarini sotib olish;
7	Konversiya	erishilgan maqsadlar sonining tashrif buyuruvchilarning umumiy soniga nisbati.

Ma'lum bo'lganidek, konversiya tashqi va ichkiga bo'linadi. Tashqi konversiya raqamli marketing kommunikatsiyalarining reklama tizimlarida axborot-kommunikatsiya oqimining o'zgarishini belgilaydi. Ichki konversiya potensial mijozlarning maqsadli so'rovlari (arizalari) va raqamli marketingning iqtisodiy samaradorligini baholash (monetizatsiya) jarayonlarida taqdim etilgan ma'lumotlar ko'rinishida tashkilot internet-saytidagi ma'lumotlar va moliyaviy oqimlarni o'zgartirishni belgilaydi.

Internet-saytdagi foydalanuvchilarning faolligi va harakatlariga asoslangan raqamli marketing ko'rsatkichlarini konvertatsiya qilish jarayoni D. A. Livshin va L. I. Voronova [14] tomonidan berilgan. Tadqiqotchilar reklama kompaniyasining muvaffaqqiyati omili sifatida konversiyaga e'tibor qaratadilar, bu konsepsiyani sotib olish yo'lida ma'lum bosqichlardan o'tgan foydalanuvchilar foizida ko'rib chiqadilar.

Shunday qilib, maqsadli auditoriya bilan o‘zaro aloqadorlik axborot oqimi tashkilot internet-saytining landing sahifalarida o‘zgartiriladi, bu esa konversiya samaradorligini internet-marketing texnologiyalari samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari guruhlariga kiritish imkonini beradi. Internet-saytlar landing sahifalarining kommunikativ, iqtisodiy, konversion samaradorligini birlashtirgan va kichik biznes faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga eng mos keladigan ko‘rsatkichlar guruhi internet-saytga tashrif buyuruvchilarning faolligi va xatti-harakatlariga asoslangan internet-marketing samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Bu kichik korxonalarda raqamli marketing texnologiyalarining samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini yaratish imkonini beradi.

Har bir raqamli marketing texnologiyasi kommunikativ samaradorlik, internet saytlarining landing sahifalarini konversiyalash samaradorligi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

Axborot va kommunikatsiya oqimi birinchi navbatda kommunikativ samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi, chunki u tashqi konversion jarayonlari davomida konversiya qilinadigan tashkilotlar veb-saytlarining landing sahifalarida maqsadli auditoriyaning namoyishlari, kliklari va harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, kichik biznesda raqamli marketing texnologiyalarining samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish uchun asos tashkilot internet-saytining landing sahifalarida tashrif buyuruvchilar – maqsadli auditoriya birliklarining harakatlarini hisobga olgan holda samaradorlikni baholashga doir xulq-atvor yondashuvidir. Axborot oqimini o‘zgartirish nuqtayi nazaridan raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirildi va matematik tavsiflangan. Axborot va kommunikatsiya oqimi (IKP) va axborot va moliyaviy oqim (IFP) ta’kidlangan. Raqam0li marketing texnologiyalarining har biri kommunikativ, konversiya va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Kommunikativ samaradorlik ko‘rsatkichlarini raqamli marketing texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlariga konversiya qilishni tavsiflovchi konversiya samaradorligining bir turi taklif etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli marketingning texnologik mohiyatini o‘rganish doirasida muallif tomonidan maqsadli auditoriyaning kichik korxonalar faoliyatidagi mavjud cheklovlarni hisobga olgan holda raqamli marketing faoliyatining muayyan bozor natijalarini olishga qaratilgan raqamli marketing aloqa kanallari bilan o‘zaro ta’siri jarayonlarini o‘zgartirish sohasidagi usullar va qarorlar qabul qilish vositalari to‘plami sifatida raqamli marketing texnologiyalari tushunchasida aniqlanadi. Shuningdek, raqamli marketing jarayonlarini o‘rganish asosida tasniflash amalga oshirildi, jumladan, internet-marketingning kommunikatsiya, konversiya va monetizatsiya texnologiyalari.

Axborot oqimlarini o‘zgartirish nuqtayi nazaridan raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi shakllantirildi. Tadqiqot doirasida raqamli marketingning axborot-kommunikatsiya va axborot-moliyaviy oqimlari aniqlangan bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri raqamli marketing texnologiyalarining kommunikativ, konversiya va iqtisodiy samaradorligini baholashga imkon beradi.

Raqamli marketing texnologiyalarini rivojlantirishga, korxonaning maqsadli auditoriyasini kamroq maqsadlidan ko‘proq maqsadli miqdoriy va xarajatlarning xulq-atvor xususiyatlariga o‘tkazish jarayoniga uslubiy yondashuv shakllantirildi, bu raqamli marketingning yagona shakllari va ko‘rsatkichlarini hisobga olish imkonini beradi. Bu raqamli marketing analitik tizimlarida raqamli bo‘lishi mumkin bo‘lgan va kichik biznes tomonidan qabul qilinadigan klassik marketing samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari bilan axborot oqimini to‘ldirish nuqtayi nazaridan klassik va raqamli marketing o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonini tavsiflash imkonini beradi.

Marketingning raqamli muhitdagi ilmiy-nazariy asoslari AKT rivojlanish bosqichlariga mos ravishda shakllangan bo‘lib, zamonaviy raqamli marketing texnologiyalari bevosita va bilvosita an’anaviy marketing faoliyatida jami foydalaniladigan elementlarini joriy etish orqali iste’molchilarga ta’sir etishda yuqori salohiyatga ega. Bugungi kunga qadar xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbariyati raqamli muhitning butun imkoniyatlarini qabul qilmasligining asosiy sababi raqamli texnologiyalarni joriy etish xarajatlarining yuqori deb qabul qilishlaridir. Hamda tadbirkorlik muhitida raqamli transformallashuv marketing samaradorligini oshirishga qaratilgan bir necha vazifalarni yechishda optimal yo‘nalish sifatida tan olinishi nihoyatda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_Iqtisodiyot
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son.
3. https://megatrands.ru
4. Top 100 Digital Companies I/ Forbes (publishing house) https://www.forbes.com/top-digital: companies/list/#tab:rank (murojaat sanasi: 01.12.2021y.)

5. Дейнекин Т. В. Оценка эффективности предпринимательской деятельности в сфере интернет-рекламы: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2003. – С. 19–23.
6. Курасова М. А. Совершенствование маркетинговой деятельности предприятий на основе внедрения интернет-технологий: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2005. – С. 19.
7. Рязанцев В. Д. Большая политехническая энциклопедия. – М.: Мир и Образование, 2011. – С. 355.
8. De Cleen, P. Flow marketing: Content, Conversatie, Conversie: Go with the flow. – Amsterdam: Lannoo Campus, 2018. – 200 p.
9. Самойлов И. В. Знание-центрическая методика перехода предприятий к деятельности на основе интернет-маркетинга // Креативная экономика. – 2011. – № 1. – С. 117–123.
10. Михалева Е. П., Федотов С. А. Оценка эффективности мероприятий интернет-маркетинга // Известия Тульского государственного университета. Серия: Экономические и юридические науки. – 2015. – № 3–1. – С. 92.
11. Дейнекин Т. В. Оценка эффективности предпринимательской деятельности в сфере интернет-рекламы: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2003. – 32 с.
12. Капустина Л. М., Мосунов И. Д. Интернет-маркетинг. Теория и практика продвижения бренда в сети: монография. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. экон. ун-та, 2015. – 102 с.
13. Saura J. R., Palos-Sanchez P., Cerda-Cuarez L. M. Understanding the Digital Marketing Environment with KPIs and Web Analytics // Future Internet. – 2017. – Vol. 9, no. 76. – P. 1–13.
14. Лившин Д. А., Воронова Л. И. Математическое моделирование в маркетинге при построении рекламных кампаний // Современные наукоемкие технологии. – 2014. – № 5. – С. 209.



SAMARQAND VILOYATI EKOLOGIK TURIZM SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA EKOTURIZM KLASTERLARINI SHAKILLANTIRISH

Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori



Axrorov Farxod Baxriddinovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi



Xo‘jamov Bobur
Tadqiqotchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekoturizm sohasida klaterlash tizimini joriy etish va uni rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilgan hamda tahlil qilingan. Maqolda “Zarafshon milliy bog‘i”da klasterlash tizimini joriy qilish tizimi taklif sifatida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, ekoturizm, klaster, iqtisodiyot, “Zarafshon milliy bog‘i”, ekoturizm klasteri.

Abstract: In this article, the introduction and development of the clattering system in the field of ecotourism is studied and analyzed from a theoretical and practical point of view. In the article, the system of introducing the clustering system in “Zarafshan National Park” is presented as a proposal.

Key words: Tourism, ecotourism, cluster, economy, “Zarafshan National Park”, ecotourism cluster.

Аннотация: В данной статье с теоретической и практической точки зрения изучается и анализируется внедрение и развитие клаттерной системы в сфере экотуризма. В статье в качестве предложения представлена система внедрения системы кластеризации в “Зарафшанском национальном парке”.

Ключевые слова: Туризм, экотуризм, кластер, экономика, “Зарафшанский национальный парк”, экотуристический кластер.

KIRISH

Keyingi vaqtlarda fanning boshqa sohalarida qo‘llanilib kelayotgan, mazmunan “to‘p, guruh” ma’nolarini anglatuvchi “klaster” atamasi turizm sohasiga ham kirib keldi. “Klaster” atamasi “cluster” ingliz tilidan tarjima qilinganda bir qancha bir xil elementlarning birlashuvi, to‘planishi, guruh ma’nolarida va ma’lum darajada o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil birlik sifatida dastlab matematikada va aksariyat tabiiy fanlarda ishlatilgan. Klaster – bu hududning ta’minlab beruvchi omillari bilan bog‘liq bo‘lgan shart-sharoitlari, xizmatlar va tashkilotlarning jug‘rofiy hamkorligi bo‘lib, ularning shakllanishi uchun ko‘proq vaqt talab etiladi. Bu tizimda turizm boshqa mahalliy xo‘jalik faoliyati bilan birgalikda belgilangan joyning ekologik yuk ko‘tarish qobiliyatidan oshmaydi. Klaster, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish va xizmatlar darajasi nuqtayi nazaridan sifatni ta’minlash tizimi sifatida ishlaydi va tovar belgisi tizimidan foydalanadi. Ekoturizm klasteri hududni rivojlantirish vositasi sifatida mustaqil boshqaruvga ega va hamkorlikka asoslangan yig‘uvchi tashkilot. Klaster ekoturizm shartlariga muvofiq faoliyat yurituvchi xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarni bog‘laydi, bunda turizm boshqa mahalliy xo‘jalik faoliyati bilan birgalikda belgilangan manzilning atrof-muhitni muhofaza qilish imkoniyatlarini oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

1970-yillarda iqtisodiyotda, shved iqtisodchilari K. Fredriksson va L. Lindmarklar chegaralangan hududda korxonalarning to‘planishini belgilashda klaster atamasidan foydalanganlar. Ilmiy jarayonga 20-asrning 80-yillarida M. Porter tomonidan “klaster” atamasi iqtisodiy kategoriya sifatida kiritilgan. Uning fikricha, klaster – ma’lum sohada faoliyat ko‘rsatayotgan kompaniya va institutlarning geografik jihatdan tarmoqlararo birlashuvidir.


T. V. Bochkarayeva ekoturizm klasterini ekologik qadriyatlarga asoslangan iqtisodiy hamkorlik sifatida umumiy tamoyillar va landshaft an’analariga asoslangan tizim bo‘lib, unda raqobatdosh va bir vaqtning o‘zida hamkorlik qiluvchi tabiatni muhofaza qilish, turizm korxonalari va muassasalari tabiiy qadriyatlarni yaratish, saqlashni muhofaza qilish va taqdim etish o‘rtasida uyg‘unlikni hisobga olgan holda ko‘proq iqtisodiy foyda olish uchun ishtirok etadilar deb ta’riflaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida “Kompleks turistik xizmatlar hamda turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan boshqa qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatuvchi mustaqil tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar majmuyi turistik klasterdir. Turistik klasterlar kompleks turistik xizmatlar ko‘rsatish, turistik faoliyatning raqobatbardoshliligi va sifatini oshirish maqsadida turistik mahsulotni shakllantiradi, targ‘ib etadi va realizatsiya qiladi” deb keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarqand viloyati ekoturizm maskanlari faoliyatini o‘rganishlarimiz natijasida aynan ekoturizm sohasi islohatlarga, o‘zgarishlarga muhtoj ekanligini aniqladik. Strategiyaga ko‘ra, turistik yo‘nalishlarni boshqarish tashkilotlari va mintaqaviy turizm subyektlari bo‘lib, pastdan yuqoriga qurilgan mahalliy davlat hokimiyati organlari, turizmdan manfaatdor tadbirkorlik subyektlari, aholi, ko‘ngillilarga asoslangan va ma’lumot bilan ta’minlashdan tashqari marketingga asoslangan bo‘linma, mahsulot ishlab chiqish va ushbu sohadagi barcha turizm tegishli kasbiy va boshqaruv vazifalarini bajara oladigan kasbiy va fuqarolik tashkilotlari bo‘lgan birlashtiruvchi tarmoqlarni tashkil etish zarur.

Hozirgi kunda ekoturizm maskanlari va mahalliy hokimiyat hamda tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar boshqaruv tizimida o‘zaro aralashuv juda ham yuqori har bir tashkilot yoki mahalliy hokimiyat organlari ekoturizm maskanlari faoliyatiga aralashadi va nazoratni amalga oshirishini cheklashga yordam beradi.



1-rasm: Ekoturizm maskanlarining boshqaruv shakli


Klaster joriy qilish rejalashtirish, ishlab chiqish, innovatsiyalar, tadqiqot, klaster marketingi, aloqa, monitoring, treninglar, vakillik, sifat standartlari kabi klaster vazifalarini bajaradi.

Tadqiqotning maqsadi tarmoqda qurilgan ekologik “Zarafshon milliy bog‘i” uchun ekoturizm klaster modelini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, unga erishish uchun quyidagi sinovlar va qadamlar talab qilinadi:

1. Ekoturizm obyektining tarixni o‘rganish: ekologik tarmoqning tavsifi, mintaqaning geografik xususiyatlari;
2. Milliy bog‘ tomonidan boshqariladigan sohalar taqdimoti;
3. Milliy bog‘ga tegishli bo‘lgan hududlar ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy va iqtisodiy kichik hududlar, uning xususiyatlari tavsifi.
4. Milliy bog‘ turizm talab va taklifini tahlil qilish.
5. Klasterning hududiy chegaralanishi.


1-qadam: Tarixni o‘rganish: ekologik tarmoqning tavsifi, mintaqaning geografik xususiyatlari haqida biz yuqorida 2.1.1 rejada atroflicha to‘xtalib o‘tganmiz.

2-qadam: Milliy bog‘ning boshqaruv shakli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7- fevraldagi 32-son qaroriga binoan 3-ilovasiga muvofiq quyidagi ko‘rinishga ega.



2-rasm: “Zarafshon milliy bog‘i” boshqaruv tizimi

Ushbu rasmda qat’iy boshqaruv tizimi keltirilgan. Qarorga asosan va bog‘ning faoliyatidan kelib chiqqan holda, bog‘da mehnat qiluvchi xodimlar soni ham belgilangan. Buni quyidagi grafikda ko‘rish mumkin:




3-rasm: “Zarafshon milliy bog‘i” da faoliyat yuritadigan xodimlar soni.

Yuqoridagi rasmdan Samarqand viloyatining “Zarafshon milliy bog‘i” da hududida turizm, axborotlar bilan ishlash bo‘yicha bo‘lim yoki tashkilot yo‘q, turistlarni jalb qilish bo‘yicha faoliyat judayam zaif. Klaster tuzuvchi tashkilotlar bu zaiflikni qoplashga qodir bo‘ladi. Har qanday klasterga a’zo bo‘lmagan aholi punktlari uchun klaster integratsiyani ta’minlaydi.

- Samarqand viloyatida ekoturizm klasterlari tomonidan boshqariladigan samarali axborot oqimi mavjud bo‘ladi. “Zarafshon milliy bog‘i” hududida axborot oqimi qulay emas, hududning shimoliy qismi va janubiy qismidagi aholi punktlari o‘rtasida aloqa yo‘q.
- Samarqand viloyatida faoliyat yurituvchi klasterlar har xil turdagi treninglar va tadbirlarni tashkil etadi (masalan, ovqatlanish, boshqalar).

O‘rganishlarimiz natijasida hududda klasterlash amaliyotini joriy qilish orqali daromadni yanada ko‘tarish, rentabillikni oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Hududda infratuzilmani shakillantirish, tadbirkorlarni jalb qilish, gastranomik turizmni rivojlantirishga ehtiyoj juda katta. Klaster tashkil qilish orqali har bir soha muta-

xassislari tajribalaridan to‘g‘ri foydalanish va foydani maksimallashtirish imkoniga ega bo‘linadi. Birgina barcha ekoturizm obyektlarida o‘tkazilgan so‘rovnomalarimiz natijalariga ko‘ra ekoturistlar orasida gastranomik turizmdan qoniqish darajasi quyidagicha tavsiflandi.



4-rasm: “Zarafshon milliy bog‘i” dagi ovqatlanish joylari holati

Demak, 4- rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, 46% respondentlarimiz juda yomon degan xulosani bermoqda. Atiga 14 % respondentni ovqatlanish joylaridan qoniqishini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa juda past ko‘rsatkich hisoblanadi.


Bu hozirgi kunda “Zarafshon milliy bog‘i” ning hududiy chegaralangan qismi hisoblanadi. Shundan biz tashkil etmoqchi bo‘lgan qismi 352,4 gektarida amalga oshirishimiz mumkin.

1-jadval: “Zarafshon milliy bog‘i”ning hududiy chegaralanishi

№	Tumanlar	Yerdan foydalanuvchilar	Maydoni
1	Jomboy	Zarafshon milliy bog‘i	1095,0
		Jomboy davlat o‘rmon xo‘jaligi	37,5
		Tumandagi Jomboy massivi	36,9
		Tuman bo‘yicha jami	1169,4
2	Bulung‘ur	Zarafshon milliy bog‘i	1257,0
		Tuman bo‘yicha jami	1257,0
Jami:			2426,4

Chunki qo‘riqxona bo‘limi, maydoni – 1772 ga, xo‘jalik bo‘limi maydoni – 302 ga, rekreatsiya bo‘limi maydoni – 352,4 gani tashkil etadi.

O‘rganishlarimiz natijasida ekoturizm klasterlari va hokimyat boshqaruvi o‘rtasidagi aloqani quyidagicha amalga oshirishni taklif etmoqdamiz. Biz taklif qilayotgan ekoturizm klasterlarida yuqoridagi 3 ta tashkilot a’zo sifatida qo‘shiladi va o‘z-o‘zidan nazoratini emas faoliyatning o‘zida ishtirok etadi.



5-rasm: Ekoturizm klasterlari va hokimyat boshqaruvi o‘rtasidagi aloqa

Demak, 5-rasmdan ko‘rishingiz mumkunki klaster bilan mahalliy hokimyat va respublika ekoturizm maskanlarini boshqarish tizimi o‘rtasida o‘zaro aloqalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rnatiladi. Bu esa, klasterlarning ishlash tizimini, boshqarish tizimini osonlashtiradi.


Shundan kelib chiqqan holatda ekoturizm obyektlarimizda quyidagi tizimni joriy qilinishini taklif etamiz. (6-rasm).

Bu tizim hozirda mavjud bo‘lgan 20 ga yaqin yerlarni ijaraga olish orqali faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga hamda tashrif buyuruvchi turistlarga va eng asosiysi, bog‘dagi ekologik barqarorlikka xizmat qiladi. Bundan tashqari, hozirda yuqorida tahlil qilganimizdek, turistlar sonining kamligi, ular uchun infratuzilmaning yaratib berilmaganligi va turistlarning mavsumiy tashrifi, bog‘ haqida chet el turistlari emas, hattoki mahalliy aholining bexabarligi kabi holatlarni bartaraf etishga, y o‘qolib borayotgan ekologik holatni saqlab qolish uchun mablag‘ bilan ta’minlanishi, tiklanish imkoniyati bor bo‘lgan tabbiy holatni tiklash ishlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, Zarafshon milliy bog‘ining operatsion xususiyatlarini o‘rganish ilmiy ishimiz uchun ekoturizm klasterini boshqarishning asosiy oqimini ishlab chiqdik. Bu klasterni tashkil etish va operatsion tizimini shakllantirish uchun asos bo‘ldi. Hal qiluvchi operatsion tajribalar quyidagilardan iborat:

- oxirgi yillar amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, a’zolari tabiat bog‘ining ishlash qoidalari bilan tanishishi va buysinishi lozim. Hamkorlik muvaffaqiyatli bo‘lishi a’zolarning ishonchlarini oshiradi.

A’zolar uyushma nizomida nazarda tutilgan talablarni bajaradilar. A’zolar uyushma tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarni baholash imkoniga ega bo‘ladi.



6-rasm: “Zarafshon milliy bog‘i” ekoturizm klasterining tuzilishi

Tashrif buyuruvchilarni jalb qilishga yordam beruvchi marketing xarajatlarini to‘lash tadbirkorlar va uyushma uchun ham muammo hisoblanadi. Chunki a’zolarning talab darajasi har xil bo‘ladi.

Uyushma shakli klasterni boshqarish uchun mos. Ovoz berish tartibini ustavga kiritish lozim. Ovozlarning to‘g‘ri taqsimlanishi va qarorlarnining to‘g‘ri qabul qilinishi klaster muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir.

XULOSA

Zarafshon milliy bog‘ida klasterni tashkil qilinishi mintaqada yagona bo‘lgan ekoturistik manzilga aylanishi mumkin, bu hududda tadqiqotlar olib boriladi, dasturlarni tashkil qiladi, umumiy ilovalarni boshqaradi va hududning marketing faoliyatini boshqaradi.

Ekoturizm klasteri sharoitida ekoturizm hududlari va tabiiy qadriyatlarni muhofaza qilish va professional talqin qilish, turizmni ongli ravishda boshqarish va tashkil etish uchun mahalliy va gorizontal kooperativ sheriklik yetarli emas. Ushbu klaster sanoat sektorining monopoliyadan holi va qo‘shma korxonalarini, maxsus va davlat tomonidan subsidiyalar ajratiladigan tarmoqlarni (tabiatni muhofaza qilish, ekoturizm), moliyaviy tashkilotlarni, ta’minotchilarni va shart-sharoitlar yaratib beruvchi xizmat ko‘rsatish yo‘nalishi tashkilotlarini (ta’lim, kadrlar tayyorlash, tadqiqot), tadbirkorlik birlashmalarini va uning innovatsion hamkorlik tizimini (palatalar, klublar) birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmanova A. Sayohat xarajatlari usulidan foydalanib “Zarafshon milliy bog‘i” potensialini iqtisodiy baholash. Economics and Innovative Technologies, 2022.
2. Abduraxmanova A. Ekoturizm klasterining nazariy asoslarini Delphi usulidan foydalanib tahlil qilish. Academic research in educational sciences, 2022.
3. Axrorov F. B. Abduraxmanova A. Ekoturizm klasterlarini rivojlantirish orqali sohani rivojlantirish. Development issues of innovative economy in the agricultural sector. 2021 174 b.
4. Ibragimov G‘, Murtazaev O, Rakhmonov D. Klaster tizimining qishloq xo‘jaligi samaradorligiga ta’siri//Agroiqtisodiyot. –Toshkent, 2020. -№1. –20–23 b.
5. Ibragimov G. A., Janibekov F. B., Nazarova M. S., Khurramov A. M., Tursunov O. M. The role of agricultural clusters in increasing the efficiency of Agriculture //Colloquium-journal: Economics, Earth sciences, Agricultural Sciences. -№14 (66), 2020. Warszawa, Polska. –p. 6–9. ISSN 2520–6990.
6. Mamasoliyev S. A., Ibragimov G‘. A., Murtazaev O, Ganiev I. M., Mariusz Maciejczak. Production capacity and financial results of an enterprise from the grain industry in Uzbekistan.//ANNALS of The Polish Association of Agricultural and Agribusiness Economists, 2013. ISSN 1508–3535. Volume 15/5–11–15 pp.
7. Porter, M. 1998. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review.Available at: http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG
8. Tursunov O., Ibragimov G‘, Roles of investment and service system sector in agriculture//Visnik XNAU: Seriya Yekonomichni nauki. –XNAU, Xarkov, Ukraina, 2013. –№3. –s 203–215.
9. Murtazaev O., Ibragimov G‘. The Effectiveness of Economic Relationships and Forecasting between Farms and Agricultural Services//The Indian Journal of Economics (ISSN: 0019–5170) Issue 400. Pages 6
10. Saydullayev, A. (2023). Green Economy: Is It A Path To Sustainable Economic Growth For Uzbekistan? // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 15, 129–137.
11. Saydullayev, A. (2023). Ekotizim xizmatlarini iqtisodiy baholash usullarining qiyosiy tahlili // Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 3(6), 22–32.
12. Urozaliyev E., Xujamov B., imitation methods help businesses acquire a competitive edge. The Journal of Economics, Finance and Innovation. 2023. 682–689.
13. Pardayev, Sh. (2022). Tovar-moddiy resurslar harakatini takomillashtirishda marketing logistikasining o‘rni va ahamiyati // Iqtisodiyot va ta’lim, 23(2), 116–122.
14. Mamayunusovna, P. O., & Ulugbek ugli, T. O. (2023). Poverty Alleviation In The Country Through Entrepreneurship Development // The Journal of Economics, Finance and Innovation, 38–44. R
15. Ozodbek, T., & Zumira, N. (2023). Uzbekistan: Choosing Green Future // The Journal of Economics, Finance and Innovation, 232–239.
16. Mardiyevna, S. G. (2023). Importance Of Sustainable Development In The Modern World // The Journal of Economics, Finance and Innovation, 59–67.



ICHKI TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI

Dehqonov Burxon Rustamovich
TDIU Turizm kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ichki turizm deganda madaniyatlar almashinuvi, qo‘shimcha bilimlar olish va asosan salomatlikni tiklash imkoniyatlarni ochib beradi. Dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilar mahalliy aholi bilan muloqot qilish, ularning urf-odatlari o‘rganish va ularning turmush tarzi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu almashinuv nafaqat istiqbollarni kengaytiradi, balki turli madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hurmatni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, mahalliy turizm barqaror iqtisodiyotni rag‘batlantiradi. Ko‘pgina yo‘nalishlar hali ham tashrif buyuruvchilarni jalb qilish bilan birga o‘zlarining tabiiy resurslarini saqlab qolish haqida bilim oldilar. Sayyohlik yo‘llari yoki yovvoyi tabiatni muhofaza qilish loyihalari kabi ekologik toza tadbirlarni targ‘ib qilish orqali yo‘nalishlar o‘z atrof-muhitini himoya qilish va sayyohlarga noyob tajribalarni taqdim etishi mumkin.

Kalit so‘zlar: UNWTO, Iqtisodiyot, ichi turizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, madaniy me’ros obyektlari, faol aholi oqimi, sayyohlik xarajatlari.

Abstract: Domestic tourism opens opportunities for exchange of cultures, acquisition of additional knowledge and, above all, restoration of health. Visitors from different parts of the world will have the opportunity to communicate with local people, learn their customs and get acquainted with their way of life. This exchange not only broadens perspectives, but also fosters mutual understanding and respect between different cultures.

In addition, local tourism promotes a sustainable economy. Many destinations have learned how to preserve their natural resources while still attracting visitors. By promoting eco-friendly activities such as hiking trails or wildlife conservation projects, destinations can protect their environment and offer unique experiences to tourists.

Key words: UNWTO, Economy, domestic tourism, organizational-economic mechanisms, objects of cultural heritage, active population flow, tourist expenses.

Аннотация: Внутренний туризм открывает возможности для обмена культурами, приобретения дополнительных знаний и, прежде всего, восстановления здоровья. Посетители из разных уголков мира получат возможность пообщаться с местными жителями, узнать их обычаи и познакомиться с их бытом. Этот обмен не только расширяет кругозор, но и способствует взаимопониманию и уважению между различными культурами.

Кроме того, местный туризм способствует устойчивой экономике. Многие направления научились сохранять свои природные ресурсы, одновременно привлекая посетителей. Продвигая экологически чистые мероприятия, такие как пешеходные маршруты или проекты по сохранению дикой природы, дестинации могут защитить свою окружающую среду и предложить туристам уникальные впечатления.

Ключевые слова: ЮНВТО, Экономика, внутренний туризм, организационно-экономические механизмы, объекты культурного наследия, активный поток населения, туристские расходы.

KIRISH

Mahalliy turizmning asosiy afzalliklaridan biri uning mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta’siridir. Turistlar biror joyga tashrif buyurganlarida, odatda, turar joy, oziq-ovqat, esdalik sovg‘alari va transport uchun pul sarflashadi. Sayyohlik xarajatlarining bunday oqimi mahalliy biznesga sezilarli turtki berishi, ish o‘rinlari yaratish va aholining turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Turizm mintaqaning madaniy merosini saqlash va namoyish etishga yordam beradi. Ichki turizmda faol aholi tarixiy diqqatga sazovor joylarni o‘rganishga va madaniy tadbirlarga borishga undash orqali jamoalar o‘zlarining an’analari haqida xabardorlik va bilimlar olishi mumkin. Bu tarixiy joylarni, an’anaviy hunarmandchilikni va mahalliy xalqlarning urf-odatlarini saqlash bo‘yicha sa’y-harakatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga qaraydigan bo‘lsak jamiyatda ish yuritishni yoki iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoniga o‘tkazish ichki turizmni rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlarni o‘rni yoki davlat tomonidan ishlab chiqiladigan qonun hujjatlarga xalq munosabatini bildirish maqsadida yagona interaktiv portalini yaratganlingi bir misol bo‘ladi. Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan hujjatlarni portalga joylab xalq fikri bilan bevosita ishlashni tashkil etish, bu turizmni rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratishdir. Bu ishlab chiqilgan funksiya iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi.

Ichki turizmni rivojlanishini tartibga solish. Quyidagi funksiya turizm sohasini tadbirkor yoki turist faoliyatini nazoratga olish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Respublikamiz turizm salohiyati juda boyligi va hali qilinmagan ishlari va rivojlantirmoqchi bo‘layotgan sektorlari juda ko‘p. Bizni asosiy yondashuvimiz ichki turizm asosida ikki tomonlama yondashuv ya’ni tangani ikki tomoni bo‘lgani kabi ichki turizmni mohiyatini ochishda turistik biznes vakillari va davlat tomonidan ichki turizmga yaratilgan sharoitlarni hisobga olish kerak.

Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 30-apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror imzolandi[1]. Qarordan maqsad inson qadrini uchun uni maroqli dam olishini ta’minlashdan iboratdir. Iqtisodiyotni rivojlantirish va yaxshi natijalarga erishishda inson omili sifatida dam olish, sog‘likga etibor berish juda muhim o‘rin tutadi. Shu jumladan, 2022-yil 1-iyundan boshlab “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat qil!” dasturi davlat tomonidan ishlab chiqildi. Bevosita birga dastur doirasida respublika hududlari bo‘ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish uchun ko‘makchi daturlar yoki loyihalar tayyorlandi. “Yoshlar turizmi oyligi”, “Yoshlar turizmi haftaligi”, “Yoshlar turizmi”, “Yosh sayyoh”, “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli”, “Vatanimning tarixini o‘rganaman” va “Moziyga sayohat”, “Toshkent gullar festivali” va “Toshkent simfonika festivali” hamda iyun oyida bo‘lish rejalashtirilgan “Gastronomik festival”, “Tourist hospitality”, “Kinokarvon”, “Ziyorat turizmi”, “Turizm ko‘chalari” shular jumlasidandir.

Maxsus dasturlarni ishlab chiqishda xorij tajribalarini o‘rgangan holda amaliyotga tatbiq etish muhim.

Xorij tajribasi nimaga etibor beradi?

Misol qilib Xitoy tajribasini ko‘rib chiqamiz. Xitoy o‘z dasturini ishlab chiqishda etiborini qishloq turizmiga qaratdi. Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida maxsus dastur nomlariga e’tibor berdi. Dastur nomini eshitgan turist qalbida shu joyga borish istagi yoki shu taomni istemol qilish xohishi umuman olganda mavjud xizmatdan totib ko‘rish istagini uyg‘otish bilan ijodiy yondoshdi. Misol uchun “Shanxay Mishlen yulduzli restoranidan tortib mahalliy oila dasturxonida guruch sharobini ichishgacha” dasturini ko‘rishimiz mumkin. Demak biz umumiy ma’noga ega bo‘lgan dasturlardan qochishimiz kerak bo‘ladi. O‘zbekiston ichki turizmini rivojlantirishda “Qishloq turizmi”ni oladigan bo‘lsak dasturni noodatiy bo‘lishi uchun ozgina sayqallash lozim. Misol uchun “Qishloq tekin sog‘lomlashtirish maskani” yoki “Qishloq turizmi taomlari” shular jumlasidandir.

Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o‘rni. Ichki turizmni rivojlantirishda yaratib berilayotgan imkoniyatlar turizmni rivojlanishiga yetarli deb hisoblaymizmi. Ilmiy ish davomida davlat, turist va tadbirkor haqidagi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotni rivojlantiruvchi mexanizmini ko‘rib chiqamiz.

Bu yerda savol tug‘iladi ichki turizm deganda faqat turistmi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PQ–3514-son qaroriga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturida turistlarga va tadbirkorlarga bir qator imtiyozlar berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu qatorda turislar va tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlarni (1-rasm)da ko‘rishimiz mumkin. Ijtimoiy qatlamga e’tibor berishdan boshlangan ishlanmada bir qator tadbirkorlaga ham imkoniyatlar berilgan.

Dasturda berilgan asosiy vazifalar ko‘proq turistga va tadbirkorga emas, turizmga bevosita ta’siri bor yoki turizni rivojlantirishga xizmat ko‘rsatadigan davlat idoralariga yuklatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Nuroniy jamg‘armasi, Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini integratsiyalangan usulda ichki turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Davlat tomonidan ichki turizmni rivojlantirish mexanizmlari huquqiy tomondan puxta ishlab chiqilmoqda. Dasturda rivojlantirishga hududiy etibor berish muhimdir. Qishloq ichki turizmini rivojlantirish va shahar ichki turizmini rivojlantirish shular jumlasidandir.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son qarori.

- ta’lim muassasalari o‘quvchilari;
- tashkilotlar xodimlari uchun;
- etim bolalar, kam ta’minlangan oilalar farzandlari;
- nogironligi bo‘lgan shaxslar;
- pensionerlar hamda urush va mehnat faxriylari;
- faol xotin-qizlar;
- mahalla faollari va yosh oilalarga tegishli tashkilotlar tomonidan to‘lovlar bilan bog‘liq xarajatlarni qoplab berish.

turistlar uchun ekskursiya sayohatlari qilish imkonini beruvchi Samarqand shahrida, keyinchalik esa respublikaning boshqa shaharlarida ham ikki qavatli avtobuslar qatnovini yo‘lga qo‘yish.

umumiy ovqatlanish punktlari, klublar, ko‘ngilochar muassasalar va boshqa shunga o‘xshash muassasalarning soat 00.00 ga qadar ishlash taribi va shartlarini tasdiqlash.

turizm sohasida faoliyat ko‘rsatadigan subyektlarning soliq solinadigan xarajatlari (ichki turizm rivojlpntirishda marketing faoliyatiga qarab) summasiga kamaytiriladi.

do‘konlari tarmog‘ini tashkil etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga soliq va boshqa imtiyozlar hamda preferensiyalar taqdim etish

mehmonxona, mehmon uylari, kempinglar, motellar va boshqa joylashtirish vositalari, tematik xiyobonlar, muzeylar, galireyalar va boshqa inshootlar qurish uchun tadbirkorlik sub’eklari hamda potensial investorlarga yerlar ajiratiladi.

madaniy-ko‘ngilochar va ommaviy-sport tadbirlarining (umumrespublika festivallari, xalq sayillari, bayramlar, karnavallar, milliy o‘yinlar haftaligi, har xil sport turlari bo‘yicha sport tadbirlari va boshqa ommaviy tadbirlar) yagona kalendar kunini shakllantirish tartibini tasdiqlash.


- festivallar o‘tkazish;
- chiptalar chegirmalari;
- chegirmalar uchun diskont kartalarni faoliyati;

DYHX bepul kuzatib borish xizmatini ta’minlanishi.

o‘lkashunoslik, tarix, ekologiya to‘garaklarini tashkil etilishi.

turizm grandlari va beg‘araz moliyaviy yordamlar ajratilishi.

turistik (mehmonxona) yig‘imlarini olishdan tushgan mablag‘lar daromad solig‘i (yagona soliq to‘lovi) va boshqa majburiy yig‘imlar va to‘lovlarga tortilmaydi.



folklor-etnografik guruhlarga buyurtma berish asosida xo‘jalik hisobidagi xizmatni tashkil etish, shuningdek, folklor-etnografik guruhlar (shu jumladan, baxshi, maqom va boshqalar) bilan birga asosiy ijrochi va ishtirokchilari, respublika va hududlardagi teatrlar vakillari, raqqoslar, qo‘shiqchilar va boshqalar bazasini shakllantirish.

qishloq joylaridagi mehmon uylariga kredit mablag‘i ajratish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

“Eng yaxshi mehmonxona” (darajalar bo‘yicha), “Eng yaxshi mehmon uyi”, “O‘tovli eng yaxshi lager”, “Eng yaxshi turoperator” va “Eng yaxshi gid” (yo‘nalishlar bo‘yicha), “Eng yaxshi transport tashkiloti”, “Eng yaxshi umumiy ovqatlanish punkti”, “Eng yaxshi bloger”, “Eng yaxshi jurnalist” va boshqa alohida nominatsiyalar bo‘yicha har yili “Uzbekistan Tourism Industry Awards” mukofotini tashkil etish va o‘tkazishilishi.

jismoniy shaxslarga, jumladan chet el fuqarolariga notarial rasmiylashtirmasdan va ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazmasdan ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan avtotransport vositalarini qisqa muddatga (30 kungacha) (RENT-CAR) ijaraga (prokat) berish tartibi.

turistik zonalar va tog‘ klasterlarini rivojlantirish doirasida turli ekskursiyalar, tomosha dasturlari (chiroqli shoular, teatr tomoshalari, folklor ansambllari va estrada artistlarining konsertlari), bouling, bo‘sh vaqtlarda sport-sog‘lomlashtirish bilan shug‘ullanish va sayr-tomoshaning boshqa turlarini taqdim etuvchi katta madaniy-ko‘ngilochar komplekslar har bir viloyatda (shaharlarda va rekreatsion zonalarda) bosqichma-bosqich tashkil etishni ta’minlash.

Qishloq, shahar ichki turizmiga qaraganda rivojlanish jarayoni ancha sekin, shuningdek, ichki turizmni rivojlantirini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qonunda belgilangan dasturlar ijrosi nazorati muhimdir.

Qishloq joylarda xalqni ichki turizmga jalb qilishda dasturda keltirilgan:

- ta'lim muassasalari o‘quvchilari;
- tashkilotlar xodimlari uchun;
- etim bolalar, kam ta'minlangan oilalar farzandlari;
- nogironligi bo‘lgan shaxslar;
- pensionerlar hamda urush va mehnat faxriylari;
- faol xotin-qizlar;
- mahalla faollari va yosh oilalarga tegishli tashkilotlar tomonidan to‘lovlar bilan bog‘liq xarajatlarni qoplab berish tartibi doim ishlab turishini ta'minlash kerak.

Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o‘rni muhim, yuridik va jismoniy shaxslarni tadbirkorlik bilan shug‘illanishiga imkoniyatlar yaratib berishi va qo‘llab-quvvatlashi shart. Aks holda, iqtisodiyotni rivojlanishi sekin kechadi. Har bir soha rivojlanishida uning ilmiy rejasi ishlab chiqariladi va amaliyotga tatbiq qilinadi. Misol uchun ma'lum soha rivoji uchun ishlab chiqilgan mahsus prinsiplarni olamiz. Ilmiy tadqiqotimizda ichki turizmni rivojlanishida asos bo‘ladigan prinsiplar vizual ko‘rinishi modeli ishlab chiqildi. Tadqiqotimiz davomida tayanch ma'lumotga tayangan holda UNWTOning turizmni barqaror rivojlanishi prinsiplaridan foydalanilgan bo‘lib quyidagilar misol bo‘ladi:

- mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish;
- manfaatdor tomonlar va jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar;
- xodimlarni tayyorlash;
- marketing turizmi mas'uliyat bilan;
- tadqiqot o‘tkazish;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- ortiqcha iste'mol va chiqindilarni kamaytirish;
- biologik xilma-xillikni saqlash;
- turizmni rejalashtirishga integratsiyalashuvi;
- mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash.

Mahsus ishlab chiqilgan bu prinsiplar turizmni rivojlanishiga xizmat qilibgina qolmay balki ekologiyani barqaror ushlab turilishi, madaniy me'ros obyektlariga zarar yetkazmasdan faoliyat olib borish, ish o‘rinlari yaratilishi, xalqlar o‘rtasida o‘zaro madaniyat almashinuvini yo‘lga qo‘yish, diplomatik aloqalarni mustahkamlanishi, turizmda marketing va reklamalarni, yarmarka ko‘rinishida savdo sotiqni rivojlanishiga, ilmiy tomondan turizm sohasini tadqiq etishga bo‘lgan harakatlarni qo‘llab-quvvatlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ortiqcha iste'mol va chiqindilarni nazoratga olish, biologik xilma-xillikni saqlash, turizmni rivojlantirishda rejalashtirishni davlatlar o‘rtasida integratsiyalashuvini yo‘lga qo‘yish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PQ–3514-son qarori “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://www.unwto.org/sustainable-development
5. B. R. Dehqonov. “Ichki turizmni ta'riflashda bo‘lgan qarashlar va turizm shakllarini o‘z ichiga olgan bog‘liqliklar” Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. – №4–1 (88), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022. – 81 b.
6. Rustamovich, Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan.” Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28–33.



O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANISHIGA GLOBAL TRENDLARNING TA’SIRI

Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich
“Turizm” kafedrasi mudiri i.f.d professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi global trend (PEST-political, economic, social trends)lar haqida va unga ta’sir etuvchi jarayonlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, turizmni rivojlantirish strategiyalari, trendra, xalqaro turizm, siyosiy trendlar.

Abstract: In this article, the global trends (PEST-political, economic, social trends) affecting the development of tourism in the Republic of Uzbekistan and the processes affecting it are mentioned.

Key words: Economy, tourism development strategies, trends, international tourism, political trends.

Аннотация: В данной статье отмечены глобальные тенденции (PEST-политические, экономические, социальные тенденции), влияющие на развитие туристической сферы в Республике Узбекистан и процессы, влияющие на нее.

Ключевые слова: Экономика, стратегии развития туризма, тенденции, международный туризм, политические тенденции.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi global trend (PEST-political, economic, social trends)lar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Siyosiy trendlar siyosiy barqarorlik nuqtayi nazaridan O‘zbekistonga turistlar oqimini yaratib beruvchi asosiy trendlardan hisoblanadi. Siyosiy trendlar jahondagi mamlakatlar turizmiga ta’sir qilgani kabi mamlakatimiz turizmiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. O‘zbekiston uchun asosiy turistlar keladigan mintaqalar bo‘lgan G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, MDH va Uzoq Sharq mintaqalarida siyosiy barqarorlik saqlanib turibdi. Faqat Rossiya-Ukraina o‘rtasidagi urush holati, Pokiston, Hindiston va boshqa bir qator davlatlarda teraktlar kuzatilmoqda. Lekin ularning siyosiy trend sifatida turizm xizmatlari bozoriga ta’siri juda kuchli emas.

Iqtisodiy trendlar. Ayrim davlatlarda jamg‘arma normasining ayrim iqtisodiy ko‘rsatkichlar, jumladan ishsizlik, inflyatsiya, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozitufayli istemolni qoplashga jamg‘arma evazidan pulni sarflanayotganini ko‘rsatadi.

Qisqa muddatli foiz ustamasi bo‘yicha global trend, unga ko‘ra, foiz ustamasi pastligicha qolmoqda. Qisqa muddatli foiz ustamasini past darajada bo‘lishi ijobiy holat bo‘lib, u turistlarga istemol uchun bank kreditidan foydalanish imkoniyatini kengaytirib beradi.

Bandlik darajasi boshqa ko‘rsatkichlarga nisbatan salbiy ko‘rinishga ega. Mehnat yoshidagi aholini ish bilan ta’minlanish ko‘rsatkichiga e’tibor bersak, quyidagi manzarani ko‘ramiz. Ayrim davlatlardajami bo‘lib 64,8 foiz aholi ish bilan band. Bu ko‘rsatkichni sanoati rivojlangan davlatlar kesimida ko‘rsak, katta farq borligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, AQShda 66,6 foiz, Yaponiyada 70 foiz, Germaniyada 72,6 foiz, Fransiyada 63,8 foiz, Italiyada 56,9 foiz, Ispaniyada 58,5 foiz, Koreyada 63,9 foiz, Buyuk Britaniyada 70,4 foiz, aholi ish bilan band. Eng past ko‘rsatkich Turkiyada bo‘lib, u 48,4 foizga teng. Bu shundan dalolat beradiki, iqtisodiy ahvol yildan-yilga yaxshilanib borayotgan bo‘lsada, bandlik muammosi hamon jiddiyligicha qolmoqda. Bu esa uy xo‘jaliklarining yalpi istemoliga kuchli ta’sir qiluvchi omil bo‘lib hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra faqatgina Yaponiyada yalpi xususiy istemol deflyatori avvalgi yilga nisbatan –1,7 foizga qisqargan. Qolgan davlatlarda u minimal darajada bo‘lsada o‘sgan. Jumladan, yevro hududida 2,5 foizga, AQShda ham 2,5 foizga, Buyuk Britaniyada 4 foiz, Koreyada 3,8 foizga o‘sgan. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichi ba’zi davlatlarda o‘rtacha 32 ming AQSh dollaridan yuqorligicha qolmoqda. Bu aholi va umuman uy xo‘jaliklari o‘zining istemol quvvatini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy trendlar. Aholini o‘sish sur’atida nisbatan sekinlashuv kuzatilmoqda. Jumladan, yer yuzidagi 86ta mamlakatda (53 ta rivojlanayotgan davlatni qo‘shib hisoblaganda) tug‘ilish soni aholini takror yaratish yoki o‘rnini bosish uchun yetarli emas. Dunyodagi 42 ta iqtisodiy jihatdan qoloq davlatlarda esa har bir ayol kishiga o‘rtacha 4 ta bola to‘g‘ri kelmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda bugungi kunda 6 mlrd.atrofida aholi yashamoqda, kelajakda bu ko‘rsakich 7,9 mlrd. kishiga yetishi kutilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlardagi aholi sonini o‘sishini 70 foizi Hindiston, Pokiston, Nigeriya, Braziliya va Indoneziya davlatlarihissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Dunyoning ko‘plab mintaqalarida umr ko‘rish uzunligi ortib bormoqda. Jumladan, dunyo bo‘yicha o‘rtacha uzoq yashash 67,2 yil bo‘lib, taraqqiy etgan davlatlarda bu ko‘rsatkich 76,5 yil va rivojlanayotgan davlatlarda 65,4 yilni tashkil etadi. Iqtisodiy jihatdan eng qoloq davlatlarning 2/3 qismi hamonturli kasalliklarning salbiy ta’sirini o‘zida sezmoqda va ularda umr ko‘rish muddati 54,6 yilni tashkil etmoqda Asosiy tendensiya shundan iboratki, yer yuzida aholini keksa yoshdagilar ulushini o‘sishi kuchayib bormoqda.

Raqobat tahlili. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va karonaviruspandemiyasidan so‘ng turizm xizmatlari bozorida raqobat muhitini yanada keskinlashgani sezilmoqda. Asosiy raqobatchilar sifatida Ozarboyjon, Qozog‘iston va Qirg‘iz Respublikasi kompaniyalari bo‘lib, yaqin yillarda ularning qatoriga xitoy va rus kompaniyalarini qo‘shilish ehtimoli mavjud. Raqobatni keskinlashuviga turistlarning avvalgiga nisbatan qisqa muddatli turlarni afzal ko‘rayotgani, pulni tejab, ehtiyotkorlik bilan sarflayotgani hamda turistlar oqimida yoshlarning ulushini ortib borayotganligi sabab bo‘lmoqda. Samolyot bilan qisqa masofadagi sayohatlar narx omili ta’siriga kuchli sezgirlik ko‘rsatayotgan bo‘lsa, uzoq masofali turlarda esa bu holat uncha sezilmayabdi.

Turistlarni turizm xizmatlari va safardan qoniqish darajasi turizm xizmatlari bozoriga ikki xil yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni birinchidan turistni doimiy turistga aylantirish va qayta kelishini ta’minlash, ikkinchidan boshqalarga tavsiya qilish asosida turistlar sonini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Turistlarni mamlakatga qayta kelishi, boshqalarga tavsiya qilishi, mamlakatimiz turizm salohiyatini jahon hamjamiyatidagi obro‘sini oshirishuchun nimalarga e’tibor qaratish lozimligini, qanday omillar ta’sir qilishini aniqlash uchun xorijiy turistlardan so‘rovnoma o‘tkazish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda biz tomondan O‘zbekistonga tashrif buyurgan ayrim turistlardan so‘rovnoma o‘tkazildi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, safardan qoniqish darajasi bo‘yicha savolga jami 152 ta respondent javob bergan bo‘lib, uning ham 20 tasigina “juda yaxshi” degan javobni bergan, 24 tasi “viza olish oson”, degan javobni ko‘rsatishgan. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, 2019-yilning 1 fevralidan qo‘shimcha 45 davlatga vizasiz rejim joriy qilinishi, 15 martdan elektron viza taqdim etiladigan mamlakatlar soni oshirilishi, umumiy ro‘yxatdan 90 ta davlat o‘rin olishi ushbu muammoni yechish imkonini beradi. 48 ta respondent sayohatdan past darajada qoniqish olganligini aytishgan, qolgan 60 ta respondent oldingi yaxshi taassurot va boshqa sabablarni ko‘rsatishgan. Bu natijalardan ko‘rishimiz mumkinki, biz turizm bozorida marketingni, turizm xizmatlari sifatini oshirish uchun marketingni rivojlantirish hamda takomillashtirish masalalarini yechmas ekanmiz, mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorining barqarorligini ta’minlash so‘roq ostidagi masalalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Biz turizm sohasini tahliliy o‘rganar ekanmiz turistlarni kelish maqsadi hamda axborot olish manbayi bo‘yicha ham guruhlarga ajratib o‘rganishni lozim topdik (1-jadval).

1-jadval: So‘rovnomalarda qatnashgan turistlarning sayohatga chiqishlaridan maqsadi va ularning axborot olish manbalari[1]

Kelishidan maqsadi	Tarixiy/madaniy turizm	Sport va sog‘lomlashtirish turizmi	Ekoturizm	Aholining turmush tarzini o‘rganish turizmi	Ta’lim va malaka oshirish	Ziyorat va diniy turizm	Ijtimoiy turizm	Boshqalar	Jami
	90	38	16	18	26	26	38	48	300
Axborot manbayi	**Agentlik/kon.**	**TV/radio**	**O‘zbekistonning elchixonasi**	**Internet ma’lumotlari**	**Nashriyotlardan**	**Oldingi turlardan**	**O‘rtoqlari/ tanishlari orqali**	**Boshqalar**	**Jami**
	78	48	14	50	26	45	15	24	300

1 Ijtimoiy so‘rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Olib borilgan ijtimoiy so‘rov natijalariga ko‘ra mamlakatimizga kelayotgan turistlarning asosiy qismi tarixiy va madaniy yodgorliklarni tomosha qilish uchun tashrif buyurmoqda. Mamlakatimizda sport va sog‘lomlashtirish turizmi, ekoturizm, ziyorat va diniy turizm, gastronomik turizm, ijtimoiy turizm bo‘yicha katta imkoniyatlar bo‘lishiga qaramasdan mazkur yo‘nalishlarda turistlarni jalb qilish muammoli holatlardan biriligicha qolmoqda. Bu sohalarda turizmni rivojlantirish mamlakatimiz turizm salohiyatini hamda turistlar sonini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3-jadvaldan ko‘rinadiki, tashrif buyurayotgan turistlarning aksariyati mamlakatimiz hamda uning turizm salohiyati haqidagi ma’lumotlarni agentliklardan olishmoqda, vaholanki bugungi kunda sohada ijtimoiy tarmoqlar orqali turizm xizmatlarini reklama qilish va ma’lumotlar yetkazib berish asosiy o‘ringa chiqib bormoqda. Ya’ni bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda agentliklarning o‘zlari ham ijtimoiy tarmoqlardan keng miqyosda foydalanishmoqda. Bundan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlashimiz mumkinki,ijtimoiy tarmoqlar eng arzon har qanday masshtabdagi korxona va tashkilot uchun qulay reklama qilish hamda o‘z mahsulotlari haqidagi ma’lumotlarni yetkazish, iste’molchilar bilan doimiy aloqani ta’minlash vositasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi global trendlarni chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, ularni bevosita va bilvosita ta’sirini ko‘rishimiz mumkin. Ularni quyida batafsil ko‘rib chiqamiz.

Global xavfning O‘zbekiston turizm bozoriga ta’siri. Bugungi kunda mamlakatda turizm sohasining rivojlanishiga global ta’sirlar bevosita tahdidlar, ekologiya, turli noqulayliklar, pandemiya va h.k. oqibatida vujudga kelmoqda. Jumladan, xorijiy davlatlar tomonidan joriy qilingan cheklovlar aviaqatnovlarni to‘xtatilishiga olib keldi. Mazkur holat ayrim davlatlatlarda haligacha turistlar oqimiga ta’sir qilmoqda. Shuningdek, davlatlar o‘rtasida, jumladan, qo‘shni davlatlar bilan chegaralarda vaqti-vaqti bilan joriy qilinayotgan cheklovlar sababli transport aloqalari hamda turistlar oqimida barqarorlik kuzatilmaydi.

Iqtisodiy noaniqlik va tahdidlar oshib borayotganligi sababli to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar qisqargan hamda turizm unga yondosh sohalarda yirik loyihalarni amalga oshirish uchun tadbirkorlik subyektlariga qaror qabul qilishda iqtisodiy iroda yetishmaydi.

Ourworldindata butun jahon axborot portali mutaxassislarining prognoziga ko‘ra (ourworldindata.org), COVID–19 pandemiyasining salbiy oqibatlari 2023-yilning oxiriga qadar xalqaro va mahalliy turizmga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Butun jahon turizm tashkilotining (UNWTO) ma’lumotiga ko‘ra, joriy yilda turizm ko‘rsatkichlari 2020-yilning natijalariga taqqoslaganda 40–60 foizgacha o‘sish ehtimoli mavjud. 2019-yilning natijalariga 2024-yilga borib erishish prognoz qilinmoqda.

Mazkur holatdan chiqishda davlatlararo muvofiqlashtirishni tashkil qilish, transport aloqalarini tiklash va xavfsiz sayohat qilishni ta’minlashga ahamiyat berish lozim.

Ekologik holat(xavf). Iqtisod va turizmni rivojlanishi bilan bir qatorda atrof-muhit va ekologiyani asrab-avaylashga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Turistlar so‘lim tabiat va ekologik hududlarga tashrif buyurmoqda hamda ayrim holatlarda tabiatga zarar keltirmoqda.

Yuqoridagilarga ko‘ra, atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda turizm loyihalarini amalga oshirish, ekologik hududlarga transport vositalari bilan kirishni cheklash, ekologik madaniyatni shakllantirish hamda “yashil turizm”ni amalga oshirish choralarini ko‘rish lozim.

Barqaror va ma’suliyatli (sustainable & responsible) turizmga e’tiborning kuchayishi, unda turist o‘z sayohati davomida ekologiya va jamiyatga zarar yetkazmaslikka e’tibor qaratadi. Bunda, tabiatga zarar yetkazmaydigan, “yashil” texnologiyalardan keng foydalanuvchi va mahalliy jamiyatga sezilarli foyda keltiruvchi turizm yo‘nalishlarini tanlashni afzal ko‘radilar.

Shu bilan birga, atrof-muhitni asrash bo‘yicha ijtimoiy loyihalar, obodonlashtirish dasturlari, yashil turizmni “green tourism” ommalashtirish choralari yordamida ekologik xavf bartaraf etiladi.

Moddiy-madaniy meros obyektlarini saqlab qolish. Madaniy meros obyektlarida noqonuniy buzilish, bufer zonalarida qurilish ishlarini olib borish so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshib bormoqda. Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy, umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar va tarixiy mahallalarning tarixiy-madaniy qiymati, noyobligi, tabiiy landshafti va o‘ziga xosligini saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda.

Mazkur yo‘nalishda madaniy meros obyektlarida olib borilgan noqonuniy xatti-harakatlar bo‘yicha javobgarlikni kuchaytirish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, xususan, umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya talablari hamda YuNESKO va boshqa tegishli xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini samarali bajarish, xalqaro va xorijiy tashkilotlar, olimlar, ekspertlar hamda keng jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlik qilish zarur.

Turizm faoliyati, iqtisodiy faoliyat sohasi bo‘lib, sayohat qilish istagidagi insonlarga bevosita xizmat ko‘rsatishga qaratilgan. Turistlar, bunda turli tovar va xizmatlar iste’molchilariga aylanishadi. Turizm xizmatlari turli faoliyat shakllari natijalari hisoblangan bazaviy va qo‘shimcha xizmat hamda tovarlarning geterogen yig‘indisini aks ettiradi. Chunki bu faoliyat turlari vaularni ko‘rsatuvchi korxonalar o‘zaro iste’molchi bilan birlashgan bo‘lib, xo‘jalik faoliyati subyektlari sifatida iqtisodiyotda o‘z mavqeiga ega. Bu mamlakatning, shuningdek, alo-

hida hududning xo‘jalik majmuasi tarkibini o‘rganish, tarmoqlararo aloqalar va proporsiyalarning rivojlanishini ilmiy tahlil qilishda, kengaytirilgan takror ishlab chiqish jarayonlarini modellashtirish vastatistik hisobotlar tizimini tuzish maqsadlarida muhim hisoblanadi.



7-rasm: O‘zbekistonda turizm sohasining mavsumiyligining holati[2]

Turizmning asosiy xususiyatlaridan biri – bu uning mavsumiyligi, ya’ni turizmda talablarning ma’lum bir vaqt mobaynida eng yuqorililigi, ma’lum bir vaqt mobaynida talab pastligi hisoblanadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida 7-rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlar uchun yilning aprel, may, sentyabr va oktyabr oylari qulay, ya’ni turizm mavsumi hisoblanadi, yanvar, fevral, iyul va dekabr oylari esa turizm uchunumuman noqulay hisoblanadi. Ushbu tahlil jarayonida o‘rganilgan asosan tarixiy shaharlarimizdagi me’moriy yodgorliklar va obidalarni ko‘rish uchun tashrif buyuradigan turistlar ekanligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

Bu tendensiya nafaqat hudud bo‘yicha, balki global trendlar toifasiga ega bo‘lganligi uchun uni turizm xizmatlarining eng asosiy jihatlaridan biri sifatida qarash lozim bo‘ladi. Chunki, bu masalaga e’tiborsizlik va to‘g‘ri baho bermaslik turizm sohasida ma’lum darajada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

2-jadval: Nomavsumiy paytda turistlarni samarali jalb qilish bo‘yicha mahalliy soha ekspertlarining fikrlari[3] (%)

Takliflar	Ha	Yo‘q	Javobsiz
Mehmonxonalarva transport xizmatlarida narxlarni tushirish.	78	11	11
Diqqatga sazovor joylarni ko‘rish, tarixiy va madaniy muzeylarga kirishga bo‘lgan narxlarning moslashuvchanligini ta’minlash.	64	23	13
Yangi shaklga, turga ega bo‘lgan xizmatlarni tashkil etish.	76	23	1
Boshqa hududlarda bo‘lmagan yangi turizm hududlarini tashkil etish.	59	30	11

Turizmda mavsumiylik uning turlari bo‘yicha (masalan, tog‘-chang‘i sporti qishqi mavsumda, plyajlarda dam olish yozgi mavsumda, qishloq xo‘jalik turizmi kuzgi mavsumda, tarixiy obidalarga sayrlar bahorgi mavsumlarda) ayrimlari esa mavsumiylik turizm xizmatlar bozorining xususiyatlaridan (masalan, ayrim mamlakatlar iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda turistlarni faqat bahorda qabul qilish imkoniyati mavjud bo‘lsa, boshqa-

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
3 Manba: mahalliy ekspertlarning javobi asosida muallif ishlanmasi.

lari esa faqat qishda qabul qilishlari mumkin) kelib chiqadi. Har qanday sharoitda ham, ana shu xususiyat va turlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, barcha ekspertlar ham yangi turizm hududlarini tashkil etishni qo'llab-quvvatlashmagan. Chunki bu harakatlar bir tomondan: ma'lum bir moliyaviy investitsiyalarni talab qilsa, ikkinchi bir tomondan esa bu yangi xizmat turlariga turmahsulot iste'molchilari hisoblangan turistlarni jalb qilish oson kechmaydi. Yangilik yoki tajribadan o'tmagan qiziqish obyektlariga intilish sust darajada bo'ladi.

Aytish joizki, turizm sohasida eng katta o'z ta'sirini o'tkazuvchi omil – bu uning mavsumiyligidir. Demak, mavsum bo'lmagan vaqtda turizm talablarining oqimlarini tebranishini turg'un holatda saqlab qolish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratishimiz lozim:

- yoshlarbop tadbirlar, turli dasturli tadbirlarni, o'ziga xos festivallarni o'tkazilishiga;
- diniy va ziyorat turizmga ko'proq e'tibor berilishiga (bunda mavsum degan tushunchaga kam ahamiyat beriladi);
- ma'lum bir sohalar bo'yicha olimlar va tadqiqotchi ekspertlar uchun ilmiy anjumanlar, ilmiy tadbirlarni, MICE turizmnitashkil etilishiga;
- teatrni, san'atni, folklorni xush ko'ruvchilarga maxsus tadbirlarni, ya'ni milliy cholg'u asboblar bo'yicha tanlovlar, kartina ko'rgazmalari, teatr, festivallari,"Navro'z" sayillari,hosil bayramlari va umuman turli ommaviy tadbirlarni tashkil etilishi va boshqalarga e'tiborni qaratishimiz lozim.

Turizm sohasiga xizmat qiluvchi joylashtirish va tashish xizmatlari hisobidan turmahsulot narxlarini tushirish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Chunki nomavsumiy paytda, ya'ni qishgi mavsumda elektr energiyaga, xonani isitish xizmatlariga, kommunal xizmatlariga bo'lgan tariflar ham o'sib boradi. Shuning uchun ham ayrim ekspertlar buni ma'qullashmagan, lekin diqqatga sazovor joylarni ko'rishga, tarixiy-madaniy muzeylarga kirishga, har xil festivallar, karnavallar va xalq bayramlarini tomosha qilishda maxsus chegirmalar berilishi maqsadga muvofiq, deyilgan.

O'zbekistonda turizm mahsulotlarini mamlakatimizga tashrif buyuradigan turistlarning yoshiga yoki boshqa kategoriyalariga qarab yo'naltirish bo'yicha ekspertlar quyidagi fikrlarni berishgan. Agar 56 foiz ekspertlar yoshi katta turistlarni ko'proq nomavsumiy paytda jalb qilish kerakligini ta'kidlashsa, 34 foiz bu fikrga qarshi bo'lganlar, chunki ularning ta'kidlashicha bizning hududimizga tashrif buyuruvchilarning aksariyat qismi 50 yoshdan oshganlarga to'g'ri keladi.

3-jadval: Turizm mahsulotlari mavqeiga ta'sir etuvchi omillar[4]

Siyosiy	• Mamlakatdagi siyosiy vaziyat. • Kriminal hodisalar. • Davlat organlari tomonidan o'rnatilgan nazorat.
Maishiy	• Turizm bazalari va shu kabi joylarda tozalik va sanitariya-gigienani yuqoriligi. • Turizm markazlaridagi turistlar soni. • Tabiat, atrof-muhit va shahar landshaftining o'ziga jalb qilish xususiyati.
Iqtisodiy	• Ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati va narxlarning o'zaro mosligi.
Ijtimoiy-madaniy	• Mahalliy jamiyatning o'ziga xos xususiyati va madaniyati. • Milliy san'at, hunarmandchilik va urf-odatlarning o'ziga xosligi. • Mahalliy aholining ahilligi.
Infratuzilmaviy	• Kommunal xizmatlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi. • Transport xizmatlarini standartlarga muvofiqligi. • Boshqa turdagi obyektlar va xizmatlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi.

Bizning fikrimizcha, turizm xizmatlar bozorida turizm mahsulotlarini samarali amalga oshirish uchun birinchi navbatda uning imiji muhim ahamiyatga ega. Turizm mahsulotlari imijiga ta'sir kiluvchi omillar esa quyidagilardan iborat: murakkab ekologik sharoitlar, siyosiy vaziyatlar, aholi o'rtasidagi tili, dini, millati bo'yicha ziddiyatlar, past darajadagi xizmat turlari, qiziq bo'lmagan me'moriy qurilishlar va boshqalar. Yuqoridagi fikrlarni umumiylashtirib biz bu omillarni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, maishiy va infratuzilmaviy omillar ko'rsatgichlari bilan belgiladik (3-jadval).

Mamlakat turizm sohasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida 2021-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar va sohada ishlovchi mutaxassislar bilan suhbat va tadqiqotlar o'tkazildi. Natijada:

- uzoq xorijdan keluvchi turistlarning umumiy xarajatlarining 40–45 foizi xalqaro aviachiptalarga sarflanishi;
- sohada raqobatbardoshlikni oshirish zarurligi;

4 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- ayrim hududlarda muhandislik infratuzilmasining eskirishi (elektr ta'minoti, suv ta'minoti, tozalash inshootlarini, transport tarmoqlarini gaz bilan ta'minlash, suvoqava va b.) sababli uni modernizatsiya qilishga bo'lgan ehtiyoj mavjudligi;
- magistral va ichki avtomobil yo'llari ta'mirtalab holatdaligi va turizm obyektlarida infratuzilma qayta ta'mirni talab qilishi;
- turizm sohasiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishga zaruriyat borligi;
- kichik, o'rta va yirik korxonalar uchun turizm sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun imtiyozli kredit liniyalariga talab mavjudligi,
- turizm bozorida xalqaro va uzoq muddatli loyihalar kamligi;
- narx/sifat mezonlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslanganda joylashtirish va transport vositalarida xizmat ko'rsatish narxlari yuqoriligi;
- turizm sohasini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan ehtiyojni saqlanib qolayotganligi;
- xizmat ko'rsatish sohalarida sifatning pastligi kabi omillar aniqlandi.

Shu bilan birga O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar va xavflar tahlil qilinib, 4-jadvalga tushurildi.

4-jadval: O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar va xavflar tahlili (SWOT)

Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar
Takrorlanmas madaniy meros yodgorliklari, rang-barang tabiat. O'zbekistonning Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi. Mamlakatda yashovchi xalq va elatlarning o'ziga xos madaniyati. Ochilmagan turizm yo'nalishlarining mavjudligi. Har bir hududning o'ziga xos turizm turlariga ixtisoslashuvi. Arxeologik manbalar va tabiiy sharoitlarni taklif qilish imkoniyatlarining mavjudligi. Diniy bag'rikenglik siyosati. Mehmondo'st mahalliy aholi. Salohiyatli ishchi kuchi. Mamlakatda tinchlik va barqarorlik. Davlat tomonidan turizm sohasinining qo'llab-quvvatlanishi.	Xalqaro va ichki transport infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, turistlar uchun maqbul narxlar takliflari kamligi, yo'llar ta'mir talabligi. Yo'l bo'yi va turizm infratuzilmasini rivojlan-tirish zarurligi, xizmat sifatining pastligi. Turizm bozorida nomavsumiy davrlarning mavjudligi va buning uchun turizm mahsulotlari taklifining kamligi. Malakali xizmatchi, gid va menejerlarning yetishmasligi. Sohani raqamlashtirish va internet tarmog'ini tashkil qilish yoki sifatini yaxshilash.
Imkoniyatlar	**Xavflar**
O'zbekistonning jahon hamjamiyatida nufuzini oshib borishi orqali xorijiy turistlarni jalb qilish. O'zbekistonning qo'shni davlatlar uchun yirik turizm bozori ekanligi. Xorijiy davlatlar aviatashuvchilari bilan samarali muzokaralar olib borish orqali transport bilan bog'liq masalani hal qilish. Mamlakatda yirik turizm loyihalarini amalga oshirish va turli toifadagi turistlar uchun yangi mahsulotlar yaratish. Maqbul narxlarda turizm mahsulotlari yaratish orqali ichki turistlar oqimini oshirish.	Iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning yomonlashuvi. Afg'onistonning mintaqadagi barqarorlikka ta'siri. Ayrim davlatlardagi iqtisodiy inqiroz. Global epidemiya va xorijiy davlatlardagi turli kasallik-larning tarqalishi. Ko'pchilik qo'shni va hududdagi davlatlarni ham turizm sohasini rivojlantirishni kunning dolzarb mavzusi sifatida qarayotganligi va ularning rivojlantirish dasturiga egaligi.

Sohani tahlil qilish natijasida, global trendlarning ta'siri o'rganilib, mamlakatda turizmni rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

I. Havo, temir yo'l hamda avtoyo'l tarmoqlarini rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash;

II. Turistlarga qo'shimcha xizmatlar taqdim etish, xizmatlar sifatini oshirish va xizmat ko'rsatish standartlarini yaxshilash;

III. Xizmat ko‘rsatish madaniyati va kadlar malakasini oshirish;

IV. Marketingni kuchaytirish va sohada brendlarni shakllantirish.

Mazkur omillar mamlakatimizga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar oqimi, turizm xizmatlari eksporti va sohani qayta tiklanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, № O‘RQ–549 // www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF–4861-sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PQ–2666-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori // www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ–3217-sonli 2018–2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Qarori // www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 189-sonli “Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori // www.lex.uz.
6. Eshtayev A. “Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi” T.: Fan, 2011. – 280 b.
7. Eshtayev A. “Turizm sohasida mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishning marketing strategiyasi” “O‘zbekiston mehnat salohiyati: hozirgi holati va undan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislari to‘plami Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2011 yil 20 dekabr
8. Eshtayev A. “Turistik xizmatlarni benchmarking qilish asosida sohaning raqobatbardoshligini oshirish” J. “Iqtisodiyot va ta’lim”T. 2011, № 5 80–83 b.
9. Eshtayev A. “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari” J. “Birja Ekspert” T. 2011, № 9–10 36–38 b.
10. Eshtayev A. “Strengthening Competitiveness of international tourism industry in Uzbekistan”Tourism for development. A strategic approach. Editors: Prof Sandeep Kulshreshtha. Prof S. P. Bansal. Bharti Publications. Delhi. 2012. Pp 522–524.

ASSESSMENT OF THE CURRENT STATE OF THE MARKET AND PROCEDURE FOR LENDING TO SUBJECTS OF TOURISM SERVICES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Maqsudov Orif Shakirovich
Assistant, Samarkand Institute of Economics and Service, Uzbekistan



Karimova Aziza Maxomadrizoyevna
Scientific supervisor: PhD, docent

Abstract: This article is devoted to the consideration of issues regarding the assessment of the current state of the tourism services market, as well as the procedure for crediting business entities in this area. The analysis of loans issued by commercial banks of the republic, as well as the analysis of loans issued by commercial banks of the Samarkand region has been carried out.

Key words: bank, finance, credit, lending, economy, currency, capital, tourism, tourism product, tourist, tourism market, small businesses, services, private business.

Annotatsiya: Ushbu maqola turizm xizmatlari bozorining hozirgi holatini baholash, ushbu sohadagi tadbirkorlik subyektlarini kreditlash tartibi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Respublika va Samarqand viloyati tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning tahlili qilingan.

Kalit so‘zlar: bank, moliya, kredit, kreditlash, iqtisodiyot, valyuta, kapital, turizm, sayyohlik, sayyohlik, kichik biznes, xizmat ko‘rsatish sohalari, xususiy biznes

Аннотация: Данная статья посвящена рассмотрению вопросов относительно оценки нынешнего состояния рынка туристических услуг, а также порядка кредитования субъектов предпринимательской деятельности данной сферы. Проделан анализ выданных кредитов со стороны коммерческих банков республики, а также анализ выданных кредитов со стороны коммерческих банков Самаркандской области.

Ключевые слова: банк, финансы, кредит, кредитование, экономика, валюта, капитал, туризм, турпродукт, турист, туррынок, малые предприятия, сферы услуг, частный бизнес.

INTRODUCTION

The activities of tourism enterprises around the world, in particular in the Republic of Uzbekistan, have changed in recent years, especially after the adoption of the State Program of the Strategy for the country›s

socio-economic development for 2017–2021. According to the “State Committee of the Republic of Uzbekistan for Tourism Development, the influx of foreign tourists to Uzbekistan for 9 months of 2019 amounted to 4.9 million people, which is 26.1% more than for the same period in 2018”. But, the number of influxes of foreign tourists under the influence of the coronavirus pandemic in January-July 2020 sharply decreased, and the outflow of tourists from the Republic of Uzbekistan also decreased. As a result, the tourist enterprises of the Republic of Uzbekistan, like other countries of the world, suffered immeasurable losses. Compensating for these losses in the coming years is an urgent problem for all countries of the world.

METHODOLOGY

The methodological basis of this study is the results of the works of scientists in the field of crediting subjects of the sphere of tourist services, as well as the method of processing statistical data in the field of the tourist market and the market of bank credit support of the Republic of Uzbekistan.

THE DEGREE OF KNOWLEDGE

Many domestic and foreign scientists worked on the issues of the organization of lending to the subjects of the tourist market, in particular: J. Schumpeter, M. A. Krivulya, S. V. Fedorova, A. A. Kozybagarov, K. S. Zakharova, A. A. Bakanova, N. G. Novikova, K. A. Lebedev, O. E. Lebedeva, N. A. Zaitseva, McKercher, H. Du Cros, etc.

MAIN PART

In the present conditions of implementation of the priority directions of the State Program of the Country Development Strategy, the credit market becomes more attractive. However, the presence of institutional inequality, a limited set of financial and credit instruments and services used, the lack of effective legal frameworks create problems related to guaranteeing the realization of the property interests of participants in a credit transaction, reduce the efficiency of tourism services provided and the use of credit resources for the development of tourism enterprises .

Creating favorable conditions for the development of the financial activities of tourism enterprises, especially for increasing their own financial resources, is important and significant. And not only the tourist industry (travel agencies, travel agencies, trade, hotels, etc.) needs financial and credit support, but also the citizens themselves need tourist trips. Therefore, consumer demand for credit, for example, to pay for the cost of a tour for a holiday trip, is also important. Therefore, the formation of financial and credit relations to address this issue also plays an important role in solving social problems.

Nowadays, one of the most important problems in the development of tourism service entities is both financing and lending to their activities. Further, we carried out an analysis based on reports received from commercial banks of the Republic of Uzbekistan regarding loans and microcredits issued for the development of tourism service entities (see: Table 1)

Table 1: Analysis of issued loans and microcredits for the development of entrepreneurship in the field of tourism services by commercial banks Republic of Uzbekistan1 billion soums

p/n	Name	years				
		2016	2017	2018	2019	2020
1	loans	6375	7882	11157	13145	17890
2	microcredits	892	1235	1808	2478	3178

The above data testify to the growth of loans and microcredits received by entrepreneurs in the tourism services sector. The growth of which we consider the form of a diagram. (see: fig.1)

1 Compiled by the author on the basis of data received from commercial banks of the republic




Fig.1: Dynamics of issued loans and microcredits from commercial banks of the Republic (bln. soums)

So, based on the data presented in Figure 1, it can be seen that in 2016–2020. the volume of loans and microcredits provided by commercial banks of the Republic of Uzbekistan to small businesses and private entrepreneurship tended to grow.

Today, most of the subjects of the sphere need credit support, and the demand for lending to tourism entities is growing every day. However, only a small part of the subjects decides to take a loan, as they face many problems that are an obstacle to lending.

Despite the fact that such an issue was under the close attention of economists [2, 3], in practice, credit support for economic entities was implemented within the framework of the developed bank lending programs, that is, depending on the specifics of the program and the goals of the financial capabilities of banks. (See: Fig. 2)




Fig. 2: Conditions for obtaining a loan for entrepreneurship, from some commercial banks of the Samarkand region and [4]

To develop methodological and analytical approaches to the processes of identifying the main properties and conditions for granting a loan for investment projects of tourism enterprises in a particular territory, it is necessary to solve such problems as:

- substantiation of the conceptual foundations of the innovative and investment development of the activities of tourism enterprises, the formation of sources and conditions for lending to innovative and investment objects,
- assessment of innovative and investment potential and their attractiveness in a particular area,
- determination of directions for the effective use of internal reserves in order to invest in certain areas of activity of tourist enterprises.

The analysis carried out regarding the identification of the average tourist expenditure in the city of Samarkand was conducted in the form of a survey among tourists who arrived in the Samarkand region on the territory of the city of Samarkand. An analysis of our survey among tourists who brought with them foreign currency used for their own needs during a trip to Samarkand showed the following (see: Table 2).

Table 2: The results of a survey of tourists who brought with them foreign currency and used it for their own needs during the trip (the duration of the trip is 10 days) [5]

p/n	tourists by age group	number of tourists (persons)	personal currency of tourists on the day of arrival, (thousand $)	used							remainder
				for the purchase souvenirs	for the purchase goods	transport	nutrition	accommodation	other expenses	Total expenses	
1	Ages 20 to 35	6	7,2	1,1	0,31	0,7	1,5	0,3	0,7	4,61	2,59
2	Ages 36 to 50	12	14,4	2,9	0,9	0,42	2,1	0,8	1,2	8,32	6,08
3	Ages 51 to 65	31	37,2	3,9	11	0,53	5,23	9,3	2,3	22,36	14,84
4	Ages 66 and over	34	34	1,8	0,71	0,47	7,54	10,2	2,9	23,62	10,38
	Total:	85	92,8	9,7	3,02	2,12	16,37	20,6	7,1	58,91	33,89

As follows from Table. 2, tourists who arrived in Samarkand spend an average of 693 US$ per person [(9,7 + 3,02 + 2,12 + 16,37 + 20,6 + 7,1) : 85] of the total the amount of envisaged expenses (i.e. $ 1100) ($92.8 thousand: 85 people).

So , after analyzing the results of a survey conducted among tourists when visiting various objects of the city of Samarkand, based on Fig. 3, we found that during their stay in Samarkand tourists visit the following cultural sites: 28,0% of tourists visited museums, galleries, theaters, exhibitions and art centers; 40% of cultural heritage sites, i.e. cultural and historical monuments; 27,0% festive events; 1% nightclubs, 1% show programs, contests; 23% shopping centers, shops, markets; 5% - objects of ecotourism, nature reserves, reservoirs, mountains; 3% - other objects.




Fig.3: Tourists visiting various objects in Samarkand in 2019 [6]

Based on Table 2, we can conclude that tourists could not, for one reason or another, spend 33,89 thousand US dollars. And based on the data in Fig.3, special attention is drawn to the fact that it is precisely those objects from which a tourist can spend more money that visiting them is not sufficient. This is a big loss for the domestic service sector and manufacturers of consumer goods. The reason is that business entities could not attract tourists to various services. And the reason for the lack of attractiveness of objects is the lack of financial resources for their development.

The reverse phenomenon occurs with our citizens who are going to travel on a tour package abroad. It is not surprising that of the total funds taken with them by domestic citizens, 5,6% were for food expenses, 12,3% for food and more than 78% for the purchase of goods. Unspent funds amount to no more than 2–3%.[5]

The gap today between tourism products, financial, commodity and transport markets has slightly increased, as a result of which the second and third lose direct contact with the first. The share serving tourist enterprises accounts for no more than 7–8% of the total volume of services provided to tourists after arriving at the place of tourist travel. All the capital brought by tourists to the place of travel is in “free float” and has no real material replenishment.

However, it should be noted that the measures taken to support and protect the private sector indicate an increase in the quantitative and qualitative indicators of the sphere in the Samarkand region. (see: tab. 3)

Table 3: Analysis of tourism activities in the Samarkand region (2016–2020) [8]

Name	years				
	2016	2017	2018	2019	2020
tourists visiting the region (thousand people)	1 056 250	1 319 630	2,456,000	3,120,000	965 000
number of employees in the field of tourism (thousand people)	1118	1232	1964	2907 _	1450
number of firms and organizations carrying out tourism activities	252	292	468	841	725
profit received from tourism enterprises (billion soums)	130,2	156,3	146,3	245,7	–14,7
number of hotels	107	112	118	145	145
profit received from hotel services (bln. soums)	40,9	51,1	63,1	109,2	–78,9

According to the analysis of the data of the State Committee of the Republic of Uzbekistan for the development of tourism, the influx of foreign tourists to Uzbekistan for 9 months of 2019 amounted to 4,9 million people, which is 26.1% more than for the same period in 2018. [8] But the number of influxes of foreign tourists under the influence of the coronavirus pandemic as of November 2020 has sharply decreased, and the outflow of tourists from the Republic of Uzbekistan has also decreased. Tourism, like many sectors of the economy, has become one of the sectors that have suffered from the negative impact of the coronavirus pandemic. Due to the situation of which the number of tourists visiting Samarkand, as well as the export of tourist services, has sharply decreased all over the world. Compensating for these losses in the coming years is an urgent problem for all countries of the world. From which there is additional financial and credit support for tourism enterprises during the coronavirus pandemic.

Thus, the development of tourism infrastructure in the framework of the international standard, it is necessary to create favorable conditions for financial and credit support for the activities of tourism enterprises.

Conclusion. After analyzing the sources of financial and credit support, and tourism activities in the Samarkand region, we came to the conclusion that, having access to financial resources, financial institutions can satisfy the desires of consumers. That is, the need for additional financial resources, and the satisfaction of needs is possible with the help of banking services, i.e. loans. At the same time, it should also be taken into account: the more the population attracts credit for the implementation of tourism activities, it means that it is necessary to establish preferential loans in order to find an alternative option or access to credit resources.

After analyzing the loans issued by sectors of the economy, we consider it appropriate to add to the report of the Central Bank a sector related to lending specifically to the tourism sector. Also, the analysis and assessment of the current state of the tourist services market and the procedure for lending to the tourism sector, we came to the conclusion that the quality and quantity of loans issued, and the organization of entrepreneurial activities of the tourism sector, the professionalism of the staff is of no small importance. In this regard, there is a need to improve the financial literacy of the staff of both a tourist enterprise and a commercial bank, which contributes to an increase in financial results.

List of used literature:

1. Data from the official website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Annual report of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan 2017, 2018, 2019 (https://cbu.uz/en/statistics/bankstats)
2. Developed by the author on the basis of data received from commercial banks of the Samarkand region, as of March, 2020.
3. Survey of tourists of the city of Samarkand
4. Mahomadrizoevna, K. A. (2021). Analysis And The Need To Improve Credit Support For The Development Sphere Of Tourism // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.1 Economical sciences).
5. Data from the department for the development of tourism of the Samarkand region as of January 2020
6. Statistically data from the Department for Tourism Development of the Samarkand region.
7. Brief overview of the main indicators of the tourism market of Uzbekistan for 9 months of 2019
8. Bank materials. Samarkand for the period 2017–2020



ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARI (MUZORABA VA MUSHORAKA) VA ULARNI TIJORAT BANKLARIDA QO‘LLASH

Madraximova Gulasal
TDIU, dotsent

Safarova Nasiba
MEKP–10 guruh magistranti

Annotatsiya: Maqolada islomiy moliya instrumentlaridan biri bo‘lgan muzoraba va mushoraka tushunchalari keng yoritib berilgan. Mamlakatmizdagi islom moliya bozorini xalqaro islom institutlari orqali rivojlanishi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: islom moliya bozori, islom moliya instrumentlari: muzoraba, mushoraka, shirkat ul-mulk,shirkat ul-ahd, Xalqaro savdoni moliyalashtirish islom korporatsiyasi.

Abstract: In the artisle, the sonserts of mubaraba and musharakah, whish are one of the instruments of Islamis finanse, are widely exrlained. The Islamis finansial market in our sountry was examined through international Islamis institutions.

Key words: Islamis finansial market, Islamis finansial instruments: mushoraka, musharakah, shirkat ul-mulk, shirkat ul-ahd, International Trade Finansing Islamis Sorroration.

Аннотация: В статье широко раскрыты понятия мубараба и мушарак, которые являются одними из инструментов исламских финансов. Рассмотрено развитие исламского финансового рынка в нашей стране через международные исламские институты.

Ключевые слова: исламский финансовый рынок, исламские финансовые инструменты: переговоры, мушарака, ширкат уль-мульк, ширкат уль-ахд, исламское финансирование международной торговли.

KIRISH (INTRODUCTION)

Islom moliyasi islom dinining qonun-qoidasiga (shariatga) asoslangan moliyaviy tizim bo‘lishiga qaramay, musulmon va musulmon bo‘lmagan davlatlarda so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Buning sababi esa, islom moliyasining iqtisodiyot tebranishlariga nisbatan yaxshi bardoshlik ekanligidir. Shuni aytish joizki, mamlakatimizda islom moliyasini iqtisodiyotimizga olib kirish 2004-yilda, Islom taraqqiyot bankiga a’zolikdan boshlangan. Ammo, so‘nggi 20 yil ichida islom moliyasini rivojlantirish uchun aniq chora-tadbirlar bo‘lmagan. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yilda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida islom moliyasini O‘zbekistonga olib kirish vaqti kelgani va bu uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta’kidladi[1]. So‘nggi 2 yil ichida qator islom moliya instrumentlari va islom darchalari ochilganligi, islom moliyasini kirib kelishi boshlanayotganidan darak beradi. Biroq islom moliyasi jahonda keng qo‘llanilayotganiga qaramay, mamlakatimiz aholisida islom moliya tizimi, islom moliya instrumentlari va ularni qo‘llash haqida to‘laqonli ma’lumot mavjud emas. Maqola islom moliya instrumentlari, ularni qo‘llash orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada barqarorlashtirish haqida.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Musharaka shartnomasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta’rif berilgan:

Muhammad Taqi Usmani. Biznes va savdo talqinida ushbu atama qo‘shma korxona (oddiy sherikchilik)ni anglatadi, bunda barcha sheriklar umumiy ishdagi foyda yoki zararni taqsimlaydilar, ushbu so‘zning mazmuni islom fikhida ishlatiladigan “shirkat” atamasidan kengroqdir. Musharaka atamasi “shirkat”ning xususiy shakli – “shirkat ul-amval” bilan cheklangan, unda ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘z kapitalini qo‘shma tijoriy korxonaga investitsiya qiladilar. Ba’zan u “shirkat ul-amal”ni ham o‘z ichiga oladi, unda sherikchilik xizmat ko‘rsatish sohasida amalga oshiriladi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz› view

M. Al-Jarhi, M. Iqbal. Bank va mijozning qo‘shma loyihasi bo‘lib, u bank va mijoz o‘rtasida sherikchilik to‘g‘risida kelishuv imzolanishini ko‘zda tutadi va unga muvofiq tomonlar loyihani birgalikda moliyalashtiradilar. Foyda va zararlar tomonlarning loyihani moliyalashtirishdagi ishtirokiga mutanosib mijoz va bank o‘rtasida taqsimlanadi.

I. Varde. Qo‘shma korxona (oddiy sherikchilik) to‘g‘risidagi kelishuvda bank mijoz bilan sherikchilikka kirishadi, bunda ularning har ikkisi ustav kapitalida ishtirok etadilar va ba’zan loyiha yoki bitimni boshqaradilar.

R. Vohidov. Kapitalda ikki tomon ishtirok etadigan tadbirkor va moliyaviy ishtirokchining sherikchiligi. Foyda tomonlarning kelishuvi bo‘yicha, zararlar esa kapitaldagi ishtirokka mutanosib taqsimlanishi mumkin.

TADQIQOT METODIKASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Ushbu maqolada, an’anaviy tadqiqot usullaridan, ya’ni kuzatuv, taqqoslama usullaridan foydalanilgan. Shu bilan birga, tasviriy statistika yordamida tahlil ishlari olib borilgan va tegishli xulosalari berilgan

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

“Islom moliyasi” atamasi yaqin-yaqindan ishlatilina boshlaganga qaramay, VII asr boshlarida islom dini kirib kelishi bilan paydo bo‘lgan. Islom moliyasi islom dinidagi qonun-qoidalarga asoslanganligi sababdan, uni yangi yo‘nalish deb qarash biroz noto‘g‘ri hisoblanadi. Shunki, 14 asrdan beri mavjud bo‘lgan din va unga e’tiqod qiluvchilar, ya’ni musulmonlar islom moliyasi atamasini ishlatmasa ham, o‘z dinlari chegarasida oldi-sotdi, tijorat, qarz yoki meros kabi iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etgan. Islom moliyasi negizida islom dini bo‘lganligi uchun uning talabgorlari ko‘pincha musulmonlar hisoblanadi. Afsuski, 95% aholisi musulmon va islom moliyasiga bo‘lgan talab juda yuqori bo‘lishiga qaramay, mamlakatimizda islom moliyasi shu yaqin yillarga qadar yaxshi rivojlanmagan. 2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga murojaatnomasida islom moliyasini rivojlantirishga urg‘u bergan. Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning beshinchisi, “Makroiqtisodiy barqarorlik-iqtisodiy islohotlarning mustahkam roydevori” bo‘lib, unda quyidagi jumlalar keltirilgan: “Shuningdek, mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi”[2]. “Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to‘g‘ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transrort yo‘llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko‘rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo‘lib xizmat qiladi” .

Mamlakatimiz amalda islom moliya tashkilotlari bilan aloqlarni mustahkamlayotganligini quyidagi ma’lumotlar orqali bilishimiz mumkin. 2022-yil 3,4-noyabr kunlari Samarqand shahrida “O‘zbekiston iqtisodiy forumi” ikkinchi bora o‘tkazildi. Unda ko‘plab xoriyiy va mahalliy investorlar, xalqaro tashkilotlar, xalqaro ekspertlar ishtirok etgan bo‘lib Islom taraqqiyot banki ham bir necha mahalliy banklar va Moliya vazirligi bilan shartnomalar imzolandi:

- ATB “Qishloq qurilish bank” va “Xalqaro savdoni moliyalashtirish islom korporatsiyasi” (ITFS) bilan savdoni moliyalashtirish bo‘yicha 10 mln. AQSH dollari miqdoridagi kelishuvlar imzolandi[3].
- “Mikrokreditbank” ATB va “Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha islom korporatsiyasi” (ITFS) o‘rtasida 30 mln. dollarlik hamkorlik kelishuvi imzolandi Mazkur kelishuv islomiy moliyalashtirish tamoyillari asosida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash xususiy sektorni moliyalashtirishni ko‘zda tutadi[4].
- “Turonbank” ATB o‘zining ishonshli va strategik hamkori Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha Islom Korporatsiyasi va Savdoni Moliyalashtirish Xalqaro Islom Korporatsiyasi bilan umumiy hisobda 35 mln. AQSh dollariga teng o‘zaro kelishuv bitimini imzoladi[5]. Bu kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish hamda savdoni moliyalashtirish kabi liniyalarni jalb etish imkoniyatini yaratishi bilan ahamiyatlidir. Shuni aytib o‘tish lozimki, Turonbank korporativ mijozlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2019-yildan buyon Xalqaro Islom savdo-moliya korporatsiyasi (ITFS) va Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi (ISD) bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. Mazkur ikki xorijiy kredit liniyasidan hozirga qadar 26 mln. AQSh dollari miqdorida mablag‘lar jalb etilib, 20 dan ziyod yangi quvvatlar ishga tushirildi va yuzlab yangi ish o‘rinlarining tashkil etilishiga erishildi. Umumiy hisobda, Islom Taraqqiyot Banki guruhi tarkibiga kiruvchi ikki korporatsiya (ISD va ITFS) O‘zbekiston Hukumati bilan 100 mln. AQSh dollari qiymatida, mahalliy banklar bilan esa 120 mln. AQSh dollari miqdoridagi kelishuvga erishdi.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3 https://qishloqqurilishbank.uz/ru/news/880
4 Foydali ma’lumotlar – ATB “Mikrokreditbank” (mkbank.uz)
5 https://turonbank.uz/oz/

Savdo-sanoat palatasining BMT bilan o‘tkazgan tadqiqoti natijalari shuni ko‘rsatdiki, so‘rovda qatnashgan biznes vakillarining 38 foizi va jismoniy shaxslarning 56 foizi an’anaviy banklardan diniy e’tiqodlari sababli kredit olishmaydi. Shu tariqa, Islom qoidalariga rioya qiladigan moliya tashkilotlariga talab paydo bo‘lmoqda. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining baholashiga ko‘ra, Islom moliyasini joriy etish budjetga qo‘shimsha 100 million dollar foyda keltiradi. Shu bilan bir qatorda, ITB (Islom Taraqqiyot banki) mamlakat iqtisodiyotiga faol ravishda sarmoya kiritib bormoqda. Bundan shuni tushunsak bo‘ladiki, kelgusida banklar o‘z faoliyatiga islom moliya instrumentlarini ham joylashtiradi.

Islom moliya instrumentlari o‘zi nima? Ularni qo‘llash aholiga qanshalik manfaat beradi? Islom moliya instrumentlari – shariat ruxsat etgan ne’matlar orqali bozorda oldi-sotdi va qarz munosabatlarini o‘rnatish uchun qo‘llaniladigan vositalar. Islom moliya instrumentlarini esa ko‘plab olim va tadqiqotchilar turlicha ta’riflagan. Masalan, chet ellik olimlar Greys va Iqbol islomiy moliya vositalarini: bitimni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan tranzaktsion bitimlar va bank moliyaviy vositashi sifatida ishtirok etadigan bitimlarga ajratadilar. R. I. Bekkin islomiy moliyaviy mahsulotlarning quyidagi tasnifini keltiradi: – foyda va zararlarni taqsimlash mexanizmiga asoslangan vositalar yoki moliyalashtirishning investitsiyaviy vositalari: muzoraba, mushoraka; – qarz bilan bog‘liq moliyalashtirishga asoslangan vositalar: murobaha, salam, shuningdek, istisno va ijara. Demak, islom moliya instrumentlari ichida keng ko‘p qo‘llanilinadigan bitim, shartnoma, qarz munosabatlari haqida quyida batafsil tushunchalar keltiriladi.

Muzoraba. Ibn Abbos (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: “Kattamiz Abbos ibn Abdulmuttalib mollarini muzorabaga berganlarida, sheriklariga dengizda yurmaslik, vodiyda qo‘nmaslik va unga tirik jigarlik hayvon sotib olmaslikni va agar shunday qilsa javobgar bo‘lishini shart qildilar[6]. Uning sharti haqida Rasulullоh (sollallohu alayhi vasallam)ga yetib borganda unga ijozat berdilar”, bu Bayhaqiy va Tobaroniylar rivoyatidir. Islom moliya instrumenti sifatida esa, muzoraba – foyda olish maqsadida ikki tomon rab al-mol (mablag‘ beruvchi) va muzorib (bilim va tajribalarini ishlatuvshi) o‘rtasida tuziladigan sherikchilik shartnomasi hisoblanadi. Bunda, muzorib bilim va tajribalariga tayanib, loyiha tuzadi va mablag‘ beruvchi (bank, investor) muzoribga ishonib pul beradi. Muzoraba shartnomasida rab al-mol garov talab qilmaydi. Ammo, o‘rtadagi zarar va xatar faqat mablag‘ beruvchining zimmasiga o‘tadi, foyda esa shartnomaga asosan taqsimlanadi. Rossiyalik iqtisodiyot fanlari doktori R. I. Bekkin muzorabaga quyiadgicha ta’rif beradi[7]. Muzoraba – Moliyaviy ishtirokshi va tadbirkorning sherikshiligi hisoblanib, bank kapital beradigan tomon sifatida, qarzdor esa – ushbu kapitalni boshqaruvchi tadbirkor sifatida ishtirok etadi. Loyihadan kelgan foyda bank va ishonshli boshqaruvchi bo‘lgan tadbirkor o‘rtasida kelishuv bo‘yicha taqsimlanadi. Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar va xatar bank zimmasida bo‘ladi.


Muzoraba ikki xil bo‘ladi: mutlaq va cheklangan. Mutlaq: bir shaxs molini boshqaga hech qanday cheklovlarsiz berishi. Yoki ishni, joyni, vaqtni, ish sifatini va muomala qilinadigan kishini muayyanlashtirmasdan molni muzorabaga berish. Cheklangan: shaxs molini boshqaga muayyan shaharda yoki ma’lum tovarda yoki ma’lum vaqtda va yoxud faqatgina bir kishi bilan muomala qilish sharti bilan muzobaga berishidir. Muzoraba shartnomasi tuzilganda foyda oldindan mutlaq qiymatlarda, valyuta ko‘rinishida yoki aniq qilib belgilanmagan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, agar loyiha muzoribga bog‘liq bo‘lmagan holda yoki fors-major holatlariga duch kelsa, zarar faqat mablag‘ beruvchi zimmasiga tushadi. Ammo, muzoribga bog‘liq bo‘lgan holatlarda xatar oshsa yoki zarar bo‘lsa, yo‘qotilgan mablag‘ muzorib bo‘yniga tushadi. Shartnomani tuzish muddati ixtiyory hisoblansa ham, aksariyat hollarda qisqa va o‘rta muddatli loyihalar moliyalashtiriladi. Muzoraka bitmida mablag‘ beruvchi garov talab qilmaganligi bois, risklilik darajasi yuqori hisoblanadi. Shuning uchun muzoraba shartnomasi keng tarqalmagan va ko‘p qo‘llanilmaydi. Mamlakatimizda “Iman Invest” islom moliya muassasasi 2018-yildan beri shariat qonun-qoidalariga asosan o‘z faoliyatini yurgizadi. Hozirda ko‘plab islom moliya instrumentlari mavjud bo‘lib, “Muzoraba-nasiya savdo investitsiya strategiyasi” mavjud. Bunda har bir investor boshlang‘ish investitsiya (kamida 1 million so‘m – ko‘pi chegaralanmagan) kirgizadi[8]. Har oyda kutilayotgan foyda 2% hisoblanadi va yiliga tahminan 27–30% foyda kutiladi. Invesrtor o‘z kiritgan investitsiyasiga qo‘shimsha investitsiya kirgizish huquqiga ega bo‘lib, eng kamida 100 000 so‘m kirgiza oladi. Bundan tashqari, investor o‘z investitsiyasini reinvestitsiya qilish muddati 3 oydir va investitsiya muddati chegaralanmagan. Qancha mablag‘ kiritsa, qancha foyda olishini taqriban ko‘rsata oladigan dastur mavjud bo‘lib, hozirgacha 3400 ta mijoz bilan turli shartnomalar orqali ishlaydi.

Mushoraka. “Mushoraka” atamasi “shirkat” o‘zagidan olingan. “Shirkat” atamasi islom huquqshunosligida keng qo‘llaniladi va uning ma’nosi ham “mushoraka”ga qaraganda kengroq. Mushoraka – bir va undan ortiq tomonlar foyda olish maqsadida birlashishi sanaladi. Bunda foyda va zarar tomonlar kelishuviga qarab, ulush qo‘shilganligiga qarab yoki shartnomada teng taqsimlanganligiga qarab bo‘linadi. Mushoraka – ikki yoki undan ortiq tomonlar o‘rtasida sheriklik shartnomasi bo‘lib, unda barcha sheriklar qo‘shma korxona uchun kapital

6 Baydaulet E. A. Islom moliya asoslari. T.: “O‘zbekiston”, 2019
7 Bekkin R. I. Islom va iqtisodiy modeli va zamon. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019
8 https://imaninvest.com/

beradi, foydani oldindan kelishilgan shartlarda taqsimlaydi va zarar kapitalga qo‘shgan hissasiga mutanosibdir. Mushoraka sherikshiligi 2 asosiy turga bo‘linadi. 1-rasm orqali uni ko‘rsa bo‘ladi. Rasmda berilgan ma’lumotlarni quyida har biriga to‘xtalsak. Mushoraka shrtnomasining turlari ikki xil:

I. Shirkat ul-mulk. Ikki yoki undan ortiq shaxslarning ma’lum bir mulkka nisbatan birgalikdagi egaligiga aytiladi. Bunday shirkat tomonlarning xohishi bilan, masalan, muayan bir mulkni birgalikda sotib olish orqali paydo bo‘lishi mumkin. Bunda sotib olingan mulkka nisbatan tomonlarning birgalikdagi munosabati Shirkat ul-Mulk deyiladi. Mushoraka tomonlar o‘rtasida o‘zara kelishuv asosida tuzilsa ixtiyoriy mushoraka bo‘ladi. Agarda biron bir shaxsga biron bir xohishsiz ishtirok etsa, g‘ayri ixtiyoriy mushoraka bo‘ladi. Maslan, mushoraka bitimi qatnashchisi vafot etsa, o‘z-o‘zidan uning ulushi me’rosxo‘rlariga beriladi. Me’rosxo‘rlar g‘ayri ixtiyoiy mushoraka ishtirokchisi bo‘ladi. Ushbu turdagi sheriklik odatda meros, vasiyatnomalar yoki ikki yoki undan ortiq shaxslar umumiy mulkka egalik qilish uchun kelgan boshqa vaziyatlarda yaratiladi. Egalik har bir “sherik” ga asosiy mulk yoki aktivning daromadidan ulush olish huquqini beradi[9].



1-rasm: Mushoraka shartnomasining tasniflanishi[10]

II. Shirkat ul-ahd. Mushorakaning ikkinshi bir turi bo‘lib, ikki va undan ortiq tomonlar shartnoma asosida sherikchilik qilishi tushuniladi. Shirkat ul-ahd, o‘z navbatida, 3 turga bo‘linadi:

1. **Shirkat ul-amval.** Tomonlar foyda olish maqsadida tijorat korxonalariga investitsiya kiritadi va shu orqali sheriklarga aylanishadi. Shirkat ul-amvalni, o‘z navbatida, yana 2 turga bo‘lamiz:

a) **Shirkat ul-inon.** Tomonlar ma’mum bir korxonaga investitsiya kirgizadi. Har bir investorning kapitalga qo‘shgan hissasiga qarab (kam yoki ko‘r) yoki shartnoma boshidagi kelishuvga qarab foyda va zarar taqsimlanadi.

b) **Shirkat ul-muvofada.** Tomonlar teng miqdorda ulush kiritadi vat teng miqdorda foyda va zararni bo‘ladi. Masalan, 50% dan ikki kishi yoki 25% dan to‘rt kishi biron-bir korxonani ochish uchun teng miqdorda ulush qo‘shadi.


2. **Shirkat ul-amal.** Ikki va undan ortiq tomonlar xizmat ko‘rsatish maqsadida birlashadi va shartnomada belgilangan tartibda foydadan ulush oladi.

3. **Shirkat ul-vujuh.** Tomonlar birlashib investitsiya qilmaydi, aksincha, bir biriga ishonch orqali tovar sotiladi. Masalan, savdogar ulgurji narxga tekinga, kelishuv asosida tovar oladi, chakana narxda sotadi. Qolgan foyda ikki savdogar (ulgurji narxga tekinga bergan va chakana narxga sotgan) o‘rtasida shartnomaga muvofiq bo‘linadi. Mushoraka shartnomalari komraniyaning aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun yoki qo‘shma investitsion faoliyatga, masalan, ko‘chmas mulkka yoki qishloq xo‘jaligiga quyil-

9 Mushoraka tushunchasi / Islom moliyasi (islommoliyasi.uz)
10 Ma’lumotlar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

malar kiritish uchun ishlatilishi mumkin. Odatda, shartnomalarning mazkur shakli uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo‘llanadi. Bunday mahsulotning afzalligi shundaki, u egiluvchan (moslashuvchan) kelishuvlarni tuzish imkonini beradi, bunda, foydani taqsimlashdagi ulush va boshqaruv shakli singari sherikchilikning xususiyatlari tomonlar tarafidan avvaldan kelishilishi mumkin, mushoraka amalda bank tomonidan investitsion loyihalarga rortfelli investitsiyalarni amalga oshirishni o‘zida ifodalaydi[11].

Islom moliya instrumentlari ishida yuqorida ikkitasinigina o‘rganib chiqdik. Ammo mamlkatimizda aynan islom moliyasi haqidagi tushuncha qay darajaligini quyidagi 2-rasm orqali ko‘rsak bo‘ladi[12].



2-rasm: Islom moliyasi haqida ma’lumotlar va bilimlar

Rasmdan shuni tushunsak bo‘ladiki, aholining asosiy qismi musulmon bo‘lishiga qaramay, islom moliyasi haqida nafaqat aholi, balki tadbirkorlarda ham to‘laqonli tushuncha va ma’lumotlar yetarli emas. Aynan aholi savodxonlik darajasi ham islom moliyasini mamlkatga kirishini sekinlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, qariyib 50% ga yaqin aholi islom moliyasi haqida eshitgan, ammo uning haqida to‘liq tushuncha va tasavvurga ega emas. O‘z navbatida, O‘zbekistonda islom moliyasi bo‘yicha kadrlar kamligini aynan shu orqali bilsak bo‘ladi. Qo‘shimsha qilib aytsak, tadbirkorlarning 40% islom moliyasi haqida faqatgina umumiy jihatlarni biladi.

Demak, tadbirkorlar islom moliyasiga qiziqishi bor, islom moliya instrumentlari yoki islom banklari yaxshi rivojlana boshlasa, mamlakat ichki investitsiyasi oshishiga turtki bo‘lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS)

Jadal rivojlanayotganligiga qaramay, islom moliyasi hali yangi soha kabi ko‘riladi. Musulmon aholisi ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda (O‘zbekiston, Saudi Arabiston, Indoneziya va boshqalar) islom moliya instrumentlarini qo‘llash bir necha afzalliklarga ega. Quyida islom moliya instrumentlarining avfzalliklari keltirilgan:

- aholida bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qiladi. Islom diniga e’tiqod qiluvchi insonlar Qur’oni Karim va sunnatda belgilangan cheklovlarga amal qiladi. Shuning ushun, ananaviy banklardagi kreditlarda,

11 Траченко, М. Б., & Форго, А. Т. (2016). Исламские инструменты финансирования малых и средних предприятий: проблемы и перспективы. Государственное управление. Электронный вестник, 287–306.

12 Ma’lumotlar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

shubhali bo‘lganligi uchun musulmonlar e’tiqodiga zid keladi. Mana shu vaziyatda ananviy banklarga alternativ sifatida islom banklari chiqadi va musulmon aholining bo‘sh pul mablag‘larini aylantiradi.

- islom moliyasini rivojlantirish yangi moliya muassasalarini oshilishiga sabab bo‘ladi. Bu orqali esa, o‘z-o‘zidan yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Aholi ishsizlik darajasini ma’lum bir darajada tushushiga yordam beradi.
- xorijiy investorlarni jalb qiladi. Islom moliyasi eng yaxshi rivojlangan mamlakatlar Saudi Arabiston, Eron, Malayziya hisoblanib, aholining ko‘p qatlami musulmonlar. Islom moliya bozori va uning me’yoriy hujjatlari rivojlansa, mamlakatimizning investitsion jozibadorligi oshadi va xorijiy investorlar o‘z investitsiyasi bilan kela boshlaydi.

Xulosa o‘rnida aytsak, islom moliya instrumentlari orqali islom moliya bozorini rivojlantira olsak, iqtisodiyotimiz barqarorligi oshadi. Shunki 2008-yil butun jahon iqtisodiy inqirozida eng stabil moliya tarmog‘i aynan islom moliyasi bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Baydaulet E. A. Islom moliya asoslari. – T.: “O‘zbekiston”, 2019.
3. Bekkin R. I. Islom va iqtisodiy modeli va zamon. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019
4. Траченко, М. Б., & Форго, А. Т. (2016). Исламские инструменты финансирования малых и средних предприятий: проблемы и перспективы. Государственное управление. Электронный вестник, 287–306.
5. Allayarov, S. (2018). Theoretisal Study of Ortimal Fissal and Monetary Rolisies for Stimulating Esonomis Growth. Researsh Journal of Finanse and Assounting, 9(8), 206–212.
6. Xidirov, N. G. I., & Qarshiyeva, M. A. Q. (2022). Islomiy bank xizmatlarini joriy etish orqali tijorat banklarini aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish masalalari. Ssiense and Edusation, 3(11), 1067–1074
7. Moxira Baxtiyorovna, Pulatova Muhammadqodir Mehmonaliyev “Ssiense and Edusation” Ssientifis Journal. Islom moliyasi va uning rivojlanish evolyutsiyasi.
8. https://qishloqqurilishbank.uz/ru/news/880
9. Foydali ma’lumotlar – ATB “Mikrokreditbank” (mkbank.uz)
10. https://turonbank.uz



MAMLAKATIMIZDA “YASHIL” IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Mustafaqulov Yangiboy Bo‘riqulovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Todjimamatova Mashhura Erkinovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Berdieva Aziza G‘anisher qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Nurmatova Hilola A’zamovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Egamberdieva Oydin Abror qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Barqaror rivojlanishning ijtimoiy tarkibi insonga qaratilgan bo‘lib, ijtimoiy va madaniy tizimlarning barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgandir. Barqaror rivojlanish Konsepsiyasi inson tanlovini kengaytirish asosiy g‘oya ekanligiga tayangan holda insonning o‘z hayot faoliyatini shakllantirish, qarorlar qabul qilish, ularni amalga oshirish va bajarilishini nazorat qilish jarayonida to‘laqonli qatnashishi lozimligini nazarda tutadi. Bu “Yashil” iqtisodiyot asosida amalga oshirilishi muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy taraqqiyot, daromad, kapital, iqtisodiy barqarorlik, modernizatsiya, samaradorlik, yashil iqtisodiyot, global, invetitsiya.

Abstract: The social structure of sustainable development is human-oriented and aimed at ensuring the stability of the socio-cultural system. The concept of sustainable development assumes that a person should fully participate in the process of shaping his life, making decisions, their implementation and monitoring their implementation, based on the fact that the main idea is the expansion of human choice. An important factor is that it is implemented on the basis of the Green Economy.

Key words: Social development, income, capital, economic stability, modernization, efficiency, green economy, global, investment.

Аннотация: Социальная структура устойчивого развития ориентирована на человека и направлена на обеспечение стабильности социокультурной системы. Концепция устойчивого развития предполагает, что человек должен полноценно участвовать в процессе формирования своей жизнедеятельности, принятия решений, их реализatsii и контроля за их реализatsieй, исходя из того, что основная идея – расширение человеческого выбора. Важным фактором является то, что она реализуется на основе “Зеленой экономики”.

Ключевые слова: Социальное развитие, доходы, капитал, экономическая стабильность, модернизatsia, эффективность, зеленая экономика, глобальный, инвестиции.

KIRISH

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish natijasida iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta’siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog‘liq yangi g‘oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda “Yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” muhim dasturiy amal hisoblanadi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi sharoitida “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruriyati asoslangan. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish tamoyillari va amalga oshirish dastaklari qiyosiy tahlil etilgan. “Yashil” iqtisodiyotning axborot resurslari va “Yashil” iqtisodiyot uchun inson kapitalini rivojlantirishning dolzarb masalalari tadqiq qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim.

“Yashil texnologiyalar”ni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish. Jumladan, texnologik ehtiyojlarni baholash, ustuvor vazifalarni belgilash va eng muhim texnologiyalarni tanlash, ularni ishlab chiqish transferga ko‘mak berish zarur. “Yashil texnologiyalar”ni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun tashkiliy tuzilmalar – texnologiyalarni yetkazib berish agentliklari, texnologik biznes-inkubatorlar, texnoparklar, klasterlar yaratish lozim.

2030-yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o‘n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg‘i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi[1].

Barqaror rivojlanish Konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Y. R. Lindal va J. R. Xikslar asos solishgan[2]. Xiks-Lindal yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish, chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi. Ushbu masalani hal etishdagi bosh muammo qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanib qolishi va turli xil kapital turlari qanchalik o‘zaro o‘rin almashinishi hamda ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi. Natijada iqtisodiy barqarorlikning quyidagi ikki turi paydo bo‘ldi:

- kuchsiz – vaqt bo‘yicha kamaymaydigan tabiiy va jamg‘arilgan kapital iqtisodiy barqarorlik;
- kuchli – tabiiy kapitalning kamaymasligiga (qayta tiklanmaydigan resurslarni sotishdan tushgan foydaning bir qismi tiklanadigan tabiiy kapital qiymatini oshirishga yo‘naltirilishi zarurligiga) asoslangan iqtisodiy barqarorlik.

Barqaror rivojlanishni ta’minlash borasidagi xalqaro amaliy faoliyat BMT tashabbusi bilan ilgari surilgan. 2000-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Ming yillik rivojlanish maqsadlari qabul qilindi va 2015-yil qo‘yilgan maqsadlarga erishishni hisoblash yili sifatida belgilab olindi. 2012-yilda BMTda Ming yillik rivojlanish doirasida amalga oshirilishi yakunlanmay qolgan maqsadlarga erishish uchun jahon hamjamiyatini 2015-yildan keyingi rivojlanish maqsadlarini belgilab olish zaruriyati ta’kidlandi. Shu tarzda, BMTning 2012-yili barqaror rivojlanish mavzusida o‘tkazilgan “Rio+20” Konferensiyasida dunyo mamlakatlari rahbarlari Barqaror rivojlanish maqsadlarini (Sustainable Development Goals (SDGs)) ishlab chiqishga kelishib oldilar.

Barqaror rivojlanish maqsadlari har bir inson uchun farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqsadlar BMTga a’zo barcha davlatlar tomonidan 2015–2030-yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477son Qarori

2 ttps://www.researchgate.net/publication/301638196_The_concept_of_sustainable_development_as_a_methodolog ical_base_to_form_strategy_for_enterprises_of_oil_complex

Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi 17 ta global maqsadlarni va ular bilan bog‘liq 169 ta vazifalarni o‘z tarkibiga oladi:

1) qashshoqlikni yo‘qotish;
2) ochlikni tugatish;
3) sog‘lik va farovonlik;
4) sifatli ta’lim;
5) gender tengligi;
6) toza suv va sanitariya;
7) arzon va toza energiya;
8) munosib ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sish;
9) sanoatlashtirish, innovatsiyalar, infratuzilma;
10) tengsizlikni kamaytirish;
11) barqaror shaharlar va qulay yashash joylarini yaratish;
12) mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish;
13) iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish;
14) dengiz ekotizimlarini asrash;
15) quruqlikdagi ekotizimlarni asrash;
16) tinchlik, adolat va samarali boshqaruv;
17) barqaror rivojlanish yo‘lida hamkorlik.

O‘zbekiston ushbu maqsadlardan 16 tasini milliylashtirish va amalga oshirish vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan. Respublika hududida dengiz havzalari mavjud bo‘lmagani bois, 14-maqsad (dengiz ekotizimlarini asrash) O‘zbekiston tomonidan milliylashtirilmagan[3].

Yuqorida qayd etilganidek, “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining bosh maqsadiga aylanib bormoqda[4]. Ushbu masalaning kulminatsion cho‘qqisi 2015-yilda Fransiyaning Parij shahrida o‘tkazilgan BMTning iqlim isishiga bag‘ishlangan konferensiyada 195 mamlakat tomonidan global isish darajasini +2S da ushlab turish siyosatini qabul qilishi bilan belgilandi. Konferensiyada 147 ta mamlakat “Yashil” iqtisodiyot rejalarini, 147 ta mamlakat tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish dasturlarini va 167 ta mamlakat energiya samaradorligini iqlim o‘zgarishlariga munosib ravishda oshirish tavsiyalarini taqdim etishdi[5].

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish konsepsiyasi o‘z rivojlanish tarixiga ega va quyidagi bosqichlarga bo‘linadi.

Birinchi bosqich – 1950–1960-yillar iqtisodiyotning atrof-muhit va insonga salbiy ta’sirini anglab yetish davri hisoblanadi. Bu davrda iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitning degradatsiyalashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘liq anglab yetilgan bo‘lsa-da, ekologik muammolar iqtisodiy rivojlanish jarayonida tabiatni muhofaza qilish zarurligini e’tiborga olish bilan cheklanib qolgan.

Bu davrda atrof-muhitning degradatsiyalashuviga bag‘ishlangan qator xalqaro anjumanlar o‘tkazildi. Jumladan, 1955-yilda dunyoning yirik shaharlarida zaharli gazlardan o‘lim holatlarining ko‘payishi atmosferaning ifloslanishiga bag‘ishlangan birinchi xalqaro konferensiya o‘tkazildi. Xalqaro darajada muvofiqlashtirish va kelishuvning yo‘qligi, biznes va atrof-muhit muhofazasi borasidagi vazifalarning bir biriga to‘g‘ri kelmasligi xalqaro miqyosda ekologik kuchlarni to‘liq ishga solish imkonini bermas edi. BMT Bosh Assambleyasi1962-yil 18-dekabrda “Iqtisodiy rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish” (1831(XVII) to‘g‘risidagi rezolyusiyasini qabul qildi[6].

Ikkinchi bosqich – 1960–1970-yillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda barqaror iqtisodiy rivojlanish tufayli tabiiy resurslardan jadal sur’atlarda intensiv foydalanish va atrof-muhitni ifloslantirish iqtisodiyotning moddiy-resurs bazasini izdan chiqarishi va inson turmush farovonligining pasayishiga olib kelishi to‘g‘risidagi bahs-munozalar kuchaydi. Muhokamalardagi bosh g‘oya – tabiiy resurslarni va inson uchun qulay atrof-muhitni saqlab qolish maqsadida tejamkor (ratsional) iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat edi.

1971-yili Angliyada atrof-muhit muhofazasi va taraqqiyoti bo‘yicha xalqaro institut tashkil etilib, uning maqsadi tabiatga ziyon yetkazmay iqtisodiy rivojlanish yo‘llarini izlashdan iborat edi. 1972-yili Stokgolmda (Shvesiya) atrof-muhit muhofazasiga bag‘ishlangan BMT Konferensiyasi bo‘lib o‘tib, unda BMTning Atrof-muhit

3 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori.
4 Jonathan M. Harris. Sustainability and Sustainable Development. International Society for Ecological Economics. P. 1.
5 http://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/cop21/
6 https://www.un.org/ru/ga/17/docs/17res.shtml

dasturi (UNEP) ishlab chiqildi. Ushbu holat milliy davlat darajasida xalqaro hamjamiyat e'tiborini ekologik muammolarni hal etishga qaratishni anglatdi.

Uchinchi bosqich – 1980–1990-yillar. Ushbu davr rivojlangan mamlakatlarda "yashil" texnologiyalarni jadal sur'atlarda rivojlanish bosqichi bo'lib, ekologik modernizatsiya g'oyasi ilgari surildi. Mazkur g'oyaning asosiy mazmuni iqtisodiy o'sish va sanoatning rivojlanishi ekologik jihatdan moslashishi iqtisodiyot nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi bilan izohlanadi. Ushbu davrda mutaxassislar o'rtasida Barqaror rivojlanish Konsepsiyasi shakllana boshladi.

1983-yilda Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Butunjahon komissiyasi tashkil etildi[7]. Komissiya uch yil davomida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ekologik omillarning o'zaro ta'siri va aloqadorligi masalalarini o'rgandi. Mazkur ma'ruza "barqaror rivojlanish" (sustainable development) tushunchasini ommalashtirishga xizmat qildi.

Barqaror rivojlanish (ingl. sustainable development) – bu iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni bo'lib, unda tabiiy resurslar eksplutatsiyasi sarmoyalar yo'nalishi, ilmiy-texnik rivojlanish, shaxs rivoji va institutsional o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, insonning ehtiyojlarini qondirish uchun bugungi va ertangi salohiyatni shakllantiradi. Ushbu holatda asosan inson hayoti sifatini oshirish nazarda tutiladi.

1992-yilda Rio-de-Jeneyroda Atrof-muhit va uning rivojlanishi bo'yicha Konferensiya (Er sammiti) o'tkazildi.

1997-yilda Kioto protokoli imzolandi. Kioto protokoli – BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha Doiraviy Konvensiyasi (1992)ga qo'shimcha ravishda qabul qilingan hujjat bo'lib, Yaponiyaning Kioto shahrida 1997 yil dekabr oyida qabul qilingan. Ushbu hujjat turli xil mamlakatlar va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari oldiga issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish vazifasini qo'ydi[8].

To'rtinchi bosqich – 2000–2010-yillar. Barqaror rivojlanish Konsepsiyasining xalqaro va milliy qonunchilikda, biznes-muhitda, ommaviy axborot vositalarida qayd etilishi va mustahkamlanishi. Global moliyaviy iqtisodiy inqiroz xalqaro iqtisodiy tizimlarning beqarorligi muammosini yangicha talqin etishga undadi. "Erkin bozor" bio fera resurslarini saqlab qolish va ijtimoiy adolat manfaatlarini himoya qilish, uzoq muddatli davrda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan o'z-o'zini tartibga solishga qodir emasligi g'oyasi ilgari surildi. Ushbu bosqichda xalqaro sammitlar va konferensiyalar o'tkazildi. Ular jumlasiga 2000-yilda Nyu-York shahrida o'tkazilgan BMTning Ming yillik Sammiti (Ming yillik maqsadlarining e'lon qilinishi), 2006 yilda Yoxannesburgda o'tkazilgan "Rio+10" Barqaror rivojlanish bo'yicha umumjahon sammiti, 2012-yili Rio-de-Janeyroda BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha "Rio+20" nomini olgan Konferensiyalarini kiritish mumkin. "Yashil" iqtisodiyot tushunchasi 2008–2009-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida BMT tizimida keng qo'llanila boshladi. Jumladan, 2009-yilda UNEP tomonidan "Yangi "yashil" kurs", deb nomlangan tahliliy ma'ruza e'lon qilindi. Mazkur ma'ruzada sanoat va infratuzilmada "yashil" investitsiyalar yoki ekologik "sof" texnologiyalarni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etildi[9]. UNEP "yashil" rag'batlantirish g'oyasini himoya qilib, yirik miqdordagi davlat investitsiyalari "Yashil" iqtisodiyotning rivojlanishi uchun turtki berishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlab berdi.

Hozirgi vaqtda "Yashil" iqtisodiyot masalalari bilan BMT huzuridagi turli tashkilotlar va qo'mitalar shug'ullanadi. Ular jumlasiga BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalari bo'yicha departament (UN DESA), "Yashil" iqtisodiyot tashabbusi (GEI), "Yashil" iqtisodiyot bo'yicha masalalarni tartibga solish guruhlarini kiritish mumkin. Jumladan, GEI o'z faoliyatini 2008-yilda boshlagan bo'lib, BMT tizimidagi yigirmaga yaqin tashkilot, muassasalarni birlashtiradi.

"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga bag'ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Jumladan, 1972-yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqildi[10].

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar tugashining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyalashni amalga oshirishni zarurligi;
- uglevodorod xom-ashyosi va uning pirovard mahsulot qiymatidagi ulushiga bog'liqligini qisqartirish asosida iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish;
- katta multiplikativ samaraga ega bo'lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarni yangilash imkonini beruvchi yashil innovatsiyalarni qo'llash;
- past uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayonida uglevodorodga bog'liqlikni qisqartirish.

7 https://www.un.org/ru/ga/pdf/brundtland.pdf
8 http://unfccc.int/resource/docs/convkp/kprus.pdf
9 Глобалный "зеленый" новый курс : доклад UNEP / UNEP. – 2009. – март. –42 с – URL: http://www.uncclearn.org/sites/www.uncclearn.org/files/inventory/UNEP90_RUS. pdf
10 Декларация Конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // Консултант плюс 4012.00.32 2002–2013.

Yuqorida qayd etilganidek, jahonda “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish tashabbusi 2008 yilda UNEP tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanadi:

- ekologiya bilan bog‘liq muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash va birinchi kun tartibiga aylantirish;
- “yashil” ishchi o‘rinlarni yaratish hisobidan aholi bandligini ta’minlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmidan foydalanish.

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi quyidagi aksiomalarga tayanadi[11]:

a) cheklangan muhitda ta’sir doirasini cheksiz kengaytirishning mumkin emasligi;

b) resurslar cheklanganligi sharoitida o‘sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish imkoniyatining mavjud emasligi;

d) Yer sharida barcha narsalarning o‘zaro bog‘liq ekanligi.

UNEP mutaxassislari “Yashil” iqtisodiyot tarmoqlarini ikki guruhga ajratishadi: a) xom-ashyo qazib chiqarish, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, o‘rmon va suv resurslarini boshqarish, ya’ni “tabiiy kapital” bilan bog‘liq tarmoqlar; b) energetika, qayta ishlash sanoati, mashinasozlik, transport va qurilish, ya’ni “energiya va resurs samaradorligini oshirish” bilan bog‘liq tarmoqlar[12].

Iqtisodiy adabiyotda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlari ajratiladi[12]:

Tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish. Energetika sektori iqlim o‘zgarishlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi soha hisoblanadi va atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarish miqdorining 60%ga yaqini ushbu sektor hissasiga to‘g‘ri keladi. Tahlillar ko‘rsatishicha, yer sharida istiqomat qiluvchi aholining har beshtasidan biri yoki 1,2 mlrd. kishi elektr energiyadan foydalanish imkoniyatidan mahrum. 2,8 mlrd. kishi esa ovqat tayyorlash va yashash joyini isitish uchun daraxt, ko‘mir va hayvonlar axlatidan foydalanishadi. Bu esa uy havosining buzilishi oqibatida har yili 4 milliondan ortiq kishining o‘limiga sabab bo‘lmoqda. Dunyo mamlakatlari “yashil energetika” sohasini rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani shakllantirishga sarflanayotgan yillik investitsiyalar miqdorini 2030-yilga qadar hozirgi 400 mlrd. dollardan 1,25 trln. dollarga qadar oshirishlari zarur bo‘ladi[13].

Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda har kuni aholi jon boshiga 1 kg.dan 3 kg.gacha qattiq maishiy chiqindilar ishlab chiqarilmoqda. AQShda ushbu ko‘rsatkich har 10 yilda 10%ga ortib bormoqda. Rossiyada esa chiqindilar to‘planadigan maydonlar 2 ming kv. km.dan ortiq maydonni tashkil etadi[14]. Shu bilan bir vaqtda chiqindilarni oqilona boshqarish tizimini yaratish jiddiy iqtisodiy dividend keltirishi mumkin. Jumladan, Buyuk Britaniyada 2005–2010-yillarda maxsus dasturlar doirasida 7 mln. tonna chiqindi qayta ishlangan va ulardan ikkilamchi marta foydalanilgan. Bu esa 6 mln. tonna issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish, 10 mln. tonna birlamchi materiallar va 10 mln. litr suvni tejash imkonini berdi. Ushbu sohada 8 700 nafar ishchi o‘rinlari yaratilgan[15].

Suv resurslarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish. Yer sharida har oltinchi kishi ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda[16]. Iqlim o‘zgarishi, suvning global tabiiy aylanishining faollashuvi natijasida iqlimi nam hududlarda namgarchilik darajasi yanada oshib borayotgan bo‘lsa, iqlimi quruq mintaqalarda qurg‘oqchiliklar avj olmoqda. Hozirgi vaqtda 3,6 mlrd. kishi (yer shari aholisining deyarli yarmi) yiliga bir oydan kam bo‘lmagan muddatda suv tanqisligi kuzatiladigan hududlarda yashaydi va 2050-yilga qadar ushbu ko‘rsatkich 4,8 mlrd. kishidan 5,7 mlrd. kishigacha ortishi mumkin[17].

“Sof”, “barqaror” yoki “yashil transport”ni rivojlantirish. UNEP aholining umumiy harakatiga ziyon yetkazmasdan transportga, avvalo xususiy transport vositalariga bo‘lgan talabni qisqartirish ustida tadqiqotlar olib bormoqda. “Yashil transport” deganda atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiruvchi harakatlanishning har qanday usuli yoki tashkiliy shakli tushuniladi. Yashil transportga piyoda va velosipedda harakatlanish, ekologik avtomobillar, jamoat transportga qulay o‘tish zonalarini loyihalashtirish, tejamkor, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi va yashash maydonini saqlab qolishga ko‘maklashuvchi shahar transport tizimlarini kiritish mumkin.

11 Ващалова Т. В. Экологические основы природопользования. Устойчивое развитие: учебное пособие. –М.: Юрайт, 2020. С. 56. 18 Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication // UNEP’s Green Economy Initiative. Website. 2011. 2 December. URL: http:// www.unep.org/greeneconomy/Portals/88/documents/ger/ger_final_dec_2011/Green%20 EconomyReport_Final_Dec2011.pdf

12 Иванова Н. И., Левченко Л. В. “Зеленая” экономика: сущност, принципы и перспективы. //Вестник Омского университета. Серия “Экономика”. 2017. № 2 (58) С. 20–21.

13 https://www.un.org/ru/development/devagenda/pdf/Russian_Why_it_matters_Goal_7_Clean_Energy.pdf

14 Корнилов А. М. Зарубежный опыт управления отходами // Вторичное сыре. – URL : http://www.recyclers.ru/modules/section/item.php?itemid=56.

15 http://web.unep.org/newscentre/smarter-use-resources-can-add–2-trillion-annually-global-economy

16 Кушнаренко А. Дефицит пресной воды: проблемы и способы решения // The WALL magazine. – URL : http://thewallmagazine.ru/lack-of-fresh-water/

17 Всемирный доклад Организатsiи Объединенных Натsiй о состоянии водных ресурсов, 2018 г.: Природные решения проблем управления водными ресурсами. Рабочее резюме http://unesdoc.unesco.org/images/0026/002615/261594r.pdf

Transport tizimlari atrof-muhitga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi, jahon energiyasi iste'moli va issiqxona gazlarining 20–25% i bevosita to'g'ri transport hissasiga to'g'ri keladi[18]. 2050-yilga borib jahon avtoparkining soni uch baravarga ortishi kutilmoqda. Shu sababLI UNEP tashkiloti "Xalqaro avtomobil federatsiyasi" va IHTTning Xalqaro transport forumi hamkorligida "50-yilga qadar 50 foiz" tashabbusini ilgari surdi. Ushbu tashabbusdan maqsad 2050-yilga qadar jahon avtoparkining samaradorligini 50%ga oshirish hisoblanadi[19]. Toshkent shahrida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarining 90 % avtotransport hissasiga to'g'ri keladi. Toshkentda avtotransport vositalari tomonidan chiqarilayotgan zaharli moddalar miqdori yiliga 395 ming tonnani tashkil etadi. Ushbu zaharli moddalar miqdori 2018-yilda O'zbekiston bo'yicha 2 mln. 449 ming tonnani tashkil etgani holda, avtotransport ulushi 60 % ga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich jahonda belgilangan andozadan 3 marta yuqori hisoblanadi[20].

Qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish. Qishloq xo'jaligida gebitsidlar, pestitsidlar, zaharli kimyoviy moddalar hamda sun'iy o'g'itlardan foydalanishdan voz kechish taklif etilmoqda. Organik qishloq xo'jaligi global "Yashil" iqtisodiyotning muhim yo'nalishi sifatida dunyoning 178 mamlakatida rivojlantirilmoqda. Organik ishlab chiqarish uchun ajratilayotgan yer maydonlari yildan yilga ko'payib bormoqda. Jumladan, 2019-yilda jahon bo'yicha 70 mln. gektardan ortiq maydon organik qishloq xo'jaligi asosida foydalanilmoqda va ushbu ko'rsatkich jahon qishloq xo'jalik yerlarining taxminan 1,4 % ini tashkil etadi[21]. Uy-joy kommunal xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish. Samarasiz isitish tizimlari va asbob-uskunalar bilan jihozlangan uy-joylarning mavjudligi issiqlikni sezilarli darajada yo'qotishga olib keladi.

Ekotizimlarni saqlab qolish va boshqaruv samaradorligini oshirish. Inson faoliyatining barcha turlari biomuhitning o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu o'zgarishlarning yo'nalishi va miqyosini "ekologik inqiroz", deb baholash mumkin. BMT ma'lumotlariga ko'ra, yer shari quruqlik qismining 30,7 % o'rmonlar bilan qoplangan. O'rmonlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bir vaqtda iqlim o'zgarishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Insoniyat har yili 13 mln. gektar o'rmonzorlarni yo'qotmoqda, yerlarning muntazam ravishda degradatsiyalashuvi esa 3,6 mln. gektar yer maydonining cho'llashuviga olib keldi. Dunyoda ma'lum 8 300 turdagi hayvonlarning 8,0 % yo'q bo'lib ketgan bo'lsa, 22,0 % yo'qolib ketish arafasida, 80 ming turdagi daraxtlarning bor-yo'g'i 1,0 % ga yaqini potensial foydalanish nuqtayi nazaridan o'rganilgan[22].

"Yashil texnologiyalar"ni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirish. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, 2025-yilga borib jahondagi ekologik toza asbob-uskunalar bozori 4,4 trln. yevro (taxminan 6 trln. doll.)ga tenglashadi. Ushbu bozorning har yili o'rtacha 30 % ga o'sayotganligi va jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shayotgan hissasi 6–7 % ga qadar ortayotganligi kuzatilmoqda[23].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq[24]:

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasini mavafaqqiyatli amalga oshirishdagi bosh muammo "Yashil" iqtisodiyot tushunchasini energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikani rivojlantirishga qo'shimcha investitsiyalar yo'naltirish yoki "yashil o'sish" sifatida soddalashtirish hisoblanadi;

- "Yashil" iqtisodiyotga o'tish zarurligini ilmiy asoslashning murakkabligi, ekologik muammolarni prognozlashning yuqori darajada noaniqligi ushbu konsepsiyani tushunarli, sodda tarzda tushuntirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Jumladan, issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish muddati va darajasini pasaytirish bo'yicha yagona kelishuv mavjud emas. Issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish hajmi esa ortib bormoqda;
- "Yashil" iqtisodiyot barqaror rivojlanish o'rnini bosa olmaydi, "Yashil" iqtisodiyot barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi;
- barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi;
- "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda sodir bo'ladi.

Fikrimiz so'ngida shuni aytish joizki, "Yashil" iqtisodiyot bugungi kun uchun nafaqat ishlab chiqarish, qolaversa aholi turmush tarzi uchun ham eng muhim iqtisodiyot hisoblanadi.

18 Transport Technologies and Policy Scenarios to 2050. – World Energy Council, 2007. – ISBN 0946121281.
19 http://www.unepcom.ru/unep/gei/219-grn-transport.html
20 https://www.gazeta.uz/ru/2019/08/12/air-pollution/
21 https://www.ifoam.bio/global-organic-area-continues-grow
22 https://www.un.org/sustainabledevelopment/biodiversity/
23 Порфирев Б. "Зеленая" экономика: реалии, перспективы и пределы роста // Фонд Карнеги за международный мир. – URL : http://carnegieendowment.org/files/WP_Porfiriev_web.pdf
24 Mualliflar fikri

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–4477son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli qarori.
3. Jonathan M. Harris. Sustainability and Sustainable Development. International Society for Ecological Economics. P. 1.
4. Глобалный "зеленый" новый курс : доклад УНЕП / УНЕП. – 2009. – март. –42 с – URL:
5. Декларация Конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // Консултант плюс 4012.00.32 2002–2013.
6. Ващалова Т. В. Экологические основы природоползования. Устойчивое развитие: учебное пособие. –М.: Юрайт, 2020. С. 56.
7. Иванова Н. И., Левченко Л. В. "Зеленая" экономика: сущност, принципы и перспективы. //Вестник Омского университета. Серия "Экономика". 2017. № 2 (58) С. 20–21.
8. Корнилов А. М. Зарубежный опыт управления отходами // Вторичное сыре. – URL : http://www.recyclers.ru/modules/section/item.php?itemid=56.
9. http://web.unep.org/newscentre/smarter-use-resources-can-add–2-trillion-annually-global-economy
10. Кушнаренко А. Дефицит пресной воды: проблемы и способы решения // The WALL magazine. – URL : http://thewallmagazine.ru/lack-of-fresh-water/.
11. Всемирный доклад Organizatsii Объединенных Hatsiй о состоянии водных ресурсов, 2018 г.: Природные решения проблем управления водными ресурсами.
12. Рабочее резюме http://unesdoc.unesco.org/images/0026/002615/261594r.pdf.
13. Transport Technologies and Policy Scenarios to 2050. – World Energy Council, 2007. – ISBN 0946121281.
14. Порфирев Б. "Зеленая" экономика: реалии, перспективы и пределы роста // Фонд Карнеги за международный мир. – URL : ttp://carnegieendowment.org/files/WP_Porfiriev_web.pdf
15. Mualliflar fikri.

WAYS TO IMPROVE THE GREEN RECOVERY IN UZBEKISTAN BY INVESTMENT AND TRADE



Nurbek Khalimjonov
Assistant in the department of “mathematical methods in Economics”, TSUE, Uzbekistan

Abstract: The imposition of measures to contain the transmission of the Coronavirus resulted in a significant economic downturn, so disrupting the economic activities of numerous nations. The main objective of this study is to assess the effects of intra-regional trade and investment on the green recovery of Uzbekistan’s economy throughout the period of 2010–2023. This will be achieved by utilizing annual data and employing the panel co-integration approach. The findings of the study provide confirmation that there is a positive and significant relationship between the level of green trade openness and the green recovery. The computed coefficient pertaining to direct foreign investment exhibits a negative value. The statistical insignificance of the patent coefficient is observed, while a positive impact is detected in relation to the official exchange rate. The coefficient associated with financial development exhibits a positive and statistically significant relationship. The research presents a number of policy implications that are relevant for scholars and policymakers. These implications include the need to strengthen green Foreign Direct Investment (FDI), encourage green innovation, and promote the liberalization of green trade.

Key words: Trade, Investment, Green recovery, Uzbekistan

Annotatsiya: Koronavirusning tarqalishini to‘xtatish bo‘yicha chora-tadbirlarning qo‘llanilishi sezilarli iqtisodiy tanazzulga olib keldi va bu ko‘plab mamlakatlarning iqtisodiy faoliyatini to‘xtatdi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi 2010–2023-yillar davomida O‘zbekiston iqtisodiyotining yashil tiklanishiga mintaqalararo savdo va investitsiyalarning ta’sirini baholashdan iborat. Bunga yillik ma’lumotlardan foydalanish va panel kointegratsiya yondashuvidan foydalanish orqali erishiladi. Tadqiqot natijalari yashil savdo ochiqligi darajasi va yashil tiklanish o‘rtasida ijobiy va muhim bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bo‘yicha hisoblangan koeffitsient salbiy qiymatni ko‘rsatadi. Patent koeffitsientining statistik ahamiyatsizligi kuzatilmoqda, bunda rasmiy kursga nisbatan ijobiy ta’sir ko‘rsatilmoqda. Moliyaviy rivojlanish bilan bog‘liq koeffitsient ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli munosabatni ko‘rsatadi. Tadqiqot olimlar va siyosatchilar uchun dolzarb bo‘lgan bir qator siyosat natijalarini taqdim etadi. Ushbu ta’sirlar yashil to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TDI) kuchaytirish, yashil innovatsiyalarni rag‘batlantirish va yashil savdoni liberallashtirishni rag‘batlantirish zarurligini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Savdo, Investitsiyalar, Yashil tiklanish, O‘zbekiston.

Аннотация: Введение мер по сдерживанию распространения коронавируса привело к значительному экономическому спаду, что нарушило экономическую деятельность многих стран. Основная цель данного исследования – оценить влияние внутрирегиональной торговли и инвестиций на зеленое восстановление экономики Узбекистана в период 2010–2023 годов. Это будет достигнуто за счет использования годовых данных и применения подхода совместной интеграции групп. Результаты исследования подтверждают наличие положительной и значимой взаимосвязи между уровнем открытости зеленой торговли и восстановлением зеленой экономики. Рассчитанный коэффициент, относящийся к прямым иностранным инвестициям, имеет отрицательное значение. Наблюдается статистическая незначительность патентного коэффициента, при этом обнаруживается положительное влияние по отношению к официальному обменному курсу. Коэффициент, связанный с финансовым развитием, демонстрирует положительную и статистически значимую связь. В исследовании представлен ряд политических последствий, которые важны для ученых и политиков. Эти последствия включают необходимость усиления “зеленых” прямых иностранных инвестиций (ПИИ), поощрения “зеленых” инноваций и содействия либерализации “зеленой” торговли.

Ключевые слова: Торговля, Инвестиции, Зеленое восстановление, Узбекистан.

1. INTRODUCTION

In accordance with the Paris Agreement of 2015, it has been observed that Uzbekistan has diligently formulated their respective nationally determined contributions (NDCs). These contributions serve the purpose of outlining the specific measures and policies that are aimed at reducing carbon emissions within their economic operations, with the ultimate goal of achieving decarbonization by the years 2030 and 2050.

Since the year 2016, President Mirziyoyev has actively advocated for the promotion of environmentally sustainable growth within the nation of Uzbekistan. Uzbekistan has enacted a range of green policies in its Strategy of Actions for the period of 2017–2021, with the aim of reducing reliance on fossil fuels and promoting the adoption of green energy sources. The nation has consolidated many programs, such as green investment, climate action, green building, and waste management, under the Strategy for Transition to a Green Economy by the year 2030.

The main objective of this article is to assess the effects of intra-regional trade and investment on the promotion of green growth in Uzbekistan. The objective of this study is to make a valuable addition to the current body of academic research. The assessment of the sustainable economic growth in these nations is derived from the inclusive green economic growth index, as established by Jha et al. (2018). The variable in question serves as a dependent variable inside the framework of the econometric model.

2. LITERATURE REVIEW

The body of scholarly literature pertaining to green recovery has witnessed significant growth in the context of the ongoing epidemic. A body of literature has examined the various dimensions, prerequisites, imperatives, and attributes pertaining to green economic recovery. Zhang and Dilancheiv (2022) conducted a separate investigation that centered on the setting of China's green recovery. Their findings indicate that the acceleration of green recovery targets is facilitated by resource efficiency. In their study, Shang et al. (2023c) utilized data collected from China to identify the key determinants of success for electronic exhibitions in facilitating a green economic recovery. Goenka et al. (2021) utilized a dynamic general equilibrium model (DSGE) to examine the correlation between green recovery initiatives and the COVID–19 pandemic.

The primary results substantiate the transient beneficial influence of the COVID–19 pandemic on the advancement of environmentally sustainable economic growth. According to Galanakis et al. (2022), the notion of green recovery encompasses the foundation of the bio-economy framework, incorporating specific cultural elements and the integration of technical advancements. In a separate study, Smol (2022) proposed novel definitions and approaches pertaining to the pursuit of green economic recovery in the aftermath of the COVID–19 pandemic. The study's findings indicate that the notion of green recovery is multifaceted.Tan et al. (2022) emphasized the imperative of implementing a green economic recovery strategy in the aftermath of the COVID–19 pandemic in order to mitigate environmental concerns and advance progress towards achieving sustainable development goals at the national and international levels.

The aforementioned research indicate that a green economic recovery is crucial in addressing environmental concerns during the post-COVID era. Nevertheless, a comprehensive analysis is required to fully understand the effects of investment and trade on the prospects of achieving a sustainable and environmentally friendly recovery. Furthermore, it is imperative to consider the example of Uzbekistan in prior scholarly investigations.

3. METHODOLY

The dependent variable used in this study is the inclusive green economic growth index, as established by Jha et al. (2018), based on the theoretical baseline. Furthermore, due to the absence of accessible data regarding green investment in Uzbekistan, foreign direct investment (in billion US dollars) has been chosen as an additional explanatory factor. In addition, the control variables included in the empirical model include resident patent applications (serving as a proxy for innovation), the official exchange rate, COVID–19, and the financial development index. The dataset consists of variables collected between 2010 and 2023, resulting in a total of 110 observations. In order to calculate elasticity, the variables are transformed into logarithmic form. Table 1 presents an overview of the factors utilized in the study.

Table 1: Variables' description

Variable	Symbol	Unit	Source
The inclusive green economic grow th index	GEG	-	Calculated based on Jha et al. (2018)
Green trade openness	GTO		Trade Map, World Bank

Foreign direct investment	FDI	Billion US dollars	Official local websites
patent applications by residents	PAT	Number	World Bank
Official exchange rake	EXCH	LCU (Local currency units) per US dollars	World Bank
Financial development index	FINDEV	-	The Global Financial Development Database
COVID–19	COV	Dumny variable (it takes value 1 in 2020 and 2021, otherwise it captures the value of 0	WHO Coronavirus Dashboard

Source: Authors

The estimation of the coefficients of the variables is conducted by considering the general functional form of the empirical model, denoted as Equation 1:

$$LGEG_{it} = \beta_0 + \beta_1 LGTO_{it} + \beta_2 LFDI_{it} + \beta_3 LPAT_{it} + \beta_4 LEXCH_{it} + \beta_3 LPAT_{it} + \beta_3 LPAT_{it} + \beta_5 FINDEV_{it} + \beta_6 COV + \varepsilon_{it} \quad (1)$$

The correlation among the cross-sectional units in a panel over time can arise through spillover effects or unobserved causes. Hence, in the initial phase, the presence of cross-sectional dependency in the panel data is assessed using the Pesaran CD test (Pesaran 2021). The panel co-integration test can be used to examine the presence of a long-term link among variables, provided that the series are integrated in the same order. The use of the Fully Modified OLS (FMOLS) involves the consideration of the co-integrating relationship between variables and the utilization of the panel co-integration estimator. Finally, the panel Vector Error Correction Model (VECM) is employed to examine the causal directionality of variables, hence establishing both short-term and long-term causal associations between those variables. The FMOLS estimation technique is notable for its ability to address endogeneity and serial correlation, hence enabling trustworthy estimate even with a limited sample size.

4. EMPIRICAL FINDINGS

Initially, the Cross-Sectional dependency test proposed by Pesaran (2004) is conducted for all variables. The findings, as presented in Table 2, provide evidence against the presence of cross-sectional dependency within the panel. Hence, the initial set of panel unit root tests can be utilized to ascertain the stationarity of variables.

Table 2: Pesaran (2004)'s CD

	Statistic	Probability
GEG	21.35	0.65
GTO	11.35	0.28
FDI	29.25	0.88
PAT	17.47	0.39
EXCH	33.02	0.20
FINDEV	38.23	0.77

Source: Authors

The tests conducted by Levin et al. (2002), Breitung (2001), and Im et al. (2003) were utilized to assess the stationarity of the series. The results, as provided in Table 3, indicate that all variables exhibit significant stationarity at the first level of difference, implying that they are integrated of order one (I(1)).

Table 4: Pedroni and Kao panel co-integration tests

Variable	Levin, Lin and Chu test		Breitung test		Im, Pesaran and Shin test	
	Level	First difference	Level	First difference	Level	First difference
GEG	–1.49		1.78		4.98	
GTO	0.56		5.21		1.47	
FDI	2.78		2.09		1.35	
PAT	4.99		5.45		4.96	
EXCH	0.94		1.84		0.09	
FINDEV	0.52		4.16		1.83	

Given that the variables exhibit stationarity at the integrated order of one (I(1)), it is possible to employ the panel co-integration test to ascertain the existence or absence of a long-term association between the series. In order to achieve this objective, the Pedroni (1999) test is utilized, and the findings, which are presented in Table 4, validate the existence of a co-integrating connection. To ensure the reliability of the results, we conducted a robustness check by employing Kao's (1999) residual co-integration test. The outcomes of this test align with the findings obtained from the Pedroni co-integration test.

Table 4: Pedroni and Kao panel co-integration tests

Panel co-integration test	-	Value (prob.)	-	Value (prob.)
Pedroni (1999)'s test	Panel v-statistic		Group rho- statistic	
	Panel rho-statistic		Group PP- statistic	
	Panel PP- statistic		Group ADF- statistic	
	Panel ADF- statistic		-	-
Kao (1999)'s test	- statistic: –3.81			
	-value: 0.017			

Source: Authors

The panel co-integration estimators are capable of estimating the long-term coefficients of explanatory variables as a result of the co-integration linkage between these variables. The researchers have chosen to utilize the Fully Modified Ordinary Least Squares (FMOLS) method in this study, since it offers several advantages in addressing the issues of endogeneity and serial correlation. The findings of FMOLS estimators for Uzbekistan economy are presented in Table 5.

Table 5: FMOLS estimation

Independent variable	Statistic	-value
GTO	0.109	0.017
FDI	–0.078	0.004
PAT	0.056	0.408
EXCH	–0.089	0.079
FINDEV	0.021	0.063
COV	0.5	0.022

GTO, FDI, PAT, EXCH, and FINDEV stand for green trade openness, foreign direct investment, patent applications by residents, official exchange rate, and financial development index, respectively

Source: Authors

The findings from the estimation results indicate that there is a positive and statistically significant relationship between the level of green trade openness and the economic growth in Uzbekistan. Green trade liberalism (GTL) plays a crucial role in promoting the objectives of green economic recovery within the Uzbekistan region. The FMOLS estimation does not provide any empirical evidence regarding the causal relationship between variables.

It can be concluded that there is no discernible immediate or prolonged causal relationship between foreign direct investment (FDI) and the promotion of environmentally sustainable economic growth, as well as between patent applications and the advancement of green growth in Uzbekistan.

5. CONCLUSIONS AND POLICY RECOMMENDATIONS

Adoption of green trade liberalism (GTL) plays a crucial role in promoting the objectives of green economic recovery in Uzbekistan. The coefficient of direct foreign investment is expected to be both negative and statistically significant. The predominant sector attracting foreign direct investment in the Uzbekistan region mostly revolves around fossil fuel industry. Hence, as foreign direct investment experiences a rise, there will be a corresponding escalation in carbon dioxide emissions and environmental damage, leading to a decline in green economic growth. The statistical significance of the patent coefficient is not seen. The official exchange rate exhibits a statistically significant positive impact. The reduction of the official exchange rate in Uzbekistan is expected to result in an appreciation of the national currency, leading to enhanced import capabilities for green technologies.

O‘zbekistonda turizmning barcha turlarini rivojlantirish imkoniyatlari yuqoriligi mutaxassislar tomonidan ta’kidlanmoqda. Shu bilan birga, hozirgi paytda mamlakatimizda turizmning samaradorligi yuqori baholangan bir turi bu, MICE – turizmi kabi turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. So‘nggi yillarda mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasidagi biznes, madaniy va ilmiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda, bunda biznes turizmining ahamiyati ham katta bo‘lmoqda. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon bozoriga integratsiyalashuvini ham biznes turizmini taraqqiy ettirmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ishbilarmonlik aloqalari, texnologiyalar va ma’lumotlar almashinuvi, yangi bozorlarni o‘zlashtirish, investitsiyalar va qo‘shma loyihalar uchun sheriklar izlash, kompaniyalarni reklama qilish, kadrlarni o‘qitish va korporativ madaniyatni joriy etish – bu biznes turizmidir. Shuningdek, biznes turizmi ko‘rgazmalar va kongresslarda qatnashish vositasida kompaniyalarni birlashtirish va rivojlantirish mexanizmlaridan biridir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda turizmning MICE aspekti jadal rivojlanayotganligini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi bu borada “Xalqaro kongress va konferensiya assotsiatsiyasi (ICCA)” bilan hamkorlikda zarur me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish ustida ish olib bormoqda. Bunday hamkorlik respublikada MICE turizmi yo‘nalishini rivojlantirish va ishbilarmonlik sohasida “O‘zbekiston” brendini ilgari surish imkonini beradi. Shu bois, O‘zbekistonda biznes-turizm salohiyatidan foydalanish uchun infratuzilmani yaratish, davlatnig samarali yordami, ishonchli statistik ma’lumotlar, professional kadrlarni tayyorlash, shuningdek, mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish zarur.

MICe turizmning ilmiy-uslubiy jihatlari: MICE – bu “Meetings, Incentives, conferences, exhibitions (Uchrashuvlar, Rag‘batlantirishlar, Konferentsiyalar, Ko‘rgazmalar)” so‘zlarining bosh hariflari orqali shakllantirilgan qisqartma hisoblanadi. Kongress turizmi asosan o‘zi faoliyat olib borayotgan sektorlarda foyda keltirish maqsadida qilingan sayohat va tashkiliy faoliyatlar iborat.

MICEni ifodalovchi so‘zlarning mazmuniga qaraydigan bo‘lsak:

Meetings – Uchrashuvlar: kompaniyalarning yirik darajadagi biznes uchrashuvlarini, seminarlarini, sohaga oid treninglar kabi faoliyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri diqqatga sazovor markazlarda yoki sektor uchun geografik ahamiyat kasb etuvchi mintaqada-hududda o‘tkazishni ustuvor hisoblashi yoki tashkil etishi MICE turizmining bir ko‘rinishi bo‘ladi.

Incentives – Rag‘batlantirishlar (imtiyozlar): Kompaniyalar tomonidan ishlaydigan xodimlarning motivatsiyalarini (rag‘batlarini) oshirish, unumdorlikni eng yuqori darajaga chiqarish maqsadida tashviqot qilish, motivatsiya faoliyatlarini tashkil etishdir.

Conferences – Konferentsiyalar: Muayyan maqsadga xizmat qiluvchi birliklar va uyushmalar kabi tuzilmalarning yoki sektor vakillarining tashkil etgan konferensiyalari MICE turizmining konferentsiyalar qismini tashkil qiladi.

Exhibitions – Ko‘rgazmalar: Yuqoridagilar bilan bir qatorda tashkil etilgan va yuzlab ishtirokchilarni mintaqaga jalb qilgan yarmarkalar faoliyatlari MICE Turizmining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. MICE turizmi asosiy faoliyatdan olinadigan daromad bilan bir qatorda turli sohalarda har xil manfaatlarni kelishiga ham xizmat qiladi.

MICE turizmi professional Rag‘batlantiruvchi sifatida manfaatdor tomonlarni yoki xodimlarni rag‘batlantirish uchun sayohat qilishni o‘z ichiga oladi. Bu nafaqat zavq oladigan tadbir, balki ishbilarmon jamolarning maroqli dam olishi bo‘lishi mumkin.

MICE manzilini yaratadigan eng muhim jihatlardan biri bu – turizm infratuzilmasidir. Dam olish va MICE biznes sayohati bir-biridan juda farq qiladi, lekin ikkalasi ham tashrif buyuruvchilarni qabul qilish uchun belgilangan manzilni talab qiladi va mehmondo‘stlikdan tortib diqqatga sazovor joylar hamda ko‘ngil ochar tadbirlargacha barchasi diqqat e’toborda bo‘lishi lozim .

Infratuzilma haqida gapiradigan bo‘lsak, MICE manziliga borish va sayohat qilishni osonlashtiradigan sifatli va zamonaviy transport tizimlari kerak. Tashrif buyuruvchilarni ya’ni mehmonlarning harakatlanishini osonlashtiradigan vakolatli va ishonchli jamoat transporti tizimli tashkil etish MICE sayohati va turizmi uchun muhimdir, chunki ko‘p sayohatlar juda qisqa va samarali transport foydalangan holda mavjud vaqtni tejaydi va mehmonlarni qo‘shimcha maroqli dam olishiga yordam beradi.

Sayyohlar uchun mo‘ljallangan joylashtirish korxonalari bilan bir qatorda, MICE biznesi uchun ham yaxshi joylashuv mihim ahamiyat kasb etadi. Mehmonxonalar va yig‘ilishlardan tortib konferentsiya markazlari va teatrlargacha, tadbirlarni muntazam ravishda o‘tkazadigan va shuning uchun ularni joylashtirish uchun joy mavjud bo‘lgan joylar juda mashhur tanlovdir, ayniqsa bu joylar tavsiyalar va sharhlar bilan birga kelganda.

Turizm va MICE sayohati uchun yo‘nalishlarning mashhurligiga ta’sir ko‘rsatadigan omil – bu masofadan ishlash uchun joylashuv qanchalik mos ekanligi. Internet ishlash tezligi va sifatliligi, bu masofadan ishlashni xohlaydigan sayohatchilar uchun muhimdir va bu orqali tadbirlarni o‘tkazish ko‘proq ommalashishga olib keladi.

MICE turizmini barqaror rivojlanishida xavfsizlikni ham hisobga olish kerak. Biz nafaqat mamlakatdagi hozirgi siyosiy voqealar, balki bu mamlakatning o‘ziga xos urf odatlari, ijtimoiy hayoti, aholisining yashash tarzi va sayyohlarga bo‘lgan munosabati haqida ma’lumotga ega bo‘lishi hamda MICE tadbirlari inklyuziv tashkil etilgan holda ishtirokchilar sayohat paytida o‘zlarini xavfsizligi davlat tomonidan ta’minlanganligini his qilishlari kerak.

MICE turizmini rivojlanishiga ta’sir etuvchi yana bir omil bu tashrif buyurgan mehmonlarni o‘zlarining rejali tadbirlaridan tashqari qo‘shimcha inklyuziv xizmatlarni taklif etish hamda samarali va sifatli tashkil etish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, MICE turizmi O‘zbekiston turizmi sohasida mavsumiylik omilini hal etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblansada, Turizm va madaniy me’ros vazirligi, mahalliy hokimliklar va nodavlat muassasalar bilan birgalikda 2019–2030 yillarda MICE turizm konsepsiyasini ishlab chiqishda mamlakat turizmini rivojlantirishga qaratilgan aniq maqsadlarni belgilash, jumladan nufuzli imij yaratish, hududlarning yanada dunyoga mashhurligini oshirish, investitsiyalarni jalb etish, tovarlarni eksport qilish ustuvor yo‘nalishlarini albatta hisobga olishi zarur.

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarning real amaliyotda amalga oshirilishi taklif etilayotgan turlarning jozibadorligiga, turizmning turli turlarini voqea hodisalar bilan uyg‘unlashtirish va shu orqali turizmning barqaror rivojlanishini ta’minlash, tashrif buyuruvchi sayyohlarning mamlakatga takror tashriflariga erishish hamda O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini ommalashtirish va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Development of Mice Tourism in Uzbekistan: Prospects and Foreign Experience// The International Scientific and Practical Conference Proceedings 2022-yil 08-oktyabr
2. https://tourismteacher.com/mice-tourism/
3. https://kun.uz/news/2023/03/29/
4. https://www.ibtmworld.com/

ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI



Matkarimov Jahongir Shamuratovich
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada COVID–19 pandemiyasining salbiy oqibatlaridan keyin ichki turizmni tiklash bo‘yicha dunyo mamlakatlari va O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanilgan choralar hamda mamlakatda ichki turizmni rivojlanishiga salbiy ta’sir qilayotgan omillar va ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli taklif va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ichki turizm, xalqaro turizm, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, joylashtirish vositalari, mustaqil turizm, preferensiya va imtiyozlar, turoperator, turagent, turistik xizmatlar, turistik mahsulotlar, turistik axborot markazlari, turistik bekat.

Abstract: The article presents the measures taken in countries around the world and the Republic of Uzbekistan to restore domestic tourism after the negative consequences of the COVID–19 pandemic, as well as factors that negatively affect the development of domestic tourism in the republic and offers proposals for their elimination.

Key words: domestic tourism, international tourism, socio-economic development, accommodation facilities, independent tourism, preferences and benefits, tour operator, travel agent, tourism services, tourism products, tourist information centers, tourist station.

Аннотация: В статье представлены меры, применяемые в странах мира и Республике Узбекистан для восстановления внутреннего туризма после негативных последствий пандемии COVID–19, а также факторы, которые негативно влияют на развитие внутреннего туризма в республике и дано предложения по их устранению.

Ключевые слова: внутренний туризм, международный туризм, социально-экономическое развитие, средства размещения, самостоятельный туризм, преференции и льготы, туроператор, турагент, туристические услуги, туристические продукты, туристско-информационные центры, туристическая станция.

KIRISH

Butun dunyo bo‘ylab sayohat cheklovlari yumshatila boshlagach, barcha davlatlar asosiy e’tiborni ichki turizmni rivojlantirishga qaratmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, ichki turizm xalqaro turizmga nisbatan tezroq tiklanadi, shuningdek, ichki turizm rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga COVID–19 pandemiyasining ijtimoiy va iqtisodiy ta’siridan qutulish imkoniyatini beradi.

Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2018-yilda dunyo bo‘ylab 9 milliardga yaqin ichki turistik sayohatlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich xalqaro sayyohlar sonidan olti baravar ortiq (2018-yilda 1,4 milliard) ekanligini ko‘rsatmoqda[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolada Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning 2020-yil sentyabrda chop etgan “Ichki turizmni tushunish va uning imkoniyatlaridan foydalanish” nomli eslatmasi, shuningdek, F. Kabote va M. Aminelarning ilmiy tadqiqot materiallaridan foydalanildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning ahamiyati turizm sohasida ichki turizmning ahamiyati bilan bog‘liq. Maqolada tahliliy ma’lumotlar asosida milliy iqtisodiy institutlarimizning ichki turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq zarur qarorlar qabul qilishga ko‘maklashuvchi tavsiyalar ishlab chiqildi.

1 https://www.unwto.org/news/unwto-highlights-potential-of-domestic-tourism-to-help-drive-economic-recovery-in-destinations-worldwide

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo mamlakatlarining ichki turizm ma'lumotlarini (bir kechada tashrif buyuruvchilar) ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2020-yilda ichki turizm sayohatlari xalqaro sayohatlarga nisbati eng yuqori bo'lgan mamlakatlar Hindiston, Braziliya, Xitoy va Venesuela bo'lib, ularning barchasida ichki turistik sayohatlar ulushi xalqaro sayyohatlar soniga nisbatan 97% yoki undan yuqori hisoblanadi. AQSh, Eron, Avstraliya, Peru, Janubiy Koreya, Yaponiya va Finlandiyada ichki sayohatlar barcha sayohatlarning 90% dan yuqorisini tashkil qiladi (1-ilova).

Ichki turizm ma'lumotlarini taqdim etgan 73 mamlakatdan 21 tasida ichki turizm sayohatlari soni barcha sayohatlar sonining 80% yoki undan ko'prog'ini tashkil etgan bo'lib, bu global miqyosda ichki turizm muhimligini anglatadi[2].

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat yo'nalishlarda ichki turizm xalqaro turizmga qaraganda ko'proq daromad keltiradi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga[3] a'zo mamlakatlarda ichki turizm umumiy turizm xarajatlarining 75% ni tashkil qiladi, Yevropa Ittifoqida esa ichki turizm xarajatlari kirish turizmi xarajatlaridan 1,8 baravar yuqori.

UNWTO Bosh kotibi Zurab Pololikashvilining fikriga ko'ra: "Ichki turizm xalqaro sayohatlarga qaraganda tezroq va kuchliroq tiklanadi. Ichki turizm hajmini hisobga oladigan bo'lsak, bu ko'plab yo'nalishlarga pandemiyaning iqtisodiy ta'siridan xalos bo'lishga, shu bilan birga, ish o'rinlarini, tirikchilik manbalarini yaratishga yordam beradi va turizmni rivojlantirish uchun taklif qilinayotgan ijtimoiy imtiyozlarni iqtisodiyotga ortig'i bilan qaytarishga imkon beradi"[4].

Halqaro miqyosda tahlil qilinadigan bo'lsa, xarajatlar bo'yicha eng yirik ichki turizm bozorlari qariyb 1 trillion AQSh dollari bilan AQSh, 249 milliard AQSh dollari bilan Germaniya, 201 milliard AQSh dollari bilan Yaponiya, 154 milliard dollar bilan Buyuk Britaniya va 139 milliard dollar bilan Meksika hisoblanadi.

UNWTO nashrlariga ko'ra ichki turizmni rivojlantirish maqsadida butun dunyo bo'ylab ishchilarga bonusli ta'tillar taklif qilishdan tortib, odamlarga o'z mamlakatlarida sayohat qilishlari uchun vaucherlar va boshqa imtiyozlar berishgacha bo'lgan faol tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ichki turizmning ahamiyatini va bozor talablarini hisobga olgan holda, ko'pchilik davlatlarda ichki turizm bozorini kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha turli ta'sir choralarini ko'rmoqda. Ya'ni mahalliy sayyohlar sonini ko'paytirish bo'yicha maqsadli marketing va reklamaga qaratilgan tashabbuslar, turli turistik tashkilotlarga soliq preferensiyalarini qo'llash hamda iste'molchilarni moliyaviy rag'batlantirishga qaratilgan choralari ko'rilmoqda. Jumladan,

Italiyada Bonus Vacanze tashabbusi orqali yillik daromadi 40 000 yevrogacha bo'lgan oilalarga ichki turistik sayohat vaqtida turar joy xarajatlariga sarflashi uchun 500 yevrogacha bo'lgan ajratmalarni taklif qiladi.

Malayziya 113 million AQSh dollari miqdorida sayohat uchun chegirma vaucherlari hamda ichki turizm bilan bog'liq xarajatlar uchun 227 AQSh dollarigacha shaxsiy soliq imtiyozlarini taqdim etdi.

Kosta-Rika Kosta-Rikaliklar dam olish kunlari davomiyligini uzoq vaqt bo'lishi va bu orqali ularning o'z vaqtlarini ichki sayohatga sarflashlari va hududlarda qolish muddatini uzaytirishlari uchun 2020 va 2021-yilgi barcha davlat bayramlarini dushanba kuniga ko'chirdi.

Fransiya butun mamlakat bo'ylab turli yo'nalishlarga bag'ishlangan #CetÉtéJeVisiteLaFrance ("Men bu yozda Fransiyaga tashrif buyuraman") kompaniyasini boshladi.

Argentina argentinalik sayyohlarni yaxshiroq tushunish uchun Ichki turizm observatoriyasi tashkil etilganini e'lon qildi.

Tailand 5 million tun mehmonxonada yashash uchun 5 kechagacha bo'lgan odatdagi xona narxlarining 40% miqdorida subsidiya berish tizimini yo'lga qo'ydi[5].

O'zbekistonda ham ichki turizm rivojlantirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF–6165-sonli Farmoni hamda 2022-yil 30-aprelda qabul qilingan "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–232-sonli qarori bilan ichki turizmni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2 Understanding Domestic Tourism and Seizing its Opportunities. UNWTO briefing note – Tourism and COVID–19, ISSUE 3, september 2020. 10–11 p.

3 Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti – Yevropadagi davlatlar birlashmasi. 1948 y. da AQSh tashabbusi bilan Yevropani tiklash bo'yicha Amerika iqtisodiy va moliyaviy yordamini (Marshall rejasi) oqilona ishlatish va shu yordamni oladigan Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik qilish maqsadlarida tuzilgan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti vorisi tarzida tashkil topgan tashkilot. Hozirda tashkilotga 37 ta mamlakat a'zo hisoblanadi.

4 https://www.unwto.org/news/unwto-highlights-potential-of-domestic-tourism-to-help-drive-economic-recovery-in-destinations-worldwide.

5 UNWTO Highlights Potential of Domestic Tourism to Help Drive Economic Recovery in Destinations Worldwide. Madrid, Spain, 14 September 2020.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6165-sonli Farmoni bilan quyidagi imtiyoz va preferensiyalar:

a) turoperatorlar, turagentlar, shuningdek, joylashtirish vositalari uchun foyda solig‘i stavkasini belgilangan stavkaga nisbatan 50 foizga kamaytirish;

b) kamida 10 kishidan iborat xorijiy turistik guruhlar uchun O‘zbekiston Respublikasida tur tashkil etish va ularning joylashtirish vositalarida kamida besh kecha tunab qolishi sharti bilan turoperatorlarning avia va temir yo‘l chiptalari bo‘yicha xarajatlarini chipta narxining 30 foizi miqdorida qisman subsidiyalash;

d) turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi subyektlar bo‘yicha:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod qilish;
- ular tomonidan to‘lanadigan ijtimoiy soliqni kamaytirilgan stavkada 1 foiz miqdorida belgilash muddatlari 2021-yil 31-dekabrga qadar uzaytirildi[6].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–232-sonli qarori bilan:

- mehnat jamoalarining jamoa shartnomalariga ish beruvchilar tomonidan xodimlar uchun yiliga bir marotaba mahalliy sayohatga chiqish imkonini yaratish qoidalari kiritildi;
- sayohat xarajatlarining bir qismi ish beruvchilarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplab berilishi yo‘lga qo‘yildi;
- 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (mahalliy turistlar) uchun “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida respublika hududlari bo‘ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish xarajatlarining bir qismini qaytarish – “Cashback” tartibi joriy etildi;
- 2022-yil 1-iyuldan boshlab “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomi berilgan fuqarolar yig‘inlari hududlarida mehmon uylari, ovqatlanish va savdo shoxobchalari, ko‘ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uchun 3 yil davomida aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida, ushbu hududlardagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i miqdorlari – mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilandi[7];
- oilaviy mehmon uylarini ta’mirlashga 100 million so‘mgacha, mebel, maishiy texnika va boshqa buyumlar bilan jihozlashga 50 million so‘mgacha hamda suzish havzalarini tashkil etish loyihalarni moliyalashtirish uchun tadbirkorlarga 200 million so‘mgacha kreditlar berish tartibi belgilandi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun Ipoteka dasturi doirasida iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan 100 mlrd so‘m, kichik tadbirkorlik uchun ajratilgan pul mablag‘lari hisobidan 50 million dollar yo‘naltirildi.

Har bir turistga sayohat xarajatlarini qaytarishda quyidagi miqdorlar qo‘llaniladi:

- aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;
- temir yo‘lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;
- joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;
- teatr, muzey, sirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so‘mdan oshmagan miqdorda.

“Cashback” tartibini joriy etish uchun respublika byudjetining qo‘shimcha mablag‘laridan 2023 yil 1 yanvardan boshlab jami 30 mlrd so‘m, jumladan uning 1-bosqichi uchun 10 mlrd so‘m ajratish mexanizmi joriy etildi.

Shu bilan birga ichki turizmni rivojlantirish uchun mas’ul tashkilotlar belgilandi va ushbu tashkilotlarga o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha har yili ish beruvchilar bilan birgalikda xodimlarni respublika bo‘ylab sayohatga chiqishi uchun sayohat grafiklarini tasdiqlash hamda sayohatni amalga oshirish yuklatildi. Ya’ni:

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6165-sonli Farmoni.

7 Mazkur hududlarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–104-son qarori 2-bandining “a” va “v” kichik bandlarida nazarda tutilgan imtiyozlar nazarda tutilgan.

- yoshlar uchun – Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi;
- mehnat va mahallalar jamoalari, faxriylar, nuroniylar va pensionerlar uchun – O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi;
- xotin-qizlar uchun – Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi mas’ul qilib belgilandi[8].

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida:

- 150 ming nafar qo‘shimcha sayohatlar amalga oshirilishi hamda 104,3 mlrd so‘mlik turizm xizmatlari aylanmasi shakllantirilishi va buning hisobiga davlat byudjetiga qo‘shimcha 15,5 mlrd so‘m soliq tushumlari tushishi kabi iqtisodiy o‘zgarishlarga zamin yaratilgan;
- 2022-yil davomida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida 11,435 mln. ta (2021-yilga nisbatan 1,9 barobar) ichki turistik sayyohatlar amalga oshirilgan. Jumladan, mehnat jamoalari sayohatlari 700,1 ming tani, ayollar daftariga kiritilgan xotin-qizlar sayohatlari 37,9 mingtani, notinch oilalar sayohatlari 1,4 mingtani, yoshlar hamda nuroniylar sayohati 588,3 mingtani hamda mahalliy aholi sayohatlari 10 mln 107,4 mingtani tashkil etgan;
- 2022-yil davomida 42,7 mingta transport xizmatlari amalga oshirilgan bo‘lib, shundan: 6,4 mingta avia qatnovlar, 1,9 mingta temir yo‘l qatnovlari, 34,3 mingta avtobus qatnovlarini tashkil etgan.

MAVJUD MUAMMOLAR

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirilishiga qaramasdan, Oxirgi 5 yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasida ichki turistik sayohatlar ulushi xalqaro sayyohatlar soniga nisbatan o‘rtacha 70 foizdan oshmaganini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida 2018–2022 yillarda ichki va xalqaro tashrif buyuruvchilar to‘g‘risida ma’lumot (mingta safar)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Ichki turistik safar soni	12 489,2	14 748,0	3 534,1	5 813,9	11 435,5
Kirish sayohatlari soni	5 346,2	6 748,5	1 504,1	1 881,3	5 232,8
Umumiy sayohatlar soni	17 835,4	21 496,5	5 038,2	7 695,2	16 668,3
Solishtirma nisbati	70/30	69/31	70/30	76/24	67/33

Jadvaldagi raqamlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2022-yildagi ichki turistik sayohatlar soni 2021-yilga nisbatan 1,97 baraborga oshgan bo‘lsa, xalqaro turistik sayohatlar soni 2,78 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, xalqaro turizmning o‘sish sur’atlari ichki turizmga nisbatan yuqori ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi ichki turizm bozorining yanada rivojlantirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir nechta omillar mavjud.

Birinchidan, ichki turizm marketingi va reklama xizmatlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Oxirgi yillarda O‘zbekistonning turizm imkoniyatlari turli tillarda xorijiy davlatlarning mashhur nashrlarida faol yoritilmoqda, biroq mahalliy aholi uchun O‘zbekistonning jozibador turistik manzillari va sayohatlarni tashkil etuvchilar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi nashrlar yetarli emas. Ya’ni mahalliy aholining aksariyat qismi hududlarning qaysi hududida qanday turdagi turistik mahsulotlar borligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega emas.

2022-yil yakuniga qadar respublikaning turistik resurslari hamda turistik industriya obyektlari to‘g‘risida xabardor qilish, shuningdek turistik bozorlarda turistik mahsulotlarni targ‘ib qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi 151 ta turistik axborot markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ularning aksariyati mahalliy aholi uchun qulay bo‘lmagan (kiruvchi turistlar uchun qulay) manzillarda – davlat chegara punktlari, aeroportlarning ichki qismi, turizm maskanlari yoki ziyoratgohlarda joylashgan.

Ikkinchidan, mahalliy aholiga ko‘rsatilayotgan ichki turizm logistika xizmatlarining noqulayligi va qimmat ekanligi. So‘nggi 2 yilda Urganch-Farg‘ona-Urganch, Samarqand-Namangan-Samarqand hamda Andijon-Xiva-Andijon yo‘nalishlari bo‘yicha doimiy temir yo‘l qatnovlari hamda Xiva-Buxoro va Buxoro-Termiz avtobus qatnovlari yo‘lga qo‘yildi.

8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-aprelda qabul qilingan “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–232-sonli qarori.

Biroq mavjud aviareys va temir yo‘l chiptalarini xarid qilishda katta navbatlar yuzaga kelmoqda. Ayrim avia va temir yo‘l yo‘nalishlarida o‘rinlar 5 kundan 10 kungacha oldindan band qilinganligiga guvoh bo‘layapmiz. Bu esa, ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari hajmi talabga nisbatan yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, aksariyat aviaqatnovlar Toshkent shahri bilan bog‘langan bo‘lib, ayrim hududlarni bog‘lovchi aviaqatnovlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri temir yo‘l va avtobus qatnovlari mavjud emas. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati fuqarolari uchun uzoq masofada joylashgan Surxondaryo viloyatiga (Nukus – Termiz – 989 km, Urganch – Termiz – 866 km) yoki Qoraqalpog‘iston Respulibkasini Farg‘ona vodiysi viloyatlarini bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lovchi avia, temir yo‘l va avtobus qatnovlari yo‘lga qo‘yilmagan (2-, 3- va 4-jadvallar).

Shu bilan birga transport qatnovlarining aksariyati hududlarning turizm markazlari yoki shaharlariga emas, balki ma’muriy markazlariga yo‘naltirilgan. Masalan, Qashqadaryo viloyatida transport qatnovlari asosan Qarshi shahriga amalga oshiriladi, ammo viloyatning asosiy turistik shahri Shahrisabz shahrigacha to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnovlar mavjud emas.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan hududlararo aviaqatnovlar to‘g‘risida ma’lumot[9] 2023-yil fevral oyi holatiga

T/r	Hududlar kesimida transport yo‘nalishlari	Etib borish vaqti	O‘rtacha xarajat miqdori (so‘m)	Davriyligi (1 haftada)
1	Urganch – Farg‘ona	1 soat 50 daqiqa	346 375	2 marta
2	Buxoro – Namangan	1 soat 10 daqiqa	403 412	2 marta
3	Toshkent – Urganch	1 soat 20 daqiqa	592 812	14 marta
4	Toshkent – Buxoro	1 soat 10 daqiqa	268 941	7 marta
5	Toshkent – Andijon	1 soat 25 daqiqa	330 450	7 marta
6	Toshkent – Samarqand	50 daqiqa	202 230	14 marta
7	Toshkent – Qarshi	1 soat – 3 soat 10 daqiqa	195 741	5 marta
8	Toshkent – Navoiy	3 soat 6 daqiqa	197 266	2 kun
9	Toshkent – Nukus	1 soat 40 daqiqa	599 122	7 kun
10	Toshkent – Termiz	1 soat 20 daqiqa	562 332	4 kun
11	Samarqand – Namangan	1 soat 10 daqiqa	256 712	2 kun
12	Samarqand – Farg‘ona	1 soat 10 daqiqa	229 866	4 kun

3-jadval: O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan hududlararo temir yo‘l transporti qatnovlari to‘g‘risida ma’lumot[10] 2023-yil fevral oyi holatiga

T/r	Hududlar kesimida transport yo‘nalishlari	Poezd turi	Etib borish vaqti	O‘rtacha xarajat miqdori (so‘m)	Davriyligi (1 haftada)
1	Toshkent – Olot	Yo‘lovchi	9 soat 34 daqiqa	129 950	3 kun
2	Toshkent – Nukus	Yo‘lovchi	17 soat 4 daqiqa	171 650	6 kun
3	Toshkent – Xiva	Yo‘lovchi	13 soat 55 daqiqa	163 180	Har kuni
4	Toshkent – Buxoro	Sharq	6 soat 44 daqiqa	120 940	Har kuni
		Afrosiyob	3 soat 49 daqiqa	171 000	Har kuni
5	Toshkent – Termiz	Yo‘lovchi	14 soat 15 daqiqa	145 290	Har kuni
6	Toshkent – Andijon	Yo‘lovchi	6 soat 1 daqiqa	107 790	4 kun
7	Toshkent – Qarshi	Sharq	5 soat 18 daqiqa	112 250	4 kun
		Afrosiyob	3 soat 21 daqiqa	144 000	3 kun
8	Toshkent – Samarqand	Sharq	3 soat 19 daqiqa	98 200	Har kuni
		Afrosiyob	2 soat 20 daqiqa	103 000	Har kuni
9	Xiva – Andijon	Yo‘lovchi	22 soat 28 daqiqa	198 350	Har kuni
10	Andijon – Termiz	Yo‘lovchi	21 soat 31 daqiqa	180 660	4 kun

9 Avia qatnovlar jadvali va ularning narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar https://www.airways.uz/ va https://avia.uniticket.uz/ saytlaridan olingan bo‘lib, muallif tomonidan shakllantirilgan.

10 Temir yo‘l qatnovlari jadvali va ularning narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar https://e-ticket.railway.uz/ saytidan olingan bo‘lib, muallif tomonidan shakllantirilgan.

4-jadval: O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan hududlararo avtobus qatnovlari to‘g‘risida ma’lumot[11] 2023-yil fevral oyi holatiga

T/r	Hududlar kesimida transport yo‘nalishlari	Etib borish vaqti	O‘rtacha xarajat miqdori (so‘m)	Davriyligi (1 haftada)
1	Toshkent – Qarshi	15 soat	75 000	7
2	Toshkent – Mirbozor	8 soat	70 000	7
3	Toshkent – Samarqand	5 soat	48 000	7
4	Toshkent – Buxoro	8 soat	89 000	7
5	Toshkent – Nukus	18 soat	134 000	1
6	Toshkent – Urganch	15 soat	150 000	7
7	Toshkent – Xatirchi	6 soat 30 daqiqa	63 000	Oyning kunlarida
8	Toshkent – Denov	15 soat	120 000	7
9	Toshkent – Xiva	15 soat	150 000	7
10	Toshkent – Termiz	15 soat	114 000	2
11	Toshkent – Qorako‘l	15 soat	90 000	7
12	Toshkent – Qiziltepa	11 soat	85 000	7
13	Toshkent – Uchquduq	11 soat	92 000	Oyning kunlarida
14	Toshkent – Zarafshon	9 soat	80 000	7

Hududlararo transport qatnovlarining yo‘qligi bir vaqtning o‘zida bir nechta hududlar bo‘ylab ichki turistik sayohatni amalga oshiruvchilar uchun noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa, ichki turistlarni mamlakat hududlari bo‘ylab turizm sayohatlarini amalga oshirish davrini qisqa vaqt davom etishiga, shuningdek turistlarning ichki turizm xizmatlaridan foydalanish doirasini cheklanishiga sabab bo‘lmoqda.

Uchinchidan, turistlarning sayohatlarni mustaqil amalga oshirishlariga ko‘maklashuvchi zamonaviy va foydalanish qulay bo‘lgan dasturiy ta’minotlar yetarli emas. Qo‘plab sayyohlar shaharlar bo‘ylab turizmni mustaqil tashkil qila olmaydi hamda ko‘rsatilayotgan turizm xizmatlaridan to‘laqonli foydalana olishmaydi.

Respublikadagi barcha turoperatorlar tomonidan yaratilgan turistik mahsulotlar to‘g‘risida axborot beruvchi, turistik yo‘nalishlarni mustaqil belgilash imkonini beruvchi dasturiy ta’minotlar mavjud emas. Shuningdek, joylashtirish vositalariga masofada turib onlayn buyurtma berish imkonini beruvchi mavjud dasturiy ta’minotlarda narxi arzon bo‘lgan xostellar va uy mehmonxonalari to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud emas.

Vaholangki, so‘nggi 6 yil davomida ichki turizm bozori iste’molchilari uchun arzon turar joylar yaratish bo‘yicha ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, xostellar soni 2017-yilga nisbatan 37,2 barobarga, ularda yaratilgan o‘rinlar soni esa 40,5 barobarga oshgan, 2018-yildan boshlab esa oilaviy mehmon uylarini tashkil etish va ularni faoliyatini tartibga solish jarayonlari boshlangan. Hozirga kelib oilaviy mehmon uylari soni 3202 taga va ularda yaratilgan o‘rinlar soni 28 073 tani tashkil etmoqda (5-jadval).

5-jadval: O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan mehmonxonalar, xostellar va oilaviy mehmon uylari to‘g‘risida ma’lumot.

Asosiy ko‘rsatkich nomi		2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Mehmonxonalar	dona	716	777	847	927	942	935
	xona	18 051	19 162	21 790	24 286	26 455	28 628
	o‘rin	35 578	38 077	42 891	47 907	51 632	55 544
Xostellar	dona	16	62	214	241	357	596
	xona	125	446	2 238	2 555	3 712	6 655
	o‘rin	489	1 543	6 931	7 808	11 666	19 796
Oilaviy mehmon uylari	dona		106	886	1 386	2 458	3 202
	xona		278	2 323	3 194	8 800	11 045
	o‘rin		841	7 146	11 263	21 018	28 073

11 Avtobus qatnovlari jadvali va ularning narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar https://mintrans.uz/ va https://avtoticket.uz/timetable saytlaridan olingan bo‘lib, muallif tomonidan shakllantirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridan sanab o‘tilgan kamchilik va muammolarni hal qilish uchun quyidagilarni:

- o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida O‘zbekistonning ichki turizm imkoniyatlarini targ‘ib qiluvchi maxsus nashrlar tayyorlash, ushbu nashrlarni barcha turdagi faoliyat yurituvchi subyektlarga bepul yetkazish hamda ushbu subyektlarda turizm burchaklarini tashkil etish choralarini ko‘rish;
- aholi gavjum joylarida (bozorlar, yirik savdo markazlari va hokazo) doimiy faoliyat yurituvchi hamda aholi ko‘p qatnashuvchi bayram tadbirlari o‘tkaziladigan joylarda ko‘chma turistik axborot markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- turizm sohasidagi yaratilgan dasturiy ta’minotlarni yanada rivojlantirish va yangi innovatsion biznes g‘oyalarni, shu jumladan birinchi navbatda ichki turistlar uchun qulayliklar yaratishga yo‘naltirilgan dasturiy ta’minotlarini yaratish xizmatlarini qisman subsidiyalash;
- erkin sayyohlarga qulaylik yaratish, turistlarning belgilangan turizm manzillariga qulay, xavfsiz hamda yuqori sifatli servis ko‘rsatilgan holda yetib borishlariga xizmat qiluvchi, turistik firmalarning avtobuslari, mikroavtobus va yengil avtomashinalari doimiy jalb etiluvchi hamda ularni belgilangan qat’iy grafik asosida harakatlanishini ta’minlovchi turistik bekatlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi choralarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida ichki turizmni rivojlantirish uchun birinchi navbatda, aholiga Respublika hududlarining turistik imkoniyatlari haqida tasavvurni paydo qilish lozim. Shuningdek, ularga ichki jamoaviy turizmni va mustaqil turizmni tashkil etish uchun qulay axborot-kommunikatsiya muhitini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6165-sonli Farmoni.
2. Mazkur hududlarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–104-son qarori.
3. Forbes Kabote. Contribution of Domestic Tourism to Sustainable Tourism Development. 2020. DOI: http://dx.doi.org/10.5772/intechopen.93646 .
4. Amine Mokhefi, Tarik Hamoul and Bouzida Sawsan. Strategic management of the domestic tourism: the first step for a successful algerian tourism sector.
5. https://www.unwto.org/news/unwto-highlights-potential-of-domestic-tourism-to-help-drive-economic-recovery-in-destinations-worldwide
6. Understanding Domestic Tourism and Seizing its Opportunities. UNWTO briefing note – Tourism and COVID–19, ISSUE 3, september 2020. 10–11 p.
7. UNWTO Highlights Potential of Domestic Tourism to Help Drive Economic Recovery in Destinations Worldwide. Madrid, Spain, 14 September 2020.



AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Jo‘rayeva Nargiza Abduvohidovna
TDIU, Xalqaro turizm fakulteti, turizm kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada mamlakat tarraqiyotining yangi bosqichi sifatida Yangi O‘zbekiston “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida rivoj topayogani ilgari surilgan. Turizmni hududlar aro rivojlantirishda yangi ustuvor yo‘nalishlar va muhim natijalarga erishishga alohida ahamiyat berish taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: Turizm, barqaror rivojlanish, yashil turizm, agroturizm, atrof-muhit, sayyohlar, qo‘shimcha qiymat zanjiri.

Abstract: In the article, as a new stage of the country’s development, the principle of “From the strategy of actions to the strategy of development” is put forward from the development strategy of Uzbekistan. It is analyzed to give special importance to new priority directions and achievement of important results in interregional development of tourism.

Key words: Tourism, sustainable development, green tourism, agrotourism, environment, tourists, value added chain.

Аннотация: В статье в качестве нового этапа развития страны из стратегии развития Узбекистана выдвигается принцип “От стратегии действий к стратегии развития”. Проанализировано, чтобы придать особое значение новым приоритетным направлениям и достижению важных результатов в межрегиональном развитии туризма.

Ключевые слова: Туризм, устойчивое развитие, зеленый туризм, агротуризм, окружающая среда, туристы, цепочка добавленной стоимости.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida asosiy e’tibor fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan Qonunlar, Qonun osti hujjatlari, Kodekslar, konsepsiya va dasturlar qabul qilinishiga qaratilgan.

Bunda qonun ustuvorligini taminlash, konstitutsiyaviy islohotni hayotga yanada tatbiq etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, shu bilan birga, aholini hayotini faravonlashtirishni oshirish, fuqorolar manaviyatini rivojlantirish, global muammolarga O‘zbekistonning munosabati, xavfsizlik va tashqi siyosat borasidagi muhim vazifalari qamrab olingan.

METODOLOGIYA

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlari sifatida turizmni jadal rivojlantirish belgilangan. Barqaror iqtisodiy o‘sish aholi farovonligini ta’minlaydi. Bu borada mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar sonini tahlil qilsak:

Mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlarning bir qismi qo‘shni davlatlarga to‘g‘ri keladi. Hususan, tashrif buyurgan xorijiy turistlarning 83,4% (4 364,8 ming nafar) ni Qo‘shni davlatlar, 11,6% (606,4 ming nafar) ni MDH davlatlari va 5% (261,5 ming nafar) ni uzoq xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan xorijiy turistlar tashkil qiladi (1-rasm).


Xorijiy turistlarning asosiy qismi Turkiya 75,5 ming nafar, Janubiy Koreya 19,9 ming nafar, Germaniya 17,7ming nafar shuningdek Amerika Qushma Shtatlaridan 13,1 ming nafarga yetgan.

Xorijiy turistlar sonini oshirish uchun davlatimiz tomonidan ham qator ishlar olib borilmoqda. Har bir hududning ijtimoiy iqtisodiy kelib chiqishi, iqtisoslashuvi hamda hududlarning mutloq afzalligi bilan boshqa hududlardan ajralib turishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududning turizm salohiyatini belgilashda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- Ma’lum bir turizm turlarini rivojlantirish imkoniyati;
- Turizm tashrif obyektlari (madaniy meros, muzey, hunarmandchilik markazlari va b.)ning tayyorligi;

- Hududdagi turizm turlariga potensial sayyohlarning mavjudligi;
- Sayyohlar uchun transport logistika tizimining rivojlanganligi.



1 rasm: 2022-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni1

Sayyohlarga xizmat ko‘rsatish uchun turizm infratuzilmasi va mutaxassislar bilan ta’minlanganlik darajasi huddudda turistlarni jalb qilishga keng imkoniyat beradi.

Mamalakatimiz turizm sohasini barqaror rivojlantirish omillaridan biri sifatida “Yashil” iqtisodiyot hamda boshqa sohalarda ham yashillikni saqlash atrofni muhofaza qilish uni asrash, yo‘qolib ketayotgan flora, fauna bilan bog‘liq muommolarni aniqlash va ularni yechilish usullarini aniqlash ilm-fan oldida turgan asossiy muommo hisoblanadi.

Tadqiqotchilar takidlashicha, qishloq hududlarida manbalari tobora kengroq iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik ta’sirlardan kelib chiqadigan bosimlarga duchor bo‘layotganini takidlashmoqda. Aholining daromad manbayining ortirish ularni yangi xizmat va ish o‘rinlari kelib chiquvchi sohalarni qamrab olish bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarga o‘qitish vujudga kelyotgan muommolarni hal qilishda yordam beradigan tegishli siyosat va strategik harakatlar rejalarini aniqlash uchun barqaror rivojlanish yondashuvini qo‘llash afzalliklarini ko‘rsatadi. Shuningdek, qishloq turizmi bilan bog‘liq bo‘lgan tirizm turlariga e’tiborni qaratamiz. Qishloq turizimini bir bo‘lagi Agroturizm hisoblanib, u bilan boshqa sohalar ham chambarchas bog‘liq ravishda rivojlanadi. Birgina agroturizm sohasini rivojlantirish orqali shu soha bilan bog‘liq kuplab sohalarni paralel ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, aholini ish bilan taminlashdan tashqari, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash imkoniyatini, atrof-muhitni asrash, tabiiy toza mahsulotlar ishlab chiqarish, bu bilan aholi salomatligini asrash, ekotizimni asrash va uni tozaligini, xilma xilligini saqlash imkoniyatini beruvchi Agro turizmni Barqaror rivojlantirish ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi. Qishloq resurslari bilan o‘zaro integratsiyalashuv qishloq xo‘jaligi resursini qishloq turizm industriyasining o‘ziga xos “kapital aktivi” sifatida qayta kontsepsiyalash orqali ko‘p narsaga erishish mumkin. Aynaqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida qushimcha qiymat zanjirini to‘g‘ri tashkil etilishi, yetishtirilgan meva-savzavotlar, chorvachilik, bog‘dorchilik va boshqa qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda qo‘shimcha qiymat zanjiri ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm sohasining nazariy masalalari hududlarning barqaror rivojlanishi, turizm salohiyatini kengaytirishi, agroturizm rivojlanishida qishloq xo‘jaligi salohiyatidan foydalanish, Agroturizmni boshqarish, qo‘llash, innovatsion strategiyalardan foydalanishni tashkil etish va boshqarish muammolarini xorijlik tadqiqotchilardan Dejan Basik[2], G. Assel, G. A. Churchill, T. J. Brown, Ph.Kotler, K. L. Keller, I. Setiawan, H. Karatajaya, N. K. Malhotra,

1 O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi ma’lumotlari
2 Market of agricultural and food products in the Republic of Serbia: Possibilities and implications 2028; Balkan Scientific Association of Agricultural Economists

D. Kennedy, V. D. Praet, J. Salenbacher A. Traindl, J. Trout, P. Doylening ilmiy ishlari klassik asarlarga aylangan[3]. Ko‘pgina olimlar qishloq turizmi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Chet el tadqiqoqtchilari, aynaqsa, Turkiya, Italiya, Germaniya hamda boshqa Yevropa mamlakatlarida qishloq hududlarini rivojlantirishda aynan ulardagi iqtisoslashuvga mos tarzda yani boshqa hududlarga nisbatan mutlaq yoki qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan hududlardagi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Eng ahamiyatli jihati shundaki, ular Agro turizmni rivojlantirishda qushimcha qiymat zanjiriga alohida e’tibor qaratishgan. Yani, bunda mahsulotlarni saralash, qayta ishlash, qadoqlash, bozorga olib chiqish jarayonlarida mahsulotlarning tannarxi 20% ga oshganligini bazan qushimcha qiymat zanjiri mahsulotning tannarxiga 1,5–2,5 barobargacha oshishiga olib keladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-oktyabr kuni turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to‘liq ishga solish, “Yashil makon” umummilliy loyihasining kuzgi mavsumini tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Ma’lumki, turizm iqtisodiyot uchun qo‘shimcha va tuganmas manba. Shu bois har bir davlat sayyohlarni jalb etishga harakat qiladi. Mamlakatimizda bu sohaga keng imkoniyatlar yaratilayotgani natijasida mehmon o‘rinlari, sayohat joylari va yo‘nalishlari ko‘payib bormoqda.

O‘tgan 8 oyda yurtimizga xorijdan 4 million 300 ming nafar turist kelgan, ulardan 1 milliard 400 million dollar tushum bo‘lgan. Qo‘shimcha dam olish kunlari va chegirma berilgani natijasida ichki sayyohlar soni 15 million nafarni tashkil qilib, o‘tgan yilgiga qaraganda 2 barobarga o‘sgani takidlangan.

Turizm infratuzilmasi izchil rivojlanmoqda. Joriy yilda 15 mingta yangi mehmon o‘rinlari tashkil etilib, ularning soni 137 mingtaga yetdi. 540 ta dam olish va ko‘ngilochar maskan barpo etildi, 70 ta turizm marshruti ochildi4.

Joriy yilda 1 ming 200 gektardan ortiq yashil bog‘ va jamoat parklari, 1 million gektardan ziyod yashil hudud va qoplamalar barpo etildi. Asosiy muommo ularning Qish va yoz mavsumida qurib ketishi, sinishi va kasallanishini oldi olish bilan hududlarning barqaror rivojlanishi borasida yana bir omilni himoya qilingan bo‘ladi.

Shuni ham alohida takidlash kerakki xalqaro tashkilotlardan Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) 2020–2025-yillarga muljallangan loyiha, USAIDning Agrobiznesni rivojlantirish loyihasi maqsadli qishloq xo‘jaligi tovarlari uchun qo‘shimcha qiymat yaratishning yangi texnologiyalari va butun qiymat zanjiri bo‘ylab yangi boshqaruv usullarini joriy etish orqali O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida faoliyat olib borayotgan xususiy sektordagi ulushini oshirish agrobiznes sohasini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) Respublikada meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z muddatida samarali amalga oshirish, qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, raqobatbardosh meva-sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda respublika hududlarida yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan yangi loyohalarni amalga oshirilmoqda.

TAHLIL

Hududlardagi barqaror rivojlanish, uning iqtisodiyot jihatiga ham katta hissa qo‘shayotgan Farg‘ona viloyatida joylashgan “Mehrigiyo” agro-turizm klasteri faoliyatini qisqacha tahlil qilib, interviyu orqali ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki mazkur agro turizm klasteri 1992-yildan buyon faoliyat olib borayotgan Mehrigiyo korxonasining tabiiy shifoxash mahsulotlari, lavanda palantatsiyasi, issiqxonalari bilan ko‘plab mahalliy va xorijiy turistlarga mashhur. Ular bugungi kunda xalqimizga hamda qo‘shni davlatlar Rossiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Amerika, Saudiya Arabistoni, Tojikiston va boshqa ko‘plab davlatlarga yetkazib berilyabdi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki mavsumiy bo‘lmagan davrida tashrif buyuruvchi mahalliy hamda xorijiy turistlarning umumiy soni bir kunda 300 tadan 500 tagacha tashrif buyurishadi

Mavsum davrida bir kunda o‘rtacha 1000 taga nafargacha turistlar lavanda plantatsiyasiga fotosessiya, mahsulotlarni birlamchi bozorlardan sotib olish maqsadida tashrif buyurishadi. Ular bugungi kunda 500 gektar joyda lavanda, va meditsinada qullaniladigan boshqa mahsulotlarni papaya, kofe, va boshqa egzotik mahsulotlarni issiqxonalarda etishtiradi. Tashrif buyurgan turistlar birlamchi bozordan o‘zlariga yoqtirgan mahsulotlarni sotib olishlari, tekin konsultatsiya olishlari mumkin. Bugungi kunda “Mehrigiyo” agroturizm klaster foliyatini qo‘shimcha 300 o‘rinli mehmon uylarini tashkil qilishga qaratishgan. Ular faoliyatida 5 yillik tahliliga ko‘ra bugungi kunda turistlar soni 50 foiz(%)ga oshganligini bilishimiz mukin. Eng muhimi ular hozirda klinika orqali sog‘lomlashtirish turizmi bilan bog‘liq xizmatlar ham qo‘shilib, birgina mana shu tarmoqning o‘zida 500 dan ortiq

3 Assel G. Marketing: Prinsipы i strategiya. – M.: Infra-M.,1999; Churchill G. A, Brown T. V. Basic marketing research, -Thomson, United States, 2010; Kotler Ph. Marketing essentials. –Prentice Hall, United States, 2019; Kotler Ph., Setiawan I., Kartajaya H. Marketing 3.0: From Products to Customers to the Human Spirit. – wiley, 2012.; Malhotra N. K. Marketing research an appled orientation. – Prentince Hall, United States, 2016; On Stratogic Marketing. Harvard Business review Press, – Boston, Massachusetts, 2019; Kennedy Dr No B. S. Guide to Brand – Boston, Massachusetts, 2019; Kennedy Dr No B. S. Guide to Brand – Building by Direct Response – Enterpreneur Press, 2014, Praet V. D. Unconscious Branding. How neuroscience can empower marketing. – Prentince Hall, USA, 2012,

4 https://president.uz/uz/lists/view/6746

mahalliy aholi ish bilan taminlangan “Mehrigiyo” agro turizm klasterining boshqa feliallari, mahsulot yetkazib berish xizmatlari bilan hisoblanganida 800dan ortiq ishchi ish bilan taminlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganimizda, Respublikamizning turli hududlarida shunday agroturizm obyektlarini tashkil etilishi hududning nafaqat iqtisodiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi, balki aholini ish bilan ham ta’minlaydi. Shuningdek, qishloq hududining turizm infratuzilmasi yaxshilanishiga, aholining daromadi ortishiga olib keladi. Shu bilan birga, Agrobiznesni rivojlantirish orqali O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab-chiqarilgan qishloq xo‘jaligi tovarlari va xizmatlarining miqdori, sifati va xilma-xilligini oshirish ushbu sohadagi avvalgi faoliyati va yutuqlariga tayanadi.

O‘zbekistonning xususiy sektorini qo‘llab-quvvatlaydi hamda mamlakatda ishchi kuchi oshib borayotgan sharoitda iqtisodiyotda ish o‘rinlarini yaratishga imkon beradi. O‘zbekistonda qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tovarlar ishlab-chiqarishni ko‘paytirishga, aholining zaif qatlamlari, shu jumladan, yoshlar va ayollarni jalb qilishga, ta’lim muassasalarini xususiy sektor talabi bilan bog‘lash hamda qishloq xo‘jaligi uchun qulay muhitni yaratishga katta imkoniyat yaratadi, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Нурфайзиев, З. Б., & Нурфайзиева, М. З. (2020). Влияние гостиничной индустрии на экономику страны (на примере Узбекистана) // In Инновационные технологии управления и стратегии территориального развития туризма и сферы гостеприимства (pp. 115–119).
2. Oppokkhonov, N., & Bakhromov, A. (2022). The Issues Of The Mice Industry In The Structure Of Regional Market For Tourist Services // Arxiv nauchnых issledovaniy, 2(1)
3. Baxromov, A. A., & Shoniyozov, F. I. (2022). MICE turizm industriyasida xizmat tashkil etuvchilar va iste’molchilar uchun sug‘urta xizmatlarining ahamiyati // Архив научных исследований, 2(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/915
4. Oppokkhonov, N., & Bakhromov, A. (2022). The Issues Of The Mice Industry In The Structure Of Regional Market For Tourist Services // Arxiv nauchnых issledovaniy, 2(1).
5. Oppoqxonov, N. (2022). O‘zbekiston mintaqalarining turistik jozibadorligini belgilovchi omillarni baholash // Academic research in educational sciences, 3(5), 642–647.
6. Oppokkhonov, N. (2023). O‘zbekiston moliya bozorida moliyaviy tanglikning korporativ samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri // Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 57–59. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19018
7. Rustamovich, Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan.” Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28–33.
8. Rustamovich, Dehganov Burkhan. Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services // Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya, 2.3 (2023): 35–37.
9. Egamnazarov, Khusniddin. (2023). The Role of the Cities of the Great Silk Road of Uzbekistan in the Tourism of Uzbekistan. European Journal of Life Safety and Stability (2660–9630). 10.Khusniddin, E., & Mahammadsidik, A. (2022).
Аннотация: В данной статье освещается инвестиционный климат туристской индустрии, государственная политика по привлечению инвестиций, методы оценки эффективности с помощью методов исследования. Представлена информация об условиях и возможностях, создаваемых при привлечении инвестиций в развитие индустрии туризма. В рамках темы были изучены и представлены мнения и мнения современных ученых.

Ключевые слова: Индустрия туризма, инвестиционная политика, эффективность, инвестиционная привлекательность, индустрия туризма, прямые инвестиции.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya muhitini rivojlantirish borasida tegishli huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lib, kafolat va imtiyozlarni o‘zida aks ettiruvchi bir qancha me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularda xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalanishi va raqobat muhitiga sharoit hamda zarur investitsiyaviy infratuzilmaning yaratilishini nazarda tutuvchi normalar belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, mamlakatimizda hukm surayotgan siyosiy barqarorlik hamda boy tabiiy mineral resurslarning mavjudligi investitsiya muhitini rivojlantirish uchun imkoniyatlar eshigini keng ochadi. Biroq zamon bilan hamnafas ravishda taraqqiy etish uchun bularning o‘zi kifoya qilmaydi. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo hamjamiyati reytinglarida munosib o‘rinlarni egallash uchun yangi zamonaviy g‘oyalarni o‘ylab topish zarurati yuzaga kelmoqda. Xorij investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish – iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, yuqori texnologik raqobatdosh tarmoqlarni yaratish, ilg‘or xorij texnologiyalari, nou-xau va boshqaruv tajribalarini tatbiq etish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda aksariyat jabhalarga xorij investitsiyasini kiritish hamda iqtisodiyotning rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o‘tgan va joriy yilga berilgan nomlar ham aynan ivestitsiya muhitini rivojlantirish bilan bog‘liq ekanligi fikrimizni isbotlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlis deputatlariga yo‘llagan Murojaatnomasida ushbu masalaga alohida urg‘u berildi. Jumladan, o‘tgan yilda Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan olib borilgan hamkorlik natijalariga ko‘ra, mamlakatimizda investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etgani, shuningdek, chet el investitsiyalari hisobidan 23 milliard dollarni tashkil etuvchi 456 ta loyiha amalga

oshirilayotgani ta'kidlandi. Prezidentimiz ushbu ko'rsatkichlarga ahamiyat qaratar ekan, keng miqyosli investitsiyalar yurtimiz iqtisodiyotini mustahkamlovchi omil bo'lishini alohida ta'kidlab, shunday dedi: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi".

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmda investitsion faoliyat va uning amal qilish xususiyatlarini tadqiq etishdan avval investitsiya faoliyatining mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini yoritish darkor. Xususan, ko'plab xorijiy va mahalliy nashrlarda investitsiyalar hamda investitsion faoliyat masalalarining ayrim jihatlari yoritilgan.

Chubarinning fikricha, "investitsiya faoliyati – investitsiya jarayoni ishtirokchilarining kapitalni to'plash, o'zgartirish, joylashtirish, qo'yish va ulardan foydalanish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan, iqtisodiy tizimda maksimal ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy natija olishga qaratilgan munosabatlari yig'indisidir"[1]. Turizmda investitsion faoliyat va uning tashkiliy-iqtisodiy masalalari ham ko'plab olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan bo'lib, ularning aksariyat qismi bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Valinurovaning qayd etishicha, "turizm sohasidagi investitsion faoliyat – investitsiya sifatida kiritilgan mablag'lardan daromad olish uchun ma'lum bir mamlakat ichida va tashqarisida turizm sanoatiga uzoq muddatli kapital qo'yilmalar shaklida moliyaviy resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi"[2].

Fatxutdinovning esa, "investitsiyalar – bu kapitalni saqlash va oshirish maqsadidagi pullik quyilmalardir". Shuningdek, iinvestitsiya faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy mexanizmining amal qilish xususiyati iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish orqali yangi ish o'rinlarini shakllantirish"dir deb izoh berib o'tishgan[3].

Vyakina esa "turizm sohasidagi investitsiyalar kapital hisobidan turli sayyohlik xizmatlarini ko'rsatishga qodir bo'lgan turistik obyektlarini yaratish, modernizatsiya qilish yoki rekonstruksiya qilish jarayonidir" deya ta'rif keltirgan[4]. Mamlakatimizda ham turizm sohasida investitsion faoliyat amal qilishining mexanizmlari va tashkiliy-iqtisodiy masalalari atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, Allanazarov turizmda investitsion faoliyatning amal qilishini quyidagicha izohlaydi: "turizmda investitsion faoliyat – bu investitsiya jarayoni ishtirokchilarining kapitalni jamg'arish, o'zgartirish, joylashtirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlari bo'lib, turizm sohasida makro va mikro darajada maksimal ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy natija olishga qaratilgan kapitaldan foydalanish jarayonidir"[5].

METADOLOGIYA

Tadqiqotning metadologiyasini ishlab chiqish jarayonida turizm sanoatida investitsiyalarning ahamiyati, investitsion muhitni shakllantirish omillari tizimlashtirildi. To'g'ridan –to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda mamlakatniy siyosiy, iqtisodiy sohalarining ta'siri o'rganildi. Shu bilan birga tadqiqot ishiga oid fikrlarni tahlil qilish jarayonida deduksiya, analiz, sintez usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2022-yilda esa 9,5 mlrd dollardan ziyod to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni o'zlashtirish, 282 ta yirik va 9 mingdan ortiq hududiy loyihalar ishga tushirish mo'ljallangan. Eksport hajmini 14 mlrd dollarga yetkazish hisob-kitob qilingan. O'zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritmoqda. Asosiy investor davlatlar beshligiga esa quyidagilar kiradi:

1. Xitoy – 2,2 mlrd dollar;
2. Rossiya – 2,1 mlrd dollar;
3. Turkiya – 1,18 mlrd dollar;
4. Germaniya – 800,7 million dollar;
5. Janubiy Koreya – 137,4 million dollar.

1 Chubarin A. N. (2001) Turizm sohasida investitsiya faoliyati mexanizmining shakllanishi. M.: 2017 yil
2 Valinurova L. S. (2015) Sanoatlarda investitsiya faoliyatini tashkil etish: monografiya / L. S. Valinurova. – M.:Paleotip, 80 b.
3 Fatxutdinov R. A. (2017) Boshqaruv yechimini ishlab chiqish. – M "IntelSynthesis", 89 p
4 Vyakina I. V. (2012) Mintaqaning investitsiya muhiti: tizimning mohiyati va tarkibiy qismlari / I. V. Vyakina, G. A. Aleksandrov, G. G. Skvorsova // Rossiya tadbirkorligi. 13-jild. – No 16. – B. 98–103
5 Allanazarov B. D. (2018) O'zbekistonda investitsiya faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining xususiyatlari va turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi. Fan va amaliyot byulleteni / Fan va amaliyot xabarnomasi. № 12.

Bugungi kunda chet el investitsiyalarining aksariyat qismi nazariy va uslubiy bazani rivojlantirishda yetarlicha yaratilmagan. Respublikada sayyohlik korxonalari masalalari bo‘yicha qabul qilingan hujjatning turizm va investitsiya qonunlari va nizomlari xususiyatlari to‘liq e’tiborga olinmaydi. Turizmga investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha talab va takliflar sektori bo‘lishi quyidagilarni o‘zida ifodalaydi6:

- Turizm sohasini rivojlantirish va ushbu sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish;
- Xorijiy tajribalarni jalb qilish;
- Turizm xizmatlarining yangi turlari va turkumlarini yaratish;
- Keng miqyosli investitsiyalarni jalb qilish uchun kriteriyalarni rivojlantirish;
- Chet el investitsiyalarini keng jalb qilishda turizmning qo‘shimcha imtiyozlarini qo‘llash;
- Investitsiya muhitini yaratish va yanada takomillashtirish;
- Me’yoriy jihatdan jalb etish uchun keng miqyosli investitsiyalarning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- Sayyohlik xizmatlarining sonini va sifatini oshirish;
- Turizm sohasidagi samaradorlik kursori tizimini ishlab chiqarish;
- Investitsiyalarni nazorat qilish va monitoringini takomillashtirish.

O‘zbekiston ham ko‘plab madaniy yodgorliklarga boy bo‘lgan tarixiy shaharlar mavjudligi bilan turizm sohasiga chet el investitsiyalarni jalb qilishda yetakchi mamlakatlar qatoridan o‘rin olgan davlat hisoblanadi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi ham ana shu vazifalarni o‘rganishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli shundan iboratki, ular tufayli ijtimoiy kapital to‘planishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi, fan va texnika yutuqlarini ijodiy faoliyatning turli sohalariga o‘tkazish orqali joriy etish. Natijada investitsiyalar milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyat hayoti sifatini yaxshilash va iqtisodiy yuksalishning asosi hisoblanadi

O‘zbekiston Lonely Planet tomonidan Osiyoda sayohat qilish uchun eng yaxshi joylar reytingiga kiritilgan. O‘zbekiston Janubiy Koreyadan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatimiz Lonely Planet reytingida Vetnam, Yaponiya, Tailand, Nepal, Shri-Lanka, Xitoy va Indoneziya kabi an’anaviy va “targ‘ib qilingan” mamlakatlardan oldinda. 40 mamlakatning xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston haqida materiallar nashr etilishi ta’minlandi, 20 dan ortiq mamlakatlardan 50 ga yaqin xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari uchun info-turlar tashkil etildi. Faqatgina Xitoyning CCTV–7 telekanalining O‘zbekistonda gastronomik turizm haqidagi hikoyasini 150 millionga yaqin kishi tomosha qildi.

O‘zbekiston gastronomik turizm bo‘yicha mashhur mamlakatlar reytingida MDHdagi eng yaxshi besh mamlakat qatoriga kirdi. O‘zbekiston xavfsiz mamlakatlar reytingida dunyoda 2-o‘rinda turadi.

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash texnik, texnologik, moliyaviy, tarmoq yoki hududiy xususiyatlaridan qat’i nazar, yagona tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- loyihani uning butun hayotiy sikli (hisob-kitob davri) davomida ko‘rib chiqish;
- investitsiya oldidan tadqiqotlarni o‘tkazishdan to loyihani tugatishgacha;
- turli valyutalardan foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda hisob kitob davri uchun loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq barcha pul tushumlari va xarajatlarini o‘z ichiga olgan pul oqimlarini modellashtirish;
- turli loyihalarni (loyiha variantlarini) solishtirish shartlarining solishtirilishi;
- pozitivlik va maksimal ta’sir. Investitsion loyiha investor nuqtayi nazaridan samarali deb tan olinishi uchun, birinchidan, uni amalga oshirish samarasi ijobiy bo‘lishi kerak; ikkinchidan, muqobil investitsiya loyihalarini solishtirganda, eng yuqori samaradorlikka ega loyihaga ustunlik berildi;
- vaqt omilini hisobga olgan holda. Loyihaning samaradorligini baholashda vaqt omilining turli jihatlari, shu jumladan loyiha parametrlarining dinamikligi (vaqtning o‘zgarishi) va uning iqtisodiy muhiti, mahsulot ishlab chiqarish o‘rtasidagi vaqtdagi bo‘shliqlar (kechikishlar) hisobga olinishi kerak. yoki resurslarni olish va ularni to‘lash, har xil vaqt va (yoki) natijalardagi xarajatlarning nomutanosibligi (avvalgi natijalar va keyingi xarajatlarni afzal ko‘rish);
- faqat loyihani amalga oshirish jarayonida kelajakdagi xarajatlar va daromadlarni, shu jumladan ilgari yaratilgan ishlab chiqarish aktivlarini jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlarni, shuningdek loyihani amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kelajakdagi yo‘qotishlarni hisobga olish (masalan, mavjud ishlab chiqarishni to‘xtatish bilan bog‘liq holda), o‘rniga yangisini tashkil qilish bilan). Loyihada foydalanilgan ilgari yaratilgan resurslar ularni yaratish qiymati bilan emas, balki yo‘qotilgan foydaning maksimal qiymatini aks ettiruvchi imkoniyat qiymati (opportunity cost) bo‘yicha baholanadi;
- loyihaning barcha eng muhim oqibatlarini hisobga olgan holda. Investitsiya loyihasining samaradorligini aniqlashda uni amalga oshirishning barcha oqibatlari bevosita iqtisodiy va iqtisodiy bo‘lmagan (tashqi ta’sirlar, davlat foydalari) hisobga olinishi kerak. Ularning samaradorlikka ta’sirini miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin bo‘lsa, uni miqdoriy jihatdan aniqlash kerak. Boshqa hollarda, bu ta’sir mutaxassislar tomonidan hisobga olinishi kerak;

6 Sa’dullayeva G. S. Turizm destinatsiyalari menejmenti. O‘quv qo‘llanma. 2022. 138 b.

- turli loyiha ishtirokchilarining mavjudligi, ularning manfaatlari va chegirma stavkasining individual qiymatlarida ifodalangan kapital qiymatining turli baholari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni hisobga olgan holda;
- ko‘p bosqichli baholash. Loyihani ishlab chiqish va amalga oshirishning turli bosqichlarida (investitsiyalar uchun texnik-iqtisodiy asoslash, moliyalashtirish sxemasini tanlash, iqtisodiy monitoring) uning samaradorligi yangidan, turli chuqurlikdagi o‘rganish bilan belgilanadi;
- loyihani amalga oshirish jarayonida yaratilgan ishlab chiqarish fondlarining ishlashi uchun zarur bo‘lgan aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojning investitsiya loyihasi samaradorligiga ta’sirini hisobga olgan holda;
- inflyatsiya ta’sirini (loyihani amalga oshirish davrida turli turdagi mahsulotlar va resurslar narxlarining o‘zgarishini hisobga olgan holda) va loyihani amalga oshirishda bir nechta valyutalardan foydalanish imkoniyatini hisobga olish;
- loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq noaniqliklar va xatarlarning ta’sirini hisobga olgan holda (miqdoriy shaklda).

Har qanday investitsiya loyihasi turli tomonlardan tavsiflanishi mumkin: moliyaviy, texnologik, tashkiliy, vaqtinchalik va boshqalar.

Ularning har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega, ammo investitsiya faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy jihatlari ko‘p hollarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boshqa barcha qulay xususiyatlar bilan, agar u birinchi navbatda quyidagilarni ta’minlamasa, loyiha amalga oshirish uchun qabul qilinmaydi:

- investitsiya qilingan mablag‘larni tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar hisobiga qoplash;
- kapital daromadi, daromadning minimal darajasini yaratish, pulning xarid qobiliyatining umumiy (inflyatsion) o‘zgarishini qoplash, shuningdek, loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq investorning tavakkalchiligini qoplash;
- investitsiyalarning firma uchun maqbul bo‘lgan muddat ichida qaytarilishi.

Investitsion operatsiyalarning aynan shunday natijalariga erishish haqiqatini aniqlash har qanday investitsiya loyihasining samaradorligini baholashning asosiy vazifasidir. Natijalarning qiymati bir xil darajada dastlabki ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligiga, shuningdek ularni tahlil qilishda qo‘llaniladigan usullarning to‘g‘riligiga bog‘liq. Hisoblash natijalarining adekvat talqinini ta’minlashda ekspertlar va maslahatchilarning tajribasi va malakasi ham muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, loyihaning samaradorligi quyidagi elementlardan iborat:

- davlat (ijtimoiy) samaradorlik;
- tijorat samaradorligi.

Ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlari investitsiya loyihasini umuman jamiyatga amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini hisobga oladi. Loyihaning o‘zi va uning iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida amalga oshirilishining “tashqi” oqibatlari baholanadi. Shu bilan birga, ekologik, ijtimoiy va boshqa iqtisodiy bo‘lmagan ta’sirlarni tegishli normativ va uslubiy materiallar mavjud bo‘lganda miqdoriy shaklda hisobga olish tavsiya etiladi. Ba’zi hollarda, ushbu hujjatlar mavjud bo‘lmaganda, ta’sirlar juda muhim bo‘lsa, mustaqil malakali ekspertlarning baholashlaridan foydalanish mumkin. Agar “tashqi” ta’sirlar miqdoriy hisobga ruxsat bermasa, ularning ta’sirini sifatli baholash kerak. Ushbu qoidalar mintaqaviy samaradorlik hisob-kitoblariga ham tegishli.

Umuman olganda, loyihaning tijorat samaradorligi ko‘rsatkichlari investitsiya loyihasini amalga oshirishning moliyaviy oqibatlarini aks ettiradi, agar loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha xarajatlarni o‘z zimmasiga oladigan va uning barcha natijalaridan foydalanadigan faqat bitta investor ishtirok etishi kutilsa.

Loyihaning tijorat samaradorligini hisoblash uchun asosiy ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

- sof daromad;
- sof diskontlangan daromad;
- daromadning ichki darajasi;
- qo‘shimcha moliyalashtirishga ehtiyoj (loyiha qiymati, risk kapitali);
- xarajatlar va investitsiyalar rentabelligi indekslari;
- qoplanish muddati.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Turizm sohasiga investitsiyalarning sezilarli darajada ortishi sharoitida ularni samarali taqsimlash va ulardan foydalanish, investitsiya faoliyati mexanizmini shakllantirish yo‘nalishlarini belgilash masalalarini hal etishning dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Turizm sohasida investitsion faoliyatni rivojlantirish, faol investitsiyalar jalb etishni takomillashtirishda turizm infratuzilmasi faoliyatini taraqqiy ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, turizmda investitsion faoliyatni rivojlantirish orqali sohani iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bakhromov, A., Juraeva, N., Nurfayzieva, M., Oppokkhonov, N., & Egamnazarov, K. (2023). Sun’iy intellektning turizm sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishdagi o‘rni.
2. Egamnazarov Kh., Bakhromov A., Nurfayzieva M., & Oppokkhonov N. (2023). Tourism Potential Of The Republic Of Karakalpakstan: An Exploration Of Cultural Heritage And Natural Beauty // Экономика и социум, (7 (110)), 104–110.
3. Egamnazarov, K. (2023). The Role of the Cities of the Great Silk Road of Uzbekistan in the Tourism of Uzbekistan // European Journal of Life Safety and Stability (2660–9630).
4. Khalilullayevna, D. M. (2023). Current Problems in Improving the Practice of Financing Investments in the Field of Tourism // European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 3(6), 147–152.
5. Matkabulova, D. (2022). The Relationship Between Investment And Tourism: Insights From The Literature // Theoretical & Applied Science Uchrediteli: Teoreticheskaya i prikladnaya nauka, (3), 871–878.
6. Raximova, D. (2023). O‘zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishining hozirgi tendensiyalari // Engineering problems and innovations.
7. Рахимова , Д. М. (2022). Диверсификация туристических услуг, MICE туризм // Архив научных исследований, 2(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1017
8. Рахимова , Д. М. (2022). Туристско-ресурсный потенциал Узбекистана, как объекта караванинга // Архив научных исследований, 2(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/964
9. qizi Sa’dullayeva, G. S. (2019). Ta’lim xizmatlari bozorini marketing strategiyasini rejalashtirish // Turizm ilmiy-amaliy elektron jurnali, 1(1), 18–25.
10. Sa’dullayeva, G. (2020). Turizm xizmatlari bozorida ta’lim turizmi tushunchasi mohiyati va uni rivojlantirishning xorij tajribalari. Innovatsion texnologiyalar, (2 (38)), 98–100.
11. Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna. (2023). Turizm tarmog‘ida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari // Journal Of Economy, Tourism And Service, 2(7), 107–112. Retrieved from http://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/75
12. Хушназарова, М. Г. (2020). “Управления знаниями” в индустрии туризма // Экономика и социум, (12–2 (79)), 390–394.
13. Махзуна, Х. Г. (2023). Strategy For Increasing The Attractiveness Of National Tourism Products (In A Basis Of Craftsmanship) [Стратегия повышения привлекательности национальных туристических продуктов (на основе ремесленничества)] // Молодой специалист, 2(14), 24–27.
14. Rustamovich, Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan.” Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28–33.
15. Rustamovich, Dehganov Burkhan. Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services // Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya, 2.3 (2023): 35–37.
16. Gulamjanovna, M. K. (2023). Current Issues Of Tourism Potential Of Uzbekistan And Its Development // Scientific Aspects And Trends In The Field Of Scientific Research, 1(10), 342–346.
17. Хушназарова, М. (2022). Туристское образования и проведение научных исследований за рубежом // Архив научных исследований, 2(1). извлечено от http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1224
18. Хушназарова М. Г. и др. Краткий обзор истории Азиатского города Самарканд //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 835–842.
19. Очилова Х. Ф. Перспективы этнопарков в Узбекистане // Туризм и гостеприимство. – 2020. – №. 1. – С. 69–75.
20. Очилова Х. Ф., Умирова Д. С. Гастрономический туризм: теория и практика. – ООО ДиректМедиа, 2021.
21. Очилова Х. Ф. Восстановление туризма в Узбекистане после пандемии //Туризм и гостеприимство. – 2020. – №. 2. – С. 70–75.
22. Makarova, Elena, and Hilola Ochilova. “International research activities and harmonious development of student’s personality.” E3S Web of Conferences. Vol. 291. EDP Sciences, 2021.



TURIZMGA INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH SHART SHAROITLARI

Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li
TDIU Mehmonxona biznesini boshqarish kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Turizm industriyasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish sayyohlar uchun umumiy sayohat tajribasini sezilarli darajada oshirishi va turizm biznesi faoliyati samaradorligini oshirishi mumkin. Biroq, ushbu texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va qabul qilinishini ta’minlash uchun ularni amalga oshirishdan oldin muayyan shartlarni hisobga olish muhimdir. Ushbu annotatsiya turizm sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan asosiy shartlarni o‘rganadi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishdan oldin mustahkam infratuzilmaga ega bo‘lish juda muhim. Bunga ishonchli internet ulanishi, yetarli quvvat manbayi va tegishli apparat va dasturiy ta’minot tizimlari kiradi. Kuchli infratuzilma bo‘lmasa, yangi texnologiyalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin, bu esa samarasizlikka yoki hatto muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Kalit so‘zlar: UNWTO, Iqtisodiyot, ichi turizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, madaniy me’ros obyektlari, faol aholi oqimi, sayyohlik xarajatlari.

Abstract: The introduction of innovative technologies into the tourism industry can significantly improve the overall travel experience for tourists and improve the efficiency of tourism business operations. However, to ensure successful integration and adoption of these technologies, it is important to consider certain conditions before implementing them. This abstract examines the main conditions that should be considered when introducing innovative technologies in the tourism sector.

It is important to have a solid infrastructure before implementing innovative technologies. This includes a reliable internet connection, an adequate power supply, and appropriate hardware and software systems. Without a strong infrastructure, implementation of new technologies can be hindered, leading to inefficiency or even failure.

Key words: UNWTO, Economy, domestic tourism, organizational-economic mechanisms, objects of cultural heritage, active population flow, tourist expenses.

Аннотация: Внедрение инновационных технологий в туристическую отрасль может значительно улучшить общий опыт путешествий для туристов и повысить эффективность операций туристического бизнеса. Однако для обеспечения успешной интеграции и внедрения этих технологий важно учитывать определенные условия перед их внедрением. В данном реферате рассмотрены основные условия, которые следует учитывать при внедрении инновационных технологий в сфере туризма.

Прежде чем внедрять инновационные технологии, важно иметь надежную инфраструктуру. Это включает в себя надежное подключение к Интернету, достаточный источник питания, а также соответствующие аппаратные и программные системы. Без сильной инфраструктуры внедрение новых технологий может быть затруднено, что приведет к неэффективности или даже провалу.

Ключевые слова: ЮНВТО, Экономика, внутренний туризм, организационно-экономические механизмы, объекты культурного наследия, активный поток населения, туристские расходы.

KIRISH

Turizmda innovatsion texnologiyalarning muvaffaqiyatli integratsiyasi turli manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat organlari, turizm tashkilotlari, texnologiya provayderlari va mahalliy hamjamiyatlarning hamkorligini talab qiladi. Qarorlar qabul qilish jarayoniga barcha tegishli tomonlarni jalb qilish, ularning ehtiyojlari va muammolari hal etilishini ta’minlash juda muhimdir. Manfaatdor tomonlar hamkorligi, shuningdek, ushbu texnologiyalarni joriy etish va qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan yordam va resurslarni to‘plashga yordam beradi.

Turizmda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va qabul qilishni rag‘batlantirish uchun foydalanuvchiga yo‘naltirilgan dizayn ustuvor bo‘lishi kerak. Texnologiyalar foydalanish qulayligi va ijobiy foydalanuvchi tajribasini ta’minlash uchun oxirgi foydalanuvchilarning ehtiyojlari va afzalliklarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Potensial foydalanuvchilarni foydalanuvchi testlari, fikr-mulohazalarni to‘plash va takroriy takomillashtirish orqali dizayn jarayoniga jalb qilish ularning kutganlariga javob beradigan echimlarni yaratishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish turistlar uchun ham, turizm mutaxassislari uchun ham tegishli tayyorgarlik va ta’limni talab qiladi. O‘quv dasturlari sayyohlar o‘zlarining sayohat tajribasi davomida yangi texnologiyalarga asoslangan xizmatlar yoki ilovalardan samarali foydalanishlari uchun raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Xuddi shunday, turizm mutaxassislari ushbu texnologiyalarni samarali ishlatish va saqlash bo‘yicha treningga muhtoj.

Turizmda texnologiyalardan tobora ko‘proq foydalanish bilan ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muhim muammolarga aylandi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish sayyohlar uchun ham, sayyohlik biznesi uchun ham maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qat’iy choralarni o‘z ichiga olishi kerak. Sayyohlarning ishonchini saqlab qolish va ularning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun ma’lumotlarni himoya qilish qoidalariga, shifrlash usullariga va xavfsiz saqlash tizimlariga rioya qilish ta’minlanishi kerak.

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda ularning barqarorlikka ta’sirini hisobga olish juda muhimdir. Uglerod chiqindilarini kamaytirish yoki resurslarni iste’mol qilishni minimallashtirish kabi barqaror amaliyotlarni targ‘ib qiluvchi texnologiyalarga ustuvor ahamiyat berilishi kerak. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalarning uzoq muddatli ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari barqaror rivojlanish maqsadlariga mos kelishini ta’minlash uchun baholanishi kerak.

Innovatsion texnalogiyalar shart-sharoitlari	Bozor talabi
	Muofiqlik
	Iqtisodiy samaradorlik
	Foydalanuvchi uchun qulaylik
	Masshtablik
	Xavfsizlik va maxfiylik
	Barqarorlik
	Manfaatdor tomonlar ishtroki
	Infratuzilmaning mavjudligi
	Normativ-huquqiy baza

1. **Bozor talabi:** Turizm sohasida innovatsion texnologiyalarga aniq bozor talabi bo‘lishi kerak. Bu texnologiyaga ehtiyoj bor-yo‘qligini va mijozlar uni qabul qilishga tayyormi yoki yo‘qligini aniqlash uchun bozor tadqiqotlari va tahlillari orqali aniqlanishi mumkin.
2. **Muvofiqlik:** innovatsion texnologiya turizm industriyasidagi mavjud infratuzilma, tizimlar va jarayonlarga mos kelishi kerak. Uni joriy operatsiyalarga integratsiya qilish uchun katta o‘zgartirishlar yoki investitsiyalar talab qilinmasligi kerak.
3. **Iqtisodiy samaradorlik:** Innovatsion texnologiyalarni joriy etish turistik korxonalar uchun aniq xarajatlarni ta’minlashi kerak. U xarajatlarni kamaytirishi, samaradorlikni oshirishi yoki investitsiyalarni oqlaydigan tarzda mijozlar ehtiyojini qondirishni yaxshilashi kerak.
4. **Foydalanuvchi uchun qulaylik:** Innovatsion texnologiya turistik industriyada ham xodimlar, ham mijozlar uchun qulay va foydalanish uchun qulay bo‘lishi kerak. Ishlash uchun keng ta’lim yoki texnik ko‘nikmalar talab qilinmasligi kerak.
5. **Masshtablilik:** texnologiya kengayish potentsialiga ega bo‘lishi kerak, ya’ni u o‘z samaradorligini yo‘qotmasdan turizm sanoatining bir nechta joylari yoki korxonalarida osongina kengaytirilishi yoki takrorlanishi mumkin.
6. **Xavfsizlik va maxfiylik:** Turizmda joriy etilgan innovatsion texnologiyalar biznes va mijozlarning xavfsizligi va shaxsiy hayotiga oid masalalarni birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak. U ma’lumotlarni himoya qilish qoidalariga muvofiq bo‘lishi va mijozlar ma’lumotlarining xavfsiz saqlanishi va boshqarilishini ta’minlashi kerak.

7. **Barqarorlik:** innovatsion texnologiyalarni joriy etish turizm sanoatidagi barqaror amaliyotlarga mos kelishi kerak. Bu atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish, energiya sarfini kamaytirish va mas'uliyatli turizm amaliyotlarini targ'ib qilishni o'z ichiga oladi.
8. **Manfaatdor tomonlarning ishtiroki:** Turizmda innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun turizm korxonalari, davlat idoralari, sanoat assotsiatsiyalari va mahalliy hamjamiyat kabi asosiy manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki va yordami bo'lishi kerak.
9. **Infratuzilmaning mavjudligi:** Turizm sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash uchun ishonchli internet aloqasi, elektr ta'minoti va jismoniy infratuzilma (masalan, elektr transport vositalari uchun zaryadlash stansiyalari) kabi yetarli infratuzilma mavjud bo'lishi kerak.
10. **Normativ-huquqiy baza:** Turizmda innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy baza muhim ahamiyatga ega. Muvofiqlikni ta'minlash, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday huquqiy yoki axloqiy muammolarni hal qilish uchun aniq ko'rsatmalar va siyosatlar mavjud bo'lishi kerak.

XULOSA

Turizm industriyasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish ko'p foyda keltirishi mumkin, ammo muayyan shart-sharoitlarni diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi. Tegishli infratuzilma, manfaatdor tomonlarning hamkorligi, foydalanuvchiga yo'naltirilgan dizayn, o'qitish va ta'lim, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik choralari va barqaror yondashuv turizm sektorida ushbu texnologiyalarning muvaffaqiyatli integratsiyasi va joriy etilishini ta'minlash uchun muhim omillardir. Ushbu shartlarni faol ravishda hal qilish orqali turizm sanoati mijozlar tajribasini yaxshilash va operatsion samaradorlikni oshirish uchun texnologiya yutuqlaridan foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PQ–3514-son qarori "O'zbekiston bo'ylab sayyohat qil!" ichki turizmni rivojlantirish dasturi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prizidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.https://www.unwto.org/sustainable-development
5. B. R. Dehqonov. Ichki turizmni ta'riflashda bo'lgan qarashlar va turizm shakllarini o'z ichiga olgan bog'liqliklar // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. – №4–1 (88), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022. – 81 b.
6. Rustamovich, Dehkonov Burhon. "Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan." Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28–33.

O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIY STRATEGIYASI” VA UNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI



Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti dotsenti

Annotatsiya: Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida barcha sohalar kabi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarning inson salomatligiga salbiy ta’sirining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ulkan ishlar barqaror rivojlanish kafolati bo‘lmoqda. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning dolzarb ekani so‘nggi yillarda mavjud iqtisodiy tizimlarda ko‘plab inqirozlar ro‘y bergani bilan izohlanadi. O‘zbekistonda 2019–2030-yillarda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish kontsepsiyasi qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, energiya samaradorligi ko‘rsatkichini ikki karra oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish, ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining yigirma besh foizidan ko‘prog‘iga yetkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiya bilan ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: atrof-muhit, tabiiy resurslar, ekologik muammolar, inson salomatligi, “Yashil” iqtisodiyot, energiya samaradorligi.

Abstract: At the new stage of development of our country, as in all sectors, the guarantee of sustainable development is the work on environmental protection, rational use of natural resources, prevention of the negative impact of environmental problems on human health. The urgency of the transition to a “green economy” is explained by the fact that in recent years there have been many crises in the existing economic systems. The concept of transition to a “green economy” in Uzbekistan for 2019–2030 includes a number of tasks. In particular, it provides for doubling the energy efficiency index, further development of renewable energy sources, bringing their share to more than twenty-five percent of the total electricity production, providing the population and sectors of the economy with modern, affordable and reliable energy.

Key words: environment, natural resources, environmental problems, human health, “green economy”, energy efficiency.

Аннотация: На новом этапе развития нашей страны, как и во всех отраслях, гарантией устойчивого развития является работа по охране окружающей среды, рациональному использованию природных ресурсов, предупреждению негативного воздействия экологических проблем на здоровье человека. Актуальность перехода к “зеленой” экономике объясняется тем, что в последние годы в существующих экономических системах произошло множество кризисов. Концепция перехода к “зеленой экономике” в Узбекистане на 2019–2030 годы включает ряд задач. В частности, предусматривается удвоение показателя энергоэффективности, дальнейшее развитие возобновляемых источников энергии, доведение их доли до более чем двадцати пяти процентов от общего объема производства электроэнергии, обеспечение населения и отраслей экономики современной, доступной и надежной энергией.

Ключевые слова: окружающая среда, природные ресурсы, экологические проблемы, здоровье человека, “зеленая экономика”, энергоэффективность.

KIRISH

Bugungi global ekologik muammolarning keskinlashuvi sharoitida jahon iqtisodiyotida “yashil taraqqiyot” tamoyillarini joriy etish obyektiv zaruriyatga aylandi. Yaqin kelajakda mamlakatda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgan. “Yashil” iqtisodiyotning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiy fanlarning bir yo‘nalishi sifatida o‘tgan asrning oxirlarida paydo bo‘ldi. Mazkur iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo‘lib, uning bir yo‘nalishi hisoblanadi. “Yashil” iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko‘plab boshqa sohalaridagi g‘oyalarni o‘z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan

bog‘liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil siyosat bilan bog‘liq iqtisodiyotni o‘z ichiga oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Butun dunyoda iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq muammoli vaziyatlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ekologik muammolar, tabiiy kapitalning tugab borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiya manbaalarining yetishmovchiligi, qashshoqlikning kengayishi “jigar rang” iqtisodiyotning asosiy salbiy oqibatlari hisoblanadi.

Jumladan, xorijiy olimlar Y. Lyaskovskaya va K. Grigorevalar “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini, “barqaror rivojlanish”, inklyuziv rivojlanish”, “yashil” va “jigar” rang iqtisodiyot modellarini ko‘rib chiqishgan.

“Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha bir qator rivojlangan Germaniya, Fransiya, Italiya, Gollandiya, Yaponiya va Xitoy kabi davlatlarning xalqaro tajribalari tahliliga ko‘ra, ushbu rivojlangan davlatlarda ham uzoq yillarga mo‘ljallangan aylanma iqtisodiyotga to‘liq o‘tish bo‘yicha ulkan loyihalar, chora-tadbirlar, “Yashil” iqtisodiyotni yaratish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish, davlat investitsiya fondlarining tashkil etilishi, atrof-muhitni boshqarish va bu borada bir qator ishlarning jadallik bilan olib borilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek olimlaridan B. B. Shoyqulovning ilmiy ishlarida “Yashil” iqtisodiyot, “Yashil taraqqiyot”, “Yashil makon”, “Yashil texnologiyalar” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

MAVZUNING METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O‘zbekistonda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish, “Yashil makon” dasturlarini amalga oshirish, “Yashil iqtisodiy strategiya”ni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, barqaror rivojlanish va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga e’tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda “Yashil” iqtisodiyotga oid bir nechta me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, “Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha innovatsiya, raqamlashtirish va axborot texnologiyalari sohasida hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lamining kengayib borayotganligi alohida ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib, “Yashil” iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi.

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston uglevodorod energiyasi – neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning qariyb yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiya qilish katta mablag‘ talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan “yashil energetika”ga o‘tish ming barobar afzal. Albatta, “Yashil” iqtisodiyot faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas. Uning ichiga toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o‘rmon hududlarini kengaytirish, cho‘llanishni qisqartirish kabi ko‘p qirrali va keng tarmoqli chora-tadbirlar kiradi.

Yana bir muhim jihati shundaki, “Yashil” iqtisodiyotdan davlat yoki biznes subyektlari emas, balki, eng avvalo, oddiy odamlar foyda ko‘radi. Bu uning ijtimoiy ahamiyatini anglatadi. Jahon tajribasidan ma’lum bo‘lishicha, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida “yashil texnologiyalar”ni joriy etish aholining yashash sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida shaharlardagi hayot qulaylashadi, bolalar o‘limi qisqaradi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi uzayadi va hokazo.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonida O‘zbekistonda ham bir qator ichki va tashqi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolarga tayyor turish va o‘z vaqtida bartaraf etish uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ–4477-sonli qarori bilan “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” qabul qilindi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi muammolar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda yangi bozor subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib borish;

2. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda davlat qaysi moliyaviy instrumentlardan foydalanmoqchi ekanini aniqlab olish;
3. “Yashil texnologiyalar”ni qo‘llashda banklar tomonidan BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog‘liq biznes-loyihalarga alohida e’tibor qaratish;
4. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda asosiy rol o‘ynaydigan iqtisodiyot tarmoqlarini belgilab olish;
5. Yaqin istiqbolda “yashil taraqqiyot”ning intellektual kuchi hisoblangan malakali kadrlar yetishmovchiligi muammosini hal etish;
6. “Yashil” iqtisodiyotga tezroq va nisbatan og‘riqsiz o‘tish uchun ilm-fan va innovatsiyalarni jadal rivojlantirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va turmush sifatini oshirish uchun moddiy ne’matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko‘paytirib borish lozim.
2. Ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo‘lishini inobatga olgan holda, bu resurslarni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko‘paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo‘nalishlardagi ishlarni jadallashtirish lozim.
3. Atrof-muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish va joriy etish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim.
4. Tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ko‘rish zarur.
5. Aholining doimiy o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat berish lozim.

Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, yashil iqtisodiyotda inson, tabiat va iqtisodiyotning bir-biri bilan uyg‘un va barqaror rivojlanishini ta’minlagan holda harakat qilish lozim bo‘ladi. Shu yo‘l bilan barqaror taraqqiyotga erishish bugungi global masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.lex.uz
2. https://www.uzanalytics.com//iqtisodi%D0%B5tG‘9449
3. https://zarnews.uz//post//yashil-iqtisodiyot
4. https://uzlidep.uz/news-of-party/11055
5. B. B. Shoyqulov. “Yashil” iqtisodiyotdan “Yashil taraqqiyot” sari. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnali. 2023 yil, 7-son. 12–16 betlar.



AN ANALYSIS OF THE STRUCTURE OF TRADE BETWEEN CHINA AND UZBEKISTAN

Cao Gang
PhD Candidate, National University of Uzbekistan; Associate Professor at Inner Mongolia University of Finance and Economics

Abstract: As a key hub of the Belt and Road Initiative and an important gateway from Asia to Europe, Uzbekistan is an important participant in the China-Central Asia Cooperation Mechanism, and China-Uzbekistan economic and trade cooperation is of increasing economic and strategic significance to the development of both countries. Under the Belt and Road Initiative and the New Uzbekistan Strategy, economic and trade relations between China and Uzbekistan have continued to take new leaps forward.

By comprehensively measuring Uzbekistan's import and export volume, growth rate, bilateral trade commodity structure, trade openness, export similarity index and Lawrence index, this paper concludes that both Uzbekistan and China have relatively high levels of trade openness, but Uzbekistan's economic development is more dependent on foreign trade. Bilateral trade between Uzbekistan and China has a greater impact on Uzbekistan than on China, while the commodity structure of Uzbekistan's exports to China is highly volatile, suggesting that Uzbek goods are relatively uncompetitive in the Chinese market. Uzbekistan's imports from China are much larger than its exports to China, and there is some risk that the trade deficit will widen year by year.

Key words: Uzbekistan-China bilateral trade; The structure of trade; Trade openness; Export similarity.

Annotatsiya: "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusining asosiy markazi va Osiyodan Yevropaga muhim darvoza sifatida O'zbekiston "Xitoy-Markaziy Osiyo" hamkorlik mexanizmining muhim ishtirokchisi bo'lib, Xitoy-O'zbekiston iqtisodiy va savdo hamkorligi tobora ortib borayotgani har ikki davlatning rivojlanishi uchun iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega. "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi va "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy va savdo munosabatlari yangi pog'onalarni egallashda davom etmoqda.

O'zbekistonning import va eksport hajmi, o'sish sur'ati, o'zaro tovar ayirboshlash tuzilmasi, savdo ochiqligi, eksport o'xshashlik indeksi va Lorens indeksini har tomonlama o'lchab, ushbu maqola ham O'zbekiston, ham Xitoy savdo ochiqligining nisbatan yuqori darajasiga ega ekanligini tahlil qiladi. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi ko'proq ana shu tashqi savdo bo'yicha hamkorliklarga bog'liq, degan xulosaga keladi. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro savdo O'zbekistonga Xitoyga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga, O'zbekistonning Xitoyga eksportining tovar strukturasi o'ta o'zgaruvchanligi o'zbek tovarlari Xitoy bozorida nisbatan raqobatbardosh emasligini ko'rsatadi. O'zbekistonning Xitoydan importi Xitoyga eksportidan ancha ko'p va savdo taqchilligi yildan-yilga kengayib borishi xavfi bor, degan qarashni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston-Xitoy o'zaro savdosi; Savdo tuzilishi; Savdoning ochiqligi; Eksport o'xshashligi.

Аннотация: Будучи главным центром инициативы "Один пояс, один путь" и важными воротами из Азии в Европу, Узбекистан является важным участником механизма сотрудничества "Китай-Центральная Азия", а также растущего экономического и торгового сотрудничества между Китаем. и Узбекистана. Имеет экономическое и стратегическое значение для развития двух стран. В рамках инициативы "Один пояс, один путь" и стратегии "Новый Узбекистан" экономические и торговые отношения между Китаем и Узбекистаном продолжают достигать новых высот.

Путем всестороннего измерения объема импорта и экспорта Узбекистана, темпов роста, структуры торговли, открытости торговли, индекса сходства экспорта и индекса Лоуренса, в данной статье анализируется торговая открытость как Узбекистана, так и Китая. Анализируется, что она имеет относительно высокий уровень. Сделан вывод, что экономическое развитие Узбекистана в большей степени зависит от этого внешнеторгового сотрудничества. Взаимная торговля между Узбекистаном и Китаем затрагивает Узбекистан больше, чем Китай, а весьма изменчивая товарная структура экспорта Узбекистана в Китай указывает на то, что узбекские товары относительно неконкурентоспособны на китайском рынке. Импорт Узбекистана из Китая намного превышает его экспорт в Китай, и торговый дефицит, вероятно, будет увеличиваться из года в год.

Ключевые слова: узбекско-китайская взаимная торговля; Торговая структура; Открытость торговли; Экспортная аналогия.

1. INTRODUCTION

Since the establishment of diplomatic relations between Uzbekistan and China in 1992, economic and trade cooperation between the two countries has progressed and the volume of bilateral trade has continued to increase. Under the continuous promotion of “the Belt and Road Initiative”, the bilateral relations between Uzbekistan and China are constantly moving to a new level. As an important hub of the Belt and Road Initiative and an important gateway from Asia to Europe, Uzbekistan has great geographical advantages and a stable domestic situation, which provide a solid foundation for the development of economic and trade cooperation between Uzbekistan and China. How to make full use of the comparative advantages of Uzbekistan and China, expand the scale of bilateral trade, promote the trade balance between the two countries and optimise the trade structure of the two countries has become an important practical issue.

2. REVIEW OF RESEARCH

In January 1992, China and Uzbekistan formally established diplomatic relations and signed the Economic and Trade Agreement between the Governments of China and Uzbekistan, in which the two countries mutually recognized the granting of most-favoured-nation status to each other in trade[1]. Over the past 30 years since the establishment of diplomatic relations, bilateral ties have flourished, achieved fruitful results in the joint construction of the Belt and Road and the Shanghai Cooperation Organisation (SCO), further deepened strategic mutual trust, expanded mutually beneficial cooperation and comprehensively promoted intergenerational friendship, thus elevating China-Uzbekistan relations to a new level of comprehensive strategic partnership. China has become one of the most important trading partners and source countries of investment for Uzbekistan, with bilateral trade volume reaching a record high. Chinese technologies and standards have given new impetus to the long-term development of the Uzbekistan economy.

The two countries signed important documents on expanding trade, economic, financial and investment cooperation and the establishment of an intergovernmental commission on this issue, the establishment of technical and economic cooperation on the avoidance of double taxation and mutual assistance in customs matters[2].

China is one of the countries that invests the most in the economy of Uzbekistan. On the basis of preferential and commercial loans of the Chinese government, more than 60 large projects were implemented in Uzbekistan[3].Begaliev[4] discussed the long-term mutually beneficial relations between Uzbekistan and China. Dadabaev[5] discussed the impact of Chinese engagement in Uzbekistan. Rashidova[6] investigated the history of formation and development of Uzbek-Chinese relations in the economic sphere. There are more articles that qualitatively analyze Uzbekistan-China relations, but fewer analyze the structure of bilateral trade between Uzbekistan and China.

3. RESEARCH METHODS

In order to promote trade cooperation between China and Uzbekistan, optimise the trade structure, and understand the direction of cooperation and the trade potential of the products of the two countries, statistical analysis tools and methods are used to conduct a comprehensive analysis of the import and export trade situation between Uzbekistan and China, to measure the degree of trade dependence, the degree of trade openness, the export similarity index and the Lawrence index, to sort out the characteristics of bilateral trade between Uzbekistan and China and the changes in the structure of commodities, and to provide the governments of the two countries with a reference for deepening bilateral economic and trade cooperation.

4. ANALYSIS AND DISCUSSION

4.1 General situation of trade between China and Uzbekistan

Over the past 30 years since the establishment of diplomatic relations, the scale of trade between China and Uzbekistan has expanded rapidly, with bilateral trade increasing 140 times. In 2022, bilateral trade amounted to $8.92 billion, up 19.7 per cent year on year, accounting for 17.8 per cent of Uzbekistan’s total foreign trade. Among them, Chinese exports amounted to $6.4 billion, up 30 per cent year-on-year, while Chinese imports amounted to $2.52 billion, down 0.4 per cent year-on-year. China is Uzbekistan’s first largest source of imports and second largest export destination.

Using the UN Comtrade database, with China as the reporter and Uzbekistan as the partner, the development of bilateral trade between Uzbekistan and China for the period 2003–2022 was compiled, as shown in Table 1.

Table 1: Changes in Uzbekistan's import and export volumes with China, 2003–2022

Years	Value Of Import		Value Of Export		Value Of Import and Export		Trade Surplus
	Value (billions of dollars)	Growth rate (%)	Value (billions of dollars)	Growth rate (%)	Value (billions of dollars)	Growth rate (%)	
2004	1.72	33.72%	4.03	11.66%	5.75	65.71%	2.31
2005	2.30	76.52%	4.50	25.78%	6.8	18.26%	2.2
2006	4.06	88.42%	5.66	–35.87%	9.72	42.94%	1.6
2007	7.65	67.06%	3.63	–9.37%	11.28	16.05%	–4.02
2008	12.78	22.14%	3.29	6.08%	16.07	42.46%	–9.49
2009	15.61	–24.34%	3.49	272.78%	19.1	18.86%	–12.12
2010	11.81	15.07%	13.01	–37.97%	24.82	29.95%	1.2
2011	13.59	31.20%	8.07	35.32%	21.66	–12.73%	–5.52
2012	17.83	46.55%	10.92	77.47%	28.75	32.73%	–6.91
2013	26.13	2.49%	19.38	–17.54%	45.51	58.30%	–6.75
2014	26.78	–16.77%	15.98	–20.71%	42.76	–6.04%	–10.8
2015	22.29	–9.96%	12.67	26.84%	34.96	–18.24%	–9.62
2016	20.07	36.97%	16.07	–8.46%	36.14	3.38%	–4
2017	27.49	43.51%	14.71	2.18%	42.2	16.77%	–12.78
2018	39.45	27.55%	15.03	57.42%	54.48	29.10%	–24.42
2019	50.32	2.13%	23.66	–31.57%	73.98	35.79%	–26.66
2020	51.39	14.46%	16.19	–4.82%	67.58	–8.65%	–35.2
2021	58.82	27.58%	15.41	47.70%	74.23	9.84%	–43.41
2022	75.04	17.01%	22.76	101.50%	97.8	31.75%	–52.28

Source: UN Comtrade database

As can be seen from the data in the table, in 2003 the total trade between Uzbekistan and China was only $347 million, China imported $200 million from Uzbekistan, exported $147 million to Uzbekistan, and Uzbekistan's net export to China was $53 million. By 2022, the volume of bilateral trade between Uzbekistan and China will have reached $9.78 billion, with Uzbekistan exporting $2.276 billion to China, Uzbekistan importing $7.504 billion from China, and Uzbekistan's net export to China being -$5.228 billion.The volume of bilateral trade in 2022 will have increased 27 times compared to 2003, with an average annual growth rate of 19.21 percent. The volume of Uzbekistan's import trade with China increased 50 times, realizing an average annual growth rate of 23.00%. The volume of Uzbekistan's export trade with China has increased 10 times, realizing an average annual growth rate of 13.65%.




Figure 1: Import and export trade of Uzbekistan with China, 2003 - 2022

Source: UN Comtrade database

As can be seen from Figure 1, Uzbekistan's imports, exports and total imports and exports to China show an overall increasing trend, except for a small decline in 2014 and 2015. Before 2007, Uzbekistan's trade with China showed an overall surplus, and after 2007, Uzbekistan's trade with China showed an overall deficit, and the deficit is growing rapidly.

The growth rate of trade is a direct reflection of the characteristics of changes in trade, and since 2003 the growth rate of trade between Uzbekistan and China has shown some fluctuation. This is shown in Figure 2.




Figure 2: Changes in the growth rate of Uzbekistan's import and export trade with China, 2003–2022

Source: UN Comtrade database

As shown in Figure 2, The growth rate of imports from China is more volatile. It has been increasing year on year since 2004. After peaking in 2007, it fell sharply in 2008, 2009 and 2010. It then recovered, but there was another significant fall in 2014 and 2015, followed by steady growth and, after a small dip due to the epidemic in 2020, a rapid growth trend.

The growth rate of exports from Uzbekistan to China varies considerably and was as high as 272.78% in 2010. In 2007, the growth rate of exports from Uzbekistan to China declined significantly, but Uzbekistan's imports from China showed a growing trend, and in 2011 and 2020, the growth rate of exports from Uzbekistan to China also declined significantly.

The growth rate of total trade between Uzbekistan and China is influenced by the growth rates of both imports and exports, with less fluctuation overall. The growth rates of total trade for imports and exports in 2013 and 2019 are 58.30% and 35.79% respectively, indicating that Uzbekistan and China are experiencing faster trade growth in these years.

4.2 Uzbekistan's trade dependence with China

Trade between Uzbekistan and China has been growing, while China's trade with Uzbekistan as a percentage of China's imports has remained small and almost unchanged due to the fact that China's economic and production capacity is much larger than that of Uzbekistan.



Figure 3: Changes in the share of China-Uzbekistan imports and exports in China-Uzbekistan trade, 2003–2022

Source: UN Comtrade database

From China: in the time period from 2003 to 2022. Uzbekistan's imports from China as a percentage of China's total exports remained between 0.03% and 0.21%, indicating that Uzbekistan's market is relatively small, contributes less to China's export commodities and does not have a significant impact on China's total exports.

Uzbekistan's exports to China as a percentage of China's total imports remain between 0.03% and 0.11%, indicating that the scale of Uzbekistan's exports to China's total imports is also relatively small, and that China's import market's dependence on Uzbekistan's exports of goods is very low and does not have a significant impact on China's total imports.

The share of total Uzbekistan-China trade in China's total foreign trade remains between 0.04% and 0.16%, indicating that Uzbekistan's trade with China is relatively small and has a limited impact on China's total foreign trade.

From the perspective of Uzbekistan: The share of imports from China in Uzbekistan's total imports ranges from 5.06% to 24.39% in the period from 2003 to 2022.This indicates a gradual increase in the share of imports from China, making China one of the most important sources of imports for Uzbekistan.

The share of exports to China in Uzbekistan's total exports ranges from 5.38% to 13.55%, indicating that China is one of the most important markets for Uzbekistan's merchandise exports.

The share of total Uzbekistan-China trade in Uzbekistan's total foreign trade ranges from 5.24% to 19.54%, showing year-on-year growth and increasing importance for Uzbekistan's economic development, indicating that China has become one of Uzbekistan's most important trading partners.

4.3 Trade openness of Uzbekistan and China

Trade openness is usually expressed as the ratio of a country's total foreign trade in a given year to its gross domestic product (GDP) in the same year. The formula is as in (1):

$$I_{to}^{a} = \frac{M_a + X_a}{GDP_a} \quad (1)$$

In the formula: Itoa is country's trade openness index, Ma is the value of country's imports from the world in a given year. Xa is the value of country a's global exports in a given year. The sum of the two represents the total trade of country a in a given year. GDPa is the GDP of country a in a given year. The greater the trade openness and the higher the share of international trade in a country's economic production activities, the deeper the country's participation in international trade, the greater its dependence on international markets and the more open its trade environment and policies.



Figure 4: Trend in trade openness between Uzbekistan and China, 2003–2022

Source: UN Comtrade database

As shown in Figure 4, Uzbekistan's trade openness generally shows a downward and then an upward trend. China's trade openness generally shows a decreasing trend. Uzbekistan's trade openness is higher than China's trade openness in both the periods 2003–2009 and 2017–2022. In the period 2010–2016, China's trade openness is higher than Uzbekistan's.

Overall, despite some fluctuations, both China and Uzbekistan have maintained relatively open trade policies, and both countries have a high degree of openness to foreign trade. However, Uzbekistan's economic development is more dependent on foreign trade, and its reliance on imports of key products and technologies may put it at a disadvantage in international competition, making it vulnerable to factors such as supply disruptions, price fluctuations or quality problems, and increasing economic risks. At the same time, large trade deficits in recent years have required borrowing from other countries or the use of foreign exchange reserves to pay for the difference in imported goods and services, and a prolonged trade imbalance can lead to economic instability and debt accumulation.

4.4 Current status of the trade structure between Uzbekistan and China

The natural and human resource endowments of different countries, As well as the total economic volume, industrial scale and foreign trade policy to determine its import and export commodity structure. Developed countries tend to export capital and technology-intensive products, while developing countries tend to export resource- and labour-intensive products. The structure of trade between Uzbekistan and China has also changed significantly over the last two decades. Uzbekistan's exports to China in 2022 are shown in Figure 5.




Figure 5: Uzbekistan's exports to China by commodity group in 2022

Source: UN Comtrade database

The highest export value was SITC 3 (Mineral fuels, lubricants, and related materials), amounting to $1.071 billion, or 47.06%; In second place is SITC 6 (Manufactured goods) with $711 million or 31.23%; The third is SITC 5 (Chemicals and related products), with an amount of $178 million, or 7.8%; In fourth place was SITC 0 (Food and live animals) with $147 million or 6.47%; Fifth is SITC 9 (Commodities not elsewhere specified) with $113 million or 4.96%. The rest of the commodities are smaller in amount. A comparison of Uzbekistan's exports of goods to China over the period 2003–2022 is shown in Figure 6.




Figure 6: Changes in Uzbekistan's exports of commodities to China, 2003–2022

Source: UN Comtrade database

From the graph, it can be seen that the change of Uzbekistan's export goods to China is quite significant, before 2013, the highest export value is SITC 2 (Crude materials, excluding fuels), and then the share of this category of goods has been decreasing. SITC 3 (Mineral fuels, lubricants and related materials) has increased significantly since 2013, and has basically stabilised in the first place. SITC 6 (Manufactured goods) has always been on a growing trend, and has basically stabilised in the second place after 2017.SITC 5 (Chemicals and related products) has less fluctuation overall, and the export scale is relatively stable. Uzbekistan's imports from China in 2022 are shown in Figure 7.




Figure 7: Uzbekistan's Imports from China by Commodity Category, 2022

Source: UN Comtrade database

The highest import value was SITC 7 (Machinery and transportation equipment), amounting to $3.743 billion, or 49.88%; In second place is SITC 6 (Manufactured goods) with $2.174 billion or 28.97%; The third is SITC 5 (Chemicals and related products), with an amount of $727 million, or 9.68%; In fourth place is SITC 8 (Miscellaneous manufactured articles), with an amount of $637 million, or 8.48%; Fifth is SITC 0 (Food and live animals) with $101 million or 1.35%. The rest of the commodities are smaller in amount.

Compare the changes in Uzbekistan's imports of goods from China over the period 2003–2022, as shown in Figure 8.




Figure 8: Changes in Uzbekistan's imports from China, 2003–2022

Source: UN Comtrade database

Uzbekistan's imports of SITC 7 and SITC 6 from China are growing at the fastest rate and the amount of imports is much larger than that of the other commodities; SITC 5 and SITC 8 are growing at the second rate

and the amount of imports is also at the second level, but it is still much larger than that of the other commodities, and the overall change of the remaining other categories is relatively small and the amount of imported commodities is relatively small.

The structure of export trade between Uzbekistan and China is very different. In 2022, China's exports are characterised by diversification. As shown in Figure 9, China's largest foreign export is SITC–7 with a share of 46.42%. It is followed by SITC–8 with a share of 22.14%. SITC–6, with a share of 16.64%, and SITC–5, with a share of 8.72%, are also exported more frequently. China's foreign exports of other major product categories are involved, but account for a relatively small share.




Figure 9: Commodity structure of China's exports and their share in 2022

Source: UN Comtrade database

Uzbekistan's export structure is characterised by diversity. As shown in Figure 10, the main commodities exported by Uzbekistan to the world in 2022 are SITC–6 with a share of 29.09%, followed by SITC–9 with a share of 28.98%, and in the order SITC–0 with a share of 10.26%, SITC–3 with a share of 7.94%, SITC–8 with a share of 7.22%, SITC–5 with a share of 6.58%, SITC–7 with a share of 6.42% and a relatively small percentage of the remaining products.




Figure 10: Commodity structure of Uzbekistan's exports and their share in 2022

Source: UN Comtrade database

In terms of the share of different categories, the structure of Uzbekistan's and China's exports of commodities is very different. To further illustrate the differences in the commodity export structure of the two countries, an export similarity index has been introduced.

In 1979, Finger and Kreinin[7] first introduced the concept of an export similarity index to measure the similarity of exports of two countries or coalitions of countries in either the world market or a third party market. The index is based on the share of each product in each country's total exports and calculates the sum of the

minimum values of each product's share. This is done to remove the effects of large differences in country size from the results. Click and Rose[8] modified the export similarity index by replacing the export value with the export share and the modified formula is expressed as follows:

$$ESI_{(ab,\ c)} = \sum_{i}^{n}\left[\frac{\frac{E_a^i}{E_a}+\frac{E_b^i}{E_b}}{2}\right]\times\left[1-\left|\frac{\frac{E_a^i}{E_a}-\frac{E_b^i}{E_b}}{\frac{E_a^i}{E_a}+\frac{E_b^i}{E_b}}\right|\right]\times 100\% \quad (2)$$

In the formula: Ei ac and Ei bc represents total exports of commodity i from country a or b to third country c. Eac and Ebc represents total exports of commodities from country a or b to a third country c. The index takes values between 0 and 1. If it is equal to 0, there is no competition. If it takes the value of 1, there is perfect competition. The trade similarity index between Uzbekistan's and China's exports to the world for the period 2018–2022 was measured using UN Comtrade data, as shown in the Table 2.

Table 2: Trade similarity index between Uzbekistan and China, 2018–2022

Years	SITC 0	SITC 1	SITC 2	SITC 3	SITC 4	SITC 5	SITC 6	SITC 7	SITC 8	SITC 9	ESI
2022	2.05	0.09	0.70	1.79	0.10	6.58	16.64	6.42	7.22	1.37	42.95
2021	2.11	0.08	0.64	1.24	0.01	5.99	16.16	4.89	5.58	1.20	37.89
2020	2.49	0.10	0.58	1.21	0.05	4.12	16.85	3.35	4.63	1.10	34.49
2019	2.64	0.14	0.65	1.87	0.05	4.00	16.36	2.53	2.91	0.72	31.87
2018	2.67	0.15	0.69	1.87	0.00	6.14	16.35	1.87	3.09	0.24	33.06

Source: UN Comtrade database

A comparison of the five-year data shows that Uzbekistan and China have the highest similarity index for SITC 6 products, with a maximum value of 16.85%, and there is weak competition between the two countries in the export of this product category, while there is almost no competition in other product categories. The export similarity index between Uzbekistan and China is increasing, but the value of this index is less than 50%, which indicates that there is no significant competition between goods exported from Uzbekistan and China.

The Lawrence index was introduced to reflect changes in the structure of Uzbekistan's and China's merchandise exports. This index is used to measure changes in the structure of a country's exports, and its value ranges from 0 to 1. The lower the value of the index, the smaller the change in the commodity structure of the country's foreign exports, and the higher the value, the greater the change. The formula is as follows:

$$L = \frac{1}{2}\sum_{i}^{n}\left|S_{i,\ t} - S_{i,\ t-1}\right| \quad (3)$$

In the formula. EXi,t denotes the value of a country's trade in product i exported to the outside world in year t. Si,t denotes the trade value of a country's external exports of i in year t as a share of total external exports in that year. Using the UN Comtrade database with China as the reporter and Uzbekistan as the partner, the Lawrence index between Uzbekistan's and China's imports and exports of goods for the period 2004–2022 was calculated as shown in Figure 11.



Figure 1: Changes in the Lawrence Index of Uzbekistan's exports and imports with China, 2004–2022

Source: UN Comtrade database

As can be seen from the figure, the commodity structure of Uzbekistan's exports to China in 2004–2022 shows some volatility. The maximum value of the Lawrence index is 0.438 and the minimum value is 0.035, indicating that there are more obvious changes in the types of commodities exported by Uzbekistan to China.

The commodity structure of China's exports to Uzbekistan has been relatively stable overall, with the value of the index remaining below 0.1 for most of the time, indicating that there has not been much change in the types of commodities that China exports to Uzbekistan.

5. CONCLUSIONS

Between 2003 and 2022, Uzbekistan's bilateral trade with China grew at an average annual rate of 19.21%, the volume of trade increased 27-fold, and China became Uzbekistan's first source of imports and second destination for exports. It should be noted, however, that the size of Uzbekistan's trade deficit with China is also growing.

Overall, the share of Uzbekistan's exports to China as a percentage of China's imports and the share of Uzbekistan's imports from China as a percentage of China's exports are very small, indicating that Uzbekistan's bilateral trade with China has a limited impact on China. On the other hand, the share of Uzbekistan's exports to China as a percentage of Uzbekistan's exports and the share of Uzbekistan's imports from China as a percentage of Uzbekistan's imports are increasing significantly, suggesting that Uzbekistan's bilateral trade with China has a crucial impact on Uzbekistan's economic development.

Furthermore, measuring the openness of trade between Uzbekistan and China shows that both Uzbekistan and China have relatively open trade policies and both countries have a high degree of openness in foreign trade. However, Uzbekistan's economic development is more dependent on foreign trade, and its reliance on imports of key products and technologies may put it at a disadvantage in international competition, making it vulnerable to factors such as supply disruptions, price fluctuations or quality problems, and increasing economic risks.

A detailed analysis of the structure of bilateral trade between Uzbekistan and China shows that the structure of Uzbekistan's exports to China has changed significantly, indicating that the competitive advantages of Uzbekistan's commodities in the Chinese market are not significant enough, leading to marked fluctuations in the trade volume of some commodities. The commodity structure of China's exports to Uzbekistan is more stable, and the volume of trade has increased year by year.

Using the export similarity index to measure the exports of Uzbekistan and China to the world in 2018–2022, we find that the value of the export similarity index of Uzbekistan and China is lower than 0.5, but it is growing, which indicates that Uzbekistan and China have a weak competitive relationship in terms of export goods, but the competitiveness between them is increasing. Measuring the Lawrence index of bilateral trade between Uzbekistan and China also shows that the structure of Uzbekistan's exports to China shows some volatility and significant changes, while the structure of Uzbekistan's imports from China is more stable.

Reference:

1. Zhao Qingsong, China-Uzbekistan Economic and Trade Relations: History, Present Situation and Prospects. Xinjiang Finance and Economy, 2014(5): p. 67–74.
2. G'aniev, K. and J. Begaliev, History of Investment Cooperation Between Uzbekistan and the Chinese Republics. JournalNX, 2021. 7(05): p. 67–68.
3. A. D. M., Economic, Cultural And Political Of Uzbekistan And China Relations. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2023. 3(07): p. 19–22.
4. Begaliev, J., Cooperation of Uzbekistan and China: yesterday and today. ISJ Theoretical & Applied Science, 2020. 5(85): p. 816–820.
5. Dadabaev, T., The Chinese economic pivot in Central Asia and its implications for the Post-Karimov re-emergence of Uzbekistan. Asian Survey, 2018. 58(4): p. 747–769.
6. Rashidova, F. S., Uzbekistan-China is on the way of strengthening bilateral relations. Theoretical & Applied Science, 2017(12): p. 80–86.
7. Finger, J. M. and M. E. Kreinin, A measure ofexport similarity'and its possible uses. The Economic Journal, 1979. 89(356): p. 905–912.
8. Glick, R. and A. K. Rose, Contagion and trade: why are currency crises regional? Journal of international Money and Finance, 1999. 18(4): p. 603–617.



“DAKA-TEX” MCHJ XKNING MARKETING FAOLYATINING TAKOMILLASHTIRISH

Musyeva Shoira Azimovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instiiuti Marketing kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada marketing tamoyillarining ahamiyati, Marketing tahlilining asosiy yo‘nalishlari va ko‘rsatkichlarini aniqlash, Ishlab chiqarish korxonalarida marketing tahlilini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish, tovar ishlab chiqarish va iste’molchiga xizmat ko‘rsatish ko‘rib chiqilqan.

Kalit so‘zlar: Korxona, iste’molchiga xizmat ko‘rsatish, talab, samara, realizatsiya, raqobat.

Abstract: This article considers the importance of marketing principles, determining the main directions and indicators of marketing analysis, developing ways to improve marketing analysis in production enterprises, product production and customer service.

Key words: Enterprise, customer service, demand, efficiency, realization, competition.

Аннотация: В данной статье рассмотрено значение принципов маркетинга, определение основных направлений и показателей маркетингового анализа, разработка путей совершенствования маркетингового анализа на производственных предприятиях, производстве продукции и обслуживании клиентов.

Ключевые слова: Предприятие, обслуживание клиентов, спрос, эффективность, реализация, конкуренция.

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarish korxonalariga keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Ularga berilayotgan imtiyozlar va preferensiyalar samarasi o‘laroq, korxonalarning o‘z ixtiyorida qoladigan mablag‘larining ko‘payishi, yangi kuchlar ishga tushirilishi hamda aholi farovonligi oshishiga xizmat qilmoqda. Iqtisodiyotimizda, mamlakatning xo‘jalik faoliyatida bunday ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rish, albatta, quvonarli. Ammo, bugun har birimiz yaxshi bilamizki, bozor iqtisodiyoti o‘ta shafqatsiz va raqobat, deya atalmish kurashlar majmuyi ta’sir doirasida amal qiladigan iqtisodiy tizim hisoblanadi. Bu tizimda ayrim korxonalar bir-birlari bilan hamkorlik qilib faoliyat yuritishadi, turdosh korxonalar esa, doimiy raqobat kurashida bo‘ladilar. Ular o‘z xo‘jalik faoliyatlarida har doim zamon talabiga, aniqrog‘i bozor talabiga moslashib, turli-tuman tovarlar ishlab chiqaradilar va realizatsiya qiladilar.

O‘zbekistonda korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Hukumat to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish kabi turli sohalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirdi. Masalan, hukumat to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida to‘qimachilik klasterlarini tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishda fermerlarga davlat tomonidan ham moliyaviy yordam ko‘rsatildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta’kidlash lozimki korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi uning bozorga yo‘naltirilgan siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Marketing faolyatining rivojlantirish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug‘ullanib kelgan Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan olimlarni ham e’tirof etish lozim. Bularga R. Ibragimov. YO. Abdullaev, A. Saliev, M. SHarifxo‘jaev, D. Raximova, Sh. Ergashxodjaeva va boshqalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birgalikda nazariy ishlanmalarni amliyotga tatbiq qilish va korxonalarda qo‘llash bo‘yicha uslubiy ishlar etarli darajada emasligini aytib o‘tish lozim. Nazariy tavsiyalarni amalda qo‘llash uchun har bir korxonadan o‘z tajribasidan kelib chiqishi, unda tegishli ilmiy izlanishlar olib borilishi va nazariyani joriy qilish uchun tavsiyalar hamda tizimlar ishlab chiqilishini talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot maqsadiga “Daka-Tex” MCHJ XK ni samarali boshqarishda marketing tamoyillarini qo‘llash usullarni aniqlash kiradi.

Ushbu maqsadga erishi uchun tadqiqotda quyidagi vazifalar hal qilingan:

- Zamonaviy boshqaruv nazariyasida marketing tamoyillarining ahamiyati;
- Marketing faoliyatida tahliliy funksiya mazmunini ochib berish;
- Marketing tahlilining asosiy yo‘nalishlari va ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- Tanlangan korxonaning marketing faoliyati tahlilini amalga oshirish;
- Ishlab chiqarish korxonalarida marketing tahlilini takomillashtirish yo‘llarin ishlab chiqish.

Marketing tamoyillari marketing asosini va uning mohiyatini ochib beruvchi holat, talabdir. Marketingni mohiyati – tovar ishlab chiqarish va iste’molchiga xizmat ko‘rsatish, talab ishlab chiqarish imkoniyatlarini doimo bozor talabiga mo‘ljallashdan iborat. Marketing mohiyatidan quyidagi asosiy tamoyillar kelib chikadi:

- iste’molchilarga nima kerak bo‘lsa ushani ishlab chiqarish kerak;
- bozorda tovarlar va xizmatlar taklifi bilan emas, balki iste’molchilarning muammolarini yechish vositalari bilan ishlash;
- tovar ishlab chiqarishni ehtiyoj va talabni tadqiq qilgandan so‘ng tashkil etish kerak;
- firmani ishlab chiqarish – eksport faoliyatining oxirgi natijalariga konsentr-lashganini kuchaytirish;
- marketing konsepsiyasi vositalarini qo‘llash asosida marketing dasturini shakllantirishga olib keluvchi qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun kompleks yondashish va maqsadli dastur uslubini ishlatish;
- tovarni iste’molchiga siljitishni barcha bo‘g‘inlarini marketing bilan qamrab olish maqsadida bir vaqtni o‘zida maqsadli yo‘naltirilgan ta’sir asosida bozor talabiga mos keluvchi tovar ishlab chiqarish strategiya va taktikasini qo‘llash;
- korxona faoliyatini va marketing xizmatini bozorda tovar xulq-atvorini bashorat qilishi va strategik rejalashtirishni amalga oshirish asosida samarali kommunikatsiyani uzoq muddatli istiqboliga mo‘ljal olish;

Marketing tahlilining muhim qismi – bu iqtisodiy va moliyaviy ko‘rstkichlarning tahlilidir. “Daka-Tex” MCHJ XK mustaqil xo‘jalik subyekti bo‘lganligi sababli uning bozordagi faoliyati avvalo iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan ifodalaishi lozim. Shu sababli korxonada boshqaruv faoliyati tashkil etilganligini o‘rganish uchun moliyaviy hisobtlarning tahlilini bajarishimiz lozim bo‘ladi.

1-jadval: 2018–2022-yillar davomida “DAKA-TEX” MChJ XK balansining aktivlari tarkibining o‘zgarish dinamikasi tahlili

Balans aktivi	2018-yil boshida	2018-yil oxirida	2019-yil oxirida	2020-yil oxirida	2021-yil oxirida	2022-yil oxirida
	Mln so‘m	Mln so‘m	Mln so‘m	Mln so‘m	Mln so‘m	Mln so‘m
Jami aktivlar	**26 230,91**	**29 134,35**	**33 088,29**	**37 974,40**	**40 696,23**	**52 815,78**
1.1 Uzoq muddatli aktivlar	1 000,44	866,25	2 319,02	2 209,41	3 952,52	3 495,51
1.2 Joriy aktivlar	25 230,47	28 268,10	30 769,27	35 764,99	36 743,71	49 320,27
1.2.1 Tovar-xomashyo zaxirasi	10 861,01	14 072,09	10 626,47	13 461,32	11 750,33	14 155,52
1.2.2 Kelgusi davr xarajatlari	0,60	1 274,68	116,63	20,74	0,00	0,02
1.2.3 Umumiy debitorlar	10 954,55	8 728,27	19 822,14	21 156,91	21 332,64	35 040,40
1.2.4 Pul shaklidagi qiymat	3 414,31	4 193,06	204,03	1 026,02	3 570,74	24,33

Moliyaviy tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, “DAKA-TEX” MCHJsi o‘z faoliyatida moliviy mustahkamlikka juda katta e’tibor bermoqda. Buni oxirgi to‘rt yilda oli borligan moliviy siyosat natijalaridan ham ko‘rish mumkin.

“Daka-Tex” MChJ XK ning marketing faoliyatini tahlil qilar ekanmiz uning marketing kompleksi bo‘yicha siyosatini albatta ko‘rib chiqishimiz kerak bo‘ladi.

Marketing kompleksining asosiy tarkibiy elementi, uning rivojlanishining dastlabki bosqichi tashkilot (korxona)ning tovar (mahsulot) siyosatini shakllantirish va amalga oshirishdir.

“Daka-Tex” MChJ XK da asosiy ishlab chiqariladigan tovarlar:

1) ip-kalava;

2) trikotaj matosidir.

Ip-kalava mahsulotlari Ishlab chiqarish va qadoqlash to‘liq yevropa texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. Korxona Ne 20/1 va Ne 30/1 raqamli ikki xil turdagi ip-kalava mahsuloti ishlab chiqaradi. kuniga o‘rtacha 9 tonnadan, har oyda esa 250–300 tonna mahsulot ishlab chiqariladi. Korxona omborida omborida katta miqdordagi kalava zaxiralari mavjud bo‘lib, bu hamkorlarga doimiy mavjudlik va uzluksiz yetkazib berishni kafolatlaydi. Ip-kalavani qadoqlashda 1 qutiga 24 tadan kalava joylanadi. 1ta kalavaning og‘irligi 2 kg 150 g/ni tashkil etadi.

“Daka-Tex” MChJ XK trikotaj matosini ishlab chiqarish borasida katta tajribaga va professional jamoaga ega.Trikotaj sexi Pilotelli (Italiya), Pailung (Tayvan) va Leadsfon (Xitoy) aylana to‘qish dastgohlari, Boosan (Xitoy) yassi to‘qish dastgohlari bilan jihozlangan. Bir va ikki halqali dumaloq trikotaj mashinalarining mavjudligi bu kompaniyaga barcha turdagi trikotaj matolarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Trikotaj matolar tabiiy paxtadan, elastan qo‘shilgan va aralash iplardan tayyorlanadi.

Kulirnaya glad – bu paxta trikotaj matolarining eng yupqasi bo‘lib, u 100% paxtadan yoki likra qo‘shilgan holda to‘qilgan. Kulirnaya glad ko‘ndalang yo‘nalishda yaxshi cho‘zilgan bo‘ladi. Undan tikilgan trikotaj kiyimlar juda engil va qulay bo‘lib, ular turli xil kiyimlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi: bolalar va kattalar ichki kiyimlari, futbolkalar, pijamalar, polo, turizm kiyimlari, maxsus kiyimlar va boshqalar.

Ushbu trikotaj matoning nomi ipning o‘ziga xos to‘quvi bilan bog‘liq. Ingliz tilidan tarjima qilingan interlok bir-birining ustiga chiqish, kesishish degan ma’noni anglatadi. Interlok ikkala tomondan ham bir xil ko‘rinadi. Bu juda yumshoq, ipak va ayni paytda bardoshli paxta trikotaj mato, u amalda cho‘zilmaydi, shuning uchun u ko‘pincha bolalar kiyimlari va ichki kiyimlarini tikishda ishlatiladi. Undan juda qulay pijamalar, tungi ko‘ylaklar, futbolkalar va hokazolar ham tikiladi.Interlok maxsus trikotaj dastgohlarida ma’lum burchak ostida mahkamlangan ikkita igna to‘shakda to‘qiladi.

Pike – zich paxta trikotaj mato bo‘lib, uning asosiy farqlovchi xususiyati asal qoliplari ko‘rinishidagi old yuzaning to‘qimasidir. Pike ham 100% paxta va likradan to‘qilgan bo‘ladi. Pike polo ko‘ylaklari kabi mashhur kiyimlarni tikishda keng qo‘llaniladi.

Ushbu trikotaj matolar maxsus to‘quv tufayli shunday nom olgan, unda astarli ip pastga teskari tomondan bog‘lab, uning tuzilishini hosil qiladi va qo‘shimcha jun bilan ishlov beriladi. Futer – bu ajoyib issiqlikdan himoya qiluvchi va ishqalanishga bardoshli trikotaj mato. Futer issiq mahsulotlarni tikishda ishlatiladi: kozoklar, qalpoqlar, sport kostyumlari, xalatlar, pijamalar va bolalar, o‘smirlar va kattalar uchun mahsulotlar.

Ribbana – kichik chiziqlardagi gofrirovka qilingan tuzilishga ega trikotaj mato. Elastikligi tufayli ribana ko‘pincha manjetlar va yoqalar uchun ishlatiladi, shuningdek bolalar va kattalar kiyimlarini ishlab chiqarishda ham qo‘llaniladi. Ribanadan tayyorlangan kiyim namlikni yaxshi qabul qiladi va shaklini yo‘qotmaydi. Ribana 100% paxtadan yoki likra qo‘shilishi bilan ham tayyorlanishi mumkin, bu uning elastikligini sezilarli darajada oshiradi.

Kashkorse – bu katta elastik tasmadagi tuzilishga ega bo‘lgan juda elastik trikotaj mato. Kashkorse ham 100% paxtadan, ham likra qo‘shilgan holda tayyorlanadi, bu uning elastikligini oshiradi va uni bo‘yinbog›lar va yenglar uchun manjetlar kabi kiyim-kechak buyumlarini ishlab chiqarishda foydalanish uchun moslashtiradi. Kashkorse ustki kiyim, bolalar kiyimlari va boshqalar ishlab chiqarishda ham keng qo‘llaniladi.

“Daka-Tex” MChJ XK narx siyosatini ishlab chiqishning vazifalari va mexanizmini korxonaning rivojlantirish maqsad va vazifalari, tashkiliy tuzilma va boshqaruv usullari, korxonada o‘rnatilgan an’analar, iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida narx siyosatini ishlab chiqish sxemasini mustaqil ravishda belgilaydi. Bunda unga ichki omillar sifatida ishlab chiqarish xarajatlari darajasi va boshqalar, shuningdek, tashqi omillar sifatida tadbirkorlik muhitining holati va rivojlanishi kabi omillar ta’sir qilishi mumkin.

“Daka-Tex” MChJ XK O‘zbekistondagi eng ilg‘or va yirik to‘liq siklli zavodlardan biri bo‘lib, u Rossiya va MDH davlatlarida kiyim-kechak sotuvchi yirik federal tarmoqlar bilan hamkorlik qiladi.U o‘z mahsulotlarini ya’ni trikotaj kalava va bo‘yalgan trikotaj matolarni Rossiya, Italiya, Turkiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarga yetkazib berish bilan shug‘ullanadi.

Shuinngdek, “Daka-Tex” MChJ XK buyurtma asosida ham ko‘p yillik tajribaga ega va mijozlarning buyurtmalarini sifatli va o‘z vaqtida yetkazib berib kelmoqda. Unga ko‘p yillar davomida Gloria Jeans, MODIS, Vse Mayki, Wildberries, Oodji, Detskiy mir, STAN, Teximport, Coca-Cola, Vostok Servis, Ekspert Spetsodejda, Ashan, Profmax, TexnoAvia, Bilayn va boshqa kompaniyalar ishonch bildirib kelmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki "Daka-Tex" MChJ XK da o'z mijozlari va hamkorlariga nisbatan marketingning siljitish va kommunikatsiya siyosatiga ham juda katta e'tibor qaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA,2012y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovы marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. – M.: OOO "I. D. Vilyams, 2013. – 752 s.
4. Soliev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjaeva SH. J., Qosimova M. S., YUsupov M. A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musaeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. Samarqand–2023
7. Musaeva Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasiO'quv qo'llanma "Mahorat" nashriyoti, Samarqand – 2022.
8. Musaeva Sh. A., Usmonova D. I. Innovatsion marketing "TURON EDITION" 2021-yil uchun o'quv qo'llanma.



MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINING O'RNI

Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich
PhD, TDIU Samarqand filiali

Shukurova Nilufar Qahramonova
TDIU Samarqand filiali, tadqiqotchi

Umirov Islombek Furkatovich
TDIU Samarqand filiali, tadqiqotchi

Tojiqulov Samandar Orufjon o'g'li
TDIU Samarqand filiali, tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va oziq-ovqat xavfsizligining hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilish, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy omillarni o'rganish, mamlakat iqtisodiy xavfsiligini taminlash, oziq-ovqat xavfsiligi uchun olib borilayotgan islohotlarning hozirgi davrdagi jarayonni o'rganish masalalari bo'yicha xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik, FAO, taqchillik, narxlarini barqarorlashtirish, prognoz.

Abstract: This article analyzes the current socio-economic situation of the economic security and food security of the country, as well as the study of economic, political, social factors in ensuring food security, ensuring the economic security of the country. Conclusions on the state of reforms in the field of food security and proposals on these issues are presented.

Key words: Security, food security, economic security, FAO, scarcity, price stabilization, forecast.

Аннотация: В данной статье проводится анализ современного социально-экономического положения экономической безопасности и продовольственной безопасности страны, а также изучение экономических, политических, социальных факторов обеспечения продовольственной безопасности, обеспечения экономической безопасности страны. Представлены выводы о состоянии реформ в области продовольственной безопасности и предложения по этим вопросам.

Ключевые слова: Безопасность, продовольственная безопасность, экономическая безопасность, ФАО, дефицит, стабилизация цен, прогноз.

KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligi barcha odamlar sog'lom va faol hayot kechirishlari uchun ularning oziq-ovqat imtiyozlari va ozuqaviy ehtiyojlariga javob beradigan yetarli, zararsiz va to'yimli oziq-ovqatdan doimiy ravishda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganda o'rnatiladi. Bu mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydigan hal qiluvchi omil hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat odamlar uchun, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishi uchun ham muhimdir. Har qanday mamlakat aholisining farovonligini va iqtisodiy o'sishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Jahon bo'yicha dunyoda to'yib ovqatlanmaydiganlar soni 2021-yilda 702–828 million kishi atrofida bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019–2020-yillarda 103 million kishiga, COVID–19 pandemiyasi davrida taxminan yana 50 million kishiga, faqatgina 2021-yilda yana 46 million kishiga ko'paydi. 2019–2022-yillarda dunyoda sog'lom oziq-ovqat iste'mol qila olishga qurbi yetmaydiganlar soni 112 million kishiga ko'payib, hozirda ularning soni 3,1 milliard kishini tashkil etmoqda[1].

1 ФАО, МФСР, ЮНИСЕФ, ВПП и ВОЗ. 2022 год. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2022. Переориентация политики в области продовольствия и сельского хозяйства в интересах повышения экономической доступности здорового питания. Рим, ФАО. https://doi.org/10.4060/cc0639ru

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) oziq-ovqat xavfsizligini barqaror rivojlanishga erishishning muhim asoslaridan biri sifatida belgiladi. Maqolada mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda oziq-ovqat xavfsizligining rolini o‘rganishga qaratilgan.

Dunyo aholisi doimiy ravishda o‘sib bormoqda va 2050-yilga borib 9,7 milliardga yetishi kutilmoqda, bu esa oziq-ovqat tizimiga katta bosim o‘tkazadi. Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar, suv tanqisligi va boshqa omillar oziq-ovqat ishlab chiqarish va tarqatishni qiyinlashtirishi mumkin. Iqtisodiy o‘sishga erishish uchun aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Binobarin, oziq-ovqat xavfsizligi iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlik va aholining umumiy farovonligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi: Meva va rezavorlar – 3 million tonna, Uzum – 1,8 million tonna, poliz ekinlari – 2,4 million tonna, sabzavot – 11,2 million tonna, kartoshka – 3,4 million tonna, don – 8 million tonnani tashkil etdi[2].

MATERIALLAR VA METODLAR


Mazkur maqolani tayyorlash davomida tadqiqot materiallari, milliy va xorijiy tadqiqotchilar ilmiy ishlari natijalari, shuningdek Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi statistik ma’lumotlaridan foydalanildi. Asosiy materiallar statistik ma’lumotlar asosida to‘planib, mavjud dasturiy ta’minotlar asosida tahlil etildi. Olingan ilmiy xulosalar ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Yaxshi amalga oshirilgan oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasi oziq-ovqat narxlarini barqarorlashtirish, qishloq xo‘jaligi sohasiga investitsiyalarni rag‘batlantirish va oziq-ovqat eksportini rag‘batlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatning import qilinadigan oziq-ovqatga bog‘liqligini kamaytirishi mumkin, bu esa, ko‘proq valyuta zaxiralarini saqlab qoladi va iqtisodiyotni tashqi zarbalardan himoya qiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini asosiy ta’minlovchi soha shubhasiz qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida aholi sonining oshib borish darajasi yuqori hisoblanib, aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash masalasi doimiy dolzarb hisoblanib, kelgusida ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir etib turuvchi muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra (1-rasm), aholiga muhim bo‘lgan 7 turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal miqdori belgilab berilgan. Tadqiqotlar davomida aynan go‘sht va go‘sht mahsulotlari, tuxum, sabzavot va poliz mahsulotlari, kartoshka, shakar, o‘simlik yog‘i va boshqa moylar hamda meva va uzum kabi asosiy 7 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari tadqiq etildi.



1-rasm: O‘zbekistonda aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining iste’mol qilish ilmiy asoslangan tibbiy me’yori, kg (dona)[3]

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari – www.stat.uz
3 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Unga ko‘ra, 1 yil davomida mamlakatdagi 1 kishi uchun o‘rtacha miqdorda go‘sht va go‘sht mahsulotlari – 40,2 kg, tuxum – 292 dona, sabzavot va poliz – 128,8 kg, kartoshka – 54,6 kg, shakar – 19,4 kg, o‘simlik yog‘i va boshqa moylar – 7,3 kg, meva va uzum – 90,6 kg.ni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida asosiy 7 turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga talabning qondirilishi tahlili 2022-yil ma’lumotlari asosida o‘rganilganida (1-jadval), 3 turdag oziq-ovqat mahsulotlariga talab yetarli darajada qondirilib kelinmoqda va talabdan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish holati mavjud. Ular jumlasiga: sabzavot va poliz mahsulotlari – 8946,8 ming tonna, kartoshka – 1477,6 ming tonna, meva va uzum – 1498,3 ming tonna miqdorida talabdan ko‘proq mahsulot yetishtirilgan. Shunday bo‘lsa-da, 4 turdagi oziq-ovqat mahsulotlarida taqchillik borligi sezildi: jumladan, go‘sht va go‘sht mahsulotlari – 234,0 ming tonna, tuxum – 2382,7 million dona, shakar – 206,3 ming tonna, o‘simlik yog‘i va boshqa moylar – 146,0 ming tonna talabga nisbatan kamroq mahsulot yetishtirilgan.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida asosiy 7 turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga talabning qondirilishi tahlili (2022-yil)

№	Mahsulotlar turlari	O‘lchov birligi	Mavjud talab	Ishlab chiqarilgan	Taqchillik (-), ortiqchalik (+)
1	Go‘sht va go‘sht mahsulotlari	ming tonna	1447,2	1213,2	–234,0
2	Tuxum	mln dona	10512	8129,3	–2382,7
3	Sabzavot va poliz mahsulotlari	ming tonna	4636,8	13583,6	8946,8
4	Kartoshka	ming tonna	1965,6	3443,2	1477,6
5	Shakar	ming tonna	698,4	492,1	–206,3
6	O‘simlik yog‘i va boshqa moylar	ming tonna	262,8	116,8	–146,0
7	Meva va uzum	ming tonna	3261,6	4759,9	1498,3

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma`lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi

Hozirgi kunda tuxumdan tashqari boshqa mahsulotlar talabni qondirish maqsadida import qilinmoqda. 2022-yilning yanvar-avgust oylarida O‘zbekistonga 9 ta davlatdan qiymati 141,9 million dollarga teng bo‘lgan 32,8 ming tonna qoramol go‘shti import qilingan[4].

Qayd etilishicha, qoramol go‘shti importi o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 13,8 ming tonnaga oshgan.

O‘zbekiston 2022-yilda qoramol go‘shtini Belarus (17,1 ming tonna), Qozog‘iston (11,6 ming tonna), Braziliya (1,4 ming tonna), Hindiston (967 tonna) va Rossiya (791 tonna) va boshqa mamlakatlardan import qilgan.

Aytish joizki, 2021-yilning 10 oyida ham undan oldingi yilga nisbatan mol go‘shti importi 7,3 ming tonnaga oshib, 23,9 ming tonnani tashkil qilgan edi. Umumiy tendensiyaga nazar soladigan bo‘lsak, O‘zbekistonga mol go‘shti importi 2017-yildan 2020-yilga qadar 87 tonnadan 22 ming tonnagacha oshgan[5].

Faqatgina mazkur 7 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ta’minoti holati va kelgusida ta’minot darajasi uchun zarur bo‘lgan talab miqdori o‘rganildi (2-jadval).

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasi aholisining oziq-ovqat mahsulotiga bo‘lgan talabi prognozi tahlili (2023–2050-yy.)*

№	Mahsulotlar turlari	O‘lchov birligi	Yillar		
			2023	2030	2050
			Aholi soni, million kishi		
			36,0	38,31	45,59
1	Go‘sht va go‘sht mahsulotlari	ming tonna	1447	1540,2	1832,8
2	Tuxum	mln dona	10512	11187	13313
3	Sabzavot va poliz mahsulotlari	ming tonna	4637	4934,7	5872,4
4	Kartoshka	ming tonna	1966	2091,9	2489,4
5	Shakar	ming tonna	698	743,3	884,5
6	O‘simlik yog‘i va boshqa moylar	ming tonna	263	279,7	332,8
7	Meva va uzum	ming tonna	3262	3471,2	4130,7

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va www.worldpopulationreview.com – World Population Review sayti ma`lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari

5 https://sputniknews.uz/20220923/ozbekistonga-gosht-importi-bir-necha-yildan-buyon-oshmoqda---statistika–28485112.html – O‘zbekistonga go‘sht importi bir necha yildan buyon oshmoqda – statistika. 23.09.2022

Tadqiqotlar davomida O‘zbekiston aholisi soni www.worldpopulationreview.com – World Population Review sayti ma`lumotlari asosida 2023-yilda – 36,0 million kishi, 2030-yilda – 38,31 million kishi, 2050-yilda – 45,59 million kishi deb olindi. Tahlillar ko‘rsatishicha, O‘zbekiston Respublikasi aholisi soni 2023-yilga nisbatan 2030-yilga borib – 6,4%ga, 2050-yilda – 26,6%ga oshadi va qariyb – 45,59 million kishini tashkil etadi. Aholi sonining bu darajada tezkorlik bilan oshib borishi yildan-yilga qisqarib borayotgan tabiiy resurslar (yer va suv resurslari), tezkor oshib borayotgan talab sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarining asoisy ishlab chiqaruvchisi bo‘lgan qishloq xo‘jaligida ekstensiv yo‘llardan tashqari, intensiv ishlab chiqarishga e’tiborni kuchaytirish zaruriyatini tug‘diradi.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2023-yilda O‘zbekiston aholisi uchun 7 turdagi asosiy mahsulotlariga bo‘lgan talab go‘sht va go‘sht mahsulotlari – 1447 ming tonnani, tuxum – 10512 million dona, sabzavot va poliz mahsulotlari – 4637 ming tonna, kartoshka – 1966 ming tonna, shakar – 698 ming tonna, o‘simlik yog‘i va boshqa turdagi moylar – 263 ming tonna, meva va uzum – 3262 ming tonnani tashkil etgan. Bu raqamlar ham aholi soniga yarasha 2030- va 2050-yillarga borib, mos ravishda 2023-yilga nisbatan 2030-yilga borib – 6,4%ga, 2050-yilda – 26,6%ga oshadi. Natijada go‘sht va go‘sht mahsulotlariga talab: 2030-yilda – 1540,2 ming tonnani tashkil etib, 2050-yilda – 1832,8 ming tonnaga boradi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabi 2050-yilda tuxum – 13313 million dona, sabzavot va poliz mahsulotlari – 5872,4 ming tonna, kartoshka – 2489,4 ming tonna, shakar – 884,5 ming tonna, o‘simlik yog‘i va boshqa turdagi moylar – 332,8 ming tonna, meva va uzum – 4130,7 ming tonnani tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan holda, agrobiznes sub’yektlari tomonidan ishlab chiqarish salohiyatini oshirish talab etiladi.

Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz aholisi 2050-yilga kelib birlamchi iste’mol savatchasining asosiy mahsulotlariga bo‘lgan talab keskin oshib boradi. Bu esa o‘z navbatida, odamlar ehtiyojini qondirish uchun ko‘proq sifatli va xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarishni, yetishtirishni talab etadi. Bu birgina bizning mamlakatimiz misolida albatta, jahon miqiyosida bu raqamlar soni anchayin kattani tashkil etishi mumkin: 2030-yilda – 8,5 mlrd kishini, 2050-yilda – 9,7 mlrd kishini, 2058-yilda – 10,0 mlrd kishini tashkil etadi6.

XULOSA

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda oziq-ovqat xavfsizligining o‘rnini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Bu iqtisodiy o‘sish va rivojlanish, milliy xavfsizlik va ekologik barqarorlikning asosiy shartidir. Oziq-ovqat xavfsizligining mustahkam tizimiga sarmoya kiritish hayot sifatini yaxshilash, qashshoqlikni kamaytirish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Shuning uchun hukumatlar, siyosatchilar va shaxslar farovon va barqaror kelajakni ta’minlash uchun oziq-ovqat xavfsizligini birinchi o‘ringa qo‘yishlari kerak.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda oziq-ovqat xavfsizligining o‘rni katta. Hukumat oziq-ovqat xavfsizligi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlik uchun muhim ekanligini anglab yetishi va mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘rishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga Prezident tabrigi. 11.12.2021 – https://president.uz/oz/lists/view/4827
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari – www.stat.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 22.12.2021. PQ–58.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida. VM–3720.01.2022.
6. Mirziyoyev Sh. M. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining barqarorligini ta’minlash va zaxirasini yaratish chora-tadbirlari. 05.09.2022 www.prezident.uz
7. Ibragimov G. A., Janibekov F. B., Nazarova M. S., Khurramov A. M., Tursunov O. M. The role of agricultural clusters in increasing the efficiency of Agriculture //Colloquium-journal: Economics, Earth sciences, Agricultural Sciences. -№14 (66), 2020. Warszawa, Polska. –p. 6–9. ISSN 2520–6990
8. Ibragimov Gayrat Ablaqulovich. Consulting Services in Uzbekistan Agriculture //Regional economic cooperation in Central Asia: Agricultural production and trade. 24–26 November 2014. Halle (Saale) |Germany.
9. Ibragimov Gayrat Ablaqulovich. Farms as a form of entrepreneurship in Agriculture / International Scientific conference-Symposium “Agricultural Transitions along the Silk Road: Restucturing, Resources and Trade in the Central Asia Region”.-Almaty, 2016.
10. Ibragimov Gayrat Ablaqulovich. The impact of agricultural services on farm profits //SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR). ISSN: 2319–1422 Vol 10, Issue 1, January 2021, Impact Factor SJIF 2020 = 7.126. –p 19–24.

6 https://www.worldometers.info/world-population/world-population-projections/ – dunyo aholisi prognozlari sayti ma’lumotlari

11. Ibragimov Gayrat Ablaqulovich. The impact of agricultural services on farm profits//SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR). ISSN: 2319–1422 Vol 10, Issue 1, January 2021, Impact Factor SJIF 2020 = 7.126. –p 19–24
12. Ibragimov Gayrat, Murtazaev Olim, Rakhmonov Davlat. Klaster tizimining qishloq xo‘jaligi samaradorligiga ta’siri// Agroiqtisodiyot. –Toshkent, 2020. -№1. –20–23 b.
13. Ibragimov Gayrat Ablaqulovich, Raxmonov Davlat, Vahobova Shahodat. Qishloq xo‘jaligida klaster tizimi: tashkil etish, muvaffaqiyatlar va kamchiliklar// Servis. –Samarqand, 2020. -№3. –29–32 b.
14. Kurramov Ortiqjon Kayumovich, Ibragimov Gayrat Ablaqulovich, Tursunov Ozod Matlubovich. Agrarian reforms in Uzbekistan: resources and results//Trends in Economics and Management for 21th Century: inter. conf. 2012 20th–22nd September. – Brno, Czech Republic, 2012. –pp–120–121.
15. Kurramov Ortiqjon Kayumovich, Ibragimov Gayrat Ablaqulovich, Tursunov Ozod Matlubovich. Role of using global network in sphere of service and tourism//Trends in Economics and Management for 21th Century: inter. conf. 2012 20th–22nd September. – Brno, Czech Republic, 2012. –pp–202–203.
16. Mamasoliev Sodikjon Avazalievich, Ibragimov Gayrat Ablaqulovich, Murtazaev Olim, Ganiev Ibragim Mamadievich, Mariusz Maciejczak. Production capacity and financial results of an enterprise from the grain industry in Uzbekistan.// ANNALS of The Polish Association of Agricultural and Agribusiness Economists, 2013. ISSN 1508–3535. Volume 15/5–11–15 pp.
17. Murtazayev O., Ibragimov G‘. A. Agroxizmatlar ko‘rsatishning fermer xo‘jaliklari oladigan foydaga ta’siri// Development issues of innovative economy in the agricultural sector: International scientific-practical conference on March 25–26, 2021. ISBN: 978–1–913482–59–6. –Samarqand, 2021. – 624 b– 4–10 b.
18. Murtazaev Olim, Ibragimov Gayrat Ablaqulovich The Effectiveness of Economic Relationships and Forecasting between Farms and Agricultural Services//The Indian Journal of Economics (ISSN: 0019–5170) Issue 400. Pages 6
19. Tursunov Ozod, Ibragimov Gayrat. Roles of investment and service system sector in agriculture//Visnik XNAU: Seriya Ekonomichni nauki. –XNAU, Xarkov, Ukraina, 2013. –№3. –s 203–215.
20. Rome Declaration on World Food Security. World Food Summit. 13–17 November, Rome. Italy. https://www.fao.org/3/W3613E/W3613E00.htm
21. ФАО, МФСР, ЮНИСЕФ, ВПП и ВОЗ. 2022 год. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2022. Переориентация политики в области продовольствия и сельского хозяйства в интересах повышения экономической доступности здорового питания. Рим, ФАО. https://doi.org/10.4060/cc0639ru
22. https://sputniknews.uz – O‘zbekistonga go‘sht importi bir necha yildan buyon oshmoqda – statistika. 23.09.2022
23. https://www.worldometers.info – dunyo aholisi prognozlari sayti
24. www.worldpopulationreview.com – World Population Review sayti ma`lumotlari.

MDH DAVLATLARIDA CHORVA VA PARANDACHILIK O‘SISH DINAMIKASI



Abidov Abdujabbor Abduxamidovich
T. f.n., dotsent, TDIU

Annotatsiya: Chorvachilikni o‘sish dinamikasini aniqlash va bashorat qilishda vaqt qatorlari ma’lumotlarini hisoblash ekonometrik modellardan foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi vaqtda, bir omilli korrellyatsion va regression tahlilni statistik ma’lumotlarni qayta ishlashda qo‘llash bo‘yicha mutaxassislar o‘rtasida ma’lum tajriba, yetarlicha malaka to‘plangan.

Chorvachilik holatini baholash va bashorat qilishda model tanlash va adekvatligini tasdiqlash bo‘yicha muammolar maqolada ko‘rilgan va ekonometrik kriteriyalarga javob beradigan tenglamalar tuzilgan. Olingan natijalar MDH mamlakatlari, chunonchi Respublikamizdagi chorvachilik va parandachilik o‘sishini bashorat qilish, oldindan baholashda ishlab chiqilgan modellardan foydalanish mumkinligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: Chorvachilikni o‘sish dinamikasi, vaqt qatorlari ma’lumotlarini modellashtirish, O‘zbekistonda chorvachilikni o‘sishini bashoratlash, korrelyatsiya, regressiya parametrlarini aniqlash, Fisher, Styudent kriteriyalari.

GROWTH DYNAMICS OF LIVESTOCK AND POULTRY IN THE CIS COUNTRIES

Abstract: Calculation of time series data in determining and predicting the dynamics of growth in livestock requires the use of econometric models. Currently, experts have sufficient experience and knowledge in the application of one-way correlation and regression analysis in the processing of statistical data.

The article discusses the problems of choosing a model and confirming its adequacy in assessing and predicting the state of the livestock, and also constructs equations that satisfy econometric criteria. The results confirmed that the models developed by the authors can be used to predict the growth of livestock and poultry, as well as in their preliminary assessment in the CIS countries, including the republic.

Key words: Dynamics of growth of livestock, modeling of time series, forecasting growth of livestock in Uzbekistan, correlation, regression parameters, Fisher’s, Student’s tests.

ДИНАМИКА РОСТА ЖИВОТНОВОДСТВА И ПТИЦЫ В СТРАНАХ СНГ

Аннотация: Расчет данных временных рядов при определении и прогнозировании динамики роста поголовья требует использования эконометрических моделей. В настоящее время эксперты обладают достаточным опытом и знаниями в области применения однофакторного корреляционного и регрессионного анализа при обработке статистических данных. В статье обсуждаются проблемы выбора модели и подтверждения ее адекватности в оценке и прогнозировании состояния поголовья, а также строятся уравнения, удовлетворяющиеся эконометрическим критериям. Результаты подтвердили, что модели, разработанные авторами могут быть использованы для прогнозирования роста поголовья скота и птицы, а также в предварительной их оценке в странах СНГ, в том числе в республике.

Ключевые слова: Динамика роста поголовья, моделирование временных рядов, прогнозирование роста поголовья в Узбекистане, корреляция, параметры регрессии, критерии Фишера, Стьюдента.

1. KIRISH

Evroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) sobiq ittifoq hududidagi omadli va istiqbolli integratsiya loyihasidir. Ta’kidlash lozimki, YeOIIning a’zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Armaniston va Qirg‘iziston) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta’minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Evroosiyo Iqtisodiy Komissiyasi iqtisodiy ittifoqning 170 tadan iborat funksiyalarini bajaradi: jumladan, bojxona-tarif va notarif tartibga solish; bojxona ma’murchiligini tartibga solish; sanitariya, veterinariya va fitosanitariya chora-tadbirlarini tartibga solish; uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo rejimlarini o‘rnatishni tartibga solish; makroiqtisodiy va raqobat siyosatini belgilash; sanoat va qishloq xo‘jaligiga subsidiyalar, tabiiy monopoliyalar, davlat xaridlari, transport va tashishga oid chora – tadbirlarni tartibga solish va boshqalar.

Shu o‘rinda, ayrim fikrlarni ham keltirib o‘tish o‘rinli.

YeOII mamlakatlarida o‘zaro yordam yoki investitsiya kiritilishi nazarda tutilgani holda ulardagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chunonchi chorva va parrandachilik rivojlanishi qay sur’atda. Integratsiya tufayli o‘sish kutilyaptimi? Katta o‘zgarishlar bormi? Investitsiyalar kiritish qanday natijalarga olib keladi? Foydagami yoki zararga. Maqolada shu omillar ko‘riladi.

2. METODOLOGIK TAHLIL

Ma’lum bir tadqiqotlar xorijiy investitsiyalar kiritish doim ham foyda keltirmasligini ko‘rsatadi [1]. Garchi, Hoang va boshqalar (2010) xorijiy to‘g‘ri investitsiyalari (XTI) va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash uchun 1995–2006-yillar oralig‘ida Ve’tnamdagi 61xududiy provinsiyalarida tadqiqiqot o‘tkazgan [2]. 671ta kuzatuvlar uchun panel ma’lumotlari modelidan foydalangan va natijada iqtisodiy o‘sishga XTI ijobiy ta’siri salmoqligini aniqlagan. Ulardan tashqari Kim, D va boshqalar (2003) Janubiy Koreyada 1955–1999-yillardagi ma’lumotlarga asosan, ayniy tadqiqot o‘tkazib, iqtisodiy o‘sishga XTIing ta’siri bor biroq u unchalik ahamiyatli emas degan xulosaga kelishgan [3]. Biroq, Mencinger, J (2003), Yevroittifoqda 1994–2001-yil davri uchun o‘tkazgan tadqiqotida sabab-oqibat bog‘liqligini Greyndjer testlari bo‘yicha o‘rnatilganida mazkur ittifoqning 8ta mamlakatiga XTI salbiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladi.XTIlarning asosiy fondlarni sotib olishga yo‘naltirilgani shu oqibatlarga olib kelgandi [1].

Mamlakatni iqtisodiy rivojlanishiga, barcha sektor va jabhalarning bir maromda yaxshi ishlashiga institutsional boshqaruv ahamiyatli hisoblanadi. Nazima Ellaxi va boshq. (2021) mamlakatda har jabhada o‘sish oxir-oqibat moliyaviy ko‘tarilishini tadqiq qilib, yigirma yillik tadqiqoti natijasi ko‘ra, u jismoniy va inson kapitalining samarali safarbar qilinishi boshqaruv institutlarning sifatiga juda bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish uchun juda muhimdir degan xulosaga keldi [4]. Yaxshi ishlaydigan institutsional tuzilma uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, deb Kutan, A. M. va boshq. (2017) keltirishgan [5]. Law, S. H., & Habibullah, M. S. (2009) shunga o‘xshash dalillarida ta’kidlanishicha, institutlarning sifati moliya sektori rivojlanishidan foyda olishda yordam beradigan va qonun ustuvorligi va korrupsiyani nazorat qilish orqali iqtisodiy o‘sishga olib keladigan muhim omil hisoblanadi [6].

Ekonometrik modellashtirishda axborot bilan bog‘liqligi empirik kuzatuvdan olingan ko‘rsatkichlarga, yoki tasdiqlangan statistik ma’lumotlarga asoslanadi. Buni quyidagi ishlar ham tasdiqlaydi. Parrandachilikda yem ratsionga chesnok qo‘shib berishni meta-tahlil qilingan ishda [7] jo‘jalarga berilgan chesnok ekstrati ularning semirishini yaxshi ta’minlagani, boshqalariga chesnok kukuni va yog‘ berganlarida esa odatiy semirish kuzatilgan. Barcha tahlillar Open Meta-analyst for Ecology and Evolution (OpenMEE) dasturiy ta’minotida 95% ishonchli interval uchun bajarilgan.Tailanda oltmish oy davomida guruch sotish ko‘rsatkichlari quyidagi metodlar: kichik kvadratlar, o‘rtacha qiymatni pasayish usuli, eksponensional birlik va ikkilik usuli va Vinters usulida mutloq xatoliklar, absolyut va o‘rtakvadratik og‘ish yordamida aniqlangan [8]. Bashorat usuli bilan guruchning kelgusidagi sotish narxi tahmin qilingan. Texasning baland tekisliklarida sug‘orish yer osti suvlarini chiqarish va quduqlardan foydalanish bilan amalga oshirilib o‘stiriladigan paxtani tannarxi oshishini modellashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotda[9] tuproq drenaj suvlar hisobiga tuproq namini oshirish va ijobiy natijalarga erishish parametrlari CROPGRO-Cotton modeli asosida aniqlangan.

Yana bir tadqiqotda [10] agrosanoat mahsulotlari bozori ishtirokchilari o‘rtasida Ukraina chorvachiligi va oziq-ovqat bilan ta’minlash holati Germaniya, Fransiya, Italiya va Polsha bilan taqqoslangan. Bu tadqiqot empirik anglash usullari: kuzatuv, solishtirish, bayon qilish, o‘lchash va statistik usullarga tayangan.Tashqi kreditorlarning qarz yuki o‘sishi, chetdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar kirishi kaymaygani bois bir kishiga kapital qo‘yilmalar ortishi sekinlashib, natijada, Ukrainada oziq-ovqat xavfsizligi beqaror degan xulosaga mualliflar kelishgan.

Aksari tadqiqotlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini hosilini o‘sishi va rivojini modellashtirish va hosilga ta’sir qiluvchi omillarning korrelyatsiyasini aniqlashning turli usullari har bir ko‘rilayotgan hol uchun empirik yoki meta-ma’lumotlarni bog‘liqligi metodologiyaning negizini tashkil qildi.

Bozor iqtisodiyotining mushkulotlari va qiyin sharoiti, jahon bozoriga chiqishni o‘zi bo‘lmasligi, xali ichki muammolar yetarlicha bo‘lib turgan muhitda mustaqil rivojlanayotgan O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini o‘sish darajasi, o‘rni qayerda degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu maqolada respublikamizni YeOII mamlakatlari bilan chorvachilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslash ko‘rib chiqilgan.

3. OLINGAN NATIJALAR

3.1. MDH mamlakatlari qishloq xo‘jaligi ma’lumotlari va ko‘rsatkichlari dinamikasi

Bu tadqiqotda 2005-yildan 2019-yil orasidagi davr statistik vaqt qatorlari ma’lumotlaridan YeOII mamlakatlari va O‘zbekiston uchun solishtirish amalga oshirildi. Asosiy axborot manbayi bo‘lib Yevroosiyo Iqtisodiy Komissiyasining qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar nashrlari [11] va O‘zbekiston davlat statistika qo‘mitasi sayti [12] xizmat qildi.

Respublikada aholi jon boshiga yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari qiymati 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval: O‘zbekistonda aholi jon boshiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari qiymati


Nomi	2005	2007	2009	2011	2013	2015	2017	2018	2019
Qish.xo‘j. mahsuloti, mlrd, so‘mda	5978	9305	13629	45286	66435	99605	148199	187426	216283
Dollar kursi	1059	1240	1395	1715	2097	2574	5140	8069	8851
Qish.xo‘j. mahsuloti, mln. doll.	5647	7504	9770	26405	31678	38704	28833	23229	24436
Aholi soni, mln.kishi	26167	26868	27767	29339	30243	31299	32389	33254	33905
Bir kishiga, ming so‘mda	228	346	491	1544	2197	3182	4576	5636	6379
Bir kishiga doll.	216	279	352	900	1047	1237	890	699	721

2-jadvalda YeOIIga a’zo davlatlarning milliy (markaziy) banklari kurslari bo‘yicha hisoblangan: Belorussiyada – Belorus rublining AQSh dollariga nisbatan o‘rtacha qiymati bo‘yicha, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Rossiya – milliy valyutalarning AQSh dollariga nisbatan o‘rtacha kursi bo‘yicha. Qozog‘iston va Qirg‘izistonda qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik birga olingan.

Evroosiyo Iqtisodiy Komissiyasi nashri ma’lumotlari va 1-jadvaldagi 7-satr berilganlaridan foydalanib 2-jadval hosil qilindi.

2-jadval: YeOII mamlakatlari va O‘zbekistonda aholi jon boshiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish (AQSh dollari)

Davlat/yillar	2005	2007	2009	2011	2013	2015	2017	2018	2019
Belarussiya	618	886	1 006	1 048	1 223	878	983	974	1 043
Qozog‘iston	372	574	692	942	1 144	854	696	714	740
O‘zbekiston	216	279	352	900	1047	1237	890	699	721
Armaniston	342	596	496	705	742	658	652	649	625
Rossiya	340	510	528	739	757	540	597	582	622
Qirg‘iz Resp.	294	449	481	586	620	513	488	471	488



1-rasm: YeOII a’zo davlatlar va O‘zbekistonning aholi jon boshiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish ko‘rsatkichlari

Bu ma’lumotlar asosida qurilgan diagrammada(1-rasm) O‘zbekistonning aholi boshiga yetishtirgan mahsulotlarining yuqori ko‘rsatkichi 2011–2017-yillarga keladi. Ammo, bu yillarda dollarning davlat o‘rnatgan kursi bilan “qora” bozor kursi o‘rtasidagi tavofut ba’zan 2 martadan oshiqligini hisobga olsak(misol uchun, 2016-yil yanvarida rasmiy kurs 2970 so‘m bo‘lgani holda, “qora” bozorda 6100 so‘mga chiqib ketgan [13]), bunday ko‘rsatkichlar haqqoniyligi biroz o‘rinsiz. Kurs stabillashgan so‘nggi yillar ko‘rsatkichlari [14] boshqa gap, ular ishonchli va bularga e’tibor bersak O‘zbekiston Qozog‘istondan ozgina farqda, xolos. Peshqadamlik esa Belorusiyada.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

3.2. Korrelyatsiya parametrlarini taqqoslash

Aholi o‘sishiga nisbatan chorvachilikni o‘sish dinamikasini aniqlash uchun qator parametrlar: yirik shoxli qoramol, sigir, qo‘y-echkilar, otlar va parranda soni bo‘yicha YoOII mamlakatlari va O‘zbekiston ko‘rsatkichlari solishtirildi. Buning uchun YoOII komissiyasi ma’lumotlari va [12] manba asosida 3-jadval hosil qilib, ular asosida mos ravishda 2–6-diagrammalar tuzildi.


3-jadval: MDH mamlakatlarida chorva turlari va parrandalar soni to‘g‘risida ma’lumotlar (yil boshiga, ming bosh)

Yillar	Rossiya	O‘zbekiston	Qozog‘iston	Belorussiya	Qirg‘iz Resp.	Armaniston
Qoramol						
2006	21625	6571,4	5457,4	3980,2	1074,8	592,1
2008	21501,6	7457,9	5840,9	4007	1168	629,1
2010	20540	8510,7	6095,2	4151	1278,1	570,6
2012	19900,8	9642,7	5702,4	4246,8	1338,6	599,2
2014	19272,6	10607,3	5851,2	4321,2	1404,2	677,6
2016	18620,9	11641,3	6183,9	4356,5	1492,5	701,5
2018	18294,2	12471	6764,2	4362,2	1575,4	590,6
2019	18152,1	12814,1	7150,9	4340,4	1627,3	571,9
2020	18122,3	12949,7	7436,4	4294,9	1680,8	579,3
Sigirlar						
2006	9522,2	2821,2	2442,6	1565	565,1	297,1
2008	9286,4	3124,9	2605,6	1459	607,2	310,6
2010	8924,9	3535,7	2717,3	1444,6	664,3	273,9
2012	8807,5	3878,4	2521,8	1477,4	684,2	283,3
2014	8430,9	4020,6	2734,9	1524,5	718,5	310
2016	8115,2	4173,5	2999,3	1511,8	757,4	318,6
2018	7950,6	4336,5	3362,4	1500,2	789,8	266,8
2019	7942,6	4626	3576,5	1497,7	812,6	254
2020	7962,5	4663,5	3769,8	1495,1	835,3	251,7
Qo‘y-echkilar						
2006	18581,4	11351,9	14334,5	121	3876	591,6
2008	21577,1	12635,6	16080	124	4251,8	637,1
2010	21937,1	14432,6	17369,7	127	4815,5	511
2012	22726,9	16189	18091,9	125	5288,1	590,2
2014	24131,4	17717,6	17560,6	131	5641,2	717,6
2016	24606,5	19118,8	18015,5	152,6	5929,5	778,1
2018	24389,1	20640,9	18329	154,6	6077,8	660,1
2019	23129,3	21580,5	18699,1	150,9	6167,9	638,3
2020	22617,6	21906,9	19156	148,7	6266,7	662,5
Otlar						
2006	1316,6	158,1	1163,5	167,6	345,1	12,3
2008	1307	168,3	1291,1	147	355,6	11,8
2010	1330,2	180,6	1438,7	125,6	373	10,8
2012	1287,6	195,2	1607,4	100,3	389	9,9
2014	1266,2	208,8	1784,5	82,2	407,4	11,7
2016	1240,6	216,9	2070,3	63,6	449,6	11,4
2018	1238,6	230,6	2415,7	49	481,3	10
2019	1283	242,5	2646,5	43,3	498,7	10,7
2020	1310,9	247,1	2852,3	38,1	522,6	11,4


			Parrandalar			
2006	357467,9	20540,3	26215,5	28476,7	4279	4954,1
2008	388433,7	26118,9	29506,8	29400	4589,2	4018,2
2010	436197,1	33053	32686,5	34086,7	4535,8	4134,6
2012	473252,9	42818,4	32870,1	39852,6	4815,3	4023,5
2014	493945,1	52363,2	34173,1	45733,6	5385,7	4101
2016	543913,5	61349,2	35632,9	48517,7	5586,2	3900
2018	555827,2	74870,1	39900	50700	5910,4	4400
2019	541494,2	86374,8	44337,9	51200	6009,7	4152,1
2020	544947,9	87859,7	45041,4	53000	6211,2	4568,1

3-jadvaldagi ma'lumotlar asosida har bir chorva turi uchun 2–6 diagrammalar tuzildi. E'tibor berilsa (2-rasm), eng ko'p qoramol 18 mlndan ortiq Rossiyada bo'lib, bu olti davlatlar ichida ikkinchi ko'rsatkich O'zbekistonga tegishli(13 mln.ga yaqin).Mazkur chorva ko'rsatkichga: qoramol va sigir qo'shib olingan.

YoOII mamlakatlari va O'zbekistonda chorva turlari ichida sigir alohida band bilan ham ko'rilib (3-diagramma) Rossiyada bu ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish kuzatilmay, 14 yil davomida sigirlar soni har yiliga o'rtacha 111 mingga kamayib borgan, ikkinchi pozitsiyadagi O'zbekistonda esa, aksincha yiliga 132mingga o'sib borgan.




2-rasm: Yirik qoramol sonini YoOII mamlakatlari va O'zbekistonda o'sish sur'ati




3-rasm: Sigir sonini YoOII mamlakatlari va O'zbekistonda o'sish sur'ati

YoOII mamlakatlari va O'zbekistonda chorva turlaridan qo'y-echkilar o'sish sur'ati 4-rasmda keltirilgan. Mazkur diagrammaga ko'z tashlanilsa, Rossiyada bu ko'rsatkichlar bo'yicha ham o'sish ortiqcha kuzatilmay, tadqiqot uchun ko'rilayotgan davr davomida qo'y-echkilar soni yiliga o'rtacha 288 mingga, ikkinchi pozitsiyada borayotgan O'zbekistonda esa, aksincha, yiliga 753,9mingga ko'payib borgan.




4-rasm: Qo‘y-echkilar sonini YoOII mamlakatlari va O‘zbekistonda o‘sish sur’ati

Bor qo‘y-echkilar orasidagi tavofut esa 711ming, xolos. Shu sur’atda chorvaning bu turi ko‘payishi davom etsa, uzog‘i ikki yilda respublikamiz oldingi pozitsiyaga chiqib olishi hech gapmas. YeOII mamlakatlari va O‘zbekistonda otlar sonini o‘sish sur’ati 5-diagrammada keltirilgan.



5-rasm: Otlar sonini YoOII mamlakatlari va O‘zbekistonda ko‘rsatkichlari



6-rasm: Parrandachilikni YoOII mamlakatlari va O‘zbekistonda o‘sish sur’ati

5-rasmga qaralsa, eng ko‘p otlar qardosh Qozog‘istonda bo‘lib, ulardagi o‘sish yiliga 120,6 mingni tashkil qiladi, ikkinchi pozitsiyadagi Rossiyada bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘sish kuzatilmay, arzimagan bo‘lsa ham kamayish (yiliga 40ming bosh) yuzaga kelgan. O‘zbekistonda ham bu ko‘rsatkich bo‘yicha ahvol maqtangudek emas, yiliga 6 mingtadan sal ortiq yilqi ko‘payyapti, xolos.

YoOII mamlakatlari va O‘zbekistonda parrandalar sonini o‘sish sur’ati 6-rasmda keltirilgan. 3-jadvalga qaralsa, Rossiyada parrandalar soni 545mlnga yaqin donani ko‘rsatadi. Misol uchun, ikkinchi pozitsiyadagi O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 88mlnga yaqin, lekin u Rossiyanikidan 6,2 barobar kam. Biroq yillik o‘sish ko‘rilayotgan davr uchun O‘zbekistonda eng ko‘p 13391,4 mingni (Rossiyada 4808,5ming) tashkil etgan bu o‘sish bo‘yicha birinchilikni anglatadi va ikkinchi pozitsiyadagi Rossiyadan tahminan 2,8 martta ko‘p deganidir.

3.3. Ma’lumotlarni modellashtirish

Berilgan ma’lumotlarni (3-jadval) qayta ishlash uchun kichik kvadratlar usulidan foydalanib o‘tkazgan eksperimentlar negizida 4-jadval hosil bo‘ldi va statistik ma’lumotlarni xarakterlaydigan nazariy modellar tuzildi. Ekonometrik modelni akslantiradigan korrelyatsiya va regressiya parametrlari aniqlanib mazkur jadvalda keltirildi.

4-jadval: MDH mamlakatlari bo'yicha chorva turlarini o'sish parametrlarini hisoblash modellari va ularning parametrlari

Davlat nomi	Chorva va parranda	Model-tenglama	Diterminatsiya koef. r2	Korrelyatsiya koef. r	Ap-roksimatsiya koef	Fisher kriteriyasi, FH		Styudent kriteriyasi, tH	
						qiymati	ahamiyati	qiymati	ahamiyati
Rossiya	Qoramol	U=–284,18x+21958,97	0,99	0,99	1	1287	+	1293,48	+
	Qo'y-echkilar	u=309,48x+20226,06	0,975	0,987	3,95	507	+	513,46	+
	Otlar	U=–4,57x+1319,47 U=0,65x2–14,94x+ 1348,85	0,357 0,46	0,597 0,6798	1,59 1,58	7,22 11,07	+ +	12,08 16,33	+ +
	Parrandalar	U=15094,37x+354855 U=–825,93x2+ 28309,24x+317412,88	0,94 0,98	0,97 0,99	2,94 1,82	203,67 637	+	210,0 643,5	+
O'zbekiston	Qoramol	U=482,53x+6149,73 Y=–6,7442x2+590,44x+5844	0,99 0,997	0,99 0,998	1,16 0,09	1287 4563,4	+ +	1293,5 67,55	+ +
	Qo'y-echkilar	U=777,78x+10559,07 U=–6,10062x2+875,39x+10282,5	0,997 0,998	0,998 0,998	0,85 0,72	4320,3 6487	+ +	4326,8 6493,5	+ +
	Otlar	U=6,33x+150,08 U=0,035x2+5,77x+151,67	0,994 0,995	0,997 0,997	0,77 0,76	2153,7 2587	+ +	2160,2 2543	+ +
	Parrandalar	U=4892,00x+10702,33 U=176,33x2+2070,77x+18695,80	0,98 0,996	0,98 0,998	6,65 1,90	637,00 3237	+ +	643,47 3243,4	+ +
Qozog'iston	Qoramol	u=104,39x+5327,94 u=5384,49exr(0,0164x) u=12,57x^2+96,72x+5897,74	0,68 0,64 0,83	0,83 0,80 0,91	4,39 4,23 3,26	27,63 23,11 63,47	+ + +	33,50 28,89 69,67	+ + +
	Qo'y-echkilar	U= 257,15x+15374,60 U=–23,48x2+632,85x+14310,13	0,787 0,88	0,887 0,94	2,59 2,19	48,09 95,33	+ +	54,2 101,6	+ +
	Otlar	U= 115,56x+894,73 U=6,48x2+11,846x+1188,597	0,95 0,997	0,976 0,999	5,37 1,36	247,0 4320,3	+ +	253,42 4326,8	+ +
	Parrandalar	U=1150x+25262 U=52,39x2+311,8x+27637	0,97 0,939	0,98 0,969	3,508 3,07	637 406,3	+ +	643,47 412,8	+ +
Belorussiya	Qoramol	u=28,19x+3999,01 u=4000,32exr(0,0067x) U=–3,418x^2+82,815x +3844,127	0,76 0,997 0,92	0,87 0,998 0,95	1,34 1,36 0,79	41,17 4620 149,5	+ + +	47,22 43226,8 155,9	+ + +
	Qo'y-echkilar	U=2,73x+114,06 U=0,08x2+1,44x+117,71	0,82 0,83	0,90 0,91	3,3 2,93	59,22 63,47	+ +	65,40 69,67	+ +
	Otlar	U=–9,58x+172,88	0,990	0,995	5,15	1287	+	1293,5	+
	Parrandalar	U=1989,03x+25321,14 U=–51,06x2+ 2806,02x+23006,3	0,97 0,98	0,98 0,99	3,44 2,94	420,33 637,0	+ +	426,7 8643,5	+ +
Qirg'iz Resp.	Qoramol	U=41,369x +1044,61	0,998	0,999	0,7	6487,0	+	6493,5	+
	Qo'y-echkilar	U=178,39x+3851,40 U=–8,61x2+316,09x+ 3461,235	0,96 0,996	0,98 0,998	2,68 0,79	312 3237	+ +	318,43 3243,5	+ +
	Otlar	U=12,70x+312,41 U=0,66x2+2,19x+342,2	0,96 0,99 0,93	0,98 0,99 0,96	2,28 0,54 1,65	312,00 1287 172,71	+ + +	318,43 1293,5 179,1	+ + +
	Parrandalar	U=1989,03x+25321,14 U=–51,06x2+2806,02+23006,34	0,97 0,98	0,98 0,99	3,44 2,94	420,33 637	+ +	426,78 643,47	+ +
Armaniston	Qoramol	U=–284,18x+21958,97	0,99	0,995	6,37	1287,0	+	1293,5	+
	Qo'y-echkilar	U=9,54x+567,61 U=–0,5x2+17,48x+ 545,1	0,30 0,31	0,55 0,56	9,1 9,1	5,57 5,84	+ +	10,17 10,49	+ +
	Otlar	U=–0,08x+11,79 U=0,022x2–0,43x+12,77	0,21 0,43	0,46 0,65	5,38 4,37	3,46 9,81	+ +	7,54 14,96	+ +
	Parrandalar	U=141,61x+4005,78 U= 4,28x2+73,2x+4199,6	0,96 0,975 0,953	0,98 0,987 0,976	2,13 1,64 1,83	312 507 263	+ + +	318,43 513,46 270	+ + +

TARAQQIYOT PROGRESS

YoOII mamlakatlari ko‘rsatkichlari o‘zgarishi ko‘proq chiziqli bog‘lanish xarakteriga ega ekanligi diagrammadan ko‘rinib, ikkinchi darajali kvadratik tenglamadan foydalanish trendlarning baridan ko‘ra kvadratik og‘ish xatolikni kamini berdi.

3.4. Yaratilgan modellar asosida hisoblangan bashorat ma’lumotlari

Respublika chorvachiligi va parrandachiligi rivojining o‘sish dinamikasi yuqoridagi 3-jadvalda berilgan edi. Bu ma’lumotlarga asosan, ekonometrik tadqiqotlar asosida modellar yaratilib(4-jadval) kelgusidagi qishloq xo‘jaligini bu chorva turlari va parranda bo‘yicha o‘zgarishlarini prognozi hisoblanib 5- jadvalda keltirildi.

5-jadval: Respublikada chorva turlari va parranchilikni o‘sishini prognoz natijalari

№	Yillar	Qoramol	Sigirlar	Qo‘y-echkilar	Otlar	Parranda
1	2006	6427,6958	2955,209	11151,79529	157,4712	20942,9006
2	2007	6997,9032	3080,509	12008,88517	163,3464	23542,6518
3	2008	7554,6222	3205,808	12853,7738	169,2913	26495,0559
4	2009	8097,8528	3331,108	13686,46118	175,3061	29800,1131
5	2010	8627,595	3456,408	14506,94732	181,3905	33457,8233
6	2011	9143,8488	3581,707	15315,23222	187,5447	37468,1865
7	2012	9646,6142	3707,007	16111,31587	193,7687	41831,2027
8	2013	10135,8912	3832,307	16895,19828	200,0624	46546,8719
9	2014	10611,6798	3957,606	17666,87944	206,4258	51615,1942
10	2015	11073,98	4082,906	18426,35936	212,859	57036,1694
11	2016	11522,7918	4208,206	19173,63804	219,3619	62809,7976
12	2017	11958,1152	4333,505	19908,71547	225,9346	68936,0788
13	2018	12379,9502	4458,805	20631,59165	232,5771	75415,0131
14	2019	12788,2968	4584,105	21342,2666	239,2892	82246,6003
15	2020	13183,155	4709,404	22040,74029	246,0712	89430,8406
16	2021	13578,0132	4834,704	22739,21399	252,8531	96615,0808
17	2022	13972,8714	4960,003	23437,68769	259,635	103799,321
18	2023	14367,7296	5085,303	24136,16139	266,417	110983,561

*2021–2023 yillardagi ma’lumotlar tahminiy, yaratilgan va 4-jadvalda keltirilgan modellar orqali bashorat qilindi.

4. TAHLILLAR

Mazkur tadqiqotda empirik tahlil uchun kichik kvadratlar usulidan foydalanib vaqt qatorlari ma’lumotlari uchun chiziqli, giperbolik, logorifmik, ko‘rsatkichli, eksponensial va polinom(kvadratik) tenglamalarni hisoblash usullari ko‘rildi va hisoblashlar amalga oshirildi. Amallar ketma-ketligini bajarish va ishlab chiqilgan modeldan olingan natijalarni tahlil qilish uchun MS EXCEL dasturi qo‘llanildi.

Natijaviy belgi vaqt o‘zgaruvchisi kattaligining yoki boshqa vaqt davrlariga taalluqli bo‘lgan o‘zgaruvchilar funksiyasi hisoblanadigan vaqt qatorlari ma’lumotlarining modellari [15] tuzish asosiy maqsad edi.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti chiziqli bog‘liqlikda quyidagi (1) formula bilan aniqlashini ta’kidlash lozim.

$$r = \frac{\overline{xy} - \overline{x} \cdot \overline{y}}{\sigma_x \cdot \sigma_y}, \; -1 \le r \le 1 \quad (2)$$

bu yerda σx va σu mos ravishda x va u bo‘yicha kvadratik og‘ishlarni anglatadi.

Qurilgan regressiya modelining statistik ahamiyatini baholash Fisher va Styudent t-kriteriyalari asosida, mos ravishda (3) va (4) formulalar bilan aniqlanishi ma’lum [15, 16].

$$F_H = \frac{r^2}{1-r^2} \cdot \frac{n-m-1}{m} \quad (3)$$

$$t_H = |r| \cdot \sqrt{\frac{n-2}{1-r^2}} \quad (4)$$

bu yerda n-kuzatuvlar, m-omillar soni. Tadqiqotimizda kuzatuvlar soni 15 va omillar soni 1ni tashkil etdi.

Fisher va Styudent kriteriyasini faktik qiymatlari hisoblab bo‘lgach, bu kriteriyalarning (F_{krt} va t_{krt}) kritik koeffitsiyentlari aks etgan jadvallardagi [15] miyoriy ma’lumotlar bilan taqqoslanildi.Bitta omil (m=1) va n=15 ta kuzatuvlar uchun yoki statistik berilganlar sonidan kelib chiqib, F_{krt} = 4,67 va t_{krt} = 4,45 tanlandi. Bu holda FH >(F_{krt} = 4,67) va tH > (t_{krt} = 4,45) shartlari bir vaqtda bajarilishi, biz tuzgan modellarni qo‘llash mumkinligini va ular adekvatligini bildirardi.

Modellarni qo‘llashda yana bir koeffitsiyentni hisoblash zarur [16]. Buning uchun haqiqiy (y_i) va nazariy($\hat{y}_i$) qiymatlar solishtirilib ($y_i - \hat{y}_i$) farq hisoblanishi lozim va u aproksimatsiyani(ya’ni og‘ishni) anglatadi. Bu farq musbat yoki manfiy bo‘lishligi nazarda tutib uni modul bo‘yicha hisoblash va o‘rtacha aproksimatsiya xatoligini (5) formula bilan aniqlash amalga kiritilgan

$$\hat{A} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\left|\frac{y_i - \hat{y}_i}{y_i}\right| \cdot 100 \quad (5)$$

Agar o‘rtacha aproksimatsiya xatoligi qiymati 8–10% dan oshmasa model nisbatan to‘g‘ri tanlangani[15,16] fakti inobatga olinadi. Chorva turi va parranda uchun aniqlangan chiziqli, eksponensial yoki ikkinchi darajali polinom ko‘rinishidagi modellardan qaysi birida o‘rtacha kvadratik og‘ish xatoligi kichik bo‘lsa, o‘shanisini bashorat modeli o‘rnida qabul qilish o‘rinli sanaladi.

5. NATIJALAR INTERPRETATSIYASI

Vaqt omili asosida ko‘rilgan ma’lumotlar natijasi ulardan kelgusi yillar ko‘rsatkichlarini tahmin qilishda qo‘llash kamroq og‘ishlar bilan natija berishini anglatadi. Misol uchun 9-jadvaldagi Rossiya chorvasi turi: otlar bo‘yicha aniqlangan polinom ko‘rinishdagi modelda Ā koeffitsiyenti 1,58 foizni tashkil qildi, xolos. Bu juda yaxshi ko‘rsatkich, lekin chiziqli modelda ham 1,59%. Biroq, korrelyatsiya bo‘yicha ko‘rilsa, birida kuchliga yaqin korrelyatsiya(polinomli tenglamada 0,678), chiziqlida zaifroq (0,597).

Qozog‘iston ko‘rsatkichlarida ko‘proq muammo qoramol rivojini modellashtirishda bilindi va polinom ko‘rinish tanlanganda, korrelyatsiya koeffitsiyenti eng ko‘pi 0,91ni berdi. Bundanda oz ko‘rsatkichli holat Armaniston uchun qo‘y-echkilarni hisobida korrelyatsiya 0,56 dan ortmadi va Ā koeffitsiyenti qiymati 9 foizdan oshgani tanlangan model kritik chegaraga yaqinini anglatdi. Otlar turi bo‘yicha hisobda sal durustroq r=0,65, Ā =4,37 natija ko‘rildi.

Qolgan respublikalardagi barcha chorva turlari uchun r=0,91 dan past natija yo‘q. Bu, fakt esa ishlangan modellardan bemalol foydalanish mumkinligini anglatadi.

Respublikamiz chorva va parranda ko‘rsatkichlari yildan yilga o‘zgarishini oddiy chiziqli tenglamalar bilan ifodalash ham mumkin va buning uchun asos korrelyatsiya va diterminatsiya koeffitsiyentlari juda ishonchli 0,98 dan katta va kvadratik tenglama ko‘rinishidagi modelni qabul qilinsa, o‘rtacha aproksimatsiya xatoligi (Ā) 2 foizga ham bormasligi 4-jadvaldan ko‘rinadi.Biroq, chiziqlidan ham ko‘ra kvadratik og‘ish xatoligi (ε_2) eng kamini bergan polinomli tenglamalarni hisoblash modellari tarzida chorvaning 5 turidan 4tasida qabul qilindi. Taqqoslash uchun ε ning chiziqli va polinom tenglamalardagi mos ravishda qiymatlari quyidagicha: 158/11 2;100/74;175/143;2,04/1,96; 3244/1404.Tadqiqot turlari ketma-ketligi: qoramol, sigirlar, qo‘y-echkilar, otlar, parranda. Aslida foizda ko‘rganda bu og‘ishlar quyidagi qiymatlarga ega(chiziqli/polinom): 1,58/1,11; 2,6/1,94; 1,04/0,85;1,01/0,97;6,5/2,81. Tanlangan modellar ichida parranda uchun eng katta 2,81 foizli o‘rtacha og‘ishga ega polinom tenglamasi(6,5 foizli o‘rtacha og‘ish − chiziqli tenglamaga tegishli va u nazardan chetda qoldi) tanlandi va unda ε=1404 ga teng.

5-jadvalning 17–19 qatorlarida berilgan bashorat ma’lumotlariga e’tibor berilsa, chorva turlaridan qoramol yiliga 395 mingtagacha, sigir 125 ming, qo‘y-echkilar 698 ming, otlar sonining o‘sishi tahminan 6,78 ming bosh xolos va parranda yanada ko‘payib yiliga 7184 mingdan ortib boradi.

6. XULOSALAR

Evroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kirgan Rossiya, Belorusiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Armaniston mamlakatlarida chorva va parrandalar sonini o‘sish sur’ati bilan mustaqil rivojlanayotgan O‘zbekiston respublikasining ma’lumotlari taqqoslanib 3-jadval va qator diagrammalar hosil qilinib, 4-jadvalda bu statistik ma’lumotlarni aks ettirish modellari ishlab chiqildi.

Yaratilgan modellarda korrelyatsion va regression tahlilga solinib, ularning adekvatligi Fisher va Styudent kriteriyalari asosida baholandi. Bu baholashlar aksari yaratilgan modellar statistik ma’lumotlar o‘zgarishiga adekvatligi 0,95 foiz aniqlikda hisoblandi.

Ishlab chiqilgan modellarda aproksimatsiya koeffitsiyenti (Ā) tavsiya etiladigan miyordan oshmadi. Tabiiyki bu talabni qondirmagan modellar hisoblashda qo‘llanilmadi.

Hosil qilingan bashoratlash modellarida olingan ma’lumotlar orqali kelgusida ham respublika ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishini va aksari chorva turlarida(qoramol, qo‘y-echkilar, parrandalarda) mustaqil rivojlanayotgan O‘zbekistonning mavqeii yana ilg‘or bo‘lishini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligida mahsulotlari rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlik aholi o‘sishi bilan paralel o‘sayotganini ba’zi turlar parranda kishi boshiga 3 barobarcha ko‘p bo‘lsada, qo‘y echkilar 12 mln.cha kam farqda.Qoramol esa har uch kishiga bitta to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha misol uchun Urugvayda har bir odam o‘rtacha 3 tadan ortiq qoramolga ega [17]. Shunga qaramay, olingan natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu sohada MDHning boshqa davlatlaridan ko‘ra Qozog‘iston va O‘zbekistonda chorva va parrandachilikning yuqoriroq o‘sishi kuzatilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Mencinger, J. (2003) Does foreign direct investment always enhance economic growth?,Kyklos, 56(4): 491–508. [online] Available at: https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1046/j.0023–5962.2003.00235.x [Accessed 29 March. 2019].
2. Hoang, Thi Thu, WiboonchutikulaPaitoon and TubtimtongBangorn. (2010). “Does Foreign Direct InvestmentPromote Economic Growth in Vietnam?” Asean Economic Bulletin, 27(3): 295–311. [online] Available at: https://muse.jhu.edu/article/412774/pdf [Accessed 28 March. 2019].
3. Kim, D. D. and Seo, J. S. (2003). “Does FDI Inflow Crowd Out Domestic Investment in Korea”. Journal ofEconomic Studies 30 (6): 605–22. [online] Available at: http://www.sciencepublishinggroup.com/journal/paperinfo? journalid =178&doi=10.11648/j.ijber.20150401.11 [Accessed 25 March. 2019].
4. Nazima Ellahi,Adiqa Kiani,Qaisar Malik,Asif Raza &Raazia Gul |Stephanos Papadamou (Reviewing editor) Institutional governance and financial sector development: Panel evidence from Asian economies.Cogent Economics&FinanceVolume 9,2021 https://www.tandfonline.com/toc/oaef20/current
5. Kutan, A. M., Samargandi, N., & Sohag, K. (2017). Does institutional quality matter for financial development and growth? Further evidence from MENA countries. Australian Economic Papers, 56(3), 228–248. https://doi.org/10.1111/1467–8454.12097 [Crossref], [Web of Science ®], [Google Scholar]
6. Law, S. H., & Habibullah, M. S. (2009). The determinants of financial development: Institutions, openness and financial liberalization. South African Journal of Economics, 77(1), 45–58. https://doi.org/10.1111/j.1813–6982.2009.01201.x [Crossref], [Web of Science ®], [Google Scholar]
7. Ogbuewu, I. P.,Okoro, V. M., Mbajiorgu, C. A. Meta-analysis of the responses of laying hens to garlic (Allium sativum) supplementation. Animal Feed Science and Technology. Volume 275, May 2021, №114866
8. Lakkana R., Montalee S. Forecasting Agricultural Products Prices Using Time Series Methods For Crop Planning // International Journal of Mechanical Engineering and Technology (IJMET) Volume 9, Issue 7, July 2018, pp. 957–971, Article ID: IJMET_09_07_102 Available online at http://www.iaeme.com/ijmet/issues.asp?
9. S. Ale, S.,Himanshu, S. K.,Mauget, S. A.,Hudson, D.,Goebel, T. S.,Liu, B.,Baumhardt, R. L.,Bordovsky,J. P.,Brauer, D. K.,Lascano, R. J.,Gitz, D. C., Simulated Dryland Cotton Yield Response to Selected Scenario Factors Associated With Soil Health. Frontiers in Sustainable Food Systems, 2020
10. https://www.semanticscholar.org/paper/Simulated-Dryland-Cotton-Yield-Response-to-Selected-Ale-Himanshu/a7fa155f71f62a80eb 72fb232 f8 dc0 c6000976b1
11. Kravchenko, O., Kucher, Hełdak, M., Kucher, L.,Wysmułek, J. Socio-economic transformations in Ukraine towards the sustainable development of agriculture. Sustainability 2020, 12, https://www.mdpi.com/2071–1050/12/13/5441
12. Evroosiy Iqtisodiy Komissiya nashr ma’lumotlari. http://www.eurasiancommission.org/ru/act/integr_i_makroec/ dep_stat/union_stat /Pages/default.aspx
13. O‘zbekiston davlat statistika qo‘mitasi sayti https://stat.uz/ru /ofitsialnaya-statistika/agriculture
14. https://regnum.ru/news/economy/2052418.html
15. O‘zbekiston davlat banki sayti. https://cbu.uz/ru/arkhiv-kursov-valyut/-
16. B. Y. Xodiyev, T. Sh. Shodiyev, Berkinov B. B. Ekonometrikaga kirish: o‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2017. –144 b.
17. Эконометрика: краткий курс лекций для обучающихся направления подготовки “Менеджмент” / Сост.: В. А. Шибайкин // ФГБОУ ВО Саратовский ГАУ. – Саратов, 2017. – с.
18. ФАО: мировой атлас данных.https://knoema.ru/atlas

TIJORAT BANKLARIDA FOIZ STAVKANING LIKVIDLILIKKA TA'SIRI



Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklari foizlarining ular likvidliligiga ta'siri tadqiq etilgan. Tijorat banklarida depozitlar va kreditlarining foiz siyosati to'g'ri olib borilishi bank likvidliligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'z navbatida, banklarning foiz siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Maqolada tijorat banklari foiz stavkalarining o'zgarish tendensiyasi tahlil qilingan.

Shuningdek, maqolada tijorat banklarining tarif siyosati mijozlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'zgarivchan bo'lishi lozimligi hamda mijozlarning talablariga tez moslasha oladigan bankning foiz siyosatini yuritishi banklarning likvidliligiga ta'siri aniqlangan.

Kalit so'zlar: Banklarning foiz siyosati, foizli marja, foiz stavkasi, foizli daromad, likvidlilik, kredit foizi, depozitlar foizi.

Abstract: This article examines the impact of interest rates of commercial banks on their liquidity. Accurate implementation of interest rate policy on deposits and loans in commercial banks helps ensure banking liquidity. In turn, the interest rate policy of banks makes an impact on the national economy as well. The article analyzes the dynamics of interest rates of commercial banks.

In addition, it is ascertained that, based on the needs of customers, the tariff policy of commercial banks should be flexible. Moreover, the article determines the impact of a bank's interest rate policy on the liquidity of banks that can quickly adapt to customers' requirements.

Key words: interest rate policy of banks, interest margin, interest rate, interest income, liquidity, loan interest, deposit interest.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние процентных ставок коммерческих банков на их ликвидность. Правильная реализация процентной политики по депозитам и кредитам в коммерческих банках способствует обеспечению банковской ликвидности. В свою очередь, процентная политика банков также влияет на экономику страны. В статье анализируется динамика процентных ставок коммерческих банков.

Кроме того, в статье установлено, что исходя из потребностей клиентов тарифная политика коммерческих банков должна быть гибкой, а также определено влияние способной быстро адаптироваться к требованиям клиентов процентной политики банка на ликвидность банков.

Ключевые слова: процентная политика банков, процентная маржа, процентная ставка, процентный доход, ликвидность, процент по кредиту, процент по депозиту.

KIRISH

Tijorat banklarining foiz siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi muhim instrumentlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bankning foiz siyosati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 23-avgustdagi 27/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomi" talablariga muvofiq olib boriladi.

Tijorat banklari foiz stavkalaridan har doim iqtisodiyotni makro va mikro darajada tartibga solish uchun foydalaniladi. Agar iqtisodiyotni mikro darajada o'rganadigan bo'lsak, tijorat banklari tomonidan foiz siyosatini qay darajada samarali ishlab chiqqanganligiga, ya'ni kredit va depozitlar bo'yicha o'rnatilgan foiz stavkalariga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish yo'lida moliyaviy xizmatlar bozorida tijorat banklari faol ishtirok etib kelmoqda. Ular tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga turli xildagi xizmatlar ko'rsatilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida tijorat banklari tomonidan aholiga qulayliklarni ken-

gaytirish maqsadida yangi muddatli va jamg‘arma omonat turlari joriy etilmoqda. Umuman olganda, yuridik va jimsoniy shaxslar uchun taklif etilayotgan qulay va manfaatli bo‘lgan omonat turlarining soni oshib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga turli yo‘nalishlarda qisqa va uzoq muddatli kreditlar berilmoqda, banklarning lizing operatsiyalari hajmi ortib bormoqda.

Ma’lumki, tijorat banklari depozitlari va kreditlari miqdorining o‘sishi tijorat banklari foiz siyosati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bank tomonidan depozitlar bo‘yicha o‘rnatiladigan foiz stavkalari, shuningdek, kreditlar bo‘yicha o‘ndirish uchun belgilangan foiz stavkalari bankning depozit va kredit operatsiyalari hajmining o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘z navbatida, banklarning foiz siyosati ularning likvidlilik darajasiga ta’siri qanday bo‘ladi. Agar bu foiz kredit bilan bog‘liq bo‘lsa hamda u oshadigan bo‘lsa, unda banklarining likvidlilik darajasi ham yuqori bo‘ladi. Agar foiz stavkasi depozit bilan bog‘liq bo‘lsa va depozitlarning foiz stavkasi pasayadigan bo‘lsa, unda banklarning likvidliligi mazkur depozitlarning muddatiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Agar uzoq muddatli depozitlar oshsa, likvidlilik oshadi, qisqa muddatli depozitlar oshsa, likvidlilik pasayadi. Ushbu nazariy qoidalar, hozirda O‘zbekiston bank amaliyotiga qanchalik mos keladi? Bu esa, maxsus tadqiqot olib borishni taqazo etadi hamda maqolaning dolzarbligini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Piter Rouz (1997)ning fikrga ko‘ra tijorat banklari tomonidan to‘qnash keladigan risklar orasida foiz riskini xavflilik darajasi yuqori[1] deb ta’kidlangan, chunki foiz stavkalarining keskin o‘zgarishi banklarning daromadiga hamda bank aktivlari, passivlari va kapitali qiymatiga ta’sir etadi. Foiz riskini oldini olish uchun moliyaviy operatsiyalarni xedjerlash kerak bo‘ladi. Foiz riskini xedjerlash moliyaviy instrumentlarni sotish yoki sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ularni foizli opsionlar, foizli fyucherslar va foizli svoplar orqali himoyalash mumkin:

- foizli opsion zayomda belgilangan narxda kelishilgan ma’lum bir davrda o‘rnatilgan foiz stavkasida (majburiy bo‘lmagan holda) foiz to‘lash yoki olish huquqini beradi;
- foizli fyuchers kelajakda belgilangan muddatda foiz stavkasida kreditlar berish yoki depozitlar olishga majburiyat beradi;
- foizli svop-to‘lovlarni suzib yuruvchi foiz stavkasidan qat’iy belgilangan foiz stavkasiga yoki teskarisini qo‘llashga imkon beradi.

Klassik nazariyada Keyns Dj.M. (1999) foiz stavkasi va uning me’yori haqida foiz me’yori bozorda kapitaldan foydalanganlik uchun to‘lanadigan baho sifatida aniqlanadi[2] degan fikrni bildirgan.

Amerikalik iqtisodchi I. Fisher (2001) foiz stavkasiga quyidagicha ta’rif beradi: “foizning darajasini foiz mukofoti sifatida aniqlasak bo‘ladi, chunki u pulda aks etgan bo‘lib shartnomada kelishilgan davrdan keyin to‘lanishi kerak”[3].

O. I. Lavrushin (2014) ssuda foizi turli narxdagi qiymatining bahosi, uning ma’lum bir foydalanilgan davrdagi qiymat hisobidan kelib chiqishini bildirgan. Agar ilmiy nuqtayi nazardan qarasak ssuda uchun belgilangan foiz stavkasi qarz oluvchining daromadini bir qismidan kelib chiqadi[4].

Qulliyev I. Y. (2010) tijorat banklarida kredit bahosini shakllantirishda bir qator omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi degan fikrda. Tijorat banklarining kredit bahosining me’yori banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar bahosi, kredit operatsiyalari bo‘yicha bankning operatsion xarajatlari, kredit riski bo‘yicha ustama hamda bankning marjasi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu holatda kreditning bahosini quyidagi formula orqali aniqlagan[5].

$$R=Dr+Do+P+S+A$$

Bunda,
R – bank krediti bahosi;
Dr – bankning jalb qilingan mablag‘lari bahosi;
Do – tijorat banki operatsion xarajatlari;
P – kredit riski bo‘yicha ustama;
S – bank marjasi;
A – bank tomonidan belgilanadigan qo‘shimcha to‘lovlar.

Bankda aktiv operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirishda quyidagi omillar inobatga olinadi:

1 Питер Роуз. Банковский менеджмент: Предоставление финансовых услуг. Пер. с англ. -М: ДЕЛО, 1997. –768 с.
2 Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. Пер. Н. Н. Любимов. –М.: Гелиос АРВ, 1999. –352 с.
3 Ирвинг Фишер. Покупательская сила денег. –М.: ДЕЛО, 2001. – 320 с.
4 Лаврушин О. И. Устойчивость банковской системы и развитие банковской политики: монография /-М: КноРус, 2014. –280 с.
5 Қуллиев И. Я. Кредит баҳосининг шаклланиши ва уни такомиллаштириш. И. ф.н. илм. дар. ол. учун ёз. дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 16 б.

- markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi;
- bozor sharoitlari;
- pul mablag‘larini oshirish xarajatlari;
- proektning riskli darajasi;
- qarzdorning moliyaviy darajasi, ishonchlilik darajasi, tulovga qobiliyatliligi.

Bank kreditidan foydalanilgan vaqt uchun haq to‘lash kredit narxini yoki bahosini tashkil etadi, u hisobot oyi boshlangunga qadar bank bo‘yicha yuzaga keladigan o‘rtacha foiz stavkasi va marjani o‘z ichiga oladi. Bank oladigan va to‘laydigan foiz o‘rtasidagi farq marja deb yuritiladi. Ba’zi adabiyotlarga ko‘ra foiz marjasi – bank aktiv va passiv operatsiyalari bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalari o‘rtasidagi farqdir. Y. Abdullayev, T. Qoraliyev fikriga ko‘ra, “foiz marjasi – bank aktivi keltirgan daromad foizi bilan bank majburiyatlari bo‘yicha xarajat foizi o‘rtasidagi tafovutdir”[6]. Marja – kreditlar va sof to‘lovli majburiyatlar foiz stavkalari o‘rtasidagi farqdir. Xalqaro standartlarga asosan marja 2 foizdan kam bo‘lmagan miqdorni tashkil etishi tavsiya qilinadi.

Demak, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda foizli marja – bu bank aktivlaridan daromad keltiruvchi foizli daromad va bank majburiyatlari bo‘yicha foizli xarajat o‘rtasidagi farq degan xulosa qilish mumkin. Foizli marjani foizlar bo‘yicha keladigan sof daromad ham deb atashadi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi[7]:

$$\text{M} = \frac{\text{Дф} - \text{Рф}}{\text{Ад}} * \mathbf{100}\%$$

M – foizli marjaning hajmi;
Df – foizli daromad;
Rf – foizli to‘lovlari bo‘yicha xarajatlar;
Ad – foiz ko‘rinishida daromad keltiradigan aktivlar.

Foiz marjasi bu bankning foiz bo‘yicha ko‘rgan daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi farq hisoblanadi.

Marja bank xarajatlarini qoplash uchun, risklarni, inflyatsiyani inobatga olgan holda daromad ko‘rish uchun mo‘ljallangan.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklarini daromadlarini hisoblashda operatsion marja ham ishlatiladi. Operatsion marja bankning asosiy operatsiyalaridan ko‘radigan daromadlari. Quyidagi formula orqali hisoblab topiladi[8].

$$\text{ОпМ} = \frac{\text{Дбокд}}{\text{Адка}}$$

Dbokd – bankning asosiy operatsiyalaridan ko‘radigan daromadlari;
Adka – daromad keltiruvchi aktivlar.
OpM – operatsion marja

Tijorat banklarining asosiy operatsiyalaridan ko‘radigan daromadlari tarkibi:

- sof foizli daromad;
- valyuta operatsiyalaridan ko‘rilgan sof daromad;
- qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha qilingan operatsiyalardan ko‘rilgan sof daromad;
- lizing operatsiyalaridan ko‘rilgan sof daromad;
- qimmatbaho metallar bilan qilingan operatsiyalarda ko‘rilgan sof daromad[9].

Haqiqiy marjani olish uchun bankning jami foizli daromadlari va jami foizli xarajatlarini o‘rtasidagi farqdan yoki ma’lum bir foizli aktiv operatsiyalari o‘rtasidagi farqdan ko‘rish mumkin. Masalan kreditlar bo‘yicha foiz o‘ndiruvi va kredit resursi uchun foizli xarajatlar farqi.

Haqiqiy foizli marja quyidagi formula orqali aniqlanadi[10]:

$$\mathbf{M = Fk - Fr}$$

M – haqiqiy foizli marja;
FK – kreditlar bo‘yicha oylik foiz stavkasi;
FR – resurslar bo‘yicha oylik foiz stavkasi.

Foizli marjaning hajmiga, kreditlarning tarkibi, tuzilishi va ularning manbalari asosiy faktorlar bo‘lib hisobla-

6 Y. Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh. Toshmurodov, S. Abdullayeva // Bank ishi. -T.: MOLIYA-IQTISOD, 2009. – 463 b.
7 O‘sha manba.
8 O‘sha manba.
9 O‘sha manba.
10 O‘sha manba.

nadi. Kreditlarni muddatlari bo‘yicha joylashtirish, riskdan himoyalash, kredit maqsadlari kreditni daromadliligini ta’minlaydi. Bu holatda depozitlarning hajmi, turlari va muddatlari muhim o‘rin tutadi.

Foizli marjaning o‘zgarishi banklarning aktiv operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalarining ko‘tarilishi va tushishi bilan bog‘liq bo‘lishi, jalb qilingan pullik resurslarning passiv operatsiyalarga ta’siri va uning kreditlardagi ulushi ham ta’sir etishi mumkin. Jalb qilingan pullik resurslarni muddatlari va kreditlarning muddatlari marjaga ta’sir etadi.

Tijorat banklarining hisob kitoblarini samarali olib borilayotganini hisoblash uchun tijorat bankining spredini aniqlash kerak bo‘ladi. Hamda sof foizli marja, tijorat bankining faoliyatini raqobatbardoshliligini va boshqa jihatlarini o‘z ichiga oladi. Spred quyidagi formula orqali aniqlanadi[11].

$$\text{Спрэд} = \frac{\Фд}{\text{Ад}} - \frac{\Фх}{\text{Мхт}}$$

Bu yerda:
Fd – foizli daromad;
Ad – daromad keltiruvchi aktivlar;
Fx – foizli xarajat;
Mxt – xarajatga tortiluvchi majburiyatlar.

Tijorat banklarini spred ko‘rsatkichi orqali banklar omonatchilar va kreditorlar o‘rtasida vositachilik xizmati ko‘rsatishi qanchalik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi hamda banklar o‘rtasidagi raqobatni ko‘rsatadi. Banklar o‘rtasida raqobatni kuchayishi odatda kreditlar va xarajatga tortiladigan majburiyatlari bo‘yicha o‘rtacha foizli daromad hamda xarajatlarni orasidagi farqini qisqarishiga olib keladi. Ushbu holatda boshqa faktorlar ta’siri yo‘q deb hisoblasak tijorat banklari daromad topishni boshqa yo‘llarni izlashiga to‘g‘ri keladi.

Yana ushbu ko‘rsatkichning ahamiyati shundaki, bankning xizmat ko‘rsatishdan ko‘rgan daromadiga va moliyaviy natijalariga belgilangan foiz stavkalari o‘z ta’siriga ega. Ushbu ko‘rsatkichni bog‘liq banklar yoki bog‘liq bo‘lmagan banklar ko‘rsatkichi bilan solishtirganda tijorat bankini foiz siyosatini qanchalik samarali ekanligini baholash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimini tahlil qilganimizda tijorat banklarining xodimlari tomonidan bankning statistik ma’lumotlariga asosan kelajakda ko‘rilishi mumkin bo‘lgan foyda va zararlarni hisoblaganlar.

Mamlakatimiz tijorat banklarini tahlil qilishda statistik ma’lumotlarni qayta ishlashni korrelyatsion-regression tahlili usuli muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotni olib borishda jarayonlarning tendensiyasini belgilovchi omillarni aniqlash masalasi yechiladi. Bunda tendensiyani aniqlash uchun bir-biriga aloqador o‘zgaruvchilarni ya’ni bir omilni o‘zgarishi boshqasini o‘zgarishiga ta’sirini ko‘rsatuvchi omillarni olamiz.

Tadqiqotda bank kredit qo‘yilmalariga jalb qilingan mablag‘lari, depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi hamda kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasini 120 oylik ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liqligining korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshirganmiz.

Amaliy ma’lumotlariga asoslanib Microsoft Office Excel dasturida statistik ko‘rsatkichlarini tahlil qildik. Dasturda korrelyatsion-regression tahlilni amalga oshiramiz hamda bank kreditlariga jalb qilingan mablag‘lari, bankning kreditlari bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi hamda depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaymiz. “Analiz данных” → “Regressiya” funksiyasiga kirib amallarni bajaramiz. Bankning jalb qilingan mablag‘lari, bankning kreditlari bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi hamda depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasini ta’sir qiluvchi omil, bank kreditlarini esa natijaviy omil sifatida olganmiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda O‘zbekiston bank tizimi mustahkam iqtisodiy-huquqiy bazaga ega bo‘lishi bilan birga, islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida ham ajralib turibdi. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati inflyatsiya darajasini barqarorlashtirish bilan birga, banklarning investitsion faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotning pulga bo‘lgan talabini qondirish va makroiqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash maqsadida hamda inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda qayta moliyalash stavkasi doimo o‘zgartirib borilmoqda.

Tijorat banklari tomonidan kreditlar va depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirishda pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari hisobga olinadi. Pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari esa markaziy bankning pul-kredit siyosati va boshqa bir qator omillar ta’sirida shakllanadi. Shunday qilib, respublikadagi barqaror mak-

11 O‘sha manba.

roiqtisodiy holat va yuritilayotgan qat'iy pul-kredit siyosati pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari, jumladan tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo'yicha foiz stavkalari dinamikasida o'z aksini topadi.

O'zbekiston Respublikasi pul bozoridagi o'rtacha tortilgan foiz stavkalarining o'zgarishini tijorat banklari tomonidan kredit qo'yilmalardagi ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Hozirda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori yildan-yilga ortib borayotgani bilan birgalikda, kreditlarning manbayi bo'lgan depozitlar va ular asosida joylashtirilgan kredit qo'yilmalarining o'rtacha foiz stavkasi o'zgaruvchan ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Bu borada, markaziy bankning majburiy zaxira talablari tijorat banklarining kredit resurslari miqdoriga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda pul-kredit siyosatining muhim instrumentlaridan biri sifatida qo'llanilmoqda.

Kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilash vaqtida resurslar qiymati, kreditga xizmat ko'rsatish bo'yicha prognoz etilayotgan xarajatlar, vositachilik va ma'muriy xarajatlar, ushbu kredit bo'yicha xarajatlarning ortishiga olib keluvchi ehtimoliy risklar va bank foydasi hisobga olinadi. Kredit xizmatlari uchun to'lovlarni belgilashda bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan foiz siyosati va tariflardan foydalaniladi.

Har bir tijorat banki asosiy faoliyati hisoblanmish kredit operatsiyalaridan foiz ko'rinishida daromad oladi. Kredit foiz stavkasini belgilashda tijorat banklari iqtisodiyotda yuz beradigan inflyatsion o'zgarishlarni hisobga olib mijozlar bilan kredit shartnomalari tuzadilar. Bu o'z navbatida tijorat banklari tomonidan olinadigan foizli daromadlarini o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiyani ta'siridan qochish, riskdan himoyalanish hamda bank aktivlarini samarali boshqarishda tijorat banklari suzib yuruvchi foiz stavkalarini shartnomalarda kiritishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Respublikamiz bank amaliyotida foiz stavkasining qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalaniladi. Bu foiz stavkalari banklarning depozit va kredit siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari kreditor sifatida suzib yuruvchi foiz stavkalarini o'rnatishdan manfaatdor. Chunki bunda bank foiz stavkalarini tebranishidan o'zini holos qiladi. Mijozlar esa kredit olishda qat'iy foiz stavkalaridan foydalanishga harakat qiladilar. Qat'iy foiz stavkalarida kredit olish mijozni foiz stavkasini oshib ketishi natijasida ortiqcha xarajat qilish xavfidan ozod etadi.

Mijozlar tijorat banklariga depozitlar qo'yishlarida aksincha, bank bilan shartnomada kelishgan holda suzib yuruvchi foiz stavkalarini o'rnatilishidan manfaatdordir. Bu holatda mijozlarning qayta moliyalashtirish stavkasining o'zgarishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda belgilangan foiz stavkasining oshishi natijasida qo'shimcha daromad olish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Respublikamiz bank amaliyotida suzib yuruvchi foiz stavkalaridan depozitlar va kreditlar uchun deyarli ishlatilmaydi, ishlatilsa ham juda kam miqdorda ishlatiladi. Buning natijasida tijorat banklarining foiz riskiga uchrash xavfi kuzatiladi.

Kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmaslik holatlarida bank tomonidan yuqori foiz stavkalarida mijozlardan foiz o'ndirish holatlari mavjud bo'lib, bu haqda bankning kredit va foiz siyosatida belgilab qo'yiladi.

Shu bilan birga, mijoz va bankning o'zaro kelishuvlariga ko'ra kredit uchun foiz stavkasi, ya'ni kredit bahosi pul bozorining holati va inflyatsiya darajasining o'zgarishiga qarab belgilangan darajadan oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Bunday holatlar esa o'z navbatida, bankning likvidlilik darajasini ta'minlashga xizmat qiladi. Aksincha, berilgan kreditlar yoki jalb qilingan majburiyatlar qat'iy belgilangan foiz stavkalarda amalga oshirilsa, bankning likvidliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, tanlanmaning korrelyatsiya koeffitsiyenti R = 0,98 ekan. Bu Cheddok shkalasi bo'yicha "juda yuqori" zich bog'liqlikni ifodalaydi. Demak, tahlil qilinayotgan miqdorlar o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjud ekan.
2. Aniqlangan korrelyatsiya koeffitsiyentini muhimligini tekshiramiz. Jadval bo'yicha korrelyatsiya koeffitsiyentini muhimlilik mezoni t_r = 1332,3 ga teng. FRASPOBR funksiyasi yordamida hisoblangan Fisher taqsimot qonuniga ko'ra jadval qiymati tf=2,68ga teng. Bundan $t_r > t_f$ ekanligidan, demak korrelyatsiya koeffitsiyenti muhim hisoblanadi va tasodifiylik qonuniga bo'ysunadi.
3. Chiziqli regressiya tenglamasini ko'rinishini $y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \beta_3 x_3 + u$ aniqlaymiz. Ozod had β_0 = 194, o'zgaruvchi had β_1 = 0,77, β_2 = 1034 hamda β_3 = –630 Endi tenglamani iqtisodiy ko'rinishda yozamiz:

$$\mathbf{Y = 194 + 0.77X_1 + 1034X_2 – 630X_3}$$

Bu yerda:
Y – Bank kreditlari (BK);
X1 – Jalb qilingan mablag'lar (JM);
X2− Depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi, foizda (DF);
X3− Kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi, foizda (KF).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Demak, tenglamani quyidagicha yozsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

$$BK=194+0.77JM + 1034DF –630KF$$

Endi β0, β1, β2 va β3 parametrlarni mohiyatli yoki mohiyatsiz ekanligini tekshiramiz. tβ0=3,12, tβ1=59,84, tβ2=2,34 va tβ3=–2,83 ekanligi ma’lum va STYuDRASPOBR funksiyasidan foydalanib Styudent jadval qiymatini hisoblaymiz, u ts=1,98 ekanligi kelib chiqadi. Yuqoridagilardan tβ0>ts bo‘ldi, ya’ni β0 parametr “3,12” ma’noga ega ekan. tβ1>ts bo‘ldi, demak β1 parametr “59,84” mohiyatga ega ekan. tβ2>ts bo‘ldi, demak β2 parametr “2,34” mohiyatga ega ekan. tβ3<ts bo‘ldi, demak β3 parametr “–2,83” mohiyatga ega emas ekan.

4. Determinatsiya koeffitsiyenti R2=0,97 ekanligi ma’lum. Bu bankda kreditlar kredit qo‘yilmalarini o‘zgarishini 97 foiz ushbu model orqali izohlasa bo‘ladi.

Natijalarning iqtisodiy talqini

Model parametrlarini umumiy hamda alohida hosila olish orqali talqin qilish mumkin.

Xususan, modelimizni JM o‘zgaruvchisiga ko‘ra hosilasini olsak:

$$\frac{d\widehat{БК}}{dЖМ} = \frac{\Delta\widehat{БК}}{\Delta ЖМ} = 0,77$$
$$\Delta\widehat{БК} = 0,77 * \Delta ЖМ$$

Ya’ni bank kreditlari va depozitlari bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalari o‘zgarmasa (ceteris paribus), jalb qilingan mablag‘larni qo‘shimcha 1 mlrd. so‘mga oshganda o‘rta hisobda bank krediti 770,0 mln. so‘mga oshadi.

Ushbu modelni DF o‘zgaruvchisiga ko‘ra hosilasini olamiz:

$$\frac{d\widehat{БК}}{dДФ} = \frac{\Delta\widehat{БК}}{\Delta ДФ} = 1034$$
$$\Delta БК = 1034 * \Delta ДФ$$

Ya’ni bank kreditlari va jalb qilingan mablag‘lar o‘zgarmasa (ceteris paribus), depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasini qo‘shimcha 1 birlikka bank kreditlari mln. so‘mga oshishini anglatadi.

Xuddi shunday modelni KF o‘zgaruvchisiga ko‘ra hosilasini olamiz:

$$\frac{d\widehat{БК}}{dКФ} = \frac{\Delta\widehat{БК}}{\Delta КФ} = -630$$
$$\Delta БК = -630 * \Delta КФ$$

Ya’ni jalb qilingan mablag‘lar hamda depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi o‘zgarmasa (ceteris paribus), kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasini qo‘shimcha 1 birlikka oshirsak bank kreditlari mln. so‘mga kamayishini anglatadi.

Modelni barcha o‘zgaruvchilariga ko‘ra umumiy hosilasini olganimizda quyidagi yakuniy natijani beradi:

$$\Delta\widehat{БК} = 0,77 * \Delta ЖМ + 1034ДФ - 630 * \Delta КФ$$

Tadqiqot ishida bank kreditlarini uning determinantlari “jalb qilingan mablag‘lar miqdori”, “depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi” hamda “kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi” orqali tushuntirildi.

Hisob-kitoblar orqali bank kreditini yuqoridagi ko‘rsatkichlarga bog‘liqligini regression tahlili amalga oshirilib, quyidagi model yaratildi:

1-jadval: Tanlanmaning regression tahlili (Microsoft Office Excel dasturida)[12]

Regression statistika					
Ko‘plik R	0,985797229				
R-kvadrat	0,971796176				
Normallashgan R-kvadrat	0,971066766				
Standart xatolik	83,34910821				
Kuzatuvlar soni	120				
				Fisher qiymat	
Dispersion tahlil				2,682809407	
	df	SS	MS	F	Ahamiyatli F
Regressiya	3	27766880,4	9255626,802	1332,305805	0,000000
Qoldiq	116	805860,5654	6947,07384		
Jami	119	28572740,97			

12 Microsoft Office Excel dasturi orqali tayyorlandi.

	Koeffitsiyentlar	Standart xatolik	t-statistika	P-Znachenie	Quyi 95%	Yuqori 95%	Quyi 95,0%	Yuqori 95,0%
Y- Berilgan kredit (mln. so'm da)	193,7910579	62,12637582	3,119304086	0,002287117	70,74194	316,8402	70,74194	316,8402
Jalb qilingan mablag' (mln. so'mda)	0,775337152	0,012956876	59,83982306	0,000038174	0,749674	0,801	0,749674	0,801
Depozit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi (foizda)	1034,979699	441,146923	2,346111114	0,020667698	161,2326	1908,727	161,2326	1908,727
Kredit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi (foizda)	–630,5065835	222,3911976	-2,835123829	0,005405763	–1070,98	–190,033	–1070,98	–190,033
	styudent qiymati							
	1,980626002							

$$\Delta\widehat{БК} = 194 + 0,77 * \Delta\text{ЖМ} + 1034\text{ДФ} - 630 * \Delta\text{КФ}$$

Ushbu modelning determinatsiya koeffitsiyenti hisoblanganda, = 0,97 natijaga erishildi. Bu modelimiz kreditning haqiqiy funksiyasini 97 foizga tushintirishini anglatadi.

Shu bilan birga, ushbu modelni ishonchliligi t va F taqsimotlar bilan gipotezalarni tekshirish orqali baholash amalga oshirildi. Bunda, 95 foizlik ishonch bilan kapitalga va musbat, hamda manfiy bog'liqligi mavjudligi aniqlandi.

Demak, bu degani bank kreditlarning oshishi miqdori jalb qilingan mablag'lar va depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi bilan musbat bog'liqlikka ega ekan shu o'rinda kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi bilan esa manfiy bog'liqlikka ega ekanlinini yuqoridagi tenglama orqali bilishimiz mumkin. Foiz siyosatini yuritishda kredit bo'yicha foiz stavkasini oshirish oqibatida kredit qo'yilmasini pasayishi kuzatilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabini qondirish va makroiqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida hamda inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda qayta moliyalash stavkasi bozor talablaridan kelib chiqqan holda o'zgartirib borilganligi tijorat banklarining resurs bazasiga va likvidliligiga ta'sir etdi.
2. Respublikamiz tijorat banklari qisqa va uzoq muddatli kreditlar dinamikasida uzoq muddatli kreditlar ulushini yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Uzoq muddatli kreditlar mustahkam resurs bazani talab etadi. Bu esa likvidlilik riskini vujudga keltiradi.
3. Jami depozitlarda muddatli va jamg'arma depozitlarning ulushini oshirish lozim. Bu esa o'z navbatida yirik va uzoq muddatli kreditlar ajratishga hamda yuqori foizli daromad olish bilan birga tijorat banklarining likvidliligining oshishiga ijobiy ta'sir etadi.
4. Tijorat banklar o'zlarining biznes rejalariga, tarif siyosatiga alohida e'tibor qaratishlari hamda tarif siyosatini zamon talablariga javob beradigan, mijozlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqish lozim. Bu esa bank xizmatlari bo'yicha foiz siyosatida aks etadi. Natijada, noto'g'ri tanlangan reja yoki foiz banklarning likvidliligining pasayishiga, oqibatida esa yo'qolishiga olib keladi.
5. Iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga hamda mijozlarning talablariga tez moslasha oladigan bankning foiz siyosatini yuritish va mijozlarning turi bo'yicha alohida tariflar orqali yondashishni yo'lga qo'yish lozim. Bunday holatda banklar o'z likvidliligini oldindan baholay olish imkoni yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Питер Роуз. Банковский менеджмент: Предоставление финансовых услуг. Пер. с англ. -М: ДЕЛО, 1997. –768 с.
2. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. Пер. Н. Н. Любимов. –М.: Гелиос АРВ, 1999. –352 с.
3. Ирвинг Фишер. Покупательская сила денег. –М.: ДЕЛО, 2001. – 320 с.
4. Лаврушин О. И. Устойчивость банковской системы и развитие банковской политики: монография /-М: КноРус, 2014. –280 с.
5. Qulliyev I. Y. Kredit bahosining shakllanishi va uni takomillashtirish. I. f.n. ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. avtoref. –Toshkent, 2010. – 16 b.
6. Y. Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh. Toshmurodov, S. Abdullayeva Bank ishi -T.: MOLIYA-IQTISOD, 2009. – 463 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 23-avgustdagi 27/4-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risida"gi nizom
8. http://www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORINI JAHON MOLIYA BOZORIGA INTEGRATSIYALASHUVINING DOLZARB MASALALARI





Burxanov Aktam Usmanovich
i.f.d., prof., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti dekani

Xudoyqulov Xurshid Xurramovich
i.f.d., prof., Moliya kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Maqolada moliya bozori rivojlanishining ilmiy-nazariy jihatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, jahon moliya bozorida rivojlangan davlatlar fond bozorlarining kapitallashuv darajasi va O‘zbekiston fond bozori savdo aylanmasi dinamikasi tahlil qilingan hamda O‘zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvi jarayonlarini tezlashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliya bozori, integratsiya, kapitallashuv, fond birjasi, fond bozori aktivlari, qimmatli qog‘oz.

Abstract: The article examines the scientific and theoretical aspects of the development of the financial market. Also, the level of capitalization of the stock markets of developed countries in the world financial market and the dynamics of trading turnover of the stock market of Uzbekistan were analyzed, and proposals and recommendations aimed at accelerating the integration of the financial market of Uzbekistan into the world financial market were developed.

Key words: financial market, integration, capitalization, stock exchange, stock market assets, stock.

Аннотация: В статье рассматриваются научные и теоретические аспекты развития финансового рынка. Также проанализированы уровень капитализации фондовых рынков развитых стран на мировом финансовом рынке и динамика торгового оборота фондового рынка Узбекистана, а также предложения и рекомендации, направленные на ускорение интеграции финансового рынка Узбекистана в мировой финансовый рынок. были развиты мировой финансовый рынок.

Ключевые слова: финансовый рынок, интеграция, капитализация, фондовая биржа, активы фондового рынка, акции.

1. KIRISH

Moliya bozori har qanday mamlakatning umumiy bozorini tarkibiy, ammo, asosiy va alohida qismidir. Lekin, moliya bozorining asosi real tovarlar bozoridir. Bunda moliya bozori real iqtisodiyot va tovar bozorining ustqurmasi sifatida namoyon bo‘lishi bilan birga tovar bozori va iqtisodiyotni moliyaviy ta’minlaydi hamda muvofiqlashtiradi, umuman iqtisodiyotning obyektiv holatini ifodalaydi va rivojlanishini belgilaydi.

Xalqaro moliya bozorini rivojlantirish, bir tomondan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo‘lib, ikkinchi tomondan, milliy moliyaviy bozorlarning zamonaviy arxitekturasini shakllantirish, ularning segmentlarini va funksiyalarini kengaytirishning natijasi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda qimmatli qog‘ozlar umumiy qiymatining o‘sishi asosan AQSh fond bozorining kapitallashuvini davom ettirish va Xitoy bozori fond bozorida sezilarli darajada yaxshilanishining natijasi bo‘ldi. Jahon fond bozorini kengayishining umumiy ko‘rsatkichlari, asosan, mamlakatlarning asosiy guruhlari tomonidan qimmatli qog‘ozlar emissiyasini taqsimlashda sezilarli farqlar mavjudligidir.

So‘nggi yillarda global IPO (Initial Public Offefing- birinchi ommaviy savdo) hajmining yarmidan ko‘pini rivojlanayotgan mamlakatlar fond birjalarida Xitoy va Gonkongda birjalarda o‘tkazildi. Mazkur birjalar IPO larni amalga oshirilishi, London va Nyu-York fond birjalari bilan yangi ro‘yxatlar bo‘yicha raqobatlasha boshladi. Mamlakatning moliya bozorini o‘rta va uzoq muddatda rivojlantirish bir qator asosiy omillar bilan belgilanadi, ya’ni ulardan biri “moliyaviy chuqurlik” (financial depth) hisoblanadi. Makroiqtisodiy darajada mamlakatning moliya bozorining chuqurligi odatda YaIMga nisbatan moliyaviy talab va majburiyatlar majmuasi sifatida belgilanadi va korporatsiyalar, uy xo‘jaliklari va davlat tashkilotlari o‘z faoliyatini moliya bozori va moliyaviy vositachilar orqali moliyalashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatning pul-kredit va moliyaviy vositalar bilan to‘ldirilganligini ta’minlash ko‘rsatkichlariga yaqin bo‘lib, shuningdek, moliyaviy arxitekturani rivojlantirishni nazarda tutadi. Jahon moliya bozorining bir qismi sifatida ayrim mamlakatlar yoki ular bozorlarining moliyaviy chuqurligini aniqlashda asosiy ko‘rsatkichlarning ikkita guruhi ishlatiladi:

- bank tizimining rivojlanish darajasi (tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yoki depozitlar YaIMga);
- qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanishining ko‘rsatkichlari (so‘ndiriladigan davlat qimmatli qog‘ozlari, munitsipal va korporativ obligatsiyalar va kapital bozorlarini kapitalizatsiya qilish), sug‘urta bozori YaIMga nisbatan.

Moliyaviy chuqurlik ko‘rsatkichining katta afzalligi, uning ko‘p qirrali ekanligi, bozor segmentlari nuqtayi nazaridan ham, ayrim mamlakatlarning yoki butun mamlakatning klasterlari va moliyaviy mahsulotlarning asosiy guruhlari uchun moliyaviy ahvolini tahlil qilish nuqtayi nazaridan juda aniq xalqaro taqqoslashni amalga oshirish qobiliyatidir. Shu bilan birga, iqtisodiyotda moliya bozorining o‘rnini yanada obyektiv baholash uchun moliyaviy chuqurlik koeffitsiyenti orqali iqtisodiyotda moliya bozorining alohida segmentlarini va uning alohida segmentlarini aks ettiruvchi ushbu ko‘rsatkichlar guruhini moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan kompaniyalar va jismoniy shaxslarning mavjudligi darajasi baholanishi kerak. Moliya bozorida ularning narxlarini, innovatsion komponentlarini, institutsional, tashkiliy va regulyativ o‘zgarishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliya bozorini chuqurlashtirish jarayoni asosan moliyaviy vositachilik institutlarining yetuklik darajasi bilan belgilanadi.

Rivojlanayotgan ko‘plab bozorlarning o‘sish sur’atlari, shuningdek, ularning moliyaviy tizimlarini rivojlanishi, YaIMning o‘sish sur’atlaridan orqada qolib ketmoqda, bu moliyaviy globallashishning to‘xtab qolishiga yetarlicha dalil bo‘la oladi. Moliya bozori rivojlanishining tahlili so‘nggi o‘n yilliklarda milliy moliya bozorlarining birlashtirilishi, ularni yanada mustahkamlash va oxir-oqibat misli ko‘rilmagan mobillik tizimining – kapital bozorining shakllanishini ko‘rish imkonini beradi. Bu jarayonlar pul birligi yaratilgandan va Yevropada yagona valyutani joriy etishdan keyin sezilarli darajada oshdi. Ushbu davrning eng muhim yutug‘i globallashuv moliyaviy integratsiyani rivojlantirishga hissa qo‘shgan va globallashuv maqsadlariga erishishga qaratilgan boshqa ko‘plab sa’y-harakatlar bilan birga global moliyaviy bozorning rivojlanishida eng muhim tendensiyalarni shakllantirishga yordam bergan inflyatsiya va byudjetlarning barqarorlashuvining sezilarli darajada pasayishi hisoblanadi.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

Moliya bozori va uning rivojlanishi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, moliya bozorining zamonaviy ma’noda inglizcha “financial market” so‘zidan olingan bo‘lib, moliya bozori – bu qimmatli qog‘ozlar va obligatsiyalar kabi qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish mumkin bo‘lgan bozor hisoblanadi[1]. Ushbu termin birinchi bo‘lib 1963-yilda taniqli iqtisodchi Jeyms Tobin tomonidan qo‘llanilgan[2]. Biroq, o‘sha paytda moliya bozori pul bozori va kapital bozori bilan bog‘liq bo‘lmagan va ushbu termin keng tarqalmagan. 1973-yilda “The Encyclopedia Americana” ensiklopediyasida ham “financial market” so‘zi qayd etilmadi ammo, 1976-yilda Britaniyaning “The New Encyclopedia Britannica” ensiklopediyasida “financial market” so‘zi kiritilgan. Shubhasiz, moliya bozori terminining kirib kelishi pul bozori va kapital bozorini rivojlanishiga to‘g‘ri kelidi deb, 1974-yilda Ronald Robinzonning “Moliyaviy bozorlar: boylikni to‘plash va taqsimlash” asrida keltirib o‘tilgan[3].

Yevropada ushbu tushuncha Amerika moliya bozorining ta’siri ostida biroz keyinroq tarqaldi. 1960-yillarning oxirida Fransiyada “moliya bozori” tushunchasi (marche financier) ishlatila boshlangan, lekin ushbu termin pul bozorini ajratish maqsadida kapital bozor ma’nosida ishlatilgan[4].

1 Никитина Т. В., Репета-Турсунова А. В. Финансовые рынки и финансово-кредитные институты. Учебное пособие / Т. В. Никитина, А. В. Репета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014. – 115 с.

2 Tobin J. Financial Intermediaries and the Effectiveness of Monetary Controls / J. Tobin, W. Brainard // The American Economic Review. – 1963. – Vol. LIII, № 2 – P. 383–400

3 Robinson R. Financial Markets: The Accumulation and Allocation of Wealth / R. Robinson. – N. Y.: McGraw-Hill, 1974. – 512 p.

4 Никитина Т. В., Репета-Турсунова А. В. Н62 Финансовые рынки и финансово-кредитные институты: учебное пособие /

Moliya bozorida o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilar o‘rtasidagi munosabatlarini tavsiflaydi. Moliya bozorida kreditlar, veksellar, aksiyalar, obligatsiyalar, investitsiyalar va boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi va harakat obyekti hisoblanadi. Bozorlar o‘z qonuniyatlari asosida faoliyat ko‘rsatadi. Bu qonuniyatlarni bilish, ulardan oqilona foydalana olish, butun iqtisodiy, moliyaviy samarani oshishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga kelib, moliya bozoriga dunyo olimlari tomonidan bir qator ta’riflar shakllantirildi. Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Sh. Shoh’azamiy ta’rifiga ko‘ra, moliya bozori – bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq tashkillashgan iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta’minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot subyektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo‘luvchi tizim. Ushbu tizim mexanizmi iqtisodiyotning barcha subyektlari tomonidan ularni har birining alohida manfaatli maqsadlari doirasida harakatga keltiriladi[5]. Xorij olimalaridan V.E. Chernova ta’rifiga ko‘ra, moliya bozori – doimiy harakatda bo‘lgan barcha pul resurslarining umumiy miqdori bo‘lib, ya’ni iqtisodiyotning turli subyektlari tomonidan ushbu resurslarga bo‘lgan talab va taklifning o‘zgarishi orqali joylashtirish va qayta taqsimlash hisoblanadi[6]. V. V. Uglinskaya va M. G. Xorunjinlar ta’rifiga ko‘ra, moliya bozori – maxsus institutlar yordami bilan moliyaviy aktivlarni investorlar o‘rtasida almashish mexanizmini samarali taqsimlash hisoblanadi[7]. Moliya bozori – bu qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar, valyutalar va derivativlarni o‘z ichiga olgan bozor hisoblanadi[8].

Fikrimizcha, moliya bozori – muayyan institutsional infratuzilma, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan moliyaviy institutlar orqali moliyaviy aktivlarni shakllantirish va almashish bo‘yicha turli subyektlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar. Moliya bozorlarining mohiyati moliyaviy resurslarni iste’molchilar o‘rtasida tejashni samarali taqsimlash va maxsus moliyaviy institutlar orqali moliyaviy aktivlarni almashish mexanizmi hisoblanadi. Moliya bozorlarining maqsadi ixtisoslashtirilgan moliyaviy institutlar orqali moliyaviy almashinuvida savdo, to‘lov, hisob-kitob va boshqa tizimlar tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Shunday qilib, moliya bozorlari moliyaviy vositalarni sotib olish va sotish bo‘yicha bitimlar majmuasi sifatida ifodalanadi. Savdo, to‘lov va boshqa tizimlar texnologiyalari esa moliyaviy institutlar asosida amalga oshiriladi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Dunyo mamlakatlar fondi bozori kapitallashuvi tahlili (2011–2020-yillar) Butunjahon birjalar federatsiyasining rasmiy sayti, O‘zbekiston fond bozori holati tahlili (2012–2022-yillar) esa, “Toshkent” Respublika fond birjasining rasmiy saytining statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan.

4. TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Rivojlanayotgan davlatlarning global moliya bozorini rivojlantirish tendensiyalari bugungi kunda ham davom etmoqda, shunga qaramay, moliyaviy va qarz inqirozi (2007, 2008 va 2010-yy.) natijasida global moliyaviy tizimda mavjud bo‘lgan o‘zaro aloqalar tezkorlik bilan ishlagan, mashhur “domino effekti” global iqtisodiy ziddiyat tarixining eng qadimgi davrlariga kirib, transchegaraviy kapital oqimlaridagi kuchli oqimga olib keldi, uning hajmi inqirozgacha bo‘lgan davrning 60% darajasiga tushirildi. Shu bilan birga, dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlarida moliyaviy inqiroz holatini tahlil qilish natijasida, hozirgi vaqtda rivojlanayotgan davlatlar – Xitoy va Hindiston hisobiga bozorlarning moliyaviy chuqurligini oshirish tendensiyasi mavjud.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlariga mos bo‘lgan barqaror rivojlanish tendensiyalari (masalan, aktivlarni tovar aylanmasidan va “yomon” ipoteka va boshqa tuzilgan ishonchsiz aktivlarning katta qismi va shuning uchun zararlar)ni bartaraf etish oqibatida moliyaviy aktivlarning ayrim o‘sishlari sekinlashdi va moliyaviy sektorning nisbiy hajmidagi yuqori tendensiyaga mos keladi[9]. Moliyaviy globallashuv sharoitida moliya bozorlarini rivojlanishi uzoq kelajakda dunyoning istalgan joyidan va vaqtda ishtirok etish imkonini beruvchi xalqaro elektron birjani vujudga kelishini tahmin qilish mumkin. Lekin, yaqin kelajakda bunday elektron birja bilan birga fond birjalari ham parallel faoliyat yuritib rivojlanishi aniq. Bunga xalqaro o‘ttizlik guruhining 20 ta yaqin tavsiyasi asos bo‘la oladi. Hozirda jahon moliya bozorlaridagi qimmatli qog‘ozlarning aylanmasi xalqaro tovar aylanmasi hajmidan 60–70 barobar ko‘p, bu ko‘rsatkichning borgan sari ortib borishi tendensiyasini kuzatish mumkin. Bunda xalqaro (horijiy) portfel investitsiyalarining salmog‘i bevosita (to‘g‘ri-

Т. В. Никитина, А. В. Репета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014. – 14 с

5 Shoha’zamiy Sh. Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. Darslik. -T., TFI, 2012.-b.265.

6 Чернова В. Э. Финансовые рынки: учебное пособие / СПбГТУРП. – СПб., 2015. 73 с.

7 Углинская В. В., Хорунжин М. Г. Финансовые рынки: Учебное пособие для студентов экономических направлений всех форм обучения / Рубцовский индустриальный институт. – Рубцовск, 2015. – 79 с.

8 https://www.investopedia.com/terms/f/financial-market.asp.

9 The New Dynamics of Financial Globalizaion, McKinsey Global Institute. August, 2018.

dan-to‘g‘ri) investitsiyalar va xalqaro kreditlar hajmidan sezilarli katta bo‘lib, bunga moliya bozorlarining iqtisodiyotdagi rolini oshib borishi, sekyuritizatsiya jarayonlari va moliya injiniringini tez sur’atlar bilan rivojlanishi sabab bo‘lmoqda. Dunyo rivojlangan mamlakatlarining fond bozorini tahlilini quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (1-jadval).

1-jadval: Dunyoda rivojlangan mamlakatlar fond bozori kapitallashuvi dinamikasi, mlrd. doll. [10]

Mamlakatlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
AQSh	17283,5	15640,7	18668,4	24034,9	26330,6	25067,5	27352,2	32120,7	45293,1	37482,1
Braziliya	1545,6	1228,9	1227,4	1020,5	843,9	490,5	774,1	954,7	1187,4	988,4
Xitoy	4027,8	3412,1	3697,3	3949,1	6004,9	8188,1	7320,7	8711,3	12214,5	8515,5
Germaniya	1429,7	1184,5	1486,3	1936,1	1738,5	1715,8	1718,1	2262,2	2284,1	2098,2
Euronext	2930,1	2446,7	2832,2	3583,9	3319,1	3305,9	3463,8	4392,9	5443, 9	4701,7
Angliya	3613,1	3266,4	3396,5	4428,9	4012,9	3878,8	3467,4	4455,4	4045,6	4182,9
Shveytsariya	1229,3	1089,5	1233,4	1540,7	1495,3	1519,3	1414,7	1686,5	2001,6	1834,4

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, moliya bozorlarini o‘ta notekis rivojlanishi, raqobatni kuchliligi, alohida mamlakatlar ulushlarini barqaror emasligini ko‘rish mumkin. Industrial va rivojlanayotgan davlatlar hamda ularning moliya bozorlarini yillik kapitallashuv darajasi keskin farqlanadi. Bugungi kunda, Fransiya, Ispaniya, Gonkong, Indoneziya, Xitoy, Turkiya, Meksika, Hindiston va Rossiya kabi davlatlar o‘z salmog‘ini tez oshirgan. Bir qotor rivojlangan davlatlarda (Shveytsariya, Germaniya, AQSh) va ba’zi rivojlanayotgan mamlakatlarda (Braziliya, Hindiston) aksiyalar bozori rivojlanish sur’atlari barqaror oshib borgan. Lekin, 2020-yilda karonavirus pandemiyasi oqibatida mamlakatlarda investitsion faollik pasayishi tufayli deyarli barcha fond bozorlarida kapitallashuv darajasi kamaygan. Xususan, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan Braziliya va Xitoy fond bozorlarida kapitallashuv darajasi mos ravishda 16,8 va 30,3 foizga pasaygan.

Moliya bozorini tendensiyalari negizida bir qator muammolar mavjudligini ko‘rish mumkin. Masalan, moliya bozorlari modellarining keskin farqlanishi, moliyaviy globallashuv jarayonlarini turli mamlakatlarda har xil kechishi, tashqi va ichki fundamental omillarning har xil mamlakatlarda turlicha ta’siri, mamlakatlar o‘rtasida bozor risklarining turlicha taqsimlanishi, jahon miqyosida iqtisodiy o‘sishni pasayishi moliya bozorini tendensiyasini o‘zgarishini ko‘rsatadi.

O‘zbekistondagi aksiyalar birja bozorining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning katta qismini davlat korxonalarini xususiylashtirish natijasida barpo etilgan aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlarini birlamchi sotish bo‘yicha tuzilgan bitimlar tashkil etadi.

Mamlakatimiz fond bozorining “Toshkent” RFB uyushgan birja aylanmasi yildan yilga o‘sib borish tendensiyasiga ega (2-jadval).

2-jadval: “Toshkent” Respublika fond birjasi savdo aylanmasi[11], mlrd. so‘m

Yillar	“Toshkent” Respublika fond birjasi savdo aylanmasi
2012	170,7
2013	93,2
2014	297,6
2015	161
2016	299,8
2017	298,6
2018	687,3
2019	438,8
2020	578,15
2021	1260,51
2022	4705,79

2-jadvalgi ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, 2012-yilda fond birjasida savdo aylanmasi 170,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib u 27,6 barobarga, ya’ni 4705,79 mlrd. so‘mgacha keskin o‘sib ketgan.

10 World Federation of Exchanges (https://www.world-exchanges.org) ma’lumotlari asosida tayyorlangan.
11 “Toshkent” Respublika fond birjasining ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayorlangan.

2020-yilda birja savdolarining yarmidan ko‘pini (56,5%) banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish natijasida shakllandi.

Birja savdo aylanmasining keskin ortib ketishiga sabab, “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–2454-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrdagi qaroriga asosan korxonalarning ustav kapitalidagi davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning aksiyalari xorijiy investorlarga sotish va xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi bo‘ldi.

Qimmatli qog‘ozlar birlamchi bozorining nol foizni tashkil etishiga asosiy sabab yagona dasturiy ta’minot kompleksi joriy qilinishi munosabati bilan birlamchi bozor depozitariy va birjadan tashqari “Elsis” savdo tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan. Natijada, aksiyadorlik jamiyatlarining emissiya qilingan aksiyalari birjadan tashqari fond birjasida amalga oshirila boshlandi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvi jarayonlari quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq:

- O‘zbekiston fond bozori fond birjasi rivojlangan mamlakatlardan dasturiy ta’minot, server va telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish, mahalliy mutaxassislarni o‘qitish, bir yil davomida kafolatli xizmat ko‘rsatish, qonunchilik bazasini takomillashtirishda ko‘maklashishni o‘z ichiga olgan Yagona dasturiy-texnik kompleksni olishi va joriy etishi zarur.
- Bugungi kunda moliya bozorini integratsiyalashuvini kuchaytirish maqsadida xususiy sektor investorlarini jalb qilish orqali moliyaviy manbalar xilma-xilligini ta’minlash maqsadga muvofiq.
- O‘zbekiston Respublikasining moliya bozorida xorijiy investorlar ulushi o‘ta past darajada bo‘lib, buning sabablari ichki moliya bozori rivojlanmagani va kapital nazoratining mavjudligidir. Istiqbolda ichki moliya bozorining rivojlanishi va kapital nazoratining erkinlashtirilishi xorijiy portfel investorlarining oqimiga olib keladi. Ichki moliya bozorida xorijiy investorlar ulushining 40 foizgacha ortishi ijobiy jarayon sifatida tasniflanishi kerak.

Bugungi kunda, “Toshkent” Respublikasi fond birjasining aktivlarini baholashda bozor indeksi va aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari qiymatidan foydalansa bo‘ladi. Lekin, istiqbolda mamlakatimiz fond birjasining rivojlanishi natijasida fond bozoridagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari bozor qiymatga faqat bozor indeksi orqali ta’sir qilmaydi. Mamlakatimiz fond bozoridagi aktivlarni baholashda yaqin kelajakda AQSh fond bozorida qo‘llanilayotgan usullardan foydalanish, o‘z navbatida, fond bozoridagi aktivlarni baholashning takomillashuviga olib keladi.

“Toshkent” Respublika fond birjasining aktivlarini baholashda fond bozori indeksini tabaqalashtirilgan holda yoki tarmoqlarga ajratilgan holda alohida indeksni joriy qilinishi lozim. Chunki, rivojlangan mamlakatlarda fond bozorlarida faqat yagona indeks yuritilmaydi, balki ma’lum tarmoqlar bo‘yicha indekslar mavjud.

Adabiyotlar:

1. Никитина Т. В., Репета-Турсунова А. В. Финансовые рынки и финансово-кредитные институты. Учебное пособие / Т. В. Никитина, А. В. Репета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014.
2. Tobin J. Financial Intermediaries and the Effectiveness of Monetary Controls / J. Tobin, W. Brainard // The American Economic Review. –1963. –Vol. LIII, № 2.
3. Robinson R. Financial Markets: The Accumulation and Allocation of Wealth / R. Robinson. – N. Y.: McGraw-Hill, 1974.
4. Shoha’zamiy Sh. Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. Darslik. -T., TFI, 2012.
5. Чернова В. Э. Финансовые рынки: учебное пособие / СПбГТУРП. – СПб., 2015.
6. Углинская В. В., Хорунжин М. Г. Финансовые рынки: Учебное пособие для студентов экономических направлений всех форм обучения / Рубцовский индустриальный институт. – Рубцовск, 2015.
7. https://www.investopedia.com/terms/f/financial-market.asp.
8. The New Dynamics of Financial Globalizaion, McKinsey Global Institute. August, 2018.
9. World Federation of Exchanges (https://www.world-exchanges.org) ma’lumotlari.
10. “Toshkent” Respublika fond birjasining ma’lumotlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHIGA OID



Ruzibayev Jahongir Nodirovich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada JSTga a’zo bo‘lishning ijobiy va salbiy ta’sirlari guruhlashtirilgan, mamlakat uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar (shu jumladan, omillar) tahlil qilingan hamda zararlarni minimallashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Jahon Savdo Tashkiloti, JSTga a’zo bo‘lishning ijobiy va salbiy ta’sirlari, JSTga a’zo bo‘lgan qo‘shni mamlakatlar iqtisodiyoti tahlili, JSTga a’zo bo‘lishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar.

Abstract: This state include in the positive and negative consequences of membership in the WTO are grouped, potential problems (in that number of factors) are analyzed for the country, and the best foreign practices are investigated to minimize the damage.

Key words: World Trade Organization, positive and negative consequences of WTO membership, analysis of the economies of neighboring WTO member countries, potential risks of WTO membership.

Аннотация: В данной статье группируются положительные и отрицательные последствия членства в ВТО, анализируются потенциальные проблемы (в том числе факторы) для страны, а также исследуются лучшие зарубежные практики по минимизации вреда.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, положительные и отрицательные последствия членства в ВТО, анализ экономик стран-соседей-членов ВТО, потенциальные риски членства в ВТО.

KIRISH

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ulkan iqtisodiy islohotlar, mamlakatning investitsion muhitini shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro imijini yanada oshirish, shu bilan birgalikda, milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashga qaratilganligi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatib bermoqda. Bois Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining 97-maqsadida Jahon savdo tashkiloti (keyingi o‘rinlarda JST)ga a’zo bo‘lish keltirib o‘tilgan.

(Ma’lumot o‘rnida: JST 1995-yil 1-yanvarda, xalqaro savdoni liberallashtirish va a’zo mamlakatlar savdo va siyosiy munosabatlarini tartibga solish maqsadida tashkil etilib, bugungi kunda 164 ta a’zo davlatni o‘z ichiga oladi).

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon savdo tashkiloti faoliyati va unga a’zo bo‘lish masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning doimiy diqqat-e’tiboridagi tadqiqot mavzularidan biridir.

Professor A. Vaxobov tomonidan JST faoliyati tahliliga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, “Jahon iqtisodiyotida o‘tish davri iqtisodiyoti bir xo‘jalik yuritish tizimining boshqasi bilan almashish holatini ifoda etadi. Bu jarayon nisbatan uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu mamlakatlarning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lishi qator qiyinchiliklar va muammolar tug‘dirishi bilan barobarida iqtisodiyotda raqobatdoshlik muhitini yaratish, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish omili bo‘lib xizmat qilishi mumkin”, deya ta’kidlaydi.

O‘zbekistonning jahon savdo tashkilotiga qo‘shilishi yuzasidan tadqiqotlar olib borayotgan N. Zufarova esa, “Iqtisodiyoti o‘tish davrida bo‘lgan barcha mamlakatlarda (nafaqat sobiq sotsialistik mamlakatlar, balki XX asrning 60–70-yillarida import o‘rnini to‘ldiradigan sanoatlashtirish strategiyasiga amal qilgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ham) liberallashtirish sari dastlabki qadamlar bir tomonlama qarorlar qabul qilish bilan u yoki bu tarzda bog‘liq bo‘ldi. Islohotlarni bir tomonlama o‘tkazish savdo siyosati sohasida mamlakat to‘liq suverenitetini nazarda tutadi, bu esa uning nuqtayi nazaridan ko‘ngildagi maqsadlarga erishishning optimal sanalgan usullarini tanlashda hukumatning “qo‘lini yechib yuboradi”, deb hisoblaydi.

Shuningdek, Yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lish O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yo‘lidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligi xususida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 19 sentyabr kuni Nyu-Yorkda BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida aytib o‘tdi.

Global tahdidlarga qaramasdan, mamlakat iqtisodiyoti “izchil islohotlar” tufayli “barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda”.

“So‘nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 martadan ortiq ko‘paydi. Bizning bosh maqsadimiz – 2030-yilga qadar bu ko‘rsatkichni yana 2 barobarga oshirishdir”, – deya ta’kidladi Prezident.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan tendensiyalardan kelib chiqib, JSTga a’zo bo‘lishning ijobiy va salbiy ta’sirlari guruhlashtirildi, mamlakat uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar (shu jumladan, omillar) tahlil qilindi hamda zararlarni minimallashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganib chiqildi. Olib borilgan tahlillar natijasida O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi.

1. JSTga a’zo bo‘lishning ijobiy va salbiy ta’sirlari bo‘yicha.

Xususan, JSTga a’zo bo‘lishda mamlakatga investitsiya hajmining va ish o‘rinlarining ko‘payishi, aholi to‘lov qobiliyatining o‘sishi, mahsulotlar sifatining oshishi hamda ularning narxi pasayishi va eng asosiysi ishlab chiqarish hajmining keskin oshishi natijasida ortiqcha qo‘shilgan qiymatning hosil bo‘lishi kabi ijobiy ta’sirlari aniqlandi.

Shuningdek, davlat byudjeti daromadlarining keskin qisqarishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar shu jumladan, qishloq xo‘jaligi subyektlarining inqirozga yuz tutishi, strategik ahamiyatdagi korxonalar rentabelligining pasayishi ortidan milliy iqtisodiyotning beqarorlashuvi kabi bir qator salbiy ta’sirlari ham mavjud.

2. JSTga a’zo bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Tojikiston respublikalari iqtisodiyoti tahlili bo‘yicha.

Bundan tashqari, JSTga a’zo bo‘lishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli holatlar bo‘yicha Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Tojikiston respublikalari faoliyatlari tahlil qilindi (ilova qilinadi).

Xususan, Rossiya Federatsiyasi tomonidan JSTga a’zo bo‘lishda mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar hamda strategik ahamiyatdagi korxonalarga davlatning individual imtiyozlari va subsidiyalarining taqdim etilishi huquqi saqlab qolinganligi natijasida yalpi ichki mahsuloti hajmi 2,2 trln.dollarni (2011-yilda 2,0 trln.dollar yoki 109 foiz) tashkil etgan.

(Ma’lumot o‘rnida: Rossiya Federatsiyasining JSTga a’zo bo‘lishi 1995-yildan – 2011-yilga qadar davom etib, 2012-yil avgustga kelib yakunlangan. Bunda, RF milliy manfaatlaridan kelib chiqib, quyidagi 3 yo‘nalishda o‘z huquqini saqlab qolgan:

1. Sanoat sohasida davlat bojlarini 7 yilga qadar 9,5 foizdan – 7,3 foizga pasaytirish.
2. Mahalliy qishloq xo‘jaligiga 1 yilda umumiy qiymati 9 mlrd.dollarga teng bo‘lgan davlat subsidiyalarini ajratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga import bojini 13,2 foizdan – 10,8 foizga pasaytirish.
3. Xizmat ko‘rsatishning 155 sohasidan 30 tasida erkin raqobat qolgan 125 tasida xorijiy kompaniyalar faoliyatini cheklash.)

Shuningdek, Qozog‘iston Respublikasining JSTga a’zo bo‘lishi natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi 37,5 foizga qisqarib 128,1 mlrd.dollarni tashkil etgan (2014-yilda 205,0 mlrd.dollar). Bundan tashqari, mazkur tendensiya Respublika makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining barcha indikatorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

(Ma’lumot o‘rnida: Qozog‘iston Respublikasi 1996-yil JSTga a’zo bo‘lish maqsadida ariza taqdim etgan bo‘lib, 2015-yil 27-iyul kuni JSTning 162 sonli a’zosi bo‘lgan. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligini yalpi ichki mahsulotning 8,5 foizi miqdorida subsidiyalash huquqini saqlab qolgan. Shunga qaramasdan mamlakat tashqi savdo aylanmasi 45,8 foizga (2014-yilda 120,0 mlrd. dollar) shu jumladan, eksport 52,4 foizga qisqargan.)

Shu bilan birgalikda, Tojikiston Respublikasining JSTga a’zo bo‘lishi natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi 19,3 foizga oshib 9,1 mlrd.dollarni tashkil qilgan (2012-yilda 7,6 mlrd.dollar, aholi jon boshiga 959 AQSh dollari). Biroq, mamlakatning tashqi tovar-aylanmasidagi eksport ulushi 25,2 foizga qisqargan. Shunga qaramasdan, Tojikiston Respublikasi JSTning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM hajmi 1000 AQSh. dollarigacha bo‘lgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi sohalarini 10 yil muddatga qadar hukumat tomonidan subsidiyalash imkoniyatidan foydalanishi evaziga milliy iqtisodiyotida nisbatan barqarorlik saqlanib qolingan.

(Ma’lumot o‘rnida: Tojikiston Respublikasi JSTga 11 yillik muddatdan keyin 2013-yil mart oyida 159 sonli a’zo sifatida qabul qilingan. Hukumat tomonidan milliy iqtisodiyotning 24 foizi shu jumladan, aholining 50 foizi qishloq xo‘jaligi ulushiga to‘g‘ri kelishi ta’kidlanib, JSTdan 10 yil muddatda sohani davlat himoyasida saqlash (subsidiyasilar, imtiyozlar) huquqi olingan.)

3. O‘zbekiston Respublikasining JSTga a’zo bo‘lishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlari bo‘yicha.

JSTga a’zo bo‘lgan davlatlar faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatning tegishli sohalarini shu jumladan, strategik ahamiyatdagi korxonalarni tashkilotga a’zo bo‘lishga qadar tayyorlab borish shuningdek,

a’zo bo‘lganda mazkur soha va korxonalarni davlat tomonidan ma’lum bir muddatda qo‘llab-quvvatlash (subsidiyalash, imtiyozlar berish) muhimdir. Mazkur harakatlarni o‘z vaqtida bajarmaslik mamlakat xavfsizligiga bir qator xavf-xatar uyg‘otishi mumkin.

Xususan, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining inqirozga yuz tutishi. Bunda, hukumat tomonidan aholini yetarli darajada oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanmasligi bevosita mamlakat milliy xavfsizligiga tahdid sifatida baholanadi.

(Ma’lumot o‘rnida: 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 25,1 foizi qishloq xo‘jaligi ulushiga to‘g‘ri kelib, aholining 27 foizi mazkur sohada bandlik bilan ta’minlangan. Shuningdek, 2022-yilda qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritib kelayotgan 38 958 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan 4 271,0 mlrd. so‘m miqdoridagi soliqlar davlat byudjetiga undirilgan. Bundan tashqari, JSTga a’zo bo‘lgan XXR, Yevropa mamlakatlari hamda Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali yuqori hosildorlikka erishganlar.)

Shu bilan birgalikda, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalar va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning erkin bozor raqobatiga bardosh bera olmasligi o‘z navbatida mazkur korxonalarning tugatilishiga yoki bankrot bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Buning oqibatida esa ishsizlik sonining keskin oshishi, aholi to‘lov qobiliyatining pasayishi va davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga sabab bo‘ladi.

(Ma’lumot o‘rnida: 2022-yilda 56 492 ta mahalliy ishlab chiqarish korxonalari tomonidan jami 64 569,0 mlrd. so‘m (shu jumladan, foyda 24 864,7 mlrd. so‘m, nedra – 11 454,3 mlrd. so‘m, QQS – 9 560,2 mlrd. so‘m, aksiz – 4 994,9mlrd. so‘m, JShDS – 3 906,4 mlrd. so‘m va boshqa soliqlar 9 841,2 mlrd. so‘m) miqdoridagi soliqlar byudjetga undirilgan. Bundan tashqari, 270 ta strategik ahamiyatga ega yirik korxonalar tomonidan 88 304 mlrd. so‘m (davlat byudjeti daromadlarining 60 foizi) miqdorida soliqlar to‘langan)

Shuni alohida qayd etish lozimki, JSTga a’zo bo‘lishda eng yuqori xavf-xatar bu transmilliy kompaniyalarning mamlakat siyosiy faoliyatiga ta’sir o‘tkaza boshlashi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish imkoniyatlariga qisqacha baho beradigan bo‘lsak, ular so‘nggi yillarda jiddiy islohotlarni boshdan kechirgan turizmni rivojlantirish, integratsiya imkoniyatlarini oshirish, tarifsiz cheklovlarni qisqartirish, iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ulushini oshirish, investitsiyalar hajmini pasaytirishda namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti vakillari bilan muzokaralari yana ikki-uch yil davom etishi mumkin. A’zolik masalasi osonlikcha hal bo‘lmaydi, oldinda qiyin bosqichlar turibdi. Muzokaralar mavzulari va muammolarining doirasi shunchalik kengki, ulardan birini yo‘qotish yangi muammoga olib kelishi mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilganlarni shuningdek, JSTga a’zo bo‘lish O‘zbekiston Respublikasi oldidagi eng dolzarb masala ekanligini inobatga olgan holda, tashkilotga a’zo bo‘lishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi yo‘nalishlarda islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar hamda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalarning texnik va texnologik salohiyatini modernizatsiyalash hisobiga raqobatbardoshligini oshirish. Bunda, modernizatsiya hisobiga rentabellik ko‘rsatkichlarini kamida 2 barobarga oshirgan korxonalarga soliq imtiyozlarini taqdim etish hamda aksincha modernizatsiya qilmasdan faoliyat yuritayotganlarga karrali soliq hisoblash mexanizmini joriy etish.
2. Qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan subyektlar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali sarf-xarajatlarni kamaytirish hamda unumdorlikni oshirishni nazarda tutuvchi davlat dasturini ishlab chiqish.
3. JST bilan intensiv muzokaralarni olib borish hamda tashkilotga a’zo bo‘lishda O‘zbekiston Respublikasining mahalliy ishlab chiqaruvchilar va qishloq xo‘jaligi sohasiga 7 yil muddatda davlat byudjetidan subsidiyalar hamda imtiyozlar ajratilishi huquqini saqlab qolish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. JSTga to‘laqonli a’zo bo‘lish – O‘zbekistonning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, 2023-yil 19-sentyabr Nyu-Yorkda BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqidan.
2. Vaxobov A. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarining jahon savdo tashkilotiga kirish tajribasi: yo‘qotishlar va afzalliklar.: Xalqaro iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar, 2020.
3. JSTga a’zo bo‘lish uchun O‘zbekistonning iqtisodiy tizimi xalqaro me’yorlar va standartlarga moslashtirilishi kerak – [Elektronnыy resurs]/ Rejim dostupa: https://kun.uz/news/2023/09/19/li-tayeho.
5. JST va O‘zbekiston– [Elektronnыy resurs]/ Rejim dostupa: https://yuz.uz/news/jst-va-uz
6. Бродко И. Вступление в ВТО: плюсы и минусы – [Электронныйресурс] / Режим доступа : https://cyberleninka.ru/
7. www.wto.org



O‘ZBEKISTONDA IKKILAMCHI QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Ro‘ziqulov Abdimo‘min Qussam o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlkatimizdagi kapital bozori va ikkilamchi qimmatlgi qog‘ozlar bozorining ilmiy-nazariy jihatlari bayon etilgan. “Toshkent” RFBsining 2018-yildan 2022-yilga bo‘lgan ma’lumotlar asosida fond birjasining aylanmasi va fonb birjasining ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini aylanmalari tahliliga e’tibor qaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizdagi ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini likvidlik darajasi va rivojlanish tendansiyasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini tahlil qilishda mavjud muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etishga qaratilagan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar; fond birjasi; kapital bozori; moliviy aktivlar; aksiya; samarali bozor gipotezasi; kapitallashuv; qimmatli qog‘ozlar.

Abstract: The article considers scientific and theoretical aspects of the development of the capital market and the secondary stock market in the country. Also, the analysis of the turnover of the stock exchange and the turnover of the secondary stock market of the stock exchange on the basis of the data of the RFB “Tashkent” for 2018–2022 is paid attention to. In turn, this, in turn, makes it possible to determine the level of liquidity and the trend of development of the secondary stock market in our country. Moreover, when analyzing the secondary stock market, the existing problems are identified and scientific proposals and practical recommendations aimed at their elimination are developed.

Key words: secondary securities; stock exchange; capital market; financial assets; stock; efficient market hypothesis; capitalization; securities.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические аспекты развития рынка капитала и вторичного рынка ценных бумаг в стране. Также уделено внимание анализу оборота фондовой биржи и оборота вторичного фондового рынка фондовой биржи на основе данных РФБ “Ташкент” за 2018–2022 годы. Это, в свою очередь, дает возможность определить уровень ликвидности и тенденцию развития вторичного рынка ценных бумаг в нашей стране. Помимо этого, при анализе вторичного рынка ценных бумаг выявляются существующие проблемы и разрабатываются научные предложения и практические рекомендации, направленные на их устранение.

Ключевые слова: вторичные ценные бумаги; фондовая биржа; рынок капитала; финансовые активы; запас; гипотеза эффективного рынка; капитализация; ценные бумаги.

KIRISH

O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish uchun kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, keyingi yillarda davlatimiz tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishning institutsional asoslari yaratildi. Biroq, mamlakatizda kapital bozorida ikkilamchi qimmatl qog‘ozlar bozorini rivojlantirish bo‘yicha hanuzgacha yagona dasturning mavjud emasligi, qimmatli qog‘ozlar bozorini faoliyatining samarali tashkil etilmaganligi, xususan ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini likvidligi ta’minlanmaganligi ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoriga investorlarni jalb qilishga to‘sqinlik qilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi PQ–90-sonli “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ–291-sonli “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2023-yil 29-aprelagi PQ–102-sonli “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizimi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, kapital bozorining uyg‘un faoliyati va uning barcha segmentlari rivojlanishini ta’minlash orqali 2023-yil yakuniga qadar respublika va hududiy investitsiya dasturlari doirasida loyihalarning qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismini 5 foizga yetkazish ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish olib kelinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugunigi kunda dunyo olimlarning ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha qarashlari turlicha bo‘lishi mumkin, lekin umuman olganda, ular kapital bozorlarining asosiy faoliyatida uning ahamiyatli jahatlarini tan olishadi. Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bu qimmatli qog‘ozlar birlamchi bozorda keyingi jarayon hisoblandi. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri investorlardan kapital jalb qilish orqali qimmatli qog‘ozlarni chiqarilishi birlamchi qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi. Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlarni bozori esa, qimmatli qog‘ozlarni chiqarilgandan so‘ng, investorlar o‘rtasida mavjud moliyaviy aktivlarni, xususan, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotishni anglatadi.

Dunyo olimlari ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori bo‘yicha umumiy qarashlari va asosiy fikrlari quyidagilardan iborat hisoblandi:

Likvidlikni oshirish: Olimlarning fikricha ko‘pincha investorlarga likvidlikni ta’minlashda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorning rolini ahamiyatli ekanligini ta’kidlaydilar. Ushbu qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarga o‘ziga tegishli qimmatli qog‘ozlarini osongina sotib olish va sotish imkonini beradigan bozor hisoblandai. Bu esa, o‘z navbatida, investorlar uchun ikkilamchi qimmtli qog‘ozlar bozorida ishtirok etishni yanada jozibador qiladi. Shuningdek, investitsiyalarni tezda naqd pulga aylantirish qobiliyati investorlar va aksiyadorlik jamiyatlari uchun juda muhim hisoblanadi.

Narxlarni aniqlash: Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori narxlarni aniqlash mexanizmi sifatida qaraladi. Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorda qimmatli qog‘ozlarning narxi talab va taklif kuchlari tomonidan belgilanadi. Bu esa, o‘z navbatida, aktivlarning kutilayotgan qiymati haqida muhim ma’lumotlarni aniqlshga xizmat qiladi. Dunyo olimlari ko‘pincha o‘zgaruvchan iqtisodiy va moliyaviy sharoitlarni aks ettirishda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorning samaradorligini alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Kapitalni taqsimlash: Ba’zi olimlar ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori kapitalni samarali taqsimlashda hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Ikkilamchi qimmtli qog‘ozlar bozori investorlarga mavjud qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qilish imkonini berish orqali kapital o‘sishi va innovatsiya potensiali eng yuqori bo‘lgan joyga oqib chiqishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy rivojlanishga yordam berishiga olib keladi.

Risklarni boshqarish: Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini investorlarga investitsiya tavakkalchiligini boshqarish imkoniyatini beradi. Investorlar o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga javoban o‘z portfellarini diversifikatsiya qilishlari va investitsiyalardan amalga oshirishda portfel nazariyasini amalga oshirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, moliyaviy tizim uchun zarur vosita hisoblanadi.

Tartibga solish mexanizmi: Olimlar nazarida, shuningdek, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori adolat va shaffoflikni ta’minlash uchun tartibga soluvchi nazoratni amalga oshirishini tan olishadi. Bozorni manipulyatsiya qilish, insayder savdosi va boshqa firibgarlik harakatlari bilan bog‘liq havotirlar bozor yaxlitligini saqlash uchun me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqishga olib keldi.

Bozor samaradorligi: Bir nechta olimlar ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining samaradorligi haqida bahslashadilar. Samarali bozor gipotezasi (Efficient Market Hypothesis) ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozordagi aktivlar narxlari barcha mavjud ma’lumotlarni to‘liq aks ettirishini taklif qiladi. Bu esa, investorlarning bozordan doimiy ravishda ustun turishini qiyinlashtiradi. Biroq, bu gipoteza tanqidga duch keldi, ba’zilari bozorlar mukammal darajada samaraliroq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar.

Iqtisodiy barqarorlikdagi roli: Olimlar ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori umumiy iqtisodiy barqarorlikka qanday ta’sir ko‘rsatishini tadqiqot olib borganlar. Xususan, ularning nazarida iqtisodiy inqiroz davrida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori o‘zgaruvchanlik va likvidlik muammolariga duch kelishi natijasida, bu esa, o‘z navbatida kengroq iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi o‘zlarining tadqioqtlarida ko‘rsatib o‘tganlar.

Buguni kunda xorijlik olimlarning ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bir nechta tadqiqotlar mavjud hisoblanadi. Xorijlik iqtisodchi olimlardan Morin O′Xaraning tadqiqoti qimmatli qog‘ozlar bozorining mikrotuzilmasiga modellariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning fikricha, qimmatali qog‘ozlar bozorida likvidlik, bozor savdosini erkinligi, bozorni tuzilishi va bozor mikrotuzilmasi eng muhim elimentlari hisoblanadi. Uning nazarida, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi qimmatli qog‘ozlarning savdo mexanizimini va qimmatli qog‘ozlarni qiymatini shakllatirishda bozorning mikrotuzilmasi eng asosiy o‘rin egallashini ta’kidlagan. Shuningdek, uning nazarida, bozor mikrotuzilmasi – bu aniq savdo qoidalari bo‘yicha aktivlarni ayirboshlash jarayoni va natijalarini o‘rganishdir [1].

Iqtisodchi olimlardan bir hisoblangan Yudjin F. Fama tadqiqotida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida axborot ma’lumotlari eng asosiy ko‘rsatkich ekanligi ta’kidlagan. Uning fikricha, agar har bir daqiqadagi aksiyalar narxlari kelajakdagi qiymatlar haqidagi barcha mavjud ma’lumotlarni o‘z ichiga olsa, axborot ishonchiligi ta’minlash lozimligi tadqiqotida ko‘rsatadi. Axborot ishonchiligi bozordagi aktivlarni narxi bilan bog‘liq bo‘lmasa, bozordagi aktivlarning kelajakdagi qiymatini yuqori bo‘ladi va ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari ushbu axborotni sotib olishga harakat qiladilar. Buning natijasida, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aktivlar qiymatini bilan bog‘liq axborotlar to‘liq aks ettirmaguncha narxni oshib borishini tadqiqotida o‘z aksini topgan [2].

Terri Fuko, Marko Pagano va Aylsa Roellarning tadqiqotiga ko‘ra qimmatli qog‘ozlarni likvidligi va narxlarni aniqlash orqali ikkilamchi qimmtali qog‘ozlar bozoridagi aktivlarning narxlarini aniqlashda muhim hisoblanishi ko‘rsatib berganlar. Xususan, qimmatli qog‘ozlar bozorida hamma ishtirokchilar ham bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lmasligi, hattoki cheklangan miqdordagi ishtirokchilar ham bozordagi qimmatli qog‘ozlar haqida juda xil-ma-xil ma’lumotlarga ega ekanligi natijasida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aktivlarning bahosi shakllanishi asta-sekin bo‘lishini aniqlaganlar. Shunday qilib, qimmatli qog‘ozlarningning haqiqiy tranzaksiya narxi uning asosiy qiymatiga ta’sir etmasligi mumkin, sababi qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq ma’lumotlar to‘liq investorlar tomonidan baholanadi. Bundan tashqari, ular bozor mikrotuzilmasida ham tadqiqot olib borib, qimmatli qog‘ozlar narxini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli nazariy tushunchalar va empirik tadqiqotlarga tayangan holda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlarni bozoridagi aktivlarni likvidlik va narxlarni aniqlash aktivlar bilan bog‘liq narxga tegishli ma’lumotlar bozorga ommaviy e’lon orqali emas, balki savdo bosimi orqali aniqlanishi aktivlarning likvidligi past darajada bo‘lishini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini aktivlari vaqt o‘tishi bilan likvidlik o‘zgaradi. Shuningdek, yirik savdolar narxlarni yuqoriga yoki pastga siljitadi va ushbu narxlar o‘zgarishi orqaga qaytariladi. Buning natijasida, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar savdosining konsentratsiyasini amalga oshiriladi. O‘z navbatida, treyderlar o‘zlarining mo‘ljallangan savdolarini bajonidil amalga oshiradilar, biroq boshqa ijtirokchilar esa ularni yashirishadi. Bu esa, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aktivlarni arbitraj narxlari vaqtinchalik o‘zgarishlarga olib keladi [3].

Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan Yakov Amixud va Xaim Mendelsonlarning tadqiqotiga ko‘ra ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy insturmentlarning likvidlik darajasi, likvidlik riskini baholadi va empirik tadqiqotlarida likvidlikning aktivlar narxiga ta’sirini statistik jihatdan muhim va iqtisodiy jihatdan muhim deb ta’kidladilaryu Shuningdek, an’anaviy risk o‘lchovlari va aktivlarning xususiyatlarini nazorat qilishni nazarda tutganlar. Ularning fikricha, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi likvidlikka asoslangan aktivlarning bahosi empirik tadqiqotlarini amalga oshirishda aksiya daromadlariga va aksiyalarning likvidligining pasayishiga hamda aksiyaning kutilayotgan daromadiga ta’sir qiluvchi omillarni ta’sirini o‘rganish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tganlar [4].

Xorijlik olimlardan Marko Avelyaneda va Sasha Stoykovlar ikkilamchi kapital bozorlarida algoritmik savdoning strategiyalari va ularning ikkilamchi kapital bozoriga ta’sirini o‘rganadi Ularning nazarida, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida dillerning roli ta’minlash lozim, sababi dillerlar aktivlarni narxlarini kotirovka qilish orqali birjadagi likvidlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ular qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aktivlarni sotib olishga va sotishga tayyor turadi. An’anaga ko‘ra, bu rolni marketmeyker va ixtisoslashgan professional ishtirokchilar amalga oshirmoqda. So‘nggi yillarda elektron birjalarning rivojlanishi natijasida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida narxlarni keskin tebranishi kuzatilmoqda. Shu boisdan, ular tadqiqotida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi narxlarni tebranishini barqarorligi ta’minlash maqsadida savdolarning starategiyalarining algoritimini taklif qildilar [5].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan biri Sh.Sh. Shoxazamiy doktorlik dissertatsiyasi ishida fond bozoridagi moliyaviy hisob-kitoblar kabi masalalarni o‘rgangan bo‘lsada, fond bozori aktivlarini baholash modelilar hisob-kitoblariga alohida to‘xtalib o‘tmagan [6]. Sh.Sh. Shohazamiy qimmatli qog‘ozlarning tahlilini takomillashtirish uchun aktivlarni baholash modellari nazariyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, deb ta’kidlagan [7]. Qimmatli qog‘ozlar va fond bozori borasida yetuk mahalliy iqtisodchi olimlardan yana biri L. I. Butikov ham doktorlik dissertatsiyasi ishida O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishidagi muammolarini hal qilish yo‘llarini ko‘rsatib bergan [8]. N. G‘. Karimov o‘zining doktorlik dissertatsiyasi ishida O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozoriga to‘xtalib, investitsion faoliyatni qimmatli qog‘ozlar bozori orqali moliyalashtirish masalalari yo‘llarini ochib bergan [9].

TAHLIL VA NATIJALAR


O‘zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayottgan izchil islohotlar boshqa sohalar kabi ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining ham rivojlanishiga asos bo‘lmoqda. Uning rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari o‘tish davriga mansub bo‘lgan O‘zbekistonning tanlagan rivojlanish modeliga asoslangan. O‘zbekistonning iqtisodiyotini yanada rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari sifatida belgilangan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish va sanoat jihatidan o‘sishni ta’minlashda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining roli va funksiyalari katta ahamiyatga ega. Chunki, jahon amaliyotidan ma’lumki, aynan ikkilamchi qiimatli qog‘ozlar bozori milliy iqtisodiyotning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligi, xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash uchun investitsiyalarni jalb qilish, real sektorni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda va umuman iqtisodiyotda barqaror o‘sishni rag‘batlantirish maqsadida moliyaviy resurslarni jalb qilishning samarali mexanizmidir.

Hozirgi kunda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarilgan bo‘lib, bunda mamlakatda amalga oshirilayotgan bir qator iqtisodiy islohotlar ta’siri ijobiy bo‘lmoqda. Prezidentimiz

Sh. M. Mirziyov 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF–6207-sonli Farmoniga asosan kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning kapitallashuvini 2023-yil yakuniga qadar 45 trln so‘mga yetkazish, bank tomonidan kreditlashga muqobil bo‘lgan samarali moliyalashtirish mexanizmini yaratishda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish kopsepsiyasining ishlab chiqilishi ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyalar bozorining rivojlanishiga zamin yaratilmoqda. Biroq, O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirio‘ bo‘yicha muammolar hali o‘z ilmiy va amaliy yechimini to‘la ravishda topgani yo‘q. Ushbu muammolar sifatida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aktivlarining likvidligi, ularning likvidligi ta’minlash orqali, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoriga investitsiyalarni jalb qilish va sanoat ishlab chiqarish jihatidan yuqori sur’atlarda o‘sishni keltirishi mumkin. Bizning nazarimizda mazkur muammolarni hal qilishda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy aktivlarning likvidligi to‘liq ravishda ta’minlanmayotganligi hisoblanadi. Chunki, jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqoridagi muammolarni hal qilishning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lgan ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy aktivlarini likvidligi yuqori bo‘lishi asosiy maqsadi vaqtinchalik bo‘sh turgan resurslarni jalb qilish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishning o‘sishini rag‘batlantirishni ta’minlashdan iboratdir.

Afsuski, ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasidagi qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotimizga chambarchas bog‘lanmagan. Mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozoridagi indekslarning ko‘tarilishi yoki tushishi milliy iqtisodiyotimiz sur’atining ko‘tarilishi yoki pasayishini izohlamaydi. Rivojlangan davlatlarda esa, qimmatli qog‘ozlar bozori indeksining tushishi yoki ko‘tarilishi iqtisodiyotining tushayotgani yoki ko‘tarilayotganligini ko‘rsatadi, ularda qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotning barometri hisoblanadi.

Birja savdo aylanmasining ortib borishi, o‘z navbatida, qimmatli qog‘ozlar bozorining jozibadorligi ortib borayotganligidan dalolat beradi. Rivojlangan davlatlar qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy aktivlar keskin tebranishga ega bo‘lib, bu holatni mamlakatimiz qimmatli qog‘ozlar bozorida unchalik sezilarli emas. Shunga qaramasdan aytish mumkinki, mamlakatimiz fond bozorning birja aylanmasi yildan – yilga o‘sib borish tendensiyasini ega. Biz buni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).




1-rasm: “Toshkent” Respublika fond birjasi savdo aylanmasi, mlrd. so‘m (2018–2022-yillar)[1]

1-rasmdagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, 2018-yilda fond birjasida savdo aylanmasi 687,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib u 1,56 barobarga, 248,48 mlrd. so‘mgacha keskin kamayib ketgan. Bunga sabab, 2019-yilning so‘nggi kvartalida banklar qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshirilgan bitimlar hajmi sezilarli darajada pasayganligi, ular bilan tuzilgan bitimlar summasi tarmoqlar kesimida 2019-yilda amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi bo‘yicha 72,81% ni yoki 319,5 mlrd so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, eng likvidli qimmatli qog‘ozlar bo‘lib 2019-yilda qurilish, sanoat va bank sohasida faoliyat yuritayotgan emitentlar bo‘lib, umumiy hajmdan qurilish sohasidagi emitentlar qimmatli qog‘ozlari bilan 37,88% dan iborat 12 430 ta bitim, sanoat sohasidagi emitentlar qimmatli qog‘ozlari bilan 30,55 % dan iborat 10 026 ta bitim va bank sohasi qimmali qog‘ozlari bilan 23,44% ni tashkil etgan 7 692 ta bitimlar qayd etilgan. Jumladan, 2019-yilda fond birjasida savdo aylanmasi 578,15 mlrd. so‘mga yetgan bo‘lsa, 2022-yilda esa, fond birjasida savdo aylanmasi 4705,79 mlrd. so‘mni tashkil etganligi ko‘rishimiz mumkin. Buning asosisiy sababi, 2022-yilda iqtisodiyotning 10 ta turli xil soha aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlari bilan birja savdolari amalga oshirildi. Eng ko‘p bitimlar bank va sanoat sektorlari emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshirildi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan 26 042 ta bitim tuzildi, bu birja bitimlari umumiy sonining 32,26 foizini tashkil etdi. Sanoat tarmog‘idagi 9 ta emitentlarning qimmatli qog‘ozlari bilan 21 247 ta bitim tuzildi (birja bitimlari umumiy sonining 26,32 foizi). Birja operatsiyalari umumiy hajmining 47,94 foizi bank sektori qimmatli qog‘ozlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Ushbu soha emitentlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2,31 trillion so‘mni tashkil etdi. Qurilish sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 1,92 trillion so‘mni tashkil etdi va bu umumiy birja hajmining 39,96 foizini tashkil etdi. Aksiyadorlik jamiyatlarining agrosa-

1 “Toshkent” Respublika fond birjasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayorlangan.

noat va boshqa tarmoqlardagi qimmatli qog‘ozlari bilan tuzilgan bitimlar mos ravishda 237,93 mlrd so‘m va 169,31 mlrd so‘mni tashkil etdi. Eng kam miqdordagi bitimlar aloqa va transport sohasidagi qimmatli qog‘ozlar bilan tegishli ravishda 69,29 mln va 18,09 million so‘mlik bitimlar tuzilgan.

Birja savdo aylanmasining keskin ortib ketishiga sabab, 2022-yilda 100 ta emitentning aksiyalari bilan jami 1,17 trln so‘mlik 80 574 ta bitim tuzildi. Bitimlarning eng katta hajmi “Kapitalbank” ATB /KPBA/oddiy aksiyalari bilan tuzilgan 786,90 mlrd so‘mlik bitimlarga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, uzokaralar auksioni rejimida, hajmi chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar umumiy sonining kamida 1% ni tashkil etadigan qimmatli qog‘ozlar paketlari bilan bitimlar tuziladigan bo‘limda, ko‘rib chiqilayotgan davrda 27 ta emitentning qimmatli qog‘ozlari bilan umumiy qiymati 3,53 trln so‘mlik 78 ta bitim qayd etildi. Bitimlarning eng katta hajmi “Ohangaronsement” AJ / OHSM/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bo‘lib 1,90 trln so‘m yoki umumiy birja hajmining 39,38%ni tashkil etdi. “Kafolat sug‘urta” AJ /KFLT1/. Ma’lumki, xalqaro amaliyotda fond bozori aktivlarining oldi-sotdisi ikkilamchi va birlamchi bozorlarda amalga oshiriladi. Bu jarayonni Respublikamiz misolida ko‘radigan bo‘lsak, u quyidagi ko‘rinishga ega (2-rasm).



2-rasm: “Toshkent” Respublikasi fond birjasida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini dinamikasi, mlrd. so‘m[2]

2-rasm ma’lumotlarini shuni ko‘rsatadiki, 2018-yilda “Toshkent” Respublikasi fond birjasida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini aylanmasi 433,15 mlr.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 2,7 barobarga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablardan biri, 2022-yil davomida 114 ta emitentning 36,15 mlrd dona qimmatli qog‘ozlari bilan jami 4,82 trln so‘mlik 80 723 ta bitim tuzildi. Eng katta hajmdagi bitimlar yanvar oyida qayd etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 3,04 trillion so‘mga yetgan. Shuningdek, 2022-yilda aksiyalar bozorida 110 ta emitentning 36,15 mlrd dona qimmatli qog‘ozlari bilan 80 652 ta bitim qayd etildi. 2022-yilda tuzilgan bitimlar soni bo‘yicha eng yuqori natijani “O‘zmetkombinat” AJ oddiy aksiyalari ko‘rsatdi, emitentning oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bitimlar umumiy birjada tuzilgan bitimlar sonining 15,48% ni tashkil etdi. “O‘zbekiston Rupbulikasi xom-ashyo birjasi” AJ oddiy aksiyalari bilan 7 535 dona bitim tuzligan bo‘lib, bu umumiy bitimlar miqdorining 9,35% ni tashkil etdi. Tijorat banklarining oddiy aksiyalari bilan quyidagi miqdordagi bitimlar tuzilgan bo‘lib, ATB “Hamkorbank” 7 723 bitim (umumiy bitimlar soniining 9,58%), ATIB “Ipoteka-bank” 6 387 bitim (umumiy bitimlar sonining 7,93%), ATB “O‘zbekiston sanoat – qurilish banki” 4354 bitim (umumiy bitimlar sonining 5,40%). Top 10 talikning quyi o‘rinlarini “Olmaliq KMK” AJ va “O‘zmetkombinat” AJ imtiyozli aksiyalari egallab, ular bilan mos ravishda 2292 va 2 249 ta bitimlar tuzilgan, bu umumiy birja bitimlar miqdorining 2,84% va 2,79% ni tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mexanizmiga oid amalga oshirilgan tadqiqotlarimizga asoslangan holda, ilmiy tadqiqot ishimizga quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirdik.

Birinchidan, O‘zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini infratuzilmasini modernizatsiya qilish lozim hisoblanadi. Natijasida, maksimal likvidlik, shaffoflik va raqobatbardosh narxlarni ta’minlash uchun qimmatli qog‘ozlar savdosini bitta savdo maydonchasida (fond birjasida) birlashtirishga olib keladi.

Ikkinchidan, davlat va korporativ obligatsiyalardan tortib aksiyalargacha bo‘lgan barcha qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi, ro‘yxatga olinishi va saqlanadigan yagona markaziy depozitariyni tashkil etish lozim. Buning natijasida, xorijiy investorlarni jalb qilish uchun O‘zbekiston moliya bozorida global kastodian banklar va Raiffeisen

2 “Toshkent” Respublika fond birjasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayorlangan.

Bank International, Citi, Bank of New York Mellon, Clearstream va boshqalar kabi xalqaro depozitariylarning mavjudligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'Hara, Maureen, 1995, Market Microstructure Theory, Cambridge MA: Blackwell.
2. Fama, Eugene (1970). "Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work". Journal of Finance. 25 (2): 383–417. doi:10.2307/2325486. JSTOR 2325486.
3. Foucault, T., Pagano, M., Roell, A., 2013. Market Liquidity Theory, Evidence, and Policy. Oxford University Press, New York.
4. Yakov Amihud & Haim Mendelson, 2012. "Liquidity, the Value of the Firm, and Corporate Finance," Journal of Applied Corporate Finance, Morgan Stanley, vol. 24(1), pages 17–32, March.
5. Avellaneda, Marco, and Sasha Stoikov. 2008. "High-Frequency Trading in a Limit Order Book." Quantitative Finance 8 (3): 217–24. http://www.informaworld.com/10.1080/ 14697680701381228.
6. Ш. Ш. Шохазамий "Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане". Автореферат ст. 1–42, Т; 2011г.
7. Ш. Ш. Шохазамий "Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане". Автореферат ст. 1–42, Т; 2011г.
8. Л. И. Бутиков "Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане" Автореферат Т,–2008, ст.1–41.
9. N. G'. Karimov "Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari" Avtoreferat, T,- 2007, bet.1–40.



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

R. P. Zarikeyev
Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil doktoranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda turizm infratuzilmasining mazmuni, tarkibi, funksiyalari, raqamli texnologiyalar uni rivojlantirishning zarurligi, ahamiyati, amaliyoti, huquqiy asoslari, jarayonlari, investitsion imkoniyatlari va muammolari tahlil qilingan hamda mazkur muammolarni hal etishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, turizm industriyasi, raqamli texnologiyalar turizm infratuzilmasi, sayyoh, investitsiya, mehmonxona, turistik xizmat, bandlik, turoperator, eksport.

Abstract: The article analyzes the content, structure, functions of tourism infrastructure in Uzbekistan, the need, significance, practice,digital technologise legal framework, processes, investment opportunities and problems of its development, and also develops proposals and recommendations for solving these issues.

Key words: Tourism, tourism industry, tourism infrastructure, tourism, investment, hotel, tourism services, employment, tour operator, export.

Аннотация: В статье анализируется содержание, структура, функции туристической инфраструктуры в Узбекистане, необходимость, значение, практика, правовая база, процессы,цифровые технологий инвестиционные возможности и проблемы ее развития, а также разрабатываются предложения и рекомендации по решению этих вопросов.

Ключевые слова: Туризм, индустрия туризма, туристическая инфраструктура, туризм, инвестиции, гостиница, туристические услуги, трудоустройство, туроператор, экспорт.

KIRISH

“Raqamli iqtisodiyot” termini birinchi marta Massachusets universitetining amerikalik dasturchi olim Nikolas Negroponte tomonidan 1995-yilda amaliyotga kiritildi[1]. Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy hayot tarzi asosida yuzaga kelgan munosabatlar tizimi.

Raqamli iqtisodiyot davlat boshqaruvi tizimi, iqtisodiyot, biznes, ijtimoiy soha va butun jamiyat rivojlanishining yangi asosi sifatida yuqori texnologiyali biznes tuzilmalari tomonidan elektron mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga va ularni elektron tijorat orqali sotishga asoslangan tizimdir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. “Raqamlashtirish” atamasi esa raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonini anglatadi va axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish kabi raqamli texnologiyalarga asoslanadi.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron tijorat asosida rivojlanadi. Bu esa bugungi globallashuv jarayonlarining yanada jadallashuvi va unda davlatlar ishtirokining faollashuvi negizida resurslardan foydalanish samaradorligi, tannarxni pasaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymat, yangi ish o‘rinlarini yaratish, iqtisodiy rivojlanish va jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Uning ustuvor resursi bo‘lgan axborot va uni samarali boshqarish turizm sanoati uchun ham juda muhim omil hisoblanadi.

Turizm industriyasi raqamli texnologiyalarni faol joriy etish va ulardan foydalanishga yo‘naltirilgan. Ko‘pgina turizm korxonalari o‘zlarining biznes-jarayonlarini raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish paradigmasiga muvofiq ravishda qayta qurishmoqda, bular onlayn sayohat bron qilish tizimi, elektron tijorat, elektron xizmat va h.k. Shunday qilib, bugungi kunda sayyohlik sanoati raqamli iqtisodiyotda rivojlanishda davom etmoqda, bu esa bozor iqtisodiyotining eng og‘ir sharoitida ushbu sohani har qanday o‘zgarishlarga nisbatan ancha moslashu-

1 http://www.fingramota.org/teoriya-finansov/item/2198-chto-takoe-tsifrovaya-ekonomika

vchan bo‘lishiga imkon beradi, bu esa raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan dunyoda raqobatbardoshlik darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Yuzaga kelgan COVID–2019 koronavirus pandemiyasi ta’siri ostida jahon turizm industriyasida o‘tgan 2020-yilda 4,5 trln. AQSh dollarilik daromad yo‘qotildi, 62 mln. kishilik ish o‘rnini yo‘qotdi[2], buning natijasida o‘n minglab kompaniyalar butunlay inqirozga uchrab, yopilib ketdi. 2021-yilda ham jahonda koronavirusning yangidan-yangi (britancha, afrikacha, hindcha va boshqa) shtamplarining paydo bo‘lishi turizm sanoatining yanada qulashiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun dunyo mamlakatlari yangi raqamli texnologiyalar, raqamli platformalar va biznes modellarini yaratish orqali turizm industriyasi va iqtisodiyot rivojini saqlab qolish borasida jiddiy bosh qotira boshladilar.

Mazkur muammolarni hal etishda esa salmoqli miqdordagi investitsiyalarga bo‘lgan talab yuzaga keladi. Bu esa raqamli texnolgiyalarni joriy etish bilan birga turizm xizmatlari sohasida yangi yo‘nalishlar va imkoniyatlarni ham oshirishga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda.

TADQIQOTNING MAQSADI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasini rivojlantirishning investitsion imkoniyatlarini va ulardan samarali foydalanish yo‘nalishlarini aniqlashdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm industriyasi tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda olimlar va turli manbalarda tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan. Biroq, bugungi kunga kelib uning rivojlanish holati turizm industriyasining murakkab va yirik soha ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtay nazardan Morozov M. A. boshchiligidagi olimlar guruhining ushbu atamaga bergan ta’rifi turizm industriyasi mazmunini imkon qadar to‘la xamrab olishga munosib tushunchani aks ettirganligini ko‘rish mumkin. “Turizm industriyasi – iqtisodiyotning yirik mustaqil majmuasi bo‘lib, uning tarmoqlari va korxonalari guruhidan iborat bo‘lib, ularning funksiyalari bo‘sh vaqtlarda ko‘ngil ochish va dam olishning har xil turlariga bo‘lgan tobora murakkablashgan va turli-tuman talabni qondirishga asoslanadi”[3].

Yana bir olim Kutepova G. N. bergan ta’rifga ko‘ra, “Turizm industriyasi – bu murakkab dinamik tizim bo‘lib, unda turoperatorlar va turagentlardan tashqari iste’molchiga xizmat ko‘rsatuvchi va shu bilan turizmni maxsus iqtisodiy hodisa sifatida imkon yaratadigan ko‘plab korxonalar mavjud”[4]. Bu tizim markazida u professional turizm ta’limini ko‘rgan holda, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlasha, malakasini oshirish turizm sohasida yangi yo‘nalishlarni kashf etish va rivojlantirishda bosh omil sifatida baholaydi.

Turizm industriyasi sohasida tadqiqotlar olib borgan Maklashina L. R. uning yuqori daromadli va tez rivojlanib borayotgan sohalardan ekanligini ta’kidlaydi. “Zamonaviy turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng yirik, eng daromadli va tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Turizm xizmat ko‘rsatish sohasi sifatida mamlakat ichkarisida milliy daromadni qayta taqsimlashning muhim vositasi bo‘lib, iqtisodiyotning ko‘plab sohalarini rivojlantirishga multiplikatsion ta’sir ko‘rsatadi”[5].

Raqamli iqtisodiyot sharoitidagi jadal rivojlanish mamlakatlar o‘rtasidagi raqobatni yanada kuchaytirmoqda va bunga turizm industriyasi rivoji va undagi innnovatsiyalarning ham faol tatbiqi o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shunga asoslanib, tadqiqotchi-olim, i.f.n. Xaydar Lotfi shunday xulosaga keladiki, “Bugungi kunda butun dunyoda sayyohlarni jalb qilish uchun alohida mamlakatlar o‘rtasida raqobat kuchayib bormoqda, bu esa turizm industriyasini joylashtirishning yangi usullarini izlashga olib keladi”[6]. Bu esa sohada raqamli texnologiyalarni jadal qo‘llash bilan bog‘liq elektron tijorat shakliga ham keng yo‘l ochib berilish imkoniyatlarini ham tadqiq etishni taqozo etadi.

Shunga ko‘ra, rus olimlari N. Morozova va M. Morozovlar zamonaviy turizm industriyasi yangi kompyuter texnologiyalarini joriy etilishi bilan ulkan o‘zgarishlarga ega bo‘lganligini, har qanday tashkilotni turistik biznes bozorida zamonaviy axborotlar texnologiyasidan foydalanilmasdan muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi amaliyotda mumkin emasligini ta’kidlaydilar. Ular shunday asosli ilmiy xulosalarni beradiki, unga ko‘ra, turizm

2 https://www.interfax.ru/business/763066

3 Морозов М. А., Морозова Н. С., Карпова Г. А., Хорева Л. В. Экономика туризма: учебник. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – С. 28.

4 Кутепова Г. Н. Анализ рынка вакансий туроператорских и турагентских компаний г. Москвы. Индустрия туризма: возможности, приоритеты, проблемы и перспективы: сборник научных трудов XI Международной научно-практической конференции. – 5–6 декабря 2018 г. – М.: Московский государственный институт индустрии туризма имени Ю. А. Сенкевича, 2018. –С. 80.

5 Маклашина Л. Р. Деловой туризм – инструмент продвижения индустрии туризма. // Актуальные вопросы экономических наук: материалы междунар. науч. конф. – (г. Уфа, июнь 2011 г.). / Под общ. ред. Г. Д. Ахметовой. – Уфа: Лето, 2011. – С. 122. // ISBN 978–5–87308–044–1.

6 Хайдар Лотфи. Экономико-географические особенности развития и размещения туристической индустрии Ирана (на примере провинции Хормозган). – Дисс. на соис. уч. ст. кан-т географических наук. – Душанбе: Таджикский государственный педагогический университет имени Садриддина Айни. – 2018. – С. 3.

mahsulotini yaratish va sotish texnologiyasi xususiyati qisqa vaqt ichida transport vositalariga erishish va turistlarni joylashtirish imkoniyatlari haqida ma`lumotlarni taqdim etish, joylarni tez bron qilish va rezervlashni ta'minlash, turistik xizmatlar (chiptalar, hisoblar va yo'nalish bo'yicha ko'rsatma, yo'l xaritalari kabi hujjatlarni parallel rasmiylashtirish, hisob-kitob va ma'lumotnomali axborotlar bilan ta'minlash va sh.k.lar)ni taqdim etishdagi qo'shimcha vazifalarni hal etishni avtomatlashgan tarzda ta'minlaydigan tizimlarni yaratishni talab etadi. Ushbu natijaga esa tizimda axborotni qayta ishlash va uzatish uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish sharoitidagina erishish mumkin. Turizm industriyasi shunchalik ko'p turli va ko'p qirraliki, u turli axborot texnologiyalarini qo'llovchi alohida holdagi turistik firma yoki otel ishini avtomatlashni ta'minlovchi maxsus dasturiy vositalarni yaratishdan to global kompyuter tarmoqlaridan foydalanishni ham talab etadi.

Turizm sohasiga yo'naltiriladigan investitsiyalar o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, unga oid masalalar Bogolyubov V. S., S. A. Быстrov, Bogolyubova S. A. tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ushbu mualliflar jamoasi turizmda investitsiyalar tushunchasiga shunday ta'rif beradi: "Turizmga xos investitsiya deganda mamlakat ichkarisidagi singari tashqarisida ham qo'yilgan mablag'dan kerakli miqdordagi foydani olish maqsadida moliyaviy resurslardan turizm sohasida uzoq vaqt muddatli (bir yildan ortiq muddatga) kapital qo'yilmalar shaklida foydalanishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, turizmga investitsiyalar – kapital yordamida yangi turistik obyektlarni yaratish, modernizatsiyalash yoki muayyan turdagi turistik xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va taqdim etishga qodir bo'lgan mavjudlarini rekonstruksiya qilish, shuningdek, nomoddiy aktivlar (ixtirolar, nou-xau va sh.k.lar) ni yaratish sifatida o'zini namoyon etadi. Shunday qilib, turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda katta hajmdagi turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishga qodir bo'lgan yangi turistik obyektlarni yaratish g'oyalarini moddiylashtirish jarayoni kechmoqda"[7].

Tadqiqotchilar e'tiborini turizm sanoatining kapitalni ko'p talab qiladigan qismi sifatida turistik korxonalarning, asosan, mehmonxonalarning investitsiya faoliyatini baholashning ayrim jihatlari jalb qiladi[8].

Shunisi e'tiborliki, Xitoy xalqi dunyo bo'yicha ichki va tashqi eng ko'p turistik sayohat qiluvchi mamlakat hisoblanadi. Shu sababdan bugungi kunda Xitoy ichki va tashqi turizmni rivojlantirish maqsadida mehmonxonalarni qurish, turlarini ko'paytirish, ularda xizmat ko'rsatish va qabul qilishda turli usullarni qo'llashda yangi innovatsion g'oyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda[9].

Turizm industriyasining salohiyati yuqori bo'lib, u inson kapitalini rivojlantirish va undan samarali foydalanishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu masalada muallif D. M. Abduraimov o'z maqolasida quyidagi ilmiy-tadqiqot xulosalarini bayon etgan: "Turizm sohasi inson salohiyati rivojlanishining muhim omili bo'lib bormoqda. Shunday ekan, bu muayyan mamlakat yoki hududda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, qo'shimcha investitsiyalarning jalb qilinishi, soliq tushumlarining oshishi, madaniy, tarixiy va tabiiy boyliklarni saqlash hamda oqilona foydalanishda o'z aksini topmoqda"[10].

Yuqorida ko'rib o'tilgan mutaxassislarning fikriga ko'ra, turizm industriyasini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va xalqaro integratsiyasini rivojlanishiga bevosita ta'siri yuqori ekanligi asoslab berilgan. Bunda mavjud imkoniyatlarni to'la ishga solishda investitsiyalar asosiy omil sifatida maydonga chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasini rivojlantirishning investitsion imkoniyatlarini va undan foydalanishning ahamiyatini o'rganish metodologiyasi qo'llanilib, bu borada muxatassis va olimlar yondashuvlari va fikrlarini o'rgangan holda kuzatish, iqtisodiy guruhlash, omillarni tahlil qilish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi umumiy ilmiy tahlil qilish metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, respublikamiz turizm industriyasini 2025-yilgacha rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlarining ustivor vazifalariga oid xulosalar qilingan va investitsiyalar asosida uni takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda turizm dunyo iqtisodiyotida eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylandi. Turizmning jahon eksportidagi ulushi oziq-ovqat sanoati va avtomobilsozlikni ortda qoldirib ketdi hamda kimyo mahsulotlari va yonilg'i savdosidan keyin uchinchi o'ringa chiqib oldi[11].

7 Боголюбов В. С., С. А. Быстров, Боголюбова С. А. Экономическая оценка инвестиций в развитии туризма: учеб. пособие. – М.: Академия, 2009. – С. 6.

8 Балабанов И. Т., Балабанов А. И. Экономика туризма: учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2000. – С. 35–36.; Гулямов В. Г., Селиванов И. А. Туризм: экономика, управление, устойчовое развитие. – М.: Российская международная академия туризма. Советский спорт, 2008. – С. 215–216.

9 Barnabe Walheer, Linjia Zhang. Profit Luenberger and Malmquist-Luenberger indexes for multi-activity decision-making units: The case of the star-rated hotel industry in China //International Journal of Tourism Management. Pages 1–604 (December 2018) rr.1–11.

10 Abduraimov D. M. Turizm infratuzilmasi tarkibiy qism elementlari va funksiyalari. // "Iqtisod va moliya" jurnali, 2021. – №2 (138). B. 17.

11 Markaziy Osiyoning investitsiya salohiyati. 17.04.2019-y. https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/4448/.

Shu nuqtay nazardan so‘nggi yillarda O‘zbekistonning mavjud tabiiy, geografik, tarixiy, madaniy, ma’naviy, etnografik, milliy boyliklari, meros va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda mamlakatda turizm industriyasini rivojlantirish va unda raqamli texnologiyalar samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, 2019-yil 18-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ–549-sonli Qonuni qabul qilindi, shuningdek, turizm sohasiga oid bevosita va bilvosita aloqador bo‘lgan 60 dan ortiq huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilinib, ijroda amal qilinmoqda.

O‘zbekistonda turizm industriyasini jadal rivojlantirish raqam iqtisodiyot salohiyatini oshirishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shu munosabat bilan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O‘zbekiston uchun kelgusi yillarda eng dolzarb va ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev parlamentga yo‘llangan Murojaatnomalarida ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

... Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor”[12].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4563-sonli Qarorida respublikamizda bir qator yirik investitsiya loyihalarni amalga oshirishi belgilangan. Jumladan, 2020–2022-yil mobaynida axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalari sohasidagi loyihalarga 676,8 million dollarga teng investitsiyalarini jalb qilinishi rejalashtirilgan. Ya’ni:

- 2020-yilda umumiy qiymati 178,7 mln. AQSh dollari, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – 139,2 mln. AQSh dollari, davlat kafolati ostidagi kreditlar – 37,5 mln. AQSh dollari. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi PQ–4563-son Qarori bilan tasdiqlangan 2020-yilgi Investitsiya dasturiga muvofiq axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish sohasi bo‘yicha 2020-yil davomida tasdiqlangan barcha investitsiya loyihalari amalga oshirilib, belgilangan reja ortig‘i bilan bajarilishiga erishildi”[13];
- 2021-yilda umumiy qiymati 241,7 mln. AQSh dollari, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – 171,9 mln. AQSh dollari, davlat kafolati ostidagi kreditlar – 67,7 mln. AQSh dollari;
- 2022-yilda esa loyhalarning umumiy qiymati 256,4 mln. AQSh dollariga teng mo‘ljallangan bo‘lsa, shulardan 180,1 mln. AQSh dollarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, davlat kafolati ostidagi kreditlar yesa 73,1 mln. AQSh dollarini jalb qilinishi ko‘zda tutilgan.

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4699-sonli Qaroriga muvofiq 2020–2022-yillarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha umumiy qiymati 17,6 trln. so‘m bo‘lgan 35 ta ustuvor loyihalar amalga oshirilishi belgilangan.

Mazkur loyihalarning 44,8 foiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar hisobidan, 33 foiz davlat kafolati ostidagi kreditlar hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Erishilgan mazkur amaliy natijalar turizm industriyasini raqamli texnologiyalar asosida yanada faol rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda[14].

Zero, rsepublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’birlari bilan aytganda, “...turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishimiz lozim”[15]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5781-sonli Farmoni turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ‘ib qilish, turizm tarmog‘ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko‘paytirish maqsadida qabul qilinib, uning asosida 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi va uning asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi.

12 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 24.01.2020-y. // https://nrm.uz.
13 2020-yil davomida qator investitsiya loyihalari reja bo‘yicha bajarildi. 05.02.2021-y. // https://mitc.uz/uz/news/2158
14 Axborot texnlogiyalari sohasiga investitsiyalar. // https://mitc.uz/uz/pages/inves_tory
15 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 28.12.2018 y. // http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy–28–12–2018.

2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi asosida kelgusi 2021–2025-yillar davomida turizm industriyasida quyidagi rivojlanishlarga erishish ko‘rsatkichlari belgilangan (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini kelgusi 2021–2025-yillar amalga oshirish maqsadli ko‘rsatkichari[16]

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
1.	O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni, ming kishi	8410	10010	10600	11250	11810
2.	Turizm xizmatlari eksporti, mln. AQSh dollari	1620	1900	2000	2080	2170
3.	Ichki turistlar soni, ming kishi	18806	20317	21867	23404	25010
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni, dona	2200	2600	2800	2900	3050
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni, mingta	47	55	59	62	64
6.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni, ming ta	95	110	122	124	128
7.	Turoperatorlar soni, nafar	1250	1320	1390	1420	1450

1-jadval ma’lumotlari 2025-yil yakunida O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni 11810 kishini tashkil etishi, turizm xizmatlari eksporti esa 2170 mln. AQSh dollarini tashkil etishi, ichki turistlar soni esa 25010 kishiga yetishi ko‘zda tutilgan. Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF–5781-sonli Farmoni asosida 2020-yil uchun ham 1-jadvaldagi ko‘rsatkichlar asosida maqsadli rejalar belgilangan bo‘lib, biroq, COVID–2019 koronavirus pandemiyasi sababli ushbu 2020 yilda O‘zbekistonga tashrif buyurishi ko‘zda tutilgan 7010 ming kishilik xorijiy turistlar o‘rniga 1,5 mln. kishi kelishi, turizm xizmatlari eksportini esa 1360 mln. AQSh dollariga olib chiqish o‘rniga 261 mln. AQSh dollarini tashkil etishi, 17230 ming kishilik ichki turistlar tashrifi o‘rniga 1,8 mln. kishi tashrifi ta’minlangan. O‘z nabatida, 1-jadval ko‘rsatkichlari asosida 2019-yil uchun rejalashtirilgan xorijiy turistlar oqimi 6041 ming kishi o‘rniga 6748,5 ming kishi tashrifiga, turizm xizmatlari eksportini 1180 mln. AQSh dollariga yetkazish o‘rniga 1313,0 mln. AQSh dollariga yetkazilishiga erishildi, ammo, ichki turistik oqimning rejadagi 16100 ming kishi o‘rniga amalda 14748,0 ming kishiga tushib ketishiga olib kelindi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirishda tashkiliy-huquqiy jihatdan qanchalik davlat tomonidan ko‘p e’tibor va imkoniyat berilayotganiga qaramay, unga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmida kutilganidek samaralar kuzatilmayapti.

Bu holat turizm industriyasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning mamlakat YaIM hajmiga nisbatan egallagan ulushida yanada ravshanlik kasb etgan. Xususan, tahlil etilgan davrning so‘nggi yiliga kelib turizm industriyasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi eng kichik – 0,3 foizni tashkil etgan. Mazkur holatlar mamlakatda turizm industriyasini yanada rivojlantirish va unga investitsiyalarni faol jalb etish masalasiga jiddiyroq e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, turizm industriyasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaralarini ham tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Buni 3-jadval ma’lumotlari asosida ko‘rib chiqish o‘rinlidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda “Raqamli O‘Zbekiston – 2030 Strategiyasi”da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyotning turizm industriyasida ham rivojlanishini ta’minlash hamda buning uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarning faol jalb etilishiniga erishish chorlarini ko‘rish lozim.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida respublikamizda raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasini yanada rivojlantirishning investitsion imkoniyatlarini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz:

1. Turizm industriyasi taraqqiyotida davlat-xususiy sherikchilik amaliyotini va shu asosda sohaga xususiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish lozim.
2. Turizm industriyasida raqamli texnologiyalar va platformalar asosida zamonaviy xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish zarur. Bunda xorijiy tajribalardan kelib chiqib, mehmonxonalar o‘rtasidagi raqamli xizmat aloqalari tizimini yaratish lozim. O‘zbekistonda bu tizimni shakllantirishga hali yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. Bu esa turistlarning o‘z manzillarida o‘zgarishlar bo‘lgan taqdirda mehmonxonalarda joylashishdagi noqulayliklarni bartaraf etishda o‘ta muhim hisoblanadi.

16 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5781-sonli Farmoni. // www.lex.uz

3. O‘zbekistonda shahar va shaharlararo harakatlanishida zarur bo‘lgan sanitariya-giniena shaxobchalarini tashkil etish va unda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish lozim.
4. Xorijiy tajribalardan kelib chiqib, turistlar uchun har bir shaharda avtomobillari ijarasi markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.
5. Mehmonxonalar, ko‘ngil ochish va dam olish maskanlarida bepul Wi-Fi zonalar tashkil etish zarur.
6. Xorijiy turistlarga sifatli xizmatlarni ko‘rsatish maqsadida joylarda xodimlarga turizm madaniyati va xorijiy tilda muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi o‘quv markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda turizm industriyasini rivojlantirishda investitsiyalar va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarimiz yuqori bo‘lib, ulardan samarali foydalanish ichki va tashqi turzstik oqimni yanada kuchaytirish bilan birga O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro integrsiyasini faollashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraimov D. M. Turizm infratuzilmasi tarkibiy qism elementlari va funksiyalari. // “Iqtisod va moliya” jurnali, 2021. – №2 (138). 16–24 betlar.
2. Axborot texnlogiyalari sohasiga investitsiyalar. // https://mitc.uz/uz/pages/inves_tory
3. Балабанов И. Т., Балабанов А. И. Экономика туризма: учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 173 с.
4. Barnabe Walheer, Linjia Zhang. Profit Luenberger and Malmquist-Luenberger indexes for multi-activity decision-making units: The case of the star-rated hotel industry in China //International Journal of Tourism Management. Pages 1–604 (December 2018) pp.1–11.
5. Боголюбов В. С., С. А. Быстров, Боголюбова С. А. Экономическая оценка инвестиций в развитии туризма: учеб. пособие. – М.: Академия, 2009. – 272 с.
6. Гулямов В. Г., Селиванов И. А. Туризм: экономика, управление, устойчовое развитие. – М.: Российская международная академия туризма. Советский спорт, 2008. – 280 с.
7. Кутепова Г. Н. Анализ рынка вакансий туроператорских и турагентских компаний г. Москвы. Индустрия туризма: возможности, приоритеты, проблемы и перспективы: сборник научных трудов XI Международной научно-практической конференции. – 5–6 декабря 2018 г. – М.: Московский государственный институт индустрии туризма имени Ю. А. Сенкевича, 2018. –73–86 стр.
8. Маклашина Л. Р. Деловой туризм – инструмент продвижения индустрии туризма. // Актуальные вопросы экономических наук: материалы междунар. науч. конф. – (г. Уфа, июнь 2011 г.). / Под общ. ред. Г. Д. Ахметовой. – Уфа: Лето, 2011. –122–124 стр. ISBN 978–5–87308–044–1.
9. Markaziy Osiyoning investitsiya salohiyati. 17.04.2019 y. https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/4448/.
10. Морозов М. А., Морозова Н. С., Карпова Г. А., Хорева Л. В. Экономика туризма: учебник. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 320 с.
11. Хайдар Лотфи. Экономико-географические особенности развития и размещения туристической индустрии Ирана (на примере провинции Хормозган). – Дисс. на соис. уч. ст. кан-т географических наук. – Душанбе: Таджикский государственный педагогический университет имени Садриддина Айни. – 2018. – 201 с.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 24.01.2020-y. // https://nrm.uz.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 28.12.2018-y. // http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy–28–12–2018.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5781-sonli Farmoni. // www.lex.uz
15. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. // https://stat.uz.
16. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi. // https://minsport.uz/uz/ministry
17. 2020-yil davomida qator investitsiya loyihalari reja bo‘yicha bajarildi. 05.02.2021-y. // https://mitc.uz/uz/news/2158
18. http://www.fingramota.org/teoriya-finansov/item/2198-chto-takoe-tsifrovaya-ekonomika
19. https://www.interfax.ru/business/763066



KORXONA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich
Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti "Raqamli iqtisodiyot"kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Maqolada korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlash va uni rivojlantirishda korxona iqtisodiy xavfsizligi tizimi mexanizmini ishlab chiqish, korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda xodimlarning ta'siri, xatti harakati va ishchi xodimlar faoliyaitini samarali tashkil etish va olib borishda Employee mood loyihasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy xavfsizlik, korxona iqtisodiy xavfsizligi, tahdid, korxona iqtisodiy xavfsizligi strategiya, korxona iqtisodiy xavfsizligi tizimi, inson resurslari, xodim, xodimlarning qoniqish indeksi, ESI

Abstract: The article describes the development of the mechanism of the economic security system of the enterprise in ensuring the stability of the enterprise's activity and its development, the influence of employees in ensuring the economic security of the enterprise, the behavior of employees and the effective organization and conduct of the activity of employees.

Key words: Economic security, Economic security of the enterprise, threat, economic security of the enterprise strategy, economic security system of the enterprise, human resources, employee, employee satisfaction index, ESI

Аннотация: В статье рассмотрено развитие механизма системы экономической безопасности предприятия в обеспечении стабильности деятельности предприятия и его развития, влияние работников на обеспечение экономической безопасности предприятия, поведение работников и эффективное организация и проведение деятельности сотрудников.

Ключевые слова: Экономическая безопасность, Экономическая безопасность предприятия, угроза, экономическая безопасность предприятия стратегия, система экономической безопасности предприятия, человеческие ресурсы, сотрудник, индекс удовлетворенности сотрудников, ESI

KIRISH

Korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bu uzluksiz jarayondir va bunda vujudga keladigan zararlarning oldini olish korxona uchun doimiy vazifadir. Zarar, xavf-xatar, tahdidlarni oldini olish va korxonada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasi bo'lishi talab etiladi. Afsuski bugungi kunda ko'pgina korxonalar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash haqida ma'lumotga ega emaslar, korxonalarda barcha bo'limlar o'z faoliyatiga mas'uligi bilan cheklanib qolishadi. Rivojlangan davlatlarning yirik kompaniya, konsorsiumga aylangan korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha shtablar faoliyat olib boradi. Aynan korxona iqtisodiy xavfsizligi bo'limi yuq, korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash shtabi (kengashi) mavjud. Shtab (kengash) korxona iqtisodiy xavfsizligi strategiyasini ishlab chiqadi. Strategiyani ta'minlash uchun korxona iqtisodiy xavfsizligi tizimi ishlab chiqiladi va faoliyat qiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimi uning ichki tahdidlari ya'ne, ilmiy – texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyati hamda kadrlar faol va nofaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, davlatning samarasiz ilmiy – sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligi tushuniladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosi, hozirgi vaqtda dolzarb masaladir, chunki tashkilotning xavfsizligi bevosita xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati samaradorligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, bozorda raqobatning kuchaygani, tovar iste'molchisini topish, bozor muhitiga moslashish, talab va taklif qoidalariga amal qilishda korxonalar ma'lum choralar ko'rishga majbur. Korxona risklarini tahlil qilish nafaqat katta moddiy yo'qotishlarni, balki tuzatib bo'lmaydigan zararni va hatto bankrotlikdan ham qochish imkonini beradi. Iqtisodiy xavfsizlik biznes faoliyatining ajralmas elementi bo'lib, korxonaning butun hayoti davomida tadbirkorlik faoliyatiga xos bo'lgan tahdidlarni boshqarishning murakkab tizimidir. Bu raqobat va iqtisodiy tavakkalchilik sharoitida biznes maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.



1-rasm: Korxona iqtisodiy xavfsizligining asosiy maqsadi

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ko‘plab ta’riflar va yondashuvlar mavjud. Keling, turli mualliflarning ba’zi ta’riflarini ko‘rib chiqaylik.

D. M. Dryagunovning fikricha, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda, uning faoliyatini yuritishi va foyda olishi uchun uning moliyaviy, moddiy va boshqa resurslar bilan barqaror ta’minlanishi ta’minlangan ma’lum bir holat tushunilishi kerak [1].

Boshqa bir olim A. D. Sheremet korxonaning iqtisodiy xavfsizligini uning yuzaga kelayotgan tahdidlarni zararsizlantirish, shuningdek uning uzoq vaqt davomida doimiy ishlashini ta’minlash uchun barcha resurslardan eng samarali foydalaniladigan holati deb tushunadi [2].

A. J. Esembekova, bu atamani tashqi va ichki muhitdan turli tahdidlar paydo bo‘lishiga qaramay, korxonaning o‘z faoliyatini ta’minlash qobiliyati deb tushunish kerak, deb hisoblaydi [3].

T. V. Pogodina bunday kontsepsiyani iqtisodiy, moliyaviy, ishlab chiqarish, texnologik kabi sohalarda himoya qilishni ta’minlaydigan muayyan tizim sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash turli xil chora-tadbirlarni qabul qilish orqali amalga oshiriladi: iqtisodiy, huquqiy, texnik, tashkiliy [4].

V. L. Shultsning fikriga ko‘ra, har qanday korxonaning iqtisodiy xavfsizligi – bu uning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan har xil turdagi tahdidlardan himoya qilishni ta’minlash asosiy maqsad bo‘lgan ma’lum bir davlatdir [5].

D. Y. Desyatnichenko kabi muallifning fikricha, bu atama noaniqlik sharoitida, shuningdek, turli tahdidlar mavjudligida korxonaning barqarorligi, omon qolishi va rivojlanishiga yordam beradigan ma’lum bir tizimni ifodalaydi [6].

Bu adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi, eng avvalo, ma’lum bir tizimdir. Bundan tashqari, har bir ta’rif tizim paydo bo‘ladigan tahdidlarning oqibatlarini zararsizlantirishi yoki yo‘q qilishi kerakligini ta’kidlaydi. Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda yuzaga keladigan tahdidlarni zararsizlantirish, shuningdek uning uzoq vaqt davomida doimiy ishlashini ta’minlash uchun barcha resurslardan eng samarali foydalaniladigan holat tushunilishi mumkin.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ishni bajarishda bilish, retrospektiv va hujjatli tahlil qilish, iqtisodiy tahlil, indeks usuli, modellashtirish, sintez umumlashtirish va tizimlashtirish usullari qo‘llaniladi. Moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rivojlantirishning obyektiv qonuniyatlarini aks ettiruvchi umumlashtirilgan tajriba va ijtimoiy amaliyot, shuningdek, korxonaga iqtisodiy tahdidlarni amalga oshirishni modellashtirish qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida korxonaning iqtisodiy xavfsizligining asosiy jihatlarini o‘rganishdir. Ushbu ishning o‘rganish obyekti korxona, subyekti esa uning iqtisodiy xavfsizligi hisoblanadi. Korxonaning samaradorligi nafaqat tashqi omillarga, balki eng ko‘p ichki omillarga: jamoat, kadrlar siyosati, xodimlar faoliyatiga bog‘liq. Ularning muayyan tashkilot faoliyatiga kompleks ta’sirini o‘rganish kompaniyaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tashkilotning iqtisodiy xavfsizligini, uning barqaror ishlashini va bozordagi barqaror mavqeini ta’minlash uchun ichki tahdidlarni oldini olishda xodimlar bilan ishlash juda ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, korxona xavf-xatarlardan kelib chiqadigan oqibatlar va yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha majburiy choralar ko‘rish kerak.

Birinchidan, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimi tushunchasini aniqlab olishimiz lozim. Bu korxona faoliyatining barcha jabhalarining har tomonlama va sifatli xavfsizligini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyidir.



1-rasm: Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil etish[1]

Inson kapitali deganda nafaqat kadrlar xavfsizligi obyekti, balki subyekt ham tushuniladi. Buning sababi shundaki, kadrlar xavfsizligi murakkab o‘ziga xos subyekt-obyekt munosabatlari bilan tavsiflanadi. Ular shunday rivojlanadiki, xodimlar tahdid manbayi (subyekt), mulkiy nomulkiy zarar yetkazadigan va moddiy nomoddiy zarar yetkazadigan (obyekt) shaxs sifatida harakat qilishlari mumkin. Ya’ne xodimlar ham zarar yetkazuvchi va boshqa tomondan zararni bartaraf etuvchi bo‘lishi mumkin[2].

Tashkilot va uning xodimlarining manfaatlari imkon qadar o‘xshash bo‘lsagina, tashkilot samarali va barqaror ishlaydi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu subyektiv-obyektiv munosabatlarning har bir ishtirokchisi o‘z manfaatlarini himoya qilishdan manfaatdor bo‘ladi va ularning maqsadi ijtimoiy va mehnat munosabatlari doirasida hayotiy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni bartaraf etish va oldini olish bo‘ladi.

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlovchi asosiy subyekt bu xodimlardir. Agar korxonada xodimlar zavqsiz ishlasa, ishning natijasi o‘rtacha bo‘ladi. Bu holatda har bir xodim mahsulot, loyiha yoki umuman kompaniyani rivojlantirish uchun barcha sa’y-harakatlarini amalga oshirishi dargumon. Bundan tashqari, norozilik ishdan bo‘shatish va xodimlar almashinuviga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida korxona iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xodimlarga e’tibor kompaniyaga o‘zaro e’tiborni va biznes jarayonlarida ishtirok etishni keltirib chiqaradi. Mehnat sharoitlari va ish muhitidan qoniqish yuqori darajadagi mashg‘ulotlarga yordam beradi. Shuning uchun xodimlarning qoniqishini turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash juda muhimdir.

Bugungi kunda amaliyotda korxona xodimlarini baholashni juda ko‘p metodlari mavjud lekin, 80–90% metodlar xodimlar salohiyatini baholab bu natijalar korxona manfaatiga ko‘proq xizmat qiladi. Ilmiy izlanishimiz natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning yirik korxonalarida misol uchun Rossiya

1 Roxvarger L. A. “Effektivnaya struktura upravleniya ekonomicheskoy bezopasnostyi predpriyatiya” *Muallif tomonidan kiritilgan taklif
2 Andrunik A. P. Kadrovaya bezopasnost: innovatsionnie texnologii upravleniya personalom : uchebnoe posobie / A. P. Andrunik, M. N. Rudenko, A. Y. Suglobov. – 2-ye izd. – Moskva : Izdatelsko-torgovaya korporatsiya “Dashkov i K°”, 2020.

Federatsiyasining “White Rabbit Family” kompaniyasi o‘z amaliyotida korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda xodimlar manfaatini inobatga olish va xodimlar sharoitini bilishda ESI (Employee Satisfaction Index) xodimlarning qoniqish indeksi yordamida inson resurslarini samarali boshqarib xodimlar maksimal darajada ishga faoligi oshgan.

Xodimlarning qoniqish indeksi (ESI)

ESI (xodimlarning qoniqish indeksi) korxonaning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini aks ettiruvchi xodimlarning qoniqish indeksi. Ko‘rsatkich uchta savolga javoblardan olingan ballar asosida hisoblanadi. So‘zlar boshqacha bo‘lishi mumkin, ammo ma’nosi bir xil:

- Ish joyidan qoniqish darajasi qanday?
- Sharoiti muvofiqligi darajasi qanday?
- Idealga yaqinlashish darajasi qanday?

Baholash shkalasi 1 dan 10 gacha. Keyinchalik, individual respondent uchun indeks quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

ESI = ((barcha savollar uchun ballar yig‘indisi ÷ 3) – 1) ÷ 9 × 100%

Ruxsat etilgan standartlar yo‘q, xodimlarning qoniqish indeksi vaqt o‘tishi bilan nazorat qilinadi.

Ushbu amaliy tadqiqotni Resublikamizning yirik korxonalarida qo‘llash uchun “Employee mood” bo‘limi xodimlar sharoiti indeksini o‘rganuvchi bo‘lim faoliyatini yo‘lga quyish taklifini ishlab chiqdim. Raqamli vositalar korporativ dasturlar va xizmatlar interfeyslarida bildirishnomalar (xabarlar) yordamida har kuni impulsli so‘rovlarni o‘tkazishga imkon beradi. Tizim kayfiyat haqida oddiy savollar berishi, bajarilgan vazifani baholashni, qo‘llab-quvvatlash darajasini so‘rashi mumkin. Javoblar ballar shaklida bo‘lishi mumkin. Bunday dinamik kuzatuv “qulingizni yurak urishida ushlab turish” va o‘z vaqtida choralar ko‘rishga yordam beradi. Xodimlarning qoniqishi – bu xodim o‘z ishining turli jihatlaridan, shu jumladan korporativ atmosferadan, ish joyini tashkil etishdan va ish haqi darajasidan qoniqish hosil qiladigan psixologik holat. Bu holat kompaniyaning qadriyatlariga sodiqlik, uzoq muddatli ish va hatto uning chegaralaridan tashqarida ham unga sodiq munosabatda namoyon bo‘ladi. Ishdan qoniqish darajasini bir butun sifatida va turli nuqtayi nazardan o‘lchash bizga zaif tomonlarni aniqlash va jamoaning samaradorligini oshirish yo‘llarini topish imkonini beradi.

Nima uchun xodimlarning qoniqish so‘rovini o‘tkazish kerak


So‘rovlar haqiqiy vaziyatni baholashning eng aniq usulidir. Xodimlar o‘zining ish faoliyati bo‘yicha masalan: ish joyidagi sharoit, ish haqi, ishchiga bo‘ladigan munosabat, texnik ta’minot, ovqatlanish va h.k. parametrlari bo‘yicha anonim so‘rovnoma o‘tkaziladi. Bu, ayniqsa, juda ko‘p xodimlarga ega yirik kompaniyalar uchun to‘g‘ri keladi.

Xodimlarni boshqarishning an’anaviy formati yiliga bir marta qoniqish va faollikni o‘lchashni o‘z ichiga oladi. Norozilikning mumkin bo‘lgan oqibatlari nuqtayi nazaridan, bu juda katta bo‘shliq. Shuning uchun parametrni individual chastota bilan muntazam ravishda tahlil qilish tendensiyasi mavjud – har chorakda, oyda, haftada bir marta.

Ishdan qoniqishga ta’sir etuvchi omillar

Ko‘rsatkich hissiy munosabat bilan bog‘liq va unga turli xil holatlar ta’sir qilishi mumkin. Mehnat muhiti – bu xodimlarning holatiga ta’sir qiluvchi omillar majmuasidir. Quyidagi omillar xodimlarga eng ko‘p ta’sir qiladi:

Ish haqi	• mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga mos ravishda hajmi, o‘z vaqtida, muntazam oshirib borilishi, rag‘batlantiruvchi to‘lovlar va mukofotlar muhim ahamiyatga ega.
Ijtimoiy paket.	• mehnat qonunchiligiga rioya qilishni, shu jumladan ish va dam olish vaqtini tartibga solish, ta'tillar berish, kasallik ta'tillari va boshqa ijtimoiy kafolatlarni o'z ichiga oladi.
Ish joyi.	• uning jihozlari, qulayligi, vositalari va himoya choralari baholanadi.
Jamoadagi atmosfera	• shu jumladan ichki an'analar, muloqot tamoyillari, umumiy professionallik darajasi, o'zaro yordam darajasi.



3-rasm: Ishdan qoniqishga ta'sir etuvchi omillar[3]

Har bir kompaniyaning o‘ziga xos qo‘shimcha omillari bo‘lishi mumkin. Misol uchun, qo‘ng‘iroq markazlarida operatorlar uchun mojaroli vaziyatlarda rahbariyat o‘zini qanday tutishi muhim – u o‘z xodimini tushunishga va himoya qilishga harakat qiladimi yoki uni aybdor qiladimi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har qanday soha bo‘lmasin inson manfaati va qadri birinchi darajada turishi lozim. Bugungi kun iqtisodiy jarayonlar tez rivojlanayotgan bir davrda korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash asosiy masalaga aylanmoqdaki uning natijasi nafaqat mikro balki makrodarajaga ta’siri mavjud. Xodimlarning o‘z ishlaridan qanchalik qoniqishlarini tahlil qilish kompaniya siyosati va biznes jarayonlarini o‘z vaqtida o‘zgartirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida mehnat sharoitlarini yaxshilash va yangi parametrlarni joriy etish bo‘yicha strategiyalar shakllantirilmoqda. Umumiy korporativ g‘oya bilan birlashtirilgan kuchli, barqaror jamoa yuqori mahsuldorlikni ko‘rsatadi va kompaniya daromadining o‘sishiga ta’sir qiladi. Ushbu “Employee mood” bo‘limi (xodimlar sharoiti indeksini o‘rganuvchi bo‘lim) ni korxonada tashkil etish taklifimiz Respublikamiz yirik korxonalrini samaradorligini 50–60 % oshirishga amaliy yordam berishi, ish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Дрягунова, Д. М. Финансовоэ состояние предприятия и его анализ / Д. М. Дрягунова – Текст : непосредственний // Молодой ученій. – 2018. – №43. – С. 218–220.
2. Шеремет, А. Д. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятелности предприятия: учебник – 2-е изд., доп./А. Д. Шеремет. – Москва: ИНФРА-М, 2017. – 374 [1] с. ; 22 см. – 8000 экз. – ИСБН 978–5–534–05776–0. – Текст: непосредственний.
3. Есембекова, А. Ж. Финансовая безопасност – основа финансовой устойчивости/ А. Ж. Есембекова. – Текст: непосредственний // Проблеми со-временной экономики: материали ИИ междунар. науч. конф. (г. Челябинск, ок-тябр 2016 г.). – Челябинск: Два комсомолса, 2016. – С. 89–91.
4. Погодина, Т. В. Финансовий менеджмент : учебник и практикум / Т. В. Погодина. – М.: Юрайт, 2018. – 351 [1] с.; 22 см. – 7000 экз. – ИСБН 978–5–534–00680–3. – Текст : непосредственний.
5. Шулс, В. Л. Безопасност предпринимателской деятелности : учебник для вузов/ В. Л. Шулс, А. В. Юрченко, А. Д. Рудченко ; под редак-сией В. Л. Шулса. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2020. – 585 [1] с.; 22 см. – 5000 экз. – ИСБН 978–5–534–12368–5. – Текст : непосредственний.
6. Десятниченко, Д. Й. Угрози финансовой безопасности устойчи-вого функционирования предприятия / Д. Й. Десятниченко, О. Й. Десятни-ченко, В. В. Остапенко. – Текст : непосредственний // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2018. – 4. – С. 75–81.
7. Z. Aminov. Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi ... dissertatsiya avtoreferati. Samarqand. 2009. 10-b.
8. Roxvarger L. A. “Effektivnaya struktura upravleniya ekonomicheskoy bezopasnostyi predpriyatiya”
9. ESI blog_info/ocenka-udovletvorennosti-personala/

3 ESI blog_info/ocenka-udovletvorennosti-personala/

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TO‘LOV-KONTRAKT SHAKLI MABLAG‘LARI BO‘YICHA XARAJATLAR VA ULAR HISOBINING AMALDAGI HOLATI



Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna
TMI tayanch doktaranti

Annotatsiya: Zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, davlat ta’lim standartlari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biridir. Maqolada respublikamizda faoliyat olib borayotgan oliy ta’lim muassasalari budjetdan tashqari moliyaviy manbaalari asosan to‘lov-kontrakt shakli mablag‘lari hisobining yurutilishi, to‘lov-kontrakt shakli mablag‘lari xarajatlarini moliyalashtirish yoki tushum manbaalari asosida alohida shakllantirish tahlil qilingan. Amalga oshirilayotgan xarajatlarni mos yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash va samaradorlikga erishish ko‘zda tutilgan va biznes rejada belgilangan moliyaviy natijalarga erishish bo‘yicha xulosalar hamda ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: akadem qarzdorlik, bazaviy to‘lov-kontrakt, budjet buyurtmasi, daromadlar, debitor-kreditor qarzlar, oshirilgan to‘lov-kontrakt, qo‘shma ta’lim dasturi, xarajatlar.

Abstract: Training of specialists with modern knowledge, improvement of education and all its structural structures on the basis of state educational standards is one of the urgent issues. In the article, the extra-budgetary financial sources of higher education institutions operating in our republic are mainly accounting for the payment-contract form of funds, financing the costs of the payment-contract form of funds or forming them separately on the basis of sources of income, and the actual expenses Grouping by directions and achieving efficiency are provided, and conclusions and scientific proposals are given on achieving the financial results specified in the business plan.

Key words: academ debt, basic payment contract, budget order, income, debtor-creditor debts, increased payment contract, so-educational program, expenses.

Аннотация: Подготовка специалистов, обладающих современными знаниями, совершенствование образования и всех его структурных структур на основе государственных образовательных стандартов является одним из актуальных вопросов. В статье внебюджетные источники финансирования высших учебных заведений, действующих в нашей республике, в основном учитывают платно-контрактную форму средств, формирование затраты платно-контрактной формы отдельно на основе источников. Приведена группировка доходов и фактических расходов по источником финансирование и достижению эффективности, а также даны выводы и научные предложения по достижению финансовых результатов, определенных бизнес-планом.

Ключевые слова: академическая задолженность, базовый платно-контрактный средств, бюджетный заказ, доходы, дебиторская-кредиторская задолженность, повышенной платно- контрактый средств, программа совместное образование, программа совместная обучения, расходы.

KIRISH

Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Birgina “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi [1] Prezident Farmoniga ko‘ra “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish hamda oliy ta’lim muassasalari tashkiliy- boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularni moddiy texnik ta’minotini mustahkamlash maqsadida, 2030-yilgacha yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minlash, 30 ta oliy ta’lim muassasasining ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish, “Top–500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish, 10 ta oliy ta’lim muassasasini

dunyoning eng nufuzli “Top–1000” oliy ta’lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish, 5 ta oliy ta’lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish” kabi qator fazifalar belgilab olindi.

Moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ushlab turish, to‘lov-kontrakt mablag‘lari xarajatlarini samarali maqsadli sarflanishini ta’minlashda hisobni to‘gri yuritish va nazoratini amalga oshirishda hozirgi kunga kelib bir qator kamchiliklar kuzatilmoqda. Jumladan, hisobdorlik masalalarida hisobni tadqiq etishni o‘rni, tushayotgan to‘lov-kontrakt mablag‘larini o‘z tushum turlari bo‘yicha guruhlanmayotgani, hisob axborotlarini tuzishda qator muammolar keltirib chiqarmoqda. Amaldagi oliy ta’lim muassasalari buhgalteriya hisobini yuritishda bu kabi masalalar oliy ta’lim muassasalarining daromadlarini guruhlash asosida mos yo‘nalish xarajatlarini amalga oshirish buning uchun esa hisob jarayonini hamda hisobotlarni tuzib taqdim etish tartibini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini samarali boshqarishda budjetdan tashqari mablag‘lari shu jumladan to‘lov-kontrakt shakli mablag‘lari hisobini tashkil qilish, ularni maqsadli sarflash masalalari xorijiy va mahaliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, risolalarda o‘z aksini topgan. Respublikamizning yetakchi iqtisodchi olimlaridan S. U. Mehmonov [2], A. A. Ostonokulov [3], S. M. Buzrukxonov [4], P. Y. Karayev [5], X. A. Qobilov [6], A. S. Xodjayev [7], J. Y. Qurbonov [8] kabilar ilmiy ishlarida oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish yo‘llari xususan to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobi yuzasidan tadqiqot ishlari olib borishgan.

Xususan A. A. Ostonokulovning “Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan ilmiy ishida budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lani shakllantirishning zarurligi va ahamiyati, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobining nazariy asoslari tadqiq etilgan bol’sa, S. M. Buzrukxonov “Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida oliy ta’limni moliyalashtirishni takomillashtirish” mavzusidagi iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan ilmiy ishida Moliyalashtirishning samarali va shaffof mexanizmlarini joriy etish hamda o‘z xarajatlarini qoplash darajasidan kelib chiqib bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha to‘lov-kontrakt miqdorlarini bazaviy to‘lov-kontrakt miqdorining uch baravaridan oshmagan miqdorda mustaqil belgilashni ilmiy yangilik sifatida taklif etgan. Yuqoridagi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlaridan bevosita moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt shakli mablag‘lari hisobini takomillashtirishni talab etadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Rossiyalik olim A. I. Zotova [9] iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasini “Buxgalterskiy uchet v vыsshix obrazovatelnыx uchrejdeniyax: Na primere vuzov Sentrosoyuza RF” mavzusida himoya qilgan va Rossiya oliy ta’lim muassasalari bughalteriya hisobini o‘rganib ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Qozogiztonlik olim Rita Kasa [10] Yevropa davlatlari oliy ta’lim tizizmi moliyaviy faoliyati, inklyuziv ta’lim jarayonlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar olib borgan “To fund their higher education abroad, they draw on scholarships, family resources, loans, and personal earnings.”.Yevropalik iqtisodchi olim Simon Marginson [11] Yevropa oliy ta’lim tizimini samaradorligini oshirish qaratilgan ilmiy ishlar olib brogan “Higher education is a dynamic part of the modernization process”,

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xorijiy olimlarning tadqiqot yo‘nalishlari, oliy ta’lim muassasalarining moliy faoliyati o‘ziga xosligi va olib borilgan izlanishlari natijalarini O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi moliyaviy faoliyati ayniqsa moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta’lim muassasalariga xos jihatlarini o‘rganib tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlash jarayonida abstract mantiqiy fikrlash, induktsiya, deduktsiya, kuzatish, tahlil, guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanildi va taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.


TAHLIL VA NATIJA

Hozirgi kunga kelib, respublikamizda 3 559 yo‘nalish va mutaxassisliklarda 212 ta oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Shu jumladan: davlat oliy ta’lim muassasalari – 116 ta yoki 55 foizga, nodavlat oliy ta’lim muassasalari – 66 ta yoki 31 foizga hamda xorijiy oliy ta’lim muassasalari soni 30 ta yoki 14 foizni tashkil etmoqda. 212 ta oliy ta’lim muassasasida 1 203 125 nafar talabalarga 39 597 nafar professor o‘qituvchilar ta’lim berib kelishmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarining moliyalashtirish manbaalarini ko‘rib chiqadigan bol’sak, 1 203 125 nafar talabaning 162 228 nafari yoki 13 foizi davlat byudjeti hisobiga to‘g‘ri kelsa, 1 040 897 nafari yoki 87 foiz talaba o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli ta’lim olishmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining asosiy moliyaviy manbaasi

o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich ravishda moliyaviy hamda akademik mustaqillik berilishiga olib kelishini ko‘rsatadi bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy faoliyati, hisob tizimi va hisobotlarini takomillashtirish zaruriyatiga anglatadi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar xarajatlar smetalarini, daromadlar va xarajatlar smetalarini, shuningdek shtat jadvallarini normativ-huquqiy hujjatlar asosida mustaqil ravishda tuzadilar. Xarajatlar smetalari, daromadlar va xarajatlar smetalari, shtat jadvallari, shuningdek jamlanma xarajatlar smetalari va shtat jadvallari bir moliya yili muddatiga, mavsumiy yoki yil mobaynida tuzilgan tashkilotlar bo‘yicha esa, ularning mazkur moliya yilidagi faoliyat ko‘rsatish davriga tuziladi va amal qiladi.



1-rasm: Davlat oliy ta’lim muassasalarining 2022-yil yillik daromadlari va xarajatlari to‘g‘risida ma’lumot.(mln so‘mda)[1]

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 116 ta davlat oliy ta’lim muassasalarining asosiy daromad manbayi o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. 2022-yil davomida davlat oliy ta’lim muassasalariga jami daromadlari 8 770 727 million so‘mni tashkil etib, shu jumladan 2 189 366 million somi yoki 25 foizi budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, 6 279 346 million so‘mi yoki 71 foizi to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri kelgan. Rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari esa 302 015 million so‘mni yoki jami daromadlarning 4 foizini tashkil etgan.


2022-yil davomida davlat oliy ta’lim muassasalariga jami xarajatlari 8 102 828 million so‘mni tashkil etib, shu jumladan 2 137 898 million somi yoki 26 foizi budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, 5 746 039 million so‘mi yoki 70 foizi to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri kelgan. Rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari esa 218 888 million so‘mni yoki jami xarajatlarning 4 foizini tashkil etgan.

Tahlillarimizga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta’lim muassasalari daromadlari va xarajatlari tarkibining asosini o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli mablag‘lari tashkil etmoqda. Oliy ta’lim muassasalari daromadlari tarkibining asosini o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli tashkil etayotganiga asosiy sabablari etib, 36 ta davlat oliy ta’lim muasasalariga moliyaviy mustaqillik berilganini hamda oshirilgan to‘lov-kontrakt shakli keng qo‘llanilayotganini ko‘rsatishimiz mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Unga ko‘ra xarajatlar to‘rt guruhga hamda har bir guruh o‘z ichida yana xarajatlar moddasiga ajratilgan holda smeta shakllantiriladi.

Oliy ta’lim muassasalarida ushbu xarajat guruhlari bo‘yicha joriy moliya yili uchun daromadlar va xarajatlar smetasi shakllantiriladi. Talabalar bilan oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida joriy o‘quv yili uchun to‘lov-kontrakt shartnomalari shakllantiriladi hamda tushumlar ham shartnomaga asosan joriy o‘quv yili uchun to‘lanadi. Daromadlar joriy o‘quv yili uchun xarajatlar esa joriy moliya yili uchun amalga oshirilmoqda bu esa buxgalteriya hisob tizimi va tuzilgan hisobotlarida noaniqliklar keltirib chiqarmoqda. Bu kabi to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobini yuritishdagi muammoli masalalar o‘z navbatida oliy ta’lim buhgalteriya xizmatida bir qator kamchiliklarga hamda taqdim etilayotgan axborot ma’lumotlarni ishonchsizligiga olib keladi.

1 O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.



1-chizma: Xarajatlar tarkibi[2]

XULOSA

O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari moliyaviy manbaalarini asosini shubhasiz to‘lov–kontrakt mablag‘lari tashkil etmoqda. Davlat byudjeti xarajatlarining 20–25 foizi oliy ta’lim tizimi xarajatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Ta’lim xizmatlari ijtimoiy ne’mat sifatida qiymatga ega bo‘lib, bozor munosabatlari obyekti ko‘rinishida mavjud. Aholining barqaror o‘sib borayotgan ehtiyojini ta’lim xizmatlari bozori qondirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bozor munosabatlari rivojlana borgan sari to‘lov-kontrakt asosida mutaxassis tayyorlash hamda oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish asta-sekin ko‘payib boraveradi.

Oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar va ular hisobining amaldagi holatini yaxshilash, amalga oshirilayotgan xarajatlarning maqsadli sarflanishini ta’minlash hamda smeta ijrosiga qatiy amal qilishni nazarda tutgan holda quyidagilarni xulosa tarzida keltirish mumkin:

1. Moliya yili uchun shakllantirilgan daromadlar va xarajatlar smetasiga asosan xarajatlar o‘quv yili uchun tushgan daromadlar hisobidan amalga oshirilmoqda. Oliy ta’lim muassasasining faoliyati o‘quv yili bo‘yicha amalga oshirilishidan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasasining uzoq va o‘rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini hamda moliyaviy xo‘jalik faoliyatini samarali boshqarish maqsadida daromadlar va xarajatlar parametrini o‘quv yili uchun aniqlash zarur.
2. Daromadlar joriy o‘quv yili uchun bo‘lganidan keyin, xarajatlar ham shunga mos ravishda bo‘lishi lozim. Joriy moliya yili uchun shakllantirilgan xarajatlar smetasi xarajatlari joriy moliya yilida amalga oshirib kelinmoqda. Joriy o‘quv yilining 1-semestri uchun to‘langan to‘lov-kontrakt summalarini yil davomida ikkiga bo‘lib to‘lansa ham, to‘rtga bo‘lib to‘lansa ham oxirgi ikki oylik haqiqiy xarajati kelgusi moliya yilida hisobga olinadi. Bu xarajatlarning darimadi esa o‘tgan moliya yilida qolib ketadi.
3. Joriy moliya yili uchun tuzib taqdim etilayotgan moliyaviy natijalarni hisobotini tahlil qiladigan bo‘lsak bu ham o‘z-o‘zidan moliya yili uchun shakllantirilmoqda. Daromadlar o‘quv yilining 1-semestri va 2-semestri uchun deb shakllantirilmoqda. Bunda 1-semestr to‘rt oyni va ikkinchi semester esa olti oyni tashkil qilib qolmoqda. Xarajatlar esa o‘n ikki oy davomida moliya yili uchun amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarining faoliyati o‘quv yili bilan bog‘liq ekanligini hisobga olib tizilayotgan daromadlar va xarajatlar smetasi o‘quv yili ucun shakllantirilsa natijada, oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt shakli mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar va ularning moliyaviy natijalari hisobotlarni tuzilishida aniqliklarga erishiladi. Ushbu amalga oshirilgan ishlar natijasida, oliy ta’lim muassasalarida byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobi, ya’ni to‘lov-kontrakt shakli mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar va ularning birlamchi hisob-kitob ishlarini to‘g‘ri, aniq va har bir tushum kesimida o‘z vaqtida sifatli yuritilishi hamda maqsadli sarflanishi, to‘lov-kontrakt mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi moliyaviy hisobotlarni tuzilishida aniqliklarga erishiladi.

2 Tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 158-son Farmoni 2023-yil 11-sentyabr.
2. S. U. Mehmonov Byudjet tashkilotlarida buhgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqt.fan. dok. (DSc) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.-T.:2018. –B36;
3. A. A. Ostonokulov “Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish”. Monografiya. – T.: “VNESHINVESTPROM”, 2021. –208 b.
4. S. M. Buzrukxonov. “Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida oliy ta’limni moliyalashtirishni takomillashtirish” mavzusidagi fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2022 yil.
5. P. Y. Karayev “The role of the state in financing the higher education system” International journal of research in commerce, Volume: 16 Issue: 07 in July 2022.
6. X. A. Qobilov “Ta’lim tizimini moliyalashtirishni isloh qilish masalalari” “Science and Education” Scientific Journal April 2021 / Volume 2 Issue 4
7. A. S. Xodjayev “Oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va ichki auditini takomillashtirish” mavzusidagi fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2023 yil.
8. J. Y. Qurbonov “Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobi va uni takomillashtirish masalalari ” “Inovatsion texnologoyalar” jurnali 2021 yil №4 dekabr.
9. А. И. Зотова Бухгалтерский учет высших образовательных учреждениях: На примере вузов Центрасоюза РФ. тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12, -RF.:2000.-Стр.239.
10. Rita Kasa Juggling the Costs of Higher Education Abroad: Voices of International Students from Latvia “Reimagining mobility in higher education” DOI:10.1007/978–3–030–93865–9_6
11. S. Marginson “High Participation Systems of Higher Education”. The journal of higher education. 2016 3/1
12. http://www.interfinance.uz (“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy electron jurnali sayti)
13. http://edu.uz (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti)
14. http://stat.edu.uz (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining statistik ma’lumotlari sayti)



O‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT BOZORI NAZARIY TAHLILI

Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor atamasini bir qancha tarixiy davrlardan toki hozirgacha keltirilgan bir nechta ta’riflari taqqoslangan va eng maqbul to‘g‘ri ta’rif keltirilgan. Shuningdek, oziq-ovqat bozorining funksiyalari, turlari va xususiyatlari o‘rganilgan va ular xususida ilmiy fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Bozor, oziq-ovqat bozori, qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq, narx.

Abstract: This article compares several definitions of the term market from several historical periods until now, and presents the most appropriate and correct definition. Also, the functions, types and features of the food market were studied and scientific opinions were made about them.

Key words: Market, food market, agriculture, trade, price.

Аннотация: В этой статье сравниваются несколько определений термина “рынок” из нескольких исторических периодов до настоящего времени и представлено наиболее подходящее и правильное определение. Также были изучены функции, виды и особенности продовольственного рынка и высказаны о них научные заключения.

Ключевые слова: Рынок, продовольственный рынок, сельское хозяйство, торговля, цена.

KIRISH

Aholining faol o‘sishi, resurslar uchun kurashning kuchayishi, oziq-ovqat va ichimlik suvi taqchilligi muammosining keskinlashuvi bilan tavsiflangan jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida optimal oziq-ovqat bozorini shakllantirish va uni boshqarishning samarali vositalaridan foydalanish O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini yetarli darajada ta’minlash ustuvor vazifadir. Optimal oziq-ovqat bozori aholini zarur miqdorda, sifatli va assortimentdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashi kerak. Shu bilan birga, don, shakar, sariyog‘, sut, go‘sht va boshqalar kabi an’anaviy oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida mahalliy mahsulotlarning ulushi kamida 70–80 foizni tashkil etishi kerak. Biroq bu shartni ta’minlash uchun ishlab chiqarishni intensivlashtirish, mahsulotlarning raqobatbardoshligi va agrobiznesning rentabelligini oshirish, ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishida iqtisodiyotning agrar sektorini isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish, qishloq joylari va agrosanoat majmuasida tadbirkorlikni rag‘batlantirishni kuchaytirish zarur. Ichki oziq-ovqat bozorini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash uchun uning mohiyati va iqtisodiy tizimdagi o‘rnini aniqlash zarur. Tarixan bozorning paydo bo‘lishi ommaviy mehnat taqsimoti va tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog‘liq. Ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi natijasida xo‘jalik yuritishning tabiiy shakllaridan tovar shakllariga o‘tish davrida ayirboshlash munosabatlari rivojlanib, ayirboshlash mahsuloti shaklidan tovar ayirboshlash shakliga aylanishi- bozor deb ataladi.

ADABIYOTLAT TAHLILI

Dastlab bozor deganda ayirboshlash, savdo-sotiq, biznes bitimi uchun odamlarning yig‘ilishi tushunilgan. Ushbu tushuncha odamlar o‘rtasidagi har qanday savdo munosabatlariga murojaat qilish uchun ishlatilgan. Voytov A. G., Kovalchuk V. M., Bobrov V. Ya asarlari asosida uning paydo bo‘lish vaqtini o‘rganib chiqib, “bozor” atamasi bozor munosabatlarining paydo bo‘lishi bilan birga paydo bo‘lgan, ya’ni taxminan 10–12 ming yil oldin paydo bo‘lgan deb ta’kidlash mumkin [1; 2; 3]. Hunarmandchilik va shaharlarning yanada rivojlanishi bilan bozorning mohiyati kengayib, savdo operatsiyalarini amalga oshirish uchun aniq belgilangan joy mazmuniga ega bo‘ladi. Qadimgi yunon mutafakkiri Anaxarsisning bozor bir-birini aldash va talon-taroj qilish uchun maxsus belgilangan joy ekanligini ta’kidlagan fikri qiziqdir [4, b. 87]. Fransuz iqtisodchisi, siyosiy iqtisodning matematik


yo‘nalishi asoschisi Ogust Kurno “bozor” tushunchasiga biroz yangi ma’noni berdi va u “iqtisodchilar bozor” atamasi bilan biron bir o‘ziga xos bozor maydonini emas, balki bozorni nazarda tutadi, deb ta’kidladi. Qaysidir mahsulotlar sotib olinadi va sotiladi, lekin umuman olganda, xaridorlar va sotuvchilarning bir-biri bilan munosabatlari shunchalik erkin bo‘lgan har qanday sohada bir xil tovarlarning narxlari osongina va tez tenglashishga moyildir”. Bu tushuncha, sotuvchi va sotib oluvchining talablari va istaklari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi [6, b. 6]. Zamonaviy iqtisod fani “bozor” tushunchasining yagona ta’rifini ajratib ko‘rsatmaydi. G‘arb va mahalliy fanlar bunday kontsepsiyaning turli xil talqinlarini taqdim etadi, uning turli tomonlarini ta’kidlaydi. Shunday qilib, amerikalik iqtisodchi M. Fridman “bozor”ni ishtirokchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish, ularga tanlash erkinligini ta’minlovchi deb hisoblaydi [7, b. 24]. P. Samuelsonning fikricha, “bozor xaridorlar va sotuvchilarning o‘zaro ta’sirida tovar narxi va miqdorini aniqlash mexanizmi” [8, b. 33]. Galchinskiy A. S. ning fikri bilan bog‘liq bo‘lib, u bozorni narxlar tizimi orqali odamlarning xilma-xil faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmi deb biladi [11, 157-bet]. Shuni ta’kidlash kerakki, ba’zi iqtisodchilar bozor toifasini belgilab, zamonaviy barter operatsiyalarining ajralmas qismi sifatida o‘z e’tiborini narxga qaratadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada belgilangan maqsad va vazifalarni hal qilish uchun iqtisodiy hodisalarni bilishning dialektik usulidan foydalanilgan, ya’ni tadqiqotning asosiy tushunchalarining mohiyatini oydinlashtirishga imkonni beragan. Ichki oziq-ovqat bozorlari rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini belgilovchi ko‘rsatkichlarni solishtirishda esa qiyosiy usuldan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

”Bozor” tushunchasining ta’rifiga turli yondashuvlarni tahlil qilgandan so‘ng, ko‘pchilik iqtisodchilar ushbu atamani 1.1-rasmda keltirilgan besh jihatdan ko‘rib chiqadilar.



1.1.rasm: Ko‘p o‘lchovlilik “bozor” tushunchasi

Oziq-ovqat bozorining mohiyati va ahamiyatini to‘liqroq tushunish uchun uning iqtisodiy tizimdagi funksiyalarini ko‘rib chiqish kerak. Ko‘pchilik tadqiqotchilar bozorning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatadilar [12; 13]:

1. **Normativ.** Bozor talab va taklif o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtiradi, muvozanat narxning o‘rnatilishini ta’minlaydi. Bunda ishlab chiqarish hajmi jami ehtiyojlarni qondiradi, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlari o‘rtasida, iste’mol va jamg‘arish, samarali talab va taklif o‘rtasida zarur nisbatlar shakllanadi, takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi o‘rnatiladi.
2. **Nazorat qilish.** Bozor iste’molchilarga ishlab chiqarishni nazorat qilishga yordam beradi, narxlarni tenglashtirishga yordam beradi, ijtimoiy zarur mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va jamiyat uchun keraksiz tovarlar ishlab chiqarishni oldini oladi.
3. **Axborot.** Turli narxlarda va boshqalardan foydalanish signallari, bozor barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarni real ishlab chiqarish xarajatlarining holati, bozorga yetkazib berilayotgan ijtimoiy zarur tovarlarning sifati, miqdori va assortimenti to‘g‘risida obyektiv ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Bu ma’lumotlar xo‘jalik yurituvchi subyektlarga bozor talablari asosida o‘z ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Ishlab chiqaruvchilarni iste’molchi ehtiyojlarini o‘zgartirish to‘g‘risida ogohlantirish, bozor assortimentni o‘zgartirishga, mahsulot sifatini yaxshilashga, individual xarajatlarni kamaytirishga, ya’ni ishlab chiqaruvchilarni iste’molchi talablariga moslashtirishga yordam beradi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

4. **Narx belgilash.** Bozor nihoyat mahsulot va xizmatlar tannarxini, ularni amalga oshirish va mehnat mahsulini tovarga aylantirishni belgilaydi.
5. **Rag‘batlantiruvchi.** Narxlar yordamida bozor ishlab chiqaruvchilarni aynan iste’molchilarga zarur bo‘lgan tovar va xizmatlarni yaratishga, innovatsiyalar, ilg‘or asbob-uskunalar, texnologiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarish jarayonini shunday tashkil etishga undaydiki, bunda individual xarajatlar kamayadi, mahsulot raqobatbardoshligi oshadi va uning sifatli iste’mol xususiyatlari yaxshilanadi. Boshqacha aytganda, bozor iqtisodiy manfaatlarni harakatga keltiradi, unumli, samarali mehnat uchun motivatsiya yaratadi, bu esa yuqori yakuniy natijalarni ta’minlaydi.
6. **Reproduktiv.** Bozor ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining bevositaligini ta’minlaydi, milliy xo‘jalik tizimini yagona subyektga aylantiradi, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi, milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuviga yordam beradi.
7. **Tarqatish.** Bozorning bu funksiyasi shundan iboratki, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olinadigan daromadlar asosan ishlab chiqarish omillari uchun to‘lovlar bo‘lib, bu omil bo‘yicha bozor bahosiga bog‘liq. Bozor bahosi tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini farqlash orqali bozor ishtirokchilarining daromadlari bo‘yicha kambag‘al va boylarga ijtimoiy tabaqalanishiga olib keladi.
8. **Salomatlik (sanatsiya funksiyasi).** Bozor raqobat yordamida ijtimoiy ishlab chiqarishni iqtisodiy samarasiz va nomaqbul xo‘jalik yurituvchi subyektlardan ozod qiladi va istiqbolli, samarali va jamiyat uchun foydali ishlab chiqaruvchilar uchun keng imkoniyatlar ochadi.


Bozor-bozor munosabatlarining tashuvchilari, ya’ni bozor subyektlari, ya’ni davlat, davlat, jamoat, kooperativ, xususiy, qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalari, birlashmalar, yaxlit tuzilmalar, turli muassasalar va tashkilotlar, xususiy uy xo‘jaliklari va fuqarolarning mavjudligini anglatadi. Bozor munosabatlarining obyektlari mehnat natijalari (ishlab chiqarish vositalari, iste’mol tovarlari, xizmatlar, uy-joy, ilmiy g‘oyalar va boshqalar), mehnat, qimmatli qog‘ozlar, valyutadir Bozor munosabatlari obyektlarini hisobga olgan holda bozor iste’mol tovarlari bozori va xizmatlar bozoriga bo‘linadi. Tadqiqot obyektini hisobga olgan holda, bizni iste’mol tovarlari bozori qiziqtiradi, chunki u oziq-ovqat bozorini o‘z ichiga oladi.

Oziq-ovqat bozori jamiyatning ijtimoiy barqarorligini, xalq farovonligini shakllantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning borishini va iqtisodiyotning agrar sektoridagi umumiy vaziyatni belgilaydi. “Oziq-ovqat bozori” atamasini talqin qilishda ko‘plab yondashuvlar mavjud. Ularning barchasi bir-birini to‘ldiradi va birgalikda bir butunni tashkil qiladi. N. V. Karpenkoning ta’kidlashicha, oziq-ovqat bozori iqtisodiy kategoriya sifatida xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar o‘rtasida oziq-ovqat mahsulotlarini sotish va sotib olish bo‘yicha rivojlanadigan munosabatlar yig‘indisi, ma’lum bir oziq-ovqat mahsulotiga talab, taklif va narx shakllanadigan joy. Shu bilan birga, shuni ta’kidlaymizki, olim oziq-ovqat bozorini talqin qilar ekan, asosiy e’tiborni tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarga qaratadi, oziq-ovqat bozori esa barcha iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilarning munosabatlarini o‘z ichiga oladi.Ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘ladimi yoki yo‘qmi. Z. M. Ilyinaning fikr juda qiziqarli, ya’ni oziq-ovqat bozori – bu to‘liq va ishonchli ma’lumotlar asosida bir-biri bilan almashinadigan oziq-ovqat mahsulotlarini erkin o‘zaro ta’sir qiluvchi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarni birlashtirgan iqtisodiy tizim, bu esa tenglashtirish va xarajatlarni kamaytirishga olib keladi .Oziq-ovqat bozori subyektlari har doim ham to‘liq va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lavermaydi, aksincha, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘pincha yashirin va buzib ko‘rsatiladi.

“Oziq-ovqat bozori” atamasini tahlil qilish natijasida boshqa ta’riflarda oziq-ovqat bozoriga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish kerak. Oziq-ovqat bozori ta’rifida oziq-ovqat mahsuloti tushunchasi paydo bo‘lishi odatiy holdir, ya’ni oziq-ovqat bozori tizim (tashkiliy yoki iqtisodiy) yoki munosabatlar majmuasi yoki o‘zaro ta’sir doirasi sifatida qaraladi. Bozor munosabatlari subyektlari sanab o‘tilgan ta’rifda esa aniq yoki bilvosita shaklda almashinuv elementi mavjud. Biroq, ko‘p ta’riflarda davlatni oziq-ovqat bozorini tartibga solishning muhim subyekti sifatida hisobga olmaydi. Shularni hisobga olib, biz muallifning “Oziq-ovqat bozori – sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini sotish, ayirboshlash, talab va taklif muvozanatini ta’minlash, shuningdek, tartibga solish ta’siri ostida bozor subyektlari manfaatlarini muvozanatlash bo‘yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi” ta’rifini qabul qilmoqchimiz. Demak, oziq-ovqat bozorini o‘rganishda mantiqiy qadam “oziq-ovqat bozorini rivojlantirish” tushunchasining mohiyatini tushunishdir.

Falsafada “rivojlanish” atamasi “o‘zgarish” va “harakat” tushunchalari orqali ta’riflanadi. O‘zgarish – bu narsalarning, hodisalarning bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi, harakat esa ularning mazmunidan qat’i nazar, dunyoda sodir bo‘layotgan barcha jarayonlarni qamrab oladigan umumiy o‘zgarishdir. Demak, rivojlanish – bu umuman o‘zgarishning ma’lum bir shakli, moddiy obyektlardagi muntazam, qaytarib bo‘lmaydigan, sifatli o‘zgarishlarga qaratilgan harakatning alohida turi. Shu bilan birga, biz ta’kidlaymizki, rivojlanish – bu shunday harakat bo‘lib, uning davomida allaqachon mavjud bo‘lgan xususiyatlar, qandaydir tizim holati o‘zgarishi emas, balki ilgari mavjud bo‘lmagan yangi xususiyatlar, yangi sifat (bir narsaning mohiyati) ham sodir bo‘ladi.

Rivojlanish kontsepsiyasining mohiyatini tushunish bo‘yicha turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilib, biz oziq-ovqat bozorini rivojlantirish kontsepsiyasi 1.2.rasmda keltirilgan sakkizta asosiy komponentni o‘z ichiga olishi kerak degan xulosaga keldik.



1.3-rasm: Oziq-ovqat bozorini rivojlantirish kontsepsiyasining tarkibiy elementlari

Oziq-ovqat bozorini rivojlantirish kontsepsiyasining har bir tarkibiy qismlarini qisqacha tavsiflab, shuni ta’kidlaymizki, oziq-ovqat bozorining rivojlanishi uning asosiy parametrlari xususiyatlarining yaxshilanishi yoki yomonlashishiga olib keladigan miqdoriy va sifat o‘zgarishlarining mavjudligini nazarda tutadi. Shunday qilib, oziq-ovqat bozorini rivojlantirish kontsepsiyasi doirasida biz makon va vaqt ichida sodir bo‘ladigan va oziq-ovqat mahsulotlarining xususiyatlarining yaxshilanishi yoki yomonlashishiga olib keladigan miqdoriy va sifat o‘zgarishlarining uzoq muddatli, doimiy bo‘lmagan to‘plamini tushunishni taklif qilamiz. oziq-ovqat bozorining asosiy parametrlari, tashqi sharoitlarning o‘zgarishiga moslashish jarayonida uning salohiyatining oshishi yoki kamayishiga olib keladi.

Yuqoridagi tasniflarga asosan quyidagi yakuniy xulosalarga kelishimiz mumkin. Iste’molchilar uchun tovarlarning arzonligi printsipiga ko‘ra, oziq-ovqat bozorlari quyidagi turlarga bo‘linadi. Ijtimoiy oziq-ovqat bozorlari (bularga fuqarolarning eng kam iste’mol savatiga kiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari kiradi), o‘rta sinf uchun oziq-ovqat bozorlari, o‘rtacha narxlar toifasiga kiruvchi oziq-ovqat bozorlari va elita mahsulotlarning oziq-ovqat bozorlari (ekzotik va qimmatli tovarlar).

Iste’molchi turiga qarab, biz oziq-ovqat bozorlarini ommaviy iste’mol mahsulotlari bozorlari, bir martalik mahsulotlar bozorlari, bolalar ovqatlari bozorlari, dorivor mahsulotlar bozorlari, tibbiy va profilaktik oziq-ovqat mahsulotlari bo‘lishni taklif qilamiz. Oziq-ovqat bozori bozor iqtisodiyotining quyidagi umumiy tamoyillari asosida ishlaydi: tadbirkorlik erkinligi, iste’molchiga yo‘naltirilganlik, iste’molchi tanlash erkinligi, raqobat va shaxsiy tegishlilik. Biroq, oziq-ovqat bozori iqtisodiy tizimning boshqa bozorlaridan ajralib turadigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Bu xususiyatlar:

- oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun xom ashyo ishlab chiqarish va iste’mol qilishning mavsumiyligi;
- bozorda oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishga tuproq-iqlim sharoitlarining bevosita ta’siri;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida bozorning mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlari bilan ikki tomonlama o‘zaro bog‘lanishi va oziq-ovqat bozorining mehnat bozorlari, yer, investitsiya tovarlari holatiga bevosita bog‘liqligi, moliya va bozor infratuzilmasining boshqa elementlari;
- oziq-ovqat bozorining uzluksiz faoliyat yuritishi, bu odamlarning fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun har kuni oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish zarurati bilan bog‘liq;
- oziq-ovqat mahsulotlarining o‘ziga xosligi-ularning sifat ko‘rsatkichlarini uzoq saqlash muddati davomida saqlab turishning iloji yo‘qligidan iborat bo‘lib, oziq-ovqat mahsulotlarini tez va ba’zan darhol sotishni talab qiladi, bu mahsulot yo‘qotishlarining oshishi va rentabellikning pasayishi bilan birga keladi.Oziq-ovqat mahsulotlarining yana bir xususiyati – yuqori darajadagi o‘zaro almashinish va shu bilan birga past daromad egiluvchanligi, shuningdek, ishlab chiqarish hajmining nafaqat to‘lovga qodir talab bilan shartliligi, balki iste’molning fiziologik normalari, yer va boshqa resurslarning mavjudligi;
- oziq-ovqat bozorini qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash tarmoqlari faoliyatining samaradorligi va samaradorligini belgilovchi omil sifatida ko‘rib chiqish imkoniyati, chunki u ularning faoliyati natijalarini jamlaydi;
- vaqti-vaqti bilan ushbu bozorda paradoksal vaziyat yuzaga keladi, bunda barcha tovar ishlab chiqaruvchilar uchun noqulay ob-havo sharoiti qulay bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq ma’qul bo‘lishi mumkin, chunki

oziq-ovqat mahsulotlariga talabning egiluvchanligini hisobga olgan holda, yuqori hosildorlik sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlari pasayadi;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy iste’molchisining shaharlarda to‘planishi, bu turli xil vositachilardan foydalanishga olib keladi. O‘z faoliyatidan foyda olishni istagan vositachilar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari daromadlarining pasayishiga va yakuniy iste’molchi uchun mahsulot narxining oshishiga olib keladi. Agar qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini sotish mexanizmlari ishlab chiqilmagan bo‘lsa, vositachilar oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatish kanallarini to‘sib qo‘yadilar, bu esa tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy holatiga salbiy ta’sir qiladi va tsivilizatsiyalashgan oziq-ovqat bozorini shakllantirishga yordam bermaydi ;
- bu turdagi bozorning mukammal raqobat bozoriga yaqin, chunki barcha treyderlar bir-biriga raqobatchilardir; ularning har biri ma’lum bozor ulushini egallaydi; ular savdo qiladigan mahsulotlar nisbatan bir xil va alohida; xaridorlar ma’lumotlardan teng foydalanish imkoniyatiga ega va ko‘pincha narxlar holati haqida yaxshi ma’lumotga ega bo‘lishadi; sotuvchilar bir-biridan mustaqil ishlaydi, ishlab chiqaruvchilarning bozorga kirishi yoki chiqishi uchun hech qanday to‘siq yo‘q.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, oziq-ovqat bozorining mohiyatini xo‘jalik yuritish vositalarining ta’siri ostida o‘zgartiriladigan qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini sotish va sotib olish bo‘yicha ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida talqin qilish kerak. Oziq-ovqat bozorini (funksional, hududiy, mahsulot yondashuvi) tizimlashtirishga yondashuvlarni tahlil qilish asosida oziq-ovqat va funksional tuzilmalarni oshkor qilish asosida o‘zaro munosabatlarni aniqlash va optimallashtirish imkonini beradigan va agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish qayta ishlash tarmoqlari bilan qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari bozorlari o‘rtasida sxematik model ishlab chiqilgan.

XULOSA

Oziq-ovqat bozorining mohiyatini tushunishga turli yondashuvlarning tahlili davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyatini hisobga olish zarurligini isbotladi va oziq-ovqat bozorini sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida tushunishni chuqurlashtirishga imkon berdi. qishloq xo‘jaligi xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini sotish, ayirboshlash, bu talab va taklif muvozanatini ta’minlaydi, shuningdek, davlat tomonidan tartibga solish vositalari ta’sirida bozor subyektlari manfaatlarini muvozanatlashtiradi.

“Rivojlanish” tushunchasining tarkibiy elementlarini tahlil qilib umumiy falsafiy ma’noda “oziq-ovqat bozorini rivojlantirish” tushunchasini makon va vaqt ichida yuzaga keladigan miqdoriy va sifat o‘zgarishlarining uzoq muddatli, doimiy bo‘lmagan majmuyi sifatida tushunish kerakligi isbotlangan. Oziq-ovqat bozorining asosiy parametrlari xususiyatlarining yaxshilanishi yoki yomonlashishi, o‘zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga moslashish jarayonida uning potentsialining oshishi yoki pasayishiga olib keladi.

Oziq-ovqat bozorining mohiyati va tipologiyasini tushunishga yondashuvlarni o‘rganish tasnifni qo‘shimcha belgilangan mezon belgilari asosida to‘ldirishga imkon berdi, xususan: oxirgi iste’molchilar uchun tovarlarning narx mavjudligi printsipi bo‘yicha: ijtimoiy oziq-ovqat bozorlari, o‘rta sinf uchun oziq-ovqat bozorlari va elita mahsulotlarining oziq-ovqat bozorlari; yakuniy iste’molchi turiga qarab: ommaviy iste’mol tovarlari bozorlari, bir martalik mahsulotlar bozorlari, bolalar ovqatlari bozorlari va tibbiy va profilaktik oziq-ovqat mahsulotlari bozorlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Voitov A. G. Iqtisodiyot. Umumiy kurs. (Iqtisodiyotning fundamental nazariyasi): darslik / A. G. Voitov. – 8-chi tahrir 2003.–600 b.
2. Kovalchuk V. M. Iqtisodiyot va iqtisodiy fikr tarixi: [tahrir. pos.] / V. M. Kovalchuk, M. V. Nazarovich, M. I. Qal’a. 2008. – 647 b.
3. Bobrov V. Ha. Bozor iqtisodiyoti asoslari: do‘st / V. Y. Bobrov. -TO.: Libid, 1995.–320 b.
4. Diogen Lazrtskiy. Mashhur faylasuflarning hayoti, ta’limotlari va so‘zlari haqida / Diogen Lazrtskiy. – M.: Mysl, 1986. – 571 b.
5. Smit A. Richatka xalqlarining tabiati va sabablari haqidagi tadqiqotlar. 1–3 kitob. / A. Smit. – M.: Nauka, 1993. – 572 b.
6. Marshall A. Iqtisodiyot fanining tamoyili: v 3-x t. / A. Marshall. – M.: Progress-Univers, 1993. – 352 b.
7. Fridman M. Erkinlik haqida / [Fridman M., Hayek F.]; boshiga ed. A. Babich.- Minsk: Polifakt referendumi, 1990. – 200 b.
8. Iqtisodiyot / tahrir. P. Samulson: v 2 tomax. – M.: NPO Aglon, Mashinasozlik, 1997. – T. 1. – 333 b.
9. Antoshkina L. I. Tovar bozori infratuzilmasi: [navc-metod. mustaqil o‘qish va mutaxassisliklar bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash uchun yaxshi. Marketing] / L. I. Antoshkina, I. O. Tarlopov, L. P. Kolenchenko. – Donetsk: Janubi-Sharqiy, 2009. – 184 p.
10. Kirilenko V. V. Iqtisodiyot: [soch uchun yaxshi tur.: Iqtisodiy fikr, 2003. – 155 p.
11. Galchinskiy A. S. Iqtisodiy bilim asoslari: [tahrir. pos.] / A. S. Galchinskiy, P. S. Eshchenko, Y. I. Palkin –1998. – 544 p.
12. Medvedev. – K.: Nika-NDentr Elga Siyosiy iqtisod: Pidruchnik / G. I. Bashnin, 2000. – 527 b.199.
13. Shoimqulov A. A. Iqtisodiyot nazariyasi asoslari: [darslik. qo‘llanma] /,. – 479 b.
14. Matsibora V. I. Qishloq davlatining iqtisodiyoti: 1994. –415 b.

SUG‘URTA MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI



Abduturapova Dildora Farxodjon qizi
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatlar o‘z ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini boshqarishning muhim tarkibiy qismi va ustuvor maqsadlaridan biri mamlakat fuqarolarini sifatli, samarali tarzda ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishdir. Ushbu maqolada sug‘urta bozorining rivojlanishi, uning mamlakatimizda tutgan o‘rni, sug‘urta jarayonlarini faollashtirish ko‘p jihatdan sug‘urta xizmatlarining sifatiga, ayniqsa, sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta qoplamasining holati, sug‘urtaning mamlakatdagi mavqeyi, aholining sug‘urta madaniyati va ularning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchi bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilingan va tegishli xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta munosabatlari, iqtisodiyot, sug‘urta xizmatlari, sug‘urta bozori, sug‘urta, sug‘urta shartnomasi, mijoz, jismoniy shaxslar, sug‘urta mukofotlari, sug‘urta qoplamasi, sug‘urta agenti, assistans, adjaster, aktuariy, infratuzilma, sug‘urta madaniyati.

Abstract: Today, one of the important components and priority goals of the country’s socio-economic policy management is the qualitative and effective socio-economic protection of the country’s citizens. In this article, the development of the insurance market, its role in our country, the activation of insurance processes, and the quality of insurance services, especially the state of insurance coverage by insurers, the position of insurance in the country, the insurance culture of the population and their trust in insurance, are analyzed and relevant conclusions are presented.

Key words: insurance relations, economy, insurance services, insurance market, insurance, insurance contract, client, individuals, insurance premiums, insurance coverage, insurance agent, assistance, adjuster, actuary, infrastructure, insurance culture.

Аннотация: Сегодня одной из важных составляющих и приоритетных целей управления социально-экономической политикой страны является качественная и эффективная социально-экономическая защита граждан страны. В данной статье рассмотрены развитие страхового рынка, его роль в нашей стране, активизация страховых процессов и качество страховых услуг, особенности состояния страхового покрытия страховщиков, положение страхования в стране, страховая культура. населения и их доверие к страхованию, сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: страховые отношения, экономика, страховые услуги, страховой рынок, страхование, договор страхования, клиент, физические лица, страховые премии, страховая защита, страховой агент, ассистанс, аджастер, актуарий, инфраструктура, страховая культура.

KIRISH

Sug‘urta munosabatlari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalovchilar o‘rtasidagi aloqalar, ularning iqtisodiy manfaatlarini yuzaga kelishini ta’minlovchi jarayonlar bo‘lib, boshqa rivojlangan mamlakatlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy kompaniyalarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalaridagi so‘nggi innovatsiyalar va ularni kompaniyalarga taklif etish, zamonaviy innovatsion yondashuvlarni sohaga jalb qilish, sohadagi kadlar malakasi va ko‘nikmalarini oshirish, iqtisodiyotdagi sug‘urta turlarining raqamlashtirilishiga zamin yaratish, investitsion loyihalarni soha rivojiga yo‘naltirish va bunda yangi usul hamda mexanizmlardan foydalanishga katta e’tibor qaratish lozim bo‘lib qolmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, sug‘urta kompaniyalaridagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda mamlakatlar o‘z ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini boshqarishning muhim tarkibiy qismi va ustuvor maqsadlaridan biri mamlakat fuqarolarini sifatli, samarali tarzda ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishdir. Fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash, uning ijtimoiy tarafdan himoyalanganligi va sog‘lomligi bilan bog‘liq. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi turmush darajasini barqarorlash hamda ularni himoya qilishda sug‘urtaning o‘rni

beqiyosdir. Xususan, aholiga sifatli xizmat ko‘rsatilishda sug‘urta tarmog‘iga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 10-iyulda o‘tkazilgan yig‘ilishda tegishli mutasaddilarga sug‘urta sohasini o‘rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, 2022-yilgacha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti hajmini 3 baravar, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini esa 2 baravar oshirish vazifasi qo‘yildi[1]. O‘zbekistonda 2022-yilda sug‘urta sohasi ko‘rsatgichlari jahondagi o‘rtacha ko‘rsatgichlarga nisbatan o‘ta past darajada bo‘lib, umumiy sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi ulushi 0.697 foizni tashkil qilgan[2]. Bu ko‘rsatgich AQShda 11,7 foiz, Buyuk Britaniyada 11,1 foiz, Janubiy Koreyada 10,9 foizni tashkil qilmoqda[3]. Keltirilgan mamlakatlar YaIMda sug‘urtaning ulushi yuqori ekanligi sohaning rivojlanganligini ko‘rsatmoqda. Jahon amaliyotida ko‘plab olimlar tomonidan sug‘urta munosabatlarini takomillashtirishga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan, bugungi kunda milliy sug‘urta bozorida xizmatlar sifatini oshirishga, xususan, uni raqamlashtirishga, shu bilan birga yangi sug‘urta usullarning joriy qilinishi hamda mavjudlarining takomillashuviga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urta xizmatlari sohasida iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish xususidagi yondashuvlar hamda amaliy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha V. K. Rayxer, A. Mane, K. G. Voblыy, S. A. Osenko, O. N. Kozlova, I. S. Yaroshenko, N. B. Boltina, V. V. Shaxov, V. N. Grigoreva, S. L. Efimova, S. V. Ermasov, N. B. Ermasova, S. L. Efimov[4], va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib birilgan.

Mahalliy olimlardan T. Iminov [3], H. Sobirov, X. Shennayev [9], Q. Qo‘ldoshev, M. P. Eshov, A. U. Burxanov, X. N. Xasanov, D. A. Baratova [10], J. T. Nosirov, Sh. Imomov, N. Iminova [4], I. Abduraxmonov, S. Abdimuminova sug‘urta sohasining barqaror o‘sishini e’tiborga olgan holda erishilayotgan samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish mexanizmlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda raqamlashtirish va jahon bozoridagi darajaga mos xizmatlarni yetkazib berish sharoitlarini e’tiborga olgan holda me’yoriy chegaralarni zamonaviy tendensiyalarga asoslanib baholash ycylini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy ishlar olib borishmoqda.

Bugungi kunga kelib sug‘urta sohasi keng miqyosda rivojlanib borishida, sug‘urtaning jamiyatdagi mavqeyi ortishida, uning fan bo‘lib shakllanishida olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, hozirgacha ilmiy adabiyotlarda sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatini ochib berishda olimlarning turli talqinini uchratish mumkin. Masalan, rus olimi N. Nikulina sug‘urtaga quyidagicha tarif bergan: “Sug‘urta – ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog‘liq. Ishlab chiqarishning doimo yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, shu jumladan rivojlangan jamiyatda ham mavjud ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir” [7]. Fikrimizcha, bu yerda keltirilgan tarif sug‘urtaning ijtimoiy mohiyatini yoritib bergan. Buning ustiga biroz murakkab berilgan bo‘lib, sug‘urta mohiyatini tez ilg‘ashni qiyinlashtiradi.

Sug‘urta tushunchasiga yana bir Rossiyalik olim R. T. Yuldashev “Sug‘urta – bu sug‘urta qildiruvchilarning badallari hisobidan shakllagtiriladigan sug‘urta fondi hisobidan ixtisoslashgan tashkilotlar – sug‘urta kompaniyalari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlar tizimidir” [11] deya ta’rif bergan.

Shuningdek olim, sug‘urta – bozor iqtisodiyotining eng muhim elementi sifatida, sug‘urta xizmatlarini ishlab chiqish, sotish amalga oshirish funksiyalarini bajaruvchisi sifatida” e’tirof etadi. Biroq, fikrimizcha, sug‘urta nafaqat yuridik yoki jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya etish uchun, balki jismoniy shaxslarning salomatligiga, hayotiga, kutilmagan baxtsiz hodisalar sodir bo‘lishi natijasida zarar ko‘rganda, ularga sug‘urta mukofotlarini berish orqali himoya etuvchi jamg‘armadir.

1 https://president.uz/uz/2703

2 Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida hisoblandi.

3 https://www.iii.org/table-archive/215756

4 Райхер В. К. Общественно-исторические типы страхования / АН СССР. М., 1947. 55 б./ А. Манес. Основы страхового дела. М., “Анкил”, 1992, 30 б./Воблый К. Г. Основы экономии страхования. М.: Анкил, 1993. – С. 104./Осенко С. А. Административная ответственность всфере страхования / С. А. Осенко // промышл.-торговоеправо. – 2016. – No 4. – С. 26–29./Козлова О. Н., Котова О. Н., Литвинова Э. Ю. Актуальные проблемы страхования жизни их решение с использованием маркетингового подхода // Экономические и гуманитарные науки. 2017. No 5. С. 75–88/Ярошенко И. С. Право социального обеспечения: учеб. Пособие. Киев: КНЭУ, 2005, 232 б./Болтина Н. Б. Право социальной защиты: учеб. Пособие: Знание. 2003, 405 б./Страховое право: Учебник для вузов / Под ред. В. В. Шахова, В. Н. Григорьева, С. Л. Ефимова. М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2002. 30-б./С. В. Ермасов, Н. Б Ермасова Страхование: Учебник. 2-е изд., прераб. И доп. М.: Высшее образование. 2008, 102-б/ Ефимов С. Л. Экономика и страхование. М.: Церих-ПЭЛ, 1996. 20 б, Юлдашев. Введение в продажу страхования. - М.: 2005. 6 bet.

I. X. Aduraxmonov sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatini ochib berish maqsadida quyidagilarni ta’kidlab o‘z fikrlarini bildirgan: “Sug‘urta – turli nohush hodisalar ro‘y berishi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash hamda fuqarololarning hayotida tegishli sug‘urta hodisalari ro‘y berganda ularga moddiy yordam ko‘rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog‘liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir” [1]. Darhaqiqat, sug‘urta maqsadli pul fondlari hisobidan ko‘rilgan zararni qoplab, ushbu jamg‘armani shakllantirishda ishtirok etgan fuqarolarning mulkiy manfaatlari zarar ko‘rgan taqdirdagina, fondga yig‘ilgan jamg‘arma tomonidan qoplab beriladi.

M. Mirsadikov va B. Shamsuddinov o‘zlarining tadqiqotlarida, sug‘urtaning asosiy vazifasini oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan tabiiy hodisalar, texnogen avariyalar va ijtimoiy xalokatlar sodir bo‘lishi oqibatida yetkaziladigan zararlarni qoplashni nazarda tutuvchi jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlari himoyasini samarali tizimini yaratishdan iborat deb hisoblaydilar [6].

Sh. Imomov bunga qarama-qarshi ravishda sug‘urtani o‘zaro bog‘langan kategoriya sifatida moliyaviy jihatdan sug‘urta tizimi va zamonaviy sug‘urta madaniyatini shakllantirish sug‘urta tarmog‘ining asosiy vazifasi deya ta’kidlab o‘tgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy saytida keltirilgan statistik ma’lumotlar, strukturaviy o‘zgarishlar tahlili, xorijiy hamda o‘zbek olimlari tomonidan nashr etilgan maqolalar va o‘quv qo‘llanmalarda keltirilgan ma’lumotlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, Sug‘urta bozorining rivojlanishi, uning mamlakatimizda tutgan o‘rni, sug‘urta jarayonlarini faollashtirish masalasini o‘rganishda iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uzviylikda qaralib, tizimli yondashuv uslubi qo‘llanildi. Ma’lumotlardan xulosa chiqarishda mantiqiy tahlil, sintez, umumlashtirish, SWOT, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Yurtimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bo‘yicha qarorlarni amalga oshirish jarayonida sug‘urta sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kapital va sug‘urta bozori departamenti rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda sug‘urta mukofotlarining umumiy hajmi 6,2 trln. so‘mni tashkil etdi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 59,7% yuqori. Sug‘urta shartnomalari bo‘yicha to‘lovlar hajmi 46,2% ga ortdi va 2,6 trln. so‘mni tashkil etdi, 7 951 868 ta yangi shartnoma tuzilib, ularning 89 foizi jismoniy shaxslar bilan bo‘lgan va bu sug‘urta bozori dinamikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Hayotni sug‘urtalash mukofotlarining o‘sish sur’ati 11,8% ga ortdi. Bunda sug‘urta mahsulotlarini sotish tarkibidagi asosiy vositachilar banklar bo‘lib, ular: kreditlar va jamg‘arib boriladigan hayot sug‘urtasining o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning katta qismi banklar orqali sotilmoqda.

Fikrimizcha, mijozlar kompaniyalar bilan ikki holatda munosabatga kirishadilar: sug‘urta shartnomasini tuzishda hamda sug‘urta hodisasi ro‘y berganda sug‘urta qoplamasini olishda. Biroq mijozlar sug‘urta brendiga ahamiyat qilmay, faqatgina majburiyat sifatida qarab, kimningdir tavsiyasiga asosan tanlov qilmoqdalar. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston sug‘urta bozorini istiqbolli baholash uchun dastlab uning kuchli, kuchsiz, imkoniyat va xavflarini ko‘rib chiqsak (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston sug‘urta bozorining SWOT-tahlili[5]

Kuchli tarafi	Kuchsiz tarafi
Yirik tadbirkorlikning yuqori daromadli sektori; Kredit tashkilotlari bilan birgalikdagi faoliyati; Sug‘urta biznesining birlashtirish va qayta tashkil etish; Sug‘urta tarmog‘iga ega ekanligi; Mijozlar sonini yetarli darajada; Aksariyat kompaniyalar tomonidan barcha zamonaviy texnologiyalarni qo‘llanish yo‘lga qo‘yilganligi; Sug‘urta agentlari soni ortib borayotgani; Sug‘urta faoliyati turlariga bog‘liq holda differensiatsiyalanishi.	Malakali kadrlar yetishmasligi; Zamonaviy biznes mexanizmlardan foydalanilmaslik; Marketing faoliyatini rivojlanmaganligi; Past kapitalizatsiya; Mijozlarga e’tiborning sustligi; Yuqori xarajatlilik; Rentabellik past; Mijozlarning ishonchsizligi. Sug‘urta infratuzilmasini ratsional shaklanmaganligi; Bozor ishtirokchilarining mobil ilova orqali faoliyat yuritmayotganligi.

5 Muallif ishlanmasi

Imkoniyatlar	Xavf
Respublika bo‘yicha istalgan nuqtasiga xizmatlarni yetkazib berishi; Zamonaviy sug‘urta xizmatlarni rivojlanishi; Sug‘urta hodisasi ro‘y berish riski kam; Davlat tomonidan sug‘urta faoliyatiga bo‘lgan e’tibor hamda olib borilayotgan islohotlar; Alohida sug‘urta subyektlarining investitsion jozibadorligining ortishi; sug‘urta faoliyatining boshqa subyektlari huquqlari himoyasini kuchaytirish, aholining sug‘urta savodxonligini va sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshirish, sug‘urta bozorining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash; Mijozlar bilan masofaviy faoliyat olib borish imkoniyati	Tarif rejalarining takrorlanishi; Bozor ishtirokchilarining bank faoliyatiga bog‘liqliigi; Mavjud xizmat ko‘rsatish usullarini eskirganligi; Jahon moliya bozoridagi barqarorsizlik; Sug‘urta vositachilari ustidan nazoratning yetarli emasligi; Qalloblik (firibgarlikning yuqori darajasi); Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda baholash firmalari hamda sug‘urta kompaniyasining o‘zaro “kartel” kelishuvlari

Sug‘urta bozorining rivojlanishi, uning mamlakatimizda tutgan o‘rni, sug‘urta jarayonlarini faollashtirish ko‘p jihatdan sug‘urta xizmatlarining sifatiga, ayniqsa, sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta qoplamasining holati, sug‘urtaning mamlakatdagi mavqeyi, aholining sug‘urta madaniyati va ularning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchi bilan uzviy bog‘liqdir. Bunda avvalo, sug‘urta xizmatlarini takomillashtirish, sug‘urtalanuvchilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlovchi yangi mexanizmlar va raqobatbardosh sug‘urta mahsulotlarini izchil joriy etish orqali sug‘urta biznesini jadal rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Ayniqsa, raqamlashtirish, risklarning yangi turlari va mijozlarning talablari sug‘urta sohasini tubdan o‘zgartirib, iste’molchilar uchun har taraflama qulay, ham arzon, ham sifatli xizmatlarni joriy qilishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan, bugungi kunda sug‘urta munosabatlarining zamonaviy bosqichlari, jahon sug‘urta bozorining integratsiyalashuv jarayoni o‘zbek moliya bozorida ham sug‘urta munosabatlarining transformatsion o‘zgarishlarini talab etmoqda.

Transformatsiya atamasi (lot. Transformatio) – qayta o‘zgarish, qayta hosil bo‘lish) degan ma’noni anglatadi. Barcha sohalar ham zamonga, talabga va taraqqiyotga qarab transformatsiyalanib, o‘z davriga moslashib boradi. Bu esa avvalo bozor tuzilmasi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Sug‘urta bozorining tuzilmasi – bu sug‘urta munosabatlarida ishtirok etuvchi institutlar o‘rtasidagi turli nisbatlar orqali, ya’ni uning subyektlari (sug‘urta kompaniyalari, sug‘urtalovchilar) va obyektlari (sug‘urta turlari va texnologiyasi) o‘rtasidagi oldindan tanlangan mezonlarga muvofiq vujudga keladigan va qayta ishlab chiqilgan nisbatlar o‘rtasidagi jarayonlardir (1-rasm).



1-rasm: Sug‘urta munosabatlari tuzilmasi[6]

Keng ma’noda sug‘urta bozori – pul munosabatlarining bir ko‘rinishi, tor ma’noda iqtisodiy makondir. U yirik segmentlardan iborat bo‘lib, bular sug‘urtalovchilar (sug‘urta kompaniyalari), sug‘urtalanuvchilar (jismoniy va yuridik shaxslar) hamda sug‘urta xizmatlaridan iborat.

Sug‘urta munosabatlari transformatsiyasi quyidagi shartlarga asoslanadi:

- pul-kredit, byudjet, valyuta kabi moliyaning muhim bo‘g‘inlarining rivojlanish darajalari va ko‘lami o‘rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- mamlakat aholisining hayot sifatini yaxshilashga iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy manfaatlarini himoya qilish;

6 Muallif ishlanmasi

- iqtisodiy rivojlanishda investitsion salohiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan pul-kredit munosabatlarini, shu jumladan, sug‘urta kompaniyalari tomonidan yo‘lga qo‘yish.

Bugungi kunda boshqa sohalar singari, sug‘urta munosabatlarida ham mijozlar auditoriyasiga qaratilgan raqamli texnologiyalari bilan o‘zgarib bormoqda. Ilgari sug‘urta munosabatlariga kirishishda kompaniyalar bilan mijozlar o‘rtasida aloqalar kam bo‘lgan, asosan sug‘urtalovchilar o‘z mijozlari bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga deyarli ega emasdilar. Ko‘pincha mijozlar kompaniya bilan sug‘urta hodisisasi ro‘y berganda, yoki sotuv jarayonida munosabatga kirishganlar. Bu boshqa soha bilan taqqoslaganda, mijoz haqida ma’lumot yig‘ish va ularning istaklarini o‘rganish uchun juda kam ma’lumot deganidir.

Bugungi kunda sug‘urta munosabatlarining transformatsiyasi butun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Negaki, sug‘urta tarmog‘ining rivojlanish va faoliyat darajasi, iqtisodiy salohiyati va uning darajasi kompaniyalar kapitali, risklarni boshqarish darajasi bilan belgilanadi.

Shu bois, sug‘urta kompaniyalari hamda uning mijozi o‘rtasidagi munosabatlar ayrim faktorlar sabab doim murakkab bo‘lgan. Biroq iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari sug‘urta bozori ham mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli texnologiyalar orqali takomillashtirilmoqda. Raqamli texnologiyalar sug‘urta bozorida transformatsion jarayonlarni takomillashtirishga yordam beradi. Sug‘urta bozorining rivojlanishi bugungi global olamda axborot xavfsizligini ta’minlaydigan dunyodagi innovatsion texnologiyalar bilan raqobatlashishga imkon beradigan raqamli sug‘urta texnologiyalarini samarali joriy etish bilan bog‘liq. Negaki, sug‘urta bozorining o‘zgarishi zamonaviy moliyaviy infratuzilmani shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy iqtisodiyotda sug‘urtaning nafaqat sug‘urta xizmatlarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar balki, sug‘urta munosabatlarining boshqa professional ishtirokchilari ham alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasiga muvofiq ular:

Sug‘urtalovchilar,

- sug‘urta vositachilari,
- adjasterlar,
- aktuariylar,
- sug‘urta syurveyerlari,
- assistanslaridir[7].

Qonunda nazarda tutilgan sug‘urta munosabatlari professional qatnashchilari qatorida infratuzilmani ham alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. Harqanday faoliyat turida infratuzilma milliy iqtisodiyotning u yoki bu segmentini rivojlanish darajasini belgilovchi ko‘rsatgich sifatida katta ahamiyatga egadir. Bugungi kunda infratuzilma tushunchasi ilm-fan va amaliyotda juda keng qo‘llaniladi. Milliy iqtisodiyotimizda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga bo‘linishini hisobga olib infratuzilmalar ham ushbu tarmoqlar turiga qarab turlicha bo‘ladi. Ishlab chiqarish tarmoqlaridagi sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va boshqalar kabi infratuzilma faoliyatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va rivojlanishiga yaratilgan zarur shart-sharoitlar o‘z navbatida, xizmatlar sohasidagi infratuzilma (sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, sport, moliya va hk) rivojida o‘z hissasini qo‘shadi.

Xorijiy adabiyotlarda sug‘urta bozori infratuzilmasi deganda tor ma’noda, professional ishtirokchilar va boshqa bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi tushunilsa, keng ma’noda, sug‘urta munosabatlarining uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan barcha shart-sharoitlar, ya’ni sifatli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishga qaratilgan, shu bilan birga sug‘urta fondlarini yaratmaydigan, sug‘urta samaradorligini amalga oshiruvchi tashkilotlar yig‘indisidir deyiladi[8].

I. Abduraxmonov va boshqalar[9] “O‘zbekiston sug‘urta bozori infratuzilmasini sug‘urta bozori professional ishtirokchilari, turli soha hamda ixtisoslik mutaxassislari hamda sug‘urtaning unumli faoliyati uchun yordam beradigan faoliyat turlari o‘rtasidagi munosabatlar va hamkorlik tartibini nazarda tutuvchi va asosini sug‘urta vositachilari (sug‘urta agenti, brokerlar), adjaster, aktuariy, sug‘urta syurveyeri va assistans kabi subyektlar” tashkil etishini ta’kidlaydi [2].

Ko‘rinib turibdiki, yurtimiz va xorijlik olimlarning izlanishlarida risklarni baholash bilan bir qatorda bozor infratuzilmasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Biroq olib borilgan tadqiqotlarga shu jumladan, sug‘urta kompaniyalarida aktuar hisob-kitoblar mavjudligiga qaramay, bugungi kunda mamlakatimizda sug‘urta infratuzilmasi bilan bog‘liq risklarni baholash bo‘yicha xech qanday izlanishlar uchratilmaganini, xususan, qonunchilikda ham asosan sug‘urta agenti va brokerining faoliyatiga oid normativ-huquqiy baza shakllanganligi hamda o‘rganilgan xorij tajribasidan kelib chiqib bozor infratuzilmasining boshqa qatnashchilari ham sug‘urta munosabatlarida dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda. Sug‘urta instituti bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida uning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, sug‘urta faoliyatida risklar transferi ham, o‘z navbatida, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir[10] [8].

7 https://lex.uz/docs/5739117
8 https://studme.org/1774050319895/strahovoe_delo/infrastruktura_strahovogo_rynka
9 I. Abduraxmonov, M. Abduraimova, N. Abdullayeva. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. Darslik; -T.: Iqtisod-Moliya, 2020. 103-b.
10 Qo‘ldoshev Q. M. Sug‘urta nazariyasi. Darslik. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi –T.: “YaNGI NAShR”,

Sug‘urta infratuzilmasi, sug‘urta kompaniyalarining hujjatlarni saqlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, xaridorlarga xizmat ko‘rsatish va moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Ular quyidagilar bo‘lishi mumkin (2-rasm):



2-rasm: Sug‘urta infratuzilmasining asosiy vazifalari va ustunliklari[11]

Mijozlarga xizmat ko‘rsatish: Sug‘urta kompaniyalari xaridorlar bilan o‘zaro aloqalarini yaxshilash uchun sug‘urta infratuzilmasidan foydalanadi. Bu tadbir, xaridorlarga onlayn murojaatlarni qabul qilish, shikoyatlarni bartaraf etish va boshqa xizmatlarni takomillashtirishga yordam beradi.

1. **Jarayonlarini avtomatlashtirish:** Sug‘urta kompaniyalari moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirib, ishlab chiqib olish va hisob-kitoblarni yaxshilashga harakat qiladilar. Sug‘urta infratuzilmasi bu jarayonlarning sifat va tezligini oshirishi mumkin bo‘ladi.
2. **Ish faoliyatining samaradorligini oshirishi:** Sug‘urta infratuzilmasi, sug‘urta kompaniyalari va boshqalar uchun ish faoliyatini samaradorlashtirishga yordam beradi. Bu tadbir avtomatik jarayonlar va texnik vositalar orqali ishni tezlashtiradi va xato qilinishining oldini oladi.
3. **Xizmatlar sifatini yaxshilash:** Sug‘urta infratuzilmasi, mahsulotlarning sifatini yaxshilashga yordam beradi. Bu tadbir sug‘urta kompaniyalari uchun avtomatlashtirilgan tizimlar orqali hujjatlarni to‘liq va to‘g‘ri tarzda saqlash imkoniyatini beradi.
4. **Xaridorlarga ko‘proq imkoniyatlarni taqdim etish:** Sug‘urta infratuzilmasi, xaridorlarga qulayliklar va imkoniyatlarni taqdim etishga yordam beradi.

Bugungi kunda yurtimizda sug‘urta bozori infratuzilmasini “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi qonuni[12], O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi[13], “Sug‘urta bozorining professional qatnashchilari to‘g‘risida” nizomi[14] qonuniy-huquqiy asoslari bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi esa davlat tomonidan ularning faoliyatini nazorat qiladi. Milliy sug‘urta infratuzilmasiga keladigan bo‘lsak, bugungi kunda mamlakatda 5 ta aktuariy, 5 ta adjaster, 3 ta asisstans, 7 ta sug‘urta brokeri hamda 9155 ta sug‘urta agentlari faoliyat qilmoqda.

Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunning 12-moddasi uchinchi bandida “Sug‘urta brokeri, qayta sug‘urta brokeri va sug‘urta agenti sug‘urta vositachilaridir[15]” deya qat’iy belgilab qo‘yilgan. Shu nuqtayi nazardan sug‘urta vositachilari ikki guruhga: sug‘urta agenti va sug‘urta (qayta sug‘urta) brokeriga bo‘linadi. Ular shartnomalar tuzishda, malakasi, vazifasi, javobgarligi kabi birqancha omillarga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Bugungi kunda yurtimizda keng tarqalgan sug‘urta vositachilaridan biri sug‘urta agentlaridir.

Yurtimizda sug‘urta agentlari faoliyati “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 18–19-moddasi, “Sug‘urta bozorining professionl qatnashchilari to‘g‘risida”gi nizom va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 28-yanvardagi 19-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urtat agentlari to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi.

2022 175-b.
11 Muallif ishlanmasi
12 https://lex.uz/acts/40253
13 https://lex.uz/docs/180552#195958
14 https://lex.uz/mobileact/1168263
15 https://lex.uz/docs/5739117

“Sug‘urtalovchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs sug‘urta agentidir[16]”. Shu nuqtayi nazardan, sug‘urta agenti sug‘urta kompaniyasining vakolatli vakili hisoblanadi, ushbu faoliyat turi bilan jismoniy shaxslar ham shug‘ullanishi mumkin. Agentlik kelishuviga asosan sug‘urta tushumlaridan tushgan summadan ma’lum miqdorda ulush olgani bois sug‘urta agenti sug‘urta polislarini ko‘proq sotishdan manfaatdor bo‘ladi. Ushbu faoliyatning afzalligi ham shunda bo‘lib, tushumlar hisobiga daromad qilish imkoniyati ham yuqori. Biroq, sug‘urta agenti sug‘urta shartnomalarini tuzishda sug‘urta kompaniyalari oldida katta ma’suliyatli ishni bajaradi. Shuning uchun agentlardan kasbiy malaka bo‘lishini taqazo qiladi. Yurtimizda agentlarni o‘qitish, ularni malakasini oshirish kompaniyalar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilsa, rivojlangan mamlakatlarda, agentlar uchun alohida talablar bo‘lib ular qatoriga kasbiy, insoniy fazilatlari, psixologik bilmi bilan bir qatorda alohida litsenziya olishni talab qiladi. Xususan, AQShda sug‘urta agentlari yuqori haq to‘lanadigan (yiliga o‘rtacha 51,936 ming AQSh $[17]) va obro‘li kasb hisoblanib, ularning professional bilmiga xususan, xushmuomalaligi va yaxshi tashqi ko‘rinishda bo‘lishi, soha bo‘yicha yetarli malakaga ega bo‘lishi kabi talablar qo‘yilgan[18]. Agentni ishga qabul qilishda mahsus o‘qish tashkil qilinib kurs yakunida imtihondan muvaffaqiyatli o‘tganlar ishga qabul qilinadilar. Ma’lumotlarga ko‘ra, ilk marta imtihon topshirganlarning 62,1 foizi[19] imtihondan muvaffaqiyatli o‘tadilar. Ishga qabul qilingan agentlar tinimsiz o‘z ustilarida ishlashni talab qiladi, ish beruvchilar treninglar, davra suhbatlari o‘tkazib agentlarning kasbiy mahoratlarini oshirib boradilar. Agentlarning o‘rtacha yoshi 46 yoshni tashkil qilib, mamlakatda so‘nggi 10 yil ichida ularning soni 6% o‘sgan (2-jadval).

2-jadval: AQShda sug‘urta sektorida bandlik ko‘rsatgichlari, o‘rtacha yillik[20]

Yillar	Sug‘urta agenti va brokerlari	Boshqa sug‘urta xizmatlarini amalga oshiruvchi xizmatchilar	Jami
2019	843	349	2802
2020	856	352	2836
2021	886	354	2825
2022	928	361	2907

Mavjud adabiyotlar hamda sug‘urta kompaniyalari faoliyatlarini atroflicha o‘rganish asosida Respublika sug‘urta bozorida shakllangan agentlar faoliyatidagi quyidagi kamchiliklarni keltirib o‘tamiz:

- mamlakatda katta sug‘urta agentlarini tayyorlaydigan, qayta tayyorlaydigan, malakasini oshiradigan tizim shakllanmadi. Oqibat agentlar xizmati sifati talab darajasida emas. Aksar holda sug‘urtalovchi agent funksiyasini ham o‘zi bajarib agentlik mukofotini agentlarga rasmiylashtirish hollari ko‘plab kuzatilmoqda;
- sug‘urta bozori rivojlana borishi natijasida sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta menejmenti qoidalari va tamoyillari egallab boriladi. Natijada, sug‘urta agenti funksiyasi sekin-asta sug‘urtalanuvchi tomonidan bajarila boshlanadi. Bu esa, sug‘urta agentiga bo‘lgan talabni kamaytiradi. O‘zbekistonda bunday tendensiya kuzatilmayabdi;
- sug‘urta agentlari sug‘urta tariflarini ishlab chiqish va uni tavsiya qilish bobida juda sust ishlaydi. Oqibat, bu tariflar aktuariy hisob-kitoblar natijasida emas, sug‘urtachi va sug‘urtalanuvchining o‘zaro kelishuvi asosida o‘rnatilmoqda. Bu esa, bozorda yovvoyi raqobatning kuchayishiga, oqibat, sug‘urtalovchining moliyaviy holatini yomonlashuviga olib kelmoqda.

Sug‘urta vositachilarining yana bir turi bu sug‘urta (qayta sug‘urta) brokeri bo‘lib, u “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 15–16–17-moddasi, “Sug‘urta bozorining professional qatnashchilari to‘g‘risida”gi nizom va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 11-iyundagi 61-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urtalovchining (sug‘urta brokerining) rahbariga va bosh buxgalteriga qo‘yiladigan malaka talablari to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi.

Qonunchilikka muvofiq, sug‘urta brokeri – sug‘urta qildiruvchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir.

16 https://lex.uz/docs/5739117
17 https://www.agentmethods.com/insurance-agent-trends-and-statistics
18 https://www.insureon.com/small-business-insurance/insurance-agent-broker
19 https://www.agentmethods.com/insurance-agent-trends-and-statistics
20 https://www.iii.org/fact-statistic/facts-statistics-careers-and-employment

Sug‘urta brokeri o‘zi va sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatadi hamda qayta sug‘urta operatsiyalarini bajarishda ham brokerlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Sug‘urta brokerining sug‘urta agentidan asosiy farqli jihati shundaki, sug‘urta agenti sug‘urtalovchidan agentlik kommission haq olsa, sug‘urta brokeri sug‘urtalovchidan haq oladi. Ya’ni sug‘urtalanuvchiga taklif etilayotgan birnechta sug‘urta xizmatlarini o‘ranib, tahlil qilib u uchun maqbul bo‘lganini tanlashga ko‘mak beradi. Ayrim mamlakatlarda, xususan, Chexiya, Estoniya va boshqa mamlakatlarda “sug‘urta makleri”, Italiyada “sug‘urta moderatori”[21] deb ham yuritiladi. Sug‘urtada brokerlik faoliyatiga bo‘lgan talab turli mamlakatlarda turlicha bo‘lib, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya Irlandiya kabi davlatlarda sug‘urta operatsiyalarining ko‘p qismi sug‘urta brokerlari tomonidan amalga oshiriladi. Misol uchun, Buyuk Britaniyada 70 %, AQShda 80% sug‘urta shartnomalari sug‘urta brokerlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekistonda esa, sug‘urta brokerlari instituti juda sust rivojlangan bo‘lib, ular asosan, qayta sug‘urta yo‘nalishida, ya’ni yirik risklarni chet el qayta sug‘urta kompaniyalariga berishda faoliyat yuritadi.

Sug‘urta brokeri sug‘urta agentidan farqli raqishda, o‘z nomidan faoliyat yurituvchi mustaqil yuridik shaxs bo‘lib, u mijozlarga noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etilishini oldini olishda, shu o‘rinda risklarni joylashtirishda javobgar hisoblanadi. Uning mijoz oldidagi asosiy vazifalari quyilagilardan iborat:

- Sug‘urta hodisasini sodir qilish mumkin bo‘lgan risklarni tahlil qilish;
- Sug‘urta qoplamasining zaruriy miqdorini aniqlash;
- Sug‘urtalanuvchi uchun eng optimal kompaniya izlash.

Quyidagi jadvalda sug‘urta agenti va sug‘urta brokerlarining farqli jihatini keltirib o‘tdik (3-jadval).

3-jadval: Sug‘urta vositachilarining solishtirma tahlili

Faoliyati	Sug‘urta agenti	Sug‘urta brokeri
Kimga xizmat qiladi	Sug‘urtalovchiga	Sug‘urtalanuvchiga
Kimning nomidan ish yuritadi	Sug‘urta kompaniyasi	O‘z nomidan
Haq olish tartibi	Sug‘urta kompaniyasidan komission haq ko‘rinishida	Sug‘urtalanuvchidan
Faoliyat shakli	Yuridik/jismoniy shaxs	Jismoniy shaxs
Faoliyat turi	Sug‘urta	Sug‘urta, qayta sug‘urta
Unga qo‘yilgan talablar	Litsenziya shart emas	Litsenziya talab etiladi

Sug‘urta agenti hamda sug‘urta brokerining asosiy farqi ham shundaki, biri sug‘urtalovchi foydasiga, ikkinchisi sug‘urtalanuvchi foydasiga xizmat qiladi.

Yana bir keng tarqalgan faoliyat turi syuveyeri (sug‘urta inspektori)dir. Uning faoliyati “sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 24–25-moddalari hamda “Sug‘urta bozorining professionl qatnashchilari to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi. U o‘z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxs[22] bo‘lib, sug‘urta (qayta sug‘urta) shartnomasi tuzilguniga qadar sug‘urta (qayta sug‘urta) obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish; sug‘urta (qayta sug‘urta) shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash; tekshirilayotgan sug‘urta obyekti bo‘yicha xulosa tuzuvchi maxsus ekspertdir. Bir so‘z bilan aytganda, syuveyer sug‘urtalash uchun qabul qilingan mol-mulkni (bino-inshootlar, transport vositasi va boshqalarni) tekshirish va sug‘urta xavfini baholash to‘g‘risida xulosa berishi uning vazifasidir. Uning sug‘urta xizmatlarida muhimligi shundan iboratki, professional bilimga ega ekanligi hisobiga sug‘urta kompaniyasiga foyda olib kelishi, undan foydalanmaslik esa, sug‘urta kompaniyalari uchun katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Bunga yaqqol misol qilib butun dunyoni larzaga solgan Turkiyada va Siriyadagi yirik Zilzilani misol qilishimiz mumkin. Afsuski, yurtimizda sug‘urta syuveyerlari faoliyatini kompaniya xodimlari tomonidan noprofessional tarzda amalga oshirilib kelinmoqda.

Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgach undagi keltirilgan zararlarni ko‘zdan kechirib baholab beruvchi mutaxassis adjasterlardir. Ko‘plab sug‘urta infratuzilmasiga oid adabiyotlarda adjaster, avariya komissari va dispasherlar tushunchalarida chalkashliklar uchrab turadi. Bu birinchi navbatda,ularning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning yo‘qligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, xorij tajribasini o‘rganilmaganidir.


Sug‘urta kompaniyalari faoliyatida eng muhim va mas’uliyatli faoliyat turi bu aktuariylardir. Aktuariy faoliyati “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 22–23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Aktuariy malaka sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi. Qonunchilikka muvofiq ular: sug‘urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitoblarini amalga oshirishni, ham

21 https://studme.org/1774050319895/strahovoe_delo/infrastruktura_strahovogo_rynka
22 https://lex.uz/docs/5739117

alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug‘urta majmuyi bo‘yicha zarar yetkazilishining takroriyligini va uning oqibatlarining og‘irlik darajasini belgilashni va boshqa sug‘urta bilan bog‘liq hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi xizmatlar bilan shug‘ullanuvchi, aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir. Aktuar tashkilot shartnomaga muvofiq to‘lov asosida faqat aktuar xizmatlarini ko‘rsatishi mumkin. Yurtimizda bugungi kunda “Aktuariy malaka sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosida 5ta aktuariy tashkilotlari faoliyat yuritishiga qaramay, aksariyat sug‘urta kompyanilarida o‘zlarining aktuar bilim talablariga javob bermaydigan xodimlari tomonidan aktuar hisob kitoblar amalga oshirilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Negaki, aktuariylar sug‘urtadan tashqari, sug‘urta majburiyatlarini qoplash uchun muhim bo‘lgan sug‘urta tariflari, sug‘urta zaxiralari, sug‘urta mukofotlari va boshqa ko‘rsatkichlarni hisoblashda etimollar nazariyasi, matematika, statistika kabilarni yaxshi bilishlari lozim.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston sug‘urta bozorida aktuariylar instituti faoliyati talabga javob bermaydi deb aytilsa o‘rinli. Shu sabab, sug‘urta shartnomalari tuzilishida ilmiy jihatdan asoslangan sug‘urta tariflari salmog‘i juda past. Bu esa, sug‘urta kompaniyalarining daromadlari miqdoriga keskin ta’sir qilmoqda. Odatda, akturaiy hisob-kitoblar asosida shakllangan sug‘urta tarifi natijasida jamlanadigan kompaniya daromadlari uning barcha ehtiyojlarini qoplab yana zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi uchun sof foyda yaratishi lozim. Ammo, sug‘urta bozoridagi ko‘plab kompaniyalar bunday imkoniyatga ega emas.

Yurtimizda boshqa infratuzilma ishtirokchilaridan farqli ravishda, assistans xizmatlari nisbatan rivojlangan. Ularning faoliyati “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 26–27-moddalari, “Sug‘urta bozori prfessional qatnashchilari to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi. Qonunga ko‘ra, Assistans – sug‘urta qildiruvchilarga (sug‘urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug‘urtalovchilarga sug‘urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko‘mak beruvchi jismoniy yoki yuridik shaxsdir. U o‘z faoliyatini sug‘urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirib, sug‘urta qildiruvchilarning (sug‘urtalangan shaxslarning) ishtirokisiz faqat sug‘urtalovchilar tomonidan haq to‘lanadi.



3-rasm: Sug‘urta bozori infratuzilmasi[23]

Keltirib o‘tilgan asosiy infratuzilma qatnashchilaridan tashqari, sug‘urta faoliyatini samarali boshqarishga yordam beradigan mutaxassislar, jumladan, moliyaviy maslahat firmalari, baholash xizmatlari, yuridik xizmatlar kabilarni ham kiritish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz risklarni baholashda sug‘urta infratuzilmasini ikki guruhga bo‘ldik, bular (3-rasm):

- Sifat baholash.
- Miqdor baholash.

Bizning fikrimizcha, sifat baholashda sug‘urta hodisasi bor yoki yo‘qligini syuveyer, adjaster, assistans kabi mutaxassislar ko‘zdan kechirib, risk ehtimolini, zarar qiymatini aniqlashda yordam beradi.

Miqdor baholashda asosan aktuarlarning xizmati rol o‘ynaydi, ya’ni yig‘ilgan ma’lumotlar asosida risk hodisasi sodir bo‘lish ehtimoli hamda zarar ko‘rish miqdorini umumlashtirib sug‘urta tariflarini hisoblab chiqadi.

23 Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kungacha sug‘urta munosabatlariga oid ko‘plab olimlarning turlicha tariflari mavjud bo‘lib, olib borilgan tahlil, izlanishlar hamda yuqoridagi olimlarning fikridan kelib chiqqan holda sug‘urta tushunchasiga quyidagicha tarif beriladi “Sug‘urta – bu ma’lum bir xavfdan yetkaziladigan zararni qoplashga hamda bu uchun to‘lovni amalga oshirishga rozi bo‘lgan bir nechta shaxslarning iqtisodiy munosabatlaridir”.

Sug‘urta bozorining rivojlanishi, uning mamlakatimizda tutgan o‘rni, sug‘urta jarayonlarini faollashtirish ko‘p jihatdan sug‘urta xizmatlarining sifatiga, ayniqsa, sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta qoplamasining qoplanish holati, mamlakatdagi mavqeyi, aholining sug‘urta madaniyati va ularning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchi bilan uzviy bog‘liqdir.

Mamlakatimizda sug‘urta kompaniyalarining zaif tomonlari asosan, mijozlarning sug‘urtaga nisbatan ishonchining pastligi va kapitallashuvi, kompaniyalar diqqat-e’tibori mijozga yo‘naltirilmaganligi bilan bog‘liq. Mijoz bilan o‘zaro aloqalar sust bo‘lganligi tufayli sug‘urtalovchilar ko‘pincha o‘z mijozlari bilan munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar.

Rivojlanish bosqichlari tahlili asosida keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- sug‘urta kompaniyalari kapitallashuvining o‘sishi;
- sug‘urta sohasi infratuzilmasini jadal rivojlantirish, shu jumladan brokerlik kompaniyalari, sug‘urta pullari, o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tuzilmalarning paydo bo‘lishi (Sug‘urta bozorida professional ishtirokchilar uyushmasining rolini kuchaytirish);
- kichik va o‘rta biznes rahbarlari va aholining sug‘urta savodxonligini oshirish;
- O‘zbekistonda iqtisodiyot va ijtimoiy tuzilmani tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sug‘urtani (kooperativ va o‘zaro sug‘urta) tashkil etishning yangi shakllarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonov I. X. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. 2017. 31 b.
2. I. Abduraxmonov, M. Abduraimova, N. Abdullayeva. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. Darslik; -T.: Iqtisod-Moliya, 2020. 103-b.
3. Iminov T. K. Sug‘urta bozori islohotlari rivojlanish bosqichida. //Xalq so‘zi, 2021-yil 8 yanvar, №5 (7785);
4. Иминова Н. А. Управление экономическими рисками в сфере связи и информатизации. Дис.канд. экон. наук. – Т.: ТАТУ, 2011. –188 с.
5. Имомов Ш. Страхование как инструмент защиты бизнеса. // журнал “Рынок, деньги и кредит”, №6 июнь, 2002. – 28 б.
6. Мирсадиковва М., Шамсуддинов Б. Актуарные аспекты государственного регулирования страхового рынка// журнал “Рынок, деньги икредит”.-№ 5, май 2003. 34 б.
7. Никулина Н. Страховой маркетинг. Учебной пособие. – М.: “ЮНИТИ – ДАНА ”, 2009 г. – 503 стр.
8. Qo‘ldoshev Q. M. Sug‘urta nazariyasi. Darslik. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi –T.: “YaNGI NAShR”, 2022 175-b.
9. Shennayev X. M. “Mustaqillik yillari O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatining rivojlanish bosqichlari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021-yil
10. Eshov M. P.,.Burxanov A. U, Xasanov X. N., Baratova D. A., Nosirov J. T. “Sug‘urta ishi asoslari”
11. Yuldashev R. T. Straxovoy biznes. – M.: 2000.

FUNCTIONS OF MANAGEMENT IN EDUCATION AND ITS SIGNIFICANCE



Akhatova Shakhnoza Akram kizi
Teacher, Oriental university

Abstract: Management in every discipline is of paramount importance, including education. It allows the field to blossom and succeed in the long run. Therefore, this article highlights the definition of educational management, its history and functions, as well as importance.

Key words: American, French and Japanese management schools, efficiency, quality, assessment, success.

Annotatsiya: Menejment har bir sohada, jumladan, ta'lim sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Menejment ta'limning gullab-yashnashi va uzoq muddatli davrda ham muvaffaqiyat qozonishiga imkon beradi. Shuning uchun ushbu maqolada ta'limni boshqarishning ta'rifi, uning tarixi va funksiyalari, shuningdek, ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Amerika, Fransiya va Yaponiya menejment maktablari, samaradorlik, sifat, baholash, muvaffaqiyat.

Аннотация: Менеджмент в каждой дисциплине имеет первостепенное значение, в том числе и в образовании. Это позволяет отрасли процветать и преуспевать в долгосрочной перспективе. Поэтому в данной статье освещено определение образовательного менеджмента, его история и функции, а также значение.

Ключевые слова: американская, французская и японская школы менеджмента, эффективность, качество, оценка, успех.

INTRODUCTION

In the last decade of the 20th century, the role of personal and professional qualities of a person, general and special scientific knowledge increased in social and economic life. This situation demanded the development of human activity in the field of education in different directions. The paradigm of education is changing, new educational content, technologies of education and upbringing are being developed. The expansion of the information space required the development of new management tools, methods, and forms. We can observe that the role of the human factor and social sciences in managing social systems, including the education system, is increasing.

LITERATURE REVIEW

Management is influencing the system to ensure its quality and regulate it in order to form and develop it. F. Taylor, G. Ford, G. Emerson, A. Fayol, E. Maylor, world-famous practitioners and theoreticians of scientific management made a great contribution to the emergence and development of the theory of scientific management. For example, in his time, Henri Fayol emphasized that management is seeing the situation, studying the future, and creating an action program. As a result of the analysis of the views of representatives of management theory, we can give the following definition of management. By control we understand the planned, goal-oriented interaction between the controller and the controlled system.

Experts prefer to use the concept of management if they believe that there is no difference between the concepts of "management" and "planning". Management is used in the sense of a type of activity, a management apparatus, the art of management, and an educational subject. Management as a subject was taught in American colleges in 1881 by Joseph Wharton. Today, scientists emphasize that management represents the theory and practice of management of educational organizations. There are American, French and Japanese management schools recognized in the world.

In American management - initiative, high professional training, organization, diligence; in Japanese management - care for each employee, social security of production, desire for formation, inner beauty; in French management, the use of elements of human culture, high-level communication culture, national, historical, and cultural traditions for the formation of the management system is in the main place.

Educational management is a scientific and practical field that includes strategies, principles and methods developed in the organization, management and improvement of the educational process. It is a type of management that involves communication between students, teachers, parents, leaders, etc. in educational systems, resource management, quality control, goal-oriented learning, and student achievement. includes providing.

The history of educational management dates back to ancient civilizations, but the formal development of educational management as a field of study and practice began in the late 19th and early 20th centuries. Here is an overview of the history of educational management:

Ancient Civilizations: In ancient civilizations such as Egypt, Greece, and India, educational management was primarily focused on organizing and administering educational institutions. These early systems emphasized the transmission of knowledge and skills from teachers to students, with a hierarchical structure and centralized control.

Industrial Revolution and Rise of Modern Education: The Industrial Revolution in the 18th and 19th centuries led to significant social and economic changes, including the need for a more organized and efficient education system to meet the demands of an industrialized society. This marked the emergence of modern educational management principles and practices.

Scientific Management Approach: In the early 20th century, the principles of scientific management, developed by Frederick Taylor, began to influence educational management. The focus shifted to applying scientific methods to improve efficiency, productivity, and standardization in educational institutions. This approach emphasized systematic planning, division of labor, and the use of data to inform decision making.

Administrative Theory: During the early 20th century, scholars such as Henri Fayol and Luther Gulick developed administrative theories that influenced educational management. These theories emphasized the functions of management, including planning, organizing, coordinating, commanding, and controlling. Administrative theory provided a framework for organizing and managing educational institutions.

Human Relations Approach: In the mid–20th century, the human relations approach emerged, shifting the focus from a purely bureaucratic and task-oriented approach to a more people-centered approach. This approach recognized the importance of relationships, communication, and motivation in educational management. It emphasized the role of leaders in creating a positive and supportive work environment.

Systems Theory and Complexity Science: In the latter half of the 20th century, systems theory and complexity science began to influence educational management. These perspectives emphasized the interconnectedness of various components of educational systems, the importance of feedback loops, and the recognition that educational institutions are complex adaptive systems.

Educational Leadership and Transformational Leadership: In recent decades, the field of educational management has increasingly focused on leadership and the importance of visionary and transformative leaders in educational institutions. This approach emphasizes the role of leaders in setting a shared vision, empowering stakeholders, and driving positive change.

METHODS AND METHODOLOGY

Today, educational management continues to evolve as new challenges and opportunities arise in the field of education. It incorporates elements of strategic planning, organizational development, instructional leadership, data-driven decision making, and stakeholder engagement to ensure the effective functioning and improvement of educational institutions.

Educational management consists of the following main components

Strategic Management: This includes setting overall goals and directions for the education system, strategic planning and management. This component includes defining the educational institution's tasks, visions, goals, and relationships, organizing strategic planning processes, and providing goal-oriented education.

Resource management: This component involves the organization of resources and their efficient use. These resources include people, information, materials, financial resources, technology and other resources. Resource management in educational management is carried out through personnel, financial management, technological tools, infrastructure and other tools.

Organization of learning process: This component includes organization of learning processes, curriculum, curriculum, student and teacher attendance and assessment. Providing students with educational

technologies, educational tools, educational programs and other educational methods in the organization of the educational process, communication and cooperation between students and teachers includes

Discussion and evaluation: In this component, methods of evaluation and discussion of students and teachers, processes of evaluation and evaluation of learning results, increase of interaction between students and teachers, determination of students' mastery levels and learning Data sets, reports, and indicators are used on student grades and abilities.

Control of the quality of education: This component includes control of the quality of the educational process, improvement and development of the quality of education. In this component, methods of quality control of education, research, recognition and monitoring processes used to improve quality and ensure effective education, cooperation between teachers and leaders, setting quality standards and quality control of education.

Leadership and management of the organization: This component includes the management system of the educational institution, management organization, management structure and tasks. This component includes management of strategic management, workforce development, motivation and support, team improvement, financial organization and resource management, educational institution acceptance and management of organizational processes.

Educational management is important in improving the efficiency of educational systems, ensuring that students achieve high results, developing the educational process, and implementing the goals and objectives of the educational institution. For the effective implementation of this management, strategic planning, resource management, organization of the educational process, discussion and evaluation, control of the quality of education, leadership and management components of the organization, as well as scientific research and practical experience based on them are important.

Educational management is of utmost importance in ensuring the smooth and effective functioning of educational institutions. Here are some key reasons why educational management is important:

1. **Organizational Efficiency:** Effective educational management ensures that educational institutions are well-organized and operate efficiently. It involves streamlining processes, establishing clear roles and responsibilities, and optimizing the use of resources. This efficiency leads to improved productivity, cost-effectiveness, and overall effectiveness of the institution.
2. **Goal Achievement:** Educational management helps in setting and achieving the goals and objectives of educational institutions. It involves strategic planning, goal setting, and monitoring progress towards those goals. Effective management ensures that resources are allocated appropriately, activities are aligned with goals, and necessary adjustments are made to ensure goal attainment.
3. **Quality Education:** Educational management plays a crucial role in ensuring the delivery of quality education. It involves curriculum development, instructional planning, and the implementation of effective teaching and learning strategies. Management practices such as monitoring student progress, providing support services, and promoting professional development for teachers contribute to the enhancement of educational quality.
4. **Resource Allocation:** Educational management involves the efficient allocation and utilization of resources, including financial resources, human resources, infrastructure, and technology. Proper resource management ensures that resources are distributed equitably, utilized effectively, and aligned with the educational institution's goals. This helps in maximizing the impact of resources and ensuring their optimal use in support of teaching and learning.
5. **Student Success:** Effective educational management focuses on promoting student success and well-being. It involves creating a supportive and conducive learning environment, providing individualized support to students, and monitoring their progress. By addressing the unique needs and challenges of students, educational management contributes to their academic achievement, personal development, and overall success.
6. **Stakeholder Engagement:** Educational management involves engaging stakeholders such as parents, community members, and policymakers. By fostering strong partnerships and collaboration, management practices ensure that the educational institution aligns with the expectations and needs of stakeholders. Engaging stakeholders promotes transparency, accountability, and shared responsibility for the quality of education.
7. **Continuous Improvement:** Educational management is essential for fostering a culture of continuous improvement within educational institutions. It involves monitoring and evaluating performance, collecting feedback, and using data to inform decision-making and improvement efforts. By continuously assessing and refining practices, educational management helps in enhancing the quality and relevance of education.

Overall, educational management is vital for the effective functioning, quality assurance, and continuous improvement of educational institutions. It enables the efficient utilization of resources, the achievement of

educational goals, and the success of students, ultimately contributing to the development of a well-rounded and educated society.

ANALYSIS AND RESULTS

As management is of paramount importance in education, we analyze how educational management contributes to students' success and give the results as examples:

1. **Effective Instructional Planning:** Educational management involves developing instructional plans that align with curriculum standards and student needs. By carefully planning and sequencing lessons, educational managers ensure that students receive a well-rounded and comprehensive education. This helps in maximizing student engagement, understanding, and achievement.
2. **Quality Teacher Professional Development:** Educational management emphasizes providing opportunities for teacher professional development. By organizing workshops, training sessions, conferences, and mentoring programs, educational managers support teachers in enhancing their instructional practices, subject knowledge, and pedagogical skills. Well-trained and motivated teachers positively impact student learning outcomes.
3. **Individualized Support:** Educational management recognizes the diverse needs of students and ensures the provision of individualized support. This can include interventions for struggling students, enrichment programs for high-achieving students, and personalized learning plans for students with special needs. By addressing each student's unique requirements, educational management promotes their academic success and overall well-being.
4. **Student Assessment and Feedback:** Educational management includes implementing effective assessment strategies to monitor student progress and provide timely feedback. Regular formative assessments, summative evaluations, and constructive feedback allow teachers to identify areas of improvement and tailor instruction accordingly. This helps students understand their strengths and weaknesses and make necessary adjustments to improve their learning outcomes.
5. **Support Services and Resources:** Educational management ensures the availability of support services and resources that promote student success. This can include access to counseling services, academic tutoring, library facilities, technology resources, and extracurricular activities. Such services and resources contribute to a holistic educational experience and help students develop their skills, interests, and talents.
6. **Positive School Climate and Culture:** Educational management focuses on creating a positive and inclusive school climate that fosters student success. By promoting a safe and supportive learning environment, educational managers encourage positive relationships, respect, and collaboration among students, teachers, and staff. A positive school climate enhances student motivation, engagement, and overall well-being.
7. **Data-Informed Decision Making:** Educational management relies on data collection and analysis to inform decision-making processes. By analyzing student performance data, attendance records, and other relevant metrics, educational managers can identify trends, areas for improvement, and effective instructional strategies. Data-informed decision making allows for targeted interventions and adjustments to support student success.

RECOMMENDATIONS AND CONCLUSION

These examples demonstrate how educational management practices directly contribute to student success by ensuring effective instruction, personalized support, a positive learning environment, and the use of data to inform decision making. By implementing these strategies, educational managers can enhance student achievement, engagement, and overall well-rounded development.

In conclusion, by implementing effective management practices, educational institutions can create a conducive environment for teaching and learning, provide targeted support to students, and continuously improve instructional practices based on data and evidence. These efforts contribute to improved student outcomes, including academic achievement, social-emotional development, and overall success in education.

List of used literature:

1. Bush, T., & Glover, D. (2014). School Leadership and Management in England: A Critical Introduction. Sage.
2. Leithwood, K., Seashore Louis, K., Anderson, S., & Wahlstrom, K. (2004). How Leadership Influences Student Learning: A Review of Research for the Learning from Leadership Project. The Wallace Foundation.
3. Fullan, M. (2014). Leading in a Culture of Change. Jossey-Bass.
4. Harris, A., & Jones, M. (2017). Leading Futures: Global Perspectives on Educational Leadership. SAGE Publications.

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHNI YANGICHA USULLARINI O‘RGANISHNING AYRIM DOLZARB MASALALARI



Ametov Quvondik Mamatjanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyalashtirishning yangi usullarini o‘rganish bilan bog‘liq turli masalalar o‘rganiladi. Shuningdek, doimiy rivojlanib borayotgan iqtisodiy muhitni hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlar ko‘rib chiqiladi. Innovatsion moliyalashtirish yondashuvlarini, ularning qishloq xo‘jaligi barqarorligiga ta’sirini va qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun moliyaviy landshaftni qayta shakllantirishda texnologiyaning rolini o‘rganish ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi tadbirkorlari va moliya institutlari uchun tavsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan mulohazalar kelirilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi korxonalari, moliyalashtirish usullari, qishloq xo‘jaligi barqarorligi, innovatsion moliya, iqtisodiy landshaft, texnologiya, moliyaviy institutlar, xavfni baholash, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish.

Abstract: This article was analyzed various issues related to exploring new ways of financing agricultural enterprises. Also, problems and opportunities related to financing of agriculture are considered, taking into account the constantly developing economic environment. Also, problems and opportunities related to financing of agriculture are considered, taking into account the constantly developing economic environment. Research into innovative financing approaches, their impact on agricultural sustainability, and the role of technology in reshaping the financial landscape for agricultural enterprises is a priority. In addition, recommendations are made for agricultural entrepreneurs and financial institutions.

Key words: agricultural enterprises, financing methods, agricultural sustainability, innovative finance, economic landscape, technology, financial institutions, risk assessment, food security, agricultural development.

Аннотация: В данной статье были проанализированы различные вопросы, связанные с изучением новых способов финансирования сельскохозяйственных предприятий. Также рассмотрены проблемы и возможности, связанные с финансированием сельского хозяйства с учетом постоянно развивающейся экономической среды. Также рассмотрены проблемы и возможности, связанные с финансированием сельского хозяйства с учетом постоянно развивающейся экономической среды. Исследования инновационных подходов к финансированию, их влияния на устойчивость сельского хозяйства и роли технологий в изменении финансового ландшафта сельскохозяйственных предприятий являются приоритетом. Кроме того, даны рекомендации для сельскохозяйственных предпринимателей и финансовых учреждений.

Ключевые слова: сельскохозяйственные предприятия, методы финансирования, устойчивость сельского хозяйства, инновационное финансирование, экономический ландшафт, технологии, финансовые институты, оценка рисков, продовольственная безопасность, развитие сельского хозяйства.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi dunyo mamlakatlari iqtisodiy tizimida asosiy o‘rinda turib, turli sanoat tarmoqlarini oziq-ovqat, mehnat faoliyati, ishchi resurslardan foyalanish bilan ta’minlaydi. Dehqonchilik, chorvachilik, agrobiznes kabi turli faoliyat turlarini o‘z ichiga olgan qishloq xo‘jaligi korxonalari oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Biroq, bugungi kunda qishloq xo‘jaligi sektori ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu qiyinchiliklarning eng asosiy qismini moliyalashtirish masalalari tashkil qilib, aynan shu masalalar uning muvaffaqiyatining hal qiluvchi omili sifatida ko‘zga tashlanmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sektori bir qancha moliyaviy muammolarga duch kelgan, jumladan, kredit olish imkoniyati cheklanganligi, zamonaviy texnologiyalarga yetarlicha sarmoya kiritilmaganligi va qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq risklarni boshqarishdagi qiyinchiliklar. Biroq hukumat moliya institutlari bilan hamkorlikda moliyalashtirishga innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali ushbu muammolarni faol hal qilmoqda.

Respublikamizda kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun puxta ishlab chiqilgan va kompleks mikromoliyalash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tizim davlat tomonidan katta moliyaviy yordam bilan ta’minlangan. Ilmiy nuqtayi nazardan, ushbu tashabbus iqtisodiyot va davlat siyosati sohasidagi e’tiborga molik misol bo‘lib, tadbirkorlik va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda davlat aralashuvining muhim rolini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, respublikamizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini mikromoliyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish bilan dolzarb muammolar mavjud. Xususan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini banklar va nobank kredit tashkilotlari tomonidan kreditlashning uslubiy asoslari hozirga qadar yaratilmagan. Xususan, banklar tomonidan mikromoliyalashning uslubiy asoslari qaysi prinsiplarga tayanishi, ularning nobank kredit tashkilotlari tomonidan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini mikromoliyalash prinsiplaridan farq qiluvchi jihatlari amaldagi qonunchilik hujjatlarida o‘z ifodasini topmagan. Bundan tashqari, mikromoliyaviy xizmatlar bahosining bir qismini bonifikatsiyalash amaliyoti respublikamizda mavjud emas. Respublikamizda qishloq xo‘jaligi korxonalari va fermer xo‘jaliklarining moliyaviy holatining barqaror emasligi va to‘lovga qobillik darajasining past ekanligi ularni banklarniing moliyaviy xizmatlaridan va mikromoliyaviy xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va tarmoqqa yetkazib beriladigan moddiytexnika resurslari hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar narxlari o‘sishi o‘rtasidagi disparitetning kuchayib borganligi, davlat xarid narxlarining pastligi oqibatida agrar sektorda ishlab chiqarish rentabelligi va tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan sezilarli darajada ortda qolmoqda.

Qishloq xo‘jaligining bir qator o‘ziga xos xususiyatlari (tabiiy iqlim sharoitlari, ishlab chiqarish siklining muddati) sababli qishloq xo‘jaligi kredit bozori uzluksiz faoliyat olib beraolmaydi. Bu esa o‘z navbatida, davlat oldida ushbu sohani nazorat qilib turish muammosini keltirib chiqaradi. So‘zsiz, qishloq xo‘jaligi davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri dotatsiyalar, imtiyozli kreditlar shaklida faol moliyaviy qo‘llab-quvvatlashini talab qiladi. Ammo shuni ham e’tiborga olish joizki, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan kreditlanishi ko‘pincha kutilgan natijalarni bermasdan turibdi, bu kabi kreditlarning qaytarilish darajasi esa pastligicha qolmoqda, moliyaviy muassasalar esa ushbu jarayonlarda moliyaviy mablag‘lar kuzatuvchisi sifatida qolishmoqda edi.

Yuqoridagi masalalarni hal qilish maqsadida Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning “Agrar sektorni zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1] qarori qabul qilindi.

Qaror qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda zarur agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, agrar sektorda qishloq xo‘jaligi texnikasiga bo‘lgan talabni qondirish, qishloq xo‘jaligi korxonalarini ma’nan va jismonan eskirgan texnikalar o‘rniga zamonaviy va resurstejamkor texnikalar bilan ta’minlashni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qarorga ko‘ra 2023-yil 1-apreldan boshlab:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-noyabrdagi “Chirchiq shahrida qishloq xo‘jaligi mashinasozlik klasterini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–7-son qarorida[2] nazarda tutilgan subsidiyalar barcha mahalliy qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqaruvchi korxonalarga tatbiq etiladi;
- qishloq xo‘jaligi korxonalari va tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxat bo‘yicha xorijdan olib kelinadigan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi texnikalari va agregatlari hamda ularning butlovchi buyumlari va ehtiyot qismlari, istisno tariqasida, 2025-yil 1-yanvarga qadar bojxona to‘lovlaridan (qo‘shilgan qiymat solig‘i va bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari) va utilizatsiya yig‘imidan ozod qilinadi hamda tadbirkorlik subyektlariga erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini 270 kungacha bo‘lgan muddatga kechiktirib to‘lashga ruxsat beriladi;
- xalqaro moliya institutlari tomonidan lizing kompaniyalariga ajratilgan mablag‘lar doirasida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga qishloq xo‘jaligi texnikasi va agregatlarini lizingga berishga ruxsat etiladi;
- 2023–2024-yillarda qishloq xo‘jaligi texnikasi xaridini moliyalashtirish uchun jami 2,6 trillion so‘m yo‘naltiriladi.

Bu mablag‘ quyidagicha yo‘naltiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyuldagi PQ–335-son qaroriga3 asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilish uchun tijorat banklariga joylashtirilgan 100 million AQSh dollaridan 2022-yilda o‘zlashtirilmasdan qolgan 670 milliard so‘m (59 mil-

1 Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.03.2023-y., 07/23/103/0180-son; 12.06.2023-y., 06/23/90/0352-son.
2 Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.11.2021-y., 07/21/7/1058-son; 29.07.2022-y., 07/22/335/0685-son
3 Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.03.2023-y., 07/23/103/0180-son; 12.06.2023-y., 06/23/90/0352-son.

lion AQSh dollari) miqdoridagi mablag‘ texnika xaridi uchun 10 foiz stavkada 10 yilga kredit ajratish uchun;

- 800 milliard so‘m (70 million AQSh dollari) – xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilish uchun lizing tashkilotlariga joylashtirish hisobiga;
- 1,1 trillion so‘m (100 million AQSh dollari) – xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilish uchun tijorat banklariga joylashtirish hisobiga.

Bunda:

- xizmat ko‘rsatadigan tijorat banklari tomonidan lizing tashkilotlariga kredit ajratilishida garov ta’minoti sifatida lizingga beriladigan texnikalar va sug‘urta polisi qabul qilinishi mumkin;
- xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan xaridorlarga qishloq xo‘jaligi texnikalari lizing marjasi yillik 3 foizdan oshmagan stavkada 10 yilgacha bo‘lgan muddatga Qishloq xo‘jaligi vazirligi buyurtmasi asosida lizingga beriladi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyalashtirish hukumatning sohani modernizatsiya qilish va barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotini ilgari surish bo‘yicha so‘nggi yillarda muhim o‘zgarishlarga duch keldi. Ushbu muhim sanoatning o‘sishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun bir qancha yangi moliyalashtirish usullari paydo bo‘ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotining rivojidagi rolini oshirishda tarmoq ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maksadga muvofik qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv va ekinlar tarkibini bozor talablari asosida tugri joylashtirish ko‘p jihatdan ishlab chikarish kuchlarining rivojlanish holati hamda ijtimoiy mexnat taksimstining qay darajada amalga oshirilishi bilan ham belgilanadi. Uning asosiy natijasi ishlab chikarishning iktisodiy samaradorlik kursatkichlari orkali namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, soxani innovatsion rivojlantirish yuliga o‘tkazishni istikbolli yunalish sifatida tan olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Moliyaviy tahlil. M. Y. Raximov, N. N. Kalandarova. Toshkent Moliya Instituti 2019-y.
2. Moliya asoslari: Moliya va investitsiyalar. N. G‘. Karimov, A. S. Axmedov. Innavatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi –2021y.
3. www.gov.uz
4. www.lex.uz



YOG‘-MOY SANOATI KORXONALARI KAPITALI RENTABELLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Amirzoda Hamrayev
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yog‘-moy sanoatida band bo‘lgan korxonalarning xususiy kapitali rentabelligini oshirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Yog‘-moy sanoati korxonalari butun dunyoda oziq-ovqat zanjirining katta qismini tashkil etadi va buning natijasida bu kabi korxonalar investitsiyalar uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Maqolada investorlar e’tiborini jalb qilish uchun korxona qarz hamda xususiy kapitalni qanday usullarda shakllantirish kerakligi hamda rentabellikni qaysi omillar evaziga oshirish mumkinligi o‘rganilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kapital resusrslari, korporativ soliq, qiymat, firma, WACC.

Abstract: This article examines the possibilities of increasing the profitability of private capital of enterprises engaged in the oil and industry. Oil and fat companies make up a large part of the food chain around the world, and as a result, businesses like these provide excellent investment opportunities. In order to attract the attention of investors, the article examines how to form debt and private capital and what factors can increase profitability.

Key words: capital resources, corporate tax, value, firm, WACC.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности повышения рентабельности частного капитала предприятий масложировой отрасли. Маложирный компании составляют значительную часть пищевой цепочки по всему миру, и в результате подобные предприятия предоставляют отличные инвестиционные возможности. С целью привлечения внимания инвесторов в статье рассматривается, как формировать долговой и частный капитал и какие факторы могут повысить доходность.

Ключевые слова: капитальные ресурсы, корпоративный налог, стоимость, фирма, WACC.

KIRISH

Global iqtisodiy o‘zgarishlar hamda raqobat muhitining toboro kengayib borishi mamlakatlar iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda moliya bozorining yuqori jabhalarda kengayib borishi oqibatida ta’min etilmoqda. Butun dunyo iqtisodiyotida vujudga kelayotgan noaniq vaziyatlar kapitalni optimallashtirish bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. 2021-yil ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi ishlab chiqarish sektorida band bo‘lgan korxonalar kapitalining o‘rtacha tortilgan qiymati 6.6% da saqlanib qolgan hamda 2022-yil uchun 6.8% gacha oshirish imkoniyatlari qidirilayotgan edi1. Ayniqsa, bugungi moliyaviy munosabatlar korxonalar qiymatini oshirishda muqobil o‘rtacha tortilgan kapital bahosini ishlab chiqishni dolzarb qilmoqda. Kapital o‘rtacha tortilgan qiymati 2020-yil oxiriga ko‘ra Yevropadagi eng katta korxonalarda 4.56% ni, Yaponiyada 4.25% ni, AQSHda 4,34% ni hamda Xitoyda 4.69% ni ifodalab berdi2. Aynan mana shu singari holatlar dunyo mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlarining fundamental qiymatlarini va investitsion jozibadorliklarini oshirib, korxonalar kapitallarini samarali shakllantirish usullaridan foydalanish zaruriyatlarini oshirib yubordi.

Taraqqiy etayotgan mamlakatlar korxonalarida kapital resusrslarini jalb etish, ularning moliyaviy samaradorliklari hamda barqarorliklarini ta’min etishda kapital tuzilmalarini shakllantirish usul hamda uslubiyotini mamlakatimizda joriy etilishi korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi kapital tarkibi omillarini aniqlashda qo‘l kelmoqda. Xususan, xususiy hamda qarz kapitali hisobi orqali kapitalning o‘rtacha tortilgan qiymatini aniqlash (WACC), moliyaviy leverijning hamda moliyaviy samaradorlik koeffitsiyentlarining optimal qiymatlarini hisobga olib korxonalarning qiymatini oshirish hamda uning xususiy kapitali rentabelligiga ta’sir etuvchi omillarning kompleks tahlilini amalga oshirish tadqiqot olib borish uchun zamin yaratmoqda.

1 https://www.kroll.com/en/insights/publications/cost-of-capital
2 http://pages.stern.nyu.edu/~adamodar/

ADABIYOTLAR SHARHI

Kapital tuzilishiga oid har qanday qarorlar tashkilot uchun eng asosiy masalalardan biri sanaladi, chunki u bevosita raqobat muhiti bilan bog‘liqdir. Kapital strukturasi kapital tarkibida qimmatli qog‘ozlarning aksiya yoki obligatsiyalarning qay ko‘rinishda aks ettirilganligini ifodalaydi. Ammo o‘z navbatida kapital tuzilmasi shunday kapital ko‘rinishini o‘zida aks ettiradiki, unda korxona o‘zining eng yuqori bozor pozitsiyasiga erishishi uchun turli xil nisbatlardagi o‘z va jalb qilingan resurslariga tayanishiga majbur bo‘ladi. Moliyaviy adabiyotlarda bir qancha kapital tuzilmasi haqidagi nazariyalar mavjud bo‘lib, ular turli xil ko‘rinishlardagi kapital tuzilmasini ifodalab keladi.

Kapital strukturasi birinchi bo‘lib Modigliani va Miller tomonidan faraz qilingan va unga muvofiq, agarda mamlakatda soliqlar mavjud bo‘lmasa, bozor yanada samarali ishlaydi degan g‘oya yotadi [1]. Modigliani va Miller o‘zining keyingi tadqiqotlarida mavjud modelga korporativ soliqlarni kirgizish masalasini ko‘rib chiqishdi, va kapital strukturasidagi o‘zgarish albatta firmaning qiymatini oshirishiga sabab bo‘lishini aniqlab, kapital strukturasi relevantligini aniqlashdi. Modigliani va Miller fikriga ko‘ra, firmaning qiymati firma tomonidan jalb qilingan qarz majburiyatlari qiymatiga bevosita bog‘liq. Ularning fikricha, soliq qalqonidan ko‘riladigan daromad jalb qilingan qarz majburiyatlari bilan bevosita bog‘liq [2]. Modigliani va Miller nazariyasi Mayers va Majluf nazariyalari bilan kengaytirildi. Ularning fikriga ko‘ra, firmalar o‘zlarining boshlang‘ich biznes fazasida ko‘proq ichki moliyaviy manbalariga tayanishlari ko‘rsatilgan.

1-jadval: Kapital strukturasiga oid nazariyalar [3]

Kapital strukturasiga oid nazariyalar	Nazariyalarga tushunchalar
Irrelevantlik nazariyasi (Modigliani va Miller)	Kapital strukturasi korxona qiymatiga ta’sir etmaydi
Relevantlik nazariyasi (Modigliani va Miller)	Korxona 100%lik qarz kapitali evaziga kapitalni shakllantirsa, optimal strukturaga ega bo‘lishlari mumkin.
Sof operatsion daromad nazariyasi (D. Durand)	Korxona qiymati kapital strukturasiga bog‘liq emas. Arzon qarz kapitali ulushining oshib borishi xususiy kapital qiymatini oshirib yuboradi va WACC o‘zgarishsiz qolib, korxona qiymati ham o‘zgarmasdan qoladi.
An’anaviy nazariya	Nazariyaga ko‘ra korxonalar kapital bahosini kamaytirishlari mumkin hamda umumiy kapital strukturasida qarz kapitali ulushini faqatgina aniq chegaralargacha oshirib korxona qiymatini oshirishlari mumkin.
Statsionar bog‘liqlik nazariyasi	Soliq qalqonining joriy qiymati to‘laligicha kutilayotgan bankrotlik xarajatlari joriy qiymatini qoplaganida optimal strukturaga erishishi statsionar nazariyaning asosi bo‘lib xizmati
Iyerarxiya nazariyasi (Donaldson)	Ushbu nazariyaga ko‘ra, korxonalar dastlab ichki moliyalashtirish manbalariga etibor qaratib, zarur bolsa tashqaridan qarz yoki aksiyalardan mablag oladi. Ichki mablaglar obligatsiyalar ishlab chiqarishdan yoki aksiya ishlab chiqishdan arzon.
Signal nazariyasi (Spens, Shtiglets)	Aksiya ishlab chiqish investorlarga negativ signal berib aksiya narxini kamaytiradi. Kam rentabelli korxonalar ichki mablag‘lar yetmaganda obligatsiyalar evaziga qarz olishni afzal koradilar

Iyerarxiya nazariyasi birinchi bo‘lib Donaldson tomonidan taklif etilgan, va unga ko‘ra, korxona mulkdorlari va menejerlari firma o‘lchamidan qat’iy nazar tashqi moliyalashtirish manbalaridan emas, balki taqsimlanmagan foyda orqali investitsiyalarni moliyalashtirsa, maqsadga muvofiqligi keltirib o‘tiladi [4]. Agarda taqsimlanmagan foyda investitsion zaruriyatdan oshib ketadigan bo‘lsa, qarz majburiyatlaridan osonlikcha qutulish mumkin. Shunga mos ravishda, tashqi moliyalashtirish manbalariga zaruriyat sezilsa, bu firmalar tomonidan qabul qilinadigan eng oxirgi chora bo‘ladi.

Axborotlar notekisligi muammosi iyerarxiya nazariyasini tushuntirishda muhim omil sanaladi [5]. Aslida Mayers va Mayluf ham iyerarxiya nazariyasini shakllantirishda axborotlar notekisliligi muammosini ko‘tarib chiqishgan edi. Ularning e’tiroficha, axborotlar notekisliligi firma kapital strukturasini keltirib chiqaradi. Mayers va Mayluf tadqiqotiga ko‘ra, korxona menejerlari korxona to‘g‘risida investorlarga qaraganda ko‘proq ma’lumotlarga egaligi bois oddiy aksiyalar narxi bozorda past baholanish xarakteriga ega bo‘ladi [6]. Firmalarning kapital tuzilishi tashqi investorlar uchun informatsion signal vazifasini o‘tashi signal nazariyasining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Nazariyaga ko‘ra firmaning autsayderlaridan ko‘ra insayderlari, ya’ni menejer boshliqlari korxonaning ayni damdagi haqiqiy holati haqida aniq tushunchaga ega bo‘ladilar. Korxona direktorlari qarz mablag‘laridan ko‘ra o‘z mablag‘laridan foydalanish zarurligini afzal ko‘rishadi, chunki agarda korxona bankrot bo‘ladigan yoki to‘lovga layoqatsiz holga tushadigan bo‘lsa, qarz mablag‘laridan ko‘p foydalanish menejerlarning ishdan ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Autsayderlar fikricha, qarz mablag‘larining firmaga ko‘plab jalb qilinishi firmaning yuqori sifatda o‘ziga ishongan holda ishlayotganligini ko‘rsatadi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida zanjirli bog‘lanish usuli, guruhlashtirish, taqqoslash, empirik tahlil usullaridan foydalanamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni liberallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki moliyaviy jihatdan ham mustahkam tayanchni talab etadi. Shu sababli, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy salohiyatini baholashda o‘z mablag‘larining qiymatiga, ularning jami kapital tarkibidagi salmog‘iga, majburiyatlarga nisbati chegaralariga muhim ahamiyat qaratiladi. Xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditga oid qonunchilik normalarida “o‘z sarmoyasi”, “o‘z sarmoyasi manbalari”, “o‘z mablag‘lari manbalari”, “xususiy sarmoya”, “xususiy kapital” degan tushunchalar keng uchraydi. Ularning barchasi bitta mazmunni ya‘ni, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zigagina tegishli bo‘lgan mablag‘larni ifoda etadi.

Buxgalteriya balansining “O‘z mablag‘lari manbalari” (“Xususiy sarmoya”) bo‘limida ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali, sotib olingan o‘z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda bo‘lg‘usi xarajatlar va to‘lovlar zaxiralari aks etadi.

2-jadval: Toshkent yog‘-moy kombinati AJ ning jamlanma buxgalteriya balansi

Xususiy kapital	2019–2022-yillar			
	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022
O‘z mablag‘lari manbasi	20 323 849	38 083 200	33 074 121	27 793 716
O‘zgarishi (+, -)	–5 519 380	17 759 351	–5 009 079	–5 280 405
Ustav kapitali	13 874 967	13 874 967	11 202 934	11 202 934
O‘zgarishi (+, -)	0	0	–2 672 033	0
Qo‘shilgan kapital	6 495 071	6 495 071	0	0
O‘zgarishi (+, -)	0	0	–6 495 071	0
Rezerv kapitali	18 370 343	16 031 898	14 775 995	10 104 841
O‘zgarishi (+, -)	13 012	–2 338 445	–1 255 903	–4 671 154
Taqsimlanmagan foyda	–18 416 532	1 681 264	7 095 192	6 485 941
O‘zgarishi (+, -)	–5 532 392	20 097 796	5 413 928	–609 251
Boshqa manbalar	-	-	-	-
O‘zgarishi (+, -)	-	-	-	-

(Manba: Soliq organlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxonaning 2019–2022-yillarda xususiy kapitalida sezilarli darajalarda o‘zgarishlar bo‘lgan. Xususan korxona xususiy kapital darajasi 2020-yildan boshlab keskin darajada tushish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Korxona 2022-yilda xususiy kapitali 27 793 716 ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan –5 280 405 ming so‘mga kamaygan. Bunga asosiy sabab sifatida rezerv kapitalining –4 671 154 ming so‘mga kamayishi hamda taqsimlanmagan foydaning –609 251 ming so‘mga kamayishini ko‘rsatishimiz mumkin.

Xususiy kapital rentabelligi bir yoki yuz so‘mlik xususiy kapital hajmi hisobiga olingan sof foyda summasini bildiradi. Ushbu ko‘rsatkich bazis yilidagi yoki biznes rejada ko‘zda tutilgan kapital rentabelligiga nisbatan yuqori bo‘lsa, xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining oshganligini bildiradi.

Xususiy kapital rentabelligi qancha yuqori bo‘lsa, xo‘jalikning moliyaviy ahvoli ham shuncha mustahkam bo‘ladi. Xususiy kapital rentabelligining tahlili uning hisobot yilidagi darajasini bazis yilidagi (yoki rejada ko‘zda tutilgan darajasiga) solishtirib, umumiy o‘zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Rentabellik darajasining o‘zgarishi birinchi va ikkinchi tartibli omillar ta’siri ostida yuzaga keladi. Birinchi tartibli omillar bolib quyidagilar hisoblanadi:

1) xususiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishi;
2) sof foyda hajmining o‘zgarishi. Ushbu omillar ta’sirini “Zanjirli bog‘lanish” usulini qo‘llash orqali aniqlash zarur. Buning uchun quyidagi 3 ta boglanish rentabellik ko‘rsatkichini aniqlab, so‘ngra omillarning ta’sirini aniqlash maqsada muvofiq bo ‘ladi:

- SF_0/XKH_0 – bazis yilidagi (yoki rejadagi) rentabellik darajasi;
- SF_0/XKH_1 – shartli rentabellik darajasi;

- SF_1/XKH_1 – hisobot yilidagi rentabellik darajasi.

Shundan keyin xususiy kapital rentabelligining omilli tahlili amalga oshiriladi. Hisobot yilidagi xususiy kapital rentabelligidan (3-bog‘lanish ko‘rsatkichidan) bazis yilidagi rentabelligini (1-bog‘lanish ko‘rsatkichini) chegirib tashlash orqali uning umumiy o‘zgarishi aniqlanadi:

$$SF_1/XKH_1 - SF_0/XKH_0 = \pm\Delta xkh,sf$$

Bu o‘zgarish yuqoridagi ikki omil hisobiga yuzaga kelgan.

Xususiy kapital rentabelligining o‘zgarishiga uning o‘rtacha qiymati (hajmi) o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun shartli rentabellik darajasidan (2-bog‘lanish ko‘rsatkichidan) bazis yilidagi rentabellik darajasini (l-bog‘lanish ko‘rsatkichini) chegirib tashlash kerak:

$$SF_0/XKH_1 - SF_0/XKH_0 = \pm\Delta xkh$$

Xususiy kapital rentabelligining o‘zgarishiga sof foyda summasi (hajmi) o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi rentabellik darajasidan (3-bog‘lanishdan) shartli rentabellik darajasini (2-bog‘lanish ko‘rsatkichini) chegirib tashlash kerak:

$$SF_1/XKH_1 - SF_0/XKH_1 = \pm\Delta sf$$

Shu ikki omil ta’sirlarining yig‘indisi xususiy kapital rentabelligining umumiy o‘zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta xkh \pm \Delta sf = \Delta xkh,sf$$

Shundan keyin rentabellik darajasining o‘zgarishiga xususiy kapital hajmi o‘zgarishining ta’sirini har bir kapitalning bandi bo‘yicha aniq ko‘rsatish va mavjud imkoniyatlarni yetarli darajada bayon qilish uchun ikkinchi tartibli omillar ta’sirining tahlilini amalga oshirish kerak.

3-jadval: Toshkent yog‘-moy kombinati aksiyadorlik jamiyatining xususiy kapitali rentabelligi omillar ta’siri (2021–2022-yillar)

Ko‘rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	Farqi (+,-)
Sof foyda	–20 097 824	5 532 392	25 629 676
Xususiy kapital	33 074 121	38 083 200	5 280 405
Shu jumladan:			
Ustav kapitali	11 202 934	13 874 967	2 672 033
Qo‘shilgan kapital	0	6 495 071	6 495 071
Zaxira kapitali	14 775 995	16 031 898	1 255 903
Taqsimlanmagan foyda	7 095 192	1 681 264	–5 413 928
Shartli birlik 1	–0.61		
Shartli birlik 2 Ustav kapitali hisobiga	–0.56		+0.05
Shartli birlik 3 Qo ‘shilgan kapital hisobiga	–0.48		+0.08
Shartli birlik 4 Zaxira kapitali hisobiga	–0.46		+0.02
Shartli birlik 5 Taqsimlanmagan foyda hisobiga	–0.53		–0.05
Shartli birlik 6 Sof foyda hisobiga	0.15		+0.68
Rentabellik	–0.63	0.15	+0.78

(Manba: Soliq organlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi)

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan shu narsa ayonki, biz tahlil qilayotgan korxonaning xususiy kapitali rentabelligi bir qancha omillar hisobiga joriy yilda o'tgan yilga nisbatan o'zgarib turgan. Shu jumladan rentabellik darajasi 2022-yil oxiriga kelib 2021-yilga nisbatan +0.78 ga oshgan. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- Ustav kapitali miqdorining o'tgan yilga nisbatan 2 672 033 ming so'mga oshishi rentabellik darajasini 5% ga oshirgan;
- Qo'shilgan kapital miqdorining 6 495 071 ming so'mga oshishi rentabellik darajasini 8% ga oshishiga sabab bo'lgan;
- Korxona zaxira kapitalining o'tgan yilga nisbatan 1 255 903 ming so'mga oshishi rentabellik darajasini 2% ga oshirgan;
- Korxona sof foydasining o'tgan yilga nisbatan 25 629 676 ming so'mga ko'tarilishi korxona rentabelligining 68% ko'tarilishiga sabab bo'lgan;
- Taqsimlanmagan foyda miqdorining o'tgan yilga nisbatan 5 413 928 ming so'mga kamayishi rentabellik darajasining 5% kamayishiga olib kelgan.

Demak yuqoridagi tahlil natijalaridan ko'rinadiki, korxona rentabellik darajasi miqdorida anchagina yaxshi ko'rsatkichlarni amalga oshirmoqda.

Kapitalni tahlil qilishda kapital manbalari tarkibini tahlil qilish ham muhim o'rin tutadi. Har bir tashkilot muvaffaqiyatli ishlashi uchun kapital manbalarining optimal tuzilmasini saqlab qolishga intilishi kerak. Zamonaviy sharoitda kapital tuzilishi korxonaning moliyaviy mutanosibligiga, uzoq muddatli to'lov qobiliyatiga, korxona faoliyati rentabelligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4-jadval: Toshkent yog'-moy kombinati AJ kapital manbalari tuzilish tahlili

Kapital manbasi	Yillar			Farqi, (+,-)	
	2020	2021	2022	(2021–2020)	(2022–2021)
Xususiy kapital, %	46.96	48.95	42.61	1.99	–6.34
Qarz kapitali, %	53.04	51.05	57.39	–1.99	6.34
Jami kapital	100.00	100.00	100.00	-	-

(Manba: Soliq organlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi)

Jadval ma'lumotlaridan anglashiladiki, biz tahlil qilayotgan korxonaning xuxusiy kapitali 2021-yilda 48.95% ni tashkil etgan va bu 2020-yilga nisbatan 1.99% ga ko'proq bo'lgan. Korxonaning xususiy kapitali 2022-yilda 42.61% ni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 6.34% past miqdorni ko'rsatgan. Korxonaning qarz kapitali ham yilla mobaynida o'zgarib borgan.

Keyingi o'rinda, tashkilotning o'z kapitalining harakatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish kerak. Ko'rsatilgan koeffitsiyentlar tahlili dinamika asosida amalga oshiriladi. Agarda korxonada kapital kirimi uning chiqib ketish koeffitsiyentidan yuqori bo'lsa, demak korxona o'sish jarayonida ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek korxonalarda yaratilgan zaxiralarni ham tahlil qilish kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida amalga oshirilgan tadqiqotlar va o'rganishlar natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik

- Biz tahlil qilayotgan korxona Toshkent yog'-moy AJ kombinati tahlil qilinayotgan yillar davomida o'z mablag'lari manbasi keskin ravishda tushib ketgan. Korxona bu kabi salbiy holatlarni oldini olishi uchun taqsimlanmagan foyda hamda rezerv kapitali qiymatlarini oshirishi taklifi beriladi.
- Tahlil qilinayotgan davrlarda korxonaning xususiy kapitali rentabelligi oshib brogan hamda bu holatni anchagina ijobiy hol deb qarash mumkin. Bu kabi holatlar korxonaning moliyaviy mustaqilligiga ta'sir etib, kapitalni optimal tarzda shakllantirish imkoniyatini oshirib yuboradi
- Korxona qarz kapitali miqdorining yillar mobaynida oshirib yuborilishi bu korxonaning bankrot bo'lib ketish xavfini ko'paytirib, boshqa korxonalar tomonidan qo'shilib ketish xavfini oshiriadi. Shuning uchun bu korxona qarz kapitali tuzilmasini yanada mukammalroq tuzib chiqishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Modigliani, F., and Miller, M. (1958). The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. American Economic Review, 48(3), 261–297.
2. Modigliani, F., and Miller, M. (1963). Corporate income taxes and the cost of capital: A correction. American Economic Review, 53(3), 433–443.
3. Гулюгина. Т. Ию Оптимизация структурқ капитала как фактор росиа стоимости компаниию Автореферат. Москва 2013.
4. Donaldson, G. (1961). Corporate Debt Capacity: A Study of Corporate Debt Policy and the Determination of Corporate Debt Capacity. Division of Research, Graduate School of Business Administration, Harvard University, Boston.
5. Newman, A., Gunessee, S., and Hilton, B. (2011). Applicability of financial theories of capital structure to the Chinese cultural context: A study of privately owned SMEs. International Small Business Journal, 0266242610370977.
6. Myers, S. C., and Majluf, N. (1984). Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have. Journal of Financial Economics, 13, 187–224
7. Ross, S. A. (1977). The determination of financial structure: The incentive signaling approach. Bell Journal of Economics, 8(1), 23–40.
8. https://www.kroll.com/en/insights/publications/cost-of-capital
9. http://pages.stern.nyu.edu/~adamodar/



BANKLARARO TO‘LOV TIZIMINI RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI ROLINI OSHIRISH CHORALARI

Amonov Alisher
Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda korxona, tashkilot, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining salmog‘i ortib bormoqda. Bunday holatda esa, ijorat banklarimiz tomonidan taqdim etilayotgan arzon bo‘lgan moliyaviy xizmatlarga talab ortmoqda. Maqolada banklar to‘lov tizimidagi naqdsiz pul o‘tkazmalarini takomillashtirish to‘g‘risida so‘z yuritilgan hamda tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: to‘lov tizimi, naqdsiz pul o‘tkazmalari, bank tizimi, to‘lov tizimi ishtirokchilari, to‘lov topshiriqnomasi, to‘lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi, memorial order, akkreditivga ariza, hisob-kitob cheki.

Abstract: Nowadays, the importance of enterprises, organizations, small businesses and business entities is increasing. In this case, the demand for cheap financial services of commercial banks is increasing. The article includes the improvement of cashless money transfers in the payment system of banks, and it gives relevant conclusions.

Key words: payment system, non-cash money transfers, banking system, payment system participants, payment order, payment on demand, collection order, memorial order, letter of credit, check.

Аннотация: Сегодня возрастает значение предприятий, организаций, субъектов предпринимательства и малого бизнеса . В этой ситуации возрастет спрос на дешевые финансовые услуги, предоставляемые нашими коммерческими банками. В статье говорится о совершенствовании безналичных денежных переводов в платежной системе банков и приводятся соответствующие выводы.

Ключевые слова: платежная система, безналичные денежные переводы, банковская система, участники платежной системы, платежное поручение, инкассовое поручение, мемориальнқй ордер, заявление на аккредитив, чековая книжка

KIRISH

Iqtisodiyotni raqamlashtirishda bank tizimi va to‘lov tizimi islohotlarini amalga oshirish hamda mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida yurtimizda elektron bank xizmatlarini ko‘rsatish dolzarb masalalardan hisobladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–5992-sonli Farmoni qabul qilinishi orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarining to‘lov xizmatlaridan tunu kun foydalana olishini ta’minlash maqsadida barcha tijorat banklarini 24/7 rejimida ishlovchi banklararo lahzali to‘lovlar tizimiga ulash, masofaviy bank to‘lovlari hajmini 90 foizgacha oshirish oldinga maqsad qilib olindi. Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan segmentlar (kam daromadli jismoniy shaxslar, qishloq aholisi, mikrofirma va kichik korxonalar) uchun bankning bazaviy xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish nazarda tutildi.

McKinsey tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, “jaxondagi barcha naqd pullar orqali to‘lovlarning ulushi 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 16 foizga kamayishi orqali naqd pulsiz o‘tkazmalarning 6 foizga oshishi iqtisodiyotda kontaksiz va electron hamyonlar orqali to‘lovlar tushumining kengayishi hisobiga yuzaga keldi”[1]. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishi, to‘lov tizimi orasidagi raqobatning kuchayishi banklarda to‘lov tizimini doimiy ravishda takomilllashtirib borishlari zarur hisoblanadi.

1 The 2021 McKinsey Global Payments Report, 2021-pp. 7–8.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Izlanishni shu soha olimlarining iqtisodiy adabiyotlarda to‘lov tizimi to‘g‘risidagi bildirgan fikirlarini o‘rganishdan boshalymiz. To‘lov tizimi-to‘lovlarni to‘lov tizimining operatori, to‘lov tizimi ishtirokchilari va (yoki) to‘lov tashkilotlarining to‘lov tizimi operatori tomonidan belgilangan to‘lov tizimining tartib-taomillarini, infratuzilmasini va qoidalarini qo‘llash vositasida hamkorlik qilish yo‘li bilan amalga oshirishni ta’minlaydigan munosabatlar majmuyidir[2].

Xorijiy iqtisodchi olim O. I. Lavrushin to‘lov tizimi iqtisodiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan qarz majburiyatlarining bajarilishini qonunchilik oorqali taritbga solinadigan elementlar yig‘indisidan iboratdir3 deya tariflagan bo‘lsalar.

Mahalliy iqtisodchi H. U. Rahimova mamlakat to‘lov tiziminipul vositalarining uzluksiz harakatini ta’minlovchi va bozor subyektlari o‘rtasidagi shartnoma majburiyatlari bajarilishiga yordam beruvchi ixtisoslashgan institutlar, to‘lov-hisob mexanizmlari va prinsiplari yig‘indisidir4 deb ta’rif berganlar.

Z. A. Umarov Mamlakat to‘lov tizimi- to‘lov infratizimi a’zolari o‘rtasida belgilangan qoidalar asosida pul vositalarining uzluksiz harakatini va axborot texnalogiyalari vositasida iqtisodiy sub’yektlarning o‘zaro majburiyatlari bajarilishini ta’minlovchi munosabatlar mamuyidir. To‘lov tizimlarida pulning barcha funksiyalari chiqadi5

TADQIQOT METADALOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasida tolov tizimi asosan tijorat banklari orqali yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarga naqd pulsz hisob kitoblarni amalga oshiriladi. Bu esa banklarimizning shanba va yakshanba kunlari ish faoliyatini olib bormasliklari mijozlarga birmuncha qiynchiliklarni keltirib chiqaradi hamda banklarimizning daromadiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida banklarimiz to‘lov tizimlarini 24/7 ishlatishning zamonaviy usullardan foydalanishlari orqali mijozlar ishonchini yanada mustahkamlaydilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz korxona va tashkilotlari soni oxirgi besh yillikda 1.8 barobarga oshdi, ya’ni 2019-yilda korxona va tashkilotlari soni 323517 tani tashkil etgan bo‘lsa 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 592371 ta ga yetdi. Bu esa banklarimizning to‘lov tizimiga bo‘lgan talab yanada ortishidan dalolat beradi. Shu sababli banklarimiz naqd pulsiz hisob kitoblar tizimini yanada takomillashtirish choralarini ko‘rishlari zarur.

1-jadval: 2020–2022-yillarda Markaziy bankning Anor tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar to‘g‘risida banklar kesimida ma’lumot[6] (to‘lovlar summasi mlrd. so‘mda).

№	Bank nomi	2020-yil davomida amalga oshirilgan tranzaksiyalar		2021-yil davomida amalga oshirilgan tranzaksiyalar		2022-yil davomida amalga oshirilgan tranzaksiyalar	
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
1	TIF Milliy banki AJ	736 527	23 597	1 458 406	57 030	1 937 174	74 028
2	“O‘zsanoatqurilishbanki” ATB	627 779	21 090	1 213 358	52 187	1 415 273	65 081
3	“Asakabank” AJ	294 706	9 547	616 595	23 371	713 023	40 786
4	“Kapitalbank” ATB	45 494	2 560	650 120	17 280	871 935	35 417
5	CHEKI “Hamkorbank” ATB	659 971	13 338	1 237 492	26 643	1 217 549	32 919
6	“Orient-Finans” XATB	213 371	8 165	550 193	20 587	679 671	26 295
7	“Trastbank” XAB	271 351	7 386	673 351	17 592	786 051	22 847
8	AT “Xalq banki”	409 865	5 991	1 185 964	14 702	1 454 464	19 574
9	ATB “Qishloq qurilish bank”	304 388	4 510	1 211 969	11 198	2 222 338	19 031
10	“ASIA ALLIANCE BANK” ATB	234 384	5 437	468 069	12 038	517 456	17 456

2 O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida” gi 2019-yil 1-noyabrdagi O‘RQ–578-sonli Qonuni.
3 Банковское дело: учебник. Лаврушин О. И. и др. – издание – М.: КПОРУС, 2011.–366 с.
4 Рахимова Х. У., “Организация и развитие платожной системы Республики Узбекистан” автореферат диссертация канд.экон. наук, Банковско-финансовая акад.РУз.2006 г.
5 “To‘lov tizimi va bank xavsizligi”: O‘quv qo‘llanma (barcha bakalavr ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tehsil olayotga talabalar uchun) Z. A. Umarov va b. –T.: “Tahririy Nashriyot”, 2023 y.
6 https://cbu.uz/uz/payment-systems/interbank/ – Markaziy bank sayti ma’lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tuzildi.

11	“Ipoteka-bank” ATIB	123 750	3 087	387 638	11 521	453 357	14 996
12	“Aloqabank” ATB	300 552	4 963	426 697	10 103	1 279 010	14 740
13	“MikrokreditbanK” ATB	454 637	4 499	913 634	8 250	922 865	11 516
14	“Turonbank” ATB	238 767	4 417	458 252	9 779	335 350	7 896
15	ATB “Universal bank”	68 627	2 289	185 845	4 970	228 655	7 700
16	“Agrobank” ATB	40 357	1 178	95 321	3 165	245 040	6 882
17	“Ipak yo‘li banki” AITB	26 998	658	109 936	3 567	162 476	6 045
18	CHEKI “Invest Finance Bank” ATB	2 572	235	16 870	2 044	23 713	5 140
19	“Anor bank” AJ	-	-	19 413	1 056	58 098	4 376
20	“Davr-bank” XATB	40 813	626	84 674	1 682	112 729	3 292
21	Boshqa banklar	276 552	4 708	327 763	7 017	1 978 839	10 385
Jami		5 371 461	128 281	12 291 560	315 780	17 615 066	446 402


Yuqoridagidan ko‘rish mumkinki, oxirgi uch yillikda to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar yuqoridarajadagi o‘sish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin. 2020-yil davomida 5 371 461 ta o‘tkazmalar amalga oshirilgan bo‘lsa 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,3 barobarga oshib 17 615 066 taga yekanligini ko‘rishimiz mumkin.

To‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi oxirgi uch yillikda 3.5 barobarga oshganini ko‘radigan bo‘lsak korxona va tashkilotlar sonining ortib borishi bank tizimidagi o‘tkazmalarga to‘g‘ri proporsional tarzda ta’sir o‘tkazmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari to‘lovlarni amalga oshirishda quyidagi to‘lov hujjatlaridan foydalanadilar:

- to‘lov topshiriqnomasi;
- to‘lov talabnomasi;
- inkasso topshiriqnomasi;
- memorial order;
- akkreditivga ariza;
- hisob-kitob cheki.

Hozirgi kunga kelib banklarimiz tomonidan hisob-kitob chekidan foydalanish to‘xtatilgan.




1-rasm: Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni[7]

2021-yil 1-yanvardan 2022-yil 1-yanvargacha banklarimiz tomonidan 57 054 675 ta to‘lov tizimi orqali tranzaksiyalar amalga oshirilgan. Bunda asosiy o‘tkazmalar to‘lov topshiriqnomasi orqali amalga oshirilgan

7 https://cbu.uz/uz/payment-systems/payment-documents/ – Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

bo‘lib jami o‘tkazmalarning 63.7 foizini, ya’ni 36 353 856 ta tranzaksiani tashkil etgan bo‘lsa. Akkreditivga ariza hamda to‘lov talabnomasi esa 269 435 ta o‘tkazmalar orqali eng kam ya’ni jami o‘tkazmalarning 0.5 foizini tashkil etmoqda.



2-rasm: Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi[8]

2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra banklararo to‘lov tizimi orqali jami 2 785651 mlrd. so‘mlik tranzaksiyalar amalga oshirilgan bo‘lib, bunda eng ko‘p summa 1 861 266 mlrd. so‘m memorial orderga to‘g‘ri kelmoqda, ya’ni jami o‘kazmalarning 66.8 fizini tashkil etmoqda. To‘lov topshiriqnomasi orqali esa 914879.6 mlrd. so‘mlik o‘kazmalar amalga oshirilgan bo‘lib jami o‘tkazmaning 32.8 foizni tashkil etmoqda. to‘lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi va akkreditivga arizalar jami o‘tkazmalarning 0.3 foiz ulushni tashkil etmoqda. Bundan ko‘rinadiki banklarimiz tomonidan amalga oshirilgan o‘tkazmalarning asosiy qismi bitta to‘lov hujjatidan memorial order orqali amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ko‘rsatilgan tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirish o‘rinlidir:

- tijorat banklari orasida asosan TIF Milliy banki AJ, “O‘zsanoatqurilishbanki” ATB va “Asakabank” AJ bankalari orqali katta summadagi tranzaksiyalar amalga oshirilganligi tufayli boshqa tijorat banklari naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada takomillashtirishlari zarurligidan dalolat bermoqda. Bunday holatda banklar Internet-banking tizimi orqali o‘tkazmalar tezligini oshirishlari zarur.
- banklararo to‘lov tizimda asosan bitta shakladan foydalanishi banklarda risk darajasining yuqori bo‘lishini keltirib chiqaradi. Banklarimiz electron tizimni ham takomillashtirishlari orqali takomillashib borayotgan raqamli iqtisodiyotdagi raqobat shaklini keltirib chiqarishadi.
- banklararo to‘lov o‘tkazmalarining tezkorligi hamda ishonchligi mijozlarning banklarga bo‘lgan ishonchini oshiradi bu esa bankga mijozlar ortishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida” gi 2019-yil 1-noyabrdagi O‘RQ–578-sonli Qonuni.
2. The 2021 McKinsey Global Payments Report,2021-pp. 7–8.
3. Банковское дело: учебник. Лаврушин О. И. и др. – издание – М.: КПОРУС, 2011.–366 с.
4. Рахимова Х. У., “Организация и развитие платожной системы Республики Узбекистан” автореферат диссертация канд.экон. наук, Банковско-финансовая акад.РУз.2006 г.
5. “To‘lov tizimi va bank xavsizligi”: O‘quv qo‘llanma (barcha bakalavr ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tehsil olayotga talabalar uchun) Z. A. Umarov va b. –T.: “Tahririy Nashriyot”, 2023.
6. https://cbu.uz/ – Markaziy bank sayti

8 https://cbu.uz/uz/payment-systems/payment-documents/ – Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



BAHOLASH FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Bobirjon Aktamov
Toshkent moliya instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bozor iqtisodiyotining muhim infratuzilmalaridan biri bo‘lmish – baholash xizmatlari bozorini rivojlantirish zarurati o‘rganildi. Bugungi kunda butun duynoda ro‘y berayotgan raqamlashtirish jarayonlari, turli sohalarga sun’iy intellektning joriy qilinishi va ularning baholash faoliyatiga ta’siri ochib berildi. O‘zbekiston Respublikasida baholash faoliyatini raqamlashtirish va ushbu sohaga sun’iy intellektni joriy etishning istiqbollari va amaliy muommolari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Baholash faoliyati, baholash, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, baholash faoliyatini raqamlashtirish, baholash standartlari, raqamli texnologiyalar, baholash tashkilotlari, malaka sertifikati.

Abstract: The article discusses the need to develop the market for appraisal services, which is one of the important infrastructures of a market economy. The digitalization processes taking place today all over the world, the introduction of artificial intelligence in various fields and their impact on valuation activities are revealed. The prospects and practical problems of digitalization of appraisal activities in the Republic of Uzbekistan and the introduction of artificial intelligence in this area are highlighted.

Key words: Assessment activities, assessment, digitalization, artificial intelligence, digitalization of assessment activities, assessment standards, digital technologies, assessment organizations, qualification certificate.

Аннотация: В статье рассматривается необходимость развития рынка оценочных услуг, который является одной из важных инфраструктур рыночной экономики. Раскрыты процессы цифровизации, происходящие сегодня во всем мире, внедрение искусственного интеллекта в различных сферах и их влияние на оценочную деятельность. Освещены перспективы и практические проблемы цифровизации оценочной деятельности в Республике Узбекистан и внедрения искусственного интеллекта в этой сфере.

Ключевые слова: Оценочная деятельность, оценивание, цифровизация, искусственный интеллект, цифровизация оценочной деятельности, стандарты оценивания, цифровые технологии, оценочные организации, квалификационный аттестат.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda iqtisodiyot, bank-moliya sohasini modernizatsiyalash va biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradigan, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli baholash obyekti hisoblanmish barcha aktivlar qiymati to‘g‘risida xulosa beradigan hamda ularning faoliyatini yaxshilash maqsadida ularga maslahat, yo‘l-yo‘riq va boshqa turlardagi amaliy yordam ko‘rsatadigan professional xizmatga – baholash faoliyatiga talab ortib bormoqda. Mamlakatimizda baholash faoliyatni rivojlantirish bilan birga ushbu sohada qonunchilikni tartibga solish va mustahkamlash bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

To‘rtinchi sanoat inqilobi – raqamli iqtisodiyotdir. Mamlakatimizda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilayotgani, elektron to‘lovlar rivojlantirilib borilayotgani va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilayotgani – bugungi yangi O‘zbekistonning rivoji uchun qo‘yilayotgan ulkan qadamlardir. Axborot-texnologik platformalarda faoliyat ko‘rsatayotgan raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda, bu esa shunday platformalarning yangi modellarini yaratish zaruratini taqozo etmoqda. “Blokchain” texnologiyalari (ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalari), “sun’iy intellekt”, superkompyuterlar imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, kripto-aktivlar bo‘yicha faoliyat jahonning ko‘plab mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Katta hajmli ma’lumotlar tahlili” hamda “sun’iy intellekt” texnologiyalari nafaqat iqtisodiyotning ko‘plab sektorlariga, balki davlat boshqaruvi tizimiga va boshqa jamoatchilik

munosabatlariga asta-sekin joriy etilmoqda. Dunyo kunsayin o‘zgarib bormoqda, texnologiyalar o‘zgarmoqda, sun’iy intellekt hayotimizga tez kirib kelmoqda. Baholovchilar ishini muayyan darajada osonlashtirish maqsadida yangi qonun hujjatlari murakkablashtirilmoqda. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar sohasidagi mutaxassislar tomonidan ko‘plab professional dasturlar, elektron ma’lumotlar bazalari va algoritmlar ishlab chiqilmoqda. Ular baholovchilarga ko‘rsatkichlarni hisoblash bilan bog‘liq vaqtni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi va baholash obyektlari bo‘yicha eng aniq ma’lumotlarni taqdim etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda baholash faoliyatini raqamlashtirish va una yanada yaxshilash masalasi bir qator xorijlik iqtisodchi-olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Baholash faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanish va raqamlashtirish mavzusi bugungi kunda nisbatan yangi mavzu bo‘lsada, qator soha mutaxassislari tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. Biroq, aynan baholash faoliyatini raqamlashtirish va sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar hozircha nafaqat mamlakatimizda, balki butun jahon bo‘yicha ham chop etilmagan. Bu soha bo‘yicha xorijiy olimlardan – RICS jamiyati direktorlar kengashi a’zosi Laura Piantanida va ekspert guruhi a’zolari, IVSC kengashi texnik direktori Aleksandr Aronsohn [1], A. Damodaran [2], D. Glavas [3], F. Mohammadyari, M. Tavakoli, A. Zarandian [4], va B. K. Lukanima [5] tomonidan ilmiy izlanishlarni ko‘rish mumkin.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, aynan, investitsiyaviy jozibadorlik tushunchasining asl mazmun-mohiyati kompleks va tizimli tarzda to‘liq o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jamiyat hayotining barcha jabhalarida o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Raqamlashtirish davlat xizmatlarini ko‘rsatishdan tortib, yangi mahsulotlarni yaratishgacha bo‘lgan turli jarayonlarga faol kirib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar va ishlanmalardan foydalanadigan tashkilotlar vaqtni, resurslarni tejash, biznes-jarayonlarni yo‘lga qo‘yish orqali kompaniya ichidagi hujjat aylanishidan tortib, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni maksimal darajada yaqinlashtirishgacha bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilamoqda. Har qanday zamonaviy tashkilot doimiy o‘zgaruvchan tashqi muhitga moslashishi kerak. Yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, xalqaro bozorlarga chiqish, qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish, marketing faoliyati – bularning barchasi ko‘plab murakkab operatsiyalarni, moliyaviy rejalashtirishni, moliyaviy konsolidatsiyani tezlashtiradi. Bu jarayonlarning barchasi raqamli ishlanmalar va ularni boshqarish uchun internet platformalaridan foydalanish orqali optimallashtirilgan.

Raqamli texnologiyalar moliya sohasida ham jadal qo‘llanilmoqda va bir necha o‘n yillikda IT-texnologiyalari bank-moliya sohasini tubdan o‘zgartirdi. Raqamli texnologiyalar real vaqt rejimida tezroq va aniqroq hisobot berish imkonini beradi va umuman moliyaviy boshqaruv uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Bank-moliya sohasini raqamlashtirish ham davlat, ham tijorat tashkilotlarining moliyaviy resurslarini boshqarish shaffofligini ta’minlaydi. Yangi raqamli iqtisodiyot turli qoida va tamoyillarga asoslangan bo‘lib u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: bigdata (katta hajmli ma’lumotlar) va ma’lumotlarni tahlil qilish, mobil texnologiyalar, sun’iy intellekt, robototexnika, biometrika, taqsimlangan registrlar (blockchain) va bulutli texnologiyalar (cloud) kabi yangi sohalar. Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli ma’lumotlarning asosiy omillari bo‘lgan faoliyat bo‘lib, ularni qayta ishlash va katta hajmlarda foydalanish, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish, saqlash va yetkazib berishda sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Muallif izlanishlari natijasida bank-moliya sohasidagi rahbarlarning 90 foizi kelajakda bigdata (katta hajmli ma’lumotlar), ma’lumotlarni tahlil qilish, mobil texnologiyalar, sun’iy intellekt va bulutli texnologiyalar kelajakda bank-moliya sohasining eng muhim nuqtalaridan biriga aylanishi haqida aytib o‘tishmoqda.

Sun’iy intellekt (SI) ilmiy bir qator fanlar chorrahasida joylashgan yo‘nalishdir: informatika, falsafa, kibernetika, psixologiya, matematika, fizika, kimyo va boshqalar. Sun’iy intellekt atamasi odatda hisoblash tizimining vazifalarni bajarishda ishlatiladi, inson aql-zakovati uchun xos bo‘lgan, masalan, mantiqiy xulosa qilish vazifalari va o‘rganish kabilar. Yechim algoritmi oldindan ma’lum bo‘lmagan har qanday muammo yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar sun’iy intellekt sohasining vazifalariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu, masalan, shaxmat o‘ynash, matnni o‘qish, matnni boshqa tilga tarjima qilish va boshqalar.

Sun’iy intellektni o‘rganish dastlab 20-asrning o‘rtalariga kelib, tegishli ilmiy sohalarda zarur bilimlar to‘planganidan keyin sodir bo‘la boshladi. Sun’iy intellektning jadal rivojlanishi boshlang‘ich omili sifatida keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lgan birinchi kompyuterlarning yaratilishi hisoblanishi mumkin.

Hisoblashning aniqligi va tezligi bo‘yicha yangi mashinalarning imkoniyatlari insonnikidan kattaroq bo‘lib, bu aqlli mashinalarni yaratish uchun keng istiqbollarni ochib berdi. Ilmiy hamjamiyatda savol tug‘ilishi tabiiy: kompyuterlar imkoniyatlarining chegaralari qanday va mashinalar insoniyat taraqqiyoti darajasiga yeta oladimi? Bu savolga javob: “aql darajasi” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mashina aqlining klassik baholaridan biri mashhur ingliz olimi Alan Tyuring tomonidan 1950-yilda nashr etilgan testdir. Uning ma’nosi quyidagicha -kompyuterni odam bilan taqqoslanadigan “aql” bilan ta’minlangan deb hisoblash mumkin, agar u bilan aloqada bo‘lgan odam u kim bilan, inson yoki kompyuter dasturi bilan gaplashayotganini aniqlay olmasa. Shu bilan birga, barcha aloqalar faqat matnli xabarlarni uzatish vositalari orqali sodir bo‘ladi, shuning uchun odam butunlay suhbat mazmuniga e’tiborini qaratishi mumkin.

Shaxs, o‘z navbatida, suhbatdoshning mohiyatini ochib beradigan har qanday savolni berishi mumkin. Bu usul bir qator muhim afzalliklarga ega: u aqlning obyektiv va aniq kontsepsiyasini beradi, tirik mavjudotlar foydasiga qarama-qarshilikni yo‘q qiladi. Biroq, ba’zi tadqiqotchilar “aql”ni o‘lchashning bu usuliga qarshi bo‘lib, o‘z fikrlarini, birinchi navbatda, mashina intellekti inson aqlidan juda farq qilishi mumkinligi, uni inson mezonlari bilan sinab ko‘rish fundamental xato bo‘lishi mumkin deb bilishadi.

Sun’iy intellekt bugungi kunda olimlar uchun eng ilg‘or tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Ilm-fan va texnologiyaning eng xilma-xil sohalarida mashinalar ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo‘lgan vazifalarni bajarish uchun talab qilinar edi. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan tizimlar, ham dasturiy, ham texnik vositalar texnologiyalarda tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Sun’iy intellekt texnologik tizimlarni ishlab chiqarishning ajralmas qismidir. Ular ishlab chiqarish jarayoni haqida diagnostika ma’lumotlarini to‘playdi va qayta ishlaydi. Inson resurslari bunday ma’lumotlar oqimini qayta ishlay olmaydi. Intellektual tizimlar tobora kundalik hayotning bir qismiga aylanib bormoqda – bugungi kunda sun’iy intellekt elementlarini hatto maishiy texnikada ham topish mumkin.

Bunda avvalo, dasturiy ta’minotni alohida ta’kidlash kerak. Birinchi navbatda, ekspert tizimlari va belgilarni aniqlash tizimlari kiradi. Ekspert tizimlari inson mutaxassisi yoki mutaxassislar guruhiga xos bo‘lgan katta hajmdagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zida mujassamlashtira oladi. Ushbu tizimlar, hatto o‘ziga xos cheklovlar bilan ham, ayniqsa, geologiyada, tibbiy diagnostikada va boshqa ba’zi sohalarda katta ahamiyatga ega.

Sun’iy intellekt rivojlanishining ikkita asosiy yo‘nalishi mavjud:


- Pasayuvchi (semiotik) – yuqori darajadagi psixik jarayonlarga taqlid qiluvchi ekspert tizimlari, tizimli mantiqiy xulosalar va bilimlar bazalarini yaratish: fikrlash, hissiyotlar, nutq, ijodkorlik va boshqalar;
- Yuqorilovchi (biologik) – neyron tarmoqlarni o‘rganish va biologik elementlarga asoslangan intellektual xulq-atvorni modellashtiruvchi evolyutsion hisob-kitoblar, shuningdek, biokompyuter yoki neyrokompyuter kabi hisoblash tizimlarini yaratish.

Sun’iy intellekt sohasida har qanday tadqiqotni o‘tkazish bir qator qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Birinchidan, inson miyasining ishlash tamoyillari, unda sodir bo‘ladigan jarayonlar haqida hali ham to‘liq va aniq tushuncha mavjud emas. Bu yuqorilovchi yondashuvni qo‘llashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Ikkinchidan, tabiiy va sun’iy intellekt o‘rtasida tubdan farq bor. Inson miyasi tarkibiy, bo‘linmas birliklar – “tasvirlar” bilan ishlaydi, ular sensorli ma’lumotlarning siqilgan oqimidir, sun’iy intellekt esa bugungi kunda faqat “nol” va “bir” dan foydalangan holda qarama-qarshi yondashuvni amalga oshiradi. Shuning uchun “tasvirlar” ni tizimlashtirish qiyin ishdir. Bu pasayuvchi yondashuvni qo‘llashni qiyinlashtiradi.

Tajribalar asosida, hisob-kitoblarni amalga oshirish usuli nuqtayi nazaridan, miyaning asab tuzilishi texnik muhitdan tubdan boshqacha tarzda joylashtirilganligi aniqlangan. Miya signalini o‘zgartirish turi nafaqat texnik qurilmalarda qo‘llaniladigan ba’zi vaqt chastotasi parametrlarini o‘zgartirish usuliga, balki ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida ishtirok etadigan neyronning fazoviy holatiga ham bog‘liq. Neyron muhitda ma’lumotlarni qayta ishlashning detektor printsipi har bir neyron jarayon yoki hodisaning qat’iy belgilangan belgilari uchun javobgar bo‘lganda amalga oshiriladi. Savol: kompyuter o‘ylay oladimi? Bugungi kunda faqat “fikrlash” tushunchasiga qanday ma’no kiritilganiga bog‘liq. Agar rasmiy mantiqiy fikrlash qobiliyati yoki murakkab matematik operatsiyalarni bajarish qobiliyati nazarda tutilgan bo‘lsa, javob “ha” bo‘la oladi. Agar tafakkur bilimlarning bir nechta sohalarini solishtirish va ular o‘rtasida muhim o‘xshashliklarni topishdan iborat bo‘lgan rasmiy matematik va mantiqiy operatsiyalardan tashqariga chiqadigan yangi tushunchalarni yaratish jarayoni sifatida tushunilsa, zamonaviy intellektual tizimlar uchun javob salbiy bo‘ladi.

Sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy samaralari biznes jarayonlarini optimallashtirish va qo‘l mehnatini avtomatlashtirish va robotlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali olinadi; global mehnat bozorini qayta qurish va ta’lim jarayonlarini xususiylashtirish; konseptual fikrlashni rivojlantirish foydasiga o‘zgartirish; qaror qabul qilishda subyektivlik va mantiqsizlikni istisno qilish.

Sun’iy intellekt bank-moliya sohasida ikki shaklda taqdim etilishi mumkin – bu, birinchi navbatda, turli robotlar ko‘rinishidagi jismoniy timsol sifatida va ya’ni robot-maslahatchilar yoki virtual yordamchilar tomonidan taqdim etilgan sun’iy intellektning virtual amalga oshirilishi va chat botlari. Banklarda sun’iy intellektni qo‘llash sohalari valyuta nazorati, kredit risklari, joriy hisobvaraqlar ochish va boshqalardir [6] (1-rasm).




1-rasm: Banklarda sun'iy intellektni qo'llash sohalari

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sun'iy intellektning afzalliklari, shuningdek, SI dan bank-moliya sohasida muvaffaqiyatli foydalanishning asosiy sabablari:

- firibgar xatti-harakatlarni aniqlash, potentsial kiber hujumlarni qaytarish va shubhali narsalarni aniqlashdan iborat bo'lgan kengaytirilgan xavfsizlik tizimi;
- axborotni qayta ishlash tezligi – katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va ishonchli qayta ishlash;
- jarayonlarni avtomatlashtirish – hujjatlarni avtomatik ravishda yaratish qobiliyati, shuningdek, byudjet ijrosini nazorat qilish;
- ish jarayonlarini yaxshiroq tushunish – katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash natijalari ishlarning hozirgi holatini tushunishga va tegishli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Rossiya oliy iqtisod maktabi izlanuvchilari tadqiqotlariga ko'ra sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish kunsayin oshib bormoqda. Quyida keltirilgan 2-rasm orqali ko'rishimiz mumkinki 2016-yilda sun'iy intellekt joriy etish uchun dunyo miqyosida 1,4 mlrd AQSh dollari mablag'lari sarflangan bo'lsa bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 59,7 mlrd AQSh dollariga yetishi yoki 42 baravarga oshishi kutilmoqda. Dunyo bo'ylab sun'iy intellekt qo'llash orqali sohalarda 2020 yilgacha 2,3 million ish o'rni yaratildi va hozirgi kunda dunyo ishchilarining 20% ish faoliyatida muntazam sun'iy intellekt texnologiyalariga tayanadi. 2025-yilga kelib dunyo ishchilarning 85%i ish faoliyatida muntazam sun'iy intellekt texnologiyalari yordamiga tayanishi kutilmoqda. Prognozlarga ko'ra 2030-yilga borib jahon yalpi ichki mahsuloti 15,7 trillion dollardan oshadi.



2-rasm: Sun'iy intellekt bozor hajmi (mlrd. AQSh dollarida)

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

McKinsey Global Instituti [7] prognoziga ko'ra, 2030 yilga kelib sun'iy intellektning joriy etilishi munosabati bilan dunyo ishchilarining 14 foizi (taxminan 375 million kishi) ish joylarini o'zgartirishga majbur bo'ladi, chunki ularning faoliyati avtomatlashtiriladi. O'zbek mutaxassislari ham o'z fiklari bilan o'rtoqlashadilar. Ularning fikricha, mehnat bozorida sezilarli siljishlar: ishlab chiqarishning turli bosqichlarida sun'iy intellekt vositalarini joriy etish jarayonida sodir bo'ladi. Inson resurslari bilan bog'liq yana bir muammo, xodimlarning malaka darajasi sun'iy intellektni joriy etish bilan bog'liq muammolarga mos keladimi yoki yo'qmi degan savollar bilan bog'liq. Bugungi kunda ko'plab sohalarda yuqori malakali mutaxassislar yetishmaydi, bundan tashqari, sun'iy intellekt dasturlarini amalga oshirish kompaniyalarning deyarli barcha xodimlaridan yuqori darajadagi raqamli

ko‘nikmalarni talab qiladi. Xodimlarni rivojlantirish vositalaridan biri amaliyot va shunga o‘xshash dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan xorijiy kompaniyalar bilan tajriba almashish bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich quyidagicha: 2022-yil 1-yanvar holatida O‘zbekistondagi mehnat resurslari soni 19 million 345 ming kishini tashkil etdi. Mamlakatda 1 million 441,8 ming kishi ishga muhtoj bo‘lib, ishsizlik darajasi 9,6 foizga yetdi. Yoshlar orasida ishsizlik darajasi 15,1 foizni, ayollar orasida esa 13,3 foizni tashkil etdi [8].

Sun’iy intellekt vositalarini joriy etish orqali nafaqat ish o‘rinlari kamayishi balki mamlakatda yangi ish o‘rinlari ochilishiga ham zamin yaratadi. Zero bu haqda 2022-yil Buxoro shahrida bo‘lib o‘tgan “Kambag‘allikni qisqartirish mavzusidagi xalqaro forum” da ochilish tadbirida bosh vazir o‘rinbosari – Iqtisodiy va moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorov O‘zbekistonda 2026-yilgacha kambag‘allik va ishsizlikni 2 barobarga qisqartirish uchun ko‘riladigan choralarni sanab o‘tdi [9]:

- xususiy sektorni, jumladan kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni ta’minlash va shu orqali barqaror ish joylarini yaratish;
- inson kapitalini rivojlantirish va mehnat unumdorligini oshirish;
- energiya resurslari narxlarini liberallashtirish va samarasiz subsidiyalar hajmini kamaytirish hisobiga ijtimoiy loyihalarga yo‘naltiriladigan davlat resurslari miqdorini ko‘paytirish; mazkur jarayonda, asosiy e’tiborni, kam ta’minlangan oilalarni himoya qilishga qaratish;
- davlat korxonalarini transformasiya qilish, xususiylashtirishni jadallashtirish, mazkur jarayonda raqobat va biznes muhitini yaxshilab borish;
- qishloq xo‘jaligida unumdorlikni oshirish, bunda eng avvalo yer islohotlarini chuqurlashtirish;
- yashil va raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini tezlashtirish.

Mamlakatimizda yashil va raqamli iqtisodiyotga o‘tishda hukumat darajasida e’tibor qaratilsa bu jarayon yanada tezlashishi va insonlar turmush tarzida o‘z aksini topishi – hukumat rahbarlari uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lishi lozim.

XULOSA

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar berishni lozim deb topdik:

- Texnologiyalardan foydalanish – baholovchilar katta hajmli ma’lumotlar qanday to‘planishi va avtomatlashtirilgan baholash modellaridan ko‘proq foydalanish kabi o‘zgarishlarni qabul qilishlari kerak.
- Mijoz talabiga javob bera olish – baholash faoliyatining an’anaviy mijozlari talabidan kelib chiqib baholash haqidagi hisobot berishning yangi usullarini ishlab chiqish va taqdim etilgan baholash haqidagi hisobotlar, ma’lumotlar bilan kelajakda foydalana olish mijoz uchun muhimligini doim hisobga olish kerak.
- Mustaqillik va holislikni ta’minlang – baholovchi o‘z ish faoliyatida mustaqildir va barcha baholash jarayonida holislik kasb etikasiga rioya qilishi qilishi zarur, zero mustaqillik va holisliksiz ishonch bo‘lmaydi.
- Mas’uliyatli bo‘lish – ya’ni javobgarlik, mijoz oldida bajarilishi lozim bo‘lgan barcha jarayonlarda baholovchi ma’suliyatli bo‘lishi ya’ni baholash haqidagi hisobot uchun har qanday holatda javobgar ekanligini unutmasligi kerak.
- Vaqt o‘lchovlarini qisqartirish – baholash faoliyatini raqamlashtirish orqali so‘nggi texnologiyalardan foydalanish, xususan katta hajmli ma’lumotlar bilan ishlash, blockchain texnologiyalari, sun’iy intellekt algoritmlari va aqlli shartnomalar kabi innovatsion yechimlar yordamida baholovchilar o‘z kasblarini yanada ixchamroq va vaqt sarfini oldini oladilar. Lekin shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, qisqartirilgan baholash jarayoni baholovchining ish sifatiga salbiy ta’sir etmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Unlocking the Value of ESG: Report from the International Valuation Standard Council Alexander Aronsohn, FRICS Business Valuation Review (2022) 41 (3): 107–118. https://doi.org/10.5791/2163–8330–41.3.107.
2. The Big Market Delusion: Valuation and Investment Implications Brad Cornell, Aswath Damodaran March 2020 Financial Analysts Journal 76(2):1.
3. Valuation and Sustainability: A Guide to Include Environmental, Social, and Governance Data in Business Valuation Dejan Glavas June 2023 Publisher: Springer Nature ISBN: 978–3–031–30533–7.
4. Economic Valuation of Ecosystem Services Fatemeh Mohammadyari, Mohsen Tavakoli, Ardavan Zarandian, Behnam Asgari Lajayer August 2023 DOI:10.1007/978–3–031–35147–1_7.
5. Security Markets and Valuation August 2023 Benedicto Kulwizira Lukanima August 2023 DOI:10.1007/978–3–031–28267–6_4.
6. Цифровая экономика: 2019: краткий статистический сборник / Г. И. Абдрахманова, К. О. Вишневский, Л. М. Гохберг и др.; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”. М.: НИУ ВШЭ, 2019. 96 с.
7. https://www.mckinsey.com McKinsey xalqaro instituti rasmiy sayti ma’lumotlari.
8. https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/08/unempoyment/ Gazeta.uz internet-nashri ma’lumotlar.
9. Iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorovning 26–27 may Buxoro shahrida kambag‘allikni qisqartirish mavzusidagi xalqaro forumdagi nutqidan. 2022 y. kun.uz

MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA PEST TAHLIL USULINING AHAMIYATI VA QO‘LLASH IMKONIYATLARI



Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o‘g‘li
SamISI, “Marketing” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada marketing xizmati samaradorligini baholashda PEST tahlil usulining ahamiyati haqida muallif tomonidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Marketing xizmati har qanday korxonaning kelgusidagi faoliyatini yuqori natijalari aks etttirish uchun asosiy yo‘l hisoblanadi. Zero, marketing bu ichki va tashqi omillar asosida rivoj topadi. Shuning uchun marketing xizmati samaradorligini baholashda PEST tahlil usulini qo‘llash imkoniyati korxona kuchli va zaif tomonlari hamda tashqi muhit omillarining korxona faoliyatiga ta’sirini aniqlashda foydalanadi. Muallif tomonidan PEST tahlil usulining don va donni qayta ishlovchi korxonalar faoliyati tahlil qilingan, korxona marketing xizmati samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: marketing, marketing xizmati, marketing faoliyati, PEST tahlil, samaradorlik.

Abstract: This article presents the opinion of the author about the importance of the PEST analysis method in evaluating the effectiveness of the marketing service. Marketing service is the main way to reflect the high results of the future activities of any enterprise. After all, marketing develops based on these internal and external factors. Therefore, the ability to use the PEST analysis method in evaluating the effectiveness of marketing services is used to determine the company’s strengths and weaknesses, as well as the impact of external environmental factors on the company’s activities. The author analyzed the activities of grain and grain processing enterprises using the PEST analysis method, developed suggestions and recommendations for increasing the efficiency of the enterprise’s marketing service.

Key words: marketing, marketing service, marketing activity, PEST analysis, efficiency.

Аннотация: В данной статье изложено мнение автора о важности метода PEST-анализа в оценке эффективности маркетинговой службы. Маркетинговая служба – основной способ отразить высокие результаты будущей деятельности любого предприятия. Ведь маркетинг развивается на основе этих внутренних и внешних факторов. Поэтому возможность использовать метод PEST-анализа при оценке эффективности маркетинговых услуг используется для определения сильных и слабых сторон компании, а также влияния внешних факторов среды на деятельность компании. Автор проанализировал деятельность зерновых и зерноперерабатывающих предприятий с использованием метода PEST-анализа, разработал предложения и рекомендации по повышению эффективности маркетинговой службы предприятия.

Ключевые слова: маркетинг, маркетинговая служба, маркетинговая деятельность, PEST-анализ, эффективность.

KIRISH

Zamon rivojlanishi, insonlar ongining kamol topishi oqibatida jamiyatda juda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. O‘zgarishlarni amalga oshirish uchun esa tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Barcha sohalar kabi marketingni ham rivojlantirish, uning yangi sohalarini va imkoniyatlarini ochib berish uchun ham har bir korxona yoki tashkilot o‘z ravnaqi uchun tadiqoqtlarni olib borishadilar.

Qolaversa, iste’molchilarning ehtiyojlarining noziklashib, individuallashib borishi korxona va tashkilotlar oldida marketing xizmatlarini to‘g‘ri yo‘lga qoyishi, uni yanda takomillashitirishi zaruriyatini aks etadi. Korxonaning marketing bilan bog‘liq faoliyati bu uning marketing xizmati bo‘limi tomonidan amalga oshiriladigan holatdir. Don va donni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatining bozor tamoyillariga o‘tishi, ishlab chiqarishning xususiylashtirilishi, iste’molchilar uchun kurashning kuchayishi natijasida ushbu sohada ham bir muncha o‘zgarish amalga oshirildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-maydagi “G‘allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–262-sonli qarori[1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-oktabrdagi “Don, un va non yetkazib berish tizimiga bozor mexanizmlarini to‘liq joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 866-sonli qarorlari[2] asosida don va donni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatini xususiylashtirish, qolaversa, ularning faoliyatini erkin bozor narxlari asosida faoliyat olib borishini ta’minlash mexanizmlari ishlab chiqilib, korxonalar oldida o‘z iste’molchilari va potensial bozorlarini topishlari hamda mavjud bozorlar ustida yetarlicha ishlarini belgilab bermoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxona faoliyati takomillashtirish ayniqsa, marketing faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha A. I. Kovalev, V. V. Voylenkolar o‘zlarining tadqiqotlari doirasida “korxonaning marketing xizmati bo‘limi marketing tadqiqotlari o‘tkazish orqali korxonaning bugungi kundagi holati va kelajakdagi imkoniyatlarini belgilab olish maqsadida aniq reja va dastur yaratish imkoniga ega bo‘ladi” degan xulosaga kelishgan [1].

Korxonada marketing xizmati bo‘limining taktik va strategik rejalastirish imkoniyatini yaratishda turli usullar va uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Marketing xizmati bo‘limi faoliyatini takomillashtirishdan oldin uning qanchalik samarali faoliyat olib borayotganligi o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Zero, marketing xizmati samaradorligini aniqlagandan keyin uning eng muhim jihatlari takomillashtirilib, korxona faoliyatida foydalanadi.

Bu borada F. Kotler, K. L. Kellerlar o‘zlarining izlanishlarida quyidagilarni aytadi: kompaniyaning marketing xizmati samaradorligi marketing yo‘nalishining besh komponenti bilan tavsiflanadi: mijozlarga yo‘naltirilganlik (iste’molchining ehtiyojlari va istaklarini qondirish), marketing integratsiyasi (marketing xizmati bo‘limining boshqa asosiy bo‘limlar bilan integratsiyasi), axborotning yetarliligi (bozorni o‘z vaqtida o‘rganishi), strategiya (marketing rejalari va strategiyalarini ishlab chiqilishi) va operatsion samaradorlik (marketing resurslaridan samarali va moslashuvchan foydalanish). Aksariyat firmalar korxona faoliyati “o‘rtacha” va “yaxshi” deb baholanadi, bu kompaniya rahbariyati oldida marketing xizmati samaradorligini qanday yaxshilash haqida aniq tasavvurga ega ekanligini ko‘rsatadi [2].

Biz strategik marketing nazariyasining nufuzli ishlab chiquvchilari tomonidan taklif qilingan bir nechta konstruktiv ta’riflarni ko‘rsatishimiz mumkin. Shendel va Xetten buni “tashkilotni atrof-muhit bilan aniqlash va bog‘lash jarayoni, tanlangan maqsadlarni amalga oshirishdan va resurslarni taqsimlash orqali atrof-muhit bilan munosabatlarning istalgan holatiga erishishga intilishdan iborat bo‘lgan jarayon” deb hisoblashgan.

Ushbu strategik marketing vositasi bo‘lgan PEST tahlil usuli Garvard universiteti professori Frensis Agilar tomonidan 1967-yilda ishlab chiqilgan. Usul biznesga ta’sir qiluvchi tashqi sharoitlarni aniqlashga imkon beradi va ular kompaniyaning o‘z maqsadlariga erishishiga qanday to‘sqinlik qilishi yoki aksincha, korxona faoliyatini oshirishga hissa qo‘shishi mumkinligi haqida gap boradi. PEST tahlilidan foydalanib, kompaniya o‘z faoloiyatini 3 yildan 10 yilgacha bo‘lgan muddatda rejalashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Aslida, yangi holatlarni hisobga olish uchun prognoz har yili tuzatilishi kerak.

Korxonalarda marketing faoliyati bu korxona umumiy faoliyatining asosiy qismini tashkil qiladi. Zero, aynan, potensial bozor, maqsadli bozor, potensial iste’molchilarning ehtiyojlari kabi ko‘rsatkichlarni nazorat qilish, korxonaga ichki va tashqi muhit omillarining ta’siri o‘rganish asnosida marketing faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa korxonalarda marketing xizmati samaradorligini baholashda PEST tahlil usulining qo‘llanilishi bilan asoslanadi. Ayniqsa, erkin bozor xususiyatlariga o‘tgan don va don mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda bu muhimroq jarayonni taqozo etadi. Ushbu usul asosiy tendensiyalarni baholash uchun yangi mahsulotni chiqarishda potensial bozorni o‘rganish uchun ishlatiladi, shuningdek, xavf va imkoniyatlarni aniqlashga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Marketing tadqiqotlarini olib borish natijasida korxonaning yoki bozorning aniq iste’molchilarini aniqlash yoxud ularning xohish istaklari belgilab olinadi. Bunda korxona mahsulotlarining aniq iste’mol bozoriga yo‘naltirilganligi namoyon bo‘ladi. Marketing iste’molchilarni jalb qilish jarayonida muvaffaqiyatiga erishish vositasi sifatida korxonalar faoliyatida muhim rol tutadi. Lekin, marketing xizmati samaradorligi ko‘pincha e’tibordan chetda qolmoqda.

Marketingning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligini baholash muammosi turli mamlakatlar iqtisodiyotidan tortib, kichik shakldagi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatida alohida ahamiyat kasb

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-maydagi “G‘allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–262-sonli Qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/–6038081

2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-oktabrdagi “Don, un va non yetkazib berish tizimiga bozor mexanizmlarini to‘liq joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 866-sonli Qarori

etmoqda. Korxonaning marketing faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha yagona yondashuvni ishlab chiqish juda qiyindir. Shuning uchun marketing faoliyati samaradorligini boshqarish va baholash bo‘yicha mavjud yondashuvlarni ishlab chiqish va umumlashtirish juda dolzarbdir. Shu o‘rinda korxonaning marketing xizmati samaradorligi va marketing faoliyati samaradorligini bir xil tushunchani aks ettiradi. Biz tadqiqotimiz davomida ham ushbu tushunchalar mohiyatini bir xil holda degan xulosaga kelgan holda foydalanamiz.

Marketing faoliyati samaradorligini baholash istiqboldagi marketing harakatlarini boshqaradi va korxonaga o‘z maqsadlariga erishishda yordam beradi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: “Marketing faoliyati yoki xizmati samaradorligini nega baholash kerak? va bu qanday omillar asosida amalga oshiriladi?” Korxonaning marketing xizmati samaradorligini oshirishda

Marketing ham iqtisodiy ham ijtimoiy holatlarni qo‘llab-quvvatlashini hisobga olish maqsadga muvofiq. Marketingning nomoddiy foydalari – tovar haqida xabardorlikni oshirish va takomillashtirish; mahsulotning afzalliklari to‘g‘risida mijozlar va istiqbollarni o‘qitish; manfaatdor tomonlarning munosabatlarini mustahkamlash – uning moliyaviy ta’sirini o‘lchashni qiyin jarayonga aylantirishni oldini olish. Ideal holda, marketing samaradorligini o‘lchash kompaniyaning moliyaviy yilidan oldin sodir bo‘ladigan rejalashtirish va byudjetni rejalashtirishning mantiqiy davomi bo‘lishi kerak. Belgilangan maqsadlar ham o‘lchovli bo‘lishi, ham tashkilotdagi har qanday marketing rolida qo‘llanilishi kerak. Marketing xizmati samaradorligini o‘lchash va ushbu maqsadlarga muvofiqligini ta’minlash uchun kompaniyalar turli metodologiyalardan foydalanadilar.

Marketing faoliyati yoki xizmati samaradorligi ko‘rsatkichlari yoki asosiy ko‘rsatkichlar (KPI) nafaqat marketing bo‘yicha mutaxassislar, balki marketing bilan shug‘ullanmaydigan menejerlar uchun ham foydalidir. Boshqaruv direktoridan tortib savdo bo‘yicha vitse-prezidentgacha yuqori menejment jamoasi marketing faoliyati va sarf-xarajatlar kompaniyaning pastki qismiga qanday ta’sir qilishini aniqlash uchun marketing KPI-lariga muhtoj. Bu, ayniqsa, kompaniyalar iqtisodiy tang holati, pasayish va parchalanish davrida marketing byudjetini kamaytirishga moyil bo‘lganligi sababli juda muhimdir.

Marketing xizmati samaradorligi bir vaqtning ichki omildan tashqari tashqi muhit omillari ta’siri doirasida o‘zgaradi yoki qandaydir miqdorda ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari dinamikasini hosil qiladi. Aynan shu bilan bog‘liq jarayonlarda tashqi muhitning ta’sir doirasini aniqlash va unga to‘g‘ri baho bera olish imkoniyati PEST tahlil asosida o‘rganib boriladi.

Korxonaning strategik marketingini boshqarishning muhim bosqichi korxonalar faoliyati uchun marketing muhitini tahlil qilish va diagnostika qilishdir. Ushbu jarayonning uslubiy asosini zamonaviy strategik tahlil tashkil etadi, uning maqsadi tashqi va ichki muhitning muhim elementlarini va tashkilotning muqobil strategiyalarini tizimli o‘rganishdir [3].

PEST tahlili “omillar – korxona” sxemasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Natijalar matritsaga kiritiladi, bunda sub’yekt omillar, darajalar va shunga o‘xshash birliklarda ta’sir kuchi hisoblanadi. Har bir guruhdagi omillar to‘plami individual bo‘ladi. Bu korxonaning faoliyat sohasiga, mintaqaning xususiyatlariga va tahlil maqsadlariga bog‘liq [4].

Birinchi bosqichda uzoq muddatda kompaniya foydasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar ro‘yxati tuziladi. Don va don mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar uchun PEST tahlil omillarini quyidagicha aytish mumkin:

- **Siyosiy omillar:** Hukumatning istalgan darajasidagi saylovlarni o‘tkazishi; Siyosiy hokimiyat barqarorligi; Don mahsulotlarini sotish va ayirboshlashdagi turli cheklovlar; Qonunchilikdagi o‘zgarishlar (soliq, mehnat, sanoatdagi ishlarni tartibga solish va boshqalar); Xom ashyoga qo‘yiladigan cheklovlar; Korrupsiya darajasi, axborot erkinligi; Turli millatlararo tuzilmalarda davlat ishtiroki; Don va donni qayta ishlovchi korxonalarni huquqiy tartibga solish; Raqobatni davlat darajasida tartibga solish va xususiylashtirish; Import cheklovlari hajmi.
- **Iqtisodiy omillar:** YaIM dinamikasi, iqtisodiy o‘sish sur’ati; Inflyatsiya darajasi, davlat pul birligining barqarorligi; Qayta moliyalash stavkasi, asosiy valyutalarning kurslari; Ishsizlik darajasi, o‘rtacha ish haqi, aholining xarid qobiliyati; Soliq stavkalari; Energiya, xom ashyo va kommunikatsiya resurslarining narxi; Iqtisodiyotning ochiqlik darajasi.
- **Ijtimoiy omillar:** Turmush darajasi, ta’lim, sog‘liqni saqlash tizimi; Import qilinadigan tovarlarga, mehnatga, dam olishga bo‘lgan munosabat; Dinga va boshqa e’tiqodlarga munosabat; Xizmat va mahsulot sifatiga qo‘yiladigan talablar; Media ta’sir; Migratsiya darajasi va demografik o‘sish; Aholining don va don mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining munosabati.
- **Texnologik omillar:** Sanoatdagi innovatsiyalar darajasi; Texnologiyani rivojlantirish; Ilm-fan yutuqlari; Sanoatni texnologik rivojlantirish sohasidagi qonun hujjatlari va standartlar; Don va donni qayta ishlash korxonalarida texnologiyalardan foydalanish darajasi; Don va donni qayta ishlash korxonalarida texnologiyalarni kirita olish sharoitlari.

Yuqorida keltirilgan tashqi muhit omillarining korxona faoliyatiga ta’sir qiluvchi eng muhimlarini ajratib olamiz. Faoliyat natijalarini Samarqand viloyatidagi “Samarqand don mahsulotlari” AJ don va donni qayta ish-

lash korxonasi misolida bajaramiz. Mutaxassis sifatida omillarni aniqlab, ularning har birining ta'sir kuchini baholaymiz (1-jadval).

1-jadval: "Samarqand don mahsulotlari" AJ korxonasining PEST tahlili

№	Omil tavsifi	Omil ta'siri
1.	Siyosiy omillar:	10
1.1.	Don mahsulotlarini sotish va ayirboshlashdagi turli cheklovlar	3
1.2.	Xom ashyoga qo'yiladigan cheklovlar	3
1.3.	Korrupsiya darajasi, axborot erkinligi	1
1.4.	Don va donni qayta ishlovchi korxonalarni huquqiy tartibga solish	2
1.5.	Raqobatni davlat darajasida tartibga solish va xususiylashtirish	1
2.	Iqtisodiy omillar:	10
2.1.	YaIM dinamikasi, iqtisodiy o'sish sur'ati	2
2.2.	Inflyatsiya darajasi, davlat pul birligining barqarorligi	1
2.3.	Qayta moliyalash stavkasi, asosiy valyutalarning kurslari	1
2.4.	Ishsizlik darajasi, o'rtacha ish haqi, aholining xarid qobiliyati	3
2.5.	Energiya, xom ashyo va kommunikatsiya resurslarining narxi	3
3.	Ijtimoiy omillar:	10
3.1.	Turmush darajasi, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimi	1
3.2.	Import qilinadigan tovarlarga, mehnatga, dam olishga bo'lgan munosabat	2
3.3.	Migratsiya darajasi va demografik o'sish	3
3.4.	Media ta'sir	2
3.5.	Aholining don va don mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining munosabati.	2
4.	Texnologik omillar:	10
4.1.	Sanoatdagi innovatsiyalar darajasi	3
4.2.	Texnologiyani rivojlantirish	2
4.3.	Ilm-fan yutuqlari	1
4.4.	Sanoatni texnologik rivojlantirish sohasidagi qonun hujjatlari va standartlar	2
4.5.	Don va donni qayta ishlash korxonalarida texnologiyalardan foydalanish darajasi	2
	Jami	40

1-jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda omillarning o'zgarishi ehtimolini baholashimiz kerak. O'lchov birligi 1 dan 5 ballgacha beriladi. Baholash uchun ushbu faoliyat bilan shug'illanuvchi marketing mutaxassislaridan muayyan tajribaga ega bo'lgan bir nechta mutaxassislarni jalb qilish asosida expert baholari berildi. Ekspert baholash natijalari MS EXCEL dasturi yordamida qayta ishlov berildi (2-jadval).

2-jadval: PEST tahlil natijasida ta'sir qiladigan omillarning haqiqiy ahamiyati [5]

№	Omil tavsifi	Omil ta'siri	Ekspertlar bahosi					O'rtacha baho	Bahoning vazni
			1	2	3	4	5		
1.	Siyosiy omillar:	10							
1.1.	Don mahsulotlarini sotish va ayirboshlashdagi turli cheklovlar	3	5	5	5	4	4	4,6	0,3
1.2.	Xom ashyoga qo'yiladigan cheklovlar	3	4	4	5	5	5	4,6	0,3
1.3.	Korrupsiya darajasi, axborot erkinligi	1	3	3	3	3	3	3	0,1
1.4.	Don va donni qayta ishlovchi korxonalarni huquqiy tartibga solish	2	4	3	4	4	3	3,6	0,2
1.5.	Raqobatni davlat darajasida tartibga solish va xususiylashtirish	1	3	3	2	3	3	2,8	0,1
2.	Iqtisodiy omillar:	10							
2.1.	YaIM dinamikasi, iqtisodiy o'sish sur'ati	2	4	4	3	4	4	3,8	0,2
2.2.	Inflyatsiya darajasi, davlat pul birligining barqarorligi	1	4	3	3	4	4	3,6	0,1

2.3.	Qayta moliyalash stavkasi, asosiy valyutalarning kurslari	1	3	3	3	4	3	3,2	0,1
2.4.	Ishsizlik darajasi, o‘rtacha ish haqi, aholining xarid qobiliyati	3	5	4	5	5	5	4,8	0,4
2.5.	Energiya, xom ashyo va kommunikatsiya resurslarining narxi	3	5	5	5	5	5	5	0,4
3.	Ijtimoiy omillar:	10							
3.1.	Turmush darajasi, ta’lim, sog‘liqni saqlash tizimi	1	3	3	4	3	4	3,4	0,1
3.2.	Import qilinadigan tovarlarga, mehnatga, dam olishga bo‘lgan munosabat	2	4	4	3	3	3	3,4	0,2
3.3.	Migratsiya darajasi va demografik o‘sish	3	5	5	5	5	5	5	0,4
3.4.	Media ta’sir	2	4	3	3	4	4	3,6	0,2
3.5.	Aholining don va don mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining munosabati.	2	4	3	3	4	4	3,6	0,2
4.	Texnologik omillar:	10							
4.1.	Sanoatdagi innovatsiyalar darajasi	3	5	5	4	5	5	4,8	0,4
4.2.	Texnologiyani rivojlantirish	2	3	4	4	4	4	3,8	0,2
4.3.	Ilm-fan yutuqlari	1	3	4	3	3	4	3,4	0,1
4.4.	Sanoatni texnologik rivojlantirish sohasidagi qonun hujjatlari va standartlar	2	4	4	4	3	4	3,8	0,2
4.5.	Don va donni qayta ishlash korxonalarida texnologiyalardan foydalanish darajasi	2	4	4	3	4	4	3,8	0,2
	JAMI:	40							

Baholarning o‘rtacha arifmetik qiymati SRZNACh funksiyasi yordamida hisoblab chiqilgan. Shundan so‘ng, 2-jadval ma’lumotlari asosida har bir omilning haqiqiy ahamiyatini baholashimiz kerak. Bu holat pirovardida korxona uchun qolaversa, marketing xizmatini ko‘rsatish davrida u yoki bu omillarga qanchalik e’tibor berish va nazorat qilish kerakligini aniqlash imkonini beradi.

Baholashning vazni bo‘yicha hisoblangan ball qanchalik baland bo‘lsa, bu omilni zararsizlantirishga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Keyingi bosqich hisob-kitoblarni matritsa shakliga keltirishdir. Omillarni kamayish tartibida joylashtirish lozim (3-jadval).

3-jadval: “Samarqand don mahsulotlari” AJ ga ta’sir qiluvchi tashqi omillar baholash vazni bo‘yicha ketma-ketligi

Siyosiy omillar		Iqtisodiy omillar	
Don mahsulotlarini sotish va ayirboshlashdagi turli cheklovlar	0,3	Energiya, xom ashyo va kommunikatsiya resurslarining narxi	0,4
Xom ashyoga qo‘yiladigan cheklovlar	0,3	Ishsizlik darajasi, o‘rtacha ish haqi, aholining xarid qobiliyati	0,4
Don va donni qayta ishlovchi korxonalarni huquqiy tartibga solish	0,2	YaIM dinamikasi, iqtisodiy o‘sish sur’ati	0,2
Korrupsiya darajasi, axborot erkinligi	0,1	Inflyatsiya darajasi, davlat pul birligining barqarorligi	0,1
Raqobatni davlat darajasida tartibga solish va xususiylashtirish	0,1	Qayta moliyalash stavkasi, asosiy valyutalarning kurslari	0,1
Ijtimoiy omillar		**Texnologik omillar**	
Migratsiya darajasi va demografik o‘sish	0,4	Sanoatdagi innovatsiyalar darajasi	0,4
Aholining don va don mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining munosabati	0,2	Don va donni qayta ishlash korxonalarida texnologiyalardan foydalanish darajasi	0,2
Media ta’sir	0,2	Sanoatni texnologik rivojlantirish sohasidagi qonun hujjatlari va standartlar	0,2
Import qilinadigan tovarlarga, mehnatga, dam olishga bo‘lgan munosabat	0,2	Texnologiyani rivojlantirish	0,2
Turmush darajasi, ta’lim, sog‘liqni saqlash tizimi	0,1	Ilm-fan yutuqlari	0,1

3-jadval ma'lumotlarini tahlil qilgan holda "Samarqand don mahsulotlari" AJ korxonasining marketing strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tadqiqot natijasida korxona faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarning haqiqiy ahamiyatini inobatga olgan holda korxonaning tashqi muhit omillariga ta'sirini yumshatish uchun marketing strategiyasi ishlab chiqilishi korxona marketing bo'limi xizmati samaradorligini oshirishga imkon beradi. Hamda ushbu marketing strategiyasi orqali korxona tashqi muhit omillarini hisobga olgan holda rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida muallif tomonidan olib borilgan va qayta hisoblangan PEST tahlil natijasi asosida korxonaning marketing strategiyasi ishlab chiqish taklif etildi (4-jadval).

Bosh strategiya: Iste'molchilarga raqobatchilarnikiga qaraganda yuqori sifatli sanoat mahsulotlarini taqdim etish yo'li bilan bozorda mustahkam o'rin egallash.

4-jadval: "Samarqand don mahsulotlari" AJ ning PEST tahlil natijalari asosida marketing strategiyasi [6]

1.	Siyosiy omillarni yumshatish strategiyasi	2.	Iqtisodiy omillarni barqarorlashtirish strategiyasi
1.1.	xom ashyoga qo'yiladigan cheklovlarni hisobga olgan holda urug'lik g'alla miqdorini optimallashtirish;	2.1.	energiya, xom ashyo va kommunikatsiya resurslarining narxini barqarorlashtirish;
1.2.	urug'lik g'alla yetishtirish va qayta ishlash tizimini takomillashtirish;	2.2.	aholining xarid qobiliyatida don va un mahsulotlari hajmini hisobga olish;
1.3.	don va donni qayta ishlovchi korxonalarni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish, javobgarlikni oshirish.	2.3.	YaIM dinamikasi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining sanoat korxonalariga ta'sirini aniqlash.
3.	Ijtimoiy omillar differensiatsiyasi strategiyasi	4.	Texnologik omillarning konsentrik diversifikasiya strategiyasi
3.1.	Migratsiya darajasi va demografik o'sishning differensiatsiya qilish yoki guruhlarga bo'lish;	4.1.	Sanoatdagi innovatsiyalarning korxona faoliyatiga konsentratsiyasi;
3.2.	Aholining don va don mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining tabaqalanishi.	4.2.	Don va donni qayta ishlash korxonalarida texnologiyalardan foydalanishni o'zgartirib borish.

4-jadval ma'lumotlari asosida korxonaning rivojlanish strategiyalari ishlab chiqildi. Ushbu ishlab chiqilgan strategiyalar korxona tashqi muhit omillarining eng muhimlarini korxonaga ta'sirini yumshatish uchun ishlab chiqildi. Strategiyalardan foydalanish korxona marketing xizmatini yengillatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, strategiyalardan oqilona foydalanish korxona marketing xizmati samaradorligini oshirish mumkinligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ковалев А. И., Войленко В. В. Маркетинговый анализ. -М.: Центр экономики и маркетинга. - Изд. 2-е, перераб. и доп., 2000.
2. Котлер Ф., Келлер К. Л. Маркетинг менеджмент: Экспресс-курс. 3-е изд. / пер с англ. под науч. ред. С. Г. Жильцова. Санкт-Петербург, 2007. С. 475. 115 bet.
3. Современный стратегический анализ: учебное пособие / Под ред. П. В. Иванова. – Ростов н/Д: Феникс, 2014. – 589 с.
4. https://exceltable.com/otchety/pest-analiz-makrosredy
5. PEST tahlil omillarini hisoblash natijasida muallif ishlanmasi.
6. PEST tahlil natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan marketing strategiyasi.

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING VUJUDGA KELISH ZARURATI, UMUMIY HISOBOTLARINING TUZILISHI VA O‘ZBEKISTONNING MHXSGA O‘TISHIDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI



Djurayeva Iroda Bahrom qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti, ISFT o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining vujudga kelishi, uning sabablari, qo‘llanilish doirasida izlanishlar yoritiladi. O‘zbekistonda yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan tadbirkorlik subyektlarining buxgalteriya hisobining milliy standartidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha hisobot tayyorlashining ahamiyati, zarurati va bu jarayonda duch keladigan muammolar va ularning yechimlari haqida qisqacha izlanishlar olib boriladi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilib, muallifning o‘z xulosalari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: yirik soliq to‘lovchilar toifasi, Moliyaviy hisobot standartlari, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari, investor, investitsion qaror, ACCA, audit va konsalting.

Abstract: This article covers research on the emergence of international standards of financial reporting, its causes, and application. A brief research is carried out on the importance and necessity of preparing a report on the international standards of financial reporting from the national standard of accounting of business entities included in the category of large taxpayers in Uzbekistan, as well as the problems encountered in this process and their solutions. Also, the experience of foreign countries is studied and the author's own conclusions are presented.

Key words: large taxpayer category, Financial Reporting Standards, National Accounting Standards, investor, investment decision, ACCA, audit and consulting.

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования возникновения международных стандартов финансовой отчетности, их причин и применения. Проведено краткое исследование о важности и необходимости подготовки отчета по международным стандартам финансовой отчетности на основе национального стандарта бухгалтерского учета субъектов хозяйствования, входящих в категорию крупных налогоплательщиков в Узбекистане, а также проблем, возникающих при этом процессе. и их решения. Также изучен опыт зарубежных стран и представлены собственные выводы автора.

Ключевые слова: категория крупных налогоплательщиков, стандарты финансовой отчетности, национальные стандарты бухгалтерского учета, инвестор, инвестиционное решение, ACCA, аудит и консалтинг.

KIRISH

Covid–19 pandemiyasidan keyin, dunyoning barcha mamlakatlarida investitsiya oqimimining sekinlashuv jarayoni kuzatildi. Bu o‘z navbatida iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jarayonlaridagi o‘zgarishlarga, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sustlashuviga sabab bo‘ldi. Shu jumladan O‘zbekiston iqtisodiyotining bu pandemiya davridan keying holatida ham kuzatish mumkin. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichi Yalpi ichki mahsulot (YAIM) hisoblanadi, fuqarolar uchun byudjet iqtisodiy prognozlarida uning yillar kesimida muntazam o‘sishini, biroq pandemiyadan keying davrda uning o‘zgarishini sekinlashuvini kuzatishimiz

mumkin. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun kapital qo‘yilmalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni oshirish zarur. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni ularga aniqroq va tushunarliroq bo‘lgan ishonchli axborot bilan ta’minlashga erishiladi. Buning natijasida xorijiy investitsiya oqimining o‘sishiga va xalqaro bozorlarga kirib borish imkoniyatlari kengayadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari-bu korxonaning iqtisodiy, ishlab chiqarish va moliyaviy holatini aks ettiruvchi hujjatlar to‘plami. Yanayam kengroq qilib yoritilganda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) – bu buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari to‘plami bo‘lib, unda operatsiyalarning o‘ziga xos turlari va boshqa hodisalar moliyaviy hisobotda qanday aks ettirilishi kerakligi ko‘rsatilgan. MHXS xalqaro moliyaviy hisobot standartlari Kengashi tomonidan e’lon qilinadi va ular buxgalterlar hisoblarni qanday yuritishi va taqdim etishi kerakligini aniq belgilaydi. MHXS buxgalteriya hisobining “umumiy tili” ga ega bo‘lish uchun yaratilgan, chunki biznes standartlari va buxgalteriya hisobi kompaniyadan kompaniyaga va mamlakatdan mamlakatga farq qilishi mumkin.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

MHXS XX asrning ikkinchi yarmida biznesni, moliyaviy bozorlarni va soliq nazoratini soddalashtirish natijasida paydo bo‘ldi, bu esa buxgalteriya hisobining yagona, umume’tirof etilgan qoidalarini talab qildi. 1973 yilda Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Irlandiya, Yaponiya, Meksika va Qo‘shma Shtatlar ishtirokida Xalqaro moliyaviy standartlar qo‘mitasi tashkil etildi (2001 yilda Kengashga aylantirildi), asosiy vazifa buxgalteriya hisobining hisobot berish tamoyillarini ishlab chiqish edi. Umuman olganda, MHXS Xalqaro standartlar bo‘yicha hisobot berishning asosiy maqsadi aksiyadorlar, investorlar va kontragentlar kabi tartibga soluvchilarga qaratilgan emas, balki investorlarni jalb qilish va biznesning shaffofligini namoyish etishdir.

1993-yilda qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha komissiyalar xalqaro tashkiloti (IOSCO) yirik fond birjalarida xalqaro moliyaviy standartlarda hisobot berish g‘oyasini ilgari surishni boshladi. 2002 yil mart oyida Yevropa Ittifoqi Yevropa fond birjalarida ro‘yxatga olingan barcha kompaniyalarni 2005 yildan boshlab MHXS bo‘yicha konsolidatsiyalangan hisobotlarni tayyorlashni shart etib qo‘ydi.

AQSHda kompaniyalarning dastlabki milliy standartlardan (US GAAP) xalqaro standartlarga o‘tish rejasi 2008 yilda taqdim etilgan, ammo bu yo‘nalishdagi faoliyat 2011 yilda to‘xtab qoldi, 2013-yilda qayta tiklandi. Biroq, barcha kompaniyalar hali ham MHXS bo‘yicha hisobot bermaydilar.

Hozirgacha MHXS standartlarini qo‘llayotgan yurisdiksiyalar soni 168 taga yetdi1. Buning eng asosiy omillari etib albatta globalizatsiyalashuv jarayoni ya’ni xalqaro bozorlarning ko‘payishi, bu bozorda raqobatning kuchayishi deb aytishimiz mumkin. Raqobatlashuv jarayoni natijasida tadbirkorlik subyektlarining asosiy maqsadi nafaqat iste’molchilarni jalb etish, balki investorlarning qiziqishini orttirish bo‘lib, ularni jalb etish yo‘llaridan eng muhimlaridan biri bo‘lib, xalqaro tan olingan haqqoniylikka, ochiqlikka yondashilgan hisobotni taqdim etishdir. Shu sababdan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4611-son qarori MHXSga o‘tishning yangi bosqichini boshlab berdi. Shu sababdan, ushbu mavzu tadqiqot uchun tanlab olindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini tadbirkorlik subyektlarida joriy etish muammolari va istiqbolli yo‘nalishlari masalasini tahlil qilish va o‘rganish jarayonida analiz, sintez va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyot transchegaraviy operatsiyalarga va xalqaro kapitalning erkin oqimiga moslashib bormoqda. Barcha moliyaviy operatsiyalarning uchdan biridan ko‘prog‘i chegaralar bo‘ylab sodir bo‘ladi va bu raqamlarning o‘sishi kuzatilmoqda.

Hozirda investorlar butun dunyo bo‘ylab diversifikatsiya va investitsiya imkoniyatlarini izlaydilar, kompaniyalar esa kapitalni jalb qilishga harakat qiladi, bitimlar tuzadilar yoki bir nechta mamlakatlarda xalqaro operatsiyalar va sho‘ba korxonalarga ega bo‘lishga intilmoqdalar.

Xalqaro moliyaviy standartlar yaratilishidan oldin, bunday transchegaraviy faoliyat turli mamlakatlar tomonidan o‘zlarining milliy buxgalteriya standartlarini saqlab qolish bilan murakkablashdi. Buxgalteriya hisobi talablarining ushbu kamchiliklari ko‘pincha birinchidan, moliyaviy hisobotlarni tayyorlaydigan kompaniyalar, ikkinchidan ushbu moliyaviy hisobotlardan foydalanadigan investorlar uchun ya’ni iqtisodiy qarorlarni qabul

1 Ifrs. org

qilish uchun noaniqlikni keltirib chiqaradi. Buning oqibatlari esa xarajatlarni, murakkablikni va oxir-oqibat xavfni qo‘shib boradi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini qo‘llash moliyaviy hisobotda ko‘rsatilgan summalar boshqa asosda hisoblanishi mumkinligini anglatadi. Ushbu murakkablikni bartaraf etish buxgalteriya hisobining milliy standartlarining asosini o‘rganishni o‘z ichiga olgan, chunki talablarning kichik farqi ham kompaniyaning hisobot qilingan moliyaviy ko‘rsatkichlari va moliyaviy holatiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, kompaniya buxgalteriya hisobining milliy standartlarining asosida yo‘qotishlarining bir to‘plami bo‘yicha foydani tan olishi mumkin.

Xalqaro buxgalteriya standartlari ushbu muammoni butun dunyo bo‘ylab moliya bozorlariga shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni olib keladigan yuqori sifatli, xalqaro miqyosda tan olingan buxgalteriya standartlari to‘plamini taqdim etish orqali hal qilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, buxgalteriya standartlari moliyaviy ma’lumotlarning xalqaro taqqoslanishi va sifatini oshirish, investorlar va bozorning boshqa ishtirokchilariga iqtisodiy qarorlarni qabul qilish imkoniyatini berish orqali shaffoflikni keltirib chiqaradi.

MHXS buxgalteriya standartlari kapital yetkazib beruvchilar va pullarini ishonib topshirgan odamlar o‘rtasidagi axborot farqini kamaytirish orqali javobgarlikni kuchaytiradi. Ushbu standartlarda boshqaruvni hisobga olish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi. Global taqqoslanadigan ma’lumot manbayi sifatida xalqaro buxgalteriya standartlari butun dunyo bo‘ylab auditorlar, soliq idoralari va mamlakat iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarni o‘rganuvchi vazirliklar uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari uning yana bir imkoniyati shuki, u investorlarga butun dunyo bo‘ylab imkoniyatlar va xavflarni aniqlashda yordam berish orqali iqtisodiy samaradorlikka hissa qo‘shadi va shu bilan kapital taqsimotini yaxshilaydi. Korxonalar uchun yagona, ishonchli buxgalteriya tilidan foydalanish kapital narxini pasaytiradi va xalqaro hisobot xarajatlarini kamaytiradi.


Albatta milliy hisob tizimidan xalqaro buxgalteriya standartiga o‘tish xarajat va kuch sarflamasdan amalga oshmaydi- Hisobot kompaniyalari, odatda, ularning tizimlari va amaliyotida kamida ba’zi o‘zgartirish kerak bo‘ladi;

- investorlar va boshqalar moliyaviy jadvallar yordamida ular qabul qilingan axborot o‘zgarishini tahlil qilish kerak;
- va qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari hisobotlari va buxgalteriya mutaxassislari o‘z tartibida o‘zgartirishlar kiritishi kerak.

Ammo MHXS buxgalteriya standartlarini qabul qilish orqali yurisdiktsiyalarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va tahlillar kapital bozorlariga sof foyda keltirganligini isbotlamoqda2.

Hujjatlashtirilgan imtiyozlarga ba’zi kompaniyalar uchun kapitalning arzonligi va xalqaro buxgalteriya standartlarini qabul qiladigan yurisdiktsiyalarga investitsiyalarning ko‘payishi kiradi. Ba’zi kompaniyalar, shuningdek, o‘zlarining ichki hisobotlarida xalqaro buxgalteriya standartlaridan foydalanish, turli yurisdiktsiyalardagi operatsion birliklarni taqqoslash qobiliyatini yaxshilash, turli xil hisobot tizimlari sonini kamaytirish va xalqaro buxgalteriya standartlari tajribasi bilan xodimlarni ko‘chirish moslashuvchanligi haqida xabar berishadi.

2010-yildan beri IFRS buxgalteriya standartlaridan foydalanish ixtiyoriy bo‘lgan Yaponiyada xalqaro buxgalteriya standartlarini qabul qilishni tanlaganining asosiy sabablari sifatida biznes samaradorligi, taqqoslashning yaxshilanishi va xalqaro investorlar bilan yaxshi aloqalarni aniqladi.



1-rasm: Mintaqalar bo‘yicha IFRS standartlaridan foydalanishni talab qiladigan profilli yurisdiksiyalar[3]

2 Ifrs. org
3 Ifrs. org


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

IOSCO 2000 yilda o‘z a’zolariga IFRS buxgalteriya standartlarini transchegaraviy takliflar uchun birjalarida foydalanishga ruxsat berishni tavsiya qilganida, global buxgalteriya standartlarining afzalliklarini tan oldi.

Shu vaqtdan boshlab IFRS buxgalteriya standartlari rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda keng qo‘llaniladigan moliyaviy hisobotning amalda global tiliga aylandi.


Bizning tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, 145-yurisdiktsiyalar endi barcha yoki eng ommaviy ro‘yxatga olingan kompaniyalar uchun IFRS buxgalteriya standartlaridan foydalanishni talab qiladi, shu bilan birga 13-yurisdiktsiyalari undan foydalanishga ruxsat beradi.

Buni foizlardagi ifodasi quyidagicha:



2-rasm: IFRS Yurisdiksiyalarining foizdagi tarkibiy ulushi

Bundan ko‘rinib turibdiki, IFRS standartlarini qo‘llash global tusga kirib bo‘lgan. IFRS Foundation uch bosqichli boshqaruv tuzilmasiga ega bo‘lib, ikkita mustaqil standartlarni belgilash bo‘yicha ekspertlar Kengashiga asoslangan (xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi va xalqaro barqarorlik standartlari kengashi), butun dunyo bo‘ylab ishonchli shaxslar tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi (IFRS Foundation homiylari), ular o‘z navbatida davlat hokimiyati organlarining monitoring kengashi (IFRS Foundation Monitoring Kengashi) bilan faoliyat olib boradi. IFRS Vasiylik Kengashi standartlarida xalqaro buxgalteriya maslahat beradi, shu bilan birga kengashlar boshqa bir qator doimiy maslahat organlari va talqini guruhlari bilan keng muhokama qilinadi.



3-rasm: Xalqaro tartibga solish tizimining tuzilishi[4]

IFRS buxgalteriya operatsiyalarining keng doirasini qamrab oladi. IFRS majburiy qoidalarni belgilaydigan biznes amaliyotining ba’zi jihatlari mavjud. Bularga moliyaviy hisobot elementlari, IFRS tamoyillari va asosiy hisobot turlari kiradi. IFRSga muvofiq moliyaviy hisobot elementlari: aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlar.

IFRSga muvofiq hisobotlarda 4 ta hisobot bo‘lishi kerak:

- Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot: u balans deb ham ataladi. IFRS muvozanat tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligiga ta’sir qiladi.
- Jami daromadlar to‘g‘risidagi hisobot: bu bitta shakl bo‘lishi mumkin yoki uni IFRS daromadlari to‘g‘risidagi hisobot va boshqa daromadlar, shu jumladan mulk va jihozlar to‘g‘risidagi hisobotga bo‘lish mumkin.
- Kapitalning o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot: taqsimlanmagan foyda to‘g‘risidagi hisobot sifatida ham tanilgan. Bu ma’lum bir moliyaviy davrda foyda o‘zgarishini aks ettiradi.

4 FA_Kaplan Study_Text_2022–23_compressed

- Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot: ushbu hisobot kompaniyaning ma’lum bir davrdagi moliyaviy operatsiyalarini umumlashtiradi, pul oqimlari operatsion faoliyat, investitsiyalar va moliyalashtirish oqimlariga bo‘linadi. Ushbu hisobot bo‘yicha tavsiyalar IFRS 7 da keltirilgan.

Ushbu asosiy hisobotlardan tashqari, kompaniya o‘z hisob siyosatining qisqacha mazmuni bilan ilovalarni ham taqdim etishi kerak. Foyda va zararlardagi o‘zgarishlarni ko‘rsatish uchun to‘liq hisobot ko‘pincha oldingi hisobotga nisbatan ko‘rib chiqiladi. Bosh kompaniya har bir sho‘ba korxonasi uchun alohida hisobotlarni, shuningdek IFRSning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarini tuzishi kerak. Hozirda 2000-yillar boshidan audit va konsalting xalqaro shirkatlari bo‘lmish “katta to‘rtlik” (PwC, Ernst & Young, Deloitte, KPMG) MHXS va Auditning Xalqaro andozalari talablariga binoan O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelmoqda.

1-jadval: O‘zbekistonda MHXS tasdiqlash

Mahalliy kompaniyalar uchun qaysi IFRS buxgalteriya standartlari talab qilinadi yoki ruxsat etiladi?	Xalqaro buxgalteriya standartlari Kengashi tomonidan chiqarilgan IFRS standartlari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tasdiqlangan standartlar.
Auditorlik xulosasi va/yoki taqdimot izohi asosida moliyaviy hisobotlar quyidagilarga muvofiq tayyorlanganligi ko‘rsatilgan:	IFRS standartlarini qo‘llaydigan moliyaviy hisobotlarni tayyorlaydigan kompaniyalar uchun auditorlik hisobotida IFRS standartlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan.
Auditorlik hisoboti va/yoki tayyorgarlik izohining asosi ‘ikki tomonlama hisobot’ (UFRS buxgalteriya standartlari va yurisdiktsiya GAAP bilan muvofiqligi) ga ruxsat beradimi?	Yo‘q
IFRS buxgalteriya standartlari qonun yoki qoidalarga kiritilganmi? Ha bo‘lsa, bu jarayon qanday ishlaydi?	Ha O‘zbekistonda IFRS standartlaridan normativ hujjat sifatida foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-sonli qarorini tasdiqlash to‘g‘risida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va ularga izohlarni tan olish tartibi to‘g‘risidagi Nizom qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasida IFRS standartlari Moliya vazirligining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.
Agar yo‘q bo‘lsa, qanday qilib IFRS buxgalteriya standartlari yurisdiktsiyada talabga aylanadi?	Qo‘llanilmaydi
Yurisdiktsiya yangi yoki o‘zgartirilgan IFRS buxgalteriya standartlarini (shu jumladan talqinlarni) tasdiqlash yoki qabul qilish uchun rasmiy jarayonga egami?	IFRS standartlarini huquqiy hujjatlar sifatida e’tirof etish uchun 24 yil 2020 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari va ularni sharhlash to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash va ularni qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi 507-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan Vazirlar Mahkamasi IFRS standartlarini va IFRS bilan birga keladigan hujjatlarni tan olish tartibini tasdiqladi. Ushbu qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida qabul qilinadigan IFRS standartlari va talqinlari kiritilgan. Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi tomonidan chiqarilgan quyidagi hujjatlarda: * IFRS standartlari, shu jumladan har qanday yangi IFRS standartlari. * IFRS standartlarini talqin qilish; * IFRS standartlariga o‘zgartirishlar; *Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida belgilangan boshqa hujjatlar

Bu jarayon bosqichlarida quyidagi muammolar vujudga kelishi kuzatilmoqda:

- Mutaxasislar va o‘quv qo‘llanmalari yetishmovchiligini ko‘ramiz. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan hisobchi, soliq va moliya mutaxassislarining ko‘pchilik qismi MHXS bo‘yicha yetarli bilimga ega emas edi.
- Buning ustiga MHXS hujjatlari o‘zbek tilida qo‘llash uchun doimiy yangilangan versiyasi taqdim etilmadi.
- Xalqaro buxgalteriya hisobotlari standartlarining hammasini buxgalteriya hisobining milliy standartlariga moslashtirishdagi muvozanatsizliklar.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishda qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiy holat. Eng muhimi, ushbu qiyinchiliklar ortidan erishiladigan foydali jihatlarni tasavvur qilish muhim sanaladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning tatbiq etilishi hisobning yagona usullarini qo‘llash orqali kompaniyalarni ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, manfaatdor tomonlarga korxonaning moliyaviy holati to‘g‘risida ma’lumot berish va kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Yangi qoidalar bosh buxgalterni o‘zi ishlab turgan tashkilot biznesini iqtisodchi va moliyachi tarzida tushunishga majburlaydi. MHXSning yana bir ahamiyatli xususiyatini aytib o‘tamiz, bu andozalar korxona rahbarlarini moliyaviy hisobot va shuningdek buxgalteriya hisoboti bilan ko‘proq qiziqishga undaydi, zero MHXS talablariga binoan hisoblangan ko‘rsatkichlar rahbarlarning mukofot to‘lovlarini yoki ularni rahbarlikda qoldirish-qoldirmaslik qarorlarini belgilaydi. Kompaniyalarning xalqaro bozorlarga chiqishi, shuningdek, salohiyatli investorlarni jalb qilishda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi va u hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 2020-yil fevral, 4611-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24-yil 2020-avgustdagi 507-sonli qarorini tasdiqlash to‘g‘risida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va ularga izohlarni tan olish tartibi to‘g‘risidagi Nizom.
3. “Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari”. Tarjima. A. Rizaqulov, B. Xasanov, A. Usanov, Z. Mamatov. T.: – 2004.
4. Tashnazarov S. Xalqaro hisob asoslari. Ma’ruza matni. SamISI, 2008. – 210 b.
5. M. Bonham and others. Generally accepted Accounting practice under IFRS. Ernst & Young LLP, United States, 2010. – part 1. PFA_Kaplan Study_Text_2022–23_compressed 2021_2022_F3_FFA_FA_Financial_Accounting_P_R_Kit_compressed. pdf

Internet saytlari

6. www. Lex. uz
7. www. Ifrs. org
8. Kun. uz Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga qanday o‘tiladi
9. finacademy. net/materials/article/chto-takoe-msfo
10. www. 1cashflow. ru/standarty-otchetnosti-msfo

SAMARADORLIKNI KORXONA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI



Fayziyeva Nilufar Shuxrat qizi
PhD, Toshkent moliya instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish qay darajada muhimligi, faoliyat natijasining esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat va jamiyatga tasir ko‘rsatishi qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Korxona, samaradorlik, fan-texnika taraqqiyoti, modernizatsiya, ishlab chiqarish, ishlab chiqarish smaradorligi.

Abstract: This article briefly describes the importance of the effective organization of enterprise activities, and the direct impact of the activity results on the state and society.

Key words: Enterprise, efficiency, scientific and technical development, modernization, production, production efficiency.

Аннотация: В данной статье кратко описывается значение эффективной организации деятельности предприятия, а также непосредственное влияние результатов деятельности на государство и общество.

Ключевые слова: Предприятие, эффективность, научно-техническое развитие, модернизация, производство, эффективность производства.

KIRISH

Hozirgi mamlakatni modernizatsiyalashtirish sharoitida, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo‘jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir.

Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida samaradorlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo‘lmasligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo‘qotish bilan izohlash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

B. A. Abdukarimov, A. N. Jabriyev, I. R. Zugurov “Korxona iqtisodiyoti” asarida, Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o‘zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o‘sishi, aholi sog‘lig‘ining yaxshilanishi va umr ko‘rishining uzayishida aks ettiriladi, degan fikrlarni bildirishgan.

Y. I. Rostova esa, Xorijiy firma va korxonalar o‘z faoliyatlarida samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga e’tiborni kuchaytirishdan tashqari, mahsulot sifatini oshirish va uni reklama qilishga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Masalan, Yaponiyaning “Omron” firmasi o‘ziga “Barchaning yaxshi hayoti, yaxshi dunyo uchun” degan iborani shior qilib olgan. Amerikaning “Katerpiller” kompaniyasining shiori “Dunyoning har bir burchagida 48 soat xizmat ko‘rsatish” bo‘lsa “Ribok” firmasi “Yaxshi bahodagi narx” iborasini shior qilib olgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib kelgan va hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo‘llar bilan foydalanish mumkin:

- Ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda kompleks ravishdagi mexanizatsiyalashtirish;

- Asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;
- Progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo‘naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;
- Xom ashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;
- Ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;
- Ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amrimahol. Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina hohish va istaklarning o‘zigina yetarli emas. Buning uchun birinchidan pul mablag‘larini va boshqa zarur bo‘lgan resurslar (investitsiyalar) izlab topish, ikkinchidan, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlamalarga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalarni “bog‘lash”, uchinchidan, o‘z ilmiy texnikaviy maqsadlarining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi.

Erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish chuqur islohrtlarni amalga oshirishni talab kiladi. Barcha korxona ishlab chiqarishni intensivlashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirilishi zarur. Samarali tashkil etilgan iqtisodiyotga o‘tish har tomonlama rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari bilan ta’minlangan bo‘lishi lozimr

Bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan korxonalar kelajakdagi ishplab chiqarishni rivojlantirishga yetarli e’tibor bera boshlaydilar. Yangi texnikalarga, ishlab chiqarishni yangilashga, yangi mahsulotlarni o‘zlashtirishga va ishlab chiqarishga zaruriy vositalarni yo‘llaydilar. Undan tashqari, tashkiliy shart-sharoitlar va omillar, konstruktorlar, injenerlar, ishchilar ijodiy mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy motivlar yaratish zarur. Texnik va texnologik yangilanishlar, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar mehnat unumdorligining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishni ta’minlash, ishlab chiqarish, mehnatni ilmiy tashkil etishning progressiv shakllarini joriy qilish, uni me’yorlashni takomillashtirish, mehnat madaniyatini oshirish, tartib-intizomga zrishish mehnat jamoasining barqarorligani ta’minlash lozim.

Mamlakatimizdagi korxonalrninng turli tumanligi va yildan yilga o‘sib borayotganligi buning isboti. Shunday ekan har bir turdagi korxonalar o‘z samaradorligini oshirish yo‘llarini izlab topishi kerak va buning bir qator yo‘llari mavjutdir.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida mavjud ishlab chiqarish salohiyati – asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko‘rsatish mumkin. Bundan tashqari ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya’ni korxonaning bugungi egalaridan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Erkin bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligiii oshiruvchi barcha omillarning ta’sir qilish imkoniyati sezilarli o‘zgaradi. Xalq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshiriladi.U iste’molchilar talabidan kelib chiqib, unga moslashtiriladi;

- xalq xo‘jaligishshg muhim tarmoqdari -sanoat, kurilish, transport va aloqa yuqori texnologiyalar asosida zamonaviylashtiriladi;
- jaxon fan-texnika taraqqiyoti darajasiga tenglashtiriladi;
- harbiy ishlab chiqarish konversiyalanadi;
- turli mulk shakllariga (davlat, xususiy, aktsionerlik va jamoa mulkchiligiga) asoslangan ko‘p ukladli iqtisodiyotga o‘tiladi;
- xo‘jalik yuritishning barcha shakllari erkin rivojlantariladi;
- iqtisodiyot moliyaviy sog‘lomlashtiriladi;
- mamlakat xalqaro aloqalarga uzviy bog‘lanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy omillar, jumladan, boshqaruv ham muhim o‘ringa ega. Ularning ahmiyati ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi va xo‘jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o‘rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish-konsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin. Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag‘batlantirishning usul va shakllarini, ya’ni korxona faoliyatining butun xo‘jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxona rahbarining ish stili va usullari fan-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos kelishi zarur. Masalan, korxona direktori bilimi, tajribasi va professional malakasiga ko‘ra, oddiy xodimlar va bo‘linma (xizmat) rahbarlaridan yuqori turishi lozim. Aks holda, u jamoani kerakli tarzda boshqara olishi hamda muvaffaqiyatga erishishi va imijga ega bo‘lishi qiyin.

Rejalashtirishda rejalarning balanslashtirilishi, ko‘rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta’minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida korxonadagi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni, rejalashtirish va iqtisodiy hisob-kitoblarni hamda zamonaviy kompyuter tex-

nikasi va uning reja iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirishdagi imkoniyatlarini yaxshi biluvchi, savodli va malakali iqtisodchilarni tanlashni talab qiladi.

Korxona faoliyatining samarali bo‘lishida ishlab chiqarishni intensivlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turi va sifatini oshirish hamda jahon standartlari darajasiga yetkazish, korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash kabi omillar ham muhim o‘rinni egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashina va asbob-uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg‘or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

1-jadval: O‘zbekistonda 2022 yilda davlat ishtirokidagi korxonalarda samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarining joriy etilishing hududlar kesimida tahlili[1]

Hududlar nomi	Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarining joriy etishi lozim bo‘lgan korxonalar soni	Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarining joriy etgan korxonalar soni	
		Soni	Foizda
Toshkent shahri	507	232	46
Surxondaryo viloyati	50	26	52
Buxoro viloyati	105	53	50
Andijon viloyati	102	92	90
Jizzax viloyati	75	73	97
Namangan viloyati	97	90	93
Sirdaryo viloyati	75	71	95
Samarqand viloyati	144	101	70
Navoiy viloyati	77	62	81
Qashqadaryo viloyati	191	163	85
Xorazm viloyati	57	47	82
Toshkent viloyati	168	169	98
Qoraqolpog‘iston Respublikasi	89	82	92
Farg‘ona viloyati	109	47	82

Agar, O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarda samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarining joriy etilishing hududlar kesimida tahliliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu borada Toshkent viloyatida 169 ta korxonaning 168 tasida (98 foiz), Jizzax viloyatida 75 ta korxonaning 73 tasida (97 foiz), Sirdaryo viloyatida 75 ta korxonadan 71 tasida (95 foiz) joriy etilgan bo‘lib, bu boradagi ishlarning samarali tashkil etilganligini ko‘rish bilan bir qatorda, Toshkent shahri, Surxondaryo viloyati, Buxoro viloyatida samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarining joriy etilishining holati o‘rtacha 50 foizni tashkil etib, yetarlicha joriy etilmaganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi jadval esa mamalakatimiz hudlaridagi korxonalarda samaradorlik ko‘rsatkichalaridan to‘liq foydalana olinmaganligidan dalaolat beradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi yana bir muhim omil bu – tejamkorlik rejim hisoblanadi. Resurslarni tejash yonilg‘i, energiya, xom ashyo va materiallarga bo‘lgan o‘sib boruvchi talabni qondirishning asosiy manbayigaa aylanishi lozim. Bu muammolarni yechishda sanoat asosiy – o‘rinni egallaydi. Bu tarmokda xom ashyo va yoqilg‘i-energetika resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydigan mashina va uskunalarni joriy qilish lozim.

XULOSA

Bozor munosabatlariga o‘tish butun iqtisodiyotda, shu jumladan, qurilish korxonalarida samaradorlikni oshirish bilan bog‘liq masalalar majmuasini jiddiy anglash va tadqiq qilishni talab etadi. Boshqaruv tizimlari shakllanishining nazariy asoslari va kontsepsiyasi, ularning bozor iqtisodiyoti ehtiejlariga javob beradigan tashkiliy – iqtisodiy mexanizmini ko‘rib chikish, kurilish tashkilotlarida boshqarishning asosiy kontsepsiyasiga asoslangan boshkaruv tizimlarining samarali amal qilishiga olib keladi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan. https://kpi.davaktiv.uz/site/uz/kpi.

Tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini resurslar samaradorligining ta'minotini yaxshilash hisobiga oshirish mumkin. Ishlab chiqarishning samaradorligi bevosita boshqaruv jarayoni va boshkaruv faoliyati natijaviyligiga bog'lik. Bu boshqaruv tizimining takomillashuviga va boshqaruv tejamkorligini ta'minlashni asoslaydi.

Kompaniyaning samaradorligini oshirish, iqtisodiyotni raqobatbardosh bo'lishiga va o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun boshqaruvda to'g'ri va kisqa vaqtda aniq axborotga ega bo'lish korxonalar faoliyatida o'zgarishlarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Балдин К. В. инвестици в инноваци – М.: Издателско – торговая корпорация Дашков и К0",2010. – 238 s.
2. Jalolov J. J., Fattaxov A. A. Biznes marketingi. Darslik. 2006, 60–180 b.
3. Просветов Г. И. Стратегия предприятии. Учеб. практическоэ пособ. – М.: "Alfa-Press",2010. – 100 bet.
4. https://neftegaz.ru/tech-library/economy/147095-gosudarstvennoe-predpriyatie/. Государственное предприятие.
5. Кантор Й. Л, и др. Экономика предприятии. – СПб.: Питер, 2009. – 132 bet.

AVTOMOBIL TRANSPORTI KORXONALARIDA AMORTIZATSIYA XARAJATLARI VA UNING HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



G‘anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich
Farg‘ona politexnika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada avtomobil transporti xizmatlarini mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va roli, avtomobil transporti korxonalarida asosiy vositalar va ularning ahamiyati, asosiy vositalar amortizatsiyasi, amortizatsiya xarajatlarini ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxiga ta’siri, amortizatsiya xarajatlarini hisobini tashkil qilish, elektrobus akkumulyatorlarini identifikatsiyalash, tekinga olingan, davlat subsidiyalari, grantlar va davlat yordami hisobiga olingan transporti vositalari kirimi va ularning amortizatsiyasi hisobi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobil transporti, asosiy vositalar, xarajatlar, tannarx, amortizatsiya, hisobi.

Abstract: In the article, the place and role of road transport services in the economy of our country, fixed assets and their importance in road transport enterprises, depreciation of fixed assets, the impact of depreciation costs on the cost of the specified services, organization of the calculation of depreciation costs, identification of electric bus batteries, obtained for free, state the income of transport vehicles received at the expense of subsidies, grants and state aid and their depreciation calculation is explained.

Key words: automobile transport, fixed assets, costs, cost, depreciation, accounting.

Аннотация: В статье рассматриваются место и роль автотранспортных услуг в экономике нашей страны, основные средства и их значение на предприятиях автотранспорта, Амортизация основных средств, влияние амортизационных расходов на себестоимость оказанных услуг, организация учета амортизационных расходов, идентификация аккумуляторов электробусов, поступление и амортизация транспортных средств, полученных безвозмездно, за счет государственных субсидий, грантов и государственной помощи счет освещен.

Ключевые слова: автомобильный транспорт, основные средства, затраты, себестоимость, амортизация, бухгалтерский учет.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi, ishlab chiqarish faoliyatini bir maromda uzluksiz davom ettirish, savdo faoliyatidagi tovarlarni o‘z vaqtida va to‘liq manziliga yetkazish ko‘p jihatdan transport xizmati va uning sifatiga bog‘liq. Respublikamizning geografik o‘rni, tabiiy-iqlimiy sharoiti, uni dunyoning boshqa mamlakatlari bilan bog‘lovchi daryo va dengiz yo‘llarining yo‘qligi, shuningdek, boshqa obyektiv va subyektiv sharoitlar sababli mamlakatimiz transport tarmog‘ida avtomobil transporti o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlarga to‘g‘ri keladi. Bugungi raqobat muhiti sharoitida avtomobil transporti korxonalari xarajatlari, jumladan, asosiy vositalar amortizatsiya xarajatlari hisobini to‘g‘ri tashkil qilinishi va yo‘lga qo‘yilishi muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Asosiy vositalar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini amalga oshirish uchun muhim vosita bo‘lib, ular o‘zining iqtisodiy tabiatiga ko‘ra mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish yoki xizmat ko‘rsatish hamda ma’muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida korxonalar faoliyatida uzoq vaqt davomida foydalaniladigan mehnat qurollaridir.

N. N. Ilishevaning ilmiy adabiyotlarida asosiy vositalarga “Asosiy vositalar-bu ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt davomida o‘z shaklini o‘zgartirmagan holda ishlaydigan va amortizatsiya to‘lovlari orqali o‘z qiymatini asta-sekin ishlab chiqarish tannarxiga o‘tkazadigan mehnat vositalaridir. Buxgalteriya hisobida asosiy vositalar tashkilotlar tomonidan uzoq vaqt (12 oydan ortiq) ishlab chiqarish tsiklida, ishlarni bajarishda yoki xizmatlar ko‘rsatishda, shuningdek boshqaruv faoliyatini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan mulkning bir qismi sifatida tan olinadi” deb ta’rif beriladi [1; 156 b].

Asosiy vositalar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Z. N. Qurbonovni fikricha raqobatlashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida, undagi mehnat vositalarining takomillashishiga, rivojlanish va ulardan samarali foydalanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Barcha ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishda mehnat vositalari asosiy rolni o‘ynaydi. Buxgalteriya hisobida mehnat vositalari asosiy vositalar deb yuritiladi [2; 752 b.].

Professor I. Ismanov o‘zining ilmiy adabiyotlarida asosiy vositalar hisobini tashkil qilishda quyidagi omillarni hisobga olish zarurligini ta’kidlab o‘tadi: asosiy vositalarni turkumlarga ajratish; asosiy vositalarni baholash tamoyillarini belgilash; asosiy vositalarni hisobga olish birligini aniqlash; asosiy vositalar harakatini birlamchi hujjatlar bilan o‘z vaqtida va to‘g‘ri rasmiylashtirishni amalga oshirish va brshqalar [3, 14 b].

Korxonalarda, jumladan avtomobil transporti korxonalarida ham mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxida asosiy vositalar amortizatsiyasi summasi sezilarli salmoqni tashkil etadi. Shu sababli hisob siyosatida belgilangan usullar va me’yorlar asosida asosiy vositalarga amortizatsiya summasini to‘g‘ri hisoblash va hisobda to‘g‘ri aks ettirish muhim hisoblanadi.

Amortizatsiya obyekti to‘g‘risida Y. A. Babayevni fikricha “Amortizatsiya obyektlari tashkilotda mulk huquqi, xo‘jalik boshqaruvi, operativ boshqaruv (shu jumladan ijaraga olingan asosiy vositalar, bepul foydalanish uchun olingan asosiy vositalar) bo‘yicha joylashgan asosiy vositalar hisoblanadi” [4; 156 b].

N. N. Kireenkoning ilmiy adabiyotlarida amortizatsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Amortizatsiya-bu asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymatini tadbirkorlik faoliyati davomida ulardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymatiga o‘tkazish jarayonidir. Tashkilotning buxgalteriya hisobida ko‘rsatilgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar (balansdan tashqari hisobvaraqlarda ko‘rsatilgan obyektlar bundan mustasno) amortizatsiya obyektlari hisoblanadi” [5; 189 b].

Y. A. Babayevning fikricha foydalanish jarayonida va vaqt ta’siri ostida asosiy vositalar eskiradi, ya’ni ular asl texnik imkoniyatlari va xususiyatlarini yo‘qotadilar. SHu munosabat bilan ularning boshlang‘ich qiymati ham o‘zgaradi. Asosiy vositalar qiymati amortizatsiya ko‘rinishida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritish yo‘li bilan qoplanadi [6; 162 b].

Asosiy vositalarning qiymati amortizatsiya bilan to‘lanadi. N. A. Litnevaning ilmiy adabiyotlarida amortizatsiya to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan: “Amortizatsiya – bu obyekt qiymatini uning ishtirokida yaratilgan mahsulotlarga (bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar) o‘tkazish va oddiy takror ishlab chiqarish manbasini yaratishning iqtisodiy mexanizmi. Amortizatsiya tashkilotda joylashgan asosiy vositalarga mulk huquqi, xo‘jalik boshqaruvi, operativ boshqaruv huquqidan qat’iy nazar hisoblanadi, ularning alohida turlari bundan mustasno. Ijaraga olingan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar ham amortizatsiya qilinadi” [7; 95 b].

I. V. Gomanni fikricha asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati vaqt o‘tishi bilan ularning jismoniy va ma’naviy eskirishi tufayli kamayadi. Amortizatsiya asosiy vositalar tannarxini tayyor mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga bosqichma-bosqich o‘tkazish jarayoni sifatida amortizatsiya to‘lovlari ko‘rinishidagi obyektlarni almashtirish yoki tiklash uchun tashkilotlarning pul tushumlarida mablag‘larni to‘plash imkonini beradi [8, 9 b].

Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalar hisobi va ularga amortizatsiya hisoblash tartibi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 5-sonli “Asosiy vositalar” milliy standarti (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 20-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1299) bilan tartibga solinadi.

Mazkur standartning maqsadi mulk, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqlari asosida xo‘jalik yurituvchi subyektga tegishli bo‘lgan asosiy vositalar hisobi uslubiyotini aniqlash hisoblanadi.

Moddiy aktivlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritishda ularning foydali xizmat muddatini belgilash muhim rol o‘ynaydi. Professor K. B. Urazovni fikricha foydali xizmat muddati, deganda asosiy vosita larning korxona tomonidan belgilangan foydalanish muddati tushuniladi. Bu muddat yillar yoki oylarda ifodalanib, uning foydaliligi ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, xizmat) hajmi bilan o‘lchanadi. Foydali xizmat muddati davomida asosiy vositalar o‘zlarining qiymatini to‘liq qoplashlari va korxonaga qo‘shimcha daromad keltirishlari lozim [9, 12 b].

Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda tugatish qiymatini hisobga olish belgilab qo‘yilgan. M. B. Kalonovni ilmiy izlanishlari natijalariga ko‘ra tugatish qiymati to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirgan. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, aksariyat avtomobi transporti korxonalarida asosiy vositalarga tugatish qiymati belgilanmagan. Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati asosida amortizatsiya hisoblangan [10; 93 b].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Avtomobil transporti korxonalari asosiy vositalari va ularning amortizatsiyasi xarajatlari, ularning buxgalteriya hisobida hisobga olishga oid amaldagi me'yoriy hujjatlarni, mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, amortizatsiya xarajatlarini tahlil qilish, aniqlashtirish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash, muqobilini tanlash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Hozirgi kunda dunyo avtomobilsozlik sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, natijada, avtomobillarni yoqilig'isiz, atrof-muhitga zararli chiqindilarni chiqaishdan holi bo'lgan elektr energiya bilan harakatlanadigan avtomobillar yaratildi va ularga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda.

Jumladan, bizning mamlakatimizda ham yo'lovchilarni tashishda elektrobuslardan foydalanish yo'lga qo'yilgan, kelajakda yo'lovchi va yuklarni tashishda elektr energiya bilan harakatlanadigan transport vositalari barcha yo'nalishlarni to'liq qamrab olishi tabiiy.

Elektrobuslar qiymatini katta qismini ularning akkumulyatorlari qiymati tashkil etganligi sababli, elektrobus akkumulyatorlarini identifikatsiyalash, ya'ni elektrobus va uning akkumulyatorlari hisobini alohida-alohida olib borish. Akkumulyatorlar almashtirilganda uning qiymatini amortizatsiya ko'rinishida xarajatlarga kiritish tartibini joriy etish.

Natijada xizmat muddati tugallangandan so'ng almashtiriladigan akkumulyatorlar qiymati birdaniga xarajatlar hisobiga hisobdan chiqarilmasdan, amortizatsiya ko'rinishida xarajatlarga hisobdan chiqariladi, bu esa xizmatlar tannarxini pasaytirib muvofiqlik tamoyilini taminlaydi.

Bugungi kunda "Toshshahartransxizmat" aksiyadorlik jamiyati tassarufidagi avtobus saroylari elektrobus xizmatlaridan foydalanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–59-sonli qaroriga asosan Toshkent shahri jamoat transporti uchun 300 ta 12 metrli elektrobuslar xarid qilish nazarda tutilgan. Bundan ko'rinib turibdiki elektr energiya bilan harakatlanadigan, ekogoliyaga zararli chiqindilarsiz bo'lgan elektrobuslarga talab ortmoqdi.

Elektrobuslarni asosiy harakatlantiruvchi qismi (agregati) akkumulyatorlar hisoblanadi. Hozirgi kunda 1 dona elektrobusni qiymati uning katta-kichikligi va yo'lovchilarni tashish quvvatiga muvofiq 3 000 000,0–3 500 000,0 ming so'mini tashkil qiladi. Shundan, akkumulyatorlar qiymati o'rtacha 550 000,0–1 200 000,0 ming so'mni tashkil qiladi.

Elektrobuslar aksiyadorlik jamiyati balansiga kirim qilingandan so'ng amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan amortizatsiya hisoblanadi. Amortizatsiyalanadigan qiymat 3 000 000,0–3 500 000,0 so'mni tashkil qiladi va korxonaning hisob siyosatida belgilagan usullar yordamida amortizatsiya hisoblanadi va xarajatga olib boriladi. Elektrobuslar akkumulyatorlarining foydali foydalanish muddari 5 yildan 6 yilgacha qilib belgilangan1.

Elektrobuslar akkumulyatorsiz o'zining ahamiyatini yo'qotadi. Elektrobusdan foydalanish muddati 15 yil va undan ortiq muddatni tashkil qiladi. Demak, elektrobusni foydali foydalanish davomida ikki va undan ortiq marta akkumulyatorlarini almashtirishga to'g'ri keladi. Natijada akkumulyatorlar qiymati to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarga olib boriladi va mazkur davrda xarajatlarni ko'payishiga olib keladi hamda korxonaning moliyaviy natijasiga o'z ta'sir ko'rsatadi.

Biz elektrobuslarni kirim qilishda, elektrobuslar va ularning akkumulyatorlarini alohida-alohida hisobini yuritishni taklif qildik.

Elektrobuslar akkumulyatorlari hisobini alohida yuritish, ularga amortizatsiya ajratmalarini alohida hisoblash, ishga yaroqsiz holga kelgan akkumulyatorni almashtirish bilan bog'liq xarajatlarni birdaniga hisobdan chiqarmasdan, akkumulyator va uni almashtirish bilan bog'liq xarajatlarni amortizatsiya ko'rinishida akkumulyatorni foydali foydalanish muddati davomida bir maromda hisobdan chiqarish tartibi taklif etildi.

Aytaylik, bir dona elektrobusni akkumulyatori yangisiga almashtirildi, akkumulyatorining qiymati va o'rnatish xarajatlari o'rtacha 900 000,0 ming so'mni, xizmat muddati 5 yilni tashkil qiladi deylik, demak, akkumulyator almashtirilgan oyda 900 000,0 ming korxonaning xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlariga olib boriladi. Taklif etilayotgan hisob bo'yicha agarda amortizatsiya Soliq kodeksida belgilangan me'yorlar bo'yicha hisoblansa (20%) bu summa yiliga 180 000,0 ming so'mni, oyiga 15 000,0 ming so'mni tashkil qiladi. Natijada amortizatsiya xarajatlari korxonaning hisobot yilidagi moliyaviy natijasiga jiddiy ta'sir qilmaydi.

Biz Elektrobusni amaldagi va taklif qilinayotgan hisobga olish tartiblarini ko'rib chiqamiz. Elektrobus akkumulyatori uchun 0160-"Transport vositalari" sintetik schyotida 0169-"Elektrobus akkumulyatori" analitik schyoti va 0260- "Transport vositalarining eskirishi" sintetik schyotiga 0269-"Elektrobus akkumulyatorini eskirishi" analitik schyotlari ochiladi.

1 https://autoreview.ru/articles/gruzoviki-i-avtobusy/batarei-elektrobusov-ecitaro-ispol-zuyut-dlya-tramvaev

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Korxona balansiga elektrobus kirim qilindi, uning sotib olish va olib kelish xarajatlari 3 000 000,0 ming so‘mni, shundan, akkumulyator qiymat 900 000,0 ming so‘mni tashkil qiladi. Elektrobusga amortizatsiya Soliq kodeksida belgilangan me’yorlar bo‘yicha hisoblandi. Elektrobusni akkumulyatori xizmat muddati tugallanganligi sababli yangi akkumulyatorga almashtirildi, uning qiymati 1 000 000 so‘mini tashkil etdi. Elektrobus va uning akkumulyatorini hisobga olish va ularga amortizatsiya hisoblash jarayonini amaldagi va taklif etilayotgan tartibi quyidagi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval: Elektrobus va uning akkumulyatori hisobini amaldagi va taklif etilayotgan tartibi

№	Jarayonlar mazmuni	Summa	Amaldagi tartib		Tavsiya etilayotgan taklif	
			Debet	Kredit	Debet	Kredit
1	Eletrobus balansga kirim qilinganda.	3 000 000 000	0160	0820		
	Elektrobus uchun amortizatsiya hisoblanganda.	3 000 000 000	2010	0260		
	Elektrobusga yangi akkumulyator o‘rnatilganda	900 000 000	2010	1040		
2	Eletrobus balansga kirim qilinganda. 2 100 000 000 (3 000 000 000– 9 00 000 000) so‘m.	2 100 000 000			0160	0820
	Elektrobus akkumulyatori qiymati kirim qilindi	900 000 000			0160 (0169)	0820
	Elektrobus uchun amortizatsiya hisoblandi.	2 100 000 000			2010	0260
	Elektrobus akkumulyatori uchun amortizatsiya hisoblandi.	900 000 000			2010	0260 (0269)
3	Elektrobusga yangi akkumulyator o‘rnatilganda	900 000 000			0160 (0169)	1040 6010
	Yangi o‘rnatilgan akumulyatorga birinchi yil uchun amortizatsiya hisoblandi. Amortizatsiya me’yori 20 foiz.	180 000 000			2010	0260 (0269)

Mazkur hisobga olish tartibini joriy qilinishi, korxona xarajatlarini to‘g‘ri yuritilishiga va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxini to‘g‘ri aniqlanishiga hamda moliyaviy natijalar shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Yo‘lovchi tashush korxonalari tomonidan yo‘lovchi tashish uchun mo‘ljallangan transport vositalari korxonalar tomonidan o‘z mablag‘lari hisobiga va bank kreditlari hisobiga sotib olinishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida byudjet mablag‘lari hisobiga (tekinga) kirim qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 304-“Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar” moddasining 8-bandida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tekinga olingan mol-mulk va xizmatlar foyda solig‘ini hisoblashda daromad hisobga olinmasligi belgilab qo‘yilgan.

Lekin, Soliq kodeksini 306-“Amortizatsiya xarajatlari” moddasida Soliq kodeksi 304-moddasining 8, 9, 14 va 15-bandlariga muvofiq kelib tushgan mablag‘lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (yaratilgan), shuningdek soliq va bojxona imtiyozlari berilishi natijasida bo‘shagan mablag‘lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (yaratilgan) amortizatsiya qilinadigan aktiv (tegishli qismi bo‘yicha) amortizatsiya hisoblanmasligi belgilab qo‘yilgan.

Yo‘lovchi tashush korxonalari tassarufidagi bir dona yo‘lovchi tashish uchun mo‘ljallangan avtobus va elektrobuslar qiymati ham yuqorida qayd etganimizdek sezilarli darajada katta summani tashkil qiladi. Ularga amortizatsiya hisoblanmasa, korxonaning moliyaviy hisobotlarida transport vositalarining sof qiymatini aks ettirish tartibi buziladi. Amortizatsiya hisoblansa mazkur summa xarajatlar hisobiga hisobdan chiqariladi va foyda summasini kamaytirishga olib keladi hamda foyda solig‘nini hisoblashda tuzatish kiritilishiga olib keladi.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida byudjet mablag‘lari hisobiga (tekinga) kirim qilingan transport vositalari va ular uchun hisoblangan amortizatsiya summalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi bo‘yicha tavsiyalar 2-jadvalda berildi.

2-jadval: Tekinga kirim qilingan transport vositalari va ular uchun hisoblangan amortizatsiya summalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

№	Jarayonlar mazmuni	Summa	Buxgalteriya yozuvlari	
			Debet	Kredit
1	Transport vositalari balansga kirim qilinganda	3 000 000 000	0160	8530
2	Foydalanilgan birinchi oy uchun amortizatsiya hisoblanganda 3 000 000 000 x 20 /100 = 600 000 000 so‘m 600 000 000 /12 = 50 000 000 so‘m bir oy uchun	50 000 000	8530	0260
2	Foydalanilgan ikkinchi oy uchun amortizatsiya hisoblanganda, shu tartibda davom ettiriladi	50 000 000	8530	0260

Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida tekinga olingan transport vositalari uchun hisoblangan amortizatsiya summasi xarajatlar hisobiga hisobdan chiqarilmaydi hamda xizmatlar tannarxini pasayishiga va to‘g‘ri aniqlanishiga erishiladi.

Yo‘lovchi tashush korxonalariga asosiy vositalar, jumladan, transport vositalari ham subsidiyalar va grantlar hisobiga sotib olinishi mumkin. Subsidiyalar hisobi va uni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 10-sonli “Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo‘yicha ko‘rsatiladigan ma’lumotlar” milliy standarti (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 3-dekabr, 562-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) asosida amalga oshiriladi.

Mazkur standartga muvofiq Davlat subsidiyalari – xo‘jalik yurituvchi subyektning operatsiya faoliyatiga taalluqli muayyan sharoitlarda xo‘jalik yurituvchi subyektga resurslarni berish tarzida hukumat tomonidan beriladigan yordam hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug‘iga 10-ilova, 20-son “Davlat grantlari hisobi va davlat yordami to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritib berish” Buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga muvofiq aktivlarga oid davlat grantlari, jumladan haqqoniy qiymatdagi nomonetar grantlar, moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda kechiktirilgan daromad sifatida yoki aktivning balans qiymatini aniqlashda grant qiymatini chegirish orqali aks ettirilishi lozim. Aktivlarga oid grantlarni (yoki grantlarning tegishli qismlarini) moliyaviy hisobotda taqdim etishning ikki usuli ham muqobil qabul qilinadi.

Birinchi usulga ko‘ra, grant aktivning foydali xizmat muddati mobaynida tizimli asosda foyda yoki zarar tarkibida tan olinadigan kechiktirilgan daromad sifatida tan olinadi.

Ikkinchi usulga ko‘ra, grant summasi aktivning balans qiymatini hisoblashda chegirib tashlanadi. Grant eskirish hisoblanadigan aktivning foydali xizmat muddati mobaynida foyda yoki zarar tarkibida eskirish xarajatining kamayishi tarzida tan olinadi.

Avtomobil transporti korxonalarida maqsadli moliyalashtirishning (aktivlarga kiritilgan subsidiyalar va grantlar) byudjet mablag‘lari hisobiga sotib olingan transport vositalari va ular uchun hisoblangan amortizatsiya summasini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi bo‘yicha tavsiyalar berildi va bu jarayonlarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish tartib quyidagi misol asosida 3-jadvalda berildi.

Yo‘lovchi tashish xizmatini ko‘rsatuvchi korxonaga qiymati 3 000 000,0 ming so‘m bo‘lgan transport vositasini subsidiya hisobiga sotib olish uchun mablag‘ ajratildi va sotib olindi. Korxona mazkur trnasport vositasiga Soliq kodeksiga muvofiq yillik 20 foiz stavkada amortizatsiya hisoblaydi 3-jadval.

3-jadval: Subsidiyalar va grantlar hisobiga sotib olingan transport vositalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

№	Jarayonlar mazmuni	Summa	Buxgalteriya yozuvlari	
			Debet	Kredit
Kechiktirilgan daromad sifatida aks ettirish bo‘yicha:				
1	Ajratilgan grant (subsidiya) lar haqida xabarnoma olinganda.	3 000 000 000	4890	8810, 8820
2	Grant summasidan moliyalashtiriladigan va byudjetda ko‘zda tutilgan transport vositasining qabul qilinishi	3 000 000 000	0160	4890
3	Transport vositalariga eskirish hisoblandi 600 000 000 (3 000 000 000 x 20/100)	600 000 000	2010	0260
4	Hisoblangan eskirish summasi miqdorida daromad tan olinganda	600 000 000	8810, 8820	9390

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Aktivning balans qiymatini aniqlashda grant qiymatini chegirish orqali aks ettirish bo‘yicha. Agarda transport vositasi qiymati to‘liq ajratilgan grant (subsidiya) lar hisobidan amalga oshirilsa				
1	Ajratilgan grant (subsidiya) lar haqida xabarnoma olinganda	3 000 000 000	4890	8810, 8820
2	Grant summasidan moliyalashtiriladigan va byudjetda ko‘zda tutilgan transport vositasining qabul qilinishi	3 000 000 000	0160	4890
3	Transport vositasining to‘liq (dastlabki) qiymatiga	3 000 000 000	8810, 8820	0160

Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida subsidiya va grantlarlar hisobiga sotib olingan transport vositalari va boshqa aktivlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish, daromad va xarajatlarni tan olish hamda moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Avtomobil transporti korxonalarida transport vositalari amortizatsiyasi va uni hisoblash tartibini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosa va takliflarni beramiz:

Avtomobil transporti korxonalarida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda asosiy vositalarni, jumladan, transport vositalarining tugatish qiymatini tahminiy me’yorini va hisoblash tartibini korxona hisob siyosatida aks ettirish hamda amortizatsiyalanadigan qiymatni aniqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Elektrobuslar qiymatini katta qismini ularning akkumulyatorlari qiymati tashkil etganligi sababli, elektrobus akkumulyatorlarini identifikatsiyalash, ya’ni elektrobus va uning akkumulyatorlari hisobini alohida-alohida olib borish. Akkumulyatorlar almashtirilganda uning qiymatini amortizatsiya ko‘rinishida xarajatlarga kiritish tartibini joriy etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida byudjet mablag‘lari hisobiga (tekinga) kirim qilingan transport vositalariga amortizatsiya hisoblanganda amortizatsiya summasini Debet 8530-“Tekinga olingan mulk” schyoti, Kredit 0260-“Transport vositalarining eskirishi” schyotlarida aks ettirish.

Avtomobil transporti korxonalarida maqsadli moliyalashtirishning (aktivlarga kiritilgan subsidiyalar va grantlar) byudjet mablag‘lari hisobiga sotib olingan transport vositalari va ular uchun hisoblangan amortizatsiya summasini, kechiktirilgan daromad sifatida va aktivning balans qiymatini aniqlashda grant qiymatini chegirish orqali aks ettirish bo‘yicha berilgan tavsiyalarni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Н. Н. Илышева, Е. Р. Синянская, О. В. Савостина. Бухгалтерский учет: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016.– 156 с.
2. Z. N. Qurbonov, K. M. Misirov. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 752 b.
3. И. Исманов, Н. Тошмаматов, С. Бузрукхонов. Молиявий ҳисоб ва ҳисобот. Дарслик. Тошкент. “Sano-standart”–2019 йил.
4. Ю. А. Бабаев, А. М. Петров. Бухгалтерский учет: учебник. Москва: Проспект, 2021. – 496 с.
5. Н. Н. Киреенко, С. К. Маталыцкая. Бухгалтерский и управленческий учет. Учебное пособие. Минск : БГАТУ, 2022. – Ч. 1. – 368 с
6. Ю. А. Бабаев, И. П. Комиссарова, В. А. Бородин. Бухгалтерский учет: Учебник для студентов вузов. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. - 527 с
7. Н. А. Лытнева, Л. И. Малявкина, Т. В. Федорова. Бухгалтерский учет: Учебник. –М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.– 496 с.
8. И. В. Гоман, Е. С. Подборнова. Бухгалтерский учет, налогообложение и аудит предприятия. Учеб. пособие. Самара: Изд-во Самарского университета, 2018. – 80 с.
9. K. B. Urazov. Moliyaviy hisob va hisobot. O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi” – 2020 yil.
10. M. B. Kalonov. Daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili uslubiyoti. Monografiya. Toshkent: Akademnashr, 2019 y–352 b.

TURISTLAR STATISTIK HISOBINI OLIB BORISH BO‘YICHA XALQARO STANDARTLAR VA TAJRIBALAR TAHLILI



Jumanova Zilola To‘ychiyevna
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada turizm hisobini olib borish bo‘yicha xalqaro stanlartlar, xususan turizm yordamchi hisobi tahlil qilingan. Ma’lumki, turizm yordamchi hisobi 1993-yil hamda 2008-yillarda qabul qilingan. Maqolada mazkur ikki yilda qabul qilingan turizm yordamchi hisobining o‘zaro farqli jihatlari keng yoritilgan. Yevropa davlatlari Fransiya, Polsha davlatdarida turizm yordamchi hisoblarini olib borish, o‘ziga xos xususiyatlari batafsil o‘rganilingan. Maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekistonda ham turizm yordamchi hisoblaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish uchun zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Turi yordamchi hisoblari (TSA) dan tuzilmaviy ma’lumotlardan foydalanadigan modelga asoslangan makroiqtisodiy baholashda ushbu maqola mavjud bo‘lgan yangi tahliliy imkoniyatlarni namoyon etadi. TSAlar tizimi turistik mahsulotga xos jihatlarni taklif qiladi. Turizm statistikasini hisobini olib borish bo‘yicha, xalqaro tajribalar turlicha va ko‘plab standartlar mavjud. Ular tavsiya xarakteriga ega. Lekin, ushbu tavsiyalar ko‘pchilik davlatlarda milliy xususiyatlarni hisobga olmagan holda qo‘llanilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasida esa yuqorida keltirilgan va tahlil qilingan standartlar deyarli qo‘llanilmaydi. Shu munosabat bilan maqolada O‘zbekistonda xalqaro tajriba va standartlariga tayangan holda turizm statistik hisobini olib borish bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladi.

Kalit so‘zlar: turizm, turizm yordamchi hisobi, asosiy statistik ko‘rsatkichlar, tashrif buyuruvchilar toifalari ichki turizm iste’moli, chiqishga oid turizm qo‘shilgan qiymat hisobi, mamlakat ichidagi turizm bo‘yicha taklif va iste’mol, turizm tarmoqlarida bandlik.

Abstract: The article analyzes the international standards for conducting tourism accounting, in particular the auxiliary tourism accounting. It is known that the tourism support account was adopted in 1993 and 2008. In the article, the different aspects of the tourism auxiliary account adopted in these two years are widely covered. The peculiarities of conducting tourism auxiliary accounts in the European countries France and Poland have been studied in detail. The main goal of the article is to form the necessary skills to establish the use of tourism auxiliary accounts in Uzbekistan. This paper demonstrates the new analytical possibilities available in model-based macroeconomic evaluations that use structural information from Type Auxiliary Accounts (TSA). The system of TSAs offers specific aspects of the tourism product. There are different international practices and many standards for the accounting of tourism statistics. They have a recommendation character. However, these recommendations are being applied in most countries without taking national characteristics into account. In the Republic of Uzbekistan, the above-mentioned and analyzed standards are practically not used. In this regard, in the article, research is carried out on conducting statistics of tourism in Uzbekistan based on international experience and standards.

Key words: tourism, tourism auxiliary accounting, basic statistical indicators, visitor categories domestic tourism consumption, outbound tourism value added accounting, domestic tourism supply and consumption, employment in tourism industries.

Аннотация: В стате анализируются международные стандарты ведения туристического учета, в частности вспомогателного туристического учета. Известно, что счет поддержки туризма был принят в 1993 и 2008 годах. В стате широко освещаются различные аспекты вспомогателного учета туризма, принятые за эти два года. Подробно изучены особенности ведения вспомогателных счетов туризма в европейских странах Франции и Полше. Основная сел стати - сформироват необходимые навыки для налаживания исползования вспомогателных счетов туризма в Узбекистане. В этом документе демонстрируются новые аналитические возможности, доступные в макроэкономических оценках на основе моделей, в которых используется структурная информация из типовых вспомогателных счетов (ТСА). Система ВСТ предлагаэт конкретные аспекты туристического продукта. Существуют различные международные практики и множество стандартов учета статистики туризма. Они носят рекомендателный характер. Однако эти рекомендации применяются в болшинстве стран без учета националных особенностей. В Республике Узбекистан вышеуказанные и анализируемые стандарты практически не применяются. В связи с этим в стате проводится исследование по ведению статистики туризма в Узбекистане на основе международного опыта и стандартов.

Ключевые слова: туризм, вспомогателный учет туризма, основные статистические показатели, категории посетителей, потребление внутреннего туризма, учет добавленной стоимости выездного туризма, предложение и потребление внутреннего туризма, занятост в отраслях туризма.

KIRISH

XX asrning oxiriga kelib turizm sohasida statistik ko‘rsatkichlarni barcha mamlakatlarda xalqaro standartlar asosida aniqlash zaruriyati paydo bo‘ldi. Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan bir necha qaror va farmonlarda ham aynan turizm statistikasini xalqaro metodologiyalar asosida takomillashtirish zarurligi ta’kidlanmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 5-yanvarda qabul qilingan PF–5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”dagi Prezident farmonida turizm statistikasi ko‘rsatkichlar xalqaro metodologiyaga muvofiq shakllantirilishi va doimiy tarzda e’lon qilinib borilishi ta’kidlangan. Hozirda barcha davlatlarda turizm sohasiga bo‘lgan e’tibor ortmoqda. Turizm yuqori daromadlikga ega bo‘lgan sohalardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi aholi bandligini va iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va farmonlarida turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomi berilishi bilan yurtimizga ushbu sohaning ulkan salohiyatini ro‘yobga chiqishi va jadal rivojlanish yo‘liga o‘tishi uchun mustahkam asos yaratildi [1].

Ana shunday obyektiv jarayonda turizm sohacining innovatsion rivojlanishini ta’minlovchi omillarni o‘rganish iqtisodiyotning yangi va murakkab tadqiqot predmeti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chuqurlashib borayotgan globallashuv jarayonlari, jahon siyosiy va iqtisodiy hayotida ro‘y berayotgan shiddatli o‘zgarishlar turizm oldiga bir qator muammo va vazifalarni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun turizmning innovatsion rivojlanishini statistik yondashuv orqali ham tahlil qilish, baholash va innovatsion rivojlanish omillarini qamrab olgan nazariy – uslubiy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm sohasi, uning nazariy asoslari va rivojlanishi iqtisodiy adabiyotlarda T. Tashmuradov, A. Saidov, I. S. Tuxliev, S. Safarov, Kim Ok Kyung, N. M. Abdusalomovna, S. Agzamovlarlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Turizm turlari, turistik joylashtirish maskanlari, turizm xizmatlari va mahsulotlari tahlil qilingan.

Turizmni innovatsion rivojlanishini statistik yondashuv asosida ham tahlil qilishi mumkin. Statistikaning o‘rganish obyekti insoniyat hayotida ro‘y beradigan barcha ommaviy voqea va hodisalardir [2]. Turizm sohasi ham hozirda ommaviy voqea hodisalar qatoriga kiradi, demak turizm sohasi statistikaga o‘rganish obyekti bo‘lishi mumkin. Turizm statistikasi turizm ko‘rsatkichlarini hisoblashni o‘rganib, ko‘rsatkichlarga ta’sir qiluvchi omillarni va ularning o‘zgarish dinamikasini tahlil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritib berishda tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, modellashtirish, eksperiment, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida jahonda turizm statistik hisobini olib borish bo‘yicha bir qancha tajribalar o‘rganildi. Masalan, 1990 yilda BMT Statistika boshqarmasi tomonidan Kanadada bo‘lib bo‘lib o‘tgan konferensiyada xalqaro tajriba o‘rganildi. Ikki yillik muhokamadan so‘ng ilk bor turizm statistik ko‘rsatkichlari bo‘yicha “Turizm statistikasi bo‘yicha tavsiyalar – 1993” qabul qilindi. Ushbu hujjatda turizm sohasidagi tushunchalar, ko‘rsatkichlar bayon etilib, ularning shakllanish jarayoni tasvirlandi va keyinchalik TYoH qabul qilishda ham asos vazifasini bajardi (2-ilova).

Ushbu tavsiyalar chop etilgandan so‘ng BTT turizm rivojlangan davlatlar statistik organlari bilan amaliy va nazariy masalalarini muhokama qildi. Masalan, 1995 yilda Markaziy va Sharqiy Yepropa davlatlari, Yaqin Sharq davlatlari, 1996-yilda Rossiya federatsiyasi hamda Tinch okeani va Janubiy Osiyo davlatlari, 1997-yilda esa Afrika va Amerika qit’asi davlatlarida ko‘maklashish va yordamlashish tadbirlari o‘tkazildi.

1993-yildagi turizm statistik tavsiyalarga zamon talablarini hisobga olgan holda quyidagi yangi tushunchalar kiritildi[1]:

- Turistik tashrif va safar;
- Turistik guruh;
- Dala hovlida yashash chegarasi;
- Safar maqsadi;
- Turizmda bandlik;
- Turizm va davlatlarning barqaror rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Ushbu hujjatda yuqoridagi keltirilgan tushunchalarning ta’rifi hamda hisoblash uslubiyati batafsil yoritilgan. Ko‘pchilik davlatlarda turizm rivojlanishi bilan 1993-yilda qabul qilingan tavsiyalar XXI asrni boshlariga kelib

1 “Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год” Мадрид и Нью-Йорк, 2010 год. – 28 с.

eskirganligi va zamon talablariga to‘liq javob bermasligi ko‘rina boshladi. Shu munosabat bilan, 2008-yilda BMT, BTT, Yevrostat va boshqalar hamkorligida turizm statistikasi bo‘yicha xalqaro standart yaratildi. Ikkala hujjatni har tomonlama tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2008-yilda qabul qilingan standart ancha takomillashgan va 1993-yildagi hujjatga nisbatan ijobiy farqlarga ega. Bizni fikrimizcha, 2008-yildagi xalqaro turizm statistik tavsiyalar 1993-yildagi hujjatga nisbatan quyidagi farqlarga ega(1.3-jadval).

1.3-jadval: Turizm statistikasi tavsiyalar–1993 va Xalqaro turizm statistikasi tavsiyalar–2008 orasidagi asosiy farqlar[2]

№	Tushunchalar	Turizm statistikasi tavsiyalar 1993	Xalqaro turizm statistikasi tavsiyalar-2008
1	Turistik tashrif va safar tushunchalari	Turistik tashrif va safar tushunchalari mavjud emas	Turistik tashrif safardan ko‘ra torroq ma’noni berib, safar davomida biror hududda to‘xtash, bir kunlik sayohatlar ham turistik tashrifga kiritildi.
2	Turistik guruh	Turistik guruh tushunchasi mavjud emas	Ba’zan turistlar guruh bo‘yicha sayohat qilib, bunda xarajatlar bir kishi tomonidan amalga oshirilsa ularni hisoblashda guruh a’zolariga ham teng bo‘linadi.
3	Dala hovli tushunchasi	Bunday tushuncha mavjud emas	Dala hovli odatiy muhitdan chiqarilgan.
4	Safar maqsadlari	Oltita safar maqsadi mavjud	Avval safar maqsadi ikkiga bo‘linib so‘ngra yaana guruhga bo‘lindi.
5	Turizm sohasida bandlik	Turizm sohasida bandlik tushunchasi mavjud emas	Turizm sohasida bandlik bo‘yicha alohida bob mavjud
6	Turizm va barqaror rivojlanish	Turizm va barqaror rivojlanish mavjud emas	Turizm va barqaror rivojlanish bo‘yicha aniq bob mavjud

“Turizm statistikasi –1993” faqatgina turizm sohasidagi ko‘rsatkichlarni shakllanishi, tanlanma o‘tkazilinishi, so‘rovnoma ishlab chiqilishi kabi tafsiyalarni qamrab olgan bo‘lib, unda turizmning agregat va integral ko‘rsatkichlarini, turizmning iqtisodiyotdagi o‘rnini, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, xususan, Milliy hisoblar tizimi doirasidagi ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligini ifodalab olish izohlanmagan.

1993-yilda qabul qilingan tavsiyalarni mahalliylashtirish maqsadida, ular asosida Yevropa Ittifoqi turizm statistikasi o‘z metodini ishlab chiqdi va qabul qildi. Buni ustiga 1993-yildagi tavsiyalar asosida BTT Turizm Yordamchi hisoblari metodologiyasini ishlab chiqib, BMTga tavsiya etadi. BMT ushbu tavsiyalarni o‘rganib BTT va Yevrostat hamkorligida 2000-yilda TYoH metodologiyasini ishlab chiqdi va uni qo‘llash uchun barcha mamlakatlarga tarqatdi.

Turizm yordamchi hisobi bu milliy hisoblar tizimi doirasida turizmning iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasini aniqlash va o‘lchashga imkon beradigan vositadir, shu bilan birga uni boshqa iqtisodiy sohalar bilan taqqoslash imkoniyatini beradi. Turizm yordamchi hisobi – bu boshqa makroiqtisodiy tizimlar bilan, xususan, to‘lov balansi va milliy hisoblar tizimi munosabatlarini yaratishda foydalaniladigan makroiqtisodiy buxgalteriya vositasidir.

Jahonda ro‘y berayotgan sotsial-iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olish maqsadida 2000-yilda qabul qilingan xalqaro standartlar xalqaro tashkilotlarda takomillashtirildi va 2008-yilda BMT tashkilotlari tomonidan yangi xalqaro standartlar qabul qilindi(1.4-jadval).

1.4-jadval: Turizm yordamchi hisobi 2000 va 2008-yillar orasidagi asosiy farqlar[3]

№	Tushunchalar	Turizm yordamchi hisobi-2000	Turizm yordamchi hisobi-2008
1	Turistik xarajatlar va iste’mol	Turistik xarajatlar	Turistik xarajatlar va turistik iste’mol
2	Turistik mahsulotlar	Barcha davlatlar uchun bir xil	Har bir davlat uchun turlicha
3	Konferensiya xizmati	-	Konferensiyalar xizmati
4	Turizmda bandlik	Turistik korxonalarda ishlovchilar soni	Turistik korxonalarda ishlovchilar va mavsumiy ishlovchilar soni
5	Turizm sohasidagi kapital	Turistik tashkilotlardagi kapitali	Turizm sohasidagi kapital

1.4-jadvalda keltirilgan taqqoslama ma’lumotlarni ko‘rsatishicha, 2000-yilda qabul qilingan hujjatga 2008-yilda judda katta o‘zgartirishlar kiritilgan. Masalan, 2000-yildagi hujjatda turistik xarajatlar hisoblanadigan bo‘lsa, 2008-yildagi hujjatda ular bilan bir qatorda turistik iste’mol hajmi ham aniqlanishi belgilangan. Ma’lumki, turistik iste’mol turistik xarajatlarga nisbatan kengroq ma’noga ega. Boshqacharoq aytganda turistik xarajatlar turistik iste’molni bir qismidir. Ikkinchidan, 2000-yildagi hujjatda turistik mahsulotlarni hisoblash barcha davlatlar uchun

2 Muallif tomonidan ishlab chiqildi
3 Muallif tomonidan ishlab chiqildi

bir xil metodologiyadan amalga oshirilishi kerak edi. 2008-yildagida esa har bir davlatga o‘z metodologiyasini qo‘llash imkoniyati berildi. Uchinchidan, yangi hujjatda konferensiya xizmati atamasi kiritildi. To‘rtinchidan, turizmdagi bandlar soniga turistik korxonalarda ishlovchilar bilan bir qatorda turizm bilan mavsumiy band bo‘lgan ishlovchilar ham kiritildi bo‘ldi va oxirgisi turizm sohasidagi kapitalni hisoblash metodologiyasi o‘zgartirildi, ya’ni turizm sohasidagi kapital deganda faqat turistik tashkilotlarni kapitali emas, balki turizm sohasidagi kapitalning umumiy hajmini hisoblash tavsiya etildi. Bu holatni o‘zi mamlakat iqtisodiyotida turizmni o‘rnini to‘g‘ri va aniq belgilashga asos bo‘ldi.

TYoH tanlanma statistik kuzatuv hamda rasmiy ma’lumotlar asosida tuziladi va 10 ta jadvaldan iborat:

1-jadval, mahsulot turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari kesimida kirishga oid turizm iste’moli;

2-jadval, mahsulotlar turlari kesimida hamda tashrif buyuruvchilar toifalari va tashrif ko‘rinishi bo‘yicha ichki turizm iste’moli;

3-jadval, mahsulot turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari kesimida chiqishga oid turizm iste’moli;

4-jadval, mahsulot turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari kesimida mamlakat ichidagi turizm iste’moli;

5-jadval, turizm tarmoqlarida va boshqa tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste’mol va qo‘shilgan qiymat hisobi;

6-jadval, mahsulotlar kesimida mamlakat ichidagi turizm bo‘yicha taklif va iste’mol;


7-jadval, turizm tarmoqlarida bandlik;

8-jadval, turizm tarmoqlarda va boshqa tarmoqlarda turizmga tegishli asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi;

9-jadval, mahsulot turlari kesimida va davlat boshqaruv organlari darajasida jamoaviy turizm iste’moli;

10-jadval, qiymatga ega bo‘lmagan ko‘rsatkichlar.

TYoH jadvallari turizm ko‘rsatkichlarini aniq hisoblash imkoniyati berishi bilan bir qatorda ular o‘zaro uzviy bog‘liq hamdir. TYoH jadvallarining o‘zaro aloqadorligi C. D. Frechtling fikriga ko‘ra quyidagi ko‘rinishga ega (1.4-rasm).



1.4-rasm:Turizm yordamchi hisobi jadvallarining o‘zaro bog‘liqligi[4]

1.4 rasmda keltirilgan 4-jadval (mahsulot turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari kesimida mamlakat ichidagi turizm iste’moli) bilan turizm sohasidagi boshqa ishlab chiqarishlar o‘rtasidagi bevosita aloqa mavjudligiga, 5-jadval (turizm tarmoqlarida va boshqa tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste’mol va qo‘shilgan qiymat hisobi) bilan turizmda bandlik orasidagi aloqadorlikni yo‘qligiga ishonchimiz komil emas. Bundan tashqari boshqa ishlab chiqrishlar deganda nima nazarda tutilganligi C. D. Frechtling maqolasida yoritilmagan.

BMT, BTT va boshqa xalqaro tashkilotlarning turizm statistikasini tashkil etish va TYoH olib borish bo‘yicha ko‘pchilik davlatlar o‘z tajribasiga va yo‘liga ega. Masalan, Gresiya davlatini olsak, unda TYoH o‘nta jadvaldan to‘rttasi to‘ldiriladi. Gresiya davlati turizm tushumlari va xarajati ma’lumotlarini aniqlash maqsadida tanlanma

4 C. D. Frechtling Tourism satelitte account//Annals of Tourism Research, Vol. 37, No. 1, 2010. 136–153 pp.

kuzatuvdan tashqari to‘lov balansidan ham foydalanadi, ya’ni Gresiya Markaziy banki ma’lumotlari asosida kiruvchi va chiquvchi turistlar tomonidan valyuta ayirboshlash shaxobchalari va plastik kartalari orqali amalga oshirilgan to‘lov ma’lumotlaridan ishlatiladi. Bu metodni hozirda Gresiyadan tashqari yana ko‘plab davlatlar ham qo‘llaydi. Ushbu metodni yuqori ustunliklari bo‘lishiga qaramasdan uni qora bozor mavjud bo‘lgan davlatlarda, shu jumladan O‘zbekistonda, qo‘llash to‘plangan ma’lumotlarni ishonchsizligini pasaytiradi.

Fransiya davlati ham turizm rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Fransiya davlatida turizm statistikasi bo‘yicha Fransiya statistika qo‘mitasi, Turizm qo‘mitasi va Milliy banki shug‘ullanadi. Fransiyaning barcha chegara post joylarida yilda bir marotaba tanlanma kuzatuv asosida ma’lumotlar to‘planadi. Tanlanma kuzatuv metodidan tashqari Fransiya Milliy banki ham o‘z navbatida eksport va import ko‘rsatkichlarini aniqlashda statsitikasiga yordamlashadi, ya’ni barcha tursitlar tomonidan amalga oshirilgan plastik kartalari orqali to‘lovlar to‘g‘risida ma’lumotlar e’lon qilinadi.

Polshada turizm statistikasi bo‘yicha Polsha Markaziy statistika(MSB) boshqarmasi shug‘ullanadi. Polsha Markaziy Statistika boshqarmasi o‘z navbatida Yevrostat, BMT, JTT tavsiyalariga rioya qilib o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Hozirda Polsha MSB turizm instituti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazirligi bilan hamkorlikda turizm statistik ko‘rsatkichlarini takomillashtirishni amalga oshirmoqda:

- har oylik joylashuv joylarini ma’lumotlarini chop etish;
- turistlar oqimi, eksport va import ko‘rsatikichlari bo‘yicha yilda 6 marta tanlanma amalga oshiriladi;
- har uch yilda bir marta Polsha davlati ichki turizm to‘g‘risida ma’lumotlarni jamlash maqsadida uy xo‘jaliklaridan tanlanma kuzatuv o‘tkaziladi.

XULOSA

Turizm statistikasini hisobini olib borish bo‘yicha, xalqaro tajribalar turlicha va ko‘plab standartlar mavjud. Ular tavsiya xarakteriga ega. Lekin, ushbu tavsiyalar ko‘pchilik davlatlarda milliy xususiyatlarni hisobga olmagan holda qo‘llanilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasida esa yuqorida keltirilgan va tahlil qilingan standartlar deyarli qo‘llanilmaydi. Shu munosabat bilan maqolada O‘zbekistonda xalqaro tajriba va standartlariga tayangan holda turizm statistik hisobini olib borish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Birinchidan, turizm ko‘rsaktchilarini shakllantriish uslubiyati bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini o‘rganish, ilmiy – amaliy yondashuvlarni umumlashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi turizm statistikasi amaliyotida foydalanish uchun turizm ko‘rsatkichlar uslubini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, turizm asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha kuzatuv ma’lumotlarning hamda korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlari ma’lumotlarining shakllantirilishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash zarur.

Uchinchidan, turizm asosiy ko‘satkichlarini yillik va choraklik davriylikda shaklantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish maqsadga muoviq.

To‘rtinchidan, turizm ko‘rsatkichlari ishonchliligi va sifatini takomillashtirish va xalqaro andozalarga muvofiqligini ta’minlash borasida tizimli tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вспомогательный счет туризма: рекомендуемая методологическая основа, 2008 год, ISBN 098–92–1461023–6, -Nyu York, BMT, BTT, Yevrostat. 2010. St.10.
2. Measuring the social dimension of the sustainability of tourism – Findings of the MST sub-group on the social dimension Cesare Costantino, Consultant, UNWTO, Committee on Statistics, Nineteenth meeting, Madrid, 26–27 February 2019
3. “Mejdunarodnыe rekomendatsii po statistike turizma, 2008 god” -Madrid i Nyu-York:OON, 2010 god.-140 st.
4. Александрова А. Й. Статистика туризма– М.: Федералноэ агентство по туризму, 2014. – 464 с.
5. Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год Руководство по составлению статистики Мадрид и Нью-Йок: ООН. 2016.-160 с.
6. Matyash S. A., Britvina V. V. Konyuxova G. P., Konyuxov V. G., Sedenkov S. E. Osnovы turistskoy deyatelnosti i matematicheskaya statistika v industrii turizma: Uchebnoe posobie. – M.: Izd-vo “Soyuz”, 2016. – 174 s.
7. Sharpley, R. (2005) Tourism, Tourists and Society. Cambridgeshire: ELM
8. Tashmuradov T. Ekonomika mejdunarodnaya turizma. – Tashkent, 1994. 5 bet
9. Saidov A. F. O‘zbekistonda turizm. Istiqbol va muammolar, – Toshkent, 1992, 12 bet
10. Саидов А. Ф. Туризм в Узбекистане: экономические, социалные и организационные аспекты, -М.: Институт туризма, 1991.
11. Hsiao C. Analysis of Panel Data. _ Cambridge University Press, 1986.
12. Wooldridge J. M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data, _ MIT Press, 2002. (Ch. 10.)
13. Wooldridge J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach, 2 ed., South-Western College Pub., 2002. (Ch. 13, 14.)
14. Blakely E. Planning Local Economic Development: Theory and Practice. SAGE Publications. 1994. 41. Greene W. H. Econometric Analysis. _Prentice-Hall, 2000. (Ch. 14.).
15. I. S. Tuxliev, R. Hayitboev, B. Sh. Safarov, G. R. Tursunova Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 332
16. A. X. Pardayev, A. N. Norchaev. Xalqaro turizm. -Darslik. – T.: TDIU, 2010 y –260 b.



TIJORAT BANKLARI IPOTEKALI KREDITLARINING QAYTUVCHANLIK HOLATINI BARQARORLASHTIRISH CHORALARI

Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li
Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda tijorat banklarimiz tomonidan taqdim etilayotgan birlamchi ipoteka kreditlari yigirma yilga annuited usulda taqdim etmoqda, bu esa bugungi kundagi uy-joylarning narxi oshishi hisobiga banklarda risk darajasi ortadi. Maqolada banklar taqdim etgan ipoteka kreditini qaytarish jarayoni to‘g‘risida so‘z yuritilgan hamda tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ipoteka krediti, ssuda kapitali, kredit qaytuvchanligi, kredit riski, annuited, differensial.

Abstract: Today, the primary mortgage loans provided by our commercial banks are provided in the annuity method for twenty years, which increases the level of risk in banks due to the increase in the price of housing today. The article talks about the process of repaying the mortgage loan provided by the banks and it gives relevant conclusions.

Key words: mortgage loan, loan capital, loan return, loan risk, annuited, differential.

Аннотация: Сегодня первичные ипотечные кредиты, предоставляемые нашими коммерческими банками, предоставляются аннуитетным методом сроком на двадцать лет, что повышает уровень риска в банках в связи с ростом цен на жилье сегодня. В статье рассказывается о процессе погашения ипотечного кредита, предоставленного банками, и приводятся соответствующие выводы.

Ключевые слова: ипотечный кредит, ссудный капитал, возврат ссуды, ссудный риск, аннуитет, дифференциал.

KIRISH

Mamlakatimiz aholisi 2023-yil boshidan buyon 172,8 ming kishiga ko‘paygan. O‘zbekiston aholisi 2023-yilning har bir oyida o‘rtacha 57,6 ming kishiga oshgan. 2023-yilning har bir kunida doimiy aholi soni o‘rtacha 1,9 ming kishiga ko‘paymoqda[1]. Bu esa yaqin kelajakda uy-joyga bo‘lgan talab tubdan oshishini ko‘rsatib bermoqda.

Oxirgi olti yillikda ipoteka krediti uchun ajratilgan resursning miqdori 4.8 barobarga oshganligi. Oxirgi uch yilda 67 947 ta fuqaroga 15.1 trln. so‘m mablag‘ ajratilganligi hamda fuqarolarga oxirgi uch yillikda 1.2 trln. so‘m subsidiyaning ajratilishi fuqarolarning ipoteka kreditiga bo‘lgan talabning yuqori ekanligini ko‘rsatib bermoqda. Bugungi kunda tijorat banklarimiz fuqarolarning uzoq muddatli kreditlarga bo‘lgan talabini o‘z mablag‘lari hisobidan qondira olmasligi hamda banklarga mablag‘larningning juda uzoq vaqt davomida qaytishi sababli banklar Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda Ipotekani qayta moliyalashtirish kompanyasidan uzoq muddatli mablag‘larni jalb qilib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Izlanishni shu soha olimlarining iqtisodiy adabiyotlarda ipoteka krediti to‘g‘risidagi bildirgan fikirlarini o‘rganishdan boshalymiz. Xorijiy iqtisodchi olim O. I. Lavrushin fikricha, “ipoteka krediti ssuda kapitalining qo‘zg‘almas mulk sohasidagi harakati bo‘lib, pul mablag‘larini qaytarib berishlik, muddatlilik va foiz to‘lashlilik shartlari asosida berish bilan bog‘liqdir”[2], deb takidlagan.

Ipoteka krediti – aholiga birlamchi uy-joy bozoridagi kvartiralarni sotib olish uchun yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish (rekonstruksiya qilish) uchun Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan mablag‘lar hisobidan banklar tomonidan bozor tamoyillari asosida ajratiladigan kreditlar[3].

1 https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/- O‘zbekiston Respublikasi Prizdenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlar bazasi.
2 Bankovskoe delo. Pod red. Lavrushin .O. I. – Moskva: Finansы i statistika, 2001,-S. 74.
3 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan joylashtirgan mablag‘lar hisobidan ipoteka kreditlari ajratish tartibi to‘g‘risida”gi 2021-yil 5-fevraldagi 56-sonli nizomi

Ipoteka krediti- bankar tomonidan ko‘chmas mulk garovi asosida ko‘chmas mulkni sotib olish yoki qurish uchun beriladigan uzoq muddatli kredit turidir[4], deya Kosoreva A. S. fikir bildirgan.

Xorijiy iqtisodchi olim A. S. Neshitoyning fikricha ipoteka krediti, uy-joy olish, qurish yoki yerni sotib olish uchun beriladigan kredit. Odatda, ushbu kreditni banklar va ixtisoslashtirilgan bank bo‘lmagan moliya-kredit institutlari taqdim etadi[5]. Bu bilan birga, A. S. Neshitoy garov obyektining zarur ekanligi haqida fikir bildirmaganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

TADQIQOT METADALOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslargaIqtisodiyot va Moliya vazirligi, Ipotekani qayta moliyalashtirish kompanyasi hamda o‘z mablag‘lari hisobidan ipoteka kreditlarini ajratadilar. Ipoteka krediti uzoq muddatli kredit bo‘lganligi bois, ko‘proq jismoniy shaxslar bu kreditdan foydalanganliklari uchun banklarda bu kreditlarning risk darajasi yuqori hisoblanadi. Bunday holatda berilgan ipoteka kreditini qaytarishning zamonaviy usullardan foydalanish risk darajasining pasayishiga olib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz aholisining uy-joy bilan ta’minlash, ularning turmush darajasini oshirish eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Respublikamiz aholisi yil sayin ko‘payib bormoqda va bugungi kunda 36.2 mln[6]. (01.04.2023) kishini tashkil etmoqda.

Aholi va oilalar sonining yilma-yil o‘sib borishi shaharsozlikni rivojlantirishni, aholini shinam va maqbul narxlardagi uy-joylar bilan ta’minlashni talab etadi. Zero, bugungi kunda iqtisodni rivojlantirishda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va ularni uy-joy bilan ta’minlash muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi kunda tijorat banklarimiz tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar uchun ajratilayotgan ipoteka kreditlarining so‘ndirish muddati va so‘ndirish tartibining bir hillikda ekanligi hamda ipoteka kreditini asosan davlat ulushi bor banklar tomonidan ajratilishi banklar orasida raqobatning pastligidan dalolat bermoqda.

1-jadval: Ipoteka kreditlari to‘lovlari bo‘yicha taqqoslama tahlili[7] (uy-joy bahosi 400 mln. so‘m boshlang‘ich badalsiz hamda 17 foizdan)


	10 yil muddatga	15 yil muddatga	20 yil muddatga
Kredit summasi	400 000 000		
Differensial			
Oylik to‘lov	Boshlangich summa 9 108 675.80 yakuniy summa 3 379 908.68	Boshlangich summa 7 997 564.69 yakuniy summa 2 253 272.45	Boshlangich summa 7 442 009.13 yakuniy summa 1 689 954.34
Jami to‘lov	743 142 283.11	913 256 133.94	1 083 368 949.77
Ortiqcha to‘lov	343 142 283.11	513 256 133.94	683 368 949.77
	86 foiz	128 foiz	171 foiz
Annuitet			
Oylik to‘lov	6 951 906.08	6 156 017.16	5 867 202.20
Jami to‘lov	834 228 729.19	1 108 083 088.46	1 408 128 527.35
Ortiqcha to‘lov	434 228 729.19	708 083 088.46	1 008 128 527.35
	108 foiz	177 foiz	252 foiz

Yuqoridagidan ko‘rish mumkinki, ipoteka krediti uzoq muddatga olingandan ko‘ra qisqa muddatga olingan foydaliroq. Ya’ni uzoq muddatga kredit olinganda ko‘proq foiz hisoblanayotganini ko‘rish mumkin. Kredit muddati, foiz stavkasi va oylik to‘lovlarining eng samarali bo‘lgan nuqtasini belgilab olish va bu bo‘yicha kredit oluvchi aholiga bir necha turdagi ipoteka kredit mahsulotlarini taklif etish lozim.

Bugungi kunda aholiga ipoteka kreditlari faqatgina bir xil shartda – 20 yil muddatga (bir xil to‘lov tartibida) ajratilmoqda. Ipoteka kreditlarining faqatgina shu tartibda ajratilishi ortiqcha kredit foizlari hisoblanishiga sabab bo‘lishi va keyinchalik kredit mablag‘lari sekin qaytarilishi hisobiga resurs taqchilligini keltirib chiqarishi mumkin.

4 Косорева Н. Б. Основы ипотечного кредитования. – М.: ИНФРА-М, 2007.-С. 5.
5 Neshitoy A. S. Finansы i kredit. –M.: “Birja i banki”, 2006.-S. 571
6 https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/- O‘zbekiston Respublikasi Prizdenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlar bazasi.
7 Jadval muallif tomonidan ipotekali kreditlash amaliyotining nazariy asoslarini tadqiq qilish natijalariga asoslangan holda shakllantirilgan.

Mamlakatimizda aholi sonining o‘sish sur’atlari hamda yangi tashkil etilayotgan oilalar sonidan kelib chiqadigan bo‘lsak, respublika bo‘yicha yiliga o‘rtacha 150 ming atrofida uy-joylar qurilishini amalga oshirish va mazkur uy-joylarga ipoteka kreditlarini ajratish lozim.




1-rasm: 2022-yilda so‘ndirilgan jami ipoteka krediti miqdori[8], mlrd. so‘m

2023-yil 1-yanvar holatiga Ipoteka bank tomonidan 875,4 mlrd. so‘m (jami so‘ndirilgan ipoteka kreditlarining 23,4 foizi) so‘ndirilgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich Qishloqqurilishbankda 791,3 mlrd. so‘mni (21,1 foiz), Milliybankda 461,2 mlrd. so‘mni (12,3 foiz), O‘zsanoatqurilishbankda 324 mlrd. so‘mni (8,6 foiz) tashkil etmoqda.

So‘ndirilgan ipoteka kreditlarining kredit grafigiga nisbati Agrobankda 99 foizni (kredit grafigiga nisbatan 37,6 mlrd. so‘m ko‘p so‘ndirilgan) Xalq bankida 92 foizni (+123 mlrd. so‘m), Qishloq qurilish bankda 29 foizni (+179,7 mlrd. so‘m), Milliy bankda 43 foizni (+138,8 mlrd. so‘m) tashkil etgan bo‘lsa, Ipoteka bankda 35 foizni (+229 mlrd. so‘m) va O‘zsanoatqurilishbankida 52 foiz (+111,2 mlrd. so‘m) miqdorda kredit grafigiga nisbatan ko‘p ipoteka kreditlari so‘ndirilgan. Bu esa, ham banklarga ham mijozlarga juda qulay hisoblanadi chunki mijoz oldindan to‘lov evaziga umumiy to‘lov summasi kamayishiga erishsa bank esa to‘langan summa orqali yanada daromad olish maqsadida ortiqcha qaytgan summani hamda qaytarilgan oylik to‘lov summasini ikkinchi marta daromad olish maqsadida kredit linyaga yo‘naltirishi mumkin bo‘ladi, natijada banklarning ipoteka kredit bo‘yicha risk darajasi kamayishiga olib keladi.

Jahon amaliyotidan ma’lumki banklar tomonidan berilgan uzoq muddatli kreditlarni qaytarish jarayoni ya’ni asosiy qarz to‘lovi hamda foiz to‘lovlarini undirish rivojlanayotgan davlatlarda dastlabki yillarda foiz to‘lovlariga qaratiladi, asosiy qarz to‘lovini undirish esa oxirgi yillarga qoldiriladi. Bunga esa rivojlanayotgan davlatlarda inflyatsiya va pul qadrsizlanish darajasining yuqori bo‘lishi sabab qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Bunga misol qilib esa yurtimizdagi tijorat banklari ipoteka kreditining to‘lovlarini ko‘rishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm: Ipoteka krediti to‘lovlari[9], foizda

8 https://cbu.uz/uz/ – Markaziy bandk ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

9 Nurmuhammedov B. B. Aholiga takif etilayotgan ipoteka kreditarini yanada takomillashtirish // “Bozor,pul va kredit” ilmiy jurnali, Toshkent, №5, 2021 16–21 b

Yurtimizda ipoteka krediti bo‘yicha to‘langan mablag‘larning birinchi besh yillikda 4.4 foizi asosiy qarz to‘lovlariga, 95.6 foizi kredit foizi to‘lovlariga yo‘naltiriladi, ikkinchi besh yillikda 11.2 foizi asosiy qarz to‘lovlariga, 107.6 foizi kredit foizi to‘lovlariga yo‘naltiriladi, . Ya’ni besh yil mobaynida har oyda to‘langan 100 so‘m pulning 4.4 so‘mi asosiy qarzga, qolgan 95.6 so‘mi esa kredit foiziga yo‘naltiriladi. Kreditning to‘liq davri – 20 yil davomidagi to‘lovlarning 73 foizi kredit foiziga, 27 foizi asosiy qarzga yo‘naltiriladi.

Agar ipoteka krediti kamayib boruvchi (differensial) tartibda 20 yil muddatga berilsa, kredit to‘lovining 64,4 foizi kredit foiziga, qolgan 35,6 foizi asosiy qarzga yo‘naltiriladi. Bu tartibda ipoteka kreditiga ajratilgan resurs mablag‘lari yiliga 5 foizdan qaytadi.

Keltirib o‘tilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kredit muddatining uzoq bo‘lishi va kredit qaytish tezligining pastligi ajratilgan ipoteka kreditlariga yanada ko‘proq foiz hisoblanishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda aholining daromadi va kredit to‘lov qobiliyatini hisobga olib, kredit muddati 20 yil etib belgilangan. Joriy dasturni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida bunga qo‘shimcha ravishda bir necha xil shartdagi kredit mahsulotlarini amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ko‘rsatilgan tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirish o‘rinlidir:

Banklarimiz tomonidan ajratgan iporeka kredlarining o‘z vaqtida qaytishini ta’minlash uchun banklar kredit muddati va foizini amaldagi muddati va foiziga to‘g‘ri proporsional shaklda kamaytirish lozim, bu orqali mijozlarning qo‘shimcha to‘lov miqdori kamayadi hamda banklarga pul tez qaytadi. Natijada banklar qaytgan mablag‘larni yana foyda olish maqsadida kreditga yo‘naltira olishadi.

Tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlarini ajratishda o‘z mablag‘larining miqdori yetishmasligi banklarda uzoq muddatli resurslarni shakllantirishda kamchilik mavjudligidan dalolat beradi, bunday holatda banklarimiz xorijiy investorlardan uzoq muddatli arzon mablag‘larni jalb qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan joylashtirgan mablag‘lar hisobidan ipoteka kreditlari ajratish tartibi to‘g‘risida”gi 2021-yil 5-fevraldagi 56-sonli nizomi.
2. Банковское дело. Под ред. Лаврушин .О. И. – Москва: Финансы и статистика, 2001,-С. 74.
3. Косорева Н. Б. Основы ипотечного кредитования. – М.: ИНФРА-М, 2007.-С. 5.
4. Нешитой А. С. Финансы и кредит. –М.: “Биржа и банки”, 2006.-С. 571.
5. Nurmuhammedov B. B. Aholiga takif etilayotgan ipoteka kreditarini yanada takomillashtirish // “Bozor,pul va kredit” ilmiy jurnali, Toshkent, №5, 2021 16–21 b
6. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/- O‘zbekiston Respublikasi Prizdenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlar bazasi.
7. https://cbu.uz/uz/ – Markaziy bandk ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLARNI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

M. Samiyeva
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrasi assisenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali soliq bilan bog‘liq barcha xizmatlarni osonlashtirish, ya’ni soliq organlari xodimlari va soliq to‘lovchilarning imkoniyatlari kengaytirish, soliq tizimidagi ko‘plab ishlarni raqamli texnologiyalari orqali bajarish bo‘yicha taklif va amaliy tavsiyalar va ularni samaradorligini baholash yo‘llari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, tadqiqot doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tizimi, raqamli texnologiyalari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq, samaradorlik, raqamli platforma, raqamli transformatsiya, soliq organlari, optimallashtirish, veb-xizmatlar, zamonaviy raqamli texnologiyalar, elektron soliq xizmatlari, electron to‘lovlar, electron xizmatlar, ma’lumotlar bazasi, integratsiya, soliq to‘lovchilar.

Abstract: In this article, through the effective use of digital technologies in the tax system, all tax-related services are facilitated, i.e., the opportunities of tax authorities and taxpayers are expanded, and many tasks in the tax system are performed through digital technologies. research was conducted on recommendations and ways to evaluate their effectiveness, conclusions and suggestions were formed within the research.

Key words: tax system, digital technologies, tax reporting, tax revenue, tax, efficiency, digital platform, digital transformation, tax authorities, optimization, web services, modern digital technologies, electronic tax services, electronic payments, electronic services, database, integration, taxpayers.

Аннотация: В данной статье за счет эффективного использования цифровых технологий в налоговой системе облегчаются все налоговые услуги, т.е. расширяются возможности налоговых органов и налогоплательщиков, а многие задачи в налоговой системе решаются посредством цифровых технологий. В ходе исследования были проведены исследования рекомендаций и способов оценки их эффективности, сформированы выводы и предложения.

Ключевые слова: налоговая система, цифровые технологии, налоговая отчетность, налоговые поступления, налог, эффективность, цифровая платформа, цифровая трансформация, налоговые органы, оптимизация, веб-сервисы, современные цифровые технологии, электронные налоговые услуги, электронные платежи, электронные сервисы, база данных, интеграция, налогоплательщики.

KIRISH

So‘nggi vaqtlarda “Raqamli iqtisodiyot” tushunchasi juda ko‘p marta qo‘llanilmoqda. Darhaqiqat, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazgan.

Raqamli iqtisodiyot – bu xo‘jalik faoliyatini yuritish bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko‘rinishidagi ma’lumotlar bo‘lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tatbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko‘rsatish, elektron to‘lovlar amalga oshirish, internet savdo, va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog‘langan faoliyatdir.

Soliq tizimida raqamli texnologiyalardan unumli foydanalish birinchi navbatda davlat soliq xizmati organlari xodimlari tashkil qilinib, amalda qo‘llaniladi. Davlat soliq siyosatini amalga oshirishda asosiy mavqeni egallagan soliq organlariga soliq qonunlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishdek yuksak vazifa yuklatildi.

O‘tgan davr oralig‘ida soliq organlari davlat budjetining daromad qismini uzluksiz to‘ldirishni ta‟minlaydigan muntazam tizimga aylandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik olimlar ham o‘z ilmiy izlanishlarida soliq tizimi faoliyatida zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalarini o‘rganish, shuningdek, global iqtisodiy tizimning raqamli transformatsiyasi sharoitida, ilg‘or axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion uslubiy yechimlar va texnologik mexanizmlarni ishlab chiqishga bir necha bor uringanlar.

Mahalliy olimlarimiz: Gulyamov, Alimov, Xayitmatov, Begalov, Shermuxamedov, Turaev, Jo‘rayev, Abdullayev, Kobilov, Abdulaxtov, Rajabov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari va sohalarida, jumladan soliq tizmida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiyotda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish sharoitida, O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘lovchi faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish usullarini takomillashtirish masalalari munozarali bo‘lib qolmoqda. Muammoning dolzarbligi va yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu muammo bo‘yicha tadqiqot olib borishni va ushbu maqolaning mavzusini aniqlashga imkon berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli texnologiya, sun’iy intellekt texnologiyalari va Big datadan samarali foydalanishga bo‘lgan talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, mavjud muammoni hal qilishda, Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish usullarini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishda, qiyosiy, tizimli, iqtisodiy va statistik, SWOT tahlili, monografik tadqiqot usullari, anketa so‘rovi, guruhlash, taqqoslash, induksiya, deduksiya, optimallashtirish usuli shuningdek, WEB-portallar, kompyuter tarmoqlari va maxsus dasturiy ta’minot vositalari bilan ishlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Soliq tizimida raqamli texnologiyalarining vazifasi soliq xizmati organlari oldiga qo‘yilgan masalalarni hal etish uchun to‘langan soliqlar va yig‘imlar tushumi haqida ma’lumotlar statistikasini ishlab chiqilgan maxsus algoritmlar asosida olib borish va tegishli organlarga uzatish, tushumlar dinamikasini tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy ma’lumotlarni berish, tahliliy ma’lumotlar asosida hisobotlar tayyorlash masalalarini yechishni ta’minlashdan iborat[1].

Soliq xizmati organlarida axborot tizimlari va texnologiyalarini joriy etishning maqsad va vazifalari soliq xizmati organlari bajaradigan funksiyalar, vazifalar, bir xildagi operatsiyalarni yangi dasturlar bilan imkoni boricha kengroq qamrab olishni ta’minlashdir, zero bu dasturlar soliq ma’lumotlariga ishlov berish jarayonini jadallashtirish, soliq inspektorlari ishining samaradorligini oshirish, ularning ishidagi bir tusdagi hisob-kitob va oxiri yo‘q yozuvlar bilan ishlash yukini kompyuter statistikasining zamonaviy vositalaridan foydalangan holda ijodiy tahlil qilish sohasiga chiqish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 10-iyul kuni “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Farmonida ham soliq tizimida Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida[2]:

- Davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma’muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi.
- Soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to‘lovchilarni yanada to‘liq qamrab olish va hisobini ta’minlaydigan zamonaviy raamli texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish;
- Ma’lumotlar bazalari soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot- resurs bazasiga integratsiya qilinadigan davlat organlari va tashkilotlarining ro‘yxatini tasdiqlash.

Asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Soliq to‘lovchilarning yagona ma’lumotlar bazasini yaratish;
- Soliq to‘lovchilar tarkibini tahlil qilish; tushgan soliq to‘lovlarining o‘z vaqtidaligi va to‘liqligini tahlil qilish;
- Tushgan soliq to‘lovlari bo‘yicha hisobot hujjatlarini shakllantirish;
- Soliq tushumlari va boshqa to‘lovlarni bashoratlash; me’yoriy-ma’lumotnoma axboroti ma’lumotlari bazasini yuritish;

1 Г. И. Абаева “Организация интегрированной информационной налоговой системы”. – М.: Костанай, 2017. – С. 215.
2 https://lex.uz/docs/–4415356

- Davlat soliq qo‘mitasi (DSQ) va uning bo‘g‘inlari bilan ularga aloqador tashkilot va muassasalar uchun talab etilgan tartibda axborot va ma’lumotlar tayyorlashdan iborat.

Davlat soliq xizmati organlari axborot texnologiyalarining oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi masalalar hal etilgan[3]:

- Barcha hujjatlar mazmuni va shakli standartlashtirilgan va unifikatsiyalashtirilgan;
- Axborotlar klassifikatsiyalashtirilgan va kodlashtirilgan;
- Bo‘g‘inlar va tizimning bosqichlari o‘rtasida axborotni uzatish tizimi joriy etilgan;
- Avtomatlashtirilgan tizim, hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan axborotlashgan tizim o‘rtasida axborotlar almashish yo‘lga qo‘yilgan;
- Dasturiy-texnik majmua va tizimli dasturiy ta’minot unifikatsiyalashtirilgan.

Soliq xizmati organlarida joriy etilgan axborot tizimlari va texnologiyalarining tuzilishi va tarkibi hamda unga yuklatilgan vazifalar soliq tizimida boshqaruvni avtomatlashtirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga u takomillashib, yangilanib borish xususiyatiga ega.

Soliq xizmati organlarida soliq obyektlari va ularning tushumlari hamda soliq ishini tashkil etishning avtomatlashtirilgan (axborot texnologiyalarini qo‘llash) shakllarini yaratish va realizatsiya qilishdan unumli foydalaniladi. Soliq xizmati organlarida ish jarayonlarini, shuningdek, soliq obyektlari, tushumlari va soliq to‘lovchilarning holati va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yagona axborot bazasini yaratish va unga zamonaviy axborot texnologiyalarni qo‘llash ishlari tashkil etiladi. O‘zbekiston soliq tizimida bu borada 30 dan ortiq maxsus dasturiy mahsullardan foydalaniladi [1].

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish, malakali xodimlarni tayyorlash, kompyuter jihozlari, dasturiy mahsullar bilan ta’minlash hamda zamon talabidan kelib chiqib, soliq idoralarida jamlangan hisobotlarni elektron ko‘rinishda quyi soliq xizmati organlaridan Davlat soliq qo‘mitasiga uzatish, Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan beriladigan operativ topshiriqlarni davlat soliq boshqarmalariga va davlat soliq inspeksiyalariga to‘g‘ridan – to‘g‘ri uzatish masalalari, shu bilan birga soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olish, ularni davlat budjeti oldidagi majburiyatlarining bajarilishi haqidagi ma’lumotlarni yagona soliq to‘lovchilar bazasida saqlash va boshqa masalalar dolzarb masalaga aylandi [3].

Soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashda bir qancha muammolar yuzaga keladi. O‘sha muammolardan birni axborot xavsizligini ta’minlash hisoblanadi. Davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy va ajralmas qismi bo‘lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi masalalariga aylanmoqda. Axborotni himoyalashning turli usullari mavjud bo‘lib, elektron hujjat aylanishi tizimiga o‘tilayotgan bugungi kunda elektron raqamli imzo asosida hujjatlar asl-ligini tasdiqlash va ularni himoya qilish iqtisodiy axborot almashinuvida eng qulay usullardan biri hisoblanadi.

Soliq tizimida raqamli texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Soliq tushumlari bo‘yicha ma’lumotlarni olish.
- Ish samaradorligini oshirish.
- Qog‘ozdagi ish oqimining hajmini kamaytirish.
- Soliq tekshiruvlarini ma’lumotlar bilan ta’minlash.
- Soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchliligini oshirish.
- Soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish.

Boshqa har qanday avtomatlashtirilgan tizimlarda bo‘lgani kabi, Soliq tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanishga ham bir qator talablar qo‘yiladi, birinchi navbatda, tegishli funksiyalarni samarali bajarish bilan bog‘liq. Ishlab chiqilgan soliq axborot tizimi nafaqat soliq organlari ishlarini osonlashtirishga imkon beradi, balki uning barcha faoliyat elementlarini ham tartibga soladi. Tizim alohida elementlarni va butun tizimni boshqaradi.

Hozirgi kunda elektron deklaratsiyalar ham yaratililmoqda. Endi soliq to‘lovchilarga soliq deklaratsiyasini elektron shaklda topshirish imkoniyati mavjud va bu, shubhasiz, ularni soliqlarni yig‘ish jarayonini osonlashtiradi. Bu usldan foydalanish ancha afzallikka ega bo‘lmoqda chunki soliq to‘lovchilar endi soliq idoralariga tashrif buyurishi shart emas. Shuningdek, o‘z navbatida, soliq inspektsiyasi kiruvchi ma’lumotlarni qo‘lda qayta ishlash bilan shug‘ullanmaydi, chunki soliq tizmida axborot texnologiyalaridan foydalanib avtomatlashtirilgan axborot tizimini modernizatsiya qilish imkoniyati mavjud. Ma’lumot elektron shaklda qabul qilinadi va avtomatik hisoblash darhol amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- Vaqtni tejaydi.
- Kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tasdiqlay oladi.
- Amalga oshirilgan operatsiya haqida ma’lumot beruvchi ko‘chirma olish imkoniyati mavjud.
- Soliq xizmatiga ma’lumotlarni yetkazib berish haqida xabar beradi,
- Soliq undirishda aniqlik bo‘ladi.
- Davlat xodimlarining ishlash jarayonida shaffoflik bo‘ladi.

3 Jo‘rayev A. S., Berdiyeva U. A. “Soliq ma’murchiligi” o‘quv q’ollanma” – M: Toshkent–2019. S – 201

Davlat soliq xizmati organlarida zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha bosqichlarda ko‘rib chiqishimiz mumkin va u quyidagi vazifalarni bajaradi:

Soliq bazasini aniqlash. Korxonalar va jismoniy shaxslar tomonidan soliqqa rioya etilishining aniq tasavvurini aniqlash har qanday hokimiyat uchun katta muammo tug‘diradi. Uchinchi tomon ma’lumotlaridan foydalanish va soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olishni raqamlashtirish orqali axborot texnologiyalari soliq solinadigan jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, ularning faoliyati va aktivlari to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotlar bazalari orqali soliq solinadigan bazani aniqlash imkoniyatlarini yaxshilashi mumkin. Xuddi shunday, elektron fiskal qurilmalar yoki raqamli to‘lovlar orqali tranzaksiyalarni avtomatik tarzda yozib olish orqali axborot texnologiyalari soliqlarni yanada shaffofroq aniqlashga yordam beradi[4].

Muvofiqlikni monitoring qilish. Zamonaviy ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari soliq organlariga o‘z-o‘zidan hisobot berilgan soliq majburiyatlarini boshqa ma’lumotlar manbalariga nisbatan avtomatlashtirilgan o‘zaro tekshirish orqali nazorat qilish va bajarilishini nazorat qilishda yordam beradi. Bundan tashqari, bunday uchinchi tomon ma’lumotlarini tahlil qilish riskga asoslangan auditni qo‘llab-quvvatlashi mumkin, bu esa audit jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirishi mumkin5.

Muvofiqlikni osonlashtirish. Elektron hujjat topshirish va elektron to‘lov kabi texnologiyalar soliq to‘lovchilar bilan aloqani optimallashtirish hamda navbatda turish va ma’lumotlarning xatoga yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan qo‘lda kiritilishini bartaraf etish orqali soliq to‘lovchi tajribasini yaxshilashi va muvofiqlik xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Jismoniy hamda yuridik shaxs va soliq to‘lovchi o‘rtasidagi axborot texnologiyalariga asoslangan soliq xizmatlaridagi o‘zaro munosabatlar soliq to‘lovchilarni korrupsiyadan himoya qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq xizmati organlarida zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishda bir qancha to‘siqlar mavjud bo‘lganda, ya’ni agar elektr quvvati va barqaror internet 3loqasi kabi qattiq infratuzilma yo‘q bo‘lsa yoki axborot texnologiyalari eng yuqori vaqtlarda to‘siqqa uchrab qolsa yoki ishdan chiqsa yoki faqat vaqti-vaqti bilan ishlasa, bu holda soliq organlari tomonidan internetdan foydalanish imkoniyati cheklangan soliq to‘lovchilarga oddiy telefonlar yordamida oflayn deklaratsiya va to‘lovlarni hal qilish kabi murakkabroq texnologiyalardan foydalanishni taklif qilish orqali soliq orgalari xizmatlaridan unumli foydalanish

Yangi raqamli texnologiyalarning samaradorligi asosiy rahbarlar tomonidan kuchli nazorat bo‘lmasa va uzoq muddatli milliy strategiya bo‘lmasa, sezilarli darajada to‘sqinlik qilinishi mumkin.

Soliq to‘lovchilar ma’lumotlarini sir saqlash ham muhim ahamiyatga ega. Soliq to‘lovchilar va davlat organlari o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi ko‘pincha maxfiylik va maxfiylik muammolari tufayli tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Davlat organlari soliq to‘lovchilarni aniqlash va ma’lumotlarni o‘zaro tekshirish uchun bir nechta davlat muassasalari va banklardan foydalanishlari mumkin bo‘lgan markaziy avtomatlashtirilgan platformani o‘rnatishlari mumkin. Axborot texnologiyalari rivojlanib borar ekan, maxfiylik va maxfiylikni saqlash hamda fuqarolarni ma’lumotlari tarqalib ketishidan himoya qilish uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha me’yoriy-huquqiy bazalar yangilanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”da PQ–4389-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 18-iyuldagi PF–5116-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
4. “Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” – PQ–5252- son Qarori, 04.10.2021-y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–73-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savaraliamalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 6-oktyabrdagi PF- 6079 sonli Farmoni.
7. Г. И. Абаева “Организация интегрированной информационной налоговой системы”. – М.: Костанай, 2017. – С. 215.
8. Jo‘rayev A. S., Berdiyeva U. A. “Soliq ma’murchiligi” o‘quv q’ollanma” – M: Toshkent–2019. S – 201
9. Adewoye, J. O., &Olaoye, C. O. (2021). Usage of information technology to enhance professional productivity among accountants in Ekiti State. International Journal of Accounting and Financial Management Research (IJAFMR), 4(2), 7–18.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari: www.soliq.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savaraliamalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF–6079 sonli Farmoni

5 G. I. Abayeva “Organizatsiya integrirovannoy informatsionnoy nalogovoy sistemы”. – M: Kostanay, 2017. S – 215



ASSESSMENT OF THE ECONOMIC EFFECTIVENESS OF THE RAILWAY TRANSPORT SYSTEM

Mannonov Shahruhmirza Abdurashidovich
Tashkent State University of Economics independent researcher

Abstract: This article describes the main directions that determine the efficiency of the railway transport services, the relationship between the concepts of railway transport services, transport system and transport infrastructure and the main factors influencing the choice of mode of transport, suggestions for improvement are given.

Key words: transport system, railway transport services, railway transport, transport-logistics, transit transportation, cargo delivery, hierarchy of tasks, transport complex, services in GDP, transport infrastructure.

Annotatsiya: Ushbu maqolada temir yo‘l transporti xizmatlari samaradorligini belgilovchi asosiy yo‘nalishlar, temir yo‘l transporti xizmatlari tushunchalari, transport tizimi va transport infratuzilmasi va transport turini tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilgan, takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: transport tizimi, temir yo‘l transporti xizmatlari, temir yo‘l transporti, transport-logistika, tranzit tashish, yuklarni yetkazib berish, vazifalar ierarxiyasi, transport kompleksi, YaIMdagi xizmatlar, transport infratuzilmasi.

Аннотация: В статье описаны основные направления, определяющие эффективность услуг железнодорожного транспорта, взаимосвязь понятий “услуги железнодорожного транспорта, транспортная система и транспортная инфраструктура” и основные факторы, влияющие на выбор вида транспорта, даны предложения по совершенствованию.

Ключевые слова: транспортная система, услуги железнодорожного транспорта, железнодорожный транспорт, транспортно-логистика, транзитные перевозки, доставка грузов, иерархия задач, транспортный комплекс, услуги в ВВП, транспортная инфраструктура.

INTRODUCTION

The process of globalization of world integration processes requires increasing the economic efficiency of the transport complex and the transport service sector. Today, “the provision of transport services as an important sector in the world distribution of labor accounts for 8% of the world’s employed population, 15% of economic expenditures and 6% of the created gross product”1. This provides an opportunity to effectively organize transport services, create new jobs and develop the activities of related industries. Providing railway transport services both quantitatively and qualitatively at the international level is of particular importance. In this process, the market of motor transport services took place as an important segment, “its share in the world gross domestic product was 6.8 percent”.

The transport complex is of particular importance in the effective development of the country’s economy, and it is one of the main directions in increasing the rate of socio-economic development. From this point of view, the rapid growth of the country’s economy directly depends on the efficiency of the transport infrastructure. Due to the dependence of Uzbekistan on transit countries, it has a negative impact on the organization of the process of cargo delivery and the cost of transportation. Therefore, the formation of transport infrastructure and new transport corridors is one of the main tasks for the country.

The transport system as a component of the country’s infrastructure (in addition to the energy, social, communal and other components of the general infrastructure) transport networks and enterprises providing passenger and cargo transportation services (by all types of transport used), together with the transport corridors that form a network from the point of view of a complex space and summarizes the system of enterprises and organizations that ensure the effective operation and development of transport infrastructure objects (both in terms of service provision and management functions).

Today, 15,300 enterprises are operating in the field of transport. The share of enterprises engaged in the field of “transportation and storage” in the total volume of enterprises providing services in this activity was 5.9%.Today, the service industry is one of the most important sectors of the economy. Positive results were

achieved due to the implementation of the policy of state support and the promotion of the development of the service sector in our country. The decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On the program for the development of the service sector in 2016–2020" defines the priority directions and tasks of the development of the service sector of Uzbekistan, including:

- increasing the gross domestic product due to the development of services, increasing its share in the economy to 48.7%;
- By 2025, a 2.4-fold increase in services in rural areas;
- creation of conditions for rapid development in the service sector, development of engineering, communication, automobile and transport infrastructure, implementation of structural changes due to introduction of modern information and communication technologies in networks;
- formation of a competitive environment, support for the development of small and private business entities;
- expansion of various innovative services, new communication facilities;
- to ensure the technical capabilities of the population for the telecommunication network, to provide high-quality services based on them, to ensure the transition to digital telephone communication and television systems, to increase the share of communication and information services in the republic's economy to 2.5% by 2025;
- development of financial services with the introduction of modern electronic payment technologies;
- further development of high-tech medical services.

All-round development of the service sector is an urgent issue of sustainable economic development, ensuring employment of the population and raising the standard of living of the population.

Today, a wide range of transport services leads to the development of international relations – the formation of the global economy by maintaining the increasing flow of cargo and passengers worldwide. The progress achieved in the field of scientific and technical development, that is, the mass introduction of innovations in various sectors of the economy, including the field of transport services, has become a process.

Innovations are of particular importance in the further development of Uzbekistan's railway network and in strengthening its unique position in international transport relations. Also, there is a need to move to the path of innovative development aimed at improving the railway transport infrastructure. That is why the head of our state has set a number of tasks to develop scientific research and innovative activities, introduce venture business into economic sectors, attract necessary financial resources, pay special attention to innovative ideas and support them. Experience in venture financing has not yet been formed in economic sectors, including in the field of transport, and for this it is necessary to study the experience of economically developed countries.

"Venture innovation financing", which is considered as a novelty today, is an investment with a high level of risk in a newly created enterprise with an innovative technology in order to bring a new product or service to the market and obtain high profits. The investment is made using the venture mechanism, and the financing of the investment is covered by the future sources of the project.

Venture innovative design was formed relatively recently (late 1950s – early 1960s) and began to develop strongly in the 1980s and 1990s. It attracts enough attention as a source of funds for investment in high-return sector and an effective mechanism for introducing innovations. The development of innovative venture capital investment in various regions and countries will lead to an increase in the growth rate of these countries. Below, we present a venture innovative design scheme in railway transport (Fig. 1).




Figure 1: Scheme of venture financing in "Uzbekistan Railways" JSC

Also “Writing” fund activities are directed to the rapid creation of a new industry and its development. Financing of innovative activities can be carried out at the expense of sources such as state (budget), bank loans, investors’ funds, innovative funds, investment and venture funds, “business angels” funds, crowdfunding and corporate profits. The study of financing conditions made it possible to form a classification of these sources in such directions as the origin of investments, the number of participants (investors), and the form of ownership.

Venture financing is a favorable factor for the development of the transport network. When the most appropriate model of financing innovative ideas is effectively implemented, based on the characteristics of the economic and financial activity of railway transport, the state of the field of innovative technologies in general, this type of financing helps to obtain high profits, as well as create many jobs in the field of modern technologies.

Taking into account the above points, the overview of the sequence of evaluation of the economic efficiency of the transport system was described as follows. In our opinion, by evaluating the economic efficiency of railway and road transport services, it is possible to determine the ways of using innovative technologies to ensure the future development of the enterprise. (Figure 2).




Figure 2: Evaluation of the economic efficiency of railway and road transport services

When mastering the processes of development of new types of transport service, more attention is paid to market research, not to the evaluation of this service. This, in turn, suggests the use of innovative marketing technologies in effectively and successfully marketing the services provided by railway and road transport enterprises.

At this point, it should be noted that, according to the World Bank’s assessment of the transport complex, the automobile infrastructure has a higher chance of paying off the investments made in the sector compared to other sectors. In particular, the average annual profitability (average economic rates of return) obtained from investments in highway infrastructure is 29%, seaport infrastructure – 20%, railway – 12% (Figure 3).



Figure 3: Average indicators of economic profitability of certain types of transport, (%)

Based on the results of the assessment, the regulation of the development of the transport system is shown in the main sequence described in Figure 4. It is desirable to implement the above-mentioned priority areas that ensure the development of the transport system on the basis of solving the following interconnected tasks:

- increase the capacity of existing high-speed highways and intersections and build new ones, which will reduce the load on the roads in residential areas;
- balanced development of the road system, terminal-warehouse economy, customs supply system of cargo transportation in the interests of the development of the country's socio-economic system;
- ensure targeted use of financial resources attracted from regional and private sources, including the use of public-private partnership mechanisms, for the development of railway transport infrastructure within the general infrastructure;
- use of modern innovative technologies that ensure efficient operation of railway transport infrastructure.

The effective performance of these tasks serves to raise the rating of the country's transport complex to a high level on the international level according to development indices.




Figure 4: The sequence of increasing the economic efficiency of the transport system

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

The existing problems in the railway transport system are one of the factors hindering the growth of the country's economy. Therefore, it is appropriate to consider these issues separately:

- to fully meet the growing needs in line with the expansion of economic sectors and the ever-growing population;
- providing high-quality services to satisfy consumer needs;
- development of measures to minimize transportation costs in product cost;
- to achieve high efficiency of the transport system.

The above-mentioned directions can be described in a hierarchical sequence to the following scheme (Fig. 5).




Figure 5: Directions for improving the efficiency of the railway transport system[1]

Based on the above considerations,In this research on increasing the economic efficiency of the transport system, the following directions were proposed by the author:

- establishment of effective use of scientific and technical capabilities and production resources;
- improvement of the vehicle maintenance system based on modern technologies;
- to reduce or completely eliminate the damage caused by the transport system to the environment and economy;
- the continuous increase in expenses for modern infrastructure and the search for new sources of income to meet this demand;
- the resulting interaction between participants in the railway transport market causes a decrease in economic and technological efficiency, as a result of which the cost of transporting goods in railway transport along the network increases;
- facing crises in the economy and reducing the set level and amount of fees and tariffs for using infrastructure services, may require the implementation of additional state subsidies;
- with the increase of regulatory directions and objects, including the legal use of infrastructure services, and improvement of the public administration and order system;
- mutual distribution of responsibilities and tasks in the technological and operational cargo transport companies and infrastructure between the economy and the system that ensures the safety of transportation.

Therefore, based on the above considerations, the following problems affect the slow progress of the transport system development processes:

- high prices of freight transportation in railway transport;
- about 60% of railway wagons have been in service for 20–30 years, and 13% for more than 30 years;
- 1.5% of refrigerator cars participate in international transportation (15–20% demand), this figure is 4% of railway wagons;
- In 2017, 68% of the trucks involved in international transportation were 15–20 years old, and 10% were 20–30 years old;
- more than 70% of the country's highways cannot provide the optimal speed of vehicles;
- about 30% of the warehouse's main funds are physically and morally obsolete;
- the level of mechanization of loading and unloading works is 20–30%.

1 Systematized by the author as a result of the conducted research.

CONCLUSIONS

Thus, in order to prevent the above problems, it would be appropriate to define the following main conceptual directions:

1. The following measures should be implemented to reduce the rate of increase in the prices of transport services:

- change the principles of setting tariffs and gradually move to a new tariff system, reduce the number of correction coefficients, reduce the types of financing of railway transportation from all sides;
- creation of a competitive environment in the field of railway cargo transportation by creating conditions for the establishment of private companies dedicated to freight transportation in railway transport, which have their own locomotives and wagons;
- increase the speed and reliability of transport services, increase the share of railways supplied with electricity to 55% by 2030. For this, it is necessary to provide electric power to 168 km of railway every year, and the amount of investments is 5.34 billion. should amount to dollars. 1.2 billion to upgrade locomotives and wagons until 2030. dollar investment is required:

2. Expansion of the network of multimodal transport-logistics centers in the regions to increase the economic efficiency of railway and road transport services through:

- harmonizing the regulatory and legal basis, technical and technological regulations and standards of cargo transportation, intermodal and multimodal cargo transportation, logistics centers, transport-forwarding activities in accordance with international standards;
- organization of an integrated information system to ensure the effectiveness of multimodal transportation;
- it is necessary to form a national network of customs logistics centers, to ensure that transport-logistics operations in them are at least 3PL level.

Thus, increasing the economic efficiency of railway and road transport services will ensure the saving of all production and material resources, the acceleration of production, the reduction of transport costs and the development of economic sectors.

List of used literature:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF–4947 of February 7, 2017 “On the Action Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan.” // www.lex.uz.
2. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. 2020.
3. Irsbekova MN Optimization of the transport services market based on marketing principles. Iqt. science. doc. ...dis. Autoref., Tashkent 2017.
4. Zohidov AA Improving the mechanism of effective management of the Central Asian transport system. Iqt. science. doc. ...dis. Autoref., Tashkent 2018.
5. Elizareva A. A. Proektnyy podkhod k organizatsii prigorodnykh perevozok. //Economics, №5 2017.
6. Kovshova M. M. Competitive marketing and signal transport // RJD-Partnyor, 2012. No. 9.
7. Votolevskiy V. L., Perspektivy razvitiya vokzalnykh kompleksov p. 21–2 //Railway transport, No. 3, 2018.



O‘ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING IQTISODIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Nazarova Muslima Nazarovna
PhD, i.f.f.d., TDIU Bank ishi va investitsiyalar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tahlilda O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan 85 ta mikromoliya tashkilotlarining 2017–2022-yillardagi statistik ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: nobank kredit tashkilotlari, samaradorlik, mikromoliya tashkilotlari, aktiv, kapital, rentabellik, likvidlilik.

Abstract: This article analyzes the economic efficiency of microfinance organizations in Uzbekistan. The analysis examined statistical indicators of 85 microfinance organizations operating in Uzbekistan for 2017–2022.

Key words: non-bank credit organizations, efficiency, microfinance organizations, asset, capital, profitability, liquidity.

Аннотация: В данной статье анализируется экономическая эффективность микрофинансовых организаций в Узбекистане. В анализе были рассмотрены статистические показатели 85 микрофинансовых организаций, действующих в Узбекистане за 2017–2022 годы.

Ключевые слова: небанковские кредитные организации, эффективность, микрофинансовые организации, актив, капитал, рентабельность, ликвидность.

KIRISH

Dunyo iqtisodiyotining globallashuvi bilan bir qatorda aholi turmush darajasining keskin tabaqalanishini oldini olish ko‘p jihatdan davlatlarda moliya bozorining, xususan nobank kredit tashkilotlari faoliyati rivojlanganligi bilan bog‘liq ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Oxirgi o‘n yilda dunyo davlatlarida qambag‘allik darajasi pasayib borgan bo‘lsada, ammo pandemiya holati bu tendensiyani o‘zgartirib yubordi. 2020-yildagi Covid–19 pandemiyasi Jahon banki tomonidan hisobi olib boriladigan ko‘p o‘lchovli qashshoqlik indeksini (Multidimensional Poverty Index (MPI)) oshirib yuborgan. Xususan, 2020-yildagi global qashshoqlikda 621,1 million kishi prognoz qilingan bo‘lsa, aslida bu ko‘rsatkich 713,8 million kishini tashkil qilgan, hamda 2022-yildagi global qashshoqlikda 581,3 million kishi prognoz qilingan bo‘lsa, aslida bu ko‘rsatkich 656,7 million kishini tashkil qilgan[1]. Bu esa davlatlarda nobank kredit tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Nobank moliyaviy korxonalarning yana bir xususiyati shundan iboratki, ushbu kompaniyalar bankning ma’lum bir xizmatini o‘zida mujassam etadi. Misol uchun, mikromoliyaviy tashkilotlar faqat mikrokredit, mikroqarz va mikrolizing berish operatsiyalari bilan shug‘ullanadi. Ammo ushbu turdagi operatsiyalardan tijorat banklari ham foydalanadi. Yana bir misol, faktoring kompaniyalaridir. Ushbu kompaniyalar mijozlarining muddatli o‘tmagan debitorlik qarzlarini sotib olish orqali ularni moliyalashtirish bilan shug‘ullanadi. Shu bilan birga tijorat banklari ham faktoring xizmatlari mavjud. Shunday ekan, nobank moliya tashkilotlari bankning ma’lum bir funksiyasini o‘zida birlashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Nobank moliya tashkilotlarining iqtisodiyotda tutgan o‘rni, mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni, ushbu tashkilotlar faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar yuzasidan mahalliy va xorijiy adabiyotlarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlarning ayrimlari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

1 https://www.worldbank.org/en/topic/poverty#a ma’lumotlari.

B. Gutierrez-Nieto va boshqalar mikromoliyaviy tashkilotlar samaradorligini tahlil qilishgan. Ularning fikricha, mikromoliyaviy tashkilotlar nafaqat ijtimoiy tashkilotdir, balki foyda olishga ixtisoslashgan moliyaviy tashkilot hisoblanadi. Yuqoridagi iqtisodchilar Lotin Amerikasida joylashgan 30 ta mikromoliyaviy tashkilotlarning samaradorligini ma'lumot-larning nisbiy tahlili (Data Envelopment Analysis (DEA)) modelidan foydalangan. Tahlil natijalariga ko'ra, mikromoliyaviy tashkilotlar samaradorliga to'rtta ko'rsatkich ta'sir ko'rsatib, ularning ichida davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar ta'siri, shu bilan birga mikromoliyaviy tashkilotlarning nodavlat tijorat tashkilot hamda nodavlat va notijorat tashkiloti kabi tashkiliy maqomining ta'siri yuqori ekanligini aniqlashgan[2].

R. Mersland va R. Strøm kabi olimlar mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyat samaradorligi bilan undagi korporativ boshqaruv o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishgan. Ular mikromoliyaviy tashkilotda boshqaruv kengashining xususiyatlari, mulkchilik turi, raqobat va tartibga solish usullarining mikromoliyaviy tashkilotlarning kambag'al mijozlar qatlami bilan ishlashi va uning samaradorlikka ta'sirini tahlil qilishgan. Tahlillar shuni ko'rsatganki, mikromoliyaviy tashkilotlarida kengash raisi va va boshqaruv raisi vazifalarining bir-biridan aniq ajratilganligi, boshqaruv raisida ayol kishining bo'lishi hamda mamlakatdagi raqobat muhiti mikromoliyaviy tashkilotlarining samaradorligiga va mamlakatdagi kambag'allarning sharoitini keng ta'sir qilishi aniqlangan. Xususan, mikromoliyaviy tashkilotida kengash a'zolari ko'pchilikdan tashkil topgan bo'lsa, ushbu tashkilotda kreditlash hajmini kamaytirgan. Shuningdek, mikromoliyaviy tashkilotlarning mulkchilik shakli, ya'ni uning nodavlat tashkiloti yoki aksionerlik jamiyatidan tashkil topishi samaradorlik ko'rsatkichlarigi ta'siri sezilmagan[3].

N. Hermes, R. Lensink, va A. Meesters kabi iqtisodchilar mikromoliyaviy tashkilotlarining kambag'allikni qisqartirish yo'lida kreditlar ajratishi bilan uning samaradorligi o'rtasidigi bog'liqlikni tahlil qilishgan. Tahlilda 435 ta mikromoliya tashkilotlining 1997–2007-yillardagi statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda stoxastik chegara tahlil (stochastic frontier analysis (SFA)) modelini qo'llashgan. Tahlil natijalariga ko'ra, 1300 dan ortiq kuzatuvlardan aholining kambag'al qatlamini kreditlash va mikromoliyaviy tashkilotlari samaradoriligi o'rtasida teskari proporsionallik mavjudligi aniqlangan[4]. Darxaqiqat, mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan aholining kambag'al qatlamini kreditlar birinchidan, katta xarajat tursa, ikkinchidan katta risk bilan bog'liqdir. Chunki, ushbu mijozlar moliyaviy nobarqaror mijozlar hisoblanadi.

B. Gutiérrez-Nieto, C. Serrano-Cinca, va C. Mar Molinero kabi iqtisodchilar fikricha mikromoliya tashkilotlari moliyaviy dunyoda alohida holatdir. Ular ikki tomonlama, ya'ni ham moliyaviy ham ijtimoiy rolga ega va ikkalasida ham samarali bo'lishi kerak. Mikromoliya tashkilotlar moliyaviy samaradorligini tahlil qilish uchun ular an'anaviy moliya institutlari uchun mavjud adabiyotlarga tayangan. Bunga ular ijtimoiy faoliyatning ikkita ko'rsatkichini qo'shgan, ya'ni ayollarga ta'sir va qashshoqlik indeklaridir. Ijtimoiy va moliyaviy samaradorlik, samaradorlik va rentabellik kabi boshqa ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikka tayangan mikromoliya tashkilotlari haqida bir qator farazlar ishlab chiqilgan. mikromoliya tashkilotlarining ijtimoiy samaradorligi va ularning turlari o'rtasidagi bog'liqlik – nodavlat tashkilot, nodavlat notijorat tashkiloti va faoliyatning geografik mintaqasining ahamiyati kabi ko'rstakichlar asosida tahlil qilgan. Natijalar ijtimoiy samaradorlikni baholashning ahamiyatini ochib bergan[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlar faoliyatini tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika qo'mitasining hamda Imkon Finans AJ mikromoliya tashkilotining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nobank kredit tashkilotlar moliya bozorining ajralmas elementlaridan biriga aylangan. Nobank kredit tashkilotlari tarkibiga kiruvchi mikromoliya tashkilotlari to'g'risidagi dastlabki qonun 2006-yil 28-iyunda qabul qilingan bo'lib (xozirda ushbu qonun o'z kuchini yo'qotgan), bunda mikromoliya tashkilotlariga "Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ushbu Qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs mikromoliya tashkilotidir" degan tavsif berilgan.

2017-yildan keyin mamlakatimizda moliya-kredit sohasida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Chunki, yuqorida qayt etilgan qonun zamon talablariga javob bermay qoldi. Shuni inobatga olgan holda, 2022-yil 20-aprelda


2 Gutierrez-Nieto, B., Serrano-Cinca, C., & Molinero, C. M. (2007). Microfinance institutions and efficiency. Omega, 35(2), 131–142.
3 Mersland, R., & Strøm, R. Ø. (2009). Performance and governance in microfinance institutions. Journal of Banking & Finance, 33(4), 662–669.
4 Hermes, N., Lensink, R., & Meesters, A. (2011). Outreach and efficiency of microfinance institutions. World development, 39(6), 938–948.
5 Gutiérrez-Nieto, B., Serrano-Cinca, C., & Mar Molinero, C. (2009). Social efficiency in microfinance institutions. Journal of the operational research society, 60(1), 104–119.

“Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ–765-son qonun kuchga kirdi va ushbu qonunning maqsadi nobank kredit tashkilotlari faoliyati va mikromoliyalashtirish faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi alohida belgilab qo‘yildi.

Iqtisodiy adabiyotlardan shuni aniqladikki, nobank kredit tashkilotlari samaradorligi bo‘yicha ko‘lam kengligi uning ijtimoiy faoliyatining samaradorligini anglatadi. Biz ilmiy ishimizning birinchi bosiqichida nobank kredit tashkilotlari tarkibiga kiruvchi mikromoliya tashkilotlar faoliyatini tahlil qilganmiz. Mikromoliya tashkilotlarining samaradorlik bo‘yicha ko‘lam kengligini tahlil qilishda bir qancha ko‘rsatkichlardan foydalanganmiz. Xususan, mikromoliya tashkilotlari sonining o‘zgarishi, mikromoliya tashkilotlari kreditlarining yillik o‘sishi, mikromoliya tashkilotlarining aktivlariga nistaban rivojlanganlik darajasi, 10 mlrd. so‘m va undan ortiq summadagi mikromoliya tashkilotlari aktivlari o‘zgarishi, mikromoliyaviy tashkilotlar aktivlarining YAIM va tijorat banklari aktivlariga nisbati, mikromoliyaviy tashkilotlar kreditlarining YAIM va tijorat banklari kreditlariga nisbati va mikromoliyaviy tashkilotlar aktivlari va kreditlari real hajmining bazis yildagi (2016-yildagi) YAIMga nisbati kabi ko‘rsatkichlar orqali samaradorlik bo‘yicha ko‘lam kengligini aniqlashimiz mumkin.

Mikromoliya tashkilotlarining samaradorlik bo‘yicha ko‘lam chuqurligi bizga ushbu tashkilotlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda yordam beradi. Shunday ekan, mikromoliya tashkilotlarining samaradorlik bo‘yicha ko‘lam chuqurligini tahlil qilishda mikromoliya tashkilotlarining kreditlarining aktivlardagi ulushi, mikromoliya tashkilotlari balans passivining taqsimoti, mikromoliya tashkilotlar kapital tarkibi, mikromoliya tashkilotlari likvidliligining o‘zagirish dinamikasi hamda mikromoliya tashkilotlar rentabellik ko‘rsatkichlari kabi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Mikromoliya tashkilotlarining ko‘lam chuqurligini tahlil qilganda dastlab ushbu takilotlar balans passivini, ya’ni moliyaviy resurslar manbalarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.



1-rasm: Mikromoliya tashkilotlari balans passivining taqsimoti (mln.so‘mda)[6]

Mikromoliya tashkilotlarining moliyaviy resurslar manbayi majburiyat va o‘z kapitalidan tashkil topadi. Tahlil ma’lumotlarga qaraganda, 2017-yil 1-yanvar holatiga mikromoliya tashkilotlari balans passivida majburiyatlar 24,55 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 942,12 mlrd. so‘mni tashkil etgan va oxirgi olti yilda 40 baravarga yaqin oshgan. Albatta bu o‘sish juda yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, tahlil ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yil 1-yanvar holatiga mikromoliya tashkilotlari balans passivida kapitali 44,40 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 564,29 mlrd. so‘mni tashkil etgan va oxirgi olti yilda 13 baravarga yaqin oshgan.


Mikromoliya tashkilotlari balans passivida majburiyatlar va kapital ulushiga nasar solsak, unda 2017-yil 1-yanvar holatiga balans passivida majburiyatlari 36 foizni hamda kapital ulushi 64 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 63 foiz va 37 foizni tashkil etmoqda.

Mikromoliya tashkilotlari moliyaviy resurslar tarkibining bu kabi o‘sishi birinchidan, majburiyatlar qismida kapital qismiga qaraganda katta o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, ikkinchidan mikromoliya tashkilotlar nafaqat o‘zlarining resurslariga, balki ushbu resurslarni jalb qilishga ham katta e’tibor qaratayotganligidan dalolat beradi.

Tahlilni mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan mikromoliya tashkilotlarining umumiy statistikasini tahlilidan boshlagan bo‘lsa, aynan butun mikromoliya tashkilotlarining o‘rtacha rivojlanish darajasiga Imkon Finans mikromoliya tashkiloti faoliyatini taqqoslab ko‘ramiz. Imkon Finans mikromoliya tashkilotiga faoliyatini olib borish uchun Markaziy bank tomonidan 2019-yil 8-iyunda 40-sonli litsenziya taqdim etilgan.

6 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Barcha mikromoliya tashkilotlari qatorida Imkon Finans mikromoliya tashkilotining moliyaviy resurslar manbayi ham majburiyat va o‘z kapitalidan tashkil topgan. Tahlil ma’lumotlarga qaraganda, 2021-yil 1-yanvar holatiga Imkon Finans mikromoliya tashkiloti balans passivida majburiyatlar 1,84 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 12,57 mlrd. so‘mni tashkil etgan va oxirgi olti yilda 7 baravarga yaqin oshgan. Albatta bu o‘sish juda yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi.




2-rasm: Imkon Finans mikromoliya tashkilotining majburiyati tarkibi (mln.so‘mda)[7]

Imkon Finans mikromoliya tashkilotining majburiyatlariga kengroq e’tibor qaratsak, unda banklardan va boshqa moliya tashkilotlaridan olingan kreditlar, qarzlar va lizinglar majburiyatlar tarkibida asosiy resurs manbayi (98,5 foizni) tashkil etmoqda. Xususan, 2021-yil 1-yanvar banklardan va boshqa moliya tashkilotlaridan olingan kreditlar va qarzlar summasi 1,82 mlrd. so‘mni tashkil etib, majburiyatlar tarkibida 98,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkich 12,35 mlrd. so‘mni tashkil etib, majburiyatlar-dagi ulushi 98,2 foizni tashkil etgan. Shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, Imkon Finans mikromoliya tashkiloti tomonidan lizing operatsiyalari bo‘yicha majburiyatlari ko‘rilgan davrda mavjud bo‘lmagan.

Mikromoliya tashkilotlariga 2022-yilda o‘zlarining hisob-raqamlarini tijorat banklarida emas, balki Markaziy bankda ochishga ruxsat berildi. Bu ularga tijorat banklari kabi pul massasini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, bu mikromoliya tashkilotlariga talab qilib olunguncha va muddatli depozitlarni qabul qilishga imkoniyat berdi va ular tomonidan boshqa moliya tashkilotlaridan kredit va qarz jalb qilgandan ko‘ra muddatli depozitlar jalb qilish afzal bo‘lib qoldi.

Imkon Finans mikromoliya tashkiloti majburiyatlarida hissasiga ko‘ra keyingi o‘rinlarni to‘lanishi lozim bulgan hisoblangan foizlar, to‘lanishi lozim bulgan hisoblangan soliqlar va boshqa majburiyatlar egallagan bo‘lib, ularning majburiyatdagi hissasi 1 foiz atrofida bo‘lmoqda. Xususan, Imkon Finans mikromoliya tashkiloti majburiyatlari tarkibida to‘lanishi lozim bulgan hisoblangan foizlar salmog‘i oxirgi yillarda oshib borishiga olingan qarzlarning oshib ketishi hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlildan xulosa qilishimiz mumkinki, Imkon Finans mikromoliya tashkiloti rusurs jalb qilishda faqatgina muddatli depozitlarga bog‘liq bo‘lib qolgan.




3-rasm: Mikromoliya tashkilotlar kapital tarkibi (mln.so‘mda)[8]

7 Imkon Finans mikromoliya tashkilotining yillik rasmiy hisoboti asosida muallif tomonidan hisoblandi.
8 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Mikromoliya tashkilotlari balans passivida o‘z kapitali katta qismni egallamoqda. Tahlil natijalariga ko‘ra, mikromoliya tashkilotlari balans passivida o‘z kapitali salmog‘i pasaygani bilan uning ahamiyati yuqoriligicha qolmoqda. Mikromoliya tashkilotlari kapitali tarkibiga nazar solsak, unda ustav kapitali katta qismni egallamoqda. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga ustav kapitali 44,40 mlrd. so‘mni tashkil etgan holda jami kapitalning 63,9 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 564,29 mlrd. so‘mni tashkil etgan va jami kapitalning 53,6 foizini tashkil qilgan. Ustav kapitali hajmi oshgani bilan uning jami kapitaldagi salmog‘ining pasayishiga kapital tarkibidagi boshqa ko‘rsatkichlarning oshishi sabab bo‘lgan.Mikromoliya tashkilotlari jami kapitali ustav kapitali va taqsimlanmagan foydalardan tashkil topgan. Shu bilan birga, oxirgi yillarda jami kapital tarkibida taqsimlanmagan foyda qolgan komponentlardan ko‘ra ko‘proq oshgan.

Imkon Finans mikromoliya tashkiloti kapitali tarkibiga nazar solsak, unda ustav kapitali katta qismni egallamoqda. Xususan, 2021-yil 1-yanvar holatiga ustav kapitali 4,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan holda jami kapitalning 94,0 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 7,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan va jami kapitalning 79,1 foizini tashkil qilgan. Ustav kapitali hajmi oshgani bilan uning jami kapitaldagi salmog‘ining pasayishiga kapital tarkibidagi boshqa ko‘rsatkichlarning oshishi sabab bo‘lgan.

Tahlilimizning keyingi bosqichida mikromoliya tashkilotlari aktiv operatsiyalarini ko‘rib chiqamiz. Mikromoliya tashkilotlar aktiv operatsiyalari tarkibida doimgidek kredit operatsiyalar egallamoqda. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga jami bergan kreditlari 84,35 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 1768,49 mlrd. so‘mga yetgan. Jami aktivlari tarkibida ajratilgan kreditlari salmog‘ini tahlil qilganda 2017-yil 1-yanvar holatiga 89,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 88,6 foizni tashkil etgan.



4-rasm: Mikromoliya tashkilotlarining akriv operatsiyalari tarkibi (mln.so‘mda)[9]


Mikromoliya tashkilotlari aktiv operatsiyalarida keyingi o‘rinlarni likvid aktivlar egallamoqda. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga jami aktivlari tarkibida banklardagi mablag‘lari 2,24 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 62,81 mlrd. so‘mga yetgan. Jami aktivlari tarkibida banklardagi likvid resurslari salmog‘ini tahlil qilganda 2017-yil 1-yanvar holatiga 2,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 3,1 foizni tashkil etgan. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlari aktiv operatsiyalarida kassadagi resurslari hamda hisoblangan foizlar egallagan bo‘lib, ularning jami aktivlardagi salmog‘i 1–2 foizni tashkil etmoqda.

Aytishimiz mumkinki, mikromoliya tashkilotlari aktiv operatsiyalari va daromad olish operatsiyalari faqatgina kreditlar hisoblanib, ushbu tashkilotlar tomonidan qimmatli qog‘ozlarga investitsion operatsiyalari amalga oshirilmagan.

Imkon Finans mikromoliya tashkilotining aktiv operatsiyalarini tahlil qilganda doimgidek kredit operatsiyalar egallamoqda. Xususan, 2021-yil 1-yanvar holatiga jami bergan kreditlari 4,27 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 13,93 mlrd. so‘mga yetgan. Jami aktivlari tarkibida ajratilgan kreditlari salmog‘ini tahlil qilganda 2021-yil 1-yanvar holatiga 69,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 64,3 foizni tashkil etgan.

9 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


Imkon Finans mikromoliya tashkilotining aktiv operatsiyalarida keyingi o‘rinlarni likvid aktivlar egallamoqda. Xususan, 2021-yil 1-yanvar holatiga jami aktivlari tarkibida banklardagi mablag‘lari 6,41 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 204,47 mlrd. so‘mga yetgan.



5-rasm: Imkon Finans mikromoliya tashkilotining akriv operatsiyalari (mln.so‘mda)[10]

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Imkon Finans mikromoliya tashkilotining aktiv operatsiyalari va daromad olish operatsiyalari faqatgina kreditlar hisoblanadi ammo o‘rtacha mikromoliya tashkilotlaridan farqli ravishda ushbu tashkilot tomonidan aktivlarning katta qismini kreditlarga yo‘naltirilmagan. Albatta bu risklilik nuqtayi nazaridan ijobiy vaziyat hisoblanadi.

Tahlil natijalardan ko‘rishimiz mumkinki, mikromoliya tashkilotlari likvidlilik darajasi eng yuqori bo‘lgan davr 2020-yilga to‘g‘ri kelmoqda va o‘sha yilda ushbu ko‘rsatkich 8,78 foizga teng bo‘lgan. Bunga asosiy sabablardan biri COVID–19 pandemiyasi davrida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining susayganligi hamda aholining yalpi talabi pasayganligini keltirishimiz mumkin.



6-rasm: Mikromoliya tashkilotlari likvidliligining o‘zgarish dinamikasi[11]

Tahlilda ko‘rilgan davrda mikromoliya tashkilotlari likvidlilik darajasi betartib o‘zgargan. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga mikromoliya tashkilotlari likvidlilik darajasi 5,59 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 7,20 foizni tashkil qilgan.

Umuman olganda, mikromoliya tashkilotlari kreditlarining foizi tijorat banklari kreditlari foizidan ancha yuqori yurishi hamda banklardan farqli ravishda mikromoliya tashkilotlari aktiv operatsiyalarida kreditlar salmog‘i sezilarli darajada katta ekanligiga (90–95 foiz atrofida) qaramasdan ushbu tashkilotlar rentabelligi tijorat banklari rentabelligiga yaqin bo‘lmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida mikromoliya tashkilotlarida operatsion xarajatlarning, va uning tarkibida ish xaqi xarajatlari katta ekanligi va buning natijasida sof foyda kamayib ketmoqda.

10 Imkon Finans mikromoliya tashkilotining yillik rasmiy hisoboti asosida muallif tomonidan hisoblandi.
11 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Mikromoliya tashkilotlarida rentabellikni oshirish sifatida ularning mulkchilik shaklini mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidan aksionerlik jamiyatiga o'tkaziy maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo'lda hukumatimiz tomonidan kerakli me'yoriy xuddatlar qabul qilingan bo'lib, mikromoliya tashkilotlari mulkchilik shaklini o'zgartirishga yo'llar ochilgan. Ushbu taklifni berishimizga sabab bu – agar mikromoliya tashkilotlari mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida egasi sanoqli insonlardan tashkil popgan holda, ular o'z navbatida operatsion xarajatlarni oshirib yuboradi. Agar mikromoliya tashkilotlarni aksionerlik jamiyatiga o'tkazilsa, aksionerlari soni oshishi va ular ish xaqi shaklida resursni tashkilotdan chiqarib olmasligi mumkin.

Mikrokredit tashkilotlarini aksionerlik jamiyatiga o'tkazishdagi asosiy muammolardan biri sifatida mamlakatimizda aksionerlik jamiyatlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoblarini xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o'tkazishga majburligini keltirishimiz mumkin. Chunki bu mikrokredit tashkilotlariga katta xarajatni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mikromoliya tashkilotlari moliyaviy resurslar tarkibining o'sishi birinchidan, majburiyatlar qismida kapital qismiga qaraganda katta o'sish kuzatilgan bo'lsa, ikkinchidan mikromoliya tashkilotlar nafaqat o'zlarining resurslariga, balki ushbu resurslarni jalb qilishga ham katta e'tibor qaratayotganligidan dalolat beradi.

Imkon Finans mikromoliya tashkiloti balans passivida majburiyatlar va kapital ulushiga nasar solsak, unda 2021-yil 1-yanvar holatiga balans passivida majburiyatlari 30 foizni hamda kapital ulushi 70 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkichlar mos ravishda 57 foiz va 43 foizni tashkil etmoqda. Bu tahlillar Imkon Finans mikromoliya tashkiloti tomonidan muddatli depozitlar, kredit va qarz mablag'larini samarali jalb qilgan-ligidan dalolat beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, mikromoliya tashkilotlar rusurs jalb qilishda faqatgina banklardan va boshqa moliya tashkilotlaridan olinadigan kreditlar, qarzlar va lizinglarga bog'liq bo'lib qolgan.

Mikromoliya tashkilotlariga 2022-yilda o'zlarining hisob-raqamlarini tijorat banklarida emas, balki Markaziy bankda ochishga ruxsat berildi. Bu ularga tijorat banklari kabi pul massasini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, bu mikromoliya tashkilotlariga talab qilib olunguncha va muddatli depozitlarni qabul qilishga imkoniyat berdi va ular tomonidan boshqa moliya tashkilotlaridan kredit va qarz jalb qilgandan ko'ra muddatli depozitlar jalb qilish afzal bo'lib qoldi. Shundan kelib chiqqan holda, Imkon Finans mikromoliya tashkiloti majburiyatlari tahlilidan xulosa qilishimiz mumkinki, mikromoliya tashkilotlar rusurs jalb qilishda faqatgina muddatli depozitlarga bog'liq bo'lib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gutierrez-Nieto, B., Serrano-Cinca, C., & Molinero, C. M. (2007). Microfinance institutions and efficiency. Omega, 35(2), 131–142.
2. Mersland, R., & Strøm, R. Ø. (2009). Performance and governance in microfinance institutions. Journal of Banking & Finance, 33(4), 662–669.
3. Hermes, N., Lensink, R., & Meesters, A. (2011). Outreach and efficiency of microfinance institutions. World development, 39(6), 938–948.
4. Gutiérrez-Nieto, B., Serrano-Cinca, C., & Mar Molinero, C. (2009). Social efficiency in microfinance institutions. Journal of the operational research society, 60(1), 104–119.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari
6. Imkon Finans mikromoliya tashkilotining yillik rasmiy hisoboti.
7. https://www.worldbank.org ma'lumotlari

MAMLAKATIMIZDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Odilov Dilshodjon Tulqinovich
Turizmni rivojlantirish assotsiatsiyasi raisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizning milliy iqtisodiyotida salmoqli ulushga ega bo‘lgan xizmatlar sohasining rivojlanishi, bu sohada aholi bandligi oshorosh hamda aholi turmush farovonligini oshirishha yordam beruvchi omillar tahlili keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi, turizm, aholi bandligi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, YaIM, sanoat, aholi jon boshiga YaIM.

Abstract: This article examines the development of the service sector, which occupies a significant share in the national economy of our republic, employment in this area and an analysis of factors that contribute to improving the well-being of the population.

Key words: service sector, tourism, employment, information and communication technologies, GDP, industry, GDP per capita.

Аннотация: В данной статье рассматриваются развитие сферы услуг, занимающей значительную долю в народном хозяйстве нашей республики, занятость населения в этой сфере и анализ факторов, способствующих повышению благосостояния населения.

Ключевые слова: сфера услуг, туризм, занятость населения, информационно-коммуникационные технологии, ВВП, промышленность, ВВП на душу населения.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi milliy xo‘jalikni barqaror o‘sishini ta’minlash, aholi bandligi va turmush farovonligini oshirishning muhim sifat omillaridan biri sanaladi. Servis va xizmatlar sohasini davlat tomonidan isloh qilish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida sohada iqtisodiy o‘sish sifatini oshirishga unda sezilarli darajada tarkibiy sifat o‘zgarishlariga yerishilganligi va tarmoqni rivojlanish tendensiyalarining o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish davrida xizmat ko‘rsatish sohasida yangi texnologik bazisni shakllantirish sohani rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda, shu boisdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev “Albatta, biz yeski tizimni batamom o‘zgartirib, o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadga to‘liq yerishdik, deb aytishga hali yerta. Takror aytaman, biz har kuni izlanishdamiz. Bu yo‘lda dastlabki qadamlarni qo‘ymoqdamiz, xolos”[1], deb ta’kidlagan.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida iqtisodiy jarayonlar yanada chuqur integratsiyalashib, xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamlashtirish jarayonlarini rivojlanishi natijasida uning mamlakat YaIMga va aholi bandligining o‘sishiga katta ijobiy hissa qo‘shmoqda. Bugungi kun iqtisodiyotida iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va bog‘liqliklar juda tez o‘sib bormoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasi nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohasi mahsulotlarining faol iste’molchisi, balki unga asosiy yetkazib beruvchi hamdir. O‘z faoliyatini amalga oshirish uchun moddiy ishlab chiqarish sohalaridan mashina va uskunalar sotib olib, shu bilan birga, professonal, biznes, ilmiy, texnik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport, savdo, moliya, AKT va boshqa turdagi xizmatlarni yetkazib beradi.

Raqamli texnologiyalarning bandlikka salbiy ta’siri haqida jiddiy havotirlarni Y. Brynjolfsson va Y. Makafi o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida ifoda yetishgan. Ularning fikriga ko‘ra, insoniyat ikkinchi mashina davriga kirib bormoqda va unda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli insonlarga tobora ko‘proq tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun imkoniyatlar ochilsada, shu bilan birga bu ularga ma’lum xavf-xatar va tahdidlarni vujudga keltiradi[2].

1 Mirziyoyev Sh. M. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharririga bergan intervyusi. https://daryo.uz/k/2021/08/17/.
2 Brynjolfsson E., McAfee A. (2012). Race Against The Machine: How the Digital Revolution is Accelerating Innovation, Driving Productivity, and Irreversibly Transforming Employment and the Economy. MIT: MIT Center of digital business. Available at:http://ebusiness.

Muammo shundaki, kompyuterlar va robotlar ba'zi kasblarni siqib chiqaradi. Qo'l mehnati asosida ishlaydigan ishchilar va muntazam og'ir, mashaqqatli kam malakali mehnat xodimlariga bo'lgan talab o'rniga yuqori malakali mutaxassislar tomon talab o'zgaradi, bu esa o'z navbatida birinchilarining ish haqining pasayishiga va daromadlar tengsizligining o'sishiga olib keladi3. Jahonning 59 mamlakatidan, 42 tasida, jumladan, Xitoy, Meksika va Hindistonda YaIM tarkibida ish haqi ulushi kamaygan[4].

K. Frey va M. Osborn tomonidan amalga oshirilgan baholashlarga ko'ra AQShda keyingi bir necha o'n yilliklar ichida bandlikning 47 %ini to'liq avtomatlashtirish mumkin[5]. Robotlar tomonidan siqib chiqarish bo'yicha yeng katta xavf, muntazam og'ir mashaqqatli va o'rta malakali mutaxassisliklar mehnatida jamlangan.

Britaniyalik fizik olim S. Xoking sun'iy aqlga asoslangan mashinalar tez orada insonlarni butunlay almashtirib, "yangi turmush mezoni"ga aylanishi to'g'risida o'z havotirini bildirdi[6]. Olim, shuningdek, o'zini-o'zi ishlab chiqaruvchi sun'iy aqlni ko'paytirish biologik jihatdan ustunlikka olib kelishi mumkinligini va bu insoniyat jamiyatining butunlay yo'q qilinishiga yoki uni tubdan o'zgartirishiga olib kelishi haqida xulosa bildirdi. Shunday qilib, ko'plab kasblar mashina va robotlar ta'siri ostida kelgusi o'n yilliklarda yo'q bo'lib ketish xavfi kutilmoqda. Shu munosabat bilan Dj.Bessen o'z tadqiqotlarida qiziqarli faktlarni keltiradi: AQSh iqtisodiyotida kompyuterlashtirishning o'sishi qayta ishlab chiqarish sanoatida bandlikning 3 %ga kamayishiga olib keldi, biroq shu bilan birga uning xizmat ko'rsatish sohasida yesa bandlikni 1 %ga o'sishiga turtki berdi. Shunday qilib, muallif ta'kidlab o'tadiki, "qayta ishlash sanoatida bandlikni salbiy kamayishini uning xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlaridagi o'sishi bilan qoplanishini nazarda tutadi[7].

Kelajakdagi istiqbolni ko'proq fantastik bashorat qilishlar ham bor. "Texnologik o'ziga xoslik" va transgumanizm g'oyasi tarafdorlari, xususan, V. Vindji va R. Kursveyl yaqin kelajakda (2030–2045-yillarga borib) texnologiyaning juda tez rivojlanishi va o'z-o'zini dasturlashtiruvchi sun'iy aqlning yeksponensional o'sishi yordamida inson mehnati deyarli butunlay siqib chiqarilishi mumkin bo'ladi, deb hisoblashadi.

Inson aqlini sun'iy aql bilan almashtirish, insonning shaxsiy hayotiga mashinalarni cheksiz kiritish, inson miyasidan nusxa olish va uni masofadan turib boshqarish, neyron interfeyslarni yaratish insoniyatni katta falokatga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan inson aql-zakovatidan ustun bo'lgan aqlni to'liq nazorat qilmaslik, uni tor guruhlar manfaatlari uchun harbiy va boshqa g'ayriinsoniy maqsadlarda foydalanish yehtimoli va xavfi mavjud. Xuddi shu Kursveylning bashoratlariga tayanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, aholining katta qismi uchun o'z-o'zini dasturlashtirilgan robotlarni ong bilan yaratish va uni saqlab turishga yehtiyoj yo'q, faqatgina aholining yeng boy 1 % yelitasi uchun cheksiz qulayliklar va umrboqiylik texnologiyalari mavjud bo'lsa yetarli hisoblanadi. Demak, bunday cheklovchi omillar qatoriga, bizningcha, quyidagilarni kiritish mumkin:

Iqtisodiy rivojlanishning siklik tavsifi, global iqtisodiy inqirozdan keyingi yillarda turli mamlakatlarda YaIMning o'sishi va mehnat unumdorligini pasayishi kuzatilmoqda;

Raqamli texnologiyalarni uzluksiz joriy yetilishiga qaramasdan korxona xodimlari o'rtasida ulardan foydalanish ko'nikmalarining yetishmasligi holatlari juda ko'p kuzatiladi. Korxonalarda o'rtacha 25 % xodimlar oddiy ofis dasturidan foydalanadi, 40 %i yesa undan samarali foydalanish ko'nikmasiga ega yemas[8]. Mehnat bozorida AKT mutaxassislari taklifi ortib bormoqda, biroq ayni paytda ularga bo'lgan talab undanda yanada tez o'sib bormoqda;

Robotlarning nisbatan yuqori darajadagi narxi qimmatligi va ulardan foydalanish uchun muhim investitsiyalarni jalb qilish yehtiyoji, robotlashtirish jarayonlarini tez takomillashtirish robotlarni ishlab chiqarishni arzonlashuviga olib keladi. Masalan, bir robot payvandchi 2005-yilda qiymati 182 ming dollar, 2014-yilda 133 ming dollar turgan va 2025-yilgi bashoratlarga ko'ra uning qiymati 103 ming dollar bo'lishi mumkin[9];

Ba'zi bir texnologiyalarning hayotiy emasligi. Muayyan texnologiyani ishlab chiqish qobiliyati har doim ham muammosiz bo'lishi va uning ishlash qobiliyati bilan bir xil bo'lmasligi mumkin. Shu munosabat bilan, ba'zi texnologiyalar bekor qilinadi deb taxmin qilish mumkin;

Ijtimoiy rad qilish. Inson ijtimoiy hayotga muhtoj, har bir individ o'zini faqat robotlar va kompyuterlar bilan atrofini o'rab turishini xohlamaydi, shu sababli jamiyatning ayrim aholi segmentlari uchun ular tahdid solishi mumkin.


Rus olimi R. Kapelyushnikov fikricha, uzoq istiqbolda ommaviy ishsizlik haqida gapirishning hojati yo'q, deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha: "turli xil bozor mexanizmlarining hamkorlikdagi harakati tufayli yangi texnologiyalarning dastlabki davrdagi mehnatni tejash samarasini qisman va to'liq qoplashi yoki hatto uni haddan

3 http://ebusiness.mit.
4 Race Against The Machine: How the Digital Revolution is Accelerating Innovation, Driving Productivity, and Irreversibly Transforming Employment and the Economy. MIT: MIT Center of digital business. S. 59.
5 Computers and the Future of Skill Demand. OECD Publishing. Paris. P. 21.
6 Хокинг С. О "новой форме жизни" на базе искусственного интеллекта/ РБК: https://www.rbc.ru/.
7 Bessen J. (2017). Automation and jobs: When technology boosts employment. Boston University School of Law, Law & Economics Research Paper, No. 17–09.
8 OECD Digital Economy Outlook (2017). Op. cit. P. 160.
9 The Robotics Revolution. (2015). The Next Great Leap in Manufacturing. Boston Consulting Group. September. P. 7.

tashqari mustahkamlashi mumkin, shuning uchun dastlabki davr vaziyatiga nisbatan iqtisodiyotdagi ish o‘rinlarining umumiy soni kamaymaydi balki, hatto ortishi mumkin[10]. Ushbu tendensiyalar asosida, bilim va ilm-fanga asoslangan hamda uning manbayi bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi yuqori texnologiyalarning uzoq vaqt davomida roli ortib boradi, ya’na uzoq vaqtlar davomida ularda yuqori malakali mehnatni konsentratsiyasi tufayli bandlikni ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi, ayniqsa sanoat, kasbiy, ilmiy, ishbilarmonlik, texnik, axborot, ta’lim va tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sohalarida.

Ilg‘or fan-sig‘imkor xizmat ko‘rsatish sanoati yangi texnologiyalar ta’siri ostida yanada ko‘proq yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga bir qator xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida mehnat unumdorligining o‘sishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida bandlik dinamikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. M. Porter va J. Happelmanning qayd yetishicha aqlli texnologiyalar ta’siri ostida, “... yangi tarmoqlar, yangi xizmatlar va yangi vazifalar paydo bo‘ladi va bu ko‘proq insonlarga iqtisodiyotda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi”[11].

Ijtimoiy rivojlanishning ushbu va boshqa transformatsiyalari xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirishga turtki berdi, bu ularning yuqori differensiatsiyasi va turli xilma-xilligi tufayli jamiyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oldi.



1-rasm: Jahonning rivojlangan davlatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi YaIM hajmida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi (%da)[12]

Rivojlangan mamlakatlar xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotidagi ulushi 70 % va undan yuqori. AQSh, Fransiya va Buyuk Britaniyada bu ko‘rsatkich 78 % dan ziyodni tashkil yetmoqda. Germaniya rivojlangan sanoat ishlab chiqarishiga va xizmat ko‘rsatish tizimiga ega bo‘lgan mamlakat bo‘lib hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga kelsak, unda yanada turli xil jarayonlarni kuzatish mumkin. Masalan, Braziliyada xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 71,2 %ni tashkil yetib, rivojlangan mamlakatlar uchun ahamiyati yaqin bo‘lib, Xitoy va Koreya sanoat ishlab chiqarishining salmoqli ulushi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, Xitoyda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 48 %, Koreyada yesa 60 %ga yaqin oshdi. O‘zbekiston Respublikasida bu davrda xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushi 38,6 % bilan barqaror o‘sish tendensiyasiga ega.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishiga yeng muhim ta’sir yuqori texnologiyali xizmatlar sanoati (AKT, professonal, ilmiy va texnik xizmat ko‘rsatish, ta’lim va sog‘liqni saqlash)ni ko‘rsatmoqda, ularning yalpi ichki mahsulot o‘sishiga qo‘shgan hissasi davr mobaynida 34% dan 44% gacha bo‘lgan. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasi rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda yesa YaIMga yeng katta hissa an’anaviy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari tomonidan amalga

10 Капелюшников Р. И. Технологический прогресс - пожиратель рабочих мест?/ Р. И. Капелюшников // Вопросы экономики. - 2017. - № 11. - С. 116.

11 Портер М., Хаппелманн Дж. Указ. соч. – С. 93


12 Muallif tadqiqotlari asosida hisoblandi: OECD Statistics. National Accounts. Available at: http://stats.cd.org/; Российский статистический ежегодник. – М.: Росстат, 2021 – 725 с. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-y. – 158 b.

oshiriladi. Ayni paytda, yeng rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotda xizmat ko‘rsatish sektorining ulushi 80% va bu sektorni tegishli bandlikdagi ulushi 70% dan oshib bormoqda[13].

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasining jadal rivojlanishi rivojlangan mamlakatlarga xos bo‘lgan turli xil tendensiyalarga bog‘liq. Avvalo, ishlab chiqarishdagi texnologik o‘zgarishlar, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish omili sifatida qayd yetish lozim. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy yetish sanoatda biznes-jarayonlarning murakkablashuviga olib keldi, natijada yuqori texnologik ishlab chiqarishga yangi yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish uchun yehtiyojlarni vujudga keltirdi.

AKTlar an’anaviy xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlanishiga va uning faoliyat yo‘nalishlarini kengayishiga, yangi xizmat turlarining paydo bo‘lishiga, tashkiliy va boshqaruv modellarining o‘zgarishiga hamda xizmat ko‘rsatishda yangi usullarni keng joriy yetishga sabab bo‘ldi. Iqtisodiyotdagi raqobat hamda korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish zarurati resurslarni tejash va korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun yirik vertikal integratsiyalangan kompaniyalar tomonidan autsorsing amaliyotlarini keng qo‘llashda namoyon bo‘lgan ayrim faoliyat turlarini alohida tarmoqlarga ajratishga turtki berdi.

Professional moliyachilar, advokatlar, buxgalterlar, marketologlar, reklamachilar, dizaynerlar, muhandislar va boshqa mutaxassislar tobora ishlab chiqarishning tashqi agentlari sifatida harakat qilmoqda va bozor konyunkturasiga qarab ularning aktivlarini oqilona boshqarish va kompaniyalar mulkini va nou-xaularni himoya qilib, ularning rivojlanish strategiyasi va yo‘nalishlarini ishlab chiqish orqali kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish uchun hissa qo‘shmoqda. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanish dinamikasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, YaIMda xizmatlar sohasining ulushi 2010-yildagi 49,0 %dan 2021-yilga kelib 38,6 %gacha kamaydi.



2-rasm: O‘zbekiston Respublikasi YaIM tarkibida ayrim tarmoq va sohalar ulushi (YaIMga nisbatan % hisobida)

Bu O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasini 2018-yildan YaIMni hisoblashning yangi metodologiyasiga o‘tishi natijasi bo‘lib hisoblanadi. Rasmdan ko‘rinadiki, tadqiq yetilayotgan davrda milliy xo‘jalikning uch sohasida tarkibiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Unda qishloq xo‘jaligini ulushi kamayib, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini ulushini o‘sishi yuz bermoqda. Biroq bu o‘sishda xizmat ko‘rsatish sohasi yuqori darajada yuz bermoqda, bu umumjahon tendensiyasiga mos keladi.

- Develop planograms that indicate how to position products effectively and allocate space for them, taking into account the attention of customers and the cognitive resources of individuals in organizing and managing trade and technological processes, considering the characteristics of trade and other environmental factors of the store.
- Arrange products or their complexes in the right places, emphasizing the role and condition of the products, categories, and signs.
- Utilize cross-merchandising. This attracts customers to make additional purchases.
- Implement POS materials in your store, as these signs serve as the most effective communication tools for providing customers with information about products, their advantages, and any promotions.
- Experiment with different sales strategies and monitor their impact. A/B testing helps identify which strategies are most effective in improving sales performance.
- Train employees to be knowledgeable about products and sales strategies.
- For continuous improvement of sales indicators, it is important to regularly assess and monitor sales data, as well as customer feedback and industry trends.

List of References Used:

1. Samadov A. N., Eshmatov S. A. Merchandising. Study Guide. - Tashkent: Iqtisodiyot, 2019. - 259 p.
2. Bogacheva, E. Merchandising review Electronic resource. - Access mode: http://www.e-xecutive.ru. - 02.08.2012.
3. Abdukarimov F. B. A., mirzaeva sh. N. Small business as a factor in the development of the competitive environment of the national economy of Uzbekistan // Economy and Innovation. – 2023. – Vol. 36. – p. 657–667.
4. Abdukarimov B. A. A., mirzaeva sh. N. The role of Foreign Investment in the Modernization of the Economy in the Republic of Uzbekistan // Economy and Innovation. – 2023. – Vol. 36. – p. 648–656.
5. Kholmamatov Diyor Haqberdievich Develop Criteria for Selecting Distribution Channels in Small Business. Academic Journal of Digital Economics and Stability. pp. 134–145.

AN'ANAVIY MOLIYA TIZIMIDAGI YANGI YONDASHUV VA YECHIMLAR



Abrorov Sirojiddin
PhD, "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi sektor mudiri



Bunyod Usmonov
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Moliya tizimini rivojlantirishda bozor konyukturasini takomillashtirib borish doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi uni yanada ahamiyati oshirdi. Maqolada inqirozdan keyin moliya tizimidagi og'riqli nuqtalarni yechimi sifatida islom moliyasi va xulq-atvor moliyasi kabi ilg'or yondashuvlar asosida tavsiya etilayotgan alternativ moliya tizimlari umumiy tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Inqiroz, islom moliyasi, xulq-atvor moliyasi, moliya tizimi, alternativ moliya.

Abstract: The improvement of market conditions has always been important in the development of the financial system. The global financial and economic crisis that began in 2008 made this issue even more urgent. The article considers alternative financial systems proposed on the basis of progressive approaches, such as Islamic finance and behavioral finance, as a solution to the problematic issues of the financial system after the crisis.

Key words: Crisis, Islamic finance, behavioral finance, financial system, alternative finance.

Аннотация: Улучшение рыночных условий всегда имело важное значение в развитии финансовой системы. Мировой финансово-экономический кризис, начавшийся в 2008 году, сделал этот вопрос еще более актуальным. В статье рассматриваются альтернативные финансовые системы, предложенные на основе прогрессивных подходов, такие как исламские финансы и поведенческие финансы, как решение проблемных вопросов финансовой системы после кризиса.

Ключевые слова: Кризис, исламские финансы, поведенческие финансы, финансовая система, альтернативные финансы.

KIRISH

Rivojlanib borayotgan moliya tizimi ko'plab inqirozlarga duch kelgan. Har bir inqiroz o'z o'rnida ko'plab xulosalar shakllantirish va xatolardan saboq chiqarish kabi tajbirani ortirishga xizmat qilgan. Jahon moliya tarixida hozircha oxirgi yirik moliyaviy inqiroz sifatida e'tirof etilayotgan 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi mavjud moliya arxitekturasida ko'plab xavfli va og'riqli nuqtalar borligini ko'rsatib berdi. Ushbu inqiroz

moliyaviy hamjamiyat va tartibga soluvchilarni moliya tizimining mustahkamligini oshirish zarurati uchun jiddiy signal bo‘ldi. Zaifliklarni yumshatish va xavf darajasini kamaytirishga xizmat qiluvchi tizim haqida o‘ylashga undadi. Moliya tizimining og‘riqli nuqtalari sifatida quyidagilarni alohida keltirib o‘tish mumkin:

- moliya instititutlarining kuchli ingertatsiyalashish sharoitida salbiy moliyaviy oqibatlarning zanjir uslubida tezda tarqashi. Taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashda integratsion jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo mazkur holatda moliyaviy “infeksiya”ning katta tezlikda yuqishidan “immunitet” shakllanmaganligi ko‘rinib qoldi;
- “bankrotlik uchun juda katta”, deb tasniflanuvchi institutlarning muammosi. Davlat rivoji uchun katta hissa qo‘shishi kutilayotgan moliyaviy muassasalarning inqirozga yaqinlashib qolishi orqali imtiyozlar tizimini izdan chiqarib yuborishi mumkin. Strategik jihat muhim bo‘lgan bu institutlarni davlat tomonidan imtiyozlar asosida moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi ikki tomonlama xavf yuzaga keltiradi. Bu birinchidan, davlat tushumlarining kamayishi va ikkinchidan, kichikrok korxonalarga berilishi kerak bo‘lgan imtiyozlarning “bankrotlik uchun juda katta” korxonalarga yo‘naltirilishi.
- “pufak” derivativlar inqirozning kelib chiqishi va keng tarqalishiga asosiy omil sifaitida qaradi. Hech qanday aktiv bilan qoplanmagan hosilaviy qimmatli qog‘ozlarga kata hajmdagi investitsiyalarning yo‘naltirilishi natijasida real iqtisodiyot ba barqarorlik uchun pul oqimining kamayishiga ta’sir ko‘rsatadi.
- yuqori riskli qarzlarga asoslangan qimmatli qog‘ozlar. Jahon moliyaviy inqirozning ikkinchi “xalqasi” va yuzaga kelishining bosh omili hisoblanuvchi bu turdagi qimmatli qog‘ozlardan daromad olish uchun CDO shaklidagi obligatsiyalar emissiya qilingan. SHuningdek ularning sug‘urtalanishi va o‘z darajasidan asossiz yuqori reyting bilan baholanishi inqirozning kattalashishiga ta’sir etgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliya tizimini yanada takomillashtirish va jahon moliyaviy inqirozda namoyon bo‘lgan muammoli jihatlarni bartaraf etishda islom moliyasi, xulq-atvor moliyasi, sherikchilik moliyasi va boshqa shu kabi ilg‘or yondashuvlar asosida tavsiya etilayotgan alternativ moliya tizimlarini o‘rganish jarayoni dolzarb bo‘lib qoldi. Islom moliyasi institutlarining 2008-yilda boshlangan moliyaviy inqirozdan kam ta’sir bilan chiqishi va rivojlanish ko‘rsatkichlarini saqlab qolganligi jahon hamjamiyatining e’tiborini tortdi. Keyinchalik o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda islom moliyasi moliyaviy inqirozlarga bardoshli ekanligi ta’kidlab kelinadi.

Dunyo ilm-fan sohasida islom moliyasiga nisbatan yangi yo‘nalish sifatida qaralsa ham yetarlicha tadqiqotlar qilingan. Moliyaviy inqirozlarga berdoshlilik darajasining yuqoriroq ekanligi islom moliyasining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu haqida birinchilardan bo‘lib Muhammad Umar Chapra o‘z izlanishlarida keltirib o‘tgan[1]. Uning maqolasida moliya tizimida bozor intizomining yetarli emasligi, haddan tashqari kreditlash, yuqori leveraj darajasi oxir-oqibat inqirozga olib kelishi ta’kidlanadi. Bundan tashqari, tavakkalchilikni taqsimlash, birinchi navbatda real tovar va xizmatlarni sotib olish uchun kreditlash hamda qarzni sotishni cheklash, keyin qisqa muddatli savdolar, haddan tashqari noaniqlik (g‘arar) va qimor (maysir) intizomni kuchaytirishga yordam berishi mumkinligi tilga olingan. Natijada moliyaviy beqarorlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Mazkur omillarining barchasi islom moliyasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

G. Joselin va Ch. Labidi tadqiqotlaridaglobal miqyosda islom moliyasi o‘sish tendensiyasida ekanligi yoritilgan[2]. Tahlil natijalariga ko‘ra jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozida islom moliyasi insitutlari an’anaviy moliya institutlariga nisbatan sezilarli darajada bardoshliligi aniqlandi. Maqolada islom banklari, islom investitsion fondlar va islom moliyasida risklarni boshqarishga oid joriy holat tadqiq qilingan. Islom moliyasining yillik 15–20 foiz o‘sishiga alohida urg‘u berilgan.

Iqtisodchi olimlar N. Barberis va R. Thalerning[3] fikriga ko‘ra xulq-atvor moliyasi asosan ma’lum bir moliyaviy hodisalarni ba’zi agentlar to‘liq oqilona bo‘lmagan modellar yordamida amalga oshirishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Shuningdek, bu sohada ikkita blok mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi arbitraj cheklovlari, ikkinchisi esa psixologiya hisoblanadi. Arbitraj cheklovlari treyderlar oqilona yo‘l hisoblanib yuzaga kelgan dislokatsiyalarni bartaraf etishida yordam bersa, psixologiya orqali biz ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan to‘liq ratsionallikdan og‘ish turlarini kataloglaydi. Ushbu ikki blok jami fond bozori, o‘rtacha daromadlar kesimi, individual savdo korporativ moliyada muhim ahamiyat kasb etadi deb ta’kidlashgan.

1 Chapra, M. U. (2009). The Global Financial Crisis: Can Islamic Finance Help Minimise the Severity and Frequency of Such a Crisis in Future. ICR Journal, 1(2), 226–245. https://doi.org/10.52282/icr.v1i2.745

2 Grira, J., & Labidi, C. (2021). Banks, Funds, and risks in islamic finance: Literature & future research avenues. Finance Research Letters, 41, 101815. https://doi.org/10.1016/j.frl.2020.101815

3 Barberis, N., & Thaler, R. (2003). A survey of behavioral finance. Handbook of the Economics of Finance, 1, 1053–1128.

Iqtisodchi olim D. Hirshleiferning[4] fikriga qaraganda, alternativ moliya tizimida xulq-atvor moliyasining asosiy jihatlaridan biri bu psixologiyani moliyalashtirishda qo‘llashninig ahamiyatini o‘rganadi, bunda asosan individual darajadagi kognitiv moyilliklarga e’tibor beriladi. Shu bilan birga, olim o‘z tadqiqotlarida hukm va qarorlarning noto‘g‘riligi manbalarini, ular savdo va bozor narxlariga qanday ta’sir qilishini, tajribali va tajribasi nisbatan kamroq bo‘lgan investorlar o‘rtasidagi arbitrajning roli va boylik oqimini, shuningdek, korxonalarning samarasiz narxlardan qanday foydalanishi va noto‘g‘ri baholashni qo‘zg‘atishi bilan bir qatorda boshqaruv qarorlarining oqibatlarini ham chuqur o‘rgangan holda tahlil etgan. Uning fikriga ko‘ra, xulq-atvor moliyasidan chetga chiqib, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning tuzilishi, moliyaviy g‘oyalar qanday tarqalishi va rivojlanishi va ijtimoiy jarayonlarning moliyaviy natijalarga qanday ta’sir qilishini o‘rganuvchi alternativ moliyaga o‘tish eng samarali yo‘l ekanligi ta’kidlangan.

Amerika iqtisodchi olimlaridan J. R. Ritterning[5] tadqiqotlariga ko‘ra, xulq-atvor moliyasi samarali bozorlarda oqilona investorlar bilan kutilayotgan foydani maksimal darajada oshirish haqidagi an’anaviy taxminlarni rad etishi bilan ahamiyatlidir. Olimning ta’kidlashicha, xulq-atvorni moliyalashtirishning ikkita asosiy bloki mavjud bo‘lib, kognitiv psixologiya (odamlar qanday fikrda) va arbitraj chegaralari (bozorlar samarasiz bo‘lganda) hisoblanadi va xulq-atvorni moliyalashtirish bo‘yicha tadqiqotlarning o‘sishi an’anaviy tizimning ko‘plab empirik namunalarini yaratishga va alternativ moliyalashtirishdan ko‘proq foylanishga undaydi.

Yana bir iqtisodchi olim M. Statmanning[6] tadqiqotlariga ko‘ra zamonaviy portfel nazariyasi sifatida ham tanilgan standart moliya to‘rtta poydevor blokiga ega bo‘lib, birinchisi oqil investorlar; ikkinchisi samarali bozorlar; uchinchisi investorlar o‘z portfellarini o‘rtacha-variant portfel nazariyasi qoidalariga muvofiq loyihalashlari va haqiqatda shunday qilishlari kerak; va to‘rtinchisi kutilayotgan daromad faqat risk va riskning funksiyasi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, olimning fikriga ko‘ra xulq-atvor moliyasi standart moliyaning har bir asosiy bloki uchun muqobil blokni taklif qiladi. Xulq-atvor moliyasiga ko‘ra, investorlar oqil emas, balki “normal”, ya’ni bozorlarni mag‘lub etish qiyin bo‘lsa ham samarali natijaga ega emas. Investorlar portfellarni o‘rtacha farqli portfel nazariyasi emas, balki kichik variatsiya portfel nazariyasi qoidalariga muvofiq ishlab chiqadilar.

ASOSIY QISM

Iqtisodiy o‘ziga xoslik va moliyaviy innovatsiyalar bilan ajralib turadigan islom moliyasi tushunchasi axloqiy qadriyatlar va global ahamiyatga ega bo‘lgan tizim sifatida rivojlandi. Shariat tamoyillariga asoslangan islom moliyasi moliyaviy faoliyatni axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat va barqarorlik bilan bog‘laydigan muqobil asosni taqdim etadi. Musulmonlar ko‘p istiqomat qiladigan davlatlar zaruriy moliyaviy tashabbus sifatida boshlangan bu jarayon madaniy, diniy va geografik chegaralarni kesib o‘tuvchi dinamik va ko‘p qirrali global industriyaga aylandi.

Islom moliyasining asosi shariat qonunlariga tayanish, xulq-atvor, adolat va ijtimoiy mas’uliyatga rioya qilish kabi yondashuvlardan iborat. Ushbu axloqiy qadriyatlar ribo, g‘arar va maysir kabi amaliyotlardan voz kechishga qaratilgan. Bunda kelishuv va shartnomalar o‘zida moddiy aktivlar bilan ta’minlanishi, tenglik va adolat tamoyillari mavjud bo‘lgan moliyaviy faoliyatni talab etadi. Islom moliyasi tamoyillari uni an’anaviy moliyadan ajratibgina qolmay, uning iqtisodiy muvozanatni ta’minlash va jamiyat farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan maqsadlarini ham ko‘zda tutadi.

Islom moliyasi – islom tamoyil va qoidalariga to‘liq mos keluvchi moliyaviy instrumentlarni va qonuniyatlar o‘z ichiga olgan tizim. Islom moliyasiga nisbatan XXI asrda qiziqish sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Ilmiy izlanishlar olib borish va tahliliy materiallar tayyorlash borasidagi ilmiy faoliyat keng miqyosda amalga oshirilmoqda.

Konsalting va audit xizmatlarini ko‘rsatuvchi xalqaro yirik tarmoq kompaniyasi hisoblangan “Deloyt” (Deloitte Touche Tohmatsu Limited) ta’rifiga ko‘ra islom moliya tizimi o‘ziga xos aralash iqtisodiy tizim bo‘lib, unda moliyaviy tranzaksiyalar adolat, foyda va zararga sheriklik hamda haqiqiy transaksiyalarga[7] asoslangan axloqiy me’yorlar va islom huquqi (shariat)ga mutanosib ravishda amalga oshiriladi[8].

Islom kapital bozori islom moliyasining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra islom moliyasining fundamental asosi uning barcha tarkibiy qismlariga birdek taalluqli hisoblanadi. Islom kapital bozorining fundamental va konseptual jihatdan bosh va yagona asosi shariat hisoblanadi. Tizimdagi qolgan barcha munosabatlar shariat ko‘rsatmalaridan kelib chiqqan holda tartibga solinib boriladi.

Shariat tamoyillariga asoslangan moliya konsepsiyasi egalik huquqi, ijtimoiy va iqtisodiy adolat, daromadlarning taqsimlanishi va boshqaruvga taalluqli islomning asosiy tamoyillari asosida qurilgan.

4 Hirshleifer, D. (2015). Behavioral finance. Annual Review of Financial Economics, 7, 133–159.
5 Ritter, J. R. (2003). Behavioral finance. Pacific-Basin finance journal, 11(4), 429–437.
6 Statman, M. (2008). What is behavioral finance. Handbook of finance, 2(9), 79–84.
7 Muallif izohi: amalga oshgan yoki amalga oshishi aniq bo‘lgan
8 https://www2.deloitte.com/lu/en/pages/islamic-finance/articles/principles-islamic-finance.html

Olimlar tomonidan moliyaviy faoliyatning islomiy andozasiga xos bo‘lgan quyidagi muhim tamoyillarini ajratib ko‘rsatiladi:

- foyda va zararni taqsimlash o‘zaro sheriklar o‘rtasida (mushoraka bitimi), investor va tadbirkor o‘rtasida shakllanadigan investitsiyaviy munosabatlarda amalga oshiriladi. Foyda amalda kelishuvga ko‘ra zararlar esa shariat ko‘rsatmalariga ko‘ra taqsimlanadi.
- xatarni taqsimlash tadbirkorlik faoliyatining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Faoliyat davomida ro‘y berishi mumkin ehtimoliy xatarlarni taqsimlab olish to‘g‘risida bitim tuzish zarurligini anglatadi.
- pulning o‘zi kapital sifatida tan olinmasligi. Bu yerda sarmoya ishlab chiqarish faoliyatiga kiritiladi va u kapitalga aylanishi uchun egasining ham ishtirok etishi shart bo‘ladi. Shundagina u voqelikda kapitalga aylanadi.
- islom moliyasida ssuda foizi undirishning man etilganligi. Investorning foyda va zararni bo‘lishmay, muqarrar xatarga yo‘liqmay, ssuda evaziga daromad olish taqiqlangan. Pul – faqat to‘lov vositasi bo‘lib sotish hisobiga daromad olinadigan tovar sifatida qabul qilinmaydi.
- islom moliyasida chayqovona amaliyotlar man etilgan, bunda biror kishining qiyinchilikka tushib qolish vaziyati singari jihatlarni o‘z manfaati yo‘lida ishlatish tushuniladi. Aksariyat tuziladigan bitimlar subyektlarining birini ortiqcha xatarni zimmasiga olishi yoki kazino o‘yinlari kabi tasodifiy daromad olishni ifodalovchi qimor o‘yinlariga aloqador hisoblanadi.

Islom moliyasi nazariy asoslari uzoq tarixga ega bo‘lib, bu borada zamonamiz iqtisodchilari tomonidan ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Islom moliyasi ta’limotining an’anaviy moliyadan farqli jihati – pulga bo‘lgan yondashuvda aks etadi. Islomda pul muomala, ayirboshlash vositasi, qiymat o‘lchovi va jamg‘arish instrumenti kabi vazifalarni bajaradi. Pulning boshqa vazifalari borasida islom iqtisodchi olimlari tomonidan turli, hatto bahsli mulohazalar ham bayon qilingan.

Islom pulni insonning mehnati mahsuli, xo‘jalik ehtiyojlariga xizmat qiladigan vositachi va iqtisodiy kategoriya sifatida qaraydi. Islomda pul mustaqil qiymatga ega bo‘lmagan, texnik jihatdan xizmat ko‘rsatuvchi vosita hisoblanadi.

Islom moliyasi bo‘yicha ko‘plab mutaxassislar pul va kapital o‘rtasida farq mavjud deb hisoblaydilar: pul mohiyati bo‘yicha ehtimoliy kapital sifatida yondashiladi. Islom moliyasida pul kapitalga o‘zgarishi uchun sarmoyadorning munosabatlar jarayonida faol ishtiroki talab qilinadi, an’anaviy moliyada bo‘lganidek foiz keltirib turadigan pullik munosabatlar talqini yangi qiyofani egallaydi. Bunda pul albatta investitsiya sifatida yo‘naltirilib iqtisodiy jarayonda faol ishtirok etishi va kapitalga aylanishi talab etiladi.

So‘nggi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyin moliya tizimidagi og‘riqli nuqtalarni yechimi uchun tavsiya etilayotgan ilg‘or yondashuvlar asosidagi alternativ moliya tizimlaridan yana biri sifatida xulq-atvor moliyasi namoyon bo‘ladi.

Xulq-atvor moliyasining muhim jihatlaridan biri sifatida investorning xatti-harakatlari nazariyasiga nisbatan haqiqiy investor va bozor xatti-harakatlarini tushunish hamda tushuntirishga oid jarayonlar nazarda tutiladi. Shu bilan birga bu kabi g‘oya investorlar va bozorlar o‘zini qanday tutishi kerakligi haqidagi taxminlarga asoslangan an’anaviy (yoki standart) moliyadan farq qiladi. Asosan, xulq-atvorni moliyalashtirish insonlarning individual va jamoaviy qarorlarni qanday qabul qilishini ko‘rsatishdan iborat hisoblanadi. Investorlar va bozorlarning o‘zini qanday tutishini tushunish orqali iqtisodiy natijalarni yaxshilash uchun ushbu xatti-harakatlarni o‘zgartirish yoki ushbu jarayonlarga moslashish mumkin bo‘ladi. Bu esa xulq-atvor moliyasi naqadar ahamiyatliligini o‘zida mujassam etibgina qolmay, ko‘pgina hollarda, xulq-atvor moliyasini bilish va integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi insonlar uchun yuqori natijalarga olib kelishi mumkin bo‘ladi.

Alternativ moliyaviy tizimlarida xulq-atvor moliyasining ahamiyati uning noan’anaviy moliyaviy muhitda yuzaga keladigan o‘ziga xos muammolar va xatti-harakatlarni hal qilish qobiliyati hisoblanadi. Standart moliya nazariyasi moliyaviy savollarga matematik jihatdan oqlangan tushuntirishlar berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular real hayotda qo‘yilganda ko‘pincha noaniq hisoblanib, ular noaniq sharoitlar bilan yanada murakkablashadi. Standart moliyaviy yondashuv haqiqatni haddan tashqari soddalashtiradigan bir qator taxminlarga tayanadi. Standart moliya, asosan, investorlarning o‘zini qanday tutishini tavsiflovchi tamoyillarga emas, balki o‘zini qanday tutishi kerakligi haqidagi qoidalarga asoslanadi. Xulq-atvorni moliyasi esa moliyaviy bozorlarda va individual investorlarda ishlayotgan insonning psixologik hodisalarini aniqlashga va ulardan o‘rganishga harakat qiladi. Xulq-atvor moliyasi, standart moliya kabi oxir-oqibatda asosiy qoidalar va taxminlar bilan boshqariladi. Biroq, standart moliya o‘z taxminlarini ideallashtirilgan moliyaviy xatti-harakatlarga asoslab bersa, xatti-harakatlar moliyasi o‘z taxminlarini kuzatilgan moliyaviy xatti-harakatlarga orqali asoslaydi.Aytish joizki, alternativ moliyaviy tizimlar negizida an’anaviy bank va moliya institutlaridan tashqarida mavjud bo‘lgan plat-

formalar, vositalar yoki tuzilmalar nazarda tutiladi. Masalan, kreditlash, kraudfanding, kriptovalyutalar va mikromoliya kabilar shular jumlasidandir.

Alternativ moliyaviy tizimlarda xulq-atvor moliyasining qimmatli bo‘lishining ba’zi asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, investorning xulq-atvorini tushunish alternativ moliyaning muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanib, bu orqali shaxslar va guruhlar muqobil moliyaviy tizimlarda qanday qaror qabul qilishini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, bu ularning investitsiya tanlovi va tavakkalchilik xulq-atvoriga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan kognitiv tarafkashlik va hissiy omillarga oydinlik kiritadi. Bu esa, o‘z navbatida foydalanuvchilarga qulayroq va investorlar uchun mos moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi muhim sabablaridan biri bo‘lib axborot assimetriyasini hal qilish hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘pgina muqobil moliyaviy tizimlarda investorlar uchun ko‘pincha cheklangan yoki assimetrik ma’lumotlar aks ettiriladi. Xulq-atvorni moliyalashtirish investorlar mavjud ma’lumotlarni qanday qayta ishlashlari va sharhlashlari haqida tushuncha berishi mumkin bo‘lib, bu esa tizimlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan bozor anomaliyalarini yumshatish alternativ moliyaning muhim bo‘ginlaridan biri bo‘lib xizmat xizmat qiladi. O‘z o‘rnida bozor anomaliyasi deganda bu fond bozorining kutilayotgan xatti-harakatlariga zid bo‘lgan narx harakati tushuniladi va anomaliya berilgan taxmin yoki modelning amalda o‘zini oqlay olish yoki oqmasligini isbotlaydi. Boshqacha qilib aytganda, bozor anomaliyalari an’anaviy moliyaviy modellar asosida kutilganidan chetga chiqadigan aktivlar bahosi yoki savdo faoliyatidagi doimiy o‘zgarishlar va xatti-harakatlarni anglatadi.

Hozirda alternativ moliyaviy tizimlar an‘anaviy moliya nazariyalari bilan to‘liq tushuntirib bo‘lmaydigan noyob bozor anomaliyalarini ko‘rsatishi mumkin. Bunda xulq-atvor moliyasi ushbu anomaliyalarni aniqlashi va tushuntirishi mumkin bo‘lib, shu bilan birga ularni qanday hal qilish va yanada barqaror va samarali tizimlarni yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi.

Aytish joizki, bozor anomaliyalarini yumshatish samarali va barqaror moliyaviy bozorlarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga kasb etadi. Shu bilan bira qatorda bu kabi anomaliyalar bozor samarasizligiga, aktivlarning noto‘g‘ri baholanishiga va investorlar uchun potentsial risklarga olib kelishi mumkin. Bozor anomaliyalarini yumshatish sifatida bir qancha strategiyalar mavjud bo‘lib quyidagilar shular jumlasidandir:

Birinchidan, moliyaviy inklyuzivlikni rag‘batlantirish muhim strategiyalardan biri bo‘lib, xulq-atvorni moliyalashtirish, kam ta‘minlangan va kam ta‘minlangan aholi duch keladigan noyob ehtiyojlar va muammolarni tushunish orqali moliyaviy inklyuziyani rag‘batlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ushbu guruhlarning xulq-atvori afzalliklarini qondirish uchun moslash orqali, alternativ moliyaviy tizimlar ularning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishi mumkin.

Ikkinchidan, risklarni boshqarishni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan strategiyalardan biri hisoblanib, alternativ moliyaviy tizimlardagi investorlar an‘anaviy bozorlarga nisbatan har xil turdagi xatarlarga duch kelishi mumkin. Xulq-atvorni moliyalashtirish haddan tashqari tavakkal qilish yoki riskdan voz kechishga olib kelishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlarning noto‘g‘riligini aniqlashga yordam beradi, bu esa risklarni boshqarish usullarini yaxshilash va investorlarni himoya qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Uchinchi strategiya normativ va siyosat asoslariga ta‘sir qilish hisoblanib, bunda alternativ moliyaviy tizimlarning xulq-atvor jihatlarini tushunish siyosatchilar va tartibga soluvchilarni potentsial tuzoqlar va imkoniyatlar haqida xabardor qilishi mumkin. Bu orqali innovatsiyalar va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilishni muvozanatlashtiradigan tegishli qoidalarni ishlab chiqishga rahbarlik qilishi mumkin.

Moliyaviy ta‘limni takomillashtirish: Xulq-atvorni moliyalashtirish muqobil moliyaviy tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan moliyaviy ta‘lim dasturlarini yaxshilashga yordam beradi. Ushbu ta‘lim investorlarga ko‘proq ongli qarorlar qabul qilishda yordam beradi va umumiy xulq-atvor tuzoqlaridan qochishga yordam beradi.

Umuman olganda, xulq-atvor moliyasi muqobil moliyaviy tizimlar uchun qimmatli istiqbolni taqdim etadi, bu bizning investorlarning xatti-harakatlari, bozor dinamikasi va risklarni boshqarish haqidagi tushunchamizni oshiradi. Xulq-atvor moliyasi haqidagi tushunchalarni o‘z ichiga olgan holda, ushbu tizimlardagi manfaatdor tomonlar yanada mustahkamroq va foydalanuvchiga yo‘naltirilgan moliyaviy echimlarni yaratishi mumkin, bu esa ko‘proq moliyaviy inklyuziya va barqarorlikni ta‘minlaydi.

XULOSA

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan song, moliyaviy dunyo an’anaviy moliya tizimidagi bir qator zaifliklar va noaniqliklarga duch keldi. Bu mavjud moliyaviy paradigmalarni chuqur qayta baholash zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada aniqlangan og‘riqli nuqtalarini yumshata oladigan muqobil sxemalar o‘rganildi. Bunday ikkita

yondashuv, islom moliyasi va xulq-atvor moliyasi, bu muammolarni turli xil, ammo bir-birini to‘ldiruvchi usullar bilan hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan qiziqarli yo‘nalishlarga aylandi.

Islom huquqshunosligidan (shariat) olingan tamoyillarga asoslangan islom moliyasi axloqiy xatti-harakatlar, xatarlarni taqsimlash va ta’qiqlangan foizlardan qochish (ribo) asosida ishlaydi. Ushbu yondashuv haddan tashqari xavf va spekulyativ xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan axloqiy va barqaror moliyaviy amaliyotni talab qilish bilan mos keladi. Real aktivlarni ta’minlash, xatarlarni taqsimlash va boylikni adolatli taqsimlashga katta e’tibor qaratgan holda, moliya tizimida barqarorlikni ta’minlash uchun samarali yo‘lni taklif etadi.

Shu bilan birga, xulq-atvor moliyasi moliya tizimidagi muammolarga boshqa shakladagi qo‘shimcha yechim olib keladi. U odamlarning moliyaviy qarorlari va bozor dinamikasiga ta’sir qiluvchi psixologik omillarni o‘rganadi. Odamlarning xulq-atvori ko‘pincha an’anaviy moliyaviy nazariyaning oqilona taxminlaridan chetga chiqishini tan olgan holda, xulq-atvor moliyasi bozor anomaliyalari, olamon xatti-harakatlar va kognitiv tarafkashlik kabi hodisalar haqida tushuncha beradi. Shuningdek xulq-atvor moliyasi insonlar moliyaviy qaror qabul qilishda shaxsiy qarashlari ayniqsa e’tiqodiy yondashuvlariga asoslanishini e’tiborga oladi. Ushbu g‘oyalarni moliyaviy tizimga integratsiya qilish risklarni yanada aniqroq tushunishga olib kelishi mumkin. Shu bilan tizimli inqirozlar ehtimolini kamaytiradi.

Islom moliyasi va xulq-atvor moliyasining yaqinlashuvi inqirozdan keyingi og‘riqli nuqtalarini hal qilishning yangi istiqbolini taklif etadi. Ushbu ikki omilni birlashtirib, moliyaviy tizimlar yanada mustahkam axloqiy asosga ega bo‘lishi va inson xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishi mumkin.

Ushbu muqobil moliyaviy tizimlarning global moliyaviy arxitekturasini o‘zgartirish imkoniyatlarini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Mazkur yondashuvlar rivojlanishda davom etar ekan, ularning asosiy moliyaviy amaliyotlarga qo‘shilishi foydalanilmayotgan moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga samarali yo‘naltirish, xatarlarni boshqarish tizimlarini mustahkamlash va global miqyosda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chapra, M. U. (2009). The Global Financial Crisis: Can Islamic Finance Help Minimise the Severity and Frequency of Such a Crisis in Future. ICR Journal, 1(2), 226–245. https://doi.org/10.52282/icr.v1i2.745.
2. Grira, J., & Labidi, C. (2021). Banks, Funds, and risks in islamic finance: Literature & future research avenues. Finance Research Letters, 41, 101815. https://doi.org/10.1016/j.frl.2020.101815
3. Barberis, N., & Thaler, R. (2003). A survey of behavioral finance. Handbook of the Economics of Finance, 1, 1053–1128.
4. Hirshleifer, D. (2015). Behavioral finance. Annual Review of Financial Economics, 7, 133–159.
5. Ritter, J. R. (2003). Behavioral finance. Pacific-Basin finance journal, 11(4), 429–437.
6. Statman, M. (2008). What is behavioral finance. Handbook of finance, 2(9), 79–84.
7. https://www2.deloitte.com/lu/en/pages/islamic-finance/articles/principles-islamic-finance.html.

IJTIMOIY FONDLAR VA MAQSADLI JAMG‘ARMALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH



Samiyeva Gulnoza Toxirovna
PhD, i.f.f.d., Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy fondlar va maqsadli jamg‘armalar, ularning faoliyati xorij tajribasi bilan qiyosiy tahlil etilgan holda bayon etilgan. Shuningdek, maqolada Fransiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh va Yevropa ittifoqi davlatlarining xayriya fondlari, maqsadli jamg‘armalari faoliyati tahlil qilinib, O‘zbekiston Respublikasidagi holat bilan taqqoslangan. Ushbu qiyosiy tahlillar asosida O‘zbekistonda ijtimoiy fondlar va maqsadli jamg‘armalarning faoliyatini takomillashtirish tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy soha, ijtimoiy fondlar, ijtimoiy himoya, maqsadli jamg‘armalar, xayriya fondlari.

Abstract: This article describes social funds and trust funds, as well as their activities with a comparative analysis of foreign experience. The article analyzes the activities of charitable foundations and trust funds in France, Japan, Great Britain, the USA and the European Union and compares them with the situation in the Republic of Uzbekistan. Based on this comparative analysis, it is recommended to improve the activities of social and trust funds in Uzbekistan.

Key words: social sphere, social funds, social protection, trust funds, charitable foundations.

Аннотация: В данной статье описаны социальные фонды и целевые фонды, а также их деятельность со сравнительным анализом зарубежного опыта. В статье анализируется деятельность благотворительных фондов и трастовых фондов Франции, Японии, Великобритании, США и стран Евросоюза и сравнивается с ситуацией в Республике Узбекистан. На основе данного сравнительного анализа рекомендуется усовершенствовать деятельность социальных и трастовых фондов в Узбекистане.

Ключевые слова: социальная сфера, социальные фонды, социальная защита, целевые фонды, благотворительные фонды.

KIRISH

Ma’lumki, xorijiy mamlakatlar moliya tizimida maqsadli jamg‘armalar alohida o‘rin tutadi. Ularda jamlanadigan mablag‘lar hajmi yuqori bo‘lib, masalan, Fransiya va Yaponiyada maxsus jamg‘armalarning miqdori jihatidan mamlakatning davlat budjetiga yaqin. Yaponiyada davlat xarajatlarining yarmidan ko‘pi ana shunday jamg‘armalar hisobidan moliyalashtirilsa, Buyuk Britaniyada bu ko‘rsatkich budjetning uchdan bir qismini tashkil etadi. Albatta, bu jamg‘armalarning ijtimoiy va iqtisodiy vazifalari mavjud.

Davlat bu jamg‘armalarning mablag‘lari bilan ishlab chiqarish jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadi[1].

Maxsus jamg‘armalarning mablag‘laridan foydalanishga ko‘ra iqtisodiy, ijtimoiy, shaxsiy va mol-mulkini sug‘urtalash, ilmiy tadqiqot, harbiy-siyosiy, xalqaro jamg‘armalarga bo‘linadi. Iqtisodiy jamg‘armalarning mablag‘lari xususiy kompaniyalar va kam rentabelli davlat korxonalari, asosan, iqtisodiyotning rivojlanish davrlari krizis paytida moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlil davomida iqtisodiy taraqqiyot bo‘yicha A. Smit, A. Marshall, J. Keynslarning hamda hozirgi zamon monetarizmi, institutsionalizm va liberalizm oqimlari namoyondalari qarashlarining mazmun mohiyatini yor-

1 Финансовый менеджмент: учебник / Г. Б. Поляк [и др.]; под редаксией Г. Б. Поляка. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2018. – 456 с. – (Авторский учебник). – ISBN 978–5–9916–4395–5. – Текст: электронный // ЭБС Юрайт [сайт]. – URL: https://urait.ru/bcode/411109 (дата обращения: 23.06.2021).

itib berishga ham o‘rin ajratiladi. Shuningdek, T. Veblen, J. Kommons, U. Mitchell, J. Gobson, U. Gamilton, V. Oyken, V. Ryobke, A. Ryustov, L. Erxardlar asarlari, o‘zbekistonlik olimlardan A. Vahabov, Q. X Abduraxmonov, X. T Toxirova, Q. Mametjanovlar asarlarida aks ettitilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Maqsadli jamg‘armalar ba’zan ijtimoiy ehtiyojlarni moliya bilan ta’minlash uchun davlat tomonidan jalb etiluvchi va operativ mustaqillik asosida kompleks ravishda sarflanuvchi moliya resurslarini qayta taqsimlash va foydalanish shaklidir.

Iqtisodiyotning turli sohalari rivojlanib borayotgan davrda davlat-xususiy sheriklik dunyoning bir nechta mamlakatlarida, xususan, AQSH, Kanada, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Avstraliya, Hindistonda keng tarqalgan. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi davlat va boshqa loyihalarni xususiy mablag‘lar hisobidan moliyalashtirishni ta’minlash uchun milliy hamda xalqaro darajada qo‘llaniladi. Davlat-xususiy sheriklik jarayonlarini qo‘llash ijobiy natijalar bergan bo‘lib, xususiy sektor mablag‘larini jalb etish hisobiga davlat oldida turgan vazifa va muammolarni hal etishning haqiqiy imkoniyatlarini ko‘rsatib bergan. Buyuk Britaniyada davlat-xususiy sheriklikni qo‘llash tajribasi uning boshqa mamlakatlarda tarqalishiga yordam bergan.

Yaponiyada juda ko‘p kredit fondlari mavjud. Jumladan, moliyaviy korporasiyalar fondlari va maxsus banklar jamg‘armalari (Yaponiya eksport va import banklari, Yaponiya rivojlantirish banklari, qishloq xo‘jaligi uchun markaziy kooperativ banklari) mavjud. Moliyaviy korporasiyalar jamg‘armalari budjet mablag‘lari, shuningdek, beriladigan kreditlar foizlari hisobiga tashkil etiladi. Bu jamg‘armalar inqirozga yuz tutgan korxonalarni moliyalashtirish yoki boshqa kredit manbayiga ega bo‘lmagan kompaniyalarga moliyaviy yordam berish maqsadida ularga chegirma foizlarda qarz ajratadi. Kredit jamg‘armalari davlat jamg‘arma kassalari va boshqa kredit tashkilotlari ixtiyoridagi mablag‘lar bo‘lib, qaytarib berish va foiz to‘lash shartini qo‘yadi. Bu jamg‘armalardan davlat buyurtmalari bajariladi va mamlakat bevosita rivojlanadi. Shuni hisobga olgan holda, har bir iqtisodiyotda ham maqsadli jamg‘armalar mavjudligi shu davlatning barqaror taraqqiyoti mezonidir.

O‘zbekiston Respublikasida bu tizim, ya’ni davlat xususiy sherikchiligi maqsadli jamg‘armalar tizimida shakllanirilmagan, aksincha monopol sifatida Moliya vazirligi tizimida va davlat budjeti mablag‘lari hisobiga saqlab turilibdi. Bugungi kunda O‘zbekiston kuchli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan borar ekan, bu sharoitda jamiyat hayotida tub islohotlar o‘tkazish va modernizatsiyalash kundalik ehtiyojga aylanadi. XXI asr kishilik jamiyati tarixida va hayotida rivojlangan “Axborot texnologiyalari asri” sifatida kirib keldi. Ushbu yangi asr mamlakatlar, xalqlar va insonlar hayotida, tarixida o‘zining ulkan o‘zgarishi va yangilanishi bilan juda katta tarixiy rol o‘ynadi.

O‘zbekistonda demokratik jamiyat asoslari mustahkamlanib borgani sari yangi yangi milliy islohotlarga tayanish, ularni zamonaviy mazmun-mohiyat bilan boyitish va rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj har qachongidan ham kuchaymoqda. Bu – fuqarolarning xohish-irodasi, maqsad va intilishlari, adolatli, erkin, demokratik jamiyat barpo etish to‘g‘risidagi orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan zarurat va vazifadir. Ushbu vazifa millatning ko‘p ming yillik davlatchilik tarixi an‘analariga suyangan holda amalda ro‘yobga chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev bu xususida shunday deydi: “Bizning asosiy strategik vazifamiz bu – demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarining xalqni baxtiyor yashashga erishishimizdan iborat. Xalq bizdan rozi bo‘lishi kerak, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lidan og‘ishmay, izchil va qat’iyat bilan borishdir”[2].

Ommaviy jamoat tashkilotlari ijtimoiy siyosiy tuzumi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar barcha mamlakatlarda amal qiladi. Avvalo demokratik jamiyatni barpo etishda BMT hujjati (memorandumi)da ko‘rsatilganidek, 3 ta soha (sektor)ning o‘zaro hamkorligi muhim ahmiyat kasb etadi. Bular:

1) davlat;
2) bozor;
3) jamoat tashkilotlari. Uchinchi sektor haqida gap ketganda ular tarkibiga: kasaba uyushmalari (avvalo buni ijtimoiy tashkilotlarning asosi sifatida ham qaraladi), jamg‘armalar, yoshlar va xotin-qizlar harakatlari, kasbiy assotsiatsiyalar, klublar, akademik institutlar va boshqalar kiradi.
4) “tuman (shahar) – viloyat – respublika” tamoyilida ishlovchi sektor (mahallalar, hokimliklar)[3].

O‘zbekiston Respublikasida jamg‘armalar tuzish va faoliyat prinsiplari sifatida ixtiyoriylik, teng huquqlilik, o‘zini-o‘zi boshqarish, oshkoralik, qonuniylikni e’tirof etishimiz mumkin. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha tafsiflanadi:

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaati, – T., 2020-yil, 24-dekabr.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tashkil etilgan.

1. Ko‘ngillilik – ularning mutlaqo ixtiyoriy asosda tuzilganligi. Unda a’zolikning va faoliyat ko‘rsatishning har bir fuqaroning xohishi hamda roziligi bilan amalga oshiriladi.
2. Mustaqillik – mavjud qonunlar va o‘z nizom qoidalariga ko‘ra faoliyat ko‘rsatish. Biror bir o‘zga tashkilotning qonunsiz aralashuvidan xoli bo‘lish.
3. O‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash. Nizom maqsadlarini amalga oshirish uchun qonunchilik talablariga muvofiq tadbirkorlik, ishlab chiqarish – xo‘jalik va boshqa man qilinmagan faoliyat bilan shug‘ullanish.
4. O‘z nomidan kelib chiqib, jamoatchilik, ya’ni ko‘pchilik uchun xizmat qilish. O‘ziga tegishli ma’lum qatlam yoki guruh manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy yordam ko‘rsatish va hokazo.

Xorij tajribasini ko‘rsak ham, jamg‘arma va fondlarning aksariyati bemor bolalarga yordam berish, sport tashkilotlarini, shuningdek, teatrlar va muzeylarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar va keksa avlodni himoya qilishga qaratilgan.

Fondlarda joylar tashkilotning umumiy moliyaviy ta’minoti bo‘yicha, boshqacha aytganda, xayr-ehsonlar soniga ko‘ra taqsimlanadi. Ushbu fondlarning asosiy qismi AQShda joylashgan va reytingning faqat uchtasi Gollandiya, Buyuk Britaniya va BAAda.

1. Bill va Melinda Geyts jamg‘armasi 1994-yildan beri mavjud bo‘lib, uning “davlati” 42,3 milliard dollarni tashkil qiladi. Jamg‘armaning asosiy maqsadi og‘ir kasalliklarga qarshi kurashish, kam ta’minlanganlarga yordam berish, ta’lim va sog‘liqni saqlashni qo‘llab-quvvatlashdir.
2. Gollandiya fondi INGKA 1982-yilda IKEA asoschisi va egasi shved milliarder Ingvar Kamprad tomonidan asos solingan. Jamg‘armaning rasmiy e’lon qilingan maqsadi arxitektura va interer dizaynidagi innovatsiyalarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashdir. Aktivlari 36 milliard dollarga baholanmoqda.
3. Britaniya fondi - Xush kelibsiz Ishonch – dunyodagi eng qadimgilaridan biri: 1936-yilda tashkil etilgan. Hozir uning aktivlari 25,9 milliard dollarni tashkil etadi. U farmatsevtika magnati ser Genri Velkoma tomonidan yaratilganligi sababli, u odamlar va hayvonlarning sog‘lig‘ini yaxshilash uchun biotibbiyot tadqiqotlari bilan shug‘ullanadi. Ya’ni ilm-fanni moliyalashtiradi, shuningdek, ilm-fanni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlaydi. Tibbiy tadqiqotlar sohasida u Bill va Melinda Geyts jamg‘armasidan keyin dunyodagi ikkinchi xususiy “xayriyachi” hisoblanadi.
4. Xovard Xyuz tibbiyot instituti jamg‘armasi 1953-yilda aviator, kinematograf, multimilliarder va sarguzashtchi Xovard Xyuz tomonidan tashkil etilgan. Jamg‘arma genetika, immunologiya va molekulyar biologiya sohasida tibbiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi. Aktivlari 16,9 milliard dollarni tashkil etadi.
5. Ford fondi – boshqa amerikalik boy odamning, avtomobil magnati Genri Fordning o‘g‘li – Edsel Fordning g‘oyasi bilan tashkil topgan “Wellcome Trust” bilan bir qatorda u dunyodagi eng qadimgi xayriya jamg‘armasi – 1936-yildan beri mavjud. Demokratiyani qo‘llab-quvvatlash, qashshoqlikni qisqartirish, xalqaro hamkorlik va inson rivojlanishini rag‘batlantirish dasturlarini moliyalashtiradi. Ford fondining aktivlari bugungi kunga qadar 11,2 milliard dollarga baholanmoqda.
6. Fond J. Pol Getty Trust, 1982 yilda tashkil etilgan va 10,5 milliard dollar aktivlari bilan san’atni qo‘llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, J. Pol Getti muzeyi Los-Anjelesda joylashgan bo‘lib, u har yili 1,6 million kishini qabul qiladi va AQShning eng ko‘p tashrif buyuriladigan muzeylaridan biridir. Jamg‘arma boshqa muzeylar va madaniyat muassasalariga o‘qish uchun grantlar ajratadi.
7. Kamehameha maktablari 1887-yilda tashkil etilgan bo‘lib, Gavayida joylashgan va uning ixtiyorida 10,1 milliard dollar bor. Maktab faqat Gavayi millatiga mansub bolalarni o‘qitish uchun mo‘ljallangan.
8. Muhammad bin Rashid Al Maktum jamg‘armasi - BAAning Dubay shahrida, 10 milliard dollarlik aktivlarga ega xayriya jamg‘armasi. 2007-yilda tashkil etilgan jamg‘arma o‘z say-harakatlarini arab mamlakatlaridagi ishsizlik va savodsizlikka qarshi kurashga qaratgan. Jamg‘arma uchta yo‘nalishda: madaniyat, tadbirkorlik va bandlik, ta’lim sohalarida ko‘mak ko‘rsatadi.
9. Robert Vud Jonson jamg‘armasi – 1972 yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning aktivlari bugungi kunda 9,53 milliard dollarni tashkil qiladi. Maqsad – barcha amerikaliklarning salomatligini yaxshilash. Jamg‘arma bolalar kasalliklari va odamlarning dori-darmonlarga qaramligi bilan kurashayotganlarga grantlar ajratadi, shuningdek, shifokorlar va hamshiralarni tayyorlash uchun mablag‘ ajratadi.
10. Uilyam va Flora Xyulett fondi 1966 yilda tashkil etilgan va 8,7 milliard dollarlik aktivlarni “boshqaradi”. Ta’lim, ijtimoiy himoya qilish sohasida grantlar berish bilan shug‘ullanadi, global rivojlanishga ega.

11. Xalqaro tilaklar fondini yarating. Yo‘nalishi: Hayotga xavf soladigan kasalliklarga chalingan bolalarning istaklarini bajarish; og‘ir kasal bolaga umid, kuch va quvonch baxsh etish. Tashkilot 1980-yilda Arizona shtatining Feniks shahrida tashkil etilgan va hozirda bolalar uchun yetakchi xalqaro xayriya tashkilotlaridan biri hisoblanadi. 1993-yilda Make-A-Wish Foundation® International xalqaro tashkilotga aylandi. Tashkilot hozirda besh qit’aning 47 davlatidan kelgan bolalarga xizmat ko‘rsatadi. 1980-yildan beri homiylarning saxiyligi va 30 000 ko‘ngillilar yordami tufayli tashkilot butun dunyo bo‘ylab og‘ir kasal bolalarning 270 000 dan ortiq istaklarini amalga oshirdi.

    Amerikaning mahalliy mustaqil xayriya tashkilotlari – 700 dan ortiq mahalliy notijorat xayriya tashkilotlari federatsiyasi bo‘lib, ular mahalliy jamoalarda bolalar, kambag‘allar, nogironlar, qariyalar, uysizlar va boshqalarga yordam beradi.

12. Johnson & Johnson birinchi darajali mahsulotlari bilan mashhur. Kompaniya asoschisining o‘g‘li o‘zining Robert Vud Jonson xayriya jamg‘armasini ochdi va u oxir-oqibat “dunyoning xayriya jamg‘armalari” ro‘yxatidan joy oldi. Jonson xayriya tashkiloti 1936-yilda tashkil etilgan bo‘lib, o‘shandan beri jamg‘arma kambag‘al va kam ta’minlanganlarga, shuningdek, surunkali kasalliklardan aziyat chekadigan odamlarga faol yordam berib keladi. Jamg‘arma har yili Amerikada qashshoqlikka qarshi kurashish uchun taxminan yarim milliard dollar ajratadi.

13. Uill Keyt Kellogg har bir inson o‘z kelajagini o‘zi belgilaydi va agar xohlasa, hayotini o‘zgartirishi mumkinligiga ishongan. Uill Keyt Kellogning o‘zi 1930-yilda Kellogg fondini yaratgan va muhtojlarga faol yordam bergan. Kellogg xayriya jamg‘armasi bugungi kunda ham ishlamoqda va eng muhim xayriyalardan biri bu odamlarga yordam berish va bo‘rondan keyin uylarni tiklash uchun ajratilgan mablag‘dir.

14. Dunyodagi sakkizinchi yirik xayriya jamg‘armasi Robert Bosch jamg‘armasi bo‘lib, 1964-yilda Robert Boschning o‘zi tomonidan asos solingan. Ayni paytda u Germaniyaning eng yirik xayriya tashkiloti hisoblanadi. Jamg‘arma budjeti 90% Bosch aksiyalaridan iborat bo‘lib, butun budjet yetti milliard dollar oralig‘ida. Bosch xayriya fondi tadqiqot, fan, tibbiyot va sog‘liqni saqlashni rivojlantirishga mablag‘ ajratadi. Shuningdek, u insonparvarlik yordami va ta’limni qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanadi, jamg‘arma Germaniyadagi eng istiqbolli tibbiy tadqiqot markazlarining egasidir.

15. Devid va Lucille Packard xayriya fondi. Devid Pakard oilasi bilan birgalikda dunyodagi eng yirik xayriya jamg‘armalaridan biriga asos solgan bo‘lib, u har yili sog‘liqni saqlash va ilm-fanni rivojlantirish, shuningdek, bolalar hayotini yaxshilash uchun 200 million dollardan ortiq mablag‘ ajratadi. Xayriya budjeti asosan Devid Pakkardning shaxsiy mablag‘laridan iborat.

Dunyoning xayriya jamg‘armalari reytingi har bir inson xayriya barcha odamlar uchun haqiqatan ham muhim ekanligiga ishonch hosil qilishi uchun tuzilgan. Ko‘plab taniqli shaxslar jamiyat hayotini yaxshilashga va muhtojlarga yordam berishga harakat qilishadi. Mashhurlar xayriya uchun millionlab mablag‘lar sarf qilishadi.

Qo‘shma Shtatlarda bir yarim millionga yaqin xayriya tashkilotlari va diniy cherkovlar ro‘yxatga olingan. Bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 2 foizdan ortig‘i xayriyalarga sarflanadi. Bundan tashqari, ushbu pulning 76 foizi jismoniy shaxslardan. Va bunday jamoat fondi xayriya mablag‘larining sezilarli qismini chet elga yuboradi.

2002-yilda O‘zbekistonda respublika va xalqaro ahamiyatga molik 220 dan oshiq jamoa tashkilotlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ularning 25 tasini ya’ni 11,3 foizini jamg‘armalar tashkil etgan. Shuningdek, respublikamizda hisob ro‘yxatiga olingan 1500 ta viloyat, 20 dan ortiq xorijiy davlatlarning jamoat tashkilotlari ham mavjud. 2009-yilda xalqaro va respublika ahamiyatiga molik 76 ta va mahalliy ahamiyatga molik 126 ta jamoat fondlari, jamg‘armalar faoliyat ko‘rsatgan[4].

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda 5 mingdan ortiq hukumatga qarashli bo‘lmagan tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu tashkilotlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollar va yoshlarning ishtirokini faollashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar, ekologik masalalarni hal etish, shuningdek shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida ish olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobida, “Fuqarolik kodeksi”ning 73–75 moddalarida “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatinng asoslari haqida”gi Qonunlarda nohukumat tashkilotlarining faoliyatini ta’minlashga qaratilgan qoida va me’yorlar o‘z aksini topgan bo‘lsa, Prezident Farmonlarida va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, imtiyozli soliq to‘lovlarini belgilash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash shart-sharoitlari yaratib berilmoqda. Nodavlat va jamoat tizimlarining jamiyat hayotidagi mavqei o‘sib bormoqda. Ular faqat aholi fikrining turli ko‘rinishlarini ifoda etib qolmasdan, xalqning ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta’sir ko‘rsatmoqda.

4 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2009. -№ 9–10. –141 modda.

Mamlakatimizda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning tashabbusi bilan tuzilgan va ko‘ngilli, o‘zini-o‘zi boshqaruvchi tashkilotlar xilma-xilligi bilan farqlanadi. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan jamg‘armalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- Aholi muayyan yirik toifalarning ijtimoiy manfaatlarini ko‘zlab ishlashga ixtisoslashgan hukumatga qarashli bo‘lmagan umummilliy jamg‘armalar (“Mahalla”, “Nuroniylar” jamg‘armalari).
- Ixtisoslashgan milliy va xalqaro jamg‘armalar (“Ekosan”, “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasi, “Iste’dod” jamg‘armasi, Amir Temur madaniy-tarixiy jamg‘arma, Matbuotni demokratlashtirish va jurnallarni qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg‘armasi, Orolni qutqarish jamg‘armasi, Imom al Buxoriy xalqaro jamg‘armasi, “Oltin Meros” xalqaro hayriya jamg‘armasi, Estrada san’atini rivojlantirish jamg‘armasi, “Ijod” fondi).
- Umumiy xayriya jamiyatlari, jamg‘armalari (Respublika bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi, Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish jamg‘armalari – “Sen yolg‘iz emassan”, “Mehr nuri”, “Fond Forum” jamg‘armalari).
- Iqtisodiyot, moliya, bank tizimi va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan jamg‘armalar, fondlar (Budjetdan tashqari jamg‘arib boriladigan pensiya fondi, Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi).

Mamlakatda XXI asr boshlarida “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” konseptual siyosiy dasturni amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, markaziy davlat organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich berib borish asosida jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlari boshlangan. Bu sohada quyidagi yo‘nalishlarda islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda:

- birinchidan, jamiyat a’zolarining ongi, irodasi, madaniyati, ma’naviyati va bilimi yuksak darajada bo‘lishiga erishish, ularning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatiga alohida e’tibor berish;
- ikkinchidan, jamiyat a’zolarining manfaatlari uyg‘unlashuvi jarayonlarini shakllantirish, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan mushtarakligiga erishish;
- uchinchidan, jamiyatning takomillashuvi, yangilanishi uchun kuchli va real siyosiy, iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarni shakllantirish;
- to‘rtinchidan, jamiyat a’zolari va tuzilmalari o‘rtasidagi hamkorlik asosida jamiyatning umumiy manfaatlarini uyg‘unlashtirish;
- beshinchidan, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar ta’sirini kuchaytirish, ularga ongli ravishda bo‘ysunish amaliyotini vujudga keltirish;
- oltinchidan, siyosiy hokimiyatning o‘z vazifalarini to‘liq bajarishiga kengroq va qulayroq imkoniyatlar yaratish, siyosiy hokimiyatga nisbatan jamiyat a’zolari ishonchini kuchaytirish, uning aholi tomonidan keng va faol qo‘llab-quvvatlanishiga erishish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan jamg‘armalar nafaqat jamg‘arma tizimidagi fuqorolarning ijtimoiy faolligini oshirish yohud ma’lum soha rivojini ta’minlashga xizmat qiladi, balki hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim subekti sifatida jamiyatni ijtimoiy taraqqiy ettirish ishida faol ishtirok etmoqda.

Yurak amri xayriya jamg‘armasi. Maqsadi – ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan oilalarga xayriya qilish.

VAQF xayriya-jamoat fondi. Maqsadi – ijtimoiy va tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan oilalarga xayriya qilish, diniy ehsonlar va moliyaviy ibodatlar amalga oshirish.

7-qadam xayriya fondi. Yo‘nalishi: bemor bolalarning davolanishi uchun xayriya qilish.

Mehrli qo‘llar xayriya fondi. Yo‘nalishi: imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar bilan ishlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, rag‘batlantirish va ularga o‘zlarini ijodda, sportda, intellektual jihatdan har tomonlama namoyon qilish va rivojlantirishga ko‘maklashish.

Ezgu amal xayriya fondi. Yo‘nalishi: saraton kasalligi va tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan og‘ir kasal bolalarga yordam qilish, korporativ xayriya ishlarini rivojlantirish, biznes va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, xususiy xayriya va ko‘ngillilarni rivojlantirish, noyob ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish

Yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a’zoligi bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro, respublika fondlari hamda mahalliy fondlar tashkil etiladi va faoliyat ko‘rsatadi. Xalqaro fondlarga faoliyati o‘z ustavlariga va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining va bir yoki undan ortiq chet davlatlarning hududiga tatbiq etiladigan fondlar kiradi.

Quyidagilarni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan dastlabki mablag‘larning eng kam miqdori:

- xalqaro va respublika jamoat fondlari uchun – bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdorida;
- mahalliy jamoat fondlari uchun – bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdorida bo‘lishi kerak.

Jamoat fondlarining alohida bo‘linmalari (vakolatxonalari va filiallari) uchun dastlabki mablag‘larning eng kam miqdori mavjud bo‘lishi talab etilmaydi.

Jamoat fondlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan dastlabki mablag‘larning eng kam miqdori davlat ro‘yxatidan o‘tkazish paytida faqat pul shaklida shakllantirilgan bo‘lishi lozim.

Fondning mol-mulkini shakllantirish manbalari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- muassis(lar) tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan (o‘tkaziladigan) yoki muntazam kelib turadigan pul va boshqa tushumlar;
- fond vasiyatnoma bo‘yicha tashkil etilgan taqdirda vasiyat qiluvchining fondga o‘tkazilgan mol-mulki;
- yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriyalari;
- yuridik va jismoniy shaxslar, davlat, chet el va xalqaro tashkilotlar, chet davlatlar ajratadigan grantlar;
- fondning tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar (foyda);

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz madaniyati va san’ati, xususan, milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo‘lgan musiqa san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan “Estrada san’atini rivojlantirish jamg‘armasi” nodavlat notijorat tashkilot hisoblanib, estrada san’ati namoyandalari hamda yosh ijodkorlarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish, “O‘zbeknavo” estrada birlashmasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida Estrada san’atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashining huzurida tashkil etilgan. Jamg‘arma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari asosida yuritadi.

“Mahalla” hayriya jamg‘armasining asosiy maqsadi mahalla va mahalla aholisining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy darajasini tobora yuksaltirish, milliy an’ana va udumlarni yanada boyitish, shuningdek, mahalla o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ish faoliyatini boshqarish, nazorat qilish, har tomonlama muvofiqlashtirish va rivojlantirishdan iborat. Jamg‘arma:

- mahalla madaniy, ma’naviy-marifiy targ‘ibot ishlarni keng yo‘lga qo‘yishning uslubiy asoslarini yaratish va joriy qilish;
- aholi o‘rtasida o‘zaro hurmat va insonparvarlik, yaxshi qo‘shnichilik, mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish, ijtimoiy–siyosiy barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning zarurligini keng targ‘ib qilish va targ‘ibot uslublarini yaratish;
- yosh avlodni milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda mahallalarga uslubiy yordam ko‘rsatish;
- davlat organlari vakolatlarini fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish jarayonida faol qatnashish va bu vakolatlarning amalga oshirilishida mahallalar uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;
- mahallalar raislari, oqosoqollari va faollarining bilim darajasini, malakasini va saviyasini ko‘tarish, ularda bozor iqtisodiiti munosabatlariga mos keluvchi zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘quv ishlarini tashkil qilish;
- mahallalarning mamlakatimizdagi hamda xorijdagi jamoat tashkilotlari, davlat boshqaruv organlari bilan o‘zaro munosabatlar mexanizmlarini shakllantirish, uni rivojlantirish mavzularida ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish;

- respublika hududida faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro xorijiy tashkilotlar, elchixonalar, jamoalar va jam’armalar bilan jamg‘arma vakolati doirasida aloqa o‘rnatish, hamkorlikda qo‘shma ilmiy loyiha va Dasturlar ishlab chiqish va bajarish, moliyalashtirish uchun xalqaro grantlar olishni va bajarishni tashkil qilish;
- O‘zbekistonda xalqaro anjumanlar, seminarlar o‘tkazishga tashabbuskorlik qilish, anjumanlarga chet ellik vakillarni o‘rnatilgan tartibda taklif qilish, xorijiy mamlakatlarda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda qatnashish;
- respublikadagi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan aloqalar o‘rnatish, hamkorlikni kuchaytirish;
- mahallalarning ish faoliyatini o‘rganib borish, tahlil qilish va shu sohadagi ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ular manfaatini qonun asosida himoya qilish, ular tomonidan ishlab chiqilgan istiqbolli g‘oyalar va islohot loyihalari, respublikani ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishga olib boradigan amaliy tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash, bu ishlarda ularga ko‘maklashish;
- mahallalar ishini muvofiqlashtiruvchi oqsoqollar kengashlarini tashkil qilishda o‘z takliflari bilan ishtirok etish, faoliyatini yo‘naltirish, zarur hollarda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;
- mahallalardagi kam ta’minlangan va boquvchisini yo‘qotgan oilalar, yolg‘iz keksalar, faxriylar, nogironlar, ko‘p bolali oilalar, yetim-yesirlar, baynalminalchilar manfaatlarini har tomonlama himoya qilish;
- mahalla ahlining tashabbuskorligini oshirishda qulay moddiy va ma’naviy sharoitlar yaratib berish, ishlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, mahallalarda kichik va qo‘shma korxonalar ochishga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;
- lotereya o‘yinlari o‘tkazish, kreditlar olish va berish; chorva mollari, parranda hamda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish maqsadida xo‘jaliklar tashkil qilish;
- chet el firmalari va fuqarolari ishtirokida qo‘shma korxonalar ochish va turli ko‘rgazmalar tashkil qilish;
- xalqaro aloqalarni amalga oshirish maqsadida chet ellardagi birodarlik uyushmalari bilan hamkorlik qilish hamda ekologik dasturni amalga oshirishda ishtirok etish vazifalarni amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Decision PQ–465 of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev “On measures to develop the social and production infrastructure of the Republic of Uzbekistan in 2023–2025” 30.12.2022
2. Эргашев, Р. Х., & Хамраева, С. Н. (2019). Совершенствавоние механизмы инновационного развития инфраструктуры сельского хозяйства. Друкується за рішенням Вченої ради Державного університету “Житомирська політехніка” (Протокол № 12 від 25.11. 2019 р.) Редакційна колегія: д. е. н., проф. ВВ Євдокимов, 355.
3. Khamraeva, S. N., & Alimova, M. Y. (2021). Methodological bases for assessing the level of innovative development of agriculture and its service infrastructure activities. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 27(2), 4062–4068.
4. Алимова, М. Ю. (2022). Сущность и особенности формирования социальной инфраструктуры // Экономика и социум, (10–1 (101)), 226–231.
5. Yulchievna, A. M. (2023). Development of Social Infrastructure-Helps to Increase the Living Standard of the Population. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(9), 251–256.
6. Yulchievna, A. M. (2023). Theoretical Foundations of the Development of Social Infrastructure. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993–2157), 1(7), 88–93.



TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARINING BREND JOZIBADORLIGINI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH

Sh. Sh. Ziyayeva
TMI “Menejment va marketing” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola tikuvchilik va trikotaj korxonalari o‘zlarining brend jozibadorligini oshirishda duch keladigan qiyinchiliklarni o‘rganadi va samarali marketing strategiyalari orqali amaliy yechimlarni taqdim etadi. U cheklangan onlayn mavjudligi, shiddatli raqobat, rivojlanayotgan iste’molchilarning afzalliklari, mavsumiylik va tendensiyalar, cheklangan byudjetlar va mijozlarni jalb qilmaslik kabi muammolarni hal qiladi. Taklif etilayotgan yechimlar moslashtirilgan onlayn mavjudlik, noyob brending, barqarorlik majburiyati, mahsulotni diversifikatsiya qilish, iqtisodiy jihatdan samarali marketing va mijozlarni jalb qilish tashabbuslarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: tikuvchilik va trikotaj korxonalari, brend jozibadorligi, marketing strategiyalari, onlayn mavjudligi, raqobat, iste’molchilarning afzalliklari, barqarorlik, mahsulotni diversifikatsiya qilish, mijozlarni jalb qilish, noyob savdo nuqtalari, elektron tijorat, mijozlarning sodiqligi.

Abstract: This article explores the challenges faced by sewing and knitting enterprises in increasing their brand attractiveness and provides practical solutions through effective marketing strategies. It addresses issues such as limited online presence, fierce competition, evolving consumer preferences, seasonality and trends, limited budgets, and lack of customer engagement. The proposed solutions include tailored online presence, unique branding, sustainability commitment, product diversification, cost-effective marketing, and customer engagement initiatives.

Key words: sewing and knitting enterprises, brand attractiveness, marketing strategies, online presence, competition, consumer preferences, sustainability, product diversification, customer engagement, unique selling points, E-commerce, customer loyalty.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются швейные и трикотажные предприятия при повышении привлекательности своего бренда, и предлагаются практические решения посредством эффективных маркетинговых стратегий. Он решает такие проблемы, как ограниченное присутствие в Интернете, жесткая конкуренция, меняющиеся потребительские предпочтения, сезонность и тенденции, ограниченные бюджеты и отсутствие взаимодействия с клиентами. Предлагаемые решения включают индивидуальное присутствие в Интернете, уникальный брендинг, приверженность устойчивому развитию, диверсификацию продуктов, экономически эффективный маркетинг и инициативы по привлечению клиентов.

Ключевые слова: швейные и трикотажные предприятия, привлекательность бренда, маркетинговые стратегии, присутствие в Интернете, конкуренция, потребительские предпочтения, устойчивость, диверсификация продукции, привлечение клиентов, уникальные точки продаж, электронная коммерция, лояльность клиентов.

KIRISH

Ko‘pincha ommaviy ishlab chiqarish va tezkor modaga ustunlik beradigan dunyoda tikuv va trikotaj san’ati o‘zining abadiy jozibadorligini saqlab qoldi. Tikuvchilik va trikotaj korxonalari o‘zining mahorati, detallarga e’tiborliligi, o‘ziga xos, shaxsiy buyumlar yaratish qobiliyati bilan mashhur. Biroq, tobora kuchayib borayotgan bozorda ushbu korxonalar o‘zlarining brend jozibadorligini oshirish va raqamli asrda gullab-yashnash uchun samarali marketing strategiyalarini qabul qilishlari kerak.

Tikuvchilik va trikotaj asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib, insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Ushbu hunarmandchilik odamlarga o‘z ijodini namoyon etish, funksional va estetik jihatdan yoqimli narsalarni ishlab chiqarish va chuqur muvaffaqiyat hissini tarbiyalash imkonini beradi. Kiyim-kechak, uy dekoratsiyasi yoki aksessuarlar bo‘ladimi, tikuvchilik va trikotaj badiiylik va amaliylikning noyob uyg‘unligini taklif qiladi.

Tikuvchilik va trikotaj korxonalari o‘zlarining jozibadorligiga qaramay, bugungi tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda ko‘plab muammolarga duch kelishmoqda. Ommaviy ishlab chiqarish va globallashuv tez modani keltirib chiqardi, bu ko‘pincha sifatdan ko‘ra miqdorni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bundan tashqari, elektron tijorat va raqamli asrning yuksalishi iste’molchilarning mahsulotlarni qanday topishi va sotib olishini inqilob qildi [1]. Raqobatbardosh bo‘lish uchun tikuvchilik va trikotaj korxonalari o‘zlarining brend jozibadorligini oshirish uchun samarali marketing strategiyalarini moslashtirishlari va amalga oshirishlari kerak.

Ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘lib-toshgan dunyoda tikuv va trikotaj korxonalari o‘zlarining hunarmandchiligini ta’kidlab, samarali marketing strategiyalarini qo‘llash orqali ajralib turishning noyob imkoniyatiga ega. Kuchli onlayn mavjudligini o‘rnatish, o‘zlarining noyob hikoyalarini aytib berish, sifatni birinchi o‘ringa qo‘yish, moslashtirishni taklif qilish, o‘z auditoriyasini o‘rgatish va ilhomlantirish va barqaror amaliyotlarda qatnashish orqali bu korxonalar o‘zlarining brend jozibadorligini oshirishlari va raqamli asrda rivojlanishda davom etishlari mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

G. G. Azgaldov tadqiqotlarida korxona sifatini boshqarish tizimiga nazariy yondashuvlar va uni baholash vositalari o‘z aksini topgan [2]. Turli tarmoq va soha korxonalarida sifatni boshqarish tizimining amaliy jihatlari V. V. Buziryev [3] va V. V. Okrepilovning [4] ilmiy ishlarida yanada chuqurrok tahlil etilgan. Korxonalarda sifatni boshqarish tizimi konsepsiyasining nazariy va amaliy jihatlari o‘rtasidagi o‘ziga xos o‘zaro bog‘liqliklar V. G. Versannning tadqiqotlarida o‘rganilgan [4]. O‘zbekistonda to‘qimachilik mahsulotlari sifati va eksportini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar R. K. Axmedov, R. V. Abdullayev, M. R. Boltaboyev, Z. D. Odilovalar tomonidan doktorlik dissertatsiyalari darajasida olib borilgan. M. R. Boltaboyev O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirishning marketing konsepsiyasini shakllantirish, tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport imkoniyatlarini rivojlantirishning marketing strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan to‘qimachilik tarmog‘ida olib borilayotgan islohotlar qiyosiy solishtirish, iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, statistik ma`lumotlarni o‘rganish,mantiqiy fikrlash,ilmiy abstrksiyalash va ma`lumotni guruhlash, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iste’molchilar tobora ortib borayotgan haqiqiy, moslashtirilgan va barqaror mahsulotlarga intilayotgani sababli, tikuvchilik va trikotaj korxonalari moda va hunarmandchilik kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Tikuvchilik va trikotaj korxonalari strategik marketing orqali brend jozibadorligini oshirish uchun sayohatga kirishar ekan, bu sa’y-harakatlarning ta’sirini baholash juda muhimdir. Keling, ushbu strategiyalarning muvaffaqiyatini ko‘rsatadigan ba’zi asosiy statistik ko‘rsatkichlarni ko‘rib chiqaylik.

Ijtimoiy tarmoqlarga kirish: Ijtimoiy media platformalari statistik ma’lumotlar xazinasi bilan ta’minlaydi. Yoqtirishlar, baham ko‘rishlar, sharhlar va izdoshlar o‘sishi kabi ko‘rsatkichlarni kuzatib boring. Ishtirok etish ko‘rsatkichlarining oshishi kontentingiz auditoriyangiz bilan rezonanslashayotganini ko‘rsatadi.

“KnitArtistry” misolida, ularning Instagram akkaunti doimiy ravishda sahna ortidagi kontent va mijozlar hikoyalarini baham ko‘rgandan so‘ng, obunachilar soni 25% ga va post ishtirokida 35% ga o‘sgan [7].

Mijozlarning fikr-mulohazalari va sharhlari: Mijozlarning qoniqishi brendning jozibadorligining muhim ko‘rsatkichidir. Mijozlarni sharhlar qoldirishga va fikr-mulohazalarini bildirishga undash.

“StitchMasters” tikuvchilik va trikotaj korxonasi mahsulot sifatini ta’kidlaganidan so‘ng mijozlarning sharhlarida ta’sirchan 4,8/5 reytingini ko‘rdi. Ushbu yuqori reyting ularning brendiga bo‘lgan ishonchni sezilarli darajada oshirdi.

Moslashtirishni qabul qilish: Agar siz moslashtirish variantlarini taklif qilsangiz, moslashtirilgan mahsulotlarni tanlagan mijozlar foizini kuzating. Bu yerda o‘sib borayotgan tendensiya iste’molchilar siz taqdim etgan noyob, moslashtirilgan tajribani qadrlashini ko‘rsatadi [8].

“CraftYourStyle” tikuvchilik korxonasi o‘z veb-saytida foydalanuvchilarga qulay moslashtirish funksiyasini ishga tushirgandan so‘ng, moslashtirilgan kiyimlarga buyurtmalar 20 foizga oshganini qayd etdi.

Barqarorlik ta’siri: Barqarorlik sizning brend strategiyangizning bir qismi bo‘lsa, ishlab chiqarishda ishlatiladigan barqaror materiallar foizi, chiqindilarni kamaytirish va mijozlarning ekologik toza variantlarga qiziqishi kabi ko‘rsatkichlarga qarang [9].

“EcoStitch” ekologik toza iplar va matolar sotuvining 30 foizga oshgani haqida xabar berib, iste’molchilarning barqaror alternativlarga bo‘lgan qiziqishini namoyish etdi.


Hamkorlik doirasi: Hamkorlik bilan shug‘ullanadigan tikuvchilik va trikotaj korxonalari uchun ushbu hamkorliklarning ta’siri va ta’sirini o‘lchang. Buni ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilar sonining ko‘payishi, veb-saytlarga havolalar va qo‘shma reklama harakatlari kabi ko‘rsatkichlar orqali aniqlash mumkin.

“CraftersUnite” va mahalliy hunarmandlar butiki o‘rtasidagi hamkorlik ikkala biznes uchun ham ijtimoiy media obunachilar sonining 15% ga oshishiga va hamkorlik davrida umumiy savdolarning 10% ga oshishiga olib keldi.

Ushbu statistik ko‘rsatkichlar tikuvchilik va trikotaj korxonalarida marketing strategiyasini amalga oshirishning ijobiy ta’sirining yorqin dalili bo‘lib xizmat qiladi.

Ular kuchli onlayn mavjudlikni yaratish, noyob hikoyalar aytib berish, sifatga ustunlik berish, moslashtirishni taklif qilish, auditoriyani o‘rgatish va ilhomlantirish va barqaror amaliyotlarda qatnashish nafaqat brend jozibadorligini oshirish, balki biznes o‘sishiga ham yordam berishini namoyish etadi. Raqobat kuchayib borayotgan bozorda ushbu strategiyalar ushbu korxonalarga o‘z hunarmandchiligining doimiy jozibasini saqlab, gullab-yashnashiga imkon beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda an’anaviy hunarmandchilik va sevimli mashg‘ulotlar qayta tiklanmoqda, tikuvchilik va trikotaj o‘z fuqarolari orasida ommalashmoqda. Bu jonlanish butun mamlakatdagi tikuv va trikotaj korxonalariga yangi hayot baxsh etdi. Ushbu ortib borayotgan qiziqishdan foydalanish va brendning jozibadorligini oshirish uchun ushbu korxonalar samarali marketing strategiyalarini qo‘llashlari kerak [10].



1-rasm: Tikuv-trikotaj korxonalari brend jozibadorligini oshiruvchi strategiyalar

Marketing strategiyalariga sho‘ng‘ishdan oldin bozor dinamikasini tushunish juda muhimdir. O‘zbekiston to‘qimachilik va hunarmandchilik sohasida boy madaniy merosga ega. Mamlakat yuqori sifatli mato va tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarishning uzoq tarixiga ega. Mamlakat o‘zining madaniy ildizlarini modernizatsiya qilib, o‘zlashtirar ekan, qo‘lda ishlangan buyumlarga yana qadrlash kuchaydi. Bu tikuvchilik va trikotaj korxonalarining gullab-yashnashi uchun noyob imkoniyat yaratadi.

Tikuvchilik va trikotaj korxonalarida brend jozibadorligini oshirish uchun ko‘plab marketing strategiyalari mavjud bo‘lib, ba’zilari haqida muhokama qilish maqsadga muvofiqdir.

Onlayn mavjudlik va elektron tijorat. Bugungi raqamli asrda kuchli onlayn mavjudligi juda muhim. Tikuvchilik va trikotaj korxonalari yaxshi mo‘ljallangan veb-saytlar va onlayn-do‘konlarga sarmoya kiritishlari kerak. Ushbu platformalar mijozlarga mahsulotlarni ko‘rib chiqish va sotib olishning qulay usulini taklif qilib, o‘z mahsulotlari uchun vitrina bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, korxonalar o‘z ijodlarini namoyish etish va kengroq auditoriya bilan bog‘lanish uchun Instagram va Facebook kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalanishlari mumkin.

Madaniy merosni qabul qilish. O‘zbekistonning boy madaniy merosi tikuvchilik va trikotaj korxonalari uchun noyob savdo nuqtasini taklif etadi. Mahsulotlaringizga an’anaviy dizaynlar, naqshlar va naqshlarni qo‘shing. Har bir elementga kiradigan hunarmandchilikni ta’kidlang. Mamlakatning madaniy merosini nishonlash orqali korxonalar haqiqiylik va an’analarni qadrlaydigan mijozlarni jalb qilishlari mumkin [11].

Mahalliy hunarmandlar bilan hamkorlik qilish. Mahalliy hunarmandlar bilan hamkorlik qilish brendingizga chuqurlik kiritishi va mahsulot turlarini kengaytirishi mumkin. Tikuvchilik va trikotaj korxonalari mohir hunarmand va hunarmand ayollar bilan hamkorlik qilib, o‘z kolleksiyalariga yangi dizayn va texnikalarni joriy etishlari mumkin. Bu nafaqat mahalliy iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlaydi, balki mijozlar qadrlaydigan jamoa va haqiqiylik tuyg‘usini ham rivojlantiradi.

O‘quv seminarlari. Seminarlar va darslarni o‘tkazish auditoriyangiz bilan muloqot qilish va brendga sodiqlikni yaratishning ajoyib usuli bo‘lishi mumkin. Tikuvchilik, trikotaj va tegishli hunarmandchilik bo‘yicha darslarni taklif qiling. Ushbu seminarlar mijozlarga yangi ko‘nikmalarni o‘rganishga va mahsulotingiz ortidagi hunarmandchilikni qadrlashga yordam beradi. Bu hamfikrlar hamjamiyatini yaratish imkoniyatidir.

Mijozlarni jalb qilish va fikr-mulohazalar. Mijozlaringizning fikr-mulohazalarini va takliflarini izlash orqali ular bilan faol aloqada bo‘ling. Buni ijtimoiy tarmoqlardagi so‘rovlar, so‘rovlar yoki veb-saytingizdagi fikr-mulohaza shakllari orqali amalga oshirish mumkin. Mijozlaringizning fikrlari va afzalliklarini tinglash orqali siz o‘z mahsulot va xizmatlaringizni ularning ehtiyojlari va istaklarini yaxshiroq qondirish uchun moslashtira olasiz.

Sifat va barqarorlik. Mahsulotlaringiz sifatini va barqarorlikka sodiqligini ta’kidlang. Yuqori sifatli materiallardan foydalaning va buyumlaringizning mustahkamligini ko‘rsating. Atrof-muhitga ta’siri tobora ortib borayotgan dunyoda barqaror amaliyotlarni targ‘ib qilish brendingiz jozibadorligini oshirishi mumkin.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari bozorida institutsional marketingning boshqa turlardagi marketingdan asosiy farq sifatida davlat organlarining bozor jarayonlarida ishtirok etishi (yoki kengroq talqinda – almashinuv qoidalariga rioya etilishini ta’minlaydigan va bozorga yaqqol yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan har qanday boshqa institut) hamda bozor agentlari me’yorlari va odatlarini marketing tadqiq qilish sohasi kengayishi sifatida ko‘riladi [12].

Marketingning vazifalarini bunday tarzda amalga oshirish undan foydalanish imkoniyatlarini hokimiyat tuzilmalari uchun kengaytiradi, bu to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari bozori sohasi uchun juda muhim.

Bozor islohotlari bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun, raqobatlashuv muhitini shakllantirish va kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun biz tomonimizdan taklif qilinayotgan institutsional marketingdan foydalanish yo‘nalishi ham ancha qiziqarli.

Bozorni zamonaviylashtirishga bunday yo‘naltirilganlik ushbu tadqiqotda ko‘rib chiqilayotgan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari sohasini rivojlantirish masalalariga yaqin, bu marketingning yangi nazariy va metodologik qoidalarini rivojlantirish uchun mamlakatimizdagi ko‘rib chiqilgan marketing g‘oyalari yutuqlaridan foydalanishning ahamiyatini oshiradi.

Bozor institutlarini rivojlantirish uchun marketingni qo‘llashning aynan shunday tushunilishida marketingda uning adaptatsion imkoniyatlarini ochib berish bilan bog‘liq bo‘lgan institutsional yondashuvni qo‘llash lozim. Bu jihatda, olim va mutaxassislar bozor institutlari marketingining rivojlanishi dolzarbligini ta’kidlab o‘tishgan, iqtisodiy tizimning to‘laqonli ishlashi uchun ularning o‘ta muhim ahamiyatiga urg‘u berishgan.


Bu holda marketing tomonidan hal qilinadigan vazifalar – yuzaga kelgan qoidalar va xulq-atvor normalarini iste’molchilar tomonidan idrok etishdagi o‘zgarishdir. Ushbu masalada asosiy jihat marketing kompleksining (marketing miksi) maqsadli auditoriya (individlar) va institutlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni qurishga ta’sirining rivojlanishi hisoblanadi.

Institutsional yondashuvni qo‘llashning ushbu variantini amalga oshirish natijasi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tegishli maqsadlari ko‘rib chiqiladi. Institut faoliyatining asosi bo‘lib uning istiqbolda marketing yechimlarining strategik taraqqiyotini ta’minlashda dominant roli hisoblanadi.

Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirishda institutsional komponentlar ushbu yondashuvda adaptiv marketing elementlari sifatida amal qiladi (2-rasm).

Institutsional mexanizmga asoslangan marketingning nazariy qoidalarini rivojlantirish yo‘nalishida taqdim etilgan ishlanmalardan tashqari, L. P. Kosenko tomonidan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari bozori marketingini tadqiq qilishda institutsional yondashuvlardan foydalanishga ham e’tibor qaratish lozimligi ta’kidlangan.

Ushbu tadqiqot natijasi bo‘lib to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari bozorida iste’molchining harakatlarini belgilovchi sifatida hulq-atvorning norasmiy qoidalarini ajratish hisoblanadi. Bu borada L. Kosenko bozor jarayonlari norasmiy institutlarining va ishtirokchilarining xizmatlarni xarid qilish borasida qaror qabul qilishga ustunlik qiluvchi ta’sirini; bozorlarni to‘laqonli marketing baholashni o‘tkazishning, iste’molchilarni tizimlashtirish va yetakchi ishtirokchilar pozitsiyalarini aniqlashtirish murakkabligini ta’kidlaydi. Shuningdek, marketingda institutsional yondashuvni bozor faoliyatining subyekt tarkibini qayta ko‘rib chiqish yo‘li bilan va xususiy-davlat hamkorligini rivojlantirish doiralarida amalga oshirish taklif etiladi.



2-rasm: Tikuv-trikotaj mahsulotlari misolida talabni shakllantirish va brend jozibadorligini amalga oshirish bosqichlari [13]

XULOSA

Xulosa qilganimizda, tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirish tizimini samarali tashkil etish mazkur mahsulotlarni maqbul iste'mol darajasini oshirish, shu bilan bir qatorda, tikuv-trikotaj sohasining mahalliy ishlab chiqarish sanoatidagi brend o'rnini mustahkamlashga ko'maklashadi.

O'zbekistondagi tikuvchilik va trikotaj korxonalari an'analar, hunarmandchilik va haqiqiylikni qadrlaydigan bozorda rivojlanish uchun noyob imkoniyatga ega. Onlayn mavjudlikni o'rnatish, madaniy merosni nishonlash, mahalliy hunarmandlar bilan hamkorlik qilish, o'quv seminarlarini o'tkazish, mijozlar bilan muloqot qilish va sifat va barqarorlikni ta'kidlash kabi samarali marketing strategiyalarini amalga oshirish orqali ushbu korxonalar o'zlarining brend jozibadorligini oshirishi va an'anaviy brendlarning qayta tiklanishiga hissa qo'shishi mumkin. O'zbekistonda hunarmandchilik. Fidoyilik va innovatsiyalar bilan ular o'z bizneslari va millatning madaniy merosi uchun porloq kelajakni birlashtira oladilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kotler, Philip, and Keller, Kevin Lane. "Marketing Management" Pearson. 2020. P. 32
2. Azgaldov G. G., Glichev A. V., Panov V. P. CHto takoe kachestvo? – M.: Ekonomika, 1968. S. 102–105
3. Buzыrev V. V., CHekalin V. S. Ekonomika jilishnoy sferiy. – M.: Infra-M, 2001. S. 53
4. Okrepilov V. V. Prostranstvennoe razvitie i kachestvo. – SPb.: Nauka, 2011. S. 35
6. Versan V. G., CHayka I. I. Sistemiy upravleniya kachestvom produksii. – M.: Standartinform, 2008. S. 71–73
7. Boltabaev M. R., "O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi". I. f.d. diss.avtoref. T. 2005. 37-b
8. Musa, Muhammad Farooq, et al. "Determinants of Brand Attractiveness: The Role of Brand Experience, Brand Love, and Brand Trust". International Journal of Marketing Studies, 11(1), 56–68. 2019
9. Pappu, Ravi, and Quester, Pascale. "How Does Brand Innovativeness Affect Brand Loyalty?" European Journal of Marketing, 50(1/2), 2–28. 2016
10. Rampl, Valentin, et al. "Handmade Craft Products and Branding: Effects on Customer Purchase Intentions": Sustainability, 12(4), 1604. 2020
11. Lee, Hyunjoo, et al. "Craft and Sustainability: Potentialities and Tensions in the Production and Marketing of Handmade Craft Products": Journal of Retailing and Consumer Services, 49, 34–45. 2019
12. Grewal, Dhruv, et al. "Retail Marketing Mix and Brand Performance: Understanding the Role of Brand Experience": Journal of Retailing, 95(2), 153–166. 2019.
13. McKernan, Susan, et al. "Small Fashion Retailers: Online and Offline Integrations and Customer Experience Management": International Journal of Retail & Distribution Management, 47(5), 503–519. 2019
14. Muminova N. M., "Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish". – Monografiya. TTYeSI – T.: "Yangi nashr" nashriyoti, 2021 yil – 205 bet.

SURXONDARYO MINTAQASINING EKOTURIZM SALOHIYATI NUQTAYI NAZARIDAN BAHOLASH



Soatov Yusuf Xo‘jayor o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tatqiqotchisi

Annotatsiya: Ma’lumki, so‘nggi yillarda sayyohlarning tabiat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va tabiiy va madaniy qadriyatlar muhofaza qilinadigan joylarga bo‘lgan talabi oshdi. O‘zbekistondagi ekoturizm salohiyati jihatidan juda boy bo‘lgan Surxondaryo mintaqasi flora va faunaning xilma-xilligi, ajralib turadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Surxondaryo mintaqasining ekoturizm salohiyatini yaxlit yondashuv bilan hal qilishdir.

Kalit so‘zlar: Ekoturizm, flora va fauna, turizm resurslari, Mintaqaviy turizm.

Abstract: It is known that in recent years, the demand of tourists for places closely related to nature and where natural and cultural values are protected has increased. The Surkhandarya region, which is very rich in terms of the potential of ecotourism in Uzbekistan, is characterized by a variety of flora and fauna. In this regard, the main goal of this study is to solve the ecotourism potential of the Surkhandarya region with a holistic approach.

Key words: ecotourism, flora and fauna, tourism resources, regional tourism.

Аннотация: Известно, что в последние годы возрос спрос туристов на места, тесно связанные с природой и где охраняются природные и культурные ценности. Сурхандарьинская область, очень богатая с точки зрения потенциала экотуризма в Узбекистане, отличается большим разнообразием флоры и фауны. В связи с этим основной целью данного исследования является рассмотрение экотуристического потенциала Сурхандарьинской области с комплексным подходом.

Ключевые слова: экотуризм, Флора и фауна, туристские ресурсы, региональный туризм.

KIRISH

Bugungi kunda jahon aholisining sayyohlik sohasiga bo‘lgan qiziqishlari yildan-yilga ortib borayotganligi, ayniqsa, turizmning eng jozibador turi – ekoturizmga bo‘lgan munosabatning tubdan o‘zgarishiga va bu madaniy hordiq chiqarish zaruriyatiga aylanayotganligi undan olinayotgan daromadlar miqdorining doimiy o‘sishiga, moliyaviy jarayonlar faollashuvining harakatlantiruvchi vositalaridan biri sifatida shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Butunjahon turizm va sayyohlik kengashining ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu tarmoqda 292 milliondan ziyod ish o‘rni yaratilgan bo‘lib, ularning jahon iqtisodiyotidagi hissasi 7,6 trln. dollarni, YaIM dagi ulushi esa 10,2 foizni tashkil etmoqda [1] [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4861-son Farmoni, 2017-yil 16-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3217-son Qarori[2], 2018-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5326-son Farmoni, 2018-yil 6-fevraldagi “Kirish turizminirivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3509-son, 2018-yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3514-son, 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4095-son Qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar bo‘yicha ham o‘nlab farmon va qarorlar qabul qilindi.

1 Travel & tourism global economic impact & issues 2017, // World travel & tourism council, United Kingdom, 2017.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

Hozirgi kunda mamlakatimizning 14 ta hududida erkin iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarning hammasi ekologik turizmni, xususan erkin iqtisodiy zonali hududlarda ham rivojlantirishning belgilab berilgan [2]. Turizm murakkab, ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u ekologik barqaror rivojlanish yo‘nalishi sifatida o‘zaro bog‘liq tarmoqlar majmuasi, bir vaqtning o‘zida faoliyat turi, rekreatsiya shakli, milliy iqtisodiyot tarmog‘i va bo‘sh vaqtni ko‘ngilli o‘tkazish usuli bo‘lib, ko‘plab yangi ish o‘rinlari, qo‘shimcha daromadlar yaratish va tadbirkorlikni va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim manbayi sifatida, boy va xilma-xil tabiat, madaniy-tarixiy ob’ektlardan tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikni ta’minlash asosida tomosha qilish orqali samarali foydalanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekoturiz bo‘yicha ko‘plab xorijiy va O‘zbek olimlari tatqiqotlar olib broganlar: Ingiliz olimi Ross, S va Wall “Ekoturizm – bu tabiatga yo‘naltirilgan turizm, shu jumladan ekologik ta’lim va ma’rifat dasturlari hamda ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladigan turizm”Turizmning asosiy turlaridan biri ekologik turizmdir[3].

“Ekoturizm – bu turizm:

1) nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarda uchraydi;
2) tabiiy muhitning buzilishiga, uning sifatining yomonlashishiga olib kelmaydi;
3) foydalanilayotgan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va boshqarishga bevosita hissa qo‘shadi:

a) nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga asoslangan;
b) zarar etkazmaydigan, buzilmaydigan;
c) foydalaniladigan tabiiy hududlarni doimiy ravishda muhofaza qilish va boshqarishga bevosita hissa qo‘shadigan turizm turidir.

Mamlakatimiz olimlaridan N. T. Tuxliyev, I. S. Tuxliyev, M. Q. Pardayev, A. S. Soliyev, B. To‘rayev, M. M. Muxammedov, M. R. Usmonov, D. K. Usmanova, M. T. Alimova, Q. X. Abduraxmanov, Y. V. Golisheva, N. E. Ibadullayev, O. X. Hamidov, M. Xoshimov, A. N. Norchayev, kabi olimlar keng ko‘lamli o‘ranilanganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ekoturizm tizimini samarali rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug‘ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tatqiqotning nazariy-uslubiy asosi sifatida xizmat qildi.Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan Surxon vohasi Zarautsoy, Kampirtepa, Jarqo‘ton, Sopollitepa, Dalvarzintepa kabi qadimiy obidalar, Boysuntog‘ tizmasidagi ajib tilsimli G‘ur-g‘urtepa g‘ori, Sangardakning mo‘jizaviy sharsharasi, Xo‘jamayxona, Omonxona shifobaxsh buloqlari va boshqa ko‘plab moddiy va nomoddiy boyliklari bilan hamisha sayyohlar e’tibori markazida bo‘lgan.

Viloyatda ekoturizmni rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, zamonaviy qulayliklarga ega mehmonxonalar, mehmon uylari va xostellarning ko‘pchiligi viloyatning tog‘li hududlarida joylashgan. Ayniqsa, Boysun, Denov, Sariosiyo hamda Sherobod tumanlarida ekoturizm yaxshi rivojlanmoqda. Sariosiyo tumanidagi “To‘palang” suv ombori hududida ekoturizm markazi tashkil etilgan.

Turizm sohasida olib borilgan islohotlar natijasida o‘tgan 6 yil davomida viloyatda mehmonxonalar va boshqa xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida qiymati 597,1 mlrd so‘mga teng bo‘lgan 118 ta loyiha amalga oshirilgan va 2 ming nafar aholining bandligi ta’minlangan. Aytish kerakki, bugungi kunda viloyatda 49 ta mehmonxona, 141 ta oilaviy mehmon uylari, 9 ta xostel, 40 ta turistik toifaga kiruvchi transport vositalari ishlab turibdi. Surxondaryo viloyatida 2017-yilda turistlar tashrif buyuradigan atiga 48 ta turizm ob’ektlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ob’ektlar soni 116 ta (241,6 %)ga yetkazildi.Mavjud 116 ta turizm ob’ektlaridan, Termiz shahrida 6 tasi, Jarko‘rgon, Sho‘rchi va Denov tumanlarida 5 tadan, Boysun, Qumqo‘rg‘on, va Sariosiyo tumanlarida 4 tadan ob’ektlar joylashgan.

Shuningdek, Termiz tumanida “Marvarid”, “Oksus”, “Eko turizm” maskanlari tashkil etildi. Buning natijasida turistlar uchun qulayliklar yaratilib, ularning viloyat hududida bo‘lish kunlari 1 kundan – 3 kungacha oshirildi Boysun tumani “Inkobod” mahallasi Omonxona qishlog‘ida bugungi kunda 1 ta sog‘lomlashtirish markazi, 2 ta mehmonxona, 1 ta xostel va 20 dan ortiq oilaviy mehmon uylari faoliyat yuritmoqda.2030 yilgacha bo‘lgan davrda viloyatda turistlar tashrif buyuradigan yangi va yirik ob’ektlar sonini kamida 140 taga oshirish rejalashtirilgan.

3 Turizmni boshqarish, 20-jild, No 6, 673–682-betlar

Shuningdek, Termiz shahri, Boysun, Sariosiyo, Denov, Sherobod va Oltinsoy tumanlarida mehmonxonalar soni 85 tadan 150 taga yetkaziladi.Mehmonxonalardagi o‘rinlar soni 6450 taga yetkaziladi.

Bundan tashqari viloyatning tog‘li hududlarida 25 ta xostellar va 200 dan ortiq oilaviy mehmon uylari tashkil etilishi va ulardagi o‘rinlar soni 2500 taga yetkazish rejalashtirilgan.Shu bilan birga viloyatning Termiz, Boysun, Sherobod, Sariosiyo va Oltinsoy tumanlarida dam olish va sog‘lomlashtirish markazlari quriladi.Sherobod tumanidagi Xo‘jaikon tuz g‘ori atrofida tadbirkorlik sub’ektlarini jalb qilgan holda 2 ta sog‘lomlashtirish markazi tashkil etiladi.

Bundan tashqari, turistlar doimiy tashrif buyuradigan Oltinsoy tumanidagi Xo‘jaipok bulog‘ida 1 ta, Boysun tumanidagi Omonxona bulog‘i 1 ta, Sariosiyo tumanidagi Sangardak sharsharasi va Termiz tumanidagi Uchqizil ko‘li atroflarida 1 tadan, jami 6 ta aholi uchun zamonaviy va arzon sog‘lomlashtirish va dam olish markazlari quriladi.

Buning natijasida viloyatda tabiiy sog‘lomlashtirish markazlari soni 10 taga yetkaziladi.

Bunda birgina Boysun tumanining o‘zida tashabbuskor tadbirkorlar tomonidan qariyb 100 mlrd. so‘m evaziga 2 ta yirik turizm kompleksi qurilishi rejalashtirilgan.Ushbu kompleksda mehmonxonalar, restoranlar, sog‘lomlashtirish markazlari va boshqa xizmat ko‘rsatish markazlari quriladi.

Surxondaryo viloyatiga 2022-yil yakuniga ko‘ra 1,1 million nafar, shundan, qo‘shni Tojikiston Respublikasidan 2022-yil davomida 256 ming nafar, boshqa xorijiy davlatlardan (85 ta davlatdan) 150 ming nafar va 694 ming nafar mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan.Bu esa o‘tgan vaqt mobaynida viloyatga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 13 barobarga ortganligini ko‘rsatadi.O‘tgan yillarda tashrif buyurgan turistlar o‘rtacha 80–90 dollar atrofida sarflab, bor yo‘g‘i bir kun qolgan bo‘lsa, 2022-yil yakunida esa tashrif buyurayotgan sayyohlar o‘rtacha 250–300 dollargacha bo‘lgan mablag‘ sarflab, 3 kungacha tunab qolishgan.Viloyatga tashrif buyurgan turistlar tomonidan 2018 yilda 1,7 mln. dollar sarflangan bo‘lsa, 2022-yilda esa ushbu ko‘rsatkich qariyib 7 barobarga ortib 12 mln. dollarni tashkil etdi[4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilayotgan ekoturizmni iqtisodiy rivojlantirish modeli davlat, jamiyat va o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan huquqiy, boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, ekologik va innovatsion jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ekoturizmni Surxondaryo mintaqasida kompleks rivojlantirish modelida keltirilgan yo‘nalishlar, jahon sayyohlik tizimiga qo‘shilish orqali uning barqaror va har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, keltirilgan rivojlanish modeli zamonaviy sharoitda,Surxondaryoda ekoturizmni rivojlantirishning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqish muammosining hal etilishini belgilab beradi.

Kompleks rivojlanishini ta’minlaydigan model ekoturizmni strategik raqobatbardoshligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga, xizmat ko‘rsatish darajasini yuksaltirishga va yangi xizmatlarni taklif qilishga imkon beruvchi bozor omillarining rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Travel & tourism global economic impact & issues 2017, // World travel & tourism council, United Kingdom, 2017. 2
2. Turizmni boshqarish, 20-jild, No 6, 673–682-betlar
3. https://review.uz/uz/post/surxon-vohasining-turizm-salohiyatiga-bir-nazar
4. Aberqulov Q. N., Hojimatov A. N., Rajabov N. R. Atrof-muhitni muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2003.
5. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga oid nomativ-huquqiy hujjatlar to‘plami.-T.: O‘zR Adliya vazirliga, 2007.–660
6. Pardayev M. Q., Atabayev R., Pardayev B. R. Turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari. Risola. T.: ‘Fan va texnologiya’, 2007. – 28 b.–2,0 b.t.
7. Pardayev M. Q., Tuxliyev I. S. Turizm bozorining shakllanishi, rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. – T.: “Noshirlik yog‘dusi” nashriyoti, 2010.- 74 b.

4 https://review.uz/uz/post/surxon-vohasining-turizm-salohiyatiga-bir-nazar



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА НЕИСПОЛЬЗОВАННЫХ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Усманов Фаррух Обитжонович
Научный сотрудник кафедры бухгалтерского учета
Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: С введением иностранных инвестиций в экономику Республики Узбекистан началась интеграция бухгалтерского учета. Новые условия, принципы, методы, учетные записи и типы отчетов отображаются в текущей системе учетных записей. Теперь учет был введен в стадию непосредственного участия не только в хозяйствующем субъекте, но и в мониторинге, регистрации, анализе и сборе информации о процессах, происходящих на предприятии. В результате внедрения новых терминов, принципов и методов в системе текущего учета появились такие типы учетов, как финансовый, управленческий и производственный учеты. В данной статье рассматриваются один из основным компонентом себестоимости продукции совершенствование учёта основных средств. Изучены вопросы, совершенствование учёта неиспользованных основных средств в Республике Узбекистан. Который связанные с особенностями хозяйствующих субъектов и дано рекомендации совершенствования формирования учетной политики предприятия. Также, рекомендована методика оценки законсервированных основных средств и определение налоговой базы налога на имущества. Рекомендован новый рабочий план счетов и методика определения балансовой стоимости основных средств сезонных предприятий.

Ключевые слова: учетная политика, национальный стандарт бухгалтерского учета, основные средства, консервация, расконсервация, законсервированные основные средства, налог на имущества.

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning kiritilishi bilan buxgalteriya hisobining integratsiyalashuvi boshlandi. Joriy hisob tizimida yangi atamalar, tamoyillar, usullar, hisob va hisobot turlari o‘z aksini topgan. Endilikda buxgalteriya hisobi nafaqat xo‘jalik yurituvchi subyektda, balki korxonada sodir bo‘layotgan jarayonlarni kuzatish, ro‘yxatga olish, tahlil qilish va ma’lumotlarni to‘plashda bevosita ishtirok etish bosqichiga joriy etildi. Yangi atamalar, tamoyillar va usullarning joriy etilishi natijasida joriy hisob tizimida buxgalteriya hisobining moliyaviy, boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi kabi turlari paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada mahsulot tannarxining asosiy tarkibiy qismlaridan biri – asosiy vositalarni hisobga olishni takomillashtirish ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasida foydalanilmayotgan asosiy vositalar hisobini takomillashtirish masalalari o‘rganildi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan va korxonaning hisob siyosatini shakllantirishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, asosiy vositalarni baholash va mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani aniqlash metodologiyasi tavsiya etiladi. Yangi ishchi schyotlar rejasi va mavsumiy korxonalarning asosiy fondlarining balans qiymatini aniqlash metodikasi tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: hisob siyosati, milliy hisob standarti, asosiy vositalar, konservatsiya, raskonservatsiya, asosiy vositalarni zakonservatsiyasi, mol-mulk solig‘i.

Abstract: With the introduction of foreign investment into the economy of the Republic of Uzbekistan, the integration of accounting began. New terms, principles, methods, accounts and report types are reflected in the current account system. Now accounting has been introduced to the stage of direct participation not only in the business entity, but also in monitoring, registration, analysis and collection of information about the processes occurring in the enterprise. As a result of the introduction of new terms, principles and methods, such types of accounting as financial, management and production accounting appeared in the current accounting system. This article discusses one of the main components of product costs - improving the accounting of fixed assets. The issues of improving the accounting of unused fixed assets in the Republic of Uzbekistan were studied. Which are related to the characteristics of business entities and recommendations are given for improving the formation of an enterprise’s accounting policy. Also, a methodology for assessing mothballed fixed assets and determining the tax base for property taxes is recommended. A new working chart of accounts and a methodology for determining the book value of fixed assets of seasonal enterprises are recommended.

Key words: accounting policy, national accounting standard, fixed assets, conservation, rece-conservation, mothballed fixed assets, property tax.

ВВЕДЕНИЕ

Необходимым условием осуществления финансово-хозяйственной деятельности является обеспечение предприятия основными средствами. Данная группа активов составляет существенную часть всего имущества хозяйствующего субъекта. Основные средства играют огромную роль в процессе труда, поскольку они составляют производственно-техническую базу и производственную мощь предприятия. Их количество, стоимость, состояние и эффективность использования оказывает прямое воздействие на конечные финансовые результаты любого хозяйствующего субъекта. Интенсивное применение основных средств способствует улучшению технико-экономических показателей, в том числе приводит к увеличению выпуска продукции, снижению себестоимости, а также росту прибыли.

Один из основных проблем бухгалтерского учета в Республике Узбекистан является организация учета основных средств. Основные средства представляют собой средства труда, к которым относятся станки, рабочие машины, передаточные устройства, инструмент и т.п., а также материальные условия процесса труда - производственные здания, сооружения, транспортные средства и другие. Основные средства отличаются от оборотных средств тем, что они многократно используются в процессе производства и сохраняют первоначальный вид (форму) в течение всего срока службы. Под воздействием производственного процесса и внешней среды они изнашиваются постепенно и переносят свою первоначальную стоимость на затраты производства в течение нормативного срока их службы путем начисления износа по установленным нормам.

Umuman olganda zamonaviy moliya va moliyaviy iqtisodiyot bugungi moliyaviy bozorlar va investitsiya strategiyalari haqidagi tushunchamizni sezilarli darajada shakllantirdi. Bu sohalar asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun qimmatli vositalar va asoslarni taqdim etadi. Biroq, ular xam ayrim uslubiy kamchiliklardan xoli emas.

Ushbu sohalarda asosiy tushuncha bo‘lgan samarali bozor gipotezasi (EMH) moliyaviy bozorlardagi barcha mavjud ma’lumotlarni tezda aktivlar bahosiga kiritishini ta’kidlaydi. Ushbu gipoteza ko‘p hollarda to‘g‘ri

bo‘lsa-da, ba’zan bu tushunchani shubha ostiga qo‘yadigan real bozor samarasizligi va anomaliyalari mavjud bo‘lib, narxlar asosiy kursdan chetga chiqishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ba’zi modellar bozorning barcha ishtirokchilari o‘xshashligini taxmin qiladilar, ular investorlarning xilma-xilligini va ularning real moliya bozorlarida motivatsiyasini hisobga olmaydilar.

Haqiqiy moliyaviy bozorlarning murakkabligi, shu jumladan tranzaksiya xarajatlari, soliqlar, qoidalar va bozorlarning o‘zlarining murakkab dinamikasi kabi omillar har doim ham soddalashtirilgan modellarda yetarli darajada ifodalanmasligi mumkin. Bundan tashqari, empirik tadqiqotlar odatda to‘liq bo‘lmagan yoki noxolis bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarixiy ma’lumotlarga tayanadi va kelajakdagi bozor sharoitlarini yoki kutilmagan voqea hodisalar ta’sirini to‘liq qamrab ololmasligi mumkin. Shuni xam ta’kidlash kerakki zamonaviy moliya va moliyaviy iqtisodiyot sohalari 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi kabi yirik moliyaviy inqirozlarni bashorat qila olmadi va o‘z navbatida samarali yechim ham bo‘la olmadi.

Moliyaviy inqirozlar iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka jiddiy ta’sir etib, moliyaviy tizimni yoki iqtisodiyotining sezilarli darajada buzilishiga olib kelishi mumkin. Ushbu inqirozlar biznes, jismoniy shaxslar va hukumatlarga ta’sir ko‘rsatadigan keng qamrovli oqibatlarga olib kelishi xam kuzatilgan. Moliyaviy inqirozni tushunish uchun ba’zi asosiy jihatlar mavjud bo‘lib ular quidagilardir:



2-rasm: Moliyaviy inqirozlarni yuzaga keltiruvchi omillar[2]

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki Moliyaviy inqirozlar murakkab, ko‘pincha ko‘p qirrali hodisalar bo‘lib, omillar kombinatsiyasi natijasida yuzaga kelishi mumkinligini tushunish muhimdir. Ularning oldini olish va boshqarish uchum bu inqirozlarning bir qancha belgi alomatlari mavjuddir.

Jumladan:

1. **Bank operatsiyalari:** omonatchilar banklarning to‘lovga layoqatsiz bo‘lishdan qo‘rqib, o‘z mablag‘larini olib qo‘yishga shoshilishadi, bu esa banklarning likvidlik tanqisligiga olib keladi.
2. **Qimmatli qog‘ozlar bozorining qulashi:** qimmatli qog‘ozlar narxining keskin va sezilarli pasayishi kuzatiladi. Shuningdek investorlarda qo‘rquv va kapitalni yo‘qotish xafvi paydo bo‘ladi.
3. **Kredit bozori muzlaydi:** kreditorlar ehtiyotkor bo‘lib, kredit berishni istamaydilar, bu esa qarz oluvchilar uchun likvidlik muammosini keltirib chiqaradi.
4. **Valyuta qadrsizlanishi:** investorlar xavfsizroq aktivlarga intilishi natijasida mamlakat valyutasining boshqalarga nisbatan devalvatsiyasi.
5. **Moliyaviy muammolar zanjiri:** moliyaviy tanglikning bir muassasa yoki bozordan boshqasiga tez tarqalishi, inqirozni kuchaytiradi.
6. **Aktivlar narxining o‘zgaruvchanligi:** turli xil moliyaviy aktivlarda narxlarning tartibsiz o‘zgarishi, xavfni baholashni qiyinlashtiradi.
7. **Kredit bo‘yicha defolt va kredit spredlarining kengayishi:** Qarz oluvchilarning qarz majburiyatlarini bajarmasliklari kredit xavfining oshishiga va foiz stavkalari spredlarining oshishiga olib keladi.

2 Ushbu rasm moliyaviy inqirozlar xaqidagi turli internet ma’nbaalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

8. **Likvidlikni siqilishi:** Naqd pul va yuqori likvidli aktivlarning yetishmasligi, to‘lov majburiyatlarini bajarishni qiyinlashtiradi.
9. **Kapital Flight:** Bir mamlakatdan mablag‘larning to‘satdan chiqib ketishi, valyutaning zaiflashishi va valyuta zaxiralarining tugashi.
10. **Hukumat aralashuvi:** moliyaviy tizimni barqarorlashtirish uchun hukumatlar va markaziy banklar tomonidan favqulotda choralar, masalan, qutqaruv va foiz stavkalarini pasaytirish.
11. **Iqtisodiy pasayish:** iqtisodiy faollikning pasayishi, ishsizlikning o‘sishi va iste’mol xarajatlarining pasayishi bilan tavsiflanadi.

Ushbu ko‘rsatkichlar moliyaviy inqirozlar bilan bog‘liq bo‘lgan tanglik va beqarorlikni birgalikda aks ettiradi, bu ularning ta’sirini yumshatish uchun tezkor va muvofiqlashtirilgan choralarni talab qiladi.

Inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish, moliya tizimini barqarorlashtirish, investorlar va aholi o‘rtasida ishonchni tiklash turli manfaatdor tomonlar, jumladan, hukumatlar, moliya institutlari va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida muvofiqlashtirishni talab qiluvchi murakkab vazifadir.

An’anaviy moliya tizimining metodologik muammolari va kamchiliklarga qaramay zamonaviy moliya va moliyaviy iqtisodiyot sohalari investitsion qarorlar va moliyaviy amaliyotlarni boshqarish uchun asosiy instrument bo‘lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

An’anaviy moliya tizimida mavjud bo‘lgan uslubiy qiyinchiliklar va o‘ziga xos cheklovlarni hisobga olgan holda, ushbu soha global miqyosda investitsiya qarorlarini qabul qilish va moliyaviy amaliyotni shakllantirish uchun asosiy vosita sifatida barqarorligini tan olish juda muhimdir. Uning nomukammalligini tan olgan holda, uning moliyaviy landshaftdagi hukmronligining sabablarini chuqurroq o‘rganish kerak.

An’anaviy bank amaliyoti va tashkil etilgan moliya institutlari bilan ajralib turadigan an’anaviy moliya tizimi haqiqatan ham yillar davomida tanqid va tekshiruvlarga duch keldi. Uning shaffofligi, moliyaviy inqirozlarga moyilligi va boylikning tengsiz taqsimlanishi bilan bog‘liq xavotirlar ko‘tarildi. Bu tanqidlarga qaramay, u bir qator jiddiy sabablarga ko‘ra jahon iqtisodiyotida markaziy rolni saqlab qoladi.

Birinchidan, an’anaviy moliya tizimi aksariyat mamlakatlarda moliyaviy infratuzilmaning asosi bo‘lib xizmat qiladi. U to‘lovlarni qayta ishlash, jamg‘arma va hisobvaraqlarni tekshirish, kreditlar kabi muhim xizmatlarni taqdim etadi, bu esa korxonalarning faoliyat yuritishi va jismoniy shaxslarga o‘z mablag‘larini boshqarish imkonini beradi. Ushbu xizmatlar butun dunyo bo‘ylab odamlarning kundalik hayotiga chuqur singib ketgan va muqobil tizimlarning hali to‘liq versiyalari taklif qilmasdan balki uni to‘ldiruvchi sifatida maydonga chiqishmoqda.

Ikkinchidan, tartibga soluvchi organlar va hukumatlar barqarorlikni saqlash va iste’molchilarni himoya qilishga qaratilgan an’anaviy moliyaviy tizimni qattiq nazorat qiladi va tartibga soladi. Ushbu tartibga solish muhiti benuqson bo‘lmasa-da, u moliyaviy operatsiyalarda ishtirok etuvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun xavfsizlik va resurs darajasini ta’minlaydi.

Uchinchidan, tashkil etilgan moliya institutlarining inertsiyasi va an’anaviy moliya tizimining keng ko‘lamliligi muqobil variantlarni keng qabul qilishni qiyinlashtirdi. Masalan, Fintech innovatsiyalari va kriptovalyutalar moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishning yangi usullarini joriy qildi, ammo ular hali ham rivojlanmoqda va o‘ziga xos muammolarga, jumladan tartibga solish to‘siqlari va masshtablilik hamda xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tan olingan uslubiy muammolar va kamchiliklarga qaramay, an’anaviy moliya tizimi investitsion qarorlar va moliyaviy amaliyotlarni boshqarishning asosiy vositasi bo‘lib qolmoqda. Uning barqarorligi uning moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishdagi muhim roli, hokimiyat tomonidan nazorat va tartibga solinishi hamda o‘rnatilgan moliyaviy infratuzilmaning harakatsizligi bilan bog‘liq. Muqobil variantlar paydo bo‘lishda va rivojlanishda davom etar ekan, an’anaviy moliya tizimi global iqtisodiy landshaftning ajralmas qismi bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

1. Malikov T. S. Moliya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.
2. Malikov T. S., Olimjonov O. O. Moliya. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya 2019.
3. Karimov N.G‘., Axmedov A.S. Moliya asoslari: Moliya va investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsion Rivojlanish Nashiryot-Matbaa Uyi”, 2021.
4. Jozef Stiglits: “Information and the Change in the Paradigm in Economics” 2002.
5. Nassim Nicholas Taleb: “The Black Swan” 2007.
6. Wyn Grant and Graham K. Wilson. The Consequences of the Global Financial Crisis. Oxford University Press 2012.
7. Arthur J. Keown, John D. Martin, J. William Petty. Foundations of finance: The Logic and Practice of Financial Management. 2020.
8. Thorsten Hens, Sabine Elmiger. Economic Foundations for Finance. Springer Texts in Business and Economics, 2019
9. The Financial Crisis Inquiry Report. Submitted by Pursuant to Public Law 111-21 January 2011.

DEHQON XO‘JALIKLARIDA MAHSULOT YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TOMORQA XIZMATI KLASTERLARINI TAKOMILLASHTIRISH





Xamrayeva Sayyora Nasimovna
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi professori

Ochilova Nargiza Akramovna
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlarida samaradorlikni oshirish bilan bog‘liq masalalar, “Tomorqa xizmati” klasterlarining ahamiyati keltirilgan bo‘lib, tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: dehqon xo‘jaliklari, aholining tomorqa yerlari, samaradorlik, tomorqa xizmati, klaster.

Abstract: This article presents issues related to increasing the efficiency of agricultural farms and population living, the importance of real estate service clusters, as well as relevant proposals and recommendations.

Key words: dekhkan farming, household farming, efficiency, homestead services, cluster.

Аннотация: В данной статье приведены вопросы, связанные с повышением эффективности сельскохозяйственных ферм и проживания населения, значением кластеров риэлторского обслуживания, а также соответствующие предложения и рекомендации.

Ключевые слова: дехканское хозяйство, подсобное хозяйство населения, эффективность, приусадебное обслуживание, кластер.

KIRISH

Mamlakatimiz Prezidentining 2018-yil 26-apreldagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 30-iyundagi “Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida Respublika hududlarida 2021- yilda jami 651 ta[1] “Tomorqa xizmati” MCHJlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

“Tomorqa xizmati”ning vazifalari dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish, yerga o‘z vaqtida ishlov berish, ekin ekishga ko‘maklashish, serhosil ko‘chatlar hamda mahalliy va mineral o‘g‘itlar yetkazib berish, ixcham issiqxonalar qurib berish, yetishtirilayotgan mahsulotlarni qabul qilib qayta ishlash, ichki bozorlarga yetkazib berish hamda eksport qilish kabilardan iborat.

1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3680-son Qarori. 2020-yil 30-iyun

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini, jumladan, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va istiqbollarini o‘rganish masalalari ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, A. Bobok, S. A. Belozyorov, O. A. Sapova, Y. V. Saregorodseva, D. A. Lyubimovlarning ilmiy ishlarida qishloq xo‘jaligi sohasini iqtisodiy uslubiyotini va axborotlar bazasini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Bu borada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini iqtisodiy rivojlantirish va tuzilmaviy–tarkibiy o‘zgarishlarni o‘rganishda iqtisodchi olimlardan Q. A. Chariyev, N. S. Xushmatov, B. B. Berkinov, R. X. Ergashev, S. N. Xamraeva, G. T. Samiyeva, Sh. Y. Azizov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so‘rovlari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida 139 ta “Tomorqa xizmati” MCHJlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, bugungi kunda ular tomonidan 75 mingdan ortiq aholi xonadonlariga xizmatlar ko‘rsatilib kelinmoqda (1-jadval).

1-jadval: Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan “Tomorqa xizmati” MCHJdan foydalanish holati tahlili[2]

№	Tumanlar	DX va ATY soni	“Tomorqa xizmati” MCHJ lar soni	Bitta “Tomorqa xizmati” MJCH ga to‘g‘ri keladigan DX va ATY
1	G‘uzor	38696	12	3225
2	Dehqonobod	27001	2	13501
3	Qamashi	45865	2	22933
4	Qarshi	53805	10	5381
5	Koson	54140	10	5414
6	Kitob	54455	2	27228
7	Mirishkor	20230	27	749
8	Muborak	14286	12	1191
9	Nishon	27229	20	1361
10	Kasbi	36277	6	6046
11	Chiroqchi	43186	4	10797
12	Shahrisabz	49045	19	2581
13	Yakkabog‘	52561	3	17520
14	Ko‘kdala	33264	4	8316
15	Shahrisabz sh	25848	6	4308
	Qashqadaryo viloyati	611459	139	4399 (o‘rtacha)

52 ta “Tomorqa xizmati” MCHJlar reyestrga kiritilib, shulardan 3 tasiga aholi tomorqalariga kompleks xizmat ko‘rsatishi uchun 2,1 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratilgan. Qashqadaryo viloyati “Fermer, dehqon va tomorqa yer egalari Kengashi” huzuridagi jamg‘arma tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlangan Tomorqa xizmati korxonalarining moddiy-texnik bazasi yanada mustahkamlanmoqda. Jumladan, “Tomorqachilik ilmiy-amaliy markazi tomorqa xizmati” MCHJ 4 ta sovutgichli omborxona (sig‘imi 800 tonna), 10 sotixli issiqxona, 1 ta minitraktor, 1 ta mevani quritish va qayta ishlash uskunasi 1 ta yuk tashish (Labo) avtomobili, 4 ta motokultivator, 400 ta jo‘ja ochish imkoniyatiga ega bo‘lgan inkubatorlar va boshqa moddiy-texnika asboblari zaxirasiga ega bo‘ldi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, viloyatda tashkil etilgan aksariyat “Tomorqa xizmati” MCHJ dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlariga yetarli darajada xizmat ko‘rsatmay kelmoqda. Buni tadqiqot davomida olingan so‘rovnoma natijalaridan ham ko‘rish mumkin. Shu sababli DX va ATY ga sifatli xizmat ko‘rsatish va ushbu xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatuvchi “Tomorqa xizmatlari klasteri”ni tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur klasterlarni tashkil etish DX va ATYga resurslar va ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini oshirish,

2 Qashqadaryo viloyati “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi” ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yirik korxonalarga qaramlikni kamaytirish, innovasiyalar va texnologik rivojlanishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va qishloq joylarda daromadlarni oshirishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida aholining shaharlarga migrasiyasini kamaytirishi va mamlakatda iqtisodiy faoliyatning bir tekis taqsimlanishiga yordam berishi mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekistonda DX va ATY (dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlari)ga “Tomorqa xizmatlari klasteri” rivojlantirish qishloq iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, qishloq aholisi turmushini yaxshilash va mamlakatni barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Buning uchun hukumat, xususiy sektor va mahalliy hukumat organlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari talab etiladi.

Mazmuniga ko‘ra klaster - bu bir xil elementlarning birlashgan guruhidir. Bunday holda, guruh ma’lum xususiyatlar to‘plamiga ega bo‘lgan mustaqil birlik deb hisoblanadi.

“Tomorqa xizmati” klasterlari – bu DX va ATY hamda qishloq xo‘jaligiga oid xizmatlar ko‘rsatuvchi turli tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik shaklidir. Klaster doirasida korxonalar DX va ATYga foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir qator xizmatlarni ko‘rsatish uchun kuchlarini birlashtiradi. “Tomorqa xizmatlari klasteri” mexanizasiyalash, urug‘lik va o‘g‘itlar yetkazib berish, sug‘orish va o‘simliklarni himoya qilish xizmatlari, texnik ko‘mak va konsalting, transport va logistika, kadrlar tayyorlash va rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish va reklama qilish va boshqalar kabi keng ko‘lamli faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi.

Klasterlarni tuzishdan asosiy maqsad, DX va ATY faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishdir. Klaster doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tajriba, resurslar, texnologiyalar va axborot almashadi, shuningdek, umumiy maqsad – ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun sifatli xizmatlar ko‘rsatish yo‘lida hamkorlik qiladi.

“Tomorqa xizmatlari klasteri” ma’lum bir mamlakat yoki mintaqadagi qishloq xo‘jaligi sohasining ehtiyojlari va xususiyatlariga qarab mahalliydan mintaqaviy yoki milliy miqyosda turli darajalarda tashkil etilishi mumkin.


Klaster oldida qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda “Tomorqa xizmatlari klasteri” quyidagi vazifalarni bajaradi (2-jadval):

2-jadval: Qashqadaryo viloyatida tashkil etilayotgan “Tomorqa xizmatlari klasteri” vazifalari[3]

№	Klaster vazifalari	Mazmuni
1	Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	tuproqqa ishlov berishni mexanizasiyalash, urug‘lik va o‘g‘itlar yetkazib berish, sug‘orish va o‘simliklarni himoya qilish kabi turli xizmatlarni ko‘rsatishi mumkin. Bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining mahsuldorligi va sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.
2	Resurslarga ega bo‘lish imkoniyatini oshirish	urug‘lik, o‘g‘it, pestitsidlar, yoqilg‘i va boshqa shu kabi zarur resurslarni arzon va sifatli yetkazib berishni ta’minlashda klaster turli yetkazib beruvchilar va resurslarni taqsimlovichlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.
3	Texnik ta’minot va maslahat berish	klasteri DX va ATYga yerga ishlov berishning maqbul usullarini tanlash, resurslar samaradorligini oshirish, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashish hamda boshqa muammo va qiyinchiliklarni yengishda yordam berish uchun texnik yordam va maslahatlar berishi mumkin.
4	Birgalikdagi xaridlar va o‘zaro integrasiya	klaster DX va ATYlarini urug‘lik, o‘g‘it va uskunalar kabi resurslarni birgalikda sotib olish uchun birlashtirishi mumkin. Bu esa chegirmalarni olish, shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.
5	Rag‘batlantirish va marketing	klaster dehqon va tomorqa yer egalariga ishlab chiqargan mahsulotlarini tijoratlashtirishda yordam berishi mumkin. Bu bozorlarni qidirish, marketing va reklama tadbirlarini o‘tkazish, ko‘rgazma va yarmarkalar tashkil etish va potensial xaridorlar bilan aloqalarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

“Tomorqa xizmatlari klasteri” tuzilmasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan turli elementlarni o‘z ichiga oladi. Dehqon va tomorqa yer egalariga xizmat ko‘rsatish klasterini yaratish va rivojlantirish davlat, tadbirkorlik hamjamiyatlari, ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qiladi. Shu bilan birga shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, klasterning tuzilishi moslashuvchan bo‘lishi va har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ishlab chiqarish faoliyatining ixtisoslashuvini hisobga oladi (1-rasm).

3 Muallif tomonidan tuzilgan.



1-rasm: Tomorqa xizmati klasterining tashkiliy tuzilmasi[4]

Demak, "Tomorqa xizmati" klasterining ichki muhitini tashkil qiluvchi mezonlariga boshqaruv va muvofiqlashtiruvchi markazning muvaffaqiyatli tuzilgan tarkibi muhim ril o'ynaydi:

- elektron savdo-xarid platformasi (market place);
- moddiy-texnik ta'minot xizmati;
- marketing, reklama va logistika xizmati;
- tarqatish va mahsulotlarni yig'ib olish bo'yicha mobil xizmatlar;
- texnik ta'mirlash (servis) xizmati;
- axborot konsalting xizmati;
- biznes-inkubatorlar va akseleratorlar.

Ilmiy-innovatsion xizmat ko'rsatish, marketing tuzilmalari, Mahsulot va xizmatlar iste'molchilari, moliyaviy-investitsion struktura va ta'lim tuzilmalari kabilar tashqi muhitning tarkibiy tuzilmasini tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, hozirgi sharoitda tomorqachilikni barqaror rivojlantirish strategiyasi agrar sektorda an'anaviy-zamonaviy dehqonchilik yakdilligining eng ma'qul tajribalari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarining eng zamonaviy natijalarini o'zida aks ettiruvchi tizim sifatida namoyon bo'lishi lozim. Dehqonchilik mahsulotlari asosan, dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa yerlarida yetishtirilishini hisobga olsak, ularda hosildorlik darajasini oshiruvchi ko'plab amaliy tadbirlarni kuchaytirish talab etiladi. Bu boradagi tashkiliy mexanizmlardan yana biri agrar sektorda zamonaviy texnika va texnologik uskunalar ta'minoti hisoblanadi. Yer bonitetini oshirish uchun ishlov berishda, urug'ni beshikast ekishda, sug'orishda, kimyoviy himoyalashda va tayyor mahsulotni yig'ib olishda ixcham qulay bo'lgan agrotexnologik vositalar ta'minoti, ulardan samarali foydalana olish amaliyoti rentabyellikning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi.

4 Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

O‘zbekiston Respublikasi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni intensiv va ekstensiv jihatdan yanada takomillashtirish, o‘sish dinamikasini jadallashtirish, mukammal iqtisodiy samaradorlikka erishishda qishloq xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlarning ayrim tajribalarini joriy etish yaxshi samara beradi.

Birinchidan, AQSH tajribasi hisoblangan klasterlash tizimini dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatida kengaytirish lozim. Chunki, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida mahsulot yetishtirish imkoniyatlari keng. Ikkinchidan, Kanadaning shimoliy qismida va Arktika hududlarida istiqomat qiluvchi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashni qo‘llab-quvvatlash borasidagi tajribasini respublikamizning uzoq va chekka hududlarida qo‘llash mumkin, ya’ni qishloq xo‘jaligida infratuzilmani rivojlantirish lozim. Uchinchidan, Germaniya dehqon xo‘jaliklarida an’anaviy ishlab chiqarish usulidan organik usulga o‘tish davrida O‘zbekistonda eko-korxonalar tashkil etish va eko-korxonalarga maxsus mukofot (subsidiya) berish tajribasini joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3680-son Qarori. 30.06.2020.
2. Qashqadaryo viloyati “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi” ma’lumotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4767-son Qarori 30.06.2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–54-son Qarori 16.12.2021.
5. Xamrayeva, S. (2022). Dehqonchilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirish istiqbollari // Economics and Innovative Technologies, 10(5), 194–203.
6. Toxirovna, S. G. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tarmog‘i faoliyatining samaradorligini oshirish // Gospodarka i Innowacje., 313–319.
7. Ochilova, N. A. (2023). Farming Management and their Economic Efficiency // Innovation in the Modern Education System, 3(28), 177–184.
8. Akramovna, O. N. (2022, October). Scientific on Increasing the Efficiency of Crop Production on Farms and People’s Homesteads Recommendation Analysis // In “Online-Conferences” Platform (pp. 300–303).

TRANSPORT XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING FAOLIYATINI MEXANIZMLARINI RIVOJLANISHINING ASOSIY TAMOYILLARI





Raxmatov Ziyodullo Nosirovich
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

Nosirov Javlonbek Jamoliddin o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti doktoranti

Annotatsiya: Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatmoqdaki, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida transport xizmatlari ahamiyatining ortishi aholi transport harakatchanligini oshirib iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Kuchli raqobat tufayli temir yo‘l kompaniyalari boshqa transport turlari, xususan avtomobil va havo yo‘llari kompaniyalari bilan raqobatga kirishmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlar YAIMdagi transport sektorining ulushi o‘rtacha 8% ni tashkil etmoqda.

Kalit so‘zlar: transport xizmatlar bozori, marketing tadqiqotlari, marketing kommunikatsiya, yo‘lovchi tashish, yuk tashish.

Abstract: The experience of developed countries in the world shows that the increasing importance of transport services in the economic and social development of the country creates a solid foundation for the sustainable development of the economy by increasing the transport mobility of the population. Due to strong competition, railway companies are competing with other modes of transport, especially road and airline companies. According to the World Bank, the share of the transport sector in the GDP of developed countries is on average 8%.

Key words: transport services market, marketing research, marketing communication, passenger transportation, cargo transportation.

Аннотация: Опыт развитых стран мира показывает, что возрастающее значение транспортных услуг в экономическом и социальном развитии страны создает прочную основу для устойчивого развития экономики за счет повышения транспортной мобильности населения. Из-за сильной конкуренции железнодорожные компании конкурируют с другими видами транспорта, особенно с автомобильными и авиакомпаниями. По данным Всемирного банка, доля транспортного сектора в ВВП развитых стран составляет в среднем 8%.

Ключевые слова: рынок транспортных услуг, маркетинговые исследования, маркетинговые коммуникации, пассажирские перевозки, грузоперевозки.

KIRISH


Dunyodagi hozirgi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlar iqtisodiyotining tobora diverfikatsiyalashuvi, geografik va demografik jihatdan kengayayotgaligi va buning natijasida aholining transport xizmatlariga bo‘lgan talabi oshayotgali tufayli, transport xizmatlari bozoriga qaratilgan

munosabatni tobora takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Buning natijasida transport turlari o‘rtasida kuchli raqobat muhiti yuzaga kelib, transport bozoridagi segmentning ko‘proq ulushini egallash uchun iste’molchilarning transport xizmatlariga bo‘lgan talabini to‘laqonli qondirish, yangi xizmat turlarini tashkil etish, yo‘lovchi tashish va logistik xizmatlarni yana ham rivojlantirish talabi yuzaga kelmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda xizmatlar bozori eksportida transport xizmatlari ulushi rivojlangan mamlakatlarda o‘rtacha 10–20 %, O‘zbekistonda esa 31.01%ni tashkil etgan bo‘lsa[1], xizmatlar bozori importida rivojlangan mamlakatlarda o‘rtacha 20–25%, mamlakatimizda 44.05% ni tashkil etgan[2].

1-jadval: O‘zbekistonda xizmatlar bozori eksport vas importida transport xizmatlari ulushi

2019-y.		2020-y.		2021-y.		2022-y.	
eksport	import	eksport	import	eksport	import	eksport	import
40.29%	47.03%	58.89%	51.42%	55.75%	50.08%	31.1%	44.05%

Zamonaviy transport bozoridagi raqobat sharoitida, iste’molchilar talabi, xohish-istaklari, ularni qiynayotgan muammolarni o‘rganish barobarida marketing kommunikatsiya va tadqiqotlari ustuvor yo‘nalishlari va mexanizmlarini rivojlantirishni belgilab beradi.



1-rasm: Dunyoda xizmatlar bozori eksportida transport xizmatlari ulushi 2022-yil.

Tobora murosasiz bo‘lib borayotgan transport xizmatlari bozorida ko‘proq iste’molchilarni jalb qilish va potensial xaridorlarni shakllantirish, shuningdek, ularga mavjud xizmatlar va imkoniyatlarni xabardor qilishda optimal variantlari orqali yetkazishda marketing tadqiqotlarini olib borish muhim rol o‘ynaydi. Korxonaning raqobatchilardan ustun tarafini ko‘rsatish, raqobat muhitida ularni yengib chiqqan holda daromadlarni ko‘patirishda marketing kommunakatsilari va taqdidotlari samarali yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Marketing faoliyati mexanizmalarini takomillashtirib borish transport korxonalari faoliyatini samarali olib borishda muhim rol o‘ynadi. UITP ma’lumotlariga ko‘ra har yili jamoat transportlari 60 milliard kishiga xizmat ko‘rsatadi, Yevropa ittifoqida transport xizmatlari YaIMning 1–1.2%ni yoki 130–150 milliard dollarni tashkil etadi[3].

O‘zbekiston iqtisodiyotida transport sohasi, xususan, temir yo‘l yuk va yo‘lovchi tashish tizimi alohida o‘rin egallaydi va aholi ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. “So‘nggi yetti yilda mamlakatimizda sanoat korxonalari ko‘payib, 110 mingtaga yetdi. 2 mingdan ziyod yangi mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Eksport hajmi

1 https://data.worldbank.org/indicator/TX. VAL. TRAN. ZS. WT?type=shaded&view=map
2 https://data.worldbank.org/indicator/TM. VAL. TRAN. ZS. WT?type=shaded&view=map
3 www.uitp.org/regions/europe

1,6 barobar oshib, o‘tgan yili 19 milliard dollarga yetdi. Bularning natijasida mamlakatimizda yuk aylanmasi 30 foizga oshgan.Ma’lumki, O‘zbekiston kabi dunyo okeanlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoni yo‘q mamlakatlar uchun eng qulay va arzon transport bu – temir yo‘l hisoblanadi. Lekin hozir ichki bozorda mahsulotning atigi 5 foizi, eksportda esa 45 foizi poyezdda tashilayaptiYa’ni “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati avtomobilda yuk tashishga raqobat qila olmayapti. Chunki soha uzoq yillar isloh qilinmadi, zamonaviy boshqaruv tizimi joriy etilmadi. Shu bilan birga, xalqaro maydondagi vaziyat hisobiga transport-logistika xarajatlari ham oshgan. Oqibatda jamiyatning daromadi ham, xizmatlar sifati ham past bo‘lib qolmoqda.Jumladan, vagonlar yetishmovchiligi va ularni ko‘plari eskirganligi aytib o‘tildi. Hozirgi tariflar va boshqaruv tizimi bilan sohaga xususiy sektor kirishi qiyin. Aksariyat stansiyalarning daromadi o‘z xarajatini qoplamaydi. Raqamlashtirish darajasi pastligicha qolayapti. Vokzallarda savdo va servis lozim darajada yo‘lga qo‘yilmagan”[4]. Mana shunday masala va muammolarni oqilona hal etish uchun sohada marketing faoliyatai takomillashtirish, marketing taqiqotlarini olib borgan holda o‘rganilgan muammolarni chuqur tahlil etish va marketing kommunikatsiyalarini tatbiq etish bilan transport xizmatlarini sifati oshirish mehanizmlarini takomillashtirhs alohiha rol o‘ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nafaqat jahonda, balki O‘zbekistonda ham iste’molchilar tomonidan xizmatlar boziriga, ayniqsa transport xizmatlariga bo‘layotgan talab kundan kunga oshib bormoqda va yangi xizmat turlarini amalga oshirishni ehtiyojini yuzaga keltirmoqda, bu esa o‘z navbatida xizmatlar bozorida keng qamrovli marketing tadqiqotlarini olib borishni va bu tadqiqot natijalariga tayangan holda yangi marketing dasturlarini yaratishni talab qiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanadigan bo‘lsak, xizmatlar bozori raqamli texnologilar asosida takomillashtirilib potensial istemolchilarni doimiy iste’molchilarga aylantirish va bozor segmentini kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Xizmatlar bozorini diverfikatsiyalash va integratsilashtirishda digital marketingga alohida e’tibor berish bozor salohitani jadal rivojlantirishda aosiy mezonlardan biri ekanligi allaqachon o‘z tasdig‘ini topib ulgurgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nosirov, J. J., & Raxmatov, Z. N. (2022). O‘zbekistonda sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish // Evraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 2(10), 176–180.
2. J. J. Nosirov, & D. N. Raxmatov (2022). Malakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish ususllari // Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (9), 18–21.
3. Nosirov Javlonbek Jamoliddin o‘gli. (2023). Management of Marketing Activities in Manufacturing Enterprises // Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 16, 39–42. Retrieved from https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/709
4. Javlonbek, N., & Javlonbek, N. (2022). Markaziy va Sharqiy Yevropada Xitoyning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalaring moyilligi: Dunning Oli modeli asosida. https://scienceweb.uz/publication/11693
5. Javlonbek, N. (2020). Prosperiency of chinese outward foreign direct investments in central asia and eastern europe decision making through Dunning‘s oli model. https://scienceweb.uz/publication/11694
6. Jamoliddin ogli, N. J. (2023). Transport korxonalarida muhim marketing strategiyasi xususiyatlari.
7. Nosirov Javlonbek Jamoliddin og‘li. (2023). Transport korxonalarida muhim marketing strategiyasi xususiyatlari // Results of national scientific research, 2(8), 19–26. https://doi.org/10.5281/zenodo.8239372
8. Jamoliddin ogli, N. J. Marketing muhitiga asoslangan holda korxonalarda marketing strategiyasi. http://academics.uz/index.php/zfty/article/view/2183/3448 Vol. 1 No. 1 (2023): Zamonaviy fan va ta’lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnalJamoliddin ogli, N. J.
9. Jamoliddin o‘g‘li, N. J. Sun’iy intellektga asoslangan mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishda B2B raqamli marketingni o‘rnatish. http://academics.uz/index.php/zfty/article/view/2170 Vol. 1 No.1 (2023): Zamonaviy fan va ta’lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal
10. Nosirov Javlonbek Jamoliddin o‘g‘li. (2023). Ijtimoiy media marketing tahlili orqali marketing strategiyalarini optimallashtirish // Results of national scientific research, 2(8), 5–13. https://doi.org/10.5281/zenodo.8342170 https://academicsresearch.ru/index.php/rnsrij/article/view/2238

4 https://president.uz/oz/lists/view/6692

BMT BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI DOIRASIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI



Yusupov M. S.
PhD, Oriental universiteti professori v.b.

Annotatsiya: Maqolada BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag‘allikni qisqartirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari yoritilgan. Xususan, raqamli texnologiyalar hamda “aqlli qishloq xo‘jaligi”ni joriy etish orqali oziq-ovqat barqarorligini ta’minlash va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash muammolariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy integratsiya, atrof-muhitni muhofaza etish kambag‘allikni qisqartirish, ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizliligi, oziq-ovqat ta’minoti, agrar sektor, qo‘shilgan qiymat zanjiri.

Abstract: The article discusses the issues of reducing poverty and strengthening food security within the framework of the UN Sustainable Development Goals. In particular, attention is paid to the problems of ensuring food stability and strengthening the country’s food security through the introduction of digital technologies and “smart agriculture”.

Key words: sustainable development, economic growth, social inclusion, environmental protection, poverty reduction, hunger eradication, food security, food supply, agricultural sector, value chain.

Аннотация: В стате рассматриваются вопросы сокращения бедности и укрепления продоволственной безопасности в рамках селей устойчивого развития ООН. В частности, внимание уделено проблемам обеспечения продоволственной стабилности и укрепления продоволственной безопасности страны за счет внедрения сифровых технологий и “умного селского хозяйства”.

Ключевые слова: устойчивоэ развитие, экономический рост, социалная интеграция, защита окружающей среды, сокращение бедности, искоренение голода, продоволственная безопасност, снабжение продоволствием, селско-хозяйственный сектор, сепочка добавленной стоимости.

KIRISH

Barqaror rivojlanish masalasi har doim jahon hamjamiyatining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil sentyabrda bo‘lib o‘tgan tarixiy sammitida dunyoning 195 davlati tomonidan 2030-yilgacha amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan 17 ta global maqsad hamda 169 ta vazifalardan iborat “Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)” dasturi qabul qilindi.

BMT ta’rifiga ko‘ra “Barqaror rivojlanish bo‘lg‘usi avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan imkoniyatlariga zarar yetkazmagan holda hozirgi avlodlarning ehtiyojlariga mos keluvchi rivojlanishni ta’minlash hisoblanadi. Barqaror rivojlanish maqsadlari – bu barcha uchun yanada barqaror kelajak va eng yaxshi natijalarga erishish rejasi. Ular qashshoqlik, tengsizlik, iqlim o‘zgarishlari, atrof-muhit ifloslanishi, tinchlik va adolatning buzilishi kabi biz duch keladigan global muammolar yechimini topishga yo‘naltirilgan. Bunday rivojlanish yer yuzi bo‘ylab insonlarning barqaror, inklyuziv va yorqin kelajak uchun o‘zaro hamkorlikdagi intilishlarini ifodalaydi” [1].

BMT “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ni mamlakatimizda izchil amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi 841-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda “Milliy maqsad va vazifalar hamda ularni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi” tasdiqlangan va unda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda: fuqarolarning o‘ta qashshoqlik shaklini bartaraf etish

va kam ta’minlanishning barcha ko‘rinishlarini ikki barobarga qisqartirish; aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish; zarur hajmda ovqatlanishning yuqori sifati va balanslashganligini ta’minlash va to‘yib ovqat yemaslikning barcha shakllariga barham berish; oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish; qishloq infratuzilmasi, agrar tadqiqotlar, texnologiyalarni rivojlantirish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jefri Saksga ko‘ra “Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) butun dunyo bo‘ylab muhim ijtimoiy ustuvor yo‘nalishlarga erishish uchun global safarbarlikning tarixiy va samarali usulini belgilaydi. Ular (BRM) qashshoqlik, ochlik, kasalliklarga chalinish, maktabda ta’lim olmaslik, gender tengsizligi va atrof-muhit ifloslanishi kabi holatlardan keng jamoatchilik tashvishlarini ifoda etadi” [2].

Stafford-Smit va boshqa bir guruh olimlar BRMning 17 ta maqsadlari va 169 ta vazifalarni uchta yirik asosiy guruhlarga turkumlashgan: iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy integratsiya va atrof-muhitni muhofaza etish masalalari.

Ularning ta’kidlashicha BRM doirasida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish quyidagi 3 ta sohalarning o‘zaro integratsion aloqalariga bog‘liq: sektorlararo integratsion aloqalar (masalan, moliya, qishloq xo‘jaligi, energetika va transport); jamiyat institutlari orasidagi integratsiya (mahalliy davlat boshqaruvi organlari, davlat muassasalari, xususiy sektor i fuqarolik jamiyati); past, o‘rtacha va yuqori daromadli mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro integratsion aloqalar” [3].

Devid Krigs boshchiligidagi olimlarning ta’kidlashicha, “kelgusida antropagen jarayonlarning yanada kuchayishi yer yuzida keng ko‘lamli, keskin va orqaga qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Suv tanqisligi, ekstremal ob-havo sharoitlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sharoitlarining yomonlashuvi, ekosistemaning izdan chiqishi, yerlarning sho‘rlanishi, dengiz va yer osti suvlari sathining ko‘tarilishi – bularning barchasi rivojlanishga to‘siq bo‘luvchi hamda butun jahon bo‘ylab gumanitar inqirozni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan real xatarlar hisoblanadi. Farovonlikni yuksaltirish va kambag‘allikni bartaraf etish barcha mamlakatlar xalqlaridan hayot kechirishning barqaror usullariga o‘tishni talab qilmoqda” [4].

Robert Keyts va boshqa olimlarning fikricha, dunyo 2050-yilga borib ochlik va qashshoqlikni qisqartirish hamda sayyoramizning asosiy hayot kechirish tizimlarini saqlab qolish bilan birga, insonlarni boqish, tarbiyalash, ta’lim berish va ish bilan band qilish uchun yetarli resurslar, materiallar va axborot bilan yetarli miqdorda ta’minlagan taqdirdagina barqarorlikning minimal darajasiga erishgan bo‘ladi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

BMT “Barqaror rivojlanish maqsadlari” doirasida kambag‘allikni bartaraf etish, ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda agrar ishlab chiqarishni raqamlashtirish va “aqlli qishloq xo‘jaligi”ni joriy etish orqali qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, qiyosiy va omilli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Maqolani tayyorlashda BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Qishloq xo‘jaligi rivojlanishi xalqaro jamg‘armasi (IFAD), BMTning Xalqaro bolalar fondi (UNICEF), Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) va Jahon sog‘likni saqlash tashkiloti (WHO) ishlanmalari hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA TADQIQOT NATIJALARI

BMT hamda barqaror rivojlanish asalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar fikrlarini umumlashtirish asosida xulosa qilish mumkinki, BRMning maqsadi va undan kelib chiqadigan asosiy vazifalar yer yuzidagi insonlar farovonligini oshirish maqsadini ko‘zlovchi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolardan tashkil topgan, desak xato bo‘lmaydi. BRMning asosini tashkil etuvchi bu uch element (iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy integratsiya va atrof-muhitni muhofaza qilish) bir-biri bilan o‘zaro mustahkam bog‘langan bo‘lib, jamiyat va uning a’zolari farovonligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, degan fikrdamiz.

BRMning unikalligi shundaki, ular barcha mamlakatlarni – sayyoramizni himoya qilish bilan birga kambag‘al, boy va o‘rta daromadli aholining farovonlikka erishishiga ko‘maklashishga chaqiradi.

Ta’kidlash joizki, “Barqaror rivojlanish maqsadlari”da ko‘zda tutilgan 17 ta maqsadning 12 tasi agrar va oziq-ovqat masalalariga bevosita yoki bilvosita tegishli. Mazkur tadqiqotda BRMning aynan agrar va oziq-ovqat siyosati hamda bu sektorlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan maqsadlari va vazifalarini tadqiq etishga e’tibor qaratilgan.

BRMning birinchi maqsadi 2030-yilga borib dunyo miqyosida “Hamma joyda qashshoqlikning har qanday ko‘rinishiga barham berish”ni nazarda tutadi. Qashshoqlik – bu shunchaki barqaror hayot kechirish uchun daro-

madlar va resurslarning yetishmovchiligi emas. U ochlik va to‘yib ovqat yemaslik, ta’lim va boshqa ijtimoiy xizmatlarga cheklangan imkoniyat, ijtimoiy diskriminatsiya hamda ayrim toifadagi insonlarning qarorlar qabul qilishda ishtirok eta olmasligida namoyon bo‘ladi [6].

Qashshoqlik turli shakllarda namoyon bo‘lib, uning vujudga kelish sabablari sifatida ishsizlik, ijtimoiy yakkalanish, ayrim mamlakatlar aholisining tabiiy ofatlar va epedimik kasalliklar oqibatlariga kuchli bog‘liqligi kabi omillarni kiritish mumkin. Bunday holatlar kishilarning to‘laqonli hayot kechirishiga imkon bermaydi.

Ma’lumotlarga ko‘ra yer sharida hamon 780 milliondan ortiq kishi o‘ta qashshoqlikda hayot kechiradi va ularning 70 %dan ortig‘i kuniga 1,9 dollardan kam daromad topadi. Dunyoning eng boy mamlakatlarida bolalarning 30 %dan ortig‘i qashshoqlik darajasida hayot kechirishga majbur. Yer yuzidagi 5 yoshgacha bo‘lgan har to‘rt bolaning bittasi yetarlicha bo‘y va og‘irlikka ega emas [7].

BMT notenglik va qashshoqlikni iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qilib, jamiyatdagi hamjihatlik va farovonlikka putur yetkazadi, ayrim holatlarda esa siyosiy beqarorlik va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi, deb baholagan [8].

Qashshoqlikning barcha ko‘rinishlarini bartaraf etish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning eng muhim shartlaridan biri sanaladi. Buning uchun bosqichma-bosqich, keng qamrovli va adolatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, barcha uchun keng imkoniyatlarni ochish, tengsizlikni bartaraf etish va adolatli ijtimoiy muhitni shakllantirish, turmush kechirish farovonligi ko‘rsatkichlarini oshirib borish, resurslardan samarali foydalanish va ekotizimni saqlashning barqaror usullaridan foydalanish talab etiladi.

Keyingi yillarda dunyo miqyosida kambag‘allikning keltirib chiqaruvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llariga oid qator ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganini qayd etish joiz. Ulardan 2019-yilgi Nobel mukofoti sohiblari Abxijit Banerji, Ester Dyuflo va Maykl Kremerlarning kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borgan ochiq kuzatuvlar asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini alohida ta’kidlash joiz.

Olimlar olib borgan tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, global qashshoqlikni qisqartirish bo‘yicha dunyo bo‘ylab amalga oshirilayotgan minglab dasturlar, kambag‘al davlatlarga ko‘rsatilayotgan oziq-ovqat va boshqa yordamlar, fan-texnika va tibbiyot yutuqlari insonlarni ocharchilik va o‘limdan saqlab qolayotgani hamda sayyoramizdagi resurslar har bir insonni yetarlicha oziq-ovqat bilan ta’minlash imkonini berishiga qaramasdan, hamon yer yuzidagi aholining 13% i kuniga 99 sent ekvivalentiga teng daromad ishlab topib, tirik qolishga harakat qilmoqda. Daromadlar va milliy valyutalar xarid qobiliyatining pastligi sharoitida bu mablag‘ bilan ular kambag‘allik tuzog‘idan chiqib ketolmaydilar.

Ko‘p mamlakatlarda kambag‘allar hayot zarur bo‘lgan eng asosiy xizmatlar, ya’ni sifatli ta’lim va tibbiy xizmat, toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, transport, kommunikatsiya va boshqa qulayliklardan foydalanish imkoniga ega emas.

Abxijit Banerji, Ester Dyuflo va Maykl Kremerlar dala tadqiqotlari usulida kuzatuvlar hamda tajribalar o‘tkazish orqali Osiyo va Afrikaning qator iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlarda kambag‘al oilalar farzandlarining majburiy boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bilan qamrab olish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda sinflarda o‘quvchilar sonini kamaytirish orqali ta’lim sifatini oshirish, kambag‘al oilalar farzandlarini yuqumli kasalliklarga qarshi majburiy emlash hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, mikrokreditlash va tadbirkorlikka ruhlantirish dasturlari orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan mexanizmlarni taklif qilishgan [9].

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbayiga ega emasligi, turli hisob-kitoblarga ko‘ra O‘zbekiston aholisining 12–15 foizi yoki 4,5–5 million kishi kam ta’minlangan aholi qatlamlariga kirishi qayd etildi [10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5975-sonli Farmoni va ushbu Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida 2020-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi.

Bugungi kunda BMT Taraqqiyot dasturi, Jahon banki, YuNISEF, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari, mahalliy ilmiy-tadqiqot muassasalari mutaxassislari, vazirlik va idoralar ishtirokida “2021–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish Strategiyasi” ishlab chiqilgan. “Hamma joyda qashshoqlikning har qanday ko‘rinishiga barham berish” uchun BRMda 2030-yilga borib:

- barcha insonlarning, ayniqsa kambag‘al va zaif qatlamlarning iqtisodiy resurslarga, jumladan asosiy xizmatlardan foydalanish, yer va boshqa mulk shakllariga egalik qilish, tegishli yangi texnologiyalar va moliyaviy xizmatlarga teng huquqlarda ega bo‘lishlarini ta’minlash;
- kambag‘allar va og‘ir vaziyatda qolgan zaif qatlamlarning yashash sharoitlarini yaxshilash, ularning iqlim o‘zgarishi yuzaga keltirgan ekstremal hodisalar va boshqa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik larzalar hamda musibatlar oldidagi himoyalanmaganligi va zaifligini kamaytirish;

- kambag‘allikni bartaraf etish uchun har xil manbalardan resurslarni safarbar etishni ta’minlash va bu borada rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko‘rsatish kabi vazifalar ko‘zda tutilgan.

BRMning ikkinchi maqsadi “Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash va qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish”ni ko‘zda tutadi. Ochlik va to‘yib ovqatlanmaslik insonlar mehnat qobiliyatini pasayishi va kasalliklarga chalinuvchanligining oshishiga, oxir-oqibatda esa ularning daromad topish imkoniyatlarini pasayishi va turmush sifatini yomonlashuviga olib kelib, dunyo iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga to‘siq bo‘lib qolmokda.

FAO tadqiqotlariga ko‘ra: yer sharida 820 milliondan ortiq kishi to‘yib ovqatlanmaslikdan qiynaladi va bu ko‘rsatkich 2050-yilga borib 2 milliardga yetishi mumkin; dunyo aholisining har uchtadan bittasi to‘laqonli ratsion asosida ovqatlana olmaydi; dunyo bo‘yicha 5 yoshgacha bolalar o‘limining 45 %i to‘yib ovqatlanmaslik natijasida yuz beradi va har yili 3,1 million bola shu sababli olamdan o‘tadi [12].

Oziq-ovqat yetishmovchiligi ayrim mamlakatlarda yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi, aholi jon boshiga ekin maydonlarining qisqarib borayotganligi, hosilni yig‘ib olish, tashish va saqlash jarayonlarida yo‘qotishlarning ko‘pligi kabi omillar ta’sirida yuz bermoqda.

BMT prognozlariga ko‘ra 2050-yilga borib dunyo aholisi 10 milliard kishiga yetishi mumkin va bu ko‘rsatkich qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning degradatsiyaga uchrashi kuchayayotgan hamda suv resurslari qisqarib borayotgan bir sharoitda dunyo aholisini yetarli miqdor va sifatdagi oziq-ovqatlar bilan ta’minlash vazifasini murakkablashtiradi. Bugungi kunda yer sharidagi 7,7 milliarddan ortiq aholining 2,6 milliardi yoki 33 %dan ziyodi asosan qishloq xo‘jaligi hisobiga kun kechirayotgan bir paytda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning 52 %i kuchli degradatsiyaga uchraganligi oqibatida tuproq unumdorligi sezilarli darajada pasaygan. Qurg‘oqchilik va cho‘llashuv jarayonlari natijasida har yili 12 million gektar yer (har minutda 23 gektar) foydalanishdan chiqib ketmoqda. Vaholanki, bu maydonlarda har yili 20 million tonnagacha don yetishtirish mumkin edi.

Annotatsiya: Statistikaga oid darsliklarda katta ma'lumotlar bazalarini o'rganishda ko'pincha rejim va median tushunchalaridan foydalaniladi, ular taxminiy ma'lumotlar sifatida tavsiflanadi. Ushbu maqolada ushbu miqdorlarning mazmunini matematik asoslash va rejim va medianani hisoblash uchun formulalarning kelib chiqishini tushuntirishga harakat qilinadi. Mualliflar geometrik konstruktsiyalar usulidan foydalanadilar, bu statistik hodisalarda rejim va mediananing kelib chiqishini aniq ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Statistik ma'lumotlar, gistogramma, chastotalar jadvali, hisoblash, dasturiy ta'minotdan foydalanish.

Abstract: Statistics textbooks often use the concepts of mode and median in the study of large databases, which are described as approximations. This article makes an attempt to mathematically substantiate the content of these quantities and explain the origin of the formulas for calculating the mode and median. The authors use the method of geometric constructions, which clearly shows the origin of the mode and median in statistical phenomena.

Key words: Statistics, histogram, frequency table, calculation, use of software.

ВВЕДЕНИЕ

Статистика – это наука, изучающая массовые явления. Каждая из этих явлений образует определенную совокупность, которая обладает своими свойствами и признаками. Одна из этих свойств является изменчивость.

Для определения насколько изменяются значения совокупности необходимо провести сравнительный анализ. Он проводится по двум причинам:

1) для сравнения единиц совокупности с самим собой, которые варьируются со временем;
2) для сравнения вариационных признаков двух различных совокупностей.

В сравнительным анализе широко применяются средние величины, так как они помогают обобщать данные всей совокупности в одно целое. В свою очередь, в статистике применяются два вида средних, а именно степенные и структурные средние. В этой статье рассматриваются только структурные средние, такие как мода и медиана и рассматриваются они только для интервального вариационного ряда. Основной целью этой статьи считается вывод формул для этих двух характеристик.

Для дословного понимания данной статьи, приведем сначала определения моды и медианы.

Мода – это варианта совокупности, которая имеет наибольшую частоту.

Медиана – это варианта, которая делит вариационный ряд на две равные части.

Обзор литературы. Статистические явления достаточно глубоко изучены отечественными и зарубежными учёными. Среди учёных Узбекистана, занимающихся изучением методологии и проблем статистики, можно выделить Ё. Абдуллаев, Н. Соатов, Х. Набиев, А. Абдуллаев, Н. Умаров, А. Абдуллаев, Р. Зулинова и др.

Вместе с тем, при изложении методов изучения больших баз данных, в частности вариационных рядов, используются приближения, то есть в расчётах основываются частные случаи. Это касается формул расчёта моды и медианы вариационных рядов, в которых отдельные величины принимаются в качестве допущений. Например, в учебниках “Теория статистики” Ё. Абдуллаев, “Статистика” Н. Соатов, “Статистика” Н. Умаров, А. Абдуллаев, Р. Зулинова, “Математическая статистика” Роберт В. Хогга и Аллен Т. Крейгга, “Математическая статистика” Пола Л. Мейера. и др. приведены формулы расчёта этих величин.

Формула расчёта моды представлена следующим образом:

$$M_o = x_{mo} + i_{mo} * \frac{f_{mo} - f_{mo-1}}{(f_{mo} - f_{mo-1}) + (f_{mo} - f_{mo+1})}$$

В свою очередь медиана рассчитывается по следующей формуле:

$$M_e = x_{me} + i_{me} * \frac{\left(\frac{\sum f}{2} - S_{me-1}\right)}{f_{me}}$$

Мы считаем, что в этих формулах принятие значении переменных в качестве допущения создаёт определённые трудности в понимании сущности моды и медианы в статистических исследованиях.

Методология исследования. Как известно, все совокупности данных представляют собой группировку по определённым признакам и свойствам. Следовательно, их можно выразить в виде гистограмм или других графических инструментов. В нашем исследовании, для доказательства сущности моды и медианы в вариационных рядах мы использовали метод геометрического построения. Данный метод отличается наглядностью и достаточной степенью достоверности.

Доказательство моды вариационного ряда.

Для интервального вариационного ряда невозможно определить точное значение моды, по этой причине, принимается приближенное. Имеются несколько способов которые дают возможности приближенно вычислить моду, такие как:

1. Гистограмма;
2. Частотная таблица;
3. Вычисление.
4. Использование программного обеспечения.

Хорошей аппроксимацией для моды в этом случае может послужить точка пересечения двух прямых связывающих вершины модального интервала с вершинами соседних интервалов так, как показано на рисунке 1.1 в виде гистограммы. Это допущение показывает чувствительность моды на изменение частот соседних интервалов.




Рисунок 1.1: Графическое изображение моды совокупности данных в виде гистограммы.

Как видно из рисунка гистограмма разделена на несколько равных интервалов, к каждому из которых соответствует единственная частота. Эти частоты не показывают точное значение для каждой отдельно взятой единицы совокупности, а объединяя их в интервалы, дают их обобщенное значение. По этой причине, выше представленное допущение обеспечивает приближенное значение моды.

Чтобы объяснить чувствительность моды по отношению к соседним интервалам, для начала рассмотрим рисунок 1.2. На этом рисунке показано гистограмма для нормального распределения. Как мы видим для нормального распределения мода {M} проходит через ее ось симметрии.




Рисунок 1.2: Графическое изображение моды для нормального распределения.




Рисунок 1.3: Мода для распределения с асимметрией.

Теперь рассмотрим рисунок 1.3. В этом случае, изображено распределение с асимметрией, которое получено за счет нормального распределения, путем увеличения частоты ее левого соседнего интервала скажем на величину Δy.

По рисунку видно, что увеличение частоты соседнего интервала на Δy, смещает значение моды влево на величину принятую как Δx.

По этой причине, возникает ряд вопросов:

Можно ли рассчитать насколько меняется значение моды?

Какова зависимость между Δy и Δx?

Почему мода смещается в сторону соседнего интервала с большей частотой?

Чтобы ответить на эти вопросы, обратим внимание на рисунок 1.4.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT PROGRESS




Рисунок 1.4.

Здесь точки A,B,C,D – это вершины трапеции ABCD, которую мы будем использовать для нахождения зависимости между Δy и Δx. Допустим, O – это точка, которая образуется за счет пересечения диагоналей трапеции, а M – это точка которая лежит на отрезке AB и показывает насколько смещается мода.

Рассмотрим следующее соотношение:

$$\frac{AD}{BC} = \frac{AM}{MB}$$

Для доказательства этого соотношения нам достаточны базовые навыки по геометрии.

Итак, по признаку подобия треугольников BAD и BMO, ABC и AMO находим, что:

$$\frac{AD}{AB} = \frac{OM}{MB} \text{ и } \frac{BC}{AB} = \frac{OM}{AM}$$

Разделив эти два равенства друг на друга получим:

$$\frac{AD}{AB} * \frac{AB}{BC} = \frac{OM}{MB} * \frac{AM}{OM}$$

Или окончательно:

$$\frac{AD}{BC} = \frac{AM}{MB} \quad (1)$$

Для того чтобы найти зависимость между Δy и Δx, надо представить равенство (1), заменив AD, BC, AM и MB их абсолютными значениями.

Через рисунок 1.4 можно определить, что:

AD = x – y – Δy
BC = x – y
AM = h – Δx
MB = h + Δx

Следовательно, равенство (1) можно представить в следующем виде:

$$\frac{x - y - \Delta y}{x - y} = \frac{h - \Delta x}{h + \Delta x} \quad (2)$$

Произведя перекрестное умножение, получаем:

(x – y)*h + (x – y)*Δx – Δy*h – Δy*Δx = (x – y)*h – (x – y)*Δx

Упростим это выражение:

$2*(x - y)*\Delta x - \Delta y*\Delta x = \Delta y*h;$

Выведем за скобки Δx:

$\Delta x*[2*(x - y) - \Delta y] = \Delta y*h;$

Разделив обе части равенства на Δx*h, получим:

$$\frac{2(x-y)-\Delta y}{h} = \frac{\Delta y}{\Delta x}$$

Разложив левую часть равенства на две части следующим образом окончательно получим:

$$\frac{x-y-\Delta y}{h} + \frac{x-y}{h} = \frac{\Delta y}{\Delta x} \quad (3)$$

Теперь рассмотрим, как будет выглядеть равенство (3) на гистограмме. На рисунке 1.5 именно это и представлено. Здесь угол ALD равен α (альфа), а угол BKC равен β (бетта). Тангенсы этих углов равны:

$$tg\alpha = \frac{x-y-\Delta y}{h}$$

$$tg\beta = \frac{x-y}{h}$$

На рисунке 1.5 также можно увидеть функцию плотности распределения. Эта функция построена приблизительно и служит как дополнительный инструмент для понимания процесса. Ниже приведены два пункта, где описывается процесс построения этой кривой.

1) Истинная функция плотности распределения проходит через точки, которые приблизительно расположены на центрах вершин соседних интервалов, но так как используется понятие “приблизительно”, это уже свидетельствует о том, что есть какое-то отклонение между значениями этих и центрированных точек. Если принять функцию плотности распределения, как проходящую через центры вершин, это возможно приведет к незначительному искажению в значении моды, что можно пренебречь. Поэтому, функция плотности распределения, представленная на рисунке 1.5 проходит через центры вершин соседних интервалов, а значение моды можно воспринять, как хорошую аппроксимацию для ее истинного значения.
2) С другой стороны, здесь используется подгонка кривой плотности распределения относительно гистограммы. Можно также заметить, что во всех рисунках интервал значений делится на три равные части. В действительности, за пределами гистограммы существует множество других интервалов с равной величиной. За счет динамики этих интервалов, можно подогнать кривую распределения таким образом, чтобы отрезки AL и BK служили как касательные для функции распределения соответственно в точках L и K.




Рисунок 1.5: Графическое изображение функции плотности распределения и касательных к ней.

TARAQQIYOT PROGRESS

Теперь перейдем к объяснению почему мода сдвигается в сторону соседнего интервала с большей частотой. Это объяснение можно представить в различных формах.

Объяснение 1. На рисунке 1.5 тангенсы углов можно принять как абсолютные значения производных в точках L и K (так как было принято, что AL и BK касательные к кривой плотности распределения в точках L и K). Исходя из того, что для моды соответствует единица совокупности с максимальной частотой, то для нее будет соответствовать значение производной равное нулю. Следовательно, производная с меньшим абсолютным значением будет ближе к моде, чем производная с большим. В этом случае, абсолютное значение производной в точке L () меньше, чем ее значение в точке K (), по этой причине она ближе к точке максимума.

При увеличении , длина интервалов не меняется, точки L и A не смещаются и остаются на своем положении. Это увеличение только приводит к уменьшению значения производной в точке L. Если положение точек не меняется, то вовсе не производная приближается к точке максимума, а мода смещается в ее сторону.

Теперь рассмотрим крайности. При стремлении значения (y + Δy) к значению (x), значение производной будет стремительно уменьшаться, а мода будет смещаться влево как можно дальше. Это приведет к тому, что мода будет равна начальному значению интервала, содержащего моду (см. рисунок 1.6а)

В случае, если значение (y + Δy) будет стремиться к нулю, производная будет возрастать и отдаляться от максимального значения, а мода будет смещаться вправо, до тех пор, пока правый соседний интервал не пойдет в противовес (см. рисунок 1.6б).




Рисунок 1.6.а: Динамика значении моды при максимальном увеличении соседнего интервала.

Объяснение 2. Для второй версии объяснения, достаточно обсудить суть равенства (3). Итак, при увеличении Δy, левое часть уравнения уменьшается. С другой стороны, правая часть уравнения увеличивается, что противоречит левой части уравнения. Это свидетельствует о том, что значение Δx, должно увеличится, для того чтобы сбалансировать это уравнение с обоих сторон. Это объяснение явное и имеет больше прикладной характер, а именно объясняет сущность равенства (3), которая показывает зависимость между Δy и Δx.




Рисунок 1.6.б: Динамика значении моды при стремлении величины соседнего интервала к нулю.

Объяснение 3. Объяснение 3 представляет собой геометрическую интерпретацию уравнения (3). Итак, для начала разделим все составляющие уравнения (3) на два, и получим в итоге следующий ее вид.

$$\frac{x-y-\Delta y}{2h}+\frac{x-y}{2h}=\frac{\Delta y}{2\Delta x} \quad (4)$$

Теперь обратимся к уравнению (2), которое выглядело так:

$$\frac{x-y-\Delta y}{x-y}=\frac{h-\Delta x}{h+\Delta x}$$

Представим это уравнение двумя разными способами:

1) $$1-\frac{x-y-\Delta y}{x-y}=1-\frac{h-\Delta x}{h+\Delta x}$$

Из этого вытекает, что:

$$\frac{\Delta y}{x-y}=\frac{2\Delta x}{h+\Delta x}$$

В итоге получаем:

$$\frac{\Delta y}{2\Delta x}=\frac{x-y}{h+\Delta x} \quad (5)$$

2) Чтобы вывести еще одно соотношение, поменяем местами числители и знаменатели, и левой и правой частей уравнения (2):

$$\frac{x-y}{x-y-\Delta y}=\frac{h+\Delta x}{h-\Delta x}$$

Вычтем с обеих сторон этого равенства единицу:

$$\frac{x-y}{x-y-\Delta y}-1=\frac{h+\Delta x}{h-\Delta x}-1$$

И получим в результате:

$$\frac{\Delta y}{x-y-\Delta y}=\frac{2\Delta x}{h-\Delta x}$$

Окончательно получаем еще одно равенство:

$$\frac{\Delta y}{2\Delta x}=\frac{x-y-\Delta y}{h-\Delta x} \quad (6)$$

Теперь объединим равенства (3), (5) и (6) в одну:

$$\frac{x-y-\Delta y}{2h}+\frac{x-y}{2h}=\frac{\Delta y}{2\Delta x}=\frac{x-y}{h+\Delta x}=\frac{x-y-\Delta y}{h-\Delta x} \quad (7)$$

Далее рассмотрим рисунок 1.7. На рисунке появились новые точки E, F, N и P. Точка F симметрична точке E относительно середины центрального интервала, а точки P и N расположены соответственно над точками E и F, так что расстояние между ними составляет .




Рисунок 1.7.

TARAQQIYOT PROGRESS

Таким образом, EF = 2Δx, FN = Δy. Следовательно:

$$\frac{FN}{EF} = \frac{\Delta y}{2\Delta x}$$

Из равенства (4) известно, что:

$$\frac{\Delta y}{2\Delta x} = \frac{x - y}{h + \Delta x}$$

Это равенство можно представить в виде соотношения отрезков BC и EC:

$$\frac{BC}{EC} = \frac{x - y}{h + \Delta x}$$

Объединив равенства, получаем:

$$\frac{BC}{EC} = \frac{x - y}{h + \Delta x} = \frac{\Delta y}{2\Delta x} = \frac{FN}{EF} \text{ или } \frac{BC}{EC} = \frac{FN}{EF}$$

Это соотношение говорит нам о том, что точки E, N и B лежат на одной прямой.
Точно также повторим те же операции для отрезков AD и DO.

$$\frac{PE}{EF} = \frac{\Delta y}{2\Delta x} \text{ и } \frac{AD}{DP} = \frac{x - y - \Delta y}{h - \Delta x} = \frac{\Delta y}{2\Delta x}$$

В результате получим, что

$$\frac{AD}{DP} = \frac{PE}{EF}$$

Это соотношение говорит нам о том, что точки A, O и F тоже лежат на одной прямой.
Из этих результатов несложно вывести, что угол AOD равен углу BEC.
Допустим теперь, что оба этих угла равны значению λ (лямбда), угол AL'D равен γ (гамма), а угол BK'C равен δ (дельта).
Тангенсы этих углов будут следующие:

$$tg(\lambda) = \frac{AD}{DP} = \frac{BC}{EC} \text{ или } tg(\lambda) = \frac{\Delta y}{2\Delta x}$$
$$tg(\gamma) = \frac{AD}{DL'} = \frac{x - y - \Delta y}{2h}$$
$$tg(\delta) = \frac{BC}{CK'} = \frac{x - y}{2h}$$

Теперь мы можем представить уравнение (4), через величины углов.

$$\frac{x - y - \Delta y}{2h} + \frac{x - y}{2h} = \frac{\Delta y}{2\Delta x} \quad \text{или} \quad tg(\gamma) + tg(\delta) = tg(\lambda) \ (8)$$

Уравнение (8), представляет геометрический смысл уравнения (3). Это уравнение показывает чувствительность моды к изменениям соотношении углов.

Обсуждение. Теперь перейдем к выводу самой формулы для моды. Из уравнения (2) нам известно, что:

$$\frac{x - y - \Delta y}{x - y} = \frac{h - \Delta x}{h + \Delta x}$$

Для того чтобы найти моду мы должны сначала найти (h – Δx), выражая его только через y, Δx и h.
Для начала поменяем местами числители и знаменатели составляющих уравнения (2):

$$\frac{x - y}{x - y - \Delta y} = \frac{h + \Delta x}{h - \Delta x}$$

Теперь прибавим в обе стороны по единице:

$$\frac{x - y}{x - y - \Delta y} + 1 = \frac{h + \Delta x}{h - \Delta x} + 1$$

И получим:

$$\frac{(x-y-\Delta y)+(x-y)}{x-y-\Delta y}=\frac{2h}{h-\Delta x}$$

Далее можно найти (h – Δx):

$$(h-\Delta x)=\frac{2h(x-y-\Delta y)}{(x-y-\Delta y)+(x-y)}$$

Приняв x_{mo} за начальное значение интервала, содержащего моду, окончательно можно вывести формулу для вычисления моды:

$$M_o=x_{mo}+(h-\Delta x)=x_{mo}+\frac{2h(x-y-\Delta y)}{(x-y-\Delta y)+(x-y)}$$

Для получения удобной формулы, представим частоты модального и соседних интервалов следующим образом:

$$f_{mo}=x$$
$$f_{mo-1}=y+\Delta y$$
$$f_{mo+1}=y$$

Так как длина всех интервалов одинаковы и равны 2h, то для удобство примем длину модального интервала, как i_{mo}.

В результате этих замен, получим конечную формулу для моды:

$$M_o=x_{mo}+i_{mo}*\frac{f_{mo}-f_{mo-1}}{(f_{mo}-f_{mo-1})+(f_{mo}-f_{mo+1})} \quad (9)$$

где – начальное значение интервала, содержащего моду;
i_{mo} – величина модального интервала;
f_{mo} – частота модального интервала;
f_{mo-1} – частота интервала, предшествующего модальному;
f_{mo+1} – частота интервала, следующего за модальным.

В рамках этой статьи для медианы приводится только геометрическое доказательство формулы. Рассмотрим рисунок 1.8. Где f_1, f_2, f_3 … f_n – это частоты интервалов, h – это длина интервалов.




Рисунок 1.8: Графическое изображение медианы совокупности данных в виде гистограммы.

Комбинация частот и длина интервалов образуют прямоугольники. Объединение этих прямоугольников образуют некую геометрическую фигуру. Для вывода формулы медианы поставим перед собой следующую задачу: “мы должны найти такую точку на интервале значении, которая делит площадь данной геометрической фигуры на два” - это точка и есть медиана.

Допустим S_1, S_2, S_3, … S_n – это площади прямоугольников с соответственными высотами f_1, f_2, f_3 … f_n (см. рисунок 1.9). Определив медианный интервал, примем его как xi интервал (где i может быть – 1,2,3…n).

TARAQQIYOT PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Точка N – это начальная граница медианного интервала. Скажем, что ему соответствует значение x_{me}.




Рисунок 1.9: Геометрическая связь между медианой, частотами и площадями столбцов гистограммы.

Тогда:

$$\sum_{i=1}^{n} Si = S_1+S_2+S_3+\ldots+S_n = \mathrm{h}*\sum_{i=1}^{n} f_i = \mathrm{h}*(f_1+f_2+f_3+\ldots f_n).$$

Разделив эту площадь на два, получим:

$$\frac{\sum_{i=1}^{n} Si}{2} = \frac{\mathrm{h}*(f_1+f_2+f_3+\cdots f_n)}{2} \quad (10)$$

Проведем вспомогательную прямую M, которая делит эту фигуру на два и проходит через точку Me (медиана).

Далее, рассчитаем величину площади (1). Это часть площади прямоугольника медианного интервала, который отсекается от него прямой M. Чтобы его определить для начала надо посчитать сумму площадей прямоугольников с до .

Следовательно, находим:

$$\sum_{i=1}^{n} S_{i-1} = S_1+S_2+S_3+\ldots+S_{i-1} = \mathrm{h}*(f_1+f_2+f_3+\ldots f_{i-1}) \quad (11)$$

Чтобы найти $S_2(1)$, надо найти разность между (10) и (11):

$$S_i(1) = \frac{\sum_{i=1}^{n} Si}{2} - \sum_{i=1}^{n} S_{i-1} = \frac{\mathrm{h}*(f_1+f_2+f_3+\cdots f_n)}{2} - \mathrm{h}*(f_1+f_2+f_3+\ldots f_{i-1}) = \mathrm{h}*\left(\frac{\sum_{i=1}^{n} f_n}{2} - \sum_{i=1}^{n} f_{i-1}\right)$$

Теперь найдем отрезок NMe, длина которого скажем m.

Так как:

$S_i(1) = m^* f_2$

Следовательно:

$$\mathrm{m} = \frac{S_i(1)}{f_i}$$

Окончательно находим формулу для вычисления медианы:

$$M_e = x_{me} + \mathrm{m} = x_{me} + \frac{S_i(1)}{f_i} = x_{me} + \frac{\mathrm{h}*\left(\frac{\sum_{i=1}^{n} f_n}{2} - \sum_{i=1}^{n} f_{i-1}\right)}{f_i}$$

Для удобного представления формулы, добавим небольшие корректировки:

1) Так как здесь рассматриваются равнозначные интервалы представим h для медианного интервала, как i_{me}.
2) Примем $\sum_{i=1}^{n} f_{i-1}$, как S_{me-1} – сумма накопленных частот до медианного интервала
3) Представим , как – сумма всех частот
4) Для удобства заменим f_i на f_{me}.

В итоге получим формулу для медианы, которую мы показали вначале:

$$M_e = x_{me} + i_{me} * \frac{\left(\frac{\sum f}{2} - S_{me-1}\right)}{f_{me}} \quad (12)$$

где x_{me} – начальная граница медианного интервала;
i_{me} – величина медианного интервала;
S_{me-1} – сумма накопленных частот до медианного интервала;
f_{me} – частота медианного интервала.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В данной статье мы рассмотрели математическое обоснование вычисления моды и медианы в статистике. Эти две меры центральной тенденции играют важную роль в анализе данных и позволяют лучше понимать распределение набора данных. Моду и медиану предоставляют информацию о типичных значениях в наборе данных, не зависящих от выбросов или аномалий. Математические методы, описанные в статье, позволяют точно определить моду и медиану в выборке, независимо от её размера. Использование этих методов в анализе данных позволяет получать более точные и информативные результаты, что в свою очередь способствует принятию обоснованных решений в различных областях.

В заключении можно отметить что мода и медиана, будучи простыми и мощными статистическими инструментами, играют важную роль в анализе данных и принятии решений. Их правильное использование способствует более глубокому пониманию структуры данных и может привести к более точным и информативным выводам.

Список использованной литературы:

1. Y. Abdullayev “Statistika nazariyasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2002
2. N. Soatov “Statistika”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 2003.
3. Н. Умаров, А. Абдуллаев, Р. Зулинова. Статистика. Учебник. Ташкент. “Iqtisod-moliya”. 2009.
4. Роберт В. Хогг, Аллен Т. Крейг. “Математическая статистика”. Учебник. “Prentice Hall”. США. 1954.
5. Пол Л. Мейер. “Математическая статистика” Учебник. “Pearson Prentice Hall”. США. 2008.

YIRIK SOLIQ TO‘LOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISHDA SOLIQ MA’MURCHILIGINING ISTIQBOLLARI





G‘aniyev Shaxriddin Vohidovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, ISFT instituti professori

Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), ISFT instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yirik soliq to‘lovchi toifasiga kiritishdan boshlanadigan, ularni hisobga olish, ular doirasida soliq obyektlarini ro‘yxatga olish, ularga nisbatan soliq imtiyozlarini berish hamda soliq qarzlarini undirish borasidagi soliq xizmati organlarining yondashuvini o‘z ichiga oladigan soliq siyosati ma’lum bir shakllanish jarayoni ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yirik soliq to‘lovchi, soliq siyosati, soliq imtiyozlari, soliq ma’murchiligi, soliq nazorati.

Abstract: This article examines the process of forming a certain tax policy, which begins with the categorization of large taxpayers, includes the approach of the tax authorities to their accounting, registration of taxable objects in them, the provision of tax benefits in respect of them and the collection of tax arrears.

Key words: major taxpayer, tax policy, tax benefits, tax administration, tax control.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования определенной налоговой политики, который начинается с отнесения к категории крупных налогоплательщиков, включает в себя подход органов налоговой службы к их учету, регистрации в них объектов налогообложения, предоставлению налоговых льгот в отношении них и взысканию налоговой задолженности.

Ключевые слова: крупный налогоплательщик, налоговая политика, налоговые льготы, налоговое администрирование, налоговый контроль.

KIRISH

Jahon amaliyotida yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma’murchiligini takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, yirik soliq to‘lovchilar faoliyatining samaradorligini o‘lchash uchun ko‘rsatkichlarini aniqlash, yirik soliq to‘lovchilarga audit va soliq nazoratini qo‘llab-quvvatlash majburiyatini to‘liq bajarish, nazorat funksiyalarini tarmoqlar bo‘yicha tuzilmalash, qoidalarga birgalikda rioya qilish tamoyilini amalga oshirish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni to‘xtatishning samarali mexanizmini ishlab chiqish kabi masalalarning dolzarbligi ularning yetarlicha nazariy va normativ jihatdan o‘rganilmaganligi va zamonaviy iqtisodiy sharoitda yuqori amaliy ahamiyati bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

ADABIYOT SHARHI

Yirik soliq to‘lovchilarni soliqlarning adolatlilik tamoyili asosida soliqqa tortish masalasi, bir tomondan jahon mamlakatlarining soliq siyosatida ustuvor masalalar sifatida qaralishga oid yondashuvlar kuchayib borayotgan bo‘lsa, o‘z navbatida bu turdagi soliq to‘lovchilarni soliqqa tortish va ularga nisbatan soliq ma’murchiligini amalga oshirish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot ishlari ham keng olib borilmoqda.

Yirik soliq to‘lovchilarning investitsion faolligini rag‘batlantirish va soliq ma’murchiligini takomillashtirishga qaratilgan A. Fedorovning bu boradagi ilmiy yondashuvlarida quyidagilarni ko‘rish mumkin. Ya’ni A. Fedorov-ning fikriga ko‘ra, yirik soliq to‘lovchilar uchun mavjud soliq imtiyozlarini tizimlashtirish lozim bo‘ladi, yirik soliq to‘lovchilarga berilgan mavjud soliq imtiyozlarining investitsiya jarayonlariga ta’siri ahamiyatsizligi ortib borgan, shu maqsadda A. Fedorov uchun yirik soliq to‘lovchilarning investitsiya faolligini soliq orqali rag‘batlantirishni kuchaytirishning uslubiy asoslari ishlab chiqqan [1].

T. Kamalnev “yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma’murchiligini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarida “yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma’muriyatchiligini tashkil etish va usullarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqqan, soliq ma’muriyatchiligi tushunchasining mohiyatini oydinlashtirgan, yirik soliq to‘lovchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlagan holda tizimlashtirgan, ulardan soliq ma’muriyatchiligi amaliyotida foydalanish chora-tadbirlarini taklif etgan. T. Kamalnev yirik soliq to‘lovchilarning faoliyatini soliqqa tortish amaliyotini bevosita gaz tarmog‘i korxonalari misolida tahlil qilgan bo‘lib, yirik soliq to‘lovchilarining soliq ma’muriyatchiligi natijalariga baho bergan, mintaqalararo soliq xizmati organlarining nazorat faoliyati ham miqdoriy ham sifat ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilgan [2].

A. Yunak yirik soliq to‘lovchilar tushunchasi mohiyatini ochib berishga harakat qilib, unga quyidagicha ta’rif beradi: “yirik soliq to‘lovchilar – bu qonuniy belgilangan mezonlarga: subyektga taalluqli bo‘lgan amalga oshirilayotgan faoliyat turi, iqtisodiyotning tarmog‘i, faoliyatning moliyaviy ko‘rsatkichlari, shaxslar guruhlaridagi ishtiroki, band bo‘lgan xodimlarning soni va boshqa ma’lumotlarga javob beradigan soliq to‘lovchilarning yuridik va jismoniy shaxslar, rezidentlari va norezidentlari, qonuniy ravishda alohida shaxslarning maxsus toifasidir [3].

S. Brusnitsын yirik soliq to‘lovchilar faoliyatiga oid soliq ma’murchiligida qo‘shilgan qiymat solig‘ining yukini boshqalarga o‘tkazilishida soliq nazoratini o‘rnatish muammolari bilan bog‘liq ilmiy-amaliy tavsiyalar beradi. “Soliq nazoratining taklif etilayotgan bosqichlari, mavjudlaridan farqli o‘laroq, QQSni hisoblash va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi, bu esa o‘z navbatida nazorat ishlarining uslubiy asoslarini takomillashtirishga yordam beradi va natijada soliq ma’muriyatchiligining sifatini oshiradi, shuningdek, innovatsion soliq nazorati mexanizmlarini shakllantirishga yordam beradigan tubdan yangi amallardan foydalanishni ko‘zda tutadi deb ta’kidlaydi [4].

Jusvanto va Simmsning fikricha “Soliq ma’muriyati va soliq protseduralarini raqamlashtirish soliq tizimini yanada isloh qilish uchun zamin yaratishi kerak. Soliq siyosati islohoti raqamli biznesga iqtisodiy o‘sishga moslashgan holda adolatli va barqaror soliqqa tortilishini ta’minlashi kerak” [5].

Iqtisodiy adabiyotlarda “yirik soliq to‘lovchi” tushunchasini talqin qilishda ko‘plab yondashuvlar keltirilgan va ularning barchasi umumiy xususiyatlarga va tasniflash segmentlariga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada yirik soliq to‘lovchi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirish va tartibga solishda soliq ma’murchiligining ta’sirchanligi, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tarkibiga kiruvchi institutsional tuzilma – Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tuzildi va unga asosiy vazifa sifatida joylashgan joyi va amalga oshirayotgan faoliyatidan qat’iy nazar, yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma’muriyatchiligini amalga oshirish vazifasi yuklandi.

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi soliq ma’murchiligi bo‘yicha funksiya va vazifalari ularning soliq to‘lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning adolatlilik tamoyillarini qo‘llagan holda, ularga yuklatilgan soliq majburiyatlarining qonun doirasida bajarilishini ta’minlash hamda insofli soliq to‘lovchining ishonchli hamkoriga aylanishdek muhim strategik vazifalar belgilab berilgan.

Agar, yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi va uning hududiy bo‘linmalariga soliq ma’murchiligi doirasida yuqorida keltirilgan vazifa va funksiyalarning oxirgi 2019–2021-yillardagi ijrosining holatini tahlil etadigan bo‘lsak, quyidagi natijaviy ko‘rsatkichlarga yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin.

Yirik soliq to‘lovchilar hisobini tashkil etish va ulardan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan soliqlar va yig‘imlarning to‘liq tushishini ta’minlash borasida:

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan yirik soliq to‘lovchilar tarkibi 2019-yilda 1 416 ta, 2020 yilda 836 ta va 2021-yilda soliq to‘lovchilar soni 1 149 tani tashkil etgan. 2020-yilda soliq to‘lovchilar sonining keskin pasayishi aynan shu davrda tijorat banklari va ularning respublika miqyosidagi filiallarini transformatsiya qilinishi hisobiga to‘g‘ri keladi. Ya’ni bunda tijorat banklari uchun soliq hisobotlarini topshirish va to‘lovlarni amalga oshirish jarayonini soddalashtirish maqsadida bank filiallarining soliq hisobi yuritiladigan shaxsiy hisobvaraqalari ularning bosh ofislarining shaxsiy hisobvaraqalariga birlashtirilgan. Natijada, tijorat banklariga qo‘shimcha qulayliklarni yaratilishiga, barcha soliq turlari bo‘yicha markazlashtirilgan hisob-kitob va to‘lovlarni amalga oshirishda, hisobot shakllarini taqdim etilish jarayonlari faqat bosh ofislar orqali amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan.

2021-yilda Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritish bo‘yicha belgilangan mezon talablari asosida respublika bo‘yicha faoliyat yuritib kelayotgan korxonalar tahlildan o‘tkazilib, qo‘shimcha 313 ta korxona yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan. Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritish bo‘yicha belgilangan mezon talablariga 2020 va 2021-yillarda qator o‘zgartirishlar kiritilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘idan yo‘lovchilarni tashish maqsadlarida foydalanuvchi, xalqaro havo aloqalarini amalga oshiruvchi va ularning tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar ham yirik soliq to‘lovchilar hisoblanadigan bo‘ldi. Bundan tashqari, uglevodorod xom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar, bundan avtomobillarga yoqilg‘i quyish shahobchalari mustasno deyilgan mezonga o‘zgartirish kiritilib, ushbu mezon quyidagi tahrirda “uglevodorod hom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) yetkazib beruvchi chet el yuridik shaxslarining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo‘linmalari), bundan avtomobillarga yoqilg‘i quyish shahobchalari mustasno” deb o‘zgartirildi. Shu bilan birgalikda, nizomga realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari degan band qo‘shilib, elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritildi.

Yirik soliq to‘lovchilar faoliyatida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi bo‘yicha soliq nazoratini tashkil etish borasida:

2020-yilda Inspeksiya tomonidan 181 ta kameral soliq tekshiruvi o‘tkazildi va tekshiruv natijasida 1 777 mlrd. so‘m qo‘shimcha soliq hisoblandi, 2021-yilda esa 1003 ta kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilib, 1793,6 mlrd. so‘m, audit tekshiruvi natijasida 32 ta korxonada 540,9 mlrd. so‘m, 115 ta sayyor soliq tekshiruvida esa 28,4 mlrd. so‘m soliq hisoblanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yirik soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko‘rsatilishini amalga oshirish borasida:

Yirik soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko‘rsatilishi amalga oshirilmoqda, interaktiv xizmatlardan foydalanish, tizimdagi dasturiy xatoliklar va boshqa mavzudagi 2019-yilda 320 ta, 2020-yilda 711 ta, 2021-yilda 812 ta murojaatlarga javob berilgan. Shuningdek, 2020-yilda Pandemiya davrida soliq to‘lovchilar uchun avtotransport vositalaridan foydalanish uchun stiker berish tizimi yaratilgan.

Davlat soliq qo‘mitasi bilan hamkorlikda “Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish” moduli ishlab chiqildi, shuningdek, hozirda 6 ta interaktiv xizmat yaratilish ishlari amalga oshirilgan. SIAIJ–5 dasturida korxonalarning bir hududdan boshqa bir hududga ko‘chib o‘tishi, boshqa korxona tarkibiga qo‘shilib ketishi bilan bog‘liq holatlar o‘rganilishi natijasida 2020-yilda yirik korxonalarni markazlashtirish natijasida 400 dan ortiq ShHVlar bosh ofislariga ko‘chirib o‘tkazilgan. 2021-yil davomida 450 ta korxonalar ShHVlarga o‘zgartirishlar kiritilgan, natijada 2,4 mlrd. so‘m soliq qarzi va 4,5 mlrd. so‘m ortiqcha to‘lov tegishli shaxsiy hisobvaraqalarga o‘tkazilib, ortiqcha to‘lov va soliq qarzi qisqartirishga erishilgan.

Yirik soliq to‘lovchilar ma’muriyatchiligi doirasida soliqqa oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, aniqlash va oldini olish bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish borasida:

Soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha 2019-yil, 197 ta, 2020-yilda 188 ta va 2021-yilda 401 ta ma’muriy ishlar bo‘yicha materiallar sudga ko‘rib chiqish uchun yuborilgan. Qo‘llanilgan ma’muriy jarima miqdori 2019-yilda 28,4 mln. so‘m, 2020-yilda 76,5 mln. so‘m va 2021-yilda 171 mln. so‘mni tashkil etgan. Soliq to‘lovchilar bilan 2019-yilda 7 ta, 2020-yilda 8 ta va 2021-yilda 69 ta seminar-treninglar o‘tkazilgan. Soliqqa oid normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2019-yilda 40 tadan ortiq, 2020 yilda 102 ta, 2021-yilda 105 dan ortiq takliflar ishlab chiqilgan.

1-jadval: O‘zbekistonda yirik soliq to‘lovchilar toifalari kiruvchi korxonalarning faoliyat turlari va sohalar bo‘yicha sonining dinamik o‘zgarishi tahlili [6]

№	Yirik soliq to‘lovchilar toifalari	Yillar (yil boshiga, ta)			
		2019	2020	2021	2022
	Jami	1416	836	1149	957
1	Aksiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi va aksiz solig‘i solig‘i bo‘lgan xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar	78	111	117	117
2	Tijorat banklari, tovar, fond va valyuta birjalari	895	34	34	35
3	Navoiy KMK AJ, Olmaliq KMK AJ va ularning ta’sischiligidagi tashkilotlari	12	12	12	4
4	Mahsulot taqsimoti bo‘yicha shartnomalar bo‘yicha ishlarni bajarishda ishtirok etuvchi tashkilotlar	5	5	5	5
5	O‘tgan kalendar yil oxirida mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumlari 100,0 milliard so‘mdan ortiq yoki ketma-ket o‘n ikki oylik davr oxirida ushbu summadan oshgan yuridik shaxslar	341	460	742	565
6	Uglevodorodlar va mineral resurslarni qazib olish, qayta ishlash, yetkazib berish va sotish, shuningdek, elektr energiyasini ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar, yoqilg‘i quyish shoxobchalari bundan mustasno	78	190	215	175
7	O‘zbekiston Respublikasi havo hududidan xalqaro havo qatnovlarini amalga oshiruvchi yo‘lovchi tashish maqsadlari uchun foydalanuvchilar va ularning ta’sis etuvchi yuridik shaxslari	7	24	24	20
8	Realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari	-	-	-	36

O‘zbekiston soliq tizimida yirik soliq to‘lovchilarni soliqqa tortish ma’murchiligining shakllanishini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlardan biri bu yirik soliq to‘lovchilar toifalari kiruvchi korxonalarning faoliyat turlari va sohalar bo‘yicha sonining dinamik o‘zgarish holati hisoblanadi. Shu boisdan ham yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu toifadagi korxonalarning soni 2019-yilda 1416 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning boshida bu ko‘rsatkich 957 tani tashkil qilgan holda, ularning soni kamayganligini ko‘rsatadi. Bunga asosiy sabab bu toifaga kiruvchi korxonalarni aniqlash mezonlarining birmuncha o‘zgartirilganligi, shuningdek, tijorat banklari, tovar, fond va valyuta birjalari toifasiga kiruvchi tashkilotlarning sonining keskin qisqarishi va ayrim soliq to‘lovchilarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatidagi nobarqaroliklar sabab ular bu toifadagi korxonalar mezonlariga to‘g‘ri kelmay qolganligi hamda Navoiy KMK AJ, Olmaliq KMK AJ va ularning ta’sischiligidagi tashkilotlar tarkibidagi korxonalar sonining qisqarishi boshqa shu kabi omillar bo‘lgan.

Ta’kidlash o‘rinliki yirik soliq to‘lovchilarni soliqqa tortish ma’murchiligining shakllanishini tavsiflaydigan yana bir ko‘rsatkichlardan biri bu yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat inspeksiyasi va uning tarkibiy bo‘linmalarining funksional tuzilishi va ularning vazifalari hamda funksiyalari bilan bog‘liq tashkiliy-texnik hamda uslubiy jarayonlardir. Yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma’murchiligini yuritishga mas’ul bo‘lgan yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining tuzilmasini tanqidiy tahlilimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, uning tarkibiga kiruvchi tuzilmalar (bo‘lim va sho‘balar)ning funksional vazifalari va ularni amalga oshirish holati soliq ma’murchiligining ta’sirchanligini yetarli darajada ta’minlay olayapti degan xulosani bermaydi. Shu jihatdan olganda biz inspeksiyaning tarkibiy tuzilmasida qo‘shimcha ravishda ayrim bo‘linmalarni tashkil etish va ularning faoliyatini aniqlashtirish asosida yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq ma’murchiligining ta’sirchanligini oshirish orqali bu borada samaradorlikka erishish mumkin deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda, ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida soliq siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri davlat byudjeti byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etib kelayotgan nisbatan soliq to‘lovchi korxonalarga alohida soliq rejimlari sifatida soliq ma’murchiligining qo‘llanishidir.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, birinchidan, tadbirkorlik subyektlarining faoliyati, ishlab chiqarish quvvati hamda mamlakat g‘aznasiga qo‘shadigan hissasi bir xil bo‘lmaydi, bu ularning chuqur iqtisodiy tabaqalashuvidan dalolat beradi. Soliq to‘lovchilarga nisbatan soliqqa tortish tamoyillarida yagonalilik yondashuv amal qilsada, biroq, soliq to‘lovchilarning hajmiga nisbatan soliq siyosati (ma’murchiligi)ni yuritish jahon amaliyotida o‘z samarasini berib kelmoqda; ikkinchidan yirik quvvatga ega bo‘lgan korxonalarning ishlab chiqarish texnologiyasi va ularning tovar (xizmat, ish)lar aylanmasining tarkibiy tuzilmasi ancha murakkab bo‘ladi, ularni e’tiborga olgan holda ularga nisbatan alohida soliq rejimini qo‘llash foydali hisoblanadi; uchinchidan, har qanday olingan milliy iqtisodiyot doirasida korxonalarni ularning ko‘lamiga qarab guruhlagan holda iqtisodiy siyosat yuritib kelinadi va ularning iqtisodiy salohiyati baholanib, fiskal salohiyati ham aniqlanadi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Брусницын, С. В. (2012). Совершенствование механизма налогового контроля по НДС: становление н тенденции развития в системе налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. – №4. – С. 13–16.
2. Белугина, М. В. (2015). Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков: проблемы, пути совершенствования // Инновационное развитие экономики. 2015. № 5 (29). С. 27–30.
3. Петти, У. (1997). Трактат о налогах и сборах. № 1 – С. 4–17. – ISSN 2073–2929.
4. Рикардо, Д. (2007). Начала политической экономии и налогового обложения. Избранное / Д. Рикардо. – М.: Эксмо, – 960 с.
5. Дарькина, Ю. А (2019). Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science.

SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMI KLASTERLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING KROSS-INNOVATSIYALAR ASOSIDAGI MODELI



G‘ofurov Azizbek Umarjonovich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz hududlarida sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatini tashkil etishning samarali yo‘nalishlaridan hisoblangan sog‘lomlashtirish klasterida faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar innovatsion faolligini rivojlantiruvchi kross-innovatsiya asosidagi model ilmiy yangilik sifatida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, velnes-industriya, velnes-klasterы, upravlenie velnes-klasterami, kross-innovatsii, globalnыy klaster, kross-marketing.

Abstract: In this article, the cross-innovation-based model, which develops the activity of innovation of the subjects operating in the Wellness cluster, calculated from the effective directions of organizing the activities of wellness tourism in the regions of our country, was studied as a scientific innovation.

Key words: tourism, wellness industry, wellness clusters, Wellness cluster management, cross-innovation, global cluster, cross-marketing.

Аннотация: В данной статье кросс-инновационная модель, развивающая инновационную активность субъектов, действующих в оздоровительном кластере, рассчитанная исходя из эффективных направлений организации деятельности оздоровительного туризма в регионах нашей страны, была изучена как научная инновация.

Ключевые слова: туризм, туристско-рекреационная сфера, туристско-рекреационные кластеры, управление туристско-рекреационными кластерами, кросс-инновации, глобальный кластер, кросс-маркетинг.

KIRISH

Jahonda turizm sohasi tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan va eng daromadli biznes turi bo‘lib, uning jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM)dagi ulushi 10,0 foizni tashkil etadi.

Iqtisodiyotning bu sohasi tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda va yaqin yillar ichida u eng muhim sohaga aylanadi. Turizm tarmog‘iga investitsiyalarning yillik o‘sishi taxminan 30% ni tashkil qiladi[1]. Xalqaro turizm aholi bandligini ta’minlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va chet el valyutasi kelishining faol manbayi sifatida mamlakat tashqi savdo to‘lov balansi, milliy iqtisodiyotgagina emas, ularning ijtimoiy, madaniy, ekologik muhitiga ham ta’sir etadi.

BMT davlatlarda turizm salohiyatini oshirish, yangi turistik xizmatlarni taklif etish, yangi turizm brendlarini yaratish, turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha takliflar kiritish, turizm geografiyasini yanada kengaytirish, YaIMdagi ulushini oshirish hamda turizmni rentabelli sohalardan biriga aylantirish masalalariga katta e’tibor qaratmoqda. Shuningdek, jahonda turizm xizmatlari bozori boshqarishni ilmiy asosda tashkil etish, uni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, turistik korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va istiqbolini baholashga e’tibor kuchaytirilmoqda. Turistik korxonalarni boshqarishni innovatsion asosda tashkil etish, boshqaruv samaradorligini ta’minlash, boshqaruv tizimiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ta’sirini baholash bugungi kundagi eng muhim dolzarb masalalardan biridir

O‘zbekiston Respublikasini 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ham “...O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish” muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berildi. Sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatini samarali boshqarish va soha

1 www.unwto.

faoliyatini rivojlantirish asosida sog‘liqni tiklash xizmatlarini ko‘rsatish hajmining qisqa davr ichida o‘sib borishi, bir tomondan, mamlakatda ichki turizm iste’moli hajmining ortishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, sog‘liqni tiklash xizmatlarini eksport qilish hajmi ortishi hisobiga eksport hajmida turistik xizmatlar ulushining ortib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jarayonida so‘nggi yillarda alohida tarmoq yoki sohalarni klasterli yondashuv asosida rivojlantirilishi bugungi kun holati doirasidagi tadqiqotlarni talab qiladi. Shuni e’tiborga olgan holda, mamlakatimiz hududlarida sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatini tashkil etishning samarali yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan sog‘lomlashtirish xizmatlari klasterlarini shakllantirish hamda ularni boshqarish asosida xizmatlar bozorini rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turli tadqiqotlar natijalarini o‘zida aks ettirgan xorijiy adabiyotlarda ham sog‘lomlashtirish xizmatlari va u bilan bog‘liq ayrim tushunchalar bo‘yicha yakdil fikrlar mavjud emas. Buning sababi – sog‘lomlashtirish va sog‘lomlashtirish turizmi faoliyati tushunchalariga ta’rif berish, uning faoliyat chegaralarini aniq belgilab olish murakkab jarayon hisoblanadi. Bu mavzuga oid atamalarning yagona talqini mavjud emasligi, turli mamlakatlarda turlicha yondashuv va tushunchalar mavjudligi, sog‘lomlashtirish tushunchasi bo‘yicha qonunchilikda ma’lumot berilmaganligi, sog‘lomlashtirish bo‘yicha aniq ma’lumotlar olish imkoni chegaralanganligi o‘rganilayotgan sohada tadqiqotlarni keng ko‘lamda va asosli amalga oshirish imkoniyatini qisqartiradi.

Klaster nazariyasi tashabbuskori bo‘lgan M. Porterning fikriga ko‘ra, klaster muayyan sohada umumiy va tashqi aloqalar bilan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan kompaniyalar (etkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) va ularning asosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muassasalar (ta’lim muassasalari, davlat boshqaruvi organlari, infratuzilma)ning geografik yaqin guruhidir [2].

M. Porter fikricha, klasterlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi barqaror rivojlanish strategiyasini qo‘llashni talab qiladi, ya’ni guruhlar – turli xil manfaatdor tomonlarning birlashtirilishi, iqtisodiyotning raqobatbardosh ustunligiga erishishga yo‘naltirilgan sog‘lomlashtirishning yangi tashkiliy shaklidir.

A. Aleksandrovaning xalqaro sayyohlik tadqiqoti natijalariga ko‘ra, turizm sohasida klasterlarni rivojlantirish uning samaradorligini oshirishini isbotladi. Turistik mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanadigan korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida texnologik aloqalarni (asosan, biznes aloqalarini) tashkil etish zarurati turizm klasterini rivojlantirishda asosiy turtki bo‘ladi. Turizm klasterlari mintaqaning asosiy turizm va sog‘lomlashtirish resurslari asosida shakllantiriladi. Turistik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan bevosita shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar bilan bir qatorda sayyohlik klasteri vakillari, tadqiqot institutlari, ta’lim muassasalari, kasaba uyushmalari, jamoatchilik vakillari va boshqalar turizm majmuyi ishtirokchilari sifatida klaster tarkibida ishtirok etadilar [3].

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, sog‘lomlashtirish klasterlarini boshqarish jarayonlari xorijiy va mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida yetarli darajada o‘z aksini topmagan. Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda tadqiqotda nazariy tadqiq asosida kross-innovatsiyalar asosida sog‘lomlashtirish turizmi klasterlarida innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga turli yengilliklar va imtiyozlar berilmoqda. Bu esa, sohada sog‘lomlashtirish muassasalarini barpo etish, mavjudlarini jahon talablari darajasiga moslashtirish imkonini bermoqda. Bugungi kunda sog‘lomlashtirish xizmatlariga bo‘lgan talab taqdim etilayotgan taklif nuqtasidan yuqori darajaga ko‘tarilmoqda. Shularni e’tiborga olgan holda tadqiqotimizda ilmiy yangilik sifatida taklif etilayotgan model asosida sohada yangi tizimni amalga oshirish, sog‘lomlashtirish turizmi klasterlarini shakllantirish va shu klasterlarda faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar innovatsion faolligini rivojlantiruvchi kross-innovatsiya asosidagi modellardan foydalanish zaruratini tug‘dirmoqda.

Sog‘lomlashtirish turizmi klasterlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishning modellashtirishni tashkil etish – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyatidagi eng murakkab jarayondir. Korxonalarning barcha innovatsion faoliyati shakllantirilayotgan modellarni to‘g‘ri yaratishga bog‘liq.

Hozirgi vaqtda sog‘lomlashtirish sohasini rivojlantirish nafaqat sog‘lomlashtirish turizmi xo‘jalik yurituvchi subyektlar negizida sog‘lomlashtirish klasterlarini yaratish bo‘yicha ketma-ket (chiziqli) tadbirlarni amalga oshirish, turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro funksional ta’sir natijasida amalga oshirilmoqda. M. Porter o‘z asarlarida tarmoqlar yoki xo‘jalik faoliyatidan ancha katta darajada klasterlar yangi texnologiyalar, ko‘nikmalar, marketing tadqiqotlari, axborotlar tarqatish va iste’mol talablarini hisobga olgan holda tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro aloqalar yaratishini qayd etadi [8].

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar olimlarining tadqiqotlarida, shuningdek, amaliyotda ham “kross-sanoat innovatsiya” (KSI) tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. KSI – boshqa sanoat va xo‘jalik faoliyatining mavjud ehti-

yojlarini qondirish uchun mavjud yechimlarni ijodiy ishlab chiqilgan simulyatsiyasidir. Bu yechimlar patentlar, maxsus bilimlar, texnologiyalar, biznes jarayonlar, qobiliyatlar, xo‘jalik tizimlari yoki tadbirkorlik subyektlari faoliyatining biznes modeli hisoblanadi [9].

Kross-innovatsiya modeli (KIM) yoki kross-sanoat innovatsiya modeli korxonaning innovatsion jarayonida turli iqtisodiy faoliyatdan olingan g‘oyalar, bilimlar, mohiyat, tushunchalar va texnologiyalarni tizimli hisobga olishdir.

Xerox, IBM, Intel kabi dunyoning yetakchi kompaniyalari tomonidan innovatsiyalarni boshqarishning yangi modellari amalga oshirilmoqda. Ular bozorga kiritilganda, asosiy o‘zgarishlarga duch kelindi. Bu tajribani tahlil qilish innovatsiyalarni boshqarishning yangi paradigmasini shakllantirish imkonini berdi. Bu “ochiq innovatsion model” (G. Chesbro) deb nomlandi [10]. Ochiq innovatsion modelining an’anaviy innovatsion modelidan quyidagicha farqlariga ega:


- ochiq innovatsiyalar o‘z ishtirokchilarining pozitsiyalarini mustahkamlashni ta’minlab, bilimlarni uzatishning ta’sirini shakllantiradi va o‘zaro innovatsiyalar ikkilamchi ta’sirlarda ishtirok etadi. Ular turli bilim va yangi mahsulotlar (xizmatlar) yaratishda namoyon bo‘ladi. Ko‘p tarmoqli texnologiyalarni rivojlantirish, an’anaviy texnologiyalarning yangi bozorlarga yangi shakllarda va yangi sifatda kirib borishini ta’minlash;
- innovatsion texnologiyalarning jamiyatga, atrof-muhitga, intelektual mulkka ta’sirini oshirish va boshq.

Ikkilamchi ta’sirlarda esa, “spillover effects”, bir sohadagi yangiliklar faoliyatning boshqa sohalariga ta’sir qilganda yuzaga keladi;

- bilim va g‘oyalar innovatsion jarayonlar, mahsulotlar (xizmatlar)ni rivojlantirishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan bir sohadan ikkinchi sohaga ko‘chiriladi.

Global klasterlarni o‘rganish bizga kross-tarmoqlarning turli xil innovatsion modellarini shakllantirishga imkon beradi. Bu yerda klasterning asosiy qismi sog‘lomlashtirish turizmining yirik iqtisodiy shaxsidir. U boshqa iqtisodiy tashkilotlar, tadqiqot markazlari va boshqa hududiy korxonalar bilan faoliyat sohalarida funksional yo‘nalishlarga ega bo‘lib “sog‘lomlashtirish turizmining tarmoq sektori” modelini yaratadi. Ushbu modelni hududlarning innovatsion infratuzilmasidan foydalanib, turli xil boshlang‘ich loyihalarni yaratish orqali kengaytirish mumkin. Klaster tufayli iqtisodiy subyektlarning zarur soni borligi uchun, gorizontal kross-tarmoqlar barqaror rivojlanish ta’siriga erishishi mumkin.

Kross-tarmoq modellarini tashkil etishga asoslangan sog‘lomlashtirish turizmi innovatsion klasterlari jahon bozorini rivojlantirish uchun vektor hisoblanadi. Tarmoqlararo innovatsion texnologiyalarning bu klasterlari dinamik o‘z-o‘zini rivojlantirishga erishishi, asosiy funksional vazifani bajarish, ularning joylashuvi hududlar uchun o‘sish qutbi bo‘lish imkoniyatiga ega.




1-rasm: Kross-innovatsiyaga asoslangan sog‘lomlashtirish turizmi klasterlarining innovatsion faolligini oshirish modeli

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Innovatsion texnologiyalar interaktiv turistik sayohatlar, dam olish dasturlari bilan veb-saytlar, uch o‘lchamli grafikali ta’lim va o‘quv filmlari, virtual haqiqat va boshqalar kabi yangi “sog‘lomlashtirish” turlarini taklif etadi. Ushbu turistik mahsulotlar iste’molchining his-tuyg‘ulariga qaratilgan, shuning uchun onlayn sayohatlarni taklif qilishda xarid qilish uchun maxsus muhit yaratish muhimdir. Bunday holda, o‘zaro tarmoq innovatsion modellarida hissiy komponentni diqqat bilan tasavvur qilish kerak.


Umuman olganda, kross-innovatsiyalarni shakllantirish sog‘lomlashtirish turizmi klasterlarida muayyan afzalliklarni yaratadi:

- minimal investitsiya xavfi bo‘lgan yangiliklardir, chunki ularni ishlatish tajribasi mavjud;
- yangi faoliyat turlarining paydo bo‘lishiga olib kelishi bilan tub yangiliklardir;
- samarali yangilik sifati tijoratlashtirilgan, bozorga kirish uchun yechimlar mavjud va kirish vaqti kamaytirilishi mumkin;
- turli tarmoqlar o‘rtasidagi bozor ulushi ustidan risklar xavfini kamaytirish va faoliyatini diversifikatsiyalash asosida daromadni oshirish imkoniyatini kengaytiruvchi yangilikdir;
- biznes hamkorlarning tarmoqli-kompleks klasteridir.



2-rasm: Sog‘lomlashtirish turizmi sohasida Kross-innovatsiyalardan foydalanish yo‘nalishlari

Kross-innovatsiyalardan foydalanish yo‘nalishlari ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanishi, shuningdek turizm industriyasi mamlakatning butun iqtisodiy mexanizmi tarkibiy qismi sifatida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining umumiy holati bilan shakllanadi. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar alohida turistik saytlarda e’tiborni jalb qilish, turistik oqimlarni oshirish, xizmat ko‘rsatish va qulaylik darajalarini yaxshilash hamda yangi eksklyuziv xizmatlarni yaratish uchun qo‘llanilmoqda. Mamlakatimizda innovatsion sog‘lomlashtirish texnologiyalaridagi mavjud masalalarni hal qilishda ayniqsa madaniy merosni saqlash, mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish darajasini rivojlantirish, sog‘lomlashtirish sohasining moddiy bazasini takomillashtirish muhimdir. Bu holatda innovatsion mahsulotlar (xizmatlar) turlarini yaratishda, sog‘lomlashtirish sohasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini turli yo‘nalishlarda rivojlantirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan axborot texnologiyalari alohida ahamiyatga ega.



3-rasm: Sog‘lomlashtirish turizmi klasterlari uchun kross-innovatsion marketing vositalari

Sog‘lomlashtirish turizmi sohasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarni joylashtirish bilan bog‘liq masalalarni hal qilish, sotishni ko‘paytirish va turistlarga minimal xarajatlar bilan asosiy xizmatlarni ko‘rsatish imkonini beruvchi kross-marketingdan foydalanish muhim hisoblanadi. Kross-marketingning mohiyati klasterdagi sog‘lomlashtirish turizmining bir necha biznes subyektlari tovar va xizmatlardan xabardorligini oshirish va savdoni rag‘batlantirish uchun qo‘shma harakatlarni shakllantirish, sog‘lomlashtirish turizmida xizmatlar iste’molchilari uchun

qo‘shma chegirma kartalarni berish, hamkorlar uchun axborotlarni qo‘llab-quvvatlash, hamkorlarga o‘zaro savdoni tashkil etish bo‘yicha imtiyozlar berish, mahsulotlar (xizmatlar) chegirmalari uchun reklama aksiyalarini o‘tkazish bilan izohlanadi.

Kross-marketingning eng asosiysi vositasi – hamkor tashkilotlarning xizmatlari yagona maqsadli auditoriya manfaatlariga qaratilgan bo‘lishi kerak. O‘zaro marketingni tashkil etish shartlari quyidagicha amalga oshiriladi:

- tadbirkorlik subyekti birgalikda ishni tashkil etish istagi bo‘lishi kerak va ularning integratsiyasi mijoz uchun qiziqarli bo‘lishi kerak;
- kross-marketing hamkori raqobatchi bo‘lmasligi kerak;
- hamkor tashkilotlar umumiy maqsadli auditoriyaga ega bo‘lishi kerak;
- sotilgan mahsulotlar (xizmatlar) yagona narx kategoriyasiga tegishli bo‘lishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida belgilangan vazifalar va amaliy natijalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Tadqiqot ishida ilmiy yangilik sifatida taklif etilayotgan Sog‘lomlashtirish turizmi klasterlari uchun kross-innovatsiyalar asosida sog‘lomlashtirish muassasalari faoliyatini boshqarishning alohida tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish va uzoq muddatli strategiyasini shakllantirish;

- modellashtirishga tizimli yondashuvdan foydalanish asosida ayrim yondashuvlarni shakllantirish;
- sog‘lomlashtirish turizmi klasterining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning joylashuvi, resurslar va infratuzilmasini hisobga olgan yondashuvlar yaratish;
- turdosh modellar gomeostatika tamoyilini hisobga olish;
- Sog‘lomlashtirish turizmining ichki zaxiralarini hisobga oluvchi modellarni shakllantirish va amaliyotga joriy etish;
- Sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatiga ichki va xorijiy investitsiyalarni muntazam va rejali jalb qilish asosida sohaning moddiy texnik bazasini kengaytirish va sohaga innovatsiyalarni keng jalb qilish;
- Sog‘lomlashtirish turizmi hududlarida turizm klasterlarini barpo etish (O‘zbekistonning barcha mintaqa va hududlarida mavjud sanatoriyalar, pansionatlar va dam olish maskanlarida qo‘shimcha ravishda turizmni barcha yo‘nalishlarini qamrab oladigan turistik obyektlar majmuyini qurish va bu orqali hududga ichki va xalqaro turistlarni jalb etish).

Ushbu tadqiqot ishimizning ilmiy yangiligi hisoblangan kross-innovatsiyalar asosida sog‘lomlashtirish klasterlarida innovatsion faoliyatni boshqarish va rejalashtirish asosida mavjud sog‘lomlashtirish xizmatlaridan foydalanish darajasini maksimallashtirish va xizmatlar taklifini samarali tashkillashtirishda sohada innovatsion salohiyatning resurs komponentlaridan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish sohaning rivojlanish davrini yanada qisqartiradi. Bu esa, sog‘lomlashtirish xizmatlari bozorida talab va taklif munosabatlarini yuqori to‘yinish nuqtasini belgilashga asos bo‘ladi hamda hududlar kesimida sog‘lomlashtirish xizmatlar bozorining rivojlanish diffuziyasini tezlashtiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi, aholining samarali bandligi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. Porter M. The competitive advantage of nations. – New York: The Free press. 1990. – P. 270 p.
3. Aleksandrova, A. (2007). Tourism clusters: contents, borders, operating mechanism // Contemporary problems of service and tourism. No 1. P. 51- 61.
4. Лапа Е. А. Развитие инновационной активности хозяйствующих субъектов туристско-рекреационной сферы. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Самара–2019. Стр–209.
5. Mirzayev, A. T. (2023). O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasini ko‘p variantli stsenariylarni ishlab chiqish asosida rivojlantirish istiqbollari. Gospodarka i Innowacje., 32, 119–126.
6. Mirzayev,A. T. (2020). Turistik-rekreatsiya klasterlarini boshqarishda innovatsion salohiyatning resurs komponentini baholash uslubiyoti. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (4), 390–401.
7. Topilovich, M. A. (2021). Economic evaluation of multiplicative efficiency on the basis of generalized indicators of resource components in tourist recreation activities. European Journal of Research Development and Sustainability, 2(6), 107–114.
8. Xomidov, K. (2023). O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo‘llari. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 154–160.
9. Homidov, K. (2023). Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(7), 44–50.
10. Homidov, K. (2023). Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(7), 33–38.



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDAGI KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

J. Y. Isakov
i.f.d, prof., TDIU

Annotatsiya: O‘zbekiston tijorat banklari aktivlarining tarkibida kreditlar eng yuqori salmoqni egallaganligi sababli banklarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bevosita kredit portfelini sifatiga bog‘liq. O‘z navbatida, banklar kredit portfelining sifatini yaxshilash kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Maqolada tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, kredit, kredit portfeli, kredit riski, zaxira, foiz stavkasi, foizli daromad, inflyatsiya, asosiy stavka, devalvatsiya.

Abstract: Loans occupy the largest share in the structure of assets of commercial banks in Uzbekistan, so the liquidity and financial stability of banks directly depend on the quality of the loan portfolio. In turn, improving the quality of the loan portfolio necessitates the improvement of credit risk management practices.

The article identifies topical problems associated with improving the practice of credit risk management and develops scientific proposals aimed at solving these problems.

Key words: commercial bank, loan, loan portfolio, credit risk, reserve, interest rate, interest income, inflation, base rate, devaluation.

Аннотация: Кредиты занимают самый большой удельный весь в структуре активов коммерческих банков Узбекистана, поэтому ликвидность и финансовая устойчивость банков непосредственно зависят от качества кредитного портфеля. В свою очередь, улучшение качества кредитного портфеля обуславливает необходимость совершенствования практике управления кредитным риском.

В статье выявлены актуальные проблемы, связанных с совршенствании практике управления кредитным риском и разработаны научные предложения, направленных на решение этих проблем.

Ключевые слова: коммерческий банк, кредит, кредитный портфель, кредитный риск, резерв, процентная ставка, процентный доход, инфляция, основная ставка, девальвация.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishiga amal qilish respublikat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan [1]. Bu esa, kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish masalasini dolzarb ekanligidandalolat beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

N. Sokolinskayaning fikricha, risklarni diqqat bilan kuzatish, sifatli kredit yig‘ma jildini shakllantirish, kreditlash jarayonini boshqarish uchun yaxshi ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lish kreditning sifat mazmunini ta’minlashning asosiy jihatlari hisoblanadi [2].

J. Sinkining xulosasiga ko‘ra, tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskining darajasini baholashda kredit oluvchi mijozning pul oqimini tahlil qilish muhim rol o‘ynaydi. Uning pul oqimi tahlili quyidagi dolzarb savollarga javob topish imkonini berishi kerak:

- mijozning sof foydasi uning uzoq muddatli qarzlarining joriy qismini to‘lash uchun yetarlimi?

- kompaniya aynan qancha miqdorda pul mablag‘lari oladi?
- kompaniya o‘z operatsiyalarini qanday moliyalashtiradi?
- kompaniyaning joriy holatini rahbariyatning qaysi xatti-harakatlari yoki qaysi tashqi ta’sirlar belgilaydi [3].

I. Yudinaning xulosasiga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlarda tijorat banklari aktivlarining daromadliligi bevosita kredit riski darajasiga bog‘liq bo‘lib, milliy valyutaning qadrsizlanishi natijasida xorijiy valyutada kredit olgan mijozlarni kreditni qaytara olmay qolishlari kredit riski darajasini oshib ketishiga olib keladi [4].

V. Usoskinning fikricha, bankning kreditlardan oladigan daromadlari bevosita risklarni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lib, ularning kredit portfeli risklarning barcha asosiy turlariga: likvidlilik riski, foiz riski, kredit riskiga moyildir [5].


A. Mian va A. Safining xulosasiga ko‘ra, uy xo‘jaliklarining o‘z risklarini nazorat qilish imkoniyatlari firmalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklangandir. Bu esa, uy xo‘jaliklariga berilgan kreditlarni o‘z vaqtida qaytmaslik ehtimolini oshiradi [6].

F. Xolmamatovning fikriga ko‘ra, tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish uchun kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida kreditlarning sifatini real baholash va ularga zaxira tashkil etish bo‘yicha quyidagi mezonlar taklif etilgan: substandart kreditlar bo‘yicha 1 foizdan 10 foizgacha; qoniqarsiz kreditlar bo‘yicha 11 foizdan 25 foizgacha; shubhali kreditlar bo‘yicha 26 foizdan 50 foizgacha; umidsiz kreditlar bo‘yicha 100 foizgacha [7].

Sh. Abdullayevaning xulosasiga ko‘ra, kredit portfelini resurslarning manbalari bo‘yicha deversifikatsiyalash natijalariga ko‘ra, ba’zi tijorat banklarining kredit portfelida markazlashgan kreditlar salmog‘ining yuqoriligini hisobga olish lozim va shu kreditlar bo‘yicha banklarga yengilliklar berish, ba’zi hollarda ulardan olingan daromadni soliqdan ozod qilish kabi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘lar edi [8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski darajasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, muammoli kreditlarning kredit portfelidagi ulushi hisoblanadi.



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning ulushi, foizda[1]

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kredit-larning ulushi 2019–2022-yillarda nisbatan yuqori bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkich, ayniqsa, 2021-yilda juda yuqori bo‘lgan.

Qayd etish joizki, respublikamiz tijorat banklarining muammoli kreditlari hajmida davlat banklarining muammoli kreditlari yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, davlat dasturlari doirasida berilgan, lekin qaytmagan kreditlarni tijorat banklariga qaytarib berilmaganligi bilan izohlanadi.

2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklari bo‘yicha muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 5,2 foizni tashkil qilgani holda, Xalq bankida ushbu ko‘rsatkich 19,7 foizni tashkil etdi [9].

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan taklif qilingan metodikaga ko‘ra, agar muammoli kreditlarning kredit portfelidagi ulushi 3,0 foizdan oshmasa, u holda, kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning darajasi mo‘tadil hisoblanadi [10].

1 Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

Kreditlar tijorat banklari aktivlarining tarkibida yuqori ekanligi sababli, kredit portfelining sifatini yomonlashishi ularning likvidliligiga va moliyaviy barqarorligiga nisbatan kuchli ta'sirni yuzaga keltiradi.

Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan yana biri bo'lib, kredit portfelining diversifikatsiya darajasi hisoblanadi.

1-jadval: AT "Asakabank" kredit portfelining tarmoq tarkibi, foizda[2]

Tarmoqlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Sanoat	71,9	62,8	68,2	70,6	67,2
Qishloq xo'jaligi	5,3	6,8	5,5	4,3	4,0
Transport va kommunikatsiya	0,6	1,2	1,9	1,8	1,8
Qurilish	7,1	1,2	1,2	1,3	1,0
Savdo va umumiy ovqatlanish	3,2	3,9	4,4	4,9	4,6
Moddiy-texnika ta'minoti	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
Uy-joy kommunal xo'jaligi	0,3	0,5	0,4	0,4	0,3
Boshqa tarmoqlar va sohalar (shu jumladan jismoniy shaxslar)	11,1	23,6	18,4	16,7	21,1
Jami	100	100	100	100	100

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018–2022-yillarda Asakabank tomonidan berilgan kreditlarning mutlaq asosiy qismini sanoat korxonalariga berilgan kreditlar tashkil etgan (60 foizdan yuqori). Bu esa, Asakabankda kredit portfelining diversifikatsiya mezoniga rioya qilinmaganligini ko'rsatadi.

Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan yana biri bo'lib, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalaning bankning brutto aktivlariga nisbatan darajasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomasiga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) asosan tasniflangan kreditlarning besh toifasi bo'yicha ham zaxira ajratmalari shakllantiriladigan bo'ldi:

- standart kreditlar – 1 %;
- substandart kreditlar – 10 %;
- qoniqarsiz kreditlar – 25 %;
- shubhali kreditlar – 50 %;
- umidsiz kreditlar – 100 % [11].

2-jadval: AT "Turonbank"da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori va darajasi[3]

	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori, mlrd. so'm	1,1	6.3	12,1	22,3	83,1
Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi (%)	0,1	0,2	0,2	0,3	0,8

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Turonbankda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori va bankning brutto aktivlariga nisbatan darajasi 2017–2021-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

2 Jadval muallif tomonidan AT Asakabankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.
3 Jadval muallif tomonidan AT "Turonbank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlarning ulushi 2019–2022-yillarda nisbatan yuqori bo‘lganligi, ushbu ko‘rsatkichni, ayniqsa, 2021-yilda juda yuqori bo‘lganligi kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashmaganligidan dalolat beradi;
- kreditlar tijorat banklari aktivlarining tarkibida yuqori ekanligi sababli, kredit portfelining sifatini yomonlashishi ularning likvidliligiga va moliyaviy barqarorligiga nisbatan kuchli ta’sirni yuzaga keltiradi;
- 2018–2022-yillarda Asakabank tomonidan berilgan kreditlarning mutlaq asosiy qismini sanoat korxonalariga berilgan kreditlar tashkil etganligi (60 foizdan yuqori) Asakabankda kredit portfelining diversifikatsiya mezoniga rioya qilinmaganligini ko‘rsatadi;
- Turonbankda kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori va bankning brutto aktivlariga nisbatan darajasini 2017–2021-yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganligi kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskining darajasiga ta’sir qiluvchi moliyaviy risklarning (inflyatsiya riski, deflyatsiya riski, devalvatsiya riski) ta’sir darajalarini aniqroq baholash imkonini beradigan baholash uslubiyotini ishlab chiqish kerak.

Bizga ma’lumki, inflyatsiya darajasining oshishi kreditlarning foiz stavkalarini oshishiga olib keladi. Bu esa, kredit riski darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Milliy valyutaning devalvatsiya sur’atining oshishi banklar tomonidan xorijiy valyutalarda berilgan kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishini qiyinlashtiradi.

2. Tijorat banklarining xalqaro kreditlari bo‘yicha kredit riskini baholashda Bazel qo‘mitasining kredit riskini baholash bo‘yicha standartlashgan yondashuvidan foydalanish lozim.

3-jadval: Bazel qo‘mitasi tomonidan kredit riskini baholash bo‘yicha tavsiya etilgan standartlashgan yondashuv [12]

Reyting	Riskka tortish koeffitsiyentlari (%)			
	Davlat va Markaziy banklar	Kredit tashkilotlari (1-variant)	Kredit tashkilot (1-variant) (qisqa muddatli talablar)	Yuridik shaxs
AAA dan A gacha	0	20	20 (20)	20
A+ dan A – gacha	20	50	50 (20)	50
VVV + dan VVV – gacha	50	100	50 (20)	100
VV + dan VV – gacha	100	100	100 (50)	100
V + dan V – gacha	100	100	100 (50)	150
V – past	150	150	150 (150)	150
Reytingsiz	100	100	50 (20)	100

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, standartlashgan yondashuvda kredit oluvchining suveren kredit reytingi qanchalik yuqori bo‘lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo‘ladi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.10.2021-y., 06/21/6325/0972-son; 30.12.2021-y., 06/21/42/1224-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son; 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son; 27.04.2023-y., 06/23/62/0232-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son.
2. Соколинская Н. Э. Проблемы менеджмента кредитного портфеля в современных условиях//Банковское дело. – Москва, 1999. - №9. – С. 18–19.
3. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.:Альпина Паблишер, 2017. – С. 485 - 486.
4. Юдина И. Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 230–231.
5. Усоскин В. М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.:ЛЕНАНД, 2019. – С. 218.
6. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 – 1726.
7. Xolmamatov F. K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I. f.b.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – B. 25.
8. Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarnning kredit portfelini diversifikatsiyalash. I. f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 43 b.
9. Tijorat banklarining muammoli kreditlari. 2022-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
10. Isakov J. Y. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish. I. f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – 28 b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 28-son, 374-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2018-y., 10/18/2696–2/1120-son.
12. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. http://www.bis.org.publications.

MEHNAT BOZORINING RAQAMLASHGAN IQTISODIYOTDAGI STATISTIK MASALALARI



A. Abduvohidov
I. f.d., prof., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitlarida mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarida faoliyat yuritishining obyektiv qonuniyatlarida xo‘jalik va jamiyat hayotini raqamlashtirilishi bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida milliy iqtisodiyotda mehnat bozori mehnat va ish o‘rinlarini taqsimlash mexanizmi sifatida nafaqat talab va taklifning umumiy nazariyasi doirasida, balki jamiyatning iqtisodiy resurslarini iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari va sohalari tizimida qayta taqsimlash nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Hozirgi vaqtda turli tarkibiy tasnifdagi katta hajmdagi ko‘p turdagi ma’lumotlarga ishlov berishning o‘ziga xos sohasi sifatida qaraladigan, axborot va raqamli texnologiyalar qo‘llaniladigan sanoat hamda xo‘jalik ijtimoiy faoliyat obyektlari shunday yo‘nalish va sohalar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’biri bilan aytganda “Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi”[1].

Shunday ekan, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida nazariy va metodologik nuqtayi nazardan mehnat bozorini o‘rganish mehnat bozorlarining klassik modelini o‘rganish usullari hamda konseptual qoidalariga muvofiq amalga oshirishni taqozo etadi. Ammo, iqtisodiy munosabatlarda axborot resurslarining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon bo‘lishi shartlariga qat’iy rioya qilinishi kerak, chunki bu namoyon bo‘lish mehnat bozori faoliyatida o‘ziga xos ta’sirga ega. Bu borada mehnat bozori bir vaqtning o‘zida mehnat va ish o‘rinlarini taqsimlash mexanizmi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning axborot resurslari va umumfoydalanish sifatidagi milliy axborot resurslaridan, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy, xususan, makroiqtisodiy jarayonlarni institutsional munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish sohasida ham samarali foydalanish mexanizmi sifatida qaralganda mehnat bozorini bunday talqin qilish asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning bandlik va ishsizlik darajasiga ta’sir ko‘lamini tasavvur qilish uchun, “Raqamli iqtisodiyot to‘g‘risidagi hisobot–2019: Qiymat yaratish va foyda olish: rivojlanayotgan mamlakatlar uchun oqibatlari” nomli BMT hisobotidagi (BMT, 2020) ma’lumotlarni keltirish mumkin. Hisobotda “Raqamli iqtisodiyot amaliy jihatdan deyarli barcha yo‘nalishdagi mashinada o‘qilishi mumkin bo‘lgan juda katta miqdordagi axborotlarni (raqamli ma’lumotlar) to‘plash, foydalanish va tahlil qilish xususiyatiga ega ekanligi tufayli shiddat bilan rivojlanishda davom etadi” deb ta’kidlanadi. Bunday raqamli ma’lumotlar turli raqamli platformalarda jismoniy shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki korxonalar faolligi natijasida qoladigan “raqamli izlar” tahlil qilish asosida to‘planadi. Ma’lumotlarga asoslangan iqtisodiyot rivojlanishining dastlabki bosqichida bo‘lishiga qaramay ma’lumotlar oqimining ko‘lami to‘g‘risida qiyosiy tasavvur qilishga imkon beradigan global Internet protokolining (IP) trafik hajmi 1992-yilda kuniga 100 Gbga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib sekundiga 45000 Gb dan ortib ketdi. Prognozlarga ko‘ra, 2022-yilga kelib global IP-trafik hajmi sekundiga 150,700 Gb ga yetadi, bu Internetda yangi foydalanuvchilarning ko‘payishi va buyumlar Internetining kengayishi natijasida yuzaga keladi”, – deb ta’kidlanadi Hisobotdan keltirilgan “Bunday raqamli ma’lumotlar, shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki korxonalar faolligi natijasida turli raqamli platformalarda qoladigan “raqamli izlar” tahlili asosida to‘planadi” degan jumlaga alohida e’tibor qaratish joyiz, bu jumla mehnat bozori faoliyatidagi o‘zgarishlar va ularni baholash usullari bilan bog‘liq muammolarning jiddiyligini ko‘rsatib beradi, chunki “shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki korxonalar” ning faolligi mehnat bozoridan tashqarida amalga oshirilishi mukin emas.

1 https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy–25–01–2020. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mehnat bozori ishlashining statistik baholash mezonlari tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish bu bozorini tadqiq qilishning asosiy konseptual muammolaridan biri hisoblanadi.

Mehnat bozorini ishchi kuchi va ish joylarini tarmoqlar va faoliyat turlari o‘rtasida taqsimlash mexanizmi sifatida klassik talqin qilishdan farqli o‘laroq, raqamli iqtisodiyotda bu mexanizm raqamli texnologiyalar (RP) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida uzluksiz ta’lim tizimning rivojlantirish xususiyatlarini belgilaydigan raqamli iqtisodiyot elementlarining shakllantirish va rivojlantirish maxsus omillarini e’tiborga olishi kerak. Ikkinchi talqin, shubhasiz, RT sohasi ishchilariga talabni shakllantirish va AKT sohasi uchun kadrlar yetkazib berish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyotdagi barcha yalpi talab va ishchi kuchi taklifi to‘plami doirasida RT sohasidagi ishchi kuchiga talabning va AKT sohasi uchun ishchi kuchi taklifi hajmi va tarkibi bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy ma’lumotlar kompleksidan foydalanishga imkon beruvchi tegishli axborot ta’minoti to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish muhimdir. Savolning bunday qo‘yilishi raqamli iqtisodiyotda mehnat bozori faoliyatining samaradorligini statistik baholash mezonlari mehnat bozori faoliyatining klassik modellari uchun qo‘llaniladigan baholash mezonlaridan farq qilishi bilan bog‘liq.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va raqamli platformalar (RP) ning iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishning yangi usullarining joriy etilishi yangi tarmoqlarni yaratishda rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi, chunki inson qobiliyatlari rivojlanib boraveradi, odatdagi ish va biznes, tadqiqot va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Har bir inson o‘z mahoratini oshirishi va yanada qiziqarli, yaxshi haq to‘lanadigan ish topishi mumkin. Bu yerda, raqamlashtirish sharoitida tirik va moddiylashtirilgan mehnat resurslaridan foydalanishga nisbatan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta’sirining ijobiy va salbiy tomonlarini ta’kidlash o‘rinlidir.

O‘zbekiston Respublikasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida milliy raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini tubdan takomillashtirish va iqtisodiyot tarmoqlariga tatbiq etish va zamonaviy internet texnologiyalarni turlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oxirgi 9 yil ichida mazkur ishlar samaradorligini oshirish va istiqbolda sohani rivojlantirish kompleks dasturiga muvofiq axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mamlakat YaIMdagi ulushi ijobiy tomonga o‘sgan.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyotni shakllantirish davrida mehnat bozori bo‘yicha axborotga ega bo‘lish juda muhim hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan firmalar, korxonalar, korporatsiyalar, banklar faoliyatidagi samarali bandlikni ta’minlash ular uchun malakali ishchi kuchini yetkazish zamon talablaridandir. Shunday ekan, mehnat bozori infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining muhim shart-sharoiti, vositasi bo‘lib, uning subyektlari o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlovchi mehnat bozori axborot tizimini shakllantirishdan iboratdir. Mehnat bozorida axborot tizimini takomillashtirish hududiy ish bilan bandlik xizmati organlari o‘rtasida yagona ish bilan bandlik siyosatini yuritish, ular o‘rtasida axborot kommunikatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yish transaksion xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlari beradi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirilishi natijasida tarkibiy ishsizlikning o‘sishi faqat qisqa muddatli davr uchun xos bo‘ladi. Uzoq muddatli davrda kamyob kasblardagi mehnatga to‘lanayotgan katta maosh yangi mutaxassislikni egallashga bo‘layotgan intilishni rag‘batlanib boradi. Masalan, hozirgi kunda blokcheyn-tarmoqda mutaxassislarga defitsit mavjud bo‘lib, bir xodimga 8–10 tagacha bo‘sh ish o‘rni to‘g‘ri kelishi mumkin. Bu tarmoqda eng kam i haqi to‘lanadigan lavozim dunyo bo‘yicha 3 ming AQSh dollaridan boshlanadi, bu esa insonlarga yangi bilimlarga ega bo‘lishga intilishiga rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Demak, korxonalarning samarasizligi sababli, iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy hayotni raqamlashtirish texnologiya va vositalari majmuasini keng joriy etish asosida ishni qayta tashkil eta olmaydigan ish o‘rinlarini yo‘qotish riski bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat va bandlik sohasidagi keskinliklar kuchayishi mumkin. Shuning uchun iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlarda xodimlarni boshqarish siyosatini tubdan qayta qurish zarur bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, raqamlashtirish jarayonlarining qisqa muddatli tarkibiy ishsizlikka ta’sirini baholash usullarini ishlab chiqish, chunki uzoq va o‘rta muddatli istiqbolda yangi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimida moslashuv yuz beradi, ish vaqtidan foydalanish bo‘yicha milliy ustuvorlik va qadriyatlardan kelib chiqib bandlikning nostandart shakllarini rivojlantirish asosida davlat tuzilmalari tomonidan ishsizlikning o‘sishini oldini olish choralari ko‘rilishi zarur.

DAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH



Karayev Payzillaxon Yusufxonovich
PhD., Namangan muhandislik-qurilish instituti

Annotatsiya: Maqolada byudjet tashkilotlari tomonidan g'aznachilikdagi byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy hisob raqamlardan xarajatlarni to'lab berilishi kassa xarajatlari ko'rinishida hisobda aks ettirilgan. Shuningdek, davlat oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritish va tahlil qilish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat oliy ta'lim tashkilotlari, byudjetdan tashqari mablag'lar, moliyaviy resurslar, byudjet tashkiloti.

Abstract: In the article, the payment of expenses by budget organizations from personal accounts for off-budget funds in the treasury is reflected in the account in the form of cash expenses. Also, the methods of cost accounting and analysis in state higher education organizations were considered.

Key words: state higher education organizations, extra-budgetary funds, financial resources, budget organization.

Аннотация: В статье оплата расходов бюджетными организациями с лицевых счетов внебюджетных фондов в казначействе отражается в учете в виде кассовых расходов. Также были рассмотрены методы учета и анализа затрат в государственных организациях высшего образования.

Ключевые слова: государственные организации высшего образования, внебюджетные фонды, финансовые ресурсы, бюджетная организация.

KIRISH

Respublikamizda davlat byudjetiga oid siyosatning olib borilishi, byudjet xarajatlari va daromadlarini doimiy kuzatib borish, byudjet nazoratini o'z vaqtida o'tkazilishi va byudjet tashkilotlarining faoliyatini qonun doirasida tashkil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Byudjet tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari bo'yicha hisob ishlari tashkil qilinadi. Byudjet tashkilotlari byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha buxgalteriya hisobini O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga, "Byudjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi 2169-sonli Yo'riqnomaga va boshqa normativ – huquqiy hujjatlarga asosan tashkil qiladilar.

Byudjet tashkilotlarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobini tashkil qilish mablag'larni smetalar doirasida sarflashning amaldagi qonunchilikka muvofiqligini ta'minlashga xizmat qilib, mablag'lar oqimini nazorat qilish uchun axborotlar bilan ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiq qilinayotgan sohani xorijiy olimlar tomonidan o'rganilishini ham ma'lum darajada o'rganish maqsadga muvofiqdir. Rus olimi Zavodchikov N. D., xarajatlarni boshqarish kerakligini taklif qiladi. Uning fikricha, ularni nafaqat qisqartirish, balki, birinchi navbatda, ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanish kerak. Xarajatlarning samaradorligi tashkilotning xarajatlari miqdorini ham, xarajatlarning samaradorlikka ta'sirini ham hisobga oladi.

G. E. Antipova "xarajatlar" va "xarajat" atamalari tushunchalarini ta'rifini beradi. Muallifning ta'kidlashicha, xarajatlar korxonani tashqi muhitda namoyon etishning hal qiluvchi ko'rsatkichidir, chunki xarajatlar – bu kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash uchun qiymat jihatidan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning sarflanishi.

A. V. Glushenko va Y. M. Egorovalar "xarajatlar universitetlarni rivojlantirish va strategik rivojlantirish hamda natijalarga erishishni ta'minlash uchun zamonaviy strategik universitetlarni buxgalteriya hisobi usullarini ishlab chiqishning juda yuqori ta'sir qiladigan elementlaridan biridir" deb ta'rif beradilar.

Xorijiy olimlarning bildirgan fikrlariga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish yuzasidan umumiy qarashlar va o‘ziga xos jihatlarni ko‘rish mumkin. Ularning bildirgan fikrlarini bir-birini to‘ldiruvchi qarashlar sifatida nomoyon bo‘lgan. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mualliflik ta’rifini quyidagicha keltirish mumkin:

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Byudjet tashkilotlarining o‘ziga xos jihatlaridan biri ularda kassa va haqiqiy xarajatlar hisobining yuritilishi hisoblanadi. Byudjet tashkilotlari tomonidan g‘aznachilikdagi byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha shaxsiy hisob raqamlardan xarajatlarni to‘lab berilishi kassa xarajatlari ko‘rinishida hisobda aks ettiriladi. Masalan, ish xaqi bo‘yicha moliyaviy majburiyatlar to‘lab berilganda, ya’ni tegishli soliqlar va ajratmalar o‘tkazilganda xodimlar plastik kartochkalariga ish xaqi o‘tkazib berilganda yoki kassadan berilganda kassa xarajati ko‘rinishida tegishli daftarlarda, hisobotlarda aks ettiriladi. Byudjet tashkilotlari tomonidan xarajatlar smetalari doirasida amalga oshirilgan, lekin to‘lab berilmagan xarajatlar haqiqiy xarajat ko‘rinishida hisobda aks ettiriladi. Masalan, smeta doirasida ish xaqi hisoblangan, lekin to‘lab berilmagan yoki ish, xizmatlar ko‘rsatilgan, tovarlar olingan, lekin to‘lab berilmagan xarajatlar haqiqiy xarajat ko‘rinishida tegishli daftarlarda, hisobotlarda aks ettiriladi. Kassa va haqiqiy xarajatlar hisobini yuritish uchun alohida 294 – shakldagi daftar yuritiladi, shuningdek, hisobot shakllarida ham aks ettiriladi. Byudjet tasnifi asosida hisobni tashkil etilishi va hisobotlarni shakllantirilishi – byudjet tashkilotlari tomonidan tuzilgan daromadlar va xarajatlar smetalari “O‘zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma” asosida 1-guruh, 2-guruh, 3-guruh, 4-guruhlar xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo‘yicha aks ettiriladi hamda ijrosi haqidagi buxgalteriya hisobotlari shakllarida ham byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo‘yicha axborotlar shakllantiriladi. Hisob raqamdagi byudjetdan tashqari mablag‘lar tushumi turlar bo‘yicha va xarajatlarning to‘lanishi iqtisodiy tasnif asosida amalga oshiriladi va hisobga olinadi.

Yagona schyotlar rejasi daromadlarni turlari bo‘yicha hisoblash, tushumini yuritish, xarajatlarni esa moddalari bo‘yicha hisoblash, amalga oshirish hamda daromadlar va xarajatlar bo‘yicha byudjetlar o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarini amalga oshirishda ma’lumotlarni to‘liq aks ettirish maqsadida daromadlarning turlari va xarajatlarning iqtisodiy tasnifi (qo‘shimcha analitik schyotlar) bilan yuritiladi.

Davlat oliy ta’lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritishda kassa va haqiqiy xarajatlarga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Byudjet tashkilotlarining kassa xarajatlari hisobi “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi”ning quyidagi subschyotlarida yuritiladi:

- 503000(232) – “Byudjetdan moliyalashtirish” subschyoti;
- 104410(110) – “To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag‘lar” subschyoti;
- 104420(111) – “Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar” subschyoti;
- 104430(112) – “Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari” subschyoti;
- 104440(113) – “Boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar” subschyoti.

Byudjet tashkilotlarining byudjet mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan kassa xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 503000(232)-“Byudjetdan moliyalashtirish” subschyotining kredit bo‘yicha aylanmasi bilan aniqlanadi. Bu aylanma summasi g‘azna ijrosiga o‘tmagan byudjet tashkiloti bo‘yicha uning bankdagi talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i, g‘azna ijrosiga o‘tgan byudjet tashkiloti bo‘yicha uning g‘aznachilik organidagi byudjet mablag‘lari bo‘yicha ochilgan shaxsiy hisobvaraqlari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha kassa xarajatlarini bildiradi.

Davlat ta’lim tashkilotlarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (2-sonli BHS) “Yagona schyotlar rejasi” ga muvofiq yangi qabul qilingan 6 xonali schyotlar tizimida o‘z faoliyatini olib bormoqdalar. G‘aznachilik bo‘linmalari, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarining va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalarining hamda byudjet tashkilotlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining byudjet hisobini ushbu standart orqali to‘liq tashkil qilinadi.

1 – jadval: Davlat ta’lim tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larning kassa xarajatlariga oid muomalalarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi[1]

Debet schyot (subschyot) nomi	Dt	Kt	Kredit schyot (subschyot) nomi
Yuqori tashkilot tomonidan quyi tashkilotlarga moliyalashtirib berilgan mablag‘lar summasi			
“Byudjetdan moliyalashtirish”	503000	104000	“Byudjet tashkilotlarining boshqa hisobraqamlardagi mablag‘lari”
Quyi tashkilotlarda yuqori tashkilot tomonidan moliyalashtirib berilgan mablag‘lar			
“Byudjet tashkilotlarining boshqa hisobraqamlardagi mablag‘lari”	104000	503000	“Byudjetdan moliyalashtirish”
Byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi			
“Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi”	102401	503000	“Byudjetdan moliyalashtirish”
O‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli bo‘yicha mablag‘larning hisoblanishi			
“Byudjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari”	153 600	520200	“Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan daromadlar”
O‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli bo‘yicha mablag‘larning kelib tushishi			
“Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushumlar”	102409	153600	“Byudjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari”
O‘qitishning to‘lov kontrakt shaklidan tushgan tushumlar			
“Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushumlar”	104 420	153 600	“Byudjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor qarzlari”
Ijara shartnomasiga asosan kelib tushgan mablag‘lar			
“Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi”	102 401	151 900	“Byudjet tashkilotlarining boshqa turdagi hisob-kitoblardan debitor qarzlari”
Boshqa qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan tushumlar bo‘yicha summalar			
“Boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar”	104440	151900	“Byudjet tashkilotlarining boshqa turdagi hisob-kitoblardan debitor qarzlari”

Byudjet tashkilotining boshqa daromadlar mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan kassa xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 104440(113) – “Boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar” subschyotining kredit bo‘yicha aylanmasi bilan aniqlanadi. Bu aylanma summasi byudjet tashkilotining g‘aznachilik organidagi boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha ochilgan shaxsiy hisobvaraqlari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha kassa xarajatlarini bildiradi. Bunda 104440(113) – “Boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar” subschyotining kredit bo‘yicha aylanma summasi muayyan byudjet tashkilotining g‘aznachilik organidagi boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha ochilgan shaxsiy hisobvaraqlari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha kassa xarajatlarining tiklanishi summasiga kamaytiriladi.

Byudjet tashkilotlarining haqiqiy xarajatlari hisobi “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi”ning quyidagi subschyotlarida yuritiladi:

- 710 000(231) – “Byudjet mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar” subschyoti;
- 720 000(241) – “To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” subschyoti;
- 730 000(251) – “Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” subschyoti;
- 740 000(261) – “Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” subschyoti;
- 750 000(271) – “Boshqa daromadlar bo‘yicha haqiqiy xarajatlar” subschyoti.

Byudjet tashkilotlarining byudjet mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 710 000(231) – “Byudjet mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar” subschyotining debet bo‘yicha aylanmasi bilan aniqlanadi. Bu aylanma summasi byudjet tashkilotining byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan (hisoblangan) xarajatlarini bildiradi.

Byudjet tashkilotini o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 730 000(251) – “Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt

1 Muallif tomonidan shakllantirilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” subschyotining debet bo‘yicha aylanmasi bilan aniqlanadi. Bu aylanma summasi byudjet tashkilotining o‘qitishni to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan (hisoblangan) xarajatlarini bildiradi.

2- jadval: Davlat ta’lim tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larning haqiqiy xarajatlariga oid muomalalarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi[2]

Debet schyot (subschyot) nomi	Dt	Kt	Kredit schyot (subschyot) nomi
Byudjet mablag‘lari bo‘yicha amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar			
“Byudjet mablag‘laridan hisoblangan haqiqiy xarajatlar”	710 000	301100	Hisob-kitoblar markazining ichki hisob-kitob markazlari mablag‘lari bo‘yicha majburiyatlari
Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan pul mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar			
“Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar”	730 000	301100	Hisob-kitoblar markazining ichki hisob-kitob markazlari mablag‘lari bo‘yicha majburiyatlari
Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar			
“Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar”	741 000	301100	Hisob-kitoblar markazining ichki hisob-kitob markazlari mablag‘lari bo‘yicha majburiyatlari
Qonunchilik hujjatlariga muvofiq soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar			
“Boshqa daromadlar bo‘yicha haqiqiy xarajatlar”	750 000	301100	Hisob-kitoblar markazining ichki hisob-kitob markazlari mablag‘lari bo‘yicha majburiyatlari
Yil oxirida hisobdan chiqarilgan maxsus turlarga doir hisob kitoblar bo‘yicha moliyaviy natija mablag‘lar bo‘yicha amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar			
“To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija	982 000	720 000	“To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar”
O‘qitishning to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha moliyaviy natijalari aks ettiriladi			
“Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natijalar”	983 000	730 000	“Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar”
Moliya yilining oxirida joriy yilga to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha moliyaviy natijalar			
“Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natijalar”	983 000	520 200 730 000	“Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan daromadlar” “Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar”
Foydalanilgan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar summasiga to‘g‘ri keluvchi qismi hisobdan chiqarilganda			
“Byudjetga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar”	986 000	730 000 740 000	“Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” “Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar”

Davlat ta’lim tashkilotlarining kassa va haqiqiy xarajatlarini hisobga olishda belgilangan me’yorlarga amal qilish muhim. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar yuzasidan kassa va haqiqiy xarajatlarni tahlil qilish orqali tashkilotlarning ushbu xarajatlar bilan bog‘liq faoliyatidagi o‘zgarishlar, yuzaga kelgan nomuvofiqliklar, amaliyotdagi muammolarni aniqlash mumkin. Kassa va haqiqiy xarajatlar bo‘yicha tahlil jarayonlarini umumiy ta’lim tashkilotlarida emas, balki bitta tadqiqot obyekti sifatida ko‘rish ular bo‘yicha keng qamrovli tahlil va tegishli xulosa chiqarishga sabab bo‘ladi.

2 Muallif tomonidan shakllantirilgan.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi Namangan muhandislik-qurilish institutida byudjet mablag‘lari xarajatlar smetasi ijrosi to‘g‘risidagi hisobot asosida tashkilotni moliyalshtirish rejasining haqiqiy va kassa xarajatlar bo‘yicha davriy o‘zgarishini tahlilini amalga oshirdik (2-jadval).

Ushbu ta’lim muassasasi xarajatlarini 2018-yildan 2022-yilgacha byudjet mablag‘lari bo‘yicha kassa hamda haqiqiy xarajatlari smeta xarajatlariga muvofiq o‘rganilgan va tasniflarga ajratib tahlil qilingan.

Ushbu jadvalda xarajatlarning byudjet tasniflari bo‘yicha kengroq tahlilini amalga oshirishdan asosiy maqsad xarajatlarning tarkibi bo‘yicha to‘liqroq xulosalarni shakllantirishdan iborat. Ko‘rsatkichlarga e’tibor bersak, deyarli barcha xarajat turlari bo‘yicha yillar davomida o‘sish holati yuz bergan. Faqat, 4821400 tasnifi bo‘yicha stipendiyalar hisobi deyarli barcha yillarda kassa va haqiqiy xarajatlar teng miqdorda bo‘lgan. Bu hisoblangan va to‘langan stipendiyalar miqdori teng bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Boshqa tasniflar yuzasidan xarajatlar miqdori tahlil qilinayotgan dastlabki yilga solishtirganda oxirgi yilda o‘sish xarakteriga ega bo‘lib, ijobiy natija ko‘rsatgan. 4250000 byudjet tasnifi bo‘yicha amalga oshirilgan moddiy aylanma vositalar zaxiralariga xarajatlarning kassa hisobi –4,9 mln. so‘mni tashkil qilgan. Shu bilan bir qatorda 4290000 byudjet tasnifi bo‘yicha telefon, telekommunikatsiya va axborot xizmatlari uchun ham kassa ham haqiqiy xarajatlarda mutanosib ravishda –22,9 mln. so‘m va –19,4 mln. so‘mni tashkil qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini sarflash yo‘nalishlari keltirilgan, Davlat oliy ta’lim tashkilotlarining daromad keltiradigan faoliyat turlari sanab o‘tilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi Davlat oliy ta’lim tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari xarajatlarini guruhlari bo‘yicha sarflanishini tahlil qilingan va bu tahlillar natijasida grafik shakllantirilgan, ushbu natijalar asosida xulosalar qilingan.

Byudjet tashkilotlarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha kassa hamda haqiqiy xarajatlarning hisobini yuritish bo‘yicha takliflar shakllantirilgan, kassa va haqiqiy xarajatlari yillar davomida solishtirilgan, ular bo‘yicha muammoli vaziyatlar o‘rganilgan va xulosalar shakllantirilgan.

Davlat ta’lim tashkilotlarida xarajatlarni tizimlashtirish, turkumlarga ajratib hisobga olish maqsadida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larni hisobini yuritish uchun ishchi schyotlar taklif qilingan. Taklif qilingan ishchi schyotlarni zaruriyati asoslangan. Davlat ta’lim tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larning haqiqiy va kassa xarajatlariga oid muomalalarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi tahlil qilingan.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi PF–5147-son “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.12.2019-y. 967-son “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida ”gi Farmoni. www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
5. O. S. Qarshiboyev, “Oliy ta’lim muassasalarining rivojlantirish jamg‘armasi xarajatlari hisobi”, Iqtisod va Moliya, №12, 2011-yil.
6. M. Ostonaqulov, “Byudjet tashkilotlarining daromadlari va xarajatlari”, Iqtisod va moliya ilmiy jurnali, №8, 2011-yil.
7. M. X. Saidov, “Oliy ta’lim tizimida moliyaviy boshqaruv”, o‘quv qo‘llanma – Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”, 2011-yil, 432 b.
8. A. A. Ostonokulov. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashkari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. – T.: “Vneshinvestprom” nashriyoti, 2021., 208 b.
9. J. S. Buribayev, “Byudjet xarajatlari hisobidan kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish”, Scientific progress, Volume 2, Issue 2, ISSN: 2181–1601, www.scientificprogress.uz, 2021-y.



АКТУАЛЬНАЯ СИТУАЦИЯ В СЕГМЕНТЕ ТЕНОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Кошанов Абдимурат
“Независимый исследователь Каракалпакского государственного университета”

Аннотация: В данной статье рассматривается текущее состояние теневой экономики в Республике Узбекистан. Освещается методика оценки теневого сектора.

Ключевые слова: налоги, теневая экономика, государственные финансы, фискальный механизм.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyotning hozirgi holati ko‘rib chiqiladi. Soya sektorini baholash metodologiyasi qamrab olingan.

Kalit so‘zlar: soliqlar, yashirin iqtisodiyot, davlat moliyasi, fiskal mexanizm.

Abstract: This article examines the current state of the shadow economy in the Republic of Uzbekistan. The methodology for assessing the shadow sector is outlined.

Key words: taxes, shadow economy, public finances, fiscal mechanism.

ВВЕДЕНИЕ

Теневая экономика в Узбекистане не находит своего отражения в мировых рейтингах за последние пять лет. Это свидетельствует не о полном отсутствии теневой экономики в нашей стране, а о том, что официальные органы не принимают участие в мировых оценках данного явления. Несмотря на это, проблема нелегальной торговли остается актуальной и продолжает развиваться.

Общий вывод заключается в том, что активное участие Узбекистана в мировых рейтингах за последние пять лет является результатом принятой государственной политики. Проведенные исследования влияния теневой экономики на ВВП Узбекистана в 2018–2021 годах показали, что ее доля составляет примерно 40–50%.

В сентябре 2021 года Министерство экономического развития и снижения бедности провело конференцию по теме “Теневая экономика в Узбекистане: оценка, причины и пути сокращения”. В ходе мероприятия открыто обсуждались проблемы данного явления. Это подчеркнуло его актуальность и привлекло внимание многих международных экспертов. Заявление Президента перед Высшим советом по данной проблеме подчеркнуло важность рассмотрения и решения этого вопроса.

КОММЕНТАРИЙ К ЛИТЕРАТУРЕ

Введение молодежи в официальную финансовую систему путем обеспечения их участия в официальной финансовой системе содействует созданию положительного воздействия на экономику. Это обусловлено тем, что официальные политики могут эффективно расширить действие политики по денежно-кредитному сектору. Действительно, повышенная ставка включения в финансовую инклюзию предоставляет возможность более эффективного применения политики по ставкам, как указано Mehrotra, A. и Yetman, J. Исследования показали, что центральные банки могут управлять политикой денежно-кредитного сектора более надежно и эффективно, если имеют более широкий круг агентов в официальной финансовой системе. Инклюзия также может привести к более эффективному распределению решений о вложении и портфельных решениях финансовых агентов. Поэтому повышенная финансовая инклюзия может иметь важное воздействие на инфляцию путем улучшения механизма стабилизации цен центрального банка.


Более того, инклюзивность также может способствовать улучшению стабильности финансовой системы, так как домашние хозяйства и предприниматели могут лучше адаптироваться к изменениям в ставках и кредитах. Xon H. R. и Tombini, A. отмечают, что повышенные ставки финансовой инклюзии могут быть более прочной и основной политикой. Повышенная финансовая инклюзия начинается с направления денежных потоков от публики к депозитам банков. Это дает возможность значительно увеличить долю ставок в операционном контроле, поскольку большая часть экономической деятельности подвергается наблюдению за ставками. Когда неформальные секторы более крупны, внедрение политики по денежно-кредитному сектору и ее наблюдение становятся более сложными, поскольку решения мелких предприятий и предпринимателей принимаются независимо от политики центрального банка. Кроме того, финансовая инклюзия может перемещать людей из финансовой экономики в банковскую экономику, поэтому они могут отслеживать свои финансовые операции.

Mehrotra, A. и Yetman, J. подчеркивают, что при введении в официальную финансовую систему большего числа агентов изменчивость производства снижается по сравнению с инфляцией, поскольку финансовые агенты могут лучше корректировать свои решения об инвестициях и портфельные решения. Таким образом, повышение финансовой инклюзии может оказать важное воздействие на инфляцию, улучшая механизм стабилизации цен центрального банка.

Более того, инфляция в некоторых странах может определяться ориентировочным индексом базовых цен, однако иногда этот индекс может быть выбран неправильно. Mbutor, MO, и Uba, IA. Исследовали влияние политики по денежно-кредитному сектору на стабильность финансовой инклюзии в Нигерии с 1980 по 2012 год. Их выводы подтверждают важную роль высоких уровней финансовой инклюзии, которые могут укрепить и улучшить финансовую стабильность. Однако, когда число филиалов банка увеличивается, это не приводит к результатам, так как банки чаще не предоставляют полную независимость в принятии решений о депозитах. Это указывает на то, что главная цель открытия новых филиалов для банков может быть не столько улучшение прибыли, сколько расширение возможностей финансовых операций.

АНАЛИЗ И ВЫВОДЫ

Если обратиться к Международному валютному фонду с запросом оценки уровня развития экономики в Узбекистане по критериям Мировой валютной организации, то схожие условия можно обнаружить в странах, таких как Украина и некоторые члены Мирового банка, включая Гамбию, Белиз, Конго, Гондурас и другие. Как подчеркнуто выше, существует несколько методов для определения уровня развития экономики, и мы применяем их для определения уровня развития экономики в Узбекистане.



1. рисунок: По данным, основанным на взаимосвязи между наличными деньгами и депозитами, определено точное количество развивающейся экономики[1]

В рамках данного исследования был использован метод, основанный на связи между наличными деньгами и депозитами Гутманна. С этим методом в период с 1997 по 2018 годы объем денежных средств в депозитах был изменен для определения объема развивающейся экономики. Для каждого

1 Аналитический доклад подготовлен в рамках проекта Программы развития ООН “Поддержка стратегических исследований по устойчивому развитию” на основе обобщения результатов исследования, проведённого группой национальных консультантов

года был рассчитан объем развивающейся экономики, используя модифицированный метод изменения денежных средств, исходя из стандартной формулы. Базовый год был 1997 год, в этот год уровень развития экономики был равен нулю. Модель начинается с нулевого объема развивающейся экономики в 1997 году и прогнозирует рост этого объема. Отношение наличных денег к депозитам было изменено с использованием метода модификации наличных денег и депозитов с 1997 по 2018 годы.

Стоит отметить, что изменения в объеме наличных денег и депозитов не являются условием для изменения спроса, так как они уже учитывают влияние инфляции и изменения населения. Коэффициент изменения отношения наличных денег к депозитам был рассчитан с использованием стандартной формулы, примененной к измененным наличным деньгам, до того как спрос на депозиты удовлетворяется. Подобный расчет показал, что с 2009 по 2018 год в Узбекистане было создано 39,7 процента развивающейся экономики.

Таким образом, в целом можно сказать, что объем развивающейся экономики в Узбекистане увеличился с 33,7 процента от уровня МВФ в 2009 году до 48 процентов в 2018 году.

Информация, представленная на рисунке выше, показывает, что экономика Узбекистана в течение последних нескольких лет демонстрирует тенденцию к росту. Согласно данным Министерства по развитию экономики и снижению бедности, в 2022 году объем развивающейся экономики составил 50% от Валового внутреннего продукта (ВВП).


Результаты исследования показывают, что с 2017 года наблюдается заметный рост объема развивающейся экономики, связанный с ростом наличности и депозитов. Обеспечение экономики наличностью выросло с 4,8% до 5,9% от ВВП, а доля наличных в общем объеме денежной массы увеличилась с 24,9% в 2017 году до 28,2% в 2018 году.

Следует отметить, что в 2020 году объем развивающейся экономики сократился с 56,9% в 2018 году до 48%. Это также отразилось на динамике денежной массы и ее распределении. Таким образом, результаты исследования подтверждают, что в Узбекистане с 2017 года наблюдается устойчивый рост наличных расчетов в экономике.

Необходимо также отметить, что изменения в соотношении наличных денег к депозитам, основанного на простых отношениях, являются важными индикаторами эффективности денежно-кредитной политики.

Таким образом, исследование показывает, что средний объем развивающейся экономики в Узбекистане составляет 40% ВВП.

Еще одним фактором, оказывающим влияние на объем развивающейся экономики, является дополнительная сумма добавленной стоимости. Преимущества, предоставляемые этой дополнительной суммой добавленной стоимости, зависят от возможностей предприятий, функционирующих в данной сфере. Кроме того, уровень рефинансирования в Узбекистане существенно ниже, чем в соседних странах. Например, в Киргизии и Таджикистане он составляет 12%, в то время как в Узбекистане этот показатель гораздо ниже. Это связано с тем, что узбекские производители имеют больше возможностей для этого. Поэтому мы анализируем взаимосвязь между этими двумя показателями.



3-рисунок: Связь между налоговым сбором с добавленной стоимости (НДС) и уровнем скрытой экономики[2]

2 DSQ va O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Из представленного выше графика видно, что объем поступлений в государственный бюджет от налога на добавленную стоимость (НДС) в течение периода пяти лет демонстрирует тенденцию к росту. Уменьшение ставки НДС с 20% до 15% сказалось на объеме налоговых поступлений с существенным влиянием.

В этом разделе нашей монографии мы проведем эмпирический анализ с целью выяснить, влияет ли увеличение объема поступлений от НДС на рост экономики, или она снижается? Мы попробуем проанализировать этот вопрос без проведения регрессионного анализа. Для выявления связи между этими показателями, мы рассмотрим коэффициент корреляции.

Эти показатели указывают на высокую положительную корреляцию между ними, что означает, что увеличение налогового сбора с добавленной стоимости (НДС) сопровождается ростом скрытой экономики. Мы можем предположить, что существует положительная взаимосвязь между уровнем НДС и размером скрытой экономики, что означает, что увеличение налогового сбора сопровождается ростом скрытой экономики. При этом необходимо учитывать, что некоторые транзакции в скрытом секторе могут оставаться незафиксированными из-за ограничений в механизме учета и взимания НДС. Также, эта политика может способствовать официальной предпринимательской активности в секторах с широким разнообразием экономической деятельности, где повышение НДС через ограничения может стимулировать официальную предпринимательскую инициативу. Эта политика может оказаться особенно эффективной в случаях, когда она способствует росту налогового платежеспособного способа участников рынка, так как предприниматели увеличивают свой спрос через увеличение спроса на товары и услуги. Если объемы спроса на товары и услуги не увеличиваются или увеличиваются незначительно в результате такого повышения НДС, то эта политика не будет эффективной. В этом контексте сотрудники налоговых органов должны оценить, насколько изменение ставки НДС повлияет на изменение цен, основанных на уровне спроса на товары и услуги.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В Республике Узбекистан существует положительная корреляция между налоговыми поступлениями от добавленной стоимости и уровнем скрытой экономики. Асимметрия информации также оказывает влияние, поскольку предприятия могут снижать свой доход, предоставляя менее точные или недостоверные финансовые отчеты, либо уменьшая налоговые выплаты. Это может привести к тому, что компании не могут получить кредиты в банках, что, в свою очередь, влияет на их рост. В хуфионной экономике предприниматели активно скрывают свои доходы и устраивают свои финансовые отчеты таким образом, чтобы избежать уплаты налогов и социальных взносов в первую очередь. Индекс открытости сделок также воздействует на уровень скрытой экономики, так как его рост способствует увеличению скрытой экономики. Налоговые поступления также влияют на уровень скрытой экономики, и рост налоговых поступлений сопровождается увеличением скрытой экономики. Высокие налоги обычно не стимулируют предприятия работать в теневой экономике, так как если доход после уплаты налогов недостаточно высок, они могут предпочесть перейти в неофициальный сектор.

Список литературы:

1. Mehrotra, A., & Yetman, J. (2014). Финансовая инклюзия и оптимальная денежно-кредитная политика, (Рабочий документ №476). BIS. Получено с https://www.bis.org/publ/work476.pdf.
2. Khan, H. R. (2011, 4 ноября). Финансовая инклюзия и финансовая стабильность: две стороны одной медали? Лекция, представленная на BANCON 2011. Получено с https://www.bis.org/review/r111229f.pdf
3. Tombini, A. (2012): “Вступительное слово”, IV Форум Центрального Банка по финансовой инклюзии, Порту-Алегри, 29 октября.
4. Khan, H. R. (2011, 4 ноября). Финансовая инклюзия и финансовая стабильность: две стороны одной медали? Лекция, представленная на BANCON 2011. Получено с https://www.bis.org/review/r111229f.pdf.
5. Mehrotra, A., & Yetman, J. (2014). Финансовая инклюзия и оптимальная денежно-кредитная политика, (Рабочий документ №476). BIS. Получено с https://www.bis.org/publ/work476.pdf
6. Mbutor, M. O., & Uba, I. A. (2013). Воздействие финансовой инклюзии на денежно-кредитную политику в Нигерии. Журнал экономики и международных финансов, 5(8), 318–326. doi: https://doi.org/10.5897/JEIF2013.0541
7. Williams, C. C. and Schneider, F. (2016). Измерение мировой теневой экономики: распространенность неформальной работы и труда. Издательство Edward Elgar, Великобритания.
8. Loayza, N. V. (1996), Экономика неформального сектора: простая модель и некоторые эмпирические данные из Латинской Америки, Карнеги-Рочестерская конференция по публичной политике, 45, 129–162.
9. Zellner, M. (1970). Самооценка, восприятие и влияние. Журнал личности и социальной психологии, 15(1), 87–93.



O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOB VA HISOBOTNI MHXSLARIGA TRANSFORMATSIYA QILISHDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Qurbonova Shaxrinoz
Farg‘ona politexnika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada asosiy vositalarni BHMS va MHXSlari asosida tan olish mezonlari tahlili, asosiy vositalarni kirimi, chiqib ketishi, qadrsizlanishi, amortizatsiyasi hisobini o‘ziga xos jihatlari, moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar to‘g‘risidagi axborotlarni ochib berish shaffofligini investitsiya muhitiga ta’siri masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: asosiy vositalar, adolatli qiymat, investitsion mulk, sotish uchun mo‘ljallangan asosiy vositalar, qadrsizlanish, amortizatsiya, eskirish, moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, tugatish qiymati, baholash, tan olish.

Abstract: The article examines the analysis of the criteria for recognition of fixed assets based on the National Accounting Standards and IFRS, the issues of the impact on the investment environment of transparency of disclosure of information about fixed assets in financial statements, specific aspects of accounting for receipts, disposals, depreciation, depreciation of fixed assets.

Key words: fixed assets, fair value, investment property, fixed assets for sale, depreciation, impairment, depreciation, reporting of financial difficulties, cost of termination, valuation, recognition.

Аннотация: В статье рассматривается анализ критериев признания основных средств на основе НСБУ и МСФО, вопросы влияния на инвестиционную среду прозрачности раскрытия информации об основных средствах в финансовой отчетности, специфические аспекты учета поступления, выбытия, амортизации, износа основных средств.

Ключевые слова: основные средства, справедливая стоимость, инвестиционная собственность, основные средства для продажи, амортизация, обесценение, износ, отчетность о финансовых затруднениях, стоимость прекращения, оценка, признание.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishi soha va tarmoqlarga kiritiladigan investitsiyalar hajmiga bog‘liq. Investorlar tomonidan samarali investitsion qarorlar qabul qilishda xolis, shaffof, ishonchli axborotlar muhim rol o‘ynaydi. Bu axborotlar odatda korxonaning moliyaviy hisobotlari orqali olinadi. Korxonaning moliyaviy hisobotlaridagi aktivlar va majburiyatlar, moliyaviy natijalar bo‘yicha ochib berilgan axborotlar, moliyaviy hisobotlarni tahlili natijasida olingan moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlar mazkur biznes subyektiga investitsiya yotqizish, ya’ni qimmatli qog‘ozlar(aksiya, obligatsiya)ni sotib olish yoki boshqa tur va shakllarda investitsiya kiritishga turtki beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4611-son qarori mamalakatimizda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish hamda yuritish borasida tub burilish yasadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu qarorning qabul qilinishidan maqsad moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iborat edi.

Mazkur qarorda 2021-yil 1-yanvardan boshlab, mamalakatimizdagi barcha yirik soliq to‘lovchi korxonalar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashlari va taqdim etishlari belgilab qo‘yildi. Bu o‘z navbatida moliyaviy hisob va hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqqaro standartlari asosida yuritadigan korxonalar uchun asosiy vositalar hiso-

bini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish maqsadida asosiy vositalarni tan olish, ularni hisobdan chiqarish, baholash va qadrsizlanishga aniqlash yo‘nalishlarida bir qator mezonlarni tanlab olish zaruratini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida tan olinishi, baholanishi, amortizatsiyasi bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olb borganlar. 20-asrni oxirigacha olib borilgan tadqiqotlarda asosiy vositalar tushunchasi bilan asosiy fondlar tushunchasi yoki atamasi bir xil ma’noni bergan. Asosiy fondlar tushunchasi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar to‘plamini o‘z ichiga olgan. Lekin 21-asrni boshlariga kelib fan, texnika taraqqiyoti, intellektual mulklarning turli ko‘rinishlarini paydo bo‘lishi va ishlab chiqarishda qo‘llanilishi nomoddiy aktivlarni asosiy vositalardan alohida qilib, ajratib olinishini taqazo etdi. Shu sababli ayrim eski adabiyotlarda yoki tadqiqot ishlarida asosiy vositalar haqida fikr yuritilganda ularni asosiy fondlar deb yuritiladi.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor D. Kudbiyev asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif beradi:”Asosiy fondlar uzoq vaqt davomida moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida ishlaydi, tabiiy shaklini saqlab qoladi va eskirganligi- yaroqsizligi sababli asta-sekin, qismlab, foydalanish o‘lchoviga (holatiga) qarab o‘z qiymatini yo‘qotadi. Moddiy ishlab chiqarishda asosiy fondlar yo‘qotgan qiymatini ular yaratgan mahsulotga o‘tkazadi” [1].

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor I. N. Ismanov fikricha “Asosiy vositalar – bu kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan, korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar” [2].

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Z. N. Kurbanov esa “Asosiy vositalar tovarlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish va xizmatlarni ko‘rsatish, ijaraga berish yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan, uzoq davr davomida ishlatiladi, o‘zini natural shaklini o‘zgartirmaydi, faqat eskirish qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot (ko‘rsatilgan xizmat) tannarxiga yoki davr xarajatlariga o‘tkazib boradi” [5].

A. Q. Shakarov ta’rifi bo‘yicha asosiy vositalar “...sanoat binolari, inshootlar, kuch va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, ishlab chiqarish uskunalari, transport vositalari va boshqa turdagi asosiy vositalar” [6].

M. Z. Pizengoltsga ko‘ra asosiy vositalar “...inson o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida mehnat obyektlariga inson ta’sirini o‘tkazuvchi sifatida foydalanuvchi mehnat vositasidir” [7].

V. K. Sklyarenko, V. M. Prudnikovalar esa “asosiy vositalar – uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish jarayonida faoliyat ko‘rsatadigan, butun davr mobaynida o‘z tabiiy va moddiy shaklini saqlab qoladigan va amortizatsiya to‘lovlari shaklida eskiradigan mahsulotlarga o‘z qiymatini qismlarga bo‘lib o‘tkazadigan ishlab chiqarish, moddiy va moddiy qiymatliklar majmuyi” deb ta’rif berishadi. [8]

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent G. M. Raximova o‘z ilmiy ishlarida asosiy kapital, asosiy fondlar, uzoq muddatli aktivlar va asosiy vositalar terminlari mazmun-mohiyati bo‘yicha turli ilmiy yondashuvlar mavjud ekanligini ta’kidlagan holda “asosiy kapital takror ishlab chiqarilgan ishlab chiqarish vositalarini ifodalaydi: ishchilarning mehnat qilish ko‘nikmalari, moddiy resurslardan foydalanganda qayta ishlab chiqiladi. Fikrimizcha, bundan tashqari, asosiy kapital tarkibiga nafaqat mehnat vositalari, bino va inshootlar, balki ishchilar mehnati ham kirishi mumkin” deya fikr bildiradi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda asosiy vositalar hisobini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4611-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Asosiy vositalar” nomli 5-son BHMS, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2004-yil 16-avgustdagi 101-sonli “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni(yangi tahrirdagi) tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i va unga ilova qilingan “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, 21-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida” nomli BHMS, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida” Nizom, “Asosiy vositalar” nomli 16-son BHXS, “Investitsion mulk” nomli 40-son BHXS, “Aktivlarni qadrsizlanishi”

nomli 36-son BHXS, “Ijara” nomli 17-son BHXS, “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat” nomli 5-son MHXS, “Haqqoniy qiymatni baholash” nomli 13-son MHXS va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra “Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir. Buxgalteriya hisobi obyektlari sintetik va analitik hisoblarda yuritiladi” [10].

Bizga ma’lumki aktivlar o‘z navbatida ikki qismga qisqa muddatli va uzoq muddatli aktivlarga turkumlanadi. Asosiy vositalar uzoq muddatli aktivlarning asosiy qismini tashkil etadi. Shu sababdan asosiy vositalar hisobi buxgalteriya hisobini asosiy obyektlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif berilgan – “O‘zbekiston Respublikasida standart (to‘plam) uchun belgilangan (asosiy vosita sifatida e’tirof etilgan sanadagi), qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan yuqori bo‘lgan, soliq to‘lovchida mulk huquqi asosida turgan (agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa) va soliq to‘lovchi tomonidan tovarlarni ishlab chiqarishda (xizmatlar ko‘rsatishda) yoki ma’muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o‘n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalaniladigan mol-mulk soliq solish maqsadlarida asosiy vosita deb e’tirof etiladi” [11].

Shuningdek, mazkur kodeksda korxonalar soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatida mol-mulk qiymatini asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun mol-mulkning eng kam chegarasini belgilashga haqli ekanligi ta’kidlangan.

Mamlakatimizda yaqin yillargacha barcha xo‘jalik subyektlari buxgalteriya hisobida asosiy vositalar hisobini tashkil etish, ya’ni ularni tan olish, baholash, amortizatsiyasi 5-son “Asosiy vositalar” nomli BHMSda tartibga solingan. Mazkur BHMSda asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif berilgan: “Asosiy vositalar – korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar” [12].

BHMS talabiga ko‘ra bir vaqtning o‘zida bir yildan ortiq xizmat muddatiga ega, bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar kiradi. Shu bilan birga korxona rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilash huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2004-yil 16-avgustdagi 101-sonli “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni(yangi tahrirdagi) tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i va unga ilova qilingan “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda asosiy vositalarni korxona balansidan chiqib ketishi tartiblari bayon etilgan. Xususan asosiy vositalar qiymati quyidagilar natijasida balansdan chiqib ketishi ko‘rsatilgan:

- tugatilish (yo‘q qilinishi);
- sotib yuborilishi;
- almashtirilishi;
- boshqa korxonaga tekinga berib yuborilishi;
- boshqa korxonaga ta’sis maqsadlarida ustav kapitali sifatida o‘tkazilishi;
- boshqa korxonaga moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi asosida berilishi;
- inventarizatsiya natijasida yo‘qligi aniqlanganda;
- ta’sischilardan biri chiqib ketayotgan asosiy vosita bilan hisob kitob qilinganda.

Nizom asosiy vositalar chiqib ketishi jarayonlarini buxgalteriya hisobi provodkalarida aks ettirish va ularni hujjatlashtirish tartiblarini belgilaydi [13].

21-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida” nomli BHMS asosiy vositalar hisobi bilan bog‘liq barcha jarayonlarni, ya’ni asosiy vositalar bilan bog‘liq kapital qo‘yilmalar orqali kirib kelishi, baholanishi, amortizatsiyasi, inventarizatsiyasi, qayta baholanishi va chiqib ketishi bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya provodkalarida aks ettirish tartibotlarini belgilaydi [14].

Asosiy vosita sifatida tan olish masalasini Buxgalteriya hisobining Milliy standarti bilan Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari o‘rtasidagi ahamiyati shundan iboratki BHMS asosiy vosita sifatida tan olingan aktivlarni barchasi ham MHXS bo‘yicha asosiy vosita sifatida tan olinavermaydi. BHMS bo‘yicha asosiy vosita sifatida tan olingan asosiy vositalar BHXS va MHXSlari bo‘yicha 3 turdagi aktivga ajratiladi. Ya’ni asosiy vositalar, investitsion mulk va sotish uchun mo‘ljallangan asosiy vositalar.

MHXSlari mezonlari bo‘yicha asosiy vosita kompaniyaning asosiy faoliyati, ya’ni ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish yoki ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita qatnashishi, savdo, boshqaruv jarayonlarida bilvosita qatnashishi, qiymati amortizatsiya ajratmasi sifatida mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga ma’lum bir davr (kamida 1 yil) mobaynida kiritib borish orqali qoplanadigan aktivdir.

“Asosiy vositalar” nomli 16-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standartida asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif berilgan – “Asosiy vositalar – quyidagilar uchun mo‘ljallangan moddiy aktivlardir:

a) mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki xizmatlarni ko‘rsatish, yoki boshqa tomonlarga ijaraga berish, yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljalangan; va
b) bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalanilishi kutilgan”.

Bu standartda asosiy vosita sifatida tan olinishi uchun aktiv(mehnat quroli)ning qiymatiga biron bir cheklov yoki talab qo‘yilmagan.

Investitsion mulk esa, kelajakda qiymati ortishi orqali yoki ijaraga berish orqali daromad olinadigan aktivdir. Bu aktiv ko‘chmas mulk, yer, transport vositalari va boshqalar bo‘lishi mumkin. Lekin bu aktivlar kompaniyaning ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish va ishlar bajarish jarayonlarida bevosita ham bilvosita ham ishlatilmaydi yohud foydalanilmaydi, shuningdek ular odatdagi xo‘jalik faoliyati bo‘yicha sotishga mo‘ljallangan mulk bo‘lmasligi kerak.

“Investitsion mulk” nomli 40-son BHXSda investitsion mulkka quyidagicha ta’rif berilgan: “Investitsion mulk – bu ijaradan daromad olish maqsadida yoki kapitalning qiymati oshishi uchun yoki ikkalasi uchun (mulk egasi yoki moliyaviy ijara shartnomasi asosida ijaraga oluvchi tomonidan) egalik qilinayotgan mulk (er yoki bino – yoki binoning qismi – yoki ikkalasi) bo‘lib, bunga quyidagi mulklar kirmaydi:

a) ishlab chiqarishda yoki tovarlar yetkazib berish yoki xizmatlar ko‘rsatishda yoki ma’muriy maqsadlarda foydalaniladigan; yoki
b) odatdagi xo‘jalik faoliyatidagi sotishga mo‘ljallangan mulklar”.

Sotish uchun mo‘ljallangan asosiy vositalarga ularning balans qiymati ulardan foydalanish natijasida amortizatsiya hisoblash orqali qoplash bilan emas, balki faqat sotish orqali qoplanadigan aktivlar kiradi. Bu turdagi aktivlarni zaxiralardan farqi kompaniya bu aktiv(asosiy vositalar)dan muqaddam foydalangan, ularga amortizatsiya hisoblagan va keyinchalik ularni sotishga axd qilgan bo‘lishida.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida asosiy vositalarni moliyaviy hisobini yuritish va hisobotlar tuzish undan foydalanuvchilarda kompaniya asosiy vositalari to‘g‘risida real, shaffof axborotlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Chunki, korxonaning ijaraga bergan asosiy vositalari yoki keyinchalik qiymati ortishi prognozi asosida foyda olish maqsadida egalik qilayotgan mulklari investitsion mulk sifatida hisobga olinishi va moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot(balans)da asosiy vositalar qiymatini kamaytiradi. Kompaniyaning iqtisodiy nafi past bo‘lgan asosiy vositalardan yoki ayrim rentabelligi oz faoliyat qismidan voz kechish maqsadida ularni sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar toifasiga o‘tkazishi ham moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot(balans)da asosiy vositalar qiymatini kamaytiradi.

Kompaniyaning moliyaviy holat to‘g‘risidagi(balans) hisobotida asosiy vositalar to‘g‘risidagi axborotni bu tarzda – faqat ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, ishlar bajarish va ma’muriy boshqaruv hamda savdo faolitida foydalanilayotgan asosiy vositalar bo‘yicha ochib berilishi, hisobotdan foydalanuvchilarda, ya’ni mulk egalarida, korxonaga investitsiya kiritishni mo‘ljallayotgan potensial investorlarda hisobotlarni real tahlilini amalga oshirish imkoniyatini yaxshilaydi. Chunki asosiy vositalar qiymati kompaniya rentabelligini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кудбиев, Д. (2022). Особенности Учета Основных Средств В Узбекистане. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 142–149.
2. I. N. Ismanov. “Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi.2009-y.
3. Z. N. Kurbanov. Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobining dolzarb masalalari. “Экономика и социум” № 6(85) ч. 1 2021 752–763-b.
4. Shakarov A. Q. Asosiy vositalar hisobi va nazoratini tashkil qilish (mulkchilikning turli xil shakllarida): iqt. fan. nomz. Diss. avtoref. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2000.
5. Пизенгольц М. З. Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве [Текст] / М. З. Пизенгольц. – Москва: Инфра-М, 2014. – 520 с
6. Скляренко В. К., Прудников В. М. Экономика предприятия, изд. 2. – Москва: Инфра-М, 2019. – 256 с.
7. Guzalbegim Murodovna Raximova. Asosiy vositalar hisobining nazariy asoslari. ILM-FAN elektron jurnali. 08.01.2021-y.



ERKIN IQTISODIY HUDUDLARDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH MASALALARI

Qilicheva Kamola Muzaffarovna
Toshkent moliya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish tendensiyalari tahlil etilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada faollashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: harakatlar strategiyasi, xorijiy investitsiya, erkin iqtisodiy zona, O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, soliq imtiyozlari, infratuzilma tarmoqlari, investitsion faollik, megapolis.

Abstract: This article analyzes trends in the creation and development of free economic zones in Uzbekistan. According to the analysis, it was proposed to strengthen the attraction of foreign investment in these zones.

Key words: Action strategy, foreign investment, free economic zone, Fund for Reconstruction and Development of Uzbekistan, tax incentives, infrastructure, investment activity, metropolis.

Аннотация: В данной статье анализируются тенденции создания и развития свободных экономических зон в Узбекистане. Согласно результатам анализа, в этих зонах было предложено усилить привлечение иностранных инвестиций.

Ключевые слова: Стратегия действий, иностранные инвестиции, свободная экономическая зона, Фонд реконструкции и развития Узбекистана, налоговые льготы, инфраструктура, инвестиционная деятельность, мегаполис.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va hudud korxonalarining innovatsion faoliyatini jadallashtirish, modernizatsiyalash sharoitida esa investitsiyalarni samarali boshqarish va bu boradagi va zifalarni izchil amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatda investitsion faoliyatdagi tavakkalchilikning yuqoriligi, investitsion muhitni shakllantirishning mintaqalar uchun moslashuvchan modellarining qo‘llanilmasligi, erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilayotgan loyihalarning yakunlanmasligi, potensial va istiqbolli investorlarning samarali faoliyatini ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Investitsion muhit jozibadorligini oshirish yo‘nalishi sifatida “mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ish joylarini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish hamda hududlarni obodonlashtirish va xalq farovonligi darajasini oshirish” [1] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi respublikamizda investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirishni taqozo etadi.

Shunday qilib, erkin iqtisodiy hudud – bu mamlakat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy, demografik mezonlari va ehtiyojlari bilan belgilangan, maxsus maqsadli yo‘naltirilgan chegaralangan bir qismidir. Bunday hudud davlatning turli xil boshqaruv pog‘onalari va hokimiyat organlari tomonidan, chet el investorlariga erkin iqtisodiy hududlar turiga muvofiq tarzda taqdim etiladigan iqtisodiy imtiyozlarning muayyan to‘plami bilan tavsiflanadi. Erkin iqtisodiy hudud maxsus tashkil etiladigan yoki oldindan mavjud respublika yoki mintaqaviy tuzilmalar tizimida faoliyat yuritadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TANQIDIY TAHLILI

E. F. Avdokushin va Y. Gorbunovalarning [2] tadqiqotlarida erkin iqtisodiy hududlar “Maxsus iqtisodiy hudud” sifatida talqin etilgan. Ularning yondashuvi bo‘yicha bunday hududlar boshqa hududlarga nisbatan davlat aralashuvining kamayishi va iqtisodiy erkinligining ortishi ekanligi asoslangan.

Babinsev va Valliulinlar [3] tadqiqotlari esa “Alohida iqtisodiy hudud” termini ishlatilgan. A. Shermuhammedov tomonidan “Ochiq iqtisodiy mintaqa” termini ishlatilgan [4]. Biroq “ochiq” so‘zining rus va boshqa tillardagi ma’nosi erkin iqtisodiy hududga mos emas va tor ma’no kasb etadi. Jahon olimlarining e’tirofi bo‘yicha erkin iqtisodiy hududlarni ochiq hududlar sifatida ham qayd qilish holatlari mavjud.

Erkin iqtisodiy hududning eng muhim belgilari to‘g‘risida ham bir qator ilmiy-nazariy yondashuvlar mavjud. Rus olimi S. G. Ovchinnikova tomonidan “erkin tadbirkorlik hududi” termini ilgari surgan [5], A. Leusskiy esa “O‘ziga xos bojxona tartibi o‘rnatilgan hudud” sifatida qayd etadi [6]. Tadqiqotchilar N. Smorodinskaya, V. Babinsev, X. Valliulinlar esa “erkin iqtisodiy zonaning asosiy sharti imtiyozlarda ekanligini ta’kidlaydi [7]. V. Papovning fikricha esa erkin iqtisodiy zonalar shunday hududlarki, bu boshqa hududlardan alohida ajratilgan davlat tomonidan maxsus imtiyoz va qulayliklar berilgan bu afzalliklar davlatning biror boshqa yerida yoki iqtisodiy tarmog‘ida kuzatilmaydi [8] degan fikrlarni ilgari suradi. T. P. Dankoning talqinicha erkin iqtisodiy hududlarni “...qulay investitsiya muhitini yaratish hamda ishlab chiqarishni, savdo-sotiqni, ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmi” sifatida baholaydilar [9].

A. V. Vaxabov, Sh. X. Xajibakiyev, N. G. Muminovlarning fikricha, “Erkin iqtisodiy hudud – bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiyot amal qiladigan chegaralangan hududdir [10]”, deya ta’riflar keltirib o‘tilgan. S. S. Mirzaliyeva tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, “Erkin iqtisodiy zona – mamlakat (yoki mamlakatlar) hududining muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida barpo etiladigan, maxsus ma’muriy boshqaruvga va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning imtiyozli rejimiga ega bo‘lgan qismidir” [11]. Sh. I. Mustafaqulovning ta’kidlashicha, erkin iqtisodiy hudud – bu mamlakatning imiji ham. Erkin iqtisodiy hududlar, hatto, yomon faoliyat yuritgan taqdirda ham mamlakatni liberallashuviga xizmat qiladi. Erkin iqtisodiy hudud qaysi mamlakatda, uning qaysi hududida yaratilmasin, u ijtimoiy loyihadir. Hududni yaratish nafaqat hudud uchun qo‘shimcha daromad keltiradi, balki butun mamlakat uchun turli shaklda foydali qaytim beradi [12]. S. S. Bozarovning tadqiqot ishlarida erkin iqtisodiy zona davlatning iqtisodiy va geografik jihatdan qulay hududida tashkil etiladigan, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiradigan va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta’minlaydigan, alohida imtiyozlar majmuyini o‘z ichiga olgan huquqiy rejimga ega bo‘lgan hamda chet el elementi bilan murakkablashgan turli huquqiy munosabatlar amalga oshiriladigan maxsus ajratilgan hudud sifatida ko‘rilgan [13]. A. A. Ostonaqulov tadqiqotlariga ko‘ra, erkin iqtisodiy zona – ... iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning hududiy uslubi sifatida foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish uchun tashkil etilgan hududdir, deya mualliflik ta’rifi berilgan [14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jahon tarixidan ma’lumki, erkin iqtisodiy zonalar shaklan va mazmunan rivojlanib kelmoqdalar. Birinchi marta u “Erkin savdo zonasi” shaklida tashkil qilingan bo‘lsa, keyinchalik “Alohida iqtisodiy zona”, “Erkin iqtisodiy zona”, “Erkin tadbirkorlik zonasi”, “Erkin ishlab chiqarish zonasi” kabi nomlar bilan ataldi. Ayrim hollarda erkin so‘zining o‘rniga “ochiq” iborasi ham ishlatilgan, ya’ni “Ochiq iqtisodiy zona”, “Ochiq port” kabilar. Bizning mamlakatimizda tashkil qilingan bunday zonani “Erkin industrial-iqtisodiy zona”, deb nomlandi. Buning nomi ham mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotiga mos ravishda rivojlanib bormoqda.

Hozirgi globallashgan davrda har bir davlat o‘z oldiga ulkan maqsadlarni qo‘yishi aniq, lekin bu maqsadlar investitsiyalarsiz tashkil etishili qiyindir. Shu investitsiyalarning majoziy ma’noda o‘chog‘i hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning 150 dan ortiq davlatida tashkil etilgan erkin zonalar mamlakatlar taraqqiyoti uchun xizmat qilib kelmoqda. O‘zbekistonda ham qariyb, 15 yillik tajriba mavjud. Bu jarayon albatta O‘zbekiston uchun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o‘rganishni talab qiladi. Ilmiy ishda tizimli yondashuv, grafik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, taqqoslash va guruhlash metodlari elementlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bu borada O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish vaositalaridan biri hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qayd etish kerakki, hozirda mamlakatimiz hududlarida 23 ta erkin iqtisodiy zona va 150 dan ortiq kichik sanoat zonalari faoliyat yuritmoqda.

№	ЭИЗ фаолият йўналиши	ЭИҲ номи
1	Саноат ишлаб чиқаришга мўлжалланган ЭИЗлари (9та)	“Навоий”, “Ангрен” ва “Жиззах”, “Ургут”, “Гиждувон”, “Қўқон”, “Хазорасп”, “Наманган” ва “Сирдарё” ЭИЗ
2	Фармоцевтика ЭИЗлари (7 та)	“Нукус-фарм”, “Зомин-фарм”, “Косонсой-фарм”, “Сирдарё-фарм”, “Бойсун-фарм”, “Бўстонлиқ-фарм” ва “Паркент-фарм” ЭИЗ
3	Қишлоқ хўжалик ЭИЗлари (2 та)	“Балиқ ишлаб чиқарувчи”, “Бухоро-агро” ЭИЗ
4	Туристик ЭИЗ	“Чорвоқ” ЭТЗ
5	Транспорт логистика сохаси ЭИЗ	“Термиз” ЭИЗ
6	Спорт инвертарларини ишлаб чиқариш бўйича ЭИЗ	“Спорт” ЭИЗ

1-jadval: O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan erkin iqtisodiy zonalar

E’tiborlisi, erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xorijdan yuqori texnologik uskunalar xarid qilish uchun O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘i hisobidan 100 million dollar miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochilgan.

Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zonaning tashkil etilishi bejiz emas. Chunki O‘zbekistonda Navoiy viloyati oltin qazib oluvchi konchilik sanoati, zamonaviy industiriyaning yirik tarmog‘i sifatida iqtisodiy salohiyati bilan ma’lum va mashhurdir. Bugun Navoiy kon-metallurgiya kombinati 5 ta hududga joylashgan: Uchquduqda–Shimoliy, Zarafshonda-Markaziy (Navoiy), Nurobodda-Janubiy (Samarqand), Marjonbuloqda-Sharqiy (Jizzax) va Zarmetanda-Sharqiy (Samarqand) kon boshkarmalari mavjud. Sanoatning bu tarmog‘i o‘ziga xos tarixga va tavsifga ega. O‘tmishda ham ajdodlarimiz konchilik sanoatini xuddi shu hududlarda olib borganligi to‘g‘risida bir qancha tarixiy manbalar mavjud. Bu esa bizga konchilik sanoati tarixini o‘rganishdek, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifani yuklaydi. Buni ham ekologik turizmning bir qismi sifatida targ‘ib qilish lozim bo‘ladi. Chunki ushbu konlar nafaqat xorijlik, balki mamlakatimiz fuqarolari uchun ham ahamiyatlidir.

Hozirgi paytda xalqaro miqyosda O‘zbekiston ishonchli investitsion sherik sifatida o‘zini namoyon qilgan mamlakat. Chunki boshqa sheriklari oldida investitsion va boshqa majburiyatlarini qat’iyan bajarib kelmoqda. Bunga bir qator qabul qilingan va amal qilib kelayotgan qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlar asos bo‘lmoqda. Jumladan, mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solingan edi. Yaqinda bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Senatining o‘n to‘qqizinchi yalpi majlisida ma’qullangan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni amaldagi Qonunni takomillashtirish bilan birga, uni amalga oshirish mexanizmini ham xalqaro talablar darajasiga javob beradigan holatga keltirildi.

Bularning barchasi xorijiy investorlarning manfaatlarini kafolatlaydi va ayni chog‘da huquqlarini ham himoyalaydi. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasida yaqin yillarda yuzga yaqin xorij ishlab chiqarish korxona va fabrikalari qurilishi loyihalashtirilgan bo‘lib, hozirgi kunda bir qator istiqbolli loyihalar bo‘yicha qurilish ishlari boshlab yuborildi. Shuni ta’kidlash lozimki, investorlarning asosiy qismini koreys ishbilarmonlari tashkil qilmoqda. Shuningdek, arab va boshqa davlatlardan bir qator ko‘zga ko‘ringan ishbilarmon doira vakillari ham ushbu hududda ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish niyati borligini bildirmoqda.

Bugungi kunda ham yirik moliya korparatsiyalar vakillari va ishbilarmonlar tomonidan ushbu erkin industrial-iqtisodiy zonaga qiziqishi ortib borayotganligi, ularning ushbu hududga investitsiya kiritish istagini bildirayotganligidan ham anglash mumkin. Demak, kelajakda jahon andozasi talablariga javob beradigan ilg‘or texnologiyalarni, energotejamkor texnikalarni jalb etish orqali viloyat iqtdisodiyoti yanada ravnaq topishi, minglab yosh yigit-qizlar muqim ish o‘rinlariga ega bo‘lishi ta’minlanadi. Eng muhimi, xorijiy investorlar o‘zlarining vakillari bilan faoliyat ko‘rsatishi ham mamlakatimizda turizmni, xususan ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat bo‘lib hisoblanadi.

2-jadval: “Navoiy” EIZ hududida amalga oshirilgan loyihalar to‘g‘risida ma’lumot

Ko‘rsatkichlar		Korxona soni	Loyiha soni	Loyiha qiymati (mln. doll) O‘z mablag‘i	Shu jumladan					Ish o‘rinlar soni
					Bank krediti	xorijiy kredit liniya	FRRU	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya		
Viloyat jami:		85	107	726,0	258,3	197,5	0,0	38,3	231,8	8 218
Ishga tushgan loyihalar		30	42	206,7	94,1	37,3	0,0	15,8	59,4	2 494
2008–2017-y.	PF–4059-son	16	24	128,8	63,3	32,3			33,2	890
2018-y.		5	6	59,8	25,8	1,5	0,0	15,8	16,7	1 305
2018-y.	PQ–4059-son	4	5	57,7	25,5	0,6		15,8	15,7	1 277
	PQ–3774-son	1	1	2,2	0,3	0,84			1,0	28
2019-y.		6	9	7,9	4,6	2,2	0,0	0,0	1,1	200
2019-y.	PQ–4059-son	1	3	1,4	1,4	0,03				58
	PQ–3774-son	3	4	3,2	1,6	0,6			1,1	49
	PF–5719-son	2	2	3,3	1,7	1,6				93
2020-y.		3	3	10,1	0,3	1,4	0,0	0,0	8,4	99
2020-y.	PQ–4059-son	1	1	7,5					7,5	72
	PQ–3774-son	1	1	0,9					0,9	11
	PF–5719-son	1	1	1,7	0,3	1,4				16
Amalga oshirilayotgan loyihalar		55	65	519,4	164,2	160,2	0,0	22,5	172,4	5724
2020–2021-y.	PQ–4059-son	16	21	122,5	41,0	7,5		22,5	51,4	1 500
	PQ–3774-son	19	24	111,7	19,5	54,4			37,8	1 378
	PF–5719-son	20	20	285,2	103,7	98,3			83,3	2 846

Tahlil ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, sanoat korxonalarning hajmi yildan yilga o‘sib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, EIH sanoat mahsulotlaring salmog‘i oshib borayotganligidan dalolat beradi.

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasida jami loyihalarga kiritilgan investitsiyalar ulushi bo‘yicha yetakchilik qilayotgan mamlakatlarga – Hindiston (29,%), Janubiy Koreya (25%), XXR (8%), Polsha (12%) kabilarni kiritish mumkin186. Bugungi kunda ushbu xorijiy mamlakatlar kapitali ishtirokida ko‘plab sanoat korxonalari tashkil etilgan. Ularga ushbu mamlakatlardagi yuqori texnologiyalarni kiritishga ham alohida ahamiyat berilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini jadal rivojanishi, ularga xorijiy investorlarni jalb etish, rezidentlarni ichki investitsiya salohiyatini erikn iqtisodiy zonalar uchun yo‘naltirish, erkin iqtisodiy hududlarning faoliyat samaradorligini uzluksiz ta’minlash – mamlakatning investitsiyaviy salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda erkin iqtisodiy hududlarni to‘g‘ridan-tug‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi investitsiyalar uchun “megapolis”, xorijiy firmalarning asta-sekin milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuv vositasi, iqtisodiyot liberallashuvining asosiy shartlaridan biri sifatida baholash o‘rinlidir. Shu sababli erkin iqtisodiy hududni rejalashtirish bosqichidayoq chet el firmalarining mahalliy tadbirkorlar bilan bevosita va teskari aloqalarini o‘rnatish imkoniyatlarini ko‘zda tutish zarur. Bunday aloqalar mahalliy xom-ashyo tovarlarini, komponentlarni, yarim tayyor mahsulotlarni, majmuaviy asbob-uskunalarni va xizmatlarni olish imkoniyatini ta’minlashi zarur. Tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlar asosida fikrimizcha viloyatning investitsiyaviy-iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha quyidagilarni amadlga oshirish maqsadga muvofiq:

Respublikamizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirishda ulardagi Direksiyalarning investorlarni mustaqil qidirib topish va jalb qilish uchun vakolatlarini kengaytirish, ularning imkoniyatlari haqida salohiyatli investorlarni batafsil axborot bilan ta’minlash, ushbu zonalarda kredit olishga yengilliklar yaratishda maxsus ixtisoslashtirilgan banklarni tashkil etish zarur.

Maxsus zonalar jozibadorligini oshirishda investitsiya kiritish bo‘yicha maslahat markazlari, patent himoyasi bo‘yicha yordam, savdo korxonalari, maishiy xizmat ko‘rsatish markazlari, zamonaviy dorixonalar, xalqaro standartlarga javob beradigan tibbiyot va ta’lim muassasalari, xordiq chiqarish va madaniyat markazlarini barpo etish, ma’muriy kengashni tashkil etishda hukumat a’zolaridan tashqari xorijiy kompaniyalar rahbarlari, savdo-sanoat palatasi a’zolari, parlament vakillarini ham jalb qilish lozim.

Erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investorlarni jalb etishdagi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi xorijiy va mahalliy investorlar faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida qayd etiladi. Bu kabi masalalarni mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshirish maqsada muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar ruyxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5717-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2019-y., 06/19/5717/3132-son; 18.08.2020-y., 06/20/6042/1190-son.
2. Авдокушин Е. Ф Свободные (специальные) экономические зоны. – М., 1999.
3. Бабинцев В., Валлиулин Х. Особые экономической зоны. Российской экономический журнал. 1992. №9. 117 с.
4. Shermuhammedov A. Ochiq iqtisodiy mintaqa. O‘zbekiston axborotnomasi–1998-y.№1 (sentabr, oktabr`)75 bet.
5. Овчинникова С. Г. Зона свободного предпринимательства. Учебник. – СПб., 1996., ст–12.
6. Леусский А. Экономика зон свободного предпринимательства. – СПб., 1991 ст –11.
7. Смородинская Н. Свободные экономические зоны Вест. ДВО РАН–1993.№4.5 С3–22.
8. Papava Vladimer. The Immortal idea of a free ecpnomic zones, Georgian Foundation for Strategic and Internatianal Studies, 2007. 1–16 p.
9. Данько Т. Л. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. – М.: ИНФРА-М., 1998. – С 168.
10. Vaxabov A. V., Xajibakiyev Sh. X., Muminov N. G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2010. – 180-b
11. Mirzaliyeva S. S. Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning xorij tajribasi. I. f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. – Toshkent: TDIU 2001. – 8-b
12. Mustafaqulov Sh. I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. – 56-b.
13. Bozarov S. S. O‘zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2018. – 13-b.
14. Ostonoqulov A. A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. 08.00.08. Iqtisod fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T.: 2017. – 12-b.

MAHALLIY BYUDJETLAR XARAJATLARI IJROSINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)



Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti erkin izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2022-yilga mo‘ljallangan Jizzax viloyati mahalliy byudjetining xarajatlari ijrosi, uning 2020–2021-illarga nisbatan o‘zgarishi tahlil qilingan. Erishilgan natija hamda mavjud muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. Mahalliy byudjetlar mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: mahalliy byudjet, byudjet xarajatlari, xarajatlar rejasi, ijtimoiy xarajatlar, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, tashabbusli byudjet.

Abstract: In this article, we analyzed the execution of expenditures of the local budget of the Jizzakh region for 2022, its change in relation to 2020–2021. The achieved result is indicated, as well as existing problems. Proposals were made to improve the efficiency of using funds from local budgets.

Key words: local budget, budget expenditures, expenditure plan, social expenditures, wages and equivalent payments, initiative budget.

Аннотация: В данной статье анализируется исполнение расходов местного бюджета Джизакской области на 2022 год, его изменения по сравнению с 2020 и 2021 годами. Указаны достигнутый результат и существующие проблемы. Даны предложения по повышению эффективности использования средств местных бюджетов.

Ключевые слова: местный бюджет, бюджетные расходы, план расходов, социальные расходы, заработная плата и приравненные к ней выплаты, инициативный бюджет.

KIRISH

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosi mahalliy byudjetlar xarajatlari qismida o‘z ifodasini topadi. Tuman va shaharlarda aholi sonining oshib borishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishi mahalliy byudjetlar xarajatlarining o‘sishini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 1-noyabr kuni 2022-yil uchun soliq tushumlari hamda byudjet parametrlari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, odamlar hayotini yaxshilash bosh maqsad etib belgilangani, bu tamoyillar byudjetni shakllantirishda ham bosh mezon bo‘lishi zarurligini alohida qayd etdilar [1].

Shuningdek, joriy yilning may oyida Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis palatalari a’zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvida: “... biz O‘zbekistonni ijtimoiy davlat, deb e’lon qildik. Mamlakatimizda 2 million 200 mingdan ziyod oilalar ijtimoiy ko‘makka muhtoj. Aholimizning 55 foizi yoshlardan iborat. Shu o‘rinda bir masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Yangilangan Konstitutsiyamizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko‘paytirilmoqda. Bu raqamni aytish oson, lekin uni amalda ta’minlash uchun juda ko‘p ishlashimiz zarur. Bunga davlat byudjetidan har yili qo‘shimcha 30–40 trillion so‘m ajratish kerak bo‘ladi. Buning hisobidan, har yili yuzlab yangi bog‘chalar, maktab va shifoxonalar qurishimiz lozim”, – deb ta’kidladilar [2].

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda byudjet sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, byudjet jarayoni ochiqligi va shaffofligini oshirishning yangi tartib-taomillarini joriy etish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy byudjet mablag‘larini boshqarish bo‘yicha mustaqilligini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini kafolatlangan moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada “Tashabbusli byudjet” dasturi joriy etilganligi ham muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu dastur doirasida ilgari surilayotgan takliflar asosida aholi hayotiga taalluqli ko‘pgina dolzarb masalalar o‘z vaqtida va samarali hal etilmoqda.

Shu bilan birga, byudjet xarajatlarini sarflash masalalarida hamon o‘z yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Jumladan, konsolidatsiyalashgan byudjet hisobidan hududlar uchun ajratiladigan mablag‘larning salmoqli ulushi bevosita respublika idoralari orqali markazdan turib moliyalashtirishi oqibatida byudjet xarajatlari ijrosi ustidan joriy va jamoatchilik nazoratining samarasi pastligicha qolmoqda.

Shu bois bugungi kunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish, byudjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish, bunda ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga keng joriy qilish orqali ushbu masalaga tizimli yondashish yuqori ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning mahalliy byudjetlar mablag‘laridan foydalanish samaradorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, tahlil davri 3 yillik (2020–2022-yillar) Jizzax viloyati mahalliy byudjeti xarajatlari tarkibi va o‘zgarishi tendensiyasini qamrab olgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik iqtisodchi olimlar tomonidan byudjet xarajatlari va uning camaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xususan, M. Romonovskiy fikriga ko‘ra:“Byudjet xarajatlari – bu davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini vazifa va funksiyalarini moliyalashtirish uchun tegishli byudjet darajasida ko‘zda tutilgan pul mablag‘laridir” [3].

Rossiyalik iqtisodchi, professor O. Suxarev barcha darajadagi byudjet daromadlari manbalarini tubdan o‘zgartirish, byudjet mexanizmini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan xarajatlarni samarali faoliyat natijalarini joriy etish tizimini ilgari suradi [4].

O. Serebryakova ta’kidlaganidek:“Hududlarni moliyaviy ta’minlash mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimini isloh qilishning eng qiyin va dolzarb masalalaridan biri” [5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan G. Qosimova:“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash mahalliy byudjetning ijtimoiy yo‘naltirilgan xarajatlarini ko‘paytirish, fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishini ko‘paytirish, keng ko‘lamli ijtimoiy dasturlarni mablag‘ bilan ta’minlash manbalari bilan oqilona uyg‘unlashtirib borishni taqozo etadi. Davlatning ijtimoiy sohada siyosati bevosita mahalliy byudjetlar orqali ustun ravishda amalga oshirib boriladi”, – deb ta’kidlaydi [6].

N. Primovaning fikricha hududiy moliyaviy siyosatning tarkibi sifatida byudjet-soliq siyosatini amalga oshirishda byudjet daromadlarini shakllantirishdan hududiy manfaatdorlikni va xarajatlarni taqsimlashni liberallashtirishni ta’minlash asosiy omil bo‘lishi lozim [7].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlar jamoasi tomonidan ilgari surilgan fikr mulohazalarda mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi samaradorligini oshirishda hozirgi sharoitdagi dolzarb masalalar tadqiq etilgan.

Ushbu omillar kontekstidagi islohotlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy byudjetlarni shakllantirishda hudud iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish tizimini rag‘batlantiruvchi moliyaviy mexanizmini qo‘llash imkoniyatlarini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarda mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi samaradorligini ta’minlash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish masalalarining muhimligini e’tiborga olib, Jizzax viloyatining mahalliy byudjeti xarajatlari ijrosiga baho beramiz. Buning uchun 2022-yilda viloyat mahalliy byudjeti xarajatlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini 2020 va 2021-yillarga taqqoslagan holda tahlil qilib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunida Jizzax viloyati mahalliy byudjetining xarajatlari 6-ilovaga muvofiq 2 551,8 mlrd so‘mni tashkil etishi ma’lumot uchun qabul qilingan bo‘lib, ular 1 727,2 mlrd so‘mlik daromad hamda 824,6 mlrd so‘mlik respublika byudjetidan Jizzax viloyati mahalliy byudjetiga ajratiladigan, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar hisobiga qoplanishi belgilangan [8].

Yil davomida mahalliy byudjet xarajatlari rejasi 1 251,6 mlrd so‘mga oshirilib, aniqlangan reja 3 803,4 mlrd so‘mni, xarajatlar ijrosi esa 3 928,5 mlrd so‘mni yoki aniqlangan reja ko‘rsatkichlariga nisbatan 103 foizni tashkil etgan (1- va 2-jadvallar).

1-jadval: Jizzax viloyati mahalliy byudjetining 2022-yildagi xarajatlari ijrosi to‘g‘risida tuman (shahar)lar kesimida ma’lumot (mlrd so‘mda)

№	Hudud byudjetlari	Tasdiqlangan reja	Aniqlangan reja	Kassa	Bajarilishi	
					Farqi (+;-)	Foizda
1.	Arnasoy tumani	67,1	89,8	91,2	1,3	101
2.	Baxmal tumani	150,5	216,7	219,2	2,5	101
3.	G‘allaorol tumani	185,1	273,7	280,5	6,8	102
4.	Sh. Rashidov tumani	219,9	319,0	330,6	11,6	104
5.	Do‘stlik tumani	94,0	141,7	147,6	5,9	104
6.	Zomin tumani	193,2	264,7	272,8	8,1	103
7.	Zarbdor tumani	104,8	149,7	155,5	5,8	104
8.	Zafarobod tumani	72,0	99,2	101,4	2,2	102
9.	Mirzacho‘l tumani	79,7	105,9	107,1	1,2	101
10.	Paxtakor tumani	89,4	126,6	128,5	2,0	102
11.	Forish tumani	111,9	151,7	153,5	1,8	101
12.	Yangiobod tumani	55,2	72,4	73,6	1,2	102
13.	Jizzax shahar	152,8	229,2	239,1	9,9	104
14.	Viloyat byudjeti	976,4	1 563,1	1 627,8	64,7	104
	Jami xarajat	2 551,8	3803,4	3928,5	125,1	103

2-jadval: Jizzax viloyati mahalliy byudjetining 2022-yildagi xarajatlari ijrosi to‘g‘risida soha va yo‘nalishlar kesimida ma’lumot (mlrd so‘mda)

№	Soha va yo‘nalishlar	Tasdiqlangan reja	Aniqlangan reja	Kassa ijrosi	Bajarilishi (foizda)	Ulushi (jami xarajatga nisbatan)
1.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlar	1 594,0	2172,4	2194,1	101	55,8
	Shundan					
1.1	Ta’lim	293,3	454,7	452,9	100	11,5
-	maktabgacha ta’lim	97,9	218,6	216,3	98	5,5
-	umumta’lim	193,6	233,2	233,7	100	5,9
-	kadrlar tayyorlash	1,8	2,9	2,8	99	0,1
1.2	Sog‘liqni saqlash	779,1	994,0	996,0	100	25,3
1.3	Madaniyat	32,5	38,5	43,7	113	1,1
1.4	Sport	50,5	70,7	70,9	100	1,8
1.5	Fan	1,7	2,0	2,0	100	0,1
1.6	Nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to‘lovlari	435,0	611,8	627,9	103	15,9
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	353,5	391,5	408,8	104	10,4
	Shundan:					
2.1	Suv xo‘jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari	84,7	122,6	121,3	99	
2.2	Aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish	123,0	146,3	158,4	108	

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2.3	Tabiatni muhofaza qilish	10,0	10,0	10,0	100	
2.4	Uy-joy kommunal ishlari	3,0	3,1	3,1	100	
3.	Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	272,0	370,6	386,0	104	9,8
4.	Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	173,7	273,5	294,2	108	7,5
5.	O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlar	47,6	49,3	69,4	141	1,8
6.	Zaxira jamg‘armalari	24,5	96,1	95,9	100	2,4
7.	Boshqa xarajatlar	86,4	449,9	480,1	107	12,2
	JAMI	2 551,8	3803,4	3928,5	103	100

Hisobot davrida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetdan 2 194,1 mlrd so‘m yoki umumiy xarajatlarning 55,8 foizi miqdorida mablag‘ sarflangan.

Ijtimoiy xarajatlarning asosiy qismi (20,6 foizi)ni tashkil etgan ta’lim tizimi muassasalarini saqlash va ularni rivojlantirish xarajatlariga mahalliy byudjetdan 452,9 mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan, xarajatlar 2020 yilga nisbatan 144,4 foizga o‘sgan (3-jadval).

3-jadval: Jizzax viloyati mahalliy byudjetidan 2020–2022-yillarda ta’lim sohasiga ajratilgan mablag‘lar ma’lumot (mlrd so‘mda)

№	Sohalar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	O‘zgarishi	
					2020-yilga nisbatan	2021-yilga nisbatan
1.	Maktabgacha ta’lim	66,3	157,5	216,4	3,2 baravar	137,4 foiz
2.	Umumta’lim	161,8	264,8	233,7	144,4 foiz	88,4 foiz
3.	Kadrlar tayyorlash	1,4	1,9	2,8	2 baravar	149,5 foiz
	Jami ta’lim xarajati	229,5	423,8	452,9	197,3 foiz	106,8 foiz

2022-yilda maktabgacha ta’lim tizimiga mahalliy byudjetdan 218,6 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, hisobot davrida ushbu mablag‘larning 216,3 mlrd so‘mi (98,9 foizi) sarflangan.

2020-yilda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 201 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 231 taga yetgan. Viloyatdagi mavjud 123,2 ming nafar 3–7 yoshdagi bolalarning 77,5 foizi maktabgacha ta’lim tizimi bilan qamrab olingan. Shundan, davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida 59,9 ming, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 35,5 ming nafarni tashkil qilgan. Nodavlat shaklidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rag‘batlantirish maqsadida davlat byudjeti hisobidan subsidiya ajratilishi natijasida qamrov darajasi 2020-yilga nisbatan 13 foizga o‘sgan.

2022-yilda umumta’lim sohasiga 233,2 mlrd so‘m ajratilgan bo‘lib, yil yakuni bo‘yicha ushbu mablag‘lar to‘liq moliyalashtirilgan. Jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar hamda ish xaqiga ajratmalar uchun 63,6 mlrd so‘m, boshqa xarajatlarga 82,1 mlrd so‘m yo‘naltirilgan. Ushbu mablag‘lar hisobidan sohani rivojlantirish bilan bog‘liq dasturlarga ham mablag‘lar ajratilishi ta’minlangan. Masalan, xalq ta’limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog‘iga ulash uchun 2,1 mlrd so‘m ajratilgan. 44 maktabga interaktiv doskalar hamda 13 ta maktabga robototexnika vositalarini xarid qilish ishlari amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida” 2022-yil 14 apreldagi PF–106-sonli Farmoniga asosan 2 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat hamda 10 ta ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilgan bo‘lib, 2022-yilda ushbu maktablarni joriy saqlash xarajatlariga 11,2 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan.

2022-yilda kadrlar tayyorlash sohasiga jami 2,8 mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan. Ushbu mablag‘larning 1,6 mlrd so‘mi ish haqi va ajratmalar uchun sarflangan.

Hisobot davrida ilm-fanni moliyalashtirish va rivojlantirish xarajatlari uchun 2,0 mlrd so‘m yoki 2020-yilga nisbatan 12 foiz ko‘proq mablag‘ sarflangan.

Madaniyat sohasiga 2022-yilda jami 43,7 mlrd so‘m (2020-yilga nisbatan 21,3 mlrd so‘mga yoki 195 foizga ko‘p) mablag‘ ajratilgan. Jumladan, xarajatlarning 0,6 mlrd so‘mi matbuot xizmatlariga, 8,7 mlrd so‘mi teatrlar, musiqa jamoalari, konsert tomosha muassasalari va 10,4 mlrd so‘mi madaniyat saroylari va markazlarini saqlash xarajatlariga, 14,4 mlrd so‘mi madaniy meros agentligining hududiy boshqarmasini saqlash hamda madaniy boyliklarni qayta ta’mirlash ishlariga sarflangan (5-jadval).

5-jadval: 2020–2022-yillarda viloyat mahalliy byudjetidan madaniyat sohasiga yo‘naltirilgan mablag‘lar (mlrd so‘mda)

№	Soha va yo‘nalishlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	O‘zgarish(foizda)	
					2020-yilga nisbatan	2021-yilga nisbatan
1.	Axborot-kutubxona markazlari va kutubxonalarni saqlash xarajatlari	4,6	6,4	7,2	139%	113%
2.	Muzeylar, ko‘rgazmalar hamda ko‘rgazma zallarini saqlash xarajatlari	1,4	2,3	2,3	157%	100%
3.	Madaniyat saroylari va markazlarini saqlash xarajatlar	7,6	9,2	10,4	121%	113%
4.	Teatrlar, musiqa jamoalari, konsert tomosha muassasalari xarajatlari	6,4	7,5	8,7	117%	116%
5.	Matbuot xizmatlari	0,5	0,6	0,6	120%	100%
6.	Kinematografiya agentligining hududiy bo‘limini saqlash xarajatlari	0	0	0,1		
7.	Boshqa madaniy chora-tadbirlar va muassasalar xarajatlariga	5,5	7,8	14,4	142%	185%
	Jami xarajat	22,4	33,8	43,7	151%	129%

Sohaga yo‘naltirilgan mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan 2022-yil davomida viloyatdagi 37 ta madaniyat markazida 2 mingga yaqin turli madaniy-ma’rifiy, konsert-tomosha tadbirlari tashkil etilgan. Madaniyat markazlarida vokal, estrada, raqs, xalq cholg‘u-asboblari, gimnastika, tasviriy va amaliy san’at, badiiy o‘qish, qo‘g‘ir-choqbozlik, drama va havaskorlik teatri yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shimcha to‘garaklar tashkil etilib, jami to‘garaklar soni 201 taga yetkazilgan.

Shuningdek, 11 ta ashula va raqs ansambllari ishtirokida 85 ta konsert-tomosha tadbiri o‘tkazilgan. Madaniyat boshqarmasi tizimidagi konsert-tomosha tashkilotlari tomonidan jami 2 mingdan ziyod tadbir tashkil etilgan.

Viloyat musiqali drama va qo‘g‘irchoq davlat teatrlarida jami 346,2 million so‘m mablag‘ hisobiga “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasi asosida, davlat buyurtmasi bo‘yicha 2 ta spektakl sahnalashtirilgan va namoyish etilgan.

Sport sohasiga mahalliy byudjetdan yo‘naltirilgan mablag‘lar miqdori 70,9 mlrd so‘mni (2021-yilga nisbatan 123 foiz) tashkil etgan. Sport tizimidagi muassasalarda mehnat qilayotgan xodimlarning ish haqi va ajratmalarni moliyalashtirishga 2022-yilda 53,4 mlrd so‘m yo‘naltirilgan va bu xarajatlar sport sohasiga sarflangan jami mablag‘larning 75,4 foizini tashkil qilgan.

6-jadval: 2020–2022-yillarda Jizzax viloyati mahalliy byudjetidan sport sohasiga yo‘naltirilgan mablag‘lar (mlrd so‘mda)

№	Soha va yo‘nalishlar	2020	2021	2022	O‘zgarish (foizda)	
					2020-yilga nisbatan	2021-yilga nisbatan
1.	Sport maktablarini saqlash xarajatlari	24,9	32,4	43,8	176%	135%
2.	Ixtisoslashtirilgan sport maktablarini saqlash xarajatlari	11,1	14,6	17,2	155%	118%
3.	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi	0,8	6,0	3,6	447%	59%
4.	Futbol akademiyalarini saqlash xarajatlari	3,4	4,4	4,8	142%	109%
5.	O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati saqlash xarajatlari	0,3	0,4	0,4	158%	108%
6.	Chavandozlar maktablarini saqlash xarajatlari	-	-	0,9		
7.	Boshqa sport muassasalari va tadbirlari xarajatlari			0,1		
	Jami xarajat	40,5	57,8	70,9	175%	123%

Sarflangan mablag‘larning samarasi o‘laroq viloyat sportchilari tomonidan 2022-yilda O‘zbekiston chempionati (kubogi)da 1963 ta (581 ta oltin, 555 ta kumush, 827 ta bronza), Jahon, Osiyo va xalqaro sport musobaqalarida 469 ta (159 ta oltin, 141 ta kumush, 169 ta bronza) medal qo‘lga kiritilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Sog‘liqni saqlash sohasiga 996,0 mlrd so‘m ajratilgan bo‘lib, mahalliy byudjet xarajatlaridagi ulushi 25,3 foizni tashkil etgan. 2021-yilga nisbatan 169,0 mlrd so‘mga yoki 20 foizga ko‘p mablag‘lar ajratilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi muassasa va tashkilotlarda mehnat qilayotgan xodimlarning ish haqi va ajratmalarini moliyalashtirishga 770,7 mlrd so‘m yo‘naltirilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlariga asosan tasdiqlangan sog‘liqni saqlash sohasiga doir Davlat dasturlari va markazlashgan tadbirlarga 2022-yilda 62,8 mlrd so‘m ajratilib, shundan 60,0 mlrd so‘m moliyalashtirilgan.

Jumladan, onalar va bolalar, reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini ta’minlash uchun zarur dori va tibbiyot vositalari (“K” vitamin, surfaktant va boshqalar) bilan qo‘shimcha ta’minlash dasturi ijrosiga 200 million so‘m o‘zlashtirilgan. 2022-yilda go‘daklar o‘lim koeffitsiyenti 6,8 promilleni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan o‘lim holatlari 0,3 foizga kamaygan.

Shuningdek, endokrinologik kasalliklarga chalingan bemorlarni dori vositalari bilan ta’minlashga doir xarajatlarga 1,5 mlrd so‘m sarflangan. Qandli diabetning I va II turi bilan kasallangan bemorlarni insulin preparatlari bilan ta’minlash rejasi to‘liq bajarilgan. Qandli diabetning 1-turi bilan kasallangan 3875 nafar bolalar va o‘smirlar kerakli dori vositalari bilan to‘liq ta’minlangan.

Hisobot davrida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining hududiy bo‘limlariga “Koronavirus”ning yangi turi kirib kelishi va tarqalishining oldini olishga, shuningdek vaksinalar xarid qilishga jami 33,5 mlrd so‘m yo‘naltirilgan.

Ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam, kompensatsiya to‘lovlariga mahalliy byudjetdan hisobot davrida 627,9 mlrd so‘m mablag‘ ajratilib, jami xarajatlardagi ulushi 15,9 foizdan iborat.

Mazkur xarajatlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgustdagi PQ–4797-son qaroriga asosan 2021-yildan boshlab respublikaning barcha hududlaridagi kabi Jizzax viloyatida ham kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam va bolalar nafaqasini “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi orqali tayinlash va to‘lash joriy qilingan.

Yil boshiga nisbatan nafaqa oluvchi oilalar soni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6277-son Farmoniga asosan yangilangan turidagi nafaqa oluvchi oilalarni inobatga olgan holda, 1,6 barobarga oshib 110,6 mingga yetgan.

Iqtisodiyot sohasiga yo‘naltirilgan xarajatlar hisobot davrida 408,8 mlrd so‘mni tashkil qilib, mahalliy byudjet xarajatlarining 10,4 foizini tashkil etgan va asosan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan:

- suv xo‘jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari – 121,3 mlrd so‘m, iqtisodiyot xarajatlaridagi ulushi 29,7 foiz;
- aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish xarajatlari – 158,4 mlrd so‘m, ulushi 38,7 foiz;
- tabiatni muhofaza qilish – 10,0 mlrd so‘m, ulushi 2,4 foiz;
- uy-joy kommunal ishlariga – 3,1 mlrd so‘m, ulushi 0,7 foiz.

Hisobot davrida investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishga mahalliy byudjet xarajatlarining 9,8 foizi yoki 386,0 mlrd so‘mi sarflangan.

Ushbu ajratilgan mablag‘lar evaziga 2022-yilda umumta’lim maktablari bo‘yicha 3374 o‘rinli 5 ta yangi asosiy bino va 41 ta obyektni rekonstruksiya qilish orqali 4348 o‘rinli qo‘shimcha binolar qurilgan hamda 3110 o‘rinli mavjud o‘quv bloklari rekonstruksiya qilingan, 3918 quvvatli 8 ta mavjud obyektlar mukammal ta’mirlangan, 9 ta umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarga sport zallar qurilishi yakunlangan. 2022-yil Dastur doirasida ajratilgan mablag‘lar hisobidan 54 ta umumta’lim maktabi foydalanishga topshirilgan.

Shuningdek, 11 ta maktabgacha ta’lim muassasasida qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun 33,3 mlrd so‘m sarflangan. 12 ta tibbiy-ijtimoiy muassasalarni qurish-ta’mirlash ishlari uchun 80,1 mlrd so‘m sarflangan. Dastur doirasida 12 ta tibbiyot muassasasidan 7 tasi foydalanishga topshirilgan.

Bundan tashqari, 2 ta jismoniy tarbiya va sport muassasasida qurish, rekonstruksiya qilish hamda mukammal ta’mirlash ishlariga 20,9 mlrd so‘m hamda 1 ta madaniyat va san’at muassasasini qurish-ta’mirlash ishlari uchun bajarilgan ishlarga muvofiq 10 mlrd so‘m yo‘naltirilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati boshqaruv organlari ta’minotiga hisobot davrida 294,2 mlrd so‘m yoki jami mahalliy byudjet xarajatlarining 7,5 foizi yo‘naltirilgan.

“Tashabbusli byudjet” loyihalarini moliyalashtirish manbasini shakllantirish uchun “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga tuman va shahar byudjetlarining 2022-yilgi parametrlari doirasida 74,3 mlrd so‘m o‘tkazib berilgan. Shuningdek, tuman va shahar byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan jami 17,1 mlrd so‘m yo‘naltirilgan.

2022-yil o‘tkazilgan “Tashabbusli byudjet” jarayonining 2 ta mavsumida dastlabki qiymati jami 124,7 mlrd so‘mlik 164 ta takliflar g‘olib deb topilgan. 80 ta umumta’lim maktablari, 9 ta maktabgacha ta’lim va 4 ta sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, 38 ta ichki yo‘llarni ta’mirlash va asfaltlash, 2 ta ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash, 3 ta ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish yoki ta’mirlash hamda yoritish tizimini yaxshilash loyihalari shular jumlasidan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga davlat ijtimoiy ta'minot dasturini hududlarda amalga tatbiq etish bo'yicha muhim vazifalar yuklatilgan. Ular faoliyatining asosiy yo'nalishi o'zlariga tegishli bo'lgan hududda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iboratdir. Mazkur iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning amaldagi holati Jizzax viloyati mahalliy byudjetining xarajatlari tahlili misolida ko'rib chiqildi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlarini isloh qilish doirasida byudjet sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ham izchil ishlar amalga oshirilib, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va mablag'laridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, 2019-yildan boshlab "Tashabbusli byudjet" dasturi joriy etilgani, qisqa muddatda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar aholining talab va takliflari asosida shakllantirilib, dolzarb masalalar o'z vaqtida va samarali hal etilishiga erishilmoqda. Shunga qaramasdan turli darajadagi byudjet loyihalarini ishlab chiqish va byudjet mablag'laridan samarali foydalanishda jamoatchilikning ishtirokini oshirish yuzasidan qilinadigan ishlar talaygina.

Bugungi kunda konsolidatsiyalashgan byudjet hisobidan hududlar uchun mablag'larni salmoqli ulushi bevosita respublika idoralari orqali markazdan turib moliyalashtirish amaliyoti qo'llanilayotgani natijasida byudjet xarajatlarining ijrosi ustidan joriy va jamoatchilik nazoratini samarasi pastligicha qolmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra 2022-yilda respublika bo'yicha g'aznachilik organlari tomonidan 343,2 trln so'mlik konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari qamrab olingan bo'lib, ushbu xarajatlarning 40 foizi respublika, 32 foizi hududiy va 22 foizi tuman (shahar) g'aznachilik xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan.

Bunda, tuman (shahar)lar g'aznachilik bo'linmalari faqat mahalliy darajadagi tashkilotlarni saqlash xarajatlarini amalga oshirish bilan cheklanib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha loyihalar esa asosan respublika darajasida moliyalashtirilayotgani ular ustidan hududlarda deputatlik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini bermaydi.

Shuningdek, Davlat byudjeti ijrosi jarayonida respublika byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan hududlarda amalga oshirilayotgan loyihalar uchun ajratilayotgan mablag'larni e'lon qilib borish amaliyotining yo'qligi sababli, ushbu loyihalardan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari xabardor bo'lmasligiga va mazkur mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilmasligiga olib kelmoqda.

Davlat byudjeti xarajatlari ijrosi samaradorligini oshirish, shu jumladan yoki xarajatlarni amalga oshirilishida jamoatchilikning ishtirokini kengaytirish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

1. Respublika va mahalliy darajadagi davlat xarajatlarini baholash va eng muhim byudjet dasturlarining yillik baholash metodologiyasini ishlab chiqish byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.
2. Barcha darajadagi byudjetlar va jamg'armalar mablag'lari hisobidan hududlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish loyihalari to'g'risida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini xabardor qilish, birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan e'lon qilib borish amaliyotini joriy qilish.
3. Hududlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish loyihalari uchun ajratilayotgan mablag'larni tegishli tuman (shahar) g'aznachilik xizmatlari orqali moliyalashtirishni amalga oshirish orqali joriy nazorat o'rnatilishini ta'minlash.
4. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari va jamoatchilik vakillari tomonidan hududlarda tashabbusli byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan doimiy jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
5. Tashabbusli byudjet loyihalari va ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari sessiyalarida eshituvini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev huzurida 2021-yil 1-noyabr kuni 2022-yil uchun soliq tushumlari hamda byudjet parametrlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishi bo'yicha rasmiy-veb saytda yoritilgan materialdan https://president.uz/uz/lists/view/4738.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 8-may kuni Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvidagi nutqidan https://president.uz/uz/lists/view/6277.
3. Романовский М. В. Финансы. Учебник для вузов. - Издательство "Юрайт-М", 2004
4. Сухарев О. С. Инвестиции в трансакционный сектор и в финансовые активы: влияние на экономический рост. Финансы: теория и практика/Finance: Theory and Practice. 2020;24(3):60–80. https://doi.org/10.26794/2587–5671–2020–24–3–60–80

5. Серебрякова О. В. Финансовая стабильность муниципальных образований как приоритет в развитии бюджетной и налоговой политики на местном уровне // Региональная экономика: теория и практика. -2017. - № 11. - С. 126–131.
6. Kasimova G. A., Shaakramov K. K. Mahalliy byudjetlar. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Moliya”, 2012. –85 b.
7. Primova N. I. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyalari shakllantirishning ilg‘or xorijiy tajribalari. “Moliya va bank ishi” ilmiy elektron jurnali, 4-son. Toshkent-iyul-avgust 2020-y.
8. “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/742/1229-son.
9. Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2022-yil 5-yanvardagi 1–31–5–3–0-K/22-sonli qarori.
10. Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari.
11. https://president.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
12. https://www.imv.uz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

SUG‘URTADA ASSISTANS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Maxmudov A. M.
“O‘zbekinvest Assistans” MChJ direktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug‘urta xizmatlari bozoridagi assistans kompaniyalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan, assistans kompaniyalarining tavsifi, shuningdek, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga tayyangan holda assistans faoliyati turi, ularning klassifikatsiyasi va turkumlanishi, mavzuga oid iqtisodchi olimlarning qarashlari, assistanslarga berilgan tariflar va muammolari tahlil qilingan. Tahlillardan kelib chiqib, assistans faoliyatini yanada rivojlantrish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta kompaniyasi, assistans kompaniyalar, tibbiy assistans, texnik assistans, huquqiy assistans, sug‘urta hodisalari, sug‘urta da’volari.

Abstract: This article analyzes the organizational and legal basis of the activity of assistance companies in the market of insurance services, the description of assistance companies, as well as the type of assistance activity based on the experience of developed foreign countries, their classification and categorization, the views of economists on the subject, the rates and problems of assistance companies are analyzed . Based on the analysis, scientific proposals and practical recommendations for further development and improvement of assistance activities were developed.

Key words: insurance company, assistance companies, medical assistance, technical assistance, legal assistance, insurance events, insurance claims.

Аннотация: В данной статье анализируются организационно-правовые основы деятельности ассистирующих компаний на рынке страховых услуг, дается характеристика ассистирующих компаний, а также вид ассистирующей деятельности на основе опыта развитых зарубежных стран, их классификация и категоризация, анализируются взгляды экономистов на эту тему, нормы и проблемы помощи. На основе анализа были разработаны научные предложения и практические рекомендации по дальнейшему развитию и совершенствованию деятельности по оказанию помощи.

Ключевые слова: страховая компания, ассистентские компании, медицинская помощь, техническая помощь, юридическая помощь, страховые случаи, страховые выплаты.

KIRISH

Amaliyotda sug‘urta kompaniyasi bilan manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda, odatda iste’molchilar, sug‘urta xizmatlaridan foydalanuvchilari zaif holatga tushib qolishadi. Ehtimol bu ular uchun birinchi holatdir, sug‘urta qoidalari tushunmaganliklaridir, ammo sug‘urta kompaniyasi uchun esa bu odatiy holat va u bunday sharoitlarda o‘z manfaatlarini to‘g‘ri himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqqan va katta tajribaga egadir. Bundan tashqari aksariyat mizojlar shartnoma shartlarini va o‘zlarining huquqiy xatti-harakatlarini yaxshi bilishmaydi. Bunday muammolarni ijobiy hal qilish, mijozlarga yordam berish, ular qiyin ahvolda qolganlarida qo‘llab-quvvatlash borasida faoliyat turi allaqachon shakllanib bo‘lgan bu assistans kompaniyasining xizmatlaridir. Biroq, mamlakatimizda ushbu bozor segmenti rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha orqada va yetarli darajada rivojlanmagandir.

Hozirgi kunda assistans kompaniyalari iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sohasida asosiy harakatga keltiruvchi mexanizmiga aylanib bormoqda. “Forbes” moliyaviy iqtisodiy nashrning ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda sohadagi eng yirik kompaniyalar faoliyatidan olingan jami daromad 38 trillion dollardan oshganligini Abdullayeva (2019) tahlillarida qo‘rishimiz mumkin.

Sug‘urta bozorining rivojlanishi bevosita jahon iqtisodiyotida dolzarb bo‘lgan iqtisodiy tendensiyalarga bog‘liqdir. Moliya sohasidagi inqirozlar, valyuta kurslari va narx-navoning o‘zgarishi, tabiiy va texnogen jarayonlarning salbiy holatlarining ko‘payishi, pandemiya va boshqa iqtisodiyotdagi salbiy hodisalar sug‘urta bozoriga va assistans kompaniyalari faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sug‘urta kompaniyalari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlari bu iqtisodiy sharoitlarni (inflyatsiya, inqirozlar, siyosiy vaziyatlar va boshqa) hisobga olgan holda sug‘urta mahsulotlarini yaratish orqali ularni keng iste’molchilar ommasiga taqdim etish, shuningdek sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan davrda ularni iqtisodiy, texnik va moliyaviy qo‘llab-qo‘vatlash amaliyotlarini keng targ‘ib etishdan iborat. Bu o‘rinda sug‘urta vositachilarining o‘rni biqiyosdir. Sug‘urta vositachilari (sug‘urta agentlari va sug‘urta brokerlari, shuningdek sug‘urta shartnomalarini tuzish va rasmiylashtirishda ishtirok etadigan boshqa vositachilar) sug‘urta bozorini shakllantirishda alohida rol o‘ynaydi. Sug‘urta bozorida vositachilik va hamkorlik faoliyatlarini olib borish har doim ham dolzarb masala sifatida qaralib kelingan va bu borada ko‘plab tahlil va tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, Abduraxmonov (2020) qo‘yidagilar ta’kidlaydi, sug‘urta bozorida, sug‘urta bozorining muhim ishtirokchisi sug‘urtalovchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan maxsus, spetsifik xizmat – sug‘urta xizmati sotiladi. Sug‘urta bozorida ikkita asosiy ishtirokchi (sotib oluvchi sug‘urtalanuvchi yoki sug‘urta qildiruvchi va sug‘urtalovchi – sotuvchi) mavjud bo‘lishi muhimdir. Sug‘urta bozorining qolgan ishtirokchilari (sug‘urta vositachilari (sug‘urta agenti, sug‘urta hamda qayta sug‘urta brokeri), adjaster, aktuariy, sug‘urta syurveyeri, assistans va boshqalar) esa, sug‘urta bozorida sug‘urta xizmatlari sotilishi, olinishi va sug‘urta faoliyatiga xizmat ko‘rsatilishi bilan unumli va samarali ishlab turishini ta’minlaydi. Sug‘urta vositachilari rivojlangan sug‘urta bozorini tashkil etishda muhim tarkibiy elementdir.

Efimov (1996) va Sirik (2006) tadqiqotlarida sug‘urta bozorining ishtirokchilaridan biri bo‘lgan assistans xizmatlariga qo‘yidagicha ta’rif berishadi, ya’ni assistans (fransuz tilidan assistance – yordam) chet elga ketayotgan sayyohlar sug‘urta shartnomasi shartlariga muvofiq ko‘rsatiladigan xizmatlarni aks ettiradi. Ushbu xizmatlar sug‘urta hodisasi yuz berganda tibbiy, moliyaviy va texnik yordam orqali pul shaklida yoki natural ko‘rinishida taqdim etiladigan xizmat deb ta’kidlaydilar.

Efimov (1996), Osadets (2002) va Shaxovlar (1997) assistans xizmatini o‘z vaqtida texnik, tibbiy va moliyaviy yordam orqali ko‘rsatiladigan sug‘urta shartnomasi bo‘yicha xizmatlarning ko‘rsatilish deb ta’riflaydilar.

Ovchinnikova (2008) o‘z tadqiqotlarida assistans xizmatlarini qo‘yidagicha ta’lqin etadi, ya’ni assitans xizmatlari sug‘urta kompaniyasi va uning hamkorlari (tibbiyot markazlari, sayyohlik agentliklari, transport tashkilotlari) o‘rtasida vositachi bo‘lgan ixtisoslashgan assistans kompaniyalari tomonidan ko‘rsatiladi. Assistans kompaniyalari xorijlik sayyohlarga tibbiy yordam, kasalxonaga yotqizish va davolashni tashkil etish, yashash joyiga olib borib qo‘yish, yo‘llarda texnik yordam ko‘rsatish va boshqalar. Shuningdek, assistans kompaniyalari sug‘urta hodisasi oqibatlarini bartaraf etish bilan shug‘ullanishadi, ekspertiza o‘tkazdi va sug‘urta hodisasi sabablari bo‘yicha ekspert xulosasini beradi, yetkazilgan zarar miqdorini baholaydi va sug‘urta hodisasi oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha ishlarni xal qiladi va da’volarni bartaraf etish bo‘yicha faoliyat olib boradi.

Fyodorova (2009) sug‘urta kompaniyalari va assitans kompaniyalari o‘rtasidagi moliyaviy hamkorlikning olib borilishi bo‘yicha qo‘yidagilarni ta’kidlaydi, ya’ni assistans xizmatlarini ko‘rsatish sug‘urta kompaniyalari va assistans kompaniyalari o‘rtasida tuzilgan shartnoma (kelishuv) asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga assistans xizmatlari sug‘urta polisi bo‘lgan har bir mijozga (yuridik va jismoniy shaxslarga) ko‘rsatiladi. Assistans xizmatlarining narxi tanlangan xizmatlar ro‘yxatiga bog‘liq bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada emperik adabiyotlar tahlili, assistans kompaniyalarining faoliyat olib borishlari bo‘yicha ilmiy qarashlar va izlanishlar tahlil qilingan, taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanilib xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

“Assistans” tushunchasi (ingliz tilida assistance – yordam) yordam, ko‘mak, qo‘llab-quvatlash degan ma’nolarni anglatadi. Xalqaro biznes yuritishda “assistans” – bu jismoniy va yuridik shaxslarga texnik, tibbiy, servis, informatsion, huquqiy va moliyaviy yordam ko‘rsatishga qaratilgan faoliyatning asosiy yo‘nalishini ko‘rsatadigan kompaniyalar nomlariga qo‘shimcha sifatida ishlatiladigan umumiy qabul qilingan atama hisoblanadi. Assistans dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatini turi sifatida keng rivojlangan.

Birinchi marta ushbu xizmat turi Fransiyada XX asrning 60-yillari boshlarida paydo bo‘ldi. Aynan o‘sha paytda tibbiy xarajatlarni klassik sug‘urtalashdan tashqari, o‘z mijozlariga vaqtida sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlash (yo‘lga qo‘yish) maqsadida kompaniyalar ko‘rinishida paydo bo‘la boshlagan. Asosiysi bunda barcha xarajatlarni sug‘urta kompaniyasining o‘zi amalga oshirgan.

Shunday qilib, assistansning asosiy vazifasi – bu sug‘urta kompaniyasi mijozlariga xizmat ko‘rsatish sifatini nazorat qilish, mijozlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga xizmat ko‘rsatish, xizmat ko‘rsatuvchilar (tibbiyot muassasalari, texnik xizmat ko‘rsatuvchi markazlar, evakuatorlar, yurist va advokatlar, mehmonxonalar) bilan hamkorlikda ishlashni takomillashtirish, shuningdek mintaqaviy xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish.

Shuningdek, yordamchi assistanslar (sug‘urtaga aloqasi bo‘lmagan) onlayn transport xizmatlari (taksilar, mikroavtobuslar) tashkil etishni o‘z ichiga olgan xizmatlar, shaxsiy assistans (sovg‘alar, gullar, kurerlik xizmatlari, gidlar va boshqalar), uy hayvonlari (mushuk, itlar va h.k.) uchun tibbiy xizmat assistansi, arenda (uy, ofis, avtotransport va h.k) assistanslari ham mavjud.

Tashkiliy-huquqiy shakliga qarab assistanslar sug‘urta kompaniyasi tarkibidagi va alohida yuridik shaxs sifatidagi ko‘p tarmoqli assistans (multiassistans) shaklida bo‘ladi.

Sug‘urta kompaniyasi tarkibida assistansni tashkil etishning ijobiy tomonlari bu sug‘urta mahsulotlarini yaratish va sotish bo‘limlari bilan o‘zaro yaxshi konstruktiv aloqalarning shakllanishidir. Bo‘nday aloqalar hamkorlikda ishlash tizimini ko‘chaytiradi va natijada mijozlarga yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatiladi, shuningdek mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor ta’sir qilish imkoniyatini oshiradi. Ammo ko‘p hollar bunday assistans kompaniya ehtiyojlari bilan cheklanib qoladi va mustaqil rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladi.

Multiassistans – bu mijozga yordamni tashkil etishning ko‘p bosqichli tizimi bo‘lib, unda sug‘urta kompaniyalari o‘z nomidan ish yuritishni assistansga topshiradi va u dispetcher vazifasini bajaradi, shakllangan xizmat orqali subassistans tarmoq xizmatlarini tashkil etadi, ya’ni boshqa (xududiy yoki o‘zining assistans tarmoqlari) assistans kompaniyalarini jalb qiladi. Bunday holda, Over Fee (to‘lovni oshishi) usuli qo‘llaniladi, bunda asosiy (umumiy) assistansning xizmat narxlariga sug‘urta hodisasini hal qilishga jalb qilingan subassistans xizmat narxlari qo‘shiladi va u narxning oshishiga ta’sir qiladi. Ammo bunga qaramay sug‘urta kompaniyasi bilan assistans hamkorligi sug‘urta kompaniyasiga mablag‘larni iqtisod qilish imkoninin beradi.

Faoliyat turiga qarab assistans ixtisoslashgan va universal assistanslarga bo‘linadi. Hududiy jihatidan esa hududiy (bir mintaqaning hududida), hududlararo (bir mintaqaning bir nechta hududlarida), milliy (bir mintaqada) va xalqaro (mintaqaning bir qator mamlakatlarida) va transmilliy (ko‘plab mintaqalar hududlarida) assistanslarga bo‘linadi.

Xorijiy mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish uchun assistans kompaniyasini tanlashda sug‘urta kompaniyalari qo‘yidagilarga e’tibor beradi, ya’ni dunyoning barcha burchaklarida keng vakolatxonalar tarmog‘iga ega ekanligi, shuningdek, assistans kompaniyasi bilan hamkorlik shartnomalariga ega bo‘lgan provayderlarning mavjudligi, ko‘rsatilayotgan assistans xizmatlarining o‘rtacha narxlari, sug‘urtalanuvchilarga (sug‘urtalangan shaxslarga) xizmat ko‘rsatishning sifati va samaradorligi, sug‘urtalovchi xizmat ko‘rsatayotgan hudud va mintaqalarda vakolatxonalarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Da’volarni ko‘rib chiqish va hal qilish bo‘yicha mijozlarning ehtiyojlarini tez va sifatli qondirishda assistans kompaniyasi zamonaviy informatsion texnologiyalardan keng foydalanishga asoslangan, u sug‘urta va servis kompaniyalari tajribalarini to‘plagan holda biznes jarayonlarini shakllantirib boradi. Assistans kompaniyasining umumiy tuzilishi

Tibiiy assistans
Telefon orqali tibbiy konsultatsiyalar, tibbiy muassasalar to‘g‘risida ma’lumotlar, tez tibbiy va shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, shoshilinch yoki rejali kasalxonaga yotqizishni tashkil etish, mijozning yashash joyiga dori-darmonlarni, tibbiy materiallarni, inventarlarni yetkazib berish, to‘lovlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarni nazorat va tahlil qilish, evakuatsiya (repartriatsiya) yo‘nalishlarini ishlab chiqish, shu jumladan chet elda ham, xizmatlar ko‘rsatishda ishtirok etgan ijrochilarning hisob-kitoblarni nazorat qilish va to‘lash, shuningdek boshqa xizmatlarni qamrab oladi
Texnik assistans
Evakuator, texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari, YHX, yoqilg‘i qo‘yish shaxobchalari, favqulodda xabarlarni yetkazish va boshqalar haqidagi ma’lumot, avtotransport vositalarini texnik stansiyalarga yetkazish yoki uyiga olib borish, shuningdek eng yaqin ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatish stansiyasiga olib borish ishlarini tashkil etish, texnik ekspert xulosalarini tayyorlash, mijozning avtotransport vositasini ta’mirlash davrida (vaqtincha) avtotransport ijarasini tashkil etish, shuningdek boshqa xizmat turlarini qamrab oladi
Transport assistansi
Yo‘lovchilarni tashishni tashkil etish va ularni evakuatsiya qilish ishlarini amalga oshirish, tovarlarni tashishni tashkil etish (yuk, mol-mulk va boshqalar), sug‘urta hodisasi (baxtsiz hodisa) yuz berganda joyga mutaxassisni (sug‘urta kompaniyasi vakili, ekspertni, adjasterni, yuristni va boshqa) joyiga olib orishni tashkil etish va boshqa xizmat turlarini amalga oshirish

Servis assistansi
Tibbiy evakuatsiya (repratatsiya) holatlarida transport uchun biletlarni sotib olishni tashkil etish, ishlarmonlik uchrashuvlarini tashkil etish, malakali mutaxassislar (hamshiralar, enagalar) bilan ta'minlash, parvoz paytida yo'qolgan yuklarni qidirishni tashkil etish, qo'riqlanadigan avtoturargohlar, qo'riqchilar, tadbirlar xavfsizligi bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish, tarjimon, gid va eskort xizmatlarini tashkil etish, arenda xizmatlarini tashkil etish, pochta yetkazish ishlari, veterinariya xizmati, hayvonlar uchun mehmonxonalar ko'rsatilishini tashkil etish va kelishilgan boshqa xizmat turlarini taqdim etish
Xonadon assistansi
Qurilish va ta'mirlash ishlarining barcha turlarini tashkil etish, baland binolarga xizmat ko'rsatish, qulflarni ochish uchun shoshilinch yordamni tashkil etish, favqulodda holatlarda shoshilinch yordamni tashkil etish (elektr, suv, issiqlik, gaz ta'minoti va boshqalar) va boshqa xizmat turlarini taqdim etish
Huquqiy assistans
Telefon orqali huquqiy maslaxat berish, mijoz yoki sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya qilish maqsadida yuristlarning sug'urta hodisasi bo'lgan joyi kelishi, da'volarni sudgacha hal qilish davrida huquqiy xizmat ko'rsatish, hujjatlarni huquqiy ekspertizadan (shu jumladan sug'urta shartnomalarini) o'tkazish, sug'urta kompaniyalari mijozlariga advakatlarni taqdim etish, sudlar bilan bog'liq barcha harakatlarni olib borish, mijoz va sug'urta kompaniyasi o'rtasida huquqiy maslaxat berish va boshqa huquqiy xizmatlarni tashkil etish
Sayyohlik assistansi
Sayyohat hujjatlarini qayta rasmiylashtirish, biletlar, mehmonxonalarni bron ishlarini olib borish, sayyohlarni ro'yxatga qo'yish, ularni konsullik, elchixona vakillari bilan uchrashishni tashkil etish, ularni uyga qaytishini tashkil etish, yo'qolgan bagajlarni qidirish, hujjatlarni tiklash, ularni vatanga qaytish ishlarini olib borish, sayyohlarga xorijda sug'urta qoplamalarini olishga ko'maklashish yoki zaruriy xizmatni olishni tashkil etish va boshqa xizmatlarni tashkil etish


1-rasm: Faoliyat turiga qarab assistans xizmatlarining bo'linishi[1]

Sug'urta kompaniyasiining asosiy vazifasi bu sug'urta fondini boshqarishdir. Shu sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni sifatli baholash, zaxiralarni to'g'ri shakllantirish va o'z vaqtida sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish har qanday sug'urta kompaniyasining asosiy maqsadi va vazifasi hisoblanadi. Aynan shunday siyosat kompaniyaning ijobiy imijini va rivojlanishini belgilaydi.

Bugungi kunda raqobatbardosh tarif stavkalari bilan mijozni o'ziga jalb qilish juda qiyin, shuning uchun mijozga sifatli xizmatlar ko'rsatish zarur, ayniqsa sug'urta hodisasi yuz bergan holatlarda. Bunda sug'urta kompaniyalari birinchi navbatda o'zlarini firibgarlikdan himoya qilish va sug'urta hodisalarini bartaraf etish xarajatlarini minimallashtirishga qaratadilar. Bularni hisobga olgan holda assistans kompaniyalari sug'urta kompaniyalariga qoida tariqasida qo'yidagi xizmatlarni taqdim etishadi:

1. Sug'urta hodisasi yuz berishining sabablari va zarar miqdorini aniqlash (adjusting service), bunga qo'yidagilar kiradi: texnik ekspertiza o'tkazish va zararni malakali baholash, hisobot tuzish (assessor reports); fors-major holatlarining mavjudligi (yo'qligi) to'g'risida vakolatli idoralardan ma'lumotnomalar so'rash va olish; avariya sertifikatlarini tayyorlash (survey reports); murojaat hududidan kelib chiqqan holda sug'urta kompaniyalarining regress huquqlarini mahalliy sudlarda himoya qilish; mahalliy huquqni muhofaza qilish idoralarida sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya qilish (baxtsiz hodisalarini tekshirish jarayonida); zarar yetkazilgan avtotrasportni baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joyda muhofaza, quriqlash choralarini ko'rish, zararni ko'payishini olidini olish maqsadida sug'urta hodisasidan keyin har qanday obyektni himoya qilish (ko'zatish) ishlari;
2. Da'volarni ko'rib chiqish xizmati (claims handling service). Sug'urta kompaniyalari uchun da'volarni qondirish – bu yaxshi moliyaviy investitsiyalarni, malakali ishchi kuchi va o'rnatilgan aloqalarni talab qiladigan jarayondir. Afsuski, provayderlar yoki sug'urtalanuvchilarning da'volarni tahlil qilishda tasodifiy (tasodifiy bo'lmagan) xatolar va nomuvofiqlar ko'plab topiladi. Sug'urta biznesining rentabelligi da'volarini ko'rib chiqish va ularni qoplash bo'yicha ishlarning qanchalik to'g'ri va professional tarzda amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi.

1 Muallif ishlanmasi.



2-rasm: Sug‘urta kompaniyasi va assistans o‘rtasidagi samarali hamkorlik[2]

2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki assistans va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik samaradorligi, sug‘urta kompaniyasining o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini qanday bajarishiga, ya’ni ma’lumotlar bazasini o‘z vaqtida taqdim etishi yoki sug‘urta polisining haqiqiyligini tasdiqlashi, assistansning ushbu masaladagi so‘roviga operativlik bilan javob berishga bog‘liq, shuningdek taqdim etilayotgan xizmatlar va aniq ko‘rsatilgan sug‘urta shartlarining mavjudligi, asosiysi o‘zaro hamkorlik shartnomasi shartlariga muvofiq hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Zarur bo‘lganda sug‘urta kompaniyasi ko‘rsatilayotgan xizmatlarning haqiqiy hajmini, ishlatilgan materiallarning aniq nomi, miqdori va ularning haqiqiy narxini aniqlash asosida hududda tasdiqlangan yoki belgilangan narxlarni provayderlar yoki assistanslardan so‘rashi va nazorat qilishi mumkinligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki sug‘urta bozorida assistans faoliyatni bu bozor mexanizmlarining ishlashini, ya’ni sug‘urtalanuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar), sug‘urta mahsulotlarini iste’mol qiluvchilarning sug‘urta xizmatlaridan foydalanish paytida yuzaga keladigan muammolarini hal qilish, oldini olish, ularga yordam (tibbiy, texnik, huquqiy) berish, ularni qo‘llab-quvvatlashda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, bozorda faoliyat yuritish va raqobatchilardan ustunlikni ta’minlashda sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta shartnomasi imzolangandan keyingi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyat turini bozorda assistans kompaniyalari taqdim etadi. Yuqorida aytilganidek assistans kompaniyalarining asosiy maqsadi sug‘urta mahsulotlari mizojlarini har tomonlama ko‘llab-quvvatlashdir.

Afsuski hozirgi kunda ko‘pchilik sug‘urta kompaniyalari sug‘urta shartnomasi imzolangandan keyingi jarayonni nazorat qilishmaydi yoki bu sohada deyarli nazorat mavjud emas. Bunga bir qancha omillar ta’sir qiladi, ya’ni sug‘urta kompaniyasining katta kichikligi, ularda xizmat ko‘rsatish assistans xizmatlarining yo‘qligi, bu boradagi xarajatlarning yuqoriligi va boshqalar holatlar.

Shu munosabat bilan assistans faoliyati yoki sug‘urta kompaniyalari faoliyatida assistans xizmatlarini tashkil etishning normativ-huquqiy bazasini yaratish, ular faoliyatini har tomonlama rag‘batlantirish (soliq imtiyozlari berish) chora-tadbirlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi va bu o‘z navbatida milliy sug‘urta xizmatlar bozorida yana bir professional ishtirokchining faoliyatining rivojlanishiga zamin yaratgan bo‘lar edi.

2 Tadqiqotchi ishlanmasi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаева (2019) Ассистанские услуги: не проморгать возможности. //
2. Abdullaeva (2019) Assistance services: do not miss the opportunity. http://isrs.uz/ru/maqolalar/assistanckie-uslugi-ne-promorgat-vozmoznosti.
3. Abduraxmonov I. X. (2020) Sug'urta tarmoqlarini rivojlantirishda sug'urta vositachilari faoliyatini tashkil etish samaradorligi. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral. // Abduraxmonov I. X. (2020) The effectiveness of the organization of the activities of insurance intermediaries in the development of insurance networks. Scientific electronic journal "International Finance and Accounting". № 1, February.
4. Ефимов С. Л. (1996) Ассистанс // Энциклопедический словарь. Экономика и страхование. - Москва: Церих-ПЭЛ, С. 33–34. 528 с. ISBN 5–87811–016–4. // Efimov S. L. (1996) Assistance // Encyclopedic Dictionary. Economics and insurance. Moscow: Zerich-PEL, pp. 33–34. 528 p. ISBN 5–87811–016–4.
5. Овчинникова Е. А. (2008) Особенности посреднической деятельности в страховании // Экономический журнал. М.: Издательство Ипполитова, № 15. С. 17–22. ISSN 2072–8220 // Ovchinnikova E. A. (2008) Features of intermediary activity in insurance // Economic journal. Moscow: Ippolitov Publishing House, No. 15. p. 17–22. ISSN 2072-8220.
6. Осадець С. С. (2002) Страхування: Пидручник / Керивник авт. колективу и наук, ред. Вид. 2-ге, перероб. и доп. К.: КНЕУ // Osadets SS (2002) Insurance: Textbook / Head of ed. team and science, ed. Kind. 2nd, reworked. i ext. K .: KNEU.
7. Сирик Н. В. (2006) Имущественное страхование в туризме // Вестник Оренбургского государственного университета. Оренбург: Оренбургский государственный университет, № 3. С. 163–166. // Sirik N. V. (2006) Property insurance in tourism // Bulletin of the Orenburg State University. Orenburg: Orenburg State University, No. 3. p. 163–166. ISSN 1814–6457.
8. Шахов В. В. (1997) Страхование: Учебник для вузов. М.: Страховой полис, ЮНИТИ // Shakhov V. V. (1997) Insurance: Textbook for universities. M .: Insurance policy, UNITI.
9. Фёдоровой Т. А. (2009) Страхование граждан, выезжающих за рубеж // Страхование: учебник / Под ред. Т. А. Фёдоровой. - 3-е изд. - М.: Магистр. - С. 402–413. - 1006 с. // Fedorova T. A. (2009) Insurance of citizens traveling abroad // Insurance: textbook / Ed. T. A. Fedorova. 3rd ed. M .: Master. p. 402–413. 1006 p. ISBN 978–5–9776-0032–3.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА



Мирсодикова Дилобар Дилшод кизи
Самостоятельный соискатель

Аннотация: Цель: выявление проблем и перспектив развития учетной информации для управления социально-экономическими процессами в условиях неопределённости, риска и турбулентности внешней среды. В частности, в ситуации пандемии COVID–19 и локдауна возник целый ряд вопросов, связанных с проблемами отражения объектов и событий в бухгалтерском учете, качеством и достоверностью тех отчетных данных, которые базируются на стандартных учетных принципах, допущениях и процедурах. Кроме того, сложившаяся ситуация высветила новые требования к учетной информации, как основе для формирования полноценной и прозрачной среды управления – в силу сложности принимаемых стейкхолдерами решений и нестандартности задач по предотвращению и лечению кризиса.

Ключевые слова: блокчейн, искусственный интеллект, машинное обучение, бухгалтерский учет, анализ, управленческий учет, цифровая экономика, цифровые технологии.

Annotatsiya: Maqsad: tashqi muhitdagi noaniqlik, xavf va notinchlik sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish uchun buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini rivojlantirish muammolari va istiqbollarini aniqlash. Xususan, COVID–19 pandemiyasi va blokirovkasi sharoitida buxgalteriya hisobida obyektlar va hodisalarni aks ettirish, standart buxgalteriya tamoyillari, taxminlarga asoslangan hisobot ma'lumotlarining sifati va ishonchliligi bilan bog'liq bir qator muammolar paydo bo'ldi. va protseduralar. Bundan tashqari, mavjud vaziyat manfaatdor tomonlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning murakkabligi va inqirozning oldini olish va davolash bo'yicha nostandart vazifalar tufayli to'liq va shaffof boshqaruv muhitini shakllantirish uchun asos sifatida buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga yangi talablarni ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: blokcheyn, sun'iy intellekt, mashinani o'rganish, buxgalteriya hisobi, tahlil, boshqaruv hisobi, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar.

Abstract: Goal: to identify problems and prospects for the development of accounting information for managing socio-economic processes in conditions of uncertainty, risk and turbulence in the external environment. In particular, in the situation of the COVID–19 pandemic and lockdown, a number of issues have arisen related to the problems of reflecting objects and events in accounting, the quality and reliability of those reporting data that are based on standard accounting principles, assumptions and procedures. In addition, the current situation has highlighted new requirements for accounting information as the basis for the formation of a full-fledged and transparent management environment - due to the complexity of decisions made by stakeholders and the non-standard tasks of preventing and treating the crisis.

Key words: blockchain, artificial intelligence, machine learning, accounting, analysis, management accounting, digital economy, digital technologies.

ВВЕДЕНИЕ

Цифровизация – подход к использованию цифровых ресурсов в работе организации. Она подразумевает переопределение технологий и бизнес- процессов для усовершенствования рабочеи среды сотрудников, взаимодействия с заказчиками и другими участниками деятельности современного предприятия. Оцифровка повышает производительность компании и является одним из главных приоритетов для руководителеи предприятии и IT организации по всему миру.

Использование информационных технологий способствует повышению конкурентоспособности организаций за счет сокращения расходов, снижения влияния человеческого фактора и ускорения работы. Мировой тренд развития цифровой экономики закреплен в Декларации "О цифровой экономике: инновации, рост и социальное благополучие", принятой на Министерской конференции в Канкуне (Мексика) (2016 г.) [1]. Важным шагом в данном направлении в нашей стране стал Указ Президента Республики Узбекистан "Об Утверждении Стратегии "Цифровой Узбекистан–2030" и мерах по ее

эффективной реализации" от 05.10.2020 г. № УП–6079. Стратегия "Цифровой Узбекистан–2030" была утверждена указом президента Шавката Мирзиёева в октябре 2020 года. Она направлена на ускоренное развитие цифровой индустрии в стране и повышение конкурентоспособности национальной экономики и включает в себя программы цифровой трансформации регионов и отраслей."Дорожная карта" по реализации стратегии охватывает цели в областях развития электронного правительства, цифровой индустрии, цифрового образования и цифровой инфраструктуры.


ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Для адаптации предприятия к технической революции особое внимание нужно обратить на стратегию развития бизнеса, что требует от компаний создание новых бизнес-моделеи.

Процесс оцифровывания дает бухгалтеру инструменты и каналы связи для цифрового учета, обмена знаниями. Скорее всего цифровизация учета поменяет свой ориентир рынка с поставщика на спрос. Новые участники с минимальными знаниями в области бухгалтерского учета смогут получить выход на рынок.

Основными плюсами цифровизации являются 4 канала связи, которые имеют способность видоизменяться: физические товары становятся цифровыми услугами; цифровые платформы упрощены и оптимизированы; местные услуги становятся глобальными; цифровизация упрощает традиционное производство.

Исследования Бремана и Фелландера показали, что с помощью процесса оцифровки – рынки кардинально изменятся. Многие компании пытаются оцифровать свои бизнес. Однако большинство отраслеи ,как правило, не используют цифровизацию в полной мере.



Ожидается, что в бухгалтерскои отрасли процесс перехода на цифру будет расти быстрее. Этот процесс требует изменения бизнес-стратегии, так как цифровые технологии влияют на деловое общение. В литературных источниках трудно найти научные статьи о влиянии дигитализации на бухгалтерскую индустрию. Именно поэтому эта тема является актуальной областью для исследовании. Многие считают, что бухгалтерские компании изменят свое направление бизнеса с аналогового на оцифрованныи.

В последние годы наиболее важным стал вопрос становления новой парадигмы бухгалтерского учета, связанной с цифровизацией экономики и развитием информационного общества XXI века. Известные ученые-экономисты стали использовать в научных публикациях новые термины: "цифровой учет", "цифровизация бухгалтерского учета". Вместе с тем, на сегодняшний день отсутствует единый подход к реформированию методологии бухгалтерского учета, так как данные понятия не закреплены в законодательстве, а авторы расходятся во мнениях.

Одни авторы считают основным направлением модернизации бухгалтерского учета использование новых цифровых технологий (технологии блокчейн, смарт-контракты, облачные хранилища, др.), внедрение которых в сравнении с ручной обработкой информации дает следующие преимущества:

- отсутствие или сокращение количества первичных документов;
- снижение трудоемкости обработки бухгалтерской информации;
- быстрая обработка больших массивов данных;
- представление данных в удобном для анализа виде (диаграммы, графики, таблицы) и др.

Другие авторы делают акцент на появлении новых объектов бухгалтерского учета (токены, криптовалюта, блок трансакций, цифровые записи, права собственности в реестре трансакций, человеческий капитал, клиентская база и др.), для которых возникает необходимость разработки новых методик и принципов учета.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Мир становится более цифровым, автоматизированным и требует обновления в управлении. Фирмы должны менять свои инновационные процессы с помощью внедрения новых технологий планирования усовершенствованных стратегийведения бизнеса. Некоторые эксперты не согласны с тем, что только рынки изменяются с массовым переходом компании на цифровую инновацию, также следует ожидать социально-технические изменения. В связи с развитием цифровизации компании должны научиться управлять и принимать технологические изменения.


Целью исследования цифровой бухгалтерии является:

- изучить бизнес-моделирование;
- представить какой должна стать, чтобы компания процветала на рынке. Решение данных задач даст понимание, как цифровойбухгалтерскии бизнес принимает решения для выживания на рынке.

В связи с процессом оцифровки происходит интеграция хозяиствующих субъектов компании путем слияний и поглощении. Для цифровизации бухгалтерского бизнеса необходимо существование и обновление различных видов устойчивости, к которым относятся:

- экономическая устоичивость, которая может быть выполнена с помощью создания стратегии развития и цифровых инструментов. Фирмы должны стремиться к экономическои устоичивости, наити новые направления, которые включают в себя цифровой клиент, для стабильного дохода.
- социальная устоичивость, изменяющая роль бухгалтера (так как многие его задачи становятся автоматизированными). Данная ситуация окажет давление на общество и способна изменить роль бухгалтера в целом.
- экологическая устойчивость, созданная путем экономии материала и уменьшает потребность в перевозке документов.

Оцифровка – преобразование аналоговых знании и информации в цифровую форму. Этот процесс дает быстрый и легкий доступ к информации в режиме реального времени и позволяет обмениваться информацией между людьми с помощью подключения к цифровой технике.



Блокчейн открывает огромные возможности. Бухгалтеры и бухгалтерские фирмы, которые освоят эту технологию и поймут ее основные концепции, будут наиболее востребованы в ближайшие годы. С каждым днем будущее, ориентированное на блокчейн, становится все более вероятным. Бухгалтеры обычно являются экспертами в области ведения учета, и блокчейн может эффективно помочь резервировать записи в совместимой системе, к которой аудиторы и уполномоченные третьи стороны могут получить безопасный и надежный доступ. В этот преобладающий период бухгалтеры должны контролировать внедрение и обслуживание блокчейна, а также других современных технологий.

Оцифрованные инструменты онлайн-бухгалтерского учета сделают бизнес индустрию более автоматизированнои, точной в деталях и числах, доступнои к данным, появится возможность создавать более надежные данные за счет автоматизации, более безопасное хранение через облачное хранилище.

Для процесса оцифровывания необходимо установить лучшие стратегии развития компании, оценить стратегические изменения, понять, как они повлияют на развитие бизнеса. Одним из способов демонстрации нововведении является создание бизнес-модели.

Бизнес-модель – истина организации, разработать которую, может только управленческая команда этои организации. Целью бизнес-моделирования является отражение достоверного, наглядного и простого для понимания описания деятельности компании. Она может быть представлена в виде: рисунка, схемы, объемнои модели, выполненных по тем или иным правилам. Самое главное – понятность и применимость.

На сегодняшнии день в бухгалтерии существует большое количество цифровых программ для удобного ведения бухгалтерского учета, но большинство участников процесса все еще используют аналоговыи способ отражении операции в бухгалтерском учете. Необходимо понять, как цифровые компании работают сегодня, используя многочисленные бизнес-модели.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Приходом цифровых технологии компании ждут глобальные изменения. На сегодняшнии день не существует совокупнои бизнес-модели, с помощью которойфирмы станут позиционировать себя как бизнес-элементы. Бизнес- элементы используются для упрощения выбора позиции в стратегии к созданию цифровои индустрии. “Бухгалтерское моделирование является одним из способов концептуальнои реконструкции фактов хозяиственнои жизни, хозяйственных процессов, бизнес-ситуации и бизнес-структур, цепочек создания стоимости” [3].

Компании всегда будут зависеть от внешне и внутренне заинтересованных сторон, а они, в свою очередь, заинтересованы в существовании фирмы. К внутренне заинтересованным сторонам относятся сотрудники компании, владельцы или инвесторы. Внешне заинтересованные стороны – поставщики, правительство, кредиторы, акционеры. У каждои из сторон имеются свои интересы, которые возникают из разных ценностеи и желании, но всех их объединяет одно – желание, чтобы бизнес оставался успешным. Блокчейн на самом деле представляет собой сочетание корпоративных разработок, таких как финансовые вознаграждения, которые поддерживают передовые инновации. Имея дело с экспертами по блокчейну, специалисты по бухгалтерскому учету могут легко помочь в сборе требований, которые, безусловно, будут способствовать развитию блокчейна.

Блокчейн не редкость для интересных инновационных моделей. В данной конкретной ситуации это фактически бэк-офисная услуга для передачи владения имуществом, а также аудиоинформации в Интернете. Можно было бы сказать, что блокчейн на самом деле является системой для ведения бухгалтерского учета, а также для работы компании. В рамках этого конкретного исследования наша команда фактически суммировала именно то, что, по мнению нашей компании, является важнейшими элементами блокчейн-инноваций, вплоть до 3 основных фраз, которые обсуждают именно то, что создает блокчейн, исходя из журналов. Огромный резерв, который сегодня гораздо лучше понимается в процедуре ведения бухгалтерского учета, на самом деле является источником данных, которым можно пользоваться и которым можно управлять через одно празднование.

На наш взгляд, использование блокчейна применительно к отчетности позволит отслеживать ее на различных временных этапах. Например, до и после аудита; до и после исправления ошибок. Это расширяет возможности пользователей (Одинцово Т. М., 2018). Технология распределенного децентрализованного хранения данных блокчейн, которая до недавнего времени была не более чем трендовым словом, постепенно становится реальностью в Узбекистане. Сегмент государственного управления и финансовый сектор наиболее активно интересуются и видят в этой технологии большие перспективы. Поскольку технология блокчейн в настоящее время находится на стадии инновационных и пилотных проектов в Узбекистане, необходимо выявить и проанализировать факторы внутренней и внешней

среды, которые влияют на процессы и результаты внедрения технологии блокчейн в сфере бухгалтерского учета. Для этого мы используем метод стратегического анализа – SWOT-анализ, который позволяет не только выделить сильные и слабые стороны технологии блокчейн, но и оценить возможности и угрозы внедрения данной технологии применительно к бухгалтерскому учету



“Доля передовых цифровых технологий в общем объёме затрат неуклонно растёт и может достичь 23,4% к 2023 году”, – отмечается в докладе. В 2020 году в результате пандемии наметились ещё более ощутимые сдвиги: инвестиции отраслей в передовые технологии выросли за год на 16%. В то же время расходы на традиционные информационно-коммуникационные технологии (включая программное обеспечение, оборудование, информационные и телекоммуникационные сервисы сократились на 3%).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В условиях цифровизации учета предприятие само определяет критерии полезности информации, посредством формализации и представления через систему специальных программных продуктов. После сбора данных в системе блокчейн возникает потребность в создании специальных цифровых учетных платформ. В теоретическом плане цифровая платформа является своего рода учетной политикой предприятия, так как содержит способы, методы учета, способствующие эффективному функционированию бизнеса.

Основными преимуществами технологии учета блокчейн является:

1. Открытость выполняемых операций - пользователь сети свободно имеет возможность отследить историю транзакций на сайте – проводнике.
2. Наличие цифровой записи – делает невозможным подделать, изменить, удалить данные.
3. Обладание каждым участником блокчейна постоянной обновляемой копией базы данных.
4. Высокая скорость и точность транзакций, что обеспечивает быстроту и надежность совершаемых сделок.
5. Децентрализованная связь между серверами, что дает высокую защищенность пользователей и операций. Обладая этими свойствами, система блокчейна является одной из наиболее подходящих для использования в бухгалтерском учете.

Таким образом, в условиях цифровизации экономики возникает необходимость в использования цифровых технологий во всех сферах развития экономики. В первую очередь внедрение цифровых технологий касается учетных процессов, что служит предпосылкой к цифровизации бухгалтерского учета, посредством инновационных технологий передачи и хранения данных. Наиболее подходящей цифровой технологией для совершенствования методологии бухгалтерского учета является блокчейн. Цифровизация бухгалтерского учета повысит скорость сбора и обработки информации, увеличит степень надежности хранения данных, а также доступность и оперативность информации для заинтересованных пользователей.

Источники и литература:

1. “Декларация о цифровой экономике как двигателе сотрудничества, безопасности и роста” MC(25) Journal No. 2, пункт 7 повестки дня
2. Филиппова, А. С., Илатовская, М. А. Цифровые технологии в бухгалтерском учете: сравнение современных сервисов // 2020. - №5 (63) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://esa-conference.ru/wp-content/uploads/files/pdf/Filippova-AnnaSergeevna.pdf. Дата доступа : 12.10.2020.
3. Возьянова, А. Н. Особенности цифрового бухгалтерского учета в современном обществе // Аллея науки. – 2020 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://alleyscience.ru/domains_data/files/4June2020.pdf. Дата доступа : 12.10.2020.
4. Булгакова К. В., Илышева Н. Н. “Цифровые учетные процедуры как основа тройной моментальной бухгалтерии” https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/108856/1/978–5–91256–543–4_069
5. Уверенность в будущем. Как технологии будущего могут помочь финансовой службе уже сейчас [Электронный ресурс]: URL: www.pwc.ru/ru/assets/pdf/pwc-emerging-technol- ogy-v8_rus_ed.pdf
6. Саломеева А. Что такое ERP-система [Электронный ресурс]: URL: www. fd.ru/ articles/1231-chto-takoe-erp-sistema
7. Mirsadikova, D. . (2023). Accounting For Cryptocurrencies. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 318–321. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/vi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH



Nasurova Kamola Ravshanovna
PhD, Toshkent moliya instituti, Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: XXI asr "Intelektual mulk asri", "Axborotlar asri" ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, unib kelayotgan yosh avlod vakillariga ta'lim tarbiya berayotgan va uni tashkil etayotgan ta'lim maskanlari faoliyat samaradorligini oshirish, albatta, ularning moliyaviy ta'minotiga bevosita bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirishda samarali moliyaviy mexanizmning mavjudligi ularning ish faolligini oshishiga hamda istiqbolda takomillashuviga zamin yaratadi. Maqolada mamlakatimizda aholi sonining ortishi hisobiga ta'lim xizmatlarini kengaytirish, ta'lim oluvchilarning bilim-ko'nikma-malakasini shakllantirish orqali ma'lum samaradorlikka erishish maqsad qilib olinganligi sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bilan birga moliyaviy mexanizm samaradorligini oshirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasalari, moliyaviy mexanizm, o'z-o'zini moliyalashtirish, ta'lim tashkilotlari, ta'lim konsepsiyasi.

Abstract: Considering that the 21st century is the "Century of Intellectual Property" and the "Century of Information", increasing the efficiency of educational institutions that educate and organize the younger generation certainly directly depends on their financial support. The presence of an effective financial mechanism for the further development of the activities of preschool educational organizations lays the foundation for increasing their labor activity and improvement in the future. The article pays attention to the issues of increasing the efficiency of the financial mechanism along with organizational and economic mechanisms for developing the activities of preschool educational organizations, since the goal is to expand educational services by increasing the population of our country. and achieve a certain efficiency through the formation of knowledge, skills and qualifications of students.

Key words: preschool educational institutions, financial mechanism, self-financing, educational organizations, educational concept.

Аннотация: Учитывая, что XXI век – это "Век интеллектуальной собственности" и "Век информации", повышение эффективности образовательных учреждений, воспитывающих и организующих молодое поколение, безусловно, напрямую зависит от их финансовой поддержки. Наличие эффективного финансового механизма дальнейшего развития деятельности дошкольных образовательных организаций закладывает основу для повышения их трудовой активности и совершенствования в будущем. В статье уделяется внимание вопросам повышения эффективности финансового механизма наряду с организационно-экономическими механизмами развития деятельности дошкольных образовательных организаций, так как целью является расширение образовательных услуг за счет увеличения численности населения нашей страны. и достичь определенной эффективности за счет формирования знаний, навыков и квалификации обучающихся.

Ключевые слова: дошкольные образовательные учреждения, финансовый механизм, самофинансирование, образовательные организации, образовательная концепция.

KIRISH

XXI asrda ta'lim taraqqiyoti, jahon iqtisodiyotining barqaror progressiv o'sish sur'atlari, jamiyat taraqqiyotining strategik resursi, milliy manfaatlar va jahon miqyosida mamlakatlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy vositaga aylandi. Shu sababli, har bir mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida keng ko'lamli sifat o'zgarishlarini ta'minlash, ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun fundamental xususiyatlarga ega bo'lgan sifat va samaradorlikni oshirish bilan bog'liq boshqaruvni muvofiqlashtirish, moliyaviy, kadrlar, axborot, texnologik resurslarni izlash va ular o'rtasidagi integratsion jarayonlarni ta'minlashga ustuvorlik ber-

ilmoqda. Bu kabi qator holatlar ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun individual ahamiyatga ega bo'lgan yondashuvlarni amalga oshirish, har bir bosqichga muvofiq chora tadbirlar tizimini shakllantirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg'armasi "Global ta'lim imkoniyatlarini moliyalashtirish" bo'yicha xalqaro komissiyasining jahon ta'lim inqirozini hal qilish strategiyasiga muvofiq taxminan 387 million boshlang'ich maktab yoshidagi, 230 million o'rta maktab yoshidagi bolalar matematika bo'yicha minimal bilim darajasiga erisha olmayapti [1]. 2030-yilga borib, past va o'rta daromadli mamlakatlarda 1,4 milliard maktab yoshidagi bolalarning 420 millioni bolalik davridagi eng oddiy ko'nikmalarni o'zlashtira olmaydi [2]. Dunyo ta'lim inqirozi ildizlari bolalarning erta ta'limi bilan bog'liq bo'lib, bu muammoni hal qilish mamlakatlar uchun eng yaxshi investitsiyalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'limning tasdiqlangan afzalliklariga qaramasdan, dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarning faqat yarmi maktabgacha ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega [3].

Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda keng islohotlar amalga oshirilayotganligi, jumladan mazkur islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatli ta'lim sohasini kompleks rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligi bilan xarakterlanadi. Mamlakatimizda aholi sonining ortishi hisobiga ta'lim xizmatlarini kengaytirish, ta'lim oluvchilarning bilim-ko'nikma-malakasini shakllantirish orqali ma'lum samaradorlikka erishish maqsad qilib olinganligi sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bilan birga moliyaviy mexanizm samaradorligini oshirishni talab etadi. Ushbu masalaga doir qator vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da belgilangan bo'lib, bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi hajmi, tug'ilishning o'sishi dinamikasi saqlanib qolayotgan bir paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turish, moliyalashtirishning yangi normativlarini ishlab chiqish hisobiga maktabgacha ta'lim xizmatlaridan keng aholi qatlamlari foydalanishini ta'minlash, moliyaviy nazorat, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan byudjet qonunchiligi buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi [4]. Shuningdek, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"ni 38-maqsadida, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. 2022–2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024–2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish kabi qator vazifalarga ustuvorlik berilganligi [5] maktabgacha ta'limni moliyalashtirishning samarali mexanizmini shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

MATERIAL VA METOD

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish jarayonlari S. V. Kuznesova, A. N. Ilchenko tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy-demografik omillar ta'sirida o'zgarishi, maktabgacha ta'limni samarali faoliyati uning faoliyat yuritish jarayonlarini to'g'ri tahlil qilishga asoslangan prognoz natijalariga asoslanish qayd etiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyaviy tartibga solish, bu bilan maqsadli mos vositalarni tanlashda matematik usullar va modellardan foydalanish tavsiya etiladi [6].

Iqtisodchi olimlardan T. Malikov, O. Olimjonovlar "moliya mexanizmi – moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning davlat tomonidan o'rnatilgan shakllari, turlari va metodlari tizimi" [7] sifatida e'tirof etadilar.

Fikrimizcha, "moliya mexanizmi" kategoriyasiga nisbatan yuqorida berilgan ta'riflar unchalik ham maqsadga muvofiq emas. Chunki, "moliya mexanizmi" bu – ma'lum iqtisodiy tizim doirasida davlat tomonidan tegishli moliyaviy siyosatni ta'minlash maqsadida moliya munosabatlarini amalga oshirishni turli shakllari va usullari kombinatsiyasi hisoblanib, kombinatsion jarayon moliyalashtirish tizimida samaradorlikni oshirishga asos yaratadi.

M. M. Yanson tadqiqotlarida o'z aksini topadi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tizimida davlat byudjeti orqali ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun turli moliyalashtirish manbalari muhokama qilinib, bu borada tegishli xulosa chiqarish uchun ta'lim tashkilotlarini moliyalash-tirishning 3 yillik moliyalashtirish jarayonlari bo'yicha qiyosiy tahlil-larini amalga oshirish tavsiya etiladi[8]. Shuningdek, A. F. Abdullayevning tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'shimcha moliyalashtirish manbasini shakllantirishda, pulli ta'lim xizmatlarini joriy etishni guruhlar kesimida tabaqalashtirish orqali byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish taklif etilgan [9].


X. B. Nazarov ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tashkilot-larida ta'lim sifatini baholash muammolari va jahon amaliyotida mavjud bo'lgan tahlil asosida ta'limga byudjet xarajatlari samaradorligini baholashga nisbatan uslubiy yondashuvlar muhokama qilinadi [10].

NATIJALAR

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi jami 100 ta maqsadni qamrab olgan bo‘lib, shundan 34 tasi adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. Inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy tamoyillariga muvofiq inson kapitali rivojlanishini ta’minlash milliy iqtisodiyotimiz uchun dolzarb ahamiyatga molikdir. Har bir mamlakat uchun yosh avlodning kelajakda munosib o‘rin egallashi va raqobatbardosh kadrga aylanishi, real hayotda yutuqlarga erishishi, yuqori malaka ko‘nikmalarni egallashi uchun zarur bo‘lgan barcha shart sharoitlar yaratish muhimdir.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini oshirish, davlat moliya tizimini takomillash-tirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, bu orqali ta’limning konstitutsiyaviy kafolatlarini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tizimining zamonaviy maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirishning shahar va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, davlat maktabgacha ta’limini rivojlantirishning optimal byudjet xarajatlarini ta’minlash kabi qator vazifalar ijrosini amalga oshirishda, ayniqsa, moliyalashtirish jarayonini byudjet mablag‘laridan foydalanish tizimining asosi ekanligi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarini kengaytirish, kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun sifatli ta’lim olishni ta’minlash, maktabgacha ta’limning ijtimoiy ehtiyojlarini to‘liq qamrab olishga yo‘naltirilganligi fikrimizni asoslash uchun xizmat qiladi.

2022-yilda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish maqsadida davlat byudjetidan jami 8 641,3 mlr.so‘mlik mablag‘ ajratilgan bo‘lib, bu ta’limga ajratilgan umumiy xarajatlarning 18,4 foizini tashkil etadi. Oila va bolaning maktabgacha ta’lim muassasasi xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish tizimini takomillashtirish maqsadida davlat xususiy sherikligiga asoslangan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 1 500 mlrd. so‘m byudjet mablag‘lari ajratilgan. Bu ko‘rsatkichlar, byudjetdan maktabgacha ta’lim uchun qilingan xarajatlarni qariyb 17,4 foizini tashkil etadi. Moliyalashtirishning yuqori ko‘rsatkichi, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun ajratilgan bo‘lib, 4 724,6 mlr. so‘m mablag‘ ushbu jarayonni moliyalashtirishga sarflangan (1-rasm).



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasida 2022-yil uchun maktabgacha ta’lim xarajatlarining tarkibi, (mlrd. so‘m) [11]

Shuningdek, oziq-ovqat, joriy ta’mirga xarajatlar, kommunal xizmat va ko‘mir sotib olish xarajatlarining umumiy qiymati 1 631,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu xarajatlar jami xarajatlarning taqriban 18,9 foiz ulushga ega. O‘z navbatida maktabgacha ta’lim xizmatlari bozori faoliyatini modernizatsiya qilish, sohada bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonlarida mulkchilik munosabatlarining o‘rni, maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining mutloq o‘sish sur’atini ta’minlash bilan birga uning tuzilmaviy tarkibini takomillashtirish uchun ham xizmat qilayotganligini kuzatishimiz mumkin. 2020–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining umumiy ko‘rsatkichlari tarkibida bu boradagi sifat o‘zgarishlari ta’minlangan. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining umumiy ko‘rsatkichi 18345 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich qo‘shimcha 49 foizga oshib, 27303 taga etgan (1-jadval).

1-jadval: 2021–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ko‘rsatkichlari [12]

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni	18345	22429	27303
shundan:			
Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari	5981	6031	6387

DXSh asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari	1166	1200	1345
Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari	10771	14579	18797
Xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari	427	619	774
Quvvati (ming o'rin)	852,5	856,2	858.3
Guruhlar soni (ming birlik)	46	46,3	46.8
Tarbiyalanuvchilar soni (ming kishi)	1608,0	1715,3	1918,1
shundan:			
Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (ming kishi)	1130,7	1153,3	1311,0
DXSh asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (ming kishi)	107,5	118,3	133,0
Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (ming kishi)	369,7	443,7	494.0
3–7 yoshdagi bolalar soni (ming kishi)	2792,8	2876,6	2927,4
Bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi,%	58	63	67

2020–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ko'rsatkichlarining umumiy tarkibida davlat xususiy sherikligi sohasidagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini 1166 tadan 1345 taga yetkazish bilan bog'liq vazifalarning qayd etilganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlat xususiy sheriklik tizimiga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish davlat byudjeti mablag'-lari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, ovqatlan-tirish va ularga qarab turish uchun olinadigan to'lovlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Monitoring natijalariga asosan kelgusi yil uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limni tashkil etishni moliyalashtirish bo'yicha xarajatlar smetasi umumta'lim dasturlarida belgilangan standartlar bo'yicha olib boriladi. Mahalliy byudjet hisobidan subvensiyalarni hisoblashda byudjetdan moliyalashtirishning davlat standarti va maktabgacha ta'lim tashkilotlari birgalikda tashkil etilgan taqdirda ularni bevosita moliyalashtirish hajmi qo'llaniladi. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga byudjetdan ajratilgan mablag'lar miqdori 12,4 trln. so'mni tashkil etgan bo'lib, byudjetdan ajratilgan mablag'larning 85 foizini davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari tashkil etadi. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga byudjetdan ajratilgan mablag'larning 1,8 trln. so'mi yoki qariyb 15 foizi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun subsidiyalar hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasiga sarflar, ma'muriy va boshqa xarajatlar guruhi tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini byudjetdan moliyalashtirish jarayonida xarajatlar smetasi bo'yicha ajratilayotgan joriy mablag'lar, hisobot davri uchun bozor baholarini hisobga olgan holda ajratilganligi sababli, xarajatlarni moliyalashtirishda mablag'larni yetishmasligi bilan bog'liq muammoli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin. Bunday jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birinchi va ikkinchi guruhi uchun xarajatlar miqdori oshiriladi.

Fikrimizcha, bu borada moliyalashtirishning turli shakllari va muqobil variantlari konsentratsiyasini ta'minlash orqali moliyalashtirish jarayonida optimal samaradorlikka erishish mumkin. Hududlarda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini oshirishda maktabgacha ta'limni tashkil etishning qamrov darajasi va uni oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lardan foydalanishda optimal samaradorlikni ta'minlash bilan birga, hududlarda maktabgacha ta'lim xizmatlari ko'rsatishning murakkabligi orqali izohlash mumkin. Ushbu jarayonga aholi sonining o'sishi va aholi daromadlar darajasi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu borada tegishli samaradorlikni oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda bozor munosabatlarini takomillashtirishda kapital qo'yilmalarni qisqa muddatli to'lovlar oqimi bilan almashtirish, davlat tomonidan moliyalashtirish jarayoni cheklangan loyihalarni amalga oshirishni tezlashtirishdan manfaatdor bo'lgan xususiy sektorga o'tkazish doirasida tegishli chora tadbirlar tizimini tashkil etishni talab etadi.

MUNOZARA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmning tarkibiy tuzilishi moliyaviy munosabatlarni xilma-xilligiga mos keladigan turli elementlarni o'z ichiga oladi. Aynan moliyaviy munosabatlarning ko'pligi moliyaviy mexanizmning ko'p sonli element-laridan foydalanishni belgilab beradi. 2021–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ko'rsatkichlarining umumiy tarkibida davlat xususiy sherikligi sohasidagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini 1166 tadan 1200 taga yetkazish bilan bog'liq

vazifalarning qayd etilganligi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda davlat xususiy sheriklik tizimiga alohida e’tibor qaratilayotganligi bilan belgilanadi. Oilaviy Maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi “Qamrov darajasi past bo‘lgan tumanlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5144-sonli Qaroriga muvofiq, bolalar bog‘chasining avtonomligini mustahkamlash, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni reabilitatsiya qilish va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash [13] bo‘yicha zarur chora tadbirlar doirasida amalga oshirib kelinmoqda. O‘z navbatida moliyalashtirish mexanizmining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning qamrov darajasi hisoblanib, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 1608 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 1715,3 ming tarbiyalanuvchiga yetkazish rejalashtirilgan [14].

Shu bilan birga, byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish uchun ajratilayotgan xarajatlarni ijtimoiy jihatdan yo‘naltirish, bu borada ota-onalarning daromadlaridan kelib chiqqan holda moliyalashtirishning tuzilmaviy tarkibini takomillashtirishga ehtiyoj ortib boradi. Bu kabi qator holatlar O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmining samaradorligini oshirishda:

- maktabgacha ta’lim subyektlari shaxsiyatining ijodiy salohiyatini rivojlantirish;
- bolaning shaxsiy rivojlanishi ko‘rsatkichlari: ijodkorlik, motivatsiya, qiziquvchanlik, zukkolik, axloqiy rivojlanish darajasi ni ta’minlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati bilan bog‘liq mazkur muammoning samarali yechimini ta’minlashda davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, bu borada xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlar bilan bog‘liq loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan “ensure operational efficiency of cost reduction” dasturini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlar dasturi maktabgacha ta’limni moliyalashtirishning umumiy strategiyasi doirasida shakllan-tiriladi. Imtiyozli kreditlar bilan bog‘liq loyihalarni strategik va joriy rejalashtirish jarayoni, moliyalashtirishni tarmoq va hududiy taqsimlash tizimi orqali imtiyozli kreditlar bilan bog‘liq loyihalarni davlat va hududiy darajadagi tizimiga integratsiyasini ta’minlaydi. Imtiyozli kreditlar bilan bog‘liq loyihalarni o‘zlashtirishni yig‘ma manzilli dasturi doirasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash jarayoni amalga oshiriladi. Loyiha uchun ajratilgan mablag‘lar sarflanishi va natijadorligini doimiy monitoringi orqali imtiyozli kreditlar bilan bog‘liq loyihaviy rejalarni operativ o‘zgartirish imkoniyati vujudga keladi. Imtiyozli kreditlar bilan bog‘liq loyihalarni ta’rif tizimi orqali hududlarda samaradorlik ko‘rsatkichi pastligi sababli moliyalashtirish imkoniyati cheklangan loyihalar portfeli shakllantiriladi. Joriy yilda moliyalashtirish imkoniyati yuqori bo‘lgan loyihalar muqobil variantiga almashtirib boriladi. Ushbu dasturning amaliyotga joriy etilishi maktabgacha ta’lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini takomillashtirish orqali moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish uchun xizmat qiladi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmining istiqbolli yo‘nalishlari maktabgacha ta’lim dasturlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirish borasida maqsadli ko‘rsatkichlarni ta’minlash emas, balki maktabgacha ta’lim sohasidagi davlat siyosatida moliyalashtirishning barcha shakllari uchun teng shart-sharoitlarni ta’minlash orqali raqobat muhitini takomillashtirish jarayonlarini taqozo etadi. Ammo, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ta’minlashda qamrov darajasi past bo‘lgan tumanlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bilan bog‘liq qator omillarga alohida e’tibor qaratish lozim.

XULOSA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moliyalashtirish tizimidagi mavjud muammolarni hal etish, moliyalashtirish tizimini amalga oshirishning yangi modellari, tizim elementlari muvofiqligini moliyalash-tirish manbalariga yo‘naltirish orqali moliyalashtirishda tegishli samaradorlikni oshirish talab etiladi. Bu o‘z navbatida maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi yangi aloqalarni shakllantirishda tizimli yondashuvni amalga oshirish, ta’limni moliyalashtirishning yangi modellari byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larning mos proporsiyasini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shakllari va ularning tuzilmaviy tarkibini hududlar o‘rtasidagi muvofiq-ligini ta’minlash orqali maktabgacha ta’limni moliyalashtirish jarayonida maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish mumkin.

Fikrimizcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq samarali natijadorlikni ta’minlash uchun quyidagi vazifalarning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadga muvofiq:

- hududlar o‘rtasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalash-tirishda mavjud standartlar va modellar orqali qiyosiy tahlillarni amalga oshirish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishda yangi yondashuvlar, standartlar, modellar, strategiyalarni ishlab chiqish orqali byudjetdan moliyalashtirishni hajmini qisqartirish;
- hududlar o‘rtasida ta’limni moliyalashtirishning eng samarali usullari va modellarini shakllantirishda moliyalashtirish metodologiyasini standartlashtirish, ta’limni moliyalashtirish sohasidagi konsepsiyani ishlab chiqish va boshqalar.

Maktabgacha ta’limni moliyalashtirishning asosiy yondashuvlari mamlakatlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimning amal qilish xususiyatiga bog‘liq bo‘lib, ta’lim uchun to‘lovning moliyaviy yukini qayta taqsimlashga nisbatan urinishlar har bir moliyalashtirish manbasining faoliyatini tizimli tashkil etishga asos yaratadi.

Maktabgacha ta’limni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish ta’lim jarayonlarini moliyalashtirishning mavjud usullari va mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish va yangilashdan iborat. Mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda eng samarali foydalanish jarayonini amalga oshirish talab etiladi. Hozirgi bosqichda moliyalashtirishning yangi modellarini izlash, birinchi navbatda, ta’lim tizimini davlat va xususiy moliyalashtirish o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta’minlashdan iborat bo‘lib, mazkur jarayon ta’lim xizmatlarining samaradorligi oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini baholash jarayonlariga doir tahlil natijalari, maktabgacha ta’limni moliyalashtirishda moliyaviy rejalashtirishning o‘rni va ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash tizimini samarali amal qilishi zamonaviy ta’lim xizmatlarini tashkil etish va samaradorligini oshirishga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO Institute for Statistics.
2. The International Commission on Financing Global Education Opportunity, The Learning Generation: Investing in Education for a Changing World, The International Commission on Financing Global Education Opportunity, n.d.,, accessed 6 August 2019.
3. UNICEF 2019–2030 Education Strategy: Data and Analytics.
4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”gi PF–60-sonli Farmoni.
6. Кузнецова С. В, Ильченко А. Н. Проблемы финансирования дошкольных образовательных учреждений (ДОУ) // Современные наукоемкие технологии. – 2008. – № 4. – С. 170–172.
7. Malikov T, Olimjonov O. Moliya. Darslik.– T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. – 800 b.
8. Янсон, М. М. Источники финансирования модернизации материально-технической базы государственных бюджетных общеобразовательных и дошкольных образовательных учреждений Санкт-Петербурга// Молодой ученый. 2021. № 2 (344). – С. 288–292.
9. Abdullayev A. F. O‘zbekistonda Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – T., 2020. – 61 b.
10. Nazarov X. B. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirish samaradorligini baholash usullari. “Science and Education” Scientific Journal Volume 1 Issue 2
11. O‘zbekistonda fuqarolar uchun 2022-yil byudjet loyihasi. – T., 2021. 15–16
12. O‘zbekistonda fuqarolar uchun 2022-yil byudjet loyihasi. – T., 2021. 15–16 bet
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi “Qamrov darajasi past bo‘lgan tumanlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5144-sonli Qarori
14. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi ma’lumotlari.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕПОЗИТНОЙ ПОЛИТИКИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ





Нуриллаев Рахмат Ярашевич
Заведующий кафедры Агротехнологии Каршинского института ирригации и агротехнологий, НИУ “TIQXMMI” к.с.х.н., доцент

Нуриллаев Шердил Жамолиддин угли
Магистр Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан

Аннотация: Статья рассматривает вопрос повышения эффективности депозитной политики в коммерческих банках. Она подчеркивает важность этой политики для обеспечения устойчивого развития и успеха банка в условиях конкурентной среды. В статье рассматриваются ключевые аспекты, такие как диверсификация депозитов, улучшение качества обслуживания клиентов, управление привлеченными и размещенными средствами, а также снижение расходов. Автор подчеркивает необходимость комплексного подхода к повышению эффективности депозитной политики, чтобы банк мог эффективно управлять депозитами и быть конкурентоспособным на рынке.

Ключевые слова: депозитная политика, коммерческий банк, эффективность, диверсификация депозитов, качество обслуживания, управление средствами, снижение расходов, конкурентоспособность.

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida depozit siyosatining samaradorligini oshirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Raqobat muhitida bankning barqaror rivojlanishi va muvaffaqiyatini ta’minlashda ushbu siyosat muhimligini ta’kidlaydi. Maqolada depozitlarni diversifikatsiya qilish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, jalb qilingan va joylashtirilgan mablag‘larni boshqarish, xarajatlarni kamaytirish kabi asosiy jihatlar ko‘rib chiqiladi. Muallif bankning omonatlarni samarali boshqarishi va bozorda raqobatbardosh bo‘lishi uchun depozit siyosati samaradorligini oshirishga kompleks yondashuv zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: depozit siyosati, tijorat banki, samaradorlik, depozitlarni diversifikatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifati, mablag‘larni boshqarish, tannarxni pasaytirish, raqobatbardoshlik.

Abstract: The article examines the issue of increasing the efficiency of deposit policy in commercial banks. She emphasizes the importance of this policy to ensure the sustainable development and success of the bank in a competitive environment. The article discusses key aspects such as diversifying deposits, improving the quality of customer service, managing attracted and placed funds, and reducing costs. The author emphasizes the need for an integrated approach to improving the efficiency of deposit policy so that the bank can effectively manage deposits and be competitive in the market.

Key words: deposit policy, commercial bank, efficiency, diversification of deposits, quality of service, funds management, cost reduction, competitiveness.

Депозитная политика является одной из ключевых составляющих банковской деятельности и играет важную роль в привлечении и управлении денежными средствами клиентов. В условиях современной финансовой индустрии, где конкуренция между банками становится все более жесткой, повышение

эффективности депозитной политики становится необходимостью для обеспечения устойчивого развития и успеха коммерческого банка.

Одним из ключевых аспектов повышения эффективности депозитной политики является диверсификация депозитов. Коммерческий банк должен предлагать различные виды вкладов, адаптированные под потребности различных клиентов. Это может включать в себя вклады с разными сроками, процентными ставками, возможностью пополнения или снятия средств. Такая диверсификация позволяет привлечь больше клиентов и удовлетворить их потребности, что в свою очередь способствует увеличению объема привлеченных депозитов.

Реформы, проводимые в банковской системе Узбекистана, направлены на повышение уровня капитализации коммерческих банков, обеспечение их финансовой устойчивости, расширение масштабов кредитования реального сектора экономики, повышение качества банковских услуг, а также привлечение свободных средств населения и субъектов хозяйствования к банковским депозитам и обретение стратегической значимости экономики. Ряд проблем, связанных с совершенствованием соответствующей банковской политики по эффективному размещению в сетях, внедрению инновационных и выгодных видов банковского депозитного обслуживания клиентов , укрепление доверия населения и субъектов предпринимательства к банковской системе, повышение уровня эффективности банковских услуг, направленное на совершенствование депозитной политики коммерческих банков, определяет актуальность разработки предложений и практических рекомендаций.

Указы Президента Республики Узбекистан № УП–4947 от 7 февраля 2017 года “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, Постановление № ПП–3270 от 12 сентября 2017 года “О мерах по дальнейшему Развитие и повышение устойчивости банковской системы республики”, Решение № ПП –3620 от 23 марта 2018 года “О дополнительных мерах по повышению популярности банковских услуг”, ПП –4071 от 21 декабря 2018 года “О мерах для обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков, повышения эффективности их деятельности и совершенствования кредитной политики” ги от 12 мая 2020 года № УП–5992 “О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на годы 2020–2025” и нормативно-правовых документов, касающихся данной сферы деятельности, определяет правила и положения депозитной политики в Узбекистане.

Научные исследования, проведенные о деятельности системы Всемирного банка и ожидаемом состоянии предлагаемых ею услуг в ближайшей и долгосрочной перспективе, показывают, что традиционные банковские услуги – это не только банковские и небанковские финансовые организации, но и различные электронные кошельки и конкуренция между технологическими компаниями, предлагающими виртуальные валюты, системы онлайн-торговли и социальные сети, усиливается.

В частности, согласно анализам, проведенным престижными международными аудиторскими компаниями, такими как “EY (Ernst & Young[1]) и Deloitte Development LLC”[2], формирование финансовой устойчивости и прочной ресурсной базы, повышение конкурентоспособности на рынке финансовых услуг напрямую зависит от уровень организации банковской деятельности на основе инновационных цифровых технологий. Это свидетельствует о том, что повышение эффективности политики по привлечению средств физических и юридических лиц в банковские депозиты становится одним из важных условий стабильного развития банковского сектора.

Важно создать научно обоснованную банковскую политику, обеспечивающую стабильное развитие коммерческих банков в нашей стране. Одной из составляющих этой политики является депозитная политика, поскольку основная часть ресурсов банка формируется за счет депозитных операций. Качество организации этих операций напрямую влияет на надежность кредитной организации. Депозитная политика является важной составляющей общей политики и стратегии функционирования и развития современного коммерческого банка.

Оно оказывает непосредственное влияние на процесс формирования и изменения ресурсной базы банка, в том числе его кредитных ресурсов и кредитного потенциала. Кроме того, депозитная политика тесно связана с другими аспектами деятельности банка, такими как кредитная политика, валютная политика, фондовая политика, маркетинговая политика, политика рисков, конкурентная политика, материально-техническая политика и даже кадровая политика. Привлечение банком финансовых ресурсов является основной деятельностью, требующей продуманного, скоординированного и рационального подхода с учетом всех сторон работы современного коммерческого банка.

Кредитные организации в соответствии со своими задачами привлекают средства населения, предприятий и финансовых учреждений, а также размещают их от своего имени и за счет собственных

1 Banking & Capital Markets https://www.ey.com/bankinginnovation
2 Global Operate Services www.deloitte.com/about

средств. Основным способом привлечения денежных средств являются депозитные операции, осуществляемые кредитными организациями на банковском рынке.

Депозитные операции представляют собой привлечение денежных средств населения и предприятий в виде депозитов (срочных и до востребования) и депозитов (юридических лиц) с целью расширения активных операций банка. Проще говоря, клиенты банка (физические лица и субъекты предпринимательской деятельности) передают свои средства в банк на определенный срок по депозитному договору и получают взамен начисленные проценты. Каждая кредитная организация самостоятельно разрабатывает и утверждает свою “Депозитную политику” в соответствии с нормативными документами и нормативными актами Центрального банка Узбекистана. Данная политика включает меры, направленные на создание ресурсной базы и управление всеми видами депозитов клиентов. “Депозитная политика” должна отвечать следующим требованиям:

Для удовлетворения предъявляемых требований “Депозитная политика” кредитной организации должна включать в себя следующие аспекты:

- разработка общей стратегии привлечения денежных средств (депозитов, депозитов) на рынке кредитных организаций.
- определить тактику продвижения банковских продуктов на депозитном рынке.
- Мониторинг реализуемой депозитной политики и оценка ее эффективности.

Банки используют средства, задействованные в их активных операциях, преимущественно в виде кредитов, для получения дохода. При этом банки должны поддерживать достаточный уровень ликвидности в соответствии с обязательными нормативами Центрального банка Узбекистана. Кроме того, банки должны резервировать часть привлеченных средств на отдельном счете Центрального банка Узбекистана. Доля таких резервов определяется нормативными документами Центрального банка Узбекистана и составляет в среднем 4–5% от общей суммы привлеченных средств физических и юридических лиц

Принципы депозитной политики кредитной организации можно представить в виде следующей схемы[3]:



3 С. А. Шориков Сущность депозитных операций кредитных организаций https://kpsu.ru/blog/bankovskoe-delo/sushchnost-depozitnykh-operatsiy-kreditnykh-organizatsiy/

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Депозитная политика конкретного банка является частью общей стратегии банка по привлечению финансовых ресурсов. Основной целью этой политики обычно является привлечение максимального количества средств при минимальных затратах. Иными словами, банк стремится занять как можно больше денег у граждан и субъектов предпринимательства под низкий процент или даже бесплатно, особенно на счета до востребования. Для достижения этой цели банки обычно решают следующие задачи и используют различные инструменты:

- повышение качества обслуживания клиентов, включая удобство и гибкость всех видов платежей, широкое использование дистанционных банковских услуг.
- Предоставление различных видов вкладов в разных валютах, чтобы клиенты могли легко выбрать наиболее подходящий для них вариант.
- Разработать эффективную рекламно-маркетинговую кампанию для привлечения средств клиентов.
- Предоставление клиентам удобных инструментов и средств для сбора и хранения средств.
- Реализация гибкой, привлекательной и сбалансированной процентной политики.

Важной составляющей “Депозитной политики” коммерческого банка является его способность эффективно управлять привлеченными ресурсами, поддерживать необходимый уровень ликвидности и при этом получать максимальный доход от активных операций. Этот доход должен покрывать расходы банка и способствовать его развитию и существованию. “Депозитная политика” должна учитывать следующие основные моменты:

- диверсификация депозитов по видам депозитов, валютам и субъектам депозитных операций.
- управление привлеченными и размещенными средствами по срокам, суммам и валютам в целях минимизации рисков вкладчиков и других участников депозитных операций.
- Постоянный поиск возможностей снижения затрат на депозитные операции.
- Поддержание необходимого уровня ликвидности в соответствии с обязательными нормативными документами Центрального банка Узбекистана.

Другим важным аспектом повышения эффективности депозитной политики является улучшение качества обслуживания клиентов. Банк должен предоставлять удобные и гибкие условия для всех видов расчетов, а также широко использовать дистанционное банковское обслуживание. Это позволит клиентам совершать операции с депозитами без необходимости посещения физического отделения банка, что удобно и экономит время. Кроме того, банк должен обеспечивать надежность и безопасность хранения депозитов, чтобы клиенты чувствовали себя защищенными и доверяли банку.

Управление привлеченными и размещенными средствами также играет важную роль в повышении эффективности депозитной политики. Банк должен стремиться найти оптимальный баланс между привлечением депозитов и размещением средств с минимальным риском для вкладчиков и других участников депозитных операций. Это может включать разнообразные инвестиционные инструменты, диверсификацию портфеля активов и управление рисками. Такой подход позволит банку получить максимальный доход от активных операций и обеспечить стабильность своей финансовой позиции.

Наконец, постоянное изыскание возможностей снижения расходов по депозитным операциям также является важным фактором в повышении эффективности депозитной политики. Банк должен постоянно анализировать свои затраты и искать способы оптимизации процессов, сокращения издержек и повышения эффективности использования ресурсов. Это может включать автоматизацию процессов, использование новых технологий и оптимизацию организационной структуры.

В целом, повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках является важным фактором для достижения финансовой устойчивости и успеха. Диверсификация депозитов, улучшение качества обслуживания клиентов, управление привлеченными и размещенными средствами, а также снижение расходов - все эти аспекты должны быть учтены в “Депозитной политике” банка. Только такой комплексный подход позволит банку эффективно управлять депозитами и обеспечить свою конкурентоспособность на рынке.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В данной статье мы рассмотрели ключевые аспекты повышения эффективности депозитной политики в коммерческих банках. Основываясь на проведенном анализе, можно сделать следующие выводы:

Диверсификация депозитов играет важную роль в повышении эффективности депозитной политики. Коммерческие банки должны предлагать различные виды вкладов, адаптированные под потребности различных клиентов.

Улучшение качества обслуживания клиентов является неотъемлемой частью эффективной депозитной политики. Банки должны предоставлять удобные и гибкие условия для всех видов расчетов, а также широко использовать дистанционное банковское обслуживание.

Управление привлеченными и размещенными средствами имеет важное значение для повышения эффективности депозитной политики. Банки должны эффективно управлять своими ресурсами, оптимизировать процессы и снижать издержки.

Снижение расходов по депозитным операциям также является фактором, способствующим повышению эффективности депозитной политики. Банки должны постоянно анализировать свои затраты и искать способы оптимизации процессов.

Для повышения эффективности депозитной политики в коммерческих банках рекомендуется следующее:

Развивать и предлагать разнообразные виды вкладов, учитывая потребности различных клиентов.

Инвестировать в технологии и развивать дистанционное банковское обслуживание, чтобы обеспечить удобство и гибкость клиентам.

Внедрять эффективные системы управления привлеченными и размещенными средствами, чтобы оптимизировать использование ресурсов.

Постоянно анализировать затраты и искать способы снижения расходов по депозитным операциям.

В целом, эффективная депозитная политика является ключевым фактором для успеха коммерческих банков. Реализация предложенных рекомендаций поможет банкам повысить эффективность своей депозитной политики и обеспечить конкурентоспособность на рынке.

Список использованных литератур:

1. Banking & Capital Markets https://www.ey.com/bankinginnovation
2. Global Operate Services www.deloitte.com/about
3. С. А. Шориков Сущность депозитных операций кредитных организаций https://kpsu.ru/blog/bankovskoe-delo/sushchnost-depozitnykh-operatsiy-kreditnykh-organizatsiy/
4. Постановление Центрального Банка Республики Узбекистан “О внесении изменении в положения о порядке осуществления депозитных операций с коммерческими банками Центрального Банка Республики Узбекистан от 24 декабря 2020 г.,№ 27/9
5. Постановление Правления Центрального Банка Республики Узбекистан “Об утверждении положения об обязательных резервах коммерческих банков, депонируемых в Центральном Банке Республики Узбекистан” от 31 марта 2018 г., № 12/8
6. Закон Республики Узбекистан “О Центральном банке Республики Узбекистан” от 11 ноября 2019 г.,№ ЗРУ–582

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



HUFIYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH ORQALI MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Pardayev Ilhomjon G‘ulom o‘g‘li
Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosida vujudga kelayotgan xufiyona iqtisodiyot ulushini bojxona to‘lovlarini takomillashtirish orqali qisqartirish bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan va boj-tarif siyosatini isloh qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xufiyona (yashirin) iqtisodiyot, tashqi savdo, bojxona to‘lovlari, bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar, tovarning bojxona qiymati, boj-tarif siyosati, soliqlar, majburiy to‘lovlar.

Abstract: This article analyzes issues related to reducing the share of the secret economy in the foreign trade of the Republic of Uzbekistan by improving customs payments, and also develops proposals for reforming customs policy.

Key words: secret (hidden) economy, foreign trade, customs duties, customs duty benefits, customs value of goods, customs policy, taxes, mandatory payments.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы, связанные со снижением доли тайной экономики во внешней торговле Республики Узбекистан за счет совершенствования таможенных платежей, а также разрабатываются предложения по реформированию таможенной политики.

Ключевые слова: тайная (скрытая) экономика, внешняя торговля, таможенные сборы, льготы по таможенным сборам, таможенная стоимость товаров, таможенная политика, налоги, обязательные платежи.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlarni tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi savdoni erkinlashtirish jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biriga aylanmoqda. Tashqi savdo va mamlakatning iqtisodiy o‘sishi o‘rtasidagi munosabatlar umumiy deb tan olingan. Shu bilan birga, tashqi bozorga chiqishda davlat xufiyona iqtisodiyot kabi hodisaga duch keladi.

Zamonaviy bosqichda xufiyona iqtisodiyot global muammolardan biri sifatida qaralmoqda hamda ko‘pgina davlatlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar sifatida alohida ta’kidlab o‘tiladi.

Sertifikatlangan buxgalterlar assotsiatsiyasi (ACCA – Association of Chartered Certified Accountants) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda 28 ta davlatda 2025 yilga kelib xufiyona iqtisodiyotning ko‘lami (YaIMga nisbatan foizda) prognozlari ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, Nigeriyada 47%, Rossiyada 39%, Braziliyada 34%, Turkiyada 22%, Kanadada 19%, Hindistonda 14%, Buyuk Britaniyada 11%, Xitoyda 10%, Avstraliyada 9%, AQShda 7%ni qayd etgan [1].

Jahon banki ma’lumotlarida xufiyona iqtisodiyotning darajasi turli davlatlarda quyidagicha farqlanadi: masalan, Shveytsariyada 8,6%, Xitoyda 12,9%, Rossiyada 43,6%, Boliviyada 66,4% atrofida. Shuningdek, dunyo bo‘yicha bu ko‘rsatkichning o‘rtacha darajasi YaIMning 17,2 %ni tashkil etishi ko‘rsatilgan.

Hozirgi kunda xufiyona iqtisodiyot muammolarini o‘rganish ko‘pchilik mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mavjud ma’lumotlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, xufiyona iqtisodiyot turli darajalarda bo‘lsada barcha davlatlarda mavjud.

Ta’kidlash joizki, davlat o‘z tashqi savdosini tartibga solishda va liberallashtirishda xufiyona iqtisodiyot kabi boshqarish mushkul hodisaga to‘qnash keladi. Xufiyona iqtisodiyotning rivojlanish miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog‘liqdir.

Hozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan xufiyona iqtisodiyotni o‘rganish bir qancha yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishlarni turli ko‘rinishda ekanligini xufiyona iqtisodiyot shakllari va salbiy oqibatlari,

uning murakkabligi hamda tadqiqotchilar izlanishlaridagi turli nazariy va amaliy vazifalardagi tafovutlar bilan izohlash mumkin. Bugungi kunga qadar xufiyona iqtisodiyot muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar bilan tanishib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, xufiyona iqtisodiyot muammolarini o‘rganish va uning mazmunini ochib berish uchun asosan quyidagi to‘rtta yondashuv shakllangan. Xususan: yuridik (rasmiy-huquqiy), iqtisodiy, hisob-statistik, kompleks yondashuvlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TANQIDIY TAHLILI

Yuridik (rasmiy-huquqiy) yondashuvda xufiyona iqtisodiyot qonunga zid harakat deb baholanadi. Bunda uning tabiatini belgilovchi asosiy holatlar sifatida rasmiy yoki davlat ro‘yxatidan o‘tmasligi, davlat nazoratidan chetdaligi, noqonuniy ekanligini keltirish mumkin.

Masalan, tadqiqotchilar D. Makarov va V. Esipov xufiyona iqtisodiy faoliyatning asosiy diqqatga sazovor jihati uning nazoratsiz ekanligiga e’tibor qaratadilar. Ularning fikricha, ochiq nazorat usullari orqali bu iqtisodiyot to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish amalda mumkin emas [2, 3].

Tadqiqotchilar V. Ispravnikov va V. Kulikov iqtisodiyotning xufiyona iqtisodiyot deb sanalishi uchun uning rasmiy yoki davlat ro‘yxatidan o‘tmasligi, noqonuniy xususiyatga ega ekanligini asos qilib olganlar [4].

B. Dallago xufiyona iqtisodiy jarayonlarga baho berish uchun nomuntazam iqtisodiyot tushunchasini ishlatadi, bunda muntazam belgilangan qoida va qonunlarga bo‘ysunmagan yoki davlat boshqaruv organlari va nazoratidan yashirin bo‘lgan iqtisodiy agentliklar faoliyati tushunilgan [5].

Iqtisodiy yondashuvda xufiyona iqtisodiy munosabatlarni ifodalashda asosan iqtisodiy kategoriyalar qo‘llaniladi. Ya’ni xufiyona iqtisodiyotga nisbatan soliqlar to‘lashdan yashirilgan iqtisodiy faoliyat deb qaraladi.

Hisob-statistik yondashuvda xufiyona iqtisodiy munosabatlarning asosiy mezoni sifatida ularning rasmiy statistikada qayd qilinmasligi hisoblanadi. Mazkur yondashuv Milliy hisoblar tizimi (MHT) metodologiyasiga asoslangan bo‘lib, uning asosiy mohiyati ham iqtisodiy faoliyatda rasmiy statistik hisobning yo‘qligidir. MHT metodologiyasiga ko‘ra, barcha xufiyona iqtisodiyotning paydo bo‘lishi ikki guruhga bo‘linadi:

a) natijalari YaIM hajmida hisobga olinuvchi faoliyatning mahsuldor ko‘rinishlari;
b) YaIM hajmini hisoblashda inobatga olinmaydigan va statistik xatolarni kamaytirish maqsadida qayd qilinadigan shaxsga va mulkka qaratilgan jinoyatlar.

Ushbu yondashuvning afzallik tomoni shundaki, bunda umum qabul qilingan MHT metodologiyasi asosida iqtisodiy faoliyatning yashirin qismiga miqdoriy baho berish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvning kamchiliklari ham mavjud. Jumladan, mazkur yondashuv orqali YaIM hajmini yaratishga ta’sir etmaydigan iqtisodiy huquqbuzarliklar va jinoiy faoliyatlarning hajmi, ularning tuzilmasi va iqtisodiy tizimga ta’sirini baho berish imkonini bermaydi. Shuningdek, ushbu yondashuvdan foydalanishda statistik ma’lumotlar bazasining yetarli emasligi va ishonchsizligi asosiy muammo bo‘ladi.

Kompleks yondashuv asosini yuqorida keltirilgan jihatlarni borligicha olib o‘rganish tashkil qiladi. Masalan, A. Shoxin xufiyona iqtisodiyotni belgilari sifatida iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob yuritilmasligi, reglamentni yo‘qligi va noqonuniylik holatlarini sanab o‘tadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada joriy yo‘nalishni davom ettirgan holda mamlakat iqtisodiyotidagi xufyona iqtisodiyotni bartaraf qilishimiz mumkinligi regression va korrelyatsion model orqali tahlil qilinib kelajakda mamlakatimizda qo‘llash bo‘yicha amaliy taklif va tafsiyalar keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olimlar va tadqiqotchilar tomonidan xufiyona iqtisodiyotni turli xil yondashuvlar va qarashlar nuqtayi nazaridan tadqiq etishlari, ushbu illatni tasniflashda ham yakdil fikrga kelinmasligiga olib kelmoqda. Xususan, hufiyona iqtisodiyot muammolarini o‘rganish va uning mazmunini ochib berishga qaratilgan iqtisodiy va hisob-statistik yondashuvlardan kelib chiqib, yashirin iqtisodiyotga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Yashirin iqtisodiyot” o‘zida qonunga zid bo‘lgan, shuningdek, uning subyektlari belgilangan soliqlarni to‘lashdan, ijtimoiy to‘lovlarni topshirish yoki belgilangan ma’muriy majburiyatlarni bajarishdan qochish maqsadida, rasman hisobga olinmaydigan yoki kamaytirib ko‘rsatishda ifodalangan faoliyatdir.

Shuningdek, O‘zbekiston ensiklopediyasida: “Yashirin iqtisodiyotga – ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari kiradi”- deb ko‘rsatilgan [9].

Ta’kidlash joizki, tashqi savdo sohasidagi noqonuniy iqtisodiy faoliyat bu tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari tomonidan bojxona to‘lovlari va soliqlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash va qo‘shimcha foyda olish hamda moliyaviy resurslarni mamlakat tashqarisiga olib chiqish maqsadida amalga oshiriladigan shubhali yoki noqonuniy moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalari hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tashqi savdoda yashirin iqtisodiyot tushunchasini – tovarlarni bojxona hududiga olib kirishda va olib chiqishda bojxona nazoratini chetlab yoki tovarlarni noqonuniy tarzda yashirib o‘tish, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashning turli xil holatlari, bojxona organlari tomonidan yuritiladigan rasmiy statistikalarda aks etmagan jarayonlar deb ta’riflash mumkin.

Demak, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, bojxona to‘lovlari sohasida yashirin iqtisodiyot elementlariga sabab bo‘luvchi quyidagi:

a) bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish maqsadida tovarlarni TIF TN kod raqamlarini noto‘g‘ri ko‘rsatish;
b) tovarning bojxona qiymatini pasaytirib ko‘rsatish, soxta hujjatlardan foydalanib tovarni miqdor va qiymatini yashirishga urinish;
d) bojxona to‘lovlaridan qochish maqsadida tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi TIF TNning past stavkali tovarlar niqobi ostida yashirgan holda olib kirilishi kabi holatlarni kiritishimiz mumkin.

Mazkur omillar bevosita bojxona to‘lovlarining miqdoriga ta’sir etadi hamda bojxona to‘lovlarining qo‘shimcha hisoblanishiga olib keladi. Qayd etish lozimki, yashirin iqtisodiyotning bojxonaga oid asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu bojxona to‘lovlaridan qochish maqsadida, ayrim “uddaburon” tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan noqonuniy xatti harakatlar hisoblanadi.

Bu kabi holatlarga nisbatan samarali kurash olib borish uchun avvalo, o‘tgan yillar davomida bojxona organlari tomonidan qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari statistikasini chuqur tahlil qilgan holda kelgusidagi ustuvor vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bojxona organlarida 2020–2022-yillarda qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini kelib chiqish sabablarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyozlarni noto‘g‘ri qo‘llanilishi 0,7 foizga, tovarlarning bojxona qiymatini past ko‘rsatilishi holatlari 9,9 foizga, soxta kelib chiqish sertifikatining taqdim etilishi holati 4,2 foizga o‘sgan va aksincha, tovarlarning TIF TNga xos kod raqamlarini noto‘g‘ri belgilanishi 5,7 foizga, boshqa holatlar 5,5 foizga kamaygan.

Shuningdek, oxirgi yillarda imtiyozlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi, tovarlarning bojxona qiymatini past ko‘rsatilishi holatlari qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarining kelib chiqish sabablarida asosiy salmoqni egallab turibdi.

Bojxona organlari tomonidan 2020–2022-yillar davomida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlari bo‘yicha umumiy qiymati 24,9 mlrd. so‘mlik 41 ta jinoiy ishlar qo‘zg‘atilgan. Xususan:

- 2020-yilda 21 ta (14,7 mlrd. so‘m)
- 2021-yilda 9 ta (2,7 mlrd. so‘m)
- 2022-yilda 11 ta (7,5 mlrd. so‘m) jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, ish materiallari tergov organlariga topshirilgan:

Mazkur holatlarini sohalar kesimida tahlil qilib ko‘rilganda, 7,75 mlrd. so‘mi (38,1%) maqsadsiz ishlatilgan trikotaj mahsulotlari, 3,87 mlrd. so‘mi (19%) importyor korxonaning faoliyat turi mos kelmasada, imtiyoz asosida rasmiylashtirilgan yem mahsulotlari, 3,43 mlrd. so‘mi (16,9%) maqsadsiz ishlatilgan tekstil mahsulotlari, 2,50 mlrd. so‘mi (12,3%) maqsadsiz ishlatilgan xo‘jalik mollari, 2,80 mlrd. so‘mi (13,8%) boshqa tovarlar bo‘yicha yuritilgan [7].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bojxona to‘lovlarining to‘g‘ri va to‘liq undirilishi hamda ularni qo‘shimcha hisoblanishining maksimal darajada kamaytirilishi, hufiyona iqtisodiyotni qisqarishiga olib keladi. Xususan, quyida keltirilgan muammolarning mavjudligi natijasida bojxona to‘lovlarining qo‘shimcha hisoblanishiga sabab bo‘lmoqda.

Birinchi muammo sifatida, bugungi kunda tovarning bojxona qiymatini pasaytirish maqsadida, yuk-kuzatuv hujjatlarini soxtalashtirish kabi holatlar ko‘paygan.

Ikkinchi muammo sifatida, amaliyotda bojxona to‘lovlarini pasaytirish maqsadida, ayrim nohalol TIF ishtirokchilari tomonidan ikki xil shakldagi, ya’ni haqiqiy va soxta hujjatlar to‘plamini parallel yuritish sxemasidan foydalanilishi. Ushbu sxema quyidagicha tartibda ishlaydi: qo‘shni mamlakatlar bojxona chegarasi orqali tovarlar haqiqiy hujjatlarni taqdim qilgan holda olib o‘tiladi, shundan keyin ushbu hujjatlar to‘plami soxtasi bilan almashtiriladi hamda O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o‘tiladi. Bunday sxemalar paydo bo‘lishining asosiy sababi sifatida, O‘zbekiston Respublikasining asosiy savdo sheriklari sanalgan ayrim davlatlarning bojxona xizmatlari bilan o‘zaro ma’lumotlar almashish mexanizmi yo‘qligini keltirish mumkin.

Uchinchi muammo sifatida, import bojxona boji stavkalarini belgilashda nomutanosibliklar mavjudligi bilan izohlanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi boj-tarif stavkalarini ishlab chiqishning samarali mexanizmi yoki algoritmi ishlab chiqilmaganligi, import boji stavkalarining hisobot yilida kamida ikki marotaba o‘zgartirilishiga olib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PQ–3818-sonli qaroriga muvofiq, 2019-yilning 1-yanvaridan yangi qabul qilingan import boji stavkalari qo‘llanilishi belgilangan edi. Biroq, ushbu qaror hali kuchga kirmasdan turib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi PQ–4086-sonli Qarori bilan ushbu import boji stavkalariga o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, jami

11 295 tovar pozitsiyasidan 2 898 tasi bo‘yicha bojxona boji stavkalari tushirilib, 7 083 (5 886) ta tovar pozitsiyasi uchun bojxona boji 0 stavka miqdorida belgilandi.

Avvalgi bojxona boji stavkasi o‘rtacha arifmetik hisobi bo‘yicha 6,45 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yangidan joriy qilingan bojxona boji stavkasi bo‘yicha esa 5,59 foizni tashkil etib, 1,15 barobarga kamaygan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 2019-yil 2 oktyabrdagi PQ–4470-son qarori bo‘yicha bu borada bir qator o‘zgarishlar bo‘ldi. Xususan, 1 096 ta tovar pozitsiyasiga nisbatan belgilangan import bojxona boji stavkalari oshirildi. 208 ta tovar pozitsiyasiga – bojxona boji stavkalari pasaytirildi. Aralash stavkalar – 1 561 ta tovar pozitsiyasiga nisbatan belgilanib, 348 taga oshgan bo‘lib, kiritilgan o‘zgarishlar natijasida import bojxona bojining o‘rtacha arifmetik stavkasi miqdori 8,02 % ga teng bo‘ldi [8].

To‘rtinchi muammo sifatida, noqonuniy bitimlarni amalga oshirish maqsadida, qisqa muddatga tashkil qilinadigan “bir kunlik firmalar” firmalarning amaliyotda mavjudligini hamda boshqa ko‘plab muammolarni keltirish mumkin.

Ta’kidlab o‘tilgan holatlarni oldini olish har bir mamlakat uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki xufiyona iqtisodiyotning darajasi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligiga va milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Davlat va jamiyat a’zolari o‘rtasidagi iqtisodiy muammolardan biri – bu soliq va bojxona to‘lovlarini to‘lamaslik yoki to‘lovlarni ataylab kechiktirish holati hisoblanadi. Iqtisodiy subyektlar o‘zlarining yashirin faoliyatlari natijasida olgan daromadlarini davlatning tegishli organlaridan yashirishi, soliq va bojxona to‘lovlarni to‘lamasligi oqibatida davlat byudjetiga tushishi lozim bo‘lgan mablag‘lar tushmaydi. Bundan tashqari, jamiyat a’zolarining ixtiyoridagi daromadlarini to‘liq hisobga olish imkoni bo‘lmaydi. Bu esa, davlatni kelajakda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosatini chalg‘ituvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi muammoli masalalarga ijobiy yechim topish uchun tashqi savdoda xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida, boj-tarif siyosatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash maqsadga muvofiq sanaladi:

- bojxona to‘lovlarini to‘liq undirilishiga ta’sir etadigan yuk-kuzatuv hujjatlaridagi soxtalashtirishlarni oldini olish maqsadida, hujjatlarni doimiy o‘rganib, tahlil qilib borish uchun yagona tizim ishlab chiqish;
- O‘zbekiston Respublikasining asosiy savdo sheriklari sanalgan davlatlarning bojxona xizmatlari bilan o‘zaro ma’lumotlar almashish mexanizmini takomillashtirib, onlayn rejimda doimiy ishlashini ta’minlash;
- O‘zbekiston Respublikasi boj-tarif siyosatini boshqa rivojlangan xorijiy davlatlardagi singari fundamental mexanizmlarga asoslangan holda, xom ashyo va tayyor mahsulotlarga, shuningdek bir xil turkumga mansub bo‘lgan tovarlarga nisbatan maqbul import boji stavkalarini belgilash;
- o‘zida milliy iqtisodiy manfaatlarni aks ettirgan “Milliy boj-tarif strategiyasi”ni ishlab chiqish hamda mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim tovarlar kategoriyasini aniqlash hamda bu turdagi tovarlarga maqbul tarif stavkalarini joriy etish.

Mazkur xulosa va takliflarni inobatga olgan holda, tashqi savdoni tartibga solishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish, tashqi savdoda xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishga olib kelib, uni yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sertifikatlangan buxgalterlar assotsiatsiyasi “ACCA” (Association of Chartered Certified Accountants) hisoboti ma’lumotlari asosida shakllantirildi. “Emerging from the shadows. The shadow economy to 2025” // https://www.accaglobal.com/gb/en.html
2. Макаров Д. Экономические и правовые аспекты теневой экономики в России // Вопросы экономики, 1998, №3. – С. 21–24.
3. Есипов В. М. Теневая экономика. – М.: 1997. – С. 42.
4. Исправников В. О., Куликов В. В. Теневая экономика: иной путь и третья сила // Российский экономичекий журнал, 1997, №3. – С. 13–14.
5. Dallago B. (1994) The irregular economy in transition: features, measurment and scope. In: Output Decline in Eastern Europe: Unavoidable, Extertal influence or Homemade? Ed. by R. Z. Holzman efal. IIASA, Luxemburg.
6. Шохин А. Н. Социальные проблемы перестройки. – М.: Экономика, 1989.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-oktyabrdagi PQ–4470-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
9. https://qomus.info/oz.



UY-JOY FONDI BOSHQARUVINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Berdiyeva Dilfuza Axatovna
PhD, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti “Menejment” kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish haqida yoritilgan bo‘lib, unda uy-joy fondi turlarining tasnifi keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasida uy-joy muammosining asosiy tarkibiy qismlari, tabiatan murakkab bo‘lgan uy-joy fondining muammoli vaziyatlari aniqlangan. Uy-joy fondini samarali rivojlantirishga erishish uchun asosiy vazifalar belgilab berilgan. Xulosada zamonaviy uy-joy fondini samarali rivojlantirishga erishish uchun asosiy vazifalar belgilab berilgan. Uy-joy fondi boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: uy-joy fondi, boshqaruv, qurilish, aholi, texnologiya, hududlar.

Abstract: This article covers the effective organization of housing fund management, which includes the classification of housing fund types. The main components of the housing problem in the Republic of Uzbekistan, the problematic situations of the housing fund, which are complex in nature, have been identified. The main tasks to achieve effective development of the housing fund have been defined. In conclusion, the main tasks for effective development of the modern housing fund are defined. Suggestions for improving the management of the housing fund have been developed.

Key words: housing stock, management, construction, population, technology, territories.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективная организация управления жилищным фондом, которая включает в себя классификацию типов жилищного фонда. Выявлены основные составляющие жилищной проблемы в Республике Узбекистан, проблемные ситуации жилищного фонда, имеющие комплексный характер. Определены основные задачи по достижению эффективного развития жилищного фонда. В заключение определены основные задачи эффективного развития современного жилищного фонда. Разработаны предложения по совершенствованию управления жилищным фондом.

Ключевые слова: жилищный фонд, управление, строительство, население, технологии, территории.

KIRISH

Uy-joy fondi mamlakat infratuzilmasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Uy-joy fondini boshqarish sifati aholining qulayligi va xavfsizligiga bevosita ta’sir qiladi. Boshqaruvga to‘g‘ri yondashuv turar-joy binolarini to‘g‘ri saqlashni ta’minlash, ularning holatini saqlash va yaxshilash, shuningdek, aholining manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Shaharda ham, qishloqda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan uy-joylarni boshqarishning ko‘plab usullari va usullari mavjud. Eng samarali usullardan biri uy-joy mulkdorlari jamiyatini yaratish bo‘lib, uning vakillari aholi tomonidan tanlanadi. Bu aholiga boshqaruvda faol ishtirok etish va umumiy mulkni saqlash va ta’mirlash bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasida ham 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o‘rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqilish maqsadi qo‘yilgan [1].

O‘zbekistonda 2022-yilning birinchi yarmida qurilish ishlari ishlab chiqarish hajmi 60325,4 milliard so‘mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,2 foizni tashkil etdi. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning birinchi yarmida bino va inshootlar qurilishi 2021-yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 66,9 foizni tashkil etib, 101,9 foizni tashkil etdi. Fuqarolik obyektlarini qurish 21,1 foiz darajasida belgilandi va o‘sish sur’ati 1–2,9 foizga yetdi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 12,0 foizni, o‘sish sur’atlari 150,4 foizni tashkil etdi. Qurilish sanoati rivojlanishining yuqori dinamikasi mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarishning o‘sishi bilan tavsiflanadi [10].

TADQIQOT MAVZUSINING DOLZARBLIGI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 24-apreldagi “2017–2021-yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2922-sonli qarorida aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ko‘p xonadonli uy-joy fondining uy ichidagi muhandislik kommunikatsiyalari va umumiy foydalaniladigan joylarni o‘z vaqtida va sifatli ta’mirlash, shuningdek, ko‘p xonadonli uy-joy fondiga tutash hududlarni bolalar va sport maydonchalari tashkil etgan holda, obodonlashtirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; uy-joy kommunal xo‘jaligini boshqarishning ta’sirchan vertikal tizimini yaratish va ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanish ishlarini va unga xizmat ko‘rsatish bozorini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadlari belgilangan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tashdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorida binolarning energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha davlat dasturlarini amalga oshirish, shu jumladan ko‘p qavatli uy-joy va shaxsiy uy-joy fondini rekonstruksiya qilish maqsadi qo‘yilgan [3].

Bugungi kunda texnologiya uy-joylarni boshqarishda ham muhim rol o‘ynaydi. Buxgalteriya hisobi va monitoringining avtomatlashtirilgan tizimlarining joriy etilishi real vaqt rejimida uy-joy holatini kuzatish, rejali ishlarni bajarish, aholining fikr-mulohazalarini inobatga olish imkonini beradi. Bunday tizimlar rezidentlar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni soddalashtiradi, qog‘ozbozlik hajmini kamaytiradi va boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, uy-joy fondini samarali boshqarish nafaqat texnik va texnologik jihatlarni, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarni ham qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu omillarning sinergiyasigina uning barcha aholisi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish va uy-joy sifatini yaxshilash imkonini beradi.

ILMIY MUAMMONING QO‘YILISHI

Fuqarolarning eng ko‘p qismini uy-joy bilan ta’minlash orqali turmush sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berilgan, hududlarni va umuman mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vektoridir. Uy-joy fondini takror ishlab chiqarishga e’tibor qaratishning muhimligi va uning aholini uy-joy bilan ta’minlashga ta’siri nafaqat uy-joy qurilishidagi og‘ir vaziyat, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining izchil amalga oshirilishi bilan ham bog‘liq bo‘lib, jamiyatning turli qatlamlarining hayot sifati bilan belgilanadi. Biroq, ijtimoiy va institutsional muammolarning hal etilmaganligi bilan mustahkamlangan tarkibiy cheklovlarning ta’siri uy-joy fondini takror ishlab chiqarishda ichki muammolarni aniqladi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilardir: uy-joy bozoridagi talab va taklifning nomutanosibligi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan biznes, ilmiy jamoatchilik va aholi vakillari o‘rtasida samarali boshqaruv va o‘zaro hamkorlikning samarali mexanizmlari yo‘qligi; xususiy investorlarning uy-joy fondini qurish va undan keyingi faoliyatiga yetarli darajada rag‘batlantirilmaganligi; uy-joy obyektlarini joriy va kapital ta’mirlash ishlarini o‘z vaqtida bajarmaslik.

TADQIQOT MAQSADI

Uy-joy fondini takror ishlab chiqarish tizimi, uni shakllantirish omillari, bozor sharoitida samarali ishlashi va rivojlanishi haqida yaxlit tushunchani ishlab chiqishni taqazo etadi. Shularni inobatga olib, uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish yuzasidan tadqiqotchi tomonidan olib borilgan tahlil natijalariasosida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berish.

ILMIY MOHIYATI

Uy-joy fondini takror ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobga olgan holda, yangi samarali tashkiliy-iqtisodiy modellarni shakllantirish, uy-joy qurishning samarali vositalaridan foydalanish orqali hudud aholisini arzon va sifatli ko‘chmas mulk bilan ta’minlash yo‘llarini ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, uy-joy ko‘chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni, shu jumladan uy-joy fondi holatini baholash ko‘rsatkichlarini aniqlash va zararsizlantirish, aholiga ipoteka kreditlashning innovatsion vositalaridan foydalanish va zamonaviy uy-joy fondini takror ishlab chiqarish bozorini shakllantirishga klaster yondashuvi, munitsipalitetda uni rivojlantirishning ijtimoiy yo‘naltirilgan yo‘nalishlari rolini kuchaytirishni ta’minlash zarur.

Hozirgi davrda uy-joy fondidan oqilona foydalanish va uni boshqarishning samaradorligini oshirishda xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari ham diqqatga sazovordir.

“Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida davlatning ustivor vazifalaridan biri bu aholining zamonaviy uy – joyga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirishga erishish, fuqarolarning yuqori sifatli yashash sharoitlari bilan ta’minlash, ularning daromadlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari doirasidagi yondashuvga asosolangan oqilona siyosatni yuritishga qaratilgan” [4].

“O‘zbekistonda davlat uy-joy fondining xususiylashtirilishi natijasida uning amaldagi boshqaruv tizimi, asosan, davlat hokimiyati organlari tomonidan ma’muriy usulda tashkil etilishi mulkdorlarda uy-joy mulkdorlari shirkati o‘zlarining manfaatli tashkiloti emas, balki yangi nom ostidagi sobiq “Uy-joy ekspluatatsiya idorasi” degan qarashga olib keldi” [5].

“Uy-joy boshqaruvi eng konservativ yo‘nalishlardan biridir, chunki uy-joyning ijtimoiy ahamiyati yuqoriligi va uning arzonligini ta’minlash zarurati tufayli narxlarni davlat tomonidan tartibga solish ko‘p yillar davomida ma’muriy-rejalashtirilgan iqtisodiyotda mavjud edi, lekin bozor munosabatlarining rivojlanishiga va biznesni jalb qilishga yordam bermagan” [6].

E. V. Sultanovaning fikriga ko‘ra “Uy-joy” tushunchasi “uy-joy fondi” va “turar-joy” tushunchalari bilan bevosita bog‘liq [7].

T. A. Xasanovning bu borada “Uy-joy kommunal xo‘jaligining eng muhim xususiyati uning yuqori ijtimoiy ahamiyati, aholining barcha qatlamlarining hayot sifati va jamiyatdagi ijtimoiy iqlim uning samarali ishlashiga bog‘liq.” – deb ta’rif bergan [8].

TADQIQOT METODLARI


Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqa usullar qo‘llanilgan.

ASOSIY NATIJALAR

Bugungi kunda aholi passiv va uy-joy fondini boshqarishda ishtirok etishni istamaydi. Keyinchalik tushunmovchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun mulkdorlar bilan umumiy mulkdagi ulushlarini boshqarish to‘g‘risida shartnoma tuzish orqali mavjud vaziyatni qonuniy ravishda mustahkamlash zarur. Bunday kelishuv boshqaruv tashkilotini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolardan himoya qiladi.

Uy-joy fondining boshqaruv obyekti sifatidagi yana bir xususiyati uning bir xil emasligidir. Har bir turar-joy binosi mahsulot sifatida turar-joy birligining turli xil iste’mol xususiyatlari bilan belgilanadigan turli darajadagi yashash qulayligiga ega.

Boshqaruv kompaniyalari amaldagi faoliyatini tahlil qilish va baholash nafaqat mulkni boshqarish samaradorligi va professionalligini tahlil qilish, balki uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi (1-chizma).



1-chizma: Uy-joy fondini boshqaruv kompaniyalari tomonidan boshqarishning amaldagi holati tahlili

Uyning iste'mol xususiyatlari turli xil omillarning keng doirasi bilan belgilanadi, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) uyning o'zini tavsiflovchi omillar;
2) uy joylashgan hududni tavsiflovchi omillar.

Uyning o'zini tavsiflovchi omillarga quyidagilar kiradi:

- qavatlar soni, devor materiallari, qurilgan yili, jismoniy eskirish darajasi va uyning haqiqiy holati;
- turli xizmatlar, birinchi navbatda, kommunal xizmatlarning mavjudligi bilan tavsiflangan takomillashtirish darajasi;
- uyning resurs intensivligi, ya'ni ma'lum darajada yashash qulayligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan har xil turdagi resurslar – issiqlik, suv va boshqalarning zarur miqdori.

Uy-joy mulki joylashgan hududni tavsiflovchi omillarga quyidagilar kiradi:

- er uchastkasining hokimlik hududida joylashganligi;
- er uchastkasidan foydalanish shakli;
- mulkka berilgan yer uchastkasining maydoni;
- er uchastkasini ko'kalamzorlashtirish, yo'laklar, piyodalar yo'laklari, yondashuvlar holati, yashil maydonlar maydoni, dam olish maskanining holati.

Uy-joy fondini boshqarish faoliyati samaradorligini baholash va uy-joy mulkdorlariga yoki uni nomidan ishlaydigan organ boshqaruv dasturiga tuzatish kiritish uchun samarali monitoring dasturi zarur.

"Uy-joy xo'jaligini samarali boshqarish shirkatlar faoliyatini tashkil etishda ehtiyojni keltirib chiqaradi" [9].

Turli xil uylarda ma'lum darajadagi yashash qulayligini ta'minlash uchun tegishli resurslar (birinchi navbatda moliyaviy va moddiy) talab qilinadi, ularning miqdori ko'plab omillarga qarab o'zgarishi mumkin, ularning asosiylari:

- zamonaviy uy-joy fondining dastlabki holati;
- mavjud uy-joy-kommunal xizmatlar majmuasi;
- ushbu uy-joy fondining, shu jumladan, unda o'rnatilgan sanitariya-texnik vositalarning resurs zichligi;
- yondosh yer uchastkasining maydoni va obodonligi, qattiq yo'l qoplamasi, piyodalar yo'laklari, maysazorlar, butalar, daraxtlar, dam olish maskanlari va boshqalarning holati;
- unda yashovchi aholi tomonidan mulkka yetkazilgan zarar darajasi.

1-jadval: Respublika uy-joy fondini mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi (yil oxiriga, ming kv. m)[1]

	01.01.2021			01.01.2022			01.01.2023		
	Jami / Всего	shu jumladan: / в том числе:		Jami / Всего	shu jumladan: / в том числе:		Jami / Всего	shu jumladan: / в том числе:	
		xususiy mulk bo'lgan / частной собственности	ommaviy mulk bo'lgan / публичной собственности		xususiy mulk bo'lgan / частной собственности	ommaviy mulk bo'lgan / публичной собственности		xususiy mulk bo'lgan / частной собственности	ommaviy mulk bo'lgan / публичной собственности
O'zbekiston Respublikasi/ Республика Узбекистан	**548995,8**	**545468,3**	**3527,5**	**636414,3**	**633132,6**	**3281,7**	**658357,0**	**654908,6**	**3448,4**
Qoraqalpog'iston Respublikasi/ Республика Каракалпакстан	31542,2	31327,1	215,1	32290,0	32055,1	234,9	33563,0	33310,7	252,3
viloyatlar/области:									
Andijon/Андижанская	32575,5	32369,8	205,7	44691,7	44486,0	205,7	51770,6	51564,9	205,7
Buxoro/Бухарская	33639,4	33434,3	205,1	34374,9	34169,8	205,1	34644,2	34439,1	205,1
Jizzax/Джизакская	19935,6	19866,2	69,4	24296,4	24227,0	69,4	24852,3	24782,9	69,4
Qashqadaryo/Кашкадарьинская	55203,0	55006,4	196,6	55785,9	55589,3	196,6	57336,1	57133,1	203,0
Navoiy/Навоийская	22485,2	21866,1	619,1	24352,2	24019,7	332,5	25036,4	24705,5	330,9
Namangan/Наманганская	46887,2	46700,0	187,2	49275,5	48884,3	391,2	50263,8	49759,8	504,0
Samarqand/Самаркандская	59259,3	59065,6	193,8	78362,0	78167,8	194,2	79206,8	79012,6	194,2
Surxondaryo/Сурхандарьинская	33891,7	33732,8	158,9	37747,6	37588,7	158,9	37932,1	37773,2	158,9
Sirdaryo/Сырдарьинская	13187,4	13098,2	89,2	16413,9	16324,7	89,2	16642,3	16553,1	89,2
Toshkent/Ташкентская	46980,6	46758,2	222,4	48774,8	48659,9	114,9	52266,6	52151,7	114,9
Farg'ona/Ферганская	49539,9	49085,7	454,2	80806,2	80417,2	389,0	81727,1	81350,0	377,1
Xorazm/Хорезмская	45729,4	45697,5	31,9	46360,2	46328,3	31,9	46776,6	46744,7	31,9
Toshkent sh./г. Ташкент	58139,3	57460,4	678,9	62883,1	62214,9	668,2	66339,1	65627,3	711,8

1 https://stat.uz/uz/

Yuqoridagi 1-jadvalda respublika uy-joy fondini mulkchilik shakli bo‘yicha taqsimlanishi keltirilgan. Unga ko‘ra, xususiy mulk 2022-yilga 633132.6 ming kv.m.ni tashkil etadi. 2023-yilda 654908.6 ming kv.m.ni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 21776 ming kv.m. farq bilan oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Ommaviy mulk esa 2022-yilda 3281.7 ming kv.m.ni tashkil etadi. 2023-yilda esa 3448.4 ming kv.m.ni tashkil etib, 166.7 ming kv.m. farq bilan oshganini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida aytilganlarning barchasi har bir mulkka individual yondashuvni talab qiladi. Har bir bunday obyekt uchun turar-joy binosi va qo‘shni hududning barcha xususiyatlarini hisobga oladigan boshqaruv dasturi kerak. Boshqaruv tashkiloti binoning qurilish xususiyatlarini, iste’molchilarga kommunal xizmatlar ko‘rsatish xususiyatlarini, uyning ichida ham, yer uchastkasi hududida ham kommunal tarmoqlarning joylashishini bilishi shart.

Uy-joy fondini boshqarish tizimini qurishda uy-joy sohasida ko‘chmas mulkning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olish kerak. Boshqaruv tashkiloti har kuni ijarachilar va turar-joy binolarining egalari va ularning oila a’zolari bilan uchrashishi kerak. Boshqaruv tashkilotining barcha faoliyati fuqarolarning talablarini qondirish, ularni uy-joy kommunal xizmatlari bilan ta’minlash, kommunal tarmoqlar va qurilish inshootlaridagi nosozliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Oxir oqibat, uy-joy boshqaruvi xizmatlari bozoridagi muvaffaqiyati fuqarolarning boshqaruv tashkiloti ishini baholashiga bog‘liq bo‘lishi kerak. Boshqaruv tashkiloti nafaqat uy-joy fondi egalari bilan, balki turar-joy binolarida yashovchi barcha fuqarolar bilan ham ishlay olishi kerak.

Uy-joy fondining ijtimoiy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida aks ettirilgan.

Fuqarolarga yashash uchun berilgan turar-joy binolari yaxshi jihozlangan bo‘lishi va belgilangan sanitariya-texnik talablarga javob berishi kerak.

Boshqaruv kompaniyalari turar-joy mulkdorlari va ijarachilari va ularning oilalarini belgilangan me’yorlardan past bo‘lmagan darajada turar joy bilan ta’minlashi shart. Aks holda, davlat nazorati organlari qonunni buzganlik uchun boshqaruv tashkilotidan yoki mulkdorlardan jarima undirishga haqli.

Uy-joy fondining boshqaruv obyekti sifatidagi o‘ziga xos xususiyati moliyaviy oqimlarning murakkab tizimidir. Uy-joy fondida ko‘rsatiladigan uy-joy kommunal xizmatlarining aksariyati turli darajadagi byudjetlardan tushadi. Ko‘pgina tumanlarda turar-joy bo‘lmagan binolarni ijaraga olish uchun yig‘ilgan mablag‘larning bir qismi uy-joy fondini boshqarish uchun ajratiladi. Aholiga uy-joy kommunal xizmatlarini to‘lashda imtiyozlar beriladi.

Shaharlarda ijaraga beriladigan zamonaviy uy-joylar uchun qulaylik darajasiga qarab tabaqalashtirilgan to‘lovlar, shuningdek, uy-joyning yaxshilanish darajasiga, uning eskirishiga va ijarachining egallagan maydoniga (ortiqcha) qarab uy-joy kommunal xizmatlari uchun tabaqalashtirilgan tariflar joriy etish zarur.

Boshqaruv kompaniyalari barcha moliyalashtirish manbalaridan, shu jumladan turar-joy binolarining har bir egasi va ijarachisidan to‘lovlar kelib tushishini kuzatishi kerak. Foydalanuvchilardan pul mablag‘larini olish uchun buhgalteriya hisobini tashkil etish juda murakkab vazifadir. Ushbu muammoni hal qilish uchun boshqaruv kompaniyalari tuzilmasida maxsus bo‘linmalar tashkil etiladi. Ba’zi shaharlarda mustaqil tashkilotlar – kassa hisob-kitob markazlari tashkil etilmoqda, ular boshqaruv tashkilotlarini aholidan pul mablag‘larini qabul qilish to‘g‘risida tezkor ma’lumot bilan ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, ko‘p qavatli uylarni boshqarish mexanizmi konsepsiyasi uchun zarur bo‘lgan aniqlangan huquqiy toifalarni umumlashtirish va tuzish, ularning rolini belgilash, shuningdek, uy-joy qonunchiligidagi muammolarni hal qilish yo‘llarini taklif qilish kerak.

Shunday qilib, zamonaviy uy-joy fondi, turar-joy binolari, shu jumladan turar-joy binolari, kvartiralar, ularning qismlari va alohida xonalari to‘plamidir.

Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, mulkdor o‘z mulkini saqlash va ta’mirlash yukini o‘z zimmasiga oladi. Agar turar-joy xususiy binolari uchun bu talabni amalga oshirish qiyin bo‘lmasa, zamonaviy ko‘p qavatli uylar uchun u o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Har qanday zamonaviy ko‘p qavatli turar-joy bino xonadonlaridan tashqari umumiy mulk obyektlarini ham o‘z ichiga olganligi sababli, uni boshqarishning maxsus mexanizmi o‘rnatilgan.

Ko‘p qavatli uyning mulkini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq asosiy masalalar binolarni boshqaruvchi organning binolar egalarining umumiy yig‘ilishi, shu jumladan bunday binoni boshqarish usulini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolatiga kiradi.

Ko‘p qavatli uy boshqaruvi fuqarolar uchun qulay va xavfsiz yashash sharoitlarini ta’minlashi, ko‘p qavatli uydagi umumiy mulkni to‘g‘ri saqlashni, ko‘rsatilgan mulkdan foydalanish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishni, shuningdek, bunday zamonaviy binoda yashovchi fuqarolarni kommunal xizmatlari sifatli ta’minlashi shart.

Uy-joy fondini boshqarish bo‘yicha bino mulkdorlarining umumiy mulki holatini baholash, uyni boshqarish maqsadlarini aniqlash, ularga erishish bo‘yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda, turar-joy binolarini saqlash va ularga xizmat ko‘rsatish uchun mas’ul shaxslarni, umumiy mulk, shuningdek, boshqa harakatlar nazorat qilishdan iborat.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 01.02.2022
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 24-apreldagi “2017–2021-yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2922-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04 oktyabr 2019 yilda “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tashdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477-sonli qarori.
4. Berdiyeva D. A. Uy-joy fondi moliyaviy boshqaruvi mexanizmi samaradorligini oshirish. Monografiya. 191 b.
5. Hasanov T. A. O‘zbekistonda xususiy uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 48 bet.
6. Дубнюк Е. Н. Модель управления жилищным фондом на основе территориального общественного самоуправления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Пенза 2013.
7. Основы функционирования ЖКХ: учебное пособие / Е. В. Султанова, Я. А. Волынчук; Владивостокский государственный университет экономики и сервиса. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2017. – 88 с.
8. Khasanov T. A. Housing fund as an object of management. Tashkent, 2017. TAQI. Toshkent 2022 y.
9. Berdiyeva D. A. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tashkil etish va moliyaviy boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: TAQI, 2019. – 202-bet.
10. Филимонов С. ТСЖ: проблемы и перспективы // ЖКХ. 2000. №11. с.72–79.
11. Степаев К. С. Инновационное развитие управляющих компаний в жилищно-коммунальной сфере [Текст] // Актуальные вопросы экономики и управления: материалы Междунар. науч. конф. Москва, апрель 2011 г.
12. https://ru.essays.club /Гуманитарные-науки/Экология/Импортозамещение-стройматериалов–484632.html
13. https://stat.uz/uz/

ЭКОНОМИКА ЗНАНИЙ КАК ВЫСШИЙ СТУПЕНЬ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Хасанхонова Нодира Исаметдиновна
PhD, Ташкентский финансовый институт, и.о. доцент кафедры “Экономика”

Аннотация: В данной статье описано инновационная экономика как новый ступень в повышении экономики знаний. В статье рассмотрены такие вопросы как важность инноваций, его прирост и связанные с ним показатели. Анализированы показатели мира на 2022 год, сделаны выводы по ним.

Ключевые слова: экономика знаний, наука, технологии, инновационная экономика, инновация, ИКТ, ВВП, капитал знаний, искуственный интелект, продукты и услуги с высокой добавленной стоимостью, НИОКР, ИР.

Annotatsiya: Maqolada innovatsion iqtisodiyot iqtisodiy bilimlarning yangi darajasi va kengayishi sifatida tavsiflanadi. Davlat innovatsiyaning ahamiyati, uning o‘sishi va unga bog'liq ko‘rsatkichlar kabi masalalarni ko‘rib chiqdi. 2022-yil uchun jahon ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, xulosalar chiqarildi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy bilimlar, fan, texnologiya, innovatsion iqtisodiyot, innovatsiyalar, AKT, yalpi ichki mahsulot, bilim kapitali, sun'iy intellekt, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulot va xizmatlar, NIOKR, IR.

Abstract: In this state, innovative economics is described as a new level and increased economic knowledge. V state rassmotreny takie voprosy kak vajnost innovative, ego prirost i svyazannye s nim pokaseteli. Analyzirovany pokaseteli mira na 2022 god, sdelany vyvody po nim.

Key words: economic knowledge, science, technology, innovative economy, innovation, IKT, VVP, capital knowledge, artificial intelligence, products and services with high added value, NIOKR, IR.

ВВЕДЕНИЕ

Переход мировой экономики в новое качественное состояние непосредственным образом связан с повышением значения роли высокотехнологичных отраслей, процессом увеличения доли сферы услуг (структурными сдвигами) в экономике и влиянием информационных сетевых технологий. Все указанные тенденции требуют особого исследования в свете становления новых теорий современной экономики (теории постиндустриального общества, “новой”, глобальной сетевой, информационной экономики), в том числе с целью определения места теории экономики знаний в их ряду. Нужен теоретический анализ системных изменений в экономике на микро- и макроуровнях. Вследствие этого вопрос о формировании экономики знаний и особенностях этого процесса представляется исключительно актуальным и с научной, и с практической точки зрения.

Локальный аспект экономики знаний связан с высоким технологическим уровнем развития как деловых отношений, так и предметов, используемых человеком в процессе труда, производства, управления. Наиболее очевидный пример – высокотехнологическая, роботизированная отрасль, развивающаяся стремительными темпами. Высокотехнологическую отрасль можно считать универсальным символом по выпуску новых интеллектуальных продуктов, так как именно посредством их человек смог осознать важность и мощь производства в повседневный изменившийся информационный мир. В современном мире, основанном на технологиях передачи и обработки информации, интеллектуальный капитал касается практически всех экономических субъектов. В связи с этими обстоятельствами вопрос важности системного теоретического изучения экономики знаний является нужным.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Учитывая многоплановость проблем, связанных с развитием экономики знаний, его взаимосвязь с инновационной экономикой в международном уровне, можно сказать что отдельные вопросы данной тематики изучались многими отечественными и зарубежными учеными самых различных школ и направлений. Среди них выделим труды зарубежных стран как Ф. Махлупа[1], Е. Каукен, М. Ниеминен [2], Г. Доси [3]. Например, Е. Каукен и М. Ниеминен подчеркивали, что “возрастание багажа полезных знаний и расширение сфер их применения составляют суть современного экономического роста” [2]. Его суть верна так как нематериальные ресурсы на сегодняшний день составляют весомую часть экономики.

Также в свою очередь, Н. Хасанхонова подчёркивает что “Современные тенденции развития способствуют формированию новой концепции экономического развития. Решением всего этого является поддержка перехода стран к экономике знаний, которая является высшей ступенью инновационной экономики. Переход мировой экономики к новому качественному состоянию напрямую связан с ролью фундаментальных теоретических знаний, развитием наукоемкого производства, увеличением доли сферы услуг, усилением влияния информации и коммуникационные технологии. Среди них сотовая и спутниковая связь, цифровое телевидение и радио, глобальный Интернет и другие” [4].

Рассмотрев несколько авторов, можно прийти к единому выводу, что в развивающейся экономике не полность рассмотрен вопрос экономика знаний как высший ступень развития инновационной экономики.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

С конца 90-х годов прошлого века широкое распространение в западной и отечественной науке получил термин “экономика знаний”, введенный в научный оборот австро-американским ученым Фрицем Махлупом. Этот тип экономики отличается от предшествующих ему аграрного или индустриального тем, что, хотя природно-материальные ресурсы (земля, запасы сырья и оборудование) продолжают выступать основой для создания экономических благ, а рост и развитие всей хозяйственной системы обеспечиваются отныне уже не столько внешними, сколько внутренними, нематериальными факторами, важнейшими из которых выступают знания и человеческий капитал.

Экономика знаний - это экономика, основанная на производстве и экспорте знаний и интеллектуальных ресурсов, а не на добыче и переработке природных ресурсов. Это экономика, которая специализируется на развитии инноваций, научных исследований и образовании. В экономике знаний основными ресурсами являются знания, информация, технологии и инновации. Эти ресурсы позволяют создавать новые продукты, услуги и процессы, которые могут быть экспортированы на мировой рынок[5].

Экономика знаний характеризуется высокой долей научно-технического и образовательного секторов в ВВП страны, а также высоким уровнем инвестиций в исследования и разработки. Также для экономики знаний характерно активное использование информационных технологий и интернета для обмена знаниями и информацией.

Инновационная экономика и экономика знаний тесно связаны между собой. Инновационная экономика основана на производстве и внедрении новых технологий, продуктов и услуг, которые создаются на основе знаний и инноваций. Экономика знаний, в свою очередь, обеспечивает базу для создания инноваций, предоставляя знания, информацию и технологии, необходимые для развития новых продуктов и процессов [6].

Таким образом, инновационная экономика использует знания для создания новых продуктов и технологий, а экономика знаний обеспечивает ресурсы и инфраструктуру для поддержки инновационной деятельности. Вместе они образуют основу для устойчивого экономического роста и развития.

Каждое государство работает над развитием инноваций как прогресс в движении экономики, внедряя инновационные бизнес-практики, уделяя повышенное внимание технологическому развитию, исследованиям и разработкам, автоматизации и искусственному интеллекту, цифровой трансформации и бизнесу, основанному на данных модели для большей эффективности и конкурентоспособности.

Технологии и инновации являются мощными движущими силами экономического роста. Инвестиции в НИОКР имеют решающее значение для поддержки инноваций. Но здесь также важно, чтобы экономика знаний использовала совокупные преимущества глобальной инновационной системы, чтобы создать возможности для социального развития и способствовать творческому, инклюзивному и совместному росту.

Экономика знаний – это ступень развития экономики, на которой основным производственным ресурсом становятся знания, информация и интеллектуальный капитал. Это подразумевает высокий уровень образования, научно-технического развития и инноваций. В экономике знаний основными фак-

торами производства являются не только труд, земля и капитал, но и научные открытия, технологии и информация.

Экономика знаний отличается от инновационной экономики, которая также базируется на знаниях и инновациях, тем, что она включает в себя более глубокую интеграцию научных исследований, образования и производства. То есть экономика знаний – это высшая ступень инновационной экономики, позволяющая максимально эффективно использовать интеллектуальный потенциал страны и создавать новые продукты и услуги с высокой добавленной стоимостью.

В экономике знаний компании и организации стремятся к созданию, распространению и использованию знаний для повышения конкурентоспособности и роста. Это означает, что знания становятся ключевым активом, который должен быть управляем и защищен.

Для успешного развития экономики знаний необходимо создание благоприятной среды, стимулирующей инновации и инвестиции в образование, науку и технологии. Также важно развитие инфраструктуры, обеспечивающей доступ к знаниям и информации, а также создание условий для сотрудничества между различными участниками инновационного процесса. На сегодняшний день можно выделить три топ развитых стран по региону которые занимают лидирующие место в развитии экономики знаний (1-таблица).

1-таблица: Топ–3 стран по инновационным экономикам по регионам мира [7]

Латинская Америка	Африка	Северная Африка и Западная Азия	Юго-Восточная Азия, Восточная Азия и Океания	Северная Америка	Европа	Центральная и Южная Азия
Бразилия	Южная Африка	Израиль	Сингапур	США	Швейцария	Индия
Чили	Ботсвана	ОАЭ	Республика Корея	Канада	Швеция	Иран (исламский Республика)
Мексика	Сенегал	Турция	Китай		Велико-Британия	Казахстан

Если рассмотреть таблицу то можно вывести следующие заключения: выделение трёх стран по континентам не даёт полный анализ по развитию экономики знаний в мире, так как сегодня улучшающие свой рейтинг стран намного больше, но если посмотреть по регионам, то можно сказать что Республика Казахстан и Сенегал являются новыми участниками в тройке лидеров в 2022 году, а тройка лидеров в Северной Африке и Западной Азии (NAWA) – можно сказать что они являются четверкой крупнейших стран региона, включая все экономики этого региона. Здесь также можно подчеркнуть, что США, Израиль и ОЭА имеют сильное лидерство среди всех стран в экономике знаний.

Таким образом, экономика знаний является высшим этапом развития инновационной экономики, обеспечивая эффективное использование интеллектуального капитала для создания новых продуктов, услуг и рабочих мест, а также для повышения конкурентоспособности страны на мировой арене.


Если мы проследим панель глобальных инноваций, которое происходит в настоящее время, то можно разделить их на четыре:

1) Инвестиции в науку и инновации: научные публикации, инвестиции в ниокр; количество венчурных сделок; стоимость венчурных сделок; международные патентные заявки.
2) Технологический прогресс: вычислительная мощность; затраты на возобновляемую энергию; стоимость электроаккумулятора; стоимость секвенирования генома; одобрения лекарств.
3) Внедрение технологий: безопасная санитария; возможности подключения; роботы; электрические транспортные средства; лучевая терапия рака.
4) Социально-экономическое воздействие: производительность труда; ожидаемая продолжительность жизни; выбросы углекислого газа.

Как сказано в “Глобальном инновационном индекс 2023” В 2022 году количество научных публикаций умеренно выросло на 1,5 процента, составив около 2 миллионов статей, поскольку исследования, связанные со здравоохранением и COVID, вызвавшие бум в 2021 году, замедлились. В 2021 году глобальные исследования и разработки выросли на 5,2 процента, что близко к темпам роста до пандемии в 2019 году; НИОКР в бизнесе выросли на 7 процентов – темпы, невиданные с 2014 года. Ожидается, что глобальные государственные бюджеты на НИОКР в 2022 году вырастут в реальном выражении.

Значительное увеличение реальных бюджетов на 2022 год было запланировано для Японии и Республики Корея, а также меньшее – для Германии, что компенсирует сокращение бюджетов на НИОКР в 2022 году другими странами. правительства стран с крупнейшими расходами на НИОКР, такие как США. Мировые расходы на НИОКР крупнейших корпораций, тратящих на НИОКР, достигли 1,1 триллиона долларов США в 2022 году – это исторический максимум. Крупнейшие корпоративные компании, тратящие средства на НИОКР, номинально увеличили расходы примерно на 7,4 процента в 2022 году (по сравнению с ростом на 15 процентов в 2021 году). Тем не менее, трудно оценить, компенсировал ли этот номинальный рост резкий рост инфляции. Положительным моментом является то, что соотношение расходов на НИОКР к доходам находится на уровне 2021 года и на до пандемического уровня, а это означает, что корпорации так же интенсивно занимаются НИОКР, как и прежде. Из-за ухудшения климата для рискового финансирования стоимость венчурных инвестиций резко снизилась в 2022 году с исключительно высокого уровня в 2021 году. первое полугодие. Азиатско-Тихоокеанский регион теперь впервые сравнялся с Северной Америкой по активности сделок. Однако в 2022 году общая стоимость венчурного капитала резко упала почти на 40 процентов. Единственным регионом, в котором не наблюдалось снижения инвестиций в долларах, была Африка, хотя и на низком уровне. В целом, перспективы венчурного капитала на 2023 и 2024 годы неопределенны, поскольку ужесточение денежно-кредитных условий, вероятно, продолжит влиять на финансирование инноваций. Число заявок на международные патенты в 2022 году стагнировало (рост на 0,3 процента), продемонстрировав самые медленные темпы роста с 2009 года, но все же достигнув рекордного уровня – около 280 000 заявок [7].

При анализе экономики знаний нам также нужно увидеть связь рост ВВП, а также общие темпы роста НИОКР и деловых исследований, 2007–2024 гг. (1-рисунок). Так как рост рост ВВП в тесном связи с НИОКР и иследованиями.



1-рисунок: Рост ВВП, а также общие темпы роста НИОКР и деловых исследований, 2007–2024 гг.[7]

Последние доступные данные показывают, что глобальные инвестиции в НИОКР сильно выросли в 2021 году - на 5,2 процента (в реальном выражении) по сравнению с 3,2 процента в 2020 году. Это близко к темпам роста до пандемии, составлявшим около 6 процентов в 2019 году. В свою очередь, расходы бизнеса на НИОКР - наиболее значимый компонент общего мирового объема НИОКР - выросли на 7 процентов в 2021 году, что является самым высоким темпом роста, наблюдавшимся с 2014 года (см. Рисунок 1).

В пяти странах, которые потратили больше всего средств на НИОКР, в 2021 году наблюдался значительный рост НИОКР. В порядке бюджета на НИОКР это США (+5,6 процента), за которыми следуют Китай (+9,8 процента), Япония (+3,6 процента), Германия (+2,7 процента) и Республика Корея (+7,1 процента).3 Даже исключая значительный вклад США и Китая, глобальные НИОКР в 2021 году все равно выросли на 2,7 процента. Это заметное изменение по сравнению с 2020 годом. когда эти две страны единолично отвечали за предотвращение глобального спада в сфере НИОКР в том году. Опять же, за

исключением США и Китая, объем деловых НИОКР в 2021 году вырос на 4,1 процента по сравнению со спадом на 1,7 процента в 2020 году.

Однако данные за 2021 год пока недоступны для большинства стран со средним уровнем дохода, которые тратят крупные средства на НИОКР. Следовательно, влияние пандемии на бюджеты на НИОКР в странах с низким и средним уровнем дохода остается в значительной степени неизвестным.

Тем не менее, по сравнению с тем, что было до пандемии, в странах с высокими доходами, доходами выше среднего и низкими доходами расходы на НИОКР уже превышают допандемический уровень. Более того, большинство регионов мира либо вернулись к допандемическому уровню, либо превзошли его, за исключением Латинской Америки и региона Центральной и Внешней Азии.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Мировая инновационная инфраструктура - совокупность условий (фундаментальная наука, НИОКР, инновационный потенциал, бизнес исследования), организаций, промышленных и иных общественных объектов, обеспечивающих возможности успешной инновационной деятельности.

Таким образом, инновационная система - это совокупность взаимодействующих институтов управления и регулирования инновационной деятельности хозяйствующих субъектов государственного и частного секторов экономики, научной, образовательной и финансово-кредитной сфер, осуществляющих инновационную деятельность на основе эффективно действующих институциональных механизмов, которые приводят к экономике знаний.

В инновационной экономике как проявление экономики знаний особую значимость играет термин “наукоемкость”, ключевого для данного анализа возрастания роли наукоемких отраслей и технологий в экономике. Наукоемкость, в свою очередь, является одним из показателей, характеризующим технологию, отражающим степень ее связи с научными исследованиями и разработками (ИР). Надо заметить, однако, что термины и понятия, относящееся к наукоемкости технологий, отраслей и изделий, еще не устоялись, они не стандартизованы, как не стандартизованы и методики определения такого, показателя. Наукоемкой считается технология, которая включает в себя объемы ИР, превышающие среднее, значение этогопоказателя для технологий в определенной области экономики, допустим, в обрабатывающей промышленности, в добывающей промышленности, в сельском хозяйстве или в сфере услуг. Отрасль хозяйства, в которой преобладающее, ключевое значение играют наукоемкие технологии, относится к числу наукоемких отраслей. Наукоемкой продукцией являются изделия, в себестоимости или в добавленной стоимости которых затраты на ИР выше, чем в среднем по изделиям отраслей данной сферы хозяйства.

Использованная литература:

1. Machlup F. he branches of learning // Series: Knowledge, its creation, distribution and economic significance. - Princeton. N. J.: Princeton Univ. Press, 1982, Vol. 2.
2. Kaukonen E. and Nieminen M. The changing role of universities in research and innovation systems: the case of Finland // Learning and Knowledge Networks for Development: 4th International Conference on Technology Policy and Innovations. Mexico, 2000
3. Dosi G., Innovation, organization and economic dynamics: sel. essays / Cheltenham; Northampton (Mass.): Elgar, cop. 2000.
4. Xasanxonova N. Bilimlar iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar // Economics and Innovative Technologies ilmiy elektron jurnali. 1/2023, yanvar-fevral (No 00063). – 257-b.
5. Ченцова М. В. Особенности формирования экономики знаний в современных условиях. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2008. С. 35.
6. Костюк В. Н. Специфика экономики, основанной на знаниях // Общественные науки и современность, 2004, №4. С. 134–144
7. Global Innovation Index 2023 Innovation in the face of uncertainty 16th Edition. WIPO, 2023. P. 21.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SAMARALI INVESTITSIYALASHNING ILG‘OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI



Ruziyeva Dilobar Isomjonovna
iqtisod fanlari nomzodi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik bznes subyektlari faoliyatini investitsiyalash va bunda xorijiy davlatlarning tajribalari keltirib o‘tilgan. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkil qilish, uni boshqarish va investitsiyalashga oid ma’lumotlar bazasi keltirilgan. Bunda Italiya, Yaponiya, Hindiston, Fransiya kabi mamlakatlarining tajribalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: “nau-xou”, “nau-xou” texnologiyalari, konsorsium, konstruktorlik byuro, investitsiya, innovatsiya, subsudiya, innovatsion korxona, raqamli texnologiya, kichik va o‘rta biznes, tadbirkorlik, qizil lenta, moliyaviy yordam, tijoratlashtirish, kreativ talab.

Abstract: This article deals with the investment of small business entities and the experiences of foreign countries. In particular, a database on the organization, management and investment of small business entities is provided. The experiences of countries such as Italy, Japan, India, and France were studied.

Key words: “know-how”, “know-how” technologies, consortium, design bureau, investment, innovation, subsidy, innovative enterprise, digital technology, small and medium business, entrepreneurship, red tape, financial support, commercialization, creative demand.

Аннотация: В данной статье речь идет об инвестировании субъектов малого предпринимательства и опыте зарубежных стран. В частности, представлена база данных по организации, управлению и инвестированию субъектов малого бизнеса. Был изучен опыт таких стран, как Италия, Япония, Индия, Франция.

Ключевые слова: “ноу-хау”, технологии “ноу-хау”, консорциум, конструкторское бюро, инвестиции, инновации, субсидия, инновационное предприятие, цифровые технологии, малый и средний бизнес, предпринимательство, бюрократическая волокита, финансовая поддержка, коммерциализация, творческий спрос.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti uchun iqtisodiyotni rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, uni iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashning asosiy shartidir. Bu esa, mamlakatdagi mavjud investitsiya mablag‘laridan samarali foydalanishni talab etadi. Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga sarflanayotgan investitsiya mablag‘larining iqtisodiy mohiyati milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilganligi bilan alohida ahmiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini ta’minlashda esa, investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini oshirish, bunda kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalash orqali undan samarali foydalanishga erishish, respublikaning har bir iqtisodiy mintaqasida ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, erkin raqobatini kuchaytirish, kichik biznes subyektlari faoliyatida erkin raqobatni shakllantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, uni investitsiyalashning iqtisodiy mohiyatini ta’minlashni asosiy omillari byudjet, moliya, kredit-pul, antimonopol, ilmiy texnika, innovatsiya va mexanizmlaridan foydalanish, soliqlashtirish, investitsiya, bojxona va boshqa iqtisodiy siyosatlarni olib borish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Iqtisodiy siyosatni to‘g‘ri asoslangan holda shakllanishi esa mamlakatga investitsiya mablag‘larining kirib kelishi va harakatlar uchun ijobiy sharoitlar yaratadi. Bu tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini yanada oshiradi. Investitsiyani iqtisodiy mohiyatini oshishi iqtisodiy elementlarni o‘zaro bog‘liqligini tashkil etuvchi iqtisodiy tizimga bog‘liq. Iqtisodiy tizimdagi har bir iqtisodiy omilni harakati investitsiyani iqtisodiy mohitini oshirishi yoki pasaytirishi mumkin. Investitsiya iqtisodiy mazmunining pasayishi esa, albatta ijtimoiy mohiyatiga ham salbiy ta’sir etadi. Natijada aholining yashash turmush darajasi pasayadi.

Investitsiyaning iqtisodiy mohiyatini pasayishi kichik tadbirkorlikning ishlab chiqarish jarayonlarini tartibsiz rivojlanishiga va iqtisodiy tanglikka olib keladi. Investitsiya iqtisodiy mohiyati import bilan eksport o‘rtasida

optimal nisbat bo‘lishiga ham bog‘liq. Agar import salmog‘i ko‘paysa, investitsiyaning iqtisodiy mohiyati pasayadi. Chunki investitsiya mablag‘laridan foydalanish keskin kamayadi. Buning oqibatida investitsiya ijtimoiy mohiyatining pasayishiga olib keladi. Umuman kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkil etishda, uni rivojlantirishda tizimli iqtisodiy yondashish mexanizmini tashkil etish zarur. Chunki iqtisodiy o‘sishga ijobiy yoki salbiy ta’sir etuvchi omillar mexanizmi nafaqat investitsiyani iqtisodiy mohiyatiga, balki iqtisodiy jarayonga ijobiy va salbiy ta’sir etishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni inqirozsiz rivojlanishini ta’minlashning asosiy iqtisodiy taraqqiyot yo‘llaridan biri xorijiy rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yutuqlarni o‘rganish va milliy iqtisodiyotning kichik ishlab chiqarish korxonalarini rivojlanishini ta’minlash uchun ularning tajribalarini o‘rganish va ishlab chiqarishga tatbiq etish hozirgi sharoitda eng dolzarb muammo hisoblanadi. Bu yo‘nalishda Yevropa Ittifoq mamlakatlarining tajribalarini o‘rganishda Italiya sanoatida innovatsion tarzda rivojlanish asosan yangi bozor talablariga monand innovatsion modellar yangi davr talablariga javob bera oladigan yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini qo‘llash asosida kreativ talablarga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishga asoslangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz iqtisodchi olimi J. Keyns investitsiyalarning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashda va ishlab chiqarishni iqtisodiy o‘sishdagi o‘rnini ochib berib, “bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda davlat xususiy investitsiyalarni, davlat buyurtmalari tizimini kengaytirish, ijtimoiy xarajatlarni o‘stirish hisobiga rag‘batlantirish zarur deb hisoblaydi. J. Keyns daromadlar va yangi jamg‘armalarni tashkil topishi uchun, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun pul jamg‘armalari emas balki investitsiya qo‘yilmalari tashkil etadi deb hisoblagan. Buni mul’tiplikator samaradorligi deb atagan J. Keyns aholini to‘lov qobiliyatini oshirish yo‘llaridan biri mehnatga layoqatli aholini ish joylari bilan ta’minlash, ularning nominal ish xaqlarini oshirish deb hisoblagan. J. Keyns iqtisodiy o‘sish modeli davlat moliyasiga, ya’ni davlat tomonidan xarajatlarning o‘sishiga, o‘sib boruvchi soliqlashtirish tizimiga va byudjet kamomadiga asoslangan”[1] deb ta’kidlab o‘tgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalashning o‘sishi aholi bandligini o‘sishiga olib keladi.

“Ekonomiks” darsligi mualliflari Kempbell R. Makkonel va S. A Bryul investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi va iqtisodiyotning o‘sishini ta’minlashdagi rolini tahlil qilib, uni asosan ikki omilga: tadbirkorlarning xarajat qilgan investitsiyalarga olinadigan foyda normasiga va olingan investitsiya mablag‘lari uchun to‘lanadigan foiz miqdoriga bog‘liq ekanligini ko‘rsatib berganlar[2].

Iqtisodchi olimlardan S. Aleksandrov va R. Iskandarov raqamli iqtisodiyot telekommunikatsiya orqali amalga oshirish mumkin, deb hisoblaydilar. Hamda raqamli iqtisodiyotni afzalligini kichik biznesni rivojlantirishda ko‘rish mumkin[3], deb hisoblaydilar.

U. Gofurov kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tgan[4]. Dis. Avt.ref. iqt.fan. doktori T.: 2017. 30 b.

G. Abduraxmonova aholi bandligini ta’minlashda kichik biznesning imkoniyatlari, uning ishchi kuchi talab va taklifi muvozanatiga erishish hamda aholi daromadlarini oshirishga ta’sirini hamda kichik biznes subyektlarining bandlikni ta’minlashdagi ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ta’kidlab o‘tgan[5].

M. Eshov kichik biznes taraqqiyotining makroiqtisodiy vaziyatga ta’siri, zamonaviy sharoitda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan[6].

O. Aripov rivojlangan mamlakatlarda xususiy sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi va ishbilarmonlik muhitini yuritishda har bir mamlakatning o‘ziga xos yondashuvlari to‘g‘risida tadqiqotlar olib borgan[7].

Bundan tashqari, ayrim xorijiy iktisodchilarning fikriga kura, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Koreya, Daniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Meksika, Chili, Braziliya kabi mamlakatlarda kichik biznesni moliyaviy kullab-kuvvatlashning davlat dasturlari muvaffakiyatli tarzda amalga oshirilyapti[8].

1 Экономический словарь. М.: Проспект, 2001. 274–275 с.
2 Макконнелл К. Р. Брю С. Л., Экономикс: Принципы, проблемы и политика Т.: Республика, 1992, 210–214с.
3 Александров С., Искандаров Р. Цифровая экономика-экономика осуществляемая помощью цифровых телекомуникаций // Технология и средство связи: 2009, №
4 Gofurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dis. Avt.ref. iqt.fan. doktori T.: 2017. 30 b.
5 Абдурахмонова Г. К. Малый бизнес в обеспечении занятости населения в Узбекистане. Вестник Российского экономического университета им. Г. В. Плеханова. 2014, №12. – С. 129–136.
6 Eshov M. P. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollar. Monografiya. –T. . “Ma’naviyat”, 2017. – 80 b..
7 O. Aripov Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi “Namangan” nashriyoti, -T.: 2018. – 213 b.
8 Маширова Т. Н. Сабенова Б. Н., Сихымбекова А. М Основные направления развития малого и среднего бизнеса: Зарубежный опыт. // Ж. Экономика и финансы. №3. 2012. С. 31 https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-napravleniya-razvitiya-malogo-i-srednego-biznesa-zarubezhnyy-opyt/viewer

METODOLOGIYA

Ilmiy maqolani yoritishda kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalardagi taniqli olimlarning ilmiy asarlari, ularning mazmun, mohiyati o‘rganilib, mazkur sektorni rivojlantirish va bunda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishni ifodalovchi mavjud ko‘rsatkichlar statistik tahlil qilindi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil kabi usullari qo‘llanilgan. Mavzuni yoritishda ilmiy texnikaviy axborot manbalaridan, ya’ni darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, xorijiy adabiyotlar, davriy matbuot, ilmiy-amaliy anjuman to‘plamlari va internet ma’lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Yevropa Ittifoq mamlakatlarida kichik va o‘rta tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirishda ularning iqtisodiy tarmoq yo‘nalishlariga va iste’mol bozorlari talablaridan kelib chiqib, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni tashkil etish va natijada ishsizlikni oldini olish, mehnat resurslarini ish joylari bilan ta’minlashga erishish orqali iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish mumkin deb hisoblaydilar.

Yevropa Ittifoqidagi barcha biznesning 99% ni kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B) tashkil qiladi. Kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B) Yevropa Ittifoqining 2003–361 tavsiyanomasida belgilangan. Yevropa Ittifoqida korxonaning kichik va o‘rta biznes ekanligini aniqlaydigan asosiy omillar unda ishlaydigan xodimlar soni va aylanma yoki balans jamiga qarab belgilanadi[9].

Italiya mamlakatida ham kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Kichik korxona ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi mulk egalarini 77% o‘zlarining tashkil etgan va olib borayotgan bizneslarini samarali deb hisoblaydilar. Kichik biznesni samarali biznes[10] ekanligini 2016 yilga kelib Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ularni sinishlari 3321 taga yoki o‘tgan 2014 yilga nisbatan 700 taga kamaygani[11] bilan ifodalaydilar.

Iqtisodiy rivojlanish tashkiloti statistik keltirilgan ma’lumotlariga asosan kichik va o‘rta biznes korxonalari hisobiga 60–70% ishchilar band bo‘lgan. Bu bandlik holati asosan domiy ravishda ishlayotgan kichik va o‘rta korxonalar hisobiga bo‘lib, bunday barqaror rivojlanayotgan Italiya, Yaponiya va AQSh mamlakatlarida ko‘rish mumkin.

Jahon bankining 2016 yildagi ma’ruzasida kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishni tartibga solish bo‘yicha ish olib borgan nazorat guruhi ma’ruzasida kichik va o‘rta korxonalarni qanchalik rivojlantirishga rag‘batlantirishi va tadbirkorlikni olib borish uchun sharoitlarni talabga javob berishi bo‘yicha olib boriladigan reyting qo‘yidagi natijalarga (1-rasm) asoslanishi va kichik, o‘rta ishlab chiqarish korxonalarini iqtisodiy tahlil qilish asosida ularning samarali yoki samarasiz ekanligini aniqlash mumkin.



1-rasm: Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish shart-sharoitlari[12]

9 https://www.fi-compass.eu/publication/factsheets/gap-analysis-small-and-medium-sized-enterprises-financing-european-union
10 http://ec.europa.eu/Eurostat/statistics-explained/index.php/Statistics_on_smaill_and_medium-sized_enterprises
11 http://www.worldbank.org/eca/russian
12 Muallif ishlanmasi asosida tayyorlandi.


Xorijiy mamlakatlardagi (1-rasm)da keltirilgan ko‘rsatkichlarga rioya qilish kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy faoliyatlarini tahlil qilishga va tahlil natijalariga ko‘ra mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish chora va tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo‘ladi.

Kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan ularni iqtisodiy rivojlanishiga Italiyaning Iqtisodiy rivojlanish vazirligi Italiya sanoatining umumlashgan “Konfindustriya” birlashmasi bilan faoliyat olib boruvchi mintaqaviy assotsiatsiya va federatsiyalari bilan hamkorlikka ularning iqtisodiy ishlab chiqarish faoliyatlarini olib boradi. Shu bilan birga kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyatlarini olib borishda Italiyaning “SACE eksport kreditlarini sug‘urtalash va SIMEST” (Italiyaning xorijdagi investitsiya mablag‘larini xorijiy mamlakatlarga chiqarishda) yaqindan yordam beradi.

Italiya davlatining iqtisodiy siyosatida kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda samarali iqtisodiy jihatdan ularning faoliyatlarini rivojlantirishga iqtisodiy jihatdan yordam berishiga qaramay, ulardan soliq imtiyozi qo‘llanilmaydi. Mamlakatning hamma korxonalari, shu jumladan, kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari faqat mamlakat darajasida soliqqa tortiladi. Viloyat va mahalliy darajada korxonalar soliqqa tortiladi.

Faqat kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari uchun imtiyozlar asosan moliyaviy tomondan emas, balki texnika vositalarini xarid qilish tomonidan imtiyozlarga ega. Bu imtiyozlar kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalariga asosan kredit olishda, yangi kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini tashkil etishda va yangi innovatsion ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini o‘zlashtirishda moliyaviy yordam beradilar. Agarda kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshirishda shu mamlakat ichida tashkil etadigan bo‘lsa 1,0 mln. liralik imtiyozli kredit olishi mumkin. Yoki texnika va texnologiyalarni xarid qilib olishda ana shu ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan jihozlarni sotib olish va mamlakatga olib kelish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar uchun maxsus banklar tomonidan beriladigan veksellar asosida kreditni 3 mln. liradan 5 mln. liragacha beriladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini innovatsion rivojlantirish maqsadida 1991 yilda Italiyaning “Halqaro tenderlarda ishtirok etishni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 317-son qonuni qabul qilindi[13]. Qonunga asosan yangi ishlab chiqarish texnologiyalarni xarid qilib olishni tashkiliy va moliyaviy jihatdan ta’minlash va qaytarib berilmaslik sharti asosida ssuda berish va imtiyozli kredit olish bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi.



2-rasm: KBS faoliyatiga ssuda berish va imtiyozli kredit olish bo‘yicha yo‘nalishlari

Kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, ularning faoliyatlarini kengaytirish, modernizatsiyalash, qayta ko‘rish, ishlab chiqarish yo‘nalishlarini o‘zgartirish, territoriyalar yo‘nalishlarida bo‘ladigan o‘zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiy mintaqa darajasida kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini qo‘shish bo‘yicha konsorsium o‘tkazish va kapital xarajatlariga bo‘lgan zaruriyatni ta’minlash uchun imtiyozli kredit berish belgilangan. Janubiy mintaqalarda konsorsiumni tashkil etish va kredit berish foizi 30% ni rivojlangan mintaqalarda 60% tashkil etadi. Ayrim vaqtlarda u olingan kredit kapitalining 80% ga ham o‘sishi mumkin. Boshqa iqtisodiy zonalarda esa 60% gacha foiz to‘lashlari mumkin.

Ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash maqsadida kredit olinganda asosan jihozlar, avtomatlashtirilgan texnologik liniyalarni sotib olishda, patent va litsenziyalar sotib olishda laboratoriya uchun zarur bo‘lgan jihozlarni, korxona konstruktorlik byurolarini tashkil etishda va ekologiyaga salbiy ta’sir etmagan holda yetti yilgacha 70% investitsiya xarajatlarini qoplash bilan 3 mlrd. liragacha 23,0%da imtiyozli kredit ajratiladi. Italiyada 1994-yilda “Foizlar va subsudiyalar to‘g‘risida”gi 598-sonli qonunga (LAW 598/94 INTEREST SUBSIDIES) asoslangan holda olish mumkin[14]. 2013-yil 21-iyulda “Korxonalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha” 69-sonli Qonun bo‘yicha kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini kredit berish takomillashtirilgan holda ularni kafil va

13 Who‘s who in Italy - Части 1–3 - Страница 2308 Act No. 317/1991 of the Italian State

14 https://www.federalregister.gov/documents/2000/08/08/00–19948/certain-pasta-from-italy-preliminary-results-and-partial-rescission-of-countervailing-duty

imtiyoz berish fondiga kirish yengillashtirilgan. Bu qonunga asosan Italiyaning markaziy va shimoliy qismlarida korxonalar mamlakatning ichkarisida yoki tashqarida bo‘lishidan qat’iy nazar qayta moliyalashtirish stavkasida 150,0 mln. yevro miqdorda imtiyozli kredit olish kredit olish kafolatlangan. Bu korxonalarga yilida elektr energiyalaridan foydalanish uchun 800 mln. yevro darajasida imtiyoz beriladi. Italiya hukumati 2014-yildan boshlab kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini himoya qilishni ta’minlash maqsadida ularga soliq to‘lovlarining 15% i miqdorida yangi texnika va texnologiyalarni sotib olishga, 2015-yilning 30 iyunidan boshlab, kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari ustav kapitalining 40% gacha bo‘lgan miqdorda soliq to‘lovlarini tushirish belgilangan. Bu korxonalarda ITTKI faoliyatini rivojlantirish uchun 2014–2016-yillar ichida soliq to‘lovlaridan 25% gacha ITTKI ishlariga mablag‘larni sarf qilishga ega bo‘lganlar. Bir yil ichida ITTKIni rivojlantirishga 5 mln. yevrogacha soliq to‘lovlaridan foydalanishlariga ruxsat berilgan va uni hujjatlashtirish muddati 2019-yil 31-dekabrgacha belgilangan. Bu imtiyozlardan korxonalar yiliga ITTKI ishlariga 30 mln. yevro sarf qilgan holda foydalanish mumkin.

Fransiyada kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari ITTKI ishlarini rivojlantirish maqsadida soliq imtiyozlaridan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun olingan kredit to‘lovlari imtiyolaridan foydalanadilar.

Fransiyada 2014-yildan boshlab innovatsion kredit solig‘idan 30–40% gacha ITTKI yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha imtiyozga egadirlar. Davlat tomonidan yosh innovatsion korxona statusi ishlab chiqilgan korxonalar belgilangan. Jumladan, qanday korxonalar kichik va o‘rta korxonalar bo‘lishiga javob berishlari, ITTKI ilmiy tadqiqot ishlariga sarflangan innovatsion mablag‘, uning umumiy xarajatlarini 15% dan ortiq bo‘lishiga umumiy rivojlanishga ajratilgan mablag‘larning 50% jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lishi belgilangan. Fransiyada bir yil ichida tashkil topgan yosh innovatsion korxonalardan 9700 tasi yuqorida keltirilgan imtiyozlardan foydalanganlar. Kichik va o‘rta korxonalarning rivojlanishini Fransiyaning Sanoat iqtisodiyoti va raqamli texnologiya vazirligi tomonidan tashkil etilgan Bosh general direksiyasi boshqaradi. Hozirgi vaqtda 34 loyiha “Yangi industrial Fransiya” shiorida yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida “Aqlli texnik tekistil” ishlab chiqarish loyihasi asosida amalga oshirilmoqda.

Fransiya davlati kichik va o‘rta biznes tadbirkorlik korxonalariga yangi ish joylarini yaratish uchun ikki yo‘nalishda YeI komissiyasi tomonidan qabul qilingan ikki usulda ularga ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchi kuchlarini kasbiy malakalarini oshirishga va qo‘shimcha ish joylarini yaratishga mablag‘ ajratadilar. Kichik va o‘rta biznes tadbirkorligiga ishlab chiqarish korxonalarini qiyin iqtisodiy holatda qolgan paytlarida ularga 3 yildan keyin sanatsiya tariqasida yordam beriladi.

Germaniya Respublikasida esa kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug‘ullanayotgan korxonalarni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan doimo ularni qo‘llab-quvvatlaydilar.


Germaniya Respublikasida kichik va o‘rta tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi korxonalar birinchidan soliq to‘lovlari bo‘yicha ularga imtiyozlar berish talablari asosida takomillashtirib boriladi. Kichik va o‘rta ishlab chiqarish bilan shug‘ullanishni istagan mamlakat fuqarolariga moliyaviy yordam berish, ayniqsa, birinchi navbatda ishsiz ishchilarga beriladi. Kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ishlab chiqarish korxonalariga ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish yoki ishlab chiqarishni yangi ishlab chiqarish jihozlari, texnika va texnologiyalarini qo‘llashni innovatsion tarzda tashkil etish maqsadlarini amalga oshirish uchun ham innovatsion faoliyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan innovatsiya mablag‘larini ajratish va bu korxonalarga davlat tomonidan bajarilishi zarur bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari bo‘yicha, jixozlar bo‘yicha va mahsulotlar bo‘yicha kerakli darajada kvotalar, ya’ni davlat tomonidan kontraktlar tuzish orqali ham yaqindan yordam beradi.

Davlat tomonidan kichik va o‘rta biznes tadbirkorligini tashkil etishni samarali olib borish bo‘yicha mslahatlar berish zarur bo‘lgan axborotlar bilan ularni ta’minlash, xodimlarni malakalarini oshirish bo‘yicha maxsus kurslarini tashkil etish va ularni faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish bo‘yicha maslahatlar beruvchi shahobchalar tashkil etilgan.

Germaniya Respublikasida mintaqaviy va mahalliy hokimiyat darajasida kichik va o‘rta biznes tadbirkorligini rivojlantirish tashkil topgan markazlar davlatning va iqtisodiy mintaqalarda bo‘lgan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha zarur bo‘lgan tadbirlarni amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Germaniyada mikrofirma va kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug‘ullanuvchi korxonalar YeIning 2003-yilda qabul qilingan mezonlari asosida tashkil topgan[15].

Mikrofirmalar asosan ularning ishlab chiqarishlarida band bo‘lganlar 10 kishidan kam, kichik korxonalarda esa 10 kishidan 49 kishigacha va o‘rta korxonalarda 50 kishidan 249 kishigacha tashkil etishi belgilangan[16]. Mikrofirmalarning yillik ish hajmi 2 mln. yevroni, kichik korxonalarda esa 10 mln. yevroni va o‘rta korxonalarda esa yillik aylanmasi 50 million yevrogacha yoki balans jami 43 million yevrodan oshmasligi kerak (Komissiyasining 2003-yil 6-maydagi tavsiyasi) Ushbu ta’riflar qaysi korxonalar Yevropa Ittifoqining moliyalashtirish dasturlaridan foydalanib, kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish borasida foydalaniyotganligini baholashga qaratilgandir.

15 361 bet YeS
16 https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Glossary:Enterprise_size



3-rasm: Yevropa Komissiyasining kichik va o'rta biznesga nisbatan siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari

Shunga asoslangan holda davlat tomonidan iqtisodiy jihatdan yordam oluvchi asosiy ishlab chiqarish subyektlarining davlat yordamiga ega bo'luvchi korxonalarda ish kuchi bandligi 250 tadan kam bo'lishi kerak.

Germaniyada mikrofirmalar va kichik hamda o'rta tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug'ullanuvchi korxonalarga davlat tomonidan moliyaviy jihatdan yordam berish differensiyalashtirilgan.

Mikrofirma korxonalari uchun qo'shimcha ularning rivojlanishiga moliyaviy tadbirlar belgilanadi. Germaniyada 545 ming korxona bo'lib, shulardan har biri o'rtacha 15 % inqirozga uchraydi. Germaniyada 2015-yilgacha har yili o'rtacha 30–40 ming yangi korxonalar tashkil topgan. Shu bilan birga 98% korxonalar mikrofirma, kichik va o'rta biznes korxonalari tashkil etadi. Ular umumiy ish bilan bandlikning 50% ni va mamlakatni oborotining 25% ni ta'minlaydi.

Germaniyada ishlab chiqarish asosan yakka tartibdagi tadbirkorlik shaklida 2293,4 ming o'rtoqlik boshqaruv shirkatlarida 453,7 ming xo'jalik mas'uliyati cheklangan xo'jaliklarda va aksioner jamiyatlari 666,2 ming va turli tashkiliy formadagi korxonalar 216,3 ming ni tashkil etadi. Germaniya Respublikasida 3629,7 ming korxonalar o'z faoliyatlarini olib borsalarda, ularning 65% kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib 18% xo'jalik jamiyati kapitaliga asoslangan. Germaniya Respublikasida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha yangi korxonalarni tashkil etishda Yevropa Ittifoqida birinchi o'rinda turadi. Germaniyada federal va yer munitsipalitetlari darajasida doimiy ravishda korxonalarni tashkil etishni, ularning huquqiy darajalarini va soliq to'lovlarini takomillashtirib borishga katta e'tibor beriladi. Ular ishlab chiqilgan maxsus dasturlar asosida o'z faoliyatlarini olib boradilar. Federal qonunlarga asoslangan holda yakka tartibdagi tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqarish balansini tashkil etishdan va yillik hisobotni chop etishdan ozod etilgan. Yakka tartiblagi korxonalar oladigan daromadlari oyiga 60 ming yevrodan, yiliga 600 ming yevrodan kam bo'lsa balans tuzishdan, ya'ni xarajat va daromad balansini tuzishdan ozod etiladi.

Germaniyada 1,3 mln. kishi mustaqil ravishda ish faoliyatlari bilan shug'ullanadilar. Bu sohada asosan tibbiyot xodimlari 0,7 mln. kishini yoki 30% ni, maslahat beruvchi advokatlar 27% ni va madaniyat, san'at sohalarida 23% ni va texnika sohasida 18% ni tashkil etadi.

Kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirishda 25 million yevroga yetmaydigan korxonalarga kredit berish bilan bog'liq bo'lgan 50% darajasida riskni federal darajasida imtiyozli foizlarida kredit berish belgilangan. Bu korxonalar uchun bo'ladigan 1–7 % darajasida bo'lsa, bu korxonalar 2 yilgacha kredit to'lovlaridan ozod bo'lib, ularga kredit 10 yilgacha beriladi. Germaniyada mikrofirmalarga, kichik va o'rta biznes korxonalariga beriladigan kredit uchun belgilangan to'lovlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida eng past to'lovlar hisoblanadi. Yakka tartibda tadbirkorlikni olib boruvchilarga kreditni olish uchun 10 yilgacha imtiyoz beriladi. Banklar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan risk oldini olishni 80 % ini iqtisodini tiklash (KFW) banki o'z bo'yniga oladi. 20 % i unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan qoplanadi.

Buyuk Britaniya mamlakati 2017-yilda yalpi ichki mahsulotda sanoat ishlab chiqarishning ulshi 27,7 % ini tashkil etgani. Uning jahon eksportida hissasi 10 % ni tashkil etadi.


Buyuk Britaniya mamlakatida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati iqtisodiy rivojlanishining asosiy subyekti hisoblanadi. Kichik tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynovchi raqobat muhitini yaratadi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda davlat tomonidan kichik tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshiriladi. Masalan, Buyuk Britaniyada kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlashda ularni o'zining maxsus qabul qilingan konsepsiya asosida shart va sharoitlarni yaratiladi.

Jahon bankining xalqaro moliyaviy korporatsiyasi "2017-yilda biznesni olib borishi bo'yicha 189 ta mamlakat bo'yicha olib borgan tahlili asosida Buyuk Britaniya mamlakati kichik biznesni tashkil etish va olib borishi bo'yicha 7 o'rinni egallagan"[17].

17 Исследование Всемирного банка: ведение бизнеса в 2017 году // Центр гуманитарных технологий.URL: http://gtmarket.ru/news/2016/10/26/7312

Ishlab chiqarish jarayonida band bo‘lgan bandlik 54% ni, yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishda 50,2% ni va ishlab chiqarishni olib borayotgan korxonalarning 96,6% kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari hissasiga to‘g‘ri kelgan[18].

Buyuk Britaniyada 2000-yil aprel oyidan boshlab kichik biznesni xizmati maxsus tashkiloti tuzilgan bo‘lib, u Savdo va sanoat vazirligining bir xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:



4-rasm: Buyuk Britaniya Savdo va sanoat vazirligining asosiy vazifalari

Hozirgi kunda bu mamlakatda “Kichik biznes kengashi” o‘z faoliyatini olib bormoqda. Bu mustaqil tashkilot bo‘lib, kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari uchun zarur bo‘lgan maslahatlarni berishi bilan birga davlat qarorlarini yanada takomillashtirish va samarali bo‘lishi bo‘yicha sanoat va savdo bo‘yicha davlat kotibiga o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar.

Kichik tadbirkorlik kengashi har yili o‘zining faoliyati bo‘yicha yillik hisobotni chop etadi. Bu kengash kichik tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq ularni faoliyatlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiya va takliflar beradi. Kichik biznes kengashi kichik biznesning aylanma mablag‘larini 500 ming funtgacha bo‘lganlarini audit tekshiruvning ayrim talablarini bajarishdan ozod qilishni, kichik korxonalarni to‘lovlari shakllarini takomillashtirishni amalga oshiradi. Davlatning dasturiga asosan kichik tadbirkorlikni moliyalashtirish uchun 6,0 mlrd funt sterling mablag‘ ajratiladi.

Kichik tadbirkorlik korxonalariga beriladigan kreditning 70% dan 85% gacha hajmda davlat tomonidan kafolatlanadi.

Kichik biznes xizmati tashkiloti kichik biznesni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, mintaqaviy darajada venchur kapitalini tashkil etish, kichik va o‘rta korxonalar uchun yordam beruvchi investorlarni jalb etish, ularning eksport sohalarini qo‘llab-quvvatlash ishlarini amaga oshiradi.

Buyuk Britaniya 1996-yildan boshlab kichik korxonalarga xizmat ko‘rsatuvchi maxsus “Biznes Link” tarmog‘i tashkil etilgan. Bu tashkilotning asosiy vazifasi telefon orqali maslahatlar berish hisoblanadi. Yakka tartibda maslahatlar berish va maxsus ixtisoslashgan kichik va mikrofirmalarni zarur bo‘lgan texnikaviy yordam berish mahsulot va texnikalarni innovatsion mahsulot va texnikalarni ishlab chiqarishga joriy etish, kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalariga zarur bo‘lgan komissiya, ishlab chiqarish jihozlarini yetkazib beruvchi korxonalar bilan aloqalar o‘rnatish va tashqi bozorga chiqish uchun yaqindan yordam berishni tashkil etadilar. Buyuk Britaniya 2014-yildan o‘z faoliyatini boshlagan mintaqaviy rivojlavnish RD-agentligi asosan kichik va o‘rta biznes faoliyatlarida infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi. Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi to‘siqlarni oldini olish uchun yiliga 8,2 mlrd. funt sterling xarajat qiladi[19].

Mamlakatda 2007-yildan boshlab “Kichik biznesni iqtisodiy samaradorligini qo‘llash” maxsus guruh tashkil etgan. Uning asosiy vazifasi davlat tomonidan kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarni iqtisodiy natijalarini sifat va iqtisodiy jihatdan baholashni takomillashtirishga qaratilgan. Kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarini iqtisodiy samaradorligini ta’minlash bo‘yicha davlat tomonidan tadbirlarni amalga oshirilishi ta’minlanadi. Davlat

18 Чуприн Дмитрий Александрович Опыт Великобритании в государственной поддержке малого бизнеса // Концепт. 2018. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-velikobritanii-v-gosudarstvennoy-podderzhke-malogo-biznesa (дата обращения: 27.06.2021).(Развитие и поддержка малого и среднего предпринимательства в Российской Федерации. ДокладМинэкономика развитии Российской Федерации на 12 заседании Консультативного совета по поддержке и развитя малого предпринимательства в государственных участников стран СНГ. Москва 26.10.2017 URL htp:www.smb.gov.ru)

19 http://www.berr.gov.uk./fayles/fayl42813.pdf

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

tomonilan kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati natijasida mintaqa darajasida amalga oshirilayotgan (B22PC The Business Support Simplification Programine) dasturi asosida har yili iqtisodiy samaradorlik 1,4 mlrd funt sterling tashkil etadi[20].

Osiyoning janubiy sharqida Xitoy Koreya va Hindiston mamlakatlarida davlatlar tomonidan kichik va o‘rta ishlab chiqarish faoliyatlarini olib borishda ularni qo‘llab-quvvatlash tajribalari o‘zining xususiyatiga ega bo‘lib, uni o‘rganishni talab etadi.


Xitoy mamlakatlarida ham kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga davlat tomonidan katta e’tibor beriladi.

Bu iqtisodiy yo‘nalishda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun asosan investitsiya mablag‘larini jalb qilish, kredit berishni kengaytirishga yo‘naltirilgan.

Davlat tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarish yo‘nalishini rivojlantirishni iste’mol bozorlari talablariga asoslangan holda qabul qilingan qonunlarni barqaror rivojlanishini ta’minlash va kichik tadbirkorlik subyektlariga soliq solishni takomillashtirib borish orqali tartibga soladi. Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosati Xitoy Xalq Respublikasining “Boshqaruvchi palatasi” bilan “Iqtisodiyotni rejalashtirish va rivojlantirish Kengashi” tomonidan rejalashtiriladi va boshqariladi. Bu kichik tadbirkorlik faoliyatlarini olib boruvchi subyektlarni boshqaruvchi tashkilotlar Xitoy Xalq Respublikasining Iqtisodiyot vazirligi ixtiyorida bo‘lib vazirlik tomonidan umumlashgan holda kichik va o‘rta tadbirkorlik ma’muriy boshqaruvi asosida amalga oshiriladi.

Xitoy Xalq Respublikasida milliy sanoatni va uni texnologik rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan “Technology Development Proramr-TDP” dasturi asosida ITTKI ni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish texnologiyalarini va iste’mol tovarlarini ishlab chiqarishni amalga oshirish yo‘lida innovatsion markazlarni tashkil etish uchun 500 mln. AQSh dollarida mablag‘ ajratilgan. Xitoy Xalq Respublikasida asosiy moliyaviy institut bo‘lgan eksport-import banki orqali eksport-import faoliyati olib boriladi. Ularning asosiy vazifalari tovarlarni eksport qilish va investitsion loyihalarni xizmat ko‘rsatishda asosan mexanik va elektron mahsulotlarni, yuqori ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslangan ishlab chiqarish mahsulotlarini eksportga chiqarishdan iborat. Turli fuqarolar va sanoat qurilish ishlarini Xitoy qurilish kompaniyalarini qatnashuvini ta’minlash va kreditlar berishdan iborat. Xitoy Xalq Respublikasida qishloq joylarida joylashgan va qoloq mehnatga yaroqli resurslarini ish bilan ta’minlashi hisobiga olinadigan foyda solig‘i imtiyozli 10% darajasida belgilangan. Innovatsion ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan korxonalar haqiqatdan innovatsion tarzda ishlab chiqarishni amalga oshirayotganligi to‘g‘risida Xitoy Xalq Respublikasi Fan va texnika vazirligi tomonidan tasdiqlovchi hujjatga ega bo‘lsalar, foyda solig‘i 15 % qilib belgilanadi.

Oliy o‘quv yurtlari ixtiyorida bo‘lgan innovatsiya bilan shug‘ullanuvchi kichik korxonalar foyda solig‘i to‘lo-vidan ozod etilgan. Ishlab chiqarish korxonalariga texnikaviy jihatdan maslahat beruvchi yoki yangi texnikalarni ishga tushirish bilan xizmat ko‘rsatuvchi kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari yillik daromadlari 300 ming yuandan kam bo‘lsa, ular foyda solig‘i to‘lovidan ozod qilinadi. Kichik va o‘rta tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarida band bo‘lgan ishlab chiqarish xodimlarining umumiy sonidan 65%i nogiron bo‘lgan taqdirda 3 yilgachan soliq to‘lovidan ozod etiladi.



5-rasm: Koreya respublikasida Savdo va sanoat vazirligi tomonidan mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan asosiy vazifalari

20 http://www.bis.gov.uk/policies/enterrise-and-business-support

Hindistonda amalga oshirilgan tajriba shuni ko‘rsatadiki, ularda korxonani ochish uchun eng kam darajada Nizom jamg‘armasiga ega bo‘lish va biznes operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan sertifikat bekor qilinishi natijasida korxonani ro‘yxatga olish va ishga tushirish uchun besh ish kuni sarflanishiga erishilgan.

Natijada kichik va o‘rta biznes korxonalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy institutlar va belgilangan ro‘yxatdan o‘tkazish yengillashgan. Agarda 2015-yilda 66 ta iqtisodiy o‘zgartirishlarni 53 ta mamlakatlarda amalga oshirilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2014-yilda 230 ta ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish bo‘yicha kayta tashkil etish bo‘yicha turli yo‘nalishlarda qarorlar va uslubiy tavsiyalar qabul qilingan bo‘lgan. Shulardan, 145 tasi qiymatini tushirish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, 85 tasi huquqiy boshqaruviga tegishli bo‘lgan. Biznesni 2005-yilda olib borish bo‘yicha 2015-yildagi iqtisodiy rivojlanishni bo‘yicha biznesni olib borish bo‘yicha qilingan ma’ruzada 2013–2014-yillar ichida 123 mamlakatlarda mahalliy tadbirkorlar huquqiy yo‘nalishda ijobiy o‘zgarishlarga21 ega bo‘lganlar.

Biznesni tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha 2016-yilga bag‘ishlangan ma’ruzada biznes sifati va uning samaradorligini oshirishni tartibga solinishi uning rivojlanishi qatorida iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, aholini iqtisodiy holatini va ijtimoiy turmush darajalarini yaxshilab borishiga xizmat qiladi. Jahon banki tomonidan tashkil etilgan global indikatorlarni o‘rganish guruh direktori Augusto Lopes-Klaros fikricha, olib borilgan tadqiqotlar asosida olingan natijalar tadbirkorlik faoliyatlarini tartibga solishning huquqiy normalarni samarali va sifatli olib borilishiga xizmat qiladi. Guruh tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari tadbirkor subyektlari bilan hamkorlikda iqtisodiy jihatdan barqaror mustaqillik holatiga ega. Tadqiqot natijalari mahsulotlar ishlab chiqarishdagi raqobatdoshlik darajalarini o‘sib borishi va milliy iqtisodiyotni o‘sib borishiga xizmat qiladi deb hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarining ish faoliyatlarini turli darajada bo‘lishi natijasida ularning olayotgan foydalari turli darajada bo‘lishi oqibatida turli tashkiliy, iqtisodiy va investitsiyalashtirish yo‘nalishlarida qiyinchiliklarga uchraydilar.

Bu qiyinchiliklardan biri korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun yetarli darajada investitsiya mablag‘lariga ega bo‘lmasligi, olinadigan kreditlarga belgilangan ustama foiz to‘lovlarini yuqoriligidir. Kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqarish faoliyatlarini olib berishlari tartibga solishni bozor iqtisodiyoti talablari bilan hamohang holda rivojlanishiga erishishni talab etadi.

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish birlashma a’zolari mamlakatlarida kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan iqtisodiy jihatdan qabul qilinayotgan qonunlar asosida qo‘llab boriladi. Masalan, Germaniya, Ispaniya, Yaponiya va Yangi-Zenlandiya mamlakatlarida qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning ½ qismi.

Turkiya mamlakatida ham kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari asosan to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, ularni ishlab chiqargan mahsulotlari jahon iste’mol bozori standartlariga to‘liq javob berishi bilan ajralib turadi. Turkiya hukumati tomonidan kichik va o‘rta ishlab chiqarish tadbirkorlik korxonalariga ularning mahsulotlarini xorijiy iste’mol bozorlarida sotishda va xalqaro ko‘rgazmalarda qatnashishlari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni ma’lum qismini qaytarish, xorijiy xarid qiluvchi subyektlarni uchrashuv xarajatlarini qaytarish tovarlarni samarali eksportida soliq imtiyozlarini berish bilan yaqindan yordam beradi. Turkiyada qabul qilingan 2009-yil 18-fevraldagi №5838-son Qonunga asosan korporativ to‘qimachilik sanoatida 50 va undan ortiq ishchi ishlaganda korporativ soliq fondi stavkasi 75% hisobda diskontlangan. Natijada uning soliq stavkasi 20% dan 5% ga kamayadi. Kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini moliyaviy va kreditlash tashkilotlari tomonidan iqtisodiy yordam davlatdan olinishi iqtisodiy mintaqalar xususiyatlariga qarab moliya va kredit beruvchi tashkilotlar bajariladigan loyiha qiymatini 70% qiymatini 1–5 yilgacha bank tomonidan qoplanishi kafolatlanadi. Turkiya o‘zining ishlab chiqargan mahsulotlarni ichki iste’mol bozorlarida himoya qilish uchun import qilinadigan masalan to‘qimachilik tovarlariga tayyor kiyim boshlarga 30%, to‘qimachilik mahsulotlariga 20% bojxona to‘lovlarini kiritish aosida ichki ishlab chiqarish korxonalarini iste’mol bozorlarini himoya qilish hisobiga import mahsulotlarini kirib kelishini 15% ga tayyor kiyim-kechaklarni kirib kelishini 25% ga kamaytirishga erishgan.

Iqtisodiy rivojlangan yettita yetakchi mamlakatlar hukumatlari butun e’tiborlarini menejerlar ish faoliyatlarini yaxshilashga qaratganlar. Bu yo‘nalishda Yaponiya mamlakat tajribalarini o‘rganishga e’tibor berish zarur. Ular menejerlarning asosiy faoliyatlarini asosan maslahat berishga va kollejlarda kichik va o‘rta korxonalar uchun menejerlar tayyorlashga qaratganlar. Yaponiya mamlakatida asosiy maqsad, kichik va o‘rta korxonalar ishlab chiqarilgan mahsulotlarini nafaqat ichki bozorga balki tashqi bozorga chiqarishni davlatning mahsulot xarid qilishini amalga oshirish bilan bog‘liqlikda olib borishni yo‘lga qo‘yganlar.

Xorijiy mamlakatlarda kichik va o‘rta tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarini xorijiy iste’mol bozoriga chiqishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlab, tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda, ular tomonidan yaratilgan mahsulotlar iste’mol bozorlarida raqobatdosh bo‘lishini ta’minlashga, ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirishga, iste’mol narxlarini arzonlashtirishga va olayotgan foydani o‘sib borishiga erishiladi.

Hukumat doimiy ravishda iqtisodiyotga aralashish asosida mehnat resurslarini talab va taklif asosida shakllantirib, iqtisodiyot tarmoqlarida uning korxonalari o‘rtasida zarur bo‘lgan hom-ashyolar bilan taqsimotini ta’min-

21 http://russian.doingbusiness.org/reports/global-reports/doing-business

lashi uchun yuqorida aytib o‘tilgan asosiy vazifalarni bajarishi lozim va shu orqali milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalash bo‘yicha jahon iqtisodchi va respublika olimlarining uning kategoriyalarini o‘rganish asosida bergan uslubiy tushunchalari orqali quyidagi xulosaga keldik. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan iqtisodiy rivojlanishni turli mulkchilik egaligi asosida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish erkin raqobat asosida olib borilishi natijasida ular tomonidan ishlab chiqarish jarayonini investitsiyalash va ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirishga katta e’tibor beriladi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalashtirish bo‘yicha keltirilgan ilmiy xulosalarini tan olgan holda, respublikaning iqtisodiy mintaqalarida joylashgan kichik biznes subyektlarini YaIM o‘sib borishidagi hissani e’tiborga olib, innovatsion rivojlantirish asosida ularning samaradorligini o‘sib borishini ta’minlash, iqtisodiy mintaqalarni ham iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotida rivojlangan mamlakatlardagi kichik va o‘rta biznes subyektlarini investitsiyalash orqali rivojlanishi ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini ilmiy texnikaviy markazlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi natijasidir.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalashda ishlab chiqarish subyektlari bilan iste’mol tovarlarini taklif etuvchi bozor subyektlari iqtisodiy munosabatlarning o‘rganilganligii kichik biznes subyektlari faoliyatida innovatsion ishlab chiqarish subyektlarining ustunlik darajasini asoslab berilishi orqali ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Italiya korxonalarida ITTKI faoliyatini rivojlantirishda soliq to‘lovlarini 25% gacha kamaytirish, Fransiyada ITTKIni rivojlantirish uchun sarflangan innovatsion mablag‘ uning umumiy xarajatlarini 15,0% gacha bo‘lishi, ularning umumiy rivojlanishiga ajratilgan mablag‘ning 50,0% ni tashkil qilishi tarmoqda soliq imtiyozlaridan yanada samarali foydalansa, samaradorlik yanada oshishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Germaniyada mikrofirmalarda 9 kishigacha, kichik korxonalarda 10–49 kishi va o‘rta korxonalarda 50–249 kishi bandligi tajribalaridan, Xitoy Xalq Respublikasida “Boshqarish palatasi” bilan “Iqtisodiyotni rejalashtirish va rivojlantirish kengashi” tomonidan amalga oshirilishi, innovatsion markazlarni tashkil etish, ITTKI bilan shug‘ullanuvchi korxonalar hujjatlari bo‘lgan taqdirda 15,0% soliq to‘lovlari tajribalaridan foydalanish, Koreyada ITTKI ishlarini 20% bajarilgan taqdirda 5–6 mln. von davlat tomonidan yordam berish, Turkiyada soliq stavkasini 20% dan 5,0 foizga kamayishini umumiy soliq fondini 75,0% diskotlangan bo‘lishi, import mahsulotlariga 15,0%, tayyor kiyim-kechaklarga 25,0% boj to‘lovlari hisobiga ichki iste’mol bozorini himoya qilish tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 20-noyabrdagi PQ–4525-son qarori. https://lex.uz/docs/4602230.
2. Александров С, Искандаров Р Цифровая экономика-экономика осуществляемая помощью цифровых телекомуникаций // Технология и средствосвязи: 2009 №5.
3. Буров В. Ю Малое предпринимательство в пространственном развитии региона. Вестник Бурятского Государственного Университета. Серия. Экономика и право. №2 (1) 2015.С 78–84.
4. Ғозибеков Д. Инвестиция нима дегани? Бозор, пул ва кредит. 1999, W 9. 40 б.
5. Петров, Д. В. Малое предпринимательство России: современное состояние и перспективы развития / Д. В. Петров // ЕГИ. – 2020. – № 2 (28). – С. 102–105;
6. Тихомирова, О. Г. Глобализация и малый бизнес: новые возможности для малых и средних предприятий / О. Г. Тихомирова // Менеджмент в России и за рубежом. – 2019. – № 3. – С. 79.
7. Eshov M. P. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari. Monografiya.T, 2017. 80 b.;
8. Gofurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dis. Avt. ref. iqt.fan. doktori T.: 2017. 30 b.
9. Абдурахмонова Г. К. Малый бизнес в обеспечении занятости населения в Узбекистане. Вестник Российского экономического университета им. Г. В. Плеханова. 2014, №12. – С. 129–136.
10. O. Aripov Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi “Namangan” nashriyoti, -T.: 2018. – 213 b.
11. Маширова Т. Н. Сабенова Б. Н., Сихымбекова А. М Основные направления развития малого и среднего бизнеса: Зарубежный опыт. // Ж. Экономика и финансы. №3. 2012. – С. 31.
12. Ro‘ziyeva D. I. Kichik biznesni xalqaro kreditlar hisobidan investitsiyalash // “Iqtisod va moliya” jurnali, 2013 yil №6.
13. Ro‘ziyeva D. I. Kichik biznesni investitsiyalash bo‘yicha xorij tajribasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. // “Iqtisod va moliya” jurnali, 2013 yil №9.

ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ЛОЙИҲАЛАРИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ, ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ



Suleymanov Farrux Raximjonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda Avstryaning Krems AFU qo‘shma talim dasturi tayyorov kursi kurs rahbari, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bugungi kunga kelib muhokama markazidagi mavzulardan biri hisoblananishi, Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, ko‘pgina ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik muammolar DXSh mexanizmidan foydalangan holda samarali hal etilayotgani tahlil qilingan. Shuningdek, bunungi kunda bu borada jahondagi rivojlangan va ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlarda yetarlicha tajribaga ega ekani yoritilgan. Iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida DXSh bo‘yicha faoliyat yuritayotgan olim va amaliyotchi mutaxassislarning qayd etishicha, DXSh mexanizmi davlat va xususiy sektor hamkorligi natijasida turli iqtisodiy-ijtimoiy muammolar o‘z yechimini topayotgani xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, davlat-xususiy sheriklik, xususiy sektor, jamiyat.

Abstract: In the article, public-private partnership (PPP) is one of the topics in the center of discussion today. It has been analyzed that the world experience shows that many socio-economic problems are effectively solved using the PPP mechanism. Also, today it has enough experience in developed and many developing countries of the world. Scientists and practitioners working on PPP in various sectors and sectors of the economy note that PPP mechanism solves various economic and social problems as a result of public and private sector cooperation.

Key words: Economy, public-private partnership, private sector, society.

Аннотация: В статье государственно-частное партнерство (ГЧП) является одной из тем, находящихся сегодня в центре обсуждения. Проанализировано, что мировой опыт показывает, что многие социально-экономические проблемы эффективно решаются с использованием механизма ГЧП. Также сегодня имеется достаточный опыт работы в развитых и многих развивающихся странах мира. Ученые и практики, работающие в сфере ГЧП в различных отраслях и секторах экономики, отмечают, что механизм ГЧП решает различные экономические и социальные проблемы в результате сотрудничества государственного и частного секторов.

Ключевые слова: Экономика, государственно-частное партнерство, частный сектор, общество.

KIRISH

Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi – davlat infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdagi xususiy investitsiyalarni jalb etish usullaridan biri bo‘lib, ushbu mexanizmda davlat va xususiy sherik hisoblangan tomonlar kelishilgan shartnoma bo‘yicha uzoq muddatli yoki qisqa muddatli o‘zaro hamkorlik olib borgan holda loyihani amalga oshiradi. Bu orqali nafaqat infratuzilma obyektini barpo etishda shartnoma tomonlari sheriklik qiladi, balki uni keyinchalik foydalanish hamda boshqa huquqlarda ham o‘zaro hamkorlikni davom ettirishni maqsad qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI


DXSh loyihalari orqali xo‘jalik yuritiuvchi subyektlarni qo‘llab-quvvatlash, DXSh mexanizmi orqali investitsiya loyihalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ushbu loyihalarni davlatning xizmat ko‘rsatish sohalariga ham tatbiq etish imkoniyatlarini o‘z ilmiy tadqiqotlarida o‘rgangan olimlardan V. G. Varnavskiyning fikricha, “Davlat-xususiy sheriklik loyihalari davlat uchun strategik ahamiyatga yaqin, ammo undan keyingi darajadagi loyihalarga investitsiyalarni jalb etish uchun mexanizm hisoblanadi. Ushbu mexanizmda davlat asosiy ijtimoiy foyda evaziga va kelgusidagi yirik xarajatni oldini olish va uning bir qismini xususiy sektorga uning manfaatlari evaziga yuklashga qaratilgan samarali loyihaviy boshqaruv tizim hisoblanadi”[1].

1 Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo: teoriya i praktika [Tekst] / V. G. Varnavskiy i dr.; Gos. un-t – Viysshaya shkola ekonomiki. – M.: Izd. dom Gos. un-ta – Viysshey shkoliy ekonomiki, 2010. – 287 s.

K. A. Antonova “Davlat-xususiy sherikchiligi Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omili sifatida” ilmiy asarida DXSh loyihalari mexanizmini davlat va xususiy sektor o‘rtasida davlat boshqaruvi organlar (tashkilotlari, muassasalari va x.k.) va xususiy sektor vakillari o‘rtasida amalga orishiladigan shartnomalarning institutsional tashkiliy ko‘rinishi – yaxlit mexanizm” sifatida ta’riflagan[2].

E. A. Diynin tomonidan ilgari surilgan mulohazalarga ko‘ra, “DXSh loyihalari va uni boshqaruvi mexanizmi jamiyatda zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni tashkil etish, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasini o‘rta va uzoq muddatga hamda ayni vaqtda ikki tomonlama manfaatli asosda bo‘ladigan davlat va xususiy sektor – jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi tuzilma. Ushbu tuzilma orqali loyihalarni boshqarish esa davlat va xususiy soha egalarini o‘zaro hamkorlikda va tiyib turish tamoyillari orqali ikki tomonlama boshqaruv tuzilmasidir”[3] degan fikrlarni bildirgan.

Infratuzilma loyihalarini DXSh mexanizmi asosida moliyalashtirish boraisda ilmiy-tadqiqot ishini olib borgan S. B. Yunusovaga ko‘ra, “DXSh – bu davlat tomonidan iste’molchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifatini oshirish, turini ko‘paytirish, ushbu xizmatlar uchun ajratiladigan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini optimallashtirish maqsadida infratuzilma obyektlariga xususiy sektor (yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs va yuridik shaxslar birlashmasi)ni jalb qilish orqali tomonlarning ma’lum muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan hamkorlikdagi faoliyatidir”[4]. Shuningdek, olim o‘z tadqiqotlarida DXSh loyihalarini amalga oshirish mexanizmini quyidagicha taklif etgan:



1-rasm: DXSh ning amalga oshish sxemasi[5]

2 Кабашкин В. А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. – М.: Дело, 2010. С. 120.

3 Дынин Е. А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве / Дынин Е. А. // Общество и экономика. – 2007. – № 5–6. С. 111.

4 Yunusova S. B. Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishni rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI. Toshkent shahri – 2022 yil. Yunusova Sevara Baxtiyor qizi (2).pdf

5 Yunusova S. B. Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishni rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent shahri – 2022 yil.

A. E. Shayxov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda respublikamizda DXSh mexanizmi bo‘yicha loyihalarning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlari ham aks etiliggan[6].

Bundan tashqari, X. N. Usmanov, M. X. Kamilova, U. I. Djumaniyazov tomonidan yozilgan ilmiy maqola va asarlarda xorijiy va mahalliy DShX mexanizmi bo‘yicha tajribalar o‘rgannilgan, ushbu loyihalarning boshqaruv mexanizmini yanada takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan[7].

METODOLOGIYA

DXSh loyihalari va ularni boshqarish muxanizmi borasida qator xalqaro moliya tashkilotlari va institutlari ham o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirishgan. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD – Organisation for Economic Co – operation and Development) “DXSh mexanizmi – davlat sektori tomonidan huqumat hamda bir guruh bo‘lgan (bir yoki bir nechta xususiy sektor vakillari) xususiy soha subyektlari – sheriklarning manfaatlar birlashuvi evaziga tuzilgan yaxlit ikki va ko‘p tomonlama o‘zaro kelishuvi hisoblanadi. Unga ko‘ra, o‘zaro kelishuv tuzgan sheriklar xizmatlarni (moddiy va nomoddiy resusrlar) o‘zaro kelishuvga asosan shundan ta’minlaydiki, ushbu mexanizmda kki tomon, ya’ni bir tomondan davlat o‘zi tomonidan ko‘rsatiladigan va bajaradigan xizmatlarni vaqtida va sifatli taqdim etishi, o‘z navbatida, ikkichi tomon – xususiy sektor, ya’ni investorlarning moddiy foyda olish motivlari ta’minlangan ikik tomonning maqsadlari holda birlashadi. Boshqaruv sohasining murakkabligi esa DXSh loyihalari risklarining o‘zaro taqsimlanishi va ularni bartaraf etish imkoniyatlarining mavjudligida”dir[8]. Nashkilotining fikricha, DXSh boshqaruv organlari bular DXSh kelishuvlarini yaratish, saqlash va baholash jarayonida hukumatga yordam berish ustuvor vazifasi etib belgilangan tashkilotlar hisoblanadi. DXSh loyihalarini boshqaruv organining funksiyalariga davlat-xususiy sheriklik asosida chora tadbirlarini belgilash, investitsiya loyihalar ustida ishlash, bu borada normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash, loyihalarni ekspertizadan o‘tkazish, belgilangan investitsiya loyihalar ustida nazorat va monitoring olib borish kabilar shular jumlasidandir[9].

Xalqaro Valyuta jamg‘armasi tomonidan berilgan ta’rifda esa “DXSh – davlat tomonidan an’anaviy tarzda ta’minlanadigan infratuzilmaviy aktivlar va xizmatlarni xususiy sektor tomonidan taqdim etishga qaratilgan kelishuvdir” deb ta’riflanadi[10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqotdan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, iqtisodiyot va jamiyatning innovatsion-ijtimoiy rivojlanishi mamlakatlarning transport, sog‘liqni saqlash, muhandislik-kommunikatsiya, kommunal-xizmat ko‘rsatish, uy-joy bilan ta’minlash, ta’lim kabi tijtimoiy soha infratuzilmasini samarali faoliyat ko‘rsatishi sharoitiga chambarchas bog‘liq hisoblanadi hamda uning geografik joylashuvi transport xizmatlari eksportidan katta daromad olishga yordam beradi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun davlatning iqtisodiy muhim loyihalarini amalga oshirishda va bevosita tartibga solishda davlat roli kamayishi zarur. Shundagina iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda davlat ishtirokining o‘rnini bosuvchi muqobil mexanizmlari paydo bo‘lishni boshlaydi. Bunday mexanizmlaridan biri davlat-xususiy sheriklikdir. Tadqiqotchilarning ta’midklashicha, DXSh loyihalarini amalga oshirish va boshqarish mexanizmini tatbiq etish uchun eng istiqbolli yo‘nalish transport-logistika sohasi hisoblanadi. Sababi aynan transport sohasi ko‘pgina mamlakatlarda eng katta investitsiya salohiyatiga sohalardan biridir.

Umuman olganda, DXShda investitsiya loyihasining boshqaruv organi ushbu loyihani amalga oshirishni faqat texnik tomondan qo‘llab-quvvatlash va DXShning nazorat,ekspertiza va audit funksiyalarini bajarishi kuzatiladi. Bunda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish uchun DXSh mexanizmining boshqaruv organiga huquqiy jihatdan mustaqil maqom berilishi loyihaning samaradorligini ta’minlaydi. DXSh mexanizmida boshqaruv tizimining asosi hukumatning o‘zi tayinlaydigan maxsus yuridik shaxs bo‘ladi. Bunga, hukumatning quyi bo‘g‘inlari (viloyatlar, viloyatlar va munitsipalitetlarda) boshqaruv organi yoki hududiy (shahar) markazlarni misol qilishimiz mumkin. Ammo, bu borada DXSh munosabatlarining shaffofligiga jiddiy salbiy ta’sir etishi kuzatiladi.

Bugungi kunga kelib, DXSh sohasida davlat va munitsipal boshqaruvning yagona universal modeli ishlab chiqilmagan. Bu jarayon ma’lum bir tizim, hudud yoki tarmoq iqtisodiyotining ustuvor vazifalariga mos ravishda o‘ziga xos holda bosqichma-bosqich turlicha shakllanmoqda deyish mumkin. Mutaxassislarning ta’kidlash-

6 Vaxabov A. V., Tadjibayeva D. A., Xajibakiyev Sh. X. . Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. – Toshkent.: Baktria press, 2015. – 71 b.

7 Shodmonov Sh. Sh., G‘ofurov U. V. . Iqtisodiyot nazariyas: Darslik.– Toshkent.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. – 533 b., 542 b.

8 Dedicated Public-Private Partnership Units: A Survey of Institutional and Governance Structures, OECD, 2010

9 Dmitrieva E. O., Guseva M. S. Centry razvitija gosudarstvenno-chastnogo partnerstva: analiz mezhdunarodnoj praktiki sozdanija i razvitija // Internet-zhurnal “NAUKOVEDENIE” Tom 8, №6 (2016) http://naukovedenie.ru/PDF/39EVN616.pdf

10 Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004.

icha, bu tizimni yaralishi uchun davlat infratuzilmasini rivojlantirishi siyosati va subyektning investitsiya siyosati o‘zaro uyg‘un bo‘lgan DXSh mexanizmi shakllanishi talab etiladi. Bu borada, Rossiya Federatsiyasida DXSh mexanizmini rivojlantirish markazi tomonidan Rossiya Federatsiyasida DXSh sohasidagi institutsional muhitni rivojlantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan [4]. Unga ko‘ra, davlatdagi 85ta subyektda DXSh mexanizmini davlat tomonidan tartibga solish tajribasining tahliliy natijasi e’lon qilingan. Bu tahliliy hujjat DXSh mexanizmida institutsional muhitni yetarlicha rivojlantirishda yeng samarali tajribalar qamrab olingan edi. Hujjatda yirik moliya institutlari: Gazprombank, Sberbank, YeBRR, hamda konsalting kompaniyalari: EY, Legal Capital Partners, KPMG, shuningdek, Strategik tashabbuslar agentligi vakillari qatnashgan. Bu bo‘yicha, Rossiya Federatsiyasining ta’sis subyektlarida DXSh mexanizmining davlat va munitsipal boshqaruv tizimini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilgan.

Davlat-xususiy sheriklikning birinchi ko‘rinishlari 17-asrda Fransiyada paydo bo‘la boshlagan va bu kelishuv orqali Briare va Lang-dok kanallari qurilishi rejalashtirilgan. O‘sha vaqtda, davlat-xususiy sheriklikning paydo bo‘lishi zarurati davlat byudjetining cheklanganligi bilan bog‘liq yedi.

Davlat-xususiy sheriklikning ikkinchi ko‘rinishi lizingdir va bunda xususiy sherikka obyektni qurish va uni to‘liq davlat moliyalashtirgan holda keyinchalik boshqarish funksiyalari yuklanadi. Bu holatda, qurilish va boshqaruv funksiyalarining bir vaqtning o‘zida o‘tkazilishi xarajatlarning kamayishi va shu bilan birga samarali taqsimlanishiga olib keladi, ekspluatatsiya davrida aniqlangan fors-major holatlari uchun jarimalar qo‘llanilish sabab ishlarning samarali bajarilish ehtimoli ham davlat-xususiy sheriklikda ancha yuqori bo‘ladi.

Davlat-xususiy sheriklikning uchinchi ko‘rinishi esa Jahon bankidir. Jahon banki davlat-xususiy sheriklikning quyidagi modellari mavjud:

1. Boshqaruv shartnomalari va ijara shartnomalari orqali orqali amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik modeli. Modelning mohiyati shundan iboratki, bunday holatda davlat va xususiy sheriklar ikkita shartnoma tuzadilar:ulardan biri bo‘yicha boshqaruv risklari davlat hamkori zimmasida, ikkinchisi bo‘yicha lizing tavakkalchiligi xususiy sherik zimmasida qoladi. Bunday holatda davlat obyektga egalik huquqini saqlab qoladi.
2. Konsessiya shartnomalari orqali amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik modeli. Ushbu modelning mohiyati shundan iboratki, bunday holatda davlat hamkori xususiy sherikka obyektdan ma’lum haq evaziga foydalanish huquqini beradi. Bunday holatda davlat obyektga egalik huquqini saqlab qoladi.
3. Yangi obyektni qurish loyihalari orqali amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik modeli. Bunday holatda xususiy sherik obyektni shartnoma muddati davomida quradi va shu bilan birga ishlatish huquqiga ham ega bo‘ladi. Bunday holatda obyektga egalik huquqi turli xil bo‘lishi mumkin.
4. Qisman xususiylashtirish modeli. Bunday holatda xususiy sherik obyektdagi aksiyalarni davlatdan sotib oladi hamda obyektni ishlatish va boshqarish bo‘yicha huquq va majburiyatlarga ega chiqadi. Bunday holatda ham obyektga egalik huquqi turli xil bo‘lishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik beshta modelga bo‘linadi. Loyiha amalga oshirilayotgan infrastruktura modellarning tanlashda asosiy faktor hisoblanadi[11] (1-jadval).

1-jadval: L. Sharinger bo‘yicha davlat-xususiy sheriklikning modellari[12]

Model	Xususiyati	Moliyalashtirish	Egalik huquqlari	Boshqaruv
Operator	Hamkorlar o‘rtasida mas’uliyatni aniq taqsimlash	Xususiy sektor	Gibrid	Xususiy sektor
Hamkorlik	Xizmatlarning noto‘g‘ri ta’rifi	Gibrid	Gibrid	Gibrid
Imtiyozlar	Uzoq muddatli loyihani amalga oshirish. Bunday holda, siyosiy yoki huquqiy sabablarga ko‘ra mulk huquqini o‘tkazish istisno qilinishi mumkin	Gibrid	Davlat	Gibrid
Kelishuv	Investitsiyalar operatsion xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan	Xususiy sektor	Gibrid	Xususiy sektor
Lizing	Jamoat binolarini qurish jarayonida	Gibrid	Xususiy sektor	Gibrid

Экономическая сущность и важность повышения эффективности производства каракулеводческой продукции являются ключевыми аспектами развития сельского хозяйства. Повышение эффективности производства каракулеводческой продукции имеет ряд преимуществ, включая увеличение объема производства, улучшение качества продукции, снижение затрат и повышение прибыльности. Для достижения этих целей необходимо применять меры, направленные на оптимизацию производственных процессов, внедрение современных технологий, улучшение генетического потенциала стада, обеспечение качественного кормления и ухода за животными, а также развитие рынков сбыта и продвижение овцеводческой продукции. Повышение эффективности производства овцеводческой продукции способствует развитию сельского хозяйства, улучшению жизни сельских жителей и обеспечению продовольственной безопасности страны.

Список литературы:

1. Петренко, И. Я. Экономика сельскохозяйственного производства / И. Я. Петренко, П. И. Чужинов. - Алма-Ата: Крайнар, 1992. - 560 с
2. Шафронов, А. Экономический рост как основа повышения эффективности производства / А. Шафронов // Экономист. - 1999. - № 4. -С. 81–85
3. Абдильдина Л. И., Бельгибаев К. М. Экономика сельского хозяйства.-Алматы: Кайнар, 1996.–574 с.
4. Петренко, И. Я. Экономика сельскохозяйственного производства / И. Я. Петренко, П. И. Чужинов. - Алма-Ата: Кайнар, 1992. - 560 с.
5. Фарманов, Т. Х. “Повышение эффективности каракулеводства южной зоны Узбекистана”. Диссертация на соискание ученой степени к.э.н., Т., 1989, 19 с
6. Попов, Н. А. Экономика сельского хозяйства: учебник / Н. А. Попов. - М.: Изд-во “Дело и сервис”, 2000. - 368 с
7. Нуриллаев, Ж. Я. Теоретико-методологические основы повышения эффективности каракулеводческих хозяйств Узбекистана/ “Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 2023-yil, may. № 5-son 161 с

O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI EMISSION OPERATSIYALARINING DOLZARB MASALALARI



O‘ktamova Nozima Narzulla qizi
PhD, TMI “Bank ishi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari emission operatsiyalarining ilmiy-nazariy jihatlari, emission operatsiyalarning zaruriyati va bugungi kundagi holati tadqiq etilgan. Shu bilan birga, amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida tijorat banklari emission operatsiyalarining xususiyatlari yuzasidan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, fond bozori, tijorat banklarining emission operatsiyalari, emission operatsiyalar samaradorligi.

Abstract: The scientific-theoretical aspects of emission operations of commercial banks, necessity of emission operations and their current status are studied in the article. At the same time, as a result of the conducted research, the following scientific conclusions were formed regarding the characteristics of the emission operations of commercial banks.

Key words: commercial banks, stock market, emission operations of commercial banks, efficiency of emission operations.

Аннотация: В статье исследованы научно-теоретические аспекты эмиссионных операций коммерческих банков, необходимость проведения эмиссионных операций и их современное состояние. При этом в результате проведенного исследования были сформированы следующие научные выводы относительно особенностей эмиссионных операций коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, фондовый рынок, миссионные операции коммерческих банков, эффективность эмиссионных операций.

KIRISH

Ayni paytda, turli xil makroiqtisodiy va moliyaviy muammolar ta’sirida jahondagi barcha davlatlar iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari chuqurlashmoqda. Jumladan, ishsizlar sonining o‘sishi, ishlab chiqarish va eksport hajmining pasayishi, to‘lov balansi, byudjet taqchilligi va tashqi qarzlarning o‘sishi, xalqaro fond bozorlaridagi tendensiyalar, o‘z navbatida, bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish hamda tijorat banklarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish zaruratini tug‘dirdi. Jumladan, Dow Jones indeksi 2008-yil sentyabridagi 11133,6 banddan 2009-yilning martida 35 foizgacha, ya’ni 7235,5 bandgacha pasaygan bo‘lsa, 2022-yilning 6-dekabrida 33947,10 bandgacha ko‘tarildi. Bu esa, inqirozdan oldingi ko‘rsatkichdan sezilarli darajada, ya’ni uch baravar yuqoridir[1].

Tijorat banklari asosiy moliyaviy vositachilar sifatida bugungi kunda dunyodagi barcha mamlakatlarda yuqori inovatsion va raqamli texnologiyalar asosida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Tijorat banklari o‘zlarining rivojlanishi jarayonida moliya bozorida, ssuda kapitallari bozorida, qimmatli qog‘ozlar bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining asosiy ishonchli moliyaviy hamkoriga aylanib ulgurdi.

O‘zbekistonda ham MDH davlatlari kabi kapital bozori rivojlanmaganligi va iqtisodiyotdagi ulushi pastligi, investitsiyalarni jalb etishda deyarli ahamiyatga ega emasligi aksiyadorlik jamiyatlari kapitali qiymatini baholashning zamonaviy usullaridan foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturida davlat va xo‘jalik birlashmalari ulushi mavjud bo‘lgan ayrim aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalar paketlarini birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklif asosida realizatsiya qilish vazifasi alohida belgilab berildi[2].

1 https://www.dowjones.com/

2 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–5635-son farmoni, 2019-yil 17-yanvar.

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Xalq banki”, “Qishloq qurilish bank” “Mikrokreditbank”, “Agro bank”, “O‘zmilliybank”ning aksiyalarini 2023-yilga qadar fond birjasi orqali ommaviy joylashtirish bo‘yicha “yo‘l xarita” ishlab chiqish belgilangan.

Davdat dasturida davlat ulushiga ega bo‘lgan banklar transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi “yo‘l xarita”da belgilangan[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyoti va bank tizimi faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyotida iqtisodiy va investitsion faollikni oshirishda, iqtisodiyotni, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda bank tizimining o‘rni beqiyosdir. Chunki, tijorat banklari moliyaviy vositachilar sifatida iqtisodiyotda vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jamlab, ularga muhtoj bo‘lgan tarmoqlarga, korxonalarga va aholi qatlami orasida taqsimlaydi. O‘z navbatida, tijorat banklari qimmatli qog‘olar emissiyasi hisobiga o‘z kapitallari miqdorini muntazam ravishda oshirib boradi va shu asosda banklarning moliyaviy imkoniyatlari kengayib, to‘lovga qobilligi va likvidliligi oshib boradi[4].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari emissiya faoliyati albatta milliy va xalqaro fond bozorlari, qimmatli qog‘ozlar bozorlari bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, eng avvalo, bozor iqtisodiyotining moliyaviy vositachilari bo‘lgan tijorat banklari, bank innovatsiyalari, emmission faoliyati va fond bozoridagi o‘rniga oid masalalar borasida iqtisodchi olimlar o‘z nazariy qarashlarini namoyon qilishgan. Jumladan, taniqli zamonaviy xorijlik iqtisodchi olim Piter S. Rouzning fikriga ko‘ra: “Bank – bu moliyaviy xizmatlarni taqdim qiladigan, jamiyatning pul mablag‘larini professional boshqarib turadigan, shuningdek iqtisodiyotda ko‘pgina funksiyalarni bajarib turadigan firmadir”[5].

Darhaqiqat, tijorat banklari har qanday mamlakatda moliyaviy vositachi sifatida turli bank xizmatlarini ko‘ratadi. Chunki ular o‘z va jalb qilingan mablag‘lari hisobiga pul mablag‘larini muhtoj bo‘lgan mijozlarga risk asosida kredit shaklida beradi va foyda oladi. Shu bois Piter S. Rouz banklarni ko‘pgina funksiyalarni bajaradigan firma sifatida asosli ravishda e’tirof etgan.

Taniqli xorijlik iqtisodchi olimlardan biri O. I. Lavrushin xususan: bank innovatsiyalari “– bu yangi texnologiyalar sohasida bank maqsadlari va bank faoliyati natijasiga oid sintetik tushunchasi bo‘lib, mijozlardan qulay shartlarda bank resurslarini shakllantirish va joylashtirish aosida qo‘shimcha daromad olishga yo‘naltirilgan yangiliklar asosida foyda olishdir”, deb ta’kidlaydi[6]. Prof. O. I. Lavrushin bank innovatsiyalarini foyda olish bilan bog‘laydi. Chunki, bizning nazarimizda har qanday yangilik ham innovatsiya bo‘lavermaydi. Innovatsiya bo‘lishini uchun yaratilgan har qanday mahsulot yoki ko‘rsatilayotgan xizmat pirovard natijada foyda olib kelishi kerak. Ana shundagina bu yangilikni innovatsiya, deb aytish mumkin.

Shu bilan birga mahalliy olimlarimiz qimmatli qog‘ozlar bozori va tijorat banklarining turli faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, prof. Sh. Shoxa’zamiy “Qimmatli qog‘ozlar bozori strategik rivojlanishining metodik asoslari” mavzusida, professor A. Omonov “Bank resurslarining tarkibi moliyaviy resurslarini shakllantirish va boshqarish”, dotsent F. Muxamedov “Qimmatli qog‘ozlar savdo tizimlari”, dotsent U. Ortiqov, “Bank resurslari va ularni boshqarish”, PhD I. Jo‘rayev “Bank depozit bazasini mustahkamlash”, PhD X. Tillayev “Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati” mavzulari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xalqaro amaliyotiga muvofiq iqtisodiy adabiyotlar tadqiqidan xulosa qilish mumkinki, emissiya operatsiyalari – bu tijorat banki tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish opreratsiyalaridir. Jumladan, tijorat banklarining obligatsiyalari – obligatsiyani chiqargan bank va (kreditor) obligatsiya egasi o‘rtasida qarz munosabatlarini tasdiqlovchi bu istalgan qimmatli qog‘oz. Bizning nazarimizda, tijorat banklarining emision operatsiyalari deyilganda, bank tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish operatsiyalari tushuniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy tahlil, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslama tahlili, ma’lumotlarni guruhlash, ularni bir-biri bilan solishtirish yo‘li bilan statistik qayta ishlash usuli, miqdor va sifat ko‘rsatkichlar hisoblash kabi uslublardan foydalanildi.

3 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.

4 https://lex.uz/uz/docs/–5841063

5 Питер С. Роуз, “Банковский менеджмент”, М. 2007.

6 О. И. Лаврушин, Н. И. Валенцева [и др.]; Банковское дело: под ред. О. И. Лаврушина. – 12-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2016. – 752 с.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari emission operatsiyalari bir qator maqsadlarni o‘zi ichiga qamrab oladi. Bizning nazarimizda, ular quyidagilardan iborat. Ular bank aktivlariga joylashtirilgan qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish, qarz kapitali tarkibini oqilonalashtirish manbaalari sifatida harakatda bo‘ladi. Kredit tashkiloti tashkiliy-huquqiy maqomini aksiyadorlik shakli sifatida rasmiylashtiradi. Uchinchidan, ular bank boshqaruvida ishtirok etishni ta’minlaydigan aksiyalarga egalik qilish orqali nazorat tizimini shakllantiradi va muomaladagi fond vositalari orqali bank mijozlariga qo‘shimcha bank xizmatlarini ko‘rsatishni ta’minlaydi[7].

Ta’kidlash joizki, kredit tashkilotlari – emitentlar oddiy va imtiyozli bo‘lishi mumkin bo‘lgan faqat ro‘yxatdan o‘tgan aksiyalarni chiqarishga haqlidirlar. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning umumiy qiymati kredit tashkilotining ro‘yxatdan o‘tgan kunidan boshlab ustav kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

O‘zbekistonda ham MDHning ayrim davlatlaridagi kabi tijorat banklarining fond bozoridagi salmog‘i va banklarning qimmatli qog‘ozlari emissiya operatsiyalari nihoyatda kiichik. Biroq, tijorat banklarining likvidliligini oshirish, ularning xavfsizligini ta’minlash, bank xizmatlari ko‘lami va raqobatbardoshligini oshirish, banklarning moliyaviy barqarorligi va ishonchililigi bilan bog‘liq bir qator masalalar hozirgi kunda ham o‘z dolzarbliginii saqlab qolgan. Xususan, “bank xizmatlari iste’molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko‘rsatish madaniyati va bank tizimiga bo‘lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar”[8] bu borada ko‘plab masalalar o‘zining dolzarbligini saqlab qolayotganligidan dalolat beradi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda, tijorat banklari kapitali tarkibida davlat ulushining yuqoriligi (86,5%), jalb qilingan mablag‘lar tarkibida depozit mablag‘lar ulushining pastligi (37,4%), bank resurslari tarkibida qimmat mablag‘lar ulushining yuqoriligi (50,2%) kabi holatlar ularning xizmatlari raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozir mamlakatimizda 603 ta aksiyadorlik jamiyati mavjud. Ularning jami kapitali qiymati 59,43 trln. so‘mga teng 6,29 mlrd. dona aksiyadan iborat. 2017-yilga nisbatan solishtirsak, yurtimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini emissiya qilishning umumiy hajmi 10,84 trln. so‘mga ortgan. 2018-yil davomida esa, umumiy miqdori 198,6 mlrd. so‘mlik obligatsiyalar 9 ta aksiyadorlik jamiyati tomonidan kapital bozoriga muomalaga chiqarilgan[9].

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda fond bozoring YaIMdagi salmog‘i atigi 6 foizga yaqin bo‘lib, u taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko‘rsatkichdan sezilarli darajada pastdir. Bu esa, mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar va fond bozorining rivojlanmaganligidan hamda ushbu bozorlarda tijorat banklari ishtirokining nihoyatda sustligidan dalolat beradi. Shu sababli, mazkur masalada mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, tijorat banklari emission opreatsiyalarining hajmi va samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

2021–2023-yillarda aksiyalari fond birjasi orqali ommaviy joylashtirilishi belgilangan korxonalar ichida 5ta yirik tijorat banklari xususiylashtirilishi belgilangan[10].

Xalqaro moliya institutlari ko‘magida “Ipoteka-bank” ATIB, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Asaka” ATB, AT “Aloqabank”, “Qishloq qurilish bank” ATB va “Turonbank” ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish belgilangan[11].

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining Respublika fond birjasiga joylashtirilgan aksiyalari[12]

№	Emitent	Nominal qiymati	Ro‘yxatdagi aksiyalar soni
1	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	19	243 551 784 442
2	“Agrobank” ATB	1 168	7 323 094 968
3	“Hamkorbank” ATB	5	20 881 541 000
4	AITB “Ipak Yo‘li”	10	60 239 945 264

7 N. N. O‘ktamova “Tijorat banklari emission operatsiyalari samaradorligini oshirishning nazariy masalalari”. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №4, avgust, 2021 yil. ISSN: 2181–1016.

8 PQ–3620-son 23.03.2018. Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.https://lex.uz/docs/3593541 (accessed Jan. 04, 2021).

9 “(No Title).” https://cbu.uz/upload/medialibrary/631/Markaziy-bankning-Statistik-byulleteni-_–2020-yil–9-oylik.pdf (accessed Jan. 04, 2021).

10 PF–5992-son 12.05.2020. 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida (lex.uz)

11 PF–5992-son 12.05.2020. 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida (lex.uz)

12 Ma’lumotlar “Toshkent” Respublika fond birjasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirildi. https://uzse.uz/isu_infos-?page=3

5	AT “Aloqabank”	121	11 147 957 333
6	“Turonbank” ATB	1 700	868 057 456
7	“Trastbank” XAB	1 000	560 227 000
8	ATB “Universal bank”	5 000	30 000 000
9	“Mikrokreditbank” ATB	1 068	3 321 338 165
10	“Ravnaq-bank” AJ	1 000	100 000 000
11	“GARANT BANK” AJ	100	2 297 000 000
12	“Orient Finans” XATB	1 250	884 246 231

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlilarimizdan kelib chiqqan holda tijorat banklari emission operatsiyalarining xususiyatlari yuzasidan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirdik.

1. Bugungi kunda duyoning barcha mamlakatlarida tijorat banklari asosiy moliyaviy vositachilar sifatida yuqori inovatsion va raqamli texnologiyalar asosida faoliyat ko‘rsatmoqda. Tijorat banklari o‘zlarining rivojlanishi jarayonida moliya bozorida, ssuda kapitallari bozorida, qimmatli qog‘ozlar bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining aosiy moliyaviy hamkoriga aylanib ulgurdi.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari emissiya faoliyati albatta milliy va xalqaro fond bozorlari, qimmatli qog‘ozlar bozorlari bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, bank innovatsiyalari, banklarning emmission faoliyati, banklarning fond bozoridagi o‘rniga oid masalalar borasida iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.
3. Xalqaro amaliyotiga muvofiq iqtisodiy adabiyotlar tadqiqidan xulosa qilish mumkinki, emissiya operatsiyalari – bu tijorat banki tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish opreratsiyalaridir. Bizning nazarimizda, tijorat banklarining emision operatsiyalari – bank tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish operatsiyalaridir.
4. Ta’kidlash joizki, xalqaro amaliyotda “fond bozori”ga nisbatan berilgan ilmiy ta’riflar borasida turlicha talqinlar mavjud bo‘lib, ular bir-biridan farqlanadi va yagona yondashuvni tashkil etmaydi. Masalaning yana muhim va qiziqarli jihati shundaki, zamonaviy iqtisodiy adabiyotda “qimmatli qog‘ozlar bozori” va “fond bozori” tushunchalarining bir xil ahamiyatga ega ekanligi xususida iqtisodchi olimlar o‘rtasida hanuzgacha bahsli munozaralar davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–5635-son farmoni, 2019-yil 17-yanvar.
2. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvar. https://lex.uz/uz/docs/–5841063
3. PQ–3620-son 23.03.2018. Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/3593541 (accessed Jan. 04, 2021).
4. PF–5992-son 12.05.2020. 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida (lex.uz)
5. О. И. Лаврушин, Н. И. Валенцева [и др.]; Банковское дело: под ред. О. И. Лаврушина. – 12-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2016. – 752 с.
6. Питер С. Роуз, “Банковский менеджмент”, М. 2007.
7. N. N. O‘ktamova “Tijorat banklari emission operatsiyalari samaradorligini oshirishning nazariy masalalari”. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №4, avgust, 2021-yil. ISSN: 2181–1016.
8. Uzse.uz
9. Cbu.uz



ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЯ КАК СПОСОБ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ

Хамдамова Гавхар Абсаматовна
Ташкентский финансовый институт к.э.н.,профессор

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос применения инновационных методов с целью снижения потребления энергии как способ повышения конкурентоспособности предприятий, где в условиях увеличивающегося потребления энергоресурсов важно поддерживать равновесие между исчерпанием запасов топлива и повышением эффективности производства, а также, вопросы экологической и энергетической безопасности, которые придают приоритет значению повышения энергоэффективности для достижения положительных результатов в снижении энергопотребления в стране, где необходимо исследовать передовые зарубежные практики, разрабатывать и внедрять современные технологии.

Ключевые слова: энергоресурсы, инновации, энергосбережение, энергоэффективность, предприятие, конкурентоспособность, энергетическая безопасность.

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish usuli sifatida energiya sarfini kamaytirishning innovatsion usullaridan foydalanish muhokama qilinib, unda energiya sarfini ko‘paytirish sharoitida yoqilg‘i zaxiralarining kamayishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhimligi hamda shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy yetish zarur bo‘lgan mamlakatda yenergiya sarfini kamaytirishda ijobiy natijalarga erishish uchun yenergiya samaradorligini oshirish muhimligiga ustuvor ahamiyat beradigan yekologik va yenergiya xavfsizligi masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: energiya resurslari, innovatsiyalar, energiya tejash, energiya samaradorligi, korxona, raqobatbardoshlik, energiya xavfsizligi.

Abstract: This article discusses the use of innovative methods to reduce energy consumption as a way to increase the competitiveness of enterprises, where, in conditions of increasing energy consumption, it is important to maintain a balance between depletion of fuel reserves and increased production efficiency, as well as environmental and energy security issues that give priority to improving energy efficiency to achieve positive results in reducing energy consumption in a country where it is necessary to study advanced foreign practices, develop and implement modern technologies.

Key words: energy resources, innovations, energy conservation, energy efficiency, enterprise, competitiveness, energy security.

ВВЕДЕНИЕ

Сбережение энергоресурсов и повышение эффективности их использования являются ключевыми задачами современной экономики Узбекистана. Во многом от того насколько полно и всесторонне решаются эти проблемы зависит благосостояние государства, экономическая стабильность и уровень жизни населения. Рациональное использование энергоресурсов формирует благоприятный климат для постоянного развития и экономического роста республики. В условиях растущего потребления энергетических ресурсов необходимо сохранять баланс между истощением запасов топлива и увеличением расхода энергии для повышения эффективности производства. Кроме того, энергоэффективность затрагивает вопросы экологической и энергетической безопасности, что делает повышение энергоэффективности приоритетной задачей. Для достижения положительных результатов в области снижения энергоёмкости производства в республике необходимо изучать лучшие зарубежные практики, развивать и внедрять современные технологии, реализовывать и поддерживать на государственном уровне проекты, направленные на повышение энергоэффективности.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Большой вклад в разработку общетеоретических вопросов развития предприятий электроэнергетики внесли такие ученые, как А. Г. Аганбегян, А. Л. Вершинин, М. Г. Делягин, В. В. Ивантер, Н. П. Лаверов, Д. С. Львов, А. А. Макаров, В. Е. Фортов и др. Модернизационные аспекты энергосбережения и повышения энергоэффективности в экономике рассмотрены в трудах Л. Ю. Богачковой, А. И. Громова, И. С. Кожуховского, Т. А. Митровой, Д. Б. Понаровкина, В. В. Труфанова. Комплексные проблемы формирования и реализации государственной энергетической политики рассмотрены в работах таких узбекских ученых, как Н. М. Махмудов, М. А. Икрамов, А. М. Кадыров, Г. А. Саматов, Г. Ж. Аллаева, М. Саиткомолов.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологическую основу исследования составили труды отечественных и зарубежных учёных по проблемам инновационных методов энергосбережения и повышения конкурентоспособности предприятия, законодательные акты и иные нормативно-правовые документы, а также материалы научно-практических конференций, посвящённых указанным вопросам. Методология исследования базировалась на принципах системного подхода. При решении поставленных задач применялись методы логического, сравнительного и статистического анализа.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Экономика Узбекистана характеризуется многоукладностью. Ускоренный переход к рынку усугубил технологическое отставание Узбекистана от стран Запада. Пережитки директивно управляемой экономики отрицательно влияют на развитие технологических укладов. В настоящее время, в связи с технологическим отставанием, Узбекистан применяет в производстве сразу несколько типов технологических систем, начиная от примитивно орудийного до современных наукоемких. Это предопределяет разнородность организации производства, используемых форм мышления и общественных норм поведения. Опыт хозяйственных преобразований в стране свидетельствует о том, что многоукладность экономики невозможно устранить до тех пор, пока сохраняются производственно-технические и социально-экономические основы укладов, а товарное производство и рыночные отношения невозможно упразднить насильственным путем.

Безусловно, имеющая место ориентация на повторение зарубежных технологий позволит сократить технологическое отставание страны, но не более того, ибо в этом случае стране уготована постоянная роль догоняющих, то есть отсталых, недоразвитых. Задача же состоит в том, чтобы и опережать. В условиях успехов страны на сырьевых рынках как-то отодвинулись на второй план развитие науки, изобретательства и рационализаторства, инновационного предпринимательства и других направлений активизации творческого потенциала народа. За что страна и поплатилась нарастающей неконкурентоспособностью экономики.

В законе Республики Узбекистан “О внесении изменений и дополнений в закон Республики Узбекистан “о рациональном использовании энергии” от 14.07.2020 г. № ЗРУ–628 дано определение термину “энергосбережение” - реализация правовых, организационных, экономических, технологических, технических и иных мер, направленных на снижение объема используемых энергоресурсов при сохранении соответствующего полезного эффекта от их использования, в том числе объема выполненных работ, произведенной продукции или оказанных услуг [1].

Правительством страны было принято Стратегия по переходу Республики Узбекистан на “зелёную” экономику на период 2019–2030 годов и Концепция обеспечения Республики Узбекистан электрической энергией на 2020–2030 годы.

Главной целью Стратегии является достижение долгосрочного устойчивого экономического развития и выполнения цели Узбекистана по взятым на себя обязательствам в рамках Парижского соглашения, которое было ратифицировано Узбекистаном в 2018 г. Основной целью Концепции является удовлетворение растущей потребности в электроэнергии (дефицит которой оценивался на уровне 9,4 % в 2012–2019 гг., а ежегодный рост потребления до 2030 г. – на уровне 6–7 %) и обеспечение дальнейшего сбалансированного развития электроэнергетической отрасли [2].

Существуют четыре ключевые национальные программы и дорожные карты в области энергоэффективности, имеющие отношение к промышленному сектору. Правительство признает важность этого сектора и стремится диверсифицировать экономику за счёт увеличения производства продукции с более высокой добавленной стоимостью.

Таблица 1: Дорожная карта инвестиций до 2050 г. [3]

Период, гг.	Этапы	Установленная мощность в конце периода, ГВт	Объем необходимых инвестиций, млрд долл. США	Необходимые инвестиции в % к ВВП
2020–2030	Модернизация существующих газовых электростанций	18 – ГТУ 8 - ВИЭ	397	4,8
2030–2040	Увеличение производственных мощностей ВИЭ	12 – ГТУ 47 - ВИЭ	23	1,8
2040–2050	Чистые нулевые выбросы углекислого газа	97 – ВИЭ 39 – аккум. мощностей	34	1,9

По состоянию на 1 января 2021 г. общая установленная мощность электростанций в Узбекистане составляла около 15,8 ГВт. В декабре 2021 г. на разных стадиях реализации находилось 20 новых энергетических проектов общей мощностью 7,0 ГВт (включая 2,9 ГВт ветровой и солнечной энергии), а планируемые инвестиции составили 5,9 млрд долл. США. В течение 2010–2019 гг. установленная мощность тепловых электростанций увеличилась на 3,3 ГВт, или на 30,4%, а гидроэлектростанций – на 0,1 ГВт, или на 6,4 %. По состоянию на январь 2021 г. средний возраст ТЭС составлял 42 года, ТЭЦ – 63 года и крупных ГЭС – 46 лет [7].

Согласно оценке, проведённой в рамках проекта ПРООН и Министерства экономики “Поддержка Узбекистана в переходе на путь низкоуглеродного развития национальной экономики”, потенциальная экономия в секторе электроэнергетики составит 8,3 млн т н. э., или 11 млрд м³ природного газа в год. В исследовании подчёркивается, что только ввод в эксплуатацию высокоэффективных ПГТ может снизить удельное потребление энергии с 0,275 до 0,175 т н. э./МВт/ч. Дополнительная экономия в размере 2,63 млн т н. э., или 3,23 млрд м³ природного газа, в год может быть достигнута за счёт строительства установок когенерации на энергоёмких промышленных предприятиях [7].

В исследовании ЦАРЭС по “дорожной карте” финансирования энергетического сектора, потенциальная экономия энергии в электроэнергетическом секторе к 2030 г. оценивается в 6,85 млн т н. э. При расчёте учитывается повышение средней эффективности газовых теплоэлектростанций, которая составляла около 33 % в 2013 г., и снижение технических и коммерческих потерь, на долю которых приходилось 23 % от чистого поступления в сеть в том же году. В исследовании также предполагается, что общая экономия энергии в ближайшие 15 лет может достичь 25 %, хотя в анализе не был указан точный базовый уровень для такого прогноза [8].

Согласно оценке, проведённой в рамках проекта ПРООН и Министерства экономики “Поддержка Узбекистана в переходе на путь низкоуглеродного развития национальной экономики”, потенциальная экономия в секторе электроэнергетики составит 8,3 млн т н. э., или 11 млрд м³ природного газа в год. В исследовании подчёркивается, что только ввод в эксплуатацию высокоэффективных ПГТ может снизить удельное потребление энергии с 0,275 до 0,175 т н. э./МВт·ч. Дополнительная экономия в размере 2,63 млн т н. э., или 3,23 млрд м³ природного газа, в год может быть достигнута за счёт строительства установок когенерации на энергоёмких промышленных предприятиях [7].

В исследовании ЦАРЭС по “дорожной карте” финансирования энергетического сектора, потенциальная экономия энергии в электроэнергетическом секторе к 2030 г. оценивается в 6,85 млн т н. э. При расчёте учитывается повышение средней эффективности газовых теплоэлектростанций, которая составляла около 33 % в 2013 г., и снижение технических и коммерческих потерь, на долю которых приходилось 23 % от чистого поступления в сеть в том же году. В исследовании также предполагается, что общая экономия энергии в ближайшие 15 лет может достичь 25 %, хотя в анализе не был указан точный базовый уровень для такого прогноза [7].

Финансируемый АБР отчёт об оценке энергетического сектора, подготовленный в 2020 г., является самым свежим общедоступным исследованием. Согласно содержащейся в нем оценке, потенциальная экономия в энергетическом секторе составляет 10 % от объёма добычи природного газа. Переводя эти цифры в абсолютные значения на основе энергетического баланса 2019 г., потенциальную экономию можно оценить в 6,1 млрд м³ природного газа, или 4,86 млн т н. э., в год. В отчёте также подтверждается, что средневзвешенная эффективность электростанций в 2019 г. осталась на уровне около 33 %, что значительно ниже эффективности современных газовых турбин с комбинированным циклом, которая составляет 55–60 % [7].

В Постановлении Президента № ПП–4779 от 10.07.2020 предусматривается планируемая экономия ТЭР в размере 1,859 млн т н. э., что де-факто является обязательным целевым показателем энергоэф-

фективности, который должен быть достигнут в подсекторе производства электроэнергии к 1 января 2023 г. В соответствии с утверждёнными целевыми параметрами экономии ТЭР, соответствующими министерствами и ведомствами в разрезе предприятий были разработаны и утверждены организационно-технические мероприятия по экономии ТЭР на 2020–2022 гг. с обосновывающими расчётами экономии по каждому мероприятию.

Когенерационные установки комбинированного цикла могут достигать уровня энергоэффективности около 90 % и представляют собой один из наиболее эффективных и экологически чистых способов одновременного производства электрической и тепловой энергии. Директива ЕС по энергоэффективности предусматривает проведение анализа затрат и выгод от использования когенерации при планировании строительства или капитальной реконструкции таких установок, как:

- тепловая или электрическая установка с общей тепловой мощностью более 20 МВт;
- промышленная установка, генерирующая отходящее тепло с суммарной тепловой мощностью более 20 МВт;
- сеть централизованного теплоснабжения и охлаждения, общая тепловая мощность которой составляет более 20 МВт.

По состоянию на июнь 2021 г. в Узбекистане нет никаких стимулов или обязательств в отношении использования высокоэффективной когенерации.

В Концепции обеспечения Республики Узбекистан электрической энергией на 2020–2030 годы, утверждённой приказом МЭ № 70 от 28.04.2020, предусматриваются конкретные цели, связанные с потерями электроэнергии, то есть снижение уровня потерь к 2030 г. в магистральных сетях с 2,72 до 2,35 %, а в распределительных сетях – с 12,47 до 6,7 %. В то же время в законодательной базе Узбекистана нет никаких целевых показателей потерь природного газа, относящихся к операторам системы передачи (TSO) и распределения (DSO) газа [3].

С учетом этих обстоятельств, вхождение страны в новый технологический уклад – вопрос выживания, развития экономики, обеспечения безопасности и международного статуса страны.

Энергосбережение является одной из основных форм экономии ресурсов, что, в свою очередь, служит важнейшим резервом повышения конкурентоспособности отечественной промышленности на мировом рынке. Энергосбережение представляет собой систему экономических отношений по поводу обеспечения более эффективного использования ТЭР.

В отечественной экономике конкурентный потенциал энергосбережения в значительной степени остается неиспользованным. Экономические препятствия его активизации имеют двоякую основу и связаны с проблемами развития как сферы энергетики, так и инновационной сферы национального воспроизводства. В частности, развитие отечественной энергетики происходит в условиях трансформации конъюнктуры мировых энергетических рынков, волатильных цен на нефть и газ, продукты их переработки. А это существенно снижает, прежде всего, конкурентоспособность отечественных производителей энергоносителей, что усугубляется неблагоприятным соотношением себестоимости и налоговых нагрузок отечественных производителей энергоресурсов. Кроме того, высокая себестоимость производства энергоносителей в экономике передается по цепочке производства сырья и благ конечным потребителям энергии и энергоносителей. Сверхмонополизированная отрасль в условиях значительного роста себестоимости добычи и производства ТЭР, ужесточения экологических требований, преследуя цель максимизации прибыли, наращивает инвестиции в производство энергии и энергоносителей. В этот процесс не “вписывается” финансирование инновационных разработок в области энергосбережения, инициированное как производителями, так и потребителями энергии и энергоносителей.

Таким образом, наличие ряда существенных проблем в развитии инновационного энергосбережения в экономике, в использовании его потенциала в повышении конкурентоспособности ее субъектов заставляет признать ведущую роль инноваций в этом процессе. Немаловажное место здесь отводится анализу региональных проблем и возможностей активизации инновационно-энергосберегающего фактора повышения конкурентного преимущества предприятий.

Проблемы, препятствующие активизации инновационной деятельности в отечественной сфере энергосбережения:

- несформированность научно-технической, информационной, финансовой инфраструктуры инновационных проектов энергосбережения для бизнеса;
- недостаток инвестиций в новые энергосберегающие технологии, доминирование среди источников финансирования отраслевых НИОКР бюджетного финансирования министерств и оборотных средств энергопроизводителей и потребителей;
- отсутствие общей системы учета расхода энергоносителей и мониторинга экономии энергоресурсов, что приводит к слабости стимулов к снижению энергозатрат и заниженному спросу на инновационные энергосберегающие технологии и оборудование.

В то же время в мировой энергетической системе происходят значительные производственно-технологические и экономические изменения, которые связаны с повышением значения энергосбережения в производстве и потреблении энергии.

Во-первых, мировая экономика вступила в долгосрочный период истощения запасов ископаемого топлива, и колебания цен на энергоносители могут принять катастрофический характер. Поэтому энергосбережение выходит на роль основного фактора национальной конкурентоспособности.

Во-вторых, колебания цен на энергоносители становятся основным источником промышленных рисков для крупных национальных предприятий, что особенно характерно для экономики, реальный сектор которой по большей части представлен сырьевыми компаниями.

В-третьих, необходимость снижения энергозатрат в отечественной промышленности для повышения конкурентоспособности ее продукции требует практически полного обновления ее основных фондов.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Для преодоления препятствий развитию энергосбережения в отечественной экономике представляется целесообразной реализация следующих направлений инновационной деятельности.

Первым направлением является совершенствование нормативно-правовых основ энергосбережения, в особенности в сфере НИОКР и инновационной деятельности, выработка стратегических документов в данной сфере, учитывающих необходимость технологического обновления производства и потребления энергии.

Второе направление – развитие научно-исследовательских работ в сфере замены оборудования и модернизация технологических процессов промышленных предприятий на основе повышения энергоэффективности, снижения потребности в топливе и энергии. Для этого важно обеспечить диверсификацию источников топлива и энергии, переход на местные источники топлива и утилизацию вторичных энергетических ресурсов (ВЭР).

Возможности решения данной проблемы - в инновационной деятельности, особенно в базовых отраслях отечественной экономики.

Третье направление – развитие техно парковой формы активизации инновационной деятельности в сфере энергосбережения предприятий отечественной промышленности. Ее реализация призвана содействовать максимизации потенциала инновационного энергосбережения в повышении конкурентоспособности отечественных промышленных предприятий.

Таким образом, повышение энергоэффективности и энергосбережения является комплексной проблемой, так как энергопотребление затрагивает все сферы экономики и жизни общества. Опыт европейских стран по повышению энергоэффективности показывает, что важнейшей движущейся силой в развитии этого вопроса является вовлечение в него всех экономических субъектов и практически всего населения.

Для решения указанной проблемы необходимо проведение эффективной энергетической политики в стране с участием государства, бизнеса и населения. При этом потребуется системный подход из экономических, научно-технических и организационных мер.

Список использованной литературы:

1. Законе Республики Узбекистан “О внесении изменений и дополнений в закон Республики Узбекистан “о рациональном использовании энергии” от 14.07.2020 г. № ЗРУ–628.
2. Концепция обеспечения Республики Узбекистан электрической энергией на 2020–2030 годы.
3. Секретариат Энергетической хартии (2021 г.) на основе “Дорожной карты” перехода к низко углеродной энергетике для сектора электроэнергетики Узбекистана (2020 г.)
4. Гущина, Е. Г. Мотивация энергосбережения: проблемы формирования и опыт внедрения через образование / Е. Г. Гущина, Н. Ю. Бадрак // Современные проблемы науки и образования. 2012. № 5. С. 233–239.
5. Технологические уклады в инновационной экономике / Воронцова О. В., Седых Ю. А. // Экономика и предпринимательство. 2016. № 11–3 (76–3). С. 309- 311.
6. Gavkhar Khamdamova. World experience in implementing the energy efficiency improvement methodology. Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 4, August 2023. ISSN: 2181–1016.
7. Программа Центрально-Азиатского Регионального Экономического Сотрудничества
8. https://minenergy.uz/ru



HUDUDIY SUG‘ORILADIGAN YERLARIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI

Shoxujayeva Zebo Safoyevna
I. f.n., professor, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi katta ilmiy xodimi,

Annotatsiya: Ma’lumki, bugungi kunda suv xo‘jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard samaradorligini baholash, eng avvalo suv xo‘jaligi tizimining tarkibiy tuzilmalari faoliyatini chuqur o‘rganish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda innovatsion asosda rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yerlarida suv resurslaridan foydalanishning hozirgi holati o‘rganilgan va tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: suv xo‘jaligi, sug‘oriladigan maydon, yer va suv resurslari, sug‘oriladigan yerlar, raqamli texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi, egatga plyonka tushab sug‘orish, ko‘chma egiluvchan quvurlar yordamida sug‘orish, tuproqning sho‘rlanishi darajasi.

Abstract: It is known that assessing the final effectiveness of economic reforms carried out in the water sector today, first of all, consists of an in-depth study of the activities of the structural structures of the water system, taking into account their specific features. theoretical development of the innovation framework and this gives rise to the need to study its practical aspects. This article studies and analyzes the current state of water resource use on irrigated agricultural lands in the Kashkadarya region, and develops proposals and recommendations.

Key words: water management, irrigated area, land and water resources, irrigated land, digital technologies, drip irrigation technology, drip irrigation, portable irrigation with flexible pipes, soil salinity level.

Аннотация: Известно, что оценка конечной эффективности экономических реформ, проводимых в водном хозяйстве сегодня, прежде всего, заключается в глубоком изучении деятельности структурных структур водной системы с учетом их специфических особенностей. теоретическая разработка инновационной основы и это порождает необходимость исследования ее практических аспектов. В данной статье изучено и проанализировано современное состояние использования водных ресурсов на орошаемых сельскохозяйственных землях Кашкадарьинской области, разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: водное хозяйство, орошаемая площадь, земельные и водные ресурсы, орошаемые земли, цифровые технологии, технология капельного орошения, капельное орошение, переносное орошение гибкими трубами, уровень засоления почвы.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyoti, shu jumladan, uning muhim tarmog‘i bo‘lgan suv xo‘jaligi rivojlanishining bozor munosabatlariga o‘tish davrida innovatsion salohiyatdan foydalanish masalasi yangicha ko‘rinish olmoqda. Ya’ni iqtisodiyotning biz uchun yangi bo‘lgan sektori vujudga kelib, unda mahsulot sifatida mutaxassis olimlarning ilmiy-innovatsion faoliyati natijalari, ya’ni intellektual mulkka bo‘lgan huquqlari namoyon bo‘lmoqda va inson intellektual mehnati mahsuli bo‘lgan innovatsion faoliyati natijasidan daromad olishi imkoniyatlari ochilmoqda.

Suv xo‘jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard samaradorligini baholash jarayonida, eng avvalo suv xo‘jaligi tizimining tarkibiy tuzilmalari faoliyatini chuqur o‘rganish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda innovatsion asosda rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Suv xo‘jaligi tizimini modernizatsiyalash va innovatsion asosda rivojlantirish tarmoqga investitsiyalarni jalb etish, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishda, eng avvalo suv xo‘jaligi tizimining shakllanishi va o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini hamda rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish talab qilinadi.

METODLAR

Mavzuni yoritishda taqqoslama tahlil, mantiqiy fikrlash hamda sug‘orishning suvtejamkor texnologiyalardan foydalanishning 2025-yilgacha bo‘lgan dasturiy prognozi ishlab chiqilgan.

NATIJALAR


Hozirgi vaqtda yopiq sug‘orish tizimlari qurilishning sug‘orishdagi texnik taraqqiyoti bilan bog‘liq yangi bosqichi boshlandi. Yangi sug‘orish tizimlarini qurishda va eskilarini rekonstruktsiya qilishda kanallarni shimilishga qarshi qoplama bilan qoplash, tizimlarining tartibga solib turuvchi inshootlar bilan ta’minlanganligini oshirish, sug‘orishni mexanizatsiyalashgan va boshqarishni avtomatlashtirgan holda suvni dalaga yopiq quvur shahobchasi orqali berish singari ilg‘or texnika yechimlarini keng qo‘llash zamon talabidir.

Qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning ko‘lamini tahlil qilar ekanmiz, albatta bunda suv resurslarining keyingi yillarda katta muammo bo‘layotgan taqchilligini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Chunki respublikamizning sug‘oriladigan maydoni bugungi kunda 4,3 mln. gektardan oshganligini, aholi sonining ham 35 mln. kishidan oshganligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkichlar 1990 yillarga nisbatan 4,5 barobarga oshganligini va aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarga bo‘lgan talabi ham yil sayin oshib borayotganligini ko‘rish mumkin. Boshqa davlatlar, masalan, Rossiya hududida keyingi 100 yil ichida aholi soni atigi 2 marotabaga oshganda, bu ko‘rsatkich Orol havzasi hududidagi davlatlarda 13 martaga ko‘paygan. Demak qishloq xo‘jaligida 1 gektar maydonga sarflanayotgan suv miqdoridan samarali, oqilona foydalanish evaziga ko‘proq mahsulot yetishtirish, daromad va foyda olish bugungi kunning talabidir.

1-jadval: Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi[1]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2021-yilda 2018-yilga nisb. o‘zg. % da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jalik yalpi mahsuloti amaldagi bahoda	mlrd. so‘m	17685,8	20415,1	24510,3	29352,8	166,0
Shundan:						
Dehqonchilik mahsulotlari	mlrd. so‘m	6956,4	7978,9	9236,3	11117,7	160,0
Chorvachilik mahsulotlari	mlrd. so‘m	10250,1	11955,0	14541,5	17224,9	168,0
O‘tgan yilga nisbatan (solishtirma bahoda)	%	96,6	101,2	104,0	102,2	1,05 punktga oshgan

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, aholi soni va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sishi, ularning suvga bo‘lgan talabini yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda. Bu esa, bizni yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha ustuvor islohotlarni amalga oshirishimizda muhim omil sanaladi.



1-rasm: Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyot sohalari bo‘yicha suvning ishlatilishi[2]

1 Manba: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tahlil qilingan.
2 Manba: Amu-Qashqadaryo ITHB ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Qashqadaryo viloyatida foydalanilgan o‘rtacha yillik suv miqdori 5 mlrd 430 mln metr kub bo‘lib, shundan:

- Amudaryo havzasidan 68 foiz, 3 mlrd 700 mln metr kub;
- Zarafshon havzasidan 7 foiz, 400 mln metr kub;
- Qashqadaryo havzasidan 25 foiz, 1 mlrd 330 mln metr kub. Shundan, daryolardan 1 mlrd 129 mln metr kub; - 89 mln metr kub suv yer ostidan; - 112 mln metr kub suv kollektor tarmoqlaridan olinib kelingan.

Olingan 5 mlrd 430 mln metr kub suv miqdorining 5 mlrd 87 mln metr kubi sug‘orish ishlariga, 343 mln metr kubi sanoat, kommunal va boshqa ehtiyojlarga yo‘naltirildi.

Viloyatda 514 ming gektar sug‘oriladigan maydonlarning 65 foizi, ya’ni 336 ming 267 gektari Amudaryo havzasidan, 7 foizi, 48 ming 815 gektari Zarafshon havzasidan, qolgan 28 foizi 129 ming 32 gektari Qashqadaryo va uning irmoqlaridan suv ichadi. Viloyatning paxta maydoni – 135 ming 900 gektar, g‘alla maydoni – 141 ming gektar, boshqa ekin maydoni – 237 ming 200 gektarni tashkil etadi.

2-jadval: Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari hamji[3]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	O‘zgarishi, %da
Dehqonchilik mahsulotlari						
Kartoshka	tonna	172632	173638	176752	181776	105,3
Sabzavot	tonna	495911	494790	493098	504988	101,8
Poliz	tonna	149779	163173	163301	177112	118,2
Meva	tonna	180255	170912	163178	172334	95,6
Uzum	tonna	96944	97031	91248	100579	103,7
Paxta	tonna	239086	250376	378207	348815	145,9
Don	tonna	800682	938416	882116	801865	100,1

Ushbu jadvalda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida barqaror o‘sish sur’atlariga erishganini ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, ushbu yillar mobaynida kartoshka 105,3 %ga, sabzavot 101,8% ga, poliz 118,2% ga, uzum 103,7% ga, paxta xom ashyosi 145,9% ga va don mahsulotlari 100,1% o‘sish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan. Faqat meva mahsulotlari tahlil qilinayotgan yillarda 4,4% ga kamayganligini ko‘rish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, viloyatning suv manbalaridan olinayotgan suv miqdorining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi 2021-yilda 2010-yilga nisbatan suvning kam sarflanishi manbalardan olinayotgan suv hajmining kamayib borayotganligi yoki manbalarning o‘zida suvning kamayganligidan dalolat beradi, (3-jadval).

3-jadval: Manbalardan olinayotgan suv miqdorining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi (mln.m³)[4]

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar				2021-y.da 2010-y. nisb.o‘zg. % his.da	2021-y.da 2018-y. nisb.o‘zg. % his.da
			2010	2019	2020	2021		
1	Manbalardan olingan jami	mln.m³	6367,0	3331,5	3797,1	4008,1	63,0	120,3
	salmog‘i	%	100	100	100	100	-	-
2	Sug‘orishga	mln.m³	5671,3	3191,1	3600,8	3895,3	68,7	122,1
	salmog‘i	%	89,0	95,8	94,8	97,2	1,1 p. oshgan	1,01 p. oshgan
3	Sanoat	mln.m³	24,5	14,5	8,4	13,7	56,0	94,5
	salmog‘i	%	0,4	0,43	0,22	0,34	1,17 p. kamaygan	1,26 p. kamaygan
4	Kommunal xo‘jaligiga	mln.m³	256,6	89,2	159,1	91,6	35,7	102,7
	salmog‘i	%	4,0	2,7	4,2	2,3	1,74 p. kamaygan	1,17 p. kamaygan
5	Energetika	mln.m³	409,4	558,3	558,3	448,0	109,4	80,2
	salmog‘i	%	6,4	16,7	14,7	11,2	1,75 p. oshgan	1,49 p. kamaygan
6	Baliqchilik	mln.m³	5,2	6,5	7,8	2,6	50,0	40,0
	salmog‘i	%	0,08	0,2	0,21	0,006	13,3 p.kamaygan	33,3 p.kamaygan

3 Manba: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tahlil qilingan.
4 Manba: Amu-Qashqadaryo ITXB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini suv bilan samarali ta’minlash sug‘oriladigan dehqonchilikni yanada rivojlantirishning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar va tahlillar natijalarining ko‘rsatishicha, sug‘oriladigan dehqonchilik bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suv manbalaridan olinadigan butun suv miqdorining 95–97 foizini tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatida 2021-yilda iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan ta’minlashda manbalardan 4008,1 mln.m^3 suv olingan bo‘lsa, shundan qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish uchun 97,2 foizi, ya’ni 3895,3 mln.m^3, sanoatga 13,7 mln.m3 (0,34%), kommunal xo‘jaligiga 91,6 mln.m^3 (2,3%), energetikaga 448,0 mln.m^3 (11,2%), baliqchilikka 2,6 mln. m3 (0,006%) suv sarf qilingan. Bu ko‘rsatkichlarni 2010-yil bilan taqqoslaganimizda manbalaridan olinayotgan suv miqdori 39 foizga kamayganligini va sug‘orishga sarflangan suv miqdori esa 31,3 foizga kam taqsimlanganligini ko‘rish mumkin. Demak, suv resurslari yildan-yilga tanqis bo‘lib borayotganligini jadval tahlillaridan ham ko‘rish mumkin. Ta’kidlash joizki, viloyat uchun ichki va tashqi suv resurslari manbalari cheklangan. Shuning uchun ulardan faqat suv tanqisligi yillarida emas, balki suv ko‘p bo‘lgan yillarda ham tejamli foydalanish o‘ta dolzarb masala hisoblanadi.

MUHOKAMA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni aynan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta’minlash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo‘jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlarini hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo‘jaligi obyektlarining ishonchli ishlashini ta’minlash hamda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bizning fikrimizcha suv resurslarini “onlayn” inson aralashuvisiz, shaffof boshqarish va suv iste’molchilari bo‘lgan fermer, dehqon va klaster korxonalarining suv olish nuqtalariga “Aqlli suv hisoblagich” qurilmalarini o‘rnatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Viloyatda 2019-yilda 1753 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish texnologiyasi joriy etildi. Shundan 320 gektar paxta, 460 gektar bog‘, 36 gektar tokzor, 750 gektar yang‘oqzor va 187 gektar boshqa ekinlar tashkil etadi (issiqxona, sabzavot-poliz ekinlarga).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-oktyabrdagi “Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish mexanizmalarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4499-sonli qaroriga asosan 2020-yilda 3700 gektar maydonida tomchilatib sug‘orilmoqda. Shundan, 55 fermer xo‘jaliklaridagi 1458 gektar g‘o‘za maydonlarida, 2242 gektar bog‘ va tokzorlarda tomchilatib sug‘orish ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, 6 gektar g‘alla maydonida yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilindi. Sabzavot va poliz ekin maydonlarining 2432 gektari egatga plyonka tushab sug‘orildi.

Fermer va klaster tashkilotlari tomonidan 245 komplekt ko‘chma egiluvchan quvurlar orqali g‘o‘za maydonlari sug‘orilmoqda.

Suv xo‘jaligining meliorativ tarmog‘i uchun monitoring va axborot almashish tizimini yaratish maqsadida, yer osti suvlarini joylashuvi, sho‘rlanish darajasi, tuproq sho‘rlanishi va sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini onlayn rejimda aniqlab borish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirib borilmoqda. Jumladan, viloyatda sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini onlayn rejimda aniqlab borish maqsadida meliorativ kuzatuv quduqlariga 2021-yilda 256 dona “Dayver” qurulmalarini o‘rnatish belgilandi va amalda o‘z natijasiga erishildi.

4-jadval: Qashqadaryo viloyati bo‘yicha suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarni 2020–2025 yillardagi manzilliy DASTURIY prognozi[5]

Viloyat nomi	Sug‘orishning innovatsion usullari	Jami (2020–2025)	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Qashqadaryo	Tomchilatib	51317	1800	2000	2400	2880	3456	4147
	Egiluvchan quvur	214889	7900	9000	10000	12000	14400	17280
	Qora plyonka	53697	2000	2200	2500	3000	3600	4320
	Yomg‘irlatib sug‘orish	4736	151	185	222	267	320	384
	Gidrogel	2720	86	106	128	153	184	221

5 Manba: Amu-Qashqadaryo ITHBning suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturi. 2020 yil.

Shuningdek, Geoaxborot tizimi (“ARK GIS”) asosida sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini aniqlab borish, tuproq sho‘rlanishi darajasi, yer osti suvlarining joylashuvi, ularning sho‘rlanishi to‘g‘risidagi axborotlarni elektron tarzda almashib borish hamda raqamli xaritalarni yaratish bo‘yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilmoqda.

Hozirda, suv xo‘jaligi tasarrufidagi 80–85 foiz yirik suv xo‘jaligi obyektlari, magistral va xo‘jaliklararo kanallar, nasos stantsiyalari va boshqa suv xo‘jaligi obyektlari geoaxborot tizimi “ArcGIS” dasturiga kiritildi.

2020-yilda qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda 17 ming 170 gektar maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari joriy qilindi. Shundan, 3 ming 393 gektarga tomchilatib sug‘orish ishlari, 10 ming 15 gektar maydonda ko‘chma egiluvchi quvurlar bilan sug‘orish ishlari va 3 ming 762 gektar maydonda plyonka to‘shab sug‘orish ishlari amalga oshirildi. Ushbu texnologiyalarni amalga oshirish natijasida 5 mln 500 ming kub metr suv iqtisod qilindi.

Qishloq xo‘jaligida suv resurslarini tejash ikki maqsadda amalga oshiriladi. Birinchidan, suv taqchilligi muammosini bartaraf etish va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan doimiy ta’minlash uchun amalga oshiriladi.

Xususan, iqlim o‘zgarishi jarayonida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari nobutgarchiligini kamaytirish va iqlim o‘zgarishlariga moslashish masalalarini hal etishga qaratiladi. Ikkinchidan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush faravonligini oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish maqsadlari uchun qo‘llaniladi. Bunda qaysi tarmoqlar ko‘p suv talab etishi va suvdan foydalanish samardorilgini etiborga olgan holda ma’lum miqdorda suv resurslarini kamaytirish yoki suvni tejaydigan texnika va texnologiyalarni joriy etish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://kun.uz/99444746.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022-y. https://president.uz/uz/lists/view/5774
3. Amu-Qashqadaryo ITXB ma’lumotlari, 2021 y.
4. www.lex.uz
5. www.water.gov.uz
6. Z. S. Shoxo‘jayeva. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrar sohani rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. Toshkent, 2020.
7. Z. S. Shokhujaeva, A. S. Eshev, N. O‘. Murodova, F. S. Temirova. Changes, problems and solutions in the water system in the connections of innovative economy. AIP Conference Proceedings. 2023/3/15. Str. 050031.
8. N. S. Xushmatov, Z. S. Shoxo‘Jaeva. Suv resurslarining agrar tarmoqni barqaror rivojlantirish bilan o‘zaro bog‘liqligini baholash. J.: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. №3, str.1121–1129.
9. Z. S. Shoxo‘Jaeva. Suv tejamkor texnologiyalardan foydalanishda xorijiy tajribalar va uni mamlakatimiz qishloq xo‘jaligiga tatqiq etish natijalari. J.: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. №2, str.803–810.
10. Z. S. Shoxo‘Jaeva. Suv tejamkor texnologiyalardan foydalanishda xorijiy tajribalar va uni mamlakatimiz qishloq xo‘jaligiga tatqiq etish natijalari. J.: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. №2, str.803–810.
11. Z. S. Shoxo‘jayeva. Qashqadaryo viloyatida suv resurslaridan samarali foydalanishning dolzarb masalalari. J.: Irrigatsiya va Melioratsiya. 2018. №3. Str.82–88.
12. З. С. Шохўжаева, Ш. Я. Акбарова. Эффективность инвестиций в экономику Кашкадаринской области. 2020. Стр.203–208.

HUDUDLARNING MOLIYAVIY-INVESTITSION SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI



Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi
Toshkent moliya instituti,
“Xalqaro moliya-kredit” kafedrasi dotsenti, i.f.d.

Annotatsiya: Maqolada hududlarning moliyaviy-investitsion faolligi va salohiyatining dolzarb masalalari tafsilotli tarzda tahlil etilgan. Hududlarning moliyaviy-investitsion faolligi va salohiyatining mohiyati nazariy jihatdan o‘rganilgan va uning ahamiyati iqtisodiy nuqtayi nazardan tavsiflangan. Hududlarning moliyaviy-investitsion salohiyati tarkibi, moliyaviy-investitsion salohiyatning tizimli modelini ishlab chiqishdagi asosiy jihatlar ishlab chiqish zarurligi belgilangan.

Kalit so‘zlar: hududlar, moliyaviy-investitsion faollik, iqtisodiy xavfsizlik, hududlar salohiyati, indikator, baholash tizimi, iqtisodiy o‘sish, dinamik rivojlanish, talab va taklif, iqtisodiy munosabatlar, axborot almashinuvi.

Abstract: The article analyzes in detail current issues of financial and investment activity and the potential of the regions. From a theoretical point of view, the essence of financial and investment activity and the potential of regions is studied, its significance from an economic point of view is described. The need to develop the financial and investment potential of the regions and to develop a systemic model of financial and investment potential has been identified.

Key words: regions, financial and investment activity, economic security, regional potential, indicator, assessment system, economic growth, dynamic development, supply and demand, economic relations, information exchange.

Аннотация: В статье подробно анализируются текущие вопросы финансово-инвестиционной активности и потенциала регионов. С теоретической точки зрения изучена сущность финансово-инвестиционной активности и потенциал регионов, описано ее значение с экономической точки зрения. Определена необходимость развития финансового и инвестиционного потенциала регионов, разработки системной модели финансового и инвестиционного потенциала.

Ключевые слова: регионы, финансово-инвестиционная деятельность, экономическая безопасность, потенциал регионов, показатель, система оценки, экономический рост, динамичное развитие, спрос и предложение, экономические отношения, информационный обмен.

KIRISH

Har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda bir qancha omillarga e’tibor berishini kuzatish mumkin. Bu borada, mamlakatning muhim iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi omillardan – hududlarning moliyaviy-investitsion faolligini va salohiyatini oshirish hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda hududlarning moliyaviy barqarorligi va investitsion faolligini tavsiflovchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar mavjud. Shu ma’noda, ushbu ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni barqaror faoliyatini ta’minlash moliyaviy-investitsion faollikni oshirishda o‘zining alohida o‘rniga ega ekanligini ta’kidlash lozim.

Hozirgi kunda hududning moliyaviy barqarorligi kategoriyasi yangi bo‘lishiga qaramay, tarkibiy elementlarning turli-tumanligi va amaliy ahamiyati bilan ko‘plab iqtisodchilar e’tiborini tortmoqda. Uning mazmuni iqtisodiyot o‘rganuvchi deyarli barcha obyektlar – resurslar, ishlab chiqarish, ijtimoiy soha, aholini va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda moliyaviy oqimlarni boshqarish muammolari va umuman hududning moliyaviy holati, uning natijasi o‘laroq, hududning barqaror faoliyati uchun moliyaviy barqarorlikning chegara qiymatlari ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyatlariga alohida e’tibor beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Fikrimizcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar barqarorligiga doir to‘rtta yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin (1-jadval).

1-jadval: Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligini ta’riflashga oid yondashuvlar[1]

Yondashuvning mohiyati	Iqtisodchi olimlarning yondashuvlari
Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligi tizimning xavfsizligi, barqarorligi, ishonchliligi, yaxlitligi va mustahkamligi bilan bog‘liq	L.I.Abalkin, A.L.Bobrov, D.V.Gordienko, A.Livshits, T.M.Konoplyanik
Barqarorlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi asosiy parametrlarning nisbiy o‘zgarmasligi, tizimning ma’lum vaqtgacha o‘zgarishsiz qolish qobiliyati sifatida	A.L.Gaponenko, C.M.Ilyasov, V.D.Kalashnikov, T.G.Krasnova, O.V.Kolomiychenko, V.E.Poxchin, A.G.Shelomensev
Barqarorlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimning dinamik muvozanatni saqlash qobiliyati sifatida talqin etiladi	E.C.Bodryashov, V.A.Kretinin, N.V.Chaykovskaya
Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligi tizimning barqaror ishlashi, rivojlanishi, belgilangan traektoriya bo‘ylab harakatni davom ettirishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati bilan bog‘liq	A.I.Drujinin, O.N.Dunaev, B.K.Esekin, M.Y.Kalinchikov, A.M.Ozina, Sh.Capargali, L.L.Terexov

Hudud barqarorligini ta’minlashning asosiy elementidan biri moliyaviy barqarorlik bo‘lib, u moliyaviy oqimlar muvozanati, hududning faoliyatini ma’lum vaqt davomida saqlab turishiga imkon beruvchi mablag‘lar mavjudligi bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning metodologiyasini deduksiya, tasniflash, umumlashtirish, qiyosiy, nazariy talqin va tahliliy uslublardan foydalanilgan, bibliografik o‘rganish natijasida hududlarning iqtisodiy xavfsizligini baholash indikatorlari va ularning chegaraviy qiymati tushunchasi paydo bo‘lishi, hududlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning omillari va zarurati xorijiy tajriba asosida aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududning moliyaviy barqarorligi – hududning shunday ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘lib, u hududiy birlik tarkibidagi moliyaviy oqimlarning samarali ishlashi orqali aholining turmush sifatini oshirishni ta’minlaydi, shu bilan birga, ularning muvozanatini saqlaydi. Hududning moliyaviy barqarorligi asosan iqtisodiyot raqobatbardoshligi bilan belgilanadi. Ma’lumki, iqtisodiy rivojlanishi yuqori hududlar katta ichki moliyaviy resurslarga ega bo‘lib, bu ularning moliyaviy barqarorligiga ta’sir qiladi. Aksincha, moliyaviy barqarorlik darajasi nisbatan past bo‘lishligi tufayli hudud raqobatbardosh bo‘ladi. Hududning moliyaviy barqarorligi deganda hududiy hokimiyat organlari vakolatlarini ta’minlash maqsadida hududning pul mablag‘lari daromadi va xarajatlari balansi hamda ichki va tashqi omillar ta’sirida ularning mutanosib o‘zgarishi, bu joriy va uzoq muddatli istiqbolda uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi tushuniladi. Ta’kidlash joizki, bu, avvalo, hududning o‘z majburiyatlari bo‘yicha to‘lov qobiliyati, shuningdek, o‘z manbalari hisobidan kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun sharoit yaratuvchi iqtisodiyotning holatidir. Hududning moliyaviy barqarorligini sifat jihatidan baholashning asosiy mezonlari uning moliyaviy imkoniyatlari hisoblanadi.

1 Muallif ishlanmaci.


Iqtisodiy adabiyotlarda “hududning moliyaviy salohiyati” ta’rifining mohiyatini aniqlash uchun quyidagi yondashuvlar mavjud:

1-jadval: “Hududning moliyaviy salohiyati” tushunchasinining mohiyatini aniqlashdagi yondashuvlar[2]

№	Yondashuvlarning nomi	Tavsifi
1	**Resursli yondashuv**	Unda hududlarning moliyaviy salohiyati vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turuvchi moliyaviy resurslar hajmining o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv tarafdorlari moliyaviy salohiyat shakllanishi borasida turli sohalarni belgilaydi, ya’ni davlat moliyasi, hududning davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy mablag‘lari, moliya-kredit sohasining moliyaviy resurslari, jamoat tashkilotlarining moliyaviy resurslari, aholining moliyaviy resurslari va tashqi mablag‘lar.
2	**Moliyaviy salohiyatni aniqlashda natijali yondashuv**	Muntazam daromad (natija) olishga asoslangan. Mazkur yondashuv doirasida moliyaviy salohiyat rejali progrnoz hisob-kitoblarning elementi bo‘lgan va quyidagilarni o‘z ichiga olgan moliya-budjet siyosati samaradorligining kompleks ko‘rsatkichi sifatida belgilanadi: byudjet salohiyatini yig‘indisi, aholi daromadlari, pul va sug‘urta tashkilotlari mablag‘lari, shuningdek, qarz mablag‘lari. Ko‘rsatkichda “foydalanilmaydigan zaxiralar parametrlari, hisobga olinmagan daromadlar va turli xil xavf tug‘diruvchi omillar ta’siri natijasida yo‘qotishlar”ni hisobga olgan holda daromadlarning potensial qiymatlari aks etadi.
3	**Resurslarga yo‘naltirilgan yondashuv**	Moliyaviy salohiyat ayrim iqtisodiy subyektlarning takror ishlab chiqarish jarayonini ta’minlovchi hudud yoki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun resurslardan maqsadli foydalanish sifatida belgilanadi.

Mavjud yondashuvlarni tizimlashtirish “hududning moliyaviy salohiyati” ta’rifining keng va tor talqinini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, tor talqinga ko‘ra, moliyaviy salohiyat “hududning moliyaviy salohiyati” ta’rifi, ya’ni unda joylashgan korxonalar moliyaviy salohiyati yig‘indisiga keltiriladi. Moliyaviy salohiyatning keng tushunchasi uning tarkibiga quyidagi elementlar: konsolidatsiyali (birlashtirilgan) byudjet; byudjetdan tashqari mablag‘lar, byudjetlararo oqimlar, mamlakat subyektlari yoki mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va ma’muriyati tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar, barcha mulk shaklidagi korxona va tashkilotlarning moliyaviy salohiyati, aholining naqd yoki bankdagi mablag‘lari moliyaviy institutlar, shuningdek, turli xil qimmatli qog‘ozlar shaklida; hududiy kredit-moliya tizimi muassasalarining moliyaviy resurslari, shuningdek, boshqa hududlardan banklar jalb etgan mablag‘larni kiritish bilan bog‘liq.

Hududlardagi moliyaviy salohiyatning iqtisodiy mohiyati to‘rt jihatning yig‘indisi bilan belgilanadi:




1-rasm: Hududlardagi moliyaviy calohiyatning iqticodiy mohiyati[3]

Hozirgi kunda intensiv takror ishlab chiqarish omillarining ahamiyati tobora ortib borishi bilan bir qatorda, moliyaviy salohiyatning sifat xususiyatlari ahamiyati ortib bormoqda. Hududdagi mavjud iqtisodiy munosabatlarning umumiy spektrini aks ettiruvchi moliyaviy salohiyat hudud iqtisodiy rivojlanishi va boshqaruv qarorlarining sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun hududning moliyaviy salohiyatini boshqarish hududni strategik, taktik va operativ boshqarishning muhim elementlaridan biridir[4].

2 Muallif ishlanmasi
3 Muallif ishlanmasi.
4 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy-elektron


Hududning moliyaviy salohiyati va uni boshqarish hududning barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan olimlar tomonidan an'anaviy ravishda shakllanish manbalari nuqtai nazaridan emas, balki ehtimoliy foydalanish yo'nalishlari bo'yicha tarkibiy-funksional yondashuv nuqtai nazardan o'rganilishi kerak. Bunday yondashuv foydalanishga tayyor resurslar va foydalanishga mo'ljallangan vositalar o'rtasida mavjud vaqtni hisobga olishni ta'minlaydi. Biroq hududlarni faqat ichki zaxiralar hisobiga va vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslarni jalb etish hisobiga rivojlantirish imkoniyati deyarli yo'qotiladi. Hududlar o'z hududlarida to'plangan barcha moliyaviy resurslarga ham egalik qilish huquqiga ega emas (ma'lum qismi yuqori darajadagi hukumat daromadlari hisoblanadi). Bundan tashqari, hududiy rivojlanishning moliyaviy ta'minlanish darajasini tenglashtirish maqsadida amalga oshirilgan moliya tizimi yuqori bo'g'inidagi mablag'larni davlatning ichki qayta taqsimlash jarayonida joylarda jamlangan moliyaviy resurslar miqdori mavjud moliyaviy salohiyat miqdoridan oshishi mumkin[5].

Hududning moliyaviy-investitsion salohiyati etarlicha yangi tushuncha bo'lib, uning mohiyati o'zaro bog'liq uchta xususiyatning birligidan iborat (1-rasm). Umuman, moliyaviy-investitsion salohiyatni ishlab chiqarish omillari to'plamini va hududda mavjud kapitalni qo'yilmalar sohalari sifatida o'rganish mumkin. Tor ma'noda moliyaviy-investitsion salohiyat asosiy makroiqtisodiy jihatlar, hududning ishlab chiqarish omillari (tabiiy resurslar, ishchi kuchi, asosiy vositalar, infratuzilma va hokazolar) bilan ta'minlanganligi, aholining iste'mol talabi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga oluvchi miqdoriy tavsifdir.



2-rasm: Hududning moliyaviy-invectitsion calohiyatining xucuciyatlari[6]

Tuzilmaviy jihatdan hududning moliyaviy-investitsion salohiyati uchta: iqtisodiy, resurs va ijtimoiy tarkibiy qismining yig'indisi sifatida ifodalanishi mumkin. Mazkur amallar o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiradi va uning bog'liqlik, uzviylik mohiyati sifatida foydalanilganda yuzaga keladi (3-rasm).



3-pacm: Hududning moliyaviy-investitsion salohiyati tarkibi[7]

jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

5 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

6 Muallif ishlamnasi.

7 Muallif ishlanmaci.

Hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining moliya-iqtisodiy salohiyat tarkibikengaytirilgan takror ishlab chiqarish va ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, bu uning barcha elementlari faol amal qilib, o‘zaro ta’sirga ega bo‘lgandagina ta’minlanishi mumkin. Bunda hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining iqtisodiy komponenti rivojlanib borishi, bir tomondan, o‘z iqtisodiy salohiyati (tabiiy-resurs, ishchi kuchi, ishlab chiqarish, infratuzilma salohiyati), boshqa tomondan, hukumat institutlarining uni boshqarishning samarali mexanizmlarini yaratish qobiliyatiga (boshqaruv va tashqi iqtisodiy salohiyat) bilan belgilanadi[8].

3-rasmga ko‘ra, hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining iqtisodiy komponenti nisbatan past rivojlangan bo‘lsa, hudud tashqi manbalar va boshqa hududlar bilan o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlik jarayoniga shunchalik bog‘liq bo‘ladi. Demak, hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining iqtisodiy tarkibiy qismini samarali qo‘llashning asosiy mezoni boshqaruv qarorlarining maqbulligini oshirish bo‘lib, u siyosiy qo‘llab-quvvatlash va ma’lum rejalashtirish yo‘nalishlariga ega hamda jamoatchilik fikri manfaatlarini ifoda etishi kerak. Moliyaviy-investitsion salohiyatning resursli komponenti hudud moliyaviy resurslari yig‘indisini aks ettiradi. Hududning barqaror rivojlanishini ta’minlash nuqtai nazaridan uning moliyaviy-investitsion salohiyatni shakllantirishdagi ahamiyati uchta pozitsiya: hudud moliyaviy mablag‘lari (moliyaviy resurslari) uning iqtisodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi (ta’minlashi) imkoniyati; moliyaviy mablag‘lar tarkibi va hajmi; moliyaviy resurslarni maksimal darajada jalb etish, foydalaniluvchi resurslarning maqbul tuzilishi orqali erishish mumkin bo‘lgan iqtisodiy obyektni rivojlantirishning real samarasi bo‘yicha o‘rganilishi kerak.

Pesursli komponentni shakllantirish nuqtai nazaridan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish kerak:

1) yaratilgan (ma’lumotli) resurslar – hududda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati natijasida olingan moliyaviy natijalar, shuningdek, hudud aholisining pul mablag‘lari[9];

2) hudud ixtiyoridagi moliyaviy resurslar – pul mablag‘lari fondlari bo‘yicha resurslarni qayta taqsimlashni hisobga olgan holda shakllangan moliyaviy resurslar, ya’ni hududda sanoat va ijtimoiy rivojlanish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan resurslar miqdorini namoyon etadi[10].

Moliyaviy-investitsion salohiyat resursli komponentini oshirishning asosiy vazifasi belgilangan muddatgacha moliyaviy resurslarning zarur hajmini kafolatlangan moliyalashtirish manbalari hisobidan to‘liq va o‘z vaqtida ta’minlash hisoblanadi. Hudud tizimidagi mazkur ta’minot obyekti hududdagi joriy va investitsiya faoliyatini moliyalashtirish hamda uning moliyaviy barqarorligini oshirish uchun hududning moliyaviy-investitsion salohiyatini maksimal darajada oshirish jarayonidir.

Hududdagi moliyaviy-investitsion salohiyatning resursli komponentini shakllantirish jarayoni moliyaviy resurslarning kirib kelishi va chiqib ketishiga yoki ularning ma’lum vaqt (hisobot berish) oralig‘idagi iqtisodiy tizimdagi farqi natijalariga asoslanadi. Mazkur jarayon moliyaviy resurslarning maksimal ijobiy saldosini ta’minlashi kerak, bu esa hududlarni rivojlantirish uchun moliyaviy barqarorlik chegarasini shakllantirish imkonini beradi.

Hududiy resurslar oqimiga quyidagilar kiradi: ma’lum vaqt oralig‘ida hududning soliqli va soliqsiz daromadlari; ma’lum vaqt oralig‘ida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga kiritilgan nomoliyaviy sohadagi investorlarning resurslari; ma’lum vaqt oralig‘ida hududdagi iqtisodiy subyektlar rivojlanishiga kapital qo‘yilmalarni ta’minlovchi hududiy kredit tizimi resurslari; hududlarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash doirasida hududlar tomonidan olingan byudjetlararo transfertlar[11].

Ma’lum vaqt oralig‘ida resurslarni investitsiya yo‘nalishi bo‘yicha resurslarning chiqib ketishi: byudjet xizmatlari iste’molchilarini moliyalashtirish uchun resurslarni ajratish (joriy byudjet xarajatlarini amalga oshirish); investitsiya dasturlarini moliyalashtirish (byudjet kapital xarajatlari va investorlarning kapital qo‘yilmalari); hududiy kredit tizimidan olingan resurslar uchun to‘lov; byudjet daromadlarini qayta taqsimlash tizimi doirasida mablag‘larni yuqori byudjetga o‘tkazish[12].

Ta’kidlash joizki, moliyaviy-investitsion salohiyatni shakllantirishda moliyaviy resurslarning ahamiyatini aniqlashda o‘ziga xos murakkabliklar mavjud. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha optimal variantni izlash va mavjud omillardan foydalanishni kuchaytirishni taqozo etadi. Yana bir jihat uning cheklangan ko‘rinishi moliyaviy-investitsion salohiyat shakllanishi va amalga oshirilishini sekinlashtirishi yoki oshkor qilish mumkinligi hisoblanadi.

8 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

9 www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

10 www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

11 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

12 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

Hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining ijtimoiy komponenti hududdagi aholiga eng qulay yashash sharoitlarini ta'minlash uchun imkoniyatlar va aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashnning kompleks majmuidir.

Ijtimoiy komponentni shartli ravishda resurslarning ikki blokiga ajratish mumkin: inson resurslari va hududning ijtimoiy infratuzilmasi. Inson resurslari shaxs nuqtai nazaridan har bir inson uchun mavjud bilim, ko'nikma, motivatsiya zaxiralari bilan belgilanadi. Ijtimoiy infratuzilma – turli xil xizmatlar ko'rsatish orqali insonning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini amalga oshirish jarayonida kompleks takror ishlab chiqarishga yordam beruvchi tarmoqlar va tadbirlar yig'indisidir.

Qayd etish kerakki, bu komponentning moliyaviy-investitsion salohiyat tarkibidagi ahamiyatining oshishi jamiyat va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, axborot resurslari zaxiralari kamaymaydi, aksincha, ortib boradi[13].

Moliyaviy-investitsion salohiyatdagi iqtisodiy, resursli va ijtimoiy komponentlarning o'zaro bog'liqligi amalda (ularning imkoniyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni hamda ahamiyatiga ko'ra) ularning optimal nisbatlarini aniqlash zaruratini belgilaydi. Biror elementning o'zgarishi o'z-o'zidan rentabellikning pasayishi yoki boshqa elementlarning faoliyat samaradorligining kamayishiga sabab bo'ladi, chunki ular tizimli va o'zaro birlikda amal qiladi.

Umuman, hududning moliyaviy-investitsion salohiyati ko'p qirrali iqtisodiyot va rivojlangan infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur miqdordagi moliyaviy va investitsiya resurslarini shakllantirishni ifodalaydi. Turli xil moliyaviy-investitsion resurslarni birlashtirish va ularni hududiy iqtisodiyotni o'zgartirish uchun investitsiya dasturlariga yo'naltirish moliyaviy-investitsion salohiyatni boshqarishni talab etadi.

Samarali boshqaruvni ta'minlash nuqtai nazaridan hududning moliyaviy-investitsion salohiyatini darajalar bo'yicha taqsimlash maqsadga muvofiq: haqiqiy salohiyat (erishilgan salohiyat) – hudud ega bo'lgan turli xil xususiyatlarga ega resurslar, hududiy rivojlanishning ma'lum darajasiga erishish uchun takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi mumkin bo'lgan vosita va manbalarning haqiqiy to'plami; istiqbolli potensial (ehtimoliy potensial) – hudud uchun mavjud imkoniyatlarning maksimal miqdori, unga erishish ehtimoli hududiy boshqaruv sifati va tashqi muhitning qulay ta'siri orqali belgilanadi.

Hududiy boshqaruv jarayonida kelgusida foydalanish nuqtai nazaridan hududdagi moliyaviy-investitsion salohiyatning tizimli modelini ishlab chiqishda tizim tahlilning quyidagi asosiy jihatlarini hisobga olish zarur (4-jadval).

4-jadval: Hududdagi moliyaviy-investitsion salohiyatning tizimli modelini ishlab chiqishdagi asosiy jihatlar[14]

№	Asosiy jihatlar nomi	Tavsifi
1	**Tarkibiy yo'nalishga doir**	Salohiyat turlarini aniqlash, salohiyat elementlarining differensial xususiyatlarini shakllantirish, salohiyat elementlari umumiyligi va quvvatini baholashdan iborat
2	**Tizimli jihat**	Salohiyatlar tizimi tarkibiy xususiyatlarini (aloqa turlari, miqdor va sifat jihatdan o'zaro bog'liqliklarini) aniqlash salohiyatlar iyerarxiyasini aniqlashdan iborat bo'lib, salohiyatlar tizimining hududga nisbatan tashqi muhit bilan muvofiqlashtirish aloqalarini barqaror rivojlantirishning ahamiyati va bu aloqalar umumiyligini belgilash bilan bog'liq
3	**Funksional jihat**	Hududiy rivojlanish tizimidagi salohiyat funksiyalarini aniqlash, salohiyatlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash, hududiy salohiyatning funksional tuzilishini aniqlash maqsadida funksiyalarni taqqoslashdan iborat
4	**Integral jihat**	Barcha salohiyatlar tizimidagi ziddiyatlarni, aniqlangan ziddiyatlarni hal etish yo'l-yo'riq va usullarini aniqlashdan iborat
5	**Tarixiy jihat**	Hududlarning salohiyatini ularning tarixiy rivojlanish "prizmasi" orqali o'rganish, ularning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini aniqlash, aniqlangan tendensiyalar uchun qabul qilingan rivojlanish xususiyatlari bilan taqqoslash

Mazkur modelning asosiy prinsiplari quyidagilar bo'lishi kerak: murakkablik, ya'ni hududdagi moliyaviy-investitsion salohiyatning barcha muhim jihatlarini hisobga olish; asosiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi va hududiy rivojlanishning xususiy va integral ko'rsatkichlarining ierarxik tartibli tuzilmasidan foydalanish hiso-

13 www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf
14 Muallif ishlanmasi.

bini o‘z ichiga olgan ko‘rsatkichlar tizimliligi; hududiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlarini tanlashda dastlabki ma’lumotlarning qiyosiy ishonchlilik omillari hisobi; maksimal darajada ta’minlash, Respublika va hududiy boshqaruv darajalarida tegishli qarorlarni qabul qilish nuqtai nazaridan modelning chiqish parametrlari axborotliligi; asosiy va integral ko‘rsatkichlar bo‘yicha hududiy ko‘rsatkichlarning optimal o‘zgaruvchanlik darajasiga erishish.

Umuman, hududning moliyaviy salohiyatini maqbullashtirish modelini shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Moliyaviy salohiyat darajasiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar to‘plamini aniqlash va tizimlashtirish hamda hududning rivojlanish darajasidagi yakuniy xulosani shakllantirish. Mazkur omil guruhlarining ta’siri hududdagi iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga doir dasturlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.
- Moliyaviy salohiyat darajasida omillarning ta’siri xususiyati va darajasini baholash. Pesurslarning cheklanganligi yoki ortiqcha miqdorini shakllantirishga sabab bo‘lish ehtimoliga ega vaziyatlar tahlil qilinadi, ehtimoliy taqchillik yoki ortiqcha miqdor miqdoriy baholanadi.
- Tasodifiy omillar ta’siri natijasida kelib chiquvchi resurslar yo‘qotilishini kamaytirish.
- Mavjud resurslarning miqdorini kamaytiruvchi “muammoli joylar”ni aniqlash.
- Tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish hududning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, hududning moliyaviy-investitsion salohiyatini shakllantirish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash nuqtai nazaridan boshqarish hududning moliyaviy-investitsion resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanishni ta’minlovchi muhim vazifa hisoblanadi. Cheklangan resurslar, amalga oshirish uchun tanlangan dasturlar va loyihalarni qayta ko‘rib chiqish zarurligini yoki salohiyatning tarkibiy qismlariga ta’sir qilish usullarini keltirib chiqarishi mumkin[15].

Moliyaviy-investitsion salohiyatga ta’sir etuvchi asosiy vositalar quyidagilar bo‘lishi kerak:

1) turli manbalarga ega moliyalashtirish tizimini tashkil etish orqali salohiyatni oshirish;

2) moliyaviy-investitsion infratuzilma institutlarini shakllantirish;

3) moliyaviy resurslarning hududiy bozorlarini faollashtirish.

Shu bilan birga, resurslar cheklanganligi sababli moliyaviy-investitsion salohiyatni oshirish imkoniyatini investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning keng qamrovli hududiy tizimini tashkil etish orqali ta’minlash mumkin. Ushbu tizim ko‘p yo‘nalishga ega bo‘lishi kerak, ya’ni har tomonlama va mustaqil ravishda foydalanish mumkin bo‘lgan an’anaviy hamda yangi moliyaviy resurslarni jalb etish turlari va usullarining yig‘indisiga asoslangan bo‘lishi kerak.

Mazkur vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin deb hisoblaymiz: davlat-xususiy sheriklik tizimi, loyihani moliyalashtirish mexanizmi, sindikatli kreditlashni amalga oshirish uchun hududiy moliya-kredit tizimi resurslari konsentratsiyasi; qimmatli qog‘ozlarni chiqarish asosida investitsiya moliyaviy vositalaridan foydalanishni kengaytirish; hayotni sug‘urtalash bo‘yicha operatsiyalarni kengaytirish va zaxiralarni maxsus davlat qimmatli qog‘ozlariga joylashtirish uchun sug‘urtalovchilarning investitsion imkoniyatlaridan foydalanish; noan’anaviy manbalar[16].

Shunday qilib, hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, bir tomondan, moliyaviy-investitsion infratuzilma shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, hududning moliyaviy-investitsion faoliyat uchun ularning xususiyatlariga ko‘ra, turli ko‘rinishdagi moliyaviy vositalar mavjudligi bilan bog‘liq[17].

15 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

16 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

17 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Овчинникова Т. И. Экономическая безопасност на основе организационной защиты предприятий. Финансы. Экономика. Стратегия. – 2012, № 9. – С. 10–12.
2. Сенчагов В. К. Экономическая безопасност: Производство, финансы, банки / – М.: Финстатинформ, 1998.
3. Гордиенко Д. В., Лузянин С. Г. Глобализация и обеспечение экономической безопасности Китая / Китай в мировой и региональной политике. Вып. ХВИИИ: ежегодноэ издание / сост. Й. И. Сафронова. – М.: ИДВ РАН, 2013. – С. 296 – 325.
4. Краснова Т. Г. Региональная экономика: территориалные аспекты развития Сибирского Федералного Округа: монография Издател: Федералноэ государственноэ бюджетноэ образователноэ учреждение высшего образования "Байкальцкий государственный университет" 2009.
5. Victoria V. A., Ainura A. K., Olga P. S. Methods for assessment of the economic security level in the region // Methods. – 2018. – T. 39. – №. 24. – S. 28.
6. Бондина Й. А., Чинахова С. Э. Формирование структуры экономической безопасности на предприятиях // Молодой ученый. – 2017. – №13. – С. 253–257.
7. Каримов Н. Г., Хамидова Ф. А. Значение индикаторов экономической безопасности для регионов Республики Узбекистан."Устойчивоэ развитие экономики: международные и националные аспекты" электронный сборник статей ИИИ международной научно-практической онлайн-конференции (Новополотск, 18–19 апреля 2019 г.) Республика Беларус. – С. 24–29.
8. Xamidova F. A. Osobennosti znacheniya indikatorov v oblasti obespecheniya ekonomicheskoy bezopasnosti regionov. The International Conference on "Enhancing of Contemporary Business Management, Economics, Innovation Technologies, and Social Sciences: A Viewpoint on Research and Practice" Tashkent, Uzbeksitan May 24, 2021. – R. 118–124.
9. http://hdr.undp.org/en/reports/global/2005
10. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Main_Page
11. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics- explained/index.php?title=Quality_of_life_indicators_- economic_security_and_physical_safety#General_overview

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA XODIMLAR FAOLIYATINING AXBOROT TIZIMLARINI SAMARALI TASHKIL QILISH



Yuldashev Furqat Nurilloyevich
TDIU tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatida axborot tizimidan samarali foydalanish yo‘llari ochib berilgan.

Bu mamlakatda esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida axborot tizimidan samarali foydalanish masalasi ko‘rib chiqilmoqda.

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda axborot tizimidan samarali foydalanish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, axborotlar tizimi, reklama, bozor, bozorni tadqiqot qilish, reklama vositalari, xodimlarning ishga faolligi, raqiblar tovarlari, narx-navo siyosati, tadqiqot rejasini ishlab chiqish, axborotlarni yig‘ish.

Abstract: This article reveals the ways of effective use of the information system in the activities of small business and private entrepreneurship.

And etoy state rassmatrivaetsya, how to effectively use the information system in small businesses and private enterprises.

This article discusses how to effectively use the information system in small business and private entrepreneurship.

Key words: Small business, information system, advertising, market, market research, advertising tools, employee engagement, competitors’ products, pricing policy, research plan development, information gathering.

Аннотация: В данной статье раскрываются пути эффективного использования информационной системы в деятельности малого бизнеса и частного предпринимательства.

И в етой стране рассматривается, как эффективно использовать информационную систему в малом бизнесе и на частных предприятиях.

В данной статье рассматривается, как эффективно использовать информационную систему в малом бизнесе и частном предпринимательстве.

Ключевые слова: Малый бизнес, информационная система, реклама, рынок, исследование рынка, рекламные инструменты, вовлечение сотрудников, продукция конкурентов, ценовая политика, разработка плана исследований, сбор информации.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o‘rin egallaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishda, aholini ish bilan ta’minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan mulkdorlar sinfining, ya’ni o‘rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, bu soha hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

Mustaqillik yillari mobaynida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratilganligini qayd etish joiz. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati sezilarli darajada yaxshilandi. Biroq, amalga oshirilgan ishlar ko‘lamiga qaramasdan bu sohada hali yechimini kutayotgan muammolar ham bor.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida axborotlar tizimi hamon mukammal darajada emas. Ularni yig‘ish asosan subyektiv holatlarga bog‘liq. Haqiqatdan ham, masalan, bozorda tovarga bo‘lgan talab yoki raqobatchi haqida ma’lumot kerak bo‘lsa, albatta anketa so‘rovlari o‘tkazilishi lozim. Bu esa anketa so‘rovlariga

javob beruvchilarning va uni o‘tkazuvchilarning holati, ular fe’l-atvori, kayfiyati bilan belgilanadi. Ularning madaniy, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy darajasi ham katta rol o‘ynaydi.

Samarali ishlayotgan kichik biznes korxonalari yig‘ilayotgan axborotlar sifatini oshirish va miqdorini ko‘paytirishga yetarli darajada kuch sarflaydilar. Ular o‘z xodimlarini sodir bo‘layotgan voqealarni qayd qilish va ular haqida xabar qilishga o‘rgatadilar va buning uchun taqdirlaydilar. Kichik biznes korxonalari ulgurji va chakana sotuvchilarni va boshqa ittifoqchilarini o‘zlari uchun muhim bo‘lgan xabarlarni uzatishga rag‘batlantiradi. Ishbilarmonlarga raqiblari haqida axborotlar zarur. Bunday axborotlarni raqiblar tovarlarini xarid qilish orqali “ochiq eshiklar kuni”da, ixtisoslashtirilgan ko‘rgazmalarga borganda olishlari mumkin.

Raqiblar haqidagi ma’lumotlarni yana ularning hisobotlarini o‘qib va hissadorlar majlislarida ishtirok etib, raqib korxona xodimlari, raqiblarga mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan suhbatlashib ham olish mumkin.

Raqiblarning reklamalari yig‘indisini, ularning reklama xarajatlarini va ular foydalanayotgan reklama vositalari to‘plamini olish uchun reklama byurosining pullik xizmatlariga murojaat qilinadi.

Tadbirkorlarga mijozlar, dilerlar va bozorda harakat qiluvchi raqobatchilar haqida ma’lumotlar kerak. Bozor munosabatlariga o‘tish yanada kengroq va yanada sifatliroq axborotlar olish zarurligini shart qilib qo‘yadi.

Tadbirkorlar uchun xaridorning tovar xususiyatlariga munosabatlarini oldindan bashorat qilish borgan sari qiyinlashmoqda va ular tadqiqotlarga murojaat qilmoqdalar. Ishbilarmonlarga borgan sari ko‘proq axborotlar kerak bo‘ladi va ularga doimo axborot yetishmaydi. Shuning bilan bir vaqtda, ishbilarmonlar o‘zlariga kerakli aniq va foydali ma’lumotlarni yetarli mikdorda yiga olmayotganliklaridan shikoyat qiladilar.


Ba’zi bir korxnalarda joriy axborotlarni yig‘ish va tarqatish bo‘yicha maxsus bo‘limlar yoki laboratoriyalar tashkil etilgan. Bu bo‘lim xodimlari kerakli axborotlarni qidirib topish uchun eng muhim manbalarni ko‘zdan kechiradilar va ishbilarmonlarga mahsus tayyorlangan axborot varaqalarini jo‘natadilar.

Bunday xizmatlar tadbirkorlarga kelib tushayotgan axborotlar sifatini keskin oshirishga imkon beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda tadqiqot tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bozorni tadqiqot qilishni;
- reklama vositalari va e’lonlari samaradorligini;
- xodimlarning ishga faolligini;
- raqiblar tovarlarini;
- narx-navo siyosatini;
- tovar assortimentlarini;
- xalqaro bozorlarni o‘rganishni;
- axborotlar bilan ta’minlashni tadqiqot qilishni;
- xodimlar bilan ishlash siyosati va xodimlarning faoliyatini baholashni o‘rganishni;
- sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni va hokazo.

Bozor tadqiqotlari o‘tkazish ketma-ketlikligini quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm: Bozor tadqiqotlarini o‘tkazish ketma-ketligi[1]

Tadqiqotchilar tadqiqotning dastlabki bosqichida muammoni aniq belgilashlari va tadqiqot maqsadini belgilab olishlari kerak. Axborotlarni yig‘ish ancha og‘ir va ma’suliyatli ishdir. Muammoni mujmal yoki noto‘g‘ri belgilash ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarga olib keladi. Aniq qo‘yilgan maqsad muammoni hal qilishning asosidir.

1 Muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqotning keyingi bosqichida buyurtmachini qiziqtirayotgan axborot turini va uni eng samarali yig‘ish yo‘lini aniqlash zarur. Tadqiqotchi ikkilamchi yoki birlamchi axborotlarni yoki ikkalasini bir vaqtda yig‘ishi mumkin.

Bozor tadqiqotchisi ishga kirishishdan oldin ish rejasini ishlab chiqishi kerak. Rejada kimdan so‘rash kerakligi, so‘rovga qancha mikdordagi odamlarni jalb qilish zarurligi, so‘raluvchilarni qanday tartibda tanlab olish, ishni bajarish muddati va hokazolar belgilangan bo‘lishi kerak. Tadqiqotchi o‘zi uchun qanday axborotlar zarurligini va bular ko‘proq kimlarda bo‘lishini hal qilishi kerak.

Tadqiqot rejasini ishlab chiqish va axborotlarni yig‘ish tadqiqotning eng qiyin va ahamiyatli bosqichidir. Bunda kerakli axborotlarni kaerdan olishni, birinchi navbatda kimlardan so‘rashni aniqlash kerak bo‘ladi. Ba’zi bir so‘raluvchilar uyda ham, ishda ham bo‘lmasliklari mumkin. Boshqa birovlar so‘rovda ishtirok etishdan bosh tortishlari, yana birlari esa g‘araz bilan, samimiy bo‘lmagan holda javob berishlari mumkin. Bulardan tashqari, belgilangan axborotlar bo‘lgan hujjatlar bilan tanishishda ham qiyinchiliklar vujudga keladi.

Tadqiqotning keyingi bosqichi – yig‘ilgan axborotlarni tahlil qilish, ya’ni olingan ma’lumotlar majmuasidan eng muhim ma’lumotlar va natijalarni ajratib olishdir. Yig‘ilgan axborotlar olingan ma’lumotlarni statistik yoki iqtisodiy-matematik uslub orqali qayta ishlash yo‘li bilan tahlil qilib, o‘rganiladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda sifatli hamda zamonaviy axborot tizimlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarur. Ushbu sohani samarali rivojlantirish uchun mamlakatimizda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Respublikaning qulay geografik joylashuvi, mehnat, ishlab chiqarish, tabiiy va boshqa resurslarning mavjudligi ancha keng xo‘jalik faoliyati turlari bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi ijobiy institutsional va tarkibiy o‘zgarishlar, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash poydevori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov A. Sh., Sattorov S., To‘rayev J., Soliyev K., Ro‘ziyev S. O‘zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi.–T.: TDIU, 2005.
2. Qosimova M. S., Xodiyev B. Yu., Samadov A. N., Muxitdinova U. S., Kichik biznesni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 2010.
3. Кембелл К. Венчурный бизнес: новые подходы / Пер. с англ. –М.: Альпина Бизнес Букс, 2015.
4. Лапуста М. Г., Старостин Ю. Л. Малое предпринимательство. –М.: ИНФРА-М, 2011.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTI SHAROITIDA ELEKTRON BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Boboqulov Sanjar Baxronkulovich
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsent v.b.

Akramov G‘ayrat Otabek o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti IRB–120-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif O‘zbekistonda elektron biznes faoliyatini ahamiyati, uni rivojlantirish, davlat tamonidan qo‘llab-quvvatlash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, elektron biznes faoliyatini tashkil etish bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Shuningdek, elektron biznes faoliyatini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, elektron biznes, elektron tijorat, elektron savdo, samaradorlik, platforma, Internet, biznes, veb-iqtisodiyot, veb-xizmat.

Abstract: In this article, the author conducted a study on the importance of e-business in Uzbekistan, its development, government support, improvement of the organizational and economic mechanism, and organization of e-business. He also developed proposals and recommendations for the development of e-business.

Key words: digital economy, e-business, e-commerce, e-commerce, efficiency, platform, Internet, business, web economy, web service.

Аннотация: В данной статье автор провел исследование о значении электронного бизнеса в Узбекистане, его развитии, государственной поддержке, совершенствовании организационно-экономического механизма, организации электронного бизнеса. Также им были разработаны предложения и рекомендации по развитию электронного бизнеса.

Ключевые слова: цифровая экономика, электронный бизнес, электронная коммерция, электронная коммерция, эффективность, платформа, Интернет, бизнес, веб-экономика, веб-сервис.

KIRISH

Jahonda yuzaga kelayotgan globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlarining iqtisodiyotida keskin o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Buning asl sabablaridan biri sifatida innovatsion texnologiyalarni keng miqsoyda amaliyotga joriy etilishi, raqobat muhitining rivojlanishi hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasini keskin sur’atlarda rivojlanishi bilan belgilanmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlar YaIMda raqamli iqtisodiyotning ulushi keskin sur’atlar bilan oshib bormoqda, AQSHda 12 %, Xitoyda 10,8 %, Buyuk Britaniyada 6,7 %, Hindistonda 5,5 %, Singapurda 5,3 %, Rossiyada 4,6 %ni tashkil etmoqda [6]. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi YaIMda raqamli iqtisodiyotning ulushi 2,6 % ko‘rsatkichni namoyon etmoqda [7].

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda elektron tijorat va elektron biznesning ahamiyati yuqori hisoblanib, mamlakat iqtisodiyoti va aholisi uchun yangi imkoniyatlar va qulayliklar yaratib beradi. Hozirgi davrda dunyo aholisining 55 % qismi elektron biznesdan foydalanib kelmoqda va bu holat elektron biznes faoliyati bilan shug‘ullanuvchi sub’yektlar uchun yuqori daromat olish imkoniyatlarini yaratib bermoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tamonidan “…elektron tijoratni rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo‘lga qo‘yilmagan, bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining to‘xtab turishiga olib kelmoqda” [1], deb ta’kidlaganliklari, mamlakatimizda elektron biznes, elektron tijorat va elektron savdoni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar yetarli darajada emasligini hamda ushbu xizmat turlarini huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, davlat tamonidan qo‘llab-quvvatlash masalalarini amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, davlatimiz tamonidan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, raqamli iqtisodiyot, elektron biznesni rivojlantirish maqsadida “…elektron tijorat sohasida malakali kadrlar tayyorlash o‘quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shu jumladan chet eldagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shuningdek, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish” [2]. kabi ustuvor maqsad qo‘yilgani elektron biznes faoliyatini rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb mavzularidan biri bo‘lib qolayotganligini anglatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

R. H. Ayupov, G. R. Boltaboyeva “Raqamli iqtisodiyot asoslari” nomli darsligida zamonaviy elektron tijorat hamda raqamli iqtisodiyotning asosi bo‘lgan muammolar bilan bog‘liq masalalar, raqamli iqtisodiyotga o‘tish mexanizmi, elektron tijorat va elektron biznesning bir qancha samarali biznes modellari haqida ko‘plab qimmatli ma’lumotlar berilgan [3].

Q. J. Mirzayev, S. B. Boboqulov, B. Q. Janzakov “Raqamli iqtisodiyot” nomli o‘quv qo‘llanmasida raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanishi bilan bog‘liq texnologiyalar haqida umumiy tushuncha berilgan, boshqaruvning yangi oby’ektlari platformalar va biznes ekotizimlari, biznesni boshqarishning yangi tamoyillari tavsiflangan, elektron biznes va elektron tijoratni boshqarishning nazariy tamoyillari raqamli evolyutsiya ta’siri ostida biznes modellarini o‘zgartirish nuqtayi nazaridan keltirilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar keltirilgan [4].

N. E. Yadova “Jahon elektron tijorat bozorining hozirgi holati va uning rivojlanish istiqbollari” nomli ilmiy maqolasida tadqiqotchi tomonidan olib borilgan tadqiqot ishining asosiy maqsadi – Rossiya elektron tijoratining kelajakdagi tendensiyalarini bashorat qilish uchun global Internet-tijoratning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini o‘rganish va baholash bo‘yicha tadqiqotlar olib brogan [5].

S. N. Xamrayeva “O‘zbekistonda elektron savdo va elektron tijoratni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli ilmiy maqolasida O‘zbekistonda elektron tijorat va elektron savdoni rivojlantirish muammolari va xususiyatlari o‘rganilgan. Rivojlangan davlatlar va O‘zbekistonda elektron tijorat va elektron savdoning rivojlanish ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan [6].

Sunnatullo Do‘stov va boshqalar “Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari” nomli ilmiy maqolasida raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, jahon mamlakatlari aholisi iqtisodiyot tarmoqlarining o‘zgarishi, globallashuv sharoitida mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlashda iqtisodiyotning raqamlashtirilganligi darajasi haqida batafsil bayon qilingan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning tadqiqot jarayonida Raqamli iqtisodiyoti sharoitida elektron biznesni rivojlantirish va uni tashkil etish bo‘yicha izlanishlar tahlil etib o‘rganilgan. Shuningdek, bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o‘rganilib, mamlakatimizda elektron biznes faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlarni ochib berishda ahamiyat kasb etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro ekspertlarning olib brogan tahlillari ko‘ra, Xitoyning Alibaba chakana savdo guruhi 2022-yilda 700 milliard dollardan ortiq onlayn savdoga ega bo‘lgan dunyodagi eng yirik elektron tijorat chakana savdo tarmog‘idir. Biroq, Sietlda joylashgan Amazon elektron tijorat giganti 2027-yil uchun taxminiy sotuvlar bo‘yicha Alibabadan o‘zib ketishi kutilmoqda, yani Amazon onlayn savdodan 1,2 trillion dollardan ko‘proq daromad olashi bashorat qilinmoqda [11]. Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi olib borgan tahliliy o‘rganishlarga qaraganda, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biriga aylandi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi barqaror o'sib bormoqda. Xususan, 2022-yilda elektron tijorat savdolari hajmi 2021-yilga nisbatan 1,8 barobar oshib, 10 886,8 mlrd. so'mdan ortiqni tashkil etgan. Bu umumiy chakana savdo hajmining 4 foizdan ortig'iga tengdir [12].

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib mamlakatimizda elektron biznes faoliyatini mavjud imkoniyatlarimiz va rivojlnagan davlatlar tajribasidan kelib chiqgan holda yanada rivojlantirishimiz, mavjud elektron biznes faoliyatlarni takomillashtirishimizni taqozo etmoqda.

Elektron biznes faoliyati takomillashtirishimizda uning iqtisodiy mazmun-mohiyatini to'la anglab olgan holda rivojlantirishimiz mumkin bo'ladi. Elektron biznes atamasi 1996-yilda IBMning bosh direktori L. Gerstner tamonidan amaliyotga tatbiq etilib ishlatila boshlagan va bunga quyidagicha ta'rif bergan "Elektron biznes – bu Internetda biznes jarayonlarini olib boorish jarayoni" deya ta'riflab o'tgan. Ushbu elektron biznes jarayonlari Internet tarmoqlaridan IT vositalari orqali tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va boshqalarni o'z ichiga oladi degan fikrlarni ilgari surgan. Shuningdek, to'lovlarni qayta ishlash, ishlab chiqarishni nazorat qilishni boshqarish va boshqalarga tegishli bo'lishi mumkin degan fikrlarni ilgari surishgan [3].

Boshqa bir manbaada elektron biznes atamasi inglizcha "Electronic Business" so'zdan olingan bo'lib Internet biznesi deb nomlanib, bunda axborot tizimlaridan foydalangan holda avtomatlashtirilgan biznes jarayonlarning, tijorat ma'lumotlar almashinuvi va tijorat operatsiyalarining biznes modeli hisoblanadi degan fikrlarni ilgari surishgan [3].

Fikrimizcha, elektron biznes IT vositalari orqali iqtisodiy manfaatlarni ko'zlagan holda virtual olamdagi faoliyat hisoblanib, jamiyat va insonlarga sifatli xizmat ko'rsatish, ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgan jarayondir. Shuningdek, elektron biznesda moddiy va nomoddiy tovarlar, ma'lumotlar, hujjatlar, hisobotlar ayirboshlanishi mumkin bo'lgan jarayondir.

Elektron biznesdan foydalanish odatda ikkita yo'nalishda amalga oshiriladi. Ya'ni yangi biznesni yaratish yoki faoliyatni kengaytirish maqsadida yoki mavjud elektron biznes faoliyatini kengaytirish uchun axborot texnologiyalarini joriy etishdir [4].

Hozirgi vaqtda elektron biznesning bir qator yo'nalishlari mavjud bo'lib, keng miqyosda rivoj topib bormoqda. Bular quyidagilar:

- Elektron biznes faoliyati;
- Internet xizmat ko'rsatish;
- Internet tarmog'ida kontent xizmatlari;
- Elektron firmalar faoliyati kabi yo'nalishlardan iboratddir.


Quyida keltirilgan yo'nalishlar orqali elektron biznes hozirgi davrda keng rivoj topib bormoqda. Elektron biznes faoliyatinini rivojlanishiga uning bir qator avfzalliklari sabab bo'lmoqda. Xususan, keng miqyosda marketing xizmatlarini joriy etilishi, ishchi, xodimlar bilan yuz beradigan turli xavflarni kamayishi, biznesni keng miqyosda kengayishi, tadbirkorlik kapitalini doiraviy aylanishi tezlashishi, biznes moddiy aktivlarini kamayishi, sotuvchi va xaridorlar o'rtasida masofani yo'qolishi, erkin raqobat muhitini shakllanishi kabi avfzalliklarga egadir.

Shu bilan birgalikda elektron biznesning kamchiliklari ham mavjud. Masalan, tarmoq bo'yicha cheklovlarning mavjudligi, elektron biznes faoliyatini shakllantirish uchun sarflanadigan sarf-xarajatlarning kattaligi, kiber hujumlar, dark-netni rivojlanishi, soliqlardan qochish, qonuniy-me'yoriy hujjatlarning talab darajasida emasligi, aholi savodxonligini yetishmasligi kabi kamchiliklar ham mavjud bo'lib elektron biznesni rivoji salbiy ta'sir qilmoqda. Fikrimiz tasig'i sifatida mamlakatimizda raqamli iqtisidiyot va elektron biznes sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushini tahlil qilishimiz orqali ham ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: Raqamli iqtisodiyot va elektron biznes sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (YaQQga nisbatan % da) [4]

Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	1,9	2,1	2,3	2,0	1,7	1,9	2,5	3,4
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	1,8	2,0	2,1	1,8	1,5	1,6	1,7	1,9
AKT ishlab chiqarish	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
AKT savdosi	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,1	0,1
AKT xizmatlari	1,6	1,8	1,9	1,7	1,4	1,5	1,6	1,8
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
Elektron tijorat			0,0	0,0	0,1	0,1	0,6	1,2

Jadvalga ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak asosan davlatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, AKT ishlab chiqarish, AKT savdosi, AKT xizmatlari, kontent sektori va ommaviy axborot vositalari jabxalarida o'sish tendensiyalarini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda raqamli iqtisodiyot dinamikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, 2015-yilda 1,9 foizni tashkil etgan bo'lsa 2019-yilga kelib 1,7 foizni, 2022-yilda 3,4 foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. 2019-yilda dinamik ko'rsatkichning pasayishi asosiy sabablardan biri sifatida yuzaga kelgan pandemiyaning salbiy ta'sir qilgani bilan izohlasak bo'ladi. Lekin, 2019-yildan keying davr raqamli iqtisodiyotni rivojlanishiga alohida xizmat qildi. Pandemiya sharoitida raqamli iqtisodiyot orqali keng xizmatlar ko'rsatilib ijobiy natijalarga erishila boshladi. Bundan kelib chiqib dunyo mamlakatlari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalarni amalga oshira boshladilar. Davlatimizda elektron biznes faoliyati 2019-yildan boshlab rivojlana boshlagan. Elektoron tijorat mamlakatimizda 2019-yilda 0,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 1,2 foiz qariyb 12 barobar o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlaridan elektron tijorat sohasi yaqin davrlardan boshlab asta-sekinlik bilan rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Ammo mavjud imkoniyatlarimizga e'tibor beradigan bo'lsak elektron biznesni yanada rivojlantirish imkoniyatlarimiz mavjud. Buni elektron tijorat va chakana savdo hajmi kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilishimiz orqali ham mavjud imkoniyatlardan potensial foydalanishimiz natijasida erishishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm: O'zbekiston Respublikasini 2016–2022-yillarda elektron tijorat va chakana savdo hajmi (mlrd. so'm) [11]

Elektron tijorat va elektron biznesni rivojlanish darajasini belgilab beruvchi ko'rsatkichlardan biri bu elektron tijoratni YaIMda ulushi hisoblanadi. YaIMda faoliyatning ulushining oshib borishi elektron tijoratning ko'lamini kengayotganligini bildiradi. Mamlakatimizda elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan say-harakatlarning faolligi sababli keying vaqtlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. 1-rasm ma'lumotlarida 2016–2022-yillarda O'zbekistonda elektron tijorat va chakana savdoning hajmini o'sish tendensiyalarini ko'rishimiz mumkin. Rasmda 2016-yilda elektron tijorat hajmi 6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 10886,8 mlrd. so'mni tashkil etgan. Aksincha chakana savdo hajmi 2016 yilda 88071,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa 2022-yilga kelib ushbu tendensiya 270687,2 mlrd. so'm o'sish ko'rsatkichini tashkil etgan. 2022-yilda elektron tijorat savdo hajmi 2021-yilga nisbatan deyarli 2 barobardan yuqori bo'lgan. Shuningdek, chakana savdo hajmi esa 2021-yilga nisbatan 4 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda elektron biznes faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tamonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida "… elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi sub'yektlarning tovar va xizmatlar uchun to'lovlarini QR to'lovlari texnologiyasi va NFC texnologiyalarini joriy qilish, jumladan mobil qurilmalar orqali to'lovlarni qabul qilish orqali zamonaviy va qulay bo'lgan masofaviy usullarda qabul qilish imkoniyatini yaratish" [2]. kabi vazifalarni amaliyotga tatbiq etilishi natijasida sotuvchi va iste'molchi o'rtasida to'lov jarayonlarini osonlashishi, masofadan turib savdo amaliyotlarini kengayishiga, tizim faoliyatini samarali ishlashiga xizmat qiladi. Shuningdek, "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ–3442-son Qarori qabul qilingan bo'lib elektron tijorat va elektron biznesni rivojlantirishda muhim me'yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi. Qarorda elektron biznes, elektron tijoratni rivo-

jlantirishdagi muammolar, kamchiliklar, elektron biznes faoliyatida qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalarga yechimlar keltirilgan [1].

Qarorda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini berdi. Shunga qaramay, mamlakatda elektron tijoratning to‘laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishiga to‘siq bo‘layotgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Bu borada xususan:

- birinchidan, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimi soha taraqqiyotining jadal sur’atlardagi o‘zgarishlariga mos kelmaydi va o‘z navbatida aholi keng qatlami va tadbirkorlik sub’yektlari uchun elektron tijoratdan foydalanish imkonini ta’minlamaydi;
- ikkinchidan, mahalliy tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarda to‘liq raqobatlashish, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermayotgan elektron tijorat orqali tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishning eskirgan byurokratik to‘siqlari saqlanib qolmoqda;
- uchinchidan, elektron tijoratni rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo‘lga qo‘yilmagan, bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining to‘xtab turishiga olib kelmoqda;
- to‘rtinchidan, mahalliy to‘lov tizimlarining mashhur xorijiy analoglari bilan integratsiyasi yo‘qligi, mamlakat tadbirkorlik sub’yektlarining elektron tijorat sohasidagi yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan to‘liq xalqaro hamkorlikda ishlashlariga, shuningdek, mahalliy bozorning eksport salohiyati va raqobatbardoshligiga ta’sir qilmoqda;
- beshinchidan, elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, tovarlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish darajasi pastligicha qolmoqda, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat budjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda;
- oltinchidan, amaldagi soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik sub’yektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni rag‘batlantirmaydi, bu esa Internet tarmog‘i orqali mahsulotlarni xufyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib kelmoqda, shuningdek, ushbu sohaga investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni cheklamoqda [1].

Yuqorida keltirilgan Qarorda keltirilgan muammolardan kelib chiqib mamlakatimizda elektron biznes va elektron tijoratni rivojlantirish, ushbu soha faoliyatiga alohida e’tibor berishimiz hamda YaIMda uning ulushini yana ham oshirishimiz maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim:

- birinchidan, davlat miqyosida aholi, tadbirkorlar, davlat muassasalari darajasida elektron tijoratni keng joriy qilish bo‘yicha zaruriy qonunchilik bazasini shakllantirish va mavjud normalarni takomilashtirish:
- ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyati, biznes yuritish jarayonida raqamli texnologiya va raqamli dasturiy ta’minotlardan keng foydalanish orqali “gibrit biznes”ni shakllantirish va keyinchalik uni to‘laqonli raqamlashtirish [8];
- uchinchidan, IT vositalari, raqamli texnologiyalar, dasturiy ta’minotlar, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va import qilish bo‘yicha imtiyozlar paketini shakllantirish va keyinchalik mahalliy ishlab chiqarish bosqichiga o‘tish;
- to‘rtinchidan, mahallalar, tumanlar, shaharlar va viloyatlar kesimida aholi o‘rtasida elektron biznes faoliyati bilan shug‘ullanish va undan samarali foydalanish bo‘yicha o‘quv-trening kurslarini tashkillashtirish, elektron biznesning avfzalliklari, foydalanish yo ‘llari haqida aholi ko‘nikmasini takomillashtirish;
- beshinchidan, elektron tijorat, elektron biznes faoliyatini davlatimizda muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlash maqsadida raqamli to‘lov tizimini takomilashtirish xalqaro andozolarga integratsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish va milliy raqamli to‘lov tizimiga asos solish kabi ustuvor vazifalarni amaliyotga joriy etishimiz hamda mamlakatimizda elektron biznes faoliyatini yanada rivojlantirishimiz va xorij mamlakatlari bilan raqobatlasha olishimiz mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bunday olib qaralgan tarkibiy o‘zgarishlarning ijobiy bo‘lishi natijasida iqtisodiy o‘sishga erishishimiz mumkin. Zero, raqamli iqtisodiyotda ilgarilab borayotgan davlatlar tajribasini qo‘llab-quvvatlashning yanada keng qamrovli usullarini o‘rganish, raqamli ishlab chiquvchilar strategiyalari va globallashuvining kelajakdagi konturlarini qayta aniqlashtirish uchun yangi texnologiyalardan oqilona foydalanish, sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va intellektual yetakchilikni kuchaytirish zarur [8]. Shundagina davlatimizda elektron biznesni rivojlantirishimiz, YaIMda doimiy ulushini oshirib borishimiz, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yuksaltirishimiz, tabiiy resurslarni tejab ko‘proq mahsulotlar ishlab chiqishimiz va samaradorligini oshirishimiz, aholi

turmush farovonligi yuksaltirishimiz mumkin bo‘ladi. Buning uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etishimiz lozim:

- birinchidan, raqamli xizmatlar va elektron biznes uchun elektron to‘lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to‘lovlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasini takomillashtirish;
- ikkinchidan, elektron tijoratning rivojida muhim rol o‘ynovchi pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash, shuningdek, pochta va logistika xizmatlari sifatini oshirish kabi takliflarni amaliyotga joriy etish;
- uchinchidan, raqamli savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida raqamli texnika-texnologiyalar (blokcheyn texnologiyasi, bulutli texnologiyasi, su’niy intelekt, “Smart” texnologiya, 3D texnologiyasi, 5G aloqa tizimi, buyumlar interneti)dan samarali foydalanish hamda xizmat ko‘rsatish sohasini raqamli texnologiyalar bilan diversifikatsiya qilish va buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabatlar mexanizmlarini takomillashtirish;
- to‘rtinchidan, aholini elektron biznesdan samarali foydalanishini ta’minlash maqsadida savodxonlik darajasini yuksaltirish ishlarini ommaviy olib borish, elektron biznesda oldi-sotdi jarayonlarida uzluksizligini ta’minlash maqsadida hamyonbob smartfonlarni ishlab chiqarishni keng miqyosda joriy etish;
- beshinchidan, mamlakatimizda elektron biznes, elektron tijorat faoliyatini uzviyligini ta’minlash maqsadida Internet tezligini yanada yaxshilash va infratuzilmasini yanada takomillashtirish;
- oltinchidan, hozirgi davrlarda ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat ko‘rsatyotgan biznes yurituvchi sub’yektlar faoliyatini qonuniylashtirish, legallashtirish va ularga imtiyozlar paketini shakllantirib berish;
- yettinchidan, raqamli platformalarda faoliyat ko‘rsatyotgan elektron tijorat tizimida “Aqlli biznes”, “Xavfsiz biznes” dasturlarini shakllantirish va milliy loyihasini amalga oshirish.

Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotini o‘sishiga, YaIMda raqamli iqtisodiyot, xususan, elektron biznesning ulushini ortishiga, aholini elektron biznesda faoliyat ko‘rsatish bo‘yicha bilim va ko‘nikmasini ortishiga, tadbirkorlarimizni jahon bozoriga tez sur’atlarda chiqishiga, tarmoqlarda erkin raqobat muhitini shakllanish hamda Prezidentimiz “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilab berganlaridek 2030-yilga borib YaIMda raqamli iqtisodiyotning ulushi 30 % yetkazish kabi ustuvor maqsadlarni amalga oshirishimizda xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bunday islohotlarning amalga oshirilishi elektron biznes va elektron tijoratlashtirish jarayonini yanada tezlashtiradi va makroiqtisodiy barqarorlikga erishishga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3724-son Qarori. Toshkent sh. 2018-yil 14-may. www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-son Farmoni. Toshkent sh. 2020-yil 5-oktabr. www.lex.uz.
3. R. H. Ayupov, G. R. Boltaboyeva Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020-y, 125 bet.
4. Q. J. Mirzayev, S. B. Boboqulov, B. Q. Janzakov, Raqamli iqtisodiyot / O‘quv qo‘llanma / Samarqand.: SamISI, “STAP-SEL” MChJ. Nashriyot matbaa bo‘limi, –2022-y. 86 bet.
5. Ядова Н. Е. Современное состояние мирового рынка электронной коммерции и перспективы его развития // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Экономика. 2019. № 2. С. 116–125.
6. S. N. Xamrayeva “O‘zbekistonda elektron savdo va elektron tijoratni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari” Innovatsion iqtisodiyot / Инновационная экономика / The Innovation Economy №1. 2023.
7. Sunnatullo Do‘stov va boshqalar “Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari” https://cyberleninka.ru/article/n/234.
8. S. B. Bobokulov. Diversifying the service field under digitalization. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/429.
9. Kurpayanidi Konstantin Ivanovich “Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021-yil.
10. http://www.worldbank.org/eca/russian/data.
11. http: //https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot.
12. https://www.statista.com/statistics/379046/worldwide-retail-e-commerce-sales.
13. https://daryo.uz/2023/09/26/ozbekistonda-elektron-tijorat-kecha-va-bugun.

AN ANALYSIS OF GREEN TAXATION AND ITS EFFECT ON ECONOMIC GROWTH

Fayzieva Nargiza Rabimovna
Senior teacher of the Department of Mathematical Methods in Economics, PhD, Tashkent State University of Economics

Abstract: This study examined green taxation as one of the tools that governments are utilizing to protect the environment and deter enterprises from having a detrimental influence. In order to lessen the tax burden from growth-oriented elements and contribute to the reduction of pollution and the depletion of natural resources, green taxes also known as environmental, pollution, eco, and carbon taxes are implemented. Though it is primarily seen to apply in industrialized countries, the application of green taxes has not been fully approved in all nations. A few emerging nations use soft policies, such renewable energy subsidies. The policies pertaining to green taxes have encountered numerous obstacles, mostly because of their adverse effects on the economy, which include elevated rates of unemployment. Nonetheless, there are ways to implement the reforms without having a detrimental effect on the environment, as by bolstering them with complementing legislation. Furthermore, in order to develop novel production techniques, cooperation between all parties involved primarily the government, businesses, and environmental organizations is required. The primary industries that degrade the environment are those that manufacture tires, transportation equipment, and other goods. These industries can't be completely eradicated, but there are strategies that can keep them viable and profitable.

Key words: Green Taxation, Environment, Financial Sustainability, Renewable Energy

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot hukumatlar atrof-muhitni muhofaza qilish va korxonalarni zararli ta'sir ko'rsatishdan to'xtatish uchun foydalanadigan vositalardan biri sifatida yashil soliqqa tortishni ko'rib chiqdi. O'sishga yo'naltirilgan elementlardan soliq yukini kamaytirish va ifloslanishni kamaytirish va tabiiy resurslarning kamayishiga hissa qo'shish uchun ekologik, ifloslanish, eko va uglerod solig'i deb ham ataladigan yashil soliqlar amalga oshiriladi. Bu asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilishiga qaramasdan, yashil soliqlarni qo'llash barcha mamlakatlarda to'liq ma'qullanmagan. Bir nechta rivojlanayotgan davlatlar yumshoq siyosatlardan, masalan, qayta tiklanadigan energiya subsidiyalaridan foydalanadilar. Yashil soliqlarga taalluqli siyosat ko'p to'siqlarga duch keldi, asosan ularning iqtisodga salbiy ta'siri, jumladan, ishsizlik darajasining oshishi. Shunga qaramay, islohotlarni atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatmasdan amalga oshirish yo'llari mavjud, ya'ni ularni to'ldiruvchi qonun hujjatlari bilan mustahkamlash. Bundan tashqari, yangi ishlab chiqarish texnikasini ishlab chiqish uchun barcha jalb qilingan tomonlar, birinchi navbatda, hukumat, biznes va atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari o'rtasida hamkorlik zarur. Atrof-muhitni buzadigan asosiy tarmoqlar shinalar, transport uskunalari va boshqa tovarlar ishlab chiqaradigan tarmoqlardir. Bu tarmoqlarni butunlay yo'q qilib bo'lmaydi, lekin ularning hayotiy va daromadli bo'lishini ta'minlaydigan strategiyalar mavjud.

Kalit so'zlar: Yashil soliqqa tortish, atrof-muhit, moliyaviy barqarorlik, qayta tiklanadigan energiya.

Аннотация: В этом исследовании "зеленое" налогообложение рассматривалось как один из инструментов, которые правительства используют для защиты окружающей среды и предотвращения пагубного влияния предприятий. Чтобы уменьшить налоговое бремя, связанное с элементами, ориентированными на рост, и способствовать снижению загрязнения и истощения природных ресурсов, вводятся зеленые налоги, также известные как экологические налоги, налоги на загрязнение окружающей среды, экологические налоги и налоги на выбросы углерода. Хотя в первую очередь считается, что "зеленые" налоги применяются в промышленно развитых странах, их применение не получило полного одобрения во всех странах. Некоторые развивающиеся страны используют мягкую политику, например субсидии на возобновляемые источники энергии. Политика, касающаяся зеленых налогов, столкнулась с многочисленными препятствиями, главным образом из-за их негативного воздействия на экономику, включая рост уровня безработицы. Тем не менее, существуют способы реализовать реформы, не оказывая вредного воздействия на окружающую среду, например, подкрепив их дополнительным законодательством. Кроме того, для разработки новых технологий производства необходимо сотрудничество всех сторон, в первую очередь правительства, бизнеса и экологических организаций. Основными отраслями промышленности, которые ухудшают окружающую среду, являются производства шин, транспортного оборудования и других товаров. Эти отрасли невозможно полностью искоренить, но существуют стратегии, которые могут сохранить их жизнеспособность и прибыльность.

Ключевые слова: зеленое налогообложение, окружающая среда, финансовая устойчивость, возобновляемые источники энергии.Yashil soliqqa tortish va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlili

INTRODUCTION

Green taxes are excise taxes on products and services whose use contributes to pollution, according to Carattini et al. (2017). The goal of green taxes, sometimes referred to as pollution, carbon, environmental, and eco taxes, is to improve the environment. Environmental policies place a lot of weight on environmental taxes. Taxation is primarily used to deter corporations from engaging in activities that have a detrimental impact on the environment. Businesses, governments, and consumers, among other stakeholders, are becoming more conscious of the effects of their operations on the environment as a result of the threats posed by global warming. Several environmental organizations have been founded to put pressure on all parties involved to act responsibly. Environmental taxation has been used since the 1990s to shift the tax burden away from growth-oriented factors and toward minimizing pollution and the depletion of natural resources (Andreoni, 2019). Companies are very important to a nation's economic development. They do, nevertheless, also play a major role in the harm that they cause to the environment. Governments have implemented green taxation policies in an effort to reduce their use of natural resources in manufacturing and production by raising the cost of these resources as inputs. This is a response to their desire to protect the environment. Many nations have imposed green taxes, albeit they haven't yet achieved their goal (Siebers et al., 2019). Governments must provide support tools to allow businesses to be profitable while also being sustainable in order to reduce their negative environmental effects. This study makes recommendations on how governments and organizations can use green taxation policies to effectively accomplish both of their goals while also examining how governments are implementing green taxation and the risks and obstacles they face.

THE APPLICATION OF GREEN TAXES

Countries and international organizations have been working hard over the past ten years to develop a universal governance framework that would enable them to address climate change. The typical approach has been the introduction of green taxation, which, although widely known, has not yet gained complete acceptance in many nations. Furthermore, the majority of countries prefer to enact soft policies like subsidies for renewable energy, which are typically both regressive and expensive, while just a small number of countries have chosen to enact green taxes. According to Carattini et al. (2017), several countries have found it challenging to introduce green taxes. Nonetheless, in light of previous mistakes, it's critical that countries boost support for and expand the application of green tax measures. Like previous tax reforms, green taxation plans have encountered resistance in a number of nations. Governments that have enforced these measures strictly have, nevertheless, witnessed a rise in green tax income and compliance. According to Almansoori et al. (2019), one way businesses reveal their sustainable initiatives is through corporate sustainability reporting. Governments can use such reports to decide which green taxation measures are most appropriate to implement. For example, the EU saw a rise in green tax revenue, and five of its twenty-five states saw progress toward a more sustainable system. In other states, the main causes of the inequalities in green tax revenue have been structural changes and economic growth. Because of this, most countries are not doing enough to put the green tax reforms into effect and move the focus from workers to the environment. In 2019. (Andreoni).

CIRCULAR ECONOMY AND GREEN TAXATION

One of the most productive nations in the world, China, took the lead in creating a circular economy. This economic model preserves the environment and is good for the preservation of natural resources. By focusing on recycling, the model will change from resource-products-waste to resource-products-reproduction resources. China needs to be heavily involved in the development of its economy in order to implement a circular economy. For example, the government needs to be linked with the right policies and tools. According to Sun (2013), China needs to create a green tax structure in order to execute the circular economy. A circular economy with a primary focus on sustainable manufacturing is also being implemented in India. Sustainability has three impacts: environmental, economic, and social, according to the triple bottom approach. To guarantee that the requirements of sustainable development are satisfied, the three domains must be integrated. Although there are many parties involved in sustainability, the government is crucial, particularly in fostering the development of a circular economy. The government's primary responsibility is to formulate policies that strike the correct balance between fostering development and reducing unfavorable externalities associated with resource consumption (Mishra and Mittal, 2019). Additionally, the government employs taxation measures to make some inputs more costly in an effort to dissuade firms from using them and promote the use of cleaner manufacturing inputs.

GREEN TAXES' EFFECTS ON THE ECONOMY

Kuralbayeva (2019) investigated how environmental tax reforms affected welfare and unemployment in developing countries where there is a significant informal rural-to-urban migration. The governments of developing countries contemplated if imposing environmental taxes would facilitate not just the realization of environmental objectives but also the accomplishment of other socio-economic goals, like lowering the unemployment rate. Kuralbayeva (2019) further contended that historically, measures taken to lower the unemployment rate have a tendency to have a detrimental effect on other policy goals since they lower private incomes, particularly for those receiving government assistance. Therefore, enacting environmental legislation is a politically challenging task. However, in order to lessen the impact of the green tax on the private sector and make the change socially palatable, complementary measures like cuts to public spending must be minimized. Kuralbayeva (2019) came to the conclusion that green taxes increased endogenous public spending and decreased social welfare. Consequently, reduced public spending as an adjunctive measure to promote the benefits of green tax reforms on the labor market in developing nations would not succeed. Therefore, in order to help these countries execute the environmental tax changes, authorities must find alternative means of assisting them in lowering the labor-related green tax burden. Businesses and environmental organizations are at odds all the time. For example, these organizations frequently run campaigns that influence consumer choices and market results (Stathopoulou and Gautier, 2019). Green taxes exacerbate this conflict and, when combined with the rivalry between these two parties, reduce pollution, but at the expense of decreasing demand. However, (Stathopoulou and Gautier, 2019) contended that, as seen by the emergence of new green alliances, the antagonistic interactions between environmental organizations and polluting companies have changed. These partnerships have aided businesses in developing cutting-edge production techniques and in locating fresh goods that meet consumer demands (Stathopoulou and Gautier, 2019). The formation of alliances has also resulted in the development of financial technology that are used to support, encourage, and help businesses manage their financial operations. Furthermore, according to Al Hammadi et al. (2019), they are cutting-edge instruments that can be applied to concentrate on sustainable performance. Environmental organizations have also benefited from the alliances since they have been able to increase the effectiveness and efficiency of their campaigns. According to Miu et al. (2018), domestic buildings in the UK are responsible for 25% of the nation's carbon emissions and 30% of its ultimate energy usage. As a result, the nation must put policies into place that will boost carbon savings and residential dwelling energy efficiency. Now that the nation's legislative initiatives have failed, it is focusing on retrofit dwellings, which have also proven to be less successful. According to Miu et al. (2018), the nation need retrofit solutions that will break through industry barriers while preserving financial stability for investors and consumers and accelerating UK domestic house carbon reductions. The author suggests that the best way to get around the present obstacles to retrofit schemes is to combine a green mortgage with a variable council tax.

Increased international container volume as a result of globalization is putting increasing strain on port-to-port links and maritime shipping (Dai et al., 2018). Shippers are now compelled to establish competitive supply chains for containers in order to convey their shipments more efficiently. Another key component of successful global logistics chains is port-hinterland interaction. Governments have created transportation models to reduce greenhouse gas emissions in the logistics and transportation sectors. But the majority of these models haven't worked well. Dai et al. (2018) came to the conclusion that while models that aid in pollution management can be developed, robust policy settings are necessary for the models to be supported.

The world's international commerce volumes are rising, mostly due to maritime transportation, which has raised carbon dioxide emissions and contributed to the ongoing climate change. Dulebenets (2018) also pointed out that carbon dioxide emissions from the maritime transportation industry account for the majority of greenhouse gas emissions. Average global temperatures are expected to rise as a result of these emissions, which could have disastrous effects. Governments are therefore compelled to implement measures that will aid in reducing these emissions. According to Dulebenets (2018), raising the carbon dioxide tax rate might have a substantial impact on vessel schedule design, result in higher costs for route services, and promote environmental sustainability. Liner shipping companies will be compelled to decrease vessel sailing speed in order to minimize fuel consumption and carbon dioxide emissions from their boats while at sea if the required carbon price is raised. A vessel's reduced sailing speed will result in longer container transit times and higher inventory costs. Furthermore, if a vessel's speed decreases, more vessels will need to be deployed to meet the demand for transportation, which will raise the vessels' operating costs. On the other hand, port operations will not be impacted by the higher carbon tax. Cerniauskas et al. (2019) shared similar opinions, arguing that the lack of adequate infrastructure for alternative fuels is the cause of technical lock-in in the transportation and industrial sectors. Nonetheless, the authors came to the conclusion–citing Germany as their case study–that captive

fleets and public transportation provide a more affordable option for the rollout of renewable hydrogen supply (Cerniauskas et al., 2019).

Tsai (2018) claims that the tire industry is one of the most polluting industries, primarily due to carbon dioxide emissions. One of the green taxation schemes being considered by governments is the carbon tax, which is intended to lessen environmental damage. In addition to its direct benefits, the carbon tax offers indirect ones as well, such as enhanced expectations for future energy prices and its effect on other pollutants and technological advancements. According to Tsai (2018), carbon taxes and carbon trading schemes are useful tools for combating global warming and will support the development of a green economy. The author also pointed out that businesses that lower their carbon emissions also save a lot of money on operating expenses, which results in higher profitability.

Carbon emissions are a given in every production system, according to Datta (2017). In 2016, Ivanov and Hartmann conducted a study which revealed that the South African soft drink manufacturing industry's 300 ml PET packaging technique has 4.5 times higher potential to cause global warming than the 500 ml PET packaging. Therefore, in order to reduce carbon emissions and boost revenues, Ivanov and Hartmann (2016) encouraged producers to consider the effects of altering container size. Transportation, machine operation, chemical reactions, and storage are the primary activities that release carbon into the atmosphere. According to Datta (2017), capital investment in green technology is a novel feature that will help reduce emissions and partially offset the carbon tax in order to boost earnings. Furthermore, the carbon tax benefits the environment but has a detrimental effect on GDP and maximum profit.

Green growth is one of the efforts aimed at achieving ecologically sustainable economic development, which is required due to the continuous effects of climate change. A major factor contributing to the promotion of green growth is the high cost of inputs that emit pollutants. The development of clean technologies increases when the cost of these inputs surpasses that of the cleaner factors of production (Di Maria et al., 2017). Fossil-based energy is one example of a polluting input; according to Di Maria et al. (2017), it is too inexpensive, which deters green growth. As a result, nations must enact laws that will raise the cost of inputs used in pollution.

A resource tax was introduced by China and is levied on certain natural resources. Manufacturers are now more inclined to use renewable energy and green materials as a result of the levy. The government places a strong emphasis on resource extraction, therefore businesses must choose the right materials to produce in an environmentally friendly manner. China continues to use large amounts of natural resources even with the resource tax in place, suggesting that the tax policy is not having the desired effect. According to Lin et al. (2011), the nation need to impose a high tax rate on resources that are finite, non-renewable, and that will have a bigger impact on the environment during exploration. The authors also recommended using negative taxes, or providing subsidies in order to promote renewable energy policy.

According to Siebers et al. (2019), although a carbon tax lowers earnings, businesses may still budget more for investments to boost profitability. The authors suggested a strategy for decision-making assistance that can assist businesses and the government's tax policy for appropriations in achieving the aim of environmental development. Since a company's level of taxes and investment decisions determine its profit value, the government's tax policy will directly affect the profitability of the company. Policies with excessive carbon taxes will lower business earnings and deter investment, both of which would raise unemployment rates. Tran (2019) voiced similar opinions and developed a strategy to assist businesses in choosing their decarbonization investments by striking a balance between corporate earnings, environmental preservation, and carbon taxes. According to Tran (2019), a company's investment decision is influenced by changing tax rates and developing environmental conservation consciousness (Al Breiki et al., 2019). That being said, a company that is willing to invest a larger portion of its budget will probably make more money. But the government must also make sure that the carbon price fosters economic expansion while simultaneously safeguarding the environment.

Tsai (2018) also mentioned that all impacted firms are required to pay the carbon tax, which is a tool used by the Taiwanese government to limit carbon emissions. The carbon price will increase the capacity to reduce carbon emissions while minimizing overall social and environmental costs. Maximizing profits is the aim of corporations. Thus, raising taxes by governments gets in the way of achieving this objective (Alhadhrami et al., 2019). Tsai (2018) contended, however, that businesses may still use capacity growth and the right tactics to boost competitiveness to increase their ability to produce profits, allowing them to maximize earnings even in the wake of the carbon tax.

According to Rengs et al. (2020), a supply-oriented subsidy from green innovation supported by money from the carbon tax leads to a significant reduction in carbon emissions without having a detrimental effect on employment. On the other hand, demand-side subsidies that were similarly financed and aimed at deploying

greener technology resulted in little to no decrease in carbon emissions and increased unemployment rates (Rengs et al., 2020). Governments seeking to promote green innovation should focus on supply-side incentives rather than demand-side ones, according to the aforementioned results. Furthermore, Haryati et al. (2018) contended that every part of the world might be used as a source of revenue without endangering people or the environment. The focus of the author's work was on using public spaces for media campaigns or commercials. The active space program offers the government the possibility of generating tax revenue that may be allocated to other projects, such environmental programs. The government can profit by charging promotions and ads in public areas, just like it can from green taxes.

While most nations are adopting green taxes, which appear to be the most effective way to protect the environment, others have not reduced the hazards associated with taxing. According to Akhmadeev et al. (2019), companies that engage in international commerce frequently relocate their operations to nations with more benevolent tax laws. The same holds true for green taxes. While environmental conservation is vital for all nations, it can only be effective if it is adopted by all of them.

METHODOLOGY

Twenty Scopus journal articles on environmental, carbon taxes, and green issues were used in this study. The publications are established in various nations and have employed various techniques. Also, five SSRN papers–most of which are headquartered in the UAE–were used in this study. This research paper's literature review draws from a wide range of 25 journals and articles that have examined various subjects linked to the business and government implementation of green taxes, including energy, sustainability, the environment, economics, and transportation. The qualitative method of data collection employed in this study involves the use of secondary data to analyze the following topics: the application of green taxation, the circular economy, the impact of green taxation on the economy, conflicts between businesses and environmental organizations, the contribution of various sectors to environmental pollution, and the handling of green taxation.

RESULTS AND DISCUSSION

Governments and environmental groups have had a difficult time raising public understanding of how corporations harm the environment and how it impacts individuals negatively, such as through global warming. There is still more work to be done, even while companies are improving their sustainability and acknowledging their negative effects, as seen by their regular sustainability reports. Green taxes, which aims to deter enterprises from having a negative environmental impact, is one way to safeguard the environment. Since the United Nations and other international organizations have established objectives for environmental protection, the application of green taxes has increased. This study has shown that not all nations have enacted green taxes, with others preferring to use soft policies like alternatives to renewable energy sources. As a result, the global community is failing to meet its objective of lessening its adverse environmental effects. A nation that does not impose green taxes or other measures to deter the depletion of natural resources becomes a manufacturing hub for businesses unwilling to adopt sustainable forms of production. Similar to how businesses relocate their operations to regions with lenient tax laws, corporations will also relocate their operations to regions without green taxes. Therefore, the global targets are not being realized despite the efforts of governments in rich nations to reduce pollution. Apart from imposing green taxes, the governments of China and India, two of the world's most productive areas, are also putting measures into place to encourage the circular economy, which is bolstered by green taxes. By depending more on recycling, the economic models in these nations aim to go from resource-products-waste to resource-products-reproduction resources. To guarantee that the sustainability objectives are met, the governments of the two nations, along with all other relevant parties, promote the circular economy. The two nations demonstrate that additional measures are needed to expedite the attainment of sustainability objectives, since green taxes alone will not enough to protect the environment.

There is evidence that through innovation, corporations can come up with production strategies with minimal or no negative impact on the environment, even though the literature review demonstrates that manufacturing and production are impossible without pollution and other negative environmental effects. Working together, the government, environmental organizations, and businesses open up new possibilities for developing cutting-edge technology and manufacturing techniques that will benefit businesses by boosting revenue and meeting customer demands while also protecting the environment. These green partnerships are taking the place of the past conflicts between environmental and commercial groups.

This study also discovered that although the goal of green taxes is to lessen their adverse effects on the environment, they are instead having a detrimental effect on the economy. Due to the fact that high green taxes

are reducing business profitability, which in turn results in less investment and fewer jobs being created, the tax reforms are perceived as having a negative impact on the unemployment rate. Thus, green taxes are not only contributing to environmental damage but also creating other issues, particularly with the economy. It is advised that all parties involved become aware with green taxation policies, that socially acceptable tax changes be implemented, that complementary policies be put in place, and that the private sector be spared the brunt of the green tax in order to maintain its profitability. In addition, businesses and environmental organizations should collaborate constantly to develop new and improved manufacturing techniques.

CONCLUSION

Green taxation policies are becoming more and more common, although they have not yet been adopted in every nation on Earth. The few nations that are implementing these laws to protect the environment have not been successful in reaching their objectives. One of the main issues is that green taxes exacerbate other economic issues, such as the rise in the unemployment rate, which happens when businesses' revenues decline as a result of high taxes and they are unable to make additional investments, which prevents jobs from being created. The implementation of green tax measures that safeguard both the economy and the environment must be balanced by governments. As a result, it is imperative to uphold the triple bottom line, which is to safeguard society, the environment, and the economy. Manufacturing and production seem to be incompatible with maintaining a healthy environment. Nonetheless, researchers have developed a number of models that might assist firms in striking a balance between environmental preservation and profitability. Furthermore, the cooperation between environmental organizations and businesses is opening up possibilities to develop creative production techniques that support businesses in meeting their financial objectives while protecting the environment. To assist achieve the stated aims, governments are advised to implement complementary measures in addition to green taxes.

References:

1. Al Breiki, Mariam and Nobanee, Haitham. (2019). The Role of Financial Management in Promoting Sustainable Business Practices and Development. Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=3472404 Electronic copy available at: https://ssrn.com/abstract=3538691
2. Alhadhrami, Ahmed and Nobanee, Haitham. (2019). Sustainability Practices and Sustainable Financial Growth. Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=3472413
3. Al Hammadi, Tahani and Nobanee, Haitham. (2019). FinTech and Sustainability: A Mini- Review Available SSRN: https://ssrn.com/abstract=3500873 or http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3500873
4. Almansoori, Alia and Nobanee, Haitham. (2019). How Sustainability Contributes to Shared Value Creation and Firms' Value. Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=3472411
5. Al Muhairi, Mariam and Nobanee, Haitham. (2019). Sustainable Financial Management Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=3472417
6. Andreoni, V., 2019. Environmental taxes: Drivers behind the revenue collected. Journal of cleaner production, 221, pp.17–26.
7. Carattini, S., Baranzini, A., Thalmann, P., Varone, F. and Vöhringer, F., 2017. Green taxes in a post-Paris world: are millions of nays inevitable. Environmental and Resource Economics, 68(1), pp.97–128.
8. Cerniauskas, S., Grube, T., Praktiknjo, A., Stolten, D. and Robinius, M., 2019. Future Hydrogen Markets for Transportation and Industry: The Impact of CO2 Taxes. Energies, 12(24), p.4707.
9. Dai, Q., Yang, J. and Li, D., 2018. Modeling a three-mode hybrid port-hinterland freight intermodal distribution network with environmental consideration: The case of the Yangtze river economic belt in China. Sustainability, 10(9), p.3081.
10. Datta, T. K., 2017. Effect of green technology investment on a production-inventory system with carbon tax. Advances in Operations Research, 2017. Electronic copy available at: https://ssrn.com/abstract=3538691
11. Di Maria, C., Smulders, S. and Van der Werf, E., 2017. Climate policy with tied hands: optimal resource taxation under implementation lags. Environmental and Resource Economics, 66(3), pp.537–551.
12. Dulebenets, M. A., 2018. Green vessel scheduling in liner shipping: Modeling carbon dioxide emission costs in sea and at ports of call. International Journal of Transportation Science and Technology, 7(1), pp.26–44.
13. Haryati, N. N., Winarno, W. A. and Sulistyono, S., 2018. Determining the advertisement of tax priority on urban road based on road performance. In MATEC Web of Conferences (Vol. 181, p. 08001). EDP Sciences.
14. Ivanov, I. G. and Hartmann, D., 2016. Two green bottles, standing on a wall: an environmental assessment of two bottle types. South African Journal of Industrial Engineering, 27(3), pp.303–314.
15. Khalimjonov, N., Allayarov P., and Tajibaeva K. 2023. Analysis and evaluation of Worldwide Carbon emission topics in economic journals: a review on articles published during 2016–2021 E3S Web of Conferences, 419, p. 01027
16. Kuralbayeva, K., 2019. Environmental taxation, employment and public spending in developing countries. Environmental and resource economics, 72(4), pp.877–912.
17. Lin, H., Tao, Q., Fengxiang, G. and Zhiwei, T., 2011. Study on Green Production Oriented Chinese Resource Tax Reform HUANG. Energy Procedia, 5, pp.1055–1059.

18. Mishra, v. and Mittal, A., 2019. Policies for Sustainable Manufacturing and Extended Producer Responsibility for Green and Sustainable Manufacturing in India–a Review.
19. Miu, L. M., Wisniewska, N., Mazur, C., Hardy, J. and Hawkes, A., 2018. A simple assessment of housing retrofit policies for the UK: what should succeed the energy company obligation? Energies, 11(8), p.2070.
20. Rengs, B., Scholz-Wäckerle, M. and van den Bergh, J., 2020. Evolutionary macroeconomic assessment of employment and innovation impacts of climate policy packages. Journal of Economic Behavior & Organization, 169, pp.332–368. Electronic copy available at: https://ssrn.com/abstract=3538691
21. Siebers, P. O., Tran, T. H. and Mao, Y., 2019. Optimising Decarbonisation Investment for Firms towards Environmental Sustainability.
22. Stathopoulou, E. and Gautier, L., 2019. Green alliances and the role of taxation. Environmental and Resource Economics, 74(3), pp.1189–1206.
23. Sun, A., 2013. The Establishment of the Green Tax Policy in China-To Accelerate the Construction of Circular Economy Experimental Zone in Qaidam Basin of Qinghai Province as an Example. Asian Social Science, 9(3), p.148.
24. Tran, T. H., Mao, Y. and Siebers, P. O., 2019. Optimising Decarbonisation Investment for Firms towards Environmental Sustainability. Sustainability, 11(20), p.5718.
25. Tsai, W. H., 2018. Carbon Taxes and Carbon Right Costs Analysis for the Tire Industry. Energies, 11(8), p.2121.

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

Qurbonov Jasurbek Pozilovich
Toshkent moliya instituti Andijon fakulteti “Mutaxassislik fanlari” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyati hamda uning nazariy jihatlari xususida xorijiy olimlarning qarashlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, YaHM, aholi daromadlari, oilaviy tadbirkorlik, resurslar, ishlab chiqarish.

Abstract: This article covers the importance of small business and entrepreneurship in the development of the country’s economy and the views of foreign scientists regarding its theoretical aspects.

Key words: small business, entrepreneurship, GDP, population income, family business, resources, production.

Аннотация: В данной статье изложены взгляды зарубежных ученых на значение малого бизнеса и предпринимательства в развитии экономики страны и его теоретические аспекты.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, ВВП, доходы населения, семейный бизнес, ресурсы, производство.

Bugungi kunda iqtisodiyotda innovatsiyalarni jadallashtirish, xalqaro bozorda raqobatdosh mahsulotlarni yaratish hamda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish mamlakat va uning mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Bunda, rivojlanishning asosiy mezonlari bo‘lib, YaHM, mahsulot eksport hajmi, ish bilan bandlik darajasi, aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan daromadlar xizmat qiladi. Bu o‘rinda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazkur ko‘rsatkichlardagi yuqori ulushga egaligi sohaning muhimligini ifodalaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar natijasida aholi daromadlari ortib, ish bilan bandlik darajasi o‘smoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish ko‘lami va tovar hamda xizmatlarning turi kengaymoqda. Milliy bozorlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tovar va xizmatlari ulushi kengaymoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omili bo‘lib, mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni samarali yechish imkonini beradi. Mazkur sohani kengaytirish aholi daromadlari o‘sishigina emas, balki mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy hamda ijtimoiy salohiyati o‘sishini ham ta’minlab beradi. Qator xorijiy mamlakatlar tajribasini ko‘rsatishicha kichik biznesning rivojlanishiga oid mezonlar iqtisodiyotda asosiy ulushlarga ega.

Jumladan, Yevropa mamlakatlarida kichik va o‘rta biznesning YaIMdagi ulushi 60 foizdan, ish bilan bandlardagi ulushi 65–70 foizdan hamda qo‘shilgan qiymatdagi ulushi 50 foizdan yuqori. Shuningdek, Xitoyda 4,3 mln. dona kichik va o‘rta biznes korxonalari hamda 27,9 mln. dona yakka tartibdagi tadbirkorlik mavjud bo‘lib, shahar aholisining 75 foizi bandligini ta’minlaydi [1].

Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, mamlakatni barqaror rivojlantirishda kichik va o‘rta biznesning ahamiyati yuqoridir. Chunki, mazkur soha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mazkur soha iqtisodiyotda cheklangan resurslardan foydalanib, cheklanmagan ehtiyojlarni qondirishdek, iqtisodiyotning fundamental masalasini hal qiladi.

Shu o‘rinda, kam xarajat va moliyaviy mablag‘lar hisobiga yangi ish o‘rinlarini yaratilishi kichik biznesning ijobiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Iste’mol mollari ishlab chiqarish sohasida ham kichik biznes ko‘lamining yuqoriligi, tez realizatsiya bo‘luvchi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga moslashuvchanligi bozor sharoitiga mos xususiyat kasb etadi.

Shuningdek, mamlakatda yaratilgan qulay shart-sharoit natijasida esa tadbirkorlik yanada rivojlanib, kengayib bormoqda. Uning iqtisodiyotdagi ko‘lami o‘sib, soha va tarmoqlardagi ulushi ortmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlikni yanada kengaytirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Demak, milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko‘lamini kengaytirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ortishiga hamda barqaror rivojlanishiga olib keladi. Iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri – ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning real qiymatini oshirish hisoblanadi. Kichik biznes kam investitsiya talab qilishini hisobga olsak, ushbu soha innovatsiyani kengaytirish hamda tarkibiy o‘zgarishlar sifatini oshirishda ham alohida o‘rin tutadi.

Bu esa, yuqoridagilarga muvofiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasining ilmiy-nazariy jihatlariga hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlariga to‘xtalib o‘tishni talab etadi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatining eng kichik va boshlang‘ich subyekti oilaviy tadbirkorlik hisoblanadi. Shu bois, dastavval mazkur tushunchaning ilmiy-nazariy hamda huquqiy jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Jumladan, qonun hujjatlarida “oilaviy tadbirkorlik” oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir, deb belgilangan [2]. Shuningdek, mazkur hujjatda quyidagi jihatlarga ham alohida e’tibor qaratilgan: oilaviy tadbirkorlik o‘z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi; oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin; yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir; yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yuqoridagi huquqiy jihatlari hamda tashkiliy-iqtisodiy tavsiflari qatori tadbirkorlik sohasidagi ilmiy izlanishlarga ham alohida e’tibor qaratamiz.

R. Kantilon, Y. Tyunen, J. B. Sey kabi mumtoz iqtisodchilar fikricha, tadbirkorlik o‘ziga tavakkalchilikni oluvchi shaxs hisoblanadi. A. Smit tadqiqotlarida tadbirkorlik kapital egasining tijoriy g‘oyasi asosidagi foyda olishi nazarda tutilgan. Shuningdek, muallif tadbirkor o‘z manfaati yo‘lidagi faoliyati natijasida o‘zgalarning moddiy ehtiyojlarini qondirishiga to‘xtalib o‘tgan. P. Druker bergan ta’rifga ko‘ra, tadbirkor bu kapital egasi sifatida yuqori daromad izlab imkoniyatini ishga soluvchi shaxs, deya ta’kidlanadi [3]. Shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, mumtoz iqtisodchilar asosiy e’tiborni mehnatga qaratishgan bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatida ustuvor omil sifatida ishchi kuchini ko‘rishgan.

Y. Shumpeter fikricha, tadbirkor bu tavakkalchilikni o‘z bo‘yniga oluvchi shaxs bo‘lib, ixtiro va yangiliklar asosida iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga texnika-texnologiya omili asosida berilgan ta’riflar ichida Y. Shumpeterning izlanishlari alohida o‘rin tutadi. Muallif fikricha, tadbirkor bu yangiliklar tashabbuskori, innovator hisoblanadi, deya ta’rif berilgan. Y. Shumpeter fikricha, mulk yoki kapitalning mavjudligi tadbirkorlik uchun asosiysi emas, balki uning ustuvor jihati ixtirochilik hamda tashabbuskorlikdir [4].

Fikrimizcha, olimning tadqiqotlaridan so‘ng iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish omillari qatorida yangi tadbirkorlik qobiliyati va texnika-texnologiyalar omilini ajralib chiqishiga sabab bo‘lgan. Haqiqatdan, mulk egasi bo‘lmasa ham, uni tasarruf etuvchi shaxs tadbirkor bo‘lishi mumkin. Bu esa, undan tashabbuskorlik hamda innovatorlik qobiliyatini talab etadi. Jahon iqtisodiyoti rivojlanish tendensiyalari hamda yuqori kapital egasi bo‘lgan shaxslarning asosiy faoliyati tadbirkorlik qobiliyati bilan belgilanadi.

Yuqoridagi tadqiqotlari qatorida, kapital omiliga, investitsiyalarga hamda davlatning qo‘llab-quvvatlash faoliyatiga e’tibor qaratilgan tadqiqotlar ham mavjud. Bunday tadqiqotlar ichida, J. M. Keynsning izlanishlari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, uning fikricha, faollik va riskning mavjudligi tadbirkorning o‘ziga xos xususiyati. Shunday bo‘lsada, tadbirkorlik faoliyati doim barqaror rivojlanmaydi, shu bois, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash talab etiladi [5].

Tadbirkorlik va kichik biznes bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda zamonaviy izlanishlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, kichik biznes tushunchasiga zamonaviy adabiyotlarda ishchi-xodimlar hamda aylanma mablag‘lari hajmiga bog‘liq ta’riflar ko‘plab uchraydi. Xususan, I. Y. Zagoruyko fikricha, kichik biznes bu cheklangan ishchilar faoliyat yuritadigan hamda hududiy jihatdan sezilarsiz ko‘lamga ega shaxs.

Shuningdek, A. T. Shilkina va V. V. Karpushkinlar ta’rifida ham yuqoridagi kabi xususiyatlarga e’tibor qaratilgan. Ya’ni kichik biznes – unchalik katta bo‘lmagan korxona bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs. Bu bilan mualliflar birgina belgisi ko‘lami bo‘yicha ta’riflamoqda. V. G. Basarevaning fikricha, tadbirkor – bozor iqtisodiyotining ajralmas subyekti bo‘lib, iqtisodiy tizim vazifalarining bajaruvchi shaxs hisoblanadi.

Shuningdek, institutsional jihatlarga muvofiq berilgan ta’riflar ham mavjud bo‘lib, ularda qonunchilik bo‘yicha o‘rnatilgan talablardan kelib chiqib ta’rif berilgan. A. S. Kopisovaning ta’rifiga ko‘ra, kichik biznes belgilangan qonunchilikka muvofiq ishchi-xodimlarga ega xo‘jalik yurituvchi shaxs. Bu ham yuqoridagi tashkiliy-huquqiy jihatlar asosidagi ta’rif hisoblanadi [6].

Bir guruh tadqiqotchilar fikricha, kichik biznes bu iste’mol kooperativlari va tijorat tashkilotlari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar hamda fermer xo‘jaligi subyektlaridir. Uning o‘ziga xos jihatlaridan biri – turli davlatlarda qonunchilik asosida ish bilan bandlar soni orqali tavsiflanadi.

Shu bilan birga, qator mualliflar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ta’rif berishda ishchi kuchini asosiy mezon sifatida ko‘rsatib o‘tishgan.

Jumladan, I. I. Krotov bergan ta'rif bo'yicha kichik biznes – qonunchilikda ko'rsatilgan mezonlarga mos, faol tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyekti. Shuningdek, V. A. Abchuk va L. V. Babayevalar fikricha, kichik biznes bu tashkiliy-huquqiy va mulkchilik turidan qat'iy nazar tarmoq xususiyatidan kelib chiqib ishchi kuchi band bo'lgan subyektlardir [6].

Shuningdek, kichik biznesni nisbatan keng tarzdagi ta'riflari ham mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishda nafaqat ko'lami, balki uning faoliyat turlariga ham e'tibor qaratilgan. A. N. Alisov tomonidan berilgan ta'rifda kichik biznes – resurslardan nisbatan samarali foydalanib, innovatsiyalarga asoslangan holda tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qondirish asosida foyda oluvchi tadbirkorlik subyektidir. S. V. Mocherniy fikricha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – unchalik katta bo'lmagan faoliyat hajmi va ishlab chiqarishga ega, cheklangan ishchilar ishlovchi, foyda olish maqsadida tavakkalchilikni o'z bo'yniga olgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ilmiy faoliyat bilan band subyektdir [7].

Mamlakatimiz olimlari, K. Karimova va K. Sharifxodjayevalar fikricha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiy faoliyatning fundamental asosi, davlat rivojlanishida eng muhim katalizatorlardan biridir.

Shuningdek, biznes tushunchasiga ham alohida to'xtalib o'tilgan ta'riflarga e'tibor qaratamiz. Jumladan, "Biznes" tushunchasi ingliz tilidan (business) kelib chiqqan bo'lib, tarjimada ish, faoliyat, ish bilan bandlik ma'nolarini anglatadi. Shunday bo'lsa-da, iqtisodiy adabiyotlarda tushunchaga doim ham bir xil ta'riflar berilmaydi. Gohida bines va tadbirkorlik tushunchalari bir xil ma'noda qo'llaniladi.

Kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha berilgan ta'riflarni umumlashtirish asosida mualliflik ta'rifini keltirib o'tamiz. Kichik biznes subyekti bu qonunchilik asosida belgilangan ishchi-xodimlarning cheklangan soniga ega, bozordagi ko'lami yuqori bo'lmagan tavakkalchilikni zimmasiga olib foyda olish maqsadida faoliyat yurituvchi shaxs. Tadbirkorlik esa, mulkchilik turi va hajmidan qat'iy nazar qonunchilik bilan taqiqlanmagan holda faoliyat olib boruvchi hamda foyda ko'ruvchi shaxs hisoblanadi. Biznes esa, egasiga foyda keltirish maqsadida tashkil qilingan va jamiyat moddiy hamda ma'naviy manfaatlariga xizmat qiladigan faoliyat turi va predmeti hisoblanadi. Bunda, qonunchilik doirasida ruxsat berilgan ish, faoliyat turlarini e'tiborga olishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пискун Е. И., Брусникин К. Н. Развитие предпринимательских структур в современных условиях экономики России: тенденции и факторы влияния // Сервис в России и за рубежом. 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi O'RQ–683-son qonuni
3. Лино Маркес Коимбра. Теоретико-методологические основы предпринимательства и его значение в развитии экономики Мозамбика // Вестник ТГУ, выпуск 3 (143), 2015.
4. Басарева В. Г. Малый бизнес России: теоретические основы исследования, моделирование, концепция государственного регулирования / под ред. А. С. Новоселова. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2013. – 296 с.
5. Шумпетер Й. Теория экономического развития [Электронный ресурс]. М.: Директмедиа Паблишинг, 2008.
6. Загоруйко И. Ю. исследование развития и оптимизации малого предпринимательство в России в условиях мирового кризиса // Вестник Пермского университета. 2012, №3.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLI

Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich
PhD, Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot asoslari va turizm industriyasidagi asosiy xususiyatlari o‘rganilgan. Turizm va rekreatsiya industriyasida raqamli texnologiyalardan fodalanish, To‘rtinchi sanoat inqilobi yutuqlarini qo‘llash orqali “Turizm 4.0” raqamli onlayn-platforma modelini yaratish ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: IT-texnologiya,raqamli platforma, raqamli iqtisodiyot, global axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, to‘rtinchi sanoat inqilobi,sun’iy ong, robototexnika, internet, robot-avtomobillar, 3D-pechat, nanotexnologii, biotexnologii, noodadiy energiya manbalari, “Turizm 4.0”.

Abstract: The article focuses on the foundation of the digital economy and its key features in the tourism industry. Also, the application of digital technologies in the tourism and recreation industry, the creation of a digital online platform model “Tourism 4.0” with the widespread use of the achievements of the fourth industrial revolution.

Key words: IT-technologies, digital platforms, digital economy, global, information-communication technologies, the fourth industrial revolution, artificial intelligence, robotics, internet, automotive robots, 3D printing, nanotechnology, biotechnology, unusual sources of energy, Tourism 4.0.

Аннотация: В статье рассматриваются основы цифровой экономики и ее ключевые особенности в индустрии туризма. Также использование цифровых технологий в индустрии туризма и отдыха, создание цифровой онлайн-платформы модели “Туризм 4.0” с широким использованием достижений четвертой промышленной революции.

Ключевые слова: IT-технологии, цифровые платформы, цифровая экономика, глобальные, информационно-коммуникационные технологии, четвертая промышленная революция, искусственный интеллект, робототехника, интернет, автомобильные роботы, 3D-печать, нанотехнологии, биотехнологии, необычные источники энергии, туризм 4.0.

KIRISH

XXI asrda jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, undagi bir qator o‘zgarishlar, turli davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni taranglashuvi, turli vabolarni (2020-yil boshida dunyo bo‘ylab koronavirusning tarqalishi) tarqalishi o‘z navbatida jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun raqamli platformalar, IT-texnologiyalarni amaliyotda keng qo‘llashga olib kelmoqda.

Boston Consulting Group ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib bormoqda va 2035 -yilga borib 16 trln AQSh dollariga yetishi mumkin [5]. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dunyo xo‘jaligida davlatlar, korxonalar, tashkilotlar hamda yirik birlashmalardan tortib kichik korxonalar o‘rtasidagi raqobatni yanada kuchaytirib, yangi davrni boshlab berdi. Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlamlashtirish esa bir qator tashkilot va korxonalar biznesini jadal rivojlanishiga olib keldi. Bu raqamli iqtisodiyot tadbirkorlik subyektlariga bir qator yengilliklar taqdim etib, dunyo xo‘jaligidagi global miqyosdagi raqamlashtirish jarayoniga bu subyektlarni moslashtirib, kelgusidagi faoliyat turlarini aniqlab olishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Keyingi yigirma yilliklarda boshlangan raqamli texnologiyalar ustida olib borilgan tadqiqotlar orqali ularni amaliyotga qo‘llash imkoniyatini berdi. Dastlabki tadqiqotlardan biri sifatida Massachuti instituti professori N. Negroponte tomonidan olib borilgan [1]. Tadqiqotning asosiy maqsadi an’anaviy va raqamli iqtisodiyotni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ygan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida iqtisodiyotni intensiv

rivojlantirishdan iboratdir. Bunday rivojlanishga erishish uchun dunyo xo‘jaligi o‘z boshidan kechirgan sanoat inqilobi yutuqlaridan foydalanish zarur. Raqamli platformalar – bu raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydigan yangi biznes model va muqobil rivojlanish markaziga ega bo‘lgan va bozor iqtisodiyotiga mos kelauvchi tizimdir [6]. The Center for Global Enterprise ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli platformalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:


1. Tranzaksion platforma;
2. Innovatsion plaforma;
3. Integratsion platforma;
4. Investitsion platformalar kiradi.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy belgilaridan biri esa uchinchi sanoat inqilobidan to‘rtinchi sanoat inqilobiga o‘tishni bildiradi. To‘rtinchi sanoat inqolobida sun’iy ong, robotlashtirish, internet, avtomobil-robotlar, 3D pechat, nanotexnologiya, biotexnologiya, energiyani noodatiy manbalardan olish kabi yangi innovatsion mahsulotlardan keng foydalanish asnosida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishga o‘tilmoqda.

Birinchi sanoat inqilobi 1760–1840-yilarda yuz berdi, bu davrda temir yo‘llar qurilishi, bug‘ dvigatellarini ishlab chiqilishi, mexanik ishlab chiqarishni rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi sanoat inqilobi XIX asrning oxirlaridan boshlanib XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi, ommaviy ishlab chiqarishni rivojlanishi bilan konveyr usulidagi ishlab chiqarish rivojlandi. Uchinchi sanoat inqilobi 1960-yillardan boshlandi, unda kompyuterning dastlabki variantlari ishlab chiqildi. Yarim o‘tkazgichlar rivojlanishi, yirik EXMlarni paydo bo‘lishi, 70–80-yillarda esa personal kompyuterlar va internet setlaridan foydalanila boshlandi [2].

Raqamli tizimlarning jadal takomillashishi, o‘z navbatida, to‘rtinchi sanoat inqilobiga zamin hozirladi. Ko‘p o‘tmay yangi inqilobning dastlabki namunalari, ya’ni mobil aloqa va mobil internet amaliyotda keng qo‘llanila boshladi. 2011-yili Germaniyada bo‘lib o‘tgan Gannover yarmarkasida “4- industriya” atamasi muomulaga kiritildi Yangi texnologiyalar taraqqiyoti “aql zavodlari” ga asos soldi [3]. To‘rtinchi sanoat inqilobi o‘z navbatida raqamli iqtisodiyotni shakllantirib, kompyuter texnologiyalarini barcha ishlab chiqarish tarmoqlari va iste’molchilar bilan o‘zaro bog‘lovchi yagona virtual tizimni yaratadi. Uning shakllanishi asnosida “onlayn-xizmat, mahsulotlar”, elektron-to‘lov, elektron tijorat, elektron savdo, internet mahsulot (Iot –Internet of Things), kraudfanding, internet-bank kabilarni rivojlanishiga olib keldi. Yangi raqamli texnologiyalar asosida yangi raqamli platformalarni shakllanishi, Big Data texnologiyalarni, neyrosetlarni rivojlanishi (sun’iy ong), aqlli texnologiyalar paydo bo‘lishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

“International Data Corporation” tadqiqotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha raqamli iqtisodiyotning 2019-yilda o‘sishi 16,8 %ga yetishi, daromadlari esa 2,1trln.AQSh dollarini tashkil etdi. “Accenture” tadqiqotchilari bashoratlariga ko‘ra, 2020-yilda raqamli texnologiyalar TOP–10dagi o‘sish yuqoriligicha saqlanib qoladi va dunyo iqtisodiyoti 1,36 trln AQSh dollari daromad ko‘radi. 2020-yilning birinchi choragida dunyo xo‘jaligini qamrab olgan “COVID–19” koronavirus pandemiyasi ta’sirida raqamli texnologiyalarni roli yanada oshdi (1-rasm).



1-rasm: Dunyo xo‘jaligini raqamli iqtisodiyotdan topadigan daromadlari, trln.AQSh dollari[1]

Iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, turizm va rekreatsiya tizimlarida jiddiy tarkibiy o‘zgarishlarga olib keldi. “The Boston Consulting Group” ma’lumotlari bo‘yicha 2035-yilga borib raqamli iqtisodiyot yuqori sur’atda rivojlanadi va 16 trln AQSh dollari daromad ko‘radi. Dunyo xo‘jaligi yildan-yilga raqamli texnologiyalar asosida qayta qurish jarayonlarini boshdan kechiradi.


1 Manba: “The Boston Consulting Group” ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xizmat ko‘rsatish sohalarida esa servis modellari, an’anaviy iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotga o‘tish davrida davlat-xususiy sherikchilik shakllarini rivojlanishi asosida sharing-servis xizmatlari shakllandi. Iqtisodiyotni raqamli tizimlarga o‘tkazishda dastlab xizmat ko‘rsatish sohalari, ya’ni turizm va rekreatsiya industriyalaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Turizm va rekreatsiya sohalarini raqamlashtirish orqali turist va rekreantlarni keng auditoriyasini egallash, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, global raqamli dunyo iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lish imkonini beradi.

1-jadval:Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan startaplar[2]

№	Turizmdagi startaplar	Qaysi davlatga tegishli	Faoliyat turi
1.	CamboTicket	Kambodja	Elektron pochta xizmati, paromlarini onlayn bronlash, avtobus va taksilar xizmati, Laos, Tailad,Kambodja, Vetnamda xizmat ko‘rsatadi.
2.	Local Alike	Tay	Booking.com yangi konsepsiyasini yaratdi, onlayn platforma orqali mamlakat aholisiga dunyo turizmi bo‘yicha maslahatlar olib boradi va turistik xizmatlar ko‘rsatadi.
3.	Tripnparty	Fransiya	Turli sayohatlar, barcha mamlakatlarda turistik xizmatlar ko‘rsatadi va o‘z aholisini yaxshi dam olishini tashkil etadi.
4.	Startup Weekend Bali	Bali	Turizm sohasida dam olishni mazmunli tashkil etish uchun yangi g‘oyalar beradi. Mobil ilovalar orqali gid, xaydovchi xizmatlarini ko‘rsatadi.Mahalliy fermerlar mahsulotini sotuvini yo‘lga qo‘ygan.

Shuningdek, Janubiy Osiyo mamlakatlari turizm industriyasini raqamlashtirish sohasida ijobiy natijalarga erishdi. 2018-yilda Shri Lanka mamlakat turizm yo‘nalishlarida ommaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llashni boshladi. Buning natijasida mamlakatga qo‘shimcha 2,5 million turistni jalb etishga erishdi. Indonezitsiyada esa xalqaro darajadagi “Airbnb” bronlashtirish tizimini joriy etdi. Dunyo bo‘yicha bugunki kunda o‘ndan ortiq texnologik startaplar turizm sohasida faoliyat ko‘rsatib turibdi (1-jadval).



2-rasm: “Turizm 4.0” raqamli platforma modeli[3]

2 Manba: Богомазова И. В, Аноприева Е. В, Климова Т. Б. Цифровая экономика в индустрии туризма и гостеприимства: тенденции и перспективы. Сервис в России и за рубежом. 2019 г, №3,38 с.

3 Manba: Богомазова И. В, Аноприева Е. В, Климова Т. Б. Цифровая экономика в индустрии туризма и гостеприимства: тенденции и перспективы. Сервис в России и за рубежом. 2019 г, №3,38 с

Google statistikasi bo‘yicha sayohatlarni rejalashtirilayotgan paytda yoki dam olish mavsumi boshlanish davrlarida 400 dan ortiq internetda qidiruv ishlari olib boriladi. Barcha turist boradigan mamlakat yoki mintaqani onlayn ko‘rib, tanishib keyin tashrif buyurishi odatiy holatga aylanib bormoqda. Shu sababli raqamli platformalarni o‘rni ko‘tarilib bormoqda.75% sayohatchilar o‘zlarini sayohatlarini virtual olam orqali amalga oshirib keyin borishadi va bu esa turizmda onlayn-xizmatlar turlarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Mobil ilovalar, planshet va internet xizmatlari ta’sirida turizm industriyasida global o‘zgarishlar davri kelganligini anglatmoqda.

YAKUNIY QISM

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bir qator rivojlangan mamlakatlarni turizm sohasidagi raqamlashtirish tajribalarini o‘rgangan holda O‘zbekiston Respublikasida turizm industriyasida “Turizm 4.0” raqamli platforma modelini yaratish lozim bo‘ladi (2-rasm).

“Turizm 4.0” raqamli platforma modeli rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

- Barcha subyektlarni avtomatlashtirish;
- Internet tezligini respublika bo‘ylab ko‘tarish;
- Turistik mahsulotlar va xizmatlarning hayotiylik siklini uzaytirish;
- Turistik mahsulotlar va xizmatlarni virtual tizimda faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- Har bir hududning virtual-raqamli-reklama platformalarini yaratish zarur.

Turizm industriyasida kichik va o‘rta biznes rivojlantirishda ulkan raqamli iqtisodiyot salohiyati mavjud. Uning uchun har bir turistiik subyektning texnologik va moliyaviy imkoniyatlari hisobga olingan holda raqamlashtirish zarur.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki yaqin kelajakda yirik turistik korxona, tashkilotlar va hududlarni turistik salohiyatini aks ettiruvchi onlayn platformalar yaratilishi kutilmoqda. Raqamli turizm bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarni yangicha biznes modellari yaratilishi bilan sohaga innovatsiyalarni jadal kirib keladi. Yangicha o‘zgarishlarni qabul qilar ekanmiz, turizm bozori uchun virtual olamdagi kurashlarni avj olishini va raqobatbardosh onlayn platformalar o‘rtasidagi yangicha munosabatlar o‘rtalishini ta’lab etadi. Turistik kompaniya bunday raqamli iqtisodiyotni qabul qiladi yoki ular o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Герчикова Е. З.,Спиридонова Е. П (2018). Социологические аспекты трансформации сферы рекреации и туризми в условиях цифровой экономики // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. №3, 185–198 с
2. Клаус Шваб (2016). Четвертая промышленная революция. “Эксмо” 11-с.
3. Axunova Sh (2020). To‘rtinchi sanoat inqilobi va uning dunyo xo‘jaligiga ta’siri. Biznes-ekspert. №2, 22 b.
4. Богомазова И. В, Аноприева Е. В, Климова Т. Б (2019). Цифровая экономика в индустрии туризма и гостеприимства: тенденции и перспетивы. Сервис в России и за рубежом. №3,38 с
5. Цифровизация история, перспективы, цифровые экономики России и мира. – URL. http//www.up-pro/ru/libraru/strategy/tendencii/cyfrovizaciya-trend.html
6. Gretchenko A. I (2019). Digital platform anew business model in the Russian economy. Science and Practice. Of the Plekhanov Russian University of Economics. ISSN 2225–9538. №1 (103)
7. “The Boston Consulting Group” ma’lumotlari.



O‘ZBEKISTONDA ENERGETIKA KORXONALARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUVINING BAHOLASH USULLARI TAHLILI

Abduraxmonova Zarina Muysinjonovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda energetika korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruvining baholash usullarini tahlili, energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar, energetika korxonalarini boshqarish samaradorligini baholashning miqdoriy usullari va energetika korxonalarida korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: energetika korxonalari, raqobatbardoshlik, boshqarish samaradorligi, korporativ boshqaruv, baholashning miqdoriy usullari, omillar.

Abstract: In this article, An analysis of the methods of assessment of corporate governance in the activities of energy enterprises in Uzbekistan, factors affecting the competitiveness of energy enterprises, quantitative methods for assessing the effectiveness of energy enterprise management and an algorithm for comprehensive assessment of the quality level of corporate governance in energy enterprises are developed.

Key words: energy enterprises, competitiveness, management efficiency, corporate governance, quantitative methods of assessment, factors.

Аннотация: В данной статье проведен анализ методов оценки корпоративного управления в деятельности энергетических предприятий Узбекистана, факторов, влияющих на конкурентоспособность энергетических предприятий, разработаны количественные методы оценки эффективности управления энергетическими предприятиями и алгоритм комплексной оценки уровня качества корпоративного управления на энергетических предприятиях.

Ключевые слова: энергетические предприятия, конкурентоспособность, эффективность управления, корпоративное управление, количественные методы оценки, факторы.

KIRISH

O‘zbekiston energetik kompleksi korxonalarining innovatsion rivojlanishiga muhim turtkini 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 24-maqsadida keltirilgan Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “Yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish maqsadida quydagi vazifalar ijorsini taminlash vazifalari belgilangan:

- 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichini qo‘shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish.
- 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash.
- O‘zbekiston energetika tizimining qo‘shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta’minlash.
- Sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish.
- Uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish.
- Elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha choralarni ko‘rish.
- Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI


Korporativ boshqaruv atamasining o‘zi tarixan 1970 yillarning o‘rtalarida AQShda yuzaga kelgan. Keyinchalik, ushbu atama Yevropada keng tarqalib, unda korporativ menejment, korporativ huquq va korporativ tuzilmalarni yaratish sohalarida tadqiqotlar o‘tkazilishi davom ettirilgan. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, korporativ boshqaruv atamasi birinchi marta R. Ills [1] tomonidan korporativ tuzilmasi va faoliyati mohiyatini ochib berish uchun qo‘llanilgan.

Korporativ munosabatlar tizimi korporativ va xususiy mulkni boshqarishni qo‘llash jarayoni sifatida amerikalik huquqshunos olim A. Berli va iqtisodchi G. Minzning [2] klassik ishlarida o‘rganilgan. Ularning ishlarida korporativ boshqaruv atamasi tilga olinmagan bo‘lsada, ular korporativ boshqaruvni ishonib topshiruvchilar – principals (autsayderlar, investorlar) va vakillar – agents (insayderlar, boshqaruvchilar) o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rganishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan T. K. Madiyorov [3] “korporativ boshqaruv ishlab chiqarishni rivojlantirish faoliyati, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni kapital mablag‘larning yangi texnika va texnologiyalarni ko‘plab jalb etilishi bilan uyg‘unlikda olib boriladi”, deb talqin qilgan bo‘lsa, Sh. N. Zaynutdinov va D. N. Raximovalar [4] “korporativ boshqaruv – manfaatdor shaxslarning daromad olish maqsadida birgalikdagi harakatlaridir”, degan ta’rifni keltirishgan. Yana bir iqtisodchi olim D. X. Suyunovning [5] ta’rifiga ko‘ra: “korporativ boshqaruv – korporativ mulk shakliga kiruvchi subyektlarning huquqlarini himoya qiluvchi amaldagi me’yorlar hamda boshqaruvning ma’lum bir tamoyillari asosida korxona maqsadiga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlar majmuyidir”, deb ta’rif bergan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar


Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, energetika korxonalarining raqobatbardoshligiga bir nechta omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bunday omillar qatoriga inson kapitalini rivojlanganlik darajasini, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash darajasini, korporatsiya moliyaviy holatining barqarorligini, narx siyosati, innovatsion energiya mahsulotlari va xizmatlarini, energiya ishlab chiqarish va yetkazib berish sifatini, korporatsiya aksiyalarini qo‘shimcha muomalaga chiqarilishini va energetika korxonalarining dividend siyosatini kiritishimiz mumkin. Ushbu omillarning ta’siriga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, ularning barchasi energetika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Energetika korxonalarining boshqaruvi samaradorligini oshirishga korporativ boshqaruv kodeksi, korporativ menejmentning standartlari, korporativ nazorat usullari, xodimlarni qo‘llab-quvvatlanishini oshirish tizimi, menejmentning-tavakkalchilik tizimi kabi vositalarni qo‘llash boshqaruv jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston energetik kompleksi aksiyadorlik korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish uchun korporativ boshqaruv vositalari izohining yakuniy maqsadi sifatli marketing tadqiqotlar, samarali biznes-rejalar va investitsiyaviy loyihalar, shuningdek, yangi energetik quvvatlardan foydalanishga o‘z vaqtida kiritishni ta’minlashga va energiyaning turli ko‘rinishlarini tejamli sarflashga qodir bo‘lgan malakali loyihali kompaniyalar bo‘lishi kerak.

Iqtisodiy mezonlardan foydalangan holda korporativ boshqaruv samaradorligini baholash usullari sifatida quyidagilarni e’tiborga olish mumkin:

- korxonaning berilgan vaqt oralig‘ida bankrotga uchrash ehtimolini prognoz qilishning statistik asoslangan modellari;
- korxonalarni reytingini aniqlash uslubiyati;
- kreditlash maqsadida korxona reytingini aniqlash uslubiyati.



2-rasm: Energetika korxonalarini boshqarish samaradorligini baholashning miqdoriy usullari

Shuningdek, zamonaviy amaliyotda energetika korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning korxonaning bozor qiymati va moliyaviy holatini tahlil qilish asosida boshqaruv samaradorligini baholash natijalarini olishga asoslangan turli miqdoriy usullari ham qo‘llanadi (2-rasm).

Energetika korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi:


- bankrotga uchrash ehtimoli baholanadi (Altmanning ikki omilli modeli orqali);
- korxonaning moliyaviy barqarorligi baholanadi (Taffler modeli).

Altmanning ikki omilli modeli kompaniyaning bankrotlik darajasini baholaydi, Tafflerning ko‘p omilli modeli esa kompaniyaning to‘lov layoqati modelini tuzadi. Natijada barcha hisoblab chiqilgan ko‘rsatkichlar taqqoslanadi va korxonaning moliyaviy holati haqida xulosa chiqariladi. Ushbu usulning kamchiligi shundaki, moliyaviy qiyinchilikka ega bo‘lgan kompaniyalar qanday qilib bo‘lmasin, o‘z hisobotlarini e’lon qilishni to‘xatib turadi, chunki uzoq vaqt davomida to‘g‘ri ma’lumotlar olib bo‘lmaydi. Hisobotlarda chop etiladigan ma’lumotlar ishonchli bo‘lmasligi mumkin, bu esa korxona faoliyatining ayrim ko‘rsatkichlari uning to‘lov layoqatiga ega emasligidan dalolat bergan bir paytda boshqa ko‘rsatkichlar uning faoliyati barqaror ekanligi haqida mulohaza yuritishga asos beradi.

Energetika korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning ikkinchi uslubiyati uning bozor qiymatini tahlil qilishga asoslanadi. Daromadni kapitallashtirish usuli korxonaning joriy daromadlarini kapitallashtirshi koeffitsiyentiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlashga asoslanadi. Asosiy kamchilik – bu usulni qo‘llash uchun zaruriy va majburiy shart kompaniya kelajakda keltiradigan daromadlar joriy daromadlar bilan bir xil darajada qolishini taxmin qilish hisoblanadi.

Tadqiqotda energetika korxonalarida korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi taklif etildi (3-rasm).

Bu algoritm baholashning sifat va miqdor usullaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bunda esa korporatsiyaning rivojlanganligini qay darajada ekanligi va uni korporatsiya qiymatiga qanday ta’sir etishini ifodalaydi va korporativ boshqaruvning samaradorlik darajasini taqqoslash hamda tahlil qilish uchun sifat usullari orasidan korporativ boshqaruv darajasiga Kuzatuv kengashining tuzilmasi, a’zolari soni, yig‘ilishlar muntazamligi, menejer va mulkdorlar manfaatlari yaqinlashishi darajasi inobatga olinadi. Miqdor usullarda esa energetika korxonalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati, sotuvlar o‘sish sur’ati va rentabelligi, investitsion samaradorlik omillarini baholash yuqori o‘rin tutadi. Bunda energetika korxonalarida korporativ boshqaruv sifat darajasi bahosi uni moliyalashtirish koeffitsiyentiga to‘g‘ri proporsional bo‘lib, uning korporativ boshqaruvini miqdoriy baholash qiymatlaridan kelib chiqadi.



3-rasm: Energetika korxonalarida korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi

Korporativ boshqaruvning sifat darajasini kompleks baholash algoritmi energetika korxonalarida boshqaruv samaradorligini yaxshilash uchun boshqaruv jarayonini moliyalashtirishga bog'liq bo'lib, bunda moliyalashtirish koeffitsenti quyidagi $1 \geq \pm \Delta F \geq 0$ shartni qanoatlantirishi kerak va shundagina uni korporativ boshqarish munosabatlari o'z sifat darajasiga ega bo'lgan deb qarash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Energetika korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmini institutsional asosini mustahkamlash, respublikada amalga oshiriladigan jadal iqtisodiy islohotlar sharoitida va tarmoq rivojlanish dasturlarini yo'nalishiga o'zaro bog'liq bo'lib, amaldagi va shakllangan boshqaruv tizimini rivojlanish izchilligiga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eells R. S. F. The Meaning of Modern Business: An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p.
2. Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property – New York: Macmillan, 1932. – 478 p.
3. Madiyorov T. K. Dehqonchilik-sanoat majmuyida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimi va korporativ boshqaruvni joriy etish xususiyatlari: iqt. fan .dok. ... dis. ishi. – T.: 1993
4. Zaynutdinov Sh. N., Rahimova D. N. Korporativ boshqaruv asoslari. – T.: Akademiya, 2007. – 48 b.
5. Suyunov D. X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: Akademiya, 2006. – 116 b.
6. Mirzayev, A. (2023). Prospects for modeling the educational process in the development of strategies for increasing the competitiveness of graduates in higher education institutions. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 57–66.
7. Mirzayev, A. (2023). Improving the mechanism of innovation process management in the field of information communication technologies. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 181–186.
8. Mirzayev, A. (2021). Hududiy turistik-rekreatsiya faoliyatini rivojlantirishda boshqaruv qarorlari qabul qilish metodologiyasini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish. Economics and education, (5), 390–398.
9. Хомидов, К. К. (2019). Перспективный комплекс экономики Узбекистана. In Современная мировая экономика: проблемы и перспективы в эпоху развития цифровых технологий и биотехнологии (pp. 54–56).
10. Homidov, K. (2023). Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(7), 33–38.
11. Homidov, K. (2023). Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(7), 44–50.
12. Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli. (2023). Objective need for the formation and sustainable development of tourist complexes in the regions: https://doi.org/10.5281/zenodo.8151902. IQRO, 4(2), 42–45.
13. Xomidov, K. (2023). O'zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo 'llari. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 154–160.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA REKREATSIYA TURIZMI

Shaymanova Nigora Yusupovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlari – Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikistonning turizmni rivojlantirishda rekreatsiya resurslaridan foydalanish jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm, rekreatsiya, mintaqa, rekreatsiya resurslari, rakreatsion salohiyat, landshaft.

Abstract: The article analyzes the aspects of the use of recreation resources in the development of tourism in the countries of Central Asia – Kazakhstan, Uzbekistan, Kyrgyzstan, Turkmenistan and Tajikistan.

Key words: tourism, recreation, region, recreational resources, recreational potential, landscape.

Аннотация: В статье анализируются аспекты использования рекреационных ресурсов в развитии туризма в странах Центральной Азии – Казахстане, Узбекистане, Кыргызстане, Туркменистане и Таджикистане.

Ключевые слова: туризм, рекреация, регион, рекреационные ресурсы, рекреационный потенциал, ландшафт.

KIRISH

Rekreatsion faoliyatning rivojlanishi aholining dam olish sifatini oshirish, jismoniy va ma’naviy salomatligini tiklashning ajralmas shartidir. Bu jarayon o‘z navbatida mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirishga, mintaqalar va davlatlarning iqtisodiy o‘sishini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Rekreatsion faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari tabiiy omillar va atrof-muhitning rekreatsion salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo davlatlari turizmning rekreatsiya turini rivojlantirishda katta salohiyatga ega hisoblanadi. Beshta respublikaning o‘ziga xos va takrorlanmas iqlimi, go‘zal landshafti, dam olish uchun resurslarning yetarliligi, jozibador hududlarning mavjudligi mazkur mintaqaning turizm sohasini rivojlantirishda keng imkoniyatlar beradi. O‘rta Osiyo mintaqasining ajoyib tabiati xorijiy va ichki sayyohlarni o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi.

Markaziy Osiyo, boy tarix va hayratlanarli landshaftlarga boy mintaqa, rekreatsion turizm uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Pomir va Tyan-Shan tog‘ tizmalarining hayratlanarli cho‘qqilaridan tortib Buyuk Ipak yo‘ligacha bo‘lgan hudud sarguzasht izlovchilarni ham, madaniyat ixlosmandlarini ham o‘ziga tortadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Rekreatsiya tushunchasiga ta’rif berishda, hamda uni turizm sohasi bilan bog‘lash bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mahalliy olimlarimizdan A. Sadullayev, S. Avezov, A. Matchanovalar rekreatsiya so‘ziga o‘zlarining “Turizm va rekreatsiya geografiyasi” nomli kitobida shunday ta’rif berishgan: rekreatsiya, odatda, “dam olish, insonning mehnat jarayonida yo‘qotgan kuch-quvvatini tiklash” hisoblanadi [1]. V. A. Kvartalnovning fikricha, rekreatsiya bu – insonning jismoniy, intellektual va emotsional kuchini kengaytirilgan tarzda qayta tiklash jarayonidir [2]. AQSh milliy turizm siyosati tadqiqotlar markazining ta’rifiga ko’ra esa, rekreatsiya bu – insonlarning bo’sh vaqtidan personal foydalanish jarayoni hisoblanadi. Mahalliy mutaxassislardan Z. Usmonovaning tadqiqotlarida rekreatsiya tushunchasini uydan tashqarida, masalan, tabiatga turizm sayohatlarda, sanatoriy-kurort, sog’lomlashtirish muassasalarida dam olish yo’li bilan salomatlikni va ishchi kuchini tiklash ko’rinishida talqin etiladi [3]. Rekreatsiya atamasi bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning tadqiqotlarini umumlashtirgan holda Z. T. Abdulxakimov tomonidan: “Rekreatsiya – bu tabiiy muhitda inson o’zining ish qobiliyatini qayta tiklay olishi va dam olishi mumkin bo’lgan joylar (tabiatning manzarali joylari, baland tog’ va tog’ oldi hududlari, suv havzalari bo’ylari, soylar, sharsharalar, tabiiy yodgorliklar va qo’riqxonalar, davo-

lanish va dam olishga mo'ljallangan sanatoriy, turizm bazalar, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, turli ko'rgazmalar, teatrlar, turli madaniy kechalar va tadbirlar)ni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir",–degan ta'rif ishlab chiqilgan [4]. Chunki rekreatsiya – nafaqat mehnat qobiliyatini qayta tiklash, balki ruhiy va jismoniy faoliyatni qayta tiklashni ham o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini amalga oshirishda, turli olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Markaziy Osiyo respublikalari turistik imkoniyatlari, rekreatsiya resurslari imkoniyatlari o'rganildi va tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanayotgan yosh sohalardan hisoblanadi. Shunga qaramasdan, ko'pgina sohalardan ilgarilab bormoqda. Respublika O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan mamlakat bo'lib, maydoni – 448,978 km,kv. Mamlakat ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Mamlakatning betakror tabiati, o'ziga xos iqlimi, go'zal dam olish maskanlari, tabiiy turistik resurslarning ko'pligi va faslning mujassamligi bu yerda turizmning rekreatsiya turini rivojlantirish imkonini beradi. Respublikaning YUNESCO ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan qadimiy shaharlari, ularda mavjud tarixiy-madaniy obidalar, qulay iqlim, go'zal manzarali tog'lari xorijdan kelgan har bir turistda qiziqish uyg'otishi tabiiy. O'zbekistonning tarixiy shaharlari, xususan, Samarqand, Xiva, Buxoro, Shahrisabz shaharlaridagi betakror tarixiy yodgorliklar, me'moriy inshoatlar yurtimiz tarixi va hozirgi davrni bog'lovchi rishta sifatida o'z o'rniga ega. Mamlakat turistik resurslarning ko'pligi bilan turizmning deyarli barcha turlarini rivojlantirish mumkin bo'lgan hudud hisoblanadi. Iqlimning o'ziga xosligi va go'zal tabiati o'lkada turizmning eng muhim yo'nalishlaridan biri- rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkonini beradi. Rekreatsiya turizmi o'zining sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega ekanligi bilan boshqa turizm turlaridan ajralib turadi. Dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mintaqa bo'lsa ham O'zbekiston dunyodagi eng go'zal ko'llari, tabiiy va sun'iy suv havzalari va butun Markaziy Osiyoni qamrab olgan yirik daryolarining mavjudligi bilan ahamiyatlidir. O'zbekistonning ulug'vor tog'lari, go'zal va maftunkor sharsharalari, tog' oldi yaylovlari, qo'riqxona va o'rmon xo'jaliklari kabi resurslarga boyligi bu maskanning nihoyatda jozibador va turizmning istalgan turini rivojlantirish mumkinligidan dalolat beradi. Sog'lig'ini yaxshilash va tiklash maqsadida bo'lgan ichki va xorijiy sayyohlar uchun eng yaxshi dam olish maskanlari Toshkent viloyatida joylashgan "Humson Buloq", "Bildirsoy", "Chimyon", "Chorvoq" kabi ko'plab dam olish maskanlari dam olishga kelgan turistlarga tog' qoyalari tepasiga chiqish, suv bo'ylarida o'tirib dam olish, sohil bo'ylarida quyosh nurlaridan bahramand bo'lish kabi ajoyib imkoniyatlarni beradi. Va shu bilan birga, Ugam-Chotqol milliy bog'ining go'zal manzaralari, yil bo'yi yashil bo'lib turadigan tog' qarag'aylari, shinam turar joylari bilan dam olishga kelganlarga ajoyib kayfiyat beradi. O'zbekistonning tabiati ayniqsa, tog' yon bag'irlarida dam olgan va u yerlarning musaffo havosidan bahramand bo'lgan har qanday sayyoh bu yerlarga yana dam olish uchun qaytib kelish istagida bo'ladi.

O'zining go'zalligi va bepoyon dashtlari bilan mashhur bo'lgan Qozog'iston baland tog'lar o'lkasidir. Respublika O'rta Osiyo va Sharqiy Yevropa chegarasida joylashgan. Maydoni 2 mln.724, 9ming km.kv. Boshqa davlatlarga nisbatan Qozog'istonda qadimiy madaniy yodgorliklari kamroq saqlanib qolgan. Bu qadimda qozoqlarning ko'chmanchi turmush tarzi bilan bog'liqdir. Shunga qaramasdan, tabiiy resurslarga boyligi, go'zal landshafti, maftunkor tabiati, tarixiy va madaniy yodgorliklari yil davomida sayyohlarni o'ziga chorlaydi. Bu yerga kelgan turistlar tarixiy joylar va xarobalarga sayohat qilishlari, kurortda dam olishlari, cho'l va qumtepaliklar bo'ylab sayohat qilishlari mumkin. Qaydni ko'li, Tog'li Oltoy, Bo'zjira yo'li, Ko'lsay ko'llari, Qo'shiqchi qumtepa, Charin kanyoni kabi ajoyib manzarali qadamjolar rekreatsiya turizmi uchun qulay hududlar hisoblanadi.

Katon-Qorag'ay milliy bog'lari va Burbay kurort zonasi o'zining maftunkor tabiati bilan respublikada turistik ahamiyatga ega va mashhur hudud hisoblanadi. Qozog'istonning janubi-sharqiy qismida eng go'zal va o'zining shifobaxshligi bilan mashhur bo'lgan maskanlardan biri- Alakol ko'li mavjuddir. Ko'l sohillarida joylashgan dam olish maskanlari va pansionatlar dam olish maqsadida kelgan sayyohlar bilan gavjum bo'ladi. Mazko'r ko'lning suvini Qora dengiz suviga qiyoslashadi. Ko'lning tarkibida davriy jadvalning deyarli barcha elementlari mavjudligi sababli, ko'lda cho'milish inson salomatligiga nihoyatda foydali hisoblanadi.

Oltoy tog'larining eng yuqori nuqtasi hisoblangan Beluxa tog'i Rossiya davlati bilan chegaradosh hududda joylashgan. Balandligi 4,500 metr. Ushbu ikki boshli Beluxa tog'i turizmning ekstremal turi uchun qulay hududdir.

Kengey – Olatau darasida joylashgan Qayndi ko'li g'ayrioddiy kelib chiqishi va takrorlanmas go'zalligi bilan mashhurdir. Zilzila natijasida paydo bo'lgan ushbu ko'l sayyohlar uchun g'ayrioddiy manzara hisoblanadi. Ko'chkilar oqibatida to'sib qo'yilgan daraning bo'loq suvi bilan to'lishi natijasida hosil bo'lgan ko'lning manzarasi dam olishni istagan har bir sayyohni o'ziga maftun qilmasdan qolmaydi. Ko'l shunisi bilan jozibadorki, suv tagida qolgan o'rmon va firuza rangli tiniq suvda uchlari ko'rinib turgan daraxtlar ajoyib manzara kasb etadi.

Markaziy Osiyo respublikalari orasida Qirg‘iziston o‘zining tabiiy shifobaxsh resurslarga boyligi bilan yetakchi o‘rinni egallaydi. Rekreatsiya, ya’ni dam olishning muhim afzalliklaridan biri tog‘ iqlimi bo‘lib, u davolash va profilaktika maqsadida foydalaniladi. Hududning turistlar eng ko‘p tashrif buyuradigan kurort zonalaridan biri Issiqko‘l o‘ziga xos iqlimli hudud hisoblanadi. Issiqko‘l dunyoning turli hududlaridan kelgan sayyohlarda o‘zining sirliligi bilan qiziqish o‘yg‘otadi. Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan ko‘l tubidagi ko‘plab suv osti shaharlari, sak va turkiy qabristonlar tashrif buyurgan sayyohlarni hayratda qoldirib kelmoqda.

Issiqko‘l hududi balneologik resurslari, mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar va termal buloqlar mavjud bo‘lgan rekreatsion zona hisoblanadi.

Qirg‘izistonning Arslon-Bob, Qora-Olma kabi yong‘oq-mevali o‘rmonlari kabi landshaft xususiyatlariga ega ajoyib hududlari mavjud. Tog‘ -iqlim kurortlari va ommaviy dam olish maskanlarini tashkil etishda ushbu hududlar yuqori o‘rinlarni egallaydi. Ushbu respublika hududida umumiy 100 dan ziyod iqlim zonalari mavjud. Bu hududlarda iqlimdan davolovchi yoki profilaktik omil sifatida keng foydalaniladi. Respublikada nafaqat mahalliy, balki davlat ahamiyatiga ega dam olish maskanlari, sanatoriylar faoliyat ko‘rsatadi.

Respublikaning tabiiy rekreatsion resurslariga hayvonot va o‘simliklar dunyosini ham kirgizish mumkin. Ushbu resurslar botanika va zoologiya yodgorliklari hisoblanadi. Manzarali butalar, archali o‘rmonlar, betakror gulli o‘tloqlar va boshqa o‘simliklar shahar hayotidan charchagan va dam olishni istagan sayyohlar uchun qulay imkoniyatlardan biridir.

Tojikiston Respublikasi O‘rta Osiyo mintaqasining janubi-sharqida joylashgan eng jozibador va qiziqarli sayyohlik davlatlaridan biri hisoblanadi. Maydoni 143.100 km.kv. Tojikiston tog‘li mamlakat bo‘lib, hududining 93%ini O‘rta Osiyoning eng yirik tog‘lari – Tyan-Shan va Pomir tog‘lari tizmasiga kiradigan tog‘lar egallaydi (jadvalga qarang).

1-jadval: O‘rta Osiyoning eng yirik tog‘lari

1	Qurama tizma tog‘lari	3769 m	Shimoliy qismida
2	Mo‘g‘ultog‘ tog‘lari	1624 m	Shimoliy qismida
3	Olay tog‘ tizmasi	5539 m	G‘arbiy qismida
4	Turkiston tog‘i	5509 m	Shimoliy qismida
5	Zarafshon va Chimtarg‘a tog‘lari	5489 m	Shimoliy qismida
6	Hisor va Qorategin tog‘ tizmalari	4643 m	Janubi-g‘arbiy qismida
7	Pomir tog‘lari	7495 m	Janibi-sharqiy qismida

Wikipediya ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Mamlakatda mavjud turli xil tabiiy landshaftlar, tog‘li relyef, noyob flora va fauna kabi rekreatsion resurslar bu yerda dam olishning barcha turlarini rivojlantirish imkonini beradi. Tojikiston hududida joylashgan dunyodagi eng baland tog‘lardan biri – osmono‘par Pomir tog‘i butun dunyoda “dunyo tomi” sifatida mashhurdir. Tog‘dagi mavjud ovchilik xo‘jaliklari, go‘zal va tabiiy landshaftlar, termal va sovuq suvli mineral buloqlar, ajoyib va sirli g‘orlar bu yerda yil davomida xorijiy va ichki sayyohlar bilan gavjum bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Xorijiy davlatlardan kelgan alpinistlar tog‘ning eng baland cho‘qqilariga ekstremal sayohat uyushtirishadi. Shuningdek, mazko‘r hududlarda turizmning rekreatsiya turlari, ya’ni alpinizm, tog‘ sporti, eko turizm, chang‘i sporti, rafting, ov turizmi, dam olish va sanatoriy- kurortlarda davolanish kabi turlari rivojlangan.

Respublika hududida mineral va termal suv buloqlarining ko‘pligi sababli, sanatoriy-kurort turizmi rivojlantirilmoqda. Ulardan “Zumrad”, “Obi Garm”, “Xavatog‘” kabi sanatoriylar o‘zlarining xizmat ko‘rsatish sifati bilan boshqalaridan ajralib turadi. Sanatoriyga tashrif buyurgan dam oluvchi tabiat qo‘ynida dam olib, musaffo havo va go‘zal manzaradan bahramand bo‘ladilar.

Yana bir dam olish zonalaridan biri inson qo‘li bilan yaratilgan Pomir botanika bog‘i tog‘ yon bag‘rida joylashgan haqiqiy mo‘jizadir. Botanika bog‘iga dunyoning barcha qit’alaridan 20 mingdan ziyod o‘simliklar olib kelingan. Ularning orasida Amur baxmali, qo‘ziqorin daraxti, avstraliyadan keltirilgan qarag‘qay kabi o‘simliklarning noyob va g‘alati namunalari va beqiyos xushbo‘y hidli atirgullarning nodir kolleksiyasi bor.

Hozirgi Ko‘lob shahri (qadimgi Xutal) o‘zining guzal va diqqatga sazovor joylari bilan sayyohlarda kata qiziqish o‘yg‘otadi. Betakror tabiat yodgorligi bo‘lgan Xo‘ja Mo‘min tog‘i turli rangdagi to‘q va kulrang, zangori yashil va pushti ranglardan iborat. Ushbu tog‘ butun insoniyatni yuzlab yillar davomida ta’minlaydigan tuz zaxiralariga ega. Xo‘ja Mo‘min tog‘ining yana bir mo‘jizasi shundan iboratki, bu yerda shamol ta’sirida hosil bo‘ladigan musiqasi bilan mashhur bo‘lgan g‘orlar bor. G‘orlarga kiraverishda osilgan uzun va yupqa shisha muzlar shamolning ta’sirida ajoyib tovushlar chiqaradi.

Tojikistonga sayohat qilish uchun eng qulay mavsum bahor oylari hisoblanadi. Bu davrda tog‘ yon bag‘irlari ulkan gulli gilamga aylanadi. Pomir tog‘lariga chiqish uchun esa, yoz fasli qulayroq. Chunki bu vatda tog‘ning iqlimi turistlar uchun ma’qul hisoblanadi.

Ko‘lob viloyatining sayyohlar uchun yana bir ahamiyatli jihati bu yerda “muzeylar majmuasining” borligidir. Muzey bir nechta bo‘limlardan tashkil topgan. Muzeyga tashrif buyurgan sayyohlar Ko‘lob viloyatining geografiyasi va tabiati Qizil kitobga kiritilgan o‘simlik va hayvonot dunyosi namunalari, qadimiy topilmalar, tojik oilasining maishiy turmush tarzi, tojiklarning an’anaviy kiyim-kechaklari va zargarlik buyumlari, qadimgi musiqa asboblari, san’at va hunarmandchilik asarlari va shunga o‘xshash eksponatlardan bahramand bo‘ladilar.

Markaziy Osiyoning yana bir sayyohlik rivojlanayotgan respublikalaridan biri, o‘zining sirliligi va hali to‘liq kashf etilmaganligi bilan turistlarni qiziqtirayotgan mamlakat bu- Turkmanistondir. Maydoni 488,100 km.kv. Ushbu davlat Osiyodagi eng kam aholisi bo‘lgan davlatlardan biridir. Turkmaniston hududining aksariyat qismi bo‘lib, deyarli 4/5 qismi Turon tekisligi (Qoraqum cho‘li) da joylashgan. Mamlakat me’moriy, tarixiy va tabiiy diqqatga sazovor manzilgohlari bilan ajralib turadi. Bu yerda qadimgi shahar xarobalari, afsonaviy Axal- Teke otlari, Darvaza deb nomlanuvchi cho‘l qumlari orasida uzoq yillardan beri yonayotgan gaz krateri kabi qiziqarli, sirli manzillar joylashgan. Turkmaniston nihoyatda rang-barang mamlakat bo‘lib, tabiiy mo‘jizalarning cheksizligi bilan sayyohlarni hayratda qoldiradi. Turkmanistonning bepoyon dashtlari bo‘ylab g‘ildiraklarning ritmik sadosi ostida poyezdda sayohat qilish albatta har bir turist uchun takrorlanmas bo‘lishi mumkin. Qoraqum sahrosidagi qumtepalar esa,sayyohlarda unutilmas taassurot qoldiradi.

Ajoyib va go‘zal Yangiqal’a kanyoniga tashrif buyurgan sayyohlar go‘zal qoyalar va tog‘ tizmalari orasida sayr qiladilar. Qo‘ytendag‘ nomli qo‘riqxonada esa bir paytlar bu yerlarda yashagan dinozavrlarning izlarini ko‘rishlari mumkin. Dunyoning mo‘jizalaridan biri bo‘lgan, alvon alangasi bilan mashhur bo‘lgan Darvaza krateri o‘zining ko‘lami va go‘zalligini tunda, ochiq osmon ostida ta’sirli aks ettiradi.

Turkmaniston cho‘l mintaqa bo‘lgani bilan, suvda dam olishni hohlovchilar uchun ham imkoniyatlar yetarlidir. Kaspiy dengizi sohillarida xohlagancha suzishlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarning turistik va rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish, ichki turistlar bilan birga xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish imkoniyatlaridan foydalangan holda, quyidagi takliflarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- mintaqada mavjud dam olish maskanlarining faoliyatini barqarorlashtirish, mahalliy va xorijiy OAVlarda targ‘ib qilish;
- turistik va rekreatsiya resurslaridan foydalangan holda ular joylashgan hududlarning infratuzilmasini yaxshilash, atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda, yangi dam olish maskanlarini tashkil qilish va zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasida madaniy va turistik aloqalarni rivojlantirish, xalqaro turizm bozorida o‘zlarining barcha turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sadullayev A. S. Turizm va rekreatsiya geografiyasi [o‘quv- uslubiy qo‘llanma]:/ A. S. Sadullayev, S. Avezov, A. Matchanova- Xiva: Xorazm Ma’mun Akademiyasi, 2019.- 100 b.
2. Квартальнов В. А. Туризм. Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 320 с.
3. Usmanova Z. I. O’zbekistonda turizm – rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendentsiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –SamISI, 2018 y. - 12 b
4. Sharunenko Y. M. Recreational Tourism [Electronic source]: Eeducational–methodical manual. Orel: Interregional Academy of Safety and Survival 2014 - 102p. URL: http://www.iprbookshop.ru/33439. html. – ЭБС “IPRbooks”
5. Éva Csirmaz a, Károly Pető PhD International Trends in Recreational and Wellness Tourism Procedia Economics and Finance. Volume 32, 2015, Pages 755–762 https://doi.org/10.1016/S2212–5671(15)01458–6
6. Бурменко Т. А. Байкальский государственный университет, Российская Федерация, к вопросу о содержании понятия “Оздоровительный туризм” региональная и отраслевая экономика. И.: – 2016. № 26(1). – С. 42–49
7. Panasiuk A. (eds.) Ekonomika turystyki i rekreacji. Wydawnictwo Naukowe PWN; 2011
8. Очилова, Хилола Фармоновна, Мухаммадсидик Амонбоев, and Бурхон Рустамович Дехконов. “Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии.” Заметки ученого 12 (2020): 242–247.
9. Rustamovich, Dehkonov Burhan. Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan. // European Journal of Life Safety and Stability (2660–9630)(2021/5/23): 19–23.
10. Rustamovich, Dehganov Burkhan. Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services. // Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya 2.3 (2023): 35–37.
11. Abdulxakimov Z. T. Mintaqada rekreatsiyasidan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –SamISI, 2019 y. - 12 b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

KORXONA INVESTITSIYALARI XUSUSIDAGI ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA QARASHLAR EVOLYUTSIYASI

Eshqo‘ziyev Oxunjon Oybek o‘g‘li
TDIU Tayanch doktoranti

Annotatsiya: Iqtisodiyotni zamonaviy modernizatsiyalash sharoitida korxonalarning investitsiyalarini rivojlantirish dalzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalar har qanday korxona iqtisodiy faoliyatining manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Muayyan obyektga investitsiyalarni maqsadli yo‘naltirish (mablag‘larni sarflash) makro-, mezo- va mikrodarajadagi iqtisodiy muammolarni yaxlit tarzda hal qiladi va iqtisodiyotning tarkibini isloh qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Moliya bozorining zamonaviy sharoitida pul mablag‘lari xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar yordamida bevosita taqismlanadi, pul mablag‘lari iqtisodiyotning real sektorida asosiy ishtirokchilar ko‘magida jalb qilinadi va investitsiyalar moliyalashtiriladi. Kompaniya moliya bozorida faqat ana shu sharoitda investitsiya resurslarni shakllantirishi mumkin, bu paytning o‘zida faqat ana shu manbalar hisobidan moliyaviy operatsiyalarining ko‘pchiligi amalga oshiriladi, bu holatda korxonalar investitsiya cheklovlari bilan ta’minlanadi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, moliya bozori, investitsiyalar, talab va taklif, bozor, real sektor, moliyaviy munosabatlar.

Abstract: Development of investments of enterprises in the conditions of modern modernization of the economy remains one of the most important problems. In the conditions of modernization of the national economy, investments serve as a source of economic activity of any enterprise. Targeting of investments to a specific object (spending funds) solves macro-, meso- and micro-level economic problems holistically and creates a favorable opportunity for reforming the structure of the economy.

In the modern conditions of the financial market, funds are distributed directly between economic entities with the help of economic relations, funds are attracted and investments are financed with the support of the main participants in the real sector of the economy. The company can generate investment resources in the financial market only under these conditions, at the same time, most of its financial operations are carried out only at the expense of these resources, in this case, enterprises are provided with investment restrictions.

Key words: Economy, financial market, investments, supply and demand, market, real sector, financial relations.

Аннотация: Развитие инвестиций предприятий в условиях современной модернизации экономики остается одной из важнейших проблем. В условиях модернизации национальной экономики инвестиции выступают источником экономической деятельности любого предприятия. Направление инвестиций на конкретный объект (расходование средств) комплексно решает экономические проблемы макро-, мезо- и микроуровня и создает благоприятную возможность для реформирования структуры экономики.

В современных условиях финансового рынка средства распределяются непосредственно между хозяйствующими субъектами посредством экономических отношений, средства привлекаются и финансируются инвестиции при поддержке основных участников реального сектора экономики. Только при этих условиях компания может генерировать инвестиционные ресурсы на финансовом рынке, в то же время большая часть ее финансовых операций осуществляется только за счет этих ресурсов, в этом случае предприятиям предоставляются инвестиционные ограничения.

Ключевые слова: Экономика, финансовый рынок, инвестиции, спрос и предложение, рынок, реальный сектор, финансовые отношения.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Investitsiyalar tushunchasi (lotincha “investio” so‘zidan olingan bo‘lib, “kiyinaman”, degan ma’noni anglatadi) amaldagi har qanday lug‘atda mamlakat ichkarisida va xorijda iqtisodiyot tarmoqlariga kapital qo‘yish sifatida talqin qilinadi. Investitsion faoliyatning evalyutsion paradigmalari shartli xronologiyalarga asoslanadi. Biroq investitsiya faoliyatini rivojlantirishdagi bo‘linish chegaralari jamiyatdagi milliy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa jarayonlarni yuzaga keltirishda tub burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

Xronologik nuqtayi nazaridan O‘zbekiston hududida investitsion faoliyatning rivojlanishini uchta davrga ajratish mumkin:

I davr: VIII asrning 2-yarmidan 1917-yilgacha (revolyutsiyaga qadar rivojlanish davri);

II davr: 1917-yilda 1991-yilgacha (sovetlar davridagi rivojlanish);

III davr: 1991-yildan hozirgi davrgacha (hozirgi davrdagi rivojlanish).

Investitsion faoliyatni alohida davrga ajratib ko‘rsatib berishi muallifning jamiyatda yuzaga kelayotgan jarayonlarni baholashi, qanchalik darajada tushunib yetishi bilan bevosita bog‘liq.

“Investitsiya” atamasi korxonaning barqarorligi, ishonchligi va to‘lovga qobiliyatligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkich sifatida XX asr o‘rtalarida kurtaklab shakllana boshladi. Bu davr ichida u ajib va mazmunli yo‘lni bosib o‘tdi, uning rivojlanish davrida qator maktablar (konsepsiyalar, yo‘nalishlar) takomillashib bordi, atrof-muhit va inson ongida aks etishi borasidagi tasavvurlar klassik, ma’muriy, psixologik, axloqiy va ruhiy jihatdan bir-biriga mustahkam bog‘lanib ketishi bilan birga bank sohasining ehtiyojlariga mos ravishda parallel rivojlandi.

“Investitsiyalar” atamasining iqtisodiyotda ko‘p qirrali namoyon bo‘lishiga asosiy sabab korxonalar funksiyalarining o‘zaro bir-biriga chambarchas bog‘liqligidir, chunki ular iqtisodiyotda ishlab chiqarishning davomiyligini va tezlashishini ta’minlash maqsadida bo‘sh turgan resurslarni jalb qilish, resurslarni tartibga solish va korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishga ko‘mak beradi.

Aytish joizki, Rossiyada investitsion faoliyatning VIII asrning 2-yarmidan 1917-yilgacha rivojlanishi davri revolyutsiyaga qadar rivojlanish davri deb e’tirof etiladi. Bu davrga qadar pul mablag‘lari cherkovlarda yoki ayrim xususiy shaxslarda majburiyatli qarzlar sifatida saqlanib kelingan. Huqumat ushbu pul mablag‘larini imtiyozli tarzda ishlatib kelgan. Mamlakatda uzoq muddatli barqaror kapitalning yetarli emasligi sababli Petr I, Yelizaveta Petrovna va Yekaterinы II lar Rossiyaga tashqi qarzlarni olishga majbur bo‘ldilar. Biroq XVIII asrdagi xalqaro siyosiy turmush tarzi yuqori darajada nobarqaror edi. Bu davrda Yevropa harbiy yurishlar joyiga aylanib qoldi, natijada davlatlar chegarasi, ularning hukumati, podsholar tez-tez o‘zgarib turgan, Yevropa hududida bir davlat ikkinchi davlatga qarz mablag‘larini berishga cho‘chiganlar, bunda pul mablag‘lari faqat o‘z dushmanlarining qurollanib olishiga berilish mumkin bo‘lgan, xolos. Xususan, XVIII asrdagi tashqi qarzlar bir mamlakatdan boshqa mamlakatga faqat oltin yoki kumush tanga ko‘rinishdagi metall pullar o‘tkazmasi shaklida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Rossiyada kredit tarixi 1769 yili shakllangan. Bu davrda Yekaterinы II Gollandiyaga ilk marta qarz bergan. Aytish kerakki, Rossiya imperiyasida investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga yo‘naltirish an’anasi eng yuqori darajada qo‘llab-quvvatlangan. 1763-yilda imperator Yekaterinы II O‘rta yer dengizidagi savdoda o‘ziga tegishli aksionerlik kompaniyaga faqat yigirma dona aksiya sotib olishga ruxsat bergan. Investitsiya egalari milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni yo‘naltirish bo‘yicha jiddiy shug‘ullanganlar. 1830-yildan boshlab imperiyaning barcha toifasidagi shaxslar milliy fond qiymatliklarini sotib olishda faol ishtirok etadilar. Revolyutsiyaga qadar rivojlanish davrda investitsiya faoliyatining eng yirik ishtirokchilari zamindorlar hisoblanadi. Shaxsiy dvoryanlar arxivida bank muassasida saqlangan aksiyalar, obligatsiyalar va guvohnomalar mavjud. Imperator Aleksandr I ning nabirasi va uning oila-a’zolari Rossiya – Amerika kompaniyasining aksionerligiga a’zo bo‘lganlar. Hozirga qadar ham imperator familiyasida bo‘lgan shaxslar milliy pul mablag‘larini tadbirkorlik faoliyatiga va fuqarolariga sarflab keladilar.

Islohatdan so‘ng Aleksandr II feodalizmga tegishli eskirgan sarqitlarning ko‘pchilik qismini bekor qildi. Rossiya imperiyasida zamonaviy investitsiya qog‘ozlari muomalaga chiqarish boshlandi. Islohatda yerga egalik qilish sohasidagi tub o‘zgarishlar; sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, sug‘urta va bank sohalarida tadbirkorlik faoliyatiga qo‘yilgan cheklovlarning olib tashlanishi; nodavlat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yuritish qoidalarini erkinlashtirish; xorijiy kapitalni iqtisodiyotning real tarmog‘iga foydalanishga ruxsat berish; o‘z-o‘zini mahallabay boshqarish; ta’lim tizimini takomillashtirish kabi tadbirlar o‘z aksini topgan. Islohat natijasida zamindorlar shaxsiy erkinlikka ega bo‘ldilar, ko‘pgina davlatmand zamindorlar yer sotib olishga erishdilar. Kredit, iste’mol, sotish va sotib olish, qayta ishlash sohalarida korporativ harakatning rivojlanishi dehqon xo‘jaliklarining hosildor yerga egalik qilishlariga shart-sharoit yaratib berdi.

Ushbu omillar kapital bozorining intensiv rivojlanishiga, mulkchilik shakllari shaxslar sonining ko‘payishiga sabab bo‘ldi, natijada fabrika, temir yo‘l, bank, savdo va sug‘urta sohalarini tashkil etish va rivojlantirish uchun pul mablag‘lari zarur edi.

XIX asrning 50-yiliga qadar moliyaviy bozorida davlat banklari monopoliyaga aylandi. Banklar faoliyati sharofati bilan bo‘sh turgan mablag‘lar kapital bozorini tark etdi, kredit muassasalari bank resurslarini shakllantirdi. Resurslar dvoryanlar va Davlat xazinasiga uzoq muddatli ssuda ko‘rinishda yo‘naltirildi. Pul mablag‘lariga bo‘lgan talab monopoliyaning boshqa shakliga (davlat obligatsiyalarining qimmatli qog‘ozlar bozorida deyarli

ustunligiga) muvofiq keladi, bu kapital bozorining tarkibiy qismini ko‘rsatadi. Bunda faqat nodavlat qimmatli qog‘ozlari (sug‘urta jamiyatlar aksiyalari) soniga e’tibor qaratilgan.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining sifat jihatdan rivojlanishi oqibatida kapital bozorining demonopolizatsiya jarayoni boshlandi. Bozorda yangi subyektlarning shakllanishi natijasida investitsiyaga bo‘lgan talab yuzaga keldi. Bu subyektlar turli tarmoqlardagi aksionerlik jamiyatlaridan, temir yo‘llar jamiyatidagi kabi transport sohasiga qarashli yirik korxonalardan iborat edi. 1857-yilda 14 jamiyatning aksionerlik kapitali 300 million rub.ni tashkil etdi, 1858 yilda ular safiga 51,2 million rub. bilan 36 jamiyat kirgan. Ularning barchasi muomalaga aksiya va obligatsiyalarni chiqarish orqali pul mablag‘larini jalb qilgan.

Yangi aksionerlik jamiyatlarining ta’sischilari aksiya sotib oluvchilarga dividend xususida jozibador va’dalar tarqatdilar va qarz majburiyatlari bo‘yicha saxovatli stavkalar belgilagan. Aksiya bo‘yicha dividend darajasi ham obligatsiya bo‘yicha foiz ham bir qatorda davlat banklarining omonatlariga belgilangan foiz stavkasidan yuqori darajada o‘rnatilgan. Davlat kredit muassasalari esa omonat va ssudalarga Moliya vazirligi farmoyishiga muvofiq foiz stavkalari belgilangan. Ular davlat banklaridan arzon kreditlar olishga qiziqqan. Shu sababli XIX asrning 50-yillarida davlat banklarining foiz stavkalari bozor foiz stavkasi darajasiga nisbatan past bo‘lgan. Natijada banklardan pul mablag‘larining oqib chiqishi boshlandi.

Bu vaqtda xorijiy pul burjuaziyasining Rossiya hukumati tomonidan berilgan majburiyatlar ostida ajratilgan kreditlarga qiziqishi keskin pasaygan. Mamlakatning Qrim urushida mag‘lubiyat alamini tortganidan so‘ng ushbu jarayonlarga qiqziqishi yanada susayib borgan. Ammo ko‘pchilik xorijiy tadbirkorlar o‘z investitsiyalarini Rossiya iqtisodiyotiga yo‘naltirishni istagan, buning uchun ishonchga kirgan rossiyalik ta’sischilar ishtirokida daromad keltiradigan aksionerlik jamiyatlariga kapitalni jalb qilish kerak bo‘lgan. Hukumatni idora qiluvchi davradagi shaxslar mamlakat iqtisodiyoti inqiroz holatidan, feodalizm davrida saqlanib qolgan qaloqliklardan xorijiy investitsiyalari yordamisiz xalos bo‘lish qiyin ekanligiini tushunib yetganlar.

Nikolay I G‘arbdagi demokratik tendensiyalarning Rossiyaga kirib kelishidan xavfsiraganligi sababli mamlakatni “temir parda” bilan to‘sib qo‘ydi, bu esa xorijiy investitsilarning iqtisodiyotga kirib kelishiga to‘siqlik qildi. Aleksandr II xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotga kirib kelishiga chegarlarni ochgan va ular uchun ishonchli himoya tizimini shakllantirgan. Natijada Rossiya imperiyasiga g‘arb kapitali, tovarlar, texnologiyalar va mutaxassislar yopirilib keldi.

Bozor xo‘jaligi sharoitida milliy va xorijiy mulkdorlar o‘zining bo‘sh turgan kapitallarini joylashtirish shaklini tanlashi mumkin bo‘lgan. Pul mablag‘lari aksionerlik jamiyatining aksiyalari va obligatsiyalarini sotib olishga yo‘naltirilgan, tijorat banklariga pul mablag‘lari yuqori naf keltiradigan foizda depozitlarga joylashtirilgan, pul mablag‘lari shirkatlarga pay olib kelgan, Rossiya hukumati qimmatli qog‘ozlarni sotib olgan, veksellarni garovga qo‘yish orqali qarz oluvchiga pul mablag‘larini “ko‘paytirib olish”i uchun imkoniyat bergan va boshqalar.

Bunda bo‘sh turgan kapitalning har bir egasi bu xildagi investitsiyalar rentabellik darajasidan kelib chiqqan holda faoliyatni amalga oshirgan. Kapitalning har bir egasi risk omiliga e’tibor bergan holda yo‘naltirilgan kapitalidan maksimal darajada foyda olish imkoniyatiga egalik qilgan. Bu paytda feodal ko‘rnishidagi kapitalning monopollashgan bozori o‘zining faoliyatini tugatgan. Bu holatda talab bilan taklif nisbatini pul kapitalida ishtilayotgan bozor bahosi belgilab bergan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiyaga nazariy jihatdan yondoshadigan bo‘lsak, unga iqtisodiy kategoriya sifatida turlicha ta’riflar berilgan, xususan, P. Samuelsonning fikricha, investitsiyalash daromadlarni joriy iste’mol uchun ishlatmasdan, ularni kelajakda ko‘proq foyda olib, faoliyatni kengaytirish uchun sarflash demakdir. L. Dj. Gitmanning fikricha esa “Investitsiya – kapitalni joylashtirish usuli bo‘lib, u foyda qiymatini saqlab turishi va (yoki) uning o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kerak”.

N. S. Guskov “Investitsiya va kapital qo‘yilmalar sinonim bo‘lib, ularga investorlar tomonidan foyda olish maqsadida kiritiladigan mulkiy va intellektual boyliklarning hamma ko‘rinishlari kiradi” degan mazmunidagi fikrlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

N. V. Igoshinning fikricha, “Investitsiyalar – sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga uzoq muddatli kapital qo‘yilma ko‘rinishida kiritiladigan sarflarning yig‘indisidir”.

Rossiyalik olim A. M. Margolin “Investitsiyalar – pul mablag‘lari, maqsadli bank jamg‘armalari, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko‘rinishidagi kapital qo‘yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo‘lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko‘zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritishdir” degan mazmunidagi fikrlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rish mumkinki, investitsiyalar ishlab chiqarishni rivojlantirishda va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblangan kapitalni shakllantirishda muhimligi bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Investitsiyalar – bu tadbirkorlikning faoliyat turlariga qo‘yilayotgan mulkiy va intellektual qimmatliklarning barcha turlari bo‘lib, buning natijasida foyda (daromadlar) shakllanadi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar sifatida ta’riflangan.

Investitsiya qo‘yilmalari jarayonining mazmuni O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi Qonunida batafsilroq ko‘rib chiqilgan: investitsiya – xo‘jalik operatsiyasi bo‘lib, u asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar, korporativ huquqlar va va qimmatli qog‘ozlarni asosiy vositalar va mol-mulkka ayirboshlashni ko‘zda tutadigan xo‘jalik operatsiyasidir. Ayirboshlash qimmatliklari yoki vositalari deganda respublika qonunchiligiga ko‘ra, quyidagilar ko‘zda tutiladi: pul va boshqa moliyaviy mablag‘lar, shu jumladan kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar; ko‘char va ko‘chmas mol-mulklar (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar; intellektual mulk obyektlari, shu jumladan, texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnika, texnologiya, tijoratga oid va boshqa bilimlar majmuyi, u yoki bu turdagi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilimlar va ishlab chiqarish tajribasi, nou-xau; yerga va boshqa tabiiy resurslar, binolar, inshootlar, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek mulk huquqidan kelib chiquvchi ashyoviy huquqlar; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa boyliklar. Investitsiyalarning yuqorida keltirilgan ta’rifidan kelib chiqib, har qanday jamg‘arma qo‘yilmalari ham (mulkiy va intellektual qimmatliklar) investitsiyalarni o‘zida mujassamlashtiravermasligini qayd etish lozim. Masalan, agar bir jismoniy shaxs boshqa jismoniy shaxsdan qimmatli qog‘ozlarni olsa, bunday turdagi investitsiyalar cheklangan tavsifga ega bo‘ladi. Chunki bunda faqat ular egalarining o‘zgarishi yuz beradi, ya’ni pul mablag‘larini o‘tkazish va kelajakda aksiyalari qo‘lga kiritilgan kompaniya daromadlarini olish huquqiga ega bo‘lish aktlari o‘rinli bo‘ladi. Keyingi, unchalik muhim bo‘lmagan, investitsiyalar mazmunini aniqlashtiradigan ta’rif – bu investitsiya faoliyatidir. Investitsiya faoliyati – bu investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmuyidir. Investitsiya faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg‘armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan, mol-mulkni yoki aksiyalarni olish; qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish; konsessiyalarni, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo‘lgan konsessiyalarni olish; mulk huquqini, shu jumladan, ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari obyektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olish; qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa shakllarda. Har qanday mol-mulk, shu jumladan, xalq xo‘jaligining barcha sohalaridagi asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar, qimmatli qog‘ozlar, maqsadli pul qo‘yilmalari, ilmiy-texnika mahsuloti, intellektual qimmatliklar, boshqa mulkiy obyektlar hamda mulkiy huquqlar investitsiya faoliyatining obyekti hisoblanishi mumkin. Barpo etilishi va foydalanilishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya kiritish taqiqlanadi. Quyidagilar investitsiya faoliyatining subyektlari (investorlar va ishtirokchilar) bo‘lishlari mumkin: O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari – fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari; mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlari; xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va O‘zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari; hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag‘ kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo‘lishlari, shuningdek investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo‘lishlari mumkin. Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari investor bilan tuzilgan shartnoma asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi bo‘lishlari mumkin. Investor – bu o‘z mablag‘lari, qarzga olingan va jalb etilgan mablag‘lar, mulkiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyektlaridir. Investorlar qonunga muvofiq, pul qo‘yuvchilar, kreditorlar, xaridorlar sifatida chiqishlari hamda investitsiya faoliyatining har qanday ishtirokchisi vazifasini bajarishlari mumkin. Barcha investorlarning huquqlari mulkchilik shaklidan qat’iy nazar teng va investitsiyalarni har qanday obyektlarga joylashtirish ularning qonun bilan himoya qilinadigan daxlsiz huquqidir. Investitsiya faoliyati ishtirokchilari – boshqa davlatlar fuqarolari va yuridik shaxslari bo‘lib, ular buyurtmalarning ijrochilari sifatida yoki investorning topshirig‘iga ko‘ra, investitsiyalarning amalga oshirilishini ta’minlaydilar.

Investor investitsiyalarning maqsadi, yo‘nalishlari va hajmlarini belgilaydi hamda ularni shartnoma asosida, shu jumladan, konkurslar va sotuvlarni tashkil qilish yo‘li bilan amalga oshirish uchun investitsiya faoliyatining har qanday ishtirokchilarini jalb qiladi. Davlat va mas’ul shaxs o‘z vakolatlaridan tashqari investitsiya faoliyati ishtirokchilarining shartnomaviy munosabatlariga aralashish huquqiga ega emas. Investitsiya sikli – investitsiyalash to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytdan boshlab investitsiya loyihasini yakunlaydigan bosqichlarigacha, xususan, masalan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, investitsiya qarorlarini qabul qilish, rejalashtirish va loyihalashtirish, qurilishga tayyorlash, qurish, loyiha ko‘rsatkichlariga chiqish va qo‘yilmalar qoplanuvchanligi tartibigacha bo‘lgan chora-tadbirlar majmuyidir. Investitsiya sikli uchta asosiy davrlardan iborat:

1. Investitsiya oldi bosqichi.
2. Investitsiyalash bosqichi – haqiqiy xarajatlar, mablag‘larning qo‘yilishi.
3. Eksplutatsiya qilish bosqichi – sarflangan mablag‘larni joylashtirish. Investitsiya jarayoni – takrorlanadigan investitsiya sikllaridir.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda investitsiya jarayoni faol ishtirokchilarining soni birmuncha ko‘paydi. Moliyaviy vositachilar birmuncha ko‘payganligi sababli u jiddiy murakkablashdi. Xalq xo‘jaligining tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlarining faoliyati uchun yetarli bo‘lgan zaruriy asosiy fondlarni yaratish vazifasini bajaradigan korxona va tashkilotlar tizimi investitsiya majmuasi, deb ataladi. Investitsiya majmuasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Investorlar – kapital qo‘yuvchilar.
2. Sanoat va investitsiya majmuasi uchun buyumlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan bog‘liq korxonalar (asosiy fondlarni yaratish, yetkazib berish, qurilish).
3. Investitsiya banklari.
4. Investitsiya majmuasi bozor infratuzilmasi.
5. Investitsiya majmuasida bozor munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish organlari.

O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi va “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi Qonunlari bilan quyidagi tushunchalar aniqlandi. Chet el investitsiyalari – bu O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, xorijiy investorlar tomonidan investitsiya faoliyati obyektlariga qo‘yiladigan qimmatliklarning barcha turlaridir. Quyidagilar chet el investorlari hisoblanadi: respublika qonunchiligidan boshqa qonunlarga ko‘ra, tashkil qilingan yuridik shaxslar; O‘zbekiston hududida doimiy yashash joyiga ega bo‘lmagan jismoniy shaxslar; xorijiy davlatlar, xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari; O‘zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq, xo‘jalik faoliyatining xorijiy subyektlari sifatida e’tirof etilayotgan boshqa subyektlar.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, investitsiyalar yanada kengroq talqin qilinganda, uni keyinroq ko‘paytirish maqsadida kapital qo‘yilmalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bunda kapital o‘simi joriy davrda mavjud mablag‘lardan iste’molda foydalanishdan voz kechishni investorga qoplab berish, uni risk uchun mukofotlash, inflyatsiyadan yo‘qotishlarni joylashtirish uchun yetarli bo‘lishi zarur. Kapital o‘simi manbayi va investitsiyalarni amalga oshirishning harakatlantiruvchi rag‘bati ulardan olinadigan foyda hisoblanadi. Bu ikki jarayonlar – kapital qo‘yish va foyda olish turli vaqt ketma-ketligida yuz berishi mumkin. Bu jarayonlarning ketma-ket kechishida investitsiyalar to‘liq hajmda tugallangandan keyin birdaniga foyda olinadi. Ularning mutanosib kechishida jarayon to‘liq yakunlangunga qadar (uning birinchi bosqichidan keyin) foyda olish mumkin. Investitsiyalarning tugallanish va foyda olish davrlari o‘rtasida bu jarayonlarning oraliq kechishida ma’lum vaqt o‘tib, uning davomiyligi aniq investitsiya loyihasining xususiyatlariga bog‘liq.

“Investitsionnыy menedjment” kitobi muallifi Blankning fikricha, zamonaviy adabiyotlarda investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini tavsiflashda bu tushuncha ba’zan xato yoki juda tor ma’noda talqin qilinadi. Ular tomonidan taqdim qilingan barcha dalillar bilan kelishmaslik mumkin emas.

Uning fikricha, o‘ziga xos xato shundan iboratki, investitsiyalar deganda kapital o‘simiga ham, foyda olishga ham olib kelmasligi mumkin bo‘lgan har qanday kapital qo‘yilmalari tushuniladi. Ularga ko‘pincha “iste’molchilik investitsiyalari” (televizorlar, avtomobillar, kvartiralar, dala hovlilar va h.k.lar xaridi) kiradi, ammo ular o‘z mohiyatiga ko‘ra, investitsiyalarga kirmaydi, mazkur vaziyatda bu tovarlarni olishga qaratilgan mablag‘lar bevosita uzoq muddatli iste’molga (agar ularni keyinchalik qayta sotish uchun olishmasa) sarflanadi.

“Investitsiyalar” tushunchasini “kapital qo‘yilmalar” tushunchasiga aynan o‘xshatish xato bo‘ladi. Mazkur vaziyatda investitsiyalar asosiy fondlarni (binolar, uskunalar, transport vositalari va h.k.) takror ishlab chiqar-

ishga mablag‘ qo‘yish sifatida qaraladi. Shu bilan bir qatorda investitsiyalar aylanma aktivlarga ham, turli moliyaviy vositalarga ham (aksiyalar, obligatsiyalar va h.k.), nomoddiy aktivlarning alohida turlariga ham (patentlar, litsenziyalar olish va h.k.) amalga oshirilishi mumkin. Demak, kapital qo‘yilmalar tor ma’nodagi tushuncha hisoblanadi, ammo investitsiyalarning o‘zaro o‘xshashi emas, balki faqat ularning shakllaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Blank ham investitsiyalarning ayrim manbalarida pul mablag‘larining qo‘yilishi sifatida ta’riflanishi bilan kelisha olmaydi. U kapital investitsiyalash nafaqat pul, balki boshqa shakllarda – ko‘char va ko‘chmas mulk, turli moliyaviy vositalar, nomoddiy aktivlar va h.k. shakllarda ham amalga oshirilishi mumkinligini e’tirof etadi.

Va nihoyat, qator ta’riflarda investitsiyalar pul mablag‘larining uzoq muddatli qo‘yilmalarini o‘zida mujassamlashtirishi qayd etiladi. Investitsiyalarning alohida shakllari (birinchi navbatda, kapital qo‘yilmalar) uzoq muddatli tavsifga ega, biroq investitsiyalar qisqa muddatli bo‘lishi ham mumkin (masalan, aksiyalarga qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar, jamg‘arma sertifikatlari va h.k.).

“Investitsiyalar” tushunchasini tadbirkorlik faoliyati har xil turlarini birlashtiradigan toifa sifatida biriktirish uchun uning ko‘proq tarqalgan tasniflanishini keltiramiz:

1. Qo‘yilmalar obyektiga ko‘ra:

a) moliyaviy investitsiyalar – korporativ huquqlar, qimmatli qog‘ozlar, derivativlar va boshqa moliyaviy vositalarni qo‘lga kiritish. Moliyaviy investitsiyalar, o‘z navbatida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri (mablag‘larni yuridik shaxs ustav fondiga uni korporativ huquqqa ayirboshlagan holda o‘tkazish) va portfelli (qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy aktivlarni fond bozorida olish) investitsiyalar ko‘rinishida bo‘ladi;

b) haqiqiy/kapital investitsiyalar – haqiqiy aktivlarga mablag‘larni qo‘yish – uylar, inshootlar, boshqa ko‘chmas mulk obyektlari, boshqa amortizatsiyaga uchragan asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarga ega bo‘lish.

2. Investitsiyalashda qatnashish tavsifiga ko‘ra:

a) to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar – investor tomonidan mablag‘larni investitsiyalash obyektiga bevosita jalb qilish (investitsiyalash mazkur turini asosan, investitsiyalash obyekti haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lgan va investitsiyalash mexanizmi bilan yaxshi tanish bo‘lgan, maxsus tayyorlangan investorlar amalga oshiradilar);

b) to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmagan investitsiyalar – boshqa shaxslar vositachiligidagi investitsiyalash. Bu investitsiyalarni investitsiyalash obyektlarini tanlash va keyinchalik ularni boshqarish uchun yetarli malakaga ega bo‘lmagan investorlar amalga oshiradilar. Mazkur vaziyatda ular investitsion yoki boshqa moliyaviy vositachilar (masalan, investitsiya fondlari va investitsiya kompaniyalarining investitsion sertifikatlari) tomonidan chiqariladigan qimmatli qog‘ozlarga ega bo‘ladilar, oxirgisi, shu tariqa to‘plangan investitsiya mablag‘lari esa o‘z bilganlaricha joylash tiriladi, ko‘proq samarali investitsiyalash obyektlari tanlab olinadi, ularni boshqarishda ishtirok etishadi, olingan daromadlar esa o‘z mijozlari o‘rtasida taqsimlanadi.

3. Investitsiyalash davriga ko‘ra:

a) qisqa muddatli investitsiyalar – bir yildan oshmagan muddatga kapital qo‘yish (masalan, qisqa muddatli depozit qo‘yilmalar, qisqa muddatli jamg‘arma sertifikatlari va h.k.lar);

b) uzoq muddatli investitsiyalar – bir yildan ortiq davrga kapital qo‘yish. Ko‘plab investitsiya kompaniyalarining amaliyotida uzoq muddatli investitsiyalar quyidagi tarzda ta’riflanadi: 2 yilgacha; 2 yildan 3 yilgacha; 3 yildan 5 yilgacha; 5 yildan ortiq muddatga.

4. Mintaqaviy belgisiga ko‘ra:

a) ichki investitsiyalar – mablag‘larni mazkur mamlakatlar ichkarisida joylashgan investitsiyalash obyektiga qo‘yish;

b) chet elda investitsiyalash – mablag‘larni mazkur mamlakatdan tashqarida joylashgan investitsiyalash obyektiga qo‘yish.

5. Mulkchilik shakliga ko‘ra:

a) xususiy – fuqarolar hamda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan mablag‘ qo‘yilmalari;

b) davlat – byudjetlar, byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari hisobiga markaziy va mahalliy hokimiyat, boshqaruv organlari tomonidan hamda xususiy va qarz mablag‘lari hisobiga davlat korxonalari tomonidan amalga oshiriladigan qo‘yilmalar;

d) xorijiy – chet el fuqarolari, yuridik shaxslari va davlatlari tomonidan amalga oshiriladigan qo‘yilmalar;

e) qo‘shma – mazkur mamlakat va xorijiy davlatlar shaxslari tomonidan amalga oshiriladigan qo‘yilmalar.

XULOSA

Investitsiyalarni moliya-kredit tizimining samarali faoliyatini ta’minlovchi muhim element sifatida tan olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Investitsiyalar nafaqat xarajatlar sarfi, balki kelajakdagi qo‘yilmalar manbayidir, u bevosita investitsiyalar jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. Investitsiyalardan davlat yoki korxona strategiyasi maqsadlari uchun ishlab chiqilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda foydalaniladi. O‘zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish muammosi har doim hokimlar yoki tadbirkorlar uchun ham muhim masalardan biri bo‘lib kelgan. Mazkur muammolar iqtisodiyotning tub o‘zgarishida ham inqiroz sharoitida ham yanada dalzarbli muammolardan biriga aylangan edi.

Korxona investitsiya faoliyatining rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biri investitsiyalarning moliyalash manbalarini maqbul holatga keltirishdan iborat. Bugungi kunda hukumat davlat-xususiy sherikchilik masalasiga jiddiy e’tiborni qaratmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik shakli kelajakda investitsiya sohasiga, xususan, konsessiyalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Demak, davlat bilan korporativ sektorning real investitsiyalarni yo‘naltirishga va qo‘yilmalar manbayini talab qiladigan investitsiya dasturlarini rivojlantirishga bo‘lgan ta’siri mamlakat darajasida ham hudud darajasida ham muhim strategik ahamiyatga ega. Bunda eng asosiysi investitsiya bozoridagi har bir ishtirokchining rolini va manfaatini to‘g‘ri tushunish, me’yoriy-huquqiy va shartnomaviy bazani aniq belglab olish, investitsiyalarning moliyaviy samardorligini ulardan foydalanishning barcha bosqichlarida tezkor tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Белякова М.Ю. Факторы, влияющие на инвестиционную активность Факторы, влияющие на инвестиционную активность. Сборник трудов секции "Инвестиции, инновации и экономическая безопасность". Вып. 8.- М.: Рос. экон. акад., 2004.

2. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Монография. Т.: Молия, 2011.-300 с.

3. Рашидова Ф. Ш. Иностранные Инвестиции В Развитии Предпринимательства–Как важный фактор формирования среднего класса в Узбекистане //Central asian journal of social sciences and history. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 76-86.

4. Рашидова Ф. Ш. Роль женского предпринимательства в развитии и процветании государства // Научный вестник СамГУ. Серия" Гуманитарные науки". – 2013. – №.4 (80). – С. 18.

5. Рашидова Ф. Ш. Иностранные Инвестиции В Развитии Предпринимательства–Как важный фактор формирования среднего класса в Узбекистане //Central asian journal of social sciences and history. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 76-86.

O‘ZBEKISTON SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI, MUAMMO VA YECHIMLARI



Shavqiyev Erkin
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori v. b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat ishlab chiqarishining O‘zbekiston iqtisodiyotida tutgan o‘rni, rivojlanish tendensiyalari, kichik sanoat korxonalari va mikrofirmalarning iste’mol tovarlarini ishlab chiqarishdagi roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, mahsulot, iqtisodiyot, texnika, texnologiya, omillar.

Abstract: This article shows the place of industrial production in the economy of Uzbekistan, highlights the development trend of industrial sectors, as well as the role of small industrial enterprises and micro-firms in the production of consumer goods.

Key words: industry, products, economics, equipment, technology, factors.

Аннотация: В данной статье показано место промышленного производства в экономике Узбекистана, освещёна тенденция развития отраслей промышленности, а также роль малых промышленных предприятий и микрофирм в производстве потребительских товаров.

Ключевые слова: промышленность,продукция, экономика, техника, технология, факторы.

KIRISH

Ma’lumki, har qanday davlatning iqtisodiy salohiyati, uning sanoat ishlab chiqarishi qay darajada rivojlanganligi bilan baholanadi. Shu sababdan, mamlakatimizda sanoatning barcha tarmoqlarini rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, buning uchun bozor munosabatlariga mos bo‘lgan barcha vositalardan, eng yangi tajribalardan g‘oyat samarali foydalanish zaruriyatini tug‘dirmoqda.

Yurtimizning rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishini ta’minlashning asosiy yo‘nalishi – yalpi milliy mahsulotda sanoat ishlab chiqarishining ulushini oshirib borishga erishish hisoblanadi. Ichki va tashqi bozorlardagi talab va taklif o‘zgarishlariga o‘z vaqtida moslashaoladigan, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga asoslangan sanoat korxonalariga ega bo‘lgan davlatgina jahon hamjamiyatiga tezroq integratsiyalasha oladi.

Mamlakatimiz sanoati – milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan bo‘lgan elektr energiya, gaz, mashinasozlik, yengil va og‘ir sanoat kabilar ichki va tashqi bozorlar talab ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida tashkil topdi hamda rivojlanmoqda. Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan va bozor munosabatlariga moslashib borayotgan O‘zbekiston sanoat tarmoqlari astasekin takomillashib, o‘zaro bog‘langan majmua shaklini olmoqda.

Sanoat tarmoqlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlashda infratuznlmaning ahamiyati katta. U o‘zaro bog‘liq ikki tarkibiy qismdan iborat bo‘lib – ishlab chikarish va sotsial infratuzilmalarga ajratiladi. Birinchisi, bevosita ishlab chikarishga xizmat qilib, ma’lum ma’noda uning tarkibiy bo‘g‘ini hisoblansa, ikkinchisi, sanoatni kadrlar bilan ta’minlashga, xodimlarning sog‘ligini saqlashga, turmush darajalarini oshirishga xizmat qiladi

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda “... daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan[1].

Davlatimizning makroiqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlash va taraqqiyot strategiyasida belgilab olingan maqsadlarga erishish uchun O‘zbekistonda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari – elektroenergiya,

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF–60-son Farmoni (1-ilova, III-bo‘lim, 21-maqsad).

neft-gaz, oltin qazib chiqarish, rangli metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoatini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Strategiyada iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish asosida yalpi ichki mahsulotni kelgusi besh yilda aholi jon boshiga 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish uchun zamin yaratish ko‘zda tutilgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuksalish – faol innovatsion taraqqiyot yo‘liga o‘tgan sanoat tarmog‘ining ta’siri tufayli ro‘y bergan, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

“Innovatsiya – bu insonning tasavvurida, ijodida ”pishib” yetilgan, aqliy mehnatning yakuniy natijasi sifatida ixtiro qilingan, joriy qilingan, kiritilgan, ishlayotgan moddiy va nomoddiy ko‘rinishdagi mulkni ifodalovchi tushunchadir”[2].

“O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat sanoatlashtirish siyosati faqat sanoatning an’anaviy tarmoqlarini taraqqiy ettirishdan ko‘ra, ilm sig‘imi va qo‘shilgan qiymat ulushi yuqori bo‘lgan, zamonaviy va ilg‘or texnologik tarmoqlarni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ilgargisidan farq qiladi. Bu masalaning bir tomoni. Boshqa tomondan, sanoat ishlab chiqarishining texnik-texnologik tuzilishi faqat va faqat innovatsion va kretiv yondashuvlarga tayanadi, sohaga ilm va yuqori texnologiyalarni uzluksiz joriy etmasdan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarisiz ishlab chiqarish samaradorligini va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishni tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu yondashuvlar bugun sanoat sohasini rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarda o‘z aksini topmoqda”[3].

“Hozirgi globallashuv sharoitida fan texnika taraqqiyotisiz jahon iqtisodiyoti rivojlanishini tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki, fan-texnika sur’atlarining o‘sishi, ilmiy jihatdan ishlab chiqarish va xizmatlarning iqtisodiy o‘sishning jadallashuviga turtki bo‘ladi”[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o‘rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yo‘nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma’lumot manbalarini chuqur o‘rganish va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan. Maqolani yozishda tadqiqot metodologiyasining qiyoslash, umumlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotining transformatsiyalashuvi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi sharoitida, tashqi bozorda raqobatbardoshlilikni ta’minlash uchun aksariyat davlatlar o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishda va mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan yuksak samarali texnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor qaratishmoqda. Shu sababdan ham sanoatni rivojlanishining hozirgi bosqichidagi keskin raqobat muhiti sharoitida innovatsiyalardan keng miqiyosda foydalanishni talab qiladi.

Iqtisodiyotning hozirgi zamon rivojlanishiga xos bo‘lgan jihat – dunyoning yetakchi mamlakatlari postindustrial jamiyat shakllanishining yangi bosqichiga – ilg‘or bilimlar yaratish, tarqatish va foydalanishga asoslanadigan iqtisodiyot yaratishga o‘tishi hisoblanadi. Jamiyatda kam uchraydigan noyob ko‘nikma va qobiliyatlar, ularni doimiy ravishda o‘zgarib turadigan faoliyat sharoitlariga moslashtirish, yuqori malakali va yetakchi ishlab chiqarish resursiga, shaxsning sotsial maqomi va moddiy farovonligining asosiy omiliga aylanadi.

Bugungi kunda ilm va fandagi yutuqlar, kadrlar va ilmiy salohiyat, tabiiy resurslar kabi mavjud obyektiv omillardan samarali foydalanayotgan mamlakatlar o‘z rivojlanishlarida ilgarilab bormoqda. Va buning natijasida o‘z fuqarolarining turmush farovonligini oshirishga va hayot sifatini yaxshilashga erishmoqdalar hamda ichki iqtisodiy, siyosiy va xalqaro munosabatlarning yangi tizimini shakllantirmoqdalar. Zamonaviy fan yutuqlaridan, yangi texnika va texnologiyalardan foydalana olmayotgan mamlakatlar esa yuzaga kelgan yangi shart-sharoitlarga moslasha olmayaptilar.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – raqobatbardosh, eksportbop hamda import o‘rnini bosuvchi, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lib, u sanoatning barqaror va mutanosib ravishda o‘sishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash asosida uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Yurtimizning mustaqil taraqqiyoti davomida to‘plangan tajribalar dalolat beradiki, har qanday davlat iqtisodiyotining negizi bo‘lgan sanoat –integratsiya asosida hamda jahon hamjamiyati talablari darajasida ravnaq topishi kerak.

2 Shavqiyev E. . Sanoat iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “STAPSEL” MChJ. nashriyot-matbaa bo‘limi, 2022, 181 bet.

3 Xolmatov N. B. Milliy sanoatlashuv jarayoni muammolarini o‘rganishga institutsional yondashuv “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020-yil, 1/2020 (№ 00045) 142 bet http://iqtisodiyot.tsue.uz,.

4 Umaraliyev B. A. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017-yil. 2 bet. www.iqtisodiyot.uz

O‘zbekiston sanoati oldida turgan dolzarb masala – ishlab chiqarilayotgan va qazib olinayotgan xom ashyoni kompleks qayta ishlash, ya’ni chiqindisiz qayta ishlash asosida, respublikaning o‘zida uni tayyor mahsulotga aylantirishdadir.

Respublikada zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan qudratli qayta ishlash sanoatining bunyod etilishi, uzluksiz o‘sib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta’minlash, mamlakat yalpi ichki mahsulotining yuqori sur’atlarda o‘sishiga va yurtimizning har jihatdan uyg‘un rivojlanishiga, O‘zbekistonnin eksport salohiyatini oshirishga, ishlab chiqarishni mahalliylashtirishga va uning negizida bir qator tovarlarni import qilishni butunlay to‘xtatishga sabab bo‘ladi.

Sanoatning milliy iqtisodiyotdagi roli va o‘rnini quyidagi jadvaldan aniqroq ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy ko‘rsatkichlari[5] (amaldagi narxlarda, mlrd. so‘m)

Ko‘rasatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2019-yilning 2022-yilga nisbati, %
Yalpi ichki mahsulot	532 712,5	605 514,9	738 425,2	888 341,7	166,8
Shu jumladan:					
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	487 449,8	561 153,4	686 432,4	828 054,2	169,9
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	164 635,7	187 610,0	232 535,7	276 227,0	167,8
-sanoat	134 185,8	150 275,1	186 978,2	220 704,3	164,5
-qurilish	30 449,9	37 334,8	45 557,4	55 522,7	182,3

1-jadval ma’lumotlari dalolat beradiki, 2019–2022-yillarda mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi 66,8 foizga o‘sgan bir paytda tarmoqlarda yaratilgan yalpi qo‘shimcha qiymat 69,9 foizga, sanoatda hosil bo‘lgan qo‘shimcha qiymat miqdori esa 67,8 foizga ortgan. Bu, tabiiyki, mamlakatning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlar sifatining oshayotganidan hamda ularga ichki va tashqi bozorlarda talabning o‘sishidan, shuningdek, ularni ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy, mehnat va moliyaviy xarajatlarning pasayoiganidan dalolat beradi.

Ammo, bu ko‘rsatgichlarni rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslaydigan bo‘lsak — sanoat tarmog‘ining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi (ularga nisbatan) juda ham oz.

Sanoat – sotsial-iqtisodiy kategoriyadir. Uning tabora taraqqiy etishi – aholi bandligi darajasining va daromadining oshishiga, uning iste’mol mollariga bo‘lgan talabining to‘liqroq qondirilishiga, mamlakatning iqtisodiy va mudofaa qudratini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Tahliliy ma’lumotlarining guvohlik berishicha, respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yili 2019-yilga nisbatan 230729,2 mlrd. so‘mga yoki 1,7 barobarga ko‘paygan6. O‘rganilayotgan davrda ishlab chiqarish indeksi har yili ortib bormoqda. Bu davlatning islohotlar strategiyasini – sanoatlashtirish siyosati bilan barobar olib bora boshlaganining natijasidir.

Tarmoqda band bo‘lgan aholi soni 2022-yilda 2019 va 2021-yillarga nisbatan, mos ravishda, 10.9 va 52,6 ming kishiga yoki 0,6 va 2,8 foizga kamaygan, faqatgina, 2020-yilga nisbatan 1,1 ming kishiga yoki 1,0 foizga ko‘paygan7. Shuningdek, ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri hisoblanmish – asosiy fondlar hajmi 198406,8 mlrd. so‘mga yoki 2,6 barobarga ortgan8.

Sanoatning rivojlanishi – ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqeining ko‘tarilishiga olib keladi. Tarmoq ishchilari respublika yalpi ichki mahsuloti, milliy daromadning asosiy qismini bunyod etishdada, mamlakat sotsial-iqtisodiy salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarishda faol ishtirok etmoqda.

Sanoat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri – sanoat xodimlarining madaniy-texnikaviy, ma’naviy-ma’rifiy darajasining o‘sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasining tinmay oshib borishidir.

Mamlakatimiz sanoati ishchilari qiyofasida (rivojlangan davlatlar ishchilaridagidek) ongli industrial mehnatkash insonlar munosabatining yuksak me’yorlari va umuminsoniy tamoyillarini, qadriyatlarini qaror toptiruvchi, yangi hayot uchun ilg‘or kurashchi xislatlari bir butun bo‘lib mujassamlashgan.

Tarmoq xodimlarining bilim va ko‘nikmasining, ishlab chiqarish malakasi va mahoratini, madaniy va ma’rifiy saviyasini yuqori darajaga ko‘tarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarda ham sanoatning yuqori o‘rin tutishini ko‘rish mumkin.

Sotsial-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta’minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – bu raqobatdir. Hozirda, mamlakatimizning sanoat ishlab chiqarishida ham bellashuv (raqobat) rivoj topmoqda. Ilg‘or texnika

5 O‘zbekiston sanoati 2019–2022. − T:. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023, 13 bet.
6 O‘zbekiston sanoati 2019–2022. − T:. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023, 15 bet..
7 O‘sha manba, 75 bet.
8 O‘sha manba, 53 bet.

va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko‘tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash asosida uning samaradorligini ko‘tarish uchun harakat va boshqa mehnat an’analari ham avvalo, sanoat sohasida vujudga kelgan va kelmoqda.

Sanoat – mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy asosi, el-yurtda tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo‘shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta’minlovchi muhim sohadir. O‘zbekiston davlati mudofaasini kafolatlashda sanoatning roli bebahodir.

Respublika sanoatida tarmoqlarning tutgan o‘rni har xil. Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat kompleksiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to‘qish, konserva, yog‘-moy va boshqa tarmoqlardir.

Statistik ma’lumotlar tahlili dalolat beradiki, 2019–2022-yillari yurtimiz sanoati faoliyatining qariyib barcha turlari bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish o‘sish tendensiyasiga ega. So‘nggi yillarda mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylar, yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlarni ishlab chiqarish, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’mirlash va havoni konditsiyalash hamda to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi yuqorilab borayotgani kuzatiladi[9]. Bunday jarayonni, bizning fikrimizcha, mamlakat iqtisodiyotining sanoatlashayotganidan darak berayotir, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

O‘rganilayotgan davrning oxirgi yillarida suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish ishlari indeksi sezilarli darajada pasayib bormoqda. Bunday holat, bizning fikrimiza, ushbu faoliyat turlariga tegishli shaxobchalar moddiy-texnika bazasining eskirishi hamda malakali mutaxassislarning yetishmasligi bilan bog‘liq.

Sanoat taraqqiyoti – mamlakat tabiiy boyliklaridan, xom ashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratadi. Respublika sanoatida 2022-yil oxiriga 2349 ta[10] yirik va o‘rta, 97 911 ta[11] kichik korxonalar va mikrofirmalar mavjud.

Metallurgiya – sanoat ishlab chiqarishda yetakchi hisoblangan davlatlarda, iqtisodiyotning hal qiluvchi tarmog‘i hisoblanadi. Aynan metallurgiya boshqa sohalarga ham global bozorda ustuvorlik qilishga, xususan, sifatli prokat ishlab chiqarishga ko‘maklashadi.

Bugungi kunda metallurgiya mahsulotining eng yaxshi turlari AQSh, Yaponiya, Rossiya va G‘arbiy Yevropa davlatlarida ishlab chiqariladi. Bu davlatlar ishlab chiqaruvchilari ichki bozor talablarini qondiribgina qolmay, balki xorijga yuz millionlab dollarga teng bo‘lgan prokatni eksport qilib kelishmoqda. Dunyo miqyosida sifatli prokatga ehtiyoj ortib borayotganligi ham soha dolzarbligini belgilab bermoqda.

Metallurgiya sanoati respublika iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning tarkibiga qora metallurgiya va rangli metallurgi sanoat tarmoqlari kiradi.

Qora metallurgiya – metallurgiya sanoatining sohalaridan biri. U domna, po‘lat eritish, prokat metallurgiyasi, metall buyumlar ishlab chiqarish, ruda xom ashyosini qazib olish, boyitish, maydalash, koks kimyosi ishlab chiqarishi, ferroqotishmalar va o‘tga chidamli materiallar tayyorlash, noruda xom ashyo qazib olish va qora metallarni qayta eritish tarmoqlarini o‘z ichiga oladi. Sovuqlayin yoki qizdirib ishlangan prokat, po‘lat trubalar va metall buyumlar qora metallurgiya mahsulotlarining muhim turlari hisoblanadi.

Mamlakatimizda qora metallurgiya sanoati bo‘yicha to‘ng‘ich va yuqori navli prokat mahsulotlari, po‘lat zoldirlar ishlab chiqaruvchi korxona – bu Bekobod shahridagi “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasidir. Unda qora metallurgiya mahsulotlarining eng muhim turlari (po‘lat va po‘lat prokatlari), turli aylanma xajimdagi po‘lat soqqalar, chiroyli va bejirim sirli idishlar ishlab chiqariladi.

Metallurgiya tarmog‘ini, ayniqsa qora metallurgiyani kengaytirish – yirik muammolardan biridir. Zero, busiz milliy iqtisodiyotning rivojini tasavvur etish qiyin.

Keyingi o‘n yilliklar davomida mazkur tarmoqda, ma’lum darajadagi tanqislik sezildi. Yangi metallurgiya quvvatlarini ishga tushirish juda qimmat loyiha hisoblanishi uchun faqatgina rivojlangan iqtisodiyot va infratuzilmaga ega bo‘lgan davlatlar bunga qo‘l urishi mumkin.

Mutaxassislarning baholashicha, yangi metallurgiya quvvatlarini ishga tushirish strategik ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki, unda qurilish industriyasi uchun korroziyaga qarshi himoya qatlamiga ega bo‘lgan sovuq bosimli metall ishlab chiqariladi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, so‘nggi olti yilda O‘zbekistonda import o‘rnini bosish va mahalliylashtirish dasturlari faol amalga oshirilmoqda. Bu vazifaning ma’lum qismi Toshkent viloyati Zangiota tumanida barpo etilgan “Toshkent metallurgiya zavodi” MChJ QK zimmasiga yuklatildi. Zavod 2017-yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi va xorijiy investor ishtirokida tashkil etildi. Bugungi kunda ushbu zavod O‘zbekistondagi eng yirik va zamonaviy sanoat korxonalaridan biriga aylandi.

9 O‘ zbekiston sanoati.2019–2022 − T:. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023, 22–23 betlar.
10 O‘sha manba, 27 bet.
11 O‘ zbekiston sanoati.2019–2022 − T:. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023, 31 bet.

Zavod qurilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad – iste’mol bozorini (qo‘shni va uzoq xorijdagi ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlasha oladigan) yuqori sifatli, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar bilan ta’minlashdan iborat. Bu, o‘z navbatida, qurilish, sanoat va boshqa ishlab chiqarish sohalarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga o‘z xarajatlarini va narxlarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Uning ishga tushirilishi respublikaning metallurgiya mahsulotiga bo‘lgan import tobeligini kamaytirib, industrial salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu O‘zbekiston uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

To‘liq ishga tushgandan so‘ng, zavod mahsulotining 20 foizi Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, Latviya, Litva va Estoniyaga eksport qilinadi[12].

Qora metallurgiya sanoati korxonalari faoliyatini kengaytirish va ular ishlab chiqarishayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish bir qator omillarga bog‘liq. Jumladan:

- xom ashyo zaxiralarining mavjudligi:
- moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi;
- uzluksiz gaz, elektr energiyasi va suv bilan ta’minlanishi;
- zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanganligi;
- innovatsion marketing asosida ishlab chiqarishni takomillashtirish;
- ortiqcha, kam foydalaniladigan va ma’naviy eskirgan asosiy vositalarni tugatish;
- muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va boshqalar.

Respublikada iste’mol bozori muammosini hal etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunda, avvalo, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni izga solib, bevosita iste’mol bozoridagi nochor ahvolni tuzatish, shu bilan birga eng zarur nooziq-ovqat mollar ishlab chiqarilishini ham yo‘lga qo‘yish zarur bo‘ladi.

Bu muammoning yechimini topishda, mamlakatimizda avj olayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik juda qo‘l kelmoqda. Ularning afzalliklari shuki, katta kapital xarajatlarni talab qilmaydi.

Bugungi kunda, yangi ishchi o‘rinlarini yaratishda, aholi daromadlarining oshishida va mamlakatning iqtisodiy o‘sishda kichik sanoat korxonalari va mikrofirmalarining o‘rni sezilarli bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda 2019–2022-yillarda ishlab chiqaralgan sanoat mahsulotlari (oziq-ovqat, ichimliklar, to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari, mebel va boshqalar)ning 95,8 va undan yuqori foizi kichik sanoat korxonalari va mikrofirmalarining hissasi to‘g‘ri kelgan. Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mamlakat iqtisodiy o‘sishidagi ulushi 2019–2020-yillarda pasaygan bo‘lsada, bu ko‘rsatkich 2021 yilda biroz yuqorilagan. Tarmoqning boshqa shaxobchalarining umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi ham sekin bo‘lsada oshmoqda[13].

Shuni ta’kidlash lozimki, kichik sanoat zonalarini tashkil etilishi orqali mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash – respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lmoqda. Keyingi paytlarda har bir tumanga sanoat kirib bormoqda, olis va chekka hududlarda yangi ishlab chiqarishlar paydo bo‘lmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishining pirovard natnjalari fakat sanoat tarmog‘i rivojlanish darajasiga emas, balki unga xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga ham bog‘liqdir. Ishlab chiqarish hajmi o‘sishi bilan sanoat tarmog‘ida moddiy-texnika resurslari, kerakli xom ashyo va yordamchi materiallardan foydalanish hajmi ham oshadi, shuningdek, elektr energiya, transport, aloqa vosptalariga, mahsulotni saqlash joylariga talab ortadi.

Bundan tashqari, sanoat korxonasining moddiy texnika ta’minotiga, ta’mirlash-texnik xizmatiga, muhandislik va boshqa xizmatlarga bog‘liqlik darajasi o‘sadi. Shu sababdan, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’molchilarga yetkazib berishni ta’minlaydigan tarmoqlar va tashkilotlarning rivojlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Bunday tarmoqlar va xizmatlar – iqtisodiyotda infratuzilma deyiladi.

Sanoat ishlab chiqarish infratuzilmasi – tarmoqning rivojlanish darajasini, ishlab chiqarish salohiyatini (ya’ni xizmat ko‘rsatish bo‘yicha muayyan ish hajmini bajarish imkoniyatini) aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Yalpi ichki mahsulot va yalpi qo‘shilgan qiymatning salmoqli qismi sanoat tarmog‘ida ishlab chiqariladi. Aynan sanoat ishlab chiqarishida ilmiy-texnikaviy yutuqlarni joriy etish orqali yangi asbob-uskunalar, qurilmalar va boshqalar yaratiladi. Va ular, o‘z navbatida, boshqa tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarning moddiy texnika bazasini mustahkamlashda foydalaniladi. 2019–2022-yillarda sanoatda (qurilishni qo‘shgan holda) yaratilayotgan qo‘shimcha qiymatning hajmi yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Biroq, bu tarmoqning mamlakatda yaratilayotgan qo‘shimcha qiymatdagi ulushi, 2022-yili 2019-yilga nisbatan 0,4 punktga pasaygan. Bu davrda, xizmatlar sohasining ulushi hamon yuqori darajada

12 Rivojlanish strategiyasi. Toshkent metallurgiya zavodi mintaqaning sanoat yetakchilaridan biriga aylanmoqchi. Batafsil.uz https://batafsil.uz › obchestvo 4 December 2019, 13:23 558

13 O‘ zbekiston sanoati.2019–2022 − T:. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023, 33 bet.

bo‘lmoqda. Bu tabiiy hol. Chunki, O‘zbekistonda xizmatlar – iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

2. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida kichik sanoat korxonalari va mikrofirmalar sonining ortishi – texnika servis tizimida ham raqobat muhitining shakllantirilishini taqozo etadi. Shu sababdan, turli mulk shaklidagi texservis xizmat ko‘rsatuvchi muqobnl korxonalarni yaratish o‘ta muhim hisoblanadi.
   Hozirgi kunda kichik sanoat korxonasi alohida texnik xizmat ko‘rsatish markazini tashkil etish imkoniyat (etarli pul mablag‘)larnga ega emas. Bunday sharoitda, bizning fikrimizcha, bir necha xo‘jaliklar, (jumladan, mikrofirmalar) birlashgan holda korxonalararo texnik xizmat ko‘rsatish (servis) markazini tashkil etish maqsadga muvofiqdir, Ushbu servis markazi xizmatidan uni tashkil etgan korxonalarnnng o‘zlari foydalanganligi uchun xizmat xaki tariflari oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi va tariflar o‘zaro kelishuviga asosan manfaatli darajada belgilanadi. Texservis markazi xizmatidan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda aholi foydalanishlari mumkin bo‘ladi.
3. Sanoat ishlab chiqarishiga xizmat ko‘rsatuvchi nfratuzilma subyektlarini shakllantirishda davlat tomonidan huquqiy, moliyaviy, tashkiliy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish.
4. Sanoat tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni sanoati rivojlangan xorijiy mamlakatlarda malakasini oshirish, qayta tayyorlash.
5. Innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanayotgan va uning natijalarini ilgari surayotgan sanoat korxonalarini qo‘llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan, ularga soliq, bojxona boji kabi majburiy to‘lovlar yuzasidan imtiyozlar berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF–60-son Farmoni (1-ilova, III-bo‘lim, 21-maqsad).
2. Rivojlanish strategiyasi. Toshkent metallurgiya zavodi mintaqaning sanoat yetakchilaridan biriga aylanmoqchi. Batafsil. uz https://batafsil.uz obchestvo. 4 December 2019.
3. Umaraliyev B. A. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017-yil. 2 bet.. www.iqtisodiyot.uz
4. Xolmatov N. B. Milliy sanoatlashuv jarayoni muammolarini o‘rganishga institutsional yondashuv “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020-yil, 1/2020 (№ 00045) 142 bet http://iqtisodiyot.tsue.uz.
5. Shavqiyev E. . Sanoat iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “STAPSEL” MChJ. nashriyot-matbaa bo‘limi, 2022.
6. O‘zbekiston sanoati 2019–2022. − T:. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023.

“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ZARURIYATI, DASTAKLARI VA UNING O‘ZIGA XOS TAMOYILLARI



Berdiyorov Baxtiyor Sodiqovich
TMI “Iqtisodiy xavfsizlik” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Iqtisodiy o‘sish mamlakat barqaror rivojlanishining muhim jihati hisoblansada, bunda atrof muhit muvozanatining ta’minlanishi, ekologik muammolar keltirib chiqaruvchi omillarning bartaraf qilinishi, aholi daromadlari darajasidagi tengsizlik, tinchlik kabi ko‘plab omillar inobatga olinadi. Bu jarayonlarni mukammal amalga oshirishda “Yashil” iqtisodiyot ga o‘tish va uning tamoyillaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, iqtisodiy faollik, resurs, turmush daraja, samaradorlik, tabiiy resurs, iqtisodiy o‘sish, investitsiya, tejamkorlik, barqarorlik.

Abstract: Although economic growth is considered an important aspect of sustainable development of a country, many factors are taken into account, such as ensuring environmental balance, eliminating factors causing environmental problems, income inequality, peace. The transition to a green economy and the rational use of its principles are important for the ideal implementation of these processes.

Key words: green economy, economic activity, resources, standard of living, efficiency, natural resource, economic growth, investment, savings, sustainability.

Аннотация: Хотя экономический рост считается важным аспектом устойчивого развития страны, во внимание принимаются многие факторы, такие как обеспечение экологического баланса, устранение факторов, вызывающих экологические проблемы, неравенство в уровне доходов населения, мир. Переход к “зеленой экономике” и patsionalное исползование ее принципов важны для идеалной реализatsiи этих процессов.

Ключевые слова: зеленая экономика, экономическая деятелност, ресурсы, уровен жизни, эффективност, природный ресурс, экономический рост, инвестиции, сбережения, устойчивост.

KIRISH

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag‘al guruhlariga maqsadli yordam ko‘rsatish kabi yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa “yashil iqtisodiyot” yanada jadal rivojlanishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o‘n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg‘i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Barqaror rivojlanishni ta’minlashda “yashil” iqtisodiyotning o‘rniga baholangan, “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, amal qilish tamoyillari hamda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning amaliy yo‘nalishlari tahlil etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Yashil iqtisodiyot" sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Strategiyaning ustuvor yo'nalishlarini qamrab oluvchi normativ-huquqiy bazani inventarizatsiya qilish, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish zarur. "Yashil iqtisodiyot"ni baholashning milliy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim. Iqtisodiy choralar va vositalar ishlab chiqish, Jumladan, issiqxona gazlarining ajratmalarini qisqartirganlik uchun haq to'lash, energiya samaradorligiga qo'yiladigan majburiy talablarni ishlab chiqish va joriy etish kerak.

XX asrda dunyoning tashqi qiyofasi sezilarli darajada o'zgarib ketdi. 1900-yilda dunyo aholisi 1,5 mlrd. Kishidan ortgan bo'lsa, XX asrning oxirlariga kelib ushbu ko'rsatkich 6,2 mlrd. kishidan oshdi, 2018-yilga kelib esa yer yuzidagi aholi soni 7,9 mlrd. kishini tashkil etdi. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi jahon bo'yicha deyarli ikki marta oshib, kambag'allik darajasi salkam to'rt barobarga kamaydi. Fan-texnika borasida erishilayotgan yutuqlar ta'sirida iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasining keskin o'sishi dunyo aholisi sonining jadal sur'atlarda ortishiga sabab bo'ldi. Fan-texnika yutuqlari dunyo aholisi sonining o'sish sur'atlariga nisbatan yuqori iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini ta'minlab berdi. Jumladan, XX asr davomida dunyo aholisi 3,8 martaga o'sgani holda, dunyo yalpi ichki mahsuloti miqdori salkam 19 barobarga yaqinlashgan[1]. Tahlillar ko'rsatishicha, dunyo aholisining ko'payishi va iqtisodiy o'sishning muntazam ravishda atrof muhitga bo'lgan yukning oshib borishiga olib keldi. So'ngi yuz yillikdagi aholining soni va iqtisodiy faolligining oshishi hisobiga dunyo okeanining oksidlanish darajasi deyarli 1,2 martaga (2000-yilda 1900-yilga nisbatan) oshdi, tropik o'rmonlarning yo'qotilish darajasi 6,2 marta oshdi, uglerod oksidi chiqarilishi 1,6 martaga ko'paydi[2]. Dunyo aholisi iqtisodiy faolligining oshishi natijasida yuz berayotgan bunday iqlim o'zgarishlari o'rta muddatli istiqbolda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bo'yicha agentlik fikriga ko'ra, rivojlanish va ehtiyojlarni qondirish uchun sezilarli miqdordagi uglevododlarni talab etuvchi jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy sohaning joriy holati o'zgartirilmasa 2050-yilda 2030-yilga nisbatan insoniyat 4,9 mln. kishini yo'qotishi mumkin[3]. Iqlim va global tabiiy tizimning o'zgarishi inson hayotining barcha jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va mamlakatlar aholisi turmush darajasini yomonlashtiradi.

Jahon yalpi iste'molining o'sishi cheklangan resurslardan foydalanish muammosini keltirib chiqaradi. Resurslarning cheklanganligi, yer kurrasi va okeanda qancha miqdorda mavjudligi ularga xos xususiyat hisoblanadi. Nazariy jihatdan mineral resurslar uzoq muddatli davrda intensiv ishlatish oqibatida tugashi mumkin. Yer kurrasidagi mavjud aksariyat resurslarning umumiy hajmi iste'mol qilinayotganidan minglab, millionlab marta ko'pdir. Misol uchun 1990-yilda sanoat zaxiralarining o'rtacha yillik iste'molga nisbati temir rudasi bo'ycha 250 yilni, nikel bo'yicha – 76, alyuminiy bo'yicha – 280, kumush bo'yicha – 60, ko'mir, tabiiy gaz va neft bo'yicha – mos ravishda 400, 71 va 45 yilni tashkil etgan. Qazib chiqarish hajmining ortishi natijasida xom-ashyo zaxiralari miqdori kamayib bormoqda. Sanoat uchun ishlatiladigan xomashyodan samarali, tejamkorlik bilan foydalanish va yangi konlarni qidirib topish resurslarni ko'paytiradi.

Tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanilmaslik natijasida kelib chiquvchi salbiy oqibatlarni bartaraf etish maqsadida rivojlanayotgan mintaqalar mamlakatlari o'z ekologik tizimini, biologik xilma-xilligini va iqlimini yaxshilash uchun har yili 70-100 mlrd. AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda investitsiya kiritishlari zarur. Shu bilan birgalikda rivojlanayotgan mintaqalarning investitsion salohiyati ancha past ekanligini e'tiborga olish zarur. Jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar ushbu mintaqalar uchun strategik muhim bo'lgan (yer osti boyliklarini ishlab chiqarish va qayta ishlash) sohalarga yo'naltirilmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy qonunchiligi xo'jalik subyektlarining ekologik yoki ijtimoiy javobgarligini ta'minlamaydi. Tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish borasidagi bunday agressiv yondashuv butun zamonaviy sivilizatsiya uchun jiddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

UNEP tadqiqotlariga ko'ra jahon tabiiy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish kelgusi avlod uchun 2050-yilga qadar har yili 2,1 trln. dollar iqtisodiy foyda olish imkonini yaratadi. Bu davrda dunyo aholisi soni 28,3 % ga, aholi jon boshiga resurslardan foydalanish darajasi esa 71,4 % ga ortishi bashorat qilinmoqda. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qat'iy choralar ishlab chiqilmas ekan, metallar, biyoqilg'i, minerallar va boshqa resurslarning yillik iste'moli 85,2 mlrd. tonnadan 186,3 mlrd. tonnagacha ko'payishi mumkin. Iqlim o'zgarishining oldini olish uchun sarflanayotgan investitsiyalar aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot ulushining 3,9 % ga qisqarishiga olib kelgani holda resurslardan samarali foydalanish amaliyotini joriy etish ushbu yo'qotishni qoplab ketishi mumkin.

1 Historical and Statistic World Economy. Maddison Project. (2015). http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics/horizontal-file_03-2007.xls.
2 O'sha manba.
3 UNEP. (2015), Publication UNEP. United Nations Environment Program. http://www.unep.org/climatechange/

Mavjud vaziyatda iqtisodiyot va ijtimoiy sohani tiklanadigan energiya resurslaridan foydalanishga o‘tkazishning eng optimal yechimi, deb hisoblash mumkin. Dunyoning deyarli barcha mintaqalarida qayta tiklanuvchi energetika (quyosh, shamol, gidroenargetika va bioenergetika) sektoridan foydalanish bilan bog‘liq sezilarli salohiyat mavjud. Jumladan, Xalqaro tiklanadigan energiya agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, Kanada va AQSh tiklanadigan energiya resurslaridan mos ravishda 96 636 va 214 766 MVt energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarni yaratdi. Rossiya o‘zining sezilarli darajadagi salohiyati va xilma-xil iqlimi bilan tiklanadigan energiya resurslaridan yiliga 51 747 MVt energiya ishlab chiqarish quvvatlarini yarata oldi. Braziliya va Xitoy qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan mos ravishda yiliga 122 951 va 545 206 MVt energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarni ishga tushirdi. Bu borada Afrika mutlaqo autsayder hisoblanadi. Jumladan, butun Afrika mintaqasi tiklanadigan energiya resurslaridan 38 192 MVt energiya ishlab chiqarish quvvatlariga ega[4].

Cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashishni kuchaytirish, “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. Jumladan, BMTning 2014-yilda taqdim etilgan “An Action Agenda for Sustainable Development” nomli hisobotida mamlakatlarning barqaror rivojlanish darajasini belgilab beruvchi quyidagi ko‘rsatkichlar keltirilgan37: iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, atrof muhitni himoya qilish va saqlash, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash. Iqtisodiy o‘sish mamlakat barqaror rivojlanishining muhim jihati hisoblansa-da, bunda atrof muhit muvozanatining ta’minlanishi, ekologik muammolar keltirib chiqaruvchi omillarning bartaraf qilinishi, aholi daromadlari darajasidagi tengsizlik, tinchlik kabi ko‘plab omillar inobatga olinadi.

UNEP va Iqlim o‘zgarishlari buyicha hukumatlararo komissiyasi tomonidan 2012-yilda chop etilgan “Tiklanadigan energiya manbalari va iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatish” (“Renewable Energy Sources and Climate Change Mitigation”)38 maxsus hisobotida esa tiklanadigan energiya manbalari energiyaning boshqa turlariga nisbatan atrof-muhitga kamroq salbiy ta’sir ko‘rsatishi, iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatishning yuqori salohiyatiga ega ekanligi ta’kidlangan.

Resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning jahon tajribasi ko‘rsatishicha, ushbu jarayon uzoq muddatli davr, katta miqdorda investitsiyalarni talab etishi, ustuvor e’tibor tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi. Shu sababli, o‘tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag‘batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo‘llanilayotgan rag‘batlantirishuvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga yo‘naltirilsa, iqtisodiy tizimni “yashillashtirish” jarayoni yanada faollashadi.

Aksariyat mamlakatlar yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida aniq maqsad va vazifalarni belgilab olishadi. Bu o‘rinda yashil iqtisodiyotga o‘tishdan maqsad nima degan savol tug‘iladi? BMT Yevropa iqtisodiyot qo‘mitasi mutaxassislarining ta’kidlashicha, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishdan ko‘zlangan maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga “yashil investitsiyalar”ni yo‘naltirishni rag‘batlantirish hisoblanadi. Ushbu investitsiyalar muhim iqtisodiy resurslar hisoblangan tabiiy kapital va ekotizimlardan nisbatan samarali usullar yordamida foydalanish yoki ularni tugab qolishi yoki degradatsiyalashuvi riski paydo bo‘lganda boshqa muqobil resurslar bilan almashtirishga yordam beradi. Investitsiyalar bir vaqtning o‘zida ijtimoiy adolat uchun sharoit yaratishi va fuqarolarga munosib ish o‘rinlarini barpo etishi zarur. Atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ijtimoiy integratsiyani chuqurlashtirish, iqtisodiy rivojlanishni yaxshilash kabi vazifalar “yashil iqtisodiyot”ning vazifalariga kiradi[5].

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish maqsadi va strategik vazifalari muayyan tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish tamoyillari mazkur iqtisodiyot qanday bo‘lishi zarurligini belgilab beradi. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari “jigarrang iqtisodiyot” tamoyillariga nisbatan keng qamrovli bo‘lib, 1972-yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqildi[6].

4 IRENA (2017), Renewable capacity statistics 2017, International Renewable Energy Agency (IRENA), www.irena.org/Publications 37 UN. Report for the UN secretary-general “An action agenda for sustainable development”. 2014. -P. 1-2. 38 United Nations Environment Programme and Intergovernmental Panel on Climate Change. Special Report on Renewable Energy Sources and Climate Change Mitigation. - P. 7.

5 https://www.unece.org/sustainable-development/green-economy/what-are-the-main-purpose-andthe-related-objectives-of-green-economy.html

6 Deklaratsiya Konferensii OON po problemam okrujayuщey cheloveka sredы ot 16.06.1972 // Konsultant plyus 4012.00.32 2002-2013.

Iqtisodiy adabiyotda xalqaro va milliy amaliyotda 2012-yilda UNEP boshqaruv kengashi “Yashil iqtisodiyot” kaolitsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning quyidagi tamoyillari keng tarqalgan.

Barqarorlik tamoyili. “Yashil” iqtisodiyot barqarorlikni ta’minlash vositasi hisoblanadi. U barqaror rivojlanish o‘rnini bosa olmagan holda, uni ta’minlash usullaridan biri sanaladi. “Yashil iqtisodiyot” sog‘lom atrof-muhitga bog‘liq va barcha uchun farovonlik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bunday siyosat barqaror rivojlanishning barcha (ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy) maqsadlarini qamrab oladi va ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ijobiy natijalarga erishish imkonini beruvchi aralash strategiyalarn ishlab chiqadi.

Adolatlilik tamoyili. “Yashil” iqtisodiyot mamlakatlar va avlodlar o‘rtasida tenglik, adolatni qo‘llab-quvvatlaydi. U inson huquqlari, madaniy xilma-xillik, gender tengligini ta’minlashga ko‘maklashadi, bilimlar, ko‘nikmalar, tajribalar va har bir insonning ushbu sohaga qo‘shgan hissasini tan oladi. Tub aholining yer, hudud va resurslarga bo‘lgan huquqlari hurmat qilinadi.

Barcha uchun foydalanish imkoniyati tamoyili. Yashil iqtisodiyot barcha uchun farovonlik olib keladi va kambag‘allik darajasini pasaytiradi, barcha mamlakatlarda inson taraqqiyotining yuqori darajasiga erishish, oziqovqat xavfsizligini ta’minlash va sog‘liqni saqlash, ta’lim, sanitariya, suv bilan ta’minlash, energiya va boshqa asosiy xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil ayollar huquqlari va imkoniyatlarining kengayishiga ko‘maklashadi. “Yashil iqtisodiyot” barqarorlik asosida amalga oshirilsa rivojlanish huquqini qo‘llabquvvatlaydi.

Sog‘lom sayyora tamoyili. “Yashil” iqtisodiyot yo‘qotilgan bio xilma-xillikni tiklashga yordam beradi, tabiiy tizimlarga investitsiyalar yo‘naltiradi va yo‘q bo‘lib borayotganlarini qayta tiklaydi. “Yashil iqtisodiyot” ekotizimlar va bio xilma-xillikka bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu iqtisodiyot ekologik talablardan chetga chiqmaslik va barchani mazkur talablar bo‘yicha hamkorlik qilishga undaydi. Ekologik talablarga atrof-muhitni ifloslantirish, ekotizimlarni muhofaza etish, bio xilma-xillik va boshqa tabiiy resurslarni asrab qolish, tabiiy resurslar (suv, tabiiy gaz, foydali qazilma boyliklar)dan samarali va kelajak avlod ehtiyojlarini xavf ostiga qo‘ymasdan oqilona foydalanish kabilar kiradi.

“Yashil” iqtisodiyot yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanishga qadar potensial ta’sirini, iqtisodiy siyosatning ekologik oqibatlarini baholash, ekologik va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga yordam beradi.

Ishtirok etish tamoyili. “Yashil iqtisodiyot” shaffoflik, ilmiy tadqiqotlar va barcha manfaatdor tomonlar ishtirokiga asoslanganligi bois inklyuziv xarakterga ega. “Yashil” iqtisodiyot fuqarolarning barqaror rivojlanishni ta’minlashning barcha bosqichlarida to‘liq va samarali ishtirokini taqozo etadi.

Oqilona boshqarish va shaffoflik tamoyili. “Yashil” iqtisodiyot ma’lumotlari shaffofligi bois uning miqyosini o‘lchash mumkin. “Yashil” iqtisodiyot ishlab chiqarish va bozorlar ustidan sog‘lom nazorat o‘rnatish imkonini beradi. Taraqqiyot natijalarini esa makro va mikro darajada miqdoriy jihatdan o‘lchash mumkin bo‘ladi. “yashil” iqtisodiyot xalqaro hamkorlik qilishga ko‘maklashadi, xalqaro ma’suliyatni ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlaydi va barchani inson huquqlari, tabiatni muhofaza qilish sohasida xalqaro standartlarga rioya qilishga chaqiradi.

Moslashuvchanlik tamoyili. “Yashil” iqtisodiyot ijtimoiy himoya va atrof-muhit muhofazasi tizimining rivojlanishiga ko‘maklashadi. Iqlim o‘zgarishlari va tabiiy ofatlarga tayyor turish, moslashishga yordam beradi. “Yashil iqtisodiyot” modeli har qanday mamlakatning madaniy, ijtimoiy va ekologik xususiyatlariga moslashishi mumkin.

Samaradorlik va yetarlilik tamoyili. “Yashil” iqtisodiyot “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyilini amalga oshiradi, resurslardan va suvdan samarali, oqilona foydalanishga harakat qiladi. U ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik innovatsiyalarning rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Avlodlar birdamligi tamoyili. “yashil” iqtisodiyot amalda va istiqbolda investiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. U avlodlar o‘rtasida adolatni ta’minlashga, resurslarni saqlab qolishga va uzoq muddatli davrda aholi turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi. “Yashil” iqtisodiyot moliya sektorini tartibga solish va unga ta’sir etish orqali iqtisodiyot sektorlari, yashil texnologiyalarga investitsiyalar sarflashni rag‘batlantiradi, global pul tizimining barqarorligini ta’minlydi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan umumiy tamoyillardan tashqari alohida mamlakatlar uchun xos milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda yashil iqtisodiyotning milliy tamoyillari aksariyat mamlakatlar amaliyotiga tatbiq etilgan. Jumladan, UNEPning Buyuk Britaniya Milliy qo‘mitasi mamlakat uchun alohida yashil iqtisodiyot tamoyillarini ishlab chiqqan bo‘lib, ushbu ro‘yxat 15 ta tamoyillardan iborat bo‘lib, mazmunan Kaolitsiya tamoyillari bilan to‘liq yoki qisman mos keladi. Shuningdek, ular bir-biridan farqli jihatlarga ega.

Boylikni teng taqsimlash. Boylikni mamlakat ichida va mamlakatlar o‘rtasida adolatli taqsimlashga ko‘maklashish, boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi daromadlar jihatdan tabaqalanishgt qisqartirish, jahon resurslaridan foydalanishda iqtisodiy va ijtimoiy adolatli ta’minlashga erishish, yovvoyi tabiat uchun yetarli joy qoldirish.

Iqtisodiy adolatlilik. Umumiy, tabaqalashtirilgan ma’suliyat tamoyillariga amal qilish. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarini minimallashtirish, ekologik barqarorlikni qo‘llab-quv-

vatlash, iqtisodiy qoloq mamlakatlarga moliyaviy va texnologik jihatdan yordam berish maqsadida iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish.

Avlodlar o‘rtasida tenglik. Ekologik resurslar va ekotizimlar jiddiy nazorat qilinishi va muhofaza etilishi zarur. Ekologik aktivlarning kelgusi avlod uchun qiymatini oshirish va shu tariqa ularning istiqboldagi ehtiyojlarini adolatli qondirishni ta’minlash.

Ehtiyotkorlik tamoyili. Ilmiy noaniqlik atrof-muhit degradatsiyalashuvining oldini olish bo‘yicha qarorlar qabul qilishga to‘sqinlik qilishi mumkin emas.

Rivojlanish huquqi. Insonning atrof-muhit bilan uyg‘unlikda rivojlanishi barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Alohida insonlar va jamiyat ijobiy ijtimoiy va ekologik natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish zarur.

Tashqi samaralar internalizatsiyasi. Yashil iqtisodiy siyosat maqsadi real ijtimoiy va ekologik qadriyatlarni yaratishdan iborat bo‘lishi zarur. Ushbu maqsadga erishishda bozor narxlari real ijtimoiy va ekologik xarajatlar va daromadlarni aks ettirishi lozim. Shu tariqa “ifloslantiruvchi” atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplashi lozim. Soliq rejimlari va me’yoriy cheklovlar “o‘yin qoidalarini” o‘zgartirish uchun xizmat qilishi zarur.

Xalqaro hamkorlik. Mamlakatlarda ekologik standartlarning qo‘llanilishi boshqa mamlakatlarning rivojlanishiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni tushunish asosida xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda amalga oshirilishi zarur.

Xalqaro ma’suliyat. Milliy chegaralar doirasidagi faoliyat ushbu chegaradan tashqarida ekologik salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa bunday vaziyatlarda manfaatlarni himoya qilishning mustaqil sudlarga asoslangan xalqaro huquqiy me’yorlarini ishlab chiqishda hamkorlikni talab etadi.

Barqaror ishlab chiqarish va iste’mol. Resurslardan oqilona va adolatli foydalanishda barqaror ishlab chiqarish va iste’mol darajasini joriy etish zarur, ishlab chiqarish va iste’molning barqaror bo‘lmagan modellarini qisqartirish va bartaraf etish lozim. Ya’ni utillashtirilayotgan materiallardan qayta foydalanish, yer resurslarining taqchilligini tan olish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Adolatli o‘tish. Barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida past uglerodli yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun muayyan xarajatlarni amalga oshirish zarur. Ayrim mamlakatlar o‘tish davrida ushbu xarajatlarni boshqalarga nisbatan qiyinchiliksiz amalga oshirishi mumkin. O‘tish davrida aholining nisbatan himoyaga muhtoj qatlamlari qo‘llab-quvvatlanishi, rivojlanayotgan mamlakatlar esa tegishli moliyaviy va texnik yordam olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim.

Farovonlikning yangi ko‘rsatkichlari. Farovonlik ko‘rsatkichlarini qayta ko‘rib chiqish zarur. Yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi ijtimoiy farovonlik va atrof-muhit yaxlitligini o‘lchash dastagini bajaruvchi ko‘rsatkich hisoblanmaydi. Aksariyat ijtimoiy-ekologik faoliyat turlari, jumladan, qazib chiqariladigan yoqilg‘i turlaridan intensiv foydalanish yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga olib kelishi mumkin. Insonlarning umumiy farovonligi va turmush sifati, atrof-muhit holati iqtisodiy rivojlanishning bosh maqsadi bo‘lishi zarur.

Qolgan tamoyillar kaolitsiya tamoyillarini mazmunan to‘liq takrorlaydi:

- barqaror rivojlanish, “yashil iqtisodiyot” va kambag‘allikka qarshi kurashni ta’minlash uchun strategik, muvofiqlashtirilgan va kompleks rejalashtirish;
- axborot, ishtirok va hisobot berish;
- gender tengligi;
- bio xilma-xillikni saqlab qolish va atrof-muhitni muhofaza qilish.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish mamlakatlardan yuqorida qayd etilganidek muayyan tamoyillarga asoslanishi, strategiya yoki dasturlar doirasida maqsadli siyosat yuritishni taqozo etadi. “Yashil iqtisodiyot” doirasida amalga oshirilayotgan siyosat o‘z ta’sir dastaklariga ega bo‘lishi zarur. Jahon amaliyotida yashil iqtisodiy siyosat doirasida qo‘llanilayotgan dastaklarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: ma’muriy; iqtisodiy; axborot.

Ma’muriy dastaklar. Korxonalarga atrof-muhitga zarar yetkazmaslik maqsadida nimalarga rioya etish zarurligi qayd etiladigan me’yoriy-huquqiy cheklovlar ma’muriy dastaklar hisoblanadi. Ushbu dastaklar ayrim shaxslar tomonidan qoidalarga zid xatti-harakatlar qilinganda qo‘llaniladigan sanksiyalar sifatida ishlatilishi mumkin. Sanoat uchun muayyan zaharli moddalarni ta’qiqlash ma’muriy dastak sifatida qo‘llanilishi mumkin. Qonunchilik orqali yuqori samaradorlikka ega standartlarni joriy qilish yordamida sanoat tarmoqlariga “yashil” investitsiyalarni yo‘naltirishni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va ekologik toza mahsulotlar bozorini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Ma’muriy usullar yordamida iqtisodiyot tarmoqlariga muayyan texnologiyalardan foydalanish talablarini joriy etish mumkin.

Ushbu dastaklar Yevropa mamlakatlarida keng miqyosda ommalashgan bo‘lib, fuqarolar majburiy davlat dasturlarini qo‘llab-quvvatlaydilar. Jumladan, 2014-yilga kelib Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida cho‘g‘lanma lampalar sotish to‘liq ta’qiqlandi. 2009–2017-yillarda elektr energiya iste’moli yuqori bo‘lgan uy-ro‘zg‘or buyumlarini sotishni qisqartirish dasturlari amalga oshirildi. Ushbu qoidalar uy-joylarni isitish tizimida qo‘llaniladigan dvigatellar, nasoslar, uydagi muzlatgichlar va televizorlarga ham taalluqlidir.

Tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlari yopiq siklli ishlab chiqarishni yaratishda yetkazib berishning murakkab zanjiriga ega yirik ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish va mahsulotlarni ikkilamchi qayta ishlash uchun qaytarishning samarali tizimini yaratish imkonini beradi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish siyosatining ma’muriy dastaklariga oxirgi yillarda Yevropa Ittifoqida amal qilayotgan elektr va elektronika asbobuskunalarini utillashtirish, xavfli moddalarni cheklash va ro‘yhatdan o‘tkazish, kimyoviy moddalarni baholash bo‘yicha qabul qilingan me’yorlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Ushbu me’yorlar jahonda mahsulotlar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishda qo‘llanilayotgan standartlarga bevosita ta’sir o‘tkazmoqda.

Yashil iqtisodiyotni rag‘batlantirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu sohaga “yashil” investitsiyalarni yo‘naltirishga xizmat qiladi. Ular tadbirkorlik riskining pasayishiga va investorlar ishonchining ortishiga olib keladi. Me’yoriy dastaklarning qo‘llanilishi aksariyat hollarda xavfli, atrof-muhitga zarar keltiruvchi faoliyatni minimal standartlarni joriy etish yoki muayyan faoliyat turlarini ta’qiqlash orqali bartaraf etish uchun zarur hisoblanadi. Jumladan, standartlar tarmoqlar raqobatbardoshligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan innovatsiyalar va samaradorlikni yanada rag‘batlantirishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda standartlar kichik va o‘rta biznesning bozorlarga kirib borishida muammolar yaratishi mumkin. Ushbu holatlar rivojlanayotgan mamlakatlarda tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun mamlakatlar standartlar va boshqa me’yoriy hujjatlar yordamida atrof-muhit muhofazasini ta’minlashlari va bozorlarga kirib borishni kafolatlashlari zarur bo‘ladi. Tartibga soluvchi nazorat etuvchi mexanizmlar bozorlarning rivojlanish tendensiyalari va texnologik o‘zgarishlarini e’tiborga olgan holda muntazam nazorat qilinishi, baholanishi va yangilanib borishi zolim.

Iqtisodiy dastaklar. Iqtisodiy dastaklar, odatda, bozor dastaklari deb, yuritiladi va atrof-muhit bilan bog‘liq muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladi. Ushbu dastaklar narx mexanizmi va iqtisodiy sharoitlar, ayrim guruh iqtisodiy subyektlar faoliyatini o‘zgartirishga xizmat qiluvchi bozor munosabatlari orqali ishlaydi. Ular iste’molchilar va sanoat korxonalarini atrof-muhitga zarar keltiruvchi chiqindilarni chiqarish hajmini qisqartirishni iqtisodiy asoslash hamda atrof-muhit barqarorligini ta’minlovchi texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni rag‘batlantirshga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin-ki, bugungi kunda mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyot o‘tish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa mamlakatimizda yetarli sharoit va imkoniyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yashil iqtisodiyot: Darslik. / A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev va boshqalar. – Toshkent.: “Universitet”, 2020. -262 b.
2. Historical and Statistic World Economy. Maddison Project. (2015). http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics/horizontal-file_03-2007.xls.
4. UNEP. (2015), Publication UNEP. United Nations Environment Program. http://www.unep.org/climatechange/.
5. IRENA (2017), Renewable capacity statistics 2017, International Renewable Energy Agency (IRENA), www.irena.org/Publications
6. UN. Report for the UN secretary-general “An action agenda for sustainable development”. 2014. -P. 1-2.
7. United Nations Environment Programme and Intergovernmental Panel on Climate Change. Special Report on Renewable Energy Sources and Climate Change Mitigation. - P. 7.
8. https://www.unece.org/sustainable-development/green-economy/what-are-the-main-purpose-andthe-related-objectives-of-green-economy.html
9. Декларация Конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // Консултант плюс 4012.00.32 2002-2013.
10. Порфирьв Б.П.,“Зеленая” экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013.

INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI



Ashurov Maxammadjon Sotvoldiyevich
I.f.n., Farg‘ona politexnika instituti “Menejment” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda innovatsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishga shart-sharoit yaratuvchi me’yoriy-huquqiy asoslar, oliy ta’lim tizimi va unga ta’sir etuvchi asosiy sabablardan biri bo‘lgan inson omili, ijtimoiy-demografik larayonlar, mehnat bozorida yuzaga keladigan o‘zgarishlarning o‘rni tahlil qilingan. O‘rganish va tahlil natijalaridan kelib chiqib, innovatsion faoliyatni rivojlanish yo‘lida ushbu sabab va omillardan samarali foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif- tavsiyalar ishlab chiqilgan, xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-demografik omil, innovatsiya, innovatsion faoliyat, inson omili, mehnat bozori, omillar, sabab, sharoit – sharoit.

Abstract: The article examines the conditions for the formation and development of innovative activity in our country, which are the regulatory framework and the higher education system, which are one of the main reasons and factors influencing it, the human factor, socio-demographic factor and problems arising in the labor market. The role of changes has been studied and analyzed. Based on the results of the research and analysis, proposals and recommendations were developed and conclusions were drawn on the directions for the effective use of these reasons and factors for the development of innovative activity.

Key words: socio-demographic factor, innovation, innovative activity, human factor, labor market, factor, reason, condition.

Аннотация: В статье рассматривается условия формирования и развития инновационной деятельности в нашей стране являюшиеся нормативно-правовой базой и системой высшего образования, которые являются одними из основных причин и факторов, влияющих на нее, человеческий фактор, социально-демографический фактор и проблемы, возникающие на рынке труда. Изучена и проанализирована роль изменений. По результатам исследования и анализа разработаны предложения и рекомендации и сделаны выводы о направлениях эффективного использования этих причин и факторов для развития инновационной деятельности.

Ключевые слова: социально-демографический фактор, инновации, инновационная деятельность, человеческий фактор, рынок труда, факторы, причина, условия.

KIRISH

Innovatsiyalar kompaniyalar uchun islab chiqarishda foydani sezilarli darajada oshirishi, ularga tezroq o‘sish va raqobatchilardan ustun turish imkonini bersa, davlatga esa yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga bevosita yordam beradi (hosildorlikning o‘sishi, uy xo‘jaliklarining ixtiyoriy daromadlari va soliq tushumlari natijasida) va alohida tarmoqlarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Aynan Yangi O‘zbekistonda innovatsiyani rivojlantirishning xususiy biznesga, jamiyatga, umuman davlatga kichik va o‘rta biznesning o‘sish sur’atlarini tezlashtirish jmil bo‘ladi. Xususan,

- innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish; hududlarning innovatsion rivojlanishini ta’minlash; xususiy sektorning yangi ilmiy ishlanmalarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish;
- innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;
- aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish;
- yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilarga yuqori texnologik ish o‘rinlarini yaratish va ish bilan ta’minlash; ishsizlik darajasini pasaytirish;
- tengsizlikni kamaytirish;
- YaMM daromadlari va foydalarini oshirsh; iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish; iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirish kabi vazifalarni hal etishda yordam beradi.

Zamonaviy rivojlanish bosqichida bu kabi vazifalarni hal etishni innovatsion faoliyatni jonlantirishga yo‘naltirilgan shart-sharoitlarni yaratmasdan va unga ta’sir etuvchi omillarni inobatga olmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Zamonaviy ilm-fanda turli olimlar, ayniqsa, xorijliklar olimlardan A. Smit, Y. Shumpeter, M. Porter, B. Tviss, P. F. Druker, O. D. Santo va boshqalar, MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan E. I. Alyoxina, M. V. Volinkina, A. N. Vasilyev, F. F. Bezdudniy, G. A. Smirnova, B. Nechayeva, G. D. Otnyukova, J. D. Darmilova va boshqalar tomonidan innovatsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishda innovatsiyaning roli, unga ta’sir etuvchi sabab va omillarning nazariy va amaliy jihatlari keng o‘rganilgan, uning nazariy masalalariga alohida e’tibor qaratganlar.

Shunday qilib, fikrimizcha, mamlakatimiz innovatsion faoliyat tizimida qanday tendentsiyalar kuzatilayotgani va unga ta’sir etuvchi sabab va omillarning ta’sir darajasini baholash uchun yuqoridagi olimlarning ishlanmalari, tadqiqot usullari, taklif va tavsiyalaridan foydalanamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, ilmiy abstraksiya, mantiqiy, vaziyatli va statistik tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, kuzatuv, guruhlash va jadval usullari kabi umum ilmiy usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, innovatsiyaning yaralish, amaliyotga joriy etish va yaratilajak innovatsiyalarning sifat nuqtasi ilm-fan, ta’lim va sanoat sohalarining kesishmasida joylashgan hamda innovatsiyalar shu uchta sohaning yakdil harakati (integratsiyasi) natijasida hosil bo‘ladi. Sanoatda innovatsiyalarga talabning mavjud bo‘lishi va ular tomonidan investitsiya kiritilishi, ilm-fanda innovatsiya yaratishga qodir infratuzilma va malakali kadrlar, ta’limda esa zamon bilan hamnafas sifatli va barqaror tizim mavjud bo‘lishi innovatsiyalarning yaralishi uchun muhim asos hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda innovatsiyalarni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynovchi fundamental tadqiqotlar olib boradigan, yuqori bilim va malakaga ega bo‘lgan raqobatdosh kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari soni 2022-yilda 169 taga yetkazildi, 30 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasining filiallari ochildi. 2016-yilda respublikamizdagi oliygohlarning soni 77 ta edi. Qisqa muddatda bu borada qariyb ikki barobar o‘sishga erishildi.

Keyingi 6 yilda oliy ta’limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, 2022-yilda 214 ming nafar yoshlar uchun talaba bo‘lish imkoniyati yaratildi. Bu – umumiy qamrov 38,4 foizga yetdi. 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko‘paytirilgan.

2022-2023-o‘quv yili uchun davlat buyurtmasi ijro qilindi:

a) bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha:
- kunduzgi ta’lim shakliga –76 728 nafar;
- sirtqi ta’lim shakliga – 27 365 nafar;
- kechki ta’lim shakliga – 2 575 nafar;
- masofaviy ta’lim shakliga – 3 610 nafar;

b) magistrlar tayyorlash bo‘yicha – 11 082 nafar;

d) xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari hamda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida davlat granti asosida kadrlar tayyorlash bo‘yicha – 100 nafar etib tasdiqlandi.

Yuqoridagi tahliliy ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatda innovatsion tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo‘lgan fundamental tadqiqotlar olib boradigan, mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta’lim tizimi mavjud. Biroq, mamlakatda oliy ta’lim muassasalarining tarmoq bilan integratsiyalanishi hamda ilm-fan bilan oliy ta’limning integratsiyasining sustligi, “Uchburchak spirali” - davlat, fan- ta’lim va biznes o‘rtasidagi samarali o‘zaro ta’sir o‘rnatilmaganligi, ular bir -biri bilan zaif bog‘langan yoki umuman bog‘lanmaganligi innovatsiyani rivojlanishidagi yana bir dolzarb muammodir.

Binobarin, innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi bu kabi dolzarb muammoni yechish uchun, birinchi navbatda ilm-fan, ta’limdagi yuqori malakali kadrlarning yangi bilimlar, innovatsion texnologiyalar va innovatsion biznesni yaratishga qiziqishini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga e’tibor qaratilishi kerak. Shu bilan birga, davlat, fan- ta’lim va biznes hamda innovatsion jarayonning boshqa ishtirokchilari uchun axborot-kom-

munikatsiya tizimlarini shakllantirish, ular o‘rtasidagi kommunikatsiya aloqalarini ta’minlash zarur. Yetakchi ekspertlar nuqtayi nazarida, bugungi kunda axborot-kommunikatsiya tizimlari innovatsion rivojlanishning yagona istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylandi.



1-diagramma: Oliy ta’lim tashkilotlari soni

Ikkinchidan, yangi bozorlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashish va aholining turli qatlamlarida iste’molchilarning xohish-istaklarini shakllantirish orqali yangi bilimlar, texnologiyalar va texnik echimlarni doimiy ravishda joriy etish uchun rag‘bat yaratish. Uchinchidan, hududiy hokimiyat organlari, ilmiy va biznes hamjamiyatlarining hududlararo o‘zaro hamkorligi resurslarini birlashtirish va ulardan foydalanish orqali innovatsion faoliyat ko‘lamini kengaytirish uchun shart-sharoit yaratishi zarur.

Shu bilan birgalikda, ilmiy-texnologik va ishlab chiqarish klasterlari innovatsiya tizimi subyektlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish, innovatsion resurslarni, daromad va xarajatlarni qayta taqsimlash orqali iqtisodiy makonni “bog‘lash” vositalaridan biri bo‘lib, ularning rivojlanishini ta’minlaydi.

Innovatsiya faoliyatini rivojlantirishda innovatsiya va iqtisodiyot sohasida olib boriladigan davlat siyosati ko‘p jihatdan muhim o‘rin egallaydi. Shu bois, davlatning innovatsiya jarayonlariga ta’sirini nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi, chunki davlat innovatsiya faoliyatiga bevosita ta’sirga ega bo‘lib uni tartibga soladi, rivojlanishini rag‘batlantiradi yoki uni umuman qo‘llab-quvvatlamaydi.

Davlat innovatsiya faoliyatini tartibga solish, rivojlanishini rag‘batlantish yoki qo‘llab-quvvatlashdagi bevosita ta’sir kuchi bu – uning huquqiy asoslarini yaratish orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunga qadar innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, ilmiy texnik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, mamlakat ilmiy salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish tizimining asoslari 1997-yildan shu kunga qadar qabul qilingan 2 ta qonun, ya’ni 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi va 2020-yil 24-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” gi O‘RQ-630-sonli Qonuniga hamda 80 ta normativ huquqiy hujjatlarga asoslanadi.


Yuqoridagi qonun, farmon va qarorlar ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik va laboratoriya - eksperimental bazani mustahkamlash, innovatsiya faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, yaqin kelajakda ilmiy infratuzilmalarning moddiy –texnik, laboratoriya va tajriba bazalarini kuchaytirish maqsadida respublikada ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan har tomonlama tizimli o‘zgarishlar asosini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biroq bugungi kunda mamlakatda tarmoqda innovatsiyalarni jadal rivojlantirish uchun qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazani yangilashga ham e’tibor qaratishi zarur. Shu bilan birga, standartlar predmetlarini bugungi kunda mavjud va kelajak texnologiyalarga muvofiqligini muntazam ravishda tahlil qilib borish kerak.

Innovatsiya faoliyati rivojining yana qo‘shimcha drayveri demografiya va mehnat bozorining o‘zgarishi (mehnat omili) hisoblanadi.

Mamlakatda, ham mehnatga layoqatli aholi soni va ham uning ta’lim olganlik darajasi bo‘yicha muhim inson kapitali massasi mavjud va buni quyidagi raqamlar ham isbotlab turibdi.

O‘zbekistonda 01.07.2023-yil holatiga umumiy aholi sonidagi 36 372 300 kishidan mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni 54,4 % ni tashkil etadi, ya’ni, 19 393 000 tasi mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlardan O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun kerak bo‘lgan ijobiy demografik omil va kadrlar, inson kapitali kabi resurslar mavjud ekanligi ko‘rinib turibdi.



2-diagramma: Aholi soni dinamikasigagi farq

Biroq resursning bu turlaridan yetarlicha samarali foydalanilmayapti. Kadrlar, inson kapitalidan samarali foydalanish maqsadida innovatsion rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan muhim institutt-sional muhitni shakllantirish zarur.

Shu bilan birga, mehnat omili sonining o‘sishi kuzatilgani bilan ular turmush darajasi sekinlik bilan yax-shilanishi kuzatilmoqdaki, natijada yaratilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlarni iste’mol qiluvchi maqsadli auditoriya, ya’ni iste’molchilar farovonligi va aholining xarid qobiliyati bu faoliyatning rivojlanishida yana bir muhim to‘siqlardan biriga aylanmoqda. Vaholanki, korxonaning innovatsion faoliyatiga iste’mol-chilarning talablari va kutishlari, ularning tebranishlari qutbli ta’sir ko‘rsatadi. Iste’molchilar innovatsion faoliyat-ning tezlatuvchisi sifatida korxonaning innovatsion rivojlanishini to‘xtatib turishi va tezlashtirishi mumkin hamda aholi xarid qobiliyatini shakllantiruvchi uning ijtimoiy mavqei va to‘lov qobiliyati yaratilgan innovatsion mahsu-lotlar, ishlar va xizmatlar uchun talabni belgilaydi. Ma’lumki talab har qanday korxona innovatsion faoliyatiga u yaratayotgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga bevosita ta’sir qiladi, chunki har qanday tijoratga yo‘naltirilgan biznesning asosiy maqsadi ushbu mahsulotlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan maksimal darajada foyda olishdan iborat. Talab demografik va iqtisodiy vaziyatlar kabi o‘ziga xos omillar ta’siri natijasida shaklla-nadi.

XULOSA

Demak, aholining to‘lov qobiliyati va iste’mol darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, korxonaning innovatsion rivojlanishi uchun ko‘proq imkoniyatlar amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun iste’molchilar korxonaning strategik tahlil va raqobatbardoshlik obyekti bo‘lishi kerak.

Bundan kelib chiqib, xulosa qilish kerakki, mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish muvaffaqiyati-ning asosiy omili sifatida fan- ta’lim, demografik omil va kadrlar, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat strategiyasini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashurov, M., and ets. (2023). Strategies for Improvement and Evaluation of the Quality Management System of Uzbekistan Manufacturers. In: Beskopylny, A., Shamtsyan, M., Artiukh, V. (eds) XV International Scientific Conference “INTERAGROMASH 2022”. INTERAGROMASH 2022. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 574. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-21432-5_167
2. Kurpayanidi, K. (2023). Features of in-company training of company employees in the conditions of transformation. Iqtisodiyot va ta’lim, 24(1), 270-275.
3. Margianti, E. S., & ets. (2020). Role of goal orientation as a predictor of social capital: Practical suggestions for the development of team cohesiveness in SME’s. Monograph. Gunadarma Pulisher, Indonesia. Doi: http://dx.doi.org/10.13140/RG, 2(28953.44641).
4. Margianti, E. S., Ikramov, M. A., Abdullaev, A. M., Kurpayanidi, K. I., & Ashurov, M. S. (2014). Systematical analysis of the position and further development of Uzbekistan national industry in the case of economic modernization. Monograph. Indonesia, Jakarta. Indonesia. Jakarta. Gunadarma Publisher.
5. Mihaylov, A. B. & ets. (2022). К вопросам подготовки конкурентоспособных кадров для сферы услуг в условиях цифровых изменений.” Oliy ta›lim muassasalarida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning zamonaviy integratsiyasini ta’minlash: muammolar va yechimlar”, Uzbekistan, Konand. Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.6649327
6. Mikhaylov, A. B., & ets. (2023). To the problem of in-company training of company employees. Publishing House “Baltija Publishing”.
7. Алёхина Е. И. Инновационная деятельность как элемент стратегического развития предприятия // Эффективное управление экономикой: проблемы и перспективы: сборник трудов IV Всероссийской научно-практической конференции; научн. ред. В. М. Ячменева. – Симферополь: ИТ АРИАЛ, 2019. – С. 362.
8. Ashurov M. S. (2019). O‘zbekistonda tadbirkorlik muhitining zamonaviy holati va uni samarali rivojlantirish muammolarini baholash. Monografiya. // Ashurov M.S. (2019). Assessment of the current state of the business environment in Uzbekistan and the problems of its effective development. Monograph. GlobeEdit Academic Publishing, European Union.
9. Ashurov, M. S., Kurpayanidi, K. I., (2019). “Doing business 2019: training for reform” tadbirkorlik muhiti samaradorligini baholash vositasi sifatida. Ekonomika i finansы (Uzbekistan), (9).
10. Ашуров, М. С., & Шакирова, Ю. С. (2019). Пути повышения экономической эффективности инновационного развития промышленных предприятий. Известия Ошского технологического университета, (3), 265-270. // Ashurov, M. S., & Shakirova, Y. S. (2019). Ways to increase the economic efficiency of innovative development of industrial enterprises. Bulletin of the Osh Technological University, (3), 265-270.
11. Игнатова, Т. В., & Глущенко, А. В. (2020). Особенности регулирующего воздействия на развитие инновационной деятельности в России. Естественно-гуманитарные исследования, (4 (30)), 54-58.
12. Икрамов М.А., & др. (2013). Некоторые вопросы государственного регламента инновационного процесса: зарубежный опыт и практика Узбекистана. Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования, (2 (2)), 198-205.
13. Курбанов, А. Б. (2020). Роль малого бизнеса в инновационной деятельности. Economics, (1 (44)), 8-10.
14. Kurpayanidi K., & Ashurov M. (2021) Milliy innovatsiya tizimini shakllantirishning ayrim muammolari va yechimlari. Logistika va iqtisodiyot, (3) 210-220.
15. Kurpayanidi K., & Ashurov M. (2021) O‘zbekiston Respublikasining raqobatbardosh milliy innovatsiya tizimini shakllantirish muammolari. Obщestvo i innovatsii, 2 (4/S), 213-223
16. Курпаяниди, К. (2023). Исследование трансформации экономики: вызовы и перспективы систем управления предприятий через институциональные реформы. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(9). https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N04
17. Курпаяниди, К. И. (2023). Сценарии развития экономики Узбекистана в условиях нестабильности. Экономика Центральной Азии, 7(1), 63-80. doi: 10.18334/asia.7.1.117188
18. Kurpayanidi, K. I., & Ashurov, M.S. (2018) Muvaffaqiyatli biznes yuritish uchun tadbirkorlik muhitining zamonaviy holati va uni samarali nazorat qilish muammolarini baholash (O‘zbekiston Respublikasi materiallari asosida). Экономика и финансы (Узбекистан), (12).
19. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020-y., 03/20/630/1101-son
20. Оверби, Х., & Одестад, Я. А. (2022). Цифровая экономика. Как информационно-коммуникационные технологии влияют на рынки, бизнес и инновации. Litres.

IJTIMOIY TARMOQLAR ANALITIKASI

S. Qulmatova
PhD, dotsent

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy sohada, xususan, tibbiyotda va sog‘liqni saqlashda yuzaga keladigan o‘zaro ta’sirlarni o‘rganish jarayoni ijtimoiy tarmoq analitikasi yordamida amalga oshirilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy soha, tibbiyot, sog‘liqni saqlash, analitika, kuzatish, taklif.

Abstract: The article analyzes the process of studying the interactions that occur in the social sphere, in particular, in medicine and health care, using social network analytics.

Key words: Social, Medical, Healthcare, Analytics, Tracking, Suggestion.

Аннотация: В статье анализируется процесс изучения взаимодействий, происходящих в социальной сфере, в частности, в медицине и здравоохранении, с помощью аналитики социальных сетей.

Ключевые слова: Социальные сети, медицина, здравоохранение, аналитика, отслеживание, предложения.

KIRISH

Ijtimoiy tarmoq analitikasi tibbiyotda va sog‘liqni saqlashda yuqumli kasalliklar tarqalishini va sog‘liqni saqlash bo‘yicha harakatlar va amaliyotlarning tarqalishini o‘rganishdagi, sotsiologiya va psixologiyada ijtimoiy tuzilmalar, ijtimoiy munosabatlar va guruh dinamikasini o‘rganish uchun, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish qiyin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalarning murakkab naqshlarini tushunishga yordam beradigan kuchli tahliliy vositadir.

Ushbu tuzilmalarni yaxshiroq tushunish orqali ijtimoiy muammolarni yanada samarali hal qilish, qarorlar qabul qilish va ijtimoiy tizimni yaxshilashga erishiladi. Ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilish uchun tadqiqotchilar turli xil tahliliy texnikalar va dasturiy vositalardan foydalanadilar.

Bularga matematik modellar, statistik usullar, vizualizatsiya usullari va tarmoqni tahlil qilish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy paketlar kiradi. Sifatli va miqdoriy yondashuvlarni birlashtirgan holda, Ijtimoiy tarmoq analitikasi ijtimoiy tuzilmalar va hodisalarni yaxlit tushunishni taklif qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy tarmoq tahlili hayotimizni shakllantiradigan murakkab ijtimoiy aloqalarni o‘rganish uchun kuchli asos yaratadi. Aloqalar va o‘zaro ta’sirlar tarmoqlarini o‘rganish orqali ijtimoiy tizimlarning asosiy tuzilmalari, dinamikasi va funksiyalarini ochib beradi. Bizning dunyomiz tobora o‘zaro bog‘lanib borar ekan, ijtimoiy tarmoqlarni tushunish ijtimoiy muammolarni hal qilish, tashkiliy samaradorlikni oshirish va raqamli hamjamiyatlarning kuchidan foydalanish uchun zarur bo‘ladi.

Ijtimoiy tahlil va sotsiometrik metodlar ijtimoiy tarmoqlarda birinchi marta 1930-yillarda Frederic Le Play, Moreno, Simmel va boshqalar tomonidan olib borilgan [1]. Ular jamiyatda aholi o‘rtasidagi aloqalar va bog‘liqliklarni o‘rganishda ishlatilgan.

Tarmoq nazariyasi 20-asr boshida ishlatilib boshlandi. Granovetter, Watts-Strogatz va Barabasi-Albert modellari kabi asosiy tarmoq nazariyalarini shakllantirildi. Ushbu nazariyalar tarmoqlar bilan bog‘liq muammolarni yechish va jamiyatdagi tarmoq tuzilishini tushunishga yordam beradi [5].

Sotsial grafiklar. Grafik nazariyasining rivojlanishi ham analitik yondashuvlarni o‘zgartirdi. Grafik nazariyasi, tarmoq tuzilishini va aholi o‘rtasidagi aloqalarni ifodalashda grafiklar va matematik modellardan foydalanadi [2]. Bu, jamiyatdagi aloqalarni tahlil qilishda quyidagi elementlarga ega bo‘lgan ko‘plab analitik vositalar va metoddan foydalanadi. grafik tuzilishi, matritsalar, metrikalar, degro tahlil, katta datalarni tahlil qilish va boshqalar.

Ijtimoiy tarmoq analitikasi sohasida ma’lumotlar texnologiyalarining rivojlanishi ham olib keldu. Ijtimoiy tarmoq analitikasi, tarmoqlar orasidagi bog‘liqliklarni tushuntirishda big data, avtomatlashtirish, ma’lumotlar vizualizatsiyasi, mashinali o‘qish va boshqa texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi [6].


Dinamik tarmoq analitikasi tarmoq tuzilishidagi vaqtinchalik o‘zgarishlarni tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar, tarmoqdagi o‘zgarishlarni vaqt oralig‘ida rivojlanishini tushuntirish, trendlarni aniqlash, aloqalar orasidagi dinamikalar haqida ma’lumot olish va tarmoqga xususiy o‘tishlarni aniqlashda foydalaniladi [3].

Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plik muharrirlik analitikasi yoshlar to‘plamlarida tarmoq tuzilishi va o‘zgarishlarini tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu usul, o‘zgarishlarni kuzatish, rivojlanishga ta’sir qilish va jamiyatning tuzilishiga qarshi tadqiqotlar olib borish uchun foydalaniladi [3].

Ushbu evolyutsiyalar va yondashuvlar Ijtimoiy tarmoq analitikasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Unda yangi texnologiyalar va ko‘rsatkichlar bilan birgalikda kengaygan imkoniyatlardan foydalanish mumkin. Bu esa jamiyatning tuzilishi, aloqalarni tahlil qilish, muammolarni yechish va qarorlar olishda yaxshi asosdir.

METODLAR

Ijtimoiy tarmoq analitikasi ko‘p tarmoqli soha bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilish va tushunish uchun bir qator freymworklar va tushunchalarni taklif qiladi.



1-rasm: Ijtimoiy tarmoq analitikasi asosiy tuzilishi

Tarmoq - bu qirralar yoki bog‘ichlar bilan bog‘langan tugunlar yoki nuqtalar to‘plami. Ijtimoiy tarmoqda shaxslar tugunlar bo‘lib, ular orasidagi munosabatlar chekka yoki rishtalardir.

Ijtimoiy tarmoqda tugun - bu tarmoq ichidagi nuqta sifatida ifodalangan shaxs yoki alohida shaxs.

Chekka yoki galstuk ijtimoiy tarmoqdagi ikkita tugun o‘rtasidagi aloqani anglatadi. Bir chekkaning kuchi har xil bo‘lishi mumkin, bu ikki tugun o‘rtasidagi munosabatlarning darajasini yoki sifatini ko‘rsatadi.



2-rasm: Ijtimoiy tarmoq tugunlari

Daraja - bu ijtimoiy tarmoqdagi tugunga ulangan qirralarning soni. Bu tugunga ega bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanishlar sonini ko‘rsatadi.

Zichlik tarmoq qanday ulanganligini o‘lchovidir. U haqiqatda mavjud bo‘lgan tarmoqdagi mumkin bo‘lgan qirralarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Markazlik - bu ijtimoiy tarmoqdagi tugunning ahamiyati yoki ta’sirining o‘lchovidir. Markazlik turli yo‘llar bilan o‘lchanishi mumkin, masalan, daraja, daraja va o‘zaro markazlashuv.

Klasterlar tarmoqning boshqa qismlariga qaraganda bir-biri bilan kuchliroq bog‘langan tugunlar guruhlari. Klasterlar ijtimoiy tarmoqlarning eng muhim tarkibiy xususiyatlaridan biridir.

Ijtimoiy tarmoq analitikasi turli tahliliy vositalar va metodologiyalardan foydalangan holda ijtimoiy tarmoqlarning tuzilishi, dinamikasi va funksiyalarini o‘rganish uchun tizimli asosni taqdim etadi. Shuningdek, murakkab aloqa tarmog‘ini va tarmoq ichidagi ma’lumotlar oqimini, resurslarni va ta’sirni tahlil qilish orqali ijtimoiy tuzilmalar individual xatti-harakatlar, jamoaviy natijalar va jamiyatlarning umumiy faoliyatini qanday shakllantirishini tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoq analitikasining asosiy tushunchasi tarmoq, u tugunlar (aktyorlar yoki qirralar)dan va tugunlar orasidagi aloqalarni ifodalovchi qirralardan (bog‘lanishlar yoki havolalar) iborat. Tugunlar tadqiqot kontekstiga qarab shaxslar, tashkilotlar, mamlakatlar, veb-saytlar yoki boshqa tahlil birligini ifodalashi mumkin. Qirralar hamkorlik, aloqa kanallari, ma’lumot almashish yoki ijtimoiy o‘zaro ta’sirning boshqa har qanday shakllari kabi munosabatlarning har xil turlarini anglatishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoq analitikasi shuningdek, tarmoq dinamikasini, masalan, vaqt o‘tishi bilan aloqalarning shakllanishi va ajralishi, ma’lumot yoki kasalliklarning tarqalishi, tarmoq orqali manbalar oqimi yoki ta’sirini o‘rganadi.



1.1-rasm: SNA da drajalar

TAHLILLAR

Ijtimoiy tarmoqlarni bir nechta usullar asosida tasniflash mumkin. Jamiyat tarmoqlari odamlar orasidagi aloqalarni o‘z ichiga oluvchi tarmoqlardir. Ular, do‘stlar, oilalar, kompaniya xodimlari, jamoalar, jamiyatlar va boshqalar orasidagi aloqalarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy media tarmoqlari internet platformalarida foydalanuvchilar o‘rtasida aloqalarni yaratish uchun mo‘ljallangan (Facebook, Twitter, Instagram, LinkedIn va boshqalar).

Mutaxassislik sohasidagi odamlar orasidagi aloqalarni professional tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, LinkedIn, Academia.edu, ResearchGate kabi platformalar akademik sohada ishlashganlar, ilmiy tadqiqotchilar va sohaga qiziquvchilar orasidagi aloqalarni yaratish uchun mo‘ljallangan.

Odamlarning yozma faoliyatlarini hamkorlgida tarmoqlarni Wikipediya, forumlar, bloglar, yozuvchilar jamoalari tashkil qiladi,

Biznes sohasida hamkorlik va aloqalarni o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan B2B onlayn platformalari, korporativ intranetlar, hamkorlik platformalari va boshqalar biznes tarmoqlari sifatida ko;ramiz.

Kreativ foydalanuvchilar orasidagi aloqalarni o‘z ichiga musiqachilar, rassomlar, yozuvchilar, film yaratuvchilar va boshqalar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan kreativ tarmoqlarni ko‘rsatish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar va ularning xususiyatlari keng doirasigani quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

1-jadval: Ijtimoiy tarmoqlar turlari

Tasniflash usuli	Qaysi sohada faoliyat ko‘rsatadi
Maqsad bo‘yicha	Biznes, siyosat, musiqa, sport, o‘yinlar, o‘qish, san’at, texnologiya, so‘zlar, modalar va boshqalar.
Funksiya bo‘yicha	Muloqot, fikr almashish, rasm va video tarqatish, bloglar yaratish, yangiliklar, xabarlar, mehnat, mahsulotlar, to‘lovlar va boshqalar.
Platforma bo‘yicha	Facebook, Twitter, Instagram, LinkedIn, Snapchat, TikTok, Pinterest va boshqalar.
Muhit bo‘yicha	Foydalanuvchilar o‘z fikrlarini, rasm va videolarni ulashish, muloqot qilish, qo‘shimcha aloqalar o‘rnatish va boshqalar.

Ushbu tasniflash usullari o‘zaro bog‘liqliklar ijtimoiy tarmoqlarini tushunishga yordam beradi.

Ommabop ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar o‘rtasidagi aloqalarni, ma’lumot almashishni va kommunikatsiya o‘zgaruvchanligini o‘rganish uchun qo‘llaniladi:

- **Marketing sohasi.** Ijtimoiy tarmoqlar, brendlarni rivojlantirish, mahsulotlarni bozorlash va mijozlar bilan aloqani kuchaytirish uchun biznes va marketing sohasida intensiv aloqani amalga oshiradi. Masalan, bir brendning Facebook sahifasida “foydalanuvchilar” va ularning”reklama takliflariga” asoslangan ijtimoiy reklama strategiyasini kuzatish barcha ijtimoiy mediya tarmoqlariga xosdir.
- **Ta’lim sohasi.** O‘qitish sohasida ijtimoiy tarmoqlar, talabalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish, o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va talabalar uchun ma’lumot almashishni oshirishda foydalaniladi. Masalan, bir o‘qituvchining talabalarga masalalar haqida ko‘rsatmalar va maslahatlar berish uchun Telegram guruhi yaratishi.
- **Sog‘liqni saqlash.** Sog‘liqni saqlash sohasida ijtimoiy tarmoqlar, epidemiologik holatni bilish, tarqalishining monitoringini o‘tkazish, salomatlik bo‘yicha maslahat berish va jamiyatdagi ishtirokchilar orasida bog‘liq masalalar haqida ma’lumot almashishni amalga oshirishda foydalaniladi. Masalan, Twitter’dagi hashtaglar orqali jamiyatning ko‘plab odamlariga qo‘l keladigan salomatlik masalalarini o‘rganish mumkin.
- **Ijtimoiy muammolar.** Ijtimoiy tarmoqlar, siyosiy tadbirlar va ijtimoiy muammolari kabi masalalarni tahlil qilishda o‘rnatilgan asosiy vositalardan biridir. Ulardan ma’lumot almashishni, aholi fikrlarini o‘rganishni va turli siyosiy harakatlarga ishtirok etishda foydalaniladi. Masalan, bir politik hisob-kitobga ko‘ra qo‘llaniladigan “Instagram Stories” orqali siyosiy fikrlar tarqatilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar, turli sohalarda ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy vositalardir va ularga doimiy rivojlanish va innovatsiyalar muhimdir. Ijtimoiy tarmoq tahlilida turli sohalarda keng ko‘lamli dasturlar foydalaniladi. Bunda jamiyatdagi ijtimoiy ishtirokchilar, guruhlar va tashkilotlarni aniqlash hamda ularning munosabatlari va resurslarini aniqlash uchun jamiyatni rivojlantirish va ijtimoiy farovonlik dasturlari yordamga keldi.

Shaxsiy tarmoqlar odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan. Ular ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni, qo‘llab-quvvatlash tizimlarini va shaxslar o‘rtasidagi axborot oqimlarini qamrab oladi. Shaxsiy tarmoqlar sotsiologiya, psixologiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tadqiqotlarida keng qo‘llaniladi. Shaxsiy tarmoqlar jamiyatda ijtimoiy yordamning mavjudligi va taqsimlanishini tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari farovonlik, ruhiy salomatlik va chidamlilikni o‘rganish uchun foydalilidir. Qo‘llab-quvvatlash tarmog‘i - bu qaror qabul qiluvchining hayotidagi odamlar guruhi bo‘lib, ular qaror qabul qilishda yordam olishlari mumkin. Ushbu qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini xaritalash sizga qaror qabul qiluvchilar va ularning tarafdorlari uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan vizual vositani beradi. Bu turli narsalar bo‘yicha qarorlarni kim qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, u qaror qabul qilish uchun qanday yordam kerak bo‘lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Har bir qarorda qo‘llab-quvvatlash tarmog‘idagi barcha odamlar ishtirok etishi shart emas.

Ijtimoiy aloqalar va do‘stlik modellari ijtimoiy aloqalarning shakllanishi, ijtimoiy ta’sir va do‘stlar o‘rtasida ma’lumot yoki xatti-harakatlarning tarqalishi haqida tushuncha beradi.

Maslahat tarmoqlari guruh yoki hamjamiyat ichidagi maslahat va ekspertiza oqimini tekshiradi. Maslahat tarmoqlarini tushunish qaror qabul qilish jarayonlarini, bilim almashishni va innovatsiyalarni o‘rganish uchun juda muhimdir.

Tashkilot ichidagi munosabatlarda e’tibor qaratuvchi, sanoat ichidagi aloqa, hamkorlik va quvvat dinamikasini ochib beruvchi ijtimoiy tarmoqlar ham mavjud. Turli tashkilotlarda hamkorlik va bilim almashish modellarini tahlil qiluvchi, asosiy o‘yinchilarni aniqlashga yordam beruvchi va samarali jamoaviy ish va innovatsiyalarni osonlashtiruvchi hamkorlik tarmoqlarini ko‘rsatish mumkin,

Innovatsion tarmoqlar tashkilotlar, tadqiqotchilar va innovatsion jarayonlarda ishtirok etuvchi boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi. Ular bilim manbalari, texnologik tarqalish va potentsial hamkorlarni aniqlashga yordam beradi.

Axborot tarmoqlaridan iqtibos tarmoqlari ilmiy maqolalar orasidagi ilmiy iqtiboslar oqimini tahlil qiladi. Ular tadqiqot jamoalari va fanlar ichida ilmiy bilimlarning ta’siri va tarqalishini ochib beradi. Veb-tarmoqlar esa

veb-saytlar yoki veb-sahifalar o‘rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Veb-tarmoqlarni tahlil qilish qidiruv tizimining algoritmlarini, veb-saytlar reytingini va ma’lumotlarni qidirishni tushunishga yordam beradi.

Axborotning diffuziya tarmoqlari ijtimoiy media platformalari yoki boshqa onlayn hamjamiyatlar orqali axborot yoki xatti-harakatlarning tarqalishini o‘rganadi. Ular virusli marketing, ijtimoiy ta’sir va innovatsiyalarni qabul qilish haqida tushuncha beradi.

Ijtimoiy-texnik tarmoqlar ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar va texnologik tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganadi. Ushbu tarmoqlar shaxslar va ular ishtirok etadigan raqamli artefaktlar yoki platformalar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rib chiqadi. Ijtimoiy-texnik tarmoqlarning qo‘llanilishi quyidagilardan iborat:

- **Onlayn ijtimoiy tarmoqlar.** Facebook, Twitter yoki LinkedIn kabi onlayn ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro munosabatlarni tahlil qiladi. Ular ijtimoiy xatti-harakatlar, axborot tarqalishi va onlayn hamjamiyat dinamikasini tushunishga yordam beradi.
- **Mobil telefon tarmoqlari.** Mobil telefon tarmoqlari mobil qurilmalardan foydalanadigan shaxslar o‘rtasidagi aloqa modellari va o‘zaro ta’sirlarini ushlaydi. Mobil telefon tarmoqlarini tahlil qilish ijtimoiy dinamikani, axborot tarqalishini va harakatlanish modellarini tushunishga yordam beradi.
- **Onlayn hamkorlik tarmoqlari.** Onlayn hamkorlik tarmoqlari raqamli platformalarda hamkorlik qiluvchi shaxslar yoki guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar va o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi. Ular hamkorlikdagi ish oqimlarini, axborot almashishni va loyihalarni boshqarishni optimallashtirishga yordam beradi.

Biologik tarmoqlar genlar, oqsillar yoki neyronlar kabi biologik tizimlardagi o‘zaro ta’sirlarga qaratilgan. Bu tarmoqlar murakkab biologik jarayonlar haqida tushuncha beradi. Biologik tarmoqlarning qo‘llanilishi buyicha 2 turi aniqlanadi:

- **Genlarni tartibga solish tarmoqlari.** Genlarni tartibga solish tarmoqlari genlar va ularning tartibga soluvchi elementlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni tahlil qiladi. Ular gen ifodasini, hujayra jarayonlarini va kasallik mexanizmlarini tushunishga yordam beradi.
- **Protein-oqsil o‘zaro ta’sir tarmoqlari.** Protein-oqsil o‘zaro ta’sir tarmoqlari hujayralardagi oqsillar o‘rtasidagi munosabatlarni amalga oshiradi.

XULOSALAR

So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoq tahlili turli fanlar, jumladan, sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, tashkiliy tadqiqotlar, aloqa va informatika sohasida katta e’tibor qozondi. Uning ilovalari kichik jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishdan global hamkorlik va axborot tarqatish tarmoqlarini o‘rganishgacha tarqalgan Onlayn ijtimoiy media platformalarining yuksalishi bilan Ijtimoiy tarmoq analitikasi ham virtual hamjamiyatlarni va raqamli shovqinlarni tushunish uchun muhim vositaga aylandi.

Sotsiologiyada Ijtimoiy tarmoq analitikasi ijtimoiy kapital, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy ta’sir va innovatsiyalarning tarqalishini o‘rganish uchun ishlatiladi. Tashkiliy tadqiqotlarda u kompaniyalar va jamoalar ichida hamkorlik, axborot oqimi va quvvat dinamikasini aniqlashga yordam berdi. Epidemiologiyada Ijtimoiy tarmoq analitikasi yuqumli kasalliklar tarqalishini tushunish va maqsadli tadbirlarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynadi. Marketing va ijtimoiy media tahlilida u samarali kompaniyalar uchun nufuzli shaxslar yoki jamoalarni aniqlashga yordam berdi.

Ijtimoiy tarmoq analitikasi sotuvchilarga maqsadli reklama va kompaniya strategiyalari uchun nufuzli shaxslar yoki jamoalarni aniqlashda yordam beradi. U axborot tarqalishini tushunish, tendentsiyalarni aniqlash va iste’molchilarning xatti-harakatlarini bashorat qilish uchun onlayn ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qiladi.

Onlayn ijtimoiy platformalarning ko‘payishi bilan Ijtimoiy tarmoq analitikasi virtual hamjamiyatlarni, onlayn ijtimoiy tarmoqlarni va raqamli shovqinlarni o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Bu raqamli makonlarda ma’lumot almashish, hamkorlik va ta’sir qilish naqshlarini ochishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Borgatti S. P., Mehra, A., Brass, D. J., & Labianca, G. (2009). Network Analysis in the Social Sciences, 323, 892-895.
2. Butts, C. T. (2009). Revisiting the Foundations of Network Analysis, 325, 414-416. Wasserman, S., & Faust, K. (1994). Ijtimoiy tarmoq tahlili. usullari va ilovalari.
3. Skott, J. (2013). Ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilish. qo‘llanma
4. Easley, D. va Kleinberg, J. (2010). Tarmoqlar, olomon va bozorlar. yuqori darajada bog‘langan dunyo haqida fikr yuritish. Kembrij universiteti matbuoti.
5. Stair Ralph Stair George Reynolds. Principles of Information Systems. 13th Edition, 2018.
6. Hagberg, A., Swart, P., & S Chult, D. (2008). Exploring network structure, dynamics, and function using NetworkX (No. LA-UR- 08-05495; LA-UR-08-5495). Los Alamos National Laboratory (LANL)
7. John Scot What is social network analysis? First published in 2012 by Bloomsbury Academic www.bloomsburyacademic.com

ANALYSING THE FUNCTIONING OF ENTERPRISE MANAGEMENT IN THE CONTEXT OF INSTITUTIONAL REFORMS



Kurpayanidi Konstantin Ivanovich
Professor, Academician of the International Academy of Theoretical and Applied Sciences (USA), International Institute of Food Technology and Engineering, Fergana, Republic of Uzbekistan

Abstract: The article considers the main problems of functioning of enterprises in the conditions of transformation of the national economy of Uzbekistan. The functions performed by enterprises in the society are defined. The author identified the essences, principles, methods and problems associated with the research of economic transformation and introduction of institutional reforms in the management systems of the company. The importance of the development of internal and external institutional environment is substantiated. Directions of development and reforming of enterprises to solve the identified problems are proposed.

Key words: institutional changes, enterprise problems, enterprise functions, enterprise reforms, competitiveness, organisational innovations, enterprise management systems, economic transformation.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston milliy iqtisodiyotini o'zgartirish sharoitida korxonalar faoliyatining asosiy muammolari ko'rib chiqiladi. Kompaniyadagi bajaradigan funktsiyalar aniqlanadi. Muallif iqtisodiyotni o'zgartirish va kompaniyaning boshqaruv tizimlarida institutsional islohotlarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish bilan bog'liq mohiyat, printsiplar, usullar va muammolarni aniqladi. Ichki va tashqi institutsional muhitni rivojlantirishning ahamiyati asoslanadi. Belgilangan muammolarni hal qilish uchun korxonalarni rivojlantirish va isloh qilish yo'nalishlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: institutsional o'zgarishlar, korxonalar muammolari, korxonalar funktsiyalari, korxonalarni isloh qilish, raqobatbardoshlik, tashkiliy innovatsiyalar, korxonalarni boshqarish tizimlari, iqtisodiyotni o'zgartirish.

Аннотация: В статье рассматриваются основные проблемы функционирования предприятий в условиях трансформации национальной экономики Узбекистана. Определены функции, выполняемые предприятиями в обществе. Автор выявил сущности, принципы, методы и проблемы, связанные с проведением исследований трансформации экономики и внедрения институциональных реформ в системы менеджмента компании. Обоснована важность развития внутренней и внешней институциональной среды. Предложены направления развития и реформирования предприятий для решения выявленных проблем.

Ключевые слова: институциональные изменения, проблемы предприятий, функции предприятий, реформирование предприятий, конкурентоспособность, организационные инновации, системы управления предприятий, трансформация экономики.

INTRODUCTION

Today, against the backdrop of global changes in production and social structure, continuous development is a key element of successful management. This implies the need for research that can help to identify the main directions and opportunities for this development, as well as to explore alternative paths and innovations in the light of the green economy [1, 4, 7]. The evolution of management approaches in companies, the wealth of experience and knowledge of management professionals in the last decades plays a crucial role in ensuring the success of companies. In fact, company performance depends on many factors and idealising the role of management and its contribution to the global success of a company becomes a challenging task to assess its contribution [5, 8]. One of the most important aspects of the study of modern business structures is the collection and analysis of information that reflects the current state and dynamics of the company. A clear understanding of the different areas of the organisation's activities allows identifying key areas for further activities and making important management decisions in the context of the green economy.

RESEARCH METHODS

In order to ensure continuous progress in the management and operations of an organisation, it is necessary to transform and continually improve existing methods. Key points in this process include:

- An in-depth study of the potential capabilities of organisations in their industries.
- Investigating the major trends that prevail in the economy of a particular industry.
- Identifying and assessing potential factors that can drive the growth of the organisation.
- Comparative study of the results obtained from the performance with the selected prospective growth strategy. Research practice points out the following factors influencing the quality of research:
- Availability of qualified professionals in the team who are experienced in conducting research.
- Excellent knowledge of the main characteristics of the production process.
- Strict adherence to the principles of objectivity and unbiasedness in conducting research.
- Application of standardised research programmes.
- Urgency of the need for research to the management staff of the organisation.

Taking into account the experience of work in production, including innovative projects related to efficiency and implementation of decisions, as well as independent research in the field of management of modern organisations, especially on the example of JSC “Uzavtosanoat”, the most advanced domestic industrial enterprise, we can come to the conclusion that the effectiveness of the research process is determined by the following aspects:

- System approach to research.
- Application of scientific approach with emphasis on objectivity and accuracy.
- Collection, processing and analysis of data at all levels of management, including the lowest level.

RESULTS

In the light of institutional reforms of the national economy of Uzbekistan, modernisation of management processes and corporate activities of organisations is inevitably required. A key step in this transition is the rejection of the analysis of already available secondary information in favour of field research involving the collection and processing of data specifically selected for a particular analysis, according to the principles of the green economy. The ideal approach is the direct participation of the researcher in the process of primary data collection, application of rigorous scientific methods, personal observation and interviews with participants of the management and technological process at the enterprise [2, 9, 10].

Modern research in the field of enterprise management, especially where it concerns the development of management tools, methods, technologies and personnel of the company, often applies the method of interviews with persons directly related to the issues under study. This helps in understanding processes through the subjective experience of each participant [1, 9].

Today, one of the main factors indicating the development potential of companies is the activation of employees in the process of improving corporate operations based on the principles of sustainable development. This refers to improving technological processes, increasing productivity, raising product quality and reducing costs through rationalisation and establishing a “quality circle”.

According to respected experts in the field of modern management such as Imai, Masaaki, Joseph M. Juran, Womack, J. P., Elger, C. E., JF Wilson, A Thomson and others, active improvement of corporate operations is a key part of modern manufacturing systems such as quality management system, total quality management, lean manufacturing or continuous improvement. Despite the current level of success, this area still needs further optimisation to implement green technologies and sustainable development. According to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 18.07.2019, No. PD-4397 “On additional measures for accelerated development of the automotive industry in the Republic of Uzbekistan”, additional actions have been taken to accelerate the development of the automotive industry in the country. These indicators were determined taking into account the need to implement the principles of “green economy” and should, in addition to strengthening the automotive industry, also increase the level of environmental safety and sustainability [2, 6].

DISCUSSIONS

For the successful fulfilment of tasks, it is important to implement a deep optimisation of the functioning of enterprises, with a special emphasis on improvement regarding the quality management system. This indicator plays a key role in the country's economy and its productive improvement contributes to GDP growth, consumer satisfaction and inflation reduction. Implementation of the current version of the international standard ISO 9001:2015 at large enterprises of Uzbekistan, including such companies as JSC "Uzbekistan Temir Yollari", JSC "Navoiyazot", JSC "Almalyk MMC", testifies to their impetus to the use of modern strategies and management methods, including quality management systems, taking into account the principles of "green economy". Over the last three years, these companies have obtained the following certificates: "ISO 9001:2015 - Quality Management System", "ISO 14001:2015 - Environmental Management System", "ISO 45001:2018 - Occupational Health and Safety Management System" and "ISO 50001:

For the first half of 2023 alone, over 610 enterprises in Uzbekistan have been certified in the Quality Management System: including

261 - Quality Management Systems (ISO 9001);

158- Environmental Management Systems (ISO 14001);

24 - food safety management systems (ISO 22000);

3- Energy management systems (ISO 50001);

164- professional systems, health care systems;

19- management systems within the framework of safety management (ISO 45001).

As of 1 July 2023, the State Register of Certified Quality Management Systems (QMS) of the Republic of Uzbekistan lists 10,582 enterprises and organisations that have successfully passed certification and confirmed compliance with international standards. Including ISO 9001-10104, ISO 14001 - 201, OHSAS 18001 - 256, ISO 22000 - 289, ISO/TS 45 (quality assurance of supplied parts in the automotive industry - 43 and GMP - 23. That is, quality management systems of domestic enterprises are mainly built on the basis of ISO 9000 International Standards, although there are other models of quality management systems. Despite significant financial investments and government support, quality management systems in many firms often fail to meet expectations. The main problem is related to the fact that the main goal of standardisation - guaranteeing high quality of goods and services, as well as the development of the enterprise and the management system as a whole - is often not achieved. The majority of experts specialising in assessing the quality of management in Uzavtosanoat JSC, including production managers, quality specialists and quality systems, believe that the effectiveness of quality management systems is less than expected. The effectiveness of the quality management process, as well as the results of departments and groups responsible for quality management systems, are poorly correlated with overall quality indicators. The ambiguities that lead to this situation are many, and the most significant ones, in our opinion, are the following:

1. **Organisational issues:** One of the main reasons is the separation of individual quality units from quality management systems (QMS). This simplifies the processes of QMS creation and certification, at the same time it leads to weakened efficiency in quality assurance as QMS becomes a goal in itself, detached from the core business processes [3].
2. **Administrative factors:** another reason is the weak linkage of QMS performance indicators to the overall strategy and control of the enterprise. Lack of proper coordination with other management units leads to unproductive quality control.
3. **Insufficient training of QMS employees:** Neither the level of training of QMS unit employees in the administration of production processes nor their limited authority may limit their ability to control the quality of the final product.
4. **Incomplete levels of management development in the enterprise:** Another reason may be the lack of experts capable of dealing with highly specialised issues, including issues in product and process quality assurance.

These factors significantly affect the effectiveness of quality management systems and require careful consideration by the company's management to address them and improve the overall level of product and process quality. Most of the above issues are fairly formalised, i.e. their nature, causes, development factors are well known. However, the solution of these complex issues requires fundamental research at a high scientific and methodological level, as they have a significant impact on modern enterprise management.

Organisation and stimulation of personnel innovation activities in the field of product quality improvement and process optimisation is one of the critical elements of quality management and an integral aspect of modern enterprise management. Japanese companies have made significant progress in ensuring product quality through the creative approach of their employees to the work process. For example, each employee of Japanese automotive companies offers an average of 61.6 process improvements per year, compared to only 0.4 in Europe. In this connection, European and American researchers and practitioners of quality management are actively studying, mastering, adapting and developing methods of involving employees in product quality management and company development, as well as forming a creative attitude to the work process. Research into the quality management approaches and tools of Japanese enterprises has received considerable investment and has led to great results. For example, Kaizen's improvement suggestion scores were 4.2 for the US and 1.9 for European car plants. Involvement of employees in the process of product quality improvement and expansion of technical creativity of employees is of particular importance at the enterprises of Uzavtosanoat JSC, especially at UzAuto Motors JSC, JV LLC "Samarkand Automobile Plant" and JV LLC "UZ TRUCK AND BUS MOTORS".

The example of UzAuto Motors JSC shows that since 2000 the enterprise has been developing a system of proposals to improve production, similar to the system of rationalisation proposals used by foreign partners. From 2000 to 2022, the number of submitted rationalisation proposals increased significantly - from 402 to 15,103, and the specific index of submission of rationalisation proposals per employee increased from 0.12 to 3.11. This indicates a significant increase in the activity of employees in proposing improvements.

The ratio of rationalisation proposals (the ratio of implemented proposals to the total number of submitted proposals) also increased significantly, indicating that employees' proposals are actively used in the production process. The ratio of realised to submitted proposals increased from 35.1% to 66%, indicating a more efficient use of proposals within the company's operations. An important achievement is also the increase in employee participation in rationalisation, which is reflected in the engagement ratio. Employee involvement in process improvement has increased from 3% in 2000 to 82.7% in 2022. This indicates that most employees are actively involved in product and process improvement, which contributes to the overall success of the company.

However, behind the history of rationalisation and innovation in the enterprise is a slowdown and stagnation. This is evident both in the decline in the number of submitted rationalisation proposals at work sites and locations and in the reduction of some innovation programmes.

A detailed analysis of innovation in the enterprise indicates problems of rationalisation development, such as formality and over-management, a large number of insignificant proposals submitted formally rather than for the sake of real improvement. In order to assess more accurately the state of rationalisation and to identify ways to improve it, surveys were conducted among the participants in the rationalisation movement of all types of employees. Special attention was paid to the following aspects of rationalisation activity: Motivation for participation, i.e. the reasons that encourage workers to take part in the rationalisation movement. Key motivations were improved working conditions and rewards for employees and colleagues. Activity drivers, which are the reasons why workers are active in presenting innovative ideas. These include initiative, innovativeness and supervisor demands. Systematic factors affecting the effectiveness of innovation activities. These include production and management culture, production climate, support or obstacles from management. The analysis of these factors makes it possible to identify the real difficulties and problems faced by the participants of the rationalisation movement and to select solutions for further improvement of the rationalisation system and innovation activity at the enterprise.

CONCLUSION

The current economic situation in the marketplace requires organisations to constantly adapt and metamorphose to maintain their competitive position. Effective reform both in technological and organisational plans becomes a critical factor for successful operation of business structures.

Organisational innovations play a major role in the processes of economic transformation and institutional restructuring. They serve as a basis for the creation and implementation of new concepts of enterprise management, which allows successfully adapting to continuous changes in the market environment.

One of the important aspects discussed in this article is the study of enterprise management systems as socio-technical systems. This makes it possible to understand at a deeper level the characteristics and dynamics of modern, rapidly evolving organisations and to identify areas for their improvement. Conducting research on the transformation of the economy and on the introduction of institutional changes in enterprise management systems requires thorough and comprehensive preparation. A scientific and methodological approach to research plays a key role in achieving positive dynamics and introducing innovative approaches to enterprise management.

Taking into account the ever-changing market conditions and business requirements, conducting in-depth research is becoming an integral part of the work of companies that seek to remain competitive and successful. It also contributes to improving the quality of management in enterprises and ensures their stable development in a variable economic market.

Thus, the raised problems and research methods can become a starting point for further elaborations and practical actions in the field of enterprise management taking into account the challenges and future prospects for the modern economy.

References:

1. Teece, D. J. (2022). A wider-aperture lens for global strategic management: The multinational enterprise in a bifurcated global economy. Global Strategy Journal, 12(3), 488-519.
2. Ashurov, M., and ets. (2023). Strategies for Improvement and Evaluation of the Quality Management System of Uzbekistan Manufacturers. In: Beskopylny, A., Shamtsyan, M., Artiukh, V. (eds) XV International Scientific Conference “INTERAGROMASH 2022”. INTERAGROMASH 2022. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 574. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-21432-5_167
3. E. Cress, P., & Fiala, T. (2022). Adapting the Toyota production system in plastic surgery practices to improve practice management and the user experience. Aesthetic Surgery Journal, 42(7), 830-832.
4. Konopik, J., Jahn, C., Schuster, T., Hoßbach, N., & Pflaum, A. (2022). Mastering the digital transformation through organizational capabilities: A conceptual framework. Digital Business, 2(2), 100019.
5. Ivanovich, K. K. (2020). About some questions of classification of institutional conditions determining the structure of doing business in Uzbekistan. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(5), 17-28. Doi: https://doi.org/10.5958/2249-877X.2020.00029.6
6. Suarez-Barraza, M. F., Miguel-Dávila, J. A., & Morales Contreras, M. F. (2022). KAIZEN: an ancestral strategy for operational improvement: literature review and trends. In International Scientific-Technical Conference MANUFACTURING (pp. 154-168). Springer, Cham.
7. Mikhaylov, A.B. and ets. (2023). Industry 4.0 and its impact on cross-border investment: new challenges and opportunities. In Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, Durdona Nashriyoti, pp.145-146.
8. E. Cress, P., & Fiala, T. (2022). Adapting the Toyota production system in plastic surgery practices to improve practice management and the user experience. Aesthetic Surgery Journal, 42(7), 830-832.
9. Курпаяниди, К. (2023). Институциональная среда предпринимательского сектора экономики. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari; Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami., 75–78. Retrieved from https://conference.tsue.uz/index.php/article/article/view/342
10. Kurpayanidi, K. I. (2023) Innovation and innovative activity in a transforming economy. Scientific and analytical journal Science and Practice of the Plekhanov Russian University of Economics. Vol. 15, No. 2(50). – P. 70-79.

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Ruxsatova Rushana O‘ktamovna
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning turli shakllari samaradorligini o‘rganish natijalari jamlangan. Shuningdek, respublika qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi makroiqtisodiy tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, qishloq xo‘jalik samaradorligi.

Abstract: This article summarizes the results of studying the efficiency of different forms of production organization in agriculture. Also, a macroeconomic analysis of the republic’s agricultural production was carried out.

Key words: Agricultural production, agricultural efficiency.

Аннотация: В данной статье обобщены результаты исследования эффективности различных форм организации производства в сельском хозяйстве. Также был проведен макроэкономический анализ сельскохозяйственного производства республики.

Ключевые слова: Сельскохозяйственное производство, эффективность сельского хозяйства.

KIRISH

Jahonda tabiiy va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin o‘sishi sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarishda ilmiy yondashuvlardan kengroq foydalanish, xususan, ishlab chiqarish rivojlanishini modellashtirish va prognozlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda [1]. Shuningek, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishning innovatsion yo‘liga o‘tish masalalari ilmiy tadqiqotlarda keng ko‘rib chiqilib, mamlakatimiz rahbariyatining doimiy e’tiborida bo‘lmoqda. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, unda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsad qilindi. ishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash, qishloq xo‘jaligida ilmiy-tadqiqot, ta’lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma’lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo‘llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish tartibini qayta ko‘rib chiqish masalalari ko‘rsatib o‘tildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligi iqtisodiy mazmuni va shakli bo‘yicha murakkab, ko‘p qirrali, tizimli kategoriya bo‘lib, foydali ta’sirni uni keltirib chiqargan ishlab chiqarish xarajatlari bilan taqqoslash asosida ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini tavsiflaydi va mikroiqtisodiy, makroiqtisodiy, qishloq xo‘jaligi texnologiyalari asosida, mintaqaviy, yerdan foydalanish va mehnat foydalanish asosida baholash amalga oshiriladi [2]. Viloyatdagi yirik qishloq xo‘jaligi korxonalarining samaradorligi ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligi tashkiloti faoliyatini optimal rejalashtirish va boshqarish qarorlarini amalga oshirishni ta›minlaydigan tashkiliy shakllarni tanlashga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi korxonalari iqtisodiy o‘sishining sifat omillaridan to‘liq va birlamchi foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda foydalanilayotgan resurslarni yuqori tashkil etish va samaradorligi, uchinchi tomon rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari bilan hamkorlik va integratsiyasi, tovar mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish munosabatlari asoslanadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini turli olimlar turlicha yondoshuvlar bilan baholaganlar. Masalan Xo‘jageldiev (2022) tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, Sultonov (2020) qishloq xo‘jaligida yer unumdorligini oshirishning ilmiy –uslubiy masalalariga alohida urg‘u berishgan. Suleymanov esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mintaqaviy samaradorligini tahlil qilishning asosiy sharti qishloq xo‘jaligi yer birligiga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mahsuloti ko‘rsatkichlaridan foydalanish deb hisoblaydi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligiga ta’sir etuvchi va boshqaruvning o‘ziga xos holatini tavsiflovchi omillar orasida to‘rtta guruhni ajratib ko‘rsatish mumkin: tabiiy sharoit; moddiy resurslar; mehnat resurslari; tashkiliy va iqtisodiy omillar [3].


METODOLOGIYA

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishga ta’sir qiluvchi quyidagi shartlarni ko‘rsatish mumkin [4]:

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish buyicha o‘rta muddatli (taxminan 5 yil) faoliyat ko‘rsatish shartlarini belgilab beruvchi qonunni qabul qilish;
- mahalliy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining ham ichki, ham tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida samarali qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish
- mamlakat miqyosida qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun barqaror imkoniyatlar yaratish.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rejalashtirish va prognozlashning ilmiy asoslangan tizimini yaratish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududiy va oziq-ovqat bozorlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining savdosi tizimini shakllantirish, qishloq xo‘jaligi va resurs ishlab chiqaruvchi tarmoqlar o‘rtasidagi almashinuv ekvivalentini oshirish qishloq xo‘jalik samaradorligini belgilab beradi.

Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini tahlil qilish nuqtayi nazaridan, turli xil resurslardan ularning ahamiyatiga ko‘ra foydalanish samaradorligining ijtimoiy jihatlarini hisobga olish eng adekvat yondashuv hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligiga ta’sir qiluvchi o‘zgarishlar makroiqtisodiy faoliyatga ta’sir ko‘rsaishi mumkin [5]. Bu umumiy ta’sirini tahlil qilib ko‘raylik.



1-rasm: 2000-2022-yillarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish dinamikasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1-rasmdagi ma'lumotlar ko'ra, bu yillar oralig'ida qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida eng salmoqli ulushni bug'doy, kartoshka tashkil etgan, eng kam ulush pilla va boshqalarga to'g'ri kelgan.




2-rasm: O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'zgarishi, %

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, tahlil davrida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori o'sish nuqtasi 2004-yilga, eng pastki o'sish nuqtasi 2018-yilga to'g'ri kelgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bir qismi – dehqonchilik orqali yetishtirilgan mahsupot bo'yicha ham aynan 2004 va 2018-yillarda eng yuqori va past nuqtasiga erishilgan. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi mahsulotlari darajasi 2008, 2017 va 2018-yillarda keskin pasayish kuzatilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarida dehqonchilik mahsulotlari ulushi chorvachilik mahsulotlari ulushidan ko'proq bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarining makroiqtisodiy tahlili iqtisodiyot doirasida qishloq xo'jaligi sektori oldida turgan kengroq imkoniyatlar haqida tushuncha beradi. Makroiqtisodiy tahlilda qishloq xo''jaligining iqtisodiy o'sishdagi o'rni va rivojlanishini bilish muhimdir. Bunda qishloq xo''jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini bir qator tushuntirish omillariga ajratiladi [6].


Ushbu turdagi tahlil yalpi ichki mahsulot (YaIM) hissasi, bandlik darajasi, inflyatsiya, foiz stavkalari va qishloq xo'jaligiga xos bo'lgan savdo balanslari. Qishloq xo'jaligining milliy yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi uning iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi. Hissaning kamayishi sanoatlashtirishni ko'rsatishi mumkin, ortib borayotgan hissa esa qishloq xo'jaligida samaradorlik yoki talabning o'sishini ko'rsatadi.

Jahon banki ma'lumotlari asosida O'zbekistonda 3-rasmda 2000-2022-yillarda qishloq xo'jaligining YaIM-dagi ulushining rivojlanishi ko'rsatilgan (3-rasm).




3-rasm: O'zbekiston Respublikasida YaIM hajmi

YaHM mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashda ham markaziy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. 2022 yili respublikamizda YaIM 254,04 trln.so‘mni tashkil etdi.Saqarqand viloyatida 16390,1 mlrd. so‘mni, Qashqadaryoda 24654,8 mlrd.so‘mni, Surxondaryo viloyatida 27963 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga YaIM(YaHM) tegishli ravishda 7909,1 ming so‘m, 4560,2 ming so‘m, 8848,6 ming so‘m, 5037,4 ming so‘m, 8299,8 ming so‘m hamda 4559,0 ming so‘m bo‘lgan.



4-rasm: O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining YaIM ga nisbatan qo‘shilgan qiymati(foizda)[1]

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hududiy iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichi nisbiy qiymat bo‘lib, qaysi hudud uchun ijobiy natija sifatidagi iqtisodiy samara va uni olish uchun sarflangan xarajatlarni solishtirish orqali aniqlanadi. Shu jihatdan, respublikamizdagi 3ta yirik hududlarda yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari ko‘rib chiqaylik.



5-rasm: Respublika va hududlar kesimida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari


1-jadval

Yillar	Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. so‘m	Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydoni, ming gektar	YaHM hajmi, mlrd. so‘m	YaIM(qishloq xo‘jalik), mlrd. So‘m
O‘zbekiston Respublikasi				
2000	1 387,2	3 778,3	4 925,3	978,5
2005	5 978,3	3 647,5	15 923,4	4 192,8
2010	30 856,7	3 708,4	78 936,6	21 251,3

1 https://data.worldbank.org/indicator/NV.AGR.TOTL.ZS?end=2019&start=1995&view=chart

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2015	99 604,6	3 694,2	221 350,9	64 680,3
2020	250 250,6	3 396,1	605 514,9	151 279,6
2021	303 415,5	3 340,6	738 425,2	183 518,5
2022	347564,4	3353,3	888 341,7	
Samarqand viloyati				
2000	162,2	402,9	263,8	119,9
2005	751,8	379,1	1156,9	533,2
2010	5 368,6	372,8	6 585,8	3 653,0
2015	14 300,0	360,2	18 513,7	9 090,0
2020	32 158,0	343,3	43 386,6	19 225,8
2021	38 549,7	336,7	53 749,9	22 672,3
Qashqadaryo viloyati				
2000	101,5	460,8	235,9	78,5
2005	558,3	477,6	1326,4	390,5
2010	2 753,7	493,0	6 944,1	1 891,7
2015	9 089,0	493,9	17 247,7	5 848,3
2020	23 777,8	454,6	35 605,3	14 419,0
2021	28 275,6	423,9	43 833,3	17 120,6
Surxondaryo viloyati				
2000	117,4	280,5	165,8	88,3
2005	481,1	278,1	724,4	339,8
2010	2 286,8	272,3	3 394,7	1 519,7
2015	8 218,0	284,3	11 114,4	5 375,9
2020	19 424,0	253,0	24 779,3	11 610,2
2021	23 415,5	259,2	30 090,5	13 811,5



6-rasm: O‘zbekiston Respublikasida YaIMining o‘zgarishi, %

6-rasmdan respublikamizda YaIM bo‘yicha pasayish tendensiyasi ko‘rinib turibdi. YaIMdagi o‘zgarish, ya’ni pasayish 2007 va 2009 hamda 2010 va 2017-yillarda ro‘y bergan. 2015-yildan boshlab keskin pasayish kuzatilgan. YaIM(YaHM) hajmining kamayish tendensiyasi hududlarlar bo‘yicha ham ko‘rish mumkin. Hududlar kesimida tahlil qilsak, Surxondaryo viloyatidada tendensiya pasayish xarakteriga ega bo‘lsa-da, eng yaxshi natija kuzatilmoqda, Samaqand viloyati esa eng yomon natijaga erishgan. Unda, masalan, 2015 yilda ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bergan, lekin keyingi yillarda yildan-yilga YaIMning o‘sish sur’atlari pasayib bormoqda. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Qashqadaryo viloyatida ham pasayish mavjud (6 punktni tashkil etadi).

Iqtisodiy rivojlanish davom etar ekan, qishloq xo‘’jaligi yalpi ichki mahsulotning ulushi sifatida nisbatlar ko‘paytmasini olish mumkin [7].

Nisbatlarni belgilovchi omillar qishloq xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasini rivojlantirish haqida tushuncha beradi. Biz Uqm-yalpi qo‘shilgan qiymat, YaIM-yalpi ichki mahsulot, U- ishlab chiqarish, C- mahsulotlarni iste’mol qilish, C qishloq xo‘jalik mahsulotlari ko‘rsatkichlarning turli nisbatlarinig tahlil qilib chiqaylik.

1. UQM/Uq/x ishlab chiqarish (Qishloq xo‘jaligida sof qo‘shilgan qiymatning ishlab chiqarishga nisbati). Qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi “mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan mablag‘lar bilan samaradorlik o‘lchovidir”[8]. Vaqt o‘tishi bilan barcha 3ta hududda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘sishi kutilmoqda. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi texnologiya va fandagi innovatsiyalar va bilimlar tufayli o‘sib boradi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining differensiatsiyasi va ixtisoslashuvi bilan birgalikda o‘sishi hatto tezlashadi. Har bir hudud va miqyosdagi iqtisodlar bo‘yicha yig‘ilgan maxsus nou-xau ixtisoslashtirish va tabaqalash orqali erishiladi va kirish xarajatlarini kamaytiradi. Bir xil miqdordagi mahsulot kamroq ishlab chiqarish orqali qishloq xo‘jalik ishlab chiqarilishi hosildorlikning o‘sishini anglatadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining haddan tashqari ko‘pligi narxlarning pasayishiga olib keladi, bu esa sof qo‘shilgan qiymat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari nisbatining pasayishiga olib keladi.
2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash(Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarilishi va oziq-ovqat mahsulotlari o‘rtasidagi nisbat). Oziq-ovqat mahsulotlari asosan qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘lib, ko‘proq tovar va xizmatlarni talab qiladigan bir nechta ingredientlar qo‘shiladi. Rivojlangan mamlakatlardagi iste’molchilar birlamchi mahsulotlarga talab ko‘proq bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi iste’molchilarga qaraganda qayta ishlangan mahsulotlarni afzal ko‘rishadi. Bu esa, iqtisodiy o‘sish oshishi bilan bu nisbatning pasayishiga olib keladi.
3. U- oziq ovqat/ Cyakuniy iste’mol (Oziq-ovqat mahsulotlarining iste’molga nisbati). Mamlakat hududlarida ko‘proq resurslar va kapital, masalan. yetishmayotgan oziq-ovqat ingredientlarini import qilish va qishloq xo‘jaligining yuqori mahsuldorligi uchun yangi texnologiyalarni moslashtirishga imkoniyat mavjud bo‘lsa, bu oziq-ovqat mahsulotlarini (ko‘proq) ishlab chiqarish qobiliyatini yaxshilaydi, oziq-ovqat mahsulotlarining o‘zini o‘zi ta’minlashning yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, himoyalangan qishloq xo‘jaligi siyosati bilan rag‘batlantiriladi. Boshqa tomondan, hududlar ko‘pincha global iqtisodiyotga kamroq integratsiyalashgan va bu o‘zini o‘zi ta’minlashning yuqori darajasiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi qiyosiy ustunlik hududning omillari va tabiiy sharoitlariga bog‘liq. Shunday qilib, mamlakat hududlari o‘rtasidagi farqlarni kutish mumkin. Bu esa o‘zini – o‘zi ta’minlash hisobiga oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilishga katta e’tibor qaratish yoki qiyosiy ustunliklardan foydalangan holda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosini kengaytirishga olib keladi[9].
4. Cyakuniy iste’mol/C jami(Umumiy iste’molda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi). Past daromadli hududlarda daromadning katta qismi oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadi. Daromad oshganda, oziq-ovqatga sarflangan daromadning mutlaq ulushi ham nisbiy ortadi, Engel qonunida ko‘rsatilganidek, oziq-ovqatga sarflangan daromadning ulushi kamayadi. Shuning uchun vaqt o‘tishi bilan bu nisbatning pasayishi kutilmoqda (mamlakat YaIM o‘sishi asosida). Bu esa, iqtisodiy o‘sish oshishi bilan bu nisbatning pasayishiga olib keladi va qishloq xo‘jaligining YaIMdagi ulushini pasaytiradi.
5. Cjami/YaIM(YaIMdagi iste’mol xarajatlarining ulushi). YaIMdagi iste’mol xarajatlarining ulushi qanday rivojlanishiga YaIM hajmi va o‘sishi va uning tarkibi ta’sir qiladi. Yalpi ichki mahsulotning o‘sishi umumiy hajmning nisbatan o‘sishiga olib kelishi kutilmoqda.


XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo‘jaligining YaIM va bandlikdagi rolini aniqlash uchun nisbatlarda qo‘llaniladigan omillar butun qishloq xo‘jaligi uchun o‘rganilishi kerak. Qishloq xo‘jaligining milliy iqtisodiyotga ta’siri va rolini muhokama qilishda savdoni hisobga olish kerak.

Oxirgi yillarda respublikamizda qishloq xo‘jaligi sohasidan eksportga ham juda katta e’tibor berilmoqda. Statistik tahlillar ko‘rsatishicha, qishloq xo‘jalik tarmoqlari umumiy mahsulotlari hajmi oshib borishi bilan bir qatorda, ularning tarkibida muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Zamon talablariga mos yangi texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ayniqsa, meva va dorivor o‘simliklar yetishtirish erishilgan natijalarga havas qilsa arziydi. Keyingi yillarda bu mahsulotlar tarkibida nafaqat tovar ulushi, balkihududlar ulushi ham o‘zgarmoqda.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mahsulotlarini savdosining tahlilini ko‘rib chiqaylik. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sof eksporti yoki importi mamlakatning oziq-ovqat ishlab chiqarishda qanchalik o‘zini o‘zi ta’minlaganligini va bozor imkoniyatlari qanday ekanligini ko‘rsatadi. Eksport va importning yuqori va tez o‘sishi mamlakat iqtisodiyotining ochiqligi bilan bog‘liq. Bu mamlakat hududlari uchun ham savdo muhim ahamiyatga egaligii ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi eksportining yuqori darajasini saqlab qola oladigan hukumat yanada mus-

tahkam iqtisodiy o‘sish sur’atlarini qo‘llab-quvvatlaydi, global miqyosda yanada raqobatbardosh bo‘ladi va o‘z aholisi uchun oziq-ovqat narxlarini yanada barqaror ushlab turadi [10]. Biroq, hududlar bir xil texnologik cheklovlarga ega bo‘lsa ham, ishlab chiqarish miqdori va ishlab chiqarish qiymati o‘rtasida tafovutlar mavjud. Bu zsa hudularnarning turli xil ishlab chiqarish imkoniyatlariga va resurslardan unumli foydalanishiga bog‘liq [11].



4-rasm: Mamlakatimiz qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti

Valyuta kurslarining o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi eksporti va importiga ta’sir qilishi va shu bilan mahalliy qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotiga ta’sir qilishi mumkin.

Ushbu tahlil usullarini qo‘llash orqali tahlilchilar va sanoat manfaatdor tomonlar kengroq iqtisodiyot doirasida qishloq xo‘jaligi sektorining holati haqida ko‘proq tushunchaga ega bo‘lishi, o‘sish strategiyalari, xavflarni kamaytirish va yanada barqaror va samarali rivojlantirish uchun asos sifatida foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni.
2. Сулейманов М.В. Повышение эффективности сельскохозяйственного производства в Дагестане // Вопросы структуризации экономики. 2010. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-effektivnosti-selskohozyaystvennogo-proizvodstva-v-dagestane.
3. Зигангирова Алсу Махмутовна Факторы повышения эффективности сельскохозяйственного производства в условиях рынка // Вестник ЧГУ. 2006. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/faktory-povysheniya-effektivnosti-selskohozyaystvennogo-proizvodstva-v-usloviyah-rynka.
4. Gollin D., Parente S., and Rogerson R. (2002). The role of agriculture in development. American Economic Review 92 (2): 160–164.
5. Annemarie van Arendonk. The development of the share of agriculture in GDP and employment. A case study of China, Indonesia, the Netherlands and the United States.IAMO.2015
6. Gardebroek C., and Peerlings J.H.M. (2013). Economics of Agribusiness. Chapter 1: Position of agriculture and agribusiness within the economy. Wageningen University.
7. Matsuyama K. (1992). Agricultural Productivity, Comparative Advantage and Economic Growth. Department of Economics, Northwestern University.
8. S. Rasulov, S. Matkulieva, K .Atabaeva Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish asoslari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil elekton jurnali, 2 son. 2023-yil, iyun.
9. The Key to Improving Agricultural Productivity is Efficient Farm Management . By AGRIVI | Agronomy, Blog https://www.agrivi.com/blog/factors-that-affect-agricultural-productivity/
10. Burhan, O., Ceylan, R.F. and Hatice, K. (2009) A Review of Literature on Productive Efficiency in Agricultural Production. Journal of Applied Scienes Research, 5(7): pp 796-801
11. B.Berkinov, S. Qulmatova, R.Ruxsatova. Qishloq xo‘jaligi nisbiy samaradorligini baholash. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/08/20/qishloq-xo-jaligi-nisbiy-samaradorligini-baholash/

SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZLASHTIRISH MODELLARINI QURISHNING KLASSIK VA INTELLEKTUAL USULLARI



Narmanov Ulug‘bek Abdugapporovich
PhD, O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

Maqsudov Azamat Maqsud o‘g‘li
Toshkent shahar Olmazor tuman soliq inspeksiyasi inspektori

Annotatsiya: Ushbu ishda iqtisodiyotning soliq sohasidagi bir nechta parametrlarni boshqarish va prognozlash masalasini yechish uchun ularning modellari qurish ko‘rilgan. Sistemadagi kirish va chiqish hamda tashqi ta‘sir parametrlarining tavsifi keltirilgan. Parametrlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik funksiyasi ya‘ni matematik modelini qurishning klassik hamda zamonaviy intellectual usullari sintez qilindi. Soliq tizimini obyekt sifatida olinib, soliq parametrlarining o‘zaro ta‘sirini ifodalovchi strukturaviy sxemasi qurildi. Barcha parametrlar uchun umumiy matritsa ko‘rinishdagi matematik model tuzilishi shakllantirildi. Soliq tizimi ichki xususiyatlarini bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Rejalashtirish, raqamli iqtisodiyot, davlat tomonidan tartibga solish, sun'iy neyron tarmoqlar, strategik rejalashtirish, makroiqtisodiyot.

Abstract: In this paper, the construction of their models for solving the problem of management and forecasting of several parameters in the tax sphere of the economy is considered. The input and output parameters are described, as well as external influences on the system. The correlation function between the parameters, that is, both classical and modern intellectual methods of constructing a mathematical model were synthesized. Taking the tax system as an object, we built a block diagram representing the interaction of tax parameters. The structure of the mathematical model in the form of a general matrix is formulated for all parameters. The tax system describes the internal features.

Key words: Planning, digital economy, government regulation, neural network art, strategic planning, macroeconomics.

Аннотация: В данной работе рассматривается построение их моделей для решения задачи управления и прогнозирования нескольких параметров в налоговой сфере экономики. Приводится описание параметров входа и выхода, а также внешних воздействий на систему. Функция корреляции между параметрами, то есть были синтезированы как классические, так и современные интеллектуальные методы построения математической модели. Взяв за объект налоговую систему, построили структурную схему, представляющую взаимодействие налоговых параметров. Для всех параметров сформулирована структура математической модели в виде общей матрицы. Налоговая система описывает внутренние особенности.

Ключевые слова: Планирование, цифровая экономика, государственное регулирование, искусство нейронной сети, стратегическое планирование, макроэкономика.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy masalarni intellectual tizimlar bilan yechish juda ommalashgan. Intellektual tizimlarga asoslangan modellar bilan boshqarish iqtisodiyotni ishonchli modellar bilan ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa davlat byudjetini to‘ldirishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan soliq sohasida bunday modellarni qo‘llanilishi mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun juda muhim hisoblanadi.

Soliq va soliqqa tortish sohasidagi muhim masalalardan biri soliq tushumlarini prognozlashtirish hisoblanadi. Soliq tushumlari juda ko‘plab faktorlarga bog‘liq. Ushbu faktorlarni soliq tushumiga ta‘sir etuvchi parameter sifatida ko‘rib, chiqish parametri sifatida esa soliq tushumlar miqdorlari olinadi. Ushbu parametrlarga ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Misol uchun tadbirkorlik subyektlarining soning ortib borishi yoki kamayishi, ma‘lum yilda biror sohaning rivoji yoki kamayishi, tabiatning hosildorlikka o‘z ta’siri, aholi soning ma‘lum locatsiya bo‘yicha ortishi yoki kamayishi va hokazo.

Mamlakatimizda tuman xo‘jaliklarida soliq tushumlari har xil sohalardan shakllanadi. Har bir tumanning o‘zing ma‘lum driver xo‘jaligi mavjud. Ushbu xo‘jaliklarda esa soliq tushumlariga ta‘sir etuvchi parametrlarning soni yoki o‘zining ta‘siri jihatidan o‘zgarishi kuzatiladi. Ushbu o‘zgarishlarni doimiy hisobga olish, ularning soliq tushumlariga o‘z ta‘sirini oldindan aniqlash mamlakatimiz tuman, viloyat xo‘jaliklari iqtisodiyoti ishonchliligini oshirishiga o‘zining ijobiy ta‘sirini o‘tkazadi. Soliq tushumlarini prognozlashtirish modellari mukammalashgani, aniqliligi ortgani sayin mamlakatimizdagi xo‘jaliklar uchun berilayotgan imtiyozlar yo‘nalishi hamda miqdori aniqlashib boradi boradi.

Iqtisodiyotni boshqarishning klassik modellarida ham aynan ushbu maqsadlar ilgari surilgan. Bugungi kungacha iqtisodiy boshqaruv yoki prognozlash modellarning ko‘plab usullarini sanash mumkin. Regression model, chiziqli programmalash masalalari, nochiziqli programmalashtirish masalalarini, butun sonli programmalashtirish va hokazolar. Ushbu modellarning barchasida ko‘plab xatoliklar, hisobga olinmagan faktorlar yoki oxirida yechish murakkab bo‘lgan masalalarga olib keladi. Chunki iqtisodiy real jarayonlarda barcha faktorlar vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan hisoblanadi. Bu esa yuqori tartibli murakkab differensial tenglamalar bilan bog‘liq masalalarni yechishga yoki umuman yechimi yo‘q bo‘lgan masalalarga olib keladi. Bunday modellar bilan soliq tushumlarini bog‘lash esa o‘zini oqlamaydi.

Mamlakatimiz soliq organlari har yili soliq tushumlarini ko‘paytirish borasida ko‘plab amallarni bajarishadi. Ularni ko‘paytirishning aniq modellari ishlab chiqiladi. Lekin bularning barchasi ham o‘zini oqlamaydi. Jahon tajribalariga nazar soladigan bo‘lsak, ko‘plab iqtisodiy masalalarni yechishda intellectual tizimlarga muroja‘at qilinayotganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Soliq tushumlariga bo‘lgan o‘zgaruvchan faktorlarni to‘lliq hisobga olish, ularni vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarini doimiy nazoratda ushlash intellectual tizimlar uchun katta qiyinchiliklar tug‘dirmaydi.


Intellectual tizimlar bir necha xil algoritmlar asosida iqtisodiy parametrlarni boshqarish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda intellectual tizimlarning eng ko‘p tarqalgan usullari bu neyron tarmoq texnologiyalari va noaniq mantiq usullari asosida boshqarish algoritmlaridir. Intellectual tizimlarda o‘zini-o‘zi o‘qitish tizimidan foydalanib iqtisodiy parametrlar identifikatsiyalanadi.

Obyekt sifatida iqtisodiyotning biror tizimi olinadi. Iqtisodiy tizimga ta‘sir etuvchi barcha faktorlar parameter sifatida kategoriyalarga ajratiladi va obyektga ta‘sir etuvchi signal sifatida modellashtiriladi. Iqtisodiy parametrlarni o‘zaro bog‘liqlik matematik ifodasi quriladi. Ushbu qurilgan ifoda iqtisodiy model deb ataladi. Iqtisodiy modellarning chiqish signali sifatida bir yoki bir nechta bo‘lishi mumkin. Parametrlar soni chiqish parametriga ta‘sir o‘tkazadigan faktorlar bilan bog‘liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiyotning soliq sohasini obyekt sifatida oladigan bo‘lsak. Chiqish parametric sifatida biror soliq turining yillik tushumini olishimiz mumkin. Yana bir chiqish parametri sifatida esa ushbu soliq turini to‘lovchilar sonini olishimiz mumkin bo‘ladi. Kirish parametrlari sifatida soliq midorini – x_1, soliq to‘lovchilar soni – x_2, ko‘rilayotgan soliq turining stavkasi – x_3 olinishi mumkin. Chiqish parmetri sifatida esa ushbu soliq turi bo‘yicha barcha muhim statistikalar olinadi. ko‘rilayotgan soliq turining yillik miqdori – y_1, ushbu soliq turini to‘lovchi tadbirkorlarning soni – y_2. Asosiy parametrlardan tashqari chiqish parametrlariga ta‘sir etuvchi qo‘shimcha faktorlar ham mavjud. Ushbu faktorlarni obyektga yoki tizimga tashqi ta‘sir parametrlari sifatida olinadi. Ko‘rilayotgan soliq turi bo‘yicha berilayotgan imtiyozlar yoki qo‘shimcha yuklamalar – g_1, soliq to‘lovchilarining soliqlarni kechiktirib to‘lash vaqti – g_2, soliq turi bo‘yicha hisobotlarni yashirish holatlari – g_3 yillik ob-havo yoki hosildorlikning yaxshilanishi yoki yomonlashishi – g_4 kabi tashqi ta‘sir etuvchi parametrlar mavjud. Sistemaga ta‘sir etayotgan tashqi ta‘sirlarni ham ikki xil kategoriyaga ajratish mumkin. Ya‘ni ularni hisoblash yoki o‘lchash mumkin bo‘lgan va o‘lchab bo‘lmaydigan ta‘sirlarga bo‘lish mumkin. Barcha parametrlar orasidagi bog‘liqlik funksiyasi

$f = f(x_1, x_2, x_3 ... x_n; y_1, y_2 ... y_n; g_1, g_2, g_3 ... g_n; t)$ t uziladi. Ushbu funksiya tizimning matematik modeli deb ataladi va ushbu model orqali chiqish parametrlarini optimal rostlash imkoniyatiga ega bo‘linadi.



1-rasm: Iqtisodiyotda soliq parametrlarining obyekt sifatida boshqarishning strukturaviy sxemasi

Soliq parametrlarining obyekt sifatida boshqarish strukturaviy sxemasida ko‘rinib turganidek har bir parametrlarning obyekt chiqishiga o‘z ta‘siri mavjud. Ushbu ta‘sirlarni hisoblab va ularni ma‘lum funksiya ko‘rinishiga keltiriladi. Ushbu parametrlarni hisoblashning umumiy ko‘rinishiga keltirish uchun kirish, chiqsh va tashqi ta‘sir parametrlari uchun matritsa yoki vektor ko‘rinishiga keltiriladi.

$X = \begin{bmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \dots \\ x_n \end{bmatrix}$ – tizimning kirish parametrlar matritsasi.

$Y = \begin{bmatrix} y_1 \\ y_2 \\ \dots \\ y_n \end{bmatrix}$ – tizimning chiqish parametrlar matritsasi.

$G = \begin{bmatrix} g_1 \\ g_2 \\ \dots \\ g_n \end{bmatrix}$ – tizimga tashqi ta‘sir etuvchi parametrlar matritsasi.

Bunda iqtisodiy tizizm uchun qurilayotgan matematik model quyidagi umumiy ko‘rinishga o‘tadi:

$$F = (X; Y; G; t)$$

Iqtisodiyotimizning real vaqt tizimlarida barcha kattaliklar ya‘ni parametrlar vaqt bo‘yicha o‘zgarishini hisobga olib *t* - vaqt doimiysi modelga kiritiladi.

Iqtisodiyotda soliq tsuhumlarini prognozlashtirish uchun tuzulgan matematik modeli *n* – tartibli differensial tenglamadan iborat bo‘ladi.

Sistema ichki xususiyatlarini tavsiflovchi matritsalar tuzuladi.

$$A = \begin{bmatrix} a_1 & a_1 & \dots & a_{1n} \\ a_1 & a_2 & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_m \end{bmatrix}; \; B = \begin{bmatrix} b_1 & b_1 & \dots & b_{1n} \\ b_1 & b_2 & \dots & b_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ b_{m1} & b_{m2} & \dots & b_m \end{bmatrix}$$

Iqtisodiy tizimning soliq sohasidagi prognozlanayotgan chiqish parametrlarning boshqarishga qaratilgan matematik modelning umumiy ko‘rinishi quyidagicha

$$Y = A \cdot X + B \cdot C$$

Аннотация: В статье отражены результаты исследования по совершенствованию порядка планирования и группировка расходов, организации учета расходов и их ведения по финансовым источникам высших учебных заведений Республики Узбекистан. В частности, предлагается ввести новые рабочие счета для учета доходов, начисленных на студенческое жилье и признания существующих кредиторов расходами с целью ликвидации из источников фонда развития высших учебных заведений.

Ключевые слова: финансовые ресурсы, расходы по финансовым ресурсам, планирование расходов, группировка расходов, учет расходов, расчетный счет, группа расходов.

KIRISH

Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvning sifatini baholashda moliya-kredit mexanizmining amal qilish xususiyatlarini tadqiq etish muhim o‘rin egallaydi. Bu degani, mamlakatning oliy ma’lumotli mutaxassislarga bo‘lgan talabini amalda qondirish tizimni moliyalashtirish hajmlariga bevosita bog‘liqdir. Bu esa, o‘z navbatida, birinchidan davlatning iqtisodiy holati, ikkinchidan ta’lim siyosati bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz.

Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. Bu borada 41 ta oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, ularda transformatsiya ofislari ochildi. Oliygoh rektorlari, professor va o'qituvchilar bu jarayonlarda faol bo'lishlari, yangi, ilg'or metodikalarni joriy qilishlari kerak." deb ta'kidlagan [1].

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Bu esa, ularni moliyalashtirish manbalari kengayib borayotganligidan dalolat beradi va mazkur manbalarning sarflanishi (xarajati)ni hisobini takomillashtirish va ular ustidan samarali nazorat o'rnatishni taqozo etadi. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalari bo'yicha xarajatlar hisobini to'g'ri va samarali tashkil etilishini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy manbalari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish va takomillashtirishga oid mavjud muammolar va ularning yechimlariga doir masalalar yuzasidan I. I. Saxarseva, Yu. D. Malyarevskiy kabi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlardan A. A. Karimov, A. K. Ibragimov, S. U. Mehmonov, B. B. Adizov, Sh. V. G'aniev, E. T. Odilovlarning ilmiy-tadqiqotlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Xorijiy iqtisodchi olim I.I.Saxarseva o'zining ilmiy asarida "Byudjet tashkilotlari smetasi asosiy reja hujjati hisoblanadi, olinadigan daromadni tasdiqlaydigan va xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat beradigan, mablag'larning yo'nalishi va hajmini aniqlaydigan, yil davomida o'z funksiyasini va maqsadini yo'nalishli, hajmini aniqlaydigan hujjatdir" - deb ushbu masalaga to'xtalib o'tgan [2].

Yu. D. Malyarevskiy "Byudjet tashkilotlari smetasi asosiy reja hujjati hisoblanib, byudjet tashkiloti daromadi va xarajatlarini amalga oshirishga vakolat beradigan, byudjet tashkilotlarining o'z funksiyasi va maqsadiga erishishni aniqlaydi hamda yil davomida byudjetni belgilaydi" - deb ilmiy izoh berib o'tgan [3].

Jumladan, i.f.d., prof. A. K. Ibragimov tomonidan "Byudjetdan mablag' oluvchilar xarajatlar smetasining bajarilishini buxgalteriya hisobi ushbu tashkilotlarning tegishli moliyaviy xizmat bo'limlari tomonidan yoki byudjet mablag'larini bosh taqsimlovchi markazlashtirilgan buxgalteriyasida yuritiladi" - deb izoh keltirilgan [4].

Professor S. U. Mehmonov tomonidan: "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular, avvalo, byudjet tashkilotining mulkchilik asosiga, davlat byudjetini tuzish va ijro etish prinsiplariga va boshqa bir qator omillarga bevosita bog'liqdir" - deb ta'kidlab o'tgan [5].

I.f.n. B. B. Adizov "Oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy jahon tendensiyalaridan biri oliy ta'lim muassasalarini tijoratlashtirishdir. Davlat tomonidan moliyalashtirish ulushini qisqartirish hisobiga akademik va moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlariga nisbatan bozor talabining o'zgarishiga tez va adekvat javob berish zarurligiga olib keladi." deb fikr bildirgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash usuli, ekspert baholash, foizlar farq usuli, dinamik tahlil va iqtisodiy kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Byudjet tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq xarajatlarning quyidagi guruhlari Davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadi:

1. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);
2. Ish haqiga qo'shimchalar;
3. Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan manzilli ro'yxatlarga muvofiq);
4. Boshqa xarajatlar.

Mazkur ko'rsatib o'tilgan xarajat guruhlari asosida byudjet tashkilotlari byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalarini shakllantiradi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining byudjet tashkilotlariga aloqador bo'lgan smeta tushunchasiga hamda uning byudjet ijrosi jarayonidagi ahamiyatiga bergan ilmiy izoh va qarashlarini umumlashtirgan holda quyidagicha fikr keltirish o'rinlidir. Byudjet tashkilotlarida nafaqat xarajatlar smetasi tuziladi, balki bir vaqning o'zida daromadlar smetasi ham shakllantiriladi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish tartibi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, "Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi – bu tashkilot (muassasa)ga o'z xarajatlarini va daromadlarini tegishli normalarga muvofiq moliya yili uchun shakllantirish, hamda bu orqali kelgusida maqsadli yo'nalishlarda o'z ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun aniq rejaga asoslanib tuzilgan hujjatdir".

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarining faoliyati asosan 3 ta yo‘nalishdagi manba vositasida moliyalashtirilmoqda: byudjet mablag‘lari, talabalarni o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar, tadbirkorlik hamda innovatsiyalar asosida ishlab topilgan mablag‘lar.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida tadqiqot obyekti sifatida olingan davlat oliy ta’lim muassasalarini davlat byudjetidan va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi va ularning manbalari tahlil qilib chiqildi. Xususan, quyidagi jadvalda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish manbalari 2013-2022-yillar kesimida o‘rganib chiqildi.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish manbalari (foizda)

Moliyalashtirish manbalari	Yillar									
	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Jami moliyalashtirish manbalari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan:										
Davlat byudjetidan moliyalashtirish	34,2	35,2	34,8	36,0	28,2	41,3	35,4	27,6	24,7	28,7
To‘lov-kontrakt mablag‘lari	62,5	60,0	60,8	59,3	67,3	50,7	54,1	60,8	62,4	59,6
Rivojlantirish jamg‘armasiga kelib tushgan mablag‘lar	3,3	4,8	4,4	4,7	4,5	6,7	8,7	10,7	12,1	10,9
Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa manbalar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,3	1,8	0,9	0,8	0,8

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining moliyalashtirish manbalari ulushlar kesimida tahlil etilganda, asosiy manbalar talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobidan shakllanayotganligini kuzatish mumkin. Xususan, 2013-yilda jami moliyalashtirish manbalarining 62,5 foizi to‘lov-kontrakt mablag‘lari evaziga shakllangan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 59,6 foizi shakllangan. Vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarini 2013-yilda 34,2 foizi davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 28,7 foizi davlat byudjeti mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ya’ni, o‘tgan o‘n yil davomida moliyalashtirish manbalari tarkibida davlat byudjetidan moliyalashtirish ulushi 5,5 foizli punktga pasaygan.

Tadqiqotlar davomida Oliy ta’lim muassasalarining moliyalashtirish manbai hisoblangan daromadlarining shakllanishini quyidagi jadval misolida 2018-2022-yillar kesimida tahlil qilib chiqildi.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining daromadlari (moliyalashtirish manbalari)ning shakllanishi, mln. so‘mda

Daromad (Moliyalashtirish) manbalari	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Jami daromadlar	2 067 765,8	3 244 035,9	4 569 330,0	5 449 468,7	7 308 837,4
Shu jumladan:					
Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar	534995,4	897101,2	1111647,5	1348044,9	1817573,1
Maxsus to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitob mablag‘lari	0	3470,6	8623,5	3047,1	7549,0
To‘lov-kontrakt mablag‘lari	1392956,2	2091140,4	3078696,0	3652085,7	4525710,2
Rivojlantirish jamg‘armasiga kelib tushgan mablag‘lar	82966,1	166933,8	340291,6	388132,4	872676,3
Tibbiyot tashkilotlarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasining daromadlari	0	0	0	0	0
Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar	41105,5	48 633,3	0	886,4	0
Boshqa daromadlar	15742,6	36756,6	30071,4	57272,2	82780,8

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining daromadlari (moliyalashtirish manbalari)ning shakllanishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mamlakatimizning barcha sohalarida bo‘lgani singari oliy ta’lim sohasida ham rivojlanish sur’atlari yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Jumladan, 2018-yilda vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining jami daromadlari 2,068 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, so‘nggi besh yilda bu ko‘rsatkich deyarli uch barobardan ko‘proqqa o‘sgan va 7,309 trln.so‘mni tashkil etgan. Daromadlarning o‘sishi deyarli barcha turdagi daromadlar bo‘yicha proporsional bo‘lgan. Xususan, davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar 2018-yildagi 534,995 mlrd.so‘mdan 2022-yilga kelib 1,818 trln.so‘mgacha, talabalarning to‘lov-kontraktidan tushgan mablag‘lar 2018-yildagi 1,393 trln.so‘mdan 2022-yilga kelib 4,526 trln.so‘mgacha ortganligini kuzatish mumkin. Qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlaridan ham daromadlar olish imkoniyatlari o‘sganligini ko‘rish mumkin. 2022-yilda 82,8 mlrd.so‘mlik boshqa daromad manbalari shakllanishiga erishgan.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining daromadlarini shakllanishini o‘rganish bilan bir qatorda ularning xarajatlarini turkumlanishini ham tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari xarajatlarining turkumlanishini quyidagi jadval ma’lumotlari asosida 2018-2022-yillar kesimida o‘rganib chiqamiz.

3-jadval: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari xarajatlarining turkumlanishi, mln.so‘mda

Xarajat turlari	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Jami xarajatlar	1 385 251,5	2 554 260,7	3 412 411,5	3 879 529,1	5 744 275,9
Shu jumladan:					
Byudjet mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar	511 276,0	977 744,2	1 255 925,6	1 444 510,2	1 892 675,2
Maxsus to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitob mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar	0,00	2 676,0	8 665,3	2 940,2	8 040,5
To‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar	807 941,2	1 457 728,3	1 990 255,5	2 236 771,8	3 473 060,0
Rivojlantirish jamg‘armasiga kelib tushgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar	63 909,8	112 112,7	144 922, 4	155 849,9	312 940,2
Tibbiyot tashkilotlarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasining daromadlari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00
Boshqa daromadlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar	2 124,5	3 999,4	12 642,6	39 456,9	55 519,0

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari xarajatlarining tasniflanishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mamlakatimizning barcha sohalarida bo‘lgani singari oliy ta’lim sohasiga ham e’tibor ortganligini va natijada xarajatlarning o‘sishini ko‘rish mumkin. Jumladan, 2018-yilda vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining jami xarajatlari 1,385 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, so‘nggi besh yilda bu ko‘rsatkich deyarli uch barobardan ko‘proqqa o‘sgan va 2022-yilda 5,744 trln.so‘mni tashkil etgan. Xususan, byudjet mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar 2018-yildagi 511,276 mlrd.so‘mdan 2022-yilga kelib 1,892 trln.so‘mgacha, to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar 2018-yildagi 807,941 mlrd.so‘mdan 2022-yilga kelib 3,473 trln.so‘mgacha ortganligini kuzatish mumkin.

Shu bilan birga, mazkur faoliyat natijasida olingan daromadlarning sarflanishi borasida ham o‘sish kuzatilgan. Xususan, boshqa daromadlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar 2018-yildagi 2,124 mlrd. so‘mdan 2022-yilga kelib 55,519 mlrd.so‘mgacha ortganligini ko‘rish mumkin.

Yuqorida oliy ta’lim muassasalarining xarajatlarini turkumlanishiga baho bergan holda xarajatlarni yuzaga kelishi uchun shakllantiriladigan moliyaviy manbalar, ya’ni daromadlarning shakllanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi takliflarimizni shakllantirdik.

Xususan, Oliy ta’lim muassasalarida byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha hisoblangan talabalar turar joyi uchun daromadlar hisobini yuritish uchun 520310 (262/TTJ) - “Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha talabalar turar joyi uchun hisoblangan daromadlari”, 520311 (262/Nashr) - “Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha nashriyot uchun hisoblangan daromadlari” nomli alohida ishchi schyotlarni kiritish taklif etiladi.

Mazkur ilmiy taklif natijasida, oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirish jamg‘armasiga tushadigan daromadlarni alohida hisobga olish, ular yuzasidan analitik hisob ishlarini yuritish va tahlil qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy manbalar bo‘yicha xarajatlar hisobini takomillashtirish maqsadida moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar chuqur ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish zaruriyati yuzaga kelgan. Tadqiqotlarimiz natijasida oliy ta’lim tashkilotlarida mavjud kreditorlik qarzlarni rivojlantirish jamg‘armasi manbalari hisobidan tugatish maqsadida xarajat sifatida tan olinishi uchun 261 – “Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” schyoti tarkibida 741000 (261/TTJ) - Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan talabalar turar joylarini qisman saqlash uchun amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar, 741001 (261/Nashr) - Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nashriyot uchun amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar ishchi schyotlarini kiritish taklif etiladi.

XULOSA

Mazkur oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy manbalari bo‘yicha xarajatlar hisobi va nazoratini takomillashtirishga oid tadqiqot ishida oliy ta’lim muassasalarining xarajatlari hisobini ilmiy-nazariy va tashkiliy asoslari tadqiq etildi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar va takliflar shakllantirildi:

1. Oliy ta’lim sohasini moliyalashtirishni boshqarishni ratsionalizatsiya qilishning navbatdagi bosqichi – yangi byudjetlashtirish vositalarini joriy etishga o‘tishning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi. Bunda, oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarini yanada kengaytirish va mavjud mablag‘lardan samarali foydalanishga erishish bilan bog‘liq takliflarning asosiy konseptual yo‘nalishlari belgilab berildi.
2. Ilmiy izlanishlar olib borilgan oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobining tashkiliy-uslubiy ta’minotiga oid xususiyatlarni inobatga olgan holda o‘z yondoshuvimizni keltirib o‘tamiz.

   “Oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish deganda - tashkilot (muassasa)ning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida, shuningdek, byudjet ijrosiga oid buxgalteriya ma’lumotlarini shakllantirish, byudjetdan tashqari moliyaviy manbalari bo‘yicha xarajatlar hisobini yuritish, byudjet va byudjetdan tashqari moliyaviy manbalar bo‘yicha foydalanuvchi (ichki, tashqi)larni uzluksiz ravishda ishonchli axborotlar bilan ta’minlash hamda daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi ustidan doimiy nazoratni olib borilishini tushunishimiz mumkin”.
3. Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha xarajatlar hisobi va moliyaviy nazoratini belgilash hamda moliyaviy rejalashtirish orqali moliyalashtirish yo‘nalishlarini belgilashi ularning tashkiliy-huquqiy shakli, egalik huquqi, tijorat yoki notijorat maqsadlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yo‘lga qo‘yilishi kerakligi isbotlandi.
4. Oliy ta’lim muassasalarida byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha hisoblangan talabalar turar joyi uchun daromadlar hisobini yuritish uchun 262 – “Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar” schyoti tarkibida 520310 (262/TTJ) - “Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha talabalar turar joyi uchun hisoblangan daromadlari”, 520311 (262/Nashr) - “Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha nashriyot uchun hisoblangan daromadlari” nomli alohida ishchi schyotlarni kiritish taklif etiladi.

   Mazkur ilmiy taklif natijasida, oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirish jamg‘armasiga tushadigan daromadlarni alohida hisobga olish, ular yuzasidan analitik hisob ishlarini yuritish va tahlil qilish imkoniyati yaratilmoqda.
5. Tadqiqotlarimiz natijasida oliy ta’lim tashkilotlarida mavjud kreditorlik qarzlarni rivojlantirish jamg‘armasi manbalari hisobidan tugatish maqsadida xarajat sifatida tan olinishi uchun 261 – “Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” schyoti tarkibida 741000 (261/TTJ) - Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan talabalar turar joylarini qisman saqlash uchun amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar, 741001 (261/Nashr) - Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nashriyot uchun amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar ishchi schyotlarini kiritish taklif etiladi.

Natijada, oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirish jamg‘armasiga mablag‘lari hisobidan talabalar turar joylarini qisman saqlash uchun amalga oshirilgan xarajatlarni alohida hisobga olish, ular yuzasidan analitik hisob ishlarini yuritish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – T., 2022-yil 20-dekabr.
2. Сахарцева И. И. Бюджетный учет в бюджетных учреждениях и организациях. – К.: 2007 г.-22 с.
3. Маляревский Ю.Д. “Бюджетный учет и отчетность”. Х; 2003 г., 27 с.
4. Ibragimov A. K., Sugirbaev B. B. Byudjet nazorati va auditi. O‘quv qo‘llanma. – T.: InfoCOM.Uz MChJ, 2010. 92 b. (192 b)
5. Mehmonov S. U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. /Monografiya/. – T.:Iqtisod-moliya. 2016 yil.13-bet.136 bet.
6. Oliy ta’lim muassasalarini moliyaviy faoliyatini strategik boshqarishing o‘ziga xos xususiyatlari. – “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №6(8), 2022 yil.



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALIGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI

Asamxodjaeva Shoira Shukurullaevna
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada inson kapitaliga investitsiyalarni yo‘naltirishning mohiyati o‘rganilgan hamda bu investitsiyalarning innovatsion iqtisodiyot sharoitida mamlakat taraqqiyotiga ta’siri tadqiq etilgan. Shuningdek, inson kapitaliga investitsiya kiritishning asosiy yo‘nalishlari tahlil etilgan. Ish so‘ngida mavzuga doir xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, investitsiya, iqtisodiy o‘sish, innovatsiya, samaradorlik, daromad, xarajat, mehnat unumdorligi, sarmoya, ilm-fan, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari, innovatsiya resurslari, innovatsiya natijalari.

Abstract: The article discusses the essence of investing in human capital and examines the impact of these investments on the development of the country in the context of the innovative economy. The main directions of investment in human capital are also analyzed. At the end of the work, conclusions and recommendations on the topic were formed.

Key words: human capital, investments, economic growth, innovations, efficiency, income, expense, labor productivity, capital, science, research and development, innovation resources, innovation results.

Аннотация: В статье рассматривается сущность инвестиций в человеческий капитал и исследуется влияние этих инвестиций на развитие страны в условиях инновационной экономики. Также проанализированы основные направления инвестиций в человеческий капитал. По итогам работы были сформированы выводы и рекомендации по теме.

Ключевые слова: человеческий капитал, инвестиции, экономический рост, инновации, эффективность, доход, расход, производительность труда, капитал, наука, исследования и разработки, инновационные ресурсы, инновационные результаты.

KIRISH

Innovatsion iqtisodiyot mamlakatni ilmiy-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilashda innovatsiyalar oqimiga asoslanadi. Mazkur sharoitda xodimlar, ularning bilimi va tajribasi moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning muhim omilidir. Mamlakatning jahon iqtisodiyotiga globallashuvi sharoitida yangi axborot resurslari va texnologiyalaridan foydalanish, iqtisodiyotning yangi sohalarini rivojlantirish zamon talabiga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida inson kapitalini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ham yildan-yilga ortib borishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu sababli bugungi kunda inson kapitaliga investitsiya kiritishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish davr talabidir. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir. Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta’limni kambag‘allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz. Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to‘pladi – ta’lim tizimi tubdan o‘zgarmoqda. O‘tgan olti yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar har bir bolaning bog‘chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o‘quvchining biri esa oliygohda o‘qishi uchun imkoniyat yaratiladi” [1]. Texnologik jarayonlarning muntazam yangilanib borishi, innovatsion rivojlanish va intensiv iqtisodiy o‘sish omillarining tobora oshib borayotganligi mazkur jarayonlarga tezkor moslasha oladigan, malakali kadrlarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimizni 2030-yilgacha rivojlantirishning huquqiy asosi hisoblangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida “...inson kapitalini rivojlantirish” eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan [2]. Mazkur holat respublikamizda inson kapitalini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilishi va bu maqsadlarda salmoqli investitsiyalar qilinishidan dalolat beradi.

Inson kapitalidan samarali foydalanish tashkilotning iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi, uning faoliyati samaradorligini oshiradi. Inson kapitali to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital sifatida to‘g‘ri ishlatilsa, qo‘shimcha foyda keltiradigan maxsus resurs shaklida namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, inson kapitalini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida yuzaga chiqishi shart ekanligini ko‘rsatmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda milliy boylikdagi inson kapitali ulushi 80 foizgachani tashkil etadi. Shu jihatdan, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali va unga kiritilgan investitsiyalar borasida bir qator olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. XVIII asrda zamonaviy iqtisodiy nazariyaning asoschilaridan biri Adam Smit inson kapitalining ahamiyati haqida o‘zining “Aholi daromadlarining tabiati va sabablarini o‘rganish” asarida shunday yozgan edi: uning fikricha, asosiy kapital nafaqat mehnat mashinalari va asboblari, foydali binolar va yerdan, balki “jamiyatning barcha a’zolari yoki aholining orttirilgan va foydali qobiliyatlaridan ham iborat”. Bu qobiliyatlar nafaqat ularni egallagan shaxsga tegishli, balki shu bilan birga shaxs mansub bo‘lgan butun jamiyat boyligining bir qismiga aylanadi. “Ishchining epchilligi va mahoratini mehnatni qisqartiruvchi yoki yengillashtiruvchi ishlab chiqarishdagi mashina va uskunalar nuqtayi nazaridan qarash mumkin. Ular ham ma’lum xarajatlarni talab qilsada, foyda bilan birga bu xarajatlarni qoplaydilar [3].

1950-1960-yillarda iqtisodchilar mehnat bozoriga yangicha nazar tashlagach, inson kapitalini tadqiq qilishda inqilob yuz berdi, deb yozadi inqilob hammualliflaridan biri Geri Bekker. Daromaddagi farqlar, birinchi navbatda, ishchilar “yaxshi” yoki “yomon” ishlarni bajarayotganini aks ettiradi deb taxmin qilish o‘rniga, inson kapitali yondashuvi daromadlar birinchi navbatda ishchilarning o‘z malakalari va bilimlariga qancha sarmoya kiritganligini o‘lchaydi, deb faraz qildi. Ushbu fikrga ko‘ra, daromad ta’lim va o‘qitishga qo‘yilgan mablag‘lar miqdori bilan ortadi. Ushbu talqinda “yaxshi ish o‘rinlari” inson kapitaliga katta miqdorda sarmoya kiritgan ishchilar tomonidan to‘ldiriladigan ishlardir, deb ta’kidladi [4].

Inson kapitaliga inqilobiy qarashlar, G.Bekkerdan tashqari, iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindorlaridan biri Teodor Shults va mehnat iqtisodiyoti asoschilaridan biri J.Minserning tadqiqotlarida ham asoslandi. Shunday qilib, Shultsning inson kapitali haqidagi ishidan oldin, iqtisodiy rivojlanish adabiyotlarida asosiy e’tibor jismoniy kapitalni to‘plashga qaratilgan edi. Biroq, Shults tadqiqot e’tiborini ko‘nikma va bilimlarga sarmoya kiritishga qaratdi, chunki uning fikricha, ular iqtisodiy rivojlanish uchun juda muhim edi [5].

Shaxsiy inson kapitalining to‘planishi individual iqtisodiy o‘sishga (daromadning o‘sishiga) olib kelganidek, xuddi shu narsa tegishli ijtimoiy yoki milliy agregatlar bilan sodir bo‘ladi, deb yozgan Minser. U inson kapitalining o‘sishi iqtisodiy o‘sishning ham sharti, ham natijasi ekanligini ta’kidladi. Inson kapitali nafaqat mavjud bilimlarni uzatishni, balki innovatsiyalar va texnik o‘zgarishlar manbai bo‘lib xizmat qiladigan, ishlab chiqarishning barcha omillarini harakatga keltiradigan va global iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan yangi bilimlarni shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi.

Minser shuningdek, ish haqining olingan ma’lumot va ish tajribasiga bog‘liqligini tahlil qildi. Bu munosabat shuni ko‘rsatadiki, inson yoshi ulg‘aygan sayin u o‘z daromadini (ish haqini) oshirishga yordam beradigan bilimlarni to‘playdi, ammo pensiyaga chiqish yaqinlashganda, o‘qitishga investitsiyalar kamayadi va ulardan olinadigan daromad kamayadi. Ta’lim davomiyligi va daromadning nisbiy darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi tenglama Minser nomi bilan atalgan bo‘lib, iqtisodiyotda eng ko‘p ishlatiladiganlardan tenglamalardan biriga aylangan [6].

Sun’iy intellektni joriy etish sharoitlarida kapitalga tayangan iqtisodiyot o‘rnini “iste’dodlar iqtisodiyoti” egallay boshlashini hisobga olsak, aynan inson kapitalini raqamli rivojlantirishga ustuvorlik berilishining zarurati oydinlashadi. Bunday sharoitda mehnatga layoqatli aholini, birinchi navbatda, yoshlarni yangi texnologik davrda yashash va mehnat qilishga tayyorlash hamda raqamli ko‘nikmalarini doimiy rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va sun’iy intellektning joriy etilishi raqamli ko‘nikmalarni shakllantirishga turtki berishi va natijada inson kapitalini raqamli rivojlantirish salohiyatini oshirishi bilan bog‘liq. Inson kapitalining potensial imkoniyatlari, birinchi navbatda, inson hayotining har bir bosqichlari(oila instituti, ijtimoiy va kasbiy institutlar)da inson kapitalini rivojlantirish shartlarini belgilaydigan institutsional muhitga bog‘liq [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni o‘rganish, ma’lumotlar to‘plash, to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Ilm-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrida inson kapitali mamlakat kelajagini belgilaydigan zaruriy omilga aylanib bormoqda. Inson kapitali barqaror iqtisodiy o‘sishning asosi va innovatsiyalarni harakatlantiruvchi kuchdir.

Inson kapitaliga investitsiyalar – bu alohida shaxslarning qobiliyatini, uning malakasini oshirishga va rivojlantirishga kiritilgan sarmoya bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mehnat unumdorligini oshirishdir [12].

Inson kapitaliga investitsiyalar shaxsning bilimi, malakasi, ta’limi va sog‘lig‘ini rivojlantirish hamda yaxshilashga yordam berish uchun vaqt, kuch va moliyaviy vositalarni o‘z ichiga olgan resurslarni strategik taqsimlashni anglatadi. Ushbu konsepsiya shaxslarning o‘ziga xos qiymatini tan oladi va ularning o‘sishi va farovonligiga investitsiya qilish natijasida kelib chiqadigan uzoq muddatli foydani alohida va jamiyat darajasida ta’kidlaydi.

Inson kapitaliga investitsiyalash yo‘nalishlari:					
ta’lim va tarbiya	tadqiqot va innovatsiyalar	bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish	inklyuzivlikni rag‘batlantirish	sog‘liqni saqlash	farovon turmush

1-rasm: Inson kapitaliga investitsiya kiritishning asosiy yo‘nalishlari*

*Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shakllantirildi.

Ta’lim odamlarni barkamol va mas’uliyatli fuqarolar qilib tarbiyalash, qadriyatlarni tan olish va o‘z hayotini baholashga yordam berish orqali ularning madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta’lim, shuningdek, odamlarning ishlash va shaxsiy ishlarini boshqarish uchun foydalanadigan qobiliyatlarini yaxshilashi mumkin va bunday yaxshilanishlar milliy daromadni oshirishga yordam beradi. Zamonaviy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri inson kapitalining o‘sishidir, chunki odamlarga katta sarmoya kiritmasdan muvaffaqiyatli qishloq xo‘jaligi va rivojlangan sanoatga ega bo‘lish mumkin emas.

Bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish inson kapitaliga investitsiyalarning yana bir muhim sohasidir. Albatta, rasmiy ta’lim inson kapitaliga sarmoya kiritishning yagona yo‘li emas. Ishchilar, shuningdek, maktabdan tashqarida, ayniqsa ish joyida o‘rganadilar va o‘qitiladi. Hatto oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilari ham o‘qishni tugatganlarida aksariyat hollarda mehnat bozoriga to‘liq tayyor bo‘lmaydilar, shu sababli rasmiy va norasmiy o‘quv dasturlari orqali o‘z ish joylariga moslashtirilishi kerak. Ish joyida o‘qitish vaqti oddiy ishlarda bir necha soat, muhandislik kabi murakkab vazifalarni bajarishda bir necha yilni tashkil etadi. Tadqiqotlar natijasida to‘plangan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ish joyida o‘qitish ishchilarning ishda ko‘proq tajribaga ega bo‘lishi natijasida oladigan daromadlarining katta miqdorda o‘sishiga zamin yaratadi. Kolumbiya universiteti iqtisodchisi J.Minserning hisob-kitoblari shuni ko‘rsatadiki, ish joyida o‘qitishga jami investitsiyalar yiliga 200 milliard dollardan ko‘proq yoki YaIMning taxminan 2 foizini tashkil qilishi mumkin.

Salomatlik va farovonlikka sarmoya kiritish ham inson kapitalini rivojlantirishning ajralmas qismidir. Sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish, profilaktika choralari va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi va kasallik tufayli yo‘qolgan ish kunlari sonini kamaytiradi. Sog‘liqning qoniqarsiz holati unumdorlikni pasaytiradi, chunki jismoniy jihatdan zaif va bemor ishchilar o‘z qobiliyatlarini to‘liq amalga oshira olmaydilar, shu sababli tashkilotlar o‘z xodimlari sog‘ligiga investitsiya kiritadilar.

Tadqiqot va innovatsiya sohalari ham inson kapitaliga sarmoya kiritishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga (R&D) investitsiyalar innovatsiyalar va texnologik yutuqlarni rag‘batlantiradi, iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Ilmiy-tadqiqot institutlarini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy kashfiyotlar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish inson kapitalini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Ilm-fan rivojlanishi jarayonida nafaqat intellektual yangiliklar hayotga tatbiq etiladi, balki bunda ishtirok etayotgan insonlarning yangi imkoniyatlari, qirralari ochiladi. Axborot jamiyatida ilm-fan inson kapitalini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy va iqtisodiy inklyuzivlikni rag‘batlantirish inson kapitaliga sarmoya kiritishning muhim jihati hisoblanadi. Jinsi, etnik kelib chiqishi va ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qat’i nazar, teng imkoniyatlar va resurslardan foydalanish imkoniyatini ta’minlashga harakat qilish kerak. Inklyuziv siyosat va dasturlar barcha shaxslarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish va jamiyatga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Inson kapitali - bu insonlarning o‘z hayoti davomida sarmoya kiritadigan va to‘playdigan, jamiyatga hissa qo‘shadigan a’zo sifatida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan bilimi, ko‘nikmasi va sog‘lig‘idir. Ovqatlanish va tibbiy yordam sifatini oshirish, sifatli ta’limni ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va malaka oshirish orqali odamlarga sarmoya kiritish inson kapitalini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o‘ta qashshoqlikka barham berish va ijtimoiy jihatdan yanada yaxlit jamiyat barpo etishning kalitidir [13].

Inson kapitaliga sarmoya kiritish hukumatlar, korxonalar va jismoniy shaxslarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini o'z ichiga oladi. Hukumatlar siyosatni ishlab chiqadi, ta'lim va sog'liqni saqlash uchun mablag' ajratadi va malaka oshirish uchun qulay muhit yaratadi. Korxonalar malakali va g'ayratli xodimlar muvaffaqiyatga hissa qo'shishini tan olib, xodimlarni o'qitish va rivojlantirishga sarmoya kiritadilar. Shuningdek, shaxslar o'z inson kapitaliga o'z-o'zini boshqarish, uzluksiz ta'lim va faol shaxsiy hamda kasbiy rivojlanish orqali sarmoya kiritishlari mumkin. Korxona va davlat iqtisodiyotini rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan inson kapitalini rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar miqdoriga, shuningdek, ushbu mablag'larning o'z vaqtida ajratilishiga bog'liq. Ushbu turdagi investitsiyalar hajmi jihatidan sezilarli, uzoq muddatli va ajralmas iqtisodiy hamda ijtimoiy samara keltiradi. Shu sababli bunday investitsiyalar inson, korxona va butun jamiyat nuqtayi nazaridan eng foydali hisoblanadi.

Inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish orqali innovatsiya resurslarining sifatini oshirish, so'ngra ulardan keladigan samarani o'sishiga umid qilish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati bo'yicha bir qator xulosa va tavsiyalar shakllantirildi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Investitsiyalarni inson kapitaliga yo'naltirish orqali aholi farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni ta'minlash mumkin.
2. Inson kapitaliga investitsiyalar samarasining o'sishi milliy daromadning o'sishiga, bu esa o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi.
3. Inson kapitaliga investitsiyalar barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va individual farovonlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.
4. Shaxslarning qadr-qimmatini tan olish va ularning rivojlanishiga faol sarmoya kiritish orqali jamiyatlar yanada farovon va adolatli kelajak yaratishi mumkin.
5. Iqtisodiyotni rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish uchun o'z vaqtida ajratilgan mablag'lar miqdoriga bog'liq.
6. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida insonlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, har taraflama raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga investitsiyalarning yo'naltirilishi mamlakatga uzoq yillar davomida foyda keltiradi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqi. 20.09.2023. (https://president.uz/uz/lists/view/6679).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. (https://lex.uz/docs/5841063#584387).
3. Adam Smit. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. Per. s angl., M., 1962.
4. Becker, Gary S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 2d ed. New York: Columbia University Press for NBER, 1975.
5. Theodore W. Schultz. Investing in people: Schooling in low-income countries. Economics of Education Review. Volume 8, Issue 3, 1989, 219-223-p. (https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/0272775782900012).
6. Mincer, Jacob. "Investment in U.S. Education and Training." NBER Working Paper no. 4844. National Bureau of Economic Research, Cambridge, Mass., 1994.
7. Абдурахманов К.Х. Трансформация рынка труда в условиях внедрения искусственного интеллекта. экономика труда. Том 10, Номер 2, Февраль 2023. Russian Journal of Labor Economics ISSN 2410-1613
8. G'oyibnazarov S.B. Inson kapitalini raqamli rivojlantirish drayverlarining institutsional modelini takomillashtirish. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. Elektron jurnal. №4. 2023 yil. (https://doi.org/10.47390/SP1342V-3SI4Y2023N23).
9. Asamxodjaeva Sh. Sh. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorlik ko'rsatkichlari. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, №1, 2023-yil, 24(1), 102–106. (https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a14)
10. https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/human-capital/brief/the-human-capital-project-frequently-asked-questions#2
11. https://www.globalinnovationindex.org/Home
12. https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_2000_2022/uz.pdf



ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИЙ И РОЛЬ СТАРТАПОВ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ, ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Ачилова Ширин Шавкат кизи
Ташкентский финансовый институт старший преподаватель

Аннотация: Данная статья исследует перспективы развития инноваций и роль стартапов в мировой экономике. Она анализирует зарубежный опыт развития стартапов в различных странах, таких как США, Европа и Азия, и обсуждает их влияние на инновационный прогресс. Также статья обсуждает проблемы, сдерживающие развитие стартапов, такие как ограниченный доступ к финансированию, нехватка квалифицированных кадров и недостаточная инфраструктура. В заключении статьи предлагаются решения и рекомендации для стимулирования инноваций и поддержки стартапов в различных странах.

Ключевые слова: инновация, стартапы, зарубежный опыт, инвестиции, кластер, экосистема, государственное финансирование, венчурный инвестор.

Annotatsiya: Ushbu maqola innovatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari va global iqtisodiyotdagi startaplarning rolini o‘rganadi. U AQSh, Yevropa va Osiyo kabi turli mamlakatlarda startapni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni tahlil qiladi va ularning innovatsion taraqqiyotga ta’sirini muhokama qiladi. Shuningdek, maqolada startaplar rivojiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar, xususan, moliyalashtirish imkoniyati cheklanganligi, malakali kadrlar yetishmasligi va infratuzilmaning yetarli emasligi haqida so‘z boradi. Maqola turli mamlakatlarda innovatsiyalarni rag‘batlantirish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yechimlar va tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: innovatsiyalar, startaplar, xorijiy tajriba, investitsiyalar, klaster, ekotizim, davlat mablag‘lari, venchur investor.

Abstract: This article explores the prospects for the development of innovation and the role of startups in the global economy. She analyzes foreign experiences of startup development in various countries such as the USA, Europe and Asia, and discusses their impact on innovation progress. The article also discusses the problems that hinder the development of startups, such as limited access to financing, lack of qualified personnel and insufficient infrastructure. The article concludes with solutions and recommendations to stimulate innovation and support startups in various countries.

Key words: innovation, startups, foreign experience, investments, cluster, ecosystem, government funding, venture investor

ВВЕДЕНИЕ

В современном мире инновации и стартапы играют важную роль в стимулировании экономического роста и обеспечении конкурентоспособности на мировой арене. Несмотря на значительные успехи в различных странах, множество проблем по-прежнему препятствуют полному раскрытию потенциала инноваций и развитию стартапов. В этой статье мы рассмотрим перспективы развития инноваций, проанализируем влияние стартапов на экономику и исследуем зарубежный опыт, выявим основные проблемы, а также предложим решения для их решения.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Существуют несколько аспектов предпринимательства и стартап-культуры, обращая внимание на факторы успеха и вызовы, с которыми сталкиваются стартапы, а также стратегии разработки инновационных продуктов для стартапов при внедрении инноваций. В частности, эти идеи поддерживаются экономистами Смит, Дж. и Браун, М., и Кларк, С.

В данной статье мы рассматриваем международный опыт лучших практик в развитии инновационных экосистем и стартап-культуры, выявляя ключевые факторы успеха и вызовы при создании благоприятной среды для развития стартапов, Также поделились своим мнением Ли, С., и Чен, И. и Парк, Ю., и Хан, Л. На счет влияния технологических инноваций на стартапы в контексте цифровой транс-

формации бизнеса, выявляя потенциал новых технологий для развития стартапов в эпоху цифровой экономики.

В данной статье постараемся рассмотреть различные аспекты предпринимательской деятельности, стратегии развития, цифрового маркетинга и факторы, способствующие созданию благоприятной среды для развития стартапов.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В статье использовался метод сравнительного анализа, на основе которого сравнивался опыт зарубежных стран.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Стартапы в Силиконовой Долине: Силиконовая Долина в Калифорнии, является историческим центром инноваций и технологического предпринимательства. Здесь формируется уникальная экосистема, которая благоприятствует развитию стартапов и привлекает талантливых предпринимателей со всего мира. Стартапы в Силиконовой Долине играют ключевую роль в формировании новых технологий и инновационных продуктов, которые часто меняют наш образ жизни и бизнес-модели.

Технологические центры, такие как “Силиконовая Долина” и “Аллея Технологий”, стали символом передовых разработок в области информационных технологий и биотехнологий. Венчурное инвестирование в США продолжает стимулировать инновации, предоставляя финансовую поддержку для новых стартапов и инновационных проектов. В Силиконовой Долине стартапы получают доступ к обширной сети венчурных инвесторов, экспертов по технологиям и индустрии, а также талантливых специалистов, что способствует их быстрому развитию и росту. Благодаря этому энергичному стартап-сообществу, здесь формируются новаторские идеи и концепции, которые привлекают внимание мировых лидеров индустрии.

Силиконовая Долина давно является символом передовых технологий и инноваций. Ее успех объясняется уникальной средой, которая способствует росту и развитию стартапов и технологических компаний. Здесь находятся некоторые из ведущих технологических компаний мира, такие как Google, Apple, Facebook и многие другие, которые начинали свой путь как небольшие стартапы.

Один из ключевых факторов успеха Силиконовой Долины - это ее уникальная культура предпринимательства, поддерживающая риски и инновации. Здесь предприниматели находят благоприятную среду для воплощения своих идей в жизнь благодаря доступу к венчурному капиталу, высококвалифицированным кадрам и обширной сети научных и технологических ресурсов.

Однако, несмотря на благоприятные условия, конкуренция в Силиконовой Долине остается жесткой, и многие стартапы сталкиваются с проблемой привлечения финансирования и удержания талантливых специалистов. Тем не менее, благодаря инновационной культуре и сплоченному сообществу, множество стартапов в Силиконовой Долине продолжает успешно развиваться и внедрять инновационные решения, способствуя технологическому прогрессу во всем мире.

Стартапы в Европе: Роль правительственной поддержки и инфраструктуры для развития стартап-экосистемы в Европе. Стартапы в Европе играют все более важную роль в стимулировании экономического роста и инновационного развития в регионе. В последние годы правительства стран Европы активно внедряют стратегии поддержки стартапов, осознавая их важность для создания новых рабочих мест и повышения конкурентоспособности на мировом рынке. Роль правительственной поддержки и инфраструктуры становится ключевым фактором в развитии стартап-экосистемы в Европе.

Европейские страны активно разрабатывают и внедряют программы финансовой поддержки для стартапов, такие как гранты, инвестиции и налоговые льготы. Эти меры способствуют привлечению венчурного капитала и стимулируют развитие инновационных идей в различных отраслях, таких как информационные технологии, биотехнологии и чистая энергия. Кроме того, развитие инфраструктуры играет важную роль в поддержке стартапов в Европе. Создание инновационных парков, технологических центров и инкубаторов способствует формированию благоприятной среды для обмена знаниями и опытом между стартапами и предпринимательским сообществом. Эти центры также предоставляют доступ к необходимым ресурсам, таким как лаборатории, оборудование и образовательные программы, способствуя развитию и коммерциализации инновационных идей.

Однако, несмотря на активные усилия, некоторые вызовы все еще остаются актуальными, такие как ограниченный доступ к финансированию, сложные налоговые процедуры и ограниченный доступ к мировым рынкам. Решение этих проблем требует дальнейшего сотрудничества между правительством, предпринимательским сообществом и образовательными учреждениями, а также более эффективного использования доступных ресурсов для стимулирования развития стартапов в Европе.

Стартапы в Азии: Анализ быстрорастущей стартап-культуры в странах, таких как Китай, Япония и Индия, и их влияние на мировую экономику. Стартап-культура в странах Азии, включая Китай, Японию и Индию, претерпела значительное развитие за последние десятилетия и сегодня играет ключевую роль в

мировой экономике. Эти страны проявили выдающийся потенциал в создании инновационных предприятий, которые стали драйверами роста в области технологий, цифровых платформ и других отраслей.

В Китае стартапы активно развиваются в таких областях, как электронная торговля, финансовые технологии, искусственный интеллект и блокчейн. Китайская стартап-культура получила поддержку правительства и инвесторов, что привело к резкому росту числа технологических инноваций и мировых игроков в этих областях.

В Японии стартапы стремятся к инновациям в традиционных отраслях, таких как автомобильная и электронная промышленность, а также в области робототехники и медицинских технологий. Япония известна своей высокой технологичностью и уникальными инженерными решениями, что способствует появлению новых продуктов и услуг на мировом рынке.

Индия, с другой стороны, стала гигантом в области информационных технологий, программного обеспечения и стартапов в сфере электронной коммерции. Развитие цифровой инфраструктуры и мобильных технологий способствовало появлению множества новых стартапов, предлагающих инновационные решения для массового потребителя.

Разнообразие стартап-культур в этих азиатских странах и их активное участие в мировой экономике подчеркивают значимость Азии как важного центра технологических инноваций и предпринимательского развития. Эти страны продолжают оставаться ключевыми участниками в создании будущих технологий и формировании тенденций в мировой стартап-культуре.

Инновационный опыт Германии: Анализ индустриальных инноваций и роли научных исследований в развитии немецкой экономики. Германия славится своим инновационным опытом и сильной промышленной базой, которая стала ключевым фактором ее экономического успеха. В стране развита высококачественная система образования и исследований, что способствует созданию инноваций в различных отраслях, включая инженерию, автомобильное производство, машиностроение и медицинскую технологию. Германия активно инвестирует в научные исследования и технологические инновации, что позволяет ей оставаться лидером в таких областях, как разработка новых материалов, зеленые технологии и цифровая трансформация. Кроме того, страна известна своими превосходными инженерными решениями и высокой степенью автоматизации в промышленности, что повышает ее конкурентоспособность на мировом рынке. Государственная поддержка инноваций в Германии проявляется через создание инновационных кластеров и технологических парков, которые способствуют сотрудничеству между университетами, исследовательскими институтами и промышленными предприятиями. Это стимулирует обмен знаниями и опытом, а также способствует коммерциализации научных разработок.

Также важно отметить, что Германия активно развивает свою концепцию “Industrie 4.0”, что предполагает цифровую трансформацию промышленности и создание умных производственных систем. Это позволяет компаниям внедрять передовые технологии и повышать эффективность производства, что является ключевым фактором их конкурентоспособности на мировом рынке. Благодаря такому широкому спектру инновационных деятельностей и сильной индустриальной базе, Германия продолжает оставаться ведущим игроком в мировой инновационной среде, принимая активное участие в формировании будущих технологий и стимулируя рост экономики страны.

Инновации в Японии: Здесь процветают мировые технологические гиганты, такие как Sony, Toyota и Panasonic, которые постоянно инвестируют в научные исследования и разработки новых технологий. Государственное финансирование и поддержка играют ключевую роль в поощрении инноваций и научных исследований в стране. Япония долгое время славится своими инновациями и технологическими достижениями, которые оказали значительное влияние на мировую экономику и промышленность. Япония является одним из ведущих глобальных инноваторов в таких областях, как электроника, автомобильная промышленность, робототехника, медицинская техника и чистая энергетика. В Японии существует сильная культура инноваций, которая поощряет научные исследования и разработки. Страна активно инвестирует в научно-исследовательские проекты и технологические инновации, что способствует созданию передовых технологий и продуктов, отражающих высокий уровень инженерной и научной экспертизы. Япония также известна своими технологическими инновациями в области робототехники, где разработки применяются как в промышленности, так и в сфере здравоохранения. Это включает широкий спектр роботов - от производственных до социальных и медицинских, которые играют важную роль в повышении эффективности производства и улучшении качества жизни людей.

В последнее время Япония активно разрабатывает новые инновации в сфере чистой энергии и устойчивого развития, стремясь уменьшить свою зависимость от ископаемых видов топлива. Это включает разработку новых технологий солнечных батарей, ветряных установок и эффективных систем хранения энергии, что способствует устойчивому развитию и снижению негативного воздействия на окружающую среду. Благодаря уникальной комбинации традиционных ценностей, высокой технологичности и активной инновационной деятельности, Япония продолжает оставаться важным игроком в мировой инновационной среде, внося значительный вклад в развитие передовых технологий и повышение качества жизни людей по всему миру.

Хотя стартапы являются двигателем инноваций, они также сталкиваются с рядом серьезных рисков, которые могут ограничить их успешное развитие. Недостаток финансирования, неправильное управление, конкурентная среда и неопределенность рынка - все это факторы, которые могут оказать существенное влияние на жизнеспособность и успех стартапа. Для минимизации рисков необходимо разработать стратегии управления рисками, обеспечивающие устойчивость и устойчивость стартапов в переменчивой бизнес-среде.

Проблемы, сдерживающие развитие стартапов и инноваций:

- Ограниченный доступ к финансированию: Идентификация основных факторов, препятствующих доступу к финансированию для начинающих предпринимателей и их проектов.
- Нехватка квалифицированных кадров: Анализ причин нехватки квалифицированных специалистов и исследование методов их привлечения и удержания.
- Недостаточная инфраструктура для инноваций: Оценка состояния инновационной инфраструктуры и предложение решений для ее совершенствования.

Несмотря на риски, стартапы продолжают привлекать внимание инвесторов и предпринимателей, благодаря своему потенциалу для инноваций и быстрому росту. С учетом быстрого развития технологий, таких как искусственный интеллект, блокчейн и Интернет вещей, ожидается, что стартапы будут играть еще более важную роль в формировании будущего бизнес-ландшафта. Переход к устойчивым и экологически чистым решениям также представляет собой перспективу для стартапов, стремящихся к созданию продуктов и услуг, способствующих социальной и экологической ответственности.

В последние десятилетия некоторые стартапы добились огромного успеха, преобразовав отрасли и став лидерами в своих сферах деятельности. Например, Uber и Airbnb преобразовали отрасль услуг такси и гостиничного бизнеса соответственно, предоставляя новые модели услуг и удовлетворяя изменяющиеся потребности потребителей. Эти успешные примеры стимулируют инновационную активность и вдохновляют новые поколения предпринимателей стремиться к созданию прорывных решений.

Несмотря на перспективы, стартапы продолжат сталкиваться с вызовами, связанными с быстрыми темпами изменений в технологиях, регулировании и экономической неопределенности. Однако эти вызовы также открывают новые возможности для инноваций и развития новых рынков. Гибкость, адаптивность и способность быстро реагировать на изменения в бизнес-среде будут играть решающую роль в определении будущего стартапов и их способности добиваться успеха в динамичном и конкурентном бизнес-мире.

Решения и рекомендации для развития стартапов и инноваций:

- Стимулирование инвестиций: Предложение мер поддержки инвестиций в стартапы и инновационные проекты через налоговые льготы и государственные гранты.
- Развитие образования и науки: Рекомендации по усилению учебных программ, стажировок и обмена опытом между университетами и предприятиями.
- Создание инновационных кластеров: Поддержка создания инновационных центров и кластеров для обмена знаниями и опытом между стартапами и крупными компаниями.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

С развитием мировой экономики стартапы и инновации становятся все более важными для обеспечения устойчивого экономического роста. Несмотря на препятствия, множество стран активно разрабатывают и внедряют стратегии для стимулирования инноваций и поддержки стартапов. Реализация эффективных решений и сотрудничество между правительством, бизнес-сообществом и образовательными учреждениями сыграют ключевую роль в обеспечении долгосрочного успеха и конкурентоспособности на мировой арене.

Список литературы:

1. Громова, Е. А. Правовые барьеры и ограничения, препятствующие созданию цифровых инноваций, и способы их преодоления / Е. А. Громова; рецензент Р. О. Оморов // Право интеллектуальной собственности. – 2023. – № 3. – С. 21–25.
2. Lundvall, B. A (2010). Национальные системы инноваций: к теории инноваций и интерактивного обучения. Anthem Press.
3. World Bank. (2020). Мировой доклад о развитии 2020 года: торговля для развития в эпоху глобальных цепочек добавленной стоимости. Вашингтон, округ Колумбия: Издательство Всемирного банка.
4. Tatsuo, K. (2019). “Innovation and Technological Advancement in Japan: A Historical Perspective.”
5. Sato, Y., & Yamamoto, T. (2018). “Robotics and Automation in Japan: A Case Study of Technological Innovation.”
6. Suzuki, M., & Nakamura, H. (2020). “Renewable Energy Innovations in Japan: Challenges and Opportunities.”
7. Tanaka, R., & Nakagawa, Y. (2019). “Innovation Policy and Economic Development in Japan: Lessons for Emerging Economies.”
8. Freeman, C. (2010). Экономика промышленных инноваций. Routledge.



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHDA GAROV TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Bazarova Nigora Ravshanovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Bank ishi va investitsiyalar" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashda garov ta'minotini baholashning yondashuvlari, garov ta'minoti orqali kreditlashni amalga oshirishda kredit risklarining oldini olish va garov ta'minotini baholash amaliyotini joriy etish mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxs, tijorat bank, kredit, garov ta'minoti, baholash, kredit riski, kredit siyosati, diversifikatsiya.

Abstract: The article proposes approaches to the assessment of collateral when lending to individuals by commercial banks, the prevention of credit risks in collateral lending, as well as mechanisms for introducing the practice of collateral assessment.

Key words: individual, commercial banking, loan, collateral, assessment, credit risk, credit policy, diversification.

Аннотация: В статье предложены подходы к оценке залога при кредитовании физических лиц коммерческими банками, предотвращению кредитных рисков при залоговом кредитовании, а также механизмы внедрения практики оценки залога.

Ключевые слова: физическое лицо, коммерческий банкинг, кредит, залог, оценка, кредитный риск, кредитная политика, диверсификация.

KIRISH

Iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari va jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish jarayonlarini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida jismoniy shaxslarning moliyaviy barqarorligi ta'minlanmoqda. Mamlakatimiz bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotini yanada soddalashtirish, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va foiz stavkalarini optimallashtirish, O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivoj lanishda tijorat banklarining o'rni va ishtirokini faollashtirish, muammoli kreditlarni bartaraf etilishi hamda o'z navbatida, jismoniy shaxslarning faoliyatini yaxshilashga va moliyalashtirish sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi. Jismoniy shaxslarning ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakllari fermer va dehqon xo'jaliklari hisoblanadi. Fermer xo'jaliklarini moliyalashtirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ularning moliyaviy barqaror va samarali rivojlanishida asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarni sohasida mashinasozlik korxonalari faoliyatini boshqarishni yanada takomillashtirish, ularning samaradorligi va rentabelligini oshirish, ushbu yo'nalishda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, agrosanoat kompleksi uchun zamonaviy, unumdorligi yuqori, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh texnika va uskunalar ishlab chiqarishni tashkil etishga qaratilgan yagona texnika va texnologiya siyosatini amalga oshirish hamda ularni moliyalashtirish uchun tijorat bank kreditlari asosiy rolni bajaradi, amalda tijorat bank kreditlari garov ta'minoti sifatida asosan ko'chmas mulk, ko'char mulk, moliyaviy aktiv, intellektual mulk kabilarni baholash ham umumiy, ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda jismoniy shaxslarni sohasida texnika va texnologiyalarni moliyalashtirishda tijorat bank kreditlari keng foydalanilmoqda, ushbu kreditlarni ta'minoti maqsadida garov sifatida baholash amaliyotlari ham o'zaro farq qiluvchi mexanizmlarga ega hisoblanadi. Yuqoridagilar asosida quyida tijorat bank kredit maqsadlarida jismoniy shaxslarning bo'lg'usi hosillarni garov sifatida baholash xususidagi mexanizmlariga to'xtalib o'tamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari amaliyotida jismoniy shaxslarni texnika va texnologiyalarni kreditlashni garovga olgan holda kredit berish amaliyotini baholash masalalarini ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Xususan, iqtisodchi olim Aleksey Vladimirovich Ilin asarlarida yer uchastkalari va jismoniy shaxslarni maqsadlari uchun belgilangan yer maydonlarini garov sifatida taqdim etish jarayoni va undan foydalanishga ta’sir etuvchi omillar hamda kelajakda mazkur yo‘nalishda turtki beradigan asosiy yo‘nalishlar tadqiq etilgan. Mazkur jarayonda esa tadqiqotchi jismoniy shaxslarni sohasidagi yer maydonlarini baholab garovga qo‘yish bosqichlarini ham xuddi ipoteka kreditlash amaliyoti kabi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi [1].

Garov vositalaridan foydalanish qarz beruvchi va qarz oluvchi munosabatlariga yangi xavotirlarni tug‘dirdi, ularning defolt riskiga yakuniy ta’siri aniq belgilanmaganligidir (Jose, 2018). Agar tijorat banklaridan kredit olgan xo‘jalik yurituvchi subyekt kreditni o‘z vaqtida qaytara olmasa garovga qo‘ygan ta’minotdan mahrum bo‘lishi mumkin hamda o‘z navbatida tijorat banklari uchun kredit riski oshib ketadi [2].

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit ta’minoti riskining xavfsiz darajasini ta’minlash maqsadida kredit oluvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlari yoki yuridik shaxs turli shakldagi mol-mulklarni garov ta’minoti sifatida tijorat banklariga taqdim etadi. Umumiy holda tijorat bank krediti bo‘yicha garov ta’minotini baholash jarayonida uchta tomon ishtirok etadi va ular bank, baholovchi tashkilotlari va kredit oluvchilardir (Abdikarimova, 2018). Bu jarayonda garov ta’minoti asosan dastlab kredit berish jarayonida qarab chiqiladi [3].

O. Yastrebova va A. Subbotinlarning tadqiqotlariga ko‘ra, jismoniy shaxslarni korxonalarining moliyaviy holatining barqaror emasligi va to‘lovga qobillik darajasining past ekanligi ularning kredit muassasalarining moliyaviy xizmatlaridan, shu jumladan, mikromoliyaviy xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirishga to‘sqinlik qiladi [4].

Fikrimizcha, yuqoridagi xulosa O‘zbekiston amaliyoti uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda jismoniy shaxslarni korxonalari va fermer xo‘jaliklarining moliyaviy holatining barqaror emasligi va to‘lovga qobillik darajasining past ekanligi ularni banklarniing moliyaviy xizmatlaridan va mikromoliyaviy xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Professor N. Figurovskayaning tadqiqotiga ko‘ra, jismoniy shaxslarni ishlab chiqaruvchilarini mikromoliyalash jarayoni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Bunda asosiy e’tibor davlat byudjetidan resurslar ajratish va bonifikatsiyaga qaratilishi kerak [5].

Fikrimizcha, N.Figurovskayaning fikricha jismoniy shaxslar shaklida ishlab chiqaruvchilarining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi davlatning ushbu jarayonga aralashuvini zaruriy holatga aylantiradi.

Jismoniy shaxslarni mahsulotlari va tarmoqqa yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar narxlari o‘sishi o‘rtasidagi disparitetning kuchayib borganligi, davlat xarid narxlarining pastligi oqibatida agrar sektorda ishlab chiqarish rentabelligi va tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan sezilarli darajada ortda qolmoqda [6].

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida jismoniy shaxslarni mahsulotlari yetishtirishning klaster usuli faol amalga oshirilmoqda. Mazkur holatlar esa jismoniy shaxslarni mahsulotlarini garov ta’minoti sifatida baholash zaruriyatini yuzaga keltirganligi sababli, ushbu maqolada bu yo‘nalishdagi muammoli holatlar va ularni bartaraf etish masalalariga e’tibor qaratamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot davomida monografik tadqiqot usuli orqali jismoniy shaxslar sohasida texnika va texnologiyalarni moliyalashtirishda amalga oshirilayotgan loyihalarni tijorat bank kreditlarining garov ta’minotini baholash mexanizmlari tadqiq qilindi. Shuningdek, iqtisodiy – statistik usul yordamida jismoniy shaxslarni sohasida mahsulotlarni tijorat bank kreditlari bo‘yicha garovga qo‘yishda baholash mexanizmlari taklif qilingan va xarajat yondashuvi bo‘yicha metodikalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jismoniy shaxslar sohasida texnika va texnologiyalarni moliyalashtirishda, tijorat banklari ajratilgan kreditlarni muddatida qaytarilishiga va muammoli kreditlarni imkon qadar kamaytirishga harakat qilishi zarur. Chunki tijorat banklari kreditlarni o‘z mablag‘laridan emas, balki o‘z kreditorlarining, ya’ni omonatchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning mablag‘lari hisobidan kredit ajratadi. Shu sababli, tijorat banklari o‘z kreditorlari oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida ijro etishi kutilayotgan risklarni qanchalik darajada muvaffaqiyatli baholashiga bog‘liq bo‘ladi.

Bugungi kunda jismoniy shaxslar sohasida texnika va texnologiyalarni tijorat banklari tomonidan kreditlashda muammoli kreditlarning kelib chiqishi faqatgina kredit riskiga bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Zero, valyuta riski, bozor riski, foiz stavkalarining o‘zgarishi riski va boshqa qator risklarining mavjudligi hamda ularni to‘g‘ri baholay olmaslik muammoli kreditlarning kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi. Muammoli kreditlarning iqtisodiy mazmunini tadqiq etishda kredit risklarining o‘rni va ta’siri asos sifatida ishtirok etadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi esa, asosan mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan uzviy bog‘liq. 2022-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti 888,3 tpln. so‘mni tashkil qildi va 2021-yil bilan qiyoslaganda 16,8 foiz o‘sishga epishgan[1]. YaIM kishi boshiga 25,3 mln. so‘mni tashkil qildi. 2014-2022-yillapda, O‘zbekiston Pespublikasining yalpi ichki mahsuloti va tijopat banklapi kpeditlarining hajmi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Iqtisodiyotning peal sektopiga yo‘naltipilgan kpedit qo‘yilmalapi hajmi o‘tgan yilga nisbatan 2022-yilda 16,3 foizga oshib, 2022-yil holatiga 390,1 tpln. so‘mga yetdi, kpeditlapning YaIM nisbatan dapajasi 44 foizni tashkil etdi (1-rasm).



	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Фоиз хисобида	24%	24%	27%	37%	41%	40%	46%	44%	44%
Кредит кўйилмалари	34.5	42.7	53.4	110.6	167.4	211.6	276.9	326.4	390.1
ЯИМ	144.9	176.5	199.3	302.5	406.6	529.4	602.2	738.4	888.3

1-rasm: O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) va tijorat banklari kreditlari miqdorining ulushi hamda ularning o‘zgarish dinamikasi tahlili[2], trln.so‘m


O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini jumladan jismoniy shaxslarni sohasini moliyalashtirishda tijorat banklarning faol ishtirok etishi bilan bog‘liqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarini daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli kreditlarning salmog‘i yuqori bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 2696-sonli Nizomiga muammoli kredit deganda sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” kreditlar tushuniladi.

2022-yil holatiga muammoli kpeditlap qoldig‘i 13,99 tpln.so‘mga yaqinlashdi, bu jami kpedit qo‘yilmalarining 3,6 foizini tashkil qilmoqda. Shuningdek, 2016-2021-yillapda ushbu ko‘psatkichda o‘sish tendensiyasini kuzatish mumkin. Muammoli kpeditlapni baptapaf etish uchun ulapning kelib chiqish sabablapini aniqlash muhimdip. Tijopat banklapi kpedit poptfeli tapkibida, muammoli kpeditlap foizi 2013-yildan 2021-yilga qadap 0,54 foizgacha kamayganligi ijobiy holat, ammo 2022-yilga kelib 3,6 foizni tashkil qilmoqda, bu bank tizimidagi muammoli kpeditlap jahon mexanizmida qabul qilingan kpitik 3 foizli ko‘psatkichdan ko‘p, shu sababli bugungi kunda muammoli kpeditlapni kamaytipish banklapning asosiy vazifalapidan bipi hisoblanishi kepak (2-rasm).

Kelgusida tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni kreditlash o‘sish sur’atlarining yuqori darajada saqlanib qolishi, jismoniy shaxslar sohasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi bilan birga bank tizimi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda.

1 Manba: www.stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
2 Manba: www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
миқдори (трлн.сўм)	0.364	0.674	0.581	0.392	1.325	2.141	3.169	5.784	16.974	13.992
фоизда	2.64	2	1.43	0.7	1.17	1.28	1.5	2.1	5.2	3.6

2-rasm: O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida muammoli kreditlarning o‘zgarish dinamikasi, (2013-2022-yy)[3]

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning garov ta’minoti muammoli kreditni qoplashning eng so‘nggi chorasi sifatida qaralganda, undan foydalanib muammoli kredit, o‘z vaqtida to‘lanmagan kredit bo‘yicha hisoblangan foiz summasi undiriladi. Bugungi kunda tijorat banklari muammoli kreditni qoplashni ta’minot turiga qaratganda sudga murojat qiladi. Sud qaroriga asosan garov ta’minotidan foydalaniladi. Garovga oluvchining (xo‘jalik yurituvchi subyektning) talablarini qondirish uchun undiruvni qarzdor garov bilan ta’minlangan majburiyatini o‘zi javobgar bo‘lgan vaziyatlarda bajarmagan taqdirda yoki lozim darajada bajarmaganda garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratishi mumkin. Sud qaroriga asosan kredit garov ta’minoti hisobidan qoplanishi belgilansa, elektron onlayn-auksion shaklidagi ochiq kimoshdi savdosida sotish orqali amalga oshiriladi.

Muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, banklarning muammoli kreditlarini yuzaga kelishida ichki omillar 67 foiz yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich tashqi omillar bo‘yicha bor yo‘g‘i 33 foizni tashkil etadi. Ichki omillarga ta’minotning yetishmasligi 22 foizni, ssuda buyurtmasini o‘rganishda axborotning noto‘g‘ri baholanishi 21 foizni, operatsiya nazoratining zaifligi, hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o‘z vaqtida aniqlanmasligi va ular yuzasidan tegishli choralarning ko‘rmasligi 18 foizni, garov ta’minoti sifatining pastligi 5 foizni, shartnomada ko‘rsatilgan ta’minotni olish imkoniyatining yo‘qligi 1 foizni tashkil etgan. Tashqi omillarga esa kompaniyaning bankrot bo‘lishi 12 foizni, korxona moliyaviy nazoratining kuchsizligi 11 foizni, kompaniyaning bozorda o‘z o‘rnini yo‘qotishi va ichki ijtimoiy muammolar 6 foizni, o‘g‘irlik, muttahamlik 4 foizni jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra tashkil etgan [11].

Garov bank kreditining asosiy ta’minoti sifatida kredit tavakkalchiligini pasaytirish va bankka kredit berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, bu o‘z-o‘zidan bank garov ta’minotini baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. E’tirof etish joizki, bu borada xorijiy mamlakatlarda uzoq yillar davomida yetarli tajriba, usul va tamoyillar shakllangan. Masalan, Rossiya banklarida garov ta’minotini baholash amaliyoti ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Garov obyektining bozor qiymatini aniqlash. Garov ta’minotining bozor qiymatini aniqlash kredit shartnomasi tuziladigan paytda amalga oshiriladi.

2-boskich. Garov obyektlarining ta’minoti sifatidagi qiymatini aniqlash. Garov qiymatini aniqlash garov mulkining likvidligi, garov diskontlari, tavakkalchiliklar va boshqa bir qancha omillar ta’sirini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Rossiya qonunchiligida garov qiymati to‘g‘risida aniq ko‘rsatma berilmagan, shu sababli Rossiya banklarida garov qiymatini aniqlashda banklarning ichki tartiblari va mustaqil baholovchi kompaniyalarning ko‘rsatmalariga asoslaniladi. Bunda asosiy strategiya riskdan qochish va risklarni boshqarish hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda bank kreditlari bo‘yicha aylanmadagi tovarlarni garovga qo‘yish keng qo‘llaniladi. Bunday holatda kompaniyaga tovarlarni sotish bo‘yicha chegara (sanksiya) joriy etilmagan bo‘lishi hamda korxona mustaqil ravishda tovar, xom ashyo, materiallar va boshqa aktivlarini sotish va sotib olish huquqiga ega bo‘lishi zarur. Bank krediti bo‘yicha kompaniya tovarlarni garovga qo‘yishning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Xususan, kompaniya tomonidan sotilgan tovar yoki aktiv uchun to‘lov haqi kelib tushmagan bo‘lsa, garov ro‘y-

3 Manba: http://cbu.uz// - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

xatidan chiqariladi, sotib olganlari esa ushbu tovarlarga kompaniyaning egalik huquqi berilgan paytdan boshlab bank garovi sifatida qaraladi. Bu jarayonda shunday shart saqlanishi zarurki, kompaniya ixtiyoridagi tovar kredit shartnomasida ko‘zda tutilgan garov summasidan kam bo‘lmasligi kerak Shuningdek, likvidligi ko‘zda tutilgan darajadan o‘zgarmasligi, ya’ni pasaymasligi lozim.

Tadqiqotlar va o‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, tijorat banklari qisqa muddatli kreditlar uchun xom ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni garovga ko‘proq qabul qilish maqsadga muvofiq. Qisqa muddatga berilayotgan kreditlarning garov ta’minoti sifatida ko‘chmas mulklarni olish ma’qul emas, ko‘chmas mulklar asosan, uzoq muddatli kreditlarning garov ta’minoti sifatida qabul qilinadi.

Savdo va ishlab chiqarish vositalari, texnika, avtotransport, inventar va boshqa uskunalar kreditlarning garov ta’minoti sifatida olinganda, ularning bahosi ikkilamchi bozorda sotiladigan jihozlarni o‘rganish orqali aniqlanadi. Bunda asosiy e’tibor jihozlarning likvid qiymatiga qaratiladi. Jihozlarning likvid qiymati - bu ushbu buyumlarni qisqa davr ichida sotish mumkin bo‘lgan bahosidir. Odatda jihozlarning likvid bahosi bozor bahosidan 10-30 foiz past bo‘ladi. Bundan tashqari, garov ta’minotini sotish vaqtida yuz berishi mumkin bo‘lgan bahosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajat usuli orqali aniqlanadi Shu bo‘yicha bank kredit bo‘yicha garov ta’minotining bahosi aniqlanadi, odatda ushbu baho joriy bahoning 50-60 foizini tashkil etadi.

Kredit oluvchi yuqoridagi sinflarning bittasiga to‘g‘ri kelsa, bank kredit shartnomasini tuzish bo‘yicha tegishli ishlarni boshlaydi. Bank kredit bo‘yicha qabul kilayotgan garov turi kredit olayottgan jismoniy shaxslarnining faoliyat yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jismoniy shaxslarni kreditlashda garov ta’minotini baholash mexanizmi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda, quyidagi ilmiy-nazariy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Jismoniy shaxslarning mahsulotlarini yetishtiruvchi xususiy sektor vakillari uchun kelgusi hosilni garovga qo‘yish orqali kreditlash amaliyotini hosilni yetishtirish bilan bog‘liq davriylik asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.
- Shundan kelib chiqqan holda jismoniy shaxslarni mahsulotlar yetishtiruvchilar uchun kelgusi hosilni garovga qo‘yish orqali kreditlash amaliyotini hosilni yetishtirish bilan bog‘liq davriylik asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz.

Klasterlarga kreditlarni jismoniy shaxslarning ekinlarini vegetatsion davri hamda amalga oshirilishi lozim bo‘ladigan agrotexnik tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘ning aynan mazkur mablag‘ zarur bo‘ladigan kunda ajratilishiga erishish lozim. Bu har tomonlama mijoz va bank uchun foydalidir. Ya’ni, mijoz kredit uchun ortiqcha foiz to‘lamaydi, bank esa ortiqcha resursni vaqtinchalik boshqa yo‘nalishlarda sarflab daromad olishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Залог земель сельскохозяйственного назначения: Ильин, Алексей Владимирович/ кандидат юридических наук. Диссертация. – М.: 2007. – 122 с.
2. Jose A. Castilloa, Andrés Mora-Valenciab, Javier Perotec. Moral hazard and default risk of SMEs with collateralized loans // Finance Research Letters 26 (2018) 95–99 www.elsevier.com/locate/frl
3. Abdikarimova D.R. “Bank kreditlari garov ta’minotini baholash amaliyotini takomillashtirish yo‘llari” PhD ilmiy darajasi olish uchun yozgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2018, 61 bet.
4. Ястребова О., Субботин А. Рынок сельскохозяйственного кредита//Вопросы экономики. – Москва, 2005. – №6. – С. 25.
5. Фигуровская Н. Современное состояние сельского хозяйства требует результативнқх действий государства// Экономист. – Москва, 2009. – №8. – С. 43.
6. www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti).
7. www.worldbank.org rasmiy veb-sayt ma’lumotlari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-fevraldagi “Jismoniy shaxslarnida bozor mexanizmlarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 149-sonli qarori. www.lex.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-fevraldagi “Jismoniy shaxslarnida bozor mexanizmlarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 149-son qarori. www.lex.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017- 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni. www.lex.uz.

SUG‘URTA TASHKILOTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH MASALALARI



Kenjayev Ilhom G‘iyozovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent moliya instituti Sug‘urta va pensiya ishi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada cug‘urta tashkilotlari qo‘shimcha faoliyati bo‘lgan investitsiya faoliyatini iqtisodiy mohiyati hamda uni boshqarish masalalari tahlili keltirilgan. Shuningdek, sug‘urta tashkilotlar ixtiyorida to‘plangan bo‘sh moliyaviy resurslarni investitsiya obyektlariga joylashtirish sohasidagi tajribalarini o‘rganish, sug‘urta tashkilotlarining investitsion jarayonlarda ishtirokini yanada faollashtirish hamda investitsiya faoliyatini boshqarish sohasidagi xalqaro qonunchilik normalariga oid masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urtalovchi, sug‘urtalanuvchi, sug‘urta mukofoti, sug‘urta puli, sug‘urta qoplamasi, sug‘urta portfeli, sug‘urta zaxirasi, sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati, sug‘urta bozori.

Abstract: The article presents an analysis of the economic essence of investment activity, which is an additional activity of insurance organizations, and issues of its management. Also, issues related to international legal norms in the field of studying the experience of providing insurance organizations with free financial resources in investment objects, increasing the participation of insurance organizations in investment processes and managing investment activities were studied.

Key words: insurer, policyholder, insurance premium, insurance money, insurance coverage, insurance portfolio, insurance reserve, investment activity of the insurer, insurance market.

Аннотация: В статье представлен анализ экономической сущности инвестиционной деятельности, которая является дополнительной деятельностью страховых организаций, и вопросов ее управления. Также были изучены вопросы, связанные с международно-правовыми нормами в области изучения опыта предоставления в распоряжение страховых организаций свободных финансовых ресурсов в объектах инвестирования, повышения участия страховых организаций в инвестиционных процессах и управления инвестиционной деятельностью.

Ключевые слова: страховщик, страхователь, страховая премия, страховые деньги, страховое покрытие, страховой портфель, страховой резерв, инвестиционная деятельность страховщика, рынок страхования.

KIRISH

Jahon amaliyotida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va shu asosda uning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun unga birinchi navbatda etarli darajada investitsiya kiritish zarurligi tajribadan o‘tgan va o‘zini oqlagan usul hisoblanadi. Shuningdek jahon iqtisodiyotida investitsiyalar bo‘yicha daromad normalarini hisobga olgan holda sug‘urta to‘lovlarini diskontlashtirish xos bo‘lgan hayot sug‘urtasi bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishda Evropa davlatlarining ixtisoslashgan sug‘urta tashkilotlari uchun investitsiya faoliyatidan daromad olish muhimdir. Mazkur cug‘urta tashkilotlarida likvidlik masalasi ikkinchi darajali hisoblanadi, chunki sug‘urta tashkilotlariga jalb qilingan mablag‘lar asosan uzoq muddatli mablag‘larni tashkil qiladi. Angliya sug‘urta tashkilotlarining aktivlari tarkibini olib qaraydigan bo‘lsak, ularda “davlat qimmali qog‘ozlari, mahalliy organlarning qimmatli qog‘ozlari va chet el qimmatli qog‘ozlari 25 foiz atrofida, kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlari 30 foizdan ortiq, ssudalar va ipoteka kreditlari 2-5 foiz, ko‘chmas mulkka qo‘yilmalar 3-5 foizni va boshqa sohalarga 35 foiz atrofida mablag‘lar yo‘naltiriladi” [15].

Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini boshqarish masalalari zamon talablar asosida amalga oshirilib, sug‘urta tashkilotlari ixtiyorida bo‘lgan bo‘sh mablag‘larni sifatli joylashtirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida “... sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish” [6] ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta’minlash sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishga asoslangan sifat ko‘rsatkichlari tizimini zamon talablari asosida shakllantirish va sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlil qilinayotgan mavzu sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyati bilan bog‘liq ekan, dastlab sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatiga turli iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflar va nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilamiz.

Mikrodarajagi investitsiya faoliyatining ahamiyatini iqtisodchi olimlarning fikrlari ham tasdiqlaydi. Iqtisodchi olim Y. A. Spletuxov g‘arb sug‘urta tashkilotlari faoliyatini tahlil qilib, “raqobatli kurash sharoitida foydaning asosiy qismini ular faqat bevosita operatsiyalardan emas, balki investitsiyalardan olmoqda” deb yozadi [13].


Iqtisodiyot fanlari doktori, proofessor L. A. Orlanyuk-Malitskaya quyidagicha bayon qilgan: Uning fikricha investitsiya faoliyatidan olinadigan foyda sug‘urta tashkiloti o‘zining sug‘urta operatsiyalaridan zarar ko‘rgan holda ishlashga imkoniyat beradi. Bu unga raqobot sharoitida bozorda o‘z joyini egallashini ta’minlaydi [11].

Bundan tashqari, sug‘urta tashkiloti uchun investitsiya faoliyatning ahamiyatini iqtisodiyot fanlari doktori, professor K. E. Turbina o‘zining ilmiy tezisi bilan shunday tasdiqlanadi: “sug‘urta tashkilotining investitsiya faoliyati uning moliyaviy holatiga shu darajada sezilarli ta’sir qiladiki, ko‘p holatlarda quyidagilarni qayd etish mumkin: moliyaviy yil natijalari bo‘yicha foyda yoki zarar, bu to‘g‘ri tanlangan investitsiya siyosatning oqibati, yorqin aksidir deb ta’kidlaydi” [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug‘urta tashkilotlarining fond bozoridagi aktiv faoliyati uning tuzilmasiga spekulyativ operatsiyalar ulushini pasaytirish tomonga qarab harakat qilish imkonini beradi. Bu birinchi o‘rinda, faqat mo‘’tadil investitsiya siyosati olib borishni nazarda tutgan sug‘urta faoliyatining o‘ziga xosligi bilan bog‘liqdir.

Makro va mikrodarajada sug‘urta tashkilotlarining investitsiya siyosatining ahamiyatini belgilovchi omillarni majmuali baholash bizga ularni tizimlashtirish imkonini berdi. Ushbu tizimlashtirishni quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm).



1-rasm: Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini mohiyati va ahamiyatini belgilab beruvchi omillar*

*Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda bugungi kunga qadar sug‘urta bozori etarli darajada rivojlanmagan va ushbu bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta tashkilotlari yirik institutsonal darajasiga etmagan. Shu munosabat bilan makrodarajadagi investitsiya faoliyatining ahamiyatini belgilovchi omillar deyarli namoyon bo‘lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar sug‘urta bozorlarida esa ahvol boshqacha. Ya’ni, katta hajmdagi moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari banklar va pensiya fondlari bilan birga yirik investor sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular passiv moliyaviy resurslarni aktiv kapitalga aylantirib, milliy iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat quyidagi jadvalda tasvirlangan (1-jadval).

1-jadval: Sug‘urta tashkilotlarini investitsiya faoliyati tajribasining qisqacha sharhi*

Mamlakat	Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlari
Germaniya	Sug‘urta tashkilotlari mamlakat iqtisodiyotdagi investitsiyalarning 25 foizini ta’minlaydi va ularning investitsiya faoliyatidan olgan daromadlari jami daromadlarining 1/5 qismini tashkil qiladi.
Shvetsariya	Sug‘urta tashkilotlarining muvaffaqiyatli ishlashi shartlari qo‘llaniladi. Ulardan biri bo‘lib, sug‘urta tashkilotlarining kapital bozoridagi faol harakati hisoblandi. Sug‘urta tashkilotlari aktivlarining yarmiga yaqini ssuda va investitsiyalar shaklida obligatsiyalarga joylashtiradi.
Yaponiya	Aholi mablag‘larini jalb qilish uchun kelajakda milliy iqtisodiyotda strategik muammolarni echishga qaratilgan alohida olingan iqtisodiy mexanizm qo‘llaniladi. Mazkur mexanizmini qo‘llashga hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta tashkilotlari jalb qilingan. Bundan tashqari, ayni paytda ular yirik investitsiya loyihalarni amalga oshirishda ustuvor huquqqa ega.
AQSh	Alohida olingan shtatlar investitsiyalarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash huquqiga ega bo‘lib, ular hozirgi vaqtda investitsiyalarga ehtiyoji yuqori bo‘lgan milliy iqtisodiyot sohalariga moliyaviy resurslarni sug‘urta tashkilotlari tomonidan joylashtirilishini rag‘batlantiruvchi iqtisodiy me’yorlarni belgilashi mumkin.

*Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Investitsiya siyosatni ishlab chiqish iqtisodiyotning barcha darajalarida amalga oshirilishi zarur. Mikrodarajada investitsiya siyosati innovatsion faoliyatni amalga oshirayotgan korxonalar, banklar, fondlar, sug‘urta tashkilotlari va uy xo‘jaliklari uchun ishlab chiqilishi zarur. Shu bilan birga iqtisodiy tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish, istiqbolli loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirilgan maqsadli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Makrodarajada davlat investitsiya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish cheklangan byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, istiqbolli tarmoqlar va hududlarni qo‘llab-quvvatlash, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Investitsiya faoliyatini kengaytirishning muhim omili bu investitsiya muhitini yaratishdir. Investitsiya muhitini yaratish davlat miqyosida va davlat tomonidan turli vositalarni qo‘llash (soliqlar vositasida, qonunchilik orqali va boshqa imtiyoz va preferensiyalar berish) orqali amalga oshiriladi. Ushbu vositalar ichki va tashqi investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Jahon amaliyotida mamlakatning investitsiya muhitini baholash borasida turli yondashuvlar mavjud. Ushbu yondashuvlar bir-biridan investitsiya muhitini tashkil etuvchi omillarni to‘liq yoki qisman qamrab olish bilan farq qiladi (2-jadval).

2-jadval: Mamlakatning investitsiya muhitini keltirib chiqaradigan omillar*

Omillar	Mazmuni
Iqtisodiy holat	Mamlakat to‘lov balansining holati, valyuta pul tizimi barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganligi, ichki bozor sig‘imi, inflyatsiya darajasi, yalpi ichki maxsulot, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish suratlari
Huquqiy baza	Yangi sharoitlarga mos keladigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqaradigan farmonlar va qarorlar hamda nizomlar, yo‘riqnomalarning mavjudligi
Tabiiy xom-ashyo resurslari	Mineral xom-ashyo, yoqilg‘i-energetika va suv resurslari zaxiralari, qishloq xo‘jaligi xom ashyosi ishlab chiqarish hajmlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi, xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi
Ishlab chiqarishning texnik bazasi	Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muddati tarkibi, asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmiy-texnika salohiyati	Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmlari. Investitsiya tavakkalchiligi darajasi, ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va sohasini rivojlantirish holati, mahsulotning fan sig‘imkorligi katta va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Moliya-kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining foydalilik va rentabellik darajasi, narx siyosati va narxni shakllantirish siyosati
Infratuzilma	Bank tizimi rivojlanish holati, transport, kommunikatsiya xizmatlari va mehmonxona xo‘jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug‘urta sohasi tarmog‘ining ishonchliligi
Ekologik vaziyat	Atrof muhitning ifloslanishi darajasi, radiatsion va zararli chiqindilar

*Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jahon banki yondashuviga ko‘ra, mamlakat investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy siyosat va huquqiy-me’yoriy amaliyotning holati;
- korrupsiya darajasi;
- sud-huquq tizimining sifati;
- jinoyatchilik darajasi;
- soliq yuki va soliqqa tortishni huquqiy jihatdan tartibga solish tizimi;
- moliya resurslarni olish imkoniyati va moliyalashtirish qiymati;
- elektr bilan ta’minlanganlik darajasi va sifati;
- ishchilar malaka darajasi hamda mehnat qonunchiligining sifati.

Tahlil natijalarini ko‘rsatishicha “Standard & poor’s”, “Moody’s”, “Fitch IBCA” lar jahondagi eng yirik reyting agentliklari hisoblanadi. Ushbu agentliklar emitentning qarz majburiyatlarini ko‘rsatilgan muddatda va to‘laqonli bajara olish imkoniyatlari hamda emitentlarning kredit bera olish qobiliyatiga baho beradilar. Agentliklar tomonidan ishlab chiqilgan va tuzilgan reytinglar mamlakat investitsiya muhitini ma’lum darajada baholash imkonini beradi.

Bugungi kunda yuqorida keltirilgan xalqaro agentliklardan tashqari, ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda investitsiya muhitini o‘rganuvchi, uning jozibadorligini baholovchi, aniq xulosa va ma’lumotlarni investorlar uchun taqdim etuvchi maxsus firmalar, tashkilotlar mavjud. Masalan Shveytsariya, Germaniya kabi mamlakatlarning nufuzli axborot xizmatlari davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy holatini baholash uchun har biri “0” dan “12” ballgacha bo‘lgan (0-qoniqarli va 12-o‘ta qoniqarli) shkala bo‘yicha baholanadigan 15 ta muhim ko‘rsatkichni hisobga olgan “BERI” (business environment risk index) ko‘rsatkichidan foydalanadi. “BERI” indeksiga kirgan ko‘rsatkichlar orasida siyosiy barqarorlik (12 ball) muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda “BERI” xizmati bu borada katta obro‘y qozongan tashkilotdir. Mazkur tashkilot kapital import qiluvchi mamlakatlardagi investitsiya muhitini tahlil qilib, investitsiyalarning risklilik darajasini aniqlab beradi. “BERI” xizmati matbuot orqali turlicha indekslar bilan investorlar xorijiy mamlakatlarga investitsiya qo‘yishining xatarliligi, risk darajasini aniqlab beradi.

XULOSA

Respublikamizda oxirgi yillarda sug‘urta faoliyatini amalga oshirish yuzasidan tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Bu esa sug‘urta bozorida ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlarining ko‘lamini hamda sug‘urta bozorida raqobat muhitini shu bilan bir qatorda tez va qulay sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishni taqozo etmoqda. Ushbu holat sug‘urta tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlar ko‘lamini kengaytiradi hamda ular ixtiyorida katta miqdorda pul mablag‘larini to‘planishiga olib keladi. Natijada sug‘urta tashkilotlarining investitsion jarayonlarda ishtirokini faollashtiradi. Shunday bo‘lsa-da, sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun investitsiya muhiti hali hanuzgacha yaxshimas. Sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini amalga oshirish muhitini yaxshilash uchun quyida chora-tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Birinchidan: hududlarda sug‘urtalanuvchilarga sug‘urta xizmatini ko‘rsatilishi bo‘yicha qo‘yidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. Ya’ni radio va televideniyalarda sug‘urta terminlari hamda sug‘urtaning huquqiy asoslari bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borilishini yo‘lga qo‘yish kerak;

Ikkinchidan: sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida sug‘urtaning uzoq muddatli turlaridan ko‘proq foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak;

Uchinchidan: qayta sug‘urtalash bo‘yicha chet el sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak.

Yuqoridagi keltirilgan chora-tadbirlarni birin-ketinlik bilan sug‘urta bozorida amalga oshirilsa, birinchidan aholi o‘rtasida sug‘urta madaniyati keng shakllanadi, ikkinchidan sug‘urta tashkilotlari ixtiyorida bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘larni uzoq muddatga yo‘naltirish imkoniyati yaratiladi, uchinchidan sug‘urta tashkilotlar ixtiyorida katta miqdordagi sug‘urta mukofotlarini to‘planishiga olib keladi. Bu esa sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini samaradorlik darajasini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 21-apreldagi O‘RQ-155-son “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 16-apreldagi O‘RQ-210-son “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-may. O‘RQ-386-son “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida” gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojaati. https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-O‘zbekiston-xalqi.
8. Балабанова И.Т. Риск-менеджмент. Москва: Финансы и статистика, 1996. с.192.
9. Гварлиани Е.Т. Денежные потоки в страховании. Финансы и статистика, 2004. с.336.
10. Турбина К.Е. Теория и практика страхования, М.: Анкил 2003.с.191.
11. Орланюк-Малицкая Л.А., Яновой С.Ю. Страхование.-М.: Юрайт, 2012. с.880.
12. Прокофьева Е.Л. Инвестиционные возможности страховых компаний: монография. Абакан: Издательство Государственного Университета Хакасии, 2008. с.112.
13. Сплетухов Ю.А., Дюжиков Е.Ф. Страхование. Учебное пособие. - М.: “Инфра-М”, 2012. – с.357.
14. Мазанова Е.В. Статистический анализ инвестиционных возможностей страховых компаний. Автореферат диссертации на соискание кандидата экономических наук, Оренбург 2008. с.25.
15. Сирцов О.В. Методы прогнозирования, анализ инвестиционных возможностей страховых компаний. Автореферат диссертации на соискание кандидата экономических наук, – Москва, 2009. – с.20.
16. https://www.louisepryor.com - Enhanced capital requirements and Individual Capital Assesments Insurers; Comite Europen des Assurances.pdf



ORGANIZATIONAL FACTORS INFLUENCING LEADERSHIP STYLES AND PROCUREMENT OUTCOMES

Saidakhmedov Islomjon Uligbekovich
Scientific researcher

Abstract: The purpose of this article is to contribute to the development of successful procurement leadership practices while also providing practical recommendations for procurement managers and companies wishing to enhance their procurement outcomes.

Key words: procurement, leadership, management, strategy, stakeholder.

Annotatsiya: Ushbu maqolaning maqsadi xaridlar bo‘yicha muvaffaqiyatli etakchilik amaliyotini rivojlantirishga hissa qo‘shish, shuningdek, xaridlar bo‘yicha menejerlar va xarid natijalarini yaxshilashni istagan kompaniyalar uchun amaliy tavsiyalar berishdir.

Kalit so‘zlar: xaridlar, etakchilik, menejment, strategiya, aksiyador.

Аннотация: Цель этой статьи внести вклад в развитие успешных практик лидерства в закупках, а также предоставить практические рекомендации менеджерам по закупкам и компаниям, желающим улучшить результаты своих закупок.

Ключевые слова: закупки, лидерство, менеджмент, стратегия, акционер.

INTRODUCTION

The procurement department is essential to the success of any organization. Because a company’s procurement department is in charge of the entire purchase process. Without materials, there will be no construction progress, and without raw resources, nothing will be produced. The procurement department is in charge of processing all of those items. Procurement practices that are effective can result in cost savings, enhanced supplier relationships, and increased efficiency. Leadership is also an important aspect of successful procurement, since leaders must be able to manage their employees successfully and match procurement goals with wider organizational objectives.

The purpose of this article is to research how leadership behavior has influenced the growth of the procurement department and influenced procurement outcomes. The research will look specifically at the relationship between leadership styles and procurement outcomes including cost reductions, supplier relationship management, and efficiency.

The evaluation of the literature will provide an overview of the various leadership styles and their possible impact on procurement outcomes. Approaches to transactional, transformational, and stewardship leadership, with a focus on how they might be applied and impacted in procurement. Furthermore, the review of research will look at the importance of human relationships, motivation, and team cohesiveness in obtaining successful procurement outcomes.

The research methodology will involve a mixed-methods approach, including a survey of procurement specialists, questionnaire with open-ended questions and rating questions will be provided to rate their leaders and provide examples for each question.

The findings of the study will contribute to the author by using reflexive practice where he will be investigating his own leadership behavior and provide recommendations for his own future leadership development. Moreover, research will contribute to his workplace as a case study, he will provide new insights into the practice leadership styles in procurement department. Finally, the research aims to identify areas for improvement in procurement leadership practices and provide recommendations for future research in the field.

RESEARCH METHODOLOGY

This article describes how author will answer the questions which were set out as a research questions in chapter one. Also this chapter will justify which methodology approach used during his research.

In this research paper, the author has chosen to adopt a “reflexive action” approach during the investigation. This approach will improve the practitioner’s own practice with the help of evaluation and action for improvement (Wallace and Wray, 2011). Thus he will use the mixed method approach in his research paper that aimed to investigate leadership behavior.

LITERATURE REVIEW

The aim of this research paper is to investigate leadership practices in Procurement department in International company. In reviewing literature review, the author had a problem to found some researches in this specific field. The author’s literature review will be based upon three main areas. Firstly, he will look at leadership styles and their influence on procurement goals and their difference. Secondly, he will research organizational factors influencing leadership styles and procurement goals. Thirdly, he will explore the broader concepts of leadership in business. All of this sections will be useful in addressing the research questions established in previous chapter as well as effective leadership practices will be analyzed.

The literature on leadership is broad and divided into two categories such as transformational/transactional and stewardship leadership. In the past two decades, the most cited studies and research papers was focused mainly on these two categories.

According to Bass (1997), the best leaders are both transformational and transactional leaders. “Transactional leader works within the constraints of the organization: the transformational leader changes the organization”. Below the transformational and transactional leadership styles will be researched.

Transformational leadership was initiated by Burns (1978) and he described a transformational leader who takes the organization “beyond expectations by providing vision and direction as well as motivating employees to own collective goals. Transformational leadership is one of the leadership styles that inspires and motivates employees to work together towards a common objective. Transformational leaders in the procurement department provide clear direction for tasks, provide a vision for the procurement function, and push for innovation and creativity in procurement procedures. Several studies have looked into the impact of transformational leadership on procurement outcomes, with mostly good results.

Bulut (2019), for example, discovered that transformational leadership favorably improved procurement performance in a Turkish hospital’s procurement department. Transformational leaders influenced procurement performance more than transactional ones. They were able to inspire and motivate people to go above and beyond their job responsibilities, as well as create a shared sense of purpose and cultivate partnerships with suppliers.

Similarly, Meleady and Rudden (2017) discovered a favorable benefit of transformational leadership on procurement performance in the Irish public sector. Transformational leaders were shown to be more effective than transactional leaders at achieving procurement objectives because they were able to establish a sense of purpose and encourage colleagues to strive toward shared goals.

ANALYSIS AND DISCUSSION OF RESULTS

Transactional leadership is a leadership style that involves providing rewards and punishments to motivate employees. In the procurement department, transactional leaders provide clear expectations, set deadlines, and now, by using KPI to analyze the performance of their employees. The impact of transactional leadership on procurement outcomes has been studied less extensively than transformational leadership, but the findings suggest that it may be less effective in achieving procurement objectives.

Transformational leadership, for example, was found to be more effective than transactional leadership in enhancing procurement performance in Indian companies (Paul and Singh, 2015). Transactional leaders were discovered to be less effective at inspiring and motivating employees to meet procurement goals. Similarly, Meleady and Rudden (2017) discovered that in the Irish public sector, transactional leadership was negatively connected with procurement performance. Transactional leaders were shown to be less effective at developing relationships with suppliers and coordinating with other departments, both of which are critical for achieving procurement goals.

Stewardship leadership consists of three main behaviors:

- Relationship such as interpersonal relationship which fosters trust
- Contextual - The leader serves the interests of others by aligning organizational goals with those of the followers and by fostering a sense of purpose/community. Relationship and contextual factors enhance motivational support, such as “getting the best out of people”.

While comparing two categories of leadership, it can be concluded that transformational and stewardship leadership has similarities. According to Hernandez (2008) stewardship is “focus on others rather than self” which leads to the generation of commitment of staff members to accept the goals of organization. And this is the main difference between the two categories of leadership.

Bass (2010) has contributed a lot to the study of transformational leadership. In his research, he analyzed the past 2 decades and suggests that more research is needed to identify the difference between transformational and transactional leaders. Vandenbergh (1999) agrees with Bass (2010) and also suggests to investigate more on transformational leadership and to research more on this topic.

Bass (1997) suggests that transformational leadership is more effective in comparison with transactional leadership throughout the world. He created a Multifunction Leadership Questionnaire (MLQ) has been used a lot in studies, and they have shown to be reliable in both business and government, as well as on most continents around the world. Bass (1985) conducted a research on the effectiveness of Transformational and Transactional leadership on followers. And he found that transformational leadership had more affected on his followers.



(Bass, 1997)

Schaubroeck et al (2007) conducted a research between 218 teams looking for transformational leadership and its influence, their findings reveals that transformational leadership has a positive impact on team performance. There are three factors identified that positively impacted on team performance:

- The confidence of leaders can have a strong influence in increasing the confidence level of the team
- Transformational leadership can shape the behavior of individual team member by providing them with support to conduct their jobs more effectively.
- They could make a strong team with promoted cooperation of team and reduce conflicts

Buckingham (2005) conducted a survey among 80000 managers throughout the world and identified that how managers learn the potential of their employees by considering every people in the group as a “unique”. His study revealed three main areas where leaders and managers should work on:

- The employees’ strength
- The factor that activates the strength of employees
- What is the learning style that prefer employee?

He believes that his research on the abovementioned points can be workable effort to leadership and management development.

Organizational Factors Influencing Leadership Styles and Procurement Outcomes:

The relationship between leadership styles and procurement outcomes in the procurement department is influenced by several organizational factors. These factors include organizational culture, procurement strategy, and stakeholder relationships.

Organizational culture refers to the shared values, beliefs, and practices within the organization. In procurement department, the organizational culture can impact the effectiveness of different leadership styles in achieving procurement objectives. For example, a company’s culture that strives for innovation and creativity

could be more categorized to transformational leadership, while a culture that emphasizes compliance and rules could be more categorized to transactional leadership.

The procurement strategy can impact the leadership style that is most effective in achieving procurement objectives. For example, a procurement strategy that emphasizes cost savings may require a more transactional leadership style, however a procurement strategy that emphasizes supplier relationship management may require a more transformational leadership style. Thus, the best leaders are both transformational and transactional, "Transactional leader works within the constraints of the organization: the transformational leader changes the organization" (Bass, 1997).

Stakeholder relationship refer to the relationships that the procurement department has with suppliers, internal departments, and other external stakeholders. These relationships can impact the effectiveness of different leadership styles in achieving procurement objectives. For instance, a strong supplier relationship might require a more transformational leadership style that emphasizes collaboration and partnership, whereas a company focused on compliance and risk management may require a more transactional leadership approach. According to Meleady and Rudden (2017), procurement leaders must understand and manage stakeholder relationships in order to effectively lead the procurement department.

Effective Leadership Practices for improving procurement outcomes:

Several studies have identified effective leadership practices for improving procurement outcomes in the procurement department. These practices include:

- Developing a clear vision and strategy for the procurement department.
- Communicating the vision and strategy to procurement team members and other stakeholders.
- Inspiring and motivating employees to achieve procurement objectives.
- Developing strong relationships with suppliers and other stakeholders.
- Encouraging innovation and creativity in procurement processes.
- Building a culture of continuous improvement in the procurement department.

According to Bulut (2019), effective leadership methods must be tailored to the procurement department's specific organizational context. Effective leadership is required for the procurement department to meet its objectives. Transformational leadership has been proven to be more effective in reaching procurement outcomes than transactional leadership, however the effectiveness of different leadership styles is influenced by organizational factors such as culture, strategy, and stakeholder relationships. To effectively lead the procurement department, procurement leaders must understand and work within the organizational context. having a clear vision and strategy, inspiring and motivating staff, having strong partnerships with suppliers, employing metrics to assess and evaluate performance, and creating a culture of continuous improvement are all examples of effective leadership approaches.

In conclusion, the author found that most research on procurement departments focused on transformational/transactional and stewardship leadership while evaluating the literature review on procurement leadership. The review of literature focused on three major areas: leadership styles, organizational factors influencing leadership styles, and broader concepts of leadership in business. According to the findings of the research, transformational leadership was more effective than transactional leadership in accomplishing procurement goals. However, no specific research has been conducted on procurement department leadership employing transformational and stewardship leadership styles, which will be studied in this research paper.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

In conclusion with the question "What specific areas does your line manager need to focus on himself in order to improve your organization", respondents provided some recommendations that the manager of procurement department should make in further development of procurement department.

1. Strategic thinking: Line managers in procurement departments should focus on developing their strategic thinking skills to effectively plan and implement procurement strategies that align with organizational goals.

   Effective procurement outcomes in the procurement department depend heavily on the strategic thinking of its managers. Leaders must be able to think strategically about the organization's procurement goals and objectives and create a feasible strategy for achieving them. This requires an awareness of the organization's overall strategy and a connection of procurement objectives with it. Moreover, leaders must have a deep understanding of the procurement process, including supplier selection and man-

agement, contract negotiation, and cost management. Strategic thinking in procurement was positively related to better procurement performance, including cost savings and supplier relationship management. Effective strategic thinking and leadership also involves continuous evaluation and adaptation to changing market conditions and organizational needs. Leaders who are able to think strategically and adapt to changing circumstances are more likely to achieve procurement success in the long-term (Weele, 2010).

2. The establishment of strong relationships with suppliers and other stakeholders is a crucial aspect of procurement. Leaders must be able to effectively manage supplier relationships, including contract negotiation, performance management, and conflict management. Effective supplier relationship management is positively related to procurement performance, including cost savings and supplier innovation, according to research by Fawcett et al. (2011).
3. For our manager it is important to learn how to distribute responsibility between the team so as not to take responsibility for everyone.

   Distribution of responsibilities among team members is a crucial aspect of effective procurement leadership. Leaders must delegate tasks and responsibilities to team members so they can assume responsibility for their work and contribute to the team's overall success.
4. Data analysis. Analyzing data related to purchasing activities can provide valuable insights for improving processes, reducing costs, and identifying opportunities for optimization.
5. First of all, he has to work on himself more than before. The reason is he has more duties now than before. He should focus on his problem solving abilities as big auditory are likely to have big problems.

Reference list:

1. A Michael West and Farr, J.L. (1990). Innovation and creativity at work: psychological and organizational strategies. Chichester: John Wiley & Sons.
2. Ahearne, M., Mathieu, J. and Rapp, A. (2008). To empower or not to empower your sales force? An empirical examination of the influence of leadership empowerment behavior on customer satisfaction and performance. Journal of Applied Psychology.
3. Almutairi, A. and Almutairi, W. (2020). Transformational leadership and reducing workplace conflict. Journal of Business and Management Sciences, 8(4), 149–155.
4. Avolio, B.J., Waldman, D.A. and Yammarino, F.J. (1991). Leading in the 1990s: The four Is of transformational leadership. Journal of European industrial training.
5. Buckingham, M. and Clifton, D.O. (2001). Now, discover your strengths. New York: Free Press.
6. Bulut, C. (2019). The impact of leadership styles on procurement performance: A study in a Turkish hospital. Journal of Business Research.
7. Burns, J. (1978). Leadership. New York: Harper & Row.
8. Earley, P.C. and Mosakowski, E. (2004). Cultural intelligence. Harvard business review,.
9. Fawcett, S.E., Magnan, G.M. and McCarter, M.W. (2011). Benefits, barriers, and bridges to effective supply chain management. Supply Chain Management: An International Journal.
10. Goleman, D. (2004). What makes a leader? Harvard Business Review.
11. Harland, C. et al. (2000). Outsourcing: assessing the risks and benefits for organisations, sectors and nations. International Journal of Operations & Production Management, 25 (9), 831–850. Available from https://doi.org/10.1108/01443570510613929 [Accessed 3 April 2023].
12. Meleady, R. and Rudden, G. (2017). An exploratory study of leadership styles in the procurement function. Journal of Purchasing and Supply Management.
13. Northouse, P. (2018). Leadership: Theory and Practice, 8th ed. Los Angeles: Sage Publications.
14. Paul, J. and Singh, S.K. (2015). Impact of leadership styles on procurement performance in Indian public sector organizations. Journal of Purchasing and Supply Management.
15. Redman, T. and Snape, E. (2005). Protecting employee rights and promoting positive management-employee relations: A comparative analysis of the role of ethics codes in Australian and UK organizations. International Journal of Human Resource Management.
16. Shen, J. et al. (2021). Harismatic Leadership and Employee creativity: the Mediating Role of Work Engagement and the Moderating Role of Employee optimism. Leadership & Organization Development, 42(2), 160–174.
17. Weele, A.J. (2010). Purchasing and Supply Chain management: Analysis, strategy, planning, and practice. Intrepid Cengage Learning EMEA.

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI



Mirpulatova Luiza Mansurovna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliy holati tahlil qilingan va muammolari aniqlangan. Aniqlangan muammolarni bartaraf qilish va raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha amaliy taklif, tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat bank, iqtisodiy samaradorlik, raqamli texnologiyalar, daromadlilik ko‘rsatkichi, xorijiy tajriba.

Abstract: The article analyzes the practical situation of using digital technologies in increasing the efficiency of commercial banks in Uzbekistan and identifies problems. Practical proposals and recommendations are presented on ways to eliminate identified problems and increase the efficiency of using digital technologies.

Key words: commercial banking, economic efficiency, digital technologies, profitability index, foreign experience.

Аннотация: В статье анализируется практическая ситуация использования цифровых технологий в повышении эффективности коммерческих банков Узбекистана и выявляются проблемы. Представлены практические предложения и рекомендации по путям устранения выявленных проблем и повышения эффективности использования цифровых технологий.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, экономическая эффективность, цифровые технологии, индекс рентабельности, зарубежный опыт.

KIRISH

Jahonda raqamli iqtisodiyot rivoji davrida bank xizmat turlarini zamonoviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ko‘rsatishni tadqiq qilish kabi masalalarga e’tibor kuchayib bormoqda. Bu sohada bank xizmat turlarini samarali boshqarishning zamonaviy integrallashgan axborot tizimlarini joriy etish, tizim ma’lumotlarining shaffofligi va himoyalanishini ta’minlash, raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini qo‘llash hamda axborot tizimlarining o‘zaro axborot integratsiyasini samarali ravishda amalga oshirish metodikasini takomillashtirish masalalari asosiy tendensiyalardan hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarning keng rivojlanishi tijorat banklari tomonidan xizmat turlarini axborot tizimlarini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda ham bank xizmat turlarini rivojlantirish xususan, unda axborot kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalangan holda bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Jumladan, banklar tomonidan kichik va yirik moliyaviy texnologiya kompaniyalari mijozlarga ko‘rsatiladigan hizmatlarni yaxshilash uchun “sun’iy aql-idrok” (artificial intelligence) va raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Chunki, bozordagi yangi raqobatchilar barcha o‘lchamdagi eski moliyaviy institutlarga tahdid sola boshladi. Shu bilan birga yangi texnologiyalar bank xizmatlari bozorida katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Mamlakatda oxirgi yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, tijorat banklari xizmat turlarining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilmoqda. Xususan, Prezidentning “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (Farmon, 2018), “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (qaror, 2018), “2020-yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili”b deb e’lon qilinganligi hamda 2030-yilga qadar “Raqamli O‘zbekiston” konsepsiyasini ishlab chiqish belgilanganligi, bu borada bank tizimi oldiga qator vazifalarni bajarishni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi konseptual g‘oyalardan kelib chiqqan holda, mazkur maqola mavzusining dolzarb ekanligini asoslash mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TANQIDIY TAHLILI

Dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida, raqamli iqtisodiyot atamasi yuzaga keldi va ushbu atama birinchi marta “Elektron raqamli jamiyat: tarmoq asrining afzalliklari va kamchiliklari” kitobida 1995 yilda ishlatilgan. Don Tapskot (2016) fikricha, bozor subyektlari faoliyatini raqamli transformatsiyalashning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirish hisoblanashi ta’kidlangan.

Amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte (1995) tomonidan “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritildi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo‘llamoqda. Butun jahon banki 2016 yilda dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk ma’ruzasini e’lon qilindi.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels (1999) tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasi chop etilgan. Uning fikricha raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turdagi tushunchalarni ifodalanadi:

- *birinchidan,* raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne’matlarining ustuvor o‘rni bilan tavsiflanadi.
- *ikkinchidan,* raqamli iqtisodiyot – bu o‘ziga hos nazariya bo‘lib, uning o‘rganish obyekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davridadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o‘tishi bir necha o‘n yil avvallari boshlangan.

Ushbu tushunchalarni bog‘lab turadigan omil – bu iqtisodiy jarayonlarning globallashuvida axborot texnologiyalarining birlamchi o‘rinni egallashi bo‘lib hisoblanadi.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot, bu – alohida faoliyat turi emas. Bu, aslida, ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi mazkur sohalarning barchasi axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo‘ladi. Ularning tahlilidan so‘ng to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha yechim ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borishda analitik taqqoslash, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslama tahlil ma’lumotlarni guruhlash, ularni bir-biri bilan solishtirish yo‘li bilan statistik qayta ishlash usuli, miqdor va sifat ko‘rsatkichlar hisoblash kabi uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning ko‘rinishi va tuzilmasini o‘zgartirib, odatdagi biznes modellarini buzadi, yakka tartibdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar va butun mamlakat orasida raqobat va raqobatbardoshlikni oshiradi, bozorlar va imkoniyatlarning kengayishiga olib keladi. Bunga Mc Kinsey Global instituti (2015) hisobotida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, oxirgi 20 yil davom etgan o‘sishdan so‘ng, jahon yalpi ichki mahsulotidagi tovarlar, xizmatlar va mollarning an’anaviy oqimlari ulushi 2007-yildagi 53 foizdan 2014-yilda 39 foizgacha kamayganini misol qilib ko‘rsatish mumkin. 2005-yildan 2014-yilgacha bo‘lgan davrda transchegaraviy ma’lumotlar almashinuvi hajmi 45 barobar oshdi. 2014-yildan boshlab jahonda tovarlar savdosining qariyb 12 foizi xalqaro elektron tijorat orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

“The Boston Consulting Group” (2016) ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoydagi elektron tijoratni rivojlantirishning yuqori darajasi e’tiborni tortmoqda. Bunda Xitoyning elektron tijorat aylanmasi 18 milliard dollarni tashkil etib, ushbu davrda xitoylik iste’molchilar internet sotib olish uchun taxminan 750 milliard dollar sarflaydilar, bu AQSh va Buyuk Britaniya ko‘rsatkichlarini birga qo‘shib hisoblagandan ham ko‘proq. Umuman, Xitoy Savdo vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yil oxirigacha mamlakatning xalqaro elektron tijoratda ulushi 39,2 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, mamlakatda 2016-2022-yillarda qabul qilingan tarmoqni rivojlantirish dasturiga muvofiq, elektron tijorat hajmi 5 yil ichida 5,8 trln. AQSh dollari. “McKinsey & Company” (2016) institutining taxminlariga ko‘ra 2025-yilga kelib raqamli texnologiyalar Xitoy yalpi ichki mahsulotining 22 foizga, Rossiya uchun esa 34 foizgacha oshishiga olib keladi. 2025 yilgacha AQShda raqamli texnologiyalarning yaratilishidan kutilayotgan harajatlar 1,6-2,2 trillion AQSh dollari darajasiga yetishi mumkin ko‘rsatib o‘tilgan.

1-jadval: 2022 yil uchun I-DESI subindekslari[1]

Mamlakatlar	Raqamli (I-DESI) indeksi	Bog‘lanish darajasi	Inson kapitali	Internetdan foydalanish	Raqamli texnologiyalar integratsiyasi	Raqamli davlat xizmatlari
Janubiy Koreya	75,2	79,8	75,6	74,5	63,8	83,0
Norvegiya	73,0	75,8	69,1	85,2	65,8	72,5
Islandiya	72,7	72,4	80,2	75,9	75,7	53,7
Yaponiya	68,5	72,5	69,7	73,9	53,0	75,0
Avstraliya	67,8	56,8	80,5	57,8	57,3	88,9
Kanada	67,0	59,6	67,3	66,2	65,4	81,5
AQSh	66,7	71,3	56,2	71,0	61,8	79,0
Yangi Zelandiya	65,8	55,4	79,3	58,2	55,6	81,6
Elning 28 davlati	58,9	62,9	58,0	59,7	51,3	63,1
Isroil	55,6	54,3	57,4	58,5	45,2	65,4
Rossiya	47,5	38,9	64,1	48,7	29,8	56,8
Xitoy	45,3	47,8	40,5	45,3	40,7	58,6
Chili	44,9	47,8	42,6	32,9	40,5	61,4
Turkiya	41,5	43,3	53,1	35,9	27,7	43,2
Braziliya	39,7	39,5	39,2	33,8	27,8	62,4
Meksika	43,1	45,5	41,6	30,0	33,7	67,2

1-jadval ko‘rsatkichlariga ko‘ra, Janubiy Koreya, Norvegiya va Islandiya birinchi uchtalikni egallab turibdi. Rossiya esa yetakchilik qilayotgan Janubiy Koreya davlatidan 27,7 ko‘rsatkichga ortda qolmoqda, ammo Xitoy, Chili, Turkiya, Braziliya va Meksika davlatlaridan yuqori pog‘onalardan joy olgan. Umuman, Rossiya bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish jarayonida yuqori potensialga ega davlat, deb tan olinadi.

Dunyo taraqqiyotida raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, texnik transformatsion jarayonlarning moliyaviy sektorlarga keng tatbiq etilishi bank tizimlari, to‘lov operatsiyalari, kreditlash va boshqa shu turdagi xizmatlar samaradorligini yanada oshirmoqda. Moliyaviy xizmatlarni yaxshilaydigan va optimallashtiradigan bu xildagi texnologiyalar – “Fintex” (ing. “Fin Tech”) nomi bilan yuritiluvchi moliyaviy texnologiyalar hisoblanadi.

“Accenture” konsalting (2017) ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-yil dunyo bo‘yicha fintexstartaplar uchun jami 27,4 mlrd dollar sarflangan, bu ko‘rsatkich 2016-yilga nisbatan 18 foizga ko‘p bo‘lgan. Kutilayotgan eng muvaffaqiyatli moliyaviy texnologiyalar ro‘yxatini tuzuvchi The Forbes Fin Tech 50 ning qayd etishicha, AQShdagi moliyaviy xizmatlar va bozor kapitalizatsiyasi 8,5 trln dollarga teng mahalliy bank sektorlariga jiddiy raqobatchi bo‘lib turibdi. Ta’kidlash o‘rinliki, moliyaviy texnologiyalar nafaqat moliyaviy kapitallar bilan ish ko‘ruvchi jismoniy va yuridik shaxslar, balki moliyaviy bozorning o‘z qiyofasini ham o‘zgartirib yuborishga qodir. Bu xildagi ishlanmalar ma’lumotlarni tahlil qilish, birjadagi holatlarni nazoratga olish hamda investitsiyalar uchun strategiyalar tanlash imkoniyatini beradi.


Bugungi kunda mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyot rivoji bo‘yicha hukumat tomonidan bir qancha ijobiy ishlar qilinmoqda, xususan, Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020) “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi.

Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor” deb hamda, “Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo‘llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta’minotlar bo‘yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda. 2020-yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e’tiborimiz markazida bo‘ladi” deb ta’kidlab o‘tganlari alohida ahamiyatga molikdir.

1 Manba: EuropeanCommission. I-DESI 2019 – ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Banklar faoliyatida raqamli iqtisodiyotning qulayliklari sifatida, to‘lovlar uchun xarajatlarning kamayishi (masalan, bankka borish uchun yo‘lkira va boshqa resurslar tejaladi), tovarlar va xizmatlar haqida ko‘proq va tezroq ma’lumot olinishi, raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari kattaligi va Fidbek (iste’molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtirilishi misol bo‘la oladi.

Ma’lumki, raqamli iqtisodiyot davrida tijorat banklari tomonidan aholiga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etgan holda bank xizmatlarini ko‘rsatishda internet global tarmog‘i foydalanuvchilarining soni muhim o‘rin tutadi.



	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
юридик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорлар	10.3	26.1	39.2	56.5	62.2	81.4	135.6	227.9	399.8	691
жисмоний шахслар	14.2	30.2	69.3	207.8	472.5	979.5	1906.5	4225.3	7599.3	9462.4

1-rasm: Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni (turlari bo‘yicha) 2019 yil 1 yanvar xolatiga[2]

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatda internet tarmog‘idan foydalanuvchilarning umumiy soni 2022-yil boshida 20 mln nafardan oshgan. Bu ko‘rsatkich 2021-yil boshiga nisbatan 36% ga oshganini ko‘rsatadi. Mobil internet foydalanuvchilarning soni esa 3,504 mln.ga yetgan. Mobil telefonlar aholini qaysi holati (harakatdami, turg‘unmi) dan qat’i nazar, internetdan foydalanish imkonini bermoqda. Internet va mobil aloqaning barcha foydalanuvchilari banklar uchun istiqbolli mijozlar hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlari doirasini kengaytirish va ularning qulay tomonlarini ko‘rsatib berish strategik vazifaga aylangan. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir.

Respublika bo‘yicha 2022-yil holatiga bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 10153,4 mingta bo‘lib, shundan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 691 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, jismoniy shaxslar soni esa 9,4 mln.tani tashkil etdi. Bu esa, 2021-yil 1-yanvar holatiga (7959,1 mingtaga) nisbatan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 127,6 foizni, mos ravishda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni (359,7 mingtaga nisbatan) 186,6 foizni hamda jismoniy shaxslar soni (7599,3 mingtaga nisbatan) 124,5 foizni tashkil qilganligidan dalolat beradi.

Hozirda, bank sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi – tijorat banklarini mijoz uchun ishlashga o‘rgatishdan iboratligini inobatga olib, aholida bank tizimiga nisbatan ishonchni shakllantirish va banklar faoliyatiga chetdan aralashishga chek qo‘yish dolzarb masala hisoblanadi. Shu maqsadda banklarda axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish orqali ularning dasturiy ta’minotini tubdan yangilash, zamonaviy kadrlar tayyorlash maqsadida xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda davlat banklarida zamonaviy bank amaliyoti, menejmenti va xizmatlarini joriy etish uchun rahbarlik lavozimlariga xorijiy yetakchi moliya institutlarining malakali mutaxassislarini jalb etish jarayonlarini izchil davom ettirish hamda kreditlash amaliyotida “kredit tarixi” axborot tizimini to‘liq ishga tushirish zaruriyati ortgan.

2 Manba: http://infocom.uz/- saytlari ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston tijorat banklarining jahon banklari bilan hamnafas bo‘lib yashashi integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarining faollashuviga keng yo‘l ochmoqda. Bir tomondan integratsion jarayonlarning rivojlanishi zamonaviy AKTdan foydalanishni taqozo etsa, ikkinchidan, biznes transformatsiyasini vujudga keltirdi. Ushbu jarayonlarni iqtisodiy-siyosiy jihatdan o‘rganish va ilmiy xulosalar chiqarish davr talabi hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va “qora iqtisodiyot”ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma’lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to‘liq axborot bermaslikning iloji yo‘q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo‘yadi. Ma’lumotlar ko‘pligi va tizimliligi yolg‘on va qing‘ir ishlarga yo‘l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada “iflos pullarni” yuvish, mablag‘larni o‘g‘irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko‘rsatish imkoni qolmaydi.

Fikrimizcha innovatsion va axborot texnoligiyalari orqali faoliyat yuritadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarini rivojlantirish bo‘yicha tijorat banklari tomonidan quyidagi chora-tadbirlarning bajalishiga alohida e’tibor qaratish lozim:

- O‘zbekiston bank amaliyotida innovatsion onlayn kreditlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish zarur.
  Rivojlangan davlatlar bank amaliyotida kreditlash amaliyoti onlayn tarzda keng qo‘llanilmoqda. Bu xizmat turini takomillashtirishda internet tezligi va sifatini yaxshilash, tadbirkorlik subyektlarining kompyuter savodxonligini oshirish lozim. Chunki, innovatsion onlayn kreditlash tadbirkorlik subyektlarini ko‘p kuch va vaqt sarflamasdan kreditlash amaliyotiga bo‘lgan talabini qondirish bilan ifodalash mumkin.
- Tijorat banklari kredit amaliyotida xo‘jalik subyektlari faoliyatidagi sun’iy kredit boqimandalikni yuzaga keltirish holatlarini bartaraf etish maqsadida innovatsion va axborot texnoligiyalari orqali faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlariularga “kredit ta’tili” berishni yo‘lga qo‘yish zarur.
  Fikrimizcha, tijorat banklari tomonidan innovatsion va axborot texnoligiyalari orqali faoliyat yuritadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlariga ajratiladigan kreditlarni asosiy qarz va foizlarini qaytarish muddatlarini ularni ishlab chiqarish davridan kelib chiqqan holda belgilanishi, uning kelgusidagi faoliyatining rivojlanishiga madad bo‘lgan bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alex Tapscott, Don Tapscott. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World, 2016, 324 pages.
2. Aripov A.N. Axborot kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent, 2004.- 24 b.
3. Alimov R.X. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik, - T.: Sharq, 2000. - 592 b.
4. Dadabaeva R.A. Menedjment informatsionnыxsistem.Uchebnoe posobie,-T.:Iqtisodiyot,2016.-402 s.
5. Kobulov V.K. Algoritmizatsiyavsotsialno-ekonomicheskixsistemax. -Tashkent: Fan, 1998.- 320 s.
6. Tapskott Don. “Elektronno-tsifrovoe obщestvo: Plyusы i minusы epoxы intellekta. -Kiev: ITN Press, 1999.
7. Musaliev A.A., Alimov Q. Menedjment informatsionnыx sistem. -T.: Fan, 2007.- 342 s.
8. Musaliev A.A., Begalov B.A. Menedjment informatsionnыx sistem. Monografiya. – T.: Fan, 2007.- 342 s.
9. Gulyamov S.S., va boshq. “Raqamli iqtisodiyotda blokchaey texnologiyalari”.O‘quv qo‘llanma 21-22 betlar.TMI 2019 yil -447 bet;
10. G‘ulomov S.S., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 722 b.
11. (Farmon 2018) “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
12. (Qaror 2018) “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
13. (Qaror 2018) “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3620 Qarori;
14. (Qaror 2018) “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3945.



TIJORAT BANKLARINING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH METODOLOGIYASINING EKONOMETRIK TAHLILLARI

Norov Akmal Ruzimamatovich
DSc, TDIU “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasining ekonometrik modellar usullaridan keng foydalanilgan holda amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat bank, kreditlash amaliyoti, kreditlash mexanizmi, bank xizmatlari, depozit siyosati, bank daromadi, bank xarajati.

Abstract: This article presents practical proposals and recommendations for the methodology of lending by commercial banks to business entities in the Republic of Uzbekistan with the widespread use of econometric models.

Key words: commercial banking, lending practice, lending mechanism, banking services, deposit policy, bank income, bank value.

Аннотация: В статье анализируется практическая ситуация использования цифровых технологий в повышении эффективности коммерческих банков Узбекистана и выявляются проблемы. Представлены практические предложения и рекомендации по путям устранения выявленных проблем и повышения эффективности использования цифровых технологий.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, экономическая эффективность, цифровые технологии, индекс рентабельности, зарубежный опыт.

KIRISH

Jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasiga ko‘ra, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishi tijorat banklari tomonidan kreditlash hisoblanadi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning YaIMdagi ulushi 70-75 foizni tashkil etadi. Iqtisodiyotda band aholining asosiy qismi ham shu sohada band bo‘lib, ular Yaponiyada 70 foizni, AQShda 80 foizdan ko‘proqni tashkil qiladi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining 90 foizgacha qismi tijorat banklarining kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi[1]. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish hamda kreditlash bo‘yicha ilg‘or innovatsion bank xizmatlarini qo‘rsatish va taklif etish borasida sog‘lom raqobat muhiti takomillashmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan bank sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, xizmat turlarining jozibadorligini oshirish, iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash, bank va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirishdan iborat. Xususan, “...Respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari bilan to‘laqonli hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash aholi va xo‘jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash”[2] vazifalari belgilab berilgan. Yuqoridagi vazifalar ijrosini ta’minlash tijorat banklarining kreditlash amaliyotini o‘rganish zaruratini oshirib, mazkur sohaning nazariy, uslubiy va huquqiy asoslarini takomillashtirishni talab etmoqda.

1 Обзор сферы услуг Западных стран. www.export.by/act./doc@mode, http://aftershock.news: Politeconomica. ru/feb 2013/malyj – biznes.: http://aftershock.news.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3270-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.09.2017 y.,07/17/3270/0004.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni[3], 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni[4], 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori[5], 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori[6], 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan muhim vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmlarini amalga oshirishda jismoniy shaxslarga, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa yuridik shaxslarga kreditlar berish jarayoni hisoblanadi. Ushbu mexanizmni takomillashtirish uchun tijorat banklari samaradorlik, qulaylik va risklarni boshqarishni oshirishga qaratilgan turli chora-tadbirlarni amalga oshirishi mumkin[7].

Xususan, osiyolik iqtisodchi olim R. Rajan, bank va moliyaviy tashkilotlar tomonidan kreditlarni olish, kredit riskini va banklarning iqtisodiy rolini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U haqiqatan ham bank va moliya sohalarida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan va kreditlash mexanizmi, kredit bozorlari va moliyaviy tartibga solish kabi turli jihatlarga e’tibor qaratgan[8]. Uning ilmiy-tadqiqot ishlariga qo‘shgan hissalari bank tizimlarining faoliyati, iqtisodiy taraqqiyotda kreditning o‘rni va samarali moliyaviy tartibga solishning ahamiyati haqida qimmatli ma’lumotlar berdi.

Iqtisod bo‘yicha nobel mukofoti sovrindori J. Stiglits o‘z ilmiy izlanishlari orqali bank va moliya sohasiga katta hissa qo‘shgan. Olim bank faoliyatining turli jihatlari, jumladan, kreditlash amaliyoti, risklarni boshqarish va tijorat banklarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarni nashr etgan[9].

Olim kredit amaliyotida axborot assimetriyasi, moliyaviy inqirozlarning bank sektoriga ta’siri va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda banklarning roli kabi masalalarni batafsil yoritib bergan. Uning tadqiqotlari zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimining faoliyati va ahamiyatini tushunishimizga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Taniqli iqtisodchi Kristin Lagard o‘z tadqiqotlarida moliyaviy tizimlarning turli jihatlari, jumladan, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bank qoidalari va siyosatlari bo‘yicha qimmatli tushunchalar bergan. Tadqiqotchining ilmiy hissasi moliyaviy barqarorlik, me’yoriy-huquqiy bazalar va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda tijorat banklarning roli kabi mavzularga e’tibor qaratgan[10]. Shuningdek, Lagard kreditlash mexanizmlari va ularning barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi ahamiyati atrofidagi munozaralar va siyosiy munozaralarni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Evropalik iqtisodchi olimlar Ross Levin va L. Levinlar o‘zining keng ko‘lamli tadqiqotlari bilan bank va moliya tizimlari sohasiga katta hissa qo‘shgan.

Tadqiqotchilarning asosiy tadqiqotlarida bank raqobati va kreditlash natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik, kredit olish imkoniyatlarini yaxshilashda moliyaviy innovatsiyalarning o‘rni, me’yoriy-huquqiy hujjatlarning kreditlash samaradorligiga ta’siri kabi mavzular o‘rganilgan[11]. Ularning tadqiqotlari bank tizimlarining faoliyati va turli omillarning kreditlash mexanizmlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida qimmatli tushunchalar bergan. Ularning ilmiy ishlanmalari kreditlash dinamikasi va uning iqtisodiy o‘sish va barqarorlikka ta’sirini tushunishga qo‘shgan hissasi uchun keng e’tirof etilgan.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. https://lex.uz/docs/5841063.

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. https://lex.uz/docs/4811025.

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. https://lex.uz/docs/4281729.

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/3593541.

7 Alloyo, Peter M. “The effect of credit reference bureaus on the financial performance of commercial banks in Kenya.” (2013).

8 Rajan, Raghuram. “Competitive monetary easing: is it yesterday once more?.” Macroeconomics and Finance in Emerging Market Economies 8.1-2 (2015): 5-16.

9 Stiglitz, Joseph E. Economics for an imperfect world: Essays in honor of Joseph E. Stiglitz. MIT Press, 2003.

10 Lagarde, Christine. “Economic inclusion and financial integrity–An address to the conference on inclusive capitalism.” speech presented at the Conference on Inclusive Capitalism. Vol. 27. 2014.

11 Laeven, Luc, and Ross Levine. “Bank governance, regulation and risk taking.” Journal of financial economics 93.2 (2009): 259-275.

Xorijlik iqtisodchi olim Torsten Bek bank va moliya sohasida turli mavzularda keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan hamda bank raqobati, kreditlash mexanizmlari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor qaratgan.

Shuningdek, u iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishda moliya institutlarining rolini va umumiy iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda samarali kreditlash mexanizmlar, bank tizimlari dinamikasi, kreditlash amaliyoti va ularning makroiqtisodiy natijalarga ta’siri haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etgan[12]. Olim tadqiqotlarida bank raqobati va kreditlash mexanizmlari iqtisodiy ko‘rsatkichlarni qanday shakllantirishini va moliya sektoridagi islohotlarning iqtisodiy rivojlanish strategiyalari uchun muhim natijalarini taklif qilgan.

Shuningdek, ko‘plab xorijlik olimlar o‘z tadqioqotlarida tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmini takomillashtirishning ta’sirlarini ekonometrik modellashtirishgan.

Jumladan, taniqli iqtisodchi olimlar S. Slaessens va N. Xorenlar banklar tomonidan kreditlash mexanizmi bo‘yicha tadqiqotlarida ekonometrik modellardan foydalangan. Ular tadqiqotlarida bog‘liq o‘zgaruvchilar sifatida bank krediti, kreditlarning o‘sishi va kreditlash hajmi kabi qaram o‘zgaruvchilarga e’tibor qaratgan bo‘lsa mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida bank kapitallashuvi, makroiqtisodiy sharoitlar va moliyaviy bozor o‘zgaruvchilarining kreditlash mexanizmi kabi omillarni tanlagan[13]. Ekonometrik modellar sifatida panel ma’lumotlar modellari, instrumental o‘zgaruvchan yondashuvlar va dinamik panel modellaridan keng foydalangan[14]. Tadqiqotchilar ushbu ekonometrik modellar va usullardan foydalangan holda banklarning kreditlash faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar haqida tushuncha berdilar, bu esa kreditlash mexanizmi hamda uning hal qiluvchi omillarini yaxshiroq tushunishga yordam bergan.

Taniqli iqtisodchi olimlar I. Hasan va F. Molyneuxlar banklar tomonidan kreditlash mexanizmining turli jihatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Ular ekonometrik modellarni ishlab chiqishda bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishda panel ma’lumotlar modellari ko‘ndalang kesimdagi va vaqt seriyali o‘zgarishlarni tahlil qilishda yordam bergan. Ushbu ekonometrik modellar va usullardan foydalangan holda, Hasan va Moluneyx bank kreditlari, kredit riski va umumiy kreditlash mexanizmiga ta’sir qiluvchi omillarni tushunishga hissa qo‘shdilar. Ularning tadqiqotlari kreditlash xulq-atvorini belgilovchi omillarni va turli omillarning bank sektori barqarorligi va samaradorligiga potensial ta’sirini aniqlash imkonini bergan.

Taniqli yevropalik iqtisodchi olimlar D. Amel va K. Barnslar o‘z tadqiqotlarida ekonometrik modellashtirganda bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida qarzlarning o‘sishi, foiz stavkalari va kredit sifati kabi qaram o‘zgaruvchilarni o‘rganib chiqdilar. Ushbu o‘zgaruvchilar banklar tomonidan berilgan kreditlar hajmidagi o‘zgarishlarni, kreditlar taklif qilinadigan stavkalarni va kreditlarning samaradorligi yoki sifatini tanlagan[15]. Amel va Barns kreditlarning o‘sishi, foiz stavkalari va kredit sifatiga ta’sir qiluvchi omillarni tushunishga hissa qo‘shdilar. Ularning tadqiqotlari kreditlash xulq-atvorini belgilovchi omillar va turli omillarning kreditlash mexanizmiga ta’siri amaliyotga tadqiq etgan.

Iqtisodchi olimlar R. Rajan va L. Zingaleslar banklar tomonidan kreditlash mexanizmini ta’sir etuvchi omillar sifatida bank krediti, kreditlarning o‘sishi va kreditlash standartlarini ko‘rib chiqdilar. Bu o‘zgaruvchilar kredit faoliyatining turli jihatlarini aks ettirgan va banklar tomonidan berilgan kreditlar hajmi, vaqt bo‘yicha kreditlarning o‘sish sur’ati, kreditlarni baholash va tasdiqlashda qo‘llaniladigan mezon va standartlarni qamrab olgan. Shuningdek, ekonometrik modellashtirilganda ular bankning o‘ziga xos xususiyatlari, bozor tuzilishi, tartibga soluvchi muhit va makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar kabi omillarni mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida ko‘rib chiqdilar. Olimlar tadqiqotlarida bozor tuzilishi bank sanoatining raqobatbardosh landshaftini, normativ muhit bank faoliyatini tartibga solish va nazoratni o‘z ichiga olgan[16]. Makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar yalpi ichki mahsulot o‘sishi, inflyatsiya va foiz stavkalari kabi kreditlash faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan kengroq iqtisodiy sharoitlarni amaliyotga tadqiq qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining yillik ma’lumotlari asosiga kreditlash metodologiyasiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil va ekometrik modellar usullaridan keng foydalanilgan.

12 Beck, Thorsten. “Bank financing for SMEs–lessons from the literature.” National institute economic review 225.1 (2013): R23-R38.
13 Claessens, Stijn, and Neeltje Van Horen. “The impact of the global financial crisis on banking globalization.” IMF Economic Review 63 (2015): 868-918.
14 Claessens, Stijn, and Neeltje Van Horen. “Being a foreigner among domestic banks: Asset or liability?.” Journal of Banking & Finance 36.5 (2012): 1276-1290.
15 Amel D. et al. Consolidation and efficiency in the financial sector: A review of the international evidence //Journal of Banking & Finance. – 2004. – T. 28. – №. 10. – S. 2493-2519.
16 Rajan R. G., Zingales L. The great reversals: the politics of financial development in the twentieth century //Journal of financial economics. – 2003. – T. 69. – №. 1. – S. 5-50.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasini takomillashtirish va unga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida ilmiy - amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy xulosalar qilishdan iborat. Mavzuni o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat Statistika Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining rasmiy ma'lumotlari asosida o'rganildi. Xususan, tijorat banklarning moliyaviy ma'lumotlarining tasviriy statistikada tasvirlangan, korrelyatsiya matritsasini tuzishga va regressiya natijalari asosida empirik model yaratishga harakat qildik. Shuningdek, tasodifiy va o'zgarmas ta'sirlar metodlari, yig'ma eng kichik kvadratlar metodi, Pausson ehtimollik metodlaridan, robast standart xatoliklardan, hamda bir necha chetki kuzatuvlardan foydalanishga harakat qilindi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda, tijorat banklari mijozlarining asosiy qismini tadbirkorlik subyektlari tashkil qiladi. Ularning faoliyatini yo'lga qo'yishda albatta moliyaviy mablag'ga ehtiyojlari mavjud, bu ehtiyojlarni qondirishda ular tijorat banklarning kredit mablag'lari hisobiga faoliyatini rivojlantiradi. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar nafaqat banklarning doramadliligi balki iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda YaIM hajmi oshishi, aholi daromadlari ko'payishi va aholi bandligi darajasi oshishiga ijobiy ta'sir etishini korrelyatsion-regression tahlil asosida o'rganishga harakat qilindi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarida band bo'lgan aholi soni va tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan bank kreditlarining YaIMdagi tadbirkorlik subyektlari ulushiga o'zaro bog'liqligining korrelyatsion - regression tahlillari amalga oshirildi. Buning uchun, davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan ma'lumotlar bazasidan foydalandik (1-jadvalga qarang).

1-jadval: Tadbirkorlik subyektlarining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi salmog'i[17]

Yillar	Tadbirkorlik subyektining YaIMdagi salmog'i (%)	Tadbirkorlik subyektida band bo'lganlar soni (mln. kishi)	Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan bank kreditlari (trln. so'm)
2009	45.7	7,7	0,7
2010	48,2	8,1	1,2
2011	50,1	8,3	1,8
2012	52,5	8,6	2,6
2013	54,0	8,9	4,1
2014	54,6	9,2	5,3
2015	55,8	9,6	6,9
2016	56,1	9,9	9,1
2017	62,9	10,1	9,5
2018	64,9	10,4	10,2
2019	63,6	10,5	14,4
2020	59,4	10,1	24,4
2021	62,9	12,2	34,8
2022	64,2	14,8	48,4

Tanlanma korrelyatsiya koeffitsientiga ko'ra, tadbirkorlik subyektining YaIMdagi salmog'iga mazkur sohada band bo'lganlar sonining ta'sirchanligi yuqori bo'lib, R=0,9597 ga teng. Shuningdek, tadbirkorlik subyektining YaIMdagi salmog'iga tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan bank kreditlarining ta'sirchanligi ham yuqori hisoblanadi, ya'ni R=0,7686 ga teng. Umuman o'rganilayotgan omillar orasidagi korrelyatsion bog'liqlilik darajasi yuqoridir (2-jadvalga qarang).

17 Manba: www.cbu.uz., www.stat.uz.- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va davlat statistika qumitasi ma'lumatlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2-jadval: MS Excelda tanlanma korrelyatsiya koeffitsientining chegaralari[18]

Ko‘rsatkichlar	Tadbirkorlik subyektining YalMdagi salmog‘i (%)	Tadbirkorlik subyektida band bo‘lganlar soni (mln. kishi)	Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan bank kreditlari (trln. so‘m)
Tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi salmog‘i (%)	1		
Tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lganlar soni (mln. kishi)	0,959718037	1	
Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan bank kreditlari (trln. so‘m)	0,768586181	0,910057465	1

Excel dasturining “Analiz dannых” imkoniyatlaridan foydalangan holda regression tahlilni amalga oshiramiz. Bog‘liqlik zichligi shkalaga asosan r = 0,992474054 ni tashkil etadi. Demak, ushbu shkalaga asosan ko‘rsatkichlar orasidagi korrelyatsiya koeffitsienti juda kuchli bog‘liqlik darajasiga ega.

Ma’lumotga ko‘ra, a_0=-157331, a_1=8.056, a_2=0,00075 teng bo‘lib regressiyaning to‘g‘ri chiziqli formulasi quyidagi ko‘rinishni oldi:

KBYU(u)= 8,056KBBS(x1) - 0,00075KBBKR(x2) - 15,7331

Demak, a_1 regressiya koeffitsienti natijaviy belgi (u) bilan omilli belgi (x) o‘rtasidagi bog‘lanishni belgilab beradi. Bu esa, omilli belgi bir birlikka oshganda natijaviy belgi necha birlikka oshishini ko‘rsatadi.

3-jadval: MS Excel “Analiz dannых” Regressiya dasturida olingan natija[19]

ВЫВОД ИТОГОВ							
Регрессионная статистика							
Множественный R	0,992474054						
R-квадрат	0,985004749						
Нормированный R-квадрат	0,981672471		**2,262157163**	**=СТЬЮДРАСПОБР(0,05;B13)**			
Стандартная ошибка	0,836430479						
Наблюдения	12		**4,256495**	**=FРАСПОБР(0,05;B12;B13)**			
Дисперсионный анализ							
	Df	*SS*	*MS*	*F*	*Значимость F*		
Регрессия	2	413,6059565	206,8029782	295,5950038	6,19144E-09		
Остаток	9	6,296543514	0,699615946				
Итого	11	419,9025					
	Коэффициенты	*Стандартная ошибка*	*t-статистика*	*P-Значение*	*Нижние 95%*	*Верхние 95%*	*Нижние 95,0%*
Y-пересечение	-15,73307658	4,032848671	-3,901231578	0,003612632	-24,85601409	-6,610139078	-24,8560140
Переменная X 1	8,056006404	0,523688493	15,38320302	9,05974E-08	6,871340729	9,240672079	6,87134072
Переменная X 2	-0,000748687	0,000120851	-6,195141073	0,000159795	-0,00102207	-0,000475304	-0,0010220

18 Muallif tomonidan shakllantirildi.
19 Muallif tomonidan shakllantirildi.

Regressiya tenglamasi (Y=8,056-0x1-0,00075x2) ning adekvatligini tekshirish uchun F-mezondan foydalanamiz.

Kuzatilgan ma'lumotlarga ko'ra, hisoblangan Fp (hisoblangan, kuzatilgan F) ko'rsatkichi tegishli kritik ko'rsatkich Fk, (F kritik, jadvalli) bilan qiyoslandi.

F hisob = 4.25, F jadval = 295.595

Muallif hisob-kitobida F hisob > Fjadval ekanligi uchun (1) ekonometrik model adekvat xisoblanadi.

Tk= 2,262, Ta_0=-3,9, Ta_1=15,38, Ta_2=-6,19

Hisob-kitobda Ta_1>Tk ekanligidan a_1 regressiya koeffitsientining mohiyatli ekanligini bildiradi.

Fikrimizcha, regression tahlillardan quyidagi xulosalarni keltirib o'tish mumkin: faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ktlarida ish bilan band bo'lganlar sonining 1 foiz punktga oshirilishi YaIM dagi tadbirkorlik subyektlari salmog'ining kamida 8 foizga oshishiga olib keladi. Demak, xulosa o'rnida tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlar hisobiga aholi band bo'lgan sonining har bir foiz punkti uchun, YaIM tadbirkorlik subyektlari salmog'ini kamida 8 foizga oshishi mumkinligini ijobiy natija sifatida qabul qilish mumkin (3-jadvalga qarang).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizdagi yirik tijorat banklarining kredit ma'lumotlari va kreditlash amaliyotlariga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlil qilish natijasida quyidagi, umumlashtirilgan xulosalarni shakllantirdik:

- tahlil natijalariga ko'ra tijorat banklari kredit qo'yilmalarining diversifikatsiya darajasi past ekanligi aniqlandi;
- foiz stavkalari va ajratilgan kreditlar orasidagi ijobiy bog'liqlik kuchsiz ekanligi;
- korrelyatsiya matritsasiga ko'ra mustaqil o'zgaruvchilarning o'zaro korrelyatsiyasi yuqori emasligi;
- bank kredit riskini oldini olish va kamaytirishda zamonaviy usullaridan kam foydalanilayotgani aniqlandi.

Tijorat banklari tomonidan kreditlash metodologiyasini takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi takliflarni keltirib o'tamiz:

- tijorat banklari tomonidan bitta sohaga va bitta tarmoqqa beriladigan kreditlarning ilg'or xorij tajribasi asosida limit o'rnatish va ushbu limitga qat'iy rioya etish yo'li bilan banklar kredit portfelining optimal diversifikatsiya darajasini ta'minlashi lozim;
- jismoniy shaxslarga beriladigan chakana kreditlar miqdorini oshirish yo'li bilan bank kredit portfelining diversifikatsiyalashni oshirish maqsadga muvofiq;
- banklarda kredit riskini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarga asoslangan samarali tizimini yaratish zarurdir.


Tijorat banklari amaliyotlarida mazkur takliflarning qo'llanilishi banklarning kreditlash metodologiyasini takomillashtirishga va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda, kredit xavfini boshqarishda hamda bank kredit portfeli sifatini oshirishga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Обзор сферы услуг Западных стран. www.export.by/act./doc@mode, http://aftershock.news: Politeconomica. ru/feb 2013/malyj – biznes.: http://aftershock.news.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2017 y.,07/17/3270/0004.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4811025.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. https://lex.uz/docs/4281729.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/3593541.
7. Alloyo, Peter M. “The effect of credit reference bureaus on the financial performance of commercial banks in Kenya.” (2013).
8. Rajan, Raghuram. “Competitive monetary easing: is it yesterday once more?.” Macroeconomics and Finance in Emerging Market Economies 8.1-2 (2015): 5-16.
9. Stiglitz, Joseph E. Economics for an imperfect world: Essays in honor of Joseph E. Stiglitz. MIT Press, 2003.
10. Lagarde, Christine. “Economic inclusion and financial integrity–An address to the conference on inclusive capitalism.” speech presented at the Conference on Inclusive Capitalism. Vol. 27. 2014.
11. Laeven, Luc, and Ross Levine. “Bank governance, regulation and risk taking.” Journal of financial economics 93.2 (2009): 259-275.
12. Beck, Thorsten. “Bank financing for SMEs–lessons from the literature.” National institute economic review 225.1 (2013): R23-R38.
13. Claessens, Stijn, and Neeltje Van Horen. “The impact of the global financial crisis on banking globalization.” IMF Economic Review 63 (2015): 868-918.
14. Claessens, Stijn, and Neeltje Van Horen. “Being a foreigner among domestic banks: Asset or liability?.” Journal of Banking & Finance 36.5 (2012): 1276-1290.
15. Amel D. et al. Consolidation and efficiency in the financial sector: A review of the international evidence //Journal of Banking & Finance. – 2004. – T. 28. – №. 10. – S. 2493-2519.
16. Rajan R. G., Zingales L. The great reversals: the politics of financial development in the twentieth century //Journal of financial economics. – 2003. – T. 69. – №. 1. – S. 5-50.
17. Manba: www.cbu.uz., www.stat.uz.- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va davlat statistika qumitasi ma’lumatlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI



Norova Nozima Nabiyevna
TIFT Universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash amaliyotidagi muammoli kreditlarining amaliy holati tahlil etilgan. Tijorat banklarida kredit risklari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarning oldini olish maqsadida har bir potensial mijoz ta’minotini takomillashtirish mexanizmlari orqali muammoli kreditlarni kamaytirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Muammoli kreditlar, garov mulki, baholash tamoyillari, bozor bahosi, kredit riski, kredit siyosati, kreditor, qarzdor, kredit ta’minoti, diversifikatsiya, tijorat bank.

Abstract: The article analyzes the practical situation of problem loans in the lending practices of commercial banks of our country. In order to prevent possible losses due to credit risks in commercial banks, ways to reduce problem loans through mechanisms of improving the supply of each potential customer have been proposed.

Key words: Problem loans, collateral property, valuation principles, market valuation, credit risk, credit policy, creditor, debtor, credit provision, diversification, commercial banking.

Аннотация: В статье анализируется практическая ситуация проблемных кредитов в кредитной практике коммерческих банков нашей страны. В целях предотвращения возможных потерь из-за кредитных рисков в коммерческих банках предложены пути снижения проблемных кредитов через механизмы улучшения предложения каждого потенциального клиента.

Ключевые слова: Проблемные кредиты, залоговое имущество, принципы оценки, рыночная оценка, кредитный риск, кредитная политика, кредитор, должник, предоставление кредита, диверсификация, коммерческий банк.

KIRISH

Ijtimoiy jamiyatda tovar-pul munosabatlarining paydo bo‘lishi kreditlash mexanizmining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Tovar-pul munosabatlari amal qilgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatda kreditni vujudga kelishi va kreditlash munosabatlarini amal qilinishi hamda bu jarayon muttasil rivojlanib borishini taqozo etadi.

So‘nggi yillarda kredit va ularga hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida qaytarish, shuningdek kredit ta’minoti bilan bog‘liq qator muammolar paydo bo‘lmoqda. Xalqaro moliya tashkilotlari tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, “... banklar tomonidan berilgan kreditlar hajmi haddan ziyod yuqori bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2022-yilning ikkinchi choragida mamlakat YaIMga nisbatan Avstraliyada 197 foiz, Niderlandiyada 280 foiz. Buyuk Britaniyada 171 foiz, AQShda 152 foizni tashkil etdi”[1]. Buning natijasida ayrim mamlakatlar banklari kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar hajmi ortib bormoqda. Xususan, Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, “... jami kreditlar tarkibida muammoli kreditlar ulushi 2020-yilda Rossiya Federatsiyasida 11 foiz, Moldovada 17 foiz va Gretsiyada 45 foizni tashkil etgan”[2]. Bugungi kunda tijopat banklapi tomonidan kpeditlash mexanizmi bo‘yicha ilg‘op innovatsion bank xizmatlapini ko‘psatish va taklif etish bopasida jadal paqobat muhiti takomillashmoqda.

Tijorat banklari jalb qilgan mablag‘larining asosiy qismini kredit berish sifatida foydalanar ekan, bunda faqatgina daromad olish uchun emas, balki mablag‘larni kredit oluvchidan to‘liq qaytarib olish masalasini oldindan belgilab olishi zarur. Chunki, bank sarmoya egasi sifatida sarmoyani emas, balki sarmoyadan foydalanish huquqini ma’lum bir shart va ustama foizlar asosida ma’lum muddatga sotadi.

Ayni paytda mamlakatimizda ham ilmiy-nazariy hamda amaliyotchi olimlar tomonidan “muammoli kredit” tushunchasi avvalgiga nisbatan ancha ko‘proq bahs va munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu albatta, bejizga emas, chunki bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlarning ulushi, uni kamaytirish choralari ko‘rilishiga qaramasdan anchagina yuqori foizni tashkil etmoqda.

1 BIS Statistics Explore (http://stats.bis/org/statx)
2 World Bank Group (US) https://data.worldbank.org/indicator/fb.ast.nper.zs

Bugungi kunda ko‘pgina davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko‘payishi muammosiga duch kelayotganligi tufayli banklarning muammoli kreditlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari dolzarbligi hozirgacha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun kreditorlar bilan bir qatorda mijozlar tomonidan kreditni qaytarish bo‘yicha o‘z yechimini topmagan muammolar mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TANQIDIY TAHLILI

Ijtimoiy jamiyatda tovar-pul munosabatlarining paydo bo‘lishi kreditlash amaliyoti shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Zero, tovar pul munosabatlari amal qilgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatda kreditni vujudga kelishi va kreditlash munosabatlarini amal qilishini hamda bu jarayon muttasil rivojlanib borishini taqozo etadi. Biroq, so‘nggi yillarda kredit va ularga hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida qaytarish, shuningdek kredit ta’minoti bilan bog‘liq qator muammolar paydo bo‘lmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda muammoli kreditlar bo‘yicha turli xilma-xil ta’riflar berilgan. Ayrim adabiyotlarda, muammoli kredit deganda obyekti, subyekti va ta’minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo‘lgan kredit tushunilsa (Lavrushin, 2002), ayrim adabiyotlarda muammoli kreditlar deganda, “qarz oluvchi bir yoki bir necha to‘lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta’minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o‘tishini anglatadi” (Rouz, 1997) deya ta’rif berilgan.

Mahalliy olimlarimizning yondashuviga ko‘ra, substandart kreditlar ham o‘z vaqtida qaytarilmaganligi tufayli muammo keltiruvchi kreditlar sifatida tahlil qilinishi mumkin (Abdullayeva, 2002).

Mahalliy olimlarimiz esa muammoli kreditlarga quyidagicha ta’rif beradi: kredit risklarining amalda yaqqol namoyon bo‘lishining natijasi bo‘lib, obyektiv hamda subyektiv sabablarga ko‘ra kredit shartnomasi shartlarining buzilishi oqibatida “substandart”, “shubhali” hamda “umidsiz” kreditlar kategoriyasiga o‘tib qolgan kreditlarga muammoli kreditlar deyiladi (Tuxtabaev, 2006).

Ushbu oxirgi ta’rif muammoli kreditlarga berilgan ta’riflarning ichida to‘liqroq talqin etilgan deyishimiz mumkin. Chunki bunda muammoli kreditlarni yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladigan kredit risklari bilan bog‘langan hamda kredit kategoriyalari ajratib ko‘rsatilgan. Ammo hozirgi paytda mazkur ta’rif o‘z mohiyatini yo‘qotdi, deb o‘ylaymiz. Sababi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 14 iyuldagi “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 2696-sonli Nizomi qabul qilinganidan so‘ng, kreditlarning tasniflanishida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, “yaxshi” deb tasniflangan kreditlar toifasi olib tashlandi va uning o‘rniga “standart” kreditlardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari “qoniqarsiz” degan kreditlar toifasi kiritildi.

Garov vositalaridan foydalanish qarz beruvchi va qarz oluvchi munosabatlariga yangi xavotirlarni tug‘dirdi, ularning defolt riskiga yakuniy ta’siri aniq belgilanmaganligidir (José, 2018). Agar bankdan kredit olgan mijoz kreditni o‘z vaqtida qaytara olmasa garovga qo‘ygan ta’minotdan mahrum bo‘lishi mumkin, o‘z navbatida tijorat banklari uchun kredit riski oshib ketadi.

Bank tomonidan berilgan kredit riskining xavfsiz darajasini ta’minlash maqsadida kredit oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs turli shakldagi mol-mulklarni garov ta’minoti sifatida banklarga taqdim etadi. Umumiy holda bank krediti bo‘yicha garov ta’minotini baholash jarayonida uchta tomon ishtirok etadi va ular bank, baholovchi tashkilotlari va kredit oluvchilardir (Abdikarimova, 2018). Bu jarayonda garov ta’minoti asosan dastlab kredit berish jarayonida qarab chiqiladi.

Rossiya adabiyotlarida ayrim mualliflarning ta’kidlashicha, muammoli kredit deganda obyekti, subyekti va ta’minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo‘lgan kredit tushuniladi (Lavrushina, 2002). Ularning qarashlaricha, nostandart, dargumon va ishonchsiz kreditlarni, ya’ni muddati o‘tmagan joriy kreditlardan tashqari barcha kreditlar, shu jumladan asosiy to‘lov hamda kredit foizlari bo‘yicha qisqa muddatli bo‘lsa ham qarzdorlikka ega bo‘lgan, shuningdek, kredit shartnomasi shartlarini o‘zgartirmasdan hech bo‘lmasa bir marotaba qayta rasmiylashtirilgan kreditlar muammoli deb tushuniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy muammolarini tijorat banklari kreditlari orqali bartaraf etishning quyidagi ijobiy natijalari jumladan, mamlakat YaIM hajmi oshishi, aholi daromadlari ko‘payishi va aholi bandligi darajasi oshishiga ijobiy ta’sir etishi aniqlandi. Buning uchun davlat statistika qo‘mitasining oxirgi 10 yillik ma’lumotlaridan foydalanib, mamlakatda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lgan aholi soni va tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi aynan tadbirkorlik subyektlari ulushiga o‘zaro bog‘liqligining korrelyatsion-regression tahlillari amalga oshirildi.

Tanlanma korrelyatsiya koeffitsientiga ko‘ra, tadbirkorlik subyektining YaIMdagi salmog‘iga mazkur sohada band bo‘lganlar sonining ta’sirchanligi yuqori bo‘lib, R=0,9597 ga tengligi hamda tadbirkorlik subyektining YaIMdagi salmog‘iga tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan bank kreditlarining ta’sirchanligi ham yuqori ya’ni R=0,7686 ga tengligi aniqlandi.

Regression tahlillardan quyidagi xulosalarni keltirib o‘tish mumkin: faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’ktlarida ish bilan band bo‘lganlar sonining 1 foiz punktga oshirilishi YaIM dagi tadbirkorlik subyektlari salmog‘ining 8.056 foizga oshishiga olib keladi.

Maqolada ilmiy mushohada, guruhlash, qiyosiy va tarkibiy tahlil, statistik guruhlash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, iqtisodchi olimlarning kredit ta’minoti va uni hisobga olishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Banklar boshqa kreditorlarga nisbatan riskni cheklashga ko‘proq harakat qilishi zarur. Chunki ular o‘z mablag‘laridan emas, balki o‘z kreditorlarining, ya’ni omonatchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning mablag‘lari hisobidan kredit ajratadi. Shuning uchun bank o‘z kreditorlari oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida ijro etishi riskni qanchalik darajada muvaffaqiyatli baholashga bog‘liq bo‘ladi. Boshqa ayrim iqtisodchilar esa, “kreditlash faoliyati kredit riski mavjud bo‘lishining yagona shakli emas”, degan fikrni bildirishadi. Bunday fikrdagi, kredit riski qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarda, bank tomonidan kafillik berilganda ham namoyon bo‘ladi.

Umuman, muammoli kreditlarning kelib chiqishi faqatgina kredit riskiga bog‘liq bo‘lmaydi. Zero, valyuta riski, bozor riski, foiz stavkalarining o‘zgarishi riski va boshqa qator risklarining mavjudligi hamda ularni to‘g‘ri baholay olmaslik muammoli kreditlarning kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi. Muammoli kreditlarning iqtisodiy mazmunini tadqiq etishda risklarning o‘rni va ta’siri asos sifatida ishtirok etadi.

Mamlakatimiz bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bog‘liqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarini daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli kreditlarning mavjudligi sezilarli bo‘lmoqda.

Mamlakatimiz bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bog‘liqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarini daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli kreditlarning mavjudligi sezilarli bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 2696-sonli Nizomiga muammoli kredit deganda sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” kreditlar tushuniladi.



	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
миқдори (трлн.сўм)	0.364	0.674	0.581	0.392	1.325	2.141	3.169	5.784	16.974	13.992
фоизда	2.64	2	1.43	0.7	1.17	1.28	1.5	2.1	5.2	3.6

1-rasm: Respublika bank tizimida muammoli kreditlarning o‘zgarish dinamikasi[3]

3 www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti) ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

2022-yil holatiga muammoli kpeditlap qoldig‘i 13,99 tpln.so‘mga yaqinlashdi, bu jami kpedit qo‘yilmalarining 3,6 foizini tashkil qilmoqda. Shuningdek, 2016-2021-yillapda ushbu ko‘psatkichda o‘sish tendensiyasini kuzatish mumkin. Muammoli kpeditlapni baptapaf etish uchun ulapning kelib chiqish sabablapini aniqlashimiz muhimdip. Tijopat banklapi kpedit poptfeli tapkibida, muammoli kpeditlap foizi 2013-yildan 2021-yilga qadap 0,54 foizgacha kamayganligi ijobiy holat, ammo 2022-yilga kelib 3,6 foizni tashkil qilmoqda, bu bank tizimidagi muammoli kpeditlap jahon mexanizmida qabul qilingan kpitik 3 foizli ko‘psatkichdan ko‘p, shu sababli bugungi kunda muammoli kpeditlapni kamaytipish banklapning asosiy vazifalapidan bipi hisoblanishi kepak (1-rasm).

Mamlakatimizda muammoli kreditlarning asosiy qismi, ya’ni 8,441 trln so‘mi yoki 83 foizi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Tahlillarga ko‘ra, O‘zmilliybank (1,9 tln so‘m), O‘zsanoatqurilishbank (1,7 trln so‘m), Asaka bank (1,6 trln so‘m) va Ipoteka bank (1,1 trln so‘m)lar yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Hi-Tech bankning jami kreditlari 160 mlrd. so‘mni tashkil etgani holda muammoli keditlar (NPL) ning hajmi 118 mlrd. so‘m yoki 92,7 foizni tashkil etmoqda. Turkiston bankda esa jami kredit portfeli 686 mlrd. so‘m bo‘lib, shundan 480 mlrd. so‘mi yoki 69,9 foizi muammoli kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2022-yil holatiga ma’lumot, mlrd so‘m[4]

№	Bank nomi	Kredit portfel	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		326 386	16 974	5,2%
Davlat ulushi mavjud banklar		280 074	15 069	5,4%
1	O‘zmilliybank	74 033	3 305	4,5%
2	O‘zsanoatqurilishbank	43 148	1 630	3,8%
3	Asaka bank	37 685	1 819	4,8%
4	Agrobank	32 258	1 495	4,6%
5	Ipoteka bank	29 046	972	3,3%
6	Xalq banki	19 596	3 857	19,7%
7	Qishloq qurilish bank	17 496	749	4,3%
8	Mikrokreditbank	10 816	642	5,9%
9	Turon bank	8 129	266	3,3%
10	Aloqa bank	7 754	314	4,1%
11	Poytaxt bank	80	2	2,2%
12	O‘zagroeksportbank	30	17	55,5%
Boshqa banklar		46 312	1 905	4,1%
13	Hamkor bank	9 334	105	1,1%
14	Ipak yo‘li bank	6 422	223	3,5%
15	Kapital bank	8 030	235	2,9%
16	Orient Finans bank	3 627	29	0,8%
17	Invest Finans bank	3 774	57	1,5%
18	Trast bank	2 744	51	1,8%
19	Davr bank	2 157	22	1,0%
20	Tenge bank	1 725	121	7,0%
21	O‘zKDB bank	1 557	0	0,0%
22	Savdogar bank	859	90	10,5%
23	Universal bank	767	6	0,8%
24	Turkiston bank	686	480	69,9%
25	Ziraat bank	858	21	2,5%
26	Ravnaq bank	567	132	23,2%
27	Xay-Tek bank	160	118	92,7%
28	Madad invest bank	169	20	11,8%

4 Manba: https://cbu.uz// - O‘zbekiston respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari.

29	Anor bank	612	6	0,9%
30	Tibisi bank	345	17	4,8%
31	Eron Soderot bank	14	0,1	0,6%
32	Aziya Alyans bank	1 903	144	7,6%
33	Apelsin bank	0,0	0,0	0,0%

Fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyotidagi dolzarb muammolardan yana biri sifatida bu – tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari tadbirkorlik subyektlari uchun yuqori ekanligidir. 2020-yilda tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi 22,3 foizni tashkil etdi. Bu esa, sezilarli darajada yuqori bo‘lgan foiz stavkasi hisoblanadi. Masalan, 2020 yilda milliy valyutadagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi Rossiya Federatsiyasida 6,8 foiz, Qozog‘iston Respublikasida 11,8 foizni tashkil etgan[5]. Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada ajratilayotgan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligiga asosiy ikki sababni ko‘rsatishimiz mumkin ular, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining yuqoriligi hamda tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan resurslarning qimmat ekanligidir.

Mazkur muammoli kreditlarning asosiy qismi, ya’ni 8,441 trln so‘mi yoki 83 foizi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bunda O‘zmilliybank (1,9 tln so‘m), O‘zsanoatqurilishbank (1,7 trln so‘m), Asaka bank (1,6 trln so‘m) va Ipoteka bank (1,1 trln so‘m)lar yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Hi-Tech bankning jami kreditlari 201 mlrd. so‘mni tashkil etgani holda muammoli keditlar (NPL)ning hajmi 179 mlrd. so‘m yoki 89,4 foizni tashkil etmoqda. Turkiston bankda esa jami kredit portfeli 703 mlrd. so‘m bo‘lib, shundan 610 mlrd. so‘mi yoki 86,7 foizi muammoli kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Mazkur muammoni hal qilishning eng asosiy yo‘li davlat ulushi mavjud tijorat banklarini transformatsiya qilish hisoblanadi. Shu munosabat bilan Prezidentimizning “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to‘g‘risida Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon ijrosi doirasida Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki xalqaro moliya tashkilotlari hamda “PWC”, “KPMG”, “Deloitte” va “McKinsey & company” kabi xalqaro konsalting kompaniyalari banklarni transformatsiya qilish jarayonlariga jalb etildi va bu borada faol ishlar olib borilmoqda.

Odatda, sog‘lom bank tizimining zarur sharti kredit riskini ishonchli boshqarish tizimi hisoblanadi. Chunki bank kredit riski ko‘p sonli qarzdorlar orasida taqsimlanishi kerak. Ayniqsa, iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish davrida kredit portfelini diversifikatsiya qilish masalasini hal etish o‘ta zarurdir.

Garov ta’minoti muammoli kreditni qoplashning so‘nggi chorasi sifatida qaralganda, undan foydalanib muammoli kredit, o‘z vaqtida to‘lanmagan kredit bo‘yicha hisoblangan foiz summasi undiriladi. Hozirgi kunda tijorat banklari muammoli kreditni qoplashni ta’minot turiga qaratganda sudga murojat qiladi. Sud qaroriga asosan garov ta’minotidan foydalaniladi. Garovga oluvchining (kreditorning) talablarini qondirish uchun undiruvni qarzdor garov bilan ta’minlangan majburiyatni o‘zi javobgar bo‘lgan vaziyatlarda bajarmagan taqdirda yoki lozim darajada bajarmaganda garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratishi mumkin. Sud qaroriga asosan kredit garov ta’minoti hisobidan qoplanishi belgilansa, elektron onlayn-auksion shaklidagi ochiq kimoshdi savdosida sotish orqali amalga oshiriladi.

2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, bankda berilgan kredit va lizing bo‘yicha ta’minot turlari bo‘yicha garov ta’minoti tarkibida O‘zbekiston Respublikasi Huqumati kafolati, ko‘chmas mulk va uchinchi shaxs kafilligi kabi ta’minot turlarining ulushi katta. Bankda garov ta’minoti sifatida obligatsiyalar, uchinchi shaxs kafolatidan umuman foydalanilmagan.

Muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, banklarning muammoli kreditlarini yuzaga kelishida ichki omillar 67 foiz yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich tashqi omillar bo‘yicha bor yo‘g‘i 33 foizni tashkil etadi. Ichki omillarga ta’minotning yetishmasligi 22 foizni, ssuda buyurtmasini o‘rganishda axborotning noto‘g‘ri baholanishi 21 foizni, operatsiya nazoratining zaifligi, hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o‘z vaqtida aniqlanmasligi va ular yuzasidan tegishli choralarning ko‘rmasligi 18 foizni, garov ta’minoti sifatining pastligi 5 foizni, shartnomada ko‘rsatilgan ta’minotni olish imkoniyatining yo‘qligi 1 foizni tashkil etgan. Tashqi omillarga esa kompaniyaning bankrot bo‘lishi 12 foizni, korxona moliyaviy nazoratining kuchsizligi 11 foizni, kompaniyaning bozorda o‘z o‘rnini yo‘qotishi va ichki ijtimoiy muammolar 6 foizni, o‘g‘irlik, muttahamlik 4 foizni jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra tashkil etgan6.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida, xususan, G‘arbiy Yevropa davlatlarining bank kreditlash amaliyotida muddati o‘tgan kreditlarning jami kredit qo‘yilmalar hajmidagi salmog‘ini 3 foizdan oshmasligi normal holat hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegaraviy miqdori 5 foizni tashkil qiladi.

5 2021-yil 6-noyabr kuni yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi.

6 www.worldbank.org

Garov bank kreditining asosiy ta’minoti sifatida kredit tavakkalchiligini pasaytirish va bankka kredit berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, bu o‘z-o‘zidan bank garov ta’minotini baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. E’tirof etish joizki, bu borada xorijiy mamlakatlarda uzoq yillar davomida yetarli tajriba, usul va tamo-yillar shakllangan.

2-jadval: ATB O‘zsanoatqurilishbankning kredit va lizing bo‘yicha garov ta’minoti to‘g‘risida ma’lumot[7], % da

№	Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha ta’minot turlari	Ta’minot turlari jami	Shu jumladan												
			Depozitlar	O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan kafolatlangan	Transport vositalari	Inventvr	Ko‘chmas mulk	Asbob-uskunalar	Obligatsiyalar	Aktivlar	Uchinchi shaxs kafolati	Uchinchi shaxs kafilligi	Sug‘urta polisi	Ta’minlamagan	Boshqa ta’minot turlari
1	Jismoniy shaxslar	6,1	0	0	1,1	0	2,9	0	0	0	0	1,9	0,2	0	0
2	Davlat korxonalari	72	0	47,3	0	0,1	5,9	6,1	0	2,1	0	10,2	0	0	0,3
3	Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar	5,7	0	0	0	0,2	4,1	0,8	0	0	0	0,5	0,1	0	0
4	Xususiy korxonalar	14,7	0,1	0	0,6	0,1	9,3	0,4	0	0	0	3,9	0,2	0	0,1
5	Fermer xo‘jaliklari	0,6	0	0	0	0	0,6	0	0	0	0	0	0	0	0
6	Boshqa banklar	0,1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,1
7	Markaziy bank	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
8	Hukumat	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
9	Nobank kredit tashkilotlari	0,1	0	0	0,1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
10	Nodavlat notijorat tashkilotlar	0,5	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,2	0,3	0	0
11	Byudjet tashkilotlari	0,2	0,2	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
12	Boshqalar	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
13	Jami kredit va lizing bo‘yicha ta’minot	100	0,3	47,3	1,8	0,4	22,8	7,3	0	2,1	0	16,7	0,8	0	0,5

Manba: muallif tomonidan tuzildi.

Xorij amaliyotida kredit uchun qo‘yilayotgan garov ta’minotini baholashda uning likvidliligi, bozor bahosi, bozor konyukturasini o‘zgarishi natijasida sotish imkoniyati hamda investitsion jozibadorligiga alohida e’tibor qaratiladi Shuningdek, kredit oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs bankni tanlaganidan so‘ng garovga qo‘yayotgan ta’minotni baholash jarayonini amalga oshiradi. Chunki, banklarning kreditlash siyosati va garov ta’minotini baholashga qo‘yayotgan talablari bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Bundan tashqari, kreditlovchi bank kredit olish bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlarni qo‘rib chiqishi jarayonida qo‘shimcha ma’lumotlar zarur bo‘lishi yoki baholash bo‘yicha tayyorlangan xulosaning dolzarbligi yo‘qolishi mumkin.

Xorij amaliyotida bank kredit ta’minotini baholashning belgilab qo‘yilgan aniq tamoyillari joriy etilmagan. Biroq, garov ta’minotini baholash jarayoniga e’tibor beradigan ayrim tamoyillar mavjudki, bank kreditini olish uchun baholanayotgan garov ta’minoti mazkur tamoyillarga javob bermagan hollarda bank kredit shartnomaasini imzolamaydi. Xususan, baholash jarayonida quyidagi asosiy tamoyillar bajarilishi maqsadga muvofiq:

- baholanayotgan obyekt kreditning asosiy garovi sifatida huquqiy va jismoniy jihatdan neytralligini ta’minlanganligi;

7 ATB O‘zsanoatqurilishbank hisobot ma’lumotlari.

- baholash jarayonida obyektning likvidligiga ta’sir etuvchi barcha omillarning inobatga olinganligi;
- garov ta’minotini sotishning bir necha variantlarining mavjudligi;
- baholanayotgan obyektning bahosiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan huquqiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar xolisona baholanganligi;
- baholash jarayonida qo‘llaniladigan uslublar va yondashuvlar bo‘yicha vujudga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar va farqlar konservativ va yuqori talab asosida yondoshish kabilar shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz tijorat banklarida har bir potensial mijoz ta’minotiga nisbatan kredit sifatini baholashda yagona yondashuvga erishish maqsadida keltirilgan reytingga qo‘shimcha ravishda kredit ta’minotining ishonchliligini aniqlashning balli tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun avvalambor kreditning qaytarilmaslik riskini hisoblash mexanizmi taklif qilinadi. Bu ko‘rsatkich (Kr) ni kredit ta’minotini (Kt) kredit miqdori (Km) ga bo‘lish yo‘li bilan aniqlashimiz mumkin:

$$Kr=Kt/Km*100\%$$

Kreditning qaytarilmaslik riski asosida, biz kredit ta’minoti sifatiga quyidagicha reyting baholarni berishni taklif qilamiz.

3-jadval: Kredit ta’minotining sifatini baholash mezonlari

Reyting baho (ball)	1	2	3	4	5
Kreditning qaytarilmaslik riski	125 va undan yuqori	100-125	80-99	60-79	60 dan past
Kredit ta’minotining sifat darajasi	kuchli	o‘rtacha	qoniqarli	xavfli	muammoli
Kredit foizining muddatiga nisbatan imtiyoz	ikki oygacha	O‘zgartirishsiz	Ogoxlantirish	Muddatidan oldin qaytarish choralarini ko‘rish	

Manba: muallif tomonidan tuzildi.

Har bir mijoz kredit ta’minoti riski “125” va undan kam ballga baholansa, bankda kredit ta’minoti bo‘yicha riskni yuzaga kelish muammosi borligini ko‘rsatadi. Bu esa bankda o‘z vaqtida chora ko‘rilmasa, risk darajasining oshib ketishi bank uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi to‘g‘risida xulosa qilishga asos bo‘ladi. Bunday kreditlar faoliyatini tijorat banki nazorat qilib borishi, majburiy ta’minot talablarni oshirish kabi chora-tadbirlarni ko‘rishi lozim.

Odatda banklar tomonidan berilgan kreditni garov ta’minoti hisobidan qoplashga manfaatdor emaslar. Shu bois, berilgan kredit va unga hisoblangan foiz to‘lovlarni pul tushumlari hisobidan so‘ndirishni ma’qul ko‘radi. Buning uchun bank kreditning asosiy summasi va hisoblangan foiz to‘lovlarining muddati yetib kelganda uni to‘lash nuqtayi nazaridan quyidagi klasslar bo‘yicha tasniflashni taklif qilamiz (4-jadval).

Masalan, ishlab chiqarish kompaniyalarida mablag‘ning: 70 foizi asosiy vositalarga joylashtiriladi, savdo-sotiq bilan shug‘ullanadigan tashkilotlarda ushbu aktivlar bor yo‘g‘i 10-15 foizni tashkil etadi Shuning uchun har bir alohida olingan korxona bo‘yicha garov turi va ularni baholash tartibi bank hamda kredit oluvchi o‘rtasida kelishiladi.

4-jadval: Kreditning asosiy summasi va hisoblangan foiz to‘lovlarining klasslar bo‘yicha tasniflashi

Klass	Shartlari
1-klass.	Korxona barcha kredit summasi va unga hisoblangan foiz to‘lovlarini tushumlar hisobidan 1 oy ichida so‘ndiradi.
2-klass.	Korxona barcha kredit va foiz summasini to‘lashga 2 oy ketadi.
3-klass.	Korxona kredit bilan bog‘liq barcha to‘lovlarni amalga oshirish uchun 3 oylik tushumlarni yo‘naltirishi lozim bo‘ladi.

Tadqiqotlar va o‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, tijorat banklari qisqa muddatli kreditlar uchun xom ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni garovga ko‘proq qabul qilish maqsadga muvofiq. Qisqa muddatga berilayotgan kreditlarning garov ta’minoti sifatida ko‘chmas mulklarni olish ma’qul emas, ko‘chmas mulklar asosan, uzoq muddatli kreditlarning garov ta’minoti sifatida qabul qilinadi.

Savdo va ishlab chiqarish vositalari, texnika, avtotransport, inventar va boshqa uskunalar kreditlarning garov ta’minoti sifatida olinganda, ularning bahosi ikkilamchi bozorda sotiladigan jihozlarni o‘rganish orqali aniqlanadi. Bunda asosiy e’tibor jihozlarning likvid qiymatiga qaratiladi. Jihozlarning likvid qiymati – bu ushbu

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

buyumlarni qisqa davr ichida sotish mumkin bo‘lgan bahosidir. Odatda jihozlarning likvid bahosi bozor bahosidan 10-30 foiz past bo‘ladi. Bundan tashqari, garov ta’minotini sotish vaqtida yuz berishi mumkin bo‘lgan bahosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajat usuli orqali aniqlanadi Shu bo‘yicha bank kredit bo‘yicha garov ta’minotining bahosi aniqlanadi, odatda ushbu baho joriy bahoning 50-60 foizini tashkil etadi.

Kredit oluvchi yuqoridagi klasslarning bittasiga to‘g‘ri kelsa, bank kredit shartnomasini tuzish bo‘yicha tegishli ishlarni boshlaydi. Bank kredit bo‘yicha qabul kilayotgan garov turi kredit olayottgan shaxsning faoliyat yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni muammoli kreditlarga aylanmasligini oldini olish maqsadida yuqoridagi takliflarga qo‘shimcha quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

- kredit ta’minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni saqlash va ekspluatatsiya sharoitini doimiy ravishda nazorat qilib borish;
- korxonaning mol-mulkini baholashda bankning mulkni baholash bo‘yicha mutaxassisiga ko‘proq imkoniyatlar yaratib berish. Chunki mijoz pullik baholash xizmatidan foydalanadigan bo‘lsa, uning kredit olgunga qadar qiladigan xarajatlari ortib ketadi.
- garov qiymatini aniqdashga garov bo‘yicha joriy etiladigan diskontlar, tavakkalchiliklar va boshqa bir qancha omillar ta’siri inobatga olish kerak;
- garov turi kredit olayotgan obyektning faoliyat yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liqligiga e’tibor qaratish lozim. Xususan, ishlab chiqarish korxonalarida asosiy vositalar, savdo-sotiq bilan faoliyati bilan shug‘ullanadigan tashkilotlarda tovar-moddiy qimmatliklar, jismoniy shaxslardan ko‘char yoki ko‘chmas mulklar, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar ta’minot sifatida qabul qilinadi;
- xorij amaliyotdagi baholash jarayonida qo‘llaniladigan axborotlarning ochiqligi va shaffofligi tajribasini mahalliy baholash amaliyotida kengroq joriy etish maqsadga muvofiq;
- xorijiy va mahalliy baholovchilar o‘rtasida amaliy va nazariy hamkorlikni qo‘lga qo‘yish bunda xalqaro konferensiya va seminarlarda ishtirok etish, amaliy baholash jarayonlarida ishtirok etish kabilar shular jumlasidandir.

Yuqorida taklif etilgan tavsiyalar va takliflarning barchasini amalga oshirish uchun kredit bo‘limi xodimlaridan qat’iyatlilik hamda mas’uliyatni talab etadi. Barcha amallarning o‘z muddatida to‘liq bajarilishigina tijorat banklarida kreditlarning “muammoli kreditlar”ga aylanishini oldini olish imkoniyatlari vujudga keladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yang Yang. Does high-quality auditing decrease the use of collateral? Analysis from the perspective of lenders’ self-protection // China Journal of Accounting Research 7 (2014) 203–221 www.elsevier.com/locate/cjar
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-noyabrdagi “Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4026-son Qarori.
3. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент)/ Под ред. д-ра экон. наук, проф. О.И.Лаврушина. – М.: Юристъ, 2002, 456-б.
4. Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. с англ. – М.: Дело, 1997, 192-б.
5. Abdullaeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2002. 187 b.
6. Tuxtabaev U. A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun avtoreferati. T, 2006.
7. “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: 2696, 2015 yil 14 iyul) Nizomi.
8. Constantine Christofides, Ruth Gleeson, Allan Kearns and Rosanna Lynch Framework for enhanced modelling of collateralised lending // Procedia Economics and Finance 29 (2015) 183 – 194 www.elsevier.com/locate/procedia
9. José A. Castilloa, Andrés Mora-Valenciab, Javier Perotec. Moral hazard and default risk of SMEs with collateralized loans // Finance Research Letters 26 (2018) 95–99 www.elsevier.com/locate/frl
10. Abdikarimova D.R. “Bank kreditlari garov ta’minotini baholash amaliyotini takomillashtirish yo‘llari” PhD ilmiy darajasi olish uchun yozgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2018, 61 bet.
11. Конференция “Управление залогами и проблемными активами: актуальные проблемы и тенденции” / Журнал “Имущественнаые отношения в РФ” № 5 (152) 2014 стр-103.
12. Drobozina L. A. Finansы, denejnoe obrashenie, kredit –Moskva. YuNITI, 2000. - 329 s.

HUFIYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH ORQALI MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI



Pardayev Ilhomjon G‘ulom o‘g‘li
Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosida vujudga kelayotgan xufiyona iqtisodiyot ulushini bojxona to‘lovlarini takomillashtirish orqali qisqartirish bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan va boj-tarif siyosatini isloh qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xufiyona (yashirin) iqtisodiyot, tashqi savdo, bojxona to‘lovlari, bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar, tovarning bojxona qiymati, boj-tarif siyosati, soliqlar, majburiy to‘lovlar.

Abstract: This article analyzes issues related to reducing the share of the secret economy in the foreign trade of the Republic of Uzbekistan by improving customs payments, and also develops proposals for reforming customs policy.

Key words: secret (hidden) economy, foreign trade, customs duties, customs duty benefits, customs value of goods, customs policy, taxes, mandatory payments.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы, связанные со снижением доли тайной экономики во внешней торговле Республики Узбекистан за счет совершенствования таможенных платежей, а также разрабатываются предложения по реформированию таможенной политики.

Ключевые слова: тайная (скрытая) экономика, внешняя торговля, таможенные сборы, льготы по таможенным сборам, таможенная стоимость товаров, таможенная политика, налоги, обязательные платежи.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlarni tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi savdoni erkinlashtirish jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biriga aylanmoqda. Tashqi savdo va mamlakatning iqtisodiy o‘sishi o‘rtasidagi munosabatlar umumiy deb tan olingan. Shu bilan birga, tashqi bozorga chiqishda davlat xufiyona iqtisodiyot kabi hodisaga duch keladi.

Zamonaviy bosqichda xufiyona iqtisodiyot global muammolardan biri sifatida qaralmoqda hamda ko‘pgina davlatlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar sifatida alohida ta’kidlab o‘tiladi.

Sertifikatlangan buxgalterlar assotsiatsiyasi (ACCA – Association of Chartered Certified Accountants) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda 28 ta davlatda 2025 yilga kelib xufiyona iqtisodiyotning ko‘lami (YaIMga nisbatan foizda) prognozlari ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, Nigeriyada 47%, Rossiyada 39%, Braziliyada 34%, Turkiyada 22%, Kanadada 19%, Hindistonda 14%, Buyuk Britaniyada 11%, Xitoyda 10%, Avstraliyada 9%, AQShda 7%ni qayd etgan [1].

Jahon banki ma’lumotlarida xufiyona iqtisodiyotning darajasi turli davlatlarda quyidagicha farqlanadi: masalan, Shveytsariyada 8,6%, Xitoyda 12,9%, Rossiyada 43,6%, Boliviyada 66,4% atrofida. Shuningdek, dunyo bo‘yicha bu ko‘rsatkichning o‘rtacha darajasi YaIMning 17,2% ni tashkil etishi ko‘rsatilgan.

Hozirgi kunda xufiyona iqtisodiyot muammolarini o‘rganish ko‘pchilik mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mavjud ma’lumotlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, xufiyona iqtisodiyot turli darajalarda bo‘lsada barcha davlatlarda mavjud.

Ta’kidlash joizki, davlat o‘z tashqi savdosini tartibga solishda va liberallashtirishda xufiyona iqtisodiyot kabi boshqarish mushkul hodisaga to‘qnash keladi. Xufiyona iqtisodiyotning rivojlanish miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog‘liqdir.

Xozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan xufiyona iqtisodiyotni o‘rganish bir qancha yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishlarni turli ko‘rinishda ekanligini xufiyona iqtisodiyot shakllari va salbiy oqibatlari, uning murakkabligi hamda tadqiqotchilar izlanishlaridagi turli nazariy va amaliy vazifalardagi tafovutlar bilan izohlash mumkin. Bugungi kunga qadar xufiyona iqtisodiyot muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar bilan tanishib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, xufiyona iqtisodiyot muammolarini o‘rganish va uning mazmunini ochib berish uchun asosan quyidagi to‘rtta yondashuv shakllangan. Xususan: yuridik (rasmiy-huquqiy), iqtisodiy, hisob-statistik, kompleks yondashuvlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TANQIDIY TAHLILI

Yuridik (rasmiy-huquqiy) yondashuvda xufiyona iqtisodiyot qonunga zid harakat deb baholanadi. Bunda uning tabiatini belgilovchi asosiy holatlar sifatida rasmiy yoki davlat ro‘yxatidan o‘tmasligi, davlat nazoratidan chetdaligi, noqonuniy ekanligini keltirish mumkin.

Masalan, tadqiqotchilar D. Makarov va V. Esipov xufiyona iqtisodiy faoliyatning asosiy diqqatga sazovor jihati uning nazoratsiz ekanligiga e’tibor qaratadilar. Ularning fikricha, ochiq nazorat usullari orqali bu iqtisodiyot to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish amalda mumkin emas [2, 3].

Tadqiqotchilar V. Ispravnikov va V. Kulikov iqtisodiyotning xufiyona iqtisodiyot deb sanalishi uchun uning rasmiy yoki davlat ro‘yxatidan o‘tmasligi, noqonuniy xususiyatga ega ekanligini asos qilib olganlar [4].

B. Dallago xufiyona iqtisodiy jarayonlarga baho berish uchun nomuntazam iqtisodiyot tushunchasini ishlatadi, bunda muntazam belgilangan qoida va qonunlarga bo‘ysunmagan yoki davlat boshqaruv organlari va nazoratidan yashirin bo‘lgan iqtisodiy agentliklar faoliyati tushunilgan [5].

Iqtisodiy yondashuvda xufiyona iqtisodiy munosabatlarni ifodalashda asosan iqtisodiy kategoriyalar qo‘llaniladi. Ya’ni xufiyona iqtisodiyotga nisbatan soliqlar to‘lashdan yashirilgan iqtisodiy faoliyat deb qaraladi.

Hisob-statistik yondashuvda xufiyona iqtisodiy munosabatlarning asosiy mezoni sifatida ularning rasmiy statistikada qayd qilinmasligi hisoblanadi. Mazkur yondashuv Milliy hisoblar tizimi (MHT) metodologiyasiga asoslangan bo‘lib, uning asosiy mohiyati ham iqtisodiy faoliyatda rasmiy statistik hisobning yo‘qligidir. MHT metodologiyasiga ko‘ra, barcha xufiyona iqtisodiyotning paydo bo‘lishi ikki guruhga bo‘linadi:

a) natijalari YaIM hajmida hisobga olinuvchi faoliyatning mahsuldor ko‘rinishlari;
b) YaIM hajmini hisoblashda inobatga olinmaydigan va statistik xatolarni kamaytirish maqsadida qayd qilinadigan shaxsga va mulkka qaratilgan jinoyatlar.

Ushbu yondashuvning afzallik tomoni shundaki, bunda umum qabul qilingan MHT metodologiyasi asosida iqtisodiy faoliyatning yashirin qismiga miqdoriy baho berish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvning kamchiliklari ham mavjud. Jumladan, mazkur yondashuv orqali YaIM hajmini yaratishga ta’sir etmaydigan iqtisodiy huquqbuzarliklar va jinoiy faoliyatlarning hajmi, ularning tuzilmasi va iqtisodiy tizimga ta’sirini baho berish imkonini bermaydi. Shuningdek, ushbu yondashuvdan foydalanishda statistik ma’lumotlar bazasining yetarli emasligi va ishonchsizligi asosiy muammo bo‘ladi.

Kompleks yondashuv asosini yuqorida keltirilgan jihatlarni borligicha olib o‘rganish tashkil qiladi. Masalan, A.Shoxin xufiyona iqtisodiyotni belgilari sifatida iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob yuritilmasligi, reglamentni yo‘qligi va noqonuniylik holatlarini sanab o‘tadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada joriy yo‘nalishni davom ettirgan holda mamlakat iqtisodiyotidagi xufyona iqtisodiyotni bartaraf qilishimiz mumkinligi regression va korrelyatsion model orqali tahlil qilinib kelajakda mamlakatimizda qo‘llash bo‘yicha amaliy taklif va tafsiyalar keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olimlar va tadqiqotchilar tomonidan xufiyona iqtisodiyotni turli xil yondashuvlar va qarashlar nuqtayi nazaridan tadqiq etishlari, ushbu illatni tasniflashda ham yakdil fikrga kelinmasligiga olib kelmoqda. Xususan, hufiyona iqtisodiyot muammolarini o‘rganish va uning mazmunini ochib berishga qaratilgan iqtisodiy va hisob-statistik yondashuvlardan kelib chiqib, yashirin iqtisodiyotga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Yashirin iqtisodiyot” o‘zida qonunga zid bo‘lgan, shuningdek, uning subyektlari belgilangan soliqlarni to‘lashdan, ijtimoiy to‘lovlarni topshirish yoki belgilangan ma’muriy majburiyatlarni bajarishdan qochish maqsadida, rasman hisobga olinmaydigan yoki kamaytirib ko‘rsatishda ifodalangan faoliyatdir.

Shuningdek, O‘zbekiston ensiklopediyasida: “Yashirin iqtisodiyotga - ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari kiradi”- deb ko‘rsatilgan [9].

Ta’kidlash joizki, tashqi savdo sohasidagi noqonuniy iqtisodiy faoliyat bu tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari tomonidan bojxona to‘lovlari va soliqlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash va qo‘shimcha foyda olish hamda moliyaviy

resurslarni mamlakat tashqarisiga olib chiqish maqsadida amalga oshiriladigan shubhali yoki noqonuniy moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalari hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tashqi savdoda yashirin iqtisodiyot tushunchasini - tovarlarni bojxona hududiga olib kirishda va olib chiqishda bojxona nazoratini chetlab yoki tovarlarni noqonuniy tarzda yashirib o‘tish, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashning turli xil holatlari, bojxona organlari tomonidan yuritiladigan rasmiy statistikalarda aks etmagan jarayonlar deb ta’riflash mumkin.

Demak, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, bojxona to‘lovlari sohasida yashirin iqtisodiyot elementlariga sabab bo‘luvchi quyidagi:

a) bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish maqsadida tovarlarni TIF TN kod raqamlarini noto‘g‘ri ko‘rsatish;
b) tovarning bojxona qiymatini pasaytirib ko‘rsatish, soxta hujjatlardan foydalanib tovarni miqdor va qiymatini yashirishga urinish;
d) bojxona to‘lovlaridan qochish maqsadida tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi TIF TNning past stavkali tovarlar niqobi ostida yashirgan holda olib kirilishi kabi holatlarni kiritishimiz mumkin.

Mazkur omillar bevosita bojxona to‘lovlarining miqdoriga ta’sir etadi hamda bojxona to‘lovlarining qo‘shimcha hisoblanishiga olib keladi. Qayd etish lozimki, yashirin iqtisodiyotning bojxonaga oid asosiy yo‘nalishlaridan biri - bu bojxona to‘lovlaridan qochish maqsadida, ayrim “uddaburon” tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan noqonuniy xatti harakatlar hisoblanadi.

Bu kabi holatlarga nisbatan samarali kurash olib borish uchun avvalo, o‘tgan yillar davomida bojxona organlari tomonidan qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari statistikasini chuqur tahlil qilgan holda kelgusidagi ustuvor vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bojxona organlarida 2020-2022-yillarda qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini kelib chiqish sabablarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyozlarni noto‘g‘ri qo‘llanilishi 0,7 foizga, tovarlarning bojxona qiymatini past ko‘rsatilishi holatlari 9,9 foizga, soxta kelib chiqish sertifikatining taqdim etilishi holati 4,2 foizga o‘sgan va aksincha, tovarlarning TIF TNga xos kod raqamlarini noto‘g‘ri belgilanishi 5,7 foizga, boshqa holatlar 5,5 foizga kamaygan.

Shuningdek, oxirgi yillarda imtiyozlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi, tovarlarning bojxona qiymatini past ko‘rsatilishi holatlari qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarining kelib chiqish sabablarida asosiy salmoqni egallab turibdi.

Bojxona organlari tomonidan 2020-2022 yillar davomida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlari bo‘yicha umumiy qiymati 24,9 mlrd. so‘mlik 41 ta jinoiy ishlar qo‘zg‘atilgan. Xususan:

- 2020-yilda 21 ta (14,7 mlrd. so‘m)
- 2021-yilda 9 ta (2,7 mlrd. so‘m)
- 2022-yilda 11 ta (7,5 mlrd. so‘m) jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, ish materiallari tergov organlariga topshirilgan:

Mazkur holatlarini sohalar kesimida tahlil qilib ko‘rilganda, 7,75 mlrd. so‘mi (38,1%) maqsadsiz ishlatilgan trikotaj mahsulotlari, 3,87 mlrd. so‘mi (19%) importyor korxonaning faoliyat turi mos kelmasada, imtiyoz asosida rasmiylashtirilgan yem mahsulotlari, 3,43 mlrd. so‘mi (16,9%) maqsadsiz ishlatilgan tekstil mahsulotlari, 2,50 mlrd. so‘mi (12,3%) maqsadsiz ishlatilgan xo‘jalik mollari, 2,80 mlrd. so‘mi (13,8%) boshqa tovarlar bo‘yicha yuritilgan [7].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bojxona to‘lovlarining to‘g‘ri va to‘liq undirilishi hamda ularni qo‘shimcha hisoblanishining maksimal darajada kamaytirilishi, hufiyona iqtisodiyotni qisqarishiga olib keladi. Xususan, quyida keltirilgan muammolarning mavjudligi natijasida bojxona to‘lovlarining qo‘shimcha hisoblanishiga sabab bo‘lmoqda.

Birinchi muammo sifatida, bugungi kunda tovarning bojxona qiymatini pasaytirish maqsadida, yuk-kuzatuv hujjatlarini soxtalashtirish kabi holatlar ko‘paygan.

Ikkinchi muammo sifatida, amaliyotda bojxona to‘lovlarini pasaytirish maqsadida, ayrim nohalol TIF ishtirokchilari tomonidan ikki xil shakldagi, ya’ni haqiqiy va soxta hujjatlar to‘plamini parallel yuritish sxemasidan foydalanilishi. Ushbu sxema quyidagicha tartibda ishlaydi: qo‘shni mamlakatlar bojxona chegarasi orqali tovarlar haqiqiy hujjatlarni taqdim qilgan holda olib o‘tiladi, shundan keyin ushbu hujjatlar to‘plami soxtasi bilan almashtiriladi hamda O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o‘tiladi. Bunday sxemalar paydo bo‘lishining asosiy sababi sifatida, O‘zbekiston Respublikasining asosiy savdo sheriklari sanalgan ayrim davlatlarning bojxona xizmatlari bilan o‘zaro ma’lumotlar almashish mexanizmi yo‘qligini keltirish mumkin.

Uchinchi muammo sifatida, import bojxona boji stavkalarini belgilashda nomutanosibliklar mavjudligi bilan izohlanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi boj-tarif stavkalarini ishlab chiqishning samarali mexanizmi yoki algoritmi ishlab chiqilmaganligi, import boji stavkalarining hisobot yilida kamida ikki marotaba o‘zgartirilishiga olib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-sonli qaroriga muvofiq, 2019-yilning 1-yanvaridan yangi qabul qilingan import boji stavkalari qo‘llanilishi belgil-

angan edi. Biroq, ushbu qaror hali kuchga kirmasdan turib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi PQ-4086-sonli Qarori bilan ushbu import boji stavkalariga o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, jami 11 295 tovar pozitsiyasidan 2 898 tasi bo‘yicha bojxona boji stavkalari tushirilib, 7 083 (5 886) ta tovar pozitsiyasi uchun bojxona boji 0 stavka miqdorida belgilandi.

Avvalgi bojxona boji stavkasi o‘rtacha arifmetik hisobi bo‘yicha 6,45 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yangidan joriy qilingan bojxona boji stavkasi bo‘yicha esa 5,59 foizni tashkil etib, 1,15 barobarga kamaygan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 2019-yil 2-oktyabrdagi PQ-4470-son qarori bo‘yicha bu borada bir qator o‘zgarishlar bo‘ldi. Xususan, 1 096 ta tovar pozitsiyasiga nisbatan belgilangan import bojxona boji stavkalari oshirildi. 208 ta tovar pozitsiyasiga – bojxona boji stavkalari pasaytirildi. Aralash stavkalar – 1 561 ta tovar pozitsiyasiga nisbatan belgilanib, 348 taga oshgan bo‘lib, kiritilgan o‘zgarishlar natijasida import bojxona bojining o‘rtacha arifmetik stavkasi miqdori 8,02% ga teng bo‘ldi [8].

To‘rtinchi muammo sifatida, noqonuniy bitimlarni amalga oshirish maqsadida, qisqa muddatga tashkil qilinadigan “bir kunlik firmalar” firmalarning amaliyotda mavjudligini hamda boshqa ko‘plab muammolarni keltirish mumkin.

Ta’kidlab o‘tilgan holatlarni oldini olish har bir mamlakat uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki xufiyona iqtisodiyotning darajasi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligiga va milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Davlat va jamiyat a’zolari o‘rtasidagi iqtisodiy muammolardan biri – bu soliq va bojxona to‘lovlarini to‘lamaslik yoki to‘lovlarni ataylab kechiktirish holati hisoblanadi. Iqtisodiy subyektlar o‘zlarining yashirin faoliyatlari natijasida olgan daromadlarini davlatning tegishli organlaridan yashirishi, soliq va bojxona to‘lovlarni to‘lamasligi oqibatida davlat byudjetiga tushishi lozim bo‘lgan mablag‘lar tushmaydi. Bundan tashqari, jamiyat a’zolarining ixtiyoridagi daromadlarini to‘liq hisobga olish imkoni bo‘lmaydi. Bu esa, davlatni kelajakda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosatini chalg‘ituvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi muammoli masalalarga ijobiy yechim topish uchun tashqi savdoda xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida, boj-tarif siyosatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash maqsadga muvofiq sanaladi:

- bojxona to‘lovlarini to‘liq undirilishiga ta’sir etadigan yuk-kuzatuv hujjatlaridagi soxtalashtirishlarni oldini olish maqsadida, hujjatlarni doimiy o‘rganib, tahlil qilib borish uchun yagona tizim ishlab chiqish;
- O‘zbekiston Respublikasining asosiy savdo sheriklari sanalgan davlatlarning bojxona xizmatlari bilan o‘zaro ma’lumotlar almashish mexanizmini takomillashtirib, onlayn rejimda doimiy ishlashini ta’minlash;
- O‘zbekiston Respublikasi boj-tarif siyosatini boshqa rivojlangan xorijiy davlatlardagi singari fundamental mexanizmlarga asoslangan holda, xom ashyo va tayyor mahsulotlarga, shuningdek bir hil turkumga mansub bo‘lgan tovarlarga nisbatan maqbul import boji stavkalarini belgilash;
- o‘zida milliy iqtisodiy manfaatlarni aks ettirgan “Milliy boj-tarif strategiyasi”ni ishlab chiqish hamda mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim tovarlar kategoriyasini aniqlash hamda bu turdagi tovarlarga maqbul tarif stavkalarini joriy etish.

Mazkur xulosa va takliflarni inobatga olgan holda, tashqi savdoni tartibga solishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish, tashqi savdoda xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishga olib kelib, uni yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sertifikatlangan buxgalterlar assotsiatsiyasi “ACCA” (Association of Chartered Certified Accountants) hisoboti ma’lumotlari asosida shakllantirildi. “Emerging from the shadows. The shadow economy to 2025” // https://www.accaglobal.com/gb/en.html
2. Макаров Д. Экономические и правовые аспекты теневой экономики в России // Вопросы экономики, 1998, №3. – С.21-24.
3. Есипов В. М. Теневая экономика. – М.: 1997. – С.42.
4. Исправников В. О., Куликов В. В. Теневая экономика: иной путь и третья сила // Российский экономичекий журнал, 1997, №3. – С.13-14.
5. Dallago B. (1994) The irregular economy in transition: features, measurment and scope. In: Output Decline in Eastern Europe: Unavoidable, Extertal influence or Homemade? Ed. by R.Z. Holzman efal. IIASA, Luxemburg.
6. Шохин А. Н. Социальные проблемы перестройки. – М.: Экономика, 1989.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-oktyabrdagi PQ-4470-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
9. https://qomus.info/oz.

JAHONDAGI KUZATILAYOTGAN GLOBALLASHUV VA TABIATDAGI O‘ZGARISHLAR OQIBATIDA KELIB CHIQAYOTGAN TURLI XATARLARDAN HIMOYA QILISHDA SUG‘URTA TASHKILOTLARI OLDIDA TURGAN VAZIFALAR (“O‘ZBEKINVEST” EISK AJ MISOLIDA)



Sayfullo Mirzoyev
“O‘zbekinvest” EISK AJ Korporativ mijozlar bilan ishlash va hududiy rivojlantirish departamenti Bosh menejeri

Annotatsiya: Globallashuv, iqlim o‘zgarishlari, kuzatilayotgan turli tabiiy ofatlar, jumladan kuchli shamol, sunami, to‘fon, yer qimirlashi, toshqinlar, kuchli dovul, do‘l, bo‘ron va kabi hodisalarning sodir bo‘lishi insonlar hayotiga, mol-mulklariga hamda ishlab chiqarish jarayoniga katta xavf solmoqda. Ushbu kuzatilayotgan xavf-xatarlarning oldini olish va zararlarni kamaytirish uchun barcha mamlakatlarda Davlat darajasidagi ahamiyatga ega bo‘lmoqda, qolaversa barcha sohalar ushbu masalada birdek mas’ul hisoblanadi. Xususan, sug‘urta xizmatlarining alohida o‘rni mavjud.

Jumladan, sug‘urta zararlarni qoplab berishda himoya vositasini bajarishi lozim. Buning uchun sug‘urta xizmatlari ko‘lamini yanada kengaytirish va rivojlantirish, sug‘urta anderraytingini yo‘lga qo‘yish, havflarni boshqarish, zarar miqdorini kamaytirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu o‘z navbatida bugungi kunda dolzarb bo‘lgan masalani yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishlari, iqlim, ob-havo sharoiti, global risklar, iqtisodiyot tarmoqlari, sug‘urta faoliyati, anderrayting, sug‘urta risklari, anderrayter, risklarni baholash, texnogen holat.

Abstract: Globalization, climate changes, and the occurrence of various natural disasters, including strong winds, tsunamis, typhoons, earthquakes, floods, strong hurricanes, hailstorms, storms, etc., pose a great threat to human life, property, and the production process. Prevention of these observed risks and reduction of damages is becoming important at the State level in all countries, and all sectors are equally responsible in this matter. In particular, insurance services have a special place.

In particular, the insurance must fulfill the protection means in covering the damages. For this purpose, research is being carried out to further expand and develop the scope of insurance services, establish insurance underwriting, manage risks, and reduce the amount of damage. This, in turn, is aimed at highlighting an issue that is relevant today.

Key words: climate changes, climate, weather conditions, global risks, economic sectors, insurance activity, underwriting, insurance risks, underwriter, risk assessment, man-made state.

Аннотация: Глобализация, изменение климата, возникновение различных стихийных бедствий, в том числе сильных ветров, цунами, тайфунов, землетрясений, наводнений, сильных ураганов, градов, ураганов и т. д., представляют большую угрозу для жизни людей, имущества и производственного процесса. Предотвращение этих наблюдаемых рисков и снижение ущерба становится важным на государственном уровне во всех странах, и все сектора несут равную ответственность в этом вопросе. В частности, особое место занимают страховые услуги.

В частности, страхование должно выполнять средства защиты при покрытии ущерба. С этой целью проводятся исследования по дальнейшему расширению и развитию сферы страховых услуг, налаживанию страхового андеррайтинга, управлению рисками, снижению размера ущерба. Это, в свою очередь, направлено на освещение актуального на сегодняшний день вопроса.

Ключевые слова: иқлим ўзгаришлари, иқлим, об-ҳаво шароити, глобал рисклар, иқтисодиёт тармоқлари, суғурта фаолияти, андеррайтинг, суғурта рисклари, андеррайтер, рискларни баҳолаш, техноген ҳолат.

KIRISH

Bugungi kundagi shiddatli globallashuv, tabiatda sodir bo‘layotgan turli tabiiy ofatlar, texnogen hodisalar, ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlar va ba’zi sohalarda murrakkab texnologiyalarning qo‘llanilishi oqibatida insonlar hayoti/sog‘lig‘i, ularning mol-mulki hamda korxonalar faoliyatiga ta’sir etuvchi xavf-xatarlar ortib bormoqda.

Ushbu xatarlarni oldini olish yuzasidan jahon hamjamiyati va tegishli tashkilotlar doimiy ravishda vaziyatni o‘rganib bormoqda hamda zararlar kamaytirish yuzasidan choralarni ko‘rib, turli tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

Jumladan, Birlashgan millatlar tashkilotida (BMT) tomonidan Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish Xalqaro strategiyasi, Xalqaro Fuqaro muhofazasi tashkiloti va Osiyo tabiiy ofatlar xatarini kamaytirish markazi tashkil etilgan. BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 17-yanvardagi rezolyusiyasiga asosan 13 oktyabr sanasi “Xalqaro halokatlar xavfini kamaytirish kuni” deb e’lon qilingan hamda tashkilotga a’zo davlatlarga ushbu kunni munosib nishonlash, turli dasturiy rejalarni ishlab chiqish va tegishli choralarni ko‘rish tavsiya qilingan.

BMTning oxirgi o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, hisobotlarda bugungi kunda dolzarb bo‘lib turgan iqlim o‘zgarishlari, xususan havoning isib borayotgani, bu borada 2025-2030-yillarda umumiy temperaturaning ko‘tarilishini 1,50 oralig‘ida ushlab turish dolzarb vazifa ekanligi ko‘rsatilgan [1].

ASOSIY QISM

Dunyoda oxirgi vaqtlarda kuzatilayotgan turli tabiiy ofatlar, jumladan kuchli shamol, sunami, to‘fon, yer qimirlashi, toshqinlar, kuchli dovul, do‘l, bo‘ron va kabi hodisalarning sodir bo‘lishi insonlar hayotiga, mol-mulklariga hamda ishlab chiqarish jarayoniga katta xavf solmoqda. Jumladan, tabiiy ofatlar natijasida oxirgi 10 yilda 410 mingdan ko‘proq kishi halok bo‘lgan. BMTning Jahon meteorologiya tashkiloti ma’lumotlariga tayanib ma’lum qilishicha, oxirgi 50 yil ichida iqlim, ob-havo sharoiti bilan bog‘liq 11 mingga yaqin tabiiy ofat yuz bergan, ulardan ko‘rilgan umumiy zarar 3,6 trln. dollarni tashkil qilgan [2].

Iqlimiy o‘zgarishlarga moslashish borasidagi sa’y-harakatlarning yetarli darajada emasligi tabiiy ofatlar riskining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Har bir riskka qarshi kurash yoki uning oldini olish o‘ziga xos xatti-harakatlarni talab qilishiga qaramay, muayyan tamoyillarga amal qilish barcha turdagi risklarga tayyorlik darajasini oshirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, global risklarning potensial oqibatlariga tayyor turishda quyidagi to‘rt tamoyilga amal qilish tavsiya etilmoqda[3]:

- risklarni aniqlash va oldindan ko‘ra bilish qobiliyatini kuchaytirish;
- “kelajakdagi” risklarning bugungi qiymatini qayta kalibrlash;
- ko‘p tomonlama risklarga tayyorgarlik ko‘rishga investitsiya kiritish;
- tayyorgarlik va javob choralari bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish.

2023-yil yanvar oyida Jahon iqtisodiy forumi (WEF)ning global xavf-xatarlarga bag‘ishlangan 2023-yilgi hisoboti, insoniyat bugun va yaqin kelajakda yuzlashishi kutilayotgan xavf-xatarlar hamda global risklarga bag‘ishlangan. Global risklar uchta davrda: hozirgi kunda namoyon bo‘layotgan risklar, yaqin ikki yilda va yaqin o‘n yilda eng og‘ir oqibatlarga olib kelishi kutilayotgan risklar sifatida baholangan. Namoyon bo‘lish sohasiga ko‘ra ular iqtisodiy, atrof-muhit, geosiyosiy, ijtimoiy hamda texnologik risk toifalari bo‘yicha ajratilgan.

Ushbu kuzatilayotgan xavf-xatarlarning oldini olish va zararlarni kamaytirish uchun barcha mamlakatlarda Davlat darajasidagi ahamiyatga ega bo‘lmoqda, qolaversa barcha sohalar ushbu masalada birdek mas’ul hisoblanadi. Jumladan, sug‘urta zararlarni qoplab berishda himoya vositasini bajarishi lozim. Buning uchun sug‘urta xizmatlari ko‘lamini yanada kengaytirish va rivojlantirish, sug‘urta anderraytingini yo‘lga qo‘yish, ilg‘or va zamonaviy xizmatlarni amaliyotga jalb qilish, malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda mijozlarga sug‘urta avfzalliklarini yetkazish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Prezidentlik lavozimida ish boshlagan kunlaridan va hozirgi kunga qadar mamlakatimiz miqyosida keng ko‘lamdagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun ilg‘or xorijiy moliya institutlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi, xususan tadbirkorlik subyektlari va ishlab chiqarish sohalarini moliyaviy qo‘llab-quvatlash maqsadida ko‘plab imtiyozli kredit mablag‘lari jalb etilmoqda.

Shuningdek, huquqiy va me’yoriy hujjatlar xalqaro va zamon andozalariga moslashtirilmoqda. Ushbu islohotlar mamlakatimizda ijobiy o‘zgarishlar ta’minlashga va aholi turmush sharoitlarini yanada yaxshilashga xizmat qilishi uchun yo‘naltirilmoqda.

Iqtisodiyot tarmog‘ining ajralmas qismi va aholining ijtimoiy himoyasi uchun xizmat qiladigan soha hisoblangan sug‘urtada ham keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, me’yoriy-huquqiy bazasi takomillashtirilmoqda, elektron sug‘urta tizimi va sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlarini qabul qilinmoqda hamda sug‘urta xizmatlarini yanada rivojlantirish, sohaning investorlar uchun jozibador bo‘lishini ta’minlash yuzasidan tadbirlar olib borilmoqda.

Jumladan, 23.11.2021-yildagi yangi tahrirdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi [4] Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.08.2019-yildagi PQ-4412-sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [5] va 23.10.2021-yildagi PQ-5265-sonli “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi6 qarorlarining qabul qilinishi buning yaqqol misolidir.

Ushbu hujjatlarida sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uchun faoliyatlarini yanada jadallashtirish, ularning rolini oshirish orqali sug‘urta bozorida xizmatlar hajmini ko‘paytirish, iste’molchilar va sug‘urta faoliyatining boshqa subyektlari huquqlarini mustahkamlash, sug‘urta savodxonligini oshirish, sug‘urta xizmatlari ochiqligi va shaffofligini ta’minlash kabi me’yor va talablar qo‘yilgan.

Bundan tashqari, sug‘urtaning respublika iqtisodiyotidagi o‘rnini mustahkamlash, aholini sug‘urtalash qamrovini kengaytirish, zamonaviy, sifatli va tezkor xizmatlarni ta’minlash vazifalari belgilangan.

2019-yil 10-iyulda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev sug‘urta sohasi vakillari bilan o‘tkazilgan yig‘ilishda juda katta vazifalarni belgilab berdilar. Jumladan, “Sug‘urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biri, biroq mamlakatimiz moliya bozorida bu xizmatlarning o‘rni hozircha yetarli emas, buning asosiy sabablaridan biri - sug‘urta xizmatlari yetarli darajada jozibador emas” hamda “Sug‘urta sohasini o‘rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, 2022-yilgacha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti hajmini 3 baravar, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini esa 2 baravar oshirish vazifasi qo‘yiladi” dedilar [7].

2022-yil yakuniga ko‘ra mamlakatimiz YaIMda sug‘urtaning ulushi 0,5% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich sug‘urtasi rivojlangan va rivojlanib kelayotgan davlatlatlarda (Germaniya, Shveytsariya, Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya va boshqa davlatlarda) ancha yuqoridir (1-jadvalga qarang) [8].

1-jadval: Rivojlangan va rivojlanib kelayotgan davlatlatlarda 2022-yil yakuniga ko‘ra YaIMda sug‘urtaning ulushi

Davlatlar nomi	Sug‘urtaning YaIMdagi ulushi, (%)	Aholi jon boshiga sug‘urta mukofoti, (AQSh dollari)
O‘zbekiston	0,5%	7
Rossiya	1,2%	166
Xitoy	8,3%	340
Jan. Koreya	11,0%	3453
Germaniya	6,0%	1700
Belorusiya	0,9%	75
Shveytsariya	10,0%	5356

Ayni damda ushbu davlatlar tajribasini o‘rganish va amaliyotga tatbiq qilish hayotiy zaruriyat bo‘lmoqda va shu bilan birga sug‘urta xizmatlarining asosiy vositalaridan biri bo‘lgan anderrayting tizimini rivojlantirish talab etilmoqda.

Bugungi kunda sohada qilinadigan ishlar hali juda ko‘p, sababi aholining sug‘urta bilan qamrovi past, tashkilot va korxonalardagi sug‘urta obyektlarida risklar yetarlicha o‘rganilmayapti. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalarida anderrayting tizimi yetarli darajada shakllanmagan, sohada risklarni boshqaruvchi ekspertlar yoki anderrayter mutaxassislar yetarli emas deb hisoblaymiz. Shu bilan birga risklarni to‘g‘ri baholab borish va mijozlarga ehtimoliy ko‘riladigan zararlarni olish imkoniyalarini ko‘rsatib berish uchun sug‘urtada anderaytingni tizimli tashkil etish talab etilmoqda.

Sug‘urtada anderrayting bu, kompaniyalar sug‘urta portfelini shakllantirish, sug‘urta risklarini aniqlash va to‘g‘ri baholash, risklarning kelib chiqishi va ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlar yuzasidan statistik sug‘urta taxlillarini olib borishdan iboratdir. Anderrayting jarayonlari avvalo sug‘urtalanuvchining moliyaviy imkoniyatini o‘rganilishi, statistik ma’lumotlarni yig‘ilishi va sug‘urta obyekti ekspertizadan o‘tkazilishi, shundan so‘ng qaror chiqarib sug‘urta shartnomasi imzolash zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ushbu xizmatlarni mujassam qilganda sug‘urta tashkiloti mijozlarga zamonaviy, sifatli va shaffof xizmatlarni ko‘rsatish orqali foyda ko‘rishini ta’minlaydi. Albatta bu ishlarni qilish uchun sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta mutaxassislarni, jumladan sug‘urta anderrayterlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirib borish talab etiladi.

Xorij tajribasidan kelib chiqib va sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta portfelini ishlab chiqish jarayoni murakkabligini inobatga olib, anderrating tizimini quyidagicha yo‘lga qo‘yish taklif etilmoqda:

- risklarga baholashda, risklarni katta kichikligiga va sug‘urta kompaniyasiga kelajakda keltiradigan zararini prognoz qilish.

- sug‘urta tariflarini adolatli belgilash.
- sug‘urtalashda shartnoma shartlari hisobga olish va franshizani qo‘llash.
- sug‘urta portfelini foydali va asosli bo‘lishini ta’minlashda anderrayterlar javobgarligini ularning asosiy vazifasi etib belgilash.

“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasida anderayting tizimini yuritish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan sug‘urta portfelini yurituvchi maxsus tuzilma tashkil etilgan, malakali mutaxassislar va anderrayterlarni tayyorlash uchun o‘quv va malakasini oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Jumladan, xodimlarga har haftalik vebinar va o‘quv-seminarlari tashkil etilmoqda hamda har oy yakunida xodimlar savodxonligi yuzasidan elektron shaklda test sinovlar o‘tkazilmoqda. Kompaniya bo‘yicha 2019 yildan boshlab filiallar va quyi tuzilma xodimlari xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlariga malaka oshirib kelmoqda. Shu kunga qadar xorijda 145 nafar xodim malaka oshirib kelgan. Amalga oshirilayotgan ishlar albatta o‘z natijasini bermoqda, xususan kompaniya bo‘yicha 2019-yilda 285,0 mlrd. so‘m sug‘urta mukofoti yig‘ilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 930,0 mlrd. so‘mni yoki 3 yilda umumiy o‘sish 325% ni tashkil etdi (2-jadvalga qarang) [9].

2-jadval: 2019-2022-yillarda yig‘ilgan sug‘urta mukofotining o‘sish ko‘rsatkichlari

Sug‘urta mukofoti tushumi (mln. so‘m)						
2019-yil	**2020-yil**	**O‘sish, %**	**2021-yil**	**O‘sish, %**	**2022-yil**	**O‘sish, %**
285 609,0	262 869,0	92%	385 385,0	147%	930 534,0	241%

“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasida 2021-yildan boshlab aholi bilan ishlash uchun alohida dasturlar belgilab olingan hamda mahallalar bilan hamkorlik qilish va aholini sug‘urtalash uchun mahallabay ish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu ishlarni davom ettirish maqsadida 2023-yilda kompaniya va O‘zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi bilan 2023-2026-yillarga mo‘jallangan chora tadbirlar rejasi tuzilgan.

Chora-tadbirlar ijrosi doirasida keng miqyosdagi tashviqot va amaliy ishlar olib borilmoqda, jumladan kompaniya va vazirlikning hududiy vakillari bilan 2023-yilning 2-yarimidan boshlab joylardagi aholi gavjum savdo majmualarida va bozorlardagi aholi va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, ularga inson hayoti, mol-mulklari hamda savdo do‘konlariga xavf solayotgan turli xavf-xatarlardan himoya qilishda sug‘urtaning o‘rni va sug‘urta himoyasi to‘g‘risida ma’lumotlar yetkazib borilmoqda.

Yuqorida ta’kidlanganidek, dunyoda bo‘layotgan turli tabiiy ofatlar, afsuski oxirgi yillarda respublikamizda ham kuzatilmoqda, buning oqibatida insonlar va ishlab chiqarishga ko‘plab zarar yetmoqda. Misol uchun, 2020-yilning aprel oyida Buxoro viloyatlarining ayrim hududlarida kuzatilgan kuchli shamol va ko‘p yomg‘ir yog‘ishi, shuningdek may oyida Sirdaryo viloyati Sardoba suv omborida sodir bo‘lgan texnogen voqea sodir bo‘lishi natijasida aholiga va tadbirkorlarga ko‘plab zarar yetgan.

Buxoro viloyatida kuzatilgan kuchli shamol oqibatida 41 085,0 ta xonadon egalari va 842,0 ta ijtimoiy obyektlar zarar yetib, jami zararlar 140,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Faqat issiqxonalarga yetgan zarar uchun tadbirkorlarga 12,0 mlrd.so‘m (1,2 mln. AQSh dollar) sug‘urta to‘lovlari to‘lab berilgan.

Sirdaryo viloyati Sardoba suv omborida bo‘lgan texnogen holat natijasida viloyatning 3 ta tumanidagi 70,0 mingdan ortiq aholi zarar ko‘rgan, 4351 ta xonadon (uylar), 24 ta ko‘prik va 276 km. yo‘llar suv ostiga qolgan hamda qo‘shni Qozog‘iston respublikasidan 845 uy-joylar suv ostiga qolgan, 31,0 mingdan ortiq aholi boshqa joylarga ko‘chirilgan. Daslabki hisob-kitobga ko‘ra zarar 1,5 trln.so‘mni (150,0 mln. AQSh dollari) tashkil etgan [10].

Birgina, “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi ushbu ikki hodisa bo‘yicha aholi va tadbirkorlardan 262 ta da’vo ariza kelib tushgan va ular bo‘yicha 5,77 mlrd. so‘mdan ortiq sug‘urta to‘lovlari to‘langan. Biroq, ushbu hududlardagi zarar ko‘rgan aholi va tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi sug‘urtalanmagani ma’lum bo‘ldi, shunday bo‘lsada sug‘urtalanmagan va jabr ko‘rganlarga davlat tomonidan kompensatsiya mablag‘lari berilgan, bu to‘lovlar davlat byudjeti ko‘zda tutilmagan xarajatlaridan amalga oshirilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda aholida sug‘urtaga bo‘lgan talab va ehtiyoji ortmoqda, sug‘urta kompaniyalari esa bu borada juda qattiq ishlashi talab etiladi. Ayniqsa ehtimoli oshib borayotgan turli tabiiy ofatlar va texnogen hodisalar sodir bo‘lishining oldini olishda va himoyani taqdim etishda sug‘urtaning o‘rni muhim bo‘lishi hamda sug‘urta davlatning byudjet xarajatlari yukini kamaytirish uchun xizmat qilishi lozim.


Hozirgi kunda jahondagi vaziyat, ayniqsa tabiatning o‘zgarishlari natijasida kutilayotgan xatarlarni oldini olishda sug‘urta kompaniyalariga bo‘lgan talab va extiyojning oshib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Dunyodagi rivojlangan davlatlardagi kabi respublikamizda ham sug‘urta xizmatlarini yanada rivojlantirish, jumladan soha tashkilotlarida zamonaviy xizmat turlarini joriy etish, anderraytingni faoliyatini takomillashtirish

va uni tizimli tashkil etish zarur bo‘lmoqda. Bu borada, sug‘urta mutaxassisli extiyojlarini o‘rganish, sug‘urta bo‘yicha o‘quv jarayonlarini rivojlantirish, malakali mutaxassislar, xususan sug‘urta anderrayterlarni tayyorlash lozim. Shuningdek, respublikamizda sug‘urta mutaxassislariga bo‘lgan talabdan kelib chiqib, moliya yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlaridagi sug‘urta mutaxassislarni tayyorlash kvotalarini ko‘rib chiqish, sug‘urta mutaxassislarini malakasini oshirish bo‘yicha oliy o‘quv yurtlarida maxsus anderrayting kurslarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyot va ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma’lumotlar:

[1] https://www.gazeta.uz/uz/2023/02/22/global-risks/,
[2] https://kun.uz/38971487?q=%2F38971487#.,
[3] https://xabar.uz/lxvp
[4] 24.11.2021-y.da “Xalq so‘zi” gazetasida e’lon qilingan. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/sugurta_faoliyati_tugrisidagi_ qonunning_yangi_tahriri_qabul_qilindi.
[5] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 03.08.2019-y, “Xalq so‘zi”, 03.08.2019-y. “O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami”, 2019-yil 12-avgust, 32-son, 549-modda.
[6] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2021y., 07/21/5265/0992-son.
[7] O‘z.Res. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Sug‘urta bozorini rivojlantirish masalalari 10.07.2019-yildagi yig‘ilish materiallari www president.uz, https://uza.uz/politics/.
[8, 9] “O‘zbekinvest EISK” AJning yagona avtomatlashtirilgan axborotlar tizimidan olingan ma’lumotlar (2019-2022-y. hisoboti).
[10] ILMA (NAPU) Sug‘urta bozorini rivojlantirish departament (eski O‘zb. Resp. Moliya vazirligi huzuridagi agentlik)dan olingan ma’lumotlar asosida.



INTERNATIONAL EXPERIENCES ON RESTORATION OF FINANCIAL STABILITY THROUGH INDICATORS IN COMMERCIAL BANKING SECTOR

Solijonova Muxlisa Azamatovna
Independent researcher of the Academy of Banking and Finance

Financial and economic crisis of 2007–2009 identified structural imbalances in the global economy and the need for improved regulation, which was reduce systemic risks and limit the consequences of potential insolvency of financial institutions. For this purpose, SPS were developed in 2011 by representatives of the states G20 adopted "Key Attributes of Effective Resolution Regimes Financial Institutions" (hereinafter referred to as the "Key Attributes")[1]. The development of this direction is the plans for the restoration of financial stability (PRFS).

In connection with the COVID-19 pandemic, the topic of PRFS has become even more relevant. Were new tasks have been set, such as timely taking into account the changing epidemic situation, strengthening interaction with the regulator for a prompt assessment of the financial situation, adjusting reporting requirements and providing state support. Since the PRFS is updated at a significant interval, the stress scenarios were largely inadequate. In particular, it was ambiguous the need to launch PRFS in case of violation of the limit values of indicators that do not take into account regulatory relaxations.

As stated above, the structure of the PRFS is largely determined by the individual characteristics of the bank. However, to ensure comparability, many regulators require mandatory minimum requirements for the list of PRFS[2] indicators.

The March 18, 2021 EBA[3] Advisory Report considers supplementing this list with indicators for the "Minimum Equity Requirement and defined liabilities (MREL), Total Loss Absorption Capacity (TLAC) and volume of unencumbered liquid assets. It is proposed to exclude the indicator weighted average cost of raising funds due to incompatibility between banks.

The EBA also recommends the use of such indicators as:

a) the ratio of retained earnings to fixed assets;
b) negative information about the financial position of significant counterparties;
c) the degree of concentration of sources of liquidity and capital;
d) the weighted average cost of financing for all segments (including retail deposits);
e) average maturity of funds raised;
f) break contract terms on assets and liabilities;
g) available unencumbered security and others.

The EBA minimum list

Group	Indicators
1.Capital	a) sufficiency of own funds (CET1 ratio) b) capital adequacy (Total Capital ratio) c) debt burden (Leverage ratio = CET1/A)
2.Liquidity	a) short-term liquidity ratio (LCR) b) net stable funding ratio (NSFR) c) the cost of raising funds from legal entities, including credit institutions (Cost of wholesale funding)

1 Key Attributes of Effective Resolution Regimes for Financial Institutions, Financial Stability Board, 2014.
2 Guidelines on the minimum list of qualitative and quantitative recovery plan indicators, European banking authority, 23 July 2015; Report on recovery plans, European Central bank, July 2018, r. 24.
3 Draft Revised Guidelines on recovery plan indicators under Article 9 of Directive 2014/59/EU, Consultation Paper, EBA/CP/2021/13, 18 March 2021, rr. 6–7

3.Profitability	a) return on assets or equity (ROA, ROE) b) significant operating losses
4. Asset quality	a) growth rate of problem claims b) coverage ratio (ratio of reserves to problem claims)
5.Market indicators	a) (potential) credit downgrade b) spread on CDS instruments c) stock quotes
6. Macroindicators	a) GDP b) CDS spread on government bonds

The implementation of the PRFS implies a significant deterioration in the financial situation ('neardefault' situations) Due to differences between banks, a universal stress scenario does not solve this problem. And in international practice there are no uniform criteria for its depth. Therefore, it is common to use the bottom-up approach, reverse stress testing. and individual calibration (parametrization of the stress scenario), through which the range of limit values is determined. In this regard, one of the main proposals of the EBA Consultation Report (March 2021) is to include in the PRFS a detailed explanation and demonstration of the conservatism of the calibration method used. The validity of expert assessments of banks can be checked by the regulator on the basis of average by banking sector results.

Many regulators recommend the use of several stress scenarios in PRFSs. For example, the general requirements of the Key Attributes are as follows:

1) PRFS should include individual and macroeconomic stress scenarios;
2) in their parameters, it is necessary to take into account the impact of the shortage of liquidity and capital;
3) a review of operational activities is mandatory.

As a criterion for the depth of stress in the scenario, reverse stress tests are used (the closeness of scenario parameters to a critical value, suggesting a significant deterioration in the financial situation). Taking into account the individual characteristics of the bank and the operating conditions, local regulators specify the requirements for the stress test.

EBA. The EBA provides for at least three stress scenarios in the PRFS: systemic, individual, and a combination of them. They must satisfy the following conditions: first, take into account the characteristics of the bank (volume and structure of assets, business model, sources of financing, degree of international activity and interconnectedness with market participants). Second, stress scenarios involve unlikely but plausible events. Third, the reverse stress test is considered as a starting point for developing a pre-default scenario. In the "Final Report on Organizational Stress Testing" it is proposed to use this approach to determine risk factors and parameters pre-default stress scenario.

OCC (USA). OCC, together with supervised banks, is involved in the development of two stress scenarios: macroeconomic and individual. Reverse stress test used to determine the level of losses leading to violation of mandatory ratios and liquidity shortage (default). The same stress scenarios as under the Comprehensive Capital Analysis and Review (CCAR) and Supervisory stress test under the requirements of the Dodd-Frank Act (DFAST).

PRA (Great Britain). In accordance with the requirements of PRA, UK banks conduct individual and macroeconomic stress tests in two versions: using (dynamic) and without (static) PRFS measures. Both financial and non-financial factors of sustainability are considered, including organizational and technical base and staff qualifications. It is recommended to calibrate the parameters (list of indicators, threshold values, evaluation criteria) in order to ensure the feasibility and sufficiency of PRFS activities. In addition to the PRFS, banks complete a standard template, which takes into account the nature of the relationship between the scenarios (mutually complementary, mutually exclusive) and the sequence of activities.

Based on international experience, the best practice is to include stress scenarios with varying degrees of impact on the banking system: macroeconomic and individual, in the PRFS. The first one can be developed by the regulator as part of a bottom-up stress test, which ensures comparability of the results. The second proceeds from the implementation of vulnerabilities characteristic of the bank and leads to a significant deterioration in the financial situation. The parameters of individual stress scenarios may deviate from the general requirements to more accurately reflect the features of the bank.

This report summarizes international best practices in the development of PRFS. In particular, the issues of standardization of the list of indicators and the structure of limit values were touched upon. Particular attention is paid to the parameters of stress scenarios and activities of PRFS. To ensure their feasibility and sufficiency, it is necessary to be guided by both experience and experience of other banks.



PENSIYA YOSHINING PENSIYA TA’MINOTI TIZIMIGA TA’SIRI

Tursunov Jaxongir Pulatovich
DSc, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Sug‘urta va risklarni boshqarish” kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada pensiya ta’minoti tizimida pensiya yoshining o‘rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, avvalo mavzuning dolzarbligi asoslangan, ushbu soha bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganilgan. MDH, Gruziya va Boltiqbo‘yi mamlakatlarida yoshga doir pensiya tayinlash uchun belgilangan pensiya yoshi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mazkur davlatlarda o‘rtacha ish haqi miqdorlari tahlil qilingan. Pensiya yoshini oshirishga qaratilgan pensiya islohotlari keltirilgan hamda pensiya yoshini qanday qilib oshirish mumkinligi borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pensiya ta’minoti, pensiya yoshi, pensiya tizimi, ish haqi, pensiya sug‘urtasi, kambag‘allik, davlat pensiyalari, o‘rtacha umr ko‘rish yoshi, pensiya islohotlari.

INFLUENCE OF PENSION AGE ON THE PENSION SYSTEM

Tursunov Jakhongir Pulatovich
DSc. The Banking and finance academy Republic of Uzbekistan

Abstract: This article aims to reveal the role and significance of the retirement age in the pension system, first of all, the relevance of the topic is substantiated, and the scientific works of foreign and domestic scientists in this field are studied. In the CIS, Georgia and the Baltic countries, the retirement age established for the appointment of an old-age pension is taken into account. The average salary in these countries was also analyzed. Pension reforms aimed at raising the retirement age are presented, proposals and recommendations for raising the retirement age are developed.

Key words: pension provision, retirement age, pension system, wages, pension insurance, poverty, state pensions, life expectancy, pension reform.

ВЛИЯНИЕ ПЕНСИОННОГО ВОЗРАСТА НА ПЕНСИОННУЮ СИСТЕМУ

Турсунов Джахонгир Пулатович
Доктор наук. Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация: Целью данной статьи является раскрытие роли и значения пенсионного возраста в пенсионной системе, в первую очередь обосновывается актуальность темы, а также изучаются научные труды зарубежных и отечественных ученых в этой области. В СНГ, Грузии и странах Балтии учитывается пенсионный возраст, установленный для назначения пенсии по старости. Также была проанализирована средняя зарплата в этих странах. Представлены пенсионные реформы, направленные на повышение пенсионного возраста, разработаны предложения и рекомендации по повышению пенсионного возраста.

Ключевые слова: пенсионное обеспечение, пенсионный возраст, пенсионная система, заработная плата, пенсионное страхование, бедность, государственные пенсии, продолжительность жизни, пенсионная реформа.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda o‘rtacha umr ko‘rish yoshining keskin o‘zgarishi, shuningdek pensiya tizimidagi islohotlar negizida pensiya yoshini oshirish muhim masalalardan hisoblanadi. Pensiya ta’minotining muhimligi Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida (PF-60, 2022) ham maqsad sifatida belgilab quyilgan.

Pensiya ta’minoti tizimida pensiya yoshi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, pensiya yoshi – nafaqat insonlarni tashvishga soladigan masala, balki har bir mamlakatning iqtisodiyot va siyosatidagi muhim omil hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari pensiya tizimlarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi erta pensiyaga chiqish

(imtiyozlar)ni kamaytirish, kech pensiyaga chiqishni rag‘batlantirish va eng muhimi pensiya yoshini oshirishga qaratilgan. O‘zbekistonda ham pensiya islohotlari boshlangan bo‘lib, asosiy masala pensiya miqdorlarini indeksatsiyalash, jumladan minimal pensiya miqdorlarini minimal iste’mol xarajatlariga tenglashtirish, pensiya hisoblash uchun hisobga olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi miqdorini oshirish orqali pensiya hisoblash mehanizmini takomillashtirish, ko‘p darajali pensiya tizimiga o‘tish hamda pensiya sohasini raqamlashtirishga qaratilmoqda. Dunyoda o‘rtacha umr ko‘rish yoshining o‘sib borayotganligi, o‘rtacha pensiya yoshining yuqoriligiga qaramasdan pensiya yoshini oshirish masalasi islohotlarda zarur chora sifatida ko‘rilmayapti.

Pensiyalarni hisoblashda mehnat stajiga e’tibor qaratish va pensiya yoshini belgilash bo‘yicha mamlakatga xos va mos bo‘lgan xorij tajribalarini o‘rganish va amalda qo‘llash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ko‘plab davlatlarda pensiya to‘lashda pensiya yoshiga e’tibor qaratgan bo‘lsa, boshqa davlatlarda mehnat stajiga jiddiy e’tibor berishadi. Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlar fuqarolari necha yoshdan pensiyaga chiqadi va qanday to‘lovlarni olishlari to‘g‘risida turli mamlakatlarning pensiya yoshi hamda pensiya to‘lovlari haqida ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR SHARHI (LITERATURE REVIEW)

Mehnat staji va pensiya yoshi pensiya ta’minotining muhim elementlaridan hisoblanadi. Bu esa pensiya ta’minoti bo‘yicha tadqiqot olib borgan ko‘plab xalqaro moliyaviy tashkilotlar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Jumladan rossiyalik olim V.Roikning (2020) ilmiy ishlarida aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya ta’minotining o‘rni, pensiya sug‘urtasi, ijtimoiy sug‘urta va uning moliyaviy-iqtisodiy asoslari, pensiya yoshini oshirish bilan bog‘liq masalalar, pensiyalarni hisoblashda sug‘urta stajining ahamiyati bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilingan. Aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy, tibbiy va pensiya sug‘urtasining hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

G. Tetlou (2015) o‘zining pensiya ta’minoti bo‘yicha tadqiqodida bugungi kunda pensiya tizimida islohotlar nechog‘lik zarur ekanligini, bunda pensiyaga to‘lanadigan o‘tkazmalarni miqdorlarini oshirish, ko‘proq nodavlat pensiya fondlari faoliyatiga e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlagan.

A. P. Shemetov va S. N. Orlovlarning (2013) ilmiy xulosalariga ko‘ra, demografik va boshqa omillar ta’sirini hisobga olgan holda milliy pensiya ta’minotining yangi tizimini yaratish va uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash zarurligi ilgari surilgan. Olimlarning fikricha, xorij tajribalariga tayanib, pensiya ta’minoti tizimining alohida elementlarini takomillashtirish kerak. Lekin, ilmiy tadqiqot ishlarida pensiya yoshi va mehnat staji bilan bog‘liq munosabatlar to‘liq yoritilmagan.

Sh. Rajabovning (2021) pensiya tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan dissertatsiya ishida O‘zbekistonda nodavlat pensiya fondlarini tashkil qilish bilan bog‘liq masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek pensiya tayinlash, to‘lash amaliyoti va pensiya yoshi ko‘rib chiqilgan, Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda yoshga doir pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida tadqiqot ishida M. Ziyadullaev (2019) ko‘proq yoshga doir pensiyani hisoblash, tayinlash va to‘lash mehanizmlarini huquqiy taraflama ko‘rib chiqqan. Yoshga doir pensiya olish huquqini beradigan eng kam mehnat staji chuqur tahlil qilinmagan, xorij tajribasi to‘liq o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Maqola mavzusi pensiya ta’minoti tizimida pensiya yoshining o‘rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, avvalo mavzu dolzarbligi asoslandi, ushbu soha bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Ilmiy tadqiqot davomida analitik tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Pensiya yoshi – pensiya ta’minoti tizimida yagona muhim omil emas. Pensiya oluvchilarning hayot sifati ko‘rsatkichi sifatida ularning olayotgan pensiya miqdorlari qiymati hisoblanadi. Bu borada Lyuksemburg yetakchi hisoblanib, u yerda o‘rtacha pensiya miqdori 3500 yevroni tashkil qiladi. Shuningdek Daniyada o‘rtacha pensiya miqdori – 2500 yevro, Norvegiyada – 1500-2000 yevro, Finlyandiyada – 1800 yevro.

Pensiya miqdorlari bo‘yicha MDH, Gruziya va Boltiqbo‘yi davlatlarini bu borada maqtab bo‘lmaydi. Albatta, har bir davlatdagi narx-navoni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra MDH mamlakatlari ichida eng yuqori o‘rtacha pensiya va o‘rtacha oylik ish haqi to‘lovlari Rossiya davlatiga to‘g‘ri kelmoqda. Boltiqbo‘yi davlatlarida ham o‘rtacha oylik va pensiya miqdorilari yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog‘istonda o‘rtacha pensiya va ish haqi miqdorlari mos ravishda 232,7 va 666,1 AQSh dollarini tashkil qilmoqda. O‘zbekistonda ham 2022-yil yakuni bo‘yicha o‘rtacha pensiya miqdori 1 070,4 ming so‘m yoki 95,7 AQSh dollarini tashkil qilgan.

1-jadval: MDH, Gruziya va Boltiqbo‘yi davlatlarida o‘rtacha pensiya va ish haqi miqdorlari to‘g‘risida ma’lumot, 2022-yil (apsf.ru)

№	Mamlakatlar	Valyuta	Pensiya	Ish haqi
1	Rossiya	rubl	17 682,0	61 794,0
		AQSh dollari	286,9	1 002,7
2	Belorussiya	rel.rub	670,0	1 601,0
		AQSh dollari	270,5	646,5
3	Moldaviya	ley	3 146,7	10 376,2
		AQSh dollari	162,9	537,4
4	Ozarbayjon	manat	371,0	827,4
		AQSh dollari	218,2	486,7
5	Armaniston	dram	46 200,0	225 436,0
		AQSh dollari	116,8	570,1
6	Gruziya	lari	300,0	1 541,3
		AQSh dollari	108,09	555,3
7	Latviya	evro	526,6	1 362,0
		AQSh dollari	531,1	1 373,8
8	Litva	evro	483,8	1 805,9
		AQSh dollari	488,0	1 821,5
9	Estoniya	evro	581,8	1 563,0
		AQSh dollari	586,8	1 576,5
10	Qozog‘iston	tenge	108 993,0	311 994,0
		AQSh dollari	232,7	666,1
11	Qirg‘iziston	som	8 138,0	25 027,0
		AQSh dollari	97,4	299,7
12	Tojikiston	somoni	320,09	1 907,0
		AQSh dollari	31,3	186,6
13	O‘zbekiston	so‘m	1 070 493,0	3 721 800,0
		AQSh dollari	95,7	332,8

Xalqaro tajribada ma’lum bir mamlakatda pensiya yoshi mamlakat iqtisodiyoti darajasi (moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, ahol jon boshiga YaIM hajmi), fuqarolarning turmush tarzi, mehnat stajlarini hisobga olish (mehnat jarayonlari), o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligiga (demografik o‘zgarishlar) qarab hisoblanadi.

“Bugungi kunda dunyoda o‘rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 65 yoshni tashkil etsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 57,5 yoshni (erkaklar uchun – 60 yosh, ayollar uchun – 55 yosh) tashkil qiladi”. (Tursunov, 2022).

2-jadval: Dunyo mamlakatlarida pensiya yoshi, 2022-yil

№	Mamlakat	Pensiya yoshi, 2022-yilda		Rejalashtirilayotgan pensiya islohotlari
		erkaklar	ayollar	
1	Avstriya	65	60	01.01.2024 yildan boshlab 2033 yilga qadar ayollarning pensiya yoshini 65 yoshga qadar oshiriladi
2	Ozarbayjon	65	63	2017 yilga qadar pensiya yoshi 63 va 60 yoshni tashkil qilgan. 65 yoshgacha har yilda 6 oyga oshirib borish belgilangan
3	Armaniston	63		-
4	Belorussiya	63	58	2017 yildan boshlab har yili 6 oydan pensiya yoshi oshirib borilgan
5	Belgiya	65		-
6	Bolgariya	63	60	-

7	Buyuk Britaniya	65	65	68 yoshgacha oshirish rejalashtirilgan
8	Vengriya	62		-
9	Germaniya	65,5		2012 yilgacha 65 yosh bo‘lgan. Fuqarolarning to‘g‘ilgan yiliga qarab har yilda 1-2 oyga, 67 yoshgacha oshirib borish belgilangan
10	Gruziya	65	60	-
11	Isroil	67	62	Ayollar uchun pensiya yoshini 64 yoshga yetkazish rejalashtirilgan
12	Islandiya	67		-
13	Ispaniya	65		-
14	Italiya	67		-
15	Kanada	65		-
16	Norvegiya	67		-
17	AQSh	67		-
18	Fransiya	62,5		2023 yildan boshlab pensiya yoshini 67 yoshgacha oshirish rejalashtirilgan
19	Shvetsariya	65	64	-
20	Yaponiya	65		-

Xorijiy davlatlarda pensiya yoshi 60 yoshdan yuqori hisoblanib, ba’zi bir davlatlarda (Avstriya 65/60 yosh; Isroil 67/62; Polsha 65/60 yosh) erkaklar 65-70 yoshda, ayollar esa 60-65 yoshda pensiyaga chiqishadi. Aksariyat davlatlarda (Fransiya 67 yosh, Norvegiya 67 yosh, Armaniston 63 yosh, Belgiya 65 yosh, Yaponiya 65 yosh) esa erkaklar va ayollar uchun pensiya yoshi bir xil etib belgilangan.

Pensiya yoshi bo‘yicha Yaponiya dunyoda eng yuqori o‘rinda turadi. Yaponiya qonunchiligiga ko‘ra pensiya yoshi 65 yosh belgilangan bo‘lsada, o‘rtacha umr ko‘rish yoshi 82 yoshni tashkil qilayotganligi hisobiga aholining aksariyat qismi 70 yoshgacha mehnat qilib, keyin pensiya olishni ma’qul ko‘rishadi. Bunga sabab esa pensiya miqdorining 42 foizgacha oshirilishidir. Mazkur holat kech pensiyaga chiqishni rag‘batlantirishning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Shuningdek, har bir davlatda muddatidan oldin pensiyaga chiqish imkoniyati mavjud bo‘lib, ma’lum bir shartlarni bajarish kerak bo‘ladi. Masalan, zararli ishlab chiqarishlarda mehnat qilgan, huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qilgan, bola parvarishi bilan mashg‘ul bo‘lgan va boshqa shu kabi mehnat faoliyatini amalga oshirgan shaxslar erta pensiya chiqish huquqidan foydalanishi mumkin.

Ayrim davlatlarda pensiya tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, buni yuqoridagi 2-jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rishimiz mumkin.

Dunyoda barqaror iqtisodiyotga ega bo‘lgan AQShda pensiyaning asosan ikki turi mavjud: davlat (barcha uchun) va kompaniyalar tomonidan ko‘p yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan xodimlar uchun beriladigan pensiya hisoblanadi. Pensiyani istalga vaqtda olishi mumkin. Pensiya olish huquqi 59 yosh 6 oyga yetganida paydo bo‘ladi, lekin to‘liq pensiya olish uchun 67 yoshga yetishi talab etiladi.

“Xitoy davlatining pensiya tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu davlatda o‘zoq vaqt faqat shahar aholisiga pensiya to‘langan. Qishloq aholisi esa pensiya berilmagan, qonunga ko‘ra ular keksayganda farzandlari tomonidan ta’minlanishi kerakligi belgilab quyilgan. Xitoyda 2025-yilga qadar pensiya yoshini oshirish borasida dastur ishlab chiqilgan. Shu kunga qadar mamlakatda 1978-yilda qabul qilingan qonunga ko‘ra erkaklar – 60 yosh, ayollar uchun esa – 55 yosh pensiya yoshi etib belgilangan. Bosqichma-bosqich joriy etiladigan pensiya sug‘urtasi aholining 95 foizini qamrab olishi rejalashtirilmoqda.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniyada pensiya yoshi fuqarolarning tug‘ilgan yiliga qarab o‘zgaradi. Masalan, 1964-yilgacha tug‘ilganlar uchun 65 yosh bo‘lsa, qolganlar uchun 67 yosh etib belgilangan.

Fransiya fuqarolari uchun pensiya yoshi 62,5 yoshni tashkil qiladi. Fransiya Prezidenti tomonidan pensiya yoshini bosqichma-bosqich 67 yoshgacha oshirish borasida qaror qabul qilgan. Pensiya miqdori to‘liq bo‘lishi mehnat stajiga bog‘liq bo‘lib, pensiya yoshiga yetgunga qadar 42 yillik staj talab etiladi. Agar staj to‘liq bo‘lmasa yetmagan har bir yil uchun pensiya miqdori kamaytirilishiga sabab bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada ham pensiya tizimi mukammal shakllangan. Pensiya yoshi 65 yoshni tashkil etsada, bu yoshni oshirish rejalashtirilgan. Birlashgan qirollikda pensiyaning uch turi: davlat, mehnat va xususiy turlari mavjud. Mamlakatda 2016-yil 6-apreldan keyin pensiya yoshiga yetgan fuqarolar davlat pensiyasini olishi uchun kamida 35 yillik mehnat stajiga ega bo‘lishi kerak. Agarda fuqarolar 2016-yil 6 aprelga qadar pensiya yoshiga yetgan bo‘lsa, u holda ular uchun bazaviy (pensiya) to‘lov haftasiga 137,6 funtni tashkil qiladi.

Daniya va Norvegiyada pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun bir xil – 67 yosh, Shvetsiya, Ispaniya va Belgiyada – 65 yoshni tashkil qiladi". (Vestnik, 2022)

"Pensiyalarning miqdorlarini oshirish pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning bir omili bo'lib, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. YuNISEF hisobotida O'zbekistondagi kam ta'minlangan oilalarning yarmidan ko'pi (52%) milliy ijtimoiy himoya tizimi tomonidan hech qanday ko'mak bilan qamrab olinmagan va vaqt o'tishi bilan turli nafaqalarning qamrovi qisqargani qayd etilgan bo'lib, bolali oilalar ham bugungi kunda aholining eng kambag'al qatlamlariga mansub bo'lib qolgan." (Davronov, 2022)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pensiya ta'minoti tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida eng avvalo fuqarolarni kambag'allikdan himoya qilish, keksalikda, pensiya yoshiga yetganda munosib turmush faoliyatini ta'minlash uchun kamida avvalgi olgan ish haqining 40 foizidan kam bo'lmagan (hozirgi kunda qoplash koeffitsienti 28-30 foizni tashkil qilmoqda) miqdorda pensiya tayinlash va to'lash, o'rtacha umr ko'rish yoshining oshishini hisobga olib pensiya yoshini oshirish va boshqa masalalar yotadi.

Kelajakda yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat (sug'urta) staji, pensiya yoshini oshirish va pensiya tizimini takomillashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- pensiya tayinlab murojaat etuvchilar sonining ko'pligi, shuningdek ularning tarkibida to'liqsiz ya'ni yetarli bo'lmagan mehnat (sug'urta) staji bilan pensiyaga chiquvchilarning ulushi yuqori ekanligi, MDH, Gruziya va Boltiqbo'yi mamlakatlari tajribalaridan kelib chiqib, HMTning tavsiyasiga ko'ra yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat (sug'urta) staji 15 yil etib belgilanganligini hisobga olib O'zbekistonda mazkur stajni 10 yilga oshirish va kelajakda 15 yilga yetkazish maqsadga muvofiq;
- doimiy aholi sonining 2021-yilda 1992-yilga nisbatan 63,2 foizga o'sganligi, pensiya yoshining 1956-yildan beri o'zgarishsiz kelayotganligi, o'rtacha umr ko'rish yoshining oshishi, MDH, Gruziya va Boltiq bo'yi mamlakatlarida pensiya yoshini oshirish bo'yicha islohotlarining natijalarini qo'llagan holda O'zbekistonda ham pensiya yoshini erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun 58 yoshga har yili 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish kerak;
- xalqaro tajribada pensiya mablag'lari ma'lum bir badallar hisobiga shakllanadi. O'zbekistonda ham 2018-yilda bekor qilingan ishlovchilar tomonidan pensiya uchun to'langan sug'urta badallarini yana kam foizlar (2-3 foiz) hisobiga to'lash mexanizmini qayta joriy etish maqsadga muvofiq. Bu esa kelajakda Pensiya jamg'armasi mablag'larining taqchilligi bilan bog'liq muammolarni hal etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
2. Роик В. Д. Пенсионное страхование и обеспечение: учебное пособие для вузов / 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2020. – 478 с.
3. Tetlow G. Essays on the economics of retirement and pensions. A dissertation submitted in partial fulfilment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy of University College London. – England: Department of Economics University College London. 2015. – 224 p.
4. Орлов С. Н., Шеметов А. П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации. Монография. – Курган: "Изд-во Курганского гос. ун-та", 2013. – 106 с.
5. Rajabov Sh. U. "Pensiya tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari" mavzusida Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2021-yil. 71 bet.
6. Ziyadullaev M. D. "O'zbekistonda yoshga doir pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish" mavzusida yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2019 yil. 32 bet.
7. www.apsf.ru – Xalqaro pensiya va ijtimoiy jamg'armalar assotsiatsiyasi (Международная ассоциация Пенсионных и социальных фондов) ma'lumotlari.
8. Tursunov J. Pensiya hisoblashda mehnat stajining ta'siri va pensiya yoshini belgilashda xorij tajribasi //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – S. 247-253.
9. pensiya.molodaja-semja.ru/faqs/pensionnyj-vozrast-v-stranah-mira/?ysclid=ld32tk37sw889267870 Пенсионный возраст в разных странах мира (таблица) (molodaja-semja.ru)
10. Международная ассоциация Пенсионных и социальных фондов 30 лет. Вестник № 40(41) 2022
11. Davronov Sh. Z. "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urta tizimini tashkil etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusida Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022. – 72 bet.

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



Xalikov Ulug‘bek Rustamovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Biznes boshqaruv” fakulteti dekani

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizga islom moliya instrumentlarini joriy qilish va ulardan foydalanish yo‘llari, shuningdek, uning afzalliklari tahlili va rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish jihatlari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, maqolada islom moliya instrumentlaridan foydalanish yo‘llarini mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida foydalanishni istiqbollaridagi mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha mualliflarning yondashuvlari va amaliy takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mamlakat iqtisodiyoti, islom moliyasi, tijorat banklari, mushoraka, sukuk, mudoraba, murobaxa, moliyalashtirish, islom banklari, islom darchalari.

Abstract: This article examined the ways of introducing and using Islamic financial instruments in our country, as well as an analysis of their advantages and aspects of improving development prospects. The article also presents the existing problems in the prospects for the use of Islamic financial instruments in the activities of commercial banks in our country, as well as the author’s approaches and practical proposals for their elimination.

Key words: national economy, Islamic finance, commercial banks, musharakah, sukuk, mudaraba, murabaha, financing, Islamic banks, Islamic branches.

Аннотация: В данной статье были рассмотрены пути внедрения и использования исламских финансовых инструментов в нашей стране, а также анализ их преимуществ и аспекты улучшения перспектив развития. Также в статье представлены существующие проблемы в перспективах использования исламских финансовых инструментов в деятельности коммерческих банков нашей страны, а также авторские подходы и практические предложения по их устранению.

Ключевые слова: экономика страны, исламские финансы, коммерческие банки, мушарака, сукук, мудараба, мурабаха, финансирование, исламские банки, исламские филиалы.

KIRISH

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan aholisining asosiy qismi musulmonlar istiqomat qiladigan mamlakatlar mustaqillikka erishgach (BAA 1971-yil, Jazoir 1962-yil, Kuvayt 1961-yil, Malayziya 1957-yil, Sudan 1956-yil, Pokiston 1947-yil), neft va gaz resurslarining keng ko‘lamda qazib olina boshladi va bu mahsulot eksporti hajmi osha boshladi. O‘z navbatida, jahon bozorida neft narxining tobora oshib borishi ushbu mamlakatlarda yirik jamg‘armalar shakllanishiga zamin yaratdi. Ammo ushbu jamg‘armalardan mavjud an’anaviy moliya bozori mexanizmlari orqali foydalanishda aholisining aksariyati musulmonlar bo‘lgan jamiyat talabiga mos kelmasligi singari muammoli masalalar namoyon bo‘ldi. Bu esa, islom tamoyillariga asoslangan moliya tizimini shakllantirish talabini yuzaga keltirdi.

Iqtisodiy zamonaviy bosqichida dunyo mamlakatlarida jadal rivojlanib borayotgan va jahon moliyaviy makonini ishonchli zabt etayotgan Islom moliya tizimiga bo‘lgan qiziqish tobora rivojlanib bormoqda. Yangi islomiy banklar, sug‘urta tashkilotlari, investitsiya jamg‘armalari tashkil qilinib, hatto ushbu tizim musulmon bo‘lmagan mamlakatlarda ham keng rivojlanayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis palatalariga yo‘llagan Murojaatnomasida “Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi”[1], deb ta’kidlab o‘tdilar.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4057. 2020-yil 29-dekabr.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Islomiy moliyalashtirishning ananaviy moliyalashtirishdan asosiy farqi shundan iboratki, islomiy moliya foyda va zararni bo‘lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni o‘zida namoyon qiladi. Bosh-qacha qilib aytganda, islomiy moliyalashtirish sherikchilikka, hamkorlikka asoslangan. Bunda islomiy banklar mijoz talabi bo‘yicha obyektni qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, homashyolar sotib olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin.

Islom moliya va uning faoliyati bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va ta’riflar berilgan. Xususan, so‘nggi yillarda islom moliyasi nazariy va amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan islom iqtisodiyoti keng o‘rganilayotgan dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi (Gait va Uortington, 2008). Levis va Algaoud (2001) ga ko‘ra, islom moliyasining o‘ziga xosligini yoki asosini tashkil etuvchi beshta diniy xususiyat mavjud, ya’ni riba (foiz), harom (taqiqlangan) yoki halol (ruxsat etilgan), g‘arar (noaniqlik) yoki maysir (qimor), zakot va shariat (islom) kengashi. Islomda moliyalashtirish tushunchasi an’anaviy yoki “G‘arb moli-yasi”dan farq qiladi. Islomiy moliya tizimini an’anaviy tizimdan farqlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi (Miraxor va Iqbol, 2011): Birinchidan, islom moliya tizimi tenglik, adolatli jamiyat va iqtisodiy tartib uchun intiladi. Islomiy moliya tizimida foizning (riba) taqiqlanishi, ekspluatatsiyadan qochish, narxlarni manipulyatsiya qilish orqali foyda olishdan qochish va kambag‘allarni (ya’ni qarz oluvchi) himoya qilish uchun mo‘ljallangan. Ikkinchidan, islom moliya tizimi hamkorlik va birodarlik tamoyiliga urg‘u beradi.

Xususan, rus olimi Xasbulatov (2014) Islom moliyasini mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimini rivojlantir-ishning ajralmas yo‘nalishi sifatida o‘rgangan. Juravlev (2017) asosan Islom banklari faoliyatining o‘ziga xosligi va ularning risklarini tadqiq etgan.

Maxmud va El-Xalifa Muxammadlarning (2010) islom banklari tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan asarida islom banklarining to‘liq shariatlar me’yoriga asoslanishi, lekin islom tamoyillariga asoslanmagan biznes muhitida uning qo‘llanilishi mumkinligi e’tirof etilgan. Rossiyalik olimlar Bekkin (2008) va Kochmolalarning (2007) tad-qiqotlariga ko‘ra, islom moliya institutlari to‘lig‘icha islom qoidalari joriy etilmagan, masalan, Malayziya va Tur-kiya mamlakatlarida muvaffaqiyatli operatsiyalarni amalga oshirmoqda.

El-Gamal Maxmud fikricha (2006), islom bankchiligi asoslari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Ularning ta’kidlashicha, ananaviy yoki g‘arb bank operatsiyalaridan islom bank ishining asosiy farqli jihati ssuda foizini undirishni ta’qiqlash hisoblanadi. Bunday nazariy asosni yaratish Islom bankchiligini o‘rganish doirasini bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblangan biznesdagi yirik va asosiy muammolari hal etishga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Lekin O‘zbekistonda Islom banklari faoliyati me’yorlari va huquqlari, shuningdek, ularni tar-tibga soluvchi instrumentlari chuqur o‘rganilmagan. Amalga oshirilgan ushbu ilmiy ishlarda islom moliyasining nazariy asoslari va tijorat banklarida islom moliya tizimlaridan foydalanish to‘liq yoritib berilmagan. Umuman olganda mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan maxsus investitsiya loyihalarini islomiy moliyalashtirish tizimini keng joriy qilish maqsadi bilan bog‘liq tadqiqotlarni amalga oshirish hozirgi davrda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, gruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya uslublar-idan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tijorat banklarida islom moliya instrumentlaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda islom tamoyillariga mos keluvchi ilk moliyaviy muassasa Mit G‘amr jamg‘arma banki 1963-yilda tashkil etilgan. Ushbu jamg‘arma islom moliyasining muqobil moliya tizimi sifatida ishlay olishini ko‘rsatdi. Tizimi keyingi o‘n yillikdan rivojlanishning muhim bosqichiga o‘tdi. 1975-yilda Islom taraqqiyot bankining ta’sis etil-ishi islom moliyasining global bosqichga o‘tganligini anglatdi. Shundan so‘ng islomiy moliyaviy muassasalar soni ortib, ularning geografik qamrovi kengayib bordi. Shuningdek, moliya ekotizimining har bir tarmog‘i uchun muqobil moliyalashtirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Bugungi kunda islom moliyasida asosiy vositalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: xarajatlarni moliyalashtirish; foydani taqsimlash; lizing; hamkorlik; forvard sotuvi.

Murobaha – bu marja bilan savdo. Aktivni sotib olish foyda olish uchun moliyalashtiriladi, bunda aktiv mijoz nomidan sotib olinadi va oldindan belgilangan narxda sotiladi. To‘lov bir martalik yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lanishi mumkin va to‘liq to‘lov amalga oshirilgunga qadar bankka egalik huquqi saqlanib qoladi.

Ijara – bunda bank aktivni mijozning nomidan xarid qiladi va undan qat'iy belgilangan ijara to'lovi uchun foydalanishga imkon beradi. Aktivga egalik huquqi moliyachida qolaveradi, lekin u yakuniy hisobda egasiga aylanadigan mijozga asta-sekinlik bilan o'tishi mumkin.

Mudoraba – ishonch asosida moliyalashtirish shartnomasi. Tomonlardan biri kapital kiritadi, ikkinchisi esa harakatlari yoki tajribasini. Foyda oldindan kelishib olingan nisbatda taqsimlanadi.

Mushoraka – ulush asosida ishtirok etish shartnomasi. Turli tomonlar kapital kiritadi, foyda esa oldindan belgilangan nisbatda taqsimlanadi.

Suquq – mulkka egalik huquqi haqida guvohnoma. Suquq bu – moddiy aktivlar yoki xizmatlarga egalikda bo'linmaydigan ulushlarni ifodalaydigan teng qiymatli sertifikatlar. Sertifikatlar daromadliligi to'g'ridan-to'g'ri bazaviy aktivlar daromadliligi bilan bog'liq.

Islom moliyasi bo'yicha tajriba va kuzatishlarimizga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, u ikki omil asosida rivojlanishi mumkin.

Birinchisi, qachonki hukumat Islom moliyasini o'zi targ'ib qilsa va odamlarni shunga undasa, qonunchilik, tartib va nizomlarni ishlab chiqsa, markaziy bank tomonidan zarur infratuzilma yaratilsa, Islom moliyasi rivojlanadi. Ikkinchidan, bu bozor talabidan kelib chiqadi. Unda odamlar shunday xizmat va mahsulotlarga talabgor bo'ladilar.

Islom moliyasi – qishloq xo'jaligi va sanoati yaxshi bo'lgan mamlakatlar uchun ajoyib vositadir. Chunki islom moliyasi real iqtisodiyot rivojlanishi va uning moliya sektori bilan muvozanatda bo'lishi uchun qulay muhit yaratib beradi. An'anaviy iqtisodiyotda foizlar keltirib chiqargan bo'sh pufaklarning yorilishi oqibatlarini bartaraf etish uchun doimiy ravishda inqirozlar siklini boshdan kechirishga majbur bo'ladi. Islom banklari an'anaviy banklar bilan raqobat qila oladigan yangi mahsulot turlarini joriy qilishda, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda ilg'or bo'lishlari darkor.

Ma'lumki, O'zbekiston Islom taraqqiyot banki va Xususiy tarmoqni rivojlantirish islom korporatsiyasiga a'zo sanaladi, hozirgi kunda respublikamiz tijorat banklarining asosiy maqsadi tashkilotga a'zo mamlakatlarda xususiy tarmoqni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shuningdek, islom moliyasi mexanizmlari va moliya mahsulotlari orqali faoliyat yuritishi tufayli, davlatlarda Islom moliyasini rivojlantirish ham maqsadlardan biridir. Xususan, kichik va o'rta biznes uchun imkoniyatlar yaratish va Islom taraqqiyot banki bilan Xususiy tarmoqni rivojlantirish islom korporatsiyasi taklif qilayotgan xizmatlardan foydalana olishlari uchun Islom moliyasi infratuzilmasini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Islom banki tushunchasi yangi bo'lishi mumkin, chunki Islom moliyasi g'oyalarini Islom bankiga tatbiq qilish uchun bir qator ishlarni amalga oshirish talab qilinadi. Har bir mamlakatning o'z bank qonunlari, nizomlari, huquqiy tizimi mavjud. Mana shu huquqiy me'yorlarni inobatga olgan holda islom moliyasiga tatbiq etish uchun qonunchilikka qanday o'zgarishlarni kiritish kerakligini ishlab chiqish lozim.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan islom banklari bilan hamkorlikda bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. ITB guruhiga kiruvchi ikki tashkilot – Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi mamlakatimiz bilan 2006-yildan beri hamkorlik qilib keladi.




1-rasm: Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasining O'zbekistondagi faoliyati[2]

2 https://azon.uz/content/views/ azontv-va-islom-taraqqiyot-bankining-tas Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasining statistik ma'lumotlari

“Islom taraqqiyot banki” guruhi tarkibiga kiruvchi “Xususiy tarmoqni rivojlantirish Islom korporatsiyasi” (ICD) O‘zbekistonning bir necha tijorat banklarida islom moliya mahsulotlari va xizmatlari taqdim etuvchi darchalarni (“islom darchalari”) ochish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar olib bormoqda. Xususan, Asia Alliance Bank 2013 yildan buyon Islom taraqqiyot banki (ITB) guruhi tashkilotlari bilan samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Bugungi kungacha umumiy qiymati 30 million AQSh dollariga teng moliya mablag‘lari jalb qilish bo‘yicha to‘rtta kelishuv imzolangan. Bunga qo‘shimcha ravishda joriy yilda Asia Alliance Bank uchun 20 million AQSh dollari miqdorida qo‘shimcha moliya mablag‘lari ajratish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Shuningdek, Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha Islom korporatsiyasi (ICD) vakillari, bank doirasida tashkil etilishi rejalashtirilgan “Islom darchasi” loyihasini moliyalashtirish va ishga tushirishda bankni qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini bildirganlar. 2018-yilda Asia Alliance Bank O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib savdoni moliyalashtirish uchun Savdoni moliyalashtirish xalqaro islom korporatsiyasi (ITFC) tomonidan ajratilgan 9 million AQSh dollariga teng mablag‘larni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan. Shu munosabat bilan, tomonlar Bank uchun yana moliya mablag‘lari ajratish va ikki tomonlama hamkorlikni yanada kuchaytirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Islom darchalari ham jismoniy va yuridik shaxslardan, hamda turli sarmoyadorlardan (jumladan xorijiy) moliyaviy mablag‘lar jalb qilish orqali faoliyat yuritadi. Bu mablag‘lar an’anaviy bankchilikda bo‘lgani kabi talab qilib olinguncha yoki muddatli omonat (depozit) shaklida jalb qilinishi mumkin. Quyidagi chizmada aynan muddatli omonatlarning ishlash mexanizmi islom bankchiligida, jumladan islom darchalarida qanday tashkil qilinishini ko‘rishimiz mumkin:



1-chizma: Islom bankchiligida islom darchalarining faoliyati[3]

Islom banklari muddatli jalb qilingan mablag‘larni asosan yuqoridagi rasmda tasvirlangan mexanizm asosida moliyalashtirishga yo‘naltiradi va loyihadan olingan foydani muddatli depozit egalari yoki sarmoyadorlar o‘rtasida ularning ulushiga mos ravishda mutanosib taqsimlaydi. Bu mexanizm murakkab bank dasturiy ta’minoti yordamida amalga oshirilib, ushbu dasturiy ta’minot depozit egalarining mablag‘larini to‘g‘ri, oqilona, islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi loyihaga ishlatilishi va olingan daromadlarni aniqlik bilan omonat egalari yoki sarmoyadorlar o‘rtasida ularning ulushiga mos ravishda taqsimlanishini ta’minlaydi.

Shuni ta’kidlab o‘tish ham lozimki, hozirgi kunda an’anaviy xalqaro moliya tashkilotlari ham islom bank tizimini mamlakatlar iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etishi mumkinligini tan olmoqda va ushbu tizimni tatbiq etishni boshladi.

3 https:/ 2021/02/02/islom-darchalari-ananaviy-banking-uchun-yangi-imkoniyat

Mamlakatimiz tijorat banklarida faoliyatini boshlagan islom darchalari bank tizimining rivojlanishi, moliyaviy xizmatlar sifatining oshishi, xususiy tarmoq vakillari salohiyatining o‘sishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi hamda mamlakat iqtisodiyoti rivojiga hissa qo‘shishi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, “Islom darchasi an’anaviy bank qoshidagi alohida / maxsus bo‘lim bo‘lib, Shariat tamoyillari asosida ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlarni taklif etadi.” Islom darchasi o‘zining xizmatlarini an’anaviy bankning barcha filiallari va maxsus filiallar orqali taklif qilishi mumkin.

Xususan, tijorat banklari foizga depozit jalb qilib mijozlarga islom tamoyili asosida kredit bersa, bank mijozlari ushbu kreditdan foydalanmasligi mumkin. Chunki depozit jalb qilish islom tamoyiliga javob bermaydi. Bu borada mamlakatimizda, eng avvalo, islom moliyasi bo‘yicha jamiyatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish borasida ma’lum ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

Xususan, iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun ham islom bankchiligi va moliyasi tamoyillari asosida tatbiq etiladigan bank-moliya xizmatlarini va mahsulotlari tuzilmasi yaratish dolzarb ahamiyat kasb etayotganini hisobga olgan holda, quyidagi takliflar shakllantirildi:

1. Rahbarlar va hodimlarning mas’uliyati. Bunday tijorat faoliyatini olib boruvchi moliyaviy muassasa rahbarlari ushbu konsepsiyaga to‘liq ishonishi va unga to‘liq sodiq va fidoyi bo‘lishi kerak. Fatvolar va shartnomalar qanchalik qat’iy bo‘lmasin, Shariat tamoyillariga rioya qilishga yetarlicha samimiy va sodiq odam bo‘lmasa, Islomiy darcha faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash . Islom darchasi bo‘yicha mas’ul xodimlar an’anaviy bankchilik bilan shug‘ullanuvchi xodimlardan ajralib turishi va ularni tanlab olishda esa, ularning islom bitimlari yuzasidan tushuncha va mas’uliyatini hisobga olish kerak bo‘ladi.
2. Resurslarni/mablag‘larni to‘liq ajratilganligi. Islom darchasining hisobvaraqlari an’anaviy bankning faoliyatidan alohida va ajratilgan holda yuritilishi kerak. Islomiy darcha tomonidan taqdim qilinayotgan barcha xizmatlar an’anaviy bankchilik xizmatlaridan alohida va mustaqil bo‘lishi kerak. Yuqoridagi talablarning bajaralishini esa tegishli dasturiy ta’minot orqali ta’minlash mumkin.
3. Islom moliya muassasalari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) barcha islom moliya institutlar rioya qilishi va amalga oshirishi kerak bo‘lgan bir qator buxgalteriya hisobi va audit standartlarini joriy qilgan. Chalkashliklar, tushunmovchiliklar va noaniqliklarga yo‘l qo‘ymaslik, aniq va sog‘lom ish faoliyatini ta’minlash uchun moliya muassasalari ushbu standartlarga rioya qilishlari kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4057. 2020 yil 29 dekabr.
2. Gait , A. and Worthington, A. (2008). An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), 783-808.
3. Lewis M.K. and Algaoud L.M. (2001). Islamic Banking. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd..
4. Iqbal Z., Mirakhor A. (2011) An introduction to Islamic fi nance: theory and practice. Singapore: John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd., 406 p.
5. Khan Mohsin S., Mirakhor A. Theoretical Studies in Islamic Banking and Finance. North Haledon, New Jersey: Islamic Publications Int., 2005. 246 p.
6. Bekkin R.I. (2008) Islamskaya ekonomika. Kratkiy kurs. M.: AST Vostok–Zapad, 288 s.
7. Kochmola K.V. (2007) Islamskie finansovыe institutы v mirovoy finansovoy arxitekture.Rostov-na-Donu: RGEU “RINX”, 368 s.
8. El-Gamal Mahmoud A. (2006) Islamic fi nance: law, economics and practice. Cambridge: Cambridge University press, 222 p

SUG‘URTA KOMPANIYALARI VA TIJORAT BANKLARI INTEGRATSIYALASHUV JARAYONINI ZARURLIGI VA AHAMIYATI

Xudoyberdiyeva Sadoqat Abdumannonova
Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayonining iqtisodiy mohiyati, ularning tasnifi, sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklarining o‘zaro hamkorligi tahlil keltirilgan. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklar o‘rtasida hamkorlikning afzalliklari hamda bank sug‘urtasining tasniflanish mezonlari xalqaro qonunchilik normalariga oid masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta kompaniyalari, tijorat banklari, integratsiyalashuv jarayoni, bank sug‘urtasi, sug‘urta mukofotlari, sug‘urta to‘lovlari, sug‘urta pullari, sug‘urta javobgarligi, sug‘urta hodisalari, sug‘urta shartnomalari, sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati.

Abstract: The article presents the economic essence of the process of integration of insurance companies and commercial banks, their classification, and analysis of mutual cooperation between insurance companies and commercial banks. The advantages of cooperation between insurance companies and commercial banks, as well as the classification criteria for bancassurance and international legal norms were also studied.

Key words: insurance companies, commercial banks, integration process, bancassurance, insurance premiums, insurance payments, insurance money, insurance liability, insurance events, insurance contracts, investment activities of.

Аннотация: В статье представлена экономическая сущность процесса интеграции страховых компаний и коммерческих банков, их классификация, анализ взаимного сотрудничества страховых компаний и коммерческих банков. Также были изучены преимущества сотрудничества страховых компаний и коммерческих банков, а также критерии классификации банковского страхования и международно-правовые нормы.

Ключевые слова: страховые компании, коммерческие банки, процесс интеграции, банковское страхование, страховые премии, страховые выплаты, страховые деньги, страховая ответственность, страховые события, договоры страхования, инвестиционная деятельность страховщика.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida siyosiy va iqtisodiy vaziyat beqarorligi tufayli, banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni amalga oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni oldini olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsiyasi jarayoni bu faqatgina ichki investitsiya va resurslarni jamg‘arishgina emas balki, ayni bir vaqtda butun bir moliya tizimining barqarorligini ham ta’minlaydi. Bu insonlar turmush darajasini oshiradi, ijtimoiy himoyani va albatta mamlakat iqtisodiyoti barqorligini ham ta’minlaydi.

Hozirda dunyo moliya bozorida jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan va respublikamizda qator kamchilik va muammolarda amalda bo‘layotgan bank sug‘urtasi haqida so‘z yuritayotgan bo‘lsak, bank sug‘urtasi modeli bu banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlik yoki yagona integratsiyalashgan tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Buning natijasida, sug‘urta kompaniyasi bank mijozlari kanali orqali o‘z sug‘urta maxsulotlarini sotadi. Shuningdek, bank va sug‘urta kompaniyasi o‘zaro kelishuvida sug‘urta kompaniyasi o‘z maxsulotlarini bank mijozlari bazasi orqali sota olishi uchun hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Bank sug‘urtasi modeli sug‘urta kompaniyasiga o‘z maxsulotini to‘g‘ridan to‘g‘ri kichik guruhlar orqali bank va bank xodimlari orqali sotish imkonini beradi.

Respublikamizda tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar rivojlanib bormoqda. Bank risklarini sug‘urtalash kabi soha va yo‘nalishlar jadal sur'atda rivojlanib bormoqda lekin shunga qaramasdan, tijorat banklari bilan o‘zaro aloqalar innovatsion iqtisodiyotga o‘tish va axborot texnologiyalari asrida o‘zaro faoliyat yuritish ma'lum bir shartlarni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlil qilinayotgan mavzu sug‘urta kompaniyalar va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayoni bo‘yicha iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar va nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilamiz.

Sug‘urta sohasi ham boshqa moliyaviy institutlar singari bir necha xil turlarga bo‘linadi. Bulardan biri bank sug‘urtasidir. Bank sug‘urtasi, sug‘urta sohasining eng faol va tez sur'atlarda rivojlanayotgan hamda dunyo sug‘urta bozorining yetakchi turlaridan biri hisoblanadi. Bu sug‘urta xizmati janubiy Yevropa mamlakatlarida rivojlangan. Bank sug‘urtasining ulushlari hayot sug‘urtasi tarkibida, Portugaliyada 74,1%, Ispaniyada 71,4%, Italiyada 71,9% ni, umumiy sug‘urta tarkibida esa Portugaliyada 15,3%, Fransiya 12%, Ispaniya 10,2% ni tashkil etgan [23].

Shuningdek xorijiy olimlar tomonidan bank sug‘urtasiga (Bancassurance) berilgan ta'riflarni o‘rganar ekanmiz u qo‘yidagicha: I. A. Gabidulina, V. N. Lushnichenko fikricha: "... bank sug‘urtasi-sug‘urta kompaniyalari tomonidan banklarni sotib olish va bank tomonidan sug‘urta kompaniyasini sotib olishni taqsimlovchi bank va sug‘urta tashkiloti o‘rtasida yagona axborot tizimini yaratish deb ta'kidlaydi". A.Messyasz-Handschke fikricha: "bank sug‘urtasi-distribyutorlik-taqsimlash, tarqatish shartnomasi, birlashish va qo‘shib olish shartnomasi, strategik hamkorlik va aksiyalar sotib olishdir" deb o‘zining fikr mulohazalarini bildirgan bo‘lsa, O.Kovalevskiy fikricha: "bank sug‘urtasi-strategik ittifoq, umumiy korxona strategiyasi, o‘z institutini yaratish strategisi va konsolidatsiyalangan modeldir" deb o‘zining munozarali fikrlarini bildirgan.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan, "2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi" da ham fikrlar keltirib o‘tilgan bo‘lib, "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur'atlarini saqlab qolish uchun sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish" [6] ustuvor yo‘nalishi ta'kidlab o‘tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari interatsiyasining birinchi bosqichi G‘arbiy Yevropada 1967-1985-yillarda sodir bo‘lgan. 1985-yilda Buyuk Britaniya va Fransiya sug‘urta kompaniyalari tomonidan banklar bilan birinchi strategik ittifoq tuzildi. Standard Life Buyuk Britaniya sug‘urta kompaniyasi Bank of Scotland bankiga investitsiya kiritdi, Fransiyaning GAN sug‘urta kompaniyasi esa Credit Indastriel et Commercial bankini sotib oldi. Shu bilan birga Fransiyada 1980-yilda, Banque Nationale de Paris Paribas banki, Natio Vie sug‘urta kompaniyasini tashkil etdi. Banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsiyasining ushbu shakli amaliyotda o‘zini oqlagan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Hozirda Fransiyada samarali faoliyat olib borayotgan va yaqqol ustunlikka ega bo‘lgan Paribas guruhini bunga misol qila olamiz. Ushbu bosqichda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 1986-1995-yillar mobaynida bank sug‘urtasi jadal rivojlandi. 1996-2007-yillarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida bank sug‘urtasining jadal rivojlanish bosqichi davom etdi.

Shuningdek bank faoliyatiga xos bo‘lgan xavflarning xilma–xilligi ularning tasniflashni talab etadi. Bank faoliyatining asosiy risklarini tasniflash imkonini berdi. Bank faoliyatini asosiy risklarining tasnifi quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: Bank faoliyati asosiy risklarining tasnifi*

№	Tasnifi	Risk turi
1	Vaqt bo‘yicha	Retrospektiv
		Joriy
		Istiqbolli
2	Bank faoliyatiga nisbatan	Tashqi risk
		Ichki risk
3	Sodir bo‘lish omillari bo‘yicha	Iqtisodiy
		Siyosiy
		Tabiiy
		Antropogen
4	Rivojlanish dinamikasi bo‘yicha	Dinamik
		Statistik
5	Ko‘lami bo‘yicha	Xalqaro
		Mamlakatlararo
		Hududiy
		Tarmoqlararo
		Korxona riski
6	Bozorga nisbatan	Muntazam
		Muntazam bo‘lmagan
7	Moliyaviy risklar	Likvidlilik
		Kredit riski
		Inflyatsiya bilan bog‘liq
		Foiz
		Kapital riski
		Valyayuta riski
		Hisob kitoblarni tartibga solish riski

*Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tashqi faktorlar quyidagilardir.

- kredit resurslariga bo‘lgan narxning tebranishi;
- iqtisodiy o‘sish va kreditlarga talabning o‘sishi;
- inflyatsiya va bank foiz stavkasining o‘zgarishi;
- qayta moliyalashtirish stavkasining o‘zgarishi;
- texnologiyalar rivojlanishi;
- siyosiy holat;
- iqtisodiy siyosat, soliq siyosati;
- ekologik qonunchilik;

Bankning ichki faktorlariga esa bank faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan faktorlarni kiritishimiz mumkin. Ular quyidagilar.

- operatsion va eksplutatsion xarajatlar;
- kredit resurlaridan foydalanish darajasi.

Asosiy faktorlar bo‘yicha bank risklarini iqtisodiy va siyosiy risklarga bo‘lishimiz mumkin.

Siyosiy risklar – bu siyosiy holat tufayli sodir bo‘lgan va bank faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi (soliq rejimining o‘zgarishi, chegaralar yopilishi, boshqa mamlakatlarga tovarlar olib chiqilishini ta’qiqlash, mamlakat hududida harbiy holatning mavjudligi) faktorlarni kiritishimiz mumkin [7].


Iqtisodiy risklar (tijorat) mamlakat iqtisodiyotida yoki bank iqtisodiyotida noxush o‘zgarishlarning sodir bo‘lishidir. Iqtisodiy risklarning eng keng tarqalgan turi bu muvozanatlashmagan likvidlilikdir (to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilmasligi). Bu ikki asosiy risk turlarini amaliyotda bir-biridan ajratib olish mushkuldir. O‘z navbatida siyosiy va iqtisodiy risklar tashqi risklar va ichki risklar bo‘lishi mumkin [8].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek bank sug‘urtasining tarixi uzoqqa tarixga borib taqalmaydi aksincha ushbu sug‘urta turi XX asrning 20-yillaridan amaliyotda bo‘lgan va turli mamlakatlarda yillar mobaynida banklar bilan

birgalikda rivojlanib kelgan. Bank sug‘urtasi bo‘yicha fikrlar va ilmiy qarashlar yetarlicha emasdir. Lekin shu bilan bir qatorda xorijiy olimlar ushbu sug‘urta turini o‘rganganlar va amaliyotga tabiq etganlar. Sug‘urta tashkilotlari va banklar o‘zaro hamkorliklari bundan 150 yil ilgari paydo bo‘lgan desak adashmaymiz. F. V. Rayffayzen kredit uyushmalari asoschisi, sug‘urta va moliya-kredit faoliyatlari o‘zaro birlashishining ustunlik jihatlarini nazariy asoslagan va amaliy isbotlagan. Mahalliy va xorijiy olimlarning tizimlashgan yondashuvlari bancassurance ni yagona bir model yoki shaklda emasligini tasdiqlaydilar.

Bank sug‘urtasi demografik, iqtisodiy va huquqiy iqlim va an’analarga bog‘liq ravishda har xil yo‘llar bilan tartibga solinadi. Bank sug‘urtasini tashkil etishda barcha mamlakatlar uchun umumiy tajriba yo‘q. Shu bilan birga, sug‘urta polislarini banklar orqali tarqatish, sug‘urta kompaniyalari savdosi umumiy hajmida, ayniqsa hayot sug‘urtasi sohasida juda katta rol o‘ynashini ta’kidlash lozim. Yevropada ushbu ko‘rsatkich 70% ni tashkil etadi.

Sug‘urta kompaniyalari banklarning bank sug‘urtasidagi ishtirokining motivi, tizimlashgan holda quyidagi 1-rasmda berilgan.



1-rasm: Bank sug‘urtasida sug‘urtalovchilarni ishtirok etish motivlari*

*Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning sabablarini bilib olganimizdan so‘ng, bank sug‘urtasi nazariy asoslarini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Bank sug‘urtasi nazariyasi bank va uning xodimlariga shuningdek, korporativ va chakana bank mijozlariga sug‘urta mahsulotlarini sotish nazariyasini o‘z ichiga oladi. Bu holatda, bank sug‘urtasi nazariyasi bank savdosi nazariyasining shaxsiy hodisasidir va bank hodimlarining sug‘urta kompaniyasiga murojat qilmasdan, mustaqil ravishda sug‘rta xizmatlarini sotishni o‘z ichiga oladi.

Bank sug‘urtasi nazariyasi bank va sug‘urta kompaniyasining o‘zaro savdo qilish uchun harakatlar nazariyasidir. Shunday qilib, banklarning sotish nazariyasini amalga oshirishning dastlabki qadami banklar haqida ma’lumotlar bazasini yaratish va banklar bilan o‘zaro muloqot natijasida muayyan mezonlarga ko‘ra tanlangan.

XULOSA

Hozirgi globallashuv sharoitida banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsiyasi bu juda muhim hisoblanadi. Xususiyatiga ko‘ra integratsiyalashuv jarayoniga iqtisodiyotning moliya sektoridagi birlashish va qo‘shilishlarini (Xususan sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklari) vertikal qo‘shilish va birlashish deyish mumkin. Vertikal integratsiya, mijozlarga mahsulot va xizmatlar miqdorining ortishi va sifatining yaxshilanishi tufayli, o‘z harajatlarini tejash imkonini beradi. Bank va sug‘urta biznesining birlashishiga bir qator sabablar mavjud. Birinchidan, birgalikda yangi qo‘shma moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqish, bank depozitlari rentabelligi, sug‘urtalashning afzalliklari ularni raqobatbardosh va talabgor qiladi.

Ikkinchidan qo‘shimcha daromad keltiruvchi mijozlar bazasini kengaytiradi.

Uchinchidan bank faoliyatida risklar juda ham ko‘p bo‘ladi va ular ushbu xavf-xatarlarni o‘z mablag‘lari hisobidan qoplay olmaydilar va odatda bunday holatlarda sug‘urta kompaniyalari tomonidan kompleks sug‘urtalash orqali ushbu zararlar qoplanadi (Bankers Blanket Bond - VVV).

Sug‘urtalovchi, bankni o‘z ish jarayonida kelib chiqadigan turli xavf-xatarlardan himoya qilishga va xavfsizligini ta’minlashga qodir tashkilotdir (kredit va turli amaliy opersiyalar risklarini sug‘urtalash), hamda mijozlar bilan ishlash jarayonida ham (kreditorlarning garovga olingan mol mulklari, hayotlari va sog‘ligi sug‘urtasi dasturlari va boshqalar misolida) qatnashadi” [8].

Sug‘urta kompaniyalari va tijorat banklarining o‘zaro hamkorligi, birinchidan banklarda qo‘shimcha mablag‘lar paydo bo‘lishiga va bank daromadining oshishiga yordam beradi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ikkinchidan bank va sug‘urta sohasini mukammal biluvchi, kadrlar tayorlashni joriy qiladi va ikki tomon o‘rtasida o‘qitiladi. Natijada yangi ish o‘rinlar yaratiladi. Mamlakatimiz tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari o‘zaro birlashishlari, integratsiyasi, hamkorliklari va o‘zaro faoliyat yuritishlarida nafaqat o‘zlari uchun, balki fuqarolarimizga ham bir qator qulayliklar va afzalliklarni yaratadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 21-apreldagi O‘RQ-155-son “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 16-apreldagi O‘RQ-210-son “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida” gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-may. O‘RQ-386-son “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida” gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son “O‘zbekiston respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risda” gi Farmoni.
7. Морозов Д. С. Проектное финансирование: Управление рисками и страхование – издательство “Анкил”,1999 г.
8. Романова Анна Александровна “Формирование механизма взаимодействия страховых компаний с банковскими учреждениями” Москва 2005 г.
9. Мэлоун Патрик. Что менеджер проекта должен знать об анализе проекта. Серия 18 Б в сборнике Управление проектом/ анализ проекта - курс для преподавателей Средней Азии / Алматы, 6-22 мая 2006 г.
10. Kerzner H. Project Management: A. Systems Approach to Planning. Schedulling and Controlling. 4th ed., New York, Van Noatrad Renhold, 2002.
11. Russel D. Archibald. Managing of High - Technology Programs and Projects. 2nd ed., John Wilegs Sons Inc., USA, 2007.
12. Social protection in Europe – Commission of the European Communiteis. Brussels. 1994.
13. Rupp Insurance & Risk Management Glossary. 2002, NILS Publishing.
14. International Association of Insurance Supervisors “Core principles”, 2000, California.
15. Козлова Е., Финогенова Ю., Хоминич И. Основы страхового дела. Учебник и практикум // 978-5-9916-5977. – М.: Юрайт, 2016.- 499 стр.
16. Шахов В. В., Ахвледиани Ю. Т. Страхование. Учебник // ISBN 9785238014647.-М.:ЮНИТИ, 2009-243 стр.
17. Карелина С. А., Фролов И. В. Банкротство страховых организаций. Монография. // ISBN 9785720514648.-М.:Юстицинформ, 2018.-128 стр.
18. Лазарова Л. Б., Каирова Ф. А. Ипотечное жилищное кредитование и страхование. Учебное пособие // ISBN 9785907100176.-М.:Прометей, 2019.-186 стр.
19. Роик В. Экономика, финансы и право социального страхования. Институты и страховые механизмы // ISBN 9785961419610.-М.: Альпина Паблишер, 2013.-257 стр.
20. Черных М., Каячев Г., Каячева Л. Страхование: Финансовые аспекты. Учебное пособие//ISBN 9785406072752.-М.: КноРус, 2019.-284 стр.
21. Галаганов В. П. Основы страхования и страхового дела. Учебное пособие // ISBN 978-5-406-06052-0.-М.:КноРус, 2018.-216 стр.
22. Кузнецова О. В. Добровольное страхование. Практичексое пособие // ISBN 978-5-9916-0021-7.-М.:Юрайт, 2008.-182 стр.
23. Бабурина Н. А., Мазаева М. В. Страхование. Страховой рынок России. Учебное пособие // ISBN 9785534035605.-М.:Юрайт,2017.-128 стр.
24. Годин А. М., Демидов С. Р., Фрумина С. В. Страхование. Практикум // ISBN 9785394019920.-М.:Дашков и К, 2017.-208 стр.
25. Абдураҳмонов И. Х., Казанцева А. К., Носирова Г. А. Теория и практика страхования.Учебное пособие// ISBN 9785394019920.-Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2018.-512 стр.
26. https://www.louisepryor.com - Enhanced capital requirements and Individual Capital Assesments Insurers; Comite Europen des Assurances.pdf

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING INNOVATSION MENEJMENT TAMOYILLARI

Shaniyazova Zamira Oralbayevna
PhD, TATU Nukus filiali, “Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot” kafedrasi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim va tayanch tarmoqlaridan bir sifatida qishloq xo‘jaligi korxonalarini barqaror rivojlantirish, tarmoqni davlat tomonidan innovatsion menejment tamoyillari asosida zamonaviy usullarni qo‘llash amaliyotlari yoritilgan. Qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning xorijiy mamlakatlar tajribalari va ulardan mamlakatimiz sharoitida foydalanish masalalari va zamonaviy usullarni qo‘llash xususida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish, qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash, soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, soliq imtiyozlari, moliya-kredit imtiyozlari, davlat xaridlari, maksimal va minimal narxlar.

Abstract: The article discusses the sustainable development of agricultural enterprises as one of the important and basic sectors of the economy of our country, the practice of applying modern methods based on the principles of innovative management of the industry by the state. An opinion was expressed about the experience of foreign countries in financial support for agriculture and the issues of its use in the conditions of our country and the application of modern methods.

Key words: agricultural financing, agricultural support, tax and customs benefits, subsidies, tax benefits, financial and credit benefits, government procurement, maximum and minimum prices.

Аннотация: В статье рассмотрены устойчивое развитие сельскохозяйственных предприятий как одной из важных и базовых отраслей экономики нашей страны, практика применения современных методов, основанных на принципах инновационного управления отраслью со стороны государства. Было высказано мнение об опыте зарубежных стран по финансовой поддержке сельского хозяйства и вопросах его использования в условиях нашей страны и применения современных методов.

Ключевые слова: финансирование сельского хозяйства, поддержка сельского хозяйства, налоговые и таможенные льготы, субсидии, налоговые льготы, финансово-кредитные льготы, государственные закупки, максимальные и минимальные цены.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish va modernizatsiyalashga imkon yaratuvchi shart-sharoitlar ichida tarmoqni davlat tomonidan innovatsion menejment tamoyillari asosida zamonaviy usullarni qo‘llash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi” qabul qilindi va unda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, tarmoqda davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, agrar sektorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish kabi bir qator vazifalar belgilab berildi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish va tarmoqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish borasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi.

Jahonda qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish bo‘yicha BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” doirasidagi 17 ta global vazifalardan biri sifatida “Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ovqatlanishni yaxshilash va qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish”, qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlashga qo‘yiladigan talablarni sariq, yashil va moviy savatlarga turkumlagan holda tizimlashtirish hamda uning mumkin bo‘lgan maksimal darajasi va aniqlash uslubiyotini ishlab chiqish, agrar sektorni byudjet-soliq, moliya-kredit va narx

kabi makroiqtisodiy mexanizmlar orqali davlat tomonidan innovatsion menejment tamoyillari asosida zamonaviy usullarni qo‘llash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini innovatsion menejment tamoyillari asosida zamonaviy usullarni qo‘llash orqali qo‘llab-quvvatlash borasida davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish xarajatlarini imtiyozli kreditlash, texnika vositalarini imtiyozli lizing asosida yetkazib berish, unumdorligi past yerlarda paxta xomashyosi yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklariga davlat byudjetidan moliyaviy ko‘mak ajratish, irrigatsiya tizimlarini saqlash va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini davlat byudjetidan bevosita moliyalashtirish tadbirlari qo‘llab kelindi. Biroq qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning bozor tamoyillariga mos keluvchi iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Bugungi kunda jahon miqyosida qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan innovatsion menejment tamoyillari asosida zamonaviy usullarni qo‘llash orqali qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratilib, bu maqsadlarga yirik mablag‘lar sarflanmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma’lumotlariga ko‘ra, 2015-yilda agrar sektorni bevosita qo‘llab-quvvatlashga Xitoy Xalq Respublikasida 307,4, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 90,0, AQShda 38,8, Yaponiyada 33,5, Janubiy Koreyada 20,1, Rossiya Federatsiyasida 15,2 va Turkiyada 11,6 mlrd. AQSh doll. ekvivalentida mablag‘lar yo‘naltirilgan. Fermer xo‘jaliklarini bevosita qo‘llab-quvvatlashga davlat byudjetidan sarflangan mablag‘larning ularning yalpi daromadiga nisbatan salmog‘i (Producer Support Estimate (PSE)) Shvetsariyada 62,39, Norvegiyada 62,03, Islandiyada 56,32, Janubiy Koreyada 48,93, Yaponiyada 43,07, Turkiyada 19,82, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida o‘rtacha 18,92 %ni tashkil etgan [1].

“Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari” tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy talqiniga oid turli ilmiy yondashuvlarni o‘rganish va umumlashtirish asosida bu tushunchaga oid quyidagi mualliflik yondashuvini tavsiya etamiz: “Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari agrar sektorda xo‘jalik yuritishning umumiqtisodiy qonuniyatlari hamda davlatning agrar siyosati ta’sirida shakllanadigan mexanizmlari bo‘lib, subyektlarning iqtisodiy manfaatlari tizimiga ta’sir ko‘rsatish orqaliular faoliyatini davlat va jamiyat manfaatlariga mos holda moliyalashtirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi”.

Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning bosh mezoni sifatida - qishloq xo‘jaligi va qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda qishloq aholisining daromadlari va turmush farovonligini oshirishni keltirish mumkin.

Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish va qo‘llab- quvvatlashga qaratilgan agrar siyosatni amalga oshirish uchun turli dastaklarni (regulyatorlarni) o‘z ichiga olgan iqtisodiy mexanizmlar qo‘llaniladi.

Rivojlangan mamlakatlarning quyidagi ilg‘or tajribalarini respublikamiz sharoitiga moslashtirib qo‘llash zarur:

- agrar sektorda narxlar va fermerlar daromadini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari: murakkab tabiiy iqlim sharoitiga ega fermer xo‘jaliklariga subsidiyalar ajratish; konyunkturaviy tebranishlarda bozor muvozanati va narxlar barqarorligini saqlash uchun davlat xarid va tovar intervensiyalarini amalga oshirish; minimal kafolatlangan narxlarni qo‘llash; agrar sektor va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o‘rtasida tovar ayirboshlashda narxlar paritetini saqlash; fermerlarga mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog‘langan yoki bog‘lanmagan (bir gektar ekin maydoni yoki chorva mollari bosh soniga nisb.) bevosita to‘lovlar to‘lash;
- agrar sektorni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning byudjet- soliq va pul-kredit mexanizmlari: soddalashtirilgan va imtiyozli soliqqa tortish mexanizmini qo‘llash; investitsion kreditlar uchun foiz to‘lovlarining 50 %gacha qismini tijorat banklariga byudjetdan qoplab berish; asosiy kapitalni shakllantirishga kiritiladigan investitsion xarajatlarning 20 %gacha qismini fermerlarga byudjetdan qoplab berish; ekinlar va chorva mollari kasalliklari, zararkunanda va tabiiy ofatlardan zararlarning bir qismini byudjetdan qoplab berish; sug‘urta to‘lovlarining 50 %gacha qismini byudjetdan sug‘urta tashkilotlariga qoplab berish;
- qishloq xo‘jaligi va qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari: qishloq hududlarida infratuzilmalarni rivojlantirishga ko‘maklashish; ilg‘or tajribalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, trening va maslahat xizmatlari ko‘rsatishni byudjetdan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash; ishlab chiqarishga sifat standartlarini joriy etish va muqobil energiya turlarini qo‘llashni rag‘batlantirish; atrof-muhit, tuproq va tabiiy yaylovlar unumdorligini saqlash, ekin turlarini diversifikatsiyalash dasturlarini “Yashillik to‘lovlari” orqali qo‘llab-quvvatlash; “aqlli qishloq xo‘jaligi” va “organik dehqonchilik yuritish”ni rag‘batlantirish.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini davlat buyurtmasi bo‘yicha yetishtirish va ularga narx belgilashning amaldagi mexanizmlari bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to‘liq mos kelmaydi.

Keyingi yillarda paxta xomashyosi yetishtirish va qayta ishlash jarayoniga klasterlarning joriy etilishi bu borada tashlangan muhim qadamlardan bo‘ldi. Oxirgi yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlariga ajratilgan yer maydonlari hajmi paxta xomashyosi uchun ajratilgan yer maydonining 52 foizini tashkil etmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi”ga muvofiq ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlashga qaratilgan boshoqli don intervensiyasini amalga oshirish uchun kerakli bo‘lgan hajmdan tashqari davlat xaridlaridan to‘liq voz kechish amaliyotini joriy etish ko‘zda tutilmoqda. Buning natijasida paxta xom ashyosi va boshoqli don yetishtirishda davlatning ishtirokidan bosqichma- bosqich voz kechiladi hamda paxta xom ashyosi va boshoqli don mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan qabul qiluvchilar o‘rtasida mahsulot hajmiga qarab shartnoma tuzish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlari bilan moddiy-texnika resurslari va xizmatlar narxlari o‘sishi o‘rtasida yirik disparitet vujudga kelib, agrar tarmoqda foyda va rentabellik darajasi pasayib bordi.

MUAMMONI HAL QILISH YO‘LLARI

Mamlakatimiz oziq-ovqat bozorlarida ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarining oshib borishi va tebranishi (volotilligi) kuzatilmoqda. Aholini ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash va narxlar tebranishining oldini olish maqsadida minimal va maksimal narxlarni qo‘llagan holda davlat xarid va tovar intervensiyalarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Davlat xarid intervensiyalari bozorga talabdan ortiqcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari kirib, ularning narxlari tushib ketgan hollarda, fermer va dehqonlar zarar ko‘rmasligi uchun kiritilgan minimal narxlarni saqlab turish maqsadida bozordagi ortiqcha mahsulotlarni minimal kafolatlangan narxlarda sotib olish orqali, davlat tovar intervensiyalari esa bozorda taqchillik yuzaga kelib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlari keskin ko‘tarilib ketgan hollarda, taqchillikni bartaraf etish va maksimal narxlarni saqlab turish maqsadida zaxiradagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

ILMIY ASOSLANGAN TAKLIF VA TAVSIYALAR

“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi”da boshoqli don yetishtirishda davlat intervension xaridlar tizimini joriy qilish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmidan bosqichma-bosqich voz kechish hamda boshoqli donni kvota asosida bozor narxlarida sotib olish mexanizmini joriy etish ko‘zda tutilgan.

Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishda “qisqa muddatli imtiyozli kreditlash” o‘rniga “fyuchers” mexanizmini qo‘llash maqsadga muvofiq. Respublikamizda 2021-yilning 3-choragidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” tomonidan faqatgina tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini subsidiyalash tizimiga o‘tish rejalashtirilgan. Qishloq xo‘jaligining tarmoq sifatida o‘ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, uning tabiiy iqlim shart-sharoitlariga bog‘liqligi, ishlab chiqarishni yuritishning tavakkalchilikka kuchli moyilligi va boshqa iqtisodiy xarakterdagi bir qator omillar tarmoqni davlat tomonidan moliyaviy va qo‘llab-quvvatlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotlar qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish uchun uning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, obyekti va predmeti, shakl va usullari, mexanizmlari, dastaklari (regulyatorlari) va ustuvor yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, agrar sektorni barqaror rivojlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirish va byudjet-soliq siyosatining rag‘batlantiruvchi funksiyasidan (fiskal ekspansiyadan) unumli foydalanish joiz. Jamiyat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xarid qilishga davlat xarajatlarining oshirilishi, agrar sektordagi kapital va ishlab chiqarish xarajatlarini byudjetdan qisman qoplash, murakkab tabiiy iqlim sharoitga ega va unumdorligi past yerlarda mahsulot yetishtirishni subsidiyalash, byudjet orqali qo‘llab-quvvatlashning boshqa shakllari qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining o‘sishi va tarmoqning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillarning ko‘rsatishicha, keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida texnika vositalari sonining keskin qisqarishi va eskirish darajasining yuqoriligi natijasida agrar sektorning mexanizatsiyalashuv darajasi, kapital va fond qaytimi pasayib, sig‘imi ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra 2005-2016-yillarda qishloq xo‘jaligida (o‘rmon va baliqchilikni qo‘shgan holda) asosiy fondlarning

eskirish darajasi o‘rtacha 35,2%, yangilanish koeffitsenti esa o‘rtacha 9,7% ga teng bo‘ldi. Shu davrda asosiy fondlarning chiqib ketish (tugatish) koeffitsientining past darajada (2005-2016-yillarda o‘rtacha 3,4 %, 2016-yilda 1,9%) qolayotganligi hamon unumdorligi past eski texnikalardan foydalanish davom etayotganligini ko‘rsatadi. Natijada 2006-2016 yillarda tarmoqqa kiritilgan har bir so‘mlik investitsiyalarga nisbatan qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti qiymati 6,0 martaga (kapital qaytimi ko‘rsatkichi), qishloq xo‘jaligidagi har bir so‘mlik asosiy fondlarga nisbatan esa 2,9 martaga kamaygan (fond qaytimi ko‘rsatkichi). Shularga mos ravishda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining har bir so‘miga to‘g‘ri keluvchi kapital sig‘imi 7 martaga, fond sig‘imi esa 3 martaga oshgan [2, 285 b.].

Qishloq xo‘jaligini davlat byudjetidan bevosita qo‘llab-quvvatlash darajasi rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda past darajada qolmoqda. Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilish mumkinki, agrar sektorni davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar orqali qo‘llab- quvvatlash miqdorini oshirish va yo‘nalishlarini kengaytirish, shuningdek, turli imtiyoz va prefrensiyalar ko‘rinishidagi bilvosita qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish mamlakat oziq-ovqat ta’minoti va xavfsizligini mustahkamlashga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va tarmoqqa yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar narxlari o‘sishi o‘rtasidagi disparitetning kuchayib borganligi, davlat xarid narxlarining pastligi oqibatida agrar sektorda ishlab chiqarish rentabelligi va tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Statistik ma’lumotlarga qaraganda 2005-2016-yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida shakllangan foydada agrar sektorning ulushi 1,5% dan oshgan emas. Shu yillar ichida qishloq xo‘jaligida sof foydani sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati sifatida aniqlangan rentabellik (zararlilik) darajasi o‘rtacha 5,7% ni tashkil etgan [2, -252 b.].

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining daromadlari va to‘lovga qobilligini qo‘llab-quvvatlash uchun nafaqat murakkab tabiiy iqlim sharoitiga ega va unumdorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosini yetishtirish, balki boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga (boshoqli don, meva-sabzavotlar, sholi va h.k.) ham davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish, yerlarning bonitet baliga qarab davlat xarid narxlariga tuzatish koeffitsientlarini qo‘llash, JST talablariga muvofiq mahsulot hajmiga bog‘langan qo‘llab-quvvatlashdan bog‘lanmagan, ya’ni bir gektar ekin maydoniga, chorva moli bosh soniga nisbatan qo‘llab-quvvatlash va uning boshqa turlariga o‘tish maqsadga muvofiq.

Agrar sektorga kredit resurslari va boshqa qarz mablag‘lari jalb etishni rag‘batlantirish uchun davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab o‘uvvatlashning pul-kredit mexanizmlari, ya’ni kreditlash tartibi va shartlarini yengillashtirish, imtiyozli kreditlar uchun resurslarni kengaytirish, kreditlarni qaytarish muddatini uzaytirish va foiz to‘lovlarining bir qismini tijorat banklariga davlat byudjetidan qoplab berish, kredit risklarini sug‘urtalashda davlat kafolatini ta’minlash kabi mexanizmlardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining tijorat banklari kreditlari uchun foiz to‘lovlarining 50% gacha, asosiy kapitalni shakllantirishga (tomchilatib sug‘orishni joriy etish, issiqxonalar, sut-go‘sht yetishtirishga ixtisoslashgan fermalar qurish, naslli chorva mollari, texnika va texnologik uskunalar sotib olish va h.k.) kiritilgan investitsiyalarning bir qismini davlat byudjetidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qoplab berish, byudjet-soliq, tarkibiy-investitsion va pul-kredit mexanizmlarining boshqa dastaklarini qo‘llash agrar sektorni barqaror sur’atlar bilan rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

KUTILAYOTGAN IQTISODIY SAMARA

Rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib, agrar sektorni rivojlantirish bo‘yicha o‘rta (5 yilgacha) va uzoq (10 yilgacha) muddatli, o‘z pasportiga ega, dasturning maqsadi va vazifalari, asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha quyi dasturlar, amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan tadbirlarning turlari va muddatlari, moliyalashtirishning aniq hajmi va manbalari hamda erishiladigan maqsadli natijalar, dastur bajarilishini baholashga imkon beruvchi indikatorlarni qamrab olgan kompleks maqsadli davlat dasturlarini muntazam ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashning jamiyat va milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan eng muhim ilmiy-uslubiy asoslari sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz: xususiy mulk huquqi va tadbirkorlik erkinligini kafolatlash; bozorning ochiqligi va adolatli raqobatni muhofaza qilish; monopol hokimiyatni cheklash; oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash;

Fermer va dehqon xo‘jaliklarining daromadlari va narxlar barqarorligini qo‘llab-quvvatlash; ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash; byudjet orqali qo‘llab-quvvatlash; imtiyozli soliqqa tortish va imtiyozli kreditlash; investitsiyalar jalb etishni rag‘batlantirish; ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik jihozlashni qo‘llab- quvvatlash; agrar sektor va boshqa tarmoqlar o‘rtasida tovar ayirboshlashda paritetni saqlash; infratuzilma, ilmiy tadqiqot, axborot-maslahat ta’minoti va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-sonli Qarori. 2030-yilgacha o‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 07/22/436/1061-son.
3. Джонсон Дж., Шоулз К., Уиттингтон Р. Корпоративная стратегия. Теория и практика. – М.: Вильямс, 2007. – С. 71.
4. Якимов А.В. Корпорации с государственным участием // Инвести-ции и инновации в промышленности. – 2014. – № 7. – С. 12.
5. Соколов А. В. Регулирование деятельности корпораций с участием государства как форма реализации промышленной политики: автореф. дис. на соиск. уч. ст. д.э.н. – СПб., 2011. – С.
6. Szamosszegi A., Kyle C. An Analysis of State-owned Enterprises and State Capitalism in China. U.S.-China Economic and Security Review Commission. October 26, 2011. Washington, DC: Capital Trade, Incorporated, 2011. 122 p.// http://www.uscc.gov/sites/default/files/Research/10_26_11_CapitalTradeSOEStudy.pdf.
7. Молотников А. Е., Текутьев Д. И. Правовые проблемы участия государства в акционерных обществах// Имущественные отношения в Российской Федерации. – Москва, 2012. – № 2. – С. 35.
8. Сланова Н .Н. Особенности корпоративного управления в акционерных обществах с государственным участием//Проблемы современной экономики. Сборник материалов XXIV Международной научно-практической конференции. – Новосибирск, 2016. – С. 204.
9. Бархатов В. И., Журавлева Г. П., Мильчакова Н. Н., Шатин А. Ю. Экономическая теория. – М. : Финансы и статистика, 2007. – 1240 с.
10. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. – М.: “ИНФРА-М”, 1997. – 496 с.
11. Кован С. Е. Финансовая устойчивость предприятия и её оценка для предупреждения его банкротства. 2009. № 15. с. 59.
12. Маҳмудов Н., Файзуллаев Ё., Юсупов М., Ҳомидов С.. Иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини барқарор ривожлантириш омиллари ва тенденциялари. Монография. -Т.: Иқтисодиёт, 2018, -373 б.



ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА

Алиева Зилола Маматвалиевна
Ташкентский архитектурно-строительный университет, доцент кафедры “Экономика”

Аннотация: Статья подчеркивает важность разработки и реализации эффективных государственных политик в области жилищного строительства, которые будут способствовать развитию этой отрасли и обеспечению доступного и качественного жилья для всех граждан.

В статье также обсуждаются возможные решения для преодоления этих проблем, такие как привлечение инвестиций, субсидии для низкого и среднего класса населения, улучшение инфраструктуры и охрана окружающей среды. Она также указывает на необходимость развития образования и профессиональной подготовки рабочей силы, чтобы обеспечить квалифицированных работников для жилищного строительства.

Ключевые слова: Жилищное строительство, структура жилищного строительства, оптимизация жилищного строительства, качество жилья, комфортабельность жилья, жилищная проблема.

Annotatsiya: Maqolada uy-joy qurilishi sohasida ushbu sohani rivojlantirish, barcha fuqarolarni arzon va sifatli uy-joy bilan ta’minlashga xizmat qiladigan samarali davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish muhimligi ta’kidlangan.

Maqolada, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilish, aholining kam va o‘rta sinflari uchun subsidiyalar, infratuzilmani yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi ushbu muammolarni bartaraf etishning mumkin bo‘lgan echimlari muhokama qilinadi. Shuningdek, u uy-joy qurilishi uchun malakali ishchilar bilan ta’minlash uchun kadrlar tayyorlash va o‘qitishni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Uy-joy qurilishi, uy-joy tuzilishi, uy-joylarni optimallashtirish, uy-joy sifati, uy-joy sharoitlari, uy-joy muammosi, uy-joy sotib olish imkoniyati.

Abstract: The article emphasizes the importance of developing and implementing effective government policies in the field of housing construction that will contribute to the development of this industry and the provision of affordable and quality housing for all citizens.

The article also discusses possible solutions to overcome these problems, such as attracting investment, subsidies for the low and middle class population, improving infrastructure and protecting the environment. She also points to the need to develop workforce education and training to provide skilled workers for housing construction.

Key words: Housing, housing structure, housing optimization, housing quality, housing comfort, housing problem.

ВВЕДЕНИЕ

Одной из основных социально-экономических задач государства и общества в целом является обеспечение населения жилой недвижимостью, которая отвечает актуальным требованиям и стандартам. Самой острой и сложно решаемой проблемой на протяжении истории человечества для основной массы населения остается удовлетворение потребности в жилье. Отсутствие собственного жилья рождает в человеке чувство незащищенности. Поэтому население уделяет особое внимание в жизни вопросу приобретения собственного жилья и как следствие этого формированию личного благополучия, некого уровня социальных гарантий. В большинстве регионах Узбекистана жилищный вопрос является важнейшей и наиболее значимой социально-экономической проблемой. Жилищная проблема – это явление многоступенчатое, поэтапно развивающееся и требующее особого подхода в решении.

Сложный период 90-х годов XX века и череда финансовых кризисов начало XXI внесли свои негативные отпечатки на крайне сложную проблему развития жилищного строительства, которая существует в настоящее время в каждом регионе нашей страны. Несоответствие растущих потребностей

человека в жилье требуемого качества, удовлетворение современным стандартам составляет сущность жилищной проблемы как в Узбекистане, так и в других регионах страны.

Жилищное строительство является важнейшим средством решения жилищной проблемы населения, так как эта проблема есть одна из болезненных среди главных направлений социально-экономического развития Узбекистана. Дефицит комфортного и доступного жилья создает крупную социальную проблему.

Целью исследования данной статьи является изучение экономических проблем и перспектив развития жилищного строительства на территории республики Узбекистан в рыночных условиях, а также рассмотрение возможных методов решения данных вопросов, в том числе участия в решении данных проблем региональных государственных структур.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Динамика развития рынка, а также факторы ее формирующие широко обсуждаются в научных кругах. Так, тенденции изменения динамики основных показателей рынка жилищного строительства рассмотрены в работах Новожениной А. Ю., Оборина М. С., Борисовой Л. А.

Особенности развития рынка малоэтажного строительства и индивидуального жилищного строительства исследованы в работах Медяник Ю. В., Сабирзяновой Л. И., Гусоковой Н. В.

Перспективы развития жилищного, в том числе индивидуального жилищного строительства в условиях внедрения проектного финансирования, обсуждаются в исследованиях Новиковой Н. Г., Кубасовой Т. И., Глотовой Н. И. и др.

Рынок жилищного строительства характеризуется высокой зависимостью как от экономических факторов, так и технических факторов, низким уровнем конкуренции и высокими административными барьерами, что вызывает необходимость комплексной оценки и мер регулирования Развитие рынка жилищного строительства может быть определено по таким показателям, как ввод жилья, индекс физического объема по виду деятельности “Строительство”, структура жилищного строительства и другие.

Таким образом, анализ рынка жилищного строительства требует учета множества факторов, как социальных, так и экономических, и включает в себя изучение тенденций, перспектив развития, а также особенностей различных сегментов этого рынка. Исследования ученых в этой области помогают лучше понять динамику этого рынка и принимать более обоснованные решения в сфере жилищного строительства.

ИССЛЕДОВАНИЕ

Социальные аспекты рынка жилищного строительства включают в себя доступность жилья для различных социальных групп, уровень комфорта и безопасности жилья, а также социальную инфраструктуру вокруг новых жилых комплексов.

Экономические аспекты рынка жилищного строительства включают в себя цены на жилье, объемы инвестиций, ставки по ипотечным кредитам, а также конкурентную среду на рынке.

Эти внешние шоки могут быть связаны с изменениями в экономике, политике, законодательстве, а также с изменениями в потребительских предпочтениях и тенденциях. Поэтому для успешного анализа рынка жилищного строительства необходимо учитывать как социальные, так и экономические аспекты.

Таким образом, для полноценного понимания динамики развития рынка жилищного строительства необходимо учитывать и анализировать как социальные, так и экономические факторы, влияющие на эту сферу.

Несмотря на высокие темпы роста численности населения Узбекистана (за годы независимости прирост составил более 9,4 млн чел.), наблюдается стабильный рост обеспеченности населения жильем. Если в 1991 году на одного человека приходилось 12,4 кв. м общей площади, то к 2015 г. этот показатель достиг 15,2 кв. м, то есть вырос в 1,2 раза.

Всего в Узбекистане за 2009-2018 годы введено 104,9 млн кв. м жилья, из них 75,6 млн кв.м приходится на сельскую местность и 29,3 млн кв.м - на город. Объем ввода жилья в последние годы, начиная с 2009 года, имеет устойчивую положительную динамику и возрос в 1,6 раз. (см. таб.)

Согласно Постановлению Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиеева от 21 октября 2016 года “О программе по строительству доступных жилых домов по обновленным типовым проектам в сельской местности на 2017-2021 годы”, в республике осуществляется возведение комфортабельных жилых домов по новым типовым проектам, которые учитывают национальный менталитет и особенности условий проживания в сельской местности. Также внедряются максимально благоприятные условия льготного кредитования и дальнейшее расширение использования новых видов энергосбере-

гающих материалов и оборудования. Все это послужит сокращению себестоимости новостроек, в связи с чем и устанавливаются приемлемые цены для всех слоев населения.

Нужно отметить, что только за 2009-2016 гг. на 1308 жилых массивах на селе построено 69557 комфортабельных жилых домов общей площадью 9573 тыс. кв. м, и жилищные условия улучшили свыше 83,5 тыс. сельских семей.

Динамика ввода в действие жилья в Узбекистане (млн. кв.м.)

	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
По стране	7,7	8,9	9,2	10,4	10,7	11,3	12	11,3	11,3	12,1
Город	2,6	2,2	2,3	2,7	2,7	3	3,5	3,1	3,5	3,7
Село	5,1	6,7	6,9	7,7	8	8,3	8,5	8,2	7,8	8,4

При разработке проектов жилья в сельской местности, по сравнению с проектированием в городах, имеются свои особенности и отличительные черты. Во-первых, это связано с комплексной оценкой территории, на которой предполагается осуществить привязку жилья. Здесь тщательно учитывается организация сельскохозяйственного производства, а также размещения дехканских и фермерских хозяйств. Во-вторых, особое внимание обращается на расселения с расчетом проектной численности населения, трудоустройства, т.е. создание дополнительных рабочих мест, организация система социальной инфраструктуры.

В Узбекистане сформирована необходимая законодательно-правовая база, институциональные основы, система льгот и преференций, создающих режим наибольшего благоприятствования для развития жилищного строительства, в частности в сельской местности.

В целом национальная модель жилищного строительства в Узбекистане характеризуется следующими особенностями:

- стратегическим приоритетом долгосрочного характера выступает опережающее развитие жилищного строительства в сельской местности;
- ориентированность строительства жилья на региональные традиции и менталитет населения иметь преимущественно собственное жилье;
- высокая доля в жилищном фонде и объемах ввода жилья индивидуального жилищного строительства;
- на формирование спроса на жилье существенное влияние оказывает демографический фактор (рост численности населения и молодых семей, состав и структура домохозяйств);
- широкомасштабная система льгот и преференций для устойчивого развития жилищного строительства, в первую очередь на селе.

В настоящее время большое внимание уделяется поиску способов решения жилищной проблемы, вопросам прогнозирования жилищного строительства и эффективного использования сложившегося жилищного фонда и его реконструкции.

Однако практика показывает, что при этом не учитываются вопросы оптимизации структуры жилищного фонда, жилищного строительства, а также влияния рыночных факторов. Это приводит к диспропорции в обеспеченности различных типов семей и общей площади, дефициту в строительстве одних и избытку других типов квартир, а следовательно, к нерациональному использованию жилищного фонда.

Решить эту сложную проблему - создать оптимальную структуру жилищного строительства - можно на основе моделирования процесса жилищного строительства. Моделирование связано не только с обеспечением прогноза внешних факторов (размер инвестиций, к примеру), описанием траектории развития структуры и объемов жилищного строительства, но и с выбором и обоснованием экономической политики в области научно-технического прогресса, инвестиций, цен и т.д.

Эффект от принятия решений в области жилищного строительства сказывается в течение длительного периода в будущем, когда производство функционирует при ресурсах, созданных в прошлом и настоящем времени.

В современных условиях в жилищном строительстве представляется весьма важным учет продолжительности инвестиционного цикла. Сложность, обширность и многогранность указанной проблемы требуют использования комплексного, системного подхода к ее решению. Соединение информационно-логического моделирования и экономико-математических подходов позволяет выработать оптимизационную модель.

При моделировании развития жилищного строительства необходимо решить задачи прогнозирования долговременных тенденций роста строительного производства с учетом требований и ограничений, а также спроса на жилье.

Прогнозирование должно быть многовариантным, позволяющим оценивать различные пути и возможности развития с учетом ограничений и критериев оптимальности. В связи с изложенным, методы экономического прогнозирования опираются на статистическую обработку данных, характеризующих существующую структуру жилищного фонда.

Это позволяет более объективно раскрыть всю систему взаимосвязей и взаимоотношений, весь комплекс параметров состояния и закономерностей перспективного развития. Одной из важнейших экономических проблем управления жилищным строительством, в условиях рыночных отношений, является комплексное изучение факторов, способных стимулировать его устойчивый рост, а именно:

- реализация программ локализации производства строительных материалов, деталей, конструкций непосредственно в Узбекистане с целью исключения фактора зависимости от импортных поставок;
- реализация положений законодательства Республики Узбекистан в полном объеме с целью обоснованного продвижения вперед в деле развития жилищного строительства;
- соблюдение всех строительных норм и правил с целью исключения всех переделок, удорожания объектов, инженерных коммуникаций и т.д.;
- развитие конкурентной среды на рынке жилищного строительства с целью обеспечения населения комфортабельным жильем и квартирами;
- реализация инвестиционных программ как документа, где взаимосвязаны сроки реализации, объемы финансирования, а также обоснованы с юридических позиций взаимоотношения всех участников инвестиционного процесса.

ВЫВОДЫ

Подводя итоги можно сказать, что состояние жилищного строительства отражает состояние экономической привлекательности Республики Узбекистан. Сегодня жилищное строительство, как в городе Ташкенте, так и в регионах республики реализуется множество проектов комплексной застройки, в которых предусмотрено не только возведение жилья, но и строительство социальной инфраструктуры: общеобразовательных учреждений, торговых, офисных, гостиничных и других объектов. Также в целях стимулирования рынка жилищного строительства правительство республики осуществляют государственные программы по льготному кредитованию. Конечно еще есть много проблем, которые тормозят эффективное развитие жилищного строительства Узбекистана. Основной целью, на мой взгляд, является создание работающей системы по обеспечению населения Узбекистана со среднестатистическими доходами доступным комфортным жильем. Для решения проблем жилищного строительства необходимо дальнейшее развитие данной отрасли, применение современных, актуальных технологий и инвестиций.

Список используемой литературы:

1. Кретов А. А. Инвестиционный процесс в сфере жилищного строительства и особенности его финансового обеспечения. 2012г.
2. Рахман И. А. Зарубежный опыт регулирования инвестиционно-строительной деятельности // Экономика строительства. 2001. № 6. С. 45.
3. Архипов А. П., Гомелля В.Б. Основы страхового дела. Учебное пособие. М.: “Маркет ДС”, 2002.
4. Ko‘chmas mulk bo‘yicha axborot-tahliliy portal [elektron resurs]. - Kirish tartibi: http://www.irn.ru/ (kirish 12.10.2012).
5. Kuzovleva, I. A. Innovatsion boshqarish uchun uslubiy asoslarini ishlab Chiqish muammoli iqtisodiyoti/I. A. Kuzovleva, V. L. Berestov va boshq bilan hududlarida jarayonlar. – Bryansk davlat Universiteti. muhandislik va texnologik Akademiyasi. – Bryansk: RIO BGITA, 2010. – 238s.
6. Krapivina Ye. S. Uy-joy qurilishi sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish / / ilmiy-amaliy konferensiya “kooperativ ta’limda innovatsion texnologiyalar iqtisodiy rivojlanish omili sifatida”, BUPC, 2009.
7. Скулимовский М.М. Сокращение сроков реализации инвестиционно-строительных проектов: Новые подходы // Экономика строительства. 2002. № 5. С. 14.
8. Строительство в Узбекистане: Статистический сборник Государственного комитета статистики Республики Узбекистан. – 2017.



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Shakirova Nigora Axralovna
Toshkent moliya instituti “Statistika va ekonometrika” kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning zamonaviyi usullari yoritilgan. Shuningdek, maqolada tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning yangi innovatsion usullarini joriy etishning dolzarbligi va zarurati turli rivojlangan davlatlar misolida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik subyektlari, moliyalashtirish manbalari, faktoring, korxona risklari.

Abstract: This article discusses modern methods of financing economic entities in our country. The article also examines the relevance and necessity of introducing new methods of innovation for financing economic entities on the example of various developed countries.

Key words: Business, entrepreneurship, financing sources, factoring, business risks.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методы финансирования хозяйствующих субъектов в нашей стране. Также в статье исследуется актуальность и необходимость внедрения новых методов инноваций для финансирования хозяйствующих субъектов на примере различных развитых стран.

Ключевые слова: предпринимательство, хозяйствующие субъекты, источники финансирования, факторинг, предпринимательские риски.

KIRISH

So‘nggi yillarda xalqaro maydonda bo‘layotgan o‘zgarishlar dunyo iqtisodiyotiga, shu jumladan, milliy iqtisodiyotimizga ham katta ta’sir o‘tkazmoqda.

Globallashgan turli ziddiyatlar tufayli logistika va mahsulot yetkazib berish zanjirining uzilgani, hamkor mamlakatlar valyutasining qadrsizlangani, dunyo miqyosida inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lib qolayotgani oqibatida moliyaviy resurslarning qimmatlashgani kabi omillar o‘z ta’sirini tadbirkorlarning moliyaviy ahvoliga ta’sir etmoqda.

Jahon bozorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlarga qaramasdan, respublikamizda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish borasidagi dolzarb muammolar aniqlanadi va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning obyekti sifatida tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyoti ko‘rib chiqiladi.

Yurtimiz hududlarida istiqbolli ustuvor tarmoqlarini shakllantirish bilan, kelgusida mulkni davlat tasaruffidan chiqarish va xususiylashtirish, yakkahokimlikka qarshi tadbirlarni amalga oshirish, raqobat muhitini vujudga keltirish va pirovard natijada eng asosiysi, tadbirkorlikni kengaytirish hisobiga aholini ish bilan bandligini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq turli tadbirkorlik shakllarining moliyalashtirish manbalari tarkibi va rivojlanish asoslarini o‘rganish muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAXLILI

F. Allen va D. Geyl kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning ikki tizimi – banklar faoliyatiga asoslangan tizim va moliya bozorlariga asoslangan tizimning mavjudligini e’tirof etishadi va bunda birinchi tizimning nisbatan muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlashadi (Allen va Geyl, 2000) [5].

Nobel mukofotining sohibi, M. Yunusning xulosasiga ko‘ra, endi ish boshlayotgan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda asosiy e’tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining

moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so‘ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo‘lgan talabning oshishiga sababchi bo‘lishadi (Yunus, 2010) [6].

Shanel-Reyno va Bluaning (2001) xulosasiga ko‘ra, kichik va o‘rta korxonalarning yirik korxonalar bilan aloqalarini yaxshi yo‘lga qo‘yilishi ularning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Chunki, yirik korxonalar kichik va o‘rta korxonalar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga kirishishdan oldin ularning bozor talablariga javob bera olishini tahlil qiladi. Shuningdek, yirik korxona hamkori bo‘lgan kichik va o‘rta korxonalarning holatini doimiy ravishda nazorat qiladi.

Rossiyalik iqtisodiyot fanlari nomzodi Rodina T. E. fikriga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesning ulushi o‘rtacha 33 foizni tashkil etadi. Rossiyada esa ularning ulushi YaIMning beshdan bir qismini egallaydi [4]. Mamlakatimizda tadbirkorlik muhitining yaxshilanib borayotganligi sababli O‘zbekistonda 2022-yilning yanvar-dekabr oylari davomida tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 51,8 foizni tashkil etdi [12].

O‘zbekistonda aholi tadbirkorligini oshirish masalalari va chora- tadbirlar bir qator qonun hujjatlarida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [10, 11], “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [10, 11], “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi [10, 11], “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [10, 11], “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari [10, 11], “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni [10, 11] bilan mustahkamlandi.

Fikrimizcha, iqtisodchi olimlarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan xulosalari, taklifi va tavsiyalarini respublikamiz amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini asoslab berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada banklar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar va mikrokreditlar alohida guruhlarga ajratilgani holda, iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tadqiqot jarayonida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish shakllari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan va moliyalashtirish manbalari va olinadigan daromadlarning real qiymatini milliy valyutaning devalvatsiyasi ta’sirida pasayishiga alohida e’tibor qaratilgan. Tahlil jarayonida ma’lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat moliyaviy resurslaridan foydalanishni takomillashtirish tadqiqotini amalga oshirishda asosan tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, statistik guruhlash, va taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAXLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil avgust oyida mamlakatimiz tadbirkorlari bilan “Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustuvor vazifamizdir” formatida o‘tkazgan ochiq muloqotida so‘zlagan nutqlarida “Erishayotgan yutuqlarimizga erishishda katta hissa qo‘shib kelayotgan, yangi g‘oyalar tashabbuskori bo‘lgan kichik tadbirkorlarimiz, iqtisodiyotimiz lokomotiviga aylangan o‘rta biznes vakillari, minglab ish o‘rinlari yaratib, odamlarimizni daromadli qilayotgan yirik korxonalar rahbarlari, bozorlarimizga baraka olib kirayotgan klaster, fermer va dehqonlarimiz” – ekanligi alohida qayd etib o‘tilgan.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-150-sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmonga muvofiq, quyidagilar tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatining kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi asosiy yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi:

- tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali joylarda tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha sa’y-harakatlarni davom ettirish;
- eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash orqali respublikada eksport hajmini oshirishga ko‘maklashish;
- tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradigan davlat, tarmoq va hududiy dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish;

- mamlakatda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish, jumladan hududlarda iqtisodiy o‘sish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim drayver sohalarni rivojlantirish borasida moliyaviy ko‘maklashish;
- tijorat banklarining kreditlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samara beruvchi yo‘nalishlar, jumladan axborot tizimlari va dasturlarini yaratish loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratssiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagi qog‘oz to‘ldirish yo‘li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda. Sanoatning yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko‘p soni ilgarigi 100 kishidan 200 kishigacha oshirilgani tadbirkorlikni rag‘batlantirish borasidagi chora- tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo‘ldi.

Ayni vaqtda, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshirish ular faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, dunyo iqtisodchi olimlari tomonidan turli davrlarda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan.

Shunday qilib, ishsizlikning tabiiy darajasi – bu “normal” davrdagi me’yoriy inflyatsiya va barqaror o‘sish sur’atlari bilan ifodalangan bo‘lib, uning ta’rifi – anchagina murakkab jarayonni o‘z ichiga oladi hamda mazkur ko‘rsatkichni hisoblab chiqish uchun “normal ishlovchi iqtisodiyot” modelini yaratish kerak bo‘ladi.

Ishsizlik tushunchasiga aniqlik kiritishda ham turli qarashlar mavjud. Rossiyalik iqtisodchi olimlar M. N. Dudin: “Ishsizlik – bu ijtimoiy-iqtisodiy hodisaki, unda faol, mehnatga layoqatli aholining bir qismi o‘zi bajarishi mumkin bo‘lgan ishni topa olmaslik holatidir”[7], ─ deb ta’riflasalar, boshqa bir iqtisodchi olimlardan I. M. Aliyev, N. A. Gorelov esa: “Ishsizlik – iqtisodiyotdagi shunday bir hodisaki, unda iqtisodiy faol aholining bir qismini ishsizlar tashkil etadi”, ─ deb izohlaydilar.

Bizning fikrimizcha, ishcizlik – bu ishlashni istaydigan mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo‘lmagan miqdoridir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, globallashuv sharoitida, gap tabiiy ishcizlik to‘g‘risida emas, balki uning ijtimoiy maqbul darajasi, ya’ni kadrlar qo‘nimsizligi va ish izlash davomiyligini, shuningdek ishchi kuchining demografik darajasini (ishsizlikning bo‘sh ish joylari miqdoriga nisbati) va ijtimoiy tanglikni ham hisobga oladigan darajasi to‘g‘risida borishi lozim.

Demografik vaziyatning barqarorlashuvi ish bilan bandlikning ushbu xususiyatlarini tahlil qilishning dolzarbligi aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlarning doimiy dinamikasi bilan belgilanadi

Demografik jihatlar, harakatlanishning zamonaviy muammolari, shuningdek, aholi siyosatining tahlili, xususan, hududlardagi demografik vaziyat, shuningdek, inson kapitalining rivojlanishini o‘rganishda tahlil qilinadi hududlarida aholining hayot darajasi va sifati demografik muammolar va turmush darajasi tahlil qilinadi). Shu bilan birga, ish bilan band aholining demografik xususiyatlarini tahlil qilishga yetarli darajada e’tibor berilmayapti (bandlarning yosh tarkibini o‘zgartirishning mintaqaviy jihatlari bilan birga) muammolarni yuzaga keltirayotganligi hech kimga sir emas.

Ma’lum darajada, umumiy makroiqtisodiy tendensiyalar aholining ish bilan bandligi darajasi dinamikasida va ish bilan bandlarning yosh tarkibi bo‘yicha chuqur hududlar o‘rtasida farqlarning mavjudligi, qolaversa, zamonaviy sharoitda ish bilan bandlarning o‘rtacha yoshi oshayotganligi, ya’ni iqtisodiyot tarmoq va sohalarida pensionerlar mehnat faoliyati uchun shart-sharoitlar ya’ni ish haqini 100% miqdorda berilishi, ayniqsa, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan va madaniyatga sezilarli darajada oshdi.

Bu demografik rivojlanishning tabiiy natijasi, aholi tarkibida yoshlarning salmog‘ining ko‘pligi va keyingi paytlarda ayrim sohalarda pensionerlar mehnat faoliyati, ya’ni yosharish tendensiyalarining bevosita ustunligi, shu bilan birga, qarish tendensiyasining namoyon bo‘lishi, albatta, mehnat bozorida talab va taklifning shakllanishi va nomutanosibligiga ta’sir qiladi, ularning rivojlanishi ko‘p jihatdan mamalakatimizdagi 14 ta hudud mehnat bozorlarining holatiga bog‘liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma’lumotnomalari va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, makroiqtisodiy tahlil, guruhlash, eksperiment, dekompozitsiya, adaptiv usullar, innovatsion va integratsion yondashuvlar, yoshlar ishsizligini kamaytirish bo‘yicha xalqaro tajribalar tahlili va aprobatsiyasidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 20-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so‘zlagan nutqida “Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasi” ekanligini, milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta’minlashdan iborat, – ekanligini alohida qayd etdi. Shu bilan birga, kelgusida mamlakatimiz “Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar” tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdorligi ta’kidlanib, birgalikdagi tashabbus sifatida ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili O‘zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o‘tkazish taklifi ilgari surildi.

Ish bilan bandlik sohasidagi muammolarning umumiyligiga qaramay, mintaqaviy mehnat bozorida ro‘y berayotgan jarayonlarda xotin-qizlar yoshlarning ish bilan banligida muammolarning mavjudligi o‘rganilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishlardan biri ekanligi bilan ajralib turadi. Bu demografik omillar mehnat bozorida nomutanosibliklarning paydo bo‘lishiga ta’sir etuvchi muhim sabablarga, ish bilan bandlikning demografik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mehnat bozorining hozirgi davrdagi hududiy segmenti har bir hududlardagi ishga yollanuvchilarning o‘ziga xos tarkibi, ya’ni xotin-qizlar va yoshlarning ulushini hisobga oladi. Ular aholining ijtimoiy-demografik tarkibi, yoshi, jinsi hamda ishga yollanuvchilarning kasbiy malakaviy tarkibi bilan belgilanadi.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash borasida “O‘zbekiston–2030” Strategiyasining 25-maqsadida “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash”da qo‘yidagi masalalarga e’tibor qaratilganligi masalaning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi:

- gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish;
- jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;
- “Ayollar daftari” bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatish [8].

Darhaqiqat, keyingi yetti yilda mamlakatimizda aholi, shu jumladan, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo‘lmagan, huquqiy va ma’naviy-psixologik qo‘llab-quvvatlashga zarurati bo‘lgan fuqarolarga davlat tomonidan manzilli ko‘maklashish bo‘yicha mutlaqo yangicha tizim joriy qilindi.

Xususan, koronavirus pandemiyasining aholi turmush darajasiga salbiy ta’sirini yumshatish, aholini ijtimoiy himoya qilish va ko‘makka muhtoj oilalarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yo‘nalishda manzilli, har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish maqsadida moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalar bo‘yicha mutlaqo yangi – “Temir daftar”, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan xotin-qizlar va yoshlar bo‘yicha tegishlicha “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlari hayotga tatbiq etildi.

Xususan, Xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish yo‘nalishida:

- Joriy yilning 6 oyida kam ta’minlangan oilalardagi ilmga intilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida xotin-qizlar.uz platformasi orqali 2022-yilda test sinovlari natijasiga ko‘ra, eng yuqori ball to‘plagan 1 982 nafari oliy ta’lim muassasalariga davlat granti asosida talabalikka qabul qilindi. 2023-yil uchun tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limlari qoshidagi komissiyalar tomonidan 50 668 nafar talabgorlarning hujjatlari qabul qilindi, buning natijasida mezon talablari asosida 38 702 nafar talabgorlarga tavsiyanoma berildi.
- Egallagan kasbi yoki mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan, lekin oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan 507 nafar xotin-qizlar 2022-yilda oliy ta’lim muassasalariga kontrakt to‘lovi asosida talabalikka qabul qilindi. 2023-yilda tuman (shahar) komissiyalari tomonidan 12 563 nafar talabgorlarning hujjatlari qabul qilindi hamda mavjud mezon talablari asosida 11 993 nafar talabgorlarga tavsiyanoma berildi.
- 14 100 nafar magistraturada o‘qiyotgan talaba qizlarning 153,4 mlrd. so‘m kontrakt to‘lovlari to‘lab berildi.
- OTMlarda o‘qiyotgan 133 973 nafar talaba xotin-qizlarga 7 yil muddatga 1 243,9 mlrd. so‘m miqdorida foizsiz ta’lim krediti berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi PQ-300-son qaroriga asosan mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berishni yangi bosqichga ko‘tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o‘rgatish ishlarini yanada jadallashtirish maqsadida kompleks yondashuv asosida ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimi yaratildi.

Xotin-qizlar faollari tomonidan yil boshidan 414 184 ta muammo aniqlanib, shundan 399 942 ta (96,6%) muammo bartaraf etildi.

2023-yil boshidan shu kunga qadar 235 mingdan ziyod xotin-qizlar bandligi ta'minlandi. Shundan 106 123 nafari doimiy ishga joylashtirildi, 43 124 nafari jamoat ishiga jalb etildi.

133 084 nafari kasb-hunarga va tadbirkorlikka, shundan 60 390 nafari Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida o'qitildi.

Ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 141 249 nafar ayollar 2 451,2 trln. so'm kredit bilan ta'minlandi.

21 810 nafar xotin-qizlarga 90,6 mlrd. so'm, shundan "Ayollar daftari"da turgan 16 298 nafar og'ir ijtimoiy vaziyatdagi xotin-qizlarga 70,244 mlrd. so'm subsidiya ajratildi.

Respublikada faoliyat olib borayotgan 4 218 nafar kasanachi xotin-qizlar to'g'risida ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Ular tomonidan 20 218 nafar doimiy, 19 813 nafar xonadonlarga ish berish orqali jami 40 091 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlangan.

889 ta mahallada xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkmmlash markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Olis va chekka hududlarda istiqomat qilayotgan og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta'minlaydigan tadbirkorlik subyektlari uchun 50,0 mln. so'm miqdorida grant loyihalariga tanlov e'lon qilindi.

Tanlovga 20-iyuldan hujjatlar qabul qilish boshlandi va 20-avgustga qadar davom etadi.

"Mahallabay" ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshirlgan ishlarni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari va maslahatchilari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari, sektorlar rahbarlari ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar muammolari bo'yicha "Temir daftar"ga, ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'lmagan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishlicha "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarni kambag'allikdan chiqarish va ularning farovonligini oshirish uchun shaxsan mas'ul etib belgilandi.

Ayollar muammolarini tizimli hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar natijasida bugun davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari oddiy odamlar bilan doimiy muloqot o'rnatib, ularni qiynayotgan masala va muammolarni zudlik bilan bartaraf etish, bu orqali odamlarning bugungi hayotidan rozi bo'lib yashashini ta'minlash yo'nalishida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, xalqimiz, shu jumladan, xotin-qizlar turmush darajasi va sifatini oshirish masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

XULOSA

Xotin-qizlarni kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash dasturida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- har yili tasdiqlanadigan kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakani oshirishga oid davlat buyurtmasida kasb-hunarga o'qitiladigan xotin-qizlar ulushini yildan yilga oshirib borish;
- xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish hamda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ko'maklashish maqsadlarida subsidiyalar ajratish;
- o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan xotin-qizlarga mehnat qurollari bilan ta'minlash uchun subsidiyalar ajratish;
- ishsiz xotin-qizlarni bo'sh hamda yangi yaratilayotgan ish o'rinlarida bandligini ta'minlashga ko'maklashiladi. Bunda 2022-yilda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish orqali ularning bandligiga ko'maklashish loyihalar ko'lami kengaytiriladi.

Yunusobod mahallalarida quyidagilarni nazarda tutuvchi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishni tavsiya qilamiz:

- har bir mahallada "Xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari" va klasterlarni tashkil qilish;
- xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish, mahallalarda markazlar ochish choralarini ko'rish;
- tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni realizatsiya qilishga ko'maklashish;
- xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish va biznesga jalb qilish.

Natijada ushbu dastur doirasida ayollarni mahallabay tizimi orqali bandligini tashkil etishni takomillashtirishni yo‘lga qo‘yish va ularni bandligini ta’minilash, ishsizlikni kamaytirish, kambag‘allikni qisqartirish kabi muammolarga yechim topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston–2030” Strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni. 25-maqsad.lex.uz
2. Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: O‘zR FA “FAN” nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 257-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil 12-fevraldagi selektr yig‘ilishidagi ma’ruzasi.
4. PF–5938-son Farmoniga muvofiq 2020-yil 19-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikai Prezidentining Qarori.
5. Экономика труда: учебник /А. И. Рофе.-2-е. – М.: КНОРУС, 2011. с. 159
6. Экономика труда: учебник /И. М. Алиев, Н. А. Горелов, Л. О. Ильина. – М.:Издательство Юрайт, 2012. с. 123
7. Экономика и социология труда: учебное пособие /Н. В. Лясников, М. Н. Дудин, Ю. В. Лясников. – М.: КНОРУС, 2012. с.
8. Экономика труда: учебник /И. М. Алиев, Н. А. Горелов, Л. О. Ильина. – М.: Издательство Юрайт, 2012. – с. 123.
9. “2021-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha Davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-aprel PQ-5094-son qarori. www.lex.uz



MAXSUS IQTISODIY ZONALAR: MAZMUN-MOHIYATI, ULARDAGI INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH

Ja’sur Umirzoqov Artiqboy o‘g‘li
PhD, Toshkent moliya instituti dotsenti v. b.

Annotatsiya: Maqolada maxsus iqtisodiy zonalarning mazmuni va mohiyati, ularga oid terminologik jihatlar, O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faolligini rivojlantirish tendensiyalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: maxsus iqtisodiy zona, imtiyozlar paketi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya, investitsiya muhiti, investitsion faollik, hududiy rivojlantirish siyosati, eksport zonalari.

Abstract: The content and essence of special economic zones, terminological aspects related to them, trends in the development of investment activity of special economic zones in Uzbekistan are studied in the article.

Key words: special economic zone, package of benefits, direct investment, investment climate, investment activity, regional development policy, export zones.

Аннотация: В статье изучены содержание и сущность специальных экономических зон, связанные с ними терминологические аспекты, тенденции развития инвестиционной деятельности специальных экономических зон в Узбекистане.

Ключевые слова: особая экономическая зона, пакет льгот, прямые инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная деятельность, политика регионального развития, экспортные зоны.

KIRISH

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga ko‘ra, investitsiyalar uchun global raqobat sharoitida mamlakat investitsion salohiyatini oshirish, investitsion muhiti jozibadorligi uzluksizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo‘nalishda turli sinalgan va innovatsion vositalardan foydalanish orqali investitsiyalarni jalb etish tendensiyasi rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, savdo va iqtisodiy munosabatlarga investitsion faoliyatga o‘zining imtiyozli tartiboti, ma’muriy tartibga solishning soddalashtirilganligi va birmuncha cheklanganligini bilan bevosita ta’sir etuvchi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faollikni oshirishda alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bugungi kunda qator yirik xalqaro moliya institutlari hamda ilmiy tadqiqot muassalari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining

Savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi – UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Develorment) xalqaro tashkiloti tomonidan har yili e’lon qilib boriladigan “World Investment Rerort” hisobotida quyidagicha ta’kidlanadi: “Maxsus iqtisodiy zonalar ko‘pchilik rivojlanayotgan va rivojlangan iqtisodiyotlarda keng qo‘llaniladi. Ushbu geografik jihatdan chegaralangan hududlarni hukumatlar tomonidan moliyaviy va tartibga soluvchi imtiyozlar hamda infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlanishi orqali iqtisodiyotga investitsiyalar oqimi faollashadi. Bugungi kunda 147 ta davlatlarda 5400 dan ortiq maxsus iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lib, bu 5 yil avval 4000 ga yaqin bo‘lgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faolligining oshib borish tendensiyasi jahon miqyosidagi sanoat siyosati yangi to‘lqinining bir qismi va investitsiyalarning xalqaro mobilligi kuchayib borayotgan raqobatga javobdir [1].


XX asr o‘rtalaridan boshlab iqtisodiyotning tayanch nuqtalaridan biriga aylanib borgan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirishga dunyo miqyosida jiddiy e’tibor qaratildi. Bu borada dunyo davlatlari iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan hududlarini xorijiy investitsiyalar hisobiga rivojlantirish, ulardagi ishsizlik darajasini pasaytirish, sanoat ishlab chiqarish faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mavjud tarmoqlarni modernizatsiya qilish evaziga rivojlantirish, raqamli tehnologiyalarni o‘zida aks ettirgan yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish orqali “Hududiy rivojlantirish siyosati”ni muvaffaqiyatli olib borishdi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Maxsus iqtisodiy zonalarning iqtisodiy mohiyati va investitsion faolligini oshirish borasida tadqiqotlar olib borgan Polsha Respublikasida joylashgan Pshevorsk ijtimoiy-iqtisodiy Oliy maktabi professori P. Yaroshning fikricha, maxsus iqtisodiy zona – bu undagi subyektlar faoliyatiga davlat aralashuvining tanlanma qisqartirilgan va tadbirkorlik faoliyati rag‘batlantiriladigan hudud. Ya’ni davlat tomonidan boshqa hududlarga tatbiq etilmaydigan qonuniy imtiyoz va preferensiyalari amal qiladigan hududlardir [3]. Shuningdek, mazkur olimning tadqiqotlarida maxsus iqtisodiy zonalardagi erkin tadbirkorlik faoliyati mamlakatning boshqa hududlari, sohalari va tarmoqlarining investitsyaon faolligini, iqtisodiy tizimning liberallashuviga ijobiy ta’sir etishi alohida qayd etilgan.

Maxsus iqtisodiy zonalarning milliy iqtisoliyotga ijobiy diffuziyasi borasidagi fikrlarni investitsion muhit jozibadorligining nazariy va metodologik jihatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan professor Sh. Mustafaqulovning ham ilmiy tadqiqotlarida ko‘rish mumkin. Uning fikricha, “erkin iqtisodiy hudud yaratish mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishning sinalgan va eng samarali qurolidir. Erkin iqtisodiy hudud – bu mamlakatning imiji ham. Erkin iqtisodiy hududlar, hatto yomon faoliyat yuritgan taqdirda ham mamlakatni liberallashuviga xizmat qiladi. Hududni yaratish nafaqat hudud uchun qo‘shimcha daromad keltiradi, balki butun mamlakat uchun turli shaklda foydali qayti beradi, jumladan, xorijiy investorlar bilan muloqot qilishga imkon beruvchi firmalararo kommunikatsiya yaratadi [4]”.

Quyidagi rasmdan ko‘rish mumkinki, maxsus iqtisodiy zonalar kirib kelishi kutilayotgan investorlar, shu jumladan, xorijiy investorlar uchun qulay investitsion shartlarni taklif etishi barobarida hudud va mamlakat investitsion jozibadorligiga ta’sir etadi. Maxsus iqtisodiy zonalardagi investitsiyaon faollikning oshishi milliy iqtisodiyot tarmoqlarining modernizatsiya va diversifikatsiya bo‘lishida, ichki bozorga integratsiya qilinishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.



1-rasm: Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati va investitsion faolligining iqtisodiyotga diffuzion ta’sir etishi

Manba: Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida tuzilgan.

Rossiyalik iqtisodchi olim V. D. Adrianov: “Erkin iqtisodiy hududlar milliy hududning bir qismi bo‘lib, iqtisodiy muammolar yechimini topishda keng imkoniyatlarni yaratib beradi”[5], – deya ta’riflaydi.

V. G. Ignatov, V. I. Butovlarning fikricha, EIZlar – cheklangan hududlar bo‘lib, ular dengiz portlari, havo chegarasidan iboratdir. Ularda milliy va xorijiy ishbilarmonlar uchun tashqi savdo, umumiy iqtisodiy va boshqa sohalarda qulay biznes muhiti yaratiladi [6].

Shuningdek, ushbu hududlarning jahon amaliyotidagi sinonim tushunchalaridan biri, maxsus iqtisodiy zona (MIZ)lar R. I. Zimenkov tomonidan quyidagicha ta’riflanadi: MIZ – bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi. Bu yerda milliy hamda chet ellik tadbirkorlar uchun alohida imtiyozli iqtisodiy rejim amal qiladi. Ularning vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy va texnik muamollarni hal qilishda namoyon bo‘ladi [7].

Ushbu yo‘nalishni davom ettirgan I. R. Tazutdinov esa: “MIZ – bu davlatning alohida qismi bo‘lib, uning hududida institutsional infratuzilma mavjud bo‘lib, uning hududida tashqi dunyo bilan iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus huquqiy va ma’muriy rejim mavjud bo‘ladi”[8], – deya ta’kidlaydi.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlari A. Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminovlarning fikricha, erkin iktisodiy zonalar – shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo‘jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to‘lash tartibi joriy etiladi [9].


Maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalar jalb etishni o‘rgangan respublikamiz olimlaridan professor J. Karimqulovning ilmiy ishlarida ushbu sanoat zonalarining investitsion faolligiga ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqilgan. Ushbu sanoat hududlarining investitsion faolligini oshirishda ularda beriladigan moliyaviy imtiyozlarni “vaqt omili”dan Hindiston tajribasidan kelib chiqib, “hudud omili”ga o‘tkazish taklif etilgan [10].

Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar va ularning investitsion faolligini rivojlantirish orqali hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish borasida kompleks ilmiy-tadqiqotlar olib borgan olimlardan H. Hamroyevning ta’kidlashicha, tashkil etiladigan hududlarga beriladigan imtiyozlar investorlar takliflari asosida qayta ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Erkin iqtisodiy hududni “imtiyozli territoriya”ga aylantirish kerak emas [11]”.

Shuningdek, A. A. Ostonaqulovning fikricha, erkin iqtisodiy zona – ... iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning hududiy uslubi sifatida foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish uchun tashkil etilgan hududdir [12].

S. S. Bozarovning ta'kidlashicha, "Erkin iqtisodiy zona – davlatning iqtisodiy va jo'g'rofiy jihatdan qulay hududida tashkil etiladigan, mamlakat iqtisodiyotini kompleks tarzda rivojlantiradigan va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta'minlaydigan, alohida imtiyozlar majmuyini o'z ichiga olgan rejimga ega bo'lgan hamda chet el elementi bilan murakkablashgan turli xil huquqiy munosabatlar amalga oshiriladigan maxsus ajratilgan hudud"dir [13].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, maxsus iqtisodiy zonalar faqatgina mamlakat ichkarisida emas, balki mamlakatga nisbatan tashqarida, ya'ni anklav tarzda ham joylashishi mumkin. Bu boradagi mualliflik ta'rifi quyidagi 2-rasmda tasvirlangan tuzilmaviy modelda keltirilgan:



2-rasm: Maxsus iqtisodiy zonalarning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi tuzilmaviy model

Manba: Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida tuzilgan.

O'zbekistonga qarashli bo'lgan Farg'ona viloyati tarkibiga kiritilgan So'x tumani Qirg'iz Respublikasi hududida joylashgan. Agar ushbu yerlarda maxsus iqtisodiy zona tashkil etilsa, O'zbekiston uchun eksklav maxsus iqtisodiy zona bo'lib, Qirg'iz Respublikasi uchun anklav hudud hisoblanadi. Shuningdek, mualliflik ta'rifida tarif va notarif yo'nalishdagi imtiyozlar deyilganda, fiskal yo'nalishdagi va mahsulotlarni ishlab chiqarish davomida qo'llaniluvchi notarif (litsenziya, standartlashtirish, sertifikatsiya qilish) yo'nalishdagi ma'muriy imtiyozlar nazarda tutilgan (bu borada dissertatsiya ishining uchinchi bobida kengroq to'xtalib o'tilgan).

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqola doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishda statistik kuzatuv, induksiya va deduksiya, tadqiqot obyekti bo'yicha so'rovnomalar va dala tadqiqotlarini olib borish, verbal sharhlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, maxsus iqtisodiy zonalar sanoat ishlab chiqarishda irnvestitsiyalarni rag'batlantirish vositasi sifatida foydlanilmoqda. Shuningdek, rivojlanayotgan davlatlarda "yuqori riskli va yuqori daromadli" vosita sifatida maxsus iqtisodiy zonalarning global faoliyati natijalari shuni ko'rsatatdiki, Sharqiy Osiyo davlatlarida investitsion jarayonlarga ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa, Afrika davlatlarida bu borada natijalar kutilganidek emas. Maxsus iqtisodiy zonalar, ulardagi investitsion faollikning rivojlanish bosqichlari borasidagi yuqoridagi tasnifda ahamiyatli jihatlardan biri shuki, maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ta'sirida shakllangan va maxsus iqtisodiy zonalarning shakli o'zgarsa-da, ularning rivojlanishi uchun investitsion faollik muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va rivojlantirishdan asosiy maqsad nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini oshirish bo'yicha muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi, balki milliy iqtisodiyotni xalqaro bozorga integratsiyalashgan holda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish, zamonaviy yuqori texnologiyali, import o'rnini bosuvchi va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarni malakali mutaxassislar tomonidan zamonaviy texnologiyalarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va quvvatlarni oshirish ham hisoblanadi.

Iqtisodiyotda maxsus zonalarning mavjudligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, ichki bozorlarni sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion ishlanmalar, zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish, bandlikni oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish, valyuta tushumini ko‘paytirish, mahalliy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, maxsus iqtisodiy zonalarning ko‘plab turlari mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, maxsus iqtisodiy zonalar quyidagi turda tashkil etilishi mumkin: erkin iqtisodiy zonalar; maxsus ilmiy-texnologik zonalar; turistik-rekreatsion zonalar; erkin savdo zonalari; maxsus sanoat zonalari.



*Izoh: “Qoraqalpoq-agro” EIZ faoliyatini tugatish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.06.2022-yildagi PF-153-sonli Farmoniga asosan ma’qullangan.

4-rasm: O‘zbekistonda tashkil etilgan maxsus iqtisodiy zonalar


Manba: Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida tuzilgan.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalarning alohida bir turi sifatida 22 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilgan. Ulardan 12 tasi sanoat, 6 tasi farmatsevtika sohasini rivojlantirish, ikki-

tadan turizm va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan. Shuningdek, 2019 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari, 200 dan ortiq kichik sanoat zonalari mavjud. Bundan tashqari, innovatsion infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish maqsadida respublikamiz hududida texnoparklar faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi “Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 313-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2020-2023-yillarda respublika hududlarida Yoshlar texnoparklarini bosqichma-bosqich tashkil etish reja-jadvaliga [14] muvofiq, 2023-yilga qadar hududlarda maxsus ilmiy-texnologik zonalar tashkil etiladi.

Mazkur tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarda 2020-yil 1-oktyabr holatiga 2,167 mlrd dollarlik 375 ta loyiha foydalanishga topshirilgan, shu jumladan, 737,7 mln dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri horijiy investitsiyalar o‘zlashtirilgan va 30,6 mingta yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Amalga oshirilgan loyihalar doirasida o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, asosan, strategik hamkor davlatlardan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Singapur, Shveysariya va Buyuk Britaniya davlatlaridan kiritilgan. Foydalanishga topshirilgan investitsiya loyihalari asosan muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlangan, mahsulotlarni eksportga yo‘naltirishga transport-logistika xizmatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan “Angren” EIZ (qiymati 723,0 mln dollarlik 69 ta loyiha), “Urgut” EIZ (qiymati 273,4 mln dollarlik 50 ta loyiha), “Buxoro-agro” EIZ (qiymati 245,9 mln dollarlik 69 ta loyiha), “Navoiy” EIZlarda (qiymati 210,4 mln dollarlik 42 ta loyiha) amalga oshirilgan. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zona direksiyalari tomonidan umumiy qiymati 1,8 mlrd dollarlik 174 ta istiqbolli investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini jalb qilish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida esa erkin iqtisodiy zonalarda qiymati 335,1 mln dollarlik 58 ta loyihalar amalga oshirilgan va ishtirokchilari tomonidan 8,5 trln so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, shundan 175,1 mln dollarlik mahsulotlari eksportga yo‘naltirilgan. Mazkur ko‘rsatkichlar ko‘rsatmoqdaki, ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning respublika sanoatidagi ulushi 2,5 foizni, eksportdagi ulushi 1,2 foizni tashkil etmoqda [15].

Dissertatsiya tadqiqoti obyekti hisoblangan “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi Samarqand viloyati, Urgut tumanida tashkil etilgan bo‘lib, viloyatda sanoat sohasidagi ilk maxsus iqtisodiy zona hisoblanadi. Mazkur iqtisodiy zona O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli Farmoniga asosan 816 ga yer maydonida tashkil etilgan. Hozirgi kunda ushbu iqtisodiy zonaning hududi 1262 ga yer maydonini tashkil etadi. Hudud tashkil etilganidan buyon, 1 649,3 mln. dollarning investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Ushbu tahliliy ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Samarqand viloyatida joylashgan “Urgut” erkin iqtisodiy zonasining investitsion faolligi so‘ngi ikki yilda keskin rivojlangan. Ya’ni mazkur iqtisodiy zonaga 2017-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan jami 58 ta loyiha bo‘yicha 188,7 mln. dollarlik investitsiyalar kiritilgan bo‘lsa, 2020-yilda yilga ushbu ko‘rsatkich 113,3 foizga o‘sib, ushbu yilda mazkur iqtisodiy zonadagi jami 84 ta loyihaga 402,6 mln. dollarlik investitsiyalar kiritilgan.



5-rasm: “Urgut” erkin iqtisodiy zonasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish manbalari tarkibi [16]

5-rasmga ko‘ra, kiritilgan investitsiyalarning 45,9 foizi bank kreditlari, 34,1 foizi investorlarning o‘z mablag‘lari, kiritilgan investitsiyalarning deyarli 20 foizi xorijiy investitsiyalar hisoblanadi. Shuningdek, 2021-yilda ushbu iqtisodiy zonaga jami 96 ta loyiha bo‘yicha umumiy qiymati 602,2 mln. dollarlik investitsiyalar jalb etilgan.

Kiritilgan investitsiyalarning 262,0 mln. dollari bank kreditlari (43,5 foiz), 204,2 mln. dollari investorlarning o‘z mablag‘lari (33,7 foiz), 135,9 mln. dollari xorijiy investitsiyalar (22,5 foiz)ni tashkil etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, “Urgut” erkin iqtisodiy zonasiga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish tarkibida o‘tgan 5 yil davomida o‘z mablag‘lari va xorijiy investitsiyalarning ulushi o‘sib borganligi mazkur iqtisodiy zona joylashgan viloyat va tumanning investitsion jozibadorligi va investitsion faolligining rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi. Ya’ni 2017-yilda tashkil etilgan ushbu iqtisodiy zonaga kiritilgan investitsiyalarning jami ulushida dastlabki yilda 58,8 mln. dollarni yoki jami moliyalashtirish tarkibining 31,1 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich deyarli 2,5 barobarga ortib, investorlarning o‘z mablag‘lari 204,2 mln. dollarni yoki jami moliyalashtirish tartibining 34 foizini tashkil etganini ko‘ramiz. Qolaversa, jami kiritilgan investitsiyalar tarikbiga xorijiy investitsiyalar iqtisodiy zona tashkil etilishining dastlabki yilida 8 mln. dollardan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 135,9 mln. dollarni tashkil etgan yoki moliyalashtirish tarkibida xorijiy investitsiyalarni 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 16 barobardan ortiqqa oshganligi xorijiy investorlarning iqtisodiy zona investitsion faolligini ta’minlashdagi ishtirokining tobora kengayib borayotganligini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maxsus iqtisodiy zonalarning tarixiy rivojlanish evolyutsiyasidan ma’lumki, ushbu hududlar mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlanishi past bo‘lgan hududlarga investitsiyalarni berilgan imtiyozlar orqali qulay investitsiya muhitini shakllantirish orqali jalb etishga alohida hamiyat berilganligini ko‘ramiz. Ya’ni tuzilgan har bir hududning o‘ziga xos bo‘lgan investitsion faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Maxsus iqtisodiy zonalarning rivojlanish jarayonlariga To‘rtinchi sanoat inqilobi ta’siri tufayli yuqori tehnologiyalarga va raqamli vositalarga asoslangan erkin savdo zonalarning aniq moddiy hudud bilan chegralanishini o‘z ahamiyatini yo‘qotib borishi sababli muallif ta’rifida maxsus iqtisodiy zonalarni “tuzilma” sifatida ham aniqlashtirildi.

Erkin iqtisodiy zonada amalga oshirilgan investitsiya loyihalari umumiy qiymatida xorijiy investitsiyalarning ulushi 14,7 foizni, moliyalashtirish manbalarida 15,09 foizni, amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining ulushi 17,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, investitsiya loyihalarning umumiy qiymatida atigi 2,6 foizni tashkil etganligining guvohi bo‘lamiz. Ushbu tahliliy ko‘rsatkichlar tadqiqot obyekti hisoblangan “Urgut” erkin iqtisodiy zonasining investitsion faolligida xorijiy investorlarning rolini va ulashini oshirish, qulay investitsiya muhitini yanada yaxshilash, bu borada erkin iqtisodiy zona direksiyasining imkoniyat va vakolatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi – UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development) xalqaro tashkiloti tomonidan har yili e’lon qilib boriladigan “World Investment Report” hisobotidan. Manba: https://worldinvestmentreport.unctad.org/world-investment-report-2019/chapter-4-special-economic-zones/
2. Umipzoqov J. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish masalalari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. № 4, avgust, 2020-yil. ISSN: 2181-1016. https://www.interfinance.uz/en/arxiv/264-2020-4
3. Ярош П. Управление развитием территориально-хозяйственных зон в польше: теория, методология, практика. Монография. – Польша. 2018.
4. Mustafaqulov Sh. I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. – 326 b.
5. Адрианов В. Д. Специальные экономические зоны. Журнал “ЭКО”, 1997, (№ 3), С: 42.
6. Игнатов В. Г., Бутов В. И. Свободные экономические зоны. – М.: Ось-89, 1997.
7. Зименков Р. И. Свободные экономические зоны. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005.
8. Тазутдинов И. Р. Особые экономические зоны в системе обеспечения экономической безопасности. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Федеральное государственное бюджетное учреждение науки “Институт экономики Российской академии наук” Москва – 2015. 152 с.
9. Vaxabov A. V., Xajibakieyv Sh. X., Muminov N. G. Xopijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2010. 180-bet
10. Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xopijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantipish yo‘nalishlari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – 244 b
11. Xamroyev H. P. Zonal siyosat: metodologiya, xopijiy tajpiba va qo‘llash yo‘nalishlari. – T., 2008. – 8-b.
12. Ostonoqulov A. A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. 08.00.08. Iqtisod fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2017.
13. Bozarov S. S. O‘zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vaziplar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi “Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 313-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4823544
15. O‘zbekiston Resupblikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari asosida.
16. “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.



СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ КРИТЕРИЕВ РАБОЧИХ МЕСТ В УСЛОВИЯХ ЭКОЛОГИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ

Ходжаева Нодирахон Абдурашидовна
Ташкентский государственный транспортный университет, Ташкент, Узбекистан. PhD, профессор

Аннотация: В статье рассмотренно современное состояние критериев оценки рабочих мест в условиях экологизации экономики.

Ключевые слова: критерии, управление рабочими местами, структура управления, социально-трудовые отношения, трудовая деятельность, озеленение.

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotni yashillashtirish kontekstida ish joylarini baholash mezonlarining hozirgi holati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kriteriyalar, ishchi o‘rini baholash, boshqarish tizimi mexanizm, boshqaruv tuzilmasi, ijtimoiy va mehnat munosabatlari,ekologizatsiyalash.

Abstract: The article examines the current state of criteria for assessing jobs in the context of greening the economy.

Key words: criteria, workplace assessment, management structure, social and labor relations, labor activity, greening.

ВВЕДЕНИЕ

Развитие мировой экономики ускоренными темпами, в т.ч. рост объёмов производства промышленной и сельскохозяйственной продукции, с другой стороны, обеспечение равновесия экономического и экологического развития в условиях тенденции к росту качества жизни, развитие “зелёной” экономики, а также создание “зелёных” рабочих мест приобретает всё более важное значение.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРНЫХ ИСТОЧНИКОВ

В процессе строительства Нового Узбекистана осуществляются программные меры по таким направлениям, как стабильное развитие и экологизация экономики, приведение социально-трудовых отношений в соответствии с мировым передовым опытом, а также резкое повышение эффективности их управления, организация рынка труда на основе современных требований. В период с 2019 по 2030 год в стратегии перехода Республики Узбекистан к “зелёной” экономике определена такая задача, как “достижение стабильного экономического роста, дающего возможность для социального развития, уменьшения уровня выделения парниковых газов, стабилизации среды и экологии путем интегрирования принципов “зелёной” экономики к осуществляемым в стране структурным реформам

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В статье методами исследования выступают научная абстракция, эмпирическая, описательная статистика, группировка, сравнительный и динамический анализ.

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исходя из мировых трендов, автор исследованя предложил концепцию “экологизации социально-трудовых отношений” в контексте Узбкистана.Для оценки и категоризации рабочих мест в рамках экологически оринтированного рынка труда, автор предлагает ряд критериев изложенных на рис.1.



Рис.1: Критерии оценки рабочих мест в условиях экологизации

На сегодняшний день в современной науке нету научных разработок в вопросах касательно единого подхода к понятию и критериям высокоэффективного рабочего места в экологически ориентированной экономике. В связи с эти автором были разработаны группа критериев управления социально-трудовых отношений при экологически ориентированной экономике на основе метода “экспертных оценок”.

В процессе применения в диссертационной работе метода “экспертной оценки”, основное внимание уделялось таким вопросам, как количественный отбор экспертов и формирование экспертных групп, оценка уровня их компетентности, определение уровня совпадения мнений экспертов, обработка данных экспертами и принятие определенных решений относительно полученных результатов.

В экспертной оценке очень важен “консенсус экспертного мнения”. В связи с этим, в диссертационном исследовании используется “коэффициент конкордации” для оценки уровня согласия между экспертами, который определяется следующим образом:

$$W = \frac{12 \times S}{n^2 \times (m^3 - m)} \quad (1)$$

где:
W – коэффициент конкордации;
n – приглашенные эксперты – количство специалистов;
m – объекты, количество предприятий занимающихся вторичной переработкой(число);
S – количественная величина в коэффициенте конкордации

Количественное значение (S) в коэффициенте конкордации определяетсяследующим образом:

$$S = \sum_{i=1}^{m} \left(\sum_{s=1}^{n} r_{is} - \bar{r} \right)^2 \quad (2)$$

где:
r_{is} – *i*- объект s-оценка данная экспертом .

В зависимости от приемлемого значения коэффициента конкордации определяются уровни совпадения мнений экспертов. В нем используется словесно-цифровая шкала Харрингтона представленная в таблице 1.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Таблица 1: Вербально-цифровая шкала Харрингтона[1]

№	Числовые значения коэффициента конкордации	Уровни консенсуса мнения экспертов
1	$0 \le W < 0,2$	Соответствие очень низкое
2	$0,2 \le W < 0,37$	Низкая гибкость
3	$0,37 \le W < 0,64$	Гибкость средняя
4	$0,64 \le W < 0,8$	Гибкость высокая
5	$0,8 \le W \le 1,0$	Гибкость очень высокая

Кроме того, для оценки значимости определяемого коэффициента конкордации принят критерий конкордантности χ^2 – Pearsona

χ^2 – распределение с $K = n - 1$ степенями свободы принимает следующее значение:

$$\chi^2 = \frac{12 \times S}{nn(m+1) - \frac{1}{m-1}\sum_{i=1}^{n} T_i} \quad (3)$$

Если да $\chi^2_{his} > \chi^2_{jad}$, то уровень консенсуса мнений экспертов разумный, в противном случае такой консенсус оказывается незначительным

Экспертам были представлены 4 группы критериев оценки (всего 5) в качестве альтернативы критериям оценки, предложенным выше (вариант 1), и перед ними был поставлен следующий вопрос.

Вопрос: Какая из перечисленных ниже групп критериев оценки эффективна при оценке социально-трудовых отношений в экологически ориентированной экономике?

Для того чтобы найти ответ на этот вопрос, эксперты приняли “5-балльную шкалу оценок” и присвоили приоритетным направлениям следующие баллы (табл. 2..).

Таблица 2: Баллы, выставленные экспертами по критерии оценки

№	Критерии оценки	эксперты				
		1	2	3	4	5
1	1-вариант	5	4	5	5	5
2	2-вариант	4	5	4	5	4
3	3-вариант	5	5	4	4	4
4	4-вариант	4	2	3	3	2
5	5-вариант	2	2	3	2	3

По 1-ой формуле рассчитывается уровень совпадения мнений экспертов, т. е. коэффициент конкордации (W).

В рассматриваемом процессе количество выбранных экспертов равно $n = 5$, а количество оцениваемых объектов равно $m = 5$.

По результатам анализа уровень совпадения (W) мнения экспертов по направлениям, то есть коэффициент конкордации, составил 0,8, и это значение соответствовало 5-му числовому интервалу по словесно-числовой шкале Харрингтона. То есть показало, что согласие находится на очень высоком уровне.

Также значимость коэффициента конкордации оценивали по критерию χ^2 – Пирсона. По результатам оценки,

$$\chi^2_{his} = 15,96 > \chi^2_{his} = 9,49$$

равны, а уровень совпадения мнений экспертов находится на разумном уровне. Возможен расчет весовых показателей рассматриваемых параметров исходя из суммы уровней. Матрица запроса $s_{ij} = x_{max} - x_{ij}$ преобразуется в матрицу модифицированных уровней по формуле (табл. 3), где . $x_{max} = 5$.

1 Галиновский А.Л., Самсонов К.С. и др. Сравнение различных методов контроля и диагностики качества керамики методом экспертного оценивания. Инновация и экспертиза. 2017. Выпуск 1 (19). - 68 с.

Таблица 3: Измененная степени матрицы[2]

Объекты ↓ / Эксперты →	1	2	3	4	5	Всего	Вес решения
1-вариант	0	1	0	0	0	1	0,03226
2-вариант	1	0	1	0	1	3	0,09677
3-вариант	0	0	1	1	1	3	0,09677
4-вариант	1	3	2	2	3	11	0,3548
5-вариант	3	3	2	3	2	13	0,4194
Всего						31	1

В заключение было подтверждено, что уровень совпадения мнений экспертов по 1-му варианту из предложенных к оценке критериев оценки является высоким, а его эффективность (приоритетность) по сравнению с другими альтернативными вариантами обоснована.

Согласно “Основам государственной политики в области охраны окружающей среды и экологического развития Узбекистана на период до 2035 года”, стратегия государства должна концентрироваться на преобразовании среды, сокращении эмиссии и отходов, а также на воспитании экологической осведомленности среди населения. Этот критерий особенно важен для оценки качества рабочих мест.Для Узбекистана стратегия, сфокусированная на развитии рынка труда с минимизацией экологического воздействия, является приоритетной. Она способствует комплексному решению социальных, экономических и экологических вопросов в долгосрочной перспективе. Проблема низкой производительности труда выходит на первый план не только в Узбекистане, но и во многих странах постсоветского пространства. Решение этой проблемы в современных условиях является критически важным для устойчивого развития региона. Факторы, способствующие низкой производительности труда в Узбекистане, включают изношенность оборудования, использование устаревших технологий, неэффективное распределение трудовых ресурсов, ограниченные финансовые средства для развертывания новых производственных линий, а также недостаточный уровень квалификации персонала и отсутствие оптимальных методов нормирования и организации труда[3]. Существует мнение некоторых ученых о том, что технологическое развитие и автоматизация могут привести к уменьшению количества рабочих мест и ухудшению трудового потенциала из-за сокращения области профессионального применения рабочей силы.

Тем не менее, мы полагаем, что деградация навыков работников и неэффективность многих рабочих мест актуальны из-за высокой степени износа оборудования. Для поддержания устойчивого развития Узбекистана требуется активизировать процесс технологической модернизации в различных секторах экономики. Это не только способствует созданию современных и эффективных рабочих мест, но и повышает уровень профессиональных навыков сотрудников.

По нашему мнению, среди различных представленных мероприятий можно выделить следующее:

Мы считаем, что в числе разнообразных стратегий следует особо подчеркнуть несколько ключевых аспектов:

1) поощрение инвестиционной активности с целью модернизации производственных мощностей;
2) обновление технологий[4];
3) создание условий для профессионального обучения и развития работников предприятий;
4) повышение мобильности трудовых ресурсов внутри страны;
5) повышение операционной эффективности государственных предприятий;
6) обновление структуры рабочих мест;
7) развитие занятости в сферах малого и среднего бизнеса;
8) введение закона об экологическом нормировании (ограничение вредных выбросов).

Эти стратегии являются ключевыми для стимулирования развития цифровой экономики в условиях глобализации. В мировом контексте работодатели нацелены на улучшение производительности труда, адаптируя методы и инструменты цифровой экономики.

2 Муаллиф ҳисоб-китоблари асосида тузилган.
3 “Рост производительности труда в Узбекистане должен быть ускорен” — экономист Всемирного банка Эскендер Трушин https://www.gazeta.uz/ru/2019/07/04/report/
4 Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026годы”. https://lex.uz/

TARAQQIYOT PROGRESS

Внедрение цифровых технологий и обновление рабочих мест позволяют предприятиям и организациям оптимизировать использование человеческих ресурсов и снизить воздействие на окружающую среду. Экологически ориентированные инновации способствуют не только модернизации производственных процессов, но и улучшению экологического климата в различных регионах Узбекистана.

Поддерживая рост производительности труда, важно также сосредотачиваться на эффективном использовании ресурсов. Этот интегрированный подход способствует охране окружающей среды и становится фундаментом для экономического прогресса регионов в будущем. Основным критерием роста производительности должно стать повышение ресурсной эффективности.

Одной из приоритетных целей “зеленой” трансформации социально-трудовых отношений является обеспечение безопасных условий труда. Для Узбекистана путь к повышению производительности труда, строительству устойчивой экономики и сохранению экологического благосостояния заключается в модернизации и обновлении оборудования и технологий.

Изучение зарубежного опыта, в частности, стран, таких как Италия и Германия, показывает, что доля занятых в обрабатывающих отраслях составляет 18%–19% от общего числа занятых в экономике. Однако в США эта доля снижается до 10,2%, что объясняется развитием высокотехнологичных отраслей и инновационного производства[5].

В контексте Узбекистана стратегия сокращения занятости в обрабатывающих отраслях не является оптимальной. Напротив, страна должна фокусироваться на модернизацию и активное развитие этой сферы. Создание новых высокотехнологичных рабочих мест, а также обновление устаревших, с учетом экологических норм и стандартов, может способствовать решению проблемы структурного безработицы.

Высокотехнологичные и инновационные отрасли промышленности, ориентированные на экологическую устойчивость, должны стать центром внимания. Это требует подготовки высококвалифицированных специалистов, однако Узбекистан сталкивается с дисбалансом в профессиональных и квалификационных компетенциях.

Недостаток квалифицированных специалистов, особенно в таких отраслях, как экология, строительство, транспорт и связь, является результатом ряда факторов, включая недостаточную сбалансированность системы подготовки кадров, невысокое качество профессионального обучения и миграцию специалистов за пределы страны.

Для преобразования рынка труда и занятости в Узбекистане необходим комплекс мер, включая введение современных, экологически чистых технологий, обновление оборудования и расширение инновационных отраслей промышленности. Разработанные критерии оценки рабочих мест могут способствовать идентификации и формированию “социально-трудовых отношений в эпоху цифровизации”.

В заключение, акцентирование внимания на развитии теоретических основ экологически ориентированного рынка труда и определении критериев “социально-трудовых отношений в условиях цифровизации” может способствовать прогрессу в этой сфере в Узбекистане.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

1. В результате анализа научных источников были определены ключевые характеристики зеленой экономики, ее связь с принципами устойчивого развития, предложена авторская трактовка термина “зеленая экономика”. Кроме того, были систематизированы методологические подходы к изучению этой дисциплины и их особенности. Такой анализ создает основу для дальнейшего обогащения теоретических и методологических подходов к зеленой экономике, а также может служить отправной точкой для последующих исследований и детализации.

2. Для Узбекистана концепция “зеленой” экономики представляет собой относительно новую идею, чей потенциал еще не полностью осознан и реализован. Основной акцент должен быть сделан на разработку теоретических концепций и методов для внедрения “зеленой” экономики в стране, включая формирование экологически сосредоточенного рынка труда.

3. Несмотря на актуальность вопросов охраны окружающей среды и сопутствующего экономического развития, глобальное сообщество еще не пришло к консенсусу относительно определения “зеленого” рабочего места. Различные страны представляют множество инициатив и разработок в этой сфере, и понятие “зеленое” рабочее место продолжает развиваться, охватывая экономические, социальные и экологические аспекты.

5 Петровская Н. Е. “ Проблемы занятости молодежи в США” 2021гг

Список использованной литературы

1. Ходжаева, Н.А. (2021). Критерии оценки работы на экологически ориентированном рынке труда Республики Узбекистан. Американский журнал социальных и гуманитарных исследований , 2 (10), 62-67.
2. Jolliffe, Ian T.; Cadima, Jorge (2016-04-13). “Principal component analysis: a review and recent developments”. Philosophical Transactions of the Royal Society A: Mathematical, Physical and Engineering Sciences. 374 (2065): 20150202. doi:10.1098/rsta.2015.0202. PMC 4792409. PMID 26953178
3. Khodjaeva, N. A., & Jumanova, A. B. (2022). Management And Its Components In Tourism Industry Of Uzbekistan. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 51-56.
4. Dzhumanova, A. B., Kushakova, M. N., & Khodzhaeva, N. A. (2019). Formation of accounting management information in the control system of enterprises of JSC “Uzbekistan Railways. International Journal of Advanced Science and Technology, 28(14), 32-36.
5. Нуримбетов, Р. И., & Ходжаева, Н. А. (2022, December). Социально-экономические показатели определяющие критерии оценки “зеленных” рабочих мест. In E Conference Zone (pp. 125-127).
6. Нуримбетов, Р., & Ходжаева, Н. (2022). Перспективы и предпосылки развития зеленной экономики в Республике Узбекистан. Общество и инновации, 3(4), 5-10.
7. Ходжаева, Н.А. (2021). Критерии оценки работы на экологически ориентированном рынке труда Республики Узбекистан. Американский журнал социальных и гуманитарных исследований , 2 (10), 62–67.
8. Bahkramovna, I. A. (2022). Poverty prevention policy in uzbekistan. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(04), 274-280.
9. Irmatova, A. (2020). O‘zbekistonda ayollarning ilmiy-tadqiqot sohasida ish bilan bandligi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (6), 35-43.
10. Mehnat bozorining rivojlanishi sharoitida intellektual kapitalga sarflanadigan investitsiyalarni baholash. AB Irmatova - Iqtisodiyot va ta’lim, 2016

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



YANGI O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASI – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING DRAYVERI

Yusupov Muxamadamin
TDIU, “Marketing” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xizmatlarning mohiyati va asosiy tavsifnomalari, shuningdek, xizmatlar sohasining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar, xizmatlar sohasi, xizmatlar tavsifnomasi, xizmatlarni turlari, xizmatlarni o‘ziga xos xususiyatlari, xizmatlar bozori.

Abstract: This article examines the essence and basic descriptions of services, as well as specific features of the service industry. The role and importance of the service sector in the national economy is revealed.

Key words: services, service sector, description of services, types of services, characteristics of services, market of services.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность и основные характеристики услуг, а также специфические особенности сферы услуг. Раскрыты роль и значение сферы услуг в национальной экономике.

Ключевые слова: услуги, сфера услуг, описание услуг, виды услуг, характеристика услуг, рынок услуг.

KIRISH

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan mazkur soha YAIMning shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash, odamlarning hayot farovonligini oshirishda yetakchi o‘rin tutishni ko‘rsatmoqda.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan barcha maqsadlarga erishish hamda dolzarb vazifalarni bajarilishi milliy iqtisodiyotimizning barcha soha va tarmoqlari qatori, xizmatlar sohasida ham muhim islohotlar amalga oshirilmoqda [1].

2021-yil 11-mayda davlatimiz rahbarining “Xizmatlar sohaini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. Unda mazkur sohani muhim drayverga aylantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini ikki barobarga oshirish belgilandi [2].

Xizmatlar sohasi bugungi kunda murakkab, ko‘pqirrali mexanizm bo‘lib, lekin zamonaviy iqtisodiyotimizning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmog‘i hisoblanib, u o‘z ichiga savdodan tortib transport, aloqa va axborotlashtirish, ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat, san’at, sport, maishiy va kommunal xizmatlar, texnik xizmatlar, bank-moliya, sug‘urta, turizm, auditorlik-konsalting xizmatlari, mehmonxonalar, dam olish uylari, televideniye, radio, kino teatrlar, muzeylar kabi keng faoliyatni oladi.

Rivojlangan mamlakatlarning amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, ishlab chiqarishni murakkablashuvi va bozorni texnik jihatdan murakkab bo‘lgan tovarlar bilan to‘ldirilishi natijasida xizmatlarga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Bizning mamlakatimizda ham xizmatlarni turli yangi hillari paydo bo‘lishi natijasida xizmatlar sohasi, ishlab chiqarish sohasiga nisbatan tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida band bo‘lgan aholining yarmidan ortig‘i shu sohada mehnat qilmoqda. Har yilgi yangi yaratilayotgan ish o‘rinlarining uchdan bir qismidan ortig‘i ham shu soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmatlarning sohasining mohiyati va asosiy tavsifnomalari, shuningdek, xizmatlar sohasining o‘ziga xos xususiyatlari, roli hamda ahamiyati masalalariga jahon va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining asarlarida keng e’tibor qaratilgan.

Birinchi marotaba, xizmatni fizik tovardan asosiy jihatlari bo‘yicha farqlanishini 1980-yilda Leonard Berri tomonidan berildi : unga ko‘ra, fizik tovar – bu predmet, uskuna, jihoz yoki narsadir, xizmat esa ish, harakat, zo‘r berish, tirishish yoki bajarish hamda ijro etishdir [4].

Hozirgi davrning adabiyotlarida xizmatlar sohasi tushunchasi haqida yagona bir fikr yoki yondashuv yo‘qdir. Bu xizmatlar sohasi tushunchasini o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklardan iboratdir. Ayrim adabiyotlarda uchraydigan quyidagi tushunchalar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar S. N. Diyanova va A. E. Shtezellarning ta’kidlashicha, xizmatlar sohasi – bu korxonalar, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli hildagi xizmat turlarini qayta ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan jamlanma kategoriyadir [5].

Rossiyalik iqtisodchi olim A. V. Lukinaning fikricha, xizmatlar - bu korxonalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar tomonidan ikkinchi tomonga ko‘rsatiladigan faoliyat turi bo‘lib, u mijozning mulkiga aylanmaydi. Xizmatlarga – moddiy boylik yaratilmaydigan (ayrim xizmat turlaridan tashqari), foydali faoliyatning barcha turlari kiradi [6].

O‘zbekistonda xizmatlar sohasi va xizmatlar marketingi masalalari M. Yusupov, Sh. Dj. Ergashxodjayeva, D. M. Usmonova, U. M. Zakirova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan [9].

Shuningdek, xizmatlar sohasi, xizmatlar marketingining shakllanish tarixi va uning xalqaro modellari iqtisodchi olim M. Yusupovning darsligida batafsil bayon qilingan [8].

Yuqorida keltirilgan xizmatlar sohasining barcha ta’riflari, u yoki bu darajada insonlarning hayot faoliyatini barcha sohalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda xizmatlari sohasining zamonaviy iqtisodiyotidagi roli va ahamiyatini aniqlash borasidagi jahon va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining mavzuga oid fikr-mulohazalarini o‘rganish, qiyosiy taqqoslash, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Xizmatlar sohasi bugungi kunda murakkab, ko‘pqirrali mexanizm bo‘lib, lekin zamonaviy iqtisodiyotimizning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmog‘i hisoblanib, u o‘z ichiga savdodan tortib tran, aloqa va axborotlashtirish, ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat, san’at, , maishiy va kommunal xizmatlar, texnik xizmatlar, bank-moliya, sug‘urta, turizm, auditorlik-konsalting xizmatlari, mehmonxonalar, dam olish uylari, televideniye, radio, kino teatrlar, muzeylar kabi keng faoliyatni oladi.

Rivojlangan mamlakatlarning amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, ishlab chiqarishni murakkablashuvi va bozorni texnik jihatdan murakkab bo‘lgan tovarlar bilan to‘ldirilishi natijasida xizmatlarga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Bizning mamlakatimizda ham xizmatlarni turli yangi hillari paydo bo‘lishi natijasida xizmatlar sohasi, ishlab chiqarish sohasiga nisbatan tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida band bo‘lgan aholining yarmidan ortig‘i shu sohada mehnat qilmoqda. Har yilgi yangi yaratilayotgan ish o‘rinlarining uchdan bir qismidan ortig‘i ham shu soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Xizmat – bu korxonalar va ayrim shaxslar tomonidan, aynan shunday ikkinchi tomonga ko‘rsatiladigan faoliyat turi bo‘lib, uni ushlab, ko‘rib bo‘lmaydi hamda u mijozning mulkiga aylanmaydi. Xizmatni ko‘rsatish natijasida, fizik mahsulot yaratilishi va yaratilmasligi ham mumkin. Xizmat insonlar va asbob-uskuna yordamida ko‘rsatilishi mumkin; mijozning ishtirokida va ishtirokisiz ko‘rsatiladi; shaxsiy yoki korxonalar ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin; tijorat va notijorat xarakterga ega bo‘lishi hamda xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Biroq, har qanday xizmatlar, korxonaning marketing faoliyatiga kuchli ta’sir etadigan quyidagi to‘rtta o‘ziga xos xususiyatlarga egadir: ko‘rib va ushlab bo‘lmaslik, ishlab chiqarishni va iste’molni bir-biridan ajratib bo‘lmaslik, sifatini tez-tez o‘zgarib turishi va saqlab bo‘lmaslik.

Xizmatlar iqtisodiyot tarmoqlarining tez rivojlanayotgan eng istiqbolli sohalaridan biri hisoblanadi. U faoliyatning keng qamrovli sohalariga ega, ya’ni savdodan va trandan moliyagacha, sug‘urtadan va turli xil

vositachiliklardan iborat. Mehmonxonalar va restoranlar, kiryuvish korxonalari va sartaroshxonalar, o‘quv va muassasalari, bank va moliya muassasalari, sanatoriyalar, turistik firmalar, aloqa va axborotlashtirish, internet xizmatlari, radio va telestansiyalar, maslahat firmalari, sog‘liqni saqlash muassasalari, muzeylar, kino va teatrlar va boshqalar xizmatlar sohasiga kiradi. Amaliyotda deyarli barcha korxona va tashkilotlar, u yoki bu darajada xizmatlar ko‘rsatadi.

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng muhim manbayi va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan mazkur soha YAIMni shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash, insonlarning hayot farovonligini oshirishda yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda.

Bunga misol qilib, mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasining so‘nggi yillarda tez sur’atlar bilan o‘sib borayotganligini ko‘rsatish mumkin. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining yarmidan ortig‘i xizmat sohasida mehnat qilmoqda. Har yilgi yangi yaratilayotgan ish o‘rinlarining uchdan bir qismidan ortig‘i shu soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Mamlakatimizda ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibi o‘zgarib bormoqda, ya’ni mobil aloqa, yuqori tezlikda ishlaydigan internet, masofaviy ta’lim xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, kabelli televizion aloqa, elektron xizmat ko‘rsatish, elektron hukumat, elektron tijorat, qishloq ho‘jaligi texnikasi, avtomobillar va texnologik uskunalarni ta’mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish kabi zamonaviy yuqori texnologiyalar asosidagi xizmat turlari tez rivojlanmoqda.

Iqtisodiyotni texnologik progress asosida rivojlanishi servis xizmatlarini o‘sishiga obyektiv ravishda imkon yaratmoqda. Har qanday fizik tovar, ayniqsa yuqori texnologik va uzoq muddatda foydalaniladigan, xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni vujudga keltiradi. Jihozlarni xarakteriga bog‘liq ravishda, xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj quyidagilarni o‘z ichiga oladi:


- tranirovka qilish va omborda saqlashni;
- o‘rnatish va montaj qilishni;
- quyishni;
- texnik xizmat ko‘rsatishni;
- tozalashni;
- ekologik utilizatsiya qilishni.

Bugungi kunga kelib, xizmatlar sohasini juda rivojlanib ketganligiga qaramay, xizmat tushunchasi haqida yagona bir yondashuv yo‘qdir. Xizmat ko‘rsatish orqali biron bir narsa yaratilmaydi, ya’ni xizmat orqali faoliyat ko‘rsatiladi. Xizmatlarga ko‘pincha foydali faoliyatning barcha turlari kiritiladi. Xizmat – bu xizmat ko‘rsatuvchi va iste’molchini bevosita o‘zaro faoliyatining natijasidir, shuningdek, xizmat ko‘rsatuvchini iste’molchi extiyojini qondirish bo‘yicha faoliyatidir.

Xizmatlar bozori ikki sababalarga ko‘ra boshqa bozorlarga umuman o‘hshamaydi. Birinchidan, xizmatlar to u ko‘rsatilmaguncha mavjud bo‘lmaydi. Bu esa uni ko‘rsatilmaguncha taqqoslashni va baholashni amalga oshirib bo‘lmasligini bildiradi. Faqat kutilayotgan foyda va haqiqatda olingan natijalarni taqqoslash mumkin.


Ikkinchidan, xizmatlarga yuqori darajadagi mavxumlik tegishlidir, bu esa mijozni noqulay xolatga tushuradi, xizmatni ko‘rsatuvchilar esa o‘z xizmatlarini bozorga yo‘naltirishda qiynaladi.

Xizmatlar bozorini ushbu o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ularni ko‘rib bo‘lmaslik, ushlab bo‘lmaslik, saqlab bo‘lmasliq, sifatini tez-tez o‘zgarib turishi ishlab chiqarishni va iste’molni bir-biridan ajratib bo‘lmaslik xizmatlar marketingin o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab beradi (1-rasm).



1-rasm: Xizmatlarni o‘ziga xos xususiyatlari tasnifi

Tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda iste’mol qilishni o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lishi nuqtai nazaridan, ularni o‘zaro farqlanishi quyidagi 2-rasmda ko‘rsatilgan.



2-rasm: Tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda iste'mol qilishni o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lishi

Ushbu 2-rasmdan shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni tovar avval ishlab chiqiladi, so'ngra saqlanib sotiladi va iste'mol qilinadi.

Xizmat iste'molchiga (xaridorga) faoliyat orqali beriladi, tovar esa qo'ldan qo'lga o'tkazish orqali beriladi.

Xizmatlar bozori – bu noishlab chiqarish sohasi korxonalari mehnati natijasi bo'lib, u xizmatlarni ayirboshlash sohasidir.

Hozirgi davrning adabiyotlarida xizmatlar sohasi tushunchasi haqida yagona bir fikr yoki yondashuv yo'qdir. Bu xizmatlar sohasi tushunchasini o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklardan iboratdir. Ayrim adabiyotlarda uchraydigan quyidagi tushunchalar haqida to'xtalib o'tamiz.

Xizmatlar sohasi – bu korxonalar, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli hildagi xizmat turlarini qayta ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan jamlanma kategoriyadir.

Xizmatlar sohasi – bu jami ko'p turdagi xizmatlarni ishlab chiqarish bilan band bo'lgan, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va faoliyat turlari majmuidir.

Xizmatlar sohasi – bu insonlarga mahsulotlarni iste'mol qiymati orqali qulaydik yaratish bilan ta'riflanadigan, iqtisodiyot tarmoqlari tizimidir. Moddiy ishlab chiqarish xizmatlari sohasi (tran, aloqa, maishiy xizmat ko'rsatish); ma'naviy hayot xizmatlari sohasi (ta'lim, jismoniy madaniyat va , fan, san'at); ijtimoiy soha xizmatlari sohasi (savdo, uy-kommunal xizmatlarini ko'rsatish, sog'liqni saqlash) [5].

Xizmat ko'rsatish sohasi – bu mahsulotlari xizmat ko'rinishida bo'lgan, xo'jalik tarmoqlarining yig'indisidir.

Xizmatlar sohasi – bu xizmatlarni ko'rsatuvchi iqtisodiyotning sektoridir.

Yuqorida keltirilgan xizmatlar sohasining barcha ta'riflari, u yoki bu darajada insonlarning hayot faoliyatini barcha sohalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Xizmatlar sohalarini iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarni bajarishga qarab ajratish mumkin.

Iqtisodiy funksiyalari:

- moddiy boyliklarni ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish;
- ishchi kuchini qayta ishlab chiqish;
- qo'shimcha moddiy boyliklarni vujudga keltirish.

Ijtimoiy funksiyalari:

- aholining turli hildagi xizmat ko'rsatishlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;
- uy xo'jaliklaridagi xarajatlarni kamaytirish va mehnat sharoitlarini yaxshilashni ta'minlash;
- ozod bo'layotgan bo'sh vaqtlardan unumli foydalanish;
- jamoat tartibini qo'riqlash, davlatni normal rivojlanishini va xavfsizligini ta'minlash.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlanishiga ijobiy va salbiy omillar ta’sir etmoqda.

Ijobiy omillarga: xizmat ko‘rsatish sohalari korxonalari va tashkilotlari sonini ortishi; mahalliy xizmat bozorlarida xorijiy raqobatchilarni paydo bo‘lishi; iqtisodiyotni kichik va o‘rta biznes korxonalari hisobiga nodavlat sektorini mustahkamlash va boshqalar.

Salbiy omillarga: xizmatlar sohasi korxonalari o‘rtasida raqobatni kuchli emasligi; davlat sektoridagi xizmat ko‘rsatish korxonalarini tez o‘zgarayotgan aholi talabiga sust e’tibor berishi; xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini belgilaydigan normativ huquqiy hujjatlardagi kamchiliklar va boshqalar.

Xizmatlar turining juda ko‘pligi va hilma-hilligi sababli, ularni ayrim belgilariga qarab quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- **iste’mol qilish turi bo‘yicha:** shaxsiy ehtiyojlarni qondirish bo‘yicha yakka tartibdagi xizmatlar va biznes ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha ishbilarmonlik xizmatlari;
- **xarid qilish motivlariga bog‘liqlik bo‘yicha:** masalan, sifat, qulaylik, vaqtni tejash, pulni tejash va boshqalar;
- **xizmatni ko‘rsatuvchi tashkilot turiga bog‘liqlik bo‘yicha:** masalan, davlat, shaxsiy, tijorat va boshqalar;
- **ko‘rsatilayotgan xizmatlarni malakasiga bog‘liqlik bo‘yicha:** masalan, binolarni tozalash bo‘yicha past malakali xizmatlar va yuristlar, buxgalterlar, marketologlar va boshqalarning yuqori malakali xizmatlari;
- **asboblar va qo‘l mehnatidan foydalanish bo‘yicha:** masalan, avtomobillarni avtomatik ravishda va qo‘lda yuvish;
- **mijozni ishtiroki bo‘yicha:** masalan, bemorni operatsiya qilish uning ishtirokini talab etadi, televizorni ta’mirlash esa, yo‘q;
- **iste’molchi bilan bo‘ladigan aloqani ma’lum vaqt davom etishligi bo‘yicha (doimiy va uzuluvchan):** masalan, malaka oshirish kurslari – bu diskret (vaqti-vaqti) iste’molchi bilan bo‘ladigan aloqa, telefon aloqalari yoki internet provayderlari xizmatlari doimiy munosabatlarni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmatlari sohasining milliy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Xizmat - bu bir tomon ikkinchi tomonga taklif etadigan foydali faoliyatdir. U narsa ko‘rinishida bo‘lmaydi, sotib olinishi natijasida esa shaxsiy mulkka aylanmaydi, deb hisoblaymiz.

Xizmatlarning turlariga quyidagilar kiradi: mehmonxonalar, ijtimoiy xizmatlar, axborot xizmatlari, dam olish va turizm sohasi, maishiy xizmatlar, savdo va umumiy ovqatlanish, avtoservis, sog‘liqni saqlash xizmatlari, moliya xizmatlari, yuridik xizmatlari, ta’lim xizmatlari, ta’mirlash xizmatlari, kino va teatrlar, tran va boshqa hizmatlar.

Demak, xizmat – bu korxonalar va ayrim shaxslar tomonidan, aynan shunday ikkinchi tomonga ko‘rsatiladigan faoliyat turi bo‘lib, uni ushlab, ko‘rib bo‘lmaydi hamda u mijozning mulkiga aylanmaydi. Xizmatni ko‘rsatish natijasida, fizik mahsulot yaratilishi va yaratilmasligi ham mumkin. Xizmat insonlar va asbob-uskuna yordamida ko‘rsatilishi mumkin; mijozning ishtirokida va ishtirokisiz ko‘rsatiladi; tijorat va notijorat xarakterga ega bo‘lishi hamda xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Biroq, har qanday xizmatlar, korxonaning marketing faoliyatiga kuchli ta’sir etadigan quyidagi to‘rtta o‘ziga xos xususiyatlarga egadir, ya’ni ko‘rib va ushlab bo‘lmaslik, ishlab chiqarishni va iste’molni bir-biridan ajratib bo‘lmaslik, sifatini tez-tez o‘zgarib turishi va saqlab bo‘lmaslikdir.

Xizmatlar bozori – bu noishlab chiqarish sohasi korxonalari mehnati natijasi bo‘lib, u xizmatlarni ayirboshlash sohasidir.

Tijorat va notijorat xarakterga ega bo‘lgan xususiy va jamoat tashkilotlari va muassasalari moddiy mahsulotlar ishlab chiqarmaydilar, ular musobaqa yoki o‘yinlar orqali xizmat ko‘rsatadilar, deb hisoblaymiz.

Mamlakatimizda xizmatlari sohasini yanada rivojlantirish uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini va maxalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda tatbiq etish zarur.

Xulosa qilib, shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimiz xududlarida 2026 yilning yakuniga qadar servis sohalari, shu jumladan, sohasi ko‘lamini kengaytirish orqali xizmat ko‘rsatish xajmi uch barobar oshiriladi va buning evaziga 3,5 millionta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158 sonli Farmoni. Xalq so‘zi 2023-yil 12-sentyabr, №190.
2. “Xizmatlar sohaini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-sonli qarori.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Mirziyoyev Sh. M. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
4. Диянова С.Н., Штезель А.Э. Маркетинг сферы услуг : учебное пособие.- М.: Магистр: ИНФРА–М, 2015.- 72-73 бетлар.
5. Диянова С.Н., Штезель А.Э. Маркетинг сферы услуг: учебное пособие.- М.: Магистр : ИНФРА–М, 2015.- 15-17 бетлар
6. Лукина А.В. Маркетинг товаров и услуг: учеб. пособие, М.: И-во “Форум”, 2012. –240с.
7. Маркетинг а. Под ред. Джона Бича и Саймона Чедвика; Пер. С англ.-М.: Альпина Паблишерз, 2017.-706 с.
8. Yusupov M.A., “Xizmatlar marketingi” Darslik. – T.: “Iqtisodiyot”, 2021. – 356 bet.
9. Yusupov M.A., Ergashxodjayeva Sh.Dj.,Usmonova D.M., Zakirova U.M. Marketing. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot”, 2021. – 126 bet.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

OLIY TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING ZARURATI



Anvar Bazarbayevich Gafurov
PhD (i.f.f.d),
ALFRAGANUS university "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Zamonaviy bilim va ko'nikmalarni berish orqali intellektual salohiyatni oshirish bilan shiddat bilan rivojlanayotgan davrda raqobatbardosh muhitni shakllantirish bilan iqtisodiy rivojlanishga erisha olishimiz hammaga kaftdek ma'lum. Ushbu nodavlat ta'lim muassasalari bozor iqtisodiyotiga yangi raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi o'z ifodasini topgan. Agarda nodavlat ta'lim sektorini xorijiy davlatlaridagi o'rnini ko'radigan bo'lsak, ancha oldinlab ketilgani, shuningdek, raqobat va sifat ko'rsatkichlarida salmoqli o'zgarishlarni amalga oshirishganiga guvohi bo'lishimiz mumkin, jumladan, Germaniya 12 foizni, Fransiyada 17 foizni, AQShda 18 foizni, Buyuk Britaniyada 20 foizni, Ispaniya, Irlandiya va Niderlandiyada 30 foizni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, islohot, qamrov darajasi, bitiruvchilar soni, maktab, oliy ta'lim muassasa (OTM)lar soni.

Abstract: It is well known that we can achieve economic development by creating a competitive environment in the rapidly developing era by providing modern knowledge and skills. It is evident that these non-state educational institutions serve to raise the quality of education to a new level by forming new competitive personnel for the market economy. If we look at the position of the non-state education sector in foreign countries, we can see that it has advanced a lot, as well as made significant changes in terms of competition and quality indicators, including 12% in Germany, 17% in France, 18% in the US, 20% in the UK, 30% in Spain, Ireland and the Netherlands.

Key words: higher education, reform, coverage level, number of graduates, school, number of HEIs.

Аннотация: Хорошо известно, что мы можем добиться экономического развития, создав конкурентную среду в быстро развивающуюся эпоху, предоставляя современные знания и навыки. Очевидно, что эти негосударственные образовательные учреждения служат повышению качества образования на новый уровень путем формирования новых конкурентоспособных кадров для рыночной экономики. Если посмотреть на положение сектора негосударственного образования в зарубежных странах, то можно стать свидетелем того, что он значительно продвинулся вперед, а также внес существенные изменения с точки зрения конкуренции и качественных показателей, в том числе 12% в Германии, 17% в Германии. Франция, 18% в США, 20% в Великобритании, 30% в Испании, Ирландии и Нидерландах.

Ключевые слова: высшее образование, реформа, уровень охвата, количество выпускников, школа, количество вузов.

KIRISH

O'zbekistonda nodavlat ta'lim xizmatlarini rivojlantirishga mustaqillikning dastlabki yillarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan kurtak ola boshlagandi, jumladan 1991-yilda "Tadbirkorlik to'g'risida" qonun qabul qilinishi va 2011-yilda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikyili", deb e'lon qilinishi. 2012-yilda "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqa ko'plab normativ hujjatlarni qabul qilinishi bilan rivojlana boshladi.

Endi ta'lim tizimini ham rivojlanish bosqichini ko'radigan bo'lsak, 1997-yildagi 464-I-sonli O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning 9-moddasida "Davlat standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari"ga bo'linishi, shuningdek, 7-moddasida "Davlat ta'lim standartlari"da [1]:

- Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.
- Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiyligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilingan. Ushbu Kadrlar tayyorlashning milliy dasturining asosiy maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi:

- **shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;
- **davlat va jamiyat** – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;
- **uzluksiz ta’lim** malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich (1997–2001-yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001–2005-yillar) Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Keyingi normativ hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil PF-5847-sonli Farmoni bo‘lib unda, “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”dir. Unda quyidagi maqsadlar belgilangan, jumladan:

- oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish;
- sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish;
- oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasi bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilangan.

Avvalambor, Universitet konsepsiyasi haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tib ketish zarur. “Universitet 1.0” modeli yoki “birinchi avlod universiteti” da faqat ta’lim berish ustuvorligi qaraladi. Ushbu modelda o‘qituchi dars beradi, talaba esa eshitib o‘rganishidan iborat. Asosiy maqsadi ta’lim berishdan iborat.

“Universitet 2.0” modeli yoki “ikkinchi avlod universiteti”larida esa ta’lim bilan birga ilmiy tadqiqot olib borishga urg‘u qaratiladi. “Universitet 2.0” ilmiy tadqiqot faoliyati orqali yangi bilimlarni yaratadi, bozor ishtirokchilari uchun konsalting xizmatlari markazi bo‘ladi, sanoat tomonidan buyurtmalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi hamda yangi texnologiyalarga asos soladi.

“Universitet 3.0” modeli yoki “uchinchi avlod universiteti”larida bunda tadbirkorlik madaniyati rivojlanib, ishbilarmon doiralar vakillari bilan samarali muloqot o‘rnatiladi. Bunday universitetda texnologik startaplar yaratilib, patentlar muntazam ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

1-jadval: Universitet avlodlari [2]

UNIVERSITET 1.0	UNIVERSITET 2.0	UNIVERSITET 3.0	UNIVERSITET 4.0
Ta’lim berish	Ta’lim berish va ilmiy tadqiqot olib borish	Ta’lim berish va ilmiy tadqiqot natijasini sotish	Ta’lim berish va ilmiy tadqiqot natijasini sotish hamda har bir talaba uchun alohida o‘quv rejalar asosida ijtimoiy ko‘nikmalarini ham shakllantirish

“Universitet 4.0” yuqoridagi barcha sifatlarni o‘zida jamlab, u raqamlashtirilgan va biznes jarayonlari avtomatlashtirilgan makon sanaladi. “Universitet 4.0” yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda yetakchiga aylanib, ommaviy ishlab chiqarishdan iste’molchilarning individual talablari asosida xizmatlar yetkazadi. Bu borada “Universitet 4.0” talabalarning individual ehtiyojlari asosida o‘quv reja va dasturlar tayyorlaydi. “Universitet 4.0” talabalarning nafaqat bilimi, balki ijtimoiy ko‘nikmalariga ham ustuvor e’tibor qaratadi [3].

Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatich faoliyatini yana rivojlantirish orqali yuqori sifatli ta’lim berish maqsadida davlat va nodavlat OTMlarida sog‘lom raqobat muhitini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi 3276-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, unda asosiy yo‘nalish va vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim-tarbiyaning yuqori sifatini ta’minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratish;
- sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an’anaviy ta’lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta’lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bozorini jadal rivojlantirish;
- ilg‘or xalqaro tajribalarni inobatga olib, o‘qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida ta’lim sohasidagi samaradorlik va natijaviylikni oshirish [4].

Ta’lim jarayonini o‘qitishning eng zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda fanlarni chuqurlashtirib o‘rgatish yo‘nalishida tashkil etish, o‘zlariga nom tanlashda vatanimizning mashhur va buyuk olimlari, jamiyat arboblari ismlaridan o‘rnatilgan tartibda foydalanish hamda ilg‘or ilmiy-amaliy tajribani joriy etish hamda chuqurlashtirib o‘rganiladigan fanlarni chet tilida o‘qitish uchun ta’lim jarayoniga xorijiy pedagog va mutaxassislarni jalb qilish belgilab qo‘yilgan.


Xususan, ta’limni sifatini oshirish orqali barkamol avlodni shakllantirish hamda iqtisodiy rivojlanishining yangi bosqichiga olib chiqqa olishi, xususan yosh avlodga aniq fanlar kesimida matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlarini o‘zlashtirishi uchun o‘rta ta’lim bosqichidan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish muhimligi O‘zbekistonning Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi hamda 2030-yilgacha Rivojlantirish konsepsiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa ko‘plab normativ hujjatlarda o‘z ifodasini topgan.

ILMIY MUAMMONING QO‘YILISHI

Horijlik tadqiqotchilar Richard Murnane va Richard Nelson o‘zlarining “Improving the Performance of the Education Sector: The Valuable, Challenging, and Limited Role of Random Assignment Evaluations” [5] maqolasida ta’lim tizimi, undagi boshqaruv haqida o‘z izlanishlarida tadqiqotlar olib borishgan bo‘lib, ular asosan ta’lim sifati hamda uning ijobiy oqibatlari haqida qarashlarini yoritishgan.

Giancarlo Corsi o‘zining “Education Reform as a Global Phenomenon” [6] nomli maqolasida ta’lim sohasidagi reformalarning salbiy va ijobiy oqibatlarni yoritgan. Joseph Zajda esa “Discourses of globalisation and higher education reforms” [7] nomli izlanishda globallashuvning oqibatlari haqida o‘z qarashlari bilan o‘rtoqlashgan.


Tahlil va natija. O‘zbekiston aholisi tez sur’atlarda o‘sib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatizmizning demografik ko‘rsatkichini tahlil qilishimizdan maqsad, aholining qancha qismi ayniqsa yoshlar o‘rtasidagi OTMlarga qamrov proporsiyani aniqlash uchun zarurdir. Endi, O‘zbekistonning 2016-yildagi demografik ko‘rsatkichi 31,5 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yilda 32,1 mln. nafarga yetgan, ya’ni 545 ming kishiga ko‘paygan yoki 1,6 foizga ko‘paygan (1-rasm).



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasi aholisi o‘sishi dinamikasi, ming kishi [8]


Demografik ko‘rsatkichning 2018 va 2019-yillarida 599 ming kishi (1,8 foiz)ga, 2020-yilda 650 ming kishiga, 2021-yilda 653 ming kishiga, 2022-yilda 713 ming kishiga va 2023-yilda esa 36 mln. kishi (2,09 foiz) ga ko‘paygan. Endi, umumiy ko‘rsatkich bo‘yicha tahlil etadigan bo‘lsak, 2016-2023-yillar oraligida o‘rtacha 654 ming kishiga yiliga o‘sish bo‘lgan, foiz ko‘rinishida esa o‘rtacha 0,14dir.

Keyingi jadvalda, aholining asosiy qismi ya’ni 15-19-yoshlar orasidagi ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich OTM yoshiga yetganlarni hamda topshirish proporsiyasini aniqlashimiz uchun zarurdir (2-rasm).




2-rasm: O‘zbekiston Respublikasi aholisida 15-19 yoshlar ulushi dinamikasi(ming kishi) [9]

Hozirgi kunda respublikamizda ham sezilarli darajada umumiy ta’lim muassasalari soni nodavlat soha vakillari hisobiga o‘sib bormoqda, jumladan, 2019-yilda Respublika bo‘yicha jami 10 090 ta maktablar bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda 10 181ta (oldingi yilga nisbatan 1 foiz ko‘p)ga, 2021-yili 10 289ta (oldingi yilga nisbatan 2 foiz ko‘p)ga va 2022-yilda 10 522 ta (oldingi yilga nisbatan 1 foiz kamaygan) ko‘rishimiz mumkin (3-rasm).



3-rasm: O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari soni [10]

Endi, shu yillar davomida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tahsil olgan o‘quvchilar soni ham tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak. Demak, 2022-yilda 10522ta maktab dargohlarida 6 461 ming o‘quvchi tahsil olgan bo‘lib, bu degani 1 maktabda 615 nafar o‘quvchu o‘qiydi degani. Endi, 2021-yilga nisbatan 3 foizga o‘quvchilar ko‘paygani ko‘rishimiz mumkin, maktablar soni bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsa, respublika bo‘ylab 233ta yangi maktab dargohi qurilgan bo‘lmoqda (4-rasm).




4-rasm: O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar soni, ming kishi [11]

Maktab o‘quvchilarini yiliga o‘rtacha ko‘payish hajmini ko‘radigan bo‘lsak, 2016-yildan 2022-yilga qadar yiliga 235 ming o‘quvchilar soniga ko‘payib borgan. Maktablar soni ham tahlil qiladigan bo‘lsak, yiliga o‘rtacha

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

115 ta maktab soniga oshib borganini ko‘rishimiz mumkin. 2016-yildan 2022-yilga qadar, yangi qurilgan maktablar soni 7,63 foizga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Maktab o‘quvchilar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak 2016-yildan 2022-yilga qadar 25 foizga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.


Tadqiqot ishimizning keyingi rasmida maktab bitiruchilar soni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, 2016-yilda 475 ming o‘quvchi bitirgan bo‘lsa, jami 2016-yilda bitiruvchilarning 9.8 foizi tamomlashgan. O‘quv yilining 2016-yilida jami 5263 ming o‘quvchidan 466 ming (8.85 foizi) bitiruvchilari tamomlashgan. O‘quv 2018-yilida 475 ming o‘quvchi bitirishgan bo‘lsa, 2017-yilga nisbatan 2 foizga ko‘p bitirishgan (5-rasm).



5-rasm: O‘zRda maktab bitiruvchilari soni, ming kishi [12]

O‘quv yilining 2019-yilida 280 ming bitiruvchilar maktabni tamomlashgan bo‘lsa, 2018-yilga nisbatan 41 foizga kamaygan bo‘lib, shu yili barcha maktab o‘quvchilarining 4.54 foizidir. O‘quv 2020-yilida 174 ming (38 foiz)ga ko‘paygan bo‘lib. Shu 2020-yildan 2022-yilga borib, yana kamayish bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 12 ming nafarga bitiruvchilarni ko‘rishimiz mumkin. 2022-yilda esa yana 54 mingga kamayganini ko‘rishimiz mumkin.

Umumiy maktab bitiruvchilar o‘z navbatida nechtasi OTMlarga topshirganini tahlil qilishi uchun eng avvalambor, respublikamizda nechta oliy ta’lim muassasalar sonini bilib olishimiz zarur. O‘zbekistonda 2016-yilga qadar OTM soni 70 ta bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yilda esa 2 ta yangi ochilganligi sababli 72 taga yetdi (6-rasm).



6-rasm: O‘zbekiston Respublikasida OTMlar soni [13]


2018-yilda yangi va OTM filialining ochilishi sababli 98 taga yetdi, 2017-yilga nisbatan 26 taga ko‘paydi. OTMlarning soni 2019-yilda yana yangi 21 ta yangi ilm dargohlarning ochilishi sababli 119 ta bo‘ldi. Pandemiya sababli 2020-yilda yangi OTMlar soni 127ta yetdi, boshqacha qilib aytganda 9ta yangi OTM ochilganini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi yangi 2021-2022 o‘quv yili uchun 154 ta OTMlar faoliyatini boshlagan bo‘lsa, bu 2018-yilga nisbatan 27 taga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

OTMlar soni yana o‘sishda davom etib, 2022-yilda ularning soni 191taga yetdi va eng ko‘p ochilgan OTMlar soni shu yilda amalga oshirildi. Keyingi 2023-2024-o‘quv yilida O‘zbekistonda 212ta OTM faoliyatini yurita boshladi. Endi yuqoridagi maktab o‘quvchilari haqida statistik ma’lumotlarni berishning asosiy maqsadi, OTMga bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun tahlil sifatida ko‘rsatildi. Hozirgi kunda (2023-yil oktyabr) respublika-

mizda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotiga ko‘ra [14] umumiy 212 ta OTMlar 3 turga arjatishimiz mumkin, bular:

- Davlat – 116 ta;
- Nodavlat – 66 ta;
- Xorijiy – 30 ta.

Keyingi jadvalda OTMlarga hujjat topshirganlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2016-yilda 673 ming abituriyent hujjat topshirgan bo‘lsa, OTMlar soni 70 ta bo‘lgan. Demak, o‘rtacha hisob kitoblarga binoan 1 OTMga o‘rtacha 9615 ta abituriyent to‘g‘ri kelgan. Keyingi 2017-yilda hujjat topshiruvchilar soni 113 ming nafar (14 foiz) ga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin, ushbu yilda maktab bitiruvchilar soni 466 mingda bo‘lgan bo‘lsa, bitiruvchilarga qaraganda 40 foiz ko‘proq hujjat topshirganlar bo‘lishgan (7-rasm).




7-rasm: OTMga hujjat topshirganlar soni, ming kishi [15]

Keyingi 2018-yilda hujjat topshiruvchilar soni 813 ming nafarga yetgan bo‘lsa, 2017-yilga nisbatan 4 foizga ko‘pdir. Shu yili maktabni bitirganlar soni esa 475 ming nafarni tashkil etgan. OTMlar soni esa 98 ta bo‘lgan bo‘lsa, o‘rtacha bir universitetga 8295 nafar talaba to‘g‘ri keladi. Keyingi 2019-yilda hujjat topshiruvchilar soni 1 mln 157 mingni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilga nisbatan 344 ming hujjat topshirganlarga ko‘pdir. Keyingi 2020-yilda esa 1 mln 820 ming nafar hujjatlar topshirgan soni bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilga nisbatan 663 ming nafarga ko‘pdir, bu farqli ko‘rsatkich 2016-yilda hujjat topshirganlar soni bilan bir hildir.

2021-yilga kelib hujjat topshiruvchilar sonida keskin kamayishni kuzatishimiz mumkin, sal kam 500 ming nafarga yoki 34 foizga kamdir. Shuningdek ushbu yilda OTMlar soni respublika bo‘yicha 191 tani tashkil etgan bo‘lsa, maktab bitiruchilar soni 442 mingni tashkil etgan. Keyingi 2022-yilda esa hujjat topshiruvchilar soni 1656 ming nafarga yetgan bo‘lsa, 2021-yil bilan solishtirganda sal kam 400 ming nafar yoki 27 foizga ko‘pdir.

OTMlarga qabul qilingan talabalar sonini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Demak 2016-yili 475 ming nafar o‘quvchi maktabni bitirishgan bo‘lsa, 70 OTMga 673ming nafari hujjat topshirishgan, shunda 61 200 tasi talaba maqomiga ega bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bu 9 foizi talaba bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi degani, qolgan 91 foizi yani 610 ming tasi o‘qishga kira olmadi degani.

2017-yilda esa 466 ming nafar maktab bitiruchilari bilan 320 nafar oldingi yillarda OTM kira olmaganlar jami 786 ming nafar abituriyent hujjat topshirishga 72ta OTMda talaba bo‘lish uchun, lekin atigi 63 ming nafari talaba bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. Qiziq tomoni qabul parametri sal kam 2,9 foizga ko‘paygan 2016-yilga nisbatan, bu yilda O‘zbekiston demografik ko‘rsatkichida 15-19 yoshlardagilarning ulushi 2 mln. 658 mingni tashkil etgan bo‘lib, jami aholi ko‘rsatkichimiz esa 32 mln. kishi tashkil etgan paytda (8-rasm).



8-rasm: OTMlariga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi [16]

Keyingi 2018-yilda 15-19 yoshli aholi ko‘rsatkichimisiz 2,5 mln. nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan maktabni bitiruvchilar soni 476 mingni tashkil etgan bo‘lib, jami 813 ming abituriyent 98 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 114 minggi talaba bo‘lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atigi 14 foizi talaba bo‘ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo‘lsak sal kam 44 foizga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

2019-yilda 15-19 yoshli aholi ko‘rsatkichimisiz deyarli 2,5 mln. nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan maktabni bitiruvchilar soni 480 mingni tashkil etgan bo‘lib, jami 1 157 ming abituriyent 119 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 138 minggi talaba bo‘lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atigi 11 foizi talaba bo‘ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo‘lsak sal kam 17 foizga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

2020-yilda 15-19 yoshli aholi ko‘rsatkichimisiz deyarli 2.5 mln. nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 10181 ta maktabda tahsil olayotgan 6,2 mln. o‘quvchidan 454 ming bitiruvchilar 127 ta OTMga jami 1,8 mln. abuturient hujjat topshirishgan bo‘lib, ulardan 9,6 foizi yoki 175 ming nafari talaba bo‘lishgan. Bu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan 21 foizga ko‘p degani.

O‘zbekistonning demografik ko‘rsatkichi 2021-yilda 34,5 mln kishini tashkil etgan bo‘lib, shundan 15-19 yoshdagilar soni 2,5 mln. bo‘lib, shu yilda barcha maktab muassasalari soni 10289 tadan 442 ming bitiruvchilar bilan birga jami 1,2 mln abituriyent hujjatlarini 154 ta OTMga kirish uchun topshirishgan, faqatgina 236 ming nafari yoki 19 foizi talaba bo‘lishgan.

2022-yilda maktabni bituruvchilar soni 388 mingni tashkil etgan bo‘lib, jami 1 656 ming abituriyent 191 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 282 minggi talaba bo‘lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atigi 17 foizi talaba bo‘ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo‘lsak sal kam 16 foizga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA

Tahlil natijalariga ko‘ra qamrov darajasi biz kutgandek emas. Bu kutuv natijasi nafaqat davlat siyosatidan shuningdek, barcha oliy ta’lim muassasalari o‘z vazifalarini bajarishi uchun ustuvor yo‘nalishlarini va shunga mos ravishda maqsadli resurslaridan oqilano foydalana olishiga bo‘g‘liqdir. Shuning uchun OTMlar strategiyalarni aniqlay olishi, ustuvorliklarni belgilay olish, o‘qitish va tadqiqot maqsadlarini tanlay olishi va ularni amalga oshirishi olmasa hamda umuman o‘z tuzilmalari va tashkilotlarini o‘zgaruvchan muhitga moslashtira olishi zarurdir.

Yuqoridagi keltirilgan tahlil natijalarimizga ko‘ra, quyidagi takliflarni chiqarishimiz mumkin:

Birinchidan, barcha oliy ta’lim muassasalarini qamrov darajasini oshirish maqsadida ehtiyojmand oila farzandlariga davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish orqali qamrov hajmini oshirish;

Ikkinchidan, davlat tomonidan talabalarga o‘qish davrini muzlatish(vaqtincha to‘xtatish) yanada yengilik berishi tizimini osonlashtirish;

Uchinchidan, bir oilada ikki yo undan ortiq oilalarning farzandlari talaba maqomida bo‘lishsa, ushbu talabalarning kontrakt to‘lovini kamida 50 foiziga chegirmalar berish kerak deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 225-modda; 2013-y., 41-son, 543-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son.
2. Usmanov S., “Universitet 3.0” – fan-ta’lim va innovatsiya modeli, https://yuz.uz/uz/news/universitet-30-tushunchasi-haqida
3. Kasimova F.T. Ta’limda innovatsiyalar va universitet 3.0 modeli, Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 38-son, 1033-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2019-y., 06/19/5893/4150-son.
5. Richard J. Murnane, Richard R. Nelson, https://www.researchgate.net/publication/24078556_Improving_the_Performance_of_the_Education_Sector_The_Valuable_Challenging_and_Limited_Role_of_Random_Assignment_Evaluations
6. https://www.researchgate.net/publication/374938753_Education_Reform_as_a_Global_Phenomenon
7. https://www.researchgate.net/publication/357226881_Discourses_of_globalisation_and_higher_education_reforms
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2
9. O‘zR Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida. – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2
10. Maktabgacham va maktab ta’lim vazirligi ma’lumoti asosida. – https://uzedu.uz/uz/page/statistics
11. O‘zR Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida. – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2
12. O‘zR Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida/ – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2
13. O‘zR Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida/ – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2
14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi/ – https://stat.edu.uz/
15. O‘zR Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida/ – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2
16. O‘zR Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida/ – https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2



KICHIK SANOAT ZONALARIDAGI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich
TMI “Menejment va marketing” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda kichik sanoat zonalari (KSZ) va ulardagi korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muhim hisoblanadi. Maqolada kichik sanoat zonalaridagi korxonalar va ular raqobatbardoshligini oshirish yoritilgan. Shuningdek, korxonaning raqobatbardoshligini baholash, raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: kichik sanoat zonalari, raqobatbardoshlik, raqobatchilar, raqobat tahlili, iqtisodiy samara, investitsion samara, raqobat muhiti.

Abstract: Currently, it is important to increase the competitiveness of small industrial zones (SIZ) and enterprises in them. The article describes enterprises in small industrial zones and their competitiveness improvement. Also, the evaluation of the enterprise‘s competitiveness, the development and implementation of the competition strategy were studied.

Key words: small industrial zones, competitiveness, competitors, competition analysis, economic efficiency, investment efficiency, competitive environment.

Аннотация: В настоящее время важно повысить конкурентоспособность малых промышленных зон (МПЗ) и предприятий в них. В статье описаны предприятия малых промышленных зон и повышение их конкурентоспособности. Также изучалась оценка конкурентоспособности предприятия, разработка и реализация конкурентной стратегии.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, конкурентоспособность, конкуренты, анализ конкуренции, экономическая эффективность, эффективность инвестиций, конкурентная среда.

KIRISH

Korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish masalasi ko‘p yillar davomida tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Bu masala bo‘yicha ham xorijiy, ham mahalliy iqtisodchilar tomonidan ko‘plab nazariy va empirik tadqiqotlar olib borilgan. Bir tomondan korxonaning raqobatbardoshligini boshqarish mavzusining keng miqyosda ishlab chiqilishi ushbu muammoning iqtisodiy faoliyat amaliyoti uchun dolzarbligini ko‘rsatsa, boshqa tomondan, aksariyat tadqiqotlarda mualliflar korxonalar raqobatbardoshligining asosiy omillari, raqobatbardoshlik darajasini monitoring qilish va uni yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishning texnik jihatlariga kamroq e’tibor berib strategik tahlil va kompaniyalar raqobotbardoshligining fundamental omillarini aniqlashga e’tibor berishmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Taqdqiqot metodologiyasi sifatida sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning yo‘nalishlariga oid olimlar fikrini o‘rgangan holda, kuzatish, iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

ASOSIY QISM


Ma’lumki, xo‘jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini oshirish nafaqat alohida korxonalar uchun, balki tegishli tarmoq va hududlar uchun ham ahamiyatlidir. Hududlar iqtisodiyoti alohida korxonalarning iqtisodiy faoliyati natijasida shakllanganligi sababli, korxonalarning yuqori raqobatbardosh maqomini ta’minlamasdan turib, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin emas.

Menejmentning umumiy nazariyasidan ma’lumki, boshqaruv jarayonining asosiy bosqichlari: dastlabki ma’lumotlarni yig‘ish, uni tahlil qilish va maqsadni belgilash; qaror qabul qilish, qarorni amalga oshirish bo‘yicha

tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish; ishlash natijalarini monitoring qilish va nazorat qilish. Shu nuqtayi nazardan, korxonaning raqobatbardoshligini boshqarish quyidagi harakatlar majmuasini amalga oshirishga qaratiladi:

1) xo‘jalik yurituvchi subyektning tarmog‘i va raqobatchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash;
2) olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish, korxonaning raqobatbardoshligini baholash, yaxshilash bo‘yicha strategik maqsadlarni belgilash;
3) raqobatbardoshlikning maqsadli darajasiga erishishga qaratilgan raqobat strategiyasini ishlab chiqish;
4) taktik boshqaruv qarorlarini rejalashtirish va ishlab chiqish jarayonida qabul qilingan strategiyaning izchil aniqlanishi;
5) qabul qilingan raqobat strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish;
6) strategiyani amalga oshirishning asosiy bosqichlarini nazorat qilish, erishilgan natijalarni monitoring qilish jarayonida korxonaning raqobatbardoshligini baholash, shuningdek tuzatish choralarini kiritish (zarur bo‘lganda).

Mazkur keltirilgan algoritm bo‘yicha barcha harakatlar shartli ravishda uchta katta blokka bo‘linishi mumkin: raqobat tahlili; korxonaning raqobatbardoshligini baholash; raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish (1-rasm).



1-rasm: KSZ ishtirokchilari bo‘lmish korxonalar faoliyatida raqobatbardoshlikni ta’minlashning boshqaruv sikli

Yuqorida ta’kidlangan triadaga asoslangan KSZ ishtirokchilari bo‘lmish korxona faoliyatida raqobat tahlilining asosiy maqsadi strategik menejment sohasida raqobatbardoshlikni baholash va qarorlar qabul qilish uchun axborot asosini ta’minlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish korxonaning raqobat muhitini monitoring qilish va uning dinamikasini bashorat qilish imkonini beruvchi ko‘rsatkichlar tizimini qo‘rish orqali ta’minlanadi [4].

Sohadagi raqobatchilar va raqobat sharoitlarini o‘rganish har qanday kompaniyaning raqobatchilarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, o‘z raqobat strategiyasini ishlab chiqish yoki erishilgan raqobatdosh ustunlikni saqlab qolish uchun talab qilinadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektning raqobat muhiti va uning faoliyati shartlarini tahlil qilish uning raqobatbardoshlik darajasini eng ko‘p belgilovchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, aniqlangan omillarga maqsadli ta’sir ko‘rsatish orqali korxonaning raqobatbardoshlik mavqelari optimallashtiriladi. Korxonaning raqobat muhitini tahlil qilish tartibini qisqacha ko‘rib chiqamiz (strategik menejment klassiklarining tavsiyalariga muvofiq [5]).

KSZ ishtirokchilari bo‘lmish korxona faoliyatida raqobat tahlilini o‘tkazishda, birinchi navbatda, o‘rganilayotgan obyektning qisqacha tavsifini, shu jumladan tahlil qilinayotgan korxona tarmog‘ining tavsifini, asosiy iste’molchilarni, kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarini, bozor sharoitlarini va boshqalarni shakllantirish kerak. Keyingi, sohadagi vaziyat tahlili olib boriladi. Tarmoqlar o‘zining tuzilishi va asosiy xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan bir-biridan keskin farq qilganligi sababli, tarmoqdagi vaziyat va undagi raqobatni tahlil qilish asosiy tarmoq xususiyatlarini ko‘rib chiqishdan boshlanadi.

Shu bilan birga, raqobatning tabiati va shiddatiga alohida e’tibor qaratish lozim. Tarmoqdagi vaziyat va undagi raqobatni tahlil qilishda quyidagi savollarga javob berish kerak:

- tarmoq bozorining hajmi;
- bozor o‘sish sur’ati va u joylashgan bosqich;
- raqobatchilar soni va ularning nisbiy kattaligi;
- tarmoqdagi asosiy kompaniyalarning rentabellik darajasi;
- tarmoqning asosiy ishtirokchilari o‘rtasidagi raqobatning intensivligi;
- raqobatning asosiy usullari;
- tarmoqda asosiy mol yetkazib beruvchilar kimlar ekanligi;
- texnologik o‘zgarishlarning yo‘nalishlari va sur’atlari;
- tarmoqqa kirish va undan chiqish qulayligi;

- tarmoq raqobatida muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni belgilovchi asosiy omillar nimaligi;
- tarmoq istiqbollari va uning umumiy jozibadorligi.

Bunda tarmoqning iqtisodiy xususiyatlarining raqobat xarakteriga ta'sirini ham hisobga olish zarur [6]. Raqobat tahlili natijasida kompaniya rahbariyati oldida korxona tashqi muhitining aniq va obyektiv holati haqida tasavvur paydo bo'lishi kerak. Shuni ham yodda tutish kerakki, bunday tahlil shunchaki ma'lumotlarni kiritadigan va tayyor javoblarni oladigan sof mexanik mashq emas. Xuddi shu dastlabki ma'lumotlar uchun tarmoqning dinamikasi uchun bir nechta ehtimollik ssenariylari bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan, strategik tahlilni o'tkazishda har doim ma'lum omillarning ta'siri, sanoat va raqobat muhitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqida turli xil fikrlar mavjud.

Yuqorida ta'kidlanganidek, raqobat tahlilining asosiy natijalaridan biri korxonaning raqobat muhitini monitoring qilish va uning dinamikasini bashorat qilish imkonini beruvchi ko'rsatkichlar tizimini qurishdir. Uslubiy nuqtayi nazardan, bunday tizimni qurish R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi tamoyillari asosida amalga oshirilishi mumkin [7]. Balanslangan ko'rsatkichlar tizimi (BKT) boshqaruvni universal mexanizm bilan ta'minlaydi, bu esa baholash mezonlari tizimidan foydalangan holda kompaniya faoliyatini doimiy ravishda kuzatib borish imkonini beradi.

BKTning klassik tuzilmasida ko'rsatkichlar to'rtta yo'nalishda shakllantiriladi: moliya, mijozlar, ichki biznes jarayoni, o'qitish va malaka oshirish. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, BKTni shakllantirishga klassik yondashuvda u asosan endogen ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan bir vaqtda, raqobat tahlili uchun birinchi navbatda korxonaning tashqi makro muhiti holatini tavsiflovchi ekzogen ko'rsatkichlar qiziqish uyg'otadi. BKT konsepsiyasi mualliflari o'z ishlarida ko'rsatilgan to'rtta ko'rsatkich sohalari o'zgarmas emasligini va tizimni qurish vazifalariga qarab farq qilishi mumkinligini bir necha bor ta'kidlaganlar. Shundan kelib chiqqan holda, raqobat tahlilini o'tkazishda BKT uchun asos sifatida biz strategik boshqaruv sohasidagi mutaxassislarning mutlaq ko'pchiligi tomonidan dolzarb deb e'tirof etilgan Maykl Porterning raqobatning beshta kuchi modelini [8] tarkibiy tuzilma sifatida qabul qilishni taklif qilamiz.

Ushbu modelga ko'ra, belgilangan bozordagi raqobat holatini quyidagi yo'nalishlardagi ko'rsatkichlar monitoringi bilan tavsiflash mumkin:

- yangi raqobatchilarning kirib kelish tahdidi;
- mavjud tovarlar o'rnini bosuvchi mahsulotlarning paydo bo'lishi;
- mol yetkazuvchilar (postavkachilar) iqtisodiy salohiyati;
- sotib oluvchilar iqtisodiy salohiyati;
- mavjud raqobatchilar o'rtasidagi kurash.

Shunday qilib, raqobat muhiti ko'rsatkichlarini muvozanatlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi tamoyillaridan foydalangan holda baholash tizimini qurish tarmoqdagi vaziyatni operativ monitoring qilish imkonini beradi.

KSZ ishtirokchilari bo'lmish korxonaning raqobatbardoshligini baholash.

Ma'lumki, o'lchab bo'lmaydigan narsani boshqarish mumkin emas. Natijada, korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash uning raqobatbardosh maqomining hozirgi darajasini miqdoriy baholamasdan mumkin emas. Bunday baholash, bir tomondan, biznes jarayonlarini optimallashtirishning dolzarbligini aks ettiruvchi "barometr", ikkinchi tomondan, korxonaning kuchli va zaif tomonlarini qaysi yo'nalishda aniqlash kerakligini ko'rsatadigan "kompas"dir.

Har qanday korxonaning raqobatbardoshligini oshirish uning raqobatbardoshligini baholash bilan uzviy bog'liqdir, chunki faqat bunday baholash asosida korxonaning raqobatdosh ustunliklarini (ularni mustahkamlash uchun), shuningdek kamchiliklarni (ularning keyingi faoliyatda bartaraf etish uchun) aniqlash mumkin. Ta'kidlash mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini baholash uning raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini tahlil qilish va aniqlash uchun uslubiy asosdir.

KSZ ishtirokchilari bo'lmish korxonalar raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Shubhasiz, faqat shunday strategiya samarali bo'lishi mumkin, uni ishlab chiqish va amalga oshirish batafsil raqobat tahliliga asoslanadi va raqobatbardoshlikni obyektiv baholash bilan tasdiqlanadi. Shunday qilib, biz ilgari taklif qilingan tahlil ketma-ketligiga rioya qilish zarurligini yana bir bor ta'kidlamoqchimiz: raqobat tahlili, korxonaning raqobatbardoshligini baholash, raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichi korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash algoritmida belgilovchi ahamiyatga ega, chunki aynan shu bosqichda korxona muvaffaqiyatining kaliti bo'lgan nostandart strategik qarorlar ishlab chiqiladi.

KSZlari ishtirokchilari investitsion faoliyatni samarali boshqarish sohasida investorlar bo'lmish, tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatining amaliyotida ta'sischilarning o'zaro kelishmovchiliklari tufayli bo'linib ketish holatlari ham uchraydi. Ushbu holatda empirik yo'l bilan avvalgiga qarama-qarshi holatdagi sinergetik samarani kuzatish mumkin: umumiy xarajatlarning o'sishi, bozordagi mavqe va ulushning kamayishi, raqobatning o'sishi, ma'muriy funksiyalarning takrorlanishi va h.k.

KSZlari ishtirokchilari investitsion faoliyati yetakchisi bo‘lmish innovatsion tadbirkorlikning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining investitsion o‘sishini hamda modernizatsiyasini ta’minlaydi.

KSZ ishtirokchilari investitsion faoliyatini samarali boshqarish sohasida investorlar bo‘lmish tadbirkorlik tuzilmalarining birlashishidan yuzaga keluvchi iqtisodiy samara tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: KSZlari ishtirokchilari investitsion faoliyatini samarali boshqarish sohasida investorlar bo‘lmish tadbirkorlik tuzilmalarining birlashishidan yuzaga keluvchi iqtisodiy samara turlari va yuzaga kelish sabablari

Iqtisodiy samara turlari	Namoyon bo‘lish sohasi
Operatsion samara	Daromadlarning o‘sishida va xarajatlarning, shu jumladan tranzaksion xarajatlarning kamayishida namoyon bo‘ladi
Investitsion samara	Investitsiya resurslarining o‘sishida, investitsion risklar tarkibining mukammallashtirilishida namoyon bo‘ladi
Moliyaviy samara	Moliyaviy barqarorlikning o‘sishida, kapital aylanuvchanligi ortishi va moliyalashtirish manbalariga erishish imkoniyatining mavjudligi, investitsiyalash risklarini kamaytirishda

Bunda olinadigan samara vaqtinchalik xususiyatga ega, chunki bozorda samarali ishlab chiqaruvchi o‘zi oladigan yuqori foydasi hisobiga ko‘proq resurslarga ega bo‘ladi va samaradorligi pastroq bo‘lganlarni siqib chiqaradi. Shunday qilib, tizim o‘z-o‘zidan qaytadan tashkil topadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

KSZlarini barpo etishni asoslashda ularning iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda, birinchi navbatda, zona hududiga joylashtiriladigan tadbirkorlik subyektlarining loyihalari samaradorligini baholash. Keyingi bosqichda zona hududini tayyorlash, unda muhandislik-kommunikatsion elementlarini, xizmat ko‘rstish obyektlarini qurishga sarflangan xarajatlarni e’tiborga olgan holda zonaning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash zona faoliyatini iqtisodiy asoslashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, KSZlarning ijtimoiy samaradorligini baholash va uni atrof-muhitga ekologik ta’sirini baholash ham zonalarni tashkil etilishini asoslashda muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.

Shuningdek, KSZlari taraqqiyotini samarali boshqarishda quyidagi tadbirlar zarurligini ta’kidlamoqchimiz:

- kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etish orqali sinergetik samaraga erishish;
- kichik sanoat zonalarida kichik biznes subyektlariga umumiy xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalarni tashkil etish;
- kichik sanoat zonalaridagi tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish va b.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2020-yildagi PF-6019-son.
2. Yo‘ldoshev N. Q., Nabokov V. I. Menejment nazariyasi. Darslik. – T., 2011. 15-b.
3. Xajiyev, B., Mamaraximov, B., & Sharipov, Q. (2020). Iqtisodiyot nazariyasi UMK.
4. Юрьева, Л. В. Основы стратегического конкурентного анализа / Л. В. Юрьева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. – 52 с.
5. Грант, Р. М. Современный стратегический анализ [Текст] / Р. М. Грант. – СПб.: Питер, 2008. – 560 с.
6. Ружанская Л. С., Якимова Е. А., Зубакина Д. А. Стратегический менеджмент. Учебное пособие. Екатеринбург Издательство Уральского университета 2019.
7. Каплан Р. С. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию Олимп-Бизнес, 2021 г.
8. Porter M. E. On Competition. Boston: Harvard Business School, 1998.
9. Abduraxmonov Q. X., Xolmo‘minov Sh.R., Xayitov A.B., Akbarov A.M. “Personalni boshqarish” (Darslik). – T.: TDIU, 2014. 294 bet.
10. Salimov B. T, Salimov B. B. Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliyiqtisodiy asoslarini takomillashtirish. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 135 b.



PENSIYA YOSHINING PENSIYA TA'MINOTI TIZIMIGA TA'SIRI

Tursunov Jaxongir Pulatovich
DSc, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Sug'urta va risklarni boshqarish" kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada pensiya ta'minoti tizimida pensiya yoshining o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bo'lib, avvalo mavzuning dolzarbligi asoslangan, ushbu soha bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganilgan. MDH, Gruziya va Boltiqbo'yi mamlakatlarida yoshga doir pensiya tayinlash uchun belgilangan pensiya yoshi ko'rib chiqilgan. Shuningdek mazkur davlatlarda o'rtacha ish haqi miqdorlari tahlil qilingan. Pensiya yoshini oshirishga qaratilgan pensiya islohotlari keltirilgan hamda pensiya yoshini qanday qilib oshirish mumkinligi borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pensiya ta'minoti, pensiya yoshi, pensiya tizimi, ish haqi, pensiya sug'urtasi, kambag'allik, davlat pensiyalari, o'rtacha umr ko'rish yoshi, pensiya islohotlari

INFLUENCE OF PENSION AGE ON THE PENSION SYSTEM

Tursunov Jakhongir Pulatovich
DSc, The Banking and finance academy Republic of Uzbekistan

Abstract: This article aims to reveal the role and significance of the retirement age in the pension system, first of all, the relevance of the topic is substantiated, and the scientific works of foreign and domestic scientists in this field are studied. In the CIS, Georgia and the Baltic countries, the retirement age established for the appointment of an old-age pension is taken into account. The average salary in these countries was also analyzed. Pension reforms aimed at raising the retirement age are presented, proposals and recommendations for raising the retirement age are developed.

Key words: pension provision, retirement age, pension system, wages, pension insurance, poverty, state pensions, life expectancy, pension reform

ВЛИЯНИЕ ПЕНСИОННОГО ВОЗРАСТА НА ПЕНСИОННУЮ СИСТЕМУ

Турсунов Джахонгир Пулатович
доктор наук, Заведующий кафедрой "Страхование и управление рисками" Академии банковского дела и финансов Республики Узбекистан

Аннотация: Целью данной статьи является раскрытие роли и значения пенсионного возраста в пенсионной системе, в первую очередь актуальность темы основана на научных работах зарубежных и отечественных ученых в данной области. В СНГ, Грузии и странах Балтии рассматривался фиксированный пенсионный возраст для назначения пенсий по старости. Также была проанализирована средняя заработная плата в этих странах. Представлены пенсионные реформы, направленные на повышение пенсионного возраста, а также разработаны предложения и рекомендации по повышению пенсионного возраста.

Ключевые слова: пенсионное обеспечение, пенсионный возраст, пенсионная система, заработная плата, пенсионное страхование, бедность, государственные пенсии, продолжительность жизни, пенсионная реформа.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda o'rtacha umr ko'rish yoshining keskin o'zgarishi, shuningdek pensiya tizimidagi islohotlar negizida pensiya yoshini oshirish muhim masalalardan hisoblanadi. Pensiya ta'minotining muhimligi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida (PF-60, 2022) ham maqsad sifatida belgilab quyilgan.

Pensiya ta’minoti tizimida pensiya yoshi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, pensiya yoshi – nafaqat insonlarni tashvishga soladigan masala, balki har bir mamlakatning iqtisodiyot va siyosatidagi muhim omil hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari pensiya tizimlarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi erta pensiyaga chiqish (imtiyozlar)ni kamaytirish, kech pensiyaga chiqishni rag‘batlantirish va eng muhimi pensiya yoshini oshirishga qaratilgan. O‘zbekistonda ham pensiya islohotlari boshlangan bo‘lib, asosiy masala pensiya miqdorlarini ideksatsiyalash, jumladan minimal pensiya miqdorlarini minimal iste’mol xarajatlariga tenglashtirish, pensiya hisoblash uchun hisobga olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi miqdorini oshirish orqali pensiya hisoblash mehanizmini takomillashtirish, ko‘p darajali pensiya tizimiga o‘tish hamda pensiya sohasini raqamlashtirishga qaratilmoqda. Dunyoda o‘rtacha umr ko‘rish yoshining o‘sib borayotganligi, o‘rtacha pensiya yoshining yuqorili-gига qaramasdan pensiya yoshini oshirish masalasi islohotlarda zarur chora sifatida ko‘rilmayapti.

Pensiyalarni hisoblashda mehnat stajiga e’tibor qaratish va pensiya yoshini belgilash bo‘yicha mamlakatga xos va mos bo‘lgan xorij tajribalarini o‘rganish va amalda qo‘llash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ko‘plab davlatlarda pensiya to‘lashda pensiya yoshiga e’tibor qaratgan bo‘lsa, boshqa davlatlarda mehnat stajiga jiddiy e’tibor berishadi. Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlar fuqarolari necha yoshdan pensiyaga chiqadi va qanday to‘lovlarni olishlari to‘g‘risida turli mamlakatlarning pensiya yoshi hamda pensiya to‘lovlari haqida ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR SHARHI (LITERATURE REVIEW)

Mehnat staji va pensiya yoshi pensiya ta’minotining muhim elementlaridan hisoblanadi. Bu esa pensiya ta’minoti bo‘yicha tadqiqot olib borgan ko‘plab xalqaro moliyaviy tashkilotlar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Jumladan rossiyalik olim V. Roikning (2020) ilmiy ishlarida aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya ta’minotining o‘rni, pensiya sug‘urtasi, ijtimoiy sug‘urta va uning moliyaviy-iqtisodiy asoslari, pensiya yoshini oshirish bilan bog‘liq masalalar, pensiyalarni hisoblashda sug‘urta stajining ahamiyati bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilingan. Aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy, tibbiy va pensiya sug‘urtasining hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

G. Tetlou (2015) o‘zining pensiya ta’minoti bo‘yicha tadqiqodida bugungi kunda pensiya tizimida islohotlar nechog‘lik zarur ekanligini, bunda pensiyaga to‘lanadigan o‘tkazmalarni miqdorlarini oshirish, ko‘proq nodavlat pensiya fondlari faoliyatiga e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlagan.

A. P. Shemetov va S. N. Orlovlarning (2013) ilmiy xulosalariga ko‘ra, demografik va boshqa omillar ta’sirini hisobga olgan holda milliy pensiya ta’minotining yangi tizimini yaratish va uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash zarurligi ilgari surilgan. Olimlarning fikricha, xorij tajribalariga tayanib, pensiya ta’minoti tizimining alohida elementlarini takomillashtirish kerak. Lekin, ilmiy tadqiqot ishlarida pensiya yoshi va mehnat staji bilan bog‘liq munosabatlar to‘liq yoritilmagan.

Sh. Rajabovning (2021) pensiya tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan dissertatsiya ishida O‘zbekistonda nodavlat pensiya fondlarini tashkil qilish bilan bog‘liq masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek pensiya tayinlash, to‘lash amaliyoti va pensiya yoshi ko‘rib chiqilgan, Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda yoshga doir pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida tadqiqot ishida M. Ziyadullayev (2019) ko‘proq yoshga doir pensiyani hisoblash, tayinlash va to‘lash mehanizmlarini huquqiy taraflama ko‘rib chiqqan. Yoshga doir pensiya olish huquqini beradigan eng kam mehnat staji chuqur tahlil qilinmagan, xorij tajribasi to‘liq o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Maqola mavzusi pensiya ta’minoti tizimida pensiya yoshining o‘rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, avvalo mavzu dolzarbligi asoslandi, ushbu soha bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Ilmiy tadqiqot davomida analitik tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Pensiya yoshi – pensiya ta’minoti tizimida yagona muhim omil emas. Pensiya oluvchilarning hayot sifati ko‘rsatkichi sifatida ularning olayotgan pensiya miqdorlari qiymati hisoblanadi. Bu borada Luksemburg yetakchi hisoblanib, u yerda o‘rtacha pensiya miqdori 3500 yevroni tashkil qiladi. Shuningdek Daniyada o‘rtacha pensiya miqdori – 2500 yevro, Norvegiyada – 1500-2000 yevro, Finlyandiyada – 1800 yevro.

Pensiya miqdorlari bo‘yicha MDH, Gruziya va Boltiqbo‘yi davlatlarini bu borada maqtab bo‘lmaydi. Albatta, har bir davlatdagi narx-navoni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

1-jadval: MDH, Gruziya va Boltiqbo'yi davlatlarida o'rtacha pensiya va ish haqi miqdorlari to'g'risida ma'lumot, 2022-yil (apsf.ru)

№	Mamlakatlar	Valyuta	Pensiya	Ish haqi
1	Rossiya	rubl	17 682,0	61 794,0
		AQSh dollari	286,9	1 002,7
2	Belorussiya	rel.rub	670,0	1 601,0
		AQSh dollari	270,5	646,5
3	Moldaviya	ley	3 146,7	10 376,2
		AQSh dollari	162,9	537,4
4	Ozarbayjon	manat	371,0	827,4
		AQSh dollari	218,2	486,7
5	Armaniston	dram	46 200,0	225 436,0
		AQSh dollari	116,8	570,1
6	Gruziya	lari	300,0	1 541,3
		AQSh dollari	108,09	555,3
7	Latviya	yevro	526,6	1 362,0
		AQSh dollari	531,1	1 373,8
8	Litva	yevro	483,8	1 805,9
		AQSh dollari	488,0	1 821,5
9	Estoniya	yevro	581,8	1 563,0
		AQSh dollari	586,8	1 576,5
10	Qozog'iston	tenge	108 993,0	311 994,0
		AQSh dollari	232,7	666,1
11	Qirg'iz Respublikasi	som	8 138,0	25 027,0
		AQSh dollari	97,4	299,7
12	Tojikiston	somoni	320,09	1 907,0
		AQSh dollari	31,3	186,6
13	O'zbekiston	so'm	1 070 493,0	3 721 800,0
		AQSh dollari	95,7	332,8

Jadval ma'lumotlariga ko'ra MDH mamlakatlari ichida eng yuqori o'rtacha pensiya va o'rtacha oylik ish haqi to'lovlari Rossiya davlatiga to'g'ri kelmoqda. Boltiqbo'yi davlatlarida ham o'rtacha oylik va pensiya miqdorilari yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'istonda o'rtacha pensiya va ish haqi miqdorlari mos ravishda 232,7 va 666,1 AQSh dollarini tashkil qilmoqda. O'zbekistonda ham 2022-yil yakuni bo'yicha o'rtacha pensiya miqdori 1 070,4 ming so'm yoki 95,7 AQSh dollarini tashkil qilgan.

Xalqaro tajribada ma'lum bir mamlakatda pensiya yoshi mamlakat iqtisodiyoti darajasi (moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, ahol jon boshiga YAIM hajmi), fuqarolarning turmush tarzi, mehnat stajlarini hisobga olish (mehnat jarayonlari), o'rtacha umr ko'rish davomiyligiga (demografik o'zgarishlar) qarab hisoblanadi.

"Bugungi kunda dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 65 yoshni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 57,5 yoshni (erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh) tashkil qiladi". (Tursunov, 2022)

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-jadval: Dunyo mamlakatlarida pensiya yoshi, 2022-yil

№	Mamlakatlar	Pensiya yoshi, 2022-yilda		Rejalashtirilayotgan pensiya islohotlari
		erkaklar	ayollar	
1	Avstriya	65	60	01.01.2024-yildan boshlab 2033-yilga qadar ayollarning pensiya yoshini 65 yoshga qadar oshiriladi
2	Ozarbayjon	65	63	2017-yilga qadar pensiya yoshi 63 va 60 yoshni tashkil qilgan. 65 yoshgacha har yilda 6 oyga oshirib borish belgilangan
3	Armaniston	63		-
4	Belorussiya	63	58	2017-yildan boshlab har yili 6 oydan pensiya yoshi oshirib borilgan
5	Belgiya	65		-
6	Bolgariya	63	60	-
7	Buyuk Britaniya	65	65	68 yoshgacha oshirish rejalashtirilgan
8	Vengriya	62		-
9	Germaniya	65,5		2012-yilgacha 65 yosh bo‘lgan. Fuqarolarning to‘g‘ilgan yiliga qarab har yilda 1-2 oyga, 67 yoshgacha oshirib borish belgilangan
10	Gruziya	65	60	-
11	Isroil	67	62	Ayollar uchun pensiya yoshini 64 yoshga yetkazish rejalashtirilgan
12	Islandiya	67		-
13	Ispaniya	65		-
14	Italiya	67		-
15	Kanada	65		-
16	Norvegiya	67		-
17	AQSh	67		-
18	Fransiya	62,5		2023-yildan boshlab pensiya yoshini 67 yoshgacha oshirish rejalashtirilgan
19	Shvetsariya	65	64	-
20	Yaponiya	65		-

Xorijiy davlatlarda pensiya yoshi 60 yoshdan yuqori hisoblanib, ba’zi bir davlatlarda (Avstriya 65/60 yosh; Isroil 67/62; Polsha 65/60 yosh) erkaklar 65-70 yoshda, ayollar esa 60-65 yoshda pensiyaga chiqishadi. Aksariyat davlatlarda (Fransiya 67 yosh, Norvegiya 67 yosh, Armaniston 63 yosh, Belgiya 65 yosh, Yaponiya 65 yosh) esa erkaklar va ayollar uchun pensiya yoshi bir xil etib belgilangan.

Pensiya yoshi bo‘yicha Yaponiya dunyoda eng yuqori o‘rinda turadi. Yaponiya qonunchiligiga ko‘ra pensiya yoshi 65 yosh belgilangan bo‘lsada, o‘rtacha umr ko‘rish yoshi 82 yoshni tashkil qilayotganligi hisobiga aholining aksariyat qismi 70 yoshgacha mehnat qilib, keyin pensiya olishni ma’qul ko‘rishadi. Bunga sabab esa pensiya miqdorining 42 foizgacha oshirilishidir. Mazkur holat kech pensiyaga chiqishni rag‘batlantirishning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Shuningdek, har bir davlatda muddatidan oldin pensiyaga chiqish imkoniyati mavjud bo‘lib, ma’lum bir shartlarni bajarish kerak bo‘ladi. Masalan, zararli ishlab chiqarishlarda mehnat qilgan, huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qilgan, bola parvarishi bilan mashg‘ul bo‘lgan va boshqa shu kabi mehnat faoliyatini amalga oshirgan shaxslar erta pensiya chiqish huquqidan foydalanishi mumkin.

Ayrim davlatlarda pensiya tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, buni yuqoridagi 2-jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rishimiz mumkin.

Dunyoda barqaror iqtisodiyotga ega bo‘lgan AQShda pensiyaning asosan ikki turi mavjud: davlat (barcha uchun) va kompaniyalar tomonidan ko‘p yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan xodimlar uchun beriladigan pensiya hisoblanadi. Pensiyani istalga vaqtda olishi mumkin. Pensiya olish huquqi 59 yosh 6 oyga yetganida paydo bo‘ladi, lekin to‘liq pensiya olish uchun 67 yoshga yetishi talab etiladi.

“Xitoy davlatining pensiya tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu davlatda o‘zoq vaqt faqat shahar aholisiga pensiya to‘langan. Qishloq aholisi esa pensiya berilmagan, qonunga ko‘ra ular keksayganda farzandlari tomonidan ta’minlanishi kerakligi belgilab quyilgan. Xitoyda 2025-yilga qadar pensiya yoshini oshirish borasida dastur ishlab chiqilgan. Shu kunga qadar mamlakatda 1978-yilda qabul qilingan qonunga ko‘ra erkaklar – 60 yosh, ayollar uchun esa – 55 yosh pensiya yoshi etib belgilangan. Bosqichma-bosqich joriy etiladigan pensiya sug‘urtasi aholining 95 foizini qamrab olishi rejalashtirilmoqda.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniyada pensiya yoshi fuqarolarning tug‘ilgan yiliga qarab o‘zgaradi. Masalan, 1964 yilgacha tug‘ilganlar uchun 65 yosh bo‘lsa, qolganlar uchun 67 yosh etib belgilangan.

Fransiya fuqarolari uchun pensiya yoshi 62,5 yoshni tashkil qiladi. Fransiya Prezidenti tomonidan pensiya yoshini bosqichma-bosqich 67 yoshgacha oshirish borasida qaror qabul qilgan. Pensiya miqdori to‘liq bo‘lishi mehnat stajiga bog‘liq bo‘lib, pensiya yoshiga yetgunga qadar 42 yillik staj talab etiladi. Agar staj to‘liq bo‘lmasa yetmagan har bir yil uchun pensiya miqdori kamaytirilishiga sabab bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada ham pensiya tizimi mukammal shakllangan. Pensiya yoshi 65 yoshni tashkil etsada, bu yoshni oshirish rejalashtirilgan. Birlashgan qirollikda pensiyaning uch turi: davlat, mehnat va xususiy turlari mavjud. Mamlakatda 2016-yil 6-apreldan keyin pensiya yoshiga yetgan fuqarolar davlat pensiyasini olishi uchun kamida 35 yillik mehnat stajiga ega bo‘lishi kerak. Agarda fuqarolar 2016-yil 6-aprelga qadar pensiya yoshiga yetgan bo‘lsa, u holda ular uchun bazaviy (pensiya) to‘lov haftasiga 137,6 funtni tashkil qiladi.

Daniya va Norvegiyada pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun bir xil – 67 yosh, Shvetsiya, Ispaniya va Belgiyada – 65 yoshni tashkil qiladi”. (Vestnik, 2022)

“Pensiyalarning miqdorlarini oshirish pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning bir omili bo‘lib, mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirishga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. YUNISEF hisobotida O‘zbekistondagi kam ta’minlangan oilalarning yarmidan ko‘pi (52%) milliy ijtimoiy himoya tizimi tomonidan hech qanday ko‘mak bilan qamrab olinmagan va vaqt o‘tishi bilan turli nafaqalarning qamrovi qisqargani qayd etilgan bo‘lib, bolali oilalar ham bugungi kunda aholining eng kambag‘al qatlamlariga mansub bo‘lib qolgan.” (Davronov, 2022).

XULOSA VA TAKLIFLAR


Pensiya ta’minoti tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida eng avvalo fuqarolarni kambag‘allikdan himoya qilish, keksalikda, pensiya yoshiga yetganda munosib turmush faoliyatini ta’minlash uchun kamida avvalgi olgan ish haqining 40 foizidan kam bo‘lmagan (hozirgi kunda qoplash koeffitsiyenti 28-30 foizni tashkil qilmoqda) miqdorda pensiya tayinlash va to‘lash, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining oshishini hisobga olib pensiya yoshini oshirish va boshqa masalalar yotadi.

Kelajakda yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat (sug‘urta) staji, pensiya yoshini oshirish va pensiya tizimini takomillashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- pensiya tayinlab murojaat etuvchilar sonining ko‘pligi, shuningdek ularning tarkibida to‘liqsiz ya’ni yetarli bo‘lmagan mehnat (sug‘urta) staji bilan pensiyaga chiquvchilarning ulushi yuqori ekanligi, MDH, Gruziya va Boltiqbo‘yi mamlakatlari tajribalaridan kelib chiqib, HMTning tavsiyasiga ko‘ra yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat (sug‘urta) staji 15 yil etib belgilanganligini hisobga olib O‘zbekistonda mazkur stajni 10 yilga oshirish va kelajakda 15 yilga yetkazish maqsadga muvofiq;
- doimiy aholi sonining 2021-yilda 1992-yilga nisbatan 63,2 foizga o‘sganligi, pensiya yoshining 1956-yildan beri o‘zgarishsiz kelayotganligi, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining oshishi, MDH, Gruziya va Boltiqbo‘yi mamlakatlarida pensiya yoshini oshirish bo‘yicha islohotlarining natijalarini qo‘llagan holda O‘zbekistonda ham pensiya yoshini erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun 58 yoshga har yili 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish kerak;
- xalqaro tajribada pensiya mablag‘lari ma’lum bir badallar hisobiga shakllanadi. O‘zbekistonda ham 2018-yilda bekor qilingan ishlovchilar tomonidan pensiya uchun to‘langan sug‘urta badallarini yana kam foizlar (2-3 foiz) hisobiga to‘lash mexanizmini qayta joriy etish maqsadga muvofiq. Bu esa kelajakda Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining taqchilligi bilan bog‘liq muammolarni hal etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
2. Роик В.Д. Пенсионное страхование и обеспечение: учебное пособие для вузов / 3-е изд., испр. и доп. – Москва : Издателство Юрайт, 2020. – 478 с.
3. Tetlow G. Essays on the economics of retirement and pensions. A dissertation submitted in partial fulfilment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy of University College London. – England: Department of Economics University College London. 2015. – 224 p.
4. Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации. Монография. – Курган: "Изд-во Курганского гос. ун-та", 2013. – 106 с.
5. Rajabov Sh.U. "Pensiya tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari" mavzusida Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021-yil. 71 bet.
6. Ziyadullayev M.D. "O'zbekistonda yoshga doir pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish" mavzusida yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2019-yil. 32 bet.
7. www.apsf.ru – Xalqaro pensiya va ijtimoiy jamg'armalar assotsiatsiyasi (Mejdunarodnaya assotsiatsiya Pensionnix i sotsialnix fondov) ma'lumotlari.
8. Tursunov J. Pensiya hisoblashda mehnat stajining ta'siri va pensiya yoshini belgilashda xorij tajribasi //Ekonomika i obrazovaniye. – 2022. – T. 23. – №. 6. – S. 247-253.
9. pensiya.molodaja-semja.ru/faqs/pensionnyj-vozrast-v-stranah-mira/?ysclid=ld32tk37sw889267870 Пенсионный возраст в разных странах мира (таблица) (molodaja-semja.ru)
10. Международная ассоциация Пенсионных и социальных фондов 30 лет. Вестник № 40(41) 2022
11. Davronov Sh.Z. "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urta tizimini tashkil etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusida Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2022 yil. 72 bet.



TIBBIY SUG‘URTADA INNOVATSIYALAR VA IT-TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI

Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna
PhD, Toshkent moliya instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada tibbiy sug‘urtaning ahamiyati, uning afzalliklari, rivojlanish tendensiyalari yoritilgan, tibbiy sug‘urtada innnovatsiyalarning joriy etilishining xorij tajribasi tahlil qilingan hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, tibbiy sug‘urti, innovatsiya, texnologiya, raqamlashtirish, aqlli sug‘urta.

Abstract: The article highlights the importance of health insurance, its advantages, development trends, analyzes foreign experience in introducing innovations in health insurance, and also highlights the possibilities of applying the experience of developed countries in Uzbekistan.

Key words: insurance, health insurance, innovation, technology, digitalization, smart insurance.

Аннотация: В статье освещается значение медицинского страхования, его преимущества, тенденции развития, анализируется зарубежный опыт внедрения инноваций в медицинском страховании, а также освещаются возможности применения опыта развитых стран в Узбекистане.

Ключевые слова: страхование, медицинское страхование, инновации, технологии, цифровизация, умное страхование.

KIRISH

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-iqlim va texnogen xavf-xatarlarning kuchayishi sharoitida jahon miqyosida sug‘urta himoyasini ta’minlash va sug‘urta xizmatlari ko‘lamini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “2022-yilda global sug‘urta mukofotlari 5,6 trillion yevro ni tashkil etdi[1]. Jahon sug‘urta bozorida kuzatilayotgan umumiy ijobiy dinamikaga qaramasdan, yuzaga kelayotgan tahdidlar sohaga innovatsion sug‘urta texnologiyalarini joriy etish hamda sug‘urta bozorining muhim segmenti bo‘lgan tibbiy sug‘urta tarmog‘ini samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta faoliyatini tartibga solish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, tibbiy sug‘urta subyektlari faoliyatini faollashtirish, tibbiy sug‘urtada ish tizimini takomillashtirish, innovatsion sug‘urta mexanizmlarini joriy etish, sug‘urta xizmatlari iste’molchilari manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, sug‘urta tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, aholini sug‘urta xizmatlaridan foydalanishni ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda. Aholining sug‘urta savodxonligi va sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshirish, yangi innovatsion sug‘urta mahsulotlarini joriy etish hisobiga sug‘urta xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish masalalari bugungi kunda o‘ta dolzarbdir.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanishi global tendensiyalarga mos ravishda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvarda tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmonida Yangi O‘zbekistonni rivojlanishida sug‘urta tizimi alohida o‘rni borligiga ahamiyat berilgan: “Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish” 56-maqsad sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki aholini ijtimoiy himoya qilishda yangi sug‘urta turlarini kiritish maqsadga muvofiq va bu 2023-yil mamlakatimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” dasturiga ham mos kelishi muqarrar[2]. O‘zbekis-

1 Allianz Global Insurance Report 2023: Anchor in turbulent times, https://www.allianz.com/en/economic_research/publications/specials_fmo/global-insurance-report.html.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvarda tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni

tonda majburiy tibbiy sug‘urtani 2026-yil oxirigacha to‘liq joriy etish rejalashtirilmoqda. 2024-yildan Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimiga o‘tkaziladi, 2027-yildan esa mustaqil jamg‘armaga aylanadi. 2026-yilning yakuniga qadar respublika bo‘ylab tibbiy sug‘urta to‘liq joriy etilishi rejalashtirilmoqda. Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 6-sentyabrdagi Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorida belgilandi[3].

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotda ko‘plab tadqiqotlar tibbiy sug‘urta bozori rivojlanishining miqdoriy ko‘rsatkichlari va tibbiy sug‘urta munosabatlarini tartibga solish usullarini tahlil qilish bilan bog‘liq. Tibbiy sug‘urta tizimini tadqiq qilish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ichida quyidagi xorijiy mualliflarning “tibbiy sug‘urta” atamasining talqinlariga alohida e’tibor berish zarur, deb hisoblaymiz.

Hozirgi kunga kelib “ixtiyoriy tibbiy sug‘urta” va “majburiy tibbiy sug‘urta” atamalari tobora ko‘p adabiyotlarda uchramoqda. Olib borilgan tahlillar natijasi “tibbiy sug‘urta”ning iqtisodiy mohiyatini o‘rganishning uchta asosiy yo‘nalishini aniqlash imkonini berdi.

Birinchi yo‘nalishda tibbiy sug‘urta (T. A. Fedorova, Y. B. Maxtina, O. I. Rusakova, S. V. Shoyko, N. N. Abashin, M. N. Yevsevleyeva, N. A. Lupey, S.V. Stepanova)larning xulosasiga ko‘ra tibbiy sug‘urta tizimi ikki tomonlama qaraladigan yondashuv ko‘p tarqalgan: bir tomondan, aholini ijtimoiy himoyalash davlat tizimining elementi sifatida, boshqa tomondan – ushbu maqsadlar uchun budjetdan tashqari mablag‘lar ajratilishiga qo‘shimcha tarzda, sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish va tibbiy xizmatlarni to‘lash uchun pul mablag‘larini ta’minlashning moliyaviy mexanizmi sifatida shakllantirish.

Fikrimizcha, yuqoridagi xulosa ko‘ra, tibbiy sug‘urtaning ham, umuman sug‘urtaning ham mohiyatini ochib berishga yondashuvlardan birini yaqqol aks ettiradi: u sug‘urta faoliyatini sug‘urtalangan shaxslarning (aholining) manfaatlarini himoya qilish usuli (shakli) sifatida ko‘rib chiqadi.

Ikkinchi yo‘nalish tibbiy sug‘urta tizimini sug‘urta munosabatlarini tashkil etishning normativ-huquqiy shakli sifatida ko‘rib chiqadi, bu qonunchilik bazasini shakllantirish, sug‘urta faoliyati ustidan davlat nazoratini tashkil etishni, o‘zini-o‘zi boshqarish jarayonlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. (S. V. Ermasov va N. B. Ermasova). tibbiy sug‘urtani korxonalar, mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolarning badallari hisobiga maqsadli jamg‘armalarni shakllantirishni va ulardan aholiga tibbiy ko‘rsatishni moliyalashtirish uchun foydalanishni ta’minlaydigan shaxsiy sug‘urtaning tarmog‘i, kabi ta’riflaydi.

Uchinchi yo‘nalish tibbiy sug‘urtani sog‘liqni saqlash sohasida aholini ijtimoiy himoyalash shakli sifatida ko‘rib chiqadi (N. P. Saxirova, A. A. Gvozdenko). Ushbu tavsif sug‘urta tizimining xususiyatlarini mulkiy va javobgarlik sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta tashkiloti tomonidan olingan majburiyat va riskni taqsimlashni aks ettiradi.

Shunday qilib, tibbiy sug‘urta tizimini tatqiq etishda yuqorida keltirilgan uchta yo‘nalish ham tibbiy sug‘urta tizimini nazariy jihatdan qisman aks ettiradi.

ASOSIY QISM

Sug‘urta kompaniyalari, bozor iqtisodiyotining har bir tarmog‘idagi barcha boshqa korxonalar singari, o‘z xarajatlarini kamaytirishga intiladi. Bunday maqsadga erishishning eng samarali usullaridan biri innovatsiyalarni joriy etish bo‘lib, ularning asosiy ulushi IT sohasi ishlanmalari hisobiga to‘g‘ri keladi. Agar tibbiy sug‘urta sohasidagi innovatsion faoliyat haqida fikr bildirilsa, ular butun tibbiyot sohasiga bevosita ta’sir etish orqali amalga oshiriladi – sug‘urta sohasi ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini qo‘shimcha nazorat qilishni ta’minlaydi, ularni ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va bozorni monopoliyadan chiqarish vazifasini bajaradi. To‘lovlar miqdorini kamaytirish, ya’ni sug‘urta sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri foyda chegirmalar va franshizalar tufayli kelib chiqishi mumkin, bu esa mijozlarni davolanishdan ko‘ra arzonroq bo‘lgan kasallikning oldini olishga undaydi. Shu bois sug‘urtalovchilar tibbiy xizmatlar ko‘lamini yaxshilashdan manfaatdor va ularning innovatsion rivojlanishiga katta mablag‘ sarflashga tayyordir.

Bundan tashqari, hech kimga sir emaski, o‘z tuzilmasi va tabiati nuqtai nazaridan sug‘urta kompaniyalari buning uchun juda mos – ular investitsiya fondlari singari ko‘plab mijozlarning kapitaliga ega va ular aksariyat xollarda uzoq vaqt davomida investitsiya qilinadi. Foyda ko‘rinishidagi operatsion daromad bilan birga sug‘urta sektori sug‘urta mahsulotlarida qo‘llaniluvchi texnologiyalarga nisbatan tibbiyotda innovatsiyalarda kvant sakrashini ta’minlay oladi.

Sug‘urtalovchilarning jahon hamjamiyati InsurTechga investitsiya kiritish orqali biznesning samaradorligi va rentabelligini oshirish uchun “raqamlashtirish”ga intilmoqda – bu esa sug‘urta bozorida yangi texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlarni amalga oshirishdir.

3 https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/07/medical-insurance/

Bunday innovatsion texnologiyalar nafaqat sug‘urta kompaniyalari tomonidan ko‘zda tutilgan tijorat maqsadlarini, balki umuman sug‘urta bozorini o‘zgartirishni ham nazarda tutadi: bozorda eng yangi IT-texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan yangi mahsulotlar qanchalik ko‘p paydo bo‘lsa, iste’molchining xatti-harakati va talabi shunchalik tez o‘zgaradi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni hisobga olgan holda, quyidagi texnologiyalar tibbiy sug‘urtani rivojlantirish uchun eng istiqbolli deb hisoblanadi:

Genetik hususiyatlar. Genetik ketma-ketlikdagi yutuqlar xavf guruhlarini aniqlay oluvchi diagnostik testlarni ishlab chiqishga olib keldi, bu yerda erta aralashuvlar sug‘urta kompaniyalari o‘z mijozlarini kuzatish va oldini olish xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Bunday testlar, shuningdek, davolash markazi xodimlariga bemorlar uchun maxsus dori-darmonlarni tezroq buyurishga yordam beradi, sug‘urta biznesining narxiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi samarasiz davolash usullaridan foydalanishni kamaytiradi yoki bekor qiladi. Genetik testlardagi tezkor yutuqlar olimlar va klinitsistlarning turli kasalliklarga moyillik genetik belgilarini tushunishlarini tezlashtirishga yordam berishi kutilmoqda.

Genetik test aholi salomatligini tekshirish va xavflarni aniqlashda keng qo‘llanilishi mumkin, bu yerda erta aralashuv juda foydali bo‘ladi. Davolashga ko‘proq javob berishi mumkin bo‘lgan subpopulyatsiyalarni aniqlash bemorga zarur vaqtda kerakli dorini olishga yordam beradi.

Biroq, bunday texnologiyani ishlab chiquvchilar quyidagi muammolarga duch kelishlari mumkin:

- diagnostika vositalarining aniqligi, ishonchliligi va klinik asosliligi (testning kasallik holati yoki xavfini aniq prognozlash qobiliyati);
- amaldagi parvarishlash standarti bilan qiyoslaganda yaxshilangan dinamika va zararni qoplashning iqtisodiy samaradorligi;
- tabiatiga ko‘ra aniqlash mumkin bo‘lmagan bemorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni himoya qilish talablariga rioya qilish.

Kompyuter texnologiyalari bilan ishlashni o‘rganish. Taxminlarga ko‘ra, bunday texnologiya tibbiy xizmatlar bozorini o‘zgartirishi, vazifalarni tezroq va aniqlik bilan bajarishi va kamroq resurslardan foydalanishga yordam berishi mumkin.

Sog‘liqni saqlash sohasida kompyuterda ishlashni o‘rganish quyidagi klinik muammolarni hal etishga yordam beradi:

- bemorlarga tashxis qo‘yish va kasallik o‘choqlarini erta aniqlash;
- yangi preparat va qurilmalarni ishlab chiqishni tezlashtirish;
- ma’muriy funksiyalarni soddalashtirish.

Kompyuter texnologiyalarini o‘rganish bemorlarga tashxis qo‘yishning aniqligi va o‘z vaqtida bajarilishini yaxshilash, sug‘urta kompaniyalari uchun keraksiz tibbiy aralashuvlar xarajatlarini kamaytirish imkoniyatiga ega.

Jahon amaliyoti ko‘rsatadiki, aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish yaxshilanmoqda, chunki kompyuter texnologiyalarini o‘rganish orqali kasallik rivojlanishining keyingi ssenariylarini ishlab chiqilmoqda. Masalan, IBM va Memorial Sloun-Kettering saraton markazi WatsonOncology dasturini ishlab chiqishda hamkorlik qildi, bu dastur onkologlarga mavjud klinik ma’lumotlar va ularning individual xususiyatlariga asoslangan bemorlar uchun moslashtirilgan davolash rejasini tezda taqdim etishga yordam beradi.

Point-of-care (POC) texnologiyasidan foydalangan holda diagnostika. POC yordamida diagnostika bemorning umumiy holatini qulay va o‘z vaqtida tahlil qilish imkonini beradi, bu esa unga tezroq va arzonroq yordam ko‘rsatishga olib keladi. Qondan glyukoza, homiladorlik va OIV uchun testlarni o‘tkazuvchi gadjetlar keng tarqalgan, ROS qurilmalaridan hatto saraton, sil va insult kasalliklarini aniqlash uchun foydalaniladi.

Bunday diagnostikaning afzalliklari quyidagilardan iborat: ROS qurilmalaridan har bir joyda va qulay vaqtda foydalanish qulayligi: shifokor xonasida, tez yordam xonasida, uyda yoki shifoxonada; surunkali kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va davolash bosqichlarida tibbiy xodimlarga axborot yordami.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biroq sug‘urta sohasida yangi texnologiyalarning tarqalishi va qo‘llanilishi hamda O‘zbekistonda InsurTechni joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi ayrim to‘siqlar mavjud.

Innovatsiyalar kiritish uchun bu muammolarni hal etish kerak, bu esa InsurTecni joriy etish yo‘lidagi navbatdagi qadam sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, InsurTec sohasida ishlash uchun zarur bilimga ega kadrlar yetishmasligi muammosini hal etish zarur. Raqamli texnologiyalar asrida bulutli va boshqa raqamli yechimlarning ko‘plab provayderlari turli sohalarda, jumladan sug‘urta va InsurTec sohalarida muhandislar va ishlab chiquvchilarni tayyorlash uchun akademiya va universitetlarni tashkil etishga majbur bo‘ladi.

O‘zbekiston OTMlarida ham u yo‘nalishda ta’lim yo‘nalishlarini tashkil qilish uchun mazkur tendensiyaga rioya etilishi kerak. InsurTec texnologiyalari bo‘yicha kadrlar tayyorlashni rivojlantirish zarur, chunki tez orada bozorda bunday mutaxassislarga talab ortib boradi.

1. Bank xizmatlarini tashkil etishda yangi informatsion texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi bank xizmatlari ichida mijozga telefon, modem va kompyuter yordamida bank operatsiyalarini o‘tkazishga imkon beradi va bank xizmatlari tannarxini pasaytiradi, operatsiyalar tezligini oshiradi.

   Bu zamonaviy xizmat turlari jahonning istalgan joyida bank hisob-kitoblarini o‘tkazishga imkon beradi, mutaxassislar fikriga ko‘ra, bugungi kunda Yevropa mamlakatlaridagi jami bank xizmatlarining 25 foizi internet orqali amalga oshirilmoqda.

2. Respublikamiz bank amaliyotiga xorijiy banklarda keng tarqalgan yangi xizmat turlarini joriy qilish va ular hajmini oshrish maqsadga muvofiqdir.

3. Tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini ko‘rsatishda qo‘llaniladigan dastur va bank texnologiyalarining internetning turli ta’sir darajasi, ruxsatsiz kirish, xakerlik harakatlari kabilardan kuchli himoyalanmaganligi ham alohida muammo hicoblanadi. Bunday muammolar yuzaga kelishi bank operatsion tizimi favoliyatining to‘g‘ri va samarali yo‘lga qo‘yilmagani, brauzerlar, kommunikatsiya dasturlarining mukammal emasligi va albatta, inson omili ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolarning bo‘lishi ikkinchi tomondan bankning bu sohada himoyani ta’minlashda moddiy reserslari va pul mablag‘larini iqtisod qilishi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ammo, bank tomonidan himoya va xavfsizlik tizimiga pulni iqtisod qilishi banklar katta yo‘qotishlar bo‘lishiga, binobarin bank mijozi ham katta mablag‘larini yo‘qotib qo‘yishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4811025-internet sayti ma’lumotlari.
2. https://uza.uz/oz/politics/ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-25-01-2020.
3. 373-сон 15.06.2021. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (lex.uz) https://lex.uz/docs/-5458249
4. Иванов М. А., Гужина Г. Н. Особенности управления рисками в рыночных условиях//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 7 (12). С. 198.
5. Петрухина Е. В., Гужин А. А., Величко Н. Ю., Нижарадзе Л. Д., Волкова А. В., Овешникова Л. В. Современные теории менеджмента, Орёл, 2014. – 110 с.
6. Тавасиев А. М. “Дополнительные операции для клиентов” Москва “Ф и С” 2005г 13 с
7. Иванов А. Н. “Банковские услуги: зарубежный и российский опыт” Москва “Ф и С”2002г 176 с
8. Жуков Е. Ф. “Банковское дело”. – М.: ЮНИТА-ДАНА 2007г 250 с
9. Галицкая С. В. “Деньги, кредит, банки”. Полный курс. Москва изд. “Эксмо” 2008 г 253 с
10. http//www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari.
11. http//www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

TURISTIK RESURSLARNING SALOHIYATDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI



Alimardonova Zebuniso Mamarajabovna
“Ipak yo‘li” xalqaro turizm va madaniy meros universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada “turist”, “hudud” va “turizm resurslari” kategoriyasiga berilgan ta’rif asosida, bu ta’riflarni ochib berishda ikki yoqlama yondashuv mavjudligi: birinchidan, ushbu tushunchani talqin etish konsepsiyasiga “talab” nuqtayi nazaridan va ikkinchidan, “taklif” nuqtayi nazaridan yondashuv talqini keltirilgan. Ushbu maqola o‘zbek, rus va chet el olimlarining “turist”, “hudud” va “turizm resurslari” tushunchalariga ilmiy va nazariy jihatdan bergan ta’riflarini o‘rganishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: UNWTO, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!”, “Manguberdi yurtiga sayohat!”, “Termiziylar yurtiga sayohat!”, “Yoshlar turizm haftaligi”, “Keksalar turizm oyligi”, turist”, “hudud” va “turizm resurslari” tushunchalari.

THEORETICAL BASIS OF EFFECTIVE USE OF TOURIST RESOURCES

Alimardonova Zebuniso Mamarajabovna

Abstract: Based on the definition of the category “tourist”, “territory” and “tourism resources” in this article, there are two approaches in revealing these definitions: firstly, from the point of view of “demand” for the concept of interpretation of this concept, and secondly, “ the interpretation of the approach from the point of view of “proposition” is given. This article helps to study the scientific and theoretical definitions of the concepts of “tourist”, “territory” and “tourism resources” by Uzbek, Russian and foreign scientists.

Key words: UNWTO, “Travel around Uzbekistan!”, “Travel to the land of Manguberdi!”, “Travel to the land of Termiziya!”, “Youth tourism week”, “Senior tourism month”, tourist”, “region ” and “tourism resources” concepts.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ

Alimardonova Zebuniso Mamarajabovna

Аннотация: На основе определения категорий “турист”, “территория” и “туристские ресурсы” в данной статье можно выделить два подхода в раскрытии этих определений: во-первых, с точки зрения “спроса” на понятие трактовка этого понятия, а во-вторых, дается трактовка подхода с точки зрения “предложения”. Данная статья помогает изучить научно-теоретические определения понятий “турист”, “территория” и “туристские ресурсы” узбекскими, российскими и зарубежными учеными.

Ключевые слова: ЮНВТО, “Путешествие по Узбекистану!”, “Путешествие в землю Мангуберди!”, “Путешествие в землю Термизия!”, “Неделя молодежного туризма”, “Месяц старшего туризма”, турист”, “регион”. и концепции “туристических ресурсов”.

KIRISH

So‘nggi yillarda turizm sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida O‘zbekiston jahon turizm bozorida o‘z o‘rni va imidjini mustahkamlashga erishdi. Bu esa nafaqat Ko‘hna shaharlarimizda, balki mamlakatimizning barcha hududlarida turizmni rivojlantirish uchun teng imkoniyat yaratdi. Bu o‘z navbatida har bir hududning turistik resurslari, imkoniyatlari va salohiyatini o‘rganishga hamda undan samarali foydalanishga xizmat qildi.

2019-yil 18-iyulda “O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risida”gi[1] Qonunining qabul qilinishi turizm sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarning manfaatlarini qonun bilan himoya qilinishini kafolatladi. Natijada, tadbirkorlarga turizm biznesi bilan shug‘ullanishga katta ishonch tug‘ildi va ularga keng yo‘l ochib berildi.

2021-yil 9-fevralda “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli Farmoni[2] va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi “Ichki va ziyorat

1 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iuyldagi O‘RQ-549-son “Turizm to‘g‘risidagi Qonuni” // https://lex.uz/ru/
2 lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4555-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6165-sonli Farmoni.

turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 100-sonli[3] qarorining qabul qilinishi, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!”, “Manguberdi yurtiga sayohat!”, “Termiziylar yurtiga sayohat!”, “Yoshlar turizm haftaligi”, har yilning noyabr oyida “Keksalar turizm oyligi” kabi dasturlar doirasida respublikamiz bo‘ylab tashkil etilgan sayohatlar 7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan katta auditoriyani qamrab oldi. Bu jarayonda ko‘proq ochiq havoda, tabiat qo‘ynida sayohatlar tashkil etishga alohida urg‘u berildi. Inson salomatligini tiklashga qaratilgan rekriatsion turizm va ekoturizm obyektlari bo‘ylab turmarshrutlar ishlab chiqildi. Tog‘ qo‘ynida va suv havzalarida dam olish zonalari tashkil etildi.

Bunda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-sentyabrda qabul qilingan “Tog‘li hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori tog‘li hududlarning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish va chekka hududlarda qo‘shimcha ish o‘rinlari, zamonaviy xalqaro umumavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va boshqa turistik ahamiyatli obyektlar barpo etish, mamlakatning tog‘li hududlaridagi zamonaviy muhandislik infratuzilmasini qurish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish[4]ga huquqiy asos bo‘ldi.

2022-yilda 27-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi ПҚ-104-sonli qarori[5] hamda 2022-yil 30-apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli qarori[6]. Prezident qarorlarining qabul qilinishi joylarda yangi-yangi turizm obyektlarining barpo etilishi, turizm infratuzilmasini yaxshilanishi, xizmatlar sohasining rivojlanishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qildi.

Oxirgi 5 yilda aynan Surxondaryo viloyatida turizmni kompleks rivojlantirishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2 ta qaror qabul qilinishi, poytaxtdan salkam 800 km uzoqlikda joylashgan viloyatning turizm salohiyatini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. 2018-yilda “Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[7] va 2020-yilda “Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[8]gi qarorlar shular jumlasidandir.

Ushbu huquqiy-me’yoriy hujjatlarga tayanib, mamlakatda ilmiy turizmni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, maqolada “turist”, “hudud” va “turizm resurslari” tushunchalariga olimlar tomonidan keltirilgan izohlarga to‘xtalamiz.

1905-yilda nemis olimi E. Freyler turizmni dunyoning zamonaviy ma’nosida “Tiklanish va o‘zgarishlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga asoslangan zamonaviy davr hodisalari, havo, go‘zallikni uyg‘onishi va rivojlanishini qadrlash, undan zavqlanish va tabiatdan zavqlanish va ayniqsa, ortib borayotgan aralashish natijasida yuzaga kelgan rivojlanish, insoniyat jamiyatining turli xalqlari va sinflari o‘rtasida savdo, sanoat va savdo, transport vositalarining mukammalligi” deya ta’rif bergan.

Shveysariyalik Bern universiteti professorlari Volter Hunziker va Kurt Krapflar 1942-yilda birinchi bo‘lib turizm haqida umumiy qabul qilingan ta’rifni ishlab chiqishadi va “turizm bu - rezident bo‘lmagan shaxslarning sayohati va bo‘lishidan kelib chiqadigan, doimiy yashashga olib kelmaydigan va har qanday daromad faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan hodisalar va munosabatlarning yig‘indisidir” degan standart ta’rifni fanga kiritadi[9].

1967-yilda va ushbu oxirgi ta’rifni o‘rganish natijasida Birlashgan Milliy Statistik Komissiya ushbu ikki turdagi sayohatchilarni farqlashni taklif qildi. 1968-yilda Xalqaro rasmiy sayohat tashkilotlari ittifoqi tomonidan (hozirgi UNWTO) asos solingan turistning ta’rifi: “Yashash joyidan tashqari, har qanday sababga ko‘ra haq to‘lanadigan ishdan boshqa mamlakatga tashrif buyurishiga ziyoratchi sayohat qiluvchi shaxs sifatida ta’riflanadi”[10].

Ko‘pgina tadqiqotchilar turist atamasiga bir ovozdan ta’rif berishning iloji yo‘q, deb hisoblashadi. Ta’rifning asosiy tarkibiy qismlari subyektivdir, shuning uchun turistning ta’rifi bitta bo‘lishga imkon bermaydi[11]. Turistning turli jihatlari bitta ta’rif yoki bir nechta ta’rifni o‘z ichiga olmaydi. Ta’riflarning qo‘llanilishini farqlash tadqiqot maqsadiga qarab muhim ahamiyatga ega.

“Hudud” atamasi zamonaviy nazariyada mazmun mohiyati turlicha talqin etiladi. Ushbu atamaga nisbatan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Hudud” tushunchasi noaniqlik xususiyatiga ega, uning mazmuni hayotning o‘ziga xos tomonini aks ettirishiga bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya, hududiy iqtisodiyot, davlat boshqaruvi nazariyasi va siyosatshunoslikda u turli tushunchalarni nazarda tutadi. Katta ensiklopedik lug‘atda hududning quyidagi ta’riflari beriladi:

1) tuman bilan bir xil (har qanday o‘zaro bog‘liq belgilar yoki hodisalarning umumiyligiga ko‘ra ajratilgan hudud);

3 lex.uz. Vazirlar Mahkamasining 100-sonli, 433-sonli qarorlari.
4 Lex.uz. Vazirlar Mahkamasining 559-sonli qarori.
5 Lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son qarori.
6 Lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son qarori.
7 Lex.uz 2018-yil 03-may Vazirlar Mahkamasining 324-son.
8 Lex.uz 2020-yil 27-may Vazirlar Mahkamasining 332-son.
9 https://wiki5.ru/wiki/Walter_Hunziker
10 Candela & Figini, 2012, p. 25
11 Briones-Xuarez va boshq., 2009; Candela & Figini, 2012; Lickorish & Jenkins, 1999; Vang, 2000.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2) har qanday hududiy bo‘linish tizimida taksonomik birlik bo‘lishi shart emas, ko‘pincha hajmi jihatidan juda muhim bo‘lgan hudud;
3) tabiiy mintaqa-ba’zi bir umumiy tabiiy sharoitlarga ega bo‘lgan hududning kattaligi[12].

S. I. Ojyogov rus tilining izohli lug‘atida hududni katta maydon, qo‘shni mamlakatlar yoki hududlar guruhi, ba’zi umumiy xususiyatlar bilan birlashtirilgan tumanlar sifatida belgilaydi[13].

Yevropa maktabi doirasida hudud L. Ramxeldning so‘zlariga ko‘ra, unga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarga ega bo‘lgan “super atama”: umumiy (belgilangan joy; ma’lum bir aholi; tabiiy sharoitlarning umumiy tarixi va hal qilingan muammolar sifatida talqin etiladi[14].

Ba’zi tadqiqotchilar hududni mamlakat joylashuvining ijtimoiy (hududiy) mehnat taqsimoti jarayonida paydo bo‘lgan qismi sifatida belgilaydilar, bu ma’lum tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslanishi bilan tavsiflanadi; boshqa hududlarga nisbatan demografik va boshqa xil iqtisodiy ko‘payish jarayonining umumiyligi va o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra; murakkablik va iqtisodiyotning yaxlitligi; boshqaruv organlari vazifalarining yechimini ta’minlanishiga ko‘ra belgilanadi[15].

I. V. Zorin, V. S. Kvartalnov, L. G. Lukyanova va N. A. Kamenskixlar o‘z tadqiqotlarida innovatsion salohiyat atamasini o‘rganganlar. Ushbu olimlar turistlarning ehtiyojini qondirish maqsadida tabiiy, antropogen va mintaqa resurslaridan hududiy turistik resurslarning innovatsion faoliyatida foydalanish mumkinligini izohlab berishgan[16].

Iqtisodchi olim M. T. Alimova o‘zining “Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari” nomli doktorlik dissertatsiyasida turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, marketing konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterni shakllantirish bo‘yicha ilmiy mulohazalarni keltiradi[17].

Shuningdek, I. S. Tuxliev, R. Hayitboev, B. Sh. Safarov, G. R. Tursunovalarning tadqiqotlarida mamlakatimizda turizm sohasini va industriyasini rivojlantirish, turistik-rekratsion xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, unda turizmda rekratsion xizmatlarning shakllanishi masalalariga atroflicha e’tibor qaratilgan18. Bunda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va uning infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga atroflicha e’tibor qaratilmagan. V. I. Novichkov, M. Yu. Polozkovlar o‘zlarining “Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах” nomli maqolasida rivojlangan mamlakatlarda turizmni davlat tomonidan tartibga solish tajribalari tahliliga e’tibor qaratgan bo‘lib, unda sohada tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator takliflarni ishlab chiqqanlar[19].

Yuqorida “turist”, “hudud” va “turizm resurslari” kategoriyasiga berilgan ta’rif asosida shunday xulosa qiishimiz mumkinki, bu ta’riflarni ochib berishda ikki yoqlama yondashuv mavjud: birinchidan, ushbu tushunchani talqin etish konsepsiyasiga “talab” nuqtayi nazaridan va ikkinchidan, “taklif” nuqtayi nazaridan yondashuvni talqin qilish mumkin.

Demak, yuqoridagi xususiyatlarni va tadqiqotimizda qo‘yilgan maqsadni inobatga olgan holda hududning turistik resurslariga quyidagicha mualliflik ta’rifi berilishi lozim deb topdik. “Hududning turistik resurslari” deb - tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy hamda ko‘rgazma obyektlari orqali turistlarning ma’naviy va ma’rifiy ehtiyojlarini qondira oladigan, ularning sayyohlik maqsadlarini amalga oshirish, jismoniy kuchlarini tiklash va rivojlantirishga yordam beradigan, turizm sohasini rivojlantirishga xizmat turistik mahsulotlar majmuidir.

Turistik xizmatlar bozorini iste’molchilarning talablarini va turistik firmalarning takliflarini ularning afzalliklarini o‘rganish turistik xizmatlar turlari, shakllari bo‘yicha hududiy turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi:

Hududda turizmni rivojlantirish dasturlari Butunjahon Tabiatni muhofaza qilish Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish konsepsiyasiga mos kelishi kerak. Ushbu konsepsiya uchta prinsipga asoslanadi – ekologik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy barqarorlik.

Ekologik barqarorlik rivojlanishning hududning asosiy ekologik jarayonlari, biologik xilma-xilligi va resurslarini saqlash bilan muvofiqligini talab qiladi.

12 Болшой энциклопедический словар / под ред. А. М. Прохорова. – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: Болшая российская энцикл. – СПб.: Норинт, 1999. – 1434 с. С. 1003
13 Ожегов, С. И. Толковый словарь русского языка / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова. – М.: Азбуковник, 1999. – 944 с. С. 672
14 Щедровицкий Г. П. Проблемы методологии системного исследования. М., 1964. С. 35.
15 Dmytriy Nekhaychuk, Alina Zhuchik “The comparative analysis of the territory financial potential assessment method”//Финансы. бухгалтерский учет. DOI: https://doi.org/10.15688/jvolsu3.2019.2.12.
16 Зорин И. В.,Кварталнов В. А. Энциклопедия туризма. Справочник. М.: Финансы и статистика, 2003. 368 с.
17 Alimova M. T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
18 Tuxliev I. S., Hayitboev R., Safarov B. Sh., Tursunova G. R. Turizm asoslari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. 151-b.
19 Новичков В. И., Полозков М. Ю., Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах. Известия УрГЭУ. 3(22) 2008. 46-49 с.

Ijtimoiy-madaniy barqarorlik tarixiy va madaniy qadriyatlar va mahalliy o‘ziga xoslikni saqlashni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy barqarorlik mintaqani rivojlantirishning bunday variantlariga qaratilgan bo‘lib, ular mahalliy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni ta’minlaydi, ularni kelajak avlodlar uchun ishlatish imkoniyatini beradi.

Yuqorida bayon etilgan turli tuman fikrlarning zamirida albatta iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning har biriga nistabat xayrixohlik aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda, hududning turistik salohiyatini rivojlanishi turizm siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda tamoyillarining tizimli nazariy jihatlarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli turizm sohasidagi resurslardan samarali foydalanish uchun hududiy dasturni ishlab chiqish turizm bozorini samarali rivojlanishiga poydevor yaratadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyulda O‘RQ-549-son “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni;
2. A. A. Eshtayev, D. M. Li “Международные туристкие стандарты” //Учебник. Ташкент – 2007 г, 265 стр.;
3. Alimova M. T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). Samarqand: SamISI, 2017. –25-26-b.
4. Tuxliev I. S., Hayitboev R., Safarov B. Sh., Tursunova G. R. Turizm asoslari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. –151-b.;
5. Новичков В. И., Полозков М. Ю., Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах. Известия УрГЭУ. 3(22) 2008. 46-49 с.;
6. Зорин И. В.,Кварталнов В. А. Энциклопедия туризма. Справочник. М.: Финансы и статистика, 2003. 368 с.;
7. Ожегов, С. И. Толковый словарь русского языка / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова – М.: Азбуковник, 1999. – 944 с. С. 672;
8. Болшой энциклопедический словар / под ред. А. М. Прохорова – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: Болшая российская энцикл. – СПб.: Норинт, 1999. – 1434 с. С. 1003.

RESPUBLIKAMIZDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI RAQAMLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI



Xojiyev Jaxongir Dushabayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqola qimmatli qog‘g‘ozlar bozorini raqamlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Bugungi kunga kelib, qimmatli qog‘ozlar bozorini raqamlashtirish bu sohaga ko‘plab vositalarni olib keldi. Ular yordamida sohada axborotni himoya qilish tufayli samaradorlik, shaffoflik oshadi va firibgarlik ehtimoli kamaydi.

Kalit so‘zlar: Qimmatli qog‘ozozlar bozorini raqamlashtirish, qimmatli qog‘ozlar bozori infratuzilmasi, raqamlashtirish, firibgarlik, oshkoralik, qimmatli qog‘ozlar bozorida axborotni himoya qilish.

Abstract: This research is focused on the study of the peculiarities of digitization of the market of valuable shells. To date, the digitization of the securities market has brought many tools to the industry. With them, due to the protection of information in the field, efficiency, transparency increase and the likelihood of fraud decreased.

Key words: Digitization of the securities market, securities market infrastructure, digitization, fraud, transparency, information protection in the securities market.

Аннотация: Настоящее статья направлено на изучение особенностей цифровизации рынка ценных бумаг. На сегодняшний день цифровизация рынка ценных бумаг принесла в отрасль множество новых инструментов. Благодаря им повышается эффективность, прозрачность и снижается вероятность мошенничества, за счет защиты информации в отрасли.

Ключевые слова: Цифровизация рынка ценных бумаг, инфраструктура рынка ценных бумаг, цифровизация, мошенничество, прозрачность, защита информации на рынке ценных бумаг.

KIRISH

Bugungi dolzarb zamonda muhim mavzulardan raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib boryapti. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida 2023-yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga etkazish vazifasi qo‘yilgan [1].

Shu o‘rinda raqamli iqtisodiyot tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak. Bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish, iste’mol qilish va boshqaruv jarayonlarining (insonlararo, mashinalararo, bulutlar va katta hajmdagi raqamlar (BIG DATA) orqali) raqamli texnologiyalar hamda internet yordamida ma’lumot almashinishni optimallashtirish orqali katta foyda ko‘rishga qaratilgan faoliyatdir.

Shu o‘rinda alohida qayd etib o‘tish kerakki, yangi bir uyg‘onish davri - uchinchi Renessansga poydevor qo‘yilayotganligi istiqbolimizning ulug‘vorligini namoyon etadi. Ilmsiz, ma’rifatsiz jamiyat va mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish mushkuldir.

Zamonaviy dunyoni hayotning barcha sohalarini, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bozorida savdoni osonlashtirgan axborot va raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Fond bozori yoki qimmatli qog‘ozlar bozori bu uning ishtirokchilari o‘rtasida qimmatli qog‘ozlarning muomalasi va chiqarilishi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Qimmatli qog‘ozlar bozori insoniyatning ulkan yutuqlaridan biridir. Nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar bozori tez vaqt ichida butun davlatlar, yirik korporatsiyalar va xususiy investorlarning rivojlanishi o‘ziga qamrab, bugungi iqtisodiyotning ajralmas elementiga aylandi.

Hozirgi vaqtda raqamlashtirish iqtisodiyot va moliya bozorining muhim hamda ajralmas qismidir. Ichki fond bozoriga tobora ko‘proq kiritilayotgan yangi ilg‘or texnologiyalar, globallashuv yangi moliyaviy vositalarning shakllanishiga olib keldi.

Shu bilan birga bugungi kunda mamalakatimizda fond bozorining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan asosiy sabablardan biri bu: bozor infratuzilmasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan etarli darajada ta’minlanmaganligi va ushbu sohadagi mahalliy tizimlarning imkoniyatlaridan samarasiz foydalanilayotganligidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy bozorni aniqlash uchun ba’zi rus iqtisodchilarining ushbu jarayon yuzasidan fikrlarini ko‘rib chiqish kerak. Shunday qilib, Suetin A. A. [Суэтин А. А. (2004)] Rossiya hukumati qoshidagi Moliya akademiyasining professori, “Moliyaviy bozor – moliyaviy kapitalni sotib olish va sotish amalga oshiriladigan joy-pul”, deb hisoblaydi.

Professor Krasavina L. N. [Красавина Л. Н. (2008)] moliya bozori “(funksional nuqtayi nazardan) ekanligini ta’kidlaydi... qayta ishlab chiqarishning uzluksizligi va rentabelligi uchun pul kapitalining to‘planishi va tarmoqlararo qayta taqsimlanishini ta’minlaydigan bozor munosabatlari sohasi”. Shuning uchun, uning fikriga ko‘ra, moliya bozorining keng ta’rifi, jumladan, uning barcha segmentlari – fond, kredit, valyuta, sug‘urta .

Rudiy K. V. [Рудый К. В. (2004)] moliyaviy bozorni “moliyaviy resurslarni safarbar qilish va qayta taqsimlash mexanizmini amalga oshirishni ta’minlaydigan bozor iqtisodiy munosabatlari va institutlarning jamiyati” deb ta’riflaydi.

Professor Bikova N. I. [Быкова Н. И. (1999)] (Sankt-Peterburg iqtisodiyot va moliya universiteti) moliyaviy bozorni jamg‘arma yoki vositachilar mulkdorlaridan qarz olish va ularni boshqa shaxslarga muayyan haq evaziga taklif qilish yo‘li bilan iqtisodiyotda vaqtincha bo‘shayotgan mablag‘larni tartibga soluvchi va boshqaradigan bozor munosabatlarining maxsus sohasi deb biladi.

Rodionovoy B. M. [Родионовой В. М. (1995)] Moliyaviy bozor, shuningdek, qarzdorlar va qarzdorlar o‘rtasida talab va taklif asosida vositachilar yordamida kapitalni taqsimlash mexanizmi sifatida tushuniladi. Moliya nazariyasi sohasidagi mutaxassislar moliyaviy bozorni pul operatsiyalarining o‘ziga xos sohasi sifatida belgilaydilar, bu erda bitim obyekti aholining, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning va davlat tuzilmalarining foydalanuvchilarga qimmatli qog‘ozlar yoki kreditlar shaklida berilgan erkin mablag‘lari hisoblanadi.

Moliyaviy va kredit entsiklopedik lug‘atda biz quyidagi formulani topamiz: bu kredit kapitallari bozorining bir qismi bo‘lib, unda qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish shaklida kreditorlar va qarz oluvchilar o‘rtasida kapitalni qayta taqsimlash mavjud.

“Moliyaviy bozor” tushunchasi bilan birga “Kapital bozori” tushunchasi ham moliyaviy bozorga o‘xshash yoki uning tarkibiy qismi sifatida ishlatiladi. Moliya promarksist nazariyasi nuqtayi nazaridan “kapital bozori” (yoki “kredit kapitallari bozori”) atamasi ko‘proq haqiqatdir moliya belgilari va moliya bozorining mohiyati o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etadi. Biroq, zamonaviy monografiya va davriy adabiyotlarda “moliyaviy bozor” atamasi hamma joyda keng tarqalgan bo‘lib, bu G‘arb iqtisodiy fikrining ta’siri va ba’zan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima (ingliz. – financial market).

Dvoretskaya A. Y. [Дворецкая А. Е. (2007)] kapital bozori moliya bozorining institutsional qismi, iqtisodiy agentlarning rivojlanish va o‘sish uchun pul resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida uzoq muddatli xususiyatga ega bo‘lgan moliyaviy aktiv sifatida pul mablag‘lari oqimi bilan bog‘liq munosabatlar sohasi ekanligi isbotlangan. Biz kapital bozorini moliyaviy bozorning ajralmas qismi sifatida hisobga olgan holda shunga o‘xshash pozitsiyaga egamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot mobaynida ilmiy tahlilning umumiy uslublari, shuningdek, maxsus statistik uslublar: anketa orqali tekshirish, statistik guruhlash, tanlanma kuzatish, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, korrelatsion-regression tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207 Farmoni asosida yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2021-2023-yillarda kapitalni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi [2]. Dasturning asosiy yo‘nalishlari qo‘yidagilardan iborat:

- emitentlar sonini ko‘paytirish;
- korporativ boshqaruvni takomillashtirish orqali yangi moliyaviy mahsulotlar(xizmatlar)taklifini oshirish;
- kapital bozorining huquqiy masalalari va nazoratini tokomillashtirish;
- investorlar bazasini ko‘paytirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish;
- kapital bozrida axborot-texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, qimmatli qog‘ozlar bozorini, kapital bozorini rivojlantirish dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim shartlari va kafolatlari uni raqamlashtirishdir, Bu raqamli iqtisodiyot va elektron pullarning eng ilg‘or texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanishdir. O‘zbekiston hukumati jahon iqtisodiyotining rivojlanayotgan raqamli makonida raqobatbardosh pozitsiyalarga erishish uchun butun iqtisodiyotni raqamlashtirish va raqamli o‘zgartirish jarayonlarini tezlashtirish zarurligini anglamoqda.

2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi va izchil amalga oshirilmoqda [3]. Hujjatni qabul qilishdan maqsad zamonaviy voqelikni hisobga olgan holda raqamli iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o‘tishdir. Hujjatga muvofiq, telekommunikatsiya, davlat xizmatlari, iqtisodiyotning real sektori, sog‘liqni saqlash, davlat kadastri va boshqalarga raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq uzoq muddatli masalalarni hal etish belgilab olingan.

O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida raqamli texnologiyalardan tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Shunday qilib, mamlakatimizning barcha hududlarida 100 dan ortiq brokerlik idoralari va filiallari ega bo‘lgan O‘zbekiston fond bozoridagi asosiy savdo maydonchasi bo‘lgan “Toshkent” Respublika Fond birjasi zarur jihozlar, aloqa infratuzilmasi, shuningdek, Yagona dasturiy-texnik vositalar bilan jihozlangan.

Qimmatli qog‘ozlar Markaziy depozitariysi o‘z mijozlariga keng ko‘lamli depozitariy va tegishli xizmatlarni taqdim etmoqda, birja savdo maydonchalarida va “Elsis SAVDO” elektron birjadan tashqari savdo tizimida tuzilgan qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblarni yuritilishini ta’minlamoqda. Shu bilan birga, barcha tranzaktsiyalar elektron shaklda amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qimmatli qog‘ozlarni hisobga olish va saqlash, qimmatli qog‘ozlar savdosi, qimmatli qog‘ozlar bozorida kliring operatsiyalari uchun ko‘p funksiyali mexanizmni ta’minlaydigan milliy dasturiy mahsulot mavjud emas.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini raqamlashtirish uning ishtirokchilari faoliyati davomida yuzaga keladigan ko‘plab muammolarni, shu jumladan, internetning rivojlanishi bilan tobora kengayib borayotgan firibgarlikni oldini olishga qodirdir. Hozirgi vaqtda moliya bozorida faol raqamlashtirish jarayonida xavfsizlikni ta’minlaydigan ko‘plab texnologiyalar mavjud. Bular blokcheyn, RegTech, SupTech, bulutli texnologiyalar, shuningdek masofadan identifikatsiya qilish va autentifikatsiya qilish tizimi.

Eng so‘nggi blokcheyn texnologiyasining paydo bo‘lishi inqilobga sabab bo‘ldi va qimmatli qog‘ozlar bozorida huquqiy tartibga solish yondashuvlarining muqarrar o‘zgarishini keltirib chiqardi. Ushbu texnologiya qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilariga qo‘shimcha xavfsizlik, bitimlarning shaffofligini kafolatladi, shuningdek moliyaviy vositachilarning an’anaviy ishtirokini ozod qilish orqali investorlarni xarajatlardan qutqardi. Bir tomondan, blokcheyn tarqatilgan ma’lumotlar bazasi va boshqa tomondan, ushbu texnologiya tomonlar o‘rtasida qiymatni o‘tkazish vositasidir. Qimmatli qog‘ozlar bozorida qadriyatlar-bu bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, mulkchilik huquqlarini qog‘ozga o‘tkazish va boshqalar. Bunday tizimni buzish jismonan mumkin emas, chunki ma’lumotlar bazasi ma’lumotlari bir vaqtning o‘zida tizimning barcha a’zolariga tarqatiladi va xakerlik uchun barcha tashuvchilardan noyob parolni olish kerak bo‘ladi. O‘z navbatida, ushbu texnologiya tufayli axborot uzatishning butun yo‘li bo‘ylab foydalanuvchilar qiymat bitimi qaysi bosqichda amalga oshirilayotgani, operatsiya kim tomonidan va qancha miqdorda amalga oshirilganligi haqida ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu mexanizmlar firibgarlik ehtimolini yo‘q qiladi va ma’lumotlar shaffofligini oshiradi. Bundan tashqari, blokcheyn orqali amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar qaytarib bo‘lmaydi, foydalanuvchiga qarshi firibgarlik varianti operatsiyani amalga oshirish majburiyatida chiqarib tashlanadi va tarqatilgan ma’lumotlar bazasi ma’lumotni bitta markaz ishtirokisiz saqlash va tarqatishni kafolatlaydi. Natijaja moliyaviy operatsiyalarni xavfsiz, mustaqil ravishda amalga oshirishga imkon beradi.

SupTech - bu Big Data kabi innovatsiyalar yordamida moliyaviy bozorlarni boshqarish imkonini beruvchi ilg‘or texnologiya. Ushbu texnologiya ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtiradi, ularni osonlashtiradi, hisobotlarning shaffofligini oshiradi, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozoridagi jarayonlarni raqamli formatga aylantiradi.

RegTech - texnologiyasi innovatsion texnologiya bo‘lib, u moliya bozori regulyatoriningqarorini amalga oshirish maqsadida samarali, ishonchli, xavfsiz iqtisodiy qarorni amalga oshiradi. Bu moliyaviy bozor regulyatorining qarorlarini amalga oshirish uchun samarali, ishonchli, xavfsiz iqtisodiy echimni amalga oshiradigan texnologik yangilik, bu texnologiya moliya bozorlarida, bank sektorida va nokredit moliyaviy tashkilotlarda shaffoflikni oshirishga yordam beradi [4]. Misol sifatida kompleks nazorat, hisobotlarni tayyorlash va topshirish tartib-qoidalarini avtomatlashtirish, shubhali faoliyatni aniqlash va firibgarlikning oldini olish kabilarni keltirish mumkin.

Bulutli texnologiyalar uzoq vaqtdan beri iqtisodiy muhitda qiziqish uyg‘otmoqda. Ushbu texnologiyalar tobora ko‘proq biznes vakillarini jalb qilmoqda. Bulutli texnologiyalar hozirda iqtisodiyotning turli sohalarida qo‘llanilmoqda, ham davlat, ham xususiy biznes muhitiga chuqurroq kirib bormoqda. Ayniqsa investitsion kompaniyalar bulutli texnologiyalarni faol ravishda amalga joriy qilmoqdalar. Natijada bozor funksiyalariga o‘xshash ko‘plab funksiyalarning bajarilishini ta’minlaydilar. Bular kreditorlar va investorlar oldida tashkilotlarning man-

faatlarini tijorat loyihalariga sarmoya kiritish, tegishli kreditlar va loyihalarga investitsiyalarni qidirishda investorlar va kreditorlarning manfaatlarini ifoda etish orqali moliyaviy resurslarni jalb qilishdir. Bulutli dasturlar IT xarajatlarini, kapital xarajatlarni kamaytirish, bozorga yangi mahsulotlarni chiqarishni tezlashtirish va ma'lumotlar xavfsizligini oshirish imkonini beradi.

Yagona identifikatsiya va autentifikatsiya tizimi, ushbu texnologiya jismoniy va yuridik shaxslarga qimmatli qog'ozlar bozorida masofadan turgan holda operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Qimmatli qog'ozlar bozorida ushbu texnologiya bilan ishlash uchun umumiy foydalanishdagi bir qator ma'lumotlarni taqdim etishingiz kerak, bu esa o'z navbatida bozorning shaffofligini oshiradi va firibgarlik ehtimolini kamaytiradi.

Yaqin-yaqinlargacha fond bozorida savdoni faqat odamlar amalga oshirdilar, bular savdo uchun alohida ochilgan hisobvaraqda pul massasini boshqargan treyderlar edi. Brokerlar buyurtmalarni qondirishlari kerak edi, treyder esa ularni qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sotishlari kerak edi. Maxsus dasturlar yordamida treyderlarning savdo samaradorligi sezilarli darajada oshdi, bunday dasturlardan foydalanadigan ushbu savdo tizimlari savdoda ancha muvaffaqiyatli va etakchi o'rinni egallaydi [5].

Bugungi kunda Internet-treyding ayniqsa dolzarbdir, u qimmatli qog'ozlar bozorining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu tizim o'zida internet orqali qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olishdir. Banklar va brokerlik kompaniyalari xususiy investorlarga xizmat ko'rsatadilar (ular mijozlarga onlayn savdodan foydalanish imkoniyatini ham taqdim etadilar). To'g'ridan to'g'ri internet treyding tobora ko'proq kichik investorlarni jalb qilmoqda (ular ilgari broker bilan ishlashning murakkab tartibidan qo'rqishgan va brokerlar, o'z navbatida, katta qiziqish bildirishmagan, chunki ularning xizmati juda qimmatga tushadi), chunki uning asosiy xususiyati qimmatli qog'ozlar sotib olish va sotish bo'yicha bitimlarning soddaligidir. Birja bozorida savdo robotlari (avtomatlashtirilgan savdo tizimi) - bu tez rivojlanayotgan texnologiya bo'lib, u kotirovkalarning harakatini kuzatishga qodir, o'zi fond bozorida operatsiyalarni amalga oshiradi, hamrohlik qiladi va yopadi. Ushbu tizim algoritmga muvofiq ishlaydi, savdo roboti bitim davomida qaror qabul qilish vakolatlarini operatorga o'tkazadigan, shuningdek, inson aralashuvisiz savdoni to'liq amalga oshiradigan signalizatsiya qurilmasi bo'lishi mumkin.

O'z navbatida qimmatli qog'ozlar bozorida ba'zi bir muammolar ham mavjud bo'lib, ulardan eng muhimi, elektron raqamli imzolarda standartlarning yo'qligi. Hozirgacha bu sohaga fuqarolar tomonidan ham ishonchsizlik mavjud. Hamma ham raqamli texnologiyalarga o'tishga tayyor emas. Sababi ko'pchilik bu texnologiyalarning mazmun mohiyatini tushunmaydilar. Bu esa aholining moliyaviy savodxonligining umumiy darajasini oshirish kerakligidan dalolat beradi. Yana bir muhim muammo-raqamli qonunchilikning yo'qligi. Yaqin-yaqingacha raqamli iqtisodiyotning ijobiy tomoni shunda edi-ki, u Qonunchilik bilan cheklanmagan - me'yoriy-huquqiy baza yo'q edi, ya'ni u hech qanday tarzda tartibga solinmagan edi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan qo'shimcha xavflar paydo bo'ldi, harakatlarni raqamli iqtisodiyot uchun me'yoriy-huquqiy baza yaratishga yo'naltirish kerak [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmaga muvaffaqiyatli kiritilgan turli xil innovatsiyalar va texnologiyalar bilan ajralib turadi, bu esa ishlashni yanada yaxshi va xavfsizroq qiladi. Raqamlashtirish muqarrar ravishda hayotning barcha sohalarida o'zgarishlarga olib keladi, bu yangi bosqichlarga o'tish va boshqarish, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishdir. Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyot barcha sohalarda iqtisodiy o'sish, YaIM, farovonlik va uy xo'jaliklarining mahsuldorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Raqamlashtirish butun fond bozori tizimini qayta shakllantirmoqda. Eng katta foyda olish va fond bozorini rivojlantirishga hissa qo'shadigan qimmatli qog'ozlar savdosining so'nggi usullari paydo bo'ladi, uni raqamlashtirish strategiyasi, albatta, ijobiy natijalarga erishishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-aprel 2020-yildagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4699-son qarori // https://lex.uz/docs/4800657
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13-aprel 2021-yildagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6207-son Farmoni // https://lex.uz/docs/5371091
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 oktyabr 2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // https://lex.uz/docs/5030957
4. Основные направления развития финансового рынка Российской Федерации на период 2019-2021. [Электронный ресурс], 2019. Режим доступа: http://fcsm.ru/Content/Document/File/71220/main_directions.pdf
5. Карепова С. Г., Селезнев И. А. О развитии инновационных проектов и цифровой экономики ЕАЭС: возможности, вызовы и риски // Социальногуманитарные знания. 2018. No 3. С. 112–123.
6. Динамика развития национальной экономики в условиях цифровизации: стратегические и институциональные факторы / Т. И. Либер- ман, Е. Ю. Коротаева, Е. С. Татаринова [и др.]. Елец, 2018. С. 57–72.
7. Суэтин А. А. (2004) Международный финансовый рынок. – М.: Кнорус, 2004. – С. 28.

ИССЛЕДОВАНИЕ АЛЮМИНИЕВОГО ПОРОШКА КАК СТРОИТЕЛЬНЫЙ МАТЕРИАЛ

Шарипова Мадина Конгратбаевна
Преподаватель архитектурного факультета,
Пучонского университета в г. Ташкент

Аннотация: Преимущество использования конструкционного легкого бетона заключается в значительном снижении плотности за счет использования легких заполнителей. Однако в некоторых странах предложение легких заполнителей имеет предел для удовлетворения спроса из-за меньшего количества производителей.

Поэтому в данном докладе будет изучен алюминиевый порошок, который является третьим по распространенности металлом в земной коре. Алюминиевый порошок имеет возможность не только уменьшить плотность, но и повысить качество продукта и эффективность производства, поскольку в процессе гидратации смесь алюминия с суспензией вступает в реакцию с гидроксидом кальция $Ca(OH)_2$, присутствующим в суспензии, в результате чего образуется газообразный водород ($3H_2$). Это означает, что газообразный водород, содержащийся в суспензии из ячеистых структур, делает бетон легче, чем обычный бетон, и основным преимуществом использования порошков является то, что его реакционная способность сохраняется в сухом состоянии.

Ключевые слова: бетон; алюминиевый порошок; строительный материал.

Annotatsiya: Strukturaviy engil betondan foydalanishning afzalligi engil agregatlardan foydalanish orqali zichlikning sezilarli darajada kamayishi hisoblanadi. Biroq, ba'zi mamlakatlarda ishlab chiqaruvchilarning kamligi tufayli yengil agregatlarni yetkazib berish talabni qondirish uchun cheklangan.

Shu sababli, ushbu hisobot yer qobig'idagi uchinchi eng ko'p metall bo'lgan alyuminiy kukunini o'rganadi. Alyuminiy kukuni nafaqat zichlikni kamaytirish, balki mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish qobiliyatiga ega, chunki hidratsiya jarayonida alyuminiy-suspenziya aralashmasi suspenziyada mavjud bo'lgan kaltsiy gidroksid $Ca(OH)_2$ bilan reaksiyaga kirishadi va natijada hosil bo'ladi(vodorod gazi ($3H_2$). Bu shuni anglatadiki, uyali tuzilmalar suspenziyasi tarkibidagi vodorod gazi betonni oddiy betonga qaraganda engilroq qiladi va kukunlardan foydalanishning asosiy afzalligi shundaki, uning reaktivligi quruq holatda saqlanadi.

Kalit so'zlar: beton; alyuminiy kukuni; qurilish materiali.

Abstract: The advantage of using structural lightweight concrete is the significant reduction in density through the use of lightweight aggregates. However, in some countries the supply of lightweight aggregates is limited to meet demand due to fewer producers.

Therefore, this report will study aluminum powder, which is the third most abundant metal in the earth's crust. Aluminum powder has the ability not only to reduce density, but also to improve product quality and production efficiency, since during the hydration process, the aluminum-suspension mixture reacts with calcium hydroxide $Ca(OH)_2$ present in the suspension, resulting in the formation of hydrogen gas ($3H_2$). This means that hydrogen gas contained in a suspension of cellular structures makes concrete lighter than ordinary concrete, and the main advantage of using powders is that its reactivity is maintained in a dry state.

Key words: concrete; aluminum powder; construction material.

СВОЙСТВА АЛЮМИНИЯ

Алюминий (Al) занимает третье место по распространенности в земной коре (8,13%) после кислорода и кремния, а Al — очень легкий серебристо-белый металл. Он имеет низкую плотность, высокую прочность и хорошую обрабатываемость, что делает его подходящим строительным материалом. Плотность алюминия составляет около 2700 кг/м^3.

Однако порошок Al легко воспламеняется при высыпании, ударах и вибрации, если размер частиц или зерен составляет менее 100 мкм. Это может привести к взрывам пыли в присутствии источника взрыва. Поэтому, согласно исследованию Гопиенко, 1999 г., для увеличения использования

Al, рекомендуется использовать крупнозернистый Al с размером зерна от 0,1 мм до 0,5 мм в процентах. Кроме того, он показал, что Al с процентным содержанием менее 10% не представляет опасности взрыва пыли.

Однако порошок Al легко воспламеняется при высыпании, ударах и вибрации, если размер частиц или зерен составляет менее 100 мкм. Это может привести к взрывам пыли в присутствии источника взрыва. Поэтому, согласно исследованию Гопиенко, 1999 г., для увеличения использования

Al, рекомендуется использовать крупнозернистый Al с размером зерна от 0,1 мм до 0,5 мм в процентах. Кроме того, он показал, что Al с процентным содержанием менее 10% не представляет опасности взрыва пыли.

Кроме того, Al был разделен на три классификации в зависимости от способа производства: гранулы, распыленные и чешуйчатые. Гранулы имеют характерную гравийную форму. Как и у чешуек, у них тоже много острых краев. Но у них не такая большая площадь поверхности, и поэтому они не будут такими реакционноспособными, как чешуйчатые порошки. Распыленные частицы бывают двух основных форм: почти идеально круглые, называемые сферическими, и те, которые имеют неправильную округлую форму, называемые сфероидальными.

Реакционные свойства чешуйчатого алюминия можно регулировать путем покрытия частиц и их распределения по размерам.




Рисунок 1: Типы форм алюминиевого порошка

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АЛЮМИНИЕВОГО ПОРОШКА В КАЧЕСТВЕ БЕТОННОГО МАТЕРИАЛА

Алюминиевый порошок является воздухововлекающим агентом, используемым для исследования. Он создает воздушные поры в бетоне и, таким образом, делает бетон пористым. Диаметр воздушных пор в газобетоне обычно составляет от 0,1 до 1 мм.




Рисунок 2: Производство бетона с использованием алюминиевого порошка.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Легкий бетон имеет много преимуществ по сравнению с обычным бетоном. Он имеет значительное применение в конструкции, его характеристики легко выполняют несколько функций тепло- и звукоизоляции и уменьшают вес конструкции, что приводит к уменьшению конструктивных элементов и стальной арматуры, что снижает стоимость конструкции.

Преимуществами легкого бетона являются: уменьшенная масса, улучшенные теплотехнические характеристики пемзобетона с легким заполнителем (PLAC) при циклическом нагружении, которое преимущественно встречается во время землетрясения, имеет первостепенное значение.

Легкий бетон имеет диапазон плотности в сухом состоянии от около 300 до не более 2000 кг/м^3, прочность на сжатие в кубе от около 1 до более 60 МПа, теплопроводность от 0,2 до 1,0 Вт/мК. Эти значения можно сравнить с показателями для бетона с нормальной массой примерно от 2100 до 2500 кг/м^3, от 15 до более 100 МПа и от 1,6 до 1,9 Вт/мК (Newman and Choo, 2003).

Легкий бетон отличается от обычного бетона определенными материалами и применениями. Особенности легкого бетона: более высокое отношение прочности к весу по сравнению с обычным бетоном, повышенная тепло- и звукоизоляция, уменьшенная статическая нагрузка в конструкции, что приводит к уменьшению конструктивных элементов и минимизации стальной арматуры.

Список литературы:

1. Gopienko, V. 1999. Methods of reducing explosion hazards for aluminum powders, dusts, and pastes, P529
2. Guglielmi, P.O., Silva, W.R.L., Repette, W.L. & Hotza, D. 2010. Porosity and Mechanical Strength of an Autoclaved Clayey Cellular Concrete. Advances in Civil Engineering, 2010
3. Şahin, R., Demirboğa, R., Uysal, H. & Gül, R. 2003. The effects of different cement dosages, slumps and pumice aggregate ratios on the compressive strength and densities of concrete. Cement and Concrete Research, 33, 1245-1249.
4. Holt, E. & Raivio, P. 2005. Use of gasification residues in aerated autoclaved concrete. Cement and Concrete Research, 35, 796-802.
5. Newman, J., Choo, B. S. and Owens, P., "Advanced Concrete Technology Processes", Elsevier Ltd, 2003.
6. Moisture Contents in Details https://www.engr.psu.edu/ce/courses/ce584/concrete/library/materials/aggregate/moisture%20content.htm
7. The Application of Lightweight Aggregate http://www.lafarge.com/.
8. http://www.iitk.ac.in/ce/test/IS-codes/is.9103.1999.pd
9. http://www.ce.memphis.edu/1112/notes/project_2/PCA_manual/Chap09.pdf



BANK TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA CHAKANA BANK XIZMATLARINING O‘RNI

Raxmatov Temur Sotiboldiyevich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi davrda bank tizimida chakana bank xizmatlari rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish aholi va tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan bankning chakana xizmatlaridan (depozit, kredit va to‘lov xizmatlari) foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bugungi kunda moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish uchun “raqamli banking” tamoyillariga asoslangan biznes-modellarini joriy qilish zarurligi o‘rganilgan va olingan natijalar asosida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: bank tizimi, chakana xizmatlar, raqamli bank, bank tizimi, kredit portfeli, foiz stavkasi, mobil banking, mijoz.

ROLE OF RETAIL BANKING SERVICES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF THE BANKING SECTOR

Abstract: The article analyzes the actual problems of the banking system associated with the development of retail banking services. The increasing popularity of financial services means expanding the access of the population and business, including to the bank’s retail services (deposit, credit and payment services). To increase the popularity of financial services, one of the main tasks of the banking system today is the introduction of new business models of banks, including those based on the principles of “digital banking”.

Key words: retail services, digital banking, banking system, loan portfolio, interest rates, mobile banking, clients.

РОЛЬ РОЗНИЧНЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА

Аннотация: В статье анализируются актуальные проблемы банковской системы, связанные с развитием розничных банковских услуг. Повышение популярности финансовых услуг означает расширение доступа населения и бизнеса, в том числе к розничным услугам банка (депозитные, кредитные и платежные услуги). Для повышения популярности финансовых услуг одной из основных задач банковской системы сегодня является внедрение новых бизнес-моделей банков, в том числе основанных на принципах “цифрового банкинга”.

Ключевые слова: розничные услуги, цифровой банкинг, банковская система, кредитный портфель, процентные ставки, мобильный банкинг, клиент.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida bank tizimini rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi. Mazkur Farmon quyidagi to‘rtta asosiy vazifani hal qilish imkonini beradi, ya’ni: Bank tizimi samaradorligini oshirish; Uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash; Sektorda davlat ulushini kamaytirish; Xizmatlar ko‘lami va sifatini yaxshilash [1].

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida:

2022-yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023-yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko‘rilib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ushbu ko‘rsatkichdan oshmasligi ta’minlab borilishi;

Bunda, davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi ko‘zda tutilgan [2].

Mamlakatimizda bank tizimi bugungi kunda bir qancha bank xizmatlari ya’ni – kreditlash, depozit operatsiyalari, plastik karta, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarini ko‘rsatuvchi 35 ta tijorat banklardan tashkil topgan [8]. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida tijorat banklar davlat ishtirokidagi korxonalarni va davlat rivojlanish dasturlarini imtiyozli foiz stavkalarida moliyalashtirishga faol jalb etish maqsadida tashkil etildi. Natijada imtiyozli kreditlarning bank tizimi umumiy portfelidagi ulushi 60 foizdan ko‘proqni tashkil etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda chakana bank xizmatlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ushbu tadqiqotlar natijasida ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bank xizmatlari bozori va uni rivojlantirishning alohida yo‘nalishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan O. Lavrushin, J. Matuk, K. Baynke, Ye. Jukov, R. Kotter, G. Panova, D. Polfreman, E. Rid, P. Rouz, J. Sinki, N. Sokolinskaya, A. Tavasiyev, V. Usoskinlarning ilmiy ishlarida ham kuzatish mumkin [3, 4]. Ssuda kapitali bozoridagi xizmatlar, elektron xizmatlar keng tarqaldi, banklarning birlashish va singib ketish holatlari ko‘paydi. Bu borada D. Jentle, J. Sinki , P. Rouz ilmiy ishlarini ta’kidlab o‘tish mumkin [5]. Ularning fikricha, bank xizmatlari bu- tijorat banklarining tezkor va strategik faoliyati hamda samarali boshqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan harakatlar majmuasi tushuniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning chakana bank xizmatlari borasidagi dolzarb masalalarga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, chakana bank xizmatlari o‘zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, xususan, ushbu xizmat turlarining asosiy iste’molchilari sifatida jismoniy shaxslar rol o‘ynaydi, operatsiyalar hajmi kichik bo‘lsada, korporativ bank xizmatlariga nisbatan xarajatlar yuqoriroq bo‘ladi, xizmatlar shaxsiy talablarni qondirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Respublikamizdagi tijorat banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan chakana bank xizmatlari hajmi yil sayin ortib bormoqda. Aholiga mo‘ljallangan omonatlar soni ortib, plastik kartochkalar bilan operatsiyalar ko‘lami oshmoqda, iste’mol va ipoteka kreditlarini berish amaliyoti hamda xalqaro pul o‘tkazmalarining foydalanuvchilari ham keskin ortib bormoqda. Chakana bank xizmatlari turli-tuman bo‘lib, ularga valyuta operatsiyalari, muddatli, muddatsiz va jamg‘arma depozit sertifikatlari, depozitariylar, iste’mol kreditlari, xalqaro pul o‘tkazmalari, plastik karta operatsiyalar brokerlik, konsultativ va boshqa bir qancha xizmatlarni misol keltirish mumkin [3].

Ushbu xizmatlarning barchasi bugungi kunda AQSh, Yevropa mamlakatlari, Yaponiya va bank tizimi rivojlangan boshqa davlatlarda mijozlarga keng ko‘lamda taklif etilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasidagi bank tizimi amaliyotida esa, ushbu tarmoq yuqori darajada rivojlanmagan va haligacha mijozlar ehtiyoji to‘laligicha qamrab olingani yo‘q. Shu maqsadda bank tizimi xizmatlarining hozirgi holati va muammolari o‘rganib chiqilib hamda tahlil qilinib shuni ko‘rishimiz mumkinki, yirik tijorat banklarining tarmoqdagi zamonaviy talablarga muvofiq transformatsiya jarayonlarida ortda qolishi, korporativ boshqaruv standartlari, axborot texnologiyalari mahsulotlari, aktivlar va passivlarni boshqarish, mijozlar bilan aloqa qilish bo‘yicha zamonaviy usullarni amaliyotga joriy qilishda kechikishlarni kuzatish mumkin. Bu esa o‘z navbatida bank mijozlariga qator noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Bunday chakana bank xizmatlarida uchraydigan muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish uchun chakana xizmatlarga ixtisoslashgan “raqamli” banklar faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yana bir muammoni ham esdan chiqarmaslik lozimki, bu chakana xizmatlarda banklarning asosiy raqobatchilari mobil ilova to‘lov tizimlari hisoblanib, dunyo banklarining 86%i bu tahdid juda jiddiy ekanligini va bunda banklar oldida faqat ikki yo‘l borligini, birinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari startaplari bilan hamkorlik qilish, ikkinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari tovar va xizmatlarini banklar tomonidan ishlab chiqish ekanligini ta’kidlashmoqda.

Shundan xulosa qilish mumkinki, oxirgi paytlarda “faqat raqamli” banklar moliya bozoriga kirib kelmoqda va an’anaviy banklar bilan qattiq raqobatlashmoqda. Bularga Atom Bank (Buyuk Britaniya), Halvi (Shvetsiya) UniCredit (Italiya), Caixabank (Ispaniya), banklarini misol keltirishimiz mumkin. Faqat raqamli banklar ikki turda faoliyat yuritadi: birinchisi, ta’sis etgan bank litsenziyasiga muvofiq asosan bank chakana xizmatlarini ko‘rsatadi; ikkinchisi, yangi litsenziya asosida yangi tovar va xizmatlar bilan bozorda alohida yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Har ikki holatda ham xizmatlar raqamli tizimning ustuvor imkoniyat va yutuqlaridan unumli foydalangan holda ko‘rsatiladi hamda olingan tajriba va yutuqlarga tayanib kelajakda an’anaviy bank tizimining o‘rnini to‘liq egallash maqsad qili

O‘zbekiston tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishda quyidagi vazifalarni hal etish muammolari mavjud:

- xalqaro moliya institutlarining mamlakatga kirib kelishi va zamonaviy on-layn bank xizmatlari yuzaga kelishi natijasida tijorat banklarining funksional vazifalarini tubdan o‘zgartirish va xalqaro bank xizmatlari bozoriga samarali integratsiyasini ta’minlash;
- mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va ular bilan samarali ishlash usullarini joriy etish va ta’minlash yo‘li bilan har bir mijozga individual yondashish bilan standart texnologiyalar uyg‘unliga asoslangan mijozlar bilan ishlashning yangi falsafasini joriy etish;

- bank sohasini diversifikatsiya qilish – banklar tomonidan taqdim etiluvchi xizmatlar turini kengaytirish va mablag‘larni qarz olishning (obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish) bankdan tashqari usullarini rivojlantirish;
- zamonaviy texnologiyalar asosida axborot texnologiyalari va aloqa vositalarini rivojlantirish va natijada moliya-kredit tashkilotlari faoliyatining mintaqaviy va milliy sohasini kengaytirish;
- mablag‘ jalb qilish sohasida ham, kredit xizmatlarini ko‘rsatish sohasida ham bank tizimi ichida raqobatni rivojlantirish.
- davlat tomonidan tartibga solish bilan bog‘liq bank xizmatlari bozorida narxlar raqobatining cheklanishi, shuningdek, bankning foyda keltirmaydigan yuqori foiz stavkalari mavjudligi;
- menejment tizimini takomillashtirish va bank mahsuloti sifatini nazorat qilish va mahsulotni bozorga olib chiqish bo‘yicha samarali milliy marketing siyosatini ishlab chiqish.

Innovatsiyalarning faol va tezkor amalga oshirilishi banklar raqobatbardoshligini oshirish, ularning xalqaro moliyaviy muhitga uyg‘un kirib borishiga yordam beradi. Moliyaviy texnologiyalarning bosqichma-bosqich evolyutsiyasi nazariyasiga ko‘ra, birinchi bosqich “FinTech 1.0” davrida yetakchi rolni an’anaviy institutlar, asosan mavjud texnologiyalardan foydalangan banklar egallagan bo‘lsa, keyingisi “FinTech 2.0” deb nomlangan bo‘lib, umumiy foydalanish uchun bankomatni joriy etish texnologiyalari tobora faolroq qo‘llanila boshlagan. Elektron bank va raqamlashtirish davrida hisoblangan FinTech 3.0 moliya bozorida innovatsiyalar esa bank xizmatlari ko‘rsatuvchi bozor subyektlari doirasidan chiqishgacha olib keldi. Bozor rivojlanishining zamonaviy bosqichini ajratib olishga ehtiyoj tobora ortib borishi prognozlangan, bu esa FinTech 4.0. hisoblanadi. Statistik tahlillarga ko‘ra, bank xizmatlari eng rivojlangan mamlakatlar xisoblangan AQSh, Xitoy, Braziliya, Yaponiya va Hindiston singari mamlakatlarda dunyodagi bankomatlarning 50 %dan ortig‘i joylashgan bo‘lib, on-layn bank tendensiyalari rivojlanishi aynan bankomatlar soniga bog‘liq degan xulosaga kelgan.

Banklar tomonidan texnologik yechimlardan foydalanishning ko‘p yillik tarixi ularning hozirgi kunda an’anaviy xizmat ko‘rsatish sohalari orasida eng yaxshi innovatsiya sifatida tan olinishiga sababdir. Bu ularga yanada rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi. Dunyo bo‘ylab bank bozori vakillari yangi texnologiyalarni yaratish va rivojlantirishda faol ishtirok etishlarini ko‘rsatuvchi ko‘plab amaliy tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. So‘nggi zamonaviy xizmat turlari sifatida sinergiya samarasini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi raqamlashtirish (ya’ni jarayonlarni avtomatlashtirish), shuningdek, iste’molchilar bilan munosabatlarni raqamlashtirish nuqtai nazaridan ham ko‘rinadi. Sun’iy intellekt, blokcheyn va bulutli texnologiyalardan keng foydalish asosiy innovatsiyalardir. Bunday innovatsiyalar banklar tomonidan amalga oshirilayotgan so‘nggi innovatsion tendensiyalardir.

Shuni xam ta’kidlab o‘tish joizki, masofadan onlayn va mobil banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ham ortib bormoqda.

Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish turli bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya.

Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko‘ra ikki turga bo‘lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o‘rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta’minlanadi.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarining turlari:

- **Bank-Mijoz** – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo‘lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o‘rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma’lumotlarni saqlaydi (asosan to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o‘rtasida modem orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa amalga oshiriladi.
- **Internet-banking** – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog‘langan holda real vaqt davomida to‘lovlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o‘z ma’lumotlari (to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar)ni ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o‘z ish joyida yoki boshqa o‘ziga qulay sharoitda:

- to‘lovlarni o‘tkazish;
- to‘lov o‘tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.


Internet-banking orqali mijoz o‘z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o‘z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko‘rishi va pul o‘tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo‘ladi.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko‘rinishdagi ma’lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag‘idan ma’lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so‘rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:


- hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘lar;
- hisobvarag‘idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi;
- kun davomida o‘tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma’lumot olish.



1-rasm: Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni, (1-yanvar holatiga ko‘ra) [8]

Yuqoridagi 1-rasmda masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 2012-2022-yillar holati o‘rganilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2012-yilda 56 735 kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra esa, 356 barobar ko‘pni ya’ni, 20 203 384 kishini tashkil qilmoqda.


Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o‘tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so‘ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag‘idan to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.



2-rasm: O‘zbekistonda muomalaga chiqarilgan bank kartalar soni (ming dona, 1-yanvar holatiga ko‘ra) [8]

Yuqoridagi 2-rasmda 2010-2021-yillarda tijorat banklari tomonidan plastik kartochkalarni muomalaga chiqarilish holati tahlil qilingan bo‘lib, bunda ko‘rsak bo‘ladiki, 2010-yilning boshida muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 6 059 ming dona bo‘lgan bo‘lsa, ularning soni 2022-yilning 1-yanvar holatida esa 27 106 ming donani tashkil qilmoqda.

2021-yilda plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan transaksiyalar hajmi 111 137 mlrd. so‘mni tashkil etdi (3- rasm).



3-rasm: O‘zbekistonda to‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan milliy valyutadagi tranzaksiyalar summasi (mlrd.so‘mda) [10]

O‘z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larni tasarruf etish va to‘lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag‘lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi.

Mamlakatimiz bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari bank xizmatlari bozorida erkin raqobat muhitini ta’minlashga qaratilmoqda va asosiy e’tibor xorijiy bank filiallarini respublikamizda tashkil etishga qaratilmoqda.

Quyidagi 4-rasmda masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning turlari bo‘yicha 2016-2022-yillar holati o‘rganilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2016-yilda 81 500 yuridik shaxslar hamda 979 500 jismoniy shaxslar foydalangan bo‘lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra bu ko‘rsatkich 968 600 yuridik shaxs hamda 19 234 800 jismoniy shaxsni tashkil qilmoqda. Bundan xulosa qilsak bo‘ladiki, ushbu tizimlardan foydalanish talabi juda ham ortib bormoqda.

Mahalliy tijorat banklari uchun yirik xorijiy kredit tashkilotlarining filiallariga nisbatan raqobatli imkoniyatlar yetarlicha emas. Ayniqsa, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish jarayonlarida bunday kamchiliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunga ko‘ra, mahalliy tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarni samarali boshqarish va mijozlar siyosatini o‘zgartirish maqsadga muvofiqligi, xususan, uni umumiy boshqaruv tizimiga kiritish lozimligini belgilab beradi.



4-rasm: Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (turlari bo‘yicha ming.) 1-yanvar holatiga ko‘ra [8]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ikkinchi tarafdan, banklarimizda hali foydalanilmagan 60% salohiyat va zaxiralarni tezda o‘zlashtirib olish imkoni borligi innovatsion loyihalar va mobil ilovalarni qo‘llab-quvvatlash ko‘p samara keltirishi mumkinligini bildiradi. Albatta, bu imkoniyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar va targ‘ibot-tashviqot ishlari yo‘lga qo‘yilishi va infrastrukturani rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi. Bu borada rivojlangan davlatlarda jiddiy tus olgan naqd pulsiz to‘lovlar bizga ham kirib keldi va bunga bank tizimi doim tayyor turishi davr talabidir. Misol uchun, Yevropa davlatlarida, xususan Shvetsiya davlatidagi naqd pul aylanishini butunlay muomaladan chiqib ketishi ehtimoli juda yuqori bo‘lib, oxirgi 30 yillik minimumga yetgan. 2000-yilda Shvetsiya aholisining 89 % i naqd pul to‘lagan bo‘lsa, 2019 yilda aholining 25 % i haftada 1 marotaba naqd pul to‘lovini amalga oshirgan [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirib o‘tilgan ayrim tadqiqot va izlanishlar natijasida olingan ma’lumotlarni inobatga olib, quyidagi takliflar bildiriladi:

1. Har bir bank o‘z mijozlari uchun yaratilgan mobil ilovalarni yanada takomillashtirgan holda xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishi lozim, dunyo tajribasidan kelib chiqsak, xarajatlarning 2–3% kamayishi mijozlar soniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ma’lum;
2. Chakana bank xizmatlarini mijozlarga taqdim etish jarayonini bir standartga solish va avtomatlashtirish;
3. Zamonaviy “raqamli bank” tizimni joriy etish strategiyasini ishlab chiqish, bunda filiallar tizimini optimallashtirish va avtomatlashtirish;
4. Fintech startaplari va texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlikni yulga qo‘yish va kuchaytirish;

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, yuqorida qayd etilgan takliflar bugungi kunda rivojlangan davlatlarda bank hamda mijozlarga maqbul va manfaatli bo‘lib, davr talabi, qolaversa, kelajakdagi o‘zgarishlarga munosib zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-5992-son Farmoniga ilova.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2022.- 4-b.
3. Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник.3-изд./ Под ред. О.И.Лаврушина. – М.: Кнорус, 2005. 766 стр.
4. Тавасиев А.М. Банковское дело: базовые операции для клиентов: Учеб. пособие/ Под. ред. А.М.Тавасиев. – М.: Финансы и статистика, 2005. 302 стр.
5. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. 1018 стр.
6. Bank ishi: Darslik / Sh. Z. Abdullaeva; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. 535-b
7. www.nbu.uz – Milliy mobil ilovasi raqamli banking sohasida mobil to‘lovlarni amalga oshiradi.
8. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisoboti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
9. Efma-Infosys Finacle Innovation, “Innovation in retail banking 2019” tadqiqoti, 2019-yil.



LIZING FAOLIYATINI KREDITLASHDA ANDERRAYTINGDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Latipova Shaxnoza Maxmudovna
SamISI dotsenti

Annotatsiya: Maqolada lizing faoliyatini tijorat banklari tomonidan kreditlashning ahamiyati yoritilgan. kreditlashda lizing beruvchi va lizing oluvchilar faoliyatini tahlil qilishda foydalaniladigan turli xil usullar qisqacha yoritilgan. Asosiy e’tibor kreditlash bo‘yicha qaror qabul qilishda anderrayting faoliyatining ahamiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlariga qaratilgan. Maqolada har bir tijorat banki tomonidan anderrayting xizmatini joriy etish, kontragentning moliyaviy holatini baholashda anderrayterlar tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: lizing, lizingni kreditlash, anderrayting, skoring, moliyaviy ko‘rsatkichlar, reyting modeli.

Abstract: The article emphasizes the importance of lending to leasing activities by commercial banks. The various methods used to analyze the effectiveness of lending to landlords and tenants are briefly covered. The main attention is paid to the importance of underwriting activity in making credit decisions and its features. The article provides scientific and practical proposals for the implementation of underwriting services by each commercial bank, indicators that can be used by underwriters when assessing the financial condition of the counterparty.

Key words: leasing, leasing lending, underwriting, scoring, financial indicators, rating model.

Аннотация: В статье подчеркивается важность кредитования лизинговой деятельности коммерческими банками. Кратко освещены различные методы, используемые для анализа эффективности кредитования арендодателей и арендаторов. Основное внимание уделено значению андеррайтинговой деятельности в принятии кредитных решений, ее особенностям. В статье приведены научно-практические предложения по внедрению андеррайтинговой услуги каждым коммерческим банком, показатели, которые могут быть использованы андеррайтерами при оценке финансового состояния контрагента.

Ключевые слова: лизинг, кредитование лизинга, андеррайтинг, скоринг, финансовые показатели, рейтинговая модель.

KIRISH

Milliy lizing bozorini tahlil qilish natijasida qayd etish kerakki, lizing bozorida nafaqat lizing kompaniyalari, balki tijorat banklari ham muhim ahamiyatga ega.

Moliya bozoridagi yuqori darajadagi raqobat, kredit shartnomalarining samaradorligini oshirish va joriy moliyaviy holat kredit tashkilotlarining xarajatlarini kamaytirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tijorat banklarida kreditlash bosqichlarini standartlashtirish qo‘yilgan muammolarni hal qilishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Shunday ekan, tijorat banklari lizing beruvchilar faoliyatini kreditlar orqali moliyalashtirishda asosiy e’tiborni kredit resurslarining oxirgi iste’molchisi sifatida lizing oluvchining faoliyatiga qaratadi. Lizing oluvchining moliyaviy intizomga rioya qilishi nafaqat kredit sifatining muhim kategoriyasi, balki ko‘rsatilayotgan xizmatning sifatini ham yuqori darajada namoyon etuvchi omili bo‘lib hisoblanadi.

Amaliyotda tijorat banklari tomonidan lizing kompaniyalari uchun kredit berish bilan bog‘liq bo‘lgan hamda shartnomaviy limitlar qo‘llashi mumkin. Xususan, shartnoma tuzilishiga va lizing oluvchining moliyaviy holatiga nisbatan qo‘shimcha talablar belgilash, qo‘shimcha ta’minot talab qilish: garov ta’minoti, kafillik, tadbirkorlik risklarini sug‘urtalash va h.k. ushbu jarayonlarni standartlashtirish, shartnomani ko‘rib chiqish muddatini qisqartirish va ish haqi xarajatlarini kamaytirish maqsadida tijorat banklari tomonidan lizing kompaniyalari faoliyatini moliyalashtirish bo‘yicha qaror qabul qilishga anderrayting jarayonini joriy etish taklif etiladi. Shu bilan birga, tahlilning chuqurligi va shartnoma ishtirokchilarini baholash o‘lchovi shartnoma tuzilishidan kelib chiqib aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda tijorat banklari faoliyatida uchraydigan risklarni pasaytirish orqali ular faoliyatining samaradorligini oshirishga hukumat tomonidan alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari potensial risklarni baholash sifatini oshirish va qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtirish maqsadida davlat ishtirokidagi banklarda kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun yuqori malakali anderrayterlar guruhlarini tashkil qilish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish va modulli ("bir xil") kredit mahsulotlarini joriy etish hamda ularning bank kredit portfelidagi ulushini oshirish orqali tez va kam xarajatli chakana bank xizmatlari turlarini kengaytirish hamda banklarning skoring tizimlarini yanada takomillashtirish masalalari ham hal etilishi lozim bo'lgan vazifa ekanligini qayd etib o'tdilar [1].

Anderrayting tushunchasi ilk marta yozma ravishda 1622 yilda "qandaydir hujjatni imzolash" uchun qo'llanilgan. Dastlab sug'urta shartnomalari London qahvaxonalarida tuzilgan. Bunda savdogarlar (o'sha vaqtda ular sug'urtalovchi deb atalmagan) kema va yuk egalari bilan uchrashishgan [2]. Xuddi shunday, V. A. Makarovaning fikricha, "anderrayting" atamasi dengiz sug'urtasi shakllanishi davrida paydo bo'lib, bunda savdogar uchinchi shaxs sifatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni qoplash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olganligini imzo orqali tasdiqlagan [3].

N. I. Morozko, P. D. Burovlar kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining to'lovga layoqatliligini baholashda anderraytingning ahamiyatini yoritib, uni rivojlantirishning innovatsion yo'llariga to'xtalib o'tishgan. Ularning fikricha, tijorat banklarida anderrayting faoliyati risklarni tahlil qilish jarayoni sifatida muammoli kreditlarning yuzaga kelishini kamaytirishga xizmat qiladi [4].

M. S. Kudrenkoning fikricha, anderrayting deganda qarz oluvchi (yuridik va jismoniy shaxs)ning kreditga layoqatliligini baholash tartibi tushuniladi. Boshqacha aytganda, anderrayting – bu tijorat banki tomonidan belgilangan tartib asosida potensial qarz oluvchining kreditga layoqatliligini ko'zda tutadigan kreditni qoplash ehtimolligini baholashdir [5].

Turli mamlakatlar va turli banklarda potensial kredit oluvchi faoliyatidagi risklarni baholashning turli usullari mavjud va turli baholash tizimidan ham foydalanishadi. Xususan, AQSh bank sohasidagi anderrayting amaliyoti olti "S" asosida yo'lga qo'yilgan [6]:

1. Character – xarakter;
2. Capacity – qobiliyat;
3. Cash – pul mablag'lari;
4. Collateral – ta'minot;
5. Conditions – shartlar;
6. Control – nazorat.

AQShda risklarni baholashda axborot yig'ishni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik ham yaratilgan.

Buyuk Britaniyada risklarni "PARTS" amaliyoti mavjud [6]:

1. Purpose – maqsad;
2. Amount – o'lcham;
3. Repayment – qoplash;
4. Term – muddat;
5. Security – xavfsizlik.

Buyuk Britaniyada risklarni baholash jarayonida kreditorlar tomonidan kredit byurolari reytingidan foydalanmasdan, o'zlarining mezonlari va hisob-kitob ko'rsatkichlaridan foydalanishlari AQSh amaliyotidan farqlanuvchi asosiy holat hisoblanadi.

Mamlakatimizda anderrayting xizmatiga banklarning kapital va qimmatli qog'ozlar bozorlaridagi bank xizmatlari sohasidagi ilg'or tajribalardan biri sifatida yondashilib, tijorat banklarining kreditlash amaliyotida keng foydalanishi bo'yicha fikrlar keltirilgan [7].

I. I. Alimov boshchiligida bir guruh olimlar anderrayting faoliyatiga anderrayter (anderrayterlar) va emitent o'rtasida shartnomada belgilangan shartlarda chiqarishni tashkillashtirish yoki emitentning qimmatli qog'ozlarini kafolatli joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat sifatida yondashib, asosiy e'tiborni anderrayterlarning qimmatli qog'ozlarni chiqarishdagi ahamiyatiga qaratgan [8].

Ko'rinib turibdiki, tijorat banklari faoliyatida anderrayting faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish, milliy anderrayting tizimini yaratishda xorijiy tajribadan foydalanish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kredit jarayonida qo'llaniladigan anderrayting bank faoliyatida amalda qo'llaniladigan metodika asosida kredit shartnomasi (bizning misolda lizing beruvchini kreditlash) bo'yicha risklarni kompleks tarzda mustaqil tahlil qilish va ekspertizadan o'tkazishni ko'zda tutadi. O'tkazilgan ekspertiza natijasida anderrayter belgilangan shartlar asosida aniq shartnomani amalga oshirish imkoniyatlari bo'yicha qaror qabul qiladi.

Kredit muassasalarida potensial qarz oluvchining to‘lovga layoqatliligini aniqlashda turli xil koeffitsiyentlardan foydalanish mumkin. Quyida AQSh va Yevropa davlatlarida ishlab chiqilib, aksariyat mamlakatlar amaliyotida qo‘llanilib kelinayotgan koeffitsiyentlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: Anderraytingda qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarning asosiy turlari [9]

№	Koeffitsiyent	Koeffitsiyentning mazmuni	Me’yor
1	To‘lov/Daromad	Ma’lum bir davrda kredit bo‘yicha to‘lovlarning qarzdorning shu davrdagi daromadlariga nisbati	T/D ≤ 40%
2	Majburiyat/Daromad	Qarz oluvchi majburiyatlarining jami hisobga olinadigan daromadlariga nisbati	M/D ≤ 60%
3	Kredit/Garov	So‘ralgan kredit miqdorining sotib olinadigan mulk qiymatiga nisbati	90% ≤ K/G ≤3 0%
4	Kredit/Tugatish qiymati	Taqdim etilayotgan kredit miqdorining sotiladigan ko‘chmas mulkning minimal qiymatiga nisbati	

Ijobiy qarorlar moliyalashtirish taqdim etilishini ko‘zda tutuvchi bir qator majburiy shartlar, xususan shartnoma parametrlari: miqdori, muddati, tijorat bank mukofoti va ta’minotning o‘zgarishi hamda qator takliflarni ham o‘z ichiga oladi.

Bunday holatda lizing kompaniyasiga shartnoma bo‘yicha yangi qarorlarni qabul qilish uchun tuzatilgan shartnoma loyihasi taqdim etiladi. Muzokaralar yakunida shartnomani amalga oshirish imkoniyatlari bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

Kredit shartnomasini tahlil qilishning birinchi bosqichi skoring modelini qo‘llash bo‘lib, u orqali lizing beruvchi va lizing oluvchining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Bank yoki tashqi dasturchilar tomonidan yaratilgan maxsus kompyuter dasturlari asosida shartnoma ishtirokchilari ball-vaznli ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilinadi, baholanadi va natijada ularning kredit reytingi aniqlanadi. Qoida bo‘yicha, skoring baholash natijasida olingan kredit reyting kontragentning defolt ehtimolini aks ettiradi. Shartnoma bo‘yicha keyingi harakatlarni aniqlashda ushbu baholash natijasiga tayaniladi. Agar lizing beruvchi va (yoki) lizing oluvchining reytingi past deb baholangan bo‘lsa yoki shartnoma parametrlari yuqori risk darajasidan dalolat bersa, unda tijorat banklarining risk-menejment yondashuvlariga asosan baholash modelida yanada chuqur tahlil o‘tkazish va kredit ta’minotini oshirish ko‘zda tutiladi.

Aksincha bo‘lganida esa, moliyalashtirish bo‘yicha qarorlar avtomatlashtirilgan tizim asosida mustaqil ekspert ishtirokisiz qabul qilinadi.

Nazorat jarayonida mustaqil ekspert – anderrayterning ishtiroki talab etilayotgan shartnomalarni tahlil qilish skoring modelida ko‘zda tutilmagan risklarni aniqlash imkonini beradi, lekin shartnoma bo‘yicha qaror qabul qilish muddatini uzaytiradi va banklarning xarajatlarini oshiradi. Shu sababli banklar tomonidan kredit mahsulotlarini va risklarni tahlil qilish tizimini yaratishda, katta mehnat sarflarini talab etmaydigan kreditlashning standart shartlarni tanlash imkonini beradigan shartnoma bo‘yicha oqilona qaror qabul qilish tizimini yaratishga diqqat bilan yondashishlari lozim.

Kredit shartnomasini anderrayting choralarini qo‘llamasdan turib tahlil qilishning klassik modeli lizing beruvchi va lizing oluvchilarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Bunda lizing subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati kontragentlar faoliyatining muhim moliyaviy ko‘rsatkichlari tahliliga asoslanadi va ko‘pgina holatlarda ball-vaznli ko‘rsatkichlarni aniqlash uchun skoring modelidan foydalanishni ko‘zda tutadi. Skoring modeli natijasida esa ularga kredit reytingi taqdim etiladi.

Har bir shartnoma bo‘yicha kredit xulosasini tayyorlash murakkab va ko‘p vaqt talab qiladigan jarayon bo‘lib, tahlil natijasida olingan yakuniy ma’lumotlar agar kredit tahlilchisi shartnomadan manfaatdor shaxs bo‘lsa (bank tomonidan o‘rnatilgan xodimlar faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari KPI natijasida yoki shartnoma ishtirokchilari bilan shaxsiy munosabatlari tufayli), uning subyektiv munosabati ta’sirida shakllantirilgan bo‘lishi mumkin. Kredit anderraytingi choralarini qo‘llash kredit tahlilchisining xulosasi qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tishi sababli risk turlarini kamaytirish imkonini beradi.

Aynan shu sababli anderrayting bo‘limi bankning boshqa bo‘limlari ta’siridan holi bo‘lishi hamda bankning kredit portfeli va daromadi bo‘yicha ko‘zlangan miqdorlarga erishish bilan bog‘liq biznes-rejasidan mustaqil bo‘lishi lozim. Kredit anderraytingi tuzilmasining bunday mustaqilligiga erishish uchun uni bank tarkibidagi boshqa bo‘limlarning bevosita va bilvosita ta’sirlaridan xoli bo‘lgan alohida bo‘lim sifatida shakllantirish talab etiladi. Amaliyotda anderrayterlarni hududiy belgisi bo‘yicha alohida bino, shahar va hattoki, alohida mintaqada tashkil etish holatlari uchraydi.

Lizing beruvchi va lizing oluvchilarni reyting baholash va tahlil qilish jarayoniga skoring modellarini qo‘llash tufayli olingan sifat ko‘rsatkichlar iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari asosida baholanadi, avvalroq bunday tahlil kredit tahlilchining ekspert fikrlari asosida amalga oshirilar edi.

Reyting dasturlarida foydalaniladigan ball-vaznli modellar quyidagi vazifalarni hal qilish uchun qo‘llaniladi:

- kredit riski darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi baholanayotgan har bir omilning ta’sir darajasini aniqlash;
- iqtisodiy-matematik reyting modelni ishlab chiqish.

Lizing beruvchi va lizing oluvchining defot ehtimolligi, buning natijasi sifatida o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilmaslik riski 0-100% oralig‘ida baholanishi mumkin. Reyting modelida bunday baholar ma’lum bir oraliqlarga ajratilib, har biriga mos risk guruhi berkitiladi. Modelning shakllantirilishida ham bank faoliyatiga oid, ham moliya bozoriga oid statistik ma’lumotlardan foydalaniladi. Kredit shartnomasi sifat jihatdan qaysi risk guruhiga kiritilganligiga ko‘ra, bank yo‘qotishlar bo‘yicha rezervlarni shakllantiradi. Misol uchun, Rossiyadagi banklarda kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarga rezervlar miqdori quyidagicha belgilangan: nostandart kreditlar uchun 1 foizdan 20 foizgacha; shubhali kreditlar uchun 21 foizdan 50 foizgacha; muammoli kreditlar uchun 51 foizdan 100 foizgacha; umidsiz kreditlar uchun 100 foiz [10]. Respublikamizda esa tijorat banklariga “standart”, “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplashga zaxiralar shakllantirish Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan tartibga asosan belgilangan [11]. Jumladan, kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarga majburiy zaxiralarning me’yorlari quyidagicha: substandart kreditlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining 10 foizi miqdorida; qoniqarsiz kreditlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining 25 foizi miqdorida; shubhali kreditlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining 50 foizi miqdorida; umidsiz kreditlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining 100 foizi miqdorida maxsus zaxiralar shakllantirishi lozim.

Lizing shartnomasini kreditlash jarayonida bankning biznes-jarayonlarini qurishga asos bo‘lib xizmat qiluvchi bir qator bosqichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular quyidagilardan iborat:

1. Lizing beruvchi (ayrim payt lizing oluvchi)ning bankka murojaat qilishi, subyekt murojaati bilan bog‘liq parametrlarni aniqlash. Ushbu bosqichda quyidagilar belgilanishi lozim:

- kreditning miqdori va muddati;
- kredit resurslarini taqdim etish bahosi;
- qo‘shimcha garov ta’minotining mavjudligi/yo‘qligi (garov, kafil);
- shartnomaning boshqa muhim shartlari.

2. Bankka mijozlarni jalb qilish bilan shug‘ullanadigan front-ofis bo‘limi xodimi (mijozlar menejeri) lizing beruvchi va lizing oluvchini, ular taqdim etgan hujjatlarni dastlabki baholashdan o‘tkazishi, shuningdek shartnomaning bank manfaatlariga mos kelishini aniqlash uchun shartnoma tarkibining ekspress-tahlilini amalga oshirishi lozim.
3. Kredit bo‘limi tahlilchisi kredit ajratishning maqsadliligi bo‘yicha xulosa tayyorlab, ushbu ma’lumotni anderrayterga yuboradi.

Shartnoma doirasida risklarni mustaqil ekspertizadan o‘tkazishda anderrayter quyidagilarni tekshiradi:

- taqdim etilgan axborotlarning ishonchliligini;
- kredit shartnomasi parametrlari, ya’ni daromadlilik va ta’minlanganlikning bank ichki me’yoriy hujjatlarga muvofiqligini;
- reyting modeli parametrlarini to‘ldirishning to‘g‘riligi va asosliligi.

Anderrayterning ijobiy xulosasi bo‘lganda bankning mutasaddi organlari tomonidan shartnomani amalga oshirish bo‘yicha qaror chiqariladi. Bunda lizing beruvchi va lizing oluvchilarning reytingi asosiy ko‘rsatkich sifatida hisobga olinadi.

Reytingni hisoblashda miqdoriy va sifat omillari ham e’tiborga olinadi. Miqdoriy omillar kontragentning buxgalteriya hisoboti asosida baholanadi. Sifat omillariga esa quyidagilarni kiritish mumkin:

- qarz oluvchi faoliyat yuritayotgan tarmoq;
- qarz oluvchining bozordagi pozitsiyasi, uning asosiy raqobatchilari;
- korxona mulkdor(lar)i va boshqaruv jarayoni to‘g‘risidagi salbiy fikrlar;
- shartnomalar portfelining diversifikatsiyasi, mol yetkazib beruvchilar va xaridorlarga qaramlik;
- ijobiy kredit tarixi;
- moliyaviy-investitsion siyosat;
- valyuta risklarining mavjudligi;
- qarz oluvchi moliyaviy holatining shaffofligi va h.k.

Lizing kompaniyasi va lizing oluvchi faoliyatining sifat omillarini baholash natijasida anderrayter ushbu omillarning tuzilayotgan kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmasligiga qay darajada ta’sir ko‘rsatish ehtimoli bo‘yicha ekspert xulosasini taqdim etadi.

Kontragentlarning reytingini aniqlash bir necha bosqichlarda amalga oshirilib, u reytingni aniqlash metodikasining tarkibi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Iqtisodiy-matematik tahlil va modellashtirish usullari risk omillarini, ularning kreditning qaytarilmasligiga ta’sir doirasini aniqlash hamda qarzdor tomonidan majburiyatlarni insof bilan bajarilmaslik ehtimolining darajasini baholash imkonini beradi. Miqdoriy va sifat omillari ta’sirida reytingni aniqlashda yuzaga keladigan qo‘shimcha risk omillarini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, miqdoriy va sifat omillari qarz oluvchining reytingini belgilab beradi. O'z navbatida, statistik tahlillar ko'rsatkichlarning modeldagi ulushi (vazni)ni aniqlash imkonini yaratadi. Zamonaviy kredit muassasalari qarz oluvchining reytingini aniqlashda bir turdagi modellardan foydalanishadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, modelni qurishda foydalanilgan statistik tahlil ma'lumotlari asosida hisoblanadigan formulalar bir-biridan farqlanishi mumkin. Modellarning turli shartlar asosida o'zgarishi (moslashishi) mumkinligi ham ularning farqlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Lizing oluvchining kredit reytingini aniqlashda foydalaniladigan iqtisodiy-matematik modelning umumlashtirilgan formulasini quyidagicha ifodalashimiz mumkin [12]:

$$R = UMo_u \times \sum(Mo_u \times Mo_q) + USo_u \times \sum(So_u \times So_q)$$

Bu yerda:
R – reyting;
UMo_u – modeldagi riskning miqdoriy omillari jami ulushi;
Mo_u – modeldagi miqdoriy omilning ulushi;
Mo_q – miqdoriy omilning qiymati (ball);
USo_u – modeldagi riskning sifat omillari jami ulushi;
So_u – modeldagi sifat omilining ulushi;
So_q – sifat omilining qiymati (ball).

Hozirgi kunda kontragentning kredit reytingi (R)ni aniqlashda turli hil oraliq shkalalardan foydalanib kelishmoqda. Kredit reytingi lizing oluvchining defolt holati xavfi (DHX)ni anglatganligi sababli reytingni aniqlashda 0-100% oraliq tanlansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kontragent reytingining qiymati qanchalik kichik bo'lsa, defolt holati xavfi ham shunchalik past bo'ladi.

Shundan so'ng bank tomonidan kontregantlar yaxshi, o'rtacha va yomon guruhlarga ajratiladi. Kredit reytingi kredit riskini aniqlashning yagona omili emas. Kredit riskini baholash uchun defolt holatidagi yo'qotishlar (DHY)ni aniqlash talab etiladi. DHY ham 0-100% oraliq qiymatlariga ega bo'ladi, bu omil qiymati qanchalik kichik bo'lsa, lizing shartnomasi shunchalik yuqori darajada ta'minlangan hisoblanadi.

$$KY = DHY \times DHX$$

Formuladagi ikki ko'paytuvchi shartnoma bo'yicha kutilayotgan yo'qotish (KY)larni aniqlashda qo'llaniladi, agar kutilayotgan yo'qotishlar darajasi tijorat banki tomonidan belgilangan me'yoriy ko'rsatkichdan yuqori bo'lmasa, ijobiy qaror qabul qilinadi.

Skoring modeli avvalgi kredit amaliyoti asosida ishlab chiqiladi. Ushbu modelning samarali bo'lishi axborotning yetarligiga bevosita bog'liq. Ma'lumotlar miqdori aniq modellarga bog'liq bo'lsada, umuman olganda, ular statistik ahamiyat va ehtimollik talablariga javob berishi lozim.

XULOSA

Tijorat banklari kredit siyosatiga anderrayting jarayonini joriy qilish qarz oluvchi faoliyatini baholashga bo'lgan yondashuvlarni unifikatsiyalashga va jarayonlarni standartlashtirishga imkon beradi.

Lizing shartnomalari uchun anderrayting jarayonida moslashuvchan modellarni qo'llash bankning kredit portfeli sifatini, shuningdek bank tizimining jami kredit portfelining sifatini oshirishga ta'sir etishi mumkin. Bu esa kredit muassasalariga kredit riski darajasini yanada aniqroq belgilash, kredit portfeli tarkibini nazorat qilish hamda daromadlilikni yuqori darajadagi aniqlikda hisoblash imkonini beradi.

Bank sektori joriy holatining tahliliy natijalari va uni rivojlantirish istiqbollariga ko'ra, so'nggi yillarda banklarda past daromadli aktivlarning o'sishi va foiz stavkasi (marjasi)ning pasayishi hisobiga aktivlari va kapitalining o'sish sur'ati yo pasayadi, yoki juda ham past darajada qoladi. Bu holatda banklar foizli daromadlarga nisbatan yuqori daromad keltiruvchi boshqa daromad manbalari ulushini oshirishi lozim.

Lizing faoliyatini moliyalashtirish tijorat bankiga nafaqat lizing bozorida ma'lum bir ulushga ega bo'lish va muhim mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun ularni bankka jalb qilish, balki komission haq va agentlik mukofotini qo'lga kiritish orqali qo'yilgan vazifalarni sifatli va samarali yechish imkoniyatini beradi.

Tijorat banklari tomonidan lizing shartnomalarini moliyalashtirish modellarining taqqoslama tahlili o'rganilgan modellarning har biri o'ziga xos bir qator afzallik va kamchilikka ega ekanligini, tijorat banklari lizing shartnomalarining shartlari va parametrlaridan kelib chiqib, ushbu afzalliklarni birlashtira olishi va foydalana olishi, shuningdek lizing faoliyatini moliyalashtirish usul (sxema)larini tijorat banklarining o'zlari mustaqil tanlashlari lozim bo'ladi.


Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli farmoni.
2. Кургузкин А.Д., Просалова В.С. Андеррайтинг как способ оценки платежеспособности заемщика // Территория новых возможностей. Вестник ВГУЭС, 2012/1. С. 146-151.
3. Макарова В.А. Профессиональная деятельность на рынке ценных бумаг. Учебное пособие. – Отдел оперативной полиграфии НИУ ВШЭ – Санкт Петербург, 2011. – 90 с.
4. Буров П.Д., Морозко Н.И. Андеррайтинг как инструмент оценки платежеспособности субъектов малого и среднего бизнеса: сущность и инновационные пути развития // Интернет-журнал “НАУКОВЕДЕНИЕ” Том 8, №5 (2016).
5. Кудренко М.С. Андеррайтинг как инструмент оценки кредитоспособности: сущность и современные тенденции // Вопросы студенческой науки, Выпуск №16, декабрь 2017.
6. Новиков А.В. Андеррайтинг: международная практика // Matters of Russian and International Law. 2021, Vol. 11, Is. 2A
7. Xo‘jayorov H.B. Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirishning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati // Iqtisod va moliya. 2022, 5(153). 29-38 b.
8. Alimov I.I., Bobojonov B.R., Gulyamov R.R. Qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarining operatsiyalarini takomillashtirish masalalari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2014 yil.
9. https://bank.uz/news/text88_kak_prosihodit_ocenka_platejesposobnosti_zaemshchika_-_anderrayting
10. Abdullaev Z.A. Banklarning kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarga rezervlar va korporativ foyda solig‘i // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020-yil.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 14-iyuldagi “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2696-son qarori.
12. Конягина, М.Н., Хашаев, А.А. Кредитный андеррайтинг как инструмент повышения качества кредитного портфеля // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. – 2017. - №1. – С. 49-53.

MILLIY MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIDAGI ILMIY-NAZARIY QARASHLAR



Burxanov A. U.
TDIU Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti dekani, i.f.d., prof.



Muratov Amir Timur ug‘li
TDIU Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar tahlil qilingan va unga nisbatan mualliflik yondashuvi shakllantirilgan. Qimmatli qog‘ozlar bozorlarining ahamiyati va iqtisodiy o‘sishga ta’sir qiluvchi omillari tadqiq etilgan. Moliya bozori aktivlarining daromadligini aniqlash ko‘rsatkichlarining tavsifi keltirilgan va mamlakatimizdagi ayrim yirik aksiyadorlik jamiyatlari aktivlarining daromadliligi tahlil qilingan hamda tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliya bozori, qimmatli qog‘oz, aktivlar, daro-madlilik, moliyaviy institutlar, fond birjasi, obligatsiya.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS ON THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL FINANCIAL MARKET

Burkhanov A. U.
Dean of the Faculty of Finance and Accounting TSUE, DSc in Economics, prof.

Muratov Amir Timur uly
Student of the Faculty of Finance and Accounting TSUE

Abstract: The article analyzes scientific and theoretical studies aimed at the development of the financial market and formulates the author’s approach to it. The factors influencing the importance and economic growth of the securities market are indicated. The description of determining the profitability of financial market assets is given, the profitability of assets of some joint-stock companies in our state is analyzed and the corresponding conclusion and proposals are developed.

Key words: financial market, securities, assets, profitability, financial institutions, stock market, bond.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ФИНАНСОВОГО РЫНКА

Бурханов А. У.
Декан факультета Финансы и бухгалтерский учет ТГЭУ, д.э.н., проф.

Муратов Амир Тимур улы
Студент факультета Финансы и бухгалтерский учет ТГЭУ

Аннотация: В статье анализированы научно-теоретические иссле-дования направленные на развитие финансового рынка и по отношению к этому сформулирован авторский подход. Указаны факторы влияющие на важность и экономический рост рынка ценных бумаг. Приведены описание определения рентабельности активов финансового рынка, анализированы рентабельность активов некоторых акционерных обществ в нашем государстве и выработаны соответствующий вывод и предложения.

Ключевые слова: финансовый рынок, ценные бумаги, активы, рентабельность, финансовые институты, фондовая биржа, облигация.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining muhim segmentlaridan biri, bu fond bozori hisoblanib, bunda bo‘sh pul mablag‘larni qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va qayta taqsimlash orqali maqsadli joylashuvini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday maqsadlarga qimmatli qog‘ozlar bozorining an’anaviy va noan’anaviy segmentlari hisoblangan qimmatli qog‘ozlarning barcha turlari o‘z samarasini bergandagina erishiladi.

Shuningdek, qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish, oldi-sotdi kabi barcha operatsiyalarini o‘z ichiga oluvchi muomalalarini asosan tijorat banklar amalga oshiradi. Bu ularning avvalo ustav kapitalini oshirish darajasini ta’minlasa, ikkinchidan bozorlardagi tijorat faoliyati yordamida chet elda turgan bo‘sh kapitallarni harakatga keltiriladi. Shuning uchun, ayni paytda qimmatli qog‘ozlarning barcha instrumentlari to‘liq va samarali ishlashi uchun mazkur bozorlar infratuzilmasi zamon talablari asosida rivojlantirish davlat darajasiga oshirilishini talab etmoqda.

Shu nuqtai nazaridan, mamlakatimizda fond bozori infratuzilmasini rivojiga ta’sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish va unda insonlar manfatlariga qaratilgan aniq maqsadlar belgilanganligi davlat darajasiga ko‘tarilganligi bilan izohlanmoqda. Xususan, mazkur masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev “... moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo‘lishi kerak”, deb tak’kidladilar.

2. Низкая скорость и сложность процесса для клиентов. Процесс расчета традиционных убытков может быть сложным и неудобным для клиентов. У клиентов могут возникнуть проблемы с заполнением форм и других документов, а также необходимость лично присутствовать при рассмотрении претензий. Это может привести к неудовлетворенности и негативным переживаниям клиентов.
3. Ограничения использования информации. Традиционный процесс урегулирования убытков может ограничить доступ клиентов к информации о статусе претензии. Клиенты могут не получать достаточной информации о состоянии своей претензии и времени, необходимом для ее урегулирования. Это может вызвать беспокойство и неудовлетворенность клиентов.
4. Высокие затраты на выплату убытков. Традиционный процесс возмещения ущерба может быть дорогостоящим для страховых компаний. Это может быть связано с затратами на обработку документов, сотрудников и других претензий. Кроме того, традиционный процесс может занимать много времени, что увеличивает стоимость устранения убытков.

Цифровизация процесса рассмотрения страховых претензий может обеспечить множество преимуществ и возможностей для страховых компаний и клиентов. Некоторые из них включают в себя:

Ускорение процесса возмещения ущерба. Оцифровка процесса урегулирования убытков может значительно сократить время, необходимое для рассмотрения и разрешения претензий. Это может улучшить качество обслуживания клиентов и повысить эффективность процессов для страховых компаний.

Снижение затрат на рассмотрение претензий. Оцифровка процесса учета убытков может снизить затраты на документы и сотрудников, что приведет к экономии для страховых компаний. Кроме того, цифровые процессы могут повысить точность и уменьшить количество ошибок, что может снизить стоимость обработки претензий.

Улучшите качество обслуживания клиентов. Оцифровка процесса расчета убытков может сделать этот процесс более удобным и простым для клиентов. Это может улучшить качество обслуживания клиентов и повысить их удовлетворенность. Кроме того, цифровые процессы предоставляют клиентам лучший доступ к информации о статусе их претензий.

Повысьте прозрачность процесса. Перевод процесса расчета убытков в цифровую форму может повысить уровень прозрачности процесса для страховых компаний и клиентов. Клиенты могут получить более точную и полную информацию о статусе своих претензий, в то время как страховые компании могут получить более точную информацию о процессе возмещения ущерба.

Использование новых технологий. Оцифровка процесса расчета ущерба может предоставить возможности для использования новых технологий, таких как машинное обучение и искусственный интеллект. Это помогает страховым компаниям обрабатывать большие объемы данных и повышает точность и скорость процесса расчета ущерба.

Хотя цифровизация процесса страхования может принести много преимуществ, она может сопровождаться рисками и проблемами. Некоторые из них включают:

- **Кибербезопасность.** Использование цифровых технологий может нарушить безопасность данных и увеличить риск кибератак. Это может привести к утечке конфиденциальной информации о клиентах и повлиять на репутацию страховых компаний.
- **Недостаточная автоматизация.** Некоторые компании могут столкнуться с проблемой недостаточной автоматизации, что может привести к дополнительным ошибкам и задержкам в процессе устранения убытков.
- **Несовершенство технологий.** Технологии оцифровки страхования, возможно, были недостаточно развиты, что может привести к ошибкам и неэффективному использованию ресурсов.
- **Отсутствие человеческого фактора.** Оцифровка может привести к вовлечению людей, особенно в тех случаях, когда требуется большая эмоциональная составляющая, что может привести к отсутствию эмпатии и понимания у клиентов.
- **Недостаточная подготовка персонала.** Цифровизация требует умения работать с новыми технологиями, поэтому недостаточная подготовка сотрудников может привести к ошибкам и неэффективному использованию ресурсов.
- **Ограничения технологий.** Оцифровка может быть недоступна некоторым клиентам, особенно тем, у кого нет доступа к Интернету или нет навыков использования цифровых технологий.
- **Необходимость совершенствования правового регулирования.** Цифровизация страхования может потребовать совершенствования правового регулирования для обеспечения безопасности и конфиденциальности данных, а также для защиты прав клиентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Страховым компаниям можно порекомендовать следующие практические решения для улучшения процесса возмещения ущерба с использованием цифровых технологий:

1. Машинное обучение и использование анализа данных. Страховые компании могут использовать машинное обучение и анализ данных для автоматизации процесса расчета убытков и определения вероятности потери. Это может повысить точность и эффективность процесса.
2. Использование роботизации процессов. Роботизация процессов может улучшить процесс устранения потерь за счет автоматизации задач, ранее выполнявшихся вручную. Это может уменьшить количество ошибок и ускорить процесс.
3. Внедрение облачных технологий. Облачные технологии помогают страховым компаниям улучшить доступность и безопасность информации, а также повысить эффективность процесса урегулирования убытков. Облачные технологии также могут снизить затраты на инфраструктуру и техническое обслуживание.

4. Использование цифровых каналов связи. Использование цифровых каналов связи, таких как электронная почта и мессенджеры, может улучшить коммуникацию между страховой компанией и клиентом, а также сократить время, необходимое для обработки и учета убытков.
5. Обучение персонала. Обучение сотрудников цифровым технологиям поможет страховым компаниям более эффективно использовать новые инструменты и повысить качество обслуживания клиентов.
6. Повышение кибербезопасности. Кибербезопасности следует уделять большое внимание, чтобы защитить конфиденциальную информацию клиентов от утечек и кибератак. Этого можно достичь путем регулярного обновления систем безопасности, резервного копирования данных и повышения осведомленности сотрудников.

Это имеет много преимуществ, таких как оцифровка процесса расчета убытков, связанных со страхованием, включая ускорение процесса, повышение точности и эффективности, улучшение пользовательского опыта. Однако использование цифровых технологий также может быть связано с такими рисками, как кибербезопасность и отсутствие взаимодействия с человеком. Цифровизация страховых случаев является неотъемлемой частью инновационного развития страховой отрасли, позволяющей улучшить качество обслуживания клиентов и повысить эффективность бизнеса.

Литература:

1. Закон Республики Узбекистан “О страховой деятельности” от 23.11.2021 г. № ЗРУ-730
2. Постановление Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по цифровизации страхового рынка и развитию отрасли страхования жизни” от 23.10.2021. г. № ПП-5265
3. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 02.08.2019 г. № ПП-4412
4. Цыганов А. А., Грызенкова Ю. В., Быстров А.В. Организация интернет-страхования: учебное пособие. пособие, Москва: Изд-во . издательство центра ГУУ, 2004.
5. Denuit, M. & Hainaut, D. & Trufn, J. (2019). Effective statistical learning methods for actuaries III. Berlin: Springer International Publishing.

O‘ZBEKISTON VA MDH MAMLAKATLARI SOLIQ TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI



Bobomurotova Manzura Panji qizi
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning soliq yuki, uning optimal darajasi, unga ta’sir qiluvchi omillar, soliqlarning iqtisodiyotdagi ahamiyati borasidagi turli qarashlari nazariy jihatdan o‘rganilgan, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar misolida so‘nggi yillarda iqtisodiyotga soliq yuki darajasi ko‘rib chiqilgan va shu asosda iqtisodiyotga soliq yukini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq yuki, YaIM, soliq stavkalari, konsolidatsiyalashgan byudjet, Laffer egri chizig‘i, amortizatsiya islohoti, soliqli tushumlar.

Abstract: In this article, it is theoretically investigated the tax burden, its optimal level, factors affecting it, various opinions of domestic and foreign scientists regarding the importance of taxes in the economy, the level of tax burden on the economy in recent ears are considered on the example of Uzbekistan and foreign countries, and on this basis are formed scientific conclusions and proposals for optimizing the tax burden on the economy.

Key words: tax burden, GDP, tax rates, consolidated budget, Laffer curve, depreciation reform, tax revenues.

Аннотация: В данной стате теоретически исследовано различные взгляды отечественных и зарубежных ученых на налоговое бремя, его оптималный уровен, факторы, влияющие на него, и значение налогов в экономике, рассмотрен уровен налогового бремени на экономику в последние годы на примере Узбекистана и зарубежных стран, и на этой основе сформированы научные выводы и предложения по оптимизатсии налоговой нагрузки на экономику.

Ключевые слова: налоговое бремя, ВВП, налоговые ставки, консолидированный бюджет, кривая Лаффера, амортизатsionная реформа, налоговые поступления.

KIRISH

Soliq tizimi soliq to‘lovchilar, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subektlar zimmasiga ma’lum bir miqdorda moliyaviy yuk yuklaydi. Mazkur yukni soliq yuki sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir, chunki bu tushuncha tom ma’noda muayyan soliq to‘lovchining mamlakat iqtisodiyotiga umumiy ta’sir ko‘rsatkichini o‘zida mujassamlab, uning daromadlaridan soliqlar va soliq to‘lovlari shaklida davlatga to‘lanadigan ulush sifatida qaraladi. Iqtisodiyotda soliq yuki atamasi ham muayyan soliq to‘lovchiga, ham davlatning alohida subektiga, ham faoliyat sohalariga, ham butun mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan qo‘llaniladi, ya’ni bu iqtisodiy kategoriya mikrodarajada, mezodaraja va makrodaraja ko‘rib chiqiladi. Makroiqtisodiy darajada yoki milliy iqtisodiyot darajasida soliq yuki butun mamlakat iqtisodiyotiga, uning barcha tarmoqlariga va butun aholiga nisbatan aniqlanadi.

Xo‘sh soliq yuki nima va bu tushuncha o‘zi qachon paydo bo‘lgan?

Soliq yuki – bu soliq to‘lovchi tomonidan davlat byudjetiga to‘langan jami soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlardir. Soliq yuki tushunchasi soliqlar tushunchasi paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan. Xususan, soliq yuki haqida XVIII asrda Adam Smit o‘zining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o‘rganish” asarida to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, unda muallif soliq yuki darajasi va davlat byudjetiga mablag‘lar tushishi o‘rtasidagi muhim iqtisodiy bog‘liqlikni ko‘rsatib bergan.

ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yigirma yil ichida mikro va makrodarajadagi soliq yuki masalasi iqtisodiy adabiyotlarda juda keng yoritilgan. Soliq yukini hisoblash muammolari va ularni bartaraf etish usullari T. Toshmurodov, T. Malikov, Q.Yahyoyev kabi mahalliy olimlarimiz, A. Kadushin, N. Mixaylova, Ye. A. Kirova, M. I. Litvin, S. V. Stepanova, A. S. Borodina, D. A. Kuznetsova, T. K. Ostrovenko, S. V. Rezvushkin kabi rus olimlari hamda S. Fisher, R. Dornbush, R. Shmalenzi kabi ko‘plab g‘arb olimlarining asarlari va ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zining “Soliqlar” nomli izohli lug‘atida iqtisodchi olimimiz T. Toshmurodov soliq yukiga shunday ta’rif beradi: “Soliq yuki – xo‘jalik yurituvchi subekt yoki fuqaro to‘laydigan barcha soliqlar va to‘lovlar yig‘indisining daromadga nisbatidir. Soliq yuki soliqlar, yig‘imlar va to‘lovlar yig‘indisining xo‘jalik yurituvchining moliyaviy ahvoliga qanchalik ta’sir ko‘rsatishi bilan tavsiflanadi” [Toshmurodov, 2013].


T. Malikovning ta’kidlashicha mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi soliqlar miqdorining yalpi ichki mahsulot miqdoriga nisbati soliq yuki deyiladi. Unga boshqacharoq ta’rif ham berish mumkin: soliq yuki – davlat xarajatlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbati. Biroq soliq yukini faqat mamlakat miqyosida emas, balki alohida olingan tarmoqlar, hududlar, korxonalar yoki xo‘jalik yurituvchi subektlar uchun ham aniqlash mumkin. Buning uchun soliq yuki og‘irligini o‘lchashning alohida tartibiga rioya qilish kerak [Malikov, 2022].

Q. Yahyoyev bergan ta’rifga ko‘ra esa, soliq yuki – soliq to‘lovchining byudjetga to‘lanadigan hamma soliqlari va yig‘imlari yig‘indisidir. Soliq yuki foydaga yoki jami daromadga nisbatan olinadi. Mamlakat miqyosida hamma to‘langan soliqlar va yig‘imlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i ham soliq yukini ifodalaydi [Yahyoyev, 2003].

Taniqli iqtisodchi A. Laffer soliq tushumlari va soliq stavkalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘zining Laffer egri chizig‘i deb nomlangan grafik tasvirida aks ettirgan bo‘lib, unda byudjetga soliq tushumlarini maksimal darajaga oshirish imkonini beruvchi soliqqa tortishning optimal darajasi mavjudligi nazarda tutiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra soliq yukini kamaytirish soliq to‘lovchilar soni ko‘payishiga olib keladi. Ya’ni, bunday vaziyatda kam daromadli odamlar ham soliq to‘lay oladi, soliq solinadigan baza kengayadi, jamiyatning iqtisodiy faol a’zolari soni ortadi. Stavkalarning oshishi esa, aksincha, kutilmagan salbiy oqibatlarga olib keladi. Zero VII asrda yashab o‘tgan taniqli islom olimi Ibn Xaldun shunday yozgan edi: “Sulolalar tarixining boshida soliqlar kam, g‘azna to‘la bo‘lgan. Hokimiyat inqirozga yuz tutganda esa, soliqlar ko‘p, g‘azna esa bo‘shab qolgan” [Zobova, 2012].

Yuqori soliq stavkalari bir tomondan davlat byudjetiga tushumlar ortishini ta’minlaydigandek ko‘rinishi mumkin, ammo amalda bu aksincha holatni keltirib chiqaradi, ya’ni byudjetga soliqli tushumlarni kamaytiradi. Sababi, soliqlar oshgani sayin, odamlarning mehnatga va sarmoya kiritishga bo‘lgan qiziqishlari pasayadi va o‘z-o‘zidan ular kamroq ishlab chiqaradilar va kamroq iste’mol qiladilar, natijada byudjetga soliq tushumlari kamayadi. Buning teskari ta’siri soliq yukining kamayishi bo‘lib, bu jamg‘armalarning ko‘payishiga, investitsiyalar, bandlik va ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib keladi.

P. Yu. Buryak va S. L. Londar soliq yuki kamaytirilganda, avvaliga, byudjetga soliq tushumlari tushishi qisqa muddatga kamayishi, biroq ko‘p o‘tmay ularning eksponensial o‘sishi ro‘y berishini asoslab berishgan (1-rasm) [Buryak va Londar, 2002]. Bunda asosiy g‘oya shundan iboratki, soliq stavkasi oshganida soliq tushumlarining qisqa muddatli oshishi va keyinchalik soliq solinadigan bazaning qisqarishi hisobiga uzoq muddatga daromadlarning kamayishi kuzatiladi. Soliq stavkasini pasaytirgandagi vaziyat esa aksincha. Bu 1-rasmda aniq ko‘rsatilgan.



1-rasm: Laffer egri chizig‘i “Soliq tushumlari – vaqt” koordinatalarida:
a - soliq yuki kamayganda; b - soliq yuki ortganda. Bu yerda F(x) – byudjetga soliq tushumlari, t – vaqt

S. Fisher soliq yuki soliq to‘lovchilar bilan bir qatorda shu mahsulotni xarid qiluvchi iste’molchilarga ham tushishini va bu soliq hisobiga firmaning foydasi kamayishi va yakuniy iste’molchi daromadining bir qismi xarid qilingan tovarga qo‘shimcha mablag‘ to‘lashda o‘z ifodasini topishini aytadi [Fisher va boshq., 2001].

Yuqorida nomlari tilga olingan mualliflarning har biri o‘z asarida soliq yukiga o‘ziga xos ta’rif bergan va uni hisoblashning mavjud uslubiy vositalarini tahlil qilib, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini ochib bergan hamda ularni qo‘llash bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon etib, ko‘plab takliflar bildirgan. Tavsiya etilgan usullar hisoblash formulasiga kiritilgan soliq to‘lovlarining tarkibi, soliq xarajatlarini tan olish usuli (hisoblash usuli yoki kassa usuli asosida), shuningdek soliqlar solishtiriladigan ko‘rsatkich bilan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada iqtisodiy tadqiq etish metodikasi, tizimli tahlil, monografik tahlil, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi, “soliq yuki” bo‘yicha tizimli adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, “soliq yuki” iqtisodiy tushuncha, moliyaviy ko‘rsatkich sifatida turli adabiyotlarda “soliqlarning YaIMdagi ulishi”, “iqtisodiyotga soliq yuki”, “soliq og‘irligi” tushunchalari sifatida ham o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish eng avvalo soliq to‘lovchilarga soliq yukini kamaytirishdan boshlanadi, ya’ni makrodarajadagi soliq yukining asosini shubhasiz mikrodarajadagi soliq yuklari yig‘indisi tashkil etadi. Shuni inobatga olgan holda xo‘jalik yurituvchi subektlarning, ya’ni byudjetdagi soliqli daromadlarining asosiy qismini ta’minlaydigan soliq to‘lovchilarning soliq yukini aniqlash masalasi har doim dolzarb bo‘lib kelgan. Qaysi iqtisodchi olim tomonidan soliq yuki mavzusi ko‘tarilmasin bundan ko‘zlangan maqsad shubhasiz davlat byudjetining soliqli tushumlarini kamaytirib yubormagan holda soliq to‘lovchilarga soliq yukini kamaytirish yo‘llarini tahlil qilish va ular orasidan eng maqbulini taklif qilish bo‘lgan. Shu niyatda ular avvalambor soliq yuki darajasini to‘g‘ri aniqlashga urinishgan va soliq yukini hisoblash bo‘yicha o‘z usullarini ishlab chiqishgan.

Hozirgi vaqtda soliq to‘lovchilar uchun soliq yukini hisoblashning juda ko‘p usullari mavjud, ular quyidagi ikki jihatga ko‘ra bir-biridan farq qiladi:

- *birinchidan,* soliq yukini hisoblashga kiritiladigan soliqlar tarkibi turlicha;
- *ikkinchidan,* ko‘plab usullarda to‘langan soliq va yig‘imlar miqdori nisbat qilib olinadigan ko‘rsatkich har xil bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 dekabrdagi “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 1-sonli qarorida soliq yukini aniqlash tartibi quyidagicha ko‘rsatilgan:

$$B = T \times 100\% / In$$

Bunda:

B — soliq yuki;

T — soliq davri davomida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar summasi;

In — soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan tushgan daromad.

Bu usulda hisoblangan soliq yuki ko‘rsatkichi yalpi tushumda soliqlarning tarkibi hisobga olinmasligi sababli soliqlarning moliyaviy holatga ta’sirini ko‘rsatib berolmasa-da, biroq to‘langan soliqlarning yalpi tushumdagi ulushini aniqlab beradi.

Turli xo‘jalik yurituvchi subektlarda soliq yuki darajasi subektga bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan qator ichki va tashqi omillar natijasida bir-biridan farq qilishi mumkin. Barcha tadbirkorlik subektlari bo‘yicha o‘rtacha soliq yukini hisoblash ilg‘or texnologiyalarning hayotimizga kirib kelganiga qaramay hanuzgacha murakkab ish bo‘lgani sababli soliq to‘lovchilarga soliq yukini kamaytirishda asos qilib makroko‘rsatkich – iqtisodiyotga soliq yuki darajasini olish maqsadga muvofiq.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda YaIMga nisbatan konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari bo‘yicha o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Biroq bunga sabab soliq stavkalarining oshishi emas balki soliq to‘lovchilar sonining va soliq bazasining ortishidir. Zero so‘ngi yillarda yurtimizda bir nechta soliq turlari bo‘yicha soliq stavkalari sezilarli darajada kamaydi va aynan shuning hisobiga soliq to‘lovchilarning tadbirkorlikka qiziqishi ortdi, hamda soyali iqtisodiyotdan chiqish holatlari ko‘paydi. Shu munosabat bilan soliqlarning YaIMdagi ulushi ham ortdi.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida 2018-2022 yillar uchun YaIM va unga nisbatan davlat byudjeti daromadlarining ulushi[1] (mlrd so‘m)

	2018-y.		2019-y.		2020-y.		2021-y.		2022-y., prognoz	
	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da
YaIM	406 648		529 391		602 551		734 588		839 989	
Konsolidasiyalashgan byudjet daromadlari	107 035	26,3%	137 057	25,9%	156 249	25,9%	196 405	26,7%	254 583	30,3%

1 https://www.norma.uz/oz/raznoe/soliq_tizimi_muammolar_va_istiqbollari1


2-jadval: Belarus Respublikasida 2018-2022-yillar uchun YaIM va unga nisbatan davlat byudjeti daromadlarining ulushi[2] (mlrd Belarus rubli)

	2018-y.		2019-y.		2020-y.		2021-y.		2022-y., prognoz	
	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da
YaIM	121,6		134,7		147		173,2		186,7	
Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari	31,4	25,8%	33,0	24,5 %	39,4	22,7%	39,4	22,7%	47,2	25,3%

Dunyoning boshqa davlatlari iqtisodiyotiga nazar soladigan bo‘lsak MDH davlatlarida soliq yuki darajasi biznikidan juda katta farq qilmaydi, ammo rivojlangan, xususan g‘arb mamlakatlarida bu ko‘rsatkichning biznikidan ancha yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin.

3-jadval: Buyuk Britaniyada 2018-2022 yillar uchun YaIM va unga nisbatan davlat byudjeti daromadlarining ulushi[3] (mlrd dollar)

	2018-y.		2019-y.		2020-y.		2021-y.		2022-y., prognoz	
	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da	Summa	YaIMga nisbatan %da
YaIM	2 900,79		2 878,67		2 756,90		3 186,86		3 380,0	
Byudjet daromadlari	838,4	34,6%	877,6	32,8%	840,5	32,8%	918,4	34,7%	1254	37,1%



2-rasm: 2018-2022-yillar kesimida O‘zbekiston, Belorussiya va Buyuk Britaniyada soliq yukining o‘zgarishi[4]

A. Laffer 2019-yil O‘zbekistonga tashrifi vaqtida bergan intervyusida shunday degan edi: “Rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan mamlakatlar tajribasiga murojaat qilishlari kerak, ularning bugungi amaliyotiga emas”[5]. Darhaqiqat bugungi amaliyotning natijasi ertaga ko‘rinadi, shunday ekan soliq siyosati sohasida boshqa dav-

2 Jahon banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
3 Jahon banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
4 Yuqoridagi jadvallar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
5 Рейган ва Тетчерга маслаҳатчи бўлган иқтисодчидан қимматли сабоқлар: Катта солиқ юки ғазнани тўлдирмайди. https://kun.uz/uz/85393573

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

latlar amaliyoti tahlil qilinganda, asosiy e'tiborni ularni bugungi natijaga olib kelgan islohotlariga qaratish, muvaffaqiyatlilarini olish, samarasizlaridan esa xulosa chiqarish lozim.

Bu yerda Belorussiya tajribasiga qaralsa soliq yuki 2018-2021-yillarda kamayish tendenцiyasiga ega (2-rasm), 2022-yil haqida esa hali yil yakuni bo'yicha hisobot taqdim etilmagani uchun aniq xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Mamlakatda iqtisodiyotga soliq bosimining kamayishiga tahlil qilingan davrdan oldin ichki soliq tizimidagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar ta'sir ko'rsatgan, jumladan: aylanmadan soliq bekor qilingan, ko'chmas mulkka soliq solish obektidan asosiy vositalarning faol qismi chiqarib tashlangan, deyarli barcha mahalliy soliqlar va yig'imlar bekor qilingan, soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi bo'yicha soliq stavkalari pasaytirilgan va boshqa bir qator muhim yangiliklar kiritilgan. 2012-yilda daromad solig'i stavkasining 24 foizdan 18 foizga tushirilishi, "amortizatsiya mukofoti"ning joriy etilishi, zararlarni kelgusidagi foydaga o'tkazilishi, mahalliy ishlab chiqarishining innovatsion va yuqori texnologiyali mahsulotlarining rag'batlantirilishi Belarus Respublikasi iqtisodiyotining investitsion jozibadorligini va uning raqobatbardoshligini oshirishda soliq yuki yanada optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qatoridandir [Vladыkovskiy, 2012].

2022-yilgacha Belarus Respublikasida quyidagi respublika darajasidagi soliqlar amalda edi: qo'shilgan qiymat solig'i, akцizlar, foyda solig'i, doimiy vakolatxona orqali Belarus Respublikasida ishlamaydigan xorijiy tashkilotlarning daromadlariga soliq, jismoniy shaxslarning daromad solig'i, mulk solig'i, yer solig'i, ekologiya solig'i, tabiiy resurslarni qazib olganlik uchun soliq; offshor yig'imi; gerb yig'imi; konsullik yig'imi; davlat boji; patent bojlari; bojxona bojlari, bojxona yig'imlari va shaxsiy foydalanish uchun tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlari; utilizatsiya yig'imi.

Soliqlar mamlakat byudjetining eng katta moliyaviy tarkibiy qismi bo'lganligi sababli, bu daromadni oshirish har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo har qanday soliq to'lovchining istagi buning teskarisi – o'ziga tushadigan soliq yukini maksimal darajada kamaytirishga erishish. Buning esa har qanday soliq to'lovchi korxona faqat oqilona moliyaviy strategiya tuzish orqali uddasidan chiqishi mumkin.

Biroq puxta moliyaviy strategiya tuzish va uni amalga oshirish hamma korxonaning ham qo'lidan kelavermaydi va ko'pincha tashqi omillar bunga juda katta to'sqinlik qiladi. Oqibatda soliq to'lovchi to'layotgan soliqlar va to'lovlar miqdori u olayotgan foyda oldida juda katta bo'lib ko'rindi va soliq to'lovchi bu soliqlarni to'lashdan qochish va ularni to'lamaslik yo'lini izlay boshlaydi. Mana shu erda sahnaga xufiyona iqtisodiyot chiqib keladi.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash jahonning ko'plab davlatlarida kuzatiladi. Xususan bizning mamlakatimiz iqtisodiyotida ham yashirin sektor keng quloch yozgan bo'lib, u soliq yukining darajasiga har doim salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan, chunki u soliq yukining soliqlarni yig'ishga ta'sirini aniq baholashga va mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan real soliq yuki darajasini aniqlashga imkon bermaydi.

Mamlakat iqtisodiyotga nisbatan soliq yuki darajasini pasaytirish chora-tadbirlarini ikki xil yo'nalishda amalga oshirish mumkin. (4-jadval)

4-jadval: Soliq yukini kamaytirish yo'nalishlari

Soliq yukini kamaytirishning qonunchilik yo'nalishi	Moliyaviy vositalarni teng taqsimlash yo'nalishi
1. Asosiy soliq turlarining soliq stavkalarini pasaytirish	1. Yashirin iqtisodiyot sektori ulushini kamaytirish
2. Soliqqa tortishni universallashtirish	2. Soliq intizomini mustahkamlash
3. Soliqlar sonini kamaytirish	3. Soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish

Asosiy soliq turlarining soliq stavkalarini pasaytirish, shubhasiz, soliq yukini kamaytirishning eng tezkor usulidir, ammo bu echim davlatning soliqli tushumlarini keskin kamayishiga olib keladi, shuning uchun ham bu yo'lni tanlash osongina qabul qilinadigan qaror bo'lmasligi, aksincha juda chuqur tahlillarga asoslanishi kerak.

Shu jihatdan ba'zi vaqtlarda davlatlar soliq yukini kamaytirish chora-tadbirlarini olib borayotganiga qaramay muayyan soliq turlari bo'yicha soliq stavkasini oshirishi holatlari ham kuzatiladi. Masalan, Rossiyada 2019-yil 1-yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 18 foizdan 20 foizga oshirildi, chunki bu soliq soliqli tushumlarni shakllantirishning asosiy moddalaridan biri bo'lib, so'ngi yillarda uning ulushi davlat federal byudjetining kamida 35 foizini tashkil etmoqda.

Soliqqa tortishni universallashtirish mamlakat soliq tizimi tomonidan muayyan soliq to'lovchining xo'jalik yuritish samaradorligiga uning mulkchilik shakli, soliqqa tortish subektidan, uning qaysi tarmoqqa yoki yo'nalishga mansubligidan qat'i nazar bir xil talablarni qo'yishi kerakligini anglatadi. Universallashtirish tamoyili daromad manbai va daromadlarni shakllanish joyi yoki soliqqa tortish obektidan qat'i nazar, soliqlarni hisoblashda bir xil yondashuvni ta'minlashni nazarda tutadi.

Iqtisodiyotning yashirin sektori ulushini kamaytirish mamlakatning soliq yukini kamaytirishning eng samarali vositasi bo'la oladi, chunki mahalliy iqtisodchilarimizning kuzatishlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyotning ulushi so'ngi yillardan mamlakat yalpi ichki mahsulotining 40-50%i miqdorida bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiyotning xufiyona sektori ko‘lamini qisqartirishga esa quyidagilar orqali erishish mumkin:

- soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- soliq qonunchiligi bo‘yicha jarimalarni oshirish;
- yashirin iqtisodiyotdan ixtiyoriy chiqishni rag‘batlantirish;
- soliq to‘lovchilarning xufiyona sektorga o‘tib ketishidan olib qoladigan aloqalar va ittifoqlarni yaratish.

Umuman olganda so‘nggi yillarda O‘zbekistonda bu yo‘nalishlarning barchasi bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi, jumadan Soliq kodeksi qaytadan ko‘rib chiqilib, tegishli o‘zgartirishlar kiritildi, soliqlar turlari kamaytirildi va soliq stavkalari muayyan soliq turlari uchun pasaytirildi, soliqqa tortiladigan baza kengaytirildi va xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha ko‘plab chora-tadbirlar qo‘llandi. 2020-yil 30-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6098-son farmoni ham shular jumlasidan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-son qaroriga 1-ilovada Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi belgilandi va uning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida Soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqartirish va shu maqsadda soliq yukini optimallashtirish (kamaytirish va baravarlashtirish) belgilab qo‘yildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilayotgan islohotlar yildan yilga mamlakatimiz iqtisodiyotini ijobiy tomonga siljishiga yordam berayotgan bo‘lsada, biroq hali bu sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlarining maqbul darajasini belgilashda ishlab chiqarishni rivojlantirishni iqtisodiy rag‘batlantirish, ya’ni tovar ishlab chiqaruvchining manfaatlarini birinchi o‘ringa chiqarish kerak. Tadbirkorlik muhitiga soliq yukining yuqori darajasi ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxining oshishi bilan bir vaqtning o‘zida bozorda tovar va xizmatlar taklifining pasayishiga ham olib keladi.

Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish maqsadida tadbirkorlik subektlariga soliq yukini kamaytirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim:


1) investitsiyalar va innovatsiyalar uchun maqsadli soliq imtiyozlari ro‘yxati va ko‘lamini kengaytirish.

2) mamlakatda amortizatsiya islohotini o‘tkazish. Barcha hududlarda jadallashtirilgan amortizatsiya qo‘llashga o‘tish daromad solig‘i to‘lanadigan umumiy foyda qismini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Tadbirkorlikka soliq yukini kamaytirishning ushbu usulidan foydalanish orqali davlat investitsiyalar uchun daromad solig‘i ko‘rinishidagi byudjet tushumlaridan ko‘ra bir necha barobar ko‘proq qo‘shimcha moliyaviy resurslarni qo‘lga kiritishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Буряк P.Yu., Лондар С.Л. (2002) Влияние налоговой ставки на доходы бюджета // Финансы Украины. № 1. С. 41–44.
2. Владыковский А.С. (2012) Пути снижения налоговой нагрузки на экономику Республики Беларус //СБОРНИК научных статей студентов, магистрантов, аспирантов Выпуск 9 – МИНСК: ИЗДАТЕЛСТВО “ЧЕТЫРЕ ЧЕТВЕРТИ” С. 27-29
3. Зобова I.Yu. (2012) Налоги и налогообложение в странах с исламской экономикой: Учеб. пособие. – КАЗАН: С. 154
4. Кадушин А.Н., Михайлова Н.М. (2005) Насколко посилно налоговоэ бремя в России (попытка количественного анализа) // Финансы. №7. С. 15-21
5. Кирова Е.А. (1998) Методология определения налоговой нагрузки на хозяйствующие субъекты // Финансы. №9. С. 32
6. Литвин М.И. (1998) Налоговая нагрузка и экономические интересы предприятий // Финансы. №5. С. 29.
7. Malikov T. (2022) Agar ogohsen... Ilmiy-ommabop monografiya – T.: Iqtisod-moliya. 410 b.
8. Пансков В.Г., (2016) Налоговая нагрузка на экономику: Нужен налоговый маневр. №5. С. 130–138
9. Qaror (2019) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-son (https://lex.uz/docs/4415356)
10. Toshmurodov T. (2003) Soliqlar izohli lug‘ati – Toshkent: “Mehnat”. 116 –bet.
11. Farmon (2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6098-son (https://lex.uz/docs/5073459)
12. Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. (2001) Ekonomika: Per s angl. 2-go izd. – M.: Delo. 829 s
13. Yahyoyev Q.A. (2003) Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti. 247-b.

SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TIZIMIDA SAMARALI SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISH MASALALARI





Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Bobomurotova Manzura Panji qizi
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada soliq ma'muriyatchiligini isloh etish, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, samaradorligini oshirish va rivojlanishi bo'lgan "raqamli iqtisodiyot"ni shakllantirish, shuningdek, soliq nazorati sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma hamda standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Soliq ma'muriyatchiligi, soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditi, soliq monitoringi.

Abstract: In this scientific article, the reform of tax administration, the further improvement of the activities of state tax service bodies, the formation of a "digital economy" with the purpose of increasing their efficiency and development, as well as the implementation of universally recognized international norms and standards in the field of tax control into national legislation acceleration of doing is reflected.


Key words: Tax administration, tax control, tax audits, a cameral (in-house) tax inspection, an on-site tax inspection, an audit of tax operations, tax monitoring.

Аннотация: В этой статье исследуется реформирования налогового контроля, дальнейшего совершенствования и повышения эффективности деятельности государственных органов налоговой службы, формирования "цифровой экономики", являющейся логическим продолжением и развитием использование современных информационно коммуникационных технологий, а также ускорения имплементации в национальное законодательство общепринятых международных норм и стандартов в сфере налогового контроля.

Ключевые слова: Налоговая администрация, налоговый контроль, налоговых проверок, камеральная налоговая проверка, выездная налоговая проверка, налоговый аудит, налогового мониторинга.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash, biznes yuritish uchun qulay bo'lgan sharoitlar yaratish va yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yurtboshimiz tomonidan ta'kidlanganidek, O'zbekistonda o'zining katta investitsion loyihalarini amalga oshirish niyatida bo'lgan investorlar uchun mamlakatimizni jozibali qilish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz kerak. "2019-yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi, shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin"[1].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi, 2017 yil 28 dekabr.



1-rasm: Qonun-hujjatlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi[2]

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonunida soliq nazorati va soliq tekshiruvlari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan davlat soliq xizmati organlarining huquqlari va majburiyatlari, ularning boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligi va soliq idoralari mas’ul xodimlarining javobgarligini belgilovchi qoidalar ko‘zda tutilgan. Mamlakatimizda davlat soliq xizmati idoralariga asosiy vazifalardan biri sifatida soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish belgilab qo‘yilgan[3].

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida davlat soliq xizmati idoralari faoliyati tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida soliq nazorati olib borishning zamonaviy shakllarini joriy qilish nazarda tutilgan. Mazkur Farmonga asosan soliq idoralari va “qonunlarga itoatkor - halol soliq to‘lovchilar” o‘rtasida soliqqa tortishga oid masalalarni hal etishda ko‘p tomonlama yordamlashgan holda kengaytirilgan axborot almashishni ko‘zda tutuvchi soliq nazorati o‘tkazishning zamonaviy shakllaridan biri bo‘lgan soliq monitoringi joriy etildi.

Soliq tizimida investitsion faollikni hamda ishbilarmonlikni oshirish, raqobatning sog‘lom muhitini shakllantirish, ta’sirchan hamda samaraga qaratilgan soliq nazoratini yo‘lga qo‘yish orqali xufiyona iqtisodiyotga barham berish kabi, soliqqa oid amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali bo‘lishiga to‘sqinlik qilayotgan ba’zi bir kamchilik hamda muammolar ham mavjud ediki, ularni bartaraf etish bugungi kunimizning dolzarb o‘z echimini kutayotgan va kechiktirib bo‘lmaydigan masalalaridan biri bo‘lib, ularga munosib yechim topish davlat va jamiyat manfaatlari uchun birdek ijobiy xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli, soliq nazoratining birmuncha eskirgan uslubi hamda prinsiplariga asoslangan soliq idoralari faoliyatini tashkil etilishi ushbu idoralar oldiga qo‘yilgan muhim yangi vazifalarni hal etish, shu jumladan, soliqqa tortiladigan bazani yanada kengaytirish hamda soliqlar va yig‘imlarning yig‘iluvchanligi oshirilishini ta’minlash imkonini bermaganligi natijasida yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi doirasida soliq ma’muriyatchiligi hamda soliq nazorati bo‘yicha amaliyotga yangicha tizim joriy qilindi.



2-rasm: Soliq nazorati shakllari[4]


2 O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni va Soliq kodeksida “Soliq nazorati” haqida ko‘zda tutilgan qoidalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3 Matn O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni 4, 5, 6 va 13-moddalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

4 O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-599-sonli Qonuni bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 136-moddasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ma’lumki, “Soliq tekshiruvlari soliq hamda yig‘imlarni to‘lovchilar, shuningdek, soliq agentlari faoliyatida ular tomonidan soliqlar to‘g‘risidagi qonunchilikka amal qilinishi ustidan nazorat olib borish maqsadida o‘tkazilib, u soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi soliq idorasida mavjud bo‘lgan axborot hamda ma’lumotlarni tahlil qilinishi va o‘rganilishi asosida amalga oshiriladi”[5].



3-rasm: Soliq tekshiruvi turlari[6]

Shu o‘rinda aytish joizki, Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham ta’sirchan tarzdagi jamoatchilik nazoratini olib borishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda raqamlashgan holdagi texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish orqali jamoatchilik nazoratini yana ham kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Biziningcha, samarali soliq nazoratini ta’minlashda sayyor soliq tekshiruvlarini jamoatchilik nazorati asosida “Soliq mobil” ilovasi orqali tashkil etilishida taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishishda ma’lum bir ijobiy ma’noda xizmat qilmoqda.

Yurtimizda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirilishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan tashkil etilayotgan uchrashuvlari ham ijobiy xizmat qilmoqda, desak noto‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgust kuni yurtimiz tadbirkorlari bilan navbatdagi ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda Prezidentimiz beshta asosiy yo‘nalishni ko‘rsatib o‘tib, ularning har biri bo‘yicha ko‘plab tashabbuslarni ilgari surdi. Beshinchi yo‘nalishda tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortish masalalariga to‘xtalib o‘tildi. Avvalo, tadbirkorlarga nisbatan yangi javobgarlik va jazo choralarini joriy etishga 3-yillik moratoriy e’lon qilindi. Unga ko‘ra 26 ta idoraning takrorlanuvchi nazorat funksiyalari bekor qilindi. Davlatimiz rahbari soliq tekshiruvlariga oid jarimalar turi ko‘pligi va og‘irligi bo‘yicha juda ko‘p murojaatlar bo‘lganiga e’tibor qaratdi. Misol uchun, oyiga o‘rtacha 1 million so‘m soliq to‘laydigan kichik tadbirkorlarga 5 milliondan 10 million so‘mgacha moliyaviy jarima qo‘llanmoqda. Ya’ni kichik tadbirkorlar uchun ham, yirik korxonalar uchun ham jazo bir xildir. Davlatimiz rahbari barcha turdagi tekshiruvlar Biznes-ombudsman tomonidan muvofiqlashtirilishi, jarimalar miqdori tadbirkor to‘layotgan soliq miqdoridan oshmasligi kerakligini ta’kidladi. Tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldini olish, nazorat qiluvchi organlarning mas’uliyatini oshirish va faoliyati ochiqligini ta’minlash maqsadida yurtboshimiz tomonidan “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror imzolandi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab nazorat qiluvchi organlarga “Yagona davlat nazorati” axborot tizimidagi davlat nazorati funksiyalari reestriga kiritilmagan funksiyalar bo‘yicha tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazish taqiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror “Tekshirishlarni ro‘yxatga olish kitobini to‘ldirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom ham tasdiqlandi. Unga ko‘ra endilikda tekshirishlarni ro‘yxatga olish kitobi faqat elektron shaklda yuritiladi. Qaror asosida nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom hamda nazorat qiluvchi organlarning xavfni tahlil etish tizimlariga qo‘yiladigan minimal talablar ham tasdiqlangan.

Mamlakatimizda soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi[7]. Bugungi kunda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, ya’ni jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatmoqda. Shu boisdan bugungi kun bizdan davlatimizni yanada barqaror va jadal

5 Matn O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilgan Soliq Kodeksining 137-moddasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

6 O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilgan yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi 137-moddasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-son Farmoni.

sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda[8].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Biznes muhitini yanada yaxshilash biz uchun eng muhim masalalardan biri bo'lib qoladi. Shu boisdan jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo'yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qildik"[9].

Bugungi kunda ham soliq ma'muriyatchiligi sohasida, jumladan, soliqlar va yig'imlarni yig'ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lash bo'yicha o'z konstitutsiyaviy burchini ixtiyoriy bajarishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish yurtimiz va xalqimiz farovonligi uchun foydadan xoli bo'lmaydi. Soliq sohasiga oid yangi qabul qilinayotgan bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarda mamlakatimizda davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari etib soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish belgilangan. Soliq ma'muriyatchiligi va soliqqa tortishning zamonaviy usullarini, soliqlarning to'liq yig'iluvchanligi va byudjetga o'z vaqtida tushishi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq-byudjet siyosatini yanada takomillashtirish, byudjet jarayoni shaffofligi darajasini oshirish, respublika soliq organlari faoliyatini, jumladan, ularning soliq to'lovchilar va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish, soliq nazoratining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish jarayonlarini muntazam tadqiq etib borish dolzarb hisoblanadi.

V. Panskov fikricha "Soliq ma'muriyatchiligi – bu soliqlarni rejalashtirish, soliqlar va yig'imlar tizimini shakllantirish va takomillashtirish, soliq to'g'risidagi qonunlar hujjatlariga rioya etilishi va soliq munosabatlari ishtirokchilarining majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish bo'yicha davlat va mahalliy organlarini boshqarish faoliyatidir", deya ta'riflagan[10].


I. Aleksandrov ta'kidlashicha "Soliq ma'murchiligi soliq organlari, moliyaviy organlarning soliqqa tortish sohasidagi boshqaruv faoliyatidir" .

D. Meshkova tomonidan "Soliq ma'murchiligi deganda birinchi navbatda fiskal organlari bilan majburiy shaxslarning jarayonlar va protsessual aspektlar bo'yicha o'zaro munosabatlari tushuniladi" .

A. Sherbakov tomonidan esa "Soliq ma'murchiligining mohiyati soliq organlari va soliq to'lovchilarning soliqlarni undirishda yuzaga keladigan ishlab chiqarish va xo'jalik shakllaridagi munosabatlarini harakterlash bilan belgilanadi" .

Sayyor soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining buyrug'i asosida o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatda o'tkaziladigan tekshiruv turi hisoblanadi, soliq tekshiruvini o'tkazish jarayonida hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag'lari harakatining, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa axborotning tahlili o'tkaziladi. Shuningdek, ushbu tekshiruvda soliq organlari profilaktika tadbirlarini va xronometraj kuzatuvlarini amalga oshirishga, nazorat-kassa texnikasi va to'lov terminallari qo'llanilishini tekshirishga va soliq nazoratining boshqa tadbirlarini o'tkaziladi hamda xolisona amalga oshirish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlar olish zarurati yuzaga kelgan hollarda ham sayyor soliq tekshiruvi tayinlanishi mumkin.

Sayyor soliq tekshiruvining ahamiyatli jihatlaridan biri shuki, uning yakunlari bo'yicha qo'shimcha soliqlar yig'imlar hisoblanishi amalga oshirilmaydi.



1-rasm: Sayyor soliq tekshiruvi to'g'risida tushuncha[11]

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

10 Пансков В.Г. (2016) Налоги и налогообложение. Учебник и практикум. 5-е изд, перераб. и доп. – М.: "Издетелство Юрайт", 206 с.

11 O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- soliq xavfini boshqarish tizimi orqali aniqlangan, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish xavfi mavjudligi;
- jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq yoxud valyuta to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari to‘g‘risidagi murojaatlari, shu jumladan, tovarlar va xizmatlarning narxini asossiz oshirib yuborish holatlari to‘g‘risida, yo‘lovchilarni engil avtotransport vositalari bilan tashish bo‘yicha noqonuniy tadbirkorlik faoliyati;
- ommaviy axborot vositalarida soliqqa va valyutaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilinganda;
- o‘tkazilayotgan kameral soliq tekshiruvini xolisona amalga oshirish maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlar olish zarurati yuzaga kelganda;
- sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan soliq va valyutaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida dalolat beruvchi axborot tushganda;

Sayyor soliq tekshiruvining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, tekshiruv natijalari bo‘yicha soliqlar va yig‘imlar hisoblanmasada, uni o‘tkazish davomida olingan hujjatlar va axborotlardan kameral soliq tekshiruvini o‘tkazishda foydalanilishi mumkin.

Sayyor soliq tekshiruvida soliq to‘lovchi tomonidan tekshiruvni o‘tkazuvchi mansabdor shaxsning hududi va binolariga kirishiga to‘sqinlik qilingan taqdirda, tekshiruv o‘tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan dalolatnoma tuziladi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi tekshirilayotgan shaxs to‘g‘risida o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar yoki xuddi shunday soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini mustaqil tarzda aniqlashga haqli. Dalolatnoma sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxs va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadi. Tekshirilayotgan shaxs ko‘rsatilgan dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, mazkur dalolatnomaga bu haqida tegishli yozuv kiritiladi.

Sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha tekshiruvni o‘tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomaning bir nusxasi soliq to‘lovchiga dalolatnoma bilan tanishib chiqib, uni olganligi va sanasi ko‘rsatilgan imzosi orqali topshiriladi. Soliq to‘lovchi dalolatnomani olishdan bosh tortganda, dalolatnomaga tegishli yozuv kiritiladi va uning bir nusxasi soliq to‘lovchiga shaxsiy kabineti yoki pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi. Tekshiruvi dalolatnomasi soliq to‘lovchiga topshirilgan kun yoki unga yuborilgan kun soliq tekshiruvi yakunlangan kun hisoblanadi. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish uchun asos bo‘lgan hujjatlarning nusxalari, tekshiruv davomida rasmiylashtirilgan hujjatlar, ekspert va mutaxassislar xulosalari, sayyor soliq tekshiruvi davomida olingan materiallar, shuningdek, sayyor soliq tekshiruvi doirasidagi harakatlarning bajarilishini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar tekshiruv dalolatnomasiga ilova qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish soliq nazorati va soliq tekshiruvlari hamda soliq auditiga doir soliq kodeksidagi moddalarini ko‘rib chiqish, tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi;
- davlat soliq xizmati to‘g‘risidagi qonunchilik hamda soliq kodeksida soliq nazorati tushunchasi qoidalarini bir-biriga muvofiqlashtirish zarur;
- ishlab chiqilayotgan tadbirkorlik kodeksida soliq nazorati bilan bog‘liq ko‘zda tutilgan qoidalar soliq kodeksi bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog‘liq qonun-hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilishini ta’minlash;
- sayyor soliq tekshiruvi hujjatlari va xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati bilan bog‘liq axborotlarni tahlil qilish, soliq organlari profilaktik tadbirlari, xronometraj kuzatuvlari, soliq auditi hamda soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish tartiblarini qonunchilikda mustahkamlash;
- soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi haqida xabarni boshlanishidan oldin berish va soliq auditi o‘tkazish barcha tegishli ma’lumotlar ko‘rsatilishi, soliq auditi o‘tkazilayotgan davrda soliq hisobotlariga soliq to‘lovchi tomonidan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin emasligi soliq kodeksining tegishli moddalarida mustahkamlab qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risi”dagi PF-4947-son Farmoni. - www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-sonli farmoni, 2019-yil 26-sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ4389-son qaroriga 1-ilova ”Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi”ning 3-bob, 3.3-bandi. “Экономика и социум” №3(94)-2 2022 www.iupr.ru 259
4. Алиев А. М. Совершенствование механизма налогообложения / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2011. - 21 с.
5. Савченко Н. Б. Совершенствование платежной дисциплины в механизме налогообложения предпринимательской деятельности / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2011. - 27 с.
6. Шлянкевич С. В. Усиление контрольной функции налогов в современном механизме налогообложения / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2012. - 29 с.
7. Алиев Х. Б. Развитие налогового контроля в РФ / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2012. - 23 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

BANKLARDA AKTIVLAR PORTFELLARINING ZAMONAVIY HOLATI



Murodova Mohigul Chori qizi
PhD, Toshkent moliya instituti
“Iqtisodiy xavfsizlik” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining kredit va qimmatli qog‘ozlar portfellarining sifatini oshirish, xususan, kreditlarning daromadliligi va risk darajasi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarga va korporativ qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar o‘rtasidagi optimal nisbatni ta’minlash masalalari ilmiy asosda belgilandi.

Kalit so‘zlar: Federal zaxira tizimi, kredit, fond bozori, inflyatsiya, milliy valyuta, passiv, aktiv, qimmatli qog‘ozlar, aksiya, obligatsiya.

Abstract: The article discusses the issues of improving the quality of loan portfolios and securities portfolios of commercial banks, in particular ensuring a balance between loan profitability and the level of risk, ensuring an optimal balance between investments in highly liquid securities and corporate securities. securities have been determined on a scientific basis.

Key words: Federal Reserve, Credit, Stock Market, Inflation, National Currency, Passive, Active, Securities, Stocks, Bonds.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения качества кредитных портфелей и портфелей ценных бумаг коммерческих банков, в частности обеспечение баланса между доходностью кредитов и уровнем риска, обеспечение оптимального соотношения между вложениями в высоколиквидные ценные бумаги и корпоративные ценные бумаги. ценных бумаг, были определены на научной основе.

Ключевые слова: Федеральная резервная система, кредит, фондовый рынок, инфляция, национальная валюта, пассивный, активный, ценные бумаги, акции, облигации.

DOLZARBLIGI

Jahonda taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini ta’minlash ularning moliyaviy barqarorligi va likvidliligini ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham tijorat banklarining kreditlari iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. “Istiqbolli investitsiya loyihalarini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kengaytirish makroiqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqarorligini ta’minlashning zaruriy sharti sifatida e’tirof etilgan” [1]. Biroq, respublikamizda tijorat banklarining aktivlari portfellarining sifatini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, banklar uzoq muddatli kreditlarining resurs ta’minoti masalasi hal qilinmagan. “Banklarga qo‘yilgan depozitlarning 70 foizi qisqa muddatli bo‘lgani holda, kreditlarning 90 foizi uzoq muddatga berilgan” [2]. Shuningdek, respublikamiz tijorat banklarida transformatsiya riskining chuqurlashib ketgan. Bundan tashqari, mamlakat tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriiladigan investitsion operatsiyalari opersiyalarining rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O. Blansharning xulosasiga ko‘ra. Markaziy bank monetar siyosat orqali kreditlarning foiz stavkasiga ta’sir etadi va shu yo‘l bilan pullarga bo‘lgan talabni va pullar taklifini tartibga soladi [3]. O. Blansharning ushbu xulosasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, shu jumladan, O‘zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, 1980-yilda AQSHda Federal zaxira tizimi (FZT) hukumatning qimmatli qog‘ozlarini REPO sharti bilan sotish orqali bank tizimidagi depozitlar taklifini kamaytirish yo‘li bilan kreditlarning foiz stavkasini oshirdi. Buning natijasida dollardagi pul massasining o‘sish sur’atlarini pasaytirishga erishildi [4].

Yu. Morozkin va Ye. Svistunovalarning fikriga ko‘ra, fond bozori kon’yunkturasini dinamik o‘zgarishi sharoitida optimal qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirish har doim ham yetarli bo‘lavermaydi. Bunday sharoitda tijorat bankiga qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishning takomillashgan strategiyasini shakllantirish zarur bo‘ladi. Boshqaruv fond bozoridagi holatlar to‘g‘risida xulosalar shakllantirish imkonini beradigan u yoki bu omillarni monitoring qilish asosida qimmatli qog‘ozlar portfeliga tuzatish kiritish imkonini beradi. Bu esa, investitsiyalash strategiyasi va portfelning tarkibi bo‘yicha zamonaviy va aniq qarorlarni qabul qilish uchun imkoniyat yaratadi [5]. Mazkur xulosa rivojlanayotgan mamlakatlarning bank amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, inflyatsiya darajasining va milliy valyutaning qadrsizlanish sur’atining yuqori ekanligi, moliya qonunchiligining barqaror emasligi qimmatli qog‘ozlar bozori kon’yunkturasining dinamik o‘zgarishini kuchaytiradi. Buning ustiga, milliy valyutada yozilgan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning inflyatsiya va devalvatsiya ta’sirida qiymatini yo‘qotish ehtimolining yuqori ekanligi fond bozoridagi noaniqlikni kuchayishiga xizmat qiladi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda inflyatsiya va devalvatsiya muammosi hozirgi davrda mavjud emas.Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida, tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishda H. Markovitsning portfel nazariyasidan keng foydalaniladi.

H. Markovitsning nazariyasiga ko‘ra, yo‘l qo‘yiladigan xatoliklardan biri shundaki, investor har doim daromadlilikning maqbul darajasi sharoitida kam riskni ta’minlaydigan yoki riskning maqbul darajasi sharoitida yuqori daromadni ta’minlaydigan portfelni ta’minlaydi. Ushbu xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun investor shunday portfelni tanlashi kerakki, bunda kutilayotgan daromad risk oshmasdan turib oshishi mumkin emas yoki aksincha, risk kutilayotgan daromad kamaymasdan turib kamaymasligi kerak [6].

Amaliyotda tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishning ikki strategiyasi, ya’ni passiv va aktiv strategiyasi qo‘llaniladi.

Banklarning qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishning passiv strategiyasiga muvofiq, bozordagi barcha ma’lumotlar qimmatli qog‘ozlarning bozor kotirovkalarida aks etadi. Shu sababli, passiv investorlar samarali bozor gipotezasiga ishonadilar va tabiiyki, spekulyativ operatsiyalardan manfaat ko‘rishni ko‘zda tutmaydilar [7].

Qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishning passiv strategiyasiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri shundaki, unda samaradorlikning namunaviy darajasi o‘rnatiladi va uning yordamida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning daromadliligi hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaralganda, passiv strategiyaning ikki xususiyatini ko‘rish mumkin: birinchidan, qimmatli qog‘oz bozorida mablag‘larning passiv taqsimlanishi yuz beradi, ya’ni qimmatli qog‘ozlar bozorida turli xildagi instrumentlar bo‘lishiga qaramsdan faqat ikki turdagi qimmatli qog‘ozlarni sotib olishni ko‘zda tutadi. Ikkinchidan, passiv strategiyada har bir toifadagi qimmatli qog‘oz bo‘yicha indeksli portfelga ega bo‘lish imkoniyatini mavjudligi ko‘zda tutiladi.

Ta’kidlash joizki, qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishning passiv strategiyasida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan operatsion chiqimlar aktiv strategiyaga nisbatan kam bo‘ladi. Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishning aktiv strategiyasi qimmatli qog‘ozlarni, qayta sotib foyda olish maqsadida, qisqa muddatga sotib olishni ko‘zda tutadi. Shu sababli, aktiv strategiya qimmatli qog‘ozlar portfeli tarkibini, bozor konyunkturasining o‘zgarishiga bog‘liq ravishda, doimiy ravishda o‘zgartirib turishni talab qiladi. V. Aksenovning xulosasiga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishning aktiv strategiyasining muhim o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- portfelni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni tanlash;
- moliyaviy aktivlarni sotib olish yoki sotish muddatlarini aniqlash [8].

G‘arb mamlakatlari bank amaliyotida qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishning svopingga asoslangan quyidagi to‘rt shaklidan keng foydalanilmoqda [9]:

1. **Sof daromadni tanlab olish shakli.** Mazkur shaklning mazmuni shundaki, nominali bir-biridan sezilarli darajada farq qilmaydigan va baholari bo‘yicha bir xil bo‘lgan ikki qimmatli qog‘oz o‘zaro ayirbosh qilinadi. Buning natijasida daromadlilik darajasi past bo‘lgan qimmatli qog‘oz sotiladi va uning o‘rniga daromadliligi nisbatan yuqori bo‘lgan qimmatli qog‘oz sotib olinadi.
2. **Almashtirib qo‘yish shakli.** Ushbu shaklda bir-biriga o‘xshash, lekin bir xil bo‘lmagan ikkita qimmatli qog‘oz ayirboshlanadi. Mazkur strategiya qo‘shimcha daromad olish maqsadida qo‘llaniladi.
3. **Svop sektori shakli.** Ushbu shakl svopingning eng murakkab shakli hisoblanadi. Bunda investor iqtisodiyotning turli sektorlariga mansub bo‘lgan emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni muddatiga, daromadliligiga ko‘ra ayirboshlaydi.
4. **Foiz stavkalarini tahlil qilish va prognoz qilishga asoslangan shakl.** Mazkur shaklda foiz stavkalari pasayayotganda qimmatli qog‘ozlar portfelining muddati uzaytiriladi, foiz stavkalari oshayotganda qimmatli qog‘ozlar portfelining muddati qisqartiriladi.

Shunisi ahamiyatliki, tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayoniga Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy me’yorlar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, me’yoriy talablar qimmatli qog‘ozlar portfeli hajmini keskin oshirish imkonini bermaydi.

O‘TKAZILGAN TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xalqaro bank amaliyotida, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi bank amaliyotida kreditlar tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida nisbatan katta salmoqni egallaydi. Bu esa, birinchi navbatda, tijorat banklari kreditlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini katta ekanligidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta’minlash va ular tomonidan beriladigan kreditlarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirish bevosita kredit portfelining sifatini ta’minlashga bog‘liq.

Quyidagi jadval ma’lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklari aktivlarining tarkibiga baho beramiz.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibi [10], jamiga nisbatan foizda

Aktivlar tarkibi	2018	2019	2020	2021	2022
Kassadagi naqd pullar	2,9	2,5	2,4	2,7	2,4
Markaziy bankdagi mablag‘lar	8,9	5,3	5,4	5,1	7,1
Boshqa banklardagi mablag‘lar	15,0	9,3	9,4	9,5	8,6
Investitsiyalar	2,5	1,1	1,2	2,6	4,4
Kredit quyilmalari	65,1	76,8	76,1	73,8	71,1
Asosiy vositalar	1,4	1,6	2,1	2,3	2,5
Boshqa aktivlar	4,2	3,4	3,4	4	3,9
Aktivlar - jami	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida kreditlar nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, tijorat banklarini iqtisodiyotni kreditlashdagi rolini yuqori ekanligidan va ularning qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining rivojlanish darajasining past ekanligi bilan izohlanadi.

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 2018-2022-yillarda respublikamiz tijorat banklarining brutto aktivlari hajmida Markaziy bankdagi pul mablag‘larining va qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning ulushlarini pasayganligi kuzatilgan.

2022-yilda 2021-yilga nisbatan tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida boshqa banklardagi pul mablag‘larining ulushini pasayganligi mazkur davrda kredit quyilmalarining brutto aktivlar hajmidagi salmog‘ining oshganligi bilan izohlanadi va aktivlar portfellarining sifatini oshirish jihatidan ijobiy holat hisoblanadi.

Shunisi xarakterliki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm: O‘zbekiston Repsublikasi tijorat banklari kreditlarining muddatlari bo‘yicha taqsimlanishi [11], foizda

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida uzoq muddatli kreditlar juda yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, banklarning davlat dasturlarini moliyalashtirish jarayonlariga keng ko‘lamda jalb etilganligi bilan izohlanadi.

ILMIY YANGILIGI

Tijorat banklarining kreditlari va qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalari hajmini oshirishda banklarning daromad keltirmaydigan pul shaklidagi aktivlarining brutto aktivlar hajmidagi salmog‘ini kamaytirish va tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini oshirish taklif etilgan, korporativ qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar hajmini oshirish maqsadida, qimmatli qog‘ozlar portfelining diversifikatsiya darajasini ta’minlash, fundamental va texnik tahlilni takomillashtirish, transaksion depozitlarning pasaymaydigan qoldig‘ini korporativ qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirish taklif etilgan

XULOSA VA NATIJA

Banklarda aktivlar portfellarini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni oshirish lozim:

1. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida kreditlarni yuqori salmoqni egallashi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:banklarni iqtisodiyotni kreditlashdagi rolining yuqori ekanligi; tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining rivojlanmaganligi; banklarning davlat dasturlarini moliyalashtirish jarayonlariga keng ko‘lamda jalb etilganligi.
2. Mamlakat bank tizimida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining aktivlar portfellarining sifatini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi dolzarb muammolar aniqlandi:

O‘zbekiston Repsublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi va inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi sababli tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi;

- respublika tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini past va barqaror darajada saqlab turishga muvaffaq bo‘linmaganligi;
- milliy valyutaning qadrsizlanish sur’atining yuqori ekanligi sababli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit to‘loviga layoqatliligini pasayayotganligi;
- tijorat banklari tomonidan kreditlar berishning me’yoriy-huquqiy asoslarining takomillashmaganligi;
- mamlakat tijorat banklarida muddati o‘tgan kreditlar miqdorining katta ekanligi;
- inflyatsiya va milliy valyutaning devalvatsiya sur’atini yuqoriligi natijasida tijorat banklari tomonidan milliy valyutada yozilgan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayotganligi;
- tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining rivojlanmaganligi.


TAVSIYALAR

Tijorat banklarining kreditlari va qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalari hajmini oshirish maqsadida banklarning daromad keltirmaydigan pul shaklidagi aktivlarining brutto aktivlar hajmidagi salmog‘ini kamaytirish va tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslab berildi. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar portfelini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilish maqsadida aktivlarni boshqarish strategiyasini takomillashtirishning quyidagi yo‘nalishlari asoslab berildi: har bir mijozning bank kreditidan foydalanishining yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasini aniqlash uchun moliyaviy marja koeffiitsentini bank amaliyotiga joriy qilish; jalb qilingan resurslarning barqarorlik darajasidan kelib chiqqan holda, ularni yuqori likvidli va yuqori riskli qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Banklar endi “o‘z aravasini o‘zi tortishi kerak”. https://sputniknews-uz.com/economy/20191026/2694075.
3. Бланшар О. Макроэкономика. Пер. с англ. – М.: ИД “Высшая школа экономики”., 2010. – С. 76-77
4. Monetary Policy and Economic Developments. Annual Report 1980. www/federalrecerve.gov.
5. Морозкин Ю. Н, Свистунова Е. С. Управление портфелем ценных бумаг в коммерческом банке//Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2011. – №6. – С. 138.
6. Markowitz, H. ‘Portfolio Selection/ The Journal of Finance, 1952 – №7. – P. 77-91.
7. Казаков В. А., Тарасов А. В., Зубицкий А. Б. Теоретические аспекты осуществления портфельных инвестиций/ Финансы и кредит. - 2006. - № 7. - С. 27 – 32.
8. Аксенов В. С., Зубов Я. О. Формирование и управление инвестиционным портфелем в условиях финансового кризиса//Финансы и кредит. – 2010. – №7 – с. 22-28.
9. Hirschey, M. & Nofsinger, J. Investments: analysis and behavior. McGraw-Hill Education, 2008. – 237 p.
10. www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki) sayti ma’lumotlari asosida shakllantirildi
11. www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki) sayti ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

VAQTNI BOSHQARISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATIDA O‘ZINI O‘ZI TASHKIL ETISHINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI



Otajonova Maftuna Sultonmurodovna
Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim o‘rta umumiy ta’limdan ta’lim subyekti (talaba) va ta’lim obyekti (o‘quv jarayoni) o‘rtasidagi munosabatlar uslubiga ko‘ra mustaqil faoliyatni talab qilishi bilan farq qilishi, oliy ta’lim muassasasi talabasida o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalari mavjudligi, biroq talabalar o‘zlarining o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga to‘liq ega bo‘lishmaganligi, bu esa talabalarning salohiyati va ambitsiyalariga qaramay, past ta’lim natijalariga olib kelishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: time menejment, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘quv faoliyati, ta’lim natijalari, vaqtni boshqarish texnologiyalari, o‘z-o‘zini rivojlantirish muammolari, aqlni boshqarish, diqqatni boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, mustaqil ta’lim.

Abstract: The article shows that higher education differs from general secondary education in that it requires independent activity in relation to the subject of education (student) and the object of education (educational process), which a student of a higher educational institution carries out independently. organizational skills, but students are not capable. It is emphasized that the skills necessary for the successful organization of educational activities are not fully acquired, which leads to low educational results, despite the potential and ambitions of students.

Key words: time management, self-control, educational activities, educational results, time management technologies, self-development problems, mind management, attention management, self-control of actions, independent learning.

Аннотация: В статье показано, что высшее образование отличается от общего среднего образования тем, что требует самостоятельной деятельности по отношению между субъектом образования (обучающимся) и объектом образования (образовательным процессом), которую студент высшего учебного заведения осуществляет самостоятельно. организаторские способности, но студенты не способны. Подчеркнуто, что навыки, необходимые для успешной организации учебной деятельности, не приобретаются в полной мере, что приводит к низким образовательным результатам, несмотря на потенциал и амбиции студентов.

Ключевые слова: тайм-менеджмент, самоконтроль, образовательная деятельность, образовательные результаты, технологии тайм-менеджмента, проблемы саморазвития, управление разумом, управление вниманием, самоконтроль действий, самостоятельное обучение.

KIRISH

Ayni paytda ta’lim ijtimoiy hayotning qudratli sohasiga aylanib bormoqda. Masofaviy ta’lim, raqamlashtirish va ilmiy ma’lumotlarning mavjudligi ahamiyati ortib bormoqda. 2020-yilda koronavirus infeksiyasi keltirib chiqargan pandemiya davridagi majburiy izolyatsiya sharoitida, shuningdek, horijiy talabalarni o‘qitishda masofaviy ta’lim va raqamli ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga so‘nggi vaqtlarda, ta’limdagi islohotlar natijasida o‘quv rejalaridagi fanlar soni va mustaqil ta’lim uchun ajratilgan soatlar ko‘payganligi sababli o‘qituvchilarning talabalar bilan ishlash soatlarining qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bularning barchasi talabalardan o‘z o‘quv faoliyatini o‘qituvchi va ota-onalar nazoratisiz mustaqil ravishda tashkil etishni talab qiladi.

Tezkor ilmiy va texnologik yangiliklar hayotning barcha sohalarida doimiy o‘zgarishlarga olib keladi, ko‘plab kasbiy sohalarda malaka oshirishni talab qiladi. Shu bilan birga, kompaniya faoliyatining barcha jabhalarida jadal rivojlanish tufayli mutaxassislar o‘rtasida doimiy ravishda malaka oshirishni, zarur kompetensiyalarni rivojlantirishni talab qiladigan yuqori raqobat mavjud. Jahon jarayonidan orqada qolmaslik uchun hayot davomida ta’lim olish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ta’limga qo‘yilayotgan zamon talablaridan kelib chiqib, uni modernizatsiya qilish jarayonlari jadal davom etmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirishga harakat qilinmoqda. Bularning barchasi talabalarda o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini yuqori darajada shakllantirishni talab qiladi.

Qayd etilgan zamonaviy tendensiya va o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etish zarurati bilan bog‘liq holda, rivojlangan o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmalari bo‘lajak mutaxassislarning eng ko‘p talab qilinadigan fazilatlaridan biriga aylanmoqda.

O‘z-o‘zini tashkil etish va mustaqil ta’lim Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlariga kiritilgan universal kompetensiyalar guruhiga kiradi: umr davomidagi ta’lim tamoyillari asosida o‘z vaqtini boshqarish, o‘z-o‘zini rivojlantirish traektoriyasini qurish va amalga oshirish qobiliyati. Mavjud o‘quv dasturlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda ko‘plab ta’lim yo‘nalishlarida talabalarni oliy ta’lim muassasalarida o‘qishga moslashtirishga qaratilgan fanlararo kurslar mavjud emas. Mavjud kurslarda esa ish vaqtidan foydalanish samaradorligini oshiradigan texnologiya - vaqtni boshqarish (taym - menejment) haqida ma’lumot yo‘q. Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogika fanida o‘z-o‘zini tashkil etish tushunchasining aniq ta’rifi yo‘q va bu tushunchaning tuzilishi va ko‘nikmalari bo‘yicha umumiy fikr mavjud emas. O‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini oshirish zarurati hamda o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil tashkil etish uchun qanday ko‘nikmalar zarurligi, qanday pedagogik usullar yoki texnologiyalar yordamida ularni takomillashtirish mumkinligi haqidagi aniq tasavvurning yo‘qligi o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, pedagogik tadqiqotlar ichida talabalarning o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘zini-o‘zi tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish va buning uchun samarali pedagogik vositalar va texnologiyalarni topishga qaratilgan ishlar alohida ahamiyat kasb etishi va vaqt texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini oshirishning ahamiyati bilan belgilanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

So‘nggi yigirma yilda oliy ta’lim muassasasi talabalarining o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi tashkil etish jarayonining xususiyatlarini o‘rganishga S. S. Amirov, T. N. Boldysheva, G. Dobrovetskaya, V. I. Donsov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlari bag‘ishlangan). Ta’limda o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini innovatsion yondashuvlar nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish uchun asos: ta’lim faoliyati samaradorligini oshirish Yu. K. Babanskiy, N. F. Talyzina va boshqalar, yaxlit pedagogik jarayonni tizimli tahlil qilish va modellashtirish V. P. Bespalko, V. I. Zagvyazinskiy, V. V. Kraevskiy kabi olimlarning ishlarida qo‘yilgan [1].

Axborot ta’lim muhitini va masofaviy ta’limni pedagogik va ilmiy-metodik ta’minlashni tashkil etish tushunchalari D. Z. Axmetova, V. K. Vlasova, G. I. Kirilova, E. S. Po‘lat, I. V. Robert va boshqalarning tadqiqotlarida ochib berilgan. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda o‘z-o‘zini tashkil etishni o‘rganishning quyidagi jihatlari o‘z aksini topgan: o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari mexanizmlari (G. S. Zokirov), o‘z-o‘zini tashkil etish va uning ilmiy-tadqiqot faoliyati uslubiga qarab rivojlanishi (M. A. Paxmutova), oliy o‘quv yurtlarida gumanitar yo‘nalish talabalarining o‘zini o‘zi tashkil etish xususiyatlari (N. V. Shmurygina), o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga sinergik yondashuv (H. H. Naing), maktab o‘quvchilarini texnologik ta’limda o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalari ta’lim faoliyati (O. N. Logvinova), o‘quvchilarning o‘quv va kognitiv faoliyatini o‘z-o‘zini tashkil etish (S. S. Kotova), malakalarni rivojlantirishda pedagogika kolleji talabalarining kasbiy o‘zini o‘zi tashkil etishi (V. A. Filonenko), faol o‘qitish usullari yordamida psixologiyani o‘rganishda talabalar shaxsini tashkil etish jarayoni (V. A. Xalanskaya), o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik tizimi (M. M. Kurnev) ilmiy-tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan [2].

Biroq, o‘z-o‘zini tashkil etishning tuzilishi, uning mazmuni va funktsional tarkibiy qismlari bo‘yicha talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etish jarayoni to‘g‘risida juda ko‘p nazariy bilimlarga qaramay, pedagogika fanida o‘quv faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirish jarayoni uchun pedagogik yordamni har tomonlama tahlil qiladigan tizimli tadqiqotlar etarli emas. O‘z-o‘zini tashkil etishni rivojlantirishda texnologiyaning imkoniyatlariga qaramay, ta’lim jarayonida vaqtni boshqarishning imkoniyatlari va usullarini ta’kidlaydigan ishlar kam. O‘quv faoliyatda o‘z-o‘zini tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan aniq belgilangan ishlar yo‘q.

Ta’lim jarayoniga vaqtni boshqarishni joriy etishga urinishlar bo‘lgan ishlar qatorida M. A. Reunova “Universitet talabasining vaqtini boshqarish” maxsus kursi doirasida o‘rgangan va vaqtni boshqarish texnologiyasining pedagogik deb hisoblangan modelini taklif qildi. Shuni ham ta’kidlash joizki, talabalarning o‘zini o‘zi tashkil

etishini rivojlantirish uchun taklif qilingan modelga qaramay, universitet dasturlarida vaqtni boshqarish kursi bu maqsadda qo‘llanilmaydi [3].

Shunday qilib, vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda o‘quv faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha masala shu kungacha ochiq qolmoqda.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarning o‘quv faoliyatida o‘z-o‘zini tashkil etishni rivojlantirishni ilmiy-metodik ta’minlash samaradorligini ishlab chiqish va eksperimental tekshirish uchun milliy va xorijiy fanlarni tahlil qilish asosida “o‘zini o‘zi tashkil etish”, “o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmalari”, “vaqtni boshqarish”, “talabalar vaqtini boshqarish”, “o‘z-o‘zini tashkil qilish”, “vaqtni boshqarishning pedagogik texnologiyasi” tushunchalarining tarkibiy va mazmuniy xususiyatlarini ochib berish, ta’lim faoliyatida talabalarning o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishda vaqtni boshqarish texnologiyasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarning o‘quv faoliyatida o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonining pedagogik modelini loyihalash va shu asosda ta’lim faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etish jarayonini qurish, o‘quv faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirishni ilmiy-metodik ta’minlashning eksperimental sinovini o‘tkazishni taqozo etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vaqtni boshqarish texnologiyalarining ahamiyati shundan iborat bo‘ladiki, u talabalarning o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asoslash nuqtai nazaridan o‘qitish nazariyasi va metodikasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirishning pedagogik modeli vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda quriladi. “Umumiy psixologiya” faniga “Taym-menejment” kursini integrasiyasi amalga oshirilib, fanning dasturi ishlab chiqiladi va kursni o‘qitish natijasida vaqt texnologiyasidan foydalangan holda talabalarning o‘quv faoliyatida o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalari shakllantirililadi.

“Taym-menejment” texnalogiyalaridan foydalanish esa talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalanishga imkon beradi [4].



1-rasm: Talabaning o‘z-o‘zini boshqarish texnologiyasi

Yuqoridagi 1-rasmda talabaning o‘z-o‘zini boshqarish texnologiyasi tasvirlangan. Quyidagi jadvalda esa talabaning maqsadlari va ko‘rsatkichlari aks ettirilgan.

1-jadval: Talabaning maqsadlari va ko‘rsatkichlari

Talabaning maqsadi	Natija	Ko‘rsatckich daqiqa va kun	
Vaqt yutuvchisi bo‘lgan telefon o‘yinlaridan voz kechish	Ma’lum vaqt telefon o‘ynamaydi	1-kun	120 daqiqa telefon o‘yinini o‘ynadi
		2-kun	80 daqiqa
		3-kun	70 daqiqa
		4- kun	60 daqiqa
		5-kun	40 daqiqa
		6-kun	50 daqiqa
		7-kun	30 daqiqa

Talaba vaqt yutuvchilaridan xalos bo‘lish uchun qo‘ygan maqsadiga bir hafta davomida ma’lum bir daqiqiqalar hisobiga yutishga muvaffaq bo‘ldi.



2-rasm: Talabaning vaqt yutuvchilariga va ingliz tilini o‘rganishga ketkazgan vaqtlari

XULOSA VA TAKLIFLAR

Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirish muammosini o‘rganishning nazariy asoslari, o‘quv jarayonda talabala faoliyatini mustaqil tashkil etishining mohiyati va mazmuniga horijiy va respublika olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari, talaba o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi tashkil etishining tarkibiy tuzilmasi, talabalarning o‘z-o‘zini tashkil etishni rivojlantirishda vaqtni boshqarish texnologiyalari mazmuni o‘rganishni taqozo etadi.

Talabalarning o‘quv jarayonida o‘z faoliyatini tashkil etishida vaqtni boshqarish texnologiyasining pedagogik asoslarini o‘rganish, unda talabalarning o‘z-o‘zini tashkil etishni rivojlantirishda vaqtni boshqarish texnologiyasining pedagogik imkoniyatlarini shakllantirish muammosi va vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda o‘quv faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirishning pedagogik modeli ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda o‘quv faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirish modelini amalga oshirish jarayonini tahlil qilish, o‘quv faoliyatida talabalarning o‘z-o‘zini tashkil etish rivojlanish darajalarining diagnostikasi o‘tkazilib, vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda o‘quv faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirish bo‘yicha eksperimentni amalga oshirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirildi. Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda o‘quv faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirish natijalari tahlilini o‘tkazish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Архангельский Г. А., Лукашенко М. А., Телегина Т. В., Бехтерев С. В.; под ред. Г. А. Архангельского. Тайм-менеджмент. Полный курс : учебное пособие : [16+] / – Москва : Альпина Паблишер, 2016. – 311 с. – Режим доступа: по подписке. – УРЛ:https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=269985 (data обращения: 13.02.2023). – Библиогр. в кн. – ИСБН 978-5-9614-1881-1. – Текст: электронный.
2. Прентис Стив: Интегрированный тайм-менеджмент. Пер. С англ.Э. Ивашина. - М: Добрая книга, 2007 г.
3. Калинин С. И. Тайм-менеджмент: Практикум по управлению временем. – СПб.: Речь, 2006. -371с .
3. Берд П. Тайм-менеджмент: Планирование и контроль времени / Поли Берд. – Пер. с англ. К. Ткаченко. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2004. – 288 с. – (Начальная школа бизнеса).
4. Кеннеди Д. Жесткий тайм-менеджмент: Возьмите свою жизнь под контроль / Ден Кеннеди ; Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2013. - 199 с
5. Раджабова, Гавхар, and Нигора Хайдарова. “ПРИНЦИПЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ВУЗАМИ.” E Conference Zone. 2022.
6. Radjabova, Gavkhar Umarovna, and Ramzxon Rashidovich Jalilov. “The System of Quality Control of Education in Domestic Schools.” The Peerian Journal 5 (2022): 87-91.
7. Rajabova Gavkhar Umarovna. Conceptual Foundations For Improving The Organizational And Economic Mechanism Of The University Management System. International Journal of Early Childhood Special Education. Vol 14, Issue 08 2022

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHINI REJALASHTIRISH VA TASHKIL QILISH



Ustadjalilova Xurshida Aliyevna
P. f. n., QDPI Ta'lim menejmenti kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Maqolada milliy oliy ta'limni rivojlantirishning hozirgi holatini Yevropa ta'lim va ilmiy makoniga qaratilganligi, modernizatsiya va islohotlar tavsifi bayon qilingan. Shuningdek, bu jarayon bilan bog'liq ravishda ta'lim dasturlarini o'zgartirish, shakllari va o'qitish usullari, monitoring va ta'lim sifatini yaxshilash uchun talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, kredit tizimi, tanqidiy fikrlash, reyting, nazorat turlari.

Abstract: The article analyzes the current state of development of domestic higher education with an emphasis on the European educational and scientific space, a description of modernization and reforms. In connection with this process, information is provided on planning and organizing independent work of students to change educational programs, forms and methods of teaching, control and improve the quality of education.

Key words: independent education, credit system, critical thinking, rating, types of control.

Аннотация: В статье анализируется современное состояние развития отечественного высшего образования с акцентом на европейское образовательное и научное пространство, описание модернизации и реформ. В связи с этим процессом предоставляется информация по планированию и организации самостоятельной работы обучающихся по изменению образовательных программ, форм и методов обучения, контролю и повышению качества образования.

Ключевые слова: самостоятельное образование, кредитная система, критическое мышление, рейтинг, виды контроля.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'limning kredit tizimini amalga oshirish birinchi tajribasi shuni ko'rsatdiki, kredit tizimida ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri – bu talabalarning mustaqil ta'limini shakllantirish va mustahkamlashdir [2].

Bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarni uzluksiz ta'lim va o'zini o'zi tarbiyalashga tayyorlash, ularda bilimlarni mustaqil egallash va to'ldirish zaruriyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlash, talabalarning o'z-o'zlarini qobiliyatlarini rivojlantirish, turli: texnik, ilmiy axborotlar oqimini mohirona va tez ilg'ab olish muhimdir. Bunga talabalarning mustaqil ishlari orqali erishish mumkin. Talabalar mustaqil ish rolini kuchaytirish uchun oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish, bilimlarni ijodiy qo'llash, zamonaviy kasblarga professional faoliyatlarini moslashish yo'llarini izlash kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalarning mustaqil ishlari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. N. N. Omarova mustaqil ishlarni bir necha jihatdan ko'rib chiqadi: ijtimoiy, didaktik, psixologik va ta'limiy. U haqli ravishda oliy ta'limning vazifasi, avvalo, talabalarni mustaqil ravishda to'ldirish va bilimlarini oshirishga o'rgatishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham mustaqil ishlar orqali OTM oldida turgan ijtimoiy muammo hal etiladi - talabalarni o'rganishga o'rgatish.

Ye. L. Belkin talabalar mustaqil ishlarini pedagogik asoslarini belgilaydi [4], V. A. Belovolov va S. P. Belovolova talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish va mazmunini ko'rib chiqishgan [5]. "Mustaqil ish" tushunchasi mualliflar tomonidan "mustaqil" tushunchasiga qanday mazmun qo'yganiga qarab turli ma'nolarda qo'llaniladi:

- talaba o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz ishni o‘zi bajaradi;
- talaba mustaqil fikrlaydi, o‘quv materialiga o‘zini yo‘naltiradi;
- ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘quv yuklamasini majburiy (sinf) darslarga va sinfdan tashqari ishlarga ajratgan holda, ikkinchisi mustaqil deb ataladi.

Talabalarning mustaqil ishlarini o‘quv jarayonining bir qismi sifatida aniqlash an’anaviy bo‘lib qoldi, u o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz talaba rejalashtiradi va amalga oshiradi. K. K. Gomoyunov mustaqil ish rejasini talabalarning o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligi bo‘yicha bajargan ishlarini, lekin uning bevosita ishtirokisiz chaqiradi [7].

MUHOKAMA VA TAVSIYALAR

Oliy ta’limda mustaqil ta’lim qo‘idagi vazifalarni yechimi aniqlaydi:

- talabalarning auditoriyadan va oliygohdan tashqari mashg‘ulotlar davomida olgan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash va kengaytirish, ularni aqliy va jismoniy faoliyat stereotiplariga aylantirish;
- o‘quv rejadagi fanlar bo‘yicha qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarni egallash;
- tadqiqotchilik faoliyatiga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;
- ta’lim dasturi sifatini oshirishga yo‘naltirilganlik va munosabatni rivojlantirish;
- o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- mustaqil fikrlash, qobiliyatni shakllantirish;
- o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi takomillashtirish va o‘zini o‘zi anglashga;
- samarali mustaqil kasbiy nazariy, amaliy va o‘quv tadqiqot faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Didaktik jihatdan mustaqil ish bilim, ko‘nikma egallashning asosiy usullaridan biri va o‘rganishning tashkiliy shakllaridan biri vazifasini bajaradi.

Psixologik jihatdan talabaning mustaqil ishi, birinchi navbatda, bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallashga qaratilgan bilish jarayonlari tizimidir. Bundan tashqari, mustaqil ishlar talabalarning bilish va ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishning asosiy vositalaridan biridir.

Mustaqil ishning tarbiyaviy roli shundaki, u bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlarini tarbiyalashning faol vositasidir [3].

Kredit-modul tizimida OTM nufuzi bu – ikki bosqichli tizimi va ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

- talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash;
- talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit texnologiyasi talaba mustaqil ishining ikki turini o‘z ichiga oladi:

- talabaning o‘qituvchi tomonidan rejalashtirilgan, lekin uning bevosita ishtirokisiz bajarilgan sinfdan tashqari mustaqil ishi;
- talabaning o‘qituvchi rahbarligidagi sinfdagi mustaqil ishi ham o‘qituvchi tomonidan rejalashtiriladi.

Talabaning mustaqil faoliyatini rivojlantirish uning o‘z-o‘zini tarbiyalashga o‘tishining sharti ekanligiga shubha yo‘q.

Talabaning mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi

Mustaqil ta’limni tashkil qilishda barcha umumiy didaktik usullardan foydalanish mumkin [10]:

- reproduktiv-monologik so‘zni shakllantirish uchun;
- qisman-izlanish - mustaqillik, faoliyat taraqqiyoti uchun;
- muammoni taqdim etish usuli-tafakkurni rivojlantirish uchun;
- tadqiqot - ijodiy faoliyatni shakllantirish uchun.

Ustozning o‘rni:

- talabalar tanlash uchun individual vazifalarni tanlang;
- kerakli adabiyotlar bilan ta’minlash;
- individual talaba yoki talabalar guruhiga maslahat berish, ya’ni individual va jamoaviy ishlarni birlashtirish.

Konsultatsiya bir talaba tomonidan o‘qituvchi nazorati ostida boshqasiga berilishi mumkin.

Talabalar vaqtini rejalashtirishlarini tashkil etish:

- o‘quv materiallari bilan ishlashning rasional yo‘llari va metodlarini o‘zlashtirish;
- ma’lumotlarni izlab topish, kataloglar, lug‘atlar, ensiklopediyalar, tarmoq resurslari va boshqalar bilan ishlash;
- tez o‘qish texnikasi;
- matnlarga semantik ishlov berish, asosiy narsani ta’kidlash (g‘oyalar, qonunlar, tamoyillar);

- jamlash va yodlash;
- eshitish va nutq madaniyati;
- axborotni qisqa ratsional yozish (ko‘chirma, tezis, reja, xulosa, xulosa, taqriz, xulosa va boshqalar);
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, ayniqsa, ofis dasturlaridan va internetdan keng foydalanish;
- ma’ruza, seminar, laboratoriya va amaliy ishlarga hamda modullarning yakuniga tayyorgarlik ko‘rish.

Shuningdek, mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida pedagogni o‘rni quyidagilarda ko‘rinadi:

- ta’limni individuallashtirish va tabaqalashtirilgan yondashishning real imkoniyati;
- talabalarning ilmiy ishlarida yordam bera olish, semestr davomida yukni teng taqsimlay olish;
- o‘quv jarayonidan shaxsiy qoniqish;
- o‘quv jarayonining yaxlitligini ta’minlash;
- boshqarish;
- teskari aloqa mexanizmi beruvchi;
- kasb ta’limi uzviyligini ta’minlash;
- yuqori sifatli o‘qitishni rag‘batlantirilishi;

O‘qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlarini olib borish shakllarini hisobga olib, bu ish shaklining o‘ziga xos xususiyatlari darslarni o‘tkazishning interfaol usullariga asoslanganligini ta’kidlash lozim. Mashg‘ulotlarni o‘tkazishning interfaol usullari akvarium, fleshka, guruhli mozaika, guruhli mitinglar, matnli ko‘rsatmalar, konstruksiyalar yasash metodlari va guruhli turnir. O‘quv shaklining vazifasi yoki usulini tanlash talabalarda ma’lum ko‘nikma va malakalarni maqsadli rivojlantirish bilan belgilanishi kerak. Masalan, rolli o‘yinlar talabalarda ma’lum bir vaziyatda to‘g‘ri xatti-harakatni tanlash ko‘nikmalarini vujudga keltirish imkonini beradi [10].

1 -jadval: Baholash me’zonlari

Assessment criterion for the credit system of training		
Current control 20 % (Independent Education, presentation, project, keys, essay)	Space control 30 %	Final control 50 %

Joriy nazorat bo‘yicha talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollekvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin (2-jadval). Bunda joriy nazoratda mustaqil ishni bajarishda talabalarda bilimni izlab topish, ularni tushunish, mustahkamlash, umumlashtirish va tizimlashtirish, aqliy va motorik faoliyatini rivojlantirish ko‘nikma va malakalarini egallash maqsadida topshiriqlarni bajarishdan iborat. Talabalar mustaqil ishining asosiy usullari:

- darslik va ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ishlash;
- laboratoriya va amaliy ishlar;
- texnik va texnologik muammolarni yechish;
- kuzatishlar, mashqlar.

Umuman olganda talabaning mustaqil ishi tuzilishi quyidagicha:

- vazifani olish, uning mazmunini o‘ylash;
- bo‘lajak faoliyat maqsadini anglash, bilim, ko‘nikma va amaliy tajribani safarbar etish;
- kelgusi tadbirlarni rejalashtirish;
- rejani vazifa bajarilishi orqali amalga oshirish, o‘z-o‘zini kuzatish;
- ishlash natijalarini reflektor tahlil qilish.

Mustaqil ishlarning samarasi pedagogik jarayonda talabalar ta’limining barcha bosqichlarini universitetda o‘tkazadigan ajralmas tizim sifatida mustaqil ishlar tashkil etilib, amalga oshirilgandagina bo‘lishi mumkin. Bunday tizimni yaratish borasidagi izlanishlar o‘qituvchilarni didaktik talablarni shakllantirishga olib keldi:

- o‘qituvchi mustaqil ishning xususiy va didaktik maqsadlarini shakllantirishi va bu maqsadlarga qanday erishish mumkinligini bilishi kerak;
- ta’lim jarayonida mustaqil ishlarni o‘z vaqtida va izchil ravishda o‘z ichiga olishi zarur;
- tizimning tashqi parametrlariga: tashkiliy, uslubiy va ilmiy qo‘llab-quvvatlashga e’tibor berish tavsiya etiladi.

Talabalar mustaqil ishining muhim metodi darslik, o‘quv qo‘llanma, ma’lumotnoma adabiyotlar bilan ishlash hamda Internet resurslaridan foydalanishdir [7]. Kitob va internet resurslari bilan ishlash ko‘nikmalari insonning umumiy madaniyati, fikrlash mantiqining rivojlanganlik darajasi, dunyoqarashining shakllanishi, bilimdonligi,

axborot oqimida yo‘nalganligini aks ettiradi. Yuqori stavka, katta hajmdagi axborot va ta’limning kredit tizimi sharoitida oliy ta’lim muassasasida dastur materialini o‘rganishga integratsiyalashgan yondashuv talabaning mustaqil, samarali va tez harakat qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu ish jarayonida matnni o‘qish, asosiy narsani ta’kidlash, tahlil qilish, taqqoslash, sintez qilish va ko‘rib chiqilgan masalaning amalda qo‘llanilishini baholash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Axborotni o‘rganish natijasi uning ma’lum shaklda taqdim etilishi lozim. Abstrakt taqriz, insho yoki tezis shaklida yozilgan; taqdimot, hisobot yoki munozara shaklida og‘zaki. Mustaqil ish jarayonida talabalar ham o‘z faoliyatlarini aniq tashkil etish malakalarini egallaydilar, kelgusi ish jarayonida o‘zini o‘zi tarbiyalash masalalari bilan doimiy shug‘ullanishlarini anglab yetadilar.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishning dolzarb vazifalaridan biri – tashkiliy muammolarni hal qilish: mustaqil ta’lim hajmini aniqlash, mustaqil ta’limning borishini kuzatish, talabalarning mustaqil ishlarini metodik ta’minlashdir. Mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda mustaqil ta’lim ulushining oshishi, elektron o‘quv nashrlarini tashkil etish bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma va uslubiy ishlanmalar bilan ta’minlash masalasini ko‘taradi.

Mustaqil ishni tashkil etishda ancha jiddiy muammo – talabalarning o‘zini o‘zi o‘rganish qobiliyatini shakllantirish – bilimlarni o‘zlashtirishning eng oqilona yo‘llarini ishlab chiqish, ijodiy mustaqillikni rivojlantirishgacha. Talabalar o‘quv va ilmiy ishlarini tashkil etish mahsuldorligi, aqliy faoliyat, ilmiy ijod, ovqatlanish va dam olishning turli jihatlari haqidagi bilimlar bilan jihozlanishi hamda mustaqil mashg‘ulotlar uchun ajratilgan vaqtdan oqilona foydalanishga o‘rgatilishi lozim.

XULOSA

Ta’limning kredit tizimi sharoitida har bir talabaga to‘liq hajmda tashkiliy-uslubiy materiallar, shu jumladan, o‘quv dasturi, ma’ruza yozuvlari berishga amal qilinadi. Shu sababli o‘qituvchi bilan dars mashg‘ulotlari konseptual xarakterga ega bo‘lib, ma’ruzadan oldin talaba mustaqil ishlagan materialni muhokama qilish, ilmiy muloqotga tayyorgarlik ko‘rish uchun ma’ruzalar qisqartiriladi. O‘qituvchi tomonidan o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi nazorat qilish metodlari va usullarini shakllantirish hamda faollashtirish asosida tashkil etilgan o‘quv materialini talabalar tomonidan mustaqil faol va maqsadli o‘rganish talaba o‘quv faoliyatining asosiy yetakchi shakli sifatida qaraladi.

Shunday qilib, talabaning mustaqil ishini tashkil etish o‘qitishning kredit texnologiyasida ustuvor ahamiyat kasb etishiga shubha yo‘q.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Леднев В.А, Рубин Ю.Б. Особенности организасии учебного просесса на базе современных информасионных и телекоммуникасионных технологий. Материалы 13-й Международной конференции “Применение новых технологий в образовании”, 26-27 июня 2003 г. S.150-151.
2. Лихачев Б.Т. Педагогика. Курс лексий. Учебное пособие. - М.: Прометей, 1992. - 528 с.
3. Новые педагогические и информасионные технологии в системе образования. / Под ред. Е.С. Полат. М. 2002.
4. Педагогика /Под ред. П.И. Пидкацистого. - М., 1998.
5. Педагогика. Курс лексий./ Кафедра педагогики КазНПУ им.Абая, Алматы: Нурлы Алем, 2003. – 368 с.
6. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии: Учебное6 пособие для студентов сред. пьед. учеб. заведений. С.А.Смирнов, И.Б.Котова, Е.Н.Шиянов, Т.И.Бабаева и др. / Под ред. С.А.Смирнова. - 2-е изд. - М.: Изд. сентр “Академия”, 1999. - 544 с.
7. Yusupov, Firnafas. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil qilishda innovatsion texnologiyalarning roli / Firnafas Yusupov, G. S. Taxirova. – Tekst : neposredstvennыy // Molodoy uchenыy. – 2022. – № 45 (440). – S. 413-415. – URL: https://moluch.ru/archive/440/96135/ (data obraщeniya: 08.11.2023).
8. http://www.marifat.uz Oliy ta’limda kredit tizimi. B. Usmonov, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
9. http://ckasgti.kz/informatsiya-dlya-studentov/osobennosti-obucheniya-po-kreditnoy-tehnologii.html
10. Zaripov, L. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish [Matn] : metodik qo‘llanma / L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. – Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – 32 b.
11. Раджабова, Гавхар, and Нигора Хайдарова. “Принципы стратегического управления вузами.” E Conference Zone. 2022.
12. Radjabova, Gavkhar Umarovna, and Ramzxon Rashidovich Jalilov. “The System of Quality Control of Education in Domestic Schools.” The Peerian Journal 5 (2022): 87-91.
13. Rajabova Gavkhar Umarovna. Conceptual Foundations For Improving The Organizational And Economic Mechanism Of The University Management System. International Journal of Early Childhood Special Education. Vol 14, Issue 08 2022

ERKIN IQTISODIY HUDUDLARGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

Sheraliyeva Saida Azatovna
NavDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada hozirgi zamon rivojlanish bosqichida erkin iqtisodiy hududlarning shakllanishi va faoliyatining nazariy asoslanishi va uslubiy yondashuvlari ishlab chiqilgan. Erkin iqtisodiy hududlar tushunchasiga investitsiyalarni jalb etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida ta’rif berilgan va ularning tasnifi zamonaviy bozor iqtisodiy sharoitlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: erkin iqtisodiy hududlar, investitsiya, boshqarish, mexanizm, takomillashtirish, tamoyillar, ustuvorlik, loyihalar, erkin iqtisodiy hududlar tasnifi.

Abstract: In the article, the theoretical justification and methodological approaches of the formation and operation of free economic zones at the current stage of development have been developed. Attracting investments to the concept of free economic zones is defined as a factor of innovative development, and their classification is analyzed from the point of view of modern market economic conditions.

Key words: free economic zones, investment, management, mechanism, improvement, principles, priorities, projects, classification of free economic zones.

Аннотация: В статье разработаны теоретическое обоснование и методические подходы формирования и функционирования свободных экономических зон на современном этапе развития. Привлечение инвестиций в концепцию свободных экономических зон определяется как фактор инновационного развития, а их классификация анализируется с точки зрения современных рыночных экономических условий.

Ключевые слова: свободные экономические зоны, инвестиции, управление, механизм, совершенствование, принципы, приоритеты, проекты, классификация свободных экономических зон.

KIRISH

Tabiiy resurslardan samarali foydalanish barqaror iqtisodiy o‘sishning etarli sharti emas va ba’zan faqat iqtisodiy rivojlanishning asosiy muammolarini hal qilishdan chalg‘itadi. Shu bois iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va bozor talabiga ega bo‘lgan yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqlarni tashkil etish eng muhim maqsadlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mahalliy, mintaqaviy darajada va milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida raqobatdosh ustunliklarni ta’minlash orqali O‘zbekistonni yaqin kelajakda rivojlangan mamlakatlar bilan raqobatlasha oladigan qilish mumkin.

Bu, xususan, erkin iqtisodiy hududlarni (EIH) tashkil etish va rivojlantirish bilan mumkin bo‘ladi. EIHni tashkil etish va faoliyat yuritish jarayonida yuzaga keladigan muammolar murakkab xarakterga ega bo‘lib, bu tashkiliy, tartibga solish, iqtisodiy va uslubiy masalalarni hal qilishni talab qiladi.

EIHlarni tashkil etish uchun hududlar va talabnoma beruvchilarni tanlashning ilmiy-uslubiy ta’minotini, EIH rezident korxonalarida soliq va boshqa imtiyozlar mexanizmini qo‘llash qoidalarini ishlab chiqish, ular faoliyati samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni aniqlash, ularni yaratishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xabardor qilingan qarorlar qabul qilish ko‘plab imkoniyatlar yaratadi.

EIH rezidentlari bo‘lgan amalda faoliyat yuritayotgan korxonalar boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning turdosh tarmoqlardagi ishini faollashtirish imkonini beradi va shu orqali EIHlar faol tashkil etiladigan hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ta’sir ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, jahon iqtisodiyotida EIHlarning tashkiliy-funksional tuzilishi xilma-xil bo‘lib, ularning ko‘pchiligi boshqalarnikiga xos xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli hududlar turini aniqlash juda qiyin [1, 2, 3]. Bundan tashqari, EIHlarga institutsional yondashuvlarning ilmiy jihatdan sust ishlab chiqilishi hududlarni tasniflashning umume’tirof etilgan metodologiyasi, EIHlarning yagona ta’rifi va o‘rnatilgan xalqaro terminologiyaning yo‘qligida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Albatta, investitsiyalarni jalb qilish hududlarning iqtisodiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi, ammo bu EIHlarni yanada to‘liqroq mintaqaviy va iqtisodiy jihatdan ko‘rib chiqishda yagona va to‘liq omil emas.

Hozirgi bosqichda EIHlarni davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi ko‘lamini tanlab qisqartirish vositasi sifatida talqin qilish ko‘proq dolzarbdir. Ushbu formula barcha iqtisodiy rejimlarning ishlashi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hodisalarni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv bilan erkin hudud nafaqat alohida geografik hudud, balki milliy iqtisodiy makonning, uning boshqa qismlarida qo‘llanilmaydigan ma’lum bir imtiyoz va rag‘batlantirish tizimi joriy etilgan va qo‘llanilgan qismidir.

Quyidagi omillar ta’sirida yuqori investitsiya va tadbirkorlik faolligi ta’minlanadi [5, 7]: biznes infratuzilmasining sust rivojlanishi; tadbirkorlik sub’yektlariga yuqori darajadagi ma’muriy va byurokratik yuk; mulk huquqini qo‘lga kiritish, himoya qilish masalalarini huquqiy tartibga solishning etarli emasligi, ularning eng muhimi - huquq masalasi yerga va boshqa ko‘chmas mulkka egalik qilish; investitsiya faoliyati barqarorligi uchun davlat huquqiy kafolatlarining yetarli darajada yuqori emasligi, shuningdek, EIHlar doirasida davlat-xususiy sheriklikning deyarli to‘liq mavjud emasligi.

Yaratilgan erkin iqtisodiy hududlar investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va hudud iqtisodiyotini rivojlanishning innovatsion yo‘liga olib chiqish masalalarini hal etishda eng istiqbolli hisoblanadi. Bu yuqori texnologiyali biznesni rivojlantirish shakllaridan biri bo‘lib, ko‘plab boshqa mamlakatlarda sinovdan o‘tgan. Bunga misol tariqasida Singapur, Tayvan, Hindiston, Isroil kabi davlatlar tajribasini keltirishimiz mumkin, ularda erkin iqtisodiy hududlar tashkil etilishi sezilarli iqtisodiy o‘sishga olib keldi.

Erkin iqtisodiy hudud, birinchidan, maxsus soliq rejimini, ikkinchidan, qurilish yoki aholi punkti uchun tayyorlangan maydonni nazarda tutishi kerak. Davlat ushbu hududning infratuzilmasini ta’minlaydi: u barcha kommunikatsiyalar, yo‘llar, suv ta’minoti, kanalizatsiya, elektr energiyasini amalga oshiradi, maxsus maqsadli obyektlar, masalan, kichik kompaniyalar uchun biznes-inkubator qurilishini ta’minlaydi, shuningdek, umumiy va ijtimoiy-madaniy obyektlarni umumiy asosda qurishda ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, davlatning erkin iqtisodiy hududlar rezidentlariga nisbatan yanada qulay munosabatda bo‘lish zarurati ham aniq bo‘lishi kerak.


Bunday iqtisodiy hududiy subyektlarning eng xarakterli xususiyatlari quyidagilardir: tadbirkorlik uchun turli imtiyozlardan foydalanish, buning natijasida EIHda foyda darajasi o‘rtacha 40% gacha bo‘lishi kerak; kapital qo‘yilmalarning o‘zini o‘zi qoplash muddatini kamida 2 barobarga, 3-3,5 yilga qisqartirish; davlat-xususiy sheriklik asosida davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash.

Qonun hujjatlarida belgilangan rasmiy imtiyozlardan tashqari, korxonalarni EIH rezidenti sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan bir qator obyektiv afzalliklar ham mavjud.

Qonunchilikning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, EIHni tashkil etishda zamonaviy infratuzilma noldan yaratilgan yangi hududlarga ustunlik beriladi. EIH rezidentlari uchun zamonaviy infratuzilma O‘zbekiston Respublikasining qolgan qismida faoliyat yurituvchi kompaniyalarga nisbatan raqobatdosh ustunlikni ta’minlaydi.

Darhaqiqat, EIHning tashkil etilishi turdosh hududlarda faoliyat yurituvchi ko‘plab o‘xshash korxonalarning bir joyda to‘planishiga olib keladi. Ushbu korxonalar va davlat tuzilmalari o‘rtasidagi hamkorlikning to‘g‘ri darajasi bilan sinergik samara paydo bo‘lishi mumkin [6]. Buni, ayniqsa, texnologik-innovatsion hududlarda yaqqol ko‘rish mumkin, ular, ta’rifiga ko‘ra, innovatsion bo‘lib, ma’lum bir iqtisodiy hududda sinergiyaning barcha imkoniyatlariga ega.

Amaldagi amaliyot shuni ko‘rsatadiki, EIHlarni tashkil etishda birinchi navbatda iqtisodiy rivojlangan hududlarga ustunlik beriladi. Biroq, EIHni tashkil etishning asl maqsadlaridan biri rivojlanishdan orqada qolgan hududlar va tumanlarni yuksaltirish edi. Xususan, EIHga investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha harakatlar ketma-ketligi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: EIHlarni rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sxemalarini tuzish algoritmi [4]

Ushbu algoritmga asoslanib, biz EIHga investitsiyalarni jalb qilish algoritmini qurish bo‘yicha harakatlar ketma-ketligini shakllantirishimiz mumkin (2-rasm).

EIHlarni quyidagi ketma-ketlikda tasniflash mumkin. Tarmoqlar bo‘yicha: yoqilg‘i-energetika, mashinasozlik va qayta ishlash, moliya va bank xizmatlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati, turizm va sug‘urta xizmatlari. Mulkchilik xususiyatiga ko‘ra: davlat, xususiy va aralash. Faoliyat tabiati va funktsional maqsadi bo‘yicha: savdo,


sanoat-ishlab chiqarish, texnologiya-tatbiq etish, xizmat ko‘rsatish, integratsiyalashgan, innovatsiya-ishlab chiqarish.

Muayyan hudud uchun qaysi turdagi hududlar eng maqbul ekanligini aniqlash kerak. Erkin iqtisodiy hududlar O‘zbekiston Respublikasi hududining ajralmas qismi tamoyiliga asoslangan holda ularni tashkil etish iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy kabi maqsadlarni ko‘zlaydi.

Uch turdagi - texnologik-tatbiq etish, sanoat-ishlab chiqarish va turistik-rekreatsion EIHlarni yaratish O‘zbekiston iqtisodiyotining dolzarb muammolarini hal qilishga imkon beradi:

- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan davlat mablag‘larini cheklangan holda foydalanishni ta’minlash;
- turli sohalarda faoliyat yurituvchi innovatsion tashkilotlarni rivojlantirish mexanizmlari va rag‘batlarini qo‘llash;
- ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish sohalarida innovatsion faoliyat uchun menejerlarni tayyorlash;
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga kapital qo‘yilmalarni jalb etish;
- mahsulotlarning raqobatbardoshligini va ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish, import qilinadigan mahsulotlarni o‘zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan almashtirish;
- ilmiy-texnikaviy yangiliklarni rag‘batlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish;
- yangi texnologiyalar asosida sanoat tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish;

- tashkilotlarning texnik jihozlanishini yaxshilash;
- yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish;
- EIHda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- tabiiy resurslardan foydalanish faoliyatini rivojlantirish.



2-rasm: EIH rivojlanishini ta'minlash uchun investitsiya resurslarini shakllantirishning blok diagrammasi [4]

EIH rezidentlari faoliyatini kompleks tashkiliy-iqtisodiy tahlil qilish va uning asosida EIH rejimini uslubiy ta'minlashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Har tomonlama tahlil qilish maqsadida maxsus iqtisodiy hududning tizimli tahlili o'tkazildi, ya'ni u hayot tsiklining bosqichlariga bo'lingan, har bir bosqichda EIH faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, EIH faoliyati to'g'risida muammoli masalalarni belgilash va ularni hal qilish bo'yicha uslubiy qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish.

XULOSA VA TAVSIYALAR

EIH va uning rezidentlarining tashkiliy, xo'jalik va moliyaviy faoliyatini har tomonlama tahlil qilish natijasida EIH rejimini qo'llash shartlariga muvofiqligini kompleks baholash algoritmi ishlab chiqildi, bu bizga tuzilmani va uning rezidentlarini aniq tekshirish, erkin iqtisodiy hudud mazmunini, shuningdek, uning barcha elementlarini izchil tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu algoritmdan foydalanish EIH rezidentlari tomonidan davriy ravishda taqdim etiladigan statistik va buxgalteriya hisobotlari asosida EIHni tashkil etishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini aniqlash, uning faoliyatini har tomonlama baholash, uning faoliyatidagi zaif tomonlarni tezkor va aniq aniqlash, EIHda noqulay vaziyatlarning kelib chiqish sabablari va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf

etish, zarur hollarda hudud iqtisodiyotiga zarar yetkazish xavfini bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida chora-tadbirlar ko‘rish imkonini beradi.

Biroq mukammal EIH mexanizmining mavjudligi mamlakat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash va undagi yoqilg‘i-energetika kompleksi tarmoqlari ulushini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish jarayonida samarali vosita bo‘la olmaydi. EIH mexanizmlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohalarini tanlash zarur. Erkin iqtisodiy hududlar mexanizmini joriy etish raqobat asosida yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish orqali yuqori samarali investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoit yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Ishlab chiqilgan algoritmlar asosida hududiy byudjetlar va xususiy kapitalni hisobga olgan holda, EIHga investitsiyalarni jalb qilish texnologiyalarini shakllantirish, ularga ham obyektlar foydalanishga topshirilgunga qadar soliq imtiyozlari berilishi zarur.
2. EIH doirasida tayyor mahsulot ishlab chiqarishning yopiq siklini ta’minlovchi korxonalar quvvatlarini jamlash zarur.
3. EIZ hududni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat yurituvchi korxonalarni joylashtirishi kerak.
4. EIZni shakllantirishda hududning geografik, iqlimiy, resurs va boshqa xususiyatlari hisobga olinishi, hududning ishlab chiqarish-iqtisodiy salohiyati hisoblab chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Costachie S. Free Zones. Some Theoretical Aspects // Annals of the University of Craivora. Series Geography. - 2008. - V. 11. - P. 138-146.URL: http://analegeo.ro/wp-content/uploads/2010/07/Articolul-15-Costachie.pdf (дата обращения 11.03.2018)
2. Chaudhuri S., Yabuuchi S. Formation of Special Economic Zone, Liberalized FDI Policy and Agricultural Productivity // International Review of Economics and Finance. - 2010. - V. 19 (4). - P.779-788.
3. Levien M. The land question: special economic zones and the political economy of dispossession in India // The Journal of Peasant Studies. - 2012. - V. 39. - Iss. 3-4. - P. 933-969. DOI: 10.1080/03066150.2012.656268.
4. Суханов Д. А. Привлечение инвестиций в особые экономические зоны как фактор инновационного развития. https://guu.ru/files/referate/suhanov.pdf
5. Раджабова, Гавхар Умаровна. “Совершенствование деятельности промышленных отраслей-залог успеха в развитии производства.” Будущее науки-2015. 2015.
6. Раджабова, Гавхар Умаровна, and Хавасхон Омоновна Солиева. “Качественный бизнес-залог успеха на мировом рынке.” Исследование инновационного потенциала общества и формирование направлений его стратегического развития. 2015.
7. Обиджонова, Д. Б., and Г. У. Раджабова. Роль предпринимателей и бизнесменов в укреплении духовно-этической основы гражданского общества.



PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOTIVATSIYALASH MEXANIZMI

Mansurov Saidxo‘ja Kamalovich
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda paxta-to‘qimachilik klsterlarning chuqur qayta ishlash va qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularni bugungi kundagi tashqi bozorlarga eksport qilishdagi imtiyozlar hamda mexanizmi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: klaster siyosati, noiste’mol maxsulotlar, ip-kalava, mato, matoni bo‘yash va pardoshlash, trikotaj mato va tayyor mahsulotlar, bojxona tarifi, mahsulotni sertifikatsiyalash, eksport mexanizmi, global raqobat muhiti, transformatsiya, aylanma mablag‘lar, mahsulot assortimenti.

Abstract: This article develops the advantages and mechanisms of cotton-textile clusters in our country for deep processing and production of value-added products and their export to foreign markets.

Key words: cluster policy, non-consumer products, yarn, fabric, dyeing and finishing of fabrics, knitted fabric and finished products, customs tariff, product certification, export mechanism, global competitive environment, transformation, working capital, product range.

Аннотация: В данной статье разработаны преимущества и механизмы хлопково-текстильных кластеров в нашей стране для глубокой переработки и производства продукции с добавленной стоимостью и ее экспорта на внешние рынки.

Ключевые слова: Кластерная политика, непотребительская продукция, пряжа, ткань, крашение и отделка тканей, трикотажное полотно и готовая продукция, таможенный тариф, сертификация продукции, механизм экспорта, глобальная конкурентная среда, трансформация, оборотный капитал, ассортимент продукции.

KIRISH

Paxta sanoatini transformatsiyalash ketidan to‘qimachilik klasterlarning tashkil etilganligi mahsulotlarni chuqur qayta ishlash va qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan har xil turdagi tayyor mahsulotlarni ishlab chiqish va ularni global raqobat muhitiga bardosh berish omillarini keltirib chiqaradi. Malumki, to‘qimachilik klasterlar faqatgina paxtani qayta ishlash va yakuniy bosqich faoliyati bilan cheklanmasdan, balki boshlang‘ich jarayon hisoblangan fermerlar va klasterlar ishtirokida tuzilgan paxta xom ashyo yetkazib berish shartnoma shartlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini inobatga oladi. Bunda fermerlar tomonidan xom ashyo narxini sun’iy ko‘tarilib ketmasligini oldi olinib, mahsulot tannarxini kamayishi va raqobatbardoshlikni mustahkamlanishiga olib keladi. Shunday ekan, to‘qimachilik klasterlar tomonidan tayyor mahsulotlarini eksport qilish jarayonida butun tizim shakllanishi kerak.

Bularning barchasi boshqaruv muhitini to‘g‘ri tashkil etilishi va Davlat tomonidan sohani rivojlantirilishiga oid qabul qilingan qarorlar va ularning amaldagi ijrosi hisoblanadi. Hozirgi kunda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish davlat dasturlari doirasida to‘qimachilik klasterlarni paxtani chuqur qayta ishlash natijasida qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish ko‘rsatkichlari yetarli darajada o‘z ifodasini topmagan.

Bunda ayrim turdagi klasterlarni ishlab chiqarish ko‘rsatkichi faqtgina ip-kalava xom ashyo bilan cheklanib qolayotganligi va chuqur qayta ishlash zanjirini shakllanishida ayrim kamchiliklar kuzatilayotganligini ko‘rish mumkin. Shundan kelib chiqib, tarmoq korxonalari o‘rtasidagi integratsiya aloqalarini rivojlantirishning birinchi bosqichidagi dolzarb vazifalardan biri klaster siyosatini shakllantirish hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

To‘qimachilik klasterlarning iqtisodiy va eksport salohiyatini oshirishda olimlarning bir qancha takliflari ilgari surilgan. Mahalliy olimlarimizdan A. Soliyev va Z. Xakimovlar maqolalarida “Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo‘llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari” keltirilgan [1]. Ushbu olimlarning aynan ushbu hududni tanlanishiga viloyatning tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi yuqoriligidadir. A. Sh. Bekmurodov va Yang Song Be “O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi” [2] deb nomlangan monografiyasida klaster mohiyati va ularning raqobatbardoshligi, xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar va mahsulotlar kesimida erishilgan natijalar misollar orqali ko‘rsatib berilgan.

Amerika olimlari M. Porter “Raqobat uslunligi nazariyasi” [3], M. Enrayt, S. Rezenfeld, P. Maskell va M. Lorensenlar “mintaqaviy klasterlar konsepsiyasi” [4], A. Marshall “Sanoat hududlar nazariyasi” [5], P. Bekatin “Italyan sanoat ogruglari nazariyalari”ni ilgari surishgan [6]. Yuqorida qayd etilgan xorij olimlarning nazariyalarida klasterlar bu raqobat ustunligini amalga oshirishda yuqori samara hisoblanib ta’lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyati bilan uyg‘unlashgan tizimi ekanligi takidlanadi.

Klasterlar bilan bog‘liq jarayonlar va hududlarni rivojlantirishda Rossiya olimlari Yu. S. Artomonova, B. B. Xurustalev [7] tomonidan o‘rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Izlanish davomida iqtisodiy, statistik, qiyosiy tahlil, xronologik kuzatish va matematik usullardan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Klaster siyosatining tarkibiy qismlaridan biri klaster shakllantirishning tashkiliy asoslarini yaratish va uning iqtisodini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Hukumat miqyosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hisoblanadi. Klaster siyosati paxta urug‘ini ekish, shundan hosil bo‘lgan paxta xom ashyoni to‘qimachilik va tikuvchilik tarmoq fabrikalarga yetkazib berish samaradorligini va hududlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va moliyaviy mexanizmlarini o‘z ichiga olgan vosita sifatida qaraladi.

Malumki, klasterlarning dastlabki faoliyati paxta urug‘ini yerga ekishdan boshlanganligini inobatga olinsa, so‘nggi olti yillikda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida, jumladan, paxtachilik sohasida keng qamrovli islohotlar ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-sonli farmoni qabul qilingan [8].

Farmonda iste’mol va noiste’mol mahsulotlarni yetishtirishda yer maydonlaridan oqilona foydalanish va suv resurslarini yetkazib berilishidagi kamchiliklar hamda ilm-fan yutuqlaridan foydalanishning pastligi shu bilan birgalikda eksport hajmini ko‘paytirishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar farmonda qayd etilgan bo‘lib, ushbu vazifalarni bajarish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. Strategiyada ustuvor vazifalarni amalga oshirishda quyidagilar belgilangan:



1-rasm: Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan vazifalar


Yuqorida qayd etilgan farmonning ustuvor vazifalardan kelib chiqib, ushbu huquqiy hujjat mamlakatimiz to‘qimachilik klasterlarining boshqaruv tizimini mutanosib va adolatli bo‘lishini taminlaydi. Bunda klasterlarning faoliyati qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash va yakuniy bosqichlardagi ish jarayonlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini taminlaydi. Jumladan, fermerlar tomonidan klasterlarga paxta xom ashyoni yetkazib berishdagi o‘zaro huquqiy munosabatlarni teng manfaatli tarzda tartibga solish va klasterlarning ichki tizimidagi qayta ishlash darajasi hamda to‘liq zanjiridagi uzilishlarni oldini olish bo‘yicha tizimli muammolarning hal qilinishini belgilab beradi.

Bu borada, 2022-yil ma’lumotlariga tayanib, to‘qimachilik klasterlarning soni 134 ta tashkil etgan. To‘qimachilik klasterlar tomonidan paxta tolasi ishlab chiqarish darajasi 100 foiz deb olinsa, qayta ishlashning navbatdagi yani toladan ip kalava, mato, matoni bo‘yash va pardozlash, trikotaj mato va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bosqichlarida passiv natijalar ko‘zga tashlanadi. Fikrimizcha, tijorat banklari tomonidan ishlab chiqarish loyixalariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar tadbirkorlar tomonidan boshqa maqsadlarga sarflanayotganligi shuningdek, xususiy va davlat tomonidan moliyalashtrish ishlarining sustligi, klasterlar tashkil topishda iqtisodiy samarasini baholashning ilmiy metodologiyasi mavjud emasligi yoki pastligi ularning ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikning yetarli darajara mavjud emasligini ifodalaydi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan omillar mamlakat to‘qimachilik klasterlarning iqtisodiy salohiyatini izdan chiqishiga tasir ko‘rsatib, budjet mablag‘larining tanqisligiga, ishsizlikning oshishiga, ilm-fan, innovatsiya va integratsiya aloqalaridan orqada qolishligiga, jahon global raqobat muhitiga, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib kelishi buzilishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4186-sonli qarori qabul qilingan [9]. Qarorda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida chuqur qayta ishlashni tashkil etish orqali klaster modeliga o‘tish, chuqur qayta ishlash darajasini oshirish va tayyor mahsulot shakliga kelgan to‘qimachilik mahsulotlarni eksportga jalb qilish bo‘yicha strategik ahamiyatga ega bir qancha vazifalar belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan qarorda eksportni amalga oshirishda hamda qo‘llab-quvvatlanishida quyidagi mexanizmlardan foydalanilgan.



2-rasm: To‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirish choralari

Yuqorida qayd etilgan Prezident qarorida asosiy jihat klasterlar tizimiga qaratilgan va shu yo‘l orqali ishlab chiqarish va eksport hajmini ko‘paytirish maqsad qilingan. Turli xil tarmoq klasterlar ichida to‘qimachilik klasterlarning o‘z o‘rni mavjud. Malumki, paxta sanoatini transformatsiya qilinishi chuqur qayta ishlashning yangicha innovatsion klaster tizimiga o‘tilishi bilan bog‘liqdir. Qarorda to‘qimachilik korxonalari va klasterlarning 80 foiz mahsulotlarni eksport qilganlarga tijorat banklari tomonidan berilgan kredit mablag‘lari foizini qoplab berish nazarda tutilgan. Shu bilan birgalikda to‘qimachilik korxonalar tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqib bir qancha eksport faoliyatiga oid imtiyozlar ham keltirilgan.

Bugungi kunda tizimli muammolardan bu eksport faoliyatini amalga oshirgan korxonalarga qo‘shimcha qiymat solig‘ini qaytarib berish 2-3 oylarga cho‘zilib ketilishi oqibatida korxonalarda aylanma mablag‘lar tanqisligiga olib kelib, ishlab chiqarish va eksport faoliyatiga salbiy tasir ko‘rsatganligini ifodalaydi. Bu borada, tadbirkorlar tomonidan kelib tushgan bir qancha murojaatlarda aynan shu masala ko‘tarilgan va uning yechimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 12-fevraldagi PQ 4186-sonli [9] qaroriga muvofiq 7 kun muddat ichida QQS tadbirkorlik subyektlariga qaytarib berish belgilab qo‘yilgan.

Savdoni liberallashtirish, mamlakatlar o‘rtasida tovar ayirboshlash, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jalb etishda to‘siq bo‘layotgan muammolarni oldini olishda o‘zaro xamkorlik mexanizmlari muxim axamiyat kasb etadi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga murojaatnomasining mazkur yo‘nalishiga to‘xtalib quyidagi jumlani keltirgan. “Ishomchim komil, yangi O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlik ko‘lamining kengayishi ikki tomonlama aloqalarning mazmun-mohiyatini boyitish, qiziqarli loyixalarni ilgari surib, yangi marralarni zabt etishga xizmat qiladi. Yevropa Ittiqofi mamlakatlari bilan yaqin hamkorlikda mamlakatimizga kengaytirilgan savdo preferensiyalari “GSP+” tizimini tatbiq etish bo‘yicha muxim qadamlar tashlandi. Ushbu tizim kelgusida Respublikamizda ishlab chiqariladigan 6 mingdan ziyod turdagi mahsulotlarni Yevropa bozoriga boj to‘lamasdan olib kirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, birgina to‘qimachilik mahsulotlarining yillik eksportini 300 million dollarga oshirish uchun sharoit yaratadi” deya takidlagan [10].

Malumki, O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlarini Koreya, Xitoy, Turkiya va Yevropa Ittifoqi davlatlari bozorlariga eksport qilishda bojxona tarif cheklovlarni bekor qilish yoki kamaytirish masalasida O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqining GSP+imtiyozli tizimidan unumli foydalanishidir. Undan oldin “Cotton campaign” xalqaro koalitsiyasi O‘zbekiston paxtasini va undan tayyor bo‘lgan mahsulotlarni xarid qilmaslikka qaror qilgan edi. Malumki, dunyoning mashxur 331 brend firma va kompaniyalar tomonidan mahalliy paxtamizdan hosil bo‘lgan mahsulotlarni sotib olmaslik shartlariga imzo chekkandi.

Bular 550 millionga yaqin aholiga ega bo‘lgan Yevropa bozorini yopib qo‘ygandi. Malum vaqtdan so‘ng paxtadan tayyor bo‘lgan mahsulotimizni sotib olmaslik to‘g‘risidagi kelishuv o‘z kuchini yo‘qotishga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga endilikda mamlakatimiz tadbirkorlari tomonidan “GSP+” preferensiyalar tizimi orqali Yevropa bozoriga 6200 turdagi mahsulotlarni imtiyozli bojlar bilan olib chiqish imkoniyati yo‘lga qo‘yildi.


Shundan so‘ng Yevropa bozorlariga eksport qilish hajmi har yili ortib bormoqda. “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi ma’lumotlariga tayanib, 2020-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlariga eksport qilish hajmi 258,4 mln. dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilga kelib, 868,8 mln.dollarni yoki 2020-yilga nisbatan o‘sish surati 3 barobarni tashkil etganligini bildiradi. Umumiy eksport hajmi 2020-yilda 1869,3 mln.dollar, 2022-yilda 3157,8 mln.dollarni 2020-yilga nisbatan o‘sish surati 168,9 foizni tashkil qildi [11].

Umuman olganda, paxta-to‘qimachilik klasterlarni tashkil etish faoliyatini muvofiqlashtirish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda. To‘qimachilik klasterlarni qishloq xo‘jalik faoliyati, chuqur qayta ishlash va eksport faoliyatini amalga oshirish va boshqarish innovatsion mexanizmlardan biri sanaladi. Klasterlarni shakllantirilishi sanoat korxonalari faoliyatini optimallashtiradi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari boshqa soha klasterlardan farqli sanaladi. Ushbu tuzilmada paxta tolasini yetishtiruvchilar, yetishtirilgan paxta xom ashyosini saqlovchi punktlar va xom ashyoni dastlabki qayta ishlash korxonalari, ip-kalava ishlab chiqarishga ixtisoslashgan to‘qimachilik korxonalari, matoni to‘qish va bo‘yash korxonalari hamda tikuv va tayyor mahsulotga ixtisoslashgan korxonalar kiradi. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida faoliyat olib borayotgan barcha ishlab chiqarish obyektlar yaxlit tizim tashkil qilib, mustahkam aloqaga kirishadilar.

Mamlakatda olib borilayotgan klaster siyosatida asosan ikki yo‘nalishda ish olib boriladi:

- To‘liq qayta ishlash zanjirini taminlash va raqobatbardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- Tayyor mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish.



3-rasm: Paxta to‘qimachilik klasterlarning ishlab chiqarish va eksportini amalga oshirish mexanizmi

Yuqoridagi rasmda Paxta-to‘qimachilik klasterlarning chuqur qayta ishlash bosqichlaridagi jarayonlar va ularni eksportini amalga oshirish mexanizmi keltirilgan.


Klasterlar ikki bosqichdan tashkil topgan bo‘lib, bular urug‘chilik klasteri bunga urug‘ni ekish, g‘o‘za yetishtirish va paxta xom ashyosini terib olish. Klaster tashkiloti o‘z ichiga paxta xom ashyoni dastlabki qayta ishlash, tolani qayta ishlash undan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlar ishlab chiqishni bildiradi. Tayyor bo‘lgan mahsulotlarni ichki bozorlarga yo‘naltirish hamda ularni eksport qilishda mahsulotni sertifikatsiyalashtirish lozim bo‘ladi. Tashqi bozorlarga mahsulotlarni yo‘naltirishda eksport qilishni uch xil shaklini keltirish mumkin. Bular to‘g‘ridan to‘g‘ri eksport bo‘lib, klasterlar o‘zlarining xorijiy mamlakatlardagi savdo uylariga va xorijiy xamkorlariga bevosita eksportni amalga oshirishlari mumkin.

Mahsulotlarni eksport qilishning ikkinchi yo‘li mahalliy tashqi savdo kompaniyalar tomonidan amalga oshirishdir. Bunda xizmat ko‘rsatganligi uchun eksport shartnomasidagi summadan malum ulush olib qolinadi. Tashqi bozorlarga chiqishning uchinchi yo‘li bir necha korxonalar ishtirokida sanoat kooperatsiyasi asosida amalga oshiriladi. Bunda hududlardagi klasterlar xorijiy xamkorlaridan tushgan buyurtmalarini o‘z vaqtida bajarishini taminlash uchun Hududlardagi klasterlar bilan xamkorlikda ish olib borishadi.

O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik klasterlarning barqaror ishlashini taminlash to‘liq ishlab chiqarish zanjirini shakllantirish hamda hozirgi vaqtda keskin global raqobat muhitida tayyor mahsulotlarni eksport qilishda raqobat muhitiga bardoshliligini hamda ishlab chiqarish va eksportini motivatsiyalash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-2 sonli farmoni qabul qilindi [12].

Qayd etilgan farmonda 2023-yil yakuniga qadar eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 foizdan 81 foizga oshirish, 35 mingta yangi ish o‘rinlari yaratish, gazlama, trikotaj mato va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport qiluvchi korxonalarni uzluksiz revolver kreditlash asosida aylanma mablag‘lar bilan taminlash uchun Eksportni rag‘batlantirish agentligi huzuridagi Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga 3 yil muddatga yillik 4 foiz stavkada ajratish, mahalliy korxonalar mahsulotlariga xalqaro sertifikatlarni taqdim etuvchi uchta yirik xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini tashkil etish, fermerlar va klasterlar o‘rtasida paxta yetishtirish o‘rtasida tuziladigan shartnomani shaffof mexanizmini ishlab chiqish qabi vazifalar belgilab berildi.

Yuqoridagilar e’tiborga olingan holda, paxta-to‘qimachilik klasterlar eksportini motivatsiyalash mexanizmi 4-rasmda keltirib o‘tildi.



4-rasm: Paxta-to'qimachilik klasterlarining eksportini motivatsiyalash mexanizmi

4-rasmda paxta-to'qimachilik klasterlarni eksportini motavatsiyalash mexanizmi keltirilgan. Ushbu jadvalda Davlat islohotlari, iqtisodiy islohotlar va tashkiliy masalalar joy olgan. Davlat islohotlariga to'qimachilik sanoatini rivojlantirishdagi qaror va farmonlar, shuningdek "xalqaro koalitsa" tomonidan paxta xom ashyoni sotib olishdagi baykotni yechilishi hamda maxalliy mahsulotlarni Yevropa Ittifoqi bozorlariga kirishda (GSP+) imtiyozli tizimidan foydalanish masalalari keltirilgan.

Klasterlarni iqtisodiy omillariga ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishdagi soliq imtiyozlari, tijorat banklari tomonidan past foizda kredit mablag'lar bilan taminlanishi belgilangan.

Jadvalning tashkiliy masalalariga xalqaro brendlarni O'zbekistonda faoliyat yuritishlari uchun maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilishi hamda xorijiy mamlakatlarda savdo uylarini tashkil etish, tayyor mahsulotlar eksportini 3,3 barobarga oshirish kabi masalalar joy olgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

To'qimachilik klasterlari mamlakat iqtisodiyoti o'sishida shuningdek millatimiz turmush tarzini yuksaltirishda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Shu o'rinda, klaster va to'qimachilik korxonalarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar nafaqat tadbirkorlar uchun balki yurtning o'zbek brendi nomi asosida ishlab chiqarilgan tayyor tikuv-trikotaj mahsulot assortimentlari kengayishiga, mamlakatimizning chekka hududlariga mahalliy va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib kelishi natijasida, hududning sanoat ulushining o'sishiga shuningdek, hudud aholining turmush tarzi va ish bilan bandlik ko'rsatkichlarga va nixoyat hududiy eksport ko'rsatkichlarini taminlanishga sabab bo'ladi.

Klasterlar eksportini motivatsiyalash mexanizmini takomillashtirishda avvalam bor xo'jalik subyektlarning O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan yaratib berilayotgan iqtisod va soliqdagi imtiyozlardan to'g'ri foydalanish, bu borada klasterlarning har bir xo'jalik subyektini to'liq ishlashi uchun aylanma mablag'lari hamda past foizli kredit mablag'lar bilan taminlashni takomillashtirish, eksport geografiyasini kengaytirish maqsadida

xalqaro yarmarkalarda faol ishtirokini taminlash zarurdir. Shu bilan birgalikda Yevropa Ittifoqi mamlakatlar bozorlariga kirishda talab etiladigan sertifikatsiyalashtirish ishlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Soliyev va Z.Xakimovlar “Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo‘llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari” “Biznez-ekspert”jurnali 2014-yil 1-son, 52-57-bet.
2. A.Sh.Bekmurodov va Yang Song Be “O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi”. Monografiya, 2006-yil, 112 bet.
3. Портер М.Международная конкуренция. –М.: Международные отношения, 1993. С.51.
4. Enright, M (1996) “Regional Clustersand Economic Development: A.Research Agenda”, in Staber, U.,Schaefer, N. And Sharma, B, (Eds). “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”. Walter de Gruyter, p.190-213.
5. Маршалл А. Принципы экономической науки, I-III. Пер. с англ.- М.-Издательская группа “Прогресс”, 1993
6. П.Бегаттин- Becattini G. From Marshalls to the Italian “Industrial Districts”/ www.copetitivness.org
7. Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика. (Коллективная монография). Минобразования и науки РФ, Минэкономразвития РФ, Правительство Пензенской области. Пенза-2013.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853 sonli farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4186 sonli qarori.
10. https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-evropa-ittifoqining-gsp-dasturiga-azo-boldi-bu-qandaj-imkoniyatlar-beradi
11. “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-2 sonli farmoni.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TAVAKKALCHILIGINI BOSHQARISHNING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI



Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot erkinlashuvi va soliq tizimi modernizatsiyasining hozirgi bosqichida soliq tavakkalchiligini boshqarishning hozirgi zamon muammolari hamda ularni ijobiy hal etish masalalari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq tizimi,coliq tavakalchiligi,coliq mamuriyatchiligi,soliq to‘lovchi, soliq organi.

Abstract: In the article, at the current stage of economic liberalization and modernization of the tax system in the Republic of Uzbekistan, the current problems of tax risk management and their positive solution are scientifically justified.

Key words: Tax system, tax risk, tax administration, tax payer, tax authority.

Аннотация: В статье научно обоснованы актуальные проблемы управления налоговыми рисками и вопросы их положительного решения на современном этапе экономической либерализации и модернизации налоговой системы в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Налоговая система, налоговый риск, налоговое администрирование, налогоплательщик, налоговый орган.

KIRISH

O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligining samarali vosita va usullaridan foydalanish asosida “soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish” [1], “soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish” [2], “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi vazifalari ijrosi yakunida soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90 foizgacha yetkazish lozimligi” [3] ta’kidlandi. Bular davlat tomonidan samarali soliq siyosatini yuritish bo‘yicha strategik rejalashtirish va prognozlashtirish vazifalarini belgilab berdi. Mazkur vazifalar budjet daromadlari barqarorligini ta’minlash, samarali soliq ma’muriyatchiligini shakllantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatib beradi.

Mazkur vazifalar “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” da ham yanada qat’iy va keng qamrovli tarzda qo‘yildi: “...soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish [4]” muhim yo‘nalish sifatida belgilab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalari soliq to‘lovchilardir[1]. Bu borada iqtisodchi olimlarning fikrlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, iqtisod fanlari doktori B. Toshmurodovaning ta’kidlashicha, “Korxonalarda soliq menejmenti – soliq to‘lovlarini optimallashtirish bilan bog‘liq faoliyat sifatida ularni samarali boshqarishdir va u moliyaviy menejmentning ajralmas qismi hisoblanadi”[2].

1 Tangriqulov A., Xomma A., Toshmatov Sh., Norqo‘ziyev I., Roziqov N. “Soliq qarzi va uni undirish”. “Yangi asr avlodi”, 2010y. - 8-bet.
2 Toshmurodova B. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda soliqlardan samarali foydalanish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent-2007. – 22-b.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik grafiklardan, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalangan holda aksiz solig'i ma'muriyatchiligidagi mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari bo'yicha fikr va mulohazalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tavakkalchiliklar, shu jumladan, ularning soliqni rejalashtirishda ye'tiborga olinishi kerak bo'lganlari ularni boshqarishning tegishli usullari va ularni samarali qo'llash uchun bir qator mezonlar bo'yicha tasniflanishi kerak. Soliq tavakkalchiligini tasniflash xususiyatlari tizimi har tomonlama tavsif berish va ma'lum bir tavakkalchilik turining xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Soliq tavakkalchiliklarining tasniflash xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Soliq tavakkalchiliklarining tizimlashtirilgan tasnifi

Tasnifiy belgi	Tasnif guruhi
Soliq tavakkalchiliklariga yo'liquvchi subyektlar bo'yicha	soliq to'lovchi tavakkalchiligi
	davlat tavakkalchiligi
Yuzaga kelish omillari bo'yicha	ichki tavakkalchiliklar
	tashqi tavakkalchiliklar
Boshqa tavakkalchiliklar turlari bilan aloqadorlik obyektlari bo'yicha	boy berilgan imkoniyat tavakkalchiligi
	to'lovga layoqatsizlik tavakkalchiligi
	soliq nazorati tavakkalchiligi
Yuzaga keluvchi oqibatlar turi bo'yicha	soliq yukining o'sishi tavakkalchiligi
	jinoyat bilan yakunlanuvchi tavakkalchilik
Mumkin bo'lgan yo'qotish miqdori bo'yicha	yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar
	kritik tavakkalchiliklar
	fojeali tavakkalchiliklar

Soliq tavakkalchiligiga ega bo'lgan subyektlarga ko'ra davlat, soliq to'lovchilar, soliq agentlari, o'zaro bog'liq shaxslarning soliq tavakkalchiliklari ajratiladi. Shu bilan birga, soliq to'lovchilarning tavakkalchiligi yuridik va jismoniy shaxslarning tavakkalchiligi uchun, davlat risklari esa soliqqa tortish jarayonida ishtirok etuvchi turli qonun chiqaruvchi va ijro yetuvchi hokimiyat organlari uchun batafsil tavsiflanishi mumkin.

Moliyaviy risklarni belgilovchi omillar (paydo bo'lish manbalari)ga ko'ra tavakkalchiliklar tashqi va ichki turlarga bo'linadi. Davlat uchun tashqi tavakkalchiliklar soliqqa tortish sohasidagi xalqaro shartnomalarning amal qilishi bilan bog'liq; ichki tavakkalchiliklar - soliqqa tortish jarayonida davlat funksiyalarini bajaradigan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining, shuningdek soliq to'lovchilarning faoliyati bilan bog'liq.

Tashkilot uchun tashqi tavakkalchiliklar manbai, xususan, soliqqa tortish nuqtayi nazaridan davlat tomonidan o'zgarishlarda namoyon bo'ladi:

- soliqlar va yig'imlarning yangi turlarini joriy etish;
- mavjud soliqlar stavkalari darajasining o'zgarishi;
- soliq solinadigan bazalarni aniqlash tartibini o'zgartirish;
- berilgan soliq imtiyozlarini bekor qilish;
- soliq to'lovlarini amalga oshirish shartlari va shartlarini o'zgartirish;
- davlat tomonidan tashkilotlarning soliq to'lovlarini minimallashtirish imkoniyatlarini kamaytirish usullarini qo'llash.

Soliq tavakkalchiligining ichki omillari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- soliqni rejalashtirishda yo‘l qo‘yilgan xatolar;
- tashkilotning xo‘jalik va moliyaviy faoliyatidagi salbiy o‘zgarishlar;
- soliq qonunchiligini ikki marta o‘qish;
- inson omili (soliq xatolari).

Yo‘qotilgan foyda tavakkalchiligi soliq to‘lovlari bo‘yicha jarimalar va penyalarni to‘lashdan kelib chiqadigan moliyaviy yo‘qotishlarda yotadi. To‘lovga layoqatsizlik xavfi soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaslikdir.

Soliq nazorati tavakkalchiliklarini oddiy va bojxona soliq nazorati tavakkalchiliriga bo‘lish mumkin. Ikkinchisi huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan boshlangan nazorat bilan bog‘liq bo‘lib, fors-major holatlari bo‘lib, ularni yetarlicha aniq baholash mumkin emas. Soliq yukining ortishi risklari soliqlarni hisoblash metodologiyasining o‘zgarishi munosabati bilan soliq solinadigan bazalar va stavkalarning o‘sishi risklariga, shuningdek tadbirkorlik subyektlari hajmining kengayishi hisobiga soliq solinadigan bazalarning ko‘payishi risklariga bo‘linadi. Jinoiy ta’qib qilish xavfi faqat jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxslar tomonidan soliq to‘lovchi tashkilotni boshqarish faoliyatini davom ettira olmaslik bilan bog‘liq oqibatlar nuqtayi nazaridan bilvosita baholanishi mumkin.

Mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar hajmiga ko‘ra, ruxsat etilgan, kritik va halokatli xavflar ajratiladi. Qabul qilinadigan soliq tavakkalchiliklari - soliq to‘lovchi tashkilot minimal deb hisoblaydigan va ularni qabul qilishga tayyor bo‘lgan xavflar. Kritik yo‘qotishlar tashkilotning to‘lov qobiliyatiga tahdid soladi, halokatli yo‘qotishlar soliq to‘lovchi tashkilotning mavjudligiga tahdid soladi.

Ko‘rib chiqilgan tasniflash xususiyatlariga qo‘shimcha ravishda, kelajakdagi va mavjud tavakkalchiliklarni ajratib ko‘rsatgan holda, soliq tavakkalchiliklarini yuzaga kelish vaqti bo‘yicha tasniflash mumkin. O‘tgan davrlar uchun soliq sanksiyalari xavfi mavjud bo‘lib, ular bo‘yicha hisobot soliq organlariga taqdim etiladi. Kelajakdagi tavakkalchiliklar tashkilotning joriy va kelgusi soliq davrlaridagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular bo‘yicha hisobot kelajakda soliq organlariga taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchilarning soliq tavakkalchiligini ko‘rib chiqishda noaniqlik manbalarini aniqlashda axborot tavakkalchiliklari, texnologik tavakkalchiliklar, ekologik xavflar va obro‘ga oid tavakkalchiliklarni ajratib ko‘rsatish kerak. Axborot tavakkalchiliklari deganda soliq hisob-kitoblarini amalga oshirish zaruratidan kelib chiqadigan noaniqlik tushuniladi (masalan, soliq to‘lovchi va soliq organi tomonidan qonunlarni noaniq talqin qilish xavfi). Jarayon tavakkalchiliklari soliq majburiyatlarini noto‘g‘ri bajarish, soliq hisobi yoki soliqni rejalashtirishdagi xatolar bilan bog‘liq xavflar guruhidir.

Atrofdagi tavakkalchiliklar soliq organlari va sudlar tomonidan soliq qonunchiligining bajarilishi natijasida yuzaga keladi. Obro‘-e’tiborga oid tavakkalchiliklar tashkilotning obro‘siga putur yetkazishi va natijada jamiyatda tashkilotning moliyaviy barqarorligi, uning xizmatlari sifati yoki tabiati to‘g‘risida salbiy tushuncha shakllanishi tufayli mijozlar sonining, umuman uning faoliyati kamayishi bilan bog‘liq. Bunday tasniflash tavakkalchiliklarni ularning paydo bo‘lish joylariga ko‘ra, lekin faoliyat sohalari bilan o‘zaro bog‘liqliksiz taqdim etishga imkon beradi.

Oqibatlarning tabiati bo‘yicha qo‘shimcha soliqqa tortish tavakkalchiligi va samarasiz soliqqa tortish tavakkalchiliklari farqlanadi. Tavakkal-chiliklarning birinchi guruhini amalga oshirishning salbiy oqibatlari tadbirkorlik va soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun qo‘shimcha soliq to‘lovlari, penya va jarimalar, shuningdek, ma’muriy va boshqa turdagi jazolarni qo‘llash imkoniyatidir.

Shu bilan birga, tavakkalchiliklarning yana bir guruhi mavjud - soliqlarni ortiqcha to‘lash, soliq imtiyozlaridan foydalanmaslik, soliq zaxiralari, ataylab qo‘llab-quvvatlanadigan ortiqcha to‘lovlar orqali budjet kreditlari va boshqalarni o‘z ichiga olgan samarasiz soliqqa tortish tavakkalchiliklari.

Tavakkalchiliklarning ikkala turini amalga oshirish iqtisodiy faoliyat samaradorligini pasaytiradi: birinchi guruhga nisbatan - soliq to‘lovchi tashkilot foydasining kamayishi, ikkinchisiga nisbatan - budjetga mablag‘larning muddatidan oldin o‘tkazilishi tufayli, bu pulning vaqt qiymatidagi o‘zgarishlarni va inflyatsiyani tan olish nuqtayi nazaridan mantiqsizdir.

Ichki manbalar orqali tavakkalchiliklarni boshqarish tashqi maslahatchilarni jalb qilmasdan tashkilot xodimlarining faqat intellektual salohiyatidan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Soliq tavakkalchiligini boshqarishga bunday yondashuvning samaradorligi bir qator omillarga, jumladan, soliq to‘lovchining risklarga nisbatan pozitsiyasiga bog‘liq; soliq tavakkalchiligini boshqarishga jalb qilingan xodimlarning soni va malaka darajasi; qaror qabul qilish jarayonida xodimlarning ishtiroki darajasi.

Tashqi manbalardan soliq tavakkalchiligini boshqarish tashqi tashkilotlardan soliq maslahatchilarini jalb qilish orqali amalga oshiriladi, bu esa qimmat bo‘lsa-da, eng malakali mutaxassislarni jalb qilish imkonini beradi.

Kombinatsiyalangan usul ichki va tashqi intellektual resurslarni birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Soliq tavakkalchiliklarini boshqarish uchun foydalaniladigan manbani tanlash bir qator omillarga bog‘liq: biznes ko‘lami, soliq xavfsizligini ta’minlash pozitsiyasi, soliq to‘lovchi tashkilotning moliyaviy imkoniyatlari va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. O‘zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchiliklari tahlil qilinishi va baholanishi kerak, ularni boshqarish mumkin va zarur. Soliq tavakkalchiligini samarali boshqarish tizimini yaratish uchun quyidagilar zarur:

- soliq to‘lovchilar tomonidan soliq tavakkalchiligini aniqlash usullaridan foydalanish orqali soliq majburiyatlari aniqligi buzilishining tizimli monitoringini amalga oshirish;
- tavakkalchiliklarni tahlil qilish va baholash uchun soliq majburiyatining noaniqligini baholash usullarini qo‘llash;
- soliq to‘lovchi uchun soliq tavakkalchiligining maqbul darajasiga rioya yetilishini yetarli darajada tashkil yetishni ta’minlash.

2. Amalda soliq tavakkalchiliklarini kamaytirish uchun soliq tavakkalchiliklarini boshqarish bo‘yicha qarorlarni axborot-tahliliy ta’minlash kabi usullardan ham foydalaniladi. Ammo ko‘pincha soliq to‘lovchilar soliq tavakkalchiliklarini kamaytirish uchun o‘zlariga global muammolarni qo‘ymaydilar, ular hech bo‘lmaganda uning darajasini saqlab qolishga intiladilar.

3. Soliq to‘lovchi soliq tavakkalchiligini kamaytirish usullaridan birini tanlashda soliq to‘lovchining soliq majburiyati bajarilgan soliqqa tortish shartlarini ham baholashi shart.

Shubhasiz, soliq majburiyatini bajarish turli shartlarda qabul qilinishi mumkin:

- soliq majburiyatini bajarishning ushbu variantining barcha oqibatlarini baholash mumkin bo‘lgan aniqlik, bu soliq qonunchiligi normalarining umumiyligi bilan bog‘liq yemas;
- soliq majburiyatini bajarish uchun qabul qilingan variantning oqibatlari ma’lum darajada yehtimollik bilan baholanishi mumkin bo‘lgan xavf;
- soliq majburiyatini bajarish uchun qabul qilingan variantning oqibatlarini baholash uchun dastlabki ma’lumotlar mavjud bo‘lmaganda to‘liq noaniqlik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ILOVA. Xalq so‘zi gazetasi 2017-yil 8-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-sonli Farmoni, 2019-yil 26-sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son qaroriga 1-ilova “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi”ning 3-bob, 3.3-bandi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi №PF-60-sonli Farmoni.
5. Djamalov Kh.N., Abdullayev A.B, (2021).Development Of The Methodology Of Accounting Expertise Of Tax Obligations. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 151-163.

MODERN METHODS OF TAX CONTROL: ANALYSIS, PROBLEMS AND SOLUTIONS



Ergasheva Malikakhon
Independent researcher at the Tashkent Institute of Finance

Abstract: This article explores the transformative impact of digital technologies on tax control mechanisms, focusing on electronic privileges, auto-comparisons, electronic leasing, and active electronic systems. By leveraging cutting-edge tools such as digital identification, machine learning, and the Internet of Things (IoT), tax authorities can streamline processes, enhance accuracy, and bolster the overall efficiency of tax control. The adoption of electronic privileges and intelligent auto-comparison algorithms contributes to a more secure and user-friendly tax environment. Similarly, the integration of digital contracts, mobile applications, and leasing management platforms optimizes leasing procedures. Moreover, active electronic systems, powered by IoT and data analytics, offer unprecedented capabilities for asset monitoring and risk mitigation. This article underscores the pivotal role of digital innovations in shaping a transparent, fair, and effective landscape for tax control, presenting a holistic approach to fortifying tax systems in the modern era.

Key words: tax control, digital technologies, electronic privileges, auto-comparisons, electronic leasing, active electronic systems.

SOLIQ NAZORATINING ZAMONAVIY USULLARI: TAHLIL, MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya: Ushbu maqola e-imtiyoz, avtomatik taqqoslash, e-ijara va faol elektron tizimlarga e'tibor qaratgan holda, raqamli texnologiyalarning soliq nazorati mexanizmlariga transformativ ta'sirini o'rganadi. Raqamli identifikatsiya, mashinaviy o'qitish va narsalar interneti (IoT) kabi ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda soliq undirish jarayonlarni soddalashtirish, aniqlikni oshirish va soliq qonunchiligiga rioya qilish samaradorligini oshirishi mumkin. E-imtiyozlar va aqlli avtomatik taqqoslash algoritmlarini joriy etish yanada xavfsiz va foydalanuvchilar uchun qulay soliq muhitini yaratishga yordam beradi. Xuddi shunday, raqamli shartnomalar, mobil ilovalar va boshqaruv platformalarining integratsiyasi soliq ma'murchiligi tartiblarini soddalashtiradi. Bundan tashqari, narsalar interneti va ma'lumotlar tahliliga asoslangan faol elektron tizimlar aktivlarni monitoring qilish va xavflarni kamaytirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taklif etadi. Ushbu maqola soliq tizimini mustahkamlashga yaxlit yondashuvni taqdim etgan holda shaffof, adolatli va samarali soliqqa tortish muhitini yaratishda raqamli innovatsiyalarning asosiy rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: soliq nazorati, raqamli texnologiyalar, e-mtiyozlar, avtoqiyoslash, e-ijara, elektron tizimlar.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ: АНАЛИЗ, ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация: В этой статье исследуется преобразующее влияние цифровых технологий на механизмы налогового контроля с упором на электронные привилегии, автоматическое сравнение, электронный лизинг и активные электронные системы. Используя передовые инструменты, такие как цифровая идентификация, машинное обучение и Интернет вещей (IoT), налоговые органы могут оптимизировать процессы, повысить точность и повысить общую эффективность налогового контроля. Внедрение электронных привилегий и интеллектуальных алгоритмов автоматического сравнения способствует созданию более безопасной и удобной для пользователя налоговой среды. Аналогичным образом, интеграция цифровых контрактов, мобильных приложений и платформ управления лизингом оптимизирует процедуры лизинга. Более того, активные электронные системы, основанные на Интернете вещей и анализе данных, предлагают беспрецедентные возможности для мониторинга активов и снижения рисков. В этой статье подчеркивается ключевая роль цифровых инноваций в формировании прозрачной, справедливой и эффективной среды налогового контроля, представляя целостный подход к укреплению налоговых систем в современную эпоху.

Ключевые слова: налоговый контроль, цифровые технологии, электронные льготы, автосличения, электронный лизинг, активные электронные системы.

INTRODUCTION

For the purpose of economic development on a global scale, it is worth noting that the issue of encouraging business entities by means of tax instruments lies in the center of the current requirements of the tax policy of the states. At the same time, one of the effective means of positively influencing the formation of the institutional foundations of socio-economic development is the strengthening of tax administration. However, in comparison with the international tax practice, in particular, the rich positive experiences in the tax field of developed countries, it is worth mentioning that our country is taking the first steps in the modernization of the tax system that meets modern requirements and the formation of an effective tax administration. In this case, stabilization of the tax administration and implementation of its control corresponds to the section of business layers that create difficulties. That is why, as a separate direction of the tax system reform, which has been the cause of many discussions in recent years, the research of the relationship regarding the improvement and strengthening of the institutional basis of determining the tax control of business entities is of great importance today.

LITERATURE REVIEW

In the modern world, effective tax control is one of the key elements of the financial stability of the state. This review aims to analyze the latest trends in tax control, identify the main problems facing tax systems and find effective solutions to overcome them.

Modern information technologies, such as big data analysis, artificial intelligence and machine learning, have become an integral part of tax control (Alexandrov, 2020). Big data analysis helps identify inconsistencies in data and more effectively identify the risks of tax violations (Ivanov, 2019).

The use of risk-based methods includes not only identifying tax risks, but also developing strategies for their management (Petrova, 2021). This allows tax services to use resources more specifically to control objects with the greatest potential for violations (Smirnov, 2022).

According to another research, it was analyzed the implementation of modern methods in the practice of tax control, identify their effectiveness and applicability in various countries (Kozlov, 2020). Grigorieva outlined the main problems that states face when introducing and using modern methods of tax control (Grigorieva, 2018). Tikhonov identified shortcomings in the existing tax legislation that hinder the effective implementation of modern methods (Tikhonov, 2019). Sokolov considered problems in the field of cybersecurity and the complexity of integrating new technologies into existing systems (Sokolov, 2021). Another authors propose measures to eliminate shortcomings in legislation and improve the legal framework (Novikova, 2022). An author discussed the possibilities of improving cybersecurity and developing a technological base for the effective use of innovative methods of tax control (Belov, 2021).

RESEARCH METHODOLOGY

The research methodology outlines the systematic approach employed to investigate and analyze the impact of digital technologies on tax control, with a specific focus on electronic privileges, auto-comparisons, electronic leasing, and active electronic systems.

Given the evolving nature of digital technologies in the context of tax control, an exploratory research design is adopted to gain insights, identify trends, and explore potential relationships.

The research methodology employed in this study aims to provide a robust foundation for understanding the multifaceted impact of digital technologies on tax control, contributing valuable insights to academic discourse and practical applications in the field.

ANALYSIS AND DISCUSSION

In modern conditions, tax control is becoming more and more complex and requires the use of modern methods to effectively combat tax violations. Here are some key modern tax control methods:

Use of technology: With big data analytics, artificial intelligence and machine learning, tax authorities can process huge volumes of information. This allows you to identify inconsistencies in data and conduct analysis to effectively identify potential tax violations.

Risk-Based Approach: This method involves identifying tax risks and developing strategies to manage them. By analyzing and assessing risks, tax authorities can more specifically direct resources to control objects with the greatest potential for violations.

International Cooperation: With the globalization of the economy, cooperation between countries in exchanging information on tax aspects is becoming increasingly important. Data exchange and a harmonized approach to tax control contribute to a more effective fight against tax evasion.

Digitalization of processes: The introduction of digital technologies into tax control processes, such as electronic declaration and automated systems, helps improve the accuracy and speed of information processing.

Modern tax control methods are aimed at increasing efficiency, reducing risk and ensuring fairness in the collection of tax revenues. Their successful implementation requires not only technological innovation, but also constant improvement of legislation and international cooperation.

Tax control issues may include various aspects related to system efficiency, technological challenges, legislation, etc. Below are some common problems (Figure 1).




Figure 1: Problems in the field of tax control[1]

Today, as a result of entrepreneurship development reforms, the number of VAT payers has increased 20 times compared to 2016, or is 138 thousand (in 2016 - 6.6 thousand), the same number of profit tax payers also increased by 18 times. Self-employed people have exceeded 1 million. As a result of the reforms carried out in recent years, Uzbekistan entered the TOP-20 countries in the list of countries achieving positive changes in the tax sector. However, as long as a perfect system of tax administration is not created, the issue of combating the "secret economy" will remain urgent. The most correct and only solution to this is the introduction of automated information systems of the tax administration in all directions. Significant steps are being taken in this regard in the system of state tax service bodies. The capacity of the data processing center of the State Tax Committee has increased by 8 times compared to last year, and the speed of information processing has increased by 29 times. Currently, 95% of taxpayers voluntarily fulfill their tax obligations on time. (It used to be around 80 percent). This is the first result of reforms carried out in the direction of digitization.

1 Author's analysis.

Resolution No. 595 of the Cabinet of Ministers, adopted on September 22, 2021, was a conceptual document that started a new stage of tax administration in solving this problem. It has three main innovations:

1. Special registration of value added tax payers with tax authorities based on tax risk assessment.

   According to the new regulations, starting from December 22 of 2021 year, the level of tax risk of taxpayers will be studied during the special registration for value added tax. Applications for special registration are processed within 7 days. At the first stage of the application review, the tax risk of taxpayers is studied through an automated system, and according to the results, they are categorized as high, medium or low tax risk.

2. A new mechanism for accounting of assets of entrepreneurs - “E-asset” automated information system. This information system allows tax authorities to keep records of fixed assets, intangible assets and material resources, to analyze them, to monitor their movement remotely, and to create a list of goods that have been imported or left in each section of the warehouse. From January 1, 2022, it was considered mandatory for VAT payers and legal entities with a state share of more than 50 percent to use the “E-active” information system.

3. New system of lease relations - E-lease In order to register lease agreements with tax authorities by legal entities and individuals, the electronic service “Registering real estate lease agreements with state tax authorities” - “E-lease” has been created. It is being tested on the internet address “ijara.soliq.uz”. From January 1, 2022, the practice of mandatory electronic registration of real estate lease contracts with tax authorities was introduced. In addition, during the press conference, information was provided about the innovations implemented in the system of electronic invoice and identification code of products and services, in particular, about the changes introduced in order to eliminate the shortcomings identified during the use of the system.

Also, the software products of “E-privilege”, “Auto-comparison”, automated system of value-added tax control for monitoring the completeness of the chain, which are planned to be introduced, will contribute to making the system more transparent.

Incorporating digital technologies into e-benefits, auto comparisons, e-leasing and active e-systems can significantly improve the efficiency and convenience of these processes. Here are some ways digital technology can be used to improve these areas:

1. Electronic privileges:

- Digital ID Technologies: The introduction of modern digital ID technologies, such as biometric recognition, can provide more secure and convenient receipt of electronic privileges.
- Mobile applications: Development of mobile applications for obtaining electronic privileges allows users to manage their privileges through user-friendly interfaces and receive up-to-date information.

2. Auto comparison:

- Intelligent data processing systems: Using machine learning algorithms to analyze vehicle data and auto comparisons can improve the accuracy and efficiency of these processes.
- Electronic platforms: The creation of electronic platforms to automate auto comparison processes, including digital transport cards and online services, can improve the efficiency of data processing.

3. Electronic leasing:

- Digital contracts and signatures: Replacing paper contracts with electronic ones, including using digital signatures, speeds up the process of concluding and managing leasing transactions.
- Leasing management platforms: The development of digital platforms for managing leased assets, including condition monitoring and payment, contributes to automation and increased transparency of processes.

4. Active electronic systems:

- Internet of Things (IoT): Implementing IoT for real-time asset monitoring and management can improve efficiency and reduce risk in active electronic systems.
- Data Analytics: Using big data analytics to process information from active electronic systems allows you to identify trends, predict events and improve management strategies.

Overall, digital technologies provide the opportunity to automate, increase efficiency and improve user experience in various areas related to e-benefits, auto-matching, e-leasing and active e-systems.

CONCLUSION

In conclusion, the introduction of digital technologies in the field of tax control represents a key element for modern tax systems. Using innovative solutions in electronic privileges, auto comparisons, electronic leasing and active electronic systems, unique opportunities are created to optimize tax control processes:

Digital methods of identification and data analysis help improve the accuracy and efficiency of detection of tax violations, and also ensure the effective management of electronic privileges.

In the field of auto comparisons, the use of intelligent systems and machine learning algorithms contributes to more efficient processing of vehicle-related information and identification of tax risks.

Electronic contracts, digital signature technologies and leasing management platforms simplify leasing processes and provide transparency in the accounting of leasing obligations.

In the area of active electronic systems, including monitoring and data analytics, IoT technologies enhance the ability to prevent tax evasion and optimize asset accounting.

This comprehensive approach to the use of digital technologies in tax control not only improves efficiency in identifying tax violations, but also ensures a fairer and more transparent tax system. Thus, these innovations not only facilitate tax control processes, but also contribute to the development of more efficient and modern tax practices.

References:

1. Александров, И. (2020). “Роль технологий в современном налоговом контроле.” Журнал Налоговой Политики, 25(3), 112-125.
2. Иванов, П. (2019). “Применение анализа больших данных в налоговом администрировании.” Экономические Исследования, 35(2), 45-57.
3. Петрова, О. (2021). “Рисково-ориентированные методы в налоговом контроле: стратегии и эффективность.” Журнал Налоговой Аналитики, 18(4), 89-102.
4. Смирнов, А. (2022). “Оптимизация ресурсов в налоговом контроле с использованием рисково-ориентированных методов.” Научные Труды по Финансам, 40(1), 203-215.
5. Козлов, Н. (2020). “Эффективность современных методов налогового контроля: мировой опыт и перспективы.” Мировая Экономика и Налоги, 15(2), 78-91.



IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH MEHNAT BOZORIDA BANDLIK DARAJASINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Amanov Otabek Amankulovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning mehnat bozorida aholini ish bilan bandligini ta'minlashdagi o'rni haqida so'z yuritilgan. Raqamli transformatsiya jarayoni va ushbu jarayonni korxonalar faoliyatiga tatbiq etish strategiyasini amalga oshirish yo'llari, mehnat bozorini raqamlashtirish va raqamli korxonani joriy etish bosqichlari va modellari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, bandlikning moslashuvchan shakllari, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, transformatsiya, pandemiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Abstract: This article talks about the role of the digital economy in ensuring employment in the labor market. The process of digital transformation and ways to implement the strategy of applying this process to the activities of enterprises, stages and models of digitalization of the labor market and the implementation of a digital enterprise are highlighted.

Key words: labor market, flexible forms of employment, digital economy, digitalization, transformation, pandemic, information and communication technologies.

Аннотация: В данной статье говорится о роли цифровой экономики в обеспечении занятости населения на рынке труда. Выделены процесс цифровой трансформации и пути реализации стратегии применения этого процесса к деятельности предприятий, этапы и модели цифровизации рынка труда и внедрения цифрового предприятия.

Ключевые слова: рынок труда, гибкие формы занятости, цифровая экономика, цифровизация, трансформация, пандемия, информационные и коммуникационные технологии.

KIRISH

Globallashuv va jahon bozorlarining o'sib borayotgan o'zgaruvchanligi, shuningdek, raqobatning kuchayishi kompaniyalar globallashuvining salbiy ta'siriga kamroq moyil bo'lgan barqaror biznes modellarini yaratish istagini keltirib chiqaradi. Biznes modellarining barqarorligi resurslardan samarali foydalanish bilan belgilanadi: tabiiy, moddiy, moliyaviy va intellektual.

Transformatsiyaning natijasi tarmoqqa o'tish va kompaniyalar atrofida yetkazib beruvchilar, hamkorlar, iste'molchilar va raqobatchilarning ekotizimlarini shakllantirishdir. Axborotning keng tarqalganligi barcha sohalarda, jumladan, iqtisodiyotda ham shaffoflikni oshiradi.

Jahon hamjamiyati biznesning raqamli transformatsiyasi va raqamli iqtisodiyotni qurish yo'nalishini belgilab oldi. Dunyo shu qadar tez o'zgarmoqdaki, kelajak allaqachon kelgan deyishingiz mumkin. Ammo "raqamli sayyora" sari harakat hali ham turli mintaqalarda turli tezlikda sodir bo'lmoqda.

Hozirgi globallashgan iqtisodiyotda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar kuchaytirish uchun raqamli transformatsiya strategiyasiga sarmoya kiritmoqda.

Ichki va xalqaro bozorlarda mavqega ega bo'lish, o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish davlatning ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilaydigan va shu bilan harajatlarni kamaytiradigan tartibga soluvchi organ sifatidagi muhim roli nafaqat davlatning ishbilarmonlik muhitini yaxshilaydi, balki mamlakatga investitsiyalarning kirib kelishiga ham hissa qo'shadi.

Raqamli transformatsiya – korxonalarning biznes jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'lib, bu nafaqat zamonaviy asbob-uskunalar yoki dasturiy ta'minotni o'rnatishni, balki boshqaruv, madaniyat, ichki va tashqi kommunikatsiyalarga yondashuvlarni tubdan o'zgartirishni ham nazarda tutadi.

Korxonalar ilg'or va zamonaviy tashkilot sifatida obro'ga ega bo'ladi. Har bir xodimning mehnat unumdorligi, qarorlar tez va samarali qabul qilinadi, ular o'z ishini yashin tezligida hozirgi zamon talablariga moslashtiradi va mijozlar ehtiyojlarini qondiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehnat bozorida aholini bandligini oqilona ta'minlash jarayonida raqamlashtirish yuzasidan bir qancha olimlar o'z fikrlarini bildirishgan.

Raqamlashtirishning rivojlanishi bilan korxonaning biznes modellari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shuning uchun ko'pgina mualliflar raqamlashtirish ta'rifini turlicha izohlaydilar.

Masalan, Aleksandr Kutsman raqamli iqtisodiyotni "moddiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda resurslarni aniqlash, saqlash, qayta ishlash uchun raqamli texnologiyalardan faol foydalanish asosida axborot va bilimlarning ustuvor roli bilan tavsiflangan zamonaviy iqtisodiyot turi sifatida tavsiflanadi". Aksanov R. K. raqamli iqtisodiyot elektron mahsulotlar va elektron tijorat xizmatlarini ishlab chiqarishga asoslanganligini ta'kidlaydi. Elektron tijorat ostida Aksanov R. K. kapitalning elektron harakati, elektron mahsulotlar, shuningdek, elektron axborot almashinuvi jarayonini nazarda tutadi [3].

Brynjolfsson va Kahinlar (2002) tomonidan iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalari ilk marotaba 1990-yillarning o'rtalarida muhokama mavzusi sifatida targ'ib qilinib, ilk ta'riflar keltirilib, mazkur ta'riflarda korxona va iste'molchilarni virtual dunyoda uchrashtiruvchi vosita sifatida e'tirof etildi [2].

Keng miqyosdagi raqamlashtirish korxonaning raqamli transformatsiyasiga olib keladi.

Kitova O. V. va Briskin S. N. o'z tadqiqotlarida raqamli transformatsiya quyidagi mantiq bo'yicha korxona tomonidan qo'llaniladigan strategiya, operatsiyalar va texnologiyalarga ta'sir qilishini ta'kidladilar:

1) "Raqamli korxona strategiyasi mijozlarning eng yaxshi tajribasini aniqlashga, noyob biznes modeli va ekotizimini boshqarishga hamda o'zgarishlarni boshqarishga qaratilgan;
2) operatsion faoliyat doimiy takomillashtirish, jismoniy va raqamli obektlarni integratsiyalashuvi va takroriy innovatsiyalarni rag'batlantiradigan madaniyatni yaratishni o'z ichiga oladi;
3) texnologiya moslashuvchanlik va to'liq zamonaviy texnologik potentsialdan foydalanishni o'z ichiga oladi, shu jumladan analitika, idrok, harakatchanlik va boshqalar" [4].

Arenkov I. A. raqamli transformatsiyaning korxona raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rganadi. Muallifning taokidlashicha, "raqamli transformatsiya jarayonida korxona sifat o'zgarishi bosqichlaridan o'tadi, bu uning faoliyatining ishlab chiqarish, moliyaviy, moddiy, axborot sohalaridagi jarayonlarni takomillashtirishda namoyon bo'ladi, bu bizga zamonaviy texnologiyalarga moslashishga imkon beradi" [5].

2001-yilda Tomas Mesenburg raqamli iqtisodiyotning 5 ta komponentini aniqroq tuzib chiqdi va aniqladi, uning fikricha, ularni statistik baholash va o'lchash mumkin:

- korxonalarning elektron infratuzilmasi, jumladan, dasturiy ta'minot va kompyuterlar;
- elektron tijorat;
- raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali an'anaviy tarmoqlar qiymatini oshirish;
- raqamli iqtisodiyot ishchi kuchi qiymatining an'anaviyga nisbatan farqi;
- raqamli iqtisodiyot mahsulotlari va xizmatlarining qo'shilgan qiymatining o'zgarishi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotnomalari va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.Tadqiqotda makroiqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, guruhlash, eksperiment, dekompozitsiya, adaptiv usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot jamiyatning barcha sohalari va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirishga turtki bo'lgan kuchli tendentsiyadir. Shu tufayli insoniyat robototexnika, bulutli texnologiya, blokcheyn texnologiyasi, katta ma'lumotlar (Big Data) va kiberxavfsizlikning tarqalishi va rivojlanishi kabi jarayonlarga ega. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tufayli inson kapitali, bandlik shakllari va mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarga bevosita ta'sir ko'rsatilmoqda. Pandemiya va uning oqibatlari mehnat bozori taklifining sekin moslashuvi fonida mehnat talabining sifat tarkibidagi o'zgarishlar tabiiy ishsizlik darajasining oshishiga olib keladi va raqamlashtirish jarayonlari bilan bog'liq ko'nikmalarni tez egallashni talab qiladi. Bunday vaziyatning ta'siri ostida ishsizlik darajasining bo'sh ish o'rinlari soniga nisbatini ko'rsatadigan Beverij egri chizig'i o'ngga va yuqoriga siljish holati kuzatiladi.

Pandemiya va uning oqibatlari tufayli mehnatga bo‘lgan talabning sifat tarkibidagi (bilim, ko‘nikma va malakalar bo‘yicha) o‘zgarishlar ishchi kuchi taklifining sekin moslashuviga (qayta tayyorlash, yangi raqamli bilimlar, AKTdan foydalangan holda masofadan ishlash ko‘nikmalari) sodir bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 28-apreldagi, PQ-4699-sonli Qarori asosida 2023-yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko‘paytirish nazarda tutilgan. Iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi va qishloq xo‘jaligini ravnaq toptirish, tadbirkorda tashabbuskorlikni kuchaytirish, moliyaviy resurslar bilan ta’minlash kabi omillarga asoslanadi. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hisobiga 2035-yilga borib, mamlakat yalpi ichki mahsuloti 122 milliard dollarga yetkaziladi. O‘sish sur’atining bunday ko‘lamini belgilashda YAIMning nominal o‘sishi, iqtisodiyot samaradorligi, aholi jon boshiga daromadlar oshishi hisobga olingan edi.

Jumladan, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘limida ta’lim tizimi, mehnat bozori hisobiga inson kapitalini rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali aholining sog‘lig‘ini yaxshilash ko‘rsatkichlarini oshirish, ijtimoiy himoya, atrof-muhitni asrash, ilg‘or fikrlaydigan yangi avlodni shakllantirish, mamlakatning milliy brendini xalqaro miqyosda ommalashtirish kabi maqsadlar bayon etilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning 20-dekabr kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda sohada olib borilgan ishlar haqida alohida to‘xtalib o‘tildi, “Zamon talabidan kelib chiqib, mamlakatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Joriy yilning o‘zida ta’lim, bank, moliya, bojxona, qishloq xo‘jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarni raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqilgan. 500 dan ziyod yangi IT kompaniyalari tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib kelgan.

Yil yakuni bilan sohada xizmatlar hajmi 10 trillion so‘m bo‘lishi, eksporti esa 300 million dollardan oshishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkich Toshkent, Samarqand, Andijon viloyatlarida yuqori sur’atlarda o‘sdi. Surxondaryo ham ilk bor IT xizmatlar eksportini yo‘lga qo‘yib, 1 million dollardan oshirdi. Hududlarda 20 mingdan ortiq yoshlar mustaqil shug‘ullanib, xalqaro onlayn platformalar orqali yaratgan mahsulotini chetga sotgan” [1].

Shuningdek, kelgusi yildan “Har bir mahallada kamida ikki nafar dasturchi” loyihasi boshlanib, AQShlik hamkorlar bilan “Inklyuziv raqamlashtirish” loyihasi doirasida 20 ming aholi bandligi ta’minlanadi.

Bugun O‘zbekiston hukumati xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, xususan, innovatsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishida hamkorlikni mustahkamlashga e’tiborni kuchaytirmoqda. Bu borada yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlarini ko‘rsatayotgan Sharq davlatlarining o‘rni va tajribasini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Xitoy, Hindiston, Vetnam va boshqalar kabi mintaqaviy ishtirokchilar bugungi kunda jahon iqtisodiyotining lokomotivi bo‘lib xizmat qilmoqda. Yaponiya va Janubiy Koreya innovatsion va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning ko‘plab yo‘nalishlarida yetakchilikni saqlab kelmoqda. Singapur, Malayziya va Tailand tovar va xizmatlarni jahon bozorlariga eksport qilishda yuksak yutuqlarga erishmoqda. Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar va Saudiya Arabistoni esa muqobil energetika, moliya sohasida innovatsion loyihalar va kosmik tadqiqotlar sohasida jiddiy yutuqlarga erishmoqda.

IT sanoati dunyodagi eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biridir. IT-xizmatlarning o‘sish sur’ati har yili 10,0 foizni tashkil etadi, kelgusi yillarda ularning hajmi 4 trillion 300 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Global ma’lumotlar platformasi bozori 2022 va 2027-yillar oralig‘ida yillik o‘sish sur’ati 26,9% ni tashkil qilishi kutilmoqda. Raqamli transformatsiyaning bir qismi sifatida dunyo miqyosida ko‘plab yangi, samarali va daromad keltiruvchi nostandart ish shakllari va kasblar yaratilmoqda. Biroq ayni paytda ko‘pgina ish o‘rinlari yo‘qolib ketishi mumkin.

Raqamlashtirishning ishchi kuchiga ta’siri texnologik innovatsiyalar va ushbu yangi texnologiyalarning qabul qilinishiga bog‘liq, ammo OECD hisob-kitoblariga ko‘ra, ishchilarning taxminan 14,0 foizi o‘z vazifalarini avtomatlashtirish xavfi yuqori. Yana 32,0% o‘z ishlari uchun talab qilinadigan vazifalar va shuning uchun o‘z ishlarini bajarish uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarda katta o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Ushbu xodimlar yangi raqamli ish muhitida muvaffaqiyat qozonish uchun sezilarli darajada moslashishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Paqamli iqtisodiyot shuni ko‘rsatadiki bir vaqtning o‘zida keng sohalarda rivojlanmoqda va cheklangan miqdordagi kompaniyalar tomonidan, ularga maxsus vakolatlar va resurslar berilgan bo‘lsa ham, odatda qurilmaydi. Shuning uchun raqamli iqtisodiyotda asosiy rolni kuchli tadbirkorlik va innovatsion yondashuvga ega bo‘lgan xususiy biznes egallashi, davlat esa xususiy tashabbus uchun infratuzilma va sharoit yaratishi bilan shug‘ullanish kerak. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shartsharoitlarni yaratish bo‘yicha davlat o‘z rolini muvaffaqiyatli uddalamoqda, bu erishilgan natijalar va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan ulkan maqsadlardan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida aholining oqilona bandligini ta'minlash quyidagilar bilan belgilanadi:

- iqtisodiy jarayonlarni axborot bilan ta'minlash sohasida davlat, tashkilotlar va biznesning o'zaro hamkorligi;
- inson kapitalini rivojlantirish uchun institutsional muhitni shakllantirish va uni bandlikning standart va nostandart shakllari orqali amalga oshirish;
- mehnat bozorida tarmoq iqtisodiyoti tamoyillarini amalga oshiradigan hamda innovatsiyalar va IT-texnologiyalarga investitsiyalarni faol joriy etishga yo'naltirilgan yuqori malakali kadrlarning mavjudligi;
- marketing, moliya, buxgalteriya hisobi, yuridik xizmat ko'rsatish, aloqa markazlari, savdo-sotiq, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda jarayonlarni raqamlashtirish, loyihalarni muvofiqlashtirish va qonuniy masofaviy ish faoliyatini ta'minlash;
- masofadan turib ham ish qidirishga ixtisoslashgan platformalarni yaratish;
- Raqamli savodxonlikni oshirish uchun ommabop ta'lim platformalarini ishlab chiqish va tashkilot xodimlarining kasbiy rivojlanishi uchun tegishli kontent yaratish zarur. Chunki kasbiy ko'nikmalar (Hard Skills) hozirda mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirish uchun yetarli emas. Biznes va raqamli ko'nikmalar (Soft and Digital Skills) zarur. Bu esa, o'z navbatida, tez o'zgaruvchan mehnat bozori sharoitida xodimning talabga ega bo'lishini ta'minlaydi;
- Axborot jamiyati hayotiga moslashgan shaxslarni rivojlantirish uchun axborot va ta'lim maydonini yaratish.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida aholining turli qatlamlari uchun tadbirkorlik va o'z-o'zini ish bilan ta'minlash borasida juda ko'p imkoniyatlar ortib bormoqda. Mehnat bozorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish yangi kasb va ish o'rinlari yaratish, aholi va biznes uchun xizmatlarning yangi turlari paydo bo'lishi, e-hukumat loyihalari doirasida davlat boshqaruvi xarajatlarini kamayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mirziyoyev. Raqamlashtirish sohasidagi dolzarb masalalar. 20.12.2023 (president.uz)
2. Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). Understanding the Digital Economy. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA
3. Алексеенко О.А. Цифровизация глобального мира и роль государства в цифровой экономике / О.А. Алексеенко, И. В. Ильин // Информ. общество. – 2019.
4. O. V. Kitova, Digital Transformation of Business http://digitaleconomy.ru/images/easyblog_articles/320/kitova.pdf
5. I. A. Arenkov, Russian Entrepreneurship, 19 (5), 1711-1722 (2018)
6. Бойко, И. П. Экономика предприятия в цифровую эпоху / И.П. Бойко, М.А. Евневич, А.В. Колышкин // Российское предпринимательство. Том 18, – 2017. – №7. – С. 1127-1130.



TASHQI SAVDO – STATISTIK O‘RGANISHNING OBYEKTI SIFATIDA

Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada savdo atamasi va uning turlari tadqiq qilingan. Statistik tadqiqot obekti sifatida asosan tashqi savdo va unga berilgan ta’riflar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo, eksport, import, tovar, xizmat, ichki savdo, chakana savdo, ulgurji savdo, elektron tijorat savdo.

Abstract: This article examines the trade term and its types. As an object of statistical research, mainly foreign trade and its definitions were studied.

Key words: foreign trade, export, import, goods, services, domestic trade, retail trade, wholesale trade, e-commerce.

Аннотация: В данной статье рассматривается торговый термин и его виды. В качестве объекта статистического исследования изучалась главным образом внешняя торговля и ее определения.

Ключевые слова: внешняя торговля, экспорт, импорт, товары, услуги, внутренняя торговля, розничная торговля, оптовая торговля, электронная торговля.

KIRISH

Dunyo bo‘ylab yuqori darajadagi raqamli integratsiya jarayonlarining davomli shakllanayotganligi mamlakatlarni jahon bozoriga bo‘lgan ehtiyojini yanada orttirib bormoqda. Barcha tovar va xizmatlar sohalaridagi raqamlashuv jarayonlari, o‘z o‘zidan mamlakatlarni jahon bozoriga bo‘lgan zaruriyatini oshirmoqda. Zamonaviy raqamli dunyoning shakllanish jarayonlari oqibatida jahon xo‘jaligida yangidan yangi iqtisodiy munosabatlar vujudga kelmoqda, shu bois tashqi savdo jarayonlarini kengroq o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj kundan kun ortib bormoqda. Dunyo mamlakatlari bugungi kunda xalqaro savdoda aktiv faoliyat olib borishga intilishmoqda. Rivojlangan mamlakatlar rivojlanish uchun savdo aloqalari mustahkamlashga intilishgani bejizga emas. Iqtisodiy jihatdan ayta olamizki, tashqi savdoni rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorlikka erishishiga sababchi bo‘la oladi. Biroq, ba’zi geosiyosiy tarangliklar ta’sirlari tashqi savdo hajmiga albatta salbiy ta’sir ko‘rsata oladi. Yuqoridagi ta’kid bo‘yicha Birlashgan millatlar tashkilotining 2022-yil 13-dekabrdagi savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasida (UNCTAD) ma’lum qilinishicha “2022-yilda xalqaro savdo hajmi 32 trilion dollarlik rekordni zabt etgan. Umuman olganda pandemiya va Ukrainadagi urush ta’siriga qaramay tovar va xizmatlar hajmi sezilarli o‘sishga erishgan. Tovarlar hajmi energiya narxidagi o‘sish sababli 10 % ga oshgan, ya’ni 25 trilion dollarga yetgan bo‘lsa, xizmatlar bo‘yicha bu ko‘rsatkich 7 trilion dollarga yetgan, o‘sish esa 15% ni tashkil qilgan. Ammo geosiyosiy taranglik sababli 2023-yilda xalqaro savdo hajmida kamayish kutilmoqda”[1]. Shunga qaramay, savdo barcha davrlarda mamlakatlar uchun muhim sanalgan ya’ni, qadimdan mamlakatlar savdo faoliyatlarini rivojlantirish ustida ishlashgan va hozir ham ushbu jarayon jadal ravishda davom etmoqda.

TADQIQOT USULI VA NATIJALARI


Savdo qadimiy tushuncha, odamlar qadimdan savdo qilishadi chunki, ular ishonishadiki tovar almashinuvi ularga foyda keltiradi. Iste’molchilar o‘zlariga kerak bo‘lgan tovar va xizmatlarni dunyo bo‘ylab xarid qilishi ham savdodir ammo, savdo kategoriyasiga ko‘ra bu – tashqi savdo hisoblanadi. Ushbu jarayon sirtdan oddiy eshitilar, biroq bu jarayonda xalqaro savdoni tashkil qiluvchi bir qancha biznes strategiyalar, siyosat va nazariyalar mavjud. Insoniyat shakllanishi bilan savdo faoliyatlari ham shakllangani ko‘plab olimlar tomonidan ta’kidlanib kelinadi biroq, qadimiy yodgorliklar va dalillar asosida “bundan 5200 yil ilgari dastlabki savdo faoliyati dunyoning birinchi shahri qadimgi Mesopatamiyadagi Urukda tashkil qilingan degan” qarashlar mavjud[2]. Uning qishloq

1 Global trade set to hit record $32 trillion in 2022, but outlook increasingly gloomy for 2023 | UNCTAD
2 Matt Ridley. Humans: Why They Triumphed. www.wsj.com

xo‘jaligi murakkab sug‘orish kanallari orqali gullab-yashnashi, shaharni savdo vositachilarining uyi bo‘lishiga olib kelgan. Kooperativ savdo tarmog‘i keyingi davrlar davomida davom etadigan namunani o‘rnatgan. Bu hozircha bizga ma’lum bo‘lgan savdo tarixing eng tarixiy dalili bo‘lib qolmoqda.

Tarixdan ma’lumki, pulni yaratilishidan oldin ham savdo mavjud bo‘lgan, odamlar savdolashish jarayonini barter usullarida amalga oshirishgan. Ammo, “savdo” atamasi savdoning barcha kategoriyalarida keng foydalanib kelinishi, bugungi kunda tashqi va ichki savdo kabi alohida bo‘g‘imlarga ajratib o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Savdoni umumiy mamlakatlar yoki shaxslar o‘rtasidagi tovar va xizmatlar almashinuvi konsepsiyasi deb qaraladi. Aslida uning bir qancha turlari mavjud. Savdo nazariyasi bo‘yicha dastlabki tahliliy yondashuv iqtisod fanlari doktori Adam Smit tomonidan yozilgan. Iqtisodiyot uyushgan fan sifatidagi tushuncha 1776-yilda Adam Smit tomonidan nashr etilgan “Xalqlar boyligi” asaridan kelib chiqqan deyish mumkin. Savdo va xalqaro savdo tushunchalari ham asosan shu qo‘lyozmada tasvirlangan. Biroq, Adam Smitdan oldinroq Angliya, Ispaniya, Fransiya, Portugaliya va Gollandiya kabi mamlakatlarni zamonaviy milliy davlatga aylantirgan bir guruh odamlar ya’ni, savdogarlar, bankirlar, hukumat amaldorlari va faylasuflarning xalqaro savdo bo‘yicha qo‘l yozmalari mavjud.

Savdo atamasiga yana turli ta’riflar keltirib o‘tilgan, “Buyuk Sovet Ensiklopediyasi”[3] kitobiida shunday deyilgan – “savdo-xalq xo‘jaligining tovar aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasigacha bo‘lgan harakatini ta’minlovchi tarmog‘i” dir. Bu ta’rif keng ma’noda bo‘lib, tor ma’noda - ma’noda “savdo bu - tovar sotib olish va ularga sezilarli moddiy o‘zgarishlar kiritmasdan ularni qayta sotish demakdir” deb aytib o‘tilgan. Savdo atamalariga keladigan bo‘lsak ular turli ma’nolarni anglatishi mumkin. Masalan “Katta iqtisodiy lug‘at” kitobida Borisov A.B. savdo, ichki savdo hamda tashqi savdo atamalariga ta’riflar berib o‘tgan. Unga ko‘ra “savdo - tovar sotish, saqlash va sotishga tayyorlashda tovar ayirboshlash hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish obyekti bo‘lgan iqtisodiyot tarmog‘i va xo‘jalik faoliyatining turi bo‘lsa, ichki savdo - iqtisodiyotning mamlakat ichki bozorida tijorat mahsulotlarini sotadigan tarmog‘idir”[4]. Tashqi va xalqaro savdo bir biriga yaqin tushunchalar hisoblanadi. Tashqi savdo bir mamlakatning tashqi savdosini ifodalasa, xalqaro savdo esa bir nechta mamlakatning tashqi savdo faoliyatini ifodalaydi. Rayzberg B. A., va Lozovskiy L. Sh., Starodubseva Ye. B. larning “Zamonaviy iqtisodiy lug‘at” kitobiida tashqi savdoni quyidagicha ifodalashgan: “tashqi savdo - boshqa mamlakatlar bilan savdo qilish, mamlakatdan tovarlar eksport qilish va mamlakatga tovarlar olib kirish, Boshqa mamlakatlar bilan savdo qilish, mamlakatdan tovarlar eksport qilish va mamlakatga tovarlar olib kirishidir”[5]. Xalqaro savdoni esa Borisov A.B. “O‘zaro savdo qiluvchi davlatlarning savdo aloqalari, tashqi savdo aloqalarining umumiyligi”dir deb izohlagan[6]. Umuman olganda, olimlarning savdo nazariyasi, xalqaro savdo va tashqi savdo tushunchalari ustida turli ilmiy yondashuvlari mavjud. Ba’zi olimlar tashqi savdo bilan ichki savdo maqsadi bir va maqsad ikkalasida ham sotish, shu sabab chegaraning ahamiyati yo‘q desa, boshqa taraf olimlari tushuncha bir biri bilan yetarlicha farqga ega deb fikr berishadi. Bizning fikrimizcha ham ichki savdo bilan tashqi savdo bir biridan maqsadi va tashkil qilinish siyosatiga ko‘ra bir biridan juda faqrlidir. Ichki savdoda asosan foyda birinchi o‘rinda turadi va tadbirkorlik subektlari hamda iste’molchilar amalga oshirishadi. Tashqi savdo orqali yanada kengroq maqsadlarni ko‘zlanadi va unda mamlakat siyosati muhim o‘rin tutadi.



1.1-rasm: Savdo va uning turlari[7]

3 Российский энциклопедический словарь: РЭС: в 2 кн./ Гл. ред. А.М. Прохоров, редкол.: В.И. Бородулин, А.П. Горкин (Зам. гл. ред.), В.М. Карев [и др.]. – М.: Большая Рос. энцикл., 2001.
4 Борисов А.Б. Большой экономический словарь.–М.:Книжный мир, 2003. – 895 с.
5 Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Ста-родубцева Е.Б. Современ-ный экономический словарь. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 495 с.
6 Борисов А.Б. Большой экономический словарь.–М.:Книжный мир, 2003. – 895 с.
7 Muallif tomonidan ishlab chiqiladi.

Tashqi savdo jarayonlari mamlakatlar taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi bizni ushbu tadqiqot ishimizda tashqi savdoni xalqaro sanoatning tasniflariga muvofiq holda, iqtisodiy statistik tahlilimizning obyekti sifatida ko‘rishimizga olib qeldi. Birlashgan millatlar tashkilotining ushbu metodologik qo‘llanmasiga muvofiq, tashqi savdo ta’rifi quyidacha keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra, tashqi savdo-tijorat kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari va xalqaro narxlar darajasini inobatga olgan holda, Xalqaro tovarlar va xizmatlar almashinuvini keltirib chiqaruvchi, tovarlar, savdo korxonalari, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning tadbirkorlik faoliyati tushuniladi[8]. Shunga ko‘ra iqtisodiy o‘sishning muhim qo‘shimcha omili sifatida, mamlakatning xalqaro aloqalarining kengayishiga sabab bo‘lishi tashqi savdoning roli muhimligini anglatadi. Tashqi savdo bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan rus olimi Bayasgalangin Setsge shunday deydi, “Tashqi savdo mamlakat iqtisodiy hayotining ajralmas va juda muhim tarkibiy qismidir. Uning muvozanatli rivojlanishiga eng katta e’tibor qaratish lozim va bu, birinchi navbatda, tashqi savdo strategiyasining maqbul variantini tanlashga tegishli bo‘lib, uni amalga oshirish hozirgi iqtisodiy sharoitda ijobiy natijalar beradi”[9].

S. N. Bludova[10] tashqi savdoning nazariy asoslarini tahlil qilish asosida quyidagi fikrlarga kelgan, tashqi iqtisodiy aloqalar; hozirgi bosqichda xalqaro savdoning klassik nazariyalari, asosan jahon savdosining xususiyatlarini to‘liqroq tavsiflovchi tashqi savdo almashinuvining muqobil, neotexnologik konsepsiyalarini shakllantirish uchun asos sifatida qo‘llaniladi.

Tashqi savdo bo‘yicha iqtisodchi olimlarimiz ham o‘z fikrlarini bildirganlar, shu jumladan iqtisodchi olim M. Mirsaidov o‘zining Xalqaro iqtisodiy munosabatlar kitobida tashqi savdoga quyidagicha ta’rif bergan: “Tashqi savdo iqtisodiy tushuncha bo‘lib, bir davlat bilan boshqa bir davlat o‘rtasidagi tovar va xizmatlarning to‘langan importi va va eksportidan tashkil topgan savdosini anglatadi”[11].

Mamlakatlar tashqi savdo statistikasini yuritishda Birlashgan millatlar tashkilotining (keyingi o‘rinlarda BMT) “Xalqaro tovarlar savdosi statistikasi:tushunchalar va ta’riflar” (IMTS) qo‘llanmasidagi tavsiyalar asosida shakllantiriladi. Shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo statistikasi ham ushbu qo‘llanma me’yorlari asosida shakllatiriladi. Qo‘llanmada tovarlar bo‘yicha tashqi savdo statistikasiga quyidagicha ta’rif berib o‘tilgan: unga ko‘ra “Xalqaro tovarlarlar savdosi statistikasi (IMTS) atamasi mamlakatlar va hududlar o‘rtasida tovarlar harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish bilan bog‘liq bo‘lgan ixtisoslashtirilgan, ko‘p maqsadli rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plamini bildiradi”. Xalqaro tovarlar savdosi statistikasining ko‘lami ushbu bo‘limlarda keltirilgan umumiy va maxsus ko‘rsatmalar bilan belgilanadi. Umumiy ko‘rsatma sifatida xalqaro tovar savdosi statistikasida mamlakatning iqtisodiy hududiga olib kirish yoki undan olib chiqish yo‘li bilan uning moddiy resurslar zaxirasiga qo‘shiladigan yoki undan ayirib qo‘yiladigan barcha tovarlarni hisobga olish tavsiya etiladi:

- tovarlarning o‘ziga xos xususiyatlari;
- savdo bitimining o‘ziga xosligi yoki murakkabligi;
- ma’lumotlarni yig‘ish bilan bog‘liq har qanday amaliy fikrlar.

Muayyan mahsulot toifalari uchun maxsus ko‘rsatmalar ushbu mahsulotlarga aniqlik kiritadi:

- tovarlar savdosining xalqaro statistikasiga kiritilishi kerak;
- xalqaro tovar savdosi statistikasiga kiritilmagan;
- tovar savdosining xalqaro statistikasiga kiritilmasligi kerak, lekin to‘lov balansi va milliy hisoblar yoki boshqa statistik maqsadlar uchun umumiy xalqaro tovar savdosi ko‘rsatkichlarini hisoblash imkonini berish uchun alohida qayd etilishi kerak.

Butun jahon bo‘ylab raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va jadal integratsiya jarayonlari bugungi kunda tashqi savdo jarayonlarini keskin rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Qolaversa, 2019-yilning COVID-19 pandemiyasi ham dunyo mamlakatlarida raqamli integratsiya jarayonlarini keskin jadallashuviga olib kelmoqda. Pandemiyadan keyingi raqamli iqtisodiyot ta’sirida shakllanayotgan jahon xo‘jaliklarining iqtisodiy munosabatlari, mamlakatlarning yangi tashqi savdo aloqalari shakllanmoqda. Shu bois bugungi kundagi tashqi savdo jarayonlarini iqtisodiy hamda statistik tadqiq etishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Sir emaski, mamlakatlararo xalqaro savdoning takomillashuvi dunyo bo‘ylab kambag‘allik darajasini pasaytirishga, qolaversa, ham ichki ham hukumatlar o‘rtasidagi munozarali vaziyatlar yechimini taqdim eta oladi. Masalan, biz misol tariqasida firma yoki shaxsni oladigan bo‘lsak, uning ancha arzon joydan xizmat yoki mahsulotni olishi ikkala tomonning ham yashash standartlarini yaxshilanishiga olib keladi. Umumiy olib aytganda, tarixdan ma’lumki qaysi hudud rivojlangan bo‘lsa, savdo aloqalari o‘sha hududda ancha rivojlangan bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlar rivojlanish uchun savdo aloqalari mustahkamlashga intilishgani bejizga emas.

8 The International Trading System and Trade Negotiations | UNCTAD


9 Баясгалангийн Цэцгээ. Диссертация на тему “Математическое моделирование структуры внешней торговли Монголии”, по специальности ВАК РФ 08.00.13 - Математические и инструментальные методы экономики. dissercat.com.

10 Диссертация на тему “Методическое обеспечение оценки состояния и формирования направлений развития внешнеэкономического комплекса региона”, (dissercat.com)

11 M. Mirsaidov. Xalqaro-iqtisodiy-munosabatlar. O‘quv qo‘llanmasi. www.sies.uz

TAHLIL

Iqtisodiy jihatdan ayta olamizki, tashqi savdoni rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorlikka erishishiga sababchi bo‘la oladi. Jahon savdo tashkiloting statistik ma’lumotlari ham shuni ko‘rsatadiki rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdo hajmlarida doimiy o‘sish kuzatiladi. Yurtimizda ham tashqi savdo aloqalarimizni rivojlantirish ishlari jadal tus olmoqda. Jumladan, Joriy 2023-yilning aprel oyida o‘tkazilgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi ochilishida prezident Sh.M. Mirziyoyev[12] ham buni ta’kidlab o‘tdilar. Prezidentimiz “Jahon savdo tashkiloti talablari “O‘zbekistondagi islohotlar mazmuniga to‘la mos ekanini va investorlar uchun zarur bo‘lgan 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bojxona bojlari bekor qilingan.



1.2-rasm: Jahon mamlakatlari tashqi savdo aylanmasining yalpi ichki mahsulotidagi ulushi (foizda)[13]

Tarix va ko‘plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tashqi savdo iqtisodiy o‘sishning muhim dastagi hisoblanadi. Jumaladan Karliy Shmit va uning jamoasi tomonidan 150 ta dunyo mamlakatlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Tashqi savdo va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik” mavzusidagi ekonometrik tadqiqotida tashqi savdo va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida kuchli bog‘liqlig borligini empirik isbotlashgan. Olimlarga ko‘ra savdo hajmini 1 % oshishi yalpi ichki mahsulotni 0.4% oshishiga olib keladi. Bundan ko‘rinib turibdiki rivojlangan mamlakatlar doimo tashqi savdo aloqalarini muhim bilib tashqi savdo aylanmasi hajmini oshirish maqsadida savdo aloqalarini kengaytirish ustida ishlashgan. Jahon savdo tashkilotining statistik ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdo aylanmasi ularning yalpi ichki mahulotga solishtirilganda nisbatan katta qismni tashkil qiladi (1.2-rasmga qarang).

1.1-jadval: Dunyo mamlakatlarining tovarlar guruhi bo‘yicha eksport hamda import hajmlari (mlrd. AQSH dollarda)[14]

Yillar	2018		2019		2020		2021		2022	
Davlatlar	Eksport	Import	Eksport	Import	Eksport	Import	Eksport	Import	Eksport	Import
AQSh	1664.0	2614.2	1643.2	2567.4	1424.9	2406.9	1754.3	2935.3	2064.3	3375.8
Xitoy	2486.7	2135.7	2499.5	2078.4	2590.0	2066.0	3358.2	2686.7	3593.5	2716.2
Rossiya	443.9	248.9	419.7	253.9	333.5	240.1	494.4	304.0	588.3	280.4
Fransiya	582.2	676.4	571.0	654.7	488.6	581.3	585.0	715.1	617.9	818.3
Turkiya	177.2	231.2	180.8	210.3	169.6	219.5	225.2	271.4	254.2	363.7
Shvetsariya	310.7	279.5	313.9	277.8	319.3	292.0	380.2	324.1	401.7	356.5

12 Prezident: O‘zbekiston JSTga tezroq a'zo bo‘lib kirishdan manfaatdor (kun.uz)
13 Muallif tomonidan www.stats.wto.org sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
14 Жаҳон савдо ташкилоти (stats.wto.org) ҳамЎзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги (stat.uz) сайтларидаги маълумотлар асосида тайёрланди.

Singapur	413.0	370.9	390.8	359.3	362.5	329.8	457.4	406.2	515.8	475.6
Germaniya	1560.5	1284.4	1489.4	1234.0	1382.5	1171.8	1636.7	1421.5	1657.6	1570.8
J. Koreya	604.9	535.2	542.2	503.3	512.5	467.6	644.4	615.1	683.6	731.4
O‘zbekiston	10.9	17.3	14.9	21.9	13.3	20.0	14.1	23.7	15.3	28.2

Statistik ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki O‘zbekiston hamda rivojlangan mamlakatlarda pandemiya davrida ham tashqi savdo aylanmasi sezilarli yuqorilagan. Yurtimizda oxir besh yilda tovarlar guruhi bo‘yicha import va eksport hamji mos ravishda 60% hamda 40 % miqdorda o‘sishga erishgan.

Statistik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ishonchli statistik ma’lumotlar bazasi ega bo‘lishimiz darkor. Bunda, ma’lumotlarni ishonchli manbaladan olinishi muhim ahamiyat kasp etadi. Tashqi savdo bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasidagi asosiy ma’lumotlar bazasi sifatida quyidagi tashkilotlarni aytib o‘ta olamiz:

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi xuzuridagi Bojxona ko‘mitasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

Tovarlarning tashqi savdosining barcha baholari bojxona statistikasiga asoslanadi, unda importchilar va eksportchilar tomonidan bojxonada e’lon qilingan qiymat hisobga olinadi. Tashqi savdo jarayonlarini ifodalovchi axborot manbalari manbalari bojxona organlariga tegishli va tegishli bo‘lmagan manbalar asosida shakllantiriladi. Bojxona organlari asosida yig‘ilgan tashqi savdo ma’lumotlari bojxona qo‘mitasi deklaratsiyalari va tegishli bojxona hujjatlari ma’lumotlariga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matt Ridley. Humans: Why They Triumphed. www.wsj.com
2. Российский энциклопедический словарь: РЭС: в 2 кн./ Гл. ред. А.М. Прохоров, редкол.: В.И. Бородулин, А.П. Горкин (Зам. гл. ред.), В.М. Карев [и др.]. – М.: Большая Рос. энцикл., 2001.
3. Борисов А.Б. Большой экономический словарь.–М.:Книжный мир, 2003. – 895 с.
4. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Ста-родубцева Е.Б. Современ-ный экономический словарь. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 495 с.
5. Борисов А.Б. Большой экономический словарь.–М.:Книжный мир, 2003. – 895 с.
6. The International Trading System and Trade Negotiations | UNCTAD
7. Баясгалангийн Цэцгээ. Диссертация на тему “Математическое моделирование структуры внешней торговли Монголии”, по специальности ВАК РФ 08.00.13 - Математические и инструментальные методы экономики. dissercat.com.
8. Диссертация на тему “Методическое обеспечение оценки состояния и формирования направлений развития внешнеэкономического комплекса региона”, (dissercat.com)
9. M. Mirsaidov. Xalqaro-iqtisodiy-munosabatlar. O‘quv qo‘llanmasi. www.sies.uz
10. Ergashev, M. (2022). Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish: Mint-aqalarning innovatsion rivojlanishini statistik baholash. Sentr nauchnix publikatsiy (buxdu. uz), 13(13).
11. Sherov, A. U., & Qurbonov, A. U. (2022). Tendency Of Developing Digital Economy in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald, 5, 123-126.

NODAVLAT NOTIJOART TASHKILOTLARIDA MAQSADLI TUSHUMLARGA DOIR ISHCHI SCHOTLARNI TAKOMILLASHTIRISH



Ne’matov Oybek Ismatullayevich
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v. b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarida maqsadli tushumlar hisobi uchun mo‘ljallangan ishchi schotlar rejasini takomillashtirish masalalari o‘z aksini topgan.
Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi schotlari, grantlar, xalqaro grantlar, a’zolik badallari, ixtiyoriy badallar, beg‘araz olingan mulk.

Abstract: This article reflects the issues of improving the plan of working accounts intended for calculating target income in non-governmental non-profit organizations.
Key words: accounts, grants, international grants, membership fees, discretionary contributions, property received free of charge.

Аннотация: В данной статье отражены вопросы совершенствования плана рабочих счетов, предназначенных для расчета целевых доходов в негосударственных некоммерческих организациях.
Ключевые слова: бухгалтерские счета, гранты, международные гранты, членские взносы, дискреционные взносы, имущество, полученное безвозмездно.

KIRISH

Nodavlat notijorat tashkilot (NNT)larining jamiyatimizdagi o‘rnini oshib borayotganligini, ular faoliyatida maqsadli tushumlarning, ayniqsa, grantlarning muhim ahamiyatga molikligini e’tiborga olgan holda grantlar hisobini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunda[1] NNTlar faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi manbalari qayd qilingan:

- kirish va a’zolik badallari, agar ular ustavda nazarda tutilgan bo‘lsa;
- muassislardan, qatnashchilardan (a’zolardan) bir marotaba va muntazam ravishda keladigan tushumlar;
- ixtiyoriy mulkiy badallar va ehsonlar;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan, faqat ustav maqsadlari uchun ishlatiladigan daromadlar (foyda);
- qonunlarda ta’qiqlanmagan boshqa tushumlar.

Qonunda keltirilgan “kirish badallari”, “a’zolik badallari”, “bir marotaba tushumlar”, “muntazam ravishda keladigan tushumlar”, “ixtiyoriy mulkiy badallar”, “ixtiyoriy mulkiy ehsonlar” tushunchalariga aniqlik kiritish kerak. Ularga ta’rif keltirilmagan, bir-biridan farqni ko‘rsatuvchi omillar ochib berilmagan. Shu bilan bir qatorda, ushbu maqsadli tushumlar (grantlar) hisobini buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirish masalasini takomillashtirish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

NNTlarida maqsadli tushumlar hisobi bilan bog‘liq myammolarning ba’zi nazariy, tashkiliy va metodologik jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan L. V. Yegorova, A. V. Brovkin, V. I. Podolskiy, mamlakatimiz olimlaridan K. B. Axmedjanov, R. D. Do‘smuratov, N. A. Ibragimov, I. N. Ismanov, A. A. Karimov, N. F. Karimov, D. K. Kudbiyev, M. B. Kalonov, S. U. Mehmonov, M. Q. Pardayev, A. X. Pardayev, N. K. Rizayev, A.J.Tuychiyev, M. M. Tulaxodjaeva, I. N. Qo‘ziyev, K. R. Hotamov, M. S. Xojiyev va boshqa olimlar ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Biroq maqsadli tushumlar hisobi uchun mo‘ljallangan milliy ishchi schotlar rejasini takomillashtirish masalasi juda kam o‘rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

NNTlarida maqsadli tushumlar hisobi uchun mo‘ljallangan, amalda qo‘llanilayotgan schotlar rejasini takomillashtirish, NNTlari faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, maqsadli tushumlar hisobi uchun yangi schotlar tavsiya etilgan. Ushbu tavsiya etilayotgan maqsadli tushumlar bo‘yicha buxgalteriya hisobi schotlari

1 O‘zbekiston Respublikasi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi . 1999-yil 14-aprel. https://lex.uz/docs/11360

xorijiy tajribalarni tadqiq etish asosida, guruhlash, taqqoslash, baholash hamda abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullar yordamida ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

NNTlari maqsadli tushumlari tarkibida grantlar alohida ajralib turadi, ya'ni grantlar asosiy faoliyatni amalga oshirish mexanizmi sanaladi. Shu bois, grantlar hisobini yanada takomillashtirish uchun, bizningcha, quyidagilarni amalga oshirish lozim.

Birinchidan, grantlar hisobiga doir buxgalteriya hisobining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, chunonchi grantlar hisobiga doir 10-son BHMS "Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo'yicha ko'rsatiladigan ma'lumotlar"ni[2] buxgalteriya hisobining xalqaro standarti №20 "Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni ochib berish"ga[3] to'liq moslashtirish lozim. Respublikamizda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosidagi moliyaviy hisobotga o'tkazish bo'yicha belgilangan tadbirlar, mos ravishda, moliyaviy hisobotda maqsadli tushumlar, shu jumladan grantlarni xalqaro standartlar talablari asosida aks ettirishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, respublikamizda maqsadli tushumlar, shu jumladan grantlar hisobining 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"da[4] belgilangan schotlar tizimini va ularni yuritishning metodologik tartiblarini yanada takomillashtirish lozim. Chunonchi, bizning fikrimizcha, ushbu BHMSda nazarda tutilgan 8800 "Maqsadli tushumlar" va 8810 – "Grantlar" schotlari iyerarxik tizimini quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval: Grantlar hisobi uchun mo'ljallangan schotlarning yaxlit iyerarxik tizimi (tavsiya)[5]

Daraja maqomi	Schotlar darajasi	Schot nomeri va nomi
Yuqori daraja	1-darajali sintetik schot	8800 "Maqsadli tushumlar"
	2-darajali sintetik schot	8810 "Grantlar"
	3-darajali sintetik schotlar (grantlarning kelib tushish manbalariga ko'ra)	• 8811 "Davlat budjetidan ajratilgan grantlar" • 8812 "Nodavlat organlaridan olingan grantlar" • 8813 "Xorijiy davlatlardan olingan grantlar" • 8814 "Xalqaro tashkilotlar va fondlardan olingan grantlar"
Quyi daraja	1-darajali analitik schotlar (grantlarning ko'rinishiga ko'ra)	"Asosiy vositalar ko'rinishidagi grantlar"
		"Nomoddiy aktivlar ko'rinishidagi grantlar"
		"TMB ko'rinishidagi grantlar"
		"Pul mablag'lari ko'rinishidagi grantlar"
	2-darajali analitik schotlar (alohida ko'rinishdagi grantlarning turlariga ko'ra)	• bino va inshoatlar; • mashina va uskunalar; • ofis mebellari va jihozlari; • kompyuter texnikasi; • transport vositalari; • biologik aktivlar; • boshqa asosiy vositalar • savdo belgilari; • tovar belgilari; • amaliy dasturlar paketlari; • boshqa nomoddiy aktivlar • oziq-ovqat tovarlari; • nooziq-ovqat tovarlari • xorijiy valyutagi pul mablag'lari; • milliy valyutadagi pul mablag'lari
	3-darajali analitik schotlar (alohida turdagi grantlarning inventar raqamlari va kodlariga ko'ra)	• asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning inventar raqamlari; • TMBlarning kodlari

2 10-son BHMS Moliya vazirligi tomonidan 19.10.1998 y. 52-son bilan tasdiqlangan (AV tomonidan 03.12.1998 y. 562-son bilan ro'yxatga olingan).

3 20-son BHXS "Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni ochib berish". https://finotchet.ru/articles/142/

4 21-son BHMS Moliya vazirining 09.09.2002 y 103-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (AV tomonidan 23.10.2002 y. 1181-son bilan ro'yxatga olingan).

5 Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Hozirgi paytda amaliyotda qo‘llanilayotgan “1 S-Buxgalteriya” amaliy dasturlar paketi (ADP) grantlar hisobini yuqorida tavsiya etilayotgan schotlar tizimi asosida yuritish imkonini beradi, deb hisoblaymiz. Buning uchun ushbu ADP ma’lumotlar bazasiga tegishli sintetik schotlar va ularga ochilishi lozim bo‘lgan analitik schotlar kodlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi klassifikator kiritilishi lozim.

2-jadval: 8814 “Xalqaro tashkilotlar va fondlardan olingan grantlar” schoti va unga ochiladigan analitik schotlar klassifikatori[6]

1-darajali analitik schotlar	2-darajali analitik schotlar	3-darajali analitik schotlar
8814.1 “Asosiy vositalar ko‘rinishidagi grantlar”	8814.12 “Bino va inshoatlar”; 8814.13 “Mashina va uskunalar” 8814.14. “Ofis mebellari va jihozlari” 8814.15. “Kompyuter texnikasi” 8814.16 “Transport vositalari”; 8814.17 “Biologik aktivlar”; 8814.18 “Boshqa asosiy vositalar”	• Bino va inshoatlarning inventar raqamlari • Mashina va uskunalarning inventar raqamlari • Ofis mebellari va jihozlarining inventar raqamlari • Kompyuter texnikasi inventar raqamlari • Transport vositalari inventar raqamlari • Biologik aktivlar inventar raqamlari • Boshqa asosiy vositalar inventar raqamlari
8814.2 “Nomoddiy aktivlar ko‘rinishidagi grantlar”	8814.21 “Savdo belgilari” 8814.22 “Tovar belgilari” 8814.23 “Amaliy dasturlar paketlari”; 8814.24 “Boshqa nomoddiy aktivlar”	• Savdo belgilari inventar raqamlari • Tovar belgilari inventar rakamlari • Amaliy dasturlar paketlari inventar raqamlari • Boshqa nomoddiy aktivlar inventar raqamlari
8814.3. “TMB ko‘rinishidagi grantlar”	8814.31 “Oziq ovqat tovarlari” 8814.32 “Nooziq ovqat tovarlari”	• Oziq ovqat tovarlari kodlari” • Nooziq ovqat tovarlari kodlari
8814.4. “Pul mablag‘lari ko‘rinishidagi grantlar”	8814.41 “Xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari” 8814.42 “Milliy valyutadagi pul mablag‘lari”	• AQSH dollari • YEVRO • Rubl • So‘m

Olingan grantlarni yuqori tavsiya etilayotgan schotlar kesimida “1 S-Buxgalteriya” amaliy dasturlar paketi (ADP) asosida hisobini yuritish ular to‘g‘risida tizimli axborotlarni shakllantirilishiga, shuningdek ushbu ma’lumotlar asosida grantlarning NNTlar mulkiy holatidagi hissasini aniqlash imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, NNTlarda kelib tushgan grantlar hisobidan yangi bino va inshootlar qurilishi, shuningdek, turli asosiy vositalar sotib olinishi mumkin. NNTlarda ushbu maqsadlarga yo‘naltirilgan mablag‘larni grantlar evaziga amalga oshirilgan kapital investitsiyalar deb nomlash maqsadga muvofiqdir. Mos ravishda, grantlar evaziga asosiy vositalarni qurish va sotib olinishiga investitsiya qilingan grantlarning tizimli hisobini yuritish uchun 21-son BHMSda 0811 “Grantlar evaziga amalga oshirilayotgan kapital qurilish”, 0821 “Grantlar evaziga sotib olingan asosiy vositalar” va 0831 “Grantlar evaziga sotib olingan nomoddiy aktivlar” schotlarini nazarda tutishni lozim deb hisoblaymiz. Tegishli ravishda kapital investitsiyalarga sarflangan grantlar summasini qurilish obyektlari hamda sotib olingan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar foydalanishga qabul qilingach, quyidagi yozuvlarni amalga oshirish tartiblarini 21-son BHMSda nazarda tutish lozim:

- grantlar summasini yopilishiga

Debet 8810 “Grantlar” Kredit 8530 “Beg‘araz olingan mulk”.

- grantlar evaziga qurilgan obyektlar hamda sotib olingan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi summasiga

Debet 8530 “Beg‘araz olingan mulk” Kredit 0200 “Asosiy vositalarning eskirishi”, 0500 “Nomoddiy aktivlarning eskirishi” .

To‘rtinchidan, NNTlarda kelib tushgan grantlar hisobidan turli tovar-moddiy boyliklar ham sotib olinishi mumkin. Misol uchun, “Mahalla” jamoa fondida yoki “Nuroniy” jamg‘armasida kelib tushgan grantlar evaziga har xil sport va boshqa tanlovlar g‘oliblarini taqdirlash, qariyalar va kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotib olinadi. Shuningdek, ushbu turdagi tashkilotlarda ularning joriy faoliyatida ishlatish uchun turli materiallar, yoqilg‘i, xo‘jalik inventarlari ham grantlar evaziga xarid qilinadi. NNTlarida ushbu maqsadlarga yo‘naltirilgan mablag‘larni grantlar evaziga sotib olingan tovar-moddiy boyliklar deb nomlash maqsadga muvofiqdir. Grantlar evaziga sotib olingan bunday tovar-moddiy boyliklarning tizimli hisobini yuritish uchun 21-son BHMSda 1091 “Grantlar evaziga sotib olingan materiallar” va 2911 “Grantlar evaziga sotib olingan tovarlar” schotlarini nazarda tutishni lozim deb hisoblaymiz. Grantlar evaziga TMBlarni

6 Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

sotib olinishi va ularni ishlatilishiga doir operatsiyalar bo‘yicha quyidagi yozuvlarni amalga oshirish tartiblarini 21-son BHMSda nazarda tutish lozim:

- grantlar evaziga sotib olingan TMB summasiga.

Debet 1091 - “Grantlar evaziga sotib olingan materiallar”, 2911 - “Grantlar evaziga sotib olingan tovarlar” Kredit 6010 - “Ta’minotchilarga to‘lanadigan schotlar”;

- bir vaqtning o‘zida grantlar summasini yopilishiga

Debet 8810 - “Grantlar” Kredit 8530 - “Beg‘araz olingan mulk”.

- grantlar evaziga sotib olingan TMBlarni ishlatilishiga.

Debet 8530 - “Beg‘araz olingan mulk” Kredit 1091 - “Grantlar evaziga sotib olingan materiallar”, 2911 - “Grantlar evaziga sotib olingan tovarlar”.

Beshinchidan, grantlarning ishlatilishi, sarflanishiga doir xarajatlar tarkibini ham nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish lozim. Chunonchi, NNTlar uchun maxsus “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida Nizom”ni ishlab chiqish va 21-son BHMSga xarajatlar hisobini aks ettirish tartiblarini kiritish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, grantlarni moliyaviy hisobot shakllarida aks ettirish tartiblarini ham takomillashtirish zarur. Chunonchi, 1-sonli shakl “Buxgalteriya balansi”ning passivi 1-bo‘limida maxsus “Olingan grantlar” moddasini, shuningdek, 5-sonli shakl “Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot” “Olingan grantlar” va “Olingan grantlarning ishlatilgan qismi” moddalarini nazarda tutish foydadan xoli bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan NNTlarida maqsadli tushumlar hisobi uchun mo‘ljallangan milliy schotlar tizimini takomillashtirish natijasida biz quyidagilarga erishamiz:

- grantlar hisobidan yangi bino va inshoatlar qurilishi, shuningdek turli asosiy vositalar sotib olinishi NNTlarida ushbu maqsadlarga yo‘naltirilgan mablag‘larni grantlar evaziga amalga oshirilgan kapital investitsiyalar deb nomlash maqsadga muvofiq;
- grantlar evaziga sotib olingan tovar-moddiy boyliklarning tizimli hisobini yuritish uchun 21-son BHMSda 1091 “Grantlar evaziga sotib olingan materiallar” va 2911 “Grantlar evaziga sotib olingan tovarlar” schotlarini nazarda tutishni lozim deb hisoblaymiz.
- NNTlari uchun maxsus “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida Nizom”ni ishlab chiqish va 21-son BHMSga xarajatlar hisobini aks ettirish tartiblarini kiritish maqsadga muvofiq.
- 1-sonli shakl “Buxgalteriya balansi”ning passivi 1-bo‘limida maxsus “Olingan grantlar” moddasini, shuningdek, 5-sonli shakl “Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot” “Olingan grantlar” va “Olingan grantlarning ishlatilgan qismi” moddalarini nazarda tutish foydadan xoli bo‘lmaydi

Ushbu tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi nodavlat notijorat tashkilotlarida moliyalashtirish manbalarini to‘g‘ri hisobga olish, hisobotlarda haqqoniy aks ettirish va moliyaviy hisobotlarning obyektivligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi . 1999-yil 14-aprel. https://lex.uz/docs/11360
2. 10-son BHMS Moliya vazirligi tomonidan 19.10.1998-y. 52-son bilan tasdiqlangan (AV tomonidan 03.12.1998-y. 562-son bilan ro‘yxatga olingan).
3. 20-son BHXS “Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to‘g‘risida ma’lumotlarni ochib berish”. https://finotchet.ru/articles/142/
4. 21-son BHMS Moliya vazirining 09.09.2002 y 103-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (AV tomonidan 23.10.2002-y. 1181-son bilan ro‘yxatga olingan).
5. Егорова Л.В. Учет и аудит в некоммерческих организациях: теория, методология и практика. Автореферат дисс. д.э.н. Ростов-на-Дону, 2008.
6. Бровкин А.В. Концепция формирования финансовой отчетности негосударственных некоммерческих организаций. Автореферат дисс. к.э.н. М.: МГУ, 2010.
7. Xojiyev M.S. Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish. i.f.d (PhD) diss. avtoref. – T.: 2018.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI QO‘LLASH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH



Saidaxmedova Nodira Ilxamovna
DsC, Nizomiy Davlat pedagogika universiteti,
kafedra mudiri, dotsent

Annotatsiya: Dunyo iqtisodiyotining shiddatli rivojlanishi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda yangi marketing usullaridan keng foydalanishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan biznes subyektlari faoliyatida marketing strategiyalaridan samarali foydalanish hamda biznesni yuritishning barcha jabhasida uni qo‘llash hamda samaradorligini oshirish dolazarb ahamiyat kasb etadi. Maqolada kichik biznes subyektlarida marketing strategiyalarining bugungi kundagi ahamiyati va innovatsion marketing strategiyalariga qaratilgan ilmiy amaliy tahlil va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, marketing, marketing strategiyasi, innovatsion marketing, raqamli texnologiyalar, marketing dasturi, xizmatlar bozori, ist’emol bozori, marketing tadqiqotlari.

Abstract: The rapid development of the world economy requires the widespread use of new marketing methods in the production of competitive products. The effective use of marketing strategy in the activities of business entities operating in the economy of the Republic of Uzbekistan, its application in all aspects of doing business and increasing its efficiency is becoming increasingly important. The article presents scientific and practical analysis and conclusions on the importance of marketing strategy in small businesses today, foreign experience and innovative marketing strategies.

Key words: Small business, marketing, marketing strategy, innovative marketing, digital technologies, marketing program, services market, consumer market, marketing research.

Аннотация: Стремительное развитие мировой экономики требует широкого использования новых методов маркетинга при производстве конкурентоспособной продукции. Все большее значение приобретает эффективное использование маркетинговой стратегии в деятельности субъектов хозяйствования, осуществляющих деятельность в экономике Республики Узбекистан, ее применение во всех аспектах ведения бизнеса и повышение его эффективности. В статье представлены научно-практический анализ и выводы, ориентированные на сегодняшнюю значимость маркетинговых стратегий субъектов малого бизнеса и инновационных маркетинговых стратегий.

Ключевые слова: Малый бизнес, маркетинг, маркетинговая стратегия, инновационный маркетинг, цифровые технологии, маркетинговое программное обеспечение, рынок услуг, потребительский рынок, маркетинговые исследования.

KIRISH

Keyingi paytlarda jahon mamlakatlarida yuz berayotgan ziddiyatli holatlar qator davlatlarning iqtisodiy jihatdan tanglik holatlarini keltirib chiqarmoqda. Jahon iqtisodiyotining global pandemiya davrida qoldirgan asoratlarni barham topayotgan bir pallada bunday vaziyatning kelib chiqishi dunyo iqtisodiy o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki, dunyo iqtisodiyotida global iqtisodiy o‘sish 2023-yilda 1,7 foizgacha sekinlashishi prognoz qilinmoqda, bu so‘nggi 30 yildagi eng sekin ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, faqat 2009 va 2020-yillardagi global inqiroz davrida ortda qolmoqda. Ushbu pasayish qisman yuqori inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun monetar siyosatning qattiqlashishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu inflyatsiyaning o‘sishi, pul kursining keskinlashuvi yoki moliyaviy tartibsizliklar kabi salbiy zarbalar global iqtisodiyotni tanazzulga olib kelishi mumkin. Bunday global inqiroz va qarz inqirozi xavfini kamaytirish uchun shoshilinch choralar ko‘rish kerak. Bundan tashqari, hukumatlar aholining zaif qatlamlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatilishini, inflyatsiya kutilmalari barqaror bo‘lishini va moliyaviy tizimlarning barqarorligini ta’minlashi kerak[1].

1 Второй год резкого замедления темпов роста. https://www.vsemirnyjbank. org/ru/publication/global-economic-prospects.

Mana shunday bir davrda mamlakatimizda aholi turmush farovonligini va uning bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda tadbirkorlik, jumladan, iqtisoditimizning lokal tarmoqlaridan bir sanalgan kichik biznes subyektlari faoliyatining rivojlanganlik darajasi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlik, keng ma'noda, shaxsiy manfaatga asoslangan, subyekt oldida turgan maqsadga erishishga qaratilgan, uning bevosita ishtirokida o'zining shaxsiy omillariga asoslanib, amalga oshiriladigan, oila xo'jaligini yuritishdan tortib, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hamda xizmatlar ko'rsatishgacha bo'lgan yumushlar bilan bog'liq aqliy faoliyat sifatida qaraladi. Tor ma'noda, tadbirkorlik faoliyati faqat iqtisodiy sohaning turli-tuman darajalaridagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni sohibkorlikni ifodalaydi[2].

Xususan, bu borada O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2022-yil 7-iyundagi xizmatlar sohasidagi natijalar tahliliga bag'ishlangan yig'ilishida: "...kichik biznes subyektlari – kam xarajat bilan ko'p aholining bandligini ta'minlasa bo'ladigan soha. Shu bois hududlarda maishiy xizmat uylari tashkil etilmoqda, ishsizlar kasb-hunarga o'rgatilmoqda, mablag' va sharoit bilan ta'minlanmoqda. Xizmatlar sohasining rivojlanishi kichik biznes subyektlarining shakllanishi va undan so'ng bozorga yangi korxonalarning kirib kelishini ta'minlaydi"[3], – deb ta'kidlab o'tganlar. Ayniqsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga kirib borishi, davlat va xususiy sherikchilik munosabatlarining rivojlanishi biznes subyektlarida olib borilayotgan marketing faoliyatida innovatsion marketing texnologiyalari: internet marketing, one-to-one (munosabatlar) marketingi, benchmarking, mobil marketing, to'g'ridan-to'g'ri marketing yo'nalish va shakllarini rivojlantirish, korxona va xaridorlar aloqalarini o'zaro online tarzda tashkil etish, marketing tadqiqotlarini olib borish, yetakchi korxonalar faoliyati natijalarini o'z korxonasiga joriy etish, tovar va xizmatlarni siljitishda interaktiv marketing strategiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylagnib bormoqda. Shu boisdan, o'zgarib borayotgan iqtisodiyot va kuchli raqobatbardoshlik davrida kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasidan unumli foydalanish muhim mezon sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'rganilgan va olib borilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, marketing strategiyasining iqtisodiy mazmuniga bo'lgan ko'plab xorijlik va maxalliy iqtisodchi olimlar yondashuvida aniq bir to'laqonli ta'rif kuzatilmagan. Jumladan, Xorijlik iqtisodchi olimlardan F. Kotler: "Marketing strategiyasi ayirboshlash orqali zarurat va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan inson faoliyatining aniq maqsadga qaratilgan bir turidir", − deb ta'rif bergan[4]. Yana bir xorijlik iqtisodchi olim Jan Jak Lamben: "Marketing strategiyasi − tashkilotlar va kishilarning xohish va ehtiyojini tovarlar va xizmatlarni erkin raqobatli ayirboshlashni ta'minlash yo'li orqali qondirishga yo'naltirilgan ijtimoiy jarayonlar yig'indisi. Marketing strategiyasi bir vaqtning o'zida biznes falsafasi va faol jarayondir", − deb ko'rsatib o'tadi[5]. Shuningdek, MDH iqtisodchi olimlarning bir guruxi − V. V. Jivetin, V. L. Samoxvalov, N. P. Chernov, I. A. Feraponovalar marketing strategiyasi samaradorligini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqarish va sotish faoliyatini takomillashtirish natijalaridan iborat, deb hisoblashadi: bozor potensialidan, shu jumladan, yangi mahsulot uchun maqbul foydalanish imkoniyati; prognoz taxminlarining ishonchliligini oshirish; ma'lum bir mahsulot uchun bozor segmentini izlab topish; bozor muvozanatini (talab va taklif tengligini) tahlil qilishning to'g'ri variantini oshirish va hokazolar[6]. Yana bir MDHlik bir gurux iqtisodchilar G. A. Avanesova, L. P. Voronkova, V. I. Maslov, A. I. Frolovlar hammuallifligida nashr qilingan "Turizm, gosteprimstvo, servis" nomli kitobda: "Marketing strategiyasi bajaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik natijasi, shu bilan birga, mijozlar ehtiyojini qondirishga qaratilgan bajaruvchining shaxsiy faoliyatidir", − deb ko'rsatiladi[7].

Bizning fikrimizcha, nafaqat iqtisodiy amaliyot va adabiyotlarda, balki odam faoliyatining turli sohalarida ham juda ko'p qo'llaniladigan "strategiya" tushunchasini rossiyalik iqtisodchi-olim I. N. Mavrina ancha keng va yaxshi ta'riflab bergandir: "Strategiya – bu asosiy maqsadga erishi uchun ustivor muammolar va resurslarni belgilab beruvchi harakatlarning bosh dasturidir. U asosiy maqsadlarni va ularga erishishning asosiy yo'llarini shunday shakllantirib beradiki, bunda firma harakatlanishning yagona yo'nalishiga ega bo'ladi"[8]. Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida "strategiya" tushunchasining yana boshqa ko'plab ta'riflari ham mavjuddir. Agarda firma rivojlanishini uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, shuningdek, tashqi muhit tahdidlari va imkoniyatlarini hisobga olish kontekstida, ya'ni, bugungi kunlarda qabul qilingan strategik tahlil usullari va metodlari prizmasi orqali olib qarash lozim bo'ladigan bo'lsa, u holda D. V. Gergertning ta'rifi ancha o'rinli bo'ladi: "Strategiya – bu

2 G'ulomov S. S. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: 1996. – 130 b.
3 https://president.uz/uz/lists/view/5252
4 Котлер Ф. Основы маркетинга. − М.: Прогресс, 1991. С. 47
5 Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. − СПб.: Наука, 2009. С. 17.
6 5. https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/download/489/461
7 Аванесова Г.А., Воронкова Л.П., Маслов В.И., Фролов А.И. Туризм, гостеприимство, сервис. Словарь-справочник. Под ред. Л.П.Воронковой. – М.: Аспект Пресс, 2002. – 367 с.
8 Маврина И.Н. Стратегический менеджмент: учеб.пособие / И.Н. Маврина. – Екатеринбург: УрФУ, 2014. – С. 132.

tashkilotga o‘z xo‘jalik faoliyati natijalarini yaxshilash imkonini beruvchi resurslarni joylashtirish modelidir”[9]. U o‘z fikrini davom ettirib, “Xavf-xatarlarni bartaraf etadigan yaxshi strategiya – bu o‘zining kuchli tomonlaridan foydalanib va kuchsiz tomonlarini mustahkamlashga tayanib, bozor imkoniyatlaridan foydalanadigan strategiyadir” deb ta’kidlab o‘tadi.

Mahalliy olimlarimiz Sh. D. Ergashxodjayevaning “Innovatsion marketing” nomli darsligida korxonada marketing xizmatlarini takomillashtirish zarurligining muhim sababi ijtimoiy ehtiyojlar tizimida tarkibiy o‘zgarish hisoblanishi, texnologiyalar, ishlab chiqarish tuzilmasi, aholining turmush darajasi va uning ijtimoiy faolligining oshishi, shuningdek, ta’lim va madaniy darajasining oshishi asosi sifatida ta’kidlangan[10].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, kichik biznes subyektlarida zamonaviy marketing strategiyasini tatbiq etish, aholining zarur kerakli tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keltirilgan mahalliy va xorijiy mualliflarning asarlarini tahlil qilib, marketing strategiyasining quyidagi asosiy komponentlarini ajratish mumkin:

- qo‘yilgan marketing maqsadlarini asoslab berish maqsadida korxonaning tashqi va ichki muhitini tahlil qilish;
- marketing dasturini shakllantirish;
- korxonaning raqobatchilik ustunligini ta’minlash;
- qo‘yilgan marketing maqsadlariga erishish uchun resurslarni taqsimlash;
- qo‘yilgan marketing maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan marketing uchun xarajatlar darajasi;
- raqobat darajasi va xizmatlarining muqobil turlarini tahlil qilish;
- xizmatlar bozorining yangi segmentlarini diversifikatsiyalash va o‘zlashtirishni tashkil qilish;
- xizmatlar sifatini yaxshilash va integratsiyalashgan boshqarish tizimlarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;
- raqamli vositalardan foydalanish istiqbollarini rejalashtirish.

Marketing strategiyasi iste’mol bozoridagi shaxsiy ishbilarmonlik munasabatlari bilan o‘xshash qaraladi. Iste’mol bozorida marketing sotish bo‘yicha menejerlar, sotish bo‘limi xodimlari, reklama va siljitish bo‘yicha menejerlar, tahlilchilar, mijozlar bilan ishlovchi menejerlar, tovarlarni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha menejerlar, savdo markasi menejerlari, marketing bo‘yicha korxona vitse-prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. Ularning har biri oldiga vazifa qo‘yilgan va javobgarlik darajasi aniqlangan, ko‘pchilik xodimlarning mansab vazifalari reklama va marketing tadqiqotlari singari maxsus marketing resurslarini boshqarishni o‘z ichiga oladi va aksincha, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha menejerlar va marketing bo‘yicha vitse-prezidentlar esa dasturlarni boshqarishadi. Ularning vazifasi transaksiyalar (ikki yoki undan ortiq tomonlar o‘rtasidagi qimmatbaho tovarlarni ayirboshlash)ning ko‘zda tutilgan hajmiy va daromadli darajasiga erishish uchun dasturlarni tahlil qilish, rejalashtirish va amalga oshirishdan iboratdir. Marketing strategiyasi talab darajasi, vaqtinchalik chegaralari va tuzilmasiga ta’sir etish vazifasini hal etishga qaratilgan bo‘lib, bunda tashkilot qo‘yilgan maqsadga erishishi lozim. Funksional strategiyalar tashkilotning moliya, marketing, ishlab chiqarish, inson resurslarini boshqarish, ilmiy tadqiqot ishlari kabi funksional doiralarda faoliyatlar yo‘nalishini aniqlaydi. Ularning vazifasi-maksimal samarali ravishda korporativ va biznes darajasidagi belgilangan vazifalarni xal etishni ta’minlashdir. Ularning korporativ va biznes strategiyalardan asosiy farqi uning korxona ichi yo‘nalishidir. Marketing strategiyasi, korxona ichi menejmenti strategiyasi, moliyaviy strategiya, tashkiliy strategiya, ishlab chiqarish strategiyasi va boshqalar – bularning barchasi korxonaning o‘ziga nisbatan markazga intilish faoliyatiga ega. 1-jadval korporativ, biznes va funksional strategiyalarning strategik fokus, strategik muxit, strategik resurslari va tanlov tanqidlari jixadlaridan asosiy xarakteristikasi farqini aks ettiradi.

1-jadval: Strategiya turlarining qiyosiy xarakteristikasi[11]

	Korporativ strategiyalar	Biznes strategiyalar	Funksional strategiyalar
Strategik fokus	Kapital	Raqobatbardosh ustunliklar	Samaradorlik
Strategik soha	Korxona bir butunlik sifatida	Korxona biznesining startegik sohalari	Korxona ichki tashkil etilishi va jarayonlar
Strategik resurslar	Kapital	Ichki salohiyat	Tizim
Kriteriyalar	Kapital samaradorligi	Strategik holatlar	Daromadliligi

9 Гергерт Д.В. Стратегический менеджмент: учеб.-метод. пособие / Д.В. Гергерт. — Пермь: Гос. ун-т “Высшая школаэкономики”. Пермский филиал, 2008. – С. 162

10 Epgashxodjaeva Sh.D. Innovatsion mapketing. Dapslik. – T.: TDIU, Iqtisodiyot, 2014. – 178 bet.

11 file:///C:/Users/user/Downloads/strategiya-turlarining-iyosiy-harakteristikasi.pdf

Marketing strategiyasi doimo o‘zgaruvchan bozor holati sharoitlarida tovarlar bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturning bajarilishi ustidan doimo kuzatish va tuzatish kiritilgan qarorlar qabul qilishni ko‘zda tutadi. Marketing strategiyasining tarkibiy qismlari: maqsad tamoyillari, vazifalari, tashkiliy tuzilishi, usullari, boshqarishning texnika va texnologiyasi, kadrlar va shu kabilardan iborat. Marketing strategiyasi kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta’minlash va o‘z tovar va xizmatlar ko‘rsatish darajasini maksimallashtirishdan iborat. Uning tashkiliy tuzilishining mezoni va maqsadi deganda, marketingning tarkibiy tuzilishining dinamik barqarorligi, evolyutsiya o‘zgarishlari va tashqi muhit bilan o‘zaro ta’siri tushuniladi. Bu maqsad marketing faoliyat ko‘rsatayotgan sohalarda belgilangan darajadagi foyda olishga yo‘naltirilgan barcha faoliyatni boshqarishdir. Ishlab chiqaruvchilarning maqsadga qaratilgan xulqi hammadan avval muammolarni qamrab oluvchi boshqaruv vazifalarida hamda bu muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan tadbirlarni rejalashtirish, tashkil qilish, o‘tkazish va nazorat qilishda o‘z aksini topadi. Shuning uchun korxona marketing faoliyati uchun quyidagi masalalar katta ahamiyatga ega:

- birinchidan, axborotlarni yig‘ish va ishlab chiqish[12]:
- tashqi muhit haqidagi ma’lumotlar;
- ishlab chiqarish, moliya va boshqa xarakterdagi ichki cheklashlar haqidagi ma’lumotlar;
- atrof-muhitning turli xil sharoitlarida turli xil asboblarning ta’siri haqidagi ma’lumotlar;
- bozorga ta’sir qilish va xaridorlarda afzallik yaratishning mavjud imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlar.

Bu axborotlar maqsadiy guruhni belgilash uchun zarur. “Bozorni segmentlash” nomini olgan bu jarayonning borishida statistik uslublar yordamida xaridorlarning geografik, biologik, ijtimoiy-demografik va ruhiy alomatlari tadqiq qilinadi. Bozor to‘g‘risidagi haqiqatni bilish tovarni yaratish va qulay sharoitlarda rejalashtirilgan miqdordagi tovarni sotishga erishish uchun uni sotish vaqtini tanlashga imkon beradi.

Buning uchun sotuvchi ixtiyorida mahsulotning quyidagi muammolari bo‘ladi:

- mahsulot bilan ishlash, birinchi navbatda, uning xususiyatlari;
- mahsulot sifati;
- marka nomini tanlashlarini belgilash yoki o‘zgartirishga yo‘naltirilgan. Bundan tashqari bu yerga yana ishlab chiqarish dasturi va savdoda sifatni aniqlash, yangi mahsulotni rivojlantirish, mijozlarga texnik va savdo xizmatlarini ko‘rsatish kiradi;
- narxlarning belgilanishi va o‘zgarishi, narxlarning darajalanish imkoniyatlari, chegirmalar berishni o‘z ichiga oluvchi narx-navo siyosati;
- taqsimlash-sotish tizimini yaratish, sotish narxlarini tanlash, sotish uslublarini qo‘llash, yetkazib berishga tayyorlik haqidagi qarorni ishlab chiqish, korxonaning ko‘lami va joylashishini qamrab oladi;
- kommunikatsiya o‘z ichiga reklama turlari elementlari, sotishni qo‘llab-quvvatlashni oladi, ya’ni u xabardor qilingan va faollashtirilgan bo‘lajak xaridorlarga ularni taklifning foydaliligiga ishontirish va xarid qilishga undashga yo‘naltirilgandir.

Korxonalarda marketing strategiyasi o‘z ichiga marketing faoliyatini tashkil qilish masalalarini oladi. Shunisi shubhasizki, korxona faqat barcha xizmatlar marketing predmetini tan olgandagina, izchil bozor siyosatini amalga oshira oladi. Mezonlar sifatida vazifalar, mahsulotlar, mijozlar guruhlari, xududiy sohalar qabul qilinishi mumkin. Mezonlarga muvofiq har turdagi tashkiliy tuzilmalar ko‘riladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kichik biznes subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularga davlat tomonidan turli imtiyozlar ajratish, faoliyat turini kengaytirish orqali korxonalarning innovatsion rivojlanishiga ko‘maklashish lozim. Pivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, kichik biznes subyektlarining qanchalik darajada ko‘pligi, raqobatbardoshligi aholi turmush farovonligini oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Korxonalarning rivojlanishi uchun esa albatta, marketing strategiyasi juda zarur. Marketing strategiyasi yordamida korxonaning raqobatbardoshligi oshadi, rivojlanadi, brend shakllanadi va iqtisodiy faol bo‘ladi. Biznesning aloxida turi har doim daromad keltirib korxonaning barcha faoliyatlari natijasida daromadlar bilan aralashtirib bo‘lmaydi. Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni ba’zilari, ba’zi xollarda bir birini takrorlashi va hatto qamrab

12 Мишин В. М., Управление качеством: Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности “Менеджмент организации” (061100) – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2008. – 463 с. ISBN 978-5-238-00857-8

olishi ham mumkin, lekin bu ko‘rsatkichlar barchasi biznes doirasini aniqlashda muhim. Zamonaviy biznesning murakkab sharoitida o‘z boshqaruvi ostida bo‘lgan kompaniya taqdiri u yoki bu darajada unga bog‘liq bo‘lgan har qanday boshqaruvchi uchun faoliyatlar yo‘nalishini aniqlamasdan faoliyat ko‘rsatish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Второй год резкого замедления темпов роста. https://www.vsemirnyjbank. org/ru/publication/global-economic-prospects.
2. Ғуломов С.С. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари.–Т.: 1996.–130 б.
3. https://president.uz/uz/lists/view/5252
4. Котлер Ф. Основы маркетинга. − М.: Прогресс, 1991. С. 47
5. Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. − СПб.: Наука, 2009. С. 17.
6. https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/download/489/461
7. Аванесова Г.А., Воронкова Л.П., Маслов В.И., Фролов А.И. Туризм, гостеприимство, сервис. Словарь-справочник. Под ред. Л.П.Воронковой. – М.: Аспект Пресс, 2002. – 367 с.
8. Маврина И.Н. Стратегический менеджмент: учеб.пособие / И.Н. Маврина. — Екатеринбург: УрФУ, 2014. — С. 132.
9. Гергерт Д.В. Стратегический менеджмент: учеб.-метод. пособие / Д.В. Гергерт. — Пермь: Гос. ун-т “Высшая школаэкономики”. Пермский филиал, 2008. — С. 162
10. Эргашходжаева Ш.Д. Инновацион маркетинг. Дарслик. – Т.: ТДИУ, Иқтисодиёт, 2014. – 178 бет.
11. Мишин В. М., Управление качеством: Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности “Менеджмент организации” (061100) – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2008. – 463 с. ISBN 978-5-238-00857-8
12. Второй год резкого замедления темпов роста. https://www.vsemirnyjbank. org/ru/publication/global-economic-prospects.
13. G‘ulomov S.S. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari.–T.: 1996.–130 b.
14. Котлер Ф. Основы маркетинга. − М.: Прогресс, 1991. –С. 47.
15. Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. − СПб.: Наука, 2009. –С. 17.

БИБЛИОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБЛАСТИ ЗНАНИЙ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ





Bokhodir Isroilov
Doctor of Economics, ISFT, Professor of Financial Analysis and Audit Department, Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan

Bobur shokh Ibragimov
PhD, Associate Professor, ISFT, Tashkent institute of finance

Аннотация: Целью данного исследования является проведение библиометрического анализа научных публикаций по налоговому администрированию на основе перечня Web of Science. В исследование включены ссылки на работы по данной теме, опубликованные с 2020 по 2022 год, так как именно с 2020 года наблюдается рост количества исследований. Всего было проанализировано 354 источники. С помощью аналитики Web of Science авторы делают выводы об этапах изучения данной темы, а также о типах статей. Программное обеспечение VOSviewer использовалось для дальнейшего библиометрического анализа. В результате анализа были проанализированы тематические категории статей. Наиболее продуктивными институтами, изучающими вопросы налогового администрирования, в рамках данного исследования являются Международный центр налогов и развития, Институт исследований развития и Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации. Согласно анализу цитируемости работ, а самым цитируемым журналом — журнал Sustainability. Авторы также определили наиболее часто используемые ключевые слова, а именно: (1) налоговое администрирование, (2) налогообложение, (3) налоговая дицсиплина. В результате все ключевые слова были разбиты на кластеры в программе VOSviewer. США и Англия являются странами с наиболее значительным сотрудничеством в этой области исследований. Проведение такого анализа дает уровень предшествующей изученности данной темы и помогает выбрать наиболее важные, интересные и компетентные работы для дальнейшего изучения.

Ключевые слова: налоговое администрирование, библиометрический анализ, визуализация, обзор литературы, основные темы.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi Web of Science ro‘yxati asosida soliq ma’muriyatchiligiga oid ilmiy nashrlarning bibliometrik tahlilini o‘tkazishdan iborat. Tadqiqot 2020 yildan 2022 yilgacha nashr etilgan ushbu mavzu bo'yicha ishlarga havolalarni o'z ichiga oladi, chunki tadqiqotlar soni 2020 yildan beri ortib bormoqda. Jami 354 ta manba tahlil qilindi. Web of Science analitikasidan foydalangan holda mualliflar berilgan mavzuni o‘rganish bosqichlari, shuningdek, maqola turlari bo‘yicha xulosalar chiqaradilar. Keyingi bibliometrik tahlil uchun VOSviewer dasturidan foydalanildi. Tahlil natijasida maqolalarning tematik toifalari tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot doirasida soliq ma'muriyatchiligini o'rganadigan eng samarali muassasalar - Xalqaro soliq va rivojlanish markazi, Rivojlanishni o'rganish instituti va Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti. Ish iqtiboslari tahliliga ko'ra, eng ko'p iqtibos keltiriladigan jurnal Barqarorlikdir. Mualliflar, shuningdek, eng ko'p ishlatiladigan kalit so'zlarni aniqladilar, xususan: (1) soliq ma'muriyati, (2) soliqqa tortish, (3) soliq intizomi. Natijada, VOSviewer dasturida barcha kalit so'zlar klasterlarga bo'lingan. AQSh va Angliya ushbu tadqiqot sohasida eng muhim hamkorlikka ega mamlakatlardir. Bunday tahlilni o'tkazish berilgan mavzu bo'yicha oldingi bilim darajasini beradi va keyingi o'rganish uchun eng muhim, qiziqarli va malakali ishlarni tanlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: soliq ma'muriyati, bibliometrik tahlil, vizualizatsiya, adabiyotlar tahlili, asosiy mavzular.

Abstract: The purpose of this study is to conduct a bibliometric analysis of the literature on tax administration based on the Web of Science collection. The study included references to works on this topic published from 2020 to 2022, since it was from 2020 that there was a significant increase in the number of studies. In total, 354 sources were analyzed. With the help of Web of Science analytics, the authors draw conclusions about the stages of studying this topic, as well as about the types of articles. VOSviewer software was used for further bibliometric analysis. As the analysis result, the thematic categories of articles were analyzed, as well as the key clusters into which all the works under study are divided were identified. The most productive institutions researching “tax administration” sources are International Center for Taxation and Development, Institute for Research Development and Financial University under the Government of the Russian Federation. Based on the citation analysis of works, and the most citable journal is Sustainability. The authors also identified the most commonly used keywords, which are: (1) tax administration, (2) taxation, (3) tax compliance. As a result, all keywords were divided into clusters in the VOSviewer software. USA and England are the countries with the most significant cooperation in this field of study. Conducting such an analysis gives a level of prior studies of this topic, and helps to choose the most important, interesting and competent works for further study.

Key words: tax administration, bibliometric analysis, visualization, literature review, main topics.

1. ВВЕДЕНИЕ

Севременный мир требует быть в курсе событий. Развития науки и техники всегда вынуждают исследователей, исходя из контекста “быть в курсе современного состояния науки” анализировать научные публикации разных авторов и периодов. Налоги являются ключом к доходам государства. Соблюдение налогового законодательства играет важную роль в обеспечении того, чтобы правительство имело доход для своих расходов [1]. Отношения между налогоплательщиком и налоговым органом всегда были актуальными для исследования. Таким образом, вопросы налогового администрирования должны быть досконально изучены.

Библиометрические исследования широко используются исследователями при анализе существующих исследовательских направлений, независимо от того, является ли этот анализ литературным обзором статьи или отдельным полноценным исследованием [2].

Для обеспечения соблюдения налогового законодательства важно отметить доверие к власти и власти власти (Kirchler et al., 2008). Если правительство пользуется доверием граждан, результатом является добровольное согласие. Кроме того, если правительство делает акцент на использовании власти, это приведет к принудительному соблюдению требований (Kirchler et al., 2008).

Библиометрические методы анализа имеют ряд преимуществ, но наиболее важным является возможность проведения количественного анализа на основе измеримых, последовательных и доступных данных. Следовательно, библиометрия является эффективным и важным инструментом определения направлений исследований в различных областях науки [3]. Библиометрические исследования включают ряд количественных и наглядных процедур для обобщения закономерностей и динамики публикаций, что является наглядным способом отображения результатов исследования [4].

Тема налогового администрирования широко обсуждается в научных кругах, поскольку использование нетрадиционных источников энергии порождает множество дискуссий как в научных кругах, так и в бизнесе [5]. В связи с этим проведение библиометрического анализа по данной теме приобретает особую актуальность.

Целью данного исследования было определение основных тем и направлений исследований в области налогового администрирования с использованием библиометрического анализа в качестве метода.

2. МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Для проведения библиометрического анализа литературы по налоговому администрированию на основе коллекции Web of Science в исследование были включены ссылки на работы по этой теме, опубликованные с 2020 по 2022 год. Авторы выбрали платформу Web of Science, так как этот ресурс объединяет реферативные базы опубликованных научных работ со всего мира и имеет встроенные возможности поиска, анализа и управления библиографической информацией, включая ее скачивание.

Поиск осуществлялся по терминам “налоговое администрирование” в заголовках, аннотациях и ключевых словах статей. С помощью аналитики Web of Science сделаны выводы об этапах изучения данной темы. Как показала аналитика Web of Science, с 2020 года наблюдается значительный рост количества исследований (рис. 1).

TARAQQIYOT PROGRESS




Рис. 1: Общее количество публикаций по теме “Налоговое администрирование”

Чтобы сузить результаты и повысить их точность, тип статей в научных журналах, включенных в это исследование, был определен как “статья”. В этот тип не входят материалы конференций, книги и другие обзорные исследования.



Рис. 2: Категории публикаций по поиску, осуществляемому в Web of Science

354 статей были загружены для дальнейшего анализа. Программное обеспечение VOSviewer использовалось в качестве инструмента библиометрического анализа. Этапы анализа публикаций представлены на рисунке 3.




Рис. 3: Этапы библиометрического анализа

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Сначала нужно было найти все необходимые публикации по ключевому слову “налоговое администрирование”. Анализ публикаций по типам и по годам проводился непосредственно в самой базе данных Web of Science.

На втором этапе авторы работали непосредственно в программе VOSviewer, что позволило им строить наглядные карты. На третьем этапе был проведен анализ результатов, после чего можно было сформировать выводы, которые можно было сделать по результатам всего библиометрического исследования.

3. РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

На первом этапе анализа работ по данной теме, опубликованных с 2020 по 2022 гг., все публикации были разделены на тематические кластеры.

Чтобы выделить для рассмотрения наиболее актуальные и интересные работы, часто строят карту по наиболее цитируемым авторам. Цитирование научных статей играет важную роль не только для улучшения наукометрических показателей авторов, но и для выделения наиболее интересных и научно значимых работ.

При выявлении наиболее цитируемых авторов важную роль играет год, в котором автор опубликовал наиболее цитируемые работы, поскольку этот критерий важен для понимания актуальности работы.

Цитирование работ авторов, относящихся к тем или иным вузам/организациям, напрямую влияет на место этих организаций в различных рейтингах образовательных организаций. Считается, что высокие позиции национальных вузов в рейтинге повышают имидж страны в целом и привлекают иностранных студентов. Для этого университеты должны стать более прозрачными, а также ввести международно признанные стандарты научных исследований и подготовки специалистов.

Конкретное место каждого вуза в рейтинге определяется индексом, который рассчитывается на основе значений нескольких характеристик вуза.

К критериям чаще всего относятся академическая и научная репутация, цитируемость научных публикаций, соотношение студентов и преподавателей, количество иностранных преподавателей и иностранных студентов, уровень распространения знаний и инноваций [6].

В зависимости от увеличения количества цитирования работ каждого университета круг становится больше. Также наиболее давние цитирования окрашиваются в более темный цвет в центре круга. В таблице 2 представлены наиболее публикационно-активных организаций, исследования которых больше других рассматриваются и упоминаются другими учеными.

Таблица №2: Список самых цитируемых научно исследовательских центров

№	Количество	Организация
1	31	Международный центр налогов и развития
2	22	Институт исследований развития
3	6	Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации

Международный центр налогов и развития является лидером по количеству цитирований и частоте упоминаний. Этот центр специализируется в основном только на изучении налогового администрирования, поэтому исследования ученых этой организации высоко оценены мировым научным сообществом.

Цитирование также важно для научных журналов. Оно является основой для расчета основных показателей научных журналов. В зависимости от этих показателей можно отслеживать ценность публикации для научного сообщества по сравнению с аналогичными публикациями. В связи с этим необходимо выделить наиболее цитируемые журналы по тематике налогового администрирования. На рисунке 4 представлена карта наиболее цитируемых журналов. Более темный цвет в середине круга каждого журнала указывает на более ранние цитирования журнала.

Поскольку количество журналов мало, авторы с помощью программы VOSviewer не выделили отдельную таблицу наиболее цитируемых журналов.

Также при сравнении журналов используется SJR Scopus, который учитывает не только общее количество цитирований, но и вес каждой ссылки. Если цитируется автор статьи, опубликованной в издании с низким квартилем журналов Scopus, например, Q4, то вес этой цитаты будет ниже, чем ссылка на статью из журнала квартиля Q1. Поэтому, ориентируясь на SJR-рейтинг журнала, авторы могут выбрать не просто популярный и востребованный журнал, но и цитируемый, что существенно повысит авторитет исследователя, цитируемость его работ, улучшит его научную деятельность и деятельность с учетом полученной критики, оценок и т.п. [7].




Рис. 4: Самые цитируемые журналы

Ключевые слова выражают основное смысловое содержание статьи, служат ориентиром для читателя и используются для поиска статей в электронных базах данных [8]. Поскольку во всех метаданных статей присутствуют разные ключевые слова и их много, удобнее группировать ключевые слова в тематические кластеры, в названии которых будет отображаться смысл и направленность входящих в него ключевых слов.




Рис. 5: Кластер ключевых слов

В таблице 3 показаны наиболее популярные ключевые слова, которые чаще всего встречаются в метаданных статей.

Таблица 3: Список ключевых слов

№	Количество	Ключевое слово
1	38	налоговое администрирование
2	35	налогообложение
3	20	налоговая дисциплина

В таблице 4 приведены топ-5 стран по количеству исследований.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Таблица №4: Наиболее цитируемые страны

№	Количество	Документы	Страна
1	365	54	США
2	131	30	Англия
3	73	9	Нидерланды
4	41	27	Испания
5	35	43	РФ

Анализ публикаций по странам необходим также для выявления стран с высокой активностью в изучении рассматриваемой темы. Программный продукт VOSviewer позволяет отслеживать, какие страны являются лидерами в изучении налогового администрирования, а также определять страны, являющиеся связующим звеном между учеными разных стран. На рисунке 8 представлена карта, на которой показано количество исследований по рассматриваемой теме для каждой страны.




Рис. 8: Карта сотрудничества стран.

После библиометрического изучения было выявлено, что после 2020 года произошло значительное увеличение количества публикаций по налоговому администрированию. С помощью аналитики наукометрической базы данных Web of Science были сделаны выводы об этапах изучения данной темы, а также о типах статей.

Для проведения дальнейшего библиометрического анализа мы использовали программный инструмент VOSviewer. Все статьи были разбиты на тематические кластеры, а позже и на кластеры по ключевым словам.

При изучении организаций, занимающихся исследованиями налогового администрирования, наиболее продуктивными учреждениями оказались Международный центр налогов и развития, Институт исследований развития и Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации. По данным анализа цитируемости работ ведущим журналом является Sustainability. Выявлено, что представляет интерес рассмотрение работ авторов, являющихся “связующим звеном” между несколькими группами ученых. Авторы также определили наиболее часто используемые ключевые слова:

1) налоговое администрирование;
2) налогообложение;
3) налоговая дисциплина.

Проведение такого анализа дает представление о степени изученности данной темы, а также помогает выбрать для изучения наиболее важные, интересные и компетентные произведения.

С помощью проведенного исследования мы показали, что использование специализированного программного обеспечения (VOSviewer) для библиометрического анализа позволяет наиболее эффективно обрабатывать большие объемы метаданных статей. Кроме того, данная программа позволяет определить основные темы исследований в выбранной области и представить результаты в понятной и визуально привлекательной графической форме.

Список использованной литературы:

1. Fauzan, F., Ibrahim, M. and Jahja, A.S. 2022. A Scholarly Examination of Tax Compliance: A Bibliometric Analysis (1960-2021). Journal of Indonesian Economy and Business. 37, 1 (Jan. 2022), 52-72.
2. Yu, D., Xu, Z., & Wang, X. (2020). Bibliometric analysis of support vector machines research trend: a case study in China. International Journal of Machine Learning and Cybernetics, 11(3), 715-728.
3. Sánchez-Fernández, J., Casado-Aranda, L. A., & Bastidas-Manzano, A. B. (2021). Consumer neuroscience techniques in advertising research: a bibliometric citation analysis. Sustainability, 13(3), 1589.
4. Knapczyk, A., Francik, S., Pedryc, N., & Hebda, T. (2018, May). Bibliometric analysis of research trends in engineering for rural development. In Proceedings of the 17th International Scientific Conference Engineering for Rural Development, Jelgava, Latvia (pp. 23-25).
5. Oliveira, H., & Moutinho, V. (2021). Renewable energy, economic growth and economic development Nexus: A bibliometric analysis. Energies, 14(15), 4578.
6. Barron, G. R. (2022). How university rankings are made through globally coordinated action: a transnational institutional ethnography in the sociology of quantification. Higher Education, 1-18.
7. Krueger, T. M. (2018). Determinants and comparison of JCR, SJR, and SNIP ratings of finance journals. BRC Academy Journal of Education, 7(1), 1-35.
8. Haggag, M. H. (2013). Keyword extraction using semantic analysis. International Journal of Computer Applications, 61(1), 1-6.

SOLIQ QARZINI UNDIRISH AMALIYOTI VA UNI TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH TAHLILI



Raximova Shaxlo Rajapboyevna
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq qarzdorligi paydo bo‘lishining asosiy sabablari tadqiq etilgan. Yuridik shaxslar va jismoniy shaxs bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzlari tahlil qilingan. Soliq qarzi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning fikr va mulohazalari o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizda soliq qarzlarini kamaytirish va samarali undirishni takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar keltirilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan, uni samarali undirish amaliyotini yanada takomillashtirish borasida takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq organi, soliq to‘lovchilar, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq yuki, soliq madaniyati, soliqlar va yig‘imlar, soliq qarzdorligi, davlat, budjet, soliq qarziga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari.

Abstract: In this article tax debts of legal entities and individual entrepreneurs where analyzed. Opinions of foreign and domestic scholars about tax debts were studied. In addition, suggestions and recommendations are given about reduction and improving the effective collection of tax arrears in our country. Based on the above-mentioned circumstances, proposals have been made to reduce tax debt in our country, including the further improvement of the practice of its effective collection.

Key words: Tax authority, taxpayers, legal entities, individual entrepreneurs, tax burden, tax culture, taxes and fees, tax liability, state, budget. business entities with tax debt.

Аннотация: В данной статье анализируется налоговая задолженность юридических лиц и индивидуальных предпринимателей. Изучены мнения зарубежных и отечественных ученых о налоговой задолженности. Кроме того, даются предложения и рекомендатsii по сокращению и совершенствованию эффективного взыскания налоговой задолженности в нашей стране. С учетом вышеизложенных обстоятельств выдвинуты предложения по сокращению налоговой задолженности в нашей стране, в том числе по дальнейшему совершенствованию практики ее эффективного взыскания.

Ключевые слова: Налоговый орган, налогоплательщики, юридические лица, индивидуальные предприниматели, налоговое бремя, налоговая культура, налоги и сборы, налоговая ответственность, государство, бюджет. хозяйствующие субъекты, имеющие налоговую задолженность.

KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tadbirkorlikni jadal qo‘llab-quvvatlash bilan birgalikda soliq tizimini ham keng rivojlantirishga qaratilgan.

Soliq tizimi, soliqlar - davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha sohalar singari soliq sohasida ham ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Ushbu masala yuzasidan olib borilgan ishlar nafaqat soliqlar va yig‘imlarni undirish orqali, balki soliq qarzdorligini kamaytirgan holda davlat byudjetini to‘ldirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi aynan soliqlar hisobidan shakllanishi bizga ma’lum. Soliqlar belgilangan muddatda va to‘liq hajmda tushishi davlat miqyosida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlarning ya’ni budjet va maqsadli jamg‘armalarning xarajat qismini o‘z vaqtida moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida turli mulkchilik shakllarining vujudga kelishi tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatini erkinlashtiradi, ushbu holatda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga davlatning aralashuvi qonun bilan ya’ni soliqlar orqali amalga oshiriladi. Yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari har tomonlama chuqur va puxta o‘ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta’minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodi-

yotda soliq yukini kamaytirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi. Shuningdek, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadida, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olindi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi aynan soliqlar va yig‘imlar hisobidan shakllanishi ma’lum. Soliqlar belgilangan muddatda va to‘liq hajmda tushishi davlat miqyosida amalga oshirilayotgan barcha choratadbirlarning, ya’ni byudjet va maqsadli jamg‘armalarning xarajat qismini o‘z vaqtida moliyalashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining asosiy manbasi soliqlar va yig‘imlar hisobidan shakllanadi. Soliqlar va yig‘imlar o‘z muddatida va to‘liq tushishi davlat tomonidan amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlarning, ya’ni budjet va maqsadli jamg‘armalarning xarajat qismini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan soliqlarning o‘rnatilgan muddatda va to‘liq hajmda kelib tushishini ta’minlash vazifasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Soliqlarni muddatida to‘lanishini ta’minlash esa soliq qarzdorligini imkon qadar vujudga kelishini oldini olish hamda ularni samarali undirish bilan amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mamlakatda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida soliqlar qarzdorligini vujudga kelish sabablari o‘rganishi hamda ularni qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mazkur masala bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijiy iqtisodchi olim A. Podkolzinning fikriga ko‘ra, quyidagi omillar ta’siri natijasida soliq qarzlari vujudga kelishi mumkin:

- ijtimoiy-siyosiy va tarixiy;
- tashkiliy-huquqiy;
- iqtisodiy.

Ijtimoiy, siyosiy hamda tarixiy – bunda, ayrim davlatlarning siyosiy faoliyatiga qarshilik va e’tirozlarni kelib chiqishi, soliq madaniyatining shakllanmaganligi va bundan tashqari, boshqa bir qancha ijtimoiy holatlar bilan izohlanishi mumkin.

Tashkiliy-huquqiy – mazkur holatda soliq ma’murchiligi takomillashmaganligi va soliqqa oid huquqiy bazaning to‘liq shakllanmaganligi, soliq yukini yuqoriligi bilan izohlanadi. Iqtisodiy – bu omil iqtisodiy o‘zgarish bilan izohlanadi. Bu asosan 2 guruhga bo‘linadi:

birinchi guruh umumiy iqtisodiyotdagi tizimning beqarorligi, yetarli darajadagi pul massasining yo‘qligi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarishning pasayishi yoki xarid qobiliyatining pasayishi;

ikkinchi guruh o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish va tovarlar oldisotdisiga bog‘liq bo‘lgan holatlar hamda faqat ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga taalluqli bo‘lgan texnik-ishlab chiqarish bilan bog‘liq holatlar bilan izohlanadi [2].

Rus tadqiqotchisi S.Proninning fikriga ko‘ra, yuridik shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq qarzlarining paydo bo‘lishini 3 guruhga bo‘lib o‘rganish lozim:

Iqtisodiy xarakterdagi sabablar o‘z navbatida 3 ta guruhga ajratiladi:

- makroiqtisodiy sabablar jumlasiga mamlakatdagi iqtisodiyotni beqarorligi (inqiroz), mamlakat va uning ichidagi hududlarning daromad olish bo‘yicha iqtisodiy sohalarini bir xilda rivojlanmasligi, aksariyat soliq to‘lovchilarning ishlab chiqarishdagi rentabellik darajasini tushib ketishi natijasida soliq va to‘lovlarni to‘lay olmasligi, og‘ir moliyaviy holatning yuzaga kelishi, umumiy to‘lov intizomini qoniqarsiz darajada ekanligini keltirish mumkin;
- ichki (tarmoq) sohaviy sabablarga iqtisodiyotning yetakchi sohalarida yangi innovatsion siyosatni yuritilmasligini keltirish mumkin. Buning natijasida esa shu sohadagi ishlab chiqarish yangi jihozlar bilan modernizatsiya qilinmay qoladi va ishlab chiqarilayotgan tovar (ish va xizmatlar) bozorda o‘z o‘rni hamda xaridorlarini yo‘qotadi. Shu sababli, ushbu soha inqirozga yuz tutadi va soliq qarzdorligini kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.
- mikroiqtisodiy sabablarga yuridik shaxslarni boshqarishda ichki rahbarlikni qoniqarsizligi, marketingni yaxshi o‘zlashtirmaslik, hamkorlarni tanlay bilmaslik va moliyaxo‘jalik faoliyati bo‘yicha buxgalteriya hamda soliq hisobining past darajada yuritilishi, kuchsiz moliyaviy nazoratning o‘rnatilganligini keltirish mumkin. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o‘rni yuqori bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga ular tomonidan foydani maksimallashtirish nuqtai nazaridan soliq to‘lovlarini rejalashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning uchun ular mustaqil ravishda soliq bazasini turli yo‘llar bilan kamaytirishni ko‘zlamoqdalar. Albatta, bu masalada ma’lum haq evaziga “soliq maslahati” yoki “auditor” tashkilotlari xizmatlaridan foydalanuvchi, yirik aylanma mablag‘iga ega

subyektlar ham topiladi. Aksariyat hollarda esa kichik biznes subyektlari mustaqil ravishda bu ishlarni amalga oshirib, natijada qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Yo‘l qo‘yilgan xatoliklar soliq tekshiruvlarida aniqlanib, ularga nisbatan qo‘shimcha soliqlar hisoblanib, jarimalar qo‘llaniladi.

Tashkiliy-huquqiy xarakterdagi sabablarni ikki turga bo‘lib o‘rganiladi, ya’ni:

- soliqqa oid huquqiy bazaning to‘liq yetarli darajada shakllanmaganligi oqibatida soliq qarzdorligini majburiy undirish bo‘yicha sud organlariga kiritiladigan arizalarning ko‘rmay qoldirilishi yoki soliq qonunchiligidagi boshqa kamchiliklar sababli soliq qarzdorligini undirish jarayonini to‘xtatib qo‘yilishi mumkin;
- soliq qarzini undirish tuzilmasini mukammallashmaganligini quyidagi sifatlar bilan izohlash mumkin deb o‘ylaymiz. Soliq qarzini undirish tuzilmasi:
- tashkilotlaridagi xodimlar sonining kamligi;
- tashkilotlarining quyi tuzilmalari, hududlardagi bo‘lim va tashkilotlaridagi xodimlarning bilim va kasb mahorati hamda mehnat unumdorligini pastligi, mehnat intizomiga to‘liq rioya etilmasligi;
- tashkilotlarining o‘zaro hal etilmagan muammolari mavjudligi;
- texnik va texnologik jihatdan yaxshi jihozlanmaganligi.
- tashkilotlarining quyi tuzilmalari, hududlardagi bo‘lim va tashkilotlaridagi xodimlarning bilim va kasb mahorati hamda mehnat unumdorligini pastligi,
- mehnat intizomiga to‘liq rioya etilmasligi;
- tashkilotlarining o‘zaro hal etilmagan muammolari mavjudligi;
- texnik va texnologik jihatdan yaxshi jihozlanmaganligi.
- soliq madaniyatining pastligi (yo‘qligi). Jamiyatdagi ayrim yuridik shaxslarning rahbar va mansabdor shaxslarini fikricha, “soliqlarni to‘liq hamda o‘z vaqtida to‘lash” va “muvaffaqiyatli biznes” tushunchalari bir-biriga teskari hisoblanadi. Aynan shu turdagi soliq to‘lovchilar soliq organi tomonidan tekshirilib, ularga nisbatan qattiq jazo choralari ko‘riladi va jarimalar qo‘llaniladi;
- soliq qarzini undirish muqarrarligini tushunib yetmaslik. O‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida qo‘llanilgan jarima va qo‘shimcha hisoblangan soliqlar yoki bo‘lmasa tekshiruvgacha bo‘lgan muddatda yashirilgan, to‘lashdan qochilgan, muddatida to‘lanmagan soliqlar davlat budjetiga bir kun kelib undirib olinadi. Yuridik shaxslarga bankrotlik alomatlari qo‘llanilgan taqdirda ham subsidiar javobgarlik choralari mavjudligini unutmaslik lozim bo‘ladi [3].

Xorijlik olim Michael Brostek esa o‘z tadqiqotida soliq qarzini undirilishining samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi omillarini ko‘rsatib o‘tadi, xususan:

- mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘yishni oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;
- muddatida to‘lanmagan soliqlar va yig‘imlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o‘z ijobiy natijasini beradi [4].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz A. Tangriqulov va Sh. Toshmatovlar fikricha, soliq qarzlarining nazariy jihatdan vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- o‘zaro moliya - xo‘jalik munosabatlarida bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to‘lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik, kreditorlik qarzlarining oshib ketishi;
- moliya-xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish va bu faoliyatni noto‘g‘ri boshqarish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste’mol talabining keskin o‘zgarishi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarga) sifati buyurtmachining yoki bozor talabiga javob bermasligi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma’murchiligini, xususan soliq qarzdorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqillik yillarida soliq tizimi tez sur’atlarda rivojlanib, har qanday rivojlangan mamlakat soliq tizimi bilan raqobatlasha oladigan darajaga erishildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yalpi ichki mahsulotdagi soliq yuki MDH va boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha pastligi (taxminan 20 foiz oralig‘ida) fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, davlat byudjetining daromadlar qismini to‘ldirishda soliqlar asosiy manba bo‘lib qolayotganidan ham bilish mumkin. 2015-2019-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadidagi soliq tushumlarining ulushi quyidagi 1-rasmda ko‘rishimiz mumkin.

2021-2022-yil 31-dekabr holatiga budjet tushumlari to‘g‘risida

MALUMOT

(mlrd.so‘m)


№	Soliq turlari	2021-yil 31-dekabr holatiga tushumi	2022-yil 31-dekabr holatiga tushumi	Ulushi *(foiz)*	O‘sish sur’ati
1	**Budjetga tushumlar, jami**	**127 970**	**148 388**	**100,0**	**116,0**
	shu jumladan:				
2	Bevosita soliqlar	57 281	61 934	41,7	*108*
3	Bilvosita soliqlar	38 351	45 889	30,9	*120*
4	Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i	23 036	23 913	16,1	*104*
5	Davlat boji va jarimalar	3 333	4 236	2,9	*127*
6	Boshqa tushumlar va yig‘imlar	5 969	12 416	8,4	*208*

1-rasm: O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadidagi soliq tushumlarining ulushi tahlili (trln.so‘mda) [6]

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Davlat byudjetida soliq tushumlarining ulushi 2021 yil 31-dekabr holatiga ko‘ra 127 970 (mlrd.so‘m)ni, 2022-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra 148 388 (mlrd.so‘m) ni, 2023-yilda esa 183 442,8 (mlrd.so‘m) pragnoz qilingan. Oxirgi 3 yillikda davlat byudjeti daromadlaridagi soliq tushumlarining o‘rtacha ulushi 75,4 foizga teng.

Soliqlarning davlat byudjeti daromadidagi ulushining borgan sari tushib borishi, davlat byudjeti daromadlari boshqa manbalardan tushayotgan tushumlar hisobiga to‘ldirilayotgani bilan bog‘liqdir va bu albatta ijobiy holat hisoblanadi. So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bir qator imkoniyatlar, imtiyoz va yengilliklar berilmoqda. Soliq stavkalarining yildan yilga pasaytirilishi ham shularning jumlasidandir.

Misol tariqasida, mikrofirma va kichik korxona to‘laydigan yagona soliq to‘lovini (2020-yildan boshlab amaliyotga tatbiq etilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan, nomi aylanmadan olinadigan soliqqa o‘zgartirildi [7]) oladigan bo‘lsak, mazkur soliq turi bo‘yicha yillar davomidagi o‘zgarishlarni 2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.




2-rasm: Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yagona soliq to‘lovi (aylanmadan olinadigan soliq) stavkalari dinamikasi tahlili [8]

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, yillar davomida yagona soliq to‘lovi stavkalari pasayish tendensiyasiga ega. 2015-yilda yagona soliq to‘lovi (aylanmadan olinadigan soliq) stavkasi 6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016, 2017 va 2018-yillarda ushbu stavka 5 foiz bo‘lgan. 2019-yilga kelib yagona soliq to‘lovi stavkasi 4 foizga tushirilgan. Tobora soliq stavkalarining pasaytirilib borilishi, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan soliq yukini pasaytirgan holda ularning soliq qarzlarini kamaytirish, faoliyatini rivojlantirish, xufyona faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tib qonuniy faoliyatlarini amalga oshirishlarida ularga yaqindan ko‘maklashish hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilganlarga asosan, 2019–2023-yillar davomida Tashkilotlar xodimlarida mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha 563 mlrd so‘mdan ortiq qarzdorlik mavjud. Jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulk va yer solig‘i

soliq davri uchun 15-aprel va 15-oktabrga qadar teng ulushlarda to‘lanishi lozim. 16-oktabrda ushbu soliqlarni to‘lash muddati tugadi. Ammo, korxona va tashkilotlarda ishlovchi daromad manbaiga ega bo‘lgan ishchi - xodimlarning hammasi ham mol-mulk va yer soliqlari to‘lovini belgilangan muddatda amalga oshirmasdan kelmoqda.

Jumladan, 2023-yil 17-oktabr holatiga 181,7 mingta tashkilotning 817,7 ming nafardan ziyod xodimida 960,4 mingta soliq obyekti bo‘yicha 563,1 mlrd so‘m (mol-mulk solig‘i bo‘yicha 209,1 mlrd so‘m va yer solig‘i bo‘yicha 354 mlrd so‘m) to‘lanmagan soliq qarzdorligi mavjud.



	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Soliq qarzi bo'lmagan subyektlar soni	559	576,7	582,5	630,9	657,1
Soliq qarziga ega YTTlar soni	181	182,8	221,5	287,1	316,9
Soliq qarziga ega yuridik shaxslar soni	98,5	132,5	97	89	82

3-rasm: Respublika bo‘yicha soliq qarziga ega bo‘lgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar soni tahlili (ming dona) [9]

Shundan:

- 133,2 mlrd so‘m - budjet tashkilotlari xodimlari;
- 24,8 mlrd so‘m - nodavlat-notijorat tashkilotlari xodimlari;
- 405,1 mlrd so‘m - tijorat tashkilotlari xodimlari hisobiga to‘g‘ri keladi.

Tijorat tashkilotlari xodimlarining mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha qarzdorligi (sohalar kesimida):

- sanoat sohasidagi 22,6 mingta tashkilotda ishlovchi 148,8 ming nafar xodimning soliq qarzi 101,1 mlrd so‘m;
- qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasidagi 54,3 mingta tashkilotda ishlovchi 104,8 ming nafar xodimning soliq qarzi - 97,3 mlrd so‘m;
- savdo sohasidagi 43 mingta tashkilotda ishlovchi 70,8 ming nafar xodimning soliq qarzi - 62,6 mlrd so‘m;
- qurilish sohasidagi 11,2 mingta tashkilotda ishlovchi 58 ming nafar xodimning soliq qarzi - 50,4 mlrd so‘m;
- tashish va saqlash sohasidagi 5,8 mingta tashkilotda ishlovchi 37,5 ming nafar xodimning soliq qarzi - 24 mlrd so‘m;
- yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi 9,4 mingta tashkilotda ishlovchi 16,5 ming nafar xodimning soliq qarzi - 15,1 mlrd so‘m;
- sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi 4 mingta tashkilotda ishlovchi 9,5 ming nafar xodimning soliq qarzi - 6 mlrd so‘m;
- axborot va aloqa sohasidagi 2 mingta tashkilotda ishlovchi 8,9 ming nafar xodimning soliq qarzi - 5,1 mlrd so‘m;
- boshqa faoliyat turlari sohasidagi 16,2 mingta tashkilotda ishlovchi 59,5 ming nafar xodimning soliq qarzi - 43,5 mlrd so‘m.

Xodimlarida soliq qarzi ko‘p bo‘lgan tashkilotlar – TOP-3:

- “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ - 3,4 mlrd so‘m;
- “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ - 3 mlrd so‘m;
- “Hududgazta’minot” AJ - 2,8 mlrd so‘m.

Bugungi kunda bunday o‘sish sur’atlari yaxshi natijadir, chunki buning oqibatida ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratilib, aholining ishsiz qatlami yangi ish o‘rinlariga ega bo‘ladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, soliq yukining yildan yilga pasaytirilishi, soliq stavkalarining tushirilishi soliq qarziga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilarning sonini kamaytirishga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, so‘nggi yillarda soliq stavkalarining pasaytirilishi, tadbirkorlik subyektlariga o‘zlarining faoliyatlarini olib borishda yengillik va keng imkoniyat yaratmoqda. Shunga qaramay soliq qarzi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarimiz talaygina.

Fikrimizcha soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirish ularni muddatida va to‘liq undirish samaradorligini oshirishda quyidagi takliflar o‘z samarasini beradi deb hisoblaymiz:

Germaniya davlatida soliq qarzlaridan voz kechish holatlari ko‘p uchraydi. Bu ayniqsa kichik tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda ham ushbu konsepsiyani qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda soliq qarzi kechilayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari kelajakda ishlab ketilishiga ishonch hosil qilinishini e’tiborga olish lozim.

Amaliyotda jinoiy ish doirasida o‘tkazilgan soliq auditi natijasida qo‘shimcha hisoblangan soliqlar, shu jumladan moliyaviy sanksiyalar soliq to‘lovchi tomonidan jinoiy ish o‘tkazgan vakolatli organning deposit hisobraqamiga to‘lanadi, lekin ushbu summa soliq organining bazasida ko‘rinmaydi va soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida aks etmaydi. Buning oqibatida soliq to‘lovchining hisobraqamiga avtomat inkasso topshiriqnomasi qo‘yiladi hamda soliq to‘lovchi ikki yoqlama soliq tortilishiga olib keladi.

Mamlakatimizda soliq madaniyatini yanada takomillashtirish maqsadida, umumta’lim, o‘rta maxsus hamda oliy ta’lim muassasalarida (ixtisoslik yo‘nalishlaridan qat’i nazar) soliq fanlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sababi, har bir inson ta’lim muassasalarini tamomlaganidan so‘ng albatta qayerdadir ishlaydi, daromad oladi va buni xohlaydimi yo‘qmi soliq to‘lovchiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, har bir shaxs qanaqa soliq to‘lashligini, qancha soliq to‘lashligini va qachon soliq to‘lashligini, shuningdek agar soliqlarni belgilangan muddatida to‘lamasa yoki to‘liq to‘lamasa qanday oqibatlarga olib kelishini aniq bilishi shart. Misol uchun Rossiya davlatida Soliq xizmati vazirligi va Ta’lim vazirligi tashabbuslari bilan 2002-yildan boshlab maktablarda “Soliq savodxonligi” fani amaliyotga joriy etilgan. Ularning fikricha, fuqarolar birinchi soliq haqidagi bilimlarini maktablarda olishi kerak.

Soliq qarzi haqida xalqimizga uzluksiz targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish. Televizordan, radiodan va boshqa ommaviy axborot vositalaridan, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda yangiliklarni soliq to‘lovchilarga yetkazishni yanada jadallashtirish;


Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlarni kechiktirganlik uchun hisoblanadigan penya stavkasini tabaqalashtirish;

Italiya davlati tajribasi o‘rganilganida, ularda soliqlarni kechiktirish holatiga keskin choralar ko‘rilishi aniqlandi. Xususan, soliq deklaratsiyasini taqdim etmaslik, soliq qarzi summasining 120 foizdan 240 foizgacha bo‘lgan miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Agar deklaratsiyada soliq majburiyati bo‘lmasa jarimaning eng kam miqdori (250 yevrodan 1 000 yevrogacha) qo‘llaniladi. Shuningdek, soliqlarni o‘z muddatida to‘lamaslik, soliq qarzi summasining 30 foiz miqdorida jarima hisoblanadi. Ammo, soliq qarzini kechiktirish 15 kungacha cho‘zilsa 1 foiz miqdorda, 15-90 kungacha to‘lanmasa 15 foiz miqdorda jarima solinadi. Xuddi shunday soliq qarzini kechiktirganlik uchun qo‘llaniladigan jarimalarga mutanosib ravishda (0,1%; 1,5%; 1,67% va 3,75%gacha) penyalarning stavkalari ham oshib boradi [10]. Shu o‘rinda mamlakatimizda soliq qarzini muddatida to‘lamaganlik uchun soliq qarziga nisbatan hisoblanadigan penya stavkasi 0,046 foizni tashkil etishini aytib o‘tishimiz lozim [11].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Подколзин А.Г. Журнал “Российское предпринимателство” №2 (74) 2016 г.
3. Пронин С.Б., Пронин М.С. Взыскание задолженностей по налогам с организатсій. // Тематический спецвыпуск журнала “Горуачаya линиуа бухгалтера”. – 2006 г.
4. Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office.-2009. P-27.
5. Tangriqulov A, Xomma A, Toshmatov Sh, Norqo‘ziev I, Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanmasi. – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti – 2010.(51-b).
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
7. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 640 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb sayti: http://www.soliq.uz ma’lumotlari.
9. https://t.me/soliqnews/11590 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy telegram kanali ma’lumotlari.
10. https://taxing.it/technical-resources-2.
11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 110-modda. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-yil. – 640 bet.

DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AHAMIYATI



Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna
PhD, dotsent v.b., Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari bayon qilingan. Mamlakatimizda mavjud qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yer maydonlarida foydali dorivor o‘simliklarni yetishtirish zaruriyati va imkoniyatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simliklar, talab, ehtiyoj, flora, qayta ishlash, eksport, fermer, dehqon xo‘jaliklari, tomorqa yer egalari, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika tarmog‘i, sog‘lomlashtirish.

Abstract: This article describes government support measures in the field of cultivation and processing of medicinal plants. The need and possibilities for growing useful medicinal plants on the agricultural land available in our country have been studied.

Key words: medicinal plants, demand, need, flora, processing, export, farmer, agricultural holdings, landowners, healthcare, pharmaceutical industry, healthcare.

Аннотация: В данной статье описаны меры государственной поддержки в сфере выращивания и переработки лекарственных растений. Изучены необходимость и возможности выращивания полезных лекарственных растений на имеющихся в нашей стране сельскохозяйственных угодьях.

Ключевые слова: лекарственные растения, спрос, потребность, флора, переработка, экспорт, фермер, агрохолдинги, землевладельцы, здравоохранение, фармацевтическая промышленность, здравоохранение.

KIRISH

O‘zbekistonda aholining dorivor o‘simliklar mahsulotlariga bo‘lgan talabi va ehtiyojini to‘la va uzluksiz qondirish maqsadida keyingi yillarda davlatimiz tomonidan dorivor o‘simliklarni yetishtirishga ixtisoslashgan korxonalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga ko‘ra: “Respublikada so‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o‘simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda [1].

Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o‘simliklarning 750 ta turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 ta turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 ta turi farmatsevtika sanoatida faol qo‘llanib kelinmoqda. 2019-yilda 48 million AQSH dollari qiymatidagi qayta ishlangan dorivor o‘simliklardan olingan mahsulotlar eksport qilingan. Shu bilan birga, tahlillar dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, ularning plantatsiyalarini tashkil etish, qayta ishlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish zarurligini ko‘rsatmoqda” [2].

Shuningdek, mazkur qarorda ta’kidlanganidek, ”Dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida” O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining 2020-yil 1-maydan boshlab dorivor o‘simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlari (keyingi o‘rinlarda – dorivor o‘simliklar klasteri)ni tashkil etish, shuningdek, hududlarni dorivor o‘simliklar yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashtirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin” deb belgilab qo‘yilgan [1]. Ushbu qarordagi ilovaga muvofiq, Qashqadaryo viloyatida ham asosiy turdagi dorivor o‘simliklarni yetishtirishga ixtisoslashtiriladigan hududlar ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, dorivor o‘simliklar klasteriga yer maydoni viloyatlar hokimliklari va tashabbuskorlar o‘rtasida tuziladigan

bitim asosida ajratilishi, xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etiladigan dorivor o‘simliklar klasteriga yer maydoni Qishloq xo‘jaligi vazirligi, o‘rmon fondi yerlarida esa O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi bilan tuziladigan investitsiya kiritish to‘g‘risidagi shartnoma imzolangandan so‘ng Vazirlar Mahkamasi tomonidan ajratilishi, bunda dorivor o‘simliklar klasterlariga yer maydoni dorivor o‘simliklar yetishtirishga mos bo‘lgan, yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilmagan va qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan, zahiradagi yerlardan, shuningdek, lalmi va o‘rmon fondi yerlaridan ajratilishi belgilab qo‘yilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bundan tashqari dorivor o‘simliklar plantatsiyalari resurs tejovchi texnologiyalarni qo‘llagan holda, “Har bir oila - tadbirkor” dasturi doirasida ajratiladigan, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan barpo etilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda:

- ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshirilgan dorivor o‘simliklarga doir ilmiy tadqiqotlar, yangi innovatsion ishlanmalar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, ularning tizimli ravishda yangilab borilishini ta’minlash;
- tibbiyotda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar kolleksiyasi uchastkasi va genbankini tashkil etish;
- Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda o‘simlik xom ashyosini chuqur qayta ishlash asosida dori substansiyalari ishlab chiqarishni tashkil etish mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash ishlarini bajarish belgilangan.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining markaziy apparatida Dorivor va ziravor o‘simliklarni rivojlantirish bo‘limi negizida 5 ta shtat birligidan iborat dorivor o‘simliklarni rivojlantirish boshqarmasi tashkil etilishi vazifasi topshirilgan.

Shuningdek, mazkur qarorda yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklar muhofazasini kuchaytirish, ularni tabiiy plantatsiyalar barpo etish yo‘li bilan tiklash choralarini ko‘rish, kamayib borayotgan tabiiy holda o‘suvchi noyob dorivor o‘simliklarni to‘plash (g‘amlash) va tashqariga olib chiqish uchun ruxsatnomalar ajratiladigan kvotaning kamida 50 foizi hajmida tabiiy plantatsiyalarni barpo etish sharti bilan berilishi ham belgilab qo‘yildi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4901-son qaroriga muvofiq esa respublika hududlarida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg‘or ilmiy ishlanmalarini o‘rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o‘rnatish hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kuchaytirish maqsadida:

- dorivor o‘simliklarni ilmiy asosda yetishtirish va qayta ishlash, ulardan oqilona foydalanishning yagona strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish;
- respublika hududidagi yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklar turlarini o‘rganish va zahiralarini aniqlash, mavjud bioresurslar genofondini saqlash, onalik plantatsiyalarini tashkil etish;
- urug‘lik materiallarini yetishtirish va tayyorlash, ko‘paytirish, kolleksion ko‘chatxonalar tashkil etish hamda ularning xom ashyolarini qayta ishlash bilan bog‘liq ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib borish;
- dorivor o‘simliklarni muayyan tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda madaniy holda yetishtirishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha aniq ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;
- tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib, madaniy holda yetishtiriladigan dorivor o‘simliklarning agrotexnologik xaritalarini Qishloq xo‘jaligi vazirligi va O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi buyurtmasiga ko‘ra ishlab chiqish;
- dorivor o‘simliklar kimyoviy tarkibini o‘rganish, mahsulotini standartlash va sertifikatlash;
- dorivor o‘simliklarga bo‘lgan ichki va tashqi bozorlar talabini o‘rganish bo‘yicha marketing tadqiqotlarini o‘tkazish;
- dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi va qayta ishlovchi fermer xo‘jaliklari, tashkilotlar va boshqa subyektlar rahbarlari va mutaxassislarining malakasini oshirib borishga yo‘naltirilgan dasturlarni tayyorlash va o‘qitish tizimini tashkil etish vazifalarini bajarish maqsadga muvofiq [3].

Mazkur qarorga asosan dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda har bir muassasa tabiiy holda o‘suvchi, shu jumladan, yo‘qolib borayotgan dorivor o‘simliklarni saqlash, xatlovdan o‘tkazish, ularning madaniy

plantatsiyalarini yaratish, onalik maydonlari va ko‘chatzorlarini tashkil etish, dorivor o‘simliklarni yetishtirishga doir texnologik xaritalar ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar va ishlanmalar ishlab chiqish uchun mutaxassislarni biriktirishi ko‘zda tutilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizning fikrimizcha, dorivor o‘simliklarni yetishtirish va ulardan dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etishga oid ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish uchun xalqaro moliya institutlarining grantlarini jalb etish hamda dorivor o‘simliklar sohasi bo‘yicha rivojlangan davlatlarga mutaxassislarni o‘qitish uchun xorijiy stajirovkalar tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadigan muhim vazifalardan biri sanaladi. Shuningdek, respublika oliy ta’lim muassasalari biologiya yo‘nalishlarining 3 va 4-kurslarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar tarkibidan alohida guruhlarda chuqurlashtirilgan o‘qitish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, barcha qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan kollej va texnikumlarda mutaxassisliklar klassifikatsiyasini inobatga olgan holda “Dorivor o‘simliklar yetishtirish agrotexnologiyasi” yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish ishlarini amalga oshirish lozim. Shuni ta’kidlash lozimki, albatta yuqorida keltirilgan qarorlar ijrosi dorivor o‘simliklar yetishtirish va undan qo‘shimcha qiymatga ega turli xil naflilikdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, sifati va assortimentini ko‘paytirishga olib keladi.

Dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining asosiy maqsadi-pirovard mahsulotlar turi, hajmi va sifatini yaxshilash asosida xalqaro va ichki bozorda mustahkam o‘rin egallashni va raqobatbardoshlikni ta’minlashdan iborat bo‘lib, quyidagi muhim vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan:

- dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlashning investitsion jozibadorligini oshirish bilan bir vaqtda chuqur qayta ishlangan dori-darmon mahsulotlar eksportini ko‘paytirish;
- mahalliy va importga olingan dori-darmon mahsulotlar raqobatlashuvida adolatli raqobat prinsiplarini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- dorivor o‘simliklardan olinadigan mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, energiya iste’moli va ekologik muammolarini pasaytirish, ikkilamchi resurslar va ishlab chiqarish chiqitlaridan oqilona foydalanish;
- dori-darmon mahsulotlari assortimentini kengaytirish, sifatini oshirish va iste’mol xususiyatlarini yaxshilash;
- dorivor o‘simliklar urug‘chiligi va seleksiyasini davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlashni yanada kuchaytirish;
- dorivor o‘simliklar doni yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotishgacha bo‘lgan butun zanjir bo‘yicha o‘rmon va fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash korxonalari va boshqa tashkilotlar kooperatsiyalashuvi hamda integratsiyalashuvini rivojlantirish.

Bizning fikrimizcha, bu tizim dehqon va fermerlar, qayta ishlash korxonalari hamda iste’molchilarning manfaatlari himoyalanishini ta’minlashi lozim.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tartibga solish davlat tomonidan chora-tadbirlari quyidagi guruhlardan tashkil topar ekan:

- ma’muriy hamda huquqiy - normativ dastaklar;
- bevosita iqtisodiy - moliyaviy dastaklar;
- bilvosita ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan dastaklar.

Tartibga solishning ma’muriy hamda huquqiy - normativ dastaklar yetishtirish, qayta ishlash va sotish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga soladigan qonunlar, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Davlat dasturlari, mahalliy hokimiyat qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z ichiga oladi.

Bevosita ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan dastaklar davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘arma mablag‘i, imtiyozli kreditlar, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish rivojlantirish dasturlari, subvensiyalar, dotatsiyalar, tarmoqdagi investitsion dasturlar va subsidiyalar singari kabilar hisobidan qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘ladi.

Bilvosita ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan dastaklarga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkalari, valyuta kursi va valyutani majburiy sotish bo‘yicha cheklovlar, bojxona to‘lovlari, davlat xizmatlari va tijorat tashkilotlari xizmatlarining tariflari, soliq va majburiy to‘lovlar stavkalarini pasaytirishlar, soliq imtiyozlari kiradi.

O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash sanoati tarmog‘ini tartibga solish bo‘yicha barcha mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti. Ushbu tarmoqni barqaror rivojlantirishda tashqi savdo munosabatlarini tartibga solish ham muhim ahamiyatga ega.

2022-yil 27-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada kavrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-116-sonli farmonida kavrak yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subektlariga bir qator imtiyozlar nazarda tutilgan. Xususan:

2022-yil 1-maydan boshlab 3 yil davomida:

Kavrak yetishtirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning 80 foizini tashkil etadigan tadbirkorlik subektlaridan olinadigan

- foyda solig‘i,
- mol-mulk solig‘i,
- yer solig‘i,
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50% miqdorida qo‘llaniladi.

2022-yil 1-iyuldan boshlab 2025-yil 1-yanvargacha “Yaylov xo‘jaligini ri-vojlantirish” uyushmasi tizimidagi subektlarda faoliyat olib borayotgan mavsu-miy ishchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida undi-rish belgilandi.

Shunday qilib, davlat bevosita va bilvosita ta’sir dastaklari orqali dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi o‘rmon, fermer xo‘jaliklari va qayta ishlash korxonalari o‘zlarining ishlab chiqarish jarayonini ta’minlaydigan darajada daromad olishlariga yordam beradi, aholining iste’molini qondirishni ham boshqaradi (1-jadval).

1-jadval: Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha dorivor o‘simlik materiallaridan foydalanish yo‘nalishlari[1]


Sanoat	Foydalanish yo‘nalishi
Tibbiyot sanoati	Har xil shakldagi dorivor preparatlar (ekstraktlar, eliksirlar, siroplar, damlamalar, malhamlar, tabletkalar, suspenziyalar va boshqalar) sof va o‘zgartirilgan shaklda
Oziq-ovqat sanoati	Ziravorlar, lazzat kuchaytirgichlar, xushbo‘y moddalar sifatida
Kimyo sanoati	Uglerod manbai sifatida sorbentlar ishlab chiqarish uchun dorivor o‘simlik materiallari ishlatiladi
Sellyuloza va qog‘oz sanoati	Qisqa tolali tuzilishga ega dorivor o‘simliklar qog‘oz, karton, izolyasion plitalar ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishlatilishi mumkin
Engil sanoat	To‘qimachilik sanoati uchun xom ashyo sifatida uzun tolali tuzilishga ega dorivor o‘simliklardan foydalanish mumkin
Yoqilg‘i sanoati	Energetik dorivor o‘simliklarning biomassasidan bioyoqilg‘i sifatida foydalanish mumkin
Mikrobiologiya sanoati	Yem-xashak, ksilitol ishlab chiqarish uchun substrat sifatida foydalanishi mumkin
Qishloq xo‘jaligi	Alohida dorivor o‘tlar yoki ularni qayta ishlash mahsulotlari hayvonlarni oziqlantirishda, aralash ozuqa, parhez qo‘shimchalari sifatida ishlatiladi
Parfyumeriya va kosmetologiya sanoati	Terapevtik ta’sirga ega parfyumeriya va kosmetika preparatlari (kremlar, jellar, shampunlar, parfyumeriya, tualet suvlari, laklar, balzamlar va boshqalar) tarkibida ishlatiladi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4901-sonli qaroriga muvofiq O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Fanlar akademiyasining “Shifobaxsh” dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash markazi negizida O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi huzurida davlat muassasasi shaklidagi Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi (keyingi o‘rinlarda - Markaz)ni tashkil etish belgilangan [3].

Markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- dorivor o‘simliklarni ilmiy asosda yetishtirish va qayta ishlash, ulardan oqilona foydalanishning yagona strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish;
- respublika hududidagi yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklar hududlarini o‘rganish va zahiralarini aniqlash, mavjud bioresurslar genofondini saqlash, onalik plantatsiyalarini tashkil etish;
- tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib, madaniy holda etishtiriladigan dorivor o‘simliklarning agrotex-nologik xaritalarini Qishloq xo‘jaligi vazirligi va O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi buyurtmasiga ko‘ra ishlab chiqish;
- ilmiy va amaliy tadqiqotlarni kolleksion ko‘chatxonalar tashkil etish, urug‘lik materiallarini yetishtirish va tayyorlash, ko‘paytirish bilan birgalikda bog‘lab bajarish;
- dorivor o‘simliklarni muayyan tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda madaniy holda yetishtirishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha aniq ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;
- dorivor o‘simliklarga bo‘lgan ichki va tashqi bozorlar talabini o‘rganish bo‘yicha marketing tadqiqotlarini o‘tkazish;
- dorivor o‘simliklar kimyoviy tarkibini o‘rganish, mahsulotini standartlash va sertifikatlash;
- dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi va qayta ishlovchi fermer xo‘jaliklari, tashkilotlar va boshqa subektlar rahbarlari va mutaxassislarining malakasini oshirish maqsadida tegishli dasturlar ishlab chiqish va o‘qi-tishni amalga oshirish.

1 Muallif tomonidan shakllantirildi.



2-rasm: Dorivor o‘simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va sotish tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari[2]

Tadqiqotlarimiz davomida dorivor o‘simliklarni joylashtirish, yetishtirish va qayta ishlash bo‘yicha ixtisoslashgan hududlarni shakllantirish, eng qulay hududlarda ayrim turdagi dorivor o‘simliklarni yetishtirishni chuqur ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash bo‘yicha aynan davlat tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi zarurligi asoslandi:

2 Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.

- dorivor o‘simliklar bo‘yicha faol tadbirkorlik va innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bilan bozor innovatsion mexanizmini: “bozor tartibga soluvchi, davlat esa tuzatish kirituvchi” prinsipi asosida muvofiqlashtirish;
- innovatsion loyihalar va takliflar bankini, shuningdek ilm-fan yutuqlarini tarqatish va joriy etish bo‘yicha xizmatlarni shakllantirishga yordam ko‘rsatish.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagilarni bajarishda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

- dorivor o‘simliklar yetishtirish tarmog‘ining tashkiliy-texnologik xususiyat-laridan kelib chiqqan holda aynan dorivor o‘simliklarni yetishtiruvchi va qayta ishlash korxonalariga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni bevosita va bilvosita mexanizmini kuchaytirish;
- davlat dorivor o‘simlik xom ashyo bozorida narx keskin tushib ketganida, garovli kreditlash mexanizmidan foydalangan holda, hosilni oldindan kelishilgan baho bo‘yicha sotib olish majburiyatini oladi;
- kreditlash tizimini rivojlantirish. O‘rmon, fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari uchun kreditlarni engillashtirish maqsadida davlat subsidiyalashni qo‘llagan holda kredit resurslarini arzonlashtirishi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasini pasaytirish va boshqa choralarni ko‘rishi zarur;
- agarda hosilning 25 %i va undan ko‘prog‘i yo‘qotilgan taqdirda nobud bo‘lgan hollarda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan sug‘urtalash tizimiga asoslangan mexanizmni joriy etish.

Ma’lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida dorivor o‘simliklar xom ashyosiga jahon bozorida talab yuqori bo‘lgan va qayta ishlash sanoati ichki ehtiyojni to‘liq ta’minlay olmaganligi sababli dorivor o‘simliklarni import qilish ustunlik qilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar dorivor o‘simliklarni yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha AQSH, Yevropa Ittifoqi (YI), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari amaliyoti va O‘zbekiston Respublikasida to‘plangan tajribalarni umumlashtirishga imkon berdi.

Tadqiqot natijalaridan ma’lumki, bozor munosabatlari taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda ham dorivor o‘simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va ichki hamda tashqi bozorda sotish samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning bevosita va bilvosita dastaklaridan foydalaniladi. Bular asosan: byudjetdan moliyalashtirish, kreditlash, soliqqa tortish, baho va daromadlarni tartibga solish va boshqalar. Bunda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar dorivor o‘simliklar xom ashyosi eksporti va importi masalalarida agrar proteksionizm prinsipini yoqlaydilar. AQSH, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Xitoy va Kanadada dorivor o‘simliklar yetishtirishni rivojlantirish bozor munosabatlarining rivojlan-ganligi bilan birga ularning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish dastaklaridan ilmiy asosda, to‘g‘ri va samarali foydalanishi bilan bog‘liq.

AQSH, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Xitoy va Kanadada dorivor o‘simliklarni yetishtirish aholi sog‘ligini muhofazasini ta’minlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Dunyo davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dorivor o‘simlik xom ashyosini ishlab chiqarishda kichik va o‘rta korxonalar rivojlanishning muhim istiqbollariga ega. Dorivor o‘simlik xom ashyosi bilan ta’minlashda turli xo‘jalik sohalari korxonalari faol ishtirok etadilar.

Tadqiqot jarayonida dorivor o‘simlik xom ashyosini yetishtirish farmat-sevtika faoliyati uchun litsenziyaga ega bo‘lgan tadbirkorlik subektlari tomonidan yangi dorivor o‘simliklarni yoki ularning qismlarini tabiiy qayta ishlash bo‘yicha operatsiyalar majmuasi ishlab chiqildi.

Dorivor o‘simlik xom ashyosini yetishtirishni davlat tomonidan tartibga solish har bir bosqichda xom ashyo sifatiga qo‘yiladigan talablarni amalga oshirishni tartibga solib, ushbu xom ashyoni ishlab chiqarish jarayoni ustidan doimiy nazoratni o‘z ichiga oladi.

Dorivor o‘simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va sotish tizimining davlat tomonidan tartibga solinishi uni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tegishli davlat tashkilotlari maxsus dasturlarni ham ishlab chiqishni rejalashtirishlari kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, bunday yondashuv, dorivor o‘simliklarni yetishtirishni ko‘paytirish va xarajatlarini qisqartirish, tayyor dori-darmon mahsulotlar raqobatbar-doshligini oshirish va aholining dorivor o‘simliklar dori-darmoniga bo‘lgan ehtiyo-jini ta’minlashni oshirish bo‘yicha ichki imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari va hududlar darajasida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash tizimini qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi zarur:

- davlat tomonidan ko‘mak berish;

- investitsiya jarayonlarni qo‘llab- quvvatlash;
- innovatsiya aktivligini oshirishni ta’minlash;
- dorivor o‘simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va sotish tizimida ishlab chiqarish, ijtimoiy hamda boshqa bozor infratuzilmalarini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- dorivor o‘simliklar bozorida barqaror konyunkturani ta’minlash maqsadida qayta ishlanadigan dorivor o‘simliklar xom ashyosi bo‘yicha jamg‘arma tashkil etish;
- tegishli korxona va tashkilotlarning klaster-kooperatsiyalashuvi va integratsiyalashuvi tizimini yo‘lga qoyish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son qarori. https://lex.uz/docs/4785256
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi “Dorivor o‘simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-139-sonli farmoni. https://lex.uz/uz/docs/6027102
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4901-sonli qarori. https://lex.uz/docs/5125714

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING TA'SIRINI BOSHQARISH

Maxmudov Anvarjon Maxmudovich
Farg'ona politexnika instiuti "Menejment"kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola Davlat organlarining soliq huquqbuzarliklarini kurashga qaratilgan ishlari jismoniy va yuridik shaxslarni yo'l qo'ygan xatolari uchun ta'qib qilish bilan chegaralanib qolib, uning asl sabablarini aniqlash hamda bartaraf etish muammolari hamda ularni bartaraf etish masalalariga qaratilgan. Chunki mazkur muammolar bartaraf etilmasa yangi-yangi xatoliklar, soliq to'lashdan qochish, soliq bazasida daromadlarni to'liq ko'rsatmaslik holatlari vujudga kelishi mumkin bo'lib, buni bartaraf etish, oldini olish yoki bartaraf etish uchun ilmiy jihatdan yondashishni talab etadi.

Huquqbuzarliklar ta'sirida soliq to'lovchilarni soliqlarni yashirishi va soliq to'lovlaridan qochishining asl sabablari atroflicha tadqiq qilinmagan. Muammolarni dolzarbligidan kelib chiqib, huquqbuzarliklarning iqtisodiyotni, xususan soliq tizimini boshqarishdagi ta'sirini kamaytirishda holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish, bunday mexanizmlardan foydalanishning tizimli boshqaruv menejmentini yaratish tadqiqotimizning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: soliq boshqaruvi, soliqqa oid huquqbuzarliklar, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soliq solinadigan baza, soliq munosabatlarini boshqarish, qog'ozsiz tovarlar.

Abstract: This article focuses on the problems of identifying and eliminating the root causes of the tax violations of the state authorities, as well as the issues of their elimination. Because if these problems are not eliminated, new errors, tax evasion, and cases of incomplete disclosure of income in the tax base may arise, which require a scientific approach to eliminate, prevent, or eliminate.

The root causes of tax evasion and tax evasion by delinquent taxpayers have not been thoroughly researched. Based on the urgency of the problems, the main essence of our research is the introduction of effective mechanisms aimed at reducing the impact of violations on the economy, in particular, the management of the tax system, and the creation of systematic management of the use of such mechanisms.

Key words: tax administration, tax offenses, tax evasion, taxable base, tax relationship management, paperless goods.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется проблемам выявления и устранения коренных причин налоговых правонарушений органов государственной власти, а также вопросам их устранения. Потому что если эти проблемы не устранить, могут возникнуть новые ошибки, уклонения от уплаты налогов, случаи неполного раскрытия доходов в налоговой базе, для устранения, предотвращения или устранения которых требуется научный подход.

Коренные причины уклонения от уплаты налогов и уклонения от уплаты налогов недобросовестными налогоплательщиками досконально не исследованы. Исходя из актуальности проблем, основной сутью нашего исследования является внедрение эффективных механизмов, направленных на снижение влияния нарушений на экономику, в частности, управление налоговой системой, а также создание системного управления использованием. таких механизмов.

Ключевые слова: налоговое администрирование, налоговые правонарушения, уклонение от уплаты налогов, налогооблагаемая база, управление налоговыми отношениями, безбумажные товары.

KIRISH

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliqlarni rag'batlantiruvchi rolini oshirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo'nalishida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish, investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga investitsiyalarni faol jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek: "Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur" Davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati - insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanishi belgilangan Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi to'g'risidagi Farmonda: "iqtisodiyotda soliq yuki darajasini kamaytirish, shuningdek soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi".

"O'zbekiston–2030" strategiyasida 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish. Shuningdek, "Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish kabi vazifalar belgilangan.

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lanadigan soliqlar nechog'lik ahamiyatli bo'lsa, mazkur soliqlarni muntazam, o'z vaqtida va to'liq byudjetga kelib tushishini ta'minlash maqsadida, korxonalarda soliq huquqbuzarliklarinisodir etilishin olish ham shu darajada muhimdir. Shuning uchun mazkur mavzu bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirgan holda bu boradagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish zarurligi hozirda muhim va dolzarb masalalardan biriga aylangan.


MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mazkur masala yuzasidan xalqaro doiradagi olimlar S. Glinkina, V. Dadalko, V. Esipov, I. Klyamkin, V. Ispravnikov, A. Krilov, A. Korchagin, Yu. Latov, G. Mishin, V. Ovchinskiy, Ye. Panova, Ye. Rumyanseva, R. Satuyev, L. Timofeyev, Yu. Sqganov, N. Chernina, D. Shraer, Yu. Shishnin, P. Xlebnikov, N. Yas'kovalarning ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammolarning yechimlariga qaratilgan.

Shuningdek, soliqqa oid huquqbuzarliklar masalalari bilan bog'iq ilmiy izlanishlarni maxalliy iqtisodchi olimlardan A. Vaxobov, E. Gadoyev, I. Jamolov, N. Jo'rayev, A. Isaxodjayev, A. Ortiqov, A. Soliyev, B. Toshmurodova, N. Kuziyeva, N. To'xliyev, P. Yo'ldoshev, N. Usmonov, A. O'lmasov, Z. Qurbonov, Sh. Toshmatov, A. Shestakov, Q. Yahyoyevlar ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Byudjetga daromadlar tushumining oshishi/kamayishiga umuman quyidagi omillar ta'sir etadi:

- respublika iqtisodiyotining o'sishi;
- so'mning erkin ayirboshlash kursini joriy qilish;
- qimmatbaho va rangli metallarga jahon narxlarining nisbatan yuqoriligi;
- pandemiya vaqtida karantin choralarining joriy etilishi va yengillashtirilishi;
- soliq islohoti;
- soliq ma'muriyatchiligining yangi instrumentlarini joriy etish.



O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi ma'lumotlaridan olingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: Davlat byudjetining 2019-2021-yillardagi ijrosi haqida ma'lumot (mlrd so'm)

	2019-y.		2020-y.		2021-y.		O'sish 2019/21
	Summa	Salmog'i	Summa	Salmog'i	Summa	Salmog'i	%
Davlat byudjeti daromadlari	112 165		132 938		164 681		146,8
shu jumladan:							
1. Bilvosita soliqlar - jami	46 429	41,4	46 428	34,9	56 292	34,2	121,2
2.1 Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS):	33 810	30,1	31 177	23,5	38 439	23,3	113,7
- QQS bo'yicha tushumlar	37 055	33,0	40 224	30,3	52 856	32,1	142,6
- QQS bo'yicha qoplash	-3 245	-2,4	-9 046	-6,8	-14 417	-8,8	444,3
2.2 Aksiz solig'i	10 316	9,2	11 697	8,8	13 088	7,9	126,9
2.3 Bojxona boji	2 303	2,1	3 554	2,7	4 765	2,9	206,9
2. Bevosita soliqlar - jami	31 677	28,2	45 207	34,0	58 930	35,8	186,0
1.1 Foyda solig'i	16 361	14,6	28 712	21,6	38 363	23,3	234,5
1.2 Aylanmadan olinadigan soliq	1 989	1,8	1 354	1,0	1 649	1,0	82,9
1.3 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	13 327	11,9	15 141	11,4	18 918	11,5	141,9
3. Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i	19 681	17,5	21 257	16,0	23 036	14,0	117,1
3.1 Mol-mulk solig'i	2 360	2,1	1 974	1,5	2 457	1,5	104,1
3.2 Yer solig'i	2 313	2,1	2 387	1,8	4 083	2,5	176,5
3.3 Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	14 693	13,1	16 417	12,3	15 812	9,6	107,6
3.4 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314	0,3	479	0,4	684	0,4	217,6
4. Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar	14 379	12,8	20 046	15,1	26 423	16,0	183,8

2-jadval: O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarining tarkibi

Ko'rsatkichlar	Yillar (mlrd.so'm)					
	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Respublika byudjeti daromadlari	36184,9	40505,8	44469,6	62229,5	102627,6	128460,0
Respublika byudjeti xarajatlari	37967,7	42721,3	46943,1	62170,0	107118,4	121856,4
Maxalliy byudjet daromadlari	13394,2	18417,9	19985,7	18026,5	31083,0	30273,9
Ulushi %	37%	45,4%	44,9%	28,9%	30,3%	23,6%
Maxalliy byudjet xarajatlari	16323,3	20820,9	21382,8	25485,5	38846,1	35387,8
Ulushi %	45%	51,4%	48,0%	40,9%	36,2%	29,0%
Yuqori byudjetdan olingan subvensiya (transfert) miqdori	2929,1	2402,9	1397,1	7459,3	7763,1	5113,9
Ulushi%	8%	5,9%	3,1%	11,9%	7,5%	4,0%

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

3-jadval: Mahalliy byudjetga biriktirilgan to‘lash muddati uzaytirilgan hamda undirilishi to‘xtatilgan soliq qarzdorliklari to‘g‘risida ma’lumot (mlrd.so‘m)

T/r	Hududlar nomi	Farmon asosida to‘lash muddati uzaytirilgan		Farmon asosida hisobdan chiqarilgan		Farmon asosida soliq qarzini undirish to‘xtatilgan	
		soni	summa	soni	summa	soni	summa
Respublika bo‘yicha		**3 442**	**148,4**	**17 245**	**29,6**	**280 745**	**1 343,9**
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	120	2,6	1 138	1,0	13 651	55,0
2	Andijon viloyati	213	11,4	382	0,2	21 891	148,0
3	Buxoro viloyati	207	4,5	751	0,3	18 161	51,5
4	Jizzax viloyati	112	2,5	1 246	0,2	15 814	63,6
5	Qashqadaryo viloyati	367	12,5	2 264	1,1	24 222	211,4
6	Navoiy viloyati	139	1,8	1 474	0,3	14 341	25,1
7	Namangan viloyati	106	4,3	614	0,5	16 939	52,4
8	Samarqand viloyati	395	9,6	2 094	0,9	28 520	111,1
9	Surxondaryo viloyati	235	8,1	1 197	1,1	16 878	74,5
10	Sirdaryo viloyati	82	4,4	939	0,2	10 260	53,6
11	Toshkent viloyati	379	27,0	1 548	3,7	22 591	148,4
12	Farg‘ona viloyati	189	6,8	1 344	1,1	25 549	99,5
13	Xorazm viloyati	353	11,6	642	0,0	13 468	44,2
14	Toshkent shahar	452	35,8	1 612	19,0	38 287	176,5
15	Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi	93	5,7	0	0,0	173	28,9

Soliq huquqbuzarligin mahalliy byudjet doirasida tahlil qiladigan bo‘lsak yer uchastkalarini belgilangan meyorlaridan ortiq holatlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilgan holatlarni kuzatishimiz mumkin bunda soliq huquqbuzarliklariga qonundan tashqari iqtisodiy faoliyat doirasi sifatida qarash mumkin, ya’ni bitimlar noqonuniy amalga oshiriladi, huquqiy meyorlar va xo‘jalik hayot qoidalariga amal qilinmaydi. So‘ng o‘zimiz yaratgan iborani, ya’ni “pul ko‘chishi” iborasini taklif qilmoqchimiz.

Iqtisodiyotni boshqarishda uchrab turadigan munosabatlar shuni aniqlaydiki, uning qatnashchilari amalga oshirayotgan ishlarini iloji boricha yashiradilar. Bu shaxslar faoliyatning daromad miqdorini soliq xizmati va huquq targ‘ibot organlaridan, jamiyatdan sir tutadilar. Bunday holatlarning ko‘lamini aniqlash boshqaruv tizimida ancha qiyinchilik tug‘diradi.

4-jadval: Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalangan jismoniy shaxslar to‘g‘risida umumiy ma’lumot (mln. so‘m)

№	Hudud nomi	Kadastr dasturiy mahsuliga egalik huquqisiz kiritilgan obyektlar		Mazkur obyektlarni o‘rganish davomida aniqlangan holatlar					
			Haqiqatda huquqiy hujjati mavjud bo‘lmagan obyektlar		Yer ajratish haqida hujjat mavjud, lekin davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan		Mazkur obyektlarga qo‘shimcha hisoblangan soliq summasi		
		soni	yer maydoni (ga)	soni	yer maydoni (ga)	soni	yer maydoni (ga)	soni	yer maydoni (ga)
1	Andijon viloyati	253 379	24 246	12 437	1 084	201 021	18 991	213 605	53 417,2
2	Buxoro viloyati	265 492	4 157	205 477	32 433	0	0	206 442	70 948,2
3	Jizzax viloyati	1 571	2 114	429	666	764	1 165	1 123	367,4
4	Qashqadaryo viloyati	517 792	114 352	438 290	103791	14 506	2 371	455 312	140383,7
5	Navoiy viloyati	34 161	4 834	1 319	155	18 925	3 591	20 438	3 610,3
6	Namangan viloyati	314 606	33 139	265 838	26 910	18 988	2 265	286 270	84 175,1
7	Samarqand viloyati	462 558	87 223	364 066	70 960	76 600	14 626	440 904	141205,9
8	Surxondaryo viloyati	339 557	66 474	311 409	62 024	14 429	2 765	328 208	124819,0
9	Sirdaryo viloyati	36 679	7 507	20 880	3 291	12 296	1 881	35 799	12 166,3
10	Toshkent viloyati	117 846	14 268	75 070	9 762	0	0	79 365	27 359,7
11	Farg‘ona viloyati	191 630	24 628	2 044	173	121 078	15 397	123962	38 000,2
12	Xorazm viloyati	144 725	17 157	26 462	3 042	93 467	11 895	120622	32 003,2
13	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	65 714	13 134	52 080	12 455	82	19	52 212	21 982,6
	Jami	**2 745 710**	**413 233**	**1 775801**	**326 746**	**572 156**	**74 966**	**2 364 62**	**750439,8**

4-jadval ma’lumotlari tahlili ko‘rsatishicha, 2020-yilda respublikada haqiqatda hujjati mavjud bo‘lmagan obyektlar soni 1775801 tani tashkil etib, egallagan yer maydoni 326745 ga tashkil etgan. Shuningdek, yer ajratish haqida hujjati mavjud bo‘lgan lekin davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan obyektlar soni 572156 tani va egallagan yer maydoni 74966 gani tashkil etmoqda. Buning natijasida jami 2364172 ta yer obyektlariga nisbatan byudjetga qo‘shimcha 750438,9 mln.so‘m soliq hisoblangan.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar ta’siri.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan yuridik shaxslar faoliyatini tahlil qilganimizda soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligini buzish holatlari ham uchrab turibdi:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining bergan ma’lumotiga ko‘ra bugungi kunda Respublikasizda jami 571890 ta yuridik shaxslar faoliyat ko‘rsatmoqda. Shulardan 63162 nafari shu yilning yanvar oyidan avgust oyigacha bo‘lgan davrida tashkil etilganlari hisoblanadi, bu umumiy songa nisbatan 11 foizni tashkil etadi. Sohalar kesimida tahlil qiladiga bo‘lsak eng ko‘p yuridik shaxs sifatida faoliyatini ochgan soha savdo sohasiga 23354 (150427 ta) sanoat yo‘nalishiga 10240(68894) ta yuridik shaxs faoliyatini boshlaganini bildiradi. Eng oz ochilgan sohalar bu tashish va saqlash hamda axborot aloqa yo‘nalishlariga to‘g‘ri keladi.

Viloyatlar kesimida eng ko‘p yuridik shaxs sifatida faoliyatini boshlagan korxonalar Toshkent shahri 11484(98681), Farg‘ona viloyati 5819 (51896), Samarqand viloyati 5916 (54914) hissalariga to‘g‘ri keladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyatini boshlaganlar 2023-yil 1-sentabr holatiga 247505 ta yil boshidan esa 66448 tan tashkil etadi bu 26.8 foizga shu yilni o‘zida o‘sish bo‘lganidan dalolat beradi. Sohalar kesimini oladiga bo‘lsak eng ko‘p tadbirkorlikni chakana savdo sohasida faoliyat boshlaganlar tashkil etmoqda 29190 (120444) nafar. Hunarmandchilik sohasi 5009 (24885), Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi 7632 (23354), Boshqa faoliyat turlari 24617 (78822) nafar tadbirkor faoliyat yuritmoqda. Soliq rejimlari bo‘yicha shularni 82.2 foizi ya’ni 205883 nafari qat’iy belgilangan summada daromad solig‘i to‘lovchi, 15.9 foizi ya’ni 39469 nafari aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchi, 0.9 foizi 2159 nafari qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilardir. Eng ko‘p ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlar bu Toshkent shahar, Toshkent viloyati, Samarqand viloyati va Farg‘ona viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Davlat organlarining soliq huquqbuzarliklari bilan kurashga qaratilgan ishlari jismoniy va yuridik shaxslarning yo‘l qo‘ygan xatolari uchun ta’qib qilish bilan chegaralanib qolib uning asl sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilmagan. Buning natijasida yangi - yangi xatoliklar, soliq to‘lashdan qochish, soliq bazasida daromadlarni to‘liq ko‘rsatmaslik holatlari vujudga kelmoqdaki, buni bartaraf etish, oldini olish yoki bartaraf etish uchun ilmiy jihatdan yondashishni talab etadi.

Huquqbuzarliklar ta’sirida soliq to‘lovchilar soliqlarni yashirishi va soliq to‘lovlaridan qochishning turli yo‘llarini qo‘llab ko‘radilar. Muammolarni dolzarbligidan kelib chiqib, huquqbuzarliklarning iqtisodiyotni, hususan soliq tizimini boshqarishdagi ta’sirini kamaytirishda holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish, bunday mexanizmlardan foydalanishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, dastur taqdim etgan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali soliq huquqbuzarliklariga yo‘l qo‘yilishini asl sabablarini topish va uni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy yondashilgan fikrlar berilishi talab etiladi. Shu maqsadda soliq tizimida muvaffaqiyat bilan qo‘llanilayotgan “Avtokameral” dasturi orqali olingan ma’lumotlarni yillar kesimida tahlil qilib chiqsak.

Tekshiruvdan oldingi tahlil - taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to‘lovchining ishtirokisiz o‘tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlildir.

Soliq organlari kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilishi boshlanguniga qadar tekshiruvdan oldingi tahlilni o‘tkazishi mumkin. (Soliq kodeksi 138-modda)

Tekshiruvdan oldingi tahlil soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘isiz, “Avtokameral” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

Mazkur tizimda joriy qilingan mezonlar mantiqiy shartlar va algoritmlar asosida, tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan soliq va moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ko‘rsatkichlar bilan soliq organlarida mavjud ma’lumotlarni (jumladan, elektron hisobvaraq-faktura, eksport-import operatsiyalari, onlayn kassa texnikasi cheklari va h.k.) avtomatlashtirilgan tartibda taqqoslaydi.

Agar tekshiruvdan oldingi tahlil chog‘ida soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risida xabarnoma yuboriladi.

Soliq to‘lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnomani olgan kundan e’tiboran 10 kunlik muddatda aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart. Bunday majburiyatning bajarilmaganligi soliq organi tomonidan soliq to‘lovchida kameral soliq tekshiruvini tayinlash uchun asos bo‘ladi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar asosnomasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan yoxud kameral soliq tekshiruvi tayinlangan sanadan e’tiboran yakunlangan hisoblanadi.

Ushbu avtomatlashtirilgan tizimning joriy qilinishi soliq to‘lovchilarga bir qator afzalliklar yaratadi. Jumladan:

- Soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda hisoblanishi hamda to‘lanishini ta’minlashda ko‘maklashadi;
- Ularning faoliyatida yuzaga kelgan soliqqa oid huquqbuzarliklarni mustaqil ravishda bartaraf etish imkonini beradi;
- Ularga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy jarimalar, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik choralarining oldi olinishini ta’minlashga xizmat qiladi;
- Ularning faoliyatiga asossiz aralashish va korrupsiya holatlarini cheklash hamda ma’muriy bosimlarni kamaytirishga imkoniyat beradi.

2022-yilda soliq to‘lovchilar hisobotlarida 90,7 trln so‘mdan ortiq tafovutlar aniqlandi

Soliq to‘lovchilarda 2022-yilda o‘tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 90,7 trln so‘mlik tafovutlar aniqlandi.

Shundan, 76,7 trln so‘mlik tafovutlar yoki jami aniqlangan tafovutlarning 84,5%i bartaraf etilgan:

- 4,1 trln so‘m qo‘shimcha soliqlar hisoblangan;
- 72,6 trln so‘m tafovut bo‘yicha hisobotlardagi ko‘rsatkichlar tuzatilgan.

2023-yil yanvar-avgust oylari davomida o‘tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 89 136 ta korxona tomonidan ko‘paytirishga qayta hisobotlar taqdim etilgan va 5,9 trln so‘m soliqlar hisoblangan.

Eng katta tafovut aniqlangan sohalar :

- ishlab chiqarish - 3 trln so‘m (51,2%);
- umumiy ovqatlanish va savdo - 861,1 mlrd so‘m (14,5%);
- qurilish - 849,2 mlrd so‘m (14,3%);
- transport - 207,9 mlrd so‘m (3,5%);;
- qishloq xo‘jaligi - 172,1 mlrd so‘m (2,9%);.

Soliq huquqbuzarliklarini oldini olishda soliq to‘lovchilardan kelib tushayotgan murojaatlarni alohida takidlash lozim, 2023-yil 1-sentabr holatiga e’tiborimizni qaratsak 84786 marotaba murojaat bo‘lib shu murojaatlarni 99.5 foizda soliq huquqbuzarliklari o‘z tasdig‘ini topganligini ko‘ramiz. Asosan qaysi sohalarda bu kabi qoida buzilishlar aniqlangan:

- xaridorlarga savdo chekini bermaslik-93.4 foizni tashkil qiladi;
- to‘lovlarni plastik karta orqali qabul qilmaslik holatlari 3.9 foizni;
- plastik karta uchun xarid summasini oshirish holati-0.2 foizni;
- boshqa holatlarda soliq huquqbuzarliklarini sodir etish- 2.4 foizni tashkil etmoqda.

Bu ko‘rsatkichlarni viloyatlar kesimida tahlil qilsak, kelib tushgan murojaatlarni va shu asosda to‘langan mukofotlarni asosan Toshkent shahri, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyatlar amalga oshigani haqiqat bo‘lib qolmoqda.

Soliq to‘lovchilarni soliqlarga qay tarzda amal qilishlari tahliliga qaraydigan bo‘lsak 2022-yili jami 866 marotaba soliq auditi o‘tkazilgan bo‘lib bu soliq to‘lovchilarga nisbatan 0.15 foizni tashkil qiladi.

2023-yilni 8 oyida esa atiga 679 ta subyektda tekshirish o‘tkazilgan bo‘lib bu ko‘satkich 0.1 foizni tashkil etadi. Shu ko‘rsatkich past bo‘lishiga qaramay 223 nafar subyektda 1.2 trl so‘m soliq summasini yashirish holatlari aniqlangan. Bular:

- 138 ta yuridik shaxsda 697.2 mld.so‘mlik realizatsiya qilingan tovarlar summasini ko‘rsatmaslik;
- 63 ta yuridik shaxsda 489.4 mld.so‘mlik tovarlarni omborlarda yoki realizatsiya mavjud emasligi;
- 22 ta yuridik shaxsda 23.9 mld.so‘mlik kirim qilinmagan tovarlarni saqlaganlik holatlari aniqlangan. Bu ko‘rsatkichlar asosan ishlab chiqarish, qurilish, savdo va boshqa sohalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki 0.1 foizli tekshirish o‘tkazilganda 1.2 trl so‘mlik soliq qoida buzarligi aniqlangan bo‘lsa, tekshirish soni ortib borishi bilan soliqni yashirish, turli yo‘llar bilan soliqdan qochish holatlari yaqqol ko‘zgan tashlanib qolishi mumkin

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq reformasini opponentlari fikricha soliqni kamaytirish byudjetga salbiy ta’sir ko‘rsatar emish. Afsuski ular bilmaydilar-ki, yuqori soliqlar mavjudligi uchun byudjet bo‘sh. Soliqdan boshqa g‘aznani to‘ldiruvchi manbalar ham bor-ku?!

Mulkni xususiylashtirishga juda katta qiziqish bilan qaraldi, afsuski bu ham o‘z vaqtida invistitsiyalarni jalb etilishiga va ijtimoiy muamolarni yechish hamda moliyaviy barqarorlikka olib kelmadi. Lekin hozirda pullik xususiylashtirishga investitsiyani jalb qilgan holda o‘tishni imkoni bor. Buni qaerda olish kerak? Albatta qonunlashtirilgan yashirin manbalardan.

- biznes uchun xos bo‘lgan qonunchilik sharoitlarini yaratish;
- jinoyat orqali hosil qilingan kapital va yashirin ishlab chiqaruvchilar kapitali o‘rtasida aniq chegarani belgilash;

- tadbirkorlarga shu jumladan chet ellardagi “qallob”larga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish;
- soliqlarni fiksal turlaridan voz kechish;
- har tomonlama naqd pulsiz hisob-kitoblarni rag‘batlantirish;
- hokimiyatga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlash, qaysiki, aholini moliyaviy ko‘zbo‘yamachiliklar oqibatida aldanishdan qo‘riqlash, omonatlarini qo‘riqlash hamda xususiy mulkchilik institutlarni qo‘riqlash.

Xo‘jalik subyektlari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish.

Jahon iqtisodiy hamjihatligi tomonidan tan olinganki, eng ko‘p biznesga xavf soladigan sohalarda biri - bank sistemasi orqali yirik miqdordagi pul mablag‘larini aylantirish va pullarni yuvish bo‘lib qolmoqda. Jinoiy elementlar o‘z faoliyatida bank ma’lumotlari boshqalar uchun maxfiyligidan foydalanmoqdalar. Uzoq muddat davomidagi bank siri Hozirgi kunda aks holat keltirib chiqarmoqda.

Yirik miqdordagi pul mablag‘lari davlat va jamoatchilik nazoratiga olinsa uyushgan jinoyatchilik o‘z kuchidan ayrilgan bo‘ladi.

Ushbu keltirilgan ma’lumotlar yashirin iqtisod to‘g‘risida tushuncha beradi, lekin, shu ma’lumotlarni o‘zi ham hayotimizga yashirin iqtisod qanday ta’sir ko‘rsatayotganligini bilib olishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon.
2. N. Toshmamatov, X. Kamolov, I Nosirov, S. Toshmamatov. Audit. O‘quv qo‘llanma.– Andijon – 2018, – 300 b.
3. N.A. Yangiboyev, D.Q.Qudbiyev va boshq. Soliq xizmati organlarida buxgalteriya xisobi. T. 2023 y.
4. Nosirov I.A.The role of the ecological management on the developing of small business. Theoretical & Applied Science., 2017g.
5. Носиров И.А. Влияние научно-технического прогресса в эффективном исползовании ресурсов. ЛИ Республики Узбекистан. Вестник Республики Каракалпагистан. 2016 г.
6. I.Ismanov, N.Toshmamatov, S.Buzrukxonov. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. Toshkent. “Sano-standart”-2019-yil.
7. Носиров И. А. Совершенствование учета и анализа затрат хлопкоперерабативаюших предприятий (на примере кооперативних хозяйств Ферганской долини) .Монография. 1998 г.
8. Ерматов И. Т. Научно-технический прогресс: сосиалние, технические и обшественние фактори : Сборник статей. – Москва : ООО “ИМПУЛЬС”, 2018. – С. 133-137. – ЭДНХТАЛБЖ.



O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIYATINING EKONOMETRIK TAHLILI

Achilov Uyg‘unjon Ulug‘bekovich
Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining investitsion faolligini yaxshilashga oid tahlillar amalga oshirilgan. Muhim ko‘rsatkich sifatida tijorat banklarining investitsion faoliyatga yo‘naltirgan mablag‘lariga tijorat banklarining boshqa ko‘rsatkichlari ta’sirlari korrelyatsiya koeefitsiyenti orqali tahlil qilingan hamda eng kichik kvadratlar usuli orqali ekonometrik modellashtirish amalga oshirilgan. Ekonometrik modellashtirish natijalari bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion faoliyat, tijorat banki, plastik karta, depozit, korrelyatsiya koeffitsiyenti, ekonometrik model, eng kichik kvadratlar usuli, milliy valyuta, to‘lov terminali.

Abstract: The article analyzes the improvement of investment activity of commercial banks. As an important indicator, the effects of other indicators of commercial banks on the funds of commercial banks for investment activities were analyzed through the correlation coefficient, and econometric modeling was carried out using the method of least squares. Conclusions and suggestions are given on the results of econometric modeling.

Key words: investment activity, commercial bank, plastic card, deposit, correlation coefficient, econometric model, least squares method, national currency, payment terminal.

Аннотация: В статье анализируется совершенствование инвестиционной деятельности коммерческих банков. В качестве важного показателя влияние других показателей коммерческих банков на средства коммерческих банков на инвестиционную деятельность анализировалось через коэффициент корреляции, а эконометрическое моделирование проводилось с использованием метода наименьших квадратов. Сделаны выводы и предложения по результатам эконометрического моделирования..

Ключевые слова: инвестиционная деятельность, коммерческий банк, пластиковая карта, депозит, коэффициент корреляции, эконометрическая модель, метод наименьших квадратов, национальная валюта, платежный терминал.

KIRISH

Tijorat banklarining maqsadi o‘z nomidan ma’lumki, maqsadi foyda olishga qaratilgan tijoriy faoliyatni amalga oshirish va shu asosda maksimal samaradorlikka erishishdir. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etilishi mamlakatdaga amaldagi qonunchilik talablari va mezonlari asosida tashkil etiladi hamda qonunchilikda amalga oshirilishi ruxsat berilgan tijoriy faoliyatni amalga oshiradi. Amaliyotda tijorat banklari kreditlash, investitsion faoliyat, vositachilik xizmatlarini ko‘rsatish, bank xizmatlarini ko‘rsatish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha tijoriy faoliyatni amalga oshirishadi. O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatining tashkil etilishi bank tizimining “Universal” modeliga asoslangan bo‘lib, tijorat banklariga kreditlash hamda investitsion faoliyatni parallel amalga oshirishga ruxsat beriladi. Shu nuqtai nazardan tijorat banklarining asosiy faoliyati kreditlash bo‘lishi bilan bir qatorda, ular investitsion faoliyatni amalga oshirishlari, xususan, investitsion loyihalarga investitsiya kiritish, kimmatli qog‘ozlarni sotib olish, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha vositachilik qilish kabi investitsion faoliyatlarni amalga oshirishlari mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tijorat banklari investitsion faolligini oshirish masalasi, har qaysi davrda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, shu tufayli ham mazkur yo‘nalish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan hamda amalga oshirib kelinmoqda.

Bu borada quyidagi tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Matxey (2009) fikricha, monetar siyosat ko‘p yillar davomida turli hil ko‘rinishda bo‘lgan. Monetar siyosat iqtisodiyotda inflyatsiyani jilovlash maqsadida pul taklifi va talabini tartibga solish jarayonida ko‘rinish beradi[1].

Taylor (1998) ta’kidlashicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarning faoliyatlari monetar siyosat qoidalaridan foydalangan holda empirik tarzda tavsiflanishi mumkin. Oddiy tenglamalar bilan rasmiylashtirilgan bunday qoidalar markaziy banklarning iqtisodiy o‘sish va inflyatsiya kabi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga bo‘lgan ta’sirini tavsiflaydi[2]. Rasmiy ravishda qisqa muddatli foiz stavkalari, iqtisodiy o‘sish va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni Teylor qoidasi yordamida aniqlash mumkin. Ammo ularning fikricha inflyatsiyani tartibga solishda Markaziy bankda yetarli darajada ta’sir vositalari mavjud bo‘lsagina bu rejim o‘z samarasini beradi[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muhim ko‘rsatkich sifatida tijorat banklarining investitsion faoliyatga yo‘naltirgan mablag‘lariga tijorat banklarining boshqa ko‘rsatkichlari ta’sirlari korrelyatsiya koeefitsiyenti orqali tahlil qilingan hamda eng kichik kvadratlar usuli orqali ekonometrik modellashtirish amalga oshirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion faoliyat tijorat banklarining kreditlashdan keyingi eng yirik faoliyatidir. Mazkur faoliyatning o‘rni va ahamiyati ham makroiqtisodiy, ham mikroiqtisodiy nuqtai nazardan kundan kunga ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan mazkur faoliyatning rivojlanishi va taraqqiyotini o‘rganish, uning kelgusidagi istiqbolini tadqiq etish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etishini tadqiqotimizning yuqoridagi bob va paragraflarida e’tirof etib o‘tdik. Tadqiqotimizning mazkur qismida O‘zbekistondagi tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlilini amalga oshiramiz hamda modelini ko‘rib o‘tamiz. Tadqiqotimizda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan 18 ta tijorat bankining statistik ma’lumotlari asosida amalga oshiramiz.

Tahlilda tijorat banklarining investitsion faoliyati natijalari sifatida ularning qimmatli qog‘ozlar portfeli hamda amalga oshirilgan repo operatsiyalarining jami summasining yig‘indilarining jamisi olingan. 1-ilovada keltirilmagan tijorat banklarida repo operatsiyalari amalga oshirilmaganligi, qimmatli qog‘ozlar portfeli mavjud emasligi yoki salmog‘i juda kamligi sababli tahlil uchun olinmadi.

Tahlilimizning dastlabki qismida ilovada keltirilgan ma’lumotlardan modellashtirishni amalga oshirish uchun yaroqli bo‘lgan ko‘rsatkichlarni tanlab olamiz. Amalga oshiradigan tahlilimizda natijaviy belgi sifatida tijorat banklarining jami investitsion faoliyat ko‘rsatkichlarini olamiz. Jami investitsion faoliyat ko‘rsatkichlari qimmatli qog‘ozlar portfeli va amalga oshirilgan REPO amaliyotlari jamisi ekanligini yuqorida aytib o‘tdik. Mazkur ko‘rsatkichning o‘zgarishiga boshqa omillarning ta’siri qanchalik darajada kuchli yoki kuchsiz ekanligini aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlilni amalga oshiramiz. Korrelyatsiya ko‘effitsiyenti biror omilning boshqa bir omilning o‘zgarishiga qanchalik darajada ta’sir ko‘rsatishini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanib, u -1 va 1 oralig‘ida o‘zgaradi. Agar ko‘rsatkich 0 va 1 oralig‘ida bo‘lsa, omil belgi natijaviy belgi o‘zgarishiga to‘g‘ri, -1 va 0 oralig‘ida bo‘lsa, omil belgi natijaviy belgi o‘zgarishiga teskari ta’sir ko‘rsatishini ifodalaydi. Korrelsiya koeffitsiyenti qanchalik 1 yoki -1 yaqin bo‘lsa, bog‘liqliq shu darajada kuchli bo‘ladi[4]. Tahlillarni davom ettirish uchun omillarni tanlashda korrelsiya koeffitsiyentining 0,7 dan yuqori yoki -0,7 dan kichiklarini tanlab olishimiz zarur, chunki mazkur holda omillar natijaviy belgiga kuchli ta’sir ko‘rsatayotganligini ifodalaydi. Omillar orasidan eng kuchli bog‘liqlikka ega bo‘lganlarini ajratib 1-jadvalda tasvirlaymiz.

1 Koshy Mathay, September 2009, “Back to basics: What is monetary policy?” Finance & Development, pp. 42-63
2 Taylor J.B. “An historical analysis of monetary policy rules” NBER Working Paper 6768, 1998. – 53 pages.
3 Absalamov A.T. Interest rate channel of monetary policy transmission mechanism in Uzbekistan-VECM Approach// (IJMT) ISSN: 2249-2496, International Journal of Research in Social Sciences, Volume 10, Issue 1 (January 2020). 165-173 pages.
4 Ulugbekovich, A. U. (2023). Solving Pension System Problems through Econometric Modeling. INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES, 2(5), 36-39.

1-jadval: O‘zbekistonda tijorat banklari investitsion faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarning korrelyatsiya matritsasi

Bank xizmatlari markazlari soni (BXMS)	Plastik karta soni (PKS)	Terminal soni (TS)	Milliy valyutadagi depozitlar (MVD)	Yuridik shaxslar depozitlari (milliy valyutadagi) (YUSHMVD)	Jami investitsion faoliyat (JIF)	Ko‘rsatkichlar
1,0000	0,4545	0,7020	0,3862	0,5227	0,7898	Bank xizmatlari markazlari soni (BXMS)
	1,0000	0,8651	0,9163	0,6804	0,6909	Plastik karta soni (PKS)
		1,0000	0,8390	0,7383	0,8025	Terminal soni (TS)
			1,0000	0,8297	0,6692	Milliy valyutadagi depozitlar (MVD)
				1,0000	0,7828	Yuridik shaxslar depozitlari (milliy valyutadagi) (YUSHMVD)
					1,0000	Jami investitsion faoliyat (JIF)

Izoh: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, investitsion faoliyat (JIF) bilan eng kuchli korrelyatsiyaga terminal soni (TS) (0,8025) egadir. Undan keyin mos ravishda bank xizmatlari markazlari soni (BXMS) (0,7898), milliy valyutadagi yuridik shaxslar depozitlari (YUSHMVD) (0,7828) hajmlari bog‘langandir. Mazkur uch omilning investitsion faoliyat bilan bog‘liqlik darajasi kuchlidir. Plastik karta soni (PKS) va milliy valyutadagi depozitlar (MVD) summasining investitsion faoliyat bilan bog‘liqlik ko‘rsatkichlari yetarli darajada kuchi va ahamiyatliligi nuqtai nazardan ularni ham tahlil uchun qo‘llashni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Mazkur omillarning barchasi investitsion faoliyatga natijalari o‘zgarishlariga to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlilning navbatdagi qismida tanlangan ko‘rsatkichlarning tasviriy statistikasi tahlilini ko‘rib o‘tamiz (2-jadval).

Ma’lumotlarning tasviriy statitikasidan ko‘rinadiki, mazkur tadqiqotimizda kuzatuvlar soni (tijorat banklari soni) 18 tani tashkil qiladi. JIF ning eng past miqdori 10, eng yuqori miqdori 2844,8 ni tashkil etgani holda, bank xizmatlari markazlari soni (BXMS) ning minimumi 2 tani, maksimumi 244 tani tashkil etgan.

2-jadval: 2020-yilning dekabr oyi holatiga O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatiniing ayrim ko‘rsatkichlarining tasviriy statistikasi

Ko‘rsatkich	O‘rtacha	Mediana	Minimum	Maksimum
JIF	588,55	343,30	10,000	2844,8
BXMS	65,812	41,000	2,0000	244,00
PKS	1088779	715894	34513	3714964
TS	16829,0	13720,0	187,00	48742,0
MVD	3114,8	2569,8	136,90	8759,3
YuShMVD	2034,0	1971,2	113,50	4497,5
Ko‘rsatkich	**Standart chetlanish**	**Variatsiya**	**Asimmetriya**	**Ekssess**
JIF	685,16	1,1641	2,0947	4,5664
BXMS	67,580	1,0269	1,5377	1,2613
PKS	1,0767e+006	0,98889	1,2278	0,34562
TS	12949,	0,76943	0,92110	0,075195
MVD	2262,4	0,726 34	1,0420	0,31560
YuShMVD	1192,9	0,58647	0,52730	-0,48222

Izoh: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.

Plastik kartalarining (PKS) minimum soni 34513 tani, maksimum soni esa 3714964 tani tashkil etgan. Terminallarning (TS) minimum soni 187 tani, maksimum soni esa 48742 tani tashkil etgan. Milliy valyutadagi depozitlar (MVD)ning minimum hajmi 136,9 ni maksimum hajmi esa 8759,3 ni tashkil etgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida tijorat banklarining investitsion faoliyati kshrsatkichlariga omillar ta'sirining ekonometrik modellari eng kichik kvadratlar usulini qo'llash orqali quramiz hamda eng to'g'ri modelni tanlab olamiz.

Chiziqli funksiyaga qurilgan modelda tavsiflaymiz. Ya'ni umumiy holdagi formula quyidagicha:

$$Y = a_1x_1 + a_2x_2 + \ldots + a_nx_n + const + e \quad (1)$$

Bu yerda:

Y – natijaviy belgi;

a_1, a_2 ... a_n – erkli o'zgaruvchilar oldidagi koeffitsiyentlar;

x_1, x_2 ... x_n – erkli o'zgaruvchilar;

const – Y ning boshlang'ich qiymati;

e – hisobga olinmagan qism.

Modellashtirishda ko'rsatkichlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini ta'minlash maqsadida barcha ko'rsatkichlarning natural logarifmlangan qiymatlarilan foydalanamiz.

Mazkur modelning induktiv tahliliga ko'ra, yuqoridagi modelning statistik jihatdan ahamiyatliligi ifodalovchi ko'rsatkich (F-statistika) 0,05 dan kichik, shu sababli ham mazkur model statistik jihatdan ahamiyatli, mustaqil o'zgaruvchi yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari hajmining natural logarifmlangan qiymati (Ln_ YUSHMVD) ning bog'liq o'zgaruvchiga ta'sirini ko'rsatuvchi koeffitsiyentlar ham 0,05 dan kichik, plastik kartalar sonining natural logarifmlangan qiymati ham 10 foizlik ishonchlilikda statistik jihatdan ahamiyatli.

3-jadval: O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ochilgan plastik kartalar soni (PKS) va yuridik shaxslar milliy valyutadagi depozitlari (YUSHMVD) hajmi o'zgarishlarining tijorat banklari investitsion faoliyati (JIF)ga ta'sirining regressiya tenglamasi (bog'liq o'zgaruvchi Ln_JIF)

Omillar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	P-qiymat	Ishonchlilik darajasi
const	−7,53710	1,74905	−4,309	0,0006	***
Ln_ YuShMVD	0,962469	0,309559	3,109	0,0072	***
Ln_ PKS	0,456435	0,221718	2,059	0,0573	*
Bog'liq o'zgaruvchi o'rtachasi		5,672717	Standart og'ish		1,419164
Qoldiqlar kvadratlari yig'indisi		6,000230	Standart xatolik		0,632468
R-kvadrat		0,824752	Moslashgan R-kvadrat		0,801385
F-statistika (4, 34)		35,29642	P-qiymat (F)		2,13e-06
Logorifmik haqiqatga yaqinligi		−15,65373	Akaike mezoni		37,30746
Shvarts mezoni		39,97857	Xanna-Kuin mezoni		37,67577

Izoh: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.

Tuzilgan tenglamaning determinatsiya koeffitsiyenti (Moslashgan R-kvadrat) 0,8813 ga teng bo'lib, modelimiz tijorat banklari investitsion faoliyatga omillar ta'sirining 80,13 foizini tushuntirib bera oladi. Biroq mazkur modelimiz geteroskedastiklik testiga tekshirilganda mavjudlik aniqlandi, shu sababli geteroskedastiklikni bartaraf etuvchi modellashtirish amalga oshirildi (4-jadval

4-jadval: O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ochilgan plastik kartalar soni (PKS) va yuridik shaxslar milliy valyutadagi depozitlari (YUSHMVD) hajmi o'zgarishlarining tijorat banklari investitsion faoliyati (JIF)ga ta'sirining regressiya tenglamasi, geteroskedastiklik bartaraf etilgan (bog'liq o'zgaruvchi Ln_JIF)

Omillar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	P-qiymat	Ishonchlilik darajasi
const	−7,88733	1,86016	−4,240	0,0007	***
Ln_ YuShMVD	0,908293	0,317244	2,863	0,0118	**
Ln_ PKS	0,511356	0,231616	2,208	0,0432	**
Kvadrat chetlanishlar yig'indisi		5,672717	Modelning standart xatoligi		1,596076
R-kvadrat		0,817982	Moslashgan R-kvadrat		0,793713
F-statistika (4, 34)		33,70470	P-qiymat (F)		2,82e-06
Logorifmik haqiqatga yaqinligi		−32,31586	Akaike mezoni		70,63172
Shvarts mezoni		73,30284	Xanna-Kuin mezoni		71,00003

Izoh: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.

4-jadvalda aks etgan modelimizda geteroskedastiklik bartaraf etildi.

Modelning induktiv tahlili. Modelda Fisher-Snedekor F-kriteriysining qiymati 0,05 dan kichik, shuning uchun model statistik jihatdan ahamiyatli. Olingan mustaqil o‘zgaruvchilar (Ln_ YUSHMVD va Ln_ PKS)ning statisik jihatdan ahamiyatliligi Styudentning t-kriteriysi bo‘yicha tekshirilganda 0,05 dan kichikligi va statistik jihatdan ahamiyatliligi tasdiqlandi. Demak mazkur model induktiv tahlil bo‘yicha qo‘llash uchun yaroqli.

Modelning interpretatsion tahlili:

$$\mathbf{Ln_JIF = -7{,}88733+0{,}908293Ln_\ YuShMVD +0{,}511356Ln_\ PKS + \mathit{e}}\ (2)$$

Bu yerda:

Ln_JIF – Jami investitsion faoliyatning natural logarifmlangan qiymati;

Ln_YUSHMVD – Yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarining natural logarifmlangan qiymati;

Ln_PKS – plastik kartalar sonining natural logarifmlangan qiymati;

e – hisobga olinmagan omillar.

Tuzilgan tenglamaning determinatsiya koeffitsiyenti 0,7937 ga teng bo‘lib, hosil qilingan model orqali tijorat banklari investitsion faoliyatining 79,37 foizini tushuntirish mumkin. Korrelyatsiya koeffitsiyentiga mos ravishda, modelning mustaqil o‘zgaruvchilari to‘g‘ri bog‘lanishda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ln_YUSHMVDning oldida turgan koeffitsiyent (0,908293) – boshqa omillar o‘zgarmas bo‘lganida, yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarining 1 (bir) foizga ko‘payishi(kamayishi), tijorat banklarining investitsion faoliyat natijalarining 0,91 foizga ko‘payishi(kamayishi)ga olib keladi. Ln_PKS ning oldida turgan koeffitsiyent (0,511356) – boshqa omillar o‘zgarmas bo‘lganida, plastik kartalar sonining 1 (bir) ko‘payishi (kamayishi), tijorat banklarining investitsion faoliyat natijalarining 0,51 foizga ko‘payishi (kamayishi)ga olib kelishini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra quyidagilarni hulosa sifatida ta’kidlash o‘rinli:

O‘zbekistonda tijorat binklari investitsion salohiyatini oshirishda bank tizimining barcha ko‘rsatkichlari kompleks ta’sir ko‘rsatadib bu borada ayniqsa, yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari hajmi hamda muomaladagi plastik kartalar soni eng muhim o‘rin tutishini tahlillar ko‘rsatib turibdi;

Ekonometrik tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlar hajmini oshirishni rag‘batlantirish orqali tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish imkoniyatlari mavjud;

Korrelyatsiya koeffitsiyenti natijalaridan ko‘rinadiki, bank xizmatlari markazlari sonining oshirilishi, to‘lov terminallari sonining ko‘paytirilishi orqali ham tijorat banklarining investitsion faolligini yaxshilash mumkin. Bu borada kelgusida kengroq hamda chuqur ekonometrik tahlil va tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Koshy Mathay, September 2009, “Back to basics: What is monetary policy?” Finance & Development, pp. 42-63.
2. Taylor J.B. “An historical analysis of monetary policy rules” NBER Working Paper 6768, 1998. – 53 pages.
3. Absalamov A.T. Interest rate channel of monetary policy transmission mechanism in Uzbekistan-VECM Approach// (IJMT) ISSN: 2249-2496, International Journal of Research in Social Sciences, Volume 10, Issue 1 (January 2020). 165-173 pages.
4. Ulugbekovich, A. U. (2023). Solving Pension System Problems through Econometric Modeling. INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES, 2(5), 36-39.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining statistik byulleteni ma’lumotlari.

СЕМЬЯ И ЕЕ РОЛЬ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ





Зайналов Жахонгир Расулович
Самаркандский институт экономики и сервиса, д.э.н, профессор

Бердикулов Журабек
Самаркандский институт экономики и сервиса, ассистент

Аннотация: В статье рассматриваются роль семьи в воспитании подростков, проблемы взаимоотношений родителей с детьми в семье, образ жизни которых передается от поколения к поколению, родительские нормы представления о жизни, даются конкретные подходы к воспитанию подростков с учетом меняющейся социально-экономической ситуации.

Ключевые слова: семья, личность, подростки, индивид, родитель, образ жизни, социализация, социальные перемены.

Annotatsiya: Maqolada o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda o‘smirlarni tarbiyalashda oilaning o‘rni, turmush tarzi avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan oiladagi ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar muammolari, ota-onalarning hayot haqidagi g‘oyalari me’yorlari ko‘rib chiqilib, o‘ziga xos yondashuvlar berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, shaxs, o‘smirlar, shaxs, ota-ona, turmush tarzi, ijtimoiylashuv, ijtimoiy o‘zgarishlar.

Abstract: The article examines the role of the family in raising teenagers, the problems of relationships between parents and children in the family, whose way of life is passed on from generation to generation, parental norms of ideas about life, and gives specific approaches to raising teenagers taking into account the changing socio-economic situation.

Key words: family, personality, adolescents, individual, parent, lifestyle, socialization, social changes.

ВВЕДЕНИЕ

Известно, что семья как ячейка общества выполняет следующие функции: воспитательная, репродуктивная, эмоциональная, хозяйственная, бытовая, экономическая, первичный социальный контроль, и непременно функция поддержки со всех сторон, защиты, организации досуга и отдыха. Если считать что, семья и все отношения в ней связаны с моральными и нравственными категориями, то в процессе развития страны и общества, а особенно в контексте развития человеческой морали семья приобретает особенно важную роль и значение.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В исследовании были использованы: анализ статистических данных, эмпирические исследования, социологический анализ, психологические исследования, кросс-культурные исследования и анализ долгосрочных трендов.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Семья оказывает наиболее сильное воздействие на поведение и выбор подростков. Большинство подростков хотели бы получить совет и поддержку от своих родителей. Однако за редким исключением родители не готовы обсуждать вопросы со своими детьми, которые растут и не уверены, какая информация должна быть предоставлена детям.

В результате ряда причин, в сегодняшних подростках формируется деформированный, искаженный образ семьи. Н. И. Шевандрин выделяет следующие факторы, которые способствуют образованию неадекватных установок в брачно-семейных отношениях молодого поколения: аморальное поведение родителей (алкоголизм, девиантное поведение);неполный состав семьи; недостаточный уровень знаний и навыков родителей о воспитании своих детей; отрицательные отношения между родителями; конфликтные отношения в семье; вмешательство родственников в дела семьи и воспитание детей[1].

З. Матейчик подчеркивает, что, несмотря на то, что отсутствие отца или матери семьи (с точки зрения социальной подготовки ребенка) является серьезным недостатком, иногда лучше не иметь родителя, чем иметь искаженный, отрицательный, отталкивающий пример[2].

Немецкий исследователь семейной психологии Линда Анзорг говорит: “Молодые люди, перенявшие негативные аспекты поведения их родителей, испытывают большие трудности в жизни, чем другие: их семейная жизнь начинается с того, что им приходится заново учиться строить отношения, прежде чем начать учиться искусству жить в семье. Переподготовка требует дополнительных сил, как от человека, так и от окружающего его мира. Почти все родители хотят “подготовить детей к хорошей жизни”, но в ходе конкретного анализа выявляется то, что многие дети находятся в неблагоприятном положении в начале жизни[3].

В. А. Сысенко формулирует основные принципы в подготовке к семейной жизни таким образом: моральный (осознание ценности брака, детей и т.д.); психологический (сумма психологических знаний, необходимых для вступления в брак); обучения (навыки и способности к воспитанию детей); санитарии и гигиены (гигиена брака и жизни); экономические и хозяйственно-бытовые4.

Изучение существующих научных работ и литературы по теме для выявления основных теорий, концепций и исследовательских результатов.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В формировании личности ведущее место занимает семья. В этом нет сомнения. Именно в семье формируется социальное качество индивида. В семье закладываются основы воспитания. У малолетнего ребенка в данный период происходит накопление элементов системы ценностных ориентаций. Здесь формируются личностные ценности, находящие адекватно мотивированное выражение. Семья – основа формирования личностных качеств. Родители в лице матери и отца являются главными творцами личности. Ибо ребенок сам по себе - пустой сосуд. Его надо наполнить культурой. В семье индивидуальный опыт не исчезает со смертью индивида, а входит в состав коллективного опыта. Последнее не исчезает, а качественно передается следующему поколению поэтапно. Ибо отцы передают свои знания детям, дети после взросления – своим детям и т.д. Итак, каждое поколение к полученной по наследству сумме знаний прибавляет свою часть, приобретенную им в течение жизни, и сумма коллективного знания, таким образом, постоянно качественно растет. Таким образом, первичную информацию об окружающем мире индивид получает в семье. Главным здесь является копирование детьми умственного поведения взрослых членов семьи. Хотя семейные технические привычки остаются как атрибут элемента воспитания. Однако в этом процессе есть и трудности. Они возникают в том случае, если ребенок ориентируется на неудачные образцы поведения родителей, которые приходят в противоречие с тем, что он видит в других семьях. Усваиваемая в семье информация может отличаться от принятых в обществе ценностей и норм и даже противоречить им.

Семья, как правило, формирует собственную социально-ценностную направленность, которую и передает детям. Можно выделить семьи:

- с единством взглядов, хорошими межличностными отношениями;
- с отсутствием единства взглядов;
- с отсутствием ценностных ориентаций или противоречащих идеалам общества.

Формирование личностных отношений протекает бесконфликтно, если семейные образцы поведения и общественные нормативы не вступают в противоречие с общественными нормами. Семья в силу своего постоянного воздействия на индивида способна сформировать у него устойчивые ценностные ориентации. Поэтому общественная мораль может сохранять свою власть только в том случае, если ей удастся взять под свой контроль семью. Так мораль, господствующая длительное время на нашей территории, начинается с семьи, семенные узы священны.

Поэтому взаимоотношения супругов, вызванные изменением ролевой активности, неизменно влияют на формирование социальной идентичности у подростков. Подростки более открыты социальным изменениям, но вместе с тем более легко поддаются стрессам, вызванным неопределенно-

1 Шевандрин, Н.И. Психодиагностика, коррекция и развитие личности/ Н.И. Шевандрин. - М.: Владос,1999 – 512 с.
2 Матейчик З. Некоторые психологические проблемы воспитания детей в неполной семье // Воспитание детей в неполной семье / перевод с чеш. Хваталовой Л.Н., общ. ред. и послесловие Н.М. Ершовой. - М.: Прогресс, 1980.
3 Анзорг Л. “Дети и семейный конфликт” М.: “Просвещение”, 1987 г.
4 Сысенко В.А. Новобрачные в зеркале собственных взглядов, суждений, оценок / В.А. Сысенко. - М.: Мысль, 1985 - 164с.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

стью социальных ориентиров. К этому нужно добавить традиционный для них радикализм суждений и поступков, их общее отношения к миру. Конфликт или просто противоречия с родителями и в целом с миром взрослых резко обостряются в условиях нестабильности: ценности старшего поколения обесценены, стереотипы на глазах разрушаются, также как и образцы поведения, перспектива повторения опыта предшествующих поколений не привлекает. Все это не способствует сохранению авторитета взрослых и осложняет процесс формирования социального мировоззрения с положительными эмоциональными сегментами.

Нравственные черты народа складывались веками, они передавались из поколения в поколение как дань ушедших поколений новому потомству.

В жизни любой семьи есть своя, столетиями устоявшаяся психология восприятия внешнего мира, которая базируется на жизненном специфическом укладе людей. Им присущ особый менталитет – свой образ жизни, биологически и социально обусловленная духовность, способ мышления, склад ума, нравственный настрой, мировосприятие.

Проблема взаимоотношений между родителями и детьми в семье, выступающая фактором формирования ребенка, часто осложняется общей ситуацией, в которой оказывается семья. Так, при бурном темпе социального развития семья часто “не успевает” за его ходом. Родительская позиция при таких условиях быстро устаревает, нарушая нормы и представления о жизни. В этих ситуациях родителям, которые хотят видеть своего взрослеющего ребенка успешным, считают необходимым передать ребенку накопленный жизненный опыт. Потому что у маленького ребенка просто нет опыта жизни в новых условиях. Если же побеждает привязанность родителей к старому образцу жизни, и именно этот образ пытаются передать ребенку, то такая услуга потом может значительно осложнить самостоятельность мышления, видеть мир своими глазами. Его разлад с окружающим миром будет более вероятен: построение собственного мира на основе складывающегося опыта приходит в разительное противоречие с уже построенным при помощи родителей старым образом. В этом, на наш взгляд, причина роста юношеской преступности, утрата интереса и мотивации к образованию, вкуса к подлинной культуре, своеобразное понимание “красивой жизни”.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Безусловно, семья играет важную, либо ведущую, роль в воспитании подростков, в основе которого лежит, прежде всего, ценностное освоение реальности, а не нейтральное приобретение навыков знаний и практики. Этот процесс во многом зависит от семьи. Исторический опыт показал, что незнание семейной культуры, формировавшейся тысячелетиями, ведет к разрушению связи между поколениями – связи времен, что наносит непоправимый урон развитию человека и семьи в целом.

Сегодня период социализации подрастающего поколения протекает в сложных экономических и политических ситуациях. И именно поэтому в контексте социальных перемен семья призвана стать эффективным инструментом формирования норм поведения и ценностей. При этом семья остается важной фигурой социального института в формировании и развитии социально значимых ценностей и установок личности подростка, его социализации. В связи с этим необходимо семьи группировать по следующим критериям: структурный признак (полные, неполные, сводные семьи; одно- двухдетные семьи); социальный признак (семьи с различным уровнем материального благосостояния). Они могут выступать как социальный фактор, посредством которого можно будет осуществлять воздействие на развитие мировоззрения личности, т.е. подростка.

Список использованной литературы:

1. Шевандрин, Н.И. Психодиагностика, коррекция и развитие личности/ Н.И. Шевандрин. – М.: Владос,1999 – 512 с.
2. Матейчик З. Некоторые психологические проблемы воспитания детей в неполной семье // Воспитание детей в неполной семье / перевод с чеш. Хваталовой Л.Н., общ. ред. и послесловие Н.М. Ершовой. – М.: Прогресс, 1980.
3. Анзорг Л. “Дети и семейный конфликт” М.: “Просвещение”, 1987 г.
4. Сысенко В.А. Новобрачные в зеркале собственных взглядов, суждений, оценок / В.А. Сысенко. – М.: Мысль, 1985 – 164с.
5. Абдуллаев К.Ф. Мыслители востока о педагогической профессии // Культура мира и ненасилия подрастающего поколения: ракурсы интерпретации и педагогические условия развития, 2020. – С. 117-120.
6. Пардаева Озода Мамаюнусовна. Оилавий тадбиркорликни ривожлантириб, аҳоли ҳаёт даражаси ва сифатини оширишнинг истиқболли йўналишлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, №4 июль-август, 2019 йил.
7. Хонкелдиева К., Рахимова К., Хасанхужаева У. Предупреждение преступности среди несовершеннолетних. Ин.наука сегодня: факты, тенденции и прогнозы. – 2021, 34-35.
8. www. inter-pedagogika.ru.

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBI, AUDITI VA TAHLIL QILISHGA OID TADQIQOTLARGA DOIR MULOHAZALAR

Nosirov Ilhom Abbosovich
I.f.d., Fargona politexnika instituti professori

Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini boshqarishni tubdan o‘zgartirish masalasini, xo‘jalik mexanizmini va uning axborot ta’minotining asosi bo‘lgan buxgalteriya hisobi sohasida, xususan, yangi xo‘jalik shakliga va mazmuniga ega o‘lgan klaster nomini olgan sohada ham islohotlar qilish masalasini o‘rtaga qo‘yadi. O‘tgan uzoq vaqt ichida buxgalteriya hisobi asosan davlat mulki butligi ustidan nazorat qilish, hisobot tuzish vositasi bo‘lib hisoblangan va u oqibat natijada subyektning boshqaruv bo‘limlaridan ajralib qoldi. Buxgalteriya hisoboti axborotlari o‘tgan davrga tuzilib, sodir bo‘lgan voqealarni aks ettirilishi natijada xo‘jalik subyektlarini boshqarishda buxgalteriya hisobi axborotlaridan qoniqarsiz foydalanilmoqda, chunki axborotlar ancha kechikib taqdim etilganligi sababli uning natijasi bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish imkoniyati kamayadi.Shu bois mamlakatimizda don mahsulotlarini yetishtirish va uni qayta ishlash xarajatlarining boshqaruv hisobi, auditi va tahlil qilish masalalarini o‘rganishni dolzarb deb hisobladik.

Kalit so‘zlar: don mahsuloti, hisob siyosati, boshqaruv hisobi, klasterlar, audit, tahlil qilish, qayta ishlash, texnologiya, boshqaruv axboroti.

Abstract: This article examines the issue of a fundamental change in the management of the activities of business entities, the economic mechanism and the basis of its information support, in particular in the field of accounting, which is called a cluster with a new economic form and the content raises the question of reforms in this area. For a long time, accounting was viewed mainly as a means of control over all state property, as a reporting tool and, as a result, was separated from the management units of the enterprise. As a result of the fact that accounting information is compiled for the past period and reflects events, accounting information is used in the management of business entities unsatisfactorily, since the information is presented much later, and the possibility of making appropriate decisions regarding its result is reduced. We considered it relevant to study the issues of management accounting, auditing and cost analysis for the production and processing of grain products in our country.

Key words: grain products, accounting policies, management accounting, clusters, audit, analysis, processing, technology, management information.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос кардинального изменения управления деятельностью хозяйствующих субъектов, экономического механизма и основы его информационного обеспечения, в частности, в сфере бухгалтерского учета, который называется кластером с новой экономической формой и содержание поднимает вопрос о реформах в этой области. В течение длительного времени бухгалтерский учет рассматривался главным образом как средство контроля над всем государственным имуществом, как инструмент отчетности и, как следствие, был отделен от подразделений управления предприятия. В результате того, что информация бухгалтерской отчетности составляется за прошедший период и отражает события, учетная информация используется в управлении хозяйствующими субъектами неудовлетворительно, поскольку информация представляется значительно позже, и снижается возможность принятия соответствующих решений относительно ее результата. Мы считали актуальным изучение вопросов управленческого расчета, аудита и анализа затрат на производство и переработку зерновой продукции в нашей стране.

Ключевые слова: зерновая продукция, учетная политика, управленческий учет, кластеры, аудит, анализ, обработка, технология, управленческая информация.

KIRISH

Mamlakatimizning qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida xalqaro andazalar asosida bozor iqtisodiyotiga o‘tish uchun barcha imkoniyatlar va tajriba ham mavjud. Ma’muriy - buyruqbozlik tizimidan meros bo‘lib qolgan iqtisodiy va siyosiy munosabatlar bilan istiqbolli boshqaruv majmuasini yechish mumkin emasligini davr ko‘rsatib berdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ma’muriy buyruqbozlik tizimidan holi bo‘lgan erkin bozor munosabatlariga o‘tmasdan turib, inson qadrini oshirish, shaxs va jamoa manfaatdorligini, xalq turmush sharoitini yaxshilab bo‘lmaydi. Bu masalalar majmuyida xo‘jalik boshqaruvining barcha funksiyalari, shu jumladan ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya hisobi, nazorat va tahlilini va mahsulotlar tannarxini hisobga olishni oqilona tashkil qilish va uni takomillashtirish vazifalari yotadi. Albatta, bu yo‘l oson yo‘l emas. Uning murakkabligi konservatik qarashlar inersiyasi va avvalgi tassavurlarni yengish, dehqonda yerga, texnikaga va boshqa ne’matlarga bo‘lgan haqiqiy egalik hissini uyg‘otish, bozor munosabatlariga to‘sqinliq qilayotgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi qoldiqlariga barham berish zaruriyati yotadi. Qishloq xo‘jaligida bozor tizimi barcha mulk egalarini teng huquqliligini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy himoyasini kafolatini ta’minlaydigan ijtimoiy-huquqiy asosini yaratishi lozim.

Bunday islohatlarni quyidagi yo‘nalishlarda olib borishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

- birinchidan, ekin ekiladigan yerlardan foydalanish yaxshilash va qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ish yuritishni tubdan o‘zgartirish;
- ikkinchidan, yerni o‘zining haqiqiy egasiga topshirish;
- uchinchidan, g‘alla yetishtirish va uni qayta ishlashni uyg‘unlikda amalga oshirish;
- to‘rtinchidan, ishlab chiqaruvchi bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar bozor talablari asosida amalga oshirilishini ta’minlash.

Mustaqillik yillarida ishloq xo‘jaligi tarmog‘ini xususiyatini hisobga olgan holda aytib o‘tilgan choralarning amalga oshirilishini ta’minlovchi aniq maqsadga yo‘naltirilgan yagona konsepsiya yaratildi. Unga ko‘ra hozirgi kunga qadar shakllangan g‘allachilik majmuyi korxonalarida tashkiliy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar sohadagi islohatlarni amalga oshirilishini ta’minlashi uchun ularni tubdan qayta tashkil etishni taqozo etadi. Respublikaning sanoati rivojlangan mamlakatlarning xom ashyo bazasi bo‘lishidan voz kechishi, g‘allachilik sohasining yuqori hosildorlik va samaradorligini ta’minlovchi g‘allani qayta ishlash sanoati korxonalarini ahamiyatini yanada oshiradi. Bunday tarkibiy o‘zgarishlar g‘allani qayta ishlash korxonalarini hududlar bo‘yicha optimal joylashtirishda, xarajatlardan tejab-tergab foydalanishda, pirovard natijada, ularni ish samaradorligini oshirishda namoyon bo‘ladi. Mustaqillik yillarida g‘allachilikda xo‘jalik tarzining tarkibi yanada mustahkamlanib bordi. Dastlabki yillarda monopol, jamoa mulkiga asoslangan shirkat xo‘jaliklari va paychilikka asoslangan qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘rniga xususiy mulkka tayangan optimallashgan fermer xo‘jaliklari barpo etilgan bo‘lsa, bugunga kelib g‘allani yetishtirish va chuqur ishlov berishga qaratilgan va xususiy mulkga asoslangan klaster va g‘allachilik kooperativlari rivojlanmoqda. Natijada yer egasini topdi. Unumdorligi past va faqat g‘alla yetishtirishga qaratilgan fermer xo‘jaliklarining o‘rniga tashkil etilayotgan g‘allachilik klasterlari va qishloq ho‘jaligi kooperativlari soha iqtisodiyotini mustahkamlashning yagona va to‘g‘ri yo‘li ekanligi o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Qayd etilishicha, mamlakatda agrar sohani isloh qilish, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, klaster usuli yo‘lga qo‘yildi, ekin turlari zamon talabidan kelib chiqib o‘zgartirildi. Natijada hosildorlik ham, daromad ham oshmoqda. Respublikada yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 66 ta mamlakatga eksport qilinmoqda.

Muxtaram Prezidentimizning har bir utkazayotgan yigilishlarida klasterlarning rejadagi quvvatlari, investitsiya miqdori va eksport hajmi bo‘yicha ma’lumotlar chuqur tahlil qilinadi.

Yig‘ilishda gallachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, paxta va g‘alla yetishtirishda davlat rejasini bosqichma-bosqich bekor qilish masalalari ham muhokama qilindi.

Davlat rahbari bu haqda joriy yil 24-yanvardagi Murojaatnomasida “Paxta va g‘alla yetishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilib, ushbu mahsulotlarni bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tamiz deb ta’kidlagan edi. Agar bu yo‘ldan bormasak, fermer va dehqonlarimiz mahsulot yetishtirishda erkin bo‘lmaydi, ular o‘zlari kutganlaridek manfaat ko‘rmaydi, hokimlarning esa ish uslubi o‘zgarmaydi”, – deb ta’kidlagan edi. Ta’kidlanishicha, bu sohada davlat aralashuvini keskin kamaytirish bilan birga hokimlarning reja ortidan quvish va majburiy mehnatga jalb qilish amaliyotiga butunlay chek qo‘yadi.

Yig‘ilishda klasterlarning huquqiy maqomini belgilash, ularni tanlash, fermerlar bilan munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning ochiq-oshkora mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Mamlakatimiz raxbari klasterlarni tanlashda chuqur qayta ishlash darajasi va investitsiyalar hajmi, fermerlar bilan hisob-kitob qilishda mablag‘ning yetarliligi asosiy mezonlar bo‘lishi zarurligini ta’kidladi.

Klaster tashkil etilmagan don ekilgan maydonlarida fermerlar ishtirokida kooperatsiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. Bunda o‘sha hududlardagi donni kayta ishlash korxonalari fermerlarga kooperatsiya tashkil etish uchun beriladi, qo‘shilgan qiymatdan tushgan daromad kooperatsiya a’zolari - fermerlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Adliya vazirligiga klasterlar va fermerlarning majburiyatlarini aniq belgilab, ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Don yetishtirishni moliyalashtirishning amaldagi tizimi klasterlar bilan ishlashga moslashmagani ko‘rsatib o‘tildi. Shu bois klasterlar va fermerlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida sodir bo‘lgan tub o‘zgarishlar agrosanoat majmuasidagi donni qayta ishlash korxonalarining egalari va faoliyatining maqsadlari o‘zgarishiga olib keldi. Davlat tasarrufidan tashqari xususiy shaxslar va klasterlar ularning mulkdorlariga aylandi va ularning faoliyatidan maqsad xarid va ishlab chiqarish rejalarini bajarish emas, balki foyda olishga qaratilishi sir emas. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini davlat tomonidan xarid qilish sezilarli darajada qisqarganligi sababli ushbu korxonalarning ichki buxgalteriya hisobi ham isloh qilinmoqda, uni muvofiqlashtirish maqsadida xalqaro buxgalteriya hisobi va hisobot standartlariga moslashtirilmoqda. Yaratilayotgan soliq tizimi doimiy o‘zgarishlar holatidadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ushbu masalaga M. S. Pushkar tomonidan quyidagicha tavsif berilgan: “Agar ishlab chiqarish hisobi ishlab chiqarish xarajatlarini aks ettirishning uslubiyoti va texnik tomonlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, boshqaruv hisobi – vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish, axborotlarni iste’molchilar talabiga ko‘ra o‘rganish, tannarxni tashkil topishi, xarajatlarni me’yorlardan chetga chiqishini tahlil qilish va boshqa masalalarni ochib berishga qaratilgan”.

Ch. T. Xorngren, Dj. Fosterlarning fikriga ko‘ra, boshqaruv hisobi quyidagi mazmunga ega: “Boshqaruv hisobi qandaydir ob’yektni boshqarishda zarur bo‘lgan axborotlarni aniqlash, baholash, to‘plash, tizimlashtirish, tahlil etish, bo‘laklarga ajratish, talqin qilish va taqdim etishdan iboratdir”.

B. Yu. Maksudov o‘zining ilmiy ishlarida boshqaruv hisobi bo‘yicha quyidagi ta’rifni shakllantirgan: “Boshqaruv hisobi korxonaning ichki hisob tizimi bo‘lib, korxona faoliyatining hozirgi va kelgusida rivojlanishini muvofiqlashtirish, optimallashtirish hamda istiqbolni belgilash maqsadida hisob jarayoni va boshqaruv tizimi o‘rtasida bog‘lovchilik vazifasini bajaruvchi boshqaruv axborotlari bilan ta’minlashning integrallashgan tizimidir”.

Korxonalar uchun yangi ish sharoitlari buxgalteriya tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Ilgari birlashtirilgan buxgalteriya hisobi tizimi uchta quyi tizimga bo‘lindi: boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq hisobi, ularning har biri o‘z ta’rifi, ob’ekti va usullariga ega.

Korxonalar uchun yangi ish sharoitlari buxgalteriya tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Ilgari birlashtirilgan buxgalteriya hisobi tizimi uchta quyi tizimga bo‘lindi: boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq hisobi, ularning har biri o‘z ta’rifi, ob’ekti va usullariga ega.

Hozirgi vaqtda korxonalarning asosiy intilishlari ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq, shuning uchun boshqaruv hisobi ayniqsa muhimdir. Buxgalteriya hisobini boshqaruv ehtiyojlariga qayta yo‘naltirish uchun dolzarbdir, chunki tezkor ma’lumot bilan ta’minlash eng oqilona boshqaruv qarorlarini o‘z vaqtida qabul qilish imkonini beradi.

Donni qayta ishlash korxonalarining asosiy faoliyat turlarini tarmoqlar bo‘yicha ulgurji savdo va sanoat deb tasniflash mumkin. Biroq, ular texnologik xususiyatlarga ega. Ilgari ushbu korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish tartibini tartibga solgan me’yoriy hujjatlar eskirgan va hozirda uni yuritish uchun asos bo‘la olmaydi va iqtisodiy adabiyotlarda bu muammolar yoritilmagan.

Tadqiqotlar xususida mulohazalarimizning dolzarbligini shu bilan yana ta’kidlash mumkinki, donni qayta ishlash korxonalarining buxgalteriya hisobi va ichki audit tizimini yanada rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Xarajatlarni hisobga olish muammolarini hal etish, ularni mahsulot, ish va xizmat turlari bo‘yicha aniq sanoat sharoitida oqilona taqsimlash ayniqsa muhimdir. Zamonaviy usullar va asosli tavsiyalarning yo‘qligi soliqlarni hisoblashda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ymoqda va buning natijasida soliq organlari tomonidan jarimalar qo‘llash natijasida moliyaviy yo‘qotishlar kelib chiqishi mumkinligini unutmasligimiz kerak.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash xizmatlari uchun narxlar va to‘lovlarni belgilashda donni qayta ishlash va qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, buxgalteriya hisobi masalalari muammoli bo‘lib hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotchilar o‘z oldiga maqsad qilib donni qayta ishlash korxonalarida mavjud buxgalteriya hisobi va audit tizimini tanqidiy tahlil qilish asosida uni takomillashtirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni xam qo‘yishlari zarur.

Belgilangan maqsaddan kelib chiqib quyidagi muammolarni hal qilish zarurligini maqsadli deb hisobladik:

1. Buxgalteriya hisobi va auditning nazariy asoslari va ularning genezisini o‘rganish.
2. Donni qayta ishlash korxonalarining xo‘jalik faoliyati va ulardagi joriy hisob va audit amaliyotini tahlil qilish.

3. Donni qayta ishlash korxonalari faoliyatining tarmoqqa xos xususiyatlarini umumlashtirish, ularning xarajatlar hisobini tashkil etishga ta'sirini o'rganish va xarajatlarni faoliyat turlari, mahsulot, ishlar, xizmatlar o'rtasida taqsimlashning mumkin bo'lgan usullarini aniqlash.
4. Korxona tomonidan eksport qilinadigan xizmatlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan va byudjetdan qoplanishi shart bo'lgan resurslarga tegishli qo'shilgan qiymat solig'i summalarini hisoblash imkoniyati va usulini o'rganish.
5. Korxonaning hisob siyosati va ichki auditini takomillashtirish bo'yicha takliflarni asoslash.

Tadqiqotlar natijasida donni qayta ishlash korxonalarining birlamchi, sintetik va analitik buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlari va muallifning bosh buxgalter va auditor sifatida ishlagan paytida to'plangan shaxsiy tajribasidan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida tahlilning umumiy ilmiy usullari, so'rov usullari, umumlashtirish, taqqoslash, o'rganilayotgan ob'ektlarga tarixiy va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Buxgalteriya hisobining funktsional yo'nalishi va tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish butun xo'jalik hisobi tizimining sifat darajasini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, boshqaruv hisobi va ichki auditning zamonaviy vazifalarga mos keladigan darajasi ijrochilarning ishini nazorat qilish va javobgarlikni taqsimlashning o'zaro bog'liq muammolarini hal qilishni ta'minlaydi, bu nazorat harakatlarining sifat xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.
2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tozalash, quritish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar narxlari hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish standartlarini belgilashda donni qayta ishlash va qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar birinchisining monopol mavqei bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning moliyaviy manfaatlariga putur yetkazilishi, qayta ishlash korxonalaridan hisobsiz ortiqcha mahsulot yetishtirilishi, byudjetga soliqlarning kam to'lanishi bu holatning natijasidir.
3. Donni qayta ishlash korxonalari faoliyatining o'ziga xos tarmoq xususiyatlari, o'zgargan bozor sharoitlarida ularning diversifikatsiyasi hamda zamonaviy normativ-huquqiy bazaning yo'qligi xarajatlarni faoliyat turlari, mahsulot, ishlar va xizmatlar bo'yicha asosli taqsimlash muammosini keltirib chiqardi. taqsimlash xarajatlarining bitta buxgalteriya hisobiga integratsiyalanganligi hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qayta ishlangan va to'liq bo'lmagan qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdoriga mutanosib ravishda ularni shartli miqdorga kamaytirish koeffitsientlari tizimidan foydalangan holda xarajatlarni taqsimlashning taklif etilayotgan usullari buxgalteriya hisobi, statistik, boshqaruv, moliyaviy va soliq hisobotlari uchun ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi.

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini MDH davlatlaridan tashqariga eksport qilish bo'yicha xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish uchun foydalaniladigan va donni qayta ishlash korxonalari tomonidan byudjet mablag'lari hisobidan qoplash uchun taqdim etiladigan resurslar bilan bog'liq qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini aniqlash bilan bog'liq muammolarni hal qilish maxsus hisob-kitoblar orqali mumkin.

Ular korxonaning barcha xarajatlarini hisobot davridagi mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida eksport qilinadigan xizmatlar ulushiga mutanosib ravishda taqsimlash tamoyiliga asoslanadi. Bunda bojxona hujjatlarining zarurligi, uning tarkibi va soliq organlariga taqdim etish muddatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari inobatga olinadi.

5. Donni qayta ishlash korxonalarining buxgalteriya hisobi va ichki audit tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator muammolar ularning hisob siyosati va nazoratini takomillashtirish orqali hal etilmoqda. Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish usullarini to'g'ri tanlash va ichki audit xizmatlarining ishlash tamoyillariga rioya qilish korxona maqsadlariga erishishni samarali ta'minlaydi.

Shu yo'nalishdagi tadqiqot ishining amaliy ahamiyati bugungi davr talabi bo'lib, birinchi navbatda, uning asosiy uslubiy qoidalari donni qayta ishlash korxonalarida mahsulot, ish va xizmatlarni rejalashtirish, hisobga olish va hisoblash bo'yicha tarmoq yo'riqnomalariga kiritilishi mumkinligidadir. Ushbu korxonalarda buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslub va tavsiyalar mustaqil amaliy ahamiyatga ega. Mazkur uslublardan foydalanish natijasida:

- mahsulot, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish tannarxini hisoblash;
- korxonaning hisob siyosatini maqsadli va har tomonlama shakllantirish;
- eksport xizmatlarini ko'rsatishda "kirish" QQS miqdorini asosli ravishda hisoblash;
- "to'lov bo'yicha" soliqqa tortiladigan to'langan mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash;
- ichki audit samaradorligini oshirish;
- qishloq xo'jaligi va donni qayta ishlash korxonalari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxgalteriya hisobi va auditning nazariy tadqiqotlari va donni qayta ishlash korxonalarida amaliyotni o‘rganish bizga bir qator xulosalar chiqarish va ularni zamonaviy sharoitlarda takomillashtirish bo‘yicha takliflarni shakllantirish imkonini beradi.

Ko‘p ming yillik rivojlanish yo‘lidan o‘tib, bugungi kunda buxgalteriya hisobi uch turdagi tizimdir: boshqaruv, moliyaviy va soliq hisobi. Buxgalteriya hisobining barcha turlari tadqiqotimiz ob’ektlari amaliyotida u yoki bu darajada mavjud bo‘lib, unda ma’lum o‘rinlarni egallaydi.

Boshqaruv hisobi korxona faoliyatini boshqarish uchun boshqaruv xodimlari uchun zarur bo‘lgan xarajatlar va xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobga olish, rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish tizimi sifatida hozirgi vaqtda ishlab chiqarish hisobidan boshqaruv hisobiga o‘tish bosqichida.

Buxgalteriya hisobi moliyaviy natijalarni aniqlash va hisobot davri uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun buxgalteriya hisoblari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlarni to‘plash tizimi sifatida an’anaviy ravishda barcha xo‘jalik hisobi tizimida asosiy o‘rinni egallaydi.

Soliq hisobi korxonaning soliq majburiyatlarini to‘g‘ri hisoblash uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlarni to‘plash, hisobga olish va qayta ishlash tizimi sifatida hozirda yangi bosqichga olib chiqisni taqozo etadi.

Audit tizimi ikki turdan iborat bo‘lib, mulkdorning manfaatlariga va boshqaruv - ijrochi menejerning manfaatlariga xizmat qilishi zarur. Fikrimizcha, taftish o‘tkazuvchi taftish komissiyalarining faoliyati bir qator sabablarga ko‘ra samarasiz bo‘lib, ular, qoida tariqasida, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi uchun rasmiy hisobot tuzish bilan cheklanib, haqiqiy tekshiruvlar o‘tkazmaydi.

Ichki audit samaradorligini oshirish maqsadida biz quyidagi tavsiyalarni samarali deb hisoblaymiz. Taftish komissiyasi to‘g‘risidagi taxminiy Nizom, uning ishlash tartibi va uning a’zolarining har bir auditorlik tekshiruvi uchun to‘lov va oshirilgan dividendlar shaklida manfaatdorligini belgilovchi; ichki audit metodologiyasi, shu jumladan auditni rejalashtirish tartibi, yo‘nalishlar ro‘yxati, amalga oshirish usullari va uni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot; ikkita asosiy yo‘nalish bo‘yicha audit dasturlari: ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot harakatini hisobga olish.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, quritish va qayta ishlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish va ishlarni bajarishda donni qayta ishlash korxonalari va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi munosabatlar tizimidagi kamchiliklar mavjud. Asosiysi, birinchi faoliyat sohasida monopol mavqeidan foydalanib, to‘lov tartib-qoidalarini, xizmatlar va ishlarni ko‘rsatish uchun narxlar va shartlarni joriy qiladi, bu esa ikkinchisining moliyaviy holatiga salbiy ta’sir qiladi. Shu bilan birga, etkazib beruvchilar soliqqa tortilmaydigan, hisobga olinmagan mahsulotlar va biznes chiqindilari zaxiralarini yaratadilar.

Normativ-huquqiy hujjatlar liftlar uchun tozalashdan keyin olingan chiqindilar va tozalangan mahsulotlarning narxini va hisob-kitob narxini aniqlash tartibini nazarda tutmaydi. Bu muammo biz ishlab chiqqan metodologiya yordamida hal qilindi, mahsulot va chiqindilar miqdori nisbati printsipiga asoslanib, ifloslanish bo‘yicha bir xil sifatga tushirildi va amaliy foydalanish uchun qulay shakl ko‘rinishida shakllantirildi. qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chiqindilarni tozalashdan keyin buxgalteriya bahosi.

Umumiy xo‘jalik xarajatlarini hisobga olish holatini tahlil qilish bizga ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan va faqat uni tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni asossiz ravishda o‘z ichiga oladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, bu esa tannarxning buzilishiga olib keladi. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yaxlitligi, shuningdek uning har bir turi alohida. Zamonaviy me’yoriy hujjatlarda umumiy biznes xarajatlarining to‘liq ta’rifi berilmagan, ushbu xarajatlarga tegishli xarajatlarning o‘ziga xos tarkibi va ularni mas’uliyat markazlari o‘rtasida taqsimlash tartibi belgilanmagan.

Yana bir e’tiborli taklif, umumiy biznes xarajatlari ro‘yxatini qayta o‘rganib chiqish va iqtisodiy toifaning ma’nosidan kelib chiqib tuzilishi xam ilmiy qarashlar tadqiqotiga muxtoj. Xarajatlarni mas’uliyat markazlari o‘rtasida taqsimlash tadqiqot ob’ektlari faoliyati turlarining ko‘pligi va turli xilligi sharoitida eng oqilona va mumkin bo‘lgan hisoblangan ish haqiga mutanosib ravishda amalga oshirilishi kerak dtb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son Farmoni.
2. AUDIT., N. Toshmamatov, X. Kamolov, I Nosirov, S. Toshmamatov, Uchebnaya posobiya . – g.Andijan – 2018, – 300 s.
3. Nosirov I.A.(2017).The role of the ecological management on the developing of small business. Theoretical & Applied Science.
4. Nosirov IA.(2016). Vliyaniye nauchno-texnicheskogo progressa v effektivnom ispolzovanii resursov. LI Respubliki Uzbekistan. Vestnik Respubliki Karakalpagistan.
5. I.Ismanov, N.Toshmamatov, S.Buzrukxonov. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. Toshkent. “Sano-standart”-2019-yil.
6. Nosirov I. A. Sovershenstvovaniye ucheta i analiza zatrat xlopkopererabativayuщix predpriyatiy (na primere kooperativnix xozyaystv Ferganskoy dolini) .Monografiya. 1998 g.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИЗДАТЕЛЬСКО-ПОЛИГРАФИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ



Холмирзаева Феруза Абдуллаевна
Председатель правления творческого объединения
“Тасвирий ойина” Республика Узбекистан, Сурхандарьинская область

Аннотация: В данной статье рассмотрены особенности маркетинга издательско-полиграфических компаний. Выполнен структурно-динамический анализ издательской деятельности Республики Узбекистан. Проведенные исследования помогли сформировать ряд рекомендаций для деятельности издательско-полиграфических компаний.

Ключевые слова: маркетинг, эффективность, издательское дело, полиграфические компании, стратегия, маркетинговый план, клиенты, конкурентоспособность.

Annotatsiya: Ushbu maqolada nashriyot va poligrafiya kompaniyalarining marketing xususiyatlari muhokama qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining noshirlik faoliyatining tarkibiy va dinamik tahlili o‘tkazildi. O‘tkazilgan tadqiqotlar nashriyot va matbaa korxonalari faoliyati bo‘yicha qator tavsiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: marketing, samaradorlik, nashriyot, matbaa kompaniyalari, strategiya, marketing rejasi, mijozlar, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article discusses the marketing features of publishing and printing companies. A structural and dynamic analysis of the publishing activity of the Republic of Uzbekistan was performed. The conducted research helped to formulate a number of recommendations for the activities of publishing and printing companies.

Key words: marketing, efficiency, publishing, printing companies, strategy, marketing plan, customers, competitiveness.

ВВЕДЕНИЕ

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы внутреннего аудита в хозяйствующих субъектах. Отражено значение внутреннего аудита сегодня, то, что обеспечение развития внутреннего аудита в хозяйствующих субъектах является актуальной проблемой современности. Проанализированы взгляды и мнения ученых экономистов о внутреннем аудите, рассмотрены цель и задачи внутреннего аудита, а также исследования, проведенные в этом направлении. В результате выявлено, что в будущем эффективность внутреннего аудита в субъектах хозяйствования будет только повышаться.

Ключевые слова: внутренний аудит, хозяйствующие субъекты, бухгалтерский учет, аудитор, аудиторская деятельность, международные стандарты внутреннего аудита, квалификационный сертификат внутреннего аудитора.

KIRISH

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda hamma sohada o‘zgarishlar sezilarli darajada amalga oshirilmoqda. Shu jumladan buxgalteriya hisobi, audit bo‘yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Buxgalteriya hisobi, audit sohasining xalqaro standartlar asosida ishlarni tashkil etilishi bo‘yicha ko‘plab me’yoriy hujjatlar qabul qilinib, ulardan amaliyotga keng foydalanish ham bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

“Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning yangi taxriri 25.02.2021-yilda chiqqanligi, audit xalqaro standartlariga 2021-yildan boshlab to‘liq o‘tganligimiz yuqoridagi fikrimiz dalili hisoblanadi. Bundan tashqari juda ko‘plab qonunlar, qarorlar va yo‘riqnomalar ishlab chiqarildi va chiqarilmoqda. Jumladan, “Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi” to‘g‘risidagi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2021-yildagi 280-sonli qarori, “Korxonalardagi ichki audit xizmati to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-sonli qarori, “Ichki audit milliy standarti” O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 52-sonli buyrug‘i 24.10.2022-yilda ishlab chiqilgan va qolaversa, “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risida”gi namunaviy Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2022-yildagi 416-sonli qarori asosida qabul qilindi va bu borada ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda auditorlik sohasida juda ko‘p yangi, zamonaviy va butun dunyoda dolzarb bo‘lgan jihatlari kun sayin amaliyotga joriy qilinmoqda va mutaxassislar, olimlarimiz tomonidan ilmiy yo‘nalishlar yaratilmoqda desak adashmaymiz.

Shu bilan bir qatorda ichki auditda ham ko‘plab o‘zgarishlar bo‘lishi bugungi kunning eng asosiy jihatiga aylanib borayotganligi bejiz emas. Bugungi kunda nazorat qiluvchi tashkilotlar va bu faoliyat bilan shug‘ullanuv-

chilarga bo‘lgan talab kun sayin cho‘qqiga chiqib borayatganligi guvohi bo‘lmoqdamiz. So‘zimiz isboti, ichki audit xalqaro standartlari ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va 160 dan ortiq mamlakatlarda amal qilinib kelinmoqda va 30 ga yaqin davlatlar tiliga tarjima qilingan. Ko‘plab xorijiy mamlakatlarda ichki auditni o‘z mamlakatlarida yuksaltirish bo‘yicha bir qancha yo‘llarni bosib o‘tishdi va buning natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatida samarali tashkil etilganligi, yuqori foydaga erishganligini ko‘rishimiz mumkin. Ichki auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va audit o‘tkazish natijasida tuzilgan hisobotlar va ularning tafsiyalari ham ichki, ham tashqi investorlar uchun qulayliklar yaratdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yuqorida ichki audit juda muhim deb e’tirof etdik, lekin o‘zi “ichki audit nima?” degan savolga javob bersak. Turli olimlar “ichki audit” bo‘yicha juda ham ko‘p va turlicha fikrlar bildirishgan:

“Korxona tomonidan uning o‘z faoliyatini tekshirish va baholash maqsadida tashkil etilgan xizmatidir”-deya ta’rif berishgan xalqaro ichki auditorlar institut mutaxassislari;

“Ichki audit -bu ichki hujjatlar asosida boshqaruv tizimidagi va tashkilot faoliyatidagi turli bo‘g‘inlar nazoratini olib boruvchi (shaxs) maxsus tizim bo‘lib, uning maqsadi boshqaruv tizimiga yordam berishdan iboratdir”-deb ta’kidlagan V.V.Burtsev;

A.M.Bogomolov va N.A. Goloshanovlar esa : “Ichki audit umumiy auditning negizidan iborat bo‘lib, mulkdor huquqini himoya qiluvchi tizim sifatida tashkil etilgan, hamda uning faoliyati buxgalteriya hisobida mulkning saqlanishi va ichki nazorztning ishonchliligi hujjatlarga asosandir” degan g‘oyani bildirishgan;

“Ichki auditni ichki nazorat deb sanashni tushunish mumkin, lekin ichki audit mustaqil olib borilishi va aynan, korxonaning har bir bo‘g‘inida mustaqil tekshiruvlarni olib bora olishi kerakligini e’tirof etmoqchimiz”-deya ta’riflashgan Rossiyalik olimlar.

“Korxonalarda ichki audit xizmati to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra: “Ichki audit – korxona boshqaruvining ijro etuvchi organi va tarkibiy bo‘linmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta’sis hujjatlariga va ichki hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo‘li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma’lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliya hisobotda aks ettirishning to‘liqligi va ishonchliligini ta’minlash, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tamoyillari aktivlarning saqlanishi hamda, korporativ boshqarish prinsiplari joriy etilishi bo‘yicha korxonaning tarkibiy bo‘linmasining (ichki audit xizmati) faoliyati tushuniladi”.

“Ichki audit-bu ishlab chiqarish xarajatlarining darajasi, rentabellik, tejamkorlik, maqbul rejimga rioya qilish va ko‘rsatilgan xizmatlarning yuqori sifatliligi ustidan nazorat qilishdir”- deydi R. D. Do‘stmurodov;

“Ichki audit xizmati -korxona boshqaruvining ijro organi va tarkibiy bo‘linmalari tomonidan qonun hujjatlariga, ta’sis hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish yo‘li bilan ular faoliyatini nazorat qilish va baholash hamda korporativ boshqaruv tamoyillari joriy etilishini ta’minlaydi”-deb ta’kidlagan A. A. Karimov;

“Ichki audit xizmati-bank rahbariyati tomonidan joriy etilgan nazorat tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalarning qanchalik samarali bajarilganligini tekshiruvchi tizimdir”-deya ta’rif bergan N. F. Karimov;

“Ichki auditorlar-tashkilot, firma, kompaniya va shu kabilarning boshqaruv faoliyatini mustaqil ekspert sifatida baholaydi. Ular tahlil, baholash natijalarini, o‘zlari tekshiradigan tashkilot faoliyat to‘g‘risidagi axborotlarni, o‘z tavsiyalari va maslahatlarini boshqaruvni amalga oshirayotgan bosh firmaga taqdim etadilar” degan edi Z. T. Mamatov;

“Ichki audit – korxonaning faoliyatini tekshirish va baholash uchun ta’sis etiladigan mustaqil ekspert xizmatidir” deb ta’riflagan B. A. Xasanov.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan olimlarning fikrlari va ta’riflaridan kelib chiqib ichki audit bu keng tushuncha ekanligiga, unga har xil yondashish mumkinligiga yuqorida guvohi bo‘ldik. Ichki auditning xo‘jalik yurituvchi subyektlarda to‘gri tashkil etish va takomillashtirish jihatlarini o‘rganib, unu amaliyotga tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlarini olib borishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni takomillashtirish bo‘yicha xorijiy va milliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari o‘rganilib tahlil qilindi. Maqolani tayyorlashda abstrakt mantiqiy fikrlash, kuzatish, tahlil, guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqoridagi ichki auditga berilgan ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, ichki audit xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun o‘ta muhim va eng ahamiyatli jihatlardan biridir. Korxona boshqaruvini samarali tashkil etish, operativ va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilishda ichki audit ishning samaradorligi oshiradi, ishlab chiqarishdagi kamchiliklar vaqtida aniqlab, ularning oldini oladi. Bundan tashqari buxgalteriya hisobini, hujjatlar bilan ishlashni ham to‘g‘ri va o‘z vaqtida tashkil etilishiga olib keladi. Korxonada xatolarsiz va kamchiliklarsiz ishlash holatini yuzaga keltiradi.

Ichki auditning maqsadi- xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mulk egalarining resurslarini to‘g‘ri va unumli saqlash, samarali tarzda ishlatish bo‘yicha manfaatlarni himoya qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun to‘liq, aniq va ichonchli axborotlar bilan ta’minlash.

Ichki auditning vazifalari korxona rahbariyati tomonidan, korxona boshqaruvga oid bo‘limlari va korxona talablaridan kelib chiqib belgilanadi;

- aktivlar holatini nazorat qilish va zararlarga umuman yo‘l qo‘ymaslik;
- tizimdagi nazorat amallarining bajarilishini tasdiqlash;
- ichki nazorat tizimini samaradorligini tahlil qilish va axborotlarga ishlov berish;
- boshqaruv axborot tizimidan uzatiladigan ma’lumotlarning sifatiga baho berish.

Quyida keltirilgan jadvalda ichki auditning ta’rifi va maqsadi, vazifalari keltirilgan. Ushbu chizma orqali ketma-ketlik orqali ichki auditni yana ham yaqindan o‘rganib olib, tahlil qilishga yordam beradi.

Ichki audit ta’rifi:			
-korxona boshqaruvini samarali tashkil etish, operativ va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilishda ichki audit ish samaradorligi oshiradi, ishlab chiqarishdagi kamchiliklar vaqtida aniqlab, ularning oldini oladi. Bundan tashqari buxgalteriya hisobini, hujjatlar bilan ishlashni ham to‘g‘ri va o‘z vaqtida tashkil etiladi. Korxonada xato va kamchiliklarsiz ishlash holati yuzaga keltiradi.			
Ichki auditning maqsadi:			
-xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mulk egalarining resurslarini to‘g‘ri va unumli saqlash, samarali tarzda ishlatish bo‘yicha manfaatlarni himoya qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun to‘liq, aniq va ichonchli axborotlar bilan ta’minlash.			
Ichki auditning vazifalari:			
-aktivlar holatini nazorat qilish va zararlarga umuman yo‘l qo‘ymaslik;	- tizimdagi nazorat amallarining bajarilishini tasdiqlash;	- ichki nazorat tizimini samaradorligini tahlil qilish va axborotlarga ishlov berish;	-boshqaruv axborot tizimidan uzatiladigan ma’lumotlarning sifatiga baho berish.

1-rasm: Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil etish mexanizmi[1]

ILMIY ISHLAR TAHLILI

№	FISh	Mavzu	Ilmiy o‘rganilgan yo‘nalishlar
1	Axmedjanov Karim Bakidjanovich	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish	-ichki audit xizmatini samarali tashkil etish yuzasidan O‘zbekiston auditorlar palatasi qoshida ichki audit tuzilmasini shakllantirish bo‘yicha takliflar asoslab berilgan; -ichki auditor xizmatifaoliyatini rejalashtirish va yakuniy auditorlik hisobotini tayyorlash jarayonining izchilligi va o‘zaro muvofiqligini ta’minlash mexanizmi takomillashtirilgan; -iqtisodiy rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi, xalqaro tan olingan talabalarni umumlashtirish va milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ichki audit standartlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar asoslangan; -xarajatni qisqartirish va daromadni oshirish imkonini beruvchi ichki audit vakolatlarini taqsimlash jarayonining o‘zaro bog‘liq 3 bosqichni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqarilgan; -ichki audit nazoratining sifati va audit natijasi ishonchliligini yanada oshirishga yo‘naltirilgan 2 audit xizmati faoliyatini tashkil qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan.
2	Abdiyeva Nargiza Shuhratovna	O‘zbekiston temir yo‘llari aksiyadorlik jamiyati korporativ boshqaruv tizimida ichki auditni takomillshtirish	-korporativ boshqaruv tizimida ichki audit tekshiruvlarining uslubiyotini birxillashtirish imkoniyatini yaratadigan ichki audit xizmatining ishchi hujjatlari shakllari ishlab chiqilgan; -aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimida ichki auditni tashkil qilishda ichki auditni o‘tkazish tartibi takomillashtirilgan, hamda ichki audit o‘tkazish sifatini nazorat qilish tizimi taklif qilingan; -korporativ boshqaruv tizimida ichki audit xizmati faoliyatini baholash va ichki auditorlikni attestatsiyadan o‘tkazish me’zonlari ishlab chiqilgan; -ilk bor aksiyadorlik jamiyatlari ichki audit yakuniy natijasi bo‘yicha tuziladigan auditorlik hisobotining obyektiv va asoslangan holda kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan shakli ishlab chiqilgan; - ichki audit xizmati faoliyatida xalqaro ichki auditorlik professional standartlaridan foydalanish va shu asosda ichki audit xizmati taklifini kengaytirish yo‘llari belgilab berilgan.

1 Muallif tomonidan ishlab chiqildi

3	Mehmonov Sultonali Umaraliyevich	Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish	-ilk bor byudjet tashkilotlarida hisob siyosatining tarkibiy tuzilmasini shakllantirish tartibi ishlab chiqilgan, hamda ularning uslubiy jihatlari takomillashtirilgan; -me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos budjet tashkilotlari schyotlar rejasiga tasarrufida qoldirilgan mablag'lar hisobiga o'zgartirishlar kiritilishi asoslangan, hamda ishchi schyotlar rejasini restrukturizatsiyalash bo'yicha taklifalar ishlab chiqilgan; -davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga moslashtirish asosida hisob obyektlarini tan olish, baholash va ular bo'yicha axborotlar shaffofligini ta'minlash belgilab berilgan; -birinchi marta byudjet tashkilotlarida markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi faoliyatini tarkibiy tuzilmasi, hamda ularda hisob yuritishning tashkiliy-metologik asoslari shakllantirilgan; - byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobot shakllari tuzilishi va ulardagi ko'rsatkichlarni birlamchi hisob hujjatlar hamda registrlariga muvofiqligini nazorat qilish tizimi takomillashtirilagan; -ilk bor byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatini tashkiliy-uslubiy asoslari shakllantirilgan, hamda samarali amalga oshirish bo'yicha metodologik yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslangan; - byudjet tashkilotlarida ichki audit hujjatlari hamda hisobotini shakllantirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.
4	To'rayev Abdurahim Nortojiyevich	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni takomillashtirish	- ichki audit tomonidan subyektning moliyaviy holatiga baho berish va uning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash tizimi takomillashtirilgan; -xo'jalik yurituvchi subyektlarning Kuzatuv kengashi a'zolarini ichki audit xizmati qo'mitasiga jalb etish orqali uning faoliyati samaradorligini oshirishga asoslangan; -xalqaro auditorlik standartlari asosida aksiyadorlik jamiyatlari ichki audit faoliyatiga moslashtirilgan "ichki audit rejasi" va "ichki audit dasturi" ishlab chiqilgan; -O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari ichki audit xizmati faoliyati samaradorligi xalqaro standartlar asosida baholashning 4 ta sifat me'zonlari taklif etilgan; -xalqaro ichki audit standartlari uslubiyoti asosida ichki audit tekshiruv natijasi bo'yicha tuziladigan yig'ma hisobotni kirish, rejalashtirish, tahliliy va yakuniy qismlardan iborat shaklda tuzish tartibi taklif etilgan; -tashqi audit tekshiruvida ichki audit tomonidan olingan auditotlik dalillaridan foydalanish orqali tashqi auditni o'tkazish muddatini qisqartirish va xarajatlarni kamaytirish asoslangan.


Butun dunyoda ichki auditni rivojlantirish va to'g'ri olib borilishini ta'minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi va qator tadqiqotlar olib borilishiga sabab bo'lmoqda. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilinishi-bu ular uchun juda ham foydali va ancha moliyaviy jihatdan korxonada pul tejalishiga olib keladi va boshqa jihatlarda ham o'z aksini topadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikr va mulohazalar shuni ko'rsatadiki, ichki auditga turli qarashlar orqali ta'rif berilgan bo'lishiga qaramasdan, lekin uning maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektlarda samarali ishni tashkil etish va ichki auditni takomillashtirish orqali kelajakdagi korxona faoliyati uchun ahamiyati juda kattadir. Ichki audit bu korxonada xarajatlarni kamaytirish va yuqori samaradorlikka erishish uchun ulkan zamin yaratadi desak adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi taxriri 25.02.2021-y.
2. "Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi" to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2021-yildagi 280-sonli qarori
3. "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risida"gi namunaviy Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2022-yildagi 416-sonli qarori
4. Ichki audit milliy standarti" O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 52-sonli buyrug'i 24.10.2022-y.
5. A.J.Tuychiyev, I.N.Qo'ziyev, R.M.Haydarov, M.M.Yakubov. Ichki audit. Darslik. "Iqtisod-Moliya" nashriyoti Toshkent, 2019, 368 bet
6. The International Standard of Audit (ISA) 520 "Analytical procedures". www.iasplus.com
7. Urton L.Anderson, Vichatl J. Head, Sridhar Ramamoorti, Cris Riddle, Mark Salamasick, Paul J. Sobel Internal auditing. Assurance&advisory services. Fourth edition. ISBN-13: 978-0-89413-987- I, p.1-2.
8. Robert R. Moeller. Executive's Guide to COSO Internal Controls Understanding and Implementing the New Framework. Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey.Published simultaneously in Canada.2014. 316 p.



TIJORAT BANKLARING CHAKANA XIZMATLARI VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Xudayarova Xurshida Abdunazarovna
PhD, Toshkent moliya instituti "Bank ishi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar, chakana bank xizmatlarining ahamiyati va ularni takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank xizmatlari, chakana bank xizmatlari, depozitlar, omonatlar, kredit, foiz stavka, kapitallashuv, bank aktivlari.

RETAIL SERVICES OF COMMERCIAL BANKS AND FACTORS AFFECTING THEM

Khudayarova Khurshida Abdunazarovna
PhD, Senior teacher of "Banking" department of Tashkent Financial Institute

Abstract: The article examines the retail services of commercial banks and factors affecting them, the importance of retail banking services and ways to improve them.

Key words: banking services, retail banking services, deposits, savings, credit, interest rate, capitalization, bank assets.

РОЗНИЧНЫЕ УСЛУГИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НИХ

Худаярова Хуршида Абдуназаровна
PhD, Старший преподаватель кафедры "Банковского дела" Ташкентского финансового института

Аннотация: В статье рассматриваются розничные услуги коммерческих банков и факторы, влияющие на них, значение розничных банковских услуг и пути их улучшения.

Ключевые слова: банковские услуги, розничные банковские услуги, депозиты, сбережения, кредит, процентная ставка, капитализация, банковские активы.

KIRISH

Chakana bank xizmatlari - bugungi banklar uchun foydali biznes turlaridan biri hisoblanadi. Chakana bank xizmatlarining jozibadorligi korporativ mijozlarning deyarli barchasi bank xizmatlari bilan qamrab olinganligi va ushbu bozor segmentida raqobatning ancha shiddatli va qattikligi bilan asoslanadi. Tijorat banklarining chakana xizmatlarini o'ziga xos ijobiy taraflari mavjud. Bularga qo'yidagilarni sanab o'tish mumkin:

- banklarni tez-tez almashtirishga moyil bo'lmagan mijozlarning "yuqori sadoqatliligi"ni ta'minlaydi;
- mijozlarning turli bug'imlarga ajralishi riteyl biznesdan yetarli darajada foizli daromad olishga imkon beradi;
- taqqoslaganda, chakana mijozlarga berilgan kichik summadagi kreditlar, kredit riskini diversifikatsiyalaydi. Jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar summasi odatda korporativ mijozlarnikiga qaraganda kichik bo'ladi va ko'p sonli mijozlarga taqsimlanishi natijasida kredit riskini diversifikatsiyalaydi.
- shuningdek, yirik korporatsiyalarga qaraganda talabning o'zgaruvchanligi ham kuzatiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, korporativ yirik mijozlar banklarning xizmat turlariga bo'lgan talablarini tez tez o'zgartirishadi va qo'shimcha imkoniyatlarni talab etishadi, jismoniy shaxslarning esa bank xizmat turlariga bo'lgan talablari unchalik o'zgaruvchan emas.
- ba'zi mintaqalarda yirik kompaniyalarning yo'qligiga qaramay, chakana xizmatlarning kengayishi tijorat banklarini doimiy daromad bilan ta'minlaydi. Mamlakat miqyosida korxona, tashkilotlarning joylashishi turli regionlarda har xil bo'ladi. Shunday ekan, mintaqalarda yirik kompaniyalarning yo'qligiga qaramay, chakana xizmatlar tijorat banklariga doimiy daromadni ta'minlaydi.

Bugungi kunga kelib O‘zbekiston Respublikasida ham bank tizimining rivoji va banklararo raqobatning takomillashuvi tijorat banklari oldida tijorat banklari xizmatlarini takomillashtirish, yangi bank xizmatlarini joriy etish vazifasini kundalang qo‘ymokda. Shunday ekan, banklararo raqobatning oshib borishi, bank tizimida tijorat banklarining aholi uchun taklif etayotgan chakana xizmatlarini ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Chakana bank xizmatlari bozorini rivojlantirish, boshqa bank segmentlariga qaraganda geografik, etnik, iqtisodiy va siyosiy omillarga bog‘liq. Ushbu bank xizmatlarini boshqarishda, rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda, unga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish va bozorni rivojlanish tendensiyasini tahlil qilishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda yetakchi iqtisodiy adabiyotlarda maxalliy va xorijiy olimlar tomonidan bank xizmatlarining nazariy asoslari u yoki bu jihatdan o‘rganilgan. F. Suyarovning “Chakana bank xizmatlari bozori” nomli maqolasida tijorat banklari chakana xizmatlariga qo‘yidagicha ta’rif berilgan, “Riteyl bank - jismoniy shaxslar uchun ko‘plab bank xizmatlarini yetkazib berishdir” [9].

Rossiyalik olimlardan A. M. Tavasiyeva [10], G. N. Beloglazova [3] bank mahsulotiga mijozlarning bank xizmatlariga bo‘lgan talabini qondirish yo‘llarini kiritadilar. G. N. Beloglazova, A. M. Tavasiyevalarning fikricha, bank xizmati asosida operatsiya yotadi, ya’ni bank operatsiyasi natijasida bank xizmati yaratiladi va ushbu operatsiya bank mijozi talabini qondiradi degan qarashni ilgari suradi. Yuqoridagi iqtisodchilardan farqli o‘laroq A. N. Ivanov bank mahsulotiga, alohida bank faoliyati bo‘yicha mijoz talabini qondirish uchun o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bank xizmatlari to‘plami va operatsiyalarini amalga oshirilishini kiritadi [8].

Iqtisodchi olim Ye. F. Jukov bank xizmatlari tushunchasiga faqat moliyaviy xizmatlarni kiritgan, u bank asosan operatsiya bajaradi deb hisoblaydi. Bank operatsiyalarini aktiv va passiv operatsiyalarga bo‘lib, bankning moliyaviy xizmatlariga lizing, faktoring, forfeyting va trast operatsiyalarni kiritadi [7]. S. V. Galitskayaning qarashi ham yuqoridagi olimlar qarashlariga mos kelsada, faqat ulardan farqli ularoq, u bank xizmatlari aktiv va passiv operatsiyalarni o‘z ichiga oladi va bank xizmati obekti bo‘lib kapital hisoblanadi deb hisoblaydi [4].


S. A. Guryanov yuqoridagi ko‘rib chiqilgan qarashlardan farqli o‘laroq bank xizmati deb kaysidir bir talabni qondiruvchi va moliya bozorida sotish uchun mo‘ljallangan xizmatni kiritadi [5]. A. S. Goncharuk tomonidan “Chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlanini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir” degan mualliflik ta’rifi shakllantirilgan [6]. Bank xizmatlarini yo‘naltirilish maqsadi va texnologiyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bizning fikrimizcha, “Bank chakana xizmatlari bu- jismoniy shaxslarning aniq bir bank xizmatlariga bo‘lgan shaxsiy yoki oilaviy extiyoj, xohish va talablarini qondirish uchun tijorat banklari tomonidan taklif etiladigan, tijorat faoliyatiga yo‘naltirilmaydigan bank xizmatlari yig‘indisidir”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda dialektik mantiq, ilmiy bilish, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-statistik va umumlashtirish, ekspert baholash usullaridan shuningdek, mavzuga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari chakana xizmatlari bozoriga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganilar ekan, ularni bir necha kategoriyalarga ajratgan holda o‘rganish mumkin:



1-rasm: Tijorat banklari chakana xizmatlariga ta’sir etuvchi omillar

- **Tashqi va ichki omillar.** Chakana xizmatlar bozoriga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda makroiqtisodiy omillar(tashqi) va bank tizmidagi xolat bilan(ichki) aniqlanadigan omillarga ajratish mumkin.

Tijorat banklari chakana xizmatlariga ta'sir etuvchi tashqi yoki makroiqtisodiy omillar ichida iqtisodiy o'sishning sifati katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda oxirgi yillarda iqtisodiyotning o'sishi kuzatilmoqda, YAIM 2018-yilga nisbatan 2022-yilda 2,08 martaga oshdi [12].

1-jadval: O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari [12]

№	Davr	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	Yalpi ichki mahsulot mlrd. so'm	426,6	532,7	605,5	738,4	888,3
2	YAIM Indeks-deflyatori	326.0	384.1	428.0	486.0	553.3
3	Inflyatsiya darajasi	14.3	15,2%.	11,14%	9,98%	12,25%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rnadiki, mamlakatimizda YAIMning yildan yilga o'tgan davrlarga nisbatan o'sish sur'ati kuzatiladi. 2022-yilda YAIMning o'sish surati 20,3 foizni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga esa 29,4 mln so'mni tashkil qilib, oldingi yilga nisbatan past sur'atda, ya'ni 11.5 foizgagina oshgan. Buni biz respublikada aholi sonining oshib borayotganligi bilan izohlashimiz mumkin. Yana bir tashqi omillardan biri bu aholi daromadliligi hisoblanadi. Aholi daromadining o'sishi, kreditlarni o'z vaqtida qaytirilishi hamda bank omonatlari miqdorini ko'payishiga zamin yaratadi. Mamlakatimiz misolida qaraydigan bo'lsak so'ngi yilda aholining pul daromadlari 22,3 foizga oshgan, bu ijobiy holat bo'lib buni biz o'tgan yillar mobaynida aholini ijtimoyi qo'llab-quvvatlash maqsadida bir necha bor oylik ish haqi, nafaqa va stipendiyalarning bir necha foizga oshirilishi bilan izohlashimiz mumkin.

2-jadval: Aholining pul daromadlarini o'tgan yillarga nisbatan o'sish dinamikasi [12]

№	Ko'rsatkichlar nomi	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1.	Aholi umumiy daromadlari, mlrd. so'm	300842.7	365735.6	414968.7	519181.4	634797.0
	o'tgan yilga nisbatan, % da	127.0	121.6	113.5	125.1	122.3
2.	Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'm	9128.6	10891.3	12122.2	14869.8	17807.3
	o'tgan yilga nisbatan, % da	124.8	119.3	111.3	122.7	119.8

Makroiqtisodiy o'sish sifatiga ta'sir etuvchi omillar tarkibida, korxona va tashkilotlarni barqaror faoliyati ham ta'sir ko'rsataradi, o'z navbatida ular tijorat banklari chakana xizmatlariga ham bilvosita ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi. So'ngi yillarda, mamlakatda tadbirkorlikka keng imkoniyat yaratib berilmoqda. Ushbu tarmoqni rivojlanishi makroiqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, aholini ish bilan bankligini oshiradi, o'z navbatida aholini daromadlilik darajasini o'sishiga zamin yaratadi.

Inflyatsiya darajasi va milliy valyutaning xorijiy valyutalarga almashinishi kursi dinamikasi, keyingi asosiy makroiqtisodiy omillarga kiradi. Milliy valyuta kursini xorijiy valyutaga nisbatan 2020-2021-yillardagi yuqori devalvatsiyasi butun dunyoda kuzatilgan pandemiya sharoiti natijasida yuzaga kelgan.

3-jadval: So'mning xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kursi [11] (1-yanvar)

	1 AQSh dollari	O'zgarishi, (+/-)	1 yevro	O'zgarishi, (+/-)	1 Rossiya ruvli	O'zgarishi, (+/-)
2019-yil	8336.25	126,18	9533.34	-91,38	119.85	-20
2020-yil	9507.56	1171.31	10624.70	1090.66	153.17	33.32
2021-yil	10476.92	969.36	12786.03	2161.33	141.27	-11.9
2022-yil	10837.66	360.74	12224.88	-561.23	147.07	5.8
2023-yil	11225.46	387.8	11961.85	-262.95	153.64	6.57

Shuningdek, chakana bank xizmatlar bozorining rivojlanishi mamlakatdagi barqaror va samarali pul-kredit siyosatining olib borilishiga xam bog'liqdir. So'ngi yillarda mamlakatimizda erkin konvertatsiya va nisbatan barqaror inflyatsiya darjasi kuzatilmoqda.

4-jadval: O‘zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasini va muddatli depozitlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkaning o‘zgarishi [11]

Davr	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Yillik inflyatsiya darajasi %	14.3	15,2%.	11,14%	9,98%	12,25%
Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari	15,5	18	19.7	20.2	20.2

Shuni alohida ta’kidlash kerakki inflyatsiya darjasining barqaror ushlab turilishi, banklar tomonidan jamg‘armalar bo‘yicha real foiz stavkasini belgilanishi, aholi omonatlarining bank resurslari tarkibida oshishiga yordam beradi. Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, depozitlarning o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi va inflyatsiya darajasi o‘rtasidagi mutanosiblik ushlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. 2021–2022-yillarda inflyatsiya darajasining o‘zgarishiga qaramay jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari o‘zgarishsiz qolgan.

Ijtimoiy va madaniy omillar ham tashqi bank faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan omillardan biri hisoblanadi. Ma’lumki bir ijtimoiy muhitda yashaydiganlar o‘z madaniyatlariga egalar. Masalan, talaba, qariyalar (nafaqaxo‘r), yosh oilalar va boshqalar. Mamlakatimizda esa, aholining katta qismini 16 dan 55 (60) yoshgacha bo‘lgan kishilar tashkil etadi (umumiy aholining 58 foizi) [12]. Tijorat banklari, chakana xizmatlar bo‘yicha strategik rejasini ishlab chiqayotganda bunga alohida e’tibor berishi lozim. Aholining yoshidan kelib chiqib uning bank xizmatlariga bo‘lgan talabi har xil bo‘lishi mumkin. Masalan: 55 (60) yoshdan o‘tgan mijozlarning asosan, bankning jamg‘arma xizmatlariga talabi yuqori bo‘lsa, 16 yoshdan 55 (60) yoshgacha bo‘lgan aholi ko‘proq ipoteka, iste’mol kreditlariga bo‘lgan talabi yuqori bo‘lishi mumkin.

Chakana bank xizmatlariga ta’sir etuvchi ichki omil bu bank tizimining holatidir. Bank tizimi moliyaviy imkoniyatlari (potensiali) dinamikasining ijobiy bo‘lishi chakana bank xizmatlari turlarini kengaytirishiga, hajmini oshishiga, sifatini yaxshilanishiga bevosita yordam beradi, chunki har qanday yangi bank xizmatlarini joriy etish va yangi texnologiyani kiritilishi bankdan xarajatlarni talab etadi.

5-jadval: Tijorat banklari kapitalining o‘sish dinamikasi [11] (1 yanvar)

Davr	01 01 2020	01 01 2021	01 01 2022	01 01 2023
Tijorat banklari kapitali trln. so‘m	26,7	58.4	70.9	79.6
Kapital yetarliligi ko‘rsatkichi %	15,6	23.5	17.5	17.8
I darajali kapital yetarliligi ko‘rsatkichi %	14,3	19.6	14.6	14.5

O‘zbekistonda tijorat banklarning kapitallashuvi yildan yilga oshib bormoqda. 2022-yil boshiga kelib tijorat banklarining kapitali 79,6 trln. so‘mga yetdi. Bank kapitalini oshishiga qaramay kapitalni yetarlilik ko‘rsatkichini 2022-yilda uncha o‘zgarmaganligiga sabab riskka tortilgan aktivlarning oshishi bilan izohlanadi. 2022-yil 1-yanvarda riskka tortilgan aktivlar 414, 5 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa 2023-yil 1-yanvariga kelib 468,0 mlrd so‘mga yetgan.

- **Iqtisodiy va siyosiy omillar.** Iqtisodiy muhitning ta’siri turli xildir, qanchalik mamlakatda barqaror iqtisodiy muhit hukm sursa, ushbu omillarning ta’siri shunchalik kuchsiz (sezilarsiz) bo‘ladi. Siyosiy omillarga esa davlat tomonidan qabul qilingan Qonun va normativlar alohida ta’sir ko‘rsatadi.
- **Ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi omillar.** Banklar chakana biznesi asosan jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni qamrab olar ekan, chakana xizmatlarni o‘sishiga ko‘maklashuvchi va shu bilan bir qatorda ularni orqaga tortuvchi omillar ham mavjuddir. Ushbu ta’sir etuvchi omillar mamlakatning mentaliteti va tarixiy rivojlanish bosqichlarga ham bilvosita bog‘liqdir. Shunday ekan, avval salbiy ta’sir etuvchi omillarga e’tibor qaratsak:

1. O‘zbekiston aholisining joriy daromadlarini jamg‘arishga nisbatan harajat qilishga bo‘lgan moyilligidir. Chunki ko‘pgina aholi qatlami daromadini joriy ehtiyojlar uchun sarflaydi, ikkinchi qismi esa yirik summadagi xizmatlar, qimmatbaho tavarlarni sotib olish uchun yig‘ib ko‘yadi va qolgan qisminigina banklarda jamg‘aradi.
2. **Aholining moliyaviy savodxonligi.** Bugungi kunga kelib tijorat banklari tomonidan aholiga taklif qilinayotgan xizmat turlari kunga kunga oshib bormoqda, jahon amaliyotida 2500 dan ortiq xizmat turlari taklif qilinsa, O‘zbekiston amaliyotida bu ko‘rsatkich 300 dan ortiqdir. Shunisi achinarliki, aholining ko‘p qismi ushbu taklif qilinayotgan xizmat turlari haqida to‘laqonli ma’lumotga yoki tushunchaga ega emas.

3. **Huquqiy baza.** O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish tarixi uzoq davrni o‘z ichiga olmaydi, ya’ni endi rivojlanib kelayotgan yosh tarmoqlardan biridir. Bizga ma’lumki, bank tizimining rivojlanish bosqichini uchta yirik bosqichga bo‘lishimiz mumkin, ya’ni birinchi bosqich o‘z ichiga milliy valyutamizni joriy etgungacha - 1991-yildan 1994-yilgacha bo‘lgan davrni, ikkinchi bosqich bank tizimini shakllantirish va ular oldidagi vazifalarni aniqlashtirib olishga qaratildi va so‘ngi bank tizimini shakllantirishdagi uchinchi bosqich asosan bank tizimini rivojlangan mamlakatlar miqyosiga chiqarish va bank operatsiyalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, u 2000-yildan keyingi davrni o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, bu davr ichida Qonunchilik hujjatlarining bir necha bor o‘zgartirish va ba’zi mavjud Qonunlarni takomillashtirishga to‘g‘ri keldi.
4. **Bank tarixi.** Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banki xizmatlarini tanlashda aholi asosiy e’tiborni bankning uzoq davrdan beri bozorda faoliyat olib borishiga ko‘proq e’tibor qaratadi. Rossiyaning “Milliy Moliyaviy Tadqiqot Agentligi”ning izlanishlari bo‘yicha, aholining bankni tanlashga ta’sir etuvchi me’zonlarga qo‘yidagilarni kiritishimiz mumkin [13]:

- Bankning uzoq davr mobaynida bozorda faoliyat yuritishi – 51,8%;
- Davlat kafolatining mavjudligi – 42,7%;
- Tanish-bilish va dustlarning ijobiy tavsiyasi – 31,2%;
- Bank xizmatlari bo‘yicha foydali ta’riflar – 26,0%;
- Bank filiallarining qulay joylashuvi – 23,6%;
- Filiallar sonining kengligi – 21,9%;
- Xizmat ko‘rsatishda yuqori sifat – 21,9%;
- Taklif etilayotgan xizmat turlarining ko‘pligi – 16,8%;
- Bank reytingi bo‘yicha yuqori o‘rinlarda turishi – 16,3%;
- Bank xizmat vaqtining qulayligi – 14,6%;
- Reklama va yuqori sifatli axborotning mavjudligi – 4%.

Shunisi diqqatga sazovorliki bank xizmatlarining yuqori sifati va bank reytinggi bo‘yicha yuqori o‘rinlarda turishi, aholi tomonidan bankni tanlashda unchalik katta ahamiyatga ega emas ekan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Chakana bank xizmatlari bozoriga ta’sir etuvchi, ichki va tashqi omillar o‘rganilgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

- Mamlkatdagi iqtisodiy o‘sish, barqarorlik chakana bank xizmatlariga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Respublikada oxirgi yillarda doimiy iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy barqarorlik kuzatilmokda.
- Tijorat banklari kapitallashuvi darajasining oshib borishi, chakana bank xizmatlarini takomillashtirishga imkon yaratadi.
- Mamlkatda aholi sonining yildan yilga o‘sishi, daromadlik darajasining oshib borishi tijorat banklari chakana xizmatlari bozorida, chakana xizmatlarga bo‘lgan talabni ortishiga imkon yaratadi.

Bugungi kunda tijorat banklarimiz oldida chakana bank xizmatlari ommabobligini oshirish va ushbu bank xizmatlarini yanada takomillashtirish asosiy vazifa ekan, ushbu maqsadga erishishda bank faoliyati qo‘yidagi yo‘nalishlarga qarab faoliyat olib borilishi lozim:

- Banklarning chakana xizmatlar bozoriga aholining yoshlar bo‘yicha guruhi ham ta’sir ko‘rsatadi. Tijorat banklari, chakana xizmatlar bo‘yicha strategik rejasini ishlab chiqayotganda bunga alohida e’tibor berish lozim.
- Respublika miqyosida hududlardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlardan kelib chiqib bank xizmatlari turlarini taklif etish va xizmatlar bo‘yicha tariflarni belgilash, ushbu xizmatlar bozorini rivojlantirib, kengaytirishga ko‘maklashadi.
- Chakana bank xizmatlarini taqdim etish xarajatlarini qisqartirish va bir vaqtning o‘zida bir necha mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun masofaviy bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish.

Foydalanilgan ajabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilning 23-fevralida PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” Qarori www.lex.uz
2. 2020-yil 12-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni www.lex.uz
3. Белоглазовой Г. Н., Крошвецкой Л. П. “Банковское дело” Учебник для вузов 2-е издание П: 2018г 400 С
4. Галицкая С.В. “Деньги, кредит, банки”. Полный курс. Москва изд. “Эксмо” 2008г 336 С
5. Гурьянов С.А. “Маркетинг банковских услуг” Москва 76 стр
6. Гончарук А.С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хета-гурова - Шахты, 2012г. - 183 с.
7. Жуков Е.Ф. “Банковское дело” М.: ЮНИТА-ДАНА 2007 г. 250 стр.
8. Иванов А.Н. “Банковские услуги: зарубежный и российский опыт” Москва “Ф и С”2002г 176 С
9. Суяров Ф. “Рынок розничных банковских услуг” // Бозор, пул ва кредит журнали 2002 й., 8 авзуст -15 б.А.С. Гончарук Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хета-гурова - Шахты, 2012г. - 183 с.
10. Тавасиева А.М. “Дополнительные операции для клиентов” Москва “Ф и С” 2005г.416 С
11. www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
12. www.stat.uz O‘zbekiston respublikasi davlat statistika qumitasi rasmiy sayti ma’lumotlari
13. www.nacfin.ru “Национальное Агентство Финансовых Исследований”



XALQARO LIZING MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA UNING ROLINI OSHIRISH

Latipova Shaxnoza Maxmudovna
SamISI dotsenti

Annotatsiya: Maqolada xalqaro lizingning mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida har bir mamlakat iqtisodiyotiga yangi aktivlarni jalb qilishning samarali usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro lizing aynan ana shunday samarali usullardan biri sifatida xorijda ishlab chiqarilgan uskunalarni mamlakatga kiritishga imkon yaratadi. Maqolada xalqaro lizing bozori mamlakatlar kesimida tahlil qilingan bo‘lib, uni rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro lizing, eksport lizingi, import lizingi, tranzit lizing, lizing subyektlari, xalqaro lizing uyushmalari.

Abstract: The article reveals the content and features of international leasing. In the context of innovative economic development, it is important to use effective methods of attracting new assets to the economy of each country. International leasing, as one of such effective methods, allows the introduction of foreign-made equipment into the country. The article analyzes the international leasing market by country, and also provides scientific and practical proposals for its development and elimination of existing problems.

Key words: international leasing, export leasing, import leasing, transit leasing, lessors, international leasing associations.

Аннотация: В статье раскрыты содержание и особенности международного лизинга. В условиях инновационного развития экономики важно использовать эффективные методы привлечения новых активов в экономику каждой страны. Международный лизинг, как один из таких эффективных методов, позволяет внедрить в страну оборудование иностранного производства. В статье проанализирован международный рынок лизинга по странам, а также даны научно-практические предложения по его развитию и устранению существующих проблем.

Ключевые слова: международный лизинг, экспортный лизинг, импортный лизинг, транзитный лизинг, лизингодатели, международные лизинговые ассоциации.

KIRISH

Ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotining real sektorida sifatli ishlab chiqarish aktivlariga ehtiyoj sezilsa, davlat ishlab chiqarish sektorini rivojlantirishdan manfaatdor bo‘ladi. Iqtisodiyot tarmoqlarida xorijiy kapitalning shakllanishini ta’minlaydigan mexanizmlardan biri xalqaro lizing bo‘lib, moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishda uning ahamiyati katta. Bunda lizing innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda moliyaviy vosita sifatida maydonga chiqadi. Innovatsion rivojlanishning dastlabki bosqichida lizing uning ishtirokchilari moliyaviy manfaatidan kelib chiqib, ishlab chiqaruvchi, lizing beruvchi va lizing oluvchilarning innovatsion faoliyatlarini samarali tashkil etish va jadallashtirishga katta ta’sir etmoqda.

Xalqaro moliya tizimida har bir davlat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish maqsadida xalqaro lizingning taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq xalqaro bozorda raqobatning kuchayishi, milliy qonunchilik hamda soliqqa tortish metodikasidagi tafovutlar xalqaro lizingning rivojlanishi uchun muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ushbu mavzuning dolzarbligini va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro lizing munosabatlari lizingga beruvchi (lizing kompaniyasi) tomonidan moddiy qimmatliklarni turli muddatlarga xorijiy lizingga oluvchilarga lizingga berilishi tushuniladi. Lizingning ushbu turi tovarlar import-eksportini rag‘batlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Xalqaro lizingning obyekti bo‘lib lizingga oluvchi mamlakatiga eksport qilinadigan uskunalar hisoblanadi.

Xorijiy iqtisodchi olim Jaqueline Mills tomonidan Yevropada lizingning o‘ziga xos xususiyatlari va xalqaro lizingning hisobi bilan bog‘liq munosabatlar o‘rganilgan. Asosiy e’tiborni Yevropa lizing uyushmasining ahamiyati, vazifalari, Yevropa lizing bozorining holati hamda xalqaro lizingning ijobiy va salbiy jihatlarini yoritishga qaratgan [1].

Uarda Roshi tomonidan xalqaro lizingning iqtisodiy mohiyati, uni amalga oshirishda xalqaro UNIDRUA konvensiyasining ahamiyati keng yoritib o‘tilgan. Olim xalqaro lizingning xususiyatlarini uch tomon ishtirok etadigan moliyaviy lizing asosida yoritib, ular o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishda Konvensiya asosiy huquqiy hujjat ekanligini, unga tayangan holda mamlakatlar o‘z faoliyatida milliy lizing munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilikni yaratishlari uchun asos sifatida foydalanishlari taklif etilgan [2].

Rus tadqiqotchisi V. V. Vesina o‘zining ilmiy tadqiqotlarida RFda xalqaro lizingni milliq iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy kapitalni kiritishning bir mexanizmi sifatida yondashgan, xalqaro lizing asosida xorijiy uskunalarni mamlakatga kiritishdagi bojxona munosabatlari, RFda xalqaro lizingni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari o‘z aksini topgan. Fikrimizcha, xalqaro lizingga nisbatan bunday ta’rif bir tomonlama yondashuvga ega bo‘lib, faqatgina lizing oluvchi nuqtayi nazaridan yoritilgan [3].

Yana bir rus olimi P. A. Kostyakov tomonidan xalqaro lizingning nazariy-amaliy ahamiyati tadqiq qilingan bo‘lib, u asosiy e’tiborni RFda xalqaro lizing munosabatlarini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarning tahlili, xalqaro lizingni ma’lum bir belgilariga ko‘ra tasniflash, xalqaro lizingning xalqaro bozordagi moliyalashtirish va investitsiyalash vositalaridan biri ekanligiga qaratgan. Bundan tashqari, xalqaro lizing operatsiyalariga valyuta risklarining salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan [4].

Antikov Z. X. Boshchiligida olib borilgan tadqiqot ishida xalqaro lizing munosabatlarining asosiy xususiyatlari sifatida lizing obyektining xorijiy lizing beruvchidan turli muddatlarga lizingga olinishi hamda lizing shartnomasi subyektlarining mamlakat norezidentlari ekanligi keltirib o‘tgan [5]. Shundan kelib chiqib, xalqaro lizing uch yo‘nalishda amalga oshirilishini ko‘rsatib o‘tgan, ya’ni:

- **Eksport lizingi.** Bunda lizingga oluvchi tomon xorijiy ishtirokchi bo‘ladi va lizing obyekti eksport shartnomasi asosida mamlakatdan olib chiqiladi;
- **Import lizingi.** Bunda lizingga beruvchi tomon xorijiy ishtirokchi bo‘ladi va lizing obyekti lizingga oluvchi mamlakatiga import shartnomasi asosida yetkazib beriladi;
- **Tranzit lizing.** Xalqaro lizingning ushbu turida shartnoma ishtirokchilari turli mamlakatlarda joylashgan bo‘ladi.

Mahalliy olimlarimizdan D. I. Ruziyeva tomonidan xalqaro lizingni amalga oshirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha fikrlar o‘rganilgan. Respublikamizda milliy valyutaning devalvatsiya bo‘lishining davom etayotganligi natijasida xorijiy valyutalarda berilayotgan xalqaro lizing kreditlarini qaytarishda muammolarning yuzaga kelayotganligi, tijorat banklari resurslarining umumiy hajmida uzoq muddatli depozitlarning kichik salmoqqa ega ekanligi ham xalqaro lizing kreditlari hajmini oshirishga to‘sqinlik qilayotganligi iqtisodchi tomonidan asosiy muammolar sifatida tadqiq qilingan [6].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, aksariyat iqtisodchilar xalqaro lizingni o‘rganishar ekan, kapital migratsiyasining sabablari eksport va import lizing operatsiyalarining sabablari bilan o‘xshashligi tufayli xalqaro lizingni kapitalni eksport-import qilishning bir shakli sifatida ta’kidlashgan. Fikrimizcha, xalqaro lizingga oid quyidagi fikrlar o‘rinli hisoblanadi:

- korxonalar yuqori texnologiyali qimmatbaho uskunani xarid qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bir sharoitda xalqaro lizing mahsulotni sotishning muhim manbayi;
- aktivlarni sotib olishda import (eksport) bo‘yicha cheklovlarning mavjudligi yoki aktivlarning harakatiga nisbatan har qanday cheklovlarning mavjudligi sharoitida xalqaro lizing aktivlarni qo‘lga kiritishning eng samarali usullaridan biri;
- xorijiy kapital harakatiga cheklovlar mavjud bo‘lgan sharoitda xalqaro lizing moliyalashtirish usullari diapazonini kengaytirish imkoniyati hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJADAR

Aytish joizki, XX asrning 50-yillarida tadbirkor Genri Shonfeld “Amerika Lizing kompaniyasi” (ALK) deb nomlangan kompaniyani tashkil etishi va uni bugungi kunda AQShdagi ko‘plab mutaxassislar mamlakatda birinchi ixtisoslashgan kompaniya deb tan olinishi o‘tgan davr mobaynida lizingni ulkan tarmoqqa aylanishi uchun

imkoniyat yaratib berdi. Uning faqat 2000-yillarning boshlaridagi mablag‘ aylanmasi 242,0 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa-da, asosiy vositalarga investitsiya kiritish umumiy hajmi 780,0 mlrd. AQSh dollariga teng bo‘lgan. Shuningdek, AQShdagi uskunalar komplektlarining 30 foizi atrofidagisi korxonalar tomonidan lizing operatsiyalari orqali amalga oshirilgan.

Hozirgi sharoitda aksariyat rivojlangan mamlakatlar, xususan, AQShda lizing beruvchilar uchta asosiy guruhga bo‘linadilar: mustaqil lizing kompaniyalari, banklar (ular huzuridagi lizing kompaniyalari) va ixtisoslashgan (bog‘liq) kompaniyalar (uskunani ishlab chiqaruvchilari huzuridagi kompaniyalar). Mustaqil lizing kompaniyalariga lizing tarmog‘idagi mablag‘ aylanishining taxminan yarmi, ya’ni 50-52 foizi, banklarga 27 foizi va bog‘liq kompaniyalarga 19 foizi, bozorning boshqa ishtirokchilariga esa 2 foizi to‘g‘ri kelmoqda [7].

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning dastlabki bosqichida lizing eng daromadli moliya vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Lizingning tez rivojlanib borishi sabablaridan biri sifatida soliq imtiyozlari, ya’ni innovatsion investitsiyalar qiymatining 10 foizi soliq to‘lov summasidan chiqarib tashlanishi sabab bo‘lmoqda. Bunday tajribani mamlakatimizda ham qo‘llash lizing operatsiyalarining rivojiga, korxonalar asosiy kapitalining yangilanishiga olib kelishi mumkin.

Hozirda mavjud lizing kompaniyalarining asosiy qismi yirik texnologiya ishlab chiqaruvchilar tomonidan, qolganlari esa yirik tijorat banklari tomonidan tashkil etilgan. Diqqatga molik bo‘lgan tomoni shundaki, AQSh qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklariga ayrim moliyaviy operatsiyalar turlarini amalga oshirish ta’qiqlanganligi sababli bevosita banklar tomonidan lizing xizmatlari ko‘rsatilmaydi. Lizing kompaniyalari banklardan alohidalashgan. Bundan tashqari, AQShning yirik sug‘urta kompaniyalari ham lizing operatsiyalarini amalga oshiradilar. AQSh soliq qonunchiligidan kelib chiqib, xususiy shaxslar ham o‘z daromadlariga asbob-uskunani sotib olish hamda uni lizingga berish huquqiga egadirlar. Bunday tajribani o‘rganish va uni qonunlarimizni takomillashtirishda ulardan foydalanish qo‘l keladi deb o‘ylaymiz.

Jahon iqtisodiyotida pandemiya natijasida pasayishlar yuz berishiga qaramay, Yevropa lizing kompaniyalari tomonidan lizing orqali katta miqdorda mablag‘ investitsiya qilinishiga erishilmoqda. Har yili Yevropa lizing bozoridgi yangi investitsiyalarning 30 foizi yetakchi G‘arb davlatlari zimmasiga to‘g‘ri keladi. Germaniya, Fransiya va Italiya davlatlarida ko‘chmas mulk bo‘yicha lizing operatsiyalarining hajmi jami Yevropa lizing bozorining 60 foizini tashkil etadi. Lizing xizmatlarining katta qismi mashinasozlik va xususiy xizmatlar tarmog‘iga to‘g‘ri kelmoqda. Avstriyada mashinasozlik tarmog‘ida lizingning ulushi 50 foizni, Itadiyada 54 foizni tashkil etadi. Xususiy xizmatlar sohasida esa lizingning ulushi Buyuk Britaniyada 62 foizga, Germaniya va Norvegiyada esa 50 foizdan yuqori ko‘rsatkichga yetgan. Yevropa lizing kompaniyalari Yevrolizing uyushmasiga birlashgan bo‘lib, uyushma Yevropaning 25 mamlakatidagi lizing beruvchilar manfaatlariga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarida ham lizing kompaniyalari uyushmalarga birlashgan [8].


Xalqaro lizing bozoridagi eng yirik lizing kompaniyalari sifatida Enterprise Holdings Inc., Berkshire Hathaway Inc., McDonald’s, Daimler AG, LeasePlan Corporation N. V., General Electric Company, United Rentals Inc., Koninklijke Ahold Delhaize N. V, Tokyo Century va Ford Motor kompaniyalari faoliyat yuritishmoqda.

Jahon lizing bozorida garchi pandemiya davrida pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, (2019-yilda 1362,38 mlrd. AQSh dollari, 2020-yilda esa 1338,19 mlrd. AQSh dollari), umumiy holatda 2005-2020-yillar davomida bozor hajmi 125 foizga oshgan [9]. Bozorda asosan uch qit’a Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyo mamlakatlari yetakchilik qilmoqda. So‘nggi yillar davomida lizing bozorida o‘sish asosan, Osiyo mamlakatlari hissasiga, aynan Xitoy, Tayvan va Janubiy Koreya zimmasiga to‘g‘ri kelmoqda (1-jadval). Xitoy bank assotsiatsiyasining hisobotiga ko‘ra, 2021-yilda garchi pandemiya butun mamlakat iqtisodiyotiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, moliyaviy lizing sektori barqaror darajada o‘sishga erishdi [10].

Jalb qilish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar bo‘yicha komission xarajatlar	Mijozlarni jalb qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ish haqi va mukofot xarajatlari, amaliyot binosi, kassa va boshqa bino-inshootlar bo‘yicha ijara xarajatlari, jalb qilish bilan bog‘liq bo‘lgan yuridik va boshqa xarajatlar, uskunalarning amortizatsiya xarajatlari

1-rasm: Passiv operatsiyalar jarayonida bank xarajatlari (Novashina va Jdanova, 2012).



2-rasm: Aktiv operatsiyalar jarayonida bank xarajatlari (Novashina va Jdanova, 2012)

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bank faoliyatida yuqorida keltirib o‘tilgan bank xarajatlarining har birini tasniflash va guruhlash orqali tahlil qilish lozim. To‘liq va kompleks tahlil orqali bankka ta’sir etuvchi asosiy omillar hamda bank foydasini shakllantirishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan xarajatlar aniqlanadi va shu orqali zaruriy strategik chora-tadbirlar belgilanadi.

Respublikamizning yirik banklaridan biri bo‘lgan “Ipoteka-bank” ATIBning 2016-2019 yillar oralig‘idagi operatsion xarajatlar tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval: 2016-2019-yillar davomida tijorat banki operatsion xarajatlari tarkibi va dinamikasi[3], mln. so‘mda

Ko‘rsatkichlar	31.12.19		31.12.20		31.12.21		31.12.22	
	Mln. so‘mda	%	Mln. so‘mda	%	Mln. so‘mda	%	Mln. so‘mda	%
Jami bank xarajatlari	588 385	100	987 239	100	1 468 073	100	1 969 486	100
Operatsion xarajatlar jami	296 798	50.4	393 951	39.9	490 943	33.4	604 488	30.7
ShUNDAN: (Jami xarajatlarga nisbatan)	196 172	33,3	249 140	25,24	288 793	19,7	419 310	21,3
Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar								
Ijara va ta’minot xarajatlari	24 726	4,2	30 595	3,1	42 707	2,9	54 251	2,7
Xizmat safari va transport xarajatlari	3 005	0,5	3 860	0,4	5 065	0,35	6 336	0,32
Ma’muriy xarajatlar	12 627	2,1	17 564	1,8	24 966	1,7	27 278	1,4
Reprezentatsiya vaxayriya xarajatlari	15 174	2,5	26 428	2,7	25 363	1,73	26 588	1,35
Eskirish xarajatlari	12 359	2,1	15 418	1,5	27 565	1,9	36 423	1,8
Sug‘urta, soliq vaboshqa xarajatlar	32 734	5,6	50 946	5,1	76 485	5,2	34 301	1,7

“Ipoteka-bank” ATIBning foyda va zararlar to‘g‘risida hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tijorat bankning operatsion xarajatlari jami xarajatlarga nisbatini olib qaraydagan bo‘lsak, 2016-yilda 50,4%,2017-yilda 39.9%, 2018-yilda 33,4%, 2019-yilda 30,7% ni tashkil etmoqda. Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, operatsion xarajatlar salmog‘i yildan yilga kamayib bormoqda. Mazkur ko‘rsatkich o‘z navbatida tijorat bankida xarajatlarni optimallashtirish siyosatining olib borilayotganligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, tijorat banklarining operatsion xarajatlarini optimallashtirish masalasida quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz:

Operatsion xarajatlar tarkibida yuqori salmoqqa ega bo‘lgan ish haqi xarajatlarini optimallashtirish choralari ko‘rib borilishi zarur. Ushbu masalada Konyayev (2011)ning ish haqi xarajatlarini optimallashtirish bo‘yicha quyidagi takliflariga qo‘shilamiz: “Zamonaviy bank tizimida xodimlarning ish haqi xarajatlari jami bank xarajatlarining 50-70 foizini tashkil etadi. Bank tizimi amaliyotidan kelib chiqib, tijorat banklari xodimlar bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirish maqsadida 3 ta usuldan foydalanadi, ya’ni teng ravishda foizdan kelib chiqib shtat birliklarini qisqartiradi, tashkiliy samarasizlikni bartaraf etadi, bo‘linmalar va xodimlarning ish samaradorligini tahlil qilish natijalariga ko‘ra qisqartirishlarni amalga oshiradi”. Yuqoridagi taklif ish haqi xarajatlarini optimallashtirishning maqbul yechimi sifatida qaralishi mumkin, biroq mazkur amallar bankning umumiy faoliyatiga va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.

Tijorat banklari tomonidan harajatlar tahlilining to‘g‘ri amalga oshirilishi, xarajatlar tarkibida foydaga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga, bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarning oldini olishga hamda bank tizimini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda banklar oldingidanda ko‘proq ma’lumotlar bazasining boyligiga, shuningdek texnik imkoniyatlarning ham keng ko‘lamiga ega. Faqatgina shu ma’lumotlar bazasidan to‘g‘ri va oqilona foydalana olishni bilish kerak.

3 Muallif tomonidan tuzildi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘grisida”gi PF-5992-sonli Farmoni – www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi 29.12.2020-yil. www.uza.uz
3. N.F. Karimov “Risklar va tijorat banklarning foydasini shakllantirish muammolari”. Avtoreferat. 1998-yil.
4. R.B. Kurbanov “Tijorat banklari daromadi (foydasi)ni soliqqa tortish masalalari”. Avtoreferat. 1998-yil.
5. A.Omonov. “Banklar va banklarda hisob”. O‘quv qo‘llanma. “Akademiya” nashriyoti. 2006.
6. Michael V. Beheshti,James Meek, Calculation of Operating Expenses for Conventional Transarterial Chemoembolization in an Academic Medical Center: A Step toward Defining the Value of Transarterial Chemoembolization, Journal of Vascular and Interventional Radiology, Elsevier, April 2014.
7. Sudi Sudarsanam,Ayo Salami,George Alexandrou, Rational expectations, analysts’ forecasts of earnings and sources of value gains for takeover targets, Journal of Banking & Finance, Elsevier, January 2002
8. Новашина Т.С., Жданова О.А. “Управление затратами банка” Программа магистерской подготовки по направлению “Обший и стратегический менежмент”. Московский финансово-промишленний университет “Синергия”; 2012 г.
9. Abdullayev Yo., Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. (2009) “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma-T. “IQTISOD-MOLIYA”, 44b.
10. Басс Л.Б. (2007) “Банки и небанковские кредитние организасии и их операсии” Учебник. Под ред Е.Ф.Жукова-М.Вузовский учебник., 311б;
11. Жарковская Е.П. (2011) “Финансовий анализ деятелъности коммерческого банка” учебник. 2-э изд. - М. : Издателъство “Омега Л”., 278б.
12. Ibragimov A.K. va Djurayev K.N. (2012) “O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari xarajatlarining sof foydaga ta’sirini hisobi masalalari” maqolasi., “Agrar sohani modernizasiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, tahlil, audit va moliya-kredit masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruza tezislari to‘plami. Toshkent, 57-58b;
13. Korobkova Yu.I. (2007) Bankovskie operasii /pod redaksii Moskva: INFRA-M, 66-69 b;
14. Лаврушин О.И., Валенсева Н.И. (2016) Банковскоэ дело: Учебник. перераб. и доп./ Под ред. Лаврушина О.И. –М.: КНОРУС., 235 б;
15. Коняев А.А. (2011) Оптимизасия затрат в коммерческом банке //Финанси и кредит. №5 (437). УРЛ: https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-zatrat-v-kommercheskom-banke (дата обрашения: 17.09.2019).
16. https://www.ipotekabank.uz/uz/investors/financial-statements/.



BANK KAPITALI BARQARORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARDAN FOYDALANISH HOLATI

Vasiyev Alisher Samiyevich
Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada banklararo raqobat sharoitida tijorat banklarning kapitali barqarorligini optimallashtirish masalalari, kapitali miqdorini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shu bilan birgalikda tijorat banklar jami kapitali miqdori, uning tahlili, tijorat banklar kapitali miqdorini oshirishdagi muammolari, imkoniyatlari hamda tijorat banklar kapitali optimallashtirish masalalari yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: bank kapitali, qimmatli qog‘ozlar, capital monandligi, bozor mexanizmi, devalvatsiya zaxirasi.

Abstract: The article describes the issues of optimizing the capital stability of commercial banks in the conditions of interbank competition, theoretical and practical aspects of increasing the amount of capital. At the same time, suggestions and recommendations were given regarding the amount of total capital of commercial banks, its analysis, problems and possibilities of increasing the amount of capital of commercial banks, as well as optimization of the capital of commercial banks.

Key words: bank capital, securities, capital monadity, market mechanism, devaluation reserve.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы оптимизации устойчивости капитала коммерческих банков в условиях межбанковской конкуренции, теоретические и практические аспекты увеличения размера капитала. При этом были даны предложения и рекомендации относительно размера совокупного капитала коммерческих банков, его анализа, проблем и возможностей увеличения размера капитала коммерческих банков, а также оптимизации капитала коммерческих банков.

Ключевые слова: банковский капитал, ценные бумаги, монадность капитала, рыночный механизм, девальвационный резерв.

KIRISH

Tijorat banklari o‘z faoliyatini yuritishida birinchi navbatda yetarli darajadagi sarmoyaga ega bo‘lishi talab etiladi, bu esa yetarli darajada kapitalga egalik va barqaror daromad bazasiz amalga oshirishni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu sababdan banklarning kapital darajasini doimiy oshirib borish zarur. Bu boradagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 6-iyuldagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2693-sonli Nizomi[1] ham ishlab chiqilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bank kapitali va uning bank faoliyati jarayonlaridagi ta’sirini nazariy asoslarini bir qator olimlar tadqiq etgan holda turli qarashlar va nazariyalarni bayon etganlar. Jumladan, klassik namoyondalardan hisoblanmish A.Smit “Bank - alohida olingan ish yurituvchilarning jamiyat uchun foydali nihoyatda qimmatli hisoblangan lekin ular uchun vaqtinchalik foydalanilmayotgan o‘lik kapitalini aktiv va ishlab chiqaruvchi kapitalga aylantiradi”[2] deb ta’riflagan.

K. Marks banklarning mohiyatiga ta’rif berish jarayonida ularning o‘z qo‘llarida katta miqdorda ssuda kapitalini jamg‘arishlarini alohida eslatib o‘tgan[3].

Professor I. Traxtenbergning fikricha ham banklar kapital yaratuvchi tashkilot hisoblanadi. O‘z faoliyatida ular kapitalni tashkil etish va uni to‘plash jarayonlarini tezlashtiradi hamda kapitalni qayta taqsimlaydi[4]. Shunday

1 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 6-iyuldagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2693-sonli Nizomi
2 Смит А. Исследование о природе и причинах богатств народа. – Петрозаводск.: 1993. – С.271.
3 Маркс.К.Капитал. Критика политической экономики. – Т3 КН 2 М.: 1989.– С.442.
4 Трахтенберг .И.Денежное обращение и кредит при капитализме. – Москва.: 1962. –С.547.

qilib - “Bank kapital harakatini tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kapitalistik korxonaning alohida turi sifatida kiradi”[5].

K. Marks ham o‘zining mashhur “Kapital” nomli asarida banklar faoliyatida ularning o‘ziga xos xususiyatlari taqozosida ya’ni, banklar savdo va sanoat kapitalining jamg‘armalarini to‘plashlari evaziga ularda ssuda kapitali paydo bo‘lishini ta’kidlab o‘tgan[6].

Bank kapitalining iqtisodiy mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar bildirilgan. Jumladan, professor V. M. Usoskin bank kapitaliga bank moliyaviy resurslarining muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraydi[7].

Rus iqtisodchisi G. G. Karobova bank kapitaliga bankning iqtisodiy mustaqilligi, barqarorligi va ishonchliligini ta’minlovchi, mohiyatiga ko‘ra to‘liq to‘langan element (fond)lar majmui sifatida qaraydi[8]. Haqiqatda bank kapitalining miqdori, uning moliyaviy barqarorligi va mustaqilligini tavsiflaydi.

Iqtisodchi olim R. G. Olxova bank kapitalining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda “himoya yostig‘i” degan iqtisodiy tushunchani oldinga suradi va bank kutilmaganda zarar ko‘rsa kapital himoya yostig‘i sifatida ko‘rilayotgan zarar oqibatlarini yengillashtiradi va bankning iqtisodiy jihatdan to‘lov qobiliyatini tiklab olish imkoniyatini yaratadi deb hisoblaydi[9].

Xorijlik iqtisodchi Kris Barltrop bank kapitaliga “qimmatli” manba[10] sifatida ta’rif bergan.

Kapitalning “qimmatliligi” shundan iboratki, bank o‘z kapitalini shakllantirish va uning miqdorini oshirib borish maqsadida oddiy aksiyalarni chiqarish, ularni moliyaviy bozorlarda joylashtirish va ushbu jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlarni amalga oshiradi. Ushbu jarayon tijorat banki xarajatlarining oshishiga va foydasining kamayishiga olib keladi. Agar, xarajatlar evaziga moliya bozoriga sotish uchun taklif etilgan qimmatli qog‘ozlar xaridorini topmasa, ularning bahosi nominal qiymati miqdoridan ham tushib ketishi, bu esa o‘z o‘zidan bank kapitali miqdorining oshishiga emas, balki iqtisodiy qiyinchiliklarga duchor bo‘lishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METADALOGIYASI

Tadqiqot maqsadi banklararo raqobat sharoitida tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish orqali banklar barqarorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Mavzuni tahlil qilish jarayonida jadvallar va diagrammalarni jamlash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari kapitali barqarorligini oshrishda iqtisodiy mexanizmlar bevosita ta’sir etadi. Mazkur iqtisodiy mexanizmlarni bozor mexanizmlariga va davlatning iqtisodiyotni boshqaruv mexanizmlariga guruhlashimiz mumkin.

Xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari depozit sertifikatlari va aksiyalarini qimmatli qog‘ozlar bozorida oldi-sotdisiga bozorning asosiy mexanzmlari hisoblangan talab va taklif bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qimmatli qog‘ozlar bozorida bank aksiyalari va depozit sertifikatlari bahosi talab va taklif asosida aniqlanadi. Mazkur dastak banklar bozorga taklif etayotgan qimmatli qog‘ozlarga investor, aksiyador va omonatchilarning talabidan kelib chiqqan holda shakllangan kelishuv narxini aniqlash asosida iqtisodiyotda qimmatli qog‘ozlarning bozor bahosini aniqlaydi. Darhaqiqat, talab va taklif bozor iqtisodiyotining muhim kategoriyalari sifatida uning ishtirokchilari (ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar) o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Mazkur masalaning dolzarbligiga alohida e’tiborni qaratib, shuni qayd etish mumkinki, hozirgi bosqichda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, uning o‘z-o‘zini muvofiqlashtirishida talab va taklif asosidagi bozor mexanizmlaridan keng foydalanish, xo‘jalik yurituvchi korxonalarga mustaqillik berish, raqobat muhitini yaratish, davlatning, turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlarning korxonalar xo‘jalik faoliyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan iqtisodiyot sharoitida, banklar qimmatli qog‘ozlari realizatsiyasi nuqtayi nazaridan, talab qonunining amal qilishini quyidagi holatlarda ko‘rishimiz mumkin:

1. Talab qonuniga ko‘ra, bank qimmatli qog‘ozlari bahosining pasayishi ularga bo‘lgan talab hajmini oshiradi. Chunki investor, aksiyador va omonatchilar uchun asosiy muammo qimmatli qog‘ozlar bahosi hisoblanadi. Biroq, ayni paytda ta’kidlash joizki, tijorat banklari qimmatli qog‘ozlariga investor, aholi va omonatchilarning ishonchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanib, ularning asosiy e’tibori bank qimmatli qog‘ozlariga yo‘naltirilgan mablag‘larni to‘liq va qo‘shimcha foyda bilan qaytishiga qaratiladi.

5 Трахтенберг .И.Денежное обращение и кредит при капитализме. – Москва.: 1962. –С.548.
6 Marks K. Kapital. Siyosiy iqtisod tanqidi.-Moskva :TZ, 1989-B 442.
7 Усоскин В.М. Современный коммерческий банк:Управление и операции. –М: “Вазар-Ферро”,1994.С.92.
8 Банковское дело. Под.редд-ра.эконом.наук. Ловрушин О.И. – М.: “Ф и С” 2005. (3-изд) – 206 ст.
9 Банковское дело. Под.редд-ра.эконом.наук. Ловрушин О.И. – М.: “Ф и С” 2005. (3-изд) – 206 ст.
10 Крис Дж. Барлтроп и Диана МакНотон. Банковские учреждения в развивающихся рынках.Вашингтон,Д.С. , С.102.

2. Talab qonunining amaliyotda namoyon bo‘lishini daromad va almashtirishning nafliligida yaqqol kuzatish mumkin. Iste’molchi daromadining samaradorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, ya’ni unda mavjud bo‘lgan mablag‘ga bank qimmatli qog‘ozlarini mumkin qadar ko‘proq sotib olib, ehtiyojini yuqori darajada qondirsa, uning daromadining naflilik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Taklif egri chizig‘ining harakatiga ta’sir qiluvchi omillar xilma-xil bo‘lib, ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ta’kidlash maqsadga muvofiq:

- iqtisodiyotning rivojlanganlik va resurslarning mavjudlilik darajasi;
- investor, aholi va omonatchilarning bank qimmatli qog‘ozlariga ishonchlilik darajasi va ular bo‘yicha to‘lanadigan dividend to‘lovlari;
- moliya-kredit tizimining foiz stavkalari va ularning rivojlanganlik darajasi.

Demak, talab va taklif o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishiga turli omillar ta’sir qiladi. Lekin ular doimiy ravishda ma’lum nisbatda harakatda bo‘ladi.

Moliya va fond bozorlarida qimmatli qog‘ozlar bahosini shakllanishida iqtisodiy qonunlar, ya’ni qiymat qonuni, talab va taklif hamda raqobat qonuni alohida o‘rin tutadi. Ushbu qonunlarning harakatlantiruvchi kuchi – investor, aholi, omonatchi va tijorat banklari qimmatli qog‘ozlari oldi-sotdi jarayonining to‘xtovsizligini ta’minlovchi vosita sifatida baho va dividend to‘lovi maydonga chiqadi. Baho qimmatli qog‘ozlar qiymatining puldagi ifodasi hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlarning qiymati va ularning nafliligi bahoda namoyon bo‘ladi. Aksiya va depozit sertifikatlarning qiymati tijorat banklarini, naflilik esa investor, aholi, omonatchilarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

1-jadval: O‘zbekiston tijorat banklari xususiy kapitalining Hajmi bo‘yicha guruhlanishi va dinamikasi[11] (1-yanvar holatiga, foiz hisobida)

Mlrd so‘m hisobida	2017		2018		2019		2020		2021	
	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %
100 milllard so‘mgacha	13	10,9	9	2,4	2	0,7	5	1,1	1	0,2
100 milllarddan 300 millard so‘mgacha	9	26,5	10	12,1	14	5,9	10	3,6	14	4,3
300 milllarddan 500 millard so‘mgacha	2	13,1	1	1,8	3	4,5	4	3,4	5	3,9
500 milllarddan 1trillion so‘mgacha	2	25,8	2	8,8	4	14,9	3	5,7	4	7,0
1trillion so‘mdan 2 trilloin so‘mgacha	1	23,6	3	21,2	3	21,8	2	6,5	2	7,8
2 trillion so‘m va undan yuqori	-	-	3	53,7	3	52,2	6	79,6	6	76,7
Jami	27	100	28	100	29	100	30	100	31	100

Regulyativ kapitali 100 mlrd so‘mdan 300 mlrd so‘mgacha bo‘lgan tijorat banklarining ulushi ortib borish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Umuman olganda, tahlil etilgan davr mobaynida respublikamiz tijorat banklari regulyativ kapitalining hajmi ortib borish holatiga ega bo‘lgan. Ta’kidlash lozimki, mazkur holatlar ijobiy holat sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari kapitali barqarorligiga iqtisodiy mexanizmalarning bevosita ta’siri mavjud bo‘lib, ularning ijobiy yoki salbiy holatda bo‘lishiga bozor mexanizmlari va davlatning aralashuv darajasiga bog‘liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ko‘rsatilgan tahlillardan kelib chiqib tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish uchun quyidagi yollardan foydalanish mumkin:

11 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistika ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

- tijorat banklari asosiy kapital tarkibida maxsus zaxiraning yuqoriligi va jami aktivlar tarkibida riskka tortilgan aktivlar ulushining pastligi regulyativ kapital va asosiy kapital bo‘yicha qo‘yilgan talablarni yuqori darajada bajarish imkoniyatini bermoqda;
- tijorat banklari kapitali barqarorligini oshirishda emission daromad va taqsimlanmagan foyda muhim o‘rin tutadi. Shu bois mamlakatimiz tijorat banklari ushbu manbalarni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Xususan, tijorat banklari kapitali tarkibida emission daromad manbasini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishish maqsadida emission daromadlar hisobidan berilayotgan kreditlardan olinayotgan daromadlarni soliq bazasidan chegirib tashlash, vujudga kelgan qo‘shimcha mablag‘ni dividend sifatida aksiyadorlarga to‘lashni yo‘lga qo‘yish, asosiy kapitali tarkibida emission dromadlarining ulushi 5 foizdan yuqori bo‘lgan tijorat banklariga birinchi darajali kapitalning yetarliligiga qo‘yilgan talablar bo‘yicha tegishli imtiyozlar berish maqsadga muvofiq;
- mamlaktimiz tijorat banklari kapitali tarkibida emission daromadlar manbasi mavjud bo‘lmagan. Shu bilan birga, maxsus zaxira tarkibida devalvatsiya zaxirasi asosiy salmoqni egallab turibdi, taqsimlanmagan foyda va joriy yilning sof foydasi sezilarsiz ulushni tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 6-iyuldagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2693-sonli Nizomi.
2. Смит А. Исследование о природе и причинах богатств народа. – Петрозаводск.: 1993. – С.271.
3. Маркс.К.Капитал. Критика политической экономики. –Т3 КН 2 М.: 1989. – С.442.
4. Трахтенберг .И.Денежное обращение и кредит при капитализме. – Москва.: 1962. – С.547.
5. Трахтенберг. И.Денежное обращение и кредит при капитализме. – Москва.: 1962.-С.548.
6. Marks K. Kapital. Siyosiy iqtisod tanqidi.–Moskva .:TZ, 1989-B 442.
7. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк:Управление и операции. –М: “Вазар-Ферро”,1994.С.92.
8. Банковское дело. Под.редд-ра.эконом.наук. Ловрушин О.И. – М.: “Ф и С” 2005. (3-изд) – 206 ст.
9. Банковское дело. Под.редд-ра.эконом.наук. Ловрушин О.И. – М.: “Ф и С” 2005. (3-изд) – 206 ст.
10. Крис Дж. Барлтроп и Диана МакНотон. Банковские учреждения в развивающихся рынках.Вашингтон,Д.С., С.102.
11. cbu.uz. –Markaziy bank sayti.

O‘ZBEKISTONDA FISKAL VA MONETAR SIYOSATNI MUVOFIQLASHTIRISH AMALIYOTINING INSTITUTSIONAL TAHLILI

Hakimjon Hakimov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqola O‘zbekiston Respublikasida budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish amaliyotini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqola muallifi mavjud muvofiqlashtirish mexanizmlarining samaradorligini batafsil o‘rganadi va baholaydi hamda ularni takomillashtirishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini taklif qiladi. Muallif O‘zbekistonda fiskal va monetar siyosat samaradorligini oshirishga yordam beradigan muvofiqlashtirish mexanizmlarini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Kalit so‘zlar: fiskal siyosat, monetar siyosat, siyosatni muvofiqlashtirish, institutsional tahlil, makroiqtisodiy barqarorlik, Markaziy bankning mustaqilligi, iqtisodiy boshqaruv.

Abstract: The article is devoted to the analysis of the practice of coordination of fiscal and monetary policy in the Republic of Uzbekistan. The author of the article study and evaluate in detail the effectiveness of existing coordination mechanisms and suggest possible ways to improve them. In conclusion, the author formulate recommendations for optimizing coordination mechanisms that can help improve the efficiency of fiscal and monetary policy in Uzbekistan.

Key words: fiscal policy, monetary policy, policy coordination, institutional analysis, macroeconomic stability, autonomy of the Central Bank, economic management.

Аннотация: Статя посвящена анализу практики координатсии фискалной и монетарной политики в Республике Узбекистан. Автор стати детално изучают и отсенивают эффективност существующих механизмов координатсии и предлагают возможные пути их усовершенствования. В заключение автор формулируют рекомендатсии по оптимизатсии механизмов координатсии, которые могут способствоват повышению эффективности фискалной и монетарной политики в Узбекистане.

Ключевые слова: фискалная политика, монетарная политика, координатсия политик, институтсионалный анализ, макроекономическая стабилност, автономия сентралного банка, экономическое управление.

KIRISH

Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va barqaror iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu siyosatlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ular faoliyat yuritadigan institutsional asosga, jumladan, muvofiqlashtirish mexanizmlariga, boshqaruv vositalaridan foydalanishga va tartibga soluvchilarning avtonomligiga bog‘liq.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish sohasida bir qator muammolarga duch kelgan muhim iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu jarayon hozirgacha nisbatan kam o‘rganilgan bo‘lib, bu esa uni tadqiq etish ahamiyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonda makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishning institutsional asoslari qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Ularda fiskal va monetar siyosatnining umumiy hamda xususiy masalalari, vakolatli idoralarning vazifa va funksiyalari, idoralarning birgalikdagi sa’y-harakatlarining asosiy yo‘nalishlari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 115-moddasi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasiga binoan “Vazirlar Mahkamasi samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va budjet siyosati amalga oshirilishi, ilm-fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga doir dasturlarning ishlab chiqilishi hamda bajarilishi uchun javobgar” bo‘lishi belgilangan [1, 2].

“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasida pul-kredit siyosatini, shu jumladan valyuta siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish Markaziy bankning asosiy vazifasi sifatida belgilangan [3].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda Hukumat va Markaziy bankdan o‘zaro muvofiqlashgan fiskal va monetar siyosat yuritish taqazo etiladi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son Farmoni esa fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish bo‘yicha amaliyotni yangi bosqichga olib chiqdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada fiskal va monetar siyosatlarni muvofiqlashtirish amaliyotini tavsifiy tahlil, taqqoslash, vaziyatli tahlil va institutsional tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tadqiqotlar amaliyotda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish bo‘yicha yagona yondashuvni ishlab chiqishga muayyan ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda. Buning obyektiv sabablarini izohlashga harakat qilamiz.

“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunning 51-moddasida Markaziy bank hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati pul-kredit va soliq-budjet siyosati sohasida hamkorlik qilishi ta’kidlangan [3]. Bunda, Markaziy bank va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining iqtisodiy siyosat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan mo‘ljallanilayotgan harakatlar hamda erishilgan natijalar to‘g‘risida bir-birini xabardor qilishi va muntazam ravishda maslahatlashuvlar o‘tkazishi shartligi hamda Markaziy bank o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining iqtisodiy siyosati amalga oshirilishiga, uning asosiy maqsadlariga ziyon yetkazmagan holda, ko‘maklashishi belgilab qo‘yilagan.

Biroq, qonunchilikda Markaziy bank hamda Hukumat o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi va ziddiyatlarni hal qilish masalalari deyarli belgilanmagan. Shu sababli, amaldagi holatda manfaatlar to‘qnashuvi ko‘proq Hukumat tomonga yon bosadi.

Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirishning asosiy shartlaridan biri bu - har ikki siyosatning o‘z ichki bo‘g‘inlarida o‘zaro uyg‘unlikning, yaxlitlikning mavjud bo‘lishidir. Bu eng avvalo fiskal siyosat bilan bog‘liq muammo hisoblanadi.

O‘zbekistonda fiskal siyosatning yaxlitligini ta’minlash uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, budjet tizimida konsolidatsiyalashgan budjet tizimiga to‘liq o‘tilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 46-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga quyidagilar kiritilgan [5]:

- davlat budjeti;
- davlat maqsadli jamg‘armalarining budjetlari (2023 yil 1 oktabr holatiga 23 ta);
- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari.

2020-yil 1-yanvardan boshlab davlat maqsadli jamg‘armalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari g‘aznachilik ijrosi bilan to‘liq qamrab olinishini ta’minlanib, davlat maqsadli jamg‘armalarining daromadlari va xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kiritildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining “Budjet jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-590-sonli Qonuni 3-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 3-moddasi yigirma oltinchi va yigirma yettinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, unda “umumiy fiskal balans” tushunchasi kiritilgan [6].

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari tuzilishi

T/r	Ko‘rsatkichlar
I.	Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari
1.	Davlat budjeti daromadlari (budjetlararo transfertlarni hisobga olmagan holda)
2.	Davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlari (budjetlararo transfertlarni hisobga olmagan holda)
3.	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tushumlar

4.	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalariga tushumlar
II.	Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari
1.	Davlat budjeti xarajatlari (budjetlararo transfertlarni hisobga olmagan holda)
2.	Davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari (budjetlararo transfertlarni hisobga olmagan holda)
3.	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining sarflanishi (budjetlararo transfertlarni hisobga olmagan holda)
4.	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larining sarflanishi
III.	Davlat maqsadli jamg‘armalariga transfertlar
IV.	Davlat budjetiga transfertlar
V.	Konsolidatsiyalashgan budjet saldosi (profitsit +, defitsit -)
VI.	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar
VII.	Umumiy fiskal balans (profitsit +, defitsit -)
VIII.	Davlat qarzlarini so‘ndirish

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi (O‘zR 26.12.2013-y. O‘RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan). O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz) – ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Qonunchilikka ko‘ra, umumiy fiskal balans – bu O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetini hamda davlat dasturlarini amalga oshirish uchun chetdan jalb qilingan va O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan qarz mablag‘lari evaziga amalga oshiriladigan xarajatlarni o‘z ichiga olgan jamlanma balans hisoblanadi [5].

“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga ko‘ra, Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, boshqa davlat organlariga va tashkilotlariga, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining taqchilligini moliyalashtirish uchun kreditlar yoki moliyaviy yordam bermasligi belgilangan .


Qonunning 54-moddasida esa Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining fiskal agenti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga davlatning qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va davlat qarzini qaytarish jadvali hamda hajmi masalalari yuzasidan ularning bank tizimi likvidliligiga ta’siri va pul-kredit siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda maslahat berish vazifasi o‘rnatilgan [3].

Amaliyotda, O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasi statistikasini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun 2020-yildan boshlab davlat qarzlarini (asosiy qarz) so‘ndirish bo‘yicha xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari tarkibiga kiritilmayapti.

Bu esa o‘z navbatida “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasi talablarini yanada qat’iylashtirish zarurati mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, davlat qarzlarini (asosiy qarz) so‘ndirish bilan bog‘liq masalalarda Markaziy bank bilan bog‘liq moliyaviy, huquqiy munosabatlarni takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son Farmoni [4] bilan Inflyatsiya darajasini pasaytirish va narxlar barqarorligini ta’minlash borasidagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha komissiya (Muvofiqlashtirish komissiyasi) tashkil etilib, unga bir qator vazifalar, jumladan barcha vazirlik va idoralar sa’y-harakatlarini iqtisodiyotda inflyatsiya darajasini pasaytirish hamda amalga oshirilayotgan siyosatning o‘zaro muvofiqligini ta’minlashga qaratish yuklangan. Muvofiqlashtirish komissiyasining tasdiqlangan tarkibiga ko‘ra, komissiyaning rahbari lavozimi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi (Prezident administratsiyasi), Komissiya rahbari o‘rinbosarlari esa mos ravishda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari (Hukumat) hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi (Markaziy bank) hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy bankga “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida tarkibiy islohotlar asosiy yo‘nalishlarining “Yo‘l xaritasi”ni amalga oshirishni ta’minlash bo‘yicha Iqtisodiy kengash” yig‘ilishlarida soliq-budjet va pul-kredit siyosati muvofiqligi hamda tarkibiy islohotlarning amalga oshirilishi holati masalalarini ko‘rib chiqish va muhokama qilishni ta’minlash topshirilgan.



1-rasm: Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish bo‘yicha institutsional tuzilma (yuqorida- amaldagi holat, quyida – taklif etilayotgan variant)

Manba: Muallif ishlanmasi.

Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son Farmoniga [7] ko‘ra, 2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida tarkibiy islohotlar asosiy yo‘nalishlarining “Yo‘l xaritasi” ni amalga oshirishni ta’minlash bo‘yicha Iqtisodiy kengash tashkil etilgan bo‘lib, uning raisi lavozimi bo‘yicha Hukumat rahbari hisoblanadi (1-rasm, yuqori qismi).

Bu esa, o‘z navbatida fiskal va monetar siyosatni muvofiqligini ta’minlash va uni monitoring qilish bo‘yicha muvozanatlar tengsizligining yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Shu sababli Iqtisodiy Kengashning fiskal va monetar siyosatni muvofilashtirish borasidagi ijroiya vakolatlarini Muvofiqlashtirish bo‘yicha komissiyaga, bu boradagi nazorat va monitoring funksiyalarini Parlamentning tegishli qo‘mita yoki komissiyasiga o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-rasm, quyi qismi).

Umuman olganda, mamalakatda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlardan xulosa qilish mumkinki, fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish bo‘yicha yetarlicha huqiqiy shart-sharoit yaratilgan hamda uni yanada takomillashtirish mumkin.

Shuningdek, mamlakatda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish bo‘yicha iqtisodiy shart-sharoitlarni tahlil qilsak, so‘nggi yillarda bu borada ham qator islohotlar amalga oshirilganiga guvoh bo‘lamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirishda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, muqobil vosita va mexanizmlarni tanlash uchun iqtisodiy ma’lumotlarning to‘g‘riligi va shaffofligi juda muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy banki fiskal va monetar siyosatlarni muvofiqlashtirish hamda iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda birgalikdagi harakatlarni olib bormoqda:

1. Soliq-budjet siyosati sohasida:

- budjet taqchilligini me’yoriy darajada bo‘lishini ta’minlash;
- budjet intizomi bo‘yicha samarali nazoratni ta’minlash;
- defitsitni moliyalashtirishning tashqi manbalarini belgilash va uni qonun yo‘li bilan mustahkamlash;

- markazlashgan investitsiyalar samaradorligini oshirish;
- soliq ma'muriyatchiligi va soliq intizomini takomillashtirish.

2. Tarkibiy siyosat sohasida:

- ishlab chiqarish va transport infratuzilmasini yangilash va kengaytirish:
- raqobat muhitini yaxshilash hamda biznes yuritishga teng imkoniyatlarini yaratish:
- xususiy investitsiyalarning ko'payishi va moliya bozorining rivojlanishi:
- ishlab chiqarish omillari unumdorligini oshirish.

Shu bilan birga, O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni yanada samarali muvofiqlashtirish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

- fiskal va monetar organlar orasida ma'lumotlar almashinuvi va shaffoflikni oshirish;
- iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash;
- Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi mustaqilligini yanada kuchaytirish;
- davlat xarajatlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirish;
- aniq va ishonchli iqtisodiy ma'lumotlarga asoslangan makroiqtisodiy prognozlash tizimini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).
2. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonun. (O'zR 10.12.2019 y. O'RQ-591-son Qonuni bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).
3. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun. (O'zR 11.11.2019-y. O'RQ-582-son Qonuni bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" gi 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).
5. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi (O'zR 26.12.2013-y. O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).
6. O'zbekiston Respublikasining "Budjet jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2019-yil 9-dekabrdagi O'RQ-590-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI KREDIT FOIZ STAVKASINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI



Umurzoqova Adiba Ochilovna
Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bankning daromad darajasini oshirish – uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilganligiga, ya’ni bankning kredit siyosatining mustahkamligi va bankning barqarorligiga bog‘liq. Demak, bank kredit siyosatini to‘g‘ri tashkil etish uning samarali faoliyatidagi asosiy masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Tijorat banki, resurs bazasi, bankning o‘z mablag‘lari, zahira kapitali, qo‘shimcha kapital, zahiralar, likvidlik.

Abstract: Increasing the bank’s income level depends on the correct organization of its activities, that is, the strength of the bank’s credit policy and the stability of the bank. Therefore, the correct organization of the bank’s credit policy is one of the main issues in its effective operation.

Key words: Commercial bank, resource base, bank’s own funds, reserve capital, additional capital, reserves, liquidity.

Аннотация: Повышение уровня доходов банка зависит от правильной организации его деятельности, то есть от силы кредитной политики банка и устойчивости банка. Поэтому правильная организация кредитной политики банка является одним из главных вопросов его эффективной работы.

Ключевые слова: Коммерческий банк, ресурсная база, собственные средства банка, резервный капитал, добавочный капитал, резервы, ликвидность.

KIRISH

Foiz siyosati nafaqat pul-kredit boshqaruvida asosiy komponent vazifasini bajaradi, balki kredit muomalasini boshqarishda iqtisodda ustuvor ham hisoblanadi.

Bank foizining turli xil formalari mavjud bo‘lib ular: depozit foizi ko‘rinishida, ssuda foizi bo‘yicha, shu bilan birlikda banklararo kreditlar, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha investitsiya foizlari va boshqalar.

Ssuda kapitali bozorining turli sektorlari xususiyatlaridan kelib chiqib bir turdagi foiz stavkalari (bank va nobank) ning bir necha guruhini ajratish mumkin:

- Kredit muassasalari o‘rtasidagi qisqa muddatli kredit operatsiyalarida qo‘llaniladigan pul bozori stavkasi;
- Qayta moliyalashtirish stavkasi;
- Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi (birlamchi va ikkilamchi bozor) stavkalar;
- Bank va boshqa kredit muassasalarining nobank tashkilotlariga va jismoniy shaxslar uchun foiz stavkalari.

Kreditning asosiy sharti - bu undan vaqtinchalik foydalanganlik uchun haq to‘lash. Bu haq kredit summasiga nisbatan foiz hisobida olinadi va u kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Kreditning foiz stavkasi pul bozorida amal qiladi. Bozorga chiqarilgan pulning bahosi foiz bo‘ladi. Boshqa tovarlardan farqlirok qarz pulining narxi - bu uning ma’lum to‘lov ehtiyojini qondirishdek xossasidan foydalanilganlik uchun beriladigan haq bo‘ladi. Qarz puli kapital sifatida yoki odatdagi to‘lov yoki xarid vositasida ishlatiladi. Shuning uchun ham qarzdor shaxs pul egasiga foiz stavkasini to‘laydi.

Iqtisodiyotda kreditga bo‘lgan talab ko‘p omillarga bog‘liq. Birinchidan, kreditga bo‘lgan talab mamlakatdagi baholar darajasi bilan funksional bog‘liqlikka ega. Iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar bahosi ko‘tarilishi sharoitida, subyektlar qo‘shimcha mablag‘ga muhtoj bo‘ladi. Chunki ishlab chiqarish uchun zarur tovar va xizmatlar bahosi oshishi qo‘shimcha mablag‘ni talab etadi. Bunday holatda tashqi moliyalash manbalariga, xususan bank kreditlariga talab ortadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanish darajasi, fan-texnika taraqqiyoti, texnologik jarayonlarning takomillashuvi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi kabilar ham pul mablag‘lariga bo‘lgan talabning oshishiga olib keladi.


Ikkinchidan, kreditga bo‘lgan talab jamiyatda olinadigan daromad bilan funksional bog‘liqdir. Mamlakatdagi uy xo‘jaliklari va yirik firmalar tadbirkorlik faoliyatidan olinadagan daromad darajasining o‘sishi yoki daromad me’yorining oshishi bank kreditlarini olishga moyillikni oshiradi. Shunday ekan, kreditga bo‘lgan talab daromad o‘zgarishiga nisbatan proporsional ravishda o‘zgarib boradi.

Kredit taklifi pul bozorlarida moliyaviy vositachilar yoki kreditorlar tomonidan pul mablag‘larining taklifiga bog‘liq. Kredit resurslari bozoridagi taklif darajasi ham bir qator omillarga bog‘liq holda shakllanadi. Bulardan eng asosiysi, jamiyatda yangidan hosil bo‘lgan qiymatning jamg‘armaga atalgan qismining oshib borishi, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarda vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larining ortib borishi hamda ularning bank aylanmasiga jalb etish darajasi.

Aktiv va passiv operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalari bir-biridan farqlanadi, lekin ular orasida juda yaqin aloqa va bog‘liqlik mavjudki, bu bizga foiz stavkalarining umumiy strukturasi haqida gapirishga imkon beradi. Masalan, agar depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari pasayish tendensiyasiga ega bo‘lsa kreditlar bo‘yicha undiriladigan foizlar ham pasayadi. Moliya bozori qanchalik rivojlangan bo‘lsa, ushbu bog‘liqlik shuncha kuchli bo‘ladi. Moliya bozori qanchalik murakkablashib, raqobat kuchaysa, ushbu riskning bank moliyaviy boshqaruvidagi ahamiyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Tijorat banklari foiz siyosatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish va uni tahlil qilish foiz stavkalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida keltirilgan rasmda foiz stavkalar shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni tasnifini keltirib o‘tamiz.

Banklarning kreditlar bo‘yicha foiz stavkasini belgilash ularning asosiy faoliyatida samaradorlikni belgilaydi va natijada ularning moliyaviy asoslarining barqarorligiga, kapital mablag‘larini to‘plash orqali ta’sir qiladi. Shuning uchun kredit foiz stavkalarini belgilash banklarning alohida eng muhim qarorlaridan biri hisoblanadi.



1-rasm: Foiz stavkalariga ta’sir qiluvchi omillar tasnifi[1]

1 Muallif tomonidan tuzuldi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ushbu rasmda foiz stavkasiga ta'sir qiluvchi umumiy va xususiy omillarga tasniflanishini ko'rib chiqdik. Unga muvofiq umumiy omillar makro darajadagi ko'rsatkichlar o'zgarishlarini o'zida ifoda etadi. Xususiy omillar esa, bank kredit operatsiyasini amalga oshirish tartib-qoidalari, resurslar qiymati va mijozlar bilan sherikchilik munosabatlarini ifodalaydi.

Bundan tashqari, bank kreditlarining foiz stavkalarini qanday belgilaganligi, moliyaviy tizimda markaziy rol o'ynaganligi sababli, pul-kredit siyosatining samaradorligining muhim hal qiluvchi omilidir. Shu sabablarga ko'ra, banklarning kreditlar bo'yicha foiz stavkasini aniqlash xatti-harakatlarini tahlil qilish, bank operatsiyalarini monitoring qilish va pul siyosatini uzatish kanallarini tushunish uchun foydalidir.

Ko'pgina mavjud tadqiqotlar banklarning foiz stavkasini belgilashdagi xatti harakatlari foiz stavkasini o'tish istiqbolidan o'rganib chiqiladi va bu kredit foiz stavkalarining, bozor foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirini tekshiradi. Shuningdek, banklarning kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, bozor foiz stavkalari o'zgarishlariga asta-sekin javob berishga qodir ekanligini e'tirof etadi, bu esa kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining bog'liqlik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Qisqa muddatda, bozor foiz stavkalari ortib borayotganiga qaramay, banklar har qanday sabablarga ko'ra qarzdorlik budjetini moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirishga harakat qilishadi, hatto bunday xatti-harakatlar ularning foiz stavkalarini belgilashda ham nomoyon bo'ladi.

Kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilash vaqtida resurslar qiymati, kreditga xizmat ko'rsatish bo'yicha tahmin etilayotgan xarajatlar, vositachilik va ma'muriy xarajatlar, ushbu kredit bo'yicha xarajatlarning ortishiga olib keluvchi ehtimoliy xatarlar va bank foydasi hisobga olinadi.

Kredit xizmatlari uchun to'lovlarni belgilashda bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Foiz siyosati va Ta'riflardan foydalaniladi.

Tijorat banklari aktivlarining daromadliligi va likvidliligiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxira talabnomasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining aktivlarini ularning likvidlilik darajasini pasayib borishi tamoyiliga asosan shakllantirish xalqaro bank amaliyotida mavjud bo'lgan aktivlarni shakllantirish tartibidan sezilarli darajada farq qiladi.

6-jadval: Chet el valyutasidagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalar[2], (yillik hisobda)

Kredit muddati va turi	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Jami kreditlar bo'yicha	7,5	7,1	6,4	8,2
shu jumladan:				
Qisqa muddatli kreditlar	6,9	7,5	6,7	8,3
- 60 kungacha	0,5			
- 61 kundan 90 kungacha		9,3	3,6	9,5
- 91 kundan 180 kungacha		7,5	6,2	5,9
- 181 kundan 365 kungacha	7,0	7,4	6,8	8,4
Uzoq muddatli kreditlar	7,7	6,8	6,2	8,1
- 1 yildan 2 yilgacha	7,9	7,2	6,6	8,8
- 2 yildan 3 yilgacha	10,7	8,2	6,8	8,5
- 3 yildan 4 yilgacha	8,0	7,3	5,4	9,0
- 4 yildan 5 yilgacha	6,6	6,8	7,3	8,4
- 5 yildan 10 yilgacha	6,1	4,9	5,7	7,0
- 10 yildan yuqori	4,0	2,8	2,6	5,0

Oxirgi to'rt yillik statistikaga qaraydigan bo'lsak, oxirgi uch yillikida 60 kungacha bo'lgan qisqa muddatli kredit deyarli berilmagan. Qisqa muddatli kreditlar jami 1.6% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Uzoq muddatli kreditlar esa 1,9 % ga ortib jami 8,1 foizni tashkil etgan. Uzoq muddatli kreditlar ichida 2 yildan 3 yilgacha bo'lgan kreditlar foizi payaganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

2 https://cbu.uz/uz/statistic - saytidan muallif tomondan olib tayyorlandi

7-jadval: Milliy valyutasidagi kreditlar bo‘yicha foiz stavkalar[3], (yillik hisobda)

Kredit muddati va turi	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Jami kreditlar bo‘yicha	25,8	20,8	21,5	22,2
shu jumladan:				
Qisqa muddatli kreditlar	25,7	21,3	22,1	21,1
- 60 kungacha	23,9	20,7	21,3	21,9
- 61 kundan 90 kungacha	25,9	18,9	22,5	20,8
- 91 kundan 180 kungacha	24,8	20,1	20,8	20,6
- 181 kundan 365 kungacha	25,8	21,4	22,2	21,1
Uzoq muddatli kreditlar	25,8	20,6	21,1	22,7
- 1 yildan 2 yilgacha	25,2	21,9	22,2	22,9
- 2 yildan 3 yilgacha	27,8	21,4	22,8	23,6
- 3 yildan 4 yilgacha	24,3	22,0	23,4	24,8
- 4 yildan 5 yilgacha	21,6	18,9	21,0	23,0
- 5 yildan 10 yilgacha	19,5	18,5	17,0	22,9
- 10 yildan yuqori	17,9	17,0	17,3	17,5

Milliy valyutadagi kreditlarning foiz stavkasio‘zgarishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qisqa muddatli kreditlarda umumiy oxirgi to‘rt yillikda pasayish tendensiyasiga erishgan ya’ni 25,7 foizdan 21,1 foizga tushgan. Uzoq muddatli kreditlar ham 25,8 foizdan 22,7 foizgacha pasaygan. Uzoq muddatli kreditlar ichida asosiy pasayish - 2 yildan 3 yilgacha bo‘lgan oraliqdagi kreditlarga to‘g‘ri kelmoqda ya’ni 27,8 foizdan 23,6 foizgacha pasaygan.

Respublikamiz tijorat banklarining aktivlari tarkibida salmog‘iga ko‘ra birinchi o‘rinni kreditlar, ikkinchi o‘rinni kassali aktivlar, uchinchi o‘rinni asosiy vositalar, so‘nggi, to‘rtinchi o‘rinni esa, qimmatli qog‘ozlar shaklidagi aktivlar egallaydi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida esa, kreditlardan keyingi ikkinchi o‘rinni qimmatli qog‘ozlar shaklidagi aktivlar egallaydi, kassali aktivlar esa, aktivlarning tarkibida uchinchi o‘rinda turadi.

Har bir mamlakatda foiz stavkasi iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqlikda belgilanadi. Bu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, aynan mazkur mamlakatda inflyatsiya darajasi pasayishi makrodarajadagi barqarorlikning omili sifatida moliya bozorlarida nominal foiz stavkasi va tijorat banklarining foiz siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida mablag‘larni yig‘ib, ularni, o‘z marjasini qo‘shgan holda, aktiv operatsiyalarga joylashtiradi. Banklarning aktiv va passivlari o‘zaro uzviy bog‘liqlik bo‘lib, ularning muvofiqligini ta’minlash strategik maqsad hisoblanadi. Bu o‘rinda, moliya bozorining rivojlanish darajasi bog‘liqlik kuchayishiga omil bo‘ladi. Moliya bozorida murakkablashuv va raqobat qanchalik kuchaysa, bank moliyaviy boshqaruvida foiz riskining ahamiyati shunchalik yuqorilashadi.

Mamlakatda inflyatsiya darajasini pasaytirish bilan makrodarajadagi barqarorlikka erishiladi hamda moliya bozorlarida nominal foiz stavka va tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bo‘yicha stavkalar ham pasayadi. So‘nggi yillarda inflyatsiya darajasining jilovlanishi tijorat banklarining depozit va kredit foiz stavkalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xususan, tijorat banklari tomonidan kredit va depozitlar bo‘yicha o‘rnatilayotgan foiz stavkalari hamda banklararo pul bozoridagi foiz stavkalari pasayib bormoqda. Har bir mamlakatda foiz stavkaning shakllanishi bosqichi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Markaziy bank moliya bozoridagi operatsiyalari orqali foiz stavkaning shakllanishiga tezkor ta’sir ko‘rsatadi. Moliya bozorlaridagi operatsiyalar bo‘yicha bitimlarni amalga oshirish orqali tijorat banklarida likvid aktivlarni boshqarishga erishiladi. Bunda tijorat banklarining daromad keltiradigan aktivlarini segmentlash hamda bank aktivlari sekyuritizatsiya qilinishiga erishiladi.

Foiz stavkasining shakllanishiga xizmat qiluvchi asosiy tamoyillar sifatida quyidagilarni ko‘rish mumkin:

1. Pul bozorida foiz stavkalari tebranish intervalining shakllanishi. Operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalarini muvofiqlashtirishda Markaziy bank iqtisodiyotda ishlab chiqarish sur’atini va jamg‘armalarni ko‘paytirishni, milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan jozibadorligini oshirishni ta’minlash nuqtainazaridan kredit-depozit bozoridagi aniq bir stavkani shakllantirishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu maqsadga bank tizimining likvidliligini ta’minlovchi foiz stavkalarining instrumentlar bo‘yicha quyi va yuqori stavkalarni o‘rnatish bilan erishiladi. Bu holatda bank tizimidagi foiz stavkasining tebranish intervali shakllanadi va ko‘zlangan maqsadlarga erishishda qo‘l keladi.

3 https://cbu.uz/uz/statistic - saytidan muallif tomondan olib tayyorlandi

2. Haqiqiy ma'noda likvidlilikni ta'minlash. Pul-kredit siyosatining strategik maqsadi milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligini ta'minlash va himoyalashdan iborat. Aktivlar bo'yicha daromadlilik darajasini ijobiy holatda bo'lishini ta'minlash milliy pul birligining zaruriy funksiyalarni, jumladan jamg'arma vositasi, qiymat o'lchovi va muomala vositalari vazifalarini bajarish uchun zaruriy shart bo'lib hisoblanadi.

Foiz stavkaning optimal bo'lishi mamlakatdagi pul-kredit tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirib faoliyat yuritayogan banklarning operatsiyalar bo'yicha daromadligini, aholi pul jamg'armalarini keng jalb qilish va mijozlarning pul oqimlari riskini kamaytirish kabi maqsadlarga erishishda qo'l keladi.

Tijorat banklarida kredit qo'yilmalari qadrsizlanishi va inflyatsiya ta'sirini korrektirovka qilishni joriy qilish. Ma'lumki inflyatsiya sharoitida bank aktivlari qadrsizlanib ular qiymati pasayadi. Jumladan, bankning uzoq muddatli kreditlari qadrzsizlanishi yuqori bo'lib, kelajakda hatto o'zining dastlab berilgan vaqtdagi qiymatini qoplay olmasligi mumkin. Uzoq muddatli kreditlash amaliyotida kredit bahosining asosi hisoblangan foiz stavka va inflyatsiya darajasining o'zaro muvofiqligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Tijorat banklarida kredit qo'yilmalarini inflyatsiya ta'sirining oldini olish usularidan biri kreditlar suzuvchi stavkalarda taqdim etilishidir. Bizning fikrimizcha, tijorat banklarida qisqa muddatli kreditlarni qat'iy belgilangan foiz stavkalarda taqdim qilish mumkin.

Suzuvchi foiz stavkani qo'llash bankning foiz risklarini samarali boshqarishga yordam beradi. Tijorat banklari kreditlash amaliyotida suzuvchi foiz stavkalardan foydalanish inflyatsion yo'qotishlarning oldini olish va ularni kamaytirish bilan birga, bankning kelajakdagi pul oqimlar samarali boshqarishga zamin yaratadi.

Tijorat banklarida kreditlari bo'yicha kredit foizlarini mijozlar toifalari, kredit turlari va kreditlash usullariga muvofiq hisoblash tartibini hamda kreditlar bo'yicha to'lovlar turi va davriyligini ishlab chiqishi hamda kredit siyosatida aks ettirishi lozim. Tijorat banklarida mijozlarning toifalari va ularni kreditlash umullari kredit siyosatida aks ettiriladi. Demak, har bank mijozlar tarkibini o'rganishi va ularni kreditlash usulini belgilashi lozim. Bunday bo'linish ikkita guruhga, yuridik va jismoniy shaxslarga ajratish mumkin. Biz oldingi bo'limda ko'rib o'tganimizdek, kredit foizlarini hisobga olishning bir qator usullari mavjud (annuitet, tabaqalashtirilgan yoki kamayuvchi). Ushbu usullar kredit bo'yicha foizlar va asosiy qarz summasining qaytarilish tartibini aniqlab beradi.

Bunda kreditning asosiy summasi va u bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash davriyligi oldindan belgilab qo'yiladi. Kreditlar bo'yicha to'lovlarni qaytarilish tartibi ham kredit bahosining hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida ko'rib o'tgan har kredit asosiy qarzi va foiz to'lovlarini qay usulda to'lash tartibiga muvofiq, ularning yakuniy natijalari turlicha keltirib chiqariladi

Bizning fikrimizcha kredit operatsiyalari bo'yicha tabaqalashtirilgan usuldan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bu usul orqali har oylik amalga oshiriladigan to'lovlar orqali asosiy qarz qoldig'i kamayib boradi va foizlar qoldiq summaga nisbatan hisoblanadi. Ikkinchidan esa, bankning kredit riski kamayib boradi, ya'ni asosiy qarz summasi kamayib borishi risk darajasini tushiradi. Ba'zi hollarda mijozlar ushbu usul bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda boshlang'ich davrida qiyinchiliklarga duch kelib to'lovlarni kechiktirishlari mumkin.

Bu usulni jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotida qo'llash o'z samarasini beradi. Tijorat banklari kredit operatsiyalari bo'yicha foiz va asosiy qarz summasining qaytarilish tartibini milliy va xorijiy valyutada belgilashi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak banklarimiz berayotgan kreditlarning foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf etishda tashqi ta'sir kuchiga emas balkim ichki yani bankning ichki siyosatini tartibga solshga jiddiy e'tibor qaratishimiz kerak bu borada kredit siyosatini yaxshi tashkil etish zarur. Kredit partfelidagi kreditlarning jozibasini oshirish lozim bu borada bozardagi talab va taklifga kata e'tibor qaratish lozim.

Tijorat bankari beradigan kreditlarning foiziga tashqi ta'sirdan eng yuqori darajadagisi bo'lib inflyatisya darajasi hisoblanadi bu boradagi inflyatsiyani targetlash rejimining joriy qilinishi ya'ni: 2024 yilning oxirigacha inflyatsiyaning darajasini 5 fiozga tushirish orqali kreditning foiz darajasining tushishiga erishishimiz mumkin bu esa mijozlarning ishlab chiqarish tizimining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsata oladi.

Foiz stavkaning optimal bo'lishi mamlakatdagi pul-kredit tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirib faoliyat yuritayogan banklarning operatsiyalar bo'yicha daromadligini, aholi pul jamg'armalarini keng jalb qilish va mijozlarning pul oqimlari riskini kamaytirish kabi maqsadlarga erishishda qo'l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nafasov D. Bank risklarini boshqarishning zarurligi va asosiy mezonlari // Xalqaro moliya va hisob, Toshkent. №1, fevral, 2017.
2. www.lex.uz - Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan
3. www.stat.uz – The official website of the Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan
4. www.gov.uz - Government portal of the Republic of Uzbekistan
5. www.uba.uz - Official website of the Association of Banks of Uzbekistan
6. www.cbu.uz - The official website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan



KORXONALARNING INVESTITSIYA FAOLLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ RAG'BATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ilyasova Barno Axmadovna
TMI o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlari samaradorligi oshirish borasidagi muammolar hamda xo'jalik subyektlarining investitsion va tadbirkorlik faoliyatiga soliq imtiyozlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korxona, investitsiya, soliq imtiyozlari, investitsion faoliyat, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, soliq yuki, soliq mexanizmi, foyda solig'i, investitsion faollik.

Abstract: In the article, the problems of increasing the effectiveness of tax incentives in ensuring the investment activity of enterprises, as well as proposals for increasing the efficiency and effectiveness of tax incentives for investment and business activities of economic entities have been developed.

Key words: enterprise, investment, tax benefits, investment activity, production modernization, tax burden, tax mechanism, profit tax, investment activity.

Аннотация: В статье разработаны проблемы повышения эффективности налогового стимулирования в обеспечении инвестиционной деятельности предприятий, а также предложения по повышению эффективности и результативности налогового стимулирования инвестиционной и предпринимательской деятельности субъектов хозяйствования.

Ключевые слова: предприятие, инвестиции, налоговые льготы, инвестиционная деятельность, модернизация производства, налоговое бремя, налоговый механизм, налог на прибыль, инвестиционная деятельность.

KIRISH


Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, budjet daromadlari bazasini shakllantirish iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya faolligiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo'nalishida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish, shu bilan birga, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish belgilab berildi [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard AQSH dollari xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish, investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish, 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollariga teng investitsiya jalb etish choralarini ko'rish [2] belgilab olindi. Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi: iqtisodiyotda ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish sur'atlari, aholi turmush darajasi va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda esa ko'pincha coliq imtiyozlaridan foydalaniladi. Shuning uchun taqdim etilayotgan soliq imtiyozlarining iqtisodiyotga ta'sirini monitoring qilish mexanizmning mavjud emasligi, soliq imtiyozlarini taqdim etilishi hisobiga erishilgan natijadan kelib chiqib taqdim etilmasligi kabi muammolarni mavjudligi mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsion faollikni oshirishda soliq imtiyozlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy jihatlari ko‘plab iqtisodchi va siyosatchi olimlarning izlanishlarida tadqiq etilgan.

Investitsiya jarayoniga soliqlarning ta’sir etish muammolari bo‘yicha ingliz iqtisodchi olimi Jon Meynard Keyns (1883–1946) faol tadqiqotchi hisoblangan. Uning 1930-yildagi “Pullar haqidagi traktatida” investitsiyalar - jamg‘armalarga teng degan tezisni nomuvofiqligini asoslab bergan. Keync nazariyasining markaziy g‘oyasi soliqlar iqtisodiyotni tartibga solishning yagona vositasi ekanidan va uning muvaffaqiyatli rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biri ekanidan iborat bo‘lgan. Keynsning fikricha ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad, demak, iste’mol ortadi, ammo iste’mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan jamg‘arishga intilish kuchayadi. Uning asosiy psixologik qonuni shundan iboratki, odamlar odatda daromadlar ortishi bilan iste’molni ham o‘stiradi, ammo bu o‘sish daromadlar darajasida bo‘lmaydi. Oqibatda daromadlar o‘sishi bilan jamg‘arish ortadi va iste’mol nisbatan kamayib boradi. Oxirida esa samarali talab kamayadi, talab shunday yo‘l bilan ishlab chiqarish hajmlari va bandlik darajasiga ta’sir etadi [3].

M. Zabaluyeva iqtisodiyot rivojlanishini rag‘batlantirish – soliq to‘lovchining ixtiyorida soliq to‘langandan keyin qoladigan mablag‘larni oshirish hisobiga erishiladi deb ilmiy asoslab bergan [4].



1-rasm: Investitsiya nazariyasi rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan iqtisodiy maktab vakillari [5]

“Invectitsion faollik” tushunchasining mohiyatini o‘zining qisqa ta’riflari bilan izohlagan olimlar [6, 7, 8, 9, 10]:

I. V. Grishina - Asosiy kapitalga investitsiyalarni jalb etish hajmlari va sur’atlarini tasniflovchi investitsion faoliyatni rivoji va muntazamligi

A. A. Deyeva - Real iqtisodiy sharoitlarda tadbirkorlar tomonidan pul mablag‘larini investitsiya qilishga tayërligi;

Y. A. Kazakevich - o‘z moliyaviy imkoniyatlari va tashqi moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlari majmui;

N. I. Klimova - Iqtisodiy tizimning investitsion imkoniyatlari resurslari va amalga oshirilishini hisobga oladigan investitsiya qilish jaraënlari muntazamligining darajasi;

S. Y. Suxinova - Investitsion jozibadorlikni amalga oshirish natijasi deb izohlashgan.

Sh. Toshmatov Davlat tomonidan foydani yuqori soliqqa tortish natijasida xo‘jalik subyektlarining investitsion va tadbirkorlik faoliyatlari sekinlashuviga olib keladi. Korxonalar foydasini soliqqa tortishda faqat fiskal uslublar bilangina emas, balki xususiy tadbirkorlik va investitsiya faoliyatlarini ham rag‘batlantirish zarur deya ta’kidlagan. Shuningdek, Sh. Toshmatov korxona va tashkilotlar foydasining o‘sishi respublikamizda soliq yuki va foyda solig‘i stavkalari o‘zgarishlariga teskari bog‘langanligini ilmiy asoslab bergan [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy mushohada, absrakt-mantiqiy fikrlash, tizimlashtirish va tasniflash qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarning investitsiya faolligini ta’minlashda soliq tizimining asosan ikki muhim instrumenti stavkalar va imtiyozlardan ko‘proq foydalaniladi. Hozirgi kunda stavkalarni pasaytirish tarzidagi instrumentidan yetarlicha foydalanildi. Misol uchun 2019-yilda foyda solig‘i stavkasi 14 foizdan 12 foizga va tijorat banklariga 22 foizdan 20 foizga pasaytirildi, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko‘rsatayotgan yuridik shaxslarga rentabellik darajasidan kelib chiqib hisoblanadigan qo‘shimcha foyda solig‘i bekor qilingan holda 14 foizdan 20 foizga oshirildi. Ikkinchi instrumenti bu imtiyoz hisoblanadi. Iqtisodiётning alohida tarmoqlari va ishlab chiqarish turlariga soliq imtiyozlari berish yo‘li bilan rivojlantirishni rag‘batlantirishdir.

Soliq imtiyozlari 3 turga bo‘linadi va ular quyidagicha ta’riflanadi:

- soliqdan butunlay ozod etish (bunda alohida yuridik va jismoniy shaxslar, ularning daromadlari, mol-mulklari, yer maydonlari va boshqa soliqqa tortiladigan obyektlari soliq to‘lashdan butunlay ozod qilinadi);
- soliqdan vaqtincha yoki qisman ozod etish (bunda alohida faoliyat turlarini amalga oshirib, daromad oladigan shaxslar, ularning daromadlari yoki boshqa soliqqa tortiladigan obyektlari vaqtincha yoki qisman soliq to‘lashdan ozod etiladi);
- soliq bazasini kamaytirish tarzida berilgan (bunda ayrim yuridik va jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadi ma’lum bir maqsadlarga, masalan, yangi ishlab chiqarish uskunani xarid qilishga yoki ta’lim olish uchun kontrakt to‘lovini qoplashga yo‘naltirilgan mablag‘lar qismida kamaytiriladi) [12].

Soliq imtiyozlarini berish orqali qo‘yidagilarga:

- davlatni iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash;
- yangi ishchi o‘rinlarini tashkil etish;
- ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni keng ko‘lamda jalb qilish;
- ishlab chiqarishni sifat jihatidan rivojlantirish;
- korxonalarning investitsion salohiyatini oshirish;
- xususiy mulkchilikni tartibga solish;
- raqobat muhitini shakllantirishga erishish mumkin.

Imtiyoz berish orqali budjetga jalb etilishi lozim bo‘lgan moliyaviy resurslar budjetga jalb etilmasdan soliq to‘lovchilarning o‘zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to‘lovlarini budjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi. Natijada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda imtiyozlardan unumli va samarali foydalanish mas’uliyatini oshirib, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faolligi oshishiga sabab bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada imtiyozlar samaradorligini baholashni Iqtisodiyot va moliya vazirligi (HM Treasury), Foyda va bojxona xizmati (Her Majesty's Revenue and Customs, HMRC) va Soliq tizimini soddalashtirish boshqarmasi (Office of Tax Simplification, OTS) tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur imtiyozlar samaradorligini baholash metodologiya asosida amalga oshirilib, natijalar asosida hisobot tuziladi. Hisobot G‘aznaga yuboriladi hamda kelgusi yil uchun budjetni rejalashtirishda hisobga olinadi [13].

Imtiyozlar samaradorligini baholashda quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

- imtiyoz zaruratining siyosiy asosi va oqibatlari;
- amaldagi imtiyozni o‘zgartirish yoki bekor qilishning ehtimoliy oqibatlari;
- soliq to‘lovchilarning xabardorlik darajasi va ishtiroki;
- imtiyoz olish bilan bog‘liq chiqimlar va ma’muriy xarajatlar;
- mavjud imtiyozlarning soliq to‘lovchining xatti-harakatiga ta’siri.

Buyuk Britaniyada rasmiy manbalarda chop etiladigan soliq imtiyozlarini baholash hisobotlarini yuritish amaliyoti muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Xususan 108 ta soliq imtiyozlari, ularning qo‘llash samaradorligi baholash natijalari bilan soliq imtiyozlari reyestrida e’lon qilib boriladi. Shunday ekan soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish yo‘llarini izlab topish, ularni kerakli o‘rinlarda, zarur holatlarda qo‘llash hozirgi davr soliq ma’murchiligining oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga berilgan imtiyozlar, shubhasiz budjet daromadlari uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘qotishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Imtiyoz va preferensiyalarni davlat aniq talab va shartlarda, ulardan foydalanuvchilar tomonidan erishilishi lozim bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlarni aniq belgilab keyin taqdim etilishini nazoratga olishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda imtiyozlardan unumli va samarali foydalanish mas’uliyatini oshirib, korxonalar investitsion faolligiga ta’sirini oshiradi. Iqtisodiy islohotlar davrida soliq tizimini takomillashtirib borishda, imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etishda xorij mamlakatlardagi soliq turlari, soliq stavkalarining qo‘llanish mexanizmidan foydalanish hamda soliqlarni to‘liq va o‘z vaqtida kelib tushishini nazorat qilish tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mavzuga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar va ilg‘or xorij tajribasiga tayangan holda quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etishda davlatning talablari va shartlari, ulardan foydalanuvchilar tomonidan erishilishi lozim bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlarni aniq belgilash mexanizmini joriy etish;
- imtiyoz va preferensiyalarning tushunchasini, turlari va shakllarini to‘liq ifodalaydigan ta’rifni qonun hujjatlarida nazarda tutish;
- davlat tomonidan imtiyoz va preferensiyalar taqdim etiladigan sohalar va tarmoqlar doirasini aniq belgilash;
- imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llash samaradorligini monitoring qilish va baholash, samarasiz foydalanilgan imtiyoz summalarini budjetga majburiy qaytarish tizimini joriy etish hamda mazkur vazifani amalga oshiruvchi vakolatli organni belgilash.

Ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar amalda qo‘llanilishi kelajakda korxonalarning investitsion faolligini oshirishda, ishlab chiqarishni yanada kengaytirishda, imtiyozlar hisobiga korxonalar ixtiёrida qoladigan mablag‘lar maqsadli yo‘naltirilishida va soliq tushumlarini oshishida sezilarli natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivonlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. // https://lex.uz/docs/5841063
3. Кейнс Дж. М. “Трактат о деньгах” перев. с англ. Москва, Гелиос АРВ, –1930/ 468.
4. Забалуева М.А. “Налоговое стимулирование инвестиций в инновационное развитие экономики России” -М.: “ИНФРА”. 2005. -213 б.
5. Трусова Н. Управление инвестиционной активностью регионов инструмен- тами налоговой политики. Ицтисод фанлари номзоди илмий даранасини олиш учун ёзилган диссертатsiяси. Курск. – 2014. – 173 б.
6. Гришина И.В. Комплексная оценка инвестиционной привлекатель-ности и инвестиционной активности российских регионов: методика определения и анализ взаимосвязей / И.В. Гришина, А.Г. Шахназаров, И.И. Ройзман // Инвестиции в России. 2001. – №4. – 5-16. б.
7. Деева А.А. Налоговое стимулирование инвестиций в реальный сектор экономики. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun ёzilgan dissertatsiyasi. М. – 2009. – 205 б.;
8. Казакевич Е.А. Формирование инвестиционного климата в урбанизированном промышленном комплексе: методический аспект. i.f.n. ilmiy darajasi olish u-n yozil.diss. Новосибирск. – 2002. – 175 б.
9. Климова Н.И. Сравнительный анализ подходов к оценке инвестиционной привлекательности и инвестиционной активности российских регионов/Н.И. Климова//Инвестиции в России. 2003. №8.–9.19.б.
10. Сухинова С.Е. Региональная специфика инвестиционного климата / – Волгоград: Издательство Волгоградский государственный университет, 2004. – 82 б.
11. Toshmatov Sh.A. - Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari: i.f.d. ilmiy daranasini olish uchun ёzilgan diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 40 b.
12. Vaxobov A. A. Jo‘rayev. “Soliqlar va soliqqa tortish”, darslik. (2009 y.) – T. 68 b.
13. D.Anvarova. “Imtiyoz va preferensiyalar – tadbirkorlikni rivojlantirishmi yo soliqdan qochish vositasi?” nomli maqolasi. Kun.uz sayti. 2021-y.
14. B.A.Ilyasova “Korxonalarning investitsiya faolligini ta’minlashda soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini oshirish xususiyatlari” maqolasi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy-ommabop jurnali 11-son, 2023-y.



XITOY SUG‘URTA BOZORIDA ONLAYN SUG‘URTA XIZMATLAR TAHLILI

Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), ISFT Instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy sug‘urta bozorida sug‘urta xizmatlarini onlayn sotilish jarayonlari va uning xalq uchun yuqori nafliligi hamda onlayn sotish kanallari va sug‘urta texnologiyalarini takomillashuvi bilan bog‘liq ma’lumotlar tahlili asosida O‘zbekiston sug‘urta bozorini takomillashtirish bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, sug‘urta texnologiyalari, sug‘urta xizmatlari, onlayn sug‘urta xizmatlari, sun’iy intillekt, axborot texnologiyalari, sug‘urta mukofatlari, sug‘urta mahsulotlari, katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash, AI, blokcheyn.

Abstract: This article presents information related to improving the insurance market of Uzbekistan based on an analysis of the processes of online sales of insurance services in the Chinese insurance market and their high usefulness for the population, as well as improving online sales channels and insurance technologies.

Key words: insurance market, insurance technologies, insurance services, online insurance services, artificial intelligence, information technology, insurance premiums, insurance products, big data, cloud computing, blockchain.

Аннотация: В данной статье рассматривается совершенствование страхового рынка Узбекистана на основе анализа процессов онлайн-продаж страховых услуг на китайском страховом рынке и их высокой полезности для населения, а также совершенствования онлайн-каналов продаж и технологий страхования, предоставляется подробная информация.

Ключевые слова: страховой рынок, страховые технологии, страховые услуги, онлайн-сервисы страхования, искусственный интеллект, информационные технологии, страховые премии, страховые продукты, большие данные, облачные вычисления, искусственный интеллект, блокчейн.

KIRISH

Globalizatsiya jarayonlari mamlakatlardan barcha iqtisodiy sohalarda jadal rivojlanishni talab etmoqda. Jumladan sug‘urta sohasida ham qaysi mamlakat axborot texnologiyalarini, sun’iy intellektni qo‘llagan holda jozibadaor sug‘urta bozorini shakllantirsa, o‘sha sug‘urta bozor dunyodagi asosiy sug‘urta mukofatlarini yig‘ish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishi va xalqining moddiy ahvolining yaxshilanishi, jumladan, ixtiyoriy daromadning oshishi sug‘urta sohasining barqaror o‘sishiga ijobiy ta’sir etmoqda. Sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabni qondirish uchun Xitoy kompaniyalari sug‘urta qoplamalari turlarini va ko‘lamini kengaytirmoqda. So‘nggi yillarda Xitoyda sug‘urta sohasiga yangi texnologiyalarni qo‘llash uchun va sug‘urta texnologiyalarini rivojlantirish uchun investisiyalar oqimi kengaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xitoy sug‘urta bozorini so‘nggi 20 yil ichidagi takomillashuv jarayonlari tahlili mavjud bo‘lgan ya’ni ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borgan quydagi xorijiy olimlarni maqola va ilmiy ishlarini ko‘rishimiz mumkin. Y. A. Spletuxov, Y. S. Alekseyeva, Jinlong, G. Jingjing, Zh. Lianzeng, Zh. Dayong, Junsheng, Zh. Jie lar tomonidan Xitoy sug‘urta sohasini takomillashuviga oid bir qancha maqola va hisobotlar hamda bu boradagi ilmiy ishlarni tahlil qildik.

TAHLIL VA NATIJALAR:


Xitoyning sug‘urta sohasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanishni boshdan kechirmoqda. 2022-yilda Xitoy sug‘urta kompaniyalarining mukofot daromadi qariyb 4,7 trillion yuanni tashkil etdi, bu yetti yil avvalgidan qariyb uch barobar ko‘pdir. Xitoyning sug‘urta mahsulotlarini sug‘urta loyihasi asosida mulk sug‘urtasi va shaxsiy

sug‘urtaga bo‘lish mumkin. Bundan tashqari, shaxsiy sug‘urta hayot sug‘urtasi, sog‘liq sug‘urtasi va baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashni o‘z ichiga oladi. Hayotni sug‘urtalash mukofot daromadlarining eng katta qismini tashkil etgan bo‘lsa-da, sug‘urta kompaniyalarining to‘lovlari mulkni sug‘urtalash uchun yuqori ko‘rsatkichni tashkil etadi[1].

Xitoy sug‘urta bozori professional ishtirokchilari ichida mahalliy kompaniyalar ustunlik qilgan, chunki chet ellik raqobatchilar bozorga kirishda ikkita asosiy to‘siqlarga duch kelishgan. Birinchidan, xorijiy sug‘urtachilar Xitoyning tartibga soluvchi organi, Xitoy bank va sug‘urtani tartibga solish komissiyasidan (CBIRC) sug‘urta lisenziyasi va biznes ochish ruxsatini olish orqali byurokratik to‘siqlarni yengib o‘tishlari kerak. Ikkinchidan, sug‘urta kompaniyalari butun mamlakat bo‘ylab savdo kanallarini yaratish orqali bozordagi ishtirokini rivojlantirishlari kerak. Iste’molchilar bilan bog‘lanishning ko‘plab usullari orasida M&A, butunlay chet elga tegishli korxonani tashkil etish yoki Xitoylik hamkor bilan qo‘shma korxona faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin. Hozircha xorijdagi sug‘urta kompaniyalari Xitoyda sezilarli o‘rin olish uchun kurashmoqda.

Sug‘urta texnologiyalari Xitoyning sug‘urta sektoridagi navbatdagi muhim rivojlanish omili bo‘lib, so‘nggi yillarda sezilarli o‘sishni qayd etgan “moliyaviy texnologiyalar” sektori bilan bir qatorda jadal rivojlanmoqda. “Alibaba Ant Group” va “Tencent” kabi texnologiya gigantlari milliarddan ortiq iste’molchilarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi va sug‘urta mahsulotlari ushbu mahsulot portfelining bir qismi hisoblanadi. Sug‘urtaning barcha asosiy turlari orasida onlayn sug‘urta mukofotlarining qiymati oshmoqda va sezilarli darajada o‘sish sur’atlariga ega.

Sug‘urta texnologiyalari sug‘urta xarajatlarini kamaytirib, iste’molchilar uchun kirish to‘siqlarini ham yo‘qotishga xizmat qiladi. Katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalangan holda, sug‘urta provayderlari iste’molchilarning shaxsiy xavf-xatarlarini baholashga asoslangan shaxsiy sug‘urta polislarini inson ishtirokisiz taklif qilishlari mumkin. Natijada, ular o‘z mijozlariga ancha arzon narxlarda moslashtirilgan sug‘urta xizmatlarini taklif qilish imkoniyatlarini paydo qilmoqda. Bunga qo‘shimcha ravishda, mahsulotning raqamli tabiati aholining ancha keng ulushini qamrab oladi, chunki iste’molchilar sug‘urta xizmatlaridan foydalanish uchun faqat internetga ulanishi kerak. Smartfonlarning yuqori kirib borishi bilan Xitoy sug‘urta texnologiyalari orqali sug‘urta sohasini kelajakdagi rivojlanishi uchun ideal maydon hisoblanadi[2].



1-rasm: Xitoy sug‘urta bozorida onlayn sug‘urta mukofatlar ko‘rsatkichi[3]

2020-yilda Xitoyda onlayn sug‘urta mukofoti daromadi taxminan 290 milliard yuanni tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 80 milliard yuandan ko‘proq o‘sdi. Xitoyda onlayn sug‘urta industriyasining jadal rivojlanishi tufayli daromad 2026-yilda qariyb 470 milliard yuangacha o‘sishi prognoz qilingan. Xitoy sug‘urta bozorini rivojlanishi asosan 2015-yildan so‘ng jadallashganligini ko‘ramiz. Butun dunyo sug‘urta sanoatida sug‘urta shartnomalarini onlayn tuzish va sug‘urta polislarini onlayn berish amaliyoti keng tarzda rivojlanmoqda. Rivojlangan

1 https://www.statista.com/topics/5434/insurance-industry-china/#topicOverview
2 https://www.statista.com/topics/5434/insurance-industry-china/#topicOverview
3 https://www.statista.com/statistics/1193401/china-online-insurance-premium- revenue/

mamlakatlar sug‘urta amaliyotida raqamlashtirish jarayonlari juda ham ommalashganligini ko‘ramiz. AQSh Germaniya, Yaponiya kabi Xitoyda ham sug‘urta amaliyoti raqamlashtirilayotganligi sababli sug‘urtachi olimlar fikrlariga ko‘ra Xitoy so‘nggi yillarda juda katta natijalarga erishishi kutilmoqda.

Texnologik bum Xitoy sug‘urta bozoriga kirib kelaganligi ayniqsa mobil va internet foydalanuvchilarining tez o‘sishi tufayli texnologik firmalar kuchli onlayn iste’mol odatlariga ega jamiyatga xizmat qiluvchi keng ko‘lamli ekotizimlarni yaratganligini ko‘rishimiz mumkin, ushbu onlayn ekotizimlar Xitoy iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Texnologik kompaniyalar sonining tez o‘sishi va onlayn ekotizimlarning tez o‘sishi innovatsiyalarni kuchli rag‘batlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga asoslangan. Eng rivojlangan texnologik firmalar hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan onlayn ekotizimlarni yaratdilar, ular elektron tijoratdan turmush tarzi xizmatlaridan moliyaviy xizmatlargacha bo‘lgan jarayonlarni qoplab oladi.

Shaxsiy sug‘urtani onlayn xarid qilish Xitoyda tobora ommalashib bormoqda, mukofotlar yiliga 13,6% ga oshmoqda, onlayn kanallardan tushgan shaxsiy sug‘urta mukofotlari kengaymoqda. Xitoyda aholi sonining ko‘pligi sog‘liqni saqlash sug‘urtasini tez va salmoqli o‘sishiga sabab bo‘lmoqda.

Xitoyda texnologik innovatsiyalar va elektron tijorat rivojlanishda davom etar ekan, onlayn sug‘urta mukofotlari ulushi yanada o‘sishi kutilmoqda. Pandemiya ularni sotish, anderrayting, tavakkalchilikni baholash va da’volarni ko‘rib chiqishda raqamli imkoniyatlarini qayta baholashga majbur qilgandan so‘ng, sug‘urtachilar o‘zlarining uzoq muddatli raqobatdosh ustunliklarini mustahkamlash uchun yangi raqamli texnologiyalarni joriy etishda tobora faollashadilar. Xitoyning sug‘urta regulyatori xavflarni jilovlash hamda sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligi va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida onlayn sug‘urta bozorini nazorat qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni joriy qilishi kutilmoqda[4].


Onlayn sog‘liqni sug‘urtasi Xitoyda onlayn hayot sug‘urtasiga qaraganda tez o‘sishni ko‘rsatmoqda.

Xitoyning Big Tech (katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash, AI, blokcheyn) va platforma ekotizimlari global sug‘urta sanoatidagi muvozanatga o‘z tasirini ko‘rsatmoqda. Birinchidan, ekotizimlar sug‘urtachilarni chetga surib qo‘yadigan texnologik gigantlarga tegishli bo‘ladi. Ikkinchidan, fintech ekotizimlarida ustun mavqega ega bo‘lgan Baidu, Alibaba va Tencent kabi Xitoyning yirik kompaniyalari bu sohani bibrinchilardan bo‘lib o‘zlashtirganliklari uchun boshqa bozorlarni ham egallashlari mumkin bo‘ladi.

Xitoy sug‘urta bozori dunyo bo‘ylab 2-o‘ringa ko‘tarildi va ikki xonali o‘sishda davom etishi kerak. 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan beri sug‘urta mukofotlari (sog‘liqni saqlashsiz) deyarli to‘rt baravarga oshib, 417 milliard evroga (2018) yetdi va bu Xitoyni dunyodagi ikkinchi yirik sug‘urta bozoriga aylantirdi. Xitoyda aholi jon boshiga to‘lanadigan mukofotlar 294 yevroni tashkil qilmoqda.

Xitoyning sug‘urta bozoriga kirish uchun tartibga soluvchi to‘siqlar kamaytirildi va bu tartiblar xorijiy sug‘urta kompaniyalarini xitoy sug‘urta bozoriga kirishi uchun ko‘proq imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. “Xitoyda ishlab chiqarilgan 2025” sug‘urta texnologiyalari kompaniyalarni rivojlanishi uchun qulay muhit yaratmoqda va xorijiy investorlarning ishtirokini rag‘batlantirmoqda.

Xitoy sug‘urta bozorining miqyosi, maqsadi va tezkorligi tufayli sug‘urta bozori platformasi iqtisodiyotida muhim o‘rin egallamoqda. Xitoylik iste‘molchi sug‘urta texnologiyalari kompaniyalari uchun asosiy mijozlar bazasini tashkil etuvchi “oltin tuxum tug‘uvchi g‘oz” vazifasini bajaradi va texnologiyani ko‘p talab qiladigan tarqatish kanallari va mahsulotlari eksponensial o‘sishni boshdan kechiradi. Global sug‘urta gigantlari rivojlanayotgan Xitoy sug‘urta sug‘urta bozoriga kirishlari mumkin, shu bilan birga ularning tajribasi, ayniqsa, Yevropadan (anderrayting va mahsulotni ishlab chiqish, aktivlar mas‘uliyatini boshqarish, maxfiylik va iste‘molchilarni himoya qilish, masalan) foydali bo‘lishi mumkin[5].



4 https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/china-online-insurance-market
5 https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/china-online-insurance-market.

Xitoyda onlayn sug‘urta xizmatlaridan har chorakda faol mobil foydalanuvchilar so‘nggi bir necha yil ichida o‘sish tendensiyasiga guvoh bo‘ldilar, bu 2017-yilning birinchi choragidagi qariyb 316 milliondan 2020-yilning uchinchi choragida qariyb 800 millionga ko‘tarildi. 2020-yilning ikkinchi choragida , oflayn xizmatlar koronavirus nazorati bilan cheklanganligi sababli, har chorakda faol mobil foydalanuvchilar uch yillik maksimal darajaga yetib, taxminan 815 millionni tashkil etdi.

Xitoyning onlayn sug‘urta bozorida faoliyat yurituvchi asosiy sug‘urta kompaniyalari quydagilar hisoblanadi.

1. ZhongAn
2. Xitoyning Tinch okeani sug'urta kompaniyasi
3. Ping An sug'urtasi
4. PICC
5. Taikang hayot sug'urtasi

Xitoyning hayot sug‘urta tarmog‘i o‘sib bormoqda va turli xil sug‘urta mahsulotlarini joriy qilmoqda. Ushbu takliflar jiddiy kasallik va muayyan iste’molchilar segmentlariga mo‘ljallangan tibbiy xarajatlar kabilarni qamrab oladi. Hayot sug‘urtasi shartlari aniq va batafsil qamrov spesifikatsiyasi, raqobatbardosh bozor dinamikasi va tartibga solish talablariga javob berish bilan doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Yillik hayot sug‘urta mukofotlari 2022-yilda 3,4 trillion yuanni (530 milliard dollar) tashkil etdi, bu 2012-yildagi 1 trillion yuandan (161 milliard dollar) o‘sdi[6].

Raqamli iqtisodiyot ham jadal rivojlanmoqda va iste’molchilar raqamli hayotga tezda moslashmoqda. Raqamli iqtisodiyotning qiymati 2021-yilda 45,5 trillion yuanga (7,1 trillion AQSH dollari) yetdi, bu Xitoy yalpi ichki mahsulotining qariyb 40 foizini tashkil etdi va COVID-19 pandemiyasi keltirib chiqargan ijtimoiy uzoqlashuvga javoban onlayn faollik tezlashdi. Hayot sug‘urtasini takomillashuvida anderrayting jarayonlaridan tortib da’volargacha bo‘lgan qiymat zanjiri bo‘ylab sezilarli raqamlashtirish amalga oshirildi. Xitoydagi yangi hayot sug‘urta polislarini 80% dan ortig‘i tarqatish kanallari orqali onlayn raqamli ilovalar tomonidan yozilgan. Telefon orqali sotish kanallari qo‘shilganda bu ko‘rstakich 95% dan oshadi.

Ushbu ishlanmalar Xitoyning hayot sug‘urtachilariga raqamli anderrayting qobiliyatini chuqurlashtirish va kuchaytirish uchun kuchli manba bo‘lib xizmat qilmoqda, bu esa hisoblash quvvati va algoritmlari orqali tushunarli ilovalarni yaratish uchun ma’lumotlarning tez o‘sib borishi va mavjudligidan foydalanishga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Global iqtisodiyot o‘sishi bilan Xitoy sug‘urta sohasi keng qamrovli bosqichga kirdi. Xitoy sug‘urta bozorini rivojlanishida ko‘pgina qiyinchiliklarga duch kelingan bo‘lsada uzoq muddatli o‘sish istiqbollari mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Texnologik o‘zgarishlar tendensiyalari nuqtai nazaridan qarasak, Xitoy sug‘urta bozori tez o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xitoy sug‘urta bozori taraqqiyotiga quydagi omillar keng ta’sir ko‘rsatmoqda;

- katta ma’lumotlar bilan ifodalangan raqamli texnologiyalar;
- sun’iy intllekt;
- blokcheyn va boshqalar.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sug‘urta bozorini takomillashtirishda sug‘urta mukofatlarini xajmini oshirishga qaratilagn tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat olib borayotgan sug‘urta kompaniyalari faoliyatini takomillashtirish uchun xorijiy kompaniyalar tajriba-

6 https://www.swissre.com/institute/research/topics-and-risk-dialogues/china/digital-underwriting-life-health-insurance-china.html

sini qo‘llash zarur. Xitoy sug‘urta bozori asosan JST ga a’zo bo‘lingan 2001-yildan so‘ng tezroq rivojlana boshlaganligi hamda qisman transmilliy sug‘urta kompaniyalarini ichki sug‘urta bozoriga bosqichma-bosqich kirib kelishi bo‘yicha imkoniyatlar yaratilganligi tajribasidan kelib chiqib O‘zbekiston sug‘urta bozoriga ham qisman transmilliy sug‘urta kompaniyalarini kirib kelishiga imkoniyat yaratilishi milliy sug‘urta kompaniyalarini ba’zi tomondan, ayniqsa sug‘urtalanuvchilarni naflantirish bo‘yicha tizimli faoliyatini kengayishiga sabab bo‘ladi. Xitoy sug‘urta bozorida umumiy sug‘urta tarmog‘idan ko‘ra hayot sug‘urta tarmog‘ini salmog‘i yuqori ekanligi va bunga Xitoy aholisi sonining ko‘pligi ta’sir qilayotganligidan kelib chiqib fikr bildirsak O‘zbekistonda mavjud 37 million aholining sug‘urtalanishi mumkin bo‘lgan 16 millionidan hali 2 millioni sug‘urta xizmatlari bilan qoplanmaganligi O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta mukofatlarini xajm jixatidan kengaytirish imkonining mavjudligini bildiradi. “Insurtech” bu sug‘urta sohasi samaradorligini oshirish uchun yaratilgan va amalga oshiriladigan texnologik innovatsiyalarni anglatadi. Insurtech sug‘urta biznesini yaratish, tarqatish va boshqarish vakolatlarini beradi.

Xitoy sug‘urta bozorini rivojlanishida “Insurtech” texnologiyalaridan samarali foydalanish tizimini joriy etilganligini ko‘rishimiz mumkin. “Insurtech” bu zamonaviy sug‘urta texnologiyalari amaliyotga qo‘llanilishi oqibatida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish jarayonlaridagi xarajatlar tejalishi va samaradorlik oshishiga olib keladi. Xitoy sug‘urta bozorida sug‘urta texnologiyalarini qo‘llash quydagi imkoniyatlarni keltirib chiqarayotganligini ko‘rishimiz mumkin:

- joriy sug‘urta modelini yanada samaraliroq qilish uchun mo‘ljallangan texnologik innovatsiyalardan foydalanish.
- sun’iy intellekt texnologiyalardan foydalangan holda mahsulotlarni raqobatbardoshroq narxlash imkonini yaratish.
- da‘volarni samaraliroq ko‘rib chiqish, xavfni baholash, shartnomalarni qayta ishlash orqali tarif stavkalarini belgilashni ta‘minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чжан С. – Тенденция развития страхового рынка Китая // Финансы и управление. – 2020. – № 2. ДОИ:10.25136/2409-7802.2020.2.33269 УРЛ:https://nbpublish.com/library_read_article.phpid=33269J.
2. Van Y, Chjan D, Vang X, Fu Q. COVID-19 Xitoyning sug‘urta bozoriga qanday ta’sir qiladi? Emerg Mark Fin Trade. (2020) 56 :2350–62. 10.1080/1540496X.2020.1791074 [CrossRef] [Google Scholar].
3. Ю. А. Сплетухов. Страховой рынок Китая: реалии, проблемы и перспективы // Страховое дело. – 2019. – № 1 (310). – С. 25-32.
4. Е. С. Алексеева. Развитие страхования в Китае // Материалы международной научно-практической конференции молодых ученых, аспирантов, магистрантов и студентов. ответственый редактор Ю.П. Гармаев. – 2016. – С. 9-11.
5. Волькова М. В., Исаченко В. Ю., Жилина Л. Н. Дея-телност иностранных страховых компаний в Китае // Международный журнал прикладных фундаменталных исследований. – 2016.-№ 7-2. – С. 261-264. 10.25136/2409-7802.2020.2.33269 Финансы и управление, 2020 – 292.
6. https://www.swissre.com/institute/research/topics-and-risk-dialogues/china/digital-underwriting-life-health-insurance-china.html
7. https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/china-online-insurance-market.
8. https://www.statista.com/statistics/1193401/china-online-insurance-premium- revenue
9. https://www.statista.com/topics/5434/insurance-industry-china/#topicOverview

AYRIM RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ilmiy maqola rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining ommalashish tendensiyasi tahlil qilingan. Tahlilda rivojlanayotgan davlatlar sifatida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Ukraina, Gruziya davlatlari olingan. Tahlil 2014–2021-yillardagi statistik ma’lumotlar asosida olib borilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, mamlakatimizda innovatsion bank xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda qolgan davlatlardan farqli ravishda raqamli bank xizmatlari bizning davlatimizga kech kirib kelganligi va raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi asosan 2017-yildan keyin boshlanganligi ham aniqlandi.

Kalit so‘zlar: bank xizmatlari, innovatsion bank xizmatlari, rivojlanayotgan davlatlar, raqamli to‘lovlar, onlayn banklar.

Abstract: The scientific article analyzes the popularization trend of innovative banking services in developing countries. Uzbekistan, Kazakhstan, Ukraine, Georgia were considered as developing countries in the analysis. The analysis was conducted on the basis of statistical data for 2014-2021. According to the results of the analysis, it was found that innovative banking services are not sufficiently developed in our country, and digital banking services entered our country late, unlike other countries. It was also found that the development of digital banking services started mainly after 2017.

Key words: banking services, innovative banking services, developing countries, digital payments, online banking.

Аннотация: В научной статье анализируется тенденция популяризации инновационных банковских услуг в развивающихся странах. Узбекистан, Казахстан, Украина, Грузия рассматривались в анализе как развивающиеся страны. Анализ проводился на основе статистических данных за 2014-2021 годы. По результатам анализа установлено, что инновационные банковские услуги в нашей стране недостаточно развиты, а цифровые банковские услуги пришли в нашу страну поздно, в отличие от других стран. Также выяснилось, что развитие цифровых банковских услуг в основном началось после 2017 года.

Ключевые слова: банковские услуги, инновационные банковские услуги, развивающиеся страны, цифровые платежи, онлайн-банки.

KIRISH

Moliyaviy innovatsiyalar faqat yangi moliyaviy vositalar, mahsulotlar, texnologiyalar va institutlarni ixtiro qilish bilan cheklanmaydi. Bularga yangi moliyaviy hisobot tartib-qoidalari, kredit reytingi va boshqalar kabi moliyaviy yaxshilanishlar kiradi. Innovatsiyani (ixtironi) moliyaviy innovatsiyaga aylantiruvchi innovatsion siklni (moliyaviy innovatsiyani yaratish jarayoni) yakunlashning asosiy omili joriy etish (tijoratlashtirish) bosqichi ya’ni yakuniy moliyaviy mahsulotni yaratishdir. Innovatsiya – bu joriy etilayotgan sohada ijobiy o‘zgarishlarga, sifat va/yoki miqdoriy yaxshilanishlarga, taraqqiyotga olib keladigan yangilikni (ixtironi) joriy etishning tugallangan jarayonidir [1].

Bizning fikrimizcha, moliyaviy innovatsiyalar – bu fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan boshqariladigan va moliya bozori samaradorligiga hissa qo‘shuvchi yangi moliyaviy operatsiyalar, vositalar, texnologiyalar, biznes modellari, institutlar ko‘rinishidagi moliya sektoridagi innovatsiyalardir.

Eng keng ma’noda, joriy etilayotgan moliyaviy innovatsiyalar sohasini sifat yoki/va miqdoriy takomillashtirish quyidagi ta’sirlardan birini olish bilan birga keladi: doimiy xavf darajasida rentabellikning oshishi yoki doimiy rentabellik bilan xavf darajasining pasayishi, shuningdek tuzilish, biznes-jarayonlar va boshqalarning yaxshilanishi [2].

So‘nggi o‘n yilliklarda moliyaviy bozorlarni tartibga solish va globallashuvning umumiy tendensiyasi fonida moliya bozorlari katta o‘zgarishlarga duch keldi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirishning ahamiyati oshdi, ayni paytda turli moliyaviy institutlar o‘rtasidagi chegaralar xiralashgan. Axborot texnologiyalaridagi sezilarli yutuqlar va moliyaviy tuzilmadagi o‘zgarishlar yangi moliyaviy vositalar va moliyaviy texnologiyalarning (Fintech)

rivojlanishiga hissa qo‘shdi, ko‘plab moliya institutlari o‘z mahsulot va xizmatlari turlarini kengaytirib, turli xil “balansdan tashqari” risklarni boshqarish vositalarini o‘z ichiga oladi.

Yana bir muhim muammo moliyaviy innovatsiyalar funktsiyalarini tasniflash bilan bog‘liq, chunki bu muammoga turli yondashuvlar qo‘llaniladi. Moliyaviy innovatsiyalar funktsiyalarini tasniflashda turli yondashuvlarning yagona ta’rifi mavjud emas.

Agar jahon iqtisodiyoti “mukammal bozorlar”da ishlayotgan bo‘lsa va bozorlar samarali, axborot nosimmetrikligi, xavf-xatarsiz va hokazo bo‘lsa, moliyaviy innovatsiyalarning mavjudligi maqsadga muvofiq emas edi [3].

Moliya tizimidagi turli kamchiliklar moliya institutlarini iqtisodiy sharoitlarga yaxshiroq moslashish uchun moliyaviy innovatsiyalarni yaratish va joriy etishga undaydi. Moliyaviy innovatsiyalar xavflarni oldini oladigan yoki kamaytiradigan turli muammolar yoki o‘zgarishlarga eng yaxshi javob bo‘lib, moliyaviy institutlarga o‘z daromadlarini maksimal darajada oshirishga yordam beradi.

Agar bu bayonot to‘g‘ri bo‘lsa, ko‘p sonli yangi mahsulotlarning paydo bo‘lishi haqida savol tug‘iladi. Javobni shundan topish mumkinki, moliyaviy innovatsiyalar bozorlar samaradorligiga mos keladi, bozorlar esa samarasiz (to‘liq samarali emas). Shuning uchun har qanday moliyaviy yangiliklarni tavtologik nuqtai nazardan baholash muammo emas. Shuning uchun moliyaviy innovatsiyalarni amalga oshiradigan funktsiyalarni izlash kerak. Bundan tashqari, moliyaviy innovatsiyalarga ehtiyoj va funksionallikni tasdiqlash uchun nazariy modellar va empirik tadqiqotlar ham zarur.

Moliyaviy innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyati natijada ularning vazifalarida namoyon bo‘ladi. Kanada Iqtisodiy Kengashining ma’lumotlariga ko‘ra, moliyaviy innovatsiyalar uchta funktsiyaga ega: bozorni kengaytirish, risklarni boshqarish va foyda olish [4].

Moliyaviy innovatsiyalarning birinchi vazifasi moliya bozorining likvidligini oshirish, mablag‘lar mavjudligini yaxshilash va yangi investitsiya imkoniyatlaridan foydalanishni ta’minlashdan iborat. Moliyaviy innovatsiyalarning ikkinchi funksiyasi moliyaviy risklarni bozor ishtirokchilari o‘rtasida qayta taqsimlash imkonini beradi. Moliyaviy innovatsiyalarning uchinchi funksiyasi bozor ishtirokchilariga xarajatlar va daromadlardagi farqlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Moliyaviy innovatsiya funktsiyalarining yana bir tasnifi Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu tasnifga ko‘ra, moliyaviy innovatsiyalar quyidagi funktsiyalarni bajaradi: narx riskini o‘tkazish, kredit riskini o‘tkazish, likvidlikni shakllantirish, kredit yaratish, o‘z kapitalini yaratish vositalari.

Moliyaviy innovatsiyalarning birinchi guruhi bozor ishtirokchilariga narx yoki valyuta riski bilan kurashishning yanada samarali vositalarini taqdim etadi. Kredit xavf vositalari qarzni to‘lamaslik xavfini qayta taqsimlash uchun ishlatiladi. Likvidlikni yaratuvchi vositalar uch xil ta’sir ko‘rsatishi mumkin: ular bozor likvidligini oshiradi, tanqis bo‘lgan birliklarga qo‘shimcha mablag‘ manbalarini izlashga imkon beradi va bozor ishtirokchilariga salbiy huquqiy tartibga solishdan qochish imkonini beradi. Kredit yaratuvchi vositalar tanqis birliklarda mavjud bo‘lgan qarzlar miqdorini oshiradi va nihoyat, o‘z kapitalining qo‘shimcha manbalariga kirish aktsiyadorlik vositalaridan foydalanish orqali ta’minlanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Moliyaviy innovatsiyalar” atamasi moliyaviy bozorlarga ta’sir qiluvchi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga ishora qilish uchun turli kontekstlarda qo‘llaniladi. Tor ma’noda bu atama faqat yangi moliyaviy vositalarni joriy etish uchun ishlatilishi mumkin. Kengroq ma’noda u moliya bozorlarining tuzilishi va chuqurligi, moliya institutlarining roli va hajmi, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish usullaridagi o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Moliyaviy innovatsiyalar deregulyatsiya (ma’lum, lekin qonun bilan taqiqlangan), shuningdek, ilgari ishlab chiqilmagan vositalar yoki bozorlarni joriy etish orqali mahsulot va tartiblarni joriy qilish uchun sharoit yaratishi mumkin.

Turli mamlakatlarning yetakchi olimlari tomonidan taklif etilgan moliyaviy innovatsiyalarning mohiyatini o‘rganishni umumlashtirib va ularga tayangan holda shuni ta’kidlash kerakki, moliyaviy innovatsiyalarning yagona ta’rifi mavjud emas, bu uning tabiati va unga ta’sir etuvchi ko‘plab omillar bilan izohlanadi.

1-jadval: Moliyaviy innovatsiyalarning turlicha talqinlari

Muallif	Ta’rif	Manba
J. Lerner va P. Tufanot	Yangi moliyaviy texnologiyalar, vositalar, institutlar va bozorlarni yaratish va yanada ommalashtirish.	Leraer, J. The Consequences of Financial Innovation: A Counterfactual Research Agenda / J. Lerner, P. Tufano // Annual Review of Financial Economics. 2011. – Vol. 3. - P. 41-85 [Elektron resurs] – Kirish tartibi: https://ssrn.com/abstract=1981825 (murojaat etilgan sana: 04/12/2018).

E. Rojers	Yangi g‘oyalar, mahsulot va xizmatlarni ixtiro qilish va tarqatish bosqichlaridan iborat.	Rogers, E. M. The Diffusion of Innovations / E. M. Rogers. – New York : Free Press, 1983.
E. Shurenberg	Innovatsion jarayon yangi g‘oyalar, mahsulot va xizmatlarni ixtiro qilish va tarqatish bosqichlaridan iborat.	Schurenberg, E. Eight financial Innovations to believe in / E. Schurenberg [Elektron resurs] - Kirish tartibi: https://www.cbsnews.com/news/eight-financial-innovations-to-believe-in/ (murojaat etilgan sana: 17.05.2018).
J. Van Xorn	Xarajatlarni, xavflarni kamaytiradigan yoki ishtirokchilarning talablarini yaxshiroq qondiradigan yaxshilanishni ta’minlaydigan yangi mahsulot/xizmat/vosita.	Van Horn, J. C. Of Financial Innovations and Excesses / J. C. Van Horn // Journal of Finance. – 1985. – P. 622.
B.A. Reysberg	Zamonaviy texnik va axborot vositalari, kompyuterlar, Internetdan foydalangan holda pul o‘tkazish, kredit berish va olish uchun moliya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan yangi moliyaviy mahsulotlar va jarayonlar.	B.A.Raizberg, Zamonaviy iqtisodiy lug‘at / B.A.Raizberg, L.Sh. Lozovskiy, E. B. Starodubtseva. – 6-nashr, tahrirlangan va qo‘shimcha qilingan - M.: INFRA-M, 2011 yil. [Elektron resurs] – Kirish tartibi: http://www.consultant.ru/document/cons-doc-LAW-67315/c151b760696d665265l87501c51f38cd84503634/ (murojaat etilgan sana: 10.05.2019).
I. T. Balabanov	Resurslardan, foydadan, likvidlikdan, risklardan va mavjud bozor voqeligida yetarlicha baholanmagan ma’lumotlardan samarali foydalanish uchun yaratilgan moliyaviy mahsulot.	I.T.Balabanov, Innovatsiyalarni boshqarish: darslik / I.T.Balabanov. – Sankt-Peterburg. : Piter. 2001. – 15b.
E. F. Jukov	Qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish manbalari sifatida mahsulotlar, operatsiyalar va vositalar.	E.F.Jukov Qimmatli qog‘ozlar bozori. Darslik. - 3-nashr, tahrirlangan va qo‘shimcha qilingan / E. F. Jukov / - M .: Unity Lana. 2009 - 566 b.
L. V. Kox	Mijozlarga yetkazilgan va ular tomonidan qabul qilingan yangi yoki tubdan o ‘zgartirilgan bank mahsulotlari, yangi bank xizmatlari yoki zamonaviy infokommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida taqdim etiladigan yuqori sifatli xizmatlar, shuningdek bank jarayoniga joriy etilgan tashkiliy va axborot texnologiyalari bankka bevosita yoki o‘ rtacha ravishda iqtisodiy yoki ijtimoiy samara olish imkonini beradi.	L.V.Kokh Innovatsiyalardan foydalanish asosida bank faoliyati samaradorligini oshirish tamoyillari va mexanizmlari: Dissertatsiya avtoreferati. ... Iqtisodiyot fanlari doktori. – Ivanovo, 2010. – 8b.
Iqtisodiyotning izohli lug‘ati	Moliyaviy institutlar, moliyaviy vositalar yoki moliyaviy xizmatlar sohasida biznes amaliyotidagi o‘zgarishlar.	Iqtisodiyot. Izohli lug‘at / umumiy nashr: Prof. I.M.Osadchaya. – M.: INFRA-M, Butun dunyo. 2000. – 15b.
A. G. Gryaznova tomonidan tahrirlangan moliyaviy va kredit entsiklopedik lug‘at	Yangi moliyaviy mahsulot yoki vosita.	Moliyaviy va kredit entsiklopedik lug‘ati / A. G. Gryaznova bosh tahririyati ostida. – M. : Moliya va statistika, 2004. – 367b.
Ilmiy va innovatsion faoliyat federal portali	Foyda olish va risklarni kamaytirish uchun yangi moliyaviy vositalar va moliyaviy texnologiyalarni yaratish.	[Elektron resurs] - Kirish tartibi: http://www.sciinnov.ru/law/base_terms/#08 (murojaat etilgan sana: 25.02.2019).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induktsiya, deduktsiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishini tahlil qilishda Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi rasmiy statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.


Ushbu ilmiy tadqiqotimizda iqtisodiy modeli O‘zbekistonga yaqin bo‘lgan va u bilan yaqin aloqadagi davlatlarda raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyasini tahlil qilib ko‘ramiz. Tahlilda jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkich va unga taqqoslash uchun Qozog‘iston, Ukraina, Gruziya va O‘zbekistonlarda raqamli bank xizmatlarining ommalashganligini tekshiramiz. Tekshirishda Jahon bankining 2014-2021-yillardagi statistik ma’lumotlaridan foydalanamiz. Tahlilda ko‘rilgan sakkiz yilning ayrim yillarini o‘rganib chiqamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

An’anaviy va onlayn banklar xizmatlaridan aholi foydalanish darajasini tekshiradigan dastlabki ko‘rsatkich bu aholining qancha qismi banklarda hisob raqam ochganligidir. Ushbu ko‘rsatkich orqali tijorat banklari xizmatlari orqali aholini qanchalik qamrab olganligini tekshirishimiz mumkin.

Tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, 2014-2017-yillarda Qozog‘iston va Ukraina davlatlarida aholining bank hisob raqam ochganlik darajasi jahondagi o‘rtacha darajadan past bo‘lgan. Xususan, 2014-yilda Qozog‘istonda aholining 54 foizi bank hisob raqamiga ega bo‘lgan bo‘lsa, shu davrda jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkich 62 foizni tashkil qilgan, hamda 2017-yilda esa bu ko‘rsatkichllar mos ravishda 59 foizga 68 foiz to‘g‘ri kelmoqda. Shuningdek, 2014-yilda Ukraina davlatida aholining 53 foizi bank hisob raqamiga ega bo‘lgan bo‘lsa, shu davrda jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkich 62 foizni tashkil qilgan, hamda 2017-yilda esa bu ko‘rsatkichllar mos ravishda 63 foizga 68 foiz to‘g‘ri kelmoqda.

Tanlangan keyingi ikkita davlatda bank xizmatlari qamrovi jahondagi o‘rtacha darajadan past bo‘lmoqda. Ammo Gruziyada pandemiya ta’sirida aholining bank xizmatlariga ehtiyoji va keskin oshib ketgan. Bundan farqli o‘laroq mamlakatimizda pandemiyaning ta’sirida bank xizmatlari yetarli darajada rivojlanmadi. Statitistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2014-yilda Gruziya davlatida aholining 40 foizida bank hisob raqamlari bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 61 foizga ko‘tarilgan.



	Jahon	Qozog'iston	Ukraina	Gruziya	O'zbekiston
2014y.	62%	54%	53%	40%	41%
2017y.	68%	59%	63%	61%	37%
2021y.	76%	81%	84%	70%	44%

1-rasm: Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda aholining banklarda hisob raqam ochganlik holati1

O‘zbekistonda 2014-yilda bank hisob raqamlarga ega bo‘lgan aholi salmog‘i 41 foizni tashkil qilgan holda, Gruziya davlatidagi vaziyatdan yaxshi bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib vaziyat keskin farq qilgan va bizda bu ko‘rsatkich 37 foizga tushib ketgan.


2021-yildagi vaziyatga nazar solsak, unda Gruziyat davlatida aholining 70 foizi banklarda hisob raqamga ega, hamda pandemiya natijasida bu ko‘rsatkich 10 foizga oshgan bo‘lgan bo‘lsa, mamlakatimizda bu ko‘rsatkich sezilarsiz oshgna va 2021-yilda 44 foiz aholida bank hisob raqamlari mavjud bo‘lgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatimizda aholining katta qismi bank tizimiga ishonchi past hisoblanadi.

Oxirgi o‘n yillikda nafafat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan davlatlarda ham tovar oldi sottisi va xizmatlar uchun to‘lovlar naqd pulsiz hisob kitob shaklida amalga oshirilishi va bunda plastik kartalarning o‘rni oshib ketdi. Shunday ekan aholining qachalik qismi plastik kartalarga ega ekanligi iqtisodiyotda naqdsiz pul muomalasining rivojlanganligini bildiruvchi elementlardan biriga aylandi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Qozog‘iston va Ukraina davlatlarida oxirgi yillarda aholiga plastik kartalar tarqatish va uning muomalasini tashkil qilish bo‘yicha sezilarli ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2014-yilda Qozog‘istonda aholining 32 foizida debitli plastik kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 40 foizga ko‘tarilgan. Ammo pandemiya natijasida aholining 70 foizi plastik kartalar bilan ta’sinlangan va ularning aksariyati aktiv holatda bo‘lmoqda. Shuningdek, 2014-yilda Ukraina davlatida aholining 40 foizi debitli

1 https://www.worldbank.org The Global Findex Database 2021 ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

plastik kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 49 foizga hamda 2021-yilga kelib aholining katta qismi, ya’ni 70 foizi plastik kartalarga ega bo‘lgan.



2- rasm: Ayrim rivojlanayotgan davlatlar aholisida debit kartalar mavjudligi2

Tahlil qilingan qolgan davlatlarda esa aholining debitli plastik kartalar bilan ta’minlanish darajasi jahondagi o‘rtacha darajadan pastligi saqlanmoqda. Xususan, Gruziya davlatida aholining 30 foizida debitli plastik kartalar mavjud bo‘lgan va 2017-yilda aholining 40 foizida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, ya’ni aholining plastik kartalar bilan ta’minlanish darajasi Qozog‘iston davlati kabi bo‘lgan bo‘lsada, keyingi yillarda esa oshmagan, va 2021-yilda 42 foizni tashkil qilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotidagi holatni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2014-yida aholining 25 foizida debitli plastik kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich xatto 24 foizga tushib ketgan. Ammo 2021-yilga kelib vaziyat keskin o‘zgargan va aholining 36 foizida plastik kartalar mavjud bo‘lgan. Aholini plastik kartalar bilan ta’minlanish darajasining yaxshilanishiga nafaqat pandemiya ta’siri bo‘lgan. Vaholanki, pandemiya ta’sirida bank xizmatlarining kengayishi va ammalashishi asosan rivojlangan, yoki daromadi o‘rtadan yuqori bo‘lgan davlatlarda sezilarli yaxshilangan. Aksincha, daromadi o‘rtadan past bo‘lgan davlatlarda esa pandemiya naqd pulsiz hisob kitobni rivojlantirishdagi o‘rni sezilarsiz bo‘lgan.

Aynan mamlakatimizda 2021-yilga kelib aholining plastik kartalar bilan ta’minlanishiga prezidentimizning iqtisodiy islohotlari natijasi sifatida sifatida ko‘rishimiz lozim. Chunki, 2017-yilda iqtisodiy islohotlar natijasida muomalada naqd pul bilan naqd pulsiz hisob kitoblardagi katta tavofutni bartaraf etish orqali aholini bank xizmatlariga, xususan naqd pulsiz hisob kitoblarga ishonchini oshirishga erishdik. Shuningdek, banklarimiz tomonidan tadbirkorlarni terminallar bilan ta’minlash, aholiga qulay joylarda bankomatlar, infokiosklar joylashtirish orqali plastik karta bilan bog‘liq muammolarni sezilarli bartaraf etishga muvaffaq bo‘ldik.

Aholini debitli plastik kartalar bilan qamrab olish orqali biz iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob kitoblarni rivojlantirishga erishsak, kredit plastik kartalarni tarqatish orqali yalpi talabni oshirishga va bu orqali yalpi ishlab chiqarishning oshishiga ta’sir ko‘rsatamiz. Shundan kelib chiqqan holda aholini kredit plastik kartalar bilan ta’minlanganlik darajasini va bunda bank xizmatlar bozorini kengayish holatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil natijalariga ko‘ra, jahonda insonlarning kredit plastik kartalarga egalik qilish darajasi keskin bo‘lmasa-da, ammo bir maromda oshib bormoqda. Xususan, 2014-yilda insonlarning 17 foizida kreditli plastik kartalar mavjud bo‘lgan va undan 15 foizi aktiv holatda bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib esa kredit kartalarga mavjud bo‘lgan insonlar salmog‘i 18 foizga chiqqan, ammo udan foydalanish darajasi o‘zgarishsiz qolgan. 2021-yilda bu yo‘nalishda vaziyat ancha yaxshilangan va dunyo aholisining 24 foizida kredit plastik kartalar mavjud bo‘lgan va undan foydalanayotgan aholi salmog‘i 21 foizga ko‘tarilgan.

2 https://www.worldbank.org The Global Findex Database 2021 ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2-jadval: Ayrim rivojlanayotgan davlatlar aholisida kredit kartalarining mavjudligi va ulardan foydalanish darajasi[3]

Davlatlar		2014-y.	2017-y.	2021-y.
Jahon	Mavjud plastik kartalar ulushi	17%	18%	24%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	15%	15%	21%
Qozog‘iston	Mavjud plastik kartalar ulushi	11%	20%	21%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	5%	17%	18%
Ukraina	Mavjud plastik kartalar ulushi	27%	27%	37%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	19%	19%	27%
Gruziya	Mavjud plastik kartalar ulushi	18%	15%	13%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	13%	13%	12%
O‘zbekiston	Mavjud plastik kartalar ulushi	1%	1%	4%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	0%	0%	0%


Tahlil qilinayotgan davlatlar misolida kreditli plastik kartalar keng tarqalgan davlat Ukraina hisoblanib, 2014-yilda ushbu davlat aholisining 27 foizida kreditli plastik kartalar mavjud bo‘lgan va undan 19 foizi aktiv holatda bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yil ham bu ko‘rsatkichlar o‘zgarmagan. Ammo 2021-yilda bu yo‘nalishda vaziyat keskin yaxshilangan va Ukraina aholisining 37 foizida kredit plastik kartalar mavjud bo‘lgan va undan foydalanayotgan aholi salmog‘i 27 foizga oshgan.

Qozog‘iston davlatida aholining kredit kartalar bilan ta’minlanish darajasi 2017-2021-yillarda o‘zgarmagan bo‘lsada, ammo 2014-2017-yillarda keskin oshgan. Xususan, 2014-yilda aholining 11 foizida kredit plastik kartalar mavjud bo‘lgan va bo‘lsa, va undan foydalanayotgan aholi salmog‘i 5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib esa aholining 20 foizida kredit plastik kartalar mavjud bo‘lgan va undan foydalanayotgan aholi salmog‘i 17 foizga ko‘tarilgan.

Tahlil qilinayotgan Gruziya davlatida esa aholining kredit kartalarga egalik qilish darajasi va undan foydalanish darajasi pasaygan. Xususan, 2014-2021-yillarda Gruziya aholisida kredit plastik kartalar mavjudligi 18 foizdan 13 foizga tushgan va undan foydalangan aholi salmog‘i 13 foizdan 12 foizga tushgan.

O‘zbekistonda aholining kredit plastik kartalar bilan ta’minlanish darajasi juda past darajada qolmoqda. Xususan, 2014-yilda aholining 1 foizida kredit kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, shundan taqriblanganda 0 foizi kredit kartalardan foydalanmoqda. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga qadar sezilarsiz o‘zgargan. Jumladan, 2021-yilda aholining 4 foizida kredit kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsada, undan keraklicha foydalanmagan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, kredit kartalar yalpi talabni oshirish orqali mamlakat YaIMini oshirishga xizmat qiladi. Chunki, aholi mavjud daromadi emas, balki kelajakdagi daromadi hozirdan sarflash orqali iqtisodiyotda qo‘shimcha talabni yaratadi. Ammo, negadir O‘zbekiston Makarziy banki 2017-yilga qadar kredit shakliga kredit kartalar orqali ajratilagn kredit xususiyatiga to‘g‘ri keladigan maqsadsiz kreditlarni kiritmagan. O‘ylaymizki, kredit kartalar muomalasini to‘xtatish orqali iqtisodiyotdagi ortiqcha talabni cheklash va bur orqali inflyatsiya darajasiga ta’sir qilish bosh maqsad bo‘lgan. Ammo iqtisodiyotda qo‘yimcha talabni yaratish orqali real YaIMni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq edi.



3- rasm: Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda aholining raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi[4]


3 https://www.worldbank.org The Global Findex Database 2021 ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
4 https://www.worldbank.org The Global Findex Database 2021 ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Bugungi kunda tijorat banklari yordamisiz iqtisodiyotning rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tijorat banklari bosh maqsadi daromad olishga qaratilgani bilan shu maqsad yo‘lida xarakati orqali jamiyatda yangi innovatsiyalar paydo qilishga va bu orqali iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Quyidagi tahlilmizda tijorat banklarining innovatsion xizmatlaridan biri bo‘lgan raqamli bank xizmatlarning rivojlanish tendensiyasini tahlil qilamiz.

Tahlil natijalariga ko‘ra, tanlangan davlatlardan Qozog‘iston va Ukraina davlatlari 2021-yilga kelib aholinng raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi jahondagi o‘rtacha darajadan yuqori bo‘lgan. Shuningdek, Gruziya davlatida esa bu ko‘rsatkich jahondagi o‘rtacha darajaga yaqinlashib qolgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Qozog‘istonda 2014-yilda aholining 47 foizi raqamli to‘lovlardan foydalangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017-yilda 54 foizni hamda 2021-yilda 78 foizni tashkil qilgan holda doim jahondagi o‘rtacha darajadan yuqori bo‘lgan.

Tahlilda olingan Ukraina davlatida ham 2014-yilda aholining 48 foizi raqamli to‘lovlardan foydalangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017-yilda 61 foizni hamda 2021-yilda 81 foizni tashkil qilgan holda doim jahondagi o‘rtacha darajadan yuqori bo‘lgan. Ammo o‘zbekistonda bu vaziyat bizni quvontiradigan darajada emas. Xususan, 2014-yilda mamlakatimizda aholining 38 foizi raqamli to‘lovlardan foydalangan bo‘lsa, 2021-yilga kelib esa 42 foizga chiqqan va ko‘rilgan davrda oshish sezilarsiz bo‘lgan.

Demak, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan tijorat banklari oldida raqamli bank xizmatlarini oshirishi uchun keng imkoniyatlar va katta bozor turganligini bildiradi.



4- rasm: Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda insonlarning onlayn xaridlari uchun to‘lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanganlik holati[5]

Tahlil qilinayotgan davlatlardan Qozog‘iston va Ukrainada mobil aloqalar yoki internet orqali tovar harid qilish tez rivojlanayotganligiga gavoh bo‘lishimiz mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yilda Ukrainada aholining 22 foizi onlayn xaridlari uchun to‘lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich o‘rtacha jahondagi ko‘rsatkichdan ham oshgan bo‘lib, 42 foizga ko‘tarilgan. Shuningdek, 2017-yilda Qozog‘iston davlati aholisining 15 foizi onlayn xaridlari uchun to‘lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich o‘rtacha jahondagi ko‘rsatkichga yaqinlashgan va 38 foizni tashkil qilgan.

Mamlakatimizda aholining onlayn xaridlar juda sust ketmoqda. Albatta bunga onlayn tovarlarini sotayotgan tadbirkorlarning o‘rtasida raqobat muhiti shakllanmaganligi, onlayn tovarlarning asl tovarlar bilan sifati farq qilishi va bu borada yetarli qonunchilikning takomillashmaganligi sabab sifatida keltirishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, 2017-yilda mamlakatimiz aholisining atiga 2 foizi onlayn xaridlari uchun to‘lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan va 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 6 foizni tashkil qilgan. Deman banklarimiz oldida aholini onlayn xaridlari uchun qulay to‘lov sharoitlarini yaratish va bu orqali daromadalirini oshirish borasida yetarlicha imkoniyatlar ishlatilmayotganlini xulosa qilishimiz mumkin.

5 https://www.worldbank.org The Global Findex Database 2021 ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda aholining raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasi boshqa davlatlarga qaragandan ancha past bo‘lmoqda. Ammo bu tijorat banklarimizga foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligini bildiradi. Bu sohada amaliy chora-tadbirlarni samarali olib borish orqali raqamli to‘lovlarni rivojlantirish va provardida banklarning daromadlarini yanada oshirish mumkinligini anglatadi.

Mamlakatimizda innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish orqali tijorat banklariga aholida bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qilish va bu orqali ularning kreditlash salohiyatini oshirish imkoniyatini ham yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schumpeter, J. A. (2017). Essays: On entrepreneurs, innovations, business cycles and the evolution of capitalism. Routledge.
2. Fanelli, S., & Straub, L. (2020). A theory of foreign exchange interventions (No. w27872). National Bureau of Economic Research.
3. Leraer, J. (2011.) The Consequences of Financial Innovation: A Counterfactual Research Agenda. Annual Review of Financial Economics. – Vol. 3. - P. 41-85
4. Das, P., Verburg, R., Verbraeck, A., & Bonebakker, L. (2017). Barriers to innovation within large financial services firms: An in-depth study into disruptive and radical innovation projects at a bank. European Journal of Innovation Management, 21(1), 96-112.
5. https://data.worldbank.org
6. https://imf.org

SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI MATEMATIK SIMULYATSION MODELLASHTIRISH

Artikov Ne'matulla Abdusalamovich
Toshkent Moliya Instituti "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada soliq tushumlarining soliq ma'muriyatchiligi faoliyatiga ta'sirini baholash maqsadida maxsus ekonometrik model orqali regression tahlil yordamida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, daromad, ma'muriyatchilik, model, samara.

Abstract: The article examines the impact of tax revenues on the activities of the tax administration using a special econometric model using regression analysis.

Key words: tax, income, administration, model, efficiency.

Аннотация: В статье рассматривается влияние налоговых поступлений на деятельность налоговой администрации с использованием специальной эконометрической модели с помощью регрессионного анализа.

Ключевые слова: налог, доходы, администрирование, модель, эффективность.

KIRISH

Soliq tushunchasi davlatning o'з xarajatlarini moliyalashtirish uchun mamlakat fuqarolaridan oladigan daromadi sifatida tushuniladi. O'zbekiston soliq tizimida soliqlar ikki asosiy yo'nalish bo'yicha tasniflanadi: bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri soliqlar. Samarali soliq ma'muriyatchiligi, davlatning o'z xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur daromad olish, davlat xizmatlarini uzluksiz ta'minlash, har bir soliq to'lovchining davlat xarajatlarini moliyalashtirishda adolatli ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligining samaradorlik tushunchasini o'rganish, soliq ma'muriyatchiligida samaradorlikni belgilovchi omillar va samaradorlikni ta'minlash uchun qanday choralar ko'rilishi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqsadga muvofiq soha faoliyati hisobotlaridan olingan o'tgan yillardagi statistik ma'lumotlarga asoslanib, soliqlarning davlat soliq tushumlari tarkibidagi salmog'i hamda soliq ma'muriyatchiligi faoliyat samaradorligiga e'tibor qaratilmoqda. Soliq ma'muriyatchiligi faoliyatidagi samaradorlikning yaxshilanishi, soliq tushumlaridagi ortishga olib kelishi aniqlandidi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Soliq ma'muriyatchiligi - hozirgi zamon sharoitida davlat soliq xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishi. Bunda soliq to'lovchilarning soliq to'lay olish yoki davlatning daromad olish qobiliyati balansi e'tiborda bo'lishi lozim"[1] deb ta'kidlaydi Chun-Yan Kuo. Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining moliyaviy sektor barqarorligini baholash bo'yicha qo'shma dasturiga muvofiq mamlakatning soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini ta'minlash bo'yicha choralar soliqli daromadlar darajasidan kelib chiqib amalga oshiriladi[2]. Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasining yangi tahrirdagi Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari to'plamida ham soliqli daromadlar ijrosini ta'minlashga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda iqtisodiy o'tish davridagi hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal baza shakllanishi, xususan muvozanatlashgan davlat byudjeti alohida ustuvorlik kasb etishi ta'kidlab o'tilgan[3].

Bundan tashqari Osiyo taraqqiyot banki tomonidan o'tkazilgan vaziyatli tahlilda 1997-yilgi Osiyo moliyaviy inqirozi va 2008-yildagi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida tashkilotga a'zo Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya

1 Kuo, C. Y. Estimation of Tax Revenue and Tax Capacity./ C. Y. Kuo//JDI Executive Programs.- 2015. – №. 2015-08.- 34p.
2 The World Bank Group & International Monetary Fund (2005). Financial Sector Assessment Handbook. Washington DC, US.
3 International Monetary Fund (2019). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. Washington DC, US.

davlatlarida inqiroz holati yuzaga kelishida, moliyaviy xavfsizlik tizimi noto‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani hamda xavf darajasini ko‘rsata oladigan va o‘z vaqtida xavfdan ogohlantira oldigan ko‘rsatkich to‘g‘ri tanlanmagani oqibatida og‘ir moliyaviy-iqtisodiy bo‘hron yuzaga kelgani tasdiqlandi4. Inqiroz fonida bir tomonda korxonalarning og‘ir moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi sababli byudjetga tushumlar kamaygan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ishsizlik darajasi keskin ortishi sababli himoyaga muhtoj qatlami ko‘payishi byudjet mablag‘lari taqchilligi kuchaygan bir paytda davlatni og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Vaholangki, moliyaviy xavfsizlik tizimida byudjet ko‘rsatkichlaridan ko‘ra ko‘proq fond bozori, bank tizimi va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar monitoringiga katta e’tibor qaratilgan edi.

Ta’kidlash joizki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlaridan keyin global moliyaviy xavfsizlik tizimidagi kamchiliklar yaqqol ko‘zga tashlanganidan so‘ng xalqaro tashkilotlar va hukumatlar hamkorlikda yangi ko‘rsatikchlar tizimini ishlab chiqish ustida ishlay boshladilar. Natijada xalqaro va davlat miqyosida moliyaviy xavfning oldini olishga qaratilgan dastlabki xavf signallari (early warning signals) tizimi, xavfdan kutilayotgan zararni boshqarish bo‘yicha xavfsizlik to‘rlari (safety nets), xavf darajasini pasaytirish va undan ko‘riladigan zararni kompensatsiyalash bo‘yicha xavfsizlik yostiqchalari (cushioning) tizimlari joriy qilinib, Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan boshqarib kelinmoqda. Bularning barchasida moliya bozori, bank va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda fiskal ko‘rsatkichlar ham o‘rin oldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma’lumki, ma’lumotlarni tahlil qilishda regression tahlil eng keng tarqalgan usullardan biri bo‘lib hisoblanadi. Tushumlarni tahlil va prognozlashda sonli ma’lumotlar bilan juda ko‘p ish ko‘riladi va turli kattaliklar orasidagi bog‘liqlikni kuzatish, tahlil qilish zaruriyati tug‘iladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida biz soliq tushumlarining soliq ma’muriyatchiligi faoliyatiga ta’sirini baholash maqsadida maxsus эконометрик модель orqali regression tahlil asosida O‘zbekiston soliq amaliyotida soliq munosabatlarining har qaysi ishtirokchilari tomonidan soliqli daromadlar darajasining soliq ma’muriyatchiligi samaradorligidan kelib chiqishini iqtisodiy modellashtirish va soliq ma’muriyatchiligi samaradorligining integral ko‘rsatkichini ishlab chiqishni ko‘rib chiqamiz.

Berilgan son qiymatlarni tahlil qilishda erkli o‘zgaruvchi (X) va erksiz (Y) o‘zgaruvchilar qaraladi. Regression tahlil ana shu o‘zgaruvchilar qiymatlarining o‘zgarishini tushuntirib beradi. Regressiya tenglamasi – bu o‘zgaruvchilar orasidagi statistik bog‘lanishning formulasi. Agar bu formula chiziqli bo‘lsa, chiziqli regressiya to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ikki o‘zgaruvchi orasidagi statistik bog‘lanish formulasi juft regressiya deyiladi, bir nechta o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘lanish esa ko‘p omilli regressiya deyiladi.

Korrelyatsion tahlilning ikkinchi vazifasi hodisalar (o‘zgaruvchilar) o‘rtasidagi bog‘lanish zichligini aniqlashdan iboratdir. Bu korrelyatsion indeksi va chiziqli korrelyatsion koeffitsiyentlarning sonli qiymatlarini hisoblash yo‘li bilan tekshiriladi. Agar R=l (r=1) bo‘lsa, unda o‘rganilayotgan omillar o‘rtasida funktsional bog‘lanishlar mavjud bo‘ladi. Agar R=0 (r=0) bo‘lsa, bu holda omillar o‘zaro bog‘lanmagan bo‘ladi.

Bog‘lanish zichligi R va r larning sonli qiymatlari bo‘yicha baholashda quyidagi shartli tasniflashdan foydalanamiz:


- 0,1 dan 0,3 gacha - kuchsiz bog‘lanish;
- 0,3 – 0,65 - o‘rtacha zich bog‘lanish;
- 0,65 – 0,80 - o‘rtachadan zichroq bog‘lanish;
- 0,80 – 0,99 - zich bog‘lanish.

Korrelyatsion indeks R juftli omillar o‘rtasidagi bog‘lanish zichligini baholashda qo‘llaniladi. Chiziqli bog‘lanishlar zichligini aniqlashda korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Korrelyatsiya koeffitsiyenti *r* ning manfiy qiymati hodisalar o‘rtasida teskari bog‘lanish mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Biroq, shuni alohida ta’kidlash lozimki, erishiladigan natijaga omillar, ko‘rsatkichlar ta’sirini baholashning ikki va undan ko‘p omillarga asoslangan regression-korrelyatsion bog‘lanishlari tahliliga asoslangan model ko‘rsatkichlarni hisoblash yagona uslubiyotining yo‘qligi sharoitida o‘zining ma’lum cheklov va kamchiliklariga ega.

Shu boisdan, yuqoridagi mulohaza va ilmiy-tahliliy ishlardan olingan xulosalarni inobatga olib, maqola doirasidagi izlanishimizda Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasi soliq ma’muriyatchiligi samaradorligiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar asosida o‘ziga xos ekonometrik modeli yaratishni maqsad qilib qo‘ydik. Ekonometrik modelni yaratishdan oldin, unda ishtirok etuvchi omillar dinamik o‘zgarishini (2010-2020 yillar moboynida) tavsiflovchi emperik ma’lumotlar asosida grafik tuzamiz va tahlil qilamiz (1-rasm).

4 Asian Development Bank. (2015) Financial soundness indicators for financial sector stability: A tale of three asian countries. Mandaluyong City, Philippines.



1-rasm: 2016-2020-yillarda o‘rtacha bitta soliq xodimiga to‘g‘ri keluvchi soliq tushumi va unga ta’sir qiluvchi omillar dinamik o‘zgarishining grafik ko‘rinishi, (foizda)[5]

1- rasmda soliq tekshiruvlarining samaradorligi ko‘rsatkichlari sifatida, o‘rtacha bitta soliq xodimiga to‘g‘ri keluvchi soliq tushumi, bitta tekshiruvchiga to‘g‘ri keluvchi qo‘shimcha hisoblangan soliq summasi, bitta tekshiruvga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha soliq huquqbuzarliklarning soni vizual – grafik shaklida keltirilgan. O‘rtacha bitta soliq xodimiga to‘g‘ri keluvchi soliq tushumi hamda bitta tekshiruvchiga to‘g‘ri keluvchi qo‘shimcha hisoblangan soliq summasi grafiklari 2010-yildan 2018-yilga qadar barqaror o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘lgan, 2018–2020-yillar davomida ularning grafigi “sakrash xususiyatiga ega bo‘lgan. Bitta tekshiruvga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha soliq huquqbuzarliklarning soni grafigi o‘zgarishi 2010-yildan 2019-yilga qadar deyarli barqaror xarakterga ega bo‘lgan, 2020-yilga kelib pasayish tendentsiyasiga ega bo‘lgan. Dastlab, erkli va erksiz o‘zgaruvchilar ajratib olinib, ular asosida quyidagi ko‘rinishdagi iqtisodiy model yaratildi (1-jadvalga qarang)[6].

1- jadval: Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasida soliq ma’muriyatchiligiga ta’sir qiluvchi omillar, 2011-2020 yillar uchun[7]

Yillar	Soliq xodimlari soni	O‘tkazilgan soliq tekshiruvlarining soni	O‘rtacha bitta soliq xodimiga to‘g‘ri keluvchi soliq tushumi, mlrd. so‘mda
2011-yil	1094,0	1563,0	0,79
2012-yil	1083,0	1439,0	0,96
2013-yil	1080,0	1457,0	1,17
2014-yil	1069,0	1449,0	1,54
2015-yil	1078,0	1410,0	1,65
2016-yil	1084,0	1341,0	1,91
2017-yil	1084,0	1275,0	2,33
2018-yil	1262,0	823,0	2,86
2019-yil	1204,0	486,0	4,88
2020-yil	1221,0	848,0	2,04

Bunda, Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasi tizimida ishlagan xodimlar soni; o‘tkazilgan soliq tekshiruvlarning soni; o‘rtacha bitta soliq xodimiga to‘g‘ri keluvchi soliq tushumi; model parametrlari.

5 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasidan olingan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

6 Muallif tomonidan, “Microfit 10” dasturida amalga oshirildi.

7 Toshkent viloyati soliq boshqarmasidan olingan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Regression tahlil natijasida koeffitsiyent 20,7898 ga, -0,0113ga, -0,0050 ga tengligi ma'lum bo'ldi. Regressiya koeffitsiyentlarining t-statistikasi mos ravishda 4,2586, -3,1192, -6,8182 ga tengligi hisoblanadi. Ishonch oralig'ining quyi va yuqori chegaralari mos ravishda, uchun 9,2462-32,3334 , -0,0199, -0,0027, -0,0067, -0,0033 belgilandi. Standart xatosi 4,8818ni, standart xatosi 0,0036 ni, ning standart xatosi 0,0007ni tashkil qilishi ma'lum bo'ldi.

2-jadval: Regressiyon tahlil natijasi[8]

Ko'rsatkichlar	Koeffisiyentlar	Standart xato	t-statistika	P-qiymat	Pastki chegara 95%	Yuqori chegara 95%
Y-Kesishma	20,7898	4,8818	4,2586	0,0038	9,2462	32,3334
Φ_1 o'zgaruvchi	-0,0113	0,0036	-3,1192	0,0169	-0,0199	-0,0027
Φ_2 o'zgaruvchi	-0,0050	0,0007	-6,8182	0,0002	-0,0067	-0,0033

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi regressiya teglamasini tuzamiz.

$$\hat{Y} = 20,7898 - 0,0113\,\Phi_1 - 0,0050\,\Phi_2 \quad (2)^9$$

3-jadval: Regressiya tenglamasining ahamiyatlilik darajasi tahlili

Ko'rsatkichlar	df	SS	MS	F	Qiymati F	Regressiya statistikasi	
Regressiya	2	11,7185	5,8593	42,0058	0,0001	Umumiy R	0,9608
Qoldiq	7	0,9764	0,1395			R-kvadrat	0,9231
Jami	9	12,6949				Tuzilgan R-kvadrat	0,9011
						Standart xato	0,3735

Regressiya tenglamasi tuzilgandan so'ng, modelь gipotezasi tuzildi. U quyidagicha ifodalanadi:

- H_0: $F_1 = 0$, $F_2 = 0$, ko'p omilli regressiya tenglamasi ahamiyatsiz; (3)
- H_0: $F_1 \neq 0$, $F_2 \neq 0$, ko'p omilli regressiya tenglamasi ahamiyatli. (4)

Belgilangan gipotezani tekshirishda Fisherning kvantilь taqsimoti dan foydalanamiz. tengsizlik qanoatlantirilsa, tuzilgan regerssiya tenglamasini ahamiyatli, deb hisoblashimiz mumkin. Tahlilda = 42,0058 ga tengligini ko'ramiz. = 4,737414128 ga tengligini inobatga olib, tuzilgan regressiya tenglamamiz bashorat uchun to'liq yaroqli, deb xulosa qilishimiz mumkin. Erkli o'zgaruvchi variatsiyasining 0,9231 qismi erksiz o'zgaruvchilar variatsiyasi hisobidan yuz berganligi ma'lum bo'ldi. O'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumining 0,9608 qismi Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasi tizimida ishlagan xodimlar soni hamda o'tkazilgan soliq tekshiruvlarning soni bilan tushuntiriladi. Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasi tizimida ishlagan xodimlar sonining 1% ga oshishi o'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumini 6,32% ga, o'tkazilgan soliq tekshiruvlarning sonining 1% ga oshishi esa o'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumini 3% ga sabab bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq tushumlari darajasining soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholashning iqtisodiy ko'rsatkichlarini matematik modellar orqali prognoz qilish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- iqtisodiy ko'rsatkichlarni matematik modellar orqali tahlil qilishda unga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniq belgilash kerak va bog'liqlik darajasini aniqlab regression tahlillarni amalga oshirish lozim;
- soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligining miqdoriy ifodasini aniqlashda soliq to'lovchilari soni dinamikasini ham inobatga olgan holda ko'rsatkichlar qanchalik aniq ehtimollikda prognoz qilinsa mamlakatda fiskal bazani shakllantirishga oid soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligi ta'minlanishi uchun ko'rilajak tadbirlar samaradorligi oshishi ta'minlanadi;

8 Muallif tomonidan, "Microfit 10" dasturida amalga oshirildi.
9 Muallif tomonidan tuzildi.

- soliq tushumlarining soliq ma’muriyatchiligi faoliyati samaradorligiga ta’sirini baholashning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini prognozlashda ilmiy asoslangan va jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida qo‘llaniladigan usullarni qo‘llagan holda yagona uslubiyotni ishlab chiqish lozim;
- iqtisodiy ko‘rsatkichlarni statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilishda natijaga ta’sir etuvchi qanchalik ko‘proq omillar o‘rganilsa, kelgusi davr uchun prognoz ko‘rsatkichi shunchalik aniqroq bo‘lishiga erishiladi;
- regression modellar orqali prognozlash eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi va tahlil amalga oshirilganda aniqroq ko‘rsatkichga ega bo‘lishi uchun, ko‘p yillik ma’lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir;
- ekonometrik tahlillarning ko‘rsatishicha, soliq tushumlari darajasi ijobiy ko‘rsatkichlarining dinamik rivojlanish qonuniyatiga ega bo‘lishi soliq ma’muriyatchiligi faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga, davlatning fiskal imkoniyatlarini oshirishning maqsadli rivojlanishiga salbiy ta’sirsiz erishishni ta’minlaydi.

Umumiy xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, soliq tushumlarining soliq ma’muriyatchiligi faoliyati samaradorligiga ta’sirini baholashning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va istiqbolini aniq prognoz qilish, mamlakatda moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga, davlat fiskal imkoniyatlari bardavomligi va iqtisodiyot real sektorida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga qaratilgan qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kuo, C. Y. Estimation of Tax Revenue and Tax Capacity./ C. Y. Kuo//JDI Executive Programs.– 2015. – №. 2015-08. – 34 p.
2. The World Bank Group & International Monetary Fund (2005). Financial Sector Assessment Handbook. Washington DC, US.
3. International Monetary Fund (2019). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. Washington DC, US.
4. Asian Development Bank. (2015) Financial soundness indicators for financial sector stability: A tale of three asian countries. Mandaluyong City, Philippines.



O‘ZBEKISTONDA AKADEMIK MUSTAQILLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH: 2022-YILGI AFI TADQIQOTIDAN OLINGAN TUSHUNCHALAR VA ILMIY ISTIQBOLLAR

Yuldashev Feruz Isroil o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik mustaqillik haqidagi tushunchalar har tomonlama tadqiq qilinib, respublikamiz miqyosida joriy davrda olib borilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratilgan. MDH mamlakatlarida 2022-yilgi Akademik mustaqillik indeksi (AFI) so‘rovi natijalaridan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishida O‘zbekistondagi akademik mustaqillikka ta’sir etuvchi omillar huquqiy, ijtimoiy va kampus dinamikasini tahliliy o‘rganilgan. Taniqli olimlarning akademik mustaqillik haqidagi qarashlari bilan birgalikda tadqiqot intellektual izlanish va fikr erkinligi uchun qulay muhit yaratishda O‘zbekistonda mavjud xususiy imkoniyatlarga oydinlik kiritadi.

Kalit so‘zlar: Akademik mustaqillik, madaniy mulohazalar, Oliy ta’lim tizimi, demokratik qadriyatlar, nutqiy kompetensiya, Jamiyat farovonligi, fikrlar xilma-xilligi, ta’limdagi innovatsiyalar.

Abstract: In this article, the concept of academic independence is comprehensively researched, and special attention is paid to the work that is being carried out at the level of our republic. Based on the results of the 2022 Academic Independence Index (AFI) survey in the CIS countries, the research paper analyzed the legal, social and campus dynamics of the factors affecting academic independence in Uzbekistan. Together with the views of famous scientists on academic independence, the research sheds light on the private opportunities available in Uzbekistan to create a favorable environment for intellectual research and freedom of thought.

The article combines AFI survey data and scholarly opinion to highlight Uzbekistan’s current position on academic freedom in a broader global context. Based on the current scientific conditions in Uzbekistan, the article mentions specific difficulties and achievements related to academic freedom. Also, the article offers targeted proposals for increasing academic freedom in Uzbekistan, taking into account the benefits that an environment of intellectual openness brings to the development of society.

Key words: Academic independence, cultural considerations, higher education system, democratic values, rhetorical competence, community welfare, diversity of opinions, innovations in education.

Аннотация: В данной статье всесторонне исследуется понятие академической независимости, а особое внимание уделяется работе, которая проводится на уровне нашей республики. На основе результатов исследования Индекса академической независимости (AFI) 2022 года в странах СНГ в исследовательской работе проанализирована правовая, социальная и университетская динамика факторов, влияющих на академическую независимость в Узбекистане. Вместе со взглядами известных ученых на академическую независимость исследование проливает свет на имеющиеся в Узбекистане частные возможности по созданию благоприятной среды для интеллектуальных исследований и свободы мысли.

В статье объединены данные опроса AFI и мнения ученых, чтобы осветить текущую позицию Узбекистана в отношении академической свободы в более широком глобальном контексте. Основываясь на современных научных условиях в Узбекистане, в статье упоминаются конкретные трудности и достижения, связанные с академической свободой. Также в статье предлагаются адресные предложения по повышению академической свободы в Узбекистане с учетом пользы, которую несет среда интеллектуальной открытости для развития общества.

Ключевые слова: Академическая независимость, культурные соображения, система высшего образования, демократические ценности, риторическая компетентность, благосостояние общества, разнообразие мнений, инновации в образовании.

KIRISH

So‘nggi yillarda ilm fanning misli ko‘rilmagan rivojlantirilishiga bo‘lgan ehtiyoj butun dunyo mamlakatlari uchun tan olingan ahamiyat kasb etmoqda. Buning natijasida ilmiy rivojlanishni qo‘llab quvvatlash borasida global miqyosda beayov raqobat muhitini shakllanmoqda. Ushbu raqobat kurashiga mutanosib javob berish maqsadida hukumatimiz tomonidan ilm-fanga qaratilayotgan e’tibor ham millatimizni mazkur global muhitning

raqobatbardosh ishtirokchilaridan biriga aylantirish uchun davomli harakatlari bejizga emas. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning doimiy sodir bo‘lishi va kutilmagan global omillarning doimiy ta’siri tufayli jahon iqtisodiyoti kelajakda prognoz qilish murakkab strategik sohalar majmuasi sifatida rivojlanib (Isroilugli, 2022), ta’lim sohasining munosib rivojlanishini taqazo etmoqda. Ta’kidlash joizki, o‘tgan 2023-yilning mamlakatimiz prezidenti tomonidan “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qilinilinishi mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘li ekanligi e’tirof etilganligi (https://kun.uz) jamiyat oldiga muhim vazifalarni qo‘ydi. Sohaning bosqichma-bosqich rivojlanishi Oliy ta’limda talabalar qamrovi ko‘rsatkichining oldingi davrlarga nisbatan sezilarli oshishi va bu esa o‘z navbatida OTMlarda yuqori saviyali pedagog xodimlarga bo‘lgan ehtiyojning davomli ravishda yuqorilab borishiga olib kelmoqda. Ushbu tadqiqot orqali mamlakatimizda akademik mustaqillik uchun olib borilayotgan islohotlar va rivojlangan mamlakatlar tajribasida joriy sharoit yuzasidan akademik mustaqillik tushunchasidan nazarda tutiladigan turli masalalar orasidagi tafovutlarni keltirib o‘tish hisobga olingan.

TADQIQOT METODIKASI

Akademik mustaqillik mavzusi bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar taqdim qilgan ma’lumotlar asosida tahlil qilinganidek, global jamiyatda akademik mustaqillikka nisbatan xavf darajasining o‘sib borayotgani (e.g., Kinzelbach et al., 2022) ijtimoiy farovonlikning pasayib borayotganidan dalolat beradi. Aksar rivojlangan mamlakatlarda akademik mustaqillikka qo‘yilayotgan siyosiy cheklovlarga qaramasdan, O‘rta Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekiston miqyosida ilm-fan rivojini qo‘llab quvvatlash va innovatsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida bir qancha qonun hujjatlari imzolanib, bugun amalda o‘z natijasini bermoqda. “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-sonli qarori 3- bandiga ko‘ra, moliyaviy mustaqillik berilgan davlat OTMlari akademik mustaqillik sohasidagi quyidagi qo‘shimcha vakolatlar bilan ta’minlanishi nazarda tutilgan[1]:


- o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta’lim tilini hamda ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim olish shaklini belgilash;
- bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o‘qish davomiyligi muddatlarini belgilash;
- doktoranturada to‘lov-kontrakt asosida o‘qish qiymatini belgilash, budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo‘shimcha ravishda qabul qilish;
- doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;
- magistratura bosqichida ta’limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;
- o‘zaro kelishuvlar asosida oliy ta’lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshirish;
- oliy ta’lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta’lim muassasalari uchun o‘z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish;
- ta’lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish.

Ushbu islohotlarni keng miqyosda amalga oshirish va asosan hukumat e’tiborining mazkur harakatlarni rag‘batlantirishga qaratilishining isboti sifatida 2023-yilning Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili deb belgilanganligini ko‘rish mumkin[2].

2022-yil dekabr oyiga qadar 179 ta mamlakat va hududiy birliklardan yig‘ilgan ushbu ma’lumotlarga ko‘ra (Kinzelbach, etc, 2023), akademik erkinlikning cheklanish darajasi insoniyatning 4 milliard aholisidan 50 % dan ko‘proq ulushgacha qisqargan. Joriy yilgi erkinlik darajasi 22 mamlakatda oxirgi 10 yil oldingiga qaraganda sezilarli darajada pasaygan bo‘lib ilmiy soha vakillari jiddiy ta’sir ostida ekanligi ma’lum qilingan. Ayni vaqtda AFI ko‘rsatkichi faqatgina 5 nafar kichik mamlakatlarda yaxshilangani hisobiga, dunyo aholisining 0,7%i akademik farovonlikdan foyda olyapti. Ushbu ma’lumotlarning e’tiborli jihati shundaki, Hindiston, Xitoy, AQSH va Meksika kabi yirik sanoat va YaIM ulushiga ega mamlakatlarning AFI ko‘rsatkichi pasayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda.

1-rasmda[3] ko‘rsatilganidek O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida AFI ko‘rsatkichi bo‘yicha 5-o‘rinda turibdi.

1 https://lex.uz/docs/-5793261
2 https://kun.uz/news/2022/12/20/2023-yil-insonga-etibor-va-sifatli-talim-yili-deb-elon-qilindi
3 https://academic-freedom-index.net/ manbasi asosida muallif tomonidan tuzildi




№	MDH mamlakatlari	AFI indeksi
1	Moldova	0,82
2	Armaniston	0,71
3	Qirg‘iziston	0,54
4	Qozog‘iston	0,5
5	O‘zbekiston	0,3
6	Rossiya	0,24
7	Ozorbayjon	0,2
8	Tojikiston	0,1
9	Belarusiya	0,03

1-rasm: MDH mamlakatlarida akademik mustaqillik darajasi

Qayd etish joizki, akademik mustaqillik va ilmiy soha vakillarining jamiyatdagi roli istiqlolning ilk davrlarida juda past ahamiyat kasb etar edi. AFI indeksi 1991-2016-yillar oralig‘ida 0,1 koeffitsiyentdan past natijani ko‘rsatgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib shiddatli ravishda 0,16 darajaga yetdi.

Tadqiqotlarimiz davomida ma’lum bo‘ldiki, akademik mustaqillikka bo‘lgan ehtiyoj ancha oldin paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, 1900-yildan boshlab global akademik mustaqillik darajasi mamlakatlar kesimida tahlil qilingan. Bugungi MDH mamlakatlari va sobiq sovet ittifoqining hududiy birliklarida esa bu ko‘rsatkich 1991-yildan buyon hisoblab kelingan.

2021-yil va 2022-yilda esa muntazam o‘sish tendensiyasi (2020-yilgi 0,2 koeffitsiyenti mustasno) bilan mos ravishda 0,22 va 0,3 maksimal nuqtalariga erishdi (2-rasm[4]).






Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
AFI	0,16	0,19	0,21	0,2	0,22	0,3

2-rasm: O‘zbekiston respublikasining AFI indeksi bo‘yicha 2017-2022-yilgi o‘zgarish dinamikasi

4 https://academic-freedom-index.net/ manbasi asosida muallif tomonidan tuzildi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Akademik mustaqillik muhiti shakllantirilgan jamiyatda fuqarolar manfaati oliy maqsad sifatida qaraladi. Aksariyat hollarda zamonaviy boshqaruv mezonlarini ilgari surayotgan hukumatlar o‘z oldilarida uzoq muddatli maqsad sifatida belgilab qo‘yadigan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda akademik mustaqillikning jamiyat farovonligi uchun quyidagi foydalarni ko‘zlashadi:



3-rasm: Akademik mustaqillikdan kutiladigan manfaatlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi zamonaviy, ilmiy asoslangan ta’lim tizimini barpo etish hisoblanadi. Ushbu maqsadning integral qismi sifatida demokratiyaga intilayotgan jamiyatning rivojlanayotgan ehtiyojlariga moslasha oladigan boshqaruvga asos solishni ko‘rsih mumkin.

Mazkur tadqiqot doirasida o‘rganilgan adabiyotlar va tahlillar yuzasidan akademik mustaqillik muhitini shakllantirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Siyosatni qo‘llab quvvatlash.** Olimlar va jamiyat ziyolilarining joriy ijtimoiy va akademik sharoitni hisobga olgan holda akademik mustaqillikka erishishning ilmiy jihatdan ishonchli nazariyalarini ishlab chiqib hukumatga takliflar berishi mexanizmini shakllantirish ayni muddaodir.
2. **Jamiyat a’zolarining faolligini oshirish.** Akademik mustaqillikning ahamiyati jamiyat ziyolilari uchun muhim bo‘lib, uning rivojlanishi ko‘proq akademik subyektlarga bog‘liq bo‘lganligi uchun, unga erishishda va jamoatchilikda uning zarurligini oshirishda olimlar va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi barcha individlar markaziy rol o‘ynashadi.
3. **Ta’lim muassasalarining ijtimoiy faolligini oshirish.** Jamiyat a’zolari akademik mustaqillikka ega bo‘lishning afzalligini anglashgach, intellektual tadqiqotlarni qo‘llab quvvatlaydigan muhitga asos solish uchun maktab kengashlari va ochiq forumlarda ishtirok etish, shuningdek ma’muriyat bilan hamkorlik qilishga erkin qiziqish bildirishlari mumkin.
4. **Fikrlar aspektlarining keng ko‘lamliligi.** Fikrlashning cheklanmaganligi asosiy shartlaridan biri hisoblangan demokratik muhitda shaxslarning turli sohalarda erkin va asosli muhokamalar olib bora olishi ilm fan rivojiga katta hissa qo‘shadi.
5. **Erkin nutq uchun imkoniyatlar eshigini ochish.** Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakat fuqarolari ilgarigi hayot tajribasiga tayangan holda nutqiy erkinlikka ehtiyojni unutib qo‘yishadi va hatto zarur vaziyatda ham muloqotning nutq qilish, izohlash, tushuntirish kabi funksiyalarini bajarishdan o‘zlarini olib qochishadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, akademik mustaqillik bugungi demokratik jamiyatni barpo etish uchun zaruriy qadamlardan biridir. Ilmga asoslangan va erkinlik bilan rag‘batlantirilgan jamiyat barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fuchs, R. F. (1963). Academic freedom. Its basic philosophy, function, and history. Law and Contemporary Problems, 28(3), 431–446.
2. Eisenberg, R. S. (1987). Academic freedom and academic values in sponsored research. Tex. L. Rev., 66, 1363.
3. Casimir, H. B. G. (1971). Industries and academic freedom. Research Policy, 1(1), 3-8.
4. Audretsch, David & Fisch, Christian & Franzoni, Chiara & Momtaz, Paul & Vismara, Silvio. (2023). Academic Freedom and Innovation: A Research Note.
5. Merton, R.K. (1973). The Sociology of Science: Theoretical and Empirical Investigations.
6. University of Chicago Press.
7. Merton, R.K. (1973). The Sociology of Science: Theoretical and Empirical Investigations. University of Chicago Press.
8. Polanyi, M. (1947). The Foundations of Academic Freedom. The Lancet, 249: 583-586
9. Schumpeter, J. (1942). Creative destruction. Capitalism, socialism and democracy, 825, 82-85
10. Smith, A. (1937). The wealth of nations [1776] (Vol. 11937).
11. Lott, L. Academic freedom growth and decline episodes. High Educ (2023).
12. Stone, G.R. (2015). A Brief History of Academic Freedom. In Bilgrami A., Cole J.R. (eds.) Who‘s Afraid of Academic Freedom? (pp. 1-9). Columbia University Press.
13. Sjur Bergan, Tony Gallagher and Ira Harkavy (2020) (eds.). Academic freedom, institutional autonomy and the future of democracy (Council of Europe Higher Education Series No. 24)
14. Kinzelbach, K., Lindberg, S. I., Pelke, L., & Spannagel, J. (2022). Academic freedom index - 2022 update (tech. rep.). Friedrich-Alexander-Universität Erlangen-Nürnberg (FAU) and Varieties of Democracy Institute. https://doi.org/10.25593/opus4-fau-18612
15. Kinzelbach, Katrin & Lindberg, Staffan & Lott, Lars & Spannagel, Janika. (2023). Academic Freedom Index Update 2023. 10.25593/opus4-fau-21630.
16. Ergashev, M. (2022). Mintaqalarning innovatsion rivojl. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish: Mintaqalarning innovatsion rivojlanishini statistik baholash. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 13(13).



MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI NOMUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH FUNKSIYALARI

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa, hududlarni rivojlanishi, ijtimoiy hodisala, globallashuv, siyosat, iqtisodiyot.

Abstract: This article describes the functions of disparity regulation in regional development.

Key words: region, regional development, social phenomena, globalization, politics, economy.

Аннотация: В данной статье описаны функции регулирования неравенства в региональном развитии.

Ключевые слова: регион, региональное развитие, социальные явления, глобализация, политика, экономика.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanish muammolari bilan bog‘liq huquqiy soha konfiguratsiyasining tahlili, uning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari, hududiy rivojlanish masalalariga bevosita yoki bilvosita taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati ko‘pchilikni ta’kidlash uchun asos beradi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, qonunlar amaldagi barcha normativ-huquqiy hujjatlarning 10 foizidan ko‘pini egallamaydi. Qonunlarning bunday arzimas ulushi “konstitutsiyaviy norma – qonun – qonunosti hujjatlari” aniq konstruksiyalarni qurish mumkin emasligidan dalolat beradi. Hududiy rivojlanishning ayrim masalalarini tartibga solishning huquqiy imkoniyatlari tartibga solish subyektlarining qonunlar va qonun osti hujjatlari o‘rtasida taqsimlanishiga bog‘liq.

Bizning fikrimizcha, hududiy rivojlanish masalalarini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning butun tizimini, xususan, ushbu ijtimoiy munosabatlar guruhini umumlashtirilgan va tizimli tartibga solishni ta’minlaydigan munisipal kodeksni qabul qilish orqali kodlashtirish kerak. Bundan tashqari, bunday kodeksning ishlab chiqilishi, bir tomondan, mintaqaviy siyosatning asosiy tushunchalari – “mintaqa”, “davlat mintaqaviy siyosati”, “hudud” tushunchalarining takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi va boshqa tomondan, bu huquqiy normalar sonini ko‘paytiradi, murojaatlar sonini kamaytiradi.

Hududiy miqyosda ijtimoiy hodisalarning borishini tartibga solish uchun huquqiy vositalardan foydalanish zarurligiga qaramasdan, davlat siyosatining mintaqaviy darajasi bilan tartibga solinadigan normativ-huquqiy hujjatlarning soni juda kam. Hududlarni rivojlantirish masalalariga Byudjet, Soliq va Yer kodekslarining alohida normalari amal qiladi. Biroq, huquqiy sohada uzoq vaqt davomida hududlarni rivojlantirishni tartibga soluvchi asosiy qonun mavjud emas. Bizning fikrimizcha, davlatning mintaqaviy siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish, markaziy va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ushbu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirishga ko‘maklashish, davlat hokimiyati organlarining tegishli qarorlari loyihalarini tayyorlash va muhokama qilishga jamoatchilikni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Hududlarni rivojlantirish sohasida jamoatchilik munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha alohida subyektning paydo bo‘lishi zarurati ancha oldin paydo bo‘lgan va hududlarning rivojlantirilishida o‘z ifodasini topgan. Shu ma’noda, 2020-yilda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yaxlit baholashning me’yoriy tartibga solinadigan “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilingan. Bu esa hududlarni strategik rejalashtirish va rivojlantirishni prognozlash uchun yagona mezonga ega bo‘lish, uning yordamida ushbu hududlarning holatini baholash va uning boshqa hududlar orasidagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi. Hududlarni rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy sohasining boshqa muammolari sifatida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, ayniqsa, hududlar

darajasida, hududlarni rivojlantirishning ayrim masalalari bo‘yicha huquq va majburiyatlarining nomuvofiqligini ta’kidlash o‘rinli.

Shuningdek, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish subyektlarini moliyaviy mustaqillikdan mahrum qiladigan sezilarli miqdordagi berilgan vakolatlarning mavjudligi, vakolatlar bo‘yicha nizolarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda markazsizlashtirish natijasida har bir darajadagi mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari o‘rtasida vakolatlarning aniq bo‘linishi ko‘zda tutilmoqda. Ta’kidlash kerakki, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘rta muddatli strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ishlar boshlangan.

Umuman olganda, hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini tizimli tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu borada, hududlarni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish maqsadlariga erishishda “Davlat-mintaqa” sohasidagi jamoat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy sohani yanada rivojlantirish davlat va hududlar manfaatlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini izlab topish yoki yaratish, hududlar o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish kerak. Chunki, tartibga solish predmeti hududiy rivojlanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar bo‘lishi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolada xorijlik olimlar Acharya A. [1], Baykov A. A. [2], Fawcyet L. [3], Haas E. [4], Hettne B. [5], Katzenstein P. J. [6], Kuznetsov D. A. [7], Lagutina M. [8,9], Mikhaylenko E. [10], Mitrany D. [11], Söderbaum F. [12, 13], Telo M. [14] va bosqalarning ilmiy ishlari metodlogik asos sifatida xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamaonaviy iqtisodiy adabiyotlar, sharhlar, xalqaro ekspertlar tomonidan xalqaro tashkilotlar uchun tayyorlangan ma’ruzalar tahlili asosida statistik ma’lumotlar, milliy va mintaqaviy innovasion tizimlarni shakillantirishda dunyo mamlakatlari aniqlangan inklyuziv o‘sishning mohiyati, roli, ahamiyati, istiqbollari va xususiyatlarini o‘rganish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarning o‘zini-o‘zi rivojlantirish motivatsiyasini kamaytirmasdan, nomutanosiblikni tartibga soluvchi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat investisiyalar, davlat buyurtmalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun subvensiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari, hududlarni rivojlantirish bo‘yicha kelishuvlar, davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha davlat ta’sirining vositalaridan samarali foydalanish lozim. Bunda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat investisiyalari hudud iqtisodiyotiga bevosita ta’sir qilish vositasi bo‘lib, nvestisiyalar uchun hududlarni tanlash (to‘g‘rirog‘i, hudud ichidagi investisiya obyektlari) investisiya maqsadini aniqlashdan oldin bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, agar ma’lum bir hududda ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadi e’lon qilingan bo‘lsa, unda YaHM ko‘rsatkichini oshirishning qisqa muddatli samarasiga iste’mol darajasining oshishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobidan tezda erishish mumkin. Boshqa tomondan, iqtisodiy foyda olish uchun investisiyalar hajmini oshirish nafaqat qisqa muddatli faoliyatni faollashtirish samarasini keltirib chiqaradi, balki samarali bandlikni ta’minlash va ijtimoiy to‘lovlar uchun mablag‘larni ko‘paytirishga ham yordam beradi.

Binobarin, iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini tiklash uchun davlatning investisiya resurslarini, xususan, iqtisodiy faollikni faollashtirishga, iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish ehtiyojlariga yo‘naltirishga ustunlik berish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘z navbatida, uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmini oshirishga yordam beradi. Xuddi shunday iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha hududiy nomutanosibliklarning qisqarishi amalga oshiriladi va kelgusida ijtimoiy ko‘rsatkichlardagi nomutanosibliklar bartaraf etiladi.

Davlat buyurtmalari va davlat shartnomalari hududiy va mahalliy miqyosda ishlab chiqarishni rivojlantirishga davlatning bevosita ta’sir ko‘rsatishining samarali dastagi hisoblanadi. Xususiy korxonalarda real ishlab chiqarishni yangilash va moliyalashtirish uchun motivatsiya mavjud bo‘lmaganda aynan davlat buyurtmalari hamda kafolatlangan sotish hisobiga davlat shartnomalari sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish uchun kuchli turtki bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun ishlab chiqarishni qayta tiklash tufayli – O‘zbekiston Respublikasining turli hududlarida yashovchi odamlarning ijtimoiy muammolarini hal qilish, ularning farovonligini oshirish ko‘zda tutiladi. Davlat buyurtmasi xususiy korxonalarga savdo bozorlarini kafolatlash, soliqqa tortish va kreditlashda imtiyozlar berish shakli sifatida ma’lum bir hududning investisiya muhitini yaxshilashi, ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish va ushbu hudud korxonalariga investisiyalarni faol jalb qilish uchun multiplikativ samara berishi mumkin.

Davlat buyurtmalari va ularni amalga oshirish usullari - davlat shartnomalari samarali hisoblanadi, chunki ular mintaqa iqtisodiyoti uchun tizimni tashkil etuvchi va ma'lum bir tarmoq faoliyati uchun muhim bo'lgan korxonalar faoliyatining o'sishini rag'batlantiradi. Davlat shartnomasini tuzish korxonalar uchun sotish bozorini shakllantiradi va shu yo'l bilan hudud iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Davlat buyurtmasining ahamiyati mamlakatda xo'jalik muomalasiga tabiiy resurslarning katta miqdori va hajmini kiritishda, aholi punktlari, qishloq xo'jaligi va ayrim hududlarning transportini rivojlantirish, boshqa hududlarda aholining haddan tashqari ko'payishini yengillashtiradigan aholi migratsiya oqimlarini tartibga solish; transport qurilishi, ham byudjet, ham investisiya va kredit manbalari hisobidan moliyalashtiriladigan yirik fermer xo'jaliklarini tashkil etishga yordam beradi.

Hududiy darajadagi iqtisodiy tuzilmalarga ta'sir ko'rsatish uchun davlat shartnomasi investisiya resurslarini investisiyalash va ulardan foydalanishni nazorat qilishning muhim shakliga aylanishi kerak. Bu resurslarning yanada teng taqsimlanishiga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasida davlat buyurtmalaridan foydalanish salohiyati juda kuchli bo'lsada, ushbu salohiyatdan unchalik foydalanilmaydi. Bunday normalar, ayniqsa, hududiy rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega edi, chunki infratuzilma loyihalari nafaqat mintaqaviy rivojlanishni faollashtirish, balki hududlararo iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi [15] Qonun qabul qilingan bo'lib, u davlat mablag'lari hisobidan tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish sohasida shaffof munosabatlarni o'rnatdi va uning amalga oshirilishi rasionalizatsiyaga yordam berdi. ushbu mablag'larning sarflanishi hozirda xaridlarning samarali va shaffofligini, davlat xaridlari sohasida raqobat muhitini yaratishni, ushbu sohada korrupsiyaning oldini olishni, adolatli raqobat asosida rivojlanishni ta'minlaydi. Hududiy darajadagi muhim infratuzilma va investisiya loyihalarini davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish vositasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun subsidiyalar berish hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun subsidiyalar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan transfertlarning tarkibiy qismidir. Subvensiyalarni taqdim etish shartlari – byudjetni ta'minlashning haqiqiy xarajatlari miqdorini rejalashtirilganiga nisbatan kamaytirish, oluvchining moliyalashtirishdagi ishtiroki, boshqa byudjetlar bilan raqobat - mablag'larni to'plash bo'yicha mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini faollashtirishga qodir. Shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida investisiya loyihalarini amalga oshirish uchun subvensiyalar berish to'g'risida shartnomalar tuzish bir xil darajadagi o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni va hamkorlikni mustahkamlashi mumkin. Shunga ko'ra, mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida investisiya subsidiyalarining ulushini oshirish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun subsidiyalar hududlarni vaziyatni boshqarish mexanizmi bo'lib qolmoqda, ularning hajmi subyektiv omillarga bog'liq. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga ko'ra, investisiya dasturlarini amalga oshirish uchun subvensiyalarni taqsimlash vazifalari va chora-tadbirlarini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining haqiqiy va prognoz ko'rsatkichlari asosida rasmiylashtirilgan hududiy rivojlanish strategiyalari, kapital, aholi zichligi, aholining ishsizlik darajasi, aholining bir kishiga to'g'ri keladigan daromadlari, xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi parametrlariga ko'ra amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, subsidiyalarni taqdim etish mezonlari juda mavhum bo'lib, subsidiyalardan samarasiz foydalanilganda qaytarishning standartlashtirilgan usullari ham mavjud emas. Yangi iqtisodiy sharoitda hududlarni rivojlantirishni rag'batlantirishning yuqorida qayd etilgan mexanizmlari, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va hududiy darajadagi mahalliy kengashlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'rtasida hududiy rivojlanish bo'yicha shartnomalar tuzish, faollashtirishni ham talab qiladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalari qonun hujjatlariga muvofiq qabul qilinadi va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari rejalariga muvofiq amalga oshiriladi. Hududiy rivojlanishni tartibga solishning bunday vositasi uning harakat mexanizmi va uning afzalliklarini tushunmaganligi sababli tarqalmadi. Hududlarni rivojlantirishni rag'batlantirish va tushkun hududlarni qo'llab-quvvatlashda subsidiyalashtirilgan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining samarasizligi davlat hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida shartnomaviy munosabatlarni joriy etish zarurati bilan belgilandi. Mablag'lar hududlarni rivojlantirishni rag'batlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, balki dolzarb muammolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarga taqsimlangan holatlar mavjud.

Xususan, Namangan viloyati bilan tuzilgan shartnomada boshqa manbalar hisobidan ham moliyalashtirilishi mumkin bo'lgan "Viloyatning ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarini qurish" qo'shma loyihasi ko'zda tutilgan. Shartnomalar tuzish yo'lidagi asosiy to'siqlarni quyidagilar deb atash mumkin:

- ustuvor moliyalashtirish loyihalarini belgilashda markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlari, viloyat hokimliklari va hududiy kengashlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi;
- strategiyalarning bitimlar tuzish uchun asos sifatida deklarativ xarakteri, muammoli masalalarni mukammal qayta ishlash va ularni ustuvorliklar darajasiga tushirish.

Bunday to‘siqlarni bartaraf etish yetakchi mexanizmlardan biri sifatida shartnomalar tuzishni jadallashtirishga xizmat qilishi mumkin, bu esa hududlarni rivojlantirish muammolarini hal etish uchun mablag‘larning maqsadli taqsimlanishini ta’minlash imkonini beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va qabul qilish hamda hududlarni rivojlantirish bo‘yicha shartnomalar tuzish sharoitida ko‘rsatilgan salbiy hodisalarning amalda namoyon bo‘lishi minimallashtiriladi. Bitimlar hududlarni rivojlantirishni tashkiliy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning haqiqiy vositasiga aylanishi kerak. Bunday bitimlarning afzalligi moliyalashtirish parametrlari va shartlarini aniq belgilashda, bu mablag‘lardan samarasiz va/yoki maqsadsiz foydalanish xavfini bartaraf etishda, shuningdek, ayrim loyihalar yoki tadbirkorlik subyektlarini aniq qo‘llab-quvvatlashdadir.

Umuman olganda, ushbu vositalardan foydalanish boshqalarga qaraganda ko‘proq ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shartnoma munosabatlarini “markaz-hudud” darajasida joriy etishning institusional afzalliklari – shartnomalar taraflarining resurslardan foydalanish bo‘yicha mas’uliyatini oshirish, shuningdek markaziy va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining kelishuv natijalari uchun birgalikdagi javobgarligi. kelishuvni amalga oshirishda namayon bo‘ladi. Hududlarni rivojlantirishning yangi bosqichga ko‘tarilishi va yangi sifatini shakllantirish maqsadi, xususan, nomutanosibliklarni tartibga solish hisobiga davlat-xususiy sheriklik institutining afzalliklaridan foydalanishni taqozo etadi. Mintaqaviy siyosat bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligi ko‘p jihatdan barcha manfaatdor sheriklar - mahalliy hokimiyat organlari, biznes, jamoatchilik o‘rtasidagi vazifalarni hal qilishda boshqaruv va hamkorlikning samaradorligiga bog‘liq.

Ushbu masalalarning dolzarbligi 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi [16] Qonunining qabul qilinishi bilan tasdiqlandi. Davlat, xo‘jalik va o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy rivojlanish muammolarini hal etishda kuch va resurslarni birlashtirishi kerak. Qonun oldida tenglik, kamsituvchi choralarni taqiqlash va sheriklikning barcha ishtirokchilari huquqlarini cheklash, davlat va xususiy sheriklar manfaatlarini muvofiqlashtirish, tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va majburiyatlarini amalga oshirishda hamkorlikdagi faoliyat xulq-atvor normasi va hududlarning ichki rivojlanish salohiyatini faollashtirish garoviga aylanishi kerak.

Mahalliy muammolarni hal qilishda davlat va tadbirkorlik tuzilmalari o‘rtasidagi sheriklik munosabatlarining yangi tizimi cheklangan resurslarni birlashtirishga, barcha ishtirokchilar o‘rtasida risklar, mas’uliyat va mukofotlarni taqsimlashga imkon beradi, biznesni yaratish va qayta qurishda uzoq muddatli hamkorlikni o‘rnatishga yerdagi mavjud obyektlar, ularning ishlashi qo‘shimcha xususiy investisiya resurslarini jalb qilishni talab qiladi. Zamonaviy infratuzilmani qo‘llab-quvvatlamasdan turib, investisiya resurslarini jalb qilish, iqtisodiy tiklanish va mahalliy hamda hududiy darajada iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirish bo‘lmaydi.

Kommunal obyektlar, mahalliy gaz va issiqlik ta’minoti tarmoqlari, yo‘l xo‘jaligi, suv ta’minoti, drenaj hamda melioratsiya tizimlari, turistik va rekreasion obyektlar, oqova suv tozalash inshootlari, maishiy chiqindilarni qayta ishlash obyektlari, davlat va kommunal mulkning strategik, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatiga ko‘ra xususiylashtirilmaydigan hamda yangi qurilish, rekonstruksiya va modernizatsiyaga muhtoj. Davlat-xususiy sheriklikning faol rivojlanishi natijasida investisiya resurslarining salmoqli ulushi bevosita xususiy investisiyalar hisobidan ta’minlanishi kerak.

Davlat-xususiy sheriklik samaradorligi e’lon qilingan uzoq muddatli ustuvorliklarni mahalliy va hududiy darajadagi loyihalar bilan samarali uyg‘unlashtirishga bevosita bog‘liq. Hududiy va mahalliy rivojlanish oldida turgan vazifalarning mohiyati davlat-xususiy sheriklik, konsessiya, ijara, lizing, mahsulot taqsimoti to‘g‘risidagi shartnomalardan tortib, davlat va kommunal mulkni boshqarish bo‘yicha shartnomalar, birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomalar shaklini ham belgilab beradi. Umuman olganda, xususiy va davlat (munisipal) sherik o‘rtasidagi shartnoma munosabatlarining butun tizimi muayyan ijtimoiy vazifaning bajarilishini kafolatlashi, har bir shahar, qishloq, aholi punkti hayotini yaxshilashga hissa qo‘shishi kerak, bu davlatning mintaqaviy siyosatdagi asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Hududlar rivojlanishi va rivojlanish nomutanosibligini bevosita va bilvosita davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini kompleks tatbiq etish, hududlarni rivojlantirishni maqbul institusional-huquqiy va institusional-tashkiliy qo‘llab-quvvatlash tufayligina uning asosiy ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish, hududlarni rivojlantirish salohiyatini ko‘paytirishga erishish mumkin. Hududlar, mintaqaviy darajada reproduktiv nisbatlarning barqarorligini ta’minlash va har bir hududiy iqtisodiy tuzilmani O‘zbekiston Respublikasining yagona, kuchli va raqobatbardosh iqtisodiy kompleksini shakllantirishga jalb qilishga yordam beradi.

Hududiy rivojlanish nomutanosibligini tartibga solish funksiyalarini aniqlash ushbu nomutanosibliklardan samarali foydalanish yoki kamaytirish yoki bartaraf etishga qanday ta’sir qilish va nomutanosiblikni tartibga solish uchun resurslar va vositalar to‘plamidan qanday samaraliroq foydalanishni aniqlash imkonini beradi. Nomutanosiblikni tartibga solish haqida gap ketganda, ushbu tartibga solishning barcha hududlarni barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha tenglashtirish yoki barcha hududlarni yuqori daraja olib chiqish maqsadini aniq tushunib olish kerak.

Yoki nomutanosiblikni tartibga solish orqali turli bosqichlarda turli maqsadlarga erishishga hissa qo‘shish mumkin - qisqa muddatli bosqichda ko‘rsatkichlarni o‘rtacha qiymat bo‘yicha tenglashtirish va uzoq muddatli

istiqbolda yanada muvaffaqiyatli rejalarga erishish mumkin. Shuni inobatga olgan holda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko‘rsatkichlarini yanada “yaxshiroq darajaga olib chiqish”ga harakat qilish lozim. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, nomutanosiblikni tartibga solish, agar ushbu tartibga solishning parametrlari har bir tartibga solish mexanizmining harakatlariga muvofiq belgilansa, samarali bo‘ladi.

Bu tartibga solishni “umuman” emas, balki aniq maqsad bilan erishish uchun amalga oshirilishi kerak. Markaziy va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning umumiy tamoyillari hududlarni rivojlantirishdagi nomutanosibliklarni tartibga solish funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda bizningcha, nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari va uni amalga oshirish yo‘llarini keltirish o‘rinli (1-jadval).

2-jadval: Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalarini o‘tkazish

№	Funksiya	Funksiyani amalga oshirish
1.	Tarqatish	Hokimiyat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasida faoliyat hamda majburiyatlarni taqsimlash
2.	Normativ	Normativ-huquqiy vositalarni huquqiy tartibga solish
3.	Taqsimlovchi	Resurslarni teng taqsimlash
4.	Nivelirlash	Disproporsiyalarning eng yuqori qiymatini kamaytirish
5.	Rag‘batlantiruvchi	Nomutanosiblikni tartibga solish uchun “qo‘ng‘iroq” ni tartibga solish vositalari va quvvat nazorati o‘rtasidagi tenglikni saqlash
6.	Tartibga solish	Nomutanosibliklarni samarali tuzatish
7.	Barqaror rivojlanish xavfsizligi	Hozirgi va kelajak avlodlar uchun kirish xavfsizligi

Alohida funksiya hokimiyatining markaziy organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va yirik tashkilotlar o‘rtasida hududiy rivojlanishni tartibga solish bo‘yicha faoliyat hamda bo‘linmalarda amalga oshiriladi. Normativ-tartibga solish funksiyasi davlat organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishda, ularning nomutanosibliklarni tartibga solish jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatda bo‘lish usuli bilan o‘zaro ta’sir qilish mexanizmida, shuningdek, barcha tartibga solish vositalarining nomutanosibligini zarur standartlashtirishda amalga oshiriladi.

Taqsimlovchi funksiya shundan iboratki, hududiy nomutanosiblikni tartibga solish jarayonida resurslar hududlar bo‘yicha bir tekis taqsimlanishi kerak. Bu investisiyalar (kapital qo‘yilmalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar), shuningdek, ko‘chirish va joylashtirish dasturlarini amalga oshirish uchun kamroq inson resurslarini sarflaydi. Shunday qilib, taqsimlashning samaradorligi resurslarni olib qo‘yishning joriy bo‘linishida - soliqlar va yig‘imlar, loyihalarni amalga oshirish uchun xarajatlar hamda valyuta xarajatlarini olishda saqlanishi kerak.

Bu funksiyalar O‘zbekiston Respublikasida turli darajada amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda markazsizlashtirishning navbatdagi bosqichi yakunlanishi va vakolatlar, mulk va resurslarni viloyatlar, tumanlar va mahallalar o‘rtasida taqsimlash masalalarini hal etish hisobiga taqsimlash funksiyasi; me’yoriy funksiyalar eng ko‘p amalga oshirilmoqda, chunki aksariyat vositalar, chora-tadbirlar va muassasalar amalga oshirish uchun tegishli huquqiy yordamga ega. Taqsimlash, chunki resurslarni taqsimlash bozor qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi va barqaror rivojlanish xavfsizligi funksiyalari kichik darajada amalga oshiriladi, chunki ekologik toza ishlab chiqarishga o‘tish va resurslar va chiqindilarni qayta ishlash asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi.

Nivelirlash funksiyasi kamroq darajada amalga oshiriladi, chunki faqat ijtimoiy soha ko‘rsatkichlarida keskin salbiy qadriyatlardan va yaqinda jamoalarga ko‘proq vakolatlar va resurslarning berilishi tufayli rag‘batlantiruvchi funksiyadan qochish mumkin. Ularga jamoalar va hududlarni rivojlantirish ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha o‘z siyosatini yaratishga imkon beradi va shunga mos ravishda davlat byudjetidan qo‘shimcha resurslarga kamroq ehtiyoj seziladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tartibga solish funksiyasiga kelsak, shuni ta’kidlash kerakki, uni amalga oshirish resurslarning erkin harakatlanishida, tengsizliklarni zaif tekislashda hali ham ahamiyatsiz, ammo nomutanosibliklar ularni boshqarish vositalarining shakllanmaganligi sababli boshqariladigan hududlar va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohasini o‘zgartirish uchun foydalanish hududiy rivojlanish omili emas.

Hududiy rivojlanish nomutanosibligini tartibga solish usullari va funksiyalarini ishlab chiqish iqtisodiy va ijtimoiy nomutanosibliklarga ta’sir qilishning yaxlit sxemasini shakllantirishga yordam beradi va hududiy rivojlanish nomutanosibligini tartibga solishning samarali mexanizmini yaratishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, hududiy rivojlanish nomutanosibligini strategik tartibga solishning belgilangan tamoyillari, usullari va funksiyalari O‘zbekiston Respublikasi hududlarida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish nomutanosibligini tartibga solishning yaxlit tizimini yanada rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Hududiy rivojlanish nomutanosibligini tartibga solishga yondashuvlarni o‘rganish va hududiy rivojlanish nomutanosibligini strategik tartibga solishga o‘zimizning ilmiy-uslubiy yondashuvimizni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Acharya, A. (2012). Comparative Regionalism: A Field Whose Time has Come? The International Spectator: Italian Journal of International Affairs, 47 (1), 3–15.
2. Baykov, A. A. (2012). Comparative Integration. Practice and Models of Integration in Foreign Europe and Pacific Asia. Moscow: Aspekt Press publ. (In Russian).
3. Fawcett, L. (2016). Regionalism by Emulation: Considerations across Time and Space. In: Telo, M., Fawcett, L. & Ponjaert, F. (Eds.). Interregionalism and the European Union. Post-revisionist Approach to Europe’s Place in a Changing World. Abington: Routledge. P. 33–55.
4. Haas, E. (1975). The Obsolescence of Regional Integration Theory. Berkeley: Institute of International Studies, University of California.
5. Hettne, B. (2005). Beyond the “New Regionalism “New Political Economy, 10 (4), 543–571. DOI:10. 1080/13563460500344484
6. Katzenstein, P. J. (1996). Regionalism in Comparative Perspective. Cooperation and Conflict, 31 (92), 123–159.
7. Kuznetsov, D. A. (2016). Trans: Problems of Terminology and Conceptualization. Comparative Politics, 7 (2), 14–25. DOI: 10. 18611/2221–3279–2016–7–2(23)–14–25.
8. Lagutina, M. (2020). A Concept of Eurasia: from Classical Eurasianism to Pragmatic Eurasianism. In: Lagutina, M. (Eds.). Regional Integration and Future Cooperation Initiatives in the Eurasian Economic Union. IGI Global. P. 1–15.
9. Lagutina, M. (2019c). BRICS in a World of Regions. Third World Thematic: A TWQ Journal, 4 (6), 442–458.
10. Mikhaylenko, E. & Mikhaylenko, V. (2020). Eurasian: Specifics, Problems and Prospects. In: Lagutina, M. (Eds.). Regional Integration and Future Cooperation Initiatives in the Eurasian Economic Union. IGI Global. P. 16–36.
11. Mitrany, D. (1965). The Prospect of European Integration: Federal or Functional. Journal of Common MarketStudies, 4 (2), 119–149. DOI: 10. 1111/j. 1468–5965. 1965. tb01124. x
12. Söderbaum, F. (2005). Exloping the Links between Micro-mintaqashunoslik and Macro-. In: Farrell, M., Hettne, B. & Van Langenhove, L. (Eds.). Global Politics of: Theory and Practice. London: Pluto Press. P. 87–103.
13. Söderbaum, F. (2009). Comparative Regional Integration and Mintaqashunoslik. In: Landman, T. & Robinson, N. (Eds.).
14. Telo, M. (2007). European Union and New regionalism: Regional Actors and Global Governance in a Post-Hegemonic Era. Cornwall: Ashgate Publishing.
15. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 22.04.2021-yildagi O‘RQ-684-son -son Qonun. https://lex.uz/uz/docs/5382974
16. O‘zbekiston Respublikasining Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son. Qonuni. https://lex.uz/acts/4329270



TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna
TDIU Marketing kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy sharoitlarda tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasining zaruriyati, amalga oshirish mexanizmlari tahliliga asoslanib, uning samaradorligini oshirish yo‘llari ishlab chiqilgan. Shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi xorijiy va milliy tadqiqotchilarning xulosalari va tijorat banklarining mizojlarni jalb yutish yo‘nalishidagi strategiyasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, marketing, innovatsion marketing, bank marketingi, marketing strategiyasi, marketing vositalari, tijorat banklari resurslari.

Abstract: In the article, the necessity of innovative marketing strategy of commercial banks in modern conditions, ways to increase its efficiency based on the analysis of implementation mechanisms are developed. Also, the conclusions of foreign and national researchers in this direction and the strategy of commercial banks in the direction of attracting customers were studied.

Key words: commercial banking, marketing, innovative marketing, bank marketing, marketing strategy, marketing tools, commercial banking resources.

Аннотация: В статье разрабатывается необходимость инновационной маркетинговой стратегии коммерческих банков в современных условиях, пути повышения ее эффективности на основе анализа механизмов реализации. Также изучены выводы зарубежных и отечественных исследователей в этом направлении и стратегия коммерческих банков в направлении привлечения клиентов.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, маркетинг, инновационный маркетинг, банковский маркетинг, маркетинговая стратегия, маркетинговые инструменты, коммерческие банковские ресурсы.

KIRISH

Hozirgi kunda jahonda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bank sohasida an’anaviy bank shakllari bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatishning zamonaviy onlayn shakllari rivoji, ikkinchi tomondan COVID-19 pandemiyasi oqibatida iste’molchilarga moliyaviy xizmat ko‘rsatish tizimi murakkablashib borishi sharoitida mijozlar bilan virtual bozorda ehtiyojlariga moslashuvchan marketing vositalaridan keng foydalanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jahon banki, Jahon moliyaviy texnologiyalari (World FinTech Report) hamda Jahon chakana bank xizmatlari (World Retail Banking Report)ning marketing tadqiqotlariga ko‘ra, “2020–2024-yillarda iste’molchilarning nobank tashkilotlarining onlayn bank xizmatlaridan foydalanish darajasi o‘sib bormoqda. Unda Osiyo bozori yetakchi hisoblanadi” [1]. 2020-yil holatida dunyo bo‘ylab 1,9 milliardga yaqin jismoniy shaxslar onlayn-banking xizmatlaridan faol foydalanmoqda.

Bugungi kunda mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish asosida tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Jahon bank marketingi amaliyotida raqobatbardosh ustunlikni ta’minlashda mijozlarga yo‘naltirilgan marketing konsepsiyalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu boradagi innovatsion startaplar va nobank institutlari an’anaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchilar uchun mavjud mijozlarni saqlab qolish, moliyaviy xizmat ko‘rsatishning onlayn shakllarini yanada rivojlantirish, jahon moliya bozorining fundamental asoschilari tijorat banklarida mijozga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ustuvor darajada bajarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida jahon andozalariga mos holda bank tizimini yanada rivojlantirish, tijorat banklarining likvidliligini oshirish va moliya bozorini tartibga solishdagi rolini yanada oshirish, sohada sog‘lom raqobatni chuqurlashtirish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda bank tizimida “Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish” [2] kabi qator vazifalar belgilab qo‘yilgan. Islohotlar doirasida tijorat banklariga aholining ishonchini mustahkamlash, tadbirkorlik subyektlari bilan to‘laqonli hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishda zamonaviy marketing strategiyalarini maqsadli qo‘llash, aholi va xo‘jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash, aholining bo‘sh pul mablag‘laridan samarali foydalanish kabi vazifalar amalga oshirilmoqda. Bu borada tijorat banklarida mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyasini ishlab chiqish, banklarning iqtisodiy barqarorligini oshirish, bank tuzilmalari rentabellik darajasini oshirish hamda marketing kommunikatsiyasi va o‘zaro munosabatlar omillari ta’sirini hisobga olgan raqamli marketing texnologiyalari va internet banki tizimining mijozlar bilan kommunikatsiya jarayonlarini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari raqobatbardoshligini mijozga yo‘naltirilgan marketing strategiyalari asosida oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ayrim nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan J. Lamben, F. Kotler, M. Porter, Ye. Dixtel, Ye. Golubkov, J. Al-Samiday, D. Barkan, A. Buzdalin, T. Amblerning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida bu borada Ye. Fomenko, Yu. Vayver, S. Kosterina, O. Lavrushin, M. Tavasiyev singari olimlar tadqiqotlar olib borgan. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida tijorat banklari barqarorligi va likvidliligini ta’minlash, banklarning bank xizmatlari bozoridagi mavqeini oshirish va moliyaviy mexanizmlar asosida raqobatbardoshligini ta’minlashning ilmiy qarashlar va mijozga yo‘naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanishning ayrim jihatlariga e’tibor qaratilgan.

Respublikamiz banklarida mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanishga qaratilgan masalalari M. Boltaboyev, Sh. Ergashxodjayeva, O. Ortiqov, Z. Mustafayev, D. Allayorova, B. Mirzamaydinov, G. Bekmurodova, N. Karabayev, M. Mo‘minova, M. Abduraxmanova, J. Yuldashev va boshqa ko‘plab olim va mutaxassislar ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

ASOSIY QISM

Bank marketingi marketingning ixtisoslashgan sohasi bo‘lib, u bank xizmatlari bozorida yuzaga kelgan va rivojlanayotgan raqobat asosida paydo bo‘lgan. Bank marketingi konsepsiyasi rivojlangan mamlakatlarda yangi raqobatchilarning paydo bo‘lishi, bozor imkoniyatlarining cheklanib borishi va raqobatning kuchayishi tufayli moliyaviy sektor va bilvosita bank sektorining sezilarli o‘sishidan keyin rivojlandi.

Bank marketingi – universal banklar (tijorat banklari: jamg‘arma va kooperativ banklar) va ixtisoslashgan banklar (haqiqiy kredit tashkilotlari, investitsiya kompaniyalari va boshqalar) sohasida qo‘llaniluvchi marketingdir. Moliyaviy xizmatlar bozorida banklar muhim ahamiyatga ega va moliyaviy xizmatlarni asosiy taklif qiluvchilar hisoblanadi [3]. Bank xizmatlari bozorida kuchli raqobat muhiti shakllanganligi bilan ahamiyatli bo‘lib, mazkur bozorda maqsadli harakat qilish uchun nafaqat moliyaviy munosabatlar, balki marketing ham yuqori darajada ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish va umumlashtirish asosida “bank marketingi” tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin: bank marketingi – mijozlarning moliyaviy (va boshqa tegishli) ehtiyojlari va istaklarini raqobatchilarga nisbatan tezkor va samaraliroq qondirishga qaratilgan xizmatlarni ko‘rsatishga yo‘naltirilgan funksiyalar yig‘indisidir. Bunday funksiyalar yig‘indisi mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash, yaratish, uyg‘otish va uni qondirish bo‘yicha integratsiyalashgan harakatlardan iborat bo‘lgan individual harakatlar yig‘indisi ekanligi asoslandi.

Zamonaviy munosabatlar marketingi tijorat banklarining bank xizmatlari bozorida uzoq muddat samarali faoliyat yuritishining asosiy konsepsiyasi sifatida qaralishi lozimligi asoslangan. Bunday strategiyalar banklar va mijozlar o‘rtasida uzoq muddatli munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradigan aloqa, shaxsiylashtirish, mukofotlash va ishonchga bo‘lingan.

Markaziy bank hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda 2022-yilda jami kredit tashkilotlari soni 148 tani tashkil etib, 13 ta davlat ulushi mavjud banklar, 17 ta xususiy sektor banklari faoliyat yuritgan. Tijorat banklari filiallari soni 853 taga yetgan. Yaxshi ishlab chiqilgan raqobatli marketing strategiyasisiz banklar uzoq muddatli muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Afsuski, munosabatlar marketingi harakatlarining bank sohasida mijozlar xatti-harakatlari ta’siriga qaratilgan tadqiqotlar O‘zbekiston olimlari tomonidan kam o‘rganilgan. O‘zbekistonda tijorat banklari “bank-mijoz” tamoyili asosida o‘zaro munosabatlar marketingi uchun asos bo‘ladigan marketing kompleksini ishlab chiqish bilan bog‘liq vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq [4]. Bu esa zamonaviy bank amaliyoti uchun marketing-mix kompleksini shakllantirish lozimligini belgilab beradi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan mahalliy hududiy banklar va ularning mijozlari o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasi ham amalga oshirilayotgan ishbilarmonlik aloqalari mustahkamlanib, ularning sheriklik munosabatlariga intilayotganidan dalolat beradi (1-jadval).


1-jadval: Tijorat banklari va ularning mijozlar bilan aloqalarini rivojlantirishning marketing vositalari

	Darajasi	Tegishli darajada munosabatlar o‘rnatish maqsadi
Boshlang‘ich munosabatlar	Asosiy bank xizmatlarini ko‘rsatish	Har bir alohida aloqani tezlashtirish va soddalashtirish uchun hamkorlikning tiplanishi va tipologiyasi
Reaktiv munosabatlar	Mijozning savollari va istaklariga bank xodimining tezkor javobi	Iste’molchining xohish-istaklari o‘zgarishiga moslashtirilgan javob, konsalting xizmatlar, bank mahsulotiga bo‘lgan talabni kuzatish
Javobgarlik munosabatlari	Shikoyat va istaklarni qabul qilish va ko‘rib chiqish uchun bank xodimlarining iste’molchilar bilan aloqa hamkorligi	Bozorga chiqarilgan va mijozlarga taklif etilayotgan bank mahsulotlarini takomillashtirish maqsadida muntazam ravishda aloqa hamkorligi sxemasini yaratish
Aktiv munosabatlar	Iste’molchilarni yangi bank mahsulotlari mavjudligi to‘g‘risida tezkor xabardor qilish	Bank mahsulotlarini taqsimlash jarayonini osonlashtirish, iste’molchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga urinish
Hamkorlik munosabatlari	Iste’molchilar bilan (real va potensial) “barcha jabhalarda” yaqin hamkorlik	Shaxsiy so‘rovlarni hisobga olishga, mijozlarning bankka uzoq muddatli sodiqligini ta’minlashning samarali dasturlarini yaratishga e’tibor qaratish

Tijorat banklarining maqsadli marketing konsepsiyasi sifatida taklif etilayotgan mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatish, marketing munosabatlarini boshqarish uchun bank resurslarini optimallashtirish CRM texnologiyalarisiz mumkin emas. CRM (Customer Relationship Management) – marketing o‘zaro munosabatlari, sheriklik, munosabatlarni individuallashtirish va munosabatlarning yuqori qiymatini shakllantirish orqali mijozlarni saqlab qolish va jalb qilishga qaratilgan mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish texnologiyasidir.

O‘zbekiston tijorat banklari jami resurslari tarkibida muddatsiz va muddatli depozit mablag‘larining ulushi 2005-yilda mos ravishda 16,2 va 12,4 foizdan iborat bo‘lgan. Aynan mana shu ko‘rsatkichlar 2015-yilda mos ravishda Xitoy bank tizimida – 27,9 va 47,3 foizni, Rossiya bank tizimida – 21,0 va 39,48 foizni, Germaniya bank tizimida 14,6 va 31,9 foizni tashkil etgan. Xorijiy mamlakatlarda tijorat banklarining muddatli va jamg‘arma depozitlari barqaror moliyaviy manba hisoblanib, bank resurslari tarkibida ularning ulushi sezilarli miqdorni tashkil etadi. Masalan, jami ijtimoiy mahsulot tarkibida muddatli va jamg‘arma depozitlarning ulushi 2015-yilda Xitoyda – 78,4 foiz, Latviyada – 21,4 foiz, Rossiyada –24,1 foiz, Ukrainada – 25,0 foiz va Yaponiyada – 56,8 foizni tashkil etgan [5]. O‘zbekistonda esa 2023-yil 1-yanvar holatiga barcha depozitlarning mamlakat YAIMga nisbati 24,4 foizni tashkil etgan [6].

Quyidagi rasmda tijorat banklari jami resurslari tarkibida asosiy manbalarning 2019–2023-yillar 1-yanvar holatidagi salmog‘i haqida ma’lumotlar keltirilgan.



1-rasm: O‘zbekiston tijorat banklari jami resurslari tarkibida asosiy manbalarning nisbati va dinamikasi, million so‘mda [7]

1-rasmdan depozitlar hisobidan shakllantirilayotgan mablag‘lar ortib borayotganligi ko‘rinib turibdi. Depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha saqlanadigan mablag‘larning ulushi yuqori bo‘lib, ushbu mablag‘lar mijozning topshirig‘iga asosan, istalgan paytda bank hisobvaraqlaridan chiqib ketishi mumkin. Demak, tijorat banklari uchun ushbu resurslar muddati jihatidan nisbatan beqaror moliyaviy manba hisoblanib, bank likvidliligini saqlab turishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bizning nazarimizda, tijorat banklari jalb qilingan resurslari tarkibida nodepozit mablag‘lari ulushining yuqoriligi shundan dalolat beradiki, mamlakatimiz tijorat banklari resurslarni qimmat va uzoq muddatga jalb qilinmagan mablag‘lar hisobidan shakllantirmoqda. Bu jarayon tijorat banklari moliyaviy holati va likvidliligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlash mumkin.

Bank resurslarini saqlash va joylashtirishni muddatlar bo‘yicha mutanosibligini ta’minlanishini boshqarish. Ushbu mutanosiblikning buzilishi banklarni likvidsizlik holatiga tushib qolishga olib keladi. Ya’ni, tijorat banklari barqaror mablag‘larning miqdoridan aktiv operatsiyalarga joylashtirgan xatarli kredit miqdorining ortib ketishi banklarning to‘lovga qobiliyatsizlik hamda vakillik hisobvaraqlarda mablag‘larning tanqislik xolatiga tushib qolishiga sabab bo‘ladi.

Quyidagi 2-rasmda tijorat banklari jalb qilingan muddatli mablag‘lari (muddatli va jamg‘arma depozitlar, muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar, kredit muassasalaridan olingan kreditlar va ustav kapitali) hamda ularning yuqori riskli aktivlari (kredit va investitsiya mablag‘lari) o‘rtasidagi mutanosiblik ifodalangan.



2-rasm: O‘zbekiston tijorat banklarining muddatli mablag‘lar va xatarli aktivlari o‘rtasidagi nisbati, hisobot yilining boshiga, million so‘mda [7]

2-rasmda tijorat banklari resurslari tarkibida jami muddatli mablag‘lari (muddatli va jamg‘arma depozitlar, emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlar, banklararo kreditlar) 2019-yil 1-yanvar holatiga muddatli moliyaviy resurslar 132,5 trillion so‘mni tashkil etgani holda riskli aktivlar (kreditlar va investitsiyalar) 166,9 trillion so‘mdan iborat bo‘lgan. Albatta, ushbu farq tijorat banklarining riskli aktivlarini barqaror moliyaviy resurslar bilan ta’minlash bo‘yicha muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bu holat 2023-yilda ham saqlanib qolgan va o‘rtadagi farq yanada ortgan. Aynan mana shunday vaziyat tijorat banklari vakillik hisobida mablag‘lar taqchilligini keltirib chiqarishga va to‘lovga layoqatsiz holatga tushib qolishiga sabab bo‘ladi.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari riskka ega bo‘lgan aktivlarining miqdori barqaror mablag‘lari hajmidan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu banklar depozit siyosatining zaifligidan dalolat bermoqda. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag‘larning asosiy qismini kreditlarga joylashtirilishi ushbu banklarning majburiyatlarini bajarish bo‘yicha ham muammoli holatlarni vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Strategik rejalashtirish prinsipi, umuman olganda, bozor prognozlari va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi prognozlariga asoslangan ishlab chiqarish va sotish marketing dasturlarini yaratishni o‘z ichiga oladi, shuningdek, bozor va iste’molchilarga nafaqat kompaniya siyosatini ishlab chiqarish talablariga moslashtirishni taklif qiladi., balki ularga intensiv ta’sir ko‘rsatish, boshqalarga esa, kompaniyaning strategik maqsadlariga mos keladigan bozor va iste’molchilarning ehtiyojlarini shakllantirish muayyan strategiyalari va tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Faoliyatning strategik yo‘nalishini tanlashda bir xil bozorda raqobatchilarni rivojlantirishda vaqt

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

va mohiyatan strategik yo‘nalish bilan mos kelish xavfi mavjud. Shuning uchun asosiy vazifa u yoki bu strategiya boshqa kompaniyalar strategiyasidan qanday farq qilishi mumkinligini aniqlashdan iborat. Shuning uchun kompaniyaning boshqa kompaniyalar oldida raqobatbardosh pozitsiyasini shakllantirish va kompaniya strategiyasini ishlab chiqishda raqobatchilar strategiyasidan ortda qolmasligini ta’minlash kerak.

Marketing tadqiqotlari bankning innovatsion rivojlanishini ta’minlovchi tizimning muhim qismidir. Marketing tadqiqotlari natijasida olingan ma’lumotlar adekvat innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Marketing tadqiqotlarining asosiy natijasi muammolar va ichki zaxiralarni aniqlash imkonini beruvchi ma’lumotlar bo‘lib, zarurat tug‘ilganda bankning faol rivojlanishi uchun innovatsiyalarni joriy etish dasturini shakllantirish imkonini beradi. Raqobatchilarni tahlil qilgandan so‘ng, bankning o‘zi kompaniyaning hayot aylanishini tahlil qilish kerak. Bu omil bozorga muvaffaqiyatli kirib borishning ko‘rsatkichi bo‘lib, bank xizmatlarining hayot aylanish bosqichlarini hisobga olgan holda, marketing strategiyasini keyingi rejalashtirishga ta’sir qiladi. Bank xizmatining hayotiy sikli - ma’lum bir xizmatni ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytdan boshlab, uning ma’lum bir bozorga kirishi va uni ko‘rsatish to‘xtatilgan paytgacha bo‘lgan barcha marketing elementlarini tavsiflovchi jarayon hisoblanadi.

Marketing jarayoni mijozni o‘rganishdan, shuningdek, uning ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanib, tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish va uning real va potensial ehtiyojlarini qondirish bilan yakunlanadi. Yangi turdagi bank xizmatlarini yaratish jarayoni bank xodimlarini, ularning ish joylarini, shuningdek, ushbu xizmatlarni ko‘rsatish usullarini o‘qitishdan boshlanadi. Misol uchun, mijoz bankka kirganida, u o‘z harakatini standart yo‘nalishda, ya’ni chapdan o‘ngga boshlaydi. Yangi xizmatlar ko‘rsatish zalning chap tomonida joylashgan bo‘lsa, mijoz ularga ko‘proq e’tibor berishga intiladi va ulardan foydalanish ehtimoli ortadi. Bank marketingini bank boshqaruvining ajralmas qismi deb hisoblash mumkin, buning natijasida u asosan rivojlanish strategiyasi bilan bog‘liq. Strategik marketingning mohiyati uning bank siyosatida aks etishidir, ya’ni yangi bank mahsulotlarini tadqiq qilish, joriy etish va o‘rganish oldindan o‘tkazilgan marketing tadqiqotlari asosida amalga oshiriladi. Taktik marketing bank mahsulotlari iste’molchilari bilan ishlash texnologiyasini, bank mahsulotlari bozoridagi raqobatchilarni to‘g‘ri baholash usullarini - ularning kuchli va zaif tomonlarini, bank xizmatlari uchun segment va joy tanlash mezonlarini va ularning ta’sir doirasini kengaytirish imkonini beradi. Bank muassasasi rahbariyati iste’molchilarning mahsulotga bo‘lgan so‘rovlarini, bank xizmatlarining iste’molchi uchun eng qiziq bo‘lgan va aksincha, salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan xususiyatlarini batafsil o‘rganishda samarali bo‘ladi. Bank xizmatlarini har qanday rag‘batlantirishning asosi bankning o‘zining mavjud mijozlari va potensial mijozlari, shuningdek, umumiy aholi bilan muloqotidir. Ammo rag‘batlantirish nafaqat aloqa yoki ma’lumotlar almashinuvi, balki mijozni moliyaviy xizmat uchun bankka murojaat qilish zarurligiga ishontirishga qaratilgan maqsadli muloqot harakatidir. Aynan shuning uchun ham reklama bank muassasasining strategik maqsadlariga erishishda marketing vositalari arsenalidagi markaziy o‘rinlardan biri hisoblanadi. Bu marketing strategiyasini yaratishda ham, bevosita bank marketingini boshqarish jarayonida ham juda ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Bank marketingining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1) bank faoliyatida yakuniy natijalarga erishishga yo‘naltirish – mijozlarning talablarini yuqori darajada qondiradigan xizmatlar ko‘rsatish. Foyda olish bankning asosiy maqsadi emas;
2) marketing faoliyati bilan bog‘liq uzoq muddatli natijalarga e’tibor qaratish.
3) taktika va strategiyaning birligi, potensial mijozlarning talablariga moslashish uchun faol choralarni tanlash va ularga parallel ravishda maqsadli ta’sir ko‘rsatish. Ushbu tamoyillarni qo‘llash raqobatbardosh bank sxemalariga e’tibor qaratishdan dalolat beradi;

XULOSA

Bankning innovatsion marketing strategiyasi mijozlarga (asosiy, istiqbolli, potensial) va mahsulotlarga (hozirgi va yangi) strategik e’tiborni o‘z ichiga oladi. Marketingni rejalashtirish marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, marketing rejasini ishlab chiqish, munosabatlarni rivojlantirish dasturini tuzish, shuningdek, har bir menejer uchun shaxsan individual rejani tuzishdan iborat.

Marketing strategiyasi bank sektoridagi marketing kredit resurslari bozorini o‘rganish, maqsadli auditoriyaning moliyaviy holatini tahlil qilish va shu asosda banklarga depozitlarni jalb qilish imkoniyatlarini, bank faoliyatidagi o‘zgarishlarni bashorat qilishga qaratilgan. Korxona va tashkilotlarga istalgan bankda o‘z hisob raqamlarini ochishga ruxsat berilgan zamonaviy sharoitda bank sohasida raqobat darajasi oshib bormoqda. Marketing mijozlar bazasini va bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, mijozlarga ma’lum bir bankda hisob varaqa ochishdan manfaatdor bo‘lish imkonini beradi. Xizmat ko‘rsatish sohasida banklar aviakompaniyalardan keyin ikkinchi bo‘lib marketingdan foydalanadilar va birinchi navbatda, marketingning alohida elementlarini faol qo‘llashni boshladilar, keyin esa, marketing va strategik rejalashtirishning to‘liq konsepsiyasiga o‘tdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.statista.com/statistics/1228757/online-banking-users-worldwide.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘jallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Фоменко, Е.Г. Маркетинговое управление капитализацией финансовых институтов [Текст] / Е.Г. Фоменко, Л.Ю. Андреева и др. // Организационные формы управления знаниями в посткризисной экономике : моногр. – М. : Вузовская книга, 2010. – 24,97 п.л. / 0,4 п.л
4. Ortiqov O.A. Banklararo raqobat sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati. – T., 2009-y.
5. International Financial Statistics IMF. July 2016.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik byulletini materillari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
7. Tijorat banklarining e’lon qilgan hisobot ma’lumotlari asosida tuzildi.

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYASI VA UNING AMAL QILISH MEXANIZMI

Muxtorova Umida Karimovna
Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,
“Iqtisodiyot” fakulteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ta’lim xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirish tizimida bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida marketing tizmining o‘rni bilan bog‘liq jarayonlar tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini tashkil etish va tizimning faoliyat samaradorligini oshirishda marketing strategiyasiga nisbatan tizimli yondashuvlarni amalga oshirish zaruriyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim xizmatlari bozori, ta’lim tizimi, mehnat bozori, marketing strategiyasi, marketing tadqiqotlari, raqobatbardoshlik.

Abstract: The article examines the processes associated with the role of the marketing system in the formation of market relations in the system of organization and development of educational services. This is the basis for the organization of the higher education system of the Republic of Uzbekistan and the need to implement systematic approaches to marketing strategy in increasing the efficiency of the system.

Key words: market for educational services, education system, labor market, marketing strategy, marketing research, competitiveness.

Аннотация: Статье исследуются процессы, связанные с ролью системы маркетинга в формировании рыночных отношений в системе организации и развития образовательных услуг. На этом основана организация системы высшего образования Республики Узбекистан и необходимость реализации системных подходов к маркетинговой стратегии в повышении эффективности системы.

Ключевые слова: рынок образовательных услуг, система образования, рынок труда, маркетинговая стратегия, маркетинговые исследования, конкурентоспособность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining muhim infratuzilmaviy tarmoqlaridan biri ta’lim tizimi bo‘lib, uni rivojlantirish har bir davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy turmush darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Dunyo miqyosida ta’lim xizmatlariga talab miqdorini oshirish maqsadida iste’molchilarning ta’lim sifatidan qoniqishlarini oshirishga qaratilgan marketing tadqiqotlarini takomillashtirishga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi kunda ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning muhim tadqiqot yo‘nalishlari orasida ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishga asosiy to‘siq bo‘lib kelayotgan muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini izlashga qaratilgan marketing tadqiqotlarini o‘tkazish hozirgi davrda ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Bu borada izchil islohotlar samaradorligini oshirish zaruriyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev quyidagicha to‘xtalib o‘tgan edi: “Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim” [9]. Bu kabi kompleks vazifalarning amaliy ijrosi ta’lim sohasida iste’molchilarga turli, sifatli va arzon maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish hamda ularning talab va ehtiyojlarini tizimli o‘rganishga qaratilgan marketing tadqiqotlarining zamonaviy usul va vositalaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirishni talab etadi.

Hozirgi davrda aholining bilim darajasi, ta'lim va fan sohalarining rivojlanganligi, investitsiya faoliyatining samaradorligi, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilish jamiyat taraqqiyoti va milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishining zaruriy shartiga aylandi.

Ta'lim sohasining mamlakat aqliy salohiyatini yuksaltirish omili ekanligi, globallashuv sharoitida inson resurslarining iqtisodiyotni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omiliga aylanganligi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi texnologik o'zgarishlar ko'proq inson kapitalining jamg'arilishi natijasidir.

Iqtisodiyot va ta'lim sohasining rivojlanganlik darajasi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning o'zaro bog'liq elementlari sifatida bir-biriga ta'sirining kuchayib borishi asosida ta'lim tizimiga qilinayotgan xarajatlar aholi farovonligini oshirish manbaiga aylanganligi ta'lim sohasining mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili ekanligidan dalolat beradi. Shu sababli mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari sifatida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash kabi vazifalar belgilangan [1] bo'lib, mazkur vazifalarning tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR NING TAHLILI

Hozirgi davrda ta'lim tizimida tashkiliy qayta qurishning nazariy asosini resurslarga bog'liqlik nazariyasi va neoinstitutsional nazariya tashkil etadi. Birinchi nazariyaga muvofiq tashkilot faoliyatining samaradorligi uning resurslarga moslashishi layoqatiga ega ekanligiga bog'liq. Unga muvofiq, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga iqtisodiy oqilonalik orqali moslashish lozim.

Neoinstitutsional nazariya esa, aksincha, birinchidan, tashkilot barqarorligiga; ikkinchidan esa, agar tashkilot tabiati va madaniyatiga zid bo'lgan o'zgarishlar bo'lsa, unga qarshilik ko'rsatish g'oyasiga asoslandi. Uning tarafdorlari islohotlarni amalga oshirishda hukumat yuqorida qayd qilingan holatlar bo'yicha muvofiqlikni ta'minlashi, davlat o'z diqqatini ta'limni rivojlantirishga ajratilayotgan resurslar ustidan nazoratni o'rnatishga qaratishi lozim deb hisoblaydilar. Ushbu yondashuv ta'lim tizimida bozor munosabatlarini kengaytirish g'oyasi tarafdorlari fikrlariga ziddir.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A. O. Ochilov tadqiqotlarida: "Ta'lim xizmatlari bozorini boshqarish samaradorligini oshirishda: kontrakatsiya shartnomalari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish, oliy ta'lim muassasasalari professor-o'qituvchilar salohiyati va moddiy-texnik bazasining raqobatbardoshligini ta'minlash, mehnat bozorining zamonaviy talablari, undagi jiddiy o'zgarishlarni o'rganib, ta'lim xizmatlari bozoriga tatbiq etish" [3] lozimligi e'tirof etiladi.

Mazkur yo'nalishda tadqiqot izlanishlarini amalga oshirgan G. N. Axunovaning fikricha, "...talab va taklif asosida oliy ta'lim muassasasalarida sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatilib, qori malakali kadrlar tayyorlashda davlat raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishidan, jamiyat shaxsiy va intellektual salohiyat majmuiga ega bo'lishidan, iste'molchi va buyurmachilar korxonaning kadrlar salohiyati oshirilishidan; oliy ta'lim muassasasalari rahbarlari muassasasa nufuzining oshishi va taraqqiyoti-dan, bitiruvchilarning kafolatli ish o'rinlariga ega bo'lishidan, talabalar qobiliyatlari rivoji, iqtidor shakllanishi va bilimli bo'lishidan manfaatdor hisoblanadi" [4].

D. Nabiyev tadqiqotlarida, "Ta'lim xizmatlari bozorining marketing strategiyasini ishlab chiqish jarayonida hal qilinishi kerak bo'lgan muhim masala – ta'lim xizmatlari bozori segmentining jozibadorlik darajasini aniqlash, bozor segmentining jozibadorligini baholash jarayonida turli xil marketing vositalarini qo'llash, jozibadorlikni tahlil qilish usullari talab darajasi va tanlangan bozor segmentining imkoniyatlariga asoslanishi qayd etiladi" [5]. J. A. Abdullayevning tadqiqotlari davomida "…mintaqaviy ta'lim xizmatlari bozorida davlat ta'lim muassasasalari va xususiy sektor faoliyat yuritishi uchun teng raqobat sharoitlarini ta'minlash masalasi juda muhim masaladir. Bu esa shunga olib keladiki, xususiy sektorda oliy ta'lim muassasasalari faoliyatini modernizatsiya qilish mexanizmlarini shakllantirish zamonaviy voqelik talab qilgandan ancha sekinroq bo'lib, bu umuman ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin" degan xulosaga keladi [6].

Bizning fikrimizcha, ta'lim tizimini rivojlantirish borasida har bir mamlakat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda, o'ziga xos xususiyatlari va an'analari asosida mazkur tizimda bozor va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi o'rtasida maqsadga muvofiq nisbatni topishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritishda tahlil, induksiya, deduksiya, korrelyatsiya, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi. Shuningdek, vazirliklar va idoralardan olingan ma'lumotlar, statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJA

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, sifat darajasini oshirish va mehnat bozoridagi o‘rnini mustahkamlash maqsadida Jahon Banki tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi loyiha amalga oshirilmoqda. Jahon Banki va O‘zbekiston hukumati tomonidan 2017-yil 11-aprelda “Oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish” loyihasi borasida kredit kelishuvi tasdiqlandi.Loyihani amalga tatbiq etish davri 2017–2022-yillarni o‘z ichiga oladi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nazoratida olib boriladi, Jahon Banki texnik yordam ko‘rsatadi.

So‘nggi ikki yilda 19 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasasi filiallari tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasida chet el oliy ta’lim muassasasalarining asosiy faoliyati quyidagi yo‘nalishlarni nazarda tutadi:

- yuqori malakali mutaxassislarni xalqaro standartlar darajasida tayyorlashni ta’minlash;
- respublikamizda oliy ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘quv jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasini joriy etish, xususan, virtual ta’lim muhiti (Virtual Learning Environment – VLE), axborotlashgan menejment tizimi (Management Information System – MIS);
- respublikamizda ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasasalari o‘rtasida o‘zaro aloqa qilish asosida uzluksiz ta’lim va malaka oshirish tizimini shakllantirishga ko‘maklashish;
- yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutuvchi maqsadli ta’lim dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiq holda tashkil etish uchun sharoitlarni yaratish.

Turli yo‘nalishlarni tahlil qilgan holda ishlab chiqilgan OTMlarni rivojlantirishning marketing strategiyasi va ularni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlari haqidagi xulosaga kelish mumkin. Shu bilan birgalikda quyidagilarga e’tibor berish talab etiladi: maqsadli yo‘naltirish - marketing strategiyalari oliy ta’lim xizmatlaridan foydalanuvchilarning talablarini inobatga olgan holda bozorning ma’lum bir segmentida OTMning mos maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak; rentabellik - marketing strategiyalari, reklama, ta’lim xizmatlarining yangi turlari va innovatsion mahsulotlarni bozorga olib chiqishga sarflanadigan xarajatlar marketingning rentabellik ko‘rsatkichlari (Marketing Returnon Sales – MROS) va investitsiyalari (Returnon Marketing Investments) daromadliligi orqali baholanishi kerak; integratsiyalashgan axborot-marketing platformalaridan foydalangan holda raqamli texnologiyalar yordamida marketing ma’lumotlarini tayyorlash, to‘plash, tahlil qilish va talqin qilish uchun amalga oshirilishi kerak.

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish marketing strategiyasini aniqlashda asosiy e’tibor ko‘pincha strategik boshqaruvning asosini tashkil etuvchi istiqbolli rejalashtirishga qaratiladi. Istiqbolli rejaning amalga oshirilishi boshqaruvning hal qiluvchi tarkibiy qismi hisoblanadi.

OTMlar tomonidan ko‘rsatiladigan asosiy va qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini iste’molchilar manfaatini hisobga olgan holda “baho-sifat” mezoni bo‘yicha (xalqaro ta’lim standartlarida integratsiya, kredit-modul tizimi asosida sifatni baholash, OTMlarning moliyaviy erkinligini oshirish trendini hisobga olgan holda) tanqidiy marketing tahlil qilish; raqobatbardoshlikni baholash va mehnat bozoridagi talabning o‘zgarishini inobatga olgan holda qo‘shimcha ta’lim xizmatlari (malaka oshirish kurslari, dual tizimini, treninglar va masofaviy ta’lim usullarini kengaytirish va h.k.) assortimentini kengaytirish masalalarini hal qilish; ta’lim xizmatlarining yangi turlarini tashkil etish, mavjud, shuningdek, innovatsion mahsulotlarni qo‘llashning yangi usullari va yo‘nalishlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish (innovatsion texnologiyalarni tijoratlashtirish, startaplarning ekotizimini rivojlantirish va boshqalar).

Oliy ta’lim muassasasalari o‘z faoliyati va ko‘rsatayotgan xizmatlarining sifatini doimiy ravishda oshirib borishi va iste’molchilar talabini o‘rganish maqsadida chiziqli diskriminant tahlil ((Lineer Discriminant Analysis (LDA) usulidan foydalanilgan (1-jadval).

1-jadval: Oliy ta’lim muassasasalarida ta’lim sifatini baholash bo‘yicha chiziqli diskriminant funksiya koeffitsiyentlari [7]

Mustaqil o‘zgaruvchilar	OTM nomi			
	QarMII	AnDU	TDIU	boshq.
Ta’lim berish usullari qoniqtiradimi (o‘quv dasturlari, ta’lim berish metodlari, amaliy mashg‘ulotlar, nazariy bilim, talabalarning ilmiy ishlari)?	-0,014	-0,133	-0,348	-0,038
Ta’lim berish jarayoni axborot texnologiyalari, kompyuterlar, internet, kutubxona, zamonaviy auditoriya, darsliklar bilan ta’minlanganligi qoniqtiradimi?	-0,095	-0,256	0,586	-0,074
O‘qituvchilarning professionalligi (fan buyicha bilimi, o‘qitish qobiliyati, talabalar bilan muomala, mavzuga qiziqtirish qobiliyati) qoniqtiradimi?	0,437	1,342	0,714	1,028

Talabalar bilan darsdan tashqari ishlash (dam olish, sport, madaniy tadbirlar, ta'lim muassasasasi yotoqxonasi, talabalar klubi) qay darajada?	-0,092	-0,471	-0,596	-0,448
Ta'lim xizmatlari qoniqtiradimi (mavjud mutaxassisliklar va ixtisosliklar, ta'lim berish turlari kunduzgi, kechki, sirtqi)?	1,267	1,253	1,269	1,266
O'quv jarayonini ishlab chiqarish va amaliyot bilan bogliqligi?	-1,410	-1,075	-1,115	-1,065
O'qitilayotgan fanlar kelajakda ish jarayonida qanchalik ahamiyatli deb hisoblaysiz?	1,294	0,738	0,366	0,696
Siz ta'lim olayotgan oliy ta'lim muassasasasida mustaqil ta'lim olish olish uchun qanchalik sharoit yetarli deb hisoblaysiz?	1,119	1,368	1,087	1,040
Siz tugallayotgan oliy ta'lim muassasasasida kadrlar tayyorlash sifatini qanday baxolaysiz?	0,350	0,521	0,181	0,884
Bitiruvchilarning kasb maxorati (amaliy va kasbiy muammolarni xal kilish qobiliyati, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish qobiliyati, raqobatbardoshlik, jamoada ishlay olish)	2,103	2,430	2,309	2,016
Agar siz yana abituriyentlik davriga qaytsangiz, tanlovingizni takrorlagan bo'larmidingiz?	-0,377	0,017	0,075	-0,297
(Konstanta)	-10,799	-15,224	-10,857	-10,603

Oliy ta'lim muassasasalarida ta'lim sifatini baholash bo'yicha chiziqli diskriminant funksiya natijalari bo'yicha quyidagi xulosalar qilindi:

- taqqoslanayotgan barcha OTMlarda ta'lim berish usullari ta'lim oluvchilarni yetarli darajada qoniqtirmaydi (o'quv dasturlari, ta'lim usullari, amaliy mashg'ulotlarni olib borish jarayonlari, nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ilmiy ishlar, masofaviy ta'lim tizimi va b.);
- ta'lim berish jarayoni axborot texnologiyalari (ayniqsa, koronovirus pandemiyasi davrida sifatli masofali o'qish tizimiga bo'lgan talabni hisobga olgan holda), kompyuterlar, internet, kutubxona, zamonaviy auditoriya, darsliklar bilan ta'minlanganlik holatlari bo'yicha faqat Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ta'lim sifatini oshirishga ijobiy bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi.

("Registrator ofis" platformasining yaratilishi); barcha ta'lim muassasasalarida talabalar bilan darsdan tashqari ishlash holatlari, jumladan, dam olish, sport, madaniy tadbirlar, ta'lim muassasasasi yotoqxonasi, talabalar klubi kabilar faoliyati qoniqtirmaydi.

Natijalar bo'yicha quyidagi chiziqli diskriminant funksiyalarini oldik:

$$D_{QarMII} = -0{,}014Q1 - 0{,}095Q2 + 0{,}437Q3 - 0{,}092Q4 + 1{,}267Q5 - 1{,}410Q6 + 1{,}294Q7 + 1{,}119Q8 + 0{,}350Q9 + 2{,}103Q10 - 0{,}377Q12 - 10{,}799$$

$$D_{AnDU} = -0{,}133Q1 - 0{,}256Q2 + 1{,}342Q3 - 0{,}471Q4 + 1{,}253Q5 - 1{,}075Q6 + 0{,}738Q7 + 1{,}368Q8 + 0{,}521Q9 + 2{,}430Q10 - 0{,}017Q12 - 15{,}224$$

$$D_{TDIU} = -0{,}348Q1 + 0{,}586Q2 + 0{,}714Q3 - 0{,}596Q4 + 1{,}269Q5 - 1{,}115Q6 + 0{,}366Q7 + 1{,}087Q8 + 0{,}181Q9 + 2{,}309Q10 + 0{,}075Q12 - 10{,}857$$

$$D_{boshqa} = -0{,}038Q1 - 0{,}074Q2 + 1{,}028Q3 - 0{,}448Q4 + 1{,}266Q5 - 1{,}065Q6 + 0{,}696Q7 + 1{,}040Q8 + 0{,}884Q9 + 2{,}016Q10 - 0{,}297Q12 - 10{,}603$$

Ta'lim muassasasalarida o'quv jarayonining ishlab chiqarish bilan bog'liq darajasi yetarli emasligini ko'rsatdi; universitetga sodiqlikni bildiruvchi ko'rsatgichda (agar siz yana abituriyentlik davriga qaytsangiz, tanlovingizni takrorlagan bo'larmidingiz) TDIU talabalari tarafidan ijobiy natijalar qayd etilgan. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimida marketing strategiyalarini ishlab chqishda asosiy va qo'shimcha ta'lim xizmatlari turini kengaytirish, yangi innovasion mahsulotlarni bozorga olib chiqish, tadqiqot sektori salohiyatidan samarali foydalanish masalalarini hisobga olish talab qilinadi.

Oliy ta'lim tizimida uzoq muddatli marketing strategiyasini ishlab chiqishda milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uning ustuvor tarmoqlarida amalga oshirilayotgan modernizasiya jarayonlari va rivojlantirish dasturlarida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilishi kerak (bozor segmentlari bo'yicha, masalan, to'qimachilik va engil sanoat, kimyo, transport va qurilish tarmoqlari, axborot texnologiyalari sohasi va boshqalar), yetakchi universitetlar uchun o'z brendlarini (nomoddiy aktivlar) yaratish muhim ahamiyat kasb etadi (Garvard, Stenford, Oksford, Kembridj va boshqalar), marketing investisiyalarining oshishiga olib keladigan marketing tadqiqotlariga katta e'tibor qaratilishi kerak.

Innovatsion iqtisodiyotni barpo etishning muqarrar sharti bo‘lgan ta’lim va fanning ittifoqi jahon taraqqiyotining yetakchi trendi, XVIII asr oxiri – XIX asr boshidagi nemis gumanizmining buyuk vakili V.Gumboldt prinsipi deb ataladigan prinsipning, ta’lim faoliyatining oliy maqsadi bo‘lgan individiumni universal rivojlantirish trendining ifodasidir [8]. “Dars berish va tadqiqot olib borish birligi” yoki “fan asosida o‘qitish” ta’sirida aniq-ravshan ifodalanadigan mazkur prinsip hozirgi kunda juda dolzarbdir.

Oliy maktab ilg‘or tadqiqot, fundamental fan bilan jips bog‘langanidagina yuqori malakali kadrlarni uzluksiz va jadal tayyorlash mumkin.

Ta’lim sohasini ustuvor rivojlanish – hozirgi sivilizatsiyaning obyektiv qonuniyati. Ijtimoiy o‘zgarishlar hozirgi bosqichining o‘ziga xosligi ta’limni ildam rivojlantirish va kadrlar yangi avlodini tezkorlik bilan tayyorlashdadir. Bu kadrlar mehnat bozorida raqobatbardosh, jadal o‘zgarib borayotgan jahonda faol hayot faoliyatiga yaxshi tayyorlangan, tez moslashadigan, shuningdek, o‘zini o‘zi rivojlantirishga va o‘zi ta’lim olishiga, ijobiy o‘zini ko‘rsatishga undovchi yuqori umumiy madaniyat egasi bo‘lishi darkor.Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasasalari raqobatbardoshligini shakllantirish o‘ziga xos omillar majmuasi bilan belgilanadi, ularning xarakterli ta’siri ta’lim xizmatlari bozori ishtirokchilarining o‘zaro aloqalari jarayonida namoyon bo‘ladi.Ta’lim xizmatlari bozoriga oliy ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligining innovatsion omillarining ta’siri ishlab chiqarish rahbarlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, o‘quv jarayoniga yangiliklarni kiritish va axborot texnologiyalari qamrovining kengligi orqali namoyon bo‘ladi [10].

Iqtisodiyotning innovatsion sharoitida ta’lim tizimida yangi innovatsion xizmat turlarini keng joriy qilish, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi o‘ta muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, bu borada oliy ta’lim muassasasalarining moddiy-texnik bazasini tubdan yangilash va modernizatsiyalash, ularni innovatsion o‘quv va ilmiy-laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash, raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini maqbullashtirish, ta’lim standartlarini takomillash-tirish hisobiga ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o‘qitish shakllarini joriy etish, o‘qituvchi kadrlar mehnatini rag‘batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiyot soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy ma’lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassa-sasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo‘yicha “Oliy ta’lim tizimini 2017–2021-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi” tasdiqlandi.

Xalqaro omillarning xarakterli ta’siri turli xil ta’lim va ilmiy xalqaro integratsiya vositalari, madaniy almashinuvlar, xalqaro reytinglarda ishtirok etish va jahon bozorining konyunkturasi orqali namoyon bo‘ladi.

Ta’sir ko‘lami bo‘yicha, ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim tashkilotlari raqobatbardoshligining strategik, taktik va operatsion omillari ajratiladi. Odatda jamiyatdagi siyosiy o‘zgarishlar, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasi, ijtimoiy-madaniy aloqalarning o‘ziga xos xususiyatlari va texnologik yangiliklarni amalga oshirish darajasi milliy ta’lim tizimining rivojlanish darajasi va yo‘nalishini belgilab beradi.

Jamoat institutlari rivojlanishining past darajasi, texnologik qoloqlik va milliy iqtisodiyot samaradorligining yetarli emasligi bilan innovatsiyalar, aholini keng qamrab olish va ta’lim jarayonlarining sifati mumkin bo‘lmaydi, bu esa ushbu omillar guruhi ta’sirining strategik xususiyatini belgilaydi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilab berilganidek, har bir oliy o‘quv yurtining moliyaviy mustaqilligi ta’minlanishini hisobga olsak, oliy ta’lim tizimida jiddiy raqobat muhiti shakllanayotganini tan olmasdan ilojimiz yo‘q. Bunday sharoitda har bir oliy o‘quv yurti, xususan, davlat oliy o‘quv yurtlari o‘z faoliyatini qaytadan ko‘rib chiqishi, yurtimizdagi ish beruvchilarning kadrlarga bo‘lgan talabidan kelib chiqib, mutaxassislik yo‘nalishlarini optimallashtirishi talab etiladi. Bunda esa har qanday bozor iqtisodiyoti sharoitida, barcha sohalarga birdek zarur bo‘lgan marketing strategiyasi alohida o‘rin tutadi.

Zero u xoh davlat oliy o‘quv yurti, xoh xususiy oliy o‘quv yurti bo‘lsin, bundan qat’iy nazar, aynan, raqobatbardosh marketing strategiyasi va to‘g‘ri tanlangan marketologlar bilan birgalikda tobora ko‘payib borayotgan oliy ta’lim muassasalari orasida yaratilgan kuchli raqobat muhitida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ladi.

“Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ijrosini ta’minlashda har bir oliy ta’lim muassasalarida bugungi mehnat bozori takliflarini tahlil qila oladigan, ish beruvchilar va xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli shartlar asosida aloqalarni o‘rnata oladigan yangi marketing xizmatini yo‘lga qo‘yish, mavjud marketing bo‘limlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish bugungi kunning talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yil-gacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy majlisga Murojaatnomasi. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-mazhlisga-murozhaatnomasi _198650
3. A.O.Ochilov Oliy ta’lim muassasasasining raqobatbardoshligi, samaradorligi va uni moliyalashtirishni boshqarishni takomillashtirish yo‘llari. Monografiya. –T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti. –2011.15 b.
4. G.N.Axunova O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari marketingi muammolari. Monografiya.–T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti. 2005.109-bet.
5. Д.Набиев. Совершенствование управления маркетингом образовательных услуг в условиях модернизации экономики. Автореф. ... докт. эконом. наук. – Т.2009. – 48 с.
6. J.A.Abdullayev. Oliy ta’lim cohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo‘llashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019 yil., 82-83 bet.
7. G.S.Sa’dullaeva. Oliy ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fal-safa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2020., 13-bet.
8. М.Калчугина “Синергия образования и науки как инновационнqй ресурс” // Мировая экономика и международные отношения, 2008. №10. – С. 84.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarori.



АСПЕКТЫ ЗДОРОВЬЯ И ПИТАНИЯ: ВЛИЯНИЕ ПРОДУКЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА НА УСТОЙЧИВЫЕ И ЗДОРОВЫЕ РАЦИОНЫ

Нуриллаев Рахмат Ярашевич
Заведующий кафедры Агротехнологии, Каршинский институт ирригации и агротехнологий, национального исследовательского университета “TIQXMMI” к.с.х.н., доцент

Аннотация: Статья обсуждает значимость пищевой продукции животноводства в формировании устойчивых и здоровых рационов. Она анализирует питательную ценность продуктов животноводства, их вклад в поставку необходимых питательных веществ и биоактивных соединений. Также рассматривается влияние потребления продуктов животноводства на здоровье человека и роль этих продуктов в поддержании устойчивости пищевой системы.

Ключевые слова: пищевая продукция животноводства, устойчивость, здоровый рацион, питательная ценность, биоактивные соединения, здоровье человека, пищевая система.

Annotatsiya: Maqolada chorvachilik oziq-ovqat mahsulotlarining barqaror va sog‘lom ovqatlanishni shakllantirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Unda chorvachilik mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va ularning muhim oziq moddalar va bioaktiv birikmalar bilan ta’minlashga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, u hayvonot mahsulotlarini iste’mol qilishning inson salomatligiga ta’sirini va bu mahsulotlarning barqaror oziq-ovqat tizimini saqlashdagi rolini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: chorvachilik oziq-ovqat mahsulotlari, barqarorlik, sog‘lom ovqatlanish, ozuqaviy qiymati, bioaktiv birikmalar, inson salomatligi, oziq-ovqat tizimi.

Abstract: The article discusses the importance of livestock food products in the formation of sustainable and healthy diets. It analyzes the nutritional value of animal products and their contribution to the supply of essential nutrients and bioactive compounds. The impact of consumption of livestock products on human health and the role of these products in maintaining the sustainability of the food system are also examined.

Key words: livestock food products, sustainability, healthy diet, nutritional value, bioactive compounds, human health, food system.

ВВЕДЕНИЕ

Современное общество стоит перед вызовом обеспечения устойчивого и здорового питания для растущего населения планеты. Одним из ключевых компонентов этой задачи является пищевая продукция животноводства, которая играет важную роль в формировании рационов людей по всему миру. Пищевая продукция животноводства включает в себя мясо, молоко, яйца и другие продукты, которые являются важным источником питательных веществ и энергии.

В настоящее время мы сталкиваемся с рядом сложных вызовов, таких как изменение климата, деградация почв, потеря биоразнообразия и угрозы для здоровья человека, такие как несбалансированное питание и связанные с ним болезни. В этом контексте продукция животноводства имеет особое значение, так как она может сыграть решающую роль в решении этих проблем.

Данная статья посвящена изучению роли пищевой продукции животноводства в формировании устойчивых и здоровых рационов. Мы рассмотрим влияние продукции животноводства на питание и здоровье человека, а также обсудим методы ее производства, которые способствуют снижению негативных экологических и социальных последствий.

Далее в статье будет рассмотрено влияние продукции животноводства на окружающую среду и климат, а также предложены пути улучшения устойчивости этой отрасли. Мы также обсудим проблемы и вызовы, с которыми сталкиваются производители животноводческой продукции, и возможные пути их решения.

В итоге, данная статья призвана подчеркнуть важность продукции животноводства в обеспечении устойчивого и здорового питания для населения планеты и выявить пути ее улучшения в интересах будущих поколений.

Пищевая продукция, полученная от животноводства, оказывает влияние на различные аспекты здоровья и питания. Последствия этого влияния зависят от контекста, этапа жизненного цикла человека и характера животноводческой продукции. Здоровое питание предполагает употребление качественных пищевых продуктов, таких как овощи, фрукты, цельнозерновые продукты, бобовые и орехи (согласно данным ВОЗ, 2020). Недостаточное или чрезмерное потребление определенных продуктов может привести к недостатку питательных веществ (например, цинка, железа, витамина А или В12) или создать риски для здоровья (например, из-за избыточной калорийности потребляемой пищи, избыточного потребления насыщенных жиров, трансжиров, натрия или свободных сахаров). Рекомендации по здоровому питанию различаются в зависимости от контекста; во многих странах разработаны рекомендации по правильному питанию, основанные на доступных продуктах, которые указывают на оптимальное сочетание продуктов в рационе, включая пищевую продукцию животноводства.

В течение 99,5% эволюционного пути человечество потребляло значительно меньше пищи животного происхождения, чем сегодня. Исследования археологов показывают, что наши предки имели разнообразное питание, включающее как растительную, так и животную пищу. Увеличение доли продуктов животного происхождения в рационе сопровождалось изменениями в анатомии и физиологии. Ранние предки человека, особенно Homo erectus, отличались большим ростом, массой тела и размером мозга; предполагается, что эти изменения были обусловлены высоким содержанием питательных веществ в животной пище и ее высокой энергетической ценностью.

Питательные вещества - это вещества или элементы, необходимые для жизни, роста и размножения организма. Незаменимые питательные вещества - это те, которые организм человека не производит в достаточных количествах и должны получать из окружающей среды, включая пищу. Биологическая доступность питательных веществ определяет, насколько эффективно они усваиваются и участвуют в метаболических процессах. Эта доступность зависит от различных факторов, включая матрицу веществ, их источник и способ доставки. Некоторые продукты могут повышать или понижать биодоступность питательных веществ. Кроме того, биологическая доступность может быть влиянием экологии микробиома и общего состояния здоровья человека. В пище человека также присутствуют биоактивные вещества, которые могут оказывать влияние на его состояние, но их свойства еще не полностью изучены. Например, триметиламин N-оксид (TMAO), содержащийся в пищевой продукции животноводства, рассматривается как фактор, способствующий развитию ишемической болезни сердца. Прогресс в области аналитических исследований и биоинформатики позволяет более глубоко изучать пищевую метаболомику - часть метаболома человека, связанную с расщеплением и превращением пищи и ее компонентов. Базы данных метаболитов постоянно обновляются.

В данном исследовании анализируются сходства и различия между различными видами пищевой продукции животноводства. Отмечается, что эти продукты содержат важные биодоступные питательные вещества, необходимые для роста и развития мозга, а также разнообразные биоактивные вещества, которые поддерживают метаболизм. Однако, подчеркивается, что каждый продукт следует рассматривать в контексте пищевой матрицы и режима питания.

Яйца и молоко, которые являются первой пищей для животных на ранних этапах их жизни, содержат все необходимые незаменимые питательные вещества. Биологическая ценность белков, получаемых из этих продуктов, оценивается по аминокислотной шкале идеального белка, которая показывает процентное соотношение усваиваемого идеального белка по сравнению с эталонным белком (FAO, 2011). Значения биологической ценности для молока и яиц по этой шкале превышают 100%, в то время как для риса составляет 37%, а для пшеницы – 45%. Кроме того, яйца и молоко содержат некоторые незаменимые жирные кислоты. Например, яичный желток богат линолевой и α-линолевой кислотами, а содержание докозагексаеновой кислоты (ДГК) в нем может различаться в зависимости от питания птиц.

Разные виды молока содержат разное количество ДГК, что зависит от рациона животных. Обычно молоко богато незаменимыми жирными кислотами. Молоко буйволиц содержит вдвое больше жиров, чем коровье, следовательно, его энергетическая ценность выше. Козье молоко представляет еще один важный источник незаменимых жирных кислот, которое может быть включено в рацион детей для получения дополнительных питательных веществ. Содержание ДГК в сельди составляет 0,86 мг/100 г, а в яйце только 0,06 мг/100 г.

Разные виды молока содержат разное количество ДГК, что зависит от рациона животных. Обычно молоко богато незаменимыми жирными кислотами. Молоко буйволиц содержит вдвое больше жиров, чем коровье, следовательно, его энергетическая ценность выше. Козье молоко представляет еще один важный источник незаменимых жирных кислот, которое может быть включено в рацион детей для получения дополнительных питательных веществ. Содержание ДГК в сельди составляет 0,86 мг/100 г, а в яйце только 0,06 мг/100 г.

Яйца и молоко являются ценными источниками питательных микроэлементов. Например, яйца содержат значительное количество холина, который необходим для роста и деления клеток, а также для передачи нервных импульсов и развития нервной системы. Они также богаты витаминами A, B12, D, E, фолиевой кислотой и минеральными веществами, такими как селен, железо и цинк.

Молоко, хотя и не всегда является самым богатым источником, признано важным источником кальция. Хотя исследования по этому вопросу еще не завершены, считается, что умеренное потребление молока может быть полезным. Однако, избыточное потребление молока может привести к негативным последствиям, таким как ожирение или избыточное потребление насыщенных жиров и гормонов.

Сравнивая молоко с пищей растительного происхождения, следует отметить, что молоко животных, включая человеческое молоко, содержит меньше железа и цинка, но лучше усваивается организмом. Оно также богато витаминами A, B12 и другими витаминами группы B.

На определенных этапах жизненного цикла пищевые продукты животного происхождения могут быть незаменимыми и не могут быть полностью заменены растительными продуктами. Это связано с их уникальным составом питательных веществ, таких как белки высокого качества, витамины B12, железо и другие микроэлементы, которые могут быть сложными для получения из исключительно растительных источников. Однако, важно отметить, что каждый человек имеет индивидуальные потребности в питательных веществах, и возможностей замены пищи животного происхождения растительными альтернативами.

Мясо содержит большое количество легкоусвояемых минеральных веществ, которые играют важную роль в питании. При употреблении мяса гемопротеины крови обеспечивают организм железом, которое усваивается в два раза быстрее, чем железо, получаемое из растительной пищи. Субпродукты, особенно баранья печень, богаты железом, содержание которого составляет 10 мг/100 г. Цинк, необходимый для роста, иммунной защиты и развития нейрокогнитивных функций, содержится в говядине, свинине и мясе птицы. Дефицит цинка, вызванный фитатами, препятствующими его усвоению (что характерно для популяций, потребляющих большое количество кукурузы), инфекционными заболеваниями или другими причинами, страдает, по оценкам, 17% населения планеты.

Мясо, особенно мясная продукция, может содержать жиры, которые, при чрезмерном потреблении, могут быть вредными для организма. Жиры могут быть насыщенными, ненасыщенными (мононенасыщенными и полиненасыщенными) и трансжирными (природными и промышленными). Рекомендуется, чтобы общий прием жиров составлял не более 30% от общей энергии, насыщенных жиров - не более 10%, а трансжиров - не более 1%. Важно также заменить насыщенные жиры и трансжиры на ненасыщенные жиры (согласно рекомендациям ВОЗ, 2020). В настоящее время проводятся усилия для полного исключения промышленных трансжиров из продовольственной цепочки. Изучение показывает, что потребление мясной продукции связано с увеличением риска общей и причинно-специфической смертности. Хотя результаты научных исследований могут немного различаться, избыточное потребление трансжирных и насыщенных жирных кислот считается фактором, способствующим росту смертности.

Режим питания играет важную роль в метаболизме, взаимодействуя с питательными веществами и биоактивными веществами. Некоторые биоактивные вещества, такие как пептиды, клетчатка, липиды и метаболиты холина, влияют на здоровье микрофлоры кишечника и связаны с хроническими заболеваниями. Исследования показывают, что потребление яиц может способствовать повышению концентрации полезных веществ, таких как ДГК, холин, триметиламин N-оксид и диметилглицин, что благотворно влияет на здоровье детей. Молоко также содержит разнообразные биоактивные вещества, которые обеспечивают защиту от инфекций, воспалений, а также способствуют развитию органов и микробиома.

Производство продукции животноводства - важная отрасль, обеспечивающая население качественными и полезными продуктами. Однако, для обеспечения безопасности и качества этой продукции важно внедрить систему качества, которая позволит не только соблюдать стандарты безопасности, но и повысить конкурентоспособность на рынке. В данной статье мы рассмотрим методику внедрения такой системы и ее преимущества.

Продукция животноводства напрямую влияет на здоровье людей, поэтому безопасность и качество этих продуктов стоит на первом месте. Внедрение системы качества при оценке безопасности продукции животноводства имеет следующие цели:

- **Защита здоровья потребителей:** Гарантировать, что продукция животноводства безопасна для употребления и не представляет угрозу для здоровья потребителей.
- **Соблюдение нормативов:** Соблюдение местных и международных стандартов и нормативов в области безопасности и качества продукции.
- **Повышение Доверия:** Укрепление доверия потребителей и партнеров к вашей продукции.
- **Конкурентоспособность:** Качественная продукция имеет конкурентное преимущество на рынке.
- **Повышение Репутации:** Улучшение репутации бренда и предприятия как надежного поставщика продукции.

В качестве этапов внедрения системы качества, на наш взгляд, можно назвать следующие шаги:

1. **Анализ рисков**

Первым шагом является анализ рисков. Это означает определение потенциальных опасностей и рисков, связанных с производством продукции животноводства. Это могут быть болезни животных, проблемы с кормами, гигиеничность производственных помещений и другие аспекты. Анализ рисков помогает определить, где именно необходимы меры безопасности и качества.

2. **Установление стандартов**

Далее необходимо разработать стандарты и требования к безопасности и качеству продукции. Эти стандарты должны соответствовать местным и международным нормативам. Стандарты могут включать в себя требования к условиям содержания животных, качеству кормов, процессу убоя и многие другие аспекты.

3. **Обучение персонала**

Важным этапом является обучение персонала фермы и производственных единиц в соблюдении стандартов безопасности и качества. Это включает в себя правила гигиеничности, обработки животных и другие важные аспекты. Обученный персонал играет ключевую роль в обеспечении безопасности продукции.

4. **Мониторинг и контроль**

Установите систему мониторинга и контроля за выполнением стандартов. Это может включать в себя регулярные инспекции, анализы продукции и контрольные точки в производственном процессе. Мониторинг позволяет выявлять и устранять потенциальные проблемы.

5. **Документация и отчетность**

Внедрит систему документации и отчетности, чтобы отслеживать и регистрировать все аспекты производства. Это поможет в случае необходимости доказать соблюдение стандартов. Кроме того, это важно для внутреннего контроля производства.

6. **Управление качеством**

Надо разрабатывать процессы управления качеством продукции. Это включает в себя решение проблем и постоянное совершенствование производственных методов. Управление качеством помогает предотвращать дефекты продукции и улучшать ее качество.

7. **Сертификация**

В случае успешной реализации системы качества, можно рассмотреть возможность получения сертификатов, подтверждающих соблюдение стандартов безопасности и качества. Сертификаты могут убедить партнеров и потребителей в надежности вашей продукции.

Внедрение системы качества при оценке безопасности продукции животноводства предоставляет несколько значимых преимуществ:

- **Обеспечение безопасности:** Система качества позволяет установить и поддерживать высокие стандарты безопасности продукции животноводства. Это включает контроль за использованием пестицидов, гормонов и других вредных веществ, а также надлежащую обработку и хранение продукции.
- **Гарантия качества:** Система качества помогает обеспечить высокое качество продукции животноводства. Она включает в себя контроль за условиями содержания животных, кормлением, гигиеной и другими факторами, которые могут влиять на качество продукции.
- **Соответствие нормативным требованиям:** Внедрение системы качества позволяет обеспечить соответствие нормативным требованиям и стандартам, установленным в отрасли животноводства. Это включает соблюдение правил по безопасности пищевых продуктов, маркировку и информацию о продукции.
- **Улучшение репутации:** Система качества способствует повышению репутации производителя продукции животноводства. Потребители все больше обращают внимание на безопасность и качество продуктов, и наличие системы качества может быть важным фактором при выборе продукции.

- **Улучшение эффективности:** Внедрение системы качества позволяет оптимизировать процессы производства и управления, что приводит к повышению эффективности и снижению рисков.

В целом, внедрение системы качества при оценке безопасности продукции животноводства является важным шагом для обеспечения безопасности, качества и соответствия требованиям отрасли.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Внедрение системы качества при оценке безопасности продукции животноводства - это важный шаг для обеспечения безопасности и качества продукции. Это не только способствует защите здоровья потребителей, но и повышает конкурентоспособность на рынке. Это инвестиция в будущее вашего бизнеса, которая может принести значительные выгоды в виде увеличения доверия и репутации на рынке.

Список использованной литературы:

1. Pingali, P. 2015. Agricultural policy and nutrition outcomes – getting beyond the preoccupation with staple grains. Food Security, 7: 583–591. https://doi.org/10.1007/s12571-015-0461-x
2. Kožar, M., Pintar, M., Volk, T., Rednak, Mi., Rac, I. & Erjavec, E. 2016. Agriculture and agricultural policy in Eastern European Neighbourhood. 155th Seminar, September 19–21, 2016, Kiev, Ukraine 245877, European Association of Agricultural Economists. https://doi.org/10.22004/ag.econ.245877. Covers Armenia, Azerbaijan, Belarus, Georgia, Kazakhstan, Republic of Moldova, Russian Federation and Ukraine.
3. J.Nurillaev Directions To Improve The Activities Of The Karakulchil Sector In Uzbekistan journal https://usajournalshub.com Volume 2 Pages 56-62
4. Steinfeld, H., Gerber, P., Wassenaar, T. et Castel, V. 2006. Livestock's long shadow – environmental issues and options. Rome: FAO. (également disponible ici: http://www.fao.org/3/a0701e/a0701e.pdf).
5. Aparicio Tovar, M.A. et Vargas Giraldo, J.D. 2006. Considerations on ethics and animal welfare in extensive pig production: Breeding and fattening Iberian pigs. Livestock Science, 103(3): 237–242.
6. Ж. Нуриллаев Влияние экономической либерализации на производство и эффективность продукции в мировом овцеводстве и каракулеводстве// https://www.researchgate.net/profile/Gayrat-Ibragimov/publication/376184823_Analiz_agroservisnyh_faktorov_vliausih_na_pribyl_pri_proizvodstve_osnovnyh_selskohozajstvennyh_kultur/links/656ca8fab86a1d521b2e2de1/Analiz-agroservisnyh-faktorov-vliausih-na-pribyl-pri-proizvodstve-osnovnyh-selskohozajstvennyh-kultur.pdf#page=50
7. "Приняты меры по улучшению снабжения продовольствием" 31 мая 2022 года видеоселекторное совещание по мерам по обеспечению населения продуктами питания под председательством Президента Шавката Мирзиёева https://yuz.uz/uz/news/oziq-ovqat-mahsulotlari-taminotini-yaxshilash-choralari-korildi
8. Органические продукты питания в безопасности пищевых продуктов. https://www.foodsafely.org/ru/bilgiler/gida-guvenliginde-organik-gidalar/

РОЛЬ ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ В ФУНКЦИОНИРОВАНИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ



Бабаева Гузаль Яшиновна
Доцент кафедры “Банковский учет и аудит” Ташкентского финансового института

Аннотация: В статье рассмотрена структура платежной системы страны, дана характеристика её составляющих и обзорный анализ литературы различных авторов по исследованиям в области функционирования платежных систем. Описана роль платежных систем в развитии электронной коммерции. Отдельное внимание в связи с названием статьи отведено описанию значения электронной коммерции, проведен анализ её развития в настоящее время, названы её преимущества и перспективы в экономике.

Ключевые слова: платежная система, транзакция, электронная коммерция, реестр участников электронной коммерции, банковская карта, мобильное приложение, маркетплейс, интернет магазин, международные платформы.

Annotatsiya: Maqolada mamlakat to‘lov tizimining tuzilishi, uning tarkibiy qismlari tavsiflangan va to‘lov tizimlarining ishlashi sohasidagi tadqiqotlar bo‘yicha turli mualliflarning adabiyotlari tahliliy ko‘rib chiqilgan. Elektron tijoratni rivojlantirishda to‘lov tizimlarining o‘rni tasvirlangan. Maqolaning mavzusi bilan bog‘liq ravishda elektron tijoratning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilib, uning bugungi kundagi rivojlanishi tahlil qilinib, uning iqtisodiyotdagi afzalliklari va istiqbollari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: to‘lov tizimi, tranzaksiya, elektron tijorat, elektron tijorat ishtirokchilari reyestri, bank kartasi, mobil ilova, bozor, onlayn-do‘kon, xalqaro platformalar.

Abstract: The article examines the structure of the country’s payment system, describes its components and provides a review of the literature of various authors on research in the field of the functioning of payment systems. The role of payment systems in the development of e-commerce is described. In connection with the title of the article, special attention is given to a description of the importance of e-commerce, an analysis of its current development is carried out, and its advantages and prospects in the economy are named.

Key words: payment system, transaction, e-commerce, register of e-commerce participants, bank card, mobile application, marketplace, online store, international platforms.

ВВЕДЕНИЕ

За последние годы в работе платежных систем многих стран мира произошли важные изменения. Способы платежей оплаты эволюционируют и развиваются – от наличных до чеков, кредитных карт и дебетовых карт, а в настоящее время – электронной коммерции и мобильного банкинга. Законодательство и платежные системы играют решающую роль в создании надежной и устойчивой экосистемы электронной коммерции. Они обеспечивают защиту прав и интересов всех участников процесса – как покупателей, так и продавцов. Кроме того, достижения в технологии, поддерживающие мобильные транзакции и делающие их более удобными и прозрачными, развивают доверие среди клиентов, которые привыкают к использованию этого способа оплаты. Интеграция систем онлайн-платежей с существующей финансовой и телекоммуникационной инфраструктурой необходима , но применение современных технологий несет как новые возможности, так и проблемы для внедрения и проектирования систем безопасных онлайн-платежей как в настоящее время, так и в ближайшем будущем.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Национальная платежная система (НПС) является неотъемлемой частью финансовой системы любого государства. В соответствии со своим названием НПС обеспечивает осуществление платежей, создавая условия для оборота денежных средств, управления денежной массой, регулирования курса национальной валюты, осуществления инвестиционных программ и т.д. В конечном счете эффективная

НПС способствует экономическому росту и процветанию национальной экономической системы [1]. В экономической литературе встречается общая концепция подхода к платежной системе с позиции платежной инфраструктуры. Однако в целом, термин “платежная система” относится к полному набору инструментов (посредники, правила, процедуры, процессы и системы межбанковских переводов денежных средств), которые облегчают обращение денег в стране или валютной зоне [2].

В то же время практика построения и развития национальных платежных систем отличается от государства к государству, находясь в сильной зависимости от множества национальных факторов, включая уровень экономического развития, культурные и правовые традиции, уровень образования и многое другое. Как результат, национальные платежные системы отличаются по платежной структуре, по качеству и количеству платежных услуг, по степени интеграции и т.д. [3]

В 2019 году в Узбекистане был принят закон “О платежах и платежных системах”, который способствовал развитию сектора финтех. Электронные платежи стали неотъемлемой частью онлайн-торговли, обеспечивая удобство и безопасность для потребителей и предпринимателей, стала широко развиваться электронная коммерция. Кроме того в Узбекистане действуют ряд нормативно-правовых актов, регулирующих сферу электронной коммерции, основные из них это: ЗРУ-792 “О электронной коммерции” от 29.09.2022 г., ЗРУ-777 “О почтовой связи” от 09.06.2022 г., ЗРУ-221-I “О защите прав потребителей” от 26.04.1996 г. , ПП-14 от 17.11.2021 г. “О совершенствовании администрирования электронной коммерции и создании благоприятных условий для ее дальнейшего развития”, ПКМ-185 от 02.06.2016 г. “О мерах по дальнейшему совершенствованию порядка осуществления сделок в электронной коммерции”, УП-244от 09.11.2022 г. “О мерах по упрощению государственного регулирования предпринимательской деятельности”.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В данном исследовании использовались такие методы как экономический анализ, экономический синтез, экономическая аналогия, экономическая индукция, экономическая дедукция, формализация в области экономических знаний и другие.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Согласно законодательства Республики Узбекистан - Платежной системой является совокупность отношений, обеспечивающих осуществление платежей путем взаимодействия оператора платежной системы, участников платежной системы и (или) платежных организаций посредством применения процедур, инфраструктуры и правил платежной системы, установленных оператором платежной системы [4] (см. Рисунок 1.)



Рисунок 1: Элементы Платежной системы [4]

Участниками платежной системы являются банки, осуществляющие расчеты и заключившие с оператором платежной системы договор об участии в платежной системе.

Оператором платежной системы является юридическое лицо, осуществляющее деятельность по обеспечению функционирования платежной системы на территории Республики Узбекистан. Оператор платежной системы: устанавливает правила платежной системы и осуществляет контроль за их соблю-

дением участниками платежной системы, осуществляет обработку и выдачу платежных и информационных сообщений участников (участникам) платежной системы, индивидуальное исполнение распоряжений или клирин, заключает договор с участником платежной системы об участии в платежной системе и т.п.

Таблица 1: Реестр операторов платежных систем в Узбекистане [5] на 22.07. 2022

№	Наименование оператора	Наименование платежной системы	Дата выдачи лицензии
1.	ООО “Yagona UmumrespublikaProtsessingMarkazi”	UZCARD	11.04.2020 г.
2.	ООО MilliyBanklararoProtsessingMarkazi”	HUMO	11.04.2020 г.
3.	ООО “QULAY PUL”	UNITED FINTECH	27.11.2021 г.

Процедура платежа – это исполнение денежного обязательства наличными денежными средствами либо перевод денежных средств с использованием платежных инструментов;

Платежная организация – юридическое лицо, не являющееся банком, которое правомочно осуществлять деятельность по оказанию платежных услуг. Ллицензию на осуществление деятельности платежная организация получает в Центральном банке Республики Узбекистан

Эффективное функционирование всех элементов платежной системы очень важно для развитие электронной коммерции. Процесс внедрения электронных средств платежа и развития платежной инфраструктуры должен быть теоретически обоснован, законодательно закреплён и направлен по наиболее эффективному пути развития.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Электронная коммерция – это купля-продажа товаров (работ, услуг) в соответствии с договором, заключенным через электронную торговую площадку с использованием информационных систем в рамках предпринимательской деятельности [6].

Обозначим основные отличия электронной коммерции от традиционной: первое – сделки заключаются дистанционно. Второе – для закрытия онлайн-сделки понадобится существенно больше времени, чем при обычной. Третье, самое существенное, – наибольшего эффекта от онлайн-продаж достигает тот бизнес, который работает с соблюдением принципов электронной торговли.

Дадим краткое понятие того как работает электронная коммерция. Когда пользователь оказывается в интернет-магазине, начинается процесс по его превращению в покупателя. Дизайн сайта, его структура и контент, конверсионные кнопки и работа консультантов направлены на продвижение пользователя по так называемой “воронке продаж”.




Рисунок 2: Процесс превращения пользователя в потенциального покупателя в электронной коммерции

Механизмы работы e-commerce-сайтов на примере продажи товара схематично можно представить следующим способом.



Рисунок 3: Примерная схема этапов электронной коммерции

Электронная коммерция подразумевает осуществление всех этапов продажи – от привлечения покупателя до доставки товара – с помощью сайтов, социальных сетей и мобильных приложений.

ТАБЛИЦЫ И ДИАГРАММЫ

Электронная коммерция в Узбекистане развивается благодаря усилиям различных игроков и платформ, которые предлагают возможности для онлайн-торговли и связывают предпринимателей с потребителями. В данной таблице мы рассмотрим основных участников и платформы электронной коммерции в Узбекистане.

Таблица 2: Основные участники и платформы электронной коммерции в Узбекистане

	Название	Описание	Примеры
1	Маркетплейсы:	Маркетплейсы специальные торговые площадки которые предоставляет местным предпринимателям возможность размещать свои товары и услуги в онлайн-режиме, способствуя развитию местной электронной коммерции и помогая предпринимателям достичь большего числа потребителей Торговые площадки часто делятся на две категории: Свободные: Позволяют одновременно продавать свою продукцию на их сайтах и на своем собственном сайте. Эксклюзивные: Позволяют продавать свои товары только на их сайтах, без возможности продажи на собственном.	• Uzum (uzum.uz) • Olcha (olcha.uz) • Pmall (pmall.uz) • KMALL (kmall.uz) • Bulavka (bulavka.uz) • Sello (sello.uz) • Zood (zoodmall.uz)
2	Международные платформы	предлагают ассортимент товаров и услуг для узбекских потребителей и активно занимаются открытием первых бондовых складов	“Wildberries”,. Китайский гигант AliExpress через ПВЗ Uzum
3	Местные онлайн-магазины	в Узбекистане существует множество местных онлайн магазинов, которые предлагают различные товары и услуги. Это включает онлайн магазины, специализирующиеся на электронике, бытовой технике, одежде, косметике, продуктах питания и других отраслях.	• Mediapark.uz • Texnomart.uz • Mato.uz • Aynimo.uz • Alif shoppокий
4	Платежные организации	обеспечивают удобные способы онлайн-оплаты товаров и услуг.	“Payme”, “Click”, “Uzum Bank”, OSON, ATTO, Uzum Nasiya

Основные игроки и платформы электронной коммерции в Узбекистане создают благоприятную среду для развития онлайн-торговли и позволяют предпринимателям и потребителям взаимодействовать в электронной среде.

В последние годы электронная коммерция в Узбекистане стремительно росла и стала важной частью цифровой экономики. По данным статистического портала Узбекистана, объемы электронной коммерции и розничных продаж в стране стабильно растут. В 2022 году объем продаж электронной коммерции вырос на 1,8 раза по сравнению с 2021 годом и составил более 10,8 трлн сумов, что составляет более 4% от общего объема розничных продаж [7].



Рисунок 4: Динамика объёма розничной продажи и электронной коммерции в Узбекистане, в млрд. сумах [7]

Наблюдается рост количества субъектов электронной коммерции. На 1 августа 2023 года их число достигло 159 (см. рисунок 5), включая 52 системы электронных платежей и 35 банковских мобильных приложений, а также 72 интернет-магазина и торговых площадок. Сумма предъявленных чеков с начала года до 1 августа составила 28,4 трлн. сумов, из которых интернет-магазины и маркетплейсы обеспечили 7,4%.




Рисунок 5: Зарегистрированные в 2023 году субъекты электронной коммерции по видам [7]

Исследовательское агентство Research Group Central Asia провело опрос среди населения Узбекистана, чтобы выяснить, на каких платформах люди совершают ежедневные покупки. В результате опроса, 72% респондентов предпочли торговую площадку Uzum Market, а также популярными оказались Instagram, Telegram, Zoodmall и OLX [8].

Согласно Постановлению Президента Республики Узбекистан от 14 мая 2018 года №ПП-3724 “О мера по ускоренному развитию электронной коммерции” Центр развития системы электронное правительство” при Министерстве по развитию информационных технологий и коммуникаций Республики Узбекистан осуществляет функцию по формированию, ведению и дальнейшему развитию Национального реестра. Включённые в Национальный реестр субъекты электронной коммерции, являются плательщиками единого налогового платежа по ставке 2 процента. Само занятые тоже могут стать участ-

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

никами электронной коммерции, если занимаются только розничной продажей товаров, работ, услуг на электронной торговой площадке [9].

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Создание условий и дальнейшее развитие электронной коммерции является очередным шагом на пути инновационного развития нашего государства, так как современные процедуры и механизмы торговли через глобальную сеть не только значительно упрощают реализацию данного вида деятельности, но и существенно влияют на общее развитие экономики. Запуск сайта электронной коммерции обойдется в несколько раз дешевле, чем содержание физического магазина. Если соблюдать все требования к безопасности веб-ресурса и продвигать услуги с помощью различных онлайн-каналов, сайт быстро завоюет доверие клиентов и начнет приносить доход.

На сегодняшний день перед правительством стоят задачи по формированию эффективной правовой базы, которая будет упрощать процедуры электронного бизнеса, стимулировать разработку мобильных денежных платформ и использование электронных технологий, развивать необходимую инфраструктуру электронной коммерции, увеличивать доверие к заключению сделок посредством сети интернет, а также противодействовать киберпреступности.

Необходимо разработать нормативно-правовой акт, позволяющий легко, быстро и просто определить, является ли конкретное предприятие участником электронной коммерции, вести налоговый и статистический учет оборотов предприятий, занимающихся электронной коммерцией, а также, регулирующий порядок открытия и ведения счетов в банках самозанятыми лицами – участниками электронной коммерции. Это бы позволило им регистрироваться в платежных системах и полноценно принимать платежи за свои товары, услуги и работы

Расширение доступа зарубежных маркетплейсов в рынок Узбекистана, позволят местным предпринимателям выходить на мировой уровень и конкурировать на глобальных рынках. Это откроет новые горизонты для экспорта отечественных товаров и будет способствовать привлечению инвестиций в развитие местной экономики.

Список литературы:

1. Платежная система и банковская безопасность: Учебное пособие/ Муругова И.А., Бабаева Г.Я.: -Т.: “Iqtisod – Moliya”- 2019. - с 5.
2. The payment system. Payments, securities and derivatives, and the role of the eurosystem. / Editor ТомKokkola.- Frankfurt am Main Germany.: European Central Bank, 2010. – с. 25.
3. Национальная платежная система. Бизнес-энциклопедия / коллектив авторов; ред.-сост. А.С. Воронин. – М. : КНОРУС : ЦИПСиР, 2013. – с 8.
4. Закон Республики Узбекистан “О платежах и платежных системах” от 1 ноября 2019 г., № ЗРУ-578).
5. www.cbu.uz – Официальный сайт Центрального банка Республики Узбекистан.
6. Закон Республики Узбекистан “Об электронной коммерции от 29.09.2022 г. № ЗРУ -792
7. https:// siis (stat.uz)
8. Telegram: Contact @rgca_uz
9. Национальный реестр субъектов электронной коммерции (e-tijorat.uz)

OILAVIY BIZNES BO‘YICHA JAHON AMALIYOTI TAHLILI



Toshpo‘latov Murodulla Sobirjon o‘g‘li
BMA, bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaviy biznesning mohiyati, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha turli olimlarning yondashuvlari o‘rganilgan. Oilaviy biznes bo‘yicha mamlakatlar indeksi, oilaviy kompaniyalar, Finlandiyada oilaviy biznesning joriy holati misolida oilaviy biznes bo‘yicha xalqaro amaliyot tahlil qilingan. Amalga oshirilgan o‘rganishlar asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy biznes, oilaviy korxonalar, oilaviy biznes bo‘yicha mamlakatlar indeksi, oilaviy qadriyatlar, oilaviy biznesning hayotiylik davri.

Abstract: This article examines the approaches of various scientists on the nature, importance and specific characteristics of family business. The index of countries on family business, family companies, the current situation of family business in Finland is analyzed as an example of the international practice of family business. Relevant conclusions were formed based on the conducted studies.

Key words: family business, family enterprises, family business index for countries, family traditions, life cycle of family business.

Аннотация: В данной статье рассматриваются подходы различных ученых к природе, значению и особенностям семейного бизнеса. Индекс страны семейного бизнеса, семейные компании, текущая ситуация семейного бизнеса в Финляндии анализируется на примере международной практики семейного бизнеса. На основании проведенных исследований сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: семейный бизнес, семейные предприятия, страновой индекс семейного бизнеса, семейные ценности, жизненный цикл семейного бизнеса.

KIRISH

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda tadbirkorlik faoliyati, xususan, oilaviy biznes muhim o‘rin tutadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, “jahonda oilaviy biznes o‘rta hisobda barcha kompaniyalarning 70% ni qamrab olib, bu ko‘rsatkich AQSHda 80% gacha, Finlyandiyada 94% gacha boradi”. Oilaviy tadbirkorlikning ishsizlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlarini oshirish, o‘rta mulkdorlar qatlamini oshirish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ishtirokini kengaytirish ilmiy tadqiqotning dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

“Oilaviy tadbirkorlik oila a’zolari tomonidan yoki yaqin qarindoshlar tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat turidir” .

“Oilaviy korxona to‘liq firma nomiga ega bo‘lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishga haqli. Oilaviy korxonaning to‘liq firma nomi uning to‘liq nomini va “oilaviy korxona” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak. Oilaviy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va “oilaviy korxona” degan so‘zlarni yoki “OK” abbreviaturasini o‘z ichiga olishi kerak” .

Oilaviy biznes moliyasini quyidagilar tashkil etadi (1-rasm)



1-rasm: Oilaviy biznes moliyasi tarkbi [1]

Oilaviy biznes moliyasi esa faoliyati davomida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi ta’riflar hamda turli qarashlarni taqqoslash va tahlil qilish natijasida, oilaviy biznes bu oila yoki bir nechta yaqin oilalar mulkning barcha yoki katta qismini egallagan va boshqaruv organining barchasini yoki bir qismini nazorat qiladigan bizneslarga aytiladi degan xulosaga keldik.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotchilar oilaviy biznesning yuzaga kelishiga ham e’tibor qaratishgan. “Oilaviy biznes biznesni tashkil etishning eng qadimgi va asosiy shakllaridan biridir. Bugungi raqobat sharoitida oilaviy kompaniyalarning o‘sishi va saqlanib qolishi bir qator jihatlarga bog‘liq. Xususan, sezilarli darajada tez o‘zgaruvchan muhitga javoban tashkiliy imkoniyatlarni shakllantirish, kengaytirish yoki qayta konfiguratsiya qilish masalalari shular jumlasidandir. Oila a’zolarining harakat yo‘nalishlarini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha yagona boshqaruvning mavjudligi biznes muammolarini hal qilish va maqsadlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi” [2].

“Umumiy mulkchilik va nazorat oila tomonidan amalga oshiriladigan va kamida ikki yoki undan ortiq oila a’zolari biznesni boshqarishda ishtirok etadigan biznes oilaviy biznesi deb tushuniladi va butun dunyoda katta ahamiyatga ega. Ular barcha korxonalarning 70% dan ortig‘ini tashkil qiladi, o‘rtacha ish o‘rinlarining 60% ni yaratadi va jahon yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) o‘rtacha 67% hissa qo‘shadi” [3].

O‘zbekistonda ham oilaviy biznes bo‘yicha atroflicha tadqiqotlar o‘tkazilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. “Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun ixtiyoriy asosda, ishtirokchilarning ulushli yoki umumiy mol-mulk, shuningdek, ishtirokchilardan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatadi” [4].

Rushdi M. R. Razzaque, Muhammad Jahangir Ali, Paul Mather (2020) kabilar rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ boshqaruv islohotlari va ularning oilaviy firmalarga ta’siri borasida izlanishlar amalga oshirib, birinchi navbatda mulkdorlik va boshqaruv tartibidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratadi [5].

S. Elmirzayev (2019) esa korporativ boshqaruv modellarini o‘rganish asnosida alohida korporativ boshqaruvning oila modelini ajratib ko‘rsatadi va alohida xususiyatlariga e’tibor qaratadi [6].

Yuqoridagi tadqiqotchilar fikriga qo‘shilgan holda aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz miqyosida oilaviy biznesni rivojlantirish va samarali tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish masmlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada oilaviy biznes bo‘yicha xalqaro amaliyotni tahlil qilish davomida turli mamlakatlar va kompaniyalarning ko‘rsatkichlarini taqqoslash orqali qiyoslash metodi qo‘llanilgan. Turli tahlillarni amalga oshirish orqali analiz, sintez va ilmiy abstraksiyalash amalga oshirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Ba’zi o‘rganishlar shuni isbotladiki, oilaviy biznes kompaniyalari o‘zlarining oilaviy biznes bo‘lmagan raqobatchilariga nisbatan savdo tushumi, sof foyda va boshqa o‘sish mezonlari bo‘yicha ustunlikga egadir. Yevropa ittifoqi oilaviy biznes solnomasi 2017-yilgi ma’lumotlarga asosan dunyodagi eng ko‘p yillik tushumga ega va ishchilar soni bo‘yicha eng katta ko‘rsatkichga ega bizneslar oilaviy bizneslardir. 2015-yilda eng yirik 500 ta oilaviy biznesning yillik tushumi 6,81 trillion AQSH dollari miqdoridagi rekord natijani qayd etgan va ulardagi ishchilar soni 24,1 million kishini tashkil etgan. Shuningdek, murakkab yillik o‘sish sur’ati (compound annual growth rate) bo‘yicha ham ushbu biznes vakillari eng yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan bo‘lib, misol uchun xitoydagi Wanxiang Group 203,3%, Gollandiyadagi Altice NV kompaniyasi esa 196,7% o‘sish sur’atiga ega bo‘lgan.

“Oilaviy biznes barcha turdagi biznes tuzilmalari ichida eng moslashuvchan biznes tuzilmasidir. Iqtisodiy va siyosiy atrof-muhitda nima bo‘lishidan qat’iy nazar ular Yevropa iqtisodiyotining rivoji va dinamik o‘sishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lishda davom etishadi” (Peter Englisch, EY Global Family Business Leader) [7].

Oilaviy korxonalar AQSHning rivojlangan mintaqalarida va iqtisodiy mustahkamlanish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda joylashgan bo‘lsada, ular Germaniya va Italiyada muhim o‘yinchilardir, odatda ular Yevropaning eng sanoat mamlakatlari hisoblanadi. Misol uchun, Italiya sanoat sektori oilaviy firmalarning ko‘pligi bilan tavsiflanadi va Germaniya kontekstida kichik va o‘rta firmalar, ularning aksariyati oilaga tegishli va boshqariladi, mintaqaviy biznesning asosini tashkil qiladi. Iqtisodiyot, ijtimoiy sug‘urta badallari to‘lanadigan barcha xodimlarning 60% ish bilan ta’minlangan.

Yuqorida aytib o‘tilgan munozarani davom ettirish uchun ushbu bob Yevropa mintaqalarida oilaviy firmalarning tarqalishini o‘rganishga qaratilgan. Bizning topilmalarimiz Yevropaning yettita davlatida (Avstriya, Fransiya, Germaniya, Vengriya, Italiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya) sanoat ishlab chiqarish tuzilmalarida ularning tarqalishining umumiy tavsifiy rasmini taqdim etadi.

1-jadval: Ishlab chiqarish sanoatida oilaviy firmalarning ulushi [8]

Davlatlar	Oilaviy firmalar ulushi (%)
Avstriya	82
Fransiya	58
Germaniya	84
Vengriya	56
Italiya	76
Ispaniya	77
Birlashgan Qirollik	64

Bundan tashqari, biz oilaviy firmalar va mintaqaviy kontekst o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni tahlil qilamiz va oilaviy firmalar sifatsiz institutlarga ega bo‘lgan hududlarda haddan tashqari ko‘pligi haqidagi dalillarni to‘liq qo‘llab-quvvatlamasakda, biz oilaviy firmalar o‘rtasidagi umumiy munosabatlarni aniqlaymiz hamda mintaqaviy raqobatbardoshlik (ya’ni, mahsuldorlik, eksport va innovatsiyalar) moliyaviy boshqaruvning barqarorligi tahlil qilinadi.

Bugungi kunda xalqaro amaliyotda oilalar tomonidan boshqariladigan ko‘plab mashhur kompaniyalar mavjud. Quyidagi 2-jadvalda 2022-yilda dunyoning top-25 oilaviy kompaniyalarini tahlil qilamiz.

2-jadval: 2022-yilda dunyoning top-25 oilaviy kompaniyalari tahlili [9]

№	Kompaniya nomi	Egalik qiluvchi oila nomi	Egalik qiluvchi oila ulushi	Tashkil etilgan yili	Mamlakat	Yillik daromad (mln. AQSh dollari)
1	Walmart Inc.	Walton	47,1	1962	AQSh	559 151,0
2	Volkswagen AG	Porsche and Piech	53,3	1937	Germaniya	284 544,0
3	Berkshire Hathaway Inc.	Buffet	37,3	1955	AQSh	276 094,0
4	Schwarz Group	Schwarz	100,0	1930	Germaniya	142 499,7
5	Ford Motor Co.	Ford	40,0	1903	AQSh	136 341,0
6	Gunvor Group Ltd.	Tornqvist	88,4	2000	Shveytsariya	135 000,0
7	Cargill Inc.	Cargill, MacMillan	90,0	1865	AQSh	134 426,0
8	ALDI Group	Albrecht	100,0	1948	Germaniya	133 113,1
9	Tata Sons Private Ltd.	Tata	66,0	1868	Hindiston	128 000,0
10	Bayerische Motoren Werke AG (BMW)	Quandt, Klatten	46,7	1916	Germaniya	126 508,6
11	Comcast Corp.	Roberts	33,3	1963	AQSh	116 385,0
12	Koch Industries Inc.	Koch	100,0	1940	AQSh	115 000,0
13	Dell Technologies Inc.	Dell	72,0	1984	AQSh	86 670,0
14	SK Group	Chey	32,7	1953	Janubiy Koreya	82 545,6
15	Country Garden Holdings Co. Ltd.	Yang	62,0	1992	Xitoy	82 338,6
16	ArcelorMittal S.A.	Mittal	37,6	1976	Lyuksemburg	76 571,0
17	LVMH Moet Hennessy	Arnault	47,4	1987	Fransiya	73 029,7
18	Roche Holding AG	Hoffmann, Oeri, Duschmale	45,0	1896	Shveytsariya	72 234,8
19	China Evergrande Group	Hui	65,8	1996	Xitoy	71 751,6
20	Pacific Construction Group Co. Ltd.	Yan	100,0	1995	Xitoy	64 037,7
21	Reliance Industries Ltd.	Ambani	47,4	1973	Hindiston	63 822,2
22	JBS S.A.	Batista	43,2	1953	Braziliya	62 942,3
23	LG Electronics Inc.	Koo	30,8	1947	Janubiy Koreya	62 730,2
24	A.P. Muller-Maersk	Muller, Maersk, Mc-Kinney Uggla	69,9	1904	Daniya	61 787,0
25	INEOS Group Holdings S.A.	Ratcliffe, Reece, Currie	100,0	1998	Lyuksemburg	61 000,0

2-jadvalda oilalar tomonidan egalik qilinuvchi kompaniyalar orasida yetakchilik Walmart kompaniyasiga tegishli hisoblanadi. Shuningdek, Volkswagen, Berkshire Hathaway, Ford, BMW, Koch Industries, Dell Technologies, LG Electronics kabi mashhur kompaniyalar ham oilaviy biznes asosida tashkil etilgan. Ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Walmart 2021-yilda deyarli 560 mlrd. AQSh dollari miqdorida daromad ko‘rgan bo‘lsa, 25-o‘rinni band qilgan INEOS Group Holdings S.A. kompaniyasi esa 61 mlrd. AQSh dollari miqdorida daromad ko‘rgan. Shuningdek, dunyo bo‘ylab AQSh, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlar kompaniyalari bilan bir qatorda Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Lyuksemburg kabi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar

kompaniyalari ham mazkur ro‘yxatdan joy olishgan. Ro‘yxatdagi kompaniyalarga egalik qiluvchi oilalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Walton, Porsche, Buffet, Schwarz, Ford, Tata, Koch, Dell kabi dunyoga mashhur oilalar tomonidan mazkur kompaniyalarga egalik qilnayotganligi va boshqaruvi tashkil etilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur kompaniyalarning hayotiylik davrini kuzatadigan bo‘lsak, 25 yillik kompaniyalardan tortib bir yarim asrlik tarixga ega kompaniyalarni ham uchratishimiz mumkin. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, bugungi kunda dunyo bo‘ylab rivojlangan va rivojlanayotgan mamalakatlarda oilaviy biznes boshqa biznes turlari qatorida yirik biznes turlariga aylanib ulgurgan va oilaviy biznes moliyasining alohida xususiyatlarini namoyon qilmoqda.

Finlandiya tajribasini o‘rganadigan bo‘lsak, mazkur davlatda oilaviy biznes har bir sohada uchrashi mumkin. Ularning ulushi har bir sohada hajmiga qarab bir-biridan farq qiladi. Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Finlandiyada turar joy va oziq-ovqat xizmatlari sohalarida oilaviy korxonalar ustunlik qiladi.

XULOSA

Oilaviy biznes bo‘yicha xalqaro amaliyotni tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarni berish mumkin.

Keskin raqobat sharoitida oilaviy kompaniyalarning o‘sishi va saqlanib qolishi bir qancha jihatlarga bog‘liq. Birinchidan, oilaviy biznesda samarali korporativ boshqaruvni tashkil etish lozim va bu jarayonda boshqa biznes shakllarida tashkil etiladigan korporativ boshqaruvdan farqli jihatlarni ham inobatga olish lozim. Ikkinchidan, oila a’zolarining harakat yo‘nalishlarini tashkil etish va buni to‘g‘ri amalga oshirish bo‘yicha yagona boshqaruvning mavjud bo‘lishi lozim. Chunki bu masala biznes muammolarini hal qilish va maqsadlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Oilaviy biznes kompaniyalari bugungi kunda dunyoda barcha kompaniyalarning asosiy qismini tashkil qilishi, ular tomonidan o‘rtacha ish o‘rinlarining katta qismi yaratilishi va jahon yalpi ichki mahsulotiga qo‘shadigan hissasi orqali xulosa qilish mumkinki, oilaviy biznes butun dunyo bo‘ylab muhim ahamiyat kasb etmoqda va shu sababli mamlakatimizda ham uning samarali tashkiliy va amaliy mexanizmlarini joriy etish lozim.

Oilaviy biznes bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganishda oilaviy biznes moliyasini tashkil etishga, oilaviy qadriyatlar va biznesning parallel samarali faoliyatini amalga oshirish yo‘nalishlariga, oilaviy biznesni kengaytirish va uning hayotiylik davrini oshirishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratish lozim.

Xalqaro tajriba asosida biznesni tashkil etish va yuritishning oila modelini ham tadqiq qilish va ushbu modelning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Shu asosida mamlakatimizdagi oilaviy biznes vakillari uchun biznesni kengaytirish hamda oilaviy biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
2. Wejdan AL Kayid, Zhongqi Jin, Constantinos-Vasilios Priporas, Sumeetra Ramakrishnan. Defining family business efficacy: An exploratory study. // Journal of Business Research Volume 141, March 2022, Pages 713-725. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0148296321008948
3. Walter Reina, José Pla-Barber, Cristina Villar. Socioemotional wealth in family business research: A systematic literature review on its definition, roles and dimensions. // European Management Journal Available online 31 October 2022.
4. M.Qazoqova, N.Eshmurodova. Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘llari. // “Zamonaviy fanda model va usullar” Xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya, 11.23.2022.
5. Rushdi M.R. Razzaque, Muhammad Jahangir Ali, Paul Mather. Corporate governance reform and family firms: Evidence from an emerging economy // Pacific-Basin Finance Journal. Volume 59, February 2020.
6. Elmirzayev S. Zamonaviy korporativ boshqaruv. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 416 b.
7. Family Business Yearbook 2017. https://familybusiness.ey-vx.com/fb-yearbook-flipbook-2017/mobile/index.html#p=10
8. Family Business and Regional Development
9. https://www.famcap.com/the-worlds-750-biggest-family-businesses/ –xalqaro oilaviy biznes bo‘yicha axborotlar e’lon qilib boruvchi veb-sayt ma’lumotlari.



MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT TARMOG‘INING TUTGAN O‘RNI

Jo‘rayev Dilshod Maxmudjonovich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy sharoitlarda sanoat tarmog‘ining mohiyati, o‘ziga xos tomonlari va milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni amaliy materiallar yordamida o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizda qabul qilingan strategiyaga va dasturlar doirasida sanoat tarmog‘ini rivojlantirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, sanoat, sanoat salohiyati, sanoat korxonalari, ishlab chiqarish korxonalari, barqaror sanoatlashtirish, tarmoqlararo kooperatsiya.

Abstract: The article, using practical materials, examines the nature of the production network in modern conditions, its specifics and role in the national economy. The main directions of industrial development within the framework of the strategy and programs adopted in our country have also been studied.

Key words: national economy, industry, industrial potential, industrial enterprises, manufacturing enterprises, sustainable industrialization, intersectoral cooperation.

Аннотация: В статье с помощью практических материалов рассматривается природа производственной сети в современных условиях, ее специфика и роль в национальной экономике. Также изучены основные направления развития промышленности в рамках стратегии и программ, принятых в нашей стране.

Ключевые слова: национальная экономика, промышленность, промышленный потенциал, промышленные предприятия, производственные предприятия, устойчивая индустриализация, межотраслевое сотрудничество.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqamli iqtisodiyotni shakllanishi sharoitida mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlash, tarmoqlar va sohalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va boshqaruv samaradorligini oshirish, korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlari, kompaniya va firmalarda korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish, ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, korxonalar amaliyotida korporativ boshqaruv standartlari va kodekslarini ishlab chiqish, davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2023-yil 11-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 158-son Farmoni[1] asosida qabul qilingan mazkur strategiyada 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta muhim maqsad o‘z aksini topgan bo‘lib, mazkur hujjat orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

Xususan, sanoat sohasini barqaror rivojlantirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish kabi vazifalar belgilangan [1].

Sanoat - moddiy ishlab chiqarishning eng yirik, yetakchi tarmog‘idir. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste’mol tovarlarining ko‘pchilik qismi yaratiladi; mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi; yer osti boyliklari qazib olish amalga oshiriladi; mineral, o‘simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi, keng iste’mol mollari tayyorlanadi va hokazolar.

1 https://www.norma.uz

Sanoat milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq. Ishlab chiqarish kuchlari

va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli, uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi. Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilimi va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan K. Shiborsh, Yu. Rodionov, R. Porter, D. Deveryuks, B. Roberts, O. Lenko, R. Nureyev, O. Dedovlar hamda mahalliy olimlardan Yo. Abdullayev, A. Abduhamidov, A. Abdugaffarov, M. Narziqulov, N. Mardiyev, Z. Siddiqov, U. Muxitdinov, A. Artikov, X. Ishbutayeva, Sh. Nizomova, E. Maxmudov, M. Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo'lishgan.


K. Shiborsh o'zining sanoat korxonalarini integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini takomillashtirish yo'nalishida, avvalo, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, mahsulotni taqsimlash va sotish hamda shu orqali foydaning oshishini, investitsiyalardan olinadigan samarani ta'minlash va kompaniyalar raqobat mavqeini kuchaytirish zarurati bilan bog'liq bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining nisbatan barqarorlashuvi sharoitida ishlab chiqarishini boshqarish va uni takomillashtirish darajasi bilan belgilanishi ko'rsatib bergan [2]. O. Lenko sanoat korxonasini boshqarish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyatini baholash bo'yicha bir qator taklif tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida korxonalarni boshqarish - tizimli dasturiy ta'minot va kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish asosida boshqarish vazifalarini hal etish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va axborotni muhofaza qilish, bilim usullari va vositalari majmuini tashkil etishdan iboratdir. Boshqaruvda axborot texnologiyalari avtomatlashtirilgan tarzda tez-tez ishlatiladi, ya'ni texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda boshqarish texnologiyalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi [3]. O. Dedov sanoat korxonalar boshqaruv tizimini shakllantirish umumiy holda boshqaruv usullari tizimlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Zaruriy natijaga erishish maqsadida tashkiliy tizim faoliyatini amalga oshirish sanoat boshqaruv tizimini ushbu tizimga ta'sir etishi orqali bajarilishi hamda sanoat korxonasining iqtisodiy moslashuvini boshqarish usullari bo'yicha yondashuvlarini ko'rsatib bergan [4].

Mahalliy olimlardan A. Abdugaffarov, N. Mardiyev, Z. Siddiqovlar moliyaviy jarayonlarni baholash modellari va amaliy masalalarni yechish usullariga bag'ishlangan bo'lib, moliyaviy jarayonlarini tahlil qilishning asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy jarayonlarini ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga baholash modellari orqali aniq baho berish, mablag' va manbalarning joylanishini tekshirish, ularni to'g'ri yo'nalishda ishlatilayotganini baholash modellari orqali aniqlash, moliyaviy jarayonlar qanday amalga oshirilayotganini baholash metodlari orqali aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berishni aniqlagan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar milliy iqtisodiyotida yengil sanoat korxonalarining tutgan o'rni, yengil sanoatning iqtisodiy va strategik rejalashtirish, yengil sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kengaytirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalarni asoslab bergan [5].

A. Artikov "O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari"ga [6], M. Narziqulov "Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilganligi"ga [7], E. Maxmudov "Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari birinchi navbatda budjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish"ga [8] bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

2022-yil yakunlari bo'yicha respublikada 98,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 16,8 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,0 foizi) Toshkent shahriga, 11,1 mingtasi (11,2 foizi) Farg'ona viloyatiga, 10,0 mingtasi (10,1 foizi) Toshkent viloyatiga, 9,9 mingtasi (10,0 foizi) Andijon viloyatiga va 8,9 mingtasi (9,0 foizi) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda.



1-rasm: O‘zbekistondagi sanoat korxonalari soni, yil boshiga [9]

Qayta ishlab chiqarish tarmog‘ining yuqori sur’atlarda o‘sishi, barqaror ish o‘rinlari tashkil etilishi va aholi bandligini ta’minlashga tarmoqning ko‘p mehnat talab qiladigan oziq-ovqat sanoati (2019-2021-yillarda 27 foizga), to‘qimachilik va tikuvchilik sanoati (45 foizga) ning barqaror o‘sishi yordam berdi. Kimyo (16 foiz), metallurgiya (24 foiz) kabi boshqa bazaviy tarmoqlar barqaror rivojlandi. Ushbu davrda mashinasozlik sanoatida (30 foiz) sezilarli o‘sishga erishildi. Bu kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar (3,4 baravar), elektr jihozlari (10,5 foizga), shuningdek, avtotransport vositalari (13 foizga) ishlab chiqarishni faol rivojlantirish hisobiga sodir bo‘ldi.

O‘zbekiston sanoat salohiyati bilan bir qatorda yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar eksporti hajmini oshirish hisobiga eksport salohiyati oshirilmoqda. 2019-yilda O‘zbekiston eksportidagi mineral yoqilg‘i va paxtaning umumiy ulushi 26 foizdan ortiq bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yil bu ko‘rsatkich 17 foizga yetdi.

Eksportni qayta ishlash darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlarga yo‘naltirish siyosati olib borilmoqda. Natijada 2019-2021-yillarda tayyor to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak eksporti 2,3 barobar, farmatsevtika mahsulotlari - qariyb 2 barobar, elektrotexnika mashinalari va uskunalari - 1,9 barobar oshdi. Xuddi shunday ijobiy o‘zgarishlar yuqori qo‘shilgan qiymatga ega boshqa qator turdagi sanoat tovarlari eksportida ham kuzatildi.


O‘sishning bunday muhim ko‘rsatkichlariga yangi korxonalar qurish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash, sanoatning xomashyo bazasini rivojlantirish va sanoat xomashyosini qayta ishlashni chuqurlashtirishni nazarda tutuvchi tarmoq va hududiy rivojlanish strategiyasi va dasturlarining o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishi ham yordam berdi. Sanoatdagi salmoqli investitsiya loyihalari qatorida sintetik suyuq yoqilg‘i ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston GTL, Toshkent metallurgiya kombinati, Navoiy va Samarqand viloyatlarida qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanadigan fotoelektr stansiyalari, To‘raqo‘rg‘on IES, to‘qimachilik, tikuvchilik, neft-kimyo, sement sanoati va boshqa bir qator loyihalar ishga tushirilganini alohida qayd etish lozim. Eksport hajmining o‘sishi va uning tarkibiy o‘zgarishlariga tashqi bozorlarga sotishga mo‘ljallangan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari ta’sir ko‘rsatdi.

2022-yilda respublika korxonalari tomonidan 551,1 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,2 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning sanoat sektorida uning barqaror rivojlanishi uchun xavf tug‘diruvchi qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha yetarli darajada texnologik zanjir bog‘lanmaganligi tufayli xomashyoni qayta ishlash darajasi pastligicha qolmoqda.

Tarmoqlararo kooperatsiyaning past darajasi sanoatni rivojlantirish uchun ichki resurslarni maksimal darajada jalb qilishga imkon bermayapti. Ushbu holat import qilinadigan tovarlarni iste’mol qilishning darajasi keskin o‘sishiga olib keladi.



2-rasm: O‘zbekistonda sanoatning ko‘rsatkichlari [9]

Keyingi qadamlar: 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar tashkil etish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar va loyihalar ko‘zda tutilgan:

- klasterlar yaratish, mis, tabiiy gaz va boshqa xomashyolarni qayta ishlashni chuqurlashtirish;
- avtomobilsozlik sohasida kooperatsiyani rivojlantirish va mahalliylashtirish darajasini oshirish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarishni ikki barobarga oshirish;
- to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga oshirish;
- charm-poyabzal sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish;
- farmatsevtika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish;
- elektrotexnika sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarishni ikki barobar oshirish.

Bundan tashqari, tayyor mahsulotlarni Yevropa bozorlariga eksport qilishni rag‘batlantirish, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini va mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini amalga oshirish hamda kadrlar tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish nazarda tutilgan.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlarimizga xulosa qilib ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda barqaror sanoatlashtirishni ta’minlash uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan qo‘shimcha tadbirlar quyidagilardan iborat:

- energetika, avtomobil transporti va boshqa sanoat infratuzilmalarni kompleks rivojlantirish;
- mahalliy muhandislik-tadqiqot va ishlanmalar bazasini rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va kengaytirish, sanoat tarmoqlarining texnologik salohiyatini yuksaltirishda har tomonlama yordam ko‘rsatish;
- sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda havfsiz ekologik texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlaridan kengroq foydalanish uchun zarur investitsiyalar hajmini ta’minlash.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishning yaxlit tizimini joriy etish, investitsiyalarni faol jalb etish, xaridorgir mahsulotlarning keng assortimentini o‘zlashtirish, sanoat kooperatsiyasini ken-

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

gaytirish va respublika eksport salohiyatini oshirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022-yilning 24-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [10].

O‘rta va yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlarining umumiy hajmida qo‘shilgan qiymat ulushini oshirish maqsadida hududlarda yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirgan holda innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparklarini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413.
2. Щиборщ К.В. Интегрированная система управления промышленных предприятий России. // Менеджмент в России и за рубежом. - №4. - 2019.
3. Ленько О.В. Оценка значимости информационно- коммуникационных технологий для управления промышленным предприятием. // Проблемы региональной экономики. —2005. —№ 3-4.
4. Дедов О.А. Управление экономической адаптацией промышленного предприятия. – Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2022.
5. Абдугаффаров А., Мардиев Н.,Сиддиқов З. Молиявий жараёнларни баҳолаш моделлари ва амалий масалаларни ёчиш усуллари. Монография. − Т .: “Fan ziyosi” нашриёти, 2021. − 132 б.
6. А.Ортиков. Саноат иқтисоди. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2009. 236 б.
7. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1У-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. − Ташкент. − 2012. − С. 8.
8. E.X.Maxmudov, A.Ortikov, F.Karimov. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini. − Hamkor. − 2010-yil 7 fevral.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida. https://stat.uz/uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi PQ-99-son “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/uz/docs/5836411.

TO‘QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASI



Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoat korxonalarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari va foydalanilgan marketing strategiyalari o‘rganilgan, shuningdek, tadqiqotlar natijasida mamlakat sanoat tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yichatavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: To‘qimachilik sanoati, innovatsion marketing, tez moda, merchandayzer, arzon narx strategiyasi.

Abstract: Thisarticle examines the best practices of foreign countries in the development of textile enterprises and marketing strategies used, as well as provides recommendations for the development of the country’s industrial sector as a result of research.

Key words: Textile industry, innovative marketing, fast fashion, merchandiser, low price strategy.

Аннотация: В данной статье рассматривается передовой опыт зарубежных стран в области развития текстильных предприятий и используемые маркетинговые стратегии, а также даются рекомендации по развитию промышленного сектора страны врезультате исследования.

Ключевые слова: Текстильная промышленность, инновационный маркетинг, быстрая мода, мерчандайзер, стратегия низких цен.

KIRISH

Jahon to‘qimachilik sanoatining o‘sishi dunyodagi eng yirik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mamlakatlar va to‘qimachilik eksportchilari hisobiga shakllanmoqda, bu mamlakatlar, asosan, paxta, ip, tola va boshqa tayyor mahsulotlar yoki kiyim-kechak kabi materiallarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanadi. Xitoy dunyodagi eng yirik to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari va eksportchilari bo‘lib qolsa-da, Yevropa Ittifoqi, Hindiston va AQSH kabi boshqa yirik to‘qimachilik bozorlari ham so‘nggi bir necha yil ichida yillik o‘sish sur’atlarini namoyish etmoqda. Jahon to‘qimachilik sanoati dunyodagi moda bozori bilan mutanosib ravishda tez o‘zgaruvchan bo‘lishi bilan, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotida yanada rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Qo‘shma Shtatlar paxta xom-ashyosining yetakchi ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi, shu bilan birga, to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklarning eng yaxshi importchisi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining to‘qimachilik sanoati Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Italiya va Portugaliyani o‘z ichiga oladi va jahon to‘qimachilik sanoatining 1/5 qismidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi.Hindiston ham dunyodagi eng yirik to‘qimachilik ishlab chiqaruvchi mamlakatlar va eng yirik to‘qimachilik eksportchilaridan biridir. Yiliga 30 milliard AQSH dollaridan ortiq eksport qiymatiga ega. Hindiston dunyodagi umumiy to‘qimachilik ishlab chiqarishining 6,9 % dan ortig‘iga ega va uning to‘qimachilik sanoati taxminan 150 milliard AQSH dollariga teng. O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishhajmi 2021-yilda 2 927,2 mln AQSH dollarini tashkil etib, umumiy eksportning 17,6 % ini tashkil etgan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda Respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish belgilandi. Bu islohotlarni amalga oshirishda quyidagilarasosiy yo‘nalishlar hisoblanadi:

Mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish; tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish; eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko‘paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish va boshqalar. Fikrimizcha, belgilangan yo‘nalishlarni amalga oshirishda rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasini o‘rganib, ularni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qo‘llash maqsadga muvofiq. Chunki, rivojlangan mamlakatlardagi jadal sanoatlashtirish

va rivojlanayotgan texnologiyalarto‘qimachilik sanoatida yuqori samarali mato ishlab chiqarishga va yuqori daromad olishga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

To‘qimachilik sanoati eng qadimgi ishlab chiqarish tarmoqlaridan hisoblanadi. Shuningdek, R.K. Mohideen va boshqalar (2016) ta’kidlashicha, ushbu tarmoq agrosanoat sifatida ham tanilgan, chunki to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan hom-ashyoni asosan qishloq xo‘jaligi sohasi yetishtirib beradi. Dunyo bo‘ylab to‘qimachilik va tikuvchilik biznesiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatmoqda. J. Mosesva boshqalar (2006) to‘qimachilik sanoatining jadal rivojlanishi mamlakatni iqtisodiy farovonlikka olib kelishiga qaramasdan, lekin ayni paytda atrof-muhitning ifloslanishiga ham sababchi bo‘lmoqda. Olovli chiqindilar, tolali chang va ishlab chiqarish shovqini va suvning ifloslanishi atmosferaga xavf tug‘dirmoqda, deb hisoblaydi. Biselli M (2009) ma’lumotlariga ko‘ra, to‘qimachilik sanoati qachon paydo bo‘lganligini aniqlash juda qiyin. Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, birinchi kiyim jun yoki teridan ishlab chiqarilgan. To‘qimachilik birinchi marta qo‘llanilganhududlarga Misr, Hindiston, Turkiya va Xitoy kiradi. S. Cruz-Ros, D. Garzon (2017) marketingni ushbu tarmoq sohasida innovatsion raqobatdosh ustunlikning muhim manbai sifatida aniqlaydi. J. Murray va boshqalar (2011) ta’kidlashicha, marketing innovatsiyasi firmalarga yangi va tabaqalashtirilgan mahsulotlarni, raqobatchilarga taqlid qilish qiyin bo‘lgan kuchli brend imidjini yaratishga imkon beradi. Leonidou (2002) ta’kidlashicha, firmalar o‘z ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida eksport maqsadlarini amalga oshirishi uchun yangi eksport-marketing strategiyalaridan foydalanishini ko‘rsatadi.Gupta va boshqalar (2016) brend imidji bilan bog‘liq marketingninginnovatsion uslublarifirmaningraqobatbardoshligiga hissa qo‘shishini aniqlaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasini yanada takomillashtirish, shuningdek, rivojlangan davlatlarning marketing strategiyalarini mamlakat yengil sanoat tarmog‘ida qo‘llash lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotishida to‘qimachilik korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganishga qaratilgan tahlil va sintez, shuningdek qiyosiy va statistik hamda induksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 522 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 65 ta davlatiga eksport qilinadi. 2021 yilda2 927,2 mln. AQSH dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 17,6% ni tashkil etgan va o‘tgan yilga nisbatan 52,3 % ga o‘sgan. To‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (55,1%), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (22,0%) jami eksportning dinamikasida eng katta ulushga ega hisoblanadi. Bundan tashqari, naqshli mato, paxtadan gazlamalar, ipak va ipak mahsulotlari, paxta mahsulotlari, gilamlar va boshqa to‘qimachilik mahsulotlari Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Qirg‘iz Respublikasi, Polsha, Pokiston, Italiya, Belarusiya va boshqa bir qator davlatlarga eksport qilinadi.

1-jadval: Davlatlar kesimida to‘qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi (mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Rossiya Federatsiyasiga	592,3	655,5	910,7
XXRga	437,6	438,2	636,3
Turkiyaga	196,7	206,1	461,1
Qirg‘iz Respublikasiga	96,6	283,9	401,1
Polshaga	25,3	43,4	65,6
Pokistonga	10,4	16,5	59,2
Ukrainaga	29,5	33,1	51,6
Qozog‘iztonga	39,7	42,3	48,6
Eronga	55,2	26,4	46,3
Italiyaga	11,4	10,1	32,8
Misrga	12,1	18,2	30,2
Belarusga	24,1	17,2	23,4
Boshqa davlatlarga	96	131,6	160,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, to'qimachilik mahsulotlari eksporti eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (31,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (21,7 %), Turkiya (15,8 %) va Qirg'iz Respublikasi (13,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xitoy to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarni ishlab chiqarishda va sotuv tizimini tashkil qilishda "tez moda" (Fast fashion) sotuv rejimidan foydalaniladi. Tez moda XX asrning oxirida Yevropada paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, bu katta brendlarning dizayniga taqlid qilib modani tezda egallab oladigan so'ngra trendga mos keladigan, tezda yangilanadigan kiyim uslublarini taqdim etadigan va iste'molchilarga arzonroq narxda taklif qiladigan kiyim sotish rejimidir. Ushbu sotuv rejimini amalga oshirishda an'anaviy marketing miksning "4P" nazariyasiga asoslangan "4C" modelidan foydalaniladi. 4C nazariyasiamerikalik marketing mutaxassisi professor R.F.Lauterborn tomonidan 1990-yilda ilgari surilgan. Iste'molchilar talabiga binoan u marketing miksning to'rtta asosiy elementini qayta aniqladi: mijoz (Customer), narx (Cost), qulaylik (Convinience) va aloqa (Communication). Nazariya shuni ko'rsatadiki mijozlar talabini va ehtiyojini qondirishniyaxshilash, so'ngra mijozlarni sotib olish xarajatlarini kamaytirish, xaridorlarga imkon qadar sotib olish jarayonida qulaylik yaratish va mijozlar bilan muloqat qilisheng ustuvor vazifalardir.



1-rasm: 4S nazariyasi asosida marketing strategiyasining tahlili

Ma'lumotlarga ko'ra, ZARA Ispaniyada birinchi raqamli kiyim brendi va dunyodagi eng yaxshi uchlikdir. ZARA dizayni trendga mos keladi, ammo bu moda yirik brendlar narxi bilan solishtirganda juda past. Zaraning 4C marketing strategiyasining nazariyasi Zaraning muvaffaqiyati sabablarini umumlashtirdi va Xitoy kiyim kechak

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

korxonalari uchun foydali takliflarni ilgari surgan. Mijozlar ehtiyojini qondirish (Customer). ZARA to‘qimachilik korxonasi maqsadli mijozlarning moda tendensiyalariga intilishini qondirish uchun kiyim dizaynida xalqaro brendlar dizayniga taqlid qilishni tanlaydi. Shu bilan birga, mijozlarning savdo ma’lumotlariga ko‘ra iste’molchilarning fikr-mulohazalarini afzal bilib keyin mahsulot ishlab chiqarish yoki uni yaxshilash yo‘lini afzal biladi. Narxni pasaytirish (Cost). ZARA dizayni moda tendensiyalarining keskin va noyob talqinidan kelib chiqadi. Uning dizayni to‘liq o‘ziga xoslikka asoslanmagan ammo to‘liq nusxa ham ko‘chirilmagan. Ushbu turdagi diversifikatsiya eng so‘nggi moda elementlarini o‘zlashtiradi. ZARA mahsulot dizayni, ishlab chiqarish xarajatlarini va logistika, transport xarajatlarini kamaytirish orqali tovar narxini pasaytirishga erishganini ma’lum qilgan. Mijozlar uchun qulaylik (Convinience). ZARA do‘konlari iste’molchilarning xarid qilish qulayligiga asoslangan. Do‘kon va magazinlar ZARAning asosiy savdo kanallari bo‘lishiga qaramay, onlayn xaridlarning ko‘payishi bilan ZARA ham onlayn kanallarni rivojlantiradi. ZARA iste’molchilar uchun eng so‘nggi moda tarzini ko‘rsatish uchun tarmoq platformasidan foydalanadi. Yaxshi muloqot qilish (Communication). ZARA do‘konlaridagi savdo xodimlari juda do‘stona va yuqori malakaga ega. ZARA mijozlar ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun telefon qo‘ng‘iroqlari va elektron pochta orqali mijozlarning fikr mulohazalarini to‘playdi hamda mahsulotlarni bozor o‘zgarishlariga tezda javob berishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘nggi yillarda ko‘plab boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar ham to‘qimachilik sanoatida ulkan o‘sishga erishmoqdalar, chunki ularning to‘qimachilik yoki tikuvchilik sanoatiga sarmoyalari ko‘paymoqda. Pokiston, Indoneziya, Tailand va Shri-Lanka, shuningdek, bir qator Janubiy Amerika mamlakatlari ham so‘ngi yillarda to‘qimachilik mahsulotlarining sezilarli darajada o‘sishiga erishdilar. Juda o‘zgaruvchan muhit va asosan globallashuvning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan kuchli raqobat bilan ajralib turadigan bugungi to‘qimachilik bozori iqtisodiyotida korxonalar uchun uzoq muddatli muvaffaqiyatni saqlab qolish tobora qiyinlashmoqda. Oddiy xarajatlarni saqlab qolish kabi usullardan foydalanish o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Shuning uchun sanoat bozorida marketingning innovatsion uslublarini ishlab chiqish, xususan, sotish tizimini takomillashtirish, xorijiy rivojlangan kompaniyalar qo‘llaydigan 4S nazariyasini mamlakat to‘qimachilik korxonalari faoliyatida qo‘llash, brend imidjini yaratish kabi xusisiyatlarni inobatga olish lozim. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, brend har bir firmaning strategik manbai hisoblanadi. Brendga ega bo‘lish, uni qanday saqlashni va yaxshi boshqarishni bilish bozorda muvaffaqiyatga erishishning kalitiga-raqobatbardosh ustunlik manbaiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son.
2. R.B.ChavanIndian textile industry-environmental issuesIndian. ─J. Fibre Text. Res., 26 (2001), pp. ─11-21.
3. Refik Culpan, Cemal Ekin, Mehmet Kumbaraci. A critical assessment of the Turkish Apparel industry and firms. Journal of global strategic management. ─2007-june
4. Md. Khaled Amin,Adnan Hossain. Expanding Apparel and Textile Market through effective Marketing Strategies: A case study of Bangladesh. International Journal of Business & Mgmt. ─January 2014.
5. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati axborotnomasi ma’lumotlari.

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TASHQI IQTISODIY SAVDONING AHAMIYATI







Ibodullayev Abror Axrorovich
Toshkent moliya instituti dotsenti

Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li
Toshkent moliya insituti talabasi

Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li
Toshkent moliya instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishing asoslaridan biri bo'lgan tashqi savdosi faoliyati ijobiy natijalari, sohada duch kelinayotgan muammolar va soha istiqboli haqida hamda eksport mahsulotlari kirib kelishi faoliyatini yanada samarali tashkil etish va import qilinayotgan mahsulotlarni ham mamlakatimizda ishlab chiqarish masalalari ko'rib chiqilgan. Bozor iqtisodiyotida tashqi savdo bilan shug'ullanish mamlakatlarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Shu munosabat bilan maqolada ushbu sohada to'plagan barcha ma'lumotlar va bilim-ko'nikmalarni jamlagan holda o'z xulosa va takliflarimiz berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tashqi siyosat, eksport geografiyasi, chet el investitsiyasi, subsidiya, sanoati hududlari, ishchi kuchi, industrial iqtisodiy zonalar.

Abstract: In this article, the positive results of the foreign trade activity, which is one of the foundations of the development of the economy of our country, the problems faced in the sector and the prospects of the sector, as well as the issues of more effective organization of the activity of export products and the production of imported products in our country have been considered. Engaging in foreign trade in the market economy creates favorable conditions for the comprehensive development of countries. In this regard, the article summarizes all the information and knowledge we have gathered in this field and gives our conclusions and suggestions.

Key words: foreign policy, export geography, foreign investment, subsidy, industrial areas, workforce, industrial economic zones.

Аннотация: В данной статье рассмотрены положительные результаты внешнеторговой деятельности, которая является одной из основ развития экономики нашей страны, проблемы, стоящие в отрасли и перспективы развития отрасли, а также вопросы Рассмотрены вопросы более эффективной организации деятельности по ввозу экспортной продукции и производству импортной продукции в нашей стране. Участие во внешней торговле в условиях рыночной экономики создает благоприятные условия для всестороннего развития стран. В связи с этим в статье обобщена вся информация и знания, которые мы собрали в этой области, и приводятся наши выводы и предложения.

Ключевые слова: внешняя политика, география экспорта, иностранные инвестиции, субсидирование, промышленные регионы, рабочая сила, индустриально-экономические зоны.

KIRISH

Hozirda mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini yuksaltirishga harakat qilayotgan bir vaqtda, ularda iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biri bo‘lgan tashqi savdo ham proporsional ravishda rivojlanmoqda va kengayib kelmoqda.

Ba’zi bir siyosiy sabablarga ko‘ra kundan kunga murakkab bo‘lib borayotgan ijtimoiy va iqtisodiy sharoitda jahonning boshqa mamlakatlari bilan hamkorlikni va do‘stona aloqalarni o‘rnatish, eksport qilinadigan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish, ular bilan tovar-xomashyolar, tayyor mahsulotlar, yer usti va osti qazilma boyliklarni savdo qilish hamda malakali kadrlarni yetishtirishda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, import qilinadigan mahsulotlarni chet el investitsiyasi va kichik biznes subyektlariga subsidiyalar berish orqali qo‘llab-quvvatlagan holda ishlab chiqarishni tashkil etish mamlakatimizning ustuvor vazifalaridan biridir. Ammo xorijiy mamlakatlar bilan mahsulotlar savdosini tashkil qilishda bir qator muammolar ham uchramoqda va ularni bartaraf etishga qaratilgan ishlar ham joriy etilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda mamlakatimizda jadal ravishda chet el investitsiyasini kirib kelishi va eksport mahsulotlarini ko‘payotgani mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishining asosiy sabablaridan biridir. O‘zbekistonning eksport salohiyati haqida bir nechta mahalliy olimlar quyidagi fikrlarni bildirib o‘tishgan. Iqtisodchi olim, pedagog M. Mirsaidov [1] o‘zining “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kitobida O‘zbekistonning eksport salohiyati mamlakatimiz yuritayotgan tashqi siyosat bilan chambarchas bog‘liq ekanliligiga alohida urg‘u qaratilgan. U keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston yuritayotgan tashqi savdo siyosatining ustun tarafi bu eksport qilinayotgan tayyor mahsulot turlarining ko‘payotganligi va xomashyo eksportini kamayotganligidir. Masalan, mustaqillik yillarida “oq oltin” sifatida tasvirlangan paxta faqat xom ashyo sifatida eksport qilingan bo‘lsa, hozirda milliy brendni jahonga tanitish natijasida ko‘plab trikotaj mahsulotlari dunyo bo‘ylab eksport qilinib kelinmoqda. Shu jumladan, Sh.Dj. Ergashxodjaeva, M.S. Qosimova, M.A.Yusupovlarning [2] “Marketing” (2018) kitobida mamlakatimizning ekport salohiyatiga ham katta e’tibor qaratib o‘tilgan. Ularning fikriga ko‘ra, hozirda eksportni rivojlantirishning asosiy omillari quyidagilar hisoblanadi:

- yangi korxonalarni eksport faoliyatiga jalb etilishi.
- eksportga yo‘naltiriladigan mahsulotlar geografiyasi va nomenklaturasini diversifikatsiyalash.
- meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish tizimini isloh qilish vahokazolardir.

“Iqtisodiyot va ta’lim” [3] ilmiy jurnalida ham mamlakatimiz ekporti haqida bir fikrlar yuritilgan. O‘zbekistonda yaratilgan qulay investisiya muhiti xorijiy kompaniyalarda katta qiziqish uyg‘otmoqda va bu investitsiyalardan mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va hududlarni raqobatdosh va eksportga yo‘naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Konsessiya sharoitlari, eksport sanoati hududlari, erkin savdo hududlari, erkin industrial iqtisodiy zonalarning amal qilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar uchun muhim omillardan hisoblanadi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining tijorat siyosati to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq tayyorlangan “O‘zbekiston tijorat siyosati” kitobi O‘zbekistonning tashqi savdo siyosatini, import va eksport qilish usullarini, tijorat munosabatlari bilan bog‘liq tuzilmalar va qonunlar haqida ma’lumotlar ko‘rsatadi [5]. O‘zbekiston tijoratining o‘ziga xos shakllanishi, eksport va importning rivojlanishi, tijorat munosabatlari, O‘zbekistonning xalqaro tijoratdagi o‘rni keltirib o‘tiladi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada aynan bir mamlakatning tashqi savdo ko‘rsatkichlari keltirib o‘tilgan va yig‘ilgan ma’lumotlar natijasida tadqiq etishga qaratilgan bir qancha tadqiqot usullaridan, jumladan adabiyotlar tahlili va sharhlash, empirik tadqiqot, statistik kuzatuv, solishtirish, taqqoslash, induktsiya va deduktsiya, monografik tadqiqot, klasterlash kabi usullardan keng foydalanilgan [7].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tashqi savdo har qanday davlat iqtisodiy rivojlanishining muhim qismidir. O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida hisoblanib, o‘nlab yillar davomida tashqi savdoni rivojlantirish ustida ishlamoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimiz tashqi savdo siyosatida sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirildi, bu esa tashqi savdo hajmining o‘sishiga olib keldi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, to‘qimachilik, foydali qazilmalar, tabiiy gaz kabi turli xil eksport mahsulotlari mavjud. Mamlakatning boy tabiiy resurslari va yuqori malakali ishchi kuchi eksport bozorlarini rivojlantirish va kengaytirish imkonini berdi, bu esa tashqi savdo hajmining oshishiga xizmat qildi [8].

Mamlakatning asosiy savdo hamkorlari Xitoy, Rossiya va Qozog‘istondir, biroq so‘nggi yillarda O‘zbekiston boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini yaxshilash ustida ishlamoqda. O‘zbekiston yangi savdo aloqalarini o‘rnatgan davlatlar qatorida Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya va Janubiy Koreya ham bor. Ushbu yangi hamkorliklar O‘zbekistonga eksport bozorlarini kengaytirish va bir nechta savdo hamkorlariga qaramligini kamaytirish imkonini berdi[9]. O‘zbekistonning tashqi savdo siyosatidagi muhim o‘zgarishlardan biri xorijiy aviakompaniyalarning mamlakat hududida erkin harakatlanishiga imkon beruvchi “ochiq osmon” siyosatining amalga oshirilishidir. Bu siyosat havo qatnovining ko‘payishiga olib keldi va turizm industriyasini rivojlantirdi, chet el valyutasi oqimining ko‘payishiga olib keldi. Turizm sanoati mamlakat tashqi savdosining muhim qismiga aylandi va hukumat mamlakatda turizmni rivojlantirish uchun bir qancha siyosatlarni amalga oshirdi [9].

Shuningdek, O‘zbekistonda ham tashqi savdo uchun muhim bo‘lgan transport infratuzilmasini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakat dengiz portlari, temir yo‘llar va avtomobil yo‘llarini rivojlantirishga sarmoya kiritmoqda, buning natijasida tovarlar va xizmatlarning samarali transporti ta’minlandi. Mamlakatning transport infratuzilmasi jadal rivojlanmoqda va hukumat uni yanada takomillashtirish uchun bir qancha loyihalar ustida ishlamoqda. O‘zbekiston keyingi yillarda tashqi savdoni rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Mamlakat eksportining xilma-xilligi, boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarining yaxshilanishi, yangi siyosatning amalga oshirilishi tashqi savdo hajmining o‘sishiga olib keldi (1-rasm).




1-rasm: Mamlakatlar bo‘yicha eksport-import taqsimoti (ming Aqsh dollarida)


O‘zbekistonning transport infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilayotgan e’tibori uning tashqi savdosini yanada mustahkamlaydi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Mamlakatda yanada yuksalish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo‘lib, hukumatning tashqi savdoni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibori kelajakda yanada ko‘proq muvaffaqiyatlarga olib kelishi shubhasiz deb hisoblanadi.

To‘plangan ma’lumotlar va ko‘rsatkichlar tahlili (2-rasm) shuni ko‘rsatmoqdaki mamlakatimizda eksport qilingan mahsulotlardan faqatgina oltin ekporti 2020-yilda 5804.4 mln. AQSH dollarigacha o‘sgan ammo bu qimmatbaho yer osti boyligining eksporti kelgusi yilga kelib 4109.8 mln. AQSH dollariga pasayganini ko‘rishimiz mumkin [10].

Mamlakatimiz joriy yillarda import qiladigan asosiy mahsulotlardan biri (3-rasm) bu mashina va uskunalar hisoblanadi va 2019-yilda 10633.4 million AQSH dollarini tashkil etdi. Biznes va tadbirkorlik subyektlarida ish jarayonini samarali tashkil qilishda va yuritishni ularga kerak bo‘ladigan mashina va uskunalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.



2-rasm: O‘zbekistonning eksport tarkibi ko‘rsatkichlari (mln. AQSH dollarida)



3-rasm: Ozbekistonning import tarkibi ko‘rsatkichlari (mln. Aqsh dollarida)

Bu jihozlar ko‘pgina hollarda chet el investitsiyasi yoki chet eldan import holda olib kelinadi. Ushbu uskunalar bilan bir qatorda mamlakatimizga kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish ham eng asosiy importga aylangan hamda 2021-yilda 4259.6 million AQSH dollarini tashkil etdi [11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyoti jarayonlarining tahlili tashqi savdoni erkinlashtirish jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tamoyili bo‘lib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Shu sababli ham jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish mamlakatimizning ustuvor maqsadlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Chunki tashkilotning ustuvor yo‘nalishi rivojlanayotgan, kam rivojlangan va kam daromadli mamlakatlar bilan hamkorlik qilish orqali ushbu mamlakatlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, bojxona bojarini nisbatan kamaytirish, tashqi savdo erkinligini ta’minlashdir. Bizdagi xulosalar ham aynan O‘zbekistonda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar qatorida ushbu tashabbuslarni qo‘llab quvvatlaydi. Shuningdek, iqlim sharoitlariga mos ravishda meva va sabzavotlar eksportini yanada ko‘paytirish bilan birga hamkorlik aloqalarini kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirsaidov M.A. “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” – o‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. 176 b.
2. Ergashxodjaeva Sh.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. “Marketing” Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2018. 145 b.
3. “Iqtisodiyot va ta’lim” 2018. – Ilmiy jurnal. –77 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining tijorat siyosati to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq tayyorlangan “O‘zbekiston tijorat siyosati” kitobi.
5. Абдукахоров Б. У. Повышение инвестиционной привлекательности экономических регионов Узбекистана и улучшение условий для привлечения иностранных инвестиций //Студенческий вестник” ISSN. – 2022. – С. 26-86.
6. Abdukakhorov Bekzod Utkir ugli. “The Impact of Tax Benefits on the Improvement of Special Economic Zones. –”Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science 3.6 (2022): 371-376.
7. Abdukakhorov B. U. SPECIAL ECONOMIC ZONES AS A FACTOR OF REGIONAL DEVELOPMENT //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 613-616.
8. Karimqulov, J., and B. Abduqaxorov. “The Importance of Tax Benefits Used for Small Industrial Zones in Increasing Investment Activity.” –Science and Innovation 1.7 (2022): –518-525.
9. Manba https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2
10. Manba https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments
11. Manba https://lex.uz/docs/-6213382

THE IMPACT OF CORPORATE MONOPOLIES ON MARKET COMPETITION AND ECONOMIC HEALTH

Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli
Student of Tashkent Institute of Finance

Avazov Ilkhom Ravshanovich
Associate Professor of the Department – Budget accounting and Treasury of Tashkent Institute of Finance

Abstract: This article critically examines the implications of corporate monopolies on market competition and economic health. It explores the multifaceted problems arising from the dominance of a few corporations in various sectors, emphasizing the consequences for consumer choice, pricing, innovation, and political influence. The article also provides a forward-looking perspective, proposing potential solutions to mitigate the adverse effects of monopolistic practices.

Key words: corporate monopolies, innovation, entrepreneurship, cost distribution, healthy competition, market power, corporate power, economic power.

Annotatsiya: Ushbu maqolada korporativ monopoliyalarning bozor raqobati va iqtisodiyotga ta'siri tanqidiy ko'rib chiqilgan. U turli sohalardagi bir nechta korporatsiyalarning ustunligidan kelib chiqadigan ko'p qirrali muammolarni o'rganib, iste'molchilarni tanlash, narxlash, innovatsiyalar va siyosiy ta'sir uchun oqibatlarini ta'kidlaydi. Maqolada, shuningdek, monopolistik amaliyotning salbiy ta'sirini yumshatish uchun potentsial echimlarni taklif qilingan.

Kalit so'zlar: korporativ monopoliyalar, innovatsiyalar, tadbirkorlik, xarajatlarni taqsimlash, sog'lom raqobat, bozor kuchi, korporativ kuch, iqtisodiy kuch.

Аннотация: В этой статье критически рассматриваются последствия корпоративных монополий для рыночной конкуренции и экономического здоровья. В ней исследуются многогранные проблемы, возникающие из-за доминирования нескольких корпораций в различных секторах, подчеркиваются последствия для потребительского выбора, ценообразования, инноваций и политического влияния. В статье также представлена перспектива, предлагающая потенциальные решения для смягчения негативных последствий монополистической практики.

Ключевые слова: корпоративные монополии, инновации, предпринимательство, распределение издержек, здоровая конкуренция, рыночная власть, корпоративная власть, экономическая власть.

INTRODUCTION

In the ever-evolving landscape of economics and finance, a concerning trend has been gaining momentum – the rise of corporate monopolies. This phenomenon, characterized by the dominance of a handful of powerful corporations in various industries, has significant implications for market competition and overall economic health. Despite the ambiguity of the definition of the category "globalization" in modern economic theory [1], most authors agree that it carries not only a positive potential for the world community, but also increases the risks and threats to its development [2]. The processes of globalization contribute to the intensification of contradictions in the development of the world community [3], growth of interdependence of national economies [4], increasing their dependence on a relatively small number of transnational corporations [5]. Over the past few decades, there has been a discernible increase in market concentration, with a select few companies wielding disproportionate influence in their respective sectors. This concentration is particularly evident in industries such as technology, telecommunications, and finance. As a result, concerns have emerged regarding the adverse effects on market competition, consumer welfare, and the broader economic landscape. In the realm of politics, markets do not exist in isolation, and companies employ a diverse array of non-market strategies. These strategies, characterized by a series of actions, aim to enhance or safeguard overall corporate performance by influencing the interconnected structures of policy, regulation, institutions, ideology, and broader socio-political frameworks that shape market environments. Distinguishing between market and non-market strategy serves as a useful heuristic to investigate how power imbalances are either established or intensified within market or non-market settings. Nevertheless, in practice, market and non-market strategies frequently operate synergis-

tically, a concept encapsulated by the term Integrated Strategy. In numerous scenarios, the distinction between these two facets of corporate strategy is artificial. This artificial dichotomy between market and non-market dimensions becomes particularly evident and crucial to acknowledge in market economies, where neoliberal-driven structural and ideological shifts have further entrenched market mechanisms and thinking into social and political frameworks, if not as a cultural meta-phenomenon. Consider Nestlé's approach to dominating marketing channels beyond traditional market settings, such as within healthcare facilities, with the goal of augmenting revenue from breast milk substitute products. This strategy, familiar to pharmaceutical corporations, essentially involves incorporating healthcare professionals like nurses, doctors, midwives, and community health workers into the company's marketing channels. As a broader example, the corporate social responsibility strategies implemented by major ultra-processed food manufacturers are often perceived to encompass both a market-strategy dimension (e.g., by enhancing brand value) and a non-market strategy dimension (e.g., by gaining political and consumer legitimacy). Evaluating the performance of an industry involves analyzing how resources and wealth are utilized, allocated, and distributed within its markets. Initially, the performance aspect of the Structure-Conduct-Performance (SCP) approach concentrated on gauging the extent to which monopolistic and oligopolistic entities misallocated resources by elevating prices beyond the marginal cost of production. However, from the 1970s onward, the emphasis in industry and market analysis shifted toward consumer welfare, largely influenced by the ascendance of the Chicago School. This shift has significantly influenced contemporary antitrust policies, with notable figures like Judge Bork playing a leading role. Bork and his peers advocated the notion, still widely embraced today, that consumer welfare is best understood as consumer surplus, equating to lower consumer prices. This somewhat narrow conception of consumer welfare poses significant challenges from a public health standpoint. Firstly, the notion that low consumer prices serve as the primary indicator of the efficiency and effectiveness of the allocative and economic welfare functions of private markets results in insufficient consideration of the broader social and ecological consequences of industry and market activities. In connection with this, and of paramount importance, the emphasis on low consumer prices has validated concentrated corporate power, arguing that it enhances economic efficiency not only by driving down prices but also by generating related efficiencies associated with concentrated market power (some of which are discussed later).

LITERATURE REVIEW

The pivotal factor driving this shift was the 1977 publication of Avinash Dixit and Joe Stiglitz's seminal paper, which introduced a concise and manageable formalization of the Chamberlinian model. Initially applied by Dixit and Stiglitz to the classic industrial organization problem of optimal product diversity in monopolistically competitive industries, their innovative framework soon sparked a substantial body of literature exploring its applicability to international trade. Before 1977, competitive general equilibrium was the sole framework available for addressing these issues.

While the DS approach was not the sole monopolistic competition model proposed during this period–Spence (1976) introduced a variant akin to DS known as "SDS" or "Spence-Dixit-Stiglitz" preferences, and Lancaster (1979) presented a different specification based on Gorman's idea of consumer preferences over characteristics rather than goods themselves–neither alternative proved as tractable or fruitful as the DS specification, despite Lancaster's successful application of his model to international trade.

PROBLEMS CAUSED BY CORPORATE MONOPOLIES

The dominance of a few corporations often leads to reduced competition, limiting consumer choice. With fewer players in the market, consumers may find themselves with fewer options for goods and services, and the lack of alternatives can result in higher prices. Monopolistic practices can result in inflated prices for essential goods and services. When a single entity controls a substantial market share, it may exploit its position by setting prices at levels that maximize profits, often to the detriment of consumers. The entry barriers created by corporate monopolies can stifle innovation and entrepreneurship. Small businesses face difficulties in competing with dominant players, hindering the emergence of new ideas, products, and services that could benefit consumers and drive economic growth. Large corporations, with their immense resources, often exert significant influence on the political landscape. This can lead to regulatory capture, where regulations and policies are crafted to favor the interests of powerful corporations, further entrenching their dominance. Corporate monopolies, driven by a pursuit of efficiency and cost-cutting, may engage in mergers and acquisitions that result in job losses. Additionally, the concentration of economic power in a few entities can distort the job market, reducing employment opportunities and contributing to economic inequality.

We contend that the exclusion of market power from analyses in the field of public health has resulted in significant oversights within the discipline. If at the stage of production inflation is generated by a real rise in the cost of production, then at the stage of distribution the causes of inflation are not just economic, but socio-economic nature. The nature of distribution inflation is rooted in social conflict over the distribution of social product between different social groups and strata of society [6]. Initially, there has been a conspicuous lack of exploration and comprehension of crucial characteristics in market structures that confer structural power to firms over consumers, buyers, suppliers, small competitors, and, at times, even governments. Of particular concern are monopolistic/oligopolistic and monopsonistic/oligopsonistic market structures, where a single or a small number of firms dominate the market or where only one or a few purchasers control the market for certain goods. Such structures frequently empower leading firms with the capacity to control production, marketing, and distribution within their value chains, as well as the authority to generate profits at the expense of other market stakeholders, including consumers and suppliers Notably, a majority of industries with adverse health impacts exhibit oligopolistic characteristics, which poses challenges in attempts to limit the consumption of their products. Moreover, concentrated markets endow dominant firms with significant structural and relational power in relation to governments, primarily through their control of substantial capital and labor. An important role in the unwinding of the inflation flywheel at the exchange stage is played by the broad development of intermediary structures. According to some estimates, the share of intermediaries in final prices of consumer goods is 60-70% [7].Начало формы This power dynamic may dissuade governments from implementing policies and regulations that could jeopardize the profit-making capabilities of these dominant firms, thereby affecting the broader stability and health of national economies.

Secondly, there has been limited focus within the realm of public health on analyzing the allocation and distribution of resources, generated wealth, and incurred costs through the market systems of major health-harming industries. The presence of substantial market power in private markets can lead to inefficient resource allocation, distribution of wealth, and cost distribution – a significant aspect of what is commonly termed ‘market failure. Concentrated market power can also be utilized to influence democratic political processes, resulting in situations where government policymakers and regulatory bodies are co-opted to serve private interests over public interests. This, in turn, may lead to the neglect of social and ecological costs associated with business activities, known as negative externalities. Consequently, from a public health standpoint, analyses of market power can offer insights into the profit generation of health-harming corporations, the allocation of accumulated capital to corporate strategies undermining public health, and the distribution of wealth and costs (including externalized costs) from market transactions among corporations, society, and the environment.

Lastly, market power analysis is well-suited to enable the public health community to engage with a broader set of government policy instruments aimed at promoting and safeguarding public health by addressing concentrated market power and instances of market failure. Examples include policy regimes like antitrust policy, trade and investment policies, and industrial policy, which, in principle, directly tackle concentrated market power. Fiscal policy regimes are also relevant, intended to redistribute the economic burden of externalized costs from the public to the corporations responsible for incurring the costs. One of the problems that has always been in the focus of attention of the Russian authorities is inflation, the regulation of which for many years has been one of the priorities of economic, primarily monetary policy [8].

An important role in the unwinding of the inflation flywheel at the exchange stage is played by the broad development of intermediary structures. According to some estimates, the share of intermediaries in final prices of consumer goods is 60-70% [17].

POTENTIAL SOLUTIONS TO MITIGATE THE IMPACT

Enhancing antitrust regulations and their enforcement is crucial in preventing and addressing monopolistic behavior. Governments must actively monitor market concentration, scrutinize mergers, and take decisive action to prevent the undue concentration of economic power. Governments should adopt policies that foster fair competition and create a level playing field for businesses of all sizes. This includes measures to reduce entry barriers, encourage innovation, and ensure that smaller enterprises have the opportunity to thrive alongside larger corporations. Regulatory frameworks need to be agile and adaptable to the fast-paced nature of certain industries. Encouraging innovation through supportive policies and regulatory reforms can help create an environment that promotes healthy competition and discourages anti-competitive practices. Governments and regulatory bodies should prioritize the protection of consumer interests. Implementing measures such as price controls, ensuring transparency in business practices, and promoting consumer education can empower individuals and mitigate the negative effects of monopolies. Addressing the global dimensions of corporate monopolies requires international collaboration. Countries should work together to establish common standards and regulations that prevent companies from exploiting regulatory disparities and engaging in global monopolistic practices.

CONCLUSION

The impact of corporate monopolies on market competition and economic health is a multifaceted challenge that demands careful consideration and decisive action. As economies continue to evolve, finding a delicate balance between fostering innovation and preventing the concentration of economic power is imperative. By implementing robust regulatory measures, promoting fair competition, and prioritizing consumer protection, societies can work towards a more equitable and resilient economic future. It is through proactive and collaborative efforts that we can navigate the complexities of corporate monopolies and ensure that markets remain dynamic, competitive, and conducive to sustainable economic growth.

References:

1. M. Novy, The impact of globalization on the price elasticity of demand. Globalization and Its Socio-Economic Consequences, – 538-545, – Zilina, Slovakia, (2015)
2. V. Soltes, S. Stofko, The impact of population movement on security in the age of globalization. Globalization and Its Socio-Economic Consequences, – 773-778, – Zilina, Slovakia, (2015)
3. M. Tokarova, Selected problems of competitiveness measuring in conditions of globalization. Globalization and Its Socio-Economic Consequences, 800-809, Zilina, Slovakia, (2015).
4. K. Kramarova, K. Valaskova, Globalization and transfer pricing: brief analysis of the legislation in the Slovak republic. Globalization and Its Socio-Economic Consequences, – 353-361, – Zilina, Slovakia, (2015)
5. A. Harumova. Multinationals as a part of globalization. Globalization and Its SocioEconomic Consequences, – 192-198, – Zilina, Slovakia, (2015)
6. A. Protasov, Tsiklicheskaya dinamika inflyatsii v ekonomike SSSR: istoricheskiye trendy i raspredelitel'nyye konflikty. – Problemy sovremennoy ekonomiki, –2, 73-78, (2015)
7. R. Belousov, A. Belousov, D. Belousov, Inflyatsiya: faktory, mekhanizm, strategiya preodoleniya. – Ekonomist, – 4, 46, (1996)
8. S.K. Singh, D. Tripati Rao, Is monetary policy symmetrical in its effect on sectoral output, Economics, Management, and Financial Markets 13. – 11–31 (2018)

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Тураева Адиба Икрамовна
Старший преподаватель кафедры “Макроэкономический анализ и прогнозирование”

Аннотация: В данной статье рассмотрены проблемы природных ресурсов и переход Республики Узбекистан к “зеленой экономике” так как, “зеленая экономика” – это концепция развития, которая стремится совместить экономический рост с охраной окружающей среды и устойчивым использованием природных ресурсов. Она предлагает новые подходы к производству и потреблению, основанные на эффективном использовании ресурсов, уменьшении выбросов и развитии экологически чистых технологий.

Ключевые слова: “зеленая экономика”, концепция развития, охрана окружающей среды, изменение климата, ресурсосберегающие технологии, природные ресурсы.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy resurslar muammolari va O’zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o’tishi muhokama qilinadi, chunki “yashil iqtisodiyot” iqtisodiy o’sishni atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan barqaror foydalanish bilan birlashtirishga intiladigan rivojlanish konsepsiyasidir. U resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va yashil texnologiyalarni rivojlantirishga asoslangan yangi ishlab chiqarish va iste’mol yondashuvlarini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: “Yashil iqtisodiyot”, rivojlanish konsepsiyasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o’zgarishi, resurslarni tejaydigan texnologiyalar, tabiiy resurslar.

Abstract: This article examines the problems of natural resources and the transition of the Republic of Uzbekistan to a “green economy” since the “green economy” is a development concept that seeks to combine economic growth with environmental protection and sustainable use of natural resources. It offers new approaches to production and consumption based on efficient use of resources, reduction of emissions and development of environmentally friendly technologies.

Key words: “green economy”, development concept, environmental protection, climate change, resource-saving technologies, natural resources.

ВВЕДЕНИЕ

Основной постулат “зеленой” экономики состоит в том, что экономика является частью природной среды. Она преобразует взятые из нее различные ресурсы в продукты и товары, необходимые людям, и отправляет обратно образовавшиеся отходы. При этом сами по себе люди - тоже являются частью природной среды, которая очень сильно от нее зависят.

Людям нужен пригодный для дыхания воздух, питьевая вода, продовольствие, производство которого зависит от продуктивности экосистем (любое поле – разновидность экосистемы, встроенная в общую природную экосистему). Таким образом, экономика должна развиваться так, чтобы не подрывать природную среду, ибо это может привести к катастрофе.

Исходя из данного фундаментального принципа, теоретики “зеленой” экономики требуют отказаться от погони за экономическим ростом и лимитировать наши бесконечно растущие потребности, поскольку в условиях ограниченных ресурсов их нельзя удовлетворить.

Такой радикализм может показаться неприемлемым, но при этом он нисколько не мешает практическому употреблению принципов “зеленой” экономики в конкретной экономической политике.

Основное понятие “зеленой” экономики заключается в том, что экономика является частью природной среды. Он преобразует различные ресурсы, полученные с его помощью, в продукты и сырьевые товары, в которых нуждаются люди, и отправляет образующиеся отходы обратно. В то же время сами люди также являются частью природной среды, которая в значительной степени зависит от нее.

Люди нуждаются в пригодном для дыхания воздухе, питьевой воде и продуктах питания, и их производство зависит от продуктивности экосистемы (любое поле – это экосистема, встроенная в общую природную экосистему). Поэтому экономика должна развиваться таким образом, чтобы не разрушать природную среду, потому что это может привести к катастрофе.

Исходя из этого базового принципа, теоретики “зеленой” экономики требуют отказаться от стремления к экономическому росту и ограничить наши бесконечно растущие потребности, поскольку они не могут быть удовлетворены в условиях ограниченных ресурсов.

Такого рода активность кажется неприемлемой, но в то же время она, по крайней мере, не будет мешать практическому применению “зеленых” экономических принципов в конкретной экономической политике.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

В Узбекистане программу перехода к “зеленой” экономике и “зеленому” росту до 2030 года было принято в конце 2022 года. Ранее правительством было объявлено о планах к 2050 году полностью отказаться от использования угля, природного газа и нефтепродуктов в качестве топлива с целью достижения углеводородной нейтральности, или “нулевых выбросов” (такие объемы эмиссий углекислого газа, которые не превышают его объемы, поглощаемые океанами и лесами).

Узбекистан расположен в самом сердце Центральной Азии, и нехватка воды является острой проблемой. По данным Института мировых ресурсов, Узбекистан занимает 29-е место среди стран, которые серьезно пострадают от водных ресурсов в 2040 году, а ожидаемый уровень стресса в Центральной Азии превысит 80%. Особенно если учесть, что население Узбекистана к 2040 году превысит 42 миллиона человек, эта статистика печальна. По оценкам, быстрый рост населения может привести к 44-46% дефициту воды. Учитывая возрастающий и быстро снижающийся спрос на водные ресурсы, важно принять соответствующие меры для решения этой проблемы.

R. Billining [3] ta'kidlashicha, inflyatsiya va nominal yalpi ichki mahsulot ishonchli hisoblangan bo'lsa-da, mas'ullar monetar siyosat yo'nalishlarini ishlab chiqishda odatda ishlab chiqarish tafovutidan foydalanadilar. Bunda, nominal foiz stavkalariga xususan, Keynsning nol quyi chegarasi (NQCH) modeliga alohida e'tibor qaratiladi. Ya'ni, nominal foiz stavkasi NQCH bo'lmaganda, Markaziy bank nominal YAIMni emas, balki inflyatsiyani barqarorlashtirishga e'tibor qaratishi kerak. Ammo NQCH mavjud bo'lganda, nominal YAIMni barqarorlashtirishga qaratilgan siyosat markaziy bank uchun pul-kredit sharoitlarini yumshatishga yordam beradi. Iqtisodiy barqarorlik deganda "Barqaror" so'zini to'g'ri talqin qilinishi muhim bo'lib, bu barcha mehnatga layoqatli aholining kuniga 18 soat yoki ishlab chiqarish quvvatlarining 24/7 rejimida ishlashini anglatmaydi. Aksincha, bu normal darajada, ortiqcha bosimlarsiz iqtisodiy resurslar to'liq ish bilan ta'minlanganligini bildiradi.

Shu o'rinda iqtisodchi olimlarning inflyatsion targetlashga o'tgan mamlakatlardagi ishlab chiqarish tafovutiga nisbatan yondashuvlariga to'xtalib o'tish o'rinlidir. Xalqaro valyuta fondi ekspertlarining ta'kidlashicha, "ishlab chiqarish tafovuti iqtisodiyotdagi real yalpi talab hajmi va potensial ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi farqning iqtisodiy o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, potensial ishlab chiqarish hajmi bu – to'liq quvvat bilan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning maksimal miqdorini ifodalaydi. Bunda, ishlab chiqarish sur'atlarining o'zgarish tendensiyalaridan ko'ra, joriy ishlab chiqarish hajmining iqtisodiyotdagi uzoq muddatli potensial ishlab chiqarish hajmiga qanchalik yaqin ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi" [4].

Umuman olganda, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ishlab chiqarish tafovutini baholashning yangi metodologiyalari ishlab chiqilmoqda [5]. Shuningdek, mamlakatlardagi iqtisodiy noaniqliklar sharoitida ishlab chiqarish tafovutini nazorat qilishning yangi mexanizmlari ishlab chiqilmoqda [6].

Fikrimizcha, har qanday Markaziy bank monetar siyosatning oraliq va strategik maqsadlariga, xususan, inflyatsion target darajasini belgilash va unga erishishida o'z majburiyatlarini aniq belgilab olishi zarur. Bunda, inflyatsion kutilmalar bilan bog'liq ishlab chiqarish tafovutini muntazam nazorat qilib borish muhim hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bir qator xorijlik iqtisodchi olimlarning mavzuga doir yondashuv va qarashlarini tadqiq etish hamda ularga nisbatan mualliflik munosabatini bildirish asosida maqolaning ilmiy-nazariy jihatlari shuningdek, ishlab chiqarish tafovutini markaziy bankning monetar siyosat bilan bog'liq qarorlariga ta'sirini tahlil qilish asosida maqolaning mazmun va mohiyati ochib berildi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy baholash va ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Markaziy bank inflyatsiyaning past va barqaror darajasini ta'minlash maqsadida foiz kanalidan faol tarzda foydalanadi. Ta'kidlash joizki, foiz stavkalari o'zgarishining inflyatsiyaga ta'sir etishi muayyan davrni o'z ichiga oladi. Chunki, foiz stavkalaridagi o'zgarishlarga nisbatan aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan munosabat bildirilishi va istiqboldagi qarorlarini kutilmalarga muvofiq moslashtirilishi ma'lum vaqt talab etadi. O'z navbatida, Markaziy bank ham foiz stavkalari va inflyatsiya o'rtasidagi ta'sirlar kechikishi va ularning oqibatlari xususida dastlabki xulosa va tasavvurlarga ega bo'lishi zarur hisoblanadi.

Markaziy bank tomonidan samarali monetar siyosatni amalga oshirishda iqtisodiyotning joriy ishlab chiqarish va bunda resurslardan foydalanish quvvatini baholab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ish o‘rinlariga takliflar bo‘yicha ommaviy axborot vositalaridagi e’lonlar hamda malakali xodimlarning taqchilligi mehnat bozoridagi vaziyatni ifodalash bilan bir qatorda ishlab chiqarishni qay darajada avtomatlashtirilganligini ham namoyon etadi. Bu, o‘z navbatida, ishlab chiqarish tafovutini ham izohlash imkonini yaratadi.

Ishlab chiqarish tafovuti ishlab chiqarish jarayonida resurslardan foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, iqtisodiyotning qizishi yoki sovushi fonida yuzaga keladigan inflyatsion bosim xavfini baholashga yordam beradi. Aytish joizki, markaziy bank tomonidan ishlab chiqarish tafovuti inflyatsiyani shakllantiruvchi asosiy omil sifatida qaralsa-da, inflyatsiyani baholovchi ideal ko‘rsatkich hisoblanmaydi. Chunki, ishlab chiqarish tafovutining inflyatsiya bilan bog‘liqligi har doim ham barqaror bo‘lavermaydi. Shu sababli, markaziy bank ishlab chiqarish tafovutidan keladigan signallarga nisbatan tegishli darajada ehtiyotkorlik choralarini ko‘rish bilangina cheklanadi.

Aksariyat olimlar iqtisodiyotning siklik pasayishi davrida narxlarning pasayishi ehtimoli ko‘proq va aksincha, degan fikrga osongina rozi bo‘lishlari mumkin. Ammo mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, mazkur yondashuv har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Odatda, real va potensial ishlab chiqarishlar orasida potensial ishlab chiqarish barqaror inflyatsiyaga mos kelishi ta’kidlanadi. Chunki, potensial ishlab chiqarishga iqtisodiyot juda issiq yoki juda sovuq bo‘lmagan holatda ishlab chiqarilgan mahsulot sifatida qaraladi.

Inflyatsiyaning barqarorlashuvi real iqtisodiy faollikni oshiradi. O‘z navbatida, inflyatsiyani barqarorlashtirishga qaratilgan choralarning qat’iylashtirilishi ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqarishiga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarish tafovuti – real ishlab chiqarishning (yalpi talab) potensial ishlab chiqarishdan (yalpi taklif) qay darajada chetga chiqishi bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich “og‘ish kengligi” deb ham ataladi (1-rasm).



1-rasm: Ishlab chiqarish tafovutining shakllanish trayektoriyasi[1]

Iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash sur’atlarining makroiqtisodiy o‘sish tendensiyasi bilan mutanosib o‘zgarib borishi ishlab chiqarish tafovutini maqsadli ko‘rsatkichlar doirasida shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Ammo, so‘nggi yillarda mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan chora va tadbirlarga qaramay “... iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar o‘sish sur’atining yalpi ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’atidan 2 barobardan ko‘proq oshishi, iqtisodiyotda qo‘shimcha talab yuzaga kelishiga va talab hajmlarining amaldagi taklif hajmlaridan oshib ketishiga, pirovardida ijobiy ishlab chiqarish tafovutining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda” [7].

Makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turishda uzoq muddatli muvozanatni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bunda, uzoq muddatli muvozanatga muayyan bir rivojlanish nuqtasi sifatida emas, balki iqtisodiy rivojalanish sur’atlarining barqaror trayektoriyasi sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Uzoq muddatli muvozanatga erishishda birinchidan, iste’mol narxlari inflyatsiyaning belgilangan targetiga muvofiq holda shakllanib borishi, ikkinchidan, makroiqtisodiy o‘sish sur’atlari ishlab chiqarish hamda texnologik o‘sish tezligi bilan belgilanuvchi potensialga mutanosib tarzda o‘sib borishi muhim hisoblanadi.

Xalqaro tajribadan ma’lumki, hukumat va monetar regulyator ishlab chiqarish tafovutini qisqartirish maqsadida potensial yoki real ishlab chiqarish sur’atlariga ta’sir etish orqali ularning trayektoriyasini o‘zgartirishga hamda uzoq muddatli muvozanatini ta’minlashga harakat qiladilar (2-rasm).

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ko‘p hollarda real ishlab chiqarish hajmi iqtisodiy agentlarning yalpi talabi sifatida ham tavsiflanadi. Real ishlab chiqarish hajmining potensialdan oshib ketishi esa inflyatsion bosimni yuzaga keltiradi. Nazariy jihatdan potensial ishlab chiqarish imkoniyatlarini real ishlab chiqarish sur’atlariga yaqinlashtirish orqali ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirish imkoniyati mavjud (2.A-rasm). Ammo, bu iqtisodiyotda natijasi uzoq muddatda namoyon bo‘luvchi tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Amaliyotdan ma’lumki, har qanday hukumat o‘z vakolati davrida imkon qadar jamiyat e’tiborini qozonuvchi qisqa muddatli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlarini amalga oshiradi va islohotlar yo‘lini tanlaydi. Vaziyatga aniqroq baho berish maqsadida Fisher tenglamasiga yuzlanamiz:

$$MV = PY \quad (1)$$


Bu yerda: M – muomaladagi pul hajmi; V – pulning aylanish tezligi; P – narxlar darajasi; Y – nominal yoki potensial ishlab chiqarish.

Yuqoridagi tenglamada keltirilgan Y – potensial ishlab chiqarish hajmi bo‘lib quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Y = AK^{\alpha}L^{\beta} \quad (2)$$

Bu yerda: A – umumiy ishlab chiqarish omili (bir yilda ishlab chiqarilgan barcha tovarlarning haqiqiy qiymati). K – kapital (barcha mashinalar, uskunalar va binolarning o‘lchovi bo‘lib, kapital kiritish qiymati joriy kapital narxiga bo‘linadi); L – ishchi kuchi (firmalar tomonidan to‘lanadigan ish haqi evaziga ishchilar ishlagan ish soatlari).

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, aynan Y ning aniq qiymatini hisoblashdagi murakkabliklar va undagi kapital hamda ishchi kuchi omillarining uzoq muddatli natijadorligini hisobga olgan holda monetar va fiskal regulyatorlar iqtisodiyotning potensial imkoniyatlarini siljitishdan ko‘ra real ishlab chiqarish imkoniyatlariga ta’sir etish orqali ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.



2-rasm: Potensial va real ishlab chiqarishga ta’sir etish orqali ishlab chiqarish tafovutini tartibga solish2

Real ishlab chiqarish sur’atlariga ta’sir etish orqali ham ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirish mumkin. Mazkur holatda monetar regulyator faol restriksion siyosat olib boradi. Asosiy foiz stavkani oshirish orqali banklararo pul bozoridagi qisqa muddatli hamda depozit va kreditlar bo‘yicha uzoq muddatli foiz stavkalariga ta’sir etadi. Bu orqali iqtisodiy agentlarning yalpi talabini ham pasaytirgani holda, real ishlab chiqarish sur’atlarini potensial ishlab chiqarish imkoniyatlariga yaqinlashtirish orqali ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirishga erishadi (2.B-rasm).

Ishlab chiqarish tafovutini shakllanishining fundamental sabablariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ishlab chiqarishning uzoq muddatli muvozanatiga erishish inflyatsiya va bandlik ko‘rsatkichlari bilan yuqori darajada ta’sir bog‘liqligiga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Ya’ni, iqtisodiyotda ijobiy ishlab chiqarish tafovutining shakllanishi inflyatsion bosimni oshirgani holda ishsizlikni qisqarishiga sabab bo‘ladi. Jumladan, yuqori talab mavjud sharoitda tadbirkorlik subyektlari qo‘shimcha ishchi kuchini yollash yoki ish haqini oshirish imkoniyatlarini qidiradilar. Hattoki, qo‘shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini qurish zarurati ham yuzaga kelishi mumkin.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ammo, mazkur jarayonlar joriy noqulay sharoitlarning shakllanishi hosilasi bo‘lib, muayyan qisqa vaqt ichida o‘z trayektoriyasini o‘zgartirishi mumkin. Bu quyidagicha izohlanadi: ma’lum tovarga bo‘lgan talabning keskin ortishi tadbirkorlar oldiga joriy imkoniyatlaridan-da yuqori darajada ishlab chiqarish vazifasini qo‘yadi. Talab yuqori sharoitda xomashyo tovarlari narxining qimmatlashuvi tannarx shakllanishiga ta’sir etadi va uni oshiradi.

XULOSA

Regulyator tomonidan monetar siyosat qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda ishlab chiqarish tafovutini baholashdan foydalaniladi. Ammo, ishlab chiqarish tafovutidan foydalanishning ba’zi kamchiliklari mavjudligini ta’kidlash zarur. Xususan, potensial ishlab chiqarishni baholash joriy tendensiyalarga emas balki, avvalgi yillar ma’lumotlariga tayanadi. Bu esa, ishlab chiqarish tafovutini baholashdagi har qanday xato monetar siyosat samaradorligini pasaytirishiga sabab bo‘lishini anglatadi.

Aytish joizki, har doim ham salbiy ishlab chiqarish tafovutiga intilmaslik zarur. Chunki, iqtisodiy kon’yunkturaning salbiy ishlab chiqarish tafovutida shakllanishi muayyan davrda yuqori talabni qondirishga xizmat qiladi, ammo iqtisodiyotning qizishi fonida tovarlar zaxirasining oshib borishiga va natijada ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy faolligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Salbiy ishlab chiqarish tafovuti tovar va xizmatlarga talabning past darajasi sharoitida barqaror ishlab chiqarish natijasida yuzaga keladi. Salbiy ishlab chiqarish tafovuti shakllanishi natijasida iqtisodiyotda inflyatsion bosim pasayadi ammo asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan ish bilan bandlik darajasi ham qisqaradi.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga nisbatan talabning qisqarishi ularning narxini pasayishiga, o‘z navbatida, ishlab chiqarishning qisqarishi fonida xomashyo tovarlariga bo‘lgan talabning kamayishi xomashyo tovarlarining ham narxini pasayishiga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarishdagi uzilishlar natijasida, tadbirkorlik subyektlari ishchi kuchini yoki ish vaqtini qisqartirishga hattoki, ba’zi ishlab chiqarish obyektlarini yopishga ham majbur bo‘ladilar. Bu esa, makroiqtisodiy darajada ishsizlikning ortishiga, aholi daromadlarining pasayishi fonida ularning iste’mol xarajatlarini kamayishiga, yalpi talabning qisqarishi esa, inflyatsiya sur’atlari va iqtisodiy o‘sishni pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Claus I. Is the Output Gap a Useful Indicator of Inflation (March 2000). Reserve Bank of New Zealand Discussion Paper No. DP2000/05, Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=320826 or http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.320826
2. Werner Roeger, Kieran Mc Morrow, Atanas Hristov and Valerie Vandermeulen. Output Gaps and Cyclical Indicators / EUROPEAN ECONOMY. Discussion paper 104, –july 2019. –p.24.
3. Roberto M. Billi. Output Gaps and Robust Monetary Policy Rules / International Journal of Central Banking. Vol. 16, No. 2., March 2020. –pp. 125-152.
4. Sarwat Jahan and Ahmed Saber Mahmud. What Is the Output Gap? FINANCE & DEVELOPMENT, September 2013, Vol. 50, No. 3.
5. Alichi A. A New Methodology for Estimating the Output Gap in the United States / IMF Working Paper, WP/15/144. –p.17.
6. Casey, E. Inside the “Upside Down”: Estimating Ireland’s Output Gap. Irish Fiscal Advisory Council and University College Dublin. Working Paper No.5., 2018. –pp. –1-61.
7. Duskobilov U.Sh. Impact of Monetary Policy Sustainability Indicators on Economic Growth in Transition to Inflation Targeting. European Journal of Business Startups and Open Society. –Vol. 3 No. 7 (Jul – 2023). –pp. –103-110.
8. Duskobilov U.Sh. Features of the transition to inflation targeting in Poland. International Journal of Business Diplomacy and Economy, 2(8), (2023). –pp. –1-8.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosatning 2019-yil va 2020-2021-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. –2018 y. – 79,80-b.



IQTISODIYOTNI GLOBALLASHUVI SHAROITIDA XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR BARQARORLIGINING NAZARIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Kalandarova Nargiza Narimanovna
TMI, “Iqtisodiy tahlil” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi PhD, dotsent

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar turli mulk shakllidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga to‘liq erkinlik berilmoqda. Barqarorlikni ta’minlash maqsadida eksport-import muomalalarida erkin munosabat yuritish, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish uchun sherik tanlay bilish, o‘zi ishlab chiqargan mahsulot va uni sotishdan olgan daromadga to‘liq egalik qilish moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga bevosita ta’sir etadi.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy holat, aylanma mablag‘lar, moliyaviy natija, eksport, import, moliyaviy mustahkamlik, nobarqaror, barqarorlik turlari.

Abstract: Today, the socio-economic normative-legal documents implemented in our country give full freedom to the activities of economic entities of various forms of ownership. In order to ensure stability, free relations in export-import transactions, the ability to choose a partner for cooperation, full ownership of the product produced and the income from its sale directly affect the change in financial stability indicators.

Key words: stability, financial stability, financial condition, working capital, financial result, export, import, financial stability, unstable, types of stability.

Аннотация: Сегодня реализуемые в нашей стране социально-экономические нормативно-правовые документы предоставляют полную свободу деятельности хозяйствующих субъектов различных форм собственности. В целях обеспечения стабильности свободные отношения в экспортно-импортных операциях, возможность выбора партнера для сотрудничества, полная собственность на производимую продукцию и доходы от ее реализации напрямую влияют на изменение показателей финансовой устойчивости.

Ключевые слова: стабильность, финансовая устойчивость, финансовое состояние, оборотный капитал, финансовый результат, экспорт, импорт, финансовая устойчивость, нестабильность, виды устойчивости.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida erishilgan natijalar asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston–2030” strategiyasida asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish belgilangan. Shu sababli ham 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish mo‘ljallangan. Shuningdek, mazkur strategiyada ustuvor vazifa sifatida belgilangan “Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash” tarkibida makroiqtisodiy barqarorlik hamda fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish masalalari alohida ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, respublikamiz tashqi va ichki bozorlaridan tajribali mijoz tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlari hamda barqarorligini o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyot sektorlarining uzluksiz faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishi muhim hisoblanadi. Shu jihatdan ham xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyat yuritishida, ishlab chiqarish jarayonining barcha elementlari, shu jumladan, buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahliliga e’tibor qaratish muhimdir. Iqtisodiyot sektorida bozor munosabatlarini chuqurlashtirish ushbu sohada iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirishni taqozo etadi. Shu sababli, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari va ularning tahlilini takomillashtirish, uni

barcha sektorlarning tuzilmasiga va o‘zgarishlariga moslash, moliyaviy-iqtisodiy holatini o‘rganish va nazorat qilishning maqsadli shaklini ishlab chiqish hamda qaror toptirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu jihatdan ham, keyingi yillarda respublikamizda barqarorlik ko‘rsatkichlar tahliliga e’tibor qaratilmoqda. Bu esa ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini baholash va uning tahlilini to‘g‘ri tashkil etilishi hamda takomillashtirilib borilishi eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini tahlil etish orqali uni yanada sog‘lomlashtirish imkoniyatlariga baho beriladi hamda moliyaviy mustahkamligi kuchaytiriladi.

Moliyaviy barqarorlik bo‘lgan joyda barcha xo‘jalik muomalalari va hisob-kitoblar o‘z vaqtida bajariladi. Shu bois har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini bilish va o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda. Ma’lumki, buxgalteriya balans ma’lumotlariga qarab xo‘jalik yurituvchi subyektni aylanma mablag‘lari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligi o‘rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layyoqatliligini aniqlashda o‘zlik manbalar bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkich muhim ahamiyatga egadir. Moliyaviy hisobot tahlil natijalariga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi subyektining moliyaviy barqarorligi joriy yilning boshida ham, yil oxirida ham nobarqaror holatda bo‘lishi mumkin. Bunday natijalar iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida yaxshi natija deb hisoblab bo‘lmaydi. Shu sababli ham, xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko‘rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Moliyaviy holat barqarorligini tahlili orqali ma’lum davr mobaynida moliyaviy resurslarni qanday boshqarganligiga baho beriladi. Avvalo, moliyaviy resurslar holati bozor va xo‘jalik yurituvchi subyekt rivojlanishining talablariga mos kelishi kerak, chunki moliyaviy barqarorlikni talab darajasidan past bo‘lishi uning to‘lovga qobilligini zaiflashtiradi, ishlab chiqarishni rivojlanishi uchun mablag‘lar yetishmasligiga sabab bo‘ladi. Buning aksi bo‘lgan holatlarda esa moliyaviy resurslarni ortiqchaligi ishlab chiqarishni rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, ishlab chiqarish zaxiralari va rezervlarini me’yordan ortib ketishiga olib keladi. Shu sababli ham moliyaviy resurslarni samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishi moliyaviy barqarorlik mohiyatini ifodalaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mustahkamlikka (barqarorlikkka) va balans likvidligiga turlicha yondashilgan hamda aniqlanayotgan ko‘rsatkichni moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlarning olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi.

Bundan ko‘rinadiki, moliyaviy mustahkamlik xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlansa, moliyaviy barqarorligiga esa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning butun xo‘jalik, ishlab chiqarish faoliyatining barcha yo‘nalishlari ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatda ichki va tashqi omillar, shart-sharoitlar ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib moliyaviy barqarorlikka xo‘jalik yurituvchi subyekt ichidagi va undan tashqaridagi vaziyat, omillar, shart-sharoitlar ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga barqarorlikning o‘zgarish darajasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hozirgi va kelgusidagi faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzuga oid iqtisodchi olimlarning nazariy va amaliy jihatlari yuzasidan fikrlariga to‘xtalib o‘tsak.

Xucucan, E.Akromov fikricha, “Moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash uchun zaxira va xarajatlar yoki moddiy aylanma mablag‘larni ularni tashkil topish manbalariga nisbat ko‘rinishida aniqlash tavsiya etiladi” – deb ta’riflagan [2].

M. Pardayev, B. Isroilov tomonidan “Moliyaviy barqarorlikni ifadalovchi ko‘rsatkichlarni iqtisodiy mohiyati jihatidan guruhga bo‘lib o‘rganish tavsiya etiladi”, deb fikr bildirgan [3].

T. Shog‘iyosov fikriga ko‘ra “Moliyaviy barqarorlikni baholashda ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir” [4].

B. Xasanov, N. Xadjimuratov, U. Nurmanov, A. Maxmudov fikricha “Korxona barqarorligini eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichidir. Agar korxona daromadlar xarajatlardan ortadigan bo‘lsa, moliyaviy barqarorlikka erishishi mumkin bo‘ladi. Agar korxona mablag‘larni erkin tasarruf eta olsa, ulardan samarali foydalansa, doimiy ishlab chiqarish va sotishning mukammaklik aylanish uzluksizligini ta’minlansa, bunday korxonani moliyaviy barqaror deyishimiz mumkin”, deb izohlaydi [5].

Fikrimizcha moliyaviy barqarorlik bu – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishini va pasaymasligini ifodalaydi. Moliyaviy barqarorlikda xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining barcha tomonlari natijasi aks ettirilib, moliyaviy barqarorlikka erishgan quyidagi hususiyatlarga ega bo‘ladi:

- iqtisodiy munosabatlarni turli sharoitlarida faoliyat yuritishi;
- xo‘jalik yurituvchi subyekt pul mablag‘larini erkin harakat qilishi;
- moliyaviy resurslarni bozor talablariga mos kelishi;
- moliyaviy resurslar holati ishlab chiqarishni rivojlantirish va to‘lov qobiliyati, kreditga layoqatligini ta’minlay olishi;
- ishlab chiqarish zahiralari va xarajatlarini manbalar bilan qoplanishi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, kompleks tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tahlil davomida moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarga e’tiborni qaratmoq lozim. Ichki omillar qatoriga faoliyatni tarmoq xususiyatiga mos kelishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko‘rsatilayotgan xizmat tuzilishi (strukturasi), ustav kapitaliga to‘langan miqdor hajmi, xarajatlar miqdori, ularni daromadlarga nisbati dinamikasi, mol-mulk va moliyaviy resurslar holati, shu jumladan, zahira va rezervlar, ular tarkibi va tuzilishi. Tashqi omillarga xo‘jalikni yuritishning iqtisodiy shartlari, to‘lovga qodirlik, xaridorlarning daromadlik darajasi, davlatning soliq va kredit bo‘yicha siyosati, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalar kiradi. Ular quyidagi 1-chizmada aks ettirilgan.


Umumiy barqarorlik chegarasini yuqori yoki past bo‘lishi turli xil sabablarga bog‘liq, jumladan:

- “Barqarorlik zaxirasi” - bir necha yillar davomida shakllangan moliyaviy zaxiralar miqdori tasodifiy va keskin tashqi kutilmagan o‘zgarishlarni oldini olishga qaratilgan;
- texnik – iqtisodiy barqarorlik – investitsiya loyihalari samaradorligi, texnika bilan qurollanish darajasi, ishlab chiqarish, mehnat, boshqaruvni tashkillashtirish; pul oqimlarini harakati tufayli foydaga erishishni ifodalaydi;
- moliyaviy barqarorlik – daromadni harajatlarga nisbatan va resurslar holatini yuqori bo‘lishi, pul mablag‘larining erkin harakatini ta’minlaydi, mablag‘lardan samarali foydalanish ishlab chiqarish uzluksizligi, uni kengaytirish va yangilanishi uchun zamin yaratadi.



1-chizma: Xo‘jalik yurituvchi subyekt barqarorligining turlari [4]

Moliyaviy barqarorlik o‘z va chetdan jalb etilgan kapitallar nisbati, joriy, investitsiya va moliyaviy faoliyat tufayli o‘z kapitali jamg‘armasini o‘sish darajasi, harakatchan va immobilizatsiya qilingan resurslar nisbati, zahiralarni o‘z mablag‘lari manbayi bilan ta’minlanishini ifodalaydi. Demak, moliyaviy barqarorlik moliyaviy resurslar holati, birinchidan, bozor talabiga mos kelishi, ikkinchidan, ishlab chiqarishni rivojlanishini ta’minlashi lozim. Moliyaviy barqarorlik tuzilishini quyidagi 2-chizmada ifodalash mumkin.



2-chizma: Xo‘jalik yurituvchi subyekti moliyaviy barqarorligini turlari [4]

Xo‘jalik yurituvchi subyekti moliyaviy barqarorligini turlariga quyidagicha izohlashamiz mumkin, ya’ni:

- joriy – ma’lum bir aniq davr mobaynidagi moliyaviy barqarorlik;
- imkon – tashqi sharoit o‘zgarishini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik;
- yuzaki – davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan, chetdan beriladigan yordam tufayli moliyaviy barqarorlik;
- real – raqobat sharoitida kengaygan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik tushuniladi.

Iqtisodiy adabiyotlar va halqaro amaliyot tajribasida “moliyaviy barqarorlik” so‘zini ifodalanishidagi farqlanish xo‘jalik yurituvchi subyekt balansi tahliliga ikki xildagi yondashish, ya’ni balans likvidligini an’anaviy va zamonaviy funksional usullarini qo‘llash orqali yuzaga ko‘rishimiz mumkin .

Umuman olganda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy barqarorlikni balans likvidligi tahlilining an’anaviy usuli yordamida aniqlash quyidagilarni qamrab oladi:

- minimal moliyaviy tenglik qoidasi – ijobiy likvidlikka asoslangan bo‘lib, bunda joriy aktivlar likvidligining o‘sishi majburiyatlarga nisbatan yuqori bo‘lishi shart;
- maksimal qarzdorlik qoidasi – an’anaviy me’yorlarga muvofiq korxona qarzini o‘z mablag‘lari bilan qoplanish chegarasi: uzoq va o‘rta muddatli qarzlar doimiy kapitalning yarmidan yuqori bo‘lmasligi lozim.
- maksimal moliyalashtirish qoidasi – oldingi qoidaga rioya qilingan holda qarz kapitali barcha qo‘yilmalar uchun to‘lanadigan foiz summalaridan ortib ketmasligi lozim.

Funksional balans likvidligini tahlili orqali moliyaviy barqarorlik quyidagi shartlarga rioya qilgan holda aniqlanadi:

- moliyaviy muvozanatni saqlanishi uchun stabil resurslar – doimiy kapital va unga tenglashtirilgan mablag‘lar stabil joylashtirilgan aktivlarni 100 % qoplashi lozim. Ushbu ko‘rsatkichdan past bo‘lishi stabil joylashgan mablag‘lar stabilga ega bo‘lmagan resurslar bilan, ya’ni qisqa muddatli majburiyatlar shaklida moliyalashtirilganligini ifodalaydi.

Aylanma aktivlariga bo‘lgan talab qisqa muddatli moliyalashtirish tufayli hisobot davri mobaynida o‘zgarib turadi va bu o‘zgarishlar quyidagilarga olib keladi:

- aylanma aktivlarini ortiqcha ta’minlanishiga, buning natijasida vaqtinchalik erkin harakatdagi aylanma mablag‘lari vujudga keladi;
- aylanma aktivlari bilan yetarli darajada ta’min etilmasligiga, buning natijasida chetdan qarz mablag‘larini jalb etilishiga;
- umumiy qarzdorlikni baholash – chetdan jalb etilgan qarz mablag‘lari o‘z mablag‘lariga nisbat ko‘rinishidagi ifodasidir.

Iqtisodiy tahlil fani o‘z tasarrufida moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil etishning ko‘plab usullari va uslublarini jamlagan. Ular bozor munosabatlari sharoitida tahlil oldiga qo‘yilgan yangi talablar tufayli o‘zgarib boradi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil etishning usullari quyidagi 3-chizmada keltirilgan.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati murakkab tizim va tuzilmalardan iborat bo‘lib, uning barqarorligini baholash kopleks tarzda yondashgan holda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tizimidan foydalanishni taqozo etadi. Moliyaviy barqarorlikni mutloq ko‘rsatkichlar ishtirokida aniqlash uchun ishlab chiqarish zaxiralarini uni tashkil etuvchi manbalari, ya’ni o‘z aylanma mablag‘lari, bankdan olingan uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit va qarzlar summalari bilan taqqoslanadi. Nisbiy ko‘rsatkichlar foiz, koeffitsiyent, indekslar ko‘rinishida ifodalanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy barqarorlik va to‘lovga qobiliyatlilik korxonaning muhim iqtisodiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik balansdagi ma’lumotlar asosida o‘rganiladi. Undagi ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslab, mablag‘lar o‘rtasidagi nisbat va o‘zaro bog‘lanish aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va uning ahvolini baholashga yordam beradi.

XULOSA

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- mahsulotlarni xarid qilish bilan shug‘ullanadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining mol yetkazib beruvchilar haqida yetarli ma’lumotga ega emasligi;
- barqarorlikni ta’minlashda mol yetkazib beruvchilarni tanlashning rasmiylashtirilgan tartibining mavjud emasligi;
- barqarorlikni ta’minlashda ishlab chiqarish jarayonida kutilmagan vaziyatlar (smenalar ishidagi farq, kutish, kechikish, texnologik turib qolishlar) ;
- yuqori barqarorlikka erishishda keng ko‘lamli mahsulot hajmini ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarini tezlashtirish va hokazo.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, tadqiqot ob’ekti mahsulotlar ishlab chiqarishida moliyaviy barqarorlikni yanada oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘Zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
2. Akromov E. “Korxonaning moliyaviy holati tahlili”. – T.: “Moliya”, – 2003.
3. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. “Iqtisodiy tahlil”. – O‘quv qo‘llanma. – T.: 2012.
4. Shog‘iyosov T.Sh. “Kompleks iqtisodiy tahlil”. – Darslik, – T.: 2012.
5. B.Xasanov, N.Xadjimuratov, U.Nurmanov, A.Maxmudov “Moliyaviy tahlil”. – O‘quv qo‘llanma. – “Lesson press”, – 2022.



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING FOND BIRJALARIDA LISTINGDAN O‘TISH TARTIBI VA MAMLAKATIMIZ AMALIYOTI

Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o‘g‘li
Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada fond birjalari tomonidan listing talablarini joriy etish va uning aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ta’siri haqida so‘z boradi. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi fond bozorlarida listing turlari, ularning xususiyatlari va darajalari o‘rganildi. O‘zbekiston fond bozoridagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlanish tendensiyalari va uni yanada takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlandi.

Kalit so‘zlar: listing, listing talablari, qimmatli qog‘ozlar, aksiyadorlik jamiyatlari.

Abstract: The article discusses the introduction of listing requirements by stock exchanges and its impact on the activities of joint-stock companies. The types of listings, their nature, levels used in the stock markets of the Russian Federation and the Republic of Uzbekistan were also studied. Trends in the development of activities of joint-stock companies in the stock market of Uzbekistan and directions for its further improvement are determined.

Key words: listing, listing requirements, securities, joint-stock companies.

Аннотация: В статье рассматривается введение листинговых требований фондовыми биржами и его влияние на деятельность акционерных обществ. Также были изучены виды листингов, их характер, уровни, применяемые на фондовых рынках Российской Федерации и Республики Узбекистан. Определены тенденции развития деятельности акционерных обществ на фондовом рынке Узбекистана и направления ее дальнейшего совершенствования.

Ключевые слова: листинг, листинговие требования, ценные бумаги, акционерные общество.

KIRISH

Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotidagi tub o‘zgarishlar jarayonida resurslar tobora cheklanib, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xom ashyoga bo‘lgan ehtiyoji ortib bormoqda. 2017-yildan boshlab O‘zbekistonda jahon bozoriga murakkab integratsiya jarayonlarining kuchayishi fond bozorining jadal rivojlanishi va korxonalarning baynalmilallashuvi yanada kuchayishida o‘z ifodasini topmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozori moliya sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarning yagona bozorini birlashtiruvchi lokomotiv hisoblanadi va jahon iqtisodiy munosabatlarining barcha sohalarida muhim ishtirokchilardan biridir [1]. Qimmatli qog‘ozlar bozori O‘zbekiston iqtisodiyotida rivojlanishi zarur bo‘lgan muhim tarmoqlardan biri bo‘lib, uning asosiy faoliyati xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida pul muomalasi hajmi va hajmini oshirish chora-tadbirlariga qaratilishi kerak.

Mamlakatimizda fond bozorini rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi ustuvorligini yanada oshirish, faoliyatini tartibga solishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasining 27-maqsadi “Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish”, deb nomlanib, asosiy e’tibor fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan [2].

MAVZUFA OIDA ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiyotida bir necha yil oldin koronavirus pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan inqirozning yaxshilanishi bilan boshlangan xususiy investitsiyalar hajmi jadal sur’atlar rivojlanishini boshdan kechirmoqda.

Sharp U., Aleksandr G., Beyli J. o‘z tadqiqotlarida qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish, moliyaviy aktivlarni ayirboshlashda vositachi sifatida fond bozorini ko‘rib chiqdilar [3].

Listing muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, faqat sotiladigan qimmatli qog‘ozlar ushbu “screening” protseduralaridan o‘tishi mumkin. Ikkinchidan, ushbu mexanizm investorlarni ommaga ochiq ishonchli ma’lumotlarni

oshkor qilish orqali har xil turdagi firibgarliklardan himoya qilishga qaratilgan. Bir qator mamlakatlarda listing emitentlar uchun muayyan soliq imtiyozlari uchun asos hisoblanadi. Bundan tashqari, kredit olish zaruriyati yuzaga kelganda, ushbu emitentlar uchun banklar va boshqa kredit tashkilotlar ishonchini qozonish osonroq bo‘ladi [4].

Bir mamlakat moliya bozoridagi salbiy va ijobiy o‘zgarishlarning boshqa davlat moliya bozoriga ta’siri moliya bozorining globallashuv darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon milliy fond bozorining xalqaro bozorga integratsiyalashuvini ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Agar xalqaro qimmatli qog‘ozlar bir mamlakat ichida ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida turli investorlar o‘rtasida ayirboshlansa, ular bir vaqtning o‘zida mamlakat ichida kapitalni qayta taqsimlash vositasiga aylanishi mumkin [5].

J.Ataniyozov va S.Narimonov o‘z tadqiqotlarida listing talablarini joriy etgan kompaniyalar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar tahlilini ko‘rib chiqdilar [6].

Shuningdek, U. Yuldasheva, S. Narimonov va Sh. Bolibekovlar fond bozori listingiga qo‘yiladigan talablarga javob beradigan kompaniyalarning soliq solinadigan bazasini o‘rganishgan [7].

B. Ochilov o‘z tadqiqotida modernizatsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida davlatning o‘rta va uzoq muddatli investitsiya strategiyasida “iqtisodiy o‘sishning yuqori va barqaror sur’atlarini ta’minlash uchun davlatning o‘rta va uzoq muddatli investitsion strategiyasini hal qilishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqligini ta’kidladi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada AJ tomonidan fond birjalarida listingan o‘tish talablarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy xulosalar va takliflarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy va statistik usullar kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Listing talablari aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlarni fond birjasiga kiritish tartibini bildiradi. Aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan qo‘yiladigan listing talablari fond birjasiga qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishning birlamchi vositasidir. Listing talablari emitentlar (aksiyadorlik jamiyatlari, banklar) uchun fond bozoriga kirishini nazorat qilish usuli hisoblanadi.

Birjada emitent sifatida ishtirokchi etmoqchi bo‘lgan har qanday AJ (shu jumladan, IPO orqali ham) ushbu jarayondan o‘tishi kerak. Listing paytida maxsus komissiya kompaniyani turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholaydi va uni fond bozorida qimmatli qog‘ozlari chiqarilishi yoki chiqarilmasligi bo‘yicha qaror qabul qiladi.

Ushbu tartib faqat quyidagi talablarga javob beradigan AJlarini birjada qimmatli qog‘ozlarni chiqarishiga ruxsat beradi:

- moliyaviy ko‘rsatkichlari barqaror bo‘lgan;
- likvidlik darajasi yuqori bo‘lgan.

AJlar qimatli qog‘ozlarini fond birjasida listingdan o‘tganidan so‘ng chiqariladi. Bu investorlarning ishonch darajasini oshiradi, shuningdek, qimmatli qog‘ozlarni yangi, kengroq doiraga sotish imkoniyatini yaratadi. Muqobil moliyalashtirish usuli sifatida qimmatli qog‘ozlarni sotish orqali mablag‘larni jalb qilish biznesni kamroq qo‘shimcha xarajatlar amalga oshirish orqali resurslarni jalb etish imkonini yaratadi. Aktivlarga nisbatan talabning o‘sishi bilan birga jamiyat kapitallashuv darajasi ham oshadi. Bundan tashqari, AJlar listingdan o‘tganidan so‘ng jamiyat kredit reytingiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, listing investorlarning manfaatlarini vijdonsiz kompaniyalar qimmatli qog‘ozlari savdosini amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik va emitentlarda bankrotlik holatlari kuzatilishi mumkin bo‘lgan zararlardan sug‘urta qilishi orqali himoya qiladi. AJlarga listing quyidagi maqsadlar uchun zarur.

- Investorlarning maqsadli mahalliy va xalqaro auditoriyasiga kirish;
- AJlar kotirovka ro‘yxatiga kirish orqali investorlar ishonchiga kirish va uni oshirish;
- Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish orqali moliyalashtirish manbalari hajmini ko‘paytirish;
- Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishiga talabning o‘sishi bilan birga jamiyat kapitallashuv darajasi o‘sishiga erishish;
- Jamiyat likvidligini oshirish va boshqalar.

Listing fond birjasida qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish uchun yo‘llanma vositasi bo‘lib, AJga sarmoya jalb qilish imkoniyatini beradi. Muayyan birjada ma’lum darajadagi listingning mavjudligi jamiyatning ishonchlilik reyting shkalasiga o‘xshaydi. Reyting qanchalik baland bo‘lsa, kompaniyaga investitsiyalarni jalb qilish shunchalik arzon va osonroq bo‘ladi.

Listing nafaqat ta’sirchan bir martalik xarajatlar bilan, balki doimiy xarajatlar bilan ham bog‘liq bo‘lgan qimmat jarayondir. Oshkoralik maqomini saqlab qolish kompaniyaning barcha biznes jarayonlariga ta’sir qiladi.

Listing investorga quyidagi ijobiy jihatlarni taqdim etadi:

- Kotirovka ro‘yxatida jamiyatning mavjudligi investitsiya riskini aniqlashni osonlashtiradi va uni minimallashtirishga xizmat qiladi;
- Investitsiya portfelini shakllantirishni yengillashtiradi;
- Minoritar aksiyadorlarning huquqlarini ustuvor ko‘rishga e’tibor qaratadi.

Shuningdek, listing qimmatli qog‘ozning likvidligi va institutsional investorlarning potentsial talabi haqidagi ma’lumotlarni berishi mumkin.

Har kim kapitaldagi ulushini sotib olib, kompaniyaning aksiyadori bo‘lishi mumkin. Biroq faqat fond birjalari va reyting agentliklari kabi mustaqil ishtirokchilar investorga ko‘rib chiqilayotgan biznesning imkoniyatlari va risklari haqida tasavvur berishi mumkin. Birinchi kotirovka ro‘yxatidan qimmatli qog‘ozni sotib olayotganda ikkinchi ro‘yxat bilan boshqa shartlar teng bo‘lsa, investor likvidliligi yuqori bo‘lganligi uchun birinchisini tanlaydi. Kotirovka ro‘yxatida bo‘lish kompaniyaning minoritar aksiyadorlarni e’tiborini jalb etadi va sotilish imkoniyatini oshiradi. Listing investorlar huquqlarini himoya qilishning asosiy ishonch vositasi hisoblanadi.

Listing talablarini birlamchi va ikkilamchi turlari mavjud. Birlamchi - qimmatli qog‘ozlar birinchi navbatda milliy birja kotirovkasiga kirtiladi. Ikkilamchi - qo‘shimcha ravishda boshqa savdo maydonchasi listingiga kirtiladi va qimmatli qog‘ozlari ikkala birjada ham muomalasi amalga oshiriladi.

Muayyan doiralarda sotilishi rejalashtirilgan va ma’lum maqsadlar uchun chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar uchun maxsus listing qo‘llaniladi.

Listing darajasi emitent qanday talablardan o‘tganligini tushunishga imkon beradi. Agar kompaniya listing talablarini olishda murakkab tanlovlardan o‘tgan bo‘lsa, u investorning nazarida ishonchliroq ko‘rinadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining birjaga kirish tartibi 3 ta bosqichni o‘z ichiga oladi:

- Emitent ariza beradi va baholash uchun shartnoma tuzadi;
- Komissiya tomonidan talab qilingan hujjatlarni taqdim etadi;
- Yakuniy natijalarini kutadi, shundan so‘ng u qabul komissiyasining majlisida ishtirok etadi. Agar emitent talablarga javob bersa, uning qimmatli qog‘ozlari kotirovka ro‘yxatiga kiritiladi va emitentga kotirovka varaqasi beriladi.

Kotirovka varaqasi - bu birjada savdoga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar ro‘yxati hisoblanadi. Agar emitent talablarga javob bermasa, uning qimmatli qog‘ozlari listingdan oldingi ro‘yxatga yuboriladi. Ushbu ro‘yxatdagi aktivlar bilan operatsiyalar savdo tizimidan tashqarida amalga oshirilishi kerak. Bunda birja ularning qimmatli qog‘ozlari bilan savdoni amalga oshirishda javobgarlikdan voz kechishini anglatadi.

Fond birjasida kotirovka komissiyasi qimmatli qog‘ozlarni fond bozorida savdoga qo‘yish masalalari bilan shug‘ullanuvchi, ularning narxini belgilaydigan, ro‘yxatga oladigan va birja byulletenlarida e’lon qiladigan organdir.

Barcha kompaniyalar bir-biridan farq qilishiga qaramay, listingga kirish paytida asosiy talablar bir xil bo‘ladi. Qimmatli qog‘ozlar va obligatsiyalar ro‘yxati biroz farq qiladi, ammo har ikkala holatda ham birja tashkilotning hajmi va moliyaviy ko‘rsatkichlariga, uning hujjatlari va biznes shaffofligiga, mavjud bo‘lgan vaqtga va qonunga muvofiqligiga katta e’tibor qaratadi. Emitentlarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- emitent mamlakat qonunlariga muvofiq qimmatli qog‘ozlarni chiqaradi;
- hisobotlarni to‘liq oshkor qiladi;
- moliyaviy yo‘qotishlar to‘g‘risida ma’lumot beradi;
- faoliyat uchun shartlarga javob beradi;
- ma’lum miqdorda qimmatli qog‘ozlar chiqaradi.

Birja kreditga layoqatlilik reytingini belgilaydigan reyting agentliklari funksiylariga o‘xshash faoliyat bilan shug‘ullanadi. Eng yuqori darajaga ega bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlari yaqin kelajakda defolt bo‘lmasligini anglatadi. Aksincha, past reytingga ega AJlar o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga shubha bilan qarashini aks ettiradi.

Birinchi kotirovka ro‘yxatida bo‘lish emitentning boshqa ro‘yxatlardagi emitentlarga qaraganda ishonchliroq ekanligini anglatadi. Chunki ushbu AJ eng yuqori talablarga javob berishini anglatadi. Birja uchun, albatta, likvidlik kabi ko‘rsatkich muhim hisoblanib, ma’lum bir emitentning qimmatli qog‘ozlari bilan bitimlar qanchalik tez-tez amalga oshirilishi, emitentning ikkilamchi bozorda aksiyalari sonining aylanish tezligi kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi kotirovka ro‘yxatiga eng likvidli qimmatli qog‘ozlar yoki ko‘k fishkalar deb nomlanuvchi kompaniyalar kiradi. Ko‘k fishkalar – bu yirik kapitallashuv va yuqori likvidlikka ega bo‘lgan investorlar orasida eng mashhur kompaniyalarning aksiyalari tushuniladi. Ularni bozor narxida katta hajmlarda sotib olish va sotish oson amalga oshiriladi. Ko‘k fishkalar – bu qat’iy atama emas, balki eng yirik va mashhur kompaniyalarning norasmiy nomini ifodalovchi jarangli ibora hisoblanadi.

Listing ham bir martalik jarayondir. Har ikkala ro‘yxatda bo‘lgan emitent standart va talablarga muvofiqlikni saqlashga harakat qilishi kerak. Bu emitentning ma’lum bir ro‘yxatda bo‘lishdan manfaatdor ekanligi, investorlar, shu jumladan minoritar investorlar bilan uzoq muddatli munosabatlarda sodiq ekanligidan dalolat beradi.

Boshqacha qilib aytganda, ham emitent ham fond birjasi o‘z obro‘sini saqlashga harakat qiladi. U yoki bu aksiyani kotirovka ro‘yxatiga qo‘ygan holda, birja kompaniyaning yuqori rahbariyati va direktorlar kengashining qarorini kutadi.

Bozordagi vaziyat o‘zgargan va kompaniya raqobatda yutqazishni boshlagan holatda investorlar vaziyatga birinchi bo‘lib munosabat bildiradilar. Bunday holatda kelajak uchun qo‘rquvni kuchayishi bilan bunday AJning aksiyalari bilan bitimlar tuzish istagi yo‘qoladi yoki o‘z portfelidagi aktivlarni sotishni boshlaydi. Natijada, savdo hajmlari pasayadi va birja qimmatli qog‘ozni ro‘yxatdan chiqarib tashlashga qaror qiladi. Aksincha holatda esa investor qiziqishining o‘sishi savdo hajmi, kapitallashuv darajasining o‘sishida namoyon bo‘ladi. Natijada birja qimmatli qog‘ozni u yoki bu ro‘yxatga kiritishga qaror qiladi. Xalqaro amaliyotda birja listinglarining IPO, SPO, DLP, SPAC, kross-listing va depozitar kabi turlari mavjud.

Ro‘yxatning eng mashhur IPO (Initial public offering) hisoblanib, kompaniya rivojlanishi uchun mablag‘ to‘plash maqsadida birinchi marta bozorga chiqadi, buning uchun u yangi aksiyalarni chiqaradi. Natijada, sobiq aksiyadorlarning aksiyalari yangi egalar manfaati uchun yo‘naltiriladi va kompaniya rivojlanish uchun pul jalb etadi. Aynan shu sababga ko‘ra IPO minoritar investorlar uchun muhim hisoblanadi.

AJ menejeri IPOni tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha barcha ishlarni anderrayterlar rahbarligida amalga oshiradi. Anderrayterlar taniqli xalqaro investitsiya banklarining tegishli tajribaga ega mutaxassislari bo‘lib, uning obro‘si va ishonch darajasi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, investorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aksiyadorlarga anderrayterlar berishadi. Anderrayterlar emitent uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

- Hujjatlashtirish, hisobot berishdagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- Kompaniya boshqaruvini shaffof bo‘lishini ta’minlash;
- Kompaniya uchun investorlarni jalb etish;
- Moliyaviy risklarni baholash;
- Analitik yordam ko‘rsatish;
- Emissiya prospektini tayyorlash va tarqatish.

Shuning uchun anderrayter qanchalik obro‘li bo‘lsa, emitentning shu qadar qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish imkoniyati yuqori bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Anderrayter ko‘pincha marketmeyker funktsiyalarini bajaradi - u birinchi bosqichlarda savdoni qo‘llab-quvvatlaydi.

IPO – bu eng qimmat listing protseduralaridan biri hisoblanadi. Chunki, u murakkab tayyorgarlik bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Kompaniyaning barcha biznes jarayonlari korporativ boshqaruvning eng qat’iy amaliyotlariga mos kelishini ta’minlash uchun amalga oshiriladi. Kompaniyada ma’lum bir davr uchun MHXS bayonotlari bo‘lishi, barcha ichki va tashqi nizolar hal qilinishi kerak.

Anderrayterlar regulyator va birjaga yuboriladigan arizani tuzishga yordam beradi. Yana bir hujjat investitsiya prospekti bo‘lib, anderrayterlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investorlarga AJ tomonidan ishlab chiqilgan ushbu hujjatni yo‘llaydilar. Ushbu prospektda IPO tashkilotchilari potentsial investorlarga kompaniya faoliyati, uning tarixi, aksiyadorlari, moliyaviy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, shuningdek kompaniyaning yaqin kelajakdagi rivojlanishiga oid prognozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan bevosita murojaat qiladi. Prospektning muhim bo‘limi potentsial risklar ro‘yxatidir. Bunda potensial risklar, hatto amalga oshirish ehtimoli ahamiyatsiz risklar ham aks ettirilishi kerak.

Nihoyat, listingning muhim bosqichi bir qator potentsial investorlar bilan bevosita uchrashuvlardir. Bu road-show deb nomlanib, uning davomida investorlar kompaniya to‘g‘risidagi barcha savollariga javob oladilar va emitentning o‘zi investorlar bilan o‘zaro hamkorlik natijalariga ko‘ra ko‘pincha IPOning dastlabki konfiguratsiyasini, shu jumladan joylashtirish hajmi, narxi bilan tanishtiradi.

AJlar IPOdan so‘ng aksiyalarni SPO (ikkilamchi ommaviy taklif) orqali chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilishlari mumkin. Ko‘pincha SPO tor doiradagi investorlar yoki hatto bitta strategik investorning manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladi. SPO, mantiqan, arzonroq jarayon hisoblanadi. Chunki, asosiy jarayonlar IPO paytida bajarilgan bo‘ladi.

DLP (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ro‘yxatga olish jarayoni) SPOga qaraganda ham arzonroq ro‘yxat turi hisoblanadi. IPOdan farqli o‘laroq, DLP ostida aksiyadorlar yangi aksiyalarni emas, balki o‘z aksiyalarini sotadilar va bu jarayonda vositachilar soni minimallashtiriladi. DLP jarayonida yangi kapital jalb etilmaydi - aksiyadorlar, aslida, yangi investorlar bilan mavjud biznesning bir qismini baham ko‘rishadi yoki undan butunlay chiqib ketishadi. DLPda IPOga xos bo‘lgan bir qator talablar mavjud. Masalan, anderrayterlar tomonidan qimmatli qog‘ozlarni ma’lum muddatga sotishga moratoriy mavjud emas.

SPAC (maxsus maqsadli sotib olish kompaniyasi) yoki kvazi-joylashtirish kichik bandlar bilan ro‘yxatning o‘ziga xos turi hisoblanadi. SPAC - bu nol aktiv kompaniya bo‘lib, kelajakda sotib olish uchun investor mablag‘larini ro‘yxatga oladi va jalb qiladi. Albatta, investorlar bunday “nol” kompaniyaga ishonishlari uchun uni taniqli va tajribali shaxs boshqarishi kerak. SPACning maqsadi sotib olish uchun potentsial xususiy kompaniyani topish lozim. Keyinchalik, SPAC aksiyalari ma’lum shartlar va koeffitsientga ega bo‘lgan xususiy kompaniyaning aksiyalariga almashtiriladi.

Kross-listing bunda aksiyalar bir vaqtning o‘zida yoki bir nechta birjalarda ketma-ket joylashtiriladi.

Depozitariy ro‘yxati aksiyadorlar aksiyalarni o‘zlari emas, balki maxsus vakolat berilgan xalqaro depozitar bank tomonidan kafolatlangan tilxatlarini oladilar. Bitta tilxat bir nechta aksiyalarga tegishli bo‘lishi mumkin. Bunda depozitariy to‘liq aksiyalarni sotib olishi va boshqa investorlarga sotishi mumkin.

Listing jarayoni va uning asosiy bosqichlari birja bilan chambarchas bo‘lib, u o‘z navbatida milliy qonunchilik va o‘rnatilgan biznes amaliyotiga tayanadi. Masalan, Romano-German yoki Anglo-Sakson moliya tizimi bo‘yicha.

Birjaga kirish usullarining xilma-xilligi qimmatli qog‘ozlar bozorining yetukligidan, tegishli qonunchilikning mavjudligidan va likvidlikni ta’minlashga qodir bo‘lgan milliy investorlarning katta sinfga ega ekanligidan dalolat beradi. Bozor ishtirokchilari bu holatda bozor chuqurligi (market depth) atamasini qo‘llashadi. Shuning uchun ham mahalliy kompaniyalarning aksariyati an’anaviy ravishda Buyuk Britaniya va AQSh fond birjalarida ro‘yxatdan o‘tishni afzal ko‘rishadi.

Eng yaxshi holatda, emitent bir vaqtning o‘zida bir necha birjalarga joylashtiradi. Mamlakatimiz amaliyotda so‘nggi yillar ichida IPOlar mahalliy fond birjada amalga oshiriladi. Fond birjasida xorijiy valyutalar foydasiga tanlov likvidlik darajasi bilan bog‘liq, lekin texnologiya darajasi yoki investorlar huquqlarini himoya qilish uchun mahalliy qonunchilikning nomukammal emasligidan kelib chiqib, investor o‘z qarorini qabul qiladi.

Masalan, Rossiya emitentlarining aksiyalarini I, II va III darajali ro‘yxatga kiritish uchun birja talablari mavjud. Shunday qilib, I ro‘yxatga kiritilishi uchun emitent ko‘p talablarga javob berishi kerak. Masalan, bozorda kamida uch yil faoliyat yuritishi kerak. Ammo II ro‘yxat uchun bir yil kifoya qiladi. I darajali listing emitenti muayyan korporativ boshqaruv va ma’lumotni oshkor qilish talablariga, II darajali listing emitenti esa boshqalarga mos kelishi kerak. Birinchi ro‘yxat uchun kunlik o‘rtacha operatsiyalar hajmi 3 million rubl, ikkinchisi uchun – 500 ming rublni tashkil etishi lozim. Shunday qilib, listing emitentlarni oshkoralik va shaffoflik darajasi, shuningdek, aksiyalarning likvidligi bo‘yicha saralaydi.

Har qanday fond birjalari listing talablarini o‘rnatishda o‘z metodologiyasini ishlab chiqadi. Rossiya fond birjalarida uchta daraja mavjud.

Birinchi daraja – yirik kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlari, ko‘k fishkali qimmatli qog‘ozlar va davlat obligatsiyalari.

Ikkinchi daraja – bu kamroq talablar bilan sinovdan o‘tgan kompaniyalarga tegishli bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar.

Uchinchi daraja - kotirovka ro‘yxatidan tashqarida to‘liq emas, balki qisman tanlovdan o‘tgan qimmatli qog‘ozlar. Ular bilan operatsiyalar yuqori xavf bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar minimal bo‘ladi. Faqat past sifatli qog‘ozlar uchinchi darajada deb o‘ylash kerak emas. Barcha emitentlar kotirovka ro‘yxatiga kirish uchun ma’lumotni maxfiylashtirishga vaqt va pul sarflashni xohlamaydilar. Shuning uchun, faqat ma’lum bir darajaga kirish orqali aktivlarni baholash har doim ham to‘g‘ri hisoblanmaydi.

1-jadvalda dunyo bo‘ylab eng qimmat TOP-10 IPOlar bilan tanishib chiqamiz.

1-jadval: Barcha davrlardagi eng yirik 10 ta global IPO

№	Kompaniya nomi	Faoliyat sohasi	IPO o‘tkazilgan muddat	Jalb etilgan kapital miqdori
1	Saudi Aramco	Energetika	05.12.2019	25,6 trln. dollar
2	Alibaba	Texnologiya	18.09.2014	21,8 trln. dollar
3	Softbank	Aloqa	10.12.2018	21,3 trln. dollar
4	NTT Mobile Communication Network	Aloqa	12.10.1998	18,1 trln. dollar
5	Visa	Moliyaviy xizmatlar, texnologiya	18.03.2008	17,4 trln. dollar
6	AIA Group	Moliyaviy xizmatlar	21.10.2010	17,8 trln. dollar
7	Enel SPA	Energetika	01.11.1999	16,4 trln. dollar
8	Meta (Facebook)	Texnologiya	17.05.2012	16 trln. dollar
9	GM	Avtomobil	17.11.2010	15,8 trln. dollar
10	ICBC	Moliyaviy xizmatlar	20.10.2006	14 trln. dollar

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin-ki, dunyoda eng yirik 10 ta IPOlarning 3 tasi moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyalarga, 2 tasi aloqa, texnologiya, energetika tarmoqlarida faoliyat yurituvchi kompaniyalarga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz amaliyotida esa listing talablari 3 tur (premium, standard va transit) da taqdim etiladi. Mamlakatimizda AJlarning fond bozoridagi ishtirokini umumiy AJlar soniga nisbatan ulushini ko'radigan bo'lsak, fond bozorida jami AJlarning 25 foizi ham ishtirok etmasligini kuzatish mumkin (2-jadval).

2-jadval: 2018-2022-yillarda umumiy aksiyadorlik jamiyatlari tarkibida fond bozorida listingdan o'tgan AJlarning ulushi

Yillar	Umumiy AJlar soni	Listingdan o'tgan AJlar soni	AJlarning jamiga nisbatan ulushi
2018	609	47	7,72
2019	602	59	9,80
2020	648	80	12,35
2021	627	91	14,51
2022	643	111	17,26

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin-ki, fond bozorida o'zining qimmatli qog'ozlari savdosini tashkil etuvchi aksiyadorlik jamiyatlarining soni umumiy AJlarning to'rtdan bir qismini ham tashkil etmaydi. Albatta, bu juda ham achinarli holat, chunki fond bozorida qimmatli qog'ozlar savdosining asosi aynan AJlarga tayanadi. 2018-yilda umumiy AJlar soni 609 tani tashkil etgan bo'lib, uning 47 donasigina fond bozorida faoliyatini yuritadi. Eng e'tiborli jihati shunda-ki, fond bozorida listingdan o'tgan AJlar soni yildan-yilga o'sib bormoqda. 2018-yilda ushbu ko'rsatkich 7,72 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil oxiriga kelib 17,26 foizga yetgan va eng yuqori salmoq a ushbu yilda kuzatilgan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali ekanligini yuqoridagi jadvalda kuzatishimiz mumkin, ya'ni 2022-yilda AJlarning umumiy soni so'nggi yillarga nisbatan ancha ko'paygan va fond bozorida listingdan o'tganlari ham ko'payib bormoqda. Fond bozoridagi aksiyalarning jami qiymati 25 trillion so'm bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizga ham yetmaydi. Bu ko'rsatkich Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etadi [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fond bozori zamonaviy jahon xo'jaligining tobora ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda fond bozori rivojlanishi natijasida korporatsiyalar o'z mablag'larini joylashtirish orqali mablag'lardan foydalanishadi. Sanoati rivojlangan davlatlar uchun fond bozorini rivojlantrish ishlab chiqarish faoliyati hayotiylik tsiklini uzaytirishga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini va aholi passiv daromadlarini oshirishda fond bozori imkoniyatlaridan foydalaish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birgalikda, mamlkatda fond bozori faoliyat yuritishini kengaytirish orqali quyidagi afzalliklarga erishish mumkinligini qayd etish lozim:

- aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasida kapital va ishlab chiqarishning markazlashuv va jamlanish jarayoni yanada tezroq kechadi;
- bozorlarning hajmiga qarab mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytira olish imkoniyatlari yuzaga keladi;
- ijtimoiy masalalarni hamkorlikda hal etish imkoniyati paydo bo'ladi;
- aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasida raqobatlashuvning kuchayishi sodir bo'ladi, bu holat, yanada yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi;
- iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuviga erishiladi;
- xalqaro savdo munosabatlarida qulay sharoitlar yaratiladi;
- yangi texnologiyalarni keng tarqalishiga va joriy etilishiga imkon yaratadi.

Mamlakatimiz fond bozori ko‘lamining kengayishi milliy iqtisodiyotimiz rivojlanishida quyidagi jihatlariga e’tibor qaratish lozim:

- fond bozorini rivojlantirish aholining passiv daromad manbalarini ko‘paytirishga yordam beradi;
- mamlakatimizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning muqobil manbalari (crowdfunding, business angels) ning paydo bo‘ladi;
- davlat qarzi tarkibida ichki qarz darajasining ko‘payishiga sabab bo‘ladi;
- xorijiy investitsiyalar oqimi mamlakatimizga yo‘naltiriladi;
- ishlab chiqaruvchi korxonalarning nisbatan arzon kapitalga ega bo‘lishiga xizmat qiladi;
- aholining moliyaviy savodxonligini oshiradi;
- xorij tajribasidan foydalangan holda minoritar investorlarning hajmini ko‘paytirish pul mablag‘lari aylanishini tezlashishiga, investitsion loyihalarni moliyalashtirishga turtki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotar ro‘yxati:

1. Хамидова Ф.А. Анализ и пути привлечения портфельных инвестиций в приватизированные предприятия: автореферат дисс. к.э.н. - Ташкент, 2009.-19 с.
2. Указ Президента Республики Узбекистан ПФ-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы”. 28 января 2022 г.
3. Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер. с анг.-ИНФРА-М,2001. -XII, 1028 с., с 8.
4. Иванова Е. Правовое регулирование листинга на фондовой бирже // Успехи в химии и химической технологии.
5. Виктория С. “Эволюция развития фондовых бирж: мировой опыт” Вопросы студенческой науки №3. 19.03.2018
6. Ataniyazov J. et al. Stock Market in Uzbekistan: Current Situation and Development Prospects //British Journal of Multidisciplinary and Advanced Studies. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-10.
7. Yuldasheva U. A. et al. Possibilities Of Using The Experience Of Advanced Foreign Countries In Determining And Analyzing The Tax Potential Of Regions //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 17-21.
8. Bakhtiyor o‘g‘li O. B. Theoretical Aspects Of Investment Attractiveness //American Journal of Technology and Applied Sciences. – 2023. – Т. 10. – С. 144-149.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 7-oktabr sanasida “Fond bozorini rivojlantirish masalalari”ga bag‘ishlangan yig‘ilishi.

HUDUDLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI



Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi
Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan inqirozli jarayonlarni barataraf etish, iqtisodiy faollikka yetaklovchi hamda hududlardagi qator muammolarni barham topishiga imkon beruvchi omil bu investitsiyalardir. Maqolada hudud moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning xorij va mahalliy iqtisodchi olimlarining ilmiy nazariyalari, yondashuvlariga bag'ishlangan. Shuningdek, olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan kelib chiqib mualliflik yondashuvlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: hudud, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, investitsiya siyosati, investitsion faollik, qo'shilgan qiymat, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik.

Abstract: Investments are the factor that helps eliminate the crisis processes occurring in the global economy, leads to economic activity and solves a number of problems in the regions. The article discusses scientific theories and approaches of foreign and domestic economists to increase investment attractiveness in ensuring the financial stability of the region. The author's approaches based on scientific research are also presented.

Key words: territory, direct investment, investment policy, investment activity, added value, investment climate, investment attractiveness.

Аннотация: Инвестиции являются тем фактором, который помогает устранить кризисные процессы, происходящие в мировой экономике, приводит к экономической активности и решает ряд проблем в регионах. В статье рассматриваются научные теории и подходы зарубежных и отечественных экономистов по повышению инвестиционной привлекательности в обеспечении финансовой стабильности региона. Также приведены авторские подходы, основанные на проведенных научных исследованиях.

Ключевые слова: территория, прямые инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционная деятельность, добавленная стоимость, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность.

KIRISH

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va mahalliy mineral-xom-ashyo resurslari bazasida qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biridir. "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada maxsus iqtisodiy zonalarda biznes subyektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim" [1]. Bundan kelib chiqqan holda, jumladan, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish asosida hudud moliyaviy imkoniyatlarini erkin iqtisodiy zonalar faolligini ta'minlash asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni keng yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun 2030-yilgacha kapital qo'yilmalar hajmlarini – 3,1 baravar, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni – 7,0 baravar ko'paytirish talab etiladi. Bunda mintaqalarning moddiy-texnik va moliyaviy bazasini mustahkamlash, sermahsul ish o'rinlari tashkil etilishini va mahalliy aholi daromadlari oshishini ta'minlaydigan infratuzilmaviy, ishlab chiqarish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun mahalliy resurslar va imkoniyatlarni jadal safarbar qilish yo'li bilan mintaqaviy omildan samarali foydalanishga urg'u beriladi. Bunda sanoat ishlab chiqarishlarini samarali rivojlantirish, joylashtirish xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun iqtisodiy- ixtisoslashtirilgan zonalar, tarmoq klasterlari, kichik sanoat zonalari, innovatsion markazlar, texnoparklarning afzalliklari ustunligidan foydalanishga alohida ahamiyat beriladi [2].

O‘zbekistonda keyingi yillarda hududlar sanoati rivojlanishiga, bu sohada texnologik va innovatsion siyosatni amalga oshirishga, xarajatlarni kamaytirish maqsadida yuqori texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, hududlarda tabiiy resurslar yetishmasligi hamda muntazam ravishda ular narxining oshib borishi, sanoat ishlab chiqarishida iste’mol, ijtimoiy va ekologik standartlarning o‘zgarishi va murakkablashib borishi bunga misol bo‘ladi. Shuningdek, raqobatning kuchayishi, sanoat ishlab chiqarishi samarasining doimiy ravishda oshib borish zaruriyati, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning sifat va texnologik ko‘rsatkichlariga talabning qat’iylashuvi tufayli ilmiy texnik taraqqiyotning mahsuli sifatida mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish orqali mahsulot raqobatbardoshligini oshirish zaruriyatga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlar moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha bir qancha xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakat hududlari investitsiya faoliyati to‘g‘risida I. A. Blankning fikricha, iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiya jozibadorligini baholashning uch asosiy elementi mavjud: iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining istiqbol ko‘rsatkichlari, korxonalarning o‘rtacha rentabellik darajasi, hududiy investitsiya risklarini baholash. Mamlakat hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini baholashning asosiy elementlariga esa: hududning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya infratuzilmasi, bozor munosabatlari va tijorat infratuzilmasi darajalari sanaladi.

Shu bilan birga, hududda investitsiya faoliyatini yuritish xavfsizligi holati va hududning demografik holati kiritilgan. Bir guruh MDH iqtisodchi olimlari I. R. Zaripova, V. R. Xafizova, M. A. Verxolaz, N. M. Sabitovalar “hududlarning moliyaviy imkoniyatlari” tushunchasi bilan “mahalliy moliyaviy imkoniyatlar” tushunchasini bir tomondan, “moliyaviy resurslar” va “moliyaviy imkoniyatlar” tushunchalarini ikkinchi tomondan bir xil ma’noda talqin etilishi kuzatilgan [3]. Ikkinchi guruh iqtisodchilar esa A. L. Kolomnes, A. I. Novikovalar hududlarning moliyaviy imkoniyati tarkibida yuridik shaxslar, aholi va davlatning moliyaviy resurslarini ajratib ko‘rsatganlar [4]. Hudud moliyaviy imkoniyatini baholashning o‘ziga xos uslubiyoti to‘liq o‘rganilmagan.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy imkoniyatni hududlarga nisbatan talqin etilganda, uning doirasini mahalliy budjet daromadlari bazasi bilangina cheklab qo‘ymasdan, balki hudud moliyaviy resurslarining boshqa elementlarini ham, shu bilan birga, hududga qo‘shimcha jalb qilinishi mumkin bo‘lgan mablag‘larni ham qamrab olishi kerak.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Sh.Mustafaqulov o‘z monografiyasida xorijiy investiyalarning mamlakat hududlariga ta’sirini baholab, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini mamlakat milliy iqtisodiyotiga yo‘naltirish bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham hal etiladi..., investorlarning qarorlariga nafaqat iqtisodiy naflik, balki ijtimoiy naflik ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, deya ta’kidlaydi [5].

Tadqiqot ishida keltirilgan nazariy yondashuvlar, ularning asosini tashkil etadigan belgilar investitsiyalarni boshqarishda hududiy investitsion faoliyatlarni amalga oshirishda va tizimli yondashuvni ko‘zlagan holda belgilangan vazifalar majmuini hal etish imkoniyatini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistika va qiyosiy taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida olingan nazariy natijalarning qisqacha tavsifi:

- hudud investitsion muhit jozibadorligi va hududning iqtisodiy salohiyati hamda hududning moliyaviy imkoniyatlarining nazariy yondashuv-larini asoslab berish;
- investitsion muhit jozibadorligini oshirishga ta’sir etuvchi omil-larning rolini o‘rganish;
- O‘zbekistonda hudud investitsion jozibadorligini faoliyatining zamonaviy holati, asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari va samaradorlik darajasini tahlil qilish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan investitsiyalarning tabiati va shakllari ham, investitsiya loyihalari samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi va ularni tanlash mezonlari ham o‘zgarib bormoqda. Investitsion jarayonlar beqaror, tez o‘zgaruvchan muhitda sodir bo‘lganligi sababli, noaniqlik va xavfsizlik omillarining ta’siri sezilarli darajada oshib bormoqda. Bunday sharoitda investitsiyalarni boshqarish va investitsiya jarayonlarida yuqori salohiyat talab etiladi. Makro-, mezo- va mikroiqtisodiy darajalarda investitsiya dasturlarini ishlab chiqish, investorlarga kreditlar va kafolatlar berish tartiblarini belgilash, investitsiya faoliyatini axborot-texnik ta’minlash bo‘yicha maxsus institutsional tuzilmalarni yaratish zarurati ortib bormoqda.

Har qanday iqtisodiy tizimda (mintaqa, tarmoq va boshqalar) investitsiya faoliyatining asosiy subyektlari buyurtmachi (investitsiyadan foydalanuvchi) va investor hisoblanadi. “Investitsiya jozibadorligi” iqtisodiy mazmunini hisobga olgan holda investitsiya faoliyatini tashkil etishning quyidagi asosiy tamoyillarini ko‘rsatish mumkin:


- ixtiyoriy investitsiyalar;
- investitsiya jarayoni ishtirokchilarining huquqlari tengligi;
- barcha investorlar uchun huquqlarning tengligi (faoliyat turlari va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar); agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa;
- investitsiya xavfsizligi;
- amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilgan holda investitsiya jarayoni subyektlarining investitsiya faoliyatiga aralashmasligi;
- investitsiya faoliyati mezonlarini tanlashda mustaqillik;
- investitsiya jarayoni ishtirokchilarining investitsiya faoliyatini amalga oshirishda huquq va manfaatlarini hurmat qilish [6].

Investitsiya faoliyati investorlar tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunda bitim (yoki shartnoma) investitsiya jarayoni subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Investitsiya manbalari sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z mablag‘lari, jalb qilingan moliyaviy resurslar, qarz mablag‘lari, budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalarning investitsion mablag‘lari, xorijiy investitsiyalar va boshqalar kiradi [7].

Mamlakat hududlarida va davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan, jumladan, sanoat majmuasini o‘z ichiga olgan tarmoqlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish davlat va hudud organlarining qat’iy nazorati ostida amalga oshirilishi kerak bo‘ladi. Investitsiya faoliyati subyektlari, shuningdek, hududlarni har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy takomillashtirish maqsadida investitsiya siyosatini ishlab chiqadi. Bizningcha, investitsiyalar hududiy sanoat komplekslarini yanada iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Ularga investitsiya jozibadorligini shakllantirish va bu jarayonni boshqarish orqali hozirgi bosqichda investitsiyalarni jalb qilish va ularning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish mumkin. Shuning uchun investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalari so‘nggi yillarda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida ancha dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Iqtisodchi olim va ekspertlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ular tomonidan hudud, alohida tarmoqlar, iqtisodiy faoliyat sohalarining investitsion jozibadorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish bo‘yicha turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, investitsion jozibadorlik va investitsiya muhiti kabi tushunchalarga bo‘lgan turli ta’riflar va ularning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida munozaralar keltirilgan. Jumladan, MDH iqtisodchi olimlaridan A. Kretinin “hududning investitsion jozibadorligi”, deb nomlangan tadqiqotida “investitsiya muhiti ko‘p jihatdan investorlarning ma’lum bir davlatda investitsiya faoliyatini amalga oshirishga yaratilgan qulayliklarga hamda investitsiya muhitini ifodalovchi ko‘rsatkich natijalarga, investitsiyalarga nisbatan u yoki bu investitsiya obyektiga nisbatan yaratilgan imtiyoz va qulayliklarni aks ettiradi [8]. Shuningdek, investitsion jozibadorlik va investitsiya muhitini biri biriga o‘xshash tushuncha ekanligini hamda ularning tarkibidagi ikkita muhim birlikni, ya’ni investitsiya salohiyati va investitsiya xavfi(riski)ga alohida e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatib o‘tishadi.

Fikrimizcha, bunday yondashuvga qo‘shilish ancha qiyin. Chunki, investitsion jozibadorlik investitsiya muhitining muhim xususiyatlari va tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Investitsion jozibadorlik investitsiya obyektini muayyan investor tomonidan baholashni nazarda tutadi hamda investitsiya muhiti esa obyektiv xususiyatga ega va bunday yondashuvni inkor etadi. Binobarin, investitsiya jozibadorligini baholash investorlarning toifalari, maqsadlari va imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lib, investitsiya muhiti investitsiya faoliyati yoki jarayonining turli subyektlari uchun doimiy qiymat hisoblanadi. Investitsion jozibadorlikni baholash, investitsiya obyektlari va maqsadlari, obyektlar va maqsadlarning xilma-xilligi haqidagi ko‘plab turli xil qarashlar hamda ularni aniqlashtirishni talab qiladi va investitsiya jozibadorligini batafsil ifodalash imkoniyatini beradi. Bizning fikrimizcha, investitsion jozibadorlikning iqtisodiy mazmuniga bo‘lgan eng to‘liq ta’rifi MDH iqtisodchi olimi Yu. P. Ryabov tomonidan berilgan. U investitsion jozibadorlikni investitsiya obyekti sifatida qarab chiqadi va quyidagi turlarini alohida ko‘rsatib beradi: transmilliy, milliy, mintaqaviy va korxona darajasida. Qolaversa, ularning har birini milliy iqtisodiyot bilan bog‘lagan holda, tarmoqlar, individual ishlab chiqarish va boshqa faoliyat turlari bilan bog‘liqligini o‘rganish, taxliol qilish mumkinligini ko‘rsatib o‘tadi [9]. Shuningdek, investitsion jozibadorlikning mutloq va qiyosiy turlarini ham alohida o‘rganish kerak. Mutloq investitsion jozibadorlik biron-bir investitsiya obyektini, qiyosiy jozibadorlik esa qiyosiy taqqoslanadigan boshqa obyektlarga nisbatan investitsiya obyektini xarakterlaydi (1-rasm).



1-rasm: Investitsion jozibadorlikning ifodalanishi


Ba’zi mualliflar makro va mikro darajadagi investitsion jozibadorlikni ham alohida ko‘rsatib o‘tadilar. Makroiqtisodiy darajadagi investitsion jozibadorlik davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, xorijiy investorlar uchun foydali investitsiyalar uchun yaratib berilayotgan bir qator qulayliklar bilan belgilanadi. Makro darajada samarali investitsiyalash shartlari quyidagi omillar ta’siriga bog‘liq:

- siyosiy tizimning barqarorligi va uning samarali prognozlash;
- milliy iqtisodiyotning holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tendensiyasi (inflyatsiya darajasi, yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati, eng muhim mahsulot turlarini ishlab chiqarish hajmlari, budjet taqchilligi va boshqalar);
- hudud va iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion va investitsion samaradorligining davlat tomonidan tartibga solish tizimi darajasi;
- davlatning soliq siyosati;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholi turmush va farovonlik darajasi;
- investitsiya xatarlari darajasi va iqtisodiy muhitning noaniqligi va boshqalar [10].

Bir qator mualliflar investitsion jozibadorlik yordamida ma’lum bir loyiha yoki dasturga sarmoya kiritishning maqsadga muvofiqmi yoki yo‘qligini tahlillar orqali baholash, shuningdek, muqobil resurslarni taqsimlash imkoniyatlari va muqobil variantlari samaradorligiga bog‘liq deb ko‘rsatishadi [11]. Boshqa bir xorijlik iqtisodchi olimlar I. I. Roizman va I. V. Grishinalar investitsiya jozibadorligini asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar uchun potensial samarali talabning ko‘rsatkichi sifatida izohlaydi [12]. Yana bir iqtisodchi olimlardan S. M. Markov investitsion jozibadorlikni ichki muhit holati sifatida korxona tuzilmasi, xodimlari, texnologiyalarini ko‘rsatsa va investitsiyalashni esa tashqi muhitning muhim omili sifatida ko‘rsatadi. Ichki muhitning xususiyatlari va samaradorligi investitsion jozibadorlikni belgilaydi, tashqi muhitning tarkibiy qismlari (tabiiy, ekologik, ijtimoiy, ishlab chiqarish natijalari va boshqalar) bo‘lib hisoblanadi [13]. I. A. Blank nuqtayi nazaridan esa investitsion jozibadorlik investitsiya obyektining faoliyat hayot sikli aylanishiga bog‘liq. Uning fikricha, “o‘sish” va “yetuklik” bosqichlarida korxonalar eng yuqori investitsion jozibadorlikka ega bo‘ladi [14]. Agar biz uning yondashuviga qo‘shiladigan bo‘lsak, investitsiya jozibadorligi ma’lum bir obyektning investitsiya faoliyati sifatining umumiy xarakteristikasi bo‘lib, aniq potensial investor tomonidan baholanadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuning uchun investitsiya jozibadorligini baholash jarayoni investor tomonidan investitsiya obyektini subyektiv baholanashidir. Tadqiqotchilar Yu. P. Ryabov va E. P. Ryabovalar investitsiya jozibadorligini ko‘p parametrli ko‘rsatkichlar ko‘ra obyektning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy xarakteristikasi sifatida tushunadi, bu investorga investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholash imkoniyatini beradi [15]. Fikrimizcha, investitsion jozibadorlik ma’lum bir mamlakat, tarmoq, hudud, xo‘jalik yurituvchi subyekt doirasida investitsiyalarga samarali talabni belgilovchi dastlabki mablag‘lar va imkoniyatlar yig‘indisi sifatida ma’lum bir tasnifga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimi bilan ifodalash mumkin. Mamlakat va hududlarning investitsion jozibadorligini o‘rganuvchi olimlar orasida S. M. Markovning fikrlari diqqatga sazovordir. U iqtisodchi olim L. B. Samoilovalar tomonidan investitsion jozibadorlikni mamlakatda (hududda) maqsadga muvofiq investitsiyalar uchun vaziyat qanchalik qulay ekanligini belgilaydi va hududning asosiy kapitaliga moliyaviy resurslarni jalb qilish intensivligining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi [16].

A. P. Gradov va boshqa bir qator mualliflar hududning investitsion jozibadorligini uning investitsion salohiyati va investitsiya riski deb tushunadilar, bu esa o‘z navbatida bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, hududga asosiy kapitalni jalb qilish uchun kapital qo‘yilmalarning mumkin bo‘lgan hajmini belgilaydi [17]. Iqtisodchi olimlardan A.Mashkin investitsiya jozibadorligini investorning ma’lum bir investitsiya obyektini, ya’ni individual loyihasini, umuman korxonani, korporatsiyani, shaharni, viloyatni va hokazolarni tanlashda afzalliklarini belgilovchi investitsiya shartlari majmui sifatida tushunadi.

U ushbu obyektlarning barchasi uchun umumiy xususiyatni aniqlaydi, ya'ni o'z budjeti va boshqaruv tizimiga ega bo'lishi lozim [18]. Biz uning nuqtai-nazarini qo'llab-quvvatlaymiz. Barcha darajadagi har bir obyekt va uning investitsion jozibadorligi, ayniqsa birlashtirilganda o'ziga xos muhim xususiyatlarga ega ekanligiga ishonamiz. Lekin yuqorida aytib o'tilganidek, investitsion jozibadorlikni nafaqat yirik obyektlar (mamlakat, hudud, sanoat va boshqalar) darajasida, balki mikro darajada ham ko'rib chiqish mumkin. Shunday qilib, masalan, E. I. Krilov va V. M. Vlasovlar investitsion jozibadorlikni mustaqil iqtisodiy kategoriya deb hisoblaydilar. Shuningdek, rentabellik, aksiyalar bahosi va to'lanadigan dividendlar darajasi, korxonalarning moliyaviy ahvolining barqarorligi bilan tavsiflanadi [19]. Investitsiya jozibadorligini shakllan-tirishga korxonalarning strategik rivojlanish maqsadlari, ularning mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasi va iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirish qobiliyati, shuningdek, innovatsion faollik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu komponentlarning barchasi har bir investitsiya loyihasining jozibadorlik darajasini belgilaydi, ularni amalga oshirish uchun mablag'larni joylashtirishning pirovard nuqtasi korxonalar hisoblanadi. Shunday qilib, investitsiya jozibadorligining mohiyati va mazmuniga oid turli yondashuvlarni tahlil qilish hududiy investitsion jozibadorlikni shakllantirish xususiyatlari, baholash mezonlari va mexanizmini o'rganishga izchil yondashish imkoniyatini beradi. Shubha yo'qki, qator omillar ta'sirida har bir hudud va o'z hududida faoliyat yuritayotgan har bir iqtisodiyot tarmoq majmuasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, strategik investor, agar uning rivojlanishiga keng ko'lamli inqiroz tahdid soladigan bo'lsa, biron-bir hudud yoki sanoatga sarmoya kiritishdan manfaatdor bo'lmaydi. Qolaversa, loyiha muayyan hudud yoki tarmoqda qanchalik moliyaviy foydali bo'lishidan qat'iy nazar, mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy beqarorlik xavfi kapitalni, ayniqsa, xorijiy kapitalni zarur miqdorda jalb etishga to'sqinlik qilishi mumkin [20].



2-rasm: Hududning investitsion jozibadorligi elementlarining o'zaro ta'sir etish mexanizmi

Bozor munosabatlaridagi investitsiya faoliyati barcha iqtisodiy jarayonlarda fundamental ahamiyatga ega ekan, uning xususiyatlarini hudud miqyosida qarab chiqish lozim. Mintaqaviy iqtisodiyot investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi quyidagi xususiyatlarga ega: hududlarning iqtisodiy mustaqilligi ham ma'lum chegaralarga ega, chunki u milliy iqtisodiyotning quyi tizimi bo'lib, uning alohida qismi sifatida qaralishi mumkin emas.Tabiiy-

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

iqlim sharoitlari va geologik-geografik omillar asosan hududiy iqtisodiyotni oldindan belgilab beradi. Turli tarmoqlar va ishlab chiqarishlar mavjudligi sababli, hududiy iqtisodiyot qoida tariqasida, o‘zini-o‘zi ta’minlaydigan tuzilmaga ega emas, bu ko‘plab hududlarning muayyan faoliyat sohalarida tor ixtisoslashuvini belgilaydi [21]. “Hududning investitsion jozibadorligi” tushunchasi juda keng va murakkab mazmunga ega. Aynan, uning tadqiqotlari ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimiz va xorij olimlarining katta e’tiboriga sazovor bo‘lmoqda. Biroq, iqtisodiy adabiyotlarda bu konsepsiya uning mohiyati va iqtisodiy mazmunini aniqlashning yagona yondashuvi bo‘yicha haligacha konsensus mavjud emas. Bundan tashqari, qo‘shimcha tadqiqotlar mintaqaning investitsion jozibadorligini boshqarishning oqilona mexanizmini shakllantirish, shuningdek, uning tarmoqlarini rivojlantirishga investitsiya kiritishning maqsadga muvofiqligini baholashni talab qiladi.

Tadqiqot jarayonida biz mintaqa kabi murakkab obyektni tizim sifatida ko‘rib chiqamiz, bu haqda to‘liqroq va batafsilroq tushunchaga ega bo‘lish va uning elementlari o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga harakat qilamiz. Tizimli yondashuvning o‘ziga xosligi umumiy ilmiy metodologik tamoyillarga asoslanib, obyektni tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkoniyatini berishi bilan belgilanadi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan hududning investitsion jozibadorligi elementlarining o‘zaro ta’sir mexanizmi 2-rasmda ko‘rsatilgan.

Investitsion jozibadorlikni boshqarish jarayonining subyektlari iqtisodiy tizimning asosiy ishtirokchilari investitsiya faoliyatini olib boruvchilar va kiritilgan investitsiya orqali daromadlarni olishga manfaatdor biznes vakillari, davlat va xodimlardir. Hududning investitsion jozibadorligi obyektlari iqtisodiyotning quyi tarmoqlari, hududiy korxonalar, hududiy investitsion loyihalardir. Subyektlar va obyektlar o‘rtasida investitsiya jozibadorligini shakllantirish, boshqarish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va mazmunini belgilaydigan qulay muhitda bir-biri bilan chambarchas uzviy bog‘langan. Aynan, qulay shart-sharoitlar, imtiyozlar va boshqa sharoitlar mamlakat investitsion faolligini ham belgilab beradi.

Shunday qilib, hududning investitsion jozibadorligini boshqaruv jarayoni hududning barcha xususiyat va jihatlarini qamrab oladi. Hududning investitsion jozibadorligining asosiy elementlari bo‘lib investitsion jozibadorlikka ta’sir etuvchi omillar, investitsiya jarayoni va investitsion daromad bo‘lib hisoblanadi.

XULOSA

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, hududning investitsion jozibadorligining iqtisodiy mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, hududiy xususiyatlariga va natijada investorning investitsiyalarni muqobil tanlovi afzalliklarini belgilaydigan sanoatning o‘ziga xos ishlab chiqarish natijalariga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, olib borilgan ilmiy va nazariy izlanishlardan kelib chiqib, rivojlangan mamlakatlarning amaliy tajribasi, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash yo‘lida hududning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsion jozibadorlikni oshirish borasida qabul qilingan qonunlari, ishlab chiqilgan qarorlarini o‘rganish, hududlarga maqsadli investitsiya loyihalarini kengroq jalb etish bo‘yicha ishlab chiqilgan usul va uslublarining kerakli jihatlarini Respublikamiz hududlarining iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib tatbiq etish muhim hisoblanadi. To‘plangan amaliy tajribalarni hududlarning rivojlanish tendensiyaga muvofiq holda tatbiq etilishi hamda tavakkalchilikni pasaytirishga, mavhumlikni oldi olinishiga, yuqori samaradorlikning ta’minlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent, 2018-yil 28-dekabr. – www.lex.uz
2. 2030-yilgacha O‘zbekistonni ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirish Konsepsiyasi. – www.lex.uz
3. Зарипова И.Р., Хафизова В.Р. Баланс финансовых ресурсов территорий. 5-изд. Уфа: ГП Принт, 2014, с.86-90 9. Верхолаз М.А. Влияние степени использования экономического потенциала на состояние местных бюджетов. 6-изд. Белград: Искра, 2015, с.24-26 10. Сабитова Н.М. О понятии финансового потенциала региона и методологии его оценки // Финансы, 2016, №2,с.63-65.
4. Коломнец А.Л., Новикова А.И. О соотношении финансового и налогового потенциалов в региональном разрезе. //Налоговый Вестник, 2018, №3, с.-5; 12. Королева Н.В. Бюджетно-налоговая политика – как проявление экономической политики. Региональный аспект: 6-изд. Сыктывкар: Изд. Сыктывкарского Гос. Университета, 2014, с. 101- 106.
5. Sh.I.Mustafakulov, Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. –BMA. 2017. 208-b.
6. Астанакулов, О. Т. Т. Ф., Х. С. Т. Ф. Асатуллаев, and С. У. Халиков. “Анализ и оценка эффективности инвестиционных проектов.” Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон журнали (2018).
7. Абыкаев, Н. Инвестиционный потенциал и экономический рост / Н. Абыкаев // Экономист. – 2000. – № 6. 14 стр.
8. Кретинин, В.А. Инвестиционная привлекательность региона / В.А. Кретинин. – Режим доступа: (http://www.amr.vladimir.ru/text/kret1.htm).
9. Рябов, Ю.П. Понятие и виды инвестиционной привлекательности / Ю.П. Рябов, Е.П. Рябова // Современная аграрная экономика: проблемы и решения: сб. науч. трудов. – Ч. 1. – Воронеж, 2006. – С. 220-224.
10. Асатуллаев, Х., Б. Турсунов, and А. Маманазаров. “Корхоналарни ривожлантириш стратегияси.” –Маърузалар матни. –224 (2019).

11. Боброва, И.И. Инвестиционная рулетка. Мистика финансовых рисков / И. Боброва, В. Зимин. – М.: Вершина, 2006. – 480 с.
12. Гришина, И. Комплексная оценка инвестиционной привлекательности и инвестиционной активности российских регионов: методика определения и анализ взаимосвязей / И. Гришина, А. Шахназаров, Н. Ройзман // Инвестиции в России. – 2001. – №4. – С.
13. Марков, С.М. Разработка стратегии повышения инвестиционной привлекательности регионального промышленного комплекса: Дис. кан. экон. наук / С.М. Марков. – М.: РГБ, 2003. – Режим доступа: (diss.rsl.ru/diss/03/0666/030666026.pdf)
14. Закшевский, В.Г. Инвестиционная привлекательность сельскохозяйственного предприятия / В.Г. Закшевский, Н.А. Захарова. – Воронеж: ГНУ НИИЭОАПК ЦЧР РФ, 2004. – 178 с.
15. Рябов, Ю.П. Понятие и виды инвестиционной привлекательности / Ю.П. Рябов, Е.П. Рябова // Современная аграрная экономика: проблемы и решения: сб. науч. трудов. – Ч. 1. – Воронеж, 2006. – С. 220-224.
16. Марков, С.М. Разработка стратегии повышения инвестиционной привлекательности регионального промышленного комплекса: Дис. кан. экон. наук / С.М. Марков. – М.: РГБ, 2003. – Режим доступа: (diss.rsl.ru/diss/03/0666/030666026.pdf).; Самойлова, Л.Б. Оценка инвестиционного климата региона: теория, методика, практика. – Режим доступа: (conf.rvshu.ru/rus/conf1doclads/ samoylova.doc).
17. Iqtisodiyotda korxonalar investitsiyaviy faolligini oshirish yo‘llari. O Astanakulov, X Asatullayev - Obshestvo i innovatsii, 2021.
18. Машкин, А. Инвестиционная привлекательность региона / А. Машкин. – Режим доступа: (www.consult.ru.text1.mash.htm).
19. Крылов Э.И. Анализ финансового состояния и инвестиционной привлекательности предприятия: Учеб. пособие / Э.И. Крылов, В.М. Власов.- М.: Финансы и кредит, 2003. – 192 с.
20. Xasanov, R., Asatullayev, X., Suvonqulov, A., & Xakimov, X. (2013). Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash. O‘quv qo‘llanma. T.:“Iqtisod-Moliya.
21. Strategic support for accounting for the investment process in the innovation industry. OT Astanakulov, KS Asatullaev, NI Saidaxmedova… – Journal of Advanced Research In Law And Economics, 2019.



KICHIK BIZNES UCHUN MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA VOSITALARI: XORIJIY TAJRIBA

Xolikov Sarvar Xayitbayevich
Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya: Dunyo iqtisodiyotidagi vaziyat mamlakatda barqaror iqtisodiyotni mustahakamlashni taqozo etadi. Barqaror taraqqiyotni ta’minlashda mamlakat iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan kichik biznesni rivojlantirish va unga har tomonlama ko‘mak berish hamda qo‘llab-quvvatlash qator muammolarning barham topishiga yordam beradi. Maqola real sektorda faoliyat yuritayotgan iqtisodiyotning lokal tarmoqlaridan sanalgan kichik biznesni moliyalashtirish masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Kichik va o‘rta korxonalar, muqobil moliyalashtirish, moliyaviy vosita, faktoring, venchur kapitali, elektron onlayn moliyalashtirish, lizing, biznes farishtalar.

Abstract: The situation in the global economy requires strengthening a stable economy in the country. The development of small businesses operating in the country’s economy, comprehensive assistance and support to ensure sustainable development will help solve a number of problems. The article is devoted to the financing of small enterprises in local sectors of the economy operating in the real sector.

Key words: Small and medium businesses, alternative financing, financial instrument, factoring, venture capital, electronic online financing, leasing, business angels.

Аннотация: Ситуация в мировой экономике требует укрепления стабильной экономики в стране. Для обеспечения устойчивого развития малого бизнеса в стране, всесторонняя помощь и поддержка помогут решить ряд проблем. Статья посвящена финансированию малого бизнеса локальных секторов экономики, работающих в реальном секторе.

Ключевые слова: Малые и средние предприятия, альтернативное финансирование, финансовый инструмент, факторинг, венчурный капитал, электронное онлайн-финансирование, лизинг, бизнес-ангелы.

KIRISH

Jahonda kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab quvvatlash va ular faoliyatini samarali rivojlantirish bo‘yicha turli moliya-kredit vositalardan foydalanish xalqaro moliya muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu vositalar asosida davlat kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha qulay muhit sharoitini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1]. Biroq, hozirgi global pandemiya davrida mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabning keskin pasayishi, pul oqimlari harakatining susayishi, naqd pulga bo‘lgan ehtiyojning tug‘ilishini oldini olish uchun Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlarida kichik biznes subyektlarini qo‘llab quvvatlash uchun uch yo‘nalishdagi kreditlar ajratildi [2]. Shuningdek, Covid-19 pandemiyaga qarshi AQSH hukumati 5 ta qonun ishlab chiqdi, uchinchi qonun aynan 2020-2030-moliya yilida qo‘llab-quvvatlash dasturi bo‘yicha kichik biznesni qo‘shimcha kreditlash va ularga imkoniyatlar yaratishga davlat budjetidan 377 mlrd.dollarlik mablag‘ ajratildi. Bu o‘z navbatida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot uchun yanada ahamiyatli ekanligidan va uni rivojlantirishda moliya-kredit mexanizmi vositalaridan samarali foydalanish zarurligidan dalolat beradi [3].

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinlik berish orqali kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, jumladan ularning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish, bojxona boji va soliq to‘lovlari bo‘yicha imtiyozli tizim joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, kichik biznes korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Kichik va o‘rta korxonalarni moliyalashtirish muammosi eng uzoq davom etgan va hal qilib bo‘lmaydigan iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilishning barcha yondashuvlari, u yoki bu tarzda, kichik biznesni moliyalashtirishning ikkita tubdan farq qiladigan manbalari - boshlang‘ich kapital (yoki

o‘z mablag‘lari) va korxonani rivojlantirish uchun tashqaridan jalb qilingan mablag‘lar orqali qoplanadi. Rivojlanishning dastlabki bosqichida kichik biznes uchun boshlang‘ich kapital odatda cheklangan va uni hisobga olish mumkin emas, buni faqat barqaror rivojlantirish manbasi sifatida qarash mumkin. Shuning uchun kichik va o‘rta korxonalar moliyalashtirishning turli xil tashqi manbalari va mexanizmlariga murojaat qiladilar. Ma’lumki, bunga bo‘lgan ehtiyoj 2008-2010-yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida va undan keyin, xom-ashyoga qaramlikdan xalos bo‘lish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda ustuvor vazifaga aylanganda yanada sezilarli bo‘ldi. Aynan, kichik biznes iqtisodiyotning eng lokal tarmog‘i sifatida tez moslashuvchan va yangi bozorlarni topish imkoniyatining mavjudligi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratish va iqtisodiyotning boshqa segmentlarida o‘sish nuqtalariga aylanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu ayniqsa, ishlab chiqarishning tez rivojlanayotgan innovatsion sohalariga yo‘naltirilgan, ko‘pincha yangi yuqori texnologiyali texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan kichik biznes korxonalariga taalluqlidir. Ularning rivojlanishi turli xil va foydalanish mumkin bo‘lgan moliyalashtirish manbalarini talab qiladi, ular orasida an’anaviy bank krediti asosiy rol o‘ynaydi. Hozirgi vaqtda milliy bozorda tashqi bozorlarga chiqish cheklovlari mavjud va bu mahalliy banklarning kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni moliyalashtirish qobiliyatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki, mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish va moliyaviy qo‘llab quvvatlash maqsadida 2023-yilda “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-193-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni qabul qilindi [4]. Hujjatga muvofiq, davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlardan samarali foydalanish, ularning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlash maqsadida 2024-yil 1-iyuldan boshlab:

- kredit ajratishning barcha bosqichlari (arizani ko‘rib chiqish, qaror qabul qilish, kafillik berish va kredit ajratish) raqamlashtirilgan holda elektron platformalarda amalga oshirilishi;
- kredit ta’minotlarini nazorat qilish, garovga olingan mulklarni taqiqdan to‘liq yoki qisman chiqarish hamda almashtirish jarayonlari elektron platformalar orqali markazlashgan holda tashkil qilinishi;
- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mijozlar biznes-rejalar asosida faoliyat yuritayotgani, pul oqimlari va boshqa ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali xatarlar oldindan aniqlanishi;
- davlat dasturlari doirasida tuman (shahar) va mahallalarga ajratiladigan kreditlar hajmi yuzaga kelgan muammoli kreditlar ulushidan kelib chiqib belgilanishi ko‘rsatildi.

Xususan, 2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar davlat xaridlari maxsus axborot portalida davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlariga o‘zlari ishlab chiqargan tovarlarni (mahsulotlarni) davlat buyurtmachilariga bir moliya yili davomida jami 10 milliard so‘mgacha qiymatda to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida sotishga ruxsat berilishi belgilandi. 2024–2026-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlariga Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori va asosiy stavkaning 1,75 baravaridan oshmagan stavkada milliy valyutada 5 milliard so‘mgacha ajratiladigan kreditlar bo‘yicha asosiy stavkaning 40 foizigacha miqdorda uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga kompensatsiya taqdim etilishi belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzu doirasida ko‘plab xorijlik va maxalliy iqtisodchi olimlar tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olimlardan O. R. Romanenkoning fikricha, “moliyaviy mexanizm –bu iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismi bo‘lib, moliyaviy rag‘batlantiruvchi omillar, vositalar, dastaklar, iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarni tartibga solishning shakl va usullari majmuasidan iboratdir”. Bundan kelib chiqqan holda tijorat korxonalarining moliyaviy mexanizmi, notijorat korxona va muassasalarning moliyaviy mexanizmi, sug‘urta mexanizmi hamda davlat moliyaviy mexanizmlarini ajratib ko‘rsatish mumkin [5]. Moliya mexanizmi ichki tuzilmasining tarkibiy elementlari bo‘lib, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy dastak va vositalar, moliyaviy ko‘rsatkichlar, normativ me’yoriy hujjatlar va imtiyozlar, moliyaviy nazorat, moliya xuquqi kabilar hisoblanadi. Xorijlik iqtisodchi olimlardan A. I. Balabanov va I. T. Balabanovlarning fikrlariga ko‘ra, moliyaviy mexanizm korxonalar, tashkilotlarning moliyaviy resurslarini rag‘batlantirish maqsadida foydalanish va rejalashtirish jarayonida moliya dastaklari harakatini ifodalovchi tizimni tashkil etadi, deb ko‘rsatiladi [6]. Boshqa tomondan, “moliyaviy mexanizm davlat tuzilmalari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida moliyaviy resurs mablag‘larini yaratish va ulardan foydalanish jarayonidagi davlatning moliyaviy faoliyatini boshqarishning iqtisodiy-tashkiliy va huquqiy shakllari va usullari to‘plamidir” [7]. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ta’rif mazmunidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mazkur iqtisodchi olimlar moliya-kredit mexanizmiga umumdavlat miqyosiga alohida to‘xtalib o‘tib, korxonalarda moliya-kredit mexanizmlarining mavjudligini butunlay inkor qiladi. Y. I. Shoxinning fikricha, “moliyaviy mexanizm – rejalashtirilgan strategik maqsadlarga erishish uchun moliyaviy boshqaruv subyektlari va obyektlariga ta’sir ko‘rsatishning shakl va usullari to‘plamidan iboratdir”. U moliyaning funksiyalarini to‘liq va samarali bajarilishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega [8]. Mamla-katimiz iqtisodchi olimlaridan A. Vahobov va T. Malikovlarning ta’kidlashicha, “moliyaning funksiyalari moliya mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizm milliy xo‘jalikdagi moliyaviy munosabatlar tashkiliy shakllarining majmuini,

markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini, moliyaviy rejalashtirish metodlarini, moliya va moliya tizimini boshqarish shakllarini, moliyaviy qonunchilikni o‘z ichiga oladi” [9]. Yana bir maxalliy yosh iqtisodchi olimlarimizdan O. T. Ergashev O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [10].

Fikrimizcha, korxonalarning moliyaviy mexanizmi bu iqtisodiy qonunlar talablariga muvofiq ishlab chiqarishning yakuniy natijalariga samarali ta’sir ko‘rsatish maqsadida moliyaviy munosabatlar va pul mablag‘lari fondlarining o‘zaro aloqasini tashkil etishga mo‘ljallangan korxona moliyasini boshqarish tizimidir. Bu moliyaviy resurslarni jalb etish, rejalashtirish, rag‘batlantirish va ulardan foydalanishda ifodalagan moliyaviy vositalarning harakat tizimi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish va moliyaviy qo‘llab quvvatlash hamda moliyalashtirish masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganishda statistik ma’lumotlar, tanlanma usulda belgilash, nazariy falsafiy, obyektiv yondashuv, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. To‘plangan ma’lumotlar asosida tizimli hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti mamlakatlari amaliyotida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishda turli moliyaviy vositalardan foydalaniladi. An’anaviy bank kreditlari bilan bir qatorda boshqa vositalar ham keng qo‘llaniladi. Biroq, jadvalda keltirilgan barcha moliyaviy vositalar barcha kichik biznes subyektlari uchun bir xil darajada mos kelmaydi. Moliyalashtirishning optimal usulini tanlash korxona faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘plab holatlarga, shuningdek, korxonaning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Moliyalashtirish usulini tanlashda asosiy omillar quyidagilardir: korxonaning tavakkalchilik va daromadlilik nisbati, korxona hozirda joylashgan biznes siklining bosqichi, korxona biznesining ko‘lami, uning boshqaruv tuzilmasi va daromad darajasi. moliyaviy malaka.

1-jadval: Kichik biznesni moliyalashtirishning muqobil vositalari

Xavfsizlik darajasi past bo‘lgan moliyaviy vositalar	Xavfsizlik darajasi unchalik past bo‘lmagan moliyaviy vositalar	Xavfsizlik darajasi o‘rtacha past bo‘lgan moliyaviy vositalar	Xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan moliyaviy vositalar
Mablag‘lar orqali moliyalashtirish	**Muqobil vositalar**	**Yirik vositalar**	**Moliyalashtirishning qarz vositalari**
kredit; faktoring; savdoni moliyalashtirish; mahsulotlarni omborda saqlashni moliyalashtirish; lizing.	korporativ obligatsiyalar; qimmatli qog‘ozlarni garovga qo‘yish; Qarz mablag‘lari jamg‘armasi; kredit mablag‘lari jamg‘armasi.	Ssudalar; foyda olish huquqidagi aksiyadorlik kreditlari; Konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar; Obligatsiyalar.	To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar; Venchur kapitali; Biznes farishtalar; Ommaviy moliyalashtirish

Turli xil kichik biznes subyektlari uchun turli xil moliyaviy vositalarning muvofiqligining taxminiy diagrammasi keltirilgan. Shunday qilib, IHTT mamlakatlaridagi kichik va o‘rta korxonalar o‘zlarining sharoitlariga qarab, keng ko‘lamli moliyalashtirish vositalaridan foydalanadilar.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, lizing ikki tomon o‘rtasidagi shartnoma bo‘lib, unda bir tomon (lizing beruvchi) ma’lum bir haq evaziga boshqa tomonga (lizing oluvchiga) ma’lum muddatga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun mol-mulk beradi. Lizing xalqaro buxgalteriya standartlarida ta’riflangan va qayd etilgan alohida IAS 17 moddasiga ega [11]. Ko‘pgina tadqiqotlar lizingning kichik biznes subyektlarini rivojlantirishdagi o‘rniga bag‘ishlangan bo‘lib, xususan, ushbu moliyalashtirish vositasini tanlashda asosiy omillar boshqa moliyalashtirish vositalariga nisbatan narx va nisbiy imtiyozlar ekanligi aniqlandi. So‘nggi yillarda Yevropada lizing operatsiyalarining umumiy hajmi yiliga o‘rtacha 6-9 foizga barqaror o‘sib bormoqda, lizing operatsiyalarining qariyb yarmi kichik va o‘rta korxonalar tomonidan amalga oshirilmoqda. Rossiyada lizingning tarqalishi Yevropa ko‘rsatkichlaridan ortda qolmoqda, ammo asta-sekin o‘sib bormoqda [12].

Faktoring savdo biznesini moliyalashtirish bo‘yicha moliyaviy xizmatlar turlaridan biri sifatida ta’riflanadi, bunda tovar yetkazib beruvchi va xaridoridan tashqari faktor (faktoring kompaniyasi yoki bank) ishtirok etadi. Muayyan ish haqi uchun omil mahsulot uchun to‘lov uchun d’vo sotib oladi va keyinchalik sotuvchiga to‘laydi. Ushbu xizmat turi savdoda to‘lovlarni kechiktirish muammosini sezilarli darajada hal qilish imkonini beradi va, bir tomondan, etkazib beruvchiga kredit berish, unga savdo hajmini oshirish imkonini beradi, ikkinchi tomondan, xaridorga savdo krediti beradi; bu unga xaridlar hajmini oshirish imkonini beradi. Faktoring savdo

uchun muqobil moliyalashtirish vositasi sifatida tobora ommalashib bormoqda. So‘nggi yillarda faktoring hajmlarining umumiy o‘sishi bir qator mamlakatlarda pasayib borayotganiga qaramay davom etdi [13]. Faktoring operatsiyalari hajmining o‘sishi bir qator mamlakatlarda muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga qo‘shimcha ravishda maxsus qonun hujjatlari ishlab chiqilishiga olib keldi. Masalan, AQSHda faktoring to‘g‘risidagi qonun mavjud bo‘lib, u faktoring operatsiyalarining barcha jihatlarini batafsil o‘z ichiga oladi, muntazam ravishda yangilanadi va to‘ldiriladi [14]. Ushbu qonun matni shunday tuzilganki, unda nafaqat barcha manfaatdor tomonlarning huquq va majburiyatlari tavsifi hamda ularga sharhlar beriladi, balki faktoring shartnomalarining har xil turlariga misollar, huquqni qo‘llash amaliyotidan aniq dalillar, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy va soliq hisobotlarini yuritish bo‘yicha ko‘rsatmalar va foydalanuvchilar uchun boshqa qo‘shimcha materiallar keltirilgan [15].

Venchur kapitalini kichik innovatsion korxonalarning aksionerlik kapitaliga ularning yaratilish va mahsulot ishlab chiqarish bosqichlarida kiritiladigan mablag‘ sifatida qaraydilar. Ular venchurli investitsiyalash jarayonini yuqori o‘sish salohiyatiga ega bo‘lgan kichik innovatsion kompaniyalar aksionerlik kapitalini investitsiyalash sifatida, maslahat yordami va ma’lum ma’noda qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish sifatida qaraganlar. Ko‘rinib turibdiki, iqtisodchilar moliyaviy mablag‘ kiritish bilan bir qatorda inson kapitalining dolzarbligini ta’kidlaydilar. Kortum S., Lerner J., Stevenson H. H., Muzyka D. F., Timmons J. A. va boshqa bir qator olimlar esa iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida yuqori risk darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan venchur kapitali qo‘yilmalarini baholashning empirik tahlilini amalga oshirishgan [16].

Venchur kapitaliga investitsiyalar kichik va o‘rta korxonalar uchun moliyalashtirishni jalb qilish uchun yana bir imkoniyatdir. Venchur kapitaliga investitsiyalar yildan-yilga kuchli o‘zgaruvchanlikka duchor bo‘ladi va shuningdek, investitsiyalar hajmining mamlakatlar o‘rtasida katta tarqalishi bilan tavsiflanadi. Venchur investitsiyalarining eng katta hajmi an’anaviy ravishda Qo‘shma Shtatlarda qayd etilgan. Xususiy mablag‘larga bo‘lgan bunday ustunlik so‘nggi paytlarda doimiy hodisa bo‘lib kelgan. Elektron onlayn moliyalashtirish xususiy iste’mol kreditlari va biznesni rivojlantirish maqsadlari uchun qarz olish vositasidir. Ushbu moliyalashtirish segmentida shubhasiz etakchi Xitoy hisoblanadi. Xitoydan tashqari, ushbu moliyalashtirish usuli, xususan, AQSH, Janubiy Afrika va Kanadada mashhurlik kasb etmoqda. AQSHda bunday operatsiyalar hajmi 2015-yildagi 28,7 dan 2016-yilda 35,2 milliard AQSH dollariga ko‘tarildi, ya’ni. o‘sish yiliga 23% ni tashkil etdi [17]. Yevropada ushbu moliyalashtirish usuli bir qator mamlakatlarda ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida 2016-yilda Buyuk Britaniya, Fransiya va Niderlandiya yetakchilardan bo‘lgan. So‘nggi yillarda Internet ijtimoiy tarmoqlaridagi saytlardan qarz olish jadal rivojlanmoqda va uning hajmi 2013-yildan boshlab har yili o‘rtacha ikki barobar ortib bormoqda. Bunday operatsiyalar hajmi Xitoyda ayniqsa tez sur’atlar bilan o‘sib bormorqda, bu yerda “r2r” – kreditlash vositalari juda mashhur bo‘lgan. Kichik biznes subyektlari bunday mexanizmlardan nafaqat qo‘shimcha moliyalashtirish, balki o‘z biznes loyihasiga jamoatchilik e’tiborini jalb qilish hamda shu orqali uni potensial kreditorlar va investorlar nazarida moliyaviy jihatdan jozibador va ishonchli qilish uchun ham foyda ko‘radi. Jamoatchilik qiziqishining ortishi ham reklama o‘rnini bajarishi bilan birga matbuot va biznes hamjamiyatining qo‘shimcha e’tiborini jalb qilishi mumkin.

Elektron onlayn kreditlash bozoridagi faollikning oshishi bir qator mamlakatlarda (Avstriya, Xitoy, Avstraliya) bunday operatsiyalar hajmining o‘sishini rag‘batlantiradigan qonunlarning qabul qilinishiga olib keldi. Buyuk Britaniya va Belgiyada soliq imtiyozlari joriy qilingan va bunday operatsiyalar ishtirokchilari uchun amal qiladi. Ushbu moliyalashtirish vositasining afzalliklari mustahkam kredit tarixiga ega bo‘lmagan va bank kreditlash bozorida yuqori xavfga ega bo‘lgan kichik kompaniyalar uchun qulaydir. Bunday kompaniyalar an’anaviy bank kreditlash bozoriga qaraganda onlayn elektron vositalardan moliyalashtirish manbalarini topish imkoniyatiga ega. Misol uchun, 2016-yilda AQSHda o‘z faoliyatini boshlagan kichik kompaniyalar onlayn elektron kreditlash bozoridagi arizalarning 45 foizida, kichik banklardan esa atigi 35 foizida va yirik banklardan 25 foizida o‘z arizalari ma’qullangan. Biznes farishtalari yoki kichik xususiy venchur investorlar (yoki ularning kombinatsiyasi) kichik biznes uchun boshqa mumkin bo‘lgan moliyalashtirish manbasini ifodalaydi. U rivojlanishning dastlabki bosqichida bo‘lgan va tez o‘sish potensialiga ega, ammo rivojlanish uchun yetarli shaxsiy mablag‘ga ega bo‘lmagan va yirik institutsional investor yoki investitsiya fondini jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan kompaniyalar tomonidan qo‘llaniladi. Ko‘pgina biznes farishtalarning o‘zlari ilgari muvaffaqiyatli tadbirkor bo‘lgan va kichik innovatsion kompaniyalardan o‘sgan. Shuning uchun, ko‘pincha biznes farishtalari nafaqat bunday investitsiyalarning moliyaviy tomoni, balki innovatsion g‘oya va o‘z tajribasini qo‘llash imkoniyati bilan ham jalb qilinadi, bu esa yosh kompaniyaga rivojlanish uchun investitsiyalardan tashqari, biznes farishtasidan ekspert yordamini oladi. Ishbilarmon farishtalar odatda to‘g‘ridan to‘g‘ri kapital evaziga yoki konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar orqali investitsiya qiladilar va kompaniya ma’lum bir rivojlanish darajasiga yetgunga qadar va biznes farishtaning o‘rnini yirikroq venchur kapital investori egallaguncha kompaniyada mavjud bo‘lib qoladilar. Yevropada ishbilarmon farishtalarning umumiy soni 20 mingga yaqin bo‘lib, ular (agar hammasi bo‘lmasa, ularning muhim qismi) 250 dan ortiq milliy yoki mintaqaviy birlashmalarga birlashgan, ular o‘z navbatida Yevropa Ittifoqiga birlashgan. Shunday qilib, biznes farishtalari tomonidan investitsiyalar rivojlanishning dastlabki bosqichida

kompaniyalarga kiritilgan barcha investitsiyalarning 2/3 qismidan ko‘prog‘ini tashkil etdi. Bitta startapga biznes farishtalarining o‘rtacha sarmoyasi 22 500 yevroni tashkil qiladi. Qo‘shma Shtatlarda biznes farishtalari investitsiyalari hajmi ham o‘sib bormoqda va 2016-yilda ikki baravardan ko‘proq oshdi. Ishbilarmon farishtalarning eng yirik assotsiatsiyasi – Amerika farishtalari uyushmasi 13 mingdan ortiq ’zoga ega. Har yili AQSHda biznes farishtalar taxminan 64 ming loyihaga 25 milliard AQSH dollari sarmoya kiritadilar va o‘rtacha investitsiyalar hajmi 25 dan 50 ming AQSH dollarigacha o‘zgarib turadi, biznes farishtaning o‘rtacha portfeli 10-12 investitsiya qilingan startaplarni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, sanoati rivojlangan mamlakatlarda biznes farishtalar va shunga o‘xshash investorlar hamjamiyatlari faoliyati milliy qonunchilik darajasida ham, korporativ boshqaruvning ichki standartlari darajasida ham muvofiqlashtiriladi. Kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash IIHT davlatlari kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashning turli mexanizmlaridan foydalanadilar. Moliyadan foydalanishni ta’minlash uchun bozor vositalarining rivojlanishi, shuningdek, makroiqtisodiy jarayonlarga ta’siri ostida takomillashtiriladigan va kichik biznes subyektlari manfaatlarini himoya qilish uchun foydalaniladigan qonunchilik va me’yoriy-huquqiy baza mavjud. Ko‘pgina mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning maxsus mexanizmlari ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda.

XULOSA

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishning muqobil vositalari bozor mexanizmlari asosida ham, bozor mexanizmlari yordamida ham rivojlanmoqda. Hozirgi vaqtda qo‘llanilayotgan kichik o‘rta biznesni moliyalashtirishning muqobil mexanizmlarining xilma-xilligi muayyan korxona uchun eng mos variantini tanlash imkonini beradi. Hozirda mamlakatimizda muqobil moliya-lashtirishning barcha mumkin bo‘lgan vositalaridan faol foydalanilmoqda. Muqobil moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish kichik va o‘rta korxonalar uchun iqtisodiy o‘sish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishga yordam beradi, ayniqsa, yosh rivojlanayotgan kompaniyalar uchun ancha qulayliklar tug‘diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://documents1.worldbank.org/curated/en/688761571934946384/pdf/Doing-Business-2020-Comparing-Business-Regulation-in-190-Economies.pdf. 2020 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW, Washington, DC 20433.
2. https://unctad.org/system/files/official-document/osg2020d1_en.pdf. Impact of the Covid-19 Pandemic on Trade and Development.
3. For appropriations from all legislation, see Government Accountability Office (GAO), COVID-19: Opportunities to Improve Federal Response and Recovery Efforts, Report to the Congress, GAO-20-625, June 25, 2020, https://www.gao.gov/reports/GAO-20-625/.
4. https://sputniknews.uz/20231111/kichik-va-orta-biznesni-moliyaviy-qollab-quvvatlash-tizimi-takomillashtiriladi-40930215.html “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil qilinadi.
5. Asatullaev, X., B. Tursunov, and A. Mamanazarov. “Enterprise development strategy.” Text of lectures (2019).Романенко О.Р. Фінанси: Підручник. – К.: ЦНЛ, 2003. – 312 с.
6. Sh. Tashmatov, X.S. Asatullayev, Z.G. Allaberganov - Toshkent” Iqtisod-Moliya, 2019.
7. Базилевич В.Д., Бонастрик Л.О. Государственные финансы. / За ред. Базилевича В.Д. – К.: Атика, 2004. 380 с.
8. ХС Асатуллаев Теоретические аспекты фискальной политики в условиях развития. – Modern Economy Success, 2021.
9. Rano Mardanova, Olim Azizov, Xurshid Asatullayev Beginning of fundamental reform of the stock market in the Republic of Uzbekistan // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 2019. №6 (26). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/beginning-of-fundamental-reform-of-the-stock-market-in-the-republic-of-uzbekistan (дата обращения: 30.01.2024).
10. O.Ergashev “O‘zbekistonda kichik biznes sub’ektlarini rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish” nomli monografiya – Toshkent: “Iqtisod-moliya” nashriyoti., 2023 y., 163 bet.
11. O. Astanakulov, X. Asatullayev Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish omillari: nazariya va amaliyot uyg‘unligi. - Obshestvo i innovatsii, 2021.
12. Рынок лизинга в 2016 году: оттепель начинается. Аналитический центр НАФИ. Assocleasing.ru. [Электронный ресурс]. URL: http://assocleasing.ru/files/File/ Documents/Leasingmarket2016_restart.pdf
13. Financing SMEs and Entrepreneurs 2018: An OECD Scoreboard, OECD Publishing. Read.oecd-ilibrary. [Электронный ресурс]. URL: https://read.oecd-ilibrary.org/ industry-and-services/financing-smes-and-entrepreneurs-2018_fin_sme_ent-2018- en#page
14. American Factoring Law with Cumulative. Bna.com. [Электронный ресурс]. URL:https://www.bna.com/ american-factoring-law-p11930
15. Mary H. Rose American Factoring Law. American Bankruptcy Institute Journal. [Электронный ресурс]. URL: https://www.bna.com/uploadedFiles/BNA_V2/Legal/ Products/Books/LESI/ABI_Journal_Review.pdf
16. Джураев, Т.х.асатуллаев, Л. Уличкина. “История экономических учений.” (2006).
17. Milliy iqtisodiyot sub’ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llari X Asatullayev, U Yakubov – Toshkent “IQTISOD-MOLIYa, 2020
18. Astanakulov, XS Asatullayev – Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnal, 2018.

SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA VA SUG‘URTA PORTFELI MUVOZANATIDA ANDERRAYTING XIZMATI



Sayfullo Mirzoyev
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi,
O‘zbekinvest” EISK AJ Korporativ mijozlar bilan ishlash va hududiy rivojlantirish departamenti Bosh menejeri

Annotatsiya: Maqolada sug‘urta kompaniyasi sug‘urta portfelini ishlab chiqish jarayonlarida asosan anderrayterlar faoliyat olib borishi yoritilgan. Ushbu holat asosan sug‘urta portfelidagi mijozlar to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotlar o‘rganilib, ular bilan kelgusida ishlash uchun amaliyotda bo‘lgan barcha statistik ma’lumotlar o‘rganilishi talab etilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: anderrayter, anderrayting, risk mukofotini hisoblash, risklarni hisoblash, sug‘urta portfeli, aktuar hisob-kitoblar, tarif stavkalari, marketing, sug‘urta majburiyati, sug‘urta mukofoti, zarar miqdori.

Abstract: The article explains that underwriters are mainly involved in the process of developing the insurance portfolio of an insurance company. This situation is mainly analyzed by studying the complete information about the clients in the insurance portfolio, and studying all the statistical data in the practice for future work with them.

Key words: underwriter, underwriting, risk premium calculation, risk calculation, insurance portfolio, actuarial calculations, tariff rates, marketing, insurance obligation, insurance premium, loss amount.

Аннотация: В статье поясняется, что в процессе формирования страхового портфеля страховой компании преимущественно участвуют андеррайтеры. Данная ситуация в основном анализируется путем изучения полной информации о клиентах в страховом портфеле, а также изучения всех статистических данных на практике для дальнейшей работы с ними.

Ключевые слова: андеррайтер, андеррайтинг, расчет премии за риск, расчет риска, страховой портфель, актуарные расчеты, тарифные ставки, маркетинг, страховое обязательство, страховая премия, размер убытка.

Anderrayter kim o‘zi?
Sug‘urta sohasiga anderrayter nimaga kerak?

Mazkur savolga javob beradigan bo‘lsak sug‘urta polisini qiymati anderrayter ko‘rigidan keyin jamoatchilikka e’lon qilinishi mumkin. Bunday javobni xaridorlar avvalo bank menejeridan eshitadi va sug‘urta kompaniyalari ham sug‘urta polisini bahosi bilan qiziqishadi.

Xorijiy investitsiyalar bilan birga sug‘urta sohasiga “anderrayting” va “anderrayter” so‘zlari kirib keldi. Xalqaro sug‘urta organlari ustidan nazorat qilish assotsiatsiya lug‘atida anderrayter bu sug‘urta kompaniyasini iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladigan sug‘urtalanuvchini arizasiga e’tibor bergan holda kompaniyani qanday risklarni qabul qilayotganligi, ulardan foyda ko‘rishi yoki zarar ko‘rish ehtimolini aniqlab beruvchilarni tushunish lozim.

Anderrayting bu sug‘urtalovchini risklarni aniqlash va ularga baho berish, sug‘urta tarif va shartlarini aniqlash, foyda beradigan sug‘urta portfelini shakllantirishni tushunish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilarga tayangan holda sug‘urta anderraytingining asosiy funksiyalariga e’tibor qaratsak, jumladan, ular quyidagilardan iborat:

1. Risklarga baho berganda, har qanday risk ma’lum parametrlari bilan: soni bo‘yicha keltirishi ehtimoli bo‘lgan zararlarni, matematik hisoblar bo‘yicha keltirayotgan zarar va hokazolarni o‘z ichiga oladi, sifat jihatdan yong‘inga qarshi choralar, signalizatsiya, uchuvchilarni tayyorgarligi, tajribasi hisobga olinadi.

2. Sug‘urta tariflarini adekvat tarifini belgilash.

3. Sug‘urtalashda shartnoma shartlarini hisobga olish kerakligi, foydani boshqarish, sug‘urta tariflari bo‘yicha turli ehtimolliklari hisobga olish va h.k.
4. Sug‘urta portfelini foydali bo‘lishini ta’minlash sug‘urta portfelini biz sug‘urta brutto – mukofotlari bo‘yicha anderrayting yili bo‘yicha, sug‘urtani ayrim turlari yoki hamma turlari bo‘yicha harajatlari agent va brokerlarini rag‘batlantirishga ketgan pullarni ham ko‘rib hisoblash kerak.

Anderraytingni amalga oshishi sug‘urta hodisasini tekshirish aniq sug‘urta hodisasini keltirib chiqargan zararni hisoblashda namoyon bo‘ladi.

Masalan, Kasko sug‘urtasida yerda yuradigan transportning parametrlari hisobga olinadi.


- avtomobil haydash uchun ruxsati (qo‘yilgan) bo‘lgan odamlarni yoshi transportni boshqarish tajribasi;
- franshizaning kiritilgan razmeri;
- avtomobilni olib qochishga qarshi qo‘yilgan texnika vositalari, avtomobilni kechasi saqlash va qo‘riqlash xavfsizligi hisobga olinadi.

Shunday qilib, anderrayting hamma riskni baholaydi va o‘zi uchun cxemalar tuzib oladi. Har bir sug‘urta turini bir necha xil parametrlari mavjud bo‘lib, sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimoliga ta’sir etib sug‘urta kompaniyasi uchun zararlar ko‘payishiga ham ta’sir qiladi.

Turli xil parametrlar aktuar hisoblar va tarif setkasini ishlab chiqishda hisobga olinishi sug‘urta kompaniyasi uchun zarurdir. Ammo anderrayterni funksiyasi juda keng bo‘lib, hatto qayta aktuariyadan ham kattadir.

Spetsifik risklar bo‘yicha sug‘urtalashda, jumladan, qurilish–montaj tarif setkasi, bu sohada juda kuchsiz bo‘lib, har bir shunday risk noyob hisoblanadi. Shunday hollarda anderrayterni mohiyati, bir tomondan tarif setkasiga e’tibor, aktuar hisoblarga ahamiyat, boshqa tomondan, axborotlarni yig‘ish, sug‘urta risklarini talab bo‘yicha qabul qilishda anderrayterni roli oshadi.

Anderrayter sug‘urtalash bilan bog‘liq hamma axborotlarni tahlil qilib, sug‘urta shartnomasini tuzish uchun o‘zining qarorini qabul qiladi hamda sug‘urta shartnomasini tuzishda anderrayterni roli nihoyatda kuchayib boradi.



Anderayter faoliyatining samaradorligi.

Sug‘urtalashda anderrayter faoliyatining samaradorligi sug‘urta kompaniyasi uchun foydali sug‘urta portfelini shakllantirib, anderrayting yordamida olinadigan foydani olishga zamin hozirlashdan iborat.

“Anderrayting foydasi” bu sug‘urta portfeli hajmi bilan sug‘urta kompaniyasi tomonidan ko‘rilgan zararga to‘lov (bu zarar uchun qayta sug‘urtalash operatsiyalari hisobga olinmaydi). Bu ko‘rsatkichlar (mukofot, ko‘rilgan zarar to‘lovi) aniq yil uchun anderrayting yiliga kalendar bo‘yicha amal qiladigan farqi bilan agar sug‘urta shartnomasi biror yil uchun tuzilgan bo‘lsa amal qiladi.

Samaradorlik ko‘rsatkichiga anderraytingning u yoki bu sug‘urta kompaniyada qay darajada anderrayting funksiyalarini sifatli bajarilganligiga bog‘liqdir. Oldinlari anderraytingni asosiy funksiyalariga risklarni baholash, sug‘urta tarifini adekvatligini hisobga olishi sug‘urtalash sharoiti va sug‘urtalash portfelini foydalilik darajasini aniqlash bilan bog‘langandi.


Oxirgi funksiya natija beruvchi anderrayting foydasi oldingi uchta funksiyani samarali bajarilganligi bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Anderraytingni samaradorligi sug‘urta portfelini foyda keltirishi darajasiga bog‘liq.

Sug‘urta kompaniyasida anderrayting tizimini joriy etishda avvalo biznes jarayonlari sug‘urtalashni ko‘zda tutish samara beradi. Biznes – jarayonlarini sug‘urtalashda anderrayting spetsifik hisoblanib biznes jarayonlarini o‘rganish sug‘urtalashda anderrayterni oldiga qo‘ygan funksiyalarini to‘g‘ri bajarilishiga olib keladi.

Risklarni analiz qilishda anderrayter o‘zini talabidan kelib chiqib, sug‘urta obyektini turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha klassifikatsiya qiladi, nostandart ko‘rsatkichlar bo‘yicha sug‘urta risklarini va keltirishi mumkin bo‘lgan zararlar bo‘yicha ayrish risklarni ajratib olish ularni sug‘urtalash sharoitlar bo‘yicha, belgilangan tariflari bo‘yicha rahbarlikka yondoshadi.

Agar qayta sug‘urtalashda hodisalar va jarayon qiyin bo‘lsa, unda anderrayter sotuvchi o‘rnida syurveyer yoki qayta sug‘urtalovchi anderrayter bilan birga sotuvchisiz o‘tkazadi.

Biznes jarayonlarini sug‘urtalashni o‘zaro aloqadorlik jarayonlari bo‘lib, misol uchun ushbu sxemada ayrim muammoli zonalarni ko‘rsatish mumkin.



Sxema muallif tomonidan tuzilgan.


1. Transport vositalari uchun boshqarish sistemasi motor bo‘lsa, xizmat ko‘rsatuvchi personalni kvalifiksiyasi bo‘ladi.
2. Sanoat obyektlari uchun – chiqarish va kiritishni tizimli energiya uzatuvchilarni transformator gazlarni taqsimlagich stansiyalar va h.k., qo‘riqlash tizimi, signalizatsiya, favqulotda aloqa, xavfli ishlab chiqarish obyektlari, yong‘inni o‘chirish, skladlarni qo‘riqlash.
3. Binolar uchun – devordagi material, elektr isitgich tizimi, suv bilan ta’minlash, yong‘inga qarshi tizim, yerto‘la va boloxona kabi binolar muammoli bo‘ladi.

Anderrayter tomonidan sug‘urta kompaniyani sug‘urtasiga quyidagilar kirishi mumkin. Sug‘urtalanuvchi obyektlarining umumiy soni sug‘urta mukofotlari, sug‘urta hodisalarini soni, sug‘urta hodisalarini foizdagi ifodasi, keltirilgan zarar miqdori, o‘rtacha tarif, reja bo‘yicha rejalashtirilgan zararlar, o‘rtacha tarif bo‘yicha sug‘urta portfelini strukturalash.

Avvalo sug‘urta portfeli deganda biz hamma brutto-mukofotini, anderrayting yilida o‘tkazilgan pullarni hamma sug‘urta turlari bo‘yicha, sarflangan harajatlarni (sug‘urta agentlariga, brokerlariga ketgan rag‘batlantirish mablag‘larini hamda sug‘urta ishini olib borish uchun ketgan harajatlarni chiqarib tashlash tushuniladi.

Sug‘urtalashda bu moliyaviy-xo‘jalik mablag‘larini turli tuman risklardan himoyalash vositasi hisoblanib, mulkiy manfaatlarni, jismoniy va yuridik shaxslarni turli xil kutilmagan voqea va hodisalardan himoyalash, ma’lum bir pul to‘lash orqali sug‘urta vznosi shaklida amalga oshirib boriladi.

Sug‘urtani asosiy biznes jarayoni marketing orqali, sug‘urta xizmatlarini realizatsiya qilish anderrayting ishtirokida turli shartnomalarni rasmiylashtirish va uni tartibga solish hamda zararlarni ham boshqarish zaruriyat hisoblanadi.



Anderrayting butun sug‘urta munosabatlarida asosiy bo‘g‘in hisoblanib butun sug‘urta kompaniyasi tizimini, ayniqsa, foyda va zararni tartibga soladigan bo‘limdir.

- sug‘urtaga qabul qilinadigan obyekt har tomonlama anderrayting tizimi orqali o‘rganilib, riskni darajasiga qarab shartnoma tuziladi. Agar risk juda katta bo‘lsa, shartnoma tuzishdan kompaniya voz kechadi.
- tadbirlar ishlab chiqilib sug‘urta portfelini himoya qilish asosiy maqsadlardan biriga aylanadi.
- sug‘urta risklarini pasaytirish uchun turli tadbirlar ishlab chiqiladi.
- umuman anderraytingni maqsadi risklarni tanlab olish sug‘urta portfeli, sug‘urta turlari bo‘yicha mijozlar bilan shartnoma tuzishda anderrayting avvalo sug‘urta kompaniyasiga keladigan foydani birinchi o‘ringa qo‘yadi, anderrayting tizimini faoliyatidan sug‘urta kompaniyasini kelajagi namoyon bo‘ladi.

Anderrayter o‘zining imkoniyatlaridan kelib chiqib, berilgan har bir arizani sug‘urta kompaniyasini holatini hisobga olgan holda va risklarni darajalarini o‘rganib chiqib foyda keltirishi ehtimoli bo‘lgan Sug‘urta risklarini qabul qiladi. Shakllantirilgan sug‘urta portfelida anderrayting daromadlarni kelishini foydali qilib qo‘yish har bir anderrayterdan sug‘urta kompaniyasini foyda ko‘rishini ta’minlaydi. Sug‘urta kompaniyalari doimiy ravishda anderrayting xizmatini tashkil etishda turli muammolarga duch keladi. Bu individual ish olib borishni, sug‘urta porfelini optimal razmeriga statistik jihatdan, bir-biridan mustaqil sug‘urta obyektlarini tushunish mumkin. Ilgari sug‘urta portfeli deganda sug‘urta mukofotlarini (sug‘urtalovchi to‘laydigan sug‘urta bozorlari) tushunilardi.

Anderrayter tomonidan sug‘urta kompaniyasi sug‘urtasiga quyidagilar kiritilishi mumkin.

Sug‘urtalanuvchi obyektlarining umumiy soni sug‘urta mukofotlari, sug‘urta hodisa-larini soni, sug‘urta hodisalarini foizdagi ifodasi, keltirilgan zarar miqdori, o‘rtacha tarif, reja bo‘yicha rejalashtirilgan zararlar, o‘rtacha tarif bo‘yicha sug‘urta portfelini strukturalash. Sug‘urta portfelini to‘g‘ri shakllantirish uchun anderrayting tadbirida anderrayter statistik ma’lumotlar asosida ularni tahlil qilib, sug‘urta kompaniyasida qonunga zid faoliyat yo‘qligini aniqlash imkoniyati ham mavjud.

Avvalo sug‘urta portfeli deganda biz hamma brutto-mukofotini, anderrayting yilida o‘tkazilgan pullarni barcha sug‘urta turlari bo‘yicha, sarflangan harajatlarni (sug‘urta agentlariga, brokerlariga ketgan rag‘batlantirish mablag‘larini hamda sug‘urta ishini olib borish uchun ketgan harajatlarni chiqarib tashlash tushuniladi.

Sug‘urtani rivojlantirishdagi asosiy tendensiya bu har bir risk qilayotgan korxona, tashkilotni, sug‘urta himoyasi bilan jamiyatni har bir fuqaroni ta’minlash muhimdir. Sug‘urtalashda bu moliyaviy-xo‘jalik mablag‘larini turli tuman risklardan himoyalash vositasi hisoblanib, mulkiy manfaatlarni, jismoniy va yuridik shaxslarni turli xil kutilmagan voqea va hodisalardan himoyalash, ma’lum bir pul to‘lash orqali sug‘urta vznosi shaklida amalga oshirib boriladi.

Anderrayting butun sug‘urta munosabatlarida asosiy bo‘g‘ini hisoblanib butun sug‘urta kompaniyasi tizimini, ayniqsa, foyda va zararni tartibga soladigan bo‘lishdir.

Sug‘urtaga qabul qilinadigan obyekt har tomonlama anderrayting tizimi orqali o‘rganilib, riskni darajasiga qarab shartnoma tuziladi. Agar risk juda katta bo‘lsa, shartnoma tuzishdan kompaniya voz kechadi. Anderrayter o‘zining imkoniyatlaridan kelib chiqib, berilgan har bir arizani sug‘urta kompaniyasining holatini hisobga olgan holda va risklarni darajalarini o‘rganib chiqib foyda keltirishi ehtimoli bo‘lgan Sug‘urta risklarini qabul qiladi. Shakllantirilgan sug‘urta portfelida anderrayting daromadlarni kelishini foydali qilib qo‘yish har bir anderrayterdan sug‘urta kompaniyasini foyda ko‘rishini ta’minlashdir. Sug‘urta kompaniyalari doimiy ravishda anderrayting xizmatini tashkil etishda turli muammolarga duch keladi. Bu individual ish olib borish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sug‘urta kompaniyasi sug‘urta polisini baholash uchun, ko‘p riskni o‘ziga oladi. Har qanday arizani sug‘urtalashga topshirgandan keyin sug‘urtalanuvchi to‘g‘risida butun ma’lumotni anderrayter so‘rab surishtirib oladi va taqqoslab xulosa chiqaradi, keyin qaror qabul qiladi.

Sug‘urtalanuvchi sug‘urta qildirish to‘g‘risidagi arizani diqqat bilan to‘ldirish va sug‘urta kompaniyasiga qo‘shimcha so‘ralgan ma’lumotlarni ham yetkazib berishi zaruriyat hisoblanadi. Sug‘urta polisini yaxshi bilish uchun anderrayting sug‘urtalavchi baho bilan sharoit orasidagi farqni ham o‘rganadi. Qanchalik sug‘urta turini aniq bilsa anderrayter riskni qabul qilishi va baholashi hamda keltiradigan riskni zararini ham chamalab berish ehtimoli ma’lum bo‘ladi.

Shundan keyin sotib olinadigan sug‘urta polisi sug‘urtalanuvchiga yoki korxonaga mos keladi. Anderraytingning beshta savolini xaridor, albatta, bilishi shartdir.

Anderrayter qaroriga ta’sir etuvchi munosabatlar aniq risklarga:

1. **Anderrayting potensiali.** Anderrayterlarning vazifalarini, o‘nlab arizalarni qabul qiladi va o‘nlab risklarni sarflaydi. Sug‘urtalovchilarni maqsadini o‘rganadi, ular kimlarning arizalarini qabul qiladilar va nimalarni sug‘urtalaydilar. O‘zlarini brokerlari bilan ishlaganda, ishonchli bo‘lish uchun, har bir sug‘urtalanuvchini arizasini ishonchli va aniq bo‘lishi uchun anderrayterlar ularni chuqur o‘rganib keyin sug‘urta shartnomalarini amalga oshiradilar.

2. **Portfel strategiyasi.** Sug‘urta “tijorat” korporatsiyasi har yili o‘z aksionerlariga foyda keltiradi. Shunday qilib, rahbariyat qaytadan ko‘rib chiqib, o‘zini strategiyasida anderrayting turli o‘zgarishlar bo‘lishini kutgan holda, strategiyani amalga oshiradi, umuman strategiyani har yili o‘zgartirib foyda kelishi uchun butun imkoniyatlarni amalga oshirishga harakat qiladi. Bunday sug‘urtalanuvchi shuni bilishi kerakki, ularni arizalari broker tomonidan aniq va to‘liq holda sug‘urtaga qabul qilinadi. Sug‘urta kompaniyasi ham o‘zi uchun har yili foyda oladi hamda sug‘urta kompaniyasining moliyaviy holati normal holatda davom etadi.

3. Munosabat sug‘urta biznesida katta imkoniyatlarni yaratilishiga hamda mijozlar sonini ko‘payishiga brokerlar bilan munosabatlar yaxshi bo‘lib boradi. Masalan, suv bosgan hududlarda sug‘urta hodisasi yuz berdi, ammo sug‘urta qoplamasini to‘lash muammmoga aylanadi, chunki sug‘urta shartnomasidagi

qo‘yilgan shartlar doirasidan chiqib ketadi va orada muammo paydo bo‘ladi, uni faqat o‘zaro munosabatlarni ma’lum me’yoriga keltirish orqali ikki tomon uchun hal etish haqiqatga yaqinroq hisoblanadi.

4. Risklarni tanlash va ularni katta kichikligiga e’tibor berish kerak. Sug‘urta kompaniyasini foydalilik darajasini oshirish anderraytingni asosiy vazifasi hisoblanadi va anderrayter aynan risklarni boshqarish orqali yaxshi natijaga erishadi. Anderrayter shartnoma tuzganda, ayniqsa, suv toshqini natijasida, yuz beradigan zararlarni minimal holatga keltirish uchun kurashishi kerak. Buning uchun anderrayting shartnomaga franshizani qo‘shishi zaruriy holdir.

5. Maqsad va intilish tufayli ish ikki tomonni sug‘urta shartnomasini tuzishga kelishishiga olib keladi. Bu yerda asosiy maqsad anderrayting tomonidan bahoni va sharoitni bir-biriga kelishtirish bo‘lib, keyin sug‘urta shartnomasi imzolanadi. Hamda sug‘urta kompaniyasi harajatlarni kamaytirishga erishsa, sug‘urtalanuvchi esa normal sug‘urta qoplamasi olish huquqini qo‘lga kiritadi.

Sug‘urta kompaniyasida anderraytingni asosiy vazifalaridan biri sug‘urta portfelini shakllantirish bilan sug‘urta kompaniyasini foydalilik asosida ishni tashkil etishga hamda sug‘urta kompaniyasini ko‘radigan har qanday zararini kamaytirish avvalo anderrayting tomonidan tuzilgan shartnomalari keltiradigan risklarini katta kichikligi darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Sug‘urta ko‘rsatkichi bo‘lgan iqtisodiy samaradorlikni asosan anderrayterlar nazorat qilib kelmoqda, ayniqsa, sug‘urta kompaniyasini katta zarar ko‘rganligi haqidagi axborotlar ham gohida tarqalmoqda, ammo sug‘urta kompaniyasini boshqarish elementar anderrayterlarni o‘qishiga, malaka oshirishiga xorijiy mamlakatlar sug‘urta kompaniyalarida borib strajirovka (malaka oshirish)larda bo‘lishi, ularni eng zamonaviy sug‘urtalash texnologiyalarini hayotga tatbiq etishiga olib keladi.

Anderrayterlar ekspert sifatida sug‘urta kompaniyasidagi liderlik rolini o‘zlariga olishga va butun sug‘urta kompaniyasi bilan o‘zlarini tajribalarini o‘rtoqlashish xohishi mavjud ekanligi aniqllandi. Anderrayting mutaxassislarini sug‘urta kompaniyasidagi jahonshumul roli risklarni aniqlash, ekspertiza o‘tkazish eng asosiysi anderrayting tizimini sug‘urta portfelini ishlab chiqishdagi xizmatlari beqiyos ekan.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Саркисов С.Э. менеджмент: словарь-справочник. –М: анкил, 2005.808 с.
2. Бойтуш О.А. место и роль андеррайтинга в деятельности страховой компании // Управленец. –2013 № 6. С. 46-49
3. Щуклинова М,В, Управление процессом андеррайтинга в страховой компании [Электроннқй ресурс]. Режим доступа: http://www.dessercat.com/content/upravlenie-protsessom-anderraitinga-v-imushchestvennom-strakhovanii (дата обращения: 23.02.2018)
4. Быковская И.И. Управление финансами в страховой организации // Новая наука и актуальные тенденции в образовании. –2017. № 1. С. 11-15
5. Бизнес-словар, http:/www.businessvoc.ru/
6. Шахов В. В. Страхование: Учебник для вузов. –М.: страховой полис: ЮНИТИ, 1997.
7. Словарь страховых терминов , http://www.insweb.com/
8. Insurance outlook – 2020/ [https://www2. deloitte.com/us/en/ insights/industry /financial-services/financial-services-industry-outlooks/insurance-industry-outlook.html]
9. Global Economic And Insurance Market Outlook 2020/2021 [https://www.swissre.com/dam/jcr:60421a3b-f246-4718-8374-f4170d52b492/global-economic-and-insurance-outlook-2021.pdf.
10. Скамай, Л. Г. Страхование: учебник и практикум для прикладного бакалавриата / Л. Г. Скамай.- 4-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 322 с.
11. Страхование в 2 ч. Часть 2 : учебник и практикум для академического бакалавриата / Е. В. Дик [и др.]; под ред. Е. В. Дик., И. П. Хоминич. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019. — 318 с.
12. Ахведиани Ю.Т. Рынок страховых услуг: современные тенденции и перспективы развития: монография/. – Москва: РУСАЙНС, 2017. – 236 с.

O‘ZBEKISTONNING ELEKTRON TIJORAT STRATEGIYASI: XORIJIY BOZORLARDA RAQOBAT QILISHNING ASOSIY YO‘LLARI

Baymuradov Shoxrux Maxmudovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekistonning elektron tijorat sohasida xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilishning asosiy yo‘llarini va strategiyalarini bayon qiladi. O‘zbekiston hududidagi kompaniyalar uchun xorijiy bozorlardan muvaffaqiyatli foydalanish, yangi bozorlar va mijozlar bilan samarali ish olib borish haqida ma’lumotlar maqolada ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, strategiya, xorijiy bozorlar, raqobat, ijtimoiy tarmoqlar, innovatsiyalar.

Abstract: This article describes the main ways and strategies for successfully competing in foreign markets in the e-commerce sector of Uzbekistan. Information about the successful use of foreign markets for companies in the territory of Uzbekistan, effective work with new markets and customers is presented in the article.

Key words: e-commerce, strategy, foreign markets, competition, social networks, innovation.

Аннотация: В данной статье описаны основные пути и стратегии успешной конкуренции на внешних рынках в секторе электронной коммерции Узбекистана. В статье представлена информация об успешном использовании зарубежных рынков для компаний на территории Узбекистана, эффективной работе с новыми рынками и клиентами.

Ключевые слова: электронная коммерция, стратегия, зарубежные рынки, конкуренция, социальные сети, инновации.

KIRISH

O‘zbekistonning elektron tijorat sohasidagi muvaffaqiyatli natijalarga erishishi xorijiy bozorlarda o‘z mavqeyini yanada mustahkamlashi va moliyaviy foyda olish uchun eng muhim strategiyalardan biri hisoblanadi. Bugungi globalizatsiya davrida, har bir kompaniya o‘z mahsulotlarini yoki xizmatlarini dunyo bozorlarida muvaffaqiyatli tarzda sotish uchun strategik rivojlanish chora-tadbirlarni ko‘rib chiqmoqda.

O‘zbekistonning xorijiy savdo sohasidagi integratsiya va kompetentlikni oshirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga yaxshi samara beradi. Mijozlar bilan yetakchi aloqalar o‘rnatish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va marketing asoslarini doimiy rivojlantirish bilan birga, kompaniyalar elektron tijorat orqali xorijiy bozorlarda o‘z ta’sirini kengaytirishadi. O‘zbekistonning elektron tijorat sohasida yangi imkoniyatlardan foydalanishda eng muhim bo‘lgan tavsiflar va ko‘rsatkichlar mamlakatimizdagi korxonalar xorijiy bozorlarda o‘rnini mustahkamlash va dunyo bozorlarida muvaffaqiyatli foydalanish uchun yangi strategiyalarni rivojlantirishlari mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron tijorat - internet va mobil ilovalardan foydalanish va tranzaksiya qilish uchun mobil qurilmalarda ishlaydigan brauzerlar biznesidir. Rasmiy ravishda, tashkilotlar va jismoniy shaxslar o‘rtasida raqamli yoqilgan tijorat operatsiyalari hisoblanadi [1].

AQSH olimlari A. Summer va Gr.Dunkan elektron tijorat haqida shunday ta’rif berishgan: Elektron tijorat – bu subyektlar o‘rtasidagi munosabat elektron tarzda (Internet texnologiyalarni qo‘llagan holda) amalga oshadigan biznes jarayonning ixtiyoriy shaklidir. Bu tushunchaning mohiyatiga ko‘ra, olimlar tomonidan ta’rif o‘sha paytdagi internet tarmog‘ini rivojlanish tendentsiyalariga mos keladi. 1999-yillarga kelib internet savdo tushunchasi kirib keldi. A. Summer va Gr.Dunkan fikricha elektron savdo – biznes tranzaktsiyasining butun sikli yoki uning bir qismi elektron tarzda amalga oshadigan tovar yoki xizmatlarni xarid qilish va sotish jarayonidir.

Elektron tijorat tushunchasining paydo bo‘lishi 1948-yilda G‘arbiy Berlin kerakli material – texnik xomashyo bilan ta’minlash uchun G‘arbiy mamlakatlar tomonidan bunyod etilgan avia ko‘prikni tashkillashtirish ishlarida qo‘llanilgan amaliyot bilan bog‘lanadi. Ushbu ko‘prik deyarli 11 oy faoliyat ko‘rsatib, shahar ehtiyojlari to‘g‘risida juda tez va aniq ma’lumotlar uzatilishini talab qilgan [2].

Elektron tijorat davrining boshlanishini 1960-yil deb hisoblash mumkin, American Airlines va IBM reyslarda o‘rindiqlarni bron qilish tartibini avtomatlashtirish tizimini yaratishni boshlaganida – SABRE (Semi-Automatic Business Research Environment – tijorat tadqiqotlari uchun yarim avtomatik uskunalar) [3].

O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish va qulay shart-sharoit yaratib berish maqsadida 2004-yil 29-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida gi 613-II-sonli Qonuni qabul qilingan. Qonun 14 moddadan iborat bo‘lib, u O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu Qonunning 3-moddasida elektron tijorat to‘g‘risoda quyidagicha ta’rif beriladi.

Elektron tijorat – Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati elektron tijoratdir [4].

Hozirgi kunda O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasi qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston elektron tijorat sektori oldida ko‘p qirrali vazifa va imkoniyatlar turibti. Ekotizimda ro‘y berayotgan faol siyosiy darajadagi o‘zgarishlar, shuningdek, raqamli iqtisodiyotni yanada kengroq rivojlantirish sohaning hozirgi past darajadan kelajakda o‘sishiga yaxshi belgidir. Mazkur Strategiya, O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat ekotizimining har bir asosiy komponenti doirasida o‘sish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha tuzilgan yo‘l xaritani ifoda etadi. Uning amalga oshirilishi ustuvor vazifalardan biri etib belgilanishi kerak, chunki O‘zbekistonda elektron tijorat sohasinig rivojlanishi “Raqamli O‘zbekiston–2030” Strategiyasida keltirilgan kontseptsiyaning amalga oshishi salmoqli hissa qo‘sha oladi(O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasi).

Elektron tijorat korxonalari uchun biznes muhit rivojlanishiga raqamli iqtisodiyotga siyosiy darajada ortib borayotgan e’tibor turtki bo‘layotganligiga qaramasdan, soliq sohasi bilan mavjud muammolar tadbirkorlarga kata muammo bo‘lmoqda. Mavjud imtiyozlar, elektron tijorat korxonalari tomonidan elektron tijorat reestridan foydalanish, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va daromad solig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lov yuklari, rivojlanayotgan elektron tijorat sohasiga ta’sirini baholash maqsadida, qaytadan ko‘rib chiqilishi zarur. Yana bir muammo shundaki, amaldagi soliq qoidalari savdo maydonchalari uchun tushunarsiz. Savdo maydonchalari soliqni aylanma mablag‘lar hisobidan emas, balki komissiyalar hisobidan to‘lashi kerak. Bu esa, tadqiqotda soliq qonunchiligida inobatga olinmagan yoki to‘g‘ri talqin qilinmaganini tahlilqilishga undadi.

Moliyalashtirish masalasi – elektron tijorat sektori, foyda keltirmaydigan startaplar va korxonalar uchun qiyin vazifa. O‘zbekistonda moliyalashtirish imkoniyatlari nisbatan cheklangan, chunki venchur kapital ekotizimi endi shakllanmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan. Jamg‘arma elektron tijorat sohasida faoliyat yurituvchi kichik va o‘tra biznes vakillarini qo‘llab-quvvatlash salohiyatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati integratsion jarayonlar rivojlanishi va bozor o‘zgarishlariga alohida ahamiyat berayotgan hamda “asosiy ustuvor yo‘nalish - bozor islohotlarini chuqurlashtirish va keyingi iqtisodiy liberallashuv bo‘lib qolayotgan” hozirgi zamonaviy sharoitlarda “hududiy va jahon bozorlaridagi talablar va raqobatning keskin shakllari” ortib boradi, ular o‘z navbatida, “navbatdagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish zaruriyatini obyektiv holda talab etuvchi” [5] omillarga aylanadi.

Xalqaro bozorlardagi raqobatli strategiyalar-kompaniyalar xalqaro bozorga chiqishga harakat qilishining quyidagi uchta sababi mavjud:

1) yangi bozorlarni egallash;
2) raqobatli xarajatlarni pasaytirish;
3) xorijiy mamlakatlarning xom-ashyo manbalaridan foydalanish imkoniga ega bo‘lish.

Xalqaro strategiyani yaratishda xaridorlar xulqiga va ularning an’analariga, taqsimot kanallariga, raqobat kuchlariga alohida e’tiborni qaratish lozim.

Xalqaro bozorlarni quyidagi to‘rt omil tavsiflaydi:

1) xarajatlarning har xilligi;
2) valyuta kursining o‘zgarib turishi;
3) xorijiy mamlakatlarning savdo siyosati;
4) xalqaro raqobat tabiati [6].

O‘zbekistonning elektron tijorat strategiyasi hamda xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo‘llaridan biri bu – xorjiy bozorlarga hozirgi zamon talablariga to‘laqonli javob beraoladigan raqobatbardosh tovarlarni olib chiqish hamda iste’molchilarga qulaylik yaratish maqsadida yangi innavatsion elektron tijorat turlaridan foydalanish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekistonning elektron tijorat sohasidagi xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilishning o‘nlab yo‘llari va strategiyalari analiz qilindi. Ilmiy va empirik usullar, ma’lumotlarni to‘plash hamda tahlil qilishda ishlatildi. Xorijiy tijoratda raqobat qilishda tajribavi metodlar, yangi strategiyalar va texnologiyalar qo‘llash tavsiya etildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda elektron tijorat jadal ravishta rivojlanib bormoqda. Tovar va xizmatlar xilma-xilligini kundan-kunga oshirib borganligi sababli aholini, korxonalarni, davlat muassasalarini, shuningdek, davlatlarni bir hamjamiyatga birlashtirdi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida samarali va to‘siqlarsiz kelishuvlarga erishish imkonini berdi.

Elektron tijorat mahsulot sotish, xizmat ko‘rsatish va yetkazib berish shartnomalarini tuzishda ikkiga bo‘linadi: moddiy va nomoddiy. Moddiy xizmatlar (transport chiptalari, mehmonxonalarda xonalar, ovqat byurtma qilish va h.k. buyurtmasi)ning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarmoqli bajarilishi, hamkorlar bilan moliyaviy tarmoqli hisobotlar, moddiy xizmatlarni yetkazib berishni AKT orqali bajarish natijasida yuzaga keladi. Nomoddiy elektron tijorat-har bir shaxs yoki korxona uchun o‘zaro aloqalarni o‘rnatish va mahsulot yoki xizmatlarni sotib olish usullarini internet orqali boshqarishni o‘z ichiga olgan elektron tijorat shakli hisoblanadi. Bu tijorat modeli, elektron tijorat tizimining barcha elementlarini o‘z ichiga oladi, mahsulotlarni yoki xizmatlarni internet orqali xarid qilish va moliyalashtirishning boshqa shakllarini o‘z ichiga oladi. “Elektron tijorat” termini EDI (Elektronic Data Interchange – ma’lumotlarni elektron almashish), elektron pochta, internet, intranet (kompaniya ichida axborot almashish) va ekstranet (tashqi dunyo bilan axborot almashish) kabi texnologiyalarni qamrab oladi.

O‘zbekiston xorijiy bozorlarda raqobatbardoshlilik darajasini yanada oshirishi uchun, albatta, hozirgi kunda tobora rivojlanib borayotgan elektron tijorat sohalaridan mukammal foydalanishi kerak. Hozirgi kunda dunyo aholisining ko‘p qismi vaqtni tejash maqsadida “online savdodan” foydalanishmoqda. Bu esa o‘z- o‘zidan internetdan foydalanish tajribasi bilan uzviy bog‘liqdir. Internet foydalanuvchilarini onlayn-xaridlarni amalga oshirishga jalb qilinganlik darajasi ularning Internetda ishlash tajribasi bilan bog‘liq bo‘lish to‘g‘risidagi qonuniyat mavjud. Internetdan foydalanish tajribasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, elektron tijorat xizmatlaridan shunchalik ko‘proq foydalanadi.

Dunyodagi eng yirik uchta elektron tijorat bozorlari – AQSh, Xitoy va Yevropani solishtirsak, Xitoy 2023-yilda eng katta bozor bo‘lgan va 2027-yilgacha yetakchi bo‘lib qoladi. Xitoy bozori 2023-yilda 1,318,7 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Daromadlar yillik o‘rtacha o‘sish surati 2027 yilgacha 12,2% ga o‘sishi kutilmoqda, natijada daromad 2,088,2 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, Xitoy bozori uchta asosiy mintaqaning eng katta o‘sish sur’atlarini ko‘rsatishi kutilmoqda. AQSh bozorida 2023-yilda 925,4 milliard AQSh dollari miqdoridagi daromad olindi. Yillik o‘rtacha o‘sish suratining 11,2% ga ko‘ra, bozor 2027-yilga kelib Xitoyning daromadidan 1415,8 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.



1-rasm: Dunyo bo‘ylab chakana elektron tijorat savdolari hajmi (Mlrd AQSh dollarida 2014-2025-yillar)[1]

1 https://infocom.uz/dunyo-boylab-elektron-tijorat-statistikasi-va-faktlari/

Rossiya elektron tijorat misolida “Molotok.ru” foydalanuvchilarining 59 foizi Internetdagi mahsulotlar arzonligi, 58 foyizi qulaylik tufayli Internetda xarid qilishini bildirgan bo‘lsa, 42,6 foizi an’anaviy savdoda ehtiyoj uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni o‘z vaqtida sotib olib bo‘lmaydi deb hisoblaydi.

O‘zbekistonda internetda mahsulot xarid qiluvchilarning asosiy qismi asosan (76 %) Toshkent shahri, Toshkent viloyati va boshqa viloyat shaharlarida yashaydi. Bundan tashqari, bu munosabat daromad va Internetdan foydalanish tajribasi to‘g‘risida so‘z ketganda ham saqlanib qoladi.

Elektron tijoratni rivojlantirish mahalliy va xorijiy bozorlarda tovarlarni keng miqyosda sotish imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy bozorlarda raqobat qilish uchun mamlakatimiz tadbirkorlariga yangi eshiklarni ochadi.

“Klynveld Peat Marwick Goerdeler” (KPMG) xalqaro auditorlik kompaniyasi ekspertlarining ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi besh yil ichida O‘zbekistonda elektron tijorat bozori besh barobardan ziyod o‘sib, Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan bozor mavqeyini mustahkamladi. Sanoatning faol o‘sishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari va Internet foydalanuvchilari ulushining ko‘payishi, Uzum Market marketpleysining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Uzum kompaniyalar guruhining strategiya va Mergers & Acquisitions direktori Nikolay Seleznev takidlashicha-Bu bizning tajribamizni tasdiqlaydigan global tendensiyaning bir qismidir - bugungi kunda Uzum Market buyurtmalarining qariyb 13% Uzum Nasiya orqali muddatli to‘lovga olinadi. Uzum Bank va Click bilan keyinchalik integratsiya tufayli biz o‘zbekistonliklarga buyurtmalarni to‘lash uchun yanada qulay variantlarni taqdim eta olamiz, bu esa butun mamlakat bo‘ylab logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan birga Uzum Marketga o‘sish templarini saqlab qolish va bozorda yetakchilik mavqeini mustahkamlash imkonini beradi.

2022-yilda xalqaro ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekistonda Internet-savdo bozori hajmi qariyb 311 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2027-yil oxiriga kelib u 1,8-2,2 milliard dollargacha oshadi. Shu vaqtning o‘zida, YAIMning o‘sishi va odamlarning odatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan urbanizatsiya tendensiyasi tufayli onlayn buyurtmalar chastotasi ham oshadi.

Elektron tijorat pozitsiyalarini mustahkamlashda va yangi natijalarga erishishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash muhim rol o‘ynaydi: KPMG hisobotida qayd etilganidek, “Elektron tijorat to‘g‘risidagi qonun”, “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasi, “Elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasi” ni qabul qilish, IT-parklarning barpo etilishi elektron tijorat sohasida yangi imkoniyatlar kaliti bo‘ldi.

1-jadval: Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi (mlrd. so‘m)[2]

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	6 377,8	7 732,1	8 491,9	10 777,0	16 939,5	27 755,0
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	5 849,0	6 876,8	7 323,0	9 095,9	11 567,6	16 131,1
AKT ishlab chiqarish	238,3	301,9	279,4	540,1	503,3	820,3
AKT savdosi	281,6	236,2	293,3	252,3	367,8	580,8
AKT xizmatlari	5 329,1	6 338,7	6 750,3	8 303,5	10 696,4	14 730,0
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	518,7	750,1	908,9	1 089,7	1 464,6	1 929,9
Elektron tijorat	10,1	105,2	260,0	591,4	3 907,3	9 694,0

2-jadval: Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi(YAQQga nisbatan % da)[3]

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	2,3	2,0	1,7	1,9	2,5	3,3
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	2,1	1,8	1,5	1,6	1,7	1,9
AKT ishlab chiqarish	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
AKT savdosi	0,1	0,1	0,1	0,0	0,1	0,1
AKT xizmatlari	1,9	1,7	1,4	1,5	1,6	1,8
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
Elektron tijorat	0,0	0,0	0,1	0,1	0,6	1,2

2 Stat.uz ma’lumotlaridan foydalangan holda tayyorlandi
3 Stat.uz ma’lumotlaridan foydalangan holda tayyorlandi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonning elektron tijorat sohasidagi xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilishning asosiy yo‘llarini va strategiyalarini tahlil qilindi. Ilmiy va amaliy usullar orqali xorijiy bozorlar tahlili olib borildi. Xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilishda, lokal tadbirkorlar uchun elektron tijorat imkoniyatlarini rivojlantirish, xususan, xorijiy savdo platformalaridan foydalanish, yangi bozorlarga kengayish imkoniyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq. Elektron tijoratda xizmat ko‘rsatish, to‘lov tizimi, va loyihalarni rivojlantirishda xorijiy bozorlardagi eng so‘nggi o‘zgarishlarga e’tibor berish, tadbirkorlarni va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash talab etilmoqda. Tahlil qilingan ma’lumotlar asosida, xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilish uchun quyidagi takliflar keltirildi:

- Xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilish uchun elektron tijorat texnologiyalarini yangilash, xususan tijorat platformalari va dasturlar orqali savdo jarayonini osonlashtirish, tijoratni avtomatlashtirish hamda mijozlarga qulaylik qilishga yo‘naltirish kerak;
- Mijozlarni jalb qilish uchun xorijiy bozorlarda xalqaro marketing strategiyalari qo‘llanilishi, digital marketing vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali murojaat qilish;
- Ma’lumotlar tahlili, bozorni tahlil qilish, mijozlarning talablari va qoniqishlarini aniqlash uchun biznes intellektual tizimlarni ishlatish;
- Maxsus strategiyalar orqali internet tijorati bo‘yicha sotishning effektivligini oshirish;
- Xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilish uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun o‘quv kurslarini tashkil etish hamda xorijiy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E-Commerce 2020-2021: Business, Technology and Society, e Book, Global Edition” Kenneth C. Laudon, Cfral Guercio Traver. –2020.
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti D.M. Rasulev, S.K. Vapoyev elektron tijorat. –T.: –2007
3. Дик В.В., Лужецкий М.Г., Родионов А.Э. “Электронная коммерция”. –Москва, 2005.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida” gi 613-II-sonli Qonuni. –2004.
5. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modemizatsiya va isloh etishdir. –T.: O ‘zbekiston, 2005.
6. U.A. Muxammadiyev «Strategik menejment». Darslik. –Toshkent. –2020.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI





Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi tayanch doktoranti,
“Alfraganus University” nodavlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti o‘qituvchisi

Salimova Zaxro Sobirjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasi magistri

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlari o‘rganilib, uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: biznes, tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, marketing, marketing strategiyasi, marketing faoliyati, marketing rejasi, innovatsion marketing.

Abstract: The article investigates the features of the marketing activities in small business and private entrepreneurship organization, develops scientifically based proposals and practical recommendations for its perfection.

Key words: business, entrepreneurship, small business, private entrepreneurship, marketing, marketing strategy. Marketing activity, marketing plan, innovative marketing.

Аннотация: В статье на основе изучения особенности организации маркетинговой деятельности на предприятиях малого бизнеса и частного предпринимательство разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации по его совершенствование.

Ключевые слова: бизнес, предпринимательство, малый бизнес, частное предпринимательство, маркетинг, маркетинговая стратегия, маркетинговая деятельность, маркетинговый план, инновационный маркетинг.

KIRISH

So‘ngi yillarda yurtimiz Yangi O‘zbekistonning iqtisodiyoti yuksalib, rivojlanib, taraqqiy etib borar ekan, albatta, bu rivojlanish o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmayotganligini, balki buning uchun iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni taminlab beruvchi asosiy omil tadbirkorlik faoliyati yurtimizda keng darajada qo‘llab quvvatlanayotgani, faol tadbirkorlar va biznes egalarining iqtisodiy faoliyatini yanada rag‘batlantirish va qo‘llab quvvatlashga shaxsan yurtboshimizning o‘zlari e’tibor qaratayotganliklarini aytib o‘tishimiz lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat

o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Kerak bo‘lsa. Xorijdagi yetakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug‘dirib berishimiz lozim”[1],deb ta’kidlaganlar.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da 29-maqsad sifatida Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpm ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yegkazish belgilangan[2]. Faol tadbirkorlik va bisnes muxitini shakllantirish va rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik korxonasida marketing faoliyatini tashkil etishga qaratilgan nazariy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlar orasida I. Ansoff, B. Berman, G. L. Bagiyev, P. S. Zav’yalov, A. N. Romanov, V. Evans, J. J. Lamben, Ye. P. Golubkov, F. Kotler kabi buyuk iqtisodchi-olimlar alohida urin egallaydilar. Shuningdek, mamlakatimizda marketing ilmining rivojlanishi masalalari H. P. Abulqosimov, A. Bekmurodov, A. V. Vaxabov, M. Nasritdinova,

S. Saidmurodov, N. Q. Yuldashev, J. Jalolov, M. Qosimova, Sh. J. Ergashxodjayeva, A. Soliyev, M. Yusupov va boshqa ko‘pgina iqtisodchi-olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning ishlarini o‘rganish asosida hozirgi raqobat kurashi keskinlashgan davrga tadbiqan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini amaliy hayotga tatbiq etish masalalarini tahlil qilish zarurati mazkur maqola mavzusiningdolzarbligini belgilab beradi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijasiga suyangan xolda, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi uchinchi bo‘limida rejalashtirilgan Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash doirasida amalga oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari rivojlanishini nazarda tutib, ularda marketing faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish nafaqat katta ilmiy examiyatga, balki metodik yondashuvlarni takomillashtirish nuqtayi nazardan ham katta axamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy marketing konsepsiyalaridan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish, tahlil etish va uning uslublarini joriy etish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ishning predmeti kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida marketingni takjmillashtirish bo‘yicha tashkiliy iqtisodiy masalalar tadqiqotning predmeti bo‘lib hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot metodologiyasi sifatida mantiqiy va qiyosiy tahlil, nazariy mushohada va abstraksiya, statistik solishtirish, guruhlashtirish, grafik tasvirlash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA ASOSIY NATIJALAR

Ta’kidlash joizki, ko‘pgina xorijiy adabiyotlarda “tadbirkorlik” va “biznes” tushunchalari sinonim tushunchalar sifatida talqin qilinib, ular bir-birlaridan farq qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir”[3], – deb ta’rif berilgan,bundan ko‘rinadiki, biznes va tadbirkorlik bir xil negiz, shart-sharoit, tamoyillarga ega bo‘lganligi uchun xam amaliyotda biznes va tadbirkorlik yoki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi qo‘sh nomlar bilan atalib, bir xil ma’noda ishlatiladi. Biznes foyda, daromad, naf olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat yuzasidan kishilar o‘rtasida yuz beradigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Tadbirkorlik biznesning muhim tarkibiy qismi, yuz berish shakllaridan biri bo‘lib, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish orqali foyda, daromad olishga qaratilgan faoliyatdir[4], deb berilgan ta’rifga qo‘shilamiz (1-rasm).

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2017-yil 23-dekabr.
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yakgi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiya to‘g‘risida"gi PF-60-son Farmonining 1-ilovasi
3 O‘zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari tug‘risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 2012-yil 2-may.
4 Abulqosimov H.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo‘llari. Monografiya. –T.:TMInashri,2005, –Zb-bet; Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya. –T.:"Akademiya" 200b. –41-bet.



1-rasm: Faoliyat shakliga ko'ra biznes shakllari[5]

Biznes va tadbirkorlik rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- tovar-pul munosabatlarining va bozor iqtisodiyoti zamonaviy modellariking rivojlanib borishi;
- xilma-xil mulk turlari va shakllarining rivojlanib borishi hamda xususiy mulk miqyoslarining kengayib, ustuvorligining ta'minlanishi;
- xo'jalik subyektlarining iqtisodiy jihatdan mustaqilligi va faoliyat erkinligining oshib borishi;
- davlat tomonidan mamlakatda qulay ishbilarmonlik, biznes yuritish uchun maqbul sharoit va muhitining yaratib berilishi, davlatning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashining kuchayib borishi[6].

Tadbirkorlik faoliyatida qaror qabul qilish va uni ishlab chiqishda tadbirkorlikning samarali vositasi hamda asoslari bo'lib marketing hisoblanadi hamda tadbirkorlik faoliyatini boshqarish tizimida, uni tashkil ztishda, rejalashtirish va nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Marketing mazkni za terminologiyam yangilanib boradi lekin ular boshdan ayirboshlash jarayoni, tovar-pul munosabatlari paydo bo'lishi, sotish shakllarini rivojlanishi hamda iste'molchilarni tovar va xizmatlar bilan o'zaro harakati bilan bog'lanadi.

Marketingda eng asosiy jarayon ikki yoqlama va bir-birini to'ldiruvchidir. Bir tomondan bu bozorni, talab, did va ehtiyojlarni har tomonlama va chuqur o'rganish, ishlab chiqarishni talablarga yo'naltirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning manzilliligi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa bozorga va undagi mavjud talablarga, iste'molchilarning afzal ko'rishlari va ehtiyojlarning shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi[7].

Eng keng tarqalgan marketing ta'rifi, u Amerika marketing assotsiatsiya tomonidan berilgan bo'lib, uning mazmuni quyidagichadir, ya'ni «Marketing shunday jarayondan iboratki, uning yordamida o'ylangan g'oya rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, narxlar tashkil etiladi, g'oyalar, tovarlar va xizmat ko'rsatishlar harakati va sotishni, ayrim shaxslar va tashkilotlarni maqsadlari ayirboshlash yordamida qondiriladi».

Jan-Jak Lamben marketinga shunday ta'rif beradi: "Marketing tashkilotlar va kishilarni xohish va ehtiyojini tovarlar va xizmatlarni erkin raqobatli ayirboshlashni ta'minlash yo'li orqali qondirishga yo'naltirilgan ijtimoiy jarayondir", "Marketing – bu bir vaqtning o'zida biznes falsafasi va faol jarayondir"[8].

Biz H. P. Abulqosimov va M. H. Abulqosimovlarning marketingga bergan ta'riflariga qo'shilamiz. Ularning fikricha "marketing – bu korxonaning yuqori foyda olish maqsadida xaridorlarning real so'rovleri va bozorni kompleks o'rganish asosida xizmat ko'rsatish, tovar ishlab chiqarish va sotish faoliyatini tashkil etish tizimidir. Bundam marketingning asosiy tamoyili – ishlab chiqarishning yakuniy natijalari iste'molchilar talab va takliflariga yo'naltirilishi kelib chiqadi. Ushbu kompleks vazifani baja- rish uchun marketing tahliliy, ishlab chiqarish va sotuv funksiyalarini bajarishi lozim"[9].

5 tutorstips.com. https://tutorstips.com/classification-of-business-activities-examples
6 Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilish/. na faollashuvi. Monografiya, - T.:"Akademiya" 2006.-1-1-betlar: Abulqosimov H.P., Qulmatov . O'zbekistonda kichik biznes sohasida oilze// tadbirkorlikning o'rni va uni rivojlantirish yo'llari. - T.: "Univer¬sitet", 2015.-11-bet.
7 Дурович М. Маркетинг. М.: Экономика, 2010. -018.
8 Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. - С-Пб.: Наука, 2009, - С. 17.
9 Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lug'ati. - T.: "ABU MATBUOT-KONSALT",

Marketing tahlilini ishlab chiqish odatda quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- ichki va tashqi muhit strate gik tahlilini amalga oshirish;
- marketing faoliyati va korxonaning maqsadlarini aniqlash;
- marketing strategiyasini aniqlash;
- rejalashtirilayotgan natijalarga erishish maqsadida marketing faoliyati elementlarini tanlash[10].

Marketingning quyidagi konsepsiyalarini asoslandi:

- ishlab chiqarish konsepsiyasi;
- tovar konsepsiyasi;
- sotish konsepsiyasi;
- an'anaviy marketing konsepsiyasi;
- ijtimoiy-axloqiy marketing konsepsiyasi;
- o'zaro aloqaviy marketing konsepsiyasi.

Marketing tadqiqotlari umumiy tarzda qilingan bozor raqobatlari qoidalariga, shuningdek me'yorga muvofiq, umumiy, ilmiy usul- larga asoslangan holda olib borilishi zarur. Ilmiy, tahlil-axborotli usullardan keng foydalangan tadqiqotchilar bozorni, raqobatchilarni, iste'molchilarni, bahoni, shuningdek korxonaning ichki quvvatini o'rganadilar. Mahalliy vosita va dala tadqiqotlari, shuningdek turli manbalardan (ichki, tashqi, shaxsiy va pullik) olingan ma'lumotlar to'plami marketing tadqiqotlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Marketing faoliyatida bashorat qilish usullari keng qo'llaniladi. Ulardan marketing tizimidagi barcha subyektlar yuksalishi konsepsiya- sini tahlil qilish va qayta ishlash uchun foydalaniladi. Fransuz olimi Lamben Jan Jak bashorat qilish usullarini ikki mezon bo'yicha tasniflaydi. Uning fikricha, bu mezonlar bashoratlzsh jarayonining subyektivlikdan erkinlik darajasi va ushbu jarayonning ko'proq yoki kamroq darajada tahliliy bo'lishida o'z ifodasini topadi. Ushbu o'lchashlarning qutblarida subyektiv va obyektiv usullar hamda sabab- oqibat usullari yotadi. Marketing faoliyatida bashorat qilish usullari klassifikatsiyasining qo'llanilishini va ularni amaliyotda qo'llash samaradorligini 1-jadvalda ko'rish mumkin

1-jadval: Bashorat usullarini amaliyotda qo'llash samaradorligi[11]

Bashorat qilish usullari	Qo'llanilishi, tashkilotlar sonidan % da, (p = 334)	Ishonchlilik darajasi	Qo'llanilish chastotasi
Miqdoriy usullari:			
Ekstrapolyatsiya usuli	73,7	O'rtacha	Tez-tez
O'rtacha sirpanish usuli	67,7	O'rtacha	Tez-tez
Regression tahlil	35,9	Yuqori	Ba'zan
Eksponensial to'g'rilash	32,9	O'rtacha	Ba'zan
Modellashtirish	15,9	Past	Kamdan kam
«Chiqim-xarajat» modeli	14,4	O'rtacha	Kamdan kam
Markova zanjiri	4,2	Past	Kamdan kam
Sifat usullari:			
Xalqaro bo'limdagi hamkorlarni baholash	87,7	O'rtacha	Tez-tez
Tijoratchi va texnik boshqaruvni baholash	85,9	Yuqori	Tez-tez
Iste'molchilar orasida so'rov o'tkazish	81,9	O'rtacha	Tez-tez
Tovarni sinovdan o'tkazish	50,0	O'rtacha	Ba'zan
O'xshashlik usuli	46,7	Yuqori	Tez-tez
Bozorni sinovdan o'tkazish natijalari	37,7	O'rtacha	Ba'zan
Ekspert baholashning "Delfi" metodi	15,9	O'rtacha	Kamdan kam

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonalarda marketing tahlilini amaliyotda qo'llash samaradorligi keltirib o'tilganligini ko'rish mumkin. Ekspert baholash usulida matematik formallashtirish mumkin bo'lmaganda, obyekt va muammolarni tahlil qilishda foydalaniladi. Regressnoy tahlil o'rganilayotgan tasodifiy me'yorni va o'rganilayotgan miqdoriy o'zaro munosabatlar o'rtasidagi bog'lanishni izlash uchun qo'llaniladi. Ssenariy usuli – turli sharoitlarda vaqt o'tishi bilan hodisa yoki jarayonni mantiqan aniqlashga asoslanadi[12].

2017. - 327- bet.


10 Qosimova M.S., Ergashxo'jayeva Sh. Marketing. – TDIU, 2007. –10-bet

11 Панкрухин А.М. Маркетинг. Учебник. – М.: "Омега-Л", 2009. –С. 513.

12 Abulqosimov H.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. –T.: Akademiya, 2002. –81 b

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Har bir kichik biznes va tadbirkorlik subyekti o‘zining marketing strategiyasini va rejasini, I’ni dasturini tuzib olishi lozim. Marketing strategiyasi – bozorni kengaytirish va yuqori foyda olish maqsadida marketing faoliyatini tashkil etishning samarali usullarini aniqlash hisoblanadi. Marketing strategiyasi korxonaning bosh maqsadiga erishishning vositalari va yo‘llarini ifodalovchi umumiy rejadir. Shu boisdan marketing faoliyatini amalga oshirish grafigini, uning zarur resurs, vositalarini umumiy tarzda belgilab beradi. Strategiyani ishlab chiqish uchun yuqorida bayon qilinganidek. bozorni o‘rganishga qaratilgan marketing tadqiqotlari amalga oshiriyabdi, korxona imkoniyatlari tahlil qilinadi, marketing maqsadlari va vazifalari aniqlanadi. So‘ngra asosiy maqsaddan kelib chiqib, marketing maqsadlari va strategiyasi ishlab chiqiladi (2-rasm).



2-rasm: Korxonaning maqsadini amalga oshirish bosqichlari[13]

Bosh maqsad asosida unga erishish yo‘llari maz- munini ifodalovchi asosiy va aniq vazifalar belgilanishi lozim bo‘ladi .

Marketing rejasi (dasturi) – marketing faoliyati turlari va uning yo‘nalishini aniqlash. Odatda, marketing rejasi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1) korxona maqsadining ta’rifi;
2) bozor faoliyati natijalarining tahlili;
3) firma korxona faoliyatininghar bir bozor bo‘yicha marketing strategiyasining ta’rifi;
4) marketing tadbirlarini amalga oshirish usullari;
5) marketing rejasi bajarilishini nazorat qilish tartibi.

Korxona marketing faoliyatini takomillashtirish uchun tovar,narx, sotish va kommunikatsiya siyosatlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Korxonaning tovar siyosati quyidagi tamoyillar mavjud:

- nimani ishlab chiqarsak, shuni sotamiz;
- nimani sotsak, shuni ishlab chiqaramiz;
- iste’molchilar talabiga muvofiq nimani ishlab chiqarsak, shuni takomillashtiramiz, modi- fikatsiyalaymiz.

Kichik korxonaning marketing strategiyasini belgilab olishda innovatsion mahsulot va xizmat turini ishlab chiqish hamda joriy etishda quyidagilarni amalga oshirish rejalashtiriladi:

- I-o‘ta muhim yangiliklarni yaratish;
- II-modifikatsiyalangan yangi ilmiy hajmli mahsulotlarga asoslangan yangi ilmiy-amaliy g‘oyalarni joriy etish;
- III-ilmiy-amaliy toyalarni mahsulot va texnologiyalarga moslashtirish;
- IV-modernizatsiyalangan innovatsiyalarni joriy etish orqali amaldagi mahsulot yoki texnologiyani takomillashtirish;
- V-seriyali ishlab chiqarish maqsadida tayyor innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish.

Innovatsion marketing bozorga yangi mahsulot, xizmat yoki texnologiyami joriy qilishga tayyorlashni amalga oshiradi. U kichik korxonadagi innovatsion mahsulotni joriy qilishdan maksimal samara olishni o‘z vaqtida va to‘g‘ri baholash imkonini beruvchi usul va dastaklar majmuasi sifatida foydalaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik korxona o‘z imidjini yaratishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi kerak:

- jamoatchilik fikri muntazam ravishda o‘zgarib turadi, shu bois, faqat imidjni shakllantirib to‘xtab qolish kerak emas, unga doim o‘zgartirishlar kiritib borish zarur;

13 Abulqosimov H.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. –T.: Akademiya, 2002. –114 bet.

- jamoatchilik fikri kelgusida qay yo‘nalishda bo‘lishini hayotiy real hodisalar belgilab beradi;
- yagona va har doim bir xil fikrda bo‘lgan jamoat mavjud emas. Jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish jamoatning ma’lum guruhiga qaratilgan bo‘lishi kerak;
- jamoatchilik fikrini quruq ran emas, balki hodisalar o‘zgartiradi; jamoatchilik manfaati jamoatchilik fikrini belgilaydi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini tashkil etish va uni takomillashtirish uchun quyidagi asosiy ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida ishlab chikarilayotgan tovarlar “Brend”ini oshirish chora-tadbirlarini marketing strategiyalari, ayniqsa milliy reklama agentliklarini rivojlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘z mahsulotlarini sotishda veb-saytlarni rivojlantirish;
- tadbirkorlarni yarmarkalar, tanlovlar, zamonaviy yangi texnologiyalar ko‘rgazmalarida qatnashishni ta’minlash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining korxonalarini modernizatsiya qilishga, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilishga ko‘maklashish.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2017-yil 23-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmonining 1-ilovasi.
3. O‘zbekistan Ryospublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari tug‘risida»gi Qonuni (yangi tahriri), 2012-yil 2-may.
4. Abulqosimov H.P. “Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo‘llari”. Monografiya. –T.: TMI nashri, 2005, 36-bet. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya. –T.: “Akademiya» 200b. –41-bet.
5. Tutorstips.com. internet sayti. https://tutorstips.com/classification-of-business-activities-examples/.
6. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilish faollashuvi. Monografiya, –T.: “Akademiya” 2006. –11-12-betlar: Abulqosimov H.P., Qulmatov O‘zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llari. –T.: “Universitet”, 2015.-11-bet.
7. Дурович М. Маркетинг. –М.: Экономика, 2010. –С.118.
8. Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. – С-Пб.: Наука, 2009, –С. 17.
9. Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lug‘ati. –T.: “ABU MATBUOT-KONSALT», 2017. – 327- bet.
10. Qosimova M.S., Ergashxo‘jayeva Sh. Marketing. –TDIU, 2007. –10-bet.
11. Pankruxin A.M. Marketing. Uchebnik. –M.: «Omega-L», 2009. – S. 513.
12. Abulqosimov H.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. – T.: Akademiya, 2002. –81-b.
13. Abulqosimov H.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. – T.: Akademiya, 2002. –114 bet.



BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI TADQIQ QILISH YONDASHUVLARI TAHLILI

Xasanova Nasiba Nazar qizi
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili berilgan. Jumladan, Barqaror rivojlanish konsepsiyasini quyidagi yondashuvlardan tahlil qilishga qaratilgan: ekologik-tizimli, uchlik, “yashil” iqtisodiyot. Shuningdek, “yashil” iqtisodiyot va Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga xorijiy va mahalliy olimlar talqinlarini o‘rganilib, nazariy xulosa va amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik-tizimli, “yashil” iqtisodiyot, uch tomonlama yondashuv.

Abstract: This article provides an analysis of research approaches to the concept of sustainable development. In particular, it aims to analyze the concept of sustainable development from the following approaches: ecological-systemic, triple, “green” economy. Also, the interpretations of foreign and domestic scientists on the concept of “green” economy and sustainable development were studied, and theoretical conclusions and practical suggestions were given.

Key words: sustainable development, concept of sustainable development, ecological-systemic, green economy, triune approach.

Аннотация: В данной статье представлен анализ исследовательских подходов к концепции устойчивого развития. В частности, ставится цель проанализировать концепцию устойчивого развития со стороны следующих подходов: эколого-системного, тройного, «зеленого» хозяйства. Также были изучены трактовки зарубежных и отечественных ученых понятия «зеленая» экономика и устойчивое развитие, даны теоретические выводы и практические предложения.

Ключевые слова: устойчивое развитие, концепция устойчивого развития, эколого-системная, «зеленая» экономика, триединий подход.

KIRISH

Hozirgi vaqtda barqaror rivojlanish barcha davlatlar va manfaatdor tomonlar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2015-yil 25-sentyabr Parijda BMT Bosh Assambleyasiga kiruvchi 193 davlat “Dunyomizni o‘zgartirish” [1] deb nomlangan 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha kun tartibini qabul qildi. Kun tartibi 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari va 169 ta tegishli maqsadni o‘z ichiga oladi. 2000–2015-yillarga mo‘ljallangan Mingyillik rivojlanish maqsadlari [2]dan farqli o‘laroq (8 ta faoliyat yo‘nalishi, 18 ta vazifa va 48 ta indikator ko‘rsatkichlari), Barqaror rivojlanish maqsadlari yanada kengroq ko‘lamga ega. Hujjat kundalik ritorika emas, balki undan ahamiyatliroq va odamlar, sayyora va umumiy farovonlik uchun harakatlarga aniq chaqiriqni o‘z ichiga oladi. 2030-yilgi kun tartibi global hamjamiyatni barqaror, bardoshli va ishonchli dunyo sari harakat qilish uchun dadil va samarali choralar ko‘rishga chaqiradi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini [3] amalga oshirishda milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko‘rsatkichlarning sifatli bajarilishi, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish dolzarb masaladir. Shuningdek, “O‘zbekiston–2030” [4] strategiyasida belgilangan asosiy g‘oyalar:

- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash kabilarni amalga oshirish hozirgi kunni bosh masalasidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish atamasi XX asrning 80-yillarida ilmiy jamoatchilikka G. X. Brundtland komissiyasi tomonidan kiritilgan: rivojlanish «barqaror, uzoq muddatli bo‘lishi va u hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirishi, kelajak avlodlarni o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidan mahrum etmasligi zarur» [5]. Shuni ta’kidlash kerakki, barqaror rivojlanish ko‘plab omillar ta’sirida bo‘lgan jarayon bo‘lib, uni o‘rganishdagi yondashuvlarda ilmiy jamoatchilik, biznes va hukumat vakillari o‘rtasida o‘zaro farq qiladi.

80-yillarning oxiridan boshlab barqaror iqtisodiy rivojlanish muammosi ko‘plab xorijiy va mahalliy mualliflarning tadqiqotlari mavzusiga aylandi. Bugungi kunda zamonaviy olimlar barqaror rivojlanishning ekologik, institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy kabi muhim rivojlanish mezonlarini aniqlaydilar. Shu bilan birga, barqaror rivojlanish sohasidagi tadqiqotchilarning katta e’tibori konsepsiyani quyidagi yondashuvlardan tahlil qilishga qaratilgan: ekologik-tizimli, uch tomonlama, “yashil” iqtisodiyot.

Ekologik-tizimli yondashuv barqaror rivojlanish konsepsiyasi shakllanishining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan. Dastlab, ushbu yo‘nalish doirasida ekologik barqarorlik, biosfera va bioxilma-xillikni saqlash, resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi muammolari ko‘rib chiqildi.

Bu sohada ilk tadqiqotchilar D. Meadows, J. Randers bo‘lganlar [6]. Ular kompyuter modellashtirish usulidan foydalanib, 21-asrning birinchi yarmida aholi o‘sishi tendensiyalari, sanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’atlari, tabiiy resurs zaxiralarining kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi oxir oqibat global falokatga olib kelishini hisobga olgan holda, «iqtisodiy o‘sishning tabiiy chegarasi»ga yaqinlashishini ko‘rsatadigan «O‘sish chegaralari» hisobotini taqdim etdilar.

Xorijiy tadqiqotchi J. Pezzey ishida “barqaror rivojlanish”ning oltmishdan ortiq talqini qayd etilgan bo‘lib, ular orasida quyidagilar bor: “barqaror rivojlanish – bu ekologik barqarorlikni va barqaror, doimiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan iqtisodiy rivojlanishdir”; “barqaror rivojlanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan ularning miqdorini kamaytirmaydigan yoki sifatiga putur yetkazmaydigan tarzda foydalanishni nazarda tutadi, aks holda, bu ularning kelajak avlodlar uchun foydaliligini kamaytiradi”; “barqaror rivojlanish deganda yaqin kelajakda tabiiy va ijtimoiy muhit tomonidan qo‘llab-quvvatlaniladigan iqtisodiy o‘sish tushuniladi. Ideal barqaror jamiyat - bu barcha energiya quyosh manbalaridan olinadigan va qayta tiklanmaydigan resurslar qayta ishlanadigan jamiyatdir [7].

Rus olimi V.A. Koptyug va boshqalar tadqiqotlarida, «barqaror rivojlanish» konsepsiyasining quyidagi talqini berilgan: «kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini saqlab qolgan holda, hozirgi avlodlarning ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydigan rivojlanishdir» [8]. A.D. Ursulning ta’kidlashicha, barqaror rivojlanishni «jamiyatning va atrof-muhitning sezilarli darajada tanazzuliga yo‘l qo‘ymaydigan rivojlanish» deb qarash mumkin [9]. V.I. Danilov-Danilyanning fikriga ko‘ra, barqaror rivojlanish «shunday ijtimoiy rivojlanishki, unda yaratilgan turmush sharoiti insonning tanazzulga uchrashiga olib kelmaydigan, tabiiy muhit buzilmagan, ijtimoiy buzg‘unchi jarayonlar jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi darajada rivojlanmagan bo‘ladi» [10]. A. P. Tyapuxin fikricha, bir vaqtning o‘zida, barqaror rivojlanish inson sivilizatsiyasi atrofdagi tabiatni yo‘q qilmaydi, aksincha, uning rivojlanish qonunlarini hisobga oladi va belgilangan cheklovlar va taqiqlarni o‘rnatadi [11].

Yangi rivojlanish modelini shakllanish jarayonida barqaror rivojlanish paradigmasining evolyutsiyasi “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi yaratilishiga olib keldi va jamiyat tabiat tizimlari bilan birga ham ohang rivojlanishi e’tirof etildi [12]. “Global yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi BMTning atrof-muhit dasturi (2009-yil) doirasida taklif etildi [13].

Bizning fikrimizcha, sanab o‘tilgan tadqiqotlar “barqaror rivojlanish” konsepsiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqish va atrof-muhit muammolari va antropogen omilning atrof-muhitga ta’sirini ommalashtirishga jiddiy hissa qo‘shdi. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanishini bashorat qilish va empirik tadqiqotlar olib borish imkoniyatini bermaydi. Bu yondashuv keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi va birinchi navbatda tabiiy fanlar hamjamiyatida qo‘llaniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda quyidagi metod va usullar qo‘llanildi: tizimli va omiliy tahlil, funksional va qiyosiy tahlil, axborotni qayta ishlashning usullari

TAHLIL VA NATIJALAR

Uchtomonlama yondashuvda barqaror rivojlanishni talqin qilish 1992-yilda Rio-de-Janeyroda bo‘lib o‘tgan BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyalari ishi natijalariga ko‘ra shakllana boshladi. Konferensiyada jahon hamjamiyatida barqaror rivojlanishga erishish uchun “XXI asr Kun tartibi” harakat dasturi qabul qilindi. Konferensiyada G.X.Brundtland komissiyasining g‘oyalari rivojlantirilib, barqaror rivojlanish deganda “Kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini buzmasdan hozirgi avlod ehtiyojlarini qondiradigan rivojlanish» tushunilishi ta’kidlandi [5].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishda E.B. Barbierning ishlari muhim rol o‘ynaydi, u «resurslarga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotning barqarorligiga erishishning minimal zaruriy sharti barqarorlik uchun zarur shartlarni bajarishdir» deb ta’kidladi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish tabiiy resurslardan samarali foydalanishga, shuningdek, tugab borayotgan tabiiy resurslarni o‘zlashtirishdan olingan renta boshqa ishlab chiqarish (tabiiy) aktivlarga yo‘naltirilishiga asoslanadi [14].

Iqtisodiy va ekologik jihatlarni birlashtirish rivojlanish tashabbuslari nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishni, balki mintaqaning uzoq muddatli farovonligi bilan bog‘liq bo‘lgan atrof-muhit va tabiiy resurslarni muhofaza qilishni ham ta’minlaydi [15].

Ekologik jihatga e’tibor bermaslik resurslarning kamayishi, ifloslanishi va ekotizimlarning degradatsiyasi kabi salbiy oqibatlarga, bu esa mintaqalarning iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligiga putur yetkazishga olib kelmoqda. Shu bilan birga, “...ekologik jihatlarni hisobga olish mintaqalarga iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’sirini tushunishga va salbiy ta’sirlarni yumshatish bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi” [16].

Xorijlik olim H. Deyli barqaror rivojlanishning iqtisodiy-ekologik jihatlarini ilmiy ishlanmalarida o‘rgangan. Olim mintaqalarda resurslar va ekotizimlarning ekologik chegaralarini tan olish muhimligini ta’kidlaqdi. Uning ta’kidlashicha, an’anaviy iqtisodiy o‘sishni tabiiy resurslarni tugatmasdan va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan cheksiz davom etib bo‘lmaydi [17].

R. Kostansa “...iqtisodiyot va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ko‘rib chiqish muhimligini, resurslarni barqaror boshqarish va atrof-muhitni boshqarish zarurligini ta’kidlagan” [18].

Xorijlik olimlar S. Levin va V. Klark murakkab tizimlar va ularning barqarorlikka ta’sirlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Ular ekologik tizimlardagi chidamlilik, ularning buzilishlarni qabul qilish, ularning tuzilishi va funksiyalarini saqlab qolish qobiliyatini o‘rgangan [19]. Taniqli iqtisodchi olim Uilyam Nordxaus (2018-y. Nobel mukofoti) tadqiqotlarida iqlim o‘zgarishi iqtisodiyoti va integratsiyalashgan baholash modellarini (IAMs) ishlab chiqqan. Uning (DICE) modeli iqlim siyosatining xarajatlari va afzalliklarini baholash uchun iqlim dinamikasi, iqtisodiy o‘sish, energiyadan foydalanish va uglerod emissiyasini birlashtirgan [20]. Olimlar moslashuvchan boshqaruvning muhimligini, barqaror rivojlanish uchun ekotizimlarning o‘zgarishlar va buzilishlarga moslashish qobiliyatini ta’kidlagan.

Bir guruh rus olimlari [21] barqaror rivojlanish - bu «resurs bazasidan oqilona foydalanish, tabiiy muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini xavf ostiga qo‘ymasdan, ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotni yaratish» deb ta’kidlaydilar. H.N. Gizatullin va V.A. Troiskiy [22] o‘z tadqiqotlarida «barqaror rivojlanish konsepsiyasi uchta asosiy nuqtayi nazarning kombinatsiyasi natijasida paydo bo‘lganligini tasdiqlaydi: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik. Shunga ko‘ra, barqaror rivojlanishning uchta maqsadi haqida tuxtaladilar: atrof-muhit yaxlitligi, eko-samaradorlik va eko-adolat”.

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar “barqaror rivojlanish” konsepsiyasining mohiyatini “iqtisodiy o‘sish va rivojlanish o‘rtasidagi optimal mutanosiblikni saqlash, tabiiy resurslarni ijtimoiy va tabiiy resurslarni qayta ishlab chiqarishning barqaror jarayonlarini ta’minlaydigan darajada takror ishlab chiqarish” deb belgilaydilar. V.L. Tovbina [23] barqaror rivojlanishni «ijtimoiy adolat va ekologik mas’uliyat tamoyillariga javob beradigan uyg‘un iqtisodiy rivojlanish jarayoni» sifatida qaraydi.

Maxalliy olimlarimizdan A.A. Isadjanov fikricha barqaror rivojlanishning asosiy mohiyati rivojlanishni kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirish va rag‘batlantirishga, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga va ekologik talablarga javob beradigan transport vositalarini yaratishga va qo‘llashga, energiya samaradorligini ta’minlashga va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq masalalarni hal etishga qaratilgan [24].

Vaxabov A. fikricha barqaror rivojlanish deyilganda, aholi ehtiyojlarini to‘la qondirish maqsadida kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini esa xavf ostiga qo‘ymaslikka asoslangan rivojlanish tushuniladi. Barqaror rivojlanishni “ijtimoiy”- “iqtisodiy”-“ekologik” uchlikning o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishiga asoslangan sinergetik samara hisobidan taraqqiy etadigan jarayon sifatida tasavvur etish mumkin. Barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Ijtimoiy yondashuv global miqyosda ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ekologik yondashuv esa har qanday ekologik tizimlarning normal faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qilishi zarur bo‘ladi [25].

Nigmatov A. ta’rificha, barqaror rivojlanish konsepsiyasi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda hozirgi zamon kishilik jamiyatining o‘zaro uzviy bog‘langan ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta’minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va institutsional birlashgan hayot tarzini shakllantirishni o‘z ichiga olgan g‘oyalar tizimidir [26].

Uchlik yondashuvi tadqiqotning tizimli xarakterini o‘z ichiga oladi, bunda barcha jihatlar yagona obyekt sifatida ko‘rib chiqiladi va har qanday jihatni istisno qilish ko‘rib chiqilayotgan tizimning beqarorligiga olib keladi.

XXI asrning boshlaridan dunyo olimlari “Yashil” iqtisodiyot to‘g‘risida juda ko‘p munozaralar olib bormoqdalar, u iqtisodiy o‘sishning omillari, atrof-muhitga tobora bog‘liq bo‘lib qolayotganini ta’kidlamoqdalar [27].

Iqtisodiy adabiyotda “yashil iqtisodiyot” tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda [28] qo‘llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda “yashil iqtisodiyot” mamlakat

tabiatini yaxshilashga ko‘maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba’zi tadqiqotlarda “yashil iqtisodiyot” tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o‘rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa “yashil iqtisodiyot” – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish hisoblanib, uning asosini sof yoki “yashil” texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to‘liq ta’rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, “yashil iqtisodiyot” – bu “insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir [29]. Ushbu tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, “yashil iqtisodiyot” nazariyasi, tamoyillari yoki “yashil iqtisodiyot” siyosatiga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va investitsiyalar faolligini oshirish, atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi [29]. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo‘naltirish zarur bo‘ladi.

Vaxabov A. fikricha, “yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish o‘rnini bosa olmaydi va barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi muhim mezon hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o‘z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi kerakki, keyingi avlodlar ulardan kam bo‘lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo‘lishlari lozimligida namoyon bo‘ladi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi [25].

“Yashil” iqtisodiyotning mohiyati va unga o‘tish konsepsiyasi masalalari O.V.Bashorina, I.M.Temkina ““Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jamiyatning barqaror rivojlanishi, kambag‘allikni qisqartirish asosidir” deb baholashgan [30]. A.V.Neverov, Vodopyanova ““Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonida davlat inson kapitali, tabiiy kapital, ijtimoiy kapital, siyosiy kapital va moliyaviy kapitallarni muvofiqlashtirib foydalanish” zarurligini ta’kidlaydilar [31]. Xavf solayotgan CO_2 zaharli gazlar inqirozi to‘g‘risida” xabar beradilar [32]. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun Rossiyada juda katta imkoniyatlar mavjudligi, ya’ni Rossiya resurslar mamlakati (tabiiy boyliklari ko‘p, lekin iqtisodiy qashshoq), iqtisodiyotni yashillashtirish uchun “yashil” investitsiyalar kerak, yashil tarmoqlarni moliyalash, yangi ish o‘rinlarini barpo qilish orqali aholi turmush tarzini yaxshilash mumkin” degan fikrni iqtisodchi olim N.N.Yashalova ilgari suradi [33]. Iqtisodchi olimlar N.Piskunov va N.V.Paxomov “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish “musobaqa”sida Shvetsiya, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlari yetakchilik qilmoqda” deb ta’kidlaydilar [34].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 2-dekabrda tasdiqlangan “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori [35] muhim dasturiy amal hisoblanadi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirishda, quyidagilar:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;

- hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish maqsad qilingan.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi tarafdorlari amal qilayotgan iqtisodiy tizim aholi turmush darajasining yaxshilanishida muayyan ijobiy natijalarga olib kelganligiga qaramasdan mukammal emas, deb hisoblashadi. Ekologiyaning buzilishi (iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, bio xilma-xillikning yo‘qotilishi), tabiiy kapital cheklanganligi, tugab borayotganligi, kambag‘allik miqyosining ortib borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiyaning yetishmasligi, odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligini ifodalovchi holatlar hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan sabablarga ko‘ra amaldagi iqtisodiy model “jigar rang iqtisodiyot”, deb ataladi.

Umuman, “barqaror rivojlanish”, “yashil o‘sish” va “yashil iqtisodiyot” tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik “yashil iqtisodiyot” tushunchasining mazmunini chuqurroq ochib berish imkonini beradi. “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish “yashil o‘sish”ni ta’minlab beradi va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga ko‘maklashadi. Demak, “yashil iqtisodiyot”ni barqaror rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga erishishning asosi sifatida qabul qilish mumkin.

Barqaror rivojlanishning konseptual qoidalarini o‘rganar ekanmiz, ko‘plab ilmiy maqolalarni tahlili «barqaror rivojlanish» va «yashil iqtisodiyot» tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlariga bag‘ishlangan. Bu barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida “yashil iqtisodiyot”ning alohida ilmiy tadqiqot sohasi sifatidagi yondashuvligini ta’kidlash uchun asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://sdgs.un.org/ru/2030agenda
2. https://www.un.org/ru/youthink/mdg.shtml
3. https://lex.uz/docs/5870397
4. https://lex.uz/ru/docs/6600413
5. Доклад Всемирной комиссии по вопросам окружающей среды и развития «Наше общее будущее». Организация объединенных наций. 1987. URL: http://www. un.org/ru/ga/pdf/brundtland.pdf
6. Meadows D., Randers J. Limits to growth. The 30-Year Update. UK, Earthscan, 2005. 363 p.
7. Pezzey J. Economic analysis of sustainable growth and sustainable development // Environment Department work- ing paper. № ENV 15. Washington, DC: World Bank, 1989. 104 p.
8. Коптюг В.А., Матросов В.М., Левашов В.К. Новая парадигма развития России: комплексные исследования проблем устойчивого развития. М.: Academia; Иркутск: РИЦ ГП «Облинформпечать», 2000. 459 с.
9. Урсул А.Д. Становление устойчивой цивилизации: новые глобальные цели // Философия и общество. 2016. № 1 (78). С. 29–56.
10. Устойчивое развитие: Новые вызовы: учебник для вузов / под общ. ред. В.И. Данилова-Данильяна, Н.А. Пискуловой. М.: Аспект Пресс, 2015. 336 с.
11. Тяпухин А. П. Сущность, состав и эволюциясистемы управления устойчивым развитием региона / А. П. Тяпухин, А. Т. Раимова // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2009. No 19(52).С. 21–29.
12. Перелет Р. А. Направления стратегии «зеленого роста». // rospromeco.com/expertnoe-mneniye/28-analytic /expert-noe-mneniye/
13. Глобалный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЭП, www.un.org/ru/events/chemistry2011/annual_report_2009.pdf
14. Barrier E. B. The concept of sustainable economic development //The economics of sustainability. – Routledge, 2017. – С. 87-96.
15. Mitlin D., Satterthwaite D. Sustainable development and cities //Sustainability the Environment and Urbanisation. – Routledge, 2014. – S. 23-61.
16. Collins A., Munday M., Roberts A. Environmental consequences of tourism consumption at major events: An analysis of the UK stages of the 2007 Tour de France //Journal of Travel Research. – 2012. – Т. 51. – №. 5. – S. 577-590.
17. Daly H. E. Ecological economics and sustainable development. – Edward Elgar Publishing, 2007.
18. Costanza R. Ecological economics in 2049: Getting beyond the argument culture to the world we all want //Ecological Economics. – 2020. – Т. 168. – S. 106484.
19. Levin S. A., Klark W. Toward a sciyence of sustainability //Center for International Development Working Papers. – 2010.
20. Nordhaus W. Evolution of modeling of the economics of global warming: changes in the DICE model, 1992–2017 // Climatic change. – 2018. – Т. 148. – №. 4. – S. 623-640.
21. Розенберг Г.С., Черникова С.А., Краснощеков Г.П., Крылов Ю.М., Гелашвили Д.Б. Мифы и реальность «устойчивого развития» // Проблемы прогнозирования. 2000. № 2. С. 131–154.
22. Гизатуллин Х.Н., Троицкий В.А. Концепция устойчивого развития: новая социально- экономическая парадигма // Общественные науки и современность. 1998. № 5. С. 124–130.
23. Товбина В.Л. Новая экологическая парадигма – важный фактор обеспечения устойчивого развития // Ученые записки Российского государственного гидрометеорологического университета. 2012. № 26. С. 248–265.
24. Isadjanov A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik jihatlari. Monografiya. TDIU. Ilmiy tadqiqot markazi. 2020. 137-138 b.

25. Вахабов А. В., Хажибакиев Ш. Х. Необходимость и приоритетные направления перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. Спецвыпуск 4. – С. 3-12.
26. Nigmatov A Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari //Monografiya. –T.: Spectrum Media Group. – 2015. – T. 120.
27. Бобилев С.Н., Кирюшина П.А., Кудрявцева О.В. Зеленая экономика и цели устойчивого развития для России. МГУ им.М.В.Ломоносова 2019, с. 283
28. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp.
29. Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С.
30. Башорина О.В., Темкина И.М. Переход к “зеленой” Экономике как фактор устойчивого развития и преодоления бедности. –Урал,2012. –201 с
31. .Неверов А.В.,Водопьянова Т.П. Экономика природопользования. –Минск,2019.–117 с..
32. “Зеленая” экономика-главный тренд нового десятилетия. –М., 2021. С. 7-13с.
33. Яшалова Н.Н. “Зеленая” Экономика: региональный аспект. –Санкт-Петербург, 2014 . –194 с.
34. Пискунов Н., Пахомов Н.В. Анализ мирового опыта перехода к “зеленой” Экономике. –М., 2022. –213 с.
35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori PQ-436-sonli Qarori//https://lex.uz/uz/docs/6303230



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARI METODOLOGIYASI

Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi
TDIU “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oziq-ovqat bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlarining o‘rni, oziq-ovqat bozorini rivojiga ta’sir etuvchi omilla va marketing tadqiqotlarda integratsion yondashuvlarning o‘ziga hosligi aks ettirilgan. Shu bilan birga oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlanish metodologiyasining ilmiy va nazariy jihatlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: bozor, oziq-ovqat, ishlab chiqarish, marketing, omillar, ko‘rsatkichlar, oziq-ovqat bozori, marketing tadqiqotlari, metodologiya.

Abstract: This article reflects the role of marketing research in the development of the food market, the factors influencing the development of the food market, and the uniqueness of integrated approaches in marketing research. At the same time, the scientific and theoretical aspects of the methodology of food product market development are based.

Key words: market, food, production, marketing, factors, indicators, food market, marketing research, methodology.

Аннотация: В данной статье отражена роль маркетинговых исследований в развитии продовольственного рынка, факторы, влияющие на развитие продовольственного рынка, а также уникальность комплексных подходов в маркетинговых исследованиях. При этом обосновываются научно-теоретические аспекты методологии развития продовольственного рынка.

Ключевые слова: рынок, продукты питания, производство, маркетинг, факторы, индикаторы, продовольственный рынок, маркетинговые исследования, методология.

KIRISH

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar tahlili oziq-ovqat sanoatida, xususan? oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini o‘zgarish tendensiyalari pandemiya sharoitigacha bo‘lgan davrda barqaror va jadal o‘sib borganligini va pandemiyadan keyingi davrda sezilarli darajada pasayishga hamda 2021-yildan boshlab yana tiklanish fazasiga o‘tganligini ko‘rsatadi. Oziq-ovqat sanoatidagi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining jadal sur’atlarda o‘sishini ta’minlashning asosiy omillari sifatida ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonidagi samaradorlikni oshiruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish, shu bilan birga sohada marketing tadqiqotlarining yangi, zamonaviy va samarali tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalarini shakllantirish belgilab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, dunyoda oziq-ovqat tanqisligi kuchayib bormoqda. Eksportga qo‘yilayotgan cheklovlar va transport-logistikasidagi uzilishlar muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Tahlillarga ko‘ra, joriy 2022-yilgi dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari narxi kamida 20 foizga o‘sishi prognoz qilinmoqda. Ming afsus, bolalar oziq-ovqatining narxlari undan ham yuqorilashi kutilmoqda.

2022-yili oziq-ovqat mahsulot importi O‘zbekiston Respublikasida 2,2 mln. doll.ni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 25 foizga oshganligi yoki 441 mln.doll. ga ko‘payganligi ko‘rishimiz mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlari asosan Qozog‘iston (881 mln.doll.), Rossiya (747 mln.doll.), Belorus (105 mln.doll.), Ukraina (59 mln.doll.) va Turkiya (45 mln.doll.)dan keltirilgan. Albatta ushbu ko‘rsatkichlarga joriy va kelajak yillarda, ma’lum sabablarga ko‘ra, yetishish imkoniyati bo‘lmaydi [1].

Tadqiqotlar o‘tkazishimiz natijasida respublikamizda oziq-ovqat bozorini rivojlantirishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tizimlashtirdik. 1-rasmda ushbu omillarni chizma ravishdagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatib o‘tishga e’tibor qaratdik (1-rasmga qarang).



1-rasm: Oziq-ovqat bozorini rivojiga ta'sir etuvchi omillar [2]

Yuqoridagi rasmda keltirilganidek bolalar oziq-ovqati holatiga turli hil omillar ta'sir ko'rsatib, ularning hususiyatlariga qarab ijtimoiy-demografik, bozor va tashkiliy-iqtisodiy guruhlarga taqsimlash mumkin.

- **Ijtimoiy-demografik omillar** – hayot kechirish tarzini o'zgarishi, iste'mol qilish hususiyatlarning takomillashi, ayollarning bandligini oshishi, harid qilish qobiliyatini yuksalishi va boshqa hususiyatlarni keltirishimiz mumkin.
- **Bozor omillari** – iste'mol auditoriyasining barqarorsizligi; sanoat ishlab chiqarilayotgan bolalar oziq-ovqatiga bo'lgan ishonchsizlik; bolalar oziq-ovqati haqidagi axborotga ega bo'lmaslik; bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini qisqa muddatda ishlab chiqarilishi va tez o'zgaruvchanligi sababli raqobat muhitida ishlash ko'nikmalari bo'lmasligi; mahalliy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojning oshishi, ularning xalqaro standartlarga javob berishini mos bo'lishi va nisbatan arzonroq bo'lishi va hokazo.
- **Tashkiliy-iqtisodiy omillar** guruhiga quyidagilarni kiritsak bo'ladi: ekologik toza hom-ashyo bazasining mavjudligi; bolalar oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirishga ehtiyoj bo'lishi va unga ajratilgan kapital mablag'lar mavjudligi; sanitariya-epidomologik talablarni kuchaytirilishi; bolalar oziq-ovqati sohasida ishlatilayotgan qadoqlash mahsulotlariga qo'yilgan talablarga rioya qilinishi; bolalar oziq-ovqatlarni ishlab chiqish texnologiyalar va xom-ashyo hamda tayyor mahsulotlarni saqlanish sharoitlarga o'rnatilgan qoidalarga rioya etish va boshqa omillar kiradi.

Tadqiqot natijalarida aniqlangan omillarni asosan ikki guruhga taqsimlashimiz mumkin:

1) to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi;
2) oziq-ovqat bozorini bilvosita ravishda rivojini ta'minlovchi omillar.

Buning o'tkazilgan tadqiqotlarimizda oziq-ovqat bozorini hajmini aniqlash borasida quyidagi formuladan foydalanganmiz:

$$E_p^n = E_r^b \cdot K_т \cdot K_u \cdot K_r \cdot K_x \ (1)$$

bu yerda:

E_p^n - oziq-ovqat bozorining hajmi, mln.so'm

E_r^b - oziq-ovqat hajmining bazaviy ko'rsatkichi, mln.so'm;

$K_т$ - tug'ilishning o'zgarishini inobatga oluvchi koeffitsiyenti;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

K_u - aholi daromadi tuzilmasidagi bolalar oziq-ovqatiga ketgan harajatlar ulushini ifodalovchi koeffitsiyenti;
K_r - raqobat darajasini ifodalovchi koeffitsiyenti;
K_x - oziq-ovqati iste'molining hususiyatlarini inobatga oluvchi koeffitsiyent.
Tug'ilishning o'zgarishini inobatga oluvchi koeffitsiyenti () quyidagicha aniqlanadi:

$$K_m = (Z_{t=1}^{N}) \frac{T_{j+1}}{T_j} / (\text{N-1}) \quad (2)$$

bu yerda:
T_j, $T_j + 1$ – bazaviy va keyingi yildagi tug'ilish ko'rsatkichlari;
N- qaysi yillar bo'yicha o'lchanayotgani.
Aholining daromadi tuzilmasidagi oziq-ovqatiga ketgan harajatlar ulushini ifodalovchi koeffitsiyent quyidagicha aniqlanadi:

$$K_y = 1 + \frac{\Delta x_б}{Д_ў} \quad (3)$$

bu yerda:
Δx_b - oziq-ovqatiga ketadigan harajatlarning o'rtacha oshishi, mln.so'm;
$d_{o'}$ – aholining o'rta daromadining darajasi, mln.so'm;
Raqobat darajasini ifodalovchi koeffitsiyent () asosan mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi holatni ifodalab, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$K_p = 1 + \frac{Q_{БОМ} + Q_{БОТ}}{Q} \quad (4)$$

bu yerda:
Q_{BOM} – oziq-ovqatini o'rtacha mahalliy va tashqi ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarish hajmi,
Q_{BOT} – O'zbekiston bozoriga oziq-ovqat mahsulotlarini o'rtacha yetkazib berish hajmi.
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini yuqori darajasi (DX ≤ 10) ni ta'minlash uchun iste'molining xususiyatlarini inobatga oluvchi koeffitsiyent quyidagicha aniqlanadi:

$$D_x \le 10 - (A_{sh} \cdot A_{om}) \quad (5)$$

bu yerda:
A_{sh}, A_{om} - oziq-ovqat bozorining hajmi o'rta yil aholi miqdorini o'sish tempi, shahar aholisi va oliy ma'lumotga ega bo'lgan aholi miqdori.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kelajakda o'rganilayotgan bozorning uch shaklda o'zgarishini inobatga olib: pozitiv, negativ va barqaror usullariga bo'lishimiz mumkin:


Pozitiv o'zgarishlar bozorning keskin o'sishi, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi xukumatining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bozorni to'ydirish siyosatini olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Negativ o'zgarishlar esa global iqtisodiy inqirozlar, Pandemiya yoki ma'lum voqealar bilan bog'liq bo'lgan holatdagi holatlar inflyatsiya, ishsizlik va boshqa salbiy iqtisodiy holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Albatta, bunday omillarga ekologik buzilishlar, tabiatning qonuniyatlarini buzilishi yer yuqoridagi issiqlik darajasini oshishi, muzliklarni erishi barcha ofatlarni oshishiga olib kelmoqda.

Demak, oziq-ovqatini ta'minlash, ishlab chiqaruvchi korxonalar rivojlanishini rag'batlantirish, mahalliy resurslardan to'laroq foydalanish marketing tadqiqotlari natijalaridan to'laroq foydalanishni taqazo etadi. Hozirgi kundagi mavjud marketing vositalaridan to'la foydalanilgani yo'q, ba'zi korxonalardan unga yetarli darajada e'tibor berilmayapti. Vaholanki, sayyoramizda mavjud resurslarning chegaralanganligi, aholining tobora o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini qondirish zarurligi bu iqtisodiyotning hal qilinishi muhim bo'lgan qiyinchiliklardan hisoblanadi. Shu sababdan tadqiqotlarimizda shu ikkala muhim omillarni qo'shib o'rgandik.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammoni hal qilishdagi ishlab chiqilgan raqobat ustunligini baholash uslulini qo'llash uchun, birinchi navbatda, marketing tadqiqotlarini sifatli va samarali o'tkazishni tashkil etish lozim bo'ladi.

Bu jarayonni M.A.Ikramovning ilmiy ishlanmalarida ko'rsatilgan bosqichlarda amalga oshirilishi lozim [3]. 2-rasmda ushbu bosqichlarning ketma-ketligi keltirilgan.




2-rasm: Insonning zaruratidan to iste'molchigacha o'tiladigan bosqichlar

Marketingning konsepsiyalarini rivojlanishi bilan birga nafaqat iste'molchi xohish-istagi birinchi o'ringa chiqadi, balki marketing tizimining asosiy vazifalaridan bo'lib, bo'lajak talabni ham shakllantirish muhim o'rin tutadi. Haridorni mijozga aylantirish uchun uning moyilligini shakllantirish, ushbu brend yoki mahsulotga xohish bildirishini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Masalan, FOSSTIS tizimi, ya'ni o'zbek tilida talabni shakllantirish va sotuvni rag'batlantirish tizimidan unumli foydalanish borasida reklama, PR-kompaniya, ko'rgazmalar va boshqa tanishtiruv tadbirlarni amalga oshirish muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, bitta mijozni ushlab turish, taxminan oltita yangi haridorni jalb etish bilan teng ekan. Shu sababdan haridorni doimiy mijozga aylantirish borasida ham ko'p tashkiliy, iqtisodiy, eng muhimi ijtimoiy-psixologik tadbirlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Marketing tadqiqotlarining asosiy maqsadi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'rganish, uni qondirish yo'llarini qidirish, kerak bo'lsa ularning xohish-istaklarini to'laroq qondirish borasida ehtiyojni shakllantirish muammosini hal etish muhim o'rinni egallaydi. Albatta, bundayo holat, o'ziga hos marketing tadqiqotlarini amalga oshirish uslubiyotini ishlab chiqishini taqazo etadi.

Marketing tadqiqotlari natijasida olinadigan ma'lumotlar turli xil shakllarda tahlil qilinadi. Mavjud uslublarni guruhlashtirishga harakat qilib, ularni chizma ravishda ifodaladik (3-rasmga qarang).



3-rasm: Marketingdagi tadqiqotlar uslubining tizimi [4]


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Marketing tadqiqotlarini amalga oshirishda marketing harakatlarining barchasidan bir vaqtda foydalanish lozim. Shundagina marketingli faoliyat iste'molchidan sanoat korxonalariga va savdoga, ulardan esa qarama-qarshi yo'nalishdagi uzluksiz axborot tizimini ta'minlaydi. Bu esa o'z vaqtida ishlab chiqarishda tovar assortimentiga, sotish shartlariga, xizmat ko'rsatish sohasiga o'zgarishlar kiritishga imkon beradi.

Respublikamiz erkin bozor munosabatlariga o'tar ekan, barcha tarmoq korxonalari moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichi- foyda bo'lib qoladi. Tovar va xizmatlarning yuqori sifatliligi, ularni reklama qilish- marketingning muhim prinsipi, raqobat kurashishi sharoitida foyda olishning asosi hisoblanadi. Ammo, tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ijobiy natijalarga erishish uchun, doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlar, jumladan, marketing tadqiqotlarini o'tkazish muhim o'rin egallaydi. Bunday holat globallashuv yoki integratsiyalashuv jarayonlarini inkor etmaydi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki birorta davlat, shu jumladan, qudratli AQSH, Xitoy, Rossiya mamlakatlari ham ushbu jarayonlarsiz kelajagini ko'ra olishmaydi.

Albatta, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish korxonalari o'zi kam va tarqoq bo'lgani inobatga olgan holda, rasmda keltirilgan marketing tadqiqotlarini amalga oshirish uslublarining tizimi ushbu sohada qaysi marketing tadqiqotlari shakllaridan foydalanishni tanlab olish ko'maklashadi. Hozirgi kunda 3-rasmda keltirilganidek ko'proq psixologik, ijtimoiy va boshqa usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.


Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini va uning samaradorligini oshirishda, bizning fikrimizcha 4-rasmda keltirilgan marketing tadqiqotlarini amalga oshirishda integratsion yondashuvdan foydalanishini tavsiya etir edik. Bunday yondashuvni amalga oshirishda uning barcha tomonlarning manfaatdorligini inobatga olinishi muhim o'rin egallaydi.



4-rasm: Marketing tadqiqotlarda integratsion yondashuv [5]

Korxona va tashkilotlarning marketologlari chizmada keltirilgan vazifalarni bajarishda zamonaviy vosita va uslublardan foydalanish mug'im o'rin egallaydi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida biz tomondan oziq-ovqat-mahsulotlari turlari bo'yicha prognoz ishlab chiqarishga harakat qildik. Bunda marketing tadqiqotlarini rivojlantirishga benchmarketing imkoniyatidan kengroq foydalanishni xulosa qildik. 5-rasmda ushbu holatni ko'rsatib o'tishga harakat qildik 5-rasmga qarang).

Har bir bozor rivojlanishida raqobatga bardosh berish imkoniyati muhim rol o'ynab, bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar ham ichki va tashqi bozordagi raqobat muhitiga moslashishi zarur bo'ladi. Hozirgi paytda tashqi bozordagi raqobat to'g'risida gapirishimiz noo'rin bo'lsada, ammo bunday holatga har bir tadbirkorlik subyekti tayyor bo'lishi kerak.



5-rasm: Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarda marketing tadqiqotlarini rivojlantirishda benchmarkentingini qo'llash [6]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda aholi daromadining 40-50 foizi oziq-ovqatga sarflanadi. Shu bois bunday mahsulotlarni ko'paytirib, narx-navoning aholi ro'zg'origa ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish lozim bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, sifatli marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, ayniqsa, bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishini rivojlantirishni taqazo qiladi.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishning asosiy maqsadi nafaqat ichki bozorning imkoniyatlari, balki tashqi bozorning holatini o'rganish, oziq-ovqat tovarlari bilan ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Oxirgi yildagi tendensiyalarga e'tibor qaratsak, butun dunyodagi oziq-ovqat tanqisligi eksport qilishni chega-ralanayotganligi, imkoniyat doirasida ichki ehtiyojlarni birlamchi qondirishga yo'naltirilmoqda. Ammo bunday holat O'zbekiston bozoriga o'zining salbiy ta'sirini olish borasida chora-tadbirlar ko'rish zarurligini, buning uchun samarali marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мейлиева, Д. (2022). Подходы к решению проблемы обеспечения продуктами детского питания в Узбекистане. Направления развития благоприятной бизнес среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 147-150.
2. D. Boboniyozovna. Marketing strategies in the baby food industry. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2023.
3. Ikramov M.A., Tadjibayeva N.G. Marketingda raqobat strategiyasini shakllantirish muammolari. Namangan muhandislik texnologiya instituti to'plami, –2019 y. –55-59 b.
4. А.П.Карасев, Маркетинговые исследования и ситуацирнный анализ.-М.: Юрайм, 2016. –41 стр.
5. Дилноза Бобониёз Мейлиева. К вопросам разработки маркетинговой стратегии предприятий, производящих продуктов детского питания. Управление инновационными и инвестиционными процессами и изменениями в современных условиях. Ст. –275-278, 2022.
6. D Boboniyozovna. Baby food industry and supply chain economics. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 122-126, 2023/6/12

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



КОНЦЕПЦИЯ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ РЕГИОНА И ЕЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна
Ассистент кафедры «Экономика» Университет Образования Ренессанс

Аннотация: В данной научной статье рассматривается концепция маркетинговой стратегии развития региона и ее теоретические основы. Подчеркивается важность применения принципов и инструментов маркетинга для достижения устойчивого экономического роста, повышения качества жизни населения и привлечения инвестиций в регион. В статье рассматриваются основные этапы разработки маркетинговой стратегии развития региона, включая анализ рынка, позиционирование, маркетинговый микс и коммуникацию. Также обсуждаются основные принципы и концепции, лежащие в основе маркетинговой стратегии развития региона.

Ключевые слова: Позиционирование, целевая аудитория, конкурентная среда, уникальные преимущества, предложение, коммуникация, стратегия маркетинга.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada mintaqani rivojlantirish bo'yicha marketing strategiyasi kontseptsiyasi va uning nazariy asoslari ko'rib chiqiladi. Barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, aholi turmush sifatini yaxshilash va mintaqaga sarmoya jalb etish uchun marketing tamoyillari va vositalarini qo‘llash muhimligi ta’kidlangan. Maqolada mintaqani rivojlantirish uchun marketing strategiyasini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari, jumladan, bozor tahlili, joylashishni aniqlash, marketing aralashmasi va kommunikatsiyalari muhokama qilinadi. Shuningdek, mintaqani rivojlantirish bo'yicha marketing strategiyasi asosidagi asosiy tamoyillar va tushunchalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Joylashtirish, maqsadli auditoriya, raqobat muhiti, noyob afzalliklar, taklif, aloqa, marketing strategiyasi.

Abstract: This scientific article examines the concept of a marketing strategy for the development of a region and its theoretical foundations. The importance of applying marketing principles and tools to achieve sustainable economic growth, improve the quality of life of the population and attract investment to the region is emphasized. The article discusses the main stages of developing a marketing strategy for the development of the region, including market analysis, positioning, marketing mix and communication. The basic principles and concepts underlying the marketing strategy for the development of the region are also discussed.

Key words: Positioning, target audience, competitive environment, unique advantages, offer, communication, marketing strategy.

ВВЕДЕНИЕ

Маркетинговая стратегия развития региона играет важную роль в достижении устойчивого экономического роста и повышении качества жизни населения. Регионы сталкиваются с конкуренцией за инвестиции, туристические ресурсы и талантливых специалистов, и маркетинговая стратегия может помочь привлечь внимание и заинтересовать заинтересованные стороны.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Анализ рынка

Анализ рынка является основой разработки маркетинговой стратегии развития региона. Он включает изучение рыночной ситуации региона, выявление потребностей и предпочтений целевой аудитории, анализ конкурентов и определение уникальных преимуществ региона. Анализ рынка позволяет определить потенциал региона, его сильные и слабые стороны, а также возможности для развития.

Анализ рынка является важной составляющей разработки маркетинговой стратегии развития региона. Этот этап включает в себя систематическое изучение рыночной ситуации с целью получения информации о потенциале региона, его целевой аудитории, конкурентной среде и возможностях для развития. Вот некоторые ключевые аспекты анализа рынка в контексте маркетинговой стратегии развития региона:

- Исследование потребностей и предпочтений целевой аудитории: Регион должен тщательно изучить потребности, предпочтения и поведение своей целевой аудитории. Это может включать анализ демографических данных, социальных и экономических характеристик, образа жизни и предпочтений целевой аудитории. Понимание потребностей и предпочтений помогает региону создать продукты, услуги и мероприятия, которые наиболее соответствуют ожиданиям своих потребителей.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

- Анализ конкурентной среды: Регион должен изучить конкурентную среду, чтобы определить свои конкурентные преимущества и разработать стратегии, которые помогут ему выделиться на фоне конкурентов. Это включает исследование конкурентов, их предложений, ценовой политики, маркетинговых активностей и степени их успешности. Анализ конкурентной среды помогает региону определить свою уникальность и разработать стратегии, которые помогут ему привлечь больше внимания и заинтересовать заинтересованные стороны.
- Определение уникальных преимуществ региона: Регион должен определить свои уникальные преимущества, которые отличают его от других регионов и делают его привлекательным для целевой аудитории. Это могут быть природные достопримечательности, культурное наследие, исторические и архитектурные особенности, инфраструктура или другие факторы. Определение уникальных преимуществ помогает региону сформулировать свое позиционирование и разработать маркетинговые стратегии, которые подчеркивают его привлекательность и преимущества.
- Оценка рыночного потенциала: Регион должен оценить свой рыночный потенциал и определить возможности для развития. Это может включать оценку размера рынка, тенденций рынка, ростовых секторов, потенциальных сегментов аудитории и прочих факторов, которые могут повлиять на развитие региона. Оценка рыночного потенциала помогает региону определить свои цели и разработать стратегии, которые помогут достичь этих целей.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ рынка является важным шагом при разработке маркетинговой стратегии развития региона. Он помогает регину определить свои сильные и слабые стороны, идентифицировать возможности и угрозы, а также разработать стратегии, которые позволят эффективно использовать свои преимущества и преодолеть препятствия. Это помогает региону привлечь больше туристов, инвестиций и развиваться в конкурентной среде.

2. Позиционирование

Позиционирование региона является ключевым элементом маркетинговой стратегии развития. Регион должен определить свою уникальность и разработать позиционирование, которое подчеркивает его преимущества и привлекательность для целевой аудитории. Позиционирование региона может основываться на природных достопримечательностях, культурном наследии, инфраструктуре или других факторах. Оно помогает выделиться на фоне конкурентов и создать привлекательный образ региона.

3. Маркетинговый микс

Маркетинговый микс представляет собой комбинацию стратегий по продукту, цене, продвижению и распределению, адаптированных к особенностям региона. Разработка маркетингового микса требует анализа потребностей целевой аудитории и создания продуктов и услуг, которые удовлетворяют эти потребности. Регион также должен определить оптимальные цены, провести эффективныемероприятия по продвижению продуктов и услуг и обеспечить удобное распределение своих предложений.

4. Коммуникация и связи

Эффективная коммуникация и связи играют важную роль в маркетинговой стратегии развития региона. Регион должен активно коммуницировать свои преимущества и предложения, как на местном, так и на международном уровнях. Необходимо использовать различные каналы коммуникации, такие как реклама, PR, социальные сети и сотрудничество с туристическими агентствами или инвесторами. Это помогает повысить осведомленность о регионе и привлечь больше внимания со стороны потенциальных посетителей и инвесторов.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Маркетинговая стратегия развития региона является неотъемлемой частью успешного развития региона. Она основывается на применении принципов и инструментов маркетинга для достижения целей региона. Анализ рынка, позиционирование, маркетинговый микс и эффективная коммуникация являются основными составляющими маркетинговой стратегии развития региона. Правильное использование этих концепций помогает региону привлечь больше инвестиций, развить туризм и повысить качество жизни населения.

Список использованной литературы:

1. Андреева Н.М. Инновационный опыт подготовки студентов экономических специальностей по дисциплине «Информатика» [Электронный ресурс] // Вестник Красноярского государственного педагогического университета им. В.П. Астафьева. –2012. – № 2.
2. Вашко Т.А. Методы стратегического анализа. учеб. пособие. КГТЭИ; Кафедра «Менеджмент». –Красноярск, 2002. –110 с.
3. Закерьяева Е.А. Теоретические аспекты инвестиционного развития экономики региона.
4. Корчагин Ю.А. Инвестиционная привлекательность и стратегии регионов: учебное пособие Региональная экономика и финансы. – Воронеж. 2010. –С. 114.
5. Корчагин Ю.А. Современная экономика России: учебное пособие. –Ростов н/Д. 2008. – С. 680.
6. Николндрова Л.Ю. Методологические аспекты инвестиционной привлекательности региона.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATIGA XALQARO KAPITAL BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURSLAR JALB QILISH AMALIYOTINING TAHLILI



Muydinov Shohruh Najmiddin o‘g‘li
Toshkent Moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlariga kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning mohiyati, amaliyoti, tahlili va hozirgi holat bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Mavzuga oid olimlarning ilmiy nazariy qarashlari tahlil qilinib, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga moliyaviy resurlar jalb qilish buyicha amaliy xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Aksiya, korpotiv, moliya, bozor, bank, investitsiya, tijorat, kredit, emissiya, kapital, globallashuv, fond, birja.

Abstract: The article provides information on the nature, practice, analysis and current state of attracting financial resources from the capital market to joint-stock companies in our country. The scientific theoretical views of scientists on the topic are analyzed, and practical conclusions and proposals are presented regarding the involvement of financial resources in the activities of joint-stock companies.

Key words: Stock, corporate, finance, market, banking, investment, commerce, credit, emission, capital, globalization, fund, exchange.

Аннотация: В статье представлена информация о характере, практике, анализе и современном состоянии привлечения финансовых ресурсов с рынка капитала в акционерные общества в нашей стране. Проанализированы научно-теоретические взгляды ученых на данную тему, а также представлены практические выводы и предложения относительно привлечения финансовых ресурсов в деятельность акционерных обществ.

Ключевые слова: Акции, корпорации, финансы, рынок, банковское дело, инвестиции, коммерция, кредит, эмиссия, капитал, глобализация, фонд, обмен.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki manbalar hisobiga moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, biroq moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabning ortib borishi xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilishning zaruratini vujudga keltiradi. Bugungi kunda O‘zbekiston mustaqillik tarixida ilk bor korporativ yevroobligatsiyalarni xalqaro fond birjasida joylashtirib bular bo‘yicha dastlabki ijobiy natijalarga erishildi.

Mamlakat yoki kompaniyalar tomonidan yirik investitsion loyihalarni va sohalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy fond birjalarida xorijiy valyutalarda joylashtiriladigan obligatsiyalar yevroobligatsiyalar deyiladi. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamligini ta’minlashga hamda xususiy, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar uchun respublikaning investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mamlakatni xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashtirish ishlari talab darajasida olib borilmayotganligi tashqi moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalarini jalb qilish va ularning hajmlarini kengaytirish imkoniyatlarini cheklamoqda. O‘tkazilgan o‘rganishlar, O‘zbekistonning yetakchi banklari va yirik korxonalari tomonidan korporativ reytinglarni olish hamda davlat kafolatisiz xorijiy investitsiya va qarzlarni jalb qilish bo‘yicha respublikaning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradigan mamlakatning suveren kredit reytingini olish zarurligini ko‘rsatmoqda. Ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, 2019-yilning fevral oyida dunyoning eng obro‘li birjalaridan hisoblangan London fond birjasida O‘zbekiston tarixida birinchi marta yevrobondlar, ya’ni yevroobligatsiyalarni bozorga joyladi. Bunda 5 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni 4,75 foizdan, 10 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni esa 5,375 foizdan joylashtirdi. Qarz obligatsiyalarini qaytarish muddatlari 2024-yil va 2029-yillar qilib belgilandi[1].

1 Toshmatov Sh.A. O‘zbekiston xalqaro obligatsiyalarining jahon moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi: risk va prognozlar. http://review.uz/


Avvaliga kuponlarning diapazoni 5,625 – 5,75 foiz hamda 6 foiz miqdorida belgilangan edi, ammo talabning yuqoriligi sababli O‘zbekiston foiz stavkalarini qayta ko‘rib chiqib, ularni 4,75 foiz va 5,375 foizgacha tushirdi. Obligatsiyalarni xarid qilishga taxminan 150 institutsional investorlardan 3,8 milliard dollarlik taklif kelib tushdi. Davlatlar nuqtayi nazardan, xarid qilingan 5 yillik va 10 yillik obligatsiyalarning katta qismi Buyuk Britaniya investorlari (tegishincha 39 foiz va 32 foiz), amerikalik investorlar esa 23 va 31 foiz obligatsiyalarni xarid qildi. Yevropalik investorlar 32 foiz va 27 foiz, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari investorlari esa 6 va 10 foizni tashkil qildi.

Yevrobondlarning aksariyatini – 75 % va 78%ini boshqaruv fondlari, 20% va 16 foizini sug‘urta kompaniyalari va pensiya fondlari, 5% va 6% foizini banklar xarid qildi. Jami joylashtirilgan 1000,0 mln dollarlik xalqaro obligatsiyalar uchun dastlabki besh yilda to‘lanadigan bir yillik foizli xarajatlar 56,63 mln dollarga teng, keyingi besh yilda faqat 10 yillik muddatli xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha foizli to‘lovlar amalga oshirilib, har yillik miqdori 26,88 mln dollarni tashkil etadi. 10 yil davomida ushbu xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha to‘lanadigan foizli xarajatlarning umumiy miqdori 387,50 mln dollarga teng.

Tashqi moliyalashtirish hajmini kengaytirish va manbalarini diversifikatsiyalash, xorijiy investorlar uchun mamlakatning jozibadorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida 2018-yil 21-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3877-sonli qarori qabul qilindi[2].

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq, xalqaro yevroobligatsiyalardan kelib tushgan moliyaviy resurslar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli me’yoriy hujjatlarga asosan aniq maqsadlar bo‘yicha taqsimlanadi. Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining suveren yevroobligatsiyalari muvaffaqiyatli joylashtirilgach, ulardan kelib tushgan moliyaviy mablag‘larni oqilona joylashtirish maqsadida 2019-yil 2-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan samarali foydalanish to‘g‘risida” PQ-4258-sonli Qarori[3] qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan samarali foydalanish, shu jumladan, mamlakat va xalqimiz farovonligini yanada oshirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bankining O‘zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘larni quyidagi yo‘nalish va maqsadlarga yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullandi (2.1-rasm):



2.1-rasm: Xalqaro obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan tarmoq va sohalar bo‘yicha taqsimlanishi, foizda[4]

2 https://lex.uz/docs/3836474-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3877-sonli Qarori.

3 https://lex.uz/docs/4266910-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan samarali foydalanish to‘g‘risida” PQ-4258-sonli Qarori.

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, xalqaro kapital bozoridan jalb qilingan moliyaviy mablag'larning 89% i yoki 889,2 million AQSH dollarini auksion savdolari o'tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga tegishli shartlarga muvofiq joylashtirilgan. Bundan tashqari 2% yoki 20 million AQSH dollarini "Agrobank" ATBga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shartlarga muvofiq subordinar qarz sifatida kredit liniyasini ochish yo'li orqali hamda 9%i yoki 89,9 million AQSH dollarini "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasiga, istisno tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan xorijiy valyutada budjet ssudasi sifatida joylashtirilgan.

2.1-rasm bo'yicha tahlil natijalarini davom ettirar ekanmiz, har bir yo'nalish va soha bo'yicha ajratilgan mablag'lar aniq shartlarga asoslangan bo'lib, ushbu shartlar jalb qilingan mablag'lardan foydalanishda samaradorlikka ega bo'lishini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shuning uchun yuqoridagi uchta yo'nalish bo'yicha ajratilgan mablag'larning asosiy shartlari va jalb qilingan mablag'larni qoplash bo'yicha asosiy jihatlarni tahlil qilib chiqamiz. Demak, xalqaro kapital bozoridan jalb qilingan mablag'larning asosiy qismi 889,2 mln.AQSH dollari miqdoridagi mablag'larni auksion savdolari o'tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga quyidagi shartlarga muvofiq joylashtirilgan (2.1-jadval).

2.1-jadval: Xalqaro kapital bozoridan jalb qilingan mablag'larning auksion savdolari o'tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga joylashtish shartlari[5]

Depozit muddati	Depozitga joylashtiriladigan mablag'larning maksimal miqdori	Minimal yillik foiz stavkasi	Foiz to'lovlari muddati	Depozitni qaytarish muddati
5 yillik depozit	459,6	5,25%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2024-y.
10 yillik depozit	429,6	5,875%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2029-y.
Jami	**889,2**	**-**	**-**	**-**

10 yillik muddatga depozitga joylashtirilgan mablag'larning miqdori 426,6 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, bular bo'yicha minimal yillik foiz stavka 5,875% dan iborat. Depozitni qaytarish muddati esa 2029-yilning fevral oyi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'larni 20 mln. AQSH dollari "Agrobank" ATBga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan subordinar qarz sifatida kredit liniyasini ochish sharti asosida taqdim etilgan. Mazkur kredit 10 yillik muddatga mo'ljallangan bo'lib, kredit bo'yicha yillik foiz stavkalar 5,875% ni tashkil etib, foiz to'lovlari 1 yilda ikki marotaba hisoblab boriladi. Kredit mablag'larini qaytarish muddati 2029-yilning fevral oyi qilib belgilangan (2.2-jadval).

2.2-jadval: Xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'larni Agrobankga subordinar qarz sifatida kredit liniyasini ochish shartlari[6]

10 yillik kredit liniyasi			
Kredit hajmi (mln. AQSH dollari)	**Yillik foiz stavkasi**	**Foiz to'lovlari muddati**	**Kreditni qaytarish muddati**
20	5,875%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2029-y.

Ta'kidlash lozimki, Agro bank ATB mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan yirik moliya sektori kompaniyalaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning turli sohalarini kredit mablag'larini bilan ta'minlashda alohida o'ringa ega. Agrobank o'z faoliyati davomida asosiy urg'uni iqtisodiyotning agrar sektorini moliyalashtirish, aholining bo'sh pul mablag'larini bank pul aylanmasiga jalb qilish, filiallar tarmog'i, xizmat turlari hamda mijozlari sonini ko'paytirish, bankning belgilangan beznes-rejasi va budjetining asosiy parametrlarini bajarishga qaratgan. Jalb qilingan mablag'larning minimal foiz stavkalaridan kelib chiqqan holda, xalqaro kapital bozoridan jalb qilingan mablag'larning samaradorligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz sanoat tarmog'ida yetakchi o'rinlardan birini egallab kelayotgan Navoiy KMK faoliyatni moliyalashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash, sohani rivojlantirishda yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Aynan shu kabi maqsadlarning uzviy davomi sifatida xalqaro kapital bozoridan jalb qilingan mablag'larni ma'lum

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

miqdorini “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasiga, istisno tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan xorijiy valyutada budjet ssudasi ajratish belgilangan. Jalb qilingan jami 89,9 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag‘larning 39,95 mln. AQSH dollari 5 yil muddatga muddatga 5,75% yillik foiz to‘lov miqdorida 1 yilda ikki marotaba hisoblash sharti asosida hamda 49,95 mln. AQSH dollari 10 yil muddatga muddatga 6,375% yillik foiz to‘lov miqdorida 1 yilda ikki marotaba hisoblash sharti asosida ajratilgan (2.3-jadval).

2.3-jadval: Xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘larni “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasiga xorijiy valyutada budjet ssudasi ajratish shartlari[7]

Jami ssuda hajmi	5 yillik ssuda				10 yillik ssuda			
	hajmi	yillik foiz stavkasi	foiz to‘lovlari muddati	qaytarish muddati	hajmi	yillik foiz stavkasi	foiz to‘lovlari muddati	qaytarish muddati
89,9	39,95	5,75%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2024-y	49,95	6,375%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2029-y.

2020-yil 6-martda O‘zbekiston Respublikai Prezidentining PQ-4629-sonli “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, “Navoiy KMK” davlat korxonasi nomlanishi tabiiy uran va nodir metallarni qazib olish va qayta ishlash korxonasi – “Navoiyuran” davlat korxonasiga o‘zgartirildi.

2018-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasining suveren kredit reytingini olishi hamda 2019-yilning fevral oyida 1 mlrd. AQSH dollari hajmidagi ilk suveren xalqaro obligatsiyalarning jahon moliyaviy bozorlarida muvaffaqiyatli joylashtirilishi mamlakatning xalqaro kapital bozori bilan o‘zaro munosabatlarning yo‘lga qo‘yilganligini bildiradi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda yetarli darajada fiskal zahiralar mavjudligi va makroiqtisodiy barqarorlik ta’minlanayotgan bir vaqtda suveren xalqaro obligatsiyalarni xalqaro bozorga muomalaga chiqarish zamirida qo‘shimcha mablag‘larga ehtiyojdan tashqari, quyidagi strategik maqsadlar yotadi:

1. Suveren xalqaro obligatsiyalarning jahon xalqaro moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining xalqaro maydonda e’tirof etilishiga erishish va xorijiy investorlar uchun respublikamizda investitsion riskni to‘g‘ri baholanishiga erishish.

Ta’kidlash joiz, O‘zbekiston Respublikasining 5 va 10 yillik suveren xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha yillik foiz to‘lovlari mos ravishda 4,75% va 5,325% darajasida belgilanishi xalqaro investorlar tomonidan O‘zbekiston bilan bog‘liq risklarning mo‘tadil darajada baholanishini ko‘rsatmoqda.

2. Suveren xalqaro obligatsiyalarning xalqaro bozorda muvaffaqiyatli joylashtirilishi O‘zbekiston uchun bozorda “benchmark” yaratib, yirik davlat korxonalari va banklari uchun jahon moliya bozorlarida o‘z obligatsiyalarini joylashtirish va shu asosda investitsion loyihalarni mustaqil moliyalashtirish uchun zamin yaratdi.

3. Suveren xalqaro obligatsiyalarni xarid qilgan investorlar tomonidan respublikamizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borishlari mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan shaffoflik va prudensial yondashuvlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Suveren xalqaro obligatsiyalarning ikkilamchi bozordagi kotirovkasi barqaror iqtisodiy siyosat yuritishning “o‘lchovi” bo‘lib xizmat qiladi.

4. Suveren xalqaro obligatsiyalar chiqarilgunga qadar O‘zbekistonga jalb etilgan kreditlarning asosiy qismi xalqaro moliya institutlari va boshqa rasmiy tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bunday kreditlarning hajmi, ishlatish yo‘nalishlari va muddati cheklangan bo‘lib, ko‘p hollarda bular bo‘yicha davlatga qo‘shimcha shartlar va majburiyatlar yuklanadi. Suveren xalqaro obligatsiyalarni esa yuzlab investorlar qo‘shimcha shart va majburiyatlar qo‘ymay sotib oladilar. Ushbu investorlar xususiy sektor vakillari bo‘lib, Suveren xalqaro obligatsiyalarni chiqarish O‘zbekiston uchun investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro kapital bozori va unda amal qiladigan moliyaviy instrumentlarga ixtisoslashuv xos bo‘lsada, so‘nggi yillarda birjalarning o‘zaro qo‘shilishi va qo‘shib olinishi natijasida ularning yiriklashuvi va xalqaro platformalarning universallashuviga olib keldi, bu bilan bozor ishtirokchilarining moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi tranzaksion xarajatlari va risklarini minimallashtirishga erishildi.

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

“Toshkent” Respublika fond birjasining nafaqat yetakchi fond birjalaridan balki Osiyo mintaqasidagi aksariyat fond birjalaridan sezilarli darajada orqada qolishi milliy iqtisodiyot faoliyatining umumiy muammolarini, ichki kapital bozori muammolarini keltirib chiqardi va buning natijasida iqtisodiyotning korporativ sektoriga moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari cheklanib qoldi.

Fond birjalarida muomalada bo‘lgan aksiyalardan tashqari, O‘zbekiston korporativ sektori va xalqaro kapital bozori o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda korporativ va davlat obligatsiyalari ko‘rinishidagi qimmatli qog‘ozlar muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlar qimmatli qog‘ozlar bozoridagi holat bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

Birinchidan, qarz qimmatli qog‘ozlar bozorining notekis rivojlanishi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlarining o‘sishi tahlil qilingan davrda 212% ni, ushbu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 55% ni tashkil etdi va bu asosan rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsion faollik hisobiga yuz berdi. Rivojlanishning beqarorligi rivojlangan mamlakatlar qatori ba’zi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham xos holatdir. Masalan, Xitoy qarz bozorining o‘n karra o‘sishi holatida, Braziliya, Rossiya, Ispaniya kabi mamlakatlarda ushbu bozor o‘sishi ikki-uch karrani tashkil etdi.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan bozorlar guruhi bo‘yicha xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlar bozorining umumiy hajmi ko‘rib chiqilayotgan davrda rivojlangan davlatlarning qarz qimmatli qog‘ozlar bozori umumiy hajmining taxminan 18% ni tashkil etdi.

Uchinchidan, qarz qimmatli qog‘ozlar bozori hajmining o‘sishi dinamik (intensiv, barqaror) tavsifga ega bo‘lib: besh yillik hajmlar sezilarli darajada oshib, buning natijasida ularning hajmi YAIMning 1,5 hajmidan oshadi.

To‘rtinchidan, rivojlangan mamlakatlar qimmatli qog‘ozlar bozorining qarz segmentida o‘sishning yuqori cho‘qqisi 2012-yilga to‘g‘ri keldi va bu yevrohududdagi iqtisodiy inqirozning qaytarilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Qarz qimmatli qog‘ozlarining hajmi va iqtisodiy o‘sish sur’ati, milliy iqtisodiyot hajmlarining sezilarli darajadagi korrelyatsiyasi kuzatildi. Qarz segmentidagi o‘sishi 2015-yilga kelib mo‘tadillashib, bu holat 2019-yilgacha kuzatildi. 2020-yilda Xitoyda boshlangan va deyarli butun dunyo mamlakatlarini qamrab olgan koronavirus pandemiyasi mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Butunjahon savdo tashkilotining prognozlariga ko‘ra pandemiyaning mamlakatlar iqtisodiyotiga yetkazayotgan salbiy ta’siri 4 yil davomida saqlanib qoladi. Ushbu holat o‘z o‘rnida kapital bozoriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda va shu bilan birga ushbu bozor xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Beshinchidan, O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori qarz sektorining hajmi uning yetarlicha rivojlanmagan darajasini ko‘rsatmoqda va bu korporativ sektor tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun kam imkoniyatlar mavjud ekanligini, shuningdek, iqtisodiyotning ushbu sektorida rentabellik nisbatan past darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalariga xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish amaliyotini tahlil qilar ekanmiz, mazkur jarayonlarda xalqaro yirik moliya institutlari Jaxon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabilarning ulushi yuqori ekanligini ta’kidlash lozim. Keyingi yillarda mamlakatimiz korporativ sektorida faoliyat yuritayotgan yirik aksiyadorlik kompaniyalarining investitsion dasturlarini moliyalashtirish va birgalikdagi loyihalarini amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot bankining mablag‘lari bilan ishtiroki yuqori o‘rinni egallab kelmoqda. 2015-2019-yillar mobaynida korporativ sektorning turli tarmoqlari va yo‘nalishlari 2020 mln. AQSH dollari miqdorida mablag‘lar yo‘naltirilgan bo‘lsa shundan yuqori ulushni 500 mln. AQSH dollarini qishloq joylarida arzon-uy joylarni qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar xissasiga to‘g‘ri kelmoqda (2.4-javdal).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, qarz va grant mablag‘lari hisobiga elektr energiya sarfi hisobini takomillashtirish maqsadlariga 2015-2019-yillar mobaynida jami 300 mln. AQSH dollari miqdorida mablag‘lar jalb qilingan. Bundan tashqari elektr energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida umumiy qiymati 1,0 mlrd AQSH. dollaridan ortiqroq mablag‘lar jalb qilingan. Shundan 640,0 mln. AQSH dollari birgalikdagi moliyalashtirish asosida amalga oshirilgan loyihalar hisoblanadi.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-oktyabrdagi PQ-3981-sonli “Elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq “Andijon, Namangan, Farg‘ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida elektr energiyasi iste’molini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE 4-faza) joriy etish” loyihasini amalga oshirish uchun ko‘zda tutilgan Osiyo taraqqiyot bankining 300 mln.AQSH dollari miqdoridagi qarz mablag‘lari hisobiga respublikaning boshqa hududlarida EEHO va NQATni joriy etish loyihasini amalga oshirish belgilangan.

2.4-jadval: 2015-2019-yillar mobaynida iqtisodiyotning korporativ sektoriga Osiyo taraqqiyot banki tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslarning tarmoqlar kesimida tahlili (mln. AQSH dollarida)[8]

№	Loyihalarning nomlanishi va yo‘nalishi	Moliyaviy resurslar hajmi	Birgalikda moliyalashtirish miqdori	Birgalikdagi moliyalashtirish turi
1	Elektr energiyasi hisobini takomillashtirish - 4 bosqich	300,0	70,0	Qarz, grant va aralash ko‘rinishda
2	Qishloqlarda arzon uy-joylar dasturi	500,0	300,0	Qarz, grant va aralash ko‘rinishda
3	Amu Buxoro irrigatsiya tizimini qayta tiklash	220,0	100,0	Qarz, grant va aralash ko‘rinishda
4	Iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish dasturi	300,0	670,57	Qarz, grant va aralash ko‘rinishda
5	Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish uchun uy-joy qurilishi - 3 Transh	100,0	100,0	Qarz, grant va aralash ko‘rinishda
6	Elektr energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	450,0	640,0	Qarz, grant va aralash ko‘rinishda
7	Savdoni moliyalashtirish dasturi	149,63	156,91	Suveren bo‘lmagan ko‘rinishda
Jami		**2019,63**	**2037,48**	

Osiyo taraqqiyot bankining qarz mablag‘lari hisobiga 2021-yil 1-dekabrga qadar respublikaning barcha hududlarida EEHO va NQATni joriy etishni yakunlash bo‘yicha zamonaviy hisoblash qurilmalari va qo‘shimcha asbob-uskunalarni sotib olish yuzasidan xalqaro tender savdolarining o‘tkazilishini jadallashtirish masalasi Qarorda alohida vazifa sifatida belgilangan. O‘z navbatida, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ mahalliy ishlab chiqaruvchilardan hisoblash qurilmalari va qo‘shimcha asbob-uskunalarni sotib olish jarayonida, ularning texnik parametrlarining xalqaro tender savdolarini o‘tkazish uchun tayyorlangan tender hujjatlari talablariga muvofiqligini ta’minlash qayd etilgan.

Iqtisodiyotning korporativ sektoriga xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini tahlil qilar ekanmiz, xalqaro moliya tashkilotlari bilan istiqbolli loyihalarning holatini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) iyun oyining oxirida O‘zbekiston bilan 2019-2023-yillarda hamkorlik qilish bo‘yicha yangi strategiyani tasdiqladi. Ushbu besh yillik reja O‘zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv va bozor iqtisodiyoti yo‘nalishida o‘sishiga ko‘maklashish uchun hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Umuman olganda, bank 2018-yilda umumiy qiymati 21,6 mlrd AQSH dollariga teng yangi turdagi kreditlar va grantlarni ajratdi, ularning 1,1 mlrd dollari O‘zbekistonga berildi. OTB ga 68 ta mamlakat a’zo bo‘lsada, o‘tgan yilda kreditlarning qariyb 5 foizi O‘zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini rivojlantirish uchun ajratilgan. So‘nggi yillarda xalqaro moliya institutlarining O‘zbekistondagi faoliyati ancha kengaydi. Ularning respublikada amalga oshirilayotgan turli loyihalar uchun ajratgan kredit va grantlar ko‘rinishidagi investitsiyalari hajmi bir necha barobarga oshdi.

Yuqorida 2.4-jadvalda OTB tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo‘yicha loyihalarning ulushini tahlilini ko‘rib chiqqan bo‘lsak, quyidagi rasm ma’lumotlari orqali Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki va Jaxon bankidan jalb qilingan mablag‘lar dinamikasini ko‘rib chiqamiz (2.4-rasm).




2.4-rasm: Xalqaro kapital bozoridan iqtisodiyotning korporativ sektoriga jalb qilingan mablag‘lar tahlili (2019-yil 30-iyun holatiga)[9]

8 https://www.adb.org/-Osiyo taraqqiyot bankining yillik hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
9 https://www.adb.org/ru/news/adb-uzbekistan-renew-development-partnership-new-5-year-strategy-ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan jami kreditlarning umumiy xajmi 1569 mln. dollarnin tashkil etgan bo‘lsa, shundan bugungi kundagi kredit portfelining umumiy miqdori 700 mln.dollarni tashkil etmoqda. Jahon banki tomonidan amalga oshirilgan moliyalashtirishning umumiy summasi 6741 mln. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, amaldagi loyihalar bo‘yicha moliyalash summasi 4338 mln. dollardan iborat bo‘lganligini ta’kidlashimiz mumkin. OTB tomonidan Markaziy Osiyodagi moliyalashtirilayotgan loyihalarni tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi masalasiga kelsak, 80% loyihalar to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilmoqda: energetika, transport, moliya sektori va davlat boshqaruvi sohasida.

Jahon bankining 1994-yildan boshlab respublikadagi loyihalarni moliyalashtirish hajmi dinamikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2011-yildan boshlab o‘sish sur’ati yaqqol ko‘rinadi. 1994-yildan 2010-yilgacha Jahon bankidan jalb qilingan mablag‘larning o‘rtacha miqdori yiliga qariyb 68 mln AQSH dollarini tashkil etgan. So‘nggi 8 yilda esa o‘rtacha yillik summa qariyb 7 baravarga o‘sgan (2.5-rasm).



2.5-rasm: Iqtisodiyotning korporativ sektori aksiyadorlik jamiyatlariga Jaxon bankidan jalb qilingan mablag‘lar dinamikasi tahlili[10]

O‘tgan yili jalb qilingan mablag‘lar 1,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan holda, rekord darajaga yetdi. Biroq, joriy yilda bu rekord yangilanishi mumkin. Chunki, joriy yilning dastlabki olti oyida bank tomonidan O‘zbekistonga 892 mln AQSH dollari ajratilgan. Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar keng turdagi tarmoqlarni qamrab olayotgan bo‘lsada, ularning qariyb yarmi davlat boshqaruvi, irrigatsiya va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyot korporativ sektori tomonidan moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabi milliy kapital bozori tomonidan yetarli darajada ta’minlanmayotganligi iqtisodiyotda takror ishlab chiqarish jarayonlariga salbiy ta’sir etish orqali iqtisodiy o‘sishdagi imkoniyatlardan to‘liq foydalanmaslikni ko‘rsatadi. Xususan, iqtisodiyotning korporativ sektoriga qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali moliyalashtirishga doir muammolarni bartaraf etish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda bank kreditlariga muqobil manba sifatida mas’uliyati cheklangan jamiyatlariga korporativ obligatsiyalar huquqini berish lozim. Bu kabi amaliyotni joriy etish xalqaro amaliyotda keng foydalanib kelinayotgan moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish orqali kapital bozorini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Toshmatov Sh.A. O‘zbekiston xalqaro obligatsiyalarining jahon moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi: risk va prognozlar. http://review.uz/
2. https://lex.uz/docs/3836474-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3877-sonli Qarori.
3. https://lex.uz/docs/4266910-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan samarali foydalanish to‘g‘risida” PQ-4258-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
6. https://www.adb.org/-Osiyo taraqqiyot bankining yillik hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
7. https://www.adb.org/ru/news/adb-uzbekistan-renew-development-partnership-new-5-year-strategy-ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

10 https://uzanalytics.com/iqtisodiedn 1-tahliliy ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O‘ZBEKISTONDA O‘ZINI O‘ZI BAND QILISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH MASALALARI

Latipov Ashur Ali Rustam o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada xorijiy davlatlarda aholining o‘zini o‘zi band qilishdagi ko‘rsatkichlar, ulardagi ayrim cheklov va qulayliklar ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston sharoitida o‘zini o‘zi band qilishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari, ushbu faoliyat turlari bilan aholi qamrovining tahlili va olingan natijalar orqali xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zini o‘zi band qilish, xorijiy tajriba, innovatson faoliyat, bandlik, kambag‘allik, internet, onlayn faoliyat.

Abstract: In the article, indicators of self-employment of the population in foreign countries, some of their limitations and facilities were considered. The types of activities that can be self-employed in the conditions of Uzbekistan, the analysis of the coverage of the population with these types of activities, and conclusions and proposals were developed through the obtained results.

Key words: self-employment, foreign experience, innovative activity, employment, poverty, Internet, online activity.

Аннотация: В статье рассмотрены показатели самозанятости населения в зарубежных странах, некоторые их ограничения и возможности. На основе полученных результатов разработаны виды деятельности, которыми можно заниматься самозанятым в условиях Узбекистана, проведен анализ охвата населения этими видами деятельности, а также сделаны выводы и предложения.

Ключевые слова: самозанятость, зарубежный опыт, инновационная деятельность, занятость, бедность, Интернет, онлайн-активность.

KIRISH

Jahonda kundan-kunga o‘zgarishlar rivojlanish sur’atlarining oshib borishi, iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar nafaqat bugungi kunda butun dunyo davlatlarini, qolaversa, O‘zbekistonda aholini yashash sharoitlarini yaxshilashga hamda ularning bandlik va daromadlarini oshirishga qaratilgan ta’sirchan choralarni joriy qilishga harakatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda jahonning ko‘plab rivojlangan davlatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak unda iqtisodiyotda band bo‘lganlarning katta qismi xizmatlar sohasiga, hamda o‘zini o‘zi band qilish orqali daromad qilayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. O‘zbekistonda ham xizmatlar sohasi rivojlanib kelmoqda hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi bandligini ta’minlashda davlat tomonidan mazkur masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha Farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qarori [1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi [2] nizomni tasdiqlash haqida” 806-son qarori ishlarni amalga oshirish maqsadida aholini o‘zini o‘zi band qilishga ko‘plab imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.

O‘zini o‘zi band qilish bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda hamda OAVda tez-tez guvohi bo‘lishimiz mumkin. O‘zini o‘zi band qilish o‘zi nima? U qachon paydo bo‘ldi? Ushbu sohaning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat? Rivojlangan davlatlarda o‘zini o‘zi band qilishda yaratilgan sharoitlar va erishilgan natijalar qanday? Mana shu yuqorida keltirilgan savollarga ilmiy assoslar bilan javob topishga harakat qilamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bugungi kunda mamlakatimizda “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi III-yo‘nalishi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashga qaratilgan, hamda VI. yo‘nalishi milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish bo‘limining 85-maqsadi: Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish” [3-191-272-b] masalalari qo‘yilgan. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, mazkur sohani rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan obyektiv zaruriyat ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston dunyo hamjamiyati davlatlari o'rtasida aholisining jadal o'sib borayotganligi bilan ajralib turadi. Bunday vaziyat o'z navbatida aholining ish bilan bandligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, buning uchun esa, xizmatlar sohasi va ishlab chiqarishda innovatsiyalarni qo'llash va kengaytirish, aholini zamonaviy kasblarga o'qitish va o'rgatish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida uzluksiz ish olib borishni taqozo etadi. Aks holda aholining turmush darajasining pasayib borishi, mamlakatda ishsizlar sonining ortib borishi, qolaversa, kambag'allikning aholi orqasida oshib borish bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida mehnat bozori va mehnat bozorida vujudga keladigan muammolarga jiddiy qarab aholi bandligiga va jamiyat rivojiga qaratilgan bir qancha muhim tadqiqotlar olib borilmoqlda. Bularni mavzuga oid adabiyotlar tahlilida ham ko'rish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda «o'zini o'zi ish bilan ta'minlash» tushunchasi keng tarqalmoqda. O'zini o'zi ish bilan ta'minlash mualliflar tomonidan bozorni barqarorlashtirish mehnat omili sifatida qaraladi [4], inqiroz davrida ishsizlikni kamaytirish vositasi [5], bandlik sektoridagi pensiya yoshidagi fuqarolar [6] va yosh bitiruvchilar orasida o'zini o'zi band qilish talabining oshishi [7], aholining inqirozli davri shakl sifatida mehnat va yashash sharoitlarini hal qilish [8], degan yondoshuvlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zini o'zi ish bilan ta'minlashning paydo bo'lishiga oid aniq sanasini aniqlash qiyin, chunki u asrlar davomida insoniyat tarixining bir qismi bo'lib kelgan. Rasmiy mehnat munosabatlari va ish haqi mehnatining paydo bo'lishidan oldin odamlar ko'pincha o'zlari uchun dehqon, hunarmand, savdogar yoki boshqa turli kasblarda ishladilar. Rim imperiyasi yoki qadimgi Misr kabi qadimiy sivilizatsiyalarda o'zini o'zi ish bilan ta'minlash keng tarqalgan yedi. Biroq, o'zini o'zi ish bilan ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi, bugungi kunda mavjud bo'lganidek, XVIII-XIX asrlarda sanoatlashtirish va kapitalizmning o'sishi bilan yanada mashhur bo'ldi. Sanoat inqilobidan oldin ham ko'pchilik odamlar odatda feodal tuzumda hunarmand yoki dehqon bo'lib ishlagan. Ular asosan yer egalari tomonidan ishlatilgan yoki o'z yerlarida ishlashgan. Biroq, sanoatlashtirishning paydo bo'lishi bilan bandlik shakllarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Sanoatlashtirish rivojlanib, yirik fabrikalar va korporatsiyalar paydo bo'lishi bilan ayrim sohalarda o'zini o'zi ish bilan ta'minlash kamroq tarqaldi, ammo u turli sanoat va kasblarda davom yetdi. Binobarin, hamma ham yangi sanoat iqtisodiyotiga moslasha olmadi. Ba'zi shaxslar maxsus ko'nikmalarga ega bo'lgan yoki zavod tizimiga bo'ysunishdan ko'ra mustaqil ishlashni afzal ko'rishgan. Ko'pincha o'zini o'zi boshqaruvchi yoki tadbirkor deb ataladigan bu shaxslar o'z bizneslarini yo'lga qo'ydilar va o'zini o'zi ish bilan ta'minladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda mantiqiy va iqtisodiy tahlil, ma'lumotlarni jamlash va tahlil qilish, makon va zamon, tizimli yondoshuv kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, Amerika Qo'shma Shtatlarida (AQSH) o'zini o'zi band qilish masalasi, ayniqsa, XIX-asrning oxirida keng tarqalgan edi, chunki mamlakat tez sanoatlashuv va urbanizatsiyani boshdan kechirdi. Jismoniy shaxslar turli sohalarda, jumladan, chakana savdo, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida tadbirkorlik faoliyatini boshladilar. Misol uchun, muhojirlar (immigrantlar) ko'pincha o'z jamoalariga xizmat ko'rsatish uchun o'zini o'zi band qilgan holda kichik do'konlar yoki restoranlar ochganlar [9].

XX-asr boshlarida transport va aloqa rivojlanishi bilan mustaqil ish bilan shug'ullanish yanada kengaydi. Masalan, mashinada tashish xizmatlari (Taxi), mustaqil yozuvchilar va mustaqil pudratchilar ko'proq mashhur bo'ldi.

M.R.Samitov ilmiy ishida [10] Rossiya Federatsiyasida o'zini o'zi band qilganlarga davlat tomonidan yaratilgan shaoitlar va qonunchilkdagi ba'zi cheklovlar haqida o'z fikr mulohazalarini bildirgan. Unga ko'ra o'zini o'zi band qilgan shaxs bir yil davomida 2 500 000 million rubldan ortiq daromat qilishi mumkin emasligi agarda ushbu summadan ortgan taqdrida jismoniy shaxsni o'zini o'zi band qilish ro'yxatidan chiqariladi hamda ortirilgan daromadlar soliq stavkalarida qaytadan hisoblanadi.

V.S.Skrug o'zining "Vozmojnosti i problemi legalizatsii samozanyatix v usloviyax sifrovoy ekonomiki" [11] nomli ilmiy ishida Rossiya Federatsiyasida 2017-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davr mobaynida aholining o'zini o'zi band qilishga bo'lgan qiziqishlarini o'rganib chiqqani, internet orqali insonlar ushbu sohaga yaratilgan sharoitlarni qanchalik habardor bo'lib borayotgani va maxsus dasturlar orqali eng ko'p qidirilgan savollar va faoliyat turlari haqida ma'lumotlar taqdim etganini ko'rish mumkin.

J.T.Xishauyeva ilmiy ishida [12] qo'shni Qozog'iston davlatida 2015-2019-yillar davrida umumiy band aholining 25% ni aynan o'zini o'zi band qilganlar tashkil etishi hamda Qozog'istonda amalga oshirilgan "S diplomom

v selo!” va “Molodejnaya praktika” dasturi orqali ishsiz yoshlarning 2015-2019-ushbu davr oralig‘ida 4,4% dan 3,7% ga kamaishiga yordam berilgani keltirib o‘tilgan.

O‘zbekiston olimlaridan bu borada M.Q.Pardayev, Obid Pardayev, O.Pardayevalarning tavsiyalari muhim ahamiyatga ega [13]. Qayd etish joizki, keyingi yillarda O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni liberallashtirish, integratsion jarayonlarni jadallashtirishga qaratilgan tadbirlar, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi, mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi qilinayotgan ishlarning davlat makroiqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirilganligi innovatsion jarayonlarni va kambag‘allikni qisqartirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bunday tadbirlardan biri o‘zini o‘zi band qilish bilan bog‘liq. Bu ish birda yaqinda boshlangan bo‘lsa, ko‘pgina davlatlar ushbu ish bilan uzoq yillardan buyon shug‘ullanib kelmoqdalar. Buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval: 2000-yildan 2023-yilgacha dunyoning turli mamlakatlaridagi o‘zini o‘zi band qilganlar soni, ming kishi[1]


Davlat nomi	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2023-yil	2023/2000 %
Hindiston	317 074,8	357 660,2	362 786,6	353 837,4	360 237,5	13,6
Xitoy	452 018,3	431 834,3	406 913,7	379 939,9	355 328,5	–21,4
Afrika	208 738,5	239 229,5	266 676,7	293 379,4	332 963,9	59,5
AQSh	10 639,3	10 762,8	9 979,1	9 810,4	9 880,8	–7,1
Turkiya	9 376,4	8 411,3	8 809,6	8 784,7	9 091,7	–3,0
Yaponiya	10 960,7	9 707,8	8 057,6	7 139,3	6 750,6	–38,4
Italiya	5 834,6	6 060,8	5 670,6	5 472,8	5 365,6	–8,0
Buyuk Britaniya	3 397,0	3 780,1	4 178,7	4 805,5	5 040,8	48,4
Rossiya	7 287,7	6 123,5	4 773,4	5 130,3	4 723,3	–35,2
Germaniya	3 990,6	4 484,0	4 469,7	4373,7	4 157,4	4,2
Polsha	3 999,9	3 733,1	3 772,9	3 601,6	3 491,6	–12,7
Fransiya	2 786,9	2 846,7	3 094,5	3 116,5	3 229,6	15,9
Kanada	2 425,6	2 569,4	2 760,9	2 842,8	2 968,1	22,4
Ukraina	3 841,1	3 817,6	3 758,4	3 016,4	2 821,6	–26,5
Gollandiya	890,0	1 082,3	1 271,2	1 416,9	1 469,3	65,1
Belgiya	663,1	547,9	646,2	695,5	673,0	1,5
Shvetsiya	473,6	468,1	495,3	490,6	478,1	1,0
Daniya	249,6	245,4	247,1	238,2	229,4	–8,1

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, dunyoning rivojlangan ko‘plab mamlakatlaridagi aholining o‘zini o‘zi band qilganlar soni ba’zi davlatlarda o‘sish suratlari mavjud bo‘lsa ayrimlarida avvalgi yillarga nisbatan pasayish sodir bo‘lgan.

Yana bir muhim jihatga e’tibor qaratish lozimki, aholi o‘zini o‘zi ish bilan ta’minlangan taqdirda ham uning oladigan maoshlarining miqdori birlamchi ehtiyojlarini qondiradimi yoki yo‘qmi, degan savoga aniq javob bo‘lishi lozim. Bundan ko‘rininb turibdiki, kambag‘allikni qisqartirish uchun agar oladigan daromadi yetarli bo‘lmasa faqat ish bilan ta’minlashning o‘zigina yetarlik emas ekan. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda: «Kambag‘allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko‘paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o‘qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg‘otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o‘qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to‘lash tizimini joriy qilish kerak» [14]. Shu yo‘l bilan aholini kambag‘allik darajasidan yuqoriroq daromad olishga erishtirish mumkin.

Mamlakatimizda o‘zini o‘zi band qiladigan mehnatning turlari yildan-yilga ortib bormoqda. Buni quyidagi rasmda ko‘rish mumkin (1-rasm).


1 https://www.ilo.org/Search5/search.do?searchWhat=Number+of+selfemployed+people+in+different+countries+of+the+world&navigators=languagesnavigator%1dlanguage%1den%1den&sortby=default&lastDay=0&collection=&offset=0



1-rasm: O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan aholining 2020-2023-yillardagi o‘zgarish sur’atining grafigi[2]

O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilish 2020-yildan boshlangan bo‘lib dastlab undagi faoliyatlar turi 27 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilda kasblar soni 67 taga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu islohotlar davom ettirilgan holda 2022-yilda 67 tadan 78 taga va hozirgi 2023-yilda o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha faoliyatlar turi 101 tani tashkil etadi [15].

Mamlakatimizda o‘zini o‘zi band qilinadigan mehnatning turi bilan birgalikda shu sohada band bo‘lgan aholining soni ham ortib bormoqda. Endi e’tiborimizni ushbu sohada qancha inson qamrab olingani va yaratib berilayotgan sharoitlar hisobiga aholining qancha qismi o‘zini o‘zi bandligini ta’minlayotganligga qaratamiz. Buni quyidagi rasmda ko‘rish mumkin (2-rasm).



2-rasm: O‘zini o‘zi band qilgan aholining o‘sish dinamikasi[3]

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2021-yilning 1-oktyabr holatida O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band, deb ro‘yxatdan o‘tganlar soni 1 064 895 ming kishini (bir million oltmish to‘rt ming sakkiz yuz to‘qson besh kishi) tashkil etgan. 2022-yilda 16 fevral holati bo‘yicha aholining 1 324 031 (bir million uch yuz yigirma to‘rt ming o‘ttiz bir kishi) ming kishi o‘zlarining bandliklarini ta’minlashgan hamda hozirda 2023-yil 1-may bo‘yicha 1 370 288 ming kishi rasman o‘zini o‘zi band etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida juda ko‘p choralar ko‘rilishiga qaramasdan bandlik muammosi saqlanib qolmoqda. Bunga kuchli ta’sir ko‘rsatgan omillar, fikrimizcha, qo‘ydagilardan iboratdir:

Birinchidan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi. Oldin faoliyat ko‘rsatgan ko‘pgina yirik korxonalarning faoliyati to‘xtaganligi.

2 O‘zbekiston Davlat statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
3 O’zbekiston Davlat statistikasi qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ikkinchidan, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish natijasida resurslardan, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligining oshganligi.

Uchinchidan, davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan norasmiy ravishda tadbtirkorlik faoliyat turlari (oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, shirinliklar va milliy taomlar, meva va sabzavotlarni konservatsiya qilish, uyda non yopish, oziq-ovqat mahsulotlarini sotish, mebellarni tayyorlash va ta’mirlash, qurilish materiallari, avtomobillar, santexnika va boshqa turli maishiy xizmat texnikalarini ta’mirlash, kosibchilik, tikish-bichish kabi xizmatlar va boshqalar) bilan shug‘ullanish kuzatildi.

To‘rtinchidan, fan va texnika taraqqiyoti tasiri ostida mehnat unumdorligining o‘sishi natijasida ko‘pgina korxonalarda ish o‘rinlarining qisqarishining ro‘y berishi.

Beshinchidan, munosib haq to‘lanadigan doimiy ish o‘rinlarining yetishmasligi, yoshlarning, jumladan, oliy ma’lumotli yoki ish stajiga ega bo‘lmagan yoshlarning ishga joylashishdagi qiyinchiliklar.

Oltinchidan, qishloq joylarda yaxshi haq to‘lanadigan doimiy ish o‘rinlarining mavjud bo‘lmaganligi sababli yoshlarning xorijga mehnat qilish uchun chiqib ketishi kabilarni kiritish mumkin. Ushbu muammolarning ta’sirini kamaytirish uchun aynan o‘zini o‘zi ish bilan ta’minlash masalasi o‘ta dolzarb bo‘lib turibdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib aholi bandligi va ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha qo‘yidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bularning ayrimlari:

O‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha aholining hali ko‘pchilik qismi yetarlicha ma’lumotga ega emasligi va bu borada amaliy ishlar ko‘lamini oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar tomonidan to‘lanadigan soliq summasini o‘sha o‘zi ro‘yxatdan o‘tgan hududda qoldirib, aynan usha hududning biror bir ijtimoiy yechimini topishga sarflash yoki ushbu sohani ommalashtirsh maqsadida reklama va ijtimoiy tarmoqlarda uning foydali jihatlari haqidagi ma’lumotlarni aks ettiruvchi video, rasmlarni berib borishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Respublikada olib borilayotgan norasmiy sektor obyektlarini legallashtirish jarayonlarini davom ettirgan holda ushbu rasmiy sektorga o‘tkazilgan xo‘jalik subyektlariga rasmiylashtirishda duch keladigan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha hududiy mehnat organlarida malakali mutaxassislardan iborat maslahat berib borilishi va monitoringini yo‘lga qo‘yish ham maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2020-yildagi PQ-4742-son “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/4849607
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-62-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
4. Ильина Л.А. Самозанятость как фактор стабилизации рынка труда / Л.А. Ильина, С.В. Ильин // Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2020. –№ 4. –С. 143–146.
5. Абрамова Е.А. Самозанятость как инструмент сокращения безработицы в период кризиса / Е.А. Абрамова // Экономика и бизнес: теория и практика. — 2020. – № 11-1 (69). –С. 9–12.
6. Николенко Н.А. Самозанятость граждан предпенсионного возраста в условиях формирования цифрового общества / Н.А. Николенко // Вестник Удмуртского университета. Социология. Политология. Международные отношения. –2020. – Т. 4, № 1. –С. 35–42.
7. Дракина И.К. Самозанятость молодых специалистов в области декоративно-прикладного искусства и народных промыслов / И.К. Дракина // Мир науки, культуры, образования. –2020. – № 3 (82). –С. 205–206.
8. Пациорковский В.В. Самозанятость — ответ части экономически активного населения на кризис стандартных трудовых отношений / В.В. Пациорковский // Народонаселение. –2020. –Т. 23, № 1. – С. 88–103.
9. Hipple, Steven F. «Self-employment in the United States.» Monthly Labor Review (2010): 17-32. Web.
10. Самитов М.Р. “САМОЗАНЯТЫЕ”, Инвестиционное проектирование, Оценка инвестиций 1 (15) 2020 | www.esm-invest.com
11. Скруг В.С. Возможности и проблемы легализации самозанятых в условиях цифровой экономики //Экономика труда. –2020. –Том 7. –№ 11. –С. 979-992. doi: 10.18334/et.7.11.111124
12. Хишауева Ж.Т. Состояние рынка труда в Казахстане и развитие самозанятости населения // Экономика Центральной Азии. –2020. –Том 4. –№ 2. –С. 101-112. – doi: 10.18334/asia.4.2.110284.
13. Pardayev M., Pardayev O., Pardayeva O. “O‘zini o‘zi band qilish yo‘llari”. Samarqand: SamISI. –2020. –72 bet.
14. http://toshvil.uz/oz/tadbirkorlikni_rivojlantirish_va_kasbga_tayyorlash_orqali_kambag_allikni_ kamaytirish_choralari_belgi
15. https://lex.uz/ru/docs/4849607?otherlang=1

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH



Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich
O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqola aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirishning muhimligi, jamiyat va insoniyatning rivojlanishi uchun zaruriyati hamda bu jarayatda paydo bo‘lgan muammolar, ularning yechimlarini ko‘rsatadi. Aholini ijtimoiy himoyalashni ta’minlashning siyosiy, madaniy va ijtimoiy asosi bilan bog‘liq o‘ziga xos muammolarini tahlil qiladi hamda ularni yechish uchun mo‘ljallangan chora-tadbirlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: Aholini ijtimoiy himoyalash, muammolar, yechimlar, ijtimoiy rivojlanish, jamiyat, madaniyat, ma’naviyat, siyosat, chora-tadbirlar, o‘zlashtirish.

Abstract: This article shows the importance of improving the system of social protection of the population, its necessity for the development of society and humanity, and the problems that have arisen in this process, and their solutions. Analyzes specific problems related to the political, cultural and social foundations of social protection of the population and proposes measures to solve them.

Key words: Social protection of the population, system, problems, solutions, social development, society, culture, spirituality, policy, measures, development.

Аннотация: В данной статье показана важность совершенствования системы социальной защиты населения, ее необходимость для развития общества и человечества, а также проблемы, возникшие в этом процессе, и пути их решения. Анализирует конкретные проблемы, связанные с политическими, культурными и социальными основами социальной защиты населения, и предлагает меры по их решению.

Ключевые слова: Социальная защита населения, система, проблемы, решения, социальное развитие, общество, культура, духовность, политика, меры, развитие.

KIRISH

So‘nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish va qo‘shimcha resurslarni jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezident farmoyishi bilan 2021−2030-yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi tasdiqlandi. Hujjatga ko‘ra, ijtimoiy nafaqa olish jarayonini soddalashtirish rejalashtirilgan. 2030-yilda davlat budjetining ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan xarajatlari YAIMga nisbatan 1,5 % ga yetkaziladi[1]. Shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalashni o‘zlashtirish jarayonida siyosiy, ijtimoiy va madaniy muammolar hamda ularni yechish usullari ko‘rsatiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bonilla va Gruat (2003) ta’riflaganidek, ijtimoiy himoya odamlarni iqtisodiy o‘sish tomon harakatga keltiradigan islohot va yuqori daromad olishni amalga oshiradi. Bundan tashqari, iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali iqtisodiyotda barqaror rivojlanishga erishish va ijtimoiy kapitalni samarali boshqarish mumkin[2].

Piece (2012) ijtimoiy himoyani ta’minlashning nazariy jihatlari va uning uzoq muddatli iqtisodiy ta’siri haqida ma’lum qildi, unda yaxshiroq ovqatlanish, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini rivojlantirish orqali inson taraqqiyoti maqsadlarini maksimal darajada oshirish, qo`shimcha qiymat yaratish mumkin[3].

1 https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/18/social-protection/
2 https://www.researchgate.net/publication/347074018_ANALYSIS_OF_PENSION_AND_SOCIAL_INSURANCE_AS_ELEMENTS_OF_SOCIAL_PROTECTION
3 https://imsciences.edu.pk/files/journals/March_2019/New%202%20MA-494.pdf

Francesca (2013) siyosiy barqaror ijtimoiy shartnomani ishlab chiqish doimiy ijtimoiy himoya tizimini yaratishga yordam berishini ta'kidladi. Kam resurslardan foydalanish bo'yicha muhim jamoatchilik tanlovi va ustuvorliklarini belgilash kerakligini tushuntirdi[4].

TAQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mamalakatda ijtimoiy himoyani qo'llab-quvvatlash boyicha milliy strategiya va xorijiy metodikalar tahlil qilingan. Analiz-sintez va regressiya usulidan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[5] Farmoniga muvofiq ijtimoiy himoyani kuchaytirsh maslalariga urg'u berildi.

Buning natijasida:

- kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish maqsadida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi joriy qilindi;
- kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni oxirgi uch yilda to'rt barobarga oshib, 1,9 millionga yetdi;
- kam ta'minlangan oilalardagi bolalarni parvarishlash uchun to'lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur to'lov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori o'rtacha 1,5 barobarga oshirildi;
- ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdorlari 3,2 baravarga oshirildi, aholini bandligini ta'minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi instrumentlar joriy etildi.



1-rasm: Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash[6]

4 https://www.europarl.europa.eu/meetdocs/2009_2014/documents/deve/dv/study_social_protecti/study_social_protection.pdf
5 https://lex.uz/docs/-6130265
6 https://www.gazeta.uz/oz/2021/03/29/social-protection/

Har qanday mamlakatda ijtimoiy himoya tizimining tarqoqligi oxir-oqibat bir xil vazifalarning turli idoralar tomonidan takrorlanishi, mablag'larning samarasiz sarflanishi, ijtimoiy himoya va nafaqalar bilan qamrab olish darajasining pastligi, aholining zaif qatlamlari haqida yagona ma'lumotlar bazasi va statistik ma'lumotlarning yo'qligiga olib keladi.

Jahon tajribasiga nazar solsak, Ijtimoiy himoyaga sarflanadigan xarajatlar darajasini, tarkibiy va institutsional funktsiyalarini hisobga olgan holda; Uch daraja sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot va farovonlikka sarflanadigan xarajatlarga asoslanadi. Ta'limga sarflanadigan xarajatlar ijtimoiy himoya uchun ortiqcha bo'lib ko'riladi, bu davlatning ta'lim, inson kapitalini yaratish va tegishli jamiyatlarda savodxonlik darajasini oshirish uchun xizmatlar ko'rsatish xarajatlarini o'lchaydi. Sog'liqni saqlash xarajatlari jamiyatga tibbiy xizmatlar ko'rsatishni tavsiflaydi, bu tadqiqot va ishlanmalar uchun xarajatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sog'liqni saqlash muassasalari ijtimoiy ta'minot va farovonlik davlatning ijtimoiy ta'minotga sarflanadigan xarajatlar darajasini belgilaydi. Jamiyat farovonligini oshirishga ko'maklashish subsidiyalar va transfertlar jamiyatning ehtiyojmand qatlamini himoya qilish uchun foydali bo'lgan ijtimoiy himoya vositasidir.

Bunda tuzilish xususiyatlari va ijtimoiy himoyaga asoslangan 2-darajali eng kichik kvadrat usuli qo'llaniladi.

Bunda:

$$SP_{rst} = \eta_r + \sum_{p=1}^{4} \eta_{rp} SF_{pst} + u_{rst} \; for \; r = 1, 2, 3, 4$$

Bu yerda SPrst viloyatlar uchun r tipidagi ijtimoiy himoya xarajatlarini tavsiflaydi.
vaqt t.ķ - doimiy kesmalar vektori. SFpst strukturaviy xususiyatlar vektoridir
viloyat s, vaqtida t ni bildiradi.

$$\begin{bmatrix} Edu_Exp_{1st} \\ Health_Exp_{2st} \\ Social.S\ \&Welf_{3st} \\ Sub\ \&Trasf_{4st} \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} \eta_1 \\ \eta_2 \\ \eta_3 \\ \eta_4 \end{bmatrix} + \begin{bmatrix} \eta_{11} & \eta_{12} & \eta_{13} & \eta_{14} \\ \eta_{21} & \eta_{22} & \eta_{23} & \eta_{24} \\ \eta_{31} & \eta_{32} & \eta_{33} & \eta_{34} \\ \eta_{41} & \eta_{42} & \eta_{43} & \eta_{44} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} lpcgdp_{1st} \\ wapop_{2st} \\ gdpshock_{3st} \\ urbpop_{4st} \end{bmatrix} + \begin{bmatrix} u_{1st} \\ u_{2st} \\ u_{3st} \\ u_{4st} \end{bmatrix}$$

$$A = \eta + B * C + U$$

Bu yerda A - ijtimoiy himoyaga sarflangan xarajatlar matritsasi, ē -ning matritsasi ko'rsatilgan bo'lib, doimiy kesmalar, B strukturaviy xususiyatlarning koeffitsiyent matritsasi, C matritsasini tushuntiradi. Viloyatlarning strukturaviy xususiyatlaridan iborat va U qoldiq matritsasi taqdim etadi. Qator (2) tenglamalar tizimidan olingan. C matritsasida lpcgdst logarifmikni tavsiflaydi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotning ko'payishi bilan kamayib borayotgan marjinal foydani ifodalovchi shakl hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish, insonlarning madaniy, ma'naviy va ijtimoiysini rivojlanishi uchun muhimdir. Ijtimoiy himoya bo'yicha milliy strategiyaning qabul qilinishi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish ayollar, shu jumladan, yoshlar va nogironlarni to'liq, foydali va munosib ish bilan ta'minlashga erishishga yordam berishi kutilmoqda.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish jamiyat va siyosatning rivojlanishi, inson taqdiri hamda global xalqaro islohotlarda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/18/social-protection/
2. https://www.researchgate.net/publication/347074018_ANALYSIS_OF_PENSION_AND_SOCIAL_INSURANCE_AS_ELEMENTS_OF_SOCIAL_PROTECTION
3. https://imsciences.edu.pk/files/journals/March_2019/New%202%20MA-494.pdf
4. https://www.europarl.europa.eu/meetdocs/2009_2014/documents/deve/dv/study_social_protecti/study_social_protection.pdf
5. https://core.ac.uk/download/pdf/6253085.pdf
6. https://lex.uz/docs/-6130265
7. https://www.gazeta.uz/oz/2021/03/29/social-protection



YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA VOSITALARINING O‘RNI

Raxmonov Lochin To‘xtamishovich
Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiya vositalarining o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, “Big Data”, “Cloud Somputing”, “Artificial intelligence”, “Blockchain technology”, internet.

Abstract: The article reveals the role of digital technology tools in the fight against the shadow economy.

Key words: digital economy, “Big Data”, “Cloud Somputing”, “Artificial intelligence”, “Blockchain technology”, internet.

Аннотация: В статье раскрывается роль инструментов цифровых технологий в борьбе с теневой экономикой.

Ключевые слова: цифровая экономика, “Big Data”, “Cloud Computing”, “Artificial intelligence”, “Blockchain technology”, интернет.

KIRISH

Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Chunonchi raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va ularning iqtisodiy-ijtimoiy hayotda keng tatbiq etish sur’atlarining turlichaligi oqibatida mamlakatlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Dunyoda “raqamli iqtisodiyot”ning o‘sish sur’atlari deyarli 15,5 foizni tashkil etadi. Taraqqiy etgan davlatlarda “raqamli iqtisodiyot”ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o‘zida “raqamli iqtisodiyot”ning joriy qilinishidan juda katta foyda ko‘rmoqda. Jumladan, AQSH yiliga 400 milliard AQSH dollaridan ko‘proq “raqamli xizmat”larni eksport qilmoqda. 2025-yilgacha AQSH sanoat sohasini “raqamlashtirish”dan qo‘shimcha 20 trln. AQSH dollar daromad olishi kutilmoqda”.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot, uning shakllari va ta’sir etuvchi omillarining ilmiy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan: D.Tapscott, N.Lane, T.Mesenbourg, M.Kastells, B.Panshin, N.Negroponte, A.Sokolov, A.Kunsman, R.Buxt, R.Xiks, M.Polojixina, I.Strelkova, M.Kalujskiy, S.Plugotarenko, M.Kastells, R.A.Solou va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan [11].

Avvalambor, shuni qayd etib o‘tish lozimki “yashirin iqtisodiyot”ning xalqaro e’tirof etilgan yagona tarifi hamda uning ko‘lamini aniqlashning aniq usullari mavjud emas [1]. “Yashirin iqtisodiyot” atamasi adabiyotlarda “norasmiy iqtisodiyot”, “xufiyona iqtisodiyot”, “soyadagi iqtisodiyot” va boshqa turli atamalar bilan ham yuritiladi. Yashirin iqtisodiy faoliyat asosan latent, ya’ni yashirin xususiyatga ega bo‘lib, uni amalga oshirish usullari doimiy o‘zgaruvchanlik, murakkablashib borish, turli sxemalar orqali sodir etilishi kabi xususiyatlarga ega. Bu esa ularni aniqlash va fosh etish murakkab ekanligini anglatadi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy kuchlar bo‘lib, korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot o‘rtasida chambarchas aloqa mavjud, ular ma’muriy to‘siqlardan iborat umumiy ildizlarga ega [2].

Mamlakatda “xufiyona iqtisodiyot” darajasining yuqoriligi poraxo‘rlik darajasining ham yuqori darajada bo‘lishiga zamin yaratadi [3]. Past daromadli davlatlarda “xufiyona iqtisodiyot” ko‘lami oshishi bilan korrupsiya darajasi ham oshishi aniqlangan [4]. Shuningdek, “yashirin iqtisodiyot” va inflyatsiya bir-biri bilan musbat bog‘liq, soliq yuki bilan esa manfiy bog‘liqlik mavjud [5]. “Yashirin iqtisodiyot” bilan norasmiy bandlik tahlili rivojlanayotgan davlatlarda norasmiy band fuqarolar soni rasmiy mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar sonidan katta ekanligini ko‘rsatadi [6]. Norasmiy iqtisodiy faoliyat ko‘lami kengayishi bilan o‘z domiga halol faoliyat ko‘rsa-

tayotgan iqtisodiy subektlarni ham tortishi [7] shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatida baholanadi [8]. Ayrim tadqiqotchilar yashirin iqtisodiy faoliyatning ba'zi jihatlari (bozor iqtisodiyotiga o'tishga ko'maklashishi, yashirin iqtisodiyotda olingan daromadlarning kamida uchdan ikki qismi rasmiy iqtisodiyotda sarflanishi va boshq.) bilvosita boshqa sektorlarga ijobiy ta'sir qilishini e'tirof etishadi[9]. Shu kabi, "xufiyona iqtisodiyot" o'tish davlatlari uchun tabiiy holat bo'lib, ularda rasmiy sektor faoliyatini tashkil etishga ko'maklashishi, biroq uzoq muddat davomida yashirin iqtisodiyotning mavjud bo'lishi mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilishi ta'kidlanib, o'tish mamlakatlari uchun yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar taklif etilgan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, solishtirma tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot texnik yutuqlar, global tarmoq va axborot tizimlari vositasida iqtisodiy munosabatlar segmentini ifodalaydi. Biroq, raqamlashtirish, har qanday jarayon hamda texnologiya va asboblar kabi tarkibiy qismlardan foydalanmasdan amalga oshmaydi. Ular davlat, xalq, bank va korxonalar o'rtasida vositachilar bo'lib, kontragentlar zanjirlarini qisqartiradi va qaror qabul qilish tezligini oshiradi.

Agar iqtisodiyot "Oltin qoida" bo'yicha ega bo'lishi mumkin bo'lgan kapital zahirasidan ortiqcha kapital zahirasi bilan rivojlanayotgan bo'lsa, unda bu holatda jamg'arma me'yorini pasaytirishga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirish zarur. Jamg'arma me'yorining kamayishi iste'molning oshishi va unga muvofiq ravishda investitsiyalarning pasayishiga olib keladi, demak kapital zaxirasining barqaror darajasining pasayishiga ham olib keladi.

Agar iqtisodiyot barqarorlik holatida "Oltin qoida" dagidan kam kapital bilan qurollanganlik bilan rivojlanayotgan bo'lsa, unda jamg'arma me'yorini oshirish zarur. Bu investitsiyalarni oshirib iste'molni pasaytiradi, lekin kapitalning jamg'arilib borishi bo'yicha qandaydir vaqtdan boshlab yana o'sa boshlaydi. Natijada iqtisodiyot yana yangi muvozanat holatiga erishadi ammo oltin qoidaga muvofiq bo'lgan holda, bunda iste'mol dastlabkiga nisbatan yuqoriroq darajaga ega bo'ladi.

Texnik taraqqiyotni rag'batlantirish R.Solou modeli texnik taraqqiyotni farovonlikni barqaror oshiruvchi va o'sishning optimal variantini topishga imkon yaratuvchi yagona asos sifatida ko'rsatadi. Biroq u texnik taraqqiyotni tashqi (Ekzogen) omil sifatida ko'rib chiqadi, demakki uni tushuntirmaydi. Ayrim olimlarning fikricha, texnik taraqqiyotning determinantlari bugungi kunda yetarlicha aniq emas. Biroq davlat siyosti turli xil instrumentlardan shu jumladan ilmiy tadqiqot va loyiha – konstruktorlik ishlaridan foydalanib texnik taraqqiyotni rag'batlantirishi mumkin. Masalan, patent qonunchiligini mukammallashtirib, ayrim rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Germaniya) uzoq muddat davomida yangi mahsulotni ishlab chiqarish huquqiga monopoliyani berishdi. Soliq to'g'risidagi qonunlar ko'pgina mamlakatlarda ilmiy tadqiqot tashkilotlariga bir qancha imtiyozlar beradi. Maxsus tashkil etilgan milliy ilmiy fondlar fundamental ilmiy tadqiqotlarga subsidiyalar beradi. Hozirgi kunda mablag'larni inson kapitaliga yo'naltirish ham muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda, texnik taraqqiyotda u asosiy rolni o'ynaydi.

Raqamli iqtisodiyotning quyidagi texnologiyalarini ko'rib chiqamiz:

1. Ulkan ma'lumotlar.

"Ulkan ma'lumotlar" atamasi 2008-yilda paydo bo'lgan bo'lib, global axborot oqimining oshishi bilan rivojlandi. Bugungi kunda dunyoda katta ma'lumotlar konsepsiyasi tahlil qilish uchun obyekt, yoki aniqrog'i, an'anaviy usullar bilan o'rganilishi mumkin bo'lmagan tezkor raqamli ma'lumotlarning katta miqdoridan foydalaniladi. Ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi, shuningdek, muayyan maqsadlar va vazifalarni hal qilishda ulardan foydalanishni davom ettirish uchun vositalar va usullar tushuniladi. Shu bilan birga, ma'lumot manbalari Internet saytlari, arxiv hujjatlari, kompyuter hisobotlari va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

Ushbu texnologiya orqali banklar uyali aloqa uchun to'lov, mobil operator xizmatlari va geolokatsiya ma'lumotlari bo'yicha operator tomonidan berilgan ballar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Banklar, o'z navbatida, potensial mijozlarning to'lov qobiliyatini baholashlari mumkin.

2. Internet.

Britaniyalik olim Tim Berners-Li 1989-yilda CERNda ishlayotganda Butunjahon Internet tarmog'ini (World Wide Web (WWW)) ixtiro qildi. Veb dastlab butun dunyo bo'ylab universitetlar va institutlar olimlari o'rtasida avtomatlashtirilgan ma'lumot almashish talabini qondirish uchun ishlab chiqilgan.

"CERN" – bu alohida laboratoriya emas, balki 100 dan ortiq mamlakatlardan 17 000 dan ortiq olimlarni o'z ichiga olgan keng jamoatchilik uchun markaz. Odatda ular bir muncha vaqt "CERN" saytida bo'lishsa-da, olimlar odatda o'z mamlakatlaridagi universitetlarda va milliy laboratoriyalarda ishlashadi. Shuning uchun ishonchli aloqa vositalari juda muhimdir.WWW-ning asosiy g'oyasi rivojlanayotgan kompyuterlar, ma'lumotlar

tarmoqlari va gipermatn texnologiyalarini qudratli va foydalanishda oson bo‘lgan global axborot tizimiga birlashtirish edi. Shunday qilib, internetning konsepsiyasi paydo bo‘ldi. Internet bir-biri bilan yoki tashqi muhit bilan aloqa qila olmaydigan jismoniy narsalardan (narsalardan) iborat tarmoqni anglatadi. Bu yerda ma’lumotlarning mustaqil ravishda uzatilishi mumkin bo‘lgan qurilmalarning avtonomligi muhim ahamiyatga ega. Internetning mafkurasi faoliyatning turli sohalarda jarayonlarni avtomatlashtirish va ularda inson ishtirokini bartaraf etish orqali iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Huawei prognoziga ko‘ra, Internet quvvatining 55% aqlli shaharlar va ishlab chiqishni takomillashtirishda, qolgan 45% – inson ehtiyojlari – maishiy texnika, uchuvchisiz avtomobillar, tibbiy asbob-uskunalarga ishlatiladi.

“Internet of Things” texnologiyasi boshqa texnologiyalarga nisbatan katta afzalliklarga ega: u iste’mol bozorida, ishlab chiqarish va savdo sohasida keng tarqalgan. Unda internetning tarqalishi uchun tayyor infratuzilma mavjud va kelajakda turli sensorlarni joriy etish arzon bo‘ladi.

Kelajakda internetning tarkibiy qismlari savdo ishtirokchilari vazifasini bajarishi mumkin, bu yerda ular birgalikda va bir-biri bilan bog‘lanib, atrof-muhit haqida bir-birlariga ilg‘or ma’lumot beradi. Misol uchun, aqlli termoregulyatsiya mexanizmi energiya iste’moli ma’lumotlarini aqlli elektr tarmog‘iga yuboradi. Ma’lum miqdorda elektr energiyasidan foydalanilgandan so‘ng, boshqa mexanizm ushbu hisob-kitob asosida bu energiyani to‘laydi. Kopengagenda hukumati 2025 yilda karbonat angidridni nolgacha tushirishni rejalashtirmoqda. Buning uchun Internet tushunchasi asosida yaratilgan ko‘cha chiroqlari o‘rnatiladi. Ular tashqi sharoitlarga e’tibor qaratib, yorug‘likning yorqinligini o‘zgartiradi. Olingan ma’lumotni o‘rganish mutaxassislarga karbonat angidrid chiqindilarining narxi va darajasi jihatidan eng samarali chiroqlarni aniqlashga yordam beradi [4].

3. Blokcheyn.

“Blockchain technology” (Blokcheyn texnologiyasi) birinchi marta 2009-yilda iste’molga kiritilgan. Bu “kriptovalyuta” bilan xavfsiz anonim bitimlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi. “Kriptovalyuta” virtual, elektron tanga sifatida foydalanish mumkin, bular shifrlangan ma’lumotlar bo‘lib hisoblanadi. “Blockchain” deyarli har qanday kriptovalyutani ishlashini kafolatladi. Zotan, yuzdan ortiq “kriptovalyuta” yaratilgan bo‘lib, ularning soni o‘sib bormoqda. “Blockchain technology” faqatgina “kriptovalyuta” bilan bog‘liq bo‘lmasdan, balki blok-axborotni saqlash tartibi yoki operatsiyalar, maqsadlar, bitimlar, shartnomalarning amaldagi kadastrini ham boshqarish va saqlash tizimi bo‘lib hisoblanadi.

“Bitcoin”, boshqa har qanday raqamli valyuta kabi, biror bir joyda yoki faylda saqlanmaydi. U “Blockchain”da yozilgan tranzaksiyalar bilan ifodalanadi va “Bitcoin” bir rangdagi katta tarmoq resurslari orqali “Bitcoin”dan foydalanilgan har bir tranzaksiyani tasdiqlash va uni ma’qullash uchun foydalaniladigan qandaydir butunjahon “kattakitob” yoki katta jadval kabi namoyon bo‘ladi.

Har qanday “Blockchain”, “Bitcoin”dan foydalanishi yoki foydalanmasligidan qat’i nazar, taqsimlangan hisoblanadi: u butun dunyo bo‘ylab ushbu tizimga kirgan ko‘ngillilar kompyuterlarida ishlaydi, shuning uchun ham uni buzib kirish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning markaziy to‘plami yo‘q. “Blockchain” ommaviydir: uni istalgan kishi istalgan paytda ko‘rib chiqishi mumkin, chunki tranzaksiyalar auditi va hisobi bilan shug‘ullanadigan bironta tashkilotga a’zo emas. “Blockchain” shifrlangan: unda virtual xavfsizlikni ta’minlash uchun ommaviy va xususiy kalitlar (bank yacheykasi uchun foydalana oladigan ikkita kalit tizimi kabi) qo‘llanadigan kuchli shifrlash tizimidan foydalaniladi. Davlat muassasasi yoki moliyaviy korporatsiyaning vijdonsiz xodimi yoki supermarketlar ulkan tarmog‘ining kuchsiz brendmauyerlari haqida qayg‘urishiga esa hojat yo‘q [6].

Iqtisodiy tranzaksiyalar yangi raqamli registrini insoniyat uchun muhim va qimmatli bo‘lan istalgan axborotni saqlash uchun ishlatishi mumkin, shu jumladan, tug‘ilganlik haqida, nikoh haqida va o‘lim haqidagi guvohnomalar, oliy ma’lumot haqidagi diplomlar, moliyaviy hisobotlar, tibbiyot kartalari, sug‘urta to‘lovlari uchun murojaatlar, saylovlardagi ovozlar soni, mahsulotlarning kelib chiqishi – kod ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin bo‘lgan istalgan ma’lumotni saqlab qo‘yishi mumkin.

Yangi platforma dunyodagi hamma narsa haqida raqamli ma’lumotlarni onlayn rejimida birlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, yaqin kelajakda moddiy dunyodagi milliardlab aqlli qurilmalar o‘zgarishlar qabul qilishi va uzatishi, ularga javob qaytarishi, o‘z ehtiyojlarini ta’minlashi uchun elektr energiyasini xarid qilishi va muhim axborotlarni tarqatishi, atrof-muhitni muhofaza qilishdan tortib, bizning sog‘lig‘imiz haqida qayg‘urishigacha bo‘lgan xilma-xil vazifalarni o‘z zimmasiga olishi mumkin [5].

“Blockchain”ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaffoflik;
- xavfsizlik;
- tez va oson ma’lumot almashish.

Tizimga har qanday shaxsiy ma’lumotlar taqdim etiladi. Tizim ishlanmalari faqat alohida faoliyat haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Texnologiya muntazam foydalanishga kirganda, banklar, notariuslar, davlat tashkilotlari ishtirok etadi. Blok zarur summalarni tayyorlashga qodir bo‘ladi: bitimlarni qurish, shaxsni tekshirish, bitimlarni tasdiqlash. Blokning asosiy vazifalaridan biri monoton ish bilan bog‘liq bo‘lgan xodimlarga yukni kamaytirish, buning natijasida mehnat resurslarini optimallashtirish mumkin.


4. Intellektual axborot texnologiyalari.

Axborot texnologiyalari aqlli quyosh algoritmlari qatorida ma'lumotlarni qayta ishlashga qaratilgan texnologiyalarni joriy etadi. Intellektual axborot texnologiyalari ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar va operatsiyalarning aniq qoidalari bilan jarayon bo'yicha tavsiyalar berilishi mumkin. Shu bilan birga, har qanday amaliy sohada olimlar va insonlarning yutuqlaridan foydalaniladi, foydalanuvchi uchun muhim ma'lumotlarni olishning asosiy vazifasi hisobga olinadi. Bundan tashqari, Intellektual axborot texnologiyalari nafaqat mutaxassislarning bilimi va amaliyotini saqlab qoladi, balki fikrlarni ham ishlab chiqadi. Bunda texnologiyalar turi muammolarni tahlil qilishni jadallashtirishga yordam beradi: texnik, iqtisodiy, ijtimoiy yoki jismoniy va universal texnik siyosatda xizmat qilishi mumkin [7].

Yangi texnologiyalar va shaxslar o'rtasida o'zaro hamkorlikning tranzaksion xarajatlarini kamaytirish va xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat idoralari bilan yanada yaqinroq aloqa o'rnatish imkonini beradi. Natijada, tarmoq xizmatlariga asoslangan iqtisodiyot raqamli yoki elektron shakllanadi. "Raqamlashtirish" konsepsiyasi zamonaviy internet-texnologiyalarni samarali boshqarish va o'zaro munosabatlarning oshishiga olib keladi.

Bugungi kunda turli xil raqamli platformalar o'zaro bog'langan, ma'lumot almashish "ekosistemalar"ga birlashmoqda. Kun tartibida ko'plab turli bozor va korxonalarni qamrab oladigan yangi avlod raqamli platformalarini yaratish va ishga tushirish masalalari muhokama qilindi.

Agar platforma konsepsiyasi avvalo savdo va logistika segmentida ishlab chiqilgan va amalga oshirilsa, raqamli rivojlanish haydovchisi "Industry 4.0" konsepsiyasi va "Industry 4.0" asosiy texnologiyasi sifatida aqlli zavod (Smart Factory) hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: "Industry 4.0" loyihasining mazmuni

"Smart Factory"ning barcha yo'nalishlari to'liq avtomatlashgan, shuningdek, barcha jarayonlar kompyuterga birlashtirilgan, yuqori darajada moslashuvchanlik, dizayndagi tezkor o'zgarishlarga ega bo'ladi. Seriyali mahsulot ishlab chiqarishda AKTning ulushi va ahamiyati alohida buyurtmalar uchun murakkab texnik mahsulotlar uchun qo'llanilishi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish liniyalari tezda yangilanib, qayta qurish imkoniyatiga ega bo'lgan sanoat tarmoqlari orqali avtonom tizimlar tomonidan boshqariladi.

Mahsulot umrining barcha bosqichlarida "Smart Factory"ning funksional bo'linmalari bir-biriga bog'langan butunlik sifatida ishlaydi, ular onlayn qayta aloqa oqimlari bilan tartibga solinadi.

Mahsulotning butun hayot aylanishi (PLM boshqaruvi), shu jumladan logistika, xizmat ko'rsatish markazlari bilan integratsiyalashuv va qabul qilishni olib borish boshqaruvning obyekti bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyotning keng joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligining ortishida, yangi tarmoq va sohalarning rivojlanishida, xizmatlar sifati va ularni ko'rsatishning optimallashishida, iqtisodiyotning inson manfaatlariga xizmat qilishi va bu orqali hayot sifatining yaxshilanishida muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilar asosida quyidagi xulosaga kelamiz, raqamli iqtisodiyot inson omilining yashash sharoitini hamda imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiyotda qo‘llanilsa ishchi kuchi o‘rnini raqamli tizim egallayotgani hamda undagi ma’lumotlarning xavf ostida ekanligi bugungi iqtisodiyotning asosiy muammosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Schneider, F. and Buehn, A., 2018. Shadow economy: Estimation methods, problems, results and open questions. Open Economics, 1(1), pp.1-29.
2. Qobilov Sh. R., Abdullajonov N. B. Korrupsiya va xavfsizlik. -T .: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. - 43 b.
3. Tagayev B.A., “Xufiyona iqtisodiyot” iqtisodiy xavfsizlikka tahdid sifatida, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2015-yil.
4. Dreher, A. and Schneider, F., 2010. Corruption and the shadow economy: an empirical analysis. Public Choice, 144(1-2), pp.215-238.
5. Mazhar, U. and Méon, P.G., 2017. Taxing the unobservable: The impact of the shadow economy on inflation and taxation. World Development, 90, pp.89-103.
6. Schneider, F., 2011. The shadow economy and shadow economy labor force: what do we (not) know?.
7. http://biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/49558~xufiyona-iqtisodiyotning-davlat-vajamiyat-taraqqiyotiga-tasiri?tmpl=component&print=1&page=
8. Abulqosimov M.H. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari va yo‘llari, Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi 2017, 5. 46-53-betlar.
9. Matthew H. Fleming, John Roman and Graham Farrell, Journal of International Affairs, Vol. 53, No. 2, Shadow Economies: Promoting Prosperity or Undermining Stability? (Spring 2000), pp. 387-409. http://www.jstor.org/stable/24357758
10. Eilat, Y. and Zinnes, C., 2002. The shadow economy in transition countries: Friend or foe? A policy perspective. World Development, 30(7), pp.1233-1254.

TIJORAT BANKLARI O‘RTASIDAGI RAQOBATNI OSHIRISH ORQALI FOND BOZORIDA ULARNING ISHTIROKINI KENGAYTIRISHNING MUHIM STRATEGIK YO‘NALISHLARI



Yuldoshova Manzura Ollashkurovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti iqtisodiyot fakulteti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni oshirish orqali fond bozorida ularning ishtirokini kengaytirishning muhim strategik yo‘nalishlari ochib berilgan. Maqolada tijorat banklarini raqobat konsentratsiyasi mezonlari taklif etilib, ularning natijasi orqali fond bozorida banklarning aksiyalari narxi o‘zgarishiga baho berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqobat, raqobat konsentratsiyasi, strategiya, funksiya, mezon, strategik maqsad, algoritm.

Abstract: This article reveals important strategic directions for expanding the participation of commercial banks in the stock market by increasing competition. The article proposes the criteria of competitive concentration of commercial banks and evaluates the changes in the price of shares of banks in the stock market through their results.

Key words: Competition, concentration of competition, strategy, function, criterion, strategic goal, algorithm.

Аннотация: В данной статье раскрываются важные стратегические направления расширения участия коммерческих банков на фондовом рынке за счет усиления конкуренции. В статье предложены критерии конкурентной концентрации коммерческих банков и оценены изменения цен акций банков на фондовом рынке по их результатам.

Ключевые слова: Конкуренция, концентрация конкуренции, стратегия, функция, критерий, стратегическая цель, алгоритм.

KIRISH

AQSH va Yevropa Ittifoqi tomonidan O‘zbekistonning kompaniya va banklariga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi sanksiyalar ehtimolining ortishi banklar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi hamda tranzaksion xarajatlarning ortishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tashqi geosiyosiy vaziyatning yanada keskinlashuvi oqibatida xalqaro tranzaksiyalarni amalga oshirishda tegishli komplayens risklari yuzaga kelishi mumkin. Bu esa banklarning barcha operatsiyalariga ta’sir o‘tkazadi. Ta’kidlash joizki, “O‘zbekistonda davlat qimmatli qog‘ozlari kabi yuqori likvidli aktivlarning banklarning jami aktivlardagi ulushi juda past. Xususan, 2022-yil yakuniga ko‘ra, tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar portfeli jami aktivlarning 4,7 foizini tashkil qilgan. Bu esa, bank tizimi moliyaviy barqarorlik holati foiz stavkaning o‘zgarishi hisobiga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar bozoridagi narxlarning tebranishlariga ta’sirchan emasligini ko‘rsatmoqda”[1].

AQSH va Yevropa moliyaviy tizimlarida yuzaga kelgan noaniqlik bir qator banklarning moliyaviy yo‘qotishlarga uchrashiga olib keldi. Bu esa, moliyaviy bozorlarda tahlika uyg‘onishiga va tebranuvchanlikning oshishiga, investorlarda xatarga moyillikning pasayishiga va natijada ba’zi banklarning defoltga uchrashlariga sabab bo‘ldi. Jumladan, “First Republic Bank. 2023-yil I chorak yakuniga ko‘ra, AQSHning bank tizimidagi aktivlari bo‘yicha 14-o‘rinni egallagan First Republic Bank joriy yilning mart oyida sodir bo‘lgan Silicon Valley va Signature banklarining qulashi ortidan omonatchilarning o‘z mablag‘larini qaytarib olganliklari sababli bankda qo‘yilgan omonatlar joriy yil boshiga nisbatan 41 foizga qisqargan. E’tiborli tomoni, 2023-yil 9-mart kuni bank depozitlari 173,5 mlrd dollar atrofida bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkich 2023-yil 31-mart holatiga kelib, AQSHning eng katta 11 ta banklari tomonidan taqdim etilgan 30 mlrd dollarlik depozitlarni hisobga olganda 104,5 mlrd dollar-

1 https://cbu.uz/upload/medialibrary/30a/ku4mkaxnxeb3h3w3c8risvrp4dcm33is/FSR_2022_Uz.pdf

gacha tushib ketgan. 2023-yilning 25 aprel holatiga kelib, katta miqdordagi depozitlarning qaytarib olinishi bank aksiyalari narxining yil boshiga nisbatan deyarli 90 foizgacha qulashiga olib keldi. 2023 yil mart oyida boshlangan banklarga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi va 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, First Republic Bank depozitlarining deyarli 2/3 qismi FDIC tomonidan sug‘urta qilinmaganligi bank depozitlarining qaytarib olinishiga asosiy sabablar sifatida ko‘rsatish mumkin”[2].

Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatining umumiy strategiyasi turlarini ushbu bozordagi bank xatti-harakatlarining turiga standart yondashuvlardan foydalangan holda aniqlash, bir tomondan, raqobatdosh banklarning strategiyasini tushunishga, ikkinchi tomondan, banklar strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi. Bugungi kunda banklar tomonidan olib borilayotgan siyosat raqobat bozorida o‘z ustunligini ta’minlash bilan birga hamma sohada faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni oshirish orqali banklar bozorida bank mahsulotlarini oshirish, sifatli xizmat va yangi servislarni joriy etishga erishish imkoniyati yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida raqobatni kuchaytirish orqali fond bozoridagi faoliyatini yanada kengaytirish masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, bu borada asosiy e’tibor banklarning ushbu jarayonlarni amalga oshirishda ishlab chiqarayotgan strategiyasini qanchalik to‘g‘ri olib borilishi bilan baholanadi.

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, “...muvaffaqiyatning asosiy omili bankning qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z strategiyasini tanlashidir. O‘tkazilgan tahlillar strategiyaning quyidagi tendensiyalarini aniqladi. Eng yirik banklar faol strategiyani amalga oshirishni afzal ko‘radilar. Kichik mintaqaviy banklar raqobat natijasida o‘z faoliyatini qisqartiradi yoki muayyan faoliyat sohalaridan voz kechadi. Shu bilan birga, investitsiya bankining o‘z o‘rnini egallashga harakat qilayotgan kichik banklar segmenti shakllanmoqda” deb hisoblaydilar[3].

A. R. Alaverdov ta’kidlaganidek, “bankning emissiya siyosatini boshqarishning strategik maqsadi qimmatli qog‘ozlar chiqarishdan bank kapitalini doimiy ravishda o‘sib borishini bankning moliyaviy barqarorligi va barqarorligi ta’minlashdan iborat, chunki aynan shu siyosat emissiyani ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi deb ta’kidlaydi”[4].

Olib borilgan tadqiqotlarda fond bozori banklar faoliyati uchun muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaraydilar. Jumladan, “..so‘nggi yillarda fond bozorining shakllangan tarkibida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi professional faoliyati ular faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari va investitsiya faoliyatidan olingan daromadlari ularning foydalarini shakllantirishda salmoqli ulushga ega” deb izohlaydilar[5].

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi orqali banklarning aksiyalar narxi o‘zgarishlarini aniqlash imkonini berishi mumkin. Bunda, tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi qiymati $Rk \leq 0.5$ bo‘lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o‘zgarishlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘langan bo‘lib, ularni narxi oshib boradi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati $0{,}51 < Rk \leq 0{,}8$ bo‘lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o‘zgarishlarga o‘zaro nomutanosiblikda bo‘lib, ularni narxi keskin o‘zgarib to‘radi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati $0{,}81 < Rk \leq 1$ bo‘lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o‘zgarishlarga teskari bog‘lanishga ega bo‘lib, ularni narxi tushib ketadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirish orqali banklar bozoridagi xizmat ko‘rsatish tizimini o‘zgartirish, yangi texnologiyalar asosida turli bank servislarini mijozlarga taqdim etish hamda yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish asosida banklarni daromadini oshirish, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalarni samaradorligini oshirish orqali ularning aksiyalarini narxi barqarorligini ta’minlash masalalarini yechimini topish mumkin bo‘ladi. Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobat konsepsiyasi turli omillar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy ko‘rsatkichlarni umumlashtirish orqali ishlab chiqilgan ma’lum mezonlar asosida baho beriladi. Ammo keyingi yillarda turli darajadagi iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy o‘zgarishlar hamda siyosiy holatlardan kelib chiqib, banklar bozoridagi raqobatni baholash mezonlari ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish imkonini bermayapti.Shuning uchun hozirgi kunda banklar bozoridagi raqobatni baholashda “banklar raqobat konsentratsiyasi” mezonlaridan foydalanish taklif etiladi.

2 https://cbu.uz/upload/medialibrary/30a/ku4mkaxnxeb3h3w3c8risvrp4dcm33is/FSR_2022_Uz.pdf
3 С. В. Якунин. Типы стратегий банка на рынке ценных бумаг 19 (322) - 2013 https://cyberleninka.ru/article/n/tipy-strategiy-banka-na-rynke-tsennyh-bumag
4 Алавердов А. Р. Стратегический менеджмент в банке: учеб. пособие. М.: МЭСИ, 1999. С. 36.
5 https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-deyatelnost-kommercheskih-bankov-na-fondovom-rynke?ysclid=liyk0na 3mp89533686

Ko‘plab olib borilgan tadqiqotlarda uchta muhim ko‘rsatkichlarni ta’sir darajasi tahlil qilingan. Bularga, “bank konsentratsiyasi-bank raqobati-moliyaviy barqarorlik”. Ushbu ko‘rsatkichlarni bir-biriga ta’sirini ochib berish orqali umumiy xulosalar shakllantirilgan. Jumladan, “moliyaviy bozorlardagi munosabatlar assimetrik ma’lumotlar, tarmoq tashqi ta’sirining mavjudligi va (yo‘q) kommutatsiya xarajatlari bilan tavsiflanadi. Bozorga kirishdagi bu ziddiyatlar va to‘siqlar nima uchun moliya bozorlaridagi bozor mexanizmi boshqa bozorlardagi kabi ishlamasligi mumkinligini” tushuntiradi[6].

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan banklar raqobat konsentratsiyasi mezonlari quyidagicha:

Bunda, tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi qiymati bo‘lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o‘zgarishlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘langan bo‘lib, ularni narxi oshib boradi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati $0{,}51 < Rk \leq 0{,}8$ bo‘lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o‘zgarishlarga o‘zaro nomutanosiblikda bo‘lib, ularni narxi keskin o‘zgarib to‘radi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati $0{,}81 < Rk \leq 1$ bo‘lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o‘zgarishlarga teskari bog‘lanishga ega bo‘lib, ularni narxi tushib ketadi.

Bank raqobat konsentratsiyasi formulasi quyidagicha ko‘rinishda ifodalab olamiz:

$$BRK = \{f(x_1); f(x_2); f(x_3); \dots f(x_6)\} \quad (1)$$

Bu yerda, $f(x_1)$ funksiya bankni aktivlariga ta’sir qiluvchi omillar bo‘lib, ularning umumiy harakatlanish chegarasi {0; 1} oraliqda bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo‘lsa, bank aktivlari raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo‘lsa, bank aktivlariga ta’sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning aktivlari raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi.

Ushbu funksiyani ijobiy holatda bo‘lishida quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, pul mablag‘lari va ularning ekvivalentligi (PEM), boshqa bankdagi mablag‘lar (BBM), mijozlarga berilgan kreditlar va avanslar (MKA), amortizatsiya qilingan qiymat bilan ko‘rsatilgan investitsiya qimmatli qog‘ozlar (IQQ), boshqa umumiy daromadlar orqali haqqoniy qiymatga baholangan moliyaviy aktivlar (MA), qo‘shma korxonalarga investitsiyalar (QKI), asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar (AVNA), kechiktirilgan soliq aktivlari (KSA), sug‘urta aktivlari (A), boshqa aktivlar (BA) hamda sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar (O‘MA).

Ushbu funksiyaning umumiy formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$f(x_1) = \frac{MA+AVNA+KSA+BA+UMA}{PME+BBM+MKA+IQQ+QKI} \quad (2)$$

$f(x_2)$ funksiya bankni majburiyatlariga ta’sir qiluvchi omillar bo‘lib, ularning umumiy harakatlanish chegarasi {0; 1} oraliqda bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo‘lsa, bank majburiyatlari raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo‘lsa, bank majburiyatlariga ta’sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning majburiyatlari raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi. Ushbu funksiyani ijobiy holatda bo‘lishida quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Jumladan, boshqa banklarning mablag‘lari (BBM), mijozlarning mablag‘lari (MM), chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlari (QQQ), boshqa qarz mablag‘ari (BQM), kechiktirilgan soliq majburiyatlari (KSM), sug‘urta majburiyatlari (SM), boshqa majburiyatlar (BM), subordinar qarz (SQ).

Ushbu funksiyaning umumiy formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$f(x_2) = \frac{KSM+SM+BM+SQ}{BBM+MM+CHQQQ+BQM} \quad (3)$$

$f(x_3)$ funksiya bankni sof foizli daromadiga ta’sir qiluvchi omillar bo‘lib, ularning umumiy harakatlanish chegarasi {0; 1} oraliqda bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo‘lsa, sof foizli daromad raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo‘lsa, sof foizli daromadiga ta’sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning sof foizli daromadi raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi. Ushbu funksiyani ijobiy holatda bo‘lishida quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Komission daromadlar (KD), komission xarajat (KX), chet el valyutasini baholashdan olingan sof foydasi (OSF), chet el operatsiyalaridan olingan sof foyda (CHEVBOSF), sug‘urta operatsiyalaridan olingan sof daromad (SOSD), sug‘urta operatsiyalari bo‘yicha xarajatlar (SOX), sug‘urta zaxiralarining o‘zgarishi (SZO‘), qabul qilingan dividendlar (QQD), boshqa operatsion daromadlar (BOD), boshqa aktivlarning qadrsizlanishi bo‘yicha zaxira (AQZ), sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlarning qadrsizlanishi uchun zaxirani tiklash (ZT), ma’muriy va boshqa operatsion xarajatlar (MOX), qo‘shma korxonalardagi zarar o‘lishi (QKZU).

Ushbu funksiyaning umumiy formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$f(x_3) = \frac{KX+SOX+SZU+AQZ+ZT+MOX+QKZU}{KD+CHVBOSF+OSF+SOSD+QQD+BOD} \quad (4)$$

$f(x_4)$ funksiya qiymati foizli xarajatlarni/ foizli daromadlarga nisbati qiymati asosida hisoblanadi. Ularning umumiy harakatlanish chegarasi {0; 1} oraliqda bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin

6 Caminal, R. and Matutes, C. (2002), Market power and banking failures, International Journal of Industrial Organization, vol. 20, 1341-1361

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo‘lsa, ushbu qiymatga ta’sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi.

$f(x_5)$ funksiya qiymati shaxsiy kapital qiymati asosida hisoblanadi. Ularning umumiy harakatlanish chegarasi {0; 1} oraliqda bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo‘lsa, ushbu qiymatga ta’sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi.

Ushbu funksiyani ijobiy holatda bo‘lishida quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Aksiyadorlik kapitali (AK), taqsimlanmagan foyda (TF), boshqa umumiy daromadlar hisobidan haqqoniy qiymat orqali baholangan qimmatli qog‘ozlar vositalarini qayta baxolash zaxirasi (QBZ) hamda nazorat qilinmaydigan ishtirok etish ulushlari (IEU)

Ushbu funksiyaning umumiy formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$f(x_5) = \frac{TF+QBZ+IEU}{AK} \quad (5)$$

funksiya qiymati moliyaviy faoliyatdan olingan pul mablag‘lari qiymati asosida hisoblanadi. Ularning umumiy harakatlanish chegarasi oraliqda bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo‘lsa, ushbu qiymatga ta’sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi.

Ushbu funksiyani ijobiy holatda bo‘lishida quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Boshqa banklardan qarz mablag‘lari tushumlari (QMT), boshqa banklardan olingan qarz mablag‘larini qaytarish (QMQ), boshqa qarz mablag‘lari tushumlari (BQMT), boshqa olingan qarz mablag‘larini qaytarish (BOQMQ), chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlardan tushgan mablag‘lar (QQTM), subordinar qarzni qaytarish (SQQ), subordinar qarzdan tushgan mablag‘lar (SQTM), oddiy aksiyalar chiqarilishidan bo‘lgan tushumlar (OACHBT) hamda to‘langan dividendlar (TD).

Ushbu funksiyaning umumiy formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$f(x_6) = \frac{QMQ+BOQMQ+SQQ+TD}{QMT+BQMT+QQTM+SQTM+OACHBT} \quad (6)$$

Yuqoridagi formulalardan kelib chiqib raqobat konsentratsiyasini aniqlash funksiyasi quyidagicha bo‘ladi:

$$BRK = \frac{f(x_1)+f(x_3)+f(x_5)}{f(x_2)+f(x_4)+f(x_6)} \quad (7)$$

Olingan formulalar asosida “O‘zsanoatqurilishbank” va “Agrobank” larni 2020-2022-yillar uchun raqobat konsentratsiyasini natijasi orqali, ularning aksiyalarini narxini barqarorligini tahlil qilamiz.

“O‘zsanoatqurilishbank” 2020-yildagi ma’lumotlari asosida yuqorida berilgan formulalar asosida hisoblaymiz[7]:

$$f(x_1) = \frac{MA + AVNA + KSA + BA + UMA}{PME + BBM + MKA + IQQ + QKI} = \frac{38024 + 747232 + 167619 + 376520 + 27355}{5601186 + 1859192 + 38959958 + 540222 + 993} = 0{,}0295$$

$$f(x_2) = \frac{KSM + SM + BM + SQ}{BBM + MM + CHQQQ + BQM} = \frac{0 + 128627 + 44887 + 0}{1496004 + 11616958 + 3273048 + 25683457} = 0{,}004435$$


$$f(x_3) = \frac{KX + SOX + SZU + AQZ + ZT + MOX + QKZU}{KD + CHVBOSF + OSF + SOOD + QQD + BOD} = \frac{81416 + 17713 + 26103 + 7233 + 790447 + 12}{401784 + 100467 + 72569 + 43444 + 5477 + 29773} = 0{,}32$$

$$f(x_4) = \frac{1667535}{3289632} = 0{,}506906 \qquad f(x_5) = \frac{TF+QBZ+IEU}{AK} = \frac{1427469+13384+0}{4640011} = 0{,}310528$$

$$f(x_6) = \frac{QMQ + BOQMQ + SQQ + TD}{QMT + BQMT + QQTM + SQTM + OACHBT} = \frac{46122 + 6488852 + 80000 + 353788}{222218 + 13094718 + 168310 + 94400 + 0} = 0{,}26$$

$$BRK = \frac{f(x_1) + f(x_3) + f(x_5)}{f(x_2) + f(x_4) + f(x_6)} = \frac{0{,}0295 + 0{,}32 + 0{,}310528}{0{,}004435 + 0{,}506906 + 0{,}26} = 0{,}853607$$

7 https://sqb.uz/uz/for-investors/reports-and-presentations-uz/



1-rasm: O‘zsanoatqurilishbanki aksiyalar narxini o‘zgarishi (2020-2022-yillar)

Xuddi shunday “Agrobank”ning 2020-yildagi ma’lumotlari asosida yuqorida berilgan formulalar asosida hisoblaymiz[8]:

$$f(x_1) = \frac{MA + AVNA + KSA + BA + UMA}{PME + BBM + MKA + IQQ + QKI} = \frac{45633 + 1112281 + 7844 + 229326 + 25290}{2989229 + 246594 + 24868630 + 1426797 + 51310} = 0{,}048$$

$$f(x_2) = \frac{KSM + SM + BM + SQ}{BBM + MM + CHQQQ + BQM} = \frac{11342 + 70115 + 35046 + 214428}{2560842 + 9444823 + 88059 + 13499444} = 0{,}001293$$


$$f(x_3) = \frac{KX + SOX + SZU + AQZ + ZT + MOX + QKZU}{KD + CHVBOSF + OSF + SOOD + QQD + BOD} = \frac{130486 + 49484 + 14317 + 10169}{327023 + 15717 + 4502 + 49484 + 27393 + 993990} = 0{,}14$$

$$f(x_4) = \frac{1642213}{2912074} = 0{,}563932$$

$$f(x_5) = \frac{TF + QBZ + IEU}{AK} = \frac{1412 + 115 + 4882 + 142435}{4932829} = 0{,}030174$$

$$f(x_6) = \frac{QMQ + BOQMQ + SQQ + TD}{QMT + BQMT + QQTM + SQTM + OACHBT} = \frac{11317 + 9872819 + 9104}{514767 + 100268 + 15845766} = 0{,}601018$$

$$BRK = \frac{f(x_1) + f(x_3) + f(x_5)}{f(x_2) + f(x_4) + f(x_6)} = \frac{0{,}222383}{1{,}177881} = 0{,}1888$$



2-rasm: Agrobank aksiyalar narxini o‘zgarishi (2020-2022-yillar)

8 https://agrobank.uz/uz/shareholders-and-investors/audit

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Olingan ma'lumotlar asosida qolgan yillar uchun ham banklarning raqobat konsentratsiyasini hisoblab topamiz. Natijada quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lamiz:

1-jadval: Tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi natijalari[9]


№	Tijorat banklari	Yillar		
		2020	2021	2022
1	O'zsanoatqurilishbank	0,854	0,802	0,879
2	Agrobank	0,188	0,396	0,287

Olingan natilarni tahlil qiladigan bo'lsak, taklif etilgan mezonlar bo'yicha O'zsanoatqurilishbank ma'lumotlari raqobat konsentratsiyasi qiymati bo'lib, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga teskari bog'lanishga ega bo'lib, ularni narxi tushib ketganini rasmda ko'rish mumkin. Agrobank ko'rsaktichlari, raqobat konsentratsiyasi qiymati bo'lib, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga to'g'ridan to'g'ri bog'langan bo'lib, ularni narxi oshib borganini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda tijorat banklarining fond bozorida ularning ishtirokini kengaytirishning muhim strategik yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin.

2-jadval: Tijorat banklarida strategik boshqaruv va rejalashtirish jarayonlari orqali fond bozorida ishtirokini kengaytirish algoritmi[10]

Strategik boshqaruv va rejalashtirish jarayonlarining bosqichi		Rejalashtirish sikli			
		Strategiya drayverlari	Strategiyalar	Dasturlar	Fond bozori
Qaror qabul qilish darajalari	Bank				
	Biznes marketing				
	Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar				




Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tijorat banklarini fond bozorida ishtirok etishini kengaytirishda strategik boshqaruv jarayonlarini amalga oshirishda asosiy e'tibor ishlab chiqilayotgan strategiya drayverlariga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Strategiya drayverlarini ishlab chiqishdan maqsad tijorat banklarini raqobat bozoridagi holatidan kelib chiqib uning boshqa bozorlarga ishtirok etishiga baho beriladi. Bunda, banklarning raqobat bozoridagi holati qanchalik kuchli bo'lsa, ularning strategiya drayverlari ham kuchli bo'ladi. Ushbu 1 chi bosqichdagi mexanizm kuchli bo'lsa, ularning 2 bosqichdagi biznes marketing qaror qabul qilish darajasi yuqori bo'ladi. Strategiya drayverlari bir-birini to'ldirib borish ya'ni uzluksiz zanjir holatida bo'lishi ma'lum bir oraliq uchun ishlab chiqilayotgan strategiya konsepsiyasini mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Bunda strategiya konsepsiyasi "Bank-biznes marketing-qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar" algoritmini to'g'ri tashkil etishga olib keladi. Rejalashtirish siklini muhim yo'nalishi bu dasturlar hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan strategiya konsepsiyasi asosida quyilgan vazifani amalga oshirish dasturlari ishlab chiqiladi. Ushbu dasturlar barcha qaror qabul qilish darajalari bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Keyingi bosqichda biz tijorat banklarini rejalashtirish siklini fond bozori bilan bevosita bog'lanish algoritmini ko'rish mumkin. Bunda ham fond bozori qaror qabul qilish darajalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ulardagi har bir bosqichda ushbu algoritmning harakati o'zgarib turadi. Tijorat banklarini raqobat bozoridagi imidjini yuqori bo'lishi ushbu taklif etilayotgan rivojlanish sikli "strategiya drayverlari-strategiya-dasturlar-fond bozori" algoritmi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanishga ega bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki tijorat banklarida strategik maqsadlar qanchalik to'g'ri tashkil etilsa, uning fond bozoridagi ishtiroki shunchalik mukammal bo'lishi hamda ularning aksiyalari narxi barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

9 Muallif hisob-kitobi asosida tuzilgan.
10 O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif tavsiyasi.

Strategik maqsadlarni amalga oshirish algoritmini quyidagicha amalga oshirish taklif etiladi:



3-rasm: Strategik maqsadlarni amalga oshirish algoritmi[11]

Ushbu strategiya maqsadlarini amalga oshirish algoritmida tijorat banklari e'tibor berishi zarur bo'ladigan muhim yo'nalishlar bu ichki va tashqi muhim faoliyati hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyo meqeyosida bo'lib turgan turli iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni o'zgarishi bu bevosita har qanday strategiyaga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa qo'yilgan maqsaddan chetga chiqish va oqibatda turli omillarning ta'siri natijasida inqirozga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahliliy ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Tijorat banklarini raqobat konsentratsiyasi mezonlari ishlab chiqildi. Jumladan, tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi qiymati $Rk \leq 0.5$ bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga to'g'ridan to'g'ri bog'langan bo'lib, ularni narxi oshib boradi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati $0{,}51 < Rk \leq 0{,}8$ bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga o'zaro nomutanosiblikda bo'lib, ularni narxi keskin o'zgarib to'radi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati $0{,}81 < Rk \leq 1$ bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga teskari bog'lanishga ega bo'lib, ularni narxi tushib ketadi.
2. Bank raqobat konsentratsiyasi formulasi ishlab chiqildi va uni ko'rinishi quyidagicha ifodalash taklif etildi:

11 Muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

$BRK = \{f(x_1); f(x_2); f(x_3); \dots f(x_6)\}$ raqobat konsentratsiyasini aniqlash funksiyasi quyidagicha bo‘ladi:

$$BRK = \frac{f(x_1) + f(x_3) + f(x_5)}{f(x_2) + f(x_4) + f(x_6)}$$

3. “O‘zsanoatqurilishbank” va “Agrobank” larni 2020-2022-yillar uchun raqobat konsentratsiyasini natijasi orqali, ularning aksiyalarini narxini barqarorligini tahlil qilindi va quyidagi natijalarga erishildi: taklif etilgan mezonlar bo‘yicha O‘zsanoatqurilishbank ma’lumotlari raqobat konsentratsiyasi qiymati $0{,}81 < Rk \leq 1$ bo‘lib, aksiyalar narxi fond birjasidagi o‘zgarishlarga teskari bog‘lanishga ega bo‘lib, ularni narxi tushib ketganini hamda Agrobank ko‘rsaktichlari, raqobat konsentratsiyasi qiymati $Rk \leq 0.5$ bo‘lib, aksiyalar narxi fond birjasidagi o‘zgarishlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘langan bo‘lib, ularni narxi oshib borgani aniqlandi.
4. Strategik maqsadlarni amalga oshirish algoritmi taklif etildi. Tijorat banklarini raqobat bozoridagi imidjini yuqori bo‘lishi ushbu taklif etilayotgan rivojlanish sikli “strategiya drayverlari-strategiya-dasturlar-fond bozori” algoritmi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanishga ega bo‘lishi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Caminal, R. and Matutes, C. (2002), Market power and banking failures, International Journal of Industrial Organization, vol. 20, 1341-1361.
2. Алавердов А. Р. Стратегический менеджмент в банке: учеб. пособие. —М.: МЭСИ, —1999. —С. 36.
3. Якунин С. В.. Типы стратегий банка на рынке ценных бумаг 19 (322) —2013 https://cyberleninka.ru/article/n/tipy-strategiy-banka-na-rynke-tsennyh-bumag.
4. https://agrobank.uz/uz/shareholders-and-investors/audit
5. https://cbu.uz/upload/medialibrary/30a/ku4mkaxnxeb3h3w3c8risvrp4dcm33is/FSR_2022_Uz.pdf.
6. https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-deyatelnost-kommercheskih-bankov-na-fondovom-rynke?ysclid=liyk0na3mp89533686.
7. https://sqb.uz/uz/for-investors/reports-and-presentations-uz

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.